- **Государственная политика.** Правительственная политика и инициативы, направленные на продвижение инвестиций в туризм, сыграли значительную роль в привлечении инвестиций. Такие меры, как налоговые льготы, упрощенные процедуры получения разрешений и кампании по поощрению инвестиций, способствовали созданию благоприятного инвестиционного климата.
- **Государственно-частное партнерство.** Государственно-частное партнерство стало успешной моделью развития туризма в Узбекистане. Совместные усилия правительства и предприятий частного сектора способствовали реализации инфраструктурных проектов, маркетинговых инициатив дестинаций и программ развития устойчивого туризма.

Несмотря на прогресс, оценка выявила несколько проблем, которые продолжают влиять на привлекательность инвестиций в туристический сектор. К ним относятся недостатки инфраструктуры, бюрокра-

тические препятствия, геополитические риски и необходимость наращивания потенциала в индустрии туризма.

Оценка также определяет возможности для дальнейших инвестиций и развития туристического сектора Узбекистана. К ним относятся неиспользованные нишевые рынки, растущий спрос со стороны иностранных туристов и потенциал для использования активов культурного и природного наследия.

Практика устойчивого туризма признана важной для долгосрочного роста и конкурентоспособности туристического сектора Узбекистана. Инвестиции в инициативы устойчивого туризма, включая усилия по сохранению и программы взаимодействия с общественностью, считаются критически важными для сохранения культурных и природных ресурсов страны.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В заключение, оценка привлечения инвестиций в туристический сектор Узбекистана и механизмов его управления подчеркивает, как достигнутый прогресс, так и остающиеся проблемы.

Несмотря на такие препятствия, как недостатки инфраструктуры, бюрократические препятствия и геополитические риски, Узбекистан продемонстрировал значительный потенциал для инвестиций в туризм. Устойчивый рост притока инвестиций в сочетании с активной государственной политикой и успешным государственно-частным партнерством означает положительную траекторию развития сектора.

Чтобы в дальнейшем извлечь выгоду из этого импульса, Узбекистану крайне важно уделить приоритетное внимание практикам устойчивого туризма, диверсифицировать свои предложения и расширить взаимодействие с заинтересованными сторонами. Создавая благоприятный инвестиционный климат, улучшая инфраструктуру и продвигая свое богатое культурное и природное наследие, Узбекистан может привлечь больше инвесторов, создать возможности для трудоустройства и стимулировать экономический рост.

Более того, непрерывный мониторинг, оценка и адаптация имеют важное значение для обеспечения эффективности и устойчивости инвестиций в туризм и управленческих усилий. Сохраняя гибкость и оперативно реагируя на меняющуюся динамику рынка, Узбекистан может позиционировать себя как ведущее туристическое направление в регионе.

Несмотря на то, что проблемы сохраняются, туристический сектор Узбекистана обладает огромным потенциалом для внесения вклада в социально-экономическое развитие страны. Благодаря стратегическому планированию, партнерству и приверженности устойчивому развитию Узбекистан может раскрыть этот потенциал и стать процветающим туристическим направлением на мировой арене.

Список литературы:

1. Gursoy, D., & Kendall, K. W. (2006). Hosting mega events: Modeling locals' support. Annals of Tourism Research, 33(3), 603-623
2. Tribe, J. (2010). Philosophical paradigms and the tourism phenomenon: the paradigm of systems thinking. Tourism Recreation Research, 35(2), 115-124
3. Zokirjon o'g'li AB TURIZMNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI //EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION IDEAS IN THE WORLD. – 2023. – T. 13. – No. 2. – pp. 159-162.
4. Arzimatov Bobirmirzo Zokirjon o'g'li. TURIZM SOHASIDA KLASTERLARNING SAMARASI VA AHAMIYATI //Journal of new century innovations. – 2023. – T. 20. – No. 3. – pp. 176-179.
5. Arzimatov Bobirmirzo Zokirjon o'g'li. HUDUDLARDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – No. 13. – pp. 47-50.
6. Arzimatov B. TURISTIK KORXONALARDA INVESTITSIYALARNI BOSHQARISH JARAYONLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – T. 2. – No. 13. – pp. 22-25.
7. Arzimatov B. O 'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIGA INVESTITSIYALAR JALB ETILISH HOLATI VA SOHA RIVOJLANISHIDAGI O 'ZGARISH TENDENSIYALARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – No. 11. – pp. 807-812.
8. Arzimatov B. MECHANISMS OF ECOTURISM DEVELOPMENT // Pedagogy and psychology in the modern world: theoretical and practical research. – 2022. – T. 2. – No. 17. – pp. 343-345.
9. Arzimatov B. HUDUDLARDA TURIZM SOHASI RIVOJLANISHIGA INNOVATSION YONDASHUVLAR //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – No. A7. – pp. 692-696.
10. ugli Arzimatov B. Z. SPECIFIC ASPECTS OF INVESTMENT MANAGEMENT IN THE TOURISM SECTOR //World of Scientific news in Science. – 2024. – T. 2. – №. 3. – C. 144-148.
11. Arzimatov Bobirmirzo Zokirjon ugli Doctoral student of Fergana polytechnic institute. (2024). IMPLEMENTED REFORMS ON THE DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE. Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.10899840

BIOLOGIK AKTIVLAR BUXGALTERIYA HISOBNI MILLIY VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Axmadaliyeva Zebo Abduxalimovna
Farg‘ona politexnika instituti “Buxgalteriya hisobi va audit”
kafedrasi mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada biologik aktivlarni BHMS va MHXS lari asosida tan olish mezonlari tahlili, moliyaviy hisobotlarda biologik aktivlar to‘g‘risidagi axborotni ochib berish shaffofligini investitsiya muhitiga ta’siri ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: biologik aktivlar, ko‘p yillik ekinlar, ishchi va mahsuldor hayvonlar, biologik transformatsiya, yig‘im, sotish xarajatlari, balans qiymati, haqqoniy qiymat.

Abstract: The article analyzes the criteria for recognition of biological assets based on national accounting standards and IFRS, the impact of the transparency of disclosure of information about biological assets in financial reports on the investment environment is revealed.

Key words: biological assets, perennial crops, working and productive animals, biological transformation, collection, cost of sales, book value, fair value.

Аннотация: В статье проанализированы критерии признания биологических активов на основе BHMS и MHXS, выявлено влияние прозрачности раскрытия информации о биологических активах в финансовой отчетности на инвестиционную среду.

Ключевые слова: биологические активы, многолетние культуры, рабочие и продуктивные животные, биологическая трансформация, сбор, себестоимость реализации, балансовая стоимость, справедливая стоимость.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb etilishi, erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi va faoliyat yuritishi buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil qilishni zarurat qilib qo‘ymoqda. Hozirgi vaqtda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari xo‘jalik subyektlar tomonidan tashqi foydalanuvchilar ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan buxgalteriya axborotini tayyorlashda tobora keng foydalanilmoqda. Bu holat axborotni sifatini oshirish, kapital qiymatini pasaytirish, kapital bozoriga kirishni osonlashtirish kabi bir qator sabablar bilan izohlanadi

O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS)ning talablari ko‘plab pozitsiyalari bo‘yicha moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablariga juda yaqinlashtirilgan bo‘lsa-da, ba’zan asosiy pozitsiyalar bo‘yicha farqlar hamon saqlanib qolmoqda. Bundan kelib chiqadiki, malakat taraqqiyotini ta’minlashda buxgalteriya hisobi va hisobotlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yurituvchi tadbirkorlik subyektlari uchun biologik aktivlarni tan olish, ularni transformatsiya jarayoni bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Aktivlarni hisobga olish muammolari har doim iqtisodchi olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ushbu muammoning ko‘p jihatlari xorijiy iqtisodchi-olimlari tomonidan, ya’ni V.P.Astaxov, N.M. Balakireva, Dj. K. Van Xorn, A.A.Dadonov, L.I.Kulikovalar[1] ilmiy ishlarida yoritilgan.

1 Астахов В.П. Бухгалтерский учёт: внеоборотные активы и ценные бумаги. –М.: Гардарика, Экспертное бюро, 1997. – с. 400; Балакирева Н.М. Нематериальные активы: учёт, аудит, анализ. Учебное пособие. –М.: изд-во Эксмо, 2005. –с. 416; Ван Хорн Дж. К. Основы управления финансами: пер. с анг. / Гл. ред. серии Я.В. Соколов. – М.: Финансы и статистика, 2001. –с. 456; Додонов А.А. Амортизация и износ основных средств. –М.: изд-во Московского технологического института, 1994. – с. 168; Л.И.Куликова Концепция бухгалтерского учета долгосрочных материальных активов в коммерческих организациях. Автореферат диссертации д.э.н. Казан: –2001 г.

Zamonaviy buxgalteriya hisobi tadqiqotchilaridan S.A.Sergeeva, A.N.Ivanova, M.I.Bakanov, A.D.Sheremet, N.A.Kazakova[2] kabi olimlar o‘z ishlarida uzoq muddatli aktivlar masalalariga to‘xtalib o‘tganlar.

I.A.Blankning fikricha aktivlar – korxonaga investitsiya qilingan kapitaldan shakllangan korxonaning mulkiy qiymati; aktivlarga faqat korxona tomonidan nazorat qilinadigan iqtisodiy resurslar kiradi; korxonaning xo‘jalik faoliyatida iqtisodiy resurs sifatida foydalaniladigan aktivlar ma’lum unumdorlik bilan tavsiflanadi; aktivlar foyda yaratuvchi va jamlovchi iqtisodiy resurs hisoblanadi; korxonaning xo‘jalik faoliyatida foydalaniladigan aktivlar doimiy harakatda bo‘ladi; xo‘jalik faoliyatida aktivlardan foydalanish vaqt omili bilan uzviy bog‘liqdir; xo‘jalik faoliyatida aktivlardan foydalanish. tadbirkorlik omili bilan uzviy bog‘liqdir; aktivlar tarkibida yuzaga keladigan mulkiy qiymatlar likvidlik omili bilan bog‘liq.

Biologik aktivlarni baholash metodologiyasiga, jumladan, naslli qo‘ychilikda buxgalteriya hisobining rivojlanishiga Ageeva R.A., Alborov, N.Yu., A.E.Vyruchaeva, G.R.Kontsevoy, M.A.Korovina, Yu.I.Sigidov, Z.V.Udalova, A.V.Frolov, L.IXoruji, M.A.Shadrina va boshqalar katta hissa qo‘shganlar. Lekin mazkur ishlarda biologik aktivlarning hozirgi paytdagi boshqaruv hisobini kompleks rivojlantirish masalalari va tegishli bozor xo‘jaligi sharoitlariga mos keladigan naslchilik ishlab chiqarish subyektlarida biologik aktivlarni boshqarishni hisobga olish va axborot bilan ta’minlash imkonini beruvchi tashkiliy-uslubiy vositalar kam rivojlanganligi, vujudga kelayotgan muammmolari va ularni hal qilishdagi buxgalteriya hisobi oldidagi masalalarning yetarlicha tadqiq etilmaganligi, mazkur mavzuning tadqiq obyekti sifatida o‘rganilishiga sabab bo‘ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar tadbirkorlik subyektlar faoliyatining moliyaviy natijalari va moliyaviy holati haqidagi manfaatdor foydalanuvchilar uchun foydali bo‘lgan axborotni shakllantirishni ta’minlashga qaratildi. Respublikamizda buxgalteriya hisobi va hisobotining kelgusi taraqqiyoti uchun qulay sharoit vujudga keldi, bunda hisobot obyektlarining aksariyat qismini o‘z ichiga oluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar amalga kiritildi, ammo ushbu hujjatlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va ularga bo‘lgan talablarning o‘zgarib borayotganligi nuqtayi nazaridan tubdan ko‘rib chiqish lozimligini taqozo etmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga muvofiq buxgalteriya hisobotlari shaklini o‘zgartirishning umumiy ma’nosi O‘zbekiston Respublikasi BHMS qoidalariga muvofiq tuzilgan hisobotlar bilan ularni MHXSga muvofiq tuzilgan hisobotlar deb e’tirof etish imkonini beruvchi tuzatishlarni amalga oshirishdan iborat masala qo‘yilmoqda.

Jumladan, 5-sonli buxgalteriya hisobining milliy standartlarida (BHMS№5) asosiy vositalarni tan olish mezonlari, 16-sonli buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (IAS16) talablariga mos kelmaydi. Masalan, milliy standartda ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko‘p yillik o‘simliklar asosiy vositalar tarkibiga (0170, 0180-schotlarda) kiritilgan, lekin IAS16 ga ko‘ra esa qishloq xo‘jaligi faoliyatiga tegishli biologik aktivlarni asosiy vosita sifatida tan olmaydi. Chunonchi, qishloq xo‘jaligi faoliyatiga tegishli biologik aktivlar 41-sonli buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (IAS41) “Qishloq xo‘jaligi” nomli standartda yuritiladi.

Milliy hisob tizimda qishloq xo‘jaligiga oid asosiy vositalarni tasniflash, tavsiflash, baholash hamda hisobini yuritish xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari uchun belgilangan umumiy tartiblarga asoslanadi. Shu bilan birga asosiy vositalarning o‘ziga xos tarkibi, ulaning maqsadi, ishlatilishi va boshqa jihatlari ular hisobida ayrim o‘ziga xos xususiyatlar mavjudligidan darak beradi. Bu xususiyatlar qishloq xo‘jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobiga o‘ziga xos vazifalarni ham yuklaydi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida asosiy vositalarni guruhlashda ishchi va mahsuldor hayvonlar alohida guruhga ajratiladi. Ushbu guruhga ishchi kuchi sifatida ishlatiladigan hamda mahsuldor hayvonlar (ot, tuya, ho‘kiz, tonalar, eshaklar, ona mollar) kiradi. Bu guruhga kiruvchi asosiy vositalarning hisobi maxsus 0170-“Ishchi va mahsuldor hayvonlar” schotida yuritiladi. Qolgan guruhga kiruvchi asosiy vositalarning hisobi, barcha tarmoqlardagi singari, 21-son BHMSda nazarda tutilgan mos ravishdagi schotlarda olib boriladi.

Qishloq xo‘jaligiga faoliyati bilan bog‘liq asosiy vositalar qiymatini baholash 5-son BHMS “Asosiy vositalar”ga muvofiq umumbelgilangan tartibda amalga oshiriladi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida asosiy vositalarning hisob bahosi, ularning boshlang‘ich qiymati hisoblanadi. Buxgalteriya balansida asosiy vositalar ularning qoldiq qiymatida aks ettiriladi. O‘z xo‘jaligida boqilgan, shuningdek, chetdan xarid qilingan mahsuldor va ishchi hay-

2 Н.А.Казакова Анализ финансовой отчетности. Консолидированный бизнес. Учебник. –М.:Издательство Юрайт, 2019.

vonlami asosiy vositalarga kirim qilishda boshlang‘ich qiymat bo‘lib ularni parvarishlashga (sotib olish) ketgan jami xarajatlaming birgalikda olingan qiymati (tannarxi) hisoblanadi.

Asosiy vositalar tarkibiga kiritiladigan ko‘p yillik ekinlar (mevali bog‘lar, tokzorlar, choy plantatsiyalari, o‘rmonlar va shu kabilar)ning boshlang‘ich qiymati, ularning yoshidan qat’i nazar, nihollar qiymati hamda nihollarni ekish, parvarish qilish va o‘stirishga sarflangan xarajatlardan tashkil topadi.

Qishloq xo‘jaligiga oid asosiy vositalarning kirimi va chiqimini rasmiylashtirishda davlat organlari tomonidan tasdiqlangan boshlang‘ich hujjatlarning namunaviy shakllaridan foydalaniladi. Chunonchi, yangi qurilishdan olingan asosiy vositalar, yordamchi xo‘jaliklardan olingan ko‘p yillik o‘simliklarning nihollari qabul qilish-topshirish dalolatnomalari bilan rasmiylashtiriladi.

Mollarni bir guruhidan ikkinchi guruhga o‘tkazishga “Guruhdan guruhga o‘tkazish dalolatnomasi” tuziladi.

Qishloq xo‘jaligiga oid asosiy vositalarning kirim qilingan sintetik hisobi 0100-“Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schotlar” tizimida ularning alohida guruhlari uchun ochilgan schotlarda yuritiladi.

Asosiy vositalar tarkibidan katta yoshli mahsuldor va ishchi hayvonlarning, bog‘lar hamda tokzordarning mahsuldorlikni kamayishi, kasallanishi, lat yeyishi, o‘lishi natijasida balansdan chiqarilishiga tegishli veterinariya va agronomiya xulosalari olinadi. Agar ushbu asosiy vositalar sug‘urtalangan bo‘lsa, ularni balansdan chiqarish natijasida ko‘rilgan zararlar sug‘urta tushumi hisobidan qoplanadi.

Respublikamiz Soliq kodeksiga muvofiq ishchi hayvonlar va ko‘p yillik o‘simliklar yiliga 10% me’yorida amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalar guruhiga kiradi. Lekin, ushbu asosiy vositalarning foydali xizmat muddatini aynan o‘n yil qilib belgilash juda ham nisbiydir. Odatda, ishchi hayvonlar o‘n yil ham xizmat qilmasliklari yoki undan bir necha bor ko‘p muddatda xizmat qilishlari mumkin. Ko‘p yillik o‘simliklarning qariyb yarim asr, hattoki bir asrgacha hosil beradigan turlarining borligi ham sir emas. Shu bois ham ishchi hayvonlar va ko‘p yillik o‘simliklar bo‘yicha amortizatsiya hisoblash bo‘yicha belgilangan muddatlarni eng kam xizmat muddati sifatida e’tirof etilishi maqsadga muvofiqdir.

Chorva mollarini, odatda, bir vaqtning o‘zida ham ishchi hayvonlar ham mahsuldor hayvonlar hisoblanadi. Masalan, ot yoki tuyani yuk tashish bo‘yicha ishchi hayvon, nasl yoki mahsulot (go‘sht, sut) berishiga ko‘ra mahsuldor hayvon, deb atash mumkin. Shu bois ham, qishloq xo‘jaligiga oid asosiy vositalar ishchi hayvonlar bo‘yicha amortizatsiya hisobini to‘g‘ri yuritishning muhim shartlaridan biri bo‘lib ushbu guruhga kiruvchi hayvonlaming tarkibi va ro‘yxatini aniq belgilash hisoblanadi.

Ko‘p yillik o‘simliklar ham ekilganligidan hosil bermaydi. Ular, odatda, 2-3 yildan keyin hosilga kiradi. Shu bois ham, ushbu asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiyani ulani parvarishlash boshlangandan keyin qaysi muddatdan boshlab hisoblanish vaqtini aniq belgilash muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, ba’zi bir korxonalarda ayrim hayvonlarni sotib olishga sarflagan mablag‘lari asosiy podani shakllantirish xarajatlari sifatida tan olinmaydi. Chunonchi, parrandalar, quyonlar, qimmatbaho mo‘ynali hayvonlar, asalarilar, qo‘riqchi itlar va boshqa shu kabi hayvonlar, ularning qiymatidan qat’i nazar, asosiy poda tarkibida hisobga olinmaydi. Ular joriy aktivlar tarkibiga kiritiladi va mos ravishda 1100-“O‘stirishda va boquvda mollar” schyotida hisobga olinadi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarga ko‘ra esa qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq operatsiyalar BHXS 41-“Biologik aktivlar” standartida yuritiladi. Ushbu Standart faqatgina yig‘im jarayonidagi qishloq xo‘jaligi hosiliga, ya’ni tadbirkorlik subyektining biologik aktivlarining yig‘ishtirilgan mahsulotiga, nisbatan qo‘llaniladi, bunda BHXS2-“Tovar-moddiy zaxiralar” yoki boshqa tegishli standart qo‘llaniladi. Shu tufayli, mazkur standart yig‘imdan so‘ng qishloq xo‘jaligi hosilini qayta ishlash jarayonini inobatga olmaydi. Bunday qayta ishlash jarayoni qishloq xo‘jaligi faoliyatining mantiqiy va tabiiy davomi hamda sodir bo‘layotgan jarayonlar biologik transformatsiya bo‘yicha ayrim o‘xshashliklarga ega bo‘lsada, bunday qayta ishlash mazkur standartdagi qishloq xo‘jaligi faoliyatining ta’rifi doirasiga kiritilmaydi.

Qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq turli xildagi aktivlarni tasniflashda maxsus BHXS41 “Qishloq xo‘jaligi” standartining talablariga amal qilish lozim. Bunda mazkur standartda tasniflash masalalariga terminologiya darajasida katta e’tibor qaratiladi.

Mazkur standartda qishloq xo‘jaligi faoliyati deyilganda xo‘jalik subyekti tomonidan sotish yoki qishloq xo‘jaligi hosiliga yoki qo‘shimcha biologik aktivlarga aylantirish uchun biologik aktivlarning biologik transformatsiyasini va yig‘imini boshqarishdan iborat ta’rifi berilgan. Biroq hamma tirik hayvon va o‘simliklar ham avtomatik ravishda 41-son MHXS amal qilish doirasiga tushmaydi.

Masalan, agar korxona qoramolni ko‘paytirish maqsadida saqlasa, bu biologik aktiv deyiladi va 41-son MHXS qo‘llaniladi.

Agar korxona o‘z iste’moli uchun qora mol boqsa va ko‘paytirsa biologik aktiv hisoblanmaydi va bu standart qo‘llanilmaydi. Bunda qoramol hisobini 16-son BHXS-“Asosiy vositalar” yoki 2-son BHXS-“Tovar-moddiy zaxiralar” standartini qo‘llab yuritadi.

1-jadval: Standartning qo‘llanishi

41-sonli BHXS-“Biologik aktivlar” qo‘llanilishi		
Biologik aktivlar	Yig‘im jarayonidagi qishloq xo‘jaligi hosillari	Davlat grantlari

Standart qoidalari faqat yig‘im jarayonidagi qishloq xo‘jaligi hosiliga, ya’ni qishloq xo‘jaligi subyekt biologik aktivlarining yig‘ishtirilgan mahsulotiga nisbatan qo‘llaniladi. Keyingi jarayonlarda (masalan, qayta ishlash) bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri 2-son BHXS “Tovar-moddiy zaxiralar” yoki boshqa tegishli standartlarda qo‘llaniladi.

Respublikamizda tashkil etilayotgan klasterlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yig‘ishtirish jarayoni uchun 41-son BHXSni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Masalan, urug‘chilik klasterida paxta o‘simlik sifatida biologik aktivga va paxta xom ashyosi sifatida qishloq xo‘jaligi hosiliga kiradi. Uni yig‘imidan so‘ng qayta ishlash natijalaridagi kalava ip va kiyimlarga boshqa standartlar amal qiladi.

Demak, qayta ishlash jarayonlari qishloq xo‘jaligi faoliyatining mantiqiy va tabiiy davomi bo‘lsada, sodir bo‘layotgan jarayonlar biologik transformatsiya bo‘yicha ayrim o‘xshashliklarga ega bo‘lishidan qat’i nazar ushbu standartdagi qishloq xo‘jaligi faoliyatining doirasiga kiritilishi mumkin emas.

2-jadval: “Qishloq xo‘jaligi” 41-son BHXSdagi ta’riflar

№	Atama nomi	Berilgan ta’rifi
1	Qishloq xo‘jaligi hosili	Qishloq xo‘jaligi subyektining biologik aktivlarining yig‘ishtirilgan mahsulotidir
2	Biologik aktiv	Tirik hayvon yoki o‘simlikdir
3	Biologik transformatsiya	Biologik aktivdagi sifat va miqdor jihatdan o‘zgarishlarga sabab bo‘ladigan o‘sish, nasl buzilishi, ishlab chiqarish hamda ko‘payish jarayonlarini qamrab oladi
4	Biologik aktivlar guruhi	O‘xshash tirik hayvonlar yoki o‘simliklar umumlashmasidir
5	Yig‘im	Mahsulotni biologik aktivdan ajratish yoki biologik aktivning hayot jarayonining tugatilishidir
6	Sotish xarajatlari	Moliyalashtirish xarajatlari va daromad solig‘idan tashqari, aktivni hisobdan chiqarish bilan bog‘liq qo‘shimcha bevosita xarajatlardir.
7	Balans qiymati	Aktivning moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda tan olinadigan qiymatidir
8	Haqqoniy qiymat	Baholash sanasida bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishda olinishi mumkin bo‘lgan yoki majburiyatni o‘tkazishda to‘lanishi mumkin bo‘lgan narxdir. (13- son MHXS “Haqqoniy qiymatni baholash”)
9	Davlat grantlari	20-son BHXS “Davlat grantlarini hisobga olish va davlat yordamini ochib berish” da ta’riflangandek ta’rifga ega

Tadbirkorlik subyekt joriy hisobot mobaynida biologik aktivlar va qishloq xo‘jaligi hosilini dastlabki tan olinishida hamda biologik aktivlarning sotish xarajatlari chegirib tashlangandagi haqqoniy qiymatidagi o‘zgarishi natijasida vujudga keladigan jami foyda yoki zararni ochib berishi va har bir guruhi tasniflanishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Biologik aktivlar buxgalteriya hisobida olib borilgan tadqiqot asosida quyidagicha xulosa berildi.

Milliy hisob tizimida qishloq xo‘jaligiga faoliyati bilan bog‘liq asosiy vositalar qiymatini baholash 5-son BHMS “Asosiy vositalar”ga muvofiq umumbelgilangan tartibda amalga oshiriladi. Buxgalteriya hisobi qonunchiligi va milliy standartlarda biologik aktivlar tushunchasi boshqacha talqinda berilgan:, jumladan, 21-son BHMSda (Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma, 1-bo‘lim, 2-band) “Ishchi va mahsuldor hayvonlar”, “Ko‘p yillik o‘simliklar” va “O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schyotlar” nomi bilan hisobga olinadi. Qishloq xo‘jaligi hosiliga kiruvchi bir yillik o‘simliklar (paxta, g‘alla va boshq.) bunda hisobga olinmagan.

Bizning fikrimizcha, Respublikamiz qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan bog‘liq korxonalar uchun “Qishloq xo‘jaligi” nomli 41-sni BHXS negizida Agrar soha uchun “Biologik aktivlar hisobi” yoki shunga o‘xshash modefikatsiyalashgan standartni ishlab chiqish zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Астахов В.П. Бухгалтерский учёт: внеоборотные активы и ценные бумаги. – М.: Гардарика, Экспертное бюро, 1997. – с. 400.
2. Балакирева Н.М. Нематериальные активы: учёт, аудит, анализ. Учебное пособие. – М.: изд-во Эксмо, 2005. –с. 416.
3. Ван Хорн Дж. К. Основы управления финансами: пер. с анг. / Гл. ред. серии Я.В.
4. В.М.Витальевна развитие организационно-методического обеспечения управленческого учета биологических активов Автореферат диссертации д.э.н. Воронеж – 2022.
5. Додонов А.А. Амортизация и износ основных средств. – М.: изд-во Московского технологического института, 1994. – с. 168.
6. Л.И.Куликова Концепция бухгалтерского учета долгосрочных материальных активов в коммерческих организациях. Автореферат диссертации д.э.н. Казан: – 2001 г.
7. Н.А.Казакова Анализ финансовой отчетности. Консолидированный бизнес. Учебник – М.:Издательство Юрайт, 2019.
8. Z.Axmadaliyeva Organization of Long-Term Asset Accounting on the Basis of International Standards // CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE november 2021 URL: http://cajitmf.centralasianstudies.org/index.php.

AHOLI YASHASH JOYLARIDA YONG‘IN RISKLARINI BARTARAF ETISH XIZMATLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Aziz Zikriyoev
PhD, Jahon iqtisodisodiyoti va XIM kafedrasi, TDIU

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida aholi turar joy binolarida yong‘in xavfining ko‘p qirraliligini hisobga olgan holda, mavjud xavflarning hozirgi kun holati bahosi respondentlar tomonidan baholanishini izohlab keladigan chora-tadbirlarni aniqlashga bag‘ishlangan. Asosiy natijalar sifatida viloyatlar kesimida sifat ko‘rsatkichdan iborat mustaqil o‘zgaruvchilarning ta’sirlari birinchi darajali oddiy to‘g‘ri chiziqli regressiya modelida baholangan. Xulosa sifatida uylarda yo‘ngin riski ekspertizasini o‘tkazishga rozilik bildirganlar qarshilarga qaraganda yong‘inlarning oldini olish bahosini yuqoriligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: turar joy binolari, yong‘in risk bahosi, qarshi chora-tadbirlar, favqulodda qarorlar, o‘t ochirish vositalarini boshqaruvi.

Abstract: In this research work, taking into account the multifaceted nature of fire risk in residential buildings, measures are taken to explain the assessment of the current state of existing risks by the respondents. As the main results, the effects of independent variables consisting of quality indicators in the cross-section of regions were evaluated in the first-order simple linear regression model. As a conclusion, it was found that those who agreed to carry out fire risk assessment in houses had a higher fire prevention rating than those who did not.

Key words: residential buildings, fire risk assessment, countermeasures, emergency decisions, management of fire extinguishers.

Аннотация: В данной исследовательской работе, учитывая многогранность пожарного риска в жилых домах, приняты меры, поясняющие оценку респондентами текущего состояния существующих рисков. В качестве основных результатов влияние независимых переменных, состоящих из показателей качества, в разрезе регионов оценивалось в модели простой линейной регрессии первого порядка. В результате было установлено, что те, кто согласился провести оценку пожарного риска в домах, имели более высокий рейтинг пожарной безопасности.

Ключевые слова: жилые дома, оценка пожарного риска, меры противодействия, экстренные решения, управление огнетушителями.

KIRISH

Turar joy binolari shahar hayotining poydevori bo‘lib, o‘z chegaralarida juda ko‘p aholini qamrab oladi. Biroq ular taqdim etgan qulaylik orasida hamma joyda mavjud bo‘lgan tahdid – yong‘in xavfi yashiringan. Turar joy binolaridagi yong‘inlarning halokatli oqibatlari yong‘in xavfini oldini olish bo‘yicha keng qamrovli siyosatlar zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu majburiyatga javoban, yong‘in xavfining oldini olishga bag‘ishlangan xizmatlarni tashkil qilish butun dunyo bo‘ylab turar joylarni boshqarish tizimlarining ajralmas qismi sifatida paydo bo‘ldi.

Turar joy binolarining yong‘in xavfiga nisbatan zaifligi ko‘p qirrali bo‘lib, me’moriy dizayndagi kamchiliklardan tortib, inson xatolarigacha bo‘lgan ko‘plab omillarni o‘z ichiga oladi. Statistik ma’lumotlar muammoning jiddiyligini tasdiqlaydi, hisobotlar har yili turar joylarda yong‘in bilan bog‘liq qurbonlarning katta qismini ko‘rsatadi. Yo‘lovchilarning zich konsentratsiyasi, murakkab tuzilmaviy sxemalar va turli xil yashash shakllari ushbu sharoitlarda yong‘in xavfini yumshatish muammosini yanada kuchaytiradi. Yong‘in xavfini oldini olish bo‘yicha qat’iy siyosat tuzilmaviy baholash, yong‘in xavfsizligi auditi, yo‘lovchilarni o‘qitish va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik protokollarini o‘z ichiga olgan, lekin ular bilan cheklanmagan holda bir qator chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Mamlakatimizda 2023-yilda mamlakatda 10 ming 204 ta yong‘in yuz berib, unda 251 fuqaro jabrlangan, shundan 79 nafari vafot etgan. Jismoniy va yuridik shaxslarga esa 270,4 mlrd so‘mlik zarar yetkazilgan. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 211 moddasi bo‘yicha yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzgan huquqbuzarlarga nisbatan qo‘llaniladigan jazo sanksiyalarini oshirish nazarda tutilmoqda. Moddaning fuqarolarga nisbatan qo‘llaniladigan minimal jazo chorasi BHMning 0,1 baravaridan 5 baravarigacha etib (34 ming so‘mdan 1 mln 700 ming so‘mgacha), mansabdor shaxslarga esa BHMning 1 baravaridan 10 baravarigacha (34 ming so‘mdan 3 mln 400 ming so‘mgacha) etib belgilanmoqda (amalda fuqarolarga BHMning 0,1 baravaridan 1 baravarigacha (34 ming so‘mdan 340 ming so‘mgacha), mansabdor shaxslarga esa 1 baravaridan 3 baravarigacha (340 ming so‘mdan 1 mln 20 ming so‘mgacha) miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi). Bundan tashqari, yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzganligi tufayli uy-joy fondida odamlarning sog‘lig‘iga zarar yetishi yoxud o‘zganing mol-mulki shikastlanishi yoki uning yo‘q qilinishi bilan bog‘liq bo‘lmagan tarzda yong‘in sodir bo‘lganda mazkur shaxs yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Turar joy binolarida yong‘in xavfini baholash bino yong‘inlari bilan bog‘liq yuqori noaniqlik tufayli muhim vazifadir. Ushbu qiyinchilikni hal qilish uchun loyha nazariyani, dalillarni mulohaza qilish nazariyasini va kutilayotgan foydali usullarni o‘z ichiga olgan yangi model taklif qilindi [1]. Ushbu model loyha tahlil iyerarxiyasi jarayoni yordamida xavf indekslarini tahlil qilish va ularning dalillarini asoslash operatorlari bilan sintez qilish orqali yong‘in xavfini baholashni tizimli optimallashtirishga imkon beradi [2]. Serbiyadagi yong‘in xavfsizligi haqidagi tadqiqotlar individual tayyorgarlik, shaxsiy xavfsizlik va yong‘in xavfini sezishda jinsi va yosh kabi omillarning muhimligini ta’kidlab, fuqarolarning xabardorligi va tayyorgarligi dasturlarini yaxshilash zarurligini ifodalamoqda [3]. Buyuk Britaniya binolaridagi yong‘inga chidamliligi o‘rganilib, uylarni qayta jihozlash bo‘yicha qonunchilikdagi kamchiliklarni ta’kidlaydi. Unda turar joy binolarida ilg‘or yong‘in xavfsizligi choralari zarurligini islohotlar texnologiya va shaxsiy ogohlikni oshirishga bog‘liq [4]. Xavf indeksi usuli binolarda yong‘in xavfsizligi strategiyalarini baholash vositasini taqdim etadi, barqaror va yaxlit yong‘indan himoya qilish uchun resurslarni, shu jumladan, turar joy binolarini optimallashtirishga yordam beradi [5]. Yuqori qavatli binolarda yong‘in xavfsizligiga chidamliligini baholash mustahkamlik, ortiqchlik, qobiliyatsizlik va tezlikni o‘z ichiga oladi. Turar joy binosi yong‘in xavfini baholash to‘g‘ridan-to‘g‘ri qog‘ozda murojaat qilinmaydi [6]. Kuala-Lumpurdagi arzon narxlardagi yuqori baland turar joy binolarida yong‘in xavfini baholash olib borildi, turli xil xavfsizlik kamchiliklari tufayli yuqori yong‘in xavfini aniqladi va aralashuv choralarini tavsiya qilgan [7]. Klaster bino qurishga asoslangan bino yong‘in xavfini tahlil qilish modeli turar joy binolarining yong‘in xavfini boshqarishda yordam beradi. Xavfsizlik choralari uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi yong‘in xavfini tavsiflaydi [8]. Tadqiqot shahar jamoalarida yong‘inga chidamliligini, shu jumladan, profilaktik yong‘indan himoya choralari, himoya vositalarining mavjudligi va turar joy binolarida qulay evakuatsiya qilish yo‘llari kabi xavfni baholash o‘zgaruvchilarini aniqlaydi [9]. Ehtimollik xavfini baholash, Grenfell minorasiga tatbiq etilgan kabi, tahlil uchun Bayes tarmoqlaridan foydalangan holda, xavfsizlik va xavf-xatarga yordam beradigan omillarni aniqlash orqali turar joy binolarida yong‘in sodir bo‘lishini baholagan [10].

Asosiy roliga qaramay, yong‘in xavfining oldini olish bo‘yicha xizmatlarni tashkil qilish resurslarning cheklanishidan tortib tartibga solishning murakkabligigacha bo‘lgan bir qator muammolarga duch keladi. Yong‘in xavfining dinamik tabiati xizmatlarni tashkil etishning operatsion imkoniyatlariga katta talablarni qo‘yib, strategiyalar va aralashuvlarning doimiy evolyutsiyasini talab qiladi. Bundan tashqari, turli manfaatdor tomonlar o‘rtasida keng miqyosdagi muvofiqlik va ishtirokni ta’minlash o‘ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi, bu aloqa va hamkorlikka nozik yondashuvni talab qiladi. Turar joy binolarida yong‘in xavfining oldini olishga bag‘ishlangan xizmatlarni tashkil etish zamonaviy shahar boshqaruvi paradigmalarida muhim shartdir. Hamkorlik, innovatsiya va hushyorlikni rag‘batlantirish orqali ushbu xizmatlar aholi punktlarining yong‘in xavfiga qarshi chidamliligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

TADQIQOT USULI

Tadqiqiqot ishi statistik ma’lumotlarini to‘plashda respublika viloyatlaridan tasodifiy tarzda 3000 ta aholi turar joylaridagi yong‘in risklarini boshqarish masalalari makondagi ma’lumotlaridan (cross sectional data) foydalanildi. So‘rovnoma 35 ta savoldan iborat bo‘lib, 11 ta o‘zgaruvchi-raqamlarda (numerical data) qolgan 18 sifat o‘zgaruvchilari (categorical data) va 6 ta binary (dummy variable) o‘zgaruvchilardan iborat. Tadqiqot metodologiyasini biz quyidagi tartibda amalga oshirdik:

- tasviriy statistika ma’lumotlar to‘plamining o‘rtacha, median, rejim, standart og‘ish va diapazon kabi asosiy xususiyatlarini umumlashtirish va tavsiflash.

- pearson juft korrelyatsiya testi ikkita uzluksiz o‘zgaruvchilar orasidagi chiziqli munosabatlarning kuchi va yo‘nalishini o‘lchaydi.
- oddiy eng tog‘ri chiziqli regressiya tmodeli (OLS) – kuzatilgan va bashorat qilingan qiymatlar o‘rtasidagi kvadratik farqlar yig‘indisini minimallashtirish orqali mustaqil va qaram o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatni baholash uchun regressiya tahlilida qo‘llaniladigan usul.
- regressiya tahlili kontekstidagi marjinal ta’sirlar, boshqa barcha o‘zgaruvchilar doimiy bo‘lgan holda, mustaqil o‘zgaruvchining bir birlik o‘zgarishi natijasida kelib chiqadigan bog‘liq o‘zgaruvchining taxmin qilingan qiymatining o‘zgarishini anglatadi.
- muvofiqlik testi (Goodness of Fit Test) statistik model kuzatilgan ma’lumotlarga qanchalik mos kelishini baholaydi.
- breusch-Pagan qoldiq farqlarini heteroskedastlik holatini aniqlash usuli.
- linktest modelning to‘g‘gri tanlanganlik aniqlash testi.

Mazkur empirik tadqiqotda aholi turar joylarida yong‘in risklarining oldin olish munosabatlariga o‘zaro ta’sirini baholash uchun ikkita ilmiy faraz shakllantirildi.

H0: Jami mustaqil o‘zgaruvchilar birgalikda p<0.05 statistik jihatdan ahamiyatli qiymat oralig‘ida aholi turar joylarida yong‘in risklarining oldin olish munosabatlariga ta’sir qilmaydi;

Ha: Jami mustaqil o‘zgaruvchilar birgalikda p<0.05 statistik jihatdan ahamiyatli qiymat oralig‘ida aholi turar joylarida yong‘in risklarining oldin olish munosabatlariga ta’sir qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Statistik tahillarga ko‘ra 1-jadvalda turar joy binolarida yong‘in xavfini boshqarish bilan bog‘liq turli o‘zgaruvchilar uchun tasviriy statistik ma’lumotlar keltirilgan. Unga ko‘ra, Oldini olish bahosi 3002 ta kuzatuv ucuhn eng quyi balga va eng yuqori baho esa 10 balga baholangan. Uylarning nima qurilish materialdan qurilganlikni anglatadigan “Material” o‘zgaruvchisi: beton, gaza shlaka blok, paxsa, pishgan g‘isht, yogoch kategoriyalarni izohlab kelmoqda. Jami kuzatishlar 3002, har bir material uchun – beton: o‘rtacha = 0,198, standart og‘ish = 0,398, min = 0, maks = 1, gazo shlaka bloki: o‘rtacha = 0,03, standart og‘ish = 0,171, min = 0, maks = 1, paxsa: o‘rtacha = 0,202, standart og‘ish = 0,401, min = 0, maks = 1, pishgan g‘isht: o‘rtacha = 0,543, standart og‘ish = 0,498, min = 0, maks = 1, yog‘och: o‘rtacha = 0,028, standart og‘ish = 0,164, min = 0, maks = 1ga teng. Shuningdek, mulkka egalik qilish “mulk shakli” o‘zagaruvchisi – ijara, kredit, xususiy kategoriyalarni izohlab,- ijara: o‘rtacha = 0,153, kredit: o‘rtacha = 0,046, xususiy: O‘rtacha = 0,801, standart og‘ish = 0,399 ga teng, deb topilgan. Aholining ijtimoiy holati-davlat ishchisi, tadbirkor tadqiqotchi, uyda shaklida bo‘lib, davlat ishchisi o‘rtacha = 0,334, tadbirkor: o‘rtacha = 0,474, tadqiqotchi: o‘rtacha = 0,103 va uyda qoluvchi aholining o‘rtacha = 0,089, standart og‘ish = 0,285, min = 0, maks = 1ga teng. Aholidan yong‘in xavfi bahosi shaklida qo‘yilgan savolga o‘ta xavfli, xavfli va past darajada sifatlar uchun jadval qiymatlari hisoblab topildi (1-jadval).

1-jadval: Tadqiqotning tasviriy statistikasi

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
Oldini olish bahosi	3002	5.414	2.318	1	10
Material	.	.	.	.	.
Beton	3002	.198	.398	0	1
Gaza shlaka blok	3002	.03	.171	0	1
Paxsa	3002	.202	.401	0	1
Pishgan g‘isht	3002	.543	.498	0	1
Yog‘och	3002	.028	.164	0	1
Mulk shakli	.	.	.	.	.
Ijara	3002	.153	.36	0	1
Kredit	3002	.046	.209	0	1
Xususiy	3002	.801	.399	0	1
Ijtimoiy status	.	.	.	.	.
Davlat ishchisi	3002	.334	.472	0	1
Tadbirkor	3002	.474	.499	0	1
Tadqiqotchi	3002	.103	.303	0	1
Uyda	3002	.089	.285	0	1


Evakuatsiya rejasi	.	.	.	.	.
Ha	3002	.419	.494	0	1
Yo‘q	3002	.581	.494	0	1
Favqulodda qaror	.	.	.	.	.
101 telefen	3002	.419	.493	0	1
Birovga yordamlash~h	3002	.157	.363	0	1
O‘chirishga harakat	3002	.172	.377	0	1
O‘ylab ko‘rmaganman	3002	.113	.317	0	1
Uyni tark etish	3002	.122	.328	0	1
O‘t o‘chirish vositalari	.	.	.	.	.
ha	3002	.219	.414	0	1
yoq	3002	.781	.414	0	1
Sezuvchan maxsu~r	.	.	.	.	.
ha	3002	.129	.336	0	1
yo‘q	3002	.871	.336	0	1
Yong‘in xavf bah~i	.	.	.	.	.
o‘ta xavfli	3002	.222	.415	0	1
past	3002	.501	.5	0	1
xavfli	3002	.278	.448	0	1

Ma’lumotlarning tasviriy statatistikasini davom ettirgan holda Stata 18.0 dasturi vositasida sixplot chizmasiga ko‘ra 6 ta chizmani o‘zida aks ettirgan tahlillarga e’tibor qaratamiz. Bu chizma o‘zgaruvchining taqsimlanishining turli tomonlarini aks ettiruvchi olti panelli grafik hisoblanadi. Har bir panelda gistogramma, quti grafigi, oddiy ehtimollik grafigi, kvant-kvantil chizma, boshoqli chizma va poya va barg chizmasi kabi turli xil ma’lumotlarni izohlaydi. Masalan, boxplot bog‘liq o‘zgaruvchiga jami 3002 respondentning 75 foizi (2250 respondent) yong‘inlarning oldini olish bahosini 4-7 oralig‘ida baholagan bo‘lsa, medianasi esa 5 deb topilgan (1-rasm).



1-rasm: Yong‘inlarning oldini olish bahosi o‘zgaruvchisining sixplot chizmasi

2-rasmda yong‘inlarning oldini olish bahosini binoning qurilish materiallariga nisbatan gistogrammasi ifodalangan bo‘lib, unda betondan qurilgan turar joylarida aholi yong‘inlarning oldini olish bahosini 1-10 kategoriya oralig‘ida ifodalagan.



2-rasm: Yong‘inlarning oldini olish bahosini binoning qurilish materiallariga nisbatan gistogrammasi

Quyidagi jadvalda turar joy binolarida yong‘in xavfini boshqarish bilan bog‘liq turli o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi juftlik Pearson korrelyatsiyasi ifodalanmoqda. Testning H0 gipotezasiga ko‘ra o‘zgaruvchilar bir-biridan mustaqil (variables are independent from each other) shaklini rad etib Ha-muqobil gipotezani qabul qilishimiz uchun p<0.05 oralig‘ida bo‘lishi shart.

Aks holda o‘zaro hech qanday munosabat yo‘q deb topiladi [12]. Masalan, yong‘inlarning oldini olish bahosi (1-o‘zgaruvchi) bilan evakuatsiya rejasi (2-o‘zgaruvchi) 0,182* (p<0,1 qiymat oralig‘ida statistik jihatdan ahamiyatli) teskari korrelyatsiya qayd etgan. Salbiy korrelyatsiya shuni ko‘rsatadiki, 1 o‘zgaruvchining ortishi bilan 2 o‘zgaruvchining kamayishi tendensiyasi mavjud. Favqulodda qarorlar bilan (3-o‘zgaruvchi) 0,112*, Sezuvchan maxsus moslamalar (5-o‘zgaruvchi) 0,102* p<0,1 oralig‘ida statistik jihatdan ahamiyatli qiymatlarda teskari munosabat mavjud (2-jadval).

2-jadval: Pearson juft korrelasiya testi

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)	(7)
(1) Oldini_olish_b~i	1.000						
(2) Evakuatsiya_re~i	-0.182*	1.000					
	(0.000)						
(3) Favqulodda_qaror	-0.112*	0.102*	1.000				
	(0.000)	(0.000)					
(4) Ot_ochirish_vo~i	-0.144*	0.274*	0.104*	1.000			
	(0.000)	(0.000)	(0.000)				
(5) Sezuvchan_maxs~r	-0.102*	0.204*	0.003	0.336*	1.000		
	(0.000)	(0.000)	(0.868)	(0.000)			
(6) Yong‘in_xavf_ba~i	-0.005	0.025	0.018	0.024	0.038*	1.000	
	(0.764)	(0.174)	(0.314)	(0.188)	(0.038)		
(7) Yog‘in_riskini_~i	0.061*	-0.084*	0.002	-0.018	-0.073*	-0.009	1.000
	(0.001)	(0.000)	(0.925)	(0.335)	(0.000)	(0.609)	
*** p<0.01, ** p<0.05, * p<0.1							

Tadqiqot ishini regressiya modeli hisob–kitoblariga ko‘ra, o‘rtacha bog‘liq o‘zgaruvchi 5,414 (SD = 2,318), R-kvadrat qiymati (0,274) mustaqil o‘zgaruvchilar bilan izohlangan bog‘liq o‘zgaruvchidagi dispersiya ulushini ifodalaydi. F-test statistikasi 7,190 (p <.001) va tanlama hajmi 3002 ekanligini aniqladi. F-testi modelning umumiy ahamiyatini tekshiradi.

3-jadval: Birinchi darajali oddiy to‘g‘ri chiziqli regressiya modeli (First stage OLS model)

Oldini olish bahosi	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval	Sig
Hudud	0	.	.	.	.	.	
Buxoro	.139	.273	0.51	.611	-.396	.674	
Farg‘ona	.436	.247	1.77	.078	-.048	.92	*
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	.57	.297	1.92	.055	-.013	1.153	*
Samarqand	.186	.254	0.73	.464	-.312	.685	
Sirdaryo	.227	.418	0.54	.587	-.592	1.046	
Surxondaryo	.432	.328	1.32	.188	-.212	1.075	
Toshkent	.523	.21	2.49	.013	.112	.935	**
Toshkent viloyat	.217	.234	0.93	.354	-.242	.676	
Xorazm	.114	.383	0.30	.766	-.637	.864	
Material	0	.	.	.	.	.	
Gaza shlaka blok	-.272	.255	-1.07	.286	-.772	.228	
Paxsa	-.23	.139	-1.66	.097	-.502	.041	*
Pishgan g‘isht	-.149	.111	-1.34	.182	-.367	.07	
Yog‘och	-.207	.267	-0.77	.439	-.731	.317	
Mulk shakli: base~a	0	.	.	.	.	.	
Kredit	.088	.223	0.39	.695	-.351	.526	
Xususiy	-.002	.122	-0.01	.989	-.241	.238	
Ijtimoiy status : ~s	0	.	.	.	.	.	
Tadbirkor	.073	.102	0.72	.473	-.127	.274	
Tadqiqotchi	-.034	.157	-0.22	.828	-.342	.274	
Uyda	.359	.159	2.26	.024	.048	.671	**
Evakuatsiya rejasi	0	.	.	.	.	.	
Yo‘q	-.605	.089	-6.83	0	-.779	-.431	***
Favqulodda qaror	0	.	.	.	.	.	
101 telefon	1.201	.32	3.76	0	.574	1.828	***
Birovga yordamlash~h	.893	.329	2.71	.007	.247	1.539	***
O‘chirishga harakat	.566	.328	1.73	.084	-.077	1.208	*
Uyni tark etish	.651	.335	1.94	.052	-.006	1.308	*
O‘t o‘chirish vositalari	0	.	.	.	.	.	
Yo‘q	-.431	.109	-3.94	0	-.645	-.216	***
Sezuvchan maxsus uskunalar	0	.	.	.	.	.	
yo‘q	-.291	.133	-2.19	.029	-.552	-.03	**
Yong‘in xavf bahosi	0	.	.	.	.	.	
past	.239	.106	2.27	.023	.032	.446	**
xavfli	.047	.117	0.40	.69	-.183	.277	
Yog‘in riskini ekspertizasi	0	.	.	.	.	.	
Roziman	.208	.092	2.27	.023	.028	.388	**
O‘z hisobdan ornatish	.032	.078	0.41	0.68	-.121	.186	
Constant	4.957	.421	11.77		4.131	5.782	***

Mean dependent var	5.414	SD dependent var	2.318	
R-squared	0.674	Number of obs	3002	
F-test	7.190	Prob > F	0.000	
Akaike crit. (AIC)	13402.539	Bayesian crit. (BIC)	13606.778	


*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

- Farg‘ona viloyatida Andijonga qaraganda yong‘inlarning oldini olish bahosi 0.436 ga yuqori bo‘lib p<0,1 oralig‘ida statistik jihatdan ahamiyatli;
- Qoraqalpog‘iston respublikasida yong‘inlarning oldini olish bahosi Andijonga qaraganda 0.57ga yuqori bo‘lib p<0,1 oralig‘ida statistik jihatdan ahamiyatli;
- Toshkent shahrida yong‘inlarning oldini olish bahosi Andijonga qaraganda 0.53ga yuqori bo‘lib p<0,05 oralig‘ida statistik jihatdan ahamiyatli;
- Uyda qoluvchi ijtimoiy statusga ega respondentlar davlat ishchilariga qaraganda yong‘inlarning oldini olish bahosini 0.34 p<0,05 oralig‘ida statistik jihatdan ahamiyatlik qiymatda yuqori baholagan;
- Uylarda evakuatsiya rejasi mavjud bo‘lmagan respondentlar mavjud deb qayd etganlarga qaraganda yong‘inlarning oldini olish bahosini 0.60 p<0,05 oralig‘ida statistik jihatdan ahamiyatlik qiymatda past baholagan;
- Favqulodda vaziyatlarda 101ga telefon qilaman deb qaror qabul qilgan respondentlar o‘ylab qaraganda yong‘inlarning oldini olish bahosini 1.201 p<0,05 oralig‘ida statistik jihatdan ahamiyatlik qiymatda yuqori baholagan;
- O‘t o‘chirish vositalari mavjud uylar mavjud bo‘lmaganlarga qaraganda yong‘inlarning oldini olish bahosini 1.201 p<0,05 oralig‘ida statistik jihatdan ahamiyatlik qiymatda yuqori baholagan;

4-jadval: Yong‘inlarning oldini olish bahosining marjinal ta’sirlari (Delta-method predictive marginal effects)

Expression: Linear prediction, predict Number of obs = 3,002 1._at: Oz_hisobdan_or~h = 5, 2._at: Oz_hisobdan_or~h = 10,3._at: Oz_hisobdan_or~h = 20 4._at: Oz_hisobdan_or~h = 30, 5._at: Oz_hisobdan_or~h = 50						
	Margin	std. err. t P>t [95% conf. interval]				
_at						
1	5.552	0.337	16.470	0.000	4.891	6.213
2	5.714	0.728	7.850	0.000	4.287	7.141
3	6.038	1.511	4.000	0.000	3.075	9.000
4	6.361	2.294	2.770	0.006	1.863	10.860
5	7.009	3.862	1.810	0.070	-0.563	14.581

Heteroskedastiklik tekshirish uchun Breusch-Pagan/Cook-Weisberg testidan foydalanildi. Testning nol gipoteza (H0) – doimiy dispersiya mavjud (farqlar o‘zgarmas(Constant variance)), ya’ni xato atamalari mustaqil o‘zgaruvchilarning barcha darajalari bo‘yicha bir xil dispersiyaga ega.Biz H0ni qabul qilish shartini Stata 18.0 dasturida tekshirganimizda tset statistikasi, chi-kvadrat (chi2) 0,98 va tegishli Prob > chi2 = 0.3221, p>0,05 qiymati oralig‘ida statistik jihatdan ahamiyatli deb topilmoqda. Bu esa modelning regressiya jami xatoliklar farqi xatoligi turli xil dispersiyalarga ega ekanligini ko‘rsatadigan muhim dalillar yo‘q, ya’ni doimiy dispersiya haqidagi taxmin rad etilmaydi (3-rasm).



3-rasm: Yong‘inlarning oldini olish bahosini binoning yhat va ehat qoldiq xatoliklar gistogrammasi

Modelning to‘g‘ri tanlanganligini aniqlashda biz linktestdan foydalandik. Test shartiga ko‘ra bog‘liq o‘zgaruvchining kvadrat funksiyasi real hayotga mosroq natija beradimi degan gipotezani uning p>0.05 qiymat oralig‘ida rad eta olmaslik shart.

XULOSA

Olib borilgan hisob-kitoblarag ko‘ra biz Ha: muqobil gipotezani qabul qilib o‘zaro munosabat mavjudligi aniqlandi. Yong‘inlarning oldini olish vositalarining mavjudligi va xavfni baholashga individual rozilik aholi turar joylarida xavfini idrok etishga sezilarli ta’sir qilishi aniqlandi. Bundan tashqari, xavf-xatarni to‘g‘ri baholashni ta’minlash va oldini olish tashabbuslarida jamoatchilik ishtirokini rag‘batlantirishga harakat qilish kerak. Regressiya natijasini hisobga olgan holda mustaqil o‘zgaruvchilar bilan bog‘liq o‘zgaruvchiga _hat o‘zgaruvchisi uchun koeffitsiyent 0,904 standart xatolik bilan 0,933 ga teng. T-qiymati 0,970, bog‘liq p-qiymati esa 0,333 bo‘lib, bu koeffitsiyentning statistik ahamiyatga ega yoki yo‘qligini ko‘rsatadi. Xuddi shunday, _hatsq o‘zgaruvchisi 0,009 koeffitsiyentiga ega, lekin p-qiymati 0,917, bu statistik ahamiyatga ega emas.Demak, biz tanlagan Ols model real hayotga tatbiq etish 67 foiz deb topilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Elana, Chapman. (2022). Fire safety behavior model for residential buildings: Implications for disaster risk reduction. International journal of disaster risk reduction, doi: 10.1016/j.ijdrr.2022.102981
2. Hongfu, Mi., Yaling, Liu., Wenhe, Wang., Guoqing, Xiao. (2020). An Integrated Method for Fire Risk Assessment in Residential Buildings. Mathematical Problems in Engineering, doi: 10.1155/2020/9392467
3. Francesco, Petrini., A., Aguinagalde., Franco, Bontempi. (2022). Structural Fire Risk for Heritage Buildings by the Performance-Based Engineering Format. International Journal of Architectural Heritage, doi: 10.1080/15583058.2021.2022249
4. Mohammad, Hashim, Shad., Yacine, Rezgui., Andrei, Hodorog., Ioan, Petri. (2021). Digitalising Risk of Fire Resilience for UK buildings. doi: 10.1109/ICE/ITMC52061.2021.9570247
5. Dorota, Brzezińska., Paul, Bryant. (2020). Risk Index Method–A Tool for Sustainable, Holistic Building Fire Strategies. Sustainability, doi: 10.3390/SU12114469
6. Mengyao, Wang., Jingyan, Zhang., Ling, Yang., Yayun, Wei., Le, Fan. (2019). Fire Safety and Resilience Assessment of High-rise Buildings. doi: 10.1109/ICFSFPE48751.2019.9055806
7. Farid, Wajdi, Akashah., Timothy, Kurannen, Baaki., Shing, Peng, Lee. (2017). Fire risk assessment of low cost high rise residential buildings in Kuala Lumpur: A case study. Journal of Design and the Built Environment, doi: 10.22452/JDBE.SP2017NO1.11
8. M., Karthick., Bollavaram, Mohammad, Ali. (2018). Fire safety and risk analysis of residential buildings.
9. (2023). Quantification of Fire Resilience in Urban Communities: Evidence from the City of Novi Pazar, Serbia. Polish Journal of Environmental Studies, doi: 10.15244/pjoes/165893
10. Hector, Diego, Estrada-Lugo., Marco, De, Angelis., Edoardo, Patelli. (2019). Probabilistic risk assessment of fire occurrence in residential buildings: Application to the Grenfell tower. doi: 10.22725/ICASP13.364
11. https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/09/fire-safety.
12. Gujarati, D. N. (2009). Basic Econometrics. McGraw-Hill/Irwin.

O‘ZBEKISTONDA ILMIY DARAJALI KADRLAR TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVINING TASHKILIY TUZILMASI VA VAZIFALARI

Beknaeva Shaxnoza Vladimirovna
RENESSANS ta’lim universiteti MJCh direktori

Annotatsiya: Jahonda ilmiy-texnika taraqqiyoti aql bovar qilmaydigan tezlikda rivojlanayotgani sari ilmiy darajaga ega kadrlar tayyorlash masalasi tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Xalqaro tajribalar, jahon iqtisodiyoti va siyosatida ilm-fanni tadqiq qilish va rivojlantirishga sarmoya kiritgan mamlakatlar har tomonlama ustunlikka erishayotganligi ma’lum bo‘lmoqda. Ushbu maqolada Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash masalalari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Ilmiy darajali kadrlar, ilmiy salohiyat, dissertatsiya, tayanch doktorantura, doktorantura.

Abstract: In the world, scientific and technical progress is developing at an incredible speed, and the issue of training personnel with a scientific degree is becoming an increasingly urgent issue. It is known that the countries that have invested in international experiences, world economy and politics are gaining all-round advantage in scientific research and development. This article examines the issues of training academic staff in higher education institutions.

Key words: Academic staff, scientific potential, dissertation, basic doctoral studies, doctoral studies.

Аннотация: В мире научно-технический прогресс развивается с невероятной скоростью, и вопрос подготовки кадров с научной степенью становится все более актуальным. Известно, что страны, инвестировавшие в международный опыт, мировую экономику и политику, получают всестороннее преимущество в научных исследованиях и разработках. В данной статье рассматриваются вопросы подготовки академических кадров в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: Академический состав, научный потенциал, диссертация, базовая докторантура, докторантура.

KIRISH

Hozirgi vaqtda ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimi O‘zbekistonda fan va texnika taraqqiyotining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Mazkur tizimni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi va vazifalari ilmiy kadrlar tayyorlashning yuqori darajasini ta’minlash va mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda ilmiy darajali kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini yaratish vazifalari belgilangan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat O‘zbekiston Respublikasida OTM ning umumiy soni 172 tani tashkil etadi. Ularning 76 tasi Toshkent shahrida 96 tasi hududlarda joylashgan. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektorlar (direktor o‘rinbosar) soni – 95 tani tashkil etadi. Jami OTMlarda professor-o‘qituvchilar soni – 32 949 nafarni tashkil etgan. Ilmiy darajaga ega bo‘lganlar soni 12 846 nafar (39%) bo‘lib, fan doktori (DSc) 2 643 nafar (21%), fan nomzodi (PhD) 10 203 nafarni (79%) tashkil etgan.

Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimini boshqarishning yana bir muhim vazifasi ilmiy kadrlarni qo‘llab-quvvatlashdir. Bu esa kasbiy o‘sish uchun sharoit yaratish, olimlarning tajriba va bilim almashishiga imkon beruvchi ilmiy anjumanlar, seminarlar va boshqa tadbirlarni tashkil etishni taqozo etadi.

Olib borilayotgan islohotlar natijasida falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasidagi kadrlarni hamda stajyor-tadqiqotchilarni tayyorlash uchun ajratilgan kvotalar soni rejali ravishda ortib bormoqda. 2022-yilda Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan tayanch doktoranturaga 3314 ta (2021-yilga nisbatan 1657 taga oshdi), doktoranturaga 286 ta (2021-yilga nisbatan 143 taga oshdi) va stajyor-tadqiqotchilikka 500 ta (2021-yilga nisbatan 59 taga oshdi) kvota ajratildi.

TAHLIL


Olib borilayotgan islohotlar natijasida falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasidagi kadrlarni hamda stajyor-tadqiqotchilarni tayyorlash uchun ajratilgan kvotalar soni rejali ravishda ortib bormoqda. 2022-yilda Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan tayanch doktoranturaga 3314 ta (2021-yilga nisbatan 1657 taga oshdi), doktoranturaga 286 ta (2021-yilga nisbatan 143 taga oshdi) va stajyor-tadqiqotchilikka 500 ta (2021-yilga nisbatan 59 taga oshdi) kvota ajratildi (3.1-jadvalga qarang).

1-jadval: Tayanch doktorantura, doktorantura va stajyor-tadqiqotchilikka ajratilgan kvotalar

Oliy ta'limdan keyin ta'lim shakllari	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
PhD	836	1009	1433	1657	3314	3980	4270
DSc	68	84	113	143	286	327	430
Staj. tadqiqotchi			300	441	500	600	500
Jami	**904**	**1093**	**1846**	**2241**	**4100**	**4907**	**5200**

Mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatini rivojlantirish ham kadrlar tayyorlash tizimini ilmiy darajada boshqarishning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu fan va texnika sohasida yangi texnologiya va usullarni ishlab chiqish, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va yangi ilmiy loyihalarni ishlab chiqish uchun sharoit yaratishni taqozo etadi.

1-jadval diagramma ko'rinishida 1-rasmda keltrilgan.1-rasmda keltirilganidek, oxirgi yillarda oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga qabul kovatalari oshganligini ko'rishimiz mumkin.




1-rasm: 2018–2024-yillarda doktoranturaga berilgan kvotalar soni

Kadrlar tayyorlash tizimini ilmiy darajada boshqarishda xorijiy ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlik ham muhim o'rin tutadi. Bu olimlarning tajriba va bilim almashishi, xalqaro ilmiy loyiha va dasturlarda ishtirok etishi, ilmiy ishlari sifatini oshirish imkonini beradi. 2022-yildan respublika miqyosida barcha oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklari bo'yicha tayanch doktorantura va doktoranturaga davlat budjeti hisobidan qabul kvotalari bosqichma-bosqich oshirildi. Natijada ishdan ajralgan holda ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanuvchilar soni keskin ortdi hamda ilmiy darajali kadrlar soni oshdi.

Hozirgi davrga kelib qabul kvotalari 2017-yilga nisbatan 7 barobarga ko'paygan. 2022-yilda doktoranturaga qabul kvotalari soni 2021-yilga nisbatan 2 baravarga ortdi. Doktorantura uchun kvotalar soni 2019-yilda 1 093 ta, 2020-yilda 1 546 ta, 2021-yilda 1 800 tani tashkil qilgan. 2019-yilda ustuvor yo'nalishlar bo'yicha 380 ta kvota ajratilgan bo'lsa, 2022-yilda deyarli 4 marta ko'p, ya'ni 1 502ta qabul kvotalari ajratilgan. 2019–2021-yillarda jami 5 544 nafar tadqiqotchi falsafa doktori va fan doktori ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qilgan (PhD 4535 ta, DSc 1009 ta), 2019-yilda 1 460 ta (PhD 1 139 ta, DSc 321 ta), 2020-yilda 1 758 ta (PhD 1 421 ta, DSc 337 ta), 2021-yilda 2 326 ta (PhD 1 975 ta, DSc 351 ta).

Dissertatsiyasini muddatidan avval himoya qilgan doktorantlarni rag‘batlantirish, doktorantlarni ilmiy faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida PhD.mininnovation.uz yagona elektron tizimi ishga tushirilishi natijasida 210 ta ilmiy va ta’lim tashkilotlari hamda 10 304 nafar izlanuvchining ilmiy tadqiqot faoliyati nazoratga olindi.

2022–2023-o‘quv yilidan oliy ta’limdan keyingi ta’lim ixtisosliklari uchun o‘tkaziladigan tanlovlarda milliy yoki tegishli xalqaro sertifikatga ega izlanuvchilar ishtirok etishi tartibini (PQ-5117-son, 19.05.2021-yil) joriy qilish belgilangan. 2023-yilda doktorantura uchun kvotalar soni 4 307 ta belgilangan. Shu bilan birga, 2022-yilda magistratura bosqichini bitirganlar 16 473 nafarni tashkil etib, shulardan, 849 nafari (5,2 foiz) chet tillari bo‘yicha milliy yoki tegishli xalqaro sertifikatlarga ega (4-rasmga qarang).



2-rasm: Himoyalar soni

Himoyalar soni 2022-yilga kelib 3173 tani tashkil etgan bo‘lib, 2019-yilga nisbatan qariyb 2 barobar ko‘paydi.

Oliy ta’limdan keyingi ta’limga tayyorgarlik bosqichi sifatida stajor-tadqiqotchilik instituti joriy etildi hamda 2020–2022-yillarda 1200 nafar yosh tadqiqotchilar stajer-tadqiqotchilikka qabul qilindi. 2020–2022-yillarda stajor-tadqiqotchilikka 1241 ta o‘ringa qabul kvotasi ajratilgan. 2021-yilda 441 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil 500 nafarni tashkil etmoqda (3-rasmga qarang).



3-rasm: Stajor-tadqiqotchilikka ajratilgan qabul kvotasi

Oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ma’lum ixtisosliklar bo‘yicha ilmiy darajali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarni to‘ldirish, ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tanqisligini bartaraf etish maqsadida maqsadli doktorantura yo‘lga qo‘yildi. Natijada bir oliy ta’lim yoki ilmiy muassasa uchun yetishmayotgan ilmiy darajali kadrlarni boshqa muassasada shartnoma asosida tayyorlash tartibi joriy etilib, ilmiy darajali kadrlar bo‘yicha salohiyat oshirildi

2022-yilda 169 nafar yosh olim AQSh, Belarus, Belgiya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Polsha, Rossiya, Slovakiya, Turkiya, Chexiya va Yaponiya kabi yigirmaga yaqin xorijiy davlatlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborildi. Ushbu maqsadlarga 7,3 mlrd. so‘m yo‘naltirildi. 2021-yil 82 tani tashkil qilgan va ushbu stajirovkalar Belarus, Rossiya, Janubiy Koreya, Germaniya, AQSh, Avstriya, BAA va boshqa davlatlarda amalga oshirilgan. Shu bilan bir qatorda 2022-yil yakunida tashkil etilgan maqsadli tanlovlar doirasida 280 nafar nomzod g‘olib deb topildi. Ular 2023-yilda Vengriya, Turkiya, Buyuk Britaniya, Rossiya va Germaniya singari davlatlarning yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga ilmiy stajirovkalarga yuboriladi. Ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalariga ilmiy 2022-yil davomida 68 turdagi 2757 ming AQSh dollarilik laboratoriya asbob-uskunalarini xaridi amalga oshirildi. 2021-yilda umumiy qiymati 3.70 mln. AQSh dollari bo‘lgan 81 turdagi laboratoriya asbob-uskunalari xarid qilindi. Oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining 200 nafar tadqiqotchi olimlari uchun bepul “English for Science” akademik ingliz tili o‘quv dasturi ishlab chiqildi. “Srringer Nature” kompaniyasi bilan birgalikda amalga oshirilayotgan loyiha doirasida 150 ta oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun “link.srringer.com” xalqaro ma’lumotlar bazasidan erkin foydalanish imkoniyati yaratildi. Hozirgi kunda platformada 5404 ta olim va tadqiqotchilar ro‘yxatdan o‘tkazildi. Shuningdek, “Srringer Nature” nashriyoti bilan hamkorlikda jami 120 ta vebinarlar o‘tkazilib, OTMlar va ITMlardan jami 10965 ta tadqiqotchi va olimlar ishtirok etdi.

Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida 2022-yil yanvar-dekabr oylarida umumiy hajmi 326,3 mlrd. so‘mlik 248 ta, shundan, 221,7 mlrd. so‘mlik 174 ta amaliy, 43,9 mlrd. so‘mlik 53 ta innovatsion, 60,7 mlrd. so‘mlik 21 ta fundamental loyiha moliyalashtirildi. Shuningdek, hozirgi kunda ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida umumiy moliyalashtirish hajmi 1 067,8 mlrd. so‘m bo‘lgan 720 ta loyiha bajarilishi ta’minlanmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari hamda ijtimoiy sohalardagi muammolarning ilmiy yechimlariga qaratilgan takliflar asosida ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari 63–74-turlar doirasida umumiy qiymati 171,6 mlrd. so‘m bo‘lgan 138 ta (2 ta fundamental, 110 ta amaliy, 26 ta innovatsion) ilmiy loyiha mavzu (tematika)lari e’lon qilindi. Ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida moliyalashtirilgan umumiy miqdori 392,5 mlrd. so‘mlik 310 ta loyihaning oraliq/yakuniy natijalari monitoring qilindi.

Nufuzli xorijiy davlatlar bilan birgalikda xalqaro yo‘nalishdagi loyihalarni hamkorlikda bajarish ko‘lami kengaytirildi.

O‘zbekiston-Turkiya ilmiy hamkorligi doirasi umumiy qiymati 3,6 mlrd. so‘m miqdoridagi 3 ta, O‘zbekiston-Yaponiya ilmiy hamkorligi doirasi umumiy qiymati 23,7 mlrd. so‘m miqdoridagi 10 ta, O‘zbekiston-Xitoy ilmiy hamkorligi doirasi umumiy qiymati 0,9 mlrd. so‘m miqdoridagi 1 ta, O‘zbekiston-Vengriya ilmiy hamkorligi doirasi umumiy qiymati 2,9 mlrd. so‘m miqdoridagi 3 ta, O‘zbekiston-Belarusiya ilmiy hamkorligi doirasi umumiy qiymati 27,0 mlrd. so‘m miqdoridagi 32 ta loyiha moliyalashtirildi. Bundan tashqari, Turkmaniston fanlar akademiyasi bilan hamkorlikda barcha yo‘nalishlardagi innovatsion va amaliy loyihalar tanlovi e’lon qilindi.

Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasi bilan hamkorlikda 15 ta yo‘nalishlardagi innovatsion va amaliy loyihalar tanlovi e’lon qilindi. Tanlov natijasiga ko‘ra umumiy qiymati 46,5 mlrd. so‘mlik 39 ta loyiha kelib tushdi. Mazkur loyihalar hozirda o‘rnatilgan tartibda texnik ekspertizadan o‘tkazilmoqda. Bundan tashqari, Vengriya Innovatsiya va texnologiya vazirligi bilan hamkorlikda barcha yo‘nalishlarda innovatsion va amaliy loyihalar, shuningdek, ilmiy muassasa va tadbirkorlar hamkorligida 2+2 shaklidagi loyihalar tanlovi e’lon qilindi.

NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-maydagi 274-son qarori bilan tasdiqlangan “Ilmiy tashkilotlar reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risida”gi nizom talablariga asosan 30 dan ortiq vazirlik va idora tasarrufida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 116 ta ilmiy tashkilotlardan so‘rov asosida ularning ilmiy-innovatsion faoliyatiga oid 27 ta yo‘nalish bo‘yicha 75 ta ko‘rsatkichdan iborat rasmiy ma’lumotlar tahlil qilindi. Uning natijalariga ko‘ra, ilmiy tashkilotlarning 2021-yildagi ilmiy-innovatsion faoliyati natijalari bo‘yicha Milliy reytingi e’lon qilindi.

Xalqaro aloqalarni rivojlantirish yo‘nalishidagi sa’y-harakatlar natijasida:

- xorijiy mamlakatlar bilan qo‘shma ilmiy va startap loyihalar tanlovlarini tashkil etish tajribasi shakllantirildi hamda Ozarbayjon, Belarus, Vengriya, Turkiya, Eron, Turkmaniston davlatlari bilan qo‘shma ilmiy loyihalar tanlovlari o‘tkazildi;
- Innovatsion rivojlanish vazirligining xorijiy mamlakatlar bilan olib boriladigan Hukumatlararo komissiyalar yig‘ilishlari, xalqaro yuqori va oliy darajadagi tadbirlarda ilm-fan va innovatsiyalar sohasida hamkorlikni rivojlantirish borasida ishtirok etishi, sohada Xitoy, Rossiya va Belarus davlatlari bilan quyi-qo‘mitalar tashkil etilib muntazam maslahatlashuvlar amalga oshirildi.

Vazirlik rahbariyati va mutaxassislari xorijiy mamlakatlarning ilmiy muassasalari, idora va kompaniyalarida, yirik xalqaro tadbirlarda mamlakatimizda ilm-fan va innovatsiyalar sohasida amalga oshirilayotgan ishlar va rivojlanish istiqbollari haqida taqdimotlar va maslahatlashuvlar tashkil etish yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, Ilm-fan va innovatsiyalar sohasida xalqaro aloqalarni kengaytirish doirasida:

- Isroil hukumatining “MASHAV” dasturida ishtirok etish uchun Innovatsion rivojlanish vazirligining 10 nafar vakili uchun o‘quv dasturi tashkil etilishiga kelishib olindi va joriy yil may oyida guruh Isroil davlatiga yuborildi.
- O‘zbekiston innovatsion markazlari ekspertlari tajribalarini oshirishlari uchun Germaniyaga yuborildi. Tashrif davomida jami 14 ta tashkilot va korxonalarda uchrashuvlar tashkil etildi. Nemis tomoni bilan ilmiy tadqiqotchilar uchun ilmiy stajirovkalar, seminar va ilmiy konsultatsiyalar tashkil qilish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi;
- O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida ilm-fan, texnika va innovatsiyalar bo‘yicha Hukumatlararo bitimni amalga oshirish dasturi imzolandi. Xitoyning “ZhifeiLongcom” kompaniyasi bilan koronavirusga qarshi yangi vaksinani klinik sinovlardan o‘tkazish, xitoylik mehmonlar tashrifini amalga oshirish hamda vaksinaning O‘zbekistonga olib kelish jarayonida ishtirok etildi.
- SHHT mamlakatlari o‘rtasida telemeditsina bo‘yicha hamkorlik qilish maqsadida tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda “SHHT telemeditsina konsepsiyasi” ishlab chiqildi.

Ma'lum bo'ladiki, ilmiy darajadagi kadrlar tayyorlash tizimining tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv vazifalari O'zbekistonda fan-texnika taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Ilmiy kadrlar tayyorlashning yuqori darajasini ta'minlash uchun yuqori sifatli ta'lim olish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, stajirovka va xalqaro almashinuvlarni tashkil etish, ilmiy kadrlarni qo'llab-quvvatlash va mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish zarur.

XULOSA

Hozirgi vaqtda doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatda ilmiy darajali kadrlar tayyorlash alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda innovatsiyalarni boshqarish tamoyillariga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar asosiy hisoblanadi.

1. Innovatsiyalarni boshqarishning asosiy tamoyillaridan biri doimiy rivojlanish va takomillashtirishdir. Ilmiy darajali kadrlar tayyorlashda bu tamoyil asos bo'lishi kerak. Xodimlarning malakasini oshirish uchun sharoit yaratish, muntazam treninglar va seminarlar o'tkazish, xodimlarning ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarur.
2. Tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning muhim elementi bu xodimlarni rag'batlantirishdir. Innovatsiyalarni boshqarish ilmiy xodimlar tayyorlash samaradorligini oshirish uchun turli rag'batlantiruvchi omillardan foydalanishni taklif qiladi. Bu moddiy mukofot, kasbiy o'sish imkoniyati, loyihalarda ishtirok etish va boshqalar bo'lishi mumkin.
3. Bilimlarni boshqarish. Tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar xodimlar o'rtasida bilimlarni samarali saqlash va uzatishni ta'minlaydi. Buning uchun turli xil vositalardan foydalanish mumkin, xususan, ma'lumotlar bazalari, bilimlarni boshqarish tizimlari va boshqalar.
4. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning muhim elementi ham tadqiqotchilar mehnati natijalarini baholashdir. Innovatsiyalarni boshqarish turli baholash usullaridan foydalanishni taklif qiladi, jumladan, ball-reyting tizimi, asosiy ko'rsatkichlar tizimi va h.k.

Tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning samarali ishlashi uchun barcha jarayonlarning sinxronligini ta'minlash maqsadga muvofiq. Buning uchun muntazam monitoring va ish natijalarini tahlil qilish, zarur bo'lganda mexanizmlarning ishlashiga tuzatishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. Abdurahmanov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Xayitov A.B., Akbarov A.M. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi (O'quv qo'llanma). – Toshkent: TDIU, 2013. – 336 b.
2. Alimdjanov X.G. O'zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uni moliyaviy jihatdan ta'minlash masalalari: Iqt. fan. nomz. diss.... avtoref. – Toshkent, 2004. – 23-b.
3. Kealey T. The economic laws of fundamental research, New York, 1996, MacMillan Rress. – R. …
4. Краткий словар экономиста / Н.Л. Зайцев. – 4-е изд., доп. – М.: ИНФРА-М, 2014. – 224 с.
5. Новиков Д.А. Модели и методы огранизационного управления инновационным газвитием фирмы / Д.А.Новиков, А.А.Иващенко. – М.: КомКнига, 2006. – 332 с.
6. Otajonov Sh.I. Innovatsiya faoliyati infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirish: Iqt. fan. dok. (DSc)... diss. avtoref. –Toshkent, 2018. – 65 b.
7. Степанова И.П. Инновационный менеджмент. Учебник. –, 2014. – 124
8. Такер R. Инновации как формула роста: Новое будущее ведущих компаний (пер. с англ. Анкудинова А.). – Москва, Учебник, 2006. – 240 с.
9. Taraxtiyeva G.K. Innovatsion menejment. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 208 b.

MINTAQAVIY TURIZMNING IQTISODIYOT RIVOJLANISHIGA TA'SIRI (O'ZBEKISTON TURISTIK XIZMATLAR BOZORI MISOLIDA)

D. B. O'roqova
I.f.f.d., Buxoro davlat universiteti Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada, O'zbekistonda turizm milliy iqtisodiyot sifatidagi shakllanish darajasi, turizmning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ustuvor yo'nalishlari, O'zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyatlari va turizm potensialiga oid tahliliy ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: turizm eksporti, turizm hajmi, multiplikativ, davlat turizm infratuzilma, turistik hudud, turistik markaz, turizm resurslari, turizm salohiyati.

Abstract: This article presents the level of formation of tourism as a national economy in Uzbekistan, priority directions of tourism in the development of national economy, opportunities for the development of tourism infrastructure in Uzbekistan, as well as analytical information about the potential of tourism.

Key words: tourism export, tourism volume, multiplier, state tourism infrastructure, tourist zone, tourist center, tourist resources, tourism potential.

Аннотация: В данной статье представлены уровень становления туризма как национальной экономики в Узбекистане, приоритетные направления туризма в развитии национальной экономики, возможности развития туристической инфраструктуры в Узбекистане, а также аналитическая информация о потенциале туризма.

Ключевые слова: туристический экспорт, объем туризма, мультипликатор, государственная туристская инфраструктура, туристская зона, туристский центр, туристические ресурсы, туристический потенциал.

KIRISH

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, mavjud imkoniyat va salohiyatdan samarali foydalanish borasida zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks choralar ko'rishimiz lozim. ...2025-yilda yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonini 7 mln. nafarga, turizm eksportidan keladigan yillik daromadni esa 2 mlrd. AQSH doll.ga etkazish" vazifalari belgilab berildi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda xizmat ko'rsatish sohasini innovatsion infratuzilmani shakllantirish va rivojlantirish asosida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, xizmatlar ko'psatish samaradorligini baholash uslubiyotini innovatsion o'zgarishlar ta'sirini hisobga olgan holda takomillashtirish, xizmatlar eksporti hajmini oshipish yuzasidan turli ssenariylarga asoslangan prognoz ko'rtatkichlari ishlab chiqish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni olib borish taqozo etiladi.

TADQIQOT USULLARI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tizimli yondashuv, gravitatsiya usuli, ko'p omilli regressiya, tahlil, induksiya va deduksiya, tadqiqot obyektlari va olingan natijalarni bayon qilish usullaridan foydalanilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyotning o'ziga xos tarmog'i sifatida turizmning rivojlanishi mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bandlik ko'rsatkichini ko'paytirishga xizmat qiluvchi, shuningdek, turdosh va induktsiyalangan sanoat va faoliyat sohalarini faollashtiradigan, birlashtiruvchi majmui bo'g'in bo'lib xizmat

qiladi, ushbu sohada texnologik takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar[1] Tukubayeva J., Bobushev T.S.[2] Shevchenko E.S.[3] Sheresheva M.Y., Polyanskaya Y.Y.[4] Danilenko N.N., Rubtsova N.V.[5] mintaqaviy turizm hududiy va mahalliy sarguzashtlarni yengish, uyg'un dunyoni mustahkamlashda keng ufqlarni ochib beradi, Matyakubov U.R., Hayitboyev R., Sattarov A., Qudratov G.H., Pardayev M.Q., Ataboyev R, Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh[6], Xidirova G.R.[7] iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday sharoitda, ayniqsa, o'tish davrida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlat asosiy rol o'ynaydi. Deyarli barcha davlatlar milliy iqtisodiyotda turizm industriyasining ahamiyatini oshirishga harakat qilmoqda. Chunki turizm milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarga ega: mahalliy darajada malakali ishchi kuchi bilan ta'minlash manbai; bozorni shakllantirish mexanizmi va kapital qo'yilmalar oqimi; qurilish (mehmonxonalar, lagerlar va optik aloqa), transport (avtomobillar, avtobuslar, xalqaro standartlarga mos keladigan temir yo'l vagonlari, samolyotlar), shuningdek, xizmat ko'rsatish infratuzilmasi (yoqilg'i quyish shoxobchalari) kabi sohalarda yangi texnologiyalar va nou-xaularni joriy etish vositalari; milliy xalq hunarmandchiligini rivojlantirish vositalari; mamlakat va hududdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirish omillari; tarixiy yodgorliklar va madaniy merosni saqlash usullari; davlatning valyuta daromadlarini samarali oshirish vositalari. Har qanday sharoitda, ayniqsa, o'tish davrida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlat asosiy rol o'ynaydi. Deyarli barcha davlatlar milliy iqtisodiyotda turizm industriyasining ahamiyatini oshirishga harakat qilmoqda.

Chunki turizm milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarga ega:

- mahalliy darajada malakali ishchi kuchi bilan ta'minlash manbai;
- bozorni shakllantirish mexanizmi va kapital qo'yilmalar oqimi;
- qurilish (mehmonxonalar, lagerlar va optik aloqa), transport (avtomobillar, avtobuslar, xalqaro standartlarga mos keladigan temir yo'l vagonlari, samolyotlar), shuningdek, xizmat ko'rsatish infratuzilmasi (yoqilg'i quyish shoxobchalari) kabi sohalarda yangi texnologiyalar va nou-xaularni joriy etish vositalari;
- milliy xalq hunarmandchiligini rivojlantirish vositalari;
- mamlakat va hududdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirish omillari;
- tarixiy yodgorliklar va madaniy merosni saqlash usullari;
- davlatning valyuta daromadlarini samarali oshirish vositalari.

Umuman olganda, davlat turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun o'zining huquqiy va iqtisodiy asoslarini yaratadi, ushbu soha uchun kadrlar tayyorlash masalasini tartibga soladi, viza tizimini soddalashtiradi, turizm mahsulotlari va an'anaviy tovarlar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi.

O'zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish haqida gapirar ekanmiz, biz mamlakatni asosiy turistik hududlarga bo'lish muhimligini ta'kidlaymiz. Bugungi kunda respublikada to'rtta asosiy turistik hudud mavjud: Farg'ona, Samarqand-Buxoro, Toshkent va Xorazm turistik zonalari. Farg'ona turistik hududi Farg'ona vodiysini qamrab oladi. Uning turizm resurslariga arxeologik qazishmalar va me'moriy yodgorliklar, qulay tabiiy sharoit, an'anaviy xalq hunarmandchiligi va san'ati mahsulotlari, sanoat va qishloq xo'jaligi majmualari kiradi. Bu yerda avtomobil va temir yo'llarning keng tarmog'ining mavjudligi ham Farg'ona viloyatidan turizm maqsadlarida foydalanish, uning butun hududida sayyohlik markazlari va dam olish maskanlarini joylashtirish imkonini beradi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston hududlari tabiiy-iqlim resurslarini rekreatsiya va turizm nuqtai nazaridan kompleks baholashdan iborat. Bunda tabiiy-iqlim rekreatsion va turizm resurslarini aniqlash, ularni har tomonlama baholash mezonlarini ishlab chiqish va viloyatning qishloq ma'muriy tumanlari sharoitida qiyosiy geografik tahlil o'tkazish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Ishda xorijlik va mamlakatimiz olimlarining rekreatsion geografiyaga oid ilmiy ishlari, viloyatlar ekologiya, o'rmon xo'jaligi va statistika viloyat boshqarmalari ma'lumotlaridan foydalanilgan. Ishda statistik, kartografik, qiyosiy geografik, ball va boshqalar kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan .

Mintaqaning rekreatsion va turistik resurs salohiyatini baholashda tabiiy landshaftlar, ularning ekologik holati va jozibadorligi, turizm va rekreatsiyani rivojlantirishdan potensial iqtisodiy foyda hisobga olinadi.

1 Тукубаева Ж., Бобушев Т.С. Развитие туристского потенциала как форма устойчивого развития местных сообществ // Актуальные вопросы современной науки.- 2015. - № 43. - с. 29-38.
2 Ускова Т.В., Копасова С.С. Устойчивое развитие региона: от концептуальных основ к практическим результатам // Экономические и социальные перемены в регионе: факты, тенденции, прогноз. - 2008. - № 3(43). - с. 21-31.
3 Шевченко Е.С. Теоретические аспекты разработки программы организации событийного туризма в регионе // Белгородский экономический вестник. - 2015. - № 4(80). - с. 252-276.
4 Шерешева М.Ю., Полянская Е.Е. Развитие гостиничного бизнеса в регионах России // Финансы и кредит. - 2015. - № 2(674). - с. 36-47.
5 Danilenko N.N., Rubtsova N.V. (2013). Turizm i ustoychivoe razvitie regiona: sotsialnyy i institutsionalnyy aspekty [Tourism and sustainable development of the region: social and institutional aspects] Irkutsk: Izd-vo BGUEP. (in Russian).
6 Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Toshkent. Mumtoz so'z. 2010-y. 196 b.
7 Xidirova G.R. Mintaqa atamasining talqini va mintaqaviy turizm. // Iqtisodiyot va ta'lim., № 6, 2015. – B. 82-86.

Umuman olganda, davlat turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun o‘zining huquqiy va iqtisodiy asoslarini yaratadi, ushbu soha uchun kadrlar tayyorlash masalasini tartibga soladi, viza tizimini soddalashtiradi, turizm mahsulotlari va an’anaviy tovarlar ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi.

O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish haqida gapirar ekanmiz, biz mamlakatni asosiy turistik hududlarga bo‘lish muhimligini ta’kidlaymiz. Bugungi kunda respublikada to‘rtta asosiy turistik hudud mavjud: Farg‘ona, Samarqand-Buxoro , Toshkent va Xorazm turistik zonalari. Farg‘ona turistik hududi Farg‘ona vodiysini qamrab oladi. Uning turizm resurslariga arxeologik qazishmalar va me’moriy yodgorliklar, qulay tabiiy sharoit, an’anaviy xalq hunarmandchiligi va san’ati mahsulotlari, sanoat va qishloq xo‘jaligi majmualari kiradi. Bu yerda avtomobil va temir yo‘llarning keng tarmog‘ining mavjudligi ham Farg‘ona viloyatidan turizm maqsadlarida foydalanish, uning butun hududida sayyohlik markazlari va dam olish maskanlarini joylashtirish imkonini beradi.

Toshkentning turistik hududi turizmning barcha turlarini yanada rivojlantirish uchun universal imkoniyatlarga ega. Ushbu sayyohlik hududidagi madaniy yodgorliklar, poytaxt viloyatidagi zamonaviy hayot, qurilishlar, yangi shahar va qishloqlar, zamonaviy madaniyat, tabiat, hududning boy landshafti, rang-barang o‘simlik va hayvonot dunyosi uning e’tiborini tortayotgan muhim omil bo‘lmoqda. Avtomobil va temir yo‘llar tarmog‘i Toshkent turizm mintaqasining turistik markazlarini bog‘lab, shahar atrofi temir yo‘l va avtomobil turizmini rivojlantirish imkonini beradi. Samarqand-Buxoro turistik hududiga Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlari kiradi. Samarqand va Buxorodagi dunyoga mashhur me’moriy obidalar bu hududda turizmni rivojlantirishga asos bo‘lmoqda. Bundan tashqari, Zarafshon daryosi orqali o‘tuvchi temir yo‘l va Zarafshon tog‘ tizimi orqali o‘tib bo‘lmaydigan keng polosali avtomobil yo‘llari, yaxshi yo‘nalishlar hududda turizmni rivojlantirish uchun nihoyatda qulay omil bo‘lmoqda. Xorazm sayyohlik hududining salohiyati, asosan, Xiva Ichan Qo‘lining dunyoda tengi yo‘q boy tarixiy va me’moriy yodgorliklariga asoslanadi. Mavjud turistik hududlar bilan bir qatorda yanada istiqbolli hududlar bor, ular Jizzax, Qarshi- Termiz va O‘rta Qoraqalpog‘istondir. Kelajakda ushbu hududlarda mavjud imkoniyatlarning rivojlanishi mamlakatimizda turizm xizmatlari bozorining yanada kengayishiga olib kelishi mumkin.

1-jadval: O‘zbekiston viloyatlari hududining tabiiy-iqlim sharoitining qulayligi

O‘zbekiston viloyati	Iqlim xususiyatlari	Havoning namligi	Tabiiy resurslarning mavjudligi	Ekologik holat	Infratuzilmalar
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	eng qulay sharoitlar	qisman qulay shartlar	eng qulay sharoitlar	- nam joylar - 1,3-1,0;	eng qulay sharoitlar
Andijon	eng qulay sharoitlar	eng qulay sharoitlar	eng qulay sharoitlar	nam joylar - 1,3-1,0;	eng qulay sharoitlar
Jizzax	qisman qulay shartlar	qisman qulay shartlar	eng qulay sharoitlar	nam joylar - 1,3-1,0;	qisman qulay shartlar
Qashqadaryo	qisman qulay shartlar	eng qulay sharoitlar	eng qulay sharoitlar	nam joylar - 1,3-1,0;	eng qulay sharoitlar
Navoiy	qisman qulay shartlar	eng qulay sharoitlar	eng qulay sharoitlar	o‘rtacha qurg‘oqchil hududlar - 1,0-0,7	eng qulay sharoitlar
Namangan	qisman qulay shartlar	eng qulay sharoitlar	qisman qulay shartlar	o‘rtacha qurg‘oqchil hududlar - 1,0-0,7	eng qulay sharoitlar
Samarqand	juda qulay shartlar	eng qulay sharoitlar	juda qulay shartlar	nam joylar - 1,3-1,0;	eng qulay sharoitlar
Sirdaryo	qisman qulay shartlar	qisman qulay shartlar	qisman qulay shartlar	nam joylar - 1,3-1,0;	qisman qulay shartlar
Surxondaryo	qisman qulay shartlar	qisman qulay shartlar	qisman qulay shartlar	o‘rtacha qurg‘oqchil hududlar - 1,0-0,7	eng qulay sharoitlar
Toshkent	eng qulay sharoitlar	eng qulay sharoitlar	eng qulay sharoitlar	Maksimal ball - 5 ball.	eng qulay sharoitlar
Farg‘ona	eng qulay sharoitlar	eng qulay sharoitlar	eng qulay sharoitlar	nam joylar - 1,3-1,0;	eng qulay sharoitlar
Xorazm	eng qulay sharoitlar	qisman qulay shartlar	eng qulay sharoitlar	o‘rtacha qurg‘oqchil hududlar - 1,0-0,7	eng qulay sharoitlar
Toshkent sh	eng qulay sharoitlar	eng qulay sharoitlar	qisman qulay shartlar	nam joylar - 1,3-1,0;	eng qulay sharoitlar

Jadval muallif tomonidan tuzilgan. *Reyting shkalasi (iqlimning jiddiylik indeksi, S): S ≤ 2.0 uchun 2 ball; 2,1 ≤ S ≤ 2,7 uchun 1 ball; 2,8 ≤ S uchun 0 ball. Maksimal ball - 2 ball.*

Hamda tabiiy holatini Baholash shkalasi:

- 5 ball - eng nam joylar - 1,6-1,3;
- 4 ball - nam joylar - 1,3-1,0;
- 3 ball - o‘rtacha qurg‘oqchil hududlar - 1,0-0,7;
- 2 ball - qurg‘oqchil hududlar - 0,7-0,4;
- 1 ball - quruq joylar. Maksimal ball - 5 ball.

Ushbu jadvalda o‘z navbatida, tashkiliy-texnologik omil to‘g‘ri hisobga olinganini dalolat beradi, biroq beqaror tabiiy-iqlim sharoitlari ayrim viloyatlarda turistik oqimni oshirishga yordam bermayapti. Kalendar yilida turistik hududlarda mavsum davri uchun yog‘ingarchilik hajmi yuqori bo‘lsa ham tendensiyali ortib borayotgan havo haroratini qoplamaydi.

2-jadval: O‘zbekistonning balneologik resurslari va imkoniyatlari mavjud bo‘lgan hududlari :

Mintaqaning balneologik resurslari		Baholash shkalasi
Toshkent viloyati	Shifobaxsh termal suvli mineral buloqlar, balneoterapiyaga ega sanatoriylar va kurortlar.	eng qulay sharoitlar
Namangan viloyati	Noyob shifobaxsh xususiyatlarga ega mineral buloqlar, sanatoriylar va tibbiyot markazlari.	eng qulay sharoitlar
Samarqand viloyati	Mineral suvli shifobaxsh buloqlar, balneoterapiya muolajalari o‘tkaziladigan kurortlar va tibbiy xizmatlar.	juda qulay sharoitlar
Farg‘ona viloyati	Terapevtik loy va mineral suv buloqlari bo‘lgan balneologik kurortlar.	juda qulay sharoitlar
Buxoro viloyati	Mineral suvli shifobaxsh buloqlar, balneoterapiya va tibbiy xizmat ko‘rsatadigan sanatoriylar.	qisman qulay sharoitlar
Xorazm viloyati	Shifobaxsh suvli mineral buloqlar, sanatoriylar va balneoterapiya va dam olish uchun kurortlar.	shartli ravishda qulay sharoitlar

Jadval muallif tomonidan tuzilgan*

Reyting shkalasi:

- 5 ball – eng qulay sharoitlar;
- 4 ball - juda qulay sharoitlar;
- 3 ball - qulay sharoitlar;
- 2 ball - qisman qulay sharoitlar;
- 1 ball - shartli ravishda qulay sharoitlar

O‘zbekistonning ushbu hududlari tabiiy balneologik resurslardan foydalangan holda8 terapevtik dam olish uchun turli imkoniyatlar yaratadi . turizm va dam olish . Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning imkoniyatlarini baholash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$T = v * U + v * Z + v * Zp + v * Zm + v * Pp + v* Pm,$$

bu yerda T - alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar salohiyati;
U - milliy bog‘;
Z - zaxira;
Zp - davlat ahamiyatiga ega qo‘riqxona;
Zm – mahalliy zaxira;
Pp – respublika ahamiyatiga molik tabiat yodgorligi;
Pm – mahalliy ahamiyatga molik tabiat yodgorligi;
v - og‘irliklar. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ma’muriy maqomiga muvofiq 1<v oralig‘ida bo‘lgan og‘irliklar qabul qilinadi.

8 Markaziy Osiyo geografik tadqiqotlar jurnali No3-4, 2023 126

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston hududlari tabiiy majmualariga turistik yuklama mavsum, aniq joylarning ommabopligi, infratuzilmaning mavjudligi va tabiiy obyektlarning jozibadorligi kabi ko‘plab omillarga qarab o‘zgarishi mumkinva bir qancha takliflar mavjud:

- Mavsumiy davrda ba’zi tabiiy shakllangan yodgorliklar yilning ma’lum vaqtlarida ko‘proq sayyohlarni jalb qilishi imkoniyati mavjud. Mintaqalardan Qashqadaryo-Surxandaryodagi tog‘li hududlar yozda alpinistlar va tog‘ sayyohlari uchun dasturlar shakllantirish mumkin,Buxoro-Navoiy, Xorazm hamda Qaraqolpoziston mintaqalari cho‘l hududlarida esa bahorda yoki kuzda harorat qulayroq bo‘lganda sayyohlarni jalb qilishi mumkin.
- Mintaqalar turistik salohiyat bo‘yicha integratsiyalashuvi natijasida Infratuzilma va xizmatlarni rivojlantirish.
- Xalqaro doirada turizm yarmarkalari hamda ko‘rgazmalari va tadbirlarida ishtirok etish, shuningdek, turistik marshrutlar va dasturlarni ishlab chiqish kerak.
- Atrof-muhitni saqlashga qaratilgan barqaror turizm, ekologik toza sayohatga qiziqqan sayyohlarga xos tur marshurtlar shakllantirish kerak
- Mintaqa hududlarida ekologik muvozanatni saqlash. Turizm faoliyatining tabiiy resurslarga tabiatga salbiy ta’sirini oldini olish to‘grisida yo‘l xarita shakllantirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fatilloyevna R. G., Bahriddinovna U. D. THE ECONOMIC IMPORTANCE OF NATIONAL CRAFTS IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM //Academy. – 2021. – №. 1 (64). – С. 52-54.
2. Bahriddinovna U. D. Development of the Service Sector: A Comparative Analysis of National and Foreign Practices //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2021. – С. 222-228.
3. Bahriddinovna U. D. DEVELOPMENT TRENDS SERVICE RENDERING IN UZBEKISTAN.
4. Bahriddinovna U. D. Independent researcher Bukhara State University.
5. Bahriddinovna U. D. FOREIGN PRACTICES OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE SPHERE.
6. Урокова Д., Акрамова Н. SCRUM: ГИБКИЙ ПОДХОД К УПРАВЛЕНИЮ ПРОЕКТАМИ СФЕРА ТУРИЗМА //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – Т. 1. – №. 1.
7. Baxriddinovna O. D. TURIZM XIZMATLAR BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNING MOHIYATI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 16. – №. 2. – С. 158-163.
8. Baxriddinovna O. D., Avazovna A. M. A COMPARATIVE ANALYSIS OF KPIS FOR SUSTAINABILITY IN DIFFERENT SECTORS //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 26. – №. 2. – С. 3-11.

QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI KO‘PAYTIRISHNING ASOSIY YO‘LLARI





Ibrohimov Boburmirzo Baxtiyor o‘g‘li
Namangan muhandislik texnologiya instituti
“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” ixtisosligi bo‘yicha
2-kurs tayanch doktoranti

Sayfiddinov Sarvarbek Anvarbek o‘g‘li
Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohlar bo‘yicha)
yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini o‘rni va ahamyati, Respublikada qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash, ko‘paytirish va shu sohalarni rivojlantirish yo‘llari, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini hududlar bo‘yicha ko‘rsatkichlari, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ma’lum davrdagi o‘rtacha narxlar, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ko‘paytirishdagi muammolar va yechimlar tahlil qilingan. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ko‘paytirishda investitsiya, innovatsiyani va modernizatsiyani o‘rni, qishloq xo‘jalini mahsulotlarini ko‘paytirishda turli tadqiqot metodologiyasi ni o‘rganish mavzusi bo‘yicha tadqiqot olib borilgan.

Kalit so‘zlar: Qishloq xo‘jalik mahsulotlari, qishloq xo‘jaligi, islohotlar, xo‘jaliklar, innovatsiya, investitsiya, ekstensiv, intensiv, chorvachilik, dehqonchilik, baliqchilik.

Abstract: In the article, the role and importance of agricultural products in Uzbekistan, ways of preserving, processing, increasing and developing agricultural products in the Republic, indicators of agricultural products by region, average prices of agricultural products in a certain period, problems and solutions in increasing agricultural products were analyzed. A study was conducted on the topic of studying the role of investment, innovation and modernization in the increase of agricultural products, various research methodologies in the increase of agricultural products.

Key words: Agricultural products, agriculture, reforms, farms, innovation, investment, extensive, intensive, animal husbandry, farming, fishing.

Аннотация: В статье рассмотрены роль и значение сельскохозяйственной продукции в Узбекистане, способы сохранения, переработки, увеличения и развития сельскохозяйственной продукции в республике, показатели сельскохозяйственной продукции по регионам, средние цены на сельскохозяйственную продукцию в определенный период, проблемы и пути решения в был проанализирован рост сельскохозяйственной продукции. Было проведено исследование на тему изучения роли инвестиций, инноваций и модернизации в увеличении производства сельскохозяйственной продукции, различных методологий исследования в увеличении производства сельскохозяйственной продукции.

Ключевые слова: Сельскохозяйственная продукция, сельское хозяйство, реформы, фермерские хозяйства, инновации, инвестиции, экстенсивное, интенсивное, животноводство, сельское хозяйство, рыболовство.

KIRISH

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi merosiga ega va mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Iqlim o‘zgaruvchanligi va aholi sonining o‘sishi bilan bog‘liq muammolar tufayli mamlakatda qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirish bo‘yicha samarali strategiyalarni o‘rganish va amalga oshirish zarurati mavjud.

Qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarishida yirik tovar xo‘jaliklari qatorida ko‘p miqdorli aholi, dehqon va fermer xo‘jaliklarining shakllanishi va faoliyat ko‘rsatishi sohada mahsulot tayyorlash tizimini ham tubdan yangilanishiga undamoqda.

Chunki qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirish bilan bir qatorda uni tayyorlash, saqlash, qadoqlash va iste’molchilarga talafotsiz yetkazib berish muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, tez buziladigan va transportda tashishi noqulay bo‘lgan mahsulotlarning qishloq xo‘jaligida yetishtirilishi mahsulot bozoriga xizmat ko‘rsatish tizimida raqobat muhitini kuchayishini taqozo etadi.

Hozirgi vaqtda Respublikamizda yetishtirilayotgan meva-sabzavotlarning bir qismi iste’molchilarga yetib bormayapti. Respublika meva-sabzavotchiligida yuzaga kelgan ko‘plab noqulay sharoitni bartaraf etish, sohaning barcha infratuzilma tarmoqlari va mahsulot bozorini takomillashtirishni talab qiladi [1].

Qishloq xo‘jaligida takomillashtirish natijasida mahsulot yetishtirishdagi xarajatlar tez orada o‘zini qoplaydi, bu tarixiy amaliyotlar natijasidan ma’lum. Yirik shaharlarda to‘la infratuzilma xizmatlari majmuiga ega bo‘lgan ulgurji qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining bozorini tashkil etilishi va ularning o‘zlari mahsulot tayyorlash, saqlash hamda ulgurji (yoki chakana) savdo bilan shug‘ullanishlari yuqori samara berishi mumkin. Bunday bozorlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qadoqlash, navlarga ajratish va nostandart tovarlarni qayta ishlashini yo‘lga qo‘yishi ularning samaradorligini yanada oshiradi. Bu bilan birga yangi ish joylari yaratilishi mumkin. Eng muhim qadoqlash natijasida mahsulotning qayta ishlash va saqlanishi qulaylashadi [2].

Dehqon bozorlarini o‘zaro kooperatsiyalashuvlari asosida tez buziladigan mahsulotlarning qayta ishlash sexlarini va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining saqlash omborlarini qurish yoki ijaraga olishni yolga qo‘yish katta ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ayni paytda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash omborlaridan foydalanish darajasi juda pastdir.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ko‘paytirish siyosiy va iqtisodiy hamda ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu muhim muammoni hal etishning asosan ikki yo‘li mavjud:

Ekstensiv yo‘l. Ya’ni, ekin maydonlarini, chorva hayvonlari bosh sonini ko‘paytirish hisobiga yalpi mahsulot hajmini ko‘paytirish. Bu usulni adabiyotlarda Amerika usuli, deb ham atashadi. Lekin uning rivojlantirilishi ayrim ishlab chiqarish resurslari, jumladan, yer va suv resurslari tabiatan cheklanganligi sababli to‘liq ta’minlanmaydi.

Bu usulda qishloq xo‘jalik mahsulotlari hajmini ko‘paytirish uchun moddiy mablag‘ hamda mehnat sarflari asosan yangi yerlarni o‘zlashtirib, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi muomalasiga kiritishga hamda chorva hayvonlari bosh sonini ko‘paytirishga qaratiladi [3].

Intensiv yo‘l. Ya’ni, foydalanilayotgan yerlarning unumdorligini oshirish, fan-texnika, samarali texnologiyalarni joriy etish natijasida mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ularning unumdorligini yuksaltirish, chorvachilikda zootexnologiya, veterinariya ishlarini rivojlantirish asosida hayvonlarning mahsuldorligini oshirish. Bu usulni adabiyotlarda, Prussiya yo‘li, deb ham ataladi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hajmini ko‘paytirish, sifatini yaxshilash, asosan, moddiy, mablag‘ va mehnat sarflarini, fan yutuqlarini, yangi texnikalarni hamda ilg‘or texnologiyalarni, hayvonlarning nasl va zotlarini, o‘simlik navlarini yaxshilashga qaratish orqali, binobarin, qo‘shimcha investitsiyalarni amalga oshirish hisobiga ta’minlanadi [4].

Kerakli tizimli tadbirlar o‘z vaqtida, sifatli amalga oshirilishi natijasida o‘simlikchilik, chorvachilik mahsulotlari miqdorining ko‘payishi va qiymatining oshishi ta’minlanadi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari hajmining o‘sishi ular ichki va tashqi talabni qondirish maqsadida ko‘proq sotilishini ta’minlaydi. Natijada o‘simlikchilik, chorvachilik mahsulotlarining tovarlilik darajasi oshiriladi.

Bundan tashqari korxonalarning o‘zlari yetishtirgan mahsulotlarini sotish bilan shug‘ullanuvchi uyushmalar tashkil etishlari mumkin. Uyushmaga kiruvchilar uchun erkin, qulay sharoitlar yaratilishi lozim. Bunday uyushmalar mahsulotlarni sotishda erkin raqobatli bozor vujudga kelishida muhim o‘rin tutadi.

MAVZUGA OIDA ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ko‘paytirish, saqlash, qayta ishlash sohalarni yanada rivojlantirish yo‘llari, Shuningdek, g‘alla, don-dukkakli, moyli, ildizmeva, yem-xashak, zabzavot va poliz ekinlari, ho‘l va rezavor mevalar, kartoshka mahsulotlari hamda sut va sut mahsulotlari biokimyosi bo‘yicha tadqiqot ishlari yoritib sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha yaxshi takliflarni ilgari surgan olimlardan R.A.Alimov, M.T.Sagdinov, B.A.Adilov. Hasanova N.Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ko‘paytirishda qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalashda investitsiyalarni o‘rnini tadqiqot qilib ijobiy va yaxshi takliflarni yoritib berganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy izlanish jarayonida aniq faktlar asosida tadqiqot o‘tkazishda ma’lumotlar guruhlarga ajratish hamda iqtisodiy matematik usullar, iqtisodiy statistik usullardan foydalanilgan.

NATIJA

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ishtirokida tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 644,2 mlrd so‘mni tashkil qildi [8]. Davlat xaridlari tizimlarida o‘tkazilgan elektron savdolar natijasida budjet va korporativ buyurtmachilarining qariyb 102,4 mlrd so‘mlik mablag‘lari tejaldi [7]. Respublika aholisining aksariyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyoji hali ham to‘liq qondirilmaydigan bo‘lsa ham lekin ehtiyojni qisman qondishga erishilmoqda. Ularning ayrimlarini chetdan olib kelib, sotish orqali ehtiyojlarni qisman qondirishga erishildi. Bu asosan don, qand, shakar mahsulotlariga, katoshka va chorvachilik mahsulotlariga, ayniqsa, go‘sht va sut mahsulotlariga tegishlidir. Shuning uchun barcha turdagi korxonalarda qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish eng dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda[9]. Quyidagi 1-jadvalda O‘zbekistonni qishloq xo‘jaligida mahsulotlari ishlab chiqarish hududlar kesimida berilgan va o‘zgarishlar, rivojlanish bo‘lsa ham mahsulotlar yetishmovchiligi yuz bermoqda. Jadvalda ko‘rsatkchlardan Qoraqalpog‘iston respublikasini oladigon bo‘lsak 2019-yilda ko‘rsatkichi foiz 107.0 ni ko‘rsatgan keying yillarda foiz tushgan 2022-yilga kelib 103.7 foizni ko‘rsatgan bu, albatta, mamlakatda aholini ko‘payishi, qishloq xo‘jaligidagi asosiy muammolardan suv yetishmovchiligi, texnologik yetishmovchilik va boshqa muammolar tufayli haliyam o‘sishni ko‘rsatkch foizi kamaygan O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha ko‘rsatkch 2021-yilda 103.9% ni 2022-yilda esa 103.6 %ni ko‘rsatgan afsuski foiz 0.3 % ga kamayganini ko‘rishimiz mumkin. Albatta, bunday natijalar Respublikani boshqa huududlarida ham qaysidir yillar oralig‘ida shunday foizlar kamayganligi kuzatilgan. Bunday kamchiliklarni bartaraf etishda aniq tizimli strategiyalarni amalga oshirib natijalarni ijobiy tomonga o‘zgartirish kerak[6].

1-jadval: Hududlar kesimida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari (o‘tgan yillarga nisbatan foizda)

Hududlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
O‘zbekiston Respublikasi	**100,2**	**103,3**	**102,7**	**103,9**	**103,6**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	100,6	107,0	102,3	104,2	103,7
Andijon	106,3	103,0	101,1	104,5	102,3
Buxoro	102,9	103,6	101,9	104,7	103,9
Jizzax	99,7	106,4	102,7	104,2	101,8
Qashqadaryo	96,5	101,4	103,7	101,3	104,9
Navoiy	102,1	101,6	103,3	104,4	103,8
Namangan	102,2	102,7	104,0	107,0	105,7
Samarqand	94,1	103,1	102,5	103,1	102,3
Surxondaryo	97,2	103,5	105,3	104,2	101,7
Sirdaryo	96,5	108,4	101,8	103,8	103,9
Toshkent	98,8	101,1	100,1	104,1	104,2
Farg‘ona	109,7	103,5	104,9	103,2	104,9
Xorazm	98,0	103,8	101,7	102,9	103,9

Manba:O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Hududlar kesimida mahsulotlarni yetishtirish hajmini va summasini korish uchun 2022-yilning Namangan viloyati misolini oladigon bo‘lsak qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 18 713,2 mlrd.so‘mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 17 389,6 mlrd. so‘mni, o‘rmon xo‘jaligi – 1 280,1 mlrd. so‘mni, baliqchilik xo‘jaligi – 43,5 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Viloyat qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan 104,8%ga o‘sib, respublika ko‘rsatkichi tarkibida Namangan viloyatining ulushi 7,5% tashkil qildi.

Hisobot davrida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 17 311,9 mlrd.so‘mni shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 9 248,4 mlrd.so‘m va chorvachilik mahsulotlari 8 063,4 mlrd.so‘mni tashkil qildi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Yangiqo‘rg‘on tumani (2694,6 mlrd.so‘m) va Namangan shahrida (2111,9 mlrd.so‘m) qayd etildi.

Viloyat ko‘rsatkichidan yuqori o‘sish sur’atlari Yangiqo‘rg‘on (106,9%), Norin (106,1%) va Uchqo‘rg‘on (105,7%) tumanlarida, past o‘sish sur’atlari esa Chust (104,0%), Kosonsoy (104,0%) va Mingbuloq (104,1%) tumanlarida kuzatildi. Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 5 810,1 ming so‘mni tashkil etdi [10].

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 46,6% chorvachilik, 53,4% dehqonchilik faoliyati hissasiga to‘g‘ri keladi. Hisobot davrida dehqonchilikda barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 468 ming tonna don va dukkakli don mahsulotlari, 613 ming tonna sabzavotlar, 257 ming tonna kartoshka, 65 ming tonna poliz, 218 ming tonna meva va rezavorlar va 95 ming tonna uzum yetishtirildi.

Shuningdek, chorvachilikda barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 132,1 ming tonna go‘sht, 577,9 ming tonna sut, 489,3 mln. dona tuxum va 3356,1 tonna baliq ovlandi.

Jami qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 3064 ta ga yetib, mamlakatdagi jami faoliyat yuritayotgan korxonalarning 8,5% ni tashkil etdi. Viloyatning ayrim turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari uchun narxlarni so‘mda 2- jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval: Ayrim turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari uchun narxlar, so‘m

Mahsulot nomi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Guruch	10092	10083	10569	18367
Arpa	2843	3097	3974	4278
Bug‘doy	3255	3295	4124	4059
Jo‘xori	3313	3556	4190	4262
Oliy navli bug‘doy uni	5386	5662	7146	9148
1-navli bug‘doy uni	4120	4236	5612	6681
1-nav bug‘doy unidan non	3137	3155	4296	5783
Mol go‘shti	59082	62337	66371	74377
Qo‘y go‘shti	61937	64979	69723	78046
Tovuq go‘shti	21844	23701	25621	30500
Turli baliqlar	20817	25956	28705	36610
Sariyog‘	50402	51446	51476	66207
Limon	18647	24245	23504	22664
Olma	9802	11844	10262	11512
Nok	20068	22799	21032	26172
Uzum	16902	19717	13278	19602
Tarvuz	3183	5646	5071	1084
Qovun	3820	4816	5425	6334
Mayiz	30529	32565	36216	42895
Karam	2075	2241	3752	4152
Bodring	19244	8698	10584	12699
Pomidor	10820	8695	11110	14637
Baqlajon	16227	11340	1544	17564
Bulg‘or qalampiri	20474	15126	14875	22555
Qovoq	2348	3507	3845	5124
Sabzi	2073	4062	2918	4067
Sarimsoq	22186	19506	20941	19269
Piyoz	2081	1914	3380	5025
Kartoshka	4033	3985	4205	4538
Loviya	12960	13359	13359	16493
No‘xot	12036	14671	18172	21609
Mosh	11768	12426	13199	14005
Shakar	7360	8197	11906	13872

Manba:Namangan viloyati Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Ko‘rinib turibdiki oxirgi 4 yildagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini o‘rtacha narxlari ko‘rinib turibdi, unga ko‘ra guruch 2020-yilda 10092 so‘mni 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkch 18367 so‘mni tashkil qilib turibdi va albatta har bir mahsulotda o‘sish bor, bu esa sohani rivojlantirsh asos bo‘la oladi. Agrar sektorda fermer va dehqon xo‘jaliklarining mahsulot miqdori va ishlab chiqarishdagi ulushlari ortib borishi kerak bo‘lsa, ayniqsa, iste’mol bozorini kartoshka, sabzavot va turli xil mevalar bilan ta’minlashda ularning hissasi juda katta bo‘lishi lozim [5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston o‘zining qishloq xo‘jaligi sektorini yuqori mahsuldorlik va barqarorlikni ta’minlash maqsadida qayta shakllantirish uchun noyob imkoniyatni taqdim etuvchi hal qiluvchi pallada turibdi. Strategik investitsiyalar va hamkorlikdagi sa’y-harakatlar transformativ o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi muhitini innovatsiyalar va samaradorlik bilan kuchaytirishda texnologik yutuqlarni qo‘llash juda muhim. Ilmiy-tadqiqot va ta’limni rag‘batlantirish fermerlarga bilim va ko‘nikmalarni yanada kengaytiradi, barqaror sektorga asos yaratadi.

Qo‘llab-quvvatlovchi siyosat o‘sish va rivojlanish uchun asos bo‘lib, markaziy rol o‘ynaydi. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalar va tadbirkorlik uchun qulay muhitni yaratish orqali O‘zbekiston fermer jamoalarining barcha imkoniyatlarini ochib berishi mumkin. Bunday kompleks yondashuv nafaqat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining ko‘payishini va’da qiladi, balki o‘zgarib boruvchi muammolarga nisbatan sektorning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi.

Bu safarda millatning har tomonlama rivojlanishga intilishi muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi muhitini o‘zgartirish nafaqat ishlab chiqarish, balki farovonlikni oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan. Ushbu qarash kelajak avlodlar uchun gullab-yashnayotgan merosni ta’minlashga qaratilgan. Birgalikda sa’y-harakatlar va kelajakka intilish bilan O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida yanada farovon va barqaror kelajak sari yo‘lni belgilay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R.A.Alimov, M.T.Sagdinov, B.A.Adilov.Hasanova N “Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining biokimyos i”
2. Nurmatov N.J, Roziyev.O.A, Gulmatov.J.Q, Berdiyev.S.R “Qishloq xo‘jalik iqtisodiyoti” O‘quv qo‘llanma<<Tafakkur Nashriyoti>> Toshkent -2011, 304b
3. A.Abdug‘aniyev “Qishloq xo‘jalik iqtisodiyoti”-ADIB NASHIRYOTI-2011
4. N.J.NURMATOV,O.A.ROZIYEV “Qishloq xo‘jalik iqtisodiyoti” tashakkur nashiyoti -2011
5. Namangan viloyati Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida. (https://namstat.uz/uz/)
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida
7. O‘zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligi web sayti ma’lumotlari asosida(https://digital.uz/)
8. Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi web sayti ma’lumotlari asosida (https://e-gov.uz/)
9. O‘zbekiston Milliy Axborot agentligi rasmiy veb sayti(https://uza.uz/uz)
10. Namangan viloyati Hokimligi rasmiy veb sayti (https://www.namangan.uz/uz/)

SANOAT KORXONALARINING AKSIYALAR BOZORIDAGI FAOLIYATI TAHLILI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR



Igitov Jurabek Kuzibekovich
Toshkent davlat transport universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarining aksiyalar bozoridagi faoliyati tahlili: muammolar va yechimlar, korporativ qimmatli qog‘ozlar asosida korxonalar faoliyatini va loyihalarini moliyalashtirishning shakllanishi va xorijiy davlatlar tajribalari o‘rganilgan. Xususan, maqolada so‘nggi yillarda sanoat korxonalarining aksiyalar bozoridan faoliyati davlat aktivlarining hozirgi holati, kapital bozorni rivojlantirish, qimmatli qog‘ozlar bozorida bir qancha qilingan islohotlar yoritib o‘tilgan. Sohalar bo‘yicha jami aksiyadorlar hozirgi ulushi va tuzilgan bitimlar haqida yoritilgan. Hozirgi paytda sanoat korxonalarining fond bozoriga kirishi va unda muntazam qolishi to‘g‘risida va uning muammolari haqida yoritib o‘tilgan. Jismoniy va yuridik shaxslarning moliyaviy savodxonligi ularning respublika fond birjalardagi faoliyati va aholining oladigan daromadi xarajatlari tahlili O‘zbekiston Respublikasi va AQSH misolida ko‘rib o‘rganib chiqilgan va batafsil yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Aktivlari, monopoliya, kapital bozori, qimmatli qog‘ozlar aksiyador, fond birjalari, korporativ obligatsiyalar, sanoat tarmoqlari, konsentratsiya, likvidlik, market-meyker, ko‘chmas mulk, sarmoya.

Abstract: This article examines the analysis of the activities of industrial enterprises in the stock market: problems and solutions, the formation of financing of activities and projects of enterprises based on corporate securities, the experience of foreign countries is studied. In particular, the article highlights the current state of state assets, the functioning of industrial enterprises from the stock market in recent years, the development of the capital market, and a number of reforms in the securities market. The total number of shareholders by industry is estimated based on the current share and concluded transactions. Currently, the issue of industrial enterprises entering the stock market and their regular stay on it, as well as its problems, is being covered. Financial literacy of individuals and legal entities the analysis of their activities on the republican stock exchanges and household income expenditures was reviewed and covered in detail on the example of the Republic of Uzbekistan and the United States.

Key words: assets, monopoly, capital market, stocks, stock exchanges, corporate bonds, industries, concentration, liquidity, market maker, real estate, investments.

Аннотация: В данной статье рассмотрен анализ деятельности промышленных предприятий на рынке акций: проблемы и решения, формирование финансирования деятельности и проектов предприятий на основе корпоративных ценных бумаг, изучен опыт зарубежных стран. В частности, в статье освещается текущее состояние государственных активов, функционирование промышленных предприятий с рынка акций за последние годы, развитие рынка капитала, ряд реформ на рынке ценных бумаг. Общее количество акционеров по отраслям оценивается по текущей доле и заключенным сделкам. В настоящее время освещается вопрос о выходе промышленных предприятий на фондовый рынок и их регулярном пребывании на нем, а также о его проблемах. Финансовая грамотность физических и юридических лиц анализ их деятельности на республиканских фондовых биржах и расходов доходов населения был рассмотрен и подробно освещен на примере Республики Узбекистан и США.

Ключевые слова: активы, монополия, рынок капитала, акции, фондовые биржи, корпоративные облигации, отрасли, концентрация, ликвидность, маркет-мейкер, недвижимость, инвестиции.


O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlar bozori so‘nggi yillarda juda ko‘p o‘zgarishlar va ma’muriy islohotlar obyekti bo‘lgan. Dastlabki o‘zgarishlar mamlakat prezidentligiga Shavkat Mirziyoyevning saylanishi ortidan yuz bergan. Muqaddam Davlat Raqobat qo‘mitasi deb atalgan O‘zbekiston Respublikasi xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi asosiy organ sifatida 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasining xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi negizida qayta tashkil etilgan[1]. Biroq bu islohot ham

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PF-5016-son “O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni

ikki yildan so‘ng takomillashtirilib[2], oldin mavjud bo‘lgan bir qo‘mitadan 3 ta tashkilot paydo bo‘lgan – Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi va Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tashkil etilib[3], qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha nazorat oxirgi keltirilgan agentlikka yuklatilgan.

2021-yilda Kapital bozorini rivojlantirish agentligi ham tugatilib, uning funksiyalari o‘sha paytdagi Moliya vazirligining Kapital bozorini rivojlantirish departamentiga o‘tkazilgan[4]. Oradan yana ikki yil o‘tib, mamlakatda amalga oshirilgan ulkan ma’muriy islohotlar natijasida Iqtisodiyot va Moliya vazirliklari birlashishi ortidan qimmatli qog‘ozlar bozorini nazorat qilish funksiyasi Istiqbolli loyihalarni boshqarish milliy agentligiga yuklatilgan. Qimmatli qog‘ozlar bozori bir qancha ma’muriy islohotlar nishoni bo‘lganiga qaramay, hanuzgacha kuchli rivojlanish dinamikasini qayd etayotgani yo‘q. Shunday bo‘lsada, qimmatli qog‘ozlar bozorida yildan-yilga ijobiy o‘zgarish tendensiyalari kuzatilayotgani “Toshkent” Respublika fond birjasining yillik hisobotlarida aks ettirilmoqda.

Xususan, 2023-yilda jami tuzilgan bitimlar soni umumiy qiymati 2 712,75 mlrd so‘m bo‘lgan 411 870 tani tashkil etgan. Shuningdek, “Toshkent” Respublika fond birjasida 2023-yilda 248 savdo kunlari ichida jami 138 ta instrumentlar – korporativ qimmatli qog‘ozlar savdo qilingan. 2023-yilda tuzilgan bitimlar soni va hajmi o‘tgan yillar ma’lumotlariga nisbatan mos ravishda quyidagicha oshdi:



1-rasm: Toshkent RFBda 2023-yilda tuzilgan bitimlar soni va hajmi[5]

2023-yilda Toshkent RFBda iqtisodiyotning 10 ta turli xil soha aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog‘ozlari bilan birja savdolari amalga oshirilgan. Bir necha yillardan beri birinchilikni faqat banklar egallab kelayotgan bo‘lsa, sanoat sektori emitentlarining qimmatli qog‘ozlari savdosi ikkinchi o‘rinda kelmoqda. Bank sektori emitentlarining qimmatli qog‘ozlari bilan 229 898 ta bitim tuzildi, bu birja bitimlari umumiy sonining 55,82 foizini tashkil etdi. Sanoat tarmog‘idagi 12 ta emitentlarning qimmatli qog‘ozlari bilan 36 798 ta bitim tuzildi (birja bitimlari umumiy sonining 8,93 foizi).



2-rasm: 2023-yilda Toshkent RFBda sohalar bo‘yicha birja bitimlarining soni, dona[6]

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi PF-5630-son “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-yanvardagi PQ-4127-son “O‘zbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5073-son “Kapital bozorini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

5 “Toshkent” RFB – 2023-yil bo‘yicha Birjaviy tahlil.

6 “Toshkent” RFB – 2023-yil bo‘yicha Birjaviy tahlil.

Umuman olganda, sanoat sektorida quyidagi aksiyadorlik jamiyatlari aksiyasi 2023-yilgi birja savdolarida oldi-sotdi qilingan (1-jadval).

1-jadval: Toshkent RFB da sohalar bo‘yicha birja bitimlarining soni va hajmi[7]

Soha	Bitimlar soni, dona	Qimmatli qog‘ozlar soni, dona	Bitimlar hajmi, so‘m
Lizing	639	19 638	13 900 260 607,15
Transport	2579	555 198	66 541 307 723,10
Agrosanoat	18521	151 092 393	597 738 164 823,87
Qurilish	20085	3 300 979	17 763 405 011,83
Aloqa	20816	6 068 444	37 007 935 894,14
Energetika	22697	6 819 617	119 454 704 388,32
Boshqalar	28018	160 586 651	702 691 105 893,96
Sug‘urta	31819	15 709 897 105	77 230 034 987,01
Sanoat	36798	4 987 566	108 448 536 911,81
Banklar	229898	12 037 218 814	971 972 481 065,11

E’tiborlisi shundaki, fond bozoridagi banklar soni sanoat tarmog‘i korxonalari sonidan uch marta ko‘p bo‘lib, 2023-yilda sanoat tarmog‘ida jami 11 ta aksiyadorlik jamiyatlarining 15 ta turdagi aksiyalari bilan savdolar amalga oshirilgan (2-jadval).

2-jadval: Toshkent RFB da sohalar bo‘yicha birja bitimlarining soni va hajmi[8]

Soha	Bitimlar soni, dona	Qimmatli qog‘ozlar soni, dona	Bitimlar hajmi, so‘m
Lizing	639	19 638	13 900 260 607,15
Transport	2579	555 198	66 541 307 723,10
Agrosanoat	18521	151 092 393	597 738 164 823,87
Qurilish	20085	3 300 979	17 763 405 011,83
Aloqa	20816	6 068 444	37 007 935 894,14
Energetika	22697	6 819 617	119 454 704 388,32
Boshqalar	28018	160 586 651	702 691 105 893,96
Sug‘urta	31819	15 709 897 105	77 230 034 987,01
Sanoat	36798	4 987 566	108 448 536 911,81
Banklar	229898	12 037 218 814	971 972 481 065,11

Sanoat korxonalari hozirgi kunda fond bozoriga kirish va unda muntazam qolish bilan bog‘liq bir qancha muammolarga duch kelmoqda (3-rasm).



3-rasm: Sanoat korxonalari fond bozorida duch kelayotgan muammolar[9]

Fond bozorining konsentratsiyasi bugungi kunda qolgan muammolarga sabab bo‘layotgan eng asosiy muammo sifatida qaraladi. Bozorning konsentratsiyasi deganda – fond bozorida amalga oshiriladigan barcha

7 Yuqoridagi manbaga qarang.
8 Yuqoridagi manbaga qarang.
9 Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tayyorlandi.


savdolarning katta ulushi, shuningdek, bozordagi bir instrumentning dominant bo‘lishi tushuniladi. Xususan, “Toshkent” respublika fond birjasidagi asosiy savdo instrumenti – aksiyalar bo‘lib, bozordagi jami savdolarning deyarli 99 foizi aynan shu instrumentga to‘g‘ri keladi. 2023-yilda “Toshkent” respublika fond birjasida amalga oshirilgan bitimlar soni 411 870 tani tashkil etgan bo‘lsa, shundan 411 393 tasi yoki 99,8 foizi aynan aksiyalar bilan amalga oshirilgan.

Bundan tashqari O‘zbekiston fond bozorida amalga oshiriladigan savdolarning katta qismi Toshkent shahri va Toshkent viloyatlari to‘g‘ri kelib (3-jadval), bu bilan boshqa hududlarda aholi moliyaviy savodxonligining va instrumentlar likvidligining pastligi hamda minoritar aksiyadorlarning bozordagi ulushi sezilarli kamligi kabi muammolarni paydo qiladi.

3-jadval: Sanoat korxonalari fond bozorida duch kelayotgan muammolar[10]

Hududlar	Emitentlar soni	Bitimlar soni	QQ soni	Bitimlar hajmi, so‘m
Andijon	4	40 972	108 384 315 30	877 374 039,18
Buxoro	9	14 940	838 905	1 933 813 912,51
Toshkent	47	291 746	27 808 086 807	2 022 785 489 679,02
Jizzax	1	2 211	71 198	237 618 486,67
Qashqadaryo	8	3 524	2 934 218	11 773 115 986,89
Navoiy	3	9 254	1 536 400	4 817 281 929,49
Namangan	4	366	62 104	530 787 517,75
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	5	6	719 815	6 913 725 408,00
Samarqand	2	636	77 707	1 079 480 009,88
Toshkent viloyati	16	30 851	10 529 244	50 916 654 297,72
Farg‘ona	10	16 843	145 160 234	571 644 391 224,39
Xorazm	3	521	2 145 458	9 238 204 815,01
Sirdaryo	0	0	0	0
Surxandaryo	0	0	0	0

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, bozor konsentratsiyasi Toshkent shahri va viloyatida jamlangan bo‘lib, jami bitimlarning 322 597 tasi yoki 78,3 foizi aynan shu hududga to‘gri kelgan. Fikrimizcha, kapitalning bir hududda yoki bir instrument orqali markazlashuvi erkin bozorni shakllanishiga to‘siq bo‘ladi. Shuning uchun hududlarda fond bozorini rivojlantirish bo‘yicha hukumat tomonidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqib, unda hududlardagi korxonalarni fond bozori ishtirokchisiga aylantirish yuzasidan aniq vazifa va muddatlarni belgilash kerak.




4-rasm: 2023-yil davomida yuridik va jismoniy shaxslarning Toshkent RFBdagi faoliyati tahlili

10 “Toshkent” RFB – 2023-yil bo‘yicha Birjaviy tahlil.

Korxonalar duch kelayotgan muammolardan yana biri bu yirik hissadorlarning fond bozoriga raqobatchilar aksiyalarni sotib olib, nazorat paketini yo‘qotish bilan bog‘liq qarashdir. Ya’ni, o‘z vaqtida davlat mulkini xususiylashtirish davrida kompaniyaning katta ulushlariga ega chiqqan aksiyadorlar, yoki korxona hissadorlari fond bozoriga aksiyalari chiqishini istamaydi yoki kompaniya fond bozoriga chiqqan taqdirda ham aksiyalarini sotmay, saqlab yuradi. Buning ortidan bozor likvidligi past va instrumentlarni tanlash imkoni cheklangan bo‘ladi. Shuningdek, mazkur muammo bozorda chakana savdolarning ulushi kamligi uchun minoritar va majoritar investorlarni orasida tafovutni yiriklashtiraveradi (2.2-rasm).

Shundan kelib chiqib, mazkur toifadagi korxonalarga obligatsiyalar yoki imtiyozli aksiyalar chiqarish orqali bozorda o‘z o‘rniga ega bo‘lish va kompaniya kapitalizatsiyasini yanada oshirish tavsiya etiladi.

Toshkent RFB da instrumentlar likvidlik darajasi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, Qozog‘iston fond bozorlaridagi instrumentlar likvidlik darajasi bilan solishtirilganda ancha past hisoblanadi. Bu avvalo fond bozorida market-meykerlarning faollik darajasi yuqori emasligi, savdo instrumentlarining bir xilligi va mamlakat iqtisodiyoti va siyosatidagi o‘zgarishlarning instrumentlar savdosiga deyarli ta’sir o‘tkazmasligi bilan bog‘liqdir. Shuningdek, likvidlikning pastligi spekulyativ bozorning sust rivojlangani bilan ham bevosita bog‘liqdir. O‘zbek fond bozorida likvidlikning past ekanligini UCI indeksi misolida ham ko‘rib chiqsa bo‘ladi (5-rasm). Ya’ni instrumentlarning qanchalik tez oldi-sotdi qilinishi bozorning umumiy indeksiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi va bu tebranish oxirgi 6 oy ichida 640-720 so‘m oralig‘ida harakatlanayotganini va o‘zgarish 12 foizlar atrofida ekanligini anglashimiz mumkin. Taqqoslash uchun Qozog‘istonning KASE indeksi olinib, unda shu oraliqdagi o‘zgarish 25 foiz bo‘lganligini ko‘rish mumkin (4023-5061 tenge oralig‘ida).



5-rasm: UCI va KASE indekslarining o‘zgarish dinamikasi[11]

Aholining moliyaviy savodxonlik darajasi bozorni shiddat bilan rivojlanmaslik sabablarining eng asosiylaridan biri hisoblanadi. Mamlakat aholisi ortiqcha kapitalni ko‘chmas mulk, avtomobil yoki xorijiy valyutadagi naqd pul ko‘rinishida saqlashni afzal bilishi nafaqat fond bozoriga, balki moliyaviy bozorning boshqa segmentlariga yetarli darajada kapital kirib kelmasligiga hamda turli xil iqtisodiy zanjirlarning uzilishiga olib keladi.




6-rasm: MDH davlatlarida aholining moliyaviy savodxonlik darajasi, % da[12]

11 https://uzse.uz/price_indices va https://kase.kz/en/stock_market/index_kase/ birja saytlaridan foydalangan holda muallif tomonidan tayyorlandi. Ma’lumotlar 2024-yil mart holatiga ko‘ra

12 Financial literacy levels in the Commonwealth of Independent States in 2021 © OECD 2021

O‘zbekiston aholisining moliyaviy savodxonligini aniqlash yuzasidan xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan bir nechta tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lib, ularning oxirgisi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining 2021-yilda o‘tkazgan tadqiqoti hisoblanadi. Mazkur tadqiqotga ko‘ra, O‘zbekiston MDH davlatlari ichida aholining moliyaviy savodxonlik darajasi bo‘yicha Belarus Respublikasidan keyingi 2 o‘rinda bo‘lib, so‘rovnomaga jalb qilinganlarning 59,9 foizi moliyaviy bilimlarga ega deb baholangan (6-rasm). Biroq bu raqam faqatgina shahar va tuman markazlarida so‘rovnomaga jalb qilingan yoshi katta aholining natijasidir. Bundan kelib chiqib induksiya tamoyili asosida O‘zbekiston aholisining qariyb 60 foizi moliyaviy bilimlarga ega degan xulosaga kelish qaysidir ma’noda noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Aholining uchdan bir qismi yoshlar (0-18), qariyb 10 foizi qariyalarga (60 va undan yuqori) to‘g‘ri kelishini inobatga oladigan bo‘lsak, yuqorida keltirgan 60 foizga yetmaydi degan farazimiz tasdiqlanadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2023-yilda o‘tkazilgan so‘rovnomaga asosan mamlakat aholisi o‘z kapitalini ta’limga, uy-joy ta’miriga va davolanishga ishlatishi aniqlangan. Quyida mazkur tahlilni AQSh aholisi bilan o‘tkazilgan so‘rovnoma tahlili asosida solishtirdik (7-rasm).



7-rasm: Aholi xarajatlari tahlili, O‘zbekiston va AQSh davlatlari misolida, % da

Yuqorida keltirilgan 7-rasm ma’lumotlaridan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, aholida iste’mol darajasi ularning kundalik turmushi va kelajakdagi ba’zi xaridlarni amalga oshirish bilan cheklanadi. Bu o‘z navbatida ortiqcha pulni sarmoya sifatida moliyaviy bozorlarga yo‘naltirish imkonini cheklaydi.

Demak, mamlakat aholisining pul bilan to‘g‘ri muomala qilmasligi qaysidir ma’noda moliyaviy bozorlarning barcha segmentlarida harakatni va likvidlikni pasaytiradi.



8-rasm: Asosiy instrumentlar kesimida fond bozorida amalga oshirilgan bitimlar soni va hajmi[13]

13 “Toshkent” RFB – 2023-yil bo‘yicha Birjaviy tahlil.

Fond bozorida taklif etilayotgan moliyaviy instrumentlarning asosiy turlari bu aksiyalar va obligatsiyalardir. Biroq 2023-yil yakunlari bo‘yicha Toshkent RFB hisobotiga nazar soladigan bo‘lsak, birja savdolarining 99 foizidan ortiq qismi faqat aksiyalar bozoriga to‘g‘ri keladi. Toshkent RFB da listingdan o‘tgan kompaniyalar va ularning moliyaviy instrumentlari ham aksiyalar bozori juda katta tafovut bilan oldinda borayotgani, obligatsiyalar bozorida bor yog‘i 7 ta emitent mavjudligini ko‘rsatadi (8-rasm). Qolaversa, obligatsiyalar bozorida savdolarning takrorlanish holati aksiyalar bozoriga nisbatan ancha past hisoblanadi.

Aksiyalarning bu qadar markaziy moliyaviy instrument maqomini olishi bozorda tanlash imkoniyatini kamaytiradi, o‘z-o‘zidan qo‘lida sarmoya uchun kapitali mavjud investorlarni e’tiboridan chetda qoladi va qaytadan yuqoridagi muammolar o‘zaro bog‘liqlikda birin-ketin sodir bo‘laveradi. Demak, quyida mazkur muammolarga yechim bo‘lishi mumkin bo‘lgan choralarni keltirib o‘tamiz.

Muammo: Bozor konsentratsiyasi

O‘zbekistonda yuzaga kelgan fond bozor konsentratsiyasi muammosini hal qilish uchun raqobat va diversifikatsiyani, korxona rahbarlarining fond bozori haqidagi tushunchalarni o‘zgartirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagi choralarni puxta o‘ylangan strategiya ishlab chiqish asosida amalga oshirish mumkin:

Yangi birjalarni rag‘batlantirish: bozorni hududiy nuqtayi nazardan kengaytirish uchun boshqa viloyatlarda yangi fond birjalarini tashkil etishni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash zarur. Bu raqobatni rag‘batlantirish va bozor xilma-xilligini oshirish uchun soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan tartibga solish jarayonlari, texnik ko‘mak kabi choralarni o‘z ichiga olishi mumkin.

PR marketingni kuchaytirish: fond bozori tomonidan listingdan o‘tmagan kompaniyalarni bozorga PR marketing orqali jalb qilish choralarini ishlab chiqish zarur. O‘zbekistonda 2024-yil 1-mart holatiga 612 ta aksiyadorlik jamiyati bo‘lsa, shundan faqatgina 117 tasi listingdan o‘tgan. Qolaversa, listingdan o‘tgan kompaniyalar aksiyalarining deyarli 10 foizi yillar davomida savdo qilinmaydi. Sarmoyaga muhtoj bo‘lgan kompaniyalar, ayniqsa sanoat kompaniyalari, bank kredit liniyalariga muqobil ravishda obligatsiyalarni chiqarishlari, buni ortidan ishlab chiqarishni kengaytirishlari va modernizatsiya qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Biroq nafaqat aksiyadorlik jamiyatlari maqomida faoliyat yuritmayotgan sanoat korxonalari, balki “Korporativ aloqalar yoki Aksiyadorlar bilan ishlash” bo‘limlari mavjud bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarida ham bu vazifalarni bajaradigan va yaxshi tushunadigan kadrlar tanqisligi mavjud. Shu sababli, LBMA va Toshkent RFB birgalikda respublikaning barcha hududlarida hududdagi korxonalar rahbarlari (hamda moliya ishlari bo‘yicha mutaxassislar) uchun qisqa muddatli kurslarni tashkil etish orqali PR marketingni yo‘lga qo‘yishlari taklif etiladi.

Muammo: Yirik hissadorlar hukmdorligi

Qimmatli qog‘ozlar bozorida hukmronlik qiluvchi yirik hissadorlar muammosini hal qilish uchun investorlarning xilma-xilligi va ishtirokini rag‘batlantirish muhimdir. Buning uchun quyidagi choralarni amalga oshirish mumkin:

Institutsional investorlarning xilma-xilligini rag‘batlantirish: pensiya jamg‘armalari, investitsiya fondlari va investitsion kompaniyalar kabi institutsional investorlar o‘rtasida xilma-xillikni rag‘batlantirish zarur. Bozorda tijorat banklari, pensiya fondlari va investitsion kompaniyalarning ishtirokini oshirish orqali bozorga katta oqimda pul mablag‘lari kirib keladi, instrumentlar likvidlik darajasi oshadi va bozorga nisbatan qiziqish ortadi. Yirik bozor ishtirokchilarida yig‘ilgan instrumentlarni narxi tez o‘zgarishi sababli bozorga minoritar aksiyadorlarning kirib kelishi ko‘proq kuzatiladi. Qolaversa, bu kabi kompaniyalar o‘z mijozlariga ham fond bozorida ishtirok etish imkoniyatlarini bilvosita ochib beradi.

Muammo: Likvidlikning pastligi

Qimmatli qog‘ozlar bozorida past likvidlilik muammosini hal qilish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish mumkin:

Bozorni rag‘batlantirish: likvidlikni yaxshilash uchun marketmeykerlarni rag‘batlantirish zarur. Bu savdolarni osonlashtirish orqali marketmeykerlarni likvidlikni ta’minlashga undash uchun tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, chegirmalar yoki boshqa moliyaviy rag‘batlarni taklif qilishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Savdo platformasini takomillashtirish: Savdo jarayonlarini soddalashtirish va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish uchun texnologik yechimlarni amalga oshirish zarur. Bunga ilg‘or savdo platformalarini ishlab chiqish, buyurtmalarni moslashtirish algoritmlarini yaxshilash va hisob-kitob vaqtlarini qisqartirish kiradi.

Bozorni xabardor qilish kampaniyalari: investorlarni faol va likvid bozorlarda savdo qilishning afzalliklari haqida ma’lumot berish uchun xabardorlik kompaniyalarini o‘tkazish zarur. Bu bozorda likvidlikning oshishiga olib keladigan qiziqish va ishtirokni shakllantirishga yordam beradi.

Muammo: Aholining moliyaviy savodxonligi

Aholining moliyaviy savodxonligi pastligi muammosini hal qilish uchun quyidagi choralar amalga oshirilishi mumkin:

Maktab o‘quv dasturlarini integratsiyalash: Moliyaviy savodxonlik bo‘yicha ta’limni erta yoshdan maktab o‘quv dasturlariga kiritish. Bu shaxsiy moliya, investitsiyalar va asosiy iqtisodiy tushunchalar bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar poydevorini yaratishga yordam beradi.

Jamoatchilikni xabardor qilish kompaniyalari: Moliyaviy savodxonlikni oshirish va keng aholini investitsiya imkoniyatlari, risklari va strategiyalari haqida xabardor qilish uchun jamoatchilikni xabardor qilish kompaniyalarini yanada takomillashtirish zarur. Buni televideniye, radio, ijtimoiy media va seminarlar kabi turli vositalar orqali amalga oshirish mumkin.

Moliyaviy institutlar bilan hamkorlik: qulay moliyaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va ta'minlash uchun banklar, investitsiya firmalari va boshqa moliya institutlari bilan hamkorlik qilish zarur. Bunga turli demografik guruhlarga moslashtirilgan seminarlar, vebinarlar, onlayn kurslar va axborot resurslari kirishi mumkin.

Muammo: Instrumentlarning cheklanganligi

Investitsion vositalarning cheklanganligi muammosini hal qilish uchun quyidagi choralar amalga oshirilishi mumkin:

Moliyaviy mahsulotlarni diversifikatsiya qilish: investorlarning ehtiyojlarini qondirish uchun kengroq investitsiya vositalarini ishlab chiqish va joriy etishni rag‘batlantirish zarur. Bu birja fondlari (ETF), optsionlar va fyuchers shartnomalari kabi yangi moliyaviy mahsulotlarni yaratishni rag‘batlantirishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Muqobil vositalar bo‘yicha investorlarni o‘qitish: investorlarni muqobil investitsiya vositalari bilan bog‘liq foyda va risklar haqida o‘rgatish zarur. Bu ma'lumot, resurslar va ushbu vositalarni qanday baholash va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalarni taqdim etishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PF-5016-son “O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi PF-5630-son “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-yanvardagi PQ-4127-son “O‘zbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5073-son “Kapital bozorini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
5. Ludger Hentschel. “Investments: An Introduction”. 2008
6. James D. Cox, Robert W. Hillman, Donald C. Langevoort, Ann M. Lipton. “Securities Regulation: Cases and Materials”. The Business Lawyer, 2021. Tenth Edition
7. Brealey, R., Myers, S., & Allen, F. (2017). Principles of Corporate Finance. McGraw-Hill Education.
8. Ross, S., Westerfield, R., & Jordan, B. (2016). Fundamentals of Corporate Finance. McGraw-Hill Education.
9. Damodaran, A. (2012). Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. Wiley.
10. Brigham, E., & Ehrhardt, M. (2016). Financial Management: Theory & Practice. Cengage Learning.
11. DeMarzo, P., & Berk, J. (2013). Corporate Finance. Pearson.

QURILISHDA MODERNIZATSIYA VA DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YANGI ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARINI OSHIRISH



Islamov Ozodjon
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish orqali yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali yuqori samaradorlikka erishishga oid masalalar yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda qurilish sohasida uy-joy qurilishini rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: modernizatsiya, diversifikatsiya, innovatsion texnologiyalar, samaradorlik, qurilish, uy-joy qurilishi.

Abstract: This article highlights issues related to achieving high efficiency through the introduction of production of new types of products through modernization and diversification of production. Practical proposals for the development of housing construction in the construction sector in Uzbekistan are also given.

Key words: modernization, diversification, innovative technologies, efficiency, construction, housing construction.

Аннотация: В данной статье освещены вопросы, связанные с достижением высокой эффективности за счет внедрения производства новых видов продукции за счет модернизации и диверсификации производства. Также даны практические предложения по развитию жилищного строительства в сфере строительства в Узбекистане.

Ключевые слова: модернизация, диверсификация, инновационные технологии, эффективность, строительство, жилищное строительство.

KIRISH

Bugungi kundagi bozor iqtisodiyoti sharoiti ishlab chiqarish korxonalaridan sifatli, arzon, xaridorgir, umuman olganda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni talab qilmoqda. Oldimizga qo‘yilgan asosiy vazifa mavjud resurslardan samarali foydalanish korxona faoliyatini texnika-iqtisodiy samaradorligini oshirish, korxona maqsadiga erishishni amaliy usullarini o‘rgatishdan iborat. Korxonada aniq va to‘g‘ri ishlab chiqishni tashkil etish korxona iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yuqori bo‘lishini ta’minlaydi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Shu sababli jahonda ko‘pgina kompaniyalar asosiy e’tiborini ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish orqali yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali yuqori samaradorlikka erishishga qaratmoqda. Yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarish ish unumdorligining oshishiga provardida iqtisodiyotni o‘sishida zamin yaratadi. Korxonada ishlab chiqishni to‘g‘ri tashkil etish korxona iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yuqori bo‘lishini ta’minlaydi. Bu borada xorij tajribalarini o‘rganish, ularni ilmiy tadqiq etish va ulardan foydalanish dolzarblik kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiyasini tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini ta’minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o‘rinlarini tashkil etish imkonini beradi. Modernizatsiya va diversifikatsiyaning mazmunini yoritishda iqtisodchi olimlar uni farqlaydi.

Jumladan Keynsning yondashuviga ko‘ra, “tabiatan bozor iqtisodiyoti resurslarni oqilona taqsimlash va ulardan foydalanish kafolatini bermaydi” [1].

Xodiyev B., Shodmonov Sh., Gafurov U.V. modernizatsiya tushunchasi ta’rifini “Modernizatsiya – obyektni yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va meyorlarga, texnik shartlarga, sifat ko‘rsatkichlariga muvofiqlashtirish” [2] deb hisoblaydilar.

Konoplitskiy V., Filina A. “diversifikatsiya – bu korxonaning asosiy faoliyatidan tashqari yangi faoliyat to‘rini o‘zlashtirish borasida olib boradigan yangi marketing strategiyasidir” [3] deb ta’rif berishgan.

Arxipova A.I. qarashida “diversifikatsiya – iqtisodiy riskni kamaytirish maqsadida kapitalni bir necha obyektlar orasida taqsimlashdir” [4] degan fikr bildirishgan.

Pitts R. va Xopkins X. esa “diversifikatsiya – bu bir vaqtni o‘zida bir necha turdagi biznes bilan shug‘ullanishdir” [5] deyishgan.

Tompson A. va Striklend A. “Difersifikatsiyani firmaning boshqa ishlab chiqarish tarmoqlariga kirish jarayoni” [6] deb tavsiflaydi.

Ilmiy tadqiqotlarda korxonalarda diversifikatsiya strategiyasidan mahsulotlarning o‘zaro bog‘liqlik darajasini xavfini kamaytirish, shuningdek, korxonaning asosiy sohasidan olayotgan foydasi hajmini oshirish imkonini berishi e’tirof etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, umumlashtirish, guruhlashtirish, kompleks baholash, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Ma’lumki, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya etish sharoitida sanoat korxonalar samaradorligini oshirish soha oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Sanoat korxonalar samaradorligini oshirish orqali, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish va mehnat unumdorligini oshirish hisobiga mamlakatimiz aholisini zamonaviy arzon uylar bilan ta’minlash dolzarb muammolardan biridir. Shu munosobat bilan sanoat korxonalarini rivojlantirish hamda uning samaradorligini oshirishdan asosiy maqsad fan-texnika yutuqlarini qo‘llash orqali iste’molchilar ehtiyojlarini to‘la va yuqori sifatda qondirish hamda sohani yangi axborot texnologiyalariga asoslangan xizmatlarini ko‘rsatishda modernizatsiya va diversifikatsiya hisobiga samaradorlikni oshirish alohida ahamiyat kasb etadi [2].

O‘zbekistonning asosiy eksport mahsulotlarining jahon bozoridagi narxlarini pasayishi davom etayotganligi, jahonda keskin raqobat kuchayayotganli, iqtisodiyotimizning energiyaga sarfi katta ulushga ega ekanligi – mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiya qilish va uni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanishni orqali mahsulotlarni sifatini tubdan yaxshilashni, energo-tejamkorlikka erishish lozimligini, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratishni, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, ichki talabni oshirishni, iqtisodiyotimizni raqobatbardoshliligini oshirishni zamonning o‘zi taqozo etmoqda.

O‘zbekistonda keyingi yillarda qurilish ishlari inobatga olib qurilish korxonalarida diversifikatsiya qilish va ularda innovatsion texnologiyalar qo‘llanishi lozim [3].

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, faqat bir turdagi an’anaviy xizmatlar yoki mahsulotni rivojlantirish orqali yetarli dajada samaradorlikka erishish imkoniyatining kamligi diversifikatsiya jarayonlarini amalga oshirilishini taqazo etmoqda.


Agar 1991-yilda 1 kishiga respublikamizda o‘rtacha 12,4 metr kvadrat joy to‘g‘ri kelgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 2022-yilga kelib bu davrda aholi soni sal kam 20 million kishiga oshganiga qaramasdan, 15 metr kvadratga yetdi. O‘zbekiston Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari ichida uy-joy qurish bo‘yicha Rossiyadan keyin 2-o‘rinda turadi. O‘zbekistonda 2017–2018-yillarda uy-joy qurilishiga sarflanadigan mablag‘larning miqdori O‘zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 12,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yillarda mos ravishda 12,6, 13,8, 14,9 foizdan oshig‘ini tashkil etmoqda. Umuman olganda, o‘sish sur’ati esa 12-13 foizni tashkil etmoqda.

Mustaqillik yillarda shaharda ham qishloqlarda ham uy-joy umumiy maydoni muttasil oshib bormoqda. Yangi qurilgan uylarni infrastruktura bilan ta’minlash, elektro-energiya, issiqlik tizimi, ichimlik suvi va oqava suvlar tizimi bilan ham ta’minlanmoqda.

Hozirda mamlakatimizdagi uy-joy fondining 87,2 foizi markazlashgan ichimlik suvi, 83,5 foizi gaz bilan, 45 foizi issiqlik ta’minoti va 37,6 foizi oqava suvlar tizimi bilan ta’minlangan.

O‘zbekistondagi uy joy qurilishining o‘ziga xosligi shundan iboratki, 87 foiz uy-joy qurilishi alohida shaxsiy uylar hissasiga to‘g‘ri keladi. Umumiy oilalarning 97,7 foizi, qishloq joylarida esa 99,5 foiz oila o‘z uyiga yoki xonadoniga ega. Uy-joyning asosiy turi – 77,1 foizi alohida uylardir.

Oilaning bir a'zosiga yashash joyi bilan ta'minlanganlik darajasi quyidagicha: 32,7 foizi 12 m.kv. gacha, 12-20 m.kv.-35,9 foiz, 20 m.kv. dan ortiq 31,4 foiz.



1-rasm: O'zbekiston Respublikasi 2010–2022-yillarda bajarilgan qurilish ishlari (trl.so'm.) [9]

Qishloq joylarida uy joy qurilishi asosan alohida aholining o'z pul mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. Mustaqillik davrida qishloq joylaridagi uy joy fondi 1,4 marta oshib, bir kishiga to'g'ri keladigan yashash maydoni 12,1 m kv. dan 14,5 m. kv.gacha oshdi.

O'zbekiston Respublikasida uy-joy qurilishi sura'tlarining oshishiga qishloq joylarida namunaviy loyihalar asosida qurilgan uylar qurilishi katta ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasida 2009-yildan yangi uylarni qurish borasida rivojlanishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Shu yili qishloq aholisini zamonaviy uylar bilan ta'minlash maqsadida Qishloq qurilish bank tizimida "Qishloq qurilish invest" ma'suliyati cheklangan jamiyati tashkil etildi va uning asosiy vazifasi etib qishloq joylarida namunaviy loyihalar asosida uy qurishni tashkil etish deb belgilandi. 2009–2016-yillarda mamlakatimiz qishloqlarida namunaviy loyihalar asosida 69,5 mingdan ziyod uy-joy qurildi. Ushbu uy-joylar barcha sharoitlarga ega bo'lib, qulayliklari, qurilishi va arxitektura-loyihalash ishlari shaharda qurilgan uylardagi kabidir.

Qishloq joylarida 2012–2022-yillarda uy joy qurilish 1,5 barobarga oshib, 7,74 mln. m. kv. ga yetdi. O'zbekiston MDH davlatlari orasida qishloq joylarida uy qurish bo'yicha ilg'or bo'lib, har yili har 1000 ta aholiga qurib topshiriladigan uylar maydoni bo'yicha Armanistonga nisbatan 7 barobar, Qirg'izistonga nisbatan 5 barobar, Ukrainaga nisbatan 3 barobar, Qozog'istonga nisbatan 2 barobar, Rossiyaga nisbatan 1,3 barobar ko'pdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 21-oktabrdagi "2017–2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida"gi qarori bilan bu yo'nalishda yangi rivojlanish bosqichiga asos solindi [10]. Aholiga yanada qulay imkoniyat va sharoit yaratish maqsadida arzon, zamonaviy, shinam uy-joylar qurilishi yo'lga qo'yildi va mamlakatimiz qishloq massivlarida 15 mingta ana shunday turar joy barpo etildi.

Shuningdek, Osiyo taraqqiyot banki (OTB) O'zbekistonga qishloq joylarida uy-joy qurish uchun 500 million AQSH dollari miqdorida kredit ajratilishini ma'qulladi. Ushbu pul mablag'lari OTBning turli resurslaridan 500 mln. dollar hajmida yig'iladi. OTB krediti O'zbekistonning to'qqiz viloyatida jami 29 ming turar joy qurish imkoniyat yaratildi.

Yuqoridagilar O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda ham qurish sur'atlari yuqorida darajada bo'lishi, qurilish sohasida innovatsion texnologiyalarni jalb etish lozimligini bildiradi.

Hozirgi kunda texnika va texnologiyalar jadal sur'atlarda rivojlanayotgan davrda barcha sohalarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanmasdan iqtisodiy samaradorlikka erishib bo'lmaydi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali nafaqat xizmatlar sifati orttirishda balki qurilish xarajatlarni tejash ham ahamiyatlidir. Korxonada diversifikatsiya jarayonlarini amalga oshirishda undan kelajakni kutiladigan natijaga alohida ahamiyat berish kerakligi, texnologiyalarni jalb etishda uning tejamkorligi, sifatliligi, ma'naviy eskirmaslik darajalariga e'tibor qaratilishi lozim [9]. Qurilish diversifikatsiya jarayonlarini amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda qurilishning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha loyiha keltirilgan bo'lib buni amaliyotda qo'llash fikrimizcha maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu orqali aholining qiyinchiliklarini yengil qilishda, tez va sifatli xizmat ko'rsatish orqali mijozlarning ishonchini orttirib ish ko'lamini kengaytirish bir tarafdan qurilishning xarajatlarini tejash imkoniyatiga ega bo'linadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kelgusida korxona raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanishni orqali mahsulotlarni sifatini tubdan yaxshilash, energo-tejamkorlikka erishish, ixcham bozor konyukturasidagi o‘zgarishlarga tez moslashuvchan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va samaradorligini oshirish maqsadida:

- diversifikatsiya jarayonlarini yanada kengaytirish;
- innovatsion texnologiyalar negizida keng turdagi xizmatlar ko‘rsatish uchun moddiy texnik bazasini modernizatsiyalash;
- jahon tajribasini o‘rganish asosida innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish va ularni rivojlantirishga investitsiyalar hajmini oshirish;
- respublikamizda yaratilayotgan soliq va boshqa imtiyozlardan samarali foydalanish;
- qo‘l mehnati hajmini qisqartirish va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish;
- ishlab chiqarish hajm ko‘rsatkichlarini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni rag‘batlantirish;
- xodimlar malakasini oshirib borish, xodimlarning bilimlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- marketining faoliyatiga alohida e’tibor berish, marketing tadqiqotlarini olib borish, korxona faoliyatini takomillashtirishning o‘rta muddatli rivojlanish dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirib borish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash;
- mijozlar bilan ishlash faoliyatini takomillashtirib borish, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng ko‘lamda joriy etish va uni takomillashtirib borish;
- xodimlarning ishga bo‘lgan munosabatlarini rag‘batlantirish maqsadida samaradorlik baholash tizimini to‘liq joriy etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo‘lida” -Toshkent: “Akademiya” nashriyoti – 2018 y. –415-b.
2. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh. Sh., Gafurov U. V. “Mamlakatni jadal isloh etish va modernizatsiya qilish – milliy taraqqiyotnmizning mantiqiy bosqichi: Ilmiy-ommabop risola”. – T.: TDIU, 2008.
3. Коноплицкий В.С, Филина А.Б Это бизнес: Толковый словарь экономических терминов/ В.С Коноплицкий, А.Б Филина. –Киев: Альтер-пресс, 1996. –448 с.
4. Экономический словарь под ред. А. И. Архипова. М.: Проспект, 2010. – 672 в. 169.
5. Питтс Р. А. Диверсификация фирмы: концептуализация и измерение / Р. А. Питтс, Г. Д. Хопкинс // Академия менеджмента. – 1982. – № 7. – С. 71 – 83.
6. Томпсон А. А. Стратегический менеджмент. Искусство разработки и реализации стратегий : учеб. для вузов пер. с англ. под ред. Л. Г. Зайцева, М. И. Соколовой / А. А. Томпсон, А. Дж. Стрикленд. – М. : Банки и биржи; ЮНИТИ, 1998. – 431 с.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to‘g‘risida” 2016 yil 21 oktabrdagi qarori.
9. Горт М. Диверсификация и интеграция в американской промышленности / M. Gort. – Prinston. Prinston Yuniversiti Press, 1962.

SANOAT KORXONALARI INNOVATSION SALOHIYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

J. K. Boymurodov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat sohasini rivojlantirishda sanoat korxonalari innovatsion salohiyatini oshirish tizimini rivojlantirish, shakllantirish bo‘yicha mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirshga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat, sanoat korxonalari, innovatsiya, innovatsion salohiyat, strategiya, mexanizm, bo‘g‘in.

Abstract: In this article, proposals and recommendations for improving the existing organizational and economic mechanisms for the development and formation of a system for increasing the innovative potential of industrial enterprises in the development of the industrial sector have been developed.

Key words: industry, industrial enterprises, innovation, innovative potential, strategy, mechanism, link.

Аннотация: В данной статье разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию существующих организационно-экономических механизмов развития и формирования системы повышения инновационного потенциала промышленных предприятий в развитии промышленного сектора.

Ключевые слова: промышленность, промышленные предприятия, инновации, инновационный потенциал, стратегия, механизм, связь.

KIRISH

Bugungi kunda sanoat korxonalari bir vaqtning o‘zida tashqi yaxlitlik hamda ichki xilma-xillik xususiyatlariga ega bo‘lgan mamlakat iqtisodiyotining vaqt va makon jihati nisbatan mustaqil hamda barqaror tizimidir. Sanoat korxonalari innovatsion salohiyati tizimini rivojlantirish, shakllantirish uchun davlat miqyosidagi strategiyani yaxlit holda ishlab chiqish, balki ushbu strategiya tarkibida innovatsion tarkibiy qismlar ham bo‘lishi zarur. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Yangi O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha “O‘zbekiston-2030” Strategiyasining 12-maqsadida “…barcha yo‘nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash” [1] deb keltirilib o‘tilganligi mamlakatimizda barcha tarmoqlar kesimida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga doir vazifalarni amaliyotga tatbiq etishimizni taqozo etmoqda. Albatta, innovatsion faoliyatni rivojlantirishda innovatsion salohiyatning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda ayniqsa, sanoat korxonalari kesimida innovatsion salohiyatni rivojlantirish, takomillashtirish loyihalarini amalga oshirishimiz zarur hisoblanib, shu bilan birgalikda bugungi davrning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirish va shakllantirishning mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yoki nisbatan yangi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqishda tizimli hamda kompleks metodologik yondashuvlarga tayanish zarur. Uslubiy yondashuv sanoat korxonalari innovatsion tizimi mezonlarini aniqlash va tasniflashning eng to‘g‘ri usuli bo‘lib, uning mazmunini to‘liq ochib berish bilan birga o‘z maqsadlariga erishish mexanizmlarini tanlash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, sanoat korxonalarining ishlashi turli xil tashkiliy shakllarni izlashni talab qiladigan turli xil sanoat va infratuzilmalarining quyi bo‘g‘inlaridan iborat murakkab tizimdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Innovatsion salohiyat" tushunchasi XX asrning 70-yillari oxiridan boshlab faol rivojlana boshladi. Mazkur tushuncha bir qator olimlar tomonidan metodologik, nazariy va empirik tadqiqotlar jarayonida ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda ushbu kategoriya haqida yagona fikr mavjud emas. Innovatsion salohiyat asosan boshqa muammolarni hal qilishda foydalaniladigan xususiy element sifatida qaraladi. Ko'plab adabiyotlarda innovatsion salohiyatning bir qator ta'riflari mavjud bo'lib, ular bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir.

Korxonaning innnovatsion salohiyati, uni boshqarish, rivojlantirishda boshqa omillar ta'siri doirasida bir qancha taniqli iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Bular misolida xorij olimlaridan Kristofer Frimen, D.Samson, F.Damanpour, D.Tviss, V.P.Barancheva, V.N.Gunin, G.A.Smirnova, R.Fatxutdinov, L.G.Milyaeva, M.Terziovskiy, G.Pisano hamda A.Shuen kabi olimlarning tadqiqot ishlarida ko'rishimiz mumkin, mahalliy olimlarimizdan bu borada N.Yo'ldoshev, Sh.Mirsaidova, Sh.Zaynutdinov, G.Shanazarova, D.Mamadjonov, N.Xidirovlar o'z tadqiqotlarida bu tushuncha haqida ilmiy izlanishlar olib borishgan. Iqtisodiy adabiyotlarda "innovatsion salohiyat" tushunchasini birinchilardan bo'lib, Buyuk Biritaniyalik iqtisodchi olim Kristofer Frimen tomonidan qo'llanilgan. Uning fikriga ko'ra, salohiyat ma'lum bir sharoitda aniq ayrim maqsadlar uchun safarbar qilinishini ma'lum qilgan [2]. V.P.Barancheva va V.N.Guninalarning fikriga ko'ra, "innovatsion salohiyat korxonaning innovatsion maqsadlariga erishish uchun innovatsion loyiha yoki innovatsion o'zgarishlar dasturini amalga oshirish bo'yicha tayyorgarligi o'lchovi" [3] degan xulosaga kelgan.


Bundan tashqari, faqat resurs yondashuvini cheklab, L.G. Milyaeva va D.A.Belousov "innovatsion salohiyat korxonaning innovatsion faoliyatni amalga oshirishga salohiyat tayyorgarligini ta'minlaydigan resurslar to'plami sifatida qaraladi" [4] degan fikrni ilgari suradilar. A.A.Mamatov, T.T.Jo'rayev va A.N.Erkayevlarning fikricha, "innovatsion salohiyat deganda iqtisodiy salohiyatning tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida yuqori samaraga erishish, ishlab chiqarish infratuzilmasini o'zgartirib, mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida yuqori texnologiyali, raqobatbardosh mahsulotlar hajmini oshirishi mumkin bo'lgan ilmiy-texnik salohiyatga yo'naltirilgan tuzilmaviy unsur tushuniladi. Innovatsion salohiyat resursli hamda natijali komponentlarni o'zida mujassam qiladi. Resursligi innovatsion salohiyat shakllantirilishi bilan bog'liq bo'lib, o'z ichiga moliyaviy, moddiy va xodimlar bilan bog'liq tarkibiy qismlarni oladi. Moliyaviy tarkibiy qism ilmiy sohaga kiritilgan moliyaviy qo'yilmalarning hajmi bilan tasniflanadi. Moddiy tarkibiy qism esa, ilmiy sohadagi asosiy va aylanma kapital holatiga qarab belgilanadi. Xodimlar bilan bog'liqlik mehnat resurslarining soni va sifati, ilmiy faoliyat bilan bandligi hamda mehnat unumdorligi bilan belgilanadi [5]. Bizning nazarimizda, "innovatsion salohiyat" – ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning turli tarkibiy bo'linmalarining samarali va o'zaro ta'siri doirasida bozor ehtiyojlariga javob beradigan, resurslardan samarali foydalanib hamda rentabelligini oshirishga xizmat qiladigan innovatsion tovarlar, mahsulotlar, xizmatlar, g'oyalar va texnologik yangiliklarini amaliyotga joriy qila olish qobiliyatidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat korxonalari innovatsion salohiyatini rivojlantirishda uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish lozim hisoblanib, buning uchun birinchilardan bo'lib innovatsion komponentlarning rivojlanishini ta'minlash, bozorni muvofiqlashtirish va sanoat tizimi ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muammolarini hal qilishning yangi shakllarini izlashni talab qiladi. Ayni paytda viloyatda sanoat korxonalarini o'zaro hamkorlikning yangi shakllari shakllanib, rivojlanmoqda hamda viloyat iqtisodiyotining tarmoq va sohalarni integratsiyalashuv jarayonlari faollashtirilmoqda. Samarqand viloyat sanoat korxonalari hudud iqtisodiyotining tarkibiy tizimi va drayveri sifatida belgilanadi. Hudud imkoniyatlaridan kelib chiqib sanoat korxonalari innovatsion salohiyatini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish maqsadida uning hozirda amalda bo'lib turgan mexanizm richaklarini tasnifini tadqiq etish, unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va zamon talablaridan kelib chiqib takomillashtirish tavsiflarini ishlab chiqish mumkin.

Sanoat korxonalarini innovatsion salohiyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni takomillashtirishda hududda sanoat korxonalari tizimi va uning tuzilishining an'anaviy tasnifidan farqli o'laroq, biz boshqa tasnifni taklif qilamiz. Bunda sanoat korxonalarini tizimi tasnifini yuqori va quyi darajadagi tasniflash asosida shakllantirish maqsadga muvofiq bo'lib, bunda davlat tamonidan mamlakat miqyosida innovatsion faoliyatni rivojlantirish maqsadida olib boriladigan islohotlar "yuqori" tizim hisoblanib, institutsional, fiskal, moliyaviy, iqtisodiy, bosqichlarni o'zida qamrab olib uning ahamiyati respublika miqyosida ekanligi bilan tavsiflanadi. Ammo bunda mamlakat hududlarining imkoniyatlaridan kelib chiqib, sanoat korxonalari quyi tizimiga ta'sir etishi ba'zida salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishini inobatga olib hudud sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini quyi tizimi joriy etish va bunda

shakllanishi, rivojlanishi barqaror bo‘lishi uchun innovatsion obyektlar, innovatsion jarayonlar subyektlari, innovatsion muhit, innovatsion loyihalar to‘rtta asosiy quyi tizim faol ishtirok etishi zarurdir (1-rasmga qarang).




1-rasm: Sanoat korxonalari innovatsion salohiyati tizimlarining o‘zaro ta’siri

Sanoat korxonalari innovatsion salohiyati tizimining elementlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi innovatsiyalarning harakatga keltiruvchi mexanizm elementi sifatida (ilmiy tadqiqot markazlari, kasb-hunar ta’limi muassasalari, loyihalash laboratoriyalari, innovatsion biznes loyihalar va boshqalar), shuningdek, innovatsion muhit, ilmiy va texnik ma’lumotlarini inobatga olish lozim. Ta’kidlash joizki, viloyatda innovatsion obyektlar sifatida sanoat korxonalari sonining ko‘payishi innovatsion jarayonlar subyektlarining infratuzilma korxonalari sonidan ko‘payishi, shuningdek, innovatsion loyihalar hajmining ortishi bilan belgilanadi. Bunday rivojlanish yoki tizimli o‘sish natijasida sanoat korxonalarining innovatsion salohiyat muhiti shakllanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini rivojlanishini ta’minlaydigan yuqori turdagi quyi tizimlarning har biri o‘ziga xos mas’uliyat sohasiga ega. Obyektlar – sanoat korxonalar tizimining korxonalari takror ishlab chiqarish funksiyalarini amalga oshiruvchi asosiy rol o‘ynaydi. Viloyatdagi tarmoqlar, ishlab chiqarish majmualari, turli korxonalar tarmoqlari orasida – obyektlararo makonni tashkil etib, innovatsiyalarni obyektdan-obyektga tarqatishga xizmat qiladi. Innovatsion loyihalar sanoat koroxonalari tizimiga innovatsiya va mobillik elementlarini olib kiradi hamda innovatsion salohiyatni oshishga yordam beradi.

1-jadval: Sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini takomillashtirish yo‘llari

Innovatsion salohiyatni rivojlantirish yo‘nalishlari	Innovatsion salohiyatni rivojlantirish vositalari
Ilmiy tushuncha	Tizimli kompleks rivojlantirsh orqali viloyat sanoat tarmog‘i raqobatbardoshligini oshirish
Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish vositalari	Klasterlar,texnopark,venchur,texnopolis,biznes inkubator,maxsus fondlar
Asosiy innovatsion agentliklar	Ilmiy tadqiqot institutlari, o‘rta maxsus (kollej, litsey, texnikum) muassasalari, universitet va institutlar, ilmiy xodimlar va boshqalar
Rivojlanish darajasini belgilovchi innovatsion hududlar	Sanoat zonalari, erkin iqtisodiy zonalar, tashqi iqtisodiy kompleks va boshqalar

Yuqorida keltirilgan 1-jadval ma'lumotlaridan shuni tahlil qilishimiz mumkinki, respublika hududlaridan kelib chiqib har bir mintaqaning sanoat korxoxnlarini innovatsion salohiyatini rivojlantirish bo'yicha mexanizmni ishlab chiqish kerak. Ammo, ushbu mexanizm orqali biz sanoat korxonalari innovatsion salohiyatini to'laqonli rivojlantira olmaymiz. Chunki keltirilgan mexanizmda innovatsion salohiyatni tashkiliy, iqtisodiy tamonlama to'laqonli rivojlantirish bo'yicha vazifalar ishlab chiqilmagan. Shu bois ham biz olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida sanoat korxoxnlarini innovatsion salohiyatini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish maqsadida innovatsion salohiyatga ta'sir etish omillarni tadqiq etgan holatda takomillashgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm ishlab chiqdik.



2-rasm: Sanoat korxonalarini innovatsion salohiyatini rivojlantiruvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm

Bunda takomillashgan ko'rinishning asosiy elementlari sifatida mexanizmni ishlash jarayonini ichki va tashqi richaklar asosida shakllantirdik hamda innovatsion salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy, raqamli hamda "yashil" texnologiyalarni ta'sir etish jarayonlari inobatga olingan holatda takomillashtirildi (2-rasmga qarang). Ushbu mexanizm samarali ishlashi uchun innovatsion muhit rivojlanishini ta'minlash zarur. Kelajakdagi innovatsiyalarni dastlabki tanlash amalga oshiriladigan sanoat tizimidagi tadbirkorlik raqobat muhitini o'rganish amaliy ahamiyatga ega. Viloyat iqtisodiyotining sanoat va ilmiy-tadqiqot sektorining samarali hamkorligi yoki faoliyatini muvofiqlashtirish muammosi shu kungacha hal qilinmagan. Shu maqsadda biz yuqorida keltirilgan mexanizmni taklif etdik. Ushbu mexanizmni amaliyotga tatbiq etilishi natijasida sanoat korxonlarida innovatsion ishlanmalarning ko'payishi, ilmiy tadqiqotlarni keng joriy etilish hamda yangi turdagi mahsulot va xizmatlarning vujudga kelishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ammo, birgina mexanizmni o‘zi bilan biz sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini to‘laqonli rivojlantiraolmaymiz. Chunki uning asosi bo‘lishini taqozo etadi. Asos esa, hududiy rivojlantirish dasturlari hisoblandi. Demak, sanoat korxonalarining innovatsion salohiyati tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini samarali faoliyatini ta’minlab berishda viloyat miqyosida sohani rivojlantirish dasturlari ishlab chiqish kerak.

Buning uchun hududda o‘rta muddatli istiqbolli sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini rivojlantirish dasturini amalga oshirishning tegishli strategiyasini qabul qilish zarur bo‘lib, unda:

- innovatsion obyektlar, subyektlar, muhit, loyihalarini o‘zaro hamkorligini shakllantirish va imtiyozlar (imtiyozli shartlar) berish hamda import mahsulotlari ishlab chiqarish uchun zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni yaratishni qo‘llab-quvvatlash;
- sanoat koroxonalari innovatsion salohiyati mexanizmini shakllantirish va rivojlantirish, shuningdek, xizmat ko‘rsatish quyi tizimlari yoki infratuzilma elementlarini yaratishda real sektorni rivojlantirishga yo‘naltirish;
- viloyat sanoat tizimining ustuvor ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan hududiy “venchur” investitsiya fondlarini yaratish va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni. –Toshkent sh., 2023-yil 11-sentabr, www.lex.uz
2. Freman C. The national system of innovation historical perpectives. Camprige journal of economics 1995 vol. №19
3. Багудина Е. Г. Экономический словарь / Е. Г. Багудина; под ред. А. И Архипова. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006
4. Мерсон Ф.Л., Макова ЛЛО. Категория “качество” в организации науки // Науковедение и информатика. –1984. – Вып. 25.
5. A.A. Mamatov, T.T. Jo‘rayev, Erkayev A.N. Innovasion iqtisodiyot. –T.: 2019, 456-bet.



MAMLAKATDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Kadirxodjayeva Nilufar Raxmatullayevna
Renessans ta’lim universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada mamlakatda “yashil iqtisodiyot” omillaridan foydalanish imkoniyatlari nazariy tadqiqotlar asosida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy o‘sish, yashil iqtisodiyot, energiya, qo‘shilgan qiymat, barqaror iqtisodiy rivojlanish, inson kapitali.

Abstract: The article presents the possibilities of using green economy factors in the country based on theoretical research.

Key words: economic growth, green economy, energy, added value, sustainable economic development, human capital.

Аннотация: В статье представлены возможности использования факторов “зеленой экономики” в стране на основе теоретических исследований.

Ключевые слова: экономический рост, зеленая экономика, энергетика, добавленная стоимость, устойчивое экономическое развитие, человеческий капитал.

KIRISH

O‘zbekistonda “inson qadrini ulug‘lash” tamoyili asosida iqtisodiyotni barqaror sur’atlarda rivojlantirib borish ustuvor vazifa sifatida belgilanib, bu borada YaIMning aholi jon boshiga ulushini oshirish, inson kapitaliga sarmoyalarning samardorligini ta’minlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Respublikada “...iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish, chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror o‘sishning poydevorini yaratish, strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o‘sish hisobiga erishish” muhim vazifa etib belgilangan. Mazkur vazifalarning ijrosini ta’minlashda iqtisodiyotni inklyuziv o‘sishini ta’minlash yo‘nalishlarini ishlab chiqish, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, inklyuziv rivojlanish borasida maqsadli ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biridir. [1]

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillar tizimini tadqiq qilish jarayoni bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Iqtisodiy o‘sishning sifat jihatlarini o‘rganishga A.Smit, D. Rikardo, J. Mill, J. Shumpeter kabi iqtisodchilarning asarlarida juda katta e’tibor berilgan. Turli rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish sifatining turli nazariy va amaliy jihatlarini faol o‘rgangan xorijiy tadqiqotchilar orasida M.Abramovis, R.Barro, J.Vang, C.Grilixes, M.Daylami, D.Jorgenson, A.Dhareshvar, V.Easterly, D.Kaufmann, J.Kendrick, R.Levin, R.Lopez, M.Mlachila, R.Ranieri, D.Rodrik kabilarning ilmiy tadqiqotlari ahamiyatlidir.

Mamlakatimizda iqtisodiy o‘sish masalalari iqtisodchi olimlardan S.V.Chepel, A.K.Bedrinsev, A.V. Vahobov, N.F.Mo‘minov, G.K.Saidova va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, “sof texnologiyalar”ga nisbatan innovatsion yondashishni kuchaytirish, “yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish muammolari xalqaro iqtisodiy, ekologik, investitsion forumlarda muntazam ravishda muhokama etib kelinmoqda. Milliy iqtisodiyot va eksport tarkibida chuqur qayta ishlangan, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushini oshirishga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omili hisoblanadi. Mamlakat ishlab chiqarish

hajmi va eksporti tarkibida xom ashyo tovarlarining salmoqli o‘rinni egallashi barqaror iqtisodiy rivojlanishga, aholi turmush farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, milliy iqtisodiyotning jahon xom ashyo tovarlari bozori konyunkturasi o‘zgarishlariga qaramligini oshiradi.


O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish ichki va global jarayonlar hamda muammolarni hisobga olishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan barqaror iqtisodiy rivojlanishning yangi, resurslardan samarali foydalanishga asoslangan, innovasion iqtisodiyotga o‘tish izchil tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, “sof texnologiyalar”ga nisbatan innovatsion yondashishni kuchaytirish, “yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish muammolari xalqaro iqtisodiy, ekologik, investitsion forumlarda muntazam ravishda muhokama etib kelinmoqda. “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhitni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan 26 ta tamoyil ishlab chiqilgan. [2]

Yashil iqtisodiyot – bu “odamlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish”ga olib keluvchi iqtisodiyotdir. [3] Mazkur tushunchasining mohiyatini yoritib berishda umumqabul qilingan yondashuvning mavjud emasligi “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi hali shakllanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi.

“Yashil” iqtisodiyot qayta tiklanuvchi energiya, yashil bino-inshootlar, barqaror transport, suv va yer resurslari hamda qattiq maishiy chiqindi boshqaruvi kabi sektorlardan iboratdir.

Dunyo bo‘yicha “yashil” iqtisodiyot samaradorligini baholaydigan Global “yashil” iqtisodiyot indeksi (Global Green Economy Index – GGEI) hamda “Yashil” o‘sish indeksi (Green Growth Index – GGI) kabi xalqaro reyting ko‘rsatkichlari keng qo‘llanilmoqda. GGEI reyting ko‘rsatkichi 2010-yildan boshlab e’lon qilina boshlangan bo‘lsa, oxirgi marta 2018-yilda jami 130 ta mamlakatlar bo‘yicha baholash natijalari taqdim qilingan.



1-rasm: Yashil iqtisodiyot sektorlari

Mazkur indeksda boshqaruv va iqlim o‘zgarishi (leadership & climate change); samaradorlik sektorlari (yefficiency sectors); bozor va investitsiyalar (market & investment); atrof-muhit (yenvironment) kabi 4 ta o‘lchov kategoriyalari bo‘yicha baholanadi. Keyingi keng qo‘llanilib kelinayotgan ko‘rsatkich “Yashil” o‘sish indeksi (GGI) hisoblanadi. Ushbu indeks barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals), Parij iqlim bitimi majburiyatlari, Aichi bioxilma-xillik maqsadlari (Aichi Biodiversity Targets), shuningdek, resurslardan samarali va barqaror foydalanish, tabiat mulklarini himoyalash, “yashil” iqtisodiy imkoniyatlar, ijtimoiy qamrov kabi “yashil” o‘sish yo‘nalishlari bo‘yicha mamlakatlardagi holatni baholaydi. “Yashil” o‘sish indeksi 4 ta maqsadli yo‘nalish, 16 ta kategoriyalar hamda 36 ta indikatorlardan iborat bo‘lib, doimiy tarzda hamda barcha davlatlarni qamragan holda yuritib kelinadi. “Yashil” o‘sish indeksiga ko‘ra, Shvetsiya, Daniya, Chexiya va Germaniya kabi mamlakatlar eng yuqori “yashil” o‘sish ko‘rsatkichlariga ega. Eng quyida esa Zimbabve, Jazoir, Nigeriya va Niger kabi Afrika mamlakatlari o‘rin egallagan. MDH davlatlari ichida Gruziya, Markaziy Osiyo mintaqasida Qirg‘iziston mazkur reyting bo‘yicha yuqori o‘rindagi ko‘rsatkichlarni qayd etgan. O‘zbekiston Osiyo davlatlari ichida 33-o‘rinda qayd etilgan. Mamlakatning mazkur indeksda “Ijtimoiy qamrov” (Social inclusion) hamda “Tabiiy kapital himoyasi” (Natural capital protection) ko‘rsatkichlari nisbatan yaxshiroq bo‘lsa, “Resurslardan samarali va barqaror foydalanish” (Efficient and sustainable resource use), “Yashil” iqtisodiy imkoniyatlar (Green economic opportunities) yo‘nalishdagi ko‘rsatkichlarni yanada yaxshilash imkoniyati mavjud. Shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori

bilan 2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotni ilgari surish va joriy etish bo‘yicha vakolatli organ sifatida esa Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi belgilangan. [4]

O‘zbekiston Respublikasi o‘z rivojlanishida yashil iqtisodiyotni shakllantirishda Yevropa Ittifoqi tomonidan 2010-yil 17-iyunda qabul qilingan Yevropa – 2030 rivojlanish strategiyasini hisobga olishi va uni milliy iqtisodiyot xususiyatlarini inobatga olgan holda qo‘llashi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu o‘rinda ushbu uyushma tomonidan taklif etilgan “yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish maqsadida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni, raqobatbardoshlik va mehnat unumdorligini amalga oshirishga qaratilgan konsepsiyani o‘rganish asosida muvofiqlashtirish o‘ta muhimdir. Ushbu strategiyaga muvofiq 2030-yilga qadar Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga (ITTKI) sarflanayotgan xarajatlar miqdorini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3%ga yetkazish, atmosferaga chiqarilayotgan gazlar miqdorini 1990-yil darajasiga nisbatan 80%ga qadar qisqartirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish darajasini jami energiya iste’molida 20%ga qadar oshirish vazifasi qo‘yilgan (1-jadval).

1-jadval: “Yevropa 2020” rivojlanish strategiyasining asosiy ko‘rsatkichlari [5]

Ko‘rsatkichlar		2010	2015	2020	2025	2030
Bandlik	Bandlik darajasi, 20-64 yoshdagi aholiga nisbatan foiz hisobida	70,3	68,4	69,2	70,1	75,0
Ilmiy-texnika taraqqiyoti va kostruktorlik ishlari	Ilmiy-texnika taraqqiyoti va kostruktorlik ishlari xarajatlarining YaIMdagi ulushi, %	1,84	2,03	2,04	2,03	3,00
Iqlim o‘zgarishi va energetika	Atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlari, 1990=100	90,31	80,26	77,06	...	80
	Qayta tiklanadigan energiya manbalarining jami energiya iste’molidagi ulushi, %	11,0	15,0	16,0	...	20
	Energiya iste’moli, neft ekvivalentida mln tonna	1 693,1	1 569,1	1 507,1	...	1 483
	Pirovard energiya iste’moli, neft ekvivalentida mln tonna	1 180,0	1 106,2	1 061,2	...	1 086
Ta’lim	O‘rta va o‘rta maxsus ta’lim darajasi, % (18-24 yoshdagi aholiga nisbatan)	14,7	11,9	11,2	11.0	<10,0
	Oliy ta’lim darajasi, % (30-34 yoshdagi aholiga nisbatan)	31,1	37,1	37,9	38,7	≥40,0
Kambag‘allik	Kambag‘allik chegarasida yashovchilar, 2008 yilga nisbatan o‘zgarish, ming kishi	...	5506	4753	1696	-20000

Xitoyda 2025-yilga qadar qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan elektr energiya olish ulushini 15%ga (hozirda 9%) yetkazish, iqtisodiyotning uglerod sig‘imkorligini 45%ga qisqartirish rejalashtirilgan. Mutaxassislar fikricha Xitoyda issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish miqdori 2020-yilga qadar ortib borishi, 2030- yildan keyin esa kamayish tendensiyasiga ega bo‘lishi mumkinligini ta’kidlashmoqda. [1]

Ushbu holat Xitoyning ayrim sanoat tarmoqlari, jumladan avtomobilsozlik sanoatining jadal sur’atlarda rivojlanayotganligi bilan yanada murakkablashishi mumkin. Shu bilan bir vaqtda mamlakatda xususiy avtomobillarga ega bo‘lish sur’atlari juda yuqoriligicha qolmoqda. [7]

Qozog‘iston Respublikasida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish konsepsiyasi uch bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilgan: [8]

1) 2013-2020-yy. – resurslardan foydalanishni optimallashtirish va tabiatni muhofaza qilish samaradorligini oshirish, “yashil” infratuzilmani yaratish;
2) 2020-2030-yy. – “yashil” infratuzilma asosida milliy iqtisodiyot tarkibini shakllantirish, qayta tiklanadigan energetika texnologiyalarini rag‘batlantirish va keng miqyosda joriy etish, energiya samaradorligini oshirishning yuqori standartlari asosida inshootlar qurish;
3) 2030–2050-yy. – milliy iqtisodiyotni “uchinchi sanoat inqilobi” tamoyillari asosida rivojlantirishga o‘tish.

McKinsey Global instituti mutaxassislari fikricha, “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar samarasi tufayli jahon iqtisodiyotining energiya sig‘imkorligi 2050-yilga qadar 50%ga qisqarishi yaqin 20 yilda tabiiy resurslarni iste’mol qilish hajmining kamayishi hisobiga 0,9-1,6 trln. dollar mablag‘ tejalishi mumkin.

O‘zbekistonda iste’mol qilinayotgan elektr energiyasining katta qismi (87%) issiqlik elektrostansiyalarida ishlab chiqariladi. Bunda energiya iste’moli tarkibining o‘zagini neft va gaz resurslari tashkil etadi. Tabiiy gaz va neftdan foydalanishning hozirgi darajasi saqlanib qolgan holda ularning zaxiralari tabiiy gaz va neftga bo‘lgan

ehtiyojni 20-30 yil davomida qondirishga yetishi mumkin. Agar milliy iqtisodiyotda iste'mol etilayotgan elektr energiya miqdori 2030-yilga qadar ikki baravarga (50 mlrd. kVt/s) o'sishini e'tiborga oladigan bo'lsak, tabiiy neft va gaz zaxiralarining tugash muddati yanada qisqarishi tabiiy.

Hisob-kitoblar ko'rsatishicha, O'zbekistonda muqobil energiya manbalarining katta imkoniyatlari mavjud. Quyosh energiyasi, kichik daryolar, suv omborlari va kanallar, organik va noorganik chiqindilardan ishlab chiqariladigan biogaz energiyasi bu borada istiqbolli hisoblanadi. O'zbekistonda quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlari juda yuqori. Mamlakatimizda yil davomida quyoshli kunlar soni 320 kundan ortiqni tashkil etadi va quyosh energiyasi miqdori 51 mlrd. tonna neft ekvivalentidan oshib ketadi. Elektr energiyasini ishlab chiqarishda quyosh elektr stansiyalaridan an'anaviy manbalar bilan birgalikda uyg'unlashtirilgan holda foydalanish har yili 1,8 mlrd. kub metr tabiiy gazni tejab qolish imkonini beradi. [9]

Yevropalik mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekistonda bir yilda yillik iste'mol hajmidan 40 baravar ko'p elektrenergiya ishlab chiqarish imkoniyati mavjud va zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga keng miqyosda joriy etish orqali 2030-yilga qadar mamlakat yalpi ichki mahsulotining energiya sig'imkorligini ikki baravarga kamaytirish mumkin.

Milliy iqtisodiyotning energiya sig'imkorligini pasaytirish, qayta tiklanmaydigan uglevodorod resurslaridan oqilona va samarali foydalanish maqsadida qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Muqobil energiya manbalarini joriy etishni rag'batlantirish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qonunchilik bazasini shakllantirish zarur. Yaqin istiqbolda energiyaning muqobil turi sifatida "Muqobil energiya manbalari to'g'risida"gi, "Quyosh energiyasi to'g'risida"gi, "Elektr ta'minoti to'g'risida"gi qonunlarni qabul qilish lozim.

Energiya manbalaridan oqilona foydalanishga qaratilgan tizimli, samarali chora-tadbirlar natijasida yalpi ichki mahsulotning energiya sig'imkorligi kamayib bormoqda. Mamlakatimizda Umumjahon banki guruhi kreditlari hisobidan sanoatda energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan qiymati 125 mln. dollarga teng investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu sohaga yo'naltirilayotgan investitsiyalar energetika tizimlarini yangilash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizasiyalash, qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirishga sarflanmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonning an'anaviy elektroenergetika sektorida energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi 2030-yilga qadar 6,85 mln. tonna neft ekvivalentiga teng miqdorda tabiiy resurslarni tejash imkonini beradi. [9]

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash asosida "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish muammolarini kompleks tahlil etish qator xulosalar qilish imkonini beradi:

- "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini mavafaqqiyatli amalga oshirishdagi asosiy muammo "yashil iqtisodiyot" tushunchasini energiya va resurslarni tejaydigan samarali texnologiyalar, muqobil energetikaga qo'shimcha investitsiyalar kiritish yoki "yashil" o'sish sifatida soddalashtirish hisoblanadi.
- "yashil iqtisodiyot" barqaror rivojlanish o'rnini bosa olmaydi, "yashil iqtisodiyot" barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi mezon hisoblanadi;
- barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni yaxlit, o'zaro bog'liqlikda rivojlantirishni taqozo etadi;
- "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga kabi xususiyatlarga bevosita bog'liq holda ro'y beradi;
- milliy iqtisodiyotning energiya sig'imkorligini ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiyalash, energiya resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish yordamida pasaytirib borish lozim;
- qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishning huquqiy bazasini shakllantirish va takomillashtirish zarur.

Fikrimizcha, quyidagilar "yashil iqtisodiyotga" o'tishning samarali iqtisodiy dastaklariga aylanishi zarur:

- atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyatga qarshi "ekologik" soliqqa tortish tizimini shakllantirish, tabiiy resurslar qiymatini baholash tizimini takomillashtirish va samarasiz subsidiyalardan voz kechish;
- ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi davlat xaridi siyosatini olib borish;
- "yashil iqtisodiyot" infratuzilmasi va tabiiy kapitalni tiklash uchun davlat investitsiyalari miqdorini oshirish;
- ekologik toza texnologiyalar yaratish bilan bog'liq tadqiqotlar va ishlanmalarni davlat tomonidan maqsadli qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish.

“Yashil taraqqiyot”ning drayveri bo‘la oladigan energetika, ilm-fan va innovatsiyalar, turizm kabi sohalarga doir qonunlarimizda nomuvofiqliklar, bir-birini inkor etuvchi jihatlar talaygina. Hujjatlarning o‘zi ham juda ko‘p. Aytaylik, elektr energiyasini iste’molchiga yetkazib berish, narx-navoni belgilash va to‘lovni amalga oshirish mexanizmlari amaldagi an’anaviy tizimga moslab yaratilgan. Muqobil energiya manbalari bilan ishlash imkonini beradigan huquqiy normalar esa mavjud emas. Ikkinchi muhim masala “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda davlat qaysi moliyaviy instrumentlardan foydalanmoqchi ekanini aniqlab olishdan iborat. Chunki dastlabki bosqichda iqtisodiyot tarmoqlariga mo‘may investitsiya kiritishga to‘g‘ri keladi. Bunday yukni davlat budjeti ko‘tarolmaydi, ehtimol, xalqaro donor tashkilotlarga murojaat qilinar. U holda tashqi ko‘mak qanday shartlarda taqdim etiladi? Muhimi, mahalliy benefitsiarlar – aholi, tadbirkorlik va xo‘jalik subyektlari uni qay shaklda olishi mumkin? Biznesda “yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida ishlash uchun rag‘bat va motivatsiya uyg‘otilmasa, davlatning barcha sa’y-harakatlari zoye ketadi. [10]

XULOSA

Bugungi kunga qadar O‘zbekiston atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi o‘n bitta xalqaro konvensiya, bitim va ular doirasidagi yettita ko‘p tomonlama xalqaro shartnomaga qo‘shildi. Mazkur bitim orqali Parij bitimini ratifikatsiya qilgan tomon sifatida 2030-yilga kelib issiqxona gazlari solishtirma tashlanmalarini 2010- yildagi darajaga nisbatan 10 foiz qisqartirish bo‘yicha majburiyat olgan.

O‘zbekistonda 2019–2030-yillarda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish konsepsiyasi qator vazifalarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, energiya samaradorligi ko‘rsatkichini ikki karra oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirish, ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining yigirma besh foizidan ko‘prog‘iga yetkazish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini zamonaviy, arzon va ishonchli energiya bilan ta’minlash ko‘zda tutilgan. Inklyuziv o‘sishdagi “yashil iqtisodiyot” imkoniyatlaridan foydlanish maqsadida sanoat korxonalari infratuzilmasini modernizatsiyalash, energiya samaradorligini 20 foizdan kam bo‘lmagan miqdorga oshirish hamda sof va ekologik xavfsiz texnologiyalar va sanoat jarayonlaridan yanada keng foydalanish hisobiga ularning barqarorligini ta’minlash mo‘ljallangan. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va rivojlantirish nazarda tutilgan bo‘lib, umumiy energiya ishlab chiqarish salmog‘ida ushbu ekologik toza energiya ulushini 12 foizga yetkazish belgilangan.

Adabiyotlar:

1. https://president.uz/uz/lists/view/4057.
2. Декларасиуа Конференсии ООН по проблемам окружаусheй человека среді от 16.06.1972 // Консултант плуис 4012.00.32 2002-2013.
3. Навстречу “зелёной” экономике: пути к устойчивому развитиуи и искорененuуи бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бесса С. И др: YUНЕП/Грид Арендал, 2011. С. 17.
4. https://telegra.ph/Yashil-iqtisodiyotning-global-korsatkichlari-tahlili-03-29
5. http://www.oica.net/category/production-statistiks/2016-statistiks/
6. Захарова Т.В. “Зеленауа” экономика как новій курс развитиуа: глобалній и региоиалній аспекті //Вестник томского государственного университета, №4(16), 2011. С.35.
7. http://www.oica.net/category/production-statistiks/2016-statistiks/
8. Конsепsиуа по переходу Республики Казахстан к “зеленой экономике”. Указ Президента РК от 30 мауа 2013 г. № 577.
9. https://review.uz/oz/post/v-tashkente-obsujden-strategicheskiy-perexod-uzbekistana-k-zelenoy-ekonomike.
10. https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/9449.

BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI O‘ZGARTIRISH



Karabayev Rustam Zafarovich
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, AKT sohasida iqtisodiyot va menejment fakulteti yo‘nalishi bo‘yicha 3-kurs talabasi

Saitkamolov Muxammadxo‘ja Sobirxo‘ja o‘g‘li
Iqtisodiyot fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, AKT sohasida iqtisodiyot va menejment fakulteti dekani

Annotatsiya: Ushbu maqolada blokcheyn texnologiyalarini raqamli iqtisodiyotda qo‘llashning dolzarb mavzusi ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, tadqiqot mavjud tadqiqotlar va nashrlarni tahlil qilish va biznesning turli sohalarida blokcheyndan foydalanish misollarini ko‘rib chiqishga asoslangan. Ishning asosiy maqsadi blokcheyndan foydalanishning qiyinchiliklari va istiqbollarini aniqlash, shuningdek, uning iqtisodiy jarayonlarga ta’sirini baholashdir. Masalan, blokcheyndan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari batafsil ko‘rib chiqiladi, shuningdek, uni samarali amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyotni o‘zgartirish uchun blockchain texnologiyalarining potensiali to‘g‘risida xulosalar va keyingi tadqiqotlar uchun mumkin bo‘lgan yo‘nalishlarni belgilaydi.

Kalit so‘zlar: blokcheyn texnologiyalari, blokcheyn, raqamli iqtisodiyotni o‘zgartirish, raqamli iqtisodiyot, samarali amalga oshirish, iqtisodiy jarayonlar.

Abstract: This article discusses the current topic of the use of blockchain technologies in the digital economy. The study is based on an analysis of existing research and publications, as well as on the consideration of examples of the use of blockchain in various business areas. The main purpose of the work is to identify the challenges and prospects of using blockchain, as well as to assess its impact on economic processes. The advantages and disadvantages of using blockchain are discussed in detail, as well as recommendations for its effective implementation. In conclusion, the conclusions about the potential of blockchain technologies for the transformation of the digital economy and identifies possible areas for further research.


Key words: blockchain technologies, blockchain, transformation of the digital economy, digital economy, effective implementation, economic processes.

Аннотация: В данной статье рассматривается актуальная тема применения блокчейн-технологий в цифровой экономике. Более того исследование основано на анализе существующих исследований и публикаций, а также на рассмотрении примеров использования блокчейна в различных сферах бизнеса. Основной целью работы является выявление вызовов и перспектив применения блокчейна, а также оценка его влияния на экономические процессы. Например, подробно рассматриваются преимущества и недостатки использования блокчейна, а также предлагаются рекомендации по его эффективному внедрению. В заключение выводы о потенциале блокчейн-технологий для трансформации цифровой экономики и обозначает возможные направления для дальнейших исследований.

Ключевые слова: блокчейн-технологии, блокчейн, трансформация цифровой экономики, цифровая экономика, эффективное внедрение, экономические процессы.

KIRISH

Bugungi kunda aksariyat mamlakatlar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga katta qiziqish bildirmoqda va blokcheyn texnologiyasi, xususan, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida rivojlanib, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish infratuzilmasini yaratmoqda. Blokcheyn texnologiyasi turli sohalarda, jumladan, iqtisodiyot va davlat boshqaruvida rivojlanmoqda. Ushbu maqolada blokcheynning tabiati, uning ishlash mexanizmlari va asosiy iqtisodiy jihatlari muhokama qilinadi. Xususan, jamiyat va biznesda blokcheyndan foydalanishning zamonaviy yo‘nalishlari, uning kamchiliklari va afzalliklari, shuningdek, uni amalga oshirish muammolari ko‘rib chiqiladi. Iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlarida texnologiyani joriy etish yo‘nalishlari o‘rganilmoqda.



1-rasm: Blokcheyn texnologiyalarini yuklab olishlar soni[1]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish markazlashtirish, ishonchsizlik va ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning murakkabligi muammolarini hal etishi, shuningdek, iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida shaffoflik, samaradorlik va xavfsizlikni oshirish imkonini beradi.

Bu gipoteza blokcheyn texnologiyalari raqamli iqtisodiyot ishtirokchilari duch keladigan qiyinchiliklarni yengish uchun asosiy vosita bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Uning ta’kidlashicha, blokcheyn markazsizlashtirish, tizimlarning barqarorligi va ishonchliligini ta’minlashi, shuningdek, jarayonlarning avtomatlashtirilishi va samaradorligini oshirishi mumkin. Ushbu gipotezani tasdiqlash yoki rad etish uchun raqamli iqtisodiyotning turli sohalarida blokcheyn texnologiyalarini tadqiq qilish va amaliy sinovdan o‘tkazish talab etiladi. Bu afzalliklar, kamchiliklar, amalga oshirish narxini tahlil qilish, shuningdek, xavfsizlik va tartibga solish masalalarini ko‘rib chiqishni o‘z ichiga olishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Olimlar Styuart Xaber va V. Skott[2] Stometta 1991-yilda blokcheyn texnologiyasini tasvirlab berishdi. Ular raqamli hujjatlarni buzishdan qochish uchun vaqtni belgilash uchun vosita yaratishni maqsad qilgan. Ular himoyalangan zanjir tizimini ishlab chiqdilar. Keyinchalik Merkle daraxtlari texnologiyaga birlashtirilib, zanjirni bir nechta hujjatlarni bir blokka ulash qobiliyati bilan yanada tuzilgan qildi. U ko‘plab ma’lumotlar bloklarini saqlaydi, ularning har biri o‘zidan oldingi blokning bir qismidir. Eng yangi rekord butun rekord tarixini o‘z ichiga oladi. Tizim mukofot sifatida o‘zgartirilmaydigan Hashcash-ga asoslangan tanga olish orqali ishladi. Keyin token foydalanuvchilar o‘rtasida o‘tkazilishi mumkin edi. 2008-yilda Satoshi Nakamoto taqsimlangan daftar nazariyasini ishlab chiqdi. U blokcheyn tizimini dizaynini takomillashtirish orqali o‘zgartirdi. U ishlab chiqqan dizayn hali ham kripto tranzaksiyalari ma’lumotlarini saqlash uchun foydalanilmoqda.

1 http://kras-science.ru/jour/index.php/nk/article/view/71
2 https://cryptomus.com/uz/blog/how-does-a-blockchain-technology-work

TADQIQOT NATIJALARI

O‘qish[3] O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotida blokcheyn texnologiyalari quyidagi usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin:

- **Hujjatlar va qonunchilikni tahlil qilish:** O‘zbekistonda blokcheyn texnologiyalari bilan bog‘liq qonunlar, qoidalar va strategiyalar kabi rasmiy hujjatlarni o‘rganish. Bu davlat va uning blokcheyn rivojlantirish rejalari rasmiy pozitsiyani tushunishga yordam beradi[4].
- **Hukumat loyihalarida blokcheyndan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar:** O‘zbekiston davlat sektorida blokcheyn texnologiyalari allaqachon qo‘llanilgan yoki qo‘llanilishi rejalashtirilgan loyihalar haqidagi ommaviy axborotni tahlil qilish va o‘rganish. Bunga elektron ovoz berish, raqamli identifikatsiya, davlat xizmatlari va boshqalar sohasidagi loyihalar kirishi mumkin.
- **Ekspert intervyulari:** O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotida blokcheynning hozirgi holati va istiqbollarini tushunish uchun davlat amaldorlari, akademik ekspertlar, tadbirkorlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan suhbatlar o‘tkazing.
- **Loyihalar va startaplar tahlili:** O‘zbekistondagi blokcheyn loyihalari va startaplarni o‘rganish, ularning muvaffaqiyati, muammolari, istiqbollari va raqamli iqtisodiyotga ta’sirini baholash. Bu biznes modellari, texnik yechimlar va loyiha natijalari tahlilini o‘z ichiga olishi mumkin.
- **Boshqa mamlakatlar bilan qiyosiy tahlil:** Boshqa mamlakatlar tajribasini o‘rganing, ayniqsa, ularning raqamli iqtisodiyotida blokcheyn texnologiyalarini faol rivojlantirayotgan mamlakatlar. Qiyosiy tahlil O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan afzalliklar, kamchiliklar va saboqlarni aniqlashga yordam beradi.

O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotida blokcheyn texnologiyalari bo‘yicha tadqiqotlar:

1. **Davlat yordami:**

“O‘zbekiston–2030” strategiyasi blokcheyn texnologiyalarini iqtisodiyotning davlat xizmatlari, sog‘liqni saqlash, ta’lim, logistika va boshqalar kabi turli tarmoqlariga joriy etishga qaratilgan.Blokcheyn yechimlarini ishlab chiqish va joriy etish bilan shug‘ullanuvchi Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish markazi tashkil etildi. Kriptovalyutalar muomalasini va kriptobirjalar faoliyatini qonuniylashtiradigan “Kripto aktivlar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

2. **Blokcheyn texnologiyalaridan foydalanishga misollar:**

- **Davlat xizmatlari:** Elektron hujjat aylanishi tizimi: blokcheyn hujjat aylanishi xavfsizligi va shaffofligini ta’minlash uchun qo‘llaniladi. Ko‘chmas mulk huquqini ro‘yxatga olish tizimi: blokcheyn markazlashtirilmagan ko‘chmas mulk reestrini yaratish uchun ishlatiladi. Davlat xaridlari tizimi: Blokcheyn xaridlarning shaffofligi va samaradorligini ta’minlash uchun ishlatiladi.
- **Sog‘liqni saqlash:** Tibbiy yozuvlarni saqlash tizimi[5]: Blokcheyn tibbiy yozuvlarning xavfsizligi va maxfiyligini ta’minlash uchun ishlatiladi. Dori vositalarini kuzatish tizimi: Blokcheyn dori vositalarining kelib chiqishi va sifatini kuzatish uchun ishlatiladi.
- **Ta’lim:** Diplom berish tizimi: Blokcheyn xavfsiz raqamli diplomlarni yaratish uchun ishlatiladi. Hujjatni autentifikatsiya qilish tizimi[6]: Blokcheyn diplom va boshqa hujjatlarning haqiqiyligini tekshirish uchun ishlatiladi.
- **Logistika:** Yuklarni kuzatish tizimi: Blokcheyn ta’minot zanjiri bo‘ylab yuklarning harakatini kuzatish uchun ishlatiladi. Bojxona rasmiylashtiruvi tizimi: blokcheyn bojxona tartib-qoidalarini soddalashtirish uchun ishlatiladi.


3. **Blokcheyn texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari:** Xavfsizlikni oshirish: blokcheyn ma’lumotlarni ruxsatsiz kirishdan yuqori darajada himoya qiladi. Shaffoflikning oshishi: blokcheyndagi barcha tranzaksiyalar o‘zgarmas jurnalda qayd etiladi, bu esa barcha jarayonlarning shaffofligini ta’minlaydi. Xarajatlarni kamaytirish: Blokcheyn biznes jarayonlarini optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Samaradorlikni oshirish: Blokcheyn tezroq tranzaksiyalarni amalga oshirish va operatsion samaradorlikni oshirish imkonini beradi.
4. **Qiyinchiliklar va to‘siqlar:** Ogohlikning yo‘qligi: Ko‘p odamlar va tashkilotlar blokcheyn texnologiyasining afzalliklari haqida bilishmaydi. Infratuzilmaning yetarli emasligi: blokcheyn texnologiyalarini rivojlantirish rivojlangan IT infratuzilmasini talab qiladi.

- **Tartibga solish:** kriptovalyutalar muomalasini va kriptobirjalar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish zarur.

3 O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi (2020). “O‘zbekiston blokcheyn yo‘l xaritasi 2019-2021”, https://invest.gov.uz/storage/files/Blockchain_Roadmap_ENG.pdf
4 https://uzbekistan.gov.uz/uz/o-uzbekistane/natsionalnye-strategii-i-programmy/strategiya-tsifrovoy-transformatsii-2030/
5 https://www.gazeta.uz/ru/2022/08/26/blockchain/
6 https://uzdta.uz/

So‘nggi o‘n yillikda “raqamli iqtisodiyot” tushunchasi ko‘plab mamlakatlarda ilmiy hamjamiyat va amaliy faoliyatda keng tarqaldi.

Iqtisodiy globallashuv sharoitida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi raqamli inqilob va bozor ishtirokchilari uchun axborot rolini yordamchidan asosiy resursga aylantirish uchun asos bo‘ldi.[7]. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ldi: biznes-jarayonlarni raqamlashtirish va sanoat korxonalari, xizmat ko‘rsatish tashkilotlari, davlat organlari va moliya institutlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi iqtisodiy jarayonlar samaradorligini oshirish, raqobatbardoshlikni oshirish, bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi tarmoq o‘zaro ta’siri va bozor ishtirokchilari faoliyati uchun imkoniyatlarni kengaytirish hisobiga sinergik effektlar ko‘rinishida xo‘jalik yurituvchi subyektlarga aniq foyda keltiradi. Bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik va raqamli to‘lov tizimlari va raqamli moliya institutlaridan foydalanish orqali biznes imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ular raqamli to‘lov tizimlari va raqamli pullardan foydalanish orqali biznes imkoniyatlarini kengaytirishni o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalar faol rivojlanayotganiga qaramay, ularning imkoniyatlari, afzalliklari va kamchiliklari hali to‘liq o‘rganilmagan. Nazariyachilar ham, amaliyotchilar ham raqamlashtirish istiqbollari va raqamli texnologiyalarga o‘tish bilan bog‘liq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflar haqida bahslashishda davom etmoqda. Iqtisodiyotning strategik muhim tarmoqlarida, xususan, quyidagi yo‘nalishlarda raqamli texnologiyalarga o‘tish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavflar Blokcheyn texnologiyasi iqtisodiyotning strategik muhim tarmoqlarida, xususan, moliya va bank faoliyatida qo‘llaniladi.



2-rasm: Xalq uchun yaratilgan blokcheyn texnologiyasidan foydalanish misoli[8]

Blokcheyn texnologiyasi biznesning turli sohalarida keng ko‘lamli ilovalarga ega. Turli sohalarda blokcheyndan foydalanishning bir nechta misollarini ko‘rib chiqaylik:

- **Moliyaviy sanoat:** Blokcheyn xavfsiz va shaffof moliyaviy tizimlarni yaratish uchun ishlatiladi. Misol uchun, blokcheyn xavfsiz va tezkor tranzaksiyalarni amalga oshirish, xalqaro to‘lovlarda vositachilarni yo‘q qilish va Bitcoin kabi raqamli valyutalarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin.
- **Ta’minot va logistika:** Blockchain ta’minot zanjirini kuzatish, haqiqiyligini tasdiqlash va tovarlar sifatini nazorat qilish uchun ishlatilishi mumkin. Bu ta’minot zanjirida samaradorlik va ishonchni oshiradi hamda tovarlarni qalbakilashtirish va qalbakilashtirishning oldini oladi.
- **Sog‘liqni saqlash:** Tibbiyot sohasida blokcheyn tibbiy ma’lumotlarni saqlash va almashish, bemorlarning xavfsizligi va maxfiyligini ta’minlash uchun ishlatilishi mumkin. Blokcheyn, shuningdek, tibbiy tadqiqotlar va klinik sinovlarni kuzatish va tekshirishga yordam beradi.
- **Ko‘chmas mulk:** Blokcheyn ko‘chmas mulkni sotib olish va sotish, mulk huquqini ro‘yxatdan o‘tkazish va mulk tarixini tekshirish jarayonini soddalashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Bu firibgarlik xavfini kamaytirishi va ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalarda shaffoflikni oshirishi mumkin.
- **Intellektual mulk:** Blokcheyn patentlar, mualliflik huquqlari yoki savdo belgilari kabi intellektual mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish va himoya qilish uchun ishlatilishi mumkin. Bu isbotlangan mualliflikni aniqlashga va intellektual mulk o‘g‘irlanishining oldini olishga yordam beradi.
- **Ovoz berish:** Blokcheyn elektron ovoz berishni tashkil etish, shaffoflik, xavfsizlik va natijalarni o‘zgartirishning mumkin emasligini ta’minlash uchun ishlatilishi mumkin. Bu saylov tizimiga ishonchni oshirishi va mumkin bo‘lgan manipulyatsiyaning oldini olishi mumkin.

7 https://www.ussc.gov/sites/default/files/pdf/training/annual-national-training-seminar/2018/Emerging_Tech_Bitcoin_Crypto.pdf
8 https://www.gazeta.uz/oz/2022/08/26/blockchain-technology/

Blokcheyn texnologiyasidan foydalanish maqsadi muayyan foydalanish holatiga bog‘liq bo‘lishi mumkin, ammo umumiy ma’noda blokcheyn markazlashtirilmagan, shaffof va ishonchli tizimlarni yaratish uchun ishlatiladi. Blockchain-dan foydalanishning asosiy maqsadlaridan ba’zilari:

- **Markazsizlashtirish:** Blokcheyn sizga markaziy boshqaruvsiz tizimlarni yaratish imkonini beradi, bu yerda boshqaruv tarmoq ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlanadi. Bu tizim xavfsizligi va barqarorligini oshirishi mumkin, chunki bitta nosozlik nuqtasi yo‘q.
- **Shaffoflik:** Blokcheyn shaffoflikni ta’minlaydi, chunki barcha tranzaksiyalar va ma’lumotlar o‘zgarishlari ommaviy taqsimlangan daftarda qayd etiladi. Bu tarmoq ishtirokchilariga boshqa ishtirokchilarning harakatlarini tekshirish va tasdiqlash imkonini beradi, bu esa ishonchni kuchaytiradi va firibgarlikni kamaytiradi.
- **Ishonchlilik va xavfsizlik:** Blokcheyn ma’lumotlar va tranzaksiyalar xavfsizligini ta’minlash uchun kriptografiyadan foydalanadi. Har bir tranzaksiya tarmoq tomonidan tasdiqlanishi va keyinchalik oldingi bloklarga bog‘langan blokda qayd etilishi kerak. Bu ma’lumotlarni o‘zgartirish yoki soxtalashtirishni juda qiyinlashtiradi.
- **Yaxshilangan samaradorlik:** Ba’zi blokcheyn tizimlari jarayonlarni avtomatlashtirish, vositachilarni olib tashlash va tranzaksiyalarni qayta ishlash tezligini oshirish orqali samaradorlikni oshirishi va xarajatlarni kamaytirishi mumkin.

O‘zining afzalliklariga qaramay, blokcheyn texnologiyasining kamchiliklari ham bor:

- **Masshtablilik:** Blokcheyn ko‘p miqdordagi tranzaksiyalarni qayta ishlashda masshtablash muammolariga duch kelishi mumkin. Buning sababi, har bir tranzaksiya tarmoq tomonidan tasdiqlanishi va har bir tranzaksiyani blokda qayd etish zarurati, bu jarayonni sekinlashtirishi mumkin.
- **Energiyani talab qiluvchi:** Ba’zi blokcheynlar, ayniqsa, ish isbotlash mexanizmidan foydalanadiganlar, tranzaksiyalarni tasdiqlash uchun katta hisoblash resurslari va energiya talab qiladi. Bu energiya samaradorligi va ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.
- **Tartibga solishning yo‘qligi:** Blokcheyn texnologiyasi ko‘pincha markazlashtirilmagan muhitda ishlaydi, bu esa ijro etish va tartibga solishni qiyinlashtirishi mumkin. Bu iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, jinoyatchilikni nazorat qilish va tartibga solishga rioya qilish bilan bog‘liq tashvishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Aqlli kontraktlardagi xatolar ehtimoli: blokcheynda ishlaydigan aqlli shartnomalar tajovuzkorlar tomonidan ishlatilishi mumkin bo‘lgan xatolar yoki zaifliklarni o‘z ichiga olishi mumkin. Aqlli shartnomalarni noto‘g‘ri amalga oshirish mablag‘larning yo‘qolishiga yoki tizimning ishlamasligiga olib kelishi mumkin.

XULOSA

Blokcheyn texnologiyalari raqamli iqtisodiyotni o‘zgartirish uchun ulkan salohiyatga ega. Ular biznesning turli sohalarida samaradorlik, ishonchlilik va ishonchni oshirishi mumkin bo‘lgan xavfsiz, shaffof va markazlashmagan tizimlarni yaratish uchun yangi imkoniyatlarni taklif qiladi.

Biroq, blokcheyn sohasidagi taraqqiyot va yutuqlarga qaramay, hal qilinishi kerak bo‘lgan ba’zi texnik, huquqiy va tartibga soluvchi muammolar mavjud. Blokcheynni masshtablash, ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlash, standartlar va me’yoriy-huquqiy bazalarni o‘rnatish va an’anaviy tizimlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish keyingi tadqiqot va ishlanmalarni talab qiluvchi asosiy jihatlardandir.

Keyingi tadqiqot uchun mumkin bo‘lgan yo‘nalishlarga quyidagilar kiradi:

Masshtablash va samaradorlik: Kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar ish unumdorligini yo‘qotmasdan ko‘p sonli tranzaksiyalarni bajara oladigan kengaytiriladigan va samarali blokcheyn protokollarini ishlab chiqishga qaratilishi kerak.

- **Maxfiylik va xavfsizlik:** Blokcheyn foydalanuvchilarning maxfiy ma’lumotlarini himoya qilish uchun ma’lumotlar ishonchliligi va maxfiyligini ta’minlashi kerak. Tadqiqotlar tizim shaffofligini ta’minlagan holda xavfsizlik va maxfiylikni kafolatlaydigan yangi protokollar va algoritmlarni ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lishi mumkin.
- **Integratsiya va o‘zaro muvofiqlik:** Tadqiqotlar blokcheynning an’anaviy tizimlar va tarmoqlar bilan o‘zaro ta’sirini ta’minlaydigan standartlar va protokollarni ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu turli sohalarda blokcheynni amalga oshirishda o‘zaro muvofiqlik va xavfsizlikni ta’minlashga yordam beradi.
- **Huquqiy va tartibga solish jihatlari:** Kelajakdagi tadqiqotlar blokcheynning huquqiy va tartibga soluvchi jihatlarini, jumladan identifikatsiyalash, iste’molchilarni himoya qilish, ma’lumotlarni boshqarish va nizolarni hal qilish kabi jihatlarni ko‘rib chiqishi kerak.
- **Yangi ilovalarni tadqiq qilish:** Blokcheyn texnologiyalari hali nisbatan yangi bo‘lib, tadqiqotlar blokcheyn muhim foyda keltirishi mumkin bo‘lgan yangi dastur sohalarini topishga, shuningdek, blokcheyn asosida innovatsion biznes modellarini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Umuman olganda, blokcheyn texnologiyalari biznesning turli sohalarini o‘zgartirish uchun ulkan salohiyatga ega. Keyingi tadqiqotlar va ishlanmalar mavjud cheklovlarni yengib o‘tishga va raqamli iqtisodiyotda blokcheynning to‘liq salohiyatini ochishga yordam beradi.

Tavsiyalar va blokcheyn texnologiyasi O‘zbekistonda

O‘zbekistonda blokcheyn texnologiyasini rivojlantirishni quyidagi strategiya va tavsiyalar yordamida rag‘batlantirish mumkin:

- **Qulay tartibga solish muhitini yaratish:** O‘zbekiston blokcheyn texnologiyasini rivojlantirish uchun huquqiy himoya va aniqlikni ta’minlaydigan qulay me’yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqishi va joriy qilishi mumkin. Bunga turli sohalarda, jumladan, moliya tizimi, davlat xizmatlari, xaridlar, sog‘liqni saqlash va boshqalarda blokcheyndan foydalanishni tartibga soluvchi shaffof qoidalar va qoidalarni belgilash kiradi.
- **Innovatsiyalar va startaplarni qo‘llab-quvvatlash:** O‘zbekiston blokcheyn startaplari va innovatsion loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan dastur va tashabbuslarni yaratishi mumkin. Bunga moliyaviy yordam ko‘rsatish, inkubatsiya dasturlari, ekspertlar va murabbiylarga kirish, yangi blokcheyn yechimlarini ishlab chiqishni rag‘batlantirish uchun xakatonlar va musobaqalar tashkil etish kiradi.
- **Ta’lim va xabardorlik:** O‘zbekiston ta’lim va blokcheyn texnologiyasidan xabardorlikka sarmoya kiritishi mumkin. Bunga universitet va texnik maktab o‘quv dasturlariga blokcheynni kiritish, seminarlar, treninglar va konferensiyalar tashkil etish, kengroq auditoriya uchun onlayn kurslar va ta’lim resurslarini yaratish kiradi.
- **Xususiy sektor bilan hamkorlik:** O‘zbekiston xususiy sektor, jumladan yirik kompaniyalar va sanoat gigantlari bilan blokcheyn yechimlarini birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirish uchun faol hamkorlikni izlashi mumkin. Bu qo‘shma tadqiqotlar va ishlanmalar, tajriba loyihalari, tajriba almashish va bilimlarni uzatishni o‘z ichiga olishi mumkin.
- **Blokcheynni davlat xizmatlariga integratsiyalash:** O‘zbekiston davlat xizmatlari samaradorligi va shaffofligini oshirish uchun blokcheyndan foydalanishi mumkin. Bu hujjatlarni ro‘yxatga olish va autentifikatsiya qilish uchun yagona raqamli platforma yaratish, ovoz berish tizimini takomillashtirish, ko‘chmas mulkni ro‘yxatga olish jarayonlarini raqamlashtirish[9] va boshqa davlat tartib-qoidalarini o‘z ichiga olishi mumkin.

O‘zbekistonda blokcheyn texnologiyasi foydalanishi bir necha sohada keng tarqalgan. Hukumat, blokcheynning potensialidan foydalanishni o‘z maqsadlari va strategiyalari bo‘yicha ko‘rib chiqadi. Quyidagi sohalarda blokchain texnologiyasi foydalanishini ko‘rish mumkin:

1. **Moliya sohasi:** O‘zbekiston Moliya vazirligi blokcheyn texnologiyasini moliya operatsiyalari, hisob-kitob va omonatlar sohasida qo‘llashni o‘rganmoqda. Blokcheynning avtomatlashtirilgan va to‘liqlikni ta’minlaydigan xususiyatlari moliya tizimini rivojlantirishda yordam berishi kutilmoqda.
2. **Identifikatsiya va xavfsizlik:** Blokcheyn texnologiyasi shaxslarning identifikatsiyasini ta’minlash va ma’lumotlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston hukumati, blokcheynni identifikatsiya sohasida foydalanishni ko‘rib chiqadi va shaxslar uchun xavfsiz identifikatsiya tizimlarini rivojlantirishni rejalashtiradi.
3. **Logistika va to‘lov sistemalari:** Blokcheyn texnologiyasi logistika sohasida ham foydalanish uchun potensialni ta’minlaydi. Logistika va to‘lov tizimlarini avtomatlashtirish, ma’lumotlarni to‘liqligini ta’minlash va transaksiyalarning xavfsizligini oshirish mumkin.
4. **Smart shahar va IoT:** Blokcheyn texnologiyasi Smart shahar (aqlli shahar) va Internet of Things (IoT) loyihalarida foydalanish uchun ham qo‘llaniladi. Ma’lumotlarni ajratib turish, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish, tashqi interfeyslarni optimallashtirish va shahar infrastrukturini boshqarishda blokcheynning imkoniyatlari keng qo‘llaniladi.
5. **Kriptovalyuta bozori:** O‘zbekiston kriptovalyuta bozorini o‘sirishga intilish va kriptovalyuta operatsiyalarini rivojlantirish uchun blokchain texnologiyasidan foydalanishni rejalashtiradi. O‘zbekiston hukumati, kriptovalyuta operatsiyalarini to‘liqligi va xavfsizligini ta’minlash uchun blokchainning imkoniyatlaridan foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘zbekiston, soniya ularning murakkabligi va iste’moli bilan yaxshi tanilgan Blockcheyn texnologiyasiga katta e’tibor beradi. Hozirgi kunda, O‘zbekiston Hukumatining 2018-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida kriptovalyuta va blokcheyn texnologiyalari qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi qonuni bilan, blokcheyn va kriptovalyutalar sohasidagi tartib va imkoniyatlarni belgilash maqsadida to‘liq qonunlar o‘rnatingan.

O‘zbekiston hukumati, blokcheyn texnologiyasini hukumat tizimlarini rivojlantirish, ma’lumotlarni to‘liq muhofaza qilish va tashqi interfeyslarni optimallashtirishning qator muhim vositalaridan biri sifatida ko‘rib chiqadi. Bunda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yilgi qarori bilan “Kriptoaktivalar bozorini rivojlantirishga doir harakatlar strategiyasi” tashkil etildi. Bu strategiya, blokchain va kriptovalyuta sohasidagi loyihalarni rivojlantirish va blokcheynning qo‘llanilishi uchun ko‘rsatmalarni belgilaydi.

O‘zbekistonning bir necha sohada blokcheyn texnologiyasini qo‘llashni rejalashtirganligi ma’lum. Misol uchun, O‘zbekiston Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki blokcheynni kriptovalyuta operatsiyalari, hisob-kitob va omonatlar sohasida qo‘llagan holda, moliya tizimini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etdilar.

Blokcheyn texnologiyasi O‘zbekistonning boshqa sohalarda ham qo‘llanilmoqda. Uning qo‘llash maydonlari o‘zaro almashinuvi, jismoniy shaxslarning identifikatsiyasi, ma’lumotlarning to‘liqligini ta’minlash, aksiyalar va moliyalarni bozorlarda ijaraga berish, tibbiyot sohasi va boshqalar kabi sohalarga keng tarqalgan. Blokcheynning rivojlanishi va kriptovalyutalar sohasidagi faollik O‘zbekistonda yanada o‘sishi kutilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston hukumati o‘zining “O‘zbekiston 2030” strategiyasi doirasida blokcheyn va kriptovalyutalar sohasida rivojlantirish va innovatsiyalarni yuksaltishga katta e’tibor beradi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qo‘lda tutgan qarorlari va harakatlari orqali, blokcheyn va kriptovalyutalar sohasida xalqaro hamkorliklar va investitsiyalar kengaymoqda. O‘zbekiston kriptovalyuta bozorini o‘sirish va blokcheynning qo‘llanilishi yo‘lida katta harakatlar qilmoqda.

Xalqaro hamkorlik: O‘zbekiston boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan tajriba almashish, ilg‘or tajribalarni uzatish va blokcheyn sohasida xalqaro standartlarni yaratish uchun faol hamkorlik qilishi mumkin. Bu O‘zbekistonning global blokcheyn hamjamiyatidagi mavqeyini mustahkamlashga, xorijiy sarmoya va tajribani jalb qilishga yordam berishi mumkin.

Ushbu strategiya va tavsiyalar O‘zbekistonga blokcheyn texnologiyasini rivojlantirishga yordam berishi va mamlakatda raqamli transformatsiyani ilgari surish uchun uning salohiyatidan foydalanishi mumkin. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, ushbu strategiyalarni amalga oshirish davlat organlari, xususiy sektor, ilmiy muassasalar va xalqaro hamkorlar o‘rtasida keng ko‘lamli yordam va hamkorlikni talab qiladi.

Foydalanilgan manbalar ro‘yxati:

1. http://kras-science.ru/jour/index.php/nk/article/view/71
2. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi (2020). “O‘zbekiston blokcheyn yo‘l xaritasi 2019-2021”,https://invest.gov.uz/storage/files/Blockchain_Roadmap_ENG.pdf
3. https://uzbekistan.gov.uz/uz/o-uzbekistane/natsionalnye-strategii-i-programmy/strategiya-tsifrovoy-transformatsii-2030/
4. “O‘zbekiston–2030” strategiyasi https://www.gazeta.uz/ru/2023/09/12/stratery/
5. https://www.gazeta.uz/ru/2022/08/26/blockchain/
6. https://uzdta.uz/
7. https://www.comindware.ru/blog/digital-economy/
8. https://cssrzd.ru/news/blockchein-v-logistike.php
9. https://www.gazeta.uz/oz/2022/08/26/blockchain-technology/
10. https://uz.kursiv.media/2024-01-21/v-uzbekistane-ustanovili-administrativnuyu-otvetstvennost-za-nezakonnuyu-pokupku-kripty/
11. https://uznex.com/

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ZAMONAVIY MEHNAT BOZORINING RIVOJLANISHI

Layli Mirzayeva
Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti Raqamli iqtisodiyot yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat munosabatlari, mehnat bozori xususiyatlari va uning rivojlanishi haqida nazariy ma’lumotlar va zamonaviy mehnat bozorining amaliy jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: mehnat, inson kapitali, mehnat bozori, raqamli iqtisodiyot, an’anaviy ish, virtual ish.

Abstract: This article reveals theoretical information about labor relations, the characteristics of the labor market and its development in the digital economy in our country, as well as the practical aspect of the modern labor market.

Key words: labor, human capital, labor market, digital economy, traditional labor, virtual labor.

Аннотация: В данной статье раскрыты теоретические сведения о трудовых отношениях, характеристике рынка труда и его развитии в условиях цифровой экономики в нашей стране, а также практический аспект современного рынка труда.

Ключевые слова: труд, человеческий капитал, рынок труда, цифровая экономика, традиционный труд, виртуальный труд.

KIRISH

Mamlakatni rivojlantirish sur’atlarini oshirish, milliy iqtisodiyotni cho‘qqilarga chiqarish, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, eng avvalo, har qanday jamiyatning boyligi hisoblangan ishlab chiqaruvchi kuchlarning tarkibiy qismi hisoblangan inson mehnat faoliyatining natijasi bilan bog‘liqdir. Samarali mehnat davlat milliy iqtisodiyotini rivojlantirish sur’atlarini barqaror oshirishning asosi bo‘libgina qolmasdan, u mamlakat aholisining farovon turmush kechirishini ta’minlash va ularga kerak bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish vazifasini ham hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub maqsadi – bu inson farovonligi, uning munosib farovon turmush darajasini ta’minlashdan iborat. Bu esa, o‘z navbatida davlat tomonidan aholining samarali ish bilan band bo‘lishiga barcha shart-sharoitlarni yaratib berishi, shu jumladan, tadbirkorlar uchun qulay biznes yuritish muhiti, investitsiya, soliq siyosati, shaffoflik, sud-huquq tizimining adolatli bo‘lishi kabi omillarga bog‘liq. Chunki mamlakatmizda yaratilayotgan ish o‘rinlarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to‘g‘ri keladi va aynan iqtisodiyotning taraqqiyoti kichik va o‘rta biznesning rivojlanishi bilan bog‘liq. Mamlakatimizda boshlangan tub islohotlarning asosini “O‘zbekiston Respublikasining 2021–2030-yillarda aholi bandligiga ko‘maklashish strategiyasi”, O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonuni, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tashkil etadi va unda aholining ish bilan bandligi masalasi alohida o‘rin tutadi. Mamlakatimizda demografik holatning keskinligi, aholi sonining yuqori sur’atlarda o‘sishi va har yili 500 mingdan ortiq yoshlarning mehnat bozoriga kirib kelishi aholining barqaror ish bilan bandligi masalasini o‘ta dolzarb qilib qolmoqda[1].

Hozirda mamlakatimizning istiqbolini belgilab beruvchi hujjatlarda raqamli va bilimga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularning kompetensiyasini rivojlanishi, izchil va uzluksiz rivojlanishini hamda aholining samarali ish bilan bandligini, aholi va davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlarni, jumladan, mehnat munosabatlarini raqamli elektron platformalar yordamida amalga oshirishni nazarda tutadi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ILOVA. 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Yigirma birinchi asrning ikkinchi o‘n yilligidan boshlab kompyuterlashtirish, 3D texnologiyalar, sun’iy intellekt, robot texnikasi va mehnatning boshqa zamonaviy vositalari, yangi texnologiyalarning rivojlanishi o‘ziga xos ahamiyatga ega. Shu tufayli an’anaviy xizmat ko‘rsatish, savdo, boshqarish sohalaridagi faoliyat turlari, ta’lim, san’at, huquqshunoslik, kommunikatsiya-aloqa tarmoqlarida ish bilan bandlikning shakllari tubdan o‘zgarib bormoqda. Natijada avvalgi industrial jamiyatdan yangi, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish kuzatilmoqda. Buning natijasida turlicha xususiyatlarni tarmoq va sohalarda ko‘rish mumkin:

- tarmoq va sohalarda juda ham samarali sanoat, bilimlar industriyasi, yalpi ichki mahsulot hajmida yuqori sifatli va innovatsion xizmatlarni qamrab olgan innovatsion sektor ustunlik qila boshladi;
- tarmoq va sohalarda miqdor jihatdan o‘sishdan ko‘ra ko‘proq sifat jihatdan yangi innovatsion o‘zgarishlarga moyillik sezilarli darajada o‘zgara boshladi;
- tarmoq va sohalarda faoliyatning barcha turlarini keskin raqobat qamrab olgan;
- “mehnat” omili “inson kapitali” tomon o‘zgarmoqda, bu – zamonaviy mehnat bozorida yuqori malakaga, ijodiy va ilmiy salohiyatga ega xodimlarga talabni kuchaytirmoqda.

Zamonaviy mehnat bozorining eng yangi nazariyasi 2010-yilda iqtisodiyot sohasida Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan uch iqtisodchi olim – amerikalik Piter Daymond va Deyl Mortensen hamda Buyuk Britaniya Akademiyasining a’zosi Kristofer Pissarides tomonidan ilgari surildi. Agar Piter Daymond va Deyl Mortensen ba’zan mehnat bozorida bo‘sh ish joylari ko‘p bo‘lganda ham ishsizlik paydo bo‘ladi, degan xulosaga kelgan bo‘lsalar, Kristofer Pissarides o‘zining inqilobiy nazariyasi – ishsizlar ish joyini qancha faol qidirsalar, shuncha ko‘p ish joylari yaratilishini asoslab berdi[2].

Zamonaviy mehnat bozori mavzusiga oid turli xorijiy nazariyalar qatorida MDH davlatlari va O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlarining tadqiqotlari ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Mehnat bozorini aholining ish bilan bandligi siyosatini amalga oshirish orqali tartibga solishga nisbatan turlicha yondashuvlarga, eng avvalo, “ish bilan bandlik sohasi” va “mehnat bozori” tushunchalariga asoslanadi[3].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlarning e’tiroficha: “Mehnat bozori – ishga qobiliyatli aholining faol (ish bilan band va mehnatga muhtoj aholi) qismi bilan ish beruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlaro tartibga soluvchi, “mehnat qobiliyati”ni sotish-sotib olishni amalga oshiruvchi hamda ishchi kuchiga talab va taklif o‘rtasidagi nisbatlarni bevosita barqarorlashtiruvchi ko‘p omilli, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tizimidir”[4].

Mahalliy iqtisodchi olimlar D.N.Rahimova, G.Q.Abdurahmonova, Sh.R. Xolmo‘minovlar ish bilan bandlik va mehnat bozorini makroiqtisodiyot bilan bog‘liq holda tadqiq etish zarurligini uqtirishadi. Ish bilan bandlik va mehnat bozori umumiy makroiqtisodiy tizimning bir-biri bilan bog‘liq elementlaridir. Shuning uchun ish bilan bandlik va mehnat bozorining hozirgi davrdagi muammolarini o‘rganish mazkur konsepsiyaga asoslanishi kerak, deb hisoblaydilar[5].

Shunday qilib, ish bilan bandlik makro, shuningdek, mikrodarajadagi (bevosita korxonalarda, ishlab chiqarish sohasi va bozorda) ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning turli shakllarini o‘zida mujassamlashtirgan ijtimoiy umumiqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Shu ma’noda biz ish bilan bandlikka oid nazariyalarni umumlashtirgan holda, ish bilan bandlikni jismoniy shaxslarning qonunga zid bo‘lmagan, ularning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq, ularga ish haqi yoki mehnat daromadi keltiradigan faoliyat, shuningdek, bunda mehnat bozorida ish kuchiga talab va taklifning miqdor hamda sifat jihatdan mutanosibligi darajasini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning paydo bo‘lishi, deb baho beramiz.

TADQIQOTNING USULLARI

Ushbu maqolani yozishda qiyosiy statistik tahlil, statistik guruhlash, ilmiy va mantiqiy fikrlash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mehnat bozorida olib borilgan tadqiqotlar hozirgi davrda ish bilan bandlikda jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘layotganligidan dalolat beradi. Eng avvalo, ish kuchining mobilligi ortib bormoqda. Korxonalarda tobora ko‘proq xodimlar ishdan bo‘shayotgani holda, yangi xodimlarni yollash ham ortmoqda. Shu bilan birga zamonaviy

2 Kalandar Abdurahmonov.Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Kalandar Abdurahmonov. T.: O‘zbekiston. Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2019


3 Kalandar Abdurahmonov.Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Kalandar Abdurahmonov. T.: O‘zbekiston. Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2019

4 Kalandar Abdurahmonov.Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Kalandar Abdurahmonov. T.: O‘zbekiston. Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2019

5 Kalandar Abdurahmonov.Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Kalandar Abdurahmonov. T.: O‘zbekiston. Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2019

malaka va bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassislarga talab muttasil ortib bormoqda. Xodimlaming mehnat sharoitlari ham tubdan o‘zgarmoqda. Masofada turib ishlash, teleish, muayyan loyiha doirasida shartnoma asosida mehnat faoliyatini amalga oshirish tobora ommalashib bormoqda. Bu esa ko‘p jihatdan raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq.

Raqamli iqtisodiyotning jamiyat hayotiga keng kirib kelishi barcha sohalarda mehnat faoliyatida AKTdan foydalanish natijasida “haqiqiy” va “virtual” dunyo bilan uzviy bog‘lanish sharoitida bo‘lishni taqozo etmoqda. Keng qamrovli ulanish tufayli hatto masofa ham ish bilan bandlikni ta’minlashda muammo bo‘lmay qoldi. Raqamli iqtisodiyot nafaqat bilimga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish, mehnat bozorida intellektual, yuqori malakali, bilimli kadrlarga bo‘lgan talabning ortishi, balki, mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishdagi ahamiyati va asoslarini O‘zbekistonda qabul qilingan quyidagi hujjatlarda ko‘rish mumkin. (1-rasm).



Raqamli O‘zbekiston–2030 strategiyasi	2030- Barqaror rivojlanish sohasida milliy maqsad va vazifalar	2021–2030-yillarda aholi bandligiga ko‘maklashish strategiyasi	2022–2030-yillarda O‘zbekistonni innovatsion rivojlanish strategiyasi	O‘zbekistonning 2035-yilgacha rivojlanishi strategiyasi konsepsiyasi
Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni shakllantirish	Samarali va munosib bandlikni oshirish	Rasmiy va barqaror bandlikni kengaytirish	Inson kapitalini rivojlantirish	Yuqori iqtisodiy o‘qish va o‘rta sinfning shakllanishi

1-rasm: Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat munosabatlarini rasmiylashtirish asoslari

Raqamli iqtisodiyotda robot texnikasi va sun’iy intellekt kabi zamonaviy texnologiyalar orqali ish joylari avtomatlashtirilmoqda, ishlab chiqarish tubdan takomillashyapti, buning natijasida, mehnat unumdorligi keskin ortishi bilan birga, ushbu jarayonlar butun jahon mehnat bozoriga kuchli ta’sirini ko‘rsatmoqda. “McKinsey-MGI” global instituti ekspertlarining fikricha, raqamli texnologiyalar yaqin 20 yil ichida hozirgi paytda ishlab chiqarishda xodimlar ishtirokida bajarilayotgan operatsiyalarning 50 % ga yaqinini avtomatlashtirish imkonini beradi[6].

Ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi bugungi kunda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun o‘rta malaka talab qilinadigan ish joylariga ham ta’sir ko‘rsatishi shubhasizdir. Oqibatda ana shu toifa xodimlaming anchagina qismi qisqartirilishi talab qilinadi. So‘nggi ma’lumotlarga muvofiq, jahonda 192,7 mln kishi ishsiz, mehnatga layoqatli aholining 30 dan 45 % gachasi ish izlayotganligi yoki qisman ish bilan bandligi, deyarli 75 mln yoshlar rasman ishsiz sifatida ro‘yxatga olinganligi hisobga olinsa, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarining ishlab chiqarishga keng joriy etilishi jahon mehnat bozoriga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi shubhasizdir[7].

Hozirgi globallashuv jarayonida ko‘pincha tashkilotlarda ishlaydigan xodimlar yangi innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirishni istamaydilar yoki ular buni zarurat tufayli qiladilar. Tashkilot rahbarlari o‘z xodimlarini innovatsiyalarni faol o‘rganishlari maqsadida doimo o‘qish va malakasini oshirish yoki qayta tayyorlashga yuborishadi. Xodimlarning ko‘pchiligi qayta o‘qitilgandan keyin korxona tashkilotda rivojlanishni kuzatish mumkin. Zamonaviy mehnat bozori juda tez o‘zgarib borayotganini hisobga olib, kasblarga qiziqish yetarlicha tez o‘zgarmoqda. Hozirgi kunda an’anaviy va noan’anaviy(virtual) ish faoliyat ajratilib ko‘rsatiladi va ularning xususiyatlarini ham aytib o‘tish lozim. Noan’anaviy(virtual) ish bandlikda ijtimoiy-mehnat munosabatlari an’anaviylardan quyidagilar bilan farqlanadi:

- ijtimoiy-mehnat munosabatlari subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar hamkorlik, sheriklik xususiyatiga ega bo‘ladi. Chunki xodim mehnat faoliyatini ish beruvchidan masofada turib amalga oshiradi;
- xodimlar rahabariyat tomonidan nazorat qilinmaydi, mustaqil qarorlar qabul qiladi, o‘z mehnatini mustaqil tashkil etadi;
- ish vaqtidan foydalanishda xodimlar katta erkinlikka ega, ular o‘z ish vaqtlarini mustaqil rejalashtiradi. Masofada turib ishlashda an’anaviy ish joyi xususiyatida ham jiddiy o‘zgarishlar ro‘y beradi. (2-jadval)[8].

6 Measuring the Digital Economy/A new perspective // http: //ec.evropa. eu/eurostat/documents
7 Technology, jobs, and the future of work // http: // www.mckinsey. com
8 Kalandar Abdurahmonov.Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Kalandar Abdurahmonov. T.: O‘zbekiston. Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2019. 513-bet

2-jadval: An’anaviy va virtual ish joylarining xususiyatlari

Xususiyatlar	An’anaviy ish joylari	Virtual ish joylari
Amal etish vaqti	Doimiy, barcha xodim lar uchun bir xil masalan 9 dan 18 gacha	Xodim uchun eng maqbul vaqtda
Ish o‘rnining joylashishi	Qoida bo‘yicha, korxonada, tashkilotda va muassasa doirasida	Xodim uchun qulay vaqtda
Amal etish muddati	Asosan uzoq muddatli	Asosan qisqa muddatli
Ish beruvchi	Asosan bitta	Ko‘pincha bir nechta
Mehnatga haq to‘lash shakli	Vaqtbay va soatbay	Soatbay

Raqamli texnologiyalar zamonaviy mehnat bozoriga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aytib o‘tish lozim. Birinchi navbatda, “raqamli iqtisodiyot” ish haqi darajasi yuqori bo‘lgan yangi ish joylarining yaratilishiga xizmat qiladi. Buni, jumladan, AQShning “GE” mashinasozlik kompaniyasi misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Ushbu kompaniya 2020-yilgacha bo‘lgan davrda raqamli texnologiyalardan foydalaniladigan jahondagi eng yirik o‘nta kompaniya qatoridan o‘rin olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. “GE”, jumladan, dasturchi xodimlarining sonini 20 ming kishiga yetkazishni rejalashtirmoqda. Buni mashinasozlik sohasida misli ko‘rilmagan inqilobiy strategiya sifatida baholash mumkin[9].

O‘zbekistonda ham aholini masofaviy ish bilan ta’minlash istiqbollari katta. Shuning uchun, eng avalo, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal rivojlan tirish choralari ko‘rilmoqda. 2023-yilning o‘zida mamlakatda Internetdan foydalanuvchilar soni ikki baravarga ortdi va 26,7 mln kishini tashkil etdi. Mintaqalarda 18,3 mingta baza stansiyalari o‘rnatilgan. “Elektron hukumat” faoliyati kuchaytirilib, u orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlar turlari va hajmi muttasil ortib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyot davrida mehnat bozori bo‘yicha zamonaviy bilimga, axborotga ega bo‘lish juda muhim hisoblanadi. Chunki turli tarmoq va sohalarda o‘z ishini yuritayotgan korxonalar faoliyatidagi samarali bandlikni ta’minlash ular uchun zamonaviy ishchi kuchi bilan ta’minlash dolzarb hisoblanadi. Shunday ekan, mehnat bozori infratuzilmasi shakllanishi va rivojlanishining muhim shart-sharoiti, vositasi bo‘lib, uning subyektlari o‘rtasidagi aloqalarni ta’minlovchi mehnat bozori axborot tizimini shakllantirishdan iboratdir. Raqamli iqtisodiyot zamonaviy mehnat bozorida mehnat unumdorligini oshirishga olib keladi, raqamli texnologiyalar xodim malakasining taqdim etilayotgan ish joyiga to‘liq va aniq muvofiq bolishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, u ishsizlikni kamaytiradi, chunki xodimga axborot texnologiyalardan foydalangan holda o‘zi uchun ish topish muddatini keskin qisqartiradi. Raqamli texnologiyalar avval mehnat bozorida mavjud bo‘lmagan kasb va mutaxassisliklarni ham yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2021–2030-yillarda aholi bandligiga ko‘maklashish strategiyasi”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ILOVA. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 16.09.2021-yildagi PQ- 5245 son qarori.
5. Abduraxmonov Q.X., Shoyusupova N.T. Aholini ish bilan bandligi. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2011. – 291 b.
6. Kalandar Abdurahmonov.Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Kalandar Abdurahmonov. T.: O‘zbekiston. Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2019
7. Xolmo‘minov Sh.R., Xolmurodov S.E. Mehnat bozori iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2013. – 228 b.
8. Xolmo‘minov Sh.R. Mehnat bozori iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasm adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2004. – 144
9. Measuring the Digital Economy/A new perspective // http: //ec.evropa. eu/eurostat/documents
10. Technology, jobs, and the future of work // http: // www.mckinsey. com
11. World employment and social outlook, http: // www.ilo.org

9 World employment and social outlook, http: // www.ilo.org



XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH MEXANIZMLARI

Luiza Komilovna Xaydarova
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda investitsion resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarining muammolar ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish, iqtisodiyot, investitsiya, resurs, bozor, moliya-kredit, samaradorlik, innovatsiya, model, kadr, transport, axborot-kommunikatsiya.

Abstract: This article shows the problems of the mechanisms of effective use of investitsion resources in the development of the service sector.

Key words: service, economy, investment, resource, market, finance-credit, efficiency, innovation, model, Frame, Transport, Information Communication.

Аннотация: В данной статье показаны проблемы механизмов эффективного использования инвестиционных ресурсов в развитии сферы услуг.

Ключевые слова: сервис, экономика, инвестиции, ресурс, рынок, финансы и кредит, эффективность, инновации, модел, персонал, транспорт, инфокоммуникации.

KIRISH

Jahonda globallashuv jarayoni chuqurlashib va iqtisodiyotni raqamlashtirish kuchayib borayotgan sharoitda xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini jadal rivojlantirilishiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. “Jahon yalpi ichki mahsulot hajmida mazkur sohaning salmog‘i o‘rtacha 65 foizni tashkil etgan holda, mazkur ko‘rsatkich AQShda 80 foizni, Yevropa Ittifoqi davlatlarida 70–75 foizni tashkil etadi”[1]. AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi jahonning rivojlangan davlatlari amaliyotidagi tajribasiga asosan, inson salohiyati taraqqiyotiga istiqbol maqsadlaridan biri sifatida yondoshilgan iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish maqsadida keng ko‘lamda foydalanilayotganligini ko‘rsatmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va aholi turmush darajasini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Xizmat ko‘rsatish sohasi milliy iqtisodiyotimizda ulkan strategik ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalarni bajarishda muhim tarmoqlardan hisoblanadi. “....Raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish, turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan, dasturiy ta’minotlar va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 milliard AQSh dollariga yetkazish” vazifalar belgilab berilgan[2].

Bu boradi xizmat ko‘rsatish sohasida xizmatlar turini kengaytirish va sifatini oshirish, xizmat ko‘rsatish sohasini iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, xizmatlar bozori salohiyatidan iqtisodiy o‘sish sifatida samarali foydalanishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlarni ustuvor amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1 https://ru.theglobaleconomy.com/rankings/share_of_services/
2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xizmat ko‘rsatish va servis sohasi rivojlanishining ilmiy-metodologik jihatlari ko‘plab xorijlik olimlar I.A.Deryugin [1] va boshqalar tomonidan tatbiq qilingan. Ushbu muammolarni o‘rganishga O‘zbekistonlik olimlardan M.M.Muxammedov [2], M.Q.Pardayev [3], R.X.Ergashev [4] J.R.Zaynalov [5], Q.J.Mirzayev, T.S.Sharipov, Sh.A. Sultonov [6], Sh.A.Atamuradov [7] va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

O‘zbekistonda bu sohada boshqa iqtisodchi olimlar ham samarali ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va olib borishmoqdalar. Biroq Respublikada xizmatlar sohasi masalalari tarkibiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda yondoshilgan, bu jarayonlarning xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda investitsion resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarining muammolarini aks ettiruvchi ilmiy tadqiqotlar olib borilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Analiz va sintez, induksiya va deduksiya, ko‘p omilli va dinamik taqqoslash, davriylashtirish, iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlarimizning natijalari investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyati to‘g‘risida iqtisodchi olimlar o‘rtasida xilma-xil fikrlar mavjud degan xulosaga kelishga asos bo‘ldi. Shunday qilib, “investitsiya” deganda kelgusida daromad (foyda) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida qonun doirasida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va boshqa sohalariga investorlar tomonidan qo‘yiladigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intekllektual boyliklar tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, investitsiyalar – mulkchilikning har xil ko‘rinishlaridagi moddiy moliyaviy va nomoddiy boyliklarni ijtimoiy-iqtisodiy yoki samara (daromad) olish maqsadida muomalaga kiritishdir.

Nazariy izlanishlarimiz investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyati to‘g‘risida iqtisodchi olimlar o‘rtasida xilma-xil fikrlar mavjud degan xulosaga kelishga asos bo‘ldi. Shunday qilib, “investitsiya” deganda kelgusida daromad (foyda) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida qonun doirasida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va boshqa sohalariga investorlar tomonidan qo‘yiladigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intekllektual boyliklar tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, investitsiyalar – mulkchilikning har xil ko‘rinishlaridagi moddiy moliyaviy va nomoddiy boyliklarni ijtimoiy-iqtisodiy yoki samara (daromad) olish maqsadida muomalaga kiritishdir.

Jahonda aholi turmush farovonligini aniqlovchi xizmat ko‘rsatish soha obyektlarini bunyod qilish, ularni saqlab turishga qilinadigan xarajatlarga har yili katta miqdordagi mablag‘lar sarflanadi. Bunday sarf-xarajatlar muqarrar hisoblanadi. Tadqiqotlarimizning natijalari xorijiy davlatlarda investitsiyalarni qo‘llash sohalari va yo‘nalishlari xizmat ko‘rsatish iqtisodiyotining turli xil tarmoqlarida realizatsiya qilinishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bular quyidagilar:

- transport – turli yo‘nalishdagi transport tarmoqlarini (xususan, shahar transporti) o‘z ichiga qamrab olib, yo‘l harakatini boshqarish tizimini qurish, xizmat ko‘rsatish, joriy etish kabi loyihalar;
- uy-joy va kommunal xo‘jaliklari;
- aholiga xizmatlar ko‘rsatish;
- kommunal xo‘jaliklar tarmoqlarini ekspluatatsiya qilish;
- ko‘chalarni tozalash, axlat va chiqit tashib ketish hamda utilizatsiya qilish;
- ekologiya sohasi – tabiiy resurslardan foydalanish va ekoturizmni rivojlantirish asosida daromadga ega bo‘lish huquqini qo‘lga kiritish orqali hududlarda bog‘lar yaratish, ularga xizmat ko‘rsatish va kengaytirish;
- ko‘chmas mulk sohasida – tijorat loyihalarida qatnashish va binolar qurish, ijtimoiy binolar va munitsipal uy joylar qurish hamda ularni ishga tushurish;
- jamoat (ijtimoiy) tartibi va xavfsizligi sohasida – xususiy korxonalar xizmat, transport va jamoat joylarida tartibni saqlash; to‘xtash joylarini tashkil etish hamda xizmat ko‘rsatish;
- telekommunikatsiya sohasida;
- xizmat ko‘rsatish sohasini shakllantirish va iste’molchilarga xizmatlarni taqdim qilish;
- moliya-kredit sohasida – majburiy ijtimoiy sug‘urta va davlat pensiya ta’minoti sohasiga boshqaruv kompaniyalarini jalb qilish;

- ta’lim sohasida – binolar qurish va tutash bo‘lgan hududlarni rivojlantirish huquqiga ega xususiy kompaniyalar va firmalar tomonidan maktab va boshqa ta’lim muassasalari qurish va ularni jihozlash.

Tahliliy statistik ma’lumotlar va xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishni istiqbol ko‘rsatkichlariga nazar tashlasak, jahondagi mamlakatlar aynan xizmat ko‘rsatish sohasiga katta e’tibor berib kelmoqda (2-jadval).

1-jadval: Jahondagi mamlakatlarning xizmat ko‘rsatish sohasiga qilinadigan investitsiyalari dinamikasi, trln. dollarda [8]

Mintaqalar	2018-y.	2025-y.	2030-y.	2035-y.	2040-y.
Dunyo bo‘yicha	2,6	2,9	3,2	3,5	3,7
Shundan:					
Osiyo	1,5	1,7	1,9	2,1	2,3
Shimoliy va Janubiy Amerika	0,5	0,5	0,6	0,6	0,6
Yevropa	0,5	0,5	0,5	0,6	0,6
Afrika	0,1	0,2	0,2	0,2	0,2

Ma’lumki, jahonda, xususan, rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish sohasiga investitsiyalar xususiy sektor hamkorligida amalga oshiriladi. Xususan, Dunyoda 2018-yilda xizmat ko‘rsatish sohasiga obyektlariga investitsiyalar 2,6 trillion dollarni tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkichning istiqbol parametrlariga nazar solsak, 2040-yilga borib 42,0 foizga oshishi va 3,7 trillion dollarga yetishi kutilmoqda (2-jadval).


Jamoat manfaatlarini himoya qilish uchun milliy iqtisodiyotning ijtimoiy ahamiyatga ega va rivojlanishi sust bo‘lgan tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlat yoki mahalliy hokimiyati va xususiy sektor o‘rtasidagi qonuniy va institutsional munosabatlar tizimidir. Ushbu tizimning asoslari teng huquqlilik, oqilona hamkorlik, risklarni va daromadlarni adolatli taqsimlash, davlat va xususiy sektorning sa’y-harakatlari birlashuviga asoslangan bo‘ladi.

2-jadval: Xizmat ko‘rsatish sohasini asosiy tarmoqlariga yo‘naltirilgan global investitsiyalar hajmi, mlrd. dollarda [9]

Xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlari	2018-y.	Jamiga nisbatan % da	2030-y.	2040-y.
Transport sohasiga	1292,8	49,6	1664,2	1943,7
Energetika	850,3	32,6	1060,5	1232,8
Axborot-kommunikatsiya sohasiga	273,6	10,5	319,1	359,2
Suv va suv ta’minoti	188,8	7,2	236,4	277,1
Jami:	**2605,5**	**100**	**3280,2**	**3812,8**

2-jadval ma’lumotlari jahondagi davlatlar sohasining asosiy tarmoqlarida 2,6 trln. AQSh dollari miqdorida investitsiyalar ajratilgan bo‘lsa, ulardan 49,6 foizi (1292,8 mlrd. AQSh dollari) bevosita transport tarmog‘iga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, energetika, axborot-kommunikatsiyalari tarmoqlari va suv ta’minoti tizimiga muvofiq holda 32,6 foiz, 10,5 foiz va 7,2 foizini yoki 1312,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilmoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda infratuzlma bozorlarini o‘rganuvchi The Global Infrastructure Hub tashkiloti tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, 2030 yilda soha obyektlariga investitsiyalar hajmi 2018-yilga nisbatan 26,0 foizga yoki 3,3 trln. AĶSh dollari hajmida mablag‘lar yo‘naltirilishi aytilgan. Bu ko‘rsatkich 2040-yilda 3,813 trln. AQSh dollariga etishi prognoz qilinmoqda.

Keyingi yillarda iqtisodiyoti ustun rivojlangan Garb mamlakatlarida innovatsion jarayonlar ilm-fan va bilimning kuchli ta’siri ostida shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Iqtisodiy taraqqiyotda yangiliklarni yaratish va ularni amaliyotga joriy etishda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bularning xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda investitsion resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini shakllantirishni, yanada aniqroq qilib aytganda barchasi innovatsion jarayonlarning yangicha tarmoqli modelini (Systems integration and networking model) qo‘llashni taqozo etadi (1-rasm). Ushbu modelda investitsiyalar innovatsion jarayonning barcha bosqichlarida integratsiyalashgan ishtirokchilarning ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.



1-rasm: Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda investitsion resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini tarmoqli modeli[3]

Nazariy izlanishlarimiz natijasida olgan muhim ilmiy natijalardan yana biri shuki, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda investitsion resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini tarmoqli modeli nafaqat salmoqli iqtisodiy, balki yuqori ijtimoiy samara ham beradi. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish jamiyat uchun ham, tarmoq uchun ham, uning tarkibidagi alohida korxona, tashkilot va kompaniyalar uchun ham katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Bizningcha, jamiyat darajasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ijtimoiy ahamiyati, birinchi navbatda, aholi bandligini oshirish bilan belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda investitsion resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosaga kelindi va bular quyidagilardan iborat:

Xorijiy tajriba asosida bir qator mamlakatlarning xizmat ko'rsatish sohasini investitsiyalashga sohani rivojlantiruvchi asosiy omil ekanligi sifatida qarash lozim, degan muhim xulosaga kelindi. Innovatsion investitsiyalarga investorlarning qiziqishi pastligining asosiy sabablari risk darajasining yuqoriligi hamda innovatsion loyihalar qiymatining an'anaviy investitsion loyihalarga nisbatan ancha balandligi bilan izohlanadi. Ushbu yondashuv "xizmat ko'rsatish sohasini iqtisodiy mexanizmi"ni shakllantirishda nafaqat masalaning iqtisodiy, balki, moliyaviy, ma'muriy-huquqiy va boshqa jihatlarini ham takomillashtirishga undovchi zaruriyat hisoblanadi. Bizning nazarimizda, O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan turizmni jadal rivojlantirish va uni milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirish konsepsiyasini hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etishning eng murakkab va og'ir bo'g'ini – bu investitsion resurslar ta'minotidir. Bizning ushbu qat'iy xulosamizning boisi shundaki, iqtisodiy o'sishga qaratilgan har qanday ijobiy konsepsiyani amalga oshirishning ikkita asosiy sharti bor: konsepsiyani amalga oshirish imkoniyatlari, ikkinchisi esa uni amalga oshirish zarur bo'lgan moliyaviy resurslarning mavjudligi. O'zbekistonda xizmatlar sohasini tez sur'atlar bilan rivojlantirish uchun yetarli darajada iqtisodiy salohiyat va qulay sharoitlar mavjud. Lekin mamlakatda xizmatlar sohasini tez sur'atlar bilan rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda kerakli investitsion resurslarni jalb etish muammosi dolzarbligicha qolmoqda.

Ushbu xulosamizga asos sifatida quyidagi takliflarni keltirmoqchimiz:

- xizmatlar sohasiga yo'naltirilgan infratuzilmaning yaxshi rivojlanmaganligi (transport, ijtimoiy, injeneriya, axborot-kommunikatsiya, kommunal xizmatlar) va uni davr talablari darajasiga ko'tarish zarurati;
- servis xizmatlari sifatining hozirgi zamon standartlari darajasida emasligi;
- xizmatlar sohasini, tarkibidagi korxona va tashkilotlarni samarali boshqarish va faoliyat jarayonida yuzaga keladigan barcha muammo va to'siqlarni bartaraf etishga qadar bo'lgan yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi;
- innovatsion xizmatlarni yaratish va ularni xizmatlar bozorida muvaffaqiyatli harakatlarini ta'minlash bo'yicha o'zaro muvofiqlashtirilgan strategiyaning yo'qligi.

Tabiiyki, yuqorida bayon etilgan kamchiliklarni bartaraf etish katta investitsion sarf xarajatlar evaziga amalga oshishi mumkin. O'zbekistonda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish zamonaviy yo'llar qurish, aeroport, avtomobil turar joylari, raqobatbardosh transport vositalari, sifatli ovqatlanish korxonalari, esdalik va antiqa


3 Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

(antikvar) buyumlar bozorini shakllantirish, mehmonxonalarni qulay joylashtirish, kemping, xizmatlar ko‘rsatish majmualari sonini ko‘paytirish bilan bog‘liq. Bularning barchasi investitsion resurslarga talabni yanada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Deryugin I.A., Zvyaginsev A.A. Привлечение инностранных инвестиций как фактор инновационного развития КНР. // https://web.esonomisa.cosnauka.ru.
2. Muxammedov M.M. va boshq. Mintaqa iqtisodiyotining zamonaviy muammolari. Monografiya. – T.: LESSON PRESS, 2020.;
3. Pardaev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. (uchinchi qayta ishlangan nashri) – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” DUK, 2020. – 588 b.;
4. Ergashev R.X. Xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llari. // Innovatsion rivojlanish asosida milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash: muammolari, yechimlari va istiqbollari. – Qarshi: RIAA., 2015 – B. 259-261;
5. Zaynalov J.R. Xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishda innovatsiyaning ahamiyati. // Xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. – SamISI, 2015. – 229-231 bb.;
6. Mirzaev Q.J., T.S.Sharipov, Sh.A.Sultonov va boshqalar: Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti (darslik), Samarqand-2021 y.
7. Atamuradov Sh.A. Xorijiy mamlakatlarda venchurli innovatsion loyihalashtirish modellari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. – 2019. – № 2. mart-aprel.-C.1-8.
8. “Национальный Центр ГЧП”, “Просто и честно об инвестициях в инфраструктуру и государственно-частном партнерстве в России” аналитечиский обзор, Москва, 2019, 96,101 ст.
9. “Национальный Центр ГЧП”, “Просто и честно об инвестициях в инфраструктуру и государственно-частном партнерстве в России” аналитечиский обзор, Москва, 2019, 96,101 ст.

UMUMTA'LIM MUASSASALARI SONINING EKONOMETRIK TAHLILINI PEDAGOGIK METODLAR YORDAMIDA AMALGA OSHIRISH.



Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ko'p omilli ekonometrik model tuzishda zarur omillarni tanlay bilish, omillar orasidagi bog'lanish, regressiya tenglamasini tuzish, ekonometrik modelni baholash va Excel dasturi yordamida model tuzish haqida tushuncha va ma'lumotlar taqdim etilgan. Shuningdek, muallif tomonidan natijaviy va ta'sir etuvchi omillar tanlab olingan bo'lib, umumta'lim muasssalari soniga ta'sir etuvchi omillar sifatida aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar va umumta'lim muassasalarida o'quvchilar soni tanlab olingan hamda ular asosida regressiya tenglamasi tuzilgan va tahlil etilgan. Ko'p omilli ekonometrik modelni tuzishda keys-stadi metodidan foydalanilgan bo'lib, mazkur metod davomida vazifa va topshiriqlar bosqichma bosqich amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: ekonometrika, korrelyatsiya, ko'p omilli regressiya tenglamasi, Excel, Keys-stady metodi, chiziqli regressiya tenglamasi, ekonometrik modelni baholash, Fisher mezoni, Styudent mezoni.

Abstract: In this state, the concept of information and selection factors, necessary for the creation of a multifactor econometric model, the factor of the correlation coefficient, the creation of a regression equation, a simple econometric model and the creation of a model with the help of Excel are presented. Also, the authors identified the resulting and influencing factors, such as factors that influence the number of public educational institutions, human investment and basic capital, and the number of students and public educational institutions. The method of thematic research was used to create a multifactorial econometric model, and this method was used to create a multifactorial econometric model.

Key words: econometrics, correlation, multifactorial regression equation, Excel, thematic research method, linear regression equation, econometric estimation model, Fisher's criterion, Student's criterion.

Аннотация: В данной статье представлены понятия и информация об умении выбирать факторы, необходимые для создания многофакторной эконометрической модели, связи между факторами, создании уравнения регрессии, оценке эконометрической модели и создании модели с помощью Excel. Также автором выделены результирующие и влияющие факторы, такие как факторы, влияющие на количество общеобразовательных учреждений, душевые инвестиции в основной капитал и количество студентов в общеобразовательных учреждениях и на их основе построено и проанализировано уравнение регрессии. Метод тематического исследования использовался для создания многофакторной эконометрической модели, и в ходе этого метода поэтапно выполнялись задачи и задачи.

Ключевые слова: эконометрика, корреляция, уравнение многофакторной регрессии, Excel, метод тематического исследования, уравнение линейной регрессии, оценка эконометрической модели, критерий Фишера, критерий Стьюдента.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-sonli qarori tahririda umumta'lim muassasalari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va Farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, ushbu Nizomga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek, o'z ustavlariga amal qilishi keltirilgan. Ushbu qaror doirasidan kelib chiqib, umumta'lim muassalari davlat va qonun nazorati va himoyasida ekanligini anglash mumkin. Bugungi kunda ta'lim muassalarida amalga oshilayotgan imkoniyatlar va o'zgarishlar yosh avlodning komil va yetuk bo'lib yetishishi va komil insonlar bo'lishida muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, davlat umumta'lim muassasalarida umumiy o'rta ta'lim olish bepul amalga oshirilishi ham bugungi kun yosh avlodning davlat himoyasi va e'tiborida ekanligini, ta'lim esa davlat siyosati darajasida ekanligiga yaqqol misoldir. Bugungi kunda respublika aholisining soni oshishi munosabati bilan umumta'lim muassasalarining soni ham ortib bormoqda.

Xususan, statistik ma'lumotlar asosida ekonometrik umumta'lim muassasalari sonining ekonometrik modeli keltirib o'tilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ekonometrika yuksak darajadagi iqtisodchilarni yetishtirishda muhim rol o'ynaydi. Hozirda ko'pgina iqtisodiyot bo'yicha oliy ta'lim muassalarida ishlab chiqarish imkoniyatlari, tanqislik va altirnativ xarajatlar, nisbiy afzalliklar kabi iqtisodiy tushunchalar o'rgatilmoqda, shuningdek, talab va taklif, elastiklik tushunchasi, uning iqtisodiy talqini, qisqa va uzoq muddatli oraliqda firma foydasini m aksimallashtirish sharti, raqobatylashgan va raqobatlashmagan bozorlarda firmalarning harakati, iste'molchilarning xatti-harakati, ularning muvozanatligi, makroiqyisodiy ko'rsatkchlar tahlili va xalqaro savdo bilan bog'liq bo'lgan holatlar atroflicha yoritilmoqda (Sh.U.Mustafaqulov, J.B.Negmatov va boshqalar "Ekonometrika" o'quv qo'llanma 2017) deb ta'kidlab o'tgan.

Ekonometrik modellashtirish ko'plab belgilar bilan tavsiflanadi. Modellardagi obyekt belgilari o'zaro bog'langan bo'lib, yo natija (izohlanuvchi o'zgaruvchi) rolida yoki omil (izohlovchi o'zgaruvchi) rolida ishtirok etadi. Har qanday sinf ekonometrik modelini o'zgaruvchilari shartli ravishda qo'yidagi turlarga bo'linadi. Ekzogen (mustaqil, x) – ularning qiymatlari modeldan tashqarida beriladi. Endogen (erksiz, y) – ularning qiymatlari modelning ichida aniqlanadi. Lag (ekzogen va endogen) – bundan avvalgi vaqt davrlari bilan sanasi qo'yiladi va joriy o'zgaruvchilar bilan teng bo'ladi. Oldindan belgilangan – lag va joriy ekzogen o'zgaruvchilar, lag endogen o'zgaruvchilar (B.Yu.Xodiyev, T.Sh.Shodiyev, B.B.Berkinov "Ekonometrika" 2018) haqida ta'rif bergan.

S.Fisher ekonometrika iqtisodiy o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni o'lchash uchun statistika usullarini ishlab chiqish va qo'llash bilan shug'ullanishini e'tirof etgan. Demak ekonometrik modellarni qurishda dastavval omillar tanlab olinadi va statistik ma'lumotlar asosida ekonometrik modellar quriladi. Tuzilgan ekonometrik modellar iqtisodiy tahlil va prognoz qilinadi.

Ekonometrika iqtisodiyotning roliga bo'lgan ma'lum qarashlar natijasidir, bunda iqtisodiy ma'lumotlarga matematik statistikani qo'llash orqali matematik iqtisodiyot bo'yicha tuzilgan modellar va olingan miqdoriy natijalarni empirik qo'llab-quvvatlash imkonini beradi (Gerhard Tintner. Methodology of Mathematical Economics and Econometrics, The University of Chicago Press, Chicago, 1968). Real statistik ma'lumotlar asosida ekonometrik modellarni nafaqat iqtisodiy sohalarda balkim ijtimoiy statistik ma'lumotlar asosida ham qurish mumkin. Xususan, umumta'lim muassasalari soni misolida ham keltirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani yozishda statistik, matematik, guruhlash, qiyosiy va tarkibiy tahlil, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv va mantiqiy izchillik usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Y natijaviy omil va unga ta'sir etuvchi X1 va X2 omillarning statistik qiymatlari jadval ko'rinishida taqdim etilgan.

Yillar	Umumta'lim muassasalari soni Y	Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar X1	Umumta'lim muassasalarida o'quvchilar soni X2
2012	9779	821,4	4490960
2013	9758	1008,2	4489668
2014	9733	1224,0	4539720
2015	9720	1431,7	4670685
2016	9719	1608,6	4824974
2017	9718	2227,8	5271261
2018	9774	3769,6	5850852
2019	10090	5834,6	6168198
2020	10181	6140,3	6287885
2021	10289	6861,0	6304586

Vazifalar:

1. Ko‘p omilli regressiya tenglamasi va korrelyatsiya bog‘lanish aniqlansin.
2. Ko‘p omilli regressiya tenglamasi tahlil etilsin.
3. Jarayon R2 moslik bo‘yicha baholansin.
4. Fisher mezoni bo‘yicha baholansin.
5. X1 va X2 ning parametrlarining ahamiyatliligi baholansin.

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar.

“Ekonometrikaga kirish” o‘quv qo‘llanmasidan “Ekonometrik modellarni baholash” mavzusi asosida keys bajarilsin.

Talabalar uchun ko‘rsatmalar:


1. Keysning aniq maqsadini belgilab oling.
2. Regressiya tenglamasi “Normal tenglamalar tizimi” yordamida yaratilsin va omillar orasidagi bog‘lanish chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyenti formulasidan foydalanilsin.
3. Regressiya tenglamasining real holatga mosligi bo‘yicha baholansin.
4. Regressiya tenglamasining statistik ahamiyatligi Fisher mezoni yordamida baholansin.
5. Har bir omil uchun regressiya tenglamasining parametrlari Styudent mezoni yordamida statistik ahamiyatga egaligi baholansin.

Keysni yechish jarayoni:


1. Mashg‘ulot avvalida talabalar kichik guruhlarga bo‘linadilar va umumiy jarayonni tahlil etadilar.
2. Umumta’lim muassasalari sonining oshishiga ta’sir etuvchi omillarni muhokama etadilar.
3. Statistik ma’lumotlar asosida regressiya tenglamasi va korrelyatsiya koeffitsiyenti hisoblanadi.
4. Jarayon Fisher va Styudent mezonlari yordamida baholanadi va omillar ahamiyatlilik darajasi bo‘yicha tahlil etiladi.
5. Kichik guruhlarning natijalari tahlil etiladi va umumiy xulosa yasaladi.

Yechim:

Ko‘p omilli regressiya tenglamasi va korrelyatsiya koeffitsiyenti Excel dasturining “Analiz danniy” ustqurmasi yordamida hisoblanadi.




1-rasm: “Analiz danniy” ustqurmasida korrelyatsiya koeffisiyentini hisoblash oynasi.




		Umumta'lim muassasalari soni	Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar	Umumta'lim muassasalarida o'quvchilar soni
2	2012	9779	821,4	4490960
3	2013	9758	1008,2	4489668
4	2014	9733	1224,0	4539720
5	2015	9720	1431,7	4670685
6	2016	9719	1608,6	4824974
7	2017	9718	2227,8	5271261
8	2018	9774	3769,6	5850852
9	2019	10090	5834,6	6168198
10	2020	10181	6140,3	6287885
11	2021	10289	6861,0	6304586

		Y	X1	X2
Y		1		
X1		0,931848	1	
X2		0,837824	0,974904	1

2-rasm: Excel dasturida korrelyatsiya koeffitsiyentining natijaviy qiymati.



3-rasm: “Analiz danniy” ustqurmasida regressiya koeffisiyentini hisoblash oynasi.



4-rasm: Excel dasturida regressiya koeffitsiyentining natijaviy qiymati.

Natijaviy omil umumta'lim muassasalari soni ta'sir etuvchi omil aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarga 0,93 ga bog'lanmoqda. Umumta'lim muassasalarida o'quvchilar soni esa natijaviy omil 0,83 bog'lanmoqda. Ko'p omilli regressiya tenglamasi esa

$$y=11321,9+ 0,216 x1-0,0004x2$$

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni bir birlik oshirsak, umumta'lim muassasalari soni 0,216 birlikga oshar ekan. Umumta'lim muassasalarida o'quvchilar soni bir birlikka oshganda umumta'lim muassasalari soni 0,0004 ga kamayar ekan. Fisher mezoni bo'icha omillar baholanganda $F_{hisob} > F_{jadval}$ bo'lganda umumiy jarayon to'gri deb baholanadi. Fisherning F-kriteriyasi jadvali bo'yicha qiymat 4.1 ni ko'rsatmoqda. F_{hisob} esa 109,48 ga teng. Regressiya tenglamasining statistik ahamiyati to'g'ri deb topiladi. X_1 va x_2 omillarning parametrlariga ko'ra statistik ahamiyatini Styudent mezoni yordamida baholaymiz:

$$Y = 11322 + 0.21X_1 - 0.0004X_2$$
$$t\ \ (31,41)\ (7,76)\ (-4,76)$$

$t_{hisob} > t_{jadval}$ bo'lganda jarayon to'g'ri deb baholanadi. 95% ahamiyatlikda regressiya tenglamasi bajarilganda Styudent mezonining kretik qiymati 1,81 ni ko'rsatmoqda. Demak, $t_{hisob} < t_{jadval}$ dan omillar bo'yicha statistik ahamiyati to'g'ri baholangan. Demak, regressiya tenglamasi va korrelyatsiya koeffitsiyenti ijobiy baholangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, pedagogik metodlar yordamida talabalarga ekonometrika fanini o'qitishning ahamiyati yuqoridir. Xususan, ushbu metodlar orasida keys-stady metodining o'rni beqiyosdir. Bunda talabalar ekonometrik model tuzish uchun zarur topshiriq va vazifalarni keyslar yordamida o'zlashtirishi mumkin. Ekonometrik modellarni qurish uchun omillarni tanlash, ushbu omillar asosida statistik ma'lumotlarni jamlash, korreliyatsion bog'liqlik va regressiya tenglamalarini tuzish. Tuzilgan ekonometrik modelni mezonlar asosida baholash va trend modelini tuzib, prognoz qilish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin bo'ladi. Keyslarda beriladigan vazifalar va topshiriqlar bosqichma bosqich berilishi lozim bo'ladi. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar sonini bir birlikka oshirganda umumta'lim muassasalari soniga ortishini va umumta'lim muassasalarida o'quvchilar soni bir birlik ortganda esa umumta'lim muassasalari soni kamayishini ya'ni maktablarga bo'lgan talab ortishini tahlil qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurakhmanov K.Kh, Mukhitdinov E.M, Shakarov Z.G., Amanov O.A, Nabiev O.A. Labor migration and its impact on employment of population. Международный научно-исследовательский журнал. International research journal. ISSN 2303-9868 print, ISSN 2227-6017 online. Екатеринбург, №4 (82) 2019, часть 2, Апрель. 6-11 – стр.
2. Rakhimov A. N. Econometric modeling of the development of educational services to the population of kashkadarya region //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2021. – T. 11. – №. 2. – C. 1305-1312
3. Ravshanova M. M. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalariga ekonometrikani o'qitishning tahsil texnologiyasi va metodik tizimning mohiyati //International sonference on learning and teaching. – 2022. – T. 1. – №. 3. – S. 349-353.
4. Ravshanova M. M. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalariga ekonometrikani o'qitishning tahsil texnologiyasi va metodik tizimning mohiyati //International sonference on learning and teaching. – 2022. – T. 1. – №. 3. – S. 349-353.
5. Safoevna S. Z., Juraevna M. N. Analysis of economic efficiency of the use of irrigated land in agriculture and factors on them //Journal of Contemporary Issues in Business and Government. – 2021. – T. 27. – №. 2. – C. 4055-4061.



O‘ZBEKISTON TARIXIY SHAHARLARIDA TURISTIK FAOLIYATI SHAKLLANISHI VA ULARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

Meliqulov G‘ayrat Abdug‘afforovich
PhD, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, dotsenti

Annotatsiya: O‘zbekiston tarixiy shaharlarida turistik faoliyatni rivojlantirishning va boshqarishning nazariy asoslari ilmiy jihatlari o‘rganilgan. Jumladan, tarixiy shaharlar ichki turizmni va xorijiy sayyohlar soni oshirish borasida mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo‘llari, yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan turistik majmualarni shakllantirish, hududlarda investitsion muhitni yaxshilash asosida ularning investitsion jozibadorligini oshirish jarayonida turistik majmualarni tashkil qilish hamda boshqarish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, turizm salohiyati, ichki turizm, tarixiy obidalar, turizm marshrutlari, turistik majmualarni tashkil qilish, turizm bozori, ekskursiya xizmatlari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hamda turistik mahsulotlari.

Abstract: The theoretical foundations of the development and management of tourist activities in the historical cities of Uzbekistan are studied scientific aspects. In particular, proposals and recommendations have been developed on the organization and management of tourist complexes in the process of increasing their investment attractiveness on the basis of existing problems with increasing tourism and the number of foreign tourists, ways to eliminate them, the formation of tourist complexes with high efficiency, improving the investment climate in the regions.

Key words: tourism, tourism industry, domestic tourism, historical monuments, tourist routes, Organization of tourist complexes, tourism market, excursion services, socio-economic relations and tourist products.

Аннотация: Теоретические основы развития и управления туристской деятельностью в исторических городах Узбекистана изучены с научной точки зрения. В частности, разработаны предложения и рекомендации по организации и управлению туристскими комплексами в процессе повышения их инвестиционной привлекательности на основе формирования высокоэффективных туристских комплексов, улучшения инвестиционного климата на территориях, имеющих исторические предпосылки для увеличения внутригородского туризма и количества иностранных туристов.

Ключевые слова: туризм, туристский потенциал, внутренний туризм, исторические памятники, туристские маршруты, организация туристских комплексов, туристский рынок, экскурсионные услуги, социально-экономические отношения и туристские продукты.

KIRISH

Hozirda dunyoda tarixiy shaharlarni rekonstruksiya qilish va arxitektura yodgorliklarni ta’mirlash orqali hududlarning turistik salohiyatini takomillashtirish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda tarixiy shaharlarning strukturaviy tuzilishini saqlab qolish, muhofaza zonalarini yaratish, samarador turistik marshrutlarni taklif etish hamda me’moriy yodgorliklarni ta’mirlash ishlarini to‘g‘ri amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb yetmoqda. Dunyoda arxitektura yodgorliklarini ta’mirlash, ulardan samarali foydalangan holda hududlarning turistik imkoniyatlarini takomillashtirish, tarixiy shaharlarda yangi turistik yo‘nalishlarni yaratish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada qadimiy shaharlar va tarixiy mahallalarni regeneratsiya qilish, yodgorliklarni ta’mirlash, qisman yoki to‘liq buzilib ketgan yodgorliklarning qayta tiklash loyihasini amalga oshirish, shaharlarning tarixiy ko‘rinishini saqlab qolish, mavjud turistik marshrutlarning yutuq va kamchiliklarini o‘rgangan holda samarador turistik marshrut yo‘nalishlarini taklif yetish kabilar dolzarb ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Respublikamizda oxirgi yillarda tarixiy hududlarning turizm infrastrukturasini rivojlantirish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilib, tarixiy shahar hududlarni zamonaviy obyektlardan holi qilish, me’moriy obyektlarning turistik marshrutlardagi o‘rnini aniq belgilash yuzasidan qator islohotlar olib borilmoqda. “...Turizmni iqtisodiyot-

ning strategik tarmog‘iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo‘lib qoladi. Hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri – joriy yilda yurtimizga keladigan turistlar sonini 7,5 millionga yetkazishdan iborat”. [1] Bu borada mamlakatimizdagi tarixiy shaharlar va me’moriy obyektlarni ilmiy asosda tadqiq etish va ularni ta’mirlash va qayta qurish takliflarini ishlab chiqish, turizm salohiyatini oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, samarador turistik marshrut yo‘nalishlarini ishlab chiqish dolzarb masalada hisoblanadi.

Mamlakatimizning tarixiy shaharlarida turistik resurslarga boy hududlarida bugungi zamon talablariga javob beradigan, raqobatbardosh va yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan turistik majmualarni shakllantirish, hududlarda investitsion muhitni yaxshilash asosida ularning investitsion jozibadorligini oshirish jarayonida turistik majmualarni tashkil qilish hamda boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Turistik majmualarni tashkil qilish uning ishtirokchilarga innovatsion texnologiyalardan foydalanish, malakali ishchi kuchini jalb qilish, axborot, biznes ximatlari sifatini yaxshilash hamda samaradorligini oshirish imkoniyatini ta’minlaydi.

O’zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunida turizm tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Turizm – jismoniy shaxsning vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olib borish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo‘nab ketishi (sayohat qilishi)”. [2]

Shuningdek, turistik resurs salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda turistik majmualarni shakllantirish asosida turizm sohasini rivojlantirish, mamlakat hududlari o‘rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish va turizm sanoati infratuzilmasining innovatsion yo‘nalishda barqaror rivojlantirish uchun imkoniyat yaratishga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Hozirgi O’zbekiston hududida juda ko‘plab tarixiy manzilgohlar, shaharlar va arxitektura obyektlari joylashgan bo‘lib, ilmiy o‘rganish asosida ulardan maqsadli foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb yetadi.

Iqtisodiyotda turizm sohasining o‘rni muhim bo‘lib, aholi bandligini ta’minlash, barqaror daromad manbaini topishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Shu bois mamlakatimizda sohani har tomonlama rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda va bunda hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, turizm sohasi jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi va respublikamizda turizm sohasini modernizatsiya qilish, sohani barqaror rivojlantirish uchun me’yoriy-huquqiy hujjatlar bazasini shakllantirish va takomillashtirishga, mahalliy va xalqaro turizm xizmatlar bozorida yaratilayotgan tovarlar va xizmatlarni tahlil qilish hamda ularning turizm industriyasini rivojlantirishga ko‘rsatayotgan ta’sir doirasini ilmiy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O’zbekistonda ham turizm sohasining mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o‘rni hamda uni rivojlantirish masalalari borasida ilmiy izlanish olib borgan olimlardan S.S. G‘ulomov, N.T. Tuxliyev, Yo.A. Abdullayev, M.M. Muxammedov, M.Q. Pardayev, G‘.H. Qudratov, I.S. Tuxliev, Q.J. Mirzayevlarni ko‘rsatish mumkin. Ular o‘z ilmiy izlanishlarida turizm sohasini rivojlantirishning nazariy-metodologik muammolarini tadqiq etganlar.

I.T.Balabanov va A.T.Balabanovlar bildirgan fikrga asosan, turizmni, avvalo,tovarga qiyos qilishadi, har qanday tovar bo‘lgani kabi uni realizatsiya qilish shart-sharoitlari, talablari, maqsadlari, sotish imkoniyatlari bo‘lishi lozimligini aytishadi. Olimlar turizmni zamonaviy inson ehtiyojlari uchun eng birlamchi tovarlar qatoriga kiritishadi. [3]

Turizm fransuzcha tour so‘zidan olingan bo‘lib, sayr-sayohat ma’nosini anglatadi. O’zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunida turizm tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Turizm – jismoniy shaxsning doimiy ravishda istiqomat qiladigan manzilidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan bir yil muddatga jo‘nab ketishi (sayohat qilishi)”. [4]

Turizm – xalq hunarmandchiligi va milliy hunarmandchilikni saqlashga yordam beradi, mintaqalar va mamlakatlar madaniyatini ifodalaydi. [5]

M.T.Alieva o‘zining ilmiy tadqiqot ishida turizm tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan: “Turizm –kishilar o‘zlarining doimiy turar-joylaridan biron bir mamlakatga vaqtinchalik yoki o‘z mamlakati hududidan boshqa biron bir joyga bo‘sh vaqtida rohatlanish va hordiq chiqarish, sog‘ligini mustahkamlash, tanishish yoki kasbiy-ishbilarmonlik maqsadlarida, lekin, yetib kelgan joyida haq to‘lanadigan mehnat faoliyati bilan band bo‘lmagan holda vaqtincha joylashishi demakdir. Binobarin, turizm –kishilarning doimiy yoki uzoq muddatli turar joyi hisoblanmaydigan va ularning mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan joylarga safariga taalluqli munosabatlar, aloqa va hodisalar yig‘indisi hisoblanadi. [6]

Turli darajadagi iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotida tizimli yondashuv ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan taklif qilingan. Ular orasida turizm sohasining rivojlanish nazariyasiga, tizim jarayonlariga bag‘ishlangan Kibalnikov S.V., Kostryukova O.N., Krujalin V.I., Fridman V.B., Yakoves Yu.V.larning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. [7]

Turizm – bu insonlarning bo‘sh vaqtlarida o‘z doimiy turar joylaridan boshqa mamlakat yoki o‘z mamlakatlari ichida ta’assurot va dam olish, sog‘liqni tiklash, mehmondorchilik, bilim olish yoki kasbiy amaliy maqsadlarida sayohat qilishlari tushiniladi, lekin borgan joylarida pul bilan rag‘batlantiriladigan ish bilan shug‘ullanmaydilar.[8]

Turizm bozori –bu, turistik mahsulotlarni sotuvchilar (taklif) va sotib oluvchilar (talab) o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hamda turistik mahsulotlarga talab va taklifni bevosita tartibga soluvchi iqtisodiy mexanizmlarni o‘z ichiga oluvchi murakkab tizimdir. [9]

Y.V.Tishukov o‘z risolasida “Turizm industriyasi – bu mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish obyektlari, dam olish obyektlari va vositalari, tanishish, ishbilarmonlik, sog‘lomlashtirish, sport va boshqa maqsadlardagi obyektlar, turoperatorlik va turagentlik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, shuningdek, ekskursiya xizmatlari va gid-tarjimonlar xizmatini namoyon etuvchi tashkilotlar to‘plamidir” – deb e’tirof etgan bo‘lsa, M.B. Birjakov esa “Turistik xizmat – turizm maqsadlari, turistik xizmatning yo‘nalishi va tabiyati, turistik mahsulotga javob beruvchi, umuminsoniy axloq va tartib tamoyillariga mos keluvchi ekskursant yoki turistning ehtiyojlarini ta’minlash va qanoatlantirishga yo‘naltirilgan xizmat ko‘rsatish sohasidagi maqsadlarga yo‘naltirilgan harakatlar yig‘indisidir” [10] – degan fikrni bildiradi.

Turizm – boyish va hordiq chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha holatlar uchun, ya’ni kosmik kemada uchishdan tortib plyajgacha yetib borish bilan bog‘liq harakat jarayonidir. Fuqarolarning doimiy turar joylaridan sog‘lomlashtirish, tanishish, kasbiy-ishbilarmonlik, sport, diniy va boshqa maqsadlardagi, haq to‘lanadigan faoliyat bilan band bo‘lmagan holdagi vaqtinchalik safarlaridir. [11]

Turizm sohasi mohiyat jihatidan bevosita xizmatlar sohasi tarkibiga kirsa-da, soha faoliyatining asosiy qismi bevosita moddiy ishlab chiqarish korxonalari faoliyatiga bog‘liq. Shu bilan birga turizm sohasining rivojlanishi moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari singari juda katta hajmdagi moddiy vositalarni talab qilmasligi hamda faoliyatning tabiiy resurslar mavjudligi bilan bog‘liqligi mamlakatimizda sohani qisqa vaqtda jadal rivojlantirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi. 2016-yildan boshlab mamlakat darajasida turizm xizmatlari sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan tizimli islohotlar ham sohaning mamlakat taraqqiyotini jadal rivojlantirishdagi “o‘sish” nuqtalaridan biri bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada turizm bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari va o‘quv adabiyotlari tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy tahlil va kuzatish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Bizning fikrimizcha, turizm – bu kishilarning doimiy isti’qomad qiladigon hududdan sayohatga, rohatlanish, hordiq chiqarish, sog‘lomlashtirish va yangi do‘stlar orttirish yoki kasbiy mahorat almashinish maqsadida biron bir mamlakatga vaqtinchalik yoki o‘z mamlakati hududidan boshqa biron bir mintaqaga vaqtincha joylashish jarayonini tushunish mumkin.

Turistik majmua – bu turizmning har xil turlari rivojlanishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy muhitdir. 1-rasmda hududiy turistik majmualarning tarkibiy tuzilmasi ko‘rsatilgan.


Tarixiy shaharlarda turistik marshurtlarning shakllanishi va rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotiga kiruvchi turizmni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Shu bilan birga zamonaviy turistik majmualarni shakllantirishda asosiy turistik faoliyat: turistik mahsulotlar, rekreatsiya mahsulotlari, turistik bozorlar, sanatoriya obektlari hamda mahsulotlari, tabiiy turistik resurslar, mehmonxonalar, mehmonxona xizmatlari va mehmon uylaridan, shuningdek, turistik infratuzilma: sanoat, sanoat mahsulotlari, transport, ijtimoiy obyektlar, sog‘liqni saqlash, uy-joy, moliyaviy sektor, banklar va sug‘urta tashkilotlari, moddiy-texnik baza kabi tarkibiy qismlardan tashkil topadi va turistlarning ehtiyojlari qondirilishini ta’minlaydi. Turizmning bir yoki bir nechta turlari ma’lum bir yo‘nalishga ega turistik majmualar yaratishda ishtirok etadi. Turistik faoliyatning umumiy tasnifida yetarlicha kattalashtirilgan ahamiyatga yega bo‘lgan turizm turlariga qarab turistik majmualarning yo‘nalishini ko‘rib chiqish muhim sanaladi.

Mamlakatimizda turizm sohasiga katta hissa qo‘shib kelayotgan tarixiy shaharlar, ulardagi tarixiy va madaniy me’ros obidalarining o‘rni beqiyos. Qarshi shahri ko‘p asrlik qadimiy shaharlar sirasiga kiradi. Qarshi shahrida 28 ta arxeologiya yodgorliklari, 25 arxitektura yodgorliklari va 1 ta diqqatga sazovor maskan mavjud. Mana shu tarixiy ahamiyat kasb etuvchi yodgorliklar asosida hududdagi turizm sohasining rivoji natijasida butun dunyo sayohatchilarini o‘ziga jalb qilib kelmoqda.

Boshqaruv bo‘linmalariga tashkiliy jihatdan alohida tarkibiy bo‘linmalar, shuningdek, ma’lum boshqaruv funksiyalarini bajaradigan alohida mutaxassislar yoki ularning bir qismi (masalan, bir nechta tarkibiy bo‘linmalar faoliyatini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi menejerlar) kiradi. Boshqaruv darajasi deganda korxonani boshqarish tizimida ma’lum bosqichni egallaydigan boshqaruv aloqalari majmui tushuniladi (2-rasm).



1-rasm: Tarixiy shaharlarda turistik majmualarning tarkibining shakllanishi



2-rasm: Turistik korxonalarda boshqarish darajalari

Boshqaruv darajalari o'rtasidagi aloqalar vertikal bog'liq va ketma-ket bo'ysunish aniq ifodalangan xarakterga ega, ya'ni yuqori boshqaruv darajasidagi menejerlar aniq va quyi darajalarga olib chiqilgan qarorlarni qabul qiladilar.


Tadqiqot doirasida Qarshi shahrida turizm infrastrukturasini yanada rivojlantirish hamda shu orqali mavjud tarixiy va madaniy obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni keng ommaga yetkazish maqsadida Qarshi shahri tarixiy markazi yodgorliklarini o'zida jamlagan, transportda va piyoda sayohat qilishga mo'ljallangan, ikki turdagi turistik marshrut loyihasi ishlab chiqildi (3-rasm).



3-rasm: Qarshi shahri tarixiy madaniy, arxitektura turizmi transportida ekskursiya yo‘nalishlari

Tarixiy shaharlar turistik majmualarni tashkil qilishda hududning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash ham shunga mos ravishda faoliyatni ta’minlash talab qilinadi. O’rganilgan tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda turistik majmualarning asosiy xossalari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin (4-rasm).

Taxiriy shaharlarda turistik majmualarni shakllantirishning asosiy maqsadi muayyan hudud rivojlanishini rag‘batlantirish yoki iqtisodiyotning alohida sohalarini tez o‘sishini ta’minlash yekanligini ko‘rishimiz mumkin. Taxiriy shaharlarda turistik turizm faoliyatining rivojlanishi bevosita samarali va raqobatbardosh turizm bozorining rivojlanish ko‘rsatkichlariga bog‘liq hisoblanib, bunda bir qator bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalarni amalga oshirish va shart-sharoitlarni ta’minlash kerak bo‘ladi.



4-rasm: Turistik majmualar tashkil yetishning o‘ziga xos xususiyatlari

XULOSA

Taxiriy shaharlarda turistik majmualar faoliyatining tashkil etilishi bir vaqtning o‘zida bir qancha yondashuvlarni hisobga olgan holda tashkil etilayotganligi tarmoq majmualarining faoliyat samaradorligini ta’minlaydi. Turistik majmualarni tashkil etishda, eng avval hududiy yondashuv, ya’ni majmuaning aniq chegarasi, chegaralangan hudud doirasidagi tarmoq va uning faoliyati bilan bog‘liq (xom ashyo yetkazib beruvchilar, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi) korxonalarni o‘z ichiga qamrab olsa, ikkinchidan, jarayonli yondashuv (ishlab chiqarish sikllari ketma-ketligi)ni ham nazarda tutadi.

Taxiriy shaharlarda turistik majmualar faoliyatini shakllantirish siyosatini ishlab chiqish to‘rt bosqichda amalga oshiriladi: Turistik majmuani shakllantirish siyosatining maqsad va vazifalari aniqlanadi, turistik majmuani shakllantirish siyosati ta’moyillari ishlab chiqiladi, turistik majmua faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinadi va turistik majmuani shakllantirish siyosatini amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida" gi Qonuni". 2019-yil 18-iyuldagi O'RQ-549-son Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.07.2019-y., 03/19/549/3446-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son.
3. Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2011. -116с
4. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni". Toshkent sh., 2019-yil 18 iyul, O'RQ-549-son. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.07.2019 y., 03/19/549/3446-son).
5. Карпова Г.А., Лаврова Т.А. Особенности развития туризма и исследование туристского потенциала в Санкт-Петербурге. Монография. – СПб., 2017. С.10-20.
6. Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlarisohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida). Iqtisod fanlaridoktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati – Samarqand, 2019. -78 b.
7. Кибальников С.В., Кострюкова О.Н., Кружалин В.И., Фридман В.Б., Яковец Ю.В. Цивилизационный туризм. Учебно-методическое пособие для системы дополнительного профессионального образования – М.: МИСК, ИНЭС, 2016. – 332 с.
8. И.В.Зорин, В.А.Квартальнов. Экономика туризма. – М; Ф и С, 2004. – 35 с.
9. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari// Monografiya. –Toshkent: Iqtisod, 2015 -300 b.
10. Биржаков М.Б. Туристические услуги, работы, товары. –Москва–Санкт-Петербург: Издательство "Невский фонд" – "Издательский дом Герда", 2003. С.108.
11. M.T Aliyeva. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2019.
12. Saidov M.S., Muidinov D.M. The Development Strategy of International Companies in Modern Conditions // American journal of economics and business management. ISSN: 2576-5973Vol. 6, No.1,2023. 1897-Article Text-3400-3665-10-20230121.pdf
13. Saidov M. S. Ways of Introduction of Modern Management Mechanisms in the Electric Power Sector of Uzbekistan // International Journal of Business Diplomacy and Economy ISSN: 2833-7468 Volume 2 | No 1 | January -2023. file:///C:/Users/user/Downloads/98-110+Ways+of+Introduction+of+Modern+Management+Mechanisms+in+the+Electric+Power+Sector+of+Uzbekistan.pdf

IQTISODIY RIVOJLANISH VA ILMIY TADQIQOT RIVOJLANISHINING HAVO IFLOSLANISH DARAJASIGA TA'SIRI



Murodullayev Kamoliddin Sherzod o'g'li
Oriental universiteti "Iqtisodiyot va Turizm" fakulteti talabasi

Sadibekova Bibisora Djapparovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Xitoy tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti kafedrasi i.f.n., dotsenti

Turdiqulov Farrux Ravshanjon o'g'li
Oriental Universiteti "Iqtisodiyot va turizm" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Har qanday jamiyatda qilinayotgan sa'y harakat o'zini ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Ushbu tadqiqot iqtisodiy rivojlanish va ilmiy tadqiqot rivojlanishining havo ifloslanishiga ta'sir munosabatini o'rganadi.Tadqiqot ushbu uch muhim komponent o'rtasidagi dinamik o'zaro ta'sirini olti davlatlarning statistik ma'lumotlarini har tomonlama empirik tahlil qiladi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ilmiy tadqiqot va iqtisodiy o'sish darajasi bevosita iqlimi, tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatar ekan. Aniqrog'i korbonat angidrid hajmini statistik jihatdan ahamiyatli darajada ta'sir etar ekan (p-ning 0 qiymatida). Bundan ko'rinib turibdiki qanchalik iqtisod va ilmiy tadqiqot kengaysa, bu o'z navbatida tabiatga salbiy ta'sir etar ekan.

Kalit so'zlar: yalpi ichki mahsluot, havo ifloslanishi, tadqiqot ishlanmalari.

Abstract: Efforts made in any society cannot fail to show their effects. This study examines the relationship between economic development and scientific research development on air pollution. The study provides a comprehensive empirical analysis of statistikal data from six countries on the dynamic interaction between these three important components. The results showed that the level of scientific research and economic growth has a statistikally significant effect on climate, nature and, more specifically, carbon dioxide volume (at p value 0). It can be seen that the more the economy and scientific research expands, the more this, in turn, has a negative impact on nature.

Key words: gross domestic product, air pollution, research developments.

Аннотация: Усилия, предпринимаемые в любом обществе, не могут не дать результатов. В этом исследовании рассматривается взаимосвязь между экономическим развитием и научными исследованиями в области загрязнения воздуха. В исследовании представлен всесторонний эмпирический анализ статистических данных шести стран о динамическом взаимодействии между этими тремя важными компонентами. Результаты показали, что уровень научных исследований и экономический рост оказывают статистически значимое влияние на климат, природу и, в частности, объем углекислого газа (при значении p 0). Видно, что чем больше расширяется экономика и научные исследования, тем больше это, в свою очередь, оказывает негативное влияние на природу.

Ключевые слова: валовой внутренний продукт, загрязнение воздуха, научные разработки.

KIRISH

Iqtisodiy rivojlanish va ilmiy tadqiqot rivojlanishini havo ifloslanishiga ta'siri barcha mamlakatlar uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb mavzu hisoblanadi. Har bir mamlakatda ekologik xavfsizlik strategik darajadagi muhim ahamiyatga ega sohalaridan har qanday davlat havosi ifloslanmasligi uchun turli chora-tadbirlarni ishlab chiqadi, chunki havo iflos bo'lmasa, aholini umr ko'rish darajasi uzayadi, ya'ni uzoq umr ko'radi,va aholi qancha ko'p yashasa inson resursi yetarli va soliq tushumi ham o'z navbatida ko'payadi. Ko'p davlatlarni budjeti, asosan, fiskal siyosati orqali tashkil etiladi, budjet to'g'ri maqsadda sarflansa, bu albatta, iqtisodiy rivojlanish darajasini oshiradi.

Ushbu ilmiy maqola davlatni rivojlanishi va aholini yaxshi yashashi va yana boshqa sabablar tufayli olib borilgan tadqiqotdir,va aholi va boshqa shaxslar uchun amaliy qarorlar qabul qilishda yordam beruvchi qimmatli fikrlarni taqdim etishga intilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy rivojlanish va ilmiy tadqiqot rivojlanishi havo ifloslanish darajasiga ta'sirini o'rganishda, bir qator muhim adabiyotlar va tadqiqotlar ko'rsatilgan. Bu adabiyotlarning o'zaro mos mashg'ulotlilik, iqtisodiy rivojlanishning ahamiyatiga bag'ishlanish, ilmiy tadqiqotlarning natijalari va ularga amaliy oqimlar olib borish xususiyatlari haqida gapiriladi.

Paul Romer: Romer, "Endogenous" (1986) kabi nazariyani ishlab chiqdi. Uning fikriga ko'ra, innovatsiyalar havo ifloslanish darajasiga ta'sir qiladi degan fikrni bildiradi.

Acemoglu va Robinsonning "Ularning diqqat qozonadiganlarining Serquyosh Respublikasi"(2012) nomli kitobi keltiriladi. Bu kitobda, ilmiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy sabablari, ilmiy innovatsiyalar va yangi ko'lamli qarashlari haqida tushunchalar beriladi. Ularning qarashlari, ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy rivojlanishni havo ifloslanish darajasiga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi.

Paul Romer va William Nordhausning "Iqtisodiy rivojlanish va iqlim o'zgarishi: O'zaro ta'sir" (1991)nomli maqolasi keltiriladi. Bu maqolada, iqtisodiy rivojlanish va klimat o'zgarishi o'rtasidagi ta'sir, iqtisodiy rivojlanishning havo ifloslanish darajasiga ta'sir ko'rsatishi, va ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy rivojlanishning klimat o'zgarishi muammolarini hal qilishdagi roli keltiriladi.

Acemoglu va Robinsonning "Munofiq Respublikalar" nomli (2020) kitobida asoslangan. Bu kitobda, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan murojaatlar va ularning iqtisodiy rivojlanishga o'rnatilishi haqida tahlillar keltiriladi. Ularning tahlillari, ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy rivojlanishning havo ifloslanish darajasiga ta'siri borligi haqida aytiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Butun dunyo jahon banki ma'lumotlari, darsliklar,professor olimlarning fikr-mulohazalari, ularning nazariy va amaliy strategiyalari ilmiy ishlari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslarini tashkil etadi. Tadqiqotda abstrakt va analitik mushohadalar, normativ, pozitiv, siyosiy tahlil, qiyosiy va omilli tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

TAXLILLAR VA TADQIQOT NATIJALARI

1. Ma'lumotlarning tasviriy statistik tahlili: hisobotda keltirilgan statistik tadqiqotlarni amalga oshirish uchun barcha statistik ma'lumotlar https:databank.worldbank.org (Jahon Bankining) rasmiy veb saytida taqdim qilingan ma'lumotlar bazasidan olindi. Bu maqsadda 1974–2023-yillar oralig'i uchun ShHT, mamlakatlari, ya'ni, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston,Rossiya, Xitoy mamlakatlariga tegishli bo'lgan quyidagi statistik o'zgaruvchilar tanlab olindi: Iqtisodiy rivojlanish ya'ni YaIMning joriy nominal qiymati, ilmiy tadqiqot rivojlanishida YaIMning % dagi ulushi ko'rinishida, havo ifloslanishi esa kilotonnalarda taqdim etilgan. Bilamizki, o'zgaruvchilarning normal taqsimotga amal qilinishi tadqiqot ishi saviyasini oshiradi. Normallikni tekshirish uchun Shapiro-Vilk testini va qo'shimchasiga uning gistogrammadagi ko'rinishida o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Birinchi jadvalda o'tkazilgan test natijalariga ko'ra barcha o'zgaruvchilarimizda normallik xususiyati ko'rinmagan. Bunga asosiy sabab Xitoyning qolgan davlarlardan farqli ravishda chetki had sifatida namoyon bo'lishi bilan izohlanadi.

1-jadval: Normallikni tekshirishning Shapiro-Vilk testi

Variable	Obs	W	V	z	Prob>z
gdp	216	0.399	95.886	10.540	0.000
rdexp	143	0.760	26.804	7.437	0.000
co2	186	0.574	59.618	9.371	0.000

Ma'lumki normallik muammosini hal qilishning eng qulay yo'li o'zgaruvchi transformatsiyasi hosil qilishdir. Unga ko'ra barcha o'zgaruvchilarimiz natural logariflab chiqildi va xatolik darajasidan Shapiro-Vilk testi o'tkazilganda quyidagicha ijobiy natijaga erishishga muvaffaq bo'lindi (P-qiymatning 0.067 da) va qo'shimchasiga normallikni tekshirish uchun gistogrammada ham uning normalligini yaqqol ko'rish mumkin.

2-jadval: Normallikni tekshirishning Shapiro-Vilk testi

Variable	Obs	W	V	z	Prob>z
uit	139	0.982	1.939	1.495	0.067




Diagramma 1: Xatolik ko‘rsatkichi taqsimot qatori

Ko‘rinib turibdiki, chiziq hech qaysi tomonga og‘magan va baralla aytish mumkin normallik holatini ko‘rsatgan. Keying eng asosiy qadam, albatta, regressiya o‘tkazish bo‘ladi. 2-jadvalda regressiyani (ln) lagan holda o‘tkazdik chunki regressiyadan keyin Getereoskedastlik muammosi tekshirilganda Getereoskedastlik muammosi bor ekan. Shu muammoni hal qilish uchun regressiyani (ln)lagan holda o‘tkazdik. Regression tahlil amalga oshirilganda, avvalambor, ma’lumotlar qatorini qo‘shilgan ma’lumot sifatida qarab, EKKU (eng kichik kvadratlar usuli) regressiyasi amalga oshirildi. Bu ishni STATA-15 ichki “regress” buyrug‘i bilan bajarildi.

3-jadval: Chiziqli regressiya natijasi:

Inco2	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
lngdp	.739	.043	17.27	0	.654	.823	***
lnrdexp	.639	.109	5.88	0	.424	.854	***
Constant	-5.917	1.186	-4.99	0	-8.264	-3.571	***

Mean dependent var	11.951	SD dependent var	2.707
R-squared	0.938	Number of obs	139
F-test	1031.202	Prob > F	0.000
Akaike crit. (AIC)	289.504	Bayesian crit. (BIC)	298.308

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

Regressiya natijasiga ko‘ra iqtisodiy rivojlanish (YaIM) 1% oshganda havo 0.73% ifloslanishini ko‘rishimiz mumkin va shu bilan birgalikda ilmiy tadqiqot rivojlanishi 1% oshganda havo 0.64 % ifloslanishini kuzatish mumkin. Bu natijani to‘g‘ri ekanligini umumiy determenatsiya koeffisiyentidan ham ko‘rish mumkin, ya’ni chiqqan natija mustaqil o‘zgaruvchilar regressantlarni 93% ga aniqlashtirb kelgan. Gipotezalar testi ko‘rsatgan qiymat 0.05 dan kichikligi ham buning yaqqol isboti ekanligini tasdiqladi. Ushbu tahlildan shunday xulosa kelad-iki, iqtisodiy rivojlanish va ilmiy tadqiqot rivojlanishi havo ifloslanishiga ta’sir qilar ekan. Har qanday modelni muayyan shartlar asosida tekshirib uning turli xatolardan xatoligini olish muhim hisoblanadi. Shuning uchun biz tuzilgan model Gaur-Markov shartlarini bajarish darajasini o‘rganishga harakat qildik.

Breusch-Pagan / Cook-Weisberg test for heteroskedasticity
Ho: Constant variance
Variables: fitted values of edu
chi2(1) = 0.75
Prob > chi2 = 0.3875

Birinchisi Gomoskedaslik yoki Getereoskedastligini tekshirish ya'ni Bruesh Pagan testi o'tkazildi va natijamizda p-ning 0.3875 qiymatida xatolikning yoyilish darajasi gomoskedast ekanligi ma'lum bo'ldi. Keyingi navbatda ko'rilishi kerak bo'lgan shart – ko'p tarmoqli kollinearlik muammosi bormi yoki yo'qligi tekshirish uchun variatsiya inflyatsion omillarini hisoblab chiqildi.

Variable	VIF	1/VIF
lngdp	4.05	0.246669
lnrdexp	4.05	0.246669
Mean VIF	4.05	

Bu jadvaldan ko'rish mumkinki ushbu modelda ko'p kollinearlik yo'q chunki 10 qiymatdan past va bu yaxshi natija agar 10 qiymatdan yuqori bo'lganda ko'p kollinearlik muammosi bor deb xulosa berilgan bo'lardi.

4-jadval: Bryush-Godfrey nomli avtokorrelyatsiyani tekshirish

chi2	Df	Prob>Chi2
125.689	1	0.000
126.272	2	0.000
126.614	3	0.000
126.647	4	0.000
126.653	5	0.000

H0: no serial correlation

Avtokkorelyatsiya o'tkazilganda prob>chi qiymati 0.05dan kichik bo'lganligi sabab avtokkorelyatsiya muammosi borligi kuzatildi va bu Avtoregressiv lagli modelni qo'llash orqali muammo bartaraf etildi va chiziqli regressiyani

lnco2	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
lngdp	.024	.01	2.41	.017	.004	.043	**
lnrdexp	.022	.016	1.37	.174	-.01	.053	
L	.967	.011	87.76	0	.945	.989	***
Constant	-.158	.17	-0.93	.354	-.493	.178	

Mean dependent var	11.951	SD dependent var	2.707
R-squared	0.999	Number of obs	139
F-test	42185.269	Prob > F	0.000
Akaike crit. (AIC)	-273.030	Bayesian crit. (BIC)	-261.292

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

5-jadval: Bryush-Godfrey nomli avtokorrelyatsiani tekshirish

chi2	Df	Prob>Chi2
2.721	1	0.099
2.736	2	0.255
2.899	3	0.407
6.476	4	0.166
6.477	5	0.263

H0: no serial correlation

Natijani ko‘rishimiz mumkinki prob>chi qiymati 0.05 dan yuqori chiqdi va avtokorrelyatsiya kuzatilmadi. Olib borgan tadqiqotimiz yanada aniq shaffof bo‘lishi uchun tushib qolgan o‘zgaruvchi xatoligini tekshirdik va tushib qolgan o‘zgaruvchi xatoligi kuzatilmagan.

Ramsey RESET test using powers of the fitted values of lnco2
Ho: model has no omitted variables
F(3, 132) = 0.12
Prob > F = 0.9455

XULOSA

Maqola xulosasida tadqiqot natijasiga tayangan holda baralla aytamizki, havo ifloslanishi natijasida iqtisodiy krizis, valyuta miqyosida kuchli kamayish, inflatsiya, ishsizlikning oshishi kuzatiladi, yanada to‘liqroq ma’lumot bersak, iqtisodiy rivojlanish ya’ni (YaIM) 1% oshganda havo 73% ifloslanar ekan, albatta, yomon natija bo‘lib, agar havo ifloslanishiga qarshi kurashmas ekanmiz yaqin orada iqtisodiy rivojlanishga kuchli ta’sir qiladi. Sababi aholi iste’moldan ko‘ra dori-darmonga ehtiyoji ko‘payadi. Aholi iste’moli kamaysa, ishlab chiqarish kamayadi va ishlab chiqarish kamaygandan so‘ng iqtisodiy rivojlanish kamayadi,iqtisodiy rivojlanish kamaydi degani tadbirkor kamayadi. Shu bilan birga, investorlarni investitsiya kiritishi kamayadi va davlat byudjetiga yaxshigana ziyon yetkazadi. Bitta havoni ifloslanishi natijasida qanday oqibatlarga olib kelishini ko‘rishimiz mumkin va shu sabab havoni ifloslanishiga qarshi kuchli chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur.

Yana aytish og‘ir bo‘lsada aytishimiz kerakki, ilmiy tadqiqot rivojlanishi 1% oshganda havo 63 % ifloslanar ekan va bu ham, o‘z navbatida, mamlakatni rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi.Bu aniq natijalarni ko‘rsatib va bularga yechim topish bizning vazifamizdir. Xalqni dard-u tashvishlari bilan yashash odamiylikning muhim mezonidir. Biz aholi yaxshi yashab, davlat rivojlanishiga so‘nggi nafasimizgacha kurashamiz. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib quyidagi takliflarni bayon qilish maqsadga muvofiq deb topildi:

- Davlat banklarining valyuta miqdorini nazorat qilish, valyuta kurslarini qo‘llab-quvvatlash, valyuta konservatsiyasi uchun zaxiralarni oshirish va boshqa valyuta moliya sohasidagi tadbirlar orqali havo ifloslanishiga qarshi kurashish.
- Davlat tomonidan iqtisodiy stimulus paketlari e’lon qilish orqali, daromadni oshirish, ishsizlik darajasini pastga tushirish va korxonalar va fuqarolarga moliyaviy yordam berishga intiladi.
- Davlat va xususiy sektorlar tomonidan investitsiyalarni oshirish, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va yangi soha va texnologiyalarga o‘tish.
- Moliyaviy sohani nazorat qilish va pul boshqarish sohasida ishtirok etish orqali, inflatsiya va valyuta miqdorining o‘sishini to‘xtatishga harakat qilish.
- Davlat investitsiyalarni oshirish va inovatsiyalarni taqviyalash orqali iqtisodiy rivojlanishga tajribiy muhit yaratish va ishsizlikni kamaytirish orqali havo ifloslanishiga qarshi kurashish.

Foydalanilgan adabiyotlat ro‘yxati:

1. “The End of Poverty: Economic Possibilities for Our Time” – Jeffrey D. Sachs: 2005
2. Air Pollution: Health and Environmental Impacts” by Bhola R. Gurjar, Luisa T. Molina, C.S.P. Ojha
3. “Air Pollution and Health” by Stephen T. Holgate, H. Ross Anderson, Jeremy M. D. Beevers, Frank Kelly
4. “Air Pollution Control Engineering” by Noel de Nevers
5. “Air Pollution” by Jeremy Colls”Fundamentals of Air Pollution” by Daniel Vallero
6. “Air Pollution Modeling and Its Application XXIV” edited by Douw G. Steyn, Rohit Mathur
7. “Air Pollution and Greenhouse Gases: From Basic Concepts to Engineering Applications for Air Emission Control” by Zhongchao Tan, Bin Zhao
8. “Air Pollution and Control” by C. David Cooper, F. C. Alley
9. “Introduction to Air Pollution Science: A Public Health Perspective” by Robert F. Phalen, Robert N. Phalen
10. “Air Pollution: Measurement, Modelling and Mitigation” edited by Mukesh Khare, Alpana Gupta.s

HUDUDLARNI RIVOJLANTIRISH VA “YASHIL IQTISODIYOT”NI SHAKLLANTIRISHNING EKOLOGIK MUAMMOLARI

Maxkamov Saidafzal Saidkamol o‘g‘li
Farg‘ona politexnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

Yigitaliyeva Dilnavo Mansurjon qizi
Farg‘ona politexnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojantirish, barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlash, “yashil” iqtisodiyotni shakllantirish, rivojlantirish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning jahon tajribasi, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi yo‘nalishlari va chiqindilarni saralash, qayta ishlash haqida fikr-mulohazalar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada iqtisodiy boshqaruv va atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlarning “yashil” iqtisodiyotining mohiyati va nazariyasi ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, tabiiy resurslarning cheklanishi o‘rganildi va global muammolarini qayta ishlash zarurati, shuningdek, chiqindilarni boshqarish, tashish, yig‘ish, chiqindilarni yo‘q qilish, qayta ishlash va daunsikling holda ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, barqaror rivojlanish konsepsiyasi, hududlarni rivojlantirish, “yashil” iqtisodiyot tendensiyasi, energiya resurslari va samaradorligi.

Abstract: In this article, economic and social development of regions, ensuring sustainable economic growth, formation and development of "green" economy, world experience of transition to "green" economy, strategic directions of transition to "green" economy and waste sorting, processing feedback is provided. The article also examines the nature and theory of "green" economy of relations between economic management and the environment. In addition, the limitation of natural resources was studied and the need to process global problems, and information on waste management, transportation, collection, waste disposal, recycling and downcycling.

Key words: “Green” economy, concept of sustainable development, development of territories, trend of ” green “ economy, energy resources and efficiency.

Аннотация: В данной статье рассмотрено экономическое и социальное развитие регионов, обеспечение устойчивого экономического роста, формирование и развитие “зеленой” экономики, мировой опыт перехода к “зеленой” экономике, стратегические направления перехода к “зеленой” экономике и сортировке мусора, переработке обратной связи. предоставлен. В статье также рассматриваются сущность и теория “зеленой” экономики отношений между хозяйственным хозяйством и окружающей средой. Кроме того, изучалась ограниченность природных ресурсов и необходимость решения глобальных проблем, а также информацию об управлении отходами, транспортировке, сборе, удалении, переработке и вторичной переработке отходов.

Ключевые слова: “зеленая” экономика, концепция устойчивого развития, региональное развитие, тренд “зеленой” экономики, энергетические ресурсы и эффективность.

KIRISH

Mamlakatni barqaror iqtisodiy rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biri tabiat va uning boyliklarini nafaqat bugungi avlodga yetkazish, balki kelgusi avlodga ham to‘la-to‘kis saqlagan holda yetkazishdan iborat. Barqaror iqtisodiy o‘sishga to‘liq erishish kundan kunga muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Shu sababli hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni va “yashil” iqtisodiyotga o‘tish chora-tadbirlarini amalga oshirish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon mamlakatlari va ular iqtisodiyotining samarali faoliyat yuritishi, hududlarning iqtisodiy faoliyati samaradorligi hozirgi kunimizda “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini qo‘llagan holda mamlakatlar va ularning hududlarini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolari bilan chambarchas bo‘g‘liqdir.

Yashil iqtisodiyot deganda, aholining turmush darajasi yuqori bo‘lgan, tabiiy resurslardan hozirgi va kelajak avlodlar manfaati yo‘lida hamda mamlakatning xalqaro ekologik majburiyatlariga muvofiq ravishda ehtiyotkor va oqilona foydalanish nazarda tutilgan iqtisodiyot tushuniladi [1].

Mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish yangi yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishga 2017-yildan keyin katta e’tibor qaratila boshlandi. Mazkur yo‘nalishda huquqiy-me’yoriy asoslar ham shakllantirib kelinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni va 2017-yil 26-maydagi “2017–2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3012-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilning 30-oktabridagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish Strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-sonli qarorlari ushbu “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan asosiy yo‘nalishlarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur hujjatlarda yashil iqtisodiyotga o‘tish O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik yo‘nalishlaridan biri ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-4702-son, 2019-yil 8-yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-son, 2017-yil 8-avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-son qarorlarida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-avgustdagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 536-son qarorida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish masalalari yuzasidan bir qator chora-tadbirlar belgilangan bo‘lib ular bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yashil iqtisodiyotning asoslari klassik iqtisodiy nazariyaga borib taqaladi. Klassik davr iqtisodchilari Rikardo, Maltus va Milllar “o‘sish chegaralari” haqida muhim faktlarni ishlab chiqdilar. Maltus o‘sish chegarasini tanqislik hodisasiga tayandi va foydalanishga yaroqli maydonni doimiy deb qabul qilib, aholi o‘sishini cheklash zarurligini ta’kidladi. Rikardo o‘z tushuntirishlarini tuproqning bir jinsliligi tufayli unumdorligining pasayishiga tayangan. Rikardoning fikricha, ortib borayotgan aholi unumdorligi past bo‘lgan maydonlardan foydalanishga majbur bo‘lganligi sababli, ma’lum vaqtdan keyin turmush darajasi pasayadi va aholining o‘sishi to‘xtaydi. Mill esa Rikardoga qaraganda “barqaror holat”ga nisbatan optimistik nuqtayi nazarga ega, chunki u boylikning yaxshiroq taqsimlanishiga individual aql-idrok va tejamkorlik natijasida erishish mumkin, deb hisoblaydi.

Klassik iqtisodchilar nazariy jihatdan iqtisodiyot avtomatik ravishda ko‘rinmas qo‘l bilan muvozanatlanadi va tabiiy resurslar tugab qolmasligi haqidagi taxminlari va yondashuvlari bilan birgalikda iqtisodiy o‘sishga va rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilar ekan tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni ifloslantirish ikkinchi o‘ringa o‘tib qoladi. Katoning fikriga ko‘ra, yashil iqtisodiyot siyosatchilar tomonidan qo‘llaniladigan va universitetlarda o‘qitiladigan dominant iqtisodiy paradigmadan uchta asosiy jihatdan farq qiladi: birinchidan, bu ijtimoiy adolat bilan bog‘liqdir. Yashil iqtisodchi uchun tenglik va adolat samaradorlikdan ustun turadi. O‘tmishda rivojlanish iqtisodiyotini o‘rgangan va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga hissa qo‘shgan ko‘plab iqtisodchilar dunyoning barcha odamlari teng bo‘lgan xalqaro iqtisodiyotni yaratishga harakat qilmoqdalar. Ikkinchidan, yashil iqtisodiyot atrof-muhit himoyachilari va yashil siyosatchilar tomonidan paydo bo‘lgan. Ular mavhum nazariyani emas, balki amalda barqaror iqtisodiyotni qurishga harakat qilishadi. Uchinchidan, yashil iqtisodiyot hali universitetlarda akademik ta’lim sohasi emas edi. Akademik muhitda va universitetning o‘zida munozaralar globallashayotgan iqtisodiy tizimning asirlariga aylandi (Cato, 2009, 5-bet).

Klassik iqtisodning otasi sifatida tanilgan Adam Smitning fikricha, iqtisodiy rivojlanish yo‘lidagi eng katta to‘siq xususiy tadbirkorlikni cheklashga urinayotgan hukumatdir. Biz bu tushunchani klassik iqtisodning “tinch qo‘ying o‘tsinlar, tinch qo‘ying qilsinlar” (laissez faire, laissez passer) shiorida ko‘rib chiqamiz. Bu fikr bozor iqtisodiyoti faoliyati doirasida barcha turdagi muammolarni hal qilish kerakligini, taqiqlar va tartibga solish kabi avtoritar aralashuvlar farovonlikni pasaytiradi, deb taxmin qiladi.

Liberal iqtisodiyotning iqtisodiy tarixida u ba’zi sohalarda bozor faoliyatiga aralashishi ko‘rinadi. Ushbu aralashuvlarning ba’zilari bozorni istalgan biznesga ko‘chirish uchun qo‘llaniladigan imtiyozlar va subsidiyalar sifatida namoyon bo‘ladi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish bilan iqtisodiy rivojlanish barqarorligi ortib, kelajak avlodlarga qoldirilgan qadriyatlar ham ular, ham ulardan keyingi avlodlar uchun ham yetarli darajada farovonlik darajasini ta’minlashi umume’tirof etilgan. Xorning fikricha, korxona va bozor yashil iqtisodiyot doirasida qayta

tashkil etilishi kerak. Yashil iqtisodiyotga o‘tishda xususiy sektorning o‘rni muhim bo‘lsa-da, davlat tomonidan tartibga solish, ayniqsa, yirik xususiy sektorlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Atmosfera ifloslanishi va chiqindilarni, suv ifloslanishini, ekologik soliq va jarimalarni qamrab oluvchi tartibga solish mexanizmlari yashil iqtisodiyotning muhim vositalaridir (Xor, 2011, 28-bet). Ammo haqiqiy muammo yashil iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan qoidalarni ishlab chiqish uchun sarflanadigan mablag‘larni ta’minlashga kelganda paydo bo‘ladi. Ishlab chiqaruvchi yuqori xarajatlarni ko‘tarishni ham, iste’molchi yuqori narxlarga duch kelishni ham xohlamaydi. Shu nuqtayi nazardan, “bo‘lishi kerakmi yoki bo‘lmasligi kerakmi?” deb muhokama qilinadigan davlatning aralashuvi zarur.

1970-yillardan boshlab ekologik muammolarni hal qilish bo‘yicha muhokamalarning asosiy mavzusi barqarorlik bo‘lib, iqtisodiy nazariyada muhim o‘rin egalladi (Harborth, 1991).

1990-yillarning boshidan iqlim o‘zgarishi, global isish va ekologik muammolar xalqaro tashkilotlar tomonidan tez-tez kun tartibiga olib kelinmoqda. Iqlim o‘zgarishi qashshoqlikni qisqartirish uchun jiddiy xavf tug‘diradi va mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishga erishish harakatlariga tahdid soladi. Barqaror ishlab chiqarish va iste’mol natijasida yuzaga keladigan iqlim o‘zgarishi qishloq xo‘jaligi va qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti sohalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Va oxir-oqibat, daromad, sog‘liq va mahsuldorlikni yo‘qotish natijasida iqtisodiyotda salbiy tebranishlarni keltirib chiqaradi. Iqlim o‘zgarishi jamiyatning yashash sharoitlariga tahdid soladi va jamiyat yoki turlarning omon qolish imkoniyati noaniq bo‘lib qoladi. Asosiy iqtisodiy fikrlar qisqa muddatli tashvishlar bilan cheklangan. Biroq avlodlar o‘rtasidagi tenglik va kelajak avlod huquqlari uzoq muddatli iqtisodiy istiqbolni talab qiladigan hodisalardir. Yashil iqtisodiyot insoniyat va tabiatni oldindan ko‘ra oladigan, salbiy ta’sirlarning oldini olish va har bir avlod ehtiyojlarini qondirish uchun tabiiy resurslarni va yashashga yaroqli sayyorani qoldirishni qo‘llab-quvvatlaydi (Kennet & Heinemann, 2006, p. 70).

Hozirgi zamonaviy jamiyatlarning iqtisodiy istiqbolini aks ettiruvchi klassik modelda jismoniy shaxslarning xarid qobiliyatini oshirishga yalpi milliy mahsulotni (YaMM) oshirish orqali erishiladi. Bu cheksiz ishlab chiqarish va iste’molga asoslangan. Bu nuqtayi nazarga ko‘ra, iqtisodiy rivojlanishning maqsadi – o‘sib borayotgan aholiga ko‘proq tovarlar va xizmatlar ko‘rsatish orqali odamlarning turmush darajasini oshirishdir. Insoniyatning turmush darajasini oshirishga qaratilgan ushbu cheksiz ishlab chiqarishda resurslarning tez va rejadan tashqari iste’mol qilinishi kelajak avlodlar rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan investitsiyalarning oldini oladi (Tiras, 2012).

NATIJALAR

Yashil ish o‘rinlari, shuningdek, atrof-muhit sifatini muhofaza qilish yoki yaxshilashga bevosita hissa qo‘shadigan yaxshi haq to‘lanadigan va martaba ishlari deb ta’riflanadi. Yashil yoqa ish o‘rinlari past malaka darajasi va yuqori malakali kirish darajasi o‘rtasidagi, yuqori maoshli va malaka oshirish va ish haqi nuqtayi nazaridan ko‘tarilish imkoniyatini ta’minlaydigan ishlardir. Yashil ish o‘rinlari, shuningdek, xavfsiz mehnat sharoitlari va ishchilarning huquqlari, shu jumladan, kasaba uyushmalarini tashkil qilish huquqini o‘z ichiga olgan yaxshi ish bo‘lishi kerak. Munosib mehnat, deb ham ataladigan ushbu turdagi mehnat ayollar va erkaklar uchun erkinlik, tenglik va xavfsizlik sharoitlari bilan munosib, oqilona va samarali mehnat imkoniyatlari sifatida belgilanadi. Muvofiq mehnat insonlar butun mehnat faoliyati davomida orzu qilgan imkoniyatlar va daromadlarni, tan olinishi, oila barqarorligi, shaxsiy rivojlanish, adolat va gender tengligini ta’minlashi kerak.

Bandlikning ijobiy va salbiy ta’siri

Atrof-muhitni muhofaza qilish va yaxshilash bo‘yicha qoidalar yangi ish o‘rinlarini yaratishi yoki mavjudlarini himoya qilishi mumkin. Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlari, aksincha, zavodlarning yopilishiga olib kelishi mumkin. Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlari narxlarning oshishiga olib kelishi mumkin, bu esa talabni, ishlab chiqarishni va bandlikni qisqartiradi. Bu, shuningdek, kompaniyalarning yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ifloslanishni nazorat qilish qoidalari yanada erkinroq qo‘llaniladigan xorijiy mamlakatlarga o‘tkazishiga olib kelishi mumkin.

Bandlikning bevosita va bilvosita ta’siri

To‘g‘ridan-to‘g‘ri bandlik ta’siri – bu atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlarining ortishi natijasida yuzaga keladigan talab, ishlab chiqarish va ish bilan ta’minlashning birinchi bosqich ta’siridir. Bandlikning bilvosita ta’siri – atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa xarajatlar atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlariga kiritilganda yuzaga keladigan ikkinchi va uchinchi bosqich ta’sirlaridir. Ishning bilvosita ta’siri quyidagicha yuzaga keladi:

- Ekologik xarajatlar tufayli yuzaga kelgan qidiruv va xizmat ko‘rsatish talabi.
- Talab va bandlikning ortishi natijasida ish haqining oshishi natijasida yuzaga keladigan multiplikator effekti.

- Nisbiy ish haqi va narx ta’siri.
- Ifloslanishni nazorat qiluvchi investitsiyalar muntazam investitsiyalarni almashtirganda yuzaga keladigan siljish effektlari.

Qisqa va uzoq muddatli bandlikning ta’siri


Ko‘pgina to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sirlar, masalan, talabning ortishi nisbatan tez sodir bo‘ladi. Bilvosita ta’sirlar iqtisodiyotga ta’sir qilish uchun ko‘proq vaqt talab etadi. Masalan, kapitalning ifloslanish joylariga siljishi uzoq muddatda ish bilan ta’minlanishning salbiy ta’sirini keltirib chiqaradi.

Vaqtinchalik va barqaror bandlikning ta’siri

Bandlikka ta’sirni o‘lchashda ularning qaysi biri vaqtinchalik va qaysi biri barqaror ekanligini aniqlash muhim (bu yerda doimiy atama afzal ko‘rilmaydi, chunki ishning haqiqiy davomiyligini taxmin qilish qiyin).

To‘liq va yarim kunlik bandlik ta’siri

Atrof-muhit faoliyatining bandlikka ta’siri yarim kunlik va to‘liq kunlik ishlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Ushbu farqlash uchun ikki xil ko‘rsatkich foydalidir. Birinchidan, yaratilgan barcha ish o‘rinlari (to‘liq va to‘liq bo‘lmagan) jami ish o‘rinlari miqdorini aks ettirish uchun to‘liq ish vaqti ekvivalentlarida ifodalanadi. Ikkinchidan, ishsizlikka qarshi kurash nuqtayi nazaridan, yaratiladigan ish o‘rinlari sonini aniqlashning o‘zi kifoya.



1-rasm: Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals)

Asosan “ishlab chiqarish” ni kengaytirishga qaratilgan an’anaviy iqtisodiyotdan farqli o‘laroq, ya’ni yalpi ichki mahsulot (YAIM) yoki yalpi milliy daromad (YMD), yashil iqtisodiyot iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy farovonlikni ta’minlash va rivojlantirishning uch baravar pastki chizig‘ini ilgari suradi. Yashil iqtisodiyot, shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun kuchli vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin[1] (BRMlar); BRMlarning trans-

1 e Rio+20 outcome document ‘The Future We Want’ states: “56. […] we consider green economy in the context of sustainable development and poverty eradication as one of the important tools available for achieving sustainable development and that it could provide options for policymaking but should not be a rigid set of rules. We emphasize that it should contribute to eradicating poverty as well as sustained economic growth, enhancing social inclusion, improving human welfare and creating opportunities for employment and decent work for all, while maintaining the healthy functioning of the Earth’s ecosystems.” (Source: https://sustainabledevelopment. un.org/futurewewant.html)

versal tabiati tufayli[2] yashil iqtisodiyot choralarini quyida ko‘rsatilganidek, ko‘plab maqsadlar bo‘yicha maqsadlarda topish mumkin.

MUHOKAMALAR

Birlashgan Millatlar Tashkiloti xalqaro hamkorlik va investitsiyalar tashkilot tomonidan taklif etilgan global yashil tartibni amalga oshirish uchun quyidagi sohalarda jamlanishini kutmoqda. Bu sohalar:

- Barqaror urbanizatsiya uchun yashil binolarni barpo etish, barcha eski va yangi binolarda energiyadan unumli va samarali foydalanish orqali birlamchi energiya iste’moli tufayli CO_2 miqdorini kamaytirishga qaratilgan investitsiyalar
- Shamol, quyosh, geotermal va biomassa kabi qayta tiklanadigan energiya sohalari, chiqindilarni qayta ishlash va undan foydalanish.
- Gibrid va muqobil yonilg‘i vositalari, tezyurar temir yo‘l tizimlari, jamoat transporti va dengiz transporti tizimi.
- Yerimiz infratuzilmasini tashkil etuvchi tuproq, chuchuk suv resurslari, o‘rmonlar va baliqchilik sohalarini barqarorlikni rivojlantirish, himoya qilish va ta’minlash uchun investitsiyalar.
- Organik qishloq xo‘jaligiga ustuvor ahamiyat beradigan barqaror qishloq xo‘jaligi uchun barcha zarur chora-tadbirlar va investitsiyalar amalga oshirilishi.

Bugungi kunda yashil iqtisodiyotning eng muhim sohalari qayta tiklanadigan energiya manbalari, yashil qurilish va infratuzilma hamda organik qishloq xo‘jaligi tarmoqlaridir. Bu tarmoqlarni rivojlantirish uchun doimiy rag‘batlantirish va sarmoya kiritish rivojlangan mamlakatlar kun tartibidagi ustuvor masala hisoblanadi. Ushbu imtiyozlar va investitsiyalar orqali iqtisodiyotga o‘tkaziladigan pullar xususiy sektorlar uchun barqaror bo‘lmagan biznes imkoniyatlarini o‘zgartiradi. Bu doirada yaratiladigan ish o‘rinlari “yashil ish o‘rinlari” deb ataladi.

“Yashil” iqtisodiyotni shakllantirish va uni barqaror rivojlantirish ham global miqyosda, ham O‘zbekiston uchun eng ustuvor vazifalardan biri bo‘lib hisoblanmoqda. Chunki barqaror rivojlanish konsepsiyasi insoniyat kelajagi uchun muhim manba bo‘lib, u BMTning qaror va hujjatlarida o‘z aksini topgan. “Yashil” iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish bugungi kunda barqaror rivojlanishning iqtisodiy-ekologik asosidir. Bugungi kunda beqaror tendensiyalarni bartaraf etish uchun 2015-yilda BMTning 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun 17 ta “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadlarining o‘ziga xos mezonlari ishlab chiqilgan.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning jahon tajribasida “yashil” iqtisodiyot rivojlanishidagi quyidagi umumiy tendensiyalarini ko‘rish mumkin:

- 2050-yilga borib sayyoramiz aholisi 9 milliardga yetadi;
- global iqlim o‘zgarishi yuz beradi;
- energiya resurslari, xom ashyo, oziq-ovqat mahsulotlari bahosi 40-50 % gacha oshadi va turli xil inqirozlar vujudga keladi;
- atrof-muhit ifloslanadi, yiliga 11 million gektar o‘rmonlar kesiladi, ekotizimlar buziladi, tuproqning tabiiy unumdorligi pasayadi;
- ekologik qochoqlar vujudga keladi;
- ichimlik suv hajmi 60-70 %ga kamayadi;
- 2030-yilda sayyoramiz aholisining 47 % i ichimlik suvi yetishmasligidan azob chekadi;
- yer shari zaharli chiqindilarga to‘lib-toshib, “ko‘milib” qoladi [2].

Yuqoridagi tendensiyalardan yer yuzida yuzaga keldigan tabiiy o‘zgarishlar, atrof-muhit muammolari, tabiiy iqlim sharoitlarining o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayib tobora tugab ketishi, tabiiy unumdorlikni pasayishini, aholining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘liq qondirilmasligi, ochlikning yuzaga kelishi, ichimlik suvi manbalarining yo‘qolishi sababli, hozirda ham muammo bo‘lib turgan ichimlik suvi yetishmasligi muammosi yanada kattalashib borayotganligini, ekinlarning rivojlanmasligi tufayli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarning yetishmovchiligini, hayvonot dunyosining qirilib ketayotganligini ko‘rmoqdamiz.

Mamlakatimizda ham iqtisodiyotni rivojlantirish hamda O‘zbekiston Respublikasida talab va taklif, ish bilan bandlik va ishsizlik, hududlarni barqaror rivojlantirish va shu kabi bir qator masalalarda muvozanatni saqlash

2 UNDP, 2019. Green economy and green jobs: Challenges and opportunities. (Source: http://bit.ly/3k8BRWH)

uchun Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonning III yo‘nalishi “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash” deb nomlangan va quyidagi maqsadlarni o‘z ichiga olgan:

- iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish.
- hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4–1,6 baravarga oshirish.
- hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish [3].

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun hududlarni mutanosib tarzda rivojlantirish, mamlakatga investitsiyarni kirib kelishini ta’minlash, mamlakatda “Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish, rivojlantirish va “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalardan barcha tarmoq va sohalarda foydalanish lozim. Shuningdek, bizni oldimizda kutib turgan barcha tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy va shu kabi muammolarni bartaraf etish uchun oldindan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo‘llash va shu bilan bir qatorda mamlakatlar “Yashil iqtisodiyot”ni joriy qilishi va uning barcha yutuqlaridan foydalanmog‘i darkor.

XULOSA

Shu bilan birga, “yashil iqtisodiyot” hududiy rivojlanishni, mintaqalar rivojlanishini, “yashil” iqtisodiyot tarmoqlarida yangi ish o‘rinlari yaratilishi orqali iqtisodiy salohiyatni yanada oshirishni rag‘batlantiradi.

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish iqlim o‘zgarishini, foydali qazilma minerallarning yo‘qolib borishini va ichimlik suvi resurslarining yetishmovchiligi kabi global muammolar xavfini kamaytirishini hisobga olgan holda, butun jahon rivojlanishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, uning umumiylik xususiyati namoyon bo‘ladi, ya’ni bugungi dunyo sivilizatsiyasi kuch to‘plagan, o‘z qudratining eng yuqori nuqtasiga yetgan paytda jahonning barcha davlatlari barqaror iqtisodiy rivojlanishda ekologik yo‘naltirilgan model tanlamas ekan, bugungi globallashuv sharoitida butun sayyoraning asta-sekin tanazzulga yuz tutishi va butunlay yo‘q bo‘lib ketish xavfi ham yuzaga keladi deyishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Erkinov, D. Y., & Kadirov, U. B. R. (2023). Yashil iqtisodiyot va uning kelajakdagi istiqbollari. scholar, 1(13), 103-108.

Muminova, E. (2023). “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning xorijiy tajribalari // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari/ Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/2), 66-75.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

Muminova E. A. Yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanish mexanizmi sifatida //Ekonomika i finansi (Uzbekistan). – 2023. – №. 1 (161). – S. 16-22.

Muminova E., Uraimdjonov A. Yashil iqtisodiyotga o‘tishda qayta tiklanuvchi energiga manbalarining o‘rni // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari/Aktualnie problemi sotsialno-gumanitarnix nauk/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – T. 3. – №. S/9.

Muminova E. A. Green economy as a mechanism of sustainable development //Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali. – 2023. – T. 3. – №. 4. – C. 19-28.

EKOTURIZM OBYEKTINING TASNIFLANISHI VA ALOHIDA XUSUSIYATLARI

Qodirov Azizjon Anvarovich
I.f.f.d. (PhD), BuxDU, Buxgalteriya hisobi va statistika kaferasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekoturizm obyektining tasniflanishi hamda alohida xususiyatlari, ekoturizmning obyektiga qo‘yiladigan talablar, xalqaro tashkilotlar tomonidan ekoturistik xizmatlarning tasniflanish belgilariga doir nazariy va amaliy bilimlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ekotizim, ekoturizm obyekti, ekoturizm predmeti, eko va geotizim, ekoturistik xizmat, ekoturistik dunyoqarash, ekoturizm konsepsiyasi, ekoturizm prinsiplari.

Abstract: This article describes theoretical and practical knowledge about the classification and features of the object of ecotourism, requirements for the object of ecotourism, signs of classification of ecotourism services by international organizations.

Key words: ecosystem, ecotourism object, ecotourism subject, ecosystem and geosystem, ecotourism service, ecotourism perspectives, ecotourism concept, ecotourism principles.

Аннотация: В данной статье описан теоретические и практические знания о классификации и особенностях объекта экотуризма, требованиях к объекту экотуризма, признаках классификации экотуристских услуг международными организациями.

Ключевые слова: экосистема, объект экотуризма, субъект экотуризма, эко и геосистема, экотуристская услуга, перспективы экотуризма, понятие экотуризма, принципы экотуризма.

KIRISH

O‘zbekistonda turizm katta imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, uning yalpi milliy mahsulotdagi ulushi atiga 0,1% ni tashkil etadi. Bu sohada 20 mingga yaqin odam band bo‘lsada, sayyohlarga xizmat ko‘rsatadigan kamida 30 mingta qo‘shimcha ishchi o‘rinlari zarurligini alohida ta’kidlash lozim. Bundan tashqari, mehmondorchilikni o‘rniga qo‘yish uchun sohaga tovarlar yetkazib beradigan va turli xil xizmatlar ko‘rsatadigan boshqa sohalar energetika, kommunal xo‘jalik, yo‘l xizmatlari, jamoat xavfsizligi, tibbiyot, sug‘urta, banklar, savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat, tashqi siyosat, xalqaro aloqalar va hokazolar (xalq xo‘jaligining 20 dan ortiq tarmog‘i) bo‘lishi kerak[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mahalliy olimlar tomonidan ekoturizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan tadqiqotlarda ekoturizmning predmeti yuzasidan fikrlar deyarli bildirilmagan bo‘lib, ular tadqiqot mavzusiga asoslangan holda, ilmiy ish uchun xos bo‘lgan predmetga aniqlik kiritishgan. Xususan, A. Nig‘matov ekoturizmning predmeti uning ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-ekologik va texnik-texnologik tomonlarini tadqiq etishga qaratilgan bo‘lishi lozim[2], degan fikrni ilgari surgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada guruhlash, taqqoslash, tahlil va sintez usullaridan keng foydalanilgan.

1 file:///C:/Users/user/Downloads/o‘zbekistonda-turizm-taraqqiyot-konsepsiyasida-ekologik-turizmning-tutgan-o‘rni-va-o‘ziga-xos-xususiyatlari.pdf
2 Nig‘matov A. Shomurotova N. Ekoturizm asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Turon-Iqbol”, 2007. –128 b.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda bularga uch yuzdan ziyod gidrografik obyektlar, karyerlar, texnogen buzilgan yerlar, kesilgan va yoqilgan o‘rmonlar, jarliklar, surilmalar, o‘pqonlarni misol qilib olish mumkin. Bu o‘rinda eng yirik milliy antropogen o‘zgargan ekoturizm obyekti sifatida Orol dengizi va uning atrofidagi buzilgan hududlarni yana bir bor eslab o‘tish lozim.

Umuman olganda, ekoturizmning obyekti bo‘lishi uchun har bir sayyohlik obyekti quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- organizmlar muayyan yashash makoni yoki joyi bo‘lishi, ya’ni biosfera doirasidan chiqib ketmasligi;
- tabiiy kelib chiqishi bo‘yicha antropogen o‘zgargan yoki o‘zgarmaganligi;
- tabiat qo‘ynida sayyohlarning 24 soatdan ortiq bo‘lish yoki tunab qolish imkoniyatining mavjudligi;
- ekotizimlardagi modda va energiya almashuvida qatnashayotgan bo‘lishi.

Shunday qilib, ekoturizm obyekti – ekologik maqsadda sayyohlik uyushtirilishi imkoniyatiga ega bo‘lgan tabiat komponent(unsur)lari, tabiiy tizim(sistema)lar, tabiat majmua(kompleks)lari. U inson ongiga bog‘liq bo‘lmagan tarzda kelib chiqqan, rivojlanadi va shakllanadi.

Jahonda ekoturizm sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi Xalqaro ekoturizm jamiyati (TIES)[3], Jahon yovvoyi tabiat fondi (WWF)[4], Jahon turizm tashkiloti (WTO)[5] ekspertlari esa umumiy holda atrof-muhitni himoyalash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va bu orqali aholi farovonligini oshirish ekoturizmning predmetini anglatadi, degan g‘oyani ilgari surishgan. Xususan, V.V. Xrabovchenko[6] ham o‘z ilmiy tadqiqotlarida aynan ushbu fikrga qo‘shiladi.

1-jadval: Xalqaro tashkilotlar tomonidan ekoturistik xizmatlarning tasniflanishi[7]

Tasniflash omili	Ekoturistik xizmatlarning turlari
Ekoturizmning maqsadi bo‘yicha	Hudud tabiatini, jumladan, yovvoyi tabiatni o‘rganish va kuzatish (Bunda ekota’lim va tarbiya elementlari inobatga olinadi)
	Tabiiy omillar, jumladan, shifobaxsh o‘simlik dunyosi resurslaridan va tabiiy shart-sharoitlardan tibbiy maqsadlarda foydalarish
	Tabiat bo‘ylab sayohat qilish, sport va ekstrimal maqsadlarda tur uyushtirish
	Tabiat qo‘ynida hordiq chiqarish
Ekoturizmning obyekti bo‘yicha	Agroturizm (Yevropa Ittifoqining Fransiya, Italiya, Ispaniya, Germaniya kabi mamlakatlarida agroturizm ekoturizmning tarkibiy yo‘nalishi sifatida baholanib, agroekotur deb ham nomlanadi)
	Ijtimoiy-madaniy
	Arxelogik
	Speologik (tog‘li va suvli hududlarga uyushtiriladigan sayohat, sport va ekstrimal turizm)
	Tabiiy-ekologik (geologik, zoologik, botanik, geografik va h.k.)


Ekoturistik xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda faol qatnashuvchi Xalqaro ekoturizm jamiyati (TIES)[8], Jahon yovvoyi tabiat fondi (WWF)[9], Jahon turizm tashkiloti (WTO)[10] ekspertlari tomonidan ekoturistik xizmatlarni tasniflashni uning maqsadi va obyektidan kelib chiqqan holda 1-jadvalda keltirilgan turli yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatadi. Ekoturizm sohasining maqsadi va obyekti bo‘yicha tasniflanishi bo‘yicha xalqaro tashkilotlar ekspertlari tomonidan ekoturistik xizmatlarning turli yo‘nalishlari o‘zaro uzviy bog‘langanligi bilan birgalikda, ularning ma’lum bir turlari ikkinchisi bilan bevosita aloqadar ekanligini kuzatishimiz mumkin bo‘ladi.

N.T. Shamuratova[11] tomonidan ekoturistik xizmatlarni tasniflashda ekoturistik resurslarning tasniflanishiga asoslangan holda ekoturizmni geologik, gemorfologik, gidrolik, iqlimiy, organik, tarixiy-geografik kabi guruhlarini ajratib ko‘rsatadi. A. Nizomov[12] tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda ham ekoturistik xizmatlarni tas-

3 The International Ecotourism Society. https://ecotourism.org.
4 World Wildlife Fund. https://www.worldwildlife.org.
5 World Tourism Organization. https://www.unwto.org.ru
6 Храбовченко В.В. Экологический туризм: Учебно-методическое пособие. М.: Финансы и статистика, 2014. – 208 с.
7 Muallif tomonidan tuzilgan.
8 The International Ecotourism Society. https://ecotourism.org.
9 World Wildlife Fund. https://www.worldwildlife.org.
10 World Tourism Organization. https://www.unwto.org.ru
11 Shamuratova N.T. O‘zbekistonda ekologik turizm va uning tabiiy geografik jihatlari. g.f.n. diss. avtoref. –Toshkent. – 2011. 28 b.
12 Nizomov A., Amanbayeva Z., Safarova N. O‘zbekistonning ekoturistik resurslari va yo‘nalishlari. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2014.

niflashda ekoturistik resurslarning turlariga asoslanganligini kuzatishimiz mumkin bo‘ladi. Bunday tasniflashni amalga oshirish bo‘yicha ekoturizm ko‘proq ilmiy izlanish va hordiq chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘ladi degan xulosaga kelish mumkin bo‘ladi. Ammo iqtisodiy adabiyotda V.V. Xrabovchenko ekoturizmni tasniflashda ilmiy, tabiiy-tarixiy, sayohat-sarguzasht va hordiq chiqarish kabi turlarini ajratib ko‘rsatganligi[13] olingan xulosa yetarli ilmiy asosga ega emasligidan dalolat beradi.

Ekoturizmni tasniflashda ekoturistik resurslarga asoslanish bo‘yicha bildirilgan ilmiy qarashlarga tayangan holda aytish mumkinki, mamlakatimiz ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha katta salohiyatga ega hisoblanadi. R. Xayitboev tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonning cho‘l va adir mintaqalaridagi ekoturistik resurslar soni 55 tadan ortiq bo‘lsa, respublika hududida to‘rt mingdan ziyod tarixiy, madaniy va arxeologik ahamiyatga ega obyektlar mavjud[14]. Bu esa, yuqorida bildirilgan fikrimizning asosi sifatida xizmat qiladi va ekoturistik xizmatlar ko‘rsatish sohasini tasniflash amaliyotini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.



1-rasm: Ekoturizmning tasniflanish yo‘nalishlari va uning xususiyatlari[15]

Yuqorida ekoturizmning obyekti, maqsadi, unga qo‘yiladigan talablar bo‘yicha bildirilgan fikrlarimizga asoslangan holda, zamonaviy ekoturizmning rivojlanish tendensiyalaridan kelib chiqib bugungi kunda mamlakatimiz amaliyotida ekoturistik xizmatlarni tasniflashni ushbu xizmatlarning turlari, namoyon bo‘lishi, sinfi, shakli, guruhi va darajasi kabi olti guruhga ajratgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bunday tasniflashni amalga oshirishda tabiat va ekologik resurslardan barcha birdek foydalana olishi imkoniyatidan kelib chiqib, xalqaro va milliy ekoturizmni o‘zaro ajratish shart emas, deb hisoblaymiz. Chunki ona tabiat va undagi resurslar butun insoniyat uchun tegishlidir.

Ekoturizmni tasniflanishi bo‘yicha taklif etilayotgan yondashuv iqtisodiy adabiyotda mavjud bo‘lgan tasniflash usullari va xalqaro tashkilotlar ekspertlari yondashuvlarini bir nuqtaga jamlash asosida shakllantirilgan bo‘lib, har qanday mamlakat iqtisodiyoti va milliy yoki xalqaro darajadagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirilishida birdek qo‘llash imkoniyatiga ega ekanligi bilan avvalgilaridan afzalroq hisoblanadi.

Hozirgi ilmiy adabiyotlarda ekoturistik dunyoqarashlar mazmuni va mohiyati bo‘yicha guruhlashtirilmagan (klassifikatsiyalanmagan). Shuning uchun ham bizning subyektiv fikrimizcha hozirgi zamonda quyidagi ekoturistik konsepsiyalarni ajratish mumkin: barqaror rivojlanish uchun ekoturizm; naturalistik; iste’molchilik; alarmizm; harakatlar yoki harakatsizliklar strategiyasi; ekoturistik rivojlanish chegarasi konsepsiyasi; muhofaza qilish va rivojlanish konsepsiyasi; ekoturistik inqiloblar konsepsiyasi.

Barqaror rivojlanish uchun ekoturizm konsepsiyasiga ko‘ra tabiat qo‘yniga qilinadigan sayyohlikni jamiyatning ekologik-ijtimoiy-iqtisodiy muammolarining yechimini topish orqali kompleks ravishda mahalliy, milliy, regional va global miqyosda o‘zaro uyushgan tarzda hal qilish mumkin. Ushbu dunyoqarash konsepsiyasini amalga oshirish masalalari 2002-yilda Yoxannesburg shahrida bo‘lib o‘tgan “Barqaror rivojlanish” xalqaro Sammitda ko‘rib chiqilgan va u bo‘yicha tegishli xalqaro deklaratsiya va shartnomalar qabul qilingan.

– 104 b.

13 Храбовченко В.В. Экологический туризм: Учебно-методическое пособие. М.: Финансы и статистика, 2014. – 208 с.

14 Xayitboyev R., Haydarov S., Abduxamidov S., Daminov M., Xamitov M. “Turizm marshrutlarini ishlab chiqish”. O‘quv qo‘llanma, Samarqand, SamISI, 2016. – 183 b.

15 Muallif tomonidan tuzilgan.

Naturalistik konsepsiya – jamiyatdan ustun turuvchi tabiatni ilohiy kuch, dono yaratuvchi, ideal borliq deb qaraydigan falsafiy oqimlar va maktablaridir. Naturalistik konsepsiyaga qarama-qarshi bo‘lgan dunyoqarash iste’molchilik konsepsiyasi – turizmni yoki kishilarning sayyohlik faoliyatini tabiatdan ustun qo‘yish va insonlarning hukmronlik g‘oyasini ilgari surishdir.

Ekoturistik rivojlanish chegarasi konsepsiyasi namoyondalari Yer tabiati imkoniyatlariga monand ravishda ekoturizm chegarasini belgilash yoki bunday ilmiy asoslangan o‘sishni chegaralashni muayyan mintaqa, hudud yoki ma’muriy chegarada amalga oshirishni tavsiya etadilar. Afsuski, ekoturizmni rivojlantirmasdan turib tez sur’atlarda o‘sib borayotgan aholining sayyohlik ehtiyojlarini qondirib bo‘lmaydi. Turizmni “konservatsiya” qilish va ekoturizmni “nol’” variantga tushirish oson emas.

Global ekoturistik boshqaruv konsepsiyasi – tabiat va turizm ajralmasdir, degan g‘oyani olg‘a suruvchilardir. Shuning uchun ham turizm orqali tabiiy atrof – muhitni saqlab qolish muayyan hudud yoki mamlakat doirasida emas, balki xalqaro miqyosda – butun dunyo hamjamiyatining birgalikdagi tadbiri orqali amalga oshirishni yoqlab chiqqanlar. Ularning namoyandalari tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uchun davlatlar ustidan turuvchi yagona bir ekoturistik tashkilot tuzishni va u ham boshqaruv, ham nazorat vakolatiga ega bo‘lishini yoqlab chiqdilar. Globalchilar BMTning Butunjahon turistik tashkiloti hozirgi kunda faqatgina davlatlarning ekoturizm borasidagi faoliyatini kuzatadilar va faktlarni keltiradilar, deydilar. Afsuski, bunday oqim namoyandalari Yer kurrasidagi hamma davlatlarning suveren huquqi bo‘lmish tabiatdan o‘z milliy qonunlariga binoan foydalanish imkoniyatlarini osonlikcha berib qo‘ymasliklarini inobatga olishmayapti. Lekin, global ekoturistik boshqaruv tizimiga insoniyat oldinmi yoki kechmi albatta yetib borishi shart. Chunki ma’lum bir joydagi ekologik muammolar na tabiiy va na ma’muriy chegaraga buysunadi, ya’ni ular global miqyosdagi ta’sir kuchiga ega bo‘lgan inqiroz ekanligi hammaga ayondir.

Muhofaza qilish va rivojlanish konsepsiyasi namoyandalari jamiyatning ekoturistik talablarini jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish talablariga moslashtirishni taklif qiladilar. Bunday dunyoqarashlar rivojlangan “katta sakkizlik” davlatlarida keng targ‘ib qilinyapti. Haqiqatan ham, ekologik, jumladan, ekoturistik tadbirlar iqtisodiyotlashgandir. Misol tariqasida Orol dengizi muammosiga to‘xtalamiz. Paxta yakkahokimligidan O‘zbekistonda olingan daromad (1960-1987 yy) Orol dengizi va uning atrofidagi ekologik inqirozni tugatishga ketadigan sarf-xarajatdan ko‘ra 7-10 barobar kamdir. “Ekologik inqirozning oldini olish, – deydi nemis ekolog olimi B. Grjimek, – unga qarshi kurashdan ko‘ra doimo bir necha chandon arzonroqdir”.

Ekoturistik revolyutsiyalar konsepsiyasi – siyosiy tuzum va kishilarning ekoturistik dunyoqarashlarini keskin ravishda inqilobiy yo‘l bilan iste’molchilik psixologiyasidan ekologik talablar doirasiga o‘tkazishdir. Ammo bu taklif qanchalik yaxshi bo‘lmasin, bir qoidani esdan chiqarmaslikka undaydi – kishilik jamiyatida (tabiatdagidek) inqilobiy yo‘l bilan biron-bir tadbirni amalga oshirish ularda keskin ravishda salbiy oqibatlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Lekin hozirgi ekologik inqiroz holati ekoturistik ong, madaniyat, o‘quv va tarbiyani keng miqyosda hamda jadal sur’atlarda zamon talabiga moslashtirishni taqozo qiladi. Chunki ekologik tizimlarning evolyusion rivojlanish qonuniyatini orqaga qaytarib bo‘lmaydi, ulardagi salbiy kechayotgan jarayonlarni to‘xtatish yoki avvalgi ijobiy jarayonlarni tiklash imkoniyati doim ham yuzaga kelavermaydi.

Yuqorida sanab o‘tilgan ekoturistik konsepsiyalardan tashqari dunyoning turli joylarida turlicha dunyoqarashga ega bo‘lgan partiyalar, oqimlar, harakatlar, kengashlar, jamg‘armalar mavjud. Lekin, ekoturistik konsepsiya tabiat bilan turizm qonunlari va qonuniyatlarining o‘zaro uyg‘unlashgan va ilmiy asoslangan holda rivojlanishini yoqlab chiqadigan qarashlar tizimidir. Bizningcha, unga zid bo‘lgan dunyoqarashlar noekoturistik konsepsiyalar tizimiga kiradi.

Ekoturistik konsepsiyalaridan kelib chiqqan holda ekologik sayyohlikning maqsadi va mohiyatini belgilab beruvchi yana bir qadam – ijtimoiy ekoturistik munosabatlarda amal qilinishi kerak bo‘lgan asosiy prinsiplardir. “Prinsip” so‘zi lotin tilida “pricipium” – asos, boshlash qoidasi degan ma’noni anglatadi. Ular tamoyil emas, balki yo‘naltiruvchi qoidalardir. Ekoturizmni tashkil etish, uni o‘tkazish, yakunlash kabi jarayonlarni yuritishda qanday qoidalarga amal qilish lozimligini ko‘rsatadi.

Ekoturistik prinsip – ekologik munosabatlarni turizm orqali tartibga solishga yo‘naltirilgan qoidalardir. Ushbu prinsiplarni yaratishda umumiy turizm prinsiplarini umumiy ekologik prinsiplar bilan uyg‘unlashtirish orqali yaratilgan hamda ularning aksariyati milliy va xalqaro huquq normalarida o‘z aksini topgandir. Ularning ayrimlari quyidagilardan iborat:

- ekoturizmda tabiatni muhofaza qilish masalasining ustuvorligi; ekoturizmdan tushgan foydaning ekologik maqsadlarga yo‘naltirilganligi;
- ekoturizmning tarixiy, madaniy, diniy turizm kabi boshqa turizm turlari bilan uzviy bog‘langanligi;
- turizmning barcha yo‘nalishlarida ekoturistik ta’limning majburiyligi;
- noekologik harakatlarning qat’iyan cheklanganligi; mahalliy, milliy, mintaqaviy va global ekoturistik harakatlarning yagona tizimdaligi;

- qadamjolarning barqaror rivojlanishida ekoturizmning ulkan ahamiyat kasb etishi.
- mahalliy aholining ekologik ongi va madaniyatini ko‘tarishda ekoturizmni jalb qilish;
- tabiatdan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilishning mazmunini ekoturistik marshrutlarda aks ettirish;
- buzilgan tabiat komplekslari ham ekoturistik obyekt, davlat, jamiyat, mahalliy boshqaruv organlarining ekologik turizmdan manfaatdorligi.

Umuman olganda, ekoturizm prinsiplarini juda xilma-xil va keng qamrovli bo‘lgani uchun ham biz ularni sharhsiz, sizlarning mustaqil fikrlashingiz maqsadida sanab o‘tamiz, xolos:

- ekoturizmda ekologik-ijtimoiy-iqtisodiy manfaatdorlikning yagonaligi;
- ekoturizmda milliy g‘urur va iftixorni shakllantirishning zarurligi;
- ekoturizmning mintaqaviy xususiyat kasb etishi va hokazo.

Muayyan ekologik me’yordagi ekoturizm prinsiplari ekologik xavfsizlikni saqlab turuvchi zaruriy hodisa va jarayonlar turkumiga kiradi. Bundan bir vaqtning o‘zida ham sayyohlik, ham tabiatni muhofaza qilish qoidalari kelib chiqadi. Shunday qilib, ekoturistik yo‘naltirilgan harakatlar ekologik prinsiplarga yondashgan va chuqur ilmiy asoslangan bo‘lishni talab etadi. Chunki inson tabiatning bir bo‘lagi, lekin uning aksi emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Tourism Organization. https://www.unwto.org/ru
2. The International Ecotourism Society. https://ecotourism.org/
3. World Wildlife Fund. https://www.worldwildlife.org/
4. Штрюмер Ю.А. Охрана природы и туризм. / Ю.А. Штюмер. – М.: Физкультура и спорт, 1974. – 103 с.
5. Barqaror rivojlanish maqsadlari. URL: https://nsdg.stat.uz/uz
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-232 sonli qarori, 30.04.2022-y. https://lex.uz/docs/5991928
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidi”gi 434-son qarori, 27.05.2019-y. https://lex.uz/ru/docs/4354743
8. Qodirov A.A. Hududlarda ekologik turizm salohiyatini barqaror rivojlantirish mexanizmining metodologik uslubiy asoslarini takomillashtirish // Monografiya. – Durdona nashriyoti. Buxoro: 2023. B.148.
9. Qodirov A.A. “COVID-19” inqirozining jahon ekoturizm industriyasi rivojlanishiga ta’siri // SCIENCEPROBLEMS.UZ Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. T:S/5(3)-2023 B. 130-137 (ISSN 2381-1342 (online))
10. Qodirov A.A. Ekoturizm rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari // IQTISODIYOT VA TURIZM xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. B.:5(13)-2023. B. 52-58.
11. Qodirov A.A. Ekoturizmning mohiyati va uning tasniflanishi // Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti. Ilmiy-amaliy jurnal. T.:4(6)-2023. B. 24-32.
12. Qodirov A.A. Ekologik turizmni tashkil etish tamoyillari, usullari va uning tarkibiy tuzilishi // Xorazm Ma’mun Akademiyasi Axborotnomasi. X:11/2-2023. B. 145-152.
13. Qodirov A.A. O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida ekoturizmni rivojlantirish amaliyoti//SCIENCEPROBLEMS.UZ Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. T:9(3)-2023 B. 128-136. (ISSN 2381-1342 (online))
14. Qodirov A.A. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning institutsional asoslari // Agroiqtisodiyot Ilmiy-amaliy agroiqtisodiy jurnal. T:2-2023. B.115-117.
15. Qodirov A.A. Analysis of ecotourism development practice in developed countries // Journal of Management Value & Ethics. –G.:2023. – August Special Issue. 23 Vol. 13 No.02. P.117-122.

MAMLAKATIMIZ OLIY TA'LIM TIZIMDA SIFAT MENEJMENTIDAN FOYDALANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI



Saidqulova Firuza Farmonovna
Buxoro davlat universiteti Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida sifat menejment, uning mazmuni, alohida xususiyatlari, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini joriy etish bilan bog'liq muammolar va ularni hal etishda Yevropa tajribasining alohida xususiyatlariga doir nazariy hamda amaliy ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: sifat menejmenti, strategik maqsadlar, ta'lim tizimi, ta'lim texnologiyalari, oliy ta'lim tizimi konsepsiyasi, ISO (Xalqaro standartlashtirish tashkiloti), umumiy sifat menejmenti (TSM), rivojlantirish strategiyalari.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical information on quality management in the higher education system of our country, its content, peculiarities, problems associated with the introduction of quality management in the higher education system of Uzbekistan and the peculiarities of the European experience of their solution.

Key words: quality management, strategic goals, educational system, educational technologies, concept of higher education system, ISO (International Organization for Standardization), total quality management (TSM), development strategies.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретическая и практическая информация по менеджменту качества в системе высшего образования нашей страны, ее содержание, особенности, проблемы, связанные с внедрением менеджмента качества в систему высшего образования Узбекистана и особенности европейского опыта их решения.

Ключевые слова: менеджмент качества, стратегические цели, образовательная система, образовательные технологии, концепция системы высшего образования, ISO (Международная организация по стандартизации), тотальный менеджмент качества (TSM), стратегии развития.

KIRISH

Respublikamizda oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonida oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan.

Oliy ta'lim muassasalari faoliyatining rivojlanishiga qaratilgan strategik dasturlar mazmunini strategiyalar turlari va ularga ta'sir etuvchi omillar (ta'lim sohasidagi davlat siyosati, ta'lim xizmatlariga talab, raqobat darajasi, geografik joylashuvi, hajmi, rivojlanish bosqichi, mulkchilik shakli, profili va boshqa ustunliklari) asosida shakllantirish, unda nazarda tutilgan loyihalar va tadbirlarni amalga oshirish mexanizmlari, tegishli muddatlar va mas'ullarni aniq belgilagan holda ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi[1].

TADQIQOT USULLARI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, tizimli yondashuv, gravitatsiya usuli, ko'p omilli regressiya, tahlil, induksiya va deduksiya, tadqiqot obyektlari va olingan natijalarni bayon qilish usullaridan foydalanilgan.

1 https://www.dissercat.com/content/sovershenstvovanie-sistemy-menedzhmenta-kachestva-v-uchrezhdenii-vysshego-professionalnogo-o

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy ta'lim tizimda sifat menejmentidan foydalanishning konseptual asoslari E. Deming, J. Dirden, B. Deyl, J. Juran, M. De Xaas, K. Ishikawa, J. Campanella, P.C. Kaplan, K. Carson, T. Conti, F. Crosby, A. Kleingeld, K. Merchant, D.P. Norton, G. Taguti, A. Feygenbaum, J. Foks, G. Fontenot, G. Xarrington, L. Xenke, B. Chakravarti, J. Shottmiller, V. Shewhart, Seytxalilov, M.Yuldashev, Ya.Ismadiyarov, R.Djurayev, S.Turg'unov, N.Azizxodjayeva, G.Axunova, A.Vaxabov, E.Imamov, A.Kucharov, B.Kalmetov, D.Nabiyev kabi xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda oliy kasbiy ta'lim muassasalarida (OTM) ta'lim xizmatlarini ko'rsatish va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda sifat menejmenti vazifalari dolzarb bo'lib qoldi. Oliy ta'lim tizimida sifat menejmenti uslublari va vositalaridan foydalanishga qiziqish va e'tiborning ortishi mamlakatimizga xosdir. Universitetlar va boshqa ta'lim muassasalari rahbarlari sifat menejmenti tizimlarini (SMT) shakllantirish va joriy etishda asos sifatida ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar talab va tavsiyalaridan keng foydalana boshladilar. Bugungi kunda universitetda SMTni shakllantirish, joriy etish va amaliy foydalanishning dolzarbligi shubhasizdir.

Mamlakatingizdagi oliy ta'lim tizimi konsepsiyasi oliy ta'limning asosiy tamoyillari, vazifalari va tuzilishini o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim tizimining bir necha asosiy jihatlari mavjud. Bularga oliy ta'lim tizimi kelib chiqishi, ijtimoiy-iqtisodiy holati yoki geografik joylashuvidan qat'i nazar, barcha shaxslar uchun ta'lim olishdan teng foydalanishni ta'minlashga qaratilgan yondashuvlar kiradi. Turli xil talabalar uchun oliy ta'lim imkoniyatlari mavjudligini ta'minlashga intiladi. Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim tizimining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Bu yuqori akademik standartlarni, samarali o'qish va o'qitish amaliyotini, tegishli o'quv dasturlarini ishlab chiqishni hamda doimiy sifatni yaxshilash mexanizmlarini saqlashni o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim tizimi turli xil muassasalardan, jumladan, universitetlar, kollejlar, texnik institutlar va kasb-hunar maktablaridan iborat bo'lishi mumkin. Ushbu muassasalar turli xil ta'lim sohalari va talabalar ehtiyojlarini qondirish uchun bir qator dasturlar va darajalarni taklif qiladi. Oliy ta'limdagi o'quv dasturi talabalarga o'zlari tanlagan ta'lim yo'nalishi bo'yicha keng qamrovli ta'lim berish uchun mo'ljallangan. U ko'pincha nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, tadqiqot imkoniyatlari va tajribaviy o'rganish kombinatsiyasini o'z ichiga oladi. Pedagogik yondashuvlar har xil bo'lishi mumkin, lekin, odatda, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Sifat – bu obyektning belgilangan va nazarda tutilgan ehtiyojlarni qondirish qobiliyatiga bog'liq bo'lgan xususiyatlar va xususiyatlarining yig'indisi – ISO (Xalqaro standartlashtirish tashkiloti). Bu sifatga bo'lgan talab haqida ko'p narsalarni bildiradigan sifatning umume'tirof etilgan ta'rifidir. Sifat menejmenti jarayon yoki tashkilotning mahsuloti bo'lishi mumkin, ehtiyoj yoki talablar mijozlarning taxminlari bo'yicha tegishli spetsifikatsiya shaklida ifodalanishi mumkin. Demak, obyektning sifati oldindan belgilangan xususiyatlar to'plamini talablar to'plamiga solishtirish yo'li bilan aniqlanadi, agar bu xususiyatlar talabga javob bersa, yuqori sifatga erishiladi, lekin bu xususiyatlar talabga mos kelmasa, u past sifat deb ataladi, yoki sifatsizligiga erishiladi. Buni ta'limga qo'llaganingizda, siz ta'lim muassasalarining manfaatdor tomonlarini, ya'ni talabalar, o'qituvchilar, ota-onalar jamoasi a'zolari, ma'murlar va boshqalarni ehtiyojlarini qondirishingiz kerak.

Iste'molchilar – ta'lim muassasasining o'quv-ta'lim jarayonidan qoniqadigan talabalar va ish beruvchi agentliklar bo'lib hisoblanadi. Sifat mijozlarning aniq talablarini qondirish uchun ma'lum standartlarga qat'iy va izchil sodiqlik orqali erishiladi. Sifat tushunchasi, shuningdek, mahsulot yoki jarayon tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar nafaqat kutilgan, balki tasavvur qilishdan ham tashqarida bo'lgan qiziqarli elementga ega. Ta'limda umumiy sifat menejmenti (TSM) ta'lim muassasasida sifat muammosini tizimli ravishda hal qilish uchun muhim bo'lgan tushunchadir. TSM – bu muassasada sifatli madaniyatni yaratish, mijozlarga ular xohlagan narsani, ular xohlagan vaqtda va ular xohlagan tarzda taqdim etish jarayonidir. TSM mijozlarning talablari va intilishlarini o'zgartirish bilan dasturlarni yoki o'quv kurslarini loyihalashga o'tishni va ularning kutganlarini qondirish va ulardan oshib ketish uchun o'rganish tajribasini taqdim etishni o'z ichiga oladi[2].

Umuman olganda, oliy ta'lim tizimining mazmun-mohiyati uning sifatli ta'limni ta'minlash, uzluksiz ta'limni rag'batlantirish, tadqiqot va innovatsiyalarni rag'batlantirish, jamiyat va iqtisodiyotga samarali hissa qo'shish uchun shaxslarni tayyorlashga sodiqligidan iborat. Bu mamlakatingizda ijtimoiy taraqqiyot, iqtisodiy taraqqiyot va inson kapitalini shakllantirishning tamal toshi bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini joriy etish bilan bog'liq bir qancha qiyinchilik va muammolar yuzaga kelmoqda.

2 https://mu.ac.in/wp-content/uploads/2022/04/MA-EDucation-SEM-II-CCMAED08-Quality-Management-In-Higher-Education-English.pdf

Ushbu muammolarga quyidagilar misol bo‘ladi:

Muammolar	Ularning mazmuni
Cheklangan resurslar.	O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalari moliyaviy resurslar, infratuzilma va professor-o‘qituvchilar salohiyati bo‘yicha cheklovlarga duch kelishi mumkin. Moliyalashning yetarli emasligi va eskirgan jihozlar ta’lim sifatini saqlab qolish yoki yaxshilashga to‘sqinlik qilishi mumkin.
Sifatni ta’minlash mexanizmlari.	Akkreditatsiya jarayonlari va dasturni baholash kabi sifatni ta’minlash mexanizmlari mavjud bo‘lsa-da, ular har doim ham samarali amalga oshirilmasligi yoki amalga oshmasligi mumkin. Muassasalar bo‘ylab sifat standartlarini izchil qo‘llamaslik ta’lim sifatining o‘zgarishiga olib kelishi mumkin.
O‘quv rejasining dolzarbligi.	Ba’zi oliy ta’lim dasturlaridagi o‘quv rejasi har doim ham sanoat ehtiyojlari yoki global standartlarga mos kelmasligi mumkin. Kurs takliflarida moslashuvchanlik yetishmasligi yoki eskirgan tarkib bo‘lishi mumkin, bu talabalarni ishchi kuchiga yoki keyingi ilmiy izlanishlarga yetarli darajada tayyorlamaydi.
O‘qitish va o‘qish amaliyoti.	Innovatsion o‘qitish usullarini, faol o‘rganishni va talabalarga yo‘naltirilgan yondashuvlarni ilgari surishda qiyinchiliklar bo‘lishi mumkin. An’anaviy ma’ruzaga asoslangan o‘qitish va eslab qolish usullari ustun bo‘lishi mumkin, bu tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi.
Tadqiqot va innovatsiyalar.	Tadqiqot va innovatsiyalar oliy ta’limning muhim tarkibiy qismlari bo‘lsa-da, professor-o‘qituvchilarning tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun cheklangan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish bo‘lishi mumkin. Moliya, infratuzilma va institutsional qo‘llab-quvvatlashning yetarli emasligi ilmiy tadqiqot natijalari va innovatsiyalarga to‘sqinlik qilishi mumkin.
Talabalarni jalb qilish va qo‘llab-quvvatlash	Talabalarni jalb qilish va qo‘llab-quvvatlash xizmatlari, masalan, akademik va martaba bo‘yicha maslahatlar, darsdan tashqari tadbirlar ba’zi oliy ta’lim muassasalarida kam rivojlangan yoki yetishmayotgan bo‘lishi mumkin. Bu talabalarni ushlab turish va umumiy akademik muvaffaqiyatga ta’sir qilishi mumkin.
Oshkoralik va javobgarlik	Oliy ta’lim muassasalarida shaffoflik va javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish zarurati tug‘ilishi mumkin. Professor-o‘qituvchilarni baholash, lavozimga ko‘tarilish va xizmat muddati uchun aniq mezonlar, shuningdek, shaffof boshqaruv tuzilmalari hisobdorlikni ta’minlash va doimiy takomillashtirish madaniyatini oshirishga yordam beradi.
Xalqaro hamkorlik.	Oliy ta’limning xalqaro faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan sa’y-harakatlar davom etayotgan bir paytda, global istiqbollarni to‘liq integratsiya qilish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va talabalar hamda o‘qituvchilarning harakatchanligini rag‘batlantirishda qiyinchiliklar bo‘lishi mumkin. Tilni bilish, viza qoidalari va madaniy farqlar kabi to‘siqlar xalqaro faoliyat sa’y-harakatlariga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Ushbu muammolarni hal qilish siyosatchilar, oliy ta’lim ma’murlari, professor-o‘qituvchilar, talabalar va boshqa manfaatdor tomonlarning birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab qiladi. Ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyalari oliy ta’limga sarmoyalarni ko‘paytirish, salohiyatni oshirish tashabbuslari, o‘quv dasturlarini isloh qilish, professor-o‘qituvchilar tarkibini rivojlantirish dasturlari va sifatni ta’minlash mexanizmlarini kuchaytirishni o‘z ichiga olishi mumkin.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, oliy ta’limda sifat menejmenti bo‘yicha Yevropa tajribasi O‘zbekiston o‘zining oliy ta’lim tizimiga moslashtirishi va joriy qilishi mumkin bo‘lgan qimmatli tushuncha va amaliyotlarni taklif qilishi mumkin. Yevropa tajribasidan foydalanishning bir qator o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

- **Sifat kafolati asoslari.** Yevropa Oliy ta’lim sifatini ta’minlash bo‘yicha Yevropa standartlari va yo‘riqnomalari (ESG) kabi mustahkam sifat kafolati tizimini yaratdi. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida izchil sifat standartlarini ta’minlash uchun o‘xshash tizimlarni qabul qilishdan foyda ko‘rishi mumkin.
- **Akkreditatsiya va auditorlik faoliyatidan foydalanish.** Yevropa mamlakatlarida ko‘pincha akkreditatsiya agentliklari yoki oliy ta’lim muassasalari va dasturlari sifatini baholash uchun mas’ul bo‘lgan organlar mavjud. O‘zbekiston ta’lim sifatini baholash va doimiy takomillashtirishga ko‘maklashish uchun akkreditatsiya mexanizmlarini yaratishi hamda tashqi ekspertiza o‘tkazishi mumkin.
- **Ichki sifat kafolati tizimlari.** Yevropa universitetlari odatda yaxshi ishlab chiqilgan ichki sifat kafolati tizimlariga ega bo‘lib, ular muntazam ravishda o‘z-o‘zini baholash, tengdoshlarni tekshirish va manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarini ta’lim sifatini monitoring qilish va oshirish uchun sifatni ta’minlashning ichki mexanizmlarini yaratishga undashi mumkin.

- **Sifatni oshirish tashabbuslari.** Yevropa oliy ta'lim muassasalari ko'pincha o'qitish va o'qish, tadqiqot, talabalarni qo'llab-quvvatlash xizmatlari va institutsional boshqaruvni yaxshilashga qaratilgan sifatni oshirish tashabbuslari bilan shug'ullanadi. O'zbekiston ham oliy ta'lim sifati va dolzarbligini oshirishga qaratilgan shunga o'xshash tashabbuslarni amalga oshirishi mumkin.
- **Talabalarga yo'naltirilgan ta'lim.** Yevropa universitetlari faol ishtirok etish, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga urg'u beruvchi talabalarga yo'naltirilgan ta'lim usullariga ustuvor ahamiyat beradi. O'zbekiston talabalarga yo'naltirilgan o'qitish usullarini targ'ib qilishi va o'quvchilarning faolligi hamda muvaffaqiyatini oshirish uchun qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratishi mumkin.
- **Xalqaro aloqalar va harakatchanlik.** Yevropa oliy ta'limi Erasmus+ dasturi kabi tashabbuslar orqali xalqaro aloqalar va talabalarning harakatchanligini rag'batlantiradi. O'zbekiston madaniyatlararo o'zaro tushunishni rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish uchun Yevropa universitetlari bilan xalqaro hamkorlik, almashinuv dasturlari hamda hamkorlikni rivojlantirishi mumkin.
- **Tadqiqot va innovatsiyalar.** Yevropa universitetlari ko'pincha tadqiqot va innovatsiyalar sohasida birinchi o'rinda turadi. O'zbekiston o'zining ilmiy salohiyatini mustahkamlash va oliy ta'limda innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun tadqiqotlarni boshqarish, texnologiyalar transferi hamda innovatsion ekotizimlar bo'yicha Yevropaning ilg'or tajribalarini o'rganishi mumkin.
- **Sifat madaniyati va yetakchilik.** Yevropa universitetlari yetakchilik majburiyatlari, manfaatdor tomonlarning ishtiroki va doimiy takomillashtirishga qaratilganligi bilan ajralib turadigan kuchli sifat madaniyatini rivojlantiradi. O'zbekiston yetakchilik malakasini oshirish, akademik erkinlikni ta'minlash va institutsional avtonomiyani rag'batlantirish orqali xuddi shunday sifatli madaniyatni rivojlantirishi mumkin.

Sifat menejmenti bo'yicha Yevropa tajribasidan foydalangan holda O'zbekiston oliy ta'lim tizimining sifati, dolzarbligi va raqobatbardoshligini oshirishi, natijada talabalar, professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar va butun jamiyat uchun foyda keltirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Farmonovna S. F., Abdukholikovna R. M. UDC: 338.48 (5751) Prospective Development Of Women's Pilagnic Tourism In Uzbekistan //Scientific Reports Of Bukhara State University. – С. 265.
2. Firuza S. Key Factors of Economic Competence Development in Students //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 4-9.
3. Саидкулова Ф. Ф. ГЛАВА 11. Формирования специальных профессиональных компетенций при изучении экономических дисциплин //Инновационное развитие науки и образования. – 2021. – С. 133-143.
4. Farmonovna S. F. The Importance Of Students'economic Competences In Improving The Quality Of Education //Interdiscipline Innovation And Scientific Research Conference. – 2023. – Т. 1. – №. 5. – С. 48-50.
5. Farmonovna S. F. The Practical Necessity Of The Kpi System In Analyzing The Effectiveness Of Teachers'activities //Models And Methods For Increasing The Efficiency Of Innovative Research. – 2023. – Т. 2. – №. 22. – С. 237-240.
6. Farmonovna S. F. The KPI System For Evaluating Educational Activities And Its Work Efficiency.(In The Case Of Higher Education Institutions) //Formation Of Psychology And Pedagogy As Interdisciplinary Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 18. – С. 47-49.
7. Farmonovna S. F. Improvement Of Economic Relations In The Market Of Educational Services //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 81-83.
8. Farmonovna S. F. Legal And Normative Bases Of Development Of Economic Competence In Students //Innovation In The Modern Education System. – 2023. – Т. 3. – №. 28. – С. 259-262.
9. Farmonovna S. F. Legal And Normative Bases Of Development Of Economic Competence In Students //Innovation In The Modern Education System. – 2023. – Т. 3. – №. 28. – С. 259-262.
10. Farmonovna S. F. Unique Ways Of Developing Economic Competence In Students //Pedagogical Sciences And Teaching Methods. – 2023. – Т. 2. – №. 19. – С. 13-15.

BO‘LAJAK IQTISODCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARI

Shukurova Marifat Xodjiakbar qizi
PhD, Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti 1-kurs doktoranti

Annotatsiya: Kasbiy kompetensiya tahlili zamonaviy tadqiqotning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Maqolada bu masala turli ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lum tushunchalar, yondashuvlar va nazariy tarkibiy qismlaridan kelib chiqqan holda keng yoritildi va bo‘lajak iqtisodchilarning maxsus kasbiy kompetensiyalari taqdim etildi.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, kasbiy kompetensiya, maxsus kompetensiya, bo‘lajak iqtisodchi.

Abstract: Analysis of professional competence is one of the main areas of modern research. In the article, this issue is widely discussed based on certain concepts, approaches and theoretical components presented in various scientific literatures, and special professional competences of future economists are presented.

Key words: competence, professional competence, special competence, future economist.

Аннотация: Анализ профессиональной компетентности является одним из основных направлений современных исследований. В статье данный вопрос широко освещен на основе отдельных концепций, подходов и теоретических компонентов, представленных в различной научной литературе, а также представлены специальные профессиональные компетенции будущих экономистов.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, специальная компетентность, будущий экономист.

KIRISH

Ma’lumki, bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyatda mavjud biror bir ish yoki xizmat vazifalarini bajarib turgan har bir mutaxassisning tegishli o‘ringa qanchalik munosibligi darajasi uning shu ish yoki xizmat egasiga qo‘yiladigan turli-tuman talablarga naqadar javob berishligi bilan baholanadi. Keyingi yillarda ish yoki xizmat o‘rni bilan shu ish yoki xizmat o‘rniga talabgor shaxs o‘rtasidagi ana shunday munosiblik darajasini hisoblash asoslarini ishlab chiqish yo‘lida jahonning bir qator davlatlarida kasb kompetensiyalarini tadqiq qilish va ana shunday tadqiqotlar natijalarini amalda qo‘llashga oid bir qancha konsepsiyalar vujudga keldi.

ADABIYOTLAR SHARHI

“Kasbiy kompetensiya” atamasi o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab faol qo‘llanila boshlandi va T.I.Rudnev, G.Steyn, Fullan M.G., Friman D. va G.Krukes kabi ko‘plab tadqiqotchilar uning ustida faoliyat olib bordilar.

Shaxsning kasbiy mahoratining zaruriy komponenti kasbiy kompetensiyadir. Ya’ni bu mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish va ularni yuqori saviyada qo‘llash uchun talab qilinadigan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashdir. Kasbiy kompetensiya deganda, shaxsning bilim va ko‘nikmalarini egallashni anglatmaydi. Mutaxassis, balki har bir mustaqil soha bo‘yicha yaxlit bilim va harakatlarning integratsiyalashuvi tushuniladi[1]. Kasbiy kompetensiya shuningdek, mutaxassis bilimlarini dolzarb ma’lumotlar asnosida boyitib borishi, muhim ijtimoiy talablarni anglashi va yangi axborotlarni izlash, uni qayta ishlash va qo‘llash qobiliyatini ham talab qiladi[2].

Kasbiy kompetensiyaga doir masalalar mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan bajarilgan tadqiqot ishlarida ko‘rib chiqiladi. Kasbiy kompetensiyaning zamonaviy yondashuvlari va talqinlari bir biridan qisman farq qiladi. Misol tariqasida G.K. Britell, R.M. Jueger, W.E. Blank kasbiy kompetensiyani “chuqur bilim sifatida”, “topshiriqni

1 T.A. Stepchenko, O.A. Bulavenko. Professional’naya kompetentnost sobremennogo spesialista ekonomicheskogo profilya: sushnostnie xarakteristiki. 2010

2 Martin Mulder PhD. Conceptions of Professional Competence.01 January 2014

yetarli darajada bajarish holati", "haqiqiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati" deb tariflasa, V.M. Mugachev esa kasbiy kompetensiyaga "mutaxassislarni tayyorlash sifati va samarali mehnat faoliyati potensialining o'ziga xos xususiyati" sifatida qaraydi. Pedagogikada bu toifa "umumiy madaniy kompetensiya" dan olingan komponent sifatida (N. Rozov, E.V. Bondarevskaya), yoki "mutaxassisning ta'lim darajasi" (B.S.Gershunskiy, A.D. Shchekatunova) sifatida qaraladi.

O.B. Xovovaning ta'kidlashicha, kasbiy kompetensiya nafaqat malaka g'oyasini (kasbiy mahorat, tajriba, bilim va ko'nikmalar), balki kasbiy faoliyatning mustaqilligini ta'minlaydigan ijtimoiy-kommunikativ va individual qobiliyatlarni ham o'z ichiga oladi.

B.G. Pishchulin maxsus kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, avtokompetentlik (o'zini o'zi boshqarish), og'zaki va yozma nutq qobiliyatlari, izlanish va tadqiqot mahorati kabi tarkibiy qismlarni asoslab, kasbiy kompetensiya tarkibiga kiritadi. B.I. Bidenko kasbiy kompetensiyani " maxsus soha talablariga uslubiy jihatdan muvofiq harakat qilish, tayyorgarlik ko'rish va eplay olish" deb ta'riflaydi. V.I. Baydenko "vazifalar va muammolarni uyushqoqlik bilan va mustaqil ravishda hal qilish, shuningdek, o'z faoliyati natijalarini xolisona baholash" deya izohlaydi. Mutaxassisning yetukligining turli jihatlari bilan professionallikni o'zaro bog'lab, A.K. Markova professional kompetensiyaning to'rt turini aniqlaydi: maxsus, ijtimoiy, shaxsiy, individual.

Umumiy olganda, kasbiy kompetensiya – bu maxsus kasbga doir bilimlar, qobiliyat, malaka, ko'nikmalar, shuningdek, ularni shu soha asosida yangilash, axborot izlash va takomillashtirish ham tushuniladi. Maxsus yoki faoliyatga asoslangan kasbiy kompetensiya faoliyatni yuqori professional darajada o'zlashtirishni tavsiflaydi va nafaqat maxsus bilimlarning mavjudligini, balki uni amalda qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi[3].

Tadqiqot maqsadiga binoan bo'lajak iqtisodchilarni kasbiy kompetesiyalari quyidagicha izohlanadi.

Iqtisodchining malakasini aniqlashda turlicha yondashuvlar mavjud. Shunday qilib, masalan, I.A. Sasovaning fikricha, iqtisodchi uchta asosiy talabga javob berishi kerak:

- fan-texnika taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan vazifalar – bu bilim va ko'nikmalar;
- mamlakat ijtimoiy-siyosiy tizimining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan vazifalar – bu ilmiy dunyoqarash, axloqiy fazilatlar, jamoat tashkilotlarida ishlash qobiliyati, siyosiy voqealarga yo'naltirilganligi, mutaxassis madaniyati;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish qobiliyati kabi kasb talablaridan kelib chiqadigan vazifalar; amaliy muammolarni hal qilish ko'nikmalari; aloqa muammolarini hal qilish ko'nikmalari.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, bo'lajak iqtisodchining kasbiy kompetensiyasiga qo'yiladigan talablarni butun doirasini aks ettiruvchi shaxs xususiyatlari, bilim va ko'nikmalarini quyidagicha ta'riflanadi[4].

1. **Shaxsiy fazilatlar:**

- mehnatga munosabat bildirish: mehnatsevarlik, diqqatlilik, ijodiy yondashuv;
- xulq-atvor va faoliyatning umumiy uslubini tavsiflovchi: mehnatsevarlik, mustaqillik, o'z so'ziga sodiqlik, faollik va g'ayrat;
- aqliy qobiliyatlar: moslashuvchanlik, tushuncha, bashorat.
- ma'muriy va tashkiliy: ish muhitini yaratish qobiliyati, odamlarga rahbarlik qilish, jamoani himoya qilish, odamlarni tushunish, ularni ishontirish qobiliyati;
- odamlarga munosabatni tavsiflovchi: halollik, xolislik, odob-axloq;
- o'ziga bo'lgan munosabatni tavsiflovchi: talabchanlik, kamtarlik, ishonch, o'zini-o'zi takomillashtirish.

2. **Bilim:**

- iqtisodiyot mutaxassisligi bo'yicha professional;
- iqtisodiy-matematik;
- iqtisodiy faoliyat, uning maqsadi, vazifalari va rejalaridan xabardor bo'lish.
- iqtisodiyot mutaxassisligi bo'yicha xorijiy tillar (ingliz tili)ni mukammal o'zlashtirish.

3. **Ko'nikmalar:**

- professional iqtisodiy muammoni hal qilish;
- iqtisodiy adabiyotlar bilan ishlash;
- topshiriqni ko'rish;
- mehnatga o'rgatish;
- ishni boshqarish;
- tajriba;
- professional iqtisodiy siyosat yuritish;
- faoliyatning boshqa sohalari bilan o'zaro munosabatda bo'lish;
- kasbiy vazifani tushuntirish;
- iqtisodiy faoliyatni rejalashtirish.

3 Mukarram Axmedova. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo'llanma. Toshkent.2018.
4 A. I. Matukova. Razvitie professional'noy kompetentnosti budushix ekonomistov sredstvami internet-texnologiy. Minsk.2012

Bo‘lajak iqtisodchining kasbiy kompetensiyasiga qo‘yiladigan talablarni aniqlab, iqtisodiy faoliyatning har bir turi uchun konsepsiyani aniq belgilash zarur deb taxmin qilinadi. Sifatlar, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga asoslangan “iqtisodiy kompetensiya”, bugungi kunda to‘liq o‘rganilmagan va professional fanlar nuqtayi nazaridan aniqlanmagan. Mahalliy va xorijiy fanlarda mavjud tadqiqotlar tahlilini hisobga olgan holda iqtisodiy kompetensiya, tushunchasiga aniqlik kiritish mumkin. Yuqorida aytilganlarga muvofiq, iqtisodchining kompetensiyasi iqtisodchi shaxsining sifat belgisi sifatida ifodalanadi, u ilmiy-nazariy bilimlar tizimini, shu jumladan, kasbiy ko‘nikmalarni, tajribani, iqtisod sohasidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi. Malakali iqtisodchi bo‘lish uchun o‘z sohasiga doir mukammal bilimga ega bo‘lishi, uni tajribada qo‘llay olishi, raqobatbardoshlikni oshirishi o‘z malaka va ko‘nikmalarini jadal suratlarda o‘zgarib borayotgan inovatsion g‘oyalar, yangiliklar va axborotlar bilan yangilab borishi kerak. Bunday sifatlarga ega bo‘lishda va o‘z faoliyatini rivojlantirishda xorijiy tillarni ayniqsa, ingliz tilini mukammal bilish muhim ahamiyatga ega. Ingliz tilida iqtisodiy soha bo‘yicha kommunikativ, lingvistik va pragmatik kompetensiyalarini uzluksiz oshirib borish bo‘lajak iqtisodchilar uchun ulkan imkoniyatlar va muvaffqaiyatlar eshigini ochadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetensiyasini muhim belgilarini alohida ko‘rib chiqish mumkin emas, chunki ular integral, yaxlit xususiyatga ega va umumay iqtisodiy tayyorgarlikning mahsulidir

TAHLIL VA NATIJALAR

Kasbiy maxsus kompetensiyaga qo‘yiladigan talablardan kelib chiqib, iqtisodchi kompetensiyasining quyidagi tarkibiy qismlari ajratib ko‘rsatiladi: motivatsion-irodaviy, funksional, kommunikativ va reflektiv[5].

1. **Motivatsion-irodaviy komponent.**

Birinchidan, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi: motivlar, maqsadlar, ehtiyojlar. Ya’ni, iqtisodiy kompetensiyani aktuallashtirishning qadriyatlar tizimi, iqtisodiy kompetensiyada shaxsning ijodiy namoyon bo‘lishini rag‘batlantirish, bo‘lajak iqtisodchining iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning samarali usullarini bilish o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyojini tavsifllash va ushbu sohaga qiziqish mavjudligini nazarda tutadi.

Ikkinchidan, u ekstrovert bo‘lish va liderlik qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu qobiliyat boshqa odamlarga o‘z ta’sirini oshirishga undaydi. Chunki ekstrovert odamlar katta ijtimoiy bosimga dosh bera oladilar, liderlik qobiliyati esa, ishontirish, muvofiqlashtirish va tushuntirish orqali kadrlarga o‘z yo‘lini topish imkon beradi

Uchinchidan, muvaffaqiyatsizlik ehtimolini kamaytirish uchun qo‘shimcha harakatlarni qo‘llash, shuningdek, energiya, qat’iyatlilik, faollik va yuklamalarga bardosh berish, qiyin vazifalarni bajarishda qat’iyatlilik ya’ni, xulq-atvorning irodaviy tomonini tavsiflaydi.

2. **Funksional (lotincha functio – bajarish, amalga oshirish) komponenti.**

“Bilim va tajriba” iqtisodchining intelektual salohiyati, saviyasi, fikrlash uslubi, axloqiy me’yorlari va ijtimoiy funksiyalarini hisobga olgan holda universitetda olingan bilimlar tizimidir. Iqtisodchini tayyorlashning asosi Funksional kasbiy bilimlarni, ya’ni gumanitar, g‘oyaviy va kasbiy fanlar sohasidagi nazariy va uslubiy bilimlarni, universal bilish usullarini va amaliy faoliyatni egallashdir. Fundamental bilimlar “ilmiy bilimlarning tuzilishi va mazmunini o‘zgartirish, o‘quv fanlari o‘rtasida shunday bog‘lanishlarni o‘rnatish”ni o‘z ichiga oladi, bu esa iqtisodchilarda iqtisod sohasidagi faoliyat to‘g‘risida yaxlit tasavvurni shakllantirish imkonini beradi, bilimlarning qo‘llanilishi va undan faol foydalanish darajasini oshiradi.

Binobarin, bo‘lajak iqtisodchi mutaxassisning funksional kompetensiyasi negizini egallagan bilim sintezi tashkil etadi: gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy fanlar, umumiy kasbiy maxsus va ixtisoslashtirilgan iqtisodiy fanlar. Ushbu komponent iqtisodchining iqtisodiy faoliyatni boshqarish va tashkil etishni rejalashi; iqtisodiy jarayonning mantiqiyligini, iqtisodiy muammolarni mustaqil va mobil hal qilish usullarini loyihalashi uchun zarur bo‘lgan faoliyat usullari shaklida ishlaydi. Ulkan g‘oyalarni yaratish, nooadatiy fikrlash, bu o‘z-o‘zini tarbiyalash va kasbiy mahoratini oshirishga yordam beradi.

3. **Kompetensiyaning kommunikativ (lotincha communico – bog‘lash, muloqot qilish) komponenti.**

O‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, ishontirish, bahslash, dalillarni yaratish, tahlil qilish, mulohazalar bildirish, oqilona va hissiy ma’lumotlarni yetkazish, shaxslararo aloqalarni o‘rnatish, o‘z munosabatlarini muvofiqlashtirish, turli ish sharoitida optimal muloqot uslubini tanlashni o‘z ichiga oladi. Shuni ta’kidlash kerakki, bo‘lajak iqtisodchining kommunikativ komponentiga quyidagi ko‘nikmalarni kiritishni ham mumkin:

- biznes uchrashuvlari va suhbatlarini o‘tkazish qobiliyati;
- biznes yozishmalarini olib borish qobiliyati;
- muloqot qilish qobiliyati;
- tinglash qobiliyati.

5 T.A. Stepchenko, O.A. Bulavenko. Professional’naya kompetentnost sobremennogo spesialista ekonomicheskogo profilya: sushnostnie xarakteristiki. 2010.

Qolaversa, malakali iqtisodchi ishbilarmonlik odob-axloq qoidalarini puxta egallashi, nutq madaniyatiga ega bo‘lishi kerak. Yuqoridagilardan tashqari, kommunikativ komponent loyiha, reja, dastur, texnologik jarayonni muhokama qilish, qo‘shma loyihalarni yaratishda, ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilishda ishtirok etish va hisobot tuzish qobiliyatini ham o‘z ichiga olishi kerak.

Kommunikativ qobiliyatlar hamkorlikda va jamoaviy iqtisodiy faoliyatda namoyon bo‘ladi. Bularga quyidagilar kiradi: odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni tushunish, muloqot holatini adekvat idrok etish va boshqalarning tajribasidan foydalanish qobiliyati; sheriklar bilan munosabatda ularning motivlari va maqsadlarini tushunish qobiliyati; hamkorlik qilish qobiliyati; o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish qobiliyati; shaxslararo hodisalarni bashorat qilish qobiliyati, asosiy aloqa usullarini bilish; muloqotda nizolardan qochish qobiliyati.

Shunday qilib, bo‘lajak iqtisodchining kommunikativ kompetensiyasi iqtisod bo‘yicha zamonaviy mutaxassisning ustuvor fazilatlaridan biriga aylanadi, chunki iqtisodiyotdagi turli xil faoliyat turlari (boshqaruv, tashkiliy, ishlab chiqarish-texnologik, dizayn) odamlar bilan bevosita aloqada amalga oshiriladi.

Iqtisodchining faoliyati esa ijtimoiy muhitda (B.A.Dushkov, B.F.Lomov, B.A.Smirnov) cheksiz xilma-xil munosabatlar o‘rnatish bilan tavsiflanganligi sababli, iqtisodiy aloqa iqtisodchi malakasining asosiy jihatlaridan biriga aylanadi va ko‘p jihatdan uning muvaffaqiyatini belgilaydi. Professional iqtisodiy faoliyatda odamlar bilan ishlash qobiliyati har bir iqtisod bitiruvchisi uchun majburiy kasbiy mahorat bo‘lishi kerak.

4. **Refleksiv (lotincha reflexio – orqaga qaytish) komponenti**

O‘z faoliyati natijalarini va o‘z rivojlanish darajasini va shaxsiy yutuqlarini ongli ravishda nazorat qilish qobiliyatida namoyon bo‘ladi; ijodkorlik, tashabbuskorlik, hamkorlikka e’tibor berish, birgalikda ijod qilish, o‘ziga ishonch, introspektsiyaga moyillik, oldindan ko‘ra bilish, faollik, tanqidiy va innovatsion fikrlash va munosabatlar natijalarini prognozlash qobiliyati, ijodiy fazilatlar va xususiyatlarni shakllantirish. Refleksiv komponent – bu shaxsiy yutuqlarni tartibga soluvchi, odamlar bilan muloqotda shaxsiy ma’noni izlash, o‘zini o‘zi boshqarish, harakatchanlik, o‘zini o‘zi bilish, kasbiy o‘sish, ko‘nikmalarni takomillashtirish, ma’no yaratish, refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirish va individual ish uslubini shakllantirish hisoblanadi.

Refleksiv komponent juda muhim sanaladi, chunki bu komponent o‘z-o‘zini hurmat qilish, boshqa odamlar uchun o‘z ahamiyatini tushunish, o‘z faoliyati natijalari uchun javobgarlik, o‘zini o‘zi bilish va kasbiy faoliyat jarayonida o‘zini o‘zi anglash darajasini belgilaydi.

Yuqoridagi barcha komponentlar iqtisodchi shaxsining integratsion sifati bo‘lgan sintezlangan ta’limga, iqtisodchining kommunikativ va Funksional kompetensiyasiga birlashtirilgan.

XULOSA

Xulosa qilganda, iqtisodiy bilim, ko‘nikma va malakalar sohasida kasbiy tayyorgarlik jarayonida iqtisodchi kompetensiyasining tipologiyalari quidagicha:

- bilishni o‘rganish (iqtisodchining kasbiy va uslubiy kompetensiyasi);
- muloqotchanlikni o‘rganish (iqtisodchining ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyasi);
- faoliyatni amalga oshirishni o‘rganish (iqtisodchining faoliyat bo‘yicha kompetensiyasi, rejalarni amalga oshirish);
- kolloborativ ishlashni o‘rganish (iqtisodchining hamkorlik bo‘yicha kompetensiyasi).

Iqtisodchi kompetensiyasining barcha tarkibiy qismlari bir-biri bilan o‘zaro ta’sir qiladi. Ko‘rib chiqilgan tushunchalar va tarkibiy qismlar tizimi bo‘lajak iqtisodchilarning maxsus kasbiy kompetensiyalari sifatida qaraladi, bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayonida iqtisod sohasidagi mutaxassisning kompetensiyasini shakllantirish omillari, tamoyillari, shartlari tizimini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mukarram Axmedova. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo‘llanma. –Toshkent.2018.
2. Martin Mulder PhD. Conceptions of Professional Competence. 01 January 2014.
3. Okulovsky, O. I. Competence and competence approach in teaching 2012.
4. A.V. Xutorskoy. Klyuchevie kompetensii i obrazovatel’nie standarti., 58-64. 2002.
5. T.A. Stepchenko, O.A. Bulavenko. Professional’naya kompetentnost sobremennogo spesialista ekonomicheskogo profilya: sushnostnie xarakteristiki. 2010
6. A. I. Matukova. Razvitie professional’noy kompetentnosti budushix ekonomistov sredstvami internet-texnologiy. Minsk.2012.
7. Kuz’mina N.V. Professionalizm deyatel’nosti prepodavatelya i mastera... kompetentnost’. 2013.
8. Tatur Yu.G. Kompetentnost’ v strukture modeli kachestva podgotovki spesialista. 2004.
9. Zimnyaya I.A. Klyuchevie kompetensii – novaya paradigma rezul’tata obrazovaniya// Visshee obrazovanie segodnya. 2003.№ 5.S. 34-42.
10. Richards, J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge. 2014.

TA'LIMNING BOSQICHLARI VA ULARNING INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI



To'rayeva Hurriyat To'yqulovna
Buxoro innovatsiyalar universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limning bosqichlari yoritilgan va ularning inson kapitalini shakllantirishdagi ahamiyati o'rganilgan.

Kalit so'zlar: inson kapitali, maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta'lim.

Abstract: This article comprises the stages of education and their importance in the formation of human capital.

Key words: human capital, preschool education and upbringing, general secondary and secondary special education, professional education, higher education, post-higher education, retraining of personnel and their professional development, extracurricular education.

Аннотация: В данной статье освещены этапы образования и их значение в формировании человеческого капитала.

Ключевые слова: человеческий капитал, дошкольное образование и воспитание, общее среднее и среднее специальное образование, профессиональное образование, высшее образование, послевузовское образование, переподготовка и повышение квалификации, внешкольное образование.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan strategik vazifalardan biri" Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida ta'kidlaydiki, "Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta'limni kambag'allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning eng samarali omili, deb bilamiz. Mamlakatimiz oxirgi yillarda bu borada katta tajriba to'pladi – ta'lim tizimi tubdan o'zgarmoqda. O'tgan olti yilda maktabgacha ta'limdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 38 foizga yetdi. 2030 yilga qadar har bir bolaning bog'chaga qatnashi, maktabni bitirayotgan har ikki o'quvchining biri esa oliygohda o'qishi uchun imkoniyat yaratiladi"[1].

Bugungi kunda jahonda inson kapitali rivoji nafaqat iqtisodiyot, balki butun jamiyatning yangi sifatini shakllantirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Jahon bankining tadqiqot natijalariga ko'ra, o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda o'sishning 64 foizi inson kapitalining sifatiga bog'liqligi qayd etilgan, AQSHda bu ko'rsatkich 76 foizni, Yevropa davlatlarida esa 74,2 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotda, inson kapitali rivoji uchun sarflangan har bir dollar kelgusida mamlakatga 3-6 dollar foyda keltirishi ta'kidlab o'tilgan[2].

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, ayniqsa, so'nggi 7-yilda Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi hisoblanmish 2022–2026-yilgi Taraqqiyot strategiyasi, "O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida O'zbekistonda inson kapitalini yuksaltirish, jumladan ta'lim va ilm-fanni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, aholini, ayniqsa yoshlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun sharoitlar yaratish va salomatligini mustahkamlash, madaniy va ma'rifiy ongini yuksaltirish bo'yicha qator ishlar amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlar uchun davlat budjetidan sarf etiladigan xarajatlar 4,3 baravarga oshirildi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi URL: https://president.uz/uz/lists/view/6677
2 Inson kapitaliga sarmoya – mustaqil davlatning taraqqiyoti garovi URL: https://strategy.uz/index.php?news=1599

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ta’lim sohasi va uning inson kapitalini shakllantirishdagi roli bir nechta xorijiy va mamlakatimiz olimlarining tadqiqot obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, L.S. Draganchuk, G.S. Abduraxmanova, N.V. Parshina, L. Nesterov, G. Ashirova, Th.W. Schultz, L. Thurow, Ben-Porath, K. Griffin, J. Knight, E. Duflo, A.I. Dobrinin, S.A. Dyatlov, Y.D. Sirenova, G.Q. Abduraxmonova, D.J.Rustamov, B.N. Navro‘z-Zodaning ilmiy tadqiqotlari inson kapitalini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlarini sanab o‘tish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada monografik tahlil usuli, qiyosiy tahlil usuli, tizimli tahlil usulidan foydalangan holda ta’lim bosqichlariga izoh berilgan. Guruhlash usulidan foydalanib, ta’lim bosqichlarining inson kapitalini shakllanishidagi roli o‘rganilgan. Mazkur usullarni qo‘llash evaziga maqolaning samaradorligi va amaliy tavsiyalarining natijadorligini ilmiy asoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta’lim sohasi davlatning kelgusidagi rivoji va taraqqiyoti uchun xizmat qilishini inobatga olib ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor qaratildi.

O‘zbekistonda jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun bundan 27 yil avval qabul qilingan. Qonun loyihasini takomillashtirish maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining mas’ul qo‘mitalari hamda ishchi guruhlari tomonidan bir necha bor muhokamalar o‘kazildi. Natijada yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni mazkur Qonunni imzolashi bilan, amalda bo‘lgan 1997-yil 29-avgustdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonunlar o”z kuchini yo‘qotdi.

O‘zbekistonda maktabda o‘qish majburiy hisoblanadi. Ta’lim tizimi yagona va uzluksiz bo‘lib, ta’lim turlariga ko‘ra quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim[3].

Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta’lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta’lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi farmoniga muvofiq, maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi vazirlik Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etildi. Bog‘chalar qurish va ta’mirlash, ilg‘or tarbiya uslublari va metodikalarini joriy etish bo‘yicha ko‘p ishlar boshlandi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda jami 33 942 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda[4]. Jami maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 6780 tasi davlat bog‘chalari, 27 162 tasi esa nodavlat tashkilot hisoblanadi.

Respublikadagi 3−7 yoshli bolalar soni 2 mln 930 ming 844 nafarni tashkil etmoqda. Shulardan 74 foizi, ya’ni 2 mln 169 ming 538 nafari bog‘chaga boradi.

Maktabgacha ta’lim bilan qamrab olingan 661 945 nafar (93 foiz) 6 yoshli bolalarning 170 721 nafari 7490 ta boshlang‘ich ta’limga bir yillik bepul majburiy tayyorlov guruhlariga, 457 008 nafari 9031 ta to‘liq kunlik tayyorlov guruhlariga, 33 429 nafari 1337 ta qisqa muddatli tayyorlov guruhlariga, 787 nafari mobil guruhlarga qamrab olindi.

Ushbu ko‘rsatkich (6 yosh):

- Navoiy viloyatida – 95,2 foiz;
- Sirdaryo viloyatida – 93,9 foiz;

3 https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda_ta%CA%BClim

4 AOKAda o‘tgan brifingda Maktabgacha ta’lim agentligi axborot xizmati rahbari Mavluda Asqarxo‘jayeva tizimdagi ishlar haqida ma’lumoti. (https://t.me/mdokanal/10457)

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Buxoro viloyatida – 93,4 foiz;
- Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida – 93 foiz;
- Toshkent shahri va viloyati hamda Xorazm viloyatida – 92,8 foiz;
- Andijon va Jizzax viloyatlarida – 93,2 foiz;
- Namangan va Qashqadaryo viloyatida – 92,9 foiz;
- Samarqand viloyatida – 92,5 foizni tashkil etadi.

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim umumta’lim o‘quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga qaratilgan. Umumiy o‘rta ta’lim I – XI sinflar bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlang‘ich ta’lim I – IV sinflar;
- tayanch o‘rta ta’lim V – IX sinflar;
- o‘rta ta’lim X – XI sinflar.

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang‘ich ta’lim ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilarga bilim, malaka va ko‘nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o‘rta ta’lim doirasida VII sinfdan so‘ng ta’lim oluvchilarda kasblar bo‘yicha birlamchi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha choralar amalga oshiriladi.

O‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar o‘zlashtirilishini, shuningdek, ta’limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta’minlaydi[5].

“Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi”, degan ezgu g‘oya asosida bu sohada katta ishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda yuzlab zamonaviy maktablar barpo etildi. Prezident maktablari, ijod maktablari hayotimizga kirib keldi, ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘i kengaytirildi. Yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratildi. O‘qituvchi va murabbiylarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, o‘tgan davrda muallimlarning oylik ish haqi o‘rtacha 2,5 baravar oshdi[6]. 11 yillik majburiy maktab ta’limi qayta tiklandi, maktab o‘qituvchilarining ish yuklamasi maqbullashtirildi va majburiy mehnatga barham berildi, shuningdek, ta’lim sohasi vakillarining oylik maoshi qariyb 4 baravarga oshirildi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan ta’minlash tizimi joriy etildi.




1-rasm: O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari soni[7]

2022–2023-o‘quv yilida 2018/2019-o‘quv yiliga nisbatan faoliyat yuritayotgan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari soni 7,7 % ga oshgan. Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023/2024-o‘quv yili boshida umumiy o‘rta

5 Ta’lim to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (https://lex.uz/docs/-5013007).
6 Maktablarda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilandi (https://president.uz/oz/lists/view/6622).
7 stat.uz-O‘zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi (https://stat.uz/images/umumiy-orta-talim_15_03_2023_uz.pdf).

ta’lim tashkilotlari soni 10 750 tani tashkil yetgan[8]. Hududlar kesimida 2022–2023-o‘quv yili boshida eng ko‘p umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari soni Samarqand 1310, Qashqadaryo 1220, Farg‘ona viloyati 1026, Surxondaryo viloyati 953 va Toshkent 907 taga to‘g‘ri keladi (2-rasm).



2-rasm: Hududlar kesimida O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari soni[9]

Professional ta’lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo‘yicha quyidagi darajalarni o‘z ichiga oladi:

- boshlang‘ich professional ta’lim;
- o‘rta professional ta’lim;
- o‘rta maxsus professional ta’lim.

Boshlang‘ich professional ta’lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha umumta’lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O‘rta professional ta’lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim hamda boshlang‘ich professional ta’lim negizida amalga oshiriladi.

O‘rta maxsus professional ta’lim texnikumlarda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, boshlang‘ich professional va o‘rta professional ta’lim negizida davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha amalga oshiriladi[10].

2020–2021-o‘quv yilidan boshlab O‘zbekistonda boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimida tegishli ta’lim dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlardan iborat professional ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etildi. Texnikumlarda umumiy o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslarga kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yildan kam bo‘lmagan muddatda kunduzgi, kechki va sirtgi ta’lim shakllarida davlat buyurtmasi hamda to‘lov-kontrakt asosida ta’lim beriladi.


Respublikamizda 2022-yil oxirida professional ta’lim muassasalari soni jami 704 tani tashkil etdi. Shundan 330 tasi kasb-hunar maktabi, 166 tasi kollej, 208 tasi esa texnikum[11].

Oliy ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minlaydi.

Bakalavriat oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalar beradigan, o‘qish davomiyligi kamida 3 yil bo‘lgan tayanch oliy ta’limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo‘yicha o‘qish davomiyligi kamida 1 yil bo‘lgan oliy ta’limdir.

8 https://uzreport.news/society/2023-2024-o‘quv-yili-boshiga-umumiy-o-rta-ta-lim-tashkilotlari-soni-10-750-tani-tashkil-et.
9 stat.uz-O‘zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi (https://stat.uz/images/umumiy-orta-talim_15_03_2023_uz.pdf).
10 Ta’lim to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (https://lex.uz/docs/-5013007) .
11 https://baxtiyor.uz/ozbekistonda-professional-talim-muassasalari-soni-nechta-2022-yil.




3-rasm: O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari soni[12]

O‘zbekistonda 2024-yilda oliy ta’lim muassasasi soni jami 224 taga yetgan. 224 ta OTMdan 121 tasi davlat, 75 tasi nodavlat, 28 tasi esa xorijiy oliy ta’lim muassasasi hisoblanadi. Hozirda 224 ta oliygohda 41 mln 289 ming nafar talaba tahsil oladi. Quyidagi oliygohlardan 110 ta universitet, 66 ta institut, 40 ta filial 8 tasi shaklida faoliyat yuritadi.

Oliy ta’limdan keyingi ta’limni oliy ta’lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o‘rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta’minlaydi.



4-rasm: O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari turi[13]

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy PhD) ilmiy darajasiga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli hisoblanadi[14].

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science DSc) ilmiy darajasiga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli hisoblanadi[15].

12 https://stat.edu.uz/
13 https://stat.edu.uz/
14 (https://simple.wikipedia.org/wiki/Doctor_of_Philosophy)
15 (https://en.wikipedia.org/wiki/Doctor_of_Science)

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science DSc) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi.

Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi.

O'zbekistonda yangicha fikrlaydigan kadrlarni tayyorlash tizimini rivojlantirishda ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari yordam bermoqda, talimning barcha yo'nalishlari bo'yicha ko'plab yirik qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda.

1-jadval: O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilgan xorijiy texnik yordam hajmi[16]

№	Xorij donor hukumatlari va tashkilotlari	Xorijiy texnik yordam hajmi
1	Osiyo taraqqiyot banki	290 million dollar
2	Janubiy Koreya hukumati	110 million dollardan ortiq
3	Jahon banki	33 million dollar
4	OPEK fondi, Saudiya fondi, Islom taraqqiyot banki	42 million dollar
5	Germaniya hukumatining "KfV" banki	qariyb 20 million dollar
6	Boshqa xorijiy donorlar	100 million dollardan ortiq

Ammo ta'lim jarayoniga ajratiladigan mablag'ning iqtisodiy samarasi hamma vaqt ham bir xil emas. Ba'zi faktorlar buni pasaytiradi:

- ta'lim sifati past bo'lsa;
- ta'lim jarayonida olingan bilim va ko'nikmalar bozor talabiga javob bermasa;
- mamlakatning iqtisodiy o'sishi past bo'lsa, jamlangan inson kapitaliga talab kam bo'ladi. Natijada ta'lim sohasidagi inson kapitalidan to'la foydalanilmaydi va ular kerakli darajada taqdirlanmaydi;
- mehnatga to'lanadigan haqda ma'lumot darajasi yuqori va pastligiga qaramay (masalan, fan doktori, professor va assistent, katta o'qituvchi) orasida farq kam bo'lib, daromadlari tenglashtirilsa.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelib takliflar beriladi:

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida inson kapitali umumiy milliy zaxirasining ahamiyati katta. Eng avvalo inson kapitali mamlakat iqtisodiyotining texnikaviy yangiliklarni qabul qila olish va foydalanish qobiliyatini belgilaydi.

Ko'p mamlakatlar ta'lim sohasi xizmatlarini joriy etishga faol qatnashmoqdalar. Mamlakatning ta'lim sohasiga mablag' ajratishi inson kapitali milliy zaxirasini ko'payishiga e'tiboridan dalolat beradi. Ta'lim sohasiga ajratiladigan mablag': daromadi darajasi past mamlakat 3,4%, daromadi o'rtasi bo'lgan mamlakat 4,4%, yuqori daromadli mamlakatlar 5,6%. Aholi jon boshiga daromadning ozligi inson kapitaliga investitsiya ajratishga imkon bermaydi. Bu esa mamlakatning qashshoqlanishiga sabab bo'ladi.

Mamlakatga ta'limga ajratiladigan xarajatlar turlicha. Ba'zi mamlakatlarga ta'limga davlat ko'proq mablag' ajratsa, boshqasiga shaxsiy xarajatlar ko'proqdir. Daromadi past mamlakatlardan Shri Lanka ta'limga xarajat 20% shaxsiy sektor, Uganda va Vetnam 60%, Shveystariyada 50%ga yaqinini tashkil etadi. Ko'p mamlakatlarda boshlang'ich va ba'zan o'rta ma'lumot olishni davlat bepul amalga oshiradi. Chunki fuqarosi o'qish, yozishni bilsa, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga faol qatnashadi.

16 Tadqiqotchining statistik ma'lumotlar tahlili natijasi ishlanmasi

Oliy o‘quv yurtlarida davlat va xususiy bo‘lsa ham ko‘pincha o‘qish uchun pul beradi. Oliy o‘quv yurtlarini tugatganlarga foydaning ko‘pi qoladi, chunki ularning oliy ma’lumotli bo‘lganligi uchun oyligi ko‘p bo‘ladi.

Kasb-hunar kollejlari, kasbiy ta’limda ish beruvchilarga ko‘pincha mablag‘ ajratadilar. Davlat ish beruvchilar bilan ikki sabab bilan hamkorlik qiladi:

1. Kasbiy ta’lim uchun ish beruvchilarning mablag‘ ajratishi davlat mablag‘larini iqtisod qiladi.
2. Kasbiy tayyorgarlik bozor talablari bilan qay darajada uyg‘un.

Boshlang‘ich ta’lim bolalarga o‘qish, yozish, hisoblashning asosiy ko‘nikmalarini beradiki, ular kelgusida ma’lumotli bo‘lishiga yordam beradi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, qiz-ayollarni boshlang‘ich ma’lumotli bo‘lishi ularning oila a’zolarining sog‘ligining yaxshi bo‘lishi, bola sonini kamayishi, bolalar o‘limining kamayishiga olib keladi.

Rivojlangayotgan davlatlarda kichik maktab yoshli bolalar sonini tez o‘sishiga qaramay oxirgi 25 yilda boshlang‘ich maktabga qabul qilish koeffisiyentini tez o‘sishiga erishildi. Ammo hali ham juda og‘ir ijtimoiy ahvoldan maktabga borolmaydigan bolalar holati mavjud. Shuningdek, shahar maktablaridagi sharoit bilan qishloq maktablari keskin farq qiladi. Iqtisodiy ta’minlangan oilalar bolalari va o‘g‘il bolalarga o‘qishga imkoniyat ko‘proq. Qiz bolalarning o‘g‘il bolalardan kamroq boshlang‘ich ta’lim olish Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq, Afrika – Sahroyi Kabirning janubrog‘ida namoyon bo‘ladi. Natijada rivojlanayotgan davlatlarda 900 mln. katta yoshli aholi savodsiz, ularning 2-3 ayollardir.

Shuningdek, qashshoqlik natijasida bolalar mehnati ham ta’lim olishga ta’sir etadi. O‘rta ta’lim olish darajasi boshlang‘ich ta’limga nisbatan ozdir. Daromadi past va o‘rtacha bo‘lgan mamlakatlarda 60% bolalar o‘rta maktabga boradilar. Daromadi yuqori bo‘lgan mamlakatlar aholisining barchasi o‘rta ma’lumotni oladi.

Oliy ma’lumotli bo‘lishda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining farqi katta. Ta’limning boshlang‘ich bosqichida olingan bilim va ko‘nikmalar inson kapitaliga keyingi investitsiyalar samaradorligini oshiradi va turli sohalarda muvaffaqiyatli faoliyatini ta’minlaydi. Oliy ta’lim tizimi maxsus ixtisoslik bo‘yicha bilim va ko‘nikma beradi. Bakalavr, magistrlik diplomi, ilmiy darajalarni olish insonga ma’lum mehnat bozorida reputastiya beradi. Uning eng asosiy funkstiyasi umumiy madaniy kapitalning rivoji, bu keyingi ixtisoslik faoliyati va rivojiga universal asos bo‘ladi. Makro masshtabda yuqori ma’lumotli ishchi kuchi mamlakatning inson salohiyatini tashkil etadi. Demak, ta’lim inson kapitali ishlab chiqarish asosiy tarmog‘i, butun jamiyat va inson farovonligining poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ta’lim to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.
2. Абдурахмонова Г.Қ., Рустамов Д.Ж. “Инсон капиталини рақамли иқтисодиёт асосида ривожлантириш йўналишлари”. Монография. – Beau Bassin: “GlobeEdit” Publisher, 2020. – 16 б.
3. Ben-Porath. The Production of Human Capital and the Life Cycle of Earnings. – N.Y.; – L, 1970. –P.49.
4. Griffin K., Knight J., ul Haq. “Human Development in the 1980s and Beyond.” Journal of Development Planning 19 (Special number) (1989).
5. Добрынин А.И., Дятлов С.А., Цыренова Е.Д. Человеческий капитал в транзитивной экономике: формирование, оценка, эффективность использования. – СПб.: Наука, 1999. – С. 31.
6. Navro‘z-Zoda B.N. Barkamol avlodning iqtisodiy salohiyatini shakllantirish. Buxoro Davlat universiteti ilmiy axboroti, 2-son, 2010 y. 32-38.
7. Navruz-Zoda B. N., Shomiev G. U. The different approaches of human capital formation //International Journal of Innovative Technologies in Economy. – 2017. – №. 5 (11). – С. 6-10.
8. Наврузода Б. Н., Наврузода Л. Б. Предпринимательская концепция формирования и развития человеческого капитала //Современная наука. – 2014. – №. 1. – С. 21-25.
9. Навруз-Зода Б. Н., Шомиев Г. У. Исторические предпосылки развития теории человеческого капитала //Academy. – 2016. – №. 11 (14). – С. 19-21.
10. Навруз-Зода Л. Б., Навруз-Зода З. Б. Повышение социального престижа предпринимательских фирм в Бухарской области //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 11 (95). – С. 21-25.
11. Schultz Th. W. Inwestmentin Human Capital. The Role of Edication and Researsch / Th. W. Schultz. NY: The Free Press, 1971. –272 p.
12. Thurow L. Investment in Human Capital. Belmont, 1970. P. 86.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi URL: https://president.uz/uz/lists/view/6677
14. Inson kapitaliga sarmoya – mustaqil davlatning taraqqiyoti garovi URL: https://strategy.uz/index.php?news=1599
15. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekistonda_ta%CA%BClim
16. AOKAda o‘tgan brifingda Maktabgacha ta’lim agentligi axborot xizmati rahbari Mavluda Asqarxo‘jayeva tizimdagi ishlar haqida ma’lumoti. (https://t.me/mdokanal/10457)
17. Maktablarda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilandi (https://president.uz/oz/lists/view/6622)
18. stat.uz-O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi (https://stat.uz/images/umumiy-orta-talim_15_03_2023_uz.pdf)

HUDUDLARDA TO‘G‘RIDAN TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH DASTURINI AMALGA OSHIRISHDA MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Xamidov O. X.
BuxDU, Iqtisodiyot kafedrasi Iqtisodiyot fanlari doktori

Tojiyeva A. F.
Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar mazmuni, jalb qilish dasturi hamda jalb qilishda marketingni rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, xorijiy investitsiyalar, investitsion jozibadorlik, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, marketing, marketing strategiyalari.

Abstract: This article describes the content of foreign direct investment, the attraction program, as well as proposals and recommendations for the development of attraction marketing.

Key words: investments, foreign investments, investment attractiveness, foreign direct investments, marketing, marketing strategies.

Аннотация: В данной статье описано содержание прямых иностранных инвестиций, программа привлечения, а также предложения и рекомендации по развитию маркетинга привлечения.

Ключевые слова: инвестиции, иностранные инвестиции, инвестиционная привлекательность, прямые иностранные инвестиции, маркетинг, маркетинговые стратегии.

KIRISH

Jahonda globallashuv jarayonlarining tezlashib borishi hozirgi davrda mamlakatlar iqtisodiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatini oshirishni taqozo etmoqda. “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda eng asosiy omillardan hisoblanadi”[1]. Yildan-yilga mamlakatlar tomonidan to‘g‘ridanto‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hajmi 2022-yilda 19 foizga kamayib, 2021-uning hajmi 1,52 trln. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda ushbu ko‘rsatkich 1,2 trln. AQSh dollarini tashkil etgan[2].

Hududlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish dasturini ikkita sinfga ajratish mumkin: birinchisi, hududlararo xalqaro dasturlar; ikkinchisi, hududlardagi alohida tumanlar dasturi. Hududlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish dasturlari joylarda iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy vazifalarni hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Hududlarni xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirishda investitsiyalarni kirib kelishi va rivojlanishi har bir hududda ishlab chiqilayotgan dasturlarning nechog‘li to‘g‘ri tuzilganligi bilan baholanadi. Hududlarda investitsiyalarni jalb etish tashqi savdo aloqalarni rivojlanganligi bilangina emas, balki unga ta’sir etuvchi boshqa omillar bilan ham baholanadi.

TADQIQOTNING O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar va ular ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish,ushbu korxonalarning faoliyati, o‘ziga xos xususiyatlari va ularning hududlardagi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish-

1 James E. Anderson, Mario Larch, Yoto V. Yotov. Trade and Investment in the Global Economy. Journal of NBER Working Paper No. 23757 (2022) 1879-1913. https://www.nber.org/papers/w23757

2 https://www.finanz.ru/novosti/aktsii/pryamye-inostrannye-investicii-v-mire-v-2017-godu-sokratilis-na 16percentoon-1013613886

dagi roli va ahamiyati masalalari xorij olimlaridan G. Aleksandr, D. Beyli, Yu. Brigxmen, J. Lorens Gitman, Ye.D. Domar, J. Douns, Ernest Jons, D.Maykl Jonk, J. Rozenberg, A. Pol Samuelson kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

A.Sh.Bekmurodov fikricha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar-investorga korxonani nazorat qilish huquqini beruvchi kapitalni to‘g‘ridan-to‘g‘ri eksport qilish va shu bilan korxona asosiy bosh kompaniyasining xorijiy sho‘ba korxonasiga aylanadi[3].

B.A.Vaxobov esa to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar-investorga iqtisodiy faoliyati ustidan ta’sirchan nazorat etish imkonini beradigan investorning uzoq muddatli, firmaning kamida 10 foizi ulushiga yoki aksiyadorlar kapitaliga egalik qilishiga imkon beradigan investitsiyalardir, deb ta’kidlaydi[4].

A.S.Azizov to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar atamasini, avvalo, xo‘jalik faoliyati ustidan qisman yoki to‘liq nazoratni ta’minlash orqali xorijiy korxonaga investitsiya sifatida tushunish kerakligini ta’kidlaydi[5].

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy omillari bozorlar va resurslarga kirishdir. Chet el kapitalining faqat ayrim mintaqalarda va ayrim tarmoqlarda konsentratsiyasi boshqa mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanishini cheklaydi, birinchi navbatda sanoati rivojlanmagan mintaqalar iqtisodiyotiga ta’sir qiladi[6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada guruhlash, taqqoslash, tahlil va sintez usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlarda iqtisodiy jarayonlarning tez rivojlanib borishi, infratuzilmani o‘zgarishi va chet el kapital qo‘yilmalarini kirib kelishi joylarda turlicha o‘zgarishlarni yuzaga keltira boshlaydi. Ushbu holat hududlarning biznes yuritish uchun qulayligiga, ulardagi tabiiy boyliklariga, imijiga, siyosiy barqarorligiga, turizm va mehmonxonalarning holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmasdan, o‘zaro qo‘shni bo‘lgan hududlar o‘rtasida raqobatning yuzaga kelishiga olib keladi. Yuqoridagi holatlarning yuzaga kelishi hududda marketing faoliyatini shakllanishiga imkon yaratadi.

Hududlarning marketing strategiyasini ishlab chiqishda uning ichki va tashqi omillarini chuqur tahlil qilish lozim. Ushbu strategiyaning eng muhim tomonlaridan biri hududning kuchli va kuchsiz tomonlari chuqur tahlil qilinganidan so‘ng, uning marketing strategiyasini to‘liq shakllantirish kerak. Marketing strategiyasini natijaga olib boradigan omillar tahlili albatta e’tiborga olinadi yoki ikkinchi holat unga erishish imkoniyatlarini bermaydigan holatlar va omillar ham inobatga olinadi. Hududning marketing strategiyasining yana bir modeli quyidagilarni asos sifatida qabul qilishni taklif etadi:

- marketing imiji hududning asosiy biznes imkoniyatlarini ochib beradi. Ushbu holatni hududni boshqa hududlardan ustunlik tomonlari va o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi;
- mehmondo‘stlik marketingi. Bunda hududning tabiiy iqlimi, sharoiti, tarixiy obidalari, mashhur insonlari va boshqalar;
- infratuzilma marketingi. Hududning qulay infratuzilmasi, uning salohiyati va imkoniyatlari ko‘rsatiladi;
- reklama marketingi.


Buxoro viloyati iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish-uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar iqtisodiyotni rivojlantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, u nafaqat yangi kapital qo‘yilmalar manbasi, balki marketing va boshqaruvni samarali usuli hamda yangi texnologiyalarni kirib kelishiga yo‘l ochib beruvchi omil ham hisoblanadi.

Buxoro viloyatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish uning iqtisodiyotini rivojlantirishning eng muhim indikatori sifatida ham baholash mumkin. Chunki to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar klasterlar va tizimli texnologik jarayonlarni tashkil qilishga hamda mahalliy ishlab chiqarishni takomillashtirishga juda keng miqyosda imkoniyatlar yaratib beradi.

Xorijiy va milliy investitsiyalarni jalb qilishda mamlakat va uning hududlarida yaratilgan investitsion jozibadorlik, qulay investitsion muhit va hududlarning nisbiy afzalliklari muhim o‘rin tutadi. Aynan yuqoridagi omillarga xorijiy investorlar tomonidan alohida e’tibor beriladi. Hududlarning investitsion jozibadorligini aniqlashda

3 A.Sh.Bekmurodov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Iqtisodiyot. – T. – O‘quv qo‘llanma.
4 A.B.Vaxobov. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Moliya, 2010. – T. – O‘quv qo‘llanma.
5 A.S.Azizov. (2021) To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishda moliyaviy-iqtisodiy va mamlakat xatarlarini kamaytirish. Iqt. fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) diss. Avtoref. – Toshkent: 2021. – 11 b.
6 G.M.Galeeva and E.N.Kadeeva. Problems of attracting foreign direct investment into the regional economy. Journal of Physics: Conference Series, 1730(2021) 012118, 2020. – P. 8.

turli uslublardan foydalaniladi. Ularning bir-biridan farqi investitsion muhitni belgilaydigan omil va indikatorlarni tanlab olishda namoyon bo‘ladi.



1-rasm: Hududlarni marketing strategiyasi


Qizig‘i shundaki, hududiy marketingning tarkibiy qismlari ma’lum bir mazmunga ega bo‘lib, mutaxassislar tomonidan hududiy rivojlanishdagi investitsiya marketingining turlari sifatida talqin qilinadi (2-rasm).



2-rasm: Hududiy rivojlanishdagi investitsiya marketingining asosiy kichik turlari[7]

Bugungi kunda ekspertlar hamjamiyati O‘zbekiston hududlarining investitsion jozibadorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlamoqda, ularni u yoki bu darajada investitsion marketingning kichik turlari doirasida namoyon bo‘ladigan marketing texnologiyalari orqali boshqarish mumkin (3-rasm). O‘zbekistonning barcha hududlari obyektiv sabablarga ko‘ra, shu jumladan, yuqoridagi investitsiya jozibadorligi omillari bilan bog‘liq bo‘lgan holda investorlar uchun har xil jozibadorlikka ega.

7 Muallif ishlanmasi



3-rasm: Mintaqaning investitsion jozibadorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar

O‘zbekiston mintaqalarining investitsion jozibadorligi bo‘yicha qayd etilgan turli xil pozitsiyalar, shuningdek, ulardagi ushbu jozibadorlikka ta’sir qiluvchi omillarning turli xil ko‘rinishi qiziqish uyg‘otadi.

O‘zbekiston mintaqalarining investitsiyaviy jozibadorligida qayd etilgan turli pozitsiyalar, shuningdek, ularda ushbu jozibadorlikka ta’sir etuvchi omillarning turlicha ifodalanishi investitsiya marketingi doirasida yechim izlashga qiziqish uyg‘otadi, bu esa quyi va o‘rta guruh mintaqalarining mavqeyini oshirishga, shuningdek, yetakchi mintaqalar tomonidan amalga oshirilayotgan natijalarni saqlab qolishga yordam beradi



4-rasm: 2023-yilda O‘zbekistonning yuqori, o‘rta va o‘rtacha investitsiya jozibadorligi bo‘lgan hududlari

Shu nuqtayi nazardan, investitsiya marketingining tarkibiy qismlari bo‘yicha qarorlar asosida mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Shuningdek, mintaqaning ijobiy imijini yaratish va uning brendini ma’lum darajada targ‘ib qilishga harakat qilish tavsiya etiladi. Shu nuqtayi nazardan, investitsiya marketingining tarkibiy qismlari bo‘yicha qarorlar asosida mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, hududlarning investitsion jozibadorligini uchta guruhga bo‘lish mumkin: investitsiya muhiti juda yaxshi bo‘lgan guruhlar; investitsiya muhiti o‘rta darajada

bo‘lgan guruhlar; investitsiya muhiti darajasi juda past bo‘lgan guruhlar. Buni biz quyidagi jadval ma’lumotlaridan bilib olishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval: Hududlarning investitsion jozibadorligini aniqlash elementlari

№	Hududlar	Hududning umumiy iqtisodiy rivojlanishi	Hududning moliyaviy resurslar bilan ta’minoti	Investi sion infratuzilma rivojlanish	Hududning demografik tavsifi	Institusional o‘zgarishlar va rivojlanish	Hududning investitsion faoliyat xavfsizligi	Mutlaq integral ko‘rsatkich
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	0,0064	0,121	0,085	0,222	0,559	0,535	0,234
2	Andijon	0,341	0,151	0,276	0,426	0,560	0,594	0,367
3	Buxoro	0,304	0,144	0,165	0,413	0,509	0,511	0,315
4	Jizzax	0,198	0,049	0,075	0,388	0,496	0,506	0,151
5	Qashqadaryo	0,362	0,542	0,266	0,382	0,370	0,386	0,382
6	Navoiy	0,536	0,189	0,218	0,348	0,348	0,439	0,338
7	Namangan	0,141	0,118	0,183	0,374	0,531	0,554	0,285
8	Samarqand	0,181	0,234	0,154	0,401	0,607	0,522	0,322
9	Surxondaryo	0,150	0,101	0,104	0,324	0,549	0,422	0,250
10	Sirdaryo	0,185	0,037	0,147	0,320	0,317	0,723	0,247
11	Toshkent	0,434	0,197	0,366	0,493	0,611	0,362	0,404
12	Farg‘ona	0,317	0,241	0,331	0,470	0,289	0,573	0,347
13	Xorazm	0,171	0,113	0,199	0,310	0,529	0,535	0,284
14	Toshkent sh.	0,837	0,793	0,701	0,820	0,580	0,845	0,755

Birinchi guruhga Toshkent shahri, Toshkent, Qashqadaryo, Andijon va Farg‘ona viloyatlari kiradi hamda ular investorlar uchun eng qulay investitsion imkoniyatlarga ega hisoblanadi (indeks 0,755-0,347).

Investitsion jozibadorlikning yuqori bo‘lishi ushbu hududlarda tabiiy ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat, infratuzilma, jumladan, transport va axborot-kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanish darajasi yuqoriligi bilan belgilanadi8

Ikkinchi guruhni Samarqand, Buxoro, Navoiy va Namangan viloyatlari tashkil etadi (indeks 0,322-0,288). Ushbu hududlar xorijiy investorlarning qazib oladigan va qayta ishlaydigan korxonalar faoliyat ko‘rsatayotganiga qiziqishi bilan belgilanadi.

Uchinchi guruhga nisbatan kam rivojlangan hududlar – Xorazm, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi kiradi (0,284-0,234). Bu hududlarda boshqa hududlarga nisbatan mavjud infrastruktura holatining yetarli darajada rivojlanmaganligi, tabiiy iqtisodiy, investitsiya muhitining a’lo darajada emasligi mazkur hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlatning ishtiroki yuqori bo‘lishi lozimligini belgilaydi. Xorijiy investorlarni hududlarga keng jalb qilish hamda hududlarning investitsion jozibadorligini va investitsiya muhitini yaxshilovchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mavjud huquqiy-qonunchilik sohasini takomillashganligi;
- investitsion ma’lumotlar yagona bazasining yaratilganligi hamda ochiqligi;
- hududlarni boshqarish darajasi, ma’muriy to‘siqlarning kamligi;
- soliq va kredit tizimining maqbulligi;
- transport va aloqa infrastruktura holatining rivojlanganligi;
- iqtisodiyotning ochiqligi;
- hududning obro‘si (imiji) yuqoriligi;
- bank-moliya va sug‘urta xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarining yuqoriligi;
- hududiy imtiyoz va qo‘shimcha yengilliklarning mavjudligi va boshqalar.

8 Asqarova M.T., Hakimov X.A. Makroiqtisodiy siyosat. O‘quv qo‘llanma. T.: TDIU, 2016. 314 b.

Shuningdek, sa'y-harakatlarni mintaqaning ijobiy imijini yaratish va uning brendini ushbu hududga xos bo'lgan muayyan strategik yo'nalishlarga va ma'lum maqsadli auditoriyalarning, bu holda potensial investorlarning aniqlangan afzalliklariga muvofiq targ'ib qilishga qaratish tavsiya etiladi. Muayyan hudud ehtiyojlariga moslashish imkoniyati bilan o'rtacha asosda investitsiyalarni jalb qilish nuqtayi nazaridan mintaqaning marketing strategiyasi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi (5-rasm).



5-rasm: Investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq mintaqaning marketing strategiyasining asosiy elementlari[9]

Taqdim etilgan elementlar doirasida amalga oshiriladigan marketing yechimlariga haqiqiy investorlar doirasini aniqlash, maqsadli auditoriya ehtiyojlarini aniqlash asosida investitsiyalarni jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratish, uzoq muddatli hamkorlik qilish imkonini beradigan ishbilarmon sheriklik tarmoqlarini shakllantirish, ishbilarmon sheriklarga kreditlar olishda, foydali kontragentlar, mijozlar topishda, innovatsion loyihalarni rag'batlantirishda ko'maklashish va h.k kiritish mumkin. Ushbu ro'yxatni muayyan hududda ustuvor vazifalar sifatida tanlangan vazifalarga qarab aniqlashtirish maqsadga muvofiqdir. Marketingni rejalashtirish va turli mintaqalar uchun ustuvor loyihalarga investitsiyalarni jalb qilish masalalari muhim hisoblanadi[10].



6-rasm: Hududning rivojlanishini ta'minlash uchun investitsiya marketingi yechimlari[11]

9 Muallif ishlanmasi.
10 Bondarenko V.A., Diyanova S.N., Dzhum T. A., Dubinina M. A. Residents' inter- est to form a "green" territory brand // Euro- pean Research Studies Journal. 2018. Vol. 21. No. S1. Pp. 51-62.
11 Muallif ishlanmasi.

Hududiy rivojlanishda investitsiya marketingi, shu jumladan, raqamli yechimlarni hisobga olgan holda foydalanish bo‘yicha amaliy yechimlarga quyidagilarni kiritish mumkin (6-rasm).

XULOSA


Shuni ham tushunish kerakki, investitsiya marketingi asosida hududiy rivojlanishning muayyan yo‘nalishlarini tanlash va to‘ldirish ma’lum bir hududning imkoniyatlari, uning salohiyati va ko‘tarilgan vazifalar doirasiga asoslanishi va erishiladigan bo‘lishi kerak.Globalizatsiya sharoitda O‘zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va mavjud investitsion jozibadorlik bo‘yicha turli pozitsiyalarga ega. Shu bilan birga, ular tashqi investitsiyalarni jalb qilish va ichki investitsiyalarni ko‘paytirish asosida muvaffaqiyatli rivojlanish imkoniyatlari uchun bir-biri bilan raqobatlashadi. Hududlarni rivojlantirishning strategik rejalarida belgilangan vazifalarni ta’minlash uchun mintaqalar o‘zlarining evolyutsiya vektorining ustuvorliklarini, maqsadli auditoriyalar, investorlarning afzalliklarini va talablarini tushunishlari kerak.

Investitsiya marketingining amaliy yechimlari onlayn va oflayn muhitda parallel ravishda amalga oshirilishi, maqsadli auditoriyalarning e’tiborini ijobiy imij va brendga qaratishi, shuningdek, uzoq muddatli o‘zaro manfaatli hamkorlik doirasida tashqi va ichki investorlarni jalb qilish, saqlab qolish va rivojlantirish uchun mintaqada mavjud bo‘lgan real salohiyatga tayanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947- sonli Farmoni. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 8-fevral, №28 (6722).
2. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida” Qonun (2019) O‘RQ-598-son. www.prezident.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisga murojaatnomasi. www.prezident.uz
4. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora tadbirlari to‘g‘risida” PF-5495-son Farmoni. www.prezident.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining 2020–2022-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4563-son qarori. www.prezident.uz
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2021–2023-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4937-son qarori. www.prezident.uz
7. Нешитой С.А. Инвестиции. Учебник. –М.Дашков и К, 2007. – С. 15.
8. Sayfutdinov, S., Khamidov, O., & Bobur, S. (2015). Implementation of up-to-date experience of the world in the tourism sector of Uzbekistan, with the current innovative technologies and adjustable suggestions: case of Uzbekistan. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 5(8), 84-107.
9. Хамидов О. Х. Перспективы привлечения инвестиций в гостиничную индустрию //Вісник ДІТБ. Серія: Економіка, організація та управління підприємствами туристичної індустрії та туристичної галузі в цілому. – 2014. – №. 18. – С. 153-156.
10. Xiaolan Fu, ‘Foreign Direct Investment, Absorptive Capacity and Regional Innovation Capabilities: Evidence from China, Abstract, Department of International Development University of Oxford October 2007.
11. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari – T.:2002. i.f.d. diss.avtoref. 11-14 b.

INVESTITSIYALAR MARKETINGINING STRATEGIK ASPEKTLARI



Xodjamberdiyeva Dilnoza Bahtiyorovna
Buxoro viloyati Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada korxonalar tomonidan investitsiyalarni jalb qilish sohasida marketing faoliyatini tadqiq qilish jihatlari muhokama qilinadi. Muallif investitsiya marketingining mohiyatini ochib beradi, o‘z oldiga investorlarni jalb qilishni maqsad qilib qo‘ygan korxonalarga nisbatan marketing strategik elementlarini taqdim etadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga qarab, investitsiya faoliyati mahsuloti, investitsiya marketingida strategik omilning o‘ziga xos xususiyatlari, investitsiya mahsulotini joylashtirish va rag‘batlantirish xususiyatlari aniqlanadi. Investitsion jozibadorlik darajasiga ko‘ra taqdim etiladigan va investitsiya obyektini potensial imkoniyatda joylashtirish bosqichlari aniqlanadi. Investitsion mahsulotni ilgari surish vositalariga alohida e’tibor qaratilib, PR strategiyalari eng samarali tadbirlardan biri sifatida ko‘rib chiqilgan. Joylashtirish va o‘zaro targ‘ibot kanallari strategik maqsadlar bo‘yicha tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Investitsiyalar marketingi, investitsiya faoliyati mahsuloti, investitsion jozibadorlik, investitsiya sig‘imi, investitsion marketing strategiyasi, investitsiya mahsulotini rag‘batlantirish, joylashishni aniqlash investitsiya mahsulotini ishlab chiqish.

Abstract: The article discusses the aspects of marketing activity research in the field of investment attraction by enterprises. The author reveals the essence of investment marketing, presents strategic elements of marketing for enterprises aiming to attract investors. Depending on the modern economic conditions, the product of investment activity, the specific characteristics of the strategic factor in investment marketing, the characteristics of investment product placement and promotion are determined. According to the level of investment attractiveness, the stages of placement of the investment object in a potential opportunity are determined. Special attention was paid to the means of promotion of the investment product, and PR strategies were considered as one of the most effective activities. Placement and cross-promotion channels are researched for strategic purposes.

Key words: Investment marketing, investment activity product, investment attractiveness, investment capacity, investment marketing strategy, investment product promotion, positioning investment product development.

Аннотация: В статье рассматриваются аспекты исследования маркетинговой деятельности в сфере привлечения инвестиций предприятий. Автор раскрывает сущность инвестиционного маркетинга, представляет стратегические элементы маркетинга предприятий, стремящихся привлечь инвесторов. В зависимости от современных экономических условий, продукта инвестиционной деятельности определяются конкретные характеристики стратегического фактора инвестиционного маркетинга, особенности размещения и продвижения инвестиционного продукта. По уровню инвестиционной привлекательности определяются этапы размещения объекта инвестирования в потенциальной возможности. Особое внимание было уделено средствам продвижения инвестиционного продукта, а PR-стратегия признана одним из наиболее эффективных направлений деятельности. Каналы размещения и перекрестного продвижения исследуются в стратегических целях.

Ключевые слова: Инвестиционный маркетинг, продукт инвестиционной деятельности, инвестиционная привлекательность, инвестиционный потенциал, стратегия инвестиционного маркетинга, продвижение инвестиционного продукта, позиционирование разработки инвестиционного продукта.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy iqtisodiyotda investitsiya bozorining shakllanishi ushbu bozorda marketing tamoyillaridan foydalanish zaruratini taqazo qiladi. Investitsiyalar marketingi bu investitsion faoliyat marketingini anglatsada keng ma’noda investitsion faoliyatda marketing tizimini ishlab chiqish va undan foydalanish kompleksini anglatadi. Bu investitsion faoliyat natijasi marketing tizimi bilan qanchalik bog‘liq yoki unga zarurat yuzasidan kelib chiqadi.

Investitsiya marketingining mohiyatini ikki nuqtayi nazardan ko‘rib chiqaylik. Nazariy nuqtayi nazardan, bu yakuniy iste’molchilarning real ehtiyojlari va potensial manfaatlariga mos keladigan investitsiyalar sohasida ishlab chiqarish va iqtisodiy qarorlarni yaratishga qaratilgan keng qamrovli, dasturiy faoliyatdir.

Investitsiyalar marketingi va uning strategik xususiyalari ba’zi olimlar tomonidan umumiy, xususiy yoki maxsus jihatlari bo‘yicha tadqiq qilingan.


1. Asaul A. N., Graxov V. P. Investitsiyalar va qurilish sohasidagi integratsiyalarni boshqarish jihatlarini tadqiq qilgan [1]. Ashimxonova S.Z. Investitsion faoliyatni brend nuqtayi nazardan tadqiq qilgan [2].
3. Kotler F., Armstrong G., Sonders G., Vong V. Marketing asoslari darsligida investitsion marketing va uning strategiyalarini umumiy tamoyillar jihatidan o‘rgangan [3]. Polunin L.V. Innovatsion korxonalarning investitsiya jarayonlarining mintaqaviy jihatlarini tadqiq qilgan [7]. Xrutskiy V. E., Kornyeva I. V. zamonaviy marketing elementlarini investitsion faoliyat bilan bog‘lab tushintirishga harakat qilgan [10]. Shelest A.P. biznesida integratsiyalashgan marketingni tashkil etishni kengroq o‘rgangan[11].

Shunday bo‘lsa-da investitsiyalar marketingi strategiyasini tizim sifatida tadqiqotlar yetarli emas va bu mavzuning dolzarbligini belgilab beradi. Yuqoridagi olimlarning tariflarini umumlashtirib quyidagi xususiy tavsiyalarini keltirishimiz mumkin.

Investitsion faoliyat mahsuloti – bu o‘zining kuchli va zaif tomonlariga ega bo‘lgan aniq obyektga investitsiya. Obyektga investitsiyalar marketingi ma’lum bir investitsiya loyihasining marketingini anglatadi. Amaliy nuqtayi nazardan – bu marketing va real investitsiya faoliyatining sintezidir [1; 12].

TAHLIL VA NATIJALAR

Marketing faoliyati, xususan, martketing strategiyalari orqali investitsiyalarni jalb qilish uchun quyidagi asosiy an’anaviy kompleks elementlarni asos qilib olish kerak: mahsulot, narx, joylashishni aniqlash va ilgari surish (1-rasm) [3].



Ular an’anaviy 4P funksiyasidan biroz farq qiladi (Mahsulot, Narx), taqsimlash (joy), ko‘tarilish, (Rag‘batlantirish), J. Makkarti tomonidan taklif qilingan [3; 5].

Investitsiyalarni jalb qilishda marketing elementlarining tipologik funksiyasi strategik omillar bilan uning samarasi o‘rtasidagi bog‘liqlik marketing funksiyasini ifodalaydi va quyidagi ko‘rinishda tavsiflanadi. Im =f (M, N, J, S).

Korxonaning investitsion faoliyati strategiyalaridan kelib chiqib, boshqa domenat yoki qo‘shimcha marketing elementlari kiritilishi mumkin. Bu korxona yoki ixtiyoriy xo‘jalikning umumiy, xususiy yoki maxsus maqsadlaridan kelib chiqadi. U holda investitsion martkening strategiyasining tizimli kompleks omilli funksiyasi shakllantiriladi. U ikki kompleksdan iborat bo‘ladi. Birinchisi ishlab chiqarish ikkinchisi sotuv kompleki. Ishlab chiqarish kompleki quyidagi elementlardan singari tarkiblanishi mumkin:

Im =f (x,r,i) xaridor, raqobatchi, infratuzilma;
IChs =f (p, ik, k) resurs, ishchi kuchi, kapital;
Io =f (t, m, p) texnologiya, mutaxassis, pul;
Korxonaning sotish strategiyasining tizimli kompleks omilli funksiyasi;
Ss =f (M, J, B) marketing, joy, bozor;
ss f (P, Ik, K) vositachi, reklama, kommunikatsiya;
Ss =f (T, M, P) brend, merchandayzing, siljitish.

Marketing elementlariga ustunlik berish shu elementlar bazasi bilan bog‘liq ma’lum stregiyalarni qo‘llash orqali tegishli imkoniyatlarni beradi. Ya’ni har bir marketing elementi alohida strategik birlikni pirovardida kompleks strategiyani tashkil qiladi. Investitsion faoliyatda marketing strategiyalaridan foydalanish quyidagi asosiy samaralarni ta’minlaydi:

- natijaviy sohalarga investitsiya afzalligi;
- yuqori rentabellik va past risklar;
- bozor afzalliklarini amalga oshirish va potensial muvaffaqiyatli chiqish. Investitsiyalarni jalb qilish sohasidagi marketing faoliyatining asosiy yo‘nalishi – bu muayyan obyektning imijini maqsadli shakllantirish, ijobiy rivojlantirish va targ‘ib qilish.

Investitsion marketing elementlariga asoslangan strategiyalar aksar hollarda umumiy bo‘lgan uch tip strategiyalar orqali amalga oshiriladi.

1-jadval: Investitsion marketing strategiyalari yo‘nalishlari[1]

Investitsion marketing strategiya tiplari	Bozorga kirish atributlari	Ko‘lam atributlari	Harakat atributlari	Risk atributlari	Xos element atributlari
agressiv	Moliyaviy ustunlik	Yirik va monopolistik korxonalar	Moliyaviy, texnologik tashkiliy va shiddatli barqaror bosim	Oligopolistik risk	Mahsulot
sokin	Kichik va boshlang‘ich imkoniyatlar	Dastlabki kichik va o‘rta korxonalar	Sokinlik bilan o‘sib borish	Vaqtomili riski	siljitish
kumulyativ	Sirli	O‘rta va yirik korxonalar	Kutilmagan sirli harakat	Kutilmagan risk	PR va reklama

Investitsion marketing strategiyalarining agressiv tipida, asosan, moliyaviy imkoniyatlari yuqori bo‘lgan korxonalar foydalanadi. Bozorga kirishda moliyaviy, texnologik tashkiliy imkoniyatlari kattaligi sababli shiddatli barqaror bosim orqali bozorni o‘zlashtira boshlaydi. Asosiy xatar katta moliyaviy manevrlar oxirigacha amalga oshirilmasdan qolsa, o‘ta katta yo‘qotishlarga sabab bo‘ladi. Chunki uning raqiblari ham shu strategik tipdan foydalanadi.

Kichik va boshlang‘ich imkoniyatlarga xos bo‘lgan korxonalar sokin bozorga kirib o‘sib kattarish strategiyasidan foydalaniladi va bu eng xavfsiz va kam yo‘qotishlar strategiyasi hisoblanadi. Asosiy xatar bu o‘sish davomiyligida vaqt omili qaymog‘ini olish imkoniyatidan mahrum qilish ehtimoli bor.

Kumulyativ strategiya esa boshqa raqiblari uning keyingi xatti-harakatini bashorat qila olmasligi, bozorga kirish va qaymog‘ini olish uchun to‘satdan paydo bo‘lish imkoniyatini beradi. Asosiy xatar taktik choralar hamma vaqt ham rejadagidek samara bermasligi mumkin.

Investitsion marketingdagi narx strategiyalari oddiy mahsulot marketingidagidan sezilarli darajada farq qiladi. Potensial investor “narx”ni hisobga olgan holda bitta narx bilan emas, balki uning ko‘plab tarkibiy qismlari bilan shug‘ullanadi. Narx strategiyalari narxni shakllantirish va narx o‘yinlari orqali amalga oshiriladi.

Birinchi holatda mumkin bo‘lgan xarajatlarning standart to‘plami quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- asosiy xarajatlar (ishlab chiqarish xarajatlari jami tarkibi);
- muomala xarajatlari (sotish xarajatlari jami tarkibi);
- qurilish xarajatlari;
- soliqlar xarajatlari;
- ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish xarajatlari va boshqalar.

Xarajatlarning alohida turlarini ham baholash kerak. Masalan, investitsiya loyihasini amalga oshirishda milliy xo‘jalikning o‘ziga xos muammolari paydo bo‘ladi: byurokratik to‘siqlarni bartaraf etishga sarflangan vaqt va his-tuyg‘ular, hokimiyatdan o‘tgan vaqt.


Joylashish strategiyasi – bu mahsulot, mahsulot yoki xizmatning raqobatbardoshligini oshiradigan jozibali imijini yaratishdi. Investitsion jozibadorlik obyektini to‘g‘ri joylashtirish orqali rivojlantirish uchun katta mablag‘larni jalb qilishingiz mumkin. Bu mahsulotning asosiy xususiyatlarini targetlaydi. Raqobatbardoshlik parametrlarini baholab, investitsiya mahsuloti qaysi toifaga tegishli ekanligini aniqlash mumkin[7]. Investitsion jozibadorlik darajasiga ko‘ra mahsulotlarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

- **“Asos” mahsulot.** U past raqobatbardoshlikka ega va istiqbolsiz bozorda sotiladi. Bu uning juda past investitsion jozibadorligini ko‘rsatadi va yalpi daromadning katta qismini egallashi kompaniya uchun juda xavflidir, chunki ushbu mahsulotni qo‘llab-quvvatlash va ilgari surish uchun katta vasvasa mavjud. “Asosiy” mahsulot uchun to‘g‘ri strategiya – hech bo‘lmaganda ko‘proq istiqbolli mahsulotlar kerakli pul yordamini olmaguncha investitsiya qilish strategiyasidir.

1 Muallif ishlanmasi.

- **“Shirin” mahsuloti.** Siz oxirgi chora sifatida ushbu mahsulotga pul sarflashingiz kerak yoki ishlab chiqarishni butunlay to‘xtatish kerak. Eng zaif nuqta – bu tarqatish, uni kuchaytirish kerak.
- **“Tezkor” mahsulot.** Qisqa muddatli investitsiyalar uchun eng jozibador mahsulot. Tavsiya etilgan strategiya: chakana savdo tarmog‘idagi ishtirokingizni maksimal darajada kengaytiring, yanada jozibador bozor segmentiga kirish imkoniyatini ko‘rib chiqing.
- **“An’anaviy” mahsulot.** Bu eng muammoli pozitsiya. Raqobatbardoshlikni oshirish uchun qancha sarmoya talab qilinishi (tasvir, reklama) yoki yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlari haqida qo‘shimcha ma’lumot kerak. Umumiy tavsiya: agar investitsiyalar yetarli bo‘lsa, unda siz ushbu mahsulot bilan ishlashingiz mumkin, agar mablag‘lar cheklangan bo‘lsa, ularni “Tez” va “Yangi” mahsulotlar uchun ishlatish yaxshiroqdir.
- **“Yangi” mahsulot.** O‘rta muddatli investitsiyalar uchun eng jozibador mahsulot. Tavsiya etilgan strategiya: potensial iste’molchilarni mahsulot va uning afzalliklari haqida xabardor qilish, PR tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha faoliyatga e’tibor qaratish [4; 6].

Investitsion obyekt turini aniqlagandan so‘ng, biz keyingi harakatlar to‘g‘risida qaror qabul qilamiz. Mahsulotni investitsiya sifatida joylashtirishning yangi muammosi – bu tarqatiladigan ma’lumotlarning hajmi va diqqat markazi hamda mahsulotga investorlarning qiziqishini jalb qilish maqsadi. Investitsion obyektning joylashuvi potensial investorning ongida bir qator bosqichlarni o‘z ichiga oladi (2-rasm) [10].



2-rasm: Investitsion jozibador obyektni joylashtirish jarayonining bosqichlari

Joylashtirishning samarali usullaridan biri investitsion mahsulotni ishlab chiqish – bu o‘ziga xoslik, tan olinishi va ijobiy imijga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan o‘z brendingizni yaratishdir.

Investitsion brendlar odatdagi iste’molchi brendlari kabi o‘zini tutmaydi. Uning auditoriyasi professional xaridorlar va yakuniy iste’molchilardan iborat. Professional xaridorlar odatda vositachilardir (moliyaviy maslahatchilar yoki loyiha homiylari kabi). Chakana investorlardan mintaqadagi oxirgi foydalanuvchilar badavlat mijozlar uchun ishtirokchilarni rejalashtirmoqda. Talab har bir segmentning ehtiyojlari va istaklari bir biridan har xil mezonlarga (iste’molchi tanlovi va afzal ko‘rishi) ko‘ra alohidalashadi. Professional xaridorlar birinchi navbatda intellektual dalillar va ma’lumotlarga moyil bo‘ladi.

Investitsion brendlar asosiy qaror qabul qiluvchi mutaxassislar tomonidan talab qiladigan fakt va raqamlarni taqdim etishlari shart,. Investorlar o‘z pullari bilan ishonadigan odamlarga ishonishlari kerak. Muvaffaqiyatli investitsiya brendlarini harakatga keltiradigan aql va hissiyotlarning uyg‘unligidir [2].

Investitsion mahsulotni ilgari surish yoki siljitish – bu, birinchi navbatda, marketing kommunikatsiyalari majmuasidan foydalanishdir. Axborotni targ‘ib qilish kanallarini, uning hajmini belgilaydigan, ta’sir darajasini nazorat qiluvchi va kerakli o‘zgarishlarni amalga oshiradigan reklama rejasini ishlab chiqish kerak. Hozirgi vaqtda ko‘plab marketing kommunikatsiyalari vositalari mavjud, masalan reklama, savdoni rag‘batlantirish, PR kabi (Jamoatchilik bilan aloqalar), shaxsiy sotish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri marketing, tashviqot, Internet marketing, lekin investitsiya mahsulotini ilgari surish uchun hammasi mos emas. Keling, PRni batafsil ko‘rib chiqaylik, chunki bu maxsus vosita investitsiya mahsulotini ilgari surishda asosiylaridan biri hisoblanadi. PR (jamoatchilik bilan aloqalar) – bu odamlarning fikri va xatti-harakatlarini o‘z foydasiga o‘zgartirish uchun jamoatchilikka qaratilgan tashkilotning muvofiqlashtirilgan harakatlaridir.

PRning Funksional komponentlaridan biri investor munosabatlari (investorlar bilan munosabatlar) hisoblanadi. Bu yerda PR texnikasi bu:

- potensial investorlar va bevosita qaror qabul qiluvchilar pulini aniqlash;
- investorlar uchun asosiy ma'lumotlar paketini shakllantirish (butun soha tavsifi, kompaniya strategiyasi, kompaniya boshqaruvi to'g'risidagi ma'lumotlar, raqobat muhitini tahlil qilish va boshqalar);
- asosiy xabarlarni ishlab chiqish va maqsadli auditoriyaga yetkazish;
- chiquvchi axborot oqimini ta'minlash va nazorat qilish (yillik hisobot, sharhlar, ixtisoslashtirilgan va ijtimoiy-siyosiy nashrlardagi nashrlar, mansabdor shaxslarning chiqishlari va bayonotlari);
- potensial investorlar uchrashuvlarni tashkil etish va qo'llab-quvvatlash [8].

PRning eng keng tarqalgan turlari investorlar bilan bog'liq faoliyat bo'lishi mumkin:

1. Press-relizlarni yozish va tarqatish – bu potensial investorlar e'tiborini jalb qilish uchun zudlik bilan nashr etilishi va tarqatilishi kerak bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni o'z ichiga olgan matbuot, radio, televideniyeda xodimlar uchun maxsus axborot byulletenlari.
2. Tadbirlar, taqdimotlar, master-klasslar, konferentsiyalar, ochiq eshiklar kuni va boshqalarni tashkil etish. Ushbu tadbirlar PR va reklama doirasida kompaniyaning o'zini o'zi taqdim etishning keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Ular investorlarga kompaniya faoliyati bilan tanishish imkonini beradi,uning rejalari, boshqaruvni qiziqtirgan savollarni o'z ichiga oladi.
3. Press-tur – PR xizmati tomonidan rejalashtirilgan, jurnalistlar uchun maxsus mo'ljallangan, muddati uzaytirilgan, ommaviy axborot vositalarida xolis jurnalistik nashrlarni olish maqsadida o'tkaziladigan tadbirdir. Press-turni o'tkazish sababi investorlarni tashkilot faoliyati bilan tanishtirish zarurati yoki tashkilot bevosita ishtirok etadigan har qanday muhim voqea bo'lishi mumkin.
4. Homiylik – bu kompaniya tomonidan notijorat tashkilotlarga turli tadbirlar davomida ular bilan alohida munosabatlar o'rnatish huquqi evaziga ko'rsatiladigan moliyaviy yordamdir. Homiylik faoliyati ko'pincha kompaniya imijini yaxshilash va ijobiy fikr yaratishga qaratilgan faoliyati haqida ma'lumot beradi.
5. PR tadbirlarida brend vositasidan foydalanish, ya'ni shaxs (ko'pincha shou-biznes, siyosiy yoki iqtisodiy soha vakili), bu brend imijiga to'liq mos keladi va kompaniyaning asosiy qadriyatlarini baham ko'radi. Brend elchisining vazifasi mahsulotdan foydalanish, iloji bo'lsa, hamma joyda ma'lum bir brendga sodiqligini eslatib o'tish va brend nomidan ijtimoiy tadbirlarda qatnashishdir.
6. Axborotni ommaviy axborot vositalarida (veb-sayt, blog, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar) tarqatish.
7. Mahsulotni joylashtirish – yashirin reklama qilish texnikasi, undan iborat filmlar, teledasturlar, kompyuter o'yinlari, musiqiy videolar, kitoblar, illyustratsiyalar va rasmlarda qahramonlar tomonidan qo'llaniladigan rekvizitlarning haqiqiy tijorat o'xshashligi bor.
8. O'zaro reklama – bu reklama faoliyatining ta'sir qilish obyekti bir xil maqsadli auditoriya bo'lsa, ikkita raqobatdosh bo'lmagan brendlar tomonidan birgalikda amalga oshiriladigan marketing tadbirlari to'plamidir [9].

Albatta, PR faoliyati bilan birgalikda turli xil vositalardan foydalangan holda muvofiqlashtirilgan aloqa xabarlari orqali potensial investorlar oldida yagona qulay imijni shakllantiradigan ma'lum bir sinergik effekt yaratadigan boshqa marketing kommunikatsiyalari vositalarini unutmasligimiz kerak [10]. Bunday aloqa vositalariga nisbat berish mumkin:

- investitsiya taklifi, unda quyidagi ma'lumotlar miqdori bo'lishi kerak:
- xulosa; kompaniya tarixi va mulkchilik; mahsulotlar va xizmatlar;
- boshqaruv va ishlab chiqarish xodimlari; tarmoq, bozor va raqobat tavsifi;
- kompaniya faoliyati; moliyaviy tarix; strategik reja; xavf omillari va xavfni kamaytirish strategiyasi; moliyaviy taklif; ilovalar.
- ixtisoslashtirilgan nashrlarda (tarmoqqa qarab) va muntazam matbuotda reklama;
- kapital imkoniyatlar haqida ma'lumot beruvchi seminarlar o'tkazish biznes hamjamiyatlari bilan aloqalar o'rnatish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Muhimi, konferentsiyaga tayyorgarlik ko'rayotgan xodimlar muammolari muhokama qilinayotgan biznes sohasidagi mavjud vaziyatni yaxshi tushunishi, bu potensial investorlar bilan o'zaro tushunishga erishish imkonini beradi.

- kompaniya taqdimoti. Professional tarzda tayyorlangan taqdimot materiallarining mavjudligi va loyiha jamoasining muvofiqlashtirilgan harakatlari guruhlari investorlarni taqdim etilayotgan loyihada ishtirok etishga ishontirishga yordam beradi. Loyihani investorga taqdim etish bir tomonlama aloqani anglatmaydi. Investor, u yoki bu darajada, biznesda taqdim etilgan ma'lumotlar bilan allaqachon tanish bo'lgan rejada emas va aniq savollarga javob kutmoqda, buning asosida u loyihaga kirish imkoniyati va bitim shartlari bo'yicha yakuniy qaror qabul qilishi mumkin bo'ladi;
- investitsiya ko'rgazmalarida ishtirok etish. Korxona va tashkilotlarning ko'rgazmalarda ishtirok etishi ularning marketing siyosatining eng samarali vositalaridan biridir;
- "keyingi parvarish" korxonaga allaqachon kelgan investorlarni qo'llab-quvvatlashni anglatadi. Vasiylik dasturi aniqroq yo'naltirilgan va invertor bilan chuqur va keng qamrovli munosabatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, investor duch kelishi mumkin bo'lgan barcha keyingi qiyinchiliklarni engishga yordam beradi;
- biznes bilan o'zaro munosabat. Xuddi homiylik dasturi kabi, bu turdagi yordam beradi.
- biznes bilan bevosita va bilvosita hamkorlik qilish, masalan, savdo-sanoat palatalari yoki hududiy birlashmalar orqali hamkorlik qilish;
- potensial investorlarga bevosita "sotish". Investorlarni jalb qilish bilan shug'ullanadigan ko'plab korxonalar bozorning ma'lum bir qismi bilan ishlashni alohida xodimlarga topshiradilar.

Investorlarni muntazam ravishda jalb qilishni kutayotganlar uchun. Ular investorlarni jalb qilmoqchi bo'lgan korxona, jumladan, til va madaniy xususiyatlar haqida juda keng bilimga ega. Natijada, ular istiqbollarni baholashda va bo'lajak investorlarga ta'sir qilishda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Bu, ayniqsa, mahalliy biznes patronaj dasturlari orqali olingan ma'lumotlarga asoslangan dasturlar uchun juda muhimdir;

- xorijiy tashkilotlarga a'zolik. Konferentsiya va seminarlarda qatnashishdan tashqari, ba'zi milliy iqtisodiy rivojlanish agentliklari korxonalarning texnik ishlab chiqarish birlashmalarida faol rol o'ynaydi. Bunday ishtirok etish maqsadli biznes sohasiga ta'siringizni oshirish va yaratish usulidir
- investorlar bilan bevosita yozishmalar. So'rovning eng kutilmagan natijalaridan biri bu usuldan deyarli barcha korxonalar tomonidan qo'llanilishi bo'ldi. Bu potensial investorlarga erishishning eng maqsadli va samarali usuli, ammo samaradorlik reytingidir. Shunday qilib, investitsiya loyihalari marketingi – bu investitsiya bozorida ishlashning ma'lum bir usuli bo'lib, u bir qator bosqichlarni o'z ichiga oladi: loyiha mazmunini va unga xos bo'lgan xavflarni aniqlash, biznes-rejani tayyorlash; "maqsadli segment" -potensial investorlar va investitsiyalarning mumkin bo'lgan shakllarini aniqlash uchun investitsiya bozorini o'rganish, loyiha muayyan investorning talablariga muvofiq yakunlanadi. Amaliy harakatlar nuqtayi nazaridan investitsiya loyihalari marketingini potensial investorlarga korxonalar tomonidan ilgari surilgan loyihalarni baholash va tanlashda yordam berish uchun mo'ljallangan jarayon sifatida aniqlash mumkin. Metodologik nuqtayi nazardan, investitsiya loyihalari marketingidagi asosiy tushunchalar maqsadli bozor va loyihalarni bozorga olib chiqish tizimidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asaul A. N., Graxov V. P. Investitsiyalar va qurilish sohasida integratsiyalashgan boshqaruv. Sankt-Peterburg, 2007. URL: http:// www.aup.ru
2. Ashimxonova S.Z. Investitsion brendlarning roli. 2013. URL: http://www.rusnauka.com
3. Kotler F., Armstrong G., Sonders G., Vong V. Marketing asoslari. M., 2012. URL: http://www.f-kotler.narod.ru
4. Krestova T. A. Raqobatbardoshlik va strategik marketing. 2007. URL: http://www.ma-na-ger.ru
5. Kutserubov A. E. Marketing: kontseptual apparat anarxiyasi muammosi // Ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlar. Tambov, 2012. No 11. P. 148-151.
6. Lapshin V. Yu., Yazykova P. V. Rossiyaning zamonaviy sharoitida kichik shaharni joylashtirish va raqobatbardoshligini oshirish strategiyasi // Tambov universiteti axborotnomasi. Gumanitar fanlar seriyasi. 2012. T. 110. No 6. B. 62-66.
7. Polunin L.V. Innovatsion korxonalarning investitsiya jarayonlarining mintaqaviy jihatlari // Ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlar. 2012-yil. 11-son.
8. Romanov A. A. Sinyaeva I. M., Polyakov V. A. Marketing kommunikatsiyalari. M., 2011-yil.
9. Romanov A. A., Panko A. V. Marketing kommunikatsiyalari. M., 2008-yil.
10. Xrutskiy V. E., Korneeva I. V. Zamonaviy marketing. –M., 1991-yil.

XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI OSHIRISHGA NAZARIY QARASHLAR





A. Bektemirov
I.f.d., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrasi mudiri, professor

A. A. Abdurahmonov
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda investitsion muhit va uning jozibadorligini oshirishning nazariy asoslari yoritib berilgan. Jumladan investitsion muhit jozibadorligini oshirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tizimlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: siyosiy vorislik, moslashuvchan mehnat tizimi, raqamli kanallardan foydalanish; bashorat qilinadigan siyosiy muhitni yaratish; shaffoflik va oshkoralikni rivojlantirish; ishbilarmon doiralar bilan muloqot; iqtisodiyotni liberallashtirish, infratuzilmani rivojlantirish; moliya sektorini rivojlantirish; ta’lim va kadrlar; reklama va marketing.

Abstract: This article describes the theoretical basis for improving the investment environment and its attractiveness for attracting foreign investment today. In particular, the problems of increasing the attractiveness of the investment environment and ways to overcome them are systematized.

Key words: political continuity, flexible labor system, use of digital channels; creating a predictable political environment; development of transparency and openness; communication with business circles; economic liberalization; infrastructure development; development of the financial sector; training and personnel; advertising and marketing.

Аннотация: В данной статье описаны теоретические основы повышения инвестиционной среды и ее привлекательности для привлечения иностранных инвестиций сегодня. В частности, систематизированы проблемы повышения привлекательности инвестиционной среды и пути их преодоления.

Ключевые слова: политическая преемственность, гибкая система труда, использование цифровых каналов; создание предсказуемой политической среды; развитие прозрачности и открытости; общение с деловыми кругами; либерализация экономики; развитие инфраструктуры; развитие финансового сектора; обучение и персонал; реклама и маркетинг.

KIRISH

Zamonaviy jahon iqtisodiyoti globallashuv, texnologik innovatsiyalar va jahon iqtisodiy munosabatlaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq doimiy muammolar va imkoniyatlarga duch kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan xorijiy investitsiyalarni jalb etish mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biriga aylanmoqda.

Bugungi kunda xorijiy investorlar uchun investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish jadal iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga intilayotgan ko‘plab mamlakatlar uchun strategik ustuvor vazifa hisoblanadi

Xorijiy sarmoya nafaqat iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, balki texnologik bilimlarni kengaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatiga ega. Xorijiy investitsiyalar ko‘plab mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsiyalar va ishlab chiqarish o‘sishiga hissa qo‘shadi. Biroq xorijiy investitsiya-larni jalb qilish barqarorlik, shaffoflik va investorlar huquqlarini himoya qilishni ta’minlaydigan qulay investitsiya muhitini talab etadi.Shu nuqtayi nazardan aynan shu yo‘nalishda chuqur tadqiqotlar asosida ma’lum chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurati mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR TAHLILI

Qulay investitsion muhitni yaratish masalasini tadqiq qilishda avvalo investitsion muhit to‘g‘risidagi fikr mulohazalarni tahlil qilaylik. Iqtisodiy adabiyotlarda investitsion muhit, bugungi kunda uni yaxshilash choralari to‘g‘risida ko‘plab fikr-mulohazalar keltirilgan. Ularning asosiylariga to‘xtalamiz.

Rossiyalik iqtisodchi olimlar G.A.Aleksandrov, I.V.Vyakina, G.G.Skvorsovalarning fikriga ko‘ra investitsion muhit “... bu mintaqaning investitsiya muhitini shakllantiradigan investitsiya faoliyatining bir qator bashoratli xususiyatlari bilan belgilanadigan barqaror tendensiyalar majmuidir” [1]. Ular “... investitsion jozibadorlikni tashkil etuvchi asosiy komponentlar ikki xususiyatdan tashkil topadi: investitsion risk va investitsion slohiyat” [1], – deb o‘z fikrlarini rivojlantiradi. Yana bir Rossiyalik olim L.N. Chaynikova o‘z tadqiqotlarida hududning raqobatbardoshligini uning investitsion muhiti bilan bog‘laydi [2]. Olima A.I. Biryukova o‘z tadqiqotlarini hududning sanoat sektorida investitsion jozibadorlikni baholashning o‘ziga xos uslubiyatiga to‘xtaladi [3]. Iqtisodchi M.G.Bolenchuk esa o‘z tadqiqotlarida investitsion muhit mexanizmini takomillashtirish yo‘llariga to‘xtalib, unga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni tahlil qilgan[4]. Tadqiqotchi A.V. Girinskiy korxona miqyosida investitsion faollikni tahlil qilib, korxonaga kiritiladigan investitsiyalarning turli xil muqobil shakllari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga korxona investitsiyalarini tadbirkorlik faoliyati samarasi sifatida qarash mumkinligini ko‘rsatib beradi [5].

Shuningdek, mamlakatimizning yetuk iqtisodchi olimlaridan M.Q.Pardayev, o‘z tadqiqotlarida innovatsion-investitsion faollikni oshirishning dolzarb masalalariga to‘xtalgan [6]. Sh.I.Mustafaqulov esa investitsion jozibadorlikni oshirishning ilmiy-uslubiy tomonlarini tadqiq qilgan [7]. Iqtisodchi olima D.S.Almatova o‘z tadqiqotlarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb etishning mintaqaviy omillarini yoritib bergan [8]. D.Sh.Bababekova, B.O. Tursunovlar esa raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishda investitsiyalarning muhim ilmiy jihatlarini ochib bergan [9]. F.U.Umarov innovatsion-investitson faollikning muhim tomonlarini tadqiq qilib, ularning tadbirkorlik faoliyatidagi o‘rnini ko‘rsatib bergan[10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotlar davomida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, ilmiy mushohada usullaridan foydalanilgan.,

TAHLIL VA NATIJALAR

Investitsion muhit – investorlarning o‘z mablag‘larini ma’lum bir mamlakat yoki mintaqaga investitsiya kiritish to‘g‘risidagi qaroriga ta’sir qiluvchi omillar majmuidir.

Xorijiy sarmoyani jalb qilish iqtisodiyotni rivojlantirish uchun, shubhasiz, foyda keltiradi. Bu, birinchi navbatda, iqtisodiy o‘sishga olib keladi, yangi korxonalar barpo etilishiga, ishlab chiqarish va infratuzilmaning kengayishiga yordam beradi, bu esa iqtisodiy o‘sishning tezlashishiga olib keladi. Ikkinchidan, texnologik innovatsiyalar, yangi texnologiyalar va boshqaruv usullarini joriy etish, mahalliy korxonalarning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi. Uchinchidan, yangi ish o‘rinlarini yaratishga ko‘maklashish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, bu ishsizlikni kamaytiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Qulay sarmoyaviy muhitni yaratish ko‘plab mamlakatlar uchun asosiy strategik ustuvor vazifa bo‘lsa-da, ko‘pincha bu jarayonga to‘sqinlik qiladigan qator kamchiliklar va to‘siqlar mavjud. Qulay investitsiya muhitini yaratish va yaxshilashdagi asosiy kamchiliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

- byurokratik to‘siqlar: haddan tashqari byurokratiya va biznesni ro‘yxatdan o‘tkazishning murakkab tartiblari potensial investorlarni to‘xtatib qo‘yishi va investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonini sekinlashtirishi mumkin;
- qonunchilikdagi o‘zgarishlarni oldindan aytib bo‘lmaslik: qonun hujjatlariga va soliq siyosatiga oldindan ogohlantirmasdan o‘zgartirishlar beqarorlik va investorlar uchun xavfni oshirishi mumkin;
- intellektual mulkni himoya qilishning yetarli emasligi: intellektual mulkni himoya qilishning yetarli emasligi mahsulotlarni nusxalash va qalbakilashtirish tufayli raqobatdosh ustunliklarni yo‘qotishdan qo‘rqqan investorlarni tushkunlikka solishi mumkin;

- korrupsiya: hukumatdagi korrupsiyaning yuqori darajasi adolatli va ochiq ishbilarmonlik muhitiga to‘sqinlik qilishi, chet ellik investorlarning ishtiyoqini kamaytirishi mumkin;
- infratuzilmaning yetarli emasligi: rivojlangan transport, energetika va kommunikatsiya infratuzilmasining yetishmasligi investitsiya loyihalarini amalga oshirishni sekinlashtirishi va xarajatlarni ko‘paytirishi mumkin;
- moliyaviy manbalardan foydalanishdagi qiyinchiliklar: kreditlar va investitsiya fondlaridan foydalanishning cheklanganligi investitsiya loyihalarini amalga oshirish va kapital jalb qilishni qiyinlashtirishi mumkin;
- inson kapitalining yetarli darajada rivojlanmaganligi: ishchi kuchining past darajadagi bilimi va malakasi yuqori texnologiyali investitsiya loyihalarini amalga oshirishga to‘sqinlik qilishi mumkin;

Bu kamchiliklarni bartaraf etish davlat, jamiyatning birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab etadi. Tarkibiy islohotlarni amalga oshirish, huquqiy tizimni takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va infratuzilmani rivojlantirish ana shu to‘siqlarni bartaraf etish va investorlar uchun yanada qulay muhit yaratishga xizmat qiladigan chora-tadbirlarning bir qismidir.

Investitsion muhitni yaxshilashda eng avvalo siyosiy barqarorlikka va oshkoralikka erishish muhim rol o‘ynaydi, chunki ular uzoq muddatli sarmoyaviy qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib, investorlarda ishonch uyg‘otadi.

Siyosiy barqarorlik va oshkoralikni oshirishning asosiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat:

1. Bashorat qilinadigan siyosiy muhitni yaratish.
2. Shaffoflik va oshkoralikni rivojlantirish.
3. Ishbilarmon doiralar bilan muloqot.
4. Iqtisodiyotni liberallashtirish.
5. Infratuzilmani rivojlantirish.
6. Moliya sektorini rivojlantirish.
7. Ta’lim va kadrlar.
8. Reklama va marketing.

Bashorat qilinadigan siyosiy muhitni yaratish demokratik institutlarning rivojlanishi, inson huquqlarining ta’minlanishi va qonun ustuvorligiga asoslanadi. Uni beshta asosiy yo‘nalishga ajratish mumkin:

- demokratik institutlarni mustahkamlash;
- siyosiy institutlarning barqarorligi;
- siyosiy jarayonning shaffofligi;
- huquqiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash;
- siyosiy vorislik.

Shaffoflik va oshkoralikni rivojlantirish – boshqaruvning ochiq mexanizmlarini joriy etish, aholi uchun axborotdan foydalanish va qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini ta’minlashdir.

Shaffoflik va oshkoralikni rivojlantirishga yordam beradigan asosiy nuqtalar quyidagilar hisoblanadi:

- hukumat va uning faoliyatining ochiqligi;
- axborot va ommaviy axborot vositalari erkinligi;
- qaror qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki;
- korrupsiyaga qarshi kurash;
- trening va ma’lumot.

Shaffoflik va ochiqlikni rivojlantirish sarmoyaviy muhitni yaxshilash va xorijiy investitsiyalarni jalb etishning muhim omilidir. Bu chora-tadbirlar nafaqat investorlarning ishonchini qozonish uchun shart-sharoit yaratibgina qolmay, balki iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi ochiq va mas’uliyatli jamiyatni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Ishbilarmon doiralar bilan muloqot. Tadbirkorlar va biznes vakillari qimmatli tajriba va biznes yuritishda duch keladigan real muammolar bo‘yicha tajriba va bilimlarga ega bo‘lgani uchun sarmoya kiritish uchun yanada qulay muhit yaratishda ishbilarmon doiralar bilan muloqot muhim o‘rin tutadi. Ishbilarmon doiralar bilan muloqot investitsiya muhitini yaxshilashga yordam beradigan bir necha usullar mavjud:

- muammolar va to‘siqlarni aniqlash;
- samarali siyosatni ishlab chiqish;
- biznes muhitini yaxshilash;
- barqarorlikni ta’minlash;
- innovatsiyalar va biznesni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash.

Iqtisodiyotni liberallashtirish: iqtisodiyotni erkinlashtirish xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi, chunki u o‘zining jozibadorligi va yuqori daromad olish salohiyati bilan investorlarni jalb qiluvchi erkin va ochiq bozor muhitini yaratadi. Investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiyotni liberallashtirish rolining asosiy jihatlari quyidagilarda ko‘rinadi:

- byurokratik jarayonlarni soddalashtirish;
- xorijiy investitsiyalar uchun ochiqlik;
- qulay investitsiya muhitini yaratish.

Infratuzilmani rivojlantirish: infratuzilmani rivojlan-tirish mamlakatni investorlar uchun yanada jozibador qilishda muhim rol o‘ynaydi. Samarali va rivojlangan infratuzilma biznesning yanada samarali ishlashi uchun sharoit yaratadi va investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur resurslar bilan ta’minlaydi. Bizningcha, infratuzilmani rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- transport infratuzilmasi;
- energiya infratuzilmasi;
- aloqa infratuzilmasi;
- ijtimoiy infratuzilma;
- atrof-muhit infratuzilmasi.

Moliya sektorini rivojlantirish: kuchli va rivojlangan moliya sektori kapital, investitsiyalarni sug‘urtalash va investitsiya faolligini ta’minlovchi boshqa moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkonini beradi. Investitsion faollikni rag‘batlantirishda moliya sektorini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi, chunki u investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kapital, moliyaviy vositalar va xizmatlardan foydalanishni ta’minlaydi. Bizning fikrimizcha, quyidagi usullar moliya sektorini rivojlantirish imkoniyatini beradi:

- moliyalashtirishga kirish;
- investitsion imkoniyatlarni yaratish;
- investitsion muhitni yaxshilash;
- investitsion muhitni yaxshilash;
- infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish;
- treninglar va maslahatlar.

Ta’lim va kadrlar. Yuqori texnologiyali investitsiyalar va innovatsion loyihalarni jalb etishda kadrlar bilimi va malakasini oshirish hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Buning uchun quyidagilarga asosiy e’tiborni qaratish zarur:

- malakali ishchi kuchini yaratish;
- innovatsiyalarni rag‘batlantirish;
- tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash;
- moslashuvchan mehnat tizimi;
- biznes bilan hamkorlik.

Reklama va marketing. Samarali reklama va marketing kampaniyalari potensial investorlar e'tiborini mamlakatning sarmoyaviy imkoniyatlariga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Bunda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- mamlakat imijini shakllantirish;
- investitsion imkoniyatlarni rag'batlantirish;
- biznes hamjamiyatini qo'llab-quvvatlash;
- raqamli kanallardan foydalanish;
- xalqaro agentliklar bilan hamkorlik.

Amalga oshirilgan tadqiqotlardan olingan natijalar investitsion muhit jozibadorligini oshirishda katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra quyidagi xulosa va takliflarni berish maqsadga muvofiq:

1. Siyosiy barqarorlik va oshkoralik investorlarda ishonch hissini uyg'otadi va bu uzoq muddatli sarmoyaviy qarorlar qabul qilish uchun asos bo'ladi.
2. Shaffoflik va ochiqlikni rivojlantirish investorlarning ishonchini qozonish uchun shart-sharoit yaratadi hamda iqtisodiy taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
3. Ishbilarmon doiralar bilan muloqot nafaqat sarmoya uchun yanada qulay muhit yaratish, balki davlat va tadbirkorlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi.
4. Iqtisodiyotni liberallashtirish yanada ochiq, raqobatbardosh va dinamik investitsion muhitni yaratadi.
5. Infratuzilmani rivojlantirish muvaffaqiyatli biznes uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi va bozorlar, resurslar va texnologiyalarga kirishni osonlashtiradi.
6. Moliya sektorini rivojlantirish investitsiya faolligini rag'batlantiradi va iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi.
7. Kadrlar bilimi va malakasini oshirish yuqori texnologiyali investitsiyalarni jalb etish va innovatsiyalarni rag'batlantirishda asosiy omil hisoblanadi.
8. Faol reklama va marketing faoliyati mamlakatning jahon miqyosida ko'rinishini oshirishga, potensial investorlar e'tiborini jalb qilishga va ishonchli va istiqbolli sarmoyaviy sherik sifatida qulay obro'ga ega bo'lishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Г.А.Александров И.В.Вякина Г.Г.Скворцова Инвестиционный климат региона: сущностьи составляющие // Российское предпринмательство. № 16(214)/ август 2012. С98-103
2. Чайникова Л.Н. Методологические и практические аспекты оценки конкурентоспособности региона: монография. –Тамбов: Изд-во Тамбовского государственного технического университета. 2008. – 148 с.
3. Бирюкова А.И. Оценка инвестиционной привлекательности промышленного сектора региона. Автореферат дисс. канд.экон. наук. – Иркутск, 2004.
4. М.Г.Боленчук Совершенствование механизма развития инвестицион-ного климата России//Инновации и инвестиции. №6. 2021, С.184-186.
5. А.В. Гиринский Некоторые вопросы инвестиционной активности предприятия//"Молодой ученый" международный научный журнал. № 14 (252) / 2019 С.88-90.
6. M.Q.Pardayev, T.X. Mamasoatov, O.M.Pardayev Modernizatsi, diversifikatsiya va innovatsiya –iqtisodiy o'sishning muhim omillari. Monografiya, Toshkent. "Navro'z" nashriyoti, 2014.
7. Mustafaqulov Sh.I. "O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish" mavzusidagi doktorlik dissertatsiya ishi avtoreferati. – Toshkent. 2017.
8. Almatova D.S. "Mintaqalarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish" mavzusidagi doktorlik dissertatsiya ishi avtoreferati. – Toshkent. 2018.
9. Bababekova D.Sh, Tursunov B.O. Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish orqali raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish yo'nalishlari. Ilmiy-ommabop risola. – T.: "Iqtisod-Moliya". 2019. 40 b.
10. Umarov F.U. Innovatsion-investitsiya faol tadbirkorlikning muhim omili. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №1, yanvar-fevral, 2018-yil.

QISHLOQ XO‘JALIGI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ILG‘OR XORIJ TAJRIBASI

Abdulloyev Asliddin Junaydullayevich
I.f.f.d., Buxoro davlat universitet “Iqtisodiyot”kafedrasi mudiri professori

Ochilov Narzullo Fayzulloyevich
I.f.f.d., Buxoro davlat universitet “Iqtisodiyot”kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo‘jaligi raqobatbardoshligini oshirishning ilg‘or xorij tajribasining ilmiy asoslari yoritilib, undan mamlakatimiz amaliyotida ijodiy foydalanish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqobatbardoshlik, fermer, xalqaro savdo, agroklaster, inovatsion ishlanmalar.

Abstract: The article highlights the scientific foundations of advanced foreign experience in increasing the competitiveness of agriculture, and also develops a scientific proposal and practical recommendations for its creative use in the practice of our country.

Key words: competitiveness, farmer, international trade, agricultural cluster, innovative developments.

Аннотация: В статье освещены научные основы передового зарубежного опыта повышения конкурентоспособности сельского хозяйства, а также разработаны научное предложение и практические рекомендации по творческому использованию его в практике нашей страны.

Ключевые слова: конкурентоспособность, фермер, международная торговля, агрокластер, инновационные разработки.

KIRISH

Bugungi kunda jahon mamlakatlarida agrar sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning maqsadi mamlakatda yuqori samaradorlikka va raqobatbardoshlik darajasiga ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligini shakllantirishga qaratilgan hisoblanadi. Jumladan, hukumat tomonidan agrar soha tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligida faoliyat olib borayotgan iqtisodiy subyektlarning daromadlarini rag‘batlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishda narx siyosatini ishlab chiqish, ishlab chiqaruvchilarning ma’lum bir xarajatlarini qoplash maqsadida subsidiyalar ajratish, ularga soliq imtiyozlari, imtiyozli shartlar asosida ishlab chiqarish kreditlari ajratish, ayrim turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun proteksionizm siyosatini qo‘llash kabi chora-tadbirlar shular jumlasidandir. AQSH, Kanada, Braziliya, Rossiya, Xitoy va Yevropa ittifoqining ayrim mamlakatlarida bu turdagi qishloq xo‘jaligi qo‘llab-quvvatlash va uning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan dasturlarga ustuvorlik qaratilishi natijasida hozirgi kunda dunyo bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining yirik eksporterlariga aylandilar. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda 60 foiz aholi band hisoblansa, rivojlangan mamlakatlarda ushbu ko‘rsatkich 10 foizni tashkil etadi[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo‘jaligi raqobatbardoshligi darajasini oshirishning jahon amaliyoti tahlili ko‘rsatishicha, mamlakatlarning xalqaro savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishida ularning agrar soha tarmoqlarining barqarorligi, ichki bozordagi muvozanatni ta’minlash bilan bir qatorda, import o‘rnini bosuvchi va eksport hajmini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.


O‘zbekistonlik A.F.Xurramov, Sh.D.Ergashxodjayeva, B.T. Salimov, L.F.Amirov, A.M.Salimov, A.M.Qodirov, D.M.Avazxodjayeva[2] va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini rivojlanish tendensiyalari, uning o‘ziga xos xususiyatlari, agrar sektor tarmoqlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, qishloq xo‘jaligida mulkiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, qishloq xo‘jaligida kooperatsiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga oid muammolar o‘rganilgan.

1 https://www.agroprodmash-expo.ru/ru/ui/17151/

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada guruhlash, taqqoslash, tahlil va sintez usullaridan keng foydalanilgan. Jumladan, Yevropa ittifoqi (YEI) mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish davlat subsidiyasi mexanizmiga asoslanadi. YEIga a’zo mamlakatlar fermerlari tomonidan ishlab chiqarilgan (yetishtirilgan) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy qiymatining o‘rta hisobda 50 foizi davlat subsidiyasi asosida qoplanadi. Shuningdek, ushbu mamlakatlar guruhida mahalliy fermerlar uchun o‘z mahsulotlarini jahon bozoridagi o‘rtacha narxdan yuqoriroq narxda sotish imkonini beruvchi kompensatsion to‘lovlar va tenglashtirilgan soliq siyosati amal qiladi. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida bugungi kunda YEIga a’zo bo‘lgan mamlakatlarning oziq-ovqat xavfsizligi ta’minlanishi bilan bir qatorda, ichki iste’mol bozorida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan to‘liq o‘zini-o‘zi to‘yintira olish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Jahon xo‘jaligida yetakchi mamlakatlardan biri hisoblangan AQSH tabiiy-iqlimiy sharoit jihatidan qishloq xo‘jalini rivojlantirish uchun juda qulay shart-sharoitga ega bo‘lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Bunday ustunlik hisobiga AQSH fermerlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish (yetishtirish) YEI mamlakatlari fermerlariga nisbatan 1,6-1,7 marta kam xarajat hisobiga amalga oshiriladi. Shuningdek, ushbu ko‘rsatkich Rossiya fermerlariga nisbatan 2,5 marta, Yaponiyaga nisbatan esa 3,0 marta arzon hisoblanadi. Ushbu vaziyatdan kelib chiqqan holda, boshqa davlatlar AQSH hukumatiga nisbatan agrar soha raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish (yetishtirish) va ularni sotib olish uchun bir necha baravar ko‘p mablag‘ sarflashadi, degan xulosaga kelish mumkin bo‘ladi. Masalan, Finlyandiya hukumati mahalliy fermerlardan bir tonna bug‘doyni AQSHdagi narxga nisbatan to‘rt barobar qimmatiga sotib oladilar[2].



1-rasm: Qishloq xo‘jaligiga (o‘rmon va baliq xo‘jaligi bilan birgalikda) yo‘naltirilgan markaziy hukumat xarajatlari bo‘yicha TOP-10 mamlakatlar (2001-2020 yillar bo‘yicha o‘rta hisobda, mlrd. doll.da)[3]

AQSH qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishda jahon bo‘yicha tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar jihatdan bunday ustunlikka ega bo‘lishiga qaramay, agrar sohaga yo‘naltirilayotgan davlat xarajatlari hajmi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinni egallaydi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitob natijalariga ko‘ra, 2001–2020-yillarda AQSH qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan yillik markaziy hukumat xarajatlari hajmi o‘rta hisobda 26,3 mlrd. AQSH doll.ga teng bo‘lgan (2-rasmga qarang).

Taraqqiy etgan mamlakatlarda agrar sohaning samaradorligi va uning raqobatbardoshligini oshirish qishloq xo‘jaligida kooperatsiyalashuvning yuqori darajasi (mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash, yetkazib berish, sotish, fermerlarga moddiy-texnik va moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish) va agrosanoat integratsiyasi hisobiga amalga oshiriladi. Shuningdek, ushbu guruh mamlakatlarida qishloq xo‘jaligining hosildorligi, ishlab chiqarish munosabatlarining samaradorligi, agrar sohaning raqobatbardoshligini oshirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni innovatsion rivojlantirish, qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritayotgan iqtisodiy subyektlarning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish va qishloq joylarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda agroklasterizat-

2 Швец Н. С. Концепция конкурентоспособности регионального агропромышленного комплекса: монография / Н. С. Швец, Ф. З. Мичурина; М-во с.-х. РФ, ФГБУ высшего образования “Пермская гос. с.-х. акад. им. акад. Д.Н. Прянишникова”. – Пермь: ИПЦ “Прокростъ”, 2016. – 207 с.

3 BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan https://www.fao.org/faostat/ru/#data/IG/visualize

siyalashga muhim e'tibor qaratiladi. Agroklasterlarni shakllantirish va ularni rivojlantirish orqali taraqqiy etgan mamlakatlar xalqaro raqobat munosabatlarining kuchayishi sharoitida qishloq xo'jaligi, ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligi sohasida himoyaviy choralarni ham amalga oshiradilar[4].

Jumladan, taraqqiy etgan mamlakatlarda tashkil etilgan yirik integratsion, ko'p tarmoqli agrosanoat birlashmalari ilg'or innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda jahon qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yarmidan ziyod qismini ishlab chiqaradilar. Bu turdagi agroxo'jalik yurituvchi subyektlarning mehnat unumdorligi boshqalarga nisbatan 1,5-2,0 barobar yuqori hisoblanib, bir birlikdagi yer maydonida qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish uchun talab etiladigan resurslar hajmi 2,0 marta kam bo'lib, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan (yetishtirilayotgan) mahsulotlarning tannarxi sezilarli darajada arzon hisoblanadi[5].

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari agroklasterizatsiyalash chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali qishloq xo'jaligida, xususan, chorvachilik bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklari o'rtasida kooperatsiyalashuvni rivojlantirishgan. Masalan, Fransiyada bu turdagi kooperatsiyalar 70 foiz cho'chqa go'shtini yetishtirsa, ushbu ko'rsatkich Niderlandiyada – 26,0 foiz, Germaniyada esa 25 foizni tashkil etadi. Shvetsiyada ham bu turdagi kooperatsiyalarda ko'plab fermer xo'jaliklari o'zaro birlashgan bo'lib, mamlakat hududida jami 18 ta mintaqaviy kooperatsiyalar tashkil etilgan hisoblanadi. Shuningdek, fermerlar haq-huquqlarini himoya qilish va ularni rivojlanishini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Milliy fermerlar kooperativlari birlashmasi" tashkiloti tuzilgan[6].

Finlyandiya qishloq xo'jaligi sohasida kooperativlarni shakllantirish orqali agrobiznes subyektlarining xo'jalik faoliyati yuritishi uchun zarur shart-sharoilarni ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi. Jumladan, mahsulotlarni yetishtirish, ularni sotish, yetkazib berish, saqlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, fermer xo'jaliklarini ishlab chiqarish vositalari, texnika va asbob uskunalari bilan ta'minlash, ularga moliyaviy va boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish shular jumlasidandir. Tahlillar ko'rsatishicha, mamlakatda qishloq xo'jaligi mahsulotlariini yetishtirish uchun zaruriy bio-o'g'itlarning 50 foizi, chorva mollari uchun ozuqalarning 65 foizi, qishloq xo'jaligining texnik va yoqilg'i ta'minotining 40 foizi aynan kooperativlar tomonidan ta'minlanadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashda fermer xo'jaliklari integratsion kooperativ birlashmalarni shakllantirishga yuqori darajada harakat qiladilar. Bu turdagi birlashmalar tomonidan go'sht va go'sht mahsulotlarining 75 foizi, sut va sut mahsulotlarining 92 foizi ishlab chiqariladi[7].

Jahon amaliyotida qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligini oshirishda agrosanoat integratsion birlashmalarini tashkil etishning shartnomaviy shaklidan ham keng foydalaniladi. Jumladan, AQSHda bu turdagi agrosanoat integratsion birlashmalarida jami qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 30,0 foizi ishlab chiqariladi. Fermer xo'jaliklari bilan integratsion hamkorlik to'g'risidagi shartnomalar, odatda, yirik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalari va savdo kompaniyalari o'rtasida tuziladi. Ayniqsa, qisqa muddatda iste'molga yaroqsiz holatga tushib qoladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha shartnomalar tuzish keng tarqalgan hisoblanadi. Masalan, sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi yirik sanoat korxonalari o'rtasida shartnomaviy kelishuv asosida tuzilgan agro-integratsion birlashmalar tomonidan 95 foiz mahsulot ishlab chiqarilsa, sabzavotlarni qayta ishlashda ushbu ko'rsatkich 83 foizga teng hisoblanadi[8].

Qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligini oshirishning jahon amaliyotida keng tarqalgan usullaridan yana biri bu proteksionizm siyosatini amalga oshirish orqali ichki bozorni himoya qilish hisoblanadi. Masalan, Finlyandiyada ichki qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini himoya qilish va mahalliy fermerlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida xorij mamlakatlaridan oziq ovqat mahsulotlarini olib kirish hajmiga tegishli chegaralar o'rnatilgan bo'lib, ayrim mahsulotlar uchun katta hajmdagi bojxona to'lovlari joriy etilgan. Shuningdek, mamlakatda YEIning boshqa mamlakatlari singari mahalliy fermerlar uchun o'z mahsulotlarini jahon bozoridagi o'rtacha narxdan yuqoriroq narxda sotish imkonini beruvchi kompensatsion to'lovlar va tenglashtirilgan soliq siyosati amalga oshirilib, fermerlar foydasida davlat subsidiyalarining ulushi 71 foizni tashkil etadi (1-ilovaga qarang). Mamlakatning boshqa mamlakatlarga nisbatan tuproq unumdorligi past, noqulay iqlimiy sharoitga ega bo'lishiga qaramay, qishloq xo'jaligini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va uning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan bu turdagi chora-tadbirlar yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini bermoqda.

Aksariyat taraqqiy etgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlari davlat tomonidan tartibga solinishi holatlari ham uchrab turadi. Masalan, Fransiyada qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ichki iste'mol bozo-

4 Насруллаева Т. Д. Стратегические приоритеты развития кластеров в АПК региона / Т. Д. Насруллаев // Вопросы структуризации экономики. –2010. – № 1. – С. 174–177.

5 Грей К. Роль государства в аграрном секторе США // Экономика сельского хозяйства России. – 1997. – № 4. – С. 31–32

6 Милосердов В. В. Многоукладная экономика АПК: состояние и перспективы // АПК: экономика, управление. – 2012. – № 2. – С. 10–21


7 Юсупова П.С., Ахмедова Ж.А. Зарубежный опыт достижения конкурентоспособности сельскохозяйственной продукции. Региональные проблемы преобразования экономики, №2, 2019. С. 21-27.

8 Абдиев М. Ж. Основные направления агропродовольственной политики Кыргызской Республики в условиях интеграции в Евразийский экономический союз // Общество и экономика. – 2017. – № 3, 4. – С. 136

ridagi narxi davlat tomonidan kafolatlangan narxdan tushib ketgan taqdirda, davlat tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni qayta ishlash, saqlash, yetkazib berish kabi ishlarga sarflangan xarajatlarning yo‘qotilgan qismi davlat budjeti hisobidan qoplab beriladi. Shuningdek, mamlakatda eksport qilinayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishdan ko‘rilgan zarar ham davlat tomonidan qoplanadi[9].

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida qishloq xo‘jaligini texnik va texnologik jihatdan qurollantirish uning global raqobatbardoshligi ko‘rsatkichini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Jumladan, AQSH agrar sektorda ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishda jahonda yetakchi mamlakatlar qatoriga kirib, ushbu sohada amalga oshirilayotgan barcha ilmiy tadqiqotlar davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladi. Shuningdek, davlat fermer xo‘jaliklarini qishloq xo‘jaligiga oid innovatsion ishlanmalar to‘g‘risida xabardor qilish majburiyatini ham o‘z zimmasiga olgan. Innovatsion ishlanmalar va loyihalarni amaliyotga tatbiq etish istagida bo‘lgan fermer xo‘jaliklari uchun imtiyozli kreditlash dasturlari mavjud. AQSHda davlatning qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga sarflayotgan xarajatlari hajmi fermer xo‘jaliklarining xususiy sarmoyalaridan 6,0 marta ko‘p bo‘lib, o‘rta hisobda yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining 40,0 foiziga teng hisoblanadi.

Tahlillar ko‘rsatishicha, YEI mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish uchun belgilangan narx siyosati va mahsulotlarni eksport qilishni davlat tomonidan subsidiyalash kabi chora-tadbirlarga ustuvorlik qaratiladi. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida esa agrobiznes vakillariga fermer xo‘jaligi joylashgan hududdagi tabiiy-iqlimiy sharoitdan kelib chiqqan holda subsidiyalar ajratiladi (2-rasmga qarang).



2-rasm: Agrar sohaga ajratilgan subsidiyalarning YAIMdagi ulushi (2001–2020-yillar bo‘yicha o‘rta hisobda, foizda)[10]

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitoblar natijalariga ko‘ra, 2001–2019-yillarda AQSHda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga ajratilgan davlat subsidiyalarining YAIMdagi ulushi 39,9 foizga teng bo‘lgan holda, jahonda yetakchi o‘rinni egallaydi. Shuningdek, ushbu ko‘rsatkich YEI mamlakatlari bo‘yicha 26,3 foizga teng bo‘lib, Norvegiya (32,8 foiz) va Buyuk Britaniya (27,6 foiz) kabi mamlakatlarning ko‘rsatkichlari YEI bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotini tizimli tahlil qilish va qiyosiy taqqoslash asosida mamlakatimiz amaliyotida quyidagilardan ijodiy foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- agrar sektorda ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlanmalarini amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash;
- innovatsion ishlanmalarni va loyihalarni ishlab chiqarish amaliyotiga tatbiq etgan fermer xo‘jaliklari uchun soliq imtiyozlari joriy etish, imtiyozli shartlar asosida kreditlar ajratish;
- fermer xo‘jaliklari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ular zarar ko‘rgan taqdirda davlat subsidiyasi ajratish;

9 Приходько Т. Управление сельским хозяйством во Франции // АПК: экономика управления. – 1996. – № 2. – С. 27.
10 BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan http://www.fao.org/faostat/ru/#data

- avvalo ichki bozorni arzon narxlardagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan to‘yintirish va eksportni davlat tomonidan subsidiyalash;
- qishloq xo‘jaliklari mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, ularni saqlash, yetkazib berish, sotish bo‘yicha agrosanoat integratsion birlashmalari, jumladan, agroklasterlarni tashkil etishni rag‘batlantirish;
- qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga investitsiyalarni keng jalb qilish, jumladan, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobiga agrobiznes vakillarining texnik-texnologik qurollanishini rag‘batlantirish;
- fermer xo‘jaliklari joylashgan hududlarning tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlarini o‘rganish va ularning joylashgan hududlaridan kelib chiqqan holda davlat subsidiyasi ajratish mexanizmini joriy etish va h.k.

Fikrimizcha, yuqorida bildirilgan fikrlarni inobatga olgan holda keyingi yillarda mamlakatimizda agrar sektorni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlarining ishlab chiqilishi uzoq muddatli istiqbolda milliy qishloq xo‘jaligimizning global raqobatbardoshligi ko‘rsatkichini barqaror oshirib borish va jahonda yetakchi o‘rinlarni egallash imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulloyev A.J., Davlatov.S.S Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarining rivojlantirish ning asosiy yo‘nalishlari va unda kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishning ahamiyati. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. Toshkent – 2016-yil. –№ 3-son.– B. 1-9.
2. Abdulloyev A.J. Agroklaster faoliyatini boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy asoslari. Iqtisodiyot va turizm xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali, №4(12), 2023y. 53-64 betlar.
3. Abdulloyev A.J. Agroklaster faoliyatini boshqarishning “Bazaviy”modeli va uning xususiyatlari. Agroiqtisodiyot ilmiy-amaliy jurnali, №2, 2023 y.13-15 betlar.
4. Abdulloyev A.J. Methodological foundations for evaluating the efficiency of agrocluster management. Экономика и предпринимательство. – Москва, 2023. –№9. – С. 617-623.
5. Швец Н. С. Концепция конкурентоспособности регионального агропромышленного комплекса: монография / Н. С. Швец, Ф. З. Мичурина. М-во с.-х. РФ, ФГБУ высшего образования “Пермская гос. с.-х. акад. им. акад. Д.Н. Прянишникова”. – Пермь: ИПЦ “Прокростъ”, 2016. – 207 с.
6. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan https://www.fao.org/faostat/ru/#data/IG/visualize.
7. Милосердов В. В. Многоукладная экономика АПК: состояние и перспективы // АПК: экономика, управление. – 2012. – № 2. – С. 10–21.
8. Юсупова П.С., Ахмедова Ж.А. Зарубежный опыт достижения конкурентоспособности сельскохозяйственной продукции. Региональные проблемы преобразования экономики, №2, 2019. С. 21-27.
9. Приходько Т. Управление сельским хозяйством во Франции // АПК: экономика управления. – 1996. – № 2. – С. 27.
10. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan http://www.fao.org/faostat/ru/#data.
11. Abdulloyev A.J.,Davlatov.S.S Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarining rivojlantirish ning asosiy yo‘nalishlari va unda kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishning ahamiyati. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. Toshkent 2016-yil № 3.son.–B. 1-9.
12. Abdulloyev A.J. Agroklaster faoliyatini boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy asoslari. Iqtisodiyot va turizm xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali, №4(12), 2023y. 53-64-betlar.
13. Abdulloyev A.J. Agroklaster faoliyatini boshqarishning “Bazaviy”modeli va uning xususiyatlari. Agroiqtisodiyot ilmiy-amaliy jurnali, №2, 2023-y.13-15-betlar.
14. Abdulloyev A.J. Methodological foundations for evaluating the efficiency of agrocluster management. Экономика и предпринимательство. – Москва, 2023. –№9. – С. 617-623
15. Очилов Н.Ф Characteristics and main directions of the formation of competitive economy on the basic of innovations. The American journal of interdisciplinary innovations and Research.https://doi.org/10.37547/ tajiir/ Volume 02 Issue09-16..-G.,2020. (SJIF Impact Factor – 5.498)
16. Очилов Н.Ф Current state of development trends and competitiveness of agriculture in Uzbekistan. World Bulletin of Management and Law (WBML) Available Online at:https://www.scholarexpress.net.-G.,2021 Vol. 2 No.2,August-September. (SJIF Impact Factor – 5.953)

SANOAT ISHLAB CHIQARISH TIZIMINING INVESTITSION XUSUSIYATLARI

Yodgorova Xalima To‘lqinovna
Buxor viloyati Osiyo Xalqaro Universiteti magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat ishlab chiqarish tizimining investitsion xususiyatlari turli mezonlar asosida tahliliy yondashuvga asoslangan tadqiqotlarning mohiyati ma’lum birlik tamoyillarga ko‘ra bayon qilingan. Investitsion faoliyatning pirovard maqsadlarga ko‘ra amalga oshirish yo‘nalishlari tavsifi ikki yoqlama tahlilda qiyoslash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Investitsiya, asosiy kapitalga investitsiyalar, multiplikator samarasi, sanoat ishlab chiqarish, strategik maqsadlar, sanoatning yashovchanligi, aqliy investitsiyalar.

Abstract: In this article, the essence of research based on the analytical approach of the investment characteristics of the industrial production system based on various criteria is described according to certain unified principles. The description of the directions of implementation of the investment activity according to the final goals is covered in the two-sided analysis.

Key words: Investment, fixed capital investment, multiplier effect, industrial production, strategic goals, industrial viability, intellectual investment.

Аннотация: В данной статье описывается сущность исследования, основанного на аналитическом подходе инвестиционных характеристик промышленно-производственной системы по различным критериям, по определенным единым принципам. Описание направлений реализации инвестиционной деятельности согласно конечным целям отражено в двустороннем анализе.

Ключевые слова: Инвестиции, инвестиции в основной капитал, мультипликативный эффект, промышленное производство, стратегические цели, промышленная жизнеспособность, интеллектуальные инвестиции.

KIRISH

Milliy taraqqiyot sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish va modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy xo‘jalik salohiyatini oshirishda bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biri sanoat korxonalarini tarmoq tuzilmasini optimallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ustun jihatlarini rivojlantirish va pirovardida iqtisodiy jarayonlarning samarali natijani kafolatlaydigan muhitni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishdan iboratdir bo‘lgan muhit yaratishdir. Bu narsa o‘z navbatida aholi turmush farovonligining yuksalishiga sabab bo‘ladi.

Har qanday milliy xo‘jalik taraqqiyoti sanoat tarmoqlarining rivojlantirish bozor iqtisodiyotini qaror toptirish va tovarlar bozorida ishlab chiqarish mexanizmini yaratishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bu maqsadlarga erishishda esa investitsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning turli usullarini taqozo qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalarning investitsion faoliyatini moliyalashtirish, moliyalashtirishning turli kombinatsiyasini va ularni boshqarish bilan bog‘liq strategik amaliyotlarni ishlab chiqish va qo‘llash bo‘yicha xorijiy, mintaqaviy va milliy iqtisodchi olimlari o‘rtasida turlicha yondashuvlar mavjud. Bunday turli tuman yondashuv sanoat korxonalarini investitsion moliyalashtirish bo‘yicha ko‘p qirrali nazariy yoki amaliy xususiyatlar bilan bog‘liq. Bunday sharoitda ularni komleks yoki xususiy jihatlarini tadqiq qilish bo‘yicha ko‘pgina olimlar tadqiqotlarini keltirish mumkin. Xususan, I.A.Blank, Ye.V.Dmitriyeva, Yu.V.Gudel, H.Uang, P.Liang, H.Li, R.Yang, D.G‘.G‘ozibekov, N.G‘.Karimov, N.Haydarov, N.R.Ko‘ziyevalarni kiritish mumkin. Mazkur iqtisodchi olimlar tomonidan, iqtisodiyotning turli sohalari, jumladan; sanoat korxonalarida investitsion jarayonlarni amalga oshirish va boshqarish-

ning zamonaviy tamoyillari, uning o‘ziga xos jihatlari hamda korxonalarda investitsion faoliyatini moliyalashtirishga oid masalalar tadqiq qilingan.

Dmitriyeva Ye.V. o‘z ilmiy tadqiqotlarida sanoat korxonalari investitsiya faoliyatini moliyalashtirish tizimini modernizatsiyalash va ularning tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda investitsiyalarni jalb qilish, shuningdek, sanoat korxonalari investitson faoliyatini moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlarinini ishlab chiqishdagi muammolarni yoritgan [2].

Gudel Yu.V. sanoat korxonalarining investitson faoliyatini moliyalashtirish xususiyatlari tadqiq qilgan[3].

I.Yu.Barabanova ishlab chiqarish korxonalarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlari va usullarini tadqiq etgan holda, korxonalarda asosiy vositalarning ishlashi, yangilanishi va investitsion faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini o‘rgangan [4].


H.Uang, P.Liang, H.Li, R.Yanglar esa korxonalarning yuqori texnologiyali ishlanmalariga yo‘naltiriladigan investitsiyalar va ularning moliyalashtirish manbalarini, shuningdek, korxonalarning ilmiy ishlanmalarini moliyalashtirish manbalari, ilmiy-tadqiqot, investitsiyalar va tadbirkorlik riski o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishgan[5].

D.G‘.G‘ozibekov o‘z ilmiy adabiyotlarida investitsiya, investitsiya muhiti, investitsiya siyosati, investitsiya loyihalari, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish va investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilish masalalarini yoritgan [6]. N.R.Ko‘ziyeva xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag‘batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlarini tadqiq etgan holda milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini yuritish va ularning moliya-kredit mexanizmi takomillashtirilishi yuzasidan tavsiyalarni ishlab chiqqan [7].

Taraqqiyot tamoyillariga ko‘ra boshqa milliy xo‘jaliklar singari O‘zbekistonda ham iqtisodiy rivojlanishning bosh omillaridan biri sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatini rivojlantirish davlatning ustuvor siyosatga aylantirilgan bo‘lib, ishlab chiqarishga investitsiyalarni, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish strategik ahamiyatga egadir. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlarini muttasil modernizatsiya qilish va ilm-fan yutuqlaridan ishlab chiqarishga ko‘chirish orqali Sanoat ishlab chiqarish tizimi rivojlanishini hisobga olsak, bu tizim rivojida uni moliyalashtirish va investitsion rivojlantirish asosiy ta’sirlardan biridir. Shunday ekan, sanoat korxonalariga eng zamonaviy texnika va texnologiyalarni jalb etish strategik taraqqiyotning asosiy vazifalardan biri sifatida dolzarbligicha qoladi [1].

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda (2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra) respublikada 69,4 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 11,8 mingtasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 17,0 % i) Toshkent shahriga, 7,8 mingtasi (11,2 %) Farg‘ona viloyatiga, 7,3 mingtasi (10,5 %) Toshkent viloyatiga, 6,2 mingtasi (8,9 %) Samarqand viloyatiga va 5,5 mingtasi (7,9 %) Andijon viloyatiga to‘g‘ri kelmoqda.




1-rasm: Jami faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil topgan korxonalar (2024-yil 1-yanvar holatiga)

Keltirilgan axborotlar bo‘yicha 2023-yilda respublikada 655.5 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan. O‘tgan 2022-yilga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajmi 106 foizni tashkil etadi.

Iqtisodiy taraqqiyotlar tarixidagi tajribalardan shuni bilishimiz mumkinki aksar milliy xo‘jaliklar taraqqiyoti asosan sanoat ishlab chiqarish omili bilan bog‘liq. Qishloq xo‘jaligi orqali jamiyat mavjud bo‘lishi va yashashi birlamchi lekin iqtisodiy taraqqiyotni asosan sanoat ishlab chiqarish omili bilan ta’minlash tajribasi iqtisodiy qonuniyat sifatida amal qiladi. Shunday ekan bugungi O‘zbekiston sanoatini zamon talablari asosida rivojlantirish, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va turini ko‘paytirish, hududlarda ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni keskin kengaytirish va chuqurlashtirish, mamlakatimizdagi mavjud xomashyo resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish sohasiga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etgan holda import o‘rnini bosuvchi va eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish ayni kundagi strategik vazifalardan bir bo‘lishi kerak. Bu borada amalga oshirishda sanoat tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilish va shu asosida ularni ishlab chiqarish va boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish, sanoat ishlab chiqarish salohiyatini oshirish asosiy va kechiktirib bo‘lmas vazifalardan biri sifatida qaralishi kerak.

Ayniqsa, sanoat ishlab chiqarish tarmoqlari tuzilmasini mutanosib tarkib toptirish va rivojlantirish katta ahamiyatga ega.


Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 553,3 trln. so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 84,4 % ni tashkil etdi.



2-rasm: Sanoat ishlab chiqarishi tarkibi


2023-yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Toshkent shahri (18,9 %), Toshkent viloyati (16,1 %), Navoiy viloyati 15,5 %), Andijon viloyati (11,2 %) hamda Farg‘ona viloyati (5,6 %) hissasiga to‘g‘ri keldi. Shuningdek, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Jizzax viloyatida (107,4 %), Andijon viloyatida (107,3 %) hamda Namangan (107,2 %) viloyatlarida kuzatildi.

Taqqoslanayotgan oxirgi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, u deyarli ikki martaga ko‘payib, o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda.



3-rasm: Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi, trln so‘m

Taqqoslanayotgan besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, u deyarli ikki martaga ko‘payib, o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda. So‘nggi besh yil ichida o‘sish sur’atlarini ko‘radigan bo‘lsak, 2019-yilda 138,1 % ga yetgan, 2020-yilda turg‘un holatda bo‘lgan – 95,6 % ni tashkil etgan, 2021-yilda ko‘payib – 102,9 % kuzatildi, hozirgi davrgacha yana o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib – 122,1 % ni tashkil etdi.



4-rasm: 2023-yil yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi trln. so‘m va ulushi % da

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan 22,3 trln. so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,3 % ini tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 0,3 % punktga kamayish) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 9,5 % i yoki 33,3 trln. so‘m o‘zlashtirildi. Aholi mablag‘lari hisobidan asosan uy-joylar qurish sohasida investitsiya faoliyati amalga oshirilgan. Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Yangi avtomobil modellarini ishlab chiqarishni tashkil etish (Oniks, Treker), sement ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik gaz (CO_2) ishlab chiqarishni tashkil etish, mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish kompleksini tashkil etish, paxta-to‘qimachilik va agroklaster tashkil etish kabi yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 100,6 trln. so‘m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 28,6 % i o‘zlashtirildi.




5-rasm: 2023-yil mamlakatimizda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, trln so‘m va ulushi % da

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1,6 trln. so‘mni (dollar ekvivalentida 132,4 mln. AQSH dollari) va jami investitsiyalardagi ulushi 2022-yilga nisbatan 0,5 % punktga kamayib, 0,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, mazkur jamg‘arma hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar hajmi 2022-yilga nisbatan 58,0 % ni tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan infrastruktura, iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 2022-yilga nisbatan 88,6 % ni yoki 20,4 trln, so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan investitsiyalar 2022-yilga nisbatan 52,9 % ni, 1,7 trln. so‘mni tashkil etdi. Ularning jami investitsiyalardagi ulushi, mos ravishda 0,6 % punktga kamayib, 0,5 % ni tashkil etdi.

Investitsion faoliyat orqali milliy xo‘jalikning tarmoq tuzilmasi genizisini yaratish uni rivojlantirish va takomillashtirish amaliyotida keng qo‘llaniladi. Ustun tarmoq tuzulmasini shakillantirish va rivojlantirishda aksariyat hollarda shu sohaga ko‘proq va imtiyozli investitsion amaliyot qo‘llaniladi [7]. Bu narsa shu sohaning boshqa sohaga nisbatan yanada rivojlanishiga olib keladi. O‘zbekistonda ham bu amaliyotni kuzatish mumkin. Statistik ma’lumotlarga e’tibor qaratsak aynan energetika va tog‘-kon sanoati, mashinasozlik sanoatida turli investitsion oqimlarning, xususan, xorijiy investitsion oqimlarning salmog‘i katta ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Tabiiyki bu sohalarning mamlakat YAIMdagi ulushi ham sezilarli darajada katta. Ijtimoiy sohalarga xususan, ta’lim tizimiga yunaltirilgan turli investitsion oqimlarning kamligi esa bevosita ijtimoiy sohani, pirovardida sanoat ishlab chiqarish salohiyatiga ta’sir qiladi. Demak sanoat ishlab chiqarishga investitsiyalarning asosiy xususiyati shundaki unga qilingan investitsiyalarning joriy ishlab chiqarish samarasi katta lekin strategik davrdagi taraqqiyot samarasi ta’lim tizimiga qilingan investitsion samara barchasidan kattadir.



6-rasm: Sanoat ishlab chiqarishning investitsion faoliyat xususiyatlari[1]

Ushbu qonununiyatga ko‘ra, sanoat ishlab chiqarishga qilingan investetsiyalar qisqa, o‘rta, uzoq, va o‘ta uzoq muddatli davrda uchta maqsadli mezonda turlicha ko‘ra multiplikator indekslariga ega. Sanoat ishlab chiqarishga bevosita yo‘naltirilgan investitsion faoliyat joriy sanoat ishlab chiqarishga qisqa muddatlarda 0.25 o‘rta muddatlarda 0.30, uzoq muddatlarda 0.35 va o‘ta uzoq muddatlarda 0.22 indeks ko‘rsatkich samaraga ega bo‘ladi. Lekin asosiy strategik yoki zoq maqsadli yillarda sanoat ishlab chiqarishga bevosita yo‘naltirilgan investitsiyalar samarasi mos ravishda 0.8,0,10 va 0.12 indeks samara berar ekan(strategik muddatlarda qisqa

1 Muallif ishlanmasi.

muddatli mezonlari mavjud emas). Sanoat ishlab chiqarishdan asosiy maqsad ijtimoiy taraqqiyot ekanligini hisobga olsak bu natija mos ravishda 0.20,0.22, 0.20 va 0.18 natijani beradi.

Sanoat ishlab chiqarishga bilvosita (Ta'limga tizimiga) yo'naltirigan investitsion faoliyat esa sanoatga bevosita investetsiyaga nisbatan ancha katta samaraga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu yo'nalish joriy sanoat ishlab chiqarish salohiyatiga bevosita investetsiyalarga nisbatan pastroq samarani ta'minlasada, pirovardida strategiik taraqqiyot alohiyatiga ta'siri multiplikatsion darajada katta ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu yo'nalish qisqa muddatli davrda sanoat ishlab chiqarish yashovchanligiga kamroq ta'sir samarasiga ega bo'lsa-da, lekin uzoq va o'ta uzoq muddatli ya'ni strategik maqsadli davrlar uchun ijobiy ta'sir mexanizmiga ega. Ya'ni strategik taraqqiyot salohiyati uchun mos ravishda 1.25, 2.5, 5.5 natijani ta'minlaydi. Bu samara ijtimoiy taraqqiyot bilan tenglashgunga qadar davom etishi yoki bir birini to'ldirishi mumkin. Xulosa qilish mumkinki, sanoat ishlab chiqarishning investitsion faoliyat yo'nalishlari yuqorida keltirilgan maqsad va mezonlarga asoslanishi kerak, demak agar u sanoatning joriy yashab qolishini maqsad qilgan bo'lsa bevosita sanoat ishlab chiqarish investitsion faoliyatga ustunlik berilishi kerak. Agar strategik taraqqiyot mezonlariga asoslangan maqsad qo'yilganda yo'nalish tamoiliga ko'ra sanoat ishlab chiqarishga bilvosita ya'ni ta'lim sohasiga investetsiya orqali erishilishi mumkin [8]. Bundan ma'lum bo'ladiki, sanoat sanoatda shakillaniib, rivojlanib takomillashmaydi. Bunday sanoat ishlab chiqarishi usulida sanoat faqat o'zinig umrini o'taydi. Sanoatning genizisi esa ta'limda shakllanadi, rivojlanadi va takomillashadi. Shu bois sanoatni taraqqiy ettirishga sanoatga emas ta'lim tizimiga investitsion ustunlik berilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019-y., 03/19/598/4221-son. https://www.lex.uz/docs/4664142.
2. Дмитриева Е.В. "Модернизация системы финансирования инвестиционной деятельности промышленних предприяти". Автореферат диссертации на соисканние ученой степени доктора экономичиский наук. –М: Российская академия предпринимательства, 2015. -46 с.
3. Гудель Ю.В. "Управление инвестиционной деятельностью промышленных предприятий". Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. М.: Московского государственного университета печати. 2009. – 24 с.
4. Барабанова И.Ю. "Механизмы и методы финансирования инвестиционных проектов предприятия" // Вестник университета. –М.: 2013 – №4. 35-40 с.
5. Wang H., Liang P., Li H., Yang R. "Financing Sources, R&D Investment and Enterprise Risk" // Procedia Computer Science 91 (2016) 122 – 130 p. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877050916312303 6. Ғозибеков Д.Ғ. Инвестицияларни молиялаштириш масалалари. –Т.: "Молия", 2003. –215 б.
6. Kuziyeva N.R. "Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari". Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. 2008. – 41-b.
7. К. В. Балдин, А. В. Барышева, Е. Л. Макриденко. Инновационный менеджмент. "Дашков и К", 2009. стр.40.
8. Н.Ю.Ковалёвская Управление инвестиционными проектами. Иркутск. Издателство "БГУ", 2017. стр. 112.

TURIZM SOHASI UCHUN YUQORI MALAKALI KADRLARNI TAYYORLASHDA DAVLAT VA XUSUSIY SHERIKCHILIKNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI TAHLILI



Raxmatov Adxam Itolmasovich
PhD, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrasi dotsent v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda davlat va xususiy sherikchilikning o‘zaro bog‘liqligi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, kadr, davlat, xususiy, obyekt, iqtisodiyot, global, turmarshrut, sinergetik, samaradorlik, xususiy sektor, innovatsiya.

Abstract: This article analyzes the interdependence of public and private partnership in the training of highly qualified personnel for the tourism industry.

Key words: tourism, personnel, state, private, object, economy, global, tourist route, synergy, efficiency, private sector, innovation.

Аннотация: В данной статье анализируется взаимозависимость государственного и частного партнерства в подготовке высококвалифицированных кадров для туристической отрасли.

Ключевые слова: туризм, кадры, государство, частный, объект, экономика, глобальный, туристический маршрут, синергия, эффективность, частный сектор, инновации.

KIRISH

O‘zbekistonda turizm sohasidagi oliy ta’lim muassasalarining reytingi va raqotbardoshligini oshirishga, turizm industriyasining zamonaviy talablariga muvofiq raqobatbardosh malakali kadrlar tayyorlashga, ta’lim sifatini oshirishga, ta’lim jarayoniga investitsiyalar, innovatsiyalar va yuqori texnologiyalarni joriy qilish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Yangi O‘zbekiston strategiyasida “2026-yilga turizm sohasida band bo‘lgan aholi soni 2 barabar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish” [1] singari muhim vazifalar belgilangan. Bu borada turizm sohasida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, turizm sohasida kadrlar malakasini baholashni tashkil qilish, turizm sohasida xalqaro talablarga javob beradigan uzluksiz, ko‘p bosqichli ta’lim tizimini yaratish, yuqori malakali kadrlar tayyorlashning davlat va xususiy sherikchilik tizimini yaratish masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

Turizm sohasiga yuqori malakali kadrlar tayyorlashda davlat sektori bilan xususiy sektor imkoniyatlarini birlashtirish maqsadga muvofiqdir, bunda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi davlat va xususiy biznes sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan Qonun asos bo‘ldi [2]. Bu masalada ijtimoiy tashkilotlar ham xususiy sektor bilan birga harakat qilishlari maqsadga muvofiq.

TADQIQOTNING USULLARI

Maqolada ilmiy abstraksiya, taqqoslash, tizimli va mantiqiy tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, davriylashtirish kabi usullaridan foydalanilgan.


ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalalari bilan dunyo olimlari shug‘ullanib kelganlar. Biz mazkur maqolada O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar nomlari va asarlarini keltirib o‘tishni maqsadga

muvofiq, deb topdik. Bular tarkibiga: N.Tuxliyev [3], B.Navruz-zoda [4], M.T.Alimova [5], M.Q.Pardayev [6], A.Eshtayev [7], B.Sh.Safarov [8], A.O.Ochilov [9], O.S.Kaxxarov [10] kabilarni kiritish mumkin. Ushbu olimlar turizm sohasiga oid ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Ushbu olimlarning ishlarida turizm sohasini rivojlantirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha umumiy jihatlari o‘rganilgan ammo turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda davlat sektori bilan xususiy sektor imkoniyatlarini birlashtirish muammolari tadqiq etilmagan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda turizm sohasi samaradorligini oshirish uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga ehtiyoj kundan kunga oshib bormoqda. Buni tashkil qilishning qulay mexanizmlaridan biri davlat xususiy sheriklik asosida faoliyatni birlashtirishni taqozo qiladi. Chunki turizmni faqat xususiy sektor ixtiyoriga tashlab qo‘yish ham bo‘lmaydi va faqat davlat tomonidan monopoliya qilib olishi ham sohada tadbirkorlikni rivojlantirishga to‘siq bo‘ladi. Ushbu masalada yechim topish uchun davlat xususiy sherikchilik mexanizmiga tayanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash lozim bo‘ladi. Shu bilan birga yangi turistik marshrutlarni, turistik tashkilotlarni davlat xususiy sherikchilik asosida tashkillashtirish ham o‘ta muhim hisoblanadi. Bularning o‘zaro bog‘liqligi quyidagi tarzda bo‘lishi asoslandi(1-rasm).



1-rasm: Turizm sohasini rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yangi turistik marshrutlarni, turistik tashkilotlarni davlat xususiy sherikchilik asosida tashkillashtirishning o‘zaro bog‘liqligi

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi turistik maskanlardan “Sheroz qal’a” va “Dobusiya” davlat turistik obyektlari YUNESKOning ro‘yxatida bo‘lishiga qaramasdan turizm sohasida juda kam foydalanilmoqda. Zero, ushbu obyektlardan ichki va kiruvchi turizmni rivojlantirishda ham keng foydalanish mumkin. Bularni tez amalga oshirish uchun ushbu obyektlarga turistik infratuzilmani yaratishda xususiy investitsiyalar va hissadorlik mablag‘larini jalb qilish maqsadga muvofiq, deb topdik.


Tadqiqotlarimiz ko‘rsatdiki, ushbu jarayonda “sinergetik samara beruvchi turli nisbatdagi kombinatsiyalari” dan foydalanish ham lozim bo‘ladi. Shu yo‘l bilan turistik obyektlar joylashgan hududlarda turistik faoliyat samaradorligini oshirishga, yangi turistik tashkilotlarni tashkil etishga, yangi turmahsulotlarni joriy qilishga erishiladi. Bular esa, o‘z navbatida turizm infratuzilmasini rivojlantirishni ta’minlash imkoniyatini yaratadi.

Yangi turistik maskanlardan “Sheroz qal’a” va “Dobusiya” davlat turistik obyektlarini turistik marshrutlarga kiritishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Bu borasida Nasiba Jonto‘rayevaning keltirgan ma’lumoti diqqatga sazovar. U kishining ta’kidlashicha, “Sheroz qal’a o‘zining tarixiyligi bilan ham faxrlanishga arzirli maskan. Sohibqiron Amir Temur harbiy yurishlari davomida Eronni qamal qilib, Sheroz qal’asini olishda qiynaladi. Shu sabab Samarqandga kirishda har tomonlama qulay bo‘lgan bu maskanda 1396–1402-yillari mustahkam qal’a bunyod etadi. Bu joy Sohibqiron tomonidan bejiz tanlanmagandi. Qal’ani 20 metr chuqurlikdagi Bulung‘or, ya’ni loyha ariq o‘rab turadi. Ariqning eni 18–20 metr bo‘lib, tik holatda bo‘lganligi uchun ham hech bir dushman kira olmagan. Atrofida 9 ta buloq bo‘lib, bugungi kunda ularning 3 tasi saqlanib qolingan” [11], degan ma’lumotni bergan. Ushbu tarixiy maskan turistlar uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan obyekt. Buni turistik marshrutga kiritish mexanizmini ishlab chiqdik.

Yana bir tarixiy obida Samarqand bilan Buxoro shaharlarini o‘zaro bog‘lab turgan Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan qadimgi shaharlar ichida eng yirigi va ahamiyatlisi bu Dobusiya shaharchasidir. Arxeolog olim Amriddin Berdimurodov ta’kidlashicha “Dobusiya haqidagi dastlabki tarixiy ma’lumotlarni biz arabtarixchisi Yaqubiy (X asr) va vatandoshimiz.

Muhammad ibn Jafar Narshaxiy (X asr) larning asarlaridan o‘qishimiz mumkin”. Bizgacha yetib kelgan ayrim tarixiy manbalarda ancha ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, XIX asrlarda ham Dobusiya yodgorligi hududidan keng foydalanib kelingan. Jumladan, shu davrda Ziyovuddin begining qarorgohi, masjid va boshqa inshootlar mavjud bo‘lgan. Shu tufayli Narpay, Paxtachi va Xatirchi tumanlarida yashovchi aholi yaqin kunlargacha yiliga ikki marta-Qurbon va Ramazon hayitlarida bu yerga yig‘ilishib sayillar o‘tkazganliklari haqida ma’lumotlar bor [12].

Yangi obyektlarni yangi turistik marshrutlarga kiritish o‘ziga xos innovatsion yondoshuvni taqozo qiladi. Bularning o‘zaro bog‘liqligi quyidagi rasmda o‘z aksini topgan (2-rasm).



2-rasm: “Sheroz qal’a” va “Dobusiya” davlat turistik obyektlarini turistik marshrutga kiritish uchun xususiy investitsiyalar va hissadorlik mablag‘larini jalb qilishdagi o‘zaro bog‘liqlik

Mazkur rasmdan ko‘rinib turibdiki, “Sheroz qal’a” va “Dobusiya” davlat turistik obyektlarini turistik marshrutga kiritish uchun, eng avvalo, ularga yo‘l va boshqa infratuzilmalarni yaratish lozim bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, investitsiyalarni kiritishni taqozo qiladi. Investorlar turizmning hozirgi holatidan, ularning asosiy qismi tadbirkorlikka asoslanganligidan kelib chiqib, birinchi galda xususiy investorlarni jalb qilishni taqozo qiladi. Ammo yo‘l va shu kabi infratuzilmani davlat va xususiy sherikchilik asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda hissadorlik mablag‘larini (turli mulk egalari mablag‘larini) jalb qilish ham maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Muxtasar aytganda yuqori keltirilgan tahlillar ikki turistik obyekt “Sheroz qal’a” va “Dobusiya”ning davlat turistik obyektlari sifatida turistik marshrutlarga kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ammo buni turistlar uchun qulay va xavfsiz qilish uchun biroz mablag‘lar lozim bo‘ladi. Buning uchun xususiy investitsiyalar va hissadorlik mablag‘larini jalb qilish, bunda sinergetik samara beruvchi turli nisbatdagi kombinatsiyalardan foydalanish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday tadbirlar hududlarda turistik faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratish bilan birga, yangi turistik tashkilotlarni tashkil etishni orqali yangi ish o‘rinlarini yaratishni, shu yo‘l bilan kambag‘allikni qisqartirishni ham taqozo qiladi. Bu yangi turmahsulotlarni joriy qilish imkoniyatlarini ham yaratadi. Bularning barchasiga erishish uchun ushbu hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish lozim bo‘ladi.

Taklif sifatida quyidagilarni ta’kid etish mumkin:

1. Barcha ishlarni amalga oshirishda investitsiyani jalb qilishda “sinergetik samara” usulidan foydalaniladi. Chunki ushbu usulning bir yo‘nalishi kuchlarni birlashtirish bilan bog‘liqdir.

2. “Sinergetik samara beruvchi turli nisbatdagi kombinatsiyalari”dan foydalangan holda har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Chunki bir hududda bor imkoniyat ikkinchisida bo‘lmasligi mumkin va teskarisi. Shu tariqa turizm sohasiga yangi dunyo ahamiyatiga ega bo‘lgan ikkita yirik turistik obyekt qo‘shiladi. Bu ham o‘ziga xos tarzda turizmni diversifikatsiya qilish imkoniyatini ham yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni// lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: 2019-yil 10-may.[Elektron resurs]. – Kirish yo‘li: http://lex.uz/docs/4329270.
3. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. – Т.: Гос.науч.изд-во “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006. – 424 с.
4. Navruz-zoda B.N., Ibragimov N.S., Navruz-zoda Z.B., Navruz-zoda Sh.B.Turistik hudud raqobatbardoshligi. Monografiya. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2017 – 156 b.
5. Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari. (O‘zbekiston Respublikasi misolida): i.f.d.(DSc) diss. avtoref. –Samarqand, 2019. – 81 b.
6. Pardayev M.Q., Atabayev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. – Samarqand: SamISI, 2006. – 137 b.
7. A.A.Eshtayev. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. (O‘zbekiston Respublikasi turizm tarmog‘i misolida) iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2019. – 246-b.
8. Safarov B.Sh. Milliy turistik xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2016. – 254 b.
9. Ochilov A.O. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish: i.f.d.(DSc) diss. avtoref. –Toshkent., 2018. –89 b.
10. Qahhorov O.S.Oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish (Buxoro va Navoyi viloyatlari misolida): i.f.d.(DSc) diss. avtoref. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Sam., 2021. – 79 b.
11. Nasiba Jonto‘rayeva. Bulung‘urda Sheroz qal’a qayta tiklanadi. 01.06.2021 14:12 314 Samarqand. https://zarnews.uz/post/bulungurda-sheroz-qala-qayta-tiklanadi.
12. Nasiba Jonto‘rayeva. Bulung‘urda Sheroz qal’a qayta tiklanadi. 01.06.2021 14:12 314 Samarqand. https://zarnews.uz/post/bulungurda-sheroz-qala-qayta-tiklanadi.

MAMLAKATIMIZDA TURIZM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI QO‘LLAB-QUVVATLASH MAQSADIDA MARKETING INSTRUMENTLARI ORQALI SAMARALI TIZIM YARATISH



Suyunova Kamilla Baxromovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
“Marketing” kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya: Turistik korxona va tashkilotlarni rivojlantirish strategiyasini tanlash va ishlab chiqish uchun boshqaruv jarayonidagi menejerlar ularni qidirish, qayta ishlash va tahlil qilish bilan bog‘liq tezkor ma’lumotlarga muhtoj. Odatda, ushbu jarayonlar katta sarf-xarajatlar evaziga amalga oshiriladi. Bu esa turistik xizmatlar tannarxining oshishiga sabab bo‘ladi va demak, uning jahon bozoridagi raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada, ushbu xarajatlardan samarali foydalanishda mexanizmlar yaratilishi va amaliyotga joriy etilishi xaqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm, turistik xizmatlar, bozor mexanizmlar, marketing, tadbirkorlik subyektlari, marketing tadqiqotlari, axborot, maslahat xizmatlari.

Abstract: In order to choose and develop a strategy for the development of tourist enterprises and organizations, managers in the management process need quick information related to their search, processing and analysis. Usually, these processes are carried out at great expense. This causes an increase in the cost of tourist services and, therefore, has a negative impact on its competitiveness in the world market. The article describes the creation and implementation of mechanisms for effective use of these costs.

Key words: Tourism, tourist services, market mechanisms, marketing, business entities, marketing research, information, consulting services.

Аннотация: Для выбора и разработки стратегии развития туристских предприятий и организаций менеджерам в процессе управления необходима оперативная информация, связанная с ее поиском, обработкой и анализом. Обычно эти процессы осуществляются с большими затратами. Это вызывает удорожание туристических услуг и, следовательно, негативно влияет на их конкурентоспособность на мировом рынке. В статье описано создание и внедрение механизмов эффективного использования этих затрат.

Ключевые слова: Туризм, туристические услуги, рыночные механизмы, маркетинг, субъекты предпринимательства, маркетинговые исследования, информация, консультационные услуги.

KIRISH

Jahonda turizm sohasini barqaror rivojlantirishning muhim elementlari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi. Sohaning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining boshqa tarmoqlar bilan multiplikativ ta’siri ko‘rsatishi mumkinligini ifodalaydi hamda barcha makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘sish sur’atlariga kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Har qanday iqtisodiy tizim va uning tarkibidagi barcha tarmoqlar tadbirkorlik subyektlari tufayli faoliyat yuritar ekan, turizm sohasi ham bundan istisno emas. Sohadagi korxonalar, tashkilotlarning samarali yuritayotgan faoliyatlarisiz sohani rivojlantirish mumkin emas, sababi, ular sohani rivojlantirishning ajralmas tarkibiy qismidir.

Turizm faoliyati nafaqat turistik xizmatlarni iste’molchilarga taqdim etish, balki davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning muhim manbaidir. Turizm korxona va tashkilotlari iqtisodiyotga, siyosatga, ekologiyaga, jamiyatga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ular ham, o‘z navbatida, turizm sohasida faoliyat olib borayotgan korxona va tashkilotlar asosiy ko‘rsatkichlariga ham kuchli ta’sir etadi.

Mamlakatda turizm sohasini tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash siyosatining muvaffaqiyatli tomoni davlatning sohani boshqarishda ishtirok etuvchi barcha organlarning o‘zaro uzviy bog‘langan munosabatlar va bozor mexanizmlarining ishtiroki asosida sohadagi xo‘jalik subyektlari faoliyatining to‘g‘ri va samarali yo‘naltirilishiga bog‘liq.

Turizmda davlat organlaridan tashqari kasaba uyushmalari, birlashmalar va boshqa jamoat turistik tashkilotlari katta rol o‘ynaydi.

Jahon sayyohlik xizmatlari bozorida mintaqaning manfaatlarini ifoda etadigan tashkiliy masalalar, olib borilayotgan davlat miqyosidagi marketing tadqiqotlari, axborot, maslahat xizmatlari jamoat turizm sohasi bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlari darajasida hal etilmog‘i lozim.

Yuqoridagi fikrlar va mulohazalarni birlashtirib, mamlakat manfaatlarini ifoda etuvchi marketing faoliyatini davlat, xususiy biznes va turizm sohasida faoliyat olib borayotgan subyektlarning sohadagi hamkorligi asosida amalga oshirilishi lozim. Sohada faoliyat olib borayotgan tashkilotlarning faoliyatlarini tartibga solish, qo‘llab-quvvatlash samaradorligini oshirish, davlat hamda jamoat tashkilotlari o‘zaro uyg‘unlikda faoliyat yuritishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyotni, turizm sohasi faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish bo‘yicha tadqiqotlar natijalari A.M.Babashkina, S.A.Baranova, T.G.Grishkova, K.B.Zernova, N.I.Ilyina, N.I.Kabushkina, G.G.Muftiyeva, N.Ye.Nikolskiy, A.D.Nesterova, M.G.Svetunkov, A.I.Tsapuk, O.P.Savicheva, U.A.Safarova, K.B.Trifonova, S.A.Isxakova, M.T.Alimova, N.V.Shitova1 va boshqalar asarlarida keltirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Turizm sohasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarni hal etishda mantiqiy fikirlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sohada faoliyat yuritayotgan jamoat tashkilotlari turistik biznes yuritishda boy tajribaga ega. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasida sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarga yordam berish imkoniyatlari to‘g‘risidagi masalalarni muhokama qilish imkonini beradi.

Turistik korxona va tashkilotlarni rivojlantirish strategiyasini tanlash va ishlab chiqish uchun boshqaruv jarayonidagi menejerlar ularni qidirish, qayta ishlash va tahlil qilish bilan bog‘liq tezkor ma’lumotlarga muhtoj. Odatda, ushbu jarayonlar katta sarf-xarajatlar evaziga amalga oshiriladi. Shu sababli ushbu xarajatlardan samarali foydalanishda mexanizmlar yaratilishi va amaliyotga joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tashkilot rahbarlari tomonidan ma’lumotlarni qidirish, qayta ishlash va tahlil qilish uchun moliyaviy xarajatlar va vaqt xarajatlarini kamaytirish maqsadida biz mamlakatda turizm sohasidagi tashkilotlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun “Axborot-tahlil uyushmasi” shaklida turizm faoliyatini axborot bilan ta’minlashning samarali tizimini yaratishni taklif qilamiz. Buning uchun Turizm va madaniy meros vazirligi qoshida maxsus uyushma tashkil qilish eng maqbul chora bo‘lar edi, degan fikrdamiz. Ushbu uyushma O‘zbekiston turindustriyasi tarkibidagi korxona va tashkilotlarning a’zolik badallari hisobidan markazlashgan fondni shakllantiradi. Fond mablag‘lari hisobidan kichik tadbirkorlik subyektlarining ehtiyojlarini qondirish hamda rivojlantirish bilan bog‘liq tadbirlar va dasturlar moliyalashtiriladi. Bizning tasavvurimizda, bunday uyushmani tashkil qilishning bosh maqsadi turistik xizmatlarni ishlab chiqish bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni keskin kamaytirish va buning hisobidan turistik xizmatlar narxini sezilarli darajada arzonlashtirish, buning evaziga ularning turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Iqtisodiy samara alohida korxona va tashkilotlar mablag‘larini uyushma doirasida yaxlitlashtirish va ko‘lam samarasini yaratish evaziga yuzaga keladi.

Bizningcha, O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasidagi tashkilotlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha “Axborot-tahlil uyushmasi” tarkibiy jihatdan quyidagi 2 ta bo‘limdan iborat bo‘lishi kerak: ilmiy bo‘lim hamda marketing bo‘limi.

Ilmiy bo‘lim – kadrlar tayyorlash tizimida ishtirok etayotgan professor-o‘qituvchilar ilmiy salohiyatidan turizm sohasidagi muammolarni hal etishda foydalanish samaradorligini oshirish, raqobatbardoshligini ta’minlash, iqtisodiy resurslar samaradorligini oshirish, soha korxona va tashkilotlarida innovatsion faoliyatni jadallashtirish kabi muhim masalalarni hal etish va amaliyotga joriy etishni ta’minlash bilan shug‘ullanadi. Bundan tashqari, bo‘lim turmahsulotlar sifatini yaxshilash, yangi xizmat turlarini joriy etish, turistik obyektlar jozibadorligini oshirish, turoperatorlar va turagentlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqadilar hamda ularning amaliyotga joriy etilishini nazorat qiladilar.

1 Бабашкина А.М. Государственное регулирование национальной экономики / А.М.Бабашкина. – М.: Финансы и статистика, 2007.; Алимова М.Т. Ҳудудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари.(Самарқанд вилояти мисолида). И.ф.д. илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Самарқанд: СамИСИ. – 2017. – 351 б.

Marketing bo‘limi bozor kon’yunkturasini, bozorda sodir bo‘layotgan o‘zgarish tendensiyalarini, bozordagi raqobat muhitini, turistik xizmatlarga aholi ehtiyojlarini, uning daromadlarini, turistik xizmatlarga talab va taklifning hajmini, unga ta’sir etuvchi omillarni, bozor segmentini, narxni o‘rganishga xizmat qiluvchi marketing tadqiqotlarini amalga oshiradilar. Bo‘lim ushbu maqsadda tegishli ma’lumotlar to‘playdi, ularni tahlil qiladi, xulosalar chiqaradi va ilmiy asoslangan takliflar kiritadi.

Uyushmaning vazifasi respublikaning turizm sanoati xo‘jalik subyektlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. U turizm sohasida faoliyat ko‘rsatadigan asosiy korxonalarni – turar joy binolari, sayyohlik agentliklari, transport kompaniyalari, muzeylar va boshqalarni uyushma faoliyati doirasida birlashtiradi.

Davlat tomonidan kichik biznesning rivojlantirish strategiyasini va qisqa muddatli qo‘llab-quvvatlash dasturlarini tuzishda xo‘jalik subyektlarining o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida turistik assotsiatsiyalarga uyushishi yuqoriroq samara berishi mumkinligi e’tiborga olinmog‘i lozim. Masalan, turistik korxona va tashkilotlarni rivojlantirish strategiyasini tanlash va ishlab chiqish uchun boshqaruv jarayonidagi menejerlar ularni qidirish, qayta ishlash va tahlil qilish bilan bog‘liq tezkor ma’lumotlarga muhtoj. Odatda, ushbu jarayonlar katta sarf-xarajatlar evaziga amalga oshiriladi. Bu esa turistik xizmatlar tannarxining oshishiga sabab bo‘ladi va uning jahon bozoridagi raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu muammoni hal etishning chorasi sifatida vazirlik qoshida maxsus uyushma tashkil qilish taklifi kiritildi.

Fond mablag‘lari hisobidan kichik tadbirkorlik subyektlarining ehtiyojlarini qondirish hamda rivojlantirish bilan bog‘liq tadbirlar va dasturlar moliyalashtiriladi.

Assotsiatsiyaga a’zolikka kirgan korxona yoki tashkilotning marketing faoliyati, o‘zining saytini yaratish va texnik xizmatlar bo‘yicha xarajatlarining umumiy qiymati butun markazning tegishli bo‘limlarni saqlash uchun xarajatlar miqdori bilan almashtirilganligi sababli sezilarli darajada kamayadi. Fikrimizning isboti sifatida ayrim hisob-kitoblarni keltirmoqchimiz. Masalan, marketing faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar.

Ekspert-analitik usulda olib borilgan hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki, turistik korxona yoki tashkilotning marketing tadbirlarini amalga oshirish uchun taxminiy xarajatlari 12 mln. so‘mni tashkil etadi. Yiliga xodimlarni qo‘shimcha o‘qitish – 3 mln. so‘m, saytning ishlari bo‘yicha yillik xarajatlar – 12 mln. so‘m. Shunday qilib, jami xarajatlar umumiy qiymati 27 mln. so‘mni tashkil qiladi.

Taklif etilgan uyushmaga a’zo bo‘lib kirgan turistik korxona va tashkilotlarning a’zolik natijasida qo‘lga kiritilgan iqtisodiy samarani aniqlash muhim. Ushbu vazifani bajarish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Dastlab markazga a’zo bo‘lib kirgan har bir xo‘jalik subyektining ulushiga to‘g‘ri keladigan xarajatlarning o‘rtacha miqdori hisoblab topiladi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish tavsiya etiladi:

$$RP_1 = \frac{\sum_{t=1}^{N} RP}{N} \quad (1)$$

Bunda:

RP_1 – har bir korxona yoki tashkilot ulushiga to‘g‘ri keladigan yillik xarajatlarning o‘rtacha miqdori;

RP – markaz bo‘yicha yillik xarajatlarning miqdori;

N – markazga a’zo bo‘lgan turistik korxona va tashkilotlar soni.

Hisob-kitoblar natijasida har bir xo‘jalik subyektining ulushiga to‘g‘ri keladigan yillik o‘rtacha xarajatlar miqdori (RP1) turistik korxonaning yil davomidagi individual xarajatlari (RP) bilan taqqoslandi. Taqqoslash natijasida chiqqan raqam muayyan korxonaning uyushmaga uyushganligidan qo‘lga kiritgan samaraning miqdorini ko‘rsatadi. Barcha a’zolar erishgan iqtisodiy samarani jamlash asosida uyushmaning turizm sohasiga keltirgan umumiy iqtisodiy samara miqdori aniqlanadi. Turistik korxonalar faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash sarf-xarajatlarining pirovard samaradorligini oshirish zarurligi asoslab berildi. Budjet resurslarini turistik obyektning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda taqsimlash mexanizmi ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, biz taklif etayotgan uyushmani tashkil etishning yana bir afzalligi shundaki, ushbu uyushmada unga uyushgan barcha xo‘jalik subyektlarining ehtiyojlariga asqotishi mumkin bo‘lgan boy statistik ma’lumotlar, sotsiologik so‘rov natijalari to‘planadi. Ushbu ma’lumotlarni alohida xo‘jalik subyektlari doirasida to‘plash og‘ir va juda qimmatga tushadi. Lekin bitta uyushma doirasida bunga erishish uchun real imkoniyat mavjud. Eng muhimi, uyushmada to‘plangan katta hajmdagi ma’lumotlardan foydalangan holda, a’zo bo‘lib kirgan xo‘jalik subyektlari o‘z ehtiyojlari yo‘lida unumli foydalanishlari mumkin.

Faydalanilgan adabiyotlar:

1. Бабашкина А.М. Государственное регулирование национальной экономики / А.М.Бабашкина. – М.: Финансы и статистика, 2007.
2. Светуньков М.Г. Теория государственного регулирования предпринимательскими сетями: монография / М.Г. Светуньков. – Ульяновск: Издатель ИП Василькина М. Н., 2011. – С. 8.
3. “Turizm to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. – Toshkent, 2019.
4. O‘zbekistonni 2035-yilgacha rivojlanish strategiyasining Konsepsiyasi. – Toshkent: Buyuk kelajak, 2018. – 233 b.
5. 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlartirish Konsepsiyasi / O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF 5611-son Farmoniga 1-ilova. –Toshkent, 2019.
6. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi / Sh.M. Mirziyoyev. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2022.
7. Мусаева Ш. А., Усмонова Д. И., Усманов Ф. Ш. Осударственная поддержка молодёжного предпринимательства в Республике Узбекистан //Высшая школа: научные исследования. – 2020. – С. 12-17.
8. Suyunova K. B. O‘zbekistonda turizm sohasidan foydalanish samarodorligini oshirish bo‘yicha amalga oshiralayotgan islohotlar //Интернаука. – 2020. – №. 42-2. – С. 85-86.
9. Махмудова А. Н. и др. Роль молодого поколения в формировании современного гражданского общества // Достижения науки и образования. – 2020. – №. 3 (57). – С. 45-48.
10. Artikova Sh. I. Maishiy xizmatlar sohasi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlari //Ekonomika i finansi (Uzbekistan). – 2022. – №. 6 (154). – S. 33-42.

QISHLOQ XO‘JALIGIDA AGROKIMYO XIZMATLAR KO‘RSATISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI



Tabayev Azamat Zaripbayevich
PhD, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo‘jaligida agrokimyo xizmatlari ko‘rsatishning iqtisodiy samaradorligining hozirgi holati yoritilgan, sohaga oid muammolarni vujudga kelish sabablari va ularni bartaraf etish hamda agrokimyo xizmati ko‘rsatish samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: agrokimyo xizmatlar, samaradorlik, baho, fyuchers shartnomasi, raqobat, talab, taklif.

Abstract: The article highlights the current state of economic efficiency of agrochemical services in agriculture, gives the causes of problems associated with the industry and their elimination, as well as proposals for increasing the efficiency of agrochemical services.

Key words: agrochemical services, efficiency, price, futures contract, competition, demand, supply.

Аннотация: В статье освещено современное состояние экономической эффективности агрохимического обслуживания сельского хозяйства, даны причины возникновения проблем, связанных с отраслью, и их устранение, а также предложения по повышению эффективности агрохимического обслуживания.

Ключевые слова: агрохимические услуги, эффективность, цена, фьючерсный контракт, конкуренция, спрос, предложение.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim va yetakchi tarmoqlaridan biri bu qishloq xo‘jaligi hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, sanoatini xom ashyo bilan ta’minlash bilan birga eksportni oshirishdagi o‘rni juda yuqori.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida islohotlar olib borishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosildorligi bilan birga uning sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buni amalga oshirish uchun sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish, tejamkor va innovatsion texnologiyalarni keng jalb qilish bilan birga iqtisodiy munosabatlarni bozor mexanizmlari asosida to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, agrokimyo korxonalari xizmat ko‘rsatishda, mineral o‘g‘itlar va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini yetkazib berishda tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlarini samarali ishlashini yo‘lga qo‘yishda qishloq xo‘jaligi korxonalari o‘z imkoniyatlari doirasida sifatli agrokimyo xizmat ko‘rsatishni amalga oshirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligi va ko‘pincha tashkiliy jihatdan ichki imkoniyatlarining cheklanganligini inobatga olish lozim [2].

TADQIQOTNING MAQSADI

Tadqiqotning maqsadi qishloq xo‘jaligida agrokimyoviy xizmatlar ko‘rsatishning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot olib borish natijasida olingan ma’lumotlarga ishlov berish, mantiqiy mushohada, adabiyotlarni tanqidiy o‘rganish, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, modellashtirish, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

TADQIQOT MAVZUSINING DOLZARBLIGI

Agrokimyoviy xizmatlarni o‘ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda istiqbolda xizmat ko‘rsatish sohasini samarali tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli Farmoniga asosan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan Strategiyasi”da sohaning ustuvor vazifalari asosli ravishda belgilab berildi. Mazkur dasturga asosan qishloq xo‘jaligini boshqaruvi sohasida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish yuzasidan belgilangan vazifalar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish infratuzilma subyektlariga ham xosdir [1].

Lekin, bu vazifalar qishloq xo‘jaligi bilan xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar doirasida ishlab chiqish o‘z samarasini beradi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish xarajatlar tarkibida mineral o‘g‘itlar va kimyoviy vositalar sarfining ulushini yuqoriligi bunga kengroq to‘xtalishni talab qiladi. Bugungi kunda respublikamiz mineral o‘g‘itlar bozori konyukturasida quyidagicha muammolar mavjud:

- mineral o‘g‘itlar narxining doimiy emasligi va tez-tez o‘zgarib turishi;
- mineral o‘g‘it ishlab chiqaruvchilar bilan iste’molchilar o‘rtasida qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi. [4]

FAO tashkilotining statistik ma’lumotlariga ko‘ra 2000–2020 yillar mobaynida dunyo miqyosida qishloq xo‘jaligida 1 gektar ekin maydonlari uchun foydalanilgan noorganik o‘g‘itlarning o‘rtacha miqdori 43 foizga oshgan, ya’ni azot, fosfor va kaliyli o‘g‘itlar yig‘indisi 129 kg ozuqaviy moddani tashkil etgan.

Agar mazkur ko‘rsatkichni, O‘zbekiston bo‘yicha tahlil qilib ko‘rganimizda, 2020-yilda dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichga nisbatan 1,8 marta yuqori ekanligi hamda 2000-yilga nisbatan esa 1,5 barobar ortganiligi kuzatilgan. 2020-yilda, ushbu ozuqaviy moddalarning 162,5 kg/ga azotli o‘g‘itlar (70,4 foiz), 50,9 kg/ga fosforli o‘g‘itlar (22,1 foiz) va 17,3 kg/ga kaliyli o‘g‘itlar (7,5 foiz) hissasiga to‘g‘ri keladi (1-jadval).

1-jadval: 1 ga ekin maydonida noorganik o‘g‘itlarning oziq moddalari sifatida foydalanish holati, kg/ga [20]

Hududlar	Azotli o‘g‘it		Fosforli o‘g‘it		Kaliyli o‘g‘it		Jami o‘g‘itlar	
	2000-y.	2020-y.	2000-y.	2020-y.	2000-y.	2020-y.	2000-y.	2020-y.
Jahon bo‘yicha	54,3	72,9	21,5	30,9	14,5	25,2	90,3	129,0
Afrika	11,0	16,3	4,1	6,5	2,1	3,7	17,2	26,4
Amerika	47,2	70,9	22,1	41,0	22,3	38,6	91,6	150,6
Osiyo	83,2	111,4	31,5	43,9	13,9	32,1	128,6	187,4
Yevropa	42,5	52,6	13,2	14,5	15,6	15,9	71,3	83,0
Okeaniya	38,4	42,9	45,0	29,8	9,4	9,5	92,9	82,1
O‘zbekiston	125,7	162,5	24,1	50,9	1,7	17,3	151,5	230,7
Germaniya	153,7	106,7	29,2	16,2	45,3	37,6	228,2	160,5
Turkiya	52,3	88,7	23,8	33,0	3,1	5,0	79,2	126,6
Qozog‘iston	1,0	2,5	0,2	3,0	0,1	0,1	1,2	5,6
Qirg‘iziston	19,4	19,0	1,0	2,0	0,1	0,3	20,5	21,4
Tojikiston	10,1	68,4		7,0		2,7		78,0
Turkmaniston	52,3	88,7	23,8	33,0	3,1	5,0	79,2	126,6

2000–2020-yillar oralig‘ida 1 gektar ekin maydonlari uchun o‘g‘itlardan foydalanish darajasining ortishi bilan ekinlar hosildorligi ko‘rsatkichlari o‘zgarishi o‘rtasida nomutanosiblik kuzatiladi. Bu esa qishloq xo‘jaligini mineral o‘g‘it va kimyoviy vositalar bilan ta’minlash yuzasidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning iqtisodiy samaradorligi juda past daraja ekanligini ifodalaydi. Buni qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o‘rtasida ko‘rsatilgan agrokimyoviy xizmatlarni baholash maqsadida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalarida ham kuzatish mumkin (2-jadval).

2-jadval: Sirdaryo viloyati fermer xo‘jaliklari o‘rtasida ko‘rsatilgan agrokimyoviy xizmatlarni baholash maqsadida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari*

№	Berilgan savol mazmuni	Berilgan javob natijalari, %		
		Klaster	Davlat	Savdo firmasi va bozor
1	Mineral o‘g‘it va agrokimyo xizmatlari narxlari kim tomondan belgilanadi?	72	4,2	23,8
		Arzon	Qoniqarli	Qimmat
2	Mineral o‘g‘itni narxi sizga ma’qulmi?	0	3,2	96,8
		Past	O‘rta	Yuqori
3	Mineral o‘g‘itni sifati sizga maqulmi?	3,7	89,4	2,6
4	Mineral o‘g‘itning samardoriligi qanday?	4	76	20
		Ha	Yo‘q	Bilmayman
5	Mineral o‘g‘it va kimyoviy vositalarining narxi bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxlarining mutanosibligi mavjud deb hisoblaysizmi?	8	84	8
6	Agrokimyoviy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomaviy munosabatlari to‘g‘ri shakllangan, adolatli deb hisoblaysizmi?	24	28	48

* Muallifning ilmiy tadqiqotlari asosida tuzilgan

So‘rovnoma natijasida, “Mineral o‘g‘it narxi sizga ma’qulmi?” degan savolga 96,8 foizi qimmat deb baholagan. “Mineral o‘g‘it sifati sizga ma’qulmi?” degan savolga ea 89,4 foizi “o‘rta” baho bergan. Demak, iste’molchilar tomonidan “o‘rtacha” sifatdagi mahalliy mineral o‘g‘itlar “qimmat” bahoda yetkazib berilayotganligini ta’kidlashgan hamda ularning samaradorigini 76 foiz ishtirokchilar o‘rtacha holatda deb baholagan.

Agrokimyoviy xizmatlar samaradorligi mezonlari – bu yuqori sifatli agrokimyoviy mahsulotlar va xizmatlarning turli iste’molchilarining real ehtiyojlariga mos keladigan aniq va samarali natijalarga erishishga qaratilgan etalonlar tizimidir. Bugungi kunda davlat idoralari qishloq xo‘jaligi agrokimyoviy xizmatlari tizimini bozor sharoitlariga moslashtirish jarayonida yuz berayotgan salbiy jarayonlarning passiv kuzatuvchilariga aylanmoqda. Bunday sharoitda asosiy qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi sifatida imtiyozli kreditlar fermer xo‘jaliklariga yo‘naltirilishi va undan erkin foydalanish huquqi berilishi yoki berilmasligi muhim ahamiyatga ega. Mineral o‘g‘itlar hamda kimyoviy vositalarini yetkazib berishda hududlar bo‘yicha agrokimyoviy xizmatlar ko‘rsatishning turlicha shakli va tartiblari o‘zaro munosabatlarni o‘rnatishda salbiy ta’sir qilmoqda.

Ma’lumki, agrokimyoviy xizmatlar ko‘rsatishning iqtisodiy samaradorligi qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy samaradorligi bilan bog‘liq. Demak, agrokimyoviy xizmatlar ko‘rsatishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash hamda samaradorlikka ta’sir etuvchi omillarni nazariy jihatdan o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Agrokimyoviy xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlovchi ko‘rsatkichlar sifatida o‘g‘itlarning hosil bilan qoplanuvchanlik ko‘rsatkichini e’tirof etish mumkin. Mazkur ko‘rsatkich o‘g‘it hisobiga olingan hosil bo‘lib, asosiy ekin turi bo‘yicha quyidagicha aniqlanadi:

$$H_{o'} = (H * U_{o'}) : 100 \quad (1)$$

bu yerda: $H_{o'}$ – o‘g‘it hisobiga qo‘shimcha yetishtirilgan mahsulot hajmi, t; H – yalpi mahsulot hajmi, t; $U_{o'}$ – yalpi hosilda o‘g‘itni tutgan ulushi, foizda.

Mazkur ko‘rsatkich har bir hudud, tuproq turlari, yerga o‘g‘it solishning past, o‘rta, yuqori darajalari, asosiy ekin turlari (paxta, g‘alla) yoki ekin turlarining guruhlari (meva, sabzavot, poliz) bo‘yicha alohida hisoblanishi lozim. Buni aniqlash uchun uchun quyidagilarni aniqlash lozim:

- sarflangan o‘g‘it me’yorining ekin turi bo‘yicha tavsiya etilgan me’yorga mos ekanligi;
- mineral o‘g‘itlar hajmining me’yorda belgilab berilgan mineral o‘g‘it hajmi o‘rtasidagi o‘zaro farq miqdori;
- o‘zaro farqlariga qarab guruhlarga ajratib, me’yoriy o‘zgarishlar intervaliga mos holda o‘g‘itlarning sarflanish me’yoridan kelib chiqqan holda ularning hosildorlikdagi ulushi aniqlanadi.

O‘g‘it hisobiga qo‘shimcha yetishtirilgan mahsulotni mineral o‘g‘itlarning haqiqatdagi sarfiga bo‘linganda o‘g‘itlarning qoplanuvchanligi hisoblanadi:

$$Q_{o'} = H_{o'} : O'_h \quad (1)$$

Bu yerda, $Q_{o'}$ – o‘g‘itlarning hosil bilan qoplanuvchanli ko‘rsatkichi, O'_h – haqiqatdagi o‘g‘it sarfi.

Mazkur o‘g‘itlarning hosil bilan qoplanuvchanlik ko‘rsatkichi agrokimyoviy xizmatlar ko‘rsatishga iqtisodiy jihatdan baho beradigan asosiy iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligida o‘g‘itning hosildorlikdagi ulushini hisobga olishda oxirgi yillardagi hududlarning o‘rtacha miqdoridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ekin hosildorligini oshirishda o‘g‘itning ta’siri mahsulot sifatini belgilovchi ko‘rsatkichlarda ham o‘z aksini topadi. Masalan, paxta xom ashyosining sorti yoki tolasining uzunligi, g‘allaning oqligi va kleykovinalarini yuqoriligi hamda boshqa ekinlarning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilanishi bilan izohlash lozim. Agrokimyoviy xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatining samaradorligi miqdor hamda sifat ko‘rsatkichlari tizimi orqali ifodalanadi va ularning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlashda o‘z aksini topadi. Aniq xulosa chiqarish uchun mazkur samaradorlik ko‘rsatkichlaridan foydalanilganda aniqlangan nisbiy ko‘rsatkichlar emas, balki barcha ko‘rsatkichlarni yagona ball tizimida baholashdan foydalanish zarur.

Agrokimyoviy xizmatlarning iqtisodiy samaradorligi qiymat, miqdor va nisbiy ko‘rsatkichlar orqali ifodalanadi. Bu ko‘rsatkichlar bevosita agrokimyoviy xizmatlar ko‘rsatuvchilar hamda ularning xizmatidan foydalanuvchi qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga bog‘liq.

Agrokimyoviy xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini qiymat ko‘rsatkichlari narxlar bilan bog‘liq barcha bajariladigan ish va xizmatlar qiymatini o‘zida aks ettirib, quyidagilardan iborat bo‘ladi:

Agrokimyoviy xizmatlarga bog‘liq ko‘rsatkichlar:

- asosiy ishlab chiqarish vositalari hisobiga bajarilgan ish va xizmatlar qiymati;
- bajarilgan ish va xizmatlar hisobiga asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati;
- boshqaruv xodimi va ishchi hisobiga bajarilgan ish va xizmatlar qiymati.

Agrokimyoviy xizmatlardan foydalanuvchilarga bog‘liq ko‘rsatkichlar:

- qo‘shimcha yaratilgan mahsulot qiymati hisobiga qo‘shimcha xarajatlarni qoplash;
- qo‘shimcha sarflangan xarajatlar hisobiga yaratilgan qo‘shimcha mahsulotlar qiymati;
- sarflangan mineral o‘g‘it hisobiga olingan shartli sof daromad;
- qishloq xo‘jalik korxonasidagi ishlab chiqarish rentabelligi darajasi.

Miqdor ko‘rsatkichlari agrokimyoviy xizmatlarni va xo‘jalik shakllarini ma’lum bir hajmdagi bajariladigan ish va xizmatlar, sarflangan resurslar miqdori hamda ko‘rsatilgan xizmat hisobiga olingan va saqlab qolingan hosilda ifodalaniladi. Qishloq xo‘jaligiga agrokimyo xizmati ko‘rsatishning mavjud tamoyillari va qonuniyatlarini har tomonlama nazariy jihatdan o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, agrokimyoviy xizmatlarning iqtisodiy mexanizmi bevosita xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish orqali agrokimyoviy mahsulotlar va xizmatlar bozori subyektlarini mutanosib talab va taklifining muvozanatiga erishishni ta’minlashi kerak.

Buning uchun ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchilarning o‘zaro agrokimyoviy xizmatlar bahosidagi ulushi aniq bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bunda tomonlarning majburiyatlari va moddiy javobgarlik darajasini pirovard natija, ya’ni ekinlarning hosildorligiga bog‘lash maqsadga muvofiq.

Shuningdek, fyuchers shartnomalari asosida xizmat ko‘rsatadigan agrokimyo xizmati korxonalari faoliyatini yaxshilash uchun ularga imtiyozli kredit ajratish hamda soliq to‘lovida imtiyozlar berish ahamiyatlidir. Shunda, bozorda raqobatning ortishiga hamda mineral o‘g‘itlar va agrokimyo xizmatlari narxining tushushiga olib keladi.

TAKLIFLAR

Agrokimyoviy xizmatlar ko‘rsatishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’sir qilishda iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtirish va agrokimyoviy xizmatlarning har bir ishtirokchisining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining yakuniy maqsadlariga erishishga yo‘naltirilganligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, umumiy iqtisodiy samaradorlikka ta’sir etuvchi vositalar tizimi sifatida quyidagi shartlarni qanoatlantirilishi lozim deb hisoblaymiz:

- agrokimyo xizmatlari ishtirokchilarining xizmatlari bozorida barqaror mavqeyini hamda raqobatbardoshligini ta’minlash;

- agrokimyo xizmat ishtirokchilarida qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishining yakuniy natijalariga qiziqishni shakllantirish;
- zimmasiga olgan majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarilishini rag‘batlantirish;
- agrokimyo xizmatining har bir ishtirokchisining moddiy-texnik bazasi va mehnat resurslari takror ishlab chiqarishga mutanosib ravishda ta’minlashini qo‘lab-quvvatlash.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli Farmoniga asosan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan Strategiyasi”.
2. Umurzoqov O‘.P. va boshqalar. Fermer xo‘jaligi iqtisodiyoti, O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2008. 232-bet.
3. Jo‘rayev T.J., Mamatov A.A. Fermer xo‘jaliklari bilan “Agrokimyoximoya” hududiy aksiyadorlik jamiyati korxonalari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy mexanizmi. // Iqtisodiyot va moliya jurnali, 2018, 10 (118). 7-bet.
4. Mamatqulov B. Fermer xo‘jaliklarida mineral o‘g‘itlardan, yer va suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini oshirish yo‘llari. // XI форум экономистов, Стратегическое планирование – важный фактор стабильности устойчивого социально-экономического развития страны и регионов. Ташкент – 2019, 151-156-стр.
5. Mamatov M.A., Xurramov A.F. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: Sano-standart, 2016.
6. T.Sh.Shog‘iyosov “Kompleks iqtisodiy tahlil”. Darslik, T.:“Fan va texnologiya”, 2012-yil. 30-bet.
7. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo‘yicha 2016–2020-yillarga mo‘ljallangan namunaviy texnologik kartalar. Toshkent, 2015. – 216 b.
8. D.N.Saidova, I.B.Rustamova, Sh.A.Tursunov. “Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi”. O‘quv qo‘llanma. –T.: “O‘zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi” bosmaxonasi nashriyoti, 2016. – 257 b.
9. Niyazmetov D., Rudenko I. “KRASS” NNT Tomchilab sug‘orish – O‘zbekiston uchun zarur voqealik, Yer energiya bioxilmaxillik. Axborot byulleteni №4. 01.12.2013 yil. 3-bet.
10. A.H.Berdiyev “Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlar”, Iqtisodiyot va moliya jurnali, 2019, 11(131)-son, 29-34-betlar.
11. Berkinov B.B., Raxmonkulova B.O., Karimova X.X. Fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarish faoliyati samaradorlini baholash va rivojlanish jarayonlarini modellashtirish. – T.: “Iqtisodiyot”, 2014. – 147 b.
12. R.A.Rashidov “Paxtachilikda resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish samaradorligini oshirish yo‘llari”, Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. №3, may-iyun, 2020-yil. 76-84 betlar.
13. А.Табаев “Перспективы развития агрохимслужбы в Узбекистане” Двадцать чевертые международные Плехановские чтения тезицы докладов. РЭУ им. Г.В.Плеханова 2 февраля 2011 г. Москва-2011. 339-400 стр.
14. А.Табаев, Б.Шодмонов, “Модернизация основных средств производства – как фактор конкурентоспособности предприятия”, XXVIII международные Плехановские чтения. Российский экономический университет имени Г.В.Плеханова. Москва-2015. Стр.202-203.
15. A.Tabaev, G.Tojiddinova, Innovative development of the agrarian sector of Uzbekistan, Научно-теоритический практический журнал “Вестник Прикаспия”. №2 (17), 2017. 16-20 стр.
16. Тошбоев А.Ж., Тошбоев А.А., Табаев А.З. Агрохимическое обслуживание в фермерских хозяйства, “Экономика и финансы” журнал 2007 й. №11 (136) октябрь (спецвыпуск), 58-59 стр.
17. A.Tabayev. Agrokimyo xizmati ko‘rsatishni yaxshilash yo‘llari, Agro ilm jurnali, 4(16)-son, 2010-yil, 54–55-betlar.
18. Tabaev A. Ways of effective use of the material and technical base of agrochemical service enterprises, Journal Sustainable Agriculture scientific and technical, 2021. №2(10), -16-19 p.
19. Tabaev A. Encouragement ways of the introduction of innovative technologies in providing agrochemical services, 2023. №1(17), -41-43 p.
20. Source: FAO. 2022. FAOSTAT: Fertilizers indicators. In: FAO. Rome. Cited October 2022. http://www.fao.org/faostat/en/#data/EF.



YASHIL IQTISODIYOTGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNI FAOLLASHTIRISH MUAMMOLARI

Xomitov K. Z.
TDIU professori

Masharipova S. R.
TDIU magistranti

Annotatsiya: So‘nggi yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida jahon mamlakatlarida turli xil dasturlar va loyihalar taklif qilinmoqda va ishga tushirilmoqda. Ammo, bu jarayon va loyihalarni moliyalashtirish uchun kapitalning yetarli emasligi, loyihalarning yuqori riski, past rentabellik darajasi va bozor ishtirokchilari imkoniyatlarining yetishmasligi katta to‘sqinliklarga sabab bo‘lmoqda. Ushbu maqolada yashil loyihalarga investitsiya oqimlarning yetarli emasligi, ularni jalb qilishdagi qiyinchiliklar o‘rganiladi va ularni faollashtirish yo‘llariga tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil investitsiyalar, obligatsiyalar, yashil loyihalar, yashil energetika iqlim o‘zgarishi, toza energiya.

Abstract: In recent years, in order to protect the environment, various programs and projects have been proposed and launched in countries around the world. However, this process, as well as the lack of capital to finance projects, the high risk of projects, low profitability and the lack of capacity of market participants create serious obstacles. This article examines the insufficiency of investment flows into green projects, the difficulties of attracting them, and also explores ways to activate them.

Key words: green economy, green investments, bonds, green projects, green energy, climate change, clean energy.

Аннотация: В последние годы в целях защиты окружающей среды в странах мира были предложены и запущены различные программы и проекты. Однако этот процесс, а также недостаток капитала для финансирования проектов, высокий риск проектов, низкая рентабельность и отсутствие возможностей участников рынка создают серьезные препятствия. В данной статье рассматривается недостаточность инвестиционных потоков в зеленые проекты, трудности их привлечения, а также исследуются пути их активизации.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленые инвестиции, облигации, зеленые проекты, зеленая энергетика, изменение климата, чистая энергия.

KIRISH

O‘tkan asrlar davomida insoniyat texnika-texnologiya va sanoatda misli ko‘rilmagan muvaffaqqiyatlarga erishdi. Texnologiyalar va vositalar jadal sur’atlarda takomillashib hayotimizning har bog‘iniga kirib bordi va barcha ehtiyojlarni qondira boshladi. Lekin bu rivojlanish boshqa tomondan katta muammolarni keltirib chiqara boshladi. Inson ehtiyojlarini qondirish uchun tabiiy resurslar tobora ko‘proq qazib olina boshlandi, sanoat va ishlab chiqarish chiqindilarini va gazlari hajmi yil sayin oshib bordi, texnosferaning paydo bo‘lishi tabiiy muhitning ko‘plab tarkibiy qismlarining kamayib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi bugungi kunga kelib, yerdagi ekologik muvozanat va ekotizimni buzilishiga sababchi bo‘ldi. Shuning uchun ham so‘nggi yillarda nafaqat aholi turmush darajasini yaxshilash qaratilgan iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, balki shu bilan birgalikda tabiatni muhofaza qilish va uning holatini yaxshilashni hisobga olgan iqtisodiyotni shakllantirish to‘g‘risida muhokamalar boshlandi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasida asosiy e’tibor iqtisodiyotni “yashillashtirish”ga, ya’ni atrof-muhitga ta’sirni kamaytirishni nazarda tutuvchi “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratildi.

Исследование показало, что управление педагогическими кадрами через организацию и координацию методической помощи требует комплексного подхода и учёта специфики образовательной системы каждой страны. Внедрение лучших практик из разных стран может значительно улучшить этот процесс в России, повысив тем самым качество образования и уровень профессионализма учителей.

Список литературы:

1. Иванова, С.В. (2018). Методическая работа в школе: современные подходы и стратегии. Москва: Просвещение.
2. Петрова, И.А. (2019). Организация профессионального развития педагогов в условиях новых образовательных стандартов. Санкт-Петербург: Герда.
3. Smith, J. (2020). Coaching and mentoring in education: Best practices from the USA. New York: Routledge.
4. Doe, A. (2021). Teacher development and instructional effectiveness. Boston: Academic Press.
5. Müller, B. (2019). Professional support for teachers in Germany: Trends and insights. Berlin: Springer.
6. Schneider, K. (2020). Continuous professional development in European schools. Frankfurt: EduEdition.
7. Аврамова Е.М. Мониторинг непрерывного профессионального образования: позиции работодателей и работников: научное издание / Т.Л. Клячко, Д.М. Логинов. – Москва: Издательский дом “Дело”, 2015. -61 с.
8. Аделъбаева Н.А. Инновационные технологии обучения (из опыта работы и школе): Учебно-методическое пособие. – Уральск. 2005. – 68с.
9. Алебастрова А.А. Справочник заведующего ДОУ. – М.: ВАКО, 2011. -208 с.
10. Алисов Е.А., Подымова Л.С. Инновационная образовательная среда как фактор самореализации личности // Среднее профессиональное образование. 2011. – №1. – С.61-63.
11. Андреев В.И. Педагогика: учебный курс для творческого саморазвития / В.И. Андреев. – 2-е изд. – Казань: Центр инновационных технологий, 2000. – 608 с.

ИНТЕГРАЦИЯ УЗБЕКИСТАНА В МИРОВОЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДРУЖЕСТВО ПУТЕМ УНИФИКАЦИИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА НА ОСНОВЕ МСФО

Зарипова Саёхат Зафаровна
Ассистент каферды “Бухгалтерский учет в других отраслях и аудит”
Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация: В данной статье были проанализированы этапы изменений в системе бухгалтерского учета в Узбекистане и представлены пути решения проблем с помощью международных стандартов финансовой отчетности. Также была описана необходимость и основные направления реформирования бухгалтерского учета. Путем сравнительного анализа принципов национального бухгалтерского учета и международных стандартов были выявлены основные различия. Автор также описал основные успехи в интеграции национальной бухгалтерской системы в мировое сообщество. В заключении были сформулированы рекомендации по дальнейшему развитию бухгалтерского учета на основе международных стандартов.

Ключевые слова: Концептуальная основа, прогнозирование и экстраполяция, реформирования, диверсификация, анализ и синтез, МСФО, финансовой отчетности.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimidagi o‘zgarishlarning bosqichlari tahlil qilingan va xalqaro moliyaviy hisobot standartlaridan foydalangan holda muammolarni hal qilish yo‘llari keltirilgan. Shuningdek, buxgalteriya hisobini isloh qilish zarurati va asosiy yo‘nalishlari bayon etildi. Buxgalteriya hisobining milliy tamoyillari va xalqaro standartlarni qiyosiy tahlil qilish orqali asosiy farqlar aniqlandi. Muallif milliy buxgalteriya tizimini jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvidagi asosiy muvaffaqiyatlarni ham bayon qildi. Xulosa sifatida xalqaro standartlar asosida buxgalteriya hisobini yanada rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Konseptual asos, prognozlash va ekstrapolyatsiya, islohotlar, diversifikatsiya, tahlil va sintez, UFRS, moliyaviy hisobot.

Abstract: This article analyzed the stages of changes in the accounting system in Uzbekistan and presented ways to solve problems using international financial reporting standards. The need and main directions for accounting reform were also described. Through a comparative analysis of national accounting principles and international standards, the main differences were identified. The author also described the main successes in the integration of the national accounting system into the global community. In conclusion, recommendations were formulated for the further development of accounting based on international standards.

Key words: Conceptual framework, forecasting and extrapolation, reforms, diversification, analysis and synthesis, IFRS, financial reporting.

ВВЕДЕНИЕ

В условиях модернизации и технического развития экономических субъектов Узбекистана, значение системы бухгалтерского учета становится все более значимым. В настоящее время одной из ключевых проблем, с которой сталкивается экономика страны, является необходимость реформирования существующей системы бухгалтерского учета и отчетности. Это требуется для того, чтобы система соответствовала современным требованиям как национальной, так и международной экономики.

Узбекистан, с ориентацией на экспорт, стремится укрепить свое присутствие на международных рынках и получить доступ к льготным кредитам от зарубежных банков. Для достижения этой цели стране необходимо внедрить международную систему бухгалтерского учета и отчетности. Это является ключевым условием для успешной интеграции в мировое экономическое сообщество.

МСФО (Международные стандарты финансовой отчетности) – это набор общепринятых принципов и правил, используемых при подготовке и предоставлении финансовой отчетности, который применяется во многих странах. Для инвестора не так важно, в какую конкретно страну вложить свой капитал, как важно, чтобы он был уверен в эффективности своего инвестиционного решения. Эффективность инвестиции может быть лучше оценена, когда финансовая отчетность компании прозрачна и соответствует международным стандартам. Поэтому соблюдение принципов и правил МСФО позволяет обеспечить прозрачность и достоверность финансовой отчетности, что повышает уверенность инвесторов и способствует привлечению капитала.

Эти стандарты особенно важны для компаний, которые:

1. **Ищут иностранный капитал:** Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО) помогают создать доверие у потенциальных иностранных инвесторов, предоставляя им прозрачную и понятную финансовую отчетность.
2. **Уже имеют деловые связи с иностранными инвесторами:** Использование МСФО упрощает коммуникацию и взаимодействие с иностранными партнерами, поскольку стандарты МСФО широко распространены и признаны в мировом масштабе.
3. **Стремятся вывести свою продукцию на международные рынки:** Соблюдение МСФО помогает улучшить видимость и привлекательность компании для потенциальных международных клиентов и партнеров, так как обеспечивает четкость и стандартизацию финансовой отчетности.

Для достижения выхода на международные рынки и успешного освоения их, страны внедряют стратегии, направленные на стимулирование экономического развития. Одним из основных направлений такого развития становится усиление производства и повышение его эффективности. Правительственные решения акцентируют внимание на постоянном совершенствовании управления экономикой с учетом растущих объемов производства, усложнения экономических взаимосвязей и требований научно-технического прогресса. Эти шаги направлены на максимальное использование потенциала экономики страны для достижения успешного выхода на мировые рынки.

Эффективная организация учета и отчетности на основе МСФО будет иметь ключевое значение в достижении поставленных задач. Для этого проводится реформа, направленная на улучшение качества и оперативности учета, а также совершенствование учетной документации и отчетности во всех отраслях экономики. Целью этой реформы является соответствие современным требованиям управления и анализа хозяйственной деятельности, при этом эффективно используя международные стандарты финансовой отчетности.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

В работах известных отечественных и зарубежных исследователей широко обсуждаются вопросы применения Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО). Среди этих исследователей можно назвать таких как Александр Д., Бакаев А. С., Барт М., Болл Р., Бриттон Э., Гебхардт Г., Гетьман В. Г., Горбатова Л. В., Йориссен Э., Кутер М. И., Лабынцева Н. Т., Леуз К., Палий В. Ф., Соколов Я. В., Сухарев И. Р., Уиттингтон Дж., Хахонова Н. Н., Хэйл Л., Шнейдман Л. и другие. В их работах анализируются различные аспекты применения МСФО, исследуются практические проблемы и тенденции, а также предлагаются рекомендации по улучшению применения стандартов в практике бухгалтерского учета и отчетности.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

При создании статьи авторы опирались на основные стратегические направления развития страны, которые были закреплены в законодательстве и нормативных актах. В процессе написания статьи использовался системный подход, включающий в себя анализ и группировку информации, синтез различных данных, а также прогнозирование и экстраполяция текущих тенденций для выявления возможных перспектив развития.

Несколько исследований были проведены для оценки влияния принятия МСФО (Международных стандартов финансовой отчетности) в Европе на восприятие инвесторами качества бухгалтерского учета еще до введения Постановления 1606/2002. Доказательства в пользу принятия МСФО были представлены на основе оценок качества раскрытия информации, предоставленных авторитетными экспертами. Например, исследование Даске и Гебхардт (2006) указывает на повышение качества бухгалтерского учета для выборки австрийских, немецких и швейцарских фирм, переходящих на МСФО / МСФО в период, предшествующий их обязательному принятию в Европе. Подобные результаты подтверждают и исследования ценностной релевантности, такие как работы Bartov et al. (2005) и Jermacowicz (2007),

TARAQQIYOT PROGRESS

которые отмечают повышение значимости прибыли немецких фирм, переходящих на МСФО / МСФО. Кроме того, исследование Barth (2008) сравнивает национальные стандарты бухгалтерского учета и МСФО / МСФО в 21 стране. Предполагается, что фирмы, применяющие МСФО / МСФО, демонстрируют более прозрачное управление прибылью, более оперативное признание убытков и более значимые показатели бухгалтерского учета, которые влияют на стоимость компании.

Российские и зарубежные ученые в своих исследованиях активно занимаются анализом проблем, связанных с адаптацией бухгалтерской (финансовой) отчетности к международным стандартам. Среди таких ученых можно назвать Амат О., Бабченко Т. Н., Бархатов А. П., Бонэм М., Блэйк Д., Ван Бреда М., Бахрушина М. А., Генералова Н. В., Дружиловская Т. Ю., Кертис М., Мизиковский Е. А., Пономарева С. В., Рожнова О. В., Сапожникова Н. Г., Соснаускене О. И., Хендриксен Э., Чая В. Т., Чесноков С. В., Эпштейн Б. Дж. и многие другие. Их работы направлены на выявление проблемных моментов и поиск эффективных решений для успешной адаптации и применения международных стандартов в практике бухгалтерского учета и отчетности.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Бухгалтерский учет, как система сбора, обработки и представления финансовой информации, является ключевым инструментом в развитии рыночной экономики. В связи с этим в Узбекистане внедряются международные стандарты финансовой отчетности с учетом особенностей национальной экономики. На данном этапе реформирования бухгалтерского учета проблемы принятия и внедрения международных стандартов финансовой отчетности в Узбекистане, а также поиски путей их решения, становятся очень актуальными.

В начале своей деятельности Совет по МСФО не проводил систематического мониторинга перехода на МСФО. Только в 2013 году Фонд МСФО начал инициативу по публикации профилей юрисдикций на своем веб-сайте. В течение первого десятилетия своего существования МСФО как правило полагался на данные, предоставленные крупными аудиторскими фирмами, включая веб-сайт IAS Plus, управляемый Deloitte. Однако эта информация предоставляла в лучшем случае неоднозначное представление о ходе процесса принятия МСФО. Таким образом, несмотря на общее мнение о том, что процесс принятия МСФО ускорился, характер и детали этого процесса требуют более детального изучения, как на уровне отдельных юрисдикций, так и в сравнительных исследованиях. В следующих разделах будет рассмотрено большое разнообразие обстоятельств, в которых юрисдикции принимали решения о принятии МСФО.

Целями реформирования бухгалтерского учета и отчетности в Республике Узбекистан являются:

1. Создание условий для внедрения эффективной системы регулирования экономических процессов в стране. Это позволит более эффективно контролировать и управлять экономикой, обеспечивая ее стабильность и развитие.
2. Приближение системы бухгалтерского учета и отчетности к международным стандартам финансовой отчетности (МСФО). Это позволит узбекским компаниям стать более прозрачными и конкурентоспособными на мировом рынке, а также повысит доверие иностранных инвесторов.
3. Обеспечение своевременного выявления и анализа ретроспективных тенденций развития экономики на основе сбора, обработки и передачи информации. Это позволит эффективнее прогнозировать и оценивать последствия управленческих решений, что в свою очередь способствует более гибкому и адаптивному управлению экономикой страны.

Основные меры для достижения поставленных целей реформирования бухгалтерского учета и финансовой отчетности включают в себя решение следующих проблем:

1. Пересмотр общеметодологических основ бухгалтерского учета и финансовой отчетности с целью их соответствия общепринятой мировой практике. Это включает формирование системы публикаций финансовой отчетности, которая обеспечивает пользователя полезной информацией финансового характера.
2. Обеспечение взаимосвязи реформы бухгалтерского учета и финансовой отчетности с основными тенденциями гармонизации национальной системы нормативных актов на международном уровне.
3. Оказание методической помощи хозяйствующим субъектам в понимании и внедрении модернизированной и приближенной к требованиям МСФО модели национальной системы бухгалтерского учета и составления финансовой отчетности.
4. Проведение качественной подготовки и переподготовки кадров в области бухгалтерского учета на основе учебной программы, разработанной с учетом требований МСФО.

Один из ключевых моментов в процессе реформирования бухгалтерского учета и финансовой отчетности в Узбекистане заключается в полном принятии Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО). Однако это сопровождается рядом проблем, связанных с внедрением этих стандартов в практику страны:

- Отсутствие официальных версий перевода МСФО на узбекский и русский языки.
- Недостаток навыков составления финансовой отчетности в соответствии с МСФО.
- Недостаточное развитие инфраструктуры для использования и применения МСФО.
- Наличие у бухгалтеров стереотипов, связанных с переходом на МСФО из-за особенностей национальной экономики.
- Высокие затраты на подготовку финансовой отчетности по МСФО путем преобразования отчетности по национальным стандартам.
- Низкий уровень профессиональной подготовки бухгалтеров и нехватка навыков использования информации по МСФО.
- Недостаток учебников, пособий и справочных материалов по МСФО.

Эти проблемы требуют комплексного подхода и усилий для их решения, чтобы обеспечить успешное внедрение МСФО в бухгалтерскую практику Узбекистана.

Вопросы, о которых упоминается выше, обсуждались на множестве конференций и семинаров, которые организовывались финансовыми институтами при участии специалистов Министерства финансов Республики Узбекистан. Решение этих проблем рассматривается с учетом следующих аспектов:

1. Развитие официальных переводов МСФО на узбекский и русский языки, чтобы обеспечить доступность стандартов для всех заинтересованных сторон.
2. Проведение образовательных программ и тренингов по составлению финансовой отчетности в соответствии с МСФО для повышения квалификации бухгалтеров.
3. Создание и улучшение инфраструктуры, необходимой для успешного применения МСФО в практике.
4. Проведение информационных кампаний и образовательных мероприятий для преодоления стереотипов и предубеждений относительно МСФО.
5. Разработка более эффективных методов адаптации финансовой отчетности от национальных стандартов к МСФО с минимизацией затрат.
6. Укрепление учебных материалов и ресурсов, посвященных МСФО, для обеспечения доступа к необходимой информации и знаниям.

Эти шаги помогут преодолеть проблемы, связанные с внедрением МСФО, и сделают процесс более эффективным и успешным для всех участников.

Внедрение МСФО, таких как МСФО (IAS) 24 “Раскрытие информации о связанных сторонах”, МСФО (IAS) 28 “Учет инвестиций в ассоциированные организации”, МСФО (IAS) 31 “Участие в совместной деятельности”, МСФО (IAS) 33 “Прибыль на акцию”, МСФО (IAS) 36 “Обесценение активов”, МСФО (IAS) 40 “Инвестиционная недвижимость”, подразумевает усовершенствование нормативно-правовых актов в сфере бухгалтерского учета и финансовой отчетности. Это означает, что законы и стандарты будут адаптированы или дополнены таким образом, чтобы соответствовать требованиям и принципам МСФО. Такие изменения направлены на обеспечение более прозрачной и сопоставимой финансовой отчетности, что повышает доверие со стороны инвесторов и стимулирует приток инвестиций в экономику.

Под совершенствованием системы регулирования бухгалтерского учета и финансовой отчетности понимаются действия, направленные на:

- Координацию работы государственных органов и профессиональных общественных объединений в области регулирования бухгалтерского учета.
- Вовлечение профессионального сообщества в процесс разработки и принятия нормативных документов по бухгалтерскому учету.
- Установление эффективного взаимодействия с международными профессиональными организациями, такими как IFAC (Международная федерация бухгалтеров), IASC (Международный совет по стандартам бухгалтерского учета), ЕССБА (Европейская ассоциация стандартов финансового анализа и учета), и другими.

Подготовка и повышение квалификации кадров, занимающихся бухгалтерским учетом и составлением финансовой отчетности, включает в себя следующие меры:

- Пересмотр учебных программ высших учебных заведений и программ профессиональной подготовки бухгалтеров и аудиторов с уклоном в изучение МСФО.
- Оценку качества образовательных программ и программ профессиональной подготовки.

- Разработку обучающих программ для руководителей и другого управленческого персонала компаний по основам бухгалтерского учета и финансового анализа.
- Обеспечение соответствия образовательных программ международным стандартам.
- Разработку национальных стандартов образования и аттестации бухгалтеров на основе международных стандартов.
- Обновление и разработку учебно-методического материала для различных категорий студентов и профессионалов, занимающихся бухгалтерским учетом и финансовой отчетностью.

ВЫВОД

Внедрение МСФО представляет собой долгосрочную стратегию, которая будет все более связана с международной торговлей, привлечением иностранных инвестиций и связанными с ними технологиями. Кроме того, МСФО играют важную роль в оценке работы управленческого состава компаний, поскольку отражают эффективность принимаемых ими решений. В целом, развитие системы бухгалтерского учета будет происходить путем выбора и применения более современных методов группировки учетных данных, формирования учетных регистров, а также оптимального сочетания аналитического и синтетического учета. Это также включает использование передовых форм бухгалтерского учета с применением автоматизированных систем.

Дальнейшее развитие и совершенствование системы бухгалтерского учета должны направляться на укрепление контрольных функций, расширение аналитических возможностей учета и улучшение оперативности использования полученных данных для управленческих решений. Это также предполагает более активное участие сотрудников бухгалтерии в экономической деятельности предприятия.

Когда говорят о принятии международных стандартов, обычно в первую очередь обращают внимание на бухгалтерский учет на уровне частных предприятий. Однако правила и особенности бухгалтерского учета в сфере управления государственными финансами также должны соответствовать международным стандартам. Это означает, что бюджетный учет также должен соответствовать требованиям международных стандартов финансовой отчетности. В Республике Узбекистан с участием ПРООН проводятся работы по разработке национальных стандартов бюджетного учета с применением МСФО.

Список использованной литературы:

1. Мирзиёев Ш. “Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство – Узбекистан.” –Т.: Узбекистан, 2017. –56 с.
2. Мирзиёев Ш. “Обеспечение верховенства закона и интересов человека – гарантия развития страны и благополучия народа.” –Т.: Узбекистан, 2017. –48 с.
3. Мирзиёев Ш. “Критический анализ, жесткая дисциплина и персональная ответственность должны стать повседневной нормой в деятельности каждого руководителя.” –Т.: Узбекистан, 2017. –104 с.
4. Указ Президента Республики Узбекистан “О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан” от 7 февраля 2017 года № УП-4947.
5. Указ Президента Республики Узбекистан “О мерах по внедрению современных методов корпоративного управления в Акционерных Обществах” от 12.04.2015 г. –№ УП – 4720.
6. Постановление Президента Республики Узбекистан “О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности”, № ПП-4611, 24.02.2020.
7. Vera Palea, Department of Economics and Statistiks “Cognetti de Martiis”, University of Torino, Italy, China Journal of Accounting Research Volume 6, Issue 4, December 2013, Pages 247-263. [https://doi.org/10.1016/j.cjar.2013.08.003]
8. Kees Camfferman&Stephen A. Zeff, “The Challenge of Setting Standards for a Worldwide Constituency: Research Implications from the IASB’s Early History”, European Accounting Review Volume 27, 2018 – Issue 2, [https://doi.org/10.1080/09638180.2017.1296780]
9. Хамдамов Б.К. “Аудитнинг халқаро стандартлари.” –Учебник. Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2020. –318 с.

Информационные источники:

1. http://www.gov.uz (Правительственный портал республики Узбекистан).
2. http://www.mf.uz (Сайт Министерства Финансов Республики Узбекистан).
3. http://www.ziyonet.uz (Образовательный портал).
4. http://www.lex.uz (Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан).
5. http://www.aicpa.org (American Institute of Certified Public Accountants).

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI



Abduqodirova Ozoda Anvarjon qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Magistratura 2 kurs talabasi

Annotatsiya: Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari, investitsiya loyihalarini moliyalashning iqtisodiy mohiyati, tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalash manbalari, investitsiya loyihalarini moliyalashning tashkiliy jihatlari o‘rganilgan, mamlakatdagi tijorat banklarining investitsion portfeli tahlil qilingan. Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari bo‘yicha xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, investitsiya loyihalari, innovatsion texnologiyalar, kredit portfel, loyihalarni moliyalashtirish, moliyalashtirish manbalari, kredit, xalqaro hamkorlik.

Abstract: In the process of financial provision of investment analysis of commercial banks, financial development guidelines for investment, financial activity of bank investment financing were highlighted, organizational management of bank investment financing was studied, bank investment business portfolio in the country was analyzed. Assistance and proposals for financial development of investment business by commercial banks.

Key words: commercial banking, investment basics, investment technologies, credit portfolio renewal, financing, sources of financing, credit, international cooperation.

Аннотация: В процессе финансового обеспечения инвестиционного анализа коммерческих банков освещены основные направления финансового развития инвестиций, финансовая деятельность банковского инвестиционного финансирования, изучено организационное управление банковским инвестиционным финансированием, проанализирован инвестиционный бизнес-портфель банков в стране. Помощь и предложения по финансовому развитию инвестиционного бизнеса со стороны коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческий банкинг, основы инвестирования, инвестиционные технологии, обновление кредитного портфеля, финансирование, источники финансирования, кредит, международное сотрудничество.

KIRISH

Bugungi kunda barcha sohalarda iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanishni ta’minlashda tijorat banklarining o‘rni nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsion loyihalarni qo‘llab quvvatlash iqtisodiyotga yangi innovatsion loyihalarni kirib kelishiga, kichik va o‘rta biznes faoliyatini yanada kengayishiga, qo‘shimcha ishchi o‘rnini yaratilishiga, aholi daromadlarini oshishiga hamda bozor iqtisodiyotini jadal rivojlanishiga olib keladi. Investitsion loyihalarni qo‘llab quvvatlash hamda moliyalashtirishda mamlakatdagi tijorat banklari muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda investitsiya loyihalari soni tobora ortib bormoqda, bu esa tijorat banklari tomonidan o‘z moliyaviy vositalari va yondashuvlarni mos ravishda ishlab chiqishni hamda o‘z investitsion faoliyatini kengaytirishni talab qilmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy muhit doimiy ravishda o‘zgarib turadi, uning ishtirokchilari, shu o‘rinda tijorat banklari ushbu o‘zgaruvchan muhitga moslashish uchun doimo o‘z faoliyatlarini kengaytirib borishlari, moliyalashtirish vositalarini faol ravishda ishlab chiqishlari talab etiladi.

Xususan, tijorat banklarining investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish hamda bankning faoliyatini takomillashtirish maqsadida mamlakatimizda ham bir qancha islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-iyuldagi “Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1166-son qaroriga muvofiq yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha bankning kredit hamda investitsiya siyosatini va investitsiya loyihalarini uzoq muddatli kreditlash mexanizmlarini yanada

takomillashtirish, buning asosida bankning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash, investitsiya loyihalarini moliyalashga o‘z moliya mablag‘larini sarflash va ulardan samarali foydalanish, loyihalarning amalga oshirib borilishini doimiy monitoring qilish, qo‘yilgan mablag‘larning o‘z vaqtida va to‘liq qaytarilishini ta’minlash tijorat banklari oldiga qo‘yilgan muhim vazifalar etib belgilangan.

Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning bir qancha imkoniyatlari mavjud bo‘lib, yangi texnologiyalarni joriy etish, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanib bank faoliyatini takomillashtirish, innovatsion startup loyihalarni moliyalashtirish, barqaror rivojlanish va atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni kamaytirishga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash ana shunday imkoniyatlardan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy tadqiqotchi olimlarimizdan A.B.Sherov va X.M.Radjabov o‘z ilmiy ishlanmalarida tijorat banklarini investitsiya loyihalarini moliyalashtirish subyekti sifatida tahlil qiladilar. Tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalar moliyalashtirilganda bunday loyihalarning likvidlilik darajasi past baholanadi. Bu o‘z navbatida bank tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish jozibadorligini pasaytiradi va qator muammolarni yuzaga keltiradi. A.B.Sherov va X.M.Radjabov fikriga ko‘ra tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jozibadorligini oshirish va mavjud muammolarning yechimini topish muhim vazifalardan hisoblanadi.

L.E.Filippovaning ilmiy tadqiqot ishlanmasida investitsiya loyihalarini moliyalashda banklarning ahamiyati keng ochib berilgan. Unga ko‘ra, agar avval tijorat banklari faqatgina kreditlar bilan chegaralangan bo‘lsalar, bugungi kunga kelib ular jahon iqtisodiyotining investitsiya strategiyalari va klasterlarini ishlab chiqishda eng muhim bo‘g‘in deb e’tirof etiladi.

Rossiyalik tadqiqotchi L.A.Garbachning “Investitsion va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning joriy manbalari” ilmiy maqolasida zamonaviy iqtisodiy sharoitda innovatsion va investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalaridan biri sifatida mamlakatdagi tijorat banklari alohida ko‘rsatib o‘tiladi.

K.Z.Xomitovning ilmiy tadqiqot xulosalariga ko‘ra, tijorat banklarining investitsiya faoliyatining faollashuvi davlat tomonidan faol investitsiya siyosatini amalga oshirish bilan bog‘liqdir. Yuqori rivojlangan davlatlar amaliyotiga ko‘ra, tijorat banklarining o‘rta va uzoq muddatli kreditlari investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda asosiy muhim manbalardan bo‘lib xizmat qiladi.

K.Z.Xomitovning fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda ham mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash uchun investitsiya loyihalarini tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlari hisobiga moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Investitsiya loyihasini tijorat banklari tomonidan moliyalashtirishda tijorat banklarining moliyalashtirish manbalari xilma-xilligi, faoliyat turining kengligi alohida ahamiyatga ega. Sh.E.Nematova va I.K.Usmonaliyev larning ilmiy ishlanmalariga ko‘ra xorij amaliyotida banklar 300dan ortiq operatsiyalarni amalga oshiradi. Mamlakatimizdagi tijorat banklari esa, asosan, kredit berish va depozit qabul qilish bilan shug‘ullanadi. Shuning uchun moliyaviy xizmat turlarini ko‘paytirish, bankning daromad manbalarini kengaytirish asoslarini shakllantirish muhim vazifalardan biridir deb ta’kidlaydilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Barcha olib boriladigan ilmiy ishlanmalarda hal qiluvchi rolni to‘g‘ri tuzilgan ilmiy ish metodologiyasi o‘ynaydi. Ushbu maqolada bir qancha metodlardan keng foydalanilgan, jumladan, taqqoslash, mavjud statistik ma’lumotlar tahlili, induksiya va deduksiya, umumlashtirish, tizimlashtirish kabi usullardan foydalanilgan. To‘plangan ma’lumotlar asosida yakuniy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish zamonaviy iqtisodiyotning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Banklar uchun bu nafaqat foizlar va to‘lovlar hisobiga daromadni oshirish, balki mijozlar bilan munosabatlarni rivojlantirish, bizneslarini kengaytirish va risklarni diversifikatsiya qilish imkoniyatini ham taqdim etadi.


Tahlil investitsiya loyihalarining moliyalash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni aniqlashga yordam beradi. Bu risklar banklarga investitsiya loyihalarini moliyalashda boshqarish strategiyalarini shakllantirish va moliyalashni samarali bo‘lishga imkon beradi. Tahlil banklar uchun investitsiya loyihalarining moliyalashining daromad va foydani aniqlashda muhimdir.

Iqtisodiyotimizni modernizatsiyalash, jumladan, texnik va texnologik yangilash uning raqobatbardoshligini keskin oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda innovatsion va energiya tejovchi texnologiyalar asosida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, jahon bozorida xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Bank tizimi tomonidan iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash maqsadida amalga oshirilayotgan moliyaviy-investitsiya siyosati bugungi kunda o‘z samarasini bera boshladi.



1- rasm: Tijorat banklari tomonidan 2018-yil 1-dekabr holatiga (yil boshidan) investitsion loyihalarni moliyalashtirish ko‘rsatkichlari[1]

2018-yil 1-dekabr holatiga tijorat banklari tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihozlarni yangilash, shuningdek, ilg‘or texnologiyalar asosida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga 35,1 trillion so‘m ajratildi. Bu 2017-yilning shu davrida ajratilgan investitsiya kreditlari hajmidan 2,4 barobar ko‘pdir. Banklarning investitsiya faoliyatida asosiy e’tibor tarmoqni rivojlantirish, mahalliylashtirish va hududlarni rivojlantirish dasturlariga kiritilgan loyihalarni o‘z vaqtida va to‘liq moliyalashtirishni ta’minlashga qaratilgan.



2-rasm: 2022-yilda banklar tomonidan ajratilgan investitsion kreditlar (oylar kesimida)[2]

2022-yilda tijorat banklarining jami aktivlari 25 foizga o‘sib, 2023-yilning 1-yanvar holatiga 557 trln so‘mga yetdi va aktivlarning 70 foizini kredit qo‘yilmalari tashkil etdi.

2-rasm ma’lumotlariga ko‘ra, banklar tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadlariga 2022-yilda 203 trln so‘m yoki 2021-yilga nisbatan 22 foizga ko‘p kreditlar ajratilib, jami bank kreditlari qoldig‘i 390 trln so‘mdan oshdi. Ushbu kreditlarning 68 foizi (138 trln so‘m) korporativ mijozlarga va 32 foizi (65 trln so‘m) aholiga yo‘naltirildi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, 2022-yillik hisoboti ma’lumotlari asosida.
2 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, 2022-yillik hisoboti ma’lumotlari asosida.

Investitsion loyihalarni tijorat banklari tomonidan moliyalashtirishni rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilish banklar uchun qo‘shimcha daromad manbaini shakllantirish, xalqaro darajada samarali faoliyat olib borish va mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy ahvolini yanada yaxshilashga imkon beradi.

1-jadval: Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni rivojlantirish imkoniyatlari[3]

№	Imkoniyatlar	Ta’rif
1	Yangi moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish	Yangi moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish va joriy etish. Bu innovatsion kredit mahsulotlari, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy vositalar bo‘lishi mumkin.
2	Investorlar bilan hamkorlikni mustahkamlash	Banklar investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun qo‘shimcha resurslarni jalb qilish maqsadida investorlar, jumladan, turli investitsiya fondlari va moliya institutlari bilan munosabatlarini kengaytirishi mumkin
3	Texnologik innovatsiyalar	Blokcheyn, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili kabi yangi texnologiyalardan foydalanish risklarni baholash, loyihalarni boshqarish va kredit portfeli monitoringi jarayonlarini yaxshilashi mumkin, bu esa investitsiya loyihalarini yanada samarali moliyalashtirishga yordam beradi
4	Mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish	Tijorat banklari turli hududlar va tarmoqlardagi loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida boshqa moliya institutlari, davlat tashkilotlari va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni faol rivojlantirishi mumkin

Loyihani moliyalashtirishda tijorat banklarining ahamiyati nihoyatta katta. Loyihani amalga oshirishda o‘z kapitali va qarz mablag‘lari o‘rtasidagi nisbat sohaga qarab o‘zgarib boradi. Ta’kidlash joizki, so‘nggi o‘n yil ichida ularning loyihalarni amalga oshirishdagi roli sezilarli darajada o‘zgargan. Agar ilgari banklar asosan kredit funksiyasi bilan chegaralangan bo‘lsa, hozirda ular jahon iqtisodiyotining investitsiya strategiyalari va klasterlarini ishlab chiqishda eng muhim bo‘g‘in hisoblanadi.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish iqtisodiy o‘sish va rivojlanishni rag‘batlantirishda asosiy rol o‘ynaydi, chunki u kompaniyalar va hukumatlarga o‘z strategik rejalarini amalga oshirish va o‘z maqsadlariga erishish imkonini beradi. Bu yo‘lda tijorat banklarining moliyaviy qo‘llab quvvatlashi esa alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tijorat banklari bilan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni rivojlantirish imkoniyatlari sezilarli bo‘lishi mumkin va ko‘plab omillarga, jumladan, iqtisodiy muhit, tartibga solish, texnologik innovatsiyalar va mijozlar ehtiyojlarining o‘zgarishiga qarab farq qilishi mumkin.

Tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni rivojlantirishda yangi moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish, investorlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, texnologik innovatsiyalar, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kabi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni rivojlantirish imkoniyatlari juda katta. Hozirgi tendensiyalar innovatsion moliyaviy vositalar va raqamli texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Amaldagi amaliyot va muvaffaqiyatli holatlarni o‘rganishga asoslangan tahlil metodologiyasi samarali yondashuvlarni aniqlash va investitsiya loyihalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni optimallashtirish imkonini beradi.

Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish iqtisodiy o‘sish va taraqqiyotni rag‘batlantirishda muhim o‘rin tutadi. Yangi moliyaviy vositalarni ishlab chiqish va o‘zgaruvchan iqtisodiy muhitga moslashish banklarga kelgusida investitsiya loyihalarini samarali qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning muvaffaqiyatli rivojlanishi ko‘p hollarda davlat, xususiy va xalqaro institutlarning samarali o‘zaro hamkorligiga, shuningdek, qulay investitsiya muhiti va shaffof o‘yin qoidalarini yaratishga bog‘liq. Buning uchun moliyaviy bozorlarni yaxshilash, moliyaviy savodxonlikni oshirish va moliyaviy innovatsiyalarni rag‘batlantirish bo‘yicha sa’y-harakatlar talab etiladi.

Tijorat banklari tomonidan innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarini yanada kengaytirish, moliyalashtirishda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda loyihani tahlil qilish va uning samaradorligini to‘g‘ri baholash, xalqaro hamkorlikni kuchaytirib, jahon tajribasini o‘rganish va uni qo‘llash tijorat banklari investitsiya faoliyatini yanada kuchaytirishga imkon yaratadi.

3 Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Yillik hisoboti ma’lumotlari, 2022-yil,II bob, 46-53.
2. Арзуманян С.Ю. Найимова Ч.Х. “Финансирование инвестиционных проектов за счет средств коммерческих банков в иностранной валюте”.
3. Л. Е. Филиппова, “мировой опыт проектного финансирования. Роль банков”.
4. A.B Sherov, X.M.Radjabov “Коммерческие банки как субъект финансирования инвестиционных проектов”, 2021.
5. Л.А.Гарбач “Актуальные источники финансирования инвестиционных и иновационных проектов”.
6. Хомитов К.З. “Актуальные вопросы кредитования инвестиционных проектов в Узбекистане”.
7. Sh.E.Nematova, I.K.Usmonaliyev “O‘zbekistonda bankni rivojlantirishda innovatsion xizmat turlarini joriy etish yo‘llari”.
8. Nurillayev J.Y., Tursunov B.O., Raimberdiyev S.Sh. “Evaluation of The Efficiency of Commercial Banks in Financing Investment Projects”, 2021.
9. https://lex.uz/ru/docs/-1503260?ONDATE=09.07.2020&ONDATE2=25.09.2017&action=compare.

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN JISMONIY SHAXSLARGA AJRATILGAN KREDITLARNING JORIY TAHLILI

Abdusalomov Jaxongir O‘ktam o‘g‘li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, “Xalqaro iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar holatining tahlili keltirilgan. Muhim ko‘rsatkich sifatida tijorat banklari tomonidan uy xo‘jaliklariga ajratilgan kreditlarning diversifikatsiya darajasi va kredit portfelining holati tahlil qilingan. Mamlakatimizda moliya xizmatlari ommabopligini kengayishi hamda davlat dasturlari doirasida aholining keng qatlamiga qarzlar berilayotganligi tijorat banklarida jismoniy shaxslar kredit portfelining keskin o‘sib borishiga muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘z navbatida, jismoniy shaxslar kredit portfelida xatarlarning to‘planib borishi va uy xo‘jaliklari moliyaviy holatining yomonlashishi natijasida tijorat banklari faoliyatida sezilarli yo‘qotishlar kuzatilishi mumkin. Olib borilgan tahlil natijalari bo‘yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, kredit, jismoniy shaxslar, kredit portfeli, kredit turlari, risklar.

Abstract: The article presents an analysis of the loans granted to individuals by commercial banks. As an important indicator, the state of diversification of loans allocated to individuals by commercial banks was analyzed. The expansion of the popularity of financial services in our country and the provision of financial assistance to a large segment of the population within the framework of state programs serve as an important factor in the sharp growth of the loan portfolio of individuals in commercial banks. In turn, as a result of the accumulation of risks in the credit portfolio of individuals and the deterioration of the financial situation of households, significant losses can be observed in the activity of commercial banks. Conclusions and suggestions are given based on the results of the conducted analyses.

Key words: commercial bank, credit, individuals, credit portfolio, types of credit, risks.

Аннотация: В статье представлен анализ состояния кредитов, выданных физическим лицам коммерческими банками. В качестве важного показателя проанализировано состояние диверсификации кредитов, предоставляемых коммерческими банками физическим лицам. Расширение популярности финансовых услуг в нашей стране и оказание финансовой помощи большому сегменту населения в рамках государственных программ служат важным фактором резкого роста кредитного портфеля физических лиц в коммерческих банках. В свою очередь, в результате накопления рисков в кредитном портфеле физических лиц и ухудшения финансового положения домохозяйств, значительные потери могут наблюдаться в деятельности коммерческих банков. По результатам проведенного анализа даны выводы и предложения.

Ключевые слова: коммерческий банк, кредит, физические лица, кредитный портфель, виды кредита, риски.

KIRISH

Tijorat banklari moliyaviy mablag‘larga ehtiyoj sezgan jismoniy shaxslarga kreditlar berish orqali iste’molni oshirishga ta’sir ko‘rsatadi, buning natijasida moddiy farovonlik, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish oshishiga asosiy omil bo‘lib xizmat ko‘rsatadi. Uy xo‘jaliklariga ajratilgan kreditlar turli maqsadlar uchun, jumladan maishiy texnika sotib olish uchun, avtomobil sotib olish, biznesni rivojlantirish va xizmat ko‘rsatishga qaratiladi. Yangi O‘zbekiston bank tizimining kredit portfeli tarkibida uy xo‘jaliklari sektorining kredit faolligi sezilarli tarzda ortib bormoqda. Ta’kidlash lozim, so‘nggi yillarda tijorat banklari biznes faoliyatida chakana biznes yo‘nalishi sezilarli faollashganligi, shuningdek, bank bozorida biznes modeli, asosan, chakana xizmatlariga yo‘naltirilganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2019–2022-yillarda tijorat banklari kredit portfelining ko‘payganligi natijasida jismoniy shaxslar kreditlarining umumiy kredit portfelidagi ulushi 26 foizga yetgan. Shuningdek, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar jami foizli daromadlardagi ulushi 34 foizgacha o‘sganligini ta’kidlash joiz[1]. O‘z navbatida, tijorat banklari jismoniy shaxslar kredit portfelida xatarlarning

1 O‘zbekiston Markaziy Banki, Kredit tashkilotlari prudensial nazorati departamenti ma’lumotlari: “Bank tizimi daromadliligi tahlili”, 2023-yil 1-yanvar.

to‘planib borishi, ajratilayotgan kreditlarning diversifikatsiya darajasining yomonlashuvi hamda uy xo‘jaliklari moliyaviy holatining yomonlashishi natijasida muammoli kreditlarning oshishi tufayli tijorat banklari faoliyatida sezilarli yo‘qotishlar kuzatilishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlarning samaradorligini oshirish va jismoniy shaxslar kredit portfelini sifatini yaxshilashga qaratilgan ko‘plab fikrlar tadqiqotchi olimlar tomonidan keltirilgan. Tadqiqotchi olimlar Otamurodov H.H. (2019) va Sattorov O.B. (2018) o‘z ilmiy izlanishlarida tijorat banklari kredit so‘rab murojaat qilgan har bir jismoniy shaxsga qarz berishga tayyor emasligi, chunki qarzdorni baholashi, kredit riskini aniqlash kerakligi, ya’ni mijozning kreditni qaytarish qobiliyatiga ta’sir qiluvchi omillarni kuchli va zaif tomonlarini o‘rganish bankning muhim vazifasi ekanligi ta’kidlangan[2].

Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy asoslar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va Farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va Farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yo‘riqnomalari, nizomlari, tartiblari hamda tijorat bankining ustaviga asosan kreditlarni sifatli shakllantirishga yordam beradi.

Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar holatining tahlili bank kredit siyosatining samaradorligini aniqlash mezoni bo‘lib xizmat qiladi. Iqtisodchi olimlar Muravyov N.N. va Baranchuk O.S. tomonidan tijorat banklarida olib borilayotgan jismoniy shaxslar kredit siyosatining samaradorligini baholash uchun bir nechta ko‘rsatkichlardan foydalanishni ta’kidlab o‘tgan. Bular jumlasiga quyidagilarni keltirish mumkin:

a) jismoniy shaxslar kredit portfelining rentabellik koeffitsiyenti;

b) foiz marjasi koeffitsiyenti;

d) kredit qo‘yilmalarining rentabellik koeffitsiyenti;

e) kredit qo‘yilmalaridan real daromadlilik koeffitsiyenti.

Shuningdek, tijorat banklarida jismoniy shaxslar kredit portfelining shakllanishi va uning tahlili davomida bank tomonidan jismoniy shaxslarga berilgan kreditlarning holati, ajratilgan qarzlarning muddati, iqtisodiy sohalar bo‘yicha taqsimlanishi, Kreditlarning ta’minot turlari, kredit portfelining sifati va boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha tahlil ishlarining doimiy tarzda olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi (Mohammad J.M., 2019)[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar holatining tahlili ko‘rib chiqilib, tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlarning samaradorligini oshirish va jismoniy shaxslar kredit portfelini sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi asosan ikkilamchi ma’lumotlar bazasi asosida olib borilgan. Maqolada keltirilgan tahlil ma’lumotlari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma’lumotlari va Davlat Statistika Agentligi ma’lumotlariga tayanadi. Shuningdek, boshqa tadqoqotchi olimlar tomonidan tijorat banklari kreditlarini takomillashtirish va kredit portfelini boshqarishga doir olib borilgan ilmiy izlanishlarining natijalaridan ham keng foydalanilgan.

Shu bilan birga, tadqiqot metodologiyasi O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar takomillashtirishga oid mavjud adabiyotlarni, shu mavzu bilan bog‘liq statistik ma’lumotlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlanayotgan mamlakatlarda tijorat banklarining ahamiyati ko‘proq namoyon bo‘ladi, chunki moliyaviy bozorlar, odatda, kam rivojlangan sharoitda hamda aksariyat firmalar va kompaniyalar uchun banklar yagona asosiy moliya manbai hisoblanadi (Tobias va Themba, 2011). Shuni ta’kidlash lozim, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar hajmi yil sayin o‘sib bormoqda va bu mamlakatimiz iqtisodiyotini o‘sishiga juda katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Uy xo‘jaliklariga ajratilayotgan kreditlar iste’molni oshirishga asosiy omillardan biri, shu bilan birga aholimizning moddiy farovonligini, ishlab chiqarishning ko‘payishiga, xizmat ko‘rsatish sohasining oshishiga xizmat ko‘rsatadi. Quyida keltirilgan jadval ma’lumotlarida mamlakatimiz bank tizimining markoiqtisodiy ko‘rsatkichlari holatini ko‘rishimiz mumkin.


2 Sattarov O.B. “O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta’minlash metodologiyasini takomillashtirish”, i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2018-yil.

3 Mohammad J. M., “Optimal Bank Loan Portfolio in Iranian’s Banks”, Research Journal of Finance and Accounting, ISSN 2222-1697, Vol.4, №.2, 2013.

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining markoiqtisodiy ko‘rsatkichlari[4]

Ko‘rsatkichlar	Yillar							
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Tijorat banklari kreditlari, trln. so‘m	42,7	53,4	110,6	167,4	211,6	276,9	326,4	390,1
Tijorat banklari depozitlari, trln.so‘m	35,6	44,6	59,6	70	90	114,7	156,2	216,7
Tijorat banklari umumiy kapitali, trln. so‘m	7,8	9,4	20,7	26,7	51.1	58,4	70,9	79,6
Banklar kapitali va depozitlarining kreditlarga yo‘naltirish darajasi, % da	98%	99%	138%	173%	150%	160%	144%	132%

Jadval ma’lumotlaridan shuni aytish joizki, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar hajmi oxirgi sakkiz yilda to‘qqiz barobarga ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda tijorat banklari o‘zlariga katta xatarlarni ham olishmoqda. Tijorat banklarining kredit riski o‘sib borishini va bu orqali bankning moliyaviy ahvoliga salbiy ta’sirlar kuzatilishi mumkin. Quyida keltirilgan rasmda tijorat banklari aktivlarining o‘sish dinamikasini keltiramiz (1-rasm).




1-rasm: Tijorat banklari kreditlarining o‘sish dinamikasi[5]

Tijorat banklarida jismoniy shaxslar ajratilgan kredit yo‘nalishlarida kredit siyosatining ustuvor maqsadi kreditlarning ishonchliligiga qat’iy cheklovlar qo‘ygan holda eng yuqori rentabellikni ta’minlashdir. Ushbu maqsadga erishishda tijorat banklari kredit siyosatining vositalari asosiy vosita hisoblanadi, shu bilan birga bank siyosatining alohida elementlari (moliyaviy qarorlar, foiz belgilash siyosati, kadrlar menejmenti va boshqalar) muhum omil sifatida qaraladi.

Global Green New Deal 2009	The economic crisis provides the opportunity to introduce a global green new deal, which consists in stimulating the economy towards the development of green sectors, green infrastructure and green jobs. A greening infrastructure is a process of transforming a business activity such that it reduces emissions of greenhouse gases and consumption of resources, produces less waste, and reduces social inequalities at the same time, ensuring the return on natural, human and economic capital.

OECD 2010	"Green growth" means striving for economic growth and development, simultaneously preventing environmental degradation, biodiversity loss and the unsustainable use of natural resources. "Green growth" means separating the effects of a business activity from the effects of an environmental activity, as well as striving for investment in the environment to be the driving force of economic growth.
World Bank 2012	Green growth is an effective growth in terms of using clean resources, i.e. reducing pollution and environmental degradation, resistant to natural hazards and using environmental management to prevent other disasters
Global Green Growth Institute 2012	Green growth is the new revolutionary development paradigm that sustains economic growth while at the same time ensuring climate and environmental sustainability. It is aimed at reducing poverty, creating jobs, social integration and the sustainability of ecosystems, alleviating climate changes, supporting biodiversity, and providing access to clean energy and water.
UNEP 2011	A green economy is one that has a positive influence on people's well-being and social equity, while reducing environmental risk and the consumption of natural resources.
European Environmental Agency 2012	Green economy is an economy where environmental, economic and social policies and innovations support societies in the effective use of resources, while at the same time improving human well-being, accentuating social integration and protecting the natural systems which sustain life on the Earth

ANALYSIS AND RESULTS

Over the past decade, the green economy has been seen as an important policy framework for sustainable development in both developed and developing countries. In addition, the importance of developing green economy in our country is increasing day by day. For example, the need to transition to a green economy was emphasized at the president's meeting on the field of ecology on April 29 of this year. According to statistiks, more than 22,000 industrial enterprises have been launched and more than 250,000 houses have been built in our country from 2020 to the present. over a ton represents the need to develop a green economy [4].

Based on the official data of the Agency of Statistiks, we can say that the amount of pollutants released into the atmosphere has not fallen below the limit of 700,000 since 2010. By 2023, almost 800 thousand-1 million. Organized in the ton interval. By 2023, pollution has returned to a record level. This indicator is more than 2 times higher than in 2022.




Figure 1: Pollutants released into the atmosphere (thousand tons)[5]

In addition, problems of using water resources are emerging in the Republic of Uzbekistan, as well as in Central Asian countries. The information in the table below also shows that it is necessary to accelerate the establishment of economic development that preserves nature.

Table 1: Analysis of some statistikal indicators of our country (mln.m³)[1]

	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Water resources	58918.31	51002.74	53975.86	51217.17	43661.6	44487.6	45961.5
Permanent population	32120.5	32656.7	33255.5	33905.2	34558.9	35271.3	36024.9
Volume of water per capita	1.83	1.56	1.62	1.51	1.26	1.26	1.28

Statistiks show that water resources have shown a sharp decline from 2021 to 2021. In 2021, the minimum value was 43661.6 million m3. The need for water has increased. However, the amount of water per capita has decreased sharply.




Figure 2: Volume of water per capita (in percent compared to 2017)[2]




Figure 3: Statistikal indicators of the green economy in relation to the environment[3]

1 Stat,uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi
2 Stat,uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi
3 Muallif tomonidan ilmiy izlanishlar asosida tayyorlandi.

Based on the data, we can conclude that the volume of water per capita has decreased by more than 30% in 2023 compared to 2017, and this trend will continue to decrease. We think that this can determine the need for a green economy.

We need a system of statistikal indicators to study and analyze the development processes of the green economy. We offer the following system of indicators.

CONCLUSIONS AND SUGGESTIONS

The green economy is a driver of sustainable growth in the future of countries. In conclusion, we can say that the result of the above statistikal analysis is the most optimal way for us to develop the green economy. Depletion of water resources and the deterioration of the ecological situation require a cost-effective and sustainable economy. And for the analysis and research of these processes, a system of statistikal indicators expressing their tendency is necessary.

Developing a green economy directly helps nature. We can evaluate this development process with weather indicators. The amount of carbor emission, the share of renewable energy in production and energy consumption per capita are relevant for us today.

Ecosystem management is also an important factor. Through this category, the expansion or desertification of forest zones in the country and the depletion of underground water resources can be controlled.

Resource efficiency can give a chance to estimate energy productivity, material productivity, water productivity and co2 productivity. It leads to maximum recycling. And it is said circular economy.

By the group Chemicals and waste management we can control operations related to waste such as collection, recycling and generation.

Liturature:

1. 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. lex.uz
2. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi lex.uz
3. B. Ryszawska, Zielona gospodarka – teoretyczne podstawy koncepcji i pomiar jej wdrażania w Unii Europejskiej [Green economy – the theoretical basis of the concept and measurement of its implementation in the European Union], Wydawnictwo Uniwersytetu Ekonomicznego we Wrocławiu, Wrocław 2013.
4. Prezident – havo ifloslanishi va Toshkent atrofida “yashil belbog‘” tashkil etish zarurati haqida gapirdi (kun.uz).
5. Ekologiya (stat.uz).
6. Barbier E. B., (2010), A Global Green New Deal – Rethinking the Economic Recovery, Cambridge University Press, Cambridge–New York. Borys T., (2005), Wskaźniki zrównoważonego rozwoju, Wydawnictwo Ekonomia i
7. Środowisko, Warszawa–Białystok. Chapple K., (2008), Defining the Green Economy: A Primer on Green Economic Development, University of California, Berkeley.
8. Ergashev, M. (2022). Mintaqalarning innovatsion rivojl. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida statistika tizimini yanada takomillashtirish: Mintaqalarning innovatsion rivojlanishini statistik baholash // Центр научных публикаций (buxdu. uz), 13(13).
9. Ergashev M. Tashqi savdo–statistik o ‘rganishning obyekti sifatida. – 2023.
10. Sherov A. U., Qurbonov A. U., Ergashev M. Y. Tendency Of Developing Digital Economy in Uzbekistan. – 2022.
11. UNEP Publishes Global Green New Deal Update | News | SDG Knowledge Hub | IISD
12. Education at a Glance 2010: OECD Indicators.
13. World development indicators 2012 (worldbank.org)
14. The Global Green Growth Institute: On a Mission to Prove Green Growth Green Growth Quarterly Update II-2012

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING ZARURLIGI

Avazov Ilxom Ravshanovich
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Audit kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlar tomonidan konsilidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzishda moliyaviy hisobotning xalqaro standart talablari hamda tuzish uslublarini belgilash asosida xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvolini bilishga katta imkon yaratadigan ko‘rsatkichlar keltirib o‘tilgan. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning tarkibiy qismlarini birxillashtirish borasidagi jarayonida yuzaga kelgan muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy hisobot, teskari balans, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, hisob siyosati, chet el kapital, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

Abstract: In this article, when preparing consolidated financial statements by joint-stock companies, indicators are considered that provide an excellent opportunity to find out the financial condition of an economic entity based on the requirements of international standards for financial reporting and the definition of the concept of preparation. methods are given. Conclusions and recommendations were developed on problems that arose in the process of unifying the components of consolidated financial statements and their solutions.

Key words: financial statements, reverse balance sheet, consolidated financial statements, accounting policies, foreign capital, international financial reporting standards.

Аннотация: В данной статье при подготовке консолидированной финансовой отчетности акционерными обществами рассмотрены показатели, которые дают прекрасную возможность узнать финансовое состояние экономического субъекта на основе требований международных стандартов к финансовой отчетности и определения понятия подготовки. даны методы. Разработаны выводы и рекомендatsii по проблемам, возникшим в процессе унификatsii компонентов консолидированной финансовой отчетности и их решениям.

Ключевые слова: финансовая отчетность, обратный баланс, консолидированная финансовая отчетность, учетная политика, иностранный капитал, международные стандарты финансовой отчетности.

KIRISH

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini xalqaro standart talablariga moslashtirishda ko‘p muammolarga duch kelmoqda va katta xarajat talab qilmoqda. Bugungi kunga qadar mamlakatimizda buxgalteriya hisobining milliy standartlari va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari buxgalteriya hisobi va hisobotlarini xalqaro standartlarga moslashtirishning nazariy va uslubiy asoslari to‘liq ishlab chiqilmaganligi sababli yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlarda milliy hamda xalqaro standartlar parallel ishlab kelmoqda.

Kompaniyaning konsolidatsiyalashgan hisob-kitoblarini shakllantirish uchun konsolidatsiya qilingan moliyaviy hisobotning asosiy elementlari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq tuzilgan bo‘lib, ularning tuzilishi o‘rganilib, tarkibida turli konsolidatsiya usullaridan foydalanishga bog‘liq holda konsolidatsiyalashgan hisob-kitoblar shakllantirildi. Shunday ekan, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot kompaniyalarda turlicha tuzilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish masalalari ko‘pgina iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, iqtisodchi olim R.Dusmuratov fikricha, “Umumlashgan (konsolidatsiyalashgan) moliyaviy hisobotni tuzish qoidalari 17-moddada belgilangan bo‘lib, u xalqaro standartlarga muvofiq tuziladi. Bunda bosh firmadan ajralib chiqib faoliyat qilayotgan korxonalar guruhi uchun umumlashgan moliyaviy moddalarni tuzish va taqdim qilish to‘g‘risida so‘z yuritiladi” [3].

A.Karimov, F.Islomov, A.Avloqulovlarning fikricha, “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzishning asosiy maqsadi korporatsiya faoliyati natijalarini va moliyaviy holatini to‘lig‘icha ochib berishdan iborat” [4].

A. Sotvoldiev va Yu.Itkinlarning fikricha, “Bosh korxona va ularning Sho‘ba korxonalari, filiallari, vakilliklari bo‘lsa, 8-sonli buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS)ga binoat konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzadi. Bu BHMS bosh jamiyat guruhining konsolidallashgan moliyaviy hisobotini tuzish va topshirish tartibini belgilaydi” [6].

B.Xoshimov “Sho‘ba korxonalari, filiallari va vakilliklariga ega bo‘lgan korxonalar konsolidallashgan (birlashgan) moliyaviy hisobot tuzadi. Sho‘ba korxonalarga qo‘yilgan qo‘yilmalar bosh korxonaning moliyaviy hisobotida uning moliyaviy qo‘yilmalari sifatida aks ettiradi” [7] deb ta’kidlashgan.

Xorijlik iqtisodchi olimlardan V.V.Kovalev, Vit.V.Kovalev “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni amaliyotda qo‘llanilishi va yanada takomillashtirilishi uchun quyidagi omillar ham asos hisoblanadi: buxgalteriya hisobining yangi usullarini qo‘llashda to‘siqlar yo‘qligi; biznesni birlashtirish jarayonlarining maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida xabardorlik; yirik fond birjalari tomonidan birlashtirish g‘oyasini ma’qullash” [9], deb ta’kidlagan.

V.S.Plotnikov “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni amaliyotda takomillashtirish davlatlarning normativ-huquqiy va o‘zlarining sharoitidagi o‘zgarishlar, shuningdek, 1983-yil 13-iyundagi Yevropa Ittifoqining Yettinchi direktivasi qabul qilinganligi”ni qo‘llab-quvvatlaydi. Bunda xorij mamlakatlari tajribasini ko‘radigan bo‘lsak, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish bo‘yicha bizning mamlakatimiz anchagina orqada qolib ketganligidan dalolat beradi [10].

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xorijiy investorlarning strategik qaror qabul qilishi ko‘p jihatdan moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va ularga berilgan xolisona bahoga bog‘liq bo‘ladi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida bir-biri balan bog‘liq bo‘lgan guruhlarning konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarini tuzish uchun konsolidatsiyalashgan buxgalteriya tizimini ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

Konsolidatsiyalashgan buxgalteriya hisobining maqsadi va vazifalari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan o‘zaro bog‘liq tashkilotlar guruhining moliyaviy ahvolini va moliyaviy natijalarini aks ettiradigan konsolidatsiyalashgan hisob-kitoblarning ma’lumotlari tizimi sifatida tavsiflanadi. Yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlar tasarrufida sho‘ba, qaram, tashkilotlari bo‘lgan bosh korxonalar konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish tartibini ishlab chiqadilar hamda xalqaro standart talablariga moslashtirish talabini keltirib o‘tadi.

Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunning 23-moddasida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot haqida quyidagicha keltirilgan. “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish tartibi, shuningdek, asosiy xo‘jalik jamiyatining nazorati ostidagi tashkilotlarga qo‘yiladigan talablar buxgalteriya hisobi standartlari bilan belgilanadi” [1].

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda ma’lumotlarni taqdim etish bo‘yicha muayyan talablarni belgilaydigan konsolidatsiyalashgan buxgalteriya tamoyillari: yagona valyutaning tamoyillari, hisobotning yagona hisobot davri tamoyillari, shuningdek, haqiqatga muvofiq qiymatdagi tashkilotlarning aktivlari va majburiyatlarini o‘lchash usulini to‘g‘ri tanlash imkonini beradi. Birlashtirilgan hisob-kitoblarni yuritish maqsadida bir-biriga bog‘liq bo‘lgan tashkilotlar uchun birlashtirilgan buxgalteriya hisobi siyosati ishlab chiqish, bu alohida tashkilotlarning ma’lumotlarini taqqoslash va taqsimlashni ta’minlaydi, birlashtirilgan tashkilotlar o‘rtasidagi amalga oshirilgan “ichki” operatsiyalarni ajratish imkonini beradi va moliyaviy hisobotning xalqaro standart talablariga mos ravishda bir guruh tashkilotlarning shaxsiy aktivlari, kapitallari va majburiyatlari haqida ma’lumot to‘plashga imkon yaratiladi.

Xalqaro standart talablariga javob beradigan va chet el investorlarini jalb qilishda asosli, ishonchli deb hisoblaydigan moliyaviy hisobot bu konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotdir. Ushbu hisobotlarni tuzish va tasdiqlash uchun amaliy va uslubiy jihatdan tizim yo‘qligi, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan kompaniyalarning xalqaro bozorlarda nufuzini kamaytiradi.

Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash jarayonlarini rivojlantirishda uzoq muddatli aloqalar kompaniyalarning doimiy ish faoliyatini olib borish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishning mavjudligiga erishish muhim masalalardan biridir. Bunda kompaniyalar tomonidan tuziladigan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash zaruriyatini yuzaga keltiruvchi asosiy omil bu munosabatlar doirasining kengayishidir. Hozirgi kunda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish va uning shaffofligini ta’minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni O‘zbekistonga xalqaro investitsiyalarni jalb qilish, jahon bozorlariga chiqish maqsadida tuzishi talab qilinadi.

1-jadval: Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni e'lon qiladigan tashkilotlar haqida ma'lumot[1]

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni e'lon qiladigan tashkilotlar	Hisobot yillari							
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni e'lon qilishi shart bo'lgan tashkilotlar soni	220	230	247	244	252	254	258	253
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzib e'lon qilgan tashkilotlar soni	32	41	35	35	38	48	45	47
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni e'lon qilmagan tashkilotlar soni	188	189	212	209	214	206	213	206
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzib, e'lon qilgan tashkilotlar ulushi (%)	14,5	17,8	14,2	14,3	15,1	18,7	17,4	18,5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni chop etishlari shart bo'lgan tashkilotlar 2015-yilda 14,5 foizni tashkil qilgan, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 18,5 foizni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki mazkur holat bo'yicha yillar ketmaketligini ko'radigan bo'lsak, deyarli o'zgarmagan. Bu esa, aksariyat tashkilotlar shu davr mobaynida o'z mavqeyini oshirishga harakat qilmaganligini ko'rsatadi.

Shunday ekan, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning nazariy jihatlarini tahlil qilish, uning shaffofligini ta'minlash masalasi doimo dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi.

- analitik va sintetik hisoblarni joriy etish asosida sho'ba korxonalar va sho'ba korxonalarga investitsiyalarni hisoblash uslubini aniqladi. "Aloqador bo'lmaganlarning ulushlari" alohida sintetik hisobida qo'shma korxonalar nazoratidagi ulushini aks ettirish zaruriyati vujudga keladi; filiallar kapitalining tarkibiy qismlari to'g'risidagi axborotlarni cheklash uchun tarixni belgilash va ushbu sanadan keyin aniqlashni begilash;
- o'zaro dividendlar va qarzlarni, shuningdek, ichki daromadlarni va sotish qiymatlarini ajratish va chiqarib tashlash imkonini beradigan tashkilotlar guruhida amalga oshiriladigan bitimlarning konsolidatsiyalashgan hisobini yuritishning va asosli usullarini, "ichki" savdo ustamalarini ro'yxatdan chiqarish uchun o'rtacha foizlarini ishlab chiqish;
- o'z mablag'lari manbalar balanslari va jamlangan hisob-kitoblar jadvali asosida bir-biriga bog'liq bo'lgan tashkilotlar guruhiga kiruvchi korxonalarni konsolidatsiyalashtirilgan hisob-kitoblari ko'rsatkichlarini birlashtirish;
- konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotdagi ko'rsatkichlarini shakllantirishning tarkibi va tartibini aniqlash, buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga moslashtirish zarurdir.

Konsolidatsiyalashgan buxgalteriya funksiyalari axborot va tahliliy buxgalteriya vazifalarini ajratib turishi mumkin. Hisobotning axborot funksiyasi o'zaro bog'liq tashkilotlar guruhi aktivlarining, majburiyatlarining va kapitalining holati to'g'risidagi axborotni jamlash, to'plash va birxillashtirishda amalga oshiriladi. Analitik funksiyani bir-biriga bog'liq bo'lgan tashkilotlar guruhining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini tahlil qilishdan iborat.


Birlashtirilgan tashkilotlar uchun birlashtirilgan buxgalteriya siyosati ishlab chiqilgan bo'lib, bu alohida tashkilotlarning ma'lumotlarini taqqoslash va taqsimlashni ta'minlaydigan konsolidatsiyalashgan hisobni yuritish uchun qo'llaniladi.

Hisob siyosatini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega hisob-kitob ma'lumotlarni ishlab chiqish. Ushbu hisob siyosati o'zaro bog'liq tashkilotlar o'rtasida amalga oshirilgan "ichki" operatsiyalarni taqiqlash imkonini beradi, shuningdek, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar talablariga muvofiq tashkilotlarning guruhlari shaxsiy aktivlari va majburiyatlari to'g'risida ma'lumot beradi. Konsolidatsiyalashgan hisob-kitoblar jadvalining strukturasi xalqaro standartlarga muvofiq konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni ta'minlaydi.

Yangi tahliliy va sintetik hisoblarni joriy etish asosida sho'ba korxonalar va sho'ba korxonalarga investitsiyalarni hisoblash usuli aniqlandi. Investitsiyalarni konsolidatsiyalash usullarini hisobga olgan holda filiallar va sho'ba kompaniyalar yangi sintetik va analitik hisoblarni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xususan, kapital qo'yilmalarning nazoratdagi ulushini hisoblash zarur.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish bo'yicha amallarni belgilash va birlashma tashkilotlari guruhlari faoliyatining konsolidatsiya qilinadigan ma'lumotlarini ayirboshlash balanslari asosida tashkil etishni ta'minlash uchun konsolidatsiya tuzatishlari kiritildi.

1 Muallif tomonidan tayyorlangan



1-chizma: Teskari balanslar asosida konsolidatsiyalashgan hisobot tuzatish

Birinchi tuzatish guruhi, hisoblangan amortizatsiya tarkibidagi “ichki” savdo ustamalarini, shuningdek, guruh ichidagi operatsiyalardan olingan daromad va xarajatlar miqdorini hisobga olmagan holda tuzatishlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tuzatishlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularni chiqarib tashlash guruhga kiritilgan har bir tashkilotning hisob-kitobi bo‘yicha tiklash yozuvlari bilan amalga oshiriladi.

Konsolidatsiya tuzatishlarini hisobga olgan holda, o‘zaro bog‘liq tashkilotlar ishtirokidagi ulushni hisoblash muhim ahamiyatga ega. Barcha taqdim etilgan konsolidatsiya tuzilmalari maxsus ishlab chiqilgan analitik jadvallarda amalga oshirildi va ularni avtomatik tarzda amalga oshirish imkonini berdi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirishning tarkibi va tartibini aniqlash buxgalteriya hisobi ma’lumotlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga muvofiq konsolidatsiyalashgan buxgalteriya hisobiga o‘tkazishni takomillashtirish masalalari muhim bo‘lib hisoblanadi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning tarkibiy qismlarini bir-biriga o‘zaro bog‘liq tashkilotlar guruhiga kiradigan kompaniyalarning o‘z mablag‘lar manbasi bo‘yicha tayyorlangan konsolidatsiyalashgan balans tuzish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bilan belgilangan barcha zarur hisobot komponentlarini o‘zida aks ettirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ularni tayyorlash alohida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bilan bir xil tarzda amalga oshiriladi. Yagona hisob siyosati guruh a’zolaridan birortasi bir xil operatsiyalar yoki o‘xshash vaziyatlardagi hodisalar hisobini yuritish uchun konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar uchun hisob siyosatidan farq qiladigan hisob yuritish siyosati qo‘llagan bo‘lsa, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda guruhning hisob siyosatiga moslikni kafolatlash uchun guruh a’zolarining moliyaviy hisobotlariga tegishli tuzatishlar kiritilishi lozim.

Shunday ekan, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni baholash bosh kompaniya sho‘ba tashkilotlarning daromadlari va xarajatlarini konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarga bosh kompaniya sho‘ba tashkilotlari ustidan nazoratni olgan vaqtdan uni chiqib ketgan vaqtgacha kiritadi. Sho‘ba tashkilotlarining daromadlari va xarajatlari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan sanada tan olingan aktivlar va majburiyalar qiymatlari asosida hisoblab chiqiladi.

Bosh kompaniya va uning sho‘ba tashkilotlarining konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda foydalaniladigan moliyaviy hisobotlarini bir hisobot sanasida tayyorlanishi lozim. Agar bosh kompaniya hisobot davrining oxiri sho‘ba tashkilotlari esa hisobot davrining oxiridan farq qilsa, sho‘ba tashkilotlari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot maqsadlari moliyaviy ma’lumotlarini konsolidatsiyalash imkoniyatiga ega bo‘lishi uchun qo‘shimcha moliyaviy ma’lumotlarni bosh kompaniyaning moliyaviy hisobotlari bilan bir sanada tayyorlaydi. Agar bosh kompaniyaning moliyaviy hisoboti sanasiga moslashtirishning iloji bo‘lmasa, bosh kompaniya sho‘ba tashkilotning moliyaviy ma’lumotlarini konsolidatsiyalashni sho‘ba tashkilotning oxirgi moliyaviy hisobotlaridan foydalanib amalga oshirishi lozim. Mazkur moliyaviy hisobotlarda keltirilgan sanasi va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar sanasi o‘rtasidagi davrda sodir bo‘lgan ahamiyatli hodisalar yoki muomilalarning ta’siri hisobga olingan holda tuzatishlar kiritilishi kerak. Har qanday holda ham sho‘ba tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari sanasi va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar sanasi o‘rtasidagi farq uch oydan oshmasligi, hisobot davrlari muddati hamda moliyaviy hisobotlar sanalari o‘rtasidagi farq esa muddatlari mos kelishi lozim [2].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish joizki, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishda chet el kapitali ishtirokida tashkil qilingan korxonalarda konsilidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish xalqaro standart talablarini asosida bajarishni talab qiladi, ammo milliy hisob tizimimizda chet el kapitali kiritilgan korxonalar tomonidan konsilidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish amaliyoti hali to‘liq joriy etilmagan. Konsilidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishda moliyaviy hisobotning xalqaro standart talablarini, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish usullarini belgilashdan iborat. Shunga ko‘ra konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida korxonaning moliyaviy holatini bilishga imkon beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni (Yangi tahriri) 2016-yil 13-aprel.
2. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti. (10-sonli MHXS). Jamlangan (konsolidatsiyalashgan) moliyaviy hisobotlar. 2008-yil.
3. Do‘smuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2013. –476 b.
4. Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: “ShARQ”, 2004. -592 b.
5. Леонтев С.Yu. Консолидированный учет группы взаимосвуазанных организатsiй. 08.00.12-бухгалтерский учёт, статистика. Автореферат. Казан-2011 г. ст 22-23.
6. Sotvoldiev A.va Itkin Yu. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. I-tom. O‘quv-qo‘llanma. –T.: 2002. 200 bet.
7. Xoshimov B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. -T.: “ShARQ”. 2003. –317 b.
8. Donald E. Kieso, J. Weygandt, Terry D. Warfield. INTERMEDIATE ACCOUNTING. John Wiley& Sons, USA. 2004. 1332p
9. Ковалев, В. В., Ковалев, Вит.В. Анализ баланса. – 3-е изд., перераб. и доп. – Москва: Проспект, 2016. – 316 с.
10. Плотников В.С. Основы консолидированного учета: методологические аспекты: монограф. – Саратов: Издат. центр Саратовского государственного социально-экономического университета, – 2000. – 5 с.
11. Avavov Ilkhom. Consolidated financial reporting and audit quality improvement issues //Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions. – 2024. – T. 2. – №. 1. – C. 6-12.
12. Avazov Ilkhom Ravshanovich Aspects of Financial Reporting Transformation Based on International Standards //European journal of innovation in nonformal education. – 2023. – T. 3. – №. 4. – C. 1-5.
13. Avazov Ilkhom Ravshanovich Aspects of Financial Reporting Transformation Based on International Standards //European journal of innovation in nonformal education. – 2023. – T. 3. – №. 4. – C. 1-5.

FOYDANI SOLIQQA TORTISH OBYEKTI SIFATIDAGI IQTISODIY TARKIBI



Axrorov Zarif Oripovich
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali dotsenti

Annotatsiya: Korxonalar moliyaviy munosabatlari tarkibida foydani tashkil etish va uni soliqqa tortish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada foyda korxona ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy belgisi sifatida talqin qilinib, davlat budjeti uchun foyda solig'ini shakllantirish zaruriyati asoslangan. Foydani soliqqa tortish borasidagi mavjud vaziyat tahlil qilinib, me'yoriy-huquqiy asoslari ko'rib chiqilgan. Foyda va foyda solig'i bo'yicha yetakchi olimlar fikrlari tahlil qilingan. Shuningdek, foydani va uni soliq obyekti sifatida shakllantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: foyda, foyda solig'i, foyda solig'i mexanizmi, korxona, davlat budjeti, foyda solig'i obyekti.

Abstract: The organization of profit and its taxation play an important role in the structure of financial relations of enterprises. This article interprets profit as a key indicator of socio-economic development of the enterprise and is based on the need to form a profit tax for the state budget. The current situation with the taxation of profits is analyzed and the legal framework is considered. The views of leading scholars on profit and profit tax have been analyzed. Suggestions and recommendations on profits and their formation as a tax object are also formed.

Key words: profit, profit tax, profit tax mechanism, enterprise, state budget, object of profit tax.

Аннотация: Организация прибыли и ее налогообложение имеют большое значение в финансовых отношениях предприятий. В данной статье прибыль трактуется как основной признак социально-экономического развития предприятия и на этом основывается необходимость формирования налога на прибыль для государственного бюджета. Проанализировано современное состояние налогообложения прибыли и рассмотрена его нормативно-правовая база. Анализируются мнения ведущих ученых о прибыли и налоге на прибыль. Также сформулированы предложения и рекомендации по прибыли и ее формированию как объекта налогообложения.

Ключевые слова: прибыль, налог на прибыль, механизм налога на прибыль, предприятие, государственный бюджет, объект налога на прибыль.

KIRISH

Foyda korxonalar oxirgi moliyaviy natijasi sifatida uni soliqqa tortishni takomillashtirish barcha davlatlarda va zamonlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda turli mulk shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy maqsadi kamroq xarajat qilgan holda maksimal foyda olishga harakat qilishdir. Shu bilan birga, korxona to'lov intizomi mustahkam bo'lsa, budjetga o'z vaqtida soliqlarni to'lab har qanday jarimalarni to'lashga duch kelmaydi.

Foydani soliqqa tortish korxonalar moliyaviy munosabatlarini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bo'lib, bu jarayon yuridik shaxslar tomonidan foydadan samarali foydalanish bilan birgalikda uni taqsimlash va qayta taqsimlashni ham tubdan isloh qilishni taqozo etadi.

Foydani ilmiy asoslangan holda oqilona soliqqa tortishni tashkil etishga erishgan barcha xo'jalik subyektlari tomonidan markazlashtirilmagan jamg'armalarni tashkil etishni to'la darajada shakllantirilishiga imkoniyat yaratadi. Yuridik shaxslar qanchalik samarali faoliyat yuritsa, ularning moliyaviy barqarorligi, to'lov qobiliyati, foydasi va soliq ajratmalari yig'indisi shunchalik ko'p bo'ladi [1].

Bunday holatlarning yuzaga kelish mumkinligi moliyaviy natijalarni tashkil etishdagi o'zgarishlarni hisoblash, taqsimlash va qayta taqsimlash xarajatlar bilan real foyda natijalari o'rtasidagi nisbat ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o'sishi, qolaversa ulardan soliq stavkalarini aniqlashda foydalanish mumkinligi haqida o'ylab ko'rishga sabab bo'lmoqda. Ko'pgina soliq tizimi mutaxassislari foydadan soliq stavkalari va uni budjetga o'tkazish tartibi, soliq stavkasini ma'lum bir koeffitsiyentga pasaytirish yoki oshirish, soliq bo'yicha joriy etilgan imtiyozlarni, soliqni hisoblash tartibi va to'lash muddatlarini to'liq bo'lgan holda o'z oldilarida turgan vazifalarni

bajarishda havotirlanmoqdalar. Chunki yangi tartibning joriy etilishi, uni to‘liq o‘rganish bilan birgalikda soliq to‘lovchi xo‘jalik subyektlariga ham tushuntirish ishlarini olib borishlari, ularni soliq intizomiga rioya qilishga chorlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Shu o‘rinda aytish joizki, jamiyatda yaratilgan qiymatning bir qismini taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida foyda shakllantiriladi va u budjet daromadlarini tashkil etishda muhim o‘rin egallaydi. Foyda takror ishlab chiqarishning uzluksiz davom etishini va uning kengaytirilishini ta’minlashda mustaqil harakat qilib iqtisodiy kategoriya sifatida shakllanadi [2]. Korxonalarda moliyaviy resurslarni tashkil etish, taqsimlash va undan foydalanish davomida foyda ma’lum qonuniyatlar asosida jamg‘armalarni tashkil etishi bilan birga davlat budjetini moliyaviy mablag‘ bilan ta’minlashda faol ishtirok etadi va shu qirralari bilan bozor munosabatlarining iqtisodiy kategoriyasi sifatida ko‘zga tashlanadi.

1-jadval asosida foyda kategoriyasiga mualliflar tomonidan berilgan qator ta’riflarni ko‘rib chiqamiz.

1-jadval: Foydaga oid ayrim ta’riflar

№	Muallif	Ta’rif
1.	Sheffle E.F.	Foyda – investitsiya qilingan kapital qaytimi [6]
2.	Nidlz B., Anderson X., Kolduell D.	Foyda – xo‘jalik faoliyatini yuritish natijasida qo‘yilgan kapitalni oshishi [7]
3.	Xiks J.	Foyda – ma’lum bir vaqt oralig‘ida ishlatish mumkin bo‘lgan va davr oxirida davr boshiga nisbatan ijobiy qoldiqqa ega bo‘lishi lozim bo‘lgan ko‘rsatkich [4].
4.	Pokropivniy S.F.	Foyda – korxona ishlab chiqarishi va savdo faoliyatiga qilingan xarajatlardan keyingi qoladigan tushumning bir qismi [8]
5.	Podderyog‘in A.M.	Foyda – ishlab chiqarilgan va sotilgan, taqsimlashga tayyorlangan qiymatni qaytadan yaratish qismi [9]
6.	Rayzberg B.A., Lozovskiy L.SH., Starodubseva YE.B.	Foyda – tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlaridan ularni sotishdan olingan daromadlarning oshishi [10]
7.	Yurkova T.I., Yurkov S.V.	Foyda – jami tushum hamda tashqi va ichki ushlanmalar o‘rtasidagi farq [11]
8.	Salov A. I.	Iqtisodiy foyda – yalpi daromad va iqtisodiy xarajatlar o‘rtasidagi farq [12]
9.	Seleznova N.N., Ionova A.F.	Foyda – qo‘shilgan kapitalga nisbatan sof daromadning pul shaklidagi ko‘rinishi [13]
10.	Milyakov N.	Foyda – korxona budjetini shakllantirishning muhim manbasi va bu manba hisobidan ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish amalga oshirilishi ta’kidlanadi [14].
11.	Donsov R.	foyda investitsiya qilingan mablag‘lar daromadliligini kafolatlash bilan bir qatorda ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani rivojlantirish bilan bog‘liq xarajatlarni moliyalashtirish manbasi [15].
12.	Haydarov N.X.	Foyda – bu tijorat asosida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik subyektlarining so‘nggi moliyaviy natijasi bo‘lishi bilan birga, respublika va mahalliy budjetlar daromadining asosiy moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi [3].
13.	Aliyeva S.S.	Foydani tadbirkorlik faoliyati xizmatlari uchun to‘lov, mahsulotlarning innovatsion turlarini joriy qilish, ishlab chiqarish jarayonini o‘zgartirish, shuningdek, iqtisodiy risk uchun mukofot [5]
14.	Zaripov X.B.	Foyda – ishlab chiqarish omillarining (mehnat, kapital, tabiiy resurslar) uzviy aloqadorligi asosida moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan pirovard moliyaviy natijadir [16]

Foyda bozor mahsuli sifatida tarmoqlararo pul mablag‘larini taqsimlash vazifasini bajarib, ishlab chiqarishning eng progressiv ko‘p mulkchilikka moslashgan tarmoqlarini har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi.

Shu munosabat bilan korxona foydasining bir qismini davlat budjetiga o‘tkazish bozor iqtisodiyoti sharoitlarini ta’minlashda muhimdir. Ya’ni o‘z-o‘zini pul bilan ta’minlash sharoitida yuridik shaxslar o‘z mablag‘lari manbalari va jalb qilingan mablag‘lar evaziga fan-texnikani, ishlab chiqarishni va ijtimoiy sohani rivojlantirishni ta’minlashlari, o‘z xo‘jalik faoliyatining natijalari hamda mahsulot yetkazib beruvchilar va iste’molchilar, budjet va banklar oldidagi majburiyatlarini bajarish uchun foydani qo‘lga kiritishi kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada iqtisodchi olimlarining soliq munosabatlarini tartibga solish, korxonalarda foydani shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari, foyda solig‘i va uni hisoblash metodologiyasiga bag‘ishlangan ilmiy asarlari o‘rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar qiyosiy tahlili, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Foyda moddiy ishlab chiqarish mahsuli bo‘lib, u o‘zining maxsus shaklini muomala bosqichida mahsulotni realizatsiya qilish jarayonida namoyon qiladi va realizatsiya qilingan mahsulotning ulgurji bahosi bilan uning tannarxi o‘rtasidagi farq sifatida ko‘zga tashlanadi. Agar maxsus normativ hujjatlarda o‘zgacha tartib ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, haqiqatda foydani shakllantirish (korxonalar xususiyatlarini inobatga olgan holda) juda murakkab jarayonlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Foydani aniqlashda befarqlik, sovuqqonlik bilan qarash va ilmiy-nazariy jihatdan asoslanmagan holda unga yondashish avvalo iqtisodiyot taraqqiyotiga, qolaversa bozor iqtisodiyoti munosabatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini tug‘dirmaydi. Har qanday soliqning manbai kabi foydaning manbai ham yalpi ijtimoiy mahsuldir. Ammo mavjud soliq xillaridan farqli o‘laroq, foyda o‘zgaruvchan miqdordir, narx erkin bo‘lgan holda u barcha realizatsiya bilan bog‘liq bo‘lmagan operatsiyalardan olingan daromadlarni shu operatsiyalar bo‘yicha qilingan sarf-xarajatlar chegirilishidan qolgan qismi yig‘indisiga bog‘liq bo‘ladi. Foydaning asosiy qismi korxona ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladi, uning boshqa bir qismi soliq to‘lovi orqali davlat budjetiga kelib tushadi.

Foydani o‘rganish jarayonida diqqatni shunga qaratish lozimki, foydaning bir qator ko‘rinishlari mavjud: iqtisodiy foyda, buxgalteriya foydasi, yalpi foyda, soliq to‘langunga qadar foyda, sof foyda va boshqalar [17].

Korxona pul daromadlaridan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi foyda deb yuritiladi. Ayrim adabiyotlarda bu iqtisodiy foyda deb ham yuritiladi [18].

Iqtisodiy foyda umumiy pul tushumidan barcha ichki va tashqi xarajatlar, shuningdek, meyordagi foydani chegirib tashlash orqali aniqlanadi [18].

Buxgalteriya (balans) foydasi – korxonaning barcha xo‘jalik operatsiyalari hisobi va buxgalteriya balansi moddalarini baholash asosida hisobot davrida paydo bo‘ladigan oxirgi moliyaviy natijadir.

Buxgalteriya foydasi sotilgan mahsulot uchun tushgan umumiy pul summasidan ishlab chiqarishning tashqi xarajatlarini chiqarib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi [18]. Shu munosabat bilan iqtisodiy foydaga nisbatan buxgalteriya foydasi korxona ichki xarajatlariga ko‘proqdir.

Yalpi foyda – tovarlarni sotish (xizmatlarni ko‘rsatish, ishlarni bajarish) va ularning tannarxi o‘rtasidagi farq hisoblanadi.

Soliq to‘langunga qadar foyda – korxona asosiy va asosiy bo‘lmagan faoliyatidan olingan daromadlar va amalga oshirilgan xarajatlar (foyda solig‘i va boshqa soliqlardan tashqari) o‘rtasidagi farq hisoblanadi. Foyda solig‘i va boshqa soliqlar foyda solig‘i obyekti bo‘lganligi sababli uning nomlanishida aynan shu soliqlar nazarda tutilgan.

Sof foyda – korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati oxirgi moliyaviy natijasidir. Foydadan amaldagi qonun-qoidalarga muvofiq, foyda solig‘i olingandan so‘ng xo‘jalik subyekti ixtiyorida sof foyda vujudga kelib, uni korxona o‘z imkoniyati va xohishiga binoan taqsimlaydi.

Agar korxona aksiyadorlik jamiyat bo‘lsa aksiyadorlarga dividendlar taqsimlaydi, unitar korxona bo‘lsa, har xil homiylik va xayriya ishlarini amalga oshirish mumkin bo‘lib, bu ularning moliyaviy siyosatiga bevosita bog‘liq xususiyatlar majmuasidir.

Foydaning doimiy qo‘lga kiritilishi mahsulot ishlab chiqaruvchilar bilan shu mahsulotni sotib oluvchilar o‘rtasidagi bozor moliyaviy munosabatlariga bog‘liqdir. Ishlab chiqarilgan va shartnomalar asosida sotilgan mahsulotlar xalq iste’mol tovarlari, ularning miqdori, sifati, assortimentiga ko‘ra to‘langan haq ushbu xalq iste’mol tovarlariga bo‘lgan ehtiyojlarining qondirilmaganligidan dalolat beradi. Teskari hollarda esa, ya’ni xalq iste’mol tovarlari o‘z iste’molchilari tomonidan qabul qilinmasa (sifatli emasligi, assortiment buzilganligi tufayli) yoki sotib olinmasa, unda bir tomondan pul mablag‘larining doiraviy aylanishi ta’minlanmay qolsa, ikkinchi tomondan foyda qo‘lga kiritilmaydi. Natijada korxonada yaratilgan qiymatning iste’molchilari tomonidan e’tirof qilinishi inqirozga, iste’mol tovarlarining defitsitliligiga va inflyatsiyaning o‘sishiga keng yo‘l ochib beradi. Buning oqibatida bozor iqtisodiyoti taraqqiyotiga to‘sqinlik qilinishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Savdo va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi korxonalar uchun foyda realizatsiya qilingan tovarlarning sotib olingan va sotilgan qiymati o‘rtasidagi (davr oxiridagi va davr boshidagi ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi) farqqa tengdir [19]. Iqtisodiy adabiyotlarda ayrim guruh olim va mutaxassislar bu sohadagi korxonalar foydasining haqiqiy manbasi moddiy ne’matlar ishlab chiqarish sohasida olingan foydaning bir qismi narxlar orqali berilishi va shu foyda korxonalarning ishlab chiqarish xarajatlarini to‘liq qoplab foydani yuzaga keltiradi degan tushunchalar orqali targ‘ibot qilinsa, ikkinchi bir guruh olim va mutaxassislar esa savdo va xizmat ko‘rsatish sohasiga ishlab

chiqarish korxonalaridan o‘tkazib berilgan foyda muomala (ishlab chiqarish) harakatlarni qoplay ololmasligi, qolaversa shu soha xodimlarining unumli mehnati evaziga ijtimoiy qiymat yaratiladi va u ishlab chiqarish korxonalaridan o‘tkazilgan foyda bilan birgalikda yalpi foydani tashkil etadi, ushbu yalpi foyda barcha xarajatlarni qoplash va sof foydani qo‘lga kiritish imkoniyatini yaratadi degan fikrlarni bayon etganlar. Lekin bunday fikr-mulohazalar foydaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini, uni umumlashtiruvchi voqelik ko‘rsatkichi sifatida shakllantirib berishga xizmat qiladi.

Jahon amaliyotida iqtisodiyotni boshqarish vositasi sifatida foydani shakllantirish va taqsimlash, moliyaviy resurslarni jalb qilish, umuman olganda investitsiyalarni, xususan, korxona darajasida kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirishni amalga oshirish bo‘yicha katta tajriba egallandi. Foyda harakati majburiy to‘lovlar, jumladan foyda solig‘idan tarkib topgan. U sezilarli darajada turli hisob-kitoblarda korxonalarning imkoniyatlarini kengaytiradi. Hozirgi kunda jamiyatda foydani taqsimlash, asosiy kapital obyektlarini kengaytirish, rekonstruksiya va texnologik qayta qurollantirish, asbob-uskunalarni modernizatsiyalash va mavjud quvvatlarni oshirish va boshqa yo‘llar bilan moliyaviy resurslarni jalb qilishni kuchaytirishni taqozo etuvchi jarayonlar ro‘y bermoqda. Bu xarajatlar qisqa va uzoq muddatli xarakterga ega va katta moliyaviy mablag‘larni talab qiladi. Shuning uchun foydani shakllantirish va taqsimlash nafaqat korxonalar joriy ehtiyojlarini moliyalashtirishning muhim shakli, shu bilan birga, turli darajadagi budjetlar xarajatlarini qoplash vositasi ham hisoblanadi. Shu boisdan foydaga erishish uchun uning tavsifi, shakllantirish va taqsimlash sharoitlari, foyda solig‘i orqali tartibga solish mexanizmi o‘ta diqqat bilan ishlab chiqilishi lozim.

Shuning uchun xo‘jalik subyektlarini soliqqa tortishning muhim muammolaridan biri foyda va soliq stavkasi o‘rtasidagi aloqani ta’minlash hisoblanadi. Nazariy qarashlarda bu muammo soliq haqidagi ko‘pgina fan namoyondalari diqqatini o‘ziga qaratgan. Shuni ham ta’kidlash lozimki, ushbu muammo ham nazariyada, ham xo‘jalik subyektlari amaliyotida ham nafaqat foydani shakllantirish va taqsimlash zaruriyatini, shu bilan birga uni soliqqa tortishni ham dolzarb qilib qo‘yadi.

Aynan oxirgi masalaga biz asosiy diqqatni foyda solig‘i tarkibini asoslashga qaratmoqchimiz. Bu korxona samaradorligiga foyda solig‘ining ta’sir qilish mexanizmini izchil tahlil qilish, shuningdek, yalpi daromadga emas, aynan foyda solig‘ini amal qilishi obyektini hal qiluvchi sof foydasi masalasiga javob qidirishni prinsipial ahamiyatga ega qilib qo‘yadi.

Mazkur savolga javob topishda ayrim mualliflar foyda nafaqat ishlab chiqarish maqsadida, shu bilan birga, alohida korxonalar faoliyatining maqsadi sifatida ham tadqiq qilinadi.

Bozor iqtisodiyoti foydani “foyda solig‘i” nomi ostida umumiy soliqqa tortishda uni soliq obyektiga kiritish uchun bosh sabab hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti keyingi soliqqa tortish obyektiga qo‘shilishida foyda keltiradigan shunday jamiyat ehtiyojlarini tan oladi. Shu boisdan korxonaning bu qarorga intilishi uning foyda olishga intilishi bilan izohlanadi.

Kuchli raqobat sharoitida foyda olish va foyda solig‘ini budjetga to‘lash uchun tadbirkorlar innovatsion rivojlanishni oshiradi, foydaning nisbiy va absolyut o‘sishini ta’minlashda xarajatlarni imkon doirasida qisqartiradi.

Bu fikr mantiqiy ko‘rinadi. Chunki muammoning bunday qo‘yilishi quyidagi samaraga ega bo‘lgan ikki fikrni keltirib chiqaradi: korxona va budjet o‘rtasidagi o‘zaro munosabat hamda korxona foydasi va samaradorligi. Aynan bu ikki fikrning birlashishi “foyda solig‘i” terminini va uning negizida soliq obyektini sof ko‘rinishda yuzaga kelishiga asosiy sababi bo‘lib hisoblanadi.

Albatta, har qanday qiymat ko‘rsatkichi sifatida foyda ham va uning tarkibi sifatida sof foyda soliqqa tortish obyekti sifatida yuzaga kelgan bo‘lib, u ma’lum bir moddiy ne’matlarning yig‘indisi harakatini aks ettira boshlandi. Uning hajmi, foydaliligi bevosita sof foyda chegarasi soliq to‘lovchilar tomonidan o‘zboshimchalik bilan belgilanishi mumkin emas. O‘zining obyektiv xususiyatiga ko‘ra, sof foyda soliqqa tortish obyekti va korxona faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichi sifatida soliq munosabatlari maydonga chiqdi.

Foydaning bu tarkibida korxonaning muhim ko‘rsatkichlari sifatida uning samaradorligi, to‘lov qobilligi va raqobatbardoshliligi hisoblanadi. Sof foyda soliqqa tortish obyekti doirasida amal qilishi mutanosiblik o‘lchovi chora-tadbirlarini ham, qo‘shimcha qiymatning o‘lchovini ham ahamiyatini yo‘qotmaydi. Foydaning ushbu mohiyati qo‘shimcha qiymatni ifodalash shakli sifatida uning tabiatidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, foyda keng ma’noda o‘zining shakllantirish, taqsimlash va “foyda solig‘i” ko‘rinishida soliq munosabatlarida ishtirok etish xususiyatlari orqali barcha xarajatlar ko‘rsatkichlarini ishlab chiqarish natijalari sifatida to‘liq o‘zida sintez qiladi hamda soliq to‘lovchilar va barcha darajadagi budjetlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar samaradorligini o‘lchash imkonini beruvchi soliqqa tortish obyekti ko‘rinishida ko‘rinadi.

Bu foyda solig‘ining muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, uni korxonalar soliqqa tortish obyektining ko‘rsatkichlaridan biriga aylantiradi. Albatta, korxona uchun sof foyda soliqqa tortishning yagona obyekti va ular samaradorligini har tomonlama qamrab oluvchi mezonga aylanishini taqozo qilmaydi. Iqtisodiy islohotlashtirish sharoitida uning roli va imkoniyatlari sezilarli darajada o‘zgarishi mumkin. Shuningdek, sof foyda doirasida u soliq solish obyektining yagona o‘lchov birligi – foyda solig‘ining xususiyatlariga ega emas. Bu haqda keyingi paragraflarda batafsil bayon etish maqsadga muvofiq deb topildi.

Shuni ham aytib o‘tish lozimki, har qanday iqtisodiy voqelik bu borada soliq obyekti sifatida umumlashtiruvchi xususiyatga ega bo‘lishligi mumkin, buning uchun ular avvalo iqtisodiy kategoriyalarni taqsimot jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar harakati bilan uzviy bog‘liqligini bir tomondan, jismoniy va yuridik shaxslar bilan davlat o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli muvofiqligi ikkinchi tomondan ta’minlab bera olishi lozim bo‘ladi.

Bugungi kunda foyda ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatga ega bo‘lgan ko‘rsatkich sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. To‘g‘ri, foyda o‘zining bu mohiyati bo‘yicha turli manfaatlarni hal etish ustunligi bilan ajralib turadi. Lekin korxonalar (ayniqsa, foydasi soliqqa tortilmaydiganlar) o‘z manfaatlari bilan muvofiqligini ta’minlab bera olsalar, unda ularning foydasini davlat budjeti daromadlarini tashkil etuvchi manbalar bilan teng xususiyatga ega ekanligidan xulosa chiqarish mumkin, chunki korxonalar ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini nomarkazlashtirilgan yo‘llar bilan qondirish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. YA’ni ishlab chiqarish korxonalarini moddiy rag‘batlantirish, korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti uchun foydadan mablag‘lar ajratib berish va h.k.lar nazarda tutilmoqda.

Ta’kidlash lozimki, foydadan shunday bir ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkich sifatida foydalanishlari lozimki, bu ko‘rsatkich nimaiki jamiyat manfaatlariga javob bersa (davlat budjetining taqsimoti orqali) shu narsa korxonalar va ularning xodimlari manfaatlariga yoki nomarkazlashtirilgan mablag‘larni foydadan ajratiladigan qismiga xos bo‘lishi kerak [20]. Odatda, taraqqiy etgan mamlakatlarda korxonalar va ularning xodimlari o‘z ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini budjetdan ajratmalar hisobidan qondirishdan ko‘ra nomarkazlashtirilgan yo‘l orqali, ya’ni foydaning bir qismini shu manfaatlarga sarflanishi ko‘proq afzalliklarga ega deb kelinmoqda [21-23]. Darhaqiqat, bu shundaydir. Foydaning bir qismini soliq shaklida budjetga o‘tkazilishi va korxonalar manfaatlarini qondirish maqsadida yana o‘sha ajratmalar atrofida mablag‘larni olish, sarflash juda ko‘p qiyinchiliklar va ziddiyatlarni keltirib chiqarishga sabab bo‘lmoqda. Lekin bunday hamma foyda nomarkazlashtirilgan holda taqsimlanishi zarur degan fikrni keltirib chiqarmaydi, ammo soliq stavkalari orqali tushumlarni har ikkala manfaatlarni inobatga olgan holda tartiblashtirilib turilishini taqozo etadi.

Buni amalga oshirish uchun bozor iqtisodiyoti bosqichma-bosqich, talab darajasidagi iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi muhim tashkillashtirib berish, professional soliq xodimlarining tayyorlanish yo‘llarida olib borilayotgan va hayotga tatbiq etilayotgan chora-tadbirlarning majmuiga e’tiborni qaratish lozim. Ushbu vaziyatda foyda kategoriyasini, davlat budjeti xarajatlar harakatini korxona foyda taqsimoti bilan o‘zaro bog‘liqligini talqin etishligi orqali belgilanishi muhim ahamiyatga ega.

Ammo, shuni aytib o‘tish kerakki, rus olimlaridan R.G.Popova, I.N.Samonova va I.I.Dobroserdovalar o‘z navbatida foydani ilmiy abstraksiya sifatida qarab, YAIM, qiymat va qo‘shimcha qiymatni shakllantirish va foydalanish yuzasidan vujudga keladigan ishlab chiqarish munosabatlarini aks ettirishini e’tirof etishadi [24]. Foyda o‘z tabiatiga ko‘ra qo‘shilgan qiymat shaklidir. Shunday ekan, o‘rni kelganda foydani soliqqa tortish yoki soliq obyekti sifatida shakllantirish va tartibga solish zarurdir. Buning sababi foydani takror ishlab chiqarishning turli fazalarida iqtisodiy munosabatlarning tashkil etilishi, foydani qiymatdan, qiymatni esa narxdan farq qilish, foydaning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag‘larini tashkil etishi, barcha korxonalarning foyda bilan ishlashini ta’minlash, soliq tizimida turli ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarni tartibga solib turuvchi vosita sifatida foydalanishi bo‘lib hisoblanadi.

Umuman olganda, foyda solig‘ining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati quyidagi u bilan bog‘liq moliyaviy resurslar harakatlar xususiyatlarini keltirib o‘tish joiz:

1. Barcha soliqlarga xos xususiyat sifatida foyda solig‘i bo‘yicha ham to‘lovchi o‘z foydasidan soliqni davlat budjetiga to‘lagan holda uning o‘rniga hech qanday moddiy ko‘rinishda naf olmaydi. Balki qonun yo‘li bilan belgilab qo‘yilgan miqdorda va muddatda hisoblangan foyda solig‘ini o‘tkazadi. Bu xizmat uchun to‘lov, ruxsatnoma (litsenziya) va boshqa shunga o‘xshash to‘lovlardan farq qiladi.
2. Foyda solig‘ining optimal stavkasi belgilanishi va ma’lum bir jamg‘armaga kelib tushishi ta’minlanadi. Bu davlat budjetining kerakli miqdorda to‘ldirilishi va soliq to‘lovchilar manfaatlariga mos holda undirilishi bilan izohlanadi.

Ta’kidlanishicha, to‘g‘ri soliq miqdorining yuqori bo‘lishi iqtisodiyotning bir tekisda barqaror rivojlanishidan darak beradi [25]. Bunday holning qayd etilishi to‘g‘ri soliqlar tarkibida foyda solig‘i asosiy o‘rinni egallashidan yana bir bor dalolat beradi.

Foyda solig‘i mohiyatini shu tartibda yoritar ekanmiz, uni foyda solig‘i doirasidagi munosabatlar nuqtayi nazardan o‘rganish muhimdir. Foyda solig‘i o‘z mohiyatiga ko‘ra davlat budjeti va xo‘jalik subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Foyda solig‘ining iqtisodiy mohiyatini ochib berishda, uni qat’iy, doimiy takrorlanib turadigan voqelik deb qarash zarur. Chunonchi, foyda solig‘i – bu moliyaviy kategoriyadir. Foyda solig‘i doimiy, qaytarilib turadigan moliyaviy, ya’ni pul munosabatlaridir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, foyda solig‘i hamma pul munosabatlarini emas, balki soliq obyekti bo‘lmish foyda (daromad)ni taqsimlash, qayta taqsimlashdagi pul munosabatlarini ifodalaydi.

Foyda solig‘ining mohiyatini ochishda, eng avvalo, uning majburiy to‘lov xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatib o‘tish va shu orqali uning mazmunini tadqiq qilish zarur. To‘g‘ri, foyda solig‘i munosabatlarida majburiylik mavjud, bu majburiylik demokratiyaning oliy timsoli bo‘lmish parlament qarori, ya’ni qonun bilan kiritiladi, davlatning qattiq talabi e’tiborga olinadi. Demak, foyda solig‘idagi majburiylik huquqiy demokratik meyorlar asosida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan kiritiladi.

Qolaversa, foyda solig‘i mazmuni ostida uzoq muddatga mo‘ljallangan majburiy pul harakatiga mansub munosabatlar yotadi.


Foydani solig‘i obyekti sifatida hayotga tatbiq etish, uning fundamental asoslarini aniqlab olishsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Buning uchun, eng avvalo, foyda va unga tegishli bo‘lgan meyorlar, uning iqtisodiy chegarasiga aniqlik kiritish zarur bo‘ladi. Ana shu vaziyat 1992-2020 yillar davomida foydani aniqlash va uni soliq obyektiga mos keluvchi iqtisodiy chegarasini aniqlash bilan bog‘liq murakkab usullarni qo‘llash mexanizmlarini ishlab chiqish va amalda foydalanish bilan xarakterlanadi.

A.Y. Ilinning fikriga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, foyda solig‘i davlatning moliyaviy jarayonlar rivojlanishiga faol ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega soliqlardan biri hisoblanadi [26].

Tadbirkorlik subyektlari foydani qo‘lga kiritgach qanday taqsimlaydi, qanchasi uning daromadi bo‘lib qoladi, bu tadbirkor xohishi yoki uning qarori bilan amalga oshiriladi. Shu bois foyda nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaratish, ayniqsa hozirgi sharoitda muhim bo‘lib hisoblanadi.

Shu boisdan korxona olayotgan foydasini oshirishga intiladi. Foyda moliyaviy kategoriya sifatida investitsiyalangan kapitaldan olingan daromadda ham o‘z aksini topadi.

Hozirgi sharoitda foydani taqsimlashda korxonada ishlab chiqilgan va tasdiqlangan moliya siyosatiga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



1-rasm: Foydani taqsimlash sxemasi*

*Muallif ishlanmasi


Foyda barcha korxonalarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarishi muhim moliyaviy manbasi sifatida undan samarali foydalanish tamoyillari asosida ish yuritilishi lozim deb hisoblaymiz. Tijorat asosida faoliyat yurituvchi korxonalar bozor iqtisodiyoti sharoitida strategik va taktik maqsadlarga ega bo‘lgan holda, ularning aksariyati foyda olishga intiladi va unga erishishga muvaffaq bo‘lishadi.

Foydani oqilona taqsimlashda asosiy e’tibor iste’mol va innovatsion investitsiyaga yo‘naltirilgan ulushlarning mutanosibligini optimallashtirishga diqqatni qaratish muhimdir. Bunda foydani taqsimlashning asosiy tamoyillariga rioya qilinishi zarur (2-rasm).

Chunonchi foydani taqsimlash korxona rivojlanishining umumiy strategiyasi doirasida quyidagilarni ta’minlashga qaratilishi lozim:

- investitsion resurslar hajmining oshishi;
- bozor qiymatining ko‘tarilishi;
- korxona ishchi-xodimlarining moddiy qiziqishlari;
- kadrlar tayyorlash;

- xorijiy tajribalarni o‘rganish;
- innovatsion va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish;
- eksport salohiyatini oshirish.



2-rasm: Foydani taqsimlashning asosiy tamoyillari*

*Muallif ishlanmasi

Har bir korxona qabul qilingan qarorga muvofiq foydani taqsimlash yo‘nalishlarini belgilaydi. Foydani taqsimlashda quyidagi holatlar muhim rol o‘ynaydi:

- korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli;
- amaldagi qonunchilik: foyda faqat rahbarning qaroriga binoan emas, balki ta’sischilar umumiy yig‘ilishining qaroriga binon taqsimlanishi lozimligi;
- tasdiqlangan foydaning manzilli ishlatilishini belgilovchi biznes-reja.

Unga ko‘ra foydani boshqarishda korxonaga taalluqli axborotlarni shakllantirish lozim bo‘ladi. Bu faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish, muqobil moliyaviy qarorlarni qabul qilish, korxonaning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikada iqtisodiy islohotlarning yanada chuqurlashuvi, jahon bozorida globallashuvning kuchayishi moliyaviy hisobot va uning ma’lumotlariga yangicha talablarni qo‘ymoqda. Bu esa foydaning shakllanishi va taqsimlanishi xususidagi ma’lumot olish imkoniyatlarini oshirishni taqozo etmoqda.

Ma’lumotlar bazasini kengaytirish va ta’minlash korxona faoliyatining strategiyasi va taktikasini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Xo‘jalik faoliyati natijasida olingan foyda faoliyat yo‘nalishlari mohiyatini ochib berishi kerak, aks holda bunday ma’lumot boshqaruv qarorlarini qabul qilishda xato fikr uyg‘otishi mumkin.

Shu bois ham bizning nazarimizda, foydani taqsimlash xususidagi ma’lumotlarni shakllantirishda uslubiy muammolar ko‘zga tashlanmoqda. Ayniqsa, foydani taqsimlash yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash, bu xususidagi ma’lumotlarni o‘z vaqtida va aniq aks ettirish, ularni moliyaviy hisobotda oshkor etishdagi kamchiliklar ayni kunda hal qilinishi dolzarb muammolar qatoriga kiradi.

Mazkur muammolarni hal qilishda, avvalo, moliyaviy natijalar konsepsiyasini ishlab chiqish, moliyaviy natijalar xususidagi axborotdan foydalanuvchilarning qiziqish doirasini to‘g‘ri belgilashga alohida e’tibor qaratish lozim.

Iqtisodiy modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy natijalar konsepsiyasi o‘zida keng ma’noni qamrab oladi. Bu esa, o‘z navbatida, moliyaviy natijalar hisobida hal qilinishi zarur bo‘lgan vazifalarni qo‘yadi. Shuni ta’kidlash joizki, meyoriy hujjatlar moliyaviy natijalar konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etishga zamin yaratishi mumkin.

Shunday qilib, foyda iqtisodiy kategoriya sifatida keng tushuncha bo‘lib, uning mazmunini tushunish, avvalo, foydadan manzilli foydalanuvchining maqsad va vazifalariga bog‘liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Foydani soliqqa tortish mexanizmi qaysi bir tarmoq bo‘lmasin, soliq siyosati qoidalariga, soliq tamoyillariga amal qilgan holda ularning rivojlanishi uchun o‘z ta’sirini ko‘rsata olishi lozim. Agarda iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda foydani soliqqa tortish mexanizmi elementlari ojizlik qilsa, unda uni tartibga keltirish (turli matematik

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

hisob-kitoblardan foydalangan holda), soliq elementlari o‘rtasida bog‘liqlikni maqbullashtirish yoki ularni soliq elementlari tarkibidan chiqarib o‘rniga yangi elementni kiritish orqali qo‘yilgan maqsadga erishishning shaffofligini ta’minlashga xizmat qilishi zarur.

Yuridik shaxslar foydasini soliqqa tortishda korxonalar faoliyatini rag‘batlantiruvchi siyosat olib borilayotganligiga qaramay, qayta ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati biz ko‘zlagan foyda keltiruvchi darajada ko‘tarilmagan. Ularning aksariyati, bir tomondan, mavsumiy xususiyati bilan ajralib kelayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan bir kun hisobidan to‘liq quvvatda ishlamasligi, ular faoliyatini yuqori rentabellik darajaga ko‘targani yo‘q. Bu shundan dalolat beradiki, yirik korxonalar aktivligi yuqori bo‘lganligi oqibatida juda yuqori foyda solig‘i stavkasining salbiy ta’siri bir qancha davr o‘tganidan so‘ng subyektlar faoliyati samaradorligiga aks ta’sir etuvchi vosita sifatida yuzaga chiqa boshlaydi.

Foydani soliqqa tortishda innovatsion yondoshuv, uni takomillashtirish strategiyasi moliyaviy mexanizmini tartibga solishni ta’minlashi zarur. Bu orqali korxonalar foydasini soliqqa tortish elementlarini, ya’ni soliq stavkasi, soliq bazasi, soliq imtiyozi, soliq to‘lash muddatlari kabilar o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni optimal chegaralarda saqlanishiga imkoniyatlar yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Лабынцев Н.Т., Цепилова Е.С. Исследование взаимосвязи бухгалтерского (финансового) и налогового учёта прибыли в России и за рубежом. //Проблемы экономики. 2013. №3. – с. 8.
2. Гомозов В.В., Зарюгина А.С. Угрозы экономической безопасности России и пути их решения. //Экономическая безопасность личности, общества, государства: проблемы и пути обеспечения. – СПб: 2019. – с. 450.
3. Haydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. – T.: Akademiya, 2007. – 54 b.
4. Hicks J. R. The theory of uncertainty and profit //Economica. – 1931. – №. 32. – С. 170-189.
5. Алиева С.С. Совершенствование формирования и распределения прибыли предприятий в условиях модернизации экономики. (на примере предприятий Самаркандской области). Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Т.: БФА, 2011. – с. 9-10.
6. Мануйленко В.В., Садовская Т.А. Экономическая сущность, виды и функции прибыли хозяйствующего субъекта: современный аспект. //Финансовая аналитика: проблемы и решения, 2012. №33. – с. 26.
7. Needles B.E., Anderson H.R., Caldwell J.C. The basic principles of accounting. //Publishing House Arc. – 2000.
8. Покропивный С.В. Экономика предприятия: Учебник. – Київ: КНЕУ, 2017. – 608 с.
9. Поддерьогин А.М. Финансы предприятий. Учебник. 3-е изд., перераб. и доп. – Київ: КНЕУ, 2013. – 460 с.
10. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – М.: ИНФРА-М, 2016. – 244 с.
11. Юркова Т.И., Юрков С.В. Экономика предприятий. Учеб.пос. – М.: ГАЦМиЗ, 2013. – с. 41.
12. Салов А.И. Экономика. Краткий курс лекций. 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт, 2016. – с. 197.
13. Селезнева Н.Н., Ионова А.Ф. Финансовый анализ. Управление финансами. Учеб. пособие для вузов – 2-е изд., перераб. и доп. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007 – с.159
14. Миляков Н.В. Налоги и налогообложение. Курс лекций. – М.: ИНФРА-М, 1999. – с. 72.
15. Донцов Р. Д. Экономическая сущность прибыли организации // Электронный сборник трудов молодых специалистов Полоцкого Государственного университета. Выпуск 31 (101). Новополоцк: ПГУ, 2020. – С. 149.
16. Zaripov X.B. Soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga ta’sirini baholash yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss.avtoref. – T.: 2020. – 14-b.
17. Vahid N., Reza Dehghanpour M., Nasirizadeh H. Comparison between accounting profit and economic profit and its effect on optimal point of production. //European Online Journal of Natural and Social Sciences. 2013. T.2. – №3. – pp. 493-499.
18. Raximov M.Y., Kalandarova N.N. Moliyaviy tahlil. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 330 b.
19. Глухов В.В. Менеджмент: для экономических специальностей. – СПб: Питер Пресс, 2017. – С. 600.
20. Букач Б.А. Проблемы оценки эффективности в теории налогообложения. //Экономика и пребпринимательство. – М.: 2015. №5-2. – с. 192.
21. Shapiro B.P., Cohen N.M., Naughton M. Leviticus on How to Make and Distribute Profit. //Society and Business Review, Vol. 8. №1. – pp. 45-54
22. Malani A., Posner E.A. The Case for For-Profit Charities. //Virginia Law Review. 2007. – pp. 2017-2067
23. Navarra C., Tortia E. Employer Moral Hazard, Wage Rigidity, and Worker Cooperatives: A Theoretical Appraisal. // Journal of Economics Issues. 2014. T. 48. №3. – pp. 707-726.
24. Попова Р.Г., Самонова И.Н., Добросердова И.И. Финансы предприятий. – СПб: Питер, 2005. – С. 47.
25. Tashmuradov T. Soliq nazariyasi va tizimi. Darslik. – T.: Bilim, 2004. – 63 b.
26. Ильин А.Ю. Налог на прибыль организаций: актуальные вопросы налогообложения. – М.: Проспект, 2021. – с. 4.

SURXONDARYO VILOYATIDA AHOLINING UY-JOY BILAN TA'MINLANGANLIK DARAJASINI TAHLILI

Ibragimov Qobil To'xtamishovich
Termiz davlat Pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi tahlil qilingan. Surxonadaryo viloyati misolida 2017–2023-yillarda kreditni hisobga olgan holda uy-joy sotib olish imkoniyati indeksini hisoblab chiqildi. Shuningdek, 2022-yil uchun huddudagi aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi hisoblanib, me'yorlashtirildi. Viloyat tumanlari aholisining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasini "juda past" (10,7–12,0), "past" (13,0–15,0) va "qoniqarli" (15,0 dan yuqori) baholash uslubiyati $\left[\frac{C \cdot ZY}{YD}\right]$ mezoni hisobiga takomillashtirilgan.

Kalit so'zlar: aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi, kreditni hisobga olgan holda uy-joy sotib olish imkoniyati, me'yorlashtirish.

Abstract: This article analyzes the level of housing provision of the population. In the case of Surkhonadarya region, the housing affordability index was calculated taking into account the loan in 2017-2023. Also, the level of housing provision of the population in the area for 2022 was calculated and standardized. Methodology for assessing the level of housing provision of residents of regional districts as "very low" (10.7–12.0), "low" (13.0–15.0) and "satisfactory" (above 15.0) improved at the expense of the criterion $\left[\frac{C \cdot ZY}{YD}\right]$.

Key words: the level of housing provision of the population, the possibility of buying a house taking into account a loan, standardization.

Аннотация: В данной статье анализируется уровень обеспеченности жильем населения. В случае Сурхонадарьинской области индекс доступности жилья рассчитан с учетом кредита в 2017–2023 годах. Также рассчитан и нормирован уровень обеспеченности жильем населения района на 2022 год. Уровень обеспеченности жильем жителей районов района "очень низкий" (10,7–12,0), "низкий" (13,0–15,0) и "удовлетворительный" (15,0 выше) методика оценки. улучшается по критерию $\left[\frac{C \cdot ZY}{YD}\right]$.

Ключевые слова: уровень обеспеченности жильем населения, возможность приобретения дома с учетом кредита, стандартизация.

KIRISH

Sir emaski, turar joy kishi hayotidagi birlamchi masalalardan birridir. Aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi aholi uchun mavjudligi farovonlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biridir. Mamlakatimizdagi aholining sezilarli qatlami yoshlar va o'rta yoshlardan tashkil topgan. Demakki, aholining uy-joy bilan ta'milanganlik darajasini tahlil qilish va ushbu ko'rsatkichni yanada yaxshilash mamlakatimiz iqtisodiyotining dolzarb muammolaridan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Keling, aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik masalasiga to'xtalaylik. Ushbu masala bilan xorij va mahalliy olimlar izlanishlar olib brogan va o'z fikrlarini ilgari surgan. Xususan, mamlakatda aholining uy-joy bilan ta'milanganlik darajasini o'rganishda M.R Sadikov ilmiylar izlanish olib borgan. Muallif tomonidan ushbu maqolasida Rossiya federatsiyasining 2000-2014 yillar uchun tahlili qiligan. E. V. Sokolova rivojlangan davlatlarda uy-joy ta'minotini tahlil qilgan. Muallif ushbu maqolada G 7 mamlakatlardagi aholining uy-joy bilan ta'milanganlik darajasini baholagan. K.Shishkina, E. Kashina, K.Chepeleva va Z.Shemelevalar uy-joyning arzonligini baholashning zamonaviy usullarini tadqiq qilgan. Shuningdek, Tambov texnika universiteti izlanuvchilari С. П. Спиридонов, О. П. Штанько lar ham mazkur mavzuga atroficha yondashgan[1]. Ushbu maqolada mualliflar Rossiya Federatsiyasida uy joy bozorini SWOT tahlil qilishgan.

1 С. П. Спиридонов, О. П. Штанько Жилищная обеспеченность регионов как один из основных факторов улучшения качества жизни населения

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma'lumotlarni guruhlash, qiyosiy tahlil, analiz va tizimli tahlil, taqqoslash hamda analitik baholash usullaridan unumli foydalanildi. Bundan tashqari, muallif tomonidan solishtirish va mezonlashtirish ishlari amalaga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Hudud aholisining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasini tahlil qilish rivojlangan mamlakatlarda ushbu ko'rsatkichni qaraylik. So'ngra MDH davlatlari bo'yicha va eng so'nggida mamlakatimiz viloyatlari bo'yicha tahlilini kuzataylik. Ushbu hisob-kitoblar uy-joy uchun bozorning o'rtacha bahosi va aholi jon boshiga daromadning o'rtacha arifmetik qiymatlari uchun amalga oshiriladi;

Bu yerda har bir oilada o'rta hisobda 3 nafar aholi bor, xonadonning o'rtacha maydoni (har bir kishi uchun hisoblangan.

$$K = \frac{C \cdot 54}{(DC \cdot 12) \cdot 3} \quad (1)$$

Bu yerda K – uy-joydan foydalanish koeffitsiyenti

C – 1m^2 – uyning 1 yillik narxi,

DC – bir kishi uchun oyiga to'g'ri keladigan daromad.

Yuqoridagi ifodani hududning iqtisodiy va demografik holatidan kelib chiqib o'zgartirishni taklif etamiz.

$$K = \frac{C \cdot ZY}{(YD) \cdot} \quad (1)$$

C – 1m^2 – uyning 1 yillik narxi;

ZY – bir kishi uchun normal yashashi uchun zarur bo'ladigan yer maydoni

YD – oilaning bir yillik daromadi

Umuman olganda, kreditni hisobga olgan holda uy-joy sotib olish imkoniyati indeksi quyidagicha aniqlanadi:

KBUS – kredit bilan uy-joy sotib olish imkoniyati indeksi [11].

Bu yerda:

ε – oila daromadining kreditni to'lashga sarflanishi mumkin bo'lgan maksimal ulushi (qabul qilingan 0,5);

RMT-uy-joy sotib olish uchun ishlatiladigan kredit bo'yicha oylik to'lov(pul birligida)

$$\text{KBUS} = \frac{\varepsilon \cdot DC \cdot 3}{\text{RMT}} \cdot 100\ \% \quad (2)$$

Keling, rivojlangan ba'zi mamlakatlarda uy-joy bilan ta'minlanganlikning tahlilini qaraylik [12].

1-jadval: Rivojlangan G 8 mamlakatlarida uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi

Mamlakat	1 kishiga to'g'ri keladigan yashash maydoni
1.AQSH	69,7
2.Avstraliya	62,4
3.Buyuk Britaniya	44
4.Germaniya	42,9
5.Fransiya	39,9
6. Kanada	40
7.Koreya Respublikasi	40,8
8. Rossiya Federatsiyasi	25,2

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, G8 mamlakatlarida tahlil qilinayotgan ko'rsatkich qiymati 25,2 dan 67,7 gacha qiymatlarni qabul qilmoqda. O'rtacha qiymatda esa tahlil qilingan mamlakatlarda 45,6 ni tashkil etmoqda. Eng past qiymatga ega mamlakat Rossiya Federatsiyasi bu borasida bir kishi boshiga 30 kvadrat metrni ta'minlash darajasiga faqat 2030-yilga qadar erishish rejalashtirilgan [6].

Agar tahlilni MDH mamlakatlari misolida qaralsa, 2023-yilda mamlakatimiz 18,5 m^2 natija bilan 7-o'rinni egallagan [10]. Bu o'rinda hukumatimiz tomonidan so'nggi yillarda aholining sifatli uy joy bilan ta'minlashga doir bir qancha amaliy ishlar qilinmoqda [11].

Mamlakatimizda bu ko‘rsatkich 2022-yilning 1-yanvar holatiga respublika bo‘yicha o‘rtacha bir kishiga to‘g‘ri keladigan uy-joy maydoni 18,2 m² ni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan o‘rtacha 2,2 m² ga ko‘paygan).

Bir kishiga to‘g‘ri keladigan uy-joy bilan ta’minlanish darajasining eng yuqori ko‘rsatkichi Xorazm (24,3 m²) va nisbatan kichik ko‘rsatkichi esa Andijon (13,3 m²) viloyatlarida qayd etilgan.

Agar Surxondaryo viloyati miqyosida 2010–2022-yillar bo‘yicha tahlil qilinganda esa 2-jadvalni ko‘rish mumkin.

2-jadval: Aholining uy-joy bilan ta’minlanish darajasi[2] [3]

	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Surxondaryo viloyati	12,8	13,9	13,7
Termiz sh.	13,9	14,4	14,3
Oltinsoy	16,5	13,8	13,5
Angor	14,5	14,9	14,7
Bandixon	12,7	14,5	14,2
Boysun	17,3	15,7	15,4
Muzrabot	12,3	12,2	12,0
Denov	10,6	14,3	14,1
Jarqo‘rg‘on	10,2	15,0	14,7
Qumqo‘rg‘on	10,3	10,9	10,7
Qiziriq	12,0	12,3	12,0
Sariosiyo	13,4	14,2	13,9
Termiz	17,3	20,8	20,6
Uzun	13,4	13,4	13,2
Sherobod	14,4	12,0	11,7
Sho‘rchi	10,7	14,8	14,4

Jadval tahlil qilinganda viloyat bo‘yicha bir nafar aholi uchun to‘g‘ri keladigan uy-joy maydoni 13,5 m² qiymati atrofida o‘zgarib turganligini kuzatish mumkin.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, hududning Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on, Jarqo‘rg‘on, Denov tumanlaridan bir nafar aholiga to‘g‘ri keladigan uy-joy maydon o‘rtacha 10 m² atrofida, Qiziriq, Muzrabot, Bandixon, Termiz shahri uchun 12 m² dan 13,9 m² gacha bo‘lgan oraliqda o‘zgargan bo‘lsa, Sherobod hamda Angor tumanlarida bu ko‘rsatkich 14 m² atrofida qiymatni qabul qilgan. Termiz, Boysun va Oltinsoy tumanlarida 16,5 m² va undan yuqori qiymatlarni qabul qilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, hudud uchun bir nafar aholiga to‘g‘ri keladigan uy-joy maydoni qiymatini oshirish zaruriyati dolzarb masaladir. Demak, yaqin yillarda rejalashtirilayotgan uy joy qurilish massivlarini tanlayotganda Termiz, Boysun va Oltinsoy tumanlarining imkoniyatini hududning qolgan tumanlariga nisbatan yuqoriroq deb hisoblasa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2022-yil uchun hududdagi aholining uy-joy bilan ta’minlanganlik darajasini me’yorlashtirib quyidagi jadval hosil qilindi. Me’yorlashtirish uchun ushbu formuladan foydalanildi [4].

$$X_n = \frac{X - X_{min}}{X_{max} - X_{min}} \text{ [1]}$$

3-jadval: 2022-yil uchun huddudagi aholining uy-joy bilan ta’minlanganlik darajasi[3]

Hudud nomi	Bir nafar aholiga to‘g‘ri keladigan uy-joy maydoni, kv.m	Me’yorlashtirilgan qiymat
Surxondaryo viloyati	13,7	0,(30)
Termiz sh.	14,3	0,(36)
Oltinsoy	13,5	0,(28)
Angor	14,7	0,(40)
Bandixon	14,2	0,(35)

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining surxonstat.uz sayti ma’lumotlari.

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining surxonstat.uz sayti ma’lumotlari.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Boysun	15,4	0,(47)
Muzrabot	12,0	0,(13)
Denov	14,1	0,(34)
Jarqo‘rg‘on	14,7	0,(40)
Qumqo‘rg‘on	10,7	0
Qiziriq	12,0	0,(13)
Sariosiyo	13,9	0,(32)
Termiz	20,6	1
Uzun	13,2	0,(25)
Sherobod	11,7	0,(10)
Sho‘rchi	14,4	0,(37)

Yuqoridagi [1] formula orqali hududdagi uy-joydan foydalanish koeffisentini topish masalasini qaraylik hamda kredit bilan uy-joy sotib olish imkoniyati indeksini hisoblaylik. Olingan statistik ma’lumotlarga ko‘ra bir oilaga 2 nafar farzand to‘g‘ri kelmoqda. Demak, [1] formuladagi 3 ning o‘rniga 4 ni qo‘yib hisoblash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

$$K = \frac{C \cdot 54}{(DC \cdot 12) \cdot 4}$$ [2]

Demak, yaqin yillarda rejalashtirilayotgan uy joy qurilish massivlarini tanlayotganda Termiz, Boysun va Oltinsoy tumanlarining imkoniyatini hududning qolgan joylariga nisbatan yuqoriroq deb hisoblasa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Hudud aholisining kreditni hisobga olgan holda uy-joy sotib olish imkoniyati indeksini formula orqali aniqlaylik.

$$\text{KBUS} = \frac{\varepsilon \cdot DC \cdot 3}{\text{RMT}} \cdot 100\ \%$$ [3]

ε – oila daromadining kreditni to‘lashga sarflanishi mumkin bo‘lgan maksimal ulushi (qabul qilingan 0,5);
RMT – uy-joy sotib olish uchun ishlatiladigan kredit bo‘yicha oylik to‘lov(pul birligida)
DC – bir kishi uchun oyiga to‘g‘ri keladigan daromad.

4-jadval: Hudud aholisining uy-joy sotib olish uchun ishlatiladigan kredit bo‘yicha oylik to‘lovini hisoblash[4]

Yillar	Bir kishi uchun oyiga to‘g‘ri keladigan daromad (DC)	Uy-joy sotib olish uchun ishlatiladigan kredit bo‘yicha oylik to‘lov (RTM)	Kreditni hisobga olgan holda uy-joy sotib olish imkoniyati indeksini (KBUS)
2017	1 108 795	845 465	1,97
2018	1 351 620	987 465	2,05
2019	1 775 617	1 145 780	2,32
2020	2 100 181	1 412 475	2,23
2021	2 336 746	1 675 465	2,09
2022	2 770 761	1 804 285	1,97
2023	3 277 781	1 958 475	2,12

Ma’lumki, qiymatlar asosida uy-joy bozorlarini arzonlik mezonlari bo‘yicha tasniflash mumkin.

K < 3 da uy-joy bozori qulay; K=3-4 da uy-joy unchalik arzon emas; K>5 uy-joy sezilarli darajada arzon deb hisoblash mumkin [12].

XULOSA O‘RNIDA

Tahlil qilingan 2017–2023-yillarda hududda uy-joy bozorlarini arzonlik mezonlari juda yaxshi. Ushbu koeffisiyenti yanada yaxshilash uchun bizning fikrimizcha, uy-joy bozorlarini arzonlik darajasini oshirish uchun aholining yillik daromadini hisoblashda hudud demografik holatini inobatga olish zarur.

4 Muallif ishlanmasi.

Hudud demografik holatiga ko‘ra viloyat aholisining aksariyat qismi qishloq joylarda istiqomat qiladi. Bu esa hudud aholisining daromadiga dehqonchilik, chorvachilik kabi qo‘shimcha manbalar ijobiy ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Yuqoridagi ifodani hududning iqtisodiy va demografik holatidan kelib chiqib o‘zgartirishni taklif etamiz.

Bu o‘rinda hudud aholisining kreditni hisobga olgan holda uy-joy sotib olish imkoniyati indeksini quyidagi formula orqali aniqlaylik[5].

$$K = \frac{C \cdot ZY}{(YD)\cdot} [4]$$

C – 1m^2 – uyning 1 yillik narxi;

ZY – bir kishi uchun normal yashashi uchun zarur bo‘ladigan yer maydoni

YD – oilaning bir yillik daromadi

Ushbu formula orqali aholining doimiy ish o‘rniga ega bo‘lmagan qismi uchun ham uy-joy sotib olish imkonini beradi. Faqat buning uchun oilaning bir yillik daromadini hudud soliq inespeksiyasidan ro‘yxatdan o‘tkazish talab etiladi. Bu esa hozirda uy-joy sotib olish zaruriyati mavjud bo‘lgan aholining ma’lum qatlami uchun ayni muddaodir.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

1. Advances in Social Science, Education and Humanities Research, volume 392 Ecological-Socio-Economic Systems: Models of Competition and Cooperation (ESES 2019).
2. Muallif ishlanmasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining surxonstat.uz sayti ma’lumotlari.
4. Soatov N.M., Tillaxo‘jayeva G.N. Statistika. Toshkent-2006. 349 bet.
5. Демидова О.М. магистрант, 2 курс, Пензенский государственный университет архитектуры и строительства, Пенза, Россия Старостина К.И. к.э.н., Пензенский государственный университет архитектуры и строительства, Пенза, Россия.
6. Регионы России. Социально-экономические показатели 2018: стат. сб. Росстат. М., 2018. 1162 с.
7. Садыков, Р. М. Жилищная обеспеченность населения как фактор социальной устойчивости территорий / Р. М. Садыков. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2016. – № 14 (118). – С. 612-615. – URL: https://moluch.ru/archive/118/32569/ (дата обращения: 22.01.2024).
8. Соколова Эмма Вадимовна. NovaInfo.Ru – №44, 2016 г. Экономические науки 162 с. ОБЕСПЕЧЕННОСТЬ ЖИЛЬЕМ В РАЗВИТЫХ СТРАНАХ.
9. Старостина К.И. к.э.н., ЭЛЕКТРОННЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ВЕКТОР ЭКОНОМИКИ”. Пензенский государственный университет архитектуры и строительства, Пенза, Россия.
10. Ш.Маматуропова, УзА. Центральный банк оставил основную ставку без изменений.
11. Lex.uz. “Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.12.2021-yildagi PF-33-son. https://uza.uz/posts/546537.
12. ЭЛЕКТРОННЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ВЕКТОР ЭКОНОМИКИ” УДК 332.8: 365.24 МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ОЦЕНКИ ДОСТУПНОСТИ ЖИЛЬЯ.
13. Обеспеченность жильем по странам мира. Housing Statistiks in the Europe-an union URL:http://www.gks.ru/ (дата обращения: 16.03.2019).
14. С. П. Спиридонов, О. П. Штанько Жилищная обеспеченность регионов как один из основных факторов улучшения качества жизни населения.

5 Muallif ishlanmasi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



REVIEW OF METHODOLOGICAL APPROACHES TO ENTERPRISES FINANCIAL CONDITION ANALYSIS

Ismailova Maxbuba Mirxalilovna
PhD in Economics, Assistant professor of the Department of Financial analysis and audit of TSUE

Abstract: In this article based on the analysis of domestic and foreign scientific literature on financial analysis, recommendations for improving the methodology of analyzing the financial situation of the enterprise were developed and a system of measures was presented.

Key words: Financial condition, methodology, horizontal analysis, vertical analysis, liquidity ratios, solvency, profitability.

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliyaviy tahlil bo‘yicha mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan va chora-tadbirlar tizimi taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: Moliyaviy holat, metodologiya, gorizontal tahlil, vertikal tahlil, likvidlik koeffitsiyentlari, to‘lov qobiliyati, rentabellik.

Аннотация: В данной статье на основе анализа отечественной и зарубежной научной литературы по финансовому анализу разработаны рекомендации по совершенствованию методики анализа финансового положения предприятия и представлена система мер.

Ключевые слова: Финансовое состояние, методология, горизонтальный анализ, вертикальный анализ, коэффициенты ликвидности, платежеспособность, рентабельность.

INTRODUCTION

Today, the main problem of the effective functioning of enterprises is the lack of a comprehensive assessment system financial condition, which really helped the management of the enterprise to identify “pain points” and make management decisions. For implementation in the process of analysis and control of financial condition must be formalized in the form of a system indicators. They are an important tool for assessing, planning and managing the activities of enterprises.

The economic nature of the concept of “financial condition of organization” is quite complex, since it reflects the interaction production and financial activities of the enterprise. Lack or improper use financial resources may be the main reason for late payment of settlement documents suppliers for received raw materials, incomplete and irregular supply of production with necessary objects of labor, and accordingly, can cause a deterioration in the results of the enterprise’s plan for volume, nomenclature and production costs, as well as other effective indicators.

LITERATURE REVIEW

The financial situation of the enterprise with its financial resources indicators that describe the level of security, the level of competitiveness and bankruptcy, the state of financial stability and solvency, the ability to fulfill obligations to the state and other economic entities category and includes a set of process results [1].

The financial condition of the enterprise as an economic category characterizes the state of the capital in terms of the ability of the economic entity to conduct its activities, develop and finance itself. That is, it characterizes the level of provision of financial resources of the economic entity, the level of their targeted deployment and effective use, financial relations with other legal and physical entities, description of the state of solvency and financial stability [2].

The financial condition of the enterprise, its property, financial resources level of security, financial stability and solvency, indicators such as the ability to fulfill obligations to the state and other economic entities, competitiveness and the level of bankruptcy contains the complex [3].

Financial condition is an integral indicator of sustainable development and functioning of an economic entity. This indicator is reflected in the system of financial and non-financial indicators, characterizes the effectiveness of economic relations with other business entities, reflects the current and future provision of all business processes with the necessary resources (material, intangible, financial) [4].

Somewhat similar among themselves, methods are proposed by K.S. Alekseev [5], L.S. Vasilyeva [6], A.D. Sheremet [7].

The first block they propose is to conduct a general assessment of the financial condition and its changes during the reporting period. This block includes the construction of an analytical net balance, with the help of which the structure and dynamics of the financial condition are studied. In addition to this block, A.D. Sheremet also includes an analysis of the structure of the enterprise's property, that is, an analysis of the structure and state of funds (assets) and their sources of formation (liabilities). He divides assets into immobilized funds and mobile assets, the latter in turn are divided into inventories and expenses, accounts receivable, cash and securities. Liabilities are divided into own and attracted, the composition of the latter includes long-term and medium-term loans and borrowed funds, short-term loans and borrowed funds and accounts payable [7, p. 126].

K.S. Alekseev and L.S. Vasiliev's analysis of the structure of property and the sources of its formation is isolated as a separate block.

Next block analysis of financial condition, common to these authors, is the analysis of the financial stability of the enterprise, however Vasilyeva L.S. This analysis is carried out using a system of coefficients, and Sheremet A.D. – using absolute indicators, the generalization of which is a three-component indicator of the type of financial stability. Sheremet A.D. identifies four types of financial stability: absolute stability, normal stability, unstable financial situation and crisis financial situation.

The next joint block of the methodology under consideration is analysis of solvency and balance sheet liquidity. The results of this analysis characterize the ability of the enterprise to make regular payments and fulfill monetary obligations using available money and funds and assets that can be easily mobilized.

Alekseev K.S. and Vasilyeva L.S. This block of the methodology is determined by liquidity ratios, and L.S. Vasilyeva defines three levels of solvency: monetary, settlement and liquid solvency. Each level corresponds to assets, grouped by decreasing degree of their liquidity (the reciprocal of the time required to convert them into cash) and liabilities, grouped by their maturity and arranged in ascending order of maturity.

Sheremet A.D. defines four groups of assets (the most liquid assets; assets that are quickly sold; slowly assets being sold; hard to sell assets) and, accordingly, four groups of liabilities (the most urgent liabilities; short-term liabilities, long-term and medium-term liabilities; permanent liabilities). To determine liquidity, the results of the asset and liability groups are compared; the balance is considered absolutely liquid if the first three asset groups are greater than or equal to the corresponding liability groups, and the fourth asset group is less than or equal to the fourth liability group. Based on these data, A.D. Sheremet determines current and future liquidity.

The next component of A.D. Sheremet's technique is an analysis of financial ratios (balance sheet liquidity, autonomy, maneuvering, etc.), on the basis of which a final conclusion is made about the financial condition of the enterprise.

K.S. Alekseev supplements the methodology for analyzing financial condition with the following blocks:

- analysis of the implementation of the financial plan (balance of income and expenses);
- accounts receivable analysis and accounts payable by drawing up a balance sheet of the enterprise;
- analysis of working capital turnover, which is performed using a number of indicators (duration of one revolution, turnover ratio and coefficient of consolidation or loading of working capital).

M.N. Kreinin [8] analysis of financial condition is limited only to an analysis of the solvency and liquidity of the balance sheet, which is carried out on the basis of the calculation of relative indicators.

In the methodology for analyzing financial activity, edited by V.V. Bocharova [9] approach to analysis is somewhat deeper – the assessment is supplemented by a direct study of the enterprise's balance sheet. This is preceded by establishing the degree of reliability of the information contained in the balance sheet by comparing it with other sources of information.

To generalize the analysis of financial activities, the proposed methodology also uses the balance of unplanned investments working capital and their sources. The analysis methodology also includes drawing up an action plan to mobilize reserves and strengthen the solvency of the enterprise.

TARAQQIYOT PROGRESS

This technique is more logical for large industries with the participation of state capital. However, this method, like the previous one, has its drawbacks, namely: limited information base, lack of adjustments for inflation.

Peculiar look on the methodology for analyzing the financial condition of commercial organizations has a team of authors consisting of N.N. Selezneva and A.F. Ionova [10], who believe that the financial position of an enterprise is characterized by a system of indicators that are hierarchically interrelated. At the lower level of the hierarchy there are single indicators of the financial condition of the enterprise, characterizing individual aspects of the state of finances and which can be directly calculated on the basis of the reporting data of the enterprise.

RESEARCH METHODOLOGY

The method of scientific abstraction, the method of induction and deduction, the method of comparison, analytical and logical methods were used in conducting the research.

ANALYSIS AND RESULTS

The above the authors propose the following methodology for analyzing financial condition:

- formation of a system of single indicators (liquidity, solvency, profitability, efficiency of use assets);
- procedure for assessing individual indicators, which involves comparing actual values with normative ones. Standard values of indicators are established in the form of a closed interval (min-max);
- development of a procedure for synthesizing single estimates. The most acceptable method of synthesis of these estimates is to apply the geometric mean of the unit estimates. However, due to the known complexity of calculating the geometric mean, in practice, weighted average values are most often used, which are determined taking into account the significance (weight) of the estimates.

When using various techniques to perform the tasks of assessing the financial condition of an enterprise, it is of fundamental importance has a set of used evaluation indicators that allows one to obtain reasonable conclusion. To carry out the analysis, it is necessary to form a group of indicators that together provide a comprehensive description of the state and prospects of a commercial organization.

Based on research and generalizations of various methodological approaches to assessing the financial condition of an enterprise, three fundamental areas are identified:

- determining the level of supply of reserves as part of the current assets of the enterprise, the sources of their formation;
- calculation of a certain set of coefficients and based on them, research in dynamics and comparison with standard values;
- application of one integrated indicator, which consists of several of the most significant coefficients, determination of the limits of its value to identify the financial condition of the enterprise.

Thus, the main problem of the effective functioning of enterprises is the lack of a comprehensive system for assessing financial condition, which really helped the management of the enterprise would identify “pain points” and make management decisions. To be implemented in the process of analysis and control, the financial condition of a organization must be formalized in the form of a system of indicators. They are an important tool for assessing, planning and managing the activities of enterprises.

We identify three main blocks of the methodology (Figure 1):

- Horizontal analysis;
- Vertical analysis;
- Analysis based on calculation of relative indicators.

Horizontal (time) analysis consists in comparison of each reporting item with the previous period. The advantage of this type of analysis is the ability to obtain the most general idea of the qualitative changes that have occurred in the structure of funds and their sources, as well as the dynamics of these changes.




Figure 1: Blocks of methodology for analyzing the financial condition of an enterprise

The disadvantage of such an analysis is the lack of a mechanism for comparing individual economic options decisions. There is also no provision for the interchange ability of different resources, which eliminates the choice of the optimal option for the development of the economic system; accounting for inflation processes is limited.

Horizontal analysis is quite limited in the following reasons:

- the changes that have occurred characterize actions of past periods, that is, there is no reason to believe that similar trends will continue in the future;
- evaluate efficiency gains without data about the real state of the organization is quite difficult;
- the format of some reporting forms itself should be modified, presenting all numerical data in the form of positive numbers, since in horizontal analysis negative numerical data can cause difficulties in interpretation.

Vertical (structural) analysis allows you to determine the structure of the final financial indicators identifying the impact of each reporting item on the result as a whole.

Vertical financial method analysis is very useful when considering the structure of income and expenses of an enterprise (vertical analysis of the financial results statement).

Advantages: allows you to get the most general idea about the qualitative changes that occurred in the structure of funds and their sources, as well as the dynamics of these changes, such techniques are used in almost all methods.

Disadvantages: do not contain a mechanism for comparing individual options for economic decisions and do not provide for the interchange ability of different resources, which excludes the choice of the optimal option for the development of a commercial organization; limited accounting for inflation.

Based on the synthesis of the results of horizontal and vertical balance sheet analysis, an assessment is made of changes in the enterprise's property and the potential of its real assets, as well as the sources of their formation.

A deeper analysis is based on the calculation of relative indicators. The system of relative indicators includes indicators of the enterprise's solvency, debt, profitability, turnover and others.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

The analysis of financial ratios is in comparison of their values with basic values, as well as in the study of their dynamics over the reporting period and over several years. The values of the enterprise's indicators for the past year, industry averages, and the values of indicators of promising enterprises can be used as basic values.

The structure of the given methodology for analyzing the financial condition of an enterprise is supplemented by some scientists with a block of analysis of development trends, which includes calculations of such indicators as the standard deviation in income, the coefficient of variation of income and others.

CONCLUSION

On based on research and generalization of various methodological

- approaches. There are three fundamental areas for assessing the financial condition of an enterprise:
- determining the level of supply of reserves as part of the current assets of the enterprise, the sources of their formation;
- calculation of a certain set of coefficients and based on them, research in dynamics and comparison with standard values;
- application of one integrated indicator, which consists of several of the most significant coefficients, determination of the limits of its value to identify the financial condition of the enterprise.

References:

1. Economic analysis. Study guide. / M.Y. Rakhimov, N.N. Mavlanov, N.N. Kalandarova; – T.: "Economy-Finance", 2020. – 517 p. (303p).
2. Financial analysis. Textbook. / M.Y. Rakhimov, N.N. Kalandarova; – T.: "Economy-Finance", 2019. – 736 p. (294 p).
3. Khasanov B.A., Rakhimov M.Y., Alikulov A.I., Khajimuratov N.Sh., Kalandarova N.N., Muqumov Z.A., Djumanova A.B., Hasanova R.B. Financial analysis. Textbook. – T.: TDIU, 2022. – 721 p. (249b).
4. Anton Chepulyanis, Natalia Mokina, and Irina Vlasova. Financial Condition as an Object of Accounting and Analytical Support and Internal Control. Ural State University of Economics, 620144 Yekaterinburg, SHS Web of Conferences 93, 02009 (2021) https://doi.org/10.1051/shsconf/20219302009 NID 2020.
5. Alekseev K. S. Methodology for analyzing financial and economic activity of the enterprise / K. S. Alekseev // Economist's Handbook. – 2012. – No. 1. – P.14-25.
6. Vasilyeva L. S. Financial analysis / L.S. Vasilyeva, M. V. Petrovskaya. – M.: KnoRus, 2017. – 880 p.
7. Sheremet A.D. Methodology of financial analysis / A.D. Sheremet, R.S. Saifulin. – M.: INFRA-M, 2015. – 176 p.
8. Kreinin M.N. Financial condition of the enterprise: Assessment methods. – M.: DIS, 2011. – 224 p.
9. Bocharov V.V. Financial analysis / V.V. Bocharov. Textbook Benefit. – St. Petersburg: Peter, 2014 – 218 p.
10. Selezneva N.N. Financial analysis / N.N. Selezneva, A.F. Ionova – M.: Unity, 2014. – 479 p.

INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI TASNIFLANISHINING NAZARIY VA ILMIY ASOSLARI

Masharipova Manzura Alimbayevna
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha PhD, “Ma’mun universiteti” Nodavlat ta’lim muassasasi,Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalari kompleks tahlil qilingan hamda xizmat ko‘rsatish sohalarini tasniflashning ilmiy asoslangan konsepsiyasi taklif etilgan va aniq ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, xizmat,soha, xizmat ko‘rsatish sohasi, xizmat ko‘rsatish tarmoqlari,ta’lim va o‘quv xizmatlari, axborot va aloqa xizmatlari, transport xizmatlari, turistik va mehmonxona xizmatlari, professional,yuridik, ilmiy va texnik faoliyat xizmatlari.

Abstract: This article offers a comprehensive analysis of the theoretical and practical issues of the development of the service and service areas, and offers a scientifically based concept of the classification of service areas and gives specific scientific conclusions.

Key words: innovation, service, sector, service sector, service networks, education and training services, information and communication services, transport services, tourist and hotel services, professional, legal, scientific and technical activity services.

Аннотация: В данной статье проведен комплексный анализ теоретических и практических вопросов развития сферы услуг и сервиса, предложена научно обоснованная концепция классификации сфер услуг и предложены конкретные научные выводы.

Ключевые слова: инновации, сервис, сектор, сфера обслуживания, сети обслуживания, услуги образования и обучения, информационно-коммуникационные услуги, транспортные услуги, туристические и гостиничные услуги, услуги профессиональной, юридической, научной и технической деятельности.

KIRISH

Xizmatlar sohasining rivoji iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasini tavsiflovchi muhim indikatorlardan biri hisoblanadi. Xususan, xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyot va uni harakatlantiruvchi kuchning asosiy segmenti sifatida maydonga chiqib, savdo, bandlik va YaIMning o‘sishini ta’minlashda ham muhim o‘ringa ega.

Bugungi kunda jahon yalpi mahsulotini 70 foizdan ortig‘i xizmat ko‘rsatish tarmoqlari hissasiga to‘g‘ri keladi [1]. Iqtisodiyoti yuksak rivojlangan dunyo mamlakatlarida ham xizmat ko‘rsatish sohasi milliy iqtisodiyotning ustun rivojlangan, birinchi darajali sektoriga aylangan. Chunki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda aholi faravonligi, turmush darajasini oshishi, bevosita mamlakatning iqtisodiy jihatdan salohiyati xizmatlar sohasining rivojlanganlik darajasi bilan ham belgilanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xizmat ko‘rsatish sohasining nazariy-uslubiy muammolari xorijlik iqtisodchilardan I.Ansoff, F.Kotler, Dj.Bouen, Dj.Meykenz, R.Kantilon, M.Mekson, M.Albert, F.Xedouri, P.Doyl, J.J.Lamben, R.Xizrich, M.Piters, F.Xayek, M.Xait va boshqa olimlarning ishlarida tadqiq etilgan. Ularning ilmiy izlanishlarida xizmat ko‘rsatishning yangi shakli va ularni tashkil etishning zaruriyati hamda xizmat ko‘rsatishning tashkil etilishi va samaradorligi kabi masalalar o‘z aksini topgan [2].

Shuningdek, milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda, O‘zbekistonda xizmatlar sohasini shakllantirishning ilmiy-nazariy, tashkiliy-huquqiy va metodologik asoslari respublikamizning iqtisodchi olimlaridan M.Q.Pardaev, M.M.Muxammedov, M.E.Po‘latov, I.S.Tuxliyev.J.Mirzaev va boshqalarning asarlarida keng yoritilgan[3]. Ushbu ilmiy ishlarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari masalalariga ko‘proq e’tibor qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy mushohada, absrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Bugungi kunda mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish tarmoqlari jadal sur’atlar bilan rivojlanib, uning milliy iqtisodiyotni yuksaltirishdagi, yangi ish o‘rinlari yaratishdagi, aholini turmush faravonligini oshirishdagi roli tobora oshib bormoqda. Bu holat bir qancha omillar ta’sirida yuz bermoqda. Bularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- xizmatlarga bo‘lgan talabning obyektiv ravishda barqaror oshib borayotganligi;
- xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirmasdan turib, boshqa sohalarni rivojlantirishning murakkabligi;
- mamlakatimizning barcha daraja va sohalarda jahon integrasiyalashuv jarayoniga kirib borishi;
- xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida yangi ish o‘rinlarini yaratishning nisbatan arzonligi va osonligi;
- ko‘p xizmat turlarining milliyligi, an’anaviyligi va h.k.;

Hozirgi paytda dunyoda, xususan, bizning mamlakatimizda ham xizmat turlarining soni mingtadan oshib ketgan. Ularni o‘rganish va ma’lum darajada tartibga solish uchun ularni tasniflashni taqozo qiladi.


Xizmatlarni ma’lum darajada tartibga keltirish uchun bir qancha halqaro tashkilotlar ham shug‘ullanib kelmoqdalar. Ammo bizning fikrimizcha, xizmatlarni tasniflashda ularning nazariy asosidan, ya’ni birinchi galda, ta’rifidan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir.Xizmat deyilganda insonning, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning, davlatning va jamiyatning ma’lum bir ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog‘liq ongli faoliyati tushuniladi [4].

Shuningdek, xizmatlar sohasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslariga e’tibor qaratsak, iqtisodiy adabiyotlarda “xizmat ko‘rsatish” tushunchasining iqtisodiy mohiyatini ochib berishga harakat qilingan. AQShlik iqtisodchilar Kempell R.Makkonnell va Ctenli L.Bryular “xizmat − bu sezib bo‘lmaydigan (ko‘zga ko‘rinmaydigan) va uning o‘rniga qiymatga ega bo‘lgan qandaydir narsani iste’molchi, firma yoki hukumat tomonidan taqdim etilishidir [5]”, deb ta’rif berishgan. F. Kotler “Xizmatlar – bir tomon ikkinchi tomonga taklif etishi mumkin bo‘lgan har qanday faoliyat yoki ne’mat, biron narsaga egalik qilish imkonini bermaydigan foydali harakat [6]” deb ko‘rsatgan.


Mamlakatimizdagi iqtisodchi olimlardan I.C.Ochilov “Xizmat deganda, insonning, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning, davlatning va jamiyatning ma’lum ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog‘liq ongli faoliyati tushuniladi [7]”, deb hisoblaydi. M.M.Muhammedov xizmat ko‘rsatish sohasini inson nuqtayi nazaridan qarab, aholining sog‘lig‘iga, kayfiyatiga, mehnatga munosabatiga, ishchi xodimlarning mehnat unumdorligiga, o‘z hayotidan rozilik darajasi va xursandliligiga, umuman, ishlab chiqarish kuchlarining hayoti va taraqqiyotiga bevosita va sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadigan soha [8]” deb ta’riflagan. J.M.Qurbonov esa xizmat ko‘rsatish “bu insonlarning yaxshilik, ezgulik, manfaat keltirish yo‘lidagi harakati bilan faoliyat olib borishi tushuniladi [9] deb ta’rif bergan. Q.J. Mirzayev xizmat ko‘rsatish sohasini korxonalarning daromad olish nuqtayi nazaridan qarab, “xizmat ko‘rsatish – insonlarning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish subyektlarida yuzaga keladigan, o‘z iste’mol ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan va daromad olishga qaratilgan harakatlar majmuini ifodalovchi faoliyat [10]” deb ko‘rsatgan.

Umuman oladigan bo‘lsak, aholining hayot darajasi va sifatini oshirishda xizmatlar sohasining o‘rni va ta’siri ya’ni iste’mol qilinayotgan xizmatlarning sifati insonlarning turmush darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatib, ularning hayoti sifatini oshirishni ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanmoqda.

Biz o‘z tadqiqotlarimiz asosida, rivojlangan davlatlarda xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini tasniflash uslubiyotlari va ishlanmalarimizda asosan, umumrespublika tasniflagichi negizida xizmatlar sohasi va servisni quyidagicha guruhladik. (1-rasm).



1-rasm: O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasi va servisning guruhlanishi [11]




2-rasm: Axborot va aloqa xizmatlarini guruhlanishi[12]

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS


Yuqorida keltirilgan O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasi va servisning guruhlanishi bo‘yicha bir nechtasini keltirib o‘tamiz. Jumladan,1-rasmda keltirilgan xizmatlar sohasining eng asosiy turlaridan biri bu axborot va aloqa xizmatlari bo‘lib, ular iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini axborot bilan ta’minlash, qayta ishlash, oxir oqibatda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish, aloqa xizmatlarini yangidan-yangi shakllarini tatbiq etish bilan bog‘liqdir. Bunday xizmatlarga nashriyotlar, dasturiy ta’minot muassasalari, radio, kino,televideniye, ovoz yozish, telekommunikasiya tashkilotlari xizmatlari kabi bir qator xizmat turlari kiradi.(2-rasm)

Shuningdek, o‘quv va ta’lim xizmatlari tarkibi keltiradigan bo‘lsak,bular maktabgacha ta’lim, maktab, o‘rta maxsus kasb hunar ta’limi, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim,raqamli ta’lim,masofali ta’lim, sirtqi, maxsus sirtqi kabi ta’lim turlarini o‘z ichiga oladi.(3-rasm)



3-rasm: Ta’lim va o‘quv xizmatlari[13]

Shu bilan birga xizmatlar sohasida yana bir asosiy yo‘nalish transport xizmatlari hisoblanadi.Respublikamizda transport-logistika infratuzilmasi, transport xizmatlari bozori konyukturasi, xizmatlar sifatini oshirish omillari shakllangan, transportda xizmat ko‘rsatishning huquqiy-iqtisodiy asoslari ishlab chiqilgan.Transport korxonalari bilan davlat tuzilmalari orasida samarali iqtisodiy munosabatlar o‘rnatilgan va transport tarmoqlarida raqamli iqtisodiyotga o‘tish mexanizmi yaratilgan. (4-rasm)




4-rasm: Transport xizmatlari tasnifi [14]

Avtomobil transporti mamlakatda xizmatlar ulushida salmoqli o‘rin egallaydi.Chunki transportda nisbatan xarajatlar kam, tannarx past, xizmat ko‘rsatish muddatlari qisqa va qulay, mijozlar talabi bilan yangi xizmatlar tashkil etish imkoniyatlari mavjud, xizmat xarajatlarining o‘zaro manfaatli kelishuv asosida kamaytirish mumkin.

Havo transporti sohasidagi xizmatlar havo transporti vositalari yordamida amalga oshiriladi.Ularga havo transporti infratuzilma obyektlaridan aeroportlar, chipta sotish xizmatlari, parvoz xavfsizligini ta’minlovchi xizmatlar kiradi.


Bugungi kunda mamlakatimizda xizmatlar sohasini xususan, turistik va mexmonxona xizmatlari hajmini oshirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.Shu sababli ularni guruhlash muhim ahamiyat kasb etadi. Turistik va mexmonxona xizmatlari turistik agentliklar faoliyati, turoperatorlar, joy bron qilish bo‘yicha

xizmatlarning boshqa turlari va ular bilan bog‘liq xizmatlar hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar kabi guruhlanadi.(5-rasm)



5-rasm: Turistik va mehmonxona xizmatlari[15]

Bundan tashqari quyidagi 6-rasmda keltirilgan professional, yuridik, ilmiy va texnik faoliyat xizmatlari o‘z ichiga huquq targ‘ibot organlari, advokatlar tomonidan ko‘rsatiladigan yuridik, konsultativ xizmatlarni o‘z ichiga oladi. Ular tarkibida bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlarini yuridik hujjatlarini, buxgalteriya hisobi, audit, kredit, subsidiya, soliq xizmatlari asosiy o‘rin egallaydi.



6-rasm: Professional,yuridik ilmiy va texnik faoliyat xizmatlari[16]

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

XULOSA

Xulosa qilib keltiradigan bo‘lsak, maqolamizda “xizmat” tushunchasining mohiyati, xizmatlarning inson ehtiyojlarini qondirishdagi o‘rni hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishidagi ahamiyati, ayniqsa aholi turmush darajasi va sifatiga ta’siri kabi muhim masalalarning nazariy talqinlari keltirildi. Chunki xizmatlar sohasi yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi bandligini ta’minlashning, uning real daromadlarini o‘stirib borishning va shu asosda aholi turmush farovonligini yangi, yanada yuqori bosqichlarga olib chiqishning asosiy, hal qiluvchi omili hisoblanadi.Shuningdek, xorij tajribasi o‘rganilgan holda xizmatlar sohasi va servisning tasniflanishi keltirildi.Bu o‘z navbatida ushbu tarmoqning rivojlanish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. http// bukvi.ru
2. Masharipova M.A Xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati.Samarqand 2020, 6-bet
3. Masharipova M.A Xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati.Samarqand 2020, 7-bet
4. M.Q.Pardayev va H.N.Musayevlar umumiy tahriri ostida. Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. – T.: Iqtisod-moliya, 2008. – 29 b.
5. Макконнелл К.Р, Брю С.Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2 Т.:Пер.С анг. Т.2. − Таллин, 1993, стр.398.
6. Котлер Ф. Маркетинг-менежмент // Экспресс-курс. 2-е изд. / Перевод с англ. Под ред. Божук С.Г. Спб.: Питер. 2005. С-301.
7. I.S.Ochilov. “Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari”. Monografiya. “Iqtisod moliya”, 2008. 37-b.
8. M.M.Muhammedov. “Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish – ustuvor masala”. “SERVIS”. Ilmiy-ommabop jurnal. 2009- yil, 1-son. 53-b.
9. Q.J.Mirzayev. “Agroservis xizmatlari samaradorligini oshirishning metodologik asoslari”. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2012-y. 49-bet.
10. M.A.Masharipova. Xizmatlar ko‘rsatish va servis sohalarini tasniflanishi: chizma va rasmlarda. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Urganch.2020 yil.18-bet
11. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (2 tahrir) KDES 2 red. – “Yevropa xamjamiyatida iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasnifi” (NACE Rev.2 “Statistikal classification of economic activities in the European Community” / Regulation N 1893/2006).2011-yil. 36-bet.
12. O‘sha joyda
13. M.A.Masharipova. Xizmatlar ko‘rsatish va servis sohalarini tasniflanishi: chizma va rasmlarda. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Urganch.2020 yil.7-bet
14. O‘sha joyda
15. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (2 tahrir) KDES 2 red. – “Yevropa hamjamiyatida iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasnifi” (NACE Rev.2 “Statistikal classification of economic activities in the European Community” / Regulation N 1893/2006).2011-yil.272-bet
16. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (2 tahrir) KDES 2 red. – “Yevropa hamjamiyatida iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasnifi” (NACE Rev.2 “Statistikal classification of economic activities in the European Community” / Regulation N 1893/2006).2011-yil. 36-bet

KORXONALARDA BENCHMARKETING STRATEGIYALARINI QO‘LLASHNING IJTIMOIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

Narziyeva Dilafiruz Muxtorovna
Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola korxonalarda benchmarketing, uning alohida xususiyatlari, benchmarketingni korxonalar faoliyatiga qo‘llashning kamchiliklari va afzalliklari, korxonada benchmarketingni qo‘llashning uslubiy asoslariga doir tahliliy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Benchmarketing, taqqoslash, SWOT tahlili, PEST tahlili, samaradorlik, innovatsiyalar, marketing strategiyalari.

Abstract: This article presents analytical information about benchmarketing in enterprises, its features, disadvantages and advantages of applying benchmarketing in the activities of enterprises, as well as the methodological basis for the use of benchmarketing in enterprises.

Key words: benchmarketing, comparison, SWOT-analysis, PEST-analysis, efficiency, innovation, marketing strategies.

Аннотация: В данной статье представлены аналитические сведения о бенчмаркетинге на предприятиях, его особенностях, недостатках и преимуществах применения бенчмаркетинга в деятельности предприятий, а также методические основы использования бенчмаркетинга на предприятиях.

Ключевые слова: бенчмаркетинг, сравнение, SWOT-анализ, PEST-анализ, эффективность, инновации, маркетинговые стратегии.

KIRISH

Benchmarketing, korxonalar orasidagi muloqot va aylanma muhokama qilish bo‘lib hisoblanadi. Bu usulda, bir korxona boshqa bir korxonadan ma’lumotlarni olishi va ularni o‘z faoliyatlariga qo‘llay olishi mumkin[1]. Ko‘pgina yirik xorijiy korxonalarda o‘zini isbotlagan innovatsion rivojlanishni boshqarishning samarali vositasi bu benchmarketing hisoblanadi. Benchmarketingning mohiyati o‘z korxonangiz ish faoliyatini raqobatchilar va eng yaxshi tashkilotlar faoliyati bilan o‘rganish hamda solishtirish, so‘ngra ularning muvaffaqiyatli tajribasini qo‘llashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Benchmarking xorijiy tadqiqotchilarning ko‘plab ishlarida muhokama qilingan. Benchmarkingning nazariy va amaliy asoslari bir qator xorijiy olimlar R. Kemp, B. Andersen, G. Watson, J. Evans, F. Kotler, GT Terry, R. Domelio, V. Starikova, E.A.Mikhailova, I.P. Danilova, T.V. Danilova, D.V. Maslova, I.T. Balabanova, T.G. Golubeva, O.N.Eliseeva, M.R. Mixaylova va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida bevosita ochib berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etilishi uchun mavjud modellar tahlili o‘tkazildi unda guruhlash, taqqoslama tahlil, statistik tahlil kabi medodlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Lekin mamlakatimizda bu tadqiqot kam o‘rganilgan bo‘lib, xalq xo‘jaligi tarmoqlarida bu kabi marketing strategiyalaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

1 file:///C:/Users/user/Downloads/organizatsiya-benchmarkinga-na-predpriyatiyah-avtomobilnoy-promyshlennosti.pdf

Benchmarketing korxonalarga bozorning boshqa ishtirokchilari tajribasini o‘zlashtirib, sohadagi raqobatbardosh mavqeyini yaxshilash imkonini beradi. Bu jarayonda bir qator muammolar ko‘zga tashlanadi.

1-jadval: Benchmarketingni korxonalar faoliyatiga qo‘llash: kamchiliklar va afzalliklar

Benchmarketingni korxonalar faoliyatiga qo‘llashdagi kamchiliklar	Benchmarketingni korxonalar faoliyatiga qo‘llashning afzalliklari
Ma’lumotlarni olishning qiyinchiligi	Ish faoliyatini takomillashtirish imkoniyati
Ma’lumotlarning faoliyatga xato qo‘llanilishi	Nazorat va rivojlanish imkoniyati
Korxonalar bilan solishtirishda har bir sohaning unikal va faol ekanligi	Korxonaning tezroq rivojlanish imkoniyati
Tadqiqotlardagi tajribaning yetishmasligi	Raqobatchi korxonalar iqtisodiy o‘sish omillaridan foydalanish imkoniyati

Birinchidan, amalda raqobatchilar tomonidan qo‘llaniladigan ish usullari va texnologiyalari haqida mutlaqo to‘liq ma’lumot olish juda qiyin. Bundan tashqari, korxona bunday ma’lumotlarga ega bo‘lsa ham, ma’lum resurslar (moddiy, intellektual, insoniy, tashkiliy) yetishmasligi, shuningdek, bozorlar va biznesning o‘ziga xos xususiyatlarining mavjudligi sababli boshqa birovning tajribasini to‘liq takrorlash mumkin emas.

Ikkinchidan, taqqoslashning o‘ziga xos xususiyati tashkilotning doimiy takomillashuviga yordam beradigan vosita sifatida, uning yuqori samaradorligida ifodalangan, uning ijodiy tarkibiy qismidir.

Har qanday korxona faoliyatida benchmarketing strategiyasini amalga oshirish uchun marketologlar guruhidan iborat bo‘lgan jamoa tuzilishi va loyihalardan iborat bo‘lgan tadqiqot materiallardan unumli foydalanish kerak. Aynan tadqiqotlar va ijodiy fikrlashning sinergiyasi korxonalarga Benchmarketing orqali eng yaxshi natijalarga erishish imkonini beradi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, Benchmarketing asosan jahon standartlari va jahon bozorini boshqaradigan xorijiy hamkorlar bilan hamkorlik qiluvchi yirik korxonalar tomonidan qo‘llaniladi. Eng yirik korporatsiyalar, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilari raqobatdosh ustunliklarni izlashda o‘z kuchlarini yangi boshqaruv usullarini izlash va ishlab chiqishga yo‘naltiradilar. Ushbu tadqiqotlar global xarakterga ega bo‘lib, eng muvaffaqiyatli yechimlar menejmentda alohida sohalarga aylanadi va ular uchun nazariy hamda uslubiy asoslar ta’minlanadi[2].

Shu munosabat bilan biz sanoat korxonalarida benchmarketingni qo‘llashning alohida xususiyatlarini ko‘rib chiqdik.

2-jadval: Korxonada benchmarketingni qo‘llashning uslubiy asoslari[3]

Benchmarketing jarayonining bosqichlari	Benchmarketing vazifalari	Amaliy masalalarni yechish usullari
Rejalashtirish	Korxonaning tashqi va ichki muhitini baholash, yaxshilash yo‘nalishlarini aniqlash	1. SWOT tahlili; 2.PEST tahlili 3.M.Porterning “Raqobatning beshta kuchi” modeli bo‘yicha 4.Tito Kontining tashkiliy o‘z-o‘zini baholash modeli va boshqalar;
Qidiruv	Benchmarketingning mazmuni	Taqqoslash obyektlarini ustuvorlik bo‘yicha tartiblash usuli
	Ma’lumotlarni solishtirish turini tanlash	Sintez usuli

Biz korxonalar faoliyatini inovatsion tahlil qilishda SWOT tahlili va PEST tahlili yo‘nalishlaridan foydalandik. Biznesga shartli ravishda ikki faktorga bo‘linadi va ularga turli omillar ta’sir qiladi:

- mikromuhit: xaridorlar, yetkazib beruvchilar, raqobatchilar, kreditorlar;
- makromuhit: hukumat faoliyati, tabiat hodisalari, jamiyat holati.

PEST tahlili – bu tashkilot faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan makro muhitning barcha omillarini yagona tizimga to‘plashning oddiy usuli hisoblanadi. Bu usul uzoq muddatli rejalashtirish uchun alohida yoki SWOT tahlili bilan birgalikda ishlatilishi mumkin. Keyin ish natijalari SWOT jadvalidagi tahdid va imkoniyatlarning asosini tashkil etadi.

2 https://www.dissercat.com/content/mekhanizm-primeneniya-benchmarkinga-v-mezhdunarodnoi-promyshlennoi-kooperatsii-predpriyatii-

3 https://nauchkor.ru/pubs/issledovanie-faktorov-vliyayuschih-na-razvitie-praktiki-benchmarkinga-na-dalnem-vostoke-5b8ed58a7966e1073081bd89

Tahlil qilish sabablari:[4]

- bozordagi sharoitlar, imkoniyatlar, tahdidlar to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lish;
- biznesni rivojlantirish strategiyasini aniqlash;
- raqobatlashish usulini tanlash;
- xatarlarni boshqarish.

PEST tahlili to‘rtta omil guruhining qisqartmasi hisoblanadi:

P – siyosiy;

E – iqtisodiy;

S – ijtimoiy-madaniy;

T – texnologik.

PEST tahlili5 (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik) bu bozorda yanada raqobatdosh bo‘lish uchun tashkilot uning faoliyatiga ta’sir etuvchi asosiy tashqi omillarni baholaydigan boshqaruv usuli. Qisqartma tomonidan ta’riflanganidek, ushbu to‘rtta yo‘nalish ushbu model uchun asosiy o‘rinni egallaydi.

PEST tahlili siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik jihatlarni anglatadi.

Ushbu turdagi tahlil korxonaning daromadliligiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan tashqi omillarni aniqlash uchun ishlatiladi. Umuman olganda, bu makro hodisalarning ta’sirini boshdan kechiradigan katta tashkilotlar bilan yanada samaralidir. PEST tahlili odatda kuchli, zaif tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlarni anglatuvchi SWOT tahlillari bilan birgalikda qo‘llaniladi.

3-jadval: “Logistic mobile” oilaviy korxonasining SWOT tahlili

Kuchli tomonlar	1. Oilaviy korxona raqobatchisi “Komfort tekstil” korxonalar tarmog‘iga nisbatan kuchli tomoni bu uning boshqa ko‘pgina tarmoqlarda faoliyat yuritishni tashkil qilish yo‘lga qo‘yilgan. 2. Oilaviy tadbirkorlikda xususiy biznesni erkin holda tashkil qilishda va franshiza bilan ish ko‘rishga, franchayzing tarmog‘i orqali samaradorlikka erishish mumkin.
Kuchsiz tomonlar	1.Oilaviy korxona raqobatchilarga nisbatan qish mavsumida yozgi mavsumga qaraganda logistic xizmatlardan cheklagan miqdorda qabul qilishi. 2.Maxfiy ma’lumot berish natijasida raqobatchilarga (“Komfort tekstil”) ma’lumotlarni yo‘qotish xavfi;
Imkoniyatlar	Cheklanmagan miqdorda o‘z xizmat turlarini ko‘paytirishi mumkin.
Xavf-xatar	1.Tijorat sirlarni oshkor qilishi yoki boshqa tadbirkorlarga o‘tib ketishi. 2.Tadbirkor tomonidan shartnoma bekor qilinishi xavfi;

4-jadval: “Logistic mobile” oilaviy korxonasining PEST tahlili

P- Siyosiy omili	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Transport to‘g‘risida”gi Qonun(O‘RQ–706-son, 09.08.2021-y.) Prezident tomonidan imzolandi. Qonunga ko‘ra, avtomobil, havo, temir yo‘l, suv, elektr transporti, metropoliten va transport infratuzilmasi obyektlari O‘zbekistonning yagona transport tizimini tashkil etadi. Transport-logistika markazlari ularga har qanday turdagi transportda kirib kelayotgan hamda olib chiqilayotgan yuklarni omborga joylashtirish, saqlash, ularga ishlov berish, qayta ishlash, qadoqlash va taqsimlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatadi.
E- Iqtisodiy omili	Korxonada 2023-yilda davri boshiga jami foyda 384043.19 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lib 2023-yilda davr oxiriga kelib esa 1231507.4 ming so‘mni tashkil qilgan. Hisobot davri oxiriga kelib, davr boshiga nisbatan qarasak 220,7% o‘sgan bunga sabab mahalliy bozorni ishonchiga kirgani va raqobatchilariga nisbatan (“Komfort tekstil”) har bir xizmat uchun bonusli chegirmalar mavjudligi.
S- Ijtimoiy omili	Logistik xizmatlar yo‘nalishidagi universitet bitiruvchilarini ish bilan ta’minlab kelmoqda (o‘rtacha yiliga 20-25ta)
T- Texnik omili	2023-yil logistik tarmog‘ida ishlaydigan firmaning xodimlari uchun kiyimlar ishlab chiqarish minisexi, chet elga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetkazib berish maqsadida esa korxonaning zamonaviy issiqxonalar tarmog‘i tashkil qilindi hamda bu logistik xizmatlar tarmog‘ini xarajatlarini qisqartirishga olib keldi.

4 https://www.techtarget.com/searchcio/definition/SWOT-analysis-strengths-weaknesses-opportunities-and-threats-analysis#:~:text=SWOT%20analysis%20is%20a%20framework,or%20establishing%20a%20business%20strategy.

5 https://www.mindonmap.com/uz/blog/what-is-pestel-analysis/

5-jadval: “Komfort tekstil” oilaviy korxonasining SWOT tahlili

Kuchli tomonlar	1. Oilaviy korxona raqobatchisi “Logistic mobile” korxonalar tarmog‘iga nisbatan kuchli tomoni bu uning yengil sanoat sohasida 30 yildan ortiq vaqt davomida faoliyat yuritishi tashkil qilish yo‘lga qo‘yilgan. 2. Oilaviy tadbirkorlikda xususiy biznesni erkin holda tashkil qilishda va chet ellik savdo hamkorlariga egaligi orqali samaradorlikka erishish mumkin.
Kuchsiz tomonlar	1.Oilaviy korxona raqobatchilarga nisbatan yil davomida mahsulot ishlab chiqarish jarayonining nisbatan mavsumiyligi. 2.Maxfiy ma’lumot berish natijasida raqobatchilarga (“Logistic mobile”) ma’lumotlarni yo‘qotish xavfi;
Imkoniyatlar	Viloyatning tuman va shaharchalarida o‘z filiallarini ochish imkoniyatining mavjudligi Korxona mahsulotlariga bo‘lgan talabning yildan yilga oshib borishi Korxonada ishlab chiqariladigan mahsulotlarning nisbatan boshqa korxona mahsulotlariga nisbatan arzonligi va sifatliligi
Xavf-xatar	1.Tijorat sirlarni oshkor qilishi yoki boshqa tadbirkorlarga o‘tib ketishi. 2.Tadbirkor tomonidan shartnoma bekor qilinishi xavfi;

6-jadval: “Komfort tekstil” oilaviy korxonasining PEST tahlili

P- Siyosiy omili	Prezidentning 16.09.2019-yildagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4453-son qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq shu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarga 2020-yil 1-yanvardan quyidagi soliq imtiyozlari joriy etildi: ● hisobot davri natijalari bo‘yicha yalpi tushumning umumiy hajmida tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarining eksporti 60%dan kam bo‘lmagan eksport ulushiga ega bo‘lgan korxonalar 2023-yil 1-yanvarga qadar mol-mulk solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi; ● to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohalari korxonalarining foyda solig‘i bo‘yicha soliqqa tortiladigan bazasi 7 yil davomida teng ulushlarda zamonaviy tozalash va kanalizatsiya inshootlarini qurish bo‘yicha xarajatlar summasiga kamaytiriladi; ● chorva mollarini so‘yish bo‘yicha zamonaviy avtomatlashtirilgan majmualarni ishga tushirayotgan tashkilotlar va terini qayta ishlovchi korxonalar 2023-yil 1-yanvarga qadar yer solig‘i to‘lashdan ozod etiladi;
E- Iqtisodiy omili	Korxonada 2023-yilda davri boshiga jami foyda 4000 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lib 2023-yilda davr oxiriga kelib esa 6766 ming so‘mni tashkil qilgan, Hisobot davri oxiriga kelib, davr boshiga nisbatan qarasak 69,15% o‘sgan. Bunga sabab mahalliy bozorda 30 yil davomida faoliyat yuritayotganligi, shahar atrofida korxona savdo uylarining mavjudligidir.
S- Ijtimoiy omili	Tikuvchilik xizmatlar yo‘nalishidagi kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta’minlab kelmoqda (o‘rtacha yiliga 10-15ta)
T- Texnik omili	2019-yildan ishlab chiqarish tarmog‘ida ishlaydigan firmaning xodimlari uchun tushlik tashkil qilingan. Xodimlar uchun namozxona mavjud. Ishlab chiqarish korxonasida 7 ta bo‘limdan tashkil topgan savdo magazinning mavjudligi mijozlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri mahsulotlarni arzon va qulay miqdorda sotib olish imkonini yaratadi.

XULOSA

So‘nggi paytlarda har qanday bozorda korxona boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun benchmarketingdan foydalanishga e’tibor ortib bormoqda. Korxonalarning benchmarketingga bo‘lgan aniq qiziqishi asosan mehnat unumdorligini oshirish, aktivlardan samarali foydalanish, mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash va boshqalar bo‘yicha bozor talablari bilan izohlanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, benchmarking butun mintaqa, mamlakat va hatto global miqyosda biznesning umumiy darajasini rivojlantirish imkonini beradi. Jahon yetakchilarining ilg‘or tajribasini o‘zlashtirish korxona menejerlariga iqtisodiy rivojlanishning umumiy darajasini makroiqtisodiy miqyosda ko‘tarish, o‘z korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi, bu esa pirovard natijada mijozlar ehtiyojlarini qondirish uchun yakuniy mahsulot, ishlar va xizmatlar sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[6].

6 https://nauchkor.ru/pubs/issledovanie-faktorov-vliyayuschih-na-razvitie-praktiki-benchmarkinga-na-dalnem-vostoke-5b8e-d58a7966e1073081bd89

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. https://nauchkor.ru/pubs/issledovanie-faktorov-vliyayuschih-na-razvitie-praktiki-benchmarkinga-na-dalnem-vostoke-5b8ed58a7966e1073081bd89
2. https://www.linkedin.com/pulse/7-essential-steps-crafting-winning-marketing-strategy-khorshidi
3. https://www.yourdictionary.com/benchmarketing
4. https://www.researchgate.net/publication/336987730_Mechanism_of_Benchmarking_and_Its_Impact_on_Organizational_Performance
5. file:///C:/Users/user/Downloads/organizatsiya-benchmarkinga-na-predpriyatiyah-avtomobilnoy-promyshlennosti.pdf
6. Dilafiruz N. Formation Of Investment Environment Innovative Methods //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2021. – Т. 4. – №. 4.
7. Dilafiruz N. Importance of foreign investments in the development of the digital economy: Narzieva DM International article //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
8. Dilafiruz N. Importance of foreign investments in the development of the digital economy: Narzieva DM International article //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
9. Abdullayevna Q. Z., Anvarovich Q. A., Muxtorovna N. D. Theoretical foundations of enhancing the competitiveness of the national economy //Gwalior management academy. – Т. 87. – С. 54.
10. Mukhtorovna N. D., Mukhtorovich N. M. The important role of investments at the macroand microlevels //Economics. – 2020. – №. 2 (45). – С. 8-10.
11. Mukhtorovna N. D. et al. Importance of foreign investments in the development of the digital economy //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2021. – Т. 2. – №. 04. – С. 219-224.
12. Bebudovna B. S., Mukhtorovna N. D. The cost-effectiveness of the use of water resources in agriculture //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 23-2 (101). – С. 26-28.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



DAVLAT BUDJETINING SOLIQSIZ DAROMADLARI SHAKLLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

O‘ktamova Nargiza Narzulla qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida o‘sib borayotgan davlat byudjeti soliqsiz daromadlari tahlili va rivojlanib borish tendensiyalari bayon qilingan. Davlat byudjetining soliqsiz daromadlarini shakllantirish maqsadlari va vazifalari, soliqsiz daromadlarning o‘ziga xos xususiyatlari keltirilgan. Shu bilan birga uning shakllanishini takomillashtirish bo‘yicha xorij tajribasi o‘rganilgan hamda taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat boji, yig‘imlar, jarimalar, davlat mulkini xususiylashtirish.

Abstract: This article describes the analysis of non-tax revenues of the state budget, which are growing within the framework of the reforms implemented in the country, and the trends of their development. The goals and objectives of the formation of non-tax revenues of the state budget, specific features of non-tax revenues are presented. At the same time, foreign experience on improving its formation was studied and suggestions and recommendations were presented.

Key words: State duty, levies, fines, privatization of state property.

Аннотация: В данной статье представлен анализ необлагаемых налогом доходов государственного бюджета, которые растут в рамках реализуемых в стране реформ, и тенденций их развития. Представлены цели и задачи формирования необлагаемых налогом доходов государственного бюджета, особенности характеристики необлагаемых налогом доходов. При этом был изучен зарубежный опыт по совершенствованию его формирования и представлены предложения и рекомендации.

Ключевые слова: Государственная пошлина, сборы, штрафы, приватизация государственного имущества.

KIRISH

Mamlakatda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda avvalambor davlat budjet daromadlarini shakllantirish va ularni yanada takomillashtirish zarurati vujudga keladi. Daromadlar tarkibini, ularning shakllanish mexanizmini takomillashtirish hamda mavjud muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish masalalari, xarajatlarni amalga oshirish uchun davlat budjetiga daromadlar manbasi bo‘lgan soliqlar, soliqsiz va boshqa daromadlar shakllanishini takomillashtirish dolzarb sanaladi. Hozirgi vaqtda soliqsiz daromadlarining iqtisodiyotga ta’siri ilmiy doiralarda asosiy ko‘rinish bermoqda. Soliqsiz daromadlar budjet daromadlarining hajmini oshirishda, kamchilikni qoplashda muhim o‘ringa ega. Davlat budjet mablag‘lari, xalq farovonligini shakllantirishda va mahalliy iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashishi barchamizga ma’lum. Davlat budjetida soliqlar singari soliqsiz daromadlari mamlakat iqtisodiy o‘sish jarayoni uchun xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat budjetining soliqsiz yoki boshqa daromadlari shakllanish manbalari va shakllanishidagi muammolarni bir qator xorijlik iqtisodchi-olimlari: Москалёва В.А.,Токаев Н.Х., Баснукаев М.Ш., Баматалиев А.Б., Дьякова Е. Б., Мутушев Р.М.,Ряховский Д. И., Акулова Н. Г[1] va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

1 С Москалёва В.А., Торбина А. С: Проблемы Формирования Доходной Базы Федерального Бюджета И Факторы Ее Роста “Современная Экономика: Проблемы И Решения” 5 (137) 2021. – 50-67 с.; Токаев Н.Х., Баснукаев М.Ш., Баматалиев А.Б. Неналоговые Доходы: Факторы Формирования, Тенденции И Законодательное Регулирование” “Экономика. Налоги. Право” № 4/2016. – 150-156 с.; Дьякова Е. Б. “Неналоговые Финансовые Источники И Их Регулирование” “Финансовая Аналитика Проблемы И Решения”, 19 (61) – 2011. – 33-40 с.; Мутушев Р. М Автореферат Диссертатsiи На Соисканние Ученой Степени Юридических Наук.С – 2009.; Ряховский Д. И., Акулова Н. Г. Неналоговые платежи в налоговой системе России. “Проблемы современной экономики”, N 4 (56), 2015. – 83 – 86с.

Mahalliy olimlardan A.V. Vahobov, T.S.Malikov, O.O.Olimjonov, A.S. Jo‘rayev, A.X. Islamkulov, Meliyev O.R., A.A. Shernayev, Q.A Usmonov[2] lar davlat budjetining shakllanishi, mohiyati, tarkibi, milliy iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli, soliqsiz daromadlarning soliqli daromadlar bilan o‘xshashlik va farqlari bo‘yicha ilmiy fikr va mulohazalar bildirganlar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab budjet daromadlarini shakllantirish, uning xarajatlarini yetarli miqdorda moliyaviy resurslar bilan ta’minlash masalasi dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Soliqsiz daromadlar respublika budjeti va mahalliy budjetlar daromadlarida jamlanadi.

Bugungi kunda mahalliy budjetlarning soliqsiz daromadlarini shakllantirish mexanizmining huquqiy asosi sifatida amaldagi Budjet kodeksini keltirish o‘rinlidir. Mazkur daromad manbalari O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksiga murojaat qiladigan bo‘lsak, uning I-bo‘limi Budjet tasnifi to‘g‘risidagi 3-bob 21-moddasi budjet tizimi budjetlari daromadlarining tasnifida hamda IV-bo‘lim 9-bobining 50-51-52-moddalarida[3] byudjet tizimi budjetlarning daromadlari to‘g‘risida batafsil yoritilgan.

Mamlakatning taraqqiyoti iqtisodiy o‘sishga bog‘liq. Biroq ko‘pchilik soliqsiz daromadlarning iqtisodiyotga ta’sirini e’tiborsiz qoldiradi, natijada mamlakat iqtisodiy o‘sishga erishish uchun soliqsiz daromadlardan to‘liq foydalanmaydi. Soliqsiz daromadlarni samarali shakllantirish va ular tarkibini boshqarish tizimini takomillashtirish, iqtisodiy o‘sish uchun muhim ahamiyatga ega.

1-jadval: 2019–2023-yillarda Davlat budjeti daromadlar ko‘rsatkichlari, mlrd. so‘mda[4]

№	Ko‘rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
1	Bevosita soliqlar	31 676,8	45 206,9	58 930,4	64 477,1	73 103,6
2	Bilvosita soliqlar	46 427,2	46 428,4	56 290,4	71 390,2	83 325,8
3	Resurs to‘lovlari va mulk solig‘i	19 680,7	21 257	23 036,4	23 912,8	28 079,5
5	Soliqsiz daromadlar va Boshqa daromadlar	14 272,8	20 045,8	26 542,2	42 113,7	47 212,5
6.	Jami	112 057,5	132 938,0	164 799,4	201 863,7	231 721,3

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, davlat budjet soliqsiz daromadlari va boshqa daromadlari 2019-yilda 14 272,8 milliard so‘mni tashkil etgan. 2023-yilga kelib davlat budjet daromadlari 2022-yilga nisbatan 14,8 foizga o‘sgani kuzatilgan. Bunda soliqsiz daromadlar dinamikasi ularning salmog‘i so‘nggi to‘rt-besh yillikda o‘sish tendensiyada ekanlgini kuzatishimiz mumkin.

2-jadval: Toshkent viloyat budjetida soliqsiz daromadlar ulushi,mlrd. so‘mda[5]

№	Tarmoqlar	2020	2021	2022	2023
	Soliqsiz daromadlar va Boshqa daromadlar. Jami,	20 045,8	26 542,2	42 113,7	47 212,5
Shundan					
1.	Soliqsiz to‘lovlar	742,4	612,7	579,8	708,1
2.	Davlat budjeti daromadlari tarkibidagi salmog‘i foizda	17%	18%	13%	13%

2023-yilda soliqsiz va boshqa daromadlardan tushumlar jami 47 212,5 mlrd.so‘mni tashkil etib, shundan mahalliy budjet(Toshkent viloyat) ixtiyorida 708,1 mlrd.so‘m yoki qolgan. Mazkur jadvalimizdan budjetga to‘lanayotgan turli soliqsiz to‘lovlarning barqaro o‘sishga ega bo‘lgani – davlat ulushiga hisoblangan dividendlar va davlat korxonalarining sof foydasidan ajratmalardir. Mazkur to‘lovlar 2020-yilda 24,6 mlrd.so‘m tushum shakllantirilgan bo‘lsa, 2023-yilda 34,4 mlrd.so‘mga etgan. Bunga oltin qazib chiqaruvchi korxonalardan dividendlar olish tizimining o‘zgarishidan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to‘g‘risidagi Qonunlarda divi-

2 T.S.Malikov, O.O.Olimjonov. Moliya. – T:. “Iqtisod-moliya”, 2019- 375-380 b.; A.V. Vahobov, A.S. Jo‘rayev. Soliqlar va Soliqqa tortish.- Toshkent: “Sharq”, 2009 – 257-270b.; A.X. Islamkulov. Budjetlararo mutanosiblikni ta’minlashda soliqlar tizimini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T:. 2020.; Meliyev O.R. Mahalliy budjetlar daromadlarini tartibga solishni takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T:. 2022.; Usmonov Q.A. Davlat budjetining soliqsiz tushumlari tahlili va ularni takomillashtirish yo‘nalishlari “Science and Education” Scientific Journal” 2023.

3 2013-yil 26-dekabrdagi O‘RQ-360-son Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi.


4 O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

5 O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

dend siyosatining kuchaytirilishi ham sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, davlat boji, yig‘imlar va jarimalar nisbatan nobarqaror xarakterga ega bo‘lgan, ma’muriy sohadagi islohotlar va ayrim omillar tufayli tushumlar dinamikasi biroz o‘zgarib turgan. Masalan, fuqarolar uchun biometrik pasportlarini yoppasiga berilishi, jarimalarning bir qismi undiruvchi idora budjetdan tashqari hisobraqamlariga ajratma qilinishi, ayrim yig‘imlarning bekor qilinishi hisobiga budjet tushumlari kamayish va ko‘payish kabi o‘zgarishlar yuz bergan.

Jahon amaliyotida soliqsiz daromadlar manbasini samarali shakllantirgan davlatlar bir nechtani tashkil etadi. Singapur davlatining soliqsiz daromadlar tarkibiga kiruvchi davlatga tegishli aktivlarni sotish, ijaraga berish jarayonidan olingan natijalarni o‘rganar ekanmiz,. 1990-yillar o‘rtalarida Singapur dunyoning eng rivojlangan 10 ta davlati qatoridan joy olgan bo‘lsa, vaholanki 1960-yillarning boshlarida mamlakatning rivojlanish darajasi juda past darajada bo‘lgan. 1960-yilda Singapurning aholi jon boshiga yalpi ichki mahsuloti 2530 AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 1995-yilda esa bu ko‘rsatkich 21652 AQSh dollarini tashkil etdi. O‘rtacha iqtisodiy o‘sish sur’ati yiliga 8 foizni, o‘rtacha umr ko‘rish 65 yoshdan 76 yoshgacha oshgan.



1-rasm: Singapur mamlakatining sanoat siyosatini amalga oshirishida ko‘zlagan uchta strategik maqsadlari[6]

Yuqoridagi rasmda berilgan rivojlangan mamlakatlardan bir bo‘lgan Singapur davlatining xususiylashtirish jarayonini amalga oshirishdagi maqsadlari bugungi kunda ham dolzarb sanaladi. Mazkur maqsadlarni natijasini uning hozirgi iqtisodiy holatidan kuzatishimiz mumkin.

Bir nechta mamlakatlar tajribasida davlat aktivlarini xususiylashtirish iqtisdoit barqarorlikka erishish yo bo‘lmasa mamlakat iqtisodiyotida monopoliya kamaytirish hamda tashqi kapitalni jalb qilishga mo‘ljallangan. Singapurda esa, malakali iqtisodiy va sanoatlashtirish siyosatni amalga oshirish orqali xususiylashtirish maqsadlari tubdan farq qilgan.

Singapurning xususiylashtirish bo‘yicha yuritgan chora-tadbirlari, davlatning jahon bozorlarida yetakchi mavqega ega bo‘lishdan, ularda davlat ishtirokini kamaytirish hisobiga davlat aktivlarining moslashuvchanlik darajasini oshirishdan, chet el kapitalini jalb qilish orqali ularning texnologik jihozlanish darajasini oshirishdan va milliy fond bozorining rivojlanishi manfaatdor bo‘lgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, davlat budjetining soliqsiz daromadlarini shakllantirishni takomillashtirishga oid strategiyalar, jumladan, aktivlarni samarali boshqarish, davlat-xususiy sheriklik, yig‘imlar, investitsiya daromadlari, grantlar va xayriyalar, daromadlar kombinatsiyasidan foydalanadigan ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, daromad oqimlarini optimallashtirish va moliyaviy boshqaruv amaliyotini takomillashtirish orqali hukumatlar o‘zlarining fiskal mavqeyini mustahkamlashlari, barqaror rivojlanishga ko‘maklashishlari va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishishlari mumkin. Soliqsiz daromadlarni samarali boshqarish fiskal barqarorlikni ta’minlash uchun xizmat qiladi. Soliqsiz daromadlar shakllanishidagi muammolarni anilqashimiz uchun biz avvlambor soliqsiz daromadlardan tushumlarni belgilangan normativ-hujjatlar asosida kuzatishimiz, uning tushunchasi, shakli, ko‘lamini tizimli va har tomonlama o‘rganishimiz lozim.

6 Акулова.М. Мировой опыт приватизации предприятий госсектора. BEROC Policy Paper Series, PP no.35

Davlat byudjetining soliqsiz daromadlarini shakllantirishni takomillashtirish maqsadida, quyidagilar taklif va tavsiya etiladi:

- davlat budjetiga hisoblangan dividendlar, bojlar, yig‘imlarni budjetga o‘tkazish bo‘yicha qat’iy siyosat olib borish;
- davlat mulklarini sotish, ijaraga berishda auksion tizimini rivojlantirish, mamlakatimiz rahbari ta’kidlaganidek stavkalar narxlari sun’iy oshirilishini nazoratga olish;
- Shu bilan birga mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan biri xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturda belgilangan vaziflarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2021-y., 03/21/689/0395-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son
5. М. Акулова. Мировой опыт приватизаци предприятий госсектора // БЕРОС Полисй Папер Сериес. 2016, ПП но.,35
6. ww.imv.uz (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi)



MAMLAKATIMIZDA SANOAT ISHLAB CHIQARISHI KORXONALARINING RIVOJLANISH HOLATI TAHLILI

Olimov Maqsudjon Komiljon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Yashil” iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat ishlab chiqarishi korxonalari rivojlanishining mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati to‘g‘risidagi fikrlar bayon etilgan. Mamlakatmizdagi sanoat korxonalari va ularning mahsulot ishlab chiqarish faoliyati tahlil qilingan. Shuningdek, sanoat korxonalarini rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha tegishli takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat, korxona, sanoat ishlab chiqarishi, sanoat ko‘rsatkichlari, sanoat tuzilmasi, sanoat mahsulotlari, iste’mol tovarlari.

Abstract: This article outlines the importance of industrial production enterprises development in the sustainable development of the country’s economy and society. Industrial enterprises in our country and their production activities were analyzed. Also, relevant proposals were made on the prospects of industrial enterprises development.

Key words: industry, enterprise, industrial production, industrial indicators, industrial structure, industrial products, consumer goods.

Аннотация: В данной статье обозначено значение развития предприятий промышленного производства в устойчивом развитии экономики и общества страны. Проанализированы промышленные предприятия нашей страны и их производственная деятельность. Также были сделаны соответствующие предложения по перспективам развития промышленных предприятий.

Ключевые слова: промышленность, предприятие, промышленное производство, отраслевые показатели, структура промышленности, промышленная продукция, товары народного потребления.

KIRISH

Jahon iqtisodiyoti o‘z rivojlanishining hozirgi bosqichida raqobatning sezilarli darajada kuchayishi bilan tavsiflanadi. Mahalliy sanoat sektori budjet tuzuvchisi sifatida asosiy xorijiy raqobatchilar tomonidan katta bosim ostida qolmoqda. Mahalliy sanoat korxonalarining samarali ishlashi va doimiy rivojlanishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli darajasiga faol ta’sir qiladi.

Milliy sanoat va uning sohalari iqtisodiyotning dinamik o‘zgarishda bo‘lgan hamda ishlab chiqarish sur’atlari jadal oshayotgan tarmoqlari hisoblanadi. Ayniqsa, sanoatning qora metallurgiya, neft va neft kimyosi, mashinasozlik, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sohalarida ishlab chiqarish hajmi so‘nggi yillarda tez o‘smoqda. Bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion islohotlar, tub yangilanishlarni modernizatsiya qilinishi hisoblanib, u makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, korxonalarni yangi texnologiyalar bilan jihozlash, iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini oshirishga asoslanadi. Ushbu jarayon, shubhasiz mamlakatning innovatsion, iqtisodiy salohiyatini oshirish bilan bir paytda, undan unumli foydalanishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal taraqqiyotini ta’minlash uchun tarkibiy islohotlarni amalga oshirish, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aks holda nafaqat iqtisodiyotimiz rivojini, balki milliy taraqqiyotning yuksak sur’atlarini ham ta’minlab bo‘lmaydi. [1]

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, sanoat tarmoqlarini, xususan, sanoat ishlab chiqarish korxonlarini rivojlantirish masalasi mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishdagi ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHAHRI

Mamlakat iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish nazariyasi, sanoat ishlab chiqarish korxonalari samaradorligini oshirish omillari aniqlash masalalari va muammolarini Roy A. Linberg [2], Serope Kalpajian, Steven R. Schmid [3] kabi xorijlik olimlar o‘rganishgan.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va izchil davom ettirish mexanizmlari, iqtisodiyot tarmoqlari, xususan, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarish hajmini barqaror oshirib borishning tashkiliy-huquqiy va nazariy-uslubiy asoslari mamlakatimizning Prezidenti Sh. Mirziyoyevning asarlari va ma’ruzalarida keng bayon etilgan.

O‘zbekiston sanoat tarmoqlarini tubdan yangilashning o‘ziga xos jihatlari, raqobatbardoshlikni oshirish yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlari muntazam olib borilgan, bunda R. Xasanov [4], A. Ortiqov [5], A. Ortiqov, M. Isakov [6] singari olimlarning ilmiy faoliyatini alohida e’tirof etish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etadi, bu tadqiqot muammosini atroflicha o‘rganish imkonini berdi. Ushbu tadqiqot jarayonida tadqiqotning umumiy ilmiy va maxsus usullari: dialektika usullari, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish usuli, qiyosiy va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Maqsad va vazifalarga qarab, bu usullar o‘rganishning turli bosqichlarida qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotning har qanday darajasining uzoq muddatli raqobatbardoshligining asosiy omili uning tarmoq strukturasining progressivligidir. Yuqori texnologiyali sanoatning asosiy ulushiga ega bo‘lgan mamlakatlar iqtisodiyoti inflyatsiyaga chidamli, chunki texnologik ishlab chiqarish mahsulotlarining narxi dastlabki bosqichda rivojlanish va tajriba ishlab chiqarishning katta xarajatlari bilan belgilanadi.

Shu munosabat bilan ishlab chiqarish sohasi, xususan, iqtisodiyotning yuqori texnologiyali qismi barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish nuqtayi nazaridan istiqbolli. Ishlab chiqarish sohasining holati va rivojlanishi mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi mavqeyini va jahon voqealariga ta’sir qilish qobiliyatini belgilaydi. Aynan ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishi har qanday davlatning ishlab chiqarish salohiyatini aks ettiradi.

Sanoat ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishi bevosita shu soha korxonalarining samarali faoliyat yuritishiga bog‘liq. Sanoat korxonalarining samarali faoliyat yuritishi nafaqat sanoat ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishi, balki jamiyatning umumiy rivojlanishini ta’minlovchi boshqa bir qator ijobiy chora-tadbirlarni amalga oshirilishini ta’minlaydi.



1-rasm: Sanoat ishlab chiqarishi korxonalari rivojlanishining afzalliklari[1]

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va aholi turmush darajasini yaxshilashda sanoat ishlab chiqarishi korxonalarining o‘rni va ahamiyati juda yuqori.

Sanoat ishlab chiqarishi korxonalarining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotiga import va eksport qilinadigan tovarlar balansini saqlashga yordam beradi. Ichki resurslarga tayangan holda ayrim mahsulotlarni keng miqyosda ishlab chiqarish imkoniyati boshqa mamlakatlarga eksport sifatida tovarlarni yetkazib berish

1 Muallif tomonidan tayyorlangan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

imkonini beradi. Buning evaziga ularni ko‘p ishlab chiqaradigan mamlakatlardan import qilinadigan tovarlarni qabul qiladi. Ushbu savdo balansi bir qator mahsulotlarga ko‘proq kirish imkonini beradi va bozor narxlarining pasayishiga hissa qo‘shishi mumkin.


Shuningdek, ular oziq-ovqat, kiyim-kechak, mashinalar va kompyuterlar kabi odamlarga kerakli yoki kerakli narsalarni yaratish orqali hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Masalan, ishlab chiqarish tarmoqlarisiz bizda uyali telefonlar, kompyuterlar va boshqalar bo‘lmaydi.

1-jadval: Mamlakatimizda sanoat rivojlanishining 2012–2022-yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari[2]

Ko‘rsatkichlar	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m	57552,5	70634,8	84011,6	97598,2	111869,4	148816,0	235340,7	322535,8	368740,2	456056,1	553265,0
O‘sish sur’ati, o‘tgan yilga nisbatan %	105,7	107,5	104,5	105,3	105,4	105,2	110,8	105,0	100,9	108,8	105,3

Statistik ma’lumotlar bo‘yicha 2022-yilda respublika korxonalari tomonidan 553 trln. so‘mdan ziyodroq qiymatdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021-yilga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining o‘sish sur’ati 105,3 foizni tashkil etdi. So‘nggi o‘n yillikdagi ma’lumotlarni tahli qiladigan bo‘lsak, har bir yilda ma’lum bir miqdorda o‘sish sur’atiga erishilgan. Eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichi 2018-yilga to‘g‘ri kelib 110,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkich 2020-yilga to‘g‘ri kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu darajadagi past o‘sish ko‘rsatkichini butun dunyo bo‘ylab kuzatilgan koronavirus pandemiyasining oqibati sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimiz sanoati jadal rivojlanayotgan davlat. Iqtisodiyotning ushbu tarmog‘ida milliondan ortiq ishchi kuchi band va ishlab chiqarishning 40 foizi to‘g‘ri keladi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda tarmoqning ulushi 35 foizni tashkil etadi.




2-rasm: Sanoat tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni (1-yanvar holatiga birlikda)[3]

Yuqoridagi rasmda keltirilgan ma’lumotlarga e’tibor beradigan bo‘lsak, 2014–2024-yillar mobaynida faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari miqdori sezilarli darajada ortgan. Tahlil qilinayotgan davr mobaynida eng yuqori ko‘rsatkich 2023-yilga to‘g‘ri kelib 98805 tani tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu ko‘rsatkich sanoat korxonalari bo‘yicha umumiy ma’lumot beradi xolos. Sanoat korxonalarining iqtisodiyotdagi o‘rni, ya’ni ulushi haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun quyidagi ma’lumotlarni ko‘rib chiqishimiz kerak.


2 https://stat.uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

3 https://stat.uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



3-rasm: Iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonida sanoat korxonalarining ulushi (jamiga nisbatan foizda)[4]

Yuqoridagi rasm ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, iqtisodiyot tarmoqlari faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonida sanoat korxonalarining ulushi bo‘yicha ko‘rsatkich 2014-2024-yillar mobaynida ma’lum bir darajada o‘zgargan bo‘lsa-da bu o‘zgarishlarni sezilarli darajada yoki o‘tgan yilga nisbatan farqi ko‘p deb ayta olmaymiz. Tahlil qilinayotgan davr mobaynida o‘rtacha ko‘rsatkich 16,6 foizni tashkil qilgan, ya’ni iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan korxonalarning shuncha foizi sanoat korxonalari hisoblanadi.



4-rasm: Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish (amaldagi narxlarda, mlrd. so‘m)[5]

Yuqoridagi rasmda keltirilgan ma’lumotlarga e’tibor beradigan bo‘lsak, 2010–2022-yillar mobaynida sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan iste’mol tovarlari hajmida sezilardi darajada o‘sish kuzatilgan. 2022-yilda bu ko‘rsatkich bo‘yicha natija 2010-yildagiga nisbatan 10 barobardan ziyodroqqa ortgan. Tahlil qilinayotgan davr mobaynidagi eng yuqori ko‘rsatkich 2021-yilga to‘g‘ri kelgan, ya’ni 155 trln. so‘mdan ziyodroq bo‘lgan.

4 https://stat.uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

5 https://stat.uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Sanoatning yetakchi tarmoqlari: paxta tozalash, mashinasozlik, to‘qimachilik, gaz, qimmatbaho metallar, elektronika, asbobsozlik, neftni qayta ishlash, avtomobilsozlik va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash. Boshqa tarmoqlar, jumladan, kimyo va neft-kimyo, energetika, metallurgiya, qurilish materiallari va yengil sanoat tarmoqlari jadal rivojlanmoqda.

Energetika, neft-gaz sanoati, geologiya, transport, yo‘l qurilishi, qishloq va suv xo‘jaligi, ichimlik suvi, issiqlik ta’minoti va boshqa qator sohalarda chuqur tarkibiy o‘zgarishlar boshlandi. 12 ta yetakchi sohada modernizatsiya va raqobatbardoshlikni oshirish dasturlari amalga oshirilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoatlashtirish korxonalarga mahsulotlarni ommaviy ishlab chiqarishni osonlashtiradi. Ishlab chiqarish jarayonida mashinalardan foydalanishdan oldin, xodimlar qo‘lda mahsulotlar yasadilar. Qo‘lda ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salomatlik va xavfsizlikka tahdidlardan tashqari, ular ko‘p vaqtni oldi. Sanoat ishlab chiqarishi korxonalarining barqaror rivojlanishi bu jarayonlarni, ayniqsa avtomatlashtirilgan uskunalar kabi rivojlanayotgan texnologiyalardan foydalanish orqali yanada samaraliroq qilishda davom etmoqda. Tovarlarni yanada qulayroq qilish bilan birga ularni yanada arzonroq qiladi. Agar mahsulotga talab yuqori bo‘lsa, korxonalar tegishli ta’minotni ishlab chiqarish orqali uni ushlab turish uchun mas’uldir. Sanoat korxonalari jadal rivojlanishidan avval bu juda qiyin edi, chunki mahsulot ishlab chiqarish ko‘proq vaqt talab qildi. Bozorda kamroq mahsulot borligi sababli, korxonalar daromad olishlari uchun ko‘proq haq olishdi. Korxonalar talabni qondira olsa, iste’molchilar odatda kamroq to‘laydilar, chunki bozorda ko‘proq tovarlar mavjud bo‘ladi.

Mamlakatimiz sanoat ishlab chiqarishi korxonlarini rivojlantirish maqsadida kichik va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish uchun ishlab chiqilgan dasturlar samarasi hamda jahon bozorida sanoat mahsulotlariga, jumladan, oziq-ovqat, yengil va mashinasozlik sanoatlari mahsulotlariga bo‘lgan talabning oshishi pirovard natijada sanoat ishlab chiqarishining qo‘shimcha o‘sishiga olib kelmoqda.

Kelgusida mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishi korxonlarining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

- investitsion ishlab chiqarishni rivojlantirish, keng ko‘lamli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan, ilmiy asoslangan loyihalar ishlab chiqish;
- korxonalarda innovatsion salohiyatni takomillashtirish, ilm va yuqori texnologiya talab qiladigan yangi korxonalar tashkil etish va import mahsulotlari bilan raqobatlasha oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish;
- rivojlangan mamlakatlarning sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi zamonaviy texnika-texnologiyalarini import qilish siyosatini jadallashtirish;
- sanoatda xususiy tarmoq va kichik tadbirkorlik ulushini oshirish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 148 b.
2. Roy A. Linberg “Process and materials of manufacture”, PHI, 2014
3. Serope Kalpajian, Steven R. Schmid “Manufacturing processes for engineering materials”, Pearson education, Inc. 2014
4. R. Xasanov, X. Asatullayev, A. Suvonqulov, X. Xakimov. Real sektor iqtisodiyoti va uni prognozlash. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. TMI. T.: “Iqtisod-Moliya”. 2017.
5. A. Ortiqov Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.- T.:”Sano-standart”, 2014.
6. A. Ortiqov, M. Isakov Industrial iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot, 2019.
7. https://stat.uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti ma’lumotlari.

MOLIYAVIY NATIJALAR TO‘G‘RISIDAGI HISOBOTNI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA TUZISH

Pardayeva Zulfizar Alimovna
TDIU, “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Respublikamizda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarda yuritish uchun parallel hisobdan va milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni transformatsiyalash asosida amalga oshirish orqali tartibga solinib kelinmoqda. Shu sababli moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida to‘g‘ri tuzish hamda investorlarning ishonchini oshirish shu bilan birgalikda xarajatlarni kamaytirish hada moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish bo‘yicha takliflar keltirish maqsadga muvofiq.

Kalit so‘zlar: Buxgalteriya hisobining milliy standartlari, buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, US GAAP, transformatsiyalash, parallel hisob, moliyaviy hisobot.

Abstract: It is regulated by parallel accounting and transformation of financial statements which based on national standards and they are in accordance with international standards in our Republic. Therefore, it is advisable to make proposals for the preparation of financial statements in accordance with international standards and increase investor confidence, while reducing costs and increasing the transparency of financial statements.

Key words: national accounting standards, international accounting standards, international financial reporting standards, USGAAP, transformation, parallel accounting, financial reporting.

Аннотация: Для ведения бухгалтерского учета в стране в соответствии с международными стандартами его регулируют путем параллельного учета и трансформатции финансовой отчетности на основе национальных стандартов. Поэтому целесообразно вносить предложения по подготовке финансовой отчетности в соответствии с международными стандартами и повышению доверия инвесторов, при одновременном снижении затрат и повышении прозрачности финансовой отчетности.

Ключевые слова: национальные стандарты бухгалтерского учета, международные стандарты бухгалтерского учета, международные стандарты финансовой отчетности, ОПБУ США, трансформация, параллельный учет, финансовая отчетность.

KIRISH

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishda investorlarning ishonchini ta’minlash hamda respublikamizdan boshqa davlatlarda faoliyat yuritayotgan kompaniyalarda moliyaviy hisobotlarni bir xil tuzish imkoniyatini beradi.

Shu sababli Respublikamizda 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi 4611-sonli Qaror [1]ga asosan yirik soliq to‘lovchi tashkilotlarda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida parallel ravishda yuritish majburiyati belgilangan.

Bu o‘z navbatida bevosita xorijiy-xalqaro munosabatlarga ya’ni xorijiy investorlarni jalb qilinishi investitsion faoliyatni amalga oshishiga ko‘maklashadi. Xorijiy investorlar orqali mamlakatimizga ma’lum bir miqdorda investitsiya mablag‘lari kirib kelishi va ular o‘rtasida xalqaro hisob-kitoblarni yuzaga keltiradi hamda xalqaro standartlar talabiga mos hisob yuritishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Foyda murakkab iqtisodiy kategoriya hisobalanadi. Shu sababli ham uni iqtisodiy fanlarda turli xil ta’riflash, izohlash, tasniflash kuzatiladi. Yillar davomida iqtisodiy fikr vakillari foydani tushunish va uni shakllantirishning munozarali konsepsiyalarini ilgari surishmoqda.

Ingliz iqtisodchisi J.S. Millning ta'kidlashicha, foyda ma'muriyat maoshi va foizlar bilan bir qatorda boshqa elementni ya'ni, risk uchun to'lovni ham o'z ichiga oladi[1].

Germaniya iqtisodiy maktabining yorqin vakili A.F.SHeffe foydani asosan investitsiya qilingan kapitalning qaytishi bilan ta'riflaydi. V.G.F.Rosher uni ish haqining shakllaridan biri sifatida sharhlagan[2].

Britaniyalik iqtisodchi olim J.R.Xiks ushbu ta'rifni iqtisodiyotdagi foydani tovarlar va xizmatlarni sotishdan olingan daromadni ularni ishlab chiqarish va sotish xarajatlaridan oshishi sifatida ko'rib chiqadi[3]. Aynan shu ta'rifni zamonaviy iqtisodchilar asos qilib olganlar.

Asosiy yondashuvga ko'ra, foyda shartli ravishda iqtisodiy foyda va buxgalteriya foydasiga bo'linadi.

Z.N.Qurbonov va K.M.Misirovlarning ta'kidlashicha, foyda – tovarlar va xizmatlarni sotishdan olingan daromadning bu tovarlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlaridan ortiq qismidir[4].

A.A.Karimov, F.R.Islomov va A.Z.Avloqulovlar "Moliyaviy natijalar – bu xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o'ziga qarashli mablag'ning oshishi yoki kamayishidir. Buxgalteriya hisobida bunday faoliyat natijasi hisobot davridagi barcha foydalar va zararlarni hisoblash yo'li bilan aniqlanadi" deb ta'kidlaydilar[5]. Ushbu ta'rif moliyaviy hisobot xalqaro standartlari (MHXS) bo'yicha tushumni ta'riflashga mos keladi.

Ta'kidlash joizki, MHXSga muvofiq foyda, bitimlarni amalga oshirish natijasida vujudga kelgan majburiyatlarning nominal summalari o'rtasidagi farq sifatida emas, balki tashkilot aktivlarining o'sishini baholashni ifoda etuvchi qiymat sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu ko'rsatkich hisobot davri boshida va oxirida bozor bahosida sof aktivlar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi

Foyda turlari moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot shaklida taqdim etiladi. Fikrimizcha, "Foyda"ning umumiy tushunchasi ma'lum bir tizimlashtirishni taqozo etadigan bir nechta foyda tushunchalariga tegishlidir.

Natijada, ushbu ko'rsatkichni mustaqil ravishda batafsil yoritib beradigan xo'jalik yurituvchi subyektlarning tahliliy faoliyati imkoniyatlari kengaymoqda.

Shunday qilib, foydaning mohiyatini talqin qilishga bo'lgan yuqoridagi olimlarning nuqtayi nazarlarini umumlashtirib, mualliflar hozirgi sharoitda iqtisodiy va buxgalteriya talqini o'z ichiga oladigan kompleksli yondashuvdan foydalanishni to'g'ri deb hisoblaydilar. Unga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyekt foydasini, bir tomondan, xo'jalik yurituvchi subyektni rivojlantirishning iqtisodiy mazmun bo'yicha foyda funksiyasini bajaradigan ichki manbasi sifatida ta'riflaymiz, ikkinchi tomondan, korxona daromadlari va uni amalga oshirish bilan bog'liq holda sarflangan, mahalliy va xalqaro amaliyotda qabul qilingan buxgalteriya hisobi konsepsiyasiga muvofiq belgilangan tartibda balans moddalarini baholash va barcha xo'jalik operatsiyalari asosida aniqlanadigan xarajatlar o'rtasidagi farqni aks ettiruvchi tashkilot faoliyatining moliyaviy natijalarini umumlashtiruvchi ko'rsatkich sifatida ta'riflaymiz.

TADQIQOT MAVZUSIDAGI MAVJUD MUAMMOLAR

Moliyaviy hisobotning maqsadi moliyaviy ahvol, faoliyat natijalari va moliyaviy ahvoldagi o'zgarishlar haqida ma'lumot taqdim etishdan iboratdir. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot faoliyat natijalari va unga ko'ra moliyaviy ahvoldagi o'zgarishlar haqida ma'lumotlarni o'zida aks ettirib, ushbu ma'lumotlar keng doiradagi foydalanuvchilarga qarorlarni qabul qilish uchun zarur hisoblanadi.

Ushbu maqsadlarda tuzilgan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot aksariyat foydalanuvchilarni faoliyat natijalari yuzasidan ma'lumotga bo'lgan umumiy talablarini qoniqtirsa, moliyaviy hisobot foydalanuvchilarga ular tomonidan iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumot bilan ta'minlash imkoniyatiga ega emas, chunki u faqat bo'lib o'tib ketgan hodisalarning moliyaviy natijalarini aks ettiradi va shuningdek, izohlarida moliyaviy bo'lmagan ma'lumotni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy hisobot aniqligi va yakunlanganligi, uning global kompaniyalar tomonidan foydalanish ehtiyojlari tufayli ko'proq Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga murojaat etishmoqda. MHXS asosida tayyorlangan hisobotni juda ko'p mamlakatlar qimmatbaho qog'ozlar bozorlari tomonidan e'tirof etilmoqda. Moliyaviy hisobtning xalqaro standartlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlar quyidagi shakllardan iborat[5]

1. Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot;
2. Foyda va zarar hamda jami daromad to'g'risidagi hisobot;

1 Naoko Maehara. John Stuart Mill's Theory of the Stationary State in Connection with the Law of the Falling Rate of Profit. // Political Economy Quarterly. Volume 47 (2010), Issue 3

2 S. Alarcon, M. Sanchez. Business strategies, profitability and efficiency of production. // Spanish Journal of Agricultural Research 2013 11(1), 19-31. ISSN: 1695-971-X

3 Хикс Дж. Р. Стоимость и капитал: пер. с англ. М.: Прогресс, 1993.

4 Qurbanov Z.N., Misirov K.M. Moliyabiy va boshqaruv hisobi. Darslik. –T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. -752 b. 646-betdan.

5 Karimov A.A., Islomov F.R., Avloqulov A.Z. Buxgalteriya hisobi. Darslik. -T.: "Sharq" NMAK, 2004. – 592 b.

3. Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot;
4. Kapital o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobot;
5. Ilovalar.

Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to‘g‘risidagi hisobot BHMS bo‘yicha tuziladigan Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot bilan o‘xshash bo‘lib, ma’lum bir davr uchun korxonaning daromadlari, xarajatlari va umumiy foyda yoki zararlari haqida axborot beradi.

Ushbu hisobotda boshqa umumlashgan daromadlar bo‘limi milliy standart bo‘yicha tuziladigan hisobotdan ajralib turiladi. Boshqa umumlashgan daromadlar bo‘limi keginchalik foyda yoki zararni qayta tasniflanadigan va qayta tasniflanmaydigan satr moddalaridan iborat bo‘ladi.

Kelgusida foyda yoki zararni qayta tasniflaydigan moddalarga quyidagilar kiradi:

- sotish uchun mavjud bo‘lgan investitsiyalar foyda yoki zarar;
- haqqoniy qiymatning o‘zgarishidan foyda yoki zarar;
- sotishdan olingan foyda yoki zarar;
- kelgusida foyda va zararlarni qayta tasniflanadigan moddalar bo‘yicha foyda solig‘i.

Kelgusida foyda yoki zararni qayta tasniflanmaydigan moddalarga quyidagilar kiradi:

- asosiy vositalarni qayta baholashdan foyda yoki zarar;
- asosiy vositalarni qayta baholashdan tashqari foyda yoki zarar;
- qaram korxonalarning boshqa umumlashgan daromaddagi ulushi;
- kelgusida foyda va zararlarni qayta tasniflanmaydigan moddalar bo‘yicha foyda solig‘i

Faoliyat natijalarini tavsiflash bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar, ya’ni moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot elementlari bo‘lib daromadlar, xarajatlar, foyda va zararlar hisoblanadi.

Ushbu elementlarni moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda aks ettirish iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun foydalanuvchilarga ma’lumotlarni foydali bo‘lgan holda taqdim etish uchun imkon yaratadi.

Foyda – bu xo‘jalik subyektiga ta’sir etadigan asosiy va asosiy bo‘lmagan faoliyat, hodisalar sharoitlar natijasida kapitalning ko‘payishi bo‘lib, xususiy kapitalga to‘lanadigan kapital bundan mustasno.

Zararlar – bu asosiy faoliyat va barcha xo‘jalik muomalalari, hodisalar, sharoitlar natijasida xususiy kapitalning kamayishi bo‘lib, harajatlar yoki xususiy kapitalning taqsimlanishi natijasidagi kamayish bundan mustasno.

Foyda faoliyat natijalarini o‘lchashda yoki boshqa ko‘rsatkichlarni, ya’ni investitsiyani olib kelgan foydasi, bir aktsiyaga to‘g‘ri keladigan foyda kabilarni asosi sifatida foydalaniladi. Foydani o‘lchash bilan bevosita bog‘liq elementlar – bu daromadlar va xarajatlardir.

Daromadlar – bu aktivlarni kelib tushishi yoki ko‘payishi yoxud majburiyatlarni kamayishi shaklida vujudga keladigan va pirovard natijasida xususiy kapitalni oshiradigan iqtisodiy naflarni ko‘payishi, ammo aktsiyador kapitalga ta’sischilar tomonidan to‘lanadigan badallar bundan mustasnodir.

Xarajatlar – bu aktivlarni sarflanishi yoki yemirilishi yoxud majburiyatlarni ko‘payishi shaklida vujudga keladigan va pirovard natijasida xususiy kapitalni kamaytiradigan iqtisodiy naflarni kamayishi, ammo aksiyador kapitalni ta’sischilar orasida taqsimlanishi bundan mustasnodir.

MUAMMONI HAL QILISH USULLARI

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotning eng muhim jihati ushbu hisobot ma’lumotlari asosida xo‘jalik yurituvchi subyektning keyingi faoliyatini bashoratlash imkoniyati tug‘iladi. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotning eng muhim jihati ushbu hisobot ma’lumotlari asosida xo‘jalik yurituvchi subyektning keyingi faoliyatini bashoratlash imkoniyati tug‘iladi.

Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobotni tuzish bo‘yicha xalqaro tajribaga to‘xtalib o‘tsak. Yillik moliyaviy hisobotning tuzilishi va mazmunining turli-tumanligi buxgalteriya hisobi milliy standartlarining farqlanishi bilan izohlanadi. Ko‘pgina mamlakatlarda buxgalteriya hisobi standartlari moliyaviy hisobot satrlarida aks etuvchi ko‘rsatkichlarni belgilab beradi. Bundan tashqari, ko‘pchilik hollarda moliyaviy hisobotlar tahlili maqsadga muvofiqligi yuzasidan o‘tkaziladi.

Ammo ko‘pchilik hollarda kompaniyalar standartlarda tavsiya qilinganidan ko‘proq axborotlarni taqdim etadilar. Bugungi kunda jahonda moliyalashtirishning qo‘shimcha manbalarini jalb etish borasida keskin raqobat

ketmoqda, buning uchun esa kompaniyalar batafsil ko‘rsatkichlarga ega tahliliy hisobotlarni tayyorlashga majbur bo‘lmoqda.

Quyidagi jadvalda xorijiy davlatlarda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tuzishga qo‘yiladigan talablar keltirilgan

1-jadval: Xalqaro amaliyotda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tuzishga qo‘yiladigan talablar[6]

Hisobotning farqli jihatlari	Mamlakatlar			
	Italiya	Fransiya	Germaniya	Rossiya Federatsiyasi
Yillik moliyaviy hisobot tarkibiga qo‘shilishi majburiyligi	Majburiy	Majburiy	Majburiy	Majburiy
Taqdim etish davriyligi	Yillik Yarim yillik (aksiyalari birjalarda kotirovka qilingan kompaniyalar uchun)	Yillik	Yillik	Yillik
Kompaniya hajmiga qarab taqdim etish variantlari	1) Odatiy 2) Kichik korxonalar uchun qisqartirilgan	1) Asosiy 2) Detallashgan 3) Qisqartirilgan	1) Odatiy 2) Kichik korxonalar uchun qisqartirilgan	1) Odatiy 2) Kichik korxonalar uchun qisqartirilgan
Tuzilish shakli	Vertikal (Germaniya uslubi)	Vertikal va gorizontal	Vertikal shakl quyidagi ko‘rinishda: Funksional yoki xarajatli (ishlab chiqarish xarakteriga ko‘ra)	Vertikal
Foydalanuvchilarga mo‘ljallanganligi	Soliq organlari va boshqa foydalanuvchilar		Italiya va Fransiyaga o‘xshash, ammo kamroq darajada	Hisobotning tashqi va ichki foydalanuvchilari

Jadval ma’lumotlari ko‘rsatadiki, tahlil qilinayotgan davlatlarda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tuzish majburiydir. Ammo uning tuzilish shakli va foydalanuvchilarga mo‘ljallanishida farqli jihatlar mavjud. Buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyotida Germaniya ko‘plab yutuqlarga erishgan. Ushbu davlatda buxgalteriya hisobi axborotlarining aniqliligi, tezkorligi va ishonchliligiga muhim e’tibor qaratiladi.

Fikrimizcha, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirishda yuqorida sanab o‘tilgan davlatlarning ijobiy tajribalaridan foydalanish buxgalteriya axborotlari sifati va shaffofliligining oshishiga xizmat qiladi.

Respublikamiz iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni taqozo etmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini qo‘llash borasida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Mazkur standart talablarini keng qo‘llash xorijiy investorlar uchun moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot ma’lumotlarini to‘g‘ri talqin qilish hamda foyda va zararlar xususida aniq ma’lumot olish imkonini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, moliyaviy hisobotlar korxonaga birinchi va asosiy baho beriladigan qiyosiy ko‘rsatkichlar manbasidir. Agar moliyaviy hisobot xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan darajada tuzilgan bo‘lsa, investitsiya olib kiruvchi investorlar uchun kerakli axborot muhiti bilan ta’minlanadi, natijada investitsiya jozibadorligi va investitsiya oqimi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi 4611-sonli qarori.
2. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019 y. – 584 b. 52.
4. Эргашева Ш.Т., Учебник “Международные стандарты финансовой отчетности” –Т.: ТГЭУ, 2020 г.- 307 стр.
5. https://mf.uz/
6. https://www.ifrs.org

6 Швецова О.В. Сравнительная характеристика Российских и зарубежных подходов к формированию информации о финансовых результатах в отчетности. //Аудит и финансовый анализ, 4/2013.

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA QO‘SHMA KORXONASI FAOLIYATINING TAHLILI

Rashidov Jamshid Xamidovich
I.f.n., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Innovatsion menejment” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiyalash oldindan qo‘yilgan maqsad emas, balki sanoat tarmoqlarining notekis rivojlanishiga barham berish, an’anaviy ishlab chiqarish sohalarida foyda me’yorining pasayishi tufayli kapitalni boshqa tarmoqlarga samarali taqsimlash, fan-texnika tarraqqiyoti natijalarini amaliyotga joriy etish orqali sanoat korxonalarining iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta’minlash, foyda me’yorini oshirish, sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini jahon talablari darajasiga yetkazish vositasi hisoblanadi. Mazkur maqolada qayd etilgan masalalar tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Raqamlashtirish sharoitida daromadlar, xarajatlar, foyda, ativlar, passivlar, solishtirmalar, rivojlanish.

Abstract: Diversification of industrial production in Uzbekistan is not a predetermined goal, but an end to the uneven development of industrial sectors, effective distribution of capital to other sectors due to the decrease in the rate of profit in traditional production sectors, and the implementation of the results of scientific and technical development. It is a means of ensuring the economic and financial stability of enterprises, increasing the profit margin, and bringing the competitiveness of industrial products to the level of world requirements. The issues mentioned in this article are researched.

Key words: Revenues, costs, profits, assets, liabilities, comparisons, development in the context of digitization.

Аннотация: Диверсификация промышленного производства в Узбекистане – это не заранее заданная цель, а прекращение неравномерного развития отраслей промышленности, эффективное распределение капитала в другие отрасли за счет снижения нормы прибыли в традиционных отраслях производства и реализация результатов. научно-технического развития – это средство обеспечения экономической и финансовой устойчивости предприятий, увеличения рентабельности, доведения конкурентоспособности промышленной продукции до уровня мировых требований. Исследуются вопросы, затронутые в данной статье.

Ключевые слова: Доходы, затраты, прибыль, активы, обязательства, сравнения, развитие в условиях цифровизации.

KIRISH (INTRODUCTION)

To‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar yoki ko‘rsatilayotgan xizmatlar assortimentini ko‘paytirishni ham nazarda tutadi. Bu o‘rinda korxonaning turli faoliyat sohalari bilan shug‘ullanishi shart emas. Balki bir faoliyat sohasi, ya’ni to‘qimachilikning o‘zida ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini ko‘paytirish hisobiga korxona faoliyatini takomillashtirish mumkin. Odatda, bozor iqtisodiyoti sharoitida yagona, bitta mahsulot turini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar barqarorligi xavf-xatarning yuqori darajasi bilan tavsiflanadi. Chunki ushbu mahsulot bozoridagi konyunkturaning salbiy o‘zgarishi korxona faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shunga ko‘ra, korxona an’anaviy tarzda ishlab chiqarayotgan mahsulotlari tarkibini bozorda yangi talab shakllangan va izchil ravishda o‘sib borayotgan mahsulotlarni ishlab chiqarish hisobiga kengaytirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday holda, bozordagi u yoki bu mahsulotga bo‘lgan talabning qisqarishi yoki narxning pasayishi ta’sirida paydo bo‘lgan yo‘qotishlar boshqa mahsulotlarga bo‘lgan talab yoki narxning o‘sishi hisobiga qoplanadi.

Bizning fikrimizcha, yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda xalqaro sifat standartlari va texnik reglamentlarga rioya etilishiga jiddiy e’tibor qaratish hamda loyihalarni amalga oshirishda va yangi loyihalarni ishlab chiqishda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi qonun hujjatlaridagi belgilangan talablarga rioya etilishini ta’minlash zarur.

Amalga oshirilgan prognoz ko‘rsatkichlariga erishish uchun, bizning fikrimizcha, to‘qimachilik korxonalarida jahon standartlariga javob beradigan va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlaydigan zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni tashkil etish strategiyalarini ishlab chiqish, to‘qimachilik sanoati korxonalarining ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, sohaga zamonaviy asbob-uskuna va texnikalar, texnologik liniyalar va modullar, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko‘lamda ishlab chiqarishni joriy qilish lozim.

USULLAR (METHODS)

Maqolani tayyyorlashda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, monografik bayon usuli, iqtisodiy-statistik tahlil, statistik ma’lumotlarni taqqoslash, guruhlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

NATIJALAR (RESULTS)

Yordamchi ishlab chiqarish xodimlarining soni 6 kishini, injener-texnik xodimlar 2021-yilda 4 kishini va ma’muriy-boshqaruv xodimlari esa 2021–2022-yillarda 5 kishini tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkichlarning hammasi jamiyatning faoliyati ijobiy holatda ekanligini ko‘rsatadi va mehnat resurslarini boshqarish yaxshi yo‘lga qo‘yilganligini, yildan-yilga hodimlar soni ortib, ma’muriy-boshqaruv xodimlari soni kamayganligi, jamiyatda boshqaruv tizimi demokratik ruhda olib borilayotganligidan darak beradi.

“ZETA TEKS” MChJ qo‘shma korxonasining o‘rtacha yillik ish haqi ishchilar kesimida 2021-yilda 252600 mln. so‘mni, 2022-yilda 3848400 mln. so‘mni, 2021-yilda esa 5808000 mln. so‘mni tashkil qilgan, bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan 2021-yilda 2,3 martaga oshgan. ITR bo‘yicha o‘rtacha yillik ish haqi 2021-yilga nisbatan 2021-yilda 164,7% ga o‘sgan. Ma’muriyat hodimlari uchun o‘rtacha yillik ish haqi 2021-yilga nisbatan 2021-yilda 146,6% ga oshgan.

O‘rtacha yillik ish haqining ortishi ishchining xizmat ko‘rsatishi bo‘yicha belgilangan normani ortig‘i bilan bajarishi hamda ish haqi tarkibidagi unumsiz harajatlar mavjudligi tufayli yuz beradi. Bundan tashqari bir ishchining yillik ish haqining o‘zgarishi hisobiga ishchilarning ish haqi fondiga ta’sir etgan.

Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, korxonada joriy yilda ishchilarning moliyaviy ahvoliga bir qadar e’tibor kuchayganligini hamda moddiy e’tibor kuchayganligini, ularning moddiy holati yaxshilanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tahlil qilingan yillarda korxonada muntazam ravishda ishlab chchiqarishni diversifikatsiyalash, yangiliklarni yaratish va tatbiq etish ishlarini olib borilgan. Har yili yangi turdagi mahsulotlar yaratilib, mahsulotlar xilma xilligi va hajmini muntazam ravishda ko‘paytirib borilgan. Korxona O‘zbekiston ichki bozorlarida o‘z o‘rniga ega va shu bilan birga mahsulotlar Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston davlatlariga ham eksport qilinadi. Shuningdek, korxona boshqaruv tizimi tarkibi, yangi texnikaning rivojlanishi, texnologik jarayonni takomillashtirish, muxandis-texnik xodimlarining malakasini oshirish, boshqaruvda yangi boshqarish texnikasini joriy etilishi korxonani boshqarishni tashkiliy tarkibini takomillashtirish imkonini yaratadi.

Tahlil.(Analyses). “ZETA TEKS” MChJ qo‘shma korxonasi ma’lum salohiyatga ega bo‘lgan ishlab chiqarish korxonalaridan hisoblanib, uning tarkibiga trikotaj to‘qish, bo‘yash-pardozlash, trikotaj-to‘quv sexlari hamda savdo shaxobchalari kiradi.

“ZETA TEKS” MChJ qo‘shma korxonasi xalq iste’mol mollari, xom trikotaj matosi, tayyor trikotaj matosi hamda tayyor trikotaj-tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Respublika sharoitida bu tarmoqning kelajagi porloq hisoblanadi, chunki xom ashyo Respublikada yetarlicha yetishtiriladi, shu sababli korxonada mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish imkoniyatlari mavjud.

Korxona o‘z mahsulotlarini har xil usullar bilan sotadi: korxonalarga “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi orqali shartnomalar, ichki bozorga korxona mahsulotlari tikuv, xususiy firmalar, ishbilarmonlarga, savdo shaxobchalari orqali sotiladi.

Korxonada mahsulot turlarini yangilash, kengaytirish borasida bozor talabiga muvofiq, uzluksiz ish olib boriladi. Bozorni o‘rganib quyidagilarni xulosa qilish mumkin, Yevropa bozoriga kirish uchun korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash va ular jahon standartlariga to‘liq javob bera oladigan bo‘lishi kerak, bu vazifani amalga oshirish uchun korxonadagi mavjud quvvatlarni qayta jihozlash zarur bo‘ladi, hamda yangicha boshqarish usullaridan foydalanish kerak.

Korxona ishlab chiqargan mahsulotlarini jadal ravishda sotishga erishish maqsadida tijorat bo‘limi faoliyatini bozor iqtisodiga mos holda qayta tashkil etiladi. Hozirgi kunda korxonada tijorat markazi mustaqil hisob raqami bilan tashkil etilgan bo‘lib, tayyor mahsulotni sotish, korxonaga kerakli yordamchi materiallarni sotib olish bilan shug‘ullanadi.

“ZETA TEKS” MChJ qo‘shma korxonasida 2022-yil avgust-noyabr oylarida sifat menejmenti tizimini joriy etish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borildi hamda ICO 9001:2008 standartlari joriy etildi.

2021-yil korxonada ishlab chiqarish hajmi mavjud liniyalar bo‘yicha 750000 kg, yangi liniyalar bo‘yicha esa 300000 kg tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval: “ZETA TEKS” MChJ qo‘shma korxonasining ishlab chiqarish hajmi dinamikasi

№	Ko‘rsatkichlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2023- yilni 2021- yilga nisbatan % hisobida
1.	Mavjud liniyalarda bajarilgan jami bo‘yash-pardozlash ishlari hajmi,kg	681200	712500	750000	110,1
2.	Yangi liniyalarda bajarilgan jami bo‘yash-pardozlash ishlari hajmi	275000	285000	300000	109,1

2021-yil korxonada mavjud ishlab chiqarish liniyalari bo‘yicha trikotaj matolarini to‘q ranglarga faol bo‘yash hajmi 210000 kg, to‘q ranglarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘yash 157500 kg, gul bosish 142500 kg, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rtacha o‘rtacha bo‘yash 105000 kg, ochiq ranglarga faol bo‘yash hajmi 90000kg, qaynatish ishlarining hajmi 30000 kg, oqartirish 150000 kg ni tashkil etdi.

Yangi ishlab chiqarish liniyalari bo‘yicha 2021-yilda jami 300000 kg trikotaj matolarini bo‘yash-pardozlash ishlari amalga oshirildi. Bunda trikotaj matolarini to‘q ranglarga faol bo‘yash hajmi 84000 kg, to‘q ranglarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘yash 63000 kg, gul bosish 57000 kg, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rtacha o‘rtacha bo‘yash 42000 kg, ochiq ranglarga faol bo‘yash hajmi 36000kg, qaynatish ishlarining hajmi 12000 kg, oqartirish 6000 kg ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2021-yilda korxonada 1050000 kg trikotaj matolari to‘qib chiqarildi.

2022-yil korxonaga ICO 9001:2008 standartlari o‘rnatilganidan so‘ng, mahsulot ishlab chiqarish hajmi o‘sdi, mahsulotning sifati ko‘rsatkichlari yaxshilandi, yaroqsiz mahsulotga sarflanadigan xomashyo sarfi qisqardi. Oqibat natijada, korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarda ijobiy o‘zgarishlar tendensiyasi kuzatildi.

“ZETA TEKS” MChJ qo‘shma korxonasining to‘qish, bo‘yash-pardozlash korxonasi II toifaga mansub. Korxona boshqaruv tizimining tarkibi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi va turiga, korxona quvvatiga, texnologik jarayon darajasi va takomillashganligiga, ixtisoslashganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, tarkibida uchta va undan ortiq korxonada boshqarishni tashkiliy tarkibi bitta yoki ikkita korxonadan tashkil topgan birlashmadagi boshqarish tizimi tarkibidan tubdan farqlanadi.

Shuning uchun har bir alohida holatda umumiy tamoyillardan kelib chiqqan holatda korxona boshqaruv tizimi uning uzluksiz faoliyat ko‘rsatishini ta’minlovchi boshqaruv xarajatlarini eng kam bo‘lgan holda tanlash-belgilash zarur bo‘ladi.

Shuning uchun har bir alohida holatda umumiy tamoyillardan kelib chiqqan holatda korxona boshqaruv tizimi uning uzluksiz faoliyat ko‘rsatishini ta’minlovchi boshqaruv xarajatlarini eng kam bo‘lgan holda tanlash-belgilash zarur bo‘ladi.

Korxonani boshqaruv tizimi tarkibi, yangi texnikani rivojlanishi, texnologik jarayonni takomillashtirish, muxandis-texnik xodimlarini malakasini oshirish, boshqaruvda yangi boshqarish texnikasini joriy etilishi korxonani boshqarishning tashkiliy tarkibini takomillashtirish imkonini yaratadi. Korxona boshqaruvi tashkiliy tizimi, uning quvvatiga binoan belgilanadi. Korxona boshqaruv tizimi korxona faoliyatini uzluksiz va samarali bo‘lishini ta’minlashi kerak.

“ZETA TEKS” MChJ qo‘shma korxonasida boshqarishning o‘ziga xos aniq funksiyalari muayyan boshqaruv organiga va uning boshqaruvchisiga aniq biriktirilgan ishlar, mas’uliyat, maqsad va unga erishish vositalari orqali amalga oshiriladi.

“ZETA TEKS” MChJ qo‘shma korxonasining ijtimoiy- iqtisodiy faoliyati tahlilini amalga oshirish murakkab va izchil faoliyatdir. Iqtisodiy tahlilning asosiy mazmuni iqtisodiy qonunlardan foydalangan holda xo‘jaliklarda, uning tarmoqlari va tarkibiy bo‘limlarida samaradorlikni oshirish maqsadida imkoniyatlarni axtarib topish va ulardan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlashdir.


Korxonaning faoliyatini tahlil qilishda eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri – taqqoslash usulidan foydalanildi. Bu usulda sotilgan (mahsulotlar) tovarlar, sof foyda, soliq to‘langungacha bo‘lgan foyda, asosiy fondlar qiymati, kapital qo‘ylmalar, asosiy faoliyatning foydasi, moliyaviy faoliyatning daromadlari, moliyaviy faoliyatning xarajatlari, umumiy xo‘jalik faoliyatining foydasi, daromad solig‘ini to‘lagunga qadar foyda, ma’muriy xarajatlar, yalpi foyda, foydadan soliq va ajratmalar, davr xarajatlari kabi ko‘rsatkichlar va hokazolar bir necha iqtisodiy ko‘rsatkichlardan ifodalaniladi.

“ZETA TEKS” MChJ qo‘shma korxonasining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarining tahlilidan ko‘rinib turibdiki, mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2021-yilda 28477 mln. so‘mni, 2022-yilda 35426 mln. so‘mni, 2021-yilda 47251 mln. so‘mni tashkil qilgan. 2021-yilda 2021-yilga nisbatan bu ko‘rsatkich 165,9 % ga oshgan. Sotilgan mahsulotlar esa 2021-yilda 12690 mln. so‘mni, 2022-yilda 25204 mln. so‘mni, 2021-yilda 29729 mln. so‘mlik summani tashkil qilgan. 2021-yilda 2021-yilga nisbatan bu ko‘rsatkich 2,3 martaga oshgan.Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi 2021-yilda 1916,4 mln. so‘mni, 2022-yilda 2348,0 mln. so‘mni, 2021-yilda 28548 mln. so‘mni tashkil qilgan. 2021-yilda 2021-yilga nisbatan bu ko‘rsatkich 148,9 %ni tashkil qilgan. Soliq to‘langungacha bo‘lgan foyda 2021-yilda 35254 mln. so‘mga ko‘tarilgan, 2021-yilga nisbatan 2,3 martaga oshgan.

2-jadval: “ZETA TEKS” MChJ qo‘shma korxonasining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari


№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2021	2022	2023	2023-yilni 2021-yilga nisbatan % hisobida
1.	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi	mln.so‘m	28477	35426	47251	165,9
2.	Sotilgan mahsulotlar	mln.so‘m	12690	25204	29729	2,3 marta
3.	Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi	mln.so‘m	19164	23480	28548	148,9
4.	Soliq to‘langungacha bo‘lgan foyda	mln.so‘m	13196	23321	35254	2,7 marta
5.	Sof foyda	mln.so‘m	10740	20328	32935	3 marta
6.	Asosiy fondlar qiymati	mln.so‘m	4975	5306	5985	120,3
7.	Kapital qo‘yilmalar	mln.so‘m	38134	39603	31571	82,8
8.	Ishchi – xodimlar soni	kishi	135	145	150	111,1
9.	Shu jumladan, sanoat ishlab chiqarish xodimlari	kishi	120	130	135	112,5
10.	O‘rtacha ish haqi	so‘m	210500	320700	484000	2,3 marta

“ZETA TEKS” MChJ qo‘shma korxonasining yuqoridagi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari ma’lumotlarini diagramma ko‘rinishida ko‘rib chiqamiz (1-diagramma).



1-diagramma: “ZETA TEKS” MChJ qo‘shma korxonasining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, korxonaning 3 yillik daromadlar va xarajatlar balansi ko‘rsatkichlari yildan yilga oshib bormoqda, bunda korxona menejerining hissasi juda kattadir. Korxona boshqaruv tizimini yaxshi yo‘lga qo‘yib, samarali boshqaruvni olib borilsa, korxonada doim ijobiy natijalarga erishadi.



2-diagramma: “ZETA TEKS” MChJ qo‘shma korxonasining daromadlar va xarajatlar balansi

“ZETA TEKS” MChJ qo‘shma korxonasining ma’lumotlari asosida moliyaviy koeffitsiyentlari tahlilini 3-diagramma ma’lumotlaridan ko‘rib chiqib, jamiyatining moliyaviy ahvoliga to‘g‘ri baho berish uchun buxgalteriya balansiga asoslangan holda moliyaviy koeffitsiyentlardan foydalanib kuzatamiz. Bunda aylanma aktivlar 2021-yil 1073,8 mln. so‘m, 2022-yil 1753,1 mln. so‘mni 2021-yil 1259,9 mln. so‘mni tashkil etgan va 2021-yil 2021-yilga nisbati 117 % ga ko‘paygan. Majburiyatlarni shu tarzda ko‘rib chiqamiz, korxonaning moliyaviy ahvoli o‘zgarish holatiga ega ekanligidan dalolat beradi.

O‘z mablag‘lari manballari 2021-yilda 2076,3 mln. so‘mni, 2022-yil 2240,1 mln. so‘mni, 2021-yilda 2092,4 mln.so‘mni tashkil qilgan, 2021-yilda 2021yilga nisbatan100 %ga o‘sgan. Shu bilan birga balans aktivi yoki passivi yakuni ham 2021-yilda 2021-yilga nisbatan 108 % ga oshgan.

Uzoq muddatli aktivlar 2021 yiga 1394,2 mln. so‘mni tashkil qilmoqda. Uzoq muddatli aktivlar 2021-yilda 1378,8 mln. so‘mni, 2022 yilda 1396,6 mln. so‘mni tashkil qilgan. 2021-yilda 2021-yilga nisbatan 101 % ga o‘sgan.

“ZETA TEKS” MChJ qo‘shma korxonasida xodimlar soni 2021-yilda 135 kishini, 2022-yilda 145 kishini va 2021-yilda 150 kishini tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich orqali biz 2021 -yilga nisbatan 2021-yida 111,2 % ga, 2022-yilda 103,1 %ga hodimlar soni ko‘payganligini ko‘ramiz. Shu bilan birga asosiy ishlab chiqarish xodimlari ham 2021-yilda120 kishini, 2022-yilda 130 kishini, 2021-yilda 135 kishini tashkil qilgan, har yili 5 nafar kishiga ko‘paygan.

X U L O S A (DISCUSSION)

1. 2023-yilda korxonada mavjud ishlab chiqarish liniyalari bo‘yicha trikotaj matolarini to‘q ranglarga faol bo‘yash hajmi 210000 kg, to‘q ranglarga to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘yash 157500 kg, gul bosish 142500 kg, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rtacha o‘rtacha bo‘yash 105000 kg, ochiq ranglarga faol bo‘yash hajmi 90000kg, qaynatish ishlarining hajmi 30000 kg, oqartirish 150000 kg ni tashkil etgan.
2. “ZETA TEKS” MChJ qo‘shma korxonasining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarining tahlilidan ko‘rinib turibdiki, mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2017-yilda 28477 mln. so‘mni, 2022-yilda 35426 mln. so‘mni, 2023-yilda 47251 mln. so‘mni tashkil qilgan. 2023-yilda 2021-yilga nisbatan bu ko‘rsatkich 165,9 % ga oshgan. Sotilgan mahsulotlar esa 2021-yilda 12690 mln. so‘mni, 2022-yilda 25204 mln. so‘mni, 2023-yilda 29729 mln. so‘mlik summani tashkil qilgan. 2023-yilda 2021-yilga nisbatan bu ko‘rsatkich 2,3 martaga oshgan.
3. “ZETA TEKS” MChJ qo‘shma korxonasida xodimlar soni 2021-yilda 135 kishini, 2022-yilda 145 kishini va 2023-yilda 150 kishini tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich orqali biz 2021-yilga nisbatan 2023-yida 111,2 % ga, 2018-yilda 103,1 %ga hodimlar soni ko‘payganligini ko‘ramiz. Shu bilan birga asosiy ishlab chiqarish xodimlari ham 2021-yilda120 kishini, 2022-yilda 130 kishini, 2023-yilda 135 kishini tashkil qilgan, har yili 5 nafar kishiga ko‘paygan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. DJURABAEV O. Formation of model beekeeping facilities and modernized interindustrial communications in human bearing management //Архив научных исследований. – 2020. – №. 11.
2. Djurabaev O. Methods of the process approach in management and determination of the criterion of technological efficiency of beekeeping farms: methods of the process approach in management and determination of the criterion of technological efficiency of beekeeping farms // Archive of scientific research. – 2021. – Т. 1. – No. 1.
3. Saidov M. Increasing Management Efficiency in The Electricity Sector of Uzbekistan //The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. – 2021. – С. 343-347.
4. Saidov M. S. Analysis of the economic activities of natural monopoly organizations //Инвестиции, градостроительство, недвижимость как драйверы социально-экономического развития территории и повышения качества жизни населения. – 2022. – С. 74-79.
5. Munira A. Analysis methods of the factors influencing on consumer market //Бюллетень науки и практики. – 2018. – Т. 4. – №. 2. – С. 276-282.
6. Shanazarova G. Features of innovative management strategy of the automotive industry of Uzbekistan //Архив научных исследований. – 2019.\
7. Yaxyayeva I. Енгил саноат корхоналарида маҳсулот рақобатбардошлигини ошириш йўналишлари //Архив научных исследований. – 2019.



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIDA OILAVIY TADBIRKORLIKNING O‘RNI

Raximov Baxromjon Ibroximovich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti dotsenti

Saloxiddinov Zuxriddin Nuriddin o‘g‘li
Namangan muhandislik-texnologiya instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy tadbirkorlik mohiyati yoritilgan va ko‘plab mamlakatlarda ayniqsa, O‘zbekistonda oila muqaddas sanaladi. Mamlakatimiz oilalarida tomorqadan unumli foydalanish orqali oila ro‘zg‘origa zarur bo‘lgan mahsulotlarni uyda yetishtirish, ortiqcha qismini bozorga oborib sotish borasida yetarlicha tajriba to‘plangan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, daromad, ishchi kuchi, migratsiya.

Abstract: This article highlights the essence of family business, and in many countries, especially in Uzbekistan, the family is considered sacred. Families of our country have accumulated enough experience in growing the products necessary for the family’s livelihood at home, and selling the surplus on the market through the productive use of the farm.

Key words: entrepreneurship, small business, family business, income, workforce, migration.

Аннотация: В данной статье освещена суть семейного бизнеса, а во многих странах, особенно в Узбекистане, семья считается священной. Семьи нашей страны накопили достаточный опыт выращивания продуктов, необходимых для существования семьи, в домашних условиях, а также реализatsii излишков на рынке посредством продуктивного использования хозяйства.

Ключевые слова: предпринимательство, малый бизнес, семейный бизнес, доходы, рабочая сила, миграtsiя.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvaridagi PQ-39-sonli “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq mahallalarda kichik biznes va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, yoshlar va xotin-qizlar daromadli mehnat bilan band qilish borasidagi tadbirlarni tizimli ravishda davom ettirish rejalashtirilgan.

Chunki bu soha vakillarini asossiz ravishda tekshirish holatlari ko‘p. Ochig‘ini aytganda, tadbirkorlikning erkin rivojlanishiga o‘zimiz – davlat idoralari yo‘l qo‘ymayapmiz. Hech kimga kerak bo‘lmagan tartib-taomillar hamon saqlanib qolmoqda, joylarda ko‘pgina amaldorlar faqat o‘z shaxsiy manfaatini o‘ylab ish ko‘rmoqda” ushbu fikrlaridan tadbirkorlik faoliyati va tadbirkorlar iqtisodiyot uchun nechog‘lik muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, xususiy mulkning qonuniy hamda amaliy jihatdan ustuvor rolini ta’minlash, iqtisodiyotda davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan aniq manzilli chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich ta’kidlaganlaridek: “Bizning bosh vazifamiz – tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratishni ta’minlashdir. Biznes bilan shug‘ullanayotgan har kishida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga astoydil ishonch bo‘lishi shart. Odamlar biznes bilan shug‘ullanishdan manfaatdor bo‘lishi zarur. Tadbirkor va xalq boy bo‘lsa – mamlakat ham boy bo‘ladi” [1].

Xususiy tadbirkorlikning afzalliklari: birinchidan, xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun ruxsat olish xo‘jalik shirkatlariga nisbatan soddalashtirilgan, ya’ni xususiy tadbirkor davlat ro‘yxatidan o‘tganidan keyin,

yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yuritishi mumkin. Bunda xususiy tadbirkor bankda hisob raqami ochishi va o‘z hamkorlari bilan naqd pulsiz hisob-kitobni amalga oshirishi mumkin. Ikkinchidan, soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi qo‘llaniladi. Bundan tashqari, to‘la mustaqillik harakatdagi erkinlik va tezkorlik, barcha foyda faqat mulkning yolg‘iz egasiga kelib tushadi va u ko‘proq ishlashga raqobatlantiradi.

Oilaviy (tadbirkorlik – oila a’zolari tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir. Oilaviy tadbirkorlik o‘z, ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi. Oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Oilaviy korxona uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va sivilizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir. Oilaviy korxona faoliyatni faqat yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirishi mumkin. Oilaviy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘lishi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin. Oilaviy korxona qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarni yollashni amalga oshirishi mumkin. Oilaviy korxona ishtirokchilarining va uning yollanma xodimlarining umumiy soni kichik tadbirkorlik subyektlari xodimlarining qonun hujjatlarida belgilangan o‘rtacha yillik sonidan ko‘p bo‘lishi mumkin emas. Unda oilaviy korxona ishtirokchilarining eng kam soni ikki kishidan oz bo‘lmasligi kerak. Oilaviy korxona ishtirokchilari: oila boshlig‘i, uning xotini (eri), bolalari va nabiralari, ota-onasi, mehnatga qobiliyatli yoshga to‘lgan boshqa qarindoshlari (bolalari va nabiralarining erlari (xotinlari), tug‘ishgan hamda o‘gay aka-uka va opa-singillari, ularning erlari (xotinlari) hamda bolalari, tog‘a va amaki hamda amma va xolalari) oilaviy korxona ishtirokchilari bo‘lishi mumkin. Oilaviy korxona boshlig‘i yuridik va jismoniy shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarda oilaviy korxona nomidan uning boshlig‘i ish ko‘radi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xorijiy olimlarning mavzuga doir ilmiy adabiyotlari va maqolalarini o‘rganish hamda xorijiy kompaniyalarning bu boradagi tajribalarini tahlil qilish asosida mualliflik yondashuvlari keltirilgan. Shuningdek, maqolaning ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlarini statistik tahlil usullari (dinamik va qiyosiy tahlil usullari)dan foydalanilgan.

Kichik biznesning innovatsion rivojlanishining turli hududiy modellarini shakllantirish xususiyatlarini belgilovchi jarayonlarning tegishli tavsifi uchun iqtisodiy voqelikning subyektiv tabiatiga muvofiq takomillashtirilgan tadqiqot paradigmasi asosida uslubiy yondashuv taklif etiladi.


Marketing tadqiqotlarida uchraydigan muammolar, davlat boshqaruvi tizimida franshizalarni jalb qilish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini murakkablashtiradi. Bu muammolarni hal qilish uchun, ma’lumotlarning sifati va to‘g‘riligiga alohida e’tibor qaratish, cheklangan resurslarni samarali boshqarish, metodologiyalarni soddalashtirish va ichki hamda tashqi manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni topish zarur. Shuningdek, qonunchilik va siyosatdagi cheklovlar bilan ishlashda ham yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish talab etiladi.

Muammolarni hal qilishning innovatsion usullari orasida zamonaviy texnologiyalardan, masalan, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlilidan foydalanish, shuningdek, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish kiradi. Bu usullar tadqiqot jarayonini tezlashtirishi, uning samaradorligini oshirishi va xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Marketing tadqiqotlarida uchraydigan muammolarni hal etishda yangi va innovatsion yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi.

Davlat boshqaruvi tizimida samarali franshizalarni jalb qilish strategiyalarini ishlab chiqish uchun ushbu muammolarni bartaraf etish yo‘llarini bugungi kunda ko‘rib chiqishimiz zarur:

- **Sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili:** Sun’iy intellekt (AI) va katta ma’lumotlar tahlili, ma’lumotlarning sifati va to‘g‘riligini oshirishda yordam beradi. AI, ma’lumotlarni tez va samarali tahlil qilish, tendensiyalarni aniqlash va istiqboldagi imkoniyatlarni baholash imkonini beradi.
- **Blokcheyn texnologiyasi:** Blokcheyn, ma’lumotlarning shaffofligi va xavfsizligini ta’minlashda qo‘llanilishi mumkin. Bu texnologiya orqali to‘plangan ma’lumotlar ishonchli va o‘zgartirib bo‘lmaydigan qilib saqlanadi, bu esa tadqiqotning sifatini oshiradi.
- **Ichki va tashqi hamkorlik:** Davlat idoralari, franshiza beruvchilar va mahalliy bizneslar o‘rtasida yaqin hamkorlik o‘rnatish, muammolarni samarali hal qilishda muhimdir. Masalan, biznes inkubatorlar va tadbirkorlik markazlari bilan hamkorlik, yangi franshizalarni jalb qilishda yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin.
- **Xalqaro Hamkorlik:** Xalqaro tajribalarni o‘rganish va ular bilan hamkorlik qilish, mahalliy muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlar keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, boshqa davlatlardagi muvaffaqiyatli franshiza jalb qilish modellaridan o‘rganish.
- **Interaktiv web saytlar va ijtimoiy tarmoqlar:** Franshizalarni jalb qilishda va ular haqida ma’lumot tarqatishda raqamli platformalar muhim rol o‘ynaydi. Bu orqali tez va oson muloqot qilish, shuningdek, potensial franshizalar va mijozlar bilan aloqa o‘rnatish mumkin.
- **Qonunchilikni yengillashtirish:** Franshizalarni jalb qilish va marketing tadqiqotlarini osonlashtirish uchun qonunchilikni yengillashtirish kerak. Bu, biznes yuritish jarayonlarini soddalashtirish va yangi franshizalarni ro‘yxatdan o‘tkazishni tezlashtirish orqali amalga oshiriladi.
- **Soliq Imtiyozlari va Subsidiyalar:** Franshizalarni jalb qilishni rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari va moliyaviy subsidiyalar taqdim etish. Bu, yangi bizneslarni ochish va mavjud bizneslarni kengaytirishni qo‘llab-quvvatlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, davlat boshqaruvi tizimida franshizalarni jalb qilishda marketing tadqiqotlarini joriy etish, ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelsada, innovatsion yondashuvlar va siyosiy hamda qonuniy o‘zgarishlar orqali ushbu muammolarni samarali hal etish mumkin. Bu strategiyalar, davlat idoralariga, franshiza beruvchilar va mahalliy bizneslar o‘rtasida mustahkam hamkorlikni rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash va davlat siyosati hamda qonunchilikdagi imkoniyatlardan to‘liq foydalanish orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, franshizalarni jalb qilish strategiyalari, nafaqat biznes ekotizimini, balki butun iqtisodiyotni ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2023-Franchising-Economic-Report --https:www.franchise.org
2. Delivering critical insight on global markets through economic and alternative data; https://www.ceicdata.com/en
3. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management (15th ed.). Pearson Education, Inc.
4. Hollensen, S. (2017). Global Marketing (7th ed.). Pearson Education Limited.
5. Davlat boshqaruv tizimida marketing. http://elibrary.ru/item.asp?id=27471308
6. 2024 is here. Is your team ready?; https://www.hubspot.com/state-of-marketing
7. 180+ Strategy-Changing Digital Marketing Statistiks for 2024; https://www.wordstream.com/blog/ws/2022/04/19/digital-marketing-statistiks
8. Khodjayev A. R. et al. Efficiency of using modern information and communication technologies in small business // World science: problems and innovations. – 2021. – С. 130-132.
9. Qulliyev O. Covid-19 и экономика Узбекистана //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
10. Rasulovich K. A., Tuymuratovich A. M. Efficiency of formation of franchise in small business development //Наука и образование сегодня. – 2021. – №. 9 (68). – С. 39-42.
11. Rasulovich K. A., Zokirovich K. M. Market Economy and its Emergence //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2023. – С. 47-52.
12. Anvar-Oglu K. O., Oglu A. B. S. FEATURES OF A VALUE ASSESSMENT OF INNOVATION PROJECTS //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 3. – С. 61-66.
13. Rasulovich K. A. AN ENGINE IN THE NEW AGE OF DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY //Economics. – 2022. – №. 1 (51). – С. 70-74.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TRANSPORT DECARBONIZATION STRATEGY





Yarashova Vasila Kamalovna
Doctor of Economics, Associate Professor,
Tashkent State University of Economics,
Department of Green Economy

Muradov Bekzod Xidirnazar ugli
master's student of the MEKR-10 group
Tashkent State University of Economics

Abstract: The article provides an overview of the research of foreign scientists on the issues of decarbonization of transport, competition for alternative fuels and between alternative modes of transport. The paper formulates decarbonization strategies and substantiates the main objectives of approaches to decarbonization of transport. In conclusion, the authors recommend ways to reduce greenhouse gas (GHG) emissions in transport as part of the decarbonization of the economy.

Key words: sustainable development, transport, logistics, transport policy, strategy, ecology, government regulation, decarbonization, carbon footprint, greenhouse gas.

Annotatsiya: Maqolada chet ellik olimlarning transportni karbonsizlantirish, muqobil yoqilg'i uchun raqobat va muqobil transport turlari o'rtasidagi raqobatni tadqiqotlari haqida umumiy ma'lumot berilgan. Maqolada dekarbonizatsiya strategiyasi shakllantirilgan va transportni dekarbonizatsiya qilish yondashuvlarining asosiy maqsadlari asoslangan. Xulosa qilib aytganda, mualliflar iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilishning bir qismi sifatida transportda issiqxona gazlari (IG) chiqindilarini kamaytirish usullarini tavsiya qildilar.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, transport, logistika, transport siyosati, strategiya, ekologiya, davlat tomonidan tartibga solish, dekarbonizatsiya, uglerod izi, issiqxona gazlari.

Аннотация: В статье сделан обзор исследований зарубежных ученых по вопросам декарбонизации транспорта, конкуренции за альтернативные виды топлива и между альтернативными видами транспорта. В работе сформулированы стратегии декарбонизации, обоснованы основные цели подходов к декарбонизации транспорта. В заключении авторы рекомендуют направления снижения выбросов парниковых газов (ПГ) на транспорте в рамках декарбонизации экономики.

Ключевые слова: устойчивое развитие, транспорт, логистика, транспортная политика, стратегия, экология, государственное регулирование, декарбонизация, углеродный след, парниковые газы.

INTRODUCTION

The concept of sustainable transport has gained wide recognition as a goal and is featured in the environmental plans of many governments and corporations. For example, the European Union has set an ambitious target to reduce net greenhouse gas emissions by 55% by 2030 compared to 1990 levels. However, sustainable transport remains elusive as it does not offer clear guiding principles, but rather a narrative that allows stakeholders to remain vague in their commitments and initiatives. In the 17 Sustainable Development Goals defined by the United Nations, transport was not identified as a separate sustainable development goal, despite accounting for about a quarter of global CO_2 emissions.

Transport decarbonization aims to reduce, mitigate and even eliminate carbon emissions by adapting transport infrastructure, vehicles and operations.

LITERATURE REVIEW

Many studies on the decarbonization of the global transport sector argue that the transport sector is struggling to decarbonize and make its proportionate contribution to achieving the ambitious climate targets set by the Paris Agreement [1]. Analysis by Gota et al. (2019) shows that, in the absence of additional measures, emissions from the transport sector could exceed previous projections and thus pose a major obstacle to preventing dangerous climate change. However, if countries collectively put maximum effort into implementing comprehensive low-carbon measures, the sector could achieve emissions reductions approaching the 1.5 degree scenario. [2]

Naemeka et al (2022) argued that several studies have modeled different pathways for decarbonizing the transport system, but consensus remains unclear due to the heterogeneity of transport technologies, infrastructure, locations and consumers. The study shows that decarbonization of the transport sector poses challenges related to revenue generation, financing transition policies, competition for alternative fuels, displacement of low-income consumers and potential impacts on travel behavior. [3]

Danish scientists Kani et al. (2022) argue in their study that the transport sector accounts for approximately a third of Denmark›s greenhouse gas emissions and almost half of the energy sector›s emissions. Between 2030 and 2045, significant electrification of road transport and a focus on shifting mobility needs from roads to rail and bicycles will lead to complete decarbonization, as well as the substitution of fossil fuels for electric power in aviation, shipping and heavy-duty road transport. [4]

According to Chaundry et al (2022), decarbonization of heating systems and road transport are seen as necessary but very difficult steps towards zero carbon emissions. They described how a national gas and electricity transmission network model was expanded to represent multiple local energy systems and combined with a national energy demand and road transport model. While using hydrogen for heating and transportation spreads the costs of a hydrogen network across homeowners and motorists, overall it is still considered a more expensive option compared to an all-electric scenario. [5]

Tseiranaki et al (2023) analyzed historical trends in energy consumption in the EU road transport sector and considered the role of key factors such as economic and population growth, fuel prices, passenger volumes and tonne-kilometres, and vehicle fleet characteristics. In light of the EU›s energy and climate targets for 2030 and 2050, the document assesses progress in energy efficiency and decarbonization from 2000 to 2018. [6]

RESEARCH METHODOLOGY

The research methodology is based on systematic approaches to studying problems using statistikal, heuristic methods and techniques for analyzing world practice in studying the principles of sustainable development of transport systems, as well as a model of transport decarbonization strategy.

RESEARCH RESULTS

Since the early 2000s, sustainable development goals in the transport sector have been revised towards a more tangible strategy focused on carbon consumption and emissions. This has largely shaped around the decarbonization of transport, which helps set the agenda on the role of fossil fuels. This concept does not undermine the purpose of transport, which is to ensure the mobility of passengers and goods, but that the carbon footprint of transport activities must be reduced. Even if it focuses on carbon, decarbonization directly impacts other externalities since most air pollutants are the result of burning fossil fuels. Three emissions areas have been proposed to formulate decarbonization strategies :

- **Scope 1 (Direct Emissions):** Carbon (and other greenhouse gases such as nitrogen oxide) emissions result from manufacturing activities. This applies in particular to vehicle emissions.
- **Scope 2 (Indirect Emissions):** Emissions resulting from the production of fuel and electricity for operations. Even electricity, which may not generate Scope 1 emissions, can generate Scope 2 emissions if it is generated by fossil fuels such as coal and natural gas.
- **Scope 3 (Indirect/Induced Emissions):** Emissions arising from activities upstream and downstream of the organization. These are the most difficult to estimate because they are not under the direct control of the organization producing Scope 1 and 2 emissions. These include emissions arising from management›s business travel, employee commuting, waste generation and disposal, goods and ser-

vices purchased by the organization, and transport and distribution services used for procurement and market access.

Energy, which accounted for 74 percent of Uzbekistan's greenhouse gas emissions in 2019, and agriculture, which accounted for 19 percent, are the most important sectors for the decarbonization of the economy. Energy, or the energy system, covers the entire value chain from the extraction of energy resources to their transformation (electricity, hydrogen, etc.) and use by major end users, including buildings, industry, agriculture and transport. [7]

Table 1 shows the pollutants emitted into the atmosphere in the Republic of Uzbekistan in 2011-2022, which shows that by a large margin the region with the most polluted atmosphere is Tashkent. It is followed by the Kashkadarya region; in other regions, emissions of pollutants are significantly lower.

Transport decarbonization includes a variety of approaches that attempt to influence its economics, infrastructure, regulatory environment or innovative practices that rely on information technology. The main goals are:

- Reduction in overall passenger and freight traffic while mobility needs continue to be met.
- Transition to lower carbon emitting modes of transport. The goal is to meet mobility needs with modes of transport that are based on less carbon-intensive technologies or offer economies of scale (less carbon emissions per unit of passenger or cargo carried).
- Higher utilization of existing transport assets such as roads, terminals and vehicles. This way, the same assets can handle higher levels of mobility demand.
- Increasing the energy efficiency of vehicles and equipment. Each piece of passenger or freight cargo moves with less energy expended.

The push to decarbonize transport is largely focused on electrification, but transport modes such as air and sea will switch to alternative fuels such as LNG and ammonia. Sales of electric vehicles are growing rapidly, and as of 2022 they accounted for 14% of global sales. They accounted for about 5% of all automobile sales in the United States, 7% in China, and about 15% in most European countries (more than 70% in Norway). Electrification represents the temporary transfer of mobility to fundamental attributes such as reduced range (battery charge). This therefore means reduced flexibility and performance. This transition will likely continue until electric vehicles perform similarly to their combustion engine equivalents. Sustainability and decarbonization are part of the same agenda, the only difference being that decarbonization offers a clearer framework and action plan with practical solutions.

The NZE-2060 (Net Zero Emissions) scenario reflects a feasible path for the energy industry to achieve peak emissions by 2030 and decarbonize by 2060 at the lowest cost, while strengthening the country›s energy independence. In the NBV 2060 scenario, energy security is enhanced, with net energy imports capped at 8 percent by 2060 as most energy is generated domestically. Domestic renewables will provide 70 percent of the energy supply from domestic sources by 2060, and more than 85 percent when combined with hydrogen and domestic production and generation. [7]

In order to reduce the negative impact of aviation on the global climate, states, the aviation industry and all other stakeholders through ICAO have been developing a set of measures to reduce CO_2 emissions for many years. These efforts have contributed to modern aircraft being 70% quieter and 80% more fuel efficient than their earlier predecessors. Achieving the global decarbonization needed to curb rising global temperatures now requires radical, disruptive, and in many cases revolutionary innovations in technology and flight operations. [8]

During 2020–2024, the number of passenger cars owned by private individuals has steadily increased. Thus, from 2020 to 2024, their number increased to 1 348.6 thousand units, or by 55.9% (fig.1).

The structure of passenger transportation by mode of transport shows that the share of road transport slightly decrease since 2019 to 2023 and now it compiles 97.2%. The positive trend is that the share of electric transport increases from 1,4% in 2019 to 2.6% in 2023 (fig.2).

Table or diagram

Table 1: Released to the atmosphere pollutants, thousand tons

Regions	2011	2013	2015	2017	2018	2019	2020	2021	2022
The Republic of Uzbekistan	**788.2**	**855.2**	**975.1**	**853.5**	**883.7**	**952.8**	**924.4**	**908.7**	**874**
Republic of Karakalpakstan	23.5	25.8	32.8	37.7	34.0	37.2	28.9	31.4	21
Andijan	13.6	14.4	18.5	15.8	15.9	14.3	11.5	4.9	17

Bukhara	71.7	50.7	55.6	63.8	74.8	69.1	37.1	44.7	36
Jizzakh	17.3	17.2	70.2	5.2	11.8	4.3	3.4	2.9	27
Kashkadarya	142.5	167.0	176.3	165.7	152.2	140.4	128.1	132.3	116
Navoi	45.2	43.9	47.0	44.1	49.9	43.6	48.4	68.6	42
Namangan	5.6	3.7	7.8	15.9	15.2	15.8	15.0	23.9	7
Samarkand	51.8	49.1	54.7	37.2	52.1	44.2	52.7	39.4	39
Surkhandarya	3.3	3.7	3.1	3.2	5.1	6.9	6.5	7.1	7
Syrdarya	58.7	35.4	66.1	59.6	60.5	47.8	71.8	45.7	49
Tashkent	280.3	372.3	370.6	302.9	336.6	397.9	430.0	425.5	438
Fergana	42.8	40.2	38.9	60.1	53.2	49.6	50.5	46.5	49
Khorezm	4.9	6.2	5.0	9.2	7.1	7.2	6.8	7.2	5
Tashkent	27.0	25.6	28.5	33.1	15.3	74.5	33.7	28.6	21




Fig.1: Number of passenger cars owned by individuals in the Republic of Uzbekistan (as of January 1, 2024, units)[1]




Fig.2: Structure of passenger transportation by mode of transport for January-December (in %)

CONCLUSIONS

As a conclusion, the authors recommend the following directions for reducing greenhouse gas (GHG) emissions in transport within the framework of economic decarbonization:

1) Updating the existing fleet of vehicles;

2) Transition to cleaner energy sources;

1 https://stat.uz/en/quarterly-reports/39036-2023-eng-2#january-december

3) A significant reduction in the movement of people around the city by transport due to smart planning of urban space (mixed zoning), the development of e-commerce;

4) Encouraging the urban population to switch from personal cars to public transport by improving the public transport infrastructure and improving the quality of service in public transport, developing a smart public transport system, as well as increasing the cost of using personal vehicles using methods such as increasing the cost of gasoline, parking, and road taxes and other measures.

Thus, the creation of specific measures and the development of a roadmap for the implementation of the above measures will contribute to a real reduction in the level of air pollution from transport.

List of references:

1. Paris Agreement at the United Nations Climate Change COP21 in Paris on December 12, 2015.
2. Gota, S., Huizenga, C., Peet, K. et al. Decarbonising transport to achieve Paris Agreement targets. Energy Efficiency 12, 363–386 (2019). https://doi.org/10.1007/s12053-018-9671-3
3. Nnaemeka V.E., Chukwumerije O., Fidelis I., Ogheneruona E.D., Kesiena O., Uchenna AN Transport sector decarbonization in the Global South: A systematic literature review, Energy Strategy Reviews, Volume 43, 2022, 100925, ISSN 2211-467X, https ://doi.org/10.1016/j.esr.2022.100925.
4. Mikkel Strunge Kany, Brian Vad Mathiesen, Iva Ridjan Skov, Andrei David Korberg, Jakob Zinck Thellufsen, Henrik Lund, Peter Sorknæs, Miguel Chang, Energy efficient decarbonisation strategy for the Danish transport sector by 2045, Smart Energy, Volume 5, 2022, 100063, ISSN 2666-9552, https://doi.org/10.1016/j.segy.2022.100063.
5. Modassar Chaudry, Lahiru Jayasuriya, Simon Blainey, Milan Lovric, Jim W. Hall, Tom Russell, Nick Jenkins, Jianzhong Wu, The implications of ambitious decarbonization of heat and road transport for Britain's net zero carbon energy systems, Applied Energy, Volume 305, 2022, 117905, ISSN 0306-2619, https://doi.org/10.1016/j.apenergy.2021.117905.
6. Sofia Tsemekidi Tzeiranaki, Marina Economidou, Paolo Bertoldi, Christian Thiel, Georgios Fontaras, Enrico Luca Clementi, Camilo Franco De Los Rios, "The impact of energy efficiency and decarbonisation policies on the European road transport sector", Transportation Research Part A: Policy and Practice, Volume 170, 2023, 103623, ISSN 0965-8564, https://doi.org/10.1016/j.tra.2023.103623.
7. Country report on climate and development: Uzbekistan. World Bank Group. November, 2023.
8. https :// www. icao. int / Newsroom / Pages / RU / ICAO – advocates – for – decarbonization – of – aviation – at – COP -27. aspx



TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Yermatova Dilnoza Axmadjonovna
Toshkent davlat transport universiteti “Transport iqtisodiyoti” kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Jahon iqtisodiy jarayonlarining beqarorligi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish muammolari sharoitida temir yo‘l transportining iqtisodiy munosabatlari faoliyati samaradorligini oshirish juda muhimdir.

Kalit so‘zlar: Transport, railways, fixed assets, efficiency, competitiveness, quality, operation, infrastructure.

Abstract: In the conditions of instability of world economic processes and problems of economic development of the country, it is very important to increase the efficiency of economic relations of railway transport.

Key words: Marketing research; franchise; diversification; Artificial Intelligence (AI).

Аннотация: В условиях нестабильности мирохозяйственных процессов и проблем экономического развития страны очень важно повысить эффективность экономических связей железнодорожного транспорта.

Ключевые слова: Транспорт, железные дороги, основные фонды, эффективность, конкурентоспособность, качество, эксплуатация, инфраструктура.

KIRISH

Temir yo‘l transportining ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirish, fan va texnika yutuqlariga ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi usullarini joriy etish, iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, transformatsiya jarayonlarini samarali yo‘lga qo‘yish kabi iqtisodiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi.

Temir yo‘l transporti zamonaviy iqtisodiyotning muhim elementidir. Temir yo‘l transporti bozor munosabatlarining obyekti sifatida qaralib, uning samarali faoliyati iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, korxonalar, ularning birlashmalari va majmualari faoliyati va rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Temir yo‘llar mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shayotgan o‘z ulushiga qaramay, temir yo‘l transporti muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda: asosiy fondlarining jismoniy va ma’naviy eskirish muammolari bugungi kungacha o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Elektr va elektron qurilmalarning asosiy xarakteristikalari, relslar, strelkalar, yo‘lning yuqori tuzilishi elementlari va uning alohida elementlari, infratuzilma obyektlarining boshqa texnik vositalari xorijiy rivojlangan mamlakatlardan sezilarli darajada orqada qolmoqda. Temir yo‘l transporti asosiy fondlarini texnik rivojlantirish sur’atlarining sekinlashishi ularning ishonchliligining pasayishiga olib keladi va tashish parametrlari sifati va jahon standartlari darajasi o‘rtasidagi nomuvofiqlik temir yo‘l transportining transport bozorida raqobatbardoshligini pasayishiga sababchi bo‘lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu ilmiy ishning nazariy va amaliy asoslari mahalliy hamda xorijiy mualliflarning yuk tashish jarayonining samaradorligi va sifatini baholash sohasidagi fundamental va amaliy ishlari; temir yo‘l transporti faoliyati va rivojlanishining dolzarb masalalari, ishlab chiqarish jarayonlarini iqtisodiy boshqarish, ishlab chiqarish va aholiga transport xizmatlari ko‘rsatish sifatini aniqlash va rejalashtirish metodologiyasi bo‘yicha izlanishlar olib borilgan.

Jahon amaliyotida sifat va samaradorlikni oshirish muammolarini o‘rganish va ularni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilashda quyidagi xorijiy olimlar izlanishlar olib borgan: V.V. Boytsov, U.E. Deming, J.M.Juran, K.Ishikava, F.B. Krosbi, F. Teylor, A.V. Feygenbaum, V.A. Shewhart.

Temir yo‘l transporti samaradorligini oshirish va bozor sharoitida transport xizmatlari sifatini baholash masalalari bo‘yicha quyidagi osiyolik olimlar: I.V. Belov, V.L. Belozerov, T.V. Bogdanova, G.V. Bubnova, V.G.

Galaburda, O.V. Efimova, R.A. Kozhevnikov, V.A. Kozyrev, A.V. Komarov, P.V. Kurenkov, B.M. Lapidus, L.P. Levitskaya, D.A. Macheret, V.A. Persianov, A.G. Romanova, Yu.I. Sokolov, N.P. Tereshina, M.F. Trixunkov, N.M. Sheremet, A.D. Shishkov, L.V. Shkurina va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritib o‘tilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy izlanishga qo‘yilgan muammolarni hal qilish uchun ilmiy bilishning nazariy va empirik usullari majmuasidan foydalanildi, jumladan: tahlil va sintez, taqqoslash va umumlashtirish, abstraksiya, mantiqiy usul, tizimli va jarayonli yondashuvlar; texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar usuli, usullarning sarf-xarajat stavkalari, shuningdek, ma’lumotlarni o‘rganish va sharhlash uchun jadval va grafik usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Transport mijozlarga xizmat ko‘rsatishning samaradorligi hamda sifati va shunga mos ravishda raqobatdoshligi ko‘p jihatdan transport jarayonlarining sifati va texnik jihozlarning ishonchliligi bilan belgilanadi. Texnik jihozlar nosozliklarining eng muhim ekspluatatsion ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholash temir yo‘l transporti xarajatlarini optimallashtirishning istiqbolli yo‘nalishi bo‘lib, bu yuk va yo‘lovchi tashishni amalga oshirishda samarasiz xarajatlarni kamaytirish choralarini ishlab chiqish va qabul qilish imkonini beradi [1].

Temir yo‘l transportini rivojlantirish mijozlarga xizmat ko‘rsatishda yuqori sifat standartlariga rioya qilgan holda yuk va yo‘lovchilarni tashishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Temir yo‘l transporti aholining harakatchanligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotgani va shahar markazlarida sodir bo‘layotgan tirbandlik jarayonlarining, shaharlarning hozirda yuzaga kelayotgan ekologik muammolarini ortib borayotganligi sababli mamlakat aholisi va davlat hokimiyati organlarining temir yo‘l transporti (metro, tramvay va boshqa)ni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Temir yo‘l transporti samaradorligini oshirish butun dunyoda qiziqish uyg‘otmoqda. Ushbu mavzu temir yo‘l sohasi rahbarlarini ham, bozorning ushbu segmentidagi raqobatchilarni ham, tegishli vazirlik va idoralar rahbariyatini ham qiziqtiradi.


So‘nggi yillarda O‘zbekiston temir yo‘l transporti samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qancha qaror va farmonlarni ham ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-329 sonli qarorida ham Temir yo‘l transporti sohasini isloh qilish, sog‘lom raqobat muhitini yaratish, sohaga xususiy sektorni keng jalb qilish, biznes jarayonlarini raqamlashtirish, boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish hamda respublikaning tranzit salohiyatidan samarali foydalanish kabi jihatlarga alohida e’tibor qaratilgan hamda 2023–2026-yillarda temir yo‘l transporti sohasini isloh qilish bo‘yicha yo‘l xaritasi ishlab chiqilgan. Bu temir yo‘l tarmog‘ining barcha bo‘linmalari faoliyatini optimallashtirish va modernizatsiya qilish, harakat tarkibiga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash bo‘yicha eng yangi texnologiyalarni joriy etish, uskunalar va uzatish moslamalarini, infratuzilmani doimiy yangilab borish, mehnat resurslarini yaxshilash asosida imkon bo‘ldi. Kelgusida yuk va yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xizmatlarga talabni saqlab qolish yoki oshirishda temir yo‘l transportini isloh qilish jarayonining samaradorligi bo‘yicha ijobiy kutilmalar amalga oshishi kutilmoqda.

1-jadval: Transport turlari bo‘yicha yuk tashish va yuk aylanmasi

Ko‘rsatkichlar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Tashilgan yuklar, mln.t	930,0	1 000,4	1 070,5	1 132,5	1 146,2	1 243,0	1 319,8	1 366,7	1 420,2	1 420,9
temir yo‘l	63,7	65,7	67,2	67,6	67,9	68,4	70,1	70,6	72,0	73,4
avtomobil	801,3	868,9	943,3	1 002,8	1 013,1	1 102,2	1 177,7	1 238,2	1 282,0	1 284,1
quvur yo‘li	65,0	65,8	60,0	62,2	65,1	72,4	72,0	57,9	66,2	63,5
havo yo‘li, ming	22,0	23,0	24,6	26,5	26,4	13,1	10,4	5,3	9,1	10,2
Yuk aylanmasi, mlrd. t-km	65,8	66,2	65,8	65,3	66,9	71,3	72,6	66,9	74,8	75,5
temir yo‘li	22,9	22,9	22,9	22,9	22,9	22,9	23,4	23,6	24,6	25,0
avtomobil	11,2	11,9	12,8	13,3	13,6	14,6	15,9	16,2	19,1	20,5
quvur yo‘li	31,5	31,2	30,0	28,9	30,2	33,6	33,2	26,8	30,8	29,7
havo yo‘li, mln. t-km	116,3	125,1	131,1	132,2	156,9	123,5	119,0	219,0	303,5	322,8

Mamlakatimizda transport turlari bo‘yicha tashilgan yuk hajmi temir yo‘l transportida 2013-yildan 2022-yilgacha o‘rtacha 1,2% o‘sayotganligini, 2022-yil esa 2013-yilga nisbatan 15,2% miqdorda ortganligini 1-jadvaldan ko‘rishimiz mumkin. Tashilgan yuklar bo‘yicha eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichini 2013-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan vaqtlar oralig‘ida avtomobil transpori 5,4 % ko‘rsatkich bilan, undan keying o‘rinda esa temir yo‘l transporti turgan bo‘lsa, kamayish ko‘rsatkichini ham band qilgan soha havoli yo‘li transportini ko‘rishimiz mumkin.

1-rasmda esa 2013-yildan 2022-yilgacha yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichlari diagrammasi keltirilgan bo‘lib bunda ham yillar bo‘yich bir me’yorda o‘sish tempini kuzatishimiz mumkin. Faqatgina 2020-yil pandemiya bo‘lganligi sababli yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichi kamayganligi hamda temir yo‘l va avtomobil transportida yo‘lovchi tashish ko‘rsatkichi bir biriga yaqin ekanligini ko‘rishimiz mumkin.



1-rasm: Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish

Statistik ma’lumotlarga tayangan holda tahlil qilganimizda aholining o‘sish darajasi ham o‘rtacha 1,8 %ni ko‘rsatmoqda. Aholi sonining ko‘payish darajasi, sanoat va ishlab chiqarishning rivojlanishi hamda sohalarga kiritilayotgan innovatsiyalarga nisbatan temir yo‘l transporti orqali xizmat ko‘rsatish darajasini takomillashtirish zarurligini keltirib chiqarmoqda.

Temir yo‘l transporti samaradorligini oshirishda ikkita omilga (ikki funksiyaga) e’tibor qaratish tavsiya etiladi: transport tarmog‘i bilan bog‘liq bo‘lgan infratuzilma komponenti va transport harakati bilan bog‘liq bo‘lgan ekspluatatsiya faoliyati. Ushbu funksiyalarning har biri uchun xarajatlar (investitsiyalar yoki operatsion) va daromadlar (faoliyatlar yoki subsidiyalar/subvensiyalar) ajratilishi mumkin. Jamoat manfaatlari nuqtayi nazaridan, subsidiyalar darajasi transport bozorining daromadlari va umumiy temir yo‘l xarajatlari darajasiga qaram amalga oshiriladi [2].

Temir yo‘l transporti samaradorligini o‘lchashda biz ko‘rsatkichlarni tashish jarayonining infratuzilmaviy va ekspluatatsion tarkibiy qismlariga qarab guruhlashni taklif qildik (2-jadval).

2-jadval: Tashishdan olingan xarajatlar va daromadlarni transport jarayonining tarkibiy qismlariga taqsimlanishi

Ko‘rsatkichlar	Tashish jarayonining tarkibiy qismlari	
	Ekspluatatsiya	Infratuzilma
Xarajat	- harakatlanuvchi tarkibga investitsiyalar - mehnat resurslari	- investitsion kapital - texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash
Daromad	- tarif daromadlari - davlat tomonidan moliyalashtirish	- tarmoqqa kirish to‘lovi - davlat tomonidan moliyalashtirish

Temir yo‘l transportini boshqarish temir yo‘lning samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Ta’mirlash xarajatlarini kamaytiradigan va mijozlarning temir yo‘llarga bo‘lgan talabini oshiradigan texnologiyalarga sarmoya kiritish siyosatini ishlab chiqish korxonaning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, temir yo‘l transporti sohasida axborot texnologiyalarini yanada rivojlantirish (mijozlar uchun qulayroq veb-saytlardan poyezdlarga xizmat ko‘rsatish va texnik xizmat ko‘rsatishning avtomatlashtirilgan tizimlarigacha) kabi jarayonlarni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy texnologik yechimlar aloqani yaxshilash, jarayonlarni avtomatlashtirish va kiritilayotgan investitsiyalardan samaraliroq foydalanish imkonini beradi [3].

Temir yo‘l transporti tizimlarining samaradorligi, davlat mablag‘lari va temir yo‘l daromadlari bilan o‘zaro bog‘liqdir. Temir yo‘l strategiyasini ishlab chiqish va operativ rejalashtirish uchun davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning izchilligi va hajmi muhim ahamiyatga ega. Misol tariqasida, Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi temir yo‘llarining ko‘p qismi hukumat tomonidan tartibga solinadigan raqobatbardosh bozorlarda xizmat qiladi. Ular uchun temir yo‘l transportini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kapitalni ko‘p talab qiluvchi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘lar miqdori muhim ahamiyatga ega. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o‘rtasidagi asosiy farqlar davlat-xususiy sheriklik doirasida temir yo‘llar uchun davlat mablag‘laridan foydalanishdir [4].

Temir yo‘l bozori yanada raqobatbardosh va samarali bo‘lsa ham, davlat ustuvorliklari (ya’ni, ko‘proq qamrov, arzon chiptalar narxi, energiya tejaydigan texnologiyalar)ni tartibga solishni va moliyaviy yordamni amalga oshiradi. Temir yo‘l tizimlarida ijtimoiy va ekologik loyihalarni amalga oshirish uchun yetarli va maqsadli moliyalashtirish zarur deb hisoblaymiz.

Temir yo‘l transporti tizimining ishlash darajasini aniqlash uchun uning energiya samaradorligi, unumdorligi, ishonchliligi yoki sifat ko‘rsatkichlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, bizningcha, “temir yo‘l transporti samaradorligi” tushunchasini moliyaviy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqilsa ma’lum bir ko‘zlangan natijaga erishish mumkin. Aktivlardan foydalanish samaradorligi, mehnat unumdorligi, tarif stavkalari va koeffitsiyentlari, daromadlar va xarajatlardagi farqlar ushbu tadqiqot uchun asosiy ko‘rsatkichlardir. Umuman olganda, natijalar va davlat foydalari muhimdir, lekin xarajatlarni minimallashtirish va davlatning moliyaviy yordamini kamaytirish yo‘llarini ishlab chiqish olib borayotgan tadqiqotlarimizning eng asosiy maqsadi bo‘lib qoldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Temir yo‘l majmuasi korxonalarini yanada innovatsion rivojlantirish uchun innovatsion rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish zarur. Tadqiqotlarimizning asosiy maqsadi temir yo‘l majmuasining texnologik rivojlanishini barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlash tamoyillariga uslubiy asosda joylashtirishdan iborat bo‘lishi kerak.

Innovatsion salohiyatni rivojlantirish konsepsiyasi quyidagi tarkibiy qismlarni hisobga oladi:

- ilmiy, ilmiy-texnikaviy faoliyatni amalga oshirish va xodimlarni tayyorlash uchun ilmiy-texnika majmuasini takomillashtirish;
- yuqori malakali kadrlar, moddiy-texnika va tajriba bazasi rivojlantirish;
- temir yo‘l transportini innovatsion rivojlantirish sohasidagi qonunchilikni va uni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish;
- “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning innovatsion faoliyatini boshqarishning samarali tizimini yaratish va “ O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ temir yo‘l transportini innovatsion rivojlantirish dasturini ishlab chiqish;
- zarur resurslar va rivojlangan aloqa infratuzilmasi bilan ta’minlash.

Korxona darajasida temir yo‘l majmuasi uchun innovatsion siyosatni yaratishga qaratilgan bo‘lishi kerak bo‘lgan yangi texnologiyalarni joriy etish va mavjud texnologiyalarni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Temir yo‘l transportining ekspluatatsion faoliyati bo‘yicha olib boriladigan va taqqoslashga yo‘naltirilgan keyingi tadqiqotlar qo‘shimcha ma’lumotlar beradi, davlat nazorat organlari va temir yo‘l kompaniyalari boshqaruvi imkoniyatlarini kengaytiradi va temir yo‘l samaradorligini oshiradi, shu jumladan, yuk tashish va tashish manfaatlarini optimallashtiradi. Barqaror ishlaydigan temir yo‘l transporti O‘zbekiston iqtisodiyotining barcha tarmoqlari rivojlanishining kafolati hisoblanadi. Temir yo‘l transporti samaradorligi tarmoqning asosiy ishlab chiqarish fondlarini tiklash dinamikasi, temir yo‘l transportiga bo‘lgan talabning o‘sish sur’ati, tarmoqni tarkibiy islohotini amalga oshirish natijalari, davlat tomonidan tartibga solinadigan tarif siyosatining samaradorligi bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Беляева, Е.Р. Современные подходы в маркетинговой оценке конкурентоспособности выпускников вузов и высшего образования/ Е.Р. Беляева, С.Н. Кужева – Текст: непосредственный// Актуальные проблемы современной экономики: Материалы VII междунар. научно-практ. конф. В 2 ч. – Омск: ОмГУПС, 2019. Ч. 1. – С. 45–49 [1].
2. Кравченко, Х.В. Сущность экономической категории эффективности и определения ее на транспорте /Х.В.Кравченко – Текст: непосредственный // Сборник научных трудов Днепропетровского национального университета железнодорожного транспорта имени академика В. Лазаряна. – 2014. – № 8. – С. 48–55. [2].
3. Дудник. Т.А. Теоретико-методологические основы управления интегрированными хозяйственными образованиями в промышленности: объектно-процессный подход/ Т.А. Дудник – Текст: непосредственный // Известия ТулГУ. Экономические и юридические науки. – 2014. – №4–1. – С. 120–124 [3].
4. Бубнова, Г. В. Экономический механизм реализации потенциала энергосбережения на железнодорожном транспорте/ Г.В. Бубнова, Р.С. Симак – Текст: непосредственный // Вестник Сибирского института бизнеса и информационных технологий. – 2020. – № 1 (33). –С. 20–25 [4].
5. Кужева. С.Н. Аксиологический аспект в управлении организациями/ С.Н. Кужева, Е.Р. Беляева – Текст: непосредственный // Аксиологические аспекты в современных научных исследованиях/ Сб. научн. тр. – Омск: ОГУПС, 2019. – С. 88– 94.
6. www.railway.uz
7. www.stat.uz

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

IQTISODIYOTDA DAVLAT ISHTIROKINI QISQARTIRISH VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Yuldashev Xusniddin Abdullayevich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston iqtisodiyotida davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Iqtisodiyotda davlat ishtirokining kamayishi va xususiy sektorni rag‘batlantirish mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishiga yordam berishi kutilmoqda. Maqola turli mamlakatlar tajribalarini taqqoslab, O‘zbekiston uchun mos keladigan strategiyalarni taklif qiladi. Xalqaro misollardan foydalanib, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Davlat ishtiroki, xususiy sektor, iqtisodiy islohotlar, iqtisodiy diversifikatsiya, moliyaviy rag‘batlantirish, barqaror iqtisodiy o‘sish.

Abstract: This article focuses on reducing state participation in the economy and enhancing private entrepreneurship in Uzbekistan. It is anticipated that decreasing governmental involvement and encouraging the private sector will contribute to sustainable economic growth. The article compares international experiences and proposes strategies suitable for Uzbekistan. Using examples from various countries, it explores ways to diversify the economy and support private entrepreneurship to increase economic stability and competitiveness.

Key words: State participation, private sector, economic reforms, economic diversification, financial incentives, sustainable economic growth.

Аннотация: Данная статья посвящена сокращению участия государства в экономике и развитию частного предпринимательства в Узбекистане. Ожидается, что уменьшение участия государства и стимулирование частного сектора способствует устойчивому экономическому росту. Статья сравнивает международный опыт и предлагает стратегии, подходящие для Узбекистана. Используя примеры из разных стран, рассматриваются способы диверсификации экономики и поддержки частного предпринимательства для увеличения экономической стабильности и конкурентоспособности.

Ключевые слова: Участие государства, частный сектор, экономические реформы, экономическая диверсификация, финансовые стимулы, устойчивый экономический рост.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorni rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. Bu jarayonlar mamlakat iqtisodiyotining xilma-xilligini oshirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va global raqobatbardoshlikni kuchaytirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan ushbu siyosatlar, iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish va mamlakatning jahon bozoridagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan.

Davlat ishtirokini qisqartirishning asosiy yo‘nalishlari orasida soliq imtiyozlari, moliyaviy rag‘batlantirish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun qonuniy asoslar yaratish kabi tadbirlar mavjud. Shuningdek, davlat mulkini xususiylashtirish va davlat korxonalarini boshqarishni takomillashtirish jarayonlari ham jadallashmoqda. Bularning barchasi xususiy sektor vakillariga ko‘proq imkoniyatlar yaratib, ularning faoliyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Biroq bu o‘zgarishlar oson va tezkor amalga oshmadi. Ko‘plab institutsional va struktural to‘siqlar, jumladan, korrupsiya, byurokratik to‘siqlar, shuningdek, tadbirkorlik muhitining o‘ziga xos xususiyatlari bu jarayonlarni murakkablashtirgan. Shu sababli, davlatning iqtisodiyotdagi rolini qayta shakllantirish va xususiy sektor vakillarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha islohotlar o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston iqtisodiyotida davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasining dolzarbligini va bu jarayonning ahamiyatini ta’kidlaydi, shuningdek, mazkur islohotlarning kelajakdagi istiqbollarini yoritib berishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston iqtisodiyotida davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi ko‘plab xorijiy olimlar tomonidan ham qizg‘in muhokama qilinadi. Jumladan, Joseph Stiglitz, Dani Rodrik va Daron Acemoglu kabi tan olingan iqtisodiyotshunoslar davlat ishtirokining iqtisodiyotdagi rolini va xususiy sektor rivojlanishini keng miqyosda o‘rganishgan.

Joseph Stiglitz o‘zining “Government, Market, and Economic Development” maqolasida davlatning iqtisodiyotdagi rolini muvozanatli bajarish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, davlatning iqtisodiy faoliyatga aralashuvi ba’zi hollarda zarur bo‘lsa-da, bu ishtirokni moliyaviy va institutsional cheklovlar doirasida amalga oshirish kerak [1].

Dani Rodrik esa “The Globalization Paradox: Democracy and the Future of the World Economy” kitobida globalizatsiya jarayonlarida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi aloqalarni tahlil qiladi. U, davlatning strategik ishtiroki xususiy sektorni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi mumkinligini, biroq bu ishtirokni optimallashtirish zarurligini qayd etadi [2].

Daron Acemoglu va James Robinson “Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty” asarida davlat ishtirokining iqtisodiyotga ta’siri haqida chuqurroq yondashuvni taklif etishadi. Ular, siyosiy- iqtisodiy institutlarning sifati va ularning rivojlanishga qanchalik hissa qo‘shishini tahlil qiladilar, bu esa xususiy sektor va umumiy iqtisodiyotning o‘sishiga ta’sir qiladi [3].

Ushbu adabiyotlardan tashqari, Robert Wade “Governing the Market: Economic Theory and the Role of Government in East Asian Industrialization” asarida Sharqiy Osiyo mamlakatlarida hukumat ishtirokinin iqtisodiy rivojlanishdagi ijobiy ta’sirlarini ko‘rsatib beradi. U, davlatning faol ishtiroki mahalliy korxonalarni global bozorlarga kirishda qo‘llab-quvvatlashi mumkinligini misollar orqali ifodalaydi [4].

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonning iqtisodiy islohotlari xalqaro tajribalar bilan taqqoslaganda, turli mamlakatlarning yondashuvlarini tushunish muhimdir. Quyida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi strategiyalar solishtirilgan.

1-jadval: Rivojlangan mamlakatlar strategiyalari

Mamlakat	Strategiya	Iqtisodiy ta’sir
AQSh	Soliq imtiyozlari, texnologik innovatsiyalar rag‘batlantirishi	Xususiy sektorning innovatsion faoliyati va global raqobatbardoshligi oshdi
Germaniya	Kuchli kasb-hunar ta’limi, davlat va xususiy sektor hamkorligi	Iqtisodiy barqarorlik va ishlab chiqarish samaradorligi yuqori darajada
Yaponiya	Davlat tomonidan yirik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, xususiy sektorga investitsiyalar	Texnologiya va ishlab chiqarish bo‘yicha yuqori o‘sish

Manba: Muallif tomonidan tayyorlandi

Rivojlangan mamlakatlar o‘z strategiyalarida innovatsiyani va yuqori texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratmoqdalar. Masalan, AQSh texnologik innovatsiyalarni rag‘batlantirish orqali xususiy sektorni global miqyosda raqobatbardosh qilishga muvaffaq bo‘lmoqda. Germaniya esa kasb-hunar ta’limiga investitsiya qilib, ishlab chiqarish sifatini oshirishga e’tibor qaratgan.

2-jadval: Rivojlanayotgan mamlakatlar strategiyalari

Mamlakat	Strategiya	Iqtisodiy ta’sir
Hindiston	Kichik va o‘rta bizneslarni qo‘llab-quvvatlash, eksportni rag‘batlantirish	Xususiy sektor kengayishi va ish o‘rinlari yaratilishi
Braziliya	Xususiy sektor va davlat ishtirokidagi korxonalar o‘rtasida integratsiya	Xalqaro savdoda raqobatbardoshlikni oshirish
Janubiy Afrika	Davlat moliyasini islohot qilish, xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirish	Iqtisodiy barqarorlik va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi

Manba: Muallif tomonidan tayyorlandi

Rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, Hindiston va Braziliya, xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xalqaro bozorlarda raqobat qilish uchun zarur bo‘lgan siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmoqdalar. Janubiy Afrika kabi mamlakatlar esa iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash maqsadida davlat moliyasini isloh qilishga e’tibor qaratmoqdalar.

TAKLIFLAR

O‘zbekistonning iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir takliflar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- soliq va moliyaviy siyosatni takomillashtirish: Soliq tizimini soddalashtirish va shaffoflash, shuningdek, xususiy sektorga moliyaviy rag‘batlarni kengaytirish zarur. Bu yondashuv yangi investitsiyalarni jalb qilish va mavjud korxonalarni kengaytirishga yordam beradi.
- infrastrukturani modernizatsiya qilish: Davlat xususiy sektor uchun zarur bo‘lgan asosiy infratuzilmani yaratishda davom etishi kerak. Masalan, transport va aloqa tarmoqlarini modernizatsiya qilish, xususiy sektorni yanada raqobatbardosh qiladi.
- ta’lim va malaka oshirish dasturlarini kuchaytirish: Xususiy sektor rivoji uchun zarur bo‘lgan malakali ishchi kuchi yetishtirishga qaratilgan ta’lim va kasb-hunar dasturlariga investitsiya kiritish. Bu, ayniqsa, texnologiya va innovatsiya sohalarida muhimdir.
- xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimlarini kengaytirish: Kichik va o‘rta bizneslar uchun ko‘maklashuvchi tadbirlar, maslahat xizmatlari va tadbirkorlikni rag‘batlantiruvchi dasturlarni takomillashtirish.
- Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish: Xorijiy investitsiyalar va savdo aloqalarini kengaytirish orqali xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaratish.

XULOSA

O‘zbekiston iqtisodiyotida davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyalari mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba va mahalliy sharoitlarni inobatga olgan holda, O‘zbekiston bu yo‘nalishda aniq va samarali siyosat yuritishi zarur. Davlatning rolini qisqartirish va xususiy sektor vakillarini qo‘llab-quvvatlash orqali mamlakat iqtisodiyotini yanada barqaror va o‘sishga yo‘naltirilgan qilish mumkin.

Bu jarayonlar, shuningdek, aholining turmush darajasini yaxshilashga va ish bilan ta’minlanish darajasini oshirishga yordam beradi. Natijada, O‘zbekistonning iqtisodiy kelajagi yanada yorqin va umidli bo‘ladi, bu esa mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Stiglitz, J. E. (1991). Government, financial markets, and economic development.
2. Rodrik, D. (2011). The globalization paradox: Democracy and the future of the world economy. WW Norton & Company.
3. Daron, A., & Robinson, J. A. (2012). Why nations fail: The origins of power, prosperity, and poverty. New York: Crown Business.
4. Wade, R. (2018). Governing the market: Economic theory and the role of government in East Asian industrialization.



ISSIQLIK TA’MINOTI XIZMATLARINI KO‘RSATISH SAMARADORLIGI VA SIFATINI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI TIZIMI

Abdulaziz Abdumo‘minovich Matro‘ziyev
SamISI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada issiqlik ta’minoti xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarda bozor munosabatlarini shakllanishi va rivojlanishi, shuningdek, innovatsion yondashuvlar asosida issiqlik ta’minoti xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar samaradorligini oshirishni nisbatan kam mablag‘ va mehnat sarflagan holda mavjud resurslardan ratsional foydalanish nisbatan yuqoriroq xizmat sifati bilan iste’molchilarning ehtiyojini to‘laroq qondirilishi maqolada yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Issiqlik ta’minoti, issiqlik energetikasi infrotuzilmasi, innovatsiya, issiqlik ta’minoti samaradorligi ko‘rsatkichlari.

Abstract: In the article, the formation and development of market relations in the enterprises providing heat supply services, as well as the improvement of the efficiency of the enterprises providing heat supply services based on innovative approaches, the rational use of available resources with a relatively high quality of service, while spending relatively little money and labor, will be covered in the article.

Key words: Heat supply, heat energy infrastructure, innovation, heat supply efficiency indicators.

Аннотация: В статье рассматривается формирование и развитие рыночных отношений на предприятиях, оказывающих услуги теплоснабжения, а также повышение эффективности деятельности предприятий, оказывающих услуги теплоснабжения, на основе инновационных подходов, рационального использования имеющихся ресурсов с относительно высоким качеством. обслуживания, затрачивая при этом относительно мало денег и труда, будет рассмотрено в статье.

Ключевые слова: Теплоснабжение, теплоэнергетическая инфраструктура, инновации, показатели эффективности теплоснабжения.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo aholisi sonining ortib borishiga mutanosib ravishda uy-joy fondi kengayib bormoqda. Uy-joy fondining kengayishi bir tomondan, iste’molchilarning issiqlik ta’minoti xizmatlariga bo‘lgan real ehtiyoji darajasining ortishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, iste’mol qilinayotgan xizmatlar sifatiga bo‘lgan talab darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Sohani yagona tizim sifatida shakllantirish, soha faoliyatida davlatning o‘rni, sohada innovatsion jarayonlarini takomillashtirish, tabiiy monopoliya darajasini cheklash va bozor mexanizmlarining amal qilish doirasini kengaytirish hamda soha korxonalari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar turini kengaytirish masalalarini o‘z ichiga oladi.

Bu esa sohada samarali boshqaruv tizimiga ega korxonalarni tashkil etish va ularning faoliyatini bozor munosabatlari asosida rivojlantirishni talab etmoqda. Bu yo‘nalishda mamlakatimizni 2030-yilgacha bo‘lgan davrda rivojlantirish Konsepsiyasida shaharlarni “aqlli shahar” tizimiga o‘tkazish va “aholining kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta’minlanish darajasini oshirish” vazifalarining belgilanganligi ham sohada chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish hamda issiqlik ta’minoti xizmatlari sohasida samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So‘nggi paytlar issiqlik ta’minoti samaradorligi masalalari ko‘plab tadqiqot obyektiga aylandi. Issiqlik ta’minoti tizimining iqtisodiy mohiyatini, shu jumladan, uning samarali ishlashini ta’minlash masalalarini o‘rganishga Komarova V.Ye., Ulanovskaya V.D., Chernyak V.Z.,va boshqa olimlar katta hissa qo‘shdilar. Shu bilan birga makro darajadagi ilmiy tadqiqot mavzusi issiqlik ta’minoti tizimining samaradorligining iqtisodiy va texnik muammolariga bag‘ishlangan.

Yu.Simionovning tadqiqotlarida issiqlik ta'minoti xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalari faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishning asosiy vazifalaridan birinchisi – mehnat resurslari, moddiy resurslar va moliyaviy resurslarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash va navbatdagisi – faoliyat samaradorligini oshirishda ichki resurslarni aniq hisoblanishi ko'rsatib o'tilgan.

V.Chernyak issiqlik ta'minoti xizmatlari sohasining samaradorligini nafaqat moliyalashtirish hajmi va moddiy-texnika bazasini qo'shimcha vositalarni kiritish orqali kuchaytirishda, balki xizmatlar sifatini saqlab turgan yoki oshirgan holda xarajatlarni tejash bilan belgilaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bu sohada ko'plab muammolar mavjud degan xulosaga kelish mumkin, ya'ni sifatli statistik ma'lumotlarning yo'qligi, sohada innovatsiyalarni deyarli joriy etilmasligi, issiqlik tarmoqlarining yuqori darajada eskirishi, yo'qotishlarning oshishi, issiqlik tariflarining yuqoriligi kabi muammolar uzoq yillar davomida o'z yechimini topmagan.

Tadqiqotchi R.F.Gataullinning fikricha, issiqlik ta'minoti xizmatlarining samaradorligi natijalari (daromadlar va hajmlar – xususiy va jismoniy shaxslar uchun) minimal xarajatlarga teng bo'lganda erishiladi. Bundan tashqari, u pullik va bepul xizmatlar birlashtirilgan sohalarda (ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jaligi va boshqalar) ularning daromadlilik ko'rsatkichi samarani tavsiflamasligini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada issiqlik ta'minoti sohasida iqtisodchi olimlarning mavzuga bag'ishlangan ilmiy asarlari o'rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlarning qiyosiy tahlili va farazni asoslash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Issiqlik ta'minoti xizmatlari sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar faoliyatida iste'molchilarning ushbu xizmatlarga bo'lgan talabinin kengayishi bilan bozor munosabati chuqurlashib boradi va bu, o'z navbatida, sohada ma'lum darajada iqtisodiy qonuniyatlarning amal qila boshlashiga olib keladi.

Issiqlik ta'minoti xo'jaligida bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi quyidagi asosiy tamoyillar negizida yuzaga keladi (1-jadval).

1-jadval: Issiqlik ta'minoti xo'jaligida bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishining asosiy tamoyillari va ularning xususiyatlari[1]

Tamoyillar	Xususiyatlar
Raqobat	Issiqlik ta'minoti xizmatlar (mahsulot va ishlari)ni sotuvchilar va sotib oluvchilarning ko'p miqdorda mavjudligi
Narxlarning erkin shakllanishi	Issiqlik ta'minoti xizmatlar bozorida to'lovga qobil talab va taklif o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri munosabatlarning natijasi
Shartnomaviy munosabatlar	Issiqlik ta'minoti xizmatlarini iste'molchi huquqlarini ko'zda tutish bo'yicha choralarni ko'zda tutuvchi teng huquqli iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi kelishuv asosidagi munosabatlar
Davlat tomonidan boshqarish	Issiqlik ta'minoti xizmatlar bozori ishtirokchilari tomonidan mavjud qonunchilikka amal qilinishini hamda iste'molchilarning konstitutsion huquq va erkinliklari ta'minlanishini kafolatlash
Bozor segmentatsiyasi	Issiqlik ta'minoti xizmatlar bozorini xaridorlar guruhlariga bo'lish, bozor segmentlarini ajratish
Xizmat (ish)larning o'zaro aloqadorligi	Ko'rsatiladigan issiqlik ta'minoti xizmatlari tizimning boshqa tarmoq yoki soha korxonalari bilan o'zaro aloqadorligi
To'lovlarning majburiyligi	Iste'molchilar (aholi va korxonalar) tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarning o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishi. Ayrim toifadagi iste'molchilarga to'lovlarni belgilangan tartibda va hajmda davlat tomonidan kompensatsiya ko'rinishida to'lab berilishi
Imtiyozlar va subsdiyalarning manzilliligi	Aholining kam daromadli toifalariga issiqlik ta'minoti xizmatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirilishida davlat tomonidan manzilli ijtimoiy himoyaning qo'llanilishi
Turli me'yorlar mavjudligining majburiyligi	Iste'molchilar ular uchun eng arzon narxlarda eng yaxshi holat (uy maydoni, loyihasi, issiqlik ta'minoti xizmatlar sifati, ichki dizayn, joylashuv o'rni va boshqalar)dagi me'yorlarni tanlash mavjudligi
Iste'molchining ustunligi	Xizmatlar taklif etuvchilarning iste'molchilar oldidagi mas'uliyati

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Har bir tamoyil sohadagi munosabatlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘z xususiyatiga ega bo‘lib, tamoyillarning bajarilishida ushbu xususiyatlarga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Issiqlik ta’minoti xizmatlari sohasi samaradorligini aniqlash masalasiga turlicha uslubiy yondashuvlar mavjud. Ayrim yondashuvlar soha samaradorligini oshirishni nisbatan kam mablag‘ va mehnat sarflagan holda mavjud resurslardan ratsional foydalanish nisbatan yuqoriroq xizmat sifati bilan iste’molchilarning ehtiyojini to‘laroq qondirishda ko‘radilar. Ko‘pchilik tomonidan issiqlik ta’minoti xizmatlari samaradorligi sifatida iqtisodiy jihatdan erishilgan natijalar (ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi) va jamiyatda mavjud turli resurslar xarajati o‘rtasidagi munosabat tushuniladi.

Bizning fikrimizcha, issiqlik ta’minoti xizmatlarini taqdim etish samaradorligi jamiyat manfaatlari uchun, ishlab chiqarish va ishchi kuchining eng kam miqdori bilan maksimal natijalarga erishish bilan belgilanadi. Shu bilan birga, issiqlik ta’minoti xizmatlarining samaradorligini faqat taqdim etilayotgan xizmatlarning o‘sishi va narxlarning pasayishi bilan bog‘lash mumkin emas, samaradorlikni aniqlashda ijtimoiy oqibatlarga muhim ahamiyat berish lozim.

Birinchidan, resurslardan foydalanishning katta ta’siri hali ham ishchilarning mehnat sharoitlari yomonlashishi bilan bir vaqtda yuz bersa, bu ishlab chiqarish samaradorligining oshishini anglatmaydi.

Ikkinchidan, ko‘rsatilayotgan issiqlik ta’minoti xizmatlarining hajmining ko‘payishi, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish natijasida bajarilgan ishlar, mavjud ehtiyojlarga mos kelishi kerak. Agar u mavjud ehtiyojlarga mos kelmasa, unda jamiyat uchun issiqlik ta’minoti xizmatlarining samaradorligi deyarli o‘smaydi va faqat foydasiz harajatlar yuzaga keladi.

Issiqlik ta’minoti xizmatlarini samaradorligi tahlilining uslubiy asoslari muammosini o‘rganar ekanmiz, aytish mumkinki, ko‘pchilik iqtisodchilar samaradorlik tahlilining (samaradorlik mezonlari) quyidagi jihatlariga e’tibor qaratmoqdalar:

- issiqlik ta’minoti xizmatlarini ko‘rsatish harajatlarining o‘zgarishi dinamikasi.
- issiqlik ta’minoti xo‘jaligining moliyalashtirilishi hajmi.
- kreditorlik va debitorlik qarzlari hajmining o‘zgarishi, shuningdek, issiqlik ta’minoti xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarining joriy yil uchun yo‘qotishlari (mutlaq va nisbiy qiymatlar).
- issiqlik ta’minoti xizmatlariga tariflar va narxlarni tahlil qilish.
- issiqlik ta’minoti xizmatlariga to‘lovlarning hajmida aholi to‘lovlarining ulushi.
- subsidiyalar hajmi va ularni ta’minlash uchun ajratilgan budjet mablag‘lari miqdori.
- joriy yil uchun avariya hodisalari sonining oldingisiga nisbati.
- muhandislik ta’minoti tizimlarining aylanma darajasi.
- o‘tgan yilga nisbatan kapital ta’mirlangan va rekonstruksiya qilingan issiqlik ta’minoti fondining hajmi va boshqalar.

Ushbu ko‘rsatkichlar oqilona ravishda issiqlik ta’minoti xizmatini ko‘rsatish tizimining samaradorligi mezonlari sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Aynan shu ko‘rsatkichlar issiqlik ta’minoti xo‘jaligi holatini baholash va uning o‘zgarishi to‘g‘risida xulosa chiqarish imkonini beradi. Ammo bu mezonlar quyidagi ko‘rsatkichlar bilan to‘ldirilishi kerak deb hisoblaymiz:

- aholining issiqlik ta’minoti xizmatlaridan qoniqish darajasi (aholining issiqlik ta’minoti xizmatlari bo‘yicha shikoyat va arizalari soni, aholining issiqlik ta’minoti xizmatlariga doir huquqlari va erkinliklaridan erkin foydalanish imkoniyati va boshqalar).
- sohadagi tadbirkorlik faoliyati ko‘rsatkichlari.
- issiqlik ta’minoti xo‘jaligidagi investitsion faollik darajasi.
- issiqlik ta’minoti xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi davlat xizmatlarining davlat ijtimoiy standartlariga muvofiqligini ta’minlash.
- taqqoslanadigan sharoitlarda aholiga issiqlik ta’minoti xizmatlarini taqdim etish harajatlarini kamaytirish.
- sanoatda yoqilg‘i-energetika resurslarini iste’mol qilishni kamaytirish (resurslarni tejash) va boshqalar.

Bir qator olimlar xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi atamasiga o‘z yondashuvlarini ko‘rsatib o‘tishgan. Iqtisodiy samaradorlik erishilgan natijalar va jamiyat uchun mavjud bo‘lgan turli xil resurslarning xarajatlari o‘rtasidagi nisbat bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy samaradorlik deganda aholining xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirish tushuniladi.

Shunday qilib, issiqlik ta’minoti xizmatlari nafaqat tejamkor bo‘lishi kerak, balki ular iste’molchilar va yetkazib beruvchilar uchun maqbul bo‘lishi ham kerak.

Issiqlik ta’minoti xizmatlari bozorining asosiy subyektlari, bir tomondan, issiqlik ta’minoti xizmatlaridan foydalanuvchilar (aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlar), boshqa tomondan issiqlik ta’minoti xizmatlarini ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi. Bozorning har bir subyekti issiqlik ta’minoti xizmatlarining samaradorligiga o‘zlarining manfaatlaridan kelib chiqib o‘z talablarini qo‘yadilar. Bir tomondan, iste’molchi issiqlik ta’minoti xizmatlarining sifatini iste’mol qilinadigan issiqlik ta’minoti xizmatlarining samaradorligining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan, boshqa tomondan, ishlab chiqaruvchilar samaradorlik mezoni sifatida iste’molchilar tomonidan kelib chiqadigan ijtimoiy va iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida o‘zgartirilgan sifat ko‘rsatkichi bilan bog‘laydilar.

Shunday ekan, issiqlik ta’minoti xizmatlarining samaradorligini boshqarish, bizning fikrimizcha, vakillik qilayotgan tomonlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va ular o‘rtasida maqbul balansga erishishdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ta’kidlash o‘rinliki, rentabellik prinsipi issiqlik ta’minoti xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi korxonalar faoliyatining asosiy prinsipi va maqsadi bo‘lmasligi kerak. Aholining katta qismi uchun turmush darajasi pastligi, texnik jihozlarning yo‘qligi va issiqlik ta’minoti xo‘jaligining yomonlashishi bartaraf etilgan sharoitdagina ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik yuzaga keladi. Shubhasiz, bugungi sharoitda va yaqin kelajakda iste’molchilar uchun maqbul narxlardan kelib chiqqan holda ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati ushbu sohadagi ijtimoiy samaradorlikning ko‘rsatkichi bo‘lishi kerak.

Issiqlik ta’minoti infratuzilmasiga investitsiyalar, hatto uzoq muddatli o‘zini oqlash bilan ham, iqtisodiy jihatdan samarali va issiqlik ta’minotining boshqa turlari bilan raqobatbardoshligini isbotlagan haqiqiy biznesdir. Umuman olganda, raqobat bozor iqtisodiyotining muhim elementi hisoblanadi, chunki u samaradorlikni oshiradi, mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, bu esa iste’molchilarni issiqlik bilan ta’minlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Markaziy issiqlik ta’minoti tizimlarida raqobatni yaratishda yuzaga keladigan asosiy vazifa iqtisodiyotning ushbu sektorida talab va taklifni boshqarishning oqilona va shaffof mexanizmlarini yaratishdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. 2017-yil 7-fevral // www.lex.uz.
2. Экономика жилищно-коммунального хозяйства/ под ред. Ю.Ф.Симионова. –М.: ИКЦ “МарТ”, 2004. –С.179
3. Черняк В.З. Жилишно-коммунальное хозяйство: развитие, управление, экономика. –М.: КНОРУС, 2007. – С.18
4. Гатауллин Р.Ф. Повышение эффективности сферы услуг населению: теория и методология. –Уфа: Восточный университет, 2001. –С.38.
5. Комарова В.Е., Улановская В.Д. Эффективность и интенсификация непроизводственной сферы. –М.: Экономика, 1997. – С.18.
6. Каменева Е.А., Барулин С.В. Финансы жилищно-коммунального хозяйства. –М.: Ось-89, 2003. –С.37



ISSIQLIK TA'MINOTI XIZMATLARI SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI BAHOLASH

Abdulaziz Abdumo'minovich Matro'ziyev
SamISI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada issiqlik ta'minoti xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi, shuningdek, innovatsion yondashuvlar asosida, issiqlik ta'minoti xizmatlari sifatiga ta'sir etuvchi omillar va ularni baholash, ushbu omillarning ta'sir ko'rsatish jarayoniga mos ravishda alohida turlarga ajratib ko'rsatish mavjud resurslardan ratsional foydalanish nisbatan yuqoriroq xizmat sifati bilan iste'molchilarning ehtiyojini to'laroq qondirilishi maqolada yoritiladi.

Kalit so'zlar: Issiqlik ta'minoti, issiqlik energetikasi infrotuzilmasi, innovatsiya, issiqlik ta'minoti samaradorligi ko'rsatkichlari.

Abstract: In the article, the formation and development of market relations in enterprises providing heat supply services, as well as, based on innovative approaches, factors affecting the quality of heat supply services and their assessment, distinguishing them into separate types in accordance with the process of influence of these factors, rational use of existing resources, higher service quality the full satisfaction of the needs of consumers will be covered in the article.

Key words: Heat supply, heat energy infrastructure, innovation, heat supply efficiency indicators.

Аннотация: В статье становление и развитие рыночных отношений на предприятиях, оказывающих услуги теплоснабжения, а также на основе инновационных подходов рассмотрены факторы, влияющие на качество услуг теплоснабжения и их оценка, выделение их на отдельные виды в соответствии с технологическим процессом. Влияние этих факторов, рациональное использование имеющихся ресурсов, повышение качества обслуживания потребителей и полное удовлетворение их потребностей рассматриваются в статье.

Ключевые слова: Теплоснабжение, теплоэнергетическая инфраструктура, инновации, показатели эффективности теплоснабжения.

KIRISH

Rivojlangan mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, har qanday mamlakatning taraqqiyoti undagi mavjud "inson resurslari"ning rivojlanish darajasi hamda ushbu omilning rivojlanishiga ta'sir etuvchi zaruriy sharoitlar hamda rivojlanish uchun mos bo'lgan muhitning yaratilishiga bog'liq. Issiqlik ta'minoti xizmatlarini ko'rsatish sohasining rivojlanish holati jamiyat a'zolarining eng muhim ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish asosida ularning mehnat qilish qobiliyatini tiklash bilan birga mamlakat iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismini yaratuvchi soha hisoblanganligi, shu bilan birga sohada energiya resurslarining sezilarli qismini iste'mol qilinayotganligi tufayli jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichida ushbu sohani rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

A.A.Alekseyevning fikricha, raqobatbardoshlik ikki guruh omillarga: tashqi – mikro va makro muhit omillari (siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy-demografik, madaniy-tarixiy omillar, raqobatchilar, tadbirkorlik infratuzilmasi, mehnat bozori, qonunchilik bazasi va boshqalar) hamda ichki omillar – korxonaning salohiyati (ishlab chiqarish, kadrlar, tashkiliy-boshqaruv, marketing va moliyaviy salohiyat) ta'sir ko'rsatadi.

S.A.Yegorichev korxona raqobatbardoshlik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni ekologik, ishlab chiqarish va ijtimoiy omillar ko'rinishida makro, mezo va mikro darajadagi kesimda ichki va tashqi omillar sifatida ko'rib chiqqan.

S.V.Zaxarova esa tashqi omillar tarkibiga davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi, mamlakatning iqtisodiy salohiyati va iqtisodiy o'sish darajasi, mehnat taqsimotida ishtirok etish, fan va texnikaning rivojlanish darajasi, resurslar bilan ta'minlanish darajasi, ichki bozor sig'imi va uning o'zgarishi, moliya tizimining moslashuvchanligi, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat va raqobatchilarni, ichki omillarga esa mahsulot yoki xizmatlar sifati, bozor resurslarini olish imkoniyati, moliyaviy faoliyat, ijtimoiy siyosat, texnika va texnologiyalar, kadrlar malakasi va xodimlarni boshqarish sifati, samarali marketing strategiyasi va sotish siyosati kabi omillarni kiritgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy xizmatlar sohasi tarkibida rivojlanib borayotgan issiqlik ta'minoti xizmatlari bozori va uning samaradorligi taklif etilayotgan xizmatlar hajmiga bo'lgan talabning mavjudligi hamda uning xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Issiqlik ta'minoti xizmatlariga bo'lgan real talabning shakllanishiga taklif etilayotgan xizmatlarning sifati, narxi hamda xizmatlardan foydalanishning qulayligi kabi iste'mol xususiyatlari bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu xizmatlar iste'mol xususiyatlarining holati esa xizmatlarni yaratish va iste'molchiga yetkazish jarayonida yuzaga keluvchi omillar bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir.

Issiqlik ta'minoti xizmatlari bozorida faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyati va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini boshqarish jarayonlariga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda ushbu omillarning ta'sir ko'rsatish jarayoniga mos ravishda alohida turlarga ajratib ko'rsatish muhimdir. Bunda omillarni ta'sir etish jarayoniga bog'liq holda 3 turga:

- sohada faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar;
- issiqlik ta'minoti xizmatlari sohasini boshqarish tizimi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar;
- taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini boshqarishga ta'sir etuvchi omillarga ajratgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi turdagi omillar, ya'ni faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni umumlashgan holda korxonaning raqobatbardoshlik holatiga ta'sir etuvchi omillar sifatida baholash mumkin.

Raqobatbardoshlik tushunchasi murakkab tarkibli iqtisodiy kategoriya bo'lib, bu tushunchani iqtisodiy munosabatlarning barcha bo'g'inlarida uchratish mumkin va bu kategoriyani o'lchashning juda keng qamrovli ko'rsatkichlari mavjud. Ko'plab tadqiqotchilarning izlanishlarida korxonaning raqobatbardoshligi omillari turli ko'rinishlarda o'rganilgan bo'lib, quyida ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz.

Yuqorida tahlil qilingan yondashuvlar va tasnifdan foydalangan holda bugungi kunda O'zbekistonda issiqlik ta'minoti xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning raqobatbardoshligi va faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni 1-jadvaldagi tarkibda tasniflash taklif etiladi.

O'tkazilgan tahlillar korxonalar samaradorligi holatiga ta'sir etuvchi omillarga aniqlik kiritish imkonini beradi. Umumiy holda issiqlik ta'minoti korxonalari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar bu – boshqarilayotgan uy-joy fondi yoki issiqlik ta'minoti korxonalari tomonidan iste'molchilarga xizmatlarni yetkazib berish jarayoniga ijobiy yoki salbiy ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar tizimidan iborat.

2-turdagi omillar, ya'ni issiqlik ta'minoti sohasini boshqarish tizimi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni boshqaruv, ishlab chiqarish unumdorligi, risk va inqiroz omillari guruhlariga ajratish mumkin (1-rasm).

Ushbu tasniflashning o'ziga xosligi ko'rsatib o'tilgan omil guruhlarining barchasi bir vaqtning o'zida omil ta'siri yo'nalishiga bog'liq holda ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga tasnifning boshqaruv va ishlab chiqarish unumdorligi omil guruhlarida ijobiy ta'sir darajasi ustun bo'lsa, risk va inqiroz omillari guruhlarida salbiy yo'nalish nisbatan ustundir.

3-turdagi omillar, ya'ni taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini boshqarishga ta'sir etuvchi omillar axborot shaffofligi, iste'molchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar o'rtasidagi teskari aloqaga asoslangan holda ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini baholash tizimi yordamida xizmatlar sifatini boshqarish jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatadi.


Omillarning ta'sir xususiyatlarini hisobga olgan holda taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini boshqarishga ta'sir etuvchi omillarni 5 ta asosiy guruhga tasniflash maqsadga muvofiq.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

1-jadval: Issiqlik ta’minoti korxonalarining samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar tasnifi1

Daraja	Omil guruhlari	Omillar
Makro darajada	Moliyaviy	Issiqlik ta’minoti sohasining respublika miqyosidagi moliyaviy resurslardan foydalana olish imkoniyati
	Innovatsion	Issiqlik ta’minoti sohasida respublika miqyosidagi axborot tizimlari va texnologiyalarining qo‘llanilishi
	Moddiy-texnik	Issiqlik ta’minoti sohasida respublika miqyosida biznes- jarayonlarni avtomatlashtirilganlik darajasi
	Tashkiliy-iqtisodiy	Issiqlik ta’minoti sohasida respublika miqyosida xodimlar malakasi va ularning motivatsiya darajasi; Standartlashlashtirish, boshqaruv darajasi tizimining tuzilishi
	Mehnat	Respublika miqyosida issiqlik ta’minoti sohasidagi ijtimoiy siyosat
	Huquqiy	Issiqlik ta’minoti sohasidagi soliq qonunchiligi
Mezo darajada	Moliyaviy	Issiqlik ta’minoti sohasining mintaqa darajasida moliyaviy resurslardan foydalana olish imkoniyati
	Innovatsion	Issiqlik ta’minoti sohasida mintaqa darajasida axborot tizimlari va texnologiyalarining qo‘llanilishi
	Moddiy-texnik	Issiqlik ta’minoti sohasida mintaqa darajasida biznes-jarayonlarni avtomatlashtirilganlik darajasi
	Tashkiliy-iqtisodiy	Issiqlik ta’minoti sohasida mintaqa darajasida xodimlar malakasi va ularning motivatsiya darajasi; Standartlashlashtirish, boshqaruv darajasi tizimining tuzilishi
	Mehnat	Mintaqa darajasida uy-joy kommunal sohasidagi ijtimoiy siyosat
	Huquqiy	Mintaqada issiqlik ta’minoti sohasini soliq qonunchiligi orqali tartibga solish
Mikro darajada	Moliyaviy	Issiqlik ta’minoti korxonasi darajasida moliyaviy resurslardan foydalana olish imkoniyati
	Innovatsion	Issiqlik ta’minoti korxonasi darajasida axborot tizimlari va texnologiyalarining qo‘llanilishi
	Moddiy-texnik	Issiqlik ta’minoti korxonasida biznes-jarayonlarni avtomatlashtirilganlik darajasi
	Tashkiliy-iqtisodiy	Issiqlik ta’minoti korxonasida xodimlar malakasi va ularning motivatsiya darajasi; Standartlashlashtirish, boshqaruv darajasi tizimining tuzilishi
	Mehnat	Issiqlik ta’minoti korxonalarida ijtimoiy siyosat
	Huquqiy	Korxonalarda soliq yukini maqbullashtirish

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



1-rasm: Issiqlik ta’minoti xizmatlari sohasini boshqarish tizimini rivojlantirish omillari tasnifi[2]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tasnifdagi tashkiliy-iqtisodiy omillar guruhiga birlashtirilgan omillar xizmatlarni yaratish va iste’molchilarga yetkazib berish jarayonida ishtirok etuvchi korxona xodimlari malaka darajasi, ularni boshqarish faoliyati samaradorligi hamda korxona resurslari hajmini oshirish va yangilash hisobiga xizmatlar sifatini ijobiy yoki salbiy tomonga o‘zgarishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Ikkinchi guruh omillari tarkibiga birlashtirilgan faoliyatda yangi va zamonaviy vositalarning qo‘llanilishi va ularni yangilash imkoniyatlari omillari yetkazib berilayotgan xizmatlarning sifatini belgilovchi omillar hisoblanadi.

Ijtimoiy omillar guruhi tarkibidagi omillar esa xizmatlar sifatiga talabni belgilovchi aholi guruhlarining yosh, psixologik, ijtimoiy xususiyatlarini aks ettiruvchi omillardan tashkil topgan.

Iqlim omillari ko‘rsatilayotgan xizmat sifatiga xizmat ko‘rsatiluvchi obyekt joylashgan hududning o‘ziga xos tabiiy-iqlim xususiyatlarini birlashtirgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алексеев А.А. Стратегия повышения конкурентной устойчивости консалтинговой фирмы: дис. канд. экон. наук. – М., 2003. -С.83, 171.
2. Егорычев С.А. Управление устойчивым развитием муниципальных образований: дис. канд. экон. наук. – Оренбург., 2015. –С. 41, 194.
3. Захарова С.В. Формирование и развитие организационно-экономического механизма управления конкурентоустойчивостью предприятия: дис. канд. экон. наук. – Сарато., 2006. –С.21-23, 215.
4. Евсеева С.А. Проблема несогласованности интересов субъектов хозяйствования в системе менеджмента организаций ЖКХ. // Проблемы современной экономики, 2012, №4. С. 299-303.
5. Тэпман Л.Н. Риски в экономике / под ред. В.А. Швадара. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2002. – 380 с.
6. Чернышов Л.Н. Управление жилищно-коммунальным хозяйством России. – М. АСВ, 2003. – 313 с.; Васильева.

JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLIQ SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

ORCID: 0009-0004-9757-3442



Abdullayev Zafarjon Alijonovich
DSc, Toshkent texnologiya, menejment va kommunikatsiyalar (TMS) instituti, “Iqtisodiyot, huquq va boshqaruv” kafedrasi professori



Zaydullayev Abduhabib Boliqul o‘g‘li
Toshkent texnologiya, menejment va kommunikatsiyalar (TMS) instituti, “Iqtisodiyot, huquq va boshqaruv” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘ini takomillashtirish masalasi ko‘rib chiqilgan. Olib borilgan tadqiqotlarda ko‘chmas mulkni hisobga olishning to‘liqligi va bozor qiymatidan kelib chiqqan holda soliq solinadigan bazani aniqlashning samarali usuli muhimligi aniqlangan. Tahlil natijasida mol-mulkka soliq solishni takomillashtirish bo‘yicha xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: mol-mulk, ko‘chmas mulk, mahalliy budjet, mol-mulk solig‘i, soliq bazasi, soliq stavkasi.

Abstract: This article discusses the issue of improving property tax for individuals. The conducted studies determined the importance of completeness of real estate accounting and an effective method for determining the tax base based on market value. As a result of the analysis, conclusions were drawn on improving property taxation.

Key words: property, real estate, local budget, property tax, tax base, tax rate.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос совершенствования налога на имущество физических лиц. В проведенных исследованиях определена важность полноты учета недвижимости и эффективного метода определения налогооблагаемой базы исходя из рыночной стоимости. В результате анализа сформированы выводы по совершенствованию налогообложения имущества.

Ключевые слова: имущество, недвижимость, местный бюджет, налог на имущество, налоговая база, налоговая ставка.

KIRISH

Soliqlar har qanday darajadagi budjet daromadlarining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat uchun muhim ahamiyatga ega. aksariyat mamlakatlarda mulkiy soliqlar mahalliy budjetni shakllantirish uchun asosiy manbasi va jismoniy shaxslarning xarajatlarida eng muhim majburiy to‘lovlar sifatida qaraladi. Shuning uchun ham davlat uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkini soliqqa tortishni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy budjetlarning asosiy daromadlari manbasi soliqlar hisobiga

shakllantiriladi, bu hududiy darajada soliq solishning asosiy vazifasi hisoblanadi. Yuqori va mahalliy darajadagi budjetlar bir necha muhim farqlarga ega ya'ni yuqori darajadagi budjet daromadalarini nisbatan muntazamligi (bu darajadagi hisob umumiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi) hamda mahalliy budjetlarning stavkalari va imtiyozlar darajasi mahalliy qonunchilik bilan belgilanadi. Mahalliy soliqlardan olinadigan daromadlarning kichik ulushi tufayli mahalliy budjetlari dotatsiyalashuvining yuqoriligi ortadi, bu esa ularning iqtisodiy mustaqilligini pasayishiga olib keladi. Shu sababdan, mulkiy soliqqa tortish mexanizmini isloh qilishning asosiy vazifalaridan biri milliy soliq tizimida yagona huquqiy makonni ajralmas saqlab qolgan holda mahalliy budjetlarning daromadini shakllantirishda mulkiy soliqlarning rolini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ensiklopedik adabiyotda mol-mulk solig'i soliqlarning birinchi turlaridan biri sifatida e'tirof etilgan bo'lib, soliq solish obyekti keng ma'noda mulk bo'lib, mulkdorning daromadining bir qismini davlat foydasiga olib qo'yishni nazarda tutadi. Ushbu mulkka egalik qilish yoki u bilan muayyan bitimlarni amalga oshirish shu jumladan, meros, hadiya va ba'zan oldi-sotdi operatsiyalari (Mayburov va boshqalar, 2016). Soliq munosabatlarini ochib beruvchi nazariyalarda mulk bir necha asrlar davomida eng muhim element sifatida ko'rib chiqilgan bo'lib, ular birinchi navbatda, ko'chmas mulk sifatida yer va binolarni o'z ichiga oladi. Xudoyqulov va To'lakovlarning (2020) ta'kidlashicha, iqtisodchi olimlar ko'chmas mulkka soliq solishni davlat daromadining muhim manbalaridan biri sifatida asoslab berganlar, ushbu soliqning konseptual asoslarini yaratganlar, shu bilan birga ko'chmas mulkka soliqlarni belgilashda hisobga olinishi lozim bo'lgan ba'zi jihatlarni ta'kidlaganlar. Ularning tadqiqotlarida mahalliy miqyosda ko'chmas mulk soliqlari o'rnatilganligi sababli empirik yo'nalishlar aniqlangan va asoslangan. Shuningdek, bu kabi ilmiy ishlarda xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda ko'chmas mulkka soliq solish, imtiyozlarning qo'llanilishi, soliq mexanizmini takomillashtirish, ko'chmas mulkka soliq solish tizimini isloh qilish zarurati masalalari o'z aksini topgan. Panskov (2008) fikricha, kelajakda korxonalarning mol-mulk solig'i, jismoniy shaxslarning mol-mulki solig'i va yer solig'i ko'chmas mulk solig'i bilan almashtirilishi mumkin. Mishustinning (2007) ta'kidlashicha, ko'chmas mulk solig'ini joriy etish mol-mulkni soliqqa tortish tizimini isloh qilishdagi muhim qadam bo'lishi kerak, chunki u mol-mulk solig'i sonini kamaytirishi va soliq bazasi sifatida yagona xarajat bazasini o'rnatishi lozim. Shu bilan birga, Panskov ko'chmas mulk solig'ini joriy etish bilan bog'liq ikkita muammoni ta'kidlaydi: ko'chmas mulkni hisobga olishning to'liqligi va bozor qiymatidan kelib chiqqan holda soliq solinadigan bazani aniqlashning samarali usuli. Ko'chmas mulk solig'ining xususiyatlari va afzalliklariga moslashuvchanlik, shaffoflik, budjet daromadlari balansi va ma'muriy amaliylik, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mustaqilligi kiradi.

Jahon soliq amaliyotida ko'pgina mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liq, masalan, turli xil mol-mulk obyektlarining jismoniy eskirishiga va turli davrlarda amalga oshirilgan qayta baholashning hisoblangan amortizatsiyasiga qarab qiymati va qo'llanilishi mumkinligi bilan bog'liq bozor usullari. Mol-mulk solig'i obyektlarining xarajat tavsiflari majburiydir, chunki mulkiy munosabatlar daromad olish uchun mulk obyektlaridan foydalanish imkoniyatini belgilaydi va davlat foydasiga olib qo'yish obyekti bo'lishi mumkin, ammo eng muhimi soliq to'lovchilar farovonligining ko'rsatkichi hisoblanadi (Boboshko, 2020). Shu bilan birga, jismoniy shaxslarning ko'chmas mulkiga nisbatan imtiyozlarni belgilash ijtimoiy himoyani hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Shu bilan birga, jismoniy shaxslarning ko'chmas mulkiga soliq solishda budjetga undirilmagan daromadlarni tahlil qilish natijalari yer va mol-mulk solig'i to'g'risidagi qonunlarda nazarda tutilgan darajada emasligini ko'rsatmoqda. Buning asosiy sababi berilgan imtiyozlar mexanizmlarining turlicha ekanligidir. Tadqiqot natijalari jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i uchun belgilangan imtiyozlarning ulushida to'lovchilarning ayrim toifalari, xususan, pensionerlar uchun belgilangan imtiyozlarning budjet tushumlariga nisbatan yuqori darajada ekanligini ko'rsatdi (To'lakov, 2022).

Mulkiy munosabatlarining tabiati turli mulk solig'ini aniqlash, ularni tasniflash, soliq solinadigan bazani shakllantirish va baholash zaruriyatini keltirib chiqardi. Shuni ta'kidlash kerakki, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida mulk solig'i: ko'chmas mulk solig'i (yoki mol-mulk solig'i), yer solig'i (yoki qurilishi tugallanmagan yer uchastkalari va qishloq xo'jaligi yerlariga soliq) va turli xil mulk turlariga soliqlar. Yuqoridagilar bilan bog'liq holda, turli adabiy manbalarda mol-mulk solig'ini tasniflashda turlicha yondashuvlarni uchratish mumkin. Ko'chmvs mulk solig'i dunyoning ko'plab mamlakatlarida muvozanatli va adolatli soliq tizimining asosiy tarkibiy qismidir (Gribovskiy, 1999; Panfilov, 2006; Proskurin, 2007). Ushbu soliq munitsipalitetlarning budjetlariga barqaror va iqtisodiy jig'atdan samarali tushumlar tushishini ta'minlashi mumkin, agar soliq to'lovchilar o'rtasida soliq yukining adolatli taqsimlanishini ta'minlaydigan ko'chmas mulk solig'ini tartibga soluvchi qonunlar mavjud bo'lsa, bu jamoatchilik tomonidan munosib qabul qilinishi mumkin (Nagayev,2005; Gosudarstvenniy nauchno-issledovatelskiy institut, 2006).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tasviriy statistika, ekspert baholash, qiyosiy tahlil qilish, nazariy va empirik ilmiy adabiyotlarga yondashuv usullaridan foydalanilgan

TAHLIL VA NATIJALAR


Aksariyat mamlakatlar mahalliy budjetlarining daromad qismi daromadlarning ikki guruhi hisobiga shakllanadi. Birinchi guruh-mahalliy soliqlar va yig‘imlar, jarimalar, umumdavlat soliqlaridan ajratmalar, mahalliy mulkni boshqarish va boshqa xo‘jalik faoliyatidan olingan daromadlar, xayriyalar va boshqalar. Ba’zi mamlakatlarda boshqa daromadlar mahalliy hukumatlar tomonidan olingan kreditlar va qarzlarni ham o‘z ichiga oladi. Ikkinchi guruhga boshqa budjetlardan moliyaviy yordam tarzida olingan pul o‘tkazmalari kiradi. Quyidagi jadvalda xorijiy amaliyotda mahalliy budjet daromadlarining asosiy manbalari ko‘rsatilgan (1-jadval).

1-jadval: Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishning asosiy manbalari

Ichki manbalar			Tashqi manbalar		
Yerdan daromadlar	Yer bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlar	Turli xizmatlar uchun yig‘imlar	Budjetlararo transfertlar	Qarzlar	Hamkorlikda rivojlanish
ko‘chmas mulk solig‘i	uy xo‘jaligi, ko‘char mulk va boshqa soliqlar	kommunal xizmatlar	shartsiz transferlar yoki soliq ajratilishi	davlat	favqulodda vaziyatlardagi yordam va boshqalar
yer yig‘imlari	biznesga litsenziya yig‘imlari va boshqalar	ma’muriy yig‘imlar	shartli grantlar	banklar (xususiy sektor)	xalqaro yordamlar

Manba: Orlova, 2017

Rivojlangan mamlakatlarning mahalliy budjetlari daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar asosiy manbani tashkil qiladi. Xususan, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Shvetsiya, Portugaliya, Vengriya va Sloveniya davlatlarida mahalliy budjetlar o‘z daromadlari hisobiga asosan mahalliy soliqlar hisobidan shakllantiriladi.



1-rasm: IHTT mamlakatlarining soliq tushumlari tarkibi

Manba: Tax foundation, 2023

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ning ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yildagi soliq tushumlari tarkibida iste'mol soliqlari, ijtimoiy sug'urta soliqlari va jismoniy shaxslarning daromad solig'ining ulushi yuqori bo'lib, soliq tushumlaridagi mulkiy soliqlarning ulushi Kanadada 11,9 %ni, Avstraliyada 10,1%ni, Buyuk britaniyada 11,4%ni, AQSHda 11,4%ni, Koreyada 15,1%ni, Isroilda 11,2%ni, Luksemburgda 9,7%ni Belgiyada 8,5%ni, Fransiyada 8,5%ni, Yaponiyada esa 8,1%ni tashkil qilgan, IHTT mamlakatlari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan (o'rtacha ko'rsatkich 5,6%) yuqori hisoblanadi (Tax foundation, 2023).

Kanada davlatida jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazasiga yer va unga "biriktirilgan" obyektlar (masalan, binolar, uylar va boshqalar) kiritilgan. Kanadada mulk solig'ini hisoblashda ko'chmas mulkning bozor qiymati olinadi. Soliq stavkalari o'zgaruvchan va deyarli har yili o'zgaradi hamda soliq stavkasining o'zgarishi munitsipalitetlar joriy yil uchun zarur bo'lgan daromadlar miqdoriga bog'liqdir. Ya'ni, soliq stavkalari joriy yilda munitsipalitet rejalashtirilgan xarajatlar summasiga bevosita bog'liq. Jumladan, Kanada va Rossiya davlatlari bo'yicha mol-mulk soliq tizimini qiyosiy tahlilini jadval ko'rinishida keltirib o'tamiz (2-jadval).

2-jadval: Jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish tizimlarini qiyosiy tahlili

Taqqoslash mezonlari	Kanada	Rossiya
soliq solish bazasi	Yer va unda joylashgan obyektlar	Ko'chmas mulk
soliq ko'lami	bozor qiymati	kadastr qiymati
soliq stavkasi turi	progressiv foiz stavkasi	progressiv foiz stavkasi
stavka miqdori	mol-mulkning qiymatiga qarab 0,5% dan 2% gacha	mulkning qiymati va va amaliy maqsadlaridan kelib chiqib, 0,5% dan 2% gacha
soliq to'lovchilar	mulk egalari (mulkdor, ijarachi)	mulk huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar

Manba:Filippova va Korotayeva, 2021

Mahalliy budjet daromadari manbasini kengaytirishda, mol-mulk solig'i stavkasining bevosita xorijiy mamlakatlar bilan qiyoslab oshirilishi bu muammoning yechimi bo'lib xizmat qila olmaydi, chunki u faqat salbiy natijalarga olib kelishi ham mumkin. Misol uchun, ko'chmas mulkka bo'lgan talab tushishi mumkin, uy-joy xarajatlarining oshishi tufayli (xususan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami uchun qurilayotgan uy-joylar hisobga olgan holda), soliqni to'lay olmasligi yoki o'z mol-mulkini ro'yxatdan o'tkazmaslikka harakat qiladi. Shuning uchun, birinchi navbatda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab qilinadi: yer va ko'chmas mulk obyektlarini hisobga olish nazoratini mustahkamlash (jumladan, elektron bazasini yaratish); yer va ko'chmas mulkning haqiqiy bahosini shakllantirish va soliq solish obyektlarini hisobga olish tizimiga o'zgartirishlar kiritish. Bundan tashqari, davlat ro'yxatidan o'tkazish, kadastr va kartografiya xizmatining mulk obyektlarini qat'iy hisobini yuritish va vakolat doirasini yanada aniqroq belgilash lozim. Shu bilan birga, jismoniy shaxslarni mol-mulkini soliqqa tortish tartibini takomillashtirishda soliq bazasi tarkibi soliq ko'lamini, soliq stavkalarini belgilanishida Kanada tajribasini qo'llash maqsadga muvofiq. Ko'chmas mulkning bozor narxini aniqlashda harajat, daromad va qiyosiy yondashuvlar mavjud (Xudoyqulov, To'lakov, 2020).

Daromad yondashuvi Fransiya, Buyuk Britaniya va Shveysariyaning ayrim hududlarida keng tarqalgan. Qiyosiy yoki bozor yondashuvi ko'pincha Yaponiya va Aqshda, shuningdek, Daniya, Indoneziya, Avstraliya, Shvetsiyada qo'llaniladi. Xarajat yondashuvni amalga oshirish usullarini qo'llash amaliyoti juda cheklangan (Janubiy Koreya, Kanadaning ayrim hududlari) bo'lib, ko'pincha boshqa usullar bilan birgalikda qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, baholash usullaridan foydalanish amaliyoti ko'chmas mulk bozorining rivojlanish darajasiga ham bog'liq (Dementeva va boshqalar, 2019). Umuman olganda, iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlarda yuqori budjetlardan kam miqdorda moliyaviy yordamga murojaat qilgan holda munitsipalitetlar o'z daromad manbalari hisobidan o'z funksiyalarini bajarish uchun xarajatlarni amalga oshirish imkoniga egadir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliy hokimiyat organlaring samarali faoliyatini ta'minlovchi moliyaviy barqarorligining asosi mahalliy budjet daromadlari tarkibida asosiy manbalardan hisoblangan mol-mulk soliq tushumlarining barqaror oqimi hisoblanadi. Mol-mulk tarkibi va strukturasida yuqori ulushni ko'chmas mulk tashkil qiladi, shunga ko'ra mulk solig'i tushumlarining eng katta qismi ko'chmas mulkdan olinadigan soliqlarga to'g'ri keladi.

Ko'chmas mulkni soliqqa tortish sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi adolatlilik tamoyilini amalga oshirish zarurligidan kelib chiqib,hashamatli ko'chmas mulk egalari uchun soliq stavkalarini yuqori darajada belgilash zarur. Oddiy uy-joy mulkdorlari soliq yukining sezilarli darajada oshishini sezmasliklari kerak.

Rivojlangan mamlakatlarda mavjud bo‘lgan mol-mulkni soliqqa tortish tizimlari asosida olib borilgan qiyosiy tahlil soliq solish obyektini aniqlash va mulk solig‘ini ma’lum bir mulkka bog‘lash bilan bog‘liq mavjud farqlar va hal etilmagan muammolarni ko‘rsatdi.

Mol-mulk solig‘i tizimini modernizatsiya qilish bir vaqtning o‘zida jismoniy shaxslarning yer solig‘i va mol-mulk solig‘ini bekor qilgan holda mol-mulk solig‘ini joriy etishni nazarda tutadi. Bunda ko‘chmas mulk solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan baza sifatida ko‘chmas mulkning qiymatini samarali baolash metodini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tax foundation, 2023. https://taxfoundation.org.
2. Бобошко И. В.,2020. Имущественное налогообложение как фактор устойчивого развития регионов России. ww.dissercat.com/content.
3. Государственный научно-исследовательский институт системного анализа Счетной палаты Российской Федерации,2006..Налог на недвижимость: результаты эксперимента в Великом Новгороде и Твери. http://www.niisp.ru/News/Events/art67.
4. Грибовский, С. В.,1999. Задача наилучшего и наиболее эффективного использования объектов недвижимости при массовой оценке// Вопросы оценки. № 1. – С. 24–33.
5. Дементьева М.А., Захарова А.В., Кирова Е.А. 2019. Опыт налогообложения недвижимого имущества физических лиц в зарубежных странах и его применение в России. https://cyberleninka.ru/article.
6. Майбуров И.А. и др., 2016.Энциклопедия теоретических основ налогообложения р.] ; под ред. Майбурова. – Москва:ЮНИТИ-ДАНА. – 503 с.
7. Мишустин, М. В., 2007.Информационно-технологические основы администрирования имущественных налогов : монография / М. В. Мишустин. – М. : ЮНИТИ. – 359 с.
8. Нагаев, Р. Т.,2005. Недвижимость : энциклопедический словарь / Р. Т. Нагаев. – Казань : Идеал-пресс. – 1136 с.
9. Орлова Е.В., 2017. Исследование зарубежного опыта управления финансово-бюджетной несостоятельностью муниципальных образований. Вестник университета.160-166.
10. Пансков, В. Г., 2008. Налоги и налоговая система Российской Федерации / В. Г. Пансков. – М. : Финансы и статистика. – 493 с.
11. Панфилов, В. В., 2006. Понятие и содержание оборота недвижимости / В. В. Панфилов // Нотариус.№ 6. – С. 21–25.
12. Проскурин, А. Г., 2007. Налог на недвижимость как средство обеспечения решения вопросов местного значения / А. Г. Проскурин // Налоги.№ 5. – С. 4–8.
13. To‘lakov U.,2022. Ko‘chmas mulkni soliqqa tortishda imtiyozlar samaradorligi. // scientific Journal of “International Finance & Accounting” Issue 5, October. ISSN: 2181-1016.
14. Филиппова В.Ф., Коротаева О.А., 2021. Налог на имущество физических лиц в России и Канаде: сравнительный анализ. https://cyberleninka.ru/article/n/nalog-na-imuschestvo-fizicheskih-lits-v-rossii-i-kanade-sravnitelnyy-analiz.
15. Xudoyqulov S.K., To‘lakov U.T 2020. O‘zbekistonda ko‘chmas mulkni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish. www.journal.bfa.uz.



SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA HISOB SIYOSATINI ISHLAB CHIQISHNING AHAMIYATI

ORCID: 0000-0002-6325-1400

Abduraimova Maftunaxon Axmatovna

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Audit” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sug‘urta tashkilotlarida hisob siyosatini ishlab chiqishning ahamiyati yoritib berilgan. Sug‘urta tashkilotlarida hisob siyosatini ishlab chiqishning ahamiyatiga olimlar mushohadasi asosida aniqlik kiritilgan. Hisob siyosatini ishlab chiqish va samarali amal qilishi uchun amaliy tavsiyalar hamda xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: hisob siyosati, to‘lov layoqati, moliyaviy mustaqillik, hujjatlar aylanmasi, korporativ boshqaruv, analitik va sintetik hisob, ish sifati, biznes-reja, buxgalteriya registrlari.

Abstract: This article highlights the importance of the development of accounting policy in insurance organizations. The importance of accounting policy development in insurance organizations is further enriched based on the observation of scientists. Practical recommendations and conclusions have been formulated for the development and effective implementation of the accounting policy.

Key words: Accounting policy, solvency, financial independence, document circulation, corporate management, analytical and synthetic accounting, work quality, business plan, accounting registers.

Аннотация: В данной статье описано важность разработки учетной политики в страховых организациях. Важность разработки учетной политики в страховых организациях дополнительно уточнена на основе наблюдений ученых. Сформулированы практические рекомендации и выводы для разработки и эффективной реализации учетной политики.

Ключевые слова: учетная политика, платежеспособность, финансовая независимость, документооборот, корпоративное управление, аналитический и синтетический учет, качество работы, бизнес-план, регистры бухгалтерского учета.

Bugungi kunda sug‘urta tashkilotlarida hisob siyosatini ishlab chiqish va uning metodologik asoslarini takomillashtirish dolzarb masala bo‘lib kelmoqda. Sug‘urta tashkilotlarida hisob siyosatini ishlab chiqish faoliyat uzluksizligini ta’minlash, mijozlar oldidagi majburiyatlarni bajarish, moliyaviy rentabellikni oshirish, to‘lov layoqatini baholash, moliyaviy mustaqillikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sug‘urta tashkilotlarida hisob siyosatining qanday shakllanganligiga qarab, faoliyatning qay darajada zamonaviy ko‘rinishda aks etishi va ishlash mexanizmini ham bilish mumkin bo‘ladi.

Hisob siyosati barcha tashkilotlarda buxgalteriya hisobini yuritish va tarmoqning xususiyatidan kelib chiqib, uning qoidalarini belgilab beradigan muhim hujjat hisoblanadi.

Sug‘urta tashkilotlarida hisob siyosati deganda, tashkilot rahbari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarni rasmiylashtirish va to‘ldirish, analitik va sintetik hisob yozuvlarini yuritish, moliyaviy hisobot tuzish, ichki hujjatlar aylanmasini tashkil qilish, xarajatlarni hisobga olish uchun qabul qiladigan usullarning yig‘indisini o‘z ichiga oladi.

“Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” nomli 1-son BHMSga ko‘ra, “buxgalteriya hisobini guruhlarga ajratish va xo‘jalik faoliyati faktlariga baho berish, aktivlar qiymatini to‘lash, hujjatlar aylanmasini, mol-mulkni ro‘yxatga olishni tashkil etish usullari, buxgalteriya hisobida hisobotlarni qo‘llanish usullari, hisob registrlari tizimi, axborotlarni ishlab chiqish va o‘zga tegishli usullar, uslubiyatlar buxgalteriya hisobini yuritish usullariga kiradi” [1].

Sug‘urta tashkilotlarida hisob siyosatining ahamiyati soha xususiyatini ochib berish va operatsiyalarni buxgalteriya hujjatlarida aks ettirishdan iboratdir. Sug‘urta tashkilotlarida hisob siyosati qoidalariga rioya etish, avvalo, korporativ boshqaruvni tashkil qilish va samarali olib borish uchun muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, hisob siyosatini ishlab chiqish nafaqat qonun hujjatlarining talabi, shuningdek, tashkilot xarajatlarini, foyda olish ko‘rsatkichlarini tartibga solish dastagi ham hisoblanadi. Hisob siyosatini ishlab chi-

qishda, har bir tashkilot o‘zining faoliyat turlaridan kelib chiqqan holda, mustaqil ishlab chiqadi, bir tashkilotning hisob siyosati ikkinchi bir tashkilot hisob siyosatiga o‘xshamaydi, ya’ni, tadbirkorlik faoliyatining har xil turlari uchun hisob siyosatining bir xil usullari mos kelmaydi.

Sug‘urta tashkiloti rahbari moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun eng foydali axborot beradigan hisob siyosatini ishlab chiqish chog‘ida o‘z qarorlaridan foydalanishga haqlidir. Bunda qabul qilingan qarorlar amaldagi qonun hujjatlariga zid bo‘lmasligi kerak. Sug‘urta tashkilotlarida hisob siyosati tashkilotning buxgalteriya hisobini yuritish va tartibga solish kabi xususiyatlarini o‘z ichiga olgan ichki hujjati hisoblanadi.

8-BHXSga ko‘ra, “hisob ciyosati – bu tadbirkorlik subyekti tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda va taqdim etishda qo‘llaniladigan muayyan tamoyillar, usullar, odatlar, qoidalar va amaliyotlardir. Hisob siyosatidagi o‘zgarishni va hisoblab chiqilgan bahodagi o‘zgarish natijasini istiqbolli qo‘llash – bu, mos ravishda:

a) hisob siyosati o‘zgargan sanadan keyin sodir bo‘ladigan operatsiyalar, boshqa hodisalar va sharoitlarga nisbatan yangi hisob siyosatini qo‘llashdir;
b) hisoblab chiqilgan bahodagi o‘zgarishning ta’sirini ushbu baholash ta’sir qilgan joriy va kelgusi davrlarda tan olish ekani keltirilgan.

Bundan tashqari, hisob siyosatidagi o‘zgarishlar faqat quyidagi hollarda o‘zgartirishi kerakligi keltirilgan:

a) agar o‘zgartirish MHXS tomonidan talab etilsa;
b) agar o‘zgartirishning natijasida moliyaviy hisobotlarda tadbirkorlik subyektining moliyaviy holatiga, moliyaviy natijalariga yoki pul oqimlariga operatsiyalarning, boshqa hodisalarning va sharoitlarning ta’siri to‘g‘risida ishonchli va o‘rinliroq ma’lumotlar aks ettirilsa, amalga oshirilishi mumkin.

Hisob siyosatidagi o‘zgarishning taqdim qilingan bir yoki undan ortiq oldingi davrlar uchun qiyosiy ma’lumotga nisbatan biror-bir davrga tegishli bo‘lgan ta’sirini aniqlashning amaliy imkoni mavjud bo‘lmaganida, tadbirkorlik subyekti yangi hisob siyosatini retrospektiv qo‘llashning amaliy imkoni mavjud bo‘lgan davrlardan eng birinchi davri (bu joriy davr ham bo‘lishi mumkin), boshiga bo‘lgan aktivlar va majburiyatlarning balans qiymatiga nisbatan qo‘llashi kerak hamda ushbu davrdagi kapitalning ta’sir qilingan har qanday tarkibiy qismining boshlang‘ich qoldig‘iga tegishli tuzatish kiritishi lozim” [2].

Hisob siyosatini shakllantirish tashkilotning tashkiliy tuzilmasidan, biznes turidan kelib chiqqan holda, faoliyat xususiyatlarini inobatga olib tuzilishi kerak. Ta’kidlash kerakki, hisob siyosati barcha tashkilotlarda bir-biridan farq qilgan holda tuziladi. Hattoki, bir xil ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasi bo‘lsa ham, farqlanishi mumkin.

Hisob siyosati bo‘yicha ko‘pgina ilmiy izlanishlar olib borilgan va olimlar o‘z qarashlarini ta’kidlab o‘tgan.

Xususan, Ye. S. Gridnevning fikricha, hisob siyosati – “bu korxona tomonidan biznes sharoitlariga mos keladigan buxgalteriya hisobi usullari majmuidir, ya’ni korxonaning iqtisodiy faoliyati axborotlarini birlamchi kuzatish, xarajatlarni taqsimlash, joriy operatsiyalarni aks ettirish va yakuniy umumlashtirish tartibini belgilaydigan buxgalteriya usullari yig‘indisidir” [3].

Z. Z. Safina, Yu.Ya. Raxmatullin ta’kidlashicha, “tashkilotning hisob siyosati soddalashtirilgan tizimdan foydalangan holda buxgalteriya hisobini yuritish va tashkilotning ishchi schotlar rejasi hamda buxgalteriya ishini tartibga soladigan umumiy tamoyillar yig‘indisidir” [4].

Turkiyalik iqtisodchi olimlar fikricha, “hisob siyosati moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishda korxona tomonidan qo‘llaniladigan prinsiplar, asoslar, qoidalar va amaliyotlar yig‘indisi hisoblanadi, ular aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlarni baholash hamda hisobga olish bilan bog‘liq usullardan iborat” [5].

V. V. Semenixin tomonidan olib borilgan tadqiqotda, “hisob siyosati tashkilotning barcha to‘laydigan soliqlari va imtiyozlari aks ettirilgan buxgalteriya usullari ekanligi, hamda, shunga muvofiq soliqlarni undirish talabi mamlakat qonunchiligidan kelib chiqqan holda belgilanishi kerak” [6] ta’kidlab o‘tilgan.

A. Z. Avlokulov tomonidan olib borilgan tadqiqotda hisob siyosati auditiga to‘xtalib o‘tilgan: “Hisob siyosati auditning dastlabki va eng katta hajmli obyektlaridan biri bo‘lganligi sababli auditorlik tekshiruvlarida ko‘plab audit amallarini qo‘llash zarur. Tekshiruv jarayonida auditor tomonidan qo‘llaniladigan usullar va amallar tekshirilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariyati bilan kelishilishi shart. Mazkur usullar va amallarni qo‘llash hisob siyosatining izchilligi va qonuniyligiga haqqoniy baho berishda xizmat qilishi lozim. Hisob siyosati auditida xalqaro standartlarda belgilangan usullar va amallarning qo‘llanilishi xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati natijalarini odilona baholash imkoniyatini yaratadi va audit ishi sifatining oshishiga xizmat qiladi” [7].

O. Yu. Bubnovaning keltirishicha, “hisob siyosati tashkilotning ichki hujjati bo‘lib, buxgalteriya hisobi va soliq hisobini yuritish qoidalarini belgilaydi. “Korxonaning hisob siyosati” atamasi 1980-yillarning oxirida qo‘llanila boshlangan bo‘lib, quyidagi buxgalteriya hisobi usullarini o‘z ichiga oladi:

- iqtisodiy faoliyat faktlarini guruhlash va baholash;
- aktivlar qiymatini so‘ndirish;
- hujjatlar aylanishini tashkil etish;
- inventarizatsiyani o‘tkazish;
- buxgalteriya hisobini yuritish;
- buxgalteriya registrlarini tashkil etish;
- axborotni qayta ishlash” [8].

Kuban davlat agrar universiteti professor-o‘qituvchilari A. A. Adamenko, S. X. Berlina va X.Sh. Xuako hisob siyosati borasida tadqiqotlar olib borib, quyidagi xulosalarga kelishgan: “hisob siyosati kompaniyani boshqarish vositasidir” [9].


A. V. Suvorovning ta’kidlashicha, “hisob siyosati buxgalteriya hisobi yozuvlarini yuritish va baholashni, shuningdek, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talab qiladigan barcha eslatmalar va operatsiyalarni hisobga olgan holda moliyaviy hisobotlarni muhim, tushunarli va ishonchli ma’lumotlar asosida tayyorlashni belgilaydi. Hisob siyosati hisobot shakllarining mazmuni va tuzilishini, shuningdek, ularni taqdim etish tartibini ham belgilaydi. Hisob siyosatini shakllantirish, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, barcha tashkilotlarda yuritilishi zarurdir” [10].

PhD Z. Zufarova aynan hisob siyosati borasida tadqiqotlar olib borib, mazkur hujjatning mazmun-mohiyatini quyidagicha yoritgan: “xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tashqi foydalanuvchilar uchun taqdim etiladigan moliyaviy hisobot axborotlarining sifati mazkur subyektlar tomonidan ishlab chiqilgan hisob siyosatiga bevosita bog‘liqdir. Hisob siyosati aktivlar, xususiy kapital, majburiyatlar, daromad va xarajatlarning moliyaviy hisobotda to‘g‘ri va normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida shakllanishini belgilab beruvchi hujjat hisoblanadi” [11].

I. P. Shkarevaning fikricha, “tashkilotning hisob siyosati tashkil qilingan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan qo‘llanilishi kerak, tashkilot vaqti-vaqti bilan hisob siyosatiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishi zarur, bu albatta, MHXS asosida amalga oshirilishi, hisob siyosatidagi o‘zgarishlarni ikkita yondashuv asosida hisobga olish, ya’ni, retrospektiv yoki istiqbolli qo‘llash kerak” [12].

PhD B. N. Sayfutdinov esa o‘z tadqiqotida “hisob siyosati har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektning hisobot davrida buxgalteriya hisobi ishlarini yuritishda qo‘llaniladigan qoidalar, usullar va talablar majmuasini o‘z ichiga mujassam etadi. Hisob siyosatining oqilona va izchil tuzilishi moliyaviy hisobot axborotlarining ishonchliligi va shaffofliligi oshishiga xizmat qiladi” [13], degan xulosaga kelgan.

Umuman olganda, hisob siyosati tashkilotda qo‘llaniladigan buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari, tashkilotning xususiyatlari va barcha maqsadlarini ifodalaydigan qarashlar to‘plami hisoblanadi. Quyidagi 1-rasmda sug‘urta tashkilotining hisob siyosatini kengroq ochib beramiz:



1-rasm: Sug‘urta tashkilotida hisob siyosatining tarkibiy tuzilishi[1]

1 Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, sug‘urta tashkilotlari hisob siyosatining tarkibi va tuzilishi hisob siyosatining uslubiy jihatlari, hisob siyosatining tashkiliy jihatlari, hisob siyosatining texnik jihatlari, boshqa jihatlar va ularning tarkibiy qismlaridan iborat.

Sug‘urta tashkilotining hisob siyosati moliyaviy, boshqaruv, soliq hisobi va yuridik jihatlarni ham o‘z ichiga qamrab olishi mumkin. Sug‘urta tashkilotida tuzilgan hisob siyosati, albatta, buxgalteriya qonunchiligi va standart talablariga asoslanishi lozim.


Sug‘urta tashkilotlari tomonidan tanlangan hisob siyosati uning moliyaviy holatini va moliyaviy faoliyatini aks ettirishi lozim. Ma’lumki, hisob siyosatini ishlab chiqish bosh buxgalter zimmasiga yuklangan bo‘lib, uni tasdiqlashni rahbar amalga oshirib, oqilona va sug‘urta tashkilotiga aniq maqsadga erishish imkoniyatini yaratishi kerak. Shundan kelib chiqqan holda, ta’kidlash lozimki, hisob siyosati sug‘urta tashkilotlari daromad va xarajatlarini boshqarish, strategiyasini belgilash, samarali ichki nazorat tizimini ishlab chiqish, kadrlar masalasini tartibga solish va vakolat lavozimlarini ishlab chiqish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har xil nizolarni bartaraf qilishda amaliy tavsiyalar bo‘lib xizmat qilishi shart.

Sug‘urta tashkilotlarida shakllantirilgan hisob siyosatining asosiy maqsadi va vazifasi, avvalo, faoliyatni tashkil etish hamda buxgalteriya hisobi yuritish usullarini to‘g‘ri tanlash va hujjatlar aylanishini tezkorligini ta’minlashdan iboratdir.

Sug‘urta tashkilotlarida hisob siyosatini shakllantirish sug‘urta faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uning tashkiliy tuzilmasiga, faoliyat turiga, tashkilotning moliya strategiyasiga, raqamlashtirish holatiga, moddiy-texnik bazasiga, va albatta, kadrlarning malakaviy talabiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Sug‘urta tashkilotida buxgalteriya hisobi ishlarini samarali tashkil qilish va standart talablarini bajarishda hisob siyosatining o‘rni beqiyosdir. Chunki samarali ishlab chiqilgan hisob siyosati axborotlarning ishonchliligini ta’minlashga va xarajatlarni to‘g‘ri yo‘naltirib, majburiyatlarni to‘g‘ri taqsimlash hamda aktivlaridan oqilona foydalanish vazifasini bajarishga xizmat qiladi. Samarali hisob siyosati, avvalo, sug‘urta tashkilotida katta axborot bazalarini va elektron hujjatlar aylanmasini tashkil qilish, ishlab chiqilgan strategiyani optimal bajarish orqali yuqori natijalarga erishish, xalqaro standartlar talablaridan unumli foydalanish va ushbu yo‘ldagi harakatlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Fikrimizcha, hisob siyosatini ishlab chiqishni quyidagi ketma-ketlik asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



2-rasm: Sug‘urta tashkilotida hisob siyosatini ishlab chiqish bosqichlari[2]

Mazkur rasm ma’lumotlari sug‘urta tashkilotlarida samarali hisob siyosatini tuzish uchun foydali bo‘ladi, deb hisoblaymiz.

2 Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

- hozirgi kunda barcha tashkilotlarda hisob siyosatini tuzishning ahamiyati yuqori bo‘lishi bilan bir qatorda, u faoliyat strategiyasini belgilab beruvchi va biznes-rejani tuzishning optimal yechimi hisoblanadi. Biroq shunday bo‘lishiga qaramasdan, hisob siyosati nomigagina tuzilib, shaklan mavjud, degan qabilida ish olib borilmoqda. Taklif sifatida aytishimiz mumkinki, hisob siyosatini ishlab chiqishda har bir tashkilot o‘zining strategiyasidan kelib chiqishi va belgilangan bandlari asosida faoliyat yuritishi zarur;
- sug‘urta tashkilotlarida hisob siyosati boshqaruv hisobi sohasida ko‘p sonli muqobil variantlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, tannarxni kalkulyatsiya qilish, tovar-moddiy zaxiralarni baholash usullarini belgilash, majburiyatlarni muddatida bajarish, aktivlardan samarali foydalanish va boshqalar. Shundan kelib chiqib ta’kidlash joizki, hisob siyosatining o‘rni yuqori va uning talablarini bajarish sug‘urta tashkilotlariga faqatgina iqtisodiy samara olib kelishi mumkin;
- hozirgi kunda mamlakatimizda xalqaro standartlarni qo‘llash jadal olib borilayotgan bir sharoitda, 1-son BHMS talablarini xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi;
- sug‘urta tashkilotlarida hisob siyosatini tuzish orqali ularning soliq munosabatlarini ham tartibga solish mumkin bo‘ladi. Bu hisob siyosatida soliqlarni hisoblash va to‘lash tartibi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni ochib beradi, shuningdek, sug‘urta tashkilotining barcha majburiyatlar bajariladi, soliqqa tortiladigan bazaning to‘g‘ri shakllantirish va soliqlarni o‘z vaqtida to‘lashga imkon beradi;
- sug‘urta tashkiloti hisob siyosati moliya-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish, biznes-rejalar tayyorlash, boshqaruv faoliyatiga oid maslahat berish buxgalteriya hisobini yuritishni raqamlashtirish va moliyaviy axborotlarning xavfsizligini ta’minlash ham aynan hisob siyosati vazifalariga kiradi.

Umuman olganda, hisob siyosati sug‘urta tashkilotining butun buxgalteriya hisob tizimini tashkil etib, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida, ma’lumotlarni yig‘ish vositalaridan biri hisoblanadi hamda maksimal foydaga erishish va samarali xizmat ko‘rsatish uchun ma’lumotlardan keng foydalanish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” nomli 1-son BHMS. www.lex.uz
2. “Hisob siyosati, hisoblab chiqilgan baholardagi o‘zgarishlar va xatolar” nomli 8-son BHXS. www.ifac.org
3. Гриднев Е.С. Организация и ведение учетной политики на предприятии. //Экономические науки. №4, 2017г.
4. Сафина З.З., Рахматуллин Ю.Я. Оптимизация содержания учётной политики организации. //Экономические науки. 2014. ВЫПУСК №6 (50)
5. Oğuzhan BAHADIR, Büke TOLGA. Accounting policy options under IFRS: evidence from Turkey. //Accounting and Management Information Systems. Volume 12, No. 3, 2013. Pp. 388–404.
6. Семенихин В.В. Налог на имущество организаций и учетная политика. //Налогообложение. 23 (287) – 2011.
7. Avlokulov A.Z. Hisob siyosati auditini takomillashtirish yo‘nalishlari. //Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 2024 4(02), 12-17 b.
8. Бубнова О.Ю. Правовое обеспечение учетной политики организации. //Экономика и право. № 9 (118) сентябрь 2016.
9. Адаменко А.А., Берлина С.Х., Хуако Х.Ш. Совершенствование учетной политики организации. //Вестник Академии знаний №14(3) 2015. Стр. 4-8.
10. Суворов А.В. Учетная политика кредитной организации и МСФО. Кредитные организации. //Международный бухгалтерский учет. 11 (107) – 2007.
11. Zufarova Z.R. Hisob siyosati auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent: 2023 y. 56 b.
12. Шкарева И.П. Учетная политика организации и последствия ее изменения. //На пути к международным стандартам 30 (276) – 2013.
13. Sayfutdinov B.N. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotni tuzish va auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent: 2023 y. 56 b.

BANK RISKLARINI BOSHQARISHNING XALQARO TAJRIBALARI

Abdurasulov Jaxongir Abduvaliyevich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarida risklarning vujudga kelishi va ularning nazariy masalalari o‘rganilgan. Mazkur iqtisodiy kategoriya bo‘yicha xalqaro va mahalliy miqyosda nashr etilgan ilmiy asarlarda keltirilgan ilmiy yondashuvlar tizimlashtirilgan. Tadqiqotlar asosida muallifning ilmiy xulosalari shakllantirilgan va asoslangan. Ishlab chiqilgan xulosalar asosida taklif va tavsiyalar tizimlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: bank, bank riski, kredit riski, likvidlik riski, bozor riski, moliyaviy risklar.

Abstract: The article examines the emergence of risks in commercial banks and their theoretical issues. According to this economic category, the scientific approaches presented in the scientific works published at the international and local level are systematized. The scientific conclusions of the author are formed and based on research. Proposals and recommendations are systematized based on the developed conclusions.

Key words: bank, bank risk, credit risk, liquidity risk, market risk, financial risks.

Аннотация: В статье рассматривается возникновение рисков в коммерческих банках и их теоретические вопросы. По этой экономической категории систематизированы научные подходы, представленные в научных трудах, опубликованных на международном и местном уровне. Научные выводы автора сформированы и основаны на исследованиях. На основании разработанных выводов систематизированы предложения и рекомендации.

Ключевые слова: банк, банковский риск, кредитный риск, риск ликвидности, рыночный риск, финансовые риски.

KIRISH

Banklar iqtisodiyotning qon tomirlari sifatida pul oqimlarini tartibga solish va ularni ta’minlash bilan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Ko‘plab davlatlar va xalqaro darajadagi tashkilotlar banklarning faoliyatiga nisbatan turli yondashuvlarni ishlab chiqqan bo‘lib, ular bank faoliyatidagi vujudga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni oldini olishga qaratilgan. Jumladan, banklar moliyaviy ko‘rsatkichlarini boshqarib borish va ularning o‘zaro nisbatlari yoki barqarorlik koeffitsiyentlariga uyg‘unligini ta’minlash maqsadga muvofiq ekanligi qayd etilgan.

Tijorat banklari faoliyati davomida makroiqtisodiy o‘zgarishlarga monand ravishda risklarni oldindan aniqlash va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etishi muhim hisoblanadi. Bank risklarining vujudga kelishi monetar omillar bilan birga nomonetar omillar ta’sirida rivojlanishi hozirgi global iqtisodiyotning aksiomasiga aylanib ulgurdi. Bizningcha, tijorat banklarida yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotishlar ikki jihatdan yondashuvni talab etadi, deb o‘ylaymiz. Birinchidan, risklarni oldindan aniqlash va ularning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish bilan o‘z aksini topadi. Boshqa jihatdan esa, risk natijasida yo‘qotishlarni qabul qilish yoki uni uning qabul qilish darajasini oldindan belgilash orqali yondashuvlar asosida risklarni boshqarish samaradorligini oshirish mumkin, deb hisoblaymiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

L.Nguyen va boshqalar tomonidan bank qadriyatlari bank kapital va likvidligini shakllantirishdagi rolini baholashga e’tibor qaratishadi [1]. Ular mashina o‘rganish metodidan foydalangan holda yirik banklarda qadriyatlar bank regulyativ kapitali va likvidligini ta’minlashda muhim ta’sirga ega ekanligini qayd etishadi. Ular tomonidan AQSHning yirik banklarining 1995–2019-yillardagi bir necha 10 minglab hisobotlarini tahlil qilish asosida xulosalarni ilmiy asoslashadi. Shuningdek, aktivlarga asoslangan likvidlikni ta’minlashda bank qadriyatlari o‘zgartiruvchi kuchga ega ekanligini ta’kidlab o‘tishadi.

Tadqiqotlarimiz davomida bank risklarini boshqarishga nisbatan xalqaro tashkilotlarning va xorijiy mamlakatlarning ayrim tajribalarini o‘rganishga e’tibor beramiz. Bunda birinchi navbatda, shtab kvartirasi Xalqaro hisob-kitoblar banki (the Bank for International Settlements)da joylashgan Bazel qo‘mitasi (The Basel Committee) tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy ko‘rsatkichlar ko‘plab banklar tomonidan joriy etilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

1971-yil 15-avgustda AQSH Prezidenti R.Nikson mamlakat iqtisodiyotidagi murakkabliklar va to‘lov balansida vujudga kelgan muammolarni bartaraf etish maqsadadi Bretton-Vuds kelishuvi bo‘yicha AQSH dollarini oltin bilan ta’minlashni to‘xtatdi. Natijada, xalqaro miqyosda moliyaviy tartibsizlar rivojlana boshladi. Bu esa, xalqaro savdoda valyutalar ayirboshlash bilan bog‘liq murakkabliklarni yanada rivojlanishiga olib keldi.

Shu boisdan, global iqtisodiyotda murakkabliklarni tartibga solishga qaratilgan zarurat kengayib bordi. Natijada, turli tashkilotlar tomonidan xalqaro moliyaviy tartibsizliklarni oldini olishga qaratilgan mezonlar ishlab chiqila boshlandi. Jumladan, Bazel qo‘mitasi tomonidan ham moliya institutlarining faoliyatiga nisbatan qator tavsiyaviy mezonlarni ishlab chiqishni boshladi.

1974-yilda dastlabki muhokamalar boshlandi. 1975-yil fevralida Bazel Qo‘mitasining birinchi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Hozirgi kunga qadar banklar kapital yetarliligi va likvidliligiga oid Bazelning 1, 2 va 3 tartib raqamli mezonlari ishlab chiqilgan. Umuman olganda, 1975-yilda Bazel qo‘mitasi tomonidan banklarning xorijiy filiallarini tartibga solishga nisbatan mezonlar ishlab chiqildi. Mazkur dastlabki qabul qilingan “Concordat” nomli shartnomada banklarning likvidligi, to‘lovga qobilligi va xorijiy valyutalar bo‘yicha operatsiya va pzitsiyalarini tartibga solishga qaratilgan edi.

1988-yilga kelib Bazel Qo‘mitasi tomonidan kapital bo‘yicha kelishuvi Bazel I talablari sifatida qabul qilindi. 1990-yil yakuniga qadar riskka tortilgan aktivlarning kapitalga nisbati 7,25 foiz bo‘lishi va 1992-yil so‘nggida esa 8 foiz bo‘lishi tavsiya etildi. O‘z navbatida, umumiy qarz (kredit)lar bo‘yicha yo‘qotishlar bo‘yicha zaxira miqdori 1,25 (ayrim istisno holatlarda 2) foizgacha bo‘lishi ilmiy asoslab berilgan.

P. Van Roy 1988-yilda joriy etila boshlangan Bazel I talablarini 1995-yilga qadar G-10 mamlakatlaridagi tendensiyalarini tadqiq etadi [2]. Kanada, Yaponiya, Buyuk Britaniya va AQSH mamlakatlarida kapitallashmagan banklarda kapitalning aktivlar nisbati minimal miqdoriga qo‘yilgan talablar muvaffaqiyatli bo‘lgan bo‘lsa, Fransiya va Italiyada ushbu talablarning joriy etilishi yuqori natijalarga olib kelmaganligini qayd etib o‘tadi. Uning fikricha, katta o‘ntalik mamlakatlarida mazkur talablarning joriy etilish banklarning kapitalini oshirgan bo‘lsa-da, risklarini oshirmagan.

M.Chiuri va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Bazel I talablari doirasida amlaga oshirilgan chora-tadbirlarning natijalarini baholashga qaratilgan [3]. Ularning fikricha, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda kapital va aktivlar bo‘yicha talablar kredit taklifini pasaytirishga olib kelganligi qayd etiladi. Shuningdek, ushbu tendensiyalar kam kapitallashgan 16 rivojlanayotgan iqtisodiyot banklarida vujudga kelganligini asoslab berishadi. Shu boisdan, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda bank tizimiga yangi yoki yuqori bo‘lgan kapital bo‘yicha talablarni ishlab chiqishda uning makroiqtisodiyotga salbiy ta’sirini inobatga olish maqsadga muvofiq ta’kidlanadi.

Fikrimizcha, Bazel I talablarning joriy etilishi ko‘plab mamlakatlarda aktivlarning riskka tortilganlik holatini himoyalashda yordam bersada, banklarning kredit berishga bo‘lgan moyilligini pasaytirish mumkin ekan. Boshqa jihatdan, kapitallashmagan banklarning kapitalni boshqarishga bo‘lgan mas’uliyatini oshirishga xizmat qilar ekan. Shu boisdan, bank risklarini boshqarishda makroiqtisodiy barqarorlikka bo‘lgan e’tiborni kamaytirilmasligi muhim ahamiyatga ega ekan.

1999-yilga kelib Bazel qo‘mitasining navbatdagi mezonlari borasidagi tavsiyalar ishlab chiqildi. Bazel II deb nomlangan mazkur mezonlar majmui uchta yo‘nalishdagi ko‘rsatkichlarni qamrab olgan. Ular:

- kengaytirilgan tarzdagi kapital minimal talablari;
- bankning kapitali yetarliligi bo‘yicha umumiy nazorat va ichki baholash jarayoni;
- axborotlardan samarali foydalanish orqali bozorni tartiblashni kuchaytirish va bank amaliyotini rag‘batlantirish.

Minimal kapital talablari bank kredit, bozor va operatsion risklariga asoslangan holda belgilanishi va uning 8 foiz tarzida tavsiya etilgan. 2 darajali kapital esa birinchi birinchi darajali kapitalning 100 miqdoridan oshmasligi tavsiya etilgan. Shu nuqtayi nazardan, riskka tortilgan aktivlar bozor va operatsion risklar bo‘yicha minimal kapital talabini 12,5 ga ko‘paytirilgan qiymatini kreditlar riski aktivlariga qo‘shish orqali aniqlanishi belgilangan.

S.Das o‘zining tadqiqotida Bazel II talablarining joriy etilishi va uning o‘ziga xos xususiyatlari borasida ilmiy yondashuvlarni asoslab beradi [4]. Markaziy regulyatorlar tomonidan aktivlar tasnifi bo‘yicha belgilanadigan talablar detallashtirilgan holda joriy etilishi risklarni boshqarishni mazmunga ega bo‘lishini ta’kidlab o‘tadi. Shuningdek, bozor riskiga nisbatan kredit riskining tarqalish sezuvchanligi yuqori ekanligi asoslab beriladi. Kredit riski defolt bo‘lish ehtimolligi bilan chambarchas bog‘lik ekanligini tahlil etadi va uning to‘rt shakldagi defolt holatlar bilan korrelyatsiyasini asoslab beradi.

P.Kupiek o‘zining moliyaviy barqarorlik va riskka doir tahlillarida Bazel II bo‘yicha mezonlarni o‘rganadi [5]. Uning fikricha, Bazel II Takomillashgan ichki baholash yondashuvi (AIRB, Advanced Internal Rating Based Approach) talablari regulyatorlar tomonidan belgilangan maqsad ko‘rsatkichlari, jumladan banklar to‘lov qobili-

yatiga erishishga to‘liq imkon bermasligini ta’kidlab o‘tadi. Shuningdek, “AIRB banklari o‘zlarining korporativ suveren va bank kredit portfellari bo‘yicha 5 foizdan ortiq defolt stavkalariga ega bo‘lishi mumkin va hali ham 2006-yil iyun oyida AIRB yondashuvida belgilangan riskga asoslangan tartibga soluvchi kapitalning minimal talablariga javob beradi” deb ta’kidlab o‘tadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda nazariy qarashlarni tizimlashtiriladi. Ular empirik tadqiqotlarning nazariy xulosalarini qiyosiy baholashga imkon beruvchi metodlar asosida shakllantiriladi. Tadqiqotlar asosida nazariy-ilmiy xulosalar shakllantiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizningcha, Bazel II talablarining joriy etilish dastlabki qabul qilingan mezonlarni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Shunday bo‘lsada, markaziy regulyatorlar tomonidan belgilanadigan ayrim mezonlar bilan o‘zaro farqlarga ham ega bo‘lmoqda. Bu esa, banklarda kredit risklarini to‘laqonli boshqarishga nisbatan ayrim murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Bazel III talablarining vujudga kelishi esa 2008–2009-yillarda moliyaviy inqirozning yuz berishi bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Buning asosiy sababi sifatida esa, bank tizimining yetarli darajada likvidlik buferiga ega emasligi bilan izohlash mumkin. Shu boisdan, Bazel III mezonlarini ishlab chiqishga nisbatan zarurat vujudga keldi.

Bank tizimida risk menejmentiga nisbatan samarasiz boshqaruvning oshib ketishi va kredit riskining likvidlik riski bilan muvofiqlashtirilmaganligi mezonlarni yanada takomillashtirishga bo‘lgan zaruratni ko‘rsatib berdi. Mazkur Bazel III mezonlari qabul qilingunga qadar bank kapitaliga qo‘yilgan minimal talablar bo‘yicha ko‘rsatkichlar joriy etilgan bo‘lsa, Bazel III banklarning likvidligiga nisbatan mezonlarni ishlab chiqdi.

1-jadval: Bazel talablari bo‘yicha kapital tarkibi va aktivlar bo‘yicha minimal talab darajasi

Bank kapitali	Riskka tortilgan aktivlar minimal kapital talabi	Bazel I	Bazel II	Bazel III
Umumiy kapital	8 foiz			75 foiz (4,5 foiz)
1-darajali qo‘shimcha kapital		50 foiz	50 foiz	(1,5 foiz)
2-darajali kapital		50 foiz	50 foiz	25 foiz (2,0 foiz)

Bazel III talablari 5 yo‘nalishdagi 17 ta tamoyilga asoslangan mezonlar asosida joriy etish tavsiya etildi. Ular sirasiga quyidagilar kiritildi:

- likvidlik riskini boshqarish va nazorat qilish fundamental tamoyili (1-tamoyil);
- likvidlik riskini boshqarish (2-4 tamoyillar);
- likvidlik riskini baholash va boshqarish (5-12 tamoyillar);
- jamoyatchilik uchun ochiq bo‘lish (13-tamoyil);
- nazorat organi roli (13-17 tamoyillar).

Likvidlik riskini boshqarishga nisbatan banklar kapitalini tabaqalashtirish mezonlari Bazel III ko‘rsatkichlari bilan birmuncha o‘zgarishlarga yuz tutdi.

12-jadval: Xalqaro Bazel qo‘mitasi talablarining o‘zgarish tendensiyasi

	Bazel II	Bazel III
Ko‘rsatkich nomi va uning to‘ldirilishi	Kapitalning noaniq va nomuvofiq tarifi	Kapital tasnifi sifati, muvorfiqligi, shaffofligi takomillashgan
	Ayrim risklarning ta’siri o‘rganilmagan (masalan: qayta sekyuritizatsiya)	Risk darajasida sekyuritizatsiya, balansdan tashqari hisob va kontagentning kredit riski inobatga olingan
	Likvidlik riskiga nomuvofiq yondashuv	Likvidlik qoplash va Sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyentlari inobatga olingan
	Kapitalning kichik darajasiga qaramay bank nazoratining me’yoridan oshiqligi	Bank nazorati oshishining risk o‘zgarmas o‘lchovi sifatida leveredj koeffitsiyenti joriy etildi
	Moliyaviy sektorda protsiklik shoklarning kuchayishiga sabab bo‘ladi	Mezon ko‘rsatkichlarining protsiklik shoklarning moslashuvchanligi

P.Shakdvipe va boshqalar tomonidan Bazelning rivojlanish tendensiyalari tahlil etilgan. Ularning ilmiy xulosalarida Bazel III talablarida kapital bilan bog‘liq zamonaviy mezonlar shakllantirilganligi, sifat va miqdor nuqtayi nazaridan ijobiy siljishlar vujudga kelganligi ta’kidlab o‘tiladi [6]. Ular o‘zlarining ilmiy yondashuvlarida Bazel II va Bazel III mezonlari o‘rtasidagi o‘zaro to‘ldirilgan jihatlar aniqlangan va baholangan (2-jadvalga qarang).

Bizningcha, 2009-yildagi jahon moliyaviy inqirozidan keyin bank risklarini boshqarishga nisbatan zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish jadallashdi. Jumladan, Bazel qo‘mitasi tomonidan ham o‘ziga xos ilmiy yondashuvlarni kuzatishimiz mumkin. Bu borada, bir qator xorijlik olimlar ham o‘zlarining ilmiy xulosalarini asoslab berishgan. Shu nuqtayi nazardan, bank risklarini boshqarishda Bazel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan mezonlarni joriy etishga e’tibor qaratish muhim hisoblanadi. Bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- banklarning riskka tortilgan aktivlarini hisoblash metodikasini optimallashtirish. bunda operatsion risklarni baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- banklarning likvidligini ta’minlashda moliyalashtirish manbalarining muddatlari va hajmlari nuqtayi nazaridan tartibga solishni rivojlantirish;
- aktivlarni sekyuritizatsiya qilishda kapitalga nisbatan talablarni inobatga olish va ularni yanada takomillashtirish.

Bazel II mezonlarining ikkinchi yo‘nalishi doirasida Banklarning kapital monandligini baholash bo‘yicha ichki jarayonlari (ICAAP, Internal Capital Adequacy Assessment Process) tavsiya etilgan. Mazkur metod doirasida riskka tortilgan aktivlarni tizimlashtirish va ular bo‘yicha mezonlarni ishlab chiqish taklif etilgan. Biz buni quyidagi misolda ko‘rishimiz mumkin. Bunda aktivlar joylashtirilishi nuqtayi nazaridan riskka tortilganlik darajasi quyidagicha tizimlashtirish amalga oshiriladi.

- hukumat obligatsiyalari – 20 foiz;
- korporativ mijozlarga berilgan kreditlar – 100 foiz;
- jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar – 150 foiz.

Aytaylik A tijorat bankining 100 mln. so‘m miqdorida aktivlari mos ravishda 20 mln., 50 mln. va 30 mln. so‘m hajmida hukumat obligatsiyalari, korporativ mijozlar va jismoniy shaxslarga kreditlar berilgan. O‘z navbatida, riskka tortilgan aktivlarni aniqlaymiz:

- hukumat obligatsiyalari bo‘yicha – 20 mln.*20 foizi 4 mln. so‘m. Bunda risklilik darajasi kichik hisoblanadi;
- korporativ mijozlarga berilgan kreditlar – 50 mln. * 100 foizi 50 mln. so‘m. Bunda risklilik darajasi mo‘tadil hisoblanadi;
- jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar – 30 mln. * 150 foizi 45 mln. so‘mga teng bo‘ladi. Bunda risklilik darajasi yuqori hisoblanadi.

Riskka tortilgan jami aktivlar hajmi 4+50+45 mln. = 99 mln. so‘mga teng bo‘ladi. Ushbu hajmga nisbatan kapital monandliligi Bazel talablari bo‘yicha 8 foizi bo‘lganda minimal kapital miqdori 7,92 mln. so‘mni tashkil etishi zarur bo‘ladi.

Bizningcha, kapital monandligini baholash bo‘yicha ichki jarayonlarini tashkil etishda aktivlarni tabaqalashtirilgan holatiga muvofiqlashtirish muhim hisoblanadi. Bu esa, kapital monandliligini ta’minlashda asosiy rolni o‘ynaydi. Umuman olganda, tijorat banklari kapital monandligini baholash bo‘yicha ichki jarayonlari (ICAAP) yuzasidan quyidagilarga e’tibor berishi lozim bo‘ladi:

Birinchidan, minimal kapital mezonini ishlab chiqish. Bunda riskka tortilgan aktivlarga nisbatan kapital monandliligi nazarda tutiladi.

Ikkinchidan, kapital buferini yaratish orqali minimal kapital mezoni chegarasidan yuqori zaxirani yaratish nazarda tutiladi.

Uchinchidan, stress-test jarayoni bank tomonidan bir yil ichida bir necha marta o‘tkazilish mumkin. Bunda turli inqirozli holatlar vujudga kelganda bankda risklarni boshqarishga nisbatan chidamlilik darajasini monitoring qilish uchun amalga oshirilishi lozim.


Tadqiqotlarimiz davomida AQSH banklari tomonidan foydalaniladigan kredit reytingini baholashga to‘xtalib o‘tamiz. 1956-yilda Fair, Isaac and Company (FICO) nomi ostida tashkil etilgan kompaniya kredit skoring hisoblashlarini amalga oshirishni boshlagan. 1987 yilda davlat ulushi bo‘lgan kompaniyaga aylanishi bilan kredit

skoringni amalga oshiradigan yirik muassasa bo‘ldi. Hozirgi kunda 3500 nafardan ortiq xodimlarga ega bo‘lgan yirik kompaniya hisoblanadi.

S.Arya va boshqalar tomonidan FICO kredit skoring baholashi ko‘rsatkichlari asosida kredit riskini nomonetar omillar bilan taqqoslab beradi [6]. Ular tadqiqotlarida sabrlilik, impulsivlik (qarz olish yoki sotib olish oqibatlarini inobatga olmaslik), riskka yo‘l qo‘ya olish, vaqtni afzalligi, ishonchlilik va daromad kabi jihatlar bilan FICO kredit skoring ballari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga e’tibor berishadi. Tadqiqotlar asosida impulsivlik, vaqtni afzal bilish va ishonchlilik kredit skoring ballari bilan chambarchas bog‘lik ekanligini asoslab berishadi. Shuningdek, insonlarning tavakkalchilikka yo‘l qo‘yishi kredit skoring bilan bog‘liq emasligini ta’kidlab o‘tadi. Bu esa, banklar tomonidan kredit riskini boshqarishda insonlarning mustaqil tarzda riskni boshqarishiga tayanmaslik lozimligini xulosa qilish mumkin.

AQSH jismoniy shaxslar uchun kreditlar taqdim qilishda mahalliy banklarning roli sezilarli ahamiyatga ega hisoblanadi. Masalan, chakana bank kreditlarining 3,5 foizi aynan mahalliy banklarga tegishli bo‘lib, ularning 65 foizidan ortig‘i chakana bank kreditlariga ixtisoslashgan.

1-rasmga e’tibor bersak, 2020-yilda vujudga kelgan pandemiya inqirozi jismoniy shaxslarning kredit olishga bo‘lgan moyilligini pasaytirganligini kuzatish mumkin. 2021-yilning birinchi choragiga kelib esa, kredit bozorida bir qator jonlanishlar vujudga kelganligini qayd etish lozim. Mazkur tendensiyaning rivojlanishida makroiqtisodiy o‘zgarishlarning ham ta’siri mavjud ekanligini ta’kidlash lozim. Masalan, pandemiya davrida fuqarolar davlat tomonidan mablag‘lar bilan ta’minlash orqali kredit qarzdorliklarini o‘z vaqtida to‘lash va yalpi talabni saqlab qolishga erishilganligini ta’kidlash lozim.



1-rasm: Jismoniy shaxslar kredit miqdori o‘sishi, 2019–2021-yillar [8]

N.Sengupta va boshqalar kredit skoring va qarzni qaytarmaslik tendensiyalarini tahli etadi [9]. Ular tadqiqotlari davomida FICO reyting ko‘rsatkichlari qarz oluvchining kreditga layoqatliligini oldingi to‘lovlari tarixiga asoslangan holda shakllanishini baholashadi. Ular tomonidan parametrik va noparametrik ko‘rsatkichlar asosida kichik kredit reytinglarini aniqlanishi qayd etiladi. Yuqori kredit reytinglari esa risklilik darajasining yuqori bo‘lishiga olib kelishi mumkinligini asoslashga harakat kilishadi. Shunday bo‘lsa-da, makroqitisodiy vaziyatning o‘zgarishi bilan bank mijozlarining FICO reyting ko‘rsatkichlari keskin o‘zgarishlarga yuz tutmaganligi asoslab beriladi.


AQSH banklari tajribasiga asoslanib mijozlarning kredit reytingini baholashda quyidagi jihatlarga e’tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- Kredit skoringni hisoblashda ko‘rsatkichlar tizimini muddat, iqtisodiy va noiqtisodiy nuqtayi nazardan tizimlashtirish;
- ko‘rsatkichlarni muddat bo‘yicha tasniflaganda qarzlar bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish tarixini tahlil etishni nazarda tutish, bunda to‘lov qilish oyining so‘nggi kunini oxirgi to‘lov kuni sifatida belgilash kredit reytingiga tashqi omillarni ta’sirini pasaytiradi;

- iqtisodiy omillar jihatidan insonlarning nafaqat ish haqlarini balki ularning banklardagi omonatlari va boshqa daromadlarini inobatga olishni joriy etish;
- noiqtisodiy omillar bo‘yicha kredit reytingni hisoblashda insonlarning iste’mol xarajatlarini amalga oshirishga bo‘lgan xarakterlarini baholash, moliyaviy qarorlarini qabul qilishda asosiy rol o‘ynovchi jihatlarni tizimlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

P.O‘zili o‘zining tadqiqotida Buyuk Britaniya banklari tomonidan kredit riski zaxiralarini yaratish uchun daromadlarni qayta taqsimlash faol amalga oshirilayotganligini qayd etib o‘tadi [10]. Uning fikricha, makroiqtisodiy noaniqliklar davrida mazkur amaliyotdan foydalanish sezilarli bo‘lganligini ta’kidlab o‘tadi. Shu bilan birga, Buyuk Britaniyaning GAAP, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan tadbirlar joriy etilish bilan daromadlarni qayta taqsimlash kamaydi. Umuman olganda, banklar tomonidan daromadlarni kredit yo‘qotishlari uchun zaxiralar yaratishini ta’minlashga qaratilgan tendensiyalari vujudga kelishi uchun “banklar uchun qulay” sharoitlarda rivojlanganligini qayd etib o‘tadi.

R.Simper va boshqalar tomonidan kredit yo‘qotishlari zaxirasining Yevropa, xususan, Buyuk Britaniya banklaridagi tendensiyalariga e’tibor qaratadi [11]. Banklarda texnologik o‘zgarishlar kredit riski uchun zaxiralar yaratishga bo‘lgan jarayonlarga ijobiy ta’sir etishini asoslab berishadi. Banklar texnologik o‘zgarishlarga e’tibor berishini kuchaytirish ortidan yomon sifatli kreditlarni aniqlashi va ular bo‘yicha zaxirlar samaradorligiga erishish mumkinligini ta’kidlab o‘tishadi.



2-rasm: Texnologik innovatsion rivojlanish

R.Simper va boshqalar o‘zining tadqiqotida inqirozdan oldin va keyingi davrda banklarning texnologik o‘zgarishlarga e’tibor berishini tahlil etadi. 2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, banklar kredit bo‘yicha yo‘qotishlarni tartibga solish va uni oldini olishda texnologik innovatsiyalarga jiddiy e’tibor qaratmoqda. Bu esa, o‘z navbatida banklarda kreditlar bo‘yicha yo‘qotishlarga zaxiralar yaratishni yanada osonlashtirishiga xizmat qilmoqda.

S.Pul va boshqalar IHRT (OECD, The Organization for Economic Co-operation and Development) davlatlarida kredit riski bo‘yicha zaxiralar yaratilishi tendensiyalarini tahlil etib o‘tadi [12]. Biznes siklining rivojlanishining asosiy omili sifatida kredit va u bo‘yicha zaxiralarning yaratilishi muhim ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, banklarda kredit berish tendensiyasi o‘sishi bilan zaxiralar yaratilishi teskari proporsional o‘zgarishi vujudga kelganligi asoslanadi. Shu bilan birga, bank kreditlari ishlab chiqarish jarayonlarining tebranishiga sezilarli ta’sir etishi qayd etib o‘tiladi. 2008–2009-yildagi moliyaviy inqiroz davridan so‘ng ko‘plab G‘arb banklari zaxiralar yaratish hajmi o‘sganligi ko‘rsatib o‘tiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, Yevropa va Buyuk Britaniya mamlakatlari tajribalari asosida kredit riski bo‘yicha zaxiralar yaratish muhim ekanligini ta’kidlash lozim. Bizningcha, kredit yo‘qotishlari bo‘yicha zaxiralar yaratishini amalga oshirishda ularni ham muddat ham subyektlar nuqtayi nazaridan tizimlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bank risklarini boshqarishda ham iqtisodiy, ham noiqtisodiy omillarga e’tibor berish risklarni turli makroiqtisodiy sharoitlarda boshqarishga imkon beradi. Iqtisodiy omillarni baholash orqali moliyaviy ko‘rsatkichlarni nazorat qilish mumkin bo‘lsa, noiqtisodiy omillarni baholash orqali mijozlarning “yashirin” moliyaviy qarorlarini aniqlashga va boshqarishga imkon tug‘iladi, deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nguyen. L. Q. T., Matousek, R., & Muradoglu, G. (2024). Bank capital, liquidity creation and the moderating role of bank culture: An investigation using a machine learning approach. Journal of Financial Stability, 101265.
2. Van Roy, P. (2005, July). The impact of the 1988 Basel Accord on banks’ capital ratios and credit risk-taking: an international study. In EFMA 2004 Basel Meetings, Forthcoming.
3. Chiuri. M. C., Ferri, G., & Majnoni, G. (2001). Enforcing the 1988 Basel capital requirements: did it curtail bank credit in emerging economies?. Economic Notes, 30(3), 399-419.
4. Das. S. R. (2007). Basel II: correlation related issues. Journal of Financial Services Research, 32, 17-38.
5. Kupiec, P. H. (2007). Financial stability and Basel II. Annals of Finance, 3(1), 107-130.
6. Shakdwipee, P., & Mehta, M. (2017). From Basel I to Basel II to Basel III. International Journal of New Technology and Research (IJNTR), 3(1), 66-70.
7. Arya. S., Eckel, C., & Wichman, C. (2013). Anatomy of the credit score. Journal of Economic Behavior & Organization, 95, 175-185.
8. Federal deposit insurance corporation Risk Review 2022. https://www.fdic.gov/analysis/risk-review/2022-risk-review/2022-risk-review-full.pdf
9. Sengupta. R., & Bhardwaj, G. (2015). Credit scoring and loan default. International Review of Finance, 15(2), 139-167.
10. Ozili, P. K. (2022). Determinants of bank income smoothing using loan loss provisions in the United Kingdom. Journal of Economic and Administrative Sciences.
11. Simper, R., Dadoukis, A., & Bryce, C. (2019). European bank loan loss provisioning and technological innovative progress. International Review of Financial Analysis, 63, 119-130.
12. Pool. S., De Haan, L., & Jacobs, J. P. (2015). Loan loss provisioning, bank credit and the real economy. Journal of Macroeconomics, 45, 124-136.



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI IJTIMOIY MA'SULLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMINING AMAL QILISH DARAJASI

Bayisbayev Javlon Nurlanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tadbirkorlik subyektlari ijtimoiy ma'sulligini ta'minlash mexanizmining amal qilish darajasi bu bo'yicha xorijiy olimlarning ilmiy nazariy qarashlari, yondashuvlari, farazlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida tadbirkorlik subyektlaridan olingan natijalar asosida analitik ma'lumotlar ko'rsatkichlari o'rganildi. Muammolar aniqlanib ularning yechimi sifatida tegishli tarzda xulosa va takliflar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, jamiyat, ijtimoiy mas'ullik, korporativ ma'daniyat, raqobat, xodim, faoliyat.

Abstract: This article analyzed the scientific theoretical views, approaches, hypotheses of foreign scientists on the degree of validity of the mechanism for ensuring the social security of business entities. During the study, indicators of analytical data were studied based on the results obtained from business entities. The problems were identified and given conclusions and suggestions in an appropriate way as their solution.

Key words: Entrepreneurship, Society, Social Responsibility, corporate finance, competition, employee, activity.

Аннотация: В данной статье проанализированы научные теоретические взгляды, подходы, гипотезы зарубежных ученых на степень применимости механизма обеспечения социальной ответственности субъектов предпринимательства. В ходе исследования на основе результатов, полученных от субъектов предпринимательства, были изучены показатели аналитических данных. Выявлены проблемы и в качестве их решения приведены соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова: предпринимательство, общество, социальная ответственность, корпоративная культура, конкуренция, сотрудник, деятельность.

KIRISH

Ijtimoiy mas'ullikning turli ta'sirlari bo'yicha tadqiqotlarning ko'payishiga qaramay, tadbirkorlik subyektlari uchun foydalimi yoki yo'qmi degan savol haligacha hal qilinishi kerak bo'lgan savollar qatorida turibdi.

Yevropa Komissiyasi va Yevropa Parlamentidagi muhokamalardan kelib chiqqan holda, Yevropa siyosatchilari kompaniyaning ijtimoiy mas'ullik uchun motivatsiyasini korxona va ularning hajmiga qarab yaxshiroq ko'rib chiqishlari lozim. Bu tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish sharoitlari va moliyaviy bo'lmagan risklarni baholamoqchi bo'lgan investorlarning sodiqligini tiklash elementlaridan biridir deb keltiradi [1].

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatida ijtimoiy mas'ullik bilan bog'liq talab qilinadigan qonun hujjatlariga rioya qilishlari va qonun talab qilmaydigan ijobiy ijtimoiy normalarni hurmat qilishlari kerak. Sloveniyada Kompaniya akti o'rta va yirik biznes subyektlari uchun ijtimoiy mas'ullik masalalari bo'yicha hisobot berishning asosiy aktidir. Ular uning barcha manfaatdor tomonlari yoki manfaatdor guruhlari, xodimlar, mijozlar, yetkazib beruvchilar, biznes hamkorlar, raqobatchilar, mahalliy hamjamiyat, davlat sektori va kengroq jamiyat oldida javobgardir.

50-yillarda tadbirkorlik subyektining ijtimoiy mas'ulligi konsepsiyasi birinchi marta Boden tomonidan o'rnatilishiga harakat qildi, buni ijtimoiy javobgarlik subyektning ijtimoiy majburiyati sifatida belgilaydi, maqsadlarni belgilaydi, qarorlarni qabul qiladi va jamiyatning umidlari va qadriyatlariga mos keladigan faoliyatni amalga oshiradi deb hisoblagan [2].

Keyinchalik turli yo'nalishlarni o'z ichiga olgan ijtimoiy mas'ullikning ko'plab ta'riflari ishlab chiqilgan. Ijtimoiy mas'ullikning ba'zi ta'riflari tabiiy va ijtimoiy muhit oldidagi umumiy javobgarlikka qaratilgan bo'lsa, boshqalari tadbirkorlik subyektlarining ishtirokchilari yoki manfaatlar guruhlari oldidagi javobgarligini belgilaydi. Atrof-muhit xo'jalik yurituvchi subyektlar maqsadli jamoatchilikka (subyektga nisbatan faollashtirilganda) turli manfaatlar

guruhlarini tuzadilar, bularga qadriyatlar, madaniyat, xulq-atvor shakllari, umumiy iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, texnologik, tabiiy va boshqa shart-sharoitlar ta'sir qiladi [3].

Garchi tadbirkorlik subyektlarida ijtimoiy mas'ullikni joriy etish uchun ko'plab sabablar mavjud bo'lsa-da, ular ma'naviy va iqtisodiy bo'lsa-da, bu subyektlar tobe jamiyatda faoliyat yuritishlarini bilishadi va shu bilan jamiyat uchun qo'shimcha qiymatga erishishga yordam beradilar. Shu bilan birga, ijtimoiy mas'ullikli subyektlar mijozlar orasida yuqori obro' va sadoqatga ega, investorlar uchun yuqori jozibadorlik, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish darajasi past va sifatli kadrlar orasida ahamiyatli sanaladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy tadqiqot ishimizni yoritishda, analitik tahlil, ma'lumotlarning qiyosiy tahlili, solishtirma tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlillar xorij va mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy mas'ulligni qo'llab-quvvatlashda yaratilgan sharoitlar, imkoniyatlar va sohaga oid boshqa bir qator muammolarni o'rganishga erishildi. Ma'lumotlarni qiyosiy tahlil usuli bo'yicha tahlillar amalga oshirilib, mavzuni kengroq qilib yoritib berishga harakat qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida tadbirkorlik subyektlari faoliyati o'rganildi.

MAZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy mas'ulligiga nisbatan, birinchi marta Elkington (1998) kitobida kiritilgan uch tomonlama natijalar (Triple Bottom Line) tushunchasini ta'kidlash kerak. Uch tomonlama natijalar konsepsiyasi iqtisodiy jihatdan tashqari, ijtimoiy qarash va atrof-muhit nuqtayi nazarini ham inobatga oladi. Har uch o'lchovda uchta PI (3P) ning o'ziga xos prinsipi mavjud: (foyda, sayyora, odamlar). Uch tomonlama natijalar tushunchasi kompaniyalar, notijorat tashkilotlar va davlat xizmatlarida qo'llaniladi, garchi ularning har biri o'z yo'lida natijalarni har uch toifada o'lchaydi va ko'rsatadi [4].

Princic va boshqalar tadqiqotlarida Kanadadagi turli o'lchamdagi va sanoat kompaniyalari o'rtasida olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, sanoat qoidalari va texnik xarajatlar og'ir deb hisoblangan asosiy resurslar va ishlab chiqarish sektorlarida ijtimoiy mas'ullikni qo'llash ortiqcha xarajatlarni qisqartirishga yordam bergan [5].

Burke va Logsdon (1996) ta'kidlashicha, barcha ijtimoiy mas'ullik faoliyati strategik boshqaruv bilan kesishmaydi. Aksincha, bir qator ijtimoiy mas'ullikli faoliyatlar "strategik bo'lmagan" tarzda bo'lib qolmoqda, ular tashkilot uchun ham, ushbu dasturlarning qabul qiluvchilari uchun ham tan olinadigan foyda keltiradi deb hisoblaydi [6].

Bocquet va boshqalar ijtimoiy mas'ullikning muhim o'lchovlarini strategik boshqaruvning asosiy elementlari sifatida ajratib ko'rsatgan. Ushbu elementlar to'plami 1996-yilda nashr etilgan va keyingi yigirma yil ichida keng miqyosda qabul qilingan ijtimoiy mas'ullik sifatida qaralgan [7].

Ansoff ijtimoiy mas'ullikli faoliyat kompaniyaning asosiy biznesi va strategiyasi bilan qanchalik bog'liqligini belgilaydi. Ijtimoiy mas'ullik darajasida o'ziga xoslik raqobatdosh ustunlik sifatida tushuniladi, buning natijasida kompaniya sezilarli resurslarni qo'lga kiritish orqali raqobatga nisbatan ancha ustunroq mavqega ega bo'lishi mumkin. Proaktivlik – bu o'ylangan, qaror qabul qilishda keng ko'lamli ta'sirlarni o'z ichiga olgan va shu bilan birga, xavfni baholashni hisobga oladigan, ya'ni hozirgi vaziyat va vaziyatga qarab vaqtinchalik qaror qabul qilishning aksi bo'lgan harakat usulini anglatadi va u strategik rejalashtirishning bir qismi sifatida ko'riladi deb keltirgan [8].

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu maqolaning maqsadi nazariyaga ko'ra, biz turli mualliflarning turli tadqiqotlaridan tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy mas'ullikli amaliyotlari uchun mavjud bo'lgan 12 ta dalillar va 12 ta qarshi dalillarni to'pladik. Bizning fikrimizcha, tadbirkorlik subyektlari ixtiyoriy ravishda ijtimoiy mas'ullik bilan nafaqat qonunchilik talablarini yoki atrof-muhit ehtiyojlarini qondirish uchun harakat qiladilar balki natijada aholiga ham foyda olib keladilar.

Masalan, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ayrim chora-tadbirlarni amalga oshirish qonun bilan talab qilinadi. Shovqin va jismoniy ortiqcha yuklarni kamaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish, masalan, ixtiyoriy asosda amalga oshiriladigan subyekt tomonidan qo'shimcha faoliyat bo'lishi mumkin. Tadbirkorlik subyektlari obro'sini oshirish uchun ijtimoiy mas'ullikni namoyish etadilar va ijtimoiy mas'ullikli amaliyotlarga qarshi asosiy dalil – bu tadbirkorlik subyektlarini o'qitish uchun vaqt va moliyaviy resurslarning yetishmasligi.

Ijtimoiy mas'ullik korporativ amaliyotning umumiy qismi va ilmiy tadqiqotning belgilangan mavzusidir. Xorijiy tadqiqotlar ijtimoiy mas'ullikning korporativ strategiyaga izchil integratsiyalashuvi va ijtimoiy mas'ullikning barcha yo'nalishlarini strategik boshqarish korporativ o'sishni kuchaytiradi, raqobatbardosh ustunliklarni keltirib chiqaradi va jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi, degan xulosaga keldi. Masalan, Chexiya Respublikasida ijtimoiy mas'ullikning strategik konsepsiyasiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari ijtimoiy mas'ullikga nisbatan intuitiv va tizimsiz yondashganlarga qaraganda yaxshiroq iqtisodiy natijalarga erisha olishi keltirilgan.

Turli so‘rovlar natijasida ijtimoiy mas’ullikni joriy etish sabablari va unga qarshi bo‘lgan holda, biz quyidagi vazifalarni qo‘ydik [2,3,4,5]:

- tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy mas’ullikni o‘z zimmalariga olmasliklarining asosiy sabablarini aniqlash;
- tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy mas’ullikni amalga oshirishining asosiy sabablarini aniqlash;
- o‘zaro bog‘liqlik bor-yo‘qligini tekshirib ko‘rish:
- tadbirkorlik subyektlari hajmi (xodimlar soni) va ijtimoiy mas’ullikning asosiy sabablarini aniqlash.
- tadbirkorlik subyektlarning kattaligi va ijtimoiy mas’ullikni amaliyotga qo‘llashdagi muammolarni aniqlash.
- tadbirkorlik subyektlari hajmi va kelajakda ijtimoiy mas’ullikli xatti-harakatlarni rejalashtirish.

1-jadvalda o‘rganilgan tadqiqot natijalariga tayangan holda tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy mas’ullik faoliyatini amalga oshira olmasligi sabablari tahlil qilingan (1-jadval)

1-jadval: Kompaniyalarning ijtimoiy mas’ullik faoliyatini amalga oshira olmasligi sabablari [9]

Tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy mas’ullik faoliyatini amalga oshirmaslik sabablari	Kompaniyalar	Foiz
Moliyaviy resurslarning yetishmasligi	43	58%
Tegishli xodimlarning yetishmasligi	29	39%
Vaqt yetishmasligi	26	35%
Xodimlar yetarlicha rag‘batlantirilmagan	12	16%
Texnologiyaning mavjud emasligi	12	16%
Korporativ ijtimoiy mas’ullik qo‘shimcha xarajatlarni anglatadi	8	11%
Jamoat qo‘llab-quvvatlashining yetishmasligi	6	8%
Kompaniya faoliyati bilan bog‘liq emas	6	8%
Boshqaruv yordamining yetishmasligi.	4	5%
Biz hech qanday foyda kutmaymiz	2	3%
Biz ijtimoiy mas’ullikli harakatlar bilan tanish emasmiz	0	0%
Biz ijtimoiy mas’ullikni xohlamaymiz, bu ahamiyatsiz	0	0%
Jami	**148**	**200%**

Tadbirkorlik subyektlaridan olingan so‘rov davomida biz respondentlarning 58 foizi ijtimoiy mas’ullikli tadbirlar amalga oshirilmayotganining eng muhim sababi sifatida moliyaviy resurslarning yetishmasligini ko‘rsatganini aniqladik. Keyingi sabab sifatida munosib xodimlarning yo‘qligi (respondentlarning 39%), keyin vaqt yetishmasligi (35%), xodimlarning motivatsiyasi (16%), mavjud bo‘lmagan texnologiyalar (16%) va boshqa sabablar. Tadbirkorlik subyektlari ijtimoiy mas’ullik bilan biror iqtisodiy foydaga erishishlarini salbiy baholashmoqda.

Aytish joizki, ijtimoiy mas’ullik nafaqat tadbirkorlikda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytganda, bu faoliyat qo‘shimcha xarajatlarni ham talab qiladi, deyish mumkin. Ularda ijtimoiy mas’ullik bilan shug‘ullanadigan maxsus shaxs bo‘lishi kerak va bu xodimlarning vaqtini oladi. Ijtimoiy mas’ullikli xatti-harakatlar tadbirkorlik subyektlariga va olib keladigan afzalliklari bilan tanishganlarida, bu faoliyatga boshqacha yondashuv bo‘lar edi. Tadbirkorlik subyektlari ijtimoiy mas’ullik kompaniyaning uzoq muddatli strategiyasining bir qismi ekanligini bilishmaydi.

Nazariya va so‘rovlardan biz tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy mas’ulligining o‘n ikkita sababini to‘pladik: mijozlarning sodiqligini oshirish, qonunga rioya qilish, kompaniya obro‘sini oshirish, xodimlarning qoniqishini oshirish, mahalliy hamjamiyat va keng jamiyat bilan munosabatlarni yaxshilash, raqobatdosh ustunlik, ma’naviy va axloqiy sabablar, takomillashtirish, biznes yoki iqtisodiy samaradorlik, innovatsiyalar, biznes hamkorlar va yetkazib beruvchilar bilan munosabatlarni yaxshilash, soliq imtiyozlaridan foydalanish, subsidiyalar, rag‘batlantirish va tabiiy muhitga kuchli ta’sir tufayli obro‘ni saqlashdir.

Tadbirkorlik subyektlaridan olingan so‘rov natijasida aytish mumkinki barcha respondentlarning ko‘pchiligi 55 foizi obro‘sini oshirish maqsadida ijtimoiy mas’ullikni his qilishini aytdi, ikkinchi eng keng tarqalgan sabab – mijozlarning sodiqligini oshirish (24%), uchinchi sabab – qonunga rioya qilish (22%), undan keyin mahalliy hamjamiyat va kengroq jamiyat bilan munosabatlarni yaxshilash (20%), 18% xodimlarning qoniqishi uchun ijtimoiy mas’ullik va 15% axloqiy yoki ma’daniy sabablarga ko‘ra degan sabablarni ko‘rsatgan (2-jadval).

2-jadval: Tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy mas’ullik xatti-harakatlarining sabablari [9]

Sabablar	Kompaniyalar	Foiz
Kompaniyaning obro‘sini oshiring	41	55%
Mijozlarning sodiqligini yaxshilang	18	24%
Qonunga rioya qilish	16	22%
Mahalliy hamjamiyat va keng jamoatchilik bilan munosabatlarni yaxshilash	15	20%
Xodimlarning qoniqish darajasini oshirish	13	18%
Axloqiy va axloqiy sabablar	11	15%
Bu bizga raqobatdosh ustunlik keltiradi	10	14%
Biznes hamkorlar va yetkazib beruvchilar bilan munosabatlarni yaxshilash	8	11%
Tabiiy muhitga kuchli ta’sir	7	9%
Tadbirkorlik, iqtisodiy samaradorlikni oshirish	4	5%
Soliq imtiyozlari, subsidiyalar, imtiyozlardan foydalanish	2	3%
Innovatsiya	3	4%
Jami	**148**	**200%**

Menejment va mulkdorlarning ijtimoiy mas’ulligini qo‘llab-quvvatlash ayniqsa muhimdir. Agar rahbariyat ijtimoiy mas’ul boshqaruv biznes yuritishning eng samarali usuli deb hisoblasa, ular o‘z-o‘zidan ijtimoiy mas’ullik va axloqiy munosabatda bo‘lishadi [10].

Inson huquqlarini himoya qilish faqat oddiy o‘sish toifasida sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Shunday qilib, ijtimoiy mas’ullikning ortishi korporativ o‘sishning tez sur’atlariga olib keladi.

Strategik ahamiyatga ega kompaniyalar korporativ ijtimoiy mas’ullikga yondashish, yaxshi iqtisodiy natijalarga erishish va shu bilan birga, korporativ o‘sishni kuchaytirish uchun turli korporativ strategiyalar bilan ijtimoiy mas’ullik faoliyatining boshqa aralashmasini tanlashni taqozo etadi.

Ijtimoiy mas’ullik borasida olib borilgan izlanishlar, ijtimoiy mas’ullikka yanada ilg‘or, ya’ni strategik yondashuv va iqtisodiy farovonlikka erishish o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Xuddi shu namuna shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy mas’ullik konsepsiyasi ancha intuitiv va kamroq tizimli bo‘lgan kompaniyalar raqobatdosh ustunlikka erishish uchun ijtimoiy mas’ullik potensialidan foydalanish imkoniyatini yo‘qotmoqda.

Bundan tashqari, turli korporativ strategiyalarga ega bo‘lgan kompaniyalar shaxsiy faoliyatining afzalliklarini diqqat bilan ko‘rib chiqishlari kerakligi ma’lum bo‘ldi. Differensiatsiya strategiyasi bozor muhitini rivojlantirishga qaratilgan sa’y-harakatlarning afzalliklarini, eng yuqori sifat strategiyasi esa inson huquqlarini himoya qilishning afzalliklarini ko‘rsatdi. Aksincha, muvaffaqiyati xarajatlarni minimallashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan past narx strategiyasi bilan qo‘shimcha faoliyat iqtisodiy ustunlikni anglatmaydi. Bunday yondashuv kompaniyaning raqobatbardoshligining pasayishiga olib kelishi mumkin, chunki barcha manfaatdor tomonlar katta umidlarga ega va ular avtomatik ravishda kompaniyalardan bu faoliyatni kutishadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Taqdim etilgan maqola tadbirkorlik subyektlari ijtimoiy ma’sulligini ta’minlash mexanizmini amal qilish darajasini yoritishga intiladi. Ijtimoiy mas’ullik konsepsiyasining harakatlantiruvchi kuchi kompaniyalar faqat foyda olish uchun emas, degan g‘oyaning qabul qilinishdir. Natijalarni ko‘rsatilgan savollarga yakuniy va to‘liq javob sifatida ko‘rib bo‘lmaydi. E’tiborni ijtimoiy innovatsiyalar, ijtimoiy tadbirkorlik va korporativ ijtimoiy javobgarlikdagi o‘zgarishlar tufayli aholi farovonligidagi o‘zgarishlarga qaratish lozim.

Ijtimoiy javobgarlik doirasidagi turli tadbirlarning korporativ o‘sishga ta’siridan tashqari, individual nazorat o‘zgaruvchilari rolini o‘rganishi ham mumkin. Kompaniyaning mavjud bo‘lgan davri ijtimoiy ma’sullik strategiyasiga ega bo‘lgan kompaniyalarda sotish hajmining o‘sishiga ta’sir qilmaydi, mahsulot farqlariga e’tibor qaratgan kompaniyalarda minimal aloqa paydo bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. European Economic and Social Committee. 2012. 'Sporočilo Komisije Evropskemu parlamentu, Svetu, Evropskemu ekonomsko-socialnemu odboru in Odboru regij – Obnovljena strategija EU za družbeno odgovornost podjetij za obdobje 2011–2014.' http://webcache.googleusercontent.com/search?q=cache:i2nsXEVzgKMJ:https://webapi.eesc.europa.eu/documentsanonymous/CES223-2012_AM1_AM_SL.doc (10.1.2015)
2. Maignan, I. and Ferrell, O. C. 2004. 'Corporate Social Responsibility and Marketing: An Integrative Framework.' Journal of the Academy of Marketing Science 32 (1): 3-19.
3. Dolinšek, T. 2011. 'Internet Reporting of Corporate Social Responsibility of the Slovenian Banks.'VKnowledge and Business Challenge of Globalisation in 2011, ur. M. Merkač Skok in M. Cingula,429-440. Celje: Faculty of Commercial and Business Sciences.
4. Elkington, J. 1997. 'Cannibals With Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business.'Capstone: Oxford.
5. Princic, L., Floyd, M. and Bonham, J. 2003. 'Engaging Small Business in Corporate Social Responsibility.' http://info.worldbank.org/etools/docs/library/114189/Engaging%20SME%20in%20CSR%202003.pdf (7.2.2015)
6. Burke, L., & Logsdon, J. M. (1996). How corporate social responsibility pays off. Long Range Planning, 29(4), 495–502. https://doi. org/10.1016/0024-6301(96)00041-6
7. Bocquet, R., Le Bas, C., Mothe, C., & Poussing, N. (2012). Are firms with different CSR profiles equally innovative? Empirical analysis with survey data. European Management Journal, 31(6), 542–654. https:// doi.org/10.1016/j.emj.2012.07.001
8. Ansoff, H. I. (1965). Corporate Strategy: An Analytic Approach to Business Policy for Growth and Expansion. New York, NY: McGraw-Hill.
9. Ma'lumotlar yordamida muallif tomonidan qayta ishlandi
10. Bavec, C. 2012. 'Social Responsibility and Professional Ethics in Management: Some Empirical Evidences at Country Levels.' Managing Global Transitions 10 (4): 361-377.

QISHLOQ AHOLISINING QISHLOQ XO‘JALIGIDA BILIM VA INNOVATSIYALARNI O‘ZLASHTIRISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI IQTISODIY BAHOLASH (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)

Bozorova Lobar Nuralevna
PhD doktorant, Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy tadqiqot ishida qishloq aholisi daromadiga tomorqa yer egalari tomonidan faoliyatga innovatsiyalarni jalb qilish manbalari yoki ularni o‘zlashtirishi ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot, Samarqand viloyati Pastdarg‘om va Oqdaryo tumanlarida 587 ta tomorqa xo‘jaliklarida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnoma ma’lumotlaridan foydalanilgan. Omilli tahlil (Factor Analysis) modelidan foydalanilgan holda tomorqa yer egalarining “Innovatsiyalarni o‘zlashtirish indeksi” ko‘rstkichi ishlab chiqilgan. Tahlilda, oila daromadiga tomorqa yer egalari tomonidan “Innovatsiyalarni o‘zlashtirish indeksi” ko‘rsatkichi va boshqa omillar ta’sirini iqtisodiy baholashda Tobit modelidan foydalanilgan. Natijada, “Innovasiyalarni o‘zlashtirish indeksi” 1 foiz (***p<.01)likda statistik muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning 1 koeffisiyentga oshishi oila daromadini 1,566 mln. so‘mga oshirishi ilmiy asoslangan. Olingan tahlil natijalar asosida, ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tomorqa xo‘jaligi faoliyati, innovasiya, innovasiyalarni o‘zlashtirish indeksi, resurs tejamkor, daromad, Omilli tahlil (Factor Analysis) model, Tobit model, qishloq xo‘jaligi.

Abstract: In this scientific research, the influence of the sources of attracting innovations to the activity or their adoption by the landowners on the income of the rural population was analyzed. Using the Factor Analysis model, the indicator of “Innovation Adoption Index” of homestead land owners was developed. In the analysis, the Tobit model was used in the economic assessment of the influence of the indicator “Innovation Adoption Index” and other factors on family income. As a result, “Innovation Adoption Index” is statistikally significant at 1 % (***p<.01), its increase by 1 coefficient increases the family income by 1,566 million increase to soum is scientifically based. Based on the results of the analysis, scientifically based proposals were developed.

Key words: tomorka activity, innovation, innovation adoption index, resource efficient, income, Factor Analysis model, Tobit model, agriculture.

Аннотация: В данном научном исследовании было проанализировано влияние источников привлечения инноваций в деятельность или их внедрения помещиками на доходы сельского населения. С использованием модели факторного анализа разработан показатель “Индекс внедрения инноваций” собственниками приусадебных земель. В анализе модель Тобит использовалась при экономической оценке влияния показателя “Индекс внедрения инноваций” и других факторов на доход семьи. В результате “Индекс внедрения инноваций” является статистически значимым и составляет 1 % (***p<.01), его увеличение на 1 коэффициент увеличивает доход семьи на 1,566 млн сум прибавка к сумам научно обоснована. По результатам анализа были разработаны научно обоснованные предложения.

Ключевые слова: сельскохозяйственная деятельность, инновации, индекс внедрения инноваций, ресурсоэффективность, доход, модель факторного анализа, модель Тобит, сельское хозяйство.

KIRISH

Qishloq aholisi bandligi, mamlakat aholisining oziq-ovqat xavfsizligi, ularning farovonligini ta'minlashda qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholining qishloq xo'jalik sohasida doir bilim va ko'nikmalari, savodxonlik darajasiga hamda sohaga jalb qilinadigan innovatsiyalarga bog'liqdir [1]. Shu o'rinda, qishloq xo'jaligi faoliyatida band bo'lgan aholi daromadini oshirishda ishlab chiqarish faoliyatiga innovatsiyalarni keng joriy etish, iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish [2], resurs yetkazib beruvchilar, mahsulot ishlab chiqaruvchilar hamda iste'molchilar o'rtasida iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega [3]. Ishlab chiqarish jarayonida resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanish yoki qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda innovatsiyalardan foydalanish yoki ularning keng doirada joriy etilishida qishloq infratuzilma xizmatlariga ham bog'liqdir [4].

Dunyoda qishloq aholisining 1,5 milliardga yaqini dehqon xo'jaligi faoliyatidan kun kechirishi, ishlab chiqilgan innovatsiyalardan samarali foydalanish ma'lum darajada xo'jalik subyektlarining savodxonlik darajasiga bog'liq. Bunday holat, aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish yoki qishloq xo'jaligi faoliyatidan keladigan daromadini oshirishda mavjud innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va ularga iqtisodiy baho berish talab etiladi. Bugungi kunda, qishloq xo'jaligida inson kapitali sifatining asosiy tarkibiy qismlari qishloq xo'jaligining maxsus bilimlari, mustaqil ish tajribasi, iqtisodiy amaliyot bilimlari va ko'nikmalari, qaysiki tomorqa xo'jaliklari subyektlari tomonidan qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarga ta'sir ko'rsatadi [5]. Xususan, xo'jaligi subyektlarining bilim va tajribaga ega bo'lish qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarga o'z biznesini to'g'ri boshqarish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, bozorda samarali faoliyat yuritish imkonini beradi. Binobarin, qishloq xo'jaligi sohasida, menejment, moliyaviy menejment, kadrlar, marketing, iqtisodiy qonunchilik va xalqaro tajriba bo'yicha bilim darajasini oshirish va yangi ko'nikmalarni egallash qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish va samaradorligini oshirishga, aholini keng jalb etishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bozor iqtisodiyoti tamoyillariga o'tish qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini bozor sharoitida barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan to'liq axborot bilan ta'minlash, qishloq aholisining ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohasida o'zaro munosabati innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatlarini beradi. Biroq olis hududlarda mavjud infratuzilma xizmatlari, xususan, internet-aloqa tizimida mavjud muammolar ma'lum darajada aholining tomorqa xo'jaligi faoliyati bilan bog'liq innovatsion texnologiyalardan foydalanish yoki ulardan xabardor bo'lishni cheklash mumkin [6]. Bunday holda, qishloq xo'jaligi subyektlari tomonidan innovatsiyalardan foydalanish, qaysiki oila uchun bozor to'liq innovatsiyalar to'g'risida ma'lumot berishi mumkin. Xususan, zamonaviy ilmiy-texnikaviy ishlanmalar va ilg'or ishlab chiqarish tajribasi to'g'risidagi ma'lumotlar dastlabki bosqichda qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida shakllanadi. Bu borada, xo'jalik subyektlari tomonidan qanday turdagi yangi texnologiyani yoki resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanishini bozorda talab va taklif belgilaydi.

Qishloq xo'jaligi soha xodimlari yoki tomorqa yer egalarining ilg'or ishlab chiqarish tajribasi birgina ijtimoiy tarmoqlarda yoritilayotgan innovatsion texnologiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan cheklanmaydi. Bu borada, qishloq aholisi o'rtasida kommunikatsion jarayon ham muhim ahamiyatga ega. Qishloq aholisi munosabatlarining mustahkamligi, tomorqa xo'jaligi faoliyatidan foydalanilgan innovatsiyalarning qishloqda keng joriy etilishiga sabab bo'lishi mumkin. Innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish bilan bog'liq yangi bilim yoki aholi savodxonligini oshirishda TV ko'rsatuvlari ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, aholini innovatsion texnologiyalardan foydalanishga undaydi. Garchand, qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bog'liq innovatsiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish oila daromadi bilan bog'liq bo'lsada, o'zbek millatiga xos qarindosh-urug'chilik munosabatlarning ko'chli bo'lishi bir tomorqa yer egasi tomonidan foydalanilgan innovatsiyalarni ikkinchi bir tomorqa yer egasi tomonidan foydalanish imkoniyatini berishi mumkin. Shu o'rinda, xo'jalik subyektlari o'rtasida ko'chli munosabat, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish yoki faoliyatga qo'llash bilan bog'liq bilim-ko'nikmaga ega bo'lishadi.

Olis qishloq hududlarda qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bo'gliq innovatsiyalarni tomorqa xo'jaliklarida qo'llanilishiga oila a'zolarining kamida bir nafar a'zosi oliy ma'lumotga ega bo'lishi ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq qishloqlarda oila a'zolarining oliy ta'lim muassasalarida tahsil olishi bevosita oila daromadiga bog'liq bo'lib qolmoqda [7]. Bu borada, qishloq hududlarida, ayniqsa olis hududlarda agroxizmatlar markazlari yoki ilmiy maslahat guruhlar tashkil etilgan holda turli seminar-treninglar tashkil etilishi tomorqa yer egalarining bilim-ko'nikmalarini oshirishga ijobiy ta'sir etgan holda innovatsiyalardan foydalanishga undashi mumkin.

Biroq iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilarning olib borgan tadqiqot ishlariga ko'ra [8, 9, 10], tomorqa yer egalarining yoshi ma'lum bir yoshgacha innovatsilardan keng foydalanishga undasa, ma'lum yoshdan keyin yoshning oshib borishi ular tomonidan yangi bilim yoki innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishga bo'lgan moyilligi pasayib boradi.

Umumiy olganda, tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi tomorqa yer egalari tomonidan qishloq xo‘jaligi faoliyatiga jalb qilingan innovatsiyalar oila daromadiga qay darjada ta’sirini iqtisodiy baholash orqali ilmiy asoslangan xulosa va takliflar berishdan iborat.

Tadqiqotda, oila daromadiga tomorqa xo‘jaligi faoliyatida foydalanilgan innovatsiyalarni o‘zlashtirish manbalarini tahlil qilish va ularga iqtisodiy baho berishda Samarqand viloyatida qo‘shni bo‘lgan, biroq Zarafshon daryosi ikkiga ajratib turgan Oqdaryo va Pastdarg‘om tumanlari qishloqlarida o‘tkazilgan so‘rovnoma ma’lumotlaridan foydalanildi. Ijtimoiy so‘rovnoma ma’lumotlarning statistik tavsifi va tahil ususllari tadqiqot ishimizning 2-bo‘limi, ya’ni “Material va metod” bo‘limida keltirildi. Shuningdek, ushbu bo‘limda tadqiqot ishida Omilli tahlil (Factor analysis) va Tobit modellardan foydalanilganligi keltirilgan. 3-bo‘limda, ya’ni tomorqa yer egalaridan olingan so‘rovnoma ma’lumotlar tahlil natijalari yoritilgan. Ilmiy tadqiqot ishida olingan natijalar asosida berilgan xulosa, taklif va tavsiyalar ishning “Xulosa va taklif” bo‘limida keltirilgan.

MATERIAL VA METOD

Tadqiqot ishida Samarqand viloyat Oqdrayo va Pastdar’om tumanlarida 2023-yilda o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnoma ma’lumotlaridan foydalanildi. Ijtimoiy so‘rovnomada 587 ta tomorqa yer egasi yoki respondent ishtirok etgan bo‘lib, ulardan 338 nafari yoki 57,6 foizi Pasdarg‘om tumani tomorqa yer egalari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Qishloqlarda oilalarning o‘rtacha oylik daromad 3,305 mln. so‘mni tashkil etib, qaysiki oilalarda minimum 1,6 mln so‘m yoki maksimum 10,7 mln so‘mni tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval: O‘zgaruvchilarning statistik tavsifi

O‘zgaruvchilar	O‘rtacha	Std. og‘ish.	Min	Max
Oilaning o‘rtacha oylik daromadi	3.305	1.609	1.6	10.7
Innovatsiyalarni o‘zlashtirish indeksi, (iui)	.38	.167	0	1
Innovatsiyalarni yaqin qarindoshidan o‘zlashtirgan	.642	.48	0	1
Innovatsiyalarni qo‘shnilardan o‘zlashtirgan	.568	.496	0	1
Innovatsilarni TV ko‘rsatuvlaridan o‘zlashtirgan	.555	.497	0	1
Innovatsilarni bozordan o‘zlashtirgan	.601	.49	0	1
Innovatsilarni agroxizmat markazlaridan o‘zlashtirgan	.549	.66	0	1
Innovatsiyalarni ilmiy tadqiqot institutlaridan o‘zlashtirgan	.465	.499	0	1
Innovatsiyalarni ijtimoiy tarmoqlardan o‘zlashtirgan	.489	.5	0	1
Tomorqa ekin maydoni, (tem)	6.566	2.092	3	15
Oilaning asosiy daromad manbasi, (adm)	.608	.489	0	1
Oila boshlig‘i ma’lumoti, (m)	2.147	.631	1	3
Oila boshlig‘i yoshi, (yo)	47.109	7.32	27	60
Yosh2 (U-shaped)	2272.751	673.693	729	3600
Oila boshlig‘i jinsi, (j)	.85	.357	0	1

Tomorqa yer egalari tomonidan tomorqa xo‘jaligi faoliyatiga innovatsion texnologilarni joriy qilishda bilim-ko‘nikmani yaqin qarindosh-urug‘idan o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 64,2 foizini tashkil etgan. Shuningdek, tomorqa yer egalari tomonidan tomorqa xo‘jaligi faoliyatiga jalb qilingan innovatsiyalarning 56,8 foizini qo‘shnilardan o‘zlashtirgan. Tomorqa yer egalari tomonidan tomorqada foydalanilgan innovatsiyalarni faqat bir manbadan o‘zlashtirmagan, ya’ni qaysiki ekin va/yoki chorva turi bilan bog‘liq faoliyatga innovatsiyani qo‘llashda turli manbalardan foydalanishgan. Umumiy olganda, tomorqa xo‘jaligida o‘simlikchilik yoki chorvachilik faoliyati bilan bog‘liq innovatsiyalarni turli manbalardan o‘zlashtirgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Tomarqachilik faoliyatidan keladigan daromad bevosita ekin maydonlariga bog‘liq bo‘lib, ekin maydonlarning oshishi faoliyatdan keladigan daromadni oshiradi [11]. Biroq tomorqa yer maydonlari hajmining oshishi tomorqa yer egalari tomonidan samarali foydalanilgan deb ayta olmaymiz. Statistik tavsifga ko‘ra, respondentlarning o‘rtacha tomorqa ekin maydoni 6,566 sotixni tashkil etgan. Shu o‘rinda, tomorqa ekin maydonlari hajmining oshishi oila boshlig‘i yoki a’zolarining qishloq xo‘jalik faoliyatida band bo‘lishga undaydi [12]. Biroq oilada oila boshliqlarining noqishloq xo‘jaligi faoliyatida band bo‘lishi, tomorqa xo‘jaligi faoliyatida innovatsiyalarni joriy qilishda asosiy investitsiya hisoblanadi [13].

Tomorqa yer egalari tomonidan faoliyatga jalb qilingan innovatsiyalarni o‘zlashtirish manbalari bir nechta mustaqil o‘zgaruvchilar bo‘lib, ular bir umumiy xususiyat yoki ma’noni ifodalaydi. Bunday holda, Omil tahlil modeli yordamida yagona umumiy xususiyatni ifodalovchi indeks ko‘rsatkich sifatida ifodalalash mumkin. Biroq Omil tahlil modelidan foydalanishda 3 ta asosiy test:

1) KMO (Kaiser-Meyer-Olkin Measure) ≥ 0,50 dan katta bo‘lishi kerak [14];
2) Bartlet test (Bartlett test, χ2)da umumiy xususiyani ifodalovchi o‘zgaruvchilarimiz p-qiymat=0,000 bo‘lishi [15];
3) Korrelyasion matrisada Det>0,00001 katta bo‘lish [16] shartini bajarish lozim.

Omilli tahlil natijasiga ko‘ra, respondentlardan olingan so‘rovnomada faoliyatda innovatsiyalarni o‘zlashtirish manbalaridan hosil bo‘lgan “Innovatsiyalarni o‘zlashtirish indeksi” ko‘rsatkichi yuqoridagi har 3 ta asosiy test shartini qanotlantiradi. Ya’ni, tahlilda “Innoatsiyalarni o‘zlashtirish indeksi” ko‘rsatkichidan foydalanishga dalolat beradi.

2-jadval: Umumiy xususiyatni ifodalovchi o‘zgaruvchilar uchun omilli tahlil modeli test natijasi

№	Indeks	Shartlar va test natijalari		
		KMO≥0,50	p=0,000	Det>0,00001
1.	Innovatsiyalarni o‘zlashtirish indeksi	0,874	0,000	0,582

Omilli tahlil modeli taklif etgan indeks, ya’ni “Innovatsiyalarni o‘zlashtirish indeksi” 0 va 1 oralig‘ida bo‘lib, qaysiki tomorqa xo‘jaligi uchun indeks ko‘rsatkichi 1 ga yaqin bo‘lishi, faoliyatga innovatsiyalarni o‘zlashtirish manbasidan ko‘proq foydalanishini ifodalaydi va aksincha.

Bog‘liq o‘zgaruvchi (Y) miqdor ko‘rsatkichda, ya’ni oilaning o‘rtacha oylik daromadi bo‘lganligi uchun unga mustaqil o‘zgaruvchi (X) qay darajada ta’sirini iqtisodiy baholashda Tobit modeldan foydalanildi [17]. Mazkur modelning matematik ifodasi quyidagicha ifodalaniladi [18].

$$\rho_i^* = \beta_0 + \sum_{j=1}^{i} \beta_j x_{ij} + \varepsilon_i$$

$$\rho_i = \rho_i^* \quad 0 \le p_i^* \le 1$$

$$\rho_i = 0 \quad p_i^* < 0$$

$$\rho_i = 1 \quad p_i^* > 1$$

Bunda, ρ_i^* – ko‘zda tutilmagan o‘zgaruvchilar;

ρ_i – bog‘liq o‘zgaruvchi;

x_{ij} – mustaqil o‘zgaruvchi;

β_0 – o‘zgarmas;

β_j – korrelyasiya vektor koeffisiyenti;

ε_i – $\varepsilon_i \sim N(0, \sigma^2)$

Mazkur metoddan foydalanilgan holda oila daromadiga tomorqa xo‘jaligi faoliyatida innovatsiyalarning o‘zlashtirish indeksi qay darajada ta’sirini iqtisodiy baholashda “STATA-17” dasturlar paketidan foydalanildi.

TAHLIL NATIJALARI

Olingan tahlil natijalariga ko‘ra (3-jadval), oila boshlig‘i va/yoki a’zolari tomonidan tomorqa xo‘jaligi faoliyatiga jalb qilingan yoki ularni o‘zlashtirish manbalari oila daromadining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

3-jadval: Tomorqa xo‘jaligi faoliyatida innovatsiyalarni o‘zlashtirish manbalarining oila daromadiga ta’sirini baholashda Tobit model tahlil natijasi

Ta’sir omillar	Koef.	St.xato	t-qiymat	p-qiymat	[95% oraliqda]		Muh.
iui	1.566	.335	4.67	0	.907	2.225	***
tem	.131	.026	4.98	0	.079	.182	***
adm	.809	.117	6.92	0	.58	1.039	***
m	.632	.092	6.89	0	.452	.811	***
yo	.368	.08	4.58	0	.211	.526	***
Yosh2	-.004	.001	-4.78	0	-.006	-.002	***
j	.33	.152	2.17	.03	.032	.629	**
Constant	-8.128	1.819	-4.47	0	-11.7	-4.556	***
Var (e)	1.646	.096	.b	.b	1.468	1.846	

Mean dependent var	3.306	SD dependent var	1.611		
Pseudo r-squared	0.120	Number of obs	586		
Chi-square	265.631	Prob > chi2	0.000		
Akaike crit. (AIC)	1973.075	Bayesian crit. (BIC)	2012.435		

*** p<.01, ** p<.05, * p<.1

Ya’ni, “Innovatsiyalarni o‘zlashtirish indeksi”ning 1 koeffisiyentga oshishi oila daromadini 1,566 mln. so‘mga oshiradi va 1 foiz (*** p<.01) likda statistik muhim ahamiyatga ega. Shu o‘rinda, tomorqa xo‘jaliklarida ekin maydoning 1 sorixga oshishi oila daromadini 0,131 mln. so‘mga oshiradi va 1 foiz (*** p<.01) likda statistik muhim ahamiyatga ega. Biroq oila boshliqlarining yoshi ma’lum bir yoshga borganda, undan keyin yoshning 1 yoshga oshishi oila daromadini 0,004 mln. so‘mga kamaytiradi va 1 foiz (*** p<.01) likda statistik muhim ahamiyatga ega. Tomorqa xo‘jaliklarida innovatsiyalardan foydalanish oila boshliqlari jinsiga va asosiy daromad manbasiga bog‘liqdir. Qaysiki, oila boshliqlarining noqishloq xo‘jaligi faoliyatida band bo‘lishi, har oy kafolatlangan daromadga ega bo‘ladi. Vaholanki, qishloq aholisining qishloq xo‘jaligi faoliyati band bo‘lishi, ayniqsa tomorqa xo‘jaliklarida, ya’ni o‘simlikchilikda yiliga o‘rtacha 2-3 marta daromadga ega bo‘lishi mumkin. Tomorqachilikda, aksariyat oila xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari oila a’zolari tomonidan iste’mol qilishadi, biroq faoliyatga innovatsiyalarni jalb qilinishi natijasida olingan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotishga yo‘naltiriladi.

Umumiy olganda, tomorqa yer egalari tomonidan tomorqachilikda innovatsiyalardan foydalanishi ekin maydonda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishi imkoniyatini beradi. Bu borada, qishloqlarda agroxizmat, o‘quv seminar-treninglar innovatsion texnologiyalar, serhosil urug‘ va ko‘chatlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, resurs tejamkorligi to‘g‘risida ma’lumotlar bilan tomorqa yer egalarida bilim-ko‘nikma hosil qilish muhumdir. Shu o‘rinda, imtiyozli narxlarda yoki imtiyozli kreditlar asosida innovatsion resurs tejamkor texnologiyalar yetkazib berilishi, qishloq aholisi bandligi va oila darmadini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo‘jaligi faoliyatining barqaror rivojlanishi aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondiradi. Shu o‘rinda, qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishini ta’minlashda faoliyatda band bo‘lgan ishchi-xodimlarning bilim-savodxonlik darajasiga bog‘liq bo‘lib, faoliyatga jalb qilingan innovatsiyalardan samarali foydalanish yoki yangi innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish imkoniyatini tezlashtiradi.

Samarqand viloyati Pastdarg‘om va Oqdaryo tumanlari qishloq ahaolisi tomorqa xo‘jaliklari misolida o‘rganilgan tadqiqot ishimizda, tomorqa yer egalari tomonidan “Innovatsilarni o‘zlashtirish indeksi” oila daromadining oshishiga ijobiy ta’sir etishi ilmiy asoslandi. “Innovatsiyalarni o‘zlashtirish indeksi” bevosita tomorqa yer egalari tomonidan foydalanilgan innovatsiyalarni qanday o‘zlashtirishini, umumiy xususiyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan hosil bo‘lgan indeksdir.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Makur indeksni oshirish bevosita tomorqa yer egalari va/yoki a'zolari bilimi, ularning savodxonlik darajasiga bo'gliq. Bu borada, hukumat qishloq hududlarida, ayniqsa olis hududlarda agroxizmatlar markazini tashkil etish yoki mahallabay qishloq aholisi uchun tomorqa xo'jaligi faoliyatida qanday turdagi innovatsiyalar yoki innovatsion texnologiyalardan foydalanish, uning resurs tejamkor imkoniyatlari borasida o'quv seminar-treninglar tashkil qilishni qo'llab-quvvatlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muratov, S. (2022). The Role of Innovations in the Activities of Tomorka Farms in Samarkand Region. American Journal of Agricultural Science, Engineering, and Technology, 6(3), 135-141.
2. Babakholov, S., Bobojonov, I., Hasanov, S., & Glauben, T. (2022). An empirical assessment of the interactive impacts of irrigation and climate on farm productivity in Samarkand region, Uzbekistan. Environmental Challenges, 7, 100502.
3. Pardaev, K., Hasanov, S., Muratov, S., & Saydullaeva, F. (2023). Mitigating impact of risks on economic integration between entities in agrifood supply chain. In E3S Web of Conferences (Vol. 365, p. 04002). EDP Sciences.
4. Муратов, Ш. (2022). The economic assessment of resources and services affecting tomorka (small households) farm in rural areas and their income. Iqtisodiyot va ta'lim, 23(1), 317-324.
5. Hasanov, Sh., & Muratov, Sh. (2023). Tomorqa xo'jaligi faoliyatidan keladigan daromadga innovatsiyalar ta'sirini iqtisodiy baholash // THE INNOVATION ECONOMY, 1(01), 132-144.
6. Saydullaeva, F., Hasanov, S., Pardaev, K., & Muratov, S. (2023). Dietary diversity for ensuring food security. In E3S Web of Conferences (Vol. 365, p. 01003). EDP Sciences.
7. Nurullayev, U. U., & Urazov, J. S. (2023). Agrar sohada tahsil olayotgan talabalarning o 'rtacha o 'zlashtirish ko 'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholash. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 292-298.
8. Muratov, S., Hasanov, S., Kalandarov, R., Pardaev, K., & Saydullayeva, F. Bibliography the Role of Innovations in the Activities of Tomorka Farms in Samarkand Region // O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 135.
9. Pardaev, K. A. (2022). Risk Mitigation Strategies in the Tomato Supply Chain. American Journal of Agricultural Science, Engineering, and Technology, 6(3), 118-123.
10. Muratov, S. (2023). The Role Of Innovation In Increasing Tomorka Farm Incomes. Sustainability Of Education, Socio-Economic Science Theory, 1(5), 84-91.
11. Toxirovna S. G. Dehkan Farm-Services To Sustain Food Supply //Academic Journal of Digital Economics and Stability. – 2021. – Т. 6. – С. 1-5.
12. Muratov, S. A. (2021). Economic Assessment Of Factors Affecting The Decision Of Households To Engage In Non-Farm Activities // Irrigation and Melioration, 2021(2), 38-43.
13. Muratov, S., Hasanov, S., Kalandarov, R., Pardaev, K., & Saydullayeva, F. Bibliography The Role Of Innovations In The Activities Of Tomorka Farms In Samarkand Region // O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 135.
14. Kaiser, Henry F 1974. An index of factorial simplicity. Psychometrika 39: 31-36. doi: 10.1007/BF02291575
15. Bartlett, M. S. 1951. The effect of standardization on a Chi-square approximation in factor analysis. Biometrika 38: 337-344. doi: 10.1093/biomet/38.3-4.337
16. Acock, Alan C 2013. Discovering structural equation modeling using Stata. Stata Press Books.
17. Ike, P. C. (2015). Determinants of participation in non-farm economic activities in South East Nigeria: a tobit analysis approach. Journal of Biology, Agriculture and Healthcare, 5(2), 102-108.
18. Cai, L. A. (1998). Analyzing household food expenditure patterns on trips and vacations: a Tobit model. Journal of Hospitality & Tourism Research, 22(4), 338-358.

НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ



Дониерова Зухрабону Алишер кизи
К.э.н. (PhD) ТГЭУ

Аннотация: Статья обсуждает управление научно-технической деятельностью в крупных фирмах, с фокусом на рыночных потребностях и развитии фармацевтической отрасли в Узбекистане. Описываются инвестиционные проекты и задачи Агентства по развитию фармацевтики, а также изменения в системе управления для поддержки инноваций.

Ключевые слова: научно-техническая деятельность, НИОКР, экономика, конкурентоспособность, кластер, научно-технические исследования.

Annotatsiya: Maqolada yirik firmalarda ilmiy-texnikaviy faoliyatni boshqarish, bozor ehtiyojlari va O‘zbekistonda farmatsevtika sanoatini rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratiladi. Farmatsevtikani rivojlantirish agentligining investitsiya loyihalari va vazifalari, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ilmiy-texnikaviy faoliyat, ilmiy-tadqiqot, iqtisod, raqobatbardoshlik, klaster, ilmiy-texnik tadqiqotlar.

Abstract: The article discusses the management of scientific and technical activities in large firms, with a focus on market needs and the development of the pharmaceutical industry in Uzbekistan. Investment projects and tasks of the Pharmaceutical Development Agency are described, as well as changes in the management system to support innovation.

Key words: scientific and technical activity, R&D, economics, competitiveness, cluster, scientific and technical research.

В современных условиях в крупных фирмах сложились устойчивые механизмы управления научно-технической деятельностью, отражающие особенности процесса интеграции науки и производства, все большую ориентацию исследований и разработок на рыночные потребности, усиление влияния рыночных факторов на стратегические позиции фирмы.

В последнее время в нашей республике делается акцент на разработку и освоение новшеств в промышленности. Так в отчете Кабинета Министров 26.01.2016 года было выбрано направление дальнейшего изучения экономических аспектов для развития конкурентоспособной страны, за счет высокого технического развития и обновления государства[1].

При Министерстве здравоохранения Республики Узбекистан создано Агентство по развитию фармацевтической отрасли Узбекистана, которое не только является центральным ведомством для развития отрасли, но также является оператором одного из крупнейших инвестиционных проектов по фармацевтике в Центральной Азии, а именно – создателем инновационного научно-производственного фармацевтического кластера “TASHKENT PHARMA PARK”. Срок ввода в эксплуатацию – ноябрь 2024 года, объем инвестиций – 130,2 миллиона долларов[2].

Основными задачами Агентства по развитию фармацевтической отрасли определены:

- разработка и реализация стратегий устойчивого развития фармацевтической отрасли;
- организация изучения конъюнктуры фармацевтического рынка;

1 Карабаева Г.Ш. Перспективы развития инновационных процессов в промышленности Узбекистана. //BIZNES-ЭКСПЕРТ. – Ташкент, 2020. -№5. – С.133-136.
2 https://pbs72.ru/

- содействие предприятиям отрасли в организации сотрудничества с ведущими иностранными фармацевтическими компаниями;
- освоении производства новых видов высококачественной, конкурентоспособной на внутреннем и внешних рынках фармацевтической продукции;
- государственное регулирование фармацевтической отрасли;
- координация работ по внедрению передовой зарубежной практики и международных стандартов в фармацевтическую отрасль;
- участие во внедрении Информационной системы контроля и учета движения фармацевтической продукции.

34 проекта на сумму 80 млн. долл. США запланированы для реализации в Узбекистане на текущий год. Кроме того, Центром по разработке инвестиционных проектов подготовлено еще 18 перспективных проектов.

104 инвестиционных проекта на сумму 1,25 млрд. долл. США планируют реализовать власти Узбекистана в фармацевтической отрасли в 2022–2026 годах. Это позволит увеличить показатель обеспеченности внутреннего рынка с нынешних 55% до 80% в натуральном выражении.

200 млн. долл. США кредитных ресурсов будут привлечены для финансирования новых проектов и пополнения оборотных средств.

Выбранные пути развития поддерживают ранее выбранный путь Узбекистана, направленный на внедрение новшеств в экономической промышленности. Таким образом, государство заявляет, что рост уровня производства и общего статуса нации реализуется не только в силу наличия природных ресурсов, но также за счёт интеллектуальных составляющих нашей нации.

Отталкиваясь от целей, поставленных Президентов Шавкатом Мирзиеевым в процессе беседы с интеллектуальной элитой Республики Узбекистан, на сегодняшний день одним из главных путей развития является развитие новшества с дальнейшим его внедрением в национальную экономику страны[3].

Новые задачи повлекли за собой изменения в системе связей как по вертикали, т. е. между всеми уровнями управления, так и по горизонтали – между отделами научно производственной цепи сбыта продукта.

Изучение более гибких и глобальных систем менеджмента, инновационных экономический механизм26, направленный на развитие многообещающих продуктов, реорганизация многих организаций, структур менеджмента и проведения практической деятельности дает основу для развития и использования новшеств. В результате обязанности производственного отдела по созданию, производству и распространению были разделены между несколькими группами исполнителей. Благодаря четкому финансированию и планированию как новых, так и существующих продуктов, эта стратегия отражает высокий уровень профессионализма производственных подразделений.

Были приложены немалые затраты для осуществления оптимальной взаимосвязи между различными отделами производства, исследований и разработок, а также отделом продаж и тд.

Контроль процесса новшеств состоит из:

- Основание на государственном уровне организации для произведения инновационной политики;
- Основание организаций для обеспечения продуктов новшества;
- Установление контурных групп направленных на развитие новшеств;
- Увеличение влияния организаций являющимися частью отдела НИОКР. Лабораторий, центров науки;
- Создание фонтом мотивации разработки новшеств;
- Создание отделов рекомендаций по вопросам новшества;
- Создание группы лабораторий направленных на решение проблем новых технологий.

1. Крупные организации, имеющие научную базу, являются главными локациями прогресса таких групп как комитеты, советники, рабочие группы по образованию технической политики. Данные организации устанавливают главные аспекты новшества и дают рекомендации в совет директоров. Возглавляют участки производства лица из центральных отделов НИОКР и службы сбыта.

3 Указ Президента Республики Узбекистан №-5544 “О стратегии инновационного развития Республики Узбекистан в 2019-2021 годах” от 21 сентября 2018 года. // Народное слово. – Ташкент, 22 сентября 2018 г.

Именно по этой причине в комиссиях по разработке новшеств во главе стоят представители глав отделов маркетинга, НИОКР, финансов, маркетинга, и представители управления процесса разработки новшества. Стратегию развития новшества устанавливает Комитет.

2. Центральные службы прогресса новых технологий выполнят контроль нового производства организуя:

а) создание монополярной технологической политики;

б) управление новшествами на разных этапах производства.

Для увеличения результативности освоения и введения новшества идет согласование между НИОКР и разделами производства.

3. составление целей и программ по новшествам, которые координируют дальнейшее производство новых продуктов и их освоение. Данные процессы осуществляются в каждом отделе самостоятельно.

4. Проектно-целевые группы – это разделы единиц в бизнесе для общего освоения продукта новшества, начиная от серийного и заканчивая массовым выпуском данной продукции. Они осуществляют научно-технические исследования, подчиняются лишь высшим представителям управления предприятия.

Также есть методы, когда создатель какого-либо новшества сам организует его производство и реализацию на рынках.

Проектно-целевые организации выполняют поручения лишь высших представителей компании. Данная группа имеет в своём составе от 10 до 15 человек. В дальнейшем данная группа зачастую перерастает в самостоятельные предприятия с численностью рабочих мест более 400.

5. Центры развития – новый метод осуществления процесса нововведения, основанный на экономически самостоятельных элементах, которые не имеют отношения к главным путям развития предприятий. При первом введении новых товаров для центров создаются признаки экономической активности, которые стимулируют рост объемов продаж и помогают в захвате рыночных позиций. Этот тип поощрения имеет то преимущество, что выплаты имеет свою прямую зависимость от успешности центра и его неудач.

6. Отделы НИОКР В инновационной системе менеджмента отделами инновационных разработок и изучений начали приобретать все большее влияние. Данные отделы имеют быстрый рост и развитие. Именно поэтому данные отделы имеют возможность самостоятельной разработки научно-технического прогресса предстоящего новшества. На сегодняшний день растет влияние взаимообмена НИОКР и групп осуществляющих производство пределах одного отделения, ротация персонала лабораторий в соседние отделы для осуществления рекомендаций. Увеличение влияния НИОКР доказывается на повышении объема денежных средств с 3 до 10% от общего объема сбытого товара[4].

7. Венчурные подразделения. Большие компании создают собственные венчурные отделы для основания рискового капитала. Данные фонды осуществляют финансирование в новые маленькие компании, которые при дальнейшем росте заключают обоюдовыгодные соглашения.

8. Специализированные централизованные фонды мотивации новшеств разрабатываются фирмами для повышения роста развития новшества и перехода его производства на серийный уровень.

9. Фонды стимулирования нововведений основываются в целях поддержания НИОКР которые имеют связь с нуждами отдела производства. Данные фонды реализую более быстрое развитие научно технических программ по разработке инноваций[5].

10. Консультационные, или аналитические, группы. Для оптимизации работы основывают фонды для поддержания различного рода ведомств промышленности и прикладных НИОКР. Функции данной группы являются:

4 Кушиев Р. Г. Организационные формы управления НИОКР и инновационной деятельностью строительных компаний // ТДР. – 2011. – №1.

5 Там же.

TARAQQIYOT PROGRESS

а) предопределение дальнейшего прогресса технологии, а также уровень спроса на инновационную продукцию;

б) выбор многообещающих разработок;

в) выбор пути развития исследований;

г) осуществления оптимального взаимодействия ученых, инженеров и рабочего класса.

Исследователи, менеджеры и представители всевозможных работающих групп формируют группы для консультации и рекомендаций.

Признак	Класс организации				
Вид специализации	Организации, базирующиеся на принципе				
	предметном			адресном	
	Продуктовая	Технологическая	Ресурсная	Использование научных результатов	Обслуживание отрасли, предприятии и т.д.
Вид научно-технической продукции	Организации, специализированные				
	на фундаментальных исследованиях	на прикладных исследованиях (НИР)	на ОКР	на создании опытных образцов	на производстве опытных партии, первых серий
Виды совершенствуемых объектов	Организации, специализированные на НИОКР. направленных на совершенствование				
	изделий	материалов	технологий	форм организации и управления	других объектов
Характер отрасли знаний	Организации в сфере наук				
	естественных	технических		общественных и гуманитарных	
Уровень новизны новшества	Организации, разрабатывающие (внедряющие) инноваций				
	радикальные		ординарные		
Принцип создания	Организации				
	постоянные		временные		

Таблица Ш.6: Классификация организаций научно-технической и инновационной сферы[6]

Затруднения в развитии нововведений в Республике Узбекистан заключается в проблемах закоренелой старой системы менеджмента. Многие активные научные организации производственного типа и хозяйства были единственными представителями своего направления и были самостоятельны. Данные организации имели всевозможные пути оплаты труда и осуществления стимуляции посредствам денежных выплат.

В этих условиях внедрение и использование инноваций в разработке и поставке новых товаров является ключевым преимуществом для любого бизнеса на рынке с точки зрения повышения его конкурентоспособности. Эти направления деятельности, на наш взгляд, имеют потенциал для создания новой ценности для потребителей в связи с товарами, повышения конкурентоспособности предприятия на рынке.

В Узбекистане регулирование инновационной деятельности в настоящее время сталкивается с рядом проблем из-за стадии развития страны. Республике пока не удалось достичь необходимой степени сложности их использования, не удалось и гарантировать эффективное воздействие на инновационные процессы всего многообразия применяемых механизмов и инструментов.

Прогресс, основанный на нововведениях, осуществляется посредствам сложного контакта научно-технической и технологической составляющей экономической сферы, а также комплекса денежно-хозяйственных взаимоотношений. Значительным положением, которых тормозит прогресс и введение инновационных методов и технологий является нехватка кадрового состава, а также капитала для реализации данного нововведения.

6 Разработано автором.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В условиях быстрого процесса научно-технического прогресса и повышения требований потребителей к качественным характеристикам товаров и услуг развитие творческой деятельности должно осуществляться на основе комплекса научно обоснованных принципов.

Внедрение и применение инноваций при разработке и поставке новых товаров в этих условиях представляет собой существенное преимущество для любой фирмы, работающей на рынке, с точки зрения повышения ее конкурентоспособности.

При наличии прогрессивного роста процесса глобализации рынка, конкуренция на международных рынках принимает довольно тяжкий процесс. Для обеспечения достойной конкуренции на международном рынке производители должны осуществлять постоянный мониторинг рынка и придерживаться международному стандарту качества, также необходим постоянный прогресс, направленный на разработку новшеств для обеспечения рынка продуктами спроса.

В сегодняшних реалиях наиболее эффективным методов сохранения конкурентоспособности на международном рынке является обеспечение реализации нововведений. Главными путями увеличения активности нововведений и развития конкурентоспособности компаний в промышленной отрасли заключается в постепенном целенаправленном решении проблем производственного, экономического и технологического характера. В целях эффективного использования имеющегося потенциала, повышения конкурентоспособности местного продукта, повышение доли внешней торговли осуществляется благодаря системы помощи предпринимателей Узбекистана.

В свете быстрого развития науки и техники, а также растущих ожиданий потребителей в отношении качества товаров и услуг совершенствование инновационной стратегии должно осуществляться в соответствии с набором научно обоснованных принципов.

Список литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”. (Национальная база данных законодательства, 29.01.2022 г., № 06/22/60/0082) // https://lex.uz/
2. Указ Президента Республики Узбекистан № 4947 “О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан” от 7 февраля 2017 года // Народное слово. – Ташкент, 2017 г., 8 февраля.
3. Карабаева Г.Ш. Перспективы развития инновационных процессов в промышленности Узбекистана. // BIZNES-ЭКСПЕРТ. – Ташкент, 2020. -№5. – С.133-136.
4. Шумпетер Й. Теория экономического развития / Й. Шумпетер; пер. с нем. В.С.Автономова, М.С.Любского, А.Ю. Чепуренко. – М.: Прогресс, 1982. – 456 с.
5. Наппельбаум, Э., Бейли, Т., Берг, П. и Кельберг, А. (2000), Преимущество производства: почему высокопроизводительные рабочие системы окупаются, издательство Корнельского университета.
6. Кадыров А.М. Формирование национальной инновационной системы в условиях углубления экономических реформ. Актуальные проблемы развития инновационной деятельности. Сборник научных трудов международной конференции. – Т., 2008. – С.19-2

MOL-MULK SOLIG‘INING KORXONALAR FAOLIYATIGA TA’SIRI

ORCID: 0000-0002-7305-3942

Qudiyarov Kishibay Ramatullayevich
PhD, Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, dotsent

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda korxonalar faoliyatiga mol-mulk solig‘ining ta’siri ko‘rib chiqilgan. Korxonalar ko‘chmas mulkiga soliq solishning oqibatlari nazariy va empirik tadqiqotlar asosida o‘rganilgan. Mintaqalar va mamlakatlar bo‘yicha mol-mulk solig‘i tushumlarining ulushi tahlil qilingan. Tahlil natijasida tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: ko‘chmas mulk, investitsiya, mulkiy soliqlar, soliq bazasi,soliq solish, soliq stavkasi.

Abstract: This research examines the effect of property tax on the activities of enterprises. The consequences of taxing the real estate of enterprises are studied on the basis of theoretical and empirical studies. The share of property tax revenues by region and country is analyzed. As a result of the analysis, relevant conclusions were formed.

Key words: real estate, investment, property taxes, tax base, taxation, tax rate.

Аннотация: В данном исследовании рассматривается влияние налога на имущество на деятельность предприятий. Последствия налогообложения недвижимости предприятий изучены на основе теоретических и эмпирических исследований. Проанализирована доля поступлений налога на имущество по регионам и странам. В результате анализа были сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: недвижимость, инвестиция, имущественные налоги, налоговая база, налогообложение, ставка налога.

КИРИШ

Soliq tizimida kapital solig‘ining o‘rni to‘g‘risida muhim nazariy va empirik munozaralar mavjud. Bu, ehtimol, kapitalning murakkab tabiatini hisobga olgan holda, unchalik ajablanarli emas. Kapital iqtisodiyotga investitsiyalarni moliyalashtirish uchun zarur bo‘lib, u vaqt o‘tishi bilan insonlar uchun resurslar harakatining instrumenti bo‘lib xizmat qiladi va turli shakldagi mulklar kabi iste’molchi manfaatlarini ta’minlaydi. Yangi empirik adabiyotlarda xususiy kapitalning hajmi va taqsimoti hamda uning vaqt bo‘yicha evolyutsiyasi tasvirlangan, ammo shuni aytish kerakki, uning soliqqa tortilishining iqtisodiy oqibatlari va umuman soliq tizimida kapital solig‘ining tegishli roli haqida jiddiy noaniqlik saqlanib qolmoqda [1].

O‘tgan davrlar davomida soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari mulkiy soliqlarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish, mulkiy soliqlar bo‘yicha to‘g‘ri hisoblash bo‘yicha axborot almashinuvini rivojlantirish, soliq organlarining to‘lovchilar bilan ishlash faoliyati sifatini oshirish va mol-mulk solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan bazani baholashning samarali mexanizmini ishlab chiqishdan iborat. Jahon soliq amaliyotida ko‘pgina mulkiy soliqlar bo‘yicha soliq solinadigan bazalari bir qator iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bog‘liq, masalan, turli xil mulk obyektlarining qiymati ularning jismoniy eskirishi va hisoblangan amortizatsiyasiga qarab, har xil vaqt oralig‘ida amalga oshirilgan qayta baholashlar va bozor usullarining qo‘llanilishi va boshqalar.

Mulkiy soliq obyektlarining tannarx xarakteristikalari majburiydir, chunki mulkiy munosabatlar mulk obyektlaridan daromad olish uchun foydalanish imkoniyatini belgilaydi, davlat foydasiga olib qo‘yish obyekti bo‘lib xizmat qilishi mumkin, lekin eng muhimi, ular soliq to‘lovchilar farovonligining ko‘rsatkichidir. Bundan tashqari, mulkiy munosabatlar obyektlari takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etib, ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlash va inson kapitali kabi ishlab chiqarish omilini rivojlantirishning asosiy sharti bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Normativ taxmin shundan iboratki, hukumat daromad olish uchun turli ko‘nikmalar/qobiliyatlarga ega bo‘lgan shaxslar o‘rtasidagi iqtisodiy natijalardagi farqlarni tenglashtirishga intiladi. Agar hukumat har bir kishining malaka darajasini kuzata olsa, soliqni rejalashtiruvchi har bir kishiga daromad olish uchun o‘ziga xos shaxsiy qobiliyatidan kelib chiqqan holda soliq yoki transfert tayinlashi mumkin edi. Agar hukumat har bir shaxsning malaka darajasini kuzata olsa, soliqni rejalashtiruvchi har bir shaxsga daromad olish uchun noyob shaxsiy qobiliyatiga qarab soliq yoki transfert tayinlashi mumkin edi. Bunday faraziy soliq tizimi jamiyatning barcha taqsimlash maqsadlarini iqtisodiy faoliyatni buzmasdan amalga oshiradi. Biroq individual iqtisodiy sharoitlar hukumat tomonidan kuzatilmaydi va shaxslar ularni haqiqatni oshkor qilish uchun hech qanday rag‘batga ega emaslar. Shu sababli, soliqlar kuzatiladigan xususiyatlarga va daromad yoki mol-mulk kabi iqtisodiy qadriyatlarga asoslanishi lozim. Alohida shaxslar ushbu miqdorlarni boshqarishi mumkin bo‘lgan darajada soliqlar manipulyatsiya qilishi va iqtisodiy faoliyatni buzishi ehtimoli mavjud. Kapital investitsiyalar uchun va resurslarni turli vaqtlarda harakatlantirish vositasi sifatida zarur. Bundan tashqari, kapital tovarlar iste’molchiga foyda keltirishi mumkin. Mulkka investitsiya kiritish resurslarni kelajakka qayta taqsimlash (jamg‘arish) usulidir, shuningdek, mulk iste’mol naflilikni ham ta’minlaydi, agarda uning egasiga mulk sifatida xizmat qilsa [1].

Korolevaning (2023) fikricha, mulkiy soliqlar investorning kapital xarajatlarining bir qismi bo‘lib, daromad solig‘i bilan bir qatorda investitsiya xulq atvorlariga ta’sir qiladi. Yangi soliqlarning joriy etilishi yoki mavjud bo‘lgan mulkiy soliqlarning og‘irligini oshirish kapital tovarlarga talabning pasayishiga olib kelishi va shu bilan investitsiya jarayonini rag‘batlantirishga olib kelishi mumkin [2]. Shu bilan birga, mulk solig‘i iqtisodiyot va iqtisodiy o‘sishga eng kam salbiy ta’sir ko‘rsatadigan soliqlar qatoriga kiradi. Ular mulkni yanada samarali boshqaradigan egalariga topshirishni osonlashtiradi. Soliq to‘lovchilarning farovonligini bilvosita pasaytirish daromadning (foydaning) bir qismini olib qo‘yish va bilvosita mulkni saqlash xarajatlarini oshirish orqali amalga oshiriladi. Ularning joriy etilishi odatda daromad solig‘ini joriy etishdan ko‘ra kichikroq daromad effekti bilan bog‘liqdir. Biroq ularning daromaddan ajratilishi likvidlik inqiroziga olib kelishi mumkin, ayniqsa rentabelligi past bo‘lgan tarmoqlarda va zarar faoliyat davrida [1].

Mulkiy soliqlarning fiskal ahamiyatini oshirish uchun, o‘z tarkibiga bino va inshootlar hamda ular joylashgan yer uchastkasini oluvchi ko‘chmas mulk solig‘ining bazasini aniqlashda yuridik shaxslar uchun yillik o‘rtacha qoldiq qiymat usulidan voz kechib, ko‘chmas mulkning qiymatini bozor mexanizmlari asosida baholash tizimiga o‘tish zarurligi [3]. Ko‘chmas mulkni bozor qiymatida baholashning o‘ziga xos xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatlarini, bu boradagi xorij tajribasini o‘rganib, rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, mol-mulk va yer soliqlarini birlashtirib ko‘chmas mulk solig‘ini joriy etilishi ko‘rsatib o‘tilgan [4].

Mayburov va Ivanovalarning ta’kidlashicha mulkiy soliqlarning quyidagicha tasniflash mumkin: soliq solish obyektiga mansubligi bo‘yicha; soliq solish subyektiga mansubligi bilan; soliq stavkasi, uning differensiatsiyasi va soliq yukiga ta’siri bilan bog‘liq holda (1-jadval).

1-jadval: Mulkiy soliqlarning tasnifi [5]

Tasniflash belgilari	Mulkiy soliqlarning nomlanishi
Mulkiy soliq solish obyektlari bo‘yicha	
Mulkni to‘liq yoki qisman soliqqa tortish	mulk solig‘i; meros (hadya) solig‘i; kapital o‘sishiga soliq; yer solig‘i; transport solig‘i; alohida mulk obyektlariga soliq;
Mulkdan olinadigan brutto-soliqlari va netto-soliqlari	umumiy mulkka soliqlar; sof mulkka soliqlar;
Mulkka (egalik qilish) soliqlar Mulkning o‘sishi va harakatidan olinadigan soliqlar	ko‘chmas mulk solig‘i; yer solig‘i; kapital o‘sishiga soliq; meros va hadya solig‘i; mulkni sotib olishdagi to‘lovlar;

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Soliq solish subyektlari bo‘yicha	
Alohida, aralash soliqqa tortish	yuridik shaxslar mulk solig‘i; jismoniy shaxslar mulk solig‘i; meros va hadya solig‘i; ko‘chmas mulk solig‘i; yer solig‘i; transport solig‘i;
Mulk egalari va foydalanuvchilarini soliqqa tortish	faqat mulkiy huquqlar mavjud bo‘lsa; uzoq muddatli foydalanishdagi mol-mulkka soliqlar;
Soliq stavkasi va uning soliq yukiga ta’siri bo‘yicha farqlanishiga nisbatan	
Proporsional va progressiv stavkalar	yer solig‘i; yuridik shaxslarning mulk solig‘i; meros va hadya solig‘i; jismoniy shaxslarning mulk solig‘i;
Nominal va real soliqlar	to‘lov manbai daromad bo‘lgan mulkiy solig‘i; to‘lov manbai mulkning bir qismini sotishdan olingan daromad bo‘lgan meros va hadya solig‘i;

Turli iqtisodiy va huquqiy adabiyotlarni tahlil qilish, mulk obyektlarining turli xil xususiyatlari bilan uning tarkibiga ko‘pincha bevosita mulk (turli moddiy ko‘rinishdagi) va mulkiy huquqlar kiradi, deb xulosa qilish imkonini beradi. Mulkni umumlashgan toifa sifatida tavsiflab, uning tarkibiga kiritilgan barcha tovarlar va huquqlar bir qator umumiy xususiyatlarga ega ekanligini ta’kidlash mumkin: birinchidan, o‘ziga xos iqtisodiy mazmun va mulkiy-qiymatli tabiati. Iqtisodiy mazmun qiymat tashuvchisi bo‘lgan tovar bilan belgilanadi va mulkiy-qiymatli tabiat obyektlarni foydali ayirboshlash (sotish, o‘tkazish, meros qilib olish va boshqalar) imkonini beradi. Ikkinchidan, reproduktiv jarayonning aylanishida ushbu obyektdan foydalanishga imkon beruvchi obyekt egasidan begonalashish qobiliyati.Uchinchidan, obyektning obyektiv yaxlitligi, bu obyekt va boshqalar o‘rtasidagi nomuvofiqlik va mustaqil qiymatning mavjudligi. Bir qator adabiy manbalarda substantiv yaxlitlik mazmunli to‘liqlik bilan to‘ldiriladi, bu narsaning ko‘rinishi uni ushbu tovarni yaratish yoki amalga oshirish jarayoni bilan bog‘lashni talab qilmasligida ifodalanadi[6]. Qayd qilingan barcha xususiyatlar mulkning turlicha bo‘lgan quyidagi xususiyatlarini aks ettiradi: birinchi – mazmunli, ikkinchi – dinamik, uchinchi – statik.

Korporativ mol-mulkni soliqqa tortishning nisbatan kengroq ko‘lamining salbiy oqibatlari bu farovonlik yo‘qotishlariga olib keladigan almashtirish effekti hisoblanadi. Masalan, mol-mulk solig‘ining oshishiga javoban, investor loyihani amalga oshirishdan bosh tortishi mumkin. Agar bir vaqtning o‘zida u o‘z kapitaliga mamlakat ichida boshqa taklifi mavjud bo‘lsa, milliy darajada investitsiyalarning umumiy hajmidagi yo‘qotishlar minimal bo‘ladi. Salbiy ta’sir o‘zini ko‘proq daromadli (imtiyozli) faoliyat sohalariga investitsiyalarning ortiqcha oqimida namoyon bo‘lishi mumkin, bu esa iqtisodiyotning tarkibiy deformatsiyasiga olib keladi. Agar mamlakat ichida investitsiya loyihasini amalga oshirishni rad etish kapitalni chet elga olib chiqish bilan bog‘liq bo‘lsa almashtirish effektining salbiy oqibatlari maksimal bo‘ladi [7]. Salbiy ta’sirlar soliq solinadigan bazaning asosini tashkil etuvchi asosiy kapitalning nisbatan past harakatchanligi bilan cheklanadi.Bu o‘rta muddatli istiqbolda uni boshqa yurisdiksiyalarga o‘tkazish imkoniyatini minimallashtiradi. Biroq mol-mulkka soliq yukining ortishi mavjud obyektlarni modernizatsiya qilish uchun foydani qayta investitsiya qilishdan bosh tortishga, ularning eskirishiga, uzoq muddatda amortizatsiya to‘lovlari hisobiga kapitalni olib qo‘yishga va faoliyatni qisqartirishga (bankrotlik) olib kelishi mumkin.Avvalo ko‘chmas mulk bilan solishtirganda biznes siklning istalgan bosqichida yuqori mobillik va likvidlikka ega bo‘lgan ko‘char mulk risk ostida qoladi [8]. Ishlab chiqarish jarayonida asosiy vositalarning faol qismining asosiy rolini hisobga olib, uni mulk solig‘i bilan soliqqa tortish almashinuv effektini kuchaytiradi. Bundan tashqari, mulk solig‘ining og‘irligini oshirish bir-birini almashtiradigan ishlab chiqarish omillarini tanlash bo‘yicha biznes qarorlarini buzishi mumkin.Masalan, mablag‘larini texnologiyalarni sotib olishga emas, qo‘l mehnati va ish haqini oshirishga yo‘naltirishi mumkin [9]. Olib borilgan empirik tahlilida biznesning ko‘chmas mulkini soliqqa tortish moddiy boyliklar va qo‘shilgan qiymatdan foydalanishning eng beqaror qismi bo‘lgan uskunalarga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan, shuningdek, investitsiyalarni kamaytiradi va firmalarni ishlab chiqarish hajmini va xodimlarni qisqartirishga olib keladi [10]. Uy-joy va ishlab chiqarish obyektlari va jihozlariga qilingan investitsiyalarga mol-mulk solig‘ining yuqori samarali stavkasi ta’siri salbiydir [11]. Mol-mulk solig‘i stavkalarini oshirilishi ko‘chmas mulkka investitsiyalar hajmining qisqarishiga olib keladi [12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, nazariy empirik tadqiqotlarga ilmiy yondashuvlar, ekspert baholash, tasviriy statistika, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLILI

Mol-mulk solig‘ining (keng ma’noda ko‘chmas mulklar) mintaqaviy taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, mol-mulk solig‘i tushumlari YAIMdagi ulushi Osiyo mintaqasida Yevropa Ittifoqi (YEI) va OECDga qaraganda kamroq ahamiyatga egaligin ko‘rish mumkin (2-jadval).

2-jadval: Turli mintaqalarda YAIMga nisbatan mol-mulk solig‘ining ulushi [13]

Mintaqalar	2016	2017	2018	2019	2020
Yevropa Ittifoqi (27 ta)	0.9	0.9	0.9	0.9	0.9
OECD (38 ta)	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2
Afrika (23 ta)	0.1	0.1	0.2	0.2	0.2
Osiyo-Tinch okeani (19 ta)	0.5	0.5	0.5	0.5	0.5
Lotin Amerika (25 ta)	0.5	0.5	0.4	0.5	0.5

Mintaqalardagi ko‘plab past va o‘rta daromadli mamlakatlarda joriy mol-mulk solig‘ining YAIMga nisbati ancha past bo‘lib, 20 ta mamlakat bo‘yicha o‘rtacha nisbat 2014–2019-yillarda YAIMning 0,3% ga yaqin bo‘lgan holda, 2020-yilda esa 0.37% gacha ko‘tarilgan. Osiyo mamlakatlarida soliq tushumlari YAIMning o‘rtacha 15% ni tashkil etishini hisobga olsak, joriy mol-mulk solig‘idan tushadigan daromadlar umumiy soliq daromadlarning tushumida katta hissaga ega emasligini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, mintaqadagi mamlakatlarni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, joriy mol-mulk solig‘ini ko‘rib chiqishda iqtisodiyotlar o‘rtasida sezilarli xilma-xillik mavjud (3-jadval).

3-jadval: Tanlangan Osiyo mamlakatlarida YAIMga nisbatan mol-mulk solig‘ining ulushi [13]

Mamlakatlar	Daromad darajasi	2016	2017	2018	2019	2020
Armaniston	o‘rtachadan yuqori	0.47	0.47	0.42	0.39	0.40
Xitoy	o‘rtachadan yuqori	0.69	0.69	0.67	0.61	0.57
Gruziya	o‘rtachadan yuqori	1.01	0.97	0.99	0.96	0.88
Indoneziya	o‘rtachadan past	0.38	0.42	0.35	0.34	0.45
Qozog‘iston	o‘rtachadan yuqori	0.45	0.47	0.48	0.46	0.44
Qirg‘iziston	o‘rtachadan past	0.52	0.49	0.49	0.48	0.47
Laos	o‘rtachadan past	0.08	0.08	0.12	0.12	0.11
Mongoliya	o‘rtachadan past	0.44	0.47	0.43	0.41	0.41
Tailand	o‘rtachadan yuqori	0.23	0.25	0.23	0.22	0.04
O‘zbekistan	o‘rtachadan past	1.03	1.01	0.97	0.88	0.72
Vetnam	o‘rtachadan past	0.03	0.03	0.03	0.03	0.03
O‘rtacha		0.32	0.32	0.32	0.30	0.37
Yaponiya	yuqori	1.87	1.86	1.87	1.91	2.00
Koreya	yuqori	0.75	0.78	0.82	0.92	1.03
Singapur	yuqori	0.97	0.93	0.91	0.93	0.65
O‘rtacha		1.20	1.19	1.20	1.25	1.23

Mintaqadagi yuqori daromadli mamlakatlarda joriy mol-mulk solig‘ining YAIMga nisbati 2020-yilda Yaponiya, Koreya va Singapurdagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan qariyb uch baravar yuqori bo‘lib, 1,23 foizni tashkil qilgan [14]. Gruziya, Qirg‘iziston Respublikasi va Qozog‘iston kabi mamlakatlarda joriy mol-mulk solig‘ining ulushini YAIMga nisbati Osiyoning boshqa past va o‘rta daromadli mamlakatlariga qaraganda yuqoridir. Bu qisman ularning markazlashgan boshqaruv tizimi bilan bog‘liq. Bu mamlakatlarda baholash markazlashtirilgan funksiya bo‘lib, boshqa ma’muriy funksiyalar markazlashtirilmagan soliq organlari tizimi orqali amalga oshiriladi [15]. Bundan tashqari, ushbu mamlakatlarning aksariyati o‘zlarining yer va mulk kadastrlarini rivojlantirishga katta miqdorda sarmoya kiritdilar, bu esa ko‘chmas mulklarni yanada kengroq qamrab olishini ta’minlaydi.

Nafaqat yerdan, balki bino va inshootlardan olinadigan yuqori mol-mulk solig‘i korxonalar qo‘shimcha soliq to‘lashi kerak bo‘lgan infratuzilmaga investitsiya kiritishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi sababli, korxonalar ko‘chmas mulklarini mol-mulk solig‘i yuqori bo‘lgan hududlardan uzoqroqda joylashtirishni tanlashlari mumkin. Ko‘rib chiqilayotgan 30 ta Yevropa davlatidan ikkitasi, Lixtenshteyn va Maltada hech qanday davriy mol-mulk solig‘i umuman undirilmaydi. Estoniya faqat yerga soliq soluvchi yagona davlat bo‘lib, uning mulk solig‘i eng samarali hisoblanadi. Mol-mulk solig‘i undiriladigan 28 ta davlatdan 23 tasi korxonalarga mulk yoki yer solig‘ini korporativ foydadan chegirib tashlash imkonini beradi, bu esa soliq yukini yumshatadi va biznesni investitsiya kiritishga undaydi [16]. Jumladan, Beloti,Di Porto va Santonilar tomonidan olib borilgan empirik tahlil natijalarida mol-mulk solig‘i stavkasining 1 foizga ko‘tarilishi xususiy kapitalga investitsiyalarni taxminan 30 foizga, bandlik hamda kapitalni mos ravishda taxminan 3,6 va 3,2 foizlarga kamayishiga olib kelishi mumkin (4-jadval).

4-jadval: Korxona faoliyati natijalariga mol-mulk solig‘i ta’sirining regression tahlil [10]

	ln(Emp) (1)	ln(Cap) (2)	TFP (3)	ln(Sales) (4)
Panel A: FE				
Tax rate	0.001	0.058**	-0.004	0.009
	(0.010)	(0.024)	(0.009)	(0.010)
Panel B: GMM FE				
Tax rate	0.020*	0.066**	0.010	0.030***
	(0.012)	(0.032)	(0.012)	(0.012)
Hansen-J	0.003	0.058	0.001	0.003
Panel C: GMM FE-SD				
Tax rate	-0.112***	-0.299**	-0.143***	-0.210***
	(0.038)	(0.137)	(0.049)	(0.058)
Hansen-J (*p-value*)	0.241	0.407	0.202	0.253

*p < 10%; **p < 5%, ***p < 1%.

Shu bilan birga,mol-mulk solig‘i stavkasi va yalpi omillar mahsuldorligi (soliq stavkasining 1 foizga ko‘tarilishi yalpi omillar mahsuldorligining 14 foizga pasayishiga olib kelishi mumkin) va korxonalar realizatsiya hajmi (soliq stavkasining 1 foizga ko‘tarilishi realizatsiya hajmining taxminan 21 foizga kamayishiga olib kelishi mumkin) o‘rtasida statistik ahamiyatli salbiy ta’sirlar mavjudligi aniqlangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqori darajadagi mol-mulk solig‘i korxonalarning mavjud obyektlarni modernizatsiya qilish uchun foydani qayta investitsiya qilishdan bosh tortishga, ularning eskirishiga, uzoq muddatda amortizatsiya to‘lovlari hisobiga kapitalni olib qo‘yishga va faoliyatni qisqartirishga (bankrotlik) olib kelishi mumkin.Avvalo, ko‘chmas mulk bilan solishtirganda biznes siklning istalgan bosqichida yuqori mobillik va likvidlikka ega bo‘lgan ko‘char mulk risk ostida qoladi.

Olib borilgan empirik tahlilladada biznesning ko‘chmas mulkini soliqqa tortish investitsiyalarni kamaytiradi va firmalarni ishlab chiqarish hajmini va xodimlarni qisqartirishga olib keladi. Mol-mulk solig‘ining yuqori samarali stavkasi ishlab chiqarish obyektlari va jihozlariga qilingan investitsiyalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqori mol-mulk solig‘i korxonalar qo‘shimcha soliq to‘lashi kerak bo‘lgan infratuzilmaga investitsiya kiritishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi sababli, korxonalar ko‘chmas mulklarini mol-mulk solig‘i yuqori bo‘lgan hududlardan uzoqroqda joylashtirishni tanlashlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bastani, S. & Waldenström, D., 2018. How Should Capital be Taxed? Theory and Evidence from Sweden. CESifo Working Paper Series 7004, CESifo.
2. Королева Л. П., 2023. Влияния имущественных налогов на инвестиционную деятельность организаций // Вестник Тюменского государственного университета. Социально-экономические и правовые исследования. Том 9.№ 1 (33). С. 131–147.
3. Musalimov Sh.I., 2020. Mol-mulk solig‘ini hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirish. /Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TMI. – 26 b.
4. Fayziyev F., 2020. Soliq solish maqsadida ko‘chmas mulkni bozor qiymatida baholashning o‘ziga xos xususiyatlari.// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral.
5. Майбуров И.А., Иванова Ю.Б., 2016. Энциклопедия теоретических основ налогообложения.под ред. И.А. Майбурова. Москва : ЮНИТИ-ДАНА. 503 с.
6. Бобошко, Н.М., 2011. Оценка и контроль в системе имущественного налогообложения: теория и методология: монография.Йошкар-Ола: Стринг.- 260 с.
7. Майбуров И. А. и др., 2022. Теоретико-методологические аспекты имущественного налогообложения юридических лиц: монография. М.: ЮНИТИ-ДАНА. 264 с.
8. Корытин А. В., Малинина Т. А., 2019. Международный опыт налогообложения движимого имущества организаций // Научно-исследовательский финансовый институт. Финансовый журнал. № 2 (48). С. 22–36.
9. Хиллман А. Л., 2009. Государство и экономическая политика: возможности и ограничения управления: учебное пособие. М.: Издательский дом ГУ ВШЭ. 880 с.
10. Beloti F.,Di Porto E., Santoni G.,2021. The effect of local taxes on firm performance: Evidence from geo-referenced data. Journal of Regional Science, Wiley Blackwell, vol. 61(2), pages 492-510.
11. Church A. M., 1981. The Effects of Local Government Expenditure and Property Taxes on Investment. Real Estate Economics, American Real Estate and Urban Economics Association, vol. 9(2), pages 165-180.
12. Hayashi A. T., Hynes R. M. 2020. Protectionist property taxes // Virginia Public Law and Legal Teory. No. 2020-24; Virginia Law and Economics. No. 2020-02.
13. Revenue Statistiks in Asia and the Pacific 2023. https://www.oecd-ilibrary.org.
14. OECD, 2022. Global Revenue Statistiks Database – OECD, https://www.oecd.org.
15. McCluskey, W.,2016.Real Property Taxation in the Republic of Kazakhstan. Land Tenure Journal, pp. 119-138.
16. Real Property Taxes in Europe, 2023.https://taxfoundation.org.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



BANKLAR REYTINGINI ANIQLASH VA BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Maxmudov Omon Tuxtayevich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Tijorat banklari butun dunyoda "iqtisodiyotning qon aylanish tizimi" hisoblanadi. Banklar orqali mamlakatda iqtisodiy masalalar, xususan, pul-kredit va valyuta munosabatlari, mijozlar o'rtasidagi hisob-kitob amaliyotlari hamda boshqa turli operatsiyalar amalga oshiriladi. Bunday sharoitlarda tijorat banklari faoliyati barqaror, har qanday iqtisodiy risklarga bardosh berishi esa muhim ahamiyat kasb etadi.

Banklar moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi ko'p hollarda davlatlar, Markaziy banklar va mijozlar uchun nihoyatda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Banklar barqarorligini aniqlash vositalaridan biri – bu ularni reytingini shakllantirish bo'lib, reytinglar investorlar, omonatchilar va tartibga soluvchilar uchun muhim vosita sifatida, banklar faoliyatini xolis baholash imkonini beradi. Reytinglarni aniqlash bankning moliyaviy barqarorligi va tavakkalchiliklarga bardosh bera olish qobiliyatini baholovchi murakkab va ko'p qirrali jarayonlarni o'z ichiga oladi. Maqolada banklar faoliyati ko'rsatkichlari va ularning banklar reytingiga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Bank, reyting, reyting kompaniyalari, barqarorlik, muammoli kredit, aktivlar, YAIM, depozit, rentabellik, aktivlar sifati, barqarorlik.

Abstract: Commercial banks are the "circulatory system of the economy" around the world. Economic issues in the country are carried out through banks, in particular monetary and foreign exchange relations, settlements between clients and various other operations. In such conditions, the activities of commercial banks are stable, and it is important to counter any economic risks.

Financial stability and reliability of banks in many cases is one of the most pressing issues for states, central banks and clients. One of the means of determining the stability of banks is the formation of their ratings, and ratings are an important tool for investors, depositors and regulators, allowing them to objectively assess the activities of banks. Determining ratings involves complex and multifaceted processes that assess a bank's financial strength and ability to withstand risks. The article analyzes the performance indicators of banks and their impact on the rating of banks.

Key words: Bank, rating, rating companies, stability, problem loan, assets, GDP, deposit, profitability, asset quality, stability.

Аннотация: Коммерческие банки являются "кровеносной системой экономики" во всем мире. Через банки осуществляются экономические вопросы в стране, в частности денежно-кредитные и валютные отношения, расчеты между клиентами и различные другие операции. В таких условиях деятельность коммерческих банков стабильна, и важно противостоять любым экономическим рискам.

Финансовая стабильность и надежность банков во многих случаях является одним из наиболее актуальных вопросов для государств, центральных банков и клиентов. Одним из средств определения устойчивости банков является формирование их рейтингов, а рейтинги являются важным инструментом для инвесторов, вкладчиков и регуляторов, позволяющим объективно оценивать деятельность банков. Определение рейтингов включает в себя сложные и многогранные процессы, оценивающие финансовую устойчивость и способность банка противостоять рискам. В статье анализируются показатели деятельности банков и их влияние на рейтинг банков.

Ключевые слова: Банк, рейтинг, рейтинговые компании, стабильность, проблемный кредит, активы, ВВП, депозит, доходность, качество активов, стабильность.

KIRISH

Jahonda global raqobatning keskinlashuvi sharoitida bank tizimi barqarorligini oshirish, banklar faoliyatiga bo'lgan ishonchlilik darajasini kuchaytirishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Banklar faoliyatiga bo'lgan ishonchlilik darajasini namoyish etishning eng samarali usullaridan biri bu ularning reytingini aniqlash hisobla-

nadi. Banklarning reytingi – bu tijorat banklarining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari bo‘yicha har tomonlama murakkab tadqiqotlar va taqqoslash tizimi bo‘lib, jahonda reyting berish amaliyoti “Moody‘s Investors Service, Standart&Poor‘s va Fitch Ratings xalqaro reyting agentliklari tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur xalqaro reyting agentliklarining dunyo reyting bozoridagi salmog‘i 95% ni tashkil etadi. Shundan, Moody‘s Investors Service va Standart&Poor‘s reyting agentliklarining har biri 40% dan, hamda Fitch Ratings reyting agentligi 15% bozorga egalik qiladi”[1]. Germaniyaning “KfW”, Shveysariyaning “Zuercher Kantonalbank”, Niderlandiyaning “ING Bank”lari bu reyting agentliklarining eng yuqori reytinglariga ega bo‘lib, 2022-yilda jahonda eng xavfsiz va barqaror banklar reytingida kuchli uchlikdagi o‘rinlarni egallagan[2]. Bu jarayonlar xalqaro tajribalarni o‘rgangan holda mamlakatimizda tijorat banklari reytingini aniqlash amaliyotini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

“Reyting” termini inglizcha “rating” so‘zidan tarjima qilinganda “baholash”, “bahosini aniqlash” yoki “sinf, razryad, toifalarga ajratish” ma’nolarini beradi[3]. Reytingning mazmuni biror subyektning ma’lum bir jihati bo‘yicha tasniflash emas, aksincha reytinglanayotgan subyektning holatini baholashni nazarda tutadi. Xorijlik iqtisodchi olimlardan L.Uayt “Reyting aniq korxonalar to‘g‘risidagi hammabop axborot manbai bo‘lib, qaror qabul qilishning muhim vositasidir”[4] deb fikrlarini bayon qilgan bo‘lsa, M.Modina o‘z tadqiqotlarida “Bank reytingi – bu bank balansidagi ma’lumotlarning to‘g‘riligini ifoda etuvchi, bank faoliyatining imkoniyatlarini yoritib beruvchi hamda bozor iqtisodiyoti faoliyatida tutgan o‘rnini belgilab, u haqda axborot yetkazuvchi indikatordir”[5] ta’rifini keltirib, reytinglar bank barqarorligi bo‘yicha umumiy axborot manbai ekanligiga e’tibor qaratishgan.

Iqtisodchi olim M.Afanasenkoning fikricha “reyting” – bu moliyaviy tizim va ekspert baholari ma’lumotlari asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun iqtisodiy tizim faoliyatini har tomonlama qiyosiy baholashdir[6]. Ushbu olim qaror qabul qilishda ekspert baholariga alohida urg‘u bergani ma’lum bo‘ladi. V.Batkovskiyning fikricha “reyting” ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, atrof-muhit holati, hayot sifati, uni qo‘llab-quvvatlovchi tarkibiy va sifat jihatidan tavsiflovchi barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlarining iyerarxik qurilgan tizimdir[7]. Ushbu olim reytinglashda asosiy urg‘uni ko‘rsatkichlar tizimiga e’tibor qaratadi. Rus olimi O.Lavrushinning fikricha: “Reyting – bu xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini kompleks baholash bo‘lib, u bir qancha ko‘rsatkichlar tizimidan foydalangan holda aniqlanadi”[8]. Ushbu olim fikriga qo‘shilgan holda banklar reytingini aniqlashda umumlashgan bir qancha ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqligiga alohida urg‘u berib o‘tmoqchimiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqotning maqsadi tijorat banklarining iqtisodiyotda tutgan o‘rnini baholash va ularning barqarorligini ta’minlash, jumladan banklar reytingigiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish asnosida xulosalar chiqarish hisoblanadi. Shuningdek, maqolada nazariy jihatdan iqtisodchi olimlarning fikrlari va xalqaro moliyaviy tashkilotlar tavsiyalari asosida takliflar keltirilgan. Tadqiqot davomida banklarning barqarorligini ta’minlashdagi amaliy tavsiyalar va ularni tatbiq etish yo‘llari keltirib o‘tilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari barqarorligini belgilovchi va ularning reytingini aniqlashda bank aktivlarning sifati eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bank aktivlari sifati deganda, eng avvalo, aktivlar portfeli, ya’ni kredit portfeli, investitsion portfellarning sifati, muammoli aktivlarning umumiy aktivlardagi salmog‘i, muammoli aktivlarni boshqarishga qaratilgan siyosat va amaliyot tushuniladi.

1-rasm ma’lumotlaridan yalpi bank aktivlarining mamlakat YAIMga nisbatan 2019-yilda 51,5 foizdan 2024-yil 1-yanvar holatiga 61,2 foizni tashkil etganini, ya’ni bank aktivlari salmog‘ining mamlakat YAIMga nisbatan sezilarli oshganini ko‘rishimiz mumkin. Lekin buni ham yetarli deb bo‘lmaydi albatta. Sababi, ayrim rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda bank yalpi aktivlarining mamlakat YAIMga nisbati 100 foiz va undan ko‘proqni tashkil etadi.

1 Hau, H., Langfi eld, S. Marquess-Ibanez D. 2013. Bank ratings: what determines their quality? Economic policy, vol. 28 (74).
2 David, S.(2023. November10). The debacles of 2023 clearly illustrated that a bank‘s financial stability must never be taken for granted. “Global finance”. https://gfmag.com/banking/worlds-safest-banks-2023-global-100
3 https://context.reverso.net- Ensiklopedii, slovari, spravochniki – onlayn
4 White, L. (2010). ‘Markets: The credit rating agencies‘, Journal of Economic Perspectives, 24(2), 211-26.
5 Modina, Michele. Credit Rating and Bank-Firm Relationships.New Models to Better Evaluate SMEs. Palgrave Macmillan UK.2015. p. 83
6 Афанасенко М.В. Методические подходы к формированию рейтинга банков Украины. Академический обзор. 2011.№ 2 (35). С. 73-78
7 Батковского В.А. Рейтинговая оценка деятельности банков. Финансы Украины. 2014. № 5. С. 145-151.
8 Лаврушин, О.И. Модели и технологии банковской деятельности: учебник/ под редакцией О.И.Лаврушин. – Москва: КНОРУС, 2021. – 287 стр




1-rasm: O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi (% da)[9]

Kreditlash operatsiyalari banklarning eng asosiy operatsiyalari qatorida bo‘lib, reyting agentliklari e’tibor qaratadigan asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Bunda kreditlarni xususiy sektorga ajratilgan miqdori, muammoli kreditlarning umumiy kredit portfelidagi miqdori katta ahamiyat kasb etadi.

2016–2019-yillarda O‘zbekistonda muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 0,7-1,5 foiz atrofida bo‘lib, bu MDH davlatlari orasida eng past darajada shakllangan. 2020-yilning I choragidan boshlab muammoli kreditlarning tez sur’atlarda o‘sishi va 2022-yil 1-yanvar holatiga kelib 5,2 foiz darajasida shakllanganligi pandemiya davrida iqtisodiy faollikning sekinlashishi sababli biznes subyektlar va aholi daromadlari qisqarishiga mos ravishda to‘lovga qobiliyatliligi pasayishi bilan bog‘liq10. 1-rasm ma’lumotlarida 2024-yil 1-yanvar holatiga kelib muammoli kreditlarning 3,5 foizgacha pasayganligini kuzatishimiz mumkin. Xususiy banklarda muammoli kreditlarning ulushi davlat ulushi mavjud bo‘lgan banklarga nisbatan pastroq shakllangan. Buning asosiy sabablari sifatida mijozlarga yo‘naltirilgan biznes modeli, ilg‘or korporativ boshqaruv va risklarni boshqarish siyosati, kreditlar ajratish bo‘yicha qat’iy talablar hamda yirik korporativ kreditlarga nisbatan iste’mol kreditlarini ajratishga e’tibor qaratilganligi bilan izohlash mumkin.

2024-yil 1-yanvar holatiga banklarning kredit portfelida muammoli kreditlarning salmog‘i Oktobankda 85,2 foiz, Eron Soderot bankda 17,6 foiz, Madad Invest bankda 13,2 foizni tashkil etgani ijobiy holat hisoblanmaydi. Bu esa ularning reyting bahosiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, muammoli kreditlarning salmog‘i banklarga reyting berish amaliyotida xalqaro va mahalliy reyting agentliklarining eng asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro valyuta fondining tavsiyasiga ko‘ra tijorat banklari kredit portfelida muammoli kreditlarning salmog‘i 1-2 foiz bo‘lishi normal holat ekanligi, 5 foizga yetishi esa bankda kelgusida turli muammolar kelib chiqishidan dalolat beradi.

Tadqiqotlarimiz jarayonida tijorat banklariga reyting berishda bank aktivlari va kapitalining konsentarsiyalashuv darajasi hamda raqobat muhiti, bank kredit portfelida muammoli kreditlarning salmog‘i, banklarning resurs manbalari va ulardan foydalanish darajasi, sof foyda va rentabellik ko‘rsatkichlarining ijobiy bo‘lishi, bank reytinglarining ijobiy bo‘lishiga olib kelishi aniqlandi.



2-rasm: O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining muammoli kreditlari bo‘yicha solishtirma ma’lumot (% da)[11]

9 “Kap Depo” investitsiya kompaniyasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi -https://kapdepo.uz
10 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Moliyaviy barqarorlik 1 yarim yillik sharhi. Oktyabr 2022-yil. -34 b.
11 “Kap Depo” investitsiya kompaniyasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi -https://kapdepo.uz

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bank reytingi – reyting berish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi organlarning reyting tizimlari aniqlashtirib olingan mezonlar asosida banklar barqarorligiga baho berish va faoliyatini tizimli tahlili hisoblanib, kelgusida undan foydalanish oshib boradi.

Tahlillarimiz davomida yalpi bank aktivlarining mamlakat YAIMga nisbatan 2019-yilda 51,5 foizdan 2024-yil 1-yanvar holatiga 61,2 foizni, tashkil etganligini ko‘rib o‘tdik.

Bank yalpi kapitalining mamlakat YAIMga nisbatan darajasi 2019-yilda 6,3 foizdan 2023-yilda 9,3 foizga oshgan, bu jarayon ijobiy holat hisoblansada, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki axborotiga ko‘ra 2020-2021-yillarda tijorat banklari kredit portfellari hajmining sezilarli oshishi riskka tortilgan aktivlarning o‘sish sur’atini jadallashtirgan.

Tijorat banklari depozitlarining kreditlarga nisbati 0,75-1,0 koeffitsiyentgacha bo‘lganda, bank jalb etilgan resurslaridan samarali foydalanayotganidan dalolat bersa, 1,0 dan yuqori bo‘lganda resurslardan yetarlicha foydalanilmayotganini bildiradi. Banklarda muammoli kreditlar salmog‘i 2022-yil 1-yanvar holatiga 5,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil 1-yanvar holatiga 1,7 foizli punktga kamayib 3,5 foizni tashki etgan.

Tijorat banklari aktivlari tarkibida xususiy aktivlar salmog‘ini oshirish va banklarning ustav kapitali me’yoriy darajalarini belgilash kelgusida tijorat banklarimiz xalqaro reyting kompaniyalarining investitsion reytinglarini olishiga imkoniyat yaratadi. Xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan investitsion reytinglar banklar uchun qator imtiyozlarni beradi. Xususan, xalqaro reytingni qo‘lga kiritgan banklar chet el banklaridan qisqa muddatli banklararo kreditlarni jalb qilish imkoniyatiga, bank va uning mijozlari uchun xizmatlar sifatini oshishiga va tariflari arzonlashuviga olib keladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz tijorat banklari kredit portfelida muammoli aktivlarning salmog‘i oshib borayotganligi, mijozlarning kreditni qaytara olmasligi natijasida, zanjirli muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois, tijorat banklari ichki reyting modelini ishlab chiqishlari va qarz oluvchilar moliyaviy holatini doimiy monitoring qilishlari va amaliyotda joriy qilishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tijorat banklari ichki kredit reytingini aniqlashga bo‘lgan talab Xalqaro bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining talablarida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, bugungi kunda aksariyat rivojlangan davlatlarning tijorat banklari amaliyotida keng qo‘llanib kelinmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 21.12.1995-y. 154-1-son “O‘zbekiston Respublikasining Mapkaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni (Yangi tahriri, O‘zR 11.11.2019-y. O‘RQ-582-son Qonuni bilan tasdiqlangan)
2. O‘zbekiston Respublikasining 25.04.1996-y. 216-1-con “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (Yangi tahriri, O‘zP 05.11.2019-y. O‘RQ- 580-con Qonuni bilan tasdiqlangan)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-y. PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 12.05.2020-y. PF-5992- son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish stpategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni
5. Hau, H., Langfi eld, S. Marquess-Ibanez D. 2013. Bank ratings: what determines their quality? Economic policy, vol. 28 (74).
6. David, S.(2023. November10). The debacles of 2023 clearly illustrated that a bank‘s financial stability must never be taken for granted. “Global finance”. https://gfmag.com/banking/worlds-safest-banks-2023-global-100
7. White, L. (2010). ‘Markets: The credit rating agencies‘, Journal of Economic Perspectives, 24(2), 211-26.
8. Modina, Michele. Credit Rating and Bank-Firm Relationships.New Models to Better Evaluate SMEs. Palgrave Macmillan UK.2015. p. 83
9. Афанасенко М.В. Методические подходы к формированию рейтинга банков Украины. Академический обзор. 2011.№ 2 (35). С. 73-78
10. Батковского В.А. Рейтинговая оценка деятельности банков. Финансы Украины. 2014. № 5. С. 145-151.
11. Лаврушин, О.И. Модели и технологии банковской деятельности: учебник/ под редакцией О.И.Лаврушин. – Москва: КНОРУС, 2021. – 287 стр.

IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING AKTIV VA PASSIV OPERATSIYALARINI INNOVATSION USULLAR ORQALI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Mo‘minova Ma’suda Baxtiyarovna
DSc, TDIU Bank ishi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalariga doir iqtisodchi olimlarning fikrlari, amaliyotning joriy holati tahlil qilinib, muammolar ochib berilgan. Ushbu muammolarni hal etishda aktiv va passiv operatsiyalarni boshqarishning innovatsion usullari taklif qilingan. Bu borada usullarning kamchiliklari va afzalliklari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: YAIM, ROA, ROE, raqamli boshqaruv, Privat paketlar, innovatsion laboratoriya, bank xizmatlari segmenti.

Abstract: The article analyzes the opinions of economists regarding the active and passive operations of commercial banks in the context of modernization of the economy, the current state of practice, and reveals the problems. In solving these problems, innovative methods of managing active and passive operations are proposed. In this regard, the disadvantages and advantages of the methods are highlighted.

Key words: GDP, ROA, ROE, digital management, Private packages, innovation laboratory, banking services segment.

Аннотация: В статье анализируются мнения экономистов относительно активных и пассивных операций коммерческих банков в условиях модернизации экономики, современное состояние практики, раскрываются проблемы. При решении этих проблем предлагаются инновационные методы управления активными и пассивными операциями. В связи с этим выделены недостатки и преимущества методов.

Ключевые слова: ВВП, ROA, ROE, цифровой менеджмент, Privat пакеты, инновационная лаборатория, сегмент банковских услуг.

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida barcha sohlarning faoliyati tubdan isloh qilinmoqda. Birgina bank tizimini rivojlantirishga doir islohatlar amalga oshirildi. Bank tizimini rivojlantirishga qaratilgan maqsad va vazifalarga nazar solsak, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-5992-sonli Farmonida belgilab berilgan.

- ushbu Farmonda bank tizimi aktivlarining umumiy hajmida davlat ulushi bo‘lmagan banklar aktivlari ulushini joriy 15 foizdan 2025-yilga kelib 60 foizgacha oshirish;
- banklar majburiyatlarining umumiy hajmida banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlari ulushini joriy 28 foizdan 2025-yil yakuniga 70 foizgacha oshirish;
- 2025-yilga kelib davlat ulushi mavjud kamida uchta bank kapitallariga zarur tajriba, bilim va obro‘ga ega kamida uchta strategik xorijiy investorlarni jalb qilish;
- umumiy kreditlash hajmida nobank kredit tashkilotlari ulushini joriy 0,35 foizdan 2025-yilga kelib 4 foizgacha oshirish kabi maqsadli ko‘rsatkichlar belgilab berilgan [1].

Yuqorida keltirilgan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishishda bank tizimini transformatsiya va isloh qilish, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi asosida va moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda ehtimoliy yechimlarni izlash, aktiv va passiv operatsiyalarni boshqarish yo‘llarini to‘g‘ri belgilash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot mavzusidan kelib chiqib aktiv operatsiyalarga to‘xtalar ekanmiz mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.A.Omonov, T.M.Qoraliyevlar “Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari – bu banklarning passiv operatsiyalari natijasida shakillantirilgan mablag‘larini iqtisodiy jihatdan daromad (foyda) olish maqsadida turli maqsadlarga joylashtirish va likvidliligini ta’minlash bilan bog‘liq operatsiyalardir. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ularning faoliyatida juda muhim hisoblanadi. Chunki ular ushbu operatsiyalar orqali daromadlar shakllantiriladi va aktiv operatsiyalar doimo ma’lum darajada risk, ya’ni qarzdorning defolti (to‘lovga qobilyatsizlik) bilan bog‘liq bo‘ladi” [2] degan fikrni bildiradilar.

Rossiyalik iqtisodchi olim O.I.Lavrushin “Kredit tashkilotlarining aktiv operatsiyalari – bu daromadlarni olish, likvidlilik va moliyaviy barqarorlikni ushlab turish maqsadida o‘z va jalb qilinadigan mablag‘larni taqsimlash (ulardan foydalanish) bo‘yicha maqsadga yo‘naltirilgan harakatlardir” [3] deb izoh beradi.

Shu bilan birga bank aktivlari samaradorligini ta’minlashning kompleks tabiati uning mohiyati, muammolari va uslubiy asoslarini aniq belgilab berish zarurligi bilan ifodalanadi [4].

Iqtisodchi olima A.V.Pechnikova va boshqalar “Aktiv operatsiyalar – bu bank resurslarni joylashtirish bo‘yicha operatsiyalardir. Uning roli har qanday tijorat banki uchun juda katta.

“Bankning passiv operatsiyalari-moliyaviy resurslarni tasarruf etadigan va ko‘paytiradigan operatsiya. Bank tomonidan passiv operatsiyalarni muvoffaqiyatli amalga oshirilishi uning faol faoliyati uchun yetarli shart-sharoit yaratadi” [5].

Iqtisodchi olim A.I.Balabanov “Passiv operatsiyalar-bu tijorat banki resurslarining shakllanishini ta’minlaydigan operatsiyalar majmui. Tijort bankining manbalari o‘z va jalb qilingan mablag‘lari hisobiga shakllantirilishi mumkin” [6] deb ta’riflaydi.

G.P. Szego aniqlangan cheklovlarni hisobga olgan holda, yangi modelni taklif etadi va ushbu o‘zgartirilgan talqinda SARM bank aktivlarini boshqarish uchun foydali va qulay vosita bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi [7]. G‘arb olimlari tomonidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar bank aktivlari va passivlari tarkibini yagona boshqaruv obyekti sifatida ko‘ra boshlashiga olib keldi, bunda boshqaruv vazifalari sifatida likvidlikni saqlab qolish va daromadlarini ta’minlash bilan bir qatorda, riskni minimallashtirishni o‘z ichiga oladi. Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlarining har birida muhim omillar bilan uzviy bog‘lagan holda aktiv va passiv operatsiyalarni boshqarishni vazifa sifatida kiritilganini ko‘rishimiz mumkin. Asosiysi bu nazariy qarashlar hozirgi kunda ham dolzarbligini yoqotmagan.

Yuqorida keltirilgan olimlarning fikrlaridan ko‘rinib turibdiki, aktiv va passiv operatsiyalarni tahlil qilish va baholash muhim iqtisodiy munosabatlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning ko‘plab jihatlari olimlar tomonidan ochib berilgan bo‘lsada, transformatsiyalash jarayonida aktiv va passiv operatsiyalar samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy ishlar yetarli darajada tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimiz tijorat banklarini joriy davrini tahlili va uni baholash mezonlarini takomillashtirish maqsadida olib borilgan bo‘lib, aniq vazifalar belgilab olindi. Tadqiqot jarayonida amaliy materiallarni taqqoslash, statistika va jadvallar yordamida tahlil ishlari olib borilgan, undagi natijalar asosida aniq xulosa va amaliy takliflar bayon qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda tijorat banklarining umumiy statistik ma’lumotlarini tahlilini amalga oshirish orqali bank tizimidagi mavjud muammolarni va ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, YAIM da bank aktivlarining ulushi so‘nggi yillarda ortib bormoqda. Bank aktivlari 2023-yilda 2013-yilga nisbatan 8,1 barobarga oshgani, shu bilan birga YAIM esa 13,5 barobarga o‘sganini ko‘rishimiz mumkin. Tijorat banklari jami aktivlarining YAIMga nisbatan 43,5 foizga o‘sganini ko‘ramiz. Albatta ushbu ijobiy natijalar mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasi hisoblanadi.

Shu o‘rinda iqtisodiy o‘zgarishlar davrida jahonda an’anaviy bank sohasining transformatsiyasi uchun yangi sharoitlar yaratilmoqda. Ushbu rivojlanishlar so‘nggi turdagi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari asosida amalga oshirilib, buning natijasida dunyoda yangi avlod banklarini vujudga kelishi yo‘nalishida an’anaviy bank tuzilmasini qayta tashkil etilishi bilan bog‘liq tendensiyalari rivojlanmoqda. Bu orqali bank tizimimizni rivojlantirish va mustahkamligiga erishish, jahon amaliyotini o‘rganish va tatbiq etish muhim ahmiyat kasb etadi. Shu bilan birga tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash aholini bo‘sh turgan pul mablag‘larini banklarga jalb qilish, yangi xizmat turlari ko‘lamini kengaytirish ustuvor vazifalardan biridir. Bu borada tijorat banklari aktiv va passiv operatsiyalarni innovatsion boshqarish metodologiyasini takomillashtirish orqali erishish mumkin.



1-rasm: O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari jami aktivlarining YAIM ga nisbatan o‘zgarish tendensiyalari[1] (1-yanvar holati)

Bizga ma’lumki, aktiv va passiv operatsiyalar tijorat banklari faoliyatining asosiy o‘zagi hisoblanadi. Quyidagi operatsiyalar orqali bank o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘larni samarali yo‘naltirib foyda oladi. Buning uchun banklar tashqi va ichki bozorda yuzaga kelgan holatlarni, bankning kunlik holatni tezkor tarzda tahlil qilishi, bank aktivlari tarkibini va diversifikatsiyasini boshqarish orqali erishiladi. Aktiv operatsiyalarning asosiy daromad keltiruvchi turi bu kredit operatsiyalari bo‘lib, bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda, iqtisodiyot tarmoqlari va aholi ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tijorat banklari aktivlar rentabelligi shakllanishida sof foizli daromadlar hissasi barqaror ravishda yuqori bo‘lib kelmoqda. Xususan, 2023-yil 1-iyul holatiga ushbu ko‘rsatkichning jami aktivlardagi ulushi 4,8 foizni tashkil etdi. Shuningdek, bank aktivlari rentabelligining shakllanishida banklarning sof foizsiz daromadlari 5,4 foiz bandga oshiruvchi omil bo‘ldi. Umuman olganda, sof foizli va foizsiz daromadlar oshganligi, aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlar uchun yaratilgan zaxiralarning kamayganligi banklarning yuqori operatsion xarajatlarini qoplashga imkon berdi. Natijada, aktivlar rentabelligi ko‘rsatkichi deyarli o‘zgarishsiz shakllandi [8].


Xalqaro tajribadan shuni ko‘rish mumkinki, aktivlar diversifikatsiyasi siyosati amalaga oshirilgan bo‘lib, faqatgina kredit operatsiyalaridan emas balki qimmatli qog‘ozlar, investitsiyalar va noan’anaviy kredit operatsiyalar salmog‘i yuqori ulushga ega.

1-jadval: Tijorat banklarining kapitali va aktivlari daromadliligi tahlili (foizda)[2]

Ko‘rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023	2019-yilda 2023-yilga nisbatan o‘zgarishi (%)
ROE	10,1	10,3	6,1	13,3	13,3	3,2 %
ROA	2,3	2,2	2,1	2,7	2,5	0,2 %

Ushbu jadvalda tijorat banklarining kapitali va aktivlari daromadliligi ko‘rsatkichlarining 5 yil davomida o‘zgarish tendensiyasi keltirilgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, ROA 2,5 % ni, ROE 13,3 % ni tashkil qildi. 2019–2023-yillar oralig‘ida tijorat banklari kapitali daromadliligi darajasi 3,2 foizga, bank aktivlarining daromadliligi esa 0,2 foizga pasayganini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa banklar o‘z kapitalidan va aktivlaridan yetarli daromadga ega bo‘lmaganligidan darak beradi. Shu o‘rinda bank aktiv va passivlarini boshqarishga doir muammolarni hal etish dolzarbligini anglatadi.

1 www.cbu.uz ва www.stat.uz saytlari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
2 Muallif tomonidan tuzilgan. Manba: www.cbu.uz



	муддатсиз депозитлар	Муддатли депозитлар	жамғарма депозитлар
2017 й.	60	29	11
2018 й.	65	24	11
2019 й.	52	37	11
2020 й.	45	26	29
2021 й.	42	30	28
2022 й.	43	28	29
2023 й.	35	30	35

2-rasm: O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida depozitlarning turlari va muddatlari bo‘yicha qoldig‘i va dinamikasi (foizda)[3]

Ushbu muammolarni hal etishda bank tizimida passivlar tarkibi aynan barqaror resurslarni mavjud ekanligi ahamiyatli hisoblanadi. Resurs jalb qilishning asosiy manbalaridan biri bu depozit operatsiyalari bo‘lib, ularni muddatlari bo‘yicha tahlil qilamiz.

Yuqoridagi rasmda depozitlar dinamikasidagi o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu tijorat banklari risk yuqori bo‘lgan resurslardan foydalanib kelganini ko‘rsatadi. 2017-yil jami depozitlar tarkibida muddatsiz depozitlar ulushi 60 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 35 foizni tashkil etmoqda. Shu davr mobaynida 25 punktga pasaygan. Shu bilan birga sezilarli o‘zgarish jamg‘arma depozitlarni jami depozitlar tarkibidagi ulushida ham ko‘rish mumkin. 2017-yilda 11 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 35 foizni tashkil etmoqda. Bu esa ijobiy tomonga ya’ni 24 punktga ko‘tarilganidan darak beradi. Biroq bu ko‘rsatkichlar tijorat banklari uchun ijobiy holat deb bo‘lmaydi. Jalb qilingan resurslarni risk darajasini pasaytirish uchun banklar muddatli va jamg‘arma depozitlar ulushini oshirishlari lozim.

Moliya institutlarini ichida banklar faoliyatining o‘ziga xos xususiyati ular asosan jalb qilingan mablag‘lar bilan faoliyat yuritayotganligidan namoyon bo‘ladi, ularning faoliyatining xavfli jihati ishonib topshirilgan pulning xavfsizligi uchun javobgarlik oshishi bilan bog‘liq. Ushbu jihatdan bankning likvidligi va to‘lov qobiliyatida samarali boshqaruv alohida ahamiyatga ega.

2-jadval: Bankning aktiv va passiv operatsiyalarini boshqarish usullari[4]

Usul	Usulning ustunligi	Usulning kamchiligi
Innovatsion usullar		
Raqamli boshqaruv	Virtual bank operatsiyalari mijozlar vaqtini tejash imkonini banklar uchun esa ichki axborotlarni yig‘ish va saqlashda va ularni takomillashtirish orqali ichki auditning yaratilish imkonini beradi	Bank xatarini kamaytirish imkoniga ega bo‘lamiz, chunki mijoz haqidagi ma’lumotlar bazasiga ega bo‘lamiz.
Privat paketlari	Yangi xizmat turlarini ko‘lamini kengaytirib bank mijozlarning moliyaviy mablag‘larini boshqarish imkonini beradi.	Ushbu usulning xatar darajasi bank uchun yo‘q lekin mijoz oldidagi ma’suliyati yuqori.
Innovatsion laboratoriya	Bankning yangi dasturlari, xizmat turlari va bank mahsulotlarini joriy qilishdan oldin sinovdan o‘tkazish uni takomillashtirish yoki o‘zgartirish imkonini beradi.	Ushbu usul orqali xatar darajasini qisqaritish imkoniga ega bo‘lamiz.
Bank xizmatlari segmenti	Tijorat banki xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirish orqali moliya bozori ishtirokchilari bilan aloqalarni mustahkamlash imkonini beradi.	Ushbu usulning xatar darajasi bank uchun mavjud emas biroq mijozlar va moliya bozori ishtiokchilari oldidagi ma’sulyati yuqori.

3 Muallif tomonidan tuzilgan. Manba: www.cbu.uz
4 Muallif tomonidan tuzilgan.

Mavjud tijorat bankning aktiv va passiv operatsiyalarni boshqarish usullarini o‘rganish shuni beradiki, ulardan ancha ma’quli, tasodifiy ta’sirini ko‘rib chiqish va oldindan rejalashtirilgan vaziyatlar, shuningdek, qabul qilinayotgan yoki boshqa yechimlar natijasini baholash imkonini beruvchi modellash va innovatsion usullar bo‘ladi.

Yuqoridagi jadvaldan kelib chiqib, ushbu usullarning barchasi samarali bo‘lib, bank tomonidan to‘g‘ri strategiyani tanlanishi orqali aktiv va passiv operatsiyalarni boshqarish imkoniga va usullarni kengaytirish orqali boshqarish strategiyasini takomillashtirishga erishamiz.

Ushbu jadvalda innovatsion usullar turlarini ustunligi, kamchiliklari va bank qanday daromadni olish imkoniga ega bo‘lish ko‘rsatib o‘tilgan. Keltirilgan innovatsion usullarni qo‘llanishi operatsiyalarni boshqarishni innovatsion uslubini shakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida tijorat bank operatsiyalarni boshqarish strategiyasini shakllantirishni amalga oshirishda vujudga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilindi.

Bizning fikrimizcha, har bir tijorat banki o‘z mulkchilik shaklidan kelib chiqqan holda va mijozlarning tarkibi va bajaradigan operatsiyalari turlaridan kelib chiqib o‘z usulini tanlashi, ushbu usulni ichki va tashqi omillarni to‘g‘ri baholagan holda boshqarish tizimiga o‘zgartirishlar kiritib turishi lozim.

Shu bilan birga bank aktivlar va passivlarni boshqarishga qanday yondashishidan qat’i nazar, rahbariyat muqarrar ravishda muhim savolga duch keladi: passivlarning hajmi va tuzilishi aktivlarni taqsimlash yo‘nalishiga ta’sir qiladimi? Muammoni hal qilishning an’anaviy yondashuvi moliyalashtirish manbalarini birlashtirishdir. Bunday boshqaruv usullariga ko‘ra, passivlar tarkibi aktivlarni joylashtirish yo‘nalishlarini tanlashga ta’sir qilmaydi, barcha mablag‘lar har xil turdagi majburiyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olmagan holda bankning yagona resurs salohiyati sifatida qaraladi. Bank rahbariyatining vazifasi mustaqil qiymat sifatida qaraladigan aktivlarni joylashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashdan iborat. Moliyalashtirish manbalarini birlashtirish usulining afzalligi uning amaliy qo‘llanilishining soddaligi va mavjudligi, asosiy kamchiligi esa likvidlik muammolarining paydo bo‘lishidir. Agar aktivlar va passivlar o‘rtasidagi munosabatlar hisobga olinmasa, likvidlik xavfi ortadi. Resurslarni investitsiya qilish uchun eng foydali yo‘nalishlarni tanlashga harakat qilib, bank qisqa muddatli depozitlar hisobidan moliyalashtiriladigan uzoq muddatli kreditlar berishi mumkin. Bunday transformatsiya likvidlik xavfi darajasining oshishiga olib kelishi mumkin [9].

Shu o‘rinda bank rahbariyati o‘zini likvidlik xavfi darajasining oshishidan sug‘urtalashga qaror qilsa va shu maqsadda yuqori likvidli aktivlarni mablag‘larni joylashtirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida ko‘rib chiqsa, u holda bank aksiyadorlari mumkin bo‘lgan maksimal foyda olishdan bosh tortishi kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-5992-sonli Farmoni.
2. Пул, кредит ва банклар. Дарслик / А.А.Омонов, Т.М.Қоралиев. Солиқ академияси, Тошкент молия институти. – Т.: ”Иқтисод – Молия” 2012. -324 б.
3. Основы банковского дела: учебное пособие, под ред. О.И.Лаврушина.– М.:Кнорус. 2008.-384с.
4. Rahmatov H.H. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida tijorat bank aktivlari samaradorligini oshirish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya.TDIU. 2020.
5. Печникова А.В., Маркова О.М., Стородубцева Е.Б., Банковские операции: Учебник. – М.: ФОРУМ: ИНФРА – М, 2005. – 368с.
6. Балабанова И.Т. Экономический анализ в кредитных организаций [Текст] / И.Т.Балабанова.–Самара:Энергия, 2017. –350с.
7. Szego G.P. Portfolio Theory. New York: Academic Press, Inc. 1980.
8. https://cbu.uz/2023-yilning-I-yarim-yilligi-uchun-moliyaviy-barqarorlik-sharhi.pdf
9. Цапаев Д. Комплектный риск-менеджмент в банке: Внутренние рейтинги, лимиты и др. Инструменты управления рисками // Банковское обозрение. – 2010. – № 3. С. 60-64.

AUDITORLIK TEKSHIRUVINI DASTURIY TA'MINOT ASOSIDA TASHKIL ETISH: MUAMMO VA YECHIMLAR



Nazarova Kamola Sattorali qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada auditorlik tekshiruvini dasturiy ta'minot asosida tashkil etishning O'zbekiston amaliyotidagi muammolar va ularni bartaraf etish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda mazkur mavzuga oid iqtisodchi olimlar fikrlari tahlili, mavzuni tadqiq etish metodologiyasi, mavzuni tadqiq etishning dolzarbligi, tahlil va natijalar, tadqiqot natijasida erishilgan xulosa va takliflar hamda tadqiqotda foydalanilgan adabiyotlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada, auditorlik tekshiruvi jarayonida auditga oid dasturiy ta'minotni qo'llanilmasligiga ta'sir etuvchi omillar, xalqaro auditorlik amaliyotida qo'llaniladigan dasturiy ta'minot turlari hamda O'zbekiston auditorlik amaliyotida ularni qo'llash imkoniyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Auditorlik dasturiy ta'minoti, IT-audit, auditni avtomatlashtirish, AUDIT XP dasturi, buxgalteriya hisobining dasturiy ta'minoti, auditni avtomatlashtirish, dasturiy ta'minot imkoniyatlari, auditorlik axborot tizimlari, dasturiy ta'minot to'plami, auditorlik usul va amallari, auditorlik dasturlar.

Abstract: This article is devoted to problems in the practice of Uzbekistan in organizing software-based inspections and their elimination, which analyzes the opinions of economists on this topic, the methodology for researching the topic, the relevance of research on the topic, analysis and results. The conclusions and suggestions made as a result of the study, as well as the literature used in the study, are presented. The article also describes the factors influencing the non-use of audit software, the types of software used in international audit practice, and the possibilities of their use in the audit practice of Uzbekistan.

Key words: Audit software, IT audit, audit automation, AUDIT XP program, accounting software, audit automation, software capabilities, audit information systems, software package, audit methods and procedures, audit programs.

Аннотация: Данная статья посвящена проблемам в практике Узбекистана организации проверок на основе программного обеспечения и их устранению, в которой анализируются мнения экономистов по данной теме, методология исследования темы, актуальность исследования темы, анализ и результаты. Представлены выводы и предложения, сделанные в результате исследования, а также использованная в исследовании литература. Также в статье описаны факторы, влияющие на неиспользование аудиторского программного обеспечения, виды программного обеспечения, используемые в международной аудиторской практике, и возможности их использования в аудиторской практике Узбекистана.

Ключевые слова: Программное обеспечение для аудита, ИТ-аудит, автоматизация аудита, программа AUDIT XP, программное обеспечение для бухгалтерского учета, автоматизация аудита, возможности программного обеспечения, информационные системы аудита, пакет программного обеспечения, методы и процедуры аудита, программы аудита.

KIRISH

Bugungi kunda Respublikamiz auditorlik faoliyatida qator muammo va kamchiliklar auditorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Xususan, "auditorlik tekshiruviga moliyaviy hisobotning haqqoniyligini tasdiqlashning kafolati emas, balki ortiqcha va malol keluvchi ma'muriy tartib-tamoyil sifatida qaralmoqda" [8]. Shu boisdan, mamlakatimizda jahonda umumqabul qilingan zamonaviy normalar, standartlar, shu jumladan, moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish asosida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlarga moslashtirishni taqozo etmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston auditorlik amaliyotida auditorlik tekshiruvlarini rejalashtirish, o'tkazish va bosqichlarida dasturiy ta'minotni qo'llashning nazariy va uslubiy asoslarini takomillashtirish dolzarb ilmiy muammolardan sanaladi. Bunday muammolar jumlasiga, buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyati bo'yicha

normativ-huquqiy hujjatlarda dasturiy ta'minot asosida mazkur faoliyatni amalga oshirish me'yorlarining aniq belgilanmaganligi, dasturiy ta'minot vositasida auditorlik tekshiruvini tashkil qilish va o'tkazishning uslubiy jihatlari yetarlicha chuqur tadqiq qilinmaganligi, auditorlik tashkilotlari yoki ularda faoliyat ko'rsatuvchi auditorlarda dasturiy ta'minotdan foydalanish bo'yicha yetarlicha amaliy ko'nikma, bilim va tajribaning mavjud emasligi, dasturiy ta'minot asosida auditorlik riski, muhimlik darajasi, audit ish sifati va auditorlik tashkilotlari faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlarini aniqlash hamda baholash uslubiyatining yaratilmaganligi hamda aksariyat auditorlik tashkilotlari dasturiy ta'minot asosida tekshiruvni amalga oshirish uslubiyatini o'zining maxfiylik tamoyillariga rioya etish maqsadida sir saqlashi kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Yuqorida qayd etilgan muammolar bu borada auditorlik tekshiruvlarini dasturiy ta'minot asosida amalga oshirish uslubiyatini tadqiq etishning dolzarbligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Keyingi yillarda hayotimizda "IT-audit" tushunchasi tez-tez tilga olinmoqda. Internet sahifalarida IT-audit xizmatini ko'rsatishni taklif qilayotgan ko'plab kompaniyalarni uchratishimiz mumkin. Xo'sh, IT-auditi o'zi nima? U tashkilotlar yoki xususiy kompaniyalar uchun qanday ahamiyatga ega?. IT-audit – bu butun axborot tizimlari infratuzilmasini va uning alohida qismlarini o'rganish hamda ekspert baholash xizmatidir" [1].

Auditorlik amaliyotida dasturiy ta'minot imkoniyatlaridan foydalanish masalalari xorijlik va O'zbekistonlik olimlar tomonidan yetarlicha tadqiq etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning yagona tizimini ishlab chiqish orqali auditorlik tashkilotlari va auditorlar ma'lumotlar bazasini yaratish maqsadida "Audit" dasturiy ta'minot to'plami yaratildi[2]. Iqtisodchi I.Meliyev tomonidan jahon auditorlik amaliyotida keng qo'llanilayotgan IT Audit: Auditor, Ekspress audit: PROF va AuditXP "Kompleks Audit" kabi dasturiy ta'minotlar imkoniyatlari qiyosiy tahlil etilib, ularni auditorlik tekshiruvini rejalashtirish, tekshiruvni amalga oshirish va yakunlash bosqichlarida qo'llash imkoniyatlari o'zaro solishtirilgan [3].

Iqtisodchi olim N.Karimovning ta'kidlashicha "avtomatlashtirilgan audit o'tkazishda dasturlarning quyidagi guruhlaridan foydalaniladi:

- ofis dasturlari;
- huquqiy ma'lumotnoma tizimlari;
- buxgalteriya dasturlari;
- moliyaviy tahlil dasturlari;
- auditorlik faoliyati uchun maxsus dasturiy ta'minot" [4].

Yana bir o'zbek iqtisodchisi K.B.Axmedjanovning ta'kidlashicha, "jahon amaliyotida auditorlik faoliyatini avtomatlashtirishda dasturlar kuyidagi tarkibiy qismlardan iborat bulishi lozim:

- audit jarayonida aks etuvchi iktisodiy-matematik, iktisodiy-tashkiliy va axboriy modellardan;
- modellarni shakllantirishni ta'minlovchi texnik, dasturiy, axborot va boshqa vositalar" [5].

Xorijlik iqtisodchilar N.V.Gomolko va L.A.Popkovalarning fikrlariga ko'ra, "auditorlik faoliyatini avtomatlashgan tizimlar asosida yuritish quyidagi omillarga bog'liq:

Buxgalteriya hisobi yoki auditorlik tekshiruvlarini avtomatlashtirish darajasi;

- auditorlik usul va amallarni qo'llash jarayonlarining avtomatlashgan tizimlarni qo'llash imkoniyatlarining mavjudligi;
- buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan tizimlariga kirish imkoniyatlarining mavjudligi;
- buxgalterlik ma'lumotlarini qayta ishlash yoki dalilarni to'plashning murakkablik darajasi.

Auditorlik faoliyatida dasturiy ta'minot quyidagi ikki guruhga bo'linadi:

- umumiy va muammoli maqsadlar uchun amaliy dasturlar paketlari;
- maxsus auditorlik axborot tizimlari" [6].

Auditorlik amaliyotida qo'llaniladigan "avtomatlashgan dasturlarni ikki toifaga bo'lish mumkin:

1) auditorlik amallarini avtomatlashtirish dasturlari (auditorlik riski va auditorlik tanlashni amalga oshirish uchun foydalaniladi);
2) tahliliy dasturlar (matematik dasturlar yordamida korxona ma'lumotlarini tahlil qilish va testlashdan o'tkazish uchun mo'ljallangan).

Maxsus audit dasturlari yordamida quyidagi auditorlik amallari bajariladi:

- muayyan muddatlarga tegishli buxgalteriya hisobining aniq sohalarida amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarining auditi bo'yicha auditorlik dasturlarini tayyorlash;
- audit natijalari bo'yicha auditorlik xulosasini tayyorlash;
- auditorlik ish hujjatlarining saqlanishini ta'minlash" [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida nazariy va amaliy o‘rganish, tizimli yondashuv, guruhlash, taqqoslama tahlil, kuzatuv, statistik tahlil, omilli tahlil qilish usullaridan samarali foydalanilgan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida auditorlik tashkilotlari va auditorlik xizmatlari buyurtmachilari faoliyatida xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartibi, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida shakllantirish usullari, mazkur usullarni qo‘llash afzalliklari, kamchiliklari va mazkur usullardan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda g‘arbdagi, rossiyalik va mahalliy ishlab chiqaruvchilar auditorlik faoliyatini yuritish uchun avtomatlashgan dasturlarni ishlab chiqqanlar. Aloqa va axborotga ishlov beruvchi zamonaviy tizimlarga asoslangan yirik, ko‘pchilik foydalanishiga mo‘ljallangan tizimlar nom chiqargan. Ular auditorlar jamoasiga auditning bir-biriga bog‘liq sohalarini bir vaqtda yuritish imkonini beradi, auditorlik tashkiloti rahbariyatiga esa oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishi uchun ishonchli axborotni tezkor ravishda olish imkonini beradi. Ba’zi yirik auditorlik tashkilotlari, ayniqsa, xalqaro auditorlik tashkilotlari auditni avtomatlashtirishning xorijiy dasturiy vositalarini muvaffaqiyatli qo‘llab kelmoqdalar. Bir tomondan buning sababi ayon, zero ularning ishlab chiquvchilari bugungi kunda bozorimizda yirik audit obyektlari uchun eng zamonaviy, yangi texnologik asosga qurilgan kompleks yechimlarni taklif etmoqdalar.

Biroq ko‘pgina afzalliklarga qaramay, hisob va auditni avtomatlashtirish tizimlarining mahalliy bozorda keng tarqalishiga ularning quyidagi jihatlari to‘sqinlik qilmoqda:

Auditorlik dasturiy ta’minotining yuqori xarid qiymati;

- o‘qitish va kuzatishning qimmatligi. Bunda qonun hujjatlaridagi o‘zgartirishlarni hisobga olish ishlab chiquvchi firmalarning o‘zimizdagi vakolatxonalari mutaxassislari tomonidan dasturlarga uzoq vaqt (2 oydan 3 oygacha) qo‘shimcha ishlov berishni talab etadi;
- uzoq muddat – yarim yil va undan ortiq vaqtda joriy etilishi;
- professional dasturchi tomonidan foydalanuvchining aniq ehtiyojlariga moslashtirilishi va tuzatish kiritilishining talab etilishi;
- milliy audit o‘tkazish amaliyoti sharoitlariga va milliy hisob tizimi xususiyatlariga moslashtirishning mushkulligi, buning sababi shundaki, ularda biznes yuritishning o‘ziga xosligi va milliy qonun hujjatlarining xususiyatlari hisobga olinmaydi.

Auditorlik faoliyatini avtomatlashtirish vazifasining murakkabligi tufayli dasturiy ta’minotdan foydalanishning samaradorligi asosan uning amalga oshirilishiga, foydalanuvchilarni tayyorlashga (o‘qitishga), audit korxonasining ishlanmalari va usullarini yangi dasturiy mahsulotga moslashishiga bog‘liq bo‘ladi. Dasturiy ta’minotni amalga oshirish bosqichida foydalanuvchilar quyidagi asosiy muammolarga duch kelishlari mumkin:

- audit tashkilotlarida dasturdan malakali foydalanishni ishonib topshirish mumkin bo‘lgan xodimlarning yo‘qligi;
- auditorlik tashkilotlarida rasmiylashtirilgan audit uslublarining yo‘qligi;
- dastur auditorning o‘rnini bosuvchi emas, balki yordamchi ekanligini ko‘pchilik hollarda noto‘g‘ri tushunish, chunki aynan auditor audit o‘tkazish vaqtida qaror qabul qilishi, rasmiylashtirilgan vositalarni baholashi va tanlashi talab qilinadi;
- xodimlarning har bir ijrochining ishini nazorat qilish mexanizmining paydo bo‘lishiga yashirin yoki ochiq qarshiligi, chunki tizimlar bilan ishlash bandlikning va ish vaqtidan samarasiz foydalanishning shaffofligini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, avtomatlashtirish tizimida turgan muammolar ro‘yxati tobora o‘sib, kengayib borishi bilan birga, ularni hal qilish yo‘llari ham orqada qolmasdan, zamonaviy sharoitlarga moslashib bormoqda.

Auditorlik faoliyatining avtomatlashtirilgan axborot tizimi quyidagi jarayonlarni avtomatlashtirishga imkon beradi:

- tekshiruvga tayyorgarlik ko‘rish bosqichi (auditorlik riski va muhimlik darajasini aniqlash, auditning umumiy rejasi va dasturini tayyorlash, auditorlar uchun individual topshiriqlarni shakllantirish) ma’lumotlarini shakllantirish;
- tekshiruvni o‘tkazish bosqichi (auditorlik amallarini ishlab chiqish; auditorlik dalillarini to‘plash tartibini bayon qilish, audit ish hujjatlarini shakllantirish) ma’lumotlarini shakllantirish;
- tekshirilayotgan korxona faoliyati (statistik, moliyaviy va boshqaruv hisobi). tahlilini amalga oshirish.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat korxonalarning buxgalteriya hisobi bilan shug‘ullanuvchi xodimlari o‘z ish faoliyati tashkillashtirishni axborot texnlogiyalarisiz tasavvur ham qilishmaydi. Ammo auditorlar va auditorlik firmalari haqida bunday deyish qiyin. Tabiiy savol tug‘iladi, nima uchun bunday sharoit yuzaga

kelgan? Aslida mazkur holat teskari bo‘lishi kerakdek tuyuladi. Chunki auditordan cheklangan vaqt davomida qatta hajmli axborotni tahlil qilishi va uning asosida o‘z xulosa va tavsiyalarini berish talab etiladi. Nima uchun faqat bugungi kunga kelib auditorlik faoliyati informatsion texnologiyalar bozori shakllana boshladi? Fikrimizcha, buning bir nechta quyidagi omillarga asoslangan sabablari mavjud deb o‘ylaymiz (1-jadval).

1-jadval: Auditorlik tekshiruvi jarayonida auditga oid dasturiy ta’minotni qo‘llanilmasligiga ta’sir etuvchi omillar[1]

Omil (sabab)lar turi	Omil(sabab)ning mazmuni
Umumtarmoq	■ Auditorlik faoliyatini rivojlanishining dastlabki bosqichida mazkur bozorning past darajada rivojlanganligi; ■ Auditorlik tekshiruvi jarayonining to‘liq hujjatlashtirish imkoniyatining cheklanganligi va kasbiy fikrni shakllantirish kerakligi hamda talab qilinayotgan auditorlik faoliyatining o‘ziga xosligi; ■ Auditorlar kompyuter savodxonligining talab darajasida emasligi; ■ Audit jarayonining murakkab shakllanishi; ■ Auditorlik faoliyatining normativ-huquqiy bazasi juda murakkab va katta hajmga ega ekanligi; ■ Amaliyotda audit o‘tkazishda yagona yondashuvning yo‘qligi; tekshirish davrida turli xil natijalar olinishi; ■ Auditorlik xulosasini tayyorlashda ularni tizimlashtirishdagi turli murakkabliklarning mavjudligi; ■ Xalqaro standartlar talablari darajasida audit o‘tkazishga o‘tish natijasida sohaga oid auditorlik xizmatlari hajmining oshib borishi; ■ Taqdim etilayotgan auditorlik xizmatlar sifati ustidan ichki va tashqi nazoratning kuchayishi;
Texnologik	■ Audit o‘tkazilayotgan korxona tomonidan turli xil buxgalterlik dasturiy ta’minotlarni qo‘llanilishi; ■ Auditorlik xizmatining mijoz-korxona obyektlariga borgan holda amalga oshirilish (ko‘chma) xususiyati; ■ Auditorlik firmalari mijozlarining turli tarmoqlarga ixtisoslashganligi. Bu esa, qonunchilik talablarining o‘zgarishi sharoitida avtomatlashgan audit dasturlarini turli audit obyektlari faoliyat xususiyatlariga moslashtirish imkonini bermasligi. ■ Mijozlarda qo‘llaniladigan dasturiy ta’minot bazalarini o‘zlashtirish maqsadida auditorlarning turli dasturiy ta’minotni o‘rganish zarurati; ■ Auditorlik tekshiruvi natijalarining maxfiyligi va himoya qilish talablariga rioya qilish lozimligi; ■ Elektron-raqamli imzodan foydalanish orqali ishchi va tekshiruvning yakuniy hujjatlarini elektron arxivlash imkoniyatining chegaralanganligi.

Barcha yuqorida qayd etilgan omillar bir tomondan audit sohasida taqdim qilinayotgan xizmatlar sifat darajasini oshirish quroli sifatida avtomatlashtirishni rivojlantirish sababi uchun kerak bo‘lsa, boshqa bir tomondan esa, auditorlar va dasturiy ta’minot ishlab chiquvchilar o‘rtasida tortishuvlar predmeti bo‘lib xizmat qiladi.

Auditorlik amaliyotida auditga oid dasturiy ta’minotni qo‘llanilishining dastlabki bosqichida auditorlik tashkilotlarida quyidagi muammolar vujudga keladi:

- dasturiy ta’minotni qo‘llashning dastlabki-sinov bosqichida auditorlik firmasi tarkibida maxsus mutaxassislarni yetishmasligi yoki mavjud emasligi;
- auditorlik firmalarida audit o‘tkazishning samarali va sinovdan o‘tkazilgan metodologiyasini mavjud emasligi.
- auditorlarning auditorlik dasturiy ta’minotining ahamiyati, uning auditorlik tekshiruvi jarayoniga ta’sirining samarasi bo‘yicha malaka va ko‘nikma hamda tushunchalarining yetarli emasligi;
- auditorlarning auditorlik dasturiy ta’minotini qo‘llash orqali nazorat mexanizmini yuzaga kelishiga bo‘lgan qarshiligi yoki salbiy munosabatining mavjudligi.

Auditorlik tekshiruvida avtomatlashgan dasturiy ta’minotdan foydalanish tartibi Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi auditorlik amaliyoti Xalqaro qo‘mitasining quyidagi hujjatlarida o‘z ifodasini topgan:

- “Kompyuter axborot muhitida audit o‘tkazish” nomli XAS (ISA “Auditing in a computer information systems (CIS) environment”);
- “Kompyuter axborot muhiti xususiyatlarini hisobga olgan holda ichki nazorat va auditorlik riskini baholash” nomli XAS (ISA “Risk assessment and internal control (CIS)characteristics and considerations”);
- “Kompyuterlashtirilgan audit usullari” nomli XAS (ISA “Computer assisted audit techniques”).

O‘z navbatida, auditorlik amaliyotida qo‘llanilayotgan yuqoridagi dasturlar tekshiruvlarni avtomatlashtirishni ta’minlaydigan ko‘plab modullarni o‘z ichiga oladi. Ular tarkibida tekshiruvlarni o‘tkazish grafigini shakllantirishni ta’minlaydigan rejalashtirishni qo‘llab-quvvatlash moduli, auditorlik rejasini tuzish va auditorlik vazifalarini bajarish hamda tekshiruvni o‘tkazish modullari dasturlarning asosiy imkoniyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan.

1 Muallif tomonidan tayyorlangan.

Hozirgi jahon auditorlik amaliyotida ofis dasturlari, normativ-huquqiy axborot tizimlari, buxgalteriya dasturiy ta'minotlari, moliyaviy tahlil dasturiy ta'minotlari bilan birgalikda auditga oid maxsus dasturiy ta'minot turlaridan keng foydalanilmoqda (2-jadval). "AUDIT XP" dasturi o'zining funksional imkoniyatlari bilan boshqa auditga oid dasturiy ta'minot platformalaridan audit sifatini nazorat qilish imkoniyatining mavjudligi, namunaviy audit o'tkazish uslubiyatining yaratilganligi, dasturning kamida bitta ishchi joy uchun mo'ljallanganligi bilan farq qiladi. Shuningdek, mazkur dasturda auditni o'tkazish uchun zarur bo'lgan barcha muhim amallar jamlangan. Auditorlik guruhi lokal va tarmoq sharoitida ishlashi mumkin. Dastur asosida har bir auditor ishning o'ziga tegishli qismini bajargandan keyin o'z xulosalarini yagona bazaga kiritishi mumkin, shundan so'ng katta auditor tomonidan ma'lumotlar jamlanmasi asosida auditorlik hisoboti, auditorlik xulosasi, audit o'tkazilayotgan subyektda aniqlangan kamchiliklar ro'yxati va ularni bartaraf etish yo'llariga oid taklif va tavsiyalar tayyorlanishi mumkin.

2-jadval: Xalqaro auditorlik amaliyotida qo'llaniladigan dasturiy ta'minot turlari[2]

№	Dastur	Dastur maqsadi	Ishlab chiqaruvchi	Nashr yili
1	AuditNET	Auditorlik faoliyatini avtomatlashtirish	"Novie effektivnie texnologii"	2009
2	IT AUDIT: Auditor	Auditni kompleks hajmda avtomatlashtirish	"Master-soft" MCHJ www.audit-soft.ru	2005
3	AUDIT XP "Kompleks Audit"	Auditorlik faoliyatini avtomatlashtirish	"Goldberg-Soft" kompaniyasi www.auditxp.ru	2005
4	"Ekspress audit:PROF	Auditorlik tekshiruvini avtomatlashtirishning majmuali tizimi	"Termika"N.P Barishnikov konsalting guruhi. www.termika.ru	2004
O'zbekistonda yaratilgan dasturiy ta'minot turlari				
5	AUDITSOFT	Tijorat banklari va xo'jalik yurituvchi subyektlar ichki audit xizmatlari va auditorlik kompaniyalarini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan	O'zbekiston auditorlar palatasi (Karimov N.F.)	2007
6	Audit Sampling	Tijorat banklari kredit faoliyatini va Markaziy bank filiallari faoliyati auditi uchun mo'ljallangan	Saxobov O.U., A.A.Bubnov	2008
7	First-Audit	Tijorat banklari va yirik ishlab chiqarish korxonalarida ichki auditorlik tekshiruvi o'tkazishga mo'ljallangan	Karimov J.F., Karimov X.X.	2010

AUDIT XP dasturiy mahsulotlaridan foydalanish bizning nuqtayi nazarimizda, boshqa dasturlar bilan solishtirganda bir qator quyidagi afzalliklarga ega:

- auditning (standartlarning) amaldagi federal qonunlari va Xalqaro audit standartlariga muvofiq nafaqat yirik, balki o'rta, kichik auditorlik tashkilotlarining auditorlik faoliyatini avtomatlashtirish;
- ish hujjatlarini yuritishning sifat nazorati samaradorligini oshiradi;
- faoliyatning audit standartlari va korporativ standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi;
- ushbu dasturda taklif etilgan standartlarning qo'llanishi ishning to'g'ri tashkil qilinishi hisobiga auditorlarning ish sifati va professional darajasini oshirish imkonini beradi;
- auditning barcha bosqichlarida auditorlarga turli bo'limlarda audit tekshiruvi olib borish bo'yicha majburiyatlarni taqsimlashga imkon yaratuvchi import va eksport protseduralari, noutbuk turidagi kompyuterlardan foydalangan holda safarda ishlash imkoniyatlari kiritilgan;
- audit o'tkazishning barcha bosqichlarida 500 dan ortiq protsedura, blankalar, ma'lumotlar jadvali va hisobotlarni o'z ichiga oladi;
- audit o'tkazishning original, o'ziga xos uslubidan foydalanishni taklif qiladi, bu usul hisob-kitoblarning qurilgan algoritmi, tanlashni rejalashtirish, shakllantirish va tahlil qilish, aniqlangan kamchilik turlarini tanlash va audit bo'limlari bo'yicha xulosalar va yakuniy xulosalarni avtomatlashtirgan holda joylashtirishni o'z ichiga oladi;
- auditorlik tekshiruvi sifat nazorati usuli va tahliliy protseduralar bloki hamda moliyaviy tahlilni o'z ichiga oladi;
- blanklarning qurilgan redaktori auditorlik protsedurasining mavjud bo'lgan, yangi modifikatsiyalangan blanklarini yaratish, shuningdek, tashkilotning ichki standartlari asosida audit dasturini to'liq o'zgartirish imkonini beradi.

2 Muallif tomonidan tayyorlangan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Barcha auditorlik tekshiruvi jarayonlari va barcha auditorlik xizmatlari jarayonining avtomatlashtirilishi natijasida auditor ishchi vaqtining samarasi, shuningdek, auditorlik tashkiloti barcha ishlarining sifati oshadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a’zo davlatlar auditorlik amaliyotida bugungi kunda eng keng tarqalgan dasturiy ta’minot bu – AUDIT XP professional avtomatlashtirish dasturi hisoblanadi. Mazkur dastur yangi avlod texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan va avvalgi avlod dasturidagi barcha yaxshi tomonlarni (masalan, foydalanishning soddaligi va qullayligi, ko‘p funksionallik, auditni olib borishdagi barcha bosqichlarda ma’lumotlar kiritishning majmuali avtomatlashtirilganligi va ma’lumotlarni qayta ishlash uslubining kengligi), shuningdek, avvalgi platformalarda amalga oshirilishi iloji bo‘lmagan yangi imkoniyatlar va texnologiyalarni o‘z ichiga qamrab olgan. Umuman olganda “AUDIT XP” dasturini buxgalteriya hisobini yurituvchi yuqori malakali mutaxassis uchun professional buxgalteriya dasturlari toifasiga kiritish mumkin, sababi u keyinchalik individual foydalanish maqsadida muayyan sozlashni talab etadi.

Bizningcha, bugungi kunda auditorlik dasturiy ta’minoti quyidagi talablarga javob berishi talab etilmoqda:

1. Amaldagi qonunchilik va xalqaro standartlar talablari asosida audit o‘tkazishning barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va yagona mezonlar asosida standartlashtirish;
2. Shakllantirilgan auditorlik tekshiruvi natijalarini sifatli saqlash va mijoz-korxona faoliyati tahlili natijalariga asoslangan amaliy tavsiyalar yoki qaror loyihalarini ishlab chiqish;
3. Auditning avtomatlashtirilgan dasturlari ularga qo‘yilgan kasbiy va axloqiy mahorat talabalariga javob berishi talab etilmoqda.

Fikrimizcha bugungi kunda yuqoridagi talablarni bajarish uchun quyidagilarni ta’minlash talab etiladi:

- auditni rejalashtirish, tekshirish va yakunlash bosqichlari algoritmini xalqaro standartlar va amaldagi qonun hujjatlari talablariga muntazam ravishda mosligining nazoratini amalga oshirish;
- tekshirilayotgan mijoz-korxonada mavjud bo‘lgan buxgalteriya hisobiga oid dasturiy ta’minot bazasi ma’lumotlari bilan auditorlarni ta’minlash yoki dasturdan tekshirayotgan auditorlarni foydalanishini ta’minlash;
- audit o‘tkazish uslubiyati va tekshiruvni tashkil etish shakl va tartib-qoidalarini dasturiy ta’minot tarkibiga muntazam kiritib borish yoki yangilab turish;
- tekshirilayotgan mijoz-korxona faoliyatining zamonaviy tahlil usullari asosida zamonaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilish texnologiyasi yoki algoritmini dasturiy ta’minot tarkibiga kiritish va uni yangilab borish;
- nafaqat audit o‘tkazish jarayonini, balki konsalting, autsorsing, huquq va baholash sohasidaga professional auditorlik xizmatlari ko‘rsatish jarayonini avtomatlashtirish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. IT-audit. Bu nima? | ICTNEWS
2. https://audit.mf.uz/about.xhtml
3. Auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uslubiyati: muammo va yechimlar: Monografiya. I.I. Meliyev. -T.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. – 194 b.
4. N.F.Karimov. Auditorlik faoliyatini avtomatlashtirish audit tashkilotlarining ish sifatini oshirish vositasi. “Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o‘tish va xalqaro tajribani O‘zbekistonda qo‘llashning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to‘plami Toshkent -“Iqtisodiyot” 2022
5. K.B. Axmedjanov. Ichki audit.: o‘quv qo‘llanma – Toshkent: Iktisodiyot, 2019.- 240 b.
6. Н.В.Гомолко ва Л.А.Попкова. Автоматизация аудита. http://edoc.bseu.by.
7. Ю.В. Трунтаева, О.В. Шибилева. Компьютерные программы автоматизации аудита. “Экономика и право” журнали, 2013. https://cyberleninka.ru/article/n/kompyuternye-programmy-avtomatizatsii-audita/viewer
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3946-sonli Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.09.2018-y., 07/18/3946/1955-son.

ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH KONSEPSIYASI



Normurodov Xusan Eshmaxmatovich
O‘zMU katta o‘qituvchisi

KIRISH

Infratuzilma muammolarini tadqiq qiluvchi iqtisodchilar infratuzilmalarga sarf-xarajatlarni davlatning faol ishtirokida oshirish kerakligini ta’kidlaydilar, chunki ular xususiy tadbirkorlik va butun jamiyatning “normal” faoliyat yuritishining zarur sharti hisoblanadi.

Mablag‘larni infratuzilmaga yo‘naltirish orqali davlat, birinchi navbatda, xususiy tadbirkorlarning iqtisodiy va siyosiy mavqeyini mustahkamlashga yordam beradi, ularni zarar yoki past foyda keltiradigan ishlab chiqarishlardan ozod qiladi, shu bilan birga iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida faoliyat yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani yozishda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning davlat tomonidan tartibga solish bo‘yicha konseptual yondashuvlar tavsiflangan. Infratuzilmani rivojlantirishning davlat mexanizmini asoslashda konseptual yondashuv, analiz, sintez, mantiqiy bog‘lash va abstraktiv yondashuv usulidan foydalanilgan. Tadqiqot mavzusining ilmiy manbalar tizimli va multiplikatorlik tamoyillari asosida tahlil qilingan, konsepsiyalarni asoslashda statistik tahlil usullaridan foydalanib o‘rganilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish mexanizmi bo‘yicha yaxlit tadqiqotlar unchalik ko‘p bo‘lmasada iqtisodiyotning o‘sishi va taraqqiyot omillari sifatidagi infratuzilmalar xususan, ishlab chiqarish infratuzilmasi asosiy bo‘g‘in sifatida ishtirok etadi. Aksariyat jamiyatlarda infratuzilmalar ta’minoti mutloq naflilikka va qo‘shimcha daromad omili sifatida amal qilsada uni tabiiylikka yoki davlat mavjudligining tabiiy sharti sifatida qabul qiladi. Bu yondashuvni P. Samuelson kemalarni xavfdan ogohlantiruvchi mayoq haqidagi misolni keltiradi. U: “Mayoqning nuri uni ko‘ra oladigan masofadagi har bir kishining yo‘nalish olishiga yordam beradi. Foyda olishni maqsad qilgan ishbilarmon kishi mayoq qurishga kirishmagan bo‘lardi, chunki undan foydalangan barcha kishilardan haq talab qila olmaydi. Bu albatta, davlat tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan faoliyat turidir”, deb yozadi [1].

Samuelson davlat faoliyatining va xususiy kapitalning funksiyalarini o‘zaro ajratib turuvchi chegaralarni aniqlagan holda: “Ijtimoiy boyliklarning foydaliligi, butunlay xususiy bo‘lgan boyliklarning foydaliligidan farqli o‘laroq, tashqi iste’mol samarasiga ega bo‘lib, ko‘p kishilarga tegishlidir” deb ta’kidlaydi va darhol: “Agar tovarni, uning har bir qismini, guruhning boshqa a’zolariga tashqi samara ko‘rsatmagan holda turli shaxslarga alohida sotish imkoniyatiga ega tarzda taqsimlash mumkin bo‘lsa, unda bunday tovar davlat faoliyatining obyektiga aylanmasligi kerak” deb ogohlantiradi. Biz G.P. Solyusning bozor xo‘jaligidagi infratuzilmaviy tarmoqlarning o‘ziga xos belgisi ularning ikki xil xususiyatli ekanligiga qo‘shilamiz [2]. Bir tomondan, agar ushbu tarmoqlar

rivojlanmasa, tovarlar ishlab chiqariladigan va qo‘shimcha qiymat yaratiladigan sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatining samaradorligi keskin pasayadi. Boshqa tomondan, infratuzilma tarmoqlariga kiritilgan investitsiyalar, odatda, ularni amalga oshiruvchi kishilarga foyda keltirmaydi, biroq sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalarining foydasini oshiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Infratuzilmalar xo‘jaligi sifatida ijtimoiy qo‘shimcha xarajatlar nazariyasi, o‘zining ayrim ijobiy tomonlari mavjudligiga qaramay, apologetik nazariya hisoblanadi, ya’ni xususiy kapitalning manfaatlarini himoya qiladi. G‘arbiy iqtisod fanidagi “ijtimoiy qo‘shimcha kapital” tushunchasi kapitalni kiritishdan foyda olinadigan va ma’lum darajada “umummilliy” ehtiyojlarni qondiradigan sohalarda xususiy tadbirkorlikning samarali ishlashini ta’minlaydigan xarajatlarni bildiradi. Infratuzilma nazariyotchilari xususiy mulkni himoya qilgan va rivojlanayotgan mamlakatlar oldida turgan o‘ta keskin muammoni, ya’ni iqtisodiy o‘sish sur’atlarini bosqichma-bosqich oshirish muammosini hal qilishga uringan holda, yuqori o‘sish sur’atlariga faqat ijtimoiy qo‘shimcha kapital yoki ijtimoiy qo‘shimcha xarajatlar shakllangan taqdirdagina erishish mumkin degan fikrni ishonch bilan isbotlashga urinadilar. Bizning fikrimizcha, infratuzilma konsepsiyasining ikkita o‘ziga xos xususiyati mavjud: bir tomondan, u davlatning iqtisodiy faoliyatini kuchaytirish zaruratini asoslaydi, ikkinchi tomondan esa – uni bozor xo‘jaligining umumiy o‘sish sharoitlari yaratiladigan iqtisodiyot tarmog‘i bilan bog‘laydi.

Infratuzilmani rivojlantirish muammosi rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy nazariyasida, o‘z kapitalidan albatta foyda olish tamoyillari emas, balki xususiy kapitalning samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash tamoyillari bo‘yicha rivojlanayotgan sohadagi davlat xarajatlarini asoslash uchun tadqiqot obyektiga aylandi. Masalan, italiyalik tadqiqotchi-iqtisodchi A.Pezenti shunday deydi: “Agar gap qurollanishga sarf-xarajatlar haqida ketmayotgan bo‘lsa, u holda kapitalizm sharoitida davlatdan talab qilinayotgan kapital qo‘yilmalarning obyekti “ijtimoiy ishlar”dan, ya’ni hozirgi vaqtda “infratuzilma” deb ataladigan sharoitlar majmuini (yo‘l tarmog‘i, transport vositalari, yer tuzish va boshqalarni) yaratishdan iborat bo‘lishi zarur. Ushbu ishlar firmalarning infratuzilma xarajatlarini kamaytiradi, ya’ni kapital aylanish jarayonlarini osonlashtirish orqali ular faoliyat yuritadigan iqtisodiy muhitni yaxshilaydi, va shu orqali nafaqat birlamchi maqsad bo‘lmish daromadlarni va bandlikni oshirishga yordam beradi, balki umuman xususiy sektordagi umumiy foyda darajasini ham oshiradi” [3, 4].


Shunday qilib, iqtisodiyot nazariyasida infratuzilma muammosini birinchi o‘ringa qo‘yish, birinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish strategiyasini ishlab chiqish bilan, ikkinchidan esa, rivojlangan mamlakatlarning xo‘jalik yuritish mexanizmida davlat rolini kuchaytirish bilan bog‘liq. Bu hodisani baholash o‘tish davridagi iqtisodiyotni o‘rganish va uni bozor munosabatlari rivojlangan iqtisodiyotga aylantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

MDH iqtisodchilari fanida infratuzilma, xuddi g‘arbcha talqinlar kabi, xususiy kapitalga ega korxonalarning faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadigan umumiy foydalanishdagi tarmoqlar majmuasi sifatida ko‘rib chiqiladi (A.G.Mileykovskiy, G.P.Solyus, Yu.I.Rigin va boshqalar). Ammo infratuzilmaga tegishli tarmoqlarning yanada keng ro‘yxati taklif etiladi. Unga har xil turdagi transport (temir yo‘l, suv, avtomobil, havo) va transport qurilishi (yo‘llar, aerodromlar, kema to‘xtash joylari, portlar va boshqalar); energetika; aloqa vositalari (telefon va telegraf va boshqalar); suv ta’minoti va sanitariya-texnik xizmatlarni ko‘rsatish sohalari kiritiladi. Ayrim tadqiqotchilar (E.B. Alayev, L.B. Aristova, L.N. Karpov) ishlab chiqarish infratuzilmasini ajratib alohida ko‘rsatadilar. Bizning fikrimizcha, infratuzilmani turlicha ta’riflash uni turli darajada tahlil qilinishi bilan bog‘liq.

Aksar iqtisodchilar davlatning bozor iqtisodiyotiga aralashuvi zarurligini tan olgan holda uning faoliyatini aniqroq ajratib belgilashga qiladi. Ularning fikricha, davlat faoliyatining turli sohalariga qonun va tartibni saqlash, bozorlar va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, daromadlarni taqsimlash, barqaror o‘sishning zaruriy sharti sifatida iqtisodiyotning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, umumxo‘jalik maqsadlaridagi ishlab chiqarishning samarasiz xarajatlarini qoplash yoki infratuzilma sohasidagi davlat tadbirkorligi kiritadi.

G‘arb iqtisodchilari uchun infratuzilma muammosi bo‘yicha asosiy nazariy yondashuvlardan biri xususiy va davlat kapitali o‘rtasidagi, xususiy va ijtimoiy xarajatlar o‘rtasidagi ziddiyatni hal qilish yo‘llarini izlashdir. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida infratuzilma davlat tomonidan tartibga solinadigan muhim sohalardan biri hisoblanadi. Infratuzilmani yaratish davlatga qo‘yiladigan talablar ichida ko‘p takrorlanadi, chunki bu “bozor kuchlarining erkin o‘ynashini” cheklashga imkon beradi. Infratuzilmani yaratishda davlatning keng ishtirok etishi kerakligi ushbu faoliyat sohasi xususiy kapital uchun yetarlicha jozibador emas degan asosiy qoidaga asoslanadi. G‘arb iqtisodchilarining fikricha, davlat umumxo‘jalik va ijtimoiy-madaniy maqsadlarga xizmat qiluvchi kapitalni yaratishda katta imkoniyatlarga ega. Ular shunga asoslanib, infratuzilmani qurish davlatning vazifasi degan xulosaga keladilar.

Mazkur tendensiyaning shakllanishi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida davlat xarajatlarining o‘sishiga asoslanadi. (1-rasm)



1-jadval: Tanlab olingan mamlaktlar bo‘yicha Yalpi ichki mahsulotning ulushida davlat xarajatlarining o‘sib borishi[1]

Tanlab olingan mamlakat	1972-yil	2020-yil	Mutloq o‘zgarish	Nisbiy o‘zgarish
Finlyandiya	20,66%	41,15%	+20,49 пп.	+99%
Buyuk Britaniya	29,51%	47,56%	+18,05 пп.	+61%
Amerika Qo‘shma Shtatlari	17,80%	32,19%	+14,40 пп.	+81%
Yaponiya	11,01%	23,68%	+12,67 пп.	+115%
Germaniya	20,17%	32,57%	+12,40 пп.	+61%
Singapur	15,00%	26,03%	+11,04 пп.	+74%
Hindiston	8,73%	15,66%	+6,93 п.п.	+79%
Rossiya		35,39%		
O‘zbekiston		21,13%		

Quyidagi vizualizatsiya butun dunyo bo‘ylab milliy daromadning ulushi sifatida markaziy hukumat xarajatlarining so‘nggi hisob-kitoblarini aks ettiradi. Ma’lumotlar Jahon taraqqiyot ko‘rsatkichlarining bir qismi sifatida nashr etilgan va XVFdan olingan. Jadvalning eng yorqin xususiyati – bu dunyo mintaqalari o‘rtasidagi heterojenlik darajasi. Yuqori daromadli mamlakatlardagi markaziy hukumatlar, ayniqsa Yevropada, kam daromadli mamlakatlar hukumatlariga qaraganda milliy ishlab chiqarishning ancha katta qismini nazorat qiladi. Finlandiya kabi davlatlar O‘zbekiston kabi davlatlarga qaraganda bir necha barobar ko‘p pul sarflaydi.

G‘arb iqtisodchilarining fikriga ko‘ra, davlat aralashuvi obyektlariga faqat kam daromadli, sarf-xarajatlar sekin qoplanadigan, rivojlanishi butun iqtisodiyot uchun bir xil darajada zarur bo‘lgan iqtisodiyot tarmoqlarigina kirishi kerak. Budjet mablag‘larini bunday tarmoqlarga sarmoya sifatida sarflash orqali davlat xususiy kapitalni norentabel xarajatlardan ozod qiladi, va shu bilan birga uning raqobatchisiga aylanmaslik uchun xususiy kapital ishlaydigan serdaromad sohalardan chekinadi. Infratuzilmaga investitsiyalarning maqsadi bevosita foyda olish emas, balki xususiy kapital faolligini oshirish hisoblanadi. Davlat faoliyatini xususiy kapitalning maqsadlariga bo‘ysundirish A. Xirshmanning “Iqtisodiy rivojlanish strategiyasi” asarida nazariy jihatdan asoslangan. U o‘z asarida iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda davlatning ikkita funksiyasi: birinchisi, muvozanatni buzishga, ikkinchisi esa buzilgan muvozanatni tiklashga, yangi iqtisodiy xohishlarni keltirib chiqaradigan sabablarni jilovlashga xizmat qilishi haqida gapiradi [5, 6].

Bizningcha, aynan shu vazifa infratuzilmani yaratish va rivojlantirish bilan bog‘liq faoliyatdir. Bu esa davlat xo‘jalik faoliyatini xususiy kapital manfaatlariga bo‘ysundirishni anglatadi.

1 https://ourworldindata.org/government-spending#government-spending-across-the-world 825;. Tanzi Vito. The Changing Role of the State in the Economy: A Historical Perspective // IMF Working Paper 97/114, September 1997, p. 13-14. Statistikal Abstract of the U.S., 2004.

Shvetsiyalik iqtisodchi G.Myurdal o‘zining “Jahon iqtisodiyoti” nomli asarida infratuzilmani qurishda davlat faoliyatiga katta ahamiyat beradi. U davlat faolligining muqarrarligini, eng avvalo, energetika, transport va boshqa sohalarda xususiy sektor moliyalashtira olmaydigan darajada katta sarmoya zarurligi bilan tushuntiradi. Dastlabki rivojlanish uchun u xalq xo‘jaligidagi mutanosiblikni ta’minlash zarurligini tan oladi, chunki bu vazifa o‘z-o‘zidan bajarilib qolmaydi. Uning fikricha, davlatning vazifasi nafaqat bozor mexanizmini erkinlashtirish, balki uni ilhomlantirish va rivojlantirishdan ham iborat”. G.Myurdalning xulosalari o‘ziga xos bo‘lmasdan, yozuvchi hamkasblarining fikrlariga o‘xshab ketadi. Rostou, Xirshman, Samuelson va boshqa ko‘plab olimlar unga o‘xshab, xususiy kapitalning ishlashi va takomillashishi uchun foyda keltiruvchi shart-sharoitlarni yaratish zarur degan g‘oyani himoya qiladilar. Yana bir guruh garb iqtisodchilari infratuzilma muammosiga asosiy nazariy yondashuvlardan biri xususiy va davlat kapitali o‘rtasidagi, xususiy va ijtimoiy xarajatlar o‘rtasidagi ziddiyatni hal qilish yo‘llarini izlash hisoblanadi. Xususiy kapital nuqtayi nazaridan ushbu ziddiyatni tahlil qilishga qiziqarli misol – bu amerikalik iqtisodchi G.Leybenshteynning “Iqtisodiy qoloqlik va iqtisodiy o‘sish” nomli asarida bayon etilgan xususiy tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatining nolga teng bo‘lmagan impulslari nazariyasidir. U o‘yinlar nazariyasi atamalari yordamida tadbirkorning o‘zi uchun foydali bo‘lgan, lekin mamlakatda iqtisodiy o‘sishga olib kelmaydigan harakatlari “nolga teng” samaraga yoki nol natijaga olib kelishini aytadi. Amerikalik iqtisodchi E. Roy Vayntraub uning fikrlarini takrorlab, iqtisodiyotda bozor mexanizmining ishlash natijalari kishilarning, alohida shaxs nuqtayi nazaridan oqilona, lekin jamiyat nuqtayi nazaridan samarasiz xatti-harakatlari bilan belgilanishini ko‘rsatadigan ko‘plab misollar mavjudligini, hamda eng yaxshi natijalarga erishish uchun davlat iqtisodiy jarayon ishtirokchilarining tanloviga ta’sir ko‘rsatishi zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu holatlar “nima uchun “laissez – faire” (ya’ni “bajarishga imkon bering”, yoki aralashmaslik) tamoyiliga mos kelmaydigan, lekin samarali natijalarga erishishga yordam beradigan turli real institutlarning mavjudligi asosli ekanligini tushunishga yordam beradi”, deb davom etadi [7]. Umuman olganda, bu bevosita ijtimoiy qo‘shimcha xarajatlar konsepsiyasiga taalluqlidir.

Agar XIX asr oxiri va XX asr boshidagi erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida takror ishlab chiqarish jarayonini elektr energiyasi, gaz, transport bilan ta’minlash masalasi xususiy xo‘jaliklar yordamida bajarilgan bo‘lsa, mazkur ijtimoiy ishlab chiqarish shakllari asta-sekin o‘zaro ajralib, alohida faoliyat yuritadi, ularni rivojlantirish esa tobora ko‘proq davlat tomonidan tartibga solib boriladi. Ushbu hodisaning obyektiv asosini ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va iqtisodiy o‘sishdagi innovatsion jarayonlar ta’sirida ishlab chiqarishning umumjamoat mulkiga aylanishining kuchayishi tashkil etadi. Iqtisodiy nazariya klassiklari mazkur jarayonning rivojlanishini oldindan ko‘ra bilib, “davlat mulkiga aylantirish zarurati, eng avvalo, yirik aloqa vositalari: pochta, telegraf va temir yo‘l sohalari uchun yuzaga keladi”, deb ta’kidlaganlar [8, 9, 10].

Zamonaviy bozor iqtisodiyotida infratuzilma davlat tomonidan tartibga solinadigan muhim sohalardan biri hisoblanadi.

Ushbu tendensiya barcha rivojlangan mamlakatlar uchun xos bo‘lib, uning namoyon bo‘lish darajasi ko‘p jihatdan u yoki bu mamlakatda mulkchilik shakllari rivojlanishining o‘ziga xos shakllariga bog‘liqdir. Masalan, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida infratuzilma inshootlari (elektr stansiyalari, gaz va suv quvurlari, temir yo‘llar, avtomobil yo‘llar tarmog‘i, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari) asosan davlat mulki hisoblanadi. Bunga urushdan keyingi davrda bir qator infratuzilma tarmoqlarining milliylashtirilishi katta yordam bergan. Ular ko‘pincha zarar bilan ishlagan bo‘lib, kapital egalari ularni o‘z mablag‘lari hisobidan rivojlantirishni istamasdan, osonlikcha davlat qo‘liga topshirganlar. Keyinchalik monopoliyalar davlatga qarashli infratuzilma tarmoqlarining ishlab chiqarish salohiyatidan kapital jamg‘arish, foyda darajasini oshirish uchun qo‘shimcha manba sifatida, tovarlar sotish uchun barqaror bozor sifatida bajonidil foydalana boshladi. Mohiyatan, milliylashtirish ishlab chiqarish infratuzilmasining bir qator tarmoqlarida davlat monopoliyalarining paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Masalan, Fransiyaning “Electricite de Franc”, “Gaz de Franc” davlat kompaniyalari elektr energiyasi va gazni qazib olish, ishlab chiqarish va taqsimlashni to‘liq monopoliyalashtirib oldi.

AQSHda infratuzilmaning shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiyotning xususiy va davlat sektorlarining ustunligi o‘rtasidagi nisbatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Xususiy kapitalning zo‘ravonligi davlatning xo‘jalik faoliyati sohasini cheklaydi, shuning uchun AQSHda infratuzilmaning katta qismi: axborot xizmatlari, telefon, telegraf, elektr stansiyalari, temir yo‘llar va havo liniyalari xususiy kapitalga tegishliligi bejiz emas. Biroq zamonaviy bozor iqtisodiyoti obyektiv ravishda, davlat tomonidan tartibga solinmasdan rivojlana olmaydi, shu sababli hatto AQSHda ham shtatlar va mahalliy hokimiyat organlarining infratuzilma sohasidagi iqtisodiy faolligi ortib bormoqda. Agar mahalliy hokimiyat organlari AQSH iqtisodiyotida infratuzilmaviy ta’minot tizimlarining asosiy yaratuvchilari bo‘lsa, federal hukumat bu borada faqat subsidiyalar va kreditlar ajratish orqali moliyaviy yordam beradi. Ko‘pincha ular mahalliy hokimiyat organlariga ma’lum bir dasturni amalga oshirish, masalan, jamoat transportini rivojlantirish, uy-joy qurilishi va boshqalar uchun beriladi. Shu tarzda, AQSHda 20 yil (1956–1976) ichida milliy shtatlararo yo‘llar tizimini qurish uchun federal ajratmalar 67,5 mlrd. dollargacha yetib, ushbu maqsadlarga sarflangan barcha xarajatlarning 90 foizini tashkil etdi. Qolgan 10% xarajatlar shtatlarning o‘z moliyaviy resurslari hisobidan qoplandi [11].

Shunga ko‘ra, infratuzilma iqtisodiyotning tartibga solinadigan sektoriga mansub bo‘lib, unda sof davlat korxonalari bilan bir qatorda xususiy va “aralash” (kapitalning bir qismi davlatga, ikkinchisi esa monopoliyalarga tegishli) mulk shaklidagi, lekin har doim bevosita davlat nazorati ostida ishlaydigan korxonalar mavjud. Bunday tartibga solishning maqsadi infratuzilma tarmoqlari “mahsulotlari”ga tariflarni belgilash, foyda me’yorini raqobatga asoslangan ishlab chiqarish darajasida ushlab turish, iqtisodiy inqirozlar davrida talabni va aholining to‘lov qobiliyatini ta’minlash va h.k. orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Ushbu chora-tadbirlarning barchasi davlatning iqtisodiy faoliyat sohasini sezilarli darajada kengaytiradi va mustahkamlaydi hamda infratuzilmada davlat sektorining o‘sishiga olib keladi. Hatto, xususiy sektorda ishlab chiqarishning keskin qisqarishi kuzatiladigan iqtisodiy sikllarga qaramay, infratuzilmaviy faoliyat sohasi markazlashtirilgan boshqaruv tizimiga tegishli bo‘lganligi sababli “ishchi holatda” saqlab turiladi.

Rivojlangan iqtisodiy tizimlarga xos bo‘lgan infratuzilma muammosi har xil ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Masalan, bozor iqtisodiyotiga ega rivojlangan mamlakatlarda infratuzilma xususiy kapitalning “qulay” rivojjlanishining zaruriy sharti hisoblanadi, shuningdek, u o‘ziga xos chegara sifatida xizmat qilib, undan tashqarida davlatning ishtiroki ortiqcha sanaladi. Infratuzilma, shu jihatdan xususiy va davlat sektorlari faoliyati, kapitalni kiritishdan foyda olinadigan sohalar va “nolga teng” daromadga ega infratuzilma tarmoqlari o‘rtasidagi chegarani aniq belgilaydi. Xususiy mulk ustun bo‘lmagan markazlashgan iqtisodiyot sharoitida esa infratuzilmani rivojlantirish umumxalq muammolarini samarali hal qilishga, ya’ni iqtisodiy o‘sish va butun aholi farovonligini oshirishga ko‘maklashishi kerak. Biroq shunga qaramay, xususan, yo‘l qurilishi, mamlakatni axborotlashtirish, elektrlashtirish masalasiga yetarlicha e’tibor berilmadi. Bu esa infratuzilmani rivojlantirish masalalarini har tomonlama tadqiq qilishni, mavjud mahalliy va xorijiy tajribani o‘rganishni taqozo etadi.

METODOLOGIYA

Keltirilgan qoidalarning barchasida doimiy ravishda bir xil g‘oya: davlatning iqtisodiy o‘sishdagi roli, eng avvalo, ijtimoiy zarur bo‘lgan, lekin xususiy kapital nuqtayi nazaridan samarasiz deb hisoblangan infratuzilma tarmoqlarida faol harakat qilishdan iborat degan fikr ilgari suriladi.

Infratuzilmaga davlat xarajatlarining iqtisodiy samaradorligini asoslash ilk bor ingliz iqtisodchisi Dj. M. Keyns tomonidan multiplikator modelida berilgan [12].

Keyns multiplikatori mustaqil (avtonom) investitsiyalarning qo‘shimcha o‘sishi va milliy daromadning (keyingi matnda “daromad”) qo‘shimcha o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi. Daromadning qo‘shimcha o‘sishi multiplikatorning qiymatiga va avtonom investitsiyalarning qo‘shimcha o‘sishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri proporsional bog‘liq, ya’ni.

$$\Delta U = K \cdot \Delta I$$


bu yerda ^U – daromadning qo‘shimcha o‘sishi,
K – multiplikator,
^I – avtonom investitsiyalarning qo‘shimcha o‘sishi.

Ushbu formulaga asosan, multiplikator daromad qo‘shimcha o‘sishining investitsiyalar qo‘shimcha o‘sishiga nisbati sifatida aniqlanadi, ya’ni

K=^U (daromadning qo‘shimcha o‘sishi): ^I (avtonom investitsiyalarning qo‘shimcha o‘sishi).

Multiplikator tamoyilining ta’sir qilish mexanizmi qanday? Bu savolga birinchi bo‘lib Dj. M. Keyns – multiplikator nazariyasining asoschisi javob bergan [13]. Uning fikrlari quyidagi mazmunga ega: bandlikning yangi investitsiyalar, deylik, hukumatning ijtimoiy ishlarga sarf-xarajatlari hisobiga dastlabki o‘sishi, eng zarur tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish zarurati tufayli muqarrar ravishda bandlik, iste’mol va daromadning birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va hokazo o‘sishiga olib keladi. Yangi investitsiyalar, xuddi suvga tashlangan toshning to‘lqinlari kabi, iqtisodiyotda zanjirli reaksiyani keltirib chiqaradi. Agar iste’molga chegaraviy moyillik (MRC) 2/3 ga teng bo‘lsa, daromad 3 barobar ortadi. Bu holda, multiplikator 3 soni hisoblanadi. Demak, daromadning o‘zgarishi = multiplikator (K) x investitsiyaning dastlabki o‘zgarishi. Xarajatlarning dastlabki o‘sishi daromadni cheksiz ravishda oshiradi deb o‘ylash nojoiz. Yo‘q. Bunday bo‘lmaydi, chunki daromadning qo‘shimcha o‘sishining bir qismi jamg‘ariladi va shunga mos ravishda multiplikatsiya jarayonini davom ettirishga undovchi turtki yo‘qoladi. Jamg‘armalarga chegaraviy moyillik (MRS) daromadlarning o‘sish chegarasini belgilaydi.

Shunday qilib, MRS yoki MPS ning 1 ga teng maxrajiga teskari qiymat avtonom xarajatlar multiplikatori, yoki davlat xarajatlari multiplikatori deb ataladi. Agar davlat xarajatlari avtonom investitsiyalar sifatida ko‘rib chiqilsa, multiplikator boshqa o‘zgaruvchilar o‘zgarmagan holda davlat xarajatlari G ning o‘zgarishi natijasida YAIM qay miqdorda o‘zgarganligini ko‘rsatadi.



3-rasm: Davlat xarajatlari multiplikatorining ta'siri (umumiy model)[2]

Davlat xarajatlari multiplikatori ta'sirining grafikli tasviri 3-rasmda ko'rsatilgan. 3-rasmdan ko'rinib turibdiki, iste'molga chegaraviy moyillik qanchalik yuqori bo'lsa, ya'ni MRC qiymati birga qanchalik yaqin bo'lsa, multiplikator qiymati shunchalik katta bo'ladi, AD yalpi talab egri chizig'i shunchalik tik bo'ladi, davlat xarajatlarining o'zgarishi maqsadli o'zgaruvchi sifatidagi iqtisodiy faollik darajasiga shunchalik ko'p ta'sir etadi. Bu esa davlat xarajatlarining multiplikator samarasi (multiplier effect) hisoblanadi.

Multiplikator modeli kapitalizm sharoitida foydalanilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlari va yuqori ommaviy ishsizlik mavjud bo'lgan turg'unlik holatidagi iqtisodiyot uchun tuzilgan edi. Ushbu vaziyatdan chiqish yo'lini topish uchun Keyns jamoat ishlari sohasida, ya'ni to'g'onlar, dambalar va hokazolarni qurishda davlat faoliyatini kengaytirishni taklif qildi, bundan ko'zlangan maqsad kelgusida iste'mol buyumlari ishlab chiqarish bilan bog'liq ikkilamchi, uchlamchi, to'rtlamchi bandlikni, va ushbu korxonalarda daromadning o'sishini yuzaga keltirish edi. Tarmoqlar o'rtasidagi ushbu zanjirli reaksiya multiplikatsiyalash jarayonining mohiyatini tashkil qiladi. Mazkur bog'liqlikni hech bir iqtisodchi inkor etmadi va inkor eta olmaydi ham. Ushbu zanjirni hisoblash, va agar biron bir sohada "yalpi talab"ning o'sishi kuzatilsa, mamlakatdagi daromad qay darajada oshadi, degan savolga yakuniy javob berish uchun Keyns va uning izdoshlari elementar multiplikator modelidan foydalanishni taklif qiladilar.

Faraz qilaylik, yo'lni qurish uchun dastlab 1000 birlik sarf-xarajat qilingan va multiplikator 5 ga teng bo'lgan, u holda daromadning o'sishi 5000 birlik bo'ladi. Keynsning fikriga ko'ra, multiplikatsiyalash zanjiri paydo bo'lishi uchun qandaydir turtki kerak. Unga ishlab chiqarish sohasining qayerda – I yoki II bo'linmada kengayishi muhim emas. Keynsning fikricha, har qanday ishlar, hatto "shubhali darajadagi foydali" ishlar ham daromadning oshishiga olib kelishi mumkin. Muhimi, biron bir joyda iste'mol buyumlariga qo'shimcha talabni yuzaga keltiruvchi turtki bo'lishi kerak, bu esa keyinchalik butun multiplikator mexanizmini ishga tushiradi. Bundan Keynsning asosiy qoidalaridan biri – kapital jamg'arish jarayoni iste'molning o'sishi bilan bir vaqtda sodir bo'lishi haqidagi g'oyasi kelib chiqadi, ammo uning qat'iy fikriga ko'ra, bunday "samarali talabni" faqat davlatning iqtisodiyotga aralashuvi orqaligina tashkil etish mumkin. Buning ustiga, davlat aralashuvi turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lib, shunga ko'ra bandlik, iste'mol, soliq, tashqi savdo va boshqa multiplikatorlar paydo bo'ladi. Shu asosda, multiplikator modelini infratuzilma sohasidagi davlat xarajatlari samaradorligini aniqlashga urinish sifatida tavsiflash mumkin va shu ma'noda burjua iqtisodchilari undan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning "foydaliligini" oqlash uchun foydalanishga harakat qiladilar.

Shunday qilib, ishlab chiqarish infratuzilmasiini to'g'ridan to'g'ri davlat tomonidan tartibga solishni kamaytirish, davlat xarajatlarini qisqartirish va shu bilan birga, raqobat mexanizmini kuchaytirish orqali monopoliyalarning bozor huquqlarini kengaytirish haqida fikr bildirish mumkin.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotining rivojlanish tarixi yo'nalishi esa o'ta yuqori monopol daromadlarni ta'minlash, moliyaviy kapitalning hukmronligini mustahkamlash va kengaytirish, davlat kuchi bilan bozor mexanizmi yagona mexanizm kabi chambarchas bog'lanib ketganligi bilan ifodalanadi.

2 Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. М., 1948

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bozor iqtisodiyotida infratuzilmani rivojlantirish asosiy iqtisodiy qonunning amal qilish talablariga bo‘ysunadi, ushbu qonunning maqsadi esa qo‘shimcha qiymat ishlab chiqarishdir. Ma’lumki, kapital faqat uning nuqtayi nazaridan foydali operatsiyalarni amalga oshiradi, va ko‘pincha umumiy ishlab chiqarish sharoitlarini (yo‘llar, kanallar, ko‘priklar, jamoaviy foydalanishga mo‘ljallangan har xil inshootlar) yaratish bilan bog‘liq foydasiz operatsiyalarni esa davlat zimmasiga, aniqrog‘i butun mamlakatga yuklaydi”. Ushbu muhim uslubiy qoida, bizning fikrimizcha, kapitalning infratuzilma sohasidagi faoliyatining mohiyatini va ayniqsa, zamonaviy davrda uning harakat qilish mexanizmini ochib beradi.

Infratuzilma tarmoqlarining aksariyati tabiiy monopoliyalar hisoblanadi, shunga ko‘ra ularni ijtimoiy tartibga solish lozim. Kommunal xizmatlar, temir yo‘llar, telefon kompaniyalari, tabiiy gaz va elektr energiya yetkazib beruvchilar tomonidan belgilanadigan narx (tarif) ijtimoiy maqbul narx deb ataladi. U hukumatning tartibga soluvchi hay’atlari yoki boshqarmalari tomonidan o‘rnatiladi. Agar tartibga solish hay’atining maqsadi resurslarni taqsimlash samaradorligiga erishish bo‘lsa, u chegaraviy xarajatlarga teng bo‘lgan ushbu (maksimal) narxni qonunan o‘rnatishga harakat qilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Самуэльсон П. Экономика. М., 1964, с. 774.
2. Инфраструктура и интенсификация экономики. М.: Экономика, 1980
3. Жамс Э. История экономической мысли XX века. Пер. с фран. М., 1959,
4. Cootner P.H, Social Overhead capital and economic growth. – In.: The conomics of Take-off into Sustained Growth., ed. W. W. Rostow. L., 1963
5. Кудрявцева С. Новая экономика: генезис, эволюция, эффект. //Мировая экономика и международные отношения, 2005, № 4
6. Hircshman A. The Strategy of Economic Development. New Haven, 1958
7. Варнавский В. Партнерство государства и частного сектора: теория и практика. Мировая экономика и международные отношения, 2002, № 7
8. Ведута Е.Н. Государственные экономические стратегии. – М.: Деловая книга, 2004
9. Волчек Н.Э. Производственная инфраструктура в экономике освобо дившихся стран. – В кн.: Тюльпанов СИ. Очерки политической экономии (развивающиеся страны). М.:Мысль, 1979
10. Гарнов А.П. Комплексное развитие инфраструктуры рынка средств производства. М.: РЭА, 1995.
11. Афонцев С. Экономические проблемы хозяйственных преобразований. //Мировая экономика и международные отношения, 2000, №12
12. Веселая Л.С. Рыночная инфраструктура и развитие конкурентной среды. Новосибирск, ИЭОПП СО РАН, 2004
13. Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. М., 1948

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING AHAMIYATI HAMDA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Nurullayeva Shaxnoza
Toshkent Xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti dotsenti v.b.

Saydullayeva Saodat
Toshkent Xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘nalishlari, kichik biznesni milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali yoritilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor muhitiga tez moslasha olishi, bandlikni ta’minlash, daromadlarni shakllantirish va shu orqali uning tengsizligini yumshatish hamda o‘rta mulkdorlar qatlamini qaror toptirishdagi afzalliklari ochib berilgan. Bundan tashqari, kichik biznesni rivojlantirish konsepsiyasida asosiy e’tibor birinchi navbatda faoliyat ko‘rsatayotgan iqtisodiy salohiyatga ega kichik biznes subyektlarini qo‘llab – quvvatlash, respublikaning ijtimoiy – iqtisodiy siyosati yo‘nalishlari va maqsadlariga mos faoliyat yuritayotgan xo‘jalik tuzilmalarini rag‘batlantirish, hududiy ahamiyatga ega mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik korxonalarga soliq imtiyozlari belgilash, lizing xizmati hamda investitsion xatarlarni sug‘urtalash tizimini kengaytirish va moliyaviy imkoniyatlari cheklangan kichik tadbirkorlik korxonalarining bank kreditlaridan foydalanishiga yo‘l ochuvchi sharoitlarni yaratishga qaratilgan fikr mulohazalar to‘g‘risida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, ish bilan bandlik muammosi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar sonidagi ulushi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi, lizing xizmati, investitsion xatarlarni sug‘urtalash tizimi.

Abstract: The article describes the directions for the development of small business and private entrepreneurship, the role and importance of small business in the national economy through economic indicators. The advantages of small business and private entrepreneurship in quickly adapting to the market environment, ensuring employment, generating income and thus reducing inequality, as well as finding a solution for the middle class of owners have been revealed. In addition, in the concept of small business development, the main focus is primarily on supporting small business entities with economic potential, encouraging economic structures operating in accordance with the directions and goals of the republic's social and economic policy, the opinions aimed at establishing tax incentives for small enterprises producing regionally important products, expanding the system of leasing service and investment risk insurance, and creating conditions that pave the way for small business enterprises with limited financial capabilities to use bank loans.

Key words: small business and private entrepreneurship, employment problem, share of employment in small business and private entrepreneurship, number of small business and private entrepreneurship entities, volume of investments in the capital of small business and private entrepreneurship, leasing service, investment risk insurance system of roaring.

Аннотация: В статье описаны направления развития малого бизнеса и частного предпринимательства, роль и значение малого бизнеса в национальной экономике через экономические показатели. Выявлены преимущества малого бизнеса и частного предпринимательства в быстрой адаптации к рыночной среде, обеспечении занятости, получении доходов и, таким образом, сокращении неравенства, а также поиске решения для среднего класса собственников. Кроме того, в концепции развития малого предпринимательства основное внимание уделяется, прежде всего, поддержке субъектов малого предпринимательства, обладающих экономическим потенциалом, поощрению экономических структур, действующих в соответствии с направлениями и целями социально-экономической политики республики, взглядам, направленным на установление налоговой политики. стимулирование малых предприятий, производящих регионально значимую продукцию, расширение системы лизингового обслуживания и страхования инвестиционных рисков, создание условий, открывающих возможность предприятиям малого бизнеса с ограниченными финансовыми возможностями использовать банковские кредиты.

Ключевые слова: малый бизнес и частное предпринимательство, проблема занятости, доля занятости в малом бизнесе и частном предпринимательстве, количество субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства, объем инвестиций в капитал малого бизнеса и частного предпринимательства, лизинговые услуги, страхование инвестиционных рисков. система рев.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarining biri sifatida “erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog‘lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash Konstitutsiyada alohida o‘rin egallashi kerak. Bunday vaziyatda, qanchalik og‘ir bo‘lmasin, iqtisodiy islohotlarni qat’iy davom ettiramiz, ichki imkoniyatlarni to‘liq safarbar qilib, xususiy sektorni yanada qo‘llab-quvvatlaymiz. Buning uchun, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini tobora yaxshilash bo‘yicha islohotlarni jadallashtiramiz” [1] deb ta’kidlagan. Jahon tajribasidan ko‘rinadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatda o‘rta mulkdorlar sinfining paydo bo‘lishiga, barqaror soliq solinadigan bazaning kengayishiga yordam beradi. Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylarda yangi ish joylarini ochish hamda yoshlar orasida ish bilan bandlik muammosini hal etish bilan bog‘liq muhim ijtimoiy masalalarga ko‘mak beradi. Jahon, milliy va mintaqaviy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishida tadbirkorlik sohalari, jumladan, kichik biznes sohasi faoliyati muhim o‘rin egallab, iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda yetakchi o‘rinni egallaydi. Xalqaro valyuta jamg‘armasining ma’lumotlariga ko‘ra, “bugungi kunda dunyoda 90,0 foiz korxonalar kichik va o‘rta biznesga tegishli bo‘lib, ular jahonning 63,0 foiz aholisini ish bilan ta’minlamoqda. Yevropa Ittifoqi miqyosida kichik va o‘rta biznesning umumiy salmog‘i 99,8 foizni tashkil etgani holda, aholini uchdan ikki qismini ish bilan ta’minlamoqda” [2].

Bozor munosabatlari tizimida kichik biznes quyidagi alohida xususiyatlari: ishlab chiqarish xajmi, ishlovchilarning soni va qaysi sanoat tarmogiga tegishliligi bilan tavsiflanadigan tadbirkorlik shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Kichik biznesga o‘zining mustaqil mulki va xo‘jalik mustaqilligiga ega bo‘lgan va faoliyati sohasida yuqori darajada dominant hisoblanmagan firmalar kiradi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi bu jarayondagi eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri – kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinliklar berish bilan tavsiflanadi. Bu toifadagi subyektlarga mustaqillik berish ularda o‘z faoliyatining yakuniy natijalari uchun javobgarlik hissini yanada oshiradi, mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi muttasil orta borishiga zamin bo‘ladi.

Hozirgi paytda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o‘sish sur’atlarini jadallashtirishda, balki, mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo‘lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o‘rin tutmoqda. Bunga asosan huquqiy bazani mustahkamlash, iqtisodiyotning mazkur sektori uchun barqaror qulaylik, imtiyoz va kreditlar tizimini shakllantirish masalalariga jiddiy e’tibor berilayotgani tufayli erishilmoqda. Respublikamiz iqtisodiyotida ahamiyati tobora oshib borayotgan kichik biznes subyektlari xo‘jalik yuritishning shaxsiy manfaatdorlik, tashabbuskorlik va mulkiy javobgarlik tamoyillariga tayanib, mulkchilikning turli shakllari teng huquqlilik va sog‘lom raqobat asosida rivojlanib borishiga asoslanadi. O‘z mulkiga, yetishtirgan mahsulotiga sohiblik hissiga, ihtiyoridagi mol-mulk, moliyaviy va moddiy resurslarni mustaqil tasarruf etishiga ko‘ra, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to‘la mos tushadi. Uning mamlakatda bandlik muammosini hal etish, mo‘l-ko‘lchilikni ta’minlash hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishdagi imkoniyatlari esa juda katta.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Mavzu doirasida ko‘plab xorijiy va mahalliy mutaxassis olimlar ish olib borishgan bo‘lib, ularning tadqiqotlarini “tadbirkorlik” tushunchasiga berishgan turli yondoshuvlar bo‘yicha faoliyat olib borishganligidan dalolat beradi. Jumladan, “tadbirkor” va “biznesmen” kabi tushunchalar ularning iqtisodiy faoliyat sohalari ko‘rilayotganda ma’nodosh hisoblanmaydi. “Biznes” tushunchasi “tadbirkor”dan ancha kam ma’noga ega deb qaraladi.

G‘arb davlatlarining bozor iqtisodiyoti haqidagi adabiyotlarida – “biznes”- jamiyatning talab va xoxishlarini qondirishga karatilgan ishlab chiqarish tizimi” deb tushuntiriladi. Iqtisodchi olim Y. Shumpeter tadbirkorlik faoliyatining mulkchilik kategoriyasidan farqlagan va uni innovatsiya faoliyati bilan bog‘lagan [3]. Uning konsepsiyasi tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyatini va tarixiy missiyasini aniqlashda, tadqiq etishda eng samarali yo‘nalish bo‘ldi.

Tadbirkorlikni tatbiq etishda paydo bo‘lgan yangi bosqich D.Gelbreytning “Yangi industrial jamiyat” asari bilan bog‘liq. Bu iqtisodiy rivojlanish ma’lum pog‘onaga o‘sishi sababli, ya’ni ishlab chiqarish individual o‘sishdan yalpi standartlashgan shaklga o‘tishi bilan tavsiflanadi [4]. Ushbu vaziyatda bozorni asta-sekin o‘rganish, talabni istiqbollashtirish, yangi texnologiya va materiallarni yaratish talab qilinadi. Yangi paradigmada boshqarish ratsionalizatsiyadan tashkiliy xulq tadbirkorligiga o‘tish tushuniladi. Bu doimiy ravishda erishilgan darajani o‘zgartirishdan, bo‘lajak imkoniyatlar va xavflarni oldindan bilish, global muqobil harakat yo‘llarini izlashdan iboratdir.

Professor V.Shepelev “Tadbirkor” tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan: “Tadbirkor bozor iqtisodiyotida xo‘jalik yuritishning asosiy subyekti hisoblanadi. Tadbirkor yakka shaxs sifatida ham ishlab chiqarish omillarini birlashtiruvchi kishilar guruhi sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkinki, bu kishilar o‘zlari ixtiyorida (tasarrufida) bo‘lgan ishlab chiqarish omillarini ishchi kuchi bilan, bu ishchi kuchini sotib olish va xo‘jalik faoliyatida undan foydalanish vositasida birlashtiradilar” deb tushuntiradi [5].

Akademik S.G‘ulomov, i.f.d. B.G‘oyibnazarovlarning ta’kidlashlaricha, “Hozirgi bozor iqtisodiyotini chuqurlashtirish sharoitida respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi korxonalarga alohida e’tibor qaratilib, bu jarayon yangi innovatsiyalar, tashabbuskorlikni talab etib, shular asosidagina (resurslarni tejab,sifatli mahsulot chiqarish yo‘li bilan) iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash mumkin. Buning uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda rahbarlar fan va texnikada erishilgan eng so‘nggi innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishga alohida e’tibor qaratishlari lozim” [6]. Bu esa kichik biznesni rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim yunalishlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Iqtisodchi olim X.Abulqosimov “biznes” tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan: “biror faoliyat yuzasidan bo‘lgan munosabat, aniqrog‘i ishbilarmonlarning iqtisodiy munosabatidir. Keng ma’nosi – qonuniy yo‘l bilan daromad topishga qaratilgan faoliyatdir” [7]. Ushbu ta’riflarni qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelindiki, ularda tadbirkorlikning ichki mohiyatini ochib beruvchi bir qator yondashishlar mavjud bo‘lib, bular bozor iqtisodiyoti talablariga ham mos keladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonunga asosan tadbirkorlik – fuqorolarning foyda yoki shaxsiy daromad olishga yo‘naltirilgan mustaqil, tashabbuskor faoliyati bo‘lib, u fuqoroning o‘z nomidan, o‘zining tavakkalchiligi bilan hamda o‘zining yoki yuridik shaxsning (korxonaning) mulkiy javobgarligi asosida amalga oshiriladi. Shunday qilib, tadbirkor to‘la yoki qisman moddiy mablag‘ga yoki moliyaviy resurslarga ega bo‘lgan g‘ayratli inson bo‘lib, u ushbu resurslarni o‘z ishini (biznesini) tashkil qilish uchun ishga soladi. Uning tomonidan bunyod etilgan firma (tashkilot, shirkat, korxona) davlatimizda taraqqiy etayotgan kichik biznesning bir qismiga aylanadi. Ushbu keltirib o‘tilgan fikrlar hozirgi globallashuv sharoitida kichik biznes subyektlarini yanada rivojlantirish uchun asos bo‘lsada, ammo favqulotda holatlarni (pandemiya, tabiiy ofatlarni, va boshqalarni) nazarda tutilmaganligi ushbu mavzu doirasida chuqur tadqiqot olib borishni taqazo etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyotida hali katta va kichik korxonalarni ajratib beruvchi yagona mezon o‘rnatilmagan. Hozirgi vaqtda bir-biridan ajratuvchi alohida belgilarini aniqlash korxonalarning muhim sohalari bo‘yicha umumlashma belgilari katalogini bunyod etish orqali amalga oshirilmoqda. Bu borada jamoa, shirkat, oilaviy, xususiy korxonalari, firma va boshqa yuridik maqomiga ega bo‘lgan korxonalar ham o‘rta korxonalarni sanab o‘tish mumkin.

XX asrning so‘nggi choragida kichik biznes subyektlari yuqori sur’atlarda rivojlana bordilar va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omillari bo‘lib qoldilar. Bugungi kunga kelib, keng rivojlanmagan kichik biznessiz zamonaviy iqtisodiyotni tasavvur etib bo‘lmaydi. U bir tomondan, qandaydir darajada yirik korxonalar bilan raqobatda bo‘ladi va shu nuqtayi nazardan iqtisodiyotni bozor kon’yunkturasi o‘zgarishlariga, voqelikni tez-tez almashib turishiga iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish imkonini beradi.

Ikkinchi tomondan, kichik korxonalarning katta qismi yirik biznes bilan hamkorlik qiladi, ularga xos bo‘lgan texnik konservatizmni bartaraf etishga ko‘maklashadi. Kichik biznesni rivojlantirish bozorni iste’mol tovarlari bilan to‘ldirishga va hududiy monopolizmga barham berishga, raqobat muhiti vujudga kelishi hamda kengayishiga, ilmiy-texnika natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishga va eksport salohiyatini yuksalishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kichik biznesning yana bir xususiyati nisbatan kam xarajatlar evaziga yangi ish o‘rinlari yaratish va shu orqali bandlik muammosini hal etishga hissa qo‘shishi hisoblanadi. Shu bilan birga, kichik biznes turli ijtimoiy guruhlar daromadlari o‘rtasidagi tafovutlarni qisqartirishga, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni sarmoyadorlik darajasi yuqori bo‘lgan sohalarga yo‘naltirishga, aholi daromadini oshirishga hamda iqtisodiyotning turli sektorlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi, jumladan:

- ulgurji va chakana savdo tizimi isloh qilindi va kichik tadbirkorlik korxonalariga infratuzilma bo‘linmalari tomonidan xizmat ko‘rsatishning samarali tizimi yaratilmoqda;
- kichik tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish hamda tadbirkorlik erkinligini kafolatlash tizimi shakllanmoqda;
- tadbirkorlarni Davlat ro‘yxatiga olish va hisobga qo‘yishning yengillashtirilgan va xabardor qilish tartibi joriy etildi hamda birja savdolari orqali tadbirkorlarning moddiy-texnik resurslarni erkin sotib olishiga qulay shart-sharoit yaratildi;
- mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarning mahsulotlarini majburiy standartlashtirish va sertifikatlash jarayoni soddalashtirildi hamda soliq yukini pasaytirish va soddalashtirish choralari ko‘rildi;
- kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati erkinlashtirildi va yangi ish boshlovchi tadbirkorlar uchun dastlabki sarmoyani shakllantirish hamda boshqa shakllardagi yangi moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi joriy etildi.

Natijada, 2021-yil holatiga YAIMda kichik tadbirkorlikning hissasi 54,9 foizga yetdi. Kichik biznesning iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishdagi hissasi sanoatda 30,1 foiz va qurilishda 72,4 foizni tashkil etdi1. Ayniqsa, kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyati asta-sekin kengayib bormoqda. Uning umumiy eksport xajmidagi ulushi 2021-yilda 22,3 foizni tashkil etdi. Ularning asosiy eksport mahsulotlarini – qishloq xo‘jaligi, to‘qimachilik, ishlov beruvchi, elektrotexnik ishlab chiqarish mahsulotlari, halq amaliy san’ati buyumlari tashkil etmoqda.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni hozirgi kun rivojlanishini chuqur tahlil qilish uchun ekonometrik tahlilini amalga oshirish maqsad qilingan holda quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tanlab olindi: kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilgan tovar va xizmatlar hajmi – Y, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi – X1, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar sonidagi ulushi – X2, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni – X3, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikningg asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi – X4. Dastlab ushbu tanlab olingan omillarning natijaviy omilga va o‘zaro ular o‘rtasidagi bog‘liqlik (krrelyatsiya) koeffitsiyentini aniqlab olamiz (1-jadval)

1-jadval: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilgan tovar va xizmatlar hajmiga ta’sir etuvchi omillarning korrelyatsion koeffitsiyenti

	Y	X1	X2	X3	X4
Y	1				
X1	0,675159	1			
X2	0,61741	0,725582	1		
X3	0,965721	0,685374	0,693818	1	
X4	0,941736	0,455288	0,481236	0,750868	1

Jadval qiymatlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Natijaviy Y-omilga nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi (rY,X1=0,675159),), kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar sonidagi ulushi (rY,X2=0,61741) o‘rtachadan kuchli zichlikda hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni (rY,X3=0,965721), kichik biznes va xususiy tadbirkorlikningg asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi (rY,X4=0,941736) kuchli zichlikda bog‘langan bo‘lib, omillar o‘rtasida rx1,x2<0,8 shartga ko‘ra multikoleniarlik mavjud emasligidan kuzatilayotgan bog‘liqlik o‘rtasida regressiya tenglamasini aniqlashni EViews dasturi orqali davom ettirish mumkin.

Tadqiqotlarga ko‘ra, mustaqillikdan keyingi o‘tgan yigirma sakkiz yil davomida viloyatda KBXT rivojlanish tendensiyalarini eksponensial, darajali, logarifmik, ko‘rsatkichli, binominal va chiziqli funksiyalar yordamida tahlil qilganda chiziqli funksiyaning ko‘proq real amaliyotni aniqroq ifodalashi namoyon bo‘ladi. Shu sababdan ham tanlab olingan omillar o‘lchov birliklari turlicha bo‘lganligi bois, omil ko‘rsatkichlarini logorifmlab chiziqsiz tenglamani hosil qilish bilan birga uni sifat mezonlari asosida tekshiriladi (2-jadval).

1 O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

2-jadval: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilgan tovar va xizmatlar hajmining ko‘p omilli regressiya tenglamasi

Dependent Variable: LnY				
Method: Least Squares				
Date: 02/25/21 Time: 08:20				
Sample: 2000 2020				
Included observations: 21				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistik	Prob.
LnX1	5.043956	0.932438	5.409427758	0.0001
LnX2	-1.12100358	1.394239	-0.804025407	0.0324
LnX3	1.13150750	0.933943	1.21153807	0.0424
LnX4	0.488818	0.282784	1.728591434	0.0509
C	-19.200039	11.81623	-1.624887041	0.0245
			t_{jad}=2,119905299	
R-squared	0.991239	Mean dependent var		16.98680
Adjusted R-squared	0.989049	S.D. dependent var		2.506779
S.E. of regression	0.262326	Akaike info criterion		0.365800
Sum squared resid	1.101040	Schwarz criterion		0.614496
Log likelihood	1.159095	Hannan-Quinn criter.		0.419774
F-statistik	452.5822	Durbin-Watson stat		1.895196
Prob(F-statistik)	0.000000	F_{jad}=0,171112236		

Jadval ma’lumotlarida keltirilgan koeffitsiyentlar qiymatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi tenglmani hosil qilinadi:

LnY=5,1LnX1-1,1207501LnX2+1,1315LnX3+0,5LnX4-19,200038719 (1)

Aniqlangan 1-regressiya tenglamasi parametrlarini t-Statistik mezonlari bo‘yicha ahamiyatliligiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, α=0,05 va df=16 bo‘lgan holda tJad=2,119905299 ga tengligidan faqatgina kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi (t_{X1}=5.441604> t_{Jad}=2,119905299) ahamiyatli bo‘lib, qolgan parametrlarning ahamiyatliligini retrospektiv sifat mezonlari MAPE (Mean Absolute Percentage Error – o‘rtacha mutloq foiz xatosi) va TIC (Tayl inequality coefficient – Teyl prognoz aniqligining muqobil o‘lchovi) bilan tekshirish talab etiladi.

Aniqlangan ma’lumotlarga asosan ta’kidlash mumkinki, MAPE=1,144 bo‘lib, bu o‘z navbatida MAPE=1,144<10% prognoz aniqligi yuqori va TIC=0,0067<1 prognoz aniqligi qanchalik yuqori bo‘lsa, koeffitsiyent shunchalik nolga intilishidan 1-regressiya tenglamasi parametrlarining barchasini ahamiyatliligi kelib chiqadi. Matematika qoidalariga va hisob-kitob jarayonlarini osonlashtirish hamda natijalar aniqligiga erishish uchun yuqorida hosil qilingan 1-regressiya tenglamasini potensirlab olinadi va unga ko‘ra quyidagi tenglama hosil qilinadi:

$$Y = \frac{X1^{5.1} * X3^{1.1315} * X4^{0.5}}{X2^{1.1207501} * e^{19.200038719}} \quad (1^*)$$

Hosil qilingan 1*-regressiya tenglamasini haqiqatdan ahamiyatliligini α=0,05 va k1=4; k2=16 bo‘lganda FJad=0,171112236 ga tengligini e’tiborga olgan holda hisoblangan Fisher qiymati Fhis=452,6 tengligidan FJad shartga binoan 1*-regressiya tenglamasining ahamiyatliligi hamda DW=1,895 teng bo‘lganligi bois, avtokorrelyatsiya mavjud emasligidan tenglamaning ishonchli va adekvatligi kelib chiqadi.

Aniqlangan 1*-regressiya tenglamasiga iqtisodiy izoh beradigan bo‘lsak, unga ko‘ra, hozirgi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 1 foizga oshirishga erishilsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilgan yalpi tovar va xizmatlar hajmini qo‘shimcha 61,3 mlrd. so‘mga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari sonini 1 taga ko‘paytirish 1,7 mlrd. so‘mga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning

asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmini bir mlrd. so‘mga oshirish esa 3,03 mlrd. so‘mga oshirish mumkinligi aniqlandi. Ammo shuni ta’kidlash joizki hozirgi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar sonidagi ulushini 1 foizga oshirilsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilgan yalpi tovar va xizmatlar hajmi 8,9 mlrd. so‘mga qo‘shimcha kamayishi aniqlanib, bu o‘z navbatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ishchilarga nisbatan to‘yinganligini ko‘rsatmoqda.

Endi aniqlangan 1*-regressiya tenglamasidan foydalanib qolgan omillarni vaqt (t=22) bo‘yicha quyidagi tenglamalari bo‘yicha:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi – X1=22,4+1,5*t;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar sonidagi ulushi – X2=46,7+1,5*t;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni – X3=49688+17215*t;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikningg asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi – X4=-14217543,5+5457756,1*t.
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilgan yalpi tovar va xizmatlar hajmining ko‘p omilli prognoz ko‘rsatkichini aniqlanadi (3-jadval).

3-jadval: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilgan yalpi tovar va xizmatlar hajmining ko‘p omilli prognoz ko‘rsatkichi

Yil	KBXTda yaratiladigan mahsulot va xizmatlar hajmi, mln. so‘m	KBXTning YAIMdagi ulushi, foiz	KBXTda bandlarning respublika iqtisodiyotidagi umumiy bandlar sonidagi ulushi, foiz	KBXT subyektlari soni, birlik	KBXTga ajratilgan investitsiyalar, mmln. so‘m
2021	641474523,8	55,4	79,7	428418	105853090,7
2022	771886042	56,9	81,2	445633	111310846,8
2023	923202012,7	58,4	82,7	462848	116768602,9
2024	1097952614	59,9	84,2	480063	122226359
2025	1298882477	61,4	85,7	497278	127684115,1
2026	1528961599	62,9	87,2	514493	133141871,2

Jadvalda keltirilgan prognnoz natijalariga ko‘ra, 2026 yilga borib kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda yaratilgan yalpi tovar va xizmatlar hajmi 2020-yilga nisbatan 2,4 barobarga o‘sib, 1528,9 trln. so‘mga yetishi bu esa albatta, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushini bazis davrga nisbatan 7,5%, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar sonidagi ulushini ham 7,5 %, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni 20,1 % hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmini 25,8 foizga oshishi bilan belgilanishi kutilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat davlat va jamoat taraqqiyotida, balki har bir insonning yuksalib borayotgan hayotiy ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega, ya’ni xizmat ko‘rsatish, chakana savdo, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish kabi sohalarda ushbu faoliyat yaqqol namoyon bo‘ladi.

Chunonchi, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali:

- o‘rta mulkdorlar sinfi shakllanadi;
- makroiqtisodiy beqarorlik, ishsizlik va taqchillik kabi iqtisodiy muammolar barham topadi;
- sog‘loq raqobatchilik muhitining yaratilishi orqali YAIMning miqdor va sifat jihatidan o‘sishi kuzatiladi;
- ichki bozor zarur tovar (xizmat)lar bilan to‘yinadi va ularning sifati oshadi;
- pirovardida aholi turmush darajasining o‘sishiga erishiladi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Xulosa qilib aytganda, kichik biznesni rivojlantirish konsepsiyasida asosiy e'tibor birinchi navbatda faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiy salohiyatga ega kichik biznes subyektlarini qo'llab – quvvatlash, tarmoq va hudud uchun zarur, ammo, past rentabelli sohalar rivoji uchun qulay imkoniyatlar yaratish, respublikaning ijtimoiy – iqtisodiy siyosati yo'nalishlari va maqsadlariga mos faoliyat yuritayotgan xo'jalik tuzilmalarini rag'batlantirish, hududiy ahamiyatga ega mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik korxonalarga soliq imtiyozlari belgilash, lizing xizmati hamda investitsion xatarlarni sug'urtalash tizimini kengaytirish va moliyaviy imkoniyatlari cheklangan kichik tadbirkorlik korxonalarining bank kreditlaridan foydalanishiga yo'l ochuvchi sharoitlarni yaratishga qaratilmog'i kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston Xalqiga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2022-yil 21-dekabr, № 272 (8334).
2. IMF STAFF COUNTRY REPORTS.
3. http://www.imf.org/external/pubs/ft/sdn/2015/sdn1504.pdf.
4. Шумпетер Й. Теория экономического развития.пер. с. Англ. –М.: Прогресс, 1992, 169-170, 183 б.
5. John Kenneth Galbraith. The New Industrial State. American Journal of Agricultural Economics 70(4): 2015, 1-518. DOI:10.2307/1241945
6. Shepelev V. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik. Soliq to'lovchining jurnali, 1996. №7, 30 b.
7. G'ulomov S, G'oyibnazarov B. Iqtisodiy yuksalish omillari. // Xalq so'zi, 2007-yil 27-fevral.
8. Abulkosimov, Hasan Xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda ishbilarmonlik muhitini yaxshilashning roli. 2016/05/18 https://www.researchgate.net/publication.

TIJORAT BANKLARI INSON KAPITALI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA KPI KO‘RSATKICHLARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI

Turaeva Mastura Kurbanovna
Buxoro viloyati, Buxoro shahar 23-IDUM “Iqtisodiy bilim asoslari fani o‘qituvchisi”

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida inson kapitali tushunchasi, inson kapitali samaradorligini baholashda KPI ko‘rsatkichlaridan foydalanish mexanizmlari, bank bo‘limlari misolida KPI ko‘rsatkichlaridan foydalanish samaradorligi haqidagi amaliy va nazariy bilimlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, inson kapitali, KPI, mehnat unumdorligi, xizmat sifati, inson kapitalining kreativligi, xodimlar reytinggi, Reyting toifasi.

Abstract: This article describes human capital in commercial banks, mechanisms of using KPI indicators in assessing the effectiveness of human capital, as well as practical and theoretical knowledge about the effectiveness of using KPI indicators on the example of bank units.

Key words: motivation, human capital, KPI, labor productivity, quality of service, creativity of human capital, employee rating, Rating Category.

Аннотация: В данной статье описан человеческого капитала в коммерческих банках, механизмы использования показателей КПЭ при оценке эффективности человеческого капитала, а также практические и теоретические знания об эффективности использования показателей КПЭ на примере подразделений банка.

Ключевые слова: мотивация, человеческий капитал, КПЭ, производительность труда, качество обслуживания, креативность человеческого капитала, рейтинг сотрудников, Рейтинговая категория.

KIRISH

So‘nggi yillarda inson kapitalidan foydalanish katta o‘zgarishlarga duch keldi. Yangi sharoitlarda ishlashga qodir malakali ishchi kuchining etishmasligi kadrlar bilan ishlashni shunchaki ma’muriy ish sifatida tushunishdan bosh tortishga olib keldi. Motivatsion jarayonlarni kengroq ko‘rib chiqishga ehtiyoj borligi ilmiy asoslarda ko‘rib chiqilmoqda. Samarali ishlash va inson kapitalidan oqilona foydalanish texnologiyalarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun mutaxassislar mehnatini rag‘batlantirishning moddiy va nomoddiy shakllarini maqbul kombinatsiyalash, ularning kasbiy o‘sishi uchun sharoit yaratish bilan kadrlar siyosatini ishlab chiqish va takomillashtirish zarur bo‘lib hisoblanadi[1].

TADQIQOT USULLARI

Tadqiqot uchun ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlashda ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, taqqoslash, umumlashtirish, shuningdek, axborotni qayta ishlashning statistik va grafik usullaridan foydalanilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklarida KPI ko‘rsatkichlari va inson kapitali samaradorligini baholashda ushbu ko‘rsatkichdan foydalanish G.Bekker, R.Solou, I.Fisher, J.Kendrik, E.Denison, S.Fabrikant, S.Kuznets, R.Lukas, T.Shults kabi bir qator va xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida izohlab o‘tilgan.

1 https://1economic.ru/lib/113936

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida inson kapitali samaradorligini baholash xodimlarning bankning umumiy faoliyati va strategik maqsadlariga qanchalik samarali hissa qo‘shayotganini baholashni o‘z ichiga oladi. Asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) ushbu baholashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tijorat banklarida inson kapitali samaradorligini baholashda KPI ko‘rsatkichlaridan foydalanishning ayrim mexanizmlari mavjud bo‘lib, ayrim jarayonlarda ushbu ko‘rsatkichlar alohida rol o‘ynaydi.

1. **Xodimlar unumdorligi ko‘rsatkichlari.** Bank xodimlarining mehnat unumdorligini o‘lchash uchun har bir xodimga to‘g‘ri keladigan daromad, har bir xodimga to‘langan kreditlar yoki har bir xodim uchun bajariladigan operatsiyalar kabi KPI dan foydalaniladi. Ushbu ko‘rsatkichlarni jamoalar yoki filiallar bo‘yicha taqqoslash yuqori samaradorlik va yaxshilanishi kerak bo‘lgan sohalarni aniqlashi mumkin.
2. **Ta’lim va rivojlanish ko‘rsatkichlari.** Xodimlarni o‘qitish va rivojlantirish bilan bog‘liq KPIlarni kuzatib borish, masalan, har bir xodimga ta’lim soatlari, erishilgan sertifikatlar yoki malaka oshirish dasturlarida ishtirok etish darajasi kabi ko‘rsatkichlar kiradi. Bu bankning inson kapitalini rivojlantirishga kiritgan sarmoyasini va natijada samaradorlikka ta’sirini baholashga yordam beradi.
3. **Xodimlarning qoniqishi va faolligi.** Bank xodimlarining ma’naviyatini va majburiyatlarini o‘lchash uchun xodimlarning aylanmasi darajasi, xodimlarning qoniqish so‘rovlari yoki jalb qilish ballari kabi KPIlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Qoniqarli va ishchan xodimlar yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish va bank faoliyatiga ijobiy hissa qo‘shish ehtimoli ko‘proq bo‘ladi.
4. **Xizmat sifati ko‘rsatkichlari.** Mijozlarning qoniqish ko‘rsatkichlari, mijozlar so‘rovlarini ko‘rib chiqishning o‘rtacha vaqti yoki mijozlar shikoyatlarini hal qilish stavkalari kabi KPIlardan foydalangan holda bank xodimlari tomonidan ko‘rsatiladigan mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini baholang. Bu mijozlar ehtiyojlarini qondirish va munosabatlarni o‘rnatishda oldingi xodimlarning samaradorligini aks ettiradi.
5. **Yetakchilik samaradorligi.** KPI yordamida bank rahbarlari va menejerlarining ish faoliyatini baholash, masalan, xodimlarni o‘z jamoalarida saqlab turish, maqsadlarga nisbatan jamoaning ishlashi yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobotlardan olingan fikr-mulohazalar haqida fikr yuritiladi. Samarali yetakchilik ijobiy ish muhitini yaratish va xodimlarning samaradorligini oshirish uchun zarurdir.
6. **Xavf va muvofiqlikka rioya qilish.** Normativ buzilishlar soni, audit natijalari yoki firibgarlik hodisalari kabi risklarni boshqarish va muvofiqlik siyosatiga rioya qilish bilan bog‘liq KPIlarni kuzatib borish muhim hisoblanadi. Bu xodimlarning samarali o‘qitilishi va tegishli me’yoriy hujjatlarga rioya qilishini ta’minlaydi, bank uchun operatsion risklarni minimallashtiradi.
7. **Innovatsiya va moslashuvchanlik.** Amalga oshirilgan xodimlar takliflari, yangi mahsulot (xizmatlar) ni ishga tushirish yoki yangi texnologiyalarni qabul qilish sur’atlari bilan bog‘liq KPIlarni kuzatish orqali bankning innovatsiyalar kiritish va o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish qobiliyatini baholanadi. Bu biznesni rivojlantirishda bank inson kapitalining kreativligi va alohidaligini aks ettiradi.
8. **Funksional hamkorlik.** Muvaffaqiyatli idoralararo loyihalar soni yoki idoralararo manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari kabi Funksional hamkorlik bilan bog‘liq KPIlar o‘lchanadi. Samarali hamkorlik tashkilot ichidagi samaradorlik va innovatsiyalarni oshiradi.

Tijorat banklari ushbu mexanizmlardan foydalanish va tegishli KPIlarni o‘z ichiga olgan holda, o‘z inson kapitalining samaradorligi va samaradorligi bo‘yicha qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lishi, takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlashi, samaradorlikni optimallashtirish va tashkiliy maqsadlarga erishish uchun maqsadli strategiyalarni amalga oshirishi mumkin.

Bankning inson kapitalidan foydalanish samaradorligini baholash muammosini hal qilish uning individual ko‘rsatkichlarini emas, balki bank sohasida xodimlarni boshqarish samaradorligini har tomonlama baholash imkonini beradigan metodologiyani ishlab chiqishni talab qiladi.

Bankning inson kapitalidan foydalanish samaradorligini baholashning maqsadli ko‘rsatkichlari va usullarini aniqlash uchun biz o‘rganish obyektini o‘rganish, ta’sir etuvchi omillarni tavsiflash va sabab-ta’sir munosabatlarini ko‘rsatish imkonini beradigan tizimli yondashuvni qo‘llashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Aslida, bank xodimlarini boshqarish samaradorligini baholashdan maqsad inson resurslaridan foydalanish samaradorligi darajasining sanoatni rivojlantirishning strategik maqsadlariga muvofiqligini yoki mos kelmasligini aniqlashdir.

Mavjud KPI asosidagi motivatsiya tizimini takomillashtirish uchun biz xodimning reytingiga asoslangan “Reyting toifasi” shkalasidan foydalanishni taklif qilamiz. Bo‘lim xodimlarining mehnatiga haq to‘lash darajasining ularning ish samaradorligi ko‘rsatkichlariga bog‘liqligini ta’minlash nuqtayi nazaridan, bonuslardan foydalangan holda bonuslar potensial eng qulay usul hisoblanadi.

Xodimlar reytingi – bu tashkilotning bir nechta xodimlarining ish faoliyatini qiyosiy baholash usuli. Reyting ma’lum bir mezonga asoslangan umumlashtirilgan xarakteristikaga asoslanadi, bu esa xodimlarni ma’lum bir ketma-ketlikda guruhlash imkonini beradi.

Фронт офис ходимларининг KPI картаси

№	Кўрсаткичлар	Қадам	Ўлчов бирлиги	Амалдаги бонус	1 дона кредит ўртача суммаси	Амалда ҳисобланган KPI	Таклиф этилаётган бонус	Таклиф бўйича ҳисобланган KPI
1	Кредит карта	1 000 000	Сўм	5 000	25 000 000	125 000	10 000	250 000
2	Автокредит	1 000 000	Сўм	1 000	100 000 000	100 000	10 000	1 000 000
3	Микрокарз	1 000 000	Сўм	5 000	50 000 000	250 000	10 000	500 000
4	Таълим кредити	1 000 000	Сўм	5 000	10 000 000	50 000	5 000	50 000
5	Ипотека кредити	1 000 000	Сўм	1 000	200 000 000	200 000	5 000	1 000 000
	Жами:					725 000		2 800 000

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, faoliyatning asosiy ko‘rsatkichlari (KPI) tijorat banklarining turli bo‘limlari bo‘yicha faoliyatni monitoring qilish va baholash, takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash va faoliyatni strategik maqsadlarga muvofiqlashtirish uchun qo‘llaniladi. KPIlar odatda quyidagi bo‘limlarda qo‘llanilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bank bo‘limlari	KPI	KPI qo‘llashdan asosiy maqsad
Chakana bank xizmatlari bo‘limi	Mijozlarning qoniqish ko‘rsatkichlari, hisobni sotib olish stavkalari, tranzaksiyalarning o‘rtacha qiymati, filiallar soni, o‘zaro savdo ko‘rsatkichlari va raqamli qabul qilish stavkalari	Filial operatsiyalari samaradorligini, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini va chakana mijozlarni jalb qilish va ushlab turishda savdo va marketing harakatlarining muvaffaqiyatini baholash
Kredit bo‘limi	kredit berish hajmi, kreditning depozitga nisbati, kredit sifati ko‘rsatkichlari (masalan, ishlamaydigan kredit nisbati), munosabatlarning rentabelligi va mijozlarni ushlab turish stavkalari	kreditlash faoliyati samaradorligini baholash, kredit riskini boshqarish va tijorat mijozlari munosabatlarining rentabelligini o‘lchash
Risklarni boshqarish	kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti, xavf-xatarga moslashtirilgan kapital rentabelligi (RAROC), tavakkalchilik chegaralari, me’yoriy muvofiqlik ko‘rsatkichlari va xavf hodisalarining chastotasi/jiddiyligi	Bankning umumiy tavakkalchilik profilini monitoring qilish, me’yoriy hujjatlarga rioya etilishini ta’minlash va risklarni kamaytirish strategiyasi samaradorligini baholash
Avtomatlashtirish bo‘limi	tranzaktsiyalarni qayta ishlash vaqtlari, xatolik stavkalari, tizimning ish vaqti/to‘xtab qolish vaqti, AT xavfsizligi hodisalari va har bir tranzaksiya narxi	Bank operatsiyalarining samaradorligi va ishonchliligini baholash, texnologik tizimlar samaradorligini o‘lchash va jarayonlarni takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash
Moliya va buxgalteriya hisobi bo‘limi	aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), sof foiz marjasi (NIM), xarajatlarning daromadga nisbati va mahsulot qatori bo‘yicha rentabellik	Bankning moliyaviy faoliyatini baholash, rentabellik va samaradorlikni nazorat qilish, moliyaviy qarorlar qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash
Kadrlar bo‘limi	Xodimlar almashinuvi darajasi, o‘qitish va rivojlanish ko‘rsatkichlari, xodimlarni jalb qilish ballari va xilma-xillik / muvofiqlashtirish ko‘rsatkichlari	Ishchi kuchi unumdorligini, iqtidorni saqlab qolish va tashkiliy madaniyatni baholash va xodimlarning qoniqish va ish faoliyatini oshirish bo‘yicha tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash.

Marketing bo‘limi	mijozlarni sotib olish qiymati, mijozning umr bo‘yi qiymati, Net Promoter Score (NPS), bankning konvertatsiya stavkalari va mijozlarning sodiqlik darajasi.	marketing konsepsiyasining samaradorligini o‘lchash, mijozlarning sodiqligi va qoniqishini baholash va mijozlar tajribasini yaxshilash imkoniyatlarini aniqlash
Monitoring bo‘limi	me’yoriy muvofiqlik ko‘rsatkichlari, audit natijalari, huquqiy nizolar/hallar soni va ichki siyosat va tartiblarga rioya qilish	Normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishini ta’minlash, huquqiy va muvofiqlik risklarini kamaytirish, bank obro‘si va yaxlitligini saqlash

Tijorat banklari ushbu bo‘limlar bo‘ylab KPI dan samarali foydalanish orqali samaradorlikni kuzatishi, doimiy takomillashtirishga yordam berishi va sa’y-harakatlarni tashkilot maqsad va vazifalariga muvofiqlashtirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://nbu.uz/uz/about-bank/respublika-apparati-tuzilishi/
2. https://aloqabank.uz/uz/private/
3. https://core.ac.uk/download/pdf/236171808.pdf
4. file:///C:/Users/user/Downloads/otsenka-effektivnosti-ispolzovaniya-chelovecheskogo-kapitala-v-regionah-rossii.pdf
5. https://ru.scribd.com/doc/50937514/thesis-alp
Hozirgi kunda har bir tijorat banki o‘zining kredit siyosatini ishlab chiqib, kredit munosabatlarini ushbu siyosat orqali yuritadilar. Xorijiy bank amaliyotida kreditlashning ikki usuli ma’lum. Birinchi usulning ahamiyati har bir ssuda induvidual tartibda ko‘rib chiqilishidadir. Kredit ma’lum maqsaddagi mablag‘ ehtiyojini qondirishga beriladi. Ushbu usul aniq muddatga kredit ajratishda qo‘llaniladi. Ikkinchi usulda kredit bank tomonidan qarz oluvchiga oldindan belgilab qo‘yilgan kredit limiti bo‘yicha beriladi, bunda qarz oluvchi unga qo‘yilgan to‘lov hujjatini o‘z vaqtida to‘lash majburiyatini oladi. Kreditlashning ushbu shakli kredit liniyasi deb ataladi.

Banklarda kreditlar hisobini tashkil qilishda buxgalteriya hisobida umumqabul qilingan tamoyillardan foydalaniladi: buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozuv usuli yuritish; uzluksizlik; xo‘jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarni pulda baholanishi; aniqlik; hisoblash; oldindan ko‘ra bilish (ehtiyotkorlik); mazmunning shakldan ustunligi; ko‘rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi; moliyaviy hisobotning betarafligi; hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi; aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi. Kredit operatsiyalarni hisobga olish uchun kredit hisobvaraqlaridan va balansdan tashqari hisobvaraqlaridan foydalaniladi. Bunda bir martalik va kredit liniyasidan foydalanilgan holda kredit operatsiyalari hisobga olinadi.

Kredit olish uchun bankda har bir kredit bo‘yicha alohida kredit hisobvarag‘i ochiladi. Mijoz kredit olish uchun bankga belgilangan tartibda hujjatlar paketini rasmiylashtirilib topshiradi. Kredit komissiyasining qaroriga ko‘ra kredit berish lozim deb topilsa bank va kredit oluvchi o‘rtasida kredit shartnomasi tuziladi. Kredit shartnomasida kreditning nima maqsadda olinishi, muddati, summasi, qaytarilish tartibi, kredit uchun to‘lovlar, tomonlarning majburiyatlari, javobgarligi, boshqa shartlar ko‘rsatiladi.

Kredit bo‘limining farmoyishiga ko‘ra, hisob operatsion bo‘limida kredit oluvchi korxonaga kredit hisob varag‘i ochiladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakliga qarab, tegishli balans hisobvarag‘i bo‘yicha kredit hisobvarag‘i ochiladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2004-yil 17-iyuldagi № 578 qarori bilan tasdiqlangan va 17–30–son o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan birga “O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi”da keltirilgan hisobvaraqlardan foydalaniladi.

Qisqa muddatli kreditlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar 01, 05, 09 va 99 raqami bilan tugagan ikkinchi tartibli hisobvaraqlarni o‘z ichiga oladi. Masalan:

- 13101 – Xususiy korxonalar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar
- 13105 – Xususiy korxonalar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan muddati o‘tgan kreditlar
- 13109 – Xususiy korxonalar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan shartlari qayta ko‘rib chiqilgan qisqa muddatli kreditlar

Xuddi shunday tartibda uzoq muddtli kreditlar ham 01, 05 va 99 raqami bilan tugagan ikkinchi tartibli hisobvaraqlarni o‘z ichiga oladi. Masalan:

- 15501 – Xususiy korxonalar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar
- 15505 – Xususiy korxonalar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilganshartlari qayta ko‘rib chiqilgan uzoq muddatli kreditlar

Tijorat banklari tomonidan berilayotgan va olinayotgan kreditlar bo‘yicha majburiyatlar balansdan tashqari hisobvaraqlarda hisobga olinadi

- 91800 – Bankning kredit va lizing majburiyatlari
- 91809 – Bankning kredit va lizing berish majburiyati
- 91816 – Bankning kredit va lizing olish majburiyati
- 96351 – Bankning kredit berish majburiyati bo‘yicha kontr-hisobvaraq

Tijorat banklarida berilgan kreditlar buxgalteriya hisobining maqsadi hisob tizimi va foydalanuvchilar uchun bankning kredit faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tan olish, o‘lchash, ularni jamlash va ularni aniq yetkazib berishdir.

Buxgalteriya hisobi vazifalarini tizimlashgan holda banklarda kreditlar hisobi vazifalari ham alohida guruhlandi:

- bankning kredit faoliyati asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha rejaning bajarilishini nazorat qilish;
- bankning kredit operatsiyalarini amalga oshirishni o‘z vaqtida va to‘g‘ri belgilash;
- bank kreditlarini tan olish va ularni hisobda aks ettirish to‘g‘riligini ta’minlash;
- bank kreditlari hisobini to‘g‘ri yuritish va moliyaviy hisobotlar tayyorlash uchun ma’lumot bilan ta’minlash;
- zamonaviy takomillashgan hisob tizimini tatbiq qilish, bank kreditlari ko‘rsatkichlari uslubiyati va moliyaviy hisobot shakllarini takomillashtirish;
- bank faoliyati samaradorligini oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun o‘tkazilgan tahlil va tezkor nazoratga zarur ishonchli va aniq ma’lumotlarni shakllantirish.

Yaponiya va Germaniyadagi ko‘plab banklar har bir mijozga va berilgan har bir kreditga ma’lum kredit toifasini belgilaydigan keng qamrovli kredit reyting tizimidan foydalanadilar. Kredit reytinglari kredit riski darajasiga qarab guruhlarga bo‘linadi. Qarz oluvchi reytingi har bir qarz oluvchining kreditga layoqatliligini asosiy qarz va foizlar qaytarilishiga ishonchning maqbul darajasidan kelib chiqqan holda baholaydi va toifalarga ajratadi yoki qarz oluvchi o‘z majburiyatlarini bajarmaslik xavfi darajasini belgilaydi. Operatsion reytingi har bir aniq operatsiya uchun bir xil harakatlarni amalga oshiradi. Bunda kredit muddatining uzunligi va garovning mavjudligi, kreditlar tasnifini ularning “yomon” kreditlar bo‘yicha yo‘qotishlarga aylantirish imkoniyati nuqtayi nazaridan baholash kabi omillar hisobga olinadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bank kreditlari buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aniq hamda to‘g‘ri aks ettirish davrida aks ettiriladi. Kredit ajratilgandan so‘ng kredit monitoringi o‘tkazilishi ustidan nazoratni kuchaytirish. Berilgan kreditlarni monitoring qilish orqali kreditdan qanday maqsadda foydalanilayotganligi va qay darajada samaradorlikka erishilayotganligini aniqlash mumkin. Banklarda kreditni berish va undirish jarayoni yuzasidan amalga oshiriladigan ishlarni ommaga yetkazish. Yana shu yo‘l bilan shubhali va umidsiz ssudalarning tasniflangan kredit hajmidagi salmog‘ini qisqartirish. Banklarda yuqori likvidlikka ega bo‘lgan garov obyektlaridan foydalanishni kuchaytirish. Kreditlarni undirishni kuchaytirish maqsadida bank xodimlari va mijoz o‘rtasidagi aloqadorlikni kuchaytirish va mijoz o‘rtasida doimiy ravishda ma’lumot olib turishni tashkil etish. Muxtasar qilib aytadigan bo‘lsak, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar hajmi yil o‘sib bormoqda va bu mamlakatimiz iqtisodiyotini o‘sishiga juda katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Fikrimizcha, mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni muammoli kreditlarga aylanmasligini oldini olish hamda kredit berish salmog‘ini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni keltirish maqsadga muvofiq: banklarga kredit uchun kelib tushgan arizaga atroflicha yondashuv, ya’ni dastlabki monitoringni to‘g‘ri va mukammal amalga oshirish. Bu yerda birinchi navbatda, mijozning xarakteriga, uning moliyaviy ahvoliga, biznes hamkorlari orasidagi mavqeyiga hamda ushbu sohadagi tajribasiga asosiy e’tiborni qaratish va shu bilan birga kredit oluvchi mijozni asosan jismoniy shaxslarga kredit ajratishdan oldin taqdim etilgan hujjatlarni to‘gri tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi va bildirilgan takliflarni amaliyotga tatbiq etilishi, tom ma’noda tijorat banklarining kredit buxgalteriya hisobini to‘g‘ri yuritish va bu orqali bankning moliyaviy ahvoliga salbiy ta’sirini kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdikarimova D.R. Bank kreditlari garov ta’minotini baholash. Monografiya. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2016. – 168 b. February 2022 www.oriens.uz
2. Abdikarimova D.R. Banklar garov ta’minotini baholash zarurligi va asosiy tamoyillari.// “Moliya” jurnali. – Toshkent, 2015. – №4. – B. 58-63. (08.00.00; №12)
3. Abdikarimova D.R. O‘zbekistonda baholash institutining shakllanish va rivojlanish bosqichlari.// “Moliya” jurnali. – Toshkent, 2016. – №1. – B. 93- 98. (08.00.00; №12).
4. Abdikarimova D.R. Xorij amaliyotida bank kreditlari bo‘yicha garovni baholashning asosiy tamoyillari va ta’minot turlari.//“Biznes- ekspert” jurnali. – Toshkent, 2016. – №3. – B. 29-33. (08.00.00; №3)

KO‘P TARMOQLI FERMER XO‘JALIKLARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI BAHOLASH USULLARI

Abdulloyev Asliddin Junaydullayevich
Buxoro davlat unversitet “Iqtisodiyot”kafedrasi mudiri professor i.f.f.d.,

Teshayev Mirolim Djumayevich
“Iqtisodiyot”kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarining raqobatbardoshlikni baholash usullarining ilmiy asoslari yoritilib, undan mamlakatimiz amaliyotida ijodiy foydalanish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko‘rsatish.

Abstract: The article describes the scientific basis of the methodology for assessing the competitiveness of diversified farms, developed a scientific proposal and practical recommendations for its creative use in the practice of our country.

Key words: agriculture, production, processing, procurement, storage, sales, construction work and provision of services.

Аннотация: В статье описаны научные основы методики оценки конкурентоспособности многоотраслевых фермерских хозяйств, разработаны научное предложение и практические рекомендации по ее творческому использованию в практике нашего государства.

Ключевые слова: сельское хозяйство, производство продукции, переработка, заготовка, хранение, реализация, строительные работы и оказание услуг.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasining uchinchi ustuvor yo‘nalishidagi uchinchi bandida: “fermer xo‘jaliklari, eng avvalo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini rag‘batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish”[1] vazifasi qo‘yilgan. Ushbu strategik vazifasini muvaffaqiyat bilan bajarishda ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarining raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.Bunda fermer xo‘jaliklarida asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qo‘shimcha faoliyati hamda noishlab chiqarish tarmoqlari o‘rtasidagi raqobatni rivojlantirish va uning darajasini baholashga e’tibor qaratish lozim deb, o‘ylaymiz. Chunki fermer xo‘jaligi raqobatbardoshligi o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish samaradorligini va boshqaruv tizimi faoliyati samaradorligini baholashning bosh mezoni sifatida xizmat qiladi.

Korxona raqobatbardoshligini baholash bo‘yicha ingliz olimi Maykl Porterni qiymatning zanjir konsepsiyasiga asoslangan usuli e’tiborga loyiq. Uning asosini Porter tomonidan taklif etilgan “Value Chain” (qiymat zanjiri) g‘oyasi tashkil etadi[2]. Bu g‘oyaga ko‘ra firmaning barcha faoliyat turlari ikki guruhga: asosiy faoliyat (doimiy ishlab chiqarish, sotish, yetkazib berish va xizmat ko‘rsatish) va qo‘llab-quvvatlovchi faoliyat (ishlab chiqarishni texnologiya, mehnat resurslari, infratuzilma tarkibiy qismlari bilan ta’minlash) turlariga bo‘linadi. Asosiy va qo‘llab-quvvatlaydigan qiymatlar harakatlari raqobatbardoshlik ustunligining o‘ziga xos qurulish bloklari vazifasini bajaradi. Mazkur metodikaning ijobiy tomoni: transformatsiyalash mumkinligida, ya’ni aniq korxona ehtiyojini ko‘zlab ishlarning kamu-ko‘stini to‘ldirib oxirgacha yetkazishda. Raqobatbardoshlikni aniqlash firmaning qiymatlar bloki bo‘yicha tuzilgan savolnomaga ekspert guruhi tomonidan javob qaytarish yo‘li bilan 1 dan 5 ga qadar baho qo‘yish orqali amalga oshiradi.Bunda 1 baho past (savol yoki fikr real holatga muvofiq kelmaydi), 3 baho – qisman va 5 baho – to‘liq mos keladi degan baholash tartibini bildiradi. So‘roq natijalari korxonaning

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
2 Porter M. Competitive Advantages. – New York: The free Press, 1985. – C. 37.

qiymatlar zanjiriga kiritilgan holda uning erishilgan raqobat afzallik holati aniqlanadi. Maykl Porterni qiymatning zanjir konsepsiyasida korxonalarning raqobatbardoshlik ustunligini tavsiflashda uning asosiy faoliyat va qo‘llab-quvvatlovchi faoliyatini baholash ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarining raqobatbardoshligini baholashda muhim konseptual asoso sifatida xizmat qiladi.

Fransuz olimi J.J.Lambenning korxona raqobatbardoshligini baholash metodikasi ham diqqatga sazovordir. Mazkur usul tovar bozorida amaldagi korxonalarning raqobatbardoshligini solishtirma baholashga asoslangan. Korxona raqobatbardoshligini 6 ta indikator yuzasidan 5 balli shkala bo‘yicha baholanadi. Raqobatbardoshlik koeffitsiyenti korxonaning baholash ballarini liderning baholash ballariga nisbatan aniqlanadi. Mazkur usul tovar bozorida amaldagi korxonalarning raqobatbardoshligini solishtirma baholashga asoslangan. Korxona raqobatbardoshligini baholash indikatorlari 1- jadvalda ko‘rsatilgan.

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, raqobatbardoshlik 6 ta indikator yuzasidan 5 balli shkala bo‘yicha baholanadi. Raqobatbardoshlik koeffitsiyenti korxonaning baholash ballarini liderning baholash ballariga nisbatan aniqlanadi.Lider – bu eng yuqori ballar yig‘indisini to‘plangan korxona hisoblanib, unga 1 ga teng bo‘lgan koeffitsiyent beriladi.

1-jadval: Korxona raqobatbardoshligini baholash indikatorlari[3]

O‘lchov mezonlari	Baholash ko‘lami		
	past (1-2 ball)	o‘rta (3-4 ball)	yuqori (5 ball)
1.Bozorning nisbiy ulushi	Liderligi 3\1 dan kamroq	Liderligi 3\1 dan ko‘proq	Lider
2. Tovarning nisbiy xossalari	Tovar tabaqalanmagan	Tovar tabaqalangan	Tovar noyob (nodir)
3. Xarajatlar	Bevosita raqibnikidan yuqori	Bevosita raqibniki darajasida	Bevosita raqibnikidan past
4.Texnologiyalarni o‘zlashtirish darajasi	Zo‘rg‘a o‘zlashtiriladi	Osongina o‘zlashtiriladi	To‘liq o‘zlashtirilgan
5. Tovar harakati yo‘llari	Vositachilar nazorat qilinmaydi	Vositachilar nazorat qilinadi	To‘g‘ridan to‘g‘ri sotish
6. Imij	Mavjud emas	Mavjud	Kuchli imij

Koeffitsiyentning 1,0 dan 0,9 gacha miqdorga teng bo‘lganida raqobatbardoshlik yuqori darajada; 0,9 dan 0,7 gacha miqdorda teng bo‘lganda raqobatbardoshlik o‘rta darajada va koeffitsiyent 0,7 dan pastroq miqdorga tushganida, raqobatbardoshlik past darajada erishgan, deb hisoblanadi. Ushbu usulga ko‘ra raqobatbardoshlikni baholash algoritmi quyidagi bosqichlardan iborat:

- har bir raqib bo‘yicha ballar hisob-kitob qilinadi;
- eng ko‘p yig‘ilgan ballar sonidagi raqobatchini aniqlab, uning raqobatbardoshligi 1 ga teng qilib tayinlanadi;
- har bir raqobatchining ballar yig‘indisi liderning ballar yig‘indisi bilan qiyoslash yo‘li bilan raqobatchidar uchun raqobatbardoshlik koeffitsiyenti belgilanadi;
- raqobatbardoshlik koeffitsiyentining qiymati bo‘yicha raqobatchilarga o‘rin beriladi.

J.J.Lamben usulining kamchiligi, agrar sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olmasligidadir. Iqtisodiyotning agrar sohasi o‘ziga xos xususiyatlarga egadirki, ular quyidagilardan iborat agrar sektorining rentabelligi yuqori darajada bo‘lmasligi;

- takror ishlab chiqarish davrining davomililigi va sarflangan mablag‘larni qoplay olish davrining uzunligi;
- shakllantiradigan yalpi qo‘shilgan qiymatning past darajaligi;
- ekologik omili.

Shuning uchun ham agrar sohaga xos bo‘lgan xususiyatlar boshqa sohalar uchun yaratilgan raqobatbardoshlikni baholash usullarini na hamma vaqt ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklariga qo‘llashga imkon beradi.

Qishloq xo‘jaligi tashkilotlari raqobatbardoshligining nazariy asoslari, uning baholash usullarini o‘rganish asosida rus olimi L.K.Xammadeyeva shunday xulosaga kelganki, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida agrar korxonalarning joriy raqobatbardoshligining asosiy ko‘rsatkichlari sifatida hozirgi vaqtda quyidagilar xizmat qiladi:

- tovar mahsuloti rentabelligi;
- xo‘jaliklarining bozordagi hissasi.

3 www.agrobusiness.ru

Qishloq xo‘jaligi tashkiloti ko‘rsatkichlarining raqiblari yoki o‘rta tarmoqdagilari darajalaridan yuqori bo‘lgan taqdirda u raqobatbardosh hisoblanadi. Raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarining hisob-kitoblarini sintezlash sababli har bir ko‘rsatkich indeksga o‘tkazib 0 dan 1 gacha sonlarga teglashtiriladi. Indekslar raqobatchi xo‘jaliklardagi ko‘rsatkichlarining minimalidan maksimal miqdorga o‘zgarishlarini ko‘rsatadi.

L.K.Xammadeyeva qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining raqobatbardoshlik indeksini quyidagi formula asosida hisoblashini tavsiya etadi[4]:

$$Ik = (Ip + Ir) / 2$$

Bu yerda:

Ik – qishloq xo‘jaligi korxonalarning raqobatbardoshlik indeksi;

Ip – tovar mahsuloti rentabelligi indeksi;

Ir –xo‘jaliklarining bozordagi pozitsiyasi indeksi.

Bu ko‘rsatkich ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarining tashqi raqobatbardoshligini aniqlashga mos kelmaydi. Chunki bu usulda xo‘jalikning bozordagi ulushini hisoblashda asos sifatida sotish hajmi olinadi. Fermer xo‘jaliklar uchun bozor ulushini hisoblash jarayonida ishlab chiqarish hajmi va sotish hajmi o‘rtasida tenglik alomat qo‘yish mumkin emas.

Iqtisodiyot tarmoqlarida raqobatning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, raqobat bir vaqtning o‘zida bir nechta o‘zaro bog‘langan tartib darajalarda ko‘rib chiqilishi va tahlil etilishini taqozo etadi. Ushbu darajalarda raqobatlashuv ustunliklarni ta’minlay olganda iqtisodiyotda raqobatbardoshlikning sinergetgik samarasi namoyon bo‘lib, tarmoq va sohalarning yangicha tizimli xususiyatlari shakllanadi.

Qishloq xo‘jaligi raqobatbardoshligini tizimlashtirish maqsadida agrar sohaning o‘zaro bog‘langan iyerarxiya (tartib daraja)si bo‘yicha uning oltita quyidagi raqobatbardoshlik darajalarini ajratish mumkin:

1) makrodaraja – qishloq xo‘jaligining davlat miqyosida raqobatbardoshligi;
2) metadaraja – agrar sohasining raqobatbardoshligi;
3) mezodaraja – qishloq xo‘jaligining mintaqaviy raqobatbardoshligi;
4) mikrodaraja – fermer va dehqon xo‘jaliklarining raqobatbardoshligi;
5) minidaraja – raqobatbardosh qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish;
6) monodaraja – fermer, dehqon va qishloq xo‘jaligi xodimlarining raqobatbardoshligini.

Qayd qilish joizki, iqtisodiy atama sifatida raqobatbardoshlik ikki tomonlama tabiatga ega: bir tomondan, agar u bozorni amal qilish shart-sharoitlarini ifodalansa, boshqa tomondan bozorning uzluksiz ravishda davom etadigan va sifatiy o‘zgartishlarga olib keladigan miqdoriy o‘zgarishlari sari o‘zgarib turish xususiyatiga egadir. Raqobatning ushbu xususiyatlarini agrar sohasida namoyon bo‘lishini inobatga olingan taqdirda raqobatbardoshlik darajasini o‘rganish ijobiy samara beradi.

Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarining tashqi raqobatdoshligini umumlashma ko‘rsatkich asosida miqdoriy o‘lchash mumkin. Bu uchun biz raqobatbardoshlikning umumlashma multiplikatori sifatida – “Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligining raqobatbardoshlik darajasi” (qisqacha: KTFXRD) multiplikatorini ayirboshlashga kiritib, uni quyidagi formula bo‘yicha hisoblashini tavsiya etamiz:

$$KTFXRD = \left(1 - \frac{DX}{YAD - O'X}\right) \times 100\ \%$$

Bu yerda:

DX – ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligining doimiy xarajatlari;

YAD – ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligining yalpi daromadi;

O‘X – ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligining o‘zgaruvchan xarajatlari.

Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligining tashqi raqobatbardoshlik darajasining hisob-kitoblarini quyidagi yettita bosqichda izchillik bilan amalga oshirish mumkin[5]:

- baholash maqsadini aniqlash.
- tahlilda hisobga olinadigan soha (faoliyat tur)larini aniqlash.
- qiyoslash bazasini tanlash.
- o‘lchanadigan xossalarni baholash.
- tanlab olingan xossalarni baholash.
- raqobatbardoshlikning umumlashma ko‘rsatkichini hisoblab chiqish.
- raqobatbardoshlik to‘g‘risida xulosalar chiqarish.

4 Хаммадеева Л. К. Оценка конкурентоспособности субъектов предпринимательской деятельности казанской пригородной зоны на региональных рынках. Вестник Казанского государственного аграрного университета. № 2 (32) 2014. – С. 50-52.

5 Оценка конкурентоспособности организации. [Электронный ресурс]. http://www.grandars.ru/college/ekonomika-firmy/ocenka-konkurentosposobnosti-predpriyatiya.html [12.01.2016].

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini raqobatdoshlik multiplikatorini shartli hisob-kitoblari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval: Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini tashqi raqobatdoshlik multiplikatorini hisob-kitobi[6]

№	Fermer xo‘jaliklari (FX)	Iqtisodiy ko‘rsatkichlari			Raqobatdoshlik multiplikatorini (KTFXRD) hisoblash tartibi	Raqobatdoshlik darajasi (%)
		Yalpi daromad (mln. so‘m)	Doimiy xarajatlar (mln.so‘m)	O‘zgaruvchan xarajatlar (mln. so‘m)		
1	“Shohijahon” FX	100	50	50	$(1 - \frac{50}{100 - 50}) \times 100\ \%$	0
2	“Mirfayz” FX	100	50	40	$(1 - \frac{50}{100 - 40}) \times 100\ \%$	16,7
3	“Mironshoh” FX	100	50	30	$(1 - \frac{50}{100 - 30}) \times 100\ \%$	28,6
4	“Mehron” FX	100	40	23	$(1 - \frac{50}{100 - 23}) \times 100\ \%$	48,1
5	“Ne’matillo” FX	100	50	18	$(1 - \frac{50}{100 - 18}) \times 100\ \%$	39,0

2-jadval ma’lumotlariga ko‘ra 5 ta fermer xo‘jaliklarini “Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligining raqobatbardoshlik darajasi” bo‘yicha solishtirganda raqobatbardoshlik multiplikatori eng past sathda “Shohijahon” fermer xo‘jaligida qaror topgani aniqlandiki, ushbu xo‘jalikda KTFXRD multiplikatori “0”ga teng bo‘lgan. Bunga sabab, mazkur xo‘jalikda o‘zgaruvchan xarajatlarning juda ham yuqoriligida bo‘lganligidir. “Mirfayz” fermer xo‘jaligida o‘zgaruvchan xarajatlarning doimiy xarajatlarga nisbatan 10 mln.so‘m yoki 20 foizga pasayganligi, raqobatdoshlik multiplikatorini 16,7 foizga oshirib, xo‘jalikning raqobat afzalligini ta’minlashga olib keldi.

3-jadval: Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarining raqobatbardoshlik multiplikatori bo‘yicha sifat darajalari[7]

Fermer xo‘jaliklarining raqobatbardoshlik multiplikatori me’yori (% hisobida)	Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari (KTFX)ning sifat darajalari	Sifat darajalari tafsiloti
0	Iqtisodiy beqaror KTFX	Zararsizlik holatida qaror topgan KTFX
1-25	Iqtisodiy salohiyatli KTFX	Daromad hisobidan ishlab chiqarishni rivojlantirish fondini vujudga keltira oladigan KTFX
26-50	Iqtisodiy rivojlanayotgan KTFX	Daromad hisobidan fermer xo‘jaligining ijtimoiy taraqqiyot fondini ham tashkil qila oladigan KTFX
51-75	Iqtisodiy barqaror KTFX	Qishloq va agrosanoat majmuasining infratuzilmasini rivojlantirishga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shib kelayotgan KTFX
76-100	Iqtisodiy rivojlangan KTFX	Iqtisodiy taraqqiyotining cho‘qqisiga erishgan KTFX

“Mironshoh” fermer xo‘jaligida esa o‘zgaruvchan xarajatlarning doimiy xarajatlarga nisbatan 20 mln.so‘mga kamayganligi sababli ushbu xo‘jalikning raqobatdoshlik multiplikatlorini 28,6 foizga oshirdi.

“Mehron” fermer xo‘jaligida o‘zgaruvchan xarajatlarning keskin pasayganligi raqobatbardoshlik darajasini eng yuqori – 48,1 foizga oshganligiga sabab bo‘ldi. Nihoyat, “Ne’matillo” fermer xo‘jaligida “Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligining raqobatbardoshlik darajasi” 39,0 foizni tashkil etdi.

Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarining sifat darajalari va uni tasdiqlovchi ramziy belgilari bozor iqtisodiyoti sharoitida quyidagi ahamiyatga ega:

- xorijiy investitsiyalarni kiritish va chetga tovarlarini chiqarish jarayonida ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.
- raqiblar mahsuloti bilan xo‘jalik mahsuloti bir xil sifat va narxda bo‘lganda, xaridor aynan uning sifat belgisiga qarab tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.
- sifat belgisi keng jamoatchilikning fermer xo‘jaligiga nisbatan ijobiy fikr va munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi.
- fermer xo‘jaliklarni rahbarini yuqori lavozimlarga va turli taqdimotlarga tavsiya etish uchun asos sifatida xizmat qiladi.

6 Манба: 2-жадвал А.Ж.Абдуллоев ишланмаси.
7 Manba: 3-jadval A.J.Abdulloyev ishlanmasi.

- Fermer xo‘jaliklarining sifatini yaxshilash, uning reputatsiyasi va imijini ifodalaydigan simvolik kapitalini shakllantirish hamda ishbilarmonlik faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Shunday qilib, fermer xo‘jaliklarida raqobatdardoshlikning o‘ziga xos xususiyatlari raqobat o‘zining an’anaviy “tarmoq ichidagi” va “tarmoqlararo” ko‘rinishlaridan farqlaydigan yangicha – “ichki” va “tashqi” raqobatchilik shakllariga ega bo‘ladi. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarining raqobatbardoshligini KTFXRD multiplikatori asosida hisoblash ularning tashqi raqobatbardoshligini baholash imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
2. Porter M. Competitive Advantages. – New York: The free Press, 1985. – C. 37.
3. Хаммадеева Л. К. Оценка конкурентоспособности субъектов предпринимательской деятельности казанской пригородной зоны на региональных рынках. Вестник Казанского государственного аграрного университета. № 2 (32) 2014. – С. 50-52.
4. Борель А.Н. Сущность конкурентоспособности сельского хозяйства и формирующие ее факторы. Журнал международного права и международных отношений 2014 – №4. [Электронный ресурс]. http://www.evolutio.info/content/view/2317/235/ [12.01.2016].)
5. Abdulloyev A.J.,Davlatov.S.S Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarining rivojlantirish ning asosiy yo‘nalishlari va unda kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishning ahamiyati. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. Toshkent 2016-yil № 3.son.- B. 1-9.
6. Абдуллоев А.Ж Agroklaster faoliyatini boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy asoslari. Iqtisodiyot va turizm xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali, №4(12), 2023y. 53-64 betlar.
7. Абдуллоев А.Ж Agroklaster faoliyatini boshqarishning “Bazaviy”modeli va uning xususiyatlari. Agroiqtisodiyot ilmiy-amaliy jurnali, №2, 2023 y.13-15 betlar.
8. Абдуллоев А.Ж Methodological foundations for evaluating the efficiency of agrocluster management. Экономика и предпринимательство. – Москва, 2023. –№9. – С. 617-623
9. Оценка конкурентоспособности организации. [Электронный ресурс]. http://www.grandars.ru/college/ekonomika-firmy/ocenka-konkurentosposobnosti-predpriyatiya.html [12.01.2016].
10. www.agrobusiness.ru
11. www.agrobusiness.ru

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA SOLIQ YUKINI OPTIMALLASHTIRISH MEXANIZMI

To‘xsanov Qudratillo Nozimovich
DSc, TDIU, Soliqlar va soliqqa tortish kafedrasi professori

Annotatsiya: Iqtisodiy adabiyotlarda tadbirkorlik subyektlari soliq yukini baholashning turli xil uslublaridan keng foydalaniladi. Ularning bir-biridan asosiy farqi soliq yukini aniqlashda hisobga olinadigan soliqlar miqdori, shuningdek, soliqlar summasi nisbatlanadigan integral ko‘rsatkich (manba)ni aniqlashda namoyon bo‘ladi. Iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida soliq yukini optimal taqsimlash mexanizmini shakllanishi ular o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratadi.

Kalit so‘zlar: moliyaviy rag‘batlantirish, soliq imtiyozlari, bojxona preferensiyalari, soliq to‘lovchilar, soliq yuki, soliq stavkalari, soliq mexanizmi.

Abstract: In the economic literature, various methods of assessing the tax burden of business entities are widely used. Their main difference from each other is manifested in determining the amount of taxes taken into account when determining the tax burden, as well as the integral indicator (source)to which the amount of taxes is proportional. The formation of a mechanism for the optimal distribution of tax burden between sectors of the economy creates a healthy competitive environment between them.

Key words: financial incentives, tax incentives, customs preferences, taxpayers, tax burden, tax rates, tax mechanism.

Аннотация: В экономической литературе широко используются различные методы оценки налоговой нагрузки субъектов предпринимательства. Основное различие между ними заключается в сумме налогов, учитываемых при определении налоговой нагрузки, а также в интегральном показателе (источнике), с которым сравнивается сумма налогов. Формирование механизма оптимального распределения налоговой нагрузки между отраслями экономики создает среду здоровой конкуренции между ними.

Ключевые слова: финансовые льготы, налоговые льготы, таможенные преференции, налогоплательщики, налоговая нагрузка, налоговые ставки, налоговый механизм.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotda soliq munosabatlarining natijaviy ko‘rsatkichi hisoblangan soliq yuki mohiyat jihatidan, eng avvalo, aholi va xususiy sektordagi moliyaviy resurslarning ma’lum qismini davlat foydasiga undirib olinishi bilan tavsiflanadi. Shu bois, soliq yukining miqdor ko‘rsatkichlari yordamida ifodalashga oid ilmiy munozaralar doim dolzarb bo‘lib kelgan.

O‘tgan bir yilda 55 mingdan ortiq biznes uchun mo‘ljallangan binolar barpo etildi, pul aylanmasini 1 million dollardan oshirgan tadbirkorlar soni 5 mingtaga ko‘payib, 26 mingtani tashkil etdi, eksport qiluvchi korxonalar soni 7,5 mingtaga yetib, jami eksport hajmi 30 foizga ko‘paydi [1].

Soliq yukining milliy iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganish muammosi davlat tomonidan undirilgan soliqlar va yig‘imlar bilan yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmi o‘rtasida iqtisodiy jihatdan asoslab beriladigan ulushi (nisbati)ni topish bilan uzviy bog‘liq. Optimal soliq yuki hajmini hisoblab chiqishda mazkur muammoning yechimi sifatida taklif etilayotgan uslubiy yondashuvlar juda ko‘p va xilma-xil, olingan ilmiy natijalar mohiyati jihatidan bir-biriga zid keladi. Shu bilan bir vaqtda ilmiy yondashuvlar va tahlil uslublarining turlichaligi soliq yuki muammosini makroiqtisodiy darajada ilmiy tahlil qilish uchun juda keng imkoniyatlarni ochib bermoqda [2].

Shu maqsadda, soliq yukini baholash bo‘yicha ishlab chiqilgai ayrim uslublarni ko‘rib chiqamiz. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining soliq yukini aniqlash bo‘yicha rasmiy va yagona uslub tom ma’noda ishlab chiqilmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzu doirasida ayrim xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari va fikrlarini o‘z ichiga olgan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari mavjud. Masalan, iqtisodchi olimlar A Razin, E Sadka va P Svagel tomonidan "Tax burden and migration: a politisal esonomy theory and evidense" mavzusida yozilgan ilmiy-tadqiqot ishida soliq yuki va migratsiya o‘rtasidagi munosabatlar nazariy va amaliy jihatdan ko‘rib chiqilgan [3].

Iqtisodchi olim Io Ozai tomonidan "Tax Competition and the Ethiss of Burden Sharing" mavzusida yozilgan tadqiqotida tadqiqotda soliq raqobati va soliq yukini taqsimlashning mohiyatini muhokama qilgan bo‘lib, tadqiqotda muallif yuqori daromadga ega bo‘lgan soliq to‘lovchilarning soliq yukidan ko‘proq yengillik olishi kerakligi haqidagi fikrni ilgari suradi [4].

Soliq yukini baholashni takomillashtirish masalalari bo‘yicha tadqiqot olib borgan O.Gaybullayev soliq yukini makrosathda, mezosathda va mikrosathda baholash va tahlil qilish mumkin, deb hisoblaydi va soliq yukini ko‘p sathli baholash (SYUKSB) uslubini taklif etadi [5]. Biroq O.Gaybullayev taklif qilgan uslubida ikkita eng muhim narsani to‘liq tushuntirmagan va yoritmaganligi sababli uning tadqiqoti natijalaridan foydalanuvchilarda tushunmovchiliklar paydo bo‘lishi mumkin. Bular, birinchidan, soliq yukini baholashda aynan qaysi soliqlar, to‘lovlar yoki majburiy ajratmalar hisobga olinishi aniq ko‘rsatilmaganligi bo‘lsa, ikkinchidan, soliq yuki nisbatlanadigan umumiy manba aniqlashtirilmasdan mavhum qoldirilganligidir. Ya’ni u soliq yuki nisbatlanadigan umumiy manba sifatida korxona faoliyatining ma’lum bir davrdagi moliyaviy ko‘rsatkichlarini, umumiy daromad (ish haqi fondi, yalpi foyda va amortizatsiya ajratmalari yig‘indisi), qo‘shilgan qiymat yoki yalpi tushum miqdorini soliq yuki bazasi sifatida qarash mumkin, deb hisoblaydi.

Professor B.Toshmurodova o‘zining “Soliq munosabatlarini optimallashtirish” o‘quv qo‘llanmasida iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari korxonalari uchun soliq yukini hisoblab chiqqan. Muallif bu yerda soliq va to‘lovlarni yalpi tushumdagi va qo‘shilgan qiymatdagi salmoqlarini hisoblab chiqqan. Bunga ko‘ra barcha tarmoqlardagi soliqlar va to‘lovlarning qo‘shilgan qiymatdagi salmog‘i yalpi tushumdagi salmog‘idan yuqori ekanligi va bundan tashqari tarmoqlar o‘rtasidagi soliq yukining yuqoriligini hamda ayrim tarmoqlarda soliq yukining yillar davomida o‘sganligini ko‘rish mumkin [6].

Professor B.Isroilov taklif qilgan uslubga ko‘ra, soliq yuki soliq summasining mahsulot sotishdan tushumga nisbati sifatida aniqlanadi [7]. Bu ko‘rsatkichning mahsulot sotishdan sof tushumda soliqlar ulushini ko‘rsatishini inobatga oladigan bo‘lsak, unda u soliqlarning korxona moliyaviy holatiga ta’sirini hecham baholay olmasligini ta’kidlashimiz mumkin. Chunki u sotishdan yalpi tushum tarkibidagi xarid qilingan materiallar, qo‘shilgan qiymat va uning elementlari ulushini hisobga olmaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida tadbirkorlik subyektlariga nisbatan soliq yukini optimal taqsimlash mexanizmini amaldagi holatini tahlil qilish hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan rag‘batlantirish, soliq imtiyozlari va pasaytirilgan soliq stavkalarini taqdim etish orqali ular faoliyatini rivojlantirshga qaratilgan iqtisodiy siyosat yo‘nalishlari hamda ilg‘or tajribalarni O‘zbekiston iqtisodiyotiga qo‘llash yo‘llarini belgilab olish jarayonida mushohada, induksiya va deduksiya, dinamik qatorlar, iqtisodiy-statistik tahlil va sintez, statistik guruhlash, tizimli tahlil, taqqoslash va boshqa usullardan samarali foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat milliy iqtisodiyotiga soliq yukini ta’sirini o‘rganish muammosi davlat tomonidan undirilgan soliqlar va yig‘imlar bilan yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmi o‘rtasida iqtisodiy jihatdan asoslab beriladigan ulushi (nisbati)ni topish bilan uzviy bog‘liq. Optimal soliq yuki hajmini hisoblab chiqishda mazkur muammoning yechimi sifatida taklif etilayotgan uslubiy yondashuvlar juda ko‘p va xilma xil, olingan ilmiy natijalar mohiyati jihatidan bir-biriga zid keladi. Shu bilan bir vaqtda ilmiy yondashuvlar va tahlil uslublarining turlichaligi soliq yuki muammosini makroiqtisodiy darajada ilmiy tahlil qilish uchun juda keng imkoniyatlarni ochib bermoqda.

Davlat o‘zning vazifalarini bajarishi uchun lozim darajadagi moliyaviy resurslar bilan ta’minlay oladigan milliy soliq tizimi soliq to‘lovchi tadirkorlik subyektlari faoliyatiga o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazadi. Shu sababli soliq to‘lovchilar o‘rtasida vujudga keladigan soliq yuki ko‘rsatkichi mamlakat soliq tizimining sifatini baholash uchun yetarli hisoblanadi. Milliy soliq tizimida soliq munosabatlarining natijaviy ko‘rsatkichi hisoblangan soliq yuki ko‘rsatkichi iqtisodiy mazmuni jihatidan soliq to‘lovchilar tomonidan yaratilgan moliyaviy resurslarning bir qismini davlat foydasiga majburiyundirish bilan ifodalanadi. Shu bois, soliq yukining miqdor ko‘rsatkichlari yordamida ifodalashga oid ilmiy munozaralar doim dolzarb bo‘lib kelgan.

Zamonaviy raqobat bozoridagi barcha tadbirkorlik subyektlari xarajatlarni optimallashtirish orqali o‘z faoliyati samaradorligini oshirishga intilishadi. Bu jarayonda eng avvalo asosiy xarajatlarga e’tibor qaratiladi. Ular orasida soliq qonunchiligida mavjud bo‘lgan soliqlar va yig‘imlar asosiy o‘rinni egallaydi. Shu sababli, aksariyat

korxonalar o‘z bizneslariga soliq yukini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni rejalashtirishadi va amalga oshiradilar. Ammo bunday harakat natijalari ko‘pincha soliq xizmatining e’tiborini o‘ziga qaratadi. Ular uchun qo‘shimcha soliqlar va jarimalar shaklida teskari ta’sirga olib keladi. Biz tadqiqot jarayonida soliq xarajatlarini kamaytirish bo‘yicha harakatlarni soliq qonunchiligi talablariga mos kelishi uchun qanday rejalashtirishni ko‘rib chiqamiz.

Tadbirkorlik subyektlarida soliq yuki odatda soliqlarni to‘lash xarajatlari darajasi ko‘rsatkichi orqali pul birligida belgilanadi. Uning tovar (ish, xizmat)lar sotishdan tushgan tushum bilan birga, soliq xarajatlarining asosiy miqdori qo‘shilgan qiymat solig‘i hamda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘iga to‘g‘ri keladi. Bu to‘g‘ridan to‘g‘ri korxonaning daromadlari hajmiga bog‘liq bo‘ladi.

Korxonalarga nisbatan soliq yuki qancha past bo‘lsa, tadbirkorlik subyektlari ixtiyorida qoladigan foyda hajmi yuqori bo‘ladi. Shu sababli, barcha korxonalar o‘z bizneslariga soliq yukini kamaytirish uchun turli xil sxemalardan foydalanadilar. Ular foydalanadigan sxemalarni uchta guruhga ajratish mumkin, ularning har biri bir nechta kichik guruhlarga batafsil bayon etilgan (1-rasmga qarang).



1-rasm: Tadbipkoplik subyektlari uchun soliq yukini kamaytirish yo‘nalishlari tasnifi[1]

Soliqni optimallashtirish – bu soliq yukini kamaytirish nuqtayi nazaridan eng daromadli biznesni tashkil etishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmui hisoblanadi. Soliqlarni optimallashtirish usullariga quyidagilar kiradi:

- soliq rejimini tanlash korxonani tashkil etish bosqichida va hisobot yili oxiridagi soliq yuki dinamikasini tahlil qilish asosida amalga oshirilishi kerak;
- qonuniy soliq imtiyozlaridan foydalanish;
- soliqni rejalashtirish yordamida korxona hisoblangan soliqlar miqdori dinamikasini va kelgusi moliyaviy yil uchun soliq yuki darajasini bashorat qilishi mumkin.

Soliqni minimallashtirish korxonaning soliq bazasini kamaytirish uchun Soliq Kodeksi va boshqa me’yoriy hujjatlarda ruxsat etilgan usullardan foydalanishdan iborat.

Korxonalarda soliqlarni minimallashtirishning asosiy usullari quyidagilardan iborat:

- hisob siyosatini ishlab chiqish. Bunda qonun bilan ruxsat etilgan korxona faoliyatini hisobga olishning ayrim usullarini kiritish hisoblangan soliqlar miqdorini kamaytirishga imkon beradi.
- korxona uchun soliqlarni minimallashtirish sxemalarini ishlab chiqish, ishlab chiqilgan sxemalar yordamida u o‘z biznesiga soliq yukini qonuniy ravishda kamaytirishi mumkin bo‘ladi.
- korxona biznes jarayoniga soliq yukini minimallashtirish uchun soliq qonunchiligida nazarda tutilgan usullardan foydalanish.

Soliq yukini minimallashtirish uchun soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash yuqori xavflar bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu usuldan foydalanganlik uchun jazo choralari soliqlardan qochish sxemalarini qo‘llashdan moliyaviy imtiyozlardan sezilarli darajada oshadi.

1 Muallif ishlanmasi.

Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning ko‘plab variantlari nafaqat ma’muriy, balki jinoiy qonunchilik doirasiga kiradi, shuning uchun biz soliq yukini minimallashtirishning ushbu guruhini ko‘rib chiqmaymiz va qo‘llashni tavsiya bermaymiz.

Tadbirkorlik subyekti tomonidan to‘lanadigan soliqlar miqdori va soliq yukining hajmiga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatadigan asosiy parametrlar sifatida quyidagilarni keltirib o‘tishni lozim topdik:

- mulkchilik shaklini tanlash;
- soliq tizimini tanlash;
- korxonaning faoliyat turi va uni ro‘yxatdan o‘tkazish joyi;
- daromad va xarajatlar nisbati;
- xarid qilingan va hisobga olingan qo‘shilgan qiymat solig‘ining nisbati.

Keling, ushbu parametrlarning har biri soliq miqdoriga qanday ta’sir qilishini ko‘rib chiqamiz.

Mulkchilik shaklini tanlash tashkilot qanday soliqlarni to‘lashiga bog‘liq. Biznesni boshlash uchun siz korxonaning qaysi mulkchilik shakliga ega bo‘lishini darhol hal qilishingiz kerak. Masalan mas’uliyati cheklangan jamiyat yoki tadbipkoplik faoliyati bilan yakka tartibdagi shug‘ullanish mumkin.

Ushbu shakllarning har biri soliq miqdoriga ta’sir qiladigan ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Masalan, ma’suliyati cheklangan jamiyat egalari olingan dividendlar bo‘yicha 5 foiz miqdorida daromad solig‘ini to‘laydilar. Yakka tartibdagi tadbirkorlar ushbu soliqni to‘lamaydilar.

Shu bilan birga, tadbirkorlar o‘z biznesining qarzlari uchun shaxsiy mulklari bilan javobgar hisoblanadi. Ular yuridik shaxslarga beriladigan litsenziyalar va patentlarni ro‘yxatdan o‘tkazishni talab qiladigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshira olmaydilar.

Ko‘pgina hollarda, tashkil etilayotgan korxona uchun soliq solishning qaysi shaklidan foydalanishni tanlashni rejalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda yakka tartibdagi tadbirkoprar uchun daromad solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq va umumbelgilangan tartibda soliqni to‘lash shaklida amalga oshirishi mumkin.

Dunyo iqtisodiyotida tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida soliq yukini optimallashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda quyidagi yo‘nalishlarga ustuvorlik berilmoqda. Bular, tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida soliq yukini kamaytirish sharoitida soliq turlari va stavkalarini e’tiborga olgan holda unifikatsiya qilish; davlat va jamiyat uchun ustuvorlik kasb etgan sohalardan kelib chiqib taqdim etilgan samarasi past soliq imtiyozlaridan voz kechish; tadbirkorlik subyektlarining soliq yuki ko‘rsatkichi ular tomonidan davlat budjetiga to‘langan barcha soliqlar va to‘lovlarni qo‘shilgan qiymatga nisbati orqali aniqlash; hududlarda undirilayotgan soliqlar va to‘lovlar summasini yalpi hududiy mahsulotga nisbatan hisoblash; kichik biznes subyektlarida soliq yuki ko‘rsatkichini sof va umumiy soliq yuki tarzida hisoblash masalasini o‘z ichiga oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliqqa tortishning maqbul darajasini o‘rnatish soliq yukining qay yo‘sinda baholanishiga bog‘liq, chunki soliq yuki ko‘rsatkichi soliqqa tortish tizimining samaradorligini aniqlab beruvchi eng asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Shu sababli, soliq yukini baholash obyektiv zaruratdir.

Soliq yukini tadbirkorlik subyektlari miqyosida aniqlash borasida qarashlar turlicha bo‘lib, bu soliqlar nisbatlanadigan manbaning mualliflar tomonidan turlicha talqin etilishi bilan bog‘lik. Fikrimizcha, yalpi soliq yukini aniqlashda soliqlar nisbatlanadigan manba YAIM bo‘lsa, alohida tadbirkorlik subyektida ushbu manba qo‘shilgan qiymat bo‘lishi lozim. Chunki YAIM mohiyatan iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan, oraliq iste’mol chegirilgan pirovard mahsulot, aniqrog‘i, qo‘shilgan qiymatlar yig‘indisidan iborat.

Tadbirkorlik subyektlari soliq yuki darajasining shakllanishi va o‘zgarishiga ko‘p omillar ta’sir qiladi. Jumladan, barcha soliqlar va majburiy to‘lovlar miqdori, har bir soliqning bazasi, soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, QQning o‘zgarishi, tovarga bo‘lgan talab va taklif soliq yuki darajasiga ta’sir qiluvchi omillardan hisoblanadi.

O‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, faqat soliq yuki ko‘rsatkichlari orqali soliqqa tortishning tadbirkorlik subyekti moliyaviy faoliyatiga ta’sirini to‘laqonli baholab bo‘lmaydi. Shu maqsadda, soliqlar bo‘yicha penyalar, moliyaviy jarimalar va xo‘jalik sudi bojlarini ham hisobga olgan holda korxona uchun haqiqiy (real) fiskal bosimni baholash uslubi ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy budjetlar daromad bazasini mustahkamlash uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish hamda hududning tarixiy rivojlanish tajribasidan kelib chiqib tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Hududlarda xususiylashtirilgan va bugungi kunda maqsadli faoliyat ko‘rsatmayotgan mulklardan o‘z o‘rnida va samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish lozim. Bo‘sh turgan obyektlarda ishlab chiqarish va xizmatlar sohasini

rivojlantirish maqsadida investitsiya kiritilishi kelgusida soliqqa tortiladigan bazani yanada kengaytirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022-yildagi “Ochiq muloqoti”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 364-sonli qarori.
2. To‘rayev Sh.Sh. Iqtisodiyotda soliq yukini optimallashtirish yo‘nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan doktorlik dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, DJQA. 2022. 64 b.
3. A Razin, E Sadka, P Swagel. Tax burden and migration: a political economy theory and evidence. https://www.science-direct.com/science/article/pii/S0047272701000913.
4. IO Ozai. Tax Competition and the Ethics of Burden Sharing. Fordham International Law Journal,2018. https://heinon-line.org/holcgibin/getpdf. cgi?handle=hein.journals/rdint42&section=6.
5. Gaybullayev O.Z. Soliq yukini baholashni takomillashtirish masalalari: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disser-tatsiya avtoreferati. –Toshkent, DJQA, 2004.-20 b.
6. Toshmurodova B. Soliq munosabatlarini optimallashtirish. Monografiya. –Toshkent. TMI nashriyoti. 2005. 160-b.
7. Isroilov B.I. Soliq yuki va uni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi// O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimini isloh qilishning tamoyillari va asosiy yo‘nalishlari: Respublika ilmiy-amaliy konferknsiya materiallari.-Toshkent. 2006. 52-b.

DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT TADBIRLARINI UMUMIY REJALASHTIRISH

Xamidova Z. U.
PhD, TDIU, “Budjet hisobi va g‘aznachilik” kafedrasi prof.

Annotatsiya: Maqolada, budjet tashkilotlarida tashkil qilingan markazlashgan ichki audit xizmatini umumiy yillik rejalashtirish va reja tuzish jarayonida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan nazariy va amaliy jihatlari, samaradorligini oshirish masalalari tadqiq qilingan. Shuningdek, budjet tashkilotlarida markazlashgan ichki audit xizmati uchun umumiy reja tuzish jarayonida baholash tizimi, baholash jarayonida e’tiborga olish zarur bo‘lgan jihatlari, tizimni rivojlantirish va samaradorlikni oshiruvchi metodik tavsiyalar, ichki auditorlar tomonidan alohida yondashuv usullari va budjet tashkilotlarida ichki auditning zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: baholash, davlat sektori, ichki audit dasturi, ichki audit xizmati, ichki audit yillik rejasi, ichki nazorat, risk, ijro nazorati.

Abstract: The article explores theoretical and practical aspects, issues of increasing the efficiency of the centralized internal audit service organized in budgetary organizations, which must be implemented in the process of general annual planning and planning. Also, an assessment system in the process of creating a general plan for a centralized internal audit service in budgetary organizations, aspects that must be taken into account in the assessment process, methodological recommendations for developing the system and increasing efficiency, special approaches of internal auditors, and the need for internal audit in budgetary organizations is justified.

Key words: assessment, public sector, internal audit program, internal audit service, annual internal audit plan, internal control, risk, performance monitoring.

Аннотация: В статье исследованы теоретические и практические аспекты, вопросы повышения эффективности централизованной службы внутреннего аудита, организованной в бюджетных организациях, которые должны быть реализованы в процессе общего годового планирования и планирования. Также система оценки в процессе создания общего плана централизованной службы внутреннего аудита в бюджетных организациях, аспекты, которые необходимо учитывать в процессе оценки, методические рекомендации по развитию системы и повышению эффективности, специальные подходы внутренних аудиторов, и обоснована необходимость внутреннего аудита в бюджетных организациях.

Ключевые слова: оценка, государственный сектор, программа внутреннего аудита, служба внутреннего аудита, годовой план внутреннего аудита, внутренний контроль, риск, контроль эффективности.

KIRISH

Jahon amaliyotida budjet tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyatining uslubiy asoslarini takomillashtirilishi borasidagi ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, budjet tashkilotlari ichki audit xizmati faoliyatidagi nazorat tartibi, risklarni baholash va minimallashtirish, tashkilotning ish samaradorligini oshirish budjet mablag‘laridan oqilona foydalanish, korrupsion holatlarni oldini olish, xalqaro ichki audit standartlari asosida nazoratni tashkil etish masalalari ilmiy o‘rganilmoqda. Xususan, bu mavzu bo‘yicha xususiy sektorda ilmiy ma’lumotlar va nashrlar yetarlicha shakllantirilgan, ammo budjet tashkilotlarida aynan markazlashtirilgan ichki audit xizmatlari uslubiyati yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar hali ko‘p izlanishlar olib borish lozimligini taqozo qiladi.

Bugungi kunda faoliyat olib borayotgan ichki audit xizmati mamlakatimizda qabul qilingan davlat sektorida ichki audit xizmatiga tegishli qonunosti hujjatlar asosida o‘z faoliyatlarini yuritib kelmoqdalar. Davlat sektorida ichki audit xizmati bo‘ysunuviga ko‘ra, vazirlik va idoralar tomonidan tasdiqlangan qabul qilingan nizomda belgilangan vazifa va maqsadlarga asosan ish yuritishmoqda. Ushbu masalalar yuzasidan me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va bu bo‘yicha aniq bir uslubiy asos yaratishga ehtiyoj yuqori.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat sektorida ichki audit xizmati faoliyati mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan bo‘lib, berilgan ta’riflar mazmun jihatidan o‘xshash bo‘lsa-da, yondoshuvlari bir-biridan tubdan farq qiladi. Xorijiy olimlar A.N.Danilov, N.V.Vasina, N.G.Ivanovalar tomonidan shunday ta’riflanadi: Yillik faoliyat rejasiga kiritish uchun rejalashtirilgan tekshirishlar ro‘yxati xavfga asoslangan yondashuvdan foydalangan holda shakllantirilishi kerak. Audit obyektlari tashkilotning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan xavflarni baholash natijalarini va qo‘shimcha omillarni, masalan, audit obyektining muhimligi, xodimlar soni, audit obyekti faoliyatidagi o‘zgarishlar, oxirgi auditdan buyon o‘tgan, oldingi audit natijalari va boshqa omillar vaqtni hisobga olgan holda guruhlanadi[1].

N.V. Vasina va N.G. Ivanovaning fikrlariga ko‘ra “Audit tadbirlarini rejalashtirishda ichki moliyaviy nazorat samaradorligi, budjet hisobotining ishonchliligi va budjet hisobini yuritish, budjet hisobotini tuzish va taqdim etishning yagona metodologiyasini buzishga olib keladigan omillar mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlili amalga oshiriladi”[2].

Mahalliy olimlarimizdan S.U.Mexmonovning fikricha “Ichki auditni o‘tkazishning boshlang‘ich boskichi uni rejalashtirish hisoblanadi. Auditning rejasida ishning kutilayotgan hajmi, audit o‘tkazishning jadvali va muddatlari, tekshirilayotgan obyekt to‘g‘risida obyektiv va har tomonlama asoslangan fikrlarni shakllantirish uchun zarur bo‘ladigan auditorlik amallarining hajmi, turlari va ketma-ketligi ko‘rsatib o‘tilgan auditorlik dasturi belgilanib o‘tilishi lozim”[3].

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, davlat sektorida ichki audit, ichki audit tadbirlarini rejalashtirish tushunchasi mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Ammo, mazmunan umumiy yo‘nalishlarni nazarda tutadi. Aynan ichki audit tushunchasi budjet tashkilotlari uchun yangi hisoblangani uchun umumiy standartlar va umumiy tushunchalar shakllanishi uchun iqtisodiy tizim bir biriga o‘xshash bo‘lishi kerak.

Davlat sektorida ichki audit tadbirlarini umumiy rejalashtirish jarayoni oldingi ichki audit tadbirlaridan kelib chiqib belgilanishi maqsadga muvofiq. Oldingi ichki audit tadbirlarida yuzaga kelgan vaziyatlar, ya’ni markazlashgan ichki audit xizmati jarayonida aniqlangan kamchiliklar, risk darajasi, budjet tashkilotining faoliyati, hajmi va ichki nazorati tizimining amaldagi holati umumiy rejalashtirishni ro‘yxatini tuzishga asos bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya usuli, obyektivlik tamoyili, kuzatish, taqqoslash, statistik ma’lumotlar bilan ishlash, qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat sektorida ichki audit tadbirlari umumiy rejalashtirishdan boshlanadi. Rejalashtirish bosqichi nazorat jarayonini asosiy qismini tashkil etadi. O‘tkaziladigan nazoratni rejalashtirishdan oldin uning hajmi, ichki nazoratini tashkil qilinishi, davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar miqdori, shu obyektda tekshirish o‘tkazilgunga qadar aniqlangan nomuvofiqliklar va kamomadlar miqdori bilan tanishib chiqadi. Shundan keyin bajariladigan ishlar ketma-ketligini aniqlash uchun reja va dastur tuzib olinadi hamda tashkilotda o‘tkaziladigan ichki audit nazoratining tashkil etilishi va o‘tkazilishi jarayoni amalga oshiriladi.

Bajarilishi kerak bo‘lgan ishlarni ketma-ketligini aniqlovchi jarayon rejalashtirish hisoblanadi. Chunki rejalashtirishga qarab keyingi bosqichlar amalga oshiriladi. Ya’ni keyingi bosqichlarda amalga oshiriladigan ishlar rejaga kiritiladi va belgilangan reja asosida bajariladi. Reja tuzishda ichki auditor ahamiyat berishi kerak bo‘lgan muhim jihatlar mavjud. Ichki audit tadbirlarini rejalashtirish 2 xil turda amalga oshiriladi. Umumiy va individual rejalashtirish.

Umumiy rejalashtirish bir yilga mo‘ljallangan bo‘lib, ichki audit xizmati tomonidan xavf tahlili asosida tuziladi. Bir moliya yiliga ya’ni 1-yanvardan 31-dekabr holatiga tuziladigan yillik rejalashtirish ichki audit obyektlari ro‘yxati, ichki audit tadbirlarini o‘tkazish muddati, davom etish davri va ichki audit tadbirlarini o‘tkazishga mas’ul xodimlari ro‘yxatini o‘z ichiga oladi.

1 Данилов А.Н., Васина Н.В., Иванова Н.Г. “Проблемы нормативного регулирования и методическое обеспечение внутреннего финансового контроля и внутреннего аудита в учреждениях государственного сектора”, Экономический науки, УДК: 336.148+657.6 DOI 10Л7238^П1998-5320.2018.31Л60

2 НВ Васина, НГ Иванова, “Внутренний финансовый контроль и внутренний аудит в учреждениях государственного сектора: проблемы нормативного регулирования и методического обеспечения”, Актуальные вопросы развития экономики, 2017 г., стр. 217-221

3 Меҳмонов С.У., Бюджет ташкилотларида ички аудит фаолиятининг назарий ҳамда амалий жиҳатлари, Иқтисод ва молия / Экономика и финансы 2015, 10-сон, 52-57

Individual rejalashtirish umumiy yillik rejaga kirgan ichki audit obyektida ichki audit tadbirlarini o‘tkazish bilan belgilanadi. Ya’ni bitta budjet tashkilotida belgilangan vaqt davomida bajariladigan ishlar ketma-ketligini anglatadi.


Ichki audit tadbirlarini umumiy yillik rejalashtirishda umumiy ro‘yxatni shakllantirish lozim. Bu ro‘yxat har bir vazirlik va idoralarning tarkibiy bo‘linmasiga kiradigan tashkilotlarini qamrab olishi kerak. To‘liq ro‘yxat shakllanib bo‘lganidan keyin ularning risklari tahlil qilinadi. Bunday metodologiyani rivojlangan davlatlar tajribasida kuzatish mumkin. Bu amaliyot ichki audit xodimlari ishining samaradorligi va ularning vaqt resurslaridan unumli foydalanishlari uchun asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Aynan rejalashtirish borasida xalqaro standartlarda ham ko‘rishimiz mumkinki, ichki audit tadbirlari va maqsadi, hajmi va dasturi bilan bog‘liq bo‘lgan alohida xususiyatga ega bo‘lgan jihatlar ko‘zga tashlanadi.

Davlat sektorida reja tuzish jarayoni ichki audit xalqaro standartlarining 2200 – “Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish”, 2210 – “Auditorlik tekshiruvi maqsadlari”, 2220 – “Auditorlik tekshiruvi hajmi”, 2230 – “Auditorlik tekshiruvini bajarish uchun mehnat resurslarini taqsimlash” va 2240 – “Auditorlik tekshiruvi dasturi” sonli standartlarida belgilab qo‘yilgan[4]. Ushbu standartlar asosida davlat sektorida o‘tkaziladigan ichki audit standartlari ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2022 yil 3394 –sonli qarori asosida “Ichki audit milliy standartlari”[5] hamda 3406-sonli qarori asosida “Ichki audit tadbirlarini o‘tkazish qo‘llanmasi”[6] tasdiqlandi. Ushbu me’yoriy-huquqiy hujjatlar davlat sektorida ichki audit tadbirlarini rejalashtirish jarayonida asosiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ichki audit tadbirlarini yillik rejasini tuzishda ichki audit xodimlari soni va nazorat tadbiri uchun belgilangan vaqt resurslarini hisobga olinadi. Bu vaziyatda ichki audit xodimlari manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelmasligini ham hisobga olishlari kerak. Ichki audit tadbirlari rejasiga kirmagan obyektlarda rejadan tashqari ichki audit tadbirlari o‘tkazilishi mumkin. Bunda umumiy ichki audit xodimlarining nazorat tadbirlari uchun ajratilgan umumiy vaqt resurslarini 20 foizidan oshib ketmasligi kerak. Rejadan tashqari ichki audit tadbirlari qonun hujjatlarini buzilganligi to‘g‘risida ma’lumot kelib tushganda, nazorat obyektini aniq sabablari bilan murojaati kelib tushganda va favqulodda vaziyatlar taqozo qilganda vazirlik va idoralarning rahbari qarori asosida o‘tkazilishi mumkin.

Ichki audit yillik rejasini ishlab chiqish 4 ta bosqichda amalga oshiriladi.



1-rasm: Ichki audit yillik rejasini ishlab chiqish bosqichlari[7]

Ichki audit xalqaro standartlarining 2200 – auditorlik tekshiruvini rejalashtirish bo‘limida rejalashtirish haqida shunday deyilgan: “Ichki auditorlar har bir auditorlik tekshiruvi, jumladan tekshiruvning maqsadlari, hajmi, bajarilish muddati va resurs taqsimlanishi kerak. Rejada tashkilotning strategiyalari, maqsadlari va tekshiruvga bog‘liq risklari ko‘rib chiqilishi kerak”[8].

Umumiy rejalashtirish jarayonida risk tahlili asosida baholash eng asosiy va murakkab jarayon hisoblanadi. Risk omillarini belgilashda ichki audit obyektining moliyaviy faoliyatida risklarning yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi omillar hisobga olinadi.

Rejalashtirish bosqichidagi risklar tahlili asosan oldingi tekshiruv natijalari hamda risk darajalari, tashkilot uchun budjetdan ajratiladigan mablag‘lar miqdori, budjetdan tashqari mablag‘lari miqdori, moliyaviy operatsiyalarining hajmi va kadrlar siyosatiga bog‘liq holda baholanadi.


4 INTOSAI Financial Audit Guidelines are based on the International Standards on Auditing, 2200 Engagement Planning.
5 O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirining 2022-yil 24-oktyabrdagi 3394-sonli “Ichki audit milliy standartlarini tasdiqlash” to‘g‘risidagi buyrug‘i.
6 O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2022 yil 27 dekabrdagi 3406-sonli “Ichki audit tadbirlarini o‘tkazish qo‘llanmasini tasdiqlash” to‘g‘risidagi buyrug‘i.
7 Muallif ishlanmasi.
8 INTOSAI Financial Audit Guidelines are based on the International Standards on Auditing, 2200 Engagement Planning.

Risklarni baholash jarayonida muhimlik omili hisobga olinishi shart. Muhimlik risklarni baholashda aniqlikni ta'minlaydi. Muhimlik darajasi tashkilotlarni taqdim etgan dalillari va budjet tashkilotlarini tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Resurslarning mutanosib taqsimlanishini tasdiqlash uchun shu o'rinda auditorlik tekshiruvi hajmini e'tiborga olish muhim hisoblanadi.

Markazlashgan ichki audit xizmati bir tashkilot uchun emas, balki respublika yoki hududiy darajadagi tarmoq vazirliklari buysunuvidagi tashkilotlar doirasida yillik reja tuziladi. Yillik reja tuzish uchun risklarni tahlil qilish asos bo'lib xizmat qiladi. Aslida risklarni baholash jarayoni ichki audit nazoratini o'tkazish jarayoniga tegishli hisoblanadi. Lekin, aynan risk omillari tahlili va riskka asoslangan reja barcha budjet tashkilotlari to'g'risida muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va vakolatli davlat organlari tomonidan muntazam kuzatib boriladigan hamda o'zgartirish kiritish mumkin bo'lgan joylariga vakolatli davlat organlari tomonidan o'zgartirishlar kiritib boriladigan jarayondir.

Individual baholash sifat baholanishi ko'rinishida bo'lishi mumkin: (qoniqarli, yaxshilanishga muhtoj, qoniqarsiz) yoki raqamli (1 = yaxshi, 2 = qoniqarli, 3 = yaxshilanishga muhtoj), lekin rangli ko'rsatkichlardan foydalanish tobora ko'proq uchramoqda. Bu baholash tizimini bugungi kunda rivojlangan barcha mamlakatlarda kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Buyuk Britaniya, AQSH, Rossiya Federatsiyasi va ko'pgina MDH davlatlarida uchratamiz.



2-rasm: Ichki audit tadbirlarini rejalashtirishda budjet tashkilotlarini risk darajasini aniqlashda foydalaniladigan risk omillari[9]

9 Muallif ishlanmasi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, baholashda qo‘llaniladigan juda ko‘p usullar mavjud. Ularni ichidan eng samarali va ishonchlisi tanlanadi. Ichki audit boshqarmasi o‘zining natijalarini baholashda quyidagi uch bosqichli baholash tizimini taklif qilindi va bu bosqichlardan foydalanib rejalashtirish jarayonini takomillashtirish asoslandi:

“Qizil”: yuqori ahamiyatga ega muammo, zudlik bilan e’tiborni talab qiladi.

“Sariq”: o‘rtacha ahamiyatga ega muammo, o‘z vaqtida e’tibor berishini talab qiladi.

“Yashil”: kam ahamiyatga ega muammo, vaqti vaqti bilan e’tiborda bo‘lishini talab qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, baholarni berish mezonlari quyidagi omillarni o‘z ichiga olishi lozim:

- moliyaviy ta’sir darajasi;
- tashqi qonun, qoidalar va cheklovlarning buzilishi darajasi;
- muhim masala bo‘yicha siyosatga rioya qilmaslik;
- ichki nazoratning yo‘qligi yoki nazorat va protseduralarning samarasizligi;
- firibgarlik, o‘g‘irlik, noto‘g‘ri manfaatlar to‘qnashuvi yoki resurslarni jiddiy isrofgarchiligi;
- hisobot yoki muhokamalarning samarasiz tuzilishi moliyaviy risk va samarasiz operatsiyalarga olib keladi;
- auditdan so‘ng o‘tkazilgan tekshiruv natijalariga ko‘ra, auditorlar oldingi xulosasiga javoban harakat rejasini amalga oshirish uchun deyarli hech qanday harakat qilinmaganligini ko‘rsatadi.

Har bir auditga bir xil qizil/sariq/yashil tizimi yordamida umumiy baholash beriladi. Bu jarayonda o‘rtacha baholash shakli qo‘llaniladi, lekin faqatgina, o‘rtacha baholashni qo‘llash noto‘g‘ri natijaga olib keladi, jumladan, 5 ta qizil va 5 ta yashillar, albatta, umumiy sariq berishi kerak degani emas, sababi, bir yoki bir nechta qizil baholar o‘ta jiddiy deb olinishi kerak va natijada umumiy baho ham qizil, deb berilishi kerak, shu sababli, hukm chiqarishda ehtiyot bo‘lish kerak.

Shu bilan bir qatorda ichki audit tadbirlarini rejalashtirishda budjet tashkilotlarini risk darajasini aniqlashda risk omillaridan foydalaniladi.

Ushbu risk omillari budjet tashkilotida ichki audit tadbiri o‘tkazilmagan bo‘lsa, ya’ni birinchi marta rejaga kiritilayotgan bo‘lsa foydalaniladi. Agar, oldin budjet tashkilotida ichki audit tadbirlari o‘tkazilgan bo‘lsa, bu omillarga qo‘shimcha ravishda avvalgi o‘tkazilgan ichki audit tadbiri natijalari hamda ichki audit xizmati taklif va tavsiyalarining bajarilishi holati ham hisobga olinadi.

Shuningdek, risk omillarini aniqlashda budjet tashkilotining faoliyatidan kelib chiqib, o‘ziga xos xususiyatlarini, dasturiy majmualaridan olingan ma’lumotlarni, hisob va hisobot ma’lumotlarini, vazirlik va idoralar miqyosidagi ma’lumotlar va tashqi manbalardan olingan ma’lumotlarni ham risk omillari sifatida o‘rganilishi mumkin.

Umumiy rejalashtirishda vaqt resurslarini hisobga olgan holda to‘g‘ri taqsimlash va har bir tashkilotning hajmidan kelib chiqib nazorat vaqtini belgilash orqali amalga oshirish lozim. Bunda bayram kunlari, dam olish kunlari, qonunchilikda belgilangan qo‘shimcha dam olish kunlari, ta’tillar hisobga olinmasligi kerak. Shuningdek, agar rejadan tashqari ichki audit tadbirlari mavjud bo‘lsa, ular ham hisobga olinishi kerak.

Bundan tashqari rejalashtirishda vazirlik va idora rahbari yoki ichki audit boshqarma rahbari tavsiyasiga ko‘ra ham nazorat o‘tkazish maqsadida ro‘yxatga olinishi mumkin. Kelgusi yil uchun umumiy reja joriy yilning 15 dekabr sanasiga qadar ishlab chiqiladi hamda 25 sanasiga qadar tasdiqlanadi. Tasdiqlangan umumiy ichki audit tadbirlari rejasi 3 ish kuni mobaynida “Davlat auditi” dasturiy majmuasiga kiritiladi.

Tasdiqlangan yillik rejaga kiritilgan budjet tashkilotlarida rejaga asosan ichki audit tadbirini o‘tkazish majburiy hisoblanadi, agar ma’lum sabablarga ko‘ra ichki audit tadbiri tashkil etilmasa, aniq sabablari ko‘rsatilgan holda ichki audit hisobotida ma’lumot rasmiylashtiriladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, davlat sektorida ichki audit tadbirlarini rejalashtirish ichki auditorlarni ish samaradorligini oshiradi. To‘g‘ri rejalashtirish nazorat obyektining barcha xususiyatlarini to‘liq hisobga olganda shu natijasini ko‘rsatadi. To‘g‘ri rejalashtirilgan ichki audit tadbirlari yaxshi natijalarga olib keladi va rejalashtirish orqali nazorat tadbirlarini asosiy qismi tashkil qilingan hisoblanadi.

Davlat sektorida ichki audit tadbirlarini umumiy rejalashtirish jarayonini amalga oshirishda hamda tashkil qilishda e’tiborga olish muhim bo‘lgan jihatlarini tahlil qilib quyidagi xulosalarga kelindi:

birinchidan, davlat sektorida ichki audit tadbirlarini rejalashtirish jarayoni uchun oldingi audit tadbirlari natijalarini o‘rganish va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Oldingi natijalar va chora-tadbirlar rejasi bajarilishi monitoringi asosiy ma’lumotlar manbasi bo‘lib xizmat qiladi;

ikkinchidan, ichki audit tadbiri mohiyatidan kelib chiqib, mavjud xodimlar bilimi va tajribasi xususiyati hamda xodimlarni rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olgan holda jamoaning eng samarali tarkibini belgilash muhim hisoblanadi;

uchinchidan, ichki audit tadbirlarini rejalashtirishda audit jamoasi audit maqsadlari, tekshiruv hajmi, talab qilinadigan audit metodologiyasi, ko‘lami va audit testining boshqa turlarini hamda risk omilli tahliliga asoslanib, guruhlarga ajratilgan nazorat obyektlarini eng maqbul tanlanmasini muhokama qilish uchun rejalashtirilgan yig‘ilish o‘tkazadi.

Xulosa qilib aytganda, davlat sektorida ichki audit tadbirlarini rejalashtirish jarayoni o‘ziga xos qoidalarga tayanadi, shuningdek, budjet tashkilotlarini risklari tahlili, nazorat obyektlarining hajmi, faoliyati, umumiy ko‘rsatkichlari, daromadlar va xarajatlar miqdori, oldingi tekshiruv natijalari, xodimlar qo‘nimsizligi, moliyalashtirish manbalari turlari va boshqa tashkilot faoliyatiga bevosita va bilvosita ta’sir qiladigan barcha jarayonlar hisobga olinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdagi O‘RQ-360-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonuni;
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi “Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” 416-sonli qarori.
3. Moliya vazirining 2022-yil 3-oktyabrdagi 52-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan hamda Adliya vazirligidan 2022-yil 24-oktabrda 3394-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Ichki audit milliy standartlari.
4. Adliya vazirligidan 2022-yil 27-dekabrda 3406-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Ichki audit tadbirlari o‘tkazish qo‘llanmasi.
5. Самылина Е.В., Сукало А.В., Дмитриева Е.Н., “Внутренний аудит в бюджетной сфере”, Экономика и социум, №1(44), 2018 г.
6. Берикова Н.Б., Долтаева Н.Е., Джалкуева Н.А., Стрелец Н.Е. “Трансформация механизмов внутреннего финансового контроля и внутреннего финансового аудита”, Экономический исследования, Журнал прикладных исследований, 2022 г.
7. Н. В. Васина, А. Н. Данилов, Н. Г. Иванова,” “Проблемы нормативного регулирования и методическое обеспечение внутреннего финансового контроля и внутреннего аудита в учреждениях государственного сектора”, Экономический науки, УДК: 336.148+657.6 DOI 10Л7238^П1998-5320.2018.31Л60
8. Н.В. Васина, Н.Г. Иванова, “Внутренний финансовый контроль и внутренний аудит в учреждениях государственного сектора: проблемы нормативного регулирования и методического обеспечения”, Актуальные вопросы развития экономики, 2017 г., стр.217-221.
9. Mehmonov S.U., Budjet tashkilotlarida ichki audit faoliyatining nazariy hamda amaliy jihatlari, Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansi 2015, 10-son, 52-57;
10. INTOSAI Financial Audit Guidelines are based on the International Standards on Auditing, 2200 Engagement Planning.

AHOLI MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH VA UNING AHAMIYATI



Xudayarova Xurshida Abdunazarovna
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola moliyaviy savodxonlikning turli olimlar tomonidan berilgan ta'riflarini, unga ta'sir etuvchi omillarni ochib berib, xorij tajribalariga asoslangan holda mamlakatda moliyaviy savodxonlikuni oshirish yo'llari bo'yicha tavsiyalarga asoslangan.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, moliyaviy resurslar, omillar, munosabat, bilim, ko'nikma.

Abstract: This article reveals the definitions of financial literacy given by various scientists, the factors that influence it, and recommendations on ways to improve financial literacy in the country based on foreign experiences.

Key words: financial literacy, financial resources, factors, attitude, knowledge, skills.

Аннотация: В данной статье раскрыты определения финансовой грамотности, данные различными учеными, факторы, влияющие на нее, а также рекомендации по путям повышения финансовой грамотности в стране на основе зарубежного опыта.

Ключевые слова: финансовая грамотность, финансовые ресурсы, факторы, отношение, знания, навыки.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalari juda tez o'zgarib bormoqda. O'zgarishlar moliyaviy sohada ham amalga oshirilib, ijtimoiy taraqqiyotning barcha so'nggi yutuqlariga mos kelmoqda. Hozirgi vaqtda moliyaviy soha inson hayotining yetakchi omillaridan biri bo'lib, u jamoat va shaxsiy hayotning deyarli barcha sohalariga ta'sir etmay qo'ymaydi. Shu boisdan joriy yillarga kelib ushbu sohada turli tadbirlarni amalga oshirishga doir keng tajriba to'plangan. Mamlakatimizda ham aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli loyihani amalga oshirish boshlangan va ushbu sohani takomillashtirishga qaratiladigan e'tibor yildan yilga oshib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti voqeligi aholining jamg'arib boriladigan nafaqa fondi, sug'urta dasturlari va ipoteka sxemalarida keng ishtirokini talab etadi, bu o'z navbatida aholining nafaqalarini jamg'arish, uy joy bilan ta'minlash, ijtimoiy va tibbiy sug'urta bilan bog'liq masalalarini hal etishda bevosita yordam beradi. Shu bilan birga, yangi jamg'arma va sug'urta instrumentlarini qo'llash, moliya institutlari bilan samarali o'zaro munosabatlariga kirish, bank va sug'urta mahsulotlaridan samarali foydalanish aholidan yuqori darajadagi moliyaviy savodxonlikni talab etadi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki moliyaviy bilimlarning oshishi, iqtisodiy tarraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblangan fuqarolarning hayot sifati va farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda, iqtisodiy lug'atlarda va ilmiy ishlarda moliyaviy savodxonlik tushunchasiga ko'plab ta'riflar berilgan. Ushbu tushunchalarning nazariy asoslarini ko'rib chiqadigan bo'lsak.

Xorij olimlaridan Lusardi va Mitchellilar "Moliyaviy savodxonlik-asosiy moliyaviy masalalar va unga tegishli atamalar haqidagi bilim bo'lib, u insonlarni moliyaviy qo'yilmalarni tushunish, o'qiy olish, nafaqaga chiqish rejasini ishlab chiqish va kundalik moliyaviy qarorlarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan voqealarga oqilona munosabatda bo'lish qobiliyatidir" [2] deb ta'rif berishgan. Yana bir iqtisodchi olim Schshab moliyaviy savodxonlikni insonning umr bo'yi moliyaviy farovonlik uchun moliyaviy resurslarini samarali boshqarishda o'z moliyaviy bilimlari va ko'nikmalaridan foydalanish qobiliyati deb ta'riflagan. Ushbu ta'rifning asosiy farqlovchi xususiyatlaridan biri shundaki, Schshab moliyaviy farovonlikni moliyaviy savodxonlik ta'rifining o'ziga xos bir xususiyati sifatida tan olgan [3]. Ba'zi tadqiqotchilar, masalan, Huston va Remund moliyaviy savodxonlikni insonlarga moliyaviy qarorlarni samarali qabul qilishga yordam beradigan mahorat deb ta'riflaganlar [4].

Kanada Moliyaviy iste'molchilar agentligi hujjatlaridagi ta'rifga ko'ra, "moliyaviy savodxonlik – bu mas'uliyatli moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun bilim, ko'nikma va ishonchga ega bo'lishdir". Agentlik bilimni "shaxsiy moliyaviy masalalarni tushunish" sifatida; qobiliyatlarni "moliyaviy bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyati" sifatida; ishonchni "muhim qarorlar qabul qilish uchun o'z-o'ziga ishonchga yega bo'lish" sifatida va mas'uliyatli moliyaviy qarorlarni "insonlarning o'z sharoitlariga mos keladigan tanlov qilish uchun olgan bilimlari, ko'nikmalari va ishonchlaridan foydalanish qobiliyati" sifatida ta'riflagan [5].

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) hujjatlarida "Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsiy moliyaviy farovonlikka erishish uchun asosli moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi xabardorlik, bilim, ko'nikma, qadriyatlar va xulq-atvor kabi elementlarning majmui" [6] deb ta'rif bergan.

Yuqoridagi ta'riflardan xulosa qilish mumkinki, moliyaviy savodxonlikning standartlashtirilgan ta'rifi mavjud bo'lmasa ham, adabiyotlarga asoslangan holda moliyaviy savodxonlik yangi murakkab moliyaviy vositalarni tushunish va baholash uchun zarur bo'lgan asosiy moliyaviy ko'nikmalar; moliyaviy resurslarni boshqarish; iqtisodiy axborotni qayta ishlash; va moliyaviy farovonlikka erishish uchun moliyaviy rejalashtirish, boylik to'plash, pensiya va qarzlar bo'yicha mas'uliyatli moliyaviy qarorlar qabul qilishlarni o'z ichiga oluvchi tushuncha sifatida ta'rif yetilishi mumkin.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning nazariy va ilmiy uslubiy asosi bo'lib iqtisodiy yo'nalishdagi turli manbalardan olingan ilmiy maqolalar, xorijiy iqtisodchi olimlarning aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalalari bo'yicha tadqiqotlari, mutaxassislarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar hisoblanadi. Shuningdek, izlanishlar jarayonida baholash iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli xulosalar chiqarishga imkon beruvchi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlar va tahlillar natijasida shuni ko'rdikki moliyaviy savodxonlik deganda jismoniy shaxslarning o'z moliyaviy mablag'larini samarali boshqara olish, hamda joriy va uzoq muddatli istiqbolli moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyati tushunilgan. Shu bilan birga, turli mamlakatlarda moliyaviy savodxonlikni aniqlashda turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan:

- odamlarning o'z mablag'lari doirasida yashash, shaxsiy moliyaviy holatini kuzatish, kelajakdagi daromad va xarajatlarini rejalashtirish, to'g'ri moliyaviy mahsulotlarni tanlash va moliyaviy muammolarni tushunish. (Buyuk Britaniya, Moliyaviy xizmatlarni tartibga solish va nazorat qilish boshqarmasi);
- har bir shaxsning doimiy o'zgaruvchan shaxsiy va tashqi iqtisodiy sharoitlarga samarali javob bera olish qobiliyati (AQSH,Moliyaviy savodxonlik bo'yicha maslahat kengashi);
- moddiy farovonlikka ta'sir etuvchi moliyaviy sharoitlarni tahlil qilish, boshqarish, o'qiy bilish va anglash qobiliyati (AQSH, Ijtimoiy va moliyaviy tadqiqotlar instituti).



1-rasm: Moliyaviy savodxonlik uch muhim komponenti

Shuni ta'kidlash kerakki, moliyaviy savodxonlik sohasidagi masalalar doirasi ancha keng bo'lib, nafaqat shaxsiy budjetni boshqarish qobiliyatini, balki bank va sug'urta xizmatlaridan xabardor bo'lishni, iste'molchilar huquqlarini bilishni, investitsiya qilish tamoyillarini tushunishni va tavakkalchilikni aniqlashlarni ham qamrab oladi. Ayniqsa, bunda ortiqcha qarzlarning shakllanishi va bankrotlik xavfining oldini olish zarurligi sababli moliyaviy risklarni boshqarish muhim masala bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy savodxonlikka ta’sir etuvchi omillarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- **Demografik omillar:** yosh, jins, ta’lim, tajriba, daromad, kasb, bandlik xususiyati. Ushbu omillar ichidan aholining yoshini olib ko‘radigan bo‘lsak, tahlillar shuni ko‘rsatadiki aholining yosh va yoshi katta qatlamida moliyaviy savodxonlik darajasi, o‘rta yoshliklarga nisbatan pastroq bo‘lganligi sababli ular moliyaviy xatoliklarga ko‘proq yo‘l qo‘yishadi [8]. O‘zbekiston misolida ko‘radigan bo‘lsak, 2023-yilda jami aholining 63 foizini yoshlar (35 yoshgacha) va 18 foizini yoshi kattalar (50 yoshdan katta) tashkil qiladi, statistikadan ko‘rinadiki moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish qatlami jami aholining 81 foizini tashkil etadi. Jinsni ko‘radigan bo‘lsak AQSHda o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, ayollarning moliyaviy savodxonligi erkaklarnikiga qaraganda pastroq bo‘lishi mumkin ekanligi kuzatildi. Buning sababi bo‘lib ayollarning moliyalashtirish qarorlarida erkaklarga qaraganda kamroq ishtirok etishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini taxmin qilindi. Shuningdek, ko‘plab tadqiqotlar ayollarning birja operatsiyalarida ishtirokining past bo‘lishini tasdiqladi [9].
- **Ijtimoiy-iqtisodiy omillar:** kasb-hunar, shaxsiy daromad, mavqe, boylikning boshqa omillari.
- **Rivojlanish omillari:** oiladagi tarbiya, bolalik tajribasi, bandlik darajasi, sog‘lik, kreditdan foydalanish imkoniyati. Rivojlanish omillari ichida bizning nazarimizda aholining bandlik darajasi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, odatda bandlik darajasi yuqoriroq bo‘lgan davlatlarda moliyaviy savodxonlik darajasi nisbatan yuqori bo‘ladi, buni band aholining daromad olishi bilan izohlashimiz mumkin.
- **Xulq atvor omillari:** o‘ziga ishonch, o‘z o‘zini qadrlash.
- **Moliyaviy munosabatlar:** bunda insonlarning moliyaviy mablag‘larini boshqara olish qobiliyati yoki ushbu sohadagi qiziqishlarini oshirishdan manfaatdorlik.
- **Moliyaviy qarashga ta’sirlar:** oila, do‘stlar, tanishlar, tengdoshlarning ta’siri.
- **Shaxsiy psixologik omillar:** motivatsiya, idrok etish, o‘rganish.
- **Madaniy faktura va din:** Ushbu omillar ichida dinni ko‘radigan bo‘lsak, odatda islom dini mamlakatlarida, oiladagi moliyaviy qarorlarni qabul qilishda ayollarning ishtiroki nisbatan pastligi kuzatiladi. Bu o‘z navbatida ayollar orasida moliyaviy savodxonlik darajasining pastligiga olib keladi. O‘zbekiston aholisining ham 90 foiziga yaqinini islom diniga e’tiqod qiluvchilar tashkil qiladi.

Ta’sir etuvchi omillardan kelib chiqib, turli mamlakatlarda moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarining asosiy maqsadi farqlanishi mumkin. Aksar mamlakatlarda dasturlar aholining bolalar va yoshlar qatlamiga qaratilgan va dasturni joriy qilishning asosiy instrumenti bo‘lib internet hisoblanadi. Ba’zi mamlakatlarda esa alohida ijtimoiy guruhlarga individual loyihalar ham ishlab chiqilgan. Masalan: Avstraliyada yosh uy bekalari uchun alohida dastur mavjud.

Moliyaviy savodxonlik va moliyaviy ta’lim dasturlari rivojlanish darajasi	Mamlakatlar
Ko‘p sonli yuqori darajadagi moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlariga ega bo‘lgan; moliyaviy savodxonlikni oshirish muammosi uzoq vaqtdan beri o‘rganilayotgan va dasturlari takomillashtirishgan.	AQSH, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Kanada, Germaniya, Buyukbritaniya, Singapur
Moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlari ishlab chiqilgan; ammo moliyaviy savodxonlikni aniqlash va uni oshirish dasturlari takomillashtirilmagan.	Gollandiya, Italiya, Polsha, Xindiyaton, Avstriya, Rossiya
Moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlari yaqin yillarda ishlab chiqilgan; muammolar endi o‘rganila boshlangan.	Argentina, Markaziy osiyo davlatlari, Saudiya Arabiston

2-rasm: Moliyaviy savodxonlik va moliyaviy ta’lim dasturlarining rivojlanish darajasi bo‘yicha mamlakatlarni guruhi [9]

Deyarli barcha mamlakatlarda bu dasturlar davlat, shuningdek, xalqaro moliya institutlari va jamoat tashkilotlari hisobiga moliyalashtiriladi:

- Belgiya, Polsha, Koreya mamlakatlarida Milliy (markaziy) banklar tomonidan;
- AQSH, Buyuk Britaniya mamlakatlarida Moliyaviy regulyatorlar va ularga tenglashtirilgan tashkilotlar tomonidan;
- Avstriyada Bandlik masalalari bo‘yicha institutlar (tashkilotlar) tomonidan;

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- Slovakiyada Ta’lim vazirliklari va ta’lim tashkilotlari tomonidan;
- Belgiyada Qarzni to‘lash bo‘yicha muassasalar (tashkilotlar) tomonidan;
- Polshada turli xil Fondlar tomonidan.

Shu bilan birga, AQSH, Polsha va boshqa mamlakatlarda xususiy sektorlar tomonidan ham moliyalashtiriladigan dasturlar mavjud bo‘lib, ushbu sektorlar tarkibiga asosan tijorat banklari kiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qiladigan bo‘lsak, aholini moliyaviy savodxonligini oshirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanib dunyoning turli mamlakatlarida moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash, ta’sir etuvchi omillarni tahlil etish, dasturlar va ushbu dasturlarni moliyalashtirish manbalari bir birlaridan farq qiladi.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlarini samarali joriy etayotgan davlatlar tajribasidan kelib chiqib qo‘yidagilarni tavsiya qilish mumkin:

1. Moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlari xayotni rejalashtirishda muhim hisoblangan yo‘nalishlarga qaratilgan bo‘lishi lozim. Jumladan jamg‘arma, kredit va qarzni boshqarish, sug‘urta, pensiya, moliyaviy risklarni boshqarish, iste’molchilar huquqlarni himoya qilish;
2. Har bir maqsadli guruh uchun alohida dasturlar va usullardan foydalanish.
3. Moliyaviy savodxonlikni oshirish jarayoniga barcha moliya institutlarini jalb yetish, bunda asosan veb-saytni yaratish va unda imkoniyatlar, risklar va iste’mol bilan bog‘liq ma’lumotlarni joylashtirib borish lozim.

Yuqoridagi tavsiyalarni samarali qo‘llash orqali, mamlakatimiz aholisining, ayniqsa yosh va yoshi kattalar hamda ayollarning moliyaviy savodxonligini yanada oshirishga erishish mumkin hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni. 2021-yil 13-aprel. –https://lex.uz/
2. Lusardi, A & Mitchell ‘The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence’, Journal of Economic Literature, том. 52, № 1, 5-44 бет, 2014.
3. Schwab, C, Iannicola Jr, D, Beck, T, Hira, T, Bryant, JH, Parker, J, Levine, L & Dawson, C 2009, President’s Advisory Council on Financial Literacy, 13455, The department of the treasury, Washington, 2020 йил 20 август.
4. Remund, DL 2010, ‘Financial Literacy Explicated: The Case for a Clearer Definition in an Increasingly Complex Economy’, Journal of Consumer Affairs, том. 44, №. 2, 276-95 бет. Huston, ‘Measuring Financial Literacy’, Journal of Consumer Affairs, том. 44, №. 2, 296-316 бет, 2010.
5. Stewart, Canadians and Their Money: Building a Brighter Financial Future: Report of Recommendations on Financial Literacy, Department of Finance Canada, 2010.
6. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), 2017.
7. Volpe, RP, Kotel, JE & Chen, H ‘A Survey of Investment Literacy among Online Investors’, Journal of Financial Counseling and Planning, том. 13, № 1,1-16 бет, 2002.
8. Agarwal, S, Driscoll, JC, Gabaix, X & Laibson, D ‘The Age of Reason: Financial Decisions over the Life-Cycle with Implications for Regulation’, Brookings Papers on Economic Activity, том. 9, № 2, 51-117 бет, 2009.
9. Еремина О.И Финансовая грамотность населения и пути ее повышения https://educenter.ru/netcat_files/userfiles/files/3.37/Stat’i/elibrary_28986098_16076486EREMINA.pdf

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI



Xudoyberdiyev Jamshid Juraboy o‘g‘li
“Sambhram universiteti” NTM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kambag‘allikni qisqartirish va iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi yoritilgan. Bunda asosiy e’tibor Shvetsiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Malayziya va Finlyandiya tajribalariga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: aholi, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya, kambag‘allik, mulk, tadbirkorlik, daromad tengsizligi, gender tengligi.

Abstract: This article covers the experience of foreign countries in reducing poverty and developing the economy. The focus is on the experiences of Sweden, China, South Korea, Malaysia and Finland.

Key words: population, social, social protection, poverty, property, entrepreneurship, income inequality, gender equality.

Аннотация: В данной статье рассматривается опыт зарубежных стран в сокращении бедности и развитии экономики. Основное внимание уделяется опыту Швеции, Китая, Южной Кореи, Малайзии и Финляндии.

Ключевые слова: население, социальная система, социальная защита, бедность, собственность, предпринимательство, неравенство доходов, гендерное равенство.

KIRISH

Bugungi kunda kambag‘allikka qarshi kurash mamlakatimizda o‘ta dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Chunki jamiyatimizda Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, aholi faqat ertangi kunini umid qilib emas, balki bugun davlatdan rozi bo‘lib, baxtli yashashi kerakligini uqtirmoqda. Agar odam kambag‘al oilaga mansub bo‘lsa, farzandi mutaxassislik bo‘yicha ta’lim olish imkoniyatidan mahrum bo‘lib qolishi mumkin, chunki bunday o‘qishlarning aksariyat qismi pullik bo‘lib, kontrakt asosida amalga oshiriladi. Ushbu holat uning kelajakdagi daromadlari darajasiga ham salbiy ta’sir etadi. Chunki malakali mehnat bilan malakasiz mehnatning o‘rtasidagi “topish-tutinishi” turli darajada bo‘ladi. Bunday aholi qatlami nafaqat aholining o‘ziga, balki jamiyatga ham zarar.

Mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish siyosati keng qamrovli bo‘lishi zarur. Shuningdek, kambag‘allikni qisqartirishda iqtisodiy va ijtimoiy kambag‘allikni farqlash lozim bo‘ladi. Iqtisodiy kambag‘allikni bartaraf etish uchun davlat tomonidan iqtisodiy chora tadbirlarni qo‘llash orqali qisqartirish mumkin. Ijtimoiy kambag‘allikni qisqartirish uchun esa, aholining daromadlarni qayta taqsimlash imkoniyatiga asoslangan mantiqqa ega bo‘lishi lozim.

Hozirgi kunda Yangi O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining muvofaqiyatli amalga oshirish uchun “UMPR” (Uzbek Model for Poverty Reduction, Kambag‘allikni qisqartirishning O‘zbek modeli) dasturi xorij tajribalari asosida o‘rgangan holda uni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Ushbu dasturda uchta asosiy yo‘nalishda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish lozim bo‘ladi [1]:

1. Mamlakatda kambag‘allikni yanada kengayib ketishini oldini olish uchun aholi orasida kambag‘allikni profilaktika qiluvchi ishlarini olib borish.
2. Mehnatga layoqatli fuqarolarning mehnat munosabatlarida teng huquqlilik tamoyili asosida ishtirok etish imkoniyatlarini mustahkamlash.
3. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj va ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash tizimini doim takomillashtirib borish.

Sanab o‘tilgan ushbu vazifalarni bajarilishini ta’minlash uchun davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining umumiy yo‘nalishi nuqtayi nazaridan amalga oshirilishi lozim bo‘ladi. “UMPR” modelida O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarda yetakchi rolni profilaktika ishlari egallashi zarur.

Kambag‘allikning profilaktikasini amalga oshirish birinchidan, mamlakat iqtisodiyotni barqarorlashtirish va o‘sish uchun qulay bo‘lgan makroiqtisodiy va tarmoq siyosatini amalga oshirish imkonini bersa, ikkinchidan, hududiy va mahalliy darajada qabul qilingan iqtisodiy va ijtimoiy qarorlarni aholi daromadlari dinamikasiga ta’sirini aniqlash va ushbu qarorlarni amalga oshirishda aholi daromadlarini tushishiga olib kelgan hollarda qarorlarga zarur tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Ochlik siyosiy iqtisodiyoti” asari uchun iqtisod bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan Amartya Senning fikricha, kambag‘allik tovarlar miqdori (moddiy ne’matlar) bilan bog‘liq emasligini ko‘rsatadi, lekin odamlarning bu moddiy ne’matlarni olish uchun ijtimoiy shartlangan imkoniyatlari bilan belgilanadi [2].

A.Smit fikricha, kambag‘allik yashash vositalarining yo‘qligi uncha katta achinishni tug‘dirmaydi. Kambag‘allikning yuzaga kelishi natijasida mamlakatda iqtisodiy muammolar kengaya boradi aholida norozichilik kayfiyati uyg‘onib, malakat ijtimoiy jamoalarning ajralishiga olib keladi [3].

Ijtimoiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish tabiatini chuqur tadqiq etgan K.Marks jamiyatdagi turli tabaqalarga ajralishning sababi-jamiyatni ishlab chiqarish vositalari egalari va faqat o‘z mehnatini sotishi mumkin bo‘lganlarga bo‘linishidir. Kambag‘allikning sabablarini tadqiq etib, K.Marks kapitalning to‘planishi bir qutbda boylik, ikkinchi qutbda esa kambag‘allikni vujudga keltirib, turli ko‘rinishlarni oluvchi va kapitalga ishlab chiqarishni o‘ta tezlik bilan kengaytirish imkonini beruvchi “zaxira ishchi armiyasini”, ishchilarning “nisbiy ortiqchaligini” yoki “kapitalistik aholi o‘sib ketishini” vujudga keltiradi deb keltirgan [4].

S.Fan kambag‘allikning ko‘payishi davom etar ekan, taraqqiyot sekinlashadi va dunyoning turli burchaklarida notekis iqtisodiy vaziyatlar yuzaga keladi. Xitoyda kambag‘allikdan chiqish maqsadida har bir fuqaroga bilim va erkinlikni ta’minlash uchun tadqiqotlar olib borgan va kambag‘allikdan chiqish yo‘llaridan barcha aholini xabardor qilishni muhim deb hisoblagan. Shu munosabat bilan faqatgina qishloq xo‘jaligiga e’tibor qaratgan holda xalqaro tajribalar va kambag‘allikdan chiqishning turli yo‘llarini hisobga olish yetarli emasligini ko‘rsatib bergan [5].

P.Moisio va boshqalar maqolasida 1993–2013-yillarda Finlyandiyada kambag‘allik xavfi darajasining oshishiga soliq va imtiyozlardagi o‘zgarishlarning ta’sirini baholash uchun kambag‘allikda soliq stavkalarini tahlil qilganlar. Uy xo‘jaliklarining bir martalik daromadlar haqida ma’lumotlardan foydalangan holda simulyatsiya yaratganlar va 1993–2013-yillar uchun yillik soliq va imtiyozlar masalasini ko‘rib chiqishni taklif qilganlar. 1990-yillardagi depressiyadan keyin nafaqalarni qisqartirish kambag‘allikka juda kam ta’sir ko‘rsatganini, ammo soliqdagi o‘zgarishlar ancha katta ta’sir ko‘rsatganin isbotladilar [6].

J.S.Lee va J.K.Choi lar Koreya farovonligi paneli tadqiqotidan milliy vakillik namunasi ma’lumotlar to‘plamidan foydalanib, topilgan daromad manbalarining kambag‘allikka qarshi ta’sirini ko‘rib chiqadilar. Ular bir kishi uy xo‘jaliklarida, daromad topishi mos ravishda, 84,8% kambag‘allik darajasidan 55,9% ga tushganini ko‘rsatadi. Daromad topishdan oldin, uy xo‘jaliklari ishsizlarga nisbatan kambag‘al bo‘lish ehtimoli 1,94 baravar ko‘p ekanligini ko‘rsatidi [7].

M.N.Asadullah va boshqalar maqolasida kambag‘allikning mintaqaviy farqlarini tanqidiy ko‘rib chiqib, kambag‘allikni kamaytirishda Malayziya siyosiy iqtisod omillariga e’tibor qaratishi lozimligini aniqladi. Ular 1970–2019-yillarda g‘arbiy Malayziya va Sharqiy Malayziyaning ikki shtati–Sabah va Saravak o‘rtasida daromad kambag‘alligining Sharqiy–G‘arbiy mintaqaviy bo‘linishiga e’tibor qaratishgan. 1970–1990-yillarda Malayziya yangi iqtisodiy siyosat (NEP), shubhasiz dunyodagi eng uzoq va eng ambitsiyali irqqa asoslangan ijobiy harakatlar dasturi sifatida ko‘rildi. Shu nuqtayi nazardan, uning ijobiy harakat siyosati mintaqaviy bo‘shliqlarni yopishga muvaffaq bo‘lganligini o‘rganishdi[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimizda mamlakatimizda kambag‘allik darajasi qisqartirishga qaratilgan amaliy ishlar olib borilishining analitik tahlillari, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha xorij tajribalarining qiyosiy tahlili, aholini iqtisodiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan vazifalarning bajarilishi va xorij tajribalarni o‘rgangan holda ularni Mamlakatimizda qo‘llashning imkoniyatlari analitik tahlillar yordamida o‘rganildi. Tadqiqot obyekti sifatida xorij mamlakatlarda aholi kambag‘alligini qisqartirish dasturlari o‘rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish asosida mazkur davlatlarda kambag‘allik darajasini kamaytirish uchun turli modellardan foydalanish amaliyotini tadqiq qilish lozim. Shvetsiya davlati bu borada o‘ziga xos tizim yaratganki, unda to‘liq bandlik va daromadlar tengsizligini kamaytirish modeli qo‘llanilib, ishsizlarni o‘qitish va qayta tayyorlash, zamonaviy talab yuqori bo‘lgan sohalarda ishlash qobiliyatini tiklash belgilangan.

Kambag‘allik toifasiga tushib qolgan aholini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida moddiy nafaqadan tashqari mahsulotlar va pul ko‘rinishidagi qo‘shimcha yordamlar ajratilishi Chexiya davlatidagi o‘ziga xos tizim ekanligini ko‘rsatadi.

Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra[9], Xitoyning “Bir yo‘l-bir makon” tashabbusi bilan 7,6 mln. kishi o‘ta qashshoklikdan qutulishi, 32 million kishi esa turmush darajasini yaxshilash va kambag‘allikka barham berish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga Xitoy iqtisodiyoti islohotlar va ochiqlik siyosatini yo‘lga qo‘ygach, boshidanoq va keyingi 40 yil mobaynida o‘sish darajasining yuqori sur’atini saqlay bildi. Bu esa mamlakat aholisi turmush tarzini yaxshilash uchun mahkam poydevor bo‘lib xizmat qildi. Xitoy “bira to‘la hammani” boyitishga intilgani yo‘q, balki izchil ravishda bosqichma-bosqich rivojlanishni nazarda tutgan maxsus model ishlab chiqdi. Xitoyda qishloq xo‘jaligini, shu jumladan, qishloq hududlarini rivojlantirish va yer islohotlariga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilishi, ayniqsa, qishloqlarda kambag‘allikni yengishga yordam berdi.

Jahonning barcha rivojlangan mamlakatlarida kambag‘allikni qisqartirish, aholining turmush darajasi, hayot tarzini oshirish har bir davlatning ijtimoiy – siyosiy yo‘nalishlarida asosiy o‘rinni egallaydi. Bu borada xalqaro tashkilotlar kambag‘allikni qisqartirish, insonlar yashash darajasini yanada yaxshilash, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar va istiqboldagi rejalarni bajarishga alohida e’tibor qaratilgani bilan ahamiyatlidir. BMT tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari bizning mamlakatimizda ham amalga oshirishini o‘z zimmasiga olganligini ta’kidlash lozim. Ushbu maqsadlarga erishish, shubhasiz, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi, bu esa, o‘z navbatida, mamlakatdagi kambag‘allik darajasini bosqichma-bosqich kamaytirishga olib keladi. Bu borada Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur, Malayziya va boshqa davlatlarning tajribasini o‘rganish maqsadga muvofiq.

XXR keyingi sakkiz yil ichida mutlaq kambag‘allikka qarshi kurashish uchun 1,6 trillion yuan (taxminan 246 milliard dollar) miqdorida mablag‘ sarfladi. Buning natijasida hatto eng kambag‘al hududlarda yashovchi 90 mln.dan ortiq kishilar kambag‘allikdan qutuldi va turumush darajasi o‘rtacha hududlar ro‘yxatiga kiritildi. Mazkur tajribaga asosan, Xitoy hukumati, muvaffaqiyatli va boy bo‘lgan sharqiy hududlar va kamroq taraqqiy topgan g‘arbiy hududlar kadrlari o‘rtasida tajriba almashish uchun o‘ziga xos tizimni amaliyotda sinab ko‘rdi. Davlat rahbari Si Szinpin 2021-yilda mamlakatda o‘rtacha farovon jamiyat qurish va o‘ta kambag‘allikka barham berish borasidagi maqsad to‘liq amalga oshirilganligini ko‘rsatib berdi, natijada 2020 yilda Xitoy rivojlangan davlatlar orasida mutlaq kambag‘allikka barham bergan dastlabki davlatga aylandi. Hukumat rahbari Si Szinpin Xitoy BMTning 2030-yilgacha kambag‘allikka qarshi global kurash dasturining 70 foizida hissasi bor, deb ta’kidladi.

1-jadval: Xitoy Xalq Respublikasining kambag‘allik strategiyasini amalga oshirish bosqichlari[9]

Bosqichlar	Bajariladigan vazifalar
1-bosqich (1978–1985-yy.)	Dehqonlarga ekin turlarini mustaqil tanlash va yetishtirish imkoniyati berilgan va mahsulotlarni kafolatli narxlarda sotilishi ta’minlagan
2-bosqich (1986–1993-yy.)	332 ta nisbatan rivojlanmagan hududlarlarda subsidiyalangan qarzlar dasturi va samarali mehnat uchun imkoniyat dasturi amalga oshirildi hamda davlat budjetidan grantlar ajratildi
3-bosqich (1994–2000-yy.)	Rivojlanishi sust hududlar soni 592 taga oshirilib ularda kambag‘al aholining daromadini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish va qo‘shimcha faoliyatlarni yo‘lga qo‘yish kabi yordamlar ko‘rsatilgan
4-bosqich (2001–2010-yy.)	592 ta hududdagi 150 ming kambag‘al qishloqlarda integratsiyalashgan qishloqlarni rivojlantirish, mehnat resurslarini kasbga tayyorlash hamda provinsiyalarda sanoatni rivojlantirish dasturlari amalga oshirildi
5-bosqich (2011–2020-yy.)	Strategiyaning asosiy vazifasi iqtisodiy o‘sish orqali kambag‘allikni qisqartirish deb belgilandi va unga erishish maqsadida qator dasturlar amalga oshirildi

Bugungi kunda mamlakatdagi kambag‘allik darajasi 0,5-1 foizni tashkil etmoqda. Unda ikki ehtiyoj –oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlash, uch kafolat – sifatli o‘rta ta’lim, tibbiy xizmatlar va boshpana bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. Xitoyning kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishidagi qadamlari 1978-yildan boshlab 5 bosqichli kambag‘allik strategiyasini amalga oshirishni boshladi (1-jadval).

Natijada qishloq xo‘jaligi sektorini rivojlantirish, rivojlanishdan ortda qolayotgan provinsiyalarni sanoatlashtirish, qishloqlarning ahamiyatini tubdan o‘zgartirish va ularni rivojlantirishga erishildi. Xalqaro kambag‘allik chegarasi bo‘yicha Xitoy kambag‘allik darajasi ko‘rsatkichi quyidagi diagrammada keltirilgan (1-rasm).



1-rasm: Xitoy kambag‘allik darajasi ko‘rsatkichining o‘zgarishi[9]

Shuningdek, boshqa ba’zi davlatlar masalan, Bangladeshda kambag‘allikka barham berish borasida kambag‘allarning imkoniyatlarini kengaytirish, tengsizliklarni bartaraf etish va ularga o‘zlarini va oilalarini boqish hamda jamiyatlarining barqaror o‘sishiga hissa qo‘shish imkoniyatlarini berish nuqtayi nazaridan bir qator vazifalar belgilandi. Bu borada taraqqiyot maqsadlarini to‘yib ovqatlanmaslik, kasallik, savodsizlik, kambag‘allik, ishsizlik va tengsizlikni bosqichma-bosqich kamaytirish va oxir–oqibat bartaraf etish nuqtayi nazaridan belgilanib, Grameyen Bank (mamlakatdagi eng yirik mikrokredit beruvchi) Mikrokredit sxemasi orqali Bangladeshdagi qishloq kredit tizimiga pul kiritdi. The Yeconomist jurnalining ma’lumotlariga ko‘ra, mikrokreditlar Bangladeshda umumiy aholining 59 % (qishloqlardagi) kambag‘allikni 1991-yilgi 92 %dan 1996 yilga 53 % gacha tushirdi.

Unda 100 AQSH dollaridan kam bo‘lgan kichik kreditlar (o‘rtacha 60-100 $) ni tashkil qilib, chorva sotib olish, mayda ekin yoki to‘quvchilik kabi kichik biznesni boshlashga alohida e’tibor qaratildi. Mikrokreditlash bo‘yicha ko‘rsatkichlar foiz stavkasi 16 % ni tashkil qiladi. Har qanday turdagi kreditlar qaytarilishi 98 % dan yuqorini tashkil qilib, bankda qarz undirishdagi muvaffaqiyat sirlari – bank haftalik to‘lovlarni olishi, bank qarz oluvchilarning kreditlardan berilgan maqsadda foydalanishini ta’minlashi, bank mutasaddilari kreditlarni berish bo‘yicha bergan va’dalarini bajarishiga alohida e’tibor qaratgan. Bularning barchasi bankdagi qarz oluvchilarda egalik tuyg‘usini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, to‘lovlarni muntazam ravishda to‘lashga erishilgan.

XX asrning 50-yillarida Janubiy Koreya jahonning eng kambag‘al mamlakatlaridan biri hisoblanib, kambag‘allik darajasi 1965 yilda 40,9 foizga teng bo‘lsa, 2020-yilda mazkur ko‘rsatkich 15,3 foizni tashkil etgan. Janubiy Koreya kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha olib borilgan islohotlar quyida keltiriladi (2-jadval).

2-jadval: Janubiy Koreyada 1950–2020-yillarda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha olib borilgan islohotlar va uning natijalari[10]

Yer islohoti (1950–1960)	1950-yil mart oyida “Qishloq xo‘jaligidagi yerlarni isloh qilish to‘g‘risida”gi qonunning kuchga kirishi dehqonlarga yerga egalik qilish hamda kambag‘allikka qarshi kurashishda imkoniyat yaratdi. Ma’lumotlarga ko‘ra, qishloq joylaridagi kambag‘allik 1950-yildagi 18 milliondan 1960-yilda 14 milliongacha kamaygan.
Qishloq xo‘jaligi va sanoatni eksportga yo‘naltirish bosqichi (1960–1967)	Mazkur dasturda asosiy e’tibor kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan muammoli va chegaraviy hududlarga qaratildi. Natijada bu davrda kambag‘allar soni 14 milliondan 10 millionga kamaygan.
Importni erkinlashtirish siyosati (1967–1971)	Xomashyo va yarimtayyor mahsulotlarini mamlakatga olib kirishda bojlar bekor qilinadi va bir vaqtning o‘zida sanoat mahsulotlari eksportiga asoslangan strategiya amalga oshirildi. Bu esa o‘z navbatida, aholi daromadlarini oshirib, kambag‘allik darajasida yashaydigan aholini 10 milliondan 7 millionga kamayishiga sabab bo‘ldi.

Kimyo sanoati va milliy sug‘urtani rivojlantirish dasturi (1971–1979)	Dastur 1971-yilda, ya’ni mamlakatda import anchagina erkinlashtirilganidan so‘ng boshlanib, uning doirasida avvalgi dasturlarga qaraganda yangicha yondashuvda ish olib borilgan. Ushbu dasturlar natijasida, 1979-yilda kambag‘allik darajasi 5 milliongacha kamaygan.
Aholi savodxonligini oshirish orqali kambag‘allikni qisqartirish (2000–2020)	Koreyada bolalar kambag‘alligi darajasi yuqori bo‘lgani sababli, hukumat bolalarni sifatli ta’lim bilan ta’minlashni maqsad qilib oldi.

Bundan tashqari Malayziyaning kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishidagi ilg‘or tajribasini ham o‘rganish mumkin. Malayziyada kambag‘allikning rasmiy darajasi 1970-yildagi 49 foizdan 2019-yilda 8,4 foizga tushdi.

Malayziyadagi ijtimoiy siyosatning boshqa mamlakatlardan ajratib turadigan ikki xususiyati:

- siyosatning uzoq va doimiy barqarorlik davrdagi qulay sharoitlar tufayli tartibli va bosqichma – bosqich rivojlanishi;
- barcha Malayziyaliklarning farovonligini oshirishga intilayotgan kuchli hukumat va jamoat sektorining doimiy faolligi.

Kambag‘allikni qisqartirish dasturlarini amalga oshirish bosqichlari quyidagilar

Yangi iqtisodiy siyosat (YAIS 1971–1990):

1. Irqiy tafovutni kamaytirish, kambag‘allikni tugatish, barcha malayziyaliklar uchun daromadlarni ko‘paytirish va ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirish;
2. Iqtisodiy nomutanosiblikni tuzatish uchun jamiyatni qayta qurish.

Milliy rivojlanish siyosati (1991–2000):

1. O‘ta kambag‘allikni yo‘q qilish va kambag‘al aholining faol tijorat va sanoat hamjamiyatining zamonaviy sohalaridagi ishtirokini kengaytirish;
2. Xususiy sektorga tayanish hamda inson resurslari salohiyatini oshirish.

Finlandiyaning kambag‘allikka qarshi kurashidagi ikkinchi muhim omil, bu gender tengligiga ko‘maklashuvchi oilaviy siyosat va mehnat siyosatidir. Ota-onalar uchun imtiyozlar va ayniqsa, davlat maktabgacha ta’lim muassasalarining rivojlanishi, mehnat faoliyatiga ayollarning qatnashishiga ko‘maklashishni ta’minladi. Onalarda ham to‘liq ish kuni davomida mehnat qilish imkoniyatining paydo bo‘lishi, Finlandiyaning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib qoldi. Kam ta’minlangan va bolalari bor oilalar ham, oilada bitta boquvchi o‘rniga ikkitasi paydo bo‘lganda kambag‘allikdan qutulishga muvaffaq bo‘ldilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, kambag‘allikni kamaytirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish o‘rinlidir:

- aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarini yanada kengaytirish;
- aholini kichik biznes va tadbirkorlikka keng jalb qilish, erkin raqobat muhitini yaratish, xususiy mulkchilikni himoya qilish;
- bank tizimidagi islohotlarni jadallashtirish, xususan, imtiyozli kreditlar salmog‘ini oshirish;
- sanoat tarmoqlarida kooperatsiyani rivojlantirish va tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish yaxlit zanjirini yaratish;
- eksport salohiyatini oshirish, eksportyor korxonalarga ko‘maklashish faoliyatini jadallashtirish va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, belgilangan ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha kompleks choratadbirlarni sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirilishi natijasida, jahon iqtisodiyotida global inqirozning tobora chuqurlashib borishi sharoitida milliy iqtisodiyotimizni joriy yil yakunlari bo‘yicha barqaror o‘sishini ta’minlanishiga va keyingi yillarda ham iqtisodiy o‘sish sur’atlarini yanada jadallashib borishiga zamin yaratiladi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimizda kambag‘allikni kamaytirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni ham qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nematova D. O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning "UMPR" modeli //Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi. – 2024. – T. 1. – №. 1.
2. Sen A.K. Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation. Oxford: Clarendon Press. 1981.
3. Смит А. Теория нравственных чувств[Текст]. –М.: Республика, -1997. -С. 147.
4. Маркс К. Капитал. Т. 1. [Текст] // МарксК., Энгельс Ф. Соч. 2-е изд., Т. 23. –С. 770, 771-773.
5. Fan S., Cho E. E. Y. Paths out of poverty: International experience //Journal of Integrative Agriculture. – 2021. – T. 20. – №. 4. – С. 857-867.
6. Moisio P., Lehtelä K. M., Mukkila S. Poverty reduction effects of taxation and benefit policies in Finland, 1993–2013 // European Journal of Social Security. – 2016. – T. 18. – №. 1. – С. 30-45.
7. Lee J. S., Choi J. K. The effects of income transfers on poverty reduction in people with disabilities in South Korea // Asian Social Work and Policy Review. – 2018. – T. 12. – №. 1. – С. 29-37.
8. Asadullah M. N., Joseph J., Chin J. The Political Economy of Poverty Reduction in Malaysia //Progress in Development Studies. – 2023. – T. 23. – №. 2. – С. 127-151.
9. www.worldbank.org.
10. https://cyberleninka.ru/article/n/zhanubiy-koreyada-i-tisodiy-sishning-asosiy-omillari
11. X.Asadov. O'zbekistonda kambag'allik va uni qisqartirish yo'llari. Yangi O'zbekiston gazetasi 110-son, 2020-yil 18-iyun.
12. Ilkka Taypale tahriri ostida. Finlyandiyaning 100 ta ijtimoiy innovatsiyasi (to'plam). Xeykki Xiilamo, Xelsinki universitetining ijtimoiy siyosat professori. Kambag'allik bilan kurash. "Sharq" nashriyot-matbaa AK bosh tahririyati. Toshkent, 2019-yil.
13. Adashalievich, B. M. (2019). Socioeconomic importance of sustainable farming development. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 9(7), 76-82
14. https://review.uz/oz/post/ – Р.Р. Хасанов.Ўзбекистонда камбағаллик ва уни қисқартириш йўллари.
15. https://wfin.kz/novosti/ekonomika/item/30202
16. https://www.kommersant.ru/doc/4349503

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA ICHKI AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH



Shaymatova Nargiza Ashurovna
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va ichki auditning zarurligi asoslangan. Oliy ta’lim muassasalari faoliyatining o‘ziga xos jihatlari asosida buxgalteriya hisobi va ichki auditning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Oliy ta’lim muassasalarida rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini maqsadli sarflash bilan bog‘liq takliflar shakllantirilgan. Fanlardan akadem qarzdorlik bo‘yicha undiriladigan to‘lovlar va ushbu mablag‘lar bilan bog‘liq xarajatlarning hisobini yuritish yuzasidan amaliy tavsiyalar shakllantirilgan. Oliy ta’lim muassasalarida mablag‘lardan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq holda samarali foydalanish holatini alohida audit tadbiri sifatida o‘rganish zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: audit, ichki audib, buxgalteriya hisobi, oliy ta’lim muassasasi, moliyalashtirish, hisobot.

Abstract: This article discusses the need for accounting and internal audit in higher education institutions. The theoretical and methodological foundations of accounting and internal audit are studied taking into account the specifics of the activities of higher educational institutions. Proposals have been formulated for the targeted expenditure of funds from the university development fund. Practical recommendations for collecting funds from academic debt and accounting for expenses on these funds are formulated. It is based on the need to study the state of the effective use of funds in higher educational institutions as a separate audit activity in accordance with regulatory legal documents.

Key words: audit, internal audit, accounting, university, financing, reporting.

Аннотация: В данной статье речь идет о необходимости бухгалтерского учета и внутреннего аудита в высших учебных заведениях. Теоретико-методологические основы бухгалтерского учета и внутреннего аудита исследованы с учетом специфики деятельности высших учебных заведений. Сформулированы предложения по целевому расходованию средств фонда развития вузов. Сформулированы практические рекомендации по сбору средств из академической задолженности и учету расходов по этим средствам. В его основе лежит необходимость изучения состояния эффективного использования денежных средств в высших учебных заведениях как отдельной аудиторской деятельности в соответствии с нормативными правовыми документами.

Ключевые слова: аудит, внутренний аудит, бухгалтерский учет, вуз, финансирование, отчетность.

KIRISH

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mamlakatning zamonaviy dunyo sivilizatsiyasiga va ijtimoiy taraqqiyotga aloqadorligi fan va texnikaning rivojlanish darajasi, ta’lim sifati, fuqarolarning jismoniy va ma’naviy salomatligi ko‘rsatkichlari, resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni boshqarish kabi omillar bilan belgilanadi. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda davlat xarajatlarining o‘rtacha 13 foizi ta’limga sarflanadi va hukumatlar ushbu pulni samarali sarflashdan manfaatdordir. Bugungi kunda ilm fanni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar hajmi dunyo bo‘yicha 19 foizga o‘sgan. Lekin, dunyoning turli mamlakatlarida ushbu yo‘nalishda notenglik mavjud bo‘lib, ilm-fanga yo‘naltirilgan mablag‘larning katta qismi Amerika qo‘shma shtatlari va Xitoy davlatining hissasiga to‘g‘ri keladi [4].

Jaxonda oliy ta’lim muassassalarini moliyalashtirishning turli shakllari ularda o‘qitish xarajatlarni to‘liq davlat tomonidan qoplanishi, oliy ta’lim muassasalarida tadbirkorlik faoliyati asosida daromadlar hajmini oshirish, ta’lim xizmatlari samaradorlik ko‘rsatkichlari va ularni oshirish masalalari keng tadqiq etilgan. Mazkur yo‘nalishda O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ta’limning barcha bosqichlarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash bo‘yicha quyidagi qator vazifalar belgilangan, jumladan, “oliy ta’lim muassasalarini bosqich-ma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, mehnatga haq

to‘lash tizimini takomillashtirish, moliyalashtirishning samarali va shaffof mexanizmlarini joriy etish, oliy ta’lim muassasalarining reytingi va o‘z xarajatlarini qoplash darajasidan kelib chiqib bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari (magistratura mutaxassisliklari) bo‘yicha to‘lov-kontrakt miqdorlarini mustaqil belgilash tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish” [1] kabi vazifalar belgilandi.

Dunyo amaliyotida oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish aralash tarzda ham davlat budjetidan, ham budjetdan tashqari manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Oliy ta’lim muassasalarida mablag‘larning maqsadli va manzilli sarflanishi bevosita ularning hisobini samarali tashkil etish hamda moliyaviy hisobotlar ko‘rsatkichlarining shaffofligi bilan bog‘liq. Shu sababdan ham, jahonning aksariyat mamlakatlari oliy ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobini davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talablari asosida rivojlantirilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va ichki auditning nazariy, uslubiy asoslarini tadqiq etish hamda uni takomillashtirish yuzasidan qator xorijlik olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Xususan, V. V.Bashkatov, N.P.Kondrakov, T.S. Maslova, V.Yu.Pokusayev, T.A.Poleshukni kiritish mumkin [5, 6, 7, 8].

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan A.K.Ibragimov, K.Sh.Ibragimov, S.U.Mehmonov, M.Ostanaqulov, A.A.Ostonokulov, B.B.Sugirbayev, B.K.Hamdamov, Z.U.Xamidovalarning asarlarida budjet tashkilotlarida budjet hisobi, budjet hisoboti, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va auditi, oliy ta’lim muassaalarida buxgalteriya hisobi va ichki audit, budjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat, budjet nazoratining nazariy masalalari hamda ularni rivojlantirish yo‘nalishlari o‘rganilgan [9, 10, 11, 12, 13, 14].

Ta’kidlash zarurki, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida aynan, oliy ta’lim buxgalteriya hisobi va ichki auditning nazariy va amaliy muammolarini o‘rganishga keng e’tibor qaratilmagan hamda oliy ta’lim tizimini isloh qilish bilan bog‘liq me’yoriy hujjatlarning o‘zgarib borishi mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zarurligini keltirib chiqaradi.

TADQIQOT USULLARI

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, kuzatish, umumlashtirish, gruhlash, tizimli yondashuv, me’yoriy usullar, iqtisodiy tahlil, taqqoslash, monografik tadqiqot, sotsiologik kuzatishlar va ularning natijalarini tahlil qilish, prognozlash va boshqa usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobi obyektlari tarkibida moliyaviy aktivlar eng likvidliligi yuqori va katta ulushni tashkil qilmoqda. Shuningdek, ushbu aktivlar boshqa aktivlar va mablag‘larning manbalari bilan uzviy bog‘liq sanaladi. Moliyaviy aktivlar tarkibida to‘lov-kontrakt mablag‘lari yuqori ulushni egallaydi. So‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida kredit modul tizimining joriy etilishi natijasida ushbu mablag‘ bilan bog‘liq yangi hisob obyektlari va hisoblashuvlar muomalalarini keltirib chiqarmoqda.




1-rasm: Oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish[1]

Oliy ta’lim muassasalarida rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini moliyalashtirish manbalari tarkibida alohida ahamiyat kasb etib, moddiy texnik bazani mustahkamlash va xodimlarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha moliyalashtirishga xizmat qiladi. Ammo, amaliyotda ayrim o‘rinlarda biror bir maqsad uchun sarflash nazarda tutilgan rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobot yili davomida sarflanmasdan kelgusi yilda boshqa maqsadlarga yo‘naltirilishi holatlari kuzatilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarining moliya yili davomida foydalanilmay qolgan rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini qayta taqsimlamasdan keyingi moliya yiliga oldin belgilangan maqsadlarda foydalanish uchun o‘tkazish zarur. Bu orqali, moliya yili davomida oliy ta’lim muassasalarining rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘laridan maqsadli foydalanish ta’minlanadi.

1 Muallif tomonidan shakllantirilgan.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning sifatli bilim olishlarini ta’minlash choralaridan biri o‘zlashtirilmagan fanlar uchun kredit to‘lovlarini amalga oshirishdir. Aksariyat oliy ta’lim muassasalarida o‘zlashtirilmagan kreditlar, ular bog‘liq to‘lovlarni amalga oshirish va ushbu mablag‘larni maqsadli yo‘naltirishda kamchiliklar kuzatilmoqda. Xususan, oliy ta’lim muassasalarida mazkur yo‘nalishdan tushadigan mablag‘lar umumlashtirilgan holda to‘lov-kontrakt mablag‘lari yoki rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari tarkibida aks ettirib kelinmoqda. Bu esa, oliy ta’lim muassasalarining ko‘rsatkichlarini o‘zaro taqqoslash, mavjud ko‘rsatkichlarni tahlil qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.



2-rasm: OTMda fanlardan akadem qarzdorlik bo‘yicha talabalardan undiriladigan tushumlar va ularning sarflanishi[2]

Talabalarning tegishli fanlardan o‘zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to‘lov-kontrakt miqdoridan kelib chiqqan holda amalga oshiradigan to‘lovlarni 520200 (252) – “Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt mablag‘lari bo‘yicha hisoblangan daromadlar” schoti tarkibida 520210 (252/1) – “Fanlardan akademik qarzdorlik doirasida talabalar bilan hisob-kitoblar bo‘yicha daromad” ishchi schotida hisobga olish zarur. Mazkur ishchi schotni buxgalteriya o‘tkazmalarida aks ettirilishi keltirib o‘tamiz (1-jadval).

1-jadval: Tegishli fanlardan o‘zlashtirilmagan kredit uchun to‘lovlarning hisobga olinishi[3]

Muomala mazmuni	2169-son yo‘riqnoma [2]		2-son BHS [3]	
	Dt	Kt	Dt	Kt
Tegishli fanlardan o‘zlashtirilmagan kredit uchun to‘lovning hisoblanishi	175/1	252/1	153610	520200
To‘lovning hisob raqamga kelib tushishi	111/1	175/1	102409	153610

Buning natijasida fanlardan akademik qarzdorlik bo‘yicha talabalar tomonidan to‘lanadigan mablag‘lar doirasida daromadlarni alohida hisobga olish, analitik hisob ishlarini yuritish va tahliliy axborotlarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida fanlardan akademik qarzdorligi bo‘lgan talabalarni o‘qitish bilan bog‘liq xarajatlarni 730000 (251) – “Ta’lim muassasalarida o‘qitishning to‘lov-kontrakt shaklidan tushgan tushumlar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” schoti tarkibida 730 100 (251/1) – “Fanlardan akademik qarzdorlik bo‘yicha tushgan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar” ishchi schotida hisobga olish maqsadga muvofiq. Ushbu ishchi schotni buxgalteriya o‘tkazmalarida aks ettirilishi keltirib o‘tamiz (2-jadval).

2-jadval: Fanlardan o‘zlashtirilmagan kredit uchun tushgan mablag‘lar bilan bog‘liq xarajatlarning hisobga olinishi[4]

Muomala mazmuni	2169-son yo‘riqnoma [2]		2-son BHS [3]	
	Dt	Kt	Dt	Kt
O‘zlashtirilmagan kredit bo‘yicha fanlarni qayta o‘qitish bilan bog‘liq mehnat haqi xarajatining hisoblanishi	251/1	173/1 161/1	730100	343310 342210
Vujudga kelgan majburiyatlarning to‘lanishi	173/1 161/1	111/1	343310 342210	102409

2 Muallif tomonidan shakllantirilgan.
3 Normativ-huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.
4 Normativ-huquqiy hujjatlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Bu orqali fanlardan akademik qarzdorligi bo‘lgan talabalarni o‘qitish bilan bog‘liq hisoblangan xarajatlarni alohida qayd etib borish, tahliliy buxgalteriya axborotlarini shakllantirish, pul mablag‘lari sarfiga oid prognoz ko‘rsatkichlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalari mehnat faoliyatini amalga oshirish va ular bilan bog‘liq hisob-kitoblarni ta’minlashda murakkab obyektlardan sanaladi. Oliy ta’lim muassasalarida mehnat faoliyatini amalga oshirishda pedagog xodimlar, rahbar xodimlar va ishchi-xodimlar bilan uzviy hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Ushbu hisob-kitoblar jarayonida xodimlarga har oylik avans to‘lovlarini amalga oshirish va hujjatlashtirish bilan bog‘liq xato-kamchiliklar kuzatilmoqda. Jumladan, xodimlarning qo‘nimsizligi mavjud sharoitda ishlamagan yoki ishdan bo‘shab ketgan xodimlarga avans to‘lovlarini qilish orqali mablag‘larning asossiz chiqib ketishi kuzatilmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida pedagoglar va ishchi-xodimlarga har oylik avansni taqdim etilgan tabellar asosida berib borish zarur. Bunda, hisobot oyi davomida ishlagan xodimlargagina avans to‘lovlari ta’minladi. Buning natijasida hisobot oyida haqiqatda ishlamagan pedagoglar va ishchi-xodimlarga ortiqcha avans berishning oldini olishga erishiladi.

Oliy ta’lim muassasalari birinchidan ta’lim tashkiloti hisoblansa, ikkinchidan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish markazi sifatida ham namoyon bo‘lib bormoqda. So‘nggi yillarda aksariyat oliy ta’lim muassasalarida tajrib-konstruktorlik va tijorat ishlanmalari amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur ishlanmalarni amalga oshirish bilan bog‘liq sarflar bevosita oliy ta’lim muassasasining moliyaviy holatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va boshqa innovatsion ishlanmalar natijasida olingan patentlarni ularga oid bevosita xarajatlar asosida tannarx qiymatida nomoddiy aktivlar tarkibida hisobga olish maqsadga muvofiq. Tadqiqotchilarining ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va boshqa innovatsion ishlanmalar bo‘yicha xarajatlarini umumlashtirish orqali, olingan patentlarning qiymatini aniq ifodalash va nomoddiy aktiv sifatida hisobda aks ettirish, ularning hisobini yuritish hamda ularga oid buxgalteriya axborotlarini shakllantiradi.

Oliy ta’lim muassasalarining moliyalashtirish manbalari va ular bilan bog‘liq xarajatlarning turlicha ekanligi ushbu muassasada boshqa budjet tashkilotlaridan farqli ravishda har bir moliyalashtirishning yo‘nalishlari va mablag‘larni tartibga soluvchi normativlar belgilanadi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida belgilangan tartiblar asosida mablag‘lardan maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlash talab etiladi. Ushbu ishlarni amalga oshirish bevosida oliy ta’lim muassasalari ichki auditi oldiga qator vazifalarni belgilab beradi. Ya’ni, nafaqat, mablag‘larning qonunchilik hujjatlari asosida shakllanishi va samarali sarflanishi alohida audit tadbirlarini amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida budjetdan tashqari mablag‘larga oid daromadlarning to‘liqligini ta’minlash, xarajatlarni amalga oshirishda normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilinganligi va ularning smetalarga muvofiqligi hamda mablag‘lardan foydalanishning tejamkorligi, belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarning bajarilishi, budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan amalga oshirilayotgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini baholashga qaratilgan ichki auditni o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Oliy ta’lim muassasalarining faoliyat yo‘nalishi va moliyaviy-xo‘jalik faoliyati o‘quv jarayoni, o‘quv-uslubiy ishlarni shakllantirish, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish, tashkiliy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish kabi alohida xususiyatli jihatlari bilan boshqa budjet tashkilotlaridan ajralib turadi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida hisob obyektlarini moliyalashtirish manbalari bilan bog‘liqlikda alohida hisobga olinishi ichki auditni tashkil etish va o‘tkazishda alohida yonlashuvlarni talab qiladi. Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida budjetdan tashqari mablag‘larning yuqori bo‘lishiga qaramasdan audit tadbirlari umumlashtirilgan holda amalga oshirib kelinmoqda.

Muassasalarda budjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha hisobot davridagi daromadlarning to‘liqligini o‘rganish, mablag‘larning normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar doirasida sarflanishi holatini tahlil qilish, maqsadli ko‘rsatkichlarning bajarilishi, mablag‘larning maqsadli va samarali sarflanishi holatini baholash, kelgusi moliya yili uchun tuziladigan biznes reja va smetalarni shakllantirish yuzasidan samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiladi.

XULOSA

Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini amalga oshirish qator alohida xususiyatlarni o‘zida jamlaydi. Xususan, o‘qitish faoliyatining o‘quv yili bilan bog‘liqligi asosida talabalar kontengenti asosida xodimlarning tarkibi shakllantirilishi, pedagog xodimlarning tarkibi va ular bajaradigan ish faoliyati, o‘quv yili uchun undiriladigan to‘lov-kontrakt miqdori va biznes reja, maqsadli rejalar belgilanadi. Ammo, moliyalashtirish, moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini bilan bog‘liq smetalarni tuzish, buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish, ichki audit tadbirlari rejasi va uni amalga oshirish bevosita moliya yili bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu jihatlar oliy ta’lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va ichki audit borasida murakkabliklar va alohida yondashuvlarni keltirib chiqarmoqda.

Bizningcha, yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va ichki auditni takomillashtirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

Moliya yili davomida foydalanilmay qolgan rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini qayta taqsimlamasdan keyingi moliya yiliga oldin belgilangan maqsadlarda foydalanish uchun o'tkazish;

Talabalarning tegishli fanlardan o'zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to'lov-kontrakt miqdoridan kelib chiqqan holda amalga oshiradigan to'lovlar hamda fanlardan akademik qarzdorligi bo'lgan talabalarni o'qitish bilan bog'liq xarajatlarni alohida buxgalteriya schotlarida hisobga olish;

Ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va boshqa innovatsion ishlanmalar natijasida olingan patentlarni ularga oid bevosita xarajatlar asosida tannarx qiymatida nomoddiy aktivlar tarkibida hisobga olish;

Budjetdan tashqari mablag'larga oid daromadlarning to'liqligini ta'minlash, xarajatlarni amalga oshirishda normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilinganligi va ularning smetalarga muvofiqligi hamda amalga oshirilayotgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini baholashga qaratilgan ichki auditni o'tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847 son.
2. "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yo'riqnoma (2010-yil 22-dekabr, 2169-son)
3. O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti "Yagona schotlar rejasi" 2-son (2018-yil 20-oktyabr, 3078-son)
4. International Monetary Fund (IMF). 2020. Fiscal Monitor: Policies to Support People During the COVID-19 Pandemic. Washington, April. https://www.imf.org/en/Publications/FM/Issues/2020/04/06/fiscal-monitor-april-2020
5. Башкатов В. В., Покусаев В. Ю. Особенности бухгалтерского учета в бюджетных учреждениях. Журнал "Современная наука: актуальные проблемы и пути их решения". Выпуск № 13 / 2014. 320 с.
6. Кондраков Н.П. и. дрг. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях. – М.: Проспект, 2006.
7. Митина О.В. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях. Учебное пособие. 2020 г. 138 стр.
8. Полещук Т.А., Маслова Т.С. Контроль и ревизия в бюджетных учреждениях. Учебное пособие. –М.: "ИНФРА-М", 2017. 227 с.
9. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. "Byudjet nazorati va auditi" O'quv qo'llanma / T.: "infoCOM.UZ". 2009. 192 b.
10. Ibragimov K.Sh. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni takomillashtirish (Oliy ta'lim muassasalari misolida). iqt. fan. fal. dok. dis. avtoreferati. –T.: 2018. – 54 b.
11. Mehmonov S.U. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya va amaliyot. Monografiya. – T.: "Iqtisod moliya"., 2016.
12. Ostonaqulov M. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2008. 480 b. 237-bet
13. Hamdamov, B. K., & Ostonokulov, A. A. (2018). Byudjet nazorati. O'quv qo'llanma. T.:"Iqtisod–Moliya",–318 b.
14. Xamidova Z.U. Budjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari faoliyatini samarali tashkil qilish masalalari. Monografiya. – T.: "VNESHINVESTPROM" 2021. 183 b.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG‘URTA XIZMATLARI

Shodmonova Odina G‘ofur qizi
Guliston Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqisodiyot sharoitida sug‘urta xizmatlarini tashkil etish borasidagi nazariy qarashlar evolyutsiyasi va sug‘urta xizmatlarini rivojlanishi va turlari, sug‘urta tashkilotlarining kapitallashuv darajasini oshirish va sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishda raqamlashtirishning o‘rni, sug‘urtalash uchun muhim bo‘lgan moliyaviy resurslarni shakllantirishni rivojlantirish borasidagi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta xizmatlari, raqamlashtirish, hayot sug‘urtasi, sug‘urta fondi, sug‘urtalovchi, sug‘urtalanuvchi, hamkorlik, shartnoma, risk, zarar,axborot texnologiyalar.

Abstract: This article analyzes the evolution of theoretical views on the organization of insurance services in the digital economy, the development and types of insurance services, the role of digitalization in the provision of insurance services, increasing the level of capitalization of insurance organizations, and the socio-economic conditions for the development of the formation of financial resources for insurance.

Key words: insurance services, digitization, life insurance, insurance fund, insurer, insured, cooperation, contract, risk, damage, information technology.

Аннотация: В данной статье анализирована эволюция теоретических взглядов на организацию страховых услуг в условиях цифровой экономики, развитие и виды страховых услуг, роль цифровизации в оказании страховых услуг, повышение уровня капитализации страховых организаций, и социально-экономические условия развития формирования финансовых ресурсов, для страхования.

Ключевые слова: страховые услуги, цифровизация, страхование жизни, страховой фонд, страховщик, страхователь, сотрудничество, договор, риск, ущерб, информационные технологии.

KIRISH

Jahonda iqtisodiyotning globallashuvi, iqtisodiyotni raqamlashtirish barqarorligini ta’minlashda sug‘urta xizmatlari investitsiyalar manbasi sifatida roli ortib bormoqda. Xalqaro moliya bozorlarda sug‘urta xizmatlari, bank va fond kapitallarining birlashishi va globallashish jarayonlari raqamlashtirishda yaqqolroq namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur jarayon sug‘urtalovchilarning kapitallashuv darajasini oshirish va sug‘urtalanuvchilar risklarini minimallashtirish zaruratidan kelib chiqib, tabiiy ofat va iqtisodiy-moliyaviy zararlarni sug‘urtalash uchun muhim bo‘lgan moliyaviy resurslarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi texnika-texnologiyalarni qo‘llanilishi o‘z navbatida yangi risklarning paydo bo‘lishiga va sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabning ortishiga sabab bo‘ldi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyotda sug‘urta xizmatlaridan foydalanishning ilmiy asoslari, uning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar hamda amaliyotchilari tomonidan yaratilgan va ishlab chiqilgan. Sug‘urta xizmatlarini rivojlanishi va hamkorlikning tashkiliy tamoyillarini shakllantirish olimlar va amaliyotchilar L.A.Orlanyuk-Malitskaya, V.F.Narkayev, A.K.Shixov, N.V.Kirillova, Ya.Ye.Telepin, V.V.Shaxov va boshqalar tomonidan

tadqiq etilgan. Jumladan, V.V.Shixov fikriga ko‘ra, iqtisodiy kategoriya sifatida sug‘urta xizmatlari, pul mablag‘larining maqsadli fondlarini tarkib toptirish shakllari va usullarini hamda turli kutilmagan favqulodda hodisalar (xavflar) natijasida ko‘rilgan zararlarni qoplash, shuningdek, fuqarolar hayotida ma’lum voqealar ro‘y berganida ularga yordam ko‘rsatish uchun yuqorida zikr etilgan fondlardan foydalanishni o‘z ichiga oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimidir [1].

Yefimov S.L. Sug‘urtalovchi tomonidan taklif etilayotgan “xizmat” o‘zida dastlab moddiylikni aks ettirmaydi, ya’ni u o‘z mijoziga faqat “va’dani sotadi”, sug‘urtalanuvchiga shartnoma tuzilganligini tasdiqlovchi dalil-hujjat sifatida “polis” beriladi xolos [2].

V.K.Rayxer fikricha, sug‘urta markazlashtirilgan manbalar – ishtirokchilarning badallari hisobiga sug‘urta fondi tashkil etish shakli demakdir. D.Bland sug‘urtani tavsiflashda “Sug‘urtalovchi moddiy ahvolni himoya qiladi, uning egasiga zararlarni qoplash uchun resurslar beradi yoki ruhi va tanasi yo sog‘liqni tiklash, yo uni nogiron sifatida qulay sharoitda saqlash uchun muayyan xarajatlarni taqozo etuvchi shaxsni qo‘llab-quvvatlaydi” degan nazariyani ilgari suradi [3].

O‘zbekistonda ham sug‘urta bozorining dolzarb masalalari hamda xalqaro sug‘urta bozorida amalga oshiriladigan sug‘urta xizmatlari bo‘yicha muayyan tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, sug‘urta mahsulotiga X.M.Shennayev sug‘urta mahsuloti sug‘urtalanuvchilarga sug‘urta shartnomasi tuzish orqali taqdim etiladigan asosiy va yordamchi xizmatlar yig‘indisidir deb ta’rif bergan [4]. R.T.Yuldashev sug‘urta mahsulotini sug‘urta kompaniyalarining amaliy faoliyati orqali ko‘rib chiqiladi, uni hujjatlar to‘plami shaklida ifodalangan sug‘urtalashning muayyan turini ishlab chiqishning yakuniy natijasi sifatida tadqiq qiladi [5].

Aksariyat ishlarda sug‘urta jarayoni muammolarini tadqiq etish sug‘urtaning umumiy nazariyasi, unda sug‘urta xizmatlarini rivojlantirishning o‘rnini belgilash jihatdan o‘tkazilgan. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha chop etilgan ilmiy ishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularda sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta’minlash nuqtayi nazaridan raqamli iqtisodiyot sharoitida sug‘urta xizmatlarini rivojlantirish tahliliga yetarlicha o‘rin ajratilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy izlanishlarimizda, raqamli iqtisodiyot sharoitida sug‘urta xizmatlarini rivojlantirish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatuvchi nazariyalar va omillar tahlil qilingan. Ilmiy tadqiqotning uslubiy asosi bo‘lib siyosiy-iqtisodiy, tabiiy hodisa va iqtisodiy jarayonlarning sug‘urta xizmatlarining rivojalanishiga ta’siri va uni rivojlantirish borasidagi xalqaro tajribalar, O‘zbekiston Respublikasining me’yoriy-huquqiy hujjatlari va ilmiy tadqiqotlarni yechimini topish imkonini beruvchi tahliliy yondashuv hisoblanadi. Ushbu ilmiy izlanishlarda mantiqiy, tizimli va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor munosabatlari shakllanishi va rivojlanishi, iqtisodiy subyektlarning iqtisodiy mustaqilligi, erkinligi darajasi ortib borayotgan jarayonda doimo risklar mavjud bo‘lishi kuzatiladi. Ular manfaatlariga zarar keltirishi mumkin bo‘lgan va doimiy takrorlanib turadigan risklarni qayta taqsimlash, ya’ni o‘ziga xos bo‘lgan maxsus xizmat bilan sug‘urta shug‘ullanadi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish va globallashish sharoitida sug‘urta xizmatlarini rivojlantirish istiqbollarini tadqiq etish muhim hisoblanadi.

Sug‘urta xizmatlari sug‘urta bozori subyektlari bo‘lgan sug‘urta kompaniyalari va tijorat tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladi. Sug‘urta bozorida turli risklar va xavf-xatar bilan bog‘liq bo‘lgan va takrorlanib turadigan jarayonlarni sug‘urtalash, mol-mulkni, hayotni, sog‘liqni va boshqalarni sug‘urta qilish faoliyatini o‘z ichiga oladi.

2002-yil 5-aprelda qabul qilingan “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida” gi qonunga asosan, sug‘urta quydagi ikki tarmoqqa ajratilgan:

- hayot sug‘urtasi;
- umumiy sug‘urta.

Hayot sug‘urtasi – sug‘urtaning uzoq mudatliligi va qoplanadigan qaltisliklar tufayli o‘ziga xos sug‘urta turi hisoblandi. Hayot sug‘urtasi xizmatlarini rivojlantirishda davlatning o‘rni katta ahamiyat kasb etadi, davlat tomonidan yetakchi xorijiy tajribalar asosida kerakli iqtisodiy islohotlar amalga oshiriladi. Hayotni sug‘urtalash xizmatini amalga oshirishda sug‘urta xizmatlari, bank va investitsiya faoliyati, soliqqa tortish qoidalari hamda boshqa sohalarni tartibga soluvchi bir qator qonun hujjatlarini muvofiqlashtirish talab etiladi.

Hayot sug‘urtasi o‘z o‘rnida sug‘urta faoliyati klassifikatoriga ko‘ra 4 ta klassga taqsimlangan 1-rasm.



1-rasm: Hayot sug‘urtasi tarmoqlari[1]

Mamlakatimizda yaratilgan qulay shart sharoitlar va olib borilayotgan islohatlar natijasida umumiy sug‘urta xizmatlari salmog‘i yildan yilga ortib sifati yaxshilanib bormoqda.

1-jadval: O‘zbekiston sug‘urta bozori tarkibiy tuzilishi va o‘zgarishi [6]

№	Sug‘urta bozori tarkibi	2022.31.03	2023.31.03	O‘zgarishi
1	Sug‘urta tashkilotlari soni	42	41	-2.4 %
	Shu jumladan, hayot sug‘urtasi bo‘yicha	8	8	-
2	Sug‘urta tashkilotlarining yalpi ustav kapitali (mln.so‘m)	1620733	1957861	+20,8%
3	Sug‘urta brokeri soni	5	7	+40,0%
4	Sug‘urta aktuariy soni	5	5	-
5	Sug‘urta agentlari soni	8907	5518	-38,0%
	Shu jumladan, yuridik shaxslar	2663	1767	-33,6%
6	Kafolatlangan to‘lov fondi a’zolari bo‘lgan sug‘urta tashkilotlari soni	24	25	+4,2%

O‘zbekiston sug‘urta bozorida 2022-yil 42 ta sug‘urta tashkiloti (shundan 8 tasi – hayotni sug‘urta qilish tarmog‘ida) mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 41 ta sug‘urta tashkiloti (shundan 8 tasi – hayotni sug‘urta qilish tarmog‘ida) faoliyat olib borgan. Umumiy sug‘urta xizmatlari bo‘yicha faoliyat olib borayotgan sug‘urta tashkilotlari soni 1 taga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Lekin sug‘urta tashkilotlarining soni kamayganiga qaramay sug‘urta tashkilotlarining yalpi ustav kapitali 2022-yildagi 1620733 million so‘mdan, 2023-yilda 20,8 foizga ortib 1957861 million so‘mga yetgan. Shu davrda kafolatlangan to‘lov fondi a’zolari bo‘lgan sug‘urta tashkilotlari soni ham 4,2 foizga ortganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tahlil qilinayotgan darsda sug‘urta mukofotlari 28,9 foizga ortgan yoki 2022-yildagi 1294694 million so‘mdan, 2023-yilda 1669178 million so‘mga yetganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘zgarishda umumiy sug‘urta xizmatlari ulushi 59,1 foizga organligi alohida e’tiborga molik hisoblanadi. Shu bilan birga hayot sug‘urtasi xizmatlari ulushi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 55,9 foizga kamayganligi bu yo‘nalishda kerakli chora tadbirlarni amalga oshirish kerakligini bildiradi [6].

Mamlakatimizda sug‘urta xizmatlarini yanada rivojlantirishga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur sohaga oid qarorlari, Farmonlari jumladan, 2024-yil 1-martdagi “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, vazirlik huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi, O‘zbekiston aktuariylari jamiyati sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda.

1 Muallif tomonidan chizildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug‘urta xizmatlari bozoridagi bugungi vaziyat shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta xizmatlarini rivojlanganligini ko‘rsatuvchi sug‘urta tushumlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi hamda jon boshiga yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari ulushini oshirib borish va rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetkazish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak bo‘ladi. Jumladan, iqtisodiyotning ustuvor sohalarida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar faoliyatini uzluksizligini ta’minlashda sug‘urta xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, majburiy tibbiy sug‘urta, mol-mulklarni majburiy sug‘urtasi, qishloq xo‘jaligining majburiy sug‘urta turlarini kengaytirish va innovatsion loyihalar va innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi sug‘urta xizmatlarini joriy etish zarur hisoblanadi. Shu bilan birgalikda raqamli iqtisodiyotning asosiy sharti bo‘lgan zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish darajasi yanada oshirish evaziga sug‘urta xizmatlarini yanada rivojlantirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шахов В.В. Страхование. Учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ, 2003. – 311 с.
2. Ефимов С.Л. Энциклопедический словар. Экономика и страхование. М.: Tserix -PEL, 1996. I-X, s. 347.
3. Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993.
4. Shennayev X.M., Xalikulova G.T. Sug‘urta marketingi. O‘quv qo‘llanma – T.: Yangi nashr, 2012. – 212 b.
5. Юлдашев Р.Т. Страховой бизнес. Словарь – справочник. – М.: Анкил, 2000. – 272 с.
6. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги. Показатели страхового рынка Республики Узбекистан по итогам I квартала 2023 года. MF сайти маълумотлари.



FUQAROLAR DAVLAT PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li
PhD, "Budjet hisobi va g'aznachilik ishi" kafedrasi mudiri, prof.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, fuqarolarga pensiya olish shaklini tanlash, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini tayinlash bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish, milliy pensiya tizimini takomillashtirish, pensiya tizimidagi muammoli jihatlar va ularni bartaraf etish yo'llari, pensiya yoshini tahlili, pensiya tizimiga demografik omillarning ta'siri kabi muhim jihatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot, pensiya tizimi, milliy pensiya tizimi, pensiya miqdori, pensiya yoshi, demografik omillar, o'rtacha umr ko'rish davomiyligi, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligi.

Abstract: This article discusses such important aspects of the pension system as ensuring financial stability, choosing the form of receiving pensions for citizens, overcoming problems associated with the assignment of disability and survivor pensions, improving the national pension system, problematic aspects of the pension system and ways to overcome them, analysis of retirement age, the influence of demographic factors on the pension system.

Key words: social protection, social security, pension system, national pension system, pension size, retirement age, demographic factors, average life expectancy, financial sustainability of the pension system.

Аннотация: В данной статье рассматриваются такие важные аспекты пенсионной системы, как обеспечение финансовой устойчивости, выбор формы получения пенсии гражданам, преодоление проблем, связанных с назначением пенсий по инвалидности и по случаю потери кормильца, совершенствование национальной пенсионной системы, проблемные аспекты пенсионной системы и пути их преодоления, анализ пенсионного возраста, влияние демографических факторов на пенсионную систему.

Ключевые слова: социальная защита, социальное обеспечение, пенсионная система, национальная пенсионная система, размер пенсии, пенсионный возраст, демографические факторы, средняя продолжительность жизни, финансовая устойчивость пенсионной системы.

KIRISH

So'ngi yillarda malakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan biri, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish borasidagi davlat siyosatini yanada jadallashtirish hamda moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi islohotlarning huquqiy asosini tashkil etuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish va fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi normalarni kuchaytirish maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro amaliyot ko'rsatishicha, pensiya tizimi dunyo aholisini ijtimoiy ta'minoti sohasidagi eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, demografik omillarni hisobga olgan holda pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini tayinlash bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish, ayniqsa, bugungi sharoitda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon banki (World Bank) va Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO – International Labour Organization) ma'lumotlariga ko'ra, "Jahon miqyosida pensiya yoshiga yetgan shaxslarning 68 foizigina pensiya ta'minotidan bahramand, ammo aksariyat mamlakatlarda bunday to'lovlarning hajmi keksalarning kambag'allikdan qutilishiga imkon bermaydi"[1]. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning ma'lumotlariga ko'ra, "2035-yilga kelib, dunyo aholisining 13 foizini tashkil etadigan 1,1 milliard kishi 65 yoshdan oshadi"[2].

1 Оценка системы социальной защиты в Узбекистане. На базе основного диагностического инструмента (CODI)/ Совместный отчет МОТ, ЮНИСЕФ и Всемирного банка, 2020. – С. 4.

2 OECD (2019), Pensions at a Glance 2019: OECD and G20 Indicators, OECD Publishing, Paris, https://doi.org/10.1787/b6d3dcfc-en. – 224 p.

O‘zbekistonda pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirish va budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligini ta’minlash amaldagi pensiya ta’minoti tizimini isloh qilish zaruratini yuzaga keltirdi. so‘nggi yillarda pensiya ta’minoti tizimi ham takomillashtirish va islohotga muhtojligi davlat darajasida e’tirof etildi hamda tizimda bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi, xususan, ishlovchi pensionerlarga pensiyalarning to‘liq miqdorda to‘lanishi, pensiya miqdorini aniqlash uchun hisobga olinadigan o‘rtacha oylik ish haqi miqdorining yuqori chegarasining oshirilishi kabilar shular jumlasidandir. Biroq shuni ta’kidlash kerakki, “Milliy pensiya tizimini takomillashtirish, ijtimoiy sug‘urta tizimini isloh qilish, shuningdek, uch darajali pensiya ta’minoti tizimiga o‘tish zarurligi”[3] alohida ta’kidlab o‘tildi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ye.V.Chuprovaning “Pensionnoye obespecheniye grajdan v Rossiyskoy Federatsii” nomli o‘quv qo‘llanmasida qarilik, nogrionlik va boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha pensiya sug‘urtalari, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti, pensiyalarni tayinlash va to‘lash tartiblari ifodalangan[4].

A.Vaxabov va N.Majidovning “Jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasining O‘zbekistonda investitsiya siyosatini amalga oshirishdagi roli” nomli monografiyasida pensiya tizimi rivojlanishining nazariy asoslari, nodavlat pensiya ta’minoti – pensiya tizimining ijtimoiy-investitsion infratuzilmasi elementi sifatidagi roli, milliy pensiya tizimlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va investitsion imkoniyatlarini oshirishning xorij tajribasi kabilar tadqiq qilingan[5].

G.Kasimova va D.Sholdarovning “Pensiya ta’minoti mablag‘larini boshqarish” nomli monografiyasida aholini ijtimoiy himoyalash tizimida pensiya ta’minotining o‘rni va ahamiyati, pensiya ta’minotida moliyaviy resurslarning xavfsizligi va risklar, pensiya ta’minoti mablag‘larini investitsiyalashda risklarni boshqarish hamda pensiya ta’minoti mablag‘larini samarali boshqarish masalalari yoritib berilgan[6].

B.Mamatovning “Pensiya jamg‘armasi faoliyati” nomli o‘quv qo‘llanmasida budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi faliyatining nazariy-huquqiy asoslari, pensiya jamg‘armasi budjeti, daromadlari va xarajatlari, pensiya jamg‘armasi faoliyati nazorati va tizimning axborot ta’minoti kabi masalalari o‘rin olgan[7].

D.Rustamovning “O‘zbekistonda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalalari” nomli monografiyasida O‘zbekistonda Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligini ta’minlashning ilmiy-nazariy asoslari, pensiya jamg‘armasi daromadlari va xarajatlari, pensiya tizimi holati va rivojlanish tendensiyalari hamda pensiya jamg‘armasi moliyaviy barqarorligini ta’minlash istiqbollari tadqiq etilgan bo‘lib, ular yuzasidan muhim ilmiy xulosalar shakllantirilgan va taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan[8].

TAHLIL VA NATIJALAR

Pensiya ta’minotidagi mavjud muammolar keng qamrovli bo‘lib, ular ham ijtimoiy, ham iqtisodiy, ham moliyaviy ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy ahamiyat shundaki, pensiya to‘lovlari aholining ijtimoiy ta’minotga muhtoj a’zolariga berilishi nuqtayi nazaridan ular to‘lovlarining cheklanishi yoki kechiktirilishi jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta’sir qiladi, iqtisodiy ahamiyati shundaki, pensiya ta’minotining aksariyat daromadlari badallar va majburiy to‘lovlar hisobiga shakllantiriladi, ularning oshirilishi esa ishlab chiqarish uchun yo‘naltiriladigan resurslarni qisqartiradi, moliyaviy jihatdan esa pensiya ta’minoti mablag‘lari keng ko‘lamda investitsion faoliyatda foydalaniladi. Pensiya tizimi demografiya bilan uzviy bog‘liqligi sababli ko‘p hollarda muammolar uzoq davr mobaynida yetilib keladi, shuning uchun ham ularni hal etish ham uzoq davrni talab qiladi.

Pensiya ta’minoti muammolarini tadqiq qilish uchun tizim faoliyatiga oid bir qator masalalarni o‘rtaga tashlash maqsadga muvofiq nazarimizda: “jamiyatning barcha a’zolari pensiya olish huquqiga egami”, “pensiya miqdori normal turmush kechirish uchun yetarlimi?”, “pensiya ta’minoti tizimining moliyaviy holati barqarormi?” va hokazolar.

Pensiya ta’minoti tizimi muammolari jahonda uzoq davr mobaynida tadqiq qilib kelingan. Tadqiqotchilar milliy pensiya tizimlaridagi muammolarni mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, demografik va moliyaviy holat bilan bog‘lagan holda tadqiq qilishadi.

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilning 21-noyabr kuni aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidan. https://uza.uz/oz/posts/aholini-ijtimoiy-muhofaza-qilish-sohasida-yangi-tizim-joriy--21-11-2019.

4 Чупрова Е.В. Пенсионное обеспечение граждан в Российской Федерации. Учебное пособие. – М.: “Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации”, 2017. – 144 с.

5 Vaxabov A., Majidov N. Jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasining O‘zbekistonda investitsiya siyosatini amalga oshirishdagi roli. Monografiya. – T.: “Universitet”, 2017. – 128 b.


6 Kasimova G., Sholdarov D. Pensiya ta’minoti mablag‘larini boshqarish. Monografiya. – T.: “TMI”, 2017. – 225 b.

7 Mamatov B. Pensiya jamg‘armasi faoliyati. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Barkamol fayz media”, 2017. – 280 b.

8 Rustamov D. O‘zbekistonda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalalari. Monografiya. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2018. – 200 b.

Pensiya tizimidagi muammoli jihatlarning aksariyati demografik vaziyat bilan bog‘liqdir. Oxirgi 6-10 yil ichida jahon aholisi tarkibida 60 yosh va undan kattalarning ulushi 8 foizdan 10 foizga ko‘tarildi, kelgusida bu o‘sish shiddat bilan davom etishi prognoz qilinmoqda.

Milliy pensiya ta’minoti tiziminining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda demografik omillarning ta’siri sezilarli darajada o‘smoqda. O‘zbekiston aholisining 2018–2025-yillari uchun demografik prognozlariga ko‘ra, pensiya yoshidagi aholining ulushi ko‘payishi kutilmoqda. 2025-yilga borib, O‘zbekistonda aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 75,5 yoshga yetadi, yoshga doir pensiyaga chiqish uchun murojaat qiluvchilarning yillik soni jami 300 ming nafarga ko‘payishi kutilmoqda, jami aholi tarkibida pensiya yoshidagilarning ulushi 11 foizdan ortadi[9].



1-rasm: Rivojlangan mamlakatlarda pensiya yoshi[10]

Rivojlangan mamlakatlarda o‘rtacha pensiya yoshi 64 yoshni tashkil etmoqda. Ayollar va erkaklar orasida pensiyaga chiqish yoshidagi tafovut o‘rtacha bir yildan kam muddatni tashkil etmoqda. O‘zbekistonda esa ayollarda 55 yosh, erkaklarda 60 yoshni tashkil etmoqda. Ma’lumotlardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, ayrim mamlakatlarda o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 81,9 yoshni tashkil etmoqda.

Pensiya tizimining moliyaviy modelini ko‘rib chiqish badal stavkalarini qayta ko‘rib chiqishni, qo‘shimcha pensiya sxemalari yoki fondlarini joriy etish imkoniyatini va ularni samarali boshqarishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Pensiya ta’minoti darajasini oshirish: Bu pensiyalar miqdorini oshirish yoki inflyatsiya yoki o‘rtacha daromadga muvofiq pensiyalarni indeksatsiya qilishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Umr ko‘rish davomiyligi oshishi bilan ko‘plab mamlakatlar tizimga moliyaviy bosimni kamaytirish uchun pensiya yoshiga o‘zgartirishlar kiritmoqda. Jismoniy shaxslarga qo‘shimcha pensiya jamg‘armalari yoki dasturlariga sarmoya kiritish imkoniyatlarini yaratish ularga pensiyada qo‘shimcha daromad manbasini ta’minlashga yordam beradi. Fuqarolarning pensiyaga oid moliyaviy savodxonligini oshirish ularga moliyaviy kelajagi haqida ko‘proq asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Fuqarolarga pensiya olish shaklini tanlash imkonini beruvchi tizimni ishlab chiqish (masalan, bosqichma-bosqich nafaqaga chiqish yoki ishni to‘liq to‘xtatish o‘rtasida tanlov qilish imkoniyati). Firibgarlik va suiste’mollikning oldini olish uchun pensiya jamg‘armasi boshqaruvi ustidan shaffoflik va samarali nazoratni ta’minlash zarur.

Demografik o‘zgarishlarga moslashish: pensiya tizimini demografik o‘zgarishlarga moslashtirish choralarini ko‘rish, masalan, tug‘ilishning pasayishi va o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi.

9 G.Kasimova. Pensiya ta’minoti xavfsizligi va ijtimoiy risklar. Mehnat bozori va ijtimoiy himoya. “IQTISOD VA MOLIYA” 2018-y.

10 The Melbourne Mercer Global Pension Index. 2023 Report Highlights. www.mercer.com.au/globalpensionindex ma’lumotlari acocida tayyorlangan.

Pensiya tizimini takomillashtirish kompleks yondashuvni va iqtisodiy barqarorlik, demografik tendensiyalar, ijtimoiy ehtiyojlar va madaniy xususiyatlar kabi ko‘plab omillarni hisobga olishni talab qiladi.

“Agarda fuqaro o‘z shaxsiy ishlari bilan uzoq vaqtga xorijga chiqib ketgan taqdirda, belgilangan pensiyani olish uchun o‘zi ishonchli deb bilgan insonga “ishonchnoma” berganidan va uni notariusdan tasdiqlatganidan so‘ng (notarius ishonchnomani 3 yilga muddat bilan tasdiqlab beradi) pensiyani to‘liq olish huquqiga ega bo‘ladi. Bunda fuqaro har 12 oyda unga pensiyani tayinlagan tuman yoki shahar Pensiya jamg‘armasiga fuqarolik pasporti bilan borib ishonchnoma orqali pensiyani davom ettirishga rozilik olishi zarur”. Qoidaga asosan agar fuqaro yuqoridagi muddat mobaynida Pensiya jamg‘armasiga murojaat qilmasa, pensiyani tayinlagan organ tomonidan pensiyani to‘lash to‘xtatilgan edi. Mazkur tartib amaliyotga joriy etilishi natijasida, 2024-yilning 1-yanvaridan boshlab yiliga 2,5 ming nafarga yaqin pensionerlarga hisoblab chiqarib qo‘yilgan, lekin ular tomonidan o‘z vaqtida talab qilib olinmagan pensiya pullarini murojaat etilganidan oldingi 24 oydan oshmagan davr uchun to‘lab berish imkoniyati yaratildi[11].

Pensiya ta’minoti darajasini oshirish keksalarning munosib turmushini ta’minlashning muhim masalasidir. Pensiya darajasini inflyatsiya yoki o‘rtacha daromadga mos ravishda muntazam ravishda yangilab turish ularning xarid qobiliyatini saqlab qolish va pensionerlarning barqaror turmush darajasini ta’minlashga yordam beradi. Eng kam pensiya miqdorini oshirish barcha pensionerlar uchun asosiy himoyani ta’minlashi va ma’lum bir kambag‘allik darajasidan pastga tushishning oldini olishi mumkin. Majburiy pensiya tizimiga ko‘proq ishchilarni kiritish yoki qo‘shimcha pensiya dasturlariga kirishni ta’minlash orqali aholining pensiya ta’minotini kengaytirish pensiya ta’minotini yaxshilashga yordam beradi.

Xodimlar, ish beruvchilar yoki hukumat tomonidan pensiya jamg‘armalariga to‘lanadigan badallarning oshishi pensiyalarni to‘lash uchun mavjud moliyaviy resurslarni oshirishi mumkin. Shaxsiy pensiya hisoblari yoki uzoq muddatli investitsiya rejalari kabi qo‘shimcha pensiya rejalarini yaratish va rag‘batlantirish jismoniy shaxslarga pensiya uchun qo‘shimcha mablag‘ to‘plashda yordam berishi mumkin. Odamlarni faol bo‘lishga undash va pensiyaga chiqishni kechiktirish odamlarga pensiya jamg‘armalarini oshirishga yordam beradi va qarilikda qo‘shimcha moliyaviy ta’minotga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlardan foydalanishni ta’minlashda arzon va sifatli tibbiy xizmat, uy-joy, transport va boshqa ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish keksa odamlarning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilashi va ularning moliyaviy xarajatlarini kamaytirishi mumkin.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi pensiya ta’minotidagi islohotlarni ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun munosib turmush sharoitini ta’minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida fikr mulohazalardan xulosa qilishimiz mumkinki, pensiya tizimini takomillashtirish haqiqatan ham kompleks yondashuvni va ko‘plab omillarni hisobga olgan holda pensiya islohotini ishlab chiqish va amalga oshirishda e’tiborga olish kerak bo‘lgan asosiy jihatlar mavjud. Jumladan:

O‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi, aholining qarishi pensiya tizimlarining moliyaviy barqarorligiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Pensiya islohotida demografik omillarni hisobga olish kerak;

Pensiya tizimlari kelajakda pensiya to‘lovlarini ta’minlash uchun moliyaviy barqaror bo‘lishi kerak. Bu pensiya xarajatlari va badallar, soliqlar va investitsiya deklaratsiyasi kabi daromad manbalari o‘rtasidagi muvozanatni talab qiladi;

Pensiya tizimlari adolatli bo‘lishi va aholining barcha toifalari, shu jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar va kam ta’minlangan odamlar uchun yetarli ijtimoiy ta’minotni ta’minlashi kerak;

Pensiya tizimlari o‘zgaruvchan sharoitlarga, jumladan, iqtisodiy, demografik va ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashuvchan bo‘lishi kerak;

Pensiya tizimlari faoliyatining shaffofligi hamda moliyaviy va investitsiya risklarini boshqarish fuqarolarning tizimga ishonchini ta’minlash va pensiya jamg‘armalarini saqlab qolishga yordam beradi;

Fuqarolarning pensiya tizimi, ularning huquqlari va imkoniyatlari to‘g‘risida ma’lumot berish va ma’lumotlarga ega bo‘lishi ularning moliyaviy savodxonligini va pensiyaga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha ongli qarorlar qabul qilish qobiliyatini ta’minlash uchun muhimdir;

Xususiy kompaniyalar va moliya institutlari bilan hamkorlik pensiya jamg‘armalarini boshqarishni takomillashtirish va fuqarolarning qo‘shimcha pensiya mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi.

Shu va boshqa omillarni hisobga olgan holda, pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirishga kompleks yondashuv yanada barqaror, adolatli va samarali pensiya tizimini yaratishga yordam beradi.

11 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” gi PF-27-son Farmoni.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Оценка системы социальной защиты в Узбекистане. На базе основного диагностического инструмента (CODI)/ Совместный отчет МОТ, ЮНИСЕФ и Всемирного банка, 2020. – С. 4.
2. OECD (2019), Pensions at a Glance 2019: OECD and G20 Indicators, OECD Publishing, Paris, https://doi.org/10.1787/b6d3dcfc-en. – 224 p.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йилнинг 21 ноябр куни аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш соҳасидаги устувор вазифалар муҳокамасига бағишланган йиғилишидан. https://uza.uz/oz/posts/aholini-ijtimoiy-muhofaza-qilish-sohasida-yangi-tizim-joriy--21-11-2019.
4. Чупрова Е.В. Пенсионное обеспечение граждан в Российской Федерации. Учебное пособие. – М.: “Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации”, 2017. – 144 с.
5. Vaxabov A., Majidov N. Jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasining O‘zbekistonda investitsiya siyosatini amalga oshirishdagi roli. Monografiya. – T.: “Universitet”, 2017. – 128 b.
6. Kasimova G., Sholdarov D. Pensiya ta’minoti mablag‘larini boshqarish. Monografiya. – T.: “TMI”, 2017. – 225 b.
7. Mamatov B. Pensiya jamg‘armasi faoliyati. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Barkamol fayz media”, 2017. – 280 b.
8. Rustamov D. O‘zbekistonda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalalari. Monografiya. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2018. – 200 b.
9. G.Kasimova. Pensiya ta’minoti xavfsizligi va ijtimoiy risklar. Mehnat bozori va ijtimoiy himoya. “IQTISOD VA MOLIYA” 2018-y.
10. The Melbourne Mercer Global Pension Index. 2023 Report Highlights. www.mercer.com.au/globalpensionindex ma’lumotlari acocida tayyorlangan.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” gi PF-27-son Farmoni.

AHOLIGA BANK XIZMATLARI KO‘RSATISHNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Eldor Uskanov
Toshkent moliya instituti-mustaqil tadqiqodchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklari tomonidan aholiga bank xizmatlarini ko‘rsatishning xorijiy va mahalliy amaliyoti amaliyoti hamda mahalliy tijorat banklarimiz tomonidan aholiga bank xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: bank, kredit, bank xizmati, masofaviy xizmat, onlayn xizmat, Bank-mijoz, Internet banking, Mobil banking.

Abstract: This article discusses issues related to the experience of banking services in foreign countries, services provided to the population by commercial banks of the republic and ways to improve them.

Key words: bank, credit, banking services, remote service, online services, Client bank, Internet banking, Mobile banking.

Аннотация: Данной статье рассматриваются вопросы, касающиеся опыта банковских услуг зарубежных стран, услуги, оказываемые населению коммерческими банками республики и пути их совершенствования.

Ключевые слова: банк, кредит, банковские услуги, дистанционное обслуживание, онлайн услуги, Банк-клиент, Интернет банкинг, Мобил банкинг.

Jahon miqyosida bank xizmatlaridan foydalanuvchi aholi bo‘yicha Jahon bankining Global Findex Database-da keltirilgan ma’lumotlariga asoslanadigan bo‘lsak, bankda hisob raqamiga ega bo‘lgan va bank xizmatlaridan foydalanayotgan katta yoshdagi aholining soni 2011-yildagi 51 foizdan 2023-yilda 80 foizga, Yevropa va Markaziy Osiyoda bu ko‘rsatkich mutanosib ravishda 13 foizdan 78 foizga o‘sganini ko‘rish mumkin. Bu ko‘rsatkich Qozog‘istonda – 81 foiz, Turkiyada – 74 foiz, Rossiyada – 90 foizni tashkil etadi. O‘zbekistonda banklarda hisob raqamiga ega bo‘lgan va bank xizmatlaridan foydalanuvchi aholi salmog‘i yuqorida keltirilgan davlatlarda orqada bo‘lib katta yoshdagi aholining 44 foizni tashkil etadi. Tojikistonda bu ko‘rsatkich 39 foizni tashkil etsa, Niderlandiya, Daniya, Avstriya, Germaniya, Shvetsiya, Islandiya, Irlandiya, Shveysariya, Fransiya, Angliya va Kanadada 97–100 foizni tashkil etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda bank xizmatlaridan foydalanuvchilar, jumladan, “Bank-mijoz”, “Internet banking”, “Mobil banking”, “Sms banking” tizimidan foydalanuvchilar soni ham ortib ormoqda. 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar soni 2 042 111 tadan ortdi. Shundan, “Internet banking” va “Bank-mijoz” dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 135 629 tani tashkil etib, ularning soni 2016-yil boshiga nisbatan 1.9 barobarga o‘sgan[1]. O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish qurilmalari – 20,3 ming donaga, to‘lov terminallari – 434 ming donaga hamda muomalaga chiqarilgan bank kartalari – 34,2 mln. donaga yetdi. Aholiga respublika va xorijiy to‘lov tizimlari infratuzilmasida karta orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi bank kartalari soni 2021-yilga nisbatan 2,7 barobarga oshib, 1,7 mln. donaga yetdi. Bank mijozlarining bankka tashrif buyurmasdan naqd pul mablag‘larini inkassatsiya qilish hamda bank hisobvarag‘ini to‘ldirish imkoniyatini beruvchi avtomatlashtirilgan depozit mashinalari (ADM) soni 475 taga yetkazildi[2]. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”dagi PF-60-son Farmonda “mamlakat bank tizimini isloh qilish strategiyasining 25-maqsadida “Raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish..., iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026 yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish, dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 million AQSH dollariga yetkazish”[3] bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarning ijrosini ta’minlash


1 www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma’lumotlari asosida.
2 www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma’lumotlari asosida.
3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

maqsadida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, banklar tomonidan mijozlarga, jumladan, aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, aholi omonotlarini zamonaviylashtirish orqali aholining banklarga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va ularga masofadan turib xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, “raqamli bank” va “homebanking” tizimlarni yanada rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni asoslash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Biz tijorat banklari tomonidan aholiga ko‘rsatilayotgan masofaviy xizmatlariga e’tibor qaratdik va ularning tahlil qilinayotgan davrda 4225,4 nafardan 19234,8 nafargacha yoki 455,2 foizga oshganini ijobiy ko‘rsatkich sifatida baholashimiz mumkin. Bundan quyida keltirilgan rasm ma’lumotlari yaqqol dalolat beradi.




8-rasm: Bank masofaviy xizmatlaridan foydalanuvchilar soni[4]



4 cbu.uz. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma’lumotlariga asoslanilgan

Ko‘rinib turibtiki, banklar faoliyatining rivojlanishi va ular faoliyatiga yangi axborot texnologiyalarining kirib kelishi bir tomondan, banklar faoliyatining zamonaviylashuviga, ular mijozlar sonining oshishiga olib kelgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bank mijozlarining soni va sifatida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar bo‘lganini ko‘rish mumkin. Agar 2014-yilda banklarning masofaviy xizmatlaridan foydalanuvchi aholi 56, 5 mingni, yuridik shaxslar 207, 9 mingni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkichlar 2022-yilda mos ravishda 968, 6 ming va 19234,8 ming nafarni tashkil etib bir necha barobar o‘sganini ko‘rishimiz mumkin.

2024–2026-yillar uchun asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning prognozlari hamda iqtisodiy o‘sishning asosiy yo‘nalishlarining to‘rtinchi yo‘nalishi – xizmatlar bozorini rivojlantirish bo‘lib, u orqali 2024-yilda bozor xizmatlari o‘sishini 14,9 foiz (574 trln so‘m) darajasida ta’minlash prognoz qilinmoqda. Bunda, yuqori o‘sish sur’atlari asosan ta’lim hamda aloqa va axborotlashtirish – 25,5 foiz, moliya – 22,3 foiz va transport – 10,4 foizga o‘sish hisobiga ta’minlanishi prognoz qilinmoqda. Bunda, banklarning aholiga xizmat ko‘rsatish tizimini raqamlashtirish, bu sohaga axborot texnologiyalarning so‘nggi yutuqlarini joriy etish rejalashtirilmoqda. Ta’lim kreditini moliyalashtirish uchun ajratiladigan mablag‘lar miqdorini oshirish,agar 2021–2023-yillar davomida jami 315 ming talaba, shundan 219 ming talaba xotin-qizlar uchun ta’lim kreditlari uchun 3,3 trln so‘m resurs mablag‘lari ajratilgan bo‘lsa 2024-yilda qo‘shimcha 180 ming nafar talabalar uchun ta’lim kreditlarini ajratish uchun mablag‘lar rejalashtirilib, ushbu dastur bilan qamrab olinadigan talabalar soni qariyb 500 mingga yetishi kutilmoqda. Bu maqsadlar uchun 2024-yilda jami 2,2 trln so‘m, shundan 1,8 trln so‘mi ta’lim kreditlarini moliyalashtirish hamda 400 mlrd so‘mi xotin-qizlarga ajratilgan kreditni foiz qismini qoplash maqsadida rejalashtirilgan. Bank mijozi bo‘lish istagini bildirgan fuqarolar doimiy ravishda ko‘payayotganligi respublika aholisining faravonligi o‘sayotgani, umuman bank tizimiga bo‘lgan ishonch mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi. Aholining bank xizmatlaridan foydalanishi bank ko‘rsatadigan xizmatlar xilma-xilligi, mijozlarga munosabatini va eng muhimi, bank tizimiga ishonchni ham baholaydi. Hozirgi vaqtda jismoniy shaxslarga omonat hisobvaraqlari ochish orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlar orasida banklararo jo‘natmalar bo‘yicha ham, xalqaro tizimlar orqali o‘tkazilayotgan tezkor pul jo‘natmalari, banklarning “Western Union”, “MIGOM”, “Aziya Ekspress” tizimlari orqali, jumladan vakil banklarning “CONTACT”, “Lider” va “Yunistrim”, “Tezkor Pochta”, “BLIZKO” va “MoneyGram” tizimlari orqali operatsiyalar bajarib tezkor jo‘natmalarni amalga bo‘yicha ham bajarilayotgan operatsiyalari ommaviylashib tezkor pul jo‘natmalari bo‘yicha operatsiyalar hajmi o‘sib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma’lumotlariga qaraganda aholini banklarga murojaatlarning barchasi belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqiladi va ularni hal etish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Murojaatlarning tarkibi va aholining tijorat banklari bilan munosabatlarini quyidagi ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkin[5].



1-rasm: Aholining bankka murojaatining o‘zgarish dinamikasi[6]

5 cbu.uz. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma’lumotlari.
6 cbu.uz. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma’lumotlari.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Shuningdek, bank xizmatlarini rivojlantirish, hisob raqamidan naqd pul olish, terminallar bo‘yicha xizmat ko‘rsatish va plastik kartalardan foydalanish bilan bog‘liq murojaatlar ham mavjud.

Rivojlangan mamlakatlarda masofaviy bank xizmatini eng rivojlangani tarmog‘i bo‘lib plastik kartochkalar bilan telefon orqali o‘tkazmalar hisoblanadi. Plastik kartochkalarning aholi hamda tijorat banklari uchun o‘ziga yarasha qulayliklari mavjud. Bugungi kunda elektron tizim hamda internet orqali tovarlar sotish-sotib olish, yoki ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish juda ham rivojlanib takomillashib bormoqda. Mobil aloqa va plastik kartochkalar orqali to‘lovlarni amalga oshirish va ulardan keng foydalanish masofaviy bank xizmatlarini taraqqiyoti uchun zamin yaratib bermoqda. Jumladan, iste’mol kreditlari uchun to‘lovlarni amalga oshirish, pul o‘tkazmalarida sms xizmatlarni joriy qilinishi, depozit amaliyotlari bilan bog‘liq operatsiyalarda ushbu tizimning qo‘llash juda ahamiyatli bo‘lmoqda. Aynan, shu kabi bankning masofaviy xizmatlarini rivojlantirish va ular orqali aholiga qulayliklar yaratish maqsadida xorij tajribasini o‘rganish va ulardan samarali foydalanish zamon talabiga aylanib bormoqda.

Aynan, bank tizimi rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblangan Kanada davlatining ham tajribasini oladigan bo‘lsak, ushbu mamlakatda kredit kartalarning asosan uch turidan keng foydalanib kelinayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bular, “Classic”, “Gold” va “Platium” bo‘lib hisoblanadi. “Gold” va “Platium” kartalari katta limitga ega (eng kam miqdordagi limit qiymati – 5 ming AQSH dollari), karta egasiga qo‘shimcha moliyaviy imkoniyatlar beradi. Ushbu kartalar odatda doimiy mustahkam daromadga ega bo‘lgan shaxslarga beriladi[7]. Bank mijozlariga ushbu qulayliklarga ega xizmatlarning taklif etilishi banklarni tanlash yoki shunday Online xizmatlarni ko‘rsatayotgan bank xizmatlaridan foydalanish tezkorligini oshiradi. Buning natijasida tijorat banklarining innovatsion mahsulotlar va xizmatlar taklifini kengaytirish bilan bog‘liq manfaatdorligi oshadi. Bu esa banklarning xizmatlar bozoridagi sog‘lom raqobatning kuchayishiga zamin yaratadi. hozirgi bosqichda tijorat banklariga mijozlar bazasini va chakana xizmatlar taklif etishni kengaytirish imkonini beradigan yangi noan’anaviy yondashuvlar talab qilinadi. O‘zbekiston shaharlari va tuman markazlarida borgan sari ko‘proq, supermarketlar va yirik savdo markazlari ishga tushirilmoqda. Banklar supermarket-banking usulidan foydalanib, ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini oshirish imkoniyatlariga ega va aynan ilg‘or xorij tajribasiga asoslangan yangi Supermarket-banking yo‘nalishining amaliyotga joriy etilishi fikrimizcha bank xizmatlari majmuining boyitilishiga yordam beradi. Mijozlarga xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va takomillashtirish bozor iqtisodiyoti sharoitida dolzarb sohalardan biri hisoblanadi. Bu sohaning dolzarbligi quyidagi omillarning ta’sirida yuzaga chiqadi.

1. Bank tizimi tarkibining o‘zgarishi. Bank xizmatlariga talabning ortishi, banklarning davlat monopoliyasidan chiqarilishi banklarning mijozlari bilan munosabatni o‘zgartirdi. O‘zbekistonda bank tizimining rivojlanishi Markaziy bank boshchiligida ikki pog‘anali bank tizimining yuzaga kelishiga zamin tayyorladi. Bank tizimining qayta isloh qilinishi banklarning makro va mikro darajada faoliyat ko‘rsatishiga zaruriyat bo‘lganligiga asoslanadi.
2. Ma’muriy buyruqbozlik usulining yemirilishi banklarning kredit siyosati va uning yo‘nalishlarini o‘zgarishiga asos soladi.
3. Kredit bozorlarining (mahalliy va xalqaro) rivojlanishi bank faoliyatining ham bozor talablarini hisobga olgan holda rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Bozor munosabatlari bank marketingi va menejmentini rivojlantirishni, bank ishida yangi texnologiyalar qo‘llashni, mijozlarga bo‘lgan munosabatlarni o‘zgartirishni va munosabatlarning yangi shakllarini qo‘llashni, mamlakatda mavjud iqtisodiy risklarni inobatga olgan holda, mijozlarga kam xarajat keltirgan holda ularning ehtiyojini qondirish yo‘llarini ishlab chiqishni zarur qilib qo‘yadi.

4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyatini mustahkamlash zarur bo‘lib bormoqda. Bu sohada banklar aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashlari lozim. Banklarning bu operatsiyasi ularning kredit potensialini mustahkamlash omili sifatida maydonga chiqishi mumkin.

Tijorat banklarning kredit siyosatida bank bilan mijozlar o‘rtasidagi kredit munosabatlarga yangicha yondashishni taqozo qiladi. Mijozlarga xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va takomillashtirish bozor iqtisodiyoti sharoitida dolzarb sohalardan biri hisoblanadi. Amalga oshirilgan tahlillarning natijalari respublikamiz tijorat banklari tomonidan aholiga va yuridik shaxslarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning samaradorligni oshirish va rivojlantirishda bir qator dolzarb muammolarning mavjudligini ko‘rsatadi.

1. O‘zbekiston Respublikasida banklararo raqobat muhitining to‘liq shakllanmaganligi bank xizmatlari bozorida ham raqobat juda sayoz ekanligini ko‘rsatadi. Respublikamizda banklararo raqobatni shakllantirish, yirik banklar(davlat ulushi mavjud banklar)ning moliya bozoridagi monopol mavqeyiga barham

7 www.privetcanada.com ma’lumotlari.

berish imkonini beradigan alohida qonunning mavjud emasligi banklararo xizmatlar bozorida sog‘lom raqobat muhitni shakllantirishga to‘sqinlik qilmoqda.

2. Ayrim tijorat banklarida talab qilib olinadigan depozitlarning jami depozitlar hajmidagi salmog‘i 60 foizdan yuqori bo‘lganligi ularning depozit xizmatlari sifatining past ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa, tijorat banklarini resurs bazasini barqaror emasligidan dalolat beradi.
3. Respublikamiz tijorat banklari xizmatlari tarkibida overdraft, valyutaviy svop xizmat turlarining rivojlanmaganligi, forfeyting, kontokorent, trast xizmatlarining mavjud emasligi banklarning moliyaviy xizmat soni va sifatini oshirish borasidagi dolzarb muammolarning mavjudligidan dalolat beradi.
4. O‘zbekiston Respublikasi banklararo bozori bank kapitali, bank depoziti va kreditlar bo‘yicha bozor konsentratsiyasi koeffitsiyentining haqiqatdagi darajasidan yuqori ekanligi bank xizmatlari sohasida sog‘lom banklararo raqobatning to‘liq shakllanmaganligidan dalolat beradi.
5. Joylarda xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini oshiruvchi banklar supermarketini (univermagini) tashkil etish va ular faoliyatini qonuniy himoyalash zarur. O‘zbekistonda yuqori texnologiyalarga mos bo‘lgan bank xizmatlari infratuzilmasini yaratishga harakat qilinmoqda.

Ushbu muammolarning hal etilishi tijorat banklari tomonidan aholiga bank xizmatlari ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish, ularning soni va sifatini yaxshilashga zamin yaratadi degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. У.Ўроқов. Давлат харидлари тизимида электрон харидлар ҳажмини ошириш масалалари. 2021
2. Ҳайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. –Т.: Иқтисод-молия, 2009
3. G.G. Nazarova, N.X.Xaydarov, M.T.Akbarov. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. –T.: MChJ “RAM-S”, 2007
4. ТС Маликов, НХ Хайдаров. Молия: умумдавлат молияси. Тошкент:“IQTISOD-MOLIYA, 2009
5. Т.Маликов, Н.Ҳайдаров. Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. 2007
6. Т.С. Маликов, Н.Х. Хайдаров. Финансы: государственные финансы. Учебное пособие. Экономика и финансы. –Ташкент. 2009
7. Zaripov Khusan Bakhodirovich. Trends in the Development of the Tax System of the Republic of Uzbekistan. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 2022.
8. Zaripov Khusan Bakhodirovich. Current state of taxation of commercial banksin our country. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. 2022/11/1.
9. Зарипов Хусан Баходирович. Методологический конструктив налогового анализа влияния системы налогообложения на деятельность хозяйствующего субъекта. Международный научно-образовательный электронный журнал “Образование и наука в xxi веке” 2021/11.
10. Хусан Зарипов. Налоговое планирование предприятий в Республике Узбекистан. Общество и экономика, 2019
11. ОА Шодиев. Особенности применения упрощенной системы налогообложения в Узбекистане. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук.2017.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

INNOVATSION BOSHQARUVNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARI

Yusupova Jamila Karamatdinovna
Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada korxona va tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshirishning eng muhim vositasi sifatida qaralayotgan innovatsion boshqaruvning ilg‘or xorijiy tajribalari tadqiq etilgan.

Shu bilan birga, Jahon iqtisodiyotidagi globallashuv sharoitida iqtisodiyotni innovatsion boshqaruv yo‘liga o‘tkazish, xususan, korxonalar faoliyatida innovatsion boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy-amaliy fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Jahon iqtisodiyoti, innovatsion boshqaruv, globallashuv, global innovatsion indeks, jahon intellektual mulk tashkiloti, strategiya.

Abstract: In this scientific article, advanced foreign experiences of innovative management, which are considered as the most important means of increasing the efficiency of enterprises and organizations, have been researched.

At the same time, in the conditions of globalization in the world economy, the scientific and practical opinions related to the transfer of the economy to the path of innovative management, in particular, the improvement of the organizational and economic mechanism of innovative management in the activities of enterprises, are presented.

Key words: World economy, innovation management, globalization, global innovation index, World intellectual property organization, strategy.

Аннотация: В данной научной статье исследован передовой зарубежный опыт инновационного менеджмента, который рассматривается как важнейшее средство повышения эффективности предприятий и организаций.

В то же время научно-практические мнения представлены, связанные с переходом экономики на путь инновационного управления в условиях глобализации мирового хозяйства, в частности, совершенствование организационно-экономического механизма инновационного управления в деятельности предприятия.

Ключевые слова: Мировая экономика, инновационный менеджмент, глобализация, глобальный инновационный индекс, Всемирная организация интеллектуальной собственности, стратегия.

KIRISH

O‘zbekistonda innovatsion loyihalarni amalga oshirishni rag‘batlantirish, yirik ishlab chiqarish korxonalari, kichik va o‘rta biznes vakillarini innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazish, boshlang‘ich (startap) innovatsion biznes loyihalarni ishlab chiqish va ularning rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarga ustuvorlik qaratilib kelinmoqda. Jumladan, korxonalarda innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirish iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi omil sifatida baholanib, yangi ish o‘rinlarini yaratish va milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashning muhim sharti sifatida baholanmoqda.

Shuningdek, tobora rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning milliy va xalqaro darajadagi raqobatbardoshligi ko‘rsatkichlarini yaxshilashda ular iqtisodiy faoliyatining innovatsion yo‘nalishda amalga oshirilishi talab etiladi. Keyingi yillarda mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalarga asoslangan holda sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvini rivojlantirish amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari qatoridan o‘rin egallaydi.

Jumladan, “2030-yilga borib, O‘zbekistonni “Global innovatsion indeks”dagi TOP-50 mamlakatlar qatoriga kiritish rejalashtirilgan. Ushbu maqsadga erishishda mamlakatimizning ushbu indeksda qayd etilgan past indikatorlar bo‘yicha pozitsiyasini yaxshilash ustuvor vazifasi 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan [1]. Ushbu holat mamlakatimizda sanoat korxonalari innovatsion

boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tadqiqotlarni o‘tkazish zaruriyatini uyg‘otadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsiya va innovatsion boshqaruvning kelib chiqishi, ilmiy-nazariy va metodologik muammolarining ba’zi jihatlari G‘arb mamlakatlari, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida tatqiq etilgan.

Jumladan, innovatsion faoliyat bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan xorijlik olimlardan E.Dandon o‘z izlanishlarida korxona boshqaruvi jarayonida innovatsiyaning kreativlilik, strategiya, amalga oshirish (realizatsiya) va foydalilik kabi tarkibiy komponentlarga ega bo‘lishini ajratib ko‘rsatadi [2].

Shuningdek, Y. Shumpeter esa, innovatsiya iqtisodiy kategoriyasini: “yangi turdagi iste’mol tovarlari va xizmatlari, jumladan, korxonalarning egallagan bozor hajmini oshirishda noodatiy shakldagi ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish amaliyotini tashkil etish, yangi turdagi transport vositalaridan foydalanishi yoki ularni amaliyotga tatbiq etilishi innovatsiya deb baholanadi” deb, ta’riflaydi [3].

MDH olimlaridan A.N.Xramsova va A.A.Axmatovalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda korxonalar boshqaruvi jarayonida innovatsiya iqtisodiy kategoriyasining mazmunini yoritishda iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta’riflarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin bo‘ladi:

- innovatsiya iqtisodiy kategoriyasining mazmunini yangilik, nau-xau bilan bog‘liq holda tushuntirish;
- innovatsiyaning mazmunini yoritishda yangi bir mahsulotni ishlab chiqarish, jumladan, uning texnik va texnologik xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan butun bir jarayon sifatida tushuntirish;
- innovatsiya mazmunini yoritishda yangi g‘oya va fikrlarni amaliyotga tatbiq etish bilan bog‘liq bo‘lgan, shuningdek, yangi shakldagi takomillashtirilgan mahsulot ishlab chiqarishni harakatga keltiruvchi kuch sifatida baholash [4].

O‘zbekistonlik Sh.N.Zaynutdinov [5], A.A.Madaliyev [6], D.Shodiyeva [7], N.M.Rasulov [8], Sh.G. Akramova [9], A.E.Norov [10], B.A.Mavlanov [11], I.S.Xotamov, Sh.E.Mustafakulov [12], S.P.G‘ulomova [13] va O.E.Ernazarov [14] kabi iqtisodchi olimlar o‘z ilmiy izlanishlarida sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi samaradorligini oshirishda inson omilining o‘rni, sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi samaradorligini oshirishda yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan talab, jumladan, sanoat korxonalari boshqaruvi samaradorligini oshirishda innovatsion ishlanmalardan foydalanishning uslubiy asoslari o‘rganilgan.

Shu sababli, iqtisodiy adabiyotlarda korxonalarning innovatsion boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning uslubiy asoslarini tadqiq etishga oid ilmiy izlanishlar soni ortib bormoqda.

Biroq ushbu tadqiqot ishlarda bugungi korxona va tashkilotlar faoliyatiga innovatsion boshqaruvning eng so‘nggi zamonaviy usullarini tatbiq etish bilan bog‘liq masalalar yaxlit ilmiy izlanish sifatida amalga oshirilmaganligi ilmiy maqolamizning maqsadi va vazifalarini belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Innovatsion boshqaruvning ilg‘or xorijiy tajribalariga oid ma’lumotlarni tahliliy o‘rganish asosida ilmiy mushohada, absrakt-mantiqiy fikrlash, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish, ilm-fan va ilmiy faoliyatni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va natijadorligini oshirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Respublikani innovatsiyalar sohasidagi global reytingdagi ilg‘or 50 ta mamlakatlar ro‘yxatiga kiritishga qaratilgan strategik dastur tasdiqlandi, ilmiy loyihalarni moliyalashtirishning yangi mexanizmlari joriy etildi, ilm-fan sohasida yuqori malakali kadrlarni moliyaviy rag‘batlantirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratildi.

Shunday bo‘lsada, mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ilm-fan va innovatsiya sohasida davlat boshqaruvi mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini shakllantirishda shaffoflikni oshirish hamda iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlarini jadallashtirish lozimligini ko‘rsatmoqda.

Jahon iqtisodiyotidagi globallashuv sharoitida iqtisodiyotni innovatsion boshqaruv yo‘liga o‘tkazish, xususan, korxonalar faoliyatida innovatsion boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishning muhim sharti sifatida baholanmoqda.

Jahon intellektual mulk agentligi (WIPO)ning “Global innovatsion indeks – 2021” (GIE – 2021) ko‘rsatkichlarga asosan korxonalar innovatsion boshqaruvi samaradorligini tavsiflovchi “Biznes sofistikasi”, jumladan, bilim va innovatsiyalarni tatbiq qilish bo‘yicha Shvetsiya, AQSH va Shvetsariya kabi mamlakatlar yetakchi o‘rinlarni egallagan holda ushbu davlatlarda innovatsion iqtisodiyot hisobiga 70 foizdan ortiq qismi yaratiladi [15]. Ushbu holat taraqqiy etgan mamlakatlarda innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirishga ustuvorlik qaratilishidan yaqqol dalolat beradi.

Jahon iqtisodiyoti amaliyoti tahliliga ko‘ra, taraqqiy etgan mamlakatlarda milliy iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion boshqaruvning uzluksiz ravishda amaliyotga tatbiq etib borilishi, mamlakatlar iqtisodiyotining global raqobatbardoshligi ko‘rsatkichlarini yanada yaxshilanishiga olib kelmoqda.

Shu bilan birga, ushbu mamlakatlarda korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishda innovatsion ishlanmalarga asoslanish, tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan qurollantirish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligi ko‘rsatkichlari barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega bo‘lib kelmoqda.

Bugungi kunga kelib, O‘zbekistonda ham korxonalarning innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirish zaruriyati vujudga keladi. Xususan, sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv tizimini joriy etish va uning samaradorligini oshirish pirovard natijada korxonaning raqobatbardoshligi darajasining barqaror sur’atlarda ortib borishini ta’minlaydi.

Sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning nazariy jihatdan tahlili natijalariga ko‘ra, unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ichki va tashqi omillarga guruhlanishi mumkin bo‘ladi.

Ilg‘or xorijiy tajribalarni tadqiq etgan holda, sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi samaradorligini oshirish korxonada innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish mahsuldorligini ortishini ta’minlashi bilan bir qatorda, korxonaning milliy va xalqaro raqobatbardoshlik darajasiga erishishga yetarli darajada shart-sharoitlar yaratishi kerak bo‘ladi.

Bugungi kunda jahon mamlakatlarida innovatsion rivojlanishning uch xil modeli shakllangan:

Birinchi model fan va innovatsiyalar bo‘yicha dunyoda yetakchilik mamlakatlar uchun xos bo‘lgan model hisoblanib, fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishga asoslanadi. Bu turdagi innovatsion rivojlanish modeli AQSH, Angliya va Fransiya mamlakatlari uchun xos hisoblanadi. Ushbu mamlakatlar guruhi fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni rag‘batlantirish orqali innovatsion iqtisodiyotni rivojalantirishga erishadilar.

Ikkinchi model uchun innovatsiyalarni rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish xos bo‘lib, Germaniya, Shvetsiya va Shveysariya kabi mamlakatlar uchun xos hisoblanadi.

Uchinchi model jahon xo‘jaligining ilmiy-texnikaviy rivojlanishiga ixtisoslashgan innovatsion iqtisodiyot modeli hisoblanib, Yaponiya va Janubiy Koreya mamlakatlari uchun xos model hisoblanadi [16].

Shu o‘rinda aytish kerakki, mamlakatlarda amal qilayotgan innovatsion rivojlanish modellari korxonaning innovatsion faoliyati va uning ixtisoslashuvi yo‘nalishlarini belgilab beradi. Jahon xo‘jaligida sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni amalga oshirishning o‘zaro bog‘langan mikro va makro darajadagi mexanizmi amal qiladi [17].

Korxonada innovatsion jarayonlarni amalga oshirishning mikromexanizmi korxona boshqaruvi amaliyotida innovatsiyalarni o‘zlashtirish dastaklari orqali namoyon bo‘ladi. Innovatsiyalarni o‘z amaliyotiga tatbiq etish ko‘lami korxonaning innovatsion salohiyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bunda ularning innovatsiyalarni ishlab chiqish hajmi, yangiliklarni o‘zlashtirishga bo‘lgan intilishi inobatga olinadi [18].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz natijalariga tayangan holda, sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirishda korxonaning innovatsion salohiyatidan kelib chiqib maqsad va vazifalarni belgilash zaruriyati mavjud deb aytish maqsadga muvofiq.

Fikrimizcha, yuqorida bildirilgan fikr va takliflarni inobatga olgan holda mamlakatimizda sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruvni tashkil etish uzoq muddatli istiqbolda yuqori samaradorlikka erishish bilan bir qatorda, jahon bozorida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligi ko‘rsatkichlarini yanada yaxshilanishi uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

Jumladan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning yangi bozorlarni o‘zlashtirishi hisobiga mamlakatimizda eksportga yo‘naltirilgan sanoat ishlab chiqarishini rivojlanishi natijasida, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlarni eksport qilish hajmi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. – https://lex.uz/docs/5841063

2. Дандон Э. Инновации: как определять тенденции и извлекать выгоду / Э. Дандон. – М.: Вершина, 2006. – 304 с;
3. Шумпетер Й. Теории экономического развития. / Й. Шумпетер. – М.: Экономика, 1995й. – 540 с.
4. Храмцова Н.А., Ахматова А.А. Теоретические основы управления инновационной деятельности предприятия. // Стратегии бизнес / Электронный научно-экономический журнал. № 10 (54). 2018. С. 18-22.
5. Zaynuddinov Sh.N., Rasulov N.M. Innovatsion menedjment (darslik).-T.:“Innovatsion rivojlanish nashriyot-matba uyi”, 2020. –B.540.
6. Mamadaliyev A.A. Iqtisodiyotni boshqarishda inson omilini faollashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmidan foydalanishni takomillashtirish. (PhD) diss. avtoref. –T.: 2017. –B.28.
7. Shodiyeva D. Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini investitsiyalashning nazariy asoslarini takomillashtirish. (PhD) diss. avtoref. -T.:2020 B.58.
8. Rasulov N.M. Korporativ tuzilmalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish uslubiyatini takomillashtirish: (DSc) diss. avtoref. –T., 2021. – B.81.
9. Akramova Sh.G. O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyot shakllanishi sharoitida inson kapitalining rivojlanishi. Monografiya. -T.: Iqtisod-Moliya, 2014. – 180.
10. Norov A.E. Innovatsion faoliyat va uning natija- larini tijoratlashtirishning nazariy va uslubiy asoslari “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 1, 2020-yil.
11. Mavlanov B.A. Iqtisodiyotni texnologik innovatsiyalar asosida modernizatsiya qilishning dolzarb masalalari//Ekonomika i finansi (Uzbe- kistan). 2016. №4.).Xotamov I.S., Mustafakulov Sh. E., Isakov.M., Abduvaliyev A. (2019). Korxona iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish. Arxiv nauchnix issledovaniy, 1(1).
12. G‘ulomova G.P. Innovatsion faoliyat infratuzilmasini shakllantirish ishlab chiqarishni modernizatsiyalash omili sifatida // Ekonomika i finansi (Uzbekistan). –2016. –№7. (data obrasheniya: 03.07.2021).
13. Ernazarov O.E. Innovatsiyalar asosida sanoat korxonalari samaradorligini oshirish // Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtore- ferati. – T.: 2020. –60 b.
14. World Intellectual Property Organisation. www.wipo.int
15. Арутюнов Ю.А., Гончаренко Л.П. Инновационная политика – https://www.litres.ru
16. Совершенствование инновационного развития национальной экономики в условиях глобализации. Абдуллаева Р.Г., Абулкасимов Х.П., Амбарцумян А.А., Аранжин В.В., Ваганова О.В., Вдовиченко Л.Ю., Герман М.В., Ефимова А.В., Зенькова И.В., Зохирова Г.М., Ильина Т.Г., Ищук Т.Л., Каз Е.М., Каз М.С., Каримов Д.М., Ким Т.В., Клысяк М.Д., Клюня В.Л., Королькова Д.И., Костюченко Е.А. и др. Монография. – Т.: “Университет”, 2021. – 700 с.
17. Арутюнов Ю.А., Гончаренко Л.П. Инновационная политика – https://www.litres.ru



NEFT-GAZ KORXONALARI MOLIYAVIY-IQTISODIY FAOLIYATI NATIJALARI TAHLILI (“O‘ZBEKNEFTGAZ” AJ MISOLIDA)

ORCID: 0000-0002-7662-4210

Umurzoqov Jamoliddin Sherbekovich
PhD, Toshkent moliya instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Neft-gaz majmuasi – neft va gazni qazib olish, tashish va qayta ishlash hamda ularning mahsulotlarini taqsimlash bilan shug‘ullanuvchi sanoat tarmoqlari guruhini o‘z ichiga olib, iqtisodiyotni rivojlantirishda ham ichki, ham tashqi bozorda muhim o‘rin tutadi [1]. Ayni paytda neft-gaz sanoati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shmoqda. Zamonaviy O‘zbekiston iqtisodiyoti xom ashyoni rivojlantirish, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va xizmatlar sohasini kengaytirish modeliga e’tibor qaratish bilan ajralib turishini hisobga olsak, uning barqarorligi mineral-xomashyo kompleksi, yoqilg‘i-energetika ta’minoti, birinchi navbatda, neft-gaz sektorining holati va rivojlanishiga sezilarli darajada bog‘liq deb aytish mumkin bo‘ladi.
Neft-gaz majmuasi faoliyatidan olinadigan daromadlar mamlakat yalpi ichki mahsulotiga salmoqli hissa qo‘shib, budjetning salmoqli qismini tashkil etadi. Neft-gaz korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy faoliyati va ularning natijalari ko‘p jihatdan hozirgi global bozor sharoitlariga bog‘liq. Shu bilan birga, neft va tabiiy gaz narxini tartibga solish va yetarlicha ishonchli prognoz qilish juda qiyin. Neft narxining sezilarli o‘zgarishi nafaqat neft qazib oluvchi kompaniyalarning moliyaviy ko‘rsatkichlariga, balki butun respublika iqtisodiyotining holatiga katta ta’sir ko‘rsatadi.
Shu o‘rinda, yoqilg‘i-energetika sohasi, xususan, neft-gaz sanoati moliyaviy-iqtisodiy faoliyati samaradorligini ta’minlashda, geologiya-qidiruv ishlarini olib borish va ularga yo‘naltirilgan investitsiyalar muhimligini ta’kidlash lozim[2].
Mazkur maqolada neft-gaz majmuasi sanoatining mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shgan hissasi, faoliyat yo‘nalishlar soha yetakchisi bo‘lgan “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati misolida ko‘rib chiqiladi. Jamiyatning bozorda egallagan o‘rni hamda moliyaviy-iqtisodiy faoliyatda mavjud risklar SWOT-tahlili asosida ko‘rib chiqiladi.
So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida va umaman mintaqada energetika ta’minoti sohasida yuzaga kelgan nobarqaror vaziyat fonida neft va gaz bozoridagi mavjud vaziyat tahlili o‘tkazildi, korxonada faoliyat yo‘nalishlari hamda uning rivojlanish ko‘rsatkichlari baholandi. Ushbu tahlil taraqqiyot nuqtayi-nazaridan kompaniyalarning rivojlanishi va yaxshilanishini ko‘rish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv, ESG, SWOT-tahlil, likvidlik, investitsiyalar, sof foyda, harajatlar, reyting agentliklari, operatsion faoliyatdan olingan pul oqimi, uglevodorodlar zaxirasi.

Abstract: The oil and gas complex is a group of industries involved in the production, transportation and processing of oil and gas, as well as the marketing of their products, plays an important role in the development of the economy both in the domestic and foreign markets [1]. At the moment, the oil and gas industry is one of the main sectors of the national economy and makes a significant contribution to the socio-economic development of our country. Considering that the economy of modern Uzbekistan is characterized by an orientation towards the model of development of the raw materials sector, support of small businesses and expansion of the service sector, its sustainability significantly depends on the state and development of the mineral resource complex, fuel and energy complex. energy supply, primarily for the oil and gas sector.
Revenues from the oil and gas complex make a significant contribution to the country’s gross domestic product and constitute a significant part of the budget.
The financial and economic activities of oil and gas industry enterprises and their results largely depend on the current conditions of the world market. At the same time, prices for oil and natural gas are difficult to regulate and predict with sufficient reliability. A significant change in oil prices has a great impact not only on the financial performance of oil producing companies, but also on the state of the economy of the entire republic.
At this stage, it is necessary to emphasize the importance of geological exploration and investments directed towards them in ensuring the efficiency of the financial and economic activities of the fuel and energy complex, in particular the oil and gas industry [2].

In this article, the contribution of the oil and gas complex industry to the country's economy and areas of activity are discussed using the example of the joint-stock company Uzbekneftegaz, which is a leader in the industry. Based on a SWOT analysis, the company's position in the market and existing risks in financial and economic activities are considered.
Against the background of the unstable situation in the field of energy supply in the Republic of Uzbekistan and the region as a whole, an analysis of the current situation in the oil and gas market, the directions of the company's activities and its development was carried out. indicators were assessed. This analysis allows you to see the development and improvement of companies from a development perspective.

Key words: environmental, social and corporate governance, ESG, SWOT analysis, liquidity, investments, net profit, expenses, rating agencies, cash flow from operating activities, hydrocarbon reserves.

Аннотация: Нефтегазовый комплекс - группа отраслей, занимающихся добычей, транспортировкой и переработкой нефти и газа, а также сбытом их продукции, играет важную роль в развитии экономики как на внутреннем, так и на внешнем рынке [1]. На данный момент нефтегазовая отрасль является одной из основных отраслей национальной экономики и вносит значительный вклад в социально-экономическое развитие нашей страны.
Учитывая, что для экономики современного Узбекистана характерна ориентация на модель развития сырьевого сектора, поддержки малого бизнеса и расширения сферы услуг, ее устойчивость существенно зависит от состояния и развития минерально-сырьевого комплекса, топливно-энергетического комплекса. энергообеспечение, прежде всего, нефтегазового сектора.
Доходы от нефтегазового комплекса вносят значительный вклад в валовой внутренний продукт страны и составляют значительную часть бюджета. Финансово-экономическая деятельность предприятий нефтегазовой отрасли и ее результаты во многом зависят от текущей конъюнктуры мирового рынка. В то же время цены на нефть и природный газ сложно регулировать и прогнозировать с достаточной надежностью. Значительное изменение цен на нефть оказывает большое влияние не только на финансовые показатели нефтедобывающих компаний, но и на состояние экономики всей республики.
На этом этапе необходимо подчеркнуть важность проведения геологоразведочных работ и направляемых на них инвестиций в обеспечении эффективности финансово-хозяйственной деятельности топливно-энергетического комплекса, в частности нефтегазовой отрасли [2].
В данной статье вклад отрасли нефтегазового комплекса в экономику страны, направления деятельности рассмотрены на примере акционерного общества "Узбекнефтегаз", которое является лидером в отрасли. На основе SWOT-анализа рассмотрено положение общества на рынке и существующие риски в финансово-экономической деятельности.
На фоне нестабильной ситуации в сфере энергоснабжения в Республике Узбекистан и регионе в целом проведен анализ текущей ситуации на рынке нефти и газа, направлений деятельности компании и ее развития. были оценены показатели. Этот анализ позволяет увидеть развитие и совершенствование компаний с точки зрения развития.

Ключевые слова: экологическое, социальное и корпоративное управление, ESG, SWOT-анализ, ликвидность, инвестиции, чистая прибыль, расходы, рейтинговые агентства, денежный поток от операционной деятельности, запасы углеводородов.

КИРИШ

Ayni paytda, respublika hududida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma korxonalarni hisobga olgan holda yiliga o'rtacha 47,0 mlrd kub metr tabiiy gaz hamda 3,0 mln tonnadan ortiq suyuq uglevodorodlar qazib chiqarilmoqda.

Neft-gaz majmuasi kompleksi tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyatining eng muhim vazifasi – bu uglevodorod xom ashyosini qazib olish xajmlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi "Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash, neft-gaz tarmog'ini moliyaviy sog'lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4388-sonli qarori bilan belgilangan, ya'ni aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining energiya resurslariga bo'lgan extiyojini to'liq qondiradigan hamda Jamiyatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydigan darajaga yetkazish [3].

Ushbu muhim vazifaning bajarilishi investitsiya kiritishning xorijiy amaliyotda keng tarqalgan shartlari va mexanizmlari asosida qazib olinishi qiyin bo'lgan konlarda uglevodorod xom ashyosini qazib olishga dunyoning yirik neft-gaz kompaniyalarini jalb qilish, mustaqil xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda neft-gaz tarmog'i korxonalarining operatsion samaradorligini oshirish va xarajatlarini maqbullashtirish, shuningdek, ularning qarz yuklamasini kamaytirish, ekspluatatsion konlarda zamonaviy texnologiyalar asosida uglevodorod xom ashyosi qazib olishning unumdorligini oshirish kabi tadbirlar hisobiga ta'minlanadi [4].

Shu bilan birga, kompleks tarkibidagi qazib olish va qayta ishlash korxonalari amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari bo'yicha xalqaro tender savdolarida ishtirok etish uchun xorijiy neftservis tashkilotlarini jalb qilish, xorijiy tajribani hisobga olgan holda, shu jumladan, "raqamli kon" konsepsiyasini amalga oshirish asosida ish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish ishlarini jadallashtirish, xalqaro konsalting kompaniyalarini jalb qilgan holda neft-gaz tarmog'idagi investitsiya loyihalarini tanqidiy

o‘rganish va mahalliy neft-gaz qazib oluvchi korxonalarning real moliyaviy imkoniyatlariga qarab maqbullashtirish masalalriga ham jiddiy urg‘u berishlari talab etiladi.

“O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yildagi eng muhim vazifalaridan biri yangi konlarni izlash bo‘yicha geologiya-qidiruv ishlari dasturini ishlab chiqish bo‘lib, mazkur vazifa uglevodorod xom ashyosi zaxiralari va respublika bo‘yicha tabiiy gaz qazib olish hajmini ko‘paytirishga omil yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning axborot bazasini statistik ma’lumotlar, neft qazib oluvchi va qayta ishlovchi korxonalar faoliyati to‘g‘risidagi tahliliy ma’lumotlar tashkil etadi. Tadqiqotning uslubiy asosini axborotni tahlil qilishning statistik usullari tashkil etadi: qiyosiy tahlil, vaqt seriyalari tahlili, korrelyatsiya va regressiya tahlili.

Neft-gaz korxonalari moliyaviy-iqtisodiy faoliyatining kompleks tahlili doimiy ravishda iqtisodchi olimlar tomonidan qizg‘in tahlil va munozara obyekti bo‘lib kelgan.

Xususan, mahalliy olimlardan Malikov T., Jalilov Sh., Nosirov E., Elmirzayev S., Bakiyeva I. tadqiqotlarida yoqilg‘i-energetika majmuasi, xususan neft-gaz koorxonalarida moliyaviy faoliyat barqarorligini ta’minlashga olib keluvchi omillar, ularda soliq munosabatlari, korporativ moliya, investitsiyalar oqimlari tahlili olib borilgan.

Larionova Ye.I., Popova A.A., Shpakovskaya Ye.P. tomonidan neft qazib oluvchi korxonalar moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlili yuritilgan bo‘lsa, Gayfullina M.M., Makov V.M. tomonidan neft-gaz mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining rivojlanish tendensiyalari va unga sabab bo‘lovchi vositalar baholangan. Jukov S.V., Zolina S.A. o‘z asarlarida AQSHdagi moliyaviy bozorlar hamda nekonvension neft tahlilini olib borilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, ilmiy monografiyalari, o‘quv qo‘llanmalari va maqolalarini tahlil qilish, statistik tahlillari, jadvallarni analitik taqqoslash, guruhlash, miqdor va sifat ko‘rsatkichlarni hisoblash, ularni bir-biri bilan solishtirish kabi uslublardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyatining suyuq uglevodorodlar va tabiiy gazni qazib olish ishlari amalga oshirilayotgan konlar soni 127 tani tashkil etadi, shundan 85 ta konda ishlab chiqish ishlari amalga oshirilmoqda, 42 ta kon konservatsiya va razvedkada. O‘zlashtirilayotgan konlar tarkibidagi eng ko‘p miqdorda uglevodorod qazib olinadigan asosiy konlar uzoq davr mobaynida foydalanilib kelinmoqda, ularning ishlatilganlik darajasi yuqori, uglevodorod zaxiralari kamayib ketgan hamda quduqlardagi bosimi va qazib olish imkoniyatlari pasayib ketgan.

Jamiyatning so‘nggi yillardagi resurs bazasining tahliliga ko‘ra, asosiy konlar (Alan, Sho‘rtan, Zevarda, Samantepa, O‘rtabuloq, Janubiy Kemachi, Dengizko‘l, Shimoliy Dengizko‘l, Sharqiy va Shimoliy Berdaq, Doyaxotin) ekspluatatsiyasi oxirgi bosqichga yetib kelgan, zaxiralar qazib chiqarilishi murakkab bo‘lgan konlardan olinadigan uglevodorodlar ulushi hamda kichik va unumdorligi past konlar soni ko‘paymoqda.

Uglevodorod xom ashyosini qazib chiqarish va tabiiy gazni qayta ishlash borasida jamiyatning asosiy vazifalaridan biri – neft va gaz konlarini o‘zlashtirish, tabiiy gaz, neft va gaz kondensatini qazib olish hamda ularni chuqur qayta ishlash jarayonini samarali tashkil etish.

Tezkor ma’lumotlarga ko‘ra 2023-yil yakuni bilan 30 mlrd kub mga yaqin tabiiy gaz qazib olinishi kutilmoqda. Tabiiy gaz, gaz kondensati va neftni jamiyatning quyidagi boshqarmalari qazib chiqaradi:

- Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi;
- Shurtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi;
- Gazli neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi;
- Ustyurt gaz qazib chiqarish boshqarmasi;
- Vodiy neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi.

Muborak gazni qayta ishlash zavodida Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi, “LUKOYL Uzbekistan opereyting kompani” MCHJ, “Natural Gas Stream” MCHJ QK, “New Silk Road Oil and Gas” MCHJ QK, “Kukdumalok gaz” MCHJ QK, “Sanoat Energetika Guruhi” MCHJ XKlardan olingan yuqori va kam oltingugurtli gazlar qayta ishlanadi.

Qazib olingan tabiiy gaz tozalangandan va quritilgandan keyin “UzGasTrade” AJ, “Hududgazta’minot” AJ va “Uz-Kor Gas Chemical”MCHJ HKga sotiladi.

Tabiiy gaz va nobarqaror gaz kondensatini qayta ishlash jarayonida olinadigan suyultirilgan gaz birja savdolari orqali yoqilg‘i quyish shoxobchalariga realizatsiya qilinadi, aholi va ijtimoiy obyektlarni ta’minlash

uchun “Hududgazta’minot” AJ korxonalariga yetkazib beriladi, Jamiyat tarkibidagi korxonalarning avtotransport vositalari ehtiyojlari uchun foydalaniladi va eksport qilinadi.

Neft va gaz kondensati “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJda qayta ishlash orqali neft mahsulotlarini ishlab chiqariladi va NQIZ tomonidan birja savdolari orqali sotildi. Gaz kondensatining bir qismi “Uz-Kor Gas Chemical” MCHJ HKga sotilib, keyinchalik Ustyurt gaz-kimyo majmuasida qayta ishlanadi.

Oltingugurt respublika korxonalariga birja savdolari orqali realizatsiya qilinadi hamda eksport qilinadi. Shu bilan birga, jamiyat tarkibidagi neft va gaz qazib olish boshqarmalari va gazni qayta ishlash zavodi tomonidan respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga tabiiy gaz va uglevodorodlarni tayyorlash, qayta ishlash, tabiiy gaz va gaz kondensatini tashish hamda suyultirilgan gaz, oltingugurtni saqlash xizmatlari ko‘rsatiladi.

Bundan tashqari, 2022-yilning II choragida “Sho‘rtan GKM tozalangan metan gazi negizida sintetik mahsulot ishlab chiqarish loyihasi to‘liq yakunlanib GTL zavodi ishga tushirildi va 2022-yilning iyul oyidan mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Gazni chuqur qayta ishlashdan sintetik dizel yoqilg‘isi, sintetik kerosin, sintetik nafta va sintetik suyultirilgan gaz ishlab chiqarish evaziga respublikada neftgaz mahsulotlariga bo‘lgan talabni qondirish bilan birga, Jamiyatning eksport salohiyatini oshirishga ham zamin yaratildi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarining asosiy ulushi ichki bozor talabini qondirish uchun yo‘naltirilmoqda. Shu bilan birga, “O‘zbekneftgaz” AJ korxonalari tomonidan polietilen, suyultirilgan gaz, sintetik mahsulotlar va boshqa neft mahsulotlari eksport qilinadi.

2023-yil yakuni bo‘yicha 106,8 ming tonna sintetik nafta, 70,6 ming tonna sintetik dizel yonilg‘isi (“Uzbekistan GTL” MCHJ) va 15,1 ming tonna piroliz gazolini (“Buxoro NQIZ” MCHJ) eksport qilinishi kutilmoqda. Ushbu mahsulotlar asosan Turkiya, Rossiya, Tojikiston, BAA, Latviya, Xitoy, AQSH, Qozog‘iston, Yeevropa hamda Osiyoning bir qator davlatlariga eksport qilinib kelinmoqda.

Jamiyatning 2021–2023-yillardagi asosiy moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahliliga ko‘ra 2023-yil yakunlariga ko‘ra “O‘zbekneftgaz” AJning sof foydasi 1 370,0 mlrd so‘mni tashkil etishi kutilmoqda (1-jadval).

1-jadval: Jamiyatning 2021–2023-yillardagi asosiy moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili

Ko‘rsatkichlar (mlrd.so‘m)	2021-yil	2022-yil	2023-yil kutilishi
Jami daromadlar	12 296	13 441	15 679
Jami operatsion xarajatlar	(10 229)	(10 775)	(14 273)
Operatsion faoliyatdan foyda (zarar)	2 067	2 666	1 406
Soliq to‘lagunga qadar foyda (zarar)	1 712	2 806	1 512
Sof foyda (zarar)	1 321	2 486	1 370

Ta’kidlash joizki, sof tushumining qariyb 50 foizdan ziyodi tabiiy gazni sotishdan, 35,1 foizini neft mahsulotlarini sotishdan, 2,5 foizini suyultirilgan gazni sotishdan va 8,6 foizini oltingugurt va boshqa mahsulotlar (xizmatlar) sotishdan olingan daromadlar tashkil etadi (1-rasm).



1-rasm: 2023-yilda mahsulot turlari bo‘yicha sof tushumning tuzilmasi

Jamiyatning bozorda egallagan o‘rnini hamda mavjud risklarni aniqlash maqsadida o‘tkazilgan SWOT-tahlilga ko‘ra neft va gaz sanoati respublika iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlaridan biri hisoblanadi, Jamiyat esa energiya resurslari bozorida yetakchi o‘rinni egallaydi (2-jadval).

2-jadval: Jamiyatning bozorda egallagan o‘rnini hamda mavjud risklarni aniqlash maqsadida o‘tkazilgan SWOT-tahlili

	Ijobiy ta’sirlar	Salbiy ta’sirlar
Ichki muhit	Strengths (afzalliklar) Bozorda ustun mavqega ega; Bozorda kompaniya mahsulotlariga barqaror talab mavjud; Nisbatan katta hajmda isbotlangan tabiiy gaz zaxiralari mavjud; Diversifikatsiyalangan ishlab chiqarish; Mamlakatdagi eng yirik soliq to‘lovchilardan biri; Mamlakatdagi eng yirik ish beruvchilardan biri; Shaffof boshqaruv tizimi; Ishlab chiqishning zamonaviy usullari qo‘llanilishi.	Weakness (kamchiliklar) Yirik konlarning ishlatilganlik darajasi 80-90 foizni tashkil etadi; Zaxiralarning o‘sish sur’atlari yetarli darajada yuqori emas; Neft va gaz konlari geografik jihatdan tarqoq joylashgan; Qayta ishlash quvvatlaridan to‘liq foydalanilmaydi; Tabiiy gazni sotish narxining belgilanishi davlat nazoratida; Jamiyat aktivlari tarkibida debitor qarzdorliklar ulushining yuqori bo‘lishi.
Tashqi muhit	Opportunities (imkoniyatlar) Aksiyalarni birlamchi ommaviy taklif qilish (IPO); Qulay makroiqtisodiy muhit; Faoliyatni chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘naltirish; Jahon bozorlariga chiqish; Tabiiy gaz ishlab chiqaruvchilari va import qiluvchilarining ulgurji bozorini tashkil etish.	Threats (xatarlar) Geologiya-qidiruv tadbirlari natijalariga ko‘ra zaxiralarni o‘sish sur’atlari yetarli darajada bo‘lmasligi; Muqobil energiya va yoqilg‘i manbalarining rivojlanishi; Yuqori soliq yuki (35 foizgacha, dividendar bilan 42 foiz); Raqobat kuchayishi.

Jamiyat faqatgina aksiyadorlarning iqtisodiy manfaatlari uchun xizmat qilib qolmasdan, davlat budjeti daromadlarini shakllantiruvchi eng yirik kompaniyalardan biri hisoblanadi. 2023-yil yakuni bo‘yicha tizim korxonalari tomonidan davlat budjetiga to‘langan soliqlar hajmi 7,5 trln so‘mni tashkil etadi.

Jamiyat mamlakatning eng yirik ish beruvchilaridan biri bo‘lib, xodimlarining soni 13 989 kishini tashkil etadi.

Jamiyat korporativ boshqaruvining zamonaviy usullari, raqamli transformatsiya hamda xalqaro konsalting kompaniyalari va moliya institutlarini (“Ernst & Young”, “KRMG” va boshqalar) jalb qilgan holda xalqaro standartlarga o‘tishga asoslangan rivojlanishning yangi taraqqiyot yo‘lini belgilab oldi.

Bugungi kunda jaxondagi neft va gaz sanoati yetakchilari bilan faol hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekiston -da uglevodorodlarni qazib olish va qayta ishlash jarayonlarida Lukoyl, Gazprom, BP, SOKAR, Tatneft, Air Products va Koreya, Xitoy kabi mamlakatlar kompaniyalari ishtirok etmoqda.

MUNOZARA

Tahlil jarayonida jamiyatning ba’zi xatarlar ham aniqlandi. Jumladan, kompaniyaga qarashli yirik konlarning ishlatilganlik darajasi nisbatan yuqoriligi (80-90 foiz) uglevodorodlar qazib chiqarishning o‘sish sur’atlari pasayishiga hamda xom ashyoning komponent tarkibi yomonlashishiga ta’sir etadi [5]. Bundan tashqari, jamiyat aktivlari tarkibida debitor qarzdorliklar ulushining yuqori bo‘lishi va bu aylanma mablag‘lar aylanishining hamda likvidlilik darajasining pasayishiga olib kelayotganligi ham katta xavf sifatida baholanishi zarur.

“O‘zbekneftgaz” AJ tomonidan 2021-yilda dunyoning yetakchi agentliklari hisoblangan “S&P Global” va “Fitch Ratings” korporativ kredit reytingi olindi. 2022–2023-yillar davomida esa xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan “O‘zbekneftgaz” AJ korporativ kredit reytingi yangilandi.

Mazkur yo‘nalishda “Rothschild & So.” boshchiligida xalqaro konsalting va yuridik kompaniyalar guruhi jalb qilindi (“Ernst&Young”, huquqiy masalalar bo‘yicha “White&Case”, strategik rivojlantirish masalasi bo‘yicha

“Boston Consulting Group”, korporativ boshqaruv masalasi bo‘yicha hamda ESGni tatbiq qilish bo‘yicha “PricewaterhouseCoopers”). Konsultantlar jamiyatning IPOga tayyorligini kompleks diagnostika (due diligence) qildi va dunyodagi yetakchi fond birjalarining talablariga muvofiqlashtirish va xalqaro standartlarni joriy qilish bo‘yicha tavsiyalarni (red flag report) ishlab chiqdi.

Ma’lumki, IPOga chiqish aksiyadorlik kapitali likvidligini oshishiga ta’sir qilish bilan bir vaqtda joriy xarajatlarni qoplash, qarz yuklamasini kamaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yirik loyihalarni amalga oshirish va boshqa xarajatlarga yo‘naltirilishi mumkin bo‘lgan uzoq muddatli moliyaviy resurslarni tashqaridan jalb qilish imkoniyatini yaratadi [6].

Shundan kelib chiqqan holda hozirgi paytda maslahatchilar jamoasi tomonidan loyihani amalga oshirishning 3-bosqichi belgilangan “Yo‘l xaritasi” tayyorlangan, ya’ni IPOga tayyorligini dastlabki baholash, qarz portfelini tahlil qilish va qayta yo‘naltirish hamda uchinchi bosqichda IPOga tayyorgarlik ko‘rish.

2023-yilning oktyabr oyi oxirida “S&P Global Ratings” o‘z hisobotlarida “O‘zbekneftgaz” AJning reytingini “VV-”dan “V+”ga tushirdi [7].

Kompaniyaning reytingi nisbatan past tavakkalchilik darajasida (VV- edi, endi esa u pastroq darajaga (V+) tushdi, bu yerda risklar yuqori, lekin moliyaviy majburiyatlarni bajarish, ya’ni kreditorlar oldidagi qarzni to‘lash imkoniyati mavjud.

Agentlik ma’lumotlariga ko‘ra, “O‘zbekistan JTL” zavodida lolyihani amalga oshirish davomiylik nuqtasining siljishi (ya’ni uzoqroq ishga tushirilishi), yuqori foiz xarajatlari va mamlakatda gaz mavjudligi bilan bog‘liq umumiy havotirlar tufayli kredit ko‘rsatkichlarining sezilarli yaxshilanishi noaniq.

Reyting agentligi tahlilchilarning prognozlariga ko‘ra, gaz xomashyosi mavjudligining biroz cheklanganligi sababli O‘zbekiston JTLni loyihaviy quvvatga o‘tkazilishi yana ikki-uch yil davom etishi mumkin.

Shu bilan birga, reyting agentligi tomonidan jamiyat kredit reytingini avvalgi darajaga ko‘tarish shartlari sifatida jumladan, quyidagilar ko‘rsatib o‘tilgan:

- agar aylanma mablag‘larning o‘zgarishiga qadar operatsion faoliyatdan olingan pul oqimi ((funds from operations – FFO) / qarz”) barqaror bo‘lsa;
- operatsion faoliyatdan doimiy ijobiy erkin pul oqimi bilan;
- likvidlik ko‘rsatkichlari yaxshilangan taqdirda;
- kapital xarajatlarga nisbatan qat’iy va bashorat qilinadigan moliyaviy siyosat, kutilgan sof daromadning 50 foizdan oshmaydigan dividend to‘lovlari va qarz hisobidan moliyalashtirilgan yirik xaridlarning yo‘qligi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2024-yil va undan keyingi davrda “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati faoliyatini barqarorlashtirish, moliyaviy-xo‘jalik samaradorligini ta’minlash maqsadida quyidagilarni ko‘zda tutuvchi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- xarajatlarni maqbullashtirish, operatsion faoliyat samaradorligini oshirish dasturini amalga oshirish;
- boshqarma va zavodlarining energiya samaradorligi sohasidagi texnik siyosatni amalga oshirish;
- biznes risklarni boshqarish;
- tasarrufdagi konlardan uglevodorod xom ashyosini qazib chiqarish prognoz ko‘rsatkichlarini shakllantirishga qaratilgan geologik-texnik tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;
- kompaniyaning tashkiliy, ishlab chiqarish va moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarini boshqarishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish jarayonlarini davom ettirish;
- ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG – Environmental, Social, and Corporate Governance) standartlarini joriy etish;
- moliyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish, shuningdek, korrupsion risklarni minimallashtirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish va boshqalar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, neft-gaz majmuasi mamlakat iqtisodiyoti rivojiga katta hissa qo‘shmoqda, shuning uchun uning rivojlanish tendensiyalarini muntazam tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir. Moliyaviy ko‘rsatkichlarning iqtisodiy va statistik tahlili natijalariga ko‘ra neft-gaz kompleksini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash, ijobiy va salbiy jarayonlarga baho berish, istiqboldagi istiqbollarni belgilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ларионова Е.И., Попова А.А., Шпаковская Е.П. Анализ финансовых показателей нефтедобывающих компаний // Вопросы статистики. 2017. № 7. С. 17-27.
2. J.Umurzakov "Neftgaz korxonalarida geologiya-qidiruv ishlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish" Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 2, April 2023. ISSN: 2181-1016/
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi "Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash, neft-gaz tarmog'ini moliyaviy sog'lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4388-sonli qarori.
4. Гайфуллина М.М., Маков В.М. Оценка развития нефтеперерабатывающего сектора Российской Федерации // Нефтегазовое дело. 2016. Т. 14. № 4. С. 208.
5. Жуков С.В., Золина С.А. США: финансовые рынки и развитие сектора неконвенциональной нефти // Мировая экономика и международные отношения. 2016. Т. 60. № 11. С. 14-24.
6. Бакиева И.А,, Умурзаков Ж.Ш. "Оценка финансово-экономической деятельности нефтегазовых компаний", Совместная международная научно-практическая конференция ТФИ и Уральского государственного экономического университета на тему: "Трансформация бизнес-процессов в условиях цифровизации экономики и обеспечения финансовой безопасности", сб.науч. ст. / редкол.: Н.С.Касимова (отв. ред.) [и др.]. – Ташкент: ТФИ, 2023. – 638 с.
7. https://disclosure.spglobal.com/ratings/ru/regulatory/article "Рейтинг АО "Узбекнефтегаз" понижен с "BB-" до "B+" из-за снижения показателей кредитоспособности и ограниченной ликвидности; прогноз – "Стабильный", 30 октября 2023 г.

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

KORXONALARDA SAVDO MARKETING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH



Sobirov Azizbek Avzbekovich
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Marketing” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada korxonalarda savdo marketingi faoliyatini samaradoriligin baholashning ilmiy-nazariy jihatlari o‘rganilgan. Marketing taqsimot kanallari ishtirokchilarining iqtisodiy sinergiya samarasi va savdo marketingi samaradorligini baholash bo‘yicha uslubiy yondashuvlar o‘rganilgan. Marketing samaradorligini iqtisodiy natajalar, mijoz va hamkorlar nuqtayi-nazaridan baholash bo‘yicha uslubiy yondashuv taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Korxona, korxona marketing, savdo, savdo marketingi, marketing samaradorligi, sinergiya samarasi.

Abstract: The article examines the sciyentific and theoretical aspects of assessing the effectiveness of trade marketing at enterprises. The corporate customer segments are classifiyed. The viyews of sciyentists on wholesale and retail trade have been studiyed. Methodological approaches to assessing the effectiveness of economic synergy and the effectiveness of sales marketing of participants in marketing sales channels are analyzed, as well as theoretical aspects of indicators for assessing the effectiveness of marketing from the point of viyew of the consumer.

Key words: Enterprise, corporate marketing, sales, sales marketing, marketing efficiyency, synergy.

Аннотация: В статье рассматриваются научно-теоретические аспекты оценки эффективности сбытовой маркетинговой деятельности на предприятиях. Изучены методические подходы к оценке эффективности экономической синергии и маркетинга сбыта участников маркетинговых каналов сбыта. Предлагается методический подход к оценке эффективности маркетинга с точки зрения экономических результатов, клиентов и партнеров.

Ключевые слова: Предприятие, маркетинг предприятия, сбыт, маркетинг сбыта, эффективность маркетинга, синергетический эффект.

KIRISH

Savdo marketingi (torgovy marketing, trade marketing) – bu tarqatish zanjiriga ta’sir o‘tkazish orqali sotishni ko‘paytirishga imkon beradigan zamonaviy marketing sohalaridan biridir. Tarqatish zanjiri esa ishlab chiqaruvchidan – yakuniy iste’molchi (distribyutor, ulgurji savdo va chakana savdo) o‘rtasidagi barcha bo‘g‘inlarini o‘z ichiga oladi.

Savdo marketingi tizimida bozor mexanizmlarini shakllanishi uchun raqobatchilar va iste’molchilar xulq-atvorining shakllarini, raqobatli va zaxiralarni ichki manbalari chuqur anglash lozim. Zamonaviy sharoitda savdo marketingi samaradorligini baholash borasida ilmiy ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Korxonalarning savdo faoliyati sohasiga investitsiya qilingan resurslardan samarali foydalanish va ta’minot zanjiri ishtirokchilari o‘rtasida xarajatlarni qisqartirish orqali iste’molchilarga qiymat yaratish zamonaviy B2B marketingining asosiy maqsadi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Shu munosabat bilan, mahalliy va xorijiy adabiyotlarda savdo marketing faoliyati natijadorligi va samaradorligini baholash uchun turli yondashuvlar taklif etilgan, jumladan: javobgarlik ko‘rsatkichlari tizimi (R.Frimen, 2015 g.), samaradorlik piramidasi (D.Makneyr, R.Lanch, K.Krosu, 2010 g.), faoliyat ko‘rsatkichlari piramidasi (Djadson A., 2011 g.); faoliyatning integratsiyalashgan ko‘rsatkichlari (Dikson Dj., 2012 g..), balansli ko‘rchatkichlar tizimi (D.P.Norton, R.S. Kaplan, 2002 g.), YER2M modeli [1] (K. Roberts, P.Adams, 2013 g.), panel vositalar o‘lchovi/ma’lumotlar doskasi (Tindoll G., 2018 g.), faoliyat ko‘rsatkichlarini o‘lchashning yagona o‘lchovi (Natxoll L., 2013 g.) kabilar.

Korxona marketing faoliyatini baholashda ko‘plab yondashuvlarning asosiy kamchiligi – bu uning moliyaviy holatini tavsiflovchi o‘lchov jarayonida faqat miqdoriy ko‘rsatkichlardan foydalanishidir. Ammo faqat moliyaviy ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratish korxona strategiyasini amalga oshirish yo‘nalishlarini aniqlash va rivojlanishining aniq prognozini ishlab chiqishga imkon bermaydi. K.Redchenko ta’kidlaganidan, amalda menejerlarning diqqatlari, birinchi toifadagi ko‘rsatkichlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu biznes jarayonlarining miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha nazoratsiz qolishiga olib keladi [2. 272 s.]. U balansli ko‘rsatkichlar haritasini ikki guruhga birlashtirishga e’tibor qaratadi, ya’ni erishilgan natijalarni o‘lchaydigan va ushbu natijalarga erishishni ta’minlaydigan ko‘rsatkichlar.

A Ye.Nili tadqiqotlarida “korxona samaradorligini faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholash metodologiyasi tashkilotning kelajakdagi iqtisodiy qiymatining o‘sishini ta’minlamaydi” [3. 398 s.] degan fikrni ilgari suradi. Shuning uchun savdo marketingi samaradorligini baholashning eng samarali vositasi bu Nortona-Kaplana tomonidan tavsiya etilgan muvozanatli ko‘rsatkichlar tizimi (Balanced Scorecard – BSC”)” [4. 304 s.] hisoblanadi. Ushbu o‘lchov strategiya va moliyaviy maqsadlar, mijozlar, biznesning ichki jarayoni, xodimlarning ta’lim va malakaviylik darajasi kabi to‘rt xil yo‘nalish bo‘yicha guruhlangan ko‘rsatkichlar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Baholashning afzalliklaridan biri uning bloklari soni, xususiyati va nomlarini o‘zgartirish imkoniyatlarining mavjudligidir

Lourens S. Meyzel [5. P. 45-62], tomonidan ushbu o‘lchovga “xodimlarning ta’lim va malakaviylik darajasi” ko‘rsatkichlarini “inson kapitali”ga o‘zgartirgan. D.Kramchaninova [6. 150-154 s] ikkita blokni – “hamkorlararo biznes-jarayonlar”ni kiritishni taklif qilgan, ular tarkibida integratsiyalashgan korxonalarni yaratish maqsadini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar va texnologik jarayonning xususiyatlarini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimini takomillashtirgan.

So‘nggi paytlarda logistikada balansli ko‘rsatkichlar jadvaliga asoslangan metrikalardan foydalanish amaliyoti ilmiy tadqiqotlarda keng qo‘llanilmoqda, ammo savdo marketingi ko‘rsatkichlarning tarkibi va tuzilishi bo‘yicha umumiy nuqtayi nazar mavjud emas.

Saplina T.I., Kurlikova A.V.lar tomonidan korxonalar savdo faoliyati samaradorligini balans ko‘rsatkichlari tizimini aniqlagan, ya’ni “korxonaning holati, istiqboli, rivojlanishi va moddiy-texnika ta’minoti faoliyati bo‘yicha ma’lumotlarga asoslanib, strategik maqsadlarga erishish uchun resurslar oqimini boshqarish imkonini beradigan” usulni tavsiya etgan [7. 314-317 s].

Mualliflar xarajatlar tasnifi va strategik foyda modeli asosida balansli ko‘rsatkichlar jadvalini shakllantirish bo‘yicha o‘zlarining qarashni taqdim etadi. Baholashda logistika xarajat va logistik natijalar balansini tuziladi. Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuvning asosiy maqsadi moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan ko‘rsatkichlarga asoslanib savdo natijadorligini aniqlash va ularga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi aloqalarni ta’minlashdir.

M.Kristofer “balansli ustunlik diagrammasi” konsepsiyasini taklif qilgan. Baholashga ko‘ra “korxonalar marketing faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari sifatida “asosan moliyaviy natijalarni o‘lchashga yo‘naltirilgan an’anaviy baholash usullaridan ko‘ra menejmentni strategik maqsadlarga erishish vositalarini o‘lchash maqsadga muvofiq”ligini [8. 200 s] e’tirof etadi. Muallifning logistika samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlari quyidagilardir: xizmat ko‘rsatish sifati, buyurtmani mukammal bajarish, ta’minot zanjiridagi ishlash muddati, logistika xizmatlarining umumiy xarajatlari.

Keyingi tadqiqotlarda M. Kristofer va X. Pek marketing logistikasida balansli ko‘rsatkichlar jadvalini tuzishda moliyaviy ko‘rsatkichlardan foydalanishni rad etishni taklif qiladi, chunki ular “... alohida kompaniya faoliyati bilan bog‘liq va o‘tmishga yo‘naltirilgan”, va faqat “... kelajakka va kompaniyadan tashqariga qarashga imkon beradigan” moliyaviy bo‘lmagan ko‘rsatkichlardan foydalanish eng samarali yo‘l sifatida qaraydi.

Olimlar o‘zlarining savdo marketingi bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan balans ko‘rsatkichlarini taklif qiladilar: talabni boshqarish (strategiya va imkoniyatlar, assortimentni optimallashtirish, sotishni rivojlantirishni optimallashtirish, mahsulot tarqatish tizimini optimallashtirish), ta’minotni boshqarish (yetkazib beruvchilar zanjiri, optimallashtirilgan ishlab chiqarish zaxiralari, doimiy ravishda to‘ldirib borishlik, avtomatlashtirilgan buyurtmalar tizimi, operatsiyalarning ishonchliligi, cross-docking) zarur texnologiyalar (elektron ma’lumotlar almashinuvi (EDI), elektron to‘lovlar, mahsulotni kodlash va ma’lumotlar bazasini qo‘llab-quvvatlash, AVS-kosting) [8. 200 s]. Ammo bizning fikrimizcha, moliyaviy ko‘rsatkichlarga e’tibor berilmasdan qaror qabul qilishlik marketing faoliyati uchun samaradorlik o‘lchovlarini aniq ifodalashga imkon bermaydi.

Marketing faoliyati samaradorligini baholashda M.Djeffri tomonidan 15 indikator taklif etiladi: brenddan xabardorlik, test-drayv, mijozlar oqimi, mijozlar ehtiyojini qondirilishi, jalb qilingan mijozlar salmog‘i(ulushi), foyda, sof joriy qiymat, ichki rentabellik darajasi, bitta mijozdan olinadigan qiymati; reklama xarajatlar, konvertatsiyalangan tranzaksiyalar, reklamaga qilingan investitsiyalar qoplanishi, tovarlarni qaytarishlar soni, raqamli marketing va WOM uchun xarajatlar [9. 384 s].

Shu bilan birga, muallif barcha ko‘rsatkichlarni to‘rt guruhga ajratadi. Birinchi guruh (1 dan 5 gacha) – klassik marketingning moliyaviy bo‘lmagan ko‘rsatkichlari; ikkinchi guruh (6–9) – moliyaviy ko‘rsatkichlar; uchinchi guruh (10) faqat mijozlar qiymatini moliyaviy baholash bilan ifodalanadigan ko‘rsatkichlar; to‘rtinchi guruh (11-15) – internet-marketing imkoniyatlari bilan bog‘liq yangi avlod ko‘rsatkichlari.

Marketingda faoliyati samaradorligini baholash nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan A.Praysner ishi bo‘lib, unda muallif nemis kompaniyalari faoliyatini o‘rganish asosida sohalar bo‘yicha guruhlangan 81 ko‘rsatkichlar ro‘yxatini taklif qildi[10. 308 s]: “Xarajatlar/foyda”, “samaradorlik”, “sotish”, “logistika”, “mijozlar”, “axborot va innovatsiyalar”, “savdo sheriklari”. Aslida A.Praysner taklif qilgan tizimda mijozlar komponentining ko‘rsatkichlari ishlatilgan bo‘lib, ular beshta istiqbolga bo‘lingan: mijozlar bilan ishlash (iqtisodiy samara), mijozlar bilan munosabatlar, voqealar (sifatni yaxshilash bo‘yicha qarorlar natijasi) mijozlarga xizmat ko‘rsatish, axborot va innovatsiyalar (mijozlar haqidagi ma’lumotlar bazasi bilan ishlash va mahsulotni ishlab chiqish, takomillashtirish). Shunday qilib, uning balansli ko‘rsatkichlar xaritasining barcha tarkibiy qismlari mijozlar bilan ishlash jarayoni va natijalariga bevosita bog‘liq.

O.V. Kitova [11. 328 s] marketing va sotish samaradorligini R.Kaplan va D.Norton tomonidan ishlab chiqilgan muvozanatli ko‘rsatkichlar asosida baholashni taklif qiladi: moliya va umumiy samaradorlik, mijozlar, ichki jarayonlar, ta’lim darajasi va malaviylik. Tadqiqotchilar ushbu ko‘rsatkichlarga marketing faoliyati samaradorligini boshqarishning asosiy vositasi sifatida korporativ boshqaruv axborot tizimlaridan foydalanish ko‘rsatkichini qo‘shadi.

Shuningdek, O.K. Oynerning ishi ham diqqatga sazovor. Marketing samaradorligi ko‘rsatkichlari tizimini shakllantirishni taklif qiluvchi Oiner qo‘yidagi ko‘rsatkichlar asosida baholashni taklif etadi: marketing mahsuldorligi, marketing natijadorligi va tejamkorligi, marketing samaradorligi [11. 27-46 s]. Shu bilan birga, mahsuldorlik “kirish” (korxona resurslari va aktivlari) va “mahsulot” (mijozlar ehtiyojini qondirish darajasi, xizmat ko‘rsatish sifati, marketing harakatlarining moslashuvchanligi va boshqalar) o‘rtasidagi munosabatni aks ettiradi. O‘z navbatida, samaradorlik (ichki samaradorlik) va natijadorlik esa (tashqi samaradorlikni) belgilaydi.

R. Best marketingning samaradorligini o‘rganayotganda ichki va tashqi samaradorlikni ham ajratish lozimligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, ichki (moliyaviy) samaradorlik ko‘rsatkichlarini, raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarini va rentabellik ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi. O‘z navbatida tashqi samaradorlik uchta yo‘nalishni qamrab oladi: bozor samaradorligi (o‘sish sur’atlari, bozor ulushi, bozor jozibadorligi, sanoatning jozibadorligi va bozor talabi salohiyati); raqobatbardoshlik (firmaning raqobatbardosh narx, mahsulot va xizmatlarning sifati, tovar belgisi va xarajatlarni taklif qilish nuqtayi nazaridan samaradorligi); mijozlar faoliyati (qoniqish, ushlab turish, moyillik, mijozlarning xabardorligi va mijoz taxmin qilinadigan nafliligini baholash) [11. 760 s].

Marketing samaradorligini baholash zarurligini hisobga olgan holda, T. Ambler [12. 400 s] marketing ko‘rsatkichlarining uchta guruhini ajratib ko‘rsatdi: tashqi bozor ulchovi; brend kapitali; ichki bozor o‘lchovi, ya’ni innovatsiyalar holatini va xodimlarning izchilligi va moyilligini baholash; tashqi va ichki ko‘rsatkichlarni baholash uchun ma’lumot to‘plash va tahlil qilishga qaratilgan jarayon ko‘rsatkichlari;


ASOSIY QISM

Shunday qilib, mavjud tadqiqotlar marketing samaradorligini baholash muammosini rivojlantiradi, ammo samaradorlik ko‘rsatkichlarining tarkibi va tuzilishi bo‘yicha umumiy nuqtayi nazar mavjud emas degan xulosa chiqarishga imkon beradi. Ushbu jihatlar balans ko‘rsatkichlar jadvaliga asoslanib savdo marketingi samaradorligini baholashning uslubiy qoidalari aniqlash lozimligini anglatadi. Savdo marketingi uchun xaridorlarga mahsulot yetkazib berish va ularni oxirgi iste’molchiga sotilishini ta’minlashda biznes hamkorlarning o‘zaro ta’siri muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib, quyidagi asosiy istiqbollarni ajratib ko‘rsatish taklif etiladi: iqtisodiy natijalar, mijozlar, sheriklar, savdo marketingi harakatlari. Balanslangan ko‘rsatkichlar sifatida an’anaviy “biznes jarayonlari” va “kadrlar tayyorlash” kabi tarkibiy qismlari savdo marketingi samaradorligini aniqlashning bir qismi sifatida qaralishi lozim.

Yuqoridagilar bilan birga savdo marketingi jarayonida vujudga keladigan sinergeya samarasiga erishish omillarini ham hisoblash maqsadga muvofiq bo‘lib, ular quyidagilar:

- marketingning tarqatish kanallari ishtirokchilari faoliyatining yuqori iqtisodiy natijalariga erishishi tufayli olingan iqtisodiy sinergeya (sotish hajmining o‘sishi, rentabellikning oshishi, xarajatlarning pasayishi);
- tovarlarning iste’mol qiymatini oshirish jarayonida paydo bo‘ladigan bozor sinergiyasi, bu o‘z navbatida iste’molchilar va xaridorlarning tovardan qoniqishi va iste’molchilar moyilligini oshishiga ta’sir qiladi, doimiy xaridorlar doirasi kengayadi;
- tarqatish kanallarida marketing logistikasining biznes jarayonlarini optimallashtirish va ularning ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir qiymatini oshirishga imkon beradigan biznes sheriklarining moyillik darajasi, samarali hamkorlik va sheriklarning so‘rovlariga tezkor javob berish natijasida yuzaga keladigan o‘zaro ta’sir asosida yuzaga keladigan sinergiya;
- optimal marketing arxitekturasini shakllantirish doirasida savdo jarayonlari ishtirokchilarining o‘zaro kommunikatsiya jarayonida yuzaga keladigan marketingni tarqatish kanallari ishtirokchilarining sinergeya samarasi.

Sinergiya samarasini oshirish orqali savdo marketingining umumiy samaradorlikni ta'minlash savdo ishtirokchilarining uzoq muddatli barqaror raqobatbardosh ustunliklarni ta'minlash imkoniyati mavjud. Shunday qilib, korxonalar rivojlanishining strategik yo'nalishlarini belgilaydigan savdo marketingi samaradorligining strategik ko'rsatkichlari xaritasi modeli 1-rasmga ko'ra shakllantirish tavsiya etiladi.



1-rasm: Savdo marketingi samaradorligining baholash arxitekturasi[1]

Savdo marketingi samaradorligini baholash jarayonida korxonalarning marketing dasturlarini – marketing o'lchovlarini amalga oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi, ular marketingning samaradorligini iqtisodiy nuqtayi nazardan baholash, moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ko'plab ko'rsatkichlardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Marketing ko'rsatkichlari biznes maqsadlariga erishish darajasini baholashga imkon beradi va korxonalarning marketing faoliyati natijalarini baholash uchun ishlatiladi. Savdo marketingi nuqtayi nazaridan marketing ko'rsatkichlari mahsulotni tarqatish kanallarida murakkab marketing o'zaro ta'sirini amalga oshirish va eng samarali qiymat taklifini yaratilishini ta'minlash bo'yicha bozor jarayonidagi harakatlarini baholashga imkon beradi.

Ishlab chiqaruvchi, distribyutor va chakana sotuvchilar o'rtachidagi o'zaro sinergiya samarasini aniqlash va mahsulotni tarqatish kanallari faoliyatini samaradorligini baholashga imkon beradigan marketing ko'rsatkichlari to'plami ni Germanchuk A.N. tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi (1.2-jadval).

1-jadval: Marketing samaradorligini mijoz nuqtayi-nazaridan baholash ko'rsatkichlari[2]

Baholash ko'rsatkichlar	Marketingning taqsimot kanallari bo'yicha ishtirokchilarni baholash ko'rsatkichlari		
	Ishlab chiqaruchilar	Distribyutorlar	Chakana sotuvchilar
Mijoz qiymati	Iste'mol qiymatini shakllanishida ishlab chiqaruvchilar ulushi, %	Iste'mol qiymatini shakllanishida distribyuterlar ulushi, %	Iste'mol qiymatini shakllanishida savdo vositachilarining ulushi, %
Mijozlar va iste'molchilarning qoniqishi va moyilli	Iste'molchilarning qoniqish indeksi (NPSC) – ishlab chiqaruvchilarning brendiga iste'molchilarning sodiqligi asosida aniqlanadi	Iste'molchilarning qoniqish indeksi (NPSC) – Distribyutorlar brendiga iste'molchilarning sodiqligi asosida aniqlanadi	Iste'molchilarning qoniqish indeksi (NPSC) – Savdo vositachilarning brendiga iste'molchilarning sodiqligi asosida aniqlanadi

1 Muallif ishlanmasi.
2 Muallif ishlanmasi.

Baholash ko‘rsatkichlar	Marketingning taqsimot kanallari bo‘yicha ishtirokchilarni baholash ko‘rsatkichlari		
	Ishlab chiqaruchilar	Distribyutorlar	Chakana sotuvchilar
Anketa so‘rovnomalari asosida aniqlanadi	Ishlab chiqaruvchining brendini o‘z do‘stingizga taklif qilasizmi? Shkala: 1-5: Me’zon: 1-2 – brendni tanimaydi; 3- betaraflar; 4-5 – brenddan qoniqqanlar NPSC = d (P)% – d (K)%	Distribyutorlar brendini o‘z do‘stingizga taklif qilasizmi? Shkala: 1-5: Me’zon: 1-2 – brendni tanimaydi; 3- betaraflar; 4-5 – brenddan qoniqqanlar NPSC = d (P)% – d (K)%	Savdo vositachilarning brendini o‘z do‘stingizga taklif qilasizmi? Shkala: 1-5: Me’zon: 1-2 – brendni tanimaydi; 3- betaraflar; 4-5 – brenddan qoniqqanlar NPSC = d (P)% – d (K)%
	Iste’molchilarning sodiqlik indeksi (NPSC) – Distribyuterlarning ishlab chiqaruvchilar brendiga sodiqligini aniqlanadi	Savdo vositachilarining qoniqish indeksi (RSI) – savdo vakillarining distribyuterlar faoliyatiga bergan bahosi orqali aniqlanadi	Iste’molchilarning qoniqish indeksi (CSI) – Savdo vositachilarning brendiga iste’molchilarning sodiqligi asosida aniqlanadi
	Ishlab chiqaruvchining brendini o‘z do‘stingizga taklif qilasizmi? Shkala: 1-5: Me’zon: 1-2 – brendni tanimaydi; 3- betaraflar; 4-5 – brenddan qoniqqanlar NPSC = d (P)% – d (K)%	$RSI_D = \sum_{i=1}^{n} a_i r_i;$ a_i – i omilning ahamiyatli koeffitsiyenti r_i – i omil bo‘yicha yuqori bahosi	$CSI_D = \sum_{i=1}^{n} a_i c_i;$ a_i – i omilning ahamiyatli koeffitsiyenti c_i – i omil bo‘yicha yuqori bahosi
Yangi mijozlarni jalb qilish	Mijozlar bazasi (N); Ma’lum vaqt davomida jalb qilingan mijozlar soni (N_n); Mijozlarni jalb qilish darasi (C_{mijoz}) $C_{mijoz} = \frac{N_n}{N} \times 100$	Mijozlar bazasi (N); Ma’lum vaqt davomida jalb qilingan mijozlar soni (N_n); Mijozlarni jalb qilish darasi (C_{mijoz}) $C_{mijoz} = \frac{N_n}{N} \times 100$	Vaqt davomidagi savdo hajmi (ΔT); $\Delta T = \frac{T_1}{T_2} \times 100$ T_1 – chakana sador aylanmasi hajmi; T_2 – ba’siz davr bo‘yicha chakana tovar aylanmasi hajmi;
Iste’molchilarning davriy qiymati	Iste’molchilarning davriy qiymati (CLV – Customer Lifetime Value); $CLV = \bar{A} \times S \times t$ $\bar{A}$ – yillik byurtma qiymati; S – yillik sotuv hajmi; t – iste’molchi bilan o‘zaro munosbatlar davri, yil	Iste’molchilarning davriy qiymati (CLV – Customer Lifetime Value); $CLV = \bar{A} \times S \times t$ $\bar{A}$ – yillik byurtma qiymati; S – yillik sotuv hajmi; t – iste’molchi bilan o‘zaro munosbatlar davri, yil	O‘rtacha cheklar miqdori (AC) $AC = \frac{T_{ed}}{n}$ T_{ed} – kunlik savdo hajmi; n – doimiy (mukammal) savdolar soni;
	Mijozlarni ushlab qolish darajasi, CRR,% da; $CRR = \frac{N_{kon} - N_n}{N_{nach}} \times 100\%$ Mijozlarni yo‘qotish darajasi, CR,% da; $CR = 1 - CRR$	Mijozlarni ushlab qolish darajasi, CRR,% da; $CRR = \frac{N_{kon} - N_n}{N_{nach}} \times 100\%$ Mijozlarni yo‘qotish darajasi, CR,% da; $CR = 1 - CRR$	
	Qayta harid darajasi – RPR: $RPR = \frac{N_r}{N} \times 100$ N_r – bir nesta xaridni amalga oshirganlar soni;	Qayta harid darajasi – RPR: $RPR = \frac{N_r}{N} \times 100$ N_r – bir nesta xaridni amalga oshirganlar soni;	

2-jadval: Marketing samaradorligini xamkorlar nuqtayi-nazaridan baholash ko‘rsatkichlari3

Baholash ko‘rsatkichlar	Marketingning taqsimot kanallari bo‘yicha ishtirokchilarni baholash ko‘rsatkichlari		
	Ishlab chiqaruchilar	Distribyutorlar	Chakana sotuvchilar
Tashkiliy munosabatlar qimatdorligini oshishi	Distribyutorlar bilan munosabatlar darajasi; Chakana sotuvchilar bilan munosabatlar darajasi	Ishlab chiqaruvchilar bilan munosabatlar darajasi; Chakana satuvchilar bilan munosabatlar darajasi	Ishlab chiqaruvchilar bilan munosabatlar darajasi; Distribyutorlar bilan munosabatlar darajasi;
Hamkorlarning so‘rovlariga tezkor javob berish darajasi	Buyurtmalardagi o‘zgarishlarga javob berishning moslashuvchanligi unga mos xolda o‘zgartirishlar kiritish tezligi (FR – flexibility of response): $FR = \frac{H_r}{H} \times 100\%$ H_r – hamkorning yetkazib berish shakli va mahsulot hajmini o‘zgarishi asosida amalga oshirilgan sotuvlar; H – jami sotuvlar.	Buyurtmalardagi o‘zgarishlarga javob berishning moslashuvchanligi unga mos xolda o‘zgartirishlar kiritish tezligi (FR – flexibility of response): $FR = \frac{H_r}{H} \times 100\%$ H_r – hamkorning yetkazib berish shakli va mahsulot hajmini o‘zgarishi asosida amalga oshirilgan sotuvlar; H – jami sotuvlar.	

Marketing ko‘rsatkichlari bu birinchi navbatda faoliyatning har qanday tomonini baholash jarayonida ishlatiladigan miqdoriy ko‘rsatkichlardir. Miqdoriy ko‘rsatkichlarni hisoblash zarur ma’lumotlarning yetishmasligi muammosi mavjud. Shunga asoslanganda tadqiqotlarda ko‘proq marketing tarsimot kanallari ishtirokchilarining savdo jarayonlarida sa’y-harakatlarini baholash uchun sifat ko‘rsatkichlaridan foydalanish taklif etiladi.

Ishlab chiqaruvchilarning savdo marketingi arxitekturasining asosiy funksional imkoniyatlaridan foydalanish asosida samaradorligini baholash uchun quyidagi sifat ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish tavsiya etiladi:

Savdo kanallari ishtirokchilarining menejmet faoliyatini baholash bo‘yicha ko‘rsatkichlar tizimi: assortiment strategiyasini ishlab chiqish, iste’molchilarning o‘zgaruvchan talablariga tezkor javob berish darajasi, assortimentni yangilash darajasi, tovarning xayotiylik yo‘lini boshqarish, qadoqlash sifati va dizayni, tovarning aloxida toifalari bo‘yicha sotish prognozi, sotish tendensiyalarini kuzatish, savdo kanallari ishtirokchilarining narx siyosatini baholash bo‘yicha ko‘rsatkichlar tizimi, narxlashtirish siyosati, maqsadli narx belgilash, mahsulot qiymatini aks ettiruvchi narxni iste’molchilar tomonidan anglash darajasi, mahsulot doirasidagi narxlarni farqlash darajasi, iste’molchilar uchun narx bo‘yicha rag‘batlantirish siyosati va raqobatchilar narxlarini manitoring qilish.

Savdo kanallari ishtirokchilarining brenddan xabardolik faoliyatini baholash bo‘yicha ko‘rsatkichlar tizimi: reklamaning faolligi, distribyuterlar va chakana sotuvchilar uchun sotishni rag‘batlantirish, iste’molchilar uchun sotishni rag‘batlantirish, jamoatchilik bilan aloqalar, brend kapitali, yakuniy iste’molchilar munosabati va sodiqligi, PR bo‘yicha faoliyat, ma’lumotlar sayti, tovarlarni onlayn sotishi, kontent reklama, ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati.

Savdo kanallari ishtirokchilarining marketolog faoliyatini baholash bo‘yicha ko‘rsatkichlar tizimi: marketinga yo‘naltirilgan faoliyat natijadorligi, marketologning tajribasi, kompitentligi, innovativligi va iste’molchilar bilan munosabatlarni tashkil eta olish darajasi va h.k.

XULOSA

Savdo marketingi samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkich uning savdo jarayonlari ishtirokchilarning marketing faoliyati ko‘rsatkichlari bo‘lib, u iste’molchilar talabini maqsadli qondirish, brendga moyilligini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shakllantirilgan uslubiy yondashuv korxonalar uchun savdo marketingi samaradorligini baholashga va natijalari asosida raqobatda ustunlikni ta’minlashga qaratilgan strategik maqsadlar belgilash ikonini beradi. Shunindek, marketing ko‘rsatkichlarini qo‘llagan holda savdo marketingi samaradorligini baholash natijalari korxonalar menejmentiga moliyaviy faoliyati bilan birlashtirilgan shakllarda amalga oshirishilishi lozim.

Foydalnilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Effective Progress and Performance Measurement – samaradorlik va natijadorlikning o‘lchash. https://studme.org/1668032814935/finansy/model_er2m_adamsa_robertsa

3 Germanchuk. A.N.Formirovaniye sistemы treyd-marketinga na osnove sennostno-logisticheskogo vzaimodeystviya iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2019-yil.

2. Redchenko, K. I. Strategichniy analiz u biznesi / K. I. Radchenko; 2-ge vid., dop. – Lviv : Noviy svit-2000, 2015. – 272 s.
3. Nili, E. Prizma effektivnosti. Karta sbalansirovannыx pokazateley dlya izmereniya uspexa v biznese i upravleniya im / E. Nili, K. Adams, M. Kennerli; per. s angl. – Dnepropetrovsk : Balans-Klub, 2016. – 398 s.
4. Kaplan, R. S. Sbalansirovannaya sistema pokazateley. Ot strategii k deystviyu / R. S. Kaplan, Deyl P. Norton; per. s angl. – M.: ZAO “Olimp-Biznes”, 2018. – 304 s.
5. Lawrence, S. M. Performance Measurement. The Balanced Scorecard Approach /S. M. Lawrence // Journal of Cost Management, 2012. – Summer. – R. 45-62.
6. Kramchaninova, M. D. Teoretiko-metodologichni zasadi partnerstva ta strategichnix alyansiv u menedjmenti promislovix pidpriemstv / M. D. Kramchaninova // Visnik Lvivskoї komersiynoї akademiї, 2015. – Vip. 18. – Ch.
7. Saplina, T. I. Formirovaniye sistemы sbalansirovannыx pokazateley logisticheskoy deyatelnosti predpriyatiya / T. I. Saplina, A. V. Kurlikova // Vestnik Orenburgskogo gosudarstvennogo universiteta, 2018. – № 12. – S. 314 – 317
8. Kristofer, M. Marketingovaya logistika / M. Kristofer, X. Pek.; per. s angl. I. Kasimova. – M.: Izdatelskiy Dom “Texnologii”, 2015. – 200 s.
9. Djeffri, M. Marketing, osnovannыy na dannыx. 15 pokazateley, kotorыe doljen znat kajdыy / M. Djeffri. – Mann, Ivanov i Ferber, 2015. – 384 s.
10. Praysner, A. Sbalansirovannaya sistema pokazateley v marketinge i sbыte. Planirovaniye i kontrol na baze klyuchevыx pokazateley effektivnosti / A. Praysner. – M.: Izdatelskiy dom “Grebennikov”, 2019. – 308 s.
11. Kitova, O. V. Upravleniye effektivnostyu marketinga: metodologiya i proyektnoye modelirovaniye / O. V. Kitova. – M.: INFRA-M, 2019. – 328 s.
12. Oyner, O. K. Osenka rezultativnosti marketinga s pozitsiy sistemы upravleniya biznesom / O. K. Oyner // Rossiyskiy jurnal menedjmenta, 2018. – T. 6. – № 2. – S. 27-46
13. Best, R. Marketing ot potrebitelya / R. Best. – M.: Mann, Ivanov i Ferber, 2012. – 760 s.
14. Ambler, T. Prakticheskiy marketing / T. Ambler; per. s angl. pod obщey red. Yu. N. Kapturevskogo. – SPb.: Izdatelstvo “Piter”, 2009. – 400 s.$
15. Germanchuk A.N. Formirovaniye sistemы treyd-marketinga na osnove sennostno-logisticheskogo vzaimodeystviya. 08.00.05 – Ekonomika i upravleniye narodnым xozyaystvom (po otraslyam sferы deyatelnosti, v t.ch.: marketing) dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni doktora ekonomicheskix nauk. Donesk-2019. st – 475.

MOLIYAVIY FIRIBGARLIKLARGA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Gadaev Ismat Yadgarovich
O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Respublika apparati, Bo‘lim va filiallar xavfsizligini muvofiqlashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi.

Annotatsiya: Moliyaviy firibgarlik global iqtisodiyot uchun jiddiy muammo bo‘lib, unga qarshi kurashishda raqamli texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqola sun’iy intellekt, blokcheyn va katta ma’lumotlar tahlili kabi texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari va ularning rivojlanayotgan mamlakatlardagi qo‘llanilishidagi qiyinchiliklarni tahlil qiladi. Texnologik yechimlar moliyaviy firibgarlikni sezilarli darajada kamaytirishga yordam berishi mumkin, biroq bu jarayonda duch keladigan muammolar va ularning echimlari ham ko‘rib chiqiladi. Maqola texnologik integratsiya, bilim oshirish va xalqaro hamkorlikning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Moliyaviy firibgarlik, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, blokcheyn, katta ma’lumotlar tahlili, texnologik integratsiya.

Abstract: Financial fraud presents a serious threat to the global economy, and digital technologies play a crucial role in combating it. This article explores the potential applications of technologies such as artificial intelligence, blockchain, and big data analytics, focusing on their implementation challenges in developing countries. Technological solutions can significantly reduce financial fraud, but the article also examines the obstacles encountered in this process and their potential resolutions. The importance of technological integration, education enhancement, and international cooperation is emphasized.

Key words: Financial fraud, digital technologies, artificial intelligence, blockchain, big data analytics, technological integration.

Аннотация: Финансовое мошенничество представляет серьезную угрозу для мировой экономики, и цифровые технологии играют ключевую роль в борьбе с ним. В данной статье рассматриваются возможности применения таких технологий, как искусственный интеллект, блокчейн и анализ больших данных, с акцентом на проблемы их реализации в развивающихся странах. Технологические решения могут значительно снизить уровень финансового мошенничества, но в статье также анализируются возникающие при этом препятствия и возможные пути их решения. Подчеркивается важность интеграции технологий, повышения образовательного уровня и международного сотрудничества.

Ключевые слова: Финансовое мошенничество, цифровые технологии, искусственный интеллект, блокчейн, анализ больших данных, технологическая интеграция.

KIRISH

Moliyaviy firibgarliklar – bu iqtisodiyot uchun jiddiy xavf tug‘diruvchi global muammolardan biridir. Har yili dunyo bo‘ylab korporatsiyalar va shaxslar o‘zlarining mablag‘larini ushbu turdagi jinoyatlardan himoya qilish uchun ulkan xarajatlar qilishadi. Moliyaviy firibgarlikning ko‘plab shakllari mavjud, jumladan, kredit kartasi firibgarligi, investitsiya aldashlari, soliq evazionlari va boshqalar. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan bir qatorda, firibgarlar ham yangi usullarni qo‘llashga o‘tmoqdalar, bu esa ularni aniqlash va oldini olishni yanada qiyinlashtirmoqda.

Shu bilan birga, texnologik taraqqiyot firibgarliklarga qarshi kurashishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt, blokcheyn va katta ma’lumotlar tahlili, bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu texnologiyalar moliyaviy firibgarliklarni aniqlash va ularga qarshi kurashishda yangi, samarali yondashuvlarni taqdim etish imkoniyatini beradi. Maqolaning maqsadi shundan iboratki, moli-

yaviy firibgarliklarni oldini olish va ularni aniqlashda raqamli texnologiyalardan qanday foydalanish mumkinligini tahlil qilish va ularning samaradorligini baholashdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy firibgarliklar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar sohasida ko‘plab ilmiy ishlar mavjud. Firibgarlikni aniqlashda sun’iy intellekt (AI) va blokcheyn kabi zamonaviy texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Pomerol va Adam (2019) o‘z ishlarida sun’iy intellektni firibgarlikni aniqlashda qo‘llanilishini batafsil ko‘rib chiqishgan [1]. Ular sun’iy intellektning firibgarlikni oldini olishda qanchalik samarali bo‘lishi mumkinligini tahlil qilishgan va sun’iy intellekt asosidagi tizimlar an’anaviy usullarga nisbatan tezroq va aniqroq natijalar berishini ta’kidlashgan.

Blokcheyn texnologiyasi ham moliyaviy firibgarlikka qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega. Koenig (2018) blokcheynning moliyaviy xizmatlardagi firibgarliklarni aniqlash va ularga qarshi kurashishdagi rolini o‘rganib chiqqan. Uning tadqiqotida blokcheynning ma’lumotlar shaffofligi va o‘zgartirib bo‘lmaydigan xususiyatlarini ta’kidlanadi, bu esa firibgarlik holatlarini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi [2].

Shuningdek, katta ma’lumotlar tahlili moliyaviy firibgarliklarni aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Smith va Tanner (2020) katta ma’lumotlar tahlilining firibgarlik holatlarini aniqlashdagi samaradorligini o‘rganishgan. Ularning tadqiqotida, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali firibgarlikka moyil operatsiyalar tez va samarali aniqlanishi mumkinligi ko‘rsatilgan [4].

Yangi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mashinalar o‘rganish (Machine Learning) texnologiyalari ham moliyaviy firibgarliklarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Chen va boshqalar. (2021) o‘z tadqiqotlarida mashinasozlik o‘rganishining aldash sxemalarini fosh qilishdagi rolini tahlil qilganlar. Ular turli algoritmlar yordamida firibgarlik holatlarini oldini olish va aniqlash bo‘yicha samarali yechimlarni taklif qilishgan [4].

Shuningdek, sun’iy intellektning moliyaviy sohadagi ilovalari tobora kengayib bormoqda. Jackson va Patel (2022) sun’iy intellekt asosida ishlovchi firibgarlikni aniqlash tizimlarining global moliyaviy tizimlardagi ta’sirini ko‘rib chiqqanlar. Ular sun’iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy operatsiyalarni monitoring qilishda qanday yordam berishi mumkinligini tushuntirishgan [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli texnologiyalar moliyaviy firibgarliklarni aniqlashda muhim o‘rin tutadi, ammo rivojlanayotgan mamlakatlarda bu texnologiyalarni qo‘llashda qator qiyinchiliklar mavjud. Quyida keltirilgan jadvallar orqali ushbu qiyinchiliklarni va potensial yechimlarni ko‘rib chiqamiz.

1-jadval: Raqamli texnologiyalarning rivojlanayotgan mamlakatlardagi qo‘llanilishi tahlili

Texnologiya	Qo‘llanilishi	Qiyinchiliklar	Potensial Yechimlar
Sun’iy Intellekt	Firibgarlik holatlarini tez aniqlash	Texnik infraturni yetishmasligi	Hukumat va xususiy sektor investitsiyalari
Blokcheyn	Ma’lumotlarning shaffofligi va o‘zgartirilmasligi	Yaqin infrastruktura va tushuncha yetishmasligi	Ta’lim va texnologik hamkorliklar
Katta Ma’lumotlar	Moliyaviy operatsiyalarni kuzatib borish	Ma’lumotlar bazasini yig‘ish va boshqarish qobiliyatining yetishmasligi	Ma’lumotlarni boshqarish bo‘yicha milliy strategiyalar

Manba: Muallif tomonidan tayyorlangan

Rivojlanayotgan mamlakatlarda sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahlilidan foydalanish asosan texnik va moliyaviy cheklovlarga duch keladi. Masalan, keng qamrovli ma’lumotlar bazasining yo‘qligi va qayta ishlash quvvatining cheklanganligi moliyaviy firibgarlikni aniqlashda jiddiy to‘siqlar yaratadi. Shuningdek, blokcheyn texnologiyasi o‘zgartirib bo‘lmaydigan ma’lumotlar bazasini ta’minlasa-da, bu texnologiyaga oid bilim va tushunchaning cheklanganligi uning samaradorligini pasaytiradi. Biroq ushbu muammolarni hukumat va xususiy sektorning mablag‘ salohiyatini oshirish, shuningdek, texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan milliy dasturlar orqali hal qilish mumkin.

TAKLIFLAR

Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda moliyaviy firibgarlikka qarshi samarali kurashish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqilgan:

- **Infrastrukturani rivojlantirish:** Rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli texnologiyalardan foydalanishning asosiy to‘siqlaridan biri bu yetarli texnik infraturni yetishmasligidir. Hukumatlar va xususiy sektor o‘zaro hamkorlik qilishi kerak, bu esa zamonaviy texnologiyalarni, jumladan, yuqori tezlikdagi internet va ma’lumotlar markazlarini joriy etishni osonlashtiradi.

- **Texnik bilim va ko‘nikmalarni oshirish:** Texnologiyalardan samarali foydalanish uchun mahalliy ishchi kuchining bilim va ko‘nikmalarini oshirish zarur. Hukumatlar va xususiy tashkilotlar texnologiyalarni boshqarish va ulardan foydalanish bo‘yicha tayyorgarlik dasturlarini taklif etishi kerak.
- **Milliy va xalqaro hamkorliklarni kuchaytirish:** Firibgarlikka qarshi kurashishda global hamkorlik muhimdir, chunki firibgarlik harakatlari ko‘pincha milliy chegaralarni kesib o‘tadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilishi, shuningdek, texnologiyalar va bilim almashinuvini kuchaytirishi kerak.
- **Ma’lumotlarni himoya qilish va maxfiylikni ta’minlash:** Raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida ma’lumotlarni himoya qilish va foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini maxfiy saqlash muhim ahamiyatga ega. Bu borada qonunchilikni mustahkamlash va xavfsizlik protokollarini ishlab chiqish zarur.
- **Sun’iy intellekt va mashinasozlik o‘rganish tizimlarini optimalashtirish:** Sun’iy intellekt va mashinasozlik o‘rganish tizimlarini doimiy ravishda yangilab turish va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish muhim. Bu texnologiyalar firibgarlikni aniqlashda yanada samarali bo‘lishi uchun, ularning algoritmlarini mahalliy firibgarlik sxemalari va xatti-harakatlar namunalari asosida o‘qitish kerak.
- **Moliyaviy shaffoflikni oshirish:** Blokcheyn texnologiyasi moliyaviy bitimlarning shaffofligini oshirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Hukumatlar va moliyaviy institutlar blokcheyn asosidagi yechimlarni qo‘llab-quvvatlashi va ularni milliy moliyaviy tizimlarga integratsiya qilishi kerak.

XULOSA

Raqamli texnologiyalar, shu jumladan, sun’iy intellekt, blokcheyn va katta ma’lumotlar tahlili, moliyaviy firibgarliklarga qarshi kurashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu texnologiyalar firibgarlik holatlarini aniqlash, ularni tez va samarali hal qilish imkoniyatini beradi. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlarda bu texnologiyalarni qo‘llashda duch kelinadigan muammolar, jumladan, texnik va bilim darajasining cheklanganligi hamda moliyaviy resurslarning yetishmasligi kabi to‘siqlar mavjud.

Ushbu maqolada ko‘rib chiqilgan tahlil va muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, agar rivojlanayotgan mamlakatlar zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda zarur resurslar va tayyorgarlikka ega bo‘lsa, ular moliyaviy firibgarliklarni sezilarli darajada kamaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Buning uchun zarur bo‘lgan asosiy choralar sifatida infrastrukturani modernizatsiya qilish, texnik bilim va ko‘nikmalarni oshirish, milliy va xalqaro hamkorliklarni kuchaytirish, ma’lumotlarni himoya qilish va maxfiylikni ta’minlash, shuningdek, moliyaviy shaffoflikni oshirish kiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalarning to‘liq salohiyatidan foydalanish orqali rivojlanayotgan mamlakatlar moliyaviy firibgarliklarga qarshi samarali kurash olib borishi mumkin. Bu esa nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi, balki aholining moliyaviy xavfsizligini ham kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pomerol, J.-C., & Adam, F. (2019). Artificial Intelligence for Fraud Detection. Journal of Financial Crime, 26(2), 550-556.
2. Koenig, A. (2018). Blockchain for Fraud Prevention: Exploring the Benefits and Challenges. Financial Market Regulation, 31(1), 24-30.
3. Smith, L., & Tanner, E. (2020). Big Data Analytics in Financial Fraud Detection: A Practical Approach. Journal of Financial Services Research, 58(1), 115-130.
4. Chen, X., Liu, L., & Zhao, Y. (2021). Machine Learning for Financial Fraud Detection: Models and Frameworks. Journal of Computational Finance, 34(4), 48-62.
5. Jackson, T., & Patel, S. (2022). The Impact of AI on Financial Services: Fraud Detection Systems and Beyond. International Journal of Financial Studies, 40(1), 22-38.

HUDUDLARDA ISLOM IQTISODIYOTI TAMOYILLARI ASOSIDA AMALGA OSHIRILGAN INVESTITSION LOYIHALAR: TO‘SIQLAR VA YECHIMLAR

Irgasheva Gulbahor Sodiqovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolaning asosiy maqsadi O‘zbekistonda islomiy moliya vositalari orqali amalga oshirilgan investitsion loyihalar tahlili, ushbu loyihalarni amalga oshirish yo‘lidagi to‘siqlar va yechimlarni o‘rganishdan iborat. Bundan tashqari, O‘zbekistonda islom moliya tizimini rivojlanish yo‘lidagi mavjud to‘siqlarni bartaraf etish va bu borada chora-tadbirlarni ishlab chiqishda xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Islomiy moliya sanoati, islomiy investitsiyalar, islomiy moliya xizmatlari va mahsulotlari, me’yoriy-huquqiy baza, ITB, XSRIK, XISMK.

Abstract: The main goal of this article is to analyze the investment projects implemented in Uzbekistan through Islamic financial instruments, to study the obstacles and solutions to the implementation of these projects. In addition, conclusions and recommendations were given to eliminate existing obstacles to the development of the Islamic financial system in Uzbekistan and to develop measures in this regard.

Key words: Islamic financial industry, Islamic investments, Islamic financial services and products, regulatory framework, IsDB, ICD, ITFC.

Аннотация: Основная цель данной статьи – проанализировать инвестиционные проекты, реализуемые в Узбекистане посредством исламских финансовых инструментов, изучить препятствия и пути решения этих проектов. Кроме того, были даны выводы и рекомендации по устранению существующих препятствий на пути развития исламской финансовой системы в Узбекистане и разработке мер в этом направлении.

Ключевые слова: Исламская финансовая индустрия, Исламские инвестиции, Исламские финансовые услуги и продукты, нормативно-правовая база, ИБР, ИКРЧС, МИТФК.

Xalqaro maydonda an’anaviy moliya tizimiga muqobil ravishda kirib kelgan islom moliya sektori jadal sur’atlarda rivojlanib bormoqda. Bu sohaning sezilarli darajada rivojlanishiga quyidagi jihatlarni sabab sifatida ko‘rsatish mumkin: birinchidan, bugungi kunda jahonda islom diniga e’tiqod qiluvchilarning soni 2 milliarddan oshgani sabab bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa islom moliya instrumentlari insonlarning ehtiyojlarini qondira olayotgani, nafaqat musulmonlar shuning bilan birgalikda musulmon bo‘lmaganlar uchun ham mos kelishi, ishonch asosida qurilishi, foyda va zararni taqsimlashga asoslangan axloqiy tamoyillarni o‘zida mujasam etganligi ushbu sohaning shiddat bilan o‘sishiga sabab bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda ham islom moliyasiga kichik va o‘rta biznes vakillari, tadbirkorlar, shuningdek, aholi tomonidan qiziqish bilan kutib olinmoqda. Ammo, mamlakatda ushbu sohani o‘sishi va rivojlanishi uchun me’yoriy-huquqiy hujjat ya’ni qonunchilikka ega emas. Shu sababdan, 2020-yilning oxirida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida islomiy moliyaviy xizmatlarni joriy etish uchun huquqiy baza yaratish vaqti kelganini ta’kidlagan edilar [1], negaki aholisining 90 foizidan ortiq qismi musulmonlardan iborat bo‘lgan O‘zbekiston uchun ushbu sohani rivojlantirish har qachongidan ham muhim sanaladi.

O‘zbekistonda islomiy moliyalashtirish ishlari 2004-yilda boshlanib, bu mamlakatning 2003-yilning sentabr oyida Olmaotadagi bankning yillik yig‘ilishi doirasida Islom taraqqiyot bankining (ITB) a’zoligiga qo‘shilgani bilan bog‘liq bo‘lib, 13,4 million ID (islomiy dinor) kapitali bilan 55-a’zo bo‘ldi, bu Islom taraqqiyot bankining umumiy kapitalidagi 0,03% ulushini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-avgustdagi 371-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Islom taraqqiyot bankiga a’zoligi to‘g‘risida”gi qarori O‘zbekistonning Islom taraqqiyot bankining to‘la huquqli a’zosi ekanligini ko‘rsatib beruvchi huquqiy asos hisoblanadi. Islom taraqqiyot bankining O‘zbekistondagi vakili esa o‘z faoliyatini Toshkent shahrida 2006-yilning oktabr oyida boshladi.

Qo‘shnilari bilan solishtirganda, O‘zbekiston 37 million musulmon aholisi bo‘lishiga qaramay, islomiy moliya sanoatidan rivojlanishi bo‘yicha ancha ortda qolmoqda. Mamlakat Islom taraqqiyot bankiga a’zo bo‘lganidan boshlab, 2,5 milliard dollardan ortiq mablag‘ oldi. Bugungi kunga qadar mamlakatimiz bo‘ylab 103 ta loyiha amalga oshirilgan bo‘lib, shundan 49 tasi yakunlangan, 54 tasi esa davom etmoqda. Olingan mablag‘larning asosiy qismi ta’lim, sog‘liqni saqlash, qishloq xo‘jaligi, elektroenergetika va qurilish sohalariga yo‘naltirildi [2].

O‘zbekiston Islom taraqqiyot bankining a’zosi bo‘lganidan so‘ng, Islom taraqqiyot banki guruhiga kiruvchi tashkilot Xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha islom korporatsiyasi (XSRIK) a’zoligiga 2004-yilning 14-sentabrida qabul qilindi. Ushbu korporatsiyasi 350 million dollardan ortiq loyiha rejalarni bajarishi belgilangan bo‘lib, loyihalarni moliyalashtirishda asosan “murobaha” shartnomasidan foydalangan. O‘zbekistonga Islom taraqqiyot banki guruhi tomonidan ma’qullagan loyihalarining miqdori 2,7 milliard AQSH dollaridan ortiq bo‘lib, ushbu loyihalardan 459 millon AQSH dollari XSRIK ulushiga, 2,08 milliard AQSH dollari esa ITB ulushiga to‘g‘ri keladi.

2019-yil fevral oyidan O‘zbekiston Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi (XISMK) hamda Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug‘urtalash islom korporatsiyasi (IEKSIK) a’zoligiga kiritilib, 2004-yildan boshlab hozirgi kunga qadar O‘zbekiston, Islom taraqqiyot banki guruhining barcha tashkilotlariga a’zolikni qo‘lga kiritdi, jumladan, Xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha Islom korporatsiyasi, Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi, Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug‘urtalash bo‘yicha Islom korporatsiyasi hamda Tadqiqotlar va treninglar islom instituti a’zosi bo‘ldi. Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi (XISMK) 2018-yildan beri O‘zbekistonda savdo-sotiqni rivojlantirish uchun moliyaviy ko‘mak berib kelmoqda va bu xalqaro moliya instituti mamlakatga 750 million AQSH dollaridan ziyod investitsiya ajratgan.

Bugungi kunga qadar, O‘zbekistonda Islom taraqqiyot banki o‘zining mijozlariga moliyalashtirishning murobaha, istisno‘ va ijaraga asoslangan moliyalashtirish liniyalarini taklif etib kelmoqda [3].

Islomiy moliyalashtirish O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun yangi yo‘nalish hisoblanib, mazkur sohaga biznes vakillari, shuningdek, aholining ham katta ehtiyoji bo‘lib, bu sektorga yuqori darajada qiziqish bildirishmoqda. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, O‘zbekiston Islom taraqqiyot banki va uning guruhiga kiruvchi tashkilotlar O‘zbekistondagi o‘z faoliyatida murobaha islomiy moliyaviy instrumentidan foydalanib, mamlakatdagi turli sohalarining rivoji uchun mablag‘lar ajratdi.

O‘zbekistonda haligacha islomiy moliya institutlarini tashkil etish uchun huquqiy asoslar mavjud bo‘lmasa ham, ba’zi tijorat banklari, takoful kompaniyalari va islom savdosini moliyalashtiruvchi kompaniyalarda islom moliyasi mahsulotlarini bazilarini taklif etmoqda [4].

Xususan, “Kapitalbank”, “O‘zsanoatqurilishbank”, “Trastbank” va “Asia Alliance Bank” kabi banklar Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi tomonidan umumiy qiymati 32 million AQSh dollari miqdorida moliyalashtirildi. Bundan tashqari, O‘zbekistondagi xususiy sektor mijozlari, kichik va o‘rta biznes subyektlari 2019-yilda Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasiga a’zo bo‘lganidan buyon 17 yo‘nalish bo‘yicha savdoni moliyalashtirish obyektlari doirasida savdoni moliyalashtirish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga ega bo‘lib, bu esa 166 million AQSH dollarni tashkil etdi [5].

Bundan tashqari, yaqinda 2024-yilning may oyida o‘tkazilgan Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida Turonbank ATB Islom taraqqiyot banki guruhiga kiruvchi Savdoni moliyalashtirish xalqaro islom korporatsiyasi bilan navbatdagi 10 million dollarlik shartnoma imzolanib, mazkur kelishuvga ko‘ra o‘zlashtiriladigan mablag‘lar mamlakatda kichik va o‘rta biznesni yanada rivojlantirish, bu boradagi istiqbolli loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilishi belgilab olindi.

Olib borgan tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra quyidagi xulosa va tavsiyalarimizni berishimiz mumkin. Har qanday sohani ravnaq topishi va yo‘lga qo‘yish uchun eng avval, uning me’yoriy-huquqiy bazasini ishlab chiqilishi lozimligini taqozo etadi. Islom moliya sohasini O‘zbekistonda ishlashini tashkil etish uchun eng avvalo me’yoriy-huquqiy asosini ishlab chiqish lozim. Ushbu loyihani amalga oshirish uchun ikki xil yondashuv bo‘lib, ularni biri tanlashni talab etadi:

1. Umumiy islomiy moliya faoliyatini tartibga soluvchi yagona qonun hujjatlarini ishlab chiqish;
2. Islom moliyasining har bir alohida sohasini muvofiqlashtiruvchi bir qancha huquqiy hujjatlarni qabul qilishi lozim. Ushbu yondashuvga ko‘ra, islom moliyasining islom bank ishi, islomiy sug‘urta (takoful) hamda islom kapital bozorlarining har bir sektor uchun huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, qabul qilinishi lozim. Bu yondashuvni amalga oshirish oson va tezroq bo‘lib, ko‘plab mamlakatlar ushbu yondashuv asosida islom moliyasi sohasini o‘z mamlakatlarida joriy qilib, islomiy moliya vositalaridan foydalanmoqdalar. Shuningdek, ushbu sohadagi malakali kadrlarni yetishtirib chiqarish va aholi o‘rtasida ushbu sektor doirasida xabardorlik va bilim darajasini oshirish ishlarini amalga oshirish ijobiy samara olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. review.uz›uz/post/ozbekiston-respublikasi-…
2. Khusan Khasanov, ‘Prospects for the Development of Islamic Finance in the Republic of Uzbekistan: Presentation’ (Round Table Meeting on Prospects of Development of Islamic Finance in Uzbekistan, International Islamic Academy of Uzbekistan, Tashkent, 11 September 2019) doi:10.13140/ RG.2.2.16580.58247.
3. Xasanov X. Ahloqiy (islomiy) moliyalashtirish tizimi – innovatsion moliyalashtirish vostiasi sifatida (O‘zbekiston va MDH misolida). “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, 2017-y.
4. Imamnazarov (n 7); Moody’s Investors Service, ‘Banks – Uzbekistan: Islamic Finance Windows Would be Credit Positive for Uzbek Banks’ (Islamic Finance News (IFN), 10 December 2020) accessed 31 March 2023; Hondamir Nusrathujaev, ‘Opportunities and expectations for Islamic finance in Uzbekistan’ (Islamic Finance News (IFN), 22 December 2020) accessed 31 March 2023; Hondamir Nusrathujaev, ‘Apex Takaful seizes opportunity in Takaful market of Uzbekistan’ (Islamic Finance News (IFN), 20 April 2021) https://www.islamicfinancenews.com/apex-takaful-seizes-opportunity-in-takaful-market-of-uzbekistan.html accessed 31 March 2023.
5. ITFC extends US$ 15 Million Line of Trade Financing Facility to Invest Finance Bank’ (International Islamic Trade Finance Corporation (ITFC), 26 January 2022) https://www.itfc-idb.org/news-events/news/itfc-extends-us$-15-million-line-of-trade-financing-facility-to-invest-finance-bank accessed 31 March 2023.
6. Rukhiddin Zayniddinov. Basing and introducing the concept of Islamic financing in public-private partnership (PPP) projects in Uzbekistan. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 2023-yil, dekabr. № 11-12-sonlar. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz;https://www.researchgate.net/publication/377408173_Basing_and_introducing_the_concept_of_Islamic_financing_in_public-private_partnership_PPP_projects_in_Uzbekistan
7. Rukhiddin Zayniddinov. COMPARATIVE ANALYSIS OF ISLAMIC AND CONVENTIONAL BANKS. 2024: III republican scientific-practical conference on the topic “Priority directions, modern trends and prospects of financial market development”. 2024, Tashkent, TSUE. DOI: https://doi.org/10.60078/2024-vol-issM. https://www.researchgate.net/publication/380464706_COMPARATIVE_ANALYSIS_OF_ISLAMIC_AND_CONVENTIONAL_BANKS

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA OZIQ-OVQAT SANOATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Kobilova Nasiba Xurramovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda investitsiyalardan samarali foydalanish hamda oziq-ovqat sanoati samaradorligini oshirish yo‘llari o‘rganilgan. Oziq-ovqat sanoatida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar tendensiyasi, texnologik tarkibi va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Shuningdek, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardan samarali foydalanish asosida oziq-ovqat mahsulotlari sanoati samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat sanoati, kapital, investitsiya, investitsion faoliyat, investitsiya samaradorligi.

Abstract: This article examines ways to effectively use investments and increase the efficiency of the food industry in our country. The trend of fixed capital investments in the food industry, technological composition and efficiency indicators are analyzed. Also, based on the effective use of investments in fixed capital, proposals for increasing the efficiency of the food industry have been developed.

Key words: food industry, capital, investment, investment activity, investment efficiency.

Аннотация: В данной статье рассматриваются пути эффективного использования инвестиций и повышения эффективности пищевой промышленности нашей страны. Проанализированы динамика инвестиций в основной капитал пищевой промышленности, технологический состав и показатели эффективности. Также на основе эффективного использования инвестиций в основной капитал разработаны предложения по повышению эффективности пищевой промышленности.

Ключевые слова: пищевая промышленность, капитал, инвестиции, инвестиционная деятельность, эффективность инвестиций.

KIRISH

Ma’lumki, har qanday tarmoqni rivojlantirishda shunday bir omil borki, busiz iqtisodiy faoliyatlar (harakatlar) ni amalga oshirib bo‘lmaydi. Albatta, bu omil shubhasiz “investitsiya” (kapital)dir.

Investitsiya iqtisodiyotning ramziy ma’noda “qon”i sifatida e’tirof etilishi ham bejiz emas. Chunki, iqtisodiy faoliyatlar (loyihalar)ga investitsiyalar kiritish bu faqatgina pul-mablag‘larini olib kirish emas, balki, shu bilan birga boshqa omillar samaradorligini oshiruvchi yangi (innovatsion) vositalar, usullar va unsurlarni ham olib kiradi. Jumladan, boshqaruvning yangi usullari yoki tashkiliy vositalarning yangi shakllari kabilar shular jumlasidan.

Ma’lumki, investitsiyalar kelib chiqish manbasiga ko‘ra, tashqi va ichki investitsiyalarga bo‘linadi. O‘z mohiyatiga ko‘ra, ichki investitsiyalar aholi va korxonalarning o‘z mablag‘lari, mahalliy bank kreditlari va investorlar mablag‘lari, shuningdek davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar mablag‘lari shaklida bo‘lsa, tashqi investitsiyalar o‘z navbatida xorijiy investorlar (xorij fuqarolari va korxonalari) mablag‘lari, xorijiy banklar kreditlari, xorijiy davlatlar qarz mablag‘lari kabi shaklda bo‘ladi.

Tabiiyki, bu yerda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati o‘ziga xosdir. Xususan, xorijiy investor o‘z investitsion faoliyatidan yuqori daromad olish maqsadida sarmoya kiritgan korxona (loyiha)ni samarali faoliyat yuritishiga intiladi. Buning uchun o‘z mamlakatidagi samarali usullar va vositalarni kiritishga intiladi. Bu o‘z navbatida mazkur loyiha amalga oshirilayotgan mamlakat uchun har tomonlama foyda keltiradi.

Yuqoridagi keltirilgan investitsiyalarning ijobiy xususiyatlarini va mamlakatimizning hozirgi sharoitidan kelib chiqib, zarurat tufayli ham so‘ngi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirish bo‘yicha amalga

oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar markazida xorijiy investitsiyalarni keng joriy etish va ulardan samarali foydalanish asosiy maqsadlardan birini ifodalaydi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [1] qabul qilingan bo‘lib, mazkur strategiyaning 49-maqsadi “Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog‘ozlar bozorini jadal rivojlantirish” deb, belgilangan. Ushbu maqsad doirasida mamlakatimizda 250 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiyalarni o‘zlashtirish, jumladan, 110 mlrd. AQSH dollari xorijiy investitsiyalar va 30 mlrd. AQSH dollari davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish kabi muhim vazifalar belgilangan. Bularning barchasi mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini ifodalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsiyalarini tahlil qilishda markaziy o‘rinni muqobil investitsion loyihalar samaradorligini baholash va taqqoslash egallaydi. Investitsiyalar samaradorligini baholashni buxgalteriya va statistika hisobotlari natijasida olingan ma’lumotlar asosida, shuningdek, pul oqimlarini (kirim va chiqim) diskontlash uslublariga asoslanib xarakterlash orqali amalga oshirish mumkin [3].

Tarmoq korxonalarining iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish yoki uni tiklashga eng katta hissa qo‘shuvchi omil, bu – investitsiyalardir [4]. Bundan kelib chiyaadiki, investitsiya faoliyatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash, ularga baho berish asosida tegishli xulosalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega [5].

Ayniqsa, bugungi noaniqlik sharoitida investitsiyalarni boshqarish va sanoat korxonalarining investitsiya faoliyati samaradorligini oshirish zarurati oshib bormoqda va bu real investitsiyalarni boshqarish jarayonida investitsiya loyihalari samaradorligini baholashning uslubiy bazasini takomillashtirish dolzarbligini belgilaydi [6].

Demak, investitsiyalardan samarali foydalanishda unga ta’sir qiluvchi omillarni ajratib olish hamda shu omillar ta’sirini ijobiy bo‘lishi uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi [7]. Ta’kidlash joizki, turli iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar samaradorligiga ta’sir etuvchi turli omillar qo‘rib chiqiladi [8]. Investitsiya samaradorligining oshishini barcha ishlab chiqarish omillaridan ratsional foydalanish, mahsulot tannarxining pasayishi va mehnat unumdorligining oshishi bilan izohlanadi [9]. Boshqacha aytganda, tarmoqning investitsiya samaradorligiga uning o‘ziga xos xususiyatlari ta’sir qiladi [10].

Ayniqsa, oziq-ovqat sanoatida investitsiyalardan samarali foydalanish juda ko‘plab omillarga bog‘liq. Birinchi navbatda investitsiyalardan samarali foydalanish tarmoqning iqtisodiy rivojlanish holati va dinamikasiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan mazkur tarmoqning ustuvor yo‘nalishlariga, xususan, yuqori foyda olish yuqori texnologiyali yo‘nalishga investitsiya qo‘yishga ham bog‘liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda investitsiyalar samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni baholash usullari bo‘yicha empirik tadqiqotlar hamda nazariy qarashlar o‘rganilgan. Tadqiqotda empirik va nazariy jihatdan tahlil va sintez, jadval, grafik usullaridan, shuningdek mavzuga oid mahalliy va xorijiy olimlar ishlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatimiz iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini rivojlantirish uchun 2023-yilda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 352,1 trln. so‘mni tashkil etib, uning o‘sish sur’ati 2022-yilga nisbatan 122,1 foizni tashkil etgan.

Mazkur asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar manbalari tarkibida eng yuqori ulush 24,1 % yoki 84,9 trln. so‘m korxonalar mablag‘lari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, jami investitsiyalarning 23,9 % yoki 84,3 trln. so‘mi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, 23,4 % yoki 82,4 trln. so‘mi kafolatlanmagan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hamda 9,5 % yoki 33,3 trln. so‘mi aholi mablag‘lari hassasiga to‘g‘ri kelgan.


Shuni alohida ta’kidlash lozimki, so‘ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ochiqlik va barqaror iqtisodiy islohotlar natijasida mahalliy va xorijiy investorlar tomonidan mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalar yo‘naltirishga bo‘lgan qiziqish ozib bormoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joriy 2-may kuni Xalqaro kongress markazida uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisida “Albatta, biz bugun jahonda investorlar uchun mislsiz kurash ketayotganini yaxshi tushunamiz. Biroq bir o‘zgarmas haqiqat tobora oydinlashmoqda. Hech bir mamlakat bu kabi o‘tkir muammolarni yakka holda hal eta olmaydi. O‘zaro ishonch va hurmat ruhi, bir-birini qo‘llab-quvvatlash tamoyili uzoq muddatli hamkorlikning mustahkam ustuni bo‘lib qolaveradi” – deb, ta’kidladi [2].

Albatta, mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi oshib bormoqda. Xususan, asosiy kapi-

talga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmining o‘sish sur’ati 2023-yilda (2022-yilga nisbatan) 122,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich 2019-yilda 195,9 foizni, 2020-yilda 95,6 foizni, 2021-yilda 102,9 foizni, 2022-yilda esa 100,2 foizni tashkil etgan.

2023-yilda respublika bo‘yicha iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (ulushi) yuqori bo‘lgan tarmoq bu ishlab chiqarish sanoati bo‘lib, ushbu tarmoqqa 100,6 trln. so‘m yoki jami investitsiyalarning 28,6 foizi yo‘naltirilgan. Mazkur ko‘rsatkich kon sanoatida 36,3 trln. so‘m yoki 10,3 foizni, elektr va gaz ta’minoti sohasida 42,0 trln. so‘m yoki 11,9 foizni, qishloq xo‘jaligida 20,2 trln. so‘m yoki 5,7 foizni hamda uy-joy qurilishi sohasida 29,1 trln. so‘m yoki 8,3 foizni tashkil etgan (1-rasm).



1-rasm: Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi va uning ulushi[1] (2023-yil)

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yil davomida respublika bo‘yicha jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 352 064,1 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, shundan jami sanoatga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 187818,7 mlrd. so‘mni, jumldan ishlab chiqarish sanoatiga 100639,8 mlrd. so‘m, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari sanoatiga 6522,9 mlrd. so‘m investitsiyalar yo‘naltirilgan (1-jadval).

1-jadval: Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi dinamikasi[2], mlrd. so‘m

Yil	Respublika bo‘yicha jami	Shundan, jami sanoat bo‘yicha	Jumladan, ishlab chiqarish sanoati bo‘yicha	Shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari sanoati bo‘yicha
2010	16 463,7	4 859,2	2 334,9	225,3
2011	19 500,0	6 214,1	3 016,4	330,9
2012	24 455,3	8 080,8	3 714,7	372,9
2013	30 490,1	10 368,1	4 082,0	469,9
2014	37 646,2	13 874,9	4 780,7	618,3
2015	44 810,4	17 738,4	5 346,2	622,8
2016	51 232,0	19 605,4	8 992,1	651,8
2017	72 155,2	32 877,7	12 238,1	1 181,3
2018	124 231,3	59 821,6	25 741,2	2 685,5
2019	195 927,3	96 065,4	50 990,2	3 729,0
2020	210 195,1	94 178,9	55 943,3	4 472,8
2021	239 552,6	98 516,4	52 427,8	4 932,0
2022	266 240,0	117 317,9	67 818,3	4 202,6
2023	352 064,1	187 818,7	100 639,8	6 522,9

1 O‘zRes. Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2023-yil davomida respublika bo‘yicha jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (2022-yilga nisbatan) qariyb 1,3 martaga oshgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2011 va 2015-yillarda 1,2 martani va 2020-yilda 1,1 martani tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkich jami sanoat tarmog‘i bo‘yicha 2011 va 2015-yillarda 1,3 martani, 2020-yilda 1,0 martani va 2023-yilda 1,6 martani tashkil etgan. Jumldan, ishlab chiqarish sanoati bo‘yicha 2011-yilda 1,3 martani, 2015-yilda 1,1 martani, 2020-yilda 1,1 martani va 2023-yilda 1,5 martani tashkil etgan. Shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari sanoati bo‘yicha esa 2011-yilda 1,5 martani, 2015 yilda 1,0 martani, 2020-yilda 1,2 martani va 2023-yilda 1,6 martani tashkil etgan.

Tadqiqot davomida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi holatni solishtirganda xorijiy mamlakatlarda, xususan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOII) mamlakatlarida o‘rtacha hisobda ustuvor yo‘nalishlar konchilik va karer qazish (15,7 %, jami investitsiyaga nisbatan), ishlab chiqarish sanoati (13,2 %), transport va saqlash (17,4 %) va ko‘chmas mulk operatsiyalari (14,0 %) ekanligini ko‘rsatgan bo‘lsa, jumladan, Belarusiyada qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (16,2 %), ishlab chiqarish sanoati (18,1 %) va ko‘chmas mulk operatsiyalari (19,3 %) ustuvorlik qilgan. Qozog‘istonda investitsiyalarni yo‘naltirish bo‘yicha ustuvorlik konchilik va karer qazish (29,2 %), ko‘chmas mulk operatsiyalari (19,3 %), transport va saqlash (11,3 %) hamda ishlab chiqarish sanoati (10,4 %) ga qaratilgan (2-jadval).

2-jadval: Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish yo‘nalishlari[3], % (jamiga nisbatan)

№	Yo‘nalishlar	Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOII)	Armaniston	Belarusiya	Qozog‘iston	Qirg‘iziston	Rossiya	O‘zbekiston
	Asosiy kapitalga investitsiyalar	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**	**100**
1	Qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik	4,3	2,9	16,2	5,6	2,2	3,9	2,4
2	Konchilik va karer qazish	15,7	1,5	2,7	29,2	19,1	15,0	0,1
3	Ishlab chiqarish sanoati	13,2	2,8	18,1	10,4	3,5	13,4	31,2
4	Elektr, gaz, bug‘ va konditsioner	4,9	16,9	9,0	5,4	7,5	4,7	6,9
5	Suv ta’minoti; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va tarqatish ustidan nazorat	1,4	2,3	2,4	3,3	1,7	1,2	2,6
6	Qurilish	4,0	–	1,2	1,5	0,0	4,3	35,7
7	Ulgurji va chakana savdo; avtotransport va mototsikllarni ta’mirlash	3,6	1,7	3,1	2,3	2,4	3,7	-
8	Transport va saqlash	17,4	17,7	5,9	11,3	11,7	18,1	2,9
9	Turar joy va ovqatlanish xizmatlari	0,6	2,2	0,8	0,9	1,2	0,6	5,7
10	Axborot va aloqa	3,4	2,2	2,7	1,3	3,6	3,6	1,4
11	Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	2,7	0,5	0,5	0,8	0,1	2,9	4,3
12	Ko‘chmas mulk operatsiyalari	14,0	37,1	26,3	19,3	1,3	13,3	-
13	Kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	5,6	0,1	1,4	0,4	0,2	6,1	-
14	Ma’muriy faoliyat va ushbu sohadagi qo‘shimcha xizmatlar	1,2	0,4	0,9	1,0	0,1	1,2	1,4
15	Davlat boshqaruvi va mudofaa, majburiy ijtimoiy ta’minot	1,9	0,4	1,6	1,1	0,6	2,0	-
16	Ta’lim	2,1	4,4	1,7	2,4	6,3	2,1	0,4
17	Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	2,3	1,0	3,6	1,7	1,1	2,3	-
18	San’at, dam olish xizmati	1,4	1,4	1,7	1,7	1,1	1,4	-
19	Boshqa xizmatlar ko‘rsatish	0,3	4,5	0,2	0,4	36,3	0,2	5,0

Bundan tashqari, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha ustuvorlik Qirg‘izistonda boshqa xizmatlar ko‘rsatish (36,3 %), konchilik va karer qazish (19,1 %), transport va saqlash (11,7 %), elektr, gaz, bug‘ va konditsioner (7,5 %) hamda ta’lim (6,3 %) sohalariga berilgan bo‘lsa,


3 https://eec.eaeunion.org/comission/department/dep_stat/union_stat/current_stat/investments/series. https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments

Rossiyada transport va saqlash (18,1 %), konchilik va karer qazish (15,0 %), ishlab chiqarish sanoati (13,4 %), ko‘chmas mulk operatsiyalari (13,3 %) hamda kasbiy, ilmiy va texnik faoliyatlar (6,1 %)ga qaratilgan. Shuningdek, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha ustuvorlik mamlakatimizda esa qurilish (35,7 %) ishlari, jumladan, turar-joy binolari (8,2 %), noturar-joy binolari (15,8 %) va boshqa inshootlar (11,8 %) qurilishi hamda ishlab chiqarish sanoati (31,2 %)ga qaratilgan.

Bu boradagi tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, xorijiy mamlakatlar tajribalari asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha ustuvorlik sanoat, transport va ko‘chmas mulk kabilarga qaratilgan bo‘lsa, bu jarayon mamlakatimizda sanoat va qurilish sohasini qamrab olgan. Fikrimizcha, mamlakatimizda noishlab chiqarish ishlariga, xususan bino inshoatlar qurilishiga ko‘p investitsiyalar yo‘naltirilmoqda. Undan ko‘ra, to‘g‘ridan-to‘g‘ri sanoat mahsulotlari, xususan oziq-ovqat mahsulotlari sanoati ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish va kengaytirishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, yuqorida ko‘rib chiqilgani kabi xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardan foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha ustuvorlikni belgilashda kompleks yondashilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Investitsiyalar bo‘yicha tahlillar amalga oshirilganda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibini o‘rganish maqsadga muvofiq. Chunki, iqtisodiy faoliyatga qanchalik ko‘p kapitalning yo‘naltirilishi uning samarali ishlayotganligini anglatmaydi. Sababi shundaki, agar iqtisodiy faoliyatga biror bir omilning ko‘p kiritilishi (boshqa omillar o‘zgarmas bo‘lgan holda) “omillar unumdorligining kamayish qonuni”ning ro‘y berishiga olib keladi.

Tahlillarga ko‘ra, respublika bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibini mashina, asbob-uskunalar va inventar sotib olishga 161540,2 mlrd. so‘m (jamining 45,9 foizi), qurilish-montaj ishlariga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 160440,2 mlrd. so‘m (45,6 %) hamda boshqa xarajatlar uchun yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 30083,7 mlrd. so‘m (8,5 %)ni tashkil etgan (2-rasm).



2-rasm: Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi tendensiyasi[4], %

E’tiborli jihati mamlakatimizda so‘ngi 5 yillikda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi deyarli, o‘zgarmagan. Huddi shu holat iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmining ulushida ham kuzatilgan. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bu jarayonlar bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida emas, rejali iqtisodiyot tamoyillari asosida amalga oshirilganga o‘xshaydi (bu faraz, albatta).

Bunday holatni dunyoning rivojlangan mamlakatlari AQSH, Kanada va Yevropa mamlakatlaridan farqli o‘laroq Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida kuzatish mumkin. Jumladan, Belarus Respublikasida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi quyidagicha5:

- mashina, asbob-uskunalar va inventar sotib olish – 39,5 %;
- qurilish-montaj ishlari – 48,3 %;
- boshqa xarajatlar – 12,2 %.

4 O‘zRes. Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
5 http://dataportal.belstat.gov.by/Indicators/Preview?key=156462

Investitsiya samaradorligini u yoki bu ko‘rsatkichlari tizimi va tahlil usullarini qo‘llash investitsiya jarayonini amalga oshirishning aniq sharoitlaridan kelib chiqadi, shuningdek bu kutilayotgan mablag‘ning miqdoriga bunday tahlilni amalga oshirmoqchi bo‘lganlarning iqtisodiy tayyorgarlik darajasiga ham bog‘liq bo‘ladi, albatta. Ko‘pincha investitsiya loyihasini optimal variantini tanlab olish imkoniyati vujudga kelishi uchun bir vaqtning o‘zida juda ko‘p usullar va ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Odatda mamlakatda investitsiyalarning samaradorligini baholashda jahon amaliyotida ICOR (Incremental Capital-Output Ratio) indeksidan foydalaniladi (ya’ni, yalpi ichki mahsulot o‘sishining kapital sig‘imi) [11].

$$ICOR = \frac{\left(\frac{I}{GDP} \cdot 100\%\right)}{\Delta GDP\%}$$

bu yerda, *I* - asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi; *GDP* - YAIM hajmi; $\Delta GDP\%$ - YaIM ning o‘sish sur’ati.

Demak, aynan ICOR (Incremental Capital-Output Ratio) indeksidan foydalanib, mamlakatimiz iqtisodiyotida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar samaradorligini umumiy jihatdan va sanoat tarmog‘i hamda oziq-ovqat mahsulotlar sanoati bo‘yicha baholash, shuningdek natijalarni taqqoslash asosida ilmiy xulosalar olish mumkin.

3-jadval: Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar samaradorligini baholash bo‘yicha hisoblangan ICOR indeksi [6]

Yil	Respublika iqtisodiyoti bo‘yicha ICOR indeksi	Sanoat tarmog‘i bo‘yicha ICOR indeksi	Ishlab chiqarish sanoati bo‘yicha ICOR indeksi	Oziq-ovqat mahsulotlari sanoati bo‘yicha ICOR indeksi
2010	0,19	0,12	0,07	0,04
2011	0,18	0,13	0,07	0,04
2012	0,18	0,13	0,08	0,04
2013	0,19	0,14	0,06	0,04
2014	0,19	0,16	0,06	0,04
2015	0,19	0,17	0,06	0,03
2016	0,19	0,17	0,09	0,03
2017	0,22	0,21	0,10	0,06
2018	0,28	0,23	0,13	0,11
2019	0,35	0,28	0,19	0,10
2020	0,34	0,25	0,17	0,10
2021	0,30	0,20	0,13	0,10
2022	0,28	0,20	0,14	0,07
2023	0,31	0,27	0,17	0,09

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar samaradorligini ICOR indeksi bo‘yicha tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, 2010–2023-yillar davomida o‘rtacha hisobda ICOR indeksi umumiy respublika iqtisodiyotida 0,24 ga, sanoat tarmog‘ida 0,19 ga, ishlab chiqarish sanoatida 0,11 ga hamda oziq-ovqat mahsulotlari sanoatida esa 0,06 ga teng bo‘lgan.

Bundan kelib chiqadiki, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar samaradorligi ICOR indeksi bo‘yicha eng yuqori tarmoq bu – oziq-ovqat mahsulotlari sanoati ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, mazkur yuqori samaradorlik bo‘yicha 2010–2023-yillar davomida ham oziq-ovqat mahsulotlari sanoati yetakchilik qilgan.

6 https://eec.eaeunion.org/comission/department/dep_stat/union_stat/current_stat/investments/series/ https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardan samarali foydalanish asosida oziq-ovqat mahsulotlari sanoati samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagilarni taklif etish mumkin:

- nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari sanoatida, balki, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida asosiy kapitalga o‘zlashtirilayotgan investitsiyalardan foydalanish jarayonini to‘liq isloh qilish, ya’ni, noishlab chiqarish maqsadlariga emas, balki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahsulot ishlab chiqarish samaradorligiga olib keluvchi yo‘nalishlarga sarflash lozim;
- xorijiy investorlarga yanada qilay shart-sharoitlar yaratish orqali ularning ulushini ko‘paytirish hamda ulardan xorij tajribalari va innovatsiyalarini o‘zlashtirishda maqsadli foydalanishni kuchaytirish;
- mamlakatda texnologik taraqqiyotni yuklastirish maqsadida yangi texnologiyalarni yaratish va ularning sinov amaliyotlarini amalga oshirishda davlat ko‘magini oshirish hamda yetarlicha shart-sharoitlar yaratib berish;
- oziq-ovqat ishlab chiqarish tizimida vujudga keladigan oziq-ovqat chiqindilaridan biogaz olish amaliyotini tashkil etish va bu boradagi dastlabki sinovlarni yetkazish orqali mazkur amaliyotga “start” berish;
- asosiy kapitalga o‘zlashtirilayotgan investitsiyalar samaradorligini yanada oshirish maqsadida ushbu jarayonda bevosita foydalanilayotgan boshqa omillar (mehnat resurslari, texnologiyalar, xom ashyo va boshqa)dan samarali foydalanishga e’tibor qaratish lozim;
- investitsiyalar samaradorligini oshirish maqsadida oziq-ovqat mahsulotlari sanoati korxonalarida, debitor-kreditor qarzlarni kamaytirish choralarini kuchaytirish orqali korxonalarda aylanma mablag‘lar sikli tezligini ta’minlash, bu o‘z navbatida investitsiyalar qaytimini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va sohani yanada rivojlantirish bu bevosita oziq-ovqat xavfsizligining umumiy strategiyasida ishlab chiqarilgan oziq-ovqat sifati, oziq-ovqat sanoatining ishlab chiqarish-qayta ishlash-sotish tizimida xarajatlar, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini ta’minlovchi oziq-ovqat sanoati uchun investitsiyalar hamda boshqa rag‘batlantirish chora-tadbirlariga ham bog‘liq. Shu boisdan oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, avvalo davlat islohotlarining markazida bo‘lishi hamda oziq-ovqat tizimi bo‘yicha kopmleks yondoshuv asosida rivojlantirish choralarini ko‘rish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 11.09.2023-yildagi PF-158-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-may kuni Xalqaro kongress markazida uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisidagi nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/7195
3. Shodiyev X.A. Moliya statistikasi. Darslik. –T.: 2010. – 173 b.
4. Petrović P., Arsić M., Nojković A. Increasing public investment can be an effective policy in bad times: Evidence from emerging EU economies. Econ Model. 2020.
5. Astanakulov O.T. Investitsiya samaradorligi o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar va ularning ta’sirini hisoblash yo‘llari // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021-y.
6. Astanakulov O.T., Asatullayev X.S., Xalikov S.U. Analiz i otsenka effektivnosti investitsionnix proyektov // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 3 iyun, 2018-yil.
7. Azamat K. et al. Improving The Investment Environment In The Country: The Role And Analysis Of Banks In The Modernization Of Industry //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – T. 6. – №. 10. – S. 2220-2227.
8. Jigarev S.A. Faktori povisheniya effektivnosti investitsionnix protsessov v mashinostroyenii. // TERRA ECONOMICUS (Ekonomicheskiy vestnik Rostovskogo gosudarstvennogo universiteta). 2009 Tom 7 № 2 (chast 3). - 170 s.
9. Biryukov D.V. Effektivnost investitsiy na makroekonomicheskom i regionalnom urovnyax // jurnal Rossiyskoye predprinimatelstvo. №2 (2). 2010. – 2-9 s.
10. Shihong Zeng, Chunxia Jian, Chen Ma, Bin Su. Investment efficiency of the new energy industry in China // Energy Economics. Volume 70, February 2018, Pages 536-544.
11. Pulatova M.B. Sanoat korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo‘llari. PhD diss. avtoreferati. T.: 2018. –14 b.

FOREIGN ECONOMIC RELATIONS AS A FACTOR OF EFFECTIVE FUNCTIONING OF THE ECONOMY

UDC 339.9



Bakhodurova Sulkhiya Azizkhodjaevna
Ph.D., Associate Professor, Department of Exact Sciences, Institute of Industry and Service



Li Marina Rudolfovna
PhD, Professor of the Department of Corporate Economics and Management, Tashkent State University of Economics



Mukhtarova Donata Ravshanbekovna
Trainee at the Department of Economics, National Research University “Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers”



Romashkin Roman Anatolyevich
PhD, Deputy Director of the ECFS, Moscow State University named after M. Lomonosov
119991, Russia, Moscow, Leninskie горы, 1 корпус 12, офис 599 г-и

Abstract: The article examines the role of foreign economic relations between Uzbekistan and the Sughd region of the Republic of Tajikistan, as a factor of the effective functioning of the regional economy. The directions of foreign investments in the region are given, in particular, special emphasis is made on relations with the Republic of Uzbekistan. The product range of Tajikistan's exports to Uzbekistan is analyzed and the directions of Tajikistan's unrealized export potential in relations with Uzbekistan are considered.

Key words: foreign investment, foreign economic relations, export potential, export product range.

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston va Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati o'rtasidagi tashqi iqtisodiy aloqalarning o'rni, mintaqa iqtisodiyotining samarali faoliyat ko'rsatishi omili sifatida ko'rib chiqiladi. Viloyatga xorijiy sarmoya kiritish yo'nalishlari belgilab berilgan, xususan, O'zbekiston Respublikasi bilan munosabatlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tojikistonning O'zbekistonga eksport qilinadigan mahsulot assortimenti tahlil qilinib, Tojikistonning O'zbekiston bilan munosabatlarida amalga oshirilmagan eksport salohiyatining yo'nalishlari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, tashqi iqtisodiy aloqalar, eksport salohiyati, eksport mahsulot assortimenti.

Аннотация: В статье рассматривается роль внешнеэкономических связей Узбекистана и Согдийской области Республики Таджикистан, как фактор эффективного функционирования региональной экономики. Приведены направления вложений иностранных инвестиций в регион, в частности, особый акцент сделан на взаимоотношения с Республикой Узбекистан. Проанализирована товарная номенклатура экспорта Таджикистана в Узбекистан и рассмотрены направления нереализованного экспортного потенциала Таджикистана во взаимоотношениях с Узбекистаном.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, внешнеэкономические связи, экспортный потенциал, товарная номенклатура экспорта.

INTRODUCTION

The effective functioning of any economy is inextricably linked with the establishment of foreign economic relations.

Foreign economic relations of the Sughd region are expanding and strengthening every year. The Sughd region has foreign trade economic relations with 65 countries of the world, of which 11 are CIS countries and 54 non-CIS countries. In 2022, the foreign trade turnover of the Sughd region amounted to 3.2 billion US dollars, which is 40.8% more than last year. Imports in 2022 amounted to 2099.4 million US dollars, which increased by 469.8 million dollars or 28.8% compared to 2021. Total exports in 2022 amounted to 1086.2 million US dollars, which is 172% compared to the same period in 2021.

Tajikistan, as an equal member of the world community, strives to implement economic reforms and greater integration into the world economy. In order to improve the investment climate, several new Laws of the Republic of Tajikistan were adopted, among which it should be noted such as the "Law on Investments", "Law on Free Economic Zones", "Law on Public-Private Partnership", Resolution on the accession of the Republic of Tajikistan to the Convention UN on the recognition and enforcement of foreign arbitral awards and a number of other regulatory legal acts aimed at protecting the rights and interests of foreign and domestic investors. One of the country's most important achievements has been membership in the WTO since 2013.

The Sughd region achieved all these achievements through the implementation of various investment projects, economic reforms, adoption of laws and regulations that promote economic development and attract investment.

MATERIALS AND METHODS

Ключевые слова: стратегия, долгосрочная маркетинговая стратегия, среднесрочная маркетинговая стратегия, стратегическое планирование, развитие, внутренняя среда, внешняя среда, мед, пчеловодство, рынок пчеловодства.

KIRISH

Strategiya konsepsiyasi korxonani strategik boshqarish tizimida asosiy hal qiluvchi hisoblanadi, chunki u maqsadlar, rivojlanish imkoniyatlari (potensial) va marketing muhiti shartlarining birlashtiruvchi bo‘g‘inidir. Biznesning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, u biznes muhitiga ta’sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda, korxonaning strategik yo‘nalishlarni raqobatdosh ustunliklarga aylantirishi mumkin bo‘lgan vositalarni belgilaydi, ularsiz o‘sib borayotgan noaniqlik va ekologik sharoitlarda bozor o‘zgarishlariga samarali moslashadi.

Korxonalarning ichki tizimidagi jarayonlarning bozor talablariga mos kelmasligi va boshqaruv jarayonining nomukammal qurilishi muammoni yanada kuchaytiradi. Aniq shakllantirilgan strategiya tadbirkorlik subyektiga rivojlanishning eng maqbul yo‘lini tanlashga va bozorga kirish hamda unda o‘zini o‘rnatish jarayonida eng muhim raqobat ustunliklarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, u korxonani tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga tayyorlaydi, mavjud resurslarni ushbu muhitdagi o‘zgarishlar bilan bog‘laydi, bozor faoliyatidagi muammolarni aniqlaydi va tarkibiy bo‘linmalar ishini muvofiqlashtiradi hamda nazorat tizimini yaxshilaydi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, korxonalar faoliyati samaradorligini mumkin bo‘lgan eng yuqori darajasiga erishish uchun ularning bozorni rivojlantirish strategiyasini marketing nuqtai nazardan ilmiy asoslash zarurati tug‘iladi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda boshqaruv faoliyati leksikonida “strategiya” tushunchasi mustahkam o‘rin oldi. So‘nggi uch o‘n yillikda u menejment nazariyasi va amaliyotida faol qo‘llanildi. Zamonaviy menejment tushunchalari nuqtai nazaridan, strategiya mavhum narsa emas, bu ko‘rsatilgan biznes konsepsi-

yasini saqlab qolishi mumkin bo‘lgan haqiqiy raqobatdosh ustunlikni shakllantirishga olib kelishi mumkin bo‘lgan uzoq vaqt real harakatlar bilan birlashtirilgan eng asosli ilmiy yondashuvdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Strategiya va strategik rivojlantirish hamda korxonalarning marketing strategiyasi kompleksini amalga orqali ko‘’zlangan maqsadlarga erishish jarayonlari uzoq yillar davomida ilmiy-nazariy hamda uslubiy jihatlari tadqiq qilinib, o‘rganilib kelinmoqda. Ayniqsa, xorijiy tajribalarda strategik maqsadlarga erishishda mahsulotlarini ma’lum bir bozorlarda marketing strategiyasini amalga oshirishning bozor imkoniyatlari, tarmoqdagi barqaror mavqeni yaratishga yo‘naltirilgan korxonaning o‘z mavqeini mustahkamlash, iste’molchilarning ehtiyojlarini qondirish va belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan boshqaruv rejasi, maqsadli bozorlarda uzoq muddatli raqobatdosh ustunliklarga erishishda marketing strategiyasining o‘rni alohida e’tirof etiladi. Tanlangan mahsulotlarini bozorda marketing strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha ko‘plab iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ular qatoriga A. P. Nalivayko [1], M. Porter [2], A. Tompson [3], P. Doyle [4], B. Karlof [5], R. Fatxutdinov [6], V. Kolpakov [7], V. Oberemchuk [8], Dj. Traut [9], A. Soliyev, S. Buzrukxonov [10] kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada iqtisodiy tahlilning analiz va sintez, abstrakt-mantiqiy fikrlash, taqqoslama kabi an’anaviy usullardan foydalanildi. Iqtisodchi olimlarning turizmda marketing strategiyalarini takomillashtirishga oid bo‘lgan ilmiy-amaliy qarashlari tahlil qilindi va natijalari asosida xulosalar shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Strategiyani tanlash korxona o‘z faoliyatida qaysi raqobatdosh ustunlikka tayanishiga bog‘liq. Marketing strategiyasi uzoq muddatli va o‘rta muddatli bo‘ladi. Uzoq muddatli davrlar uchun umumiy strategiyani dastlabki asoslash muhim ahamiyatga ega, uni korxonaning resurslari va imkoniyatlariga qarab uchta: asosiy o‘sish, barqarorlashtirish, qisqartirish va to‘rtinchi variant aralash turga bo‘lish mumkin. Bular umumiy qabul qilingan asosiy strategiyalar bo‘lib, ular doirasida marketing strategiyalari bozor muvaffaqiyatini belgilaydi hamda marketing strategiyalarini bir qator belgilari bo‘yicha tasniflash imkoniyatini beradi (1-jadval).

1-jadval: Marketing strategiyalarining turli belgilarga ko‘ra tasnifi1

Tasniflash belgisi	Strategiya turlari
Amalga oshirish muddati	- uzoq muddatli va o‘rta muddatli
Mahsulotning hayot aylanish bosqichi	- mahsulotni bozorga olib chiqish bosqichida; - o‘sish bosqichidagi strategiyalar;- bozor to‘yinganlik bosqichida;- pasayish bosqichida.
Bozor talabining holati	- konversion va ijodiy marketing; - rag‘batlantiruvchi va rivojlantiruvchi marketing; - sinxron va qo‘llab-quvvatlovchi marketing; - remarketing va demarketing; - individual va qarshi marketing;
Marketing aralashmasining elementlariga tegishli	- tovar va narx; - taqsimlash va aloqa;
Mavjud raqobatdosh ustunliklar (M. Porter bo‘yicha)	- narx yetakchiligi; - differensiatsiya; - fokuslash (konsentratsiya);
Differensiyalash turiga qarab	- mahsulot, xizmat va tasvir; - xodimlar tomonidan;
Kompaniyaning raqobatdosh pozitsiyasiga, faoliyat doirasiga va marketing yo‘nalishlariga qarab	- bozor yetakchisi;- raqiblar;- izdoshlar; - bozor o‘rni;
Matritsali usullar bilan bozor pozitsiyasiga qarab	- rivojlanish; - raqobatdosh ustunliklarni saqlab qolish; - hosilni yig‘ish; - yo‘q qilish;

1 Manba: Muallif ishlanmasi

Bozorni qamrab olish darajasiga qarab	- mahsulot ixtisoslashuvi; - segment ixtisoslashuvi; - bir segmentli ixtisoslashuv; - tanlab ixtisoslashuv; - to‘liq qamrab olish;
Kompaniyaning sotish bozorlarini segmentatsiyalash chuqurligiga qarab	- tabaqalanmagan marketing; - tabaqalashtirilgan marketing; - konsentrlangan marketing;

O‘sish marketing strategiyasining mantiqiy davomi bo‘lgan ikkinchi darajali marketing strategiyasini tanlashda odatda “mahsulot-bozor” matritsasi qo‘llaniladi. Natijada bozorni rivojlantirish va foydani oshirish maqsadida korxonaning tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha bozorga kirish, bozorni rivojlantirish, mahsulot ishlab chiqarish va diversifikasiya qilish kabi to‘rtta variantini taklif qilinadi.

Agar korxona allaqachon taniqli mahsulot bilan bozorda faoliyat olib borayotgan bo‘lsa, birinchi variantdan foydalanish kerak. Bunda bozordagi mavqeini mustahkamlash uchun marketing chora-tadbirlarini kuchaytirish talab etiladi. Ikkinchi variantda, mahsulot portfelida mavjud bo‘lgan mahsulot yangi bozorlarga chiqariladi deb taxmin qilinadi. Mahsulotni rivojlantirish strategiyasi mavjud bozorlarda yangi mahsulotlarni sotish orqali amalga oshiriladi. Korxonalar umumiy iqtisodiy va moliyaviy holatiga, resurs imkoniyatlariga hamda marketing yo‘nalishlariga qarab quyidagi marketing strategiyalardan foydalanadi:

1. Omon qolish strategiyasi – bu inqiroz sharoitida, kompaniya bankrot bo‘lish arafasida turganda mos keladigan himoya strategiyasi. Uning maqsadi marketing kompleksini qayta qurish orqali inqirozdan chiqishdir.
2. Keyinchalik o‘sish strategiyasini amalga oshirishga o‘tish bilan korxona faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarining tez yoki kutilmagan yomonlashuvi sharoitida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan barqarorlashtirish strategiyasi.
3. Sotish, foyda, kapital va boshqa samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshirishni nazarda tutuvchi o‘sish strategiyasi. Matritsa sohasida joylashgan intensiv o‘sish marketing strategiyalarining bir qator turlari mavjud (2-jadval).

2-jadval: Ansoff matritsasi bo‘yicha intensiv o‘sish strategiyalarining turlari*

	Tovarlar	
	Mavjud	Yangi
Mavjud	Bozorga chuqur kirib borish strategiyasi	Mahsulot ishlab chiqish
Yangi	Bozor rivojlanishi	Diversifikasiya

Bozorga chuqur kirib borish strategiyasi, agar korxona iste’molchilarga allaqachon ma’lum bo‘lgan mahsulotni bozorda targ‘ib qilgan holatda qo‘llaniladi. Bunday strategiya bozor hali to‘liq band bo‘lmagan va o‘sish zaxiralariga ega bo‘lgan taqdirda tavsiya etiladi va u maqsadli reklama kompaniyalari, sotishni rag‘batlantirishning har xil turlari yordamida mahsulot sotish hajmini oshirishga, shuningdek, bozorda narxlarni xaridorlarning ko‘pchiligi uchun foydali darajaga tushirish orqali yaxshilashga savdo faoliyatini tashkil etishga qaratilgan.

Asalarichilikda narxlar strategiyasini tanlashda mavsumiylikni hisobga olish asalarichilik korxonasi uchun barqaror rentabellikni ta’minlaydi, shuning uchun mavsumga qarab narx strategiyasini va tegishli taktik choralarni o‘zgartirishga arziydi. Asalarichilik ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan narx siyosatini shakllantirish jarayonida narxlarni moslashtirish strategiyasini yoki o‘rtacha bozor narxlarini tanlash maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasida agrar sohadagi ko‘pgina kichik korxonalari uchun mahsulot sotishni tashkil etish qiyin muammodir, chunki ular o‘z mahsulotlarining muhim qismini arzon narxlarda “samarali taqsimlash strategiyalarini amalga oshirish tufayli ancha yuqori daromad oladigan vositachilarga sotadilar. Asalarichilik sohasida ham ko‘p hollarda vaziyat juda o‘xshash bo‘ladi.Asalarichilik mahsulotlarini marketing strategiyasi uning tabaqalanishi va mavsumiyligiga, shuningdek korxona faoliyati ko‘lamiga bog‘liq, chunki tovarlarning kichik partiyalari qulay sharoitlarni yaratishga imkon bermaydi.

Agro-oziq-ovqat mahsulotlarining har xil turlari uchun turli marketing strategiyalari samarali bo‘ladi. Xususan, asalarichilik sohasida ham xuddi shunday, yilning turli davrlarida turli marketing strategiyalari qo‘llaniladi. Chunki, bu mahsulotning o‘ziga xos xususiyati shundaki, uni asosiy ehtiyoj mahsuloti sifatida tasniflash mumkin бўлсада, lekin uni ishlab chiqarish mavsumiydir. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra asal qizdirilganda u bakteritsid xususiyatlarini yo‘qotadi, ammo ta’m xususiyatlarini yo‘qotmaydi. Vaqt o‘tishi bilan asal kristallanadi, lekin uning ozuqaviy sifatini yo‘qotmaydi. Bu tarkibidagi glyukoza foiziga bog‘liq bo‘lgan tabiiy jarayon. Agar fruktoza hukmron bo‘lsa, kristallanish biroz keyinroq sodir bo‘ladi. Asal mustahkamlik o‘zgarishi


TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

tufayli foydali xususiyatlarini yo‘qotmaydi [11]. Asalarichilik ishlab chiqarish korxonalari uchun sotish faoliyati sohasida samarali farqlash strategiyalarini tanlash va asoslash 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval: Asalarichilik korxonalarini sotishni differensiallashtirishning samarali strategiyalarini tanlash va asoslash[2]

Savdo strategiyalari	Strategiya turlari	Xarakterli
Mavsumga qarab	Intensiv savdo strategiyasi	Iyuldan sentyabrgacha turli tarqatish kanallari orqali asalarichilik mahsulotlarini faol sotishni ta’minlash
	O‘rtacha savdo strategiyasi	Ishlab chiqarish jarayonidan tashqari eng foydali tarqatish kanallarini aniqlash va talabni kamaytirish orqali etarli miqdorda sotish hajmi hamda daromadini ta’minlash.
	Jozibador savdo strategiyasi	Qish va bahor fasllarida talab hamda taklifning qisqarishi davrida yuqori sifatli asalarichilik mahsulotlarini sotishni ta’minlash.
Tarqatish kanaliga qarab	Faol to‘g‘ridan-to‘g‘ri etkazib berish strategiyalari	Iste’molchilarga katta va o‘rta partiyalarda maqbul narxlarda (asal, katta hajmdagi) faol to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotishni ta’minlash.
	Faol bilvosita ta’minot strategiyalari	Ulgurji sotuvchilar va boshqa vositachilarga katta partiyalarda o‘rtacha narxlarda faol bilvosita sotishni ta’minlash



1-rasm: Asalarichilik mahsulotlari bozorida ishlab chiqarish jarayonlari va marketing faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini baholash mexanizmi


2 Nanba: Muallif ishlanmasi

Asalarichilik mahsulotlarining marketing strategiyalarini iqtisodiy foydaga qarab yuqori foyda olishga yo‘naltirilgan va o‘rtacha barqaror foyda olishga yo‘naltirilgan bo‘lish mumkin. Asal ishlab chiqarish O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi sohasida juda istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Bugungi kunga kelib O‘zbekiston Respublikasi asal ishlab chiqarish va eksport qilish sohasida xalqaro bozorlardagi asosiy raqobatchilardan biriga hisoblanmoqda. Asalarichilik tarmog‘ini samarali rivojlantirish qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish va eksport qilish hajmini yanada oshirishning uzviy va majburiy tarkibiy qismidir.

Agar erishilgan natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, keyingi o‘n yilliklarda xo‘jalik turlari bo‘yicha asal etishtirish tarkibida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Natijada, respublikada asal etishtirish hajmini 25 ming tonnadan 52,5 ming tonnaga oshirish va asalarichilik mahsulotlarini hisobga olish tizimi va statistik bazasi shakllantirish [12] ni reja qilingani bu sohada olib borilayotgan ishlarni davomiyligini anglatadi. Shu ma’noda, asalarichilik mahsulotlari bozorida ishlab chiqarish jarayonlari va marketing faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini baholash mexanizmi talab etiladi (1-rasm).

Bozor sharoitida agrar sektor korxonalari o‘z salohiyatini, shu jumladan, tashkiliy shakllarni eng yaxshi ochib berish yo‘nalishlari hamda rivojlanish variantlarini mustaqil tanlash imkoniyatiga ega va bunday boshqaruv natijalari uchun javobgar bo‘ladi. Marketing tamoyillari asosida qurilgan ilmiy va iqtisodiy asoslangan strategiya agrobiznes muvaffaqiyatining garovidir. Asalarichilik mahsulotlari bozorida kichik korxonalarning marketing strategiyalarini shakllantirish o‘ziga xos xususiyatga ega.

Quyidagi 2-rasmda keltirilgan asal ishlab chiqaruvchi korxona strategiyasini ishlab chiqish bo‘yicha fermer xo‘jaligining asosan sifat ko‘rsatkichlari va uning marketing muhitini tahlil qilish natijalari asosida amalga oshirilishi kerak.



2-rasm: Asal ishlab chiqaruvchi korxonaning marketing strategiyasini ishlab chiqish bosqichlari

Ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan strategiyaning samaradorligi strategik, shu jumladan, optimal taqsimlanishiga ham bog‘liq. Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonasining moliyaviy resurslari birinchi navbatda e’tiborga olish kerak. Marketing strategiyasining samaradorligi amalga oshirish jarayonini tashkil etish va korxonaning ushbu jarayonga tayyorlik darajasiga ham bog‘liq. Marketing strategiyalarining samaradorligi ularni amalga oshirish taktikasini yanada ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Strategik faol korxona ichki muhit ishtirokchilariga, mikromuhit subyektlariga maqsadli ta’sir ko‘rsatishi va tashqi muhit sharoitlariga moslashishi, strategiyani amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishi va shu bilan strategik maqsadlarga erishish uchun asos yaratishi kerak. Bozor munosabatlarini chuqurlashtirish sharoitida korxona faoliyatining samaradorligiga erishish uchun marketing strategiyasi eng muhim funksional strategiya hisoblanadi, chunki u har bir alohida bozorda (bozor segmentida) va har bir mahsulotga nisbatan maqsad hamda vazifalarni asoslashni ta’minlashga mo‘ljallangan. Zamonaviy sharoitda marketing strategiyasini shakllantirishni asalarichilik mahsulotlari bozorida korxonalarning samarali strategik rivojlanishining asosi deb hisoblash mumkin, bu ayniqsa quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- asalarichilik bozori to‘yingan va raqobatning yuqori intensivligiga ega, shuning uchun samarali faoliyat yuritish uchun bozor ishtirokchilari maqsadli segmentni o‘ziga xos ehtiyojlari bilan aniqlashlari kerak, bu bozorni to‘g‘ri segmentasiyalash va marketing vositalaridan foydalanish sharoitida mumkin;

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- zamonaviy ishbilarmonlik muhiti yuqori turbulentlik bilan tavsiflanadi, bu korxonalarga qo‘shimcha bozor imkoniyatlarini taqdim etishi yoki aksincha, uning muvaffaqiyatli ishlashi uchun mumkin bo‘lgan tahdidlarni aniqlashi mumkin. Bozor kon’yunkturasini doimiy monitoring qilish ishtirokchilarning bozor imkoniyatlarini kuzatish, ulardan strategiyalarni amalga oshirish jarayonida foydalanish va shu bilan birga risklarni kamaytirish imkonini beradi. Marketing tadqiqotining ushbu komponenti marketing strategiyasini shakllantirish jarayonida uslubiy vositalarni tanlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi;
- xalqaro va ichki bozorlarda raqobatning yuqori darajasi asalarichilik tarmog‘i korxonalaridan bozorda o‘z o‘rnini egallash imkonini beradigan adekvat raqobatbardosh harakatlarni talab qiladi. Raqobat strategiyasini belgilash zarur; tashqi o‘zgarishlarga aniq javob mexanizmini shakllantirish; biznesning aniq dolzarb masalalarini hal qilish;
- iste’molchining xarakteri, odatlari, afzalliklari va xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni hisobga olish korxonalarning bozor strategiyasi modelini to‘g‘rilashda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligining kichik korxonalari mahsulotlarni saqlash uchun shart-sharoitlar bilan yetarli darajada ta’minlanmaganligi natijasida ular bozorda raqobatdosh ustunliklarini yo‘qotayotgani aniqlangan. Lekin, asalarichilik sohasida asosiy mahsulotni (asalni) saqlash juda aniq shartlarni talab qilmaydi. Biroq saqlash muddati ancha cheklangan, odatda bir yil, undan keyin asal va boshqa asalarichilik mahsulotlari sifati va foydaliligini biroz o‘zgartiradi. Albatta, asalni noto‘g‘ri saqlash sharoitlari tufayli o‘zining tarkibiy xususiyatlarini o‘zgartirishi mumkin, ammo salbiy atrof-muhit haroratida saqlash ham uning ozuqaviy qiymatini deyarli o‘zgartirmaydi ya’ni, -20 °C da asal qalin bo‘ladi.

Shuning uchun muammoni hal qilishning barcha bosqichlarida marketing tadqiqotlaridan kompleks foydalanish taklif etiladi.

Marketing strategiyasi biznesning umumiy strategiyasidan kelib chiqadigan muhim tarkibiy qismdir, chunki u o‘z mahsulotlarini farqlash va marketing faoliyatning maqsadi va belgilangan bozor maqsadlariga moslashtirish orqali korxonaga raqobatdosh ustunlikka erishishga yordam beradi. Raqobat kurashi kuchayib borayotgan so‘nggi paytlarda asalarichilik sohasidagi barcha toifadagi korxonalar faoliyatida mahsulot ishlab chiqarish va sotishda maksimal darajada ko‘zlangan natijalarga erishishda korxonalar faoliyatini faqat iste’molchilar ehtiyojlariga yo‘naltirish zarurati belgilandi, bu muvaffaqiyatning asosiy omili hisoblanadi.

Asalarichilik korxonalari raqobatbardosh bozorlarda faoliyat yuritadi va eng yaqin raqobatchilarning mahsulotlaridan deyarli farq qilmaydigan (yoki ozgina farq qiladigan) mahsulotlar ishlab chiqaradi. Bundan tashqari, mahsulotlar kichik partiyalarda ishlab chiqariladi, bu bozorda fundamental ahamiyatga ega emas. Ushbu korxonalarning strategiyalarni amalga oshirishga tayyor emasligi va boshqaruv tizimlarining nomukammalligini hisobga olgan holda, “eng soddalashtirilgan” marketing vositalaridan foydalanish kerak, deb hisoblaymiz. Shu bilan birga olingan natijalarda korxonaning zaif tomonlariga ko‘proq e’tibor berish va ularni bartaraf etish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Наливайко А. П. Теория стратегий предприятия. Современное состояние и перспективы развития: монография. Киев: КНЭУ, 2001. –227 с.
2. Портер М. Э. Конкурентная стратегия. Методика анализа отраслей и конкурентов. –М.: Альпина Паблишер, 2017. –456 с.
3. Томпсон А. А., Стрикленд А. Дж. Стратегический менеджмент. Искусство разработки и реализации стратегии. –М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1998. –567 с.
4. Doyle P. Management: strategy and tactics. St. Petersburg: Peter. 1999, 560 p.
5. Карлоф Б. Деловая стратегия: концепция, содержание, символы. –М.: Экономика, 1991. –239 с.
6. Фатхутдинов Р. А. Стратегический менеджмент. –М.: Бизнес-школа “Интел-Синтез”, 1998. –416 с.
7. Колпаков В. Концептуальные основы стратегии управления. –Персонал. –2002. –№ 3. –С. 38-44.
8. Оберемчук В. Ф. Стратегия предприятий: краткий курс лекций. –Киев : МАУП, 2000. –127 с.
9. Траут Дж. Траут о стратегии. СПб.: Питер, 2004. –192 с.
10. A.Soliyev, S.Buzrukxonov. Marketing “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti, 2010, 424-b.
11. Ларина Я. С. Формирование и механизмы реализации маркетинговых стратегий в агропродовольственном подкомплексе АПК: монография. –Киев: Пресса Украины, 2008. –344 с.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” qarori, 08.02.2022-yildagi PQ-120-son. https://lex.uz/docs/5858728

IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BANK FAOLIYATINI IQTISODIY-MATEMATIK MODELLASHTIRISH YO‘LLARI



Raxmanov Mexridin Sindarovich
“Statistika va ekonometrika” kafedrasi dotsent (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatini iqtisodiy-matematik modellashtirish yo‘llari xususida fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda tijorat banklari faoliyati va ularning yillik mablag‘lar aylanmasi tahlilining iqtisodiy matematik ko‘rinishlari keltirib o‘tilgan. Bundan tashqari tijorat banklari faoliyatini iqtisodiy-matematik modellashtirish usullari va ularning turlari haqida ma’lumotlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, iqtisodiy-matematik, modellashtirish, moliyaviy xizmat, mablag‘lar aylanmasi, daromad, bozor islohoti, moliyaviy barqarorlik.

Abstract: In this article, opinions are expressed about the ways of economic-mathematical modeling of the activity of commercial banks. Also, the economic mathematical aspects of the analysis of the activity of commercial banks and their annual turnover of funds in Uzbekistan are given. In addition, information on economic-mathematical modeling methods and their types of commercial banks’ activities is provided.

Key words: commercial banks, economic-mathematical, modeling, financial service, funds circulation, income, market reform, financial stability.

Аннотация: В данной статье высказываются мнения о способах экономико-математического моделирования деятельности коммерческих банков. Также приведены экономико-математические аспекты анализа деятельности коммерческих банков и их годового оборота средств в Узбекистане. Кроме того, приводится информация о методах экономико-математического моделирования и их видах деятельности коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, экономико-математическое моделирование, финансовая служба, денежное обращение, доход, рыночная реформа, финансовая устойчивость.

KIRISH


Bugungi kunda tijorat banklari moliya tizimida iqtisodiy-matematik modellashtirish jarayoni muhim omil sifatida jamg‘armalar va qarz oluvchilar o‘rtasida mablag‘lar aylanishini osonlashtiradi va shu orqali iqtisodiyotda kapitalning optimal taqsimlanishiga hissa qo‘shib kelmoqda. Bundan tashqari, tijorat banklari fond bozorida ishtirok etish orqali brokerlik, investitsiya maslahati va aktivlarni boshqarish xizmatlari kabi bir qator moliyaviy xizmatlarni taklif qilishlari mumkin, bu esa individual va institutsional investorlarga foyda keltiradi. O‘zbekiston sharoitida tijorat banklarining fond bozoridagi faoliyati alohida ahamiyatga ega, chunki mamlakatda bozor islohotlari va liberallashuv jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Hozirda O‘zbekiston hukumati iqtisodiyotni liberallashtirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish va moliya sektorini rivojlantirish borasida islohotlarni amalga oshirmoqda [1]. Natijada O‘zbekiston fond bozori yillar davomida rivojlanib bordi, uning rivojlanishida tijorat banklari asosiy rol o‘ynadi. Iqtisodiyotning muhim bo‘g‘ini sifatida moliya sektori jadal sur’atlar bilan o‘sib bormoqda, tijorat banklari fond bozorini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.

Shunisi xarakterliki, har qanday xo‘jalik subyekti o‘z yalpi daromadining asosiy qismini asosiy faoliyat turidan olishi lozim. Faqat shunday holatdagina xo‘jalik subyektining moliyaviy ahvoli barqaror hisoblanadi, shu jihatdan olganda, tijorat banki daromadining asosiy qismi kredit operatsiyalaridan va qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalardan olinishi lozim.

Chunki tijorat banklari barcha mamlakatlarda, avvalo, kreditlash institutlari hisoblanadi va qimmatli qog‘ozlar bozorining asosiy ishtirokchilaridir.

Tijorat banklari faoliyatini iqtisodiy-matematik modellashtirishning hisobot davrida bankning barcha daromadlarining majmuasi yalpi daromadtashkil etadi. Odatda, yalpi daromad tarkibida quyidagi daromad guruhlarini ajratishadi:



Iqtisodiy adabiyotlarda bank daromadi tushunchasi turli xil talqin qilinadi. Diana Mak Noton bank daromadi – jalb qilingan resurslar hisobidan berilgan kreditlardan olingan foizlar bilan jalb qilingan resurslar bo‘yicha to‘langan foizlar o‘rtasidagi farqdan iboratdir deb yozadi.

Ushbu ta’rifda bank daromadini faqat kreditlar bo‘yicha olingan foizlar va to‘langan foizlar o‘rtasidagi farqni nazarda tutgan. Bu ko‘proq foyda tushunchasiga mos keladi. Shuningdek, u boshqa bank operatsiyalaridan olinadigan daromadlarni nazardan chetda qoldirgan. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)da “Daromadlar – bu hisobot davrida aktivlarning oqib kelishi yoki o‘sish yo‘li orqali, yoxud majburiyatlarning qisqarishi orqali aktsiyadorlik kapitali ishtirokchilarning badallari bilan bog‘liq bo‘lmagan kapitalning ko‘payishi, shaklida iqtisodiy nafning o‘sishidir” deb ta’riflaydi [3]. Ushbu fikrlarni qo‘llab-quvvatlagan holda bank daromadining o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagi rasmlarda ko‘rish mumkin.

Xarajatlar	Faoliyat turlari	Daromadlar
Mahsulot ishlab chiqarish, hizmat ko‘rsatish va boshqa faoliyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar	Ishlab chiqarish jarayoni, xizmat ko‘rsatish jarayoni	Mahsulotni sotish, hizmat ko‘rsatish, moliyaviy faoliyatdan daromadlar

1.2-rasm: Tijorat banklari faoliyatini iqtisodiy-matematik modellashtirish yo‘llarida bank mablag‘lari aylanmasi sxemasi[1]

Eng avvalo ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonasida daromad va xarajatlarni ko‘rib chiqish mumkin. Ushbu korxona faoliyatida olinadigan daromad va xarajatlarning kelib chiqish jarayoni 1.2-rasmda keltirildi. Ushbu rasmda ko‘rinib turibdiki, xarajatlar faoliyat turiga bog‘liq holda tashkil qilinadi, natijada faoliyat turiga qarab daromad olinadi bu esa tijorat banklari faoliyatini iqtisodiy-matematik tahlil qilish jarayonini to‘g‘ri hisoblashga yordam beradi.

Xarajatlar	Faoliyat	Daromadlar
1. Depozitlar bo‘yicha xarajatlar 2. Boshqa majburiyatlar bo‘yicha xarajatlar 3. Valyuta sotib olish xarajatlari 4. Qimmatli qog‘oz sotib olish xarajatlari 5. Zahira hisobi xarajatlari 6. Operatsion xarajatlar	Xizmat ko‘rsatish jarayoni Bank mahsulotlarini sotish	1. Kredit opyeratsiyalaridan daromad 2.Investitsiya operatsiyalaridan daromad 3. Valyuta operatsiyalaridan daromad 4. Qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operatsiyalaridan daromad 5. Boshqa daromadlar

1.2-rasm: Tijorat banklari faoliyatidan asosiy daromadlari va xarajatlari

1.1-rasm va 1.2-rasmlardan ko‘rinib turibdiki, korxona va bank faoliyati turli hil va ular turli hil mablag‘lar evaziga faoliyat ko‘rsatadi. Korxona ko‘proq o‘zining mablag‘i hisobiga faoliyat ko‘rsatsa, bank esa ko‘proq jalb qilingan mablag‘lar hisobiga faoliyat olib boradi. Bu o‘z navbatida bankning daromadiga va xarajatiga ta’sir ko‘rsatadi. Bank daromadlarilarini buhgaltyeriya hisobida tan olishni tadqiq qilishda ularning strukturasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1 Vahabov V., Ibragimov K., Rizayev N.K. Tijorat banklari tashqi auditida halqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish metodikasi. Monografiya. –T.: Moliya, 2021. –188-b.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank daromadlarini ko‘pchilik iqtisodchi va matematik olimlar turli xil belgilarga qarab tasniflaydi. Biz ularni asosan ikkita katta guruhga ajratdik. Birinchi guruhga kiruvchi olimlar daromadlarni olinish tartibi bo‘yicha foizli va foizsiz daromadlarga bo‘ladi. Daromadlarni bunday tasniflashni K.Navro‘zova, B.T.Byerdiyarov, K.G.Parfyenov, A.K.Polishuk, Dj.Sinki, D.M.Noton, D.Dj.Karlson, K.T.Ditd va boshqalar ishlarida ko‘rish mumkin [5].

Ikkinchi guruh olimlari G.G.Korobova, N.F.Karimov, Ye.P.Kozlova, Ye.N.Galagina va boshqalar bank faoliyatini asosiy va yordamchi faoliyatga bo‘lib, shunga mos ravishda daromadlarni tasniflaydilar. Ya’ni daromadlar operatsion faoliyat daromadi, bank operatsiyalari hisoblanmagan operatsiyalardan olingan daromad, boshqa daromadlarga bo‘linadi [6].

Bank daromadlarini bunday tasniflash ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hisobga olish, tahlil qilish, nazorat qilish va boshqaruv maqsadlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Agar biz bank faoliyatini asosiy va qo‘shimcha faoliyatga bo‘ladigan bo‘lsak, unda asosiy faoliyatdan olingan daromad daromadning asosiy qismini tashkil qilishini ko‘rishimiz mumkin [7]. Bu daromadni operatsion daromad deymiz. Operatsion daromad o‘z navbatida foizli va foizsiz daromadlarga bo‘linadi. Foizli daromadlarga byerilgan kreditlar bo‘yicha daromadlar, qo‘yilgan depozitlar bo‘yicha daromadlar, qarz majburiyatlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek hisob, lizing, faktoring, forfeyting operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi.

1.1-jadval: O‘zbekiston bank tizimida tijorat banklarining daromadlari tarkibi (foizda)[2]

№	Ko‘rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
1	Foizli daromad	55,9	54,4	55,1	56,2	57,0
2	Foizsiz daromad	44,1	45,6	44,9	43,8	43,0
3	Jami daromad	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Tijorat banklari faoliyatini iqtisodiy-matematik modellashtirish shunday moddiy yoki hayolan tasavvur qilinadigan obyekti, qaysiki tadqiqot jarayonida haqiqiy obyektning o‘rnini shunday bosadiki, uni bevosita o‘rganish haqiqiy obyekt haqida yangi bilimlar beradi [8]. Modellarni qurishda tadqiq qilinayotgan hodisani belgilovchi muhim omillar aniqlanadi va qo‘yilgan masalani yechish uchun muhim bo‘lmagan qismlar chiqarib tashlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolada tijorat banklari iqtisodiy-matematik modellashtirish orqali o‘rganilayotgan haqiqiy obyektlarni tahlil qilish,tahlil natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda qiyosiy tahlil,tuzilmaviy tahlil va monografik tahlil usullaridan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bir tomondan, modellar oson o‘rganiladigan bo‘lishi kerak, shuning uchun ular juda murakkab bo‘lmasligi kerak – binobarin, ular albatta faqat soddalashtirilgan nusxalar bo‘ladi. Biroq ikkinchi tomondan, modellarni o‘rganishdan olingan xulosalarni haqiqiy obyektlarga ham qo‘llash lozim, demak, model o‘rganilayotgan haqiqiy obyektning muhim tomonlarini aks ettirishi kerak.Modellashtirish deganda, modellarni qurish, o‘rganish va qo‘llash jarayoni tushuniladi. Modellashtirish jarayoni quyidagi uch elementni o‘z ichiga oladi:

1) subyekt (tadqiqotchi);
2) tadqiqot obyekti;
3) o‘rganuvchi subyekt bilan o‘rganilayotgan obyektning munosabatlarini vositalovchi model [7].

Ilmiy izlanishlarda modellashtirish qadimgi zamonlardayoq qo‘llanila boshlandi va asta-sekin ilmiy bilimlarning qurilish, arxitektura, astronomiya, fizika, ximiya, biologiya va nihoyat, ijtimoiy fanlar kabi tobora yangi sohalarni qamrab ola boshladi. Birinchi matematik modellar F.Kene (1758-y., iqtisodiy jadval), A.Smit (klassik makroiqtisodiy model), D.Rikardo (xalqaro savdo modeli) tomonidan ishlatilgan [8]. XX asr zamonaviy fanning amalda barcha sohalarning modellashtirish usuliga katta muvaffaqiyatlar va obro‘-e’tibor keltirdi. Iqtisodiy hodisalarni o‘rganish uchun ularning iqtisodiy modellar deb ataluvchi soddalashtirilgan formal tasvirlaridan foydalaniladi [9]. Iste’mol tanlovi modellari, firma modellari, iqtisodiy o‘sish modellari, tovar va moliya bozorlaridagi muvozanat modellari va boshqa ko‘p modellar iqtisodiy modellarga misol bo‘ladi.

2 Vahabov V., Ibragimov K., Rizayev N.K. Tijorat banklari tashqi auditida halqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish metodikasi. Monografiya. –T.: Moliya, 2021. –188-b.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Iqtisodiy-matematik modellarni amaliyotda qo‘llash usullari iqtisodiy-matematik usullar deb ataladi. Iqtisodiy-matematik usullar (IMU) iqtisodiyotni o‘rganish uchun birlashtirilgan iqtisodiy va matematik fanlarning uyushmasidir. Bu tushuncha fanga XX asrning 60-yillarida akademik V.S.Nemchinov tomonidan kiritilgan bo‘lib, IMU iqtisodiyot, matematika va kibernetikaning tutashishida hosil bo‘lgan [10].

- **Matematik modelni qurish.** Bu bosqich iqtisodiy muammoni formallashtirish, uni tayinli matematik bog‘lanishlar va munosabatlar (funksiyalar, tenglamalar, tengsizliklar va h.k.) ko‘rinishida ifodalash bosqichidir. Odatda avval matematik modelning asosiy qurilmasi (turi) aniqlanadi, so‘ngra bu qurilmaning tarkibiy qismlari (o‘zgaruvchilar va parametrlarning aniq ro‘yxati, bog‘lanishlar shakli) aniqlashtiriladi.
- **Modelni matematik tahlil qilish.** Bu bosqichning maqsadi modelning umumiy xossalarini aniqlashdan iborat. Bu yerda tadqiqotning sof matematik usullari qo‘llaniladi. Modelning analitik tadqiqotida yechimning mavjudligi, yagonaligi, yechimga qaysi o‘zgaruvchilar (noma’lumlar) kirishi mumkinligi, ular orasidagi munosabatlar, bu o‘zgaruvchilar qaysi doirada va qanday dastlabki shartlarga bog‘liq ravishda o‘zgarishi, ularning o‘zgarish yo‘nalishlari va shu kabi masalalar oydinlashtiriladi. Modelning analitik tadqiqoti empirik (sonli) tadqiqotiga nisbatan shunisi bilan afzalki, bunda olinayotgan xulosalar modelni tashqi va ichki parametrlarining har xil tayinli qiymatlarida o‘z kuchini saqlaydi. Shunga qaramay, murakkab iqtisodiy obyektlarning modellari juda katta qiyinchilik bilan analitik tadqiqotlarga keltiriladi. Analitik usullar bilan modelning umumiy xossalarini aniqlashning ilojisi bo‘lmaydigan hamda modelni soddalashtirish maqsadga muvofiq bo‘lmagan natijalarga olib keladigan hollarda tadqiqotning sonli usullariga o‘tiladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, respublikamizda bank tizimining uzluksiz rivojlanishi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida obyektiv zaruriyat bo‘lib, bu o‘z navbatida tijorat banklari faoliyatini uzluksiz nazorat qilishni va ularni samarali tashkil etish uchun bank tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalarning daromadliligini oshirish, ushbu operatsiyalarni amalga oshirishda qilinayotgan xarajatlarni kamaytirish va shu asosda bank foydasini ko‘paytirish yo‘llarini topishni talab etadi.

2022-yil 17-yanvardagi “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”dagi PQ-90-son Qarorlarini keltirib o‘tish o‘rinli. Ushbu me’yoriy hujjatlarda kapital bozorini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan bo‘lib, ular quyidagilar [4]:


- kapital bozorining raqobatbardoshligini oshirish va uning kapitallashuvini 2023-yil yakuniga qadar 45 trln. so‘mga yetkazish, bank tomonidan kreditlashga muqobil bo‘lgan samarali moliyalashtirish mexanizmini yaratish;
- xalqaro moliya bozorlari bilan faol integratsiyalashuv, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish va xorijda muvaffaqiyatli sinovdan o‘tgan ilg‘or yondashuvlarni qo‘llash orqali barcha toifadagi investorlar uchun kapital bozorining qulayligini oshirish;
- kapital bozorining uyg‘un faoliyati va uning barcha segmentlari rivojlanishini ta’minlash orqali 2023-yil yakuniga qadar respublika va hududiy investitsiya dasturlari doirasida loyihalarning qimmatli qog‘ozlar chiqarish orqali moliyalashtirilgan qismini 5 foizga yetkazish;
- sohaga ilg‘or xalqaro amaliyotni joriy qilish, ortiqcha to‘siqlar va cheklovlarni bartaraf etish orqali fond bozorida rivojlanish maqsadlariga yo‘naltirilgan investitsiyalarni faol moliyalashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- minoritar investorlar, kapital bozorining boshqa ishtirokchilari hamda aholi keng qatlamlarining bilimlari, ko‘nikmalari va moliyaviy savodxonligini oshirishni qo‘llab-quvvatlash dasturlari doirasida 2023-yil yakuniga qadar 40 ming nafar aholini qamrab olish.

Resurslarni jalb qilish bo‘yicha tijorat banklari faoliyati, asosan, aktiv va passivlarni boshqarish bo‘yicha kuchli o‘ylangan strategiyaga asoslangan holda bo‘ladi. Jalb qilingan resurslarni yuqori foizlarda bankning zarariga qaytarmaslik uchun va turli zararlardan qochish uchun bank juda yaxshi o‘ylangan foiz riskini boshqarish strategiyasiga ega bo‘lishi zarur. Ushbu tizimning asosiy vazifalari: risklarni aniqlash, ularning hajmini hisoblash, monitoringini tahlil qilish, mavjud xavf-xatarlarga qarshi turli instrument va vositalardan foydalanish bo‘yicha ishlarni amalga oshirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.05.2020-yildagi PF-5992 son “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi hamda “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi yangilangan qonunlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 02.06.2023-yildagi SQ-742 IV son “O‘zbekiston Respublikasi markaziy bankining 2022-yildagi faoliyati to‘g‘risida”gi qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-yanvardagi “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”dagi PQ-90 son qarori.
5. Nurmuxamedov A.A. & Nurmuxamedova B.I. Fond bozori rivojlanishming o‘ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liqligi. –2023. 836-847.
6. Shamsiddinovich A.S. Tijorat banklarida foiz riski va uni boshqarish. Ijodkor o‘qituvchi. 2023. 3(26), 80-82.
7. Baxriddin N. Investitsiya loyihalarni moliyalash samaradorligini oshirishda banklarning o‘rni. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. –2021. 1(5), 223-229.
8. Mirzaliyevich O.R. O‘zbekiston bank sektorini rivojlantirishda dividend siyosatining rolini oshirish masalalari. Innovative, educational, natural and social sciences. 2021. 1(3), 267-277.
9. Радковская П.П. Методологические подходы к управлению прибылью коммерческого банка. Журнал “Финансы и кредит”. –2021. (205), 22 с.
10. Berdiyarov B.T. Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadliligi. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2022. 21 b.
11. Vahabov V., Ibragimov K., Rizayev N.K. Tijorat banklari tashqi auditida halqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish metodikasi. Monografiya. –T.: Moliya, 2021. –188-b.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



KORPORATIV BOSHQARUV AMALIYOTI BO‘YICHA HISOBOT TUZISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBA

Tashmatov Rustam Xusanovich
I.f.d., O‘zbekiston Respublikasi Davaktiv agentligi huzuridagi Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya: Mazkur maqolada xo‘jalik jamiyatlarida korporativ boshqaruv amaliyoti bo‘yicha hisobotni shakllantirish borasida AQSH, Buyuk Britaniya, Hindiston, Rossiya, Qozog‘iston tajribalari o‘rgangan, xususan mazkur davlatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalarda korporativ boshqaruv amaliyoti hisobotining tarkibi va mazmuni tadqiq etilgan va O‘zbekistonda ushbu turdagi hisobotni tuzish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: korporativ boshqaruv, ichik va tashqi audit, korporativ boshqaruv amaliyoti, korporativ boshqaruv tamoyillari, korporativ boshqaruv mezonlari, boshqaruv va nazorat organlari.

Abstract: This article examines the experience of the USA, Great Britain, India, Russia, and Kazakhstan in forming a report on corporate governance practices in business entities, in particular, the structure and content of the report on corporate governance practices at large enterprises operating in these countries are studied, and the need for such a report in Uzbekistan is justified.

Key words: corporate governance, internal and external audit, corporate governance practices, corporate governance principles, corporate governance criteria, governance and oversight bodies.

Аннотация: В данной статье изучен опыт США, Великобритании, Индии, России, Казахстана по формированию отчета о практике корпоративного управления в хозяйственных обществах, в частности, изучена структура и содержание отчета о практике корпоративного управления на крупных предприятиях, действующих в этих странах, а также обоснована необходимость составления подобного отчета в Узбекистане.

Ключевые слова: корпоративное управление, внутренний и внешний аудит, практика корпоративного управления, принципы корпоративного управления, критерии корпоративного управления, органы управления и надзора.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi tufayli xo‘jalik jamiyatlari, shu jumladan, davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan taqdim etiladigan hisobot ko‘rsatkichlariga talablarni oshirish obyektiv ehtiyojga aylandi. Jahon hamjamiyati manfaatdor tomonlar guruhlarining xo‘jalik jamiyatlari faoliyati bo‘yicha nafaqat moliyaviy ko‘rsatkichlar, balki moliyaviy bo‘lmagan ko‘rsatkichlar, shu jumladan, korporativ boshqaruv amaliyoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish dolzarbligini allaqachon anglab yetganini qayd etish mumkin.

Shuni inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-sonli Farmonida [4] “2024-yil 1-iyuldan boshlab davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan yirik soliq to‘lovchilar korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) hamda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) holati to‘g‘risida har yili 1-iyulga qadar hisobotni jamoatchilikka oshkor etish amaliyoti” yo‘lga qo‘yilishi vazifasi qo‘yilgan. Bular korporativ amaliyoti bo‘yicha hisobotning elementlari hisoblanadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.29.2021-yildagi 166-sonli qarori [5] bilan tasdiqlangan 2025-yilgacha davlat ishtirokidagi korxonalarning bozor sharoitlariga to‘liq o‘tishini ta’minlash, ularning faoliyatiga korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublarini to‘laqonli tatbiq etish vazifasi belgilangan. Ushbu usullardan biri davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ amaliyoti bo‘yicha hisobotlarni shakllantirish va oshkor qilish hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ amaliyoti bo‘yicha hisobotlarni shakllantirish masalalari ko‘plab olimlarning e’tibori markazida bo‘lgan. Xususan, korporativ hisoboti bo‘yicha turlicha yondoshuvlar paydo bo‘lgan. Masalan, S.Xedrid, K.Xyutten [7] larning yondoshuviga ko‘ra, korporativ hisobot – turli toifadagi investorlarni to‘liq va shaffof ma’lumotlar bilan ta’minlashda bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblangan hisobotning bir qismidir E.V. Nikiforova, R.G.Kaspina, A.N.Xorin, I.F.Vetrova, N.G. Sapojnikova, L.Z.Shneydman [8-12] – korporativ hisobotni turli investorlarga yuqori sifatli, ishonchli ma’lumotlarni taqdim etish maqsadida korxonaning hozirgi va kelajakdagi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tavsiflovchi hisobot tizimi sifatida belgilaydilar.

Shu bilan bir qatorda yetakchi xorijiy kompaniyalar yillik hisobotlarda o‘z faoliyati, xususan, korporativ boshqaruv amaliyoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilishda katta tajriba to‘plagan. Ushbu tajriba milliy qonunchilik talablariga va tobora xalqaro xarakterga ega bo‘lib borayotgan ilg‘or tajribalar tavsiyalariga rioya qilishga asoslangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida taqqoslash, tahlil va sintez, mushohada qilish kabi tadqiqot usullardan foydalangan holda bir qator xorijiy davlatlarda korporatv amaliyoti bo‘yicha hisobotlarni shakllantirish borasidagi ilg‘or tajribalar o‘rganilgan hamda ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari bo‘yicha tavsiyalar berilgan,

TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyoda korporatv amaliyoti bo‘yicha hisobotlarni shakllantirish borasida katta tajriba to‘plangan. Ularni o‘rganish tadqiqotnig asosiy maqsadi hisoblanadi.

AQSH. Amerika ommaviy kompaniyalari har yili 10-K maxsus shakliga muvofiq tayyorlangan yillik hisobotni AQSH qimmatli qog‘ozlar va birja komissiyasiga (Securities Exchange Commission – SEC) taqdim etishlari shart [13]. Ushbu shakldagi yillik hisobotda kompaniya faoliyatining deyarli barcha jihatlari, shu jumladan, korporativ boshqaruv to‘g‘risidagi ma’lumotlar haqida batafsil ma’lumotlar beriladi. Bunday ma’lumotlarga direktorlar kengashi va boshqa boshqaruv organlarining tarkibi va faoliyati, ularga to‘lanadigan haq, kompaniyaning ustav kapitalining tuzilishi, tashqi auditor va uning kompaniya bilan munosabatlari hamda boshqalar haqida batafsil ma’lumotlar kiradi. Ushbu hisobotda oshkor qilingan ma’lumotlarning asosiy ajralib turadigan xususiyati uning hajmi kattaligi va batafsilroq yoritilishi hisoblanadi.

Kompaniya direktorlar kengashi a’zolariga haq to‘lash bo‘limida ish haqi tizimini shakllantirish tamoyillari batafsil tavsiflangan, to‘lovlar shakllari va direktorlar kengashining har bir a’zosiga to‘lanadigan haq miqdori ko‘rsatilgan.

Amerikaning har qanday ommaviy kompaniyasining 10-K shakli aksiyadorni qiziqtirishi mumkin bo‘lgan deyarli to‘liq ma’lumotlarni o‘z ichiga olganligini hisobga olsak, kompaniya tomonidan barcha manfaatdor tomonlar, shu jumladan, aksiyadorlar uchun e’lon qilingan yillik hisobot, odatda risola shaklida bo‘ladi. Bunday hisobotda korporativ boshqaruv to‘g‘risidagi ma’lumotlar odatda kompaniya amal qiladigan ushbu sohadagi asosiy tamoyillarni tavsiflash bilan cheklanadi va kompaniyaning direktorlar kengashi va rahbariyati haqida qisqacha ma’lumot beradi. Ammo, bu holda, yillik hisobot salohiyatli investorlar va tahlilchilar tomonidan zarur bo‘lgan ma’lumotlarni oshkor qilmasligi ham mumkin.

2002-yilda Sarbeyns-Oksli Qonuni (Sarbanes-Oxley Act – SOX) [14] qabul qilindi. Bu kompaniyalar uchun yangi audit va moliyalashtirish qoidalarini o‘rnatgan federal qonuni hisoblanadi. Qonun aksiyadorlarni, xodimlarni va jamoatchilikni buxgalteriya xatolari va moliyaviy amaliyot bilan bog‘liq firibgarliklardan himoya qilishga yordam beradi. Ushbu qonun birinchi navbatda davlat kompaniyalarining moliyaviy hisobotlari va biznes amaliyotiga taalluqlidir, garchi uning ba’zi qoidalari barcha kompaniyalarga, shu jumladan, xususiy kompaniyalar va notijorat tashkilotlarga tegishli bo‘lsa ham. Qonunda, shuningdek, uning qoidalariga rioya qilmaydigan kompaniyalar uchun jarimalar belgilandi. Qimmatli qog‘ozlar va birja komissiyasi (Securities and Exchange Commission – SEC) [15] qonunda belgilangan qoidalarga rioya etilishini ta’minlash uchun javobgardir.

Uoll-Stritni isloh qilish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi Dodd-Frank qonuni (Dodd-Frank Wall Street Reform and Consumer Protection Act) [16] 2010-yilda qabul qilingan bo‘lib, unda hukumat zimmasiga korporativ shaffoflik va hisobot moliya sohasida tartibga solish vazifasi yuklatilgan. Dodd-Frank Qonunining asosiy maqsadlaridan biri banklarga qattiqroq qoidalar o‘rnatish edi. Qonun bilan, shuningdek, moliyaviy barqarorlikni nazorat qilish Kengashi (FSOC) tashkil etildi va unga moliya bozoriga ta’sir ko‘rsatadigan doimiy muammolarni hal qilish vazifasi topshirildi, bu navbatdagi retsessiyani oldini olishiga xizmat qiladi.

Buyuk Britaniya. Buyuk Britaniyadagi eng yaxshi korporativ boshqaruv amaliyotining elementi yillik hisobotning kompaniya direktorlarining ish haqiga bag‘ishlangan maxsus bo‘limi hisoblanadi. Britaniya kompaniyalarining yillik hisobotlarida direktorlar kengashi a’zolarining ish haqining batafsil tavsifi mavjud bo‘lib, ular,

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

qoida tariqasida, direktorlar kengashining ish haqi qo‘mitasi tomonidan tayyorlanadi. Unda kompaniyaning ijro etuvchi va ijro etilmaydigan direktorlari uchun haq to‘lash tizimini yaratish tamoyillari, ish haqining barcha elementlari (asosiy ish haqi, yillik qo‘shimcha haq, uzoq muddatli rag‘batlantirish elementlari – opsionlar) yoritilgan. Bundan tashqari, direktorlar kengashining har bir a’zosiga har bir mukofot elementlari bo‘yicha to‘lanadigan haq miqdori to‘g‘risida ma’lumot beriladi.

Ilgari Birlashgan kodeks deb nomlangan Buyuk Britaniyaning korporativ boshqaruv kodeksi (UK Corporate Governance Code) [17] listing kompaniyalari uchun direktorlar kengashi tarkibi va rivojlanishi, mukofotlash, aksiyadorlar bilan munosabatlar, hisobdorlik va audit kabi mavzular bo‘yicha yaxshi amaliyot standartlarini belgilaydi. Xususan, ushbu hujjatda korporativ boshqaruv to‘g‘risidagi hisobot yillik hisobotning boshqa qismlari, xususan strategik hisobot va boshqa qo‘shimcha ma’lumotlar bilan muvofiqlashtirilishi kerakligi, shunda aksiyadorlar kompaniyani boshqarish mexanizmlarining sifatini, shuningdek direktorlar kengashi va uning faoliyatini samarali baholashlari mumkinligi qayd etilgan.

Umuman olganda, Britaniyaning korporativ boshqaruv tizimi odatda Yevropa va Osiyodagi ko‘plab boshqa yurisdiksiyalarga ta’sir ko‘rsatgan samarali model sifatida qaraladi.

Hindiston. Hindistonning qimmatli qog‘ozlar va birja kengashi (Securities and Exchange Board of India – SEBI) [18] Hindistondagi listing shartnomasiga o‘zgartirish kiritdi. Yangi normalar axborotni yanada batafsilroq oshkor qilishni va investorlarning huquqlarini himoya qilishni talab qiladi. O‘zgarishlar minoritar va xorijiy aksiyadorlarga teng munosabatda bo‘lish to‘g‘risi tartiblarini o‘z ichiga oladi. O‘zgarishlar, shuningdek, kompaniyalardan manfaatdor tomonlar bilan bitimlarni tuzish uchun aksiyadorlarning roziligini olishni, xabar beruvchi siyosatni o‘rnatishni va ish haqi paketlarini oshkor qilishni kengaytirishni talab qiladi hamda har bir kengashda kamida bitta ayol direktor bo‘lishini talab qiladi. Ushbu normalar 2013-yildagi Kompaniyalar to‘g‘risidagi qonun (The Companies Act, 2013) [19] bilan chambarchas bog‘liq.

Hindistondagi yirik kompaniyalar, shuningdek, korporativ boshqaruv sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida muntazam ravishda ma’lumot berish va korporativ boshqaruv amaliyoti bo‘yicha yillik hisobotlarni nashr etish zarurligini yaxshi tushunadi. Masalan, IndianOil (Hindiston neft va gaz kompaniyasi, zamonaviy Hindistondagi eng yirik kompaniya) [20] yaxshi korporativ boshqaruv amaliyoti kompaniya biznesining axloqiy va samarali yuritilishini shaffof tarzda ta’minlaydi, shuningdek, barcha manfaatdor tomonlar (a’zolar, mijozlar, xodimlar, pudratchilar kabi, yetkazib beruvchilar va umuman jamiyat) uchun qiymatni maksimal darajada oshirishga yordam beradi, deb qat’iy ishonadi. Yaxshi korporativ boshqaruv amaliyoti barcha ishtirokchilar o‘rtasida ishonch muhitini yaratishga yordam beradi. Kompaniya hind elektr energiya sohasidagi kompaniya va dunyo miqyosida tan olingan kompaniya sifatida o‘z qarashlariga erishish uchun muhim bo‘lgan o‘z faoliyatida shaffoflik, yaxlitlik va hisobdorlikni ta’minlash uchun korporativ boshqaruv tamoyillari va amaliyotini qo‘llab-quvvatlaydi.

Kompaniya barcha manfaatdor tomonlar uchun qiymat yaratish uchun axloqiy va mas’uliyatli biznes yuritishning yuqori standartlarini o‘rnatdi. Kompaniyada korporativ boshqaruv amaliyotini samarali amalga oshirish uchun quyidagi bo‘limlardan iborat korporativ boshqaruv hisoboti tuziladi [21]:

1. Kompaniyaning korporativ boshqaruv sohasidagi falsafasi.
2. Direktorlar kengashi.
3. Direktorlar kengashi qo‘mitalari.
4. Umumiy yig‘ilish.
5. Pochta orqali ovoz berish uchun byulleten.
6. Axborotni oshkor qilish.
7. Aloqa vositalari.
8. Umumiy ma’lumot.

Rossiya. Yillik hisobot aksiyadorlarga va har qanday manfaatdor shaxsga ma’lumot berish uchun Rossiya qonunchiligida nazarda tutilgan hisobot shakllaridan biri bo‘lganligi sababli, bir qator normalar umuman yillik hisobotning mazmuni va xususan kompaniyaning korporativ boshqaruv amaliyotining tavsifiga oid talablarni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, “Qimmatli qog‘ozlar emitentlari tomonidan axborotni oshkor qilish to‘g‘risidagi Nizom” [22] yillik hisobotda kompaniyaning Rossiya korporativ xulq-atvor kodeksiga muvofiqligi to‘g‘risida batafsil ma’lumot oshkor qilinishi kerak.

Ushbu talablarni ishlab chiqishda davlat boshqaruv organi korporativ boshqaruv amaliyoti bo‘yicha kompaniyalar yillik hisobotlarida oshkor qilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlar tarkibi va korporativ boshqaruv kodeksi [23] tavsiyalariga muvofiqligi to‘g‘risida hisobot tuzish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqdi.

Rossiya kompaniyalarining yillik hisobotlari mazmunini tahlil qilish ulardagi korporativ boshqaruv amaliyoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish bosqichma-bosqich yaxshilanganligini ko‘rsatadi va bir qator kompaniyalarning yillik hisobotlari xalqaro “eng yaxshi amaliyotlar” tomonidan tavsiya etilgan standartga sezilarli darajada yaqinlashdi. Yirik kompaniyalar orasida OAJ “LUKOYL”, RAE “YEES Rossiya”, OAJ “GMK Norilskiy Nikel”, OAJ “AFK “Sistema”, OAJ “Gazprom”, OAJ “MXK “YevroXim”ning yillik hisobotlari, o‘rta kompaniyalar

orasida OAJ “Uralsvyazinform” (Yekaterinburg sh.), OAJ “Aviakompaniya YUTeyr” (Tyumen sh.), OAJ “Konsern Energomera” (Stavropol sh.), OAJ “Konsern Kalina” (Yekaterinburg sh.) larning yillik hisobotlari ajralib turadi.

Rossiya kompaniyalarida tuzilgan korporativ boshqaruv amaliyoti to‘g‘risidagi hisobotlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, ularning hisobot shakllari bir-biridan farq qiladi.

Masalan, Rossiya banki korporativ hisobotning elementlaridan (bo‘limlaridan) biri bo‘lgan korporativ boshqaruv kodeksining tamoyillari va tavsiyalariga muvofiqligi to‘g‘risida hisobot tuzish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqdi [24]. Ushbu xatning 2-ilovasida korporativ boshqaruv kodeksining tamoyillari va tavsiyalariga muvofiqligi to‘g‘risidagi hisobot mavjud bo‘lib, u jadval shaklida keltirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval: Rossiya banki tomonidan tavsiya etilgan korporativ boshqaruv kodeksining tamoyillari va tavsiyalariga muvofiqligi to‘g‘risidagi hisobotning tuzilishi

№	Korporativ boshqaruv tamoyillari	Korporativ boshqaruv tamoyiliga muvofiqligini baholash mezonlari	Korporativ boshqaruv tamoyiliga muvofiqlik holati	Korporativ boshqaruv tamoyiliga muvofiqligini baholash mezonlaridan chetga chiqishni tushuntirish
1	2	3	4	5
…	…	…	…	…

Ushbu tuzilishga ko‘ra, “korporativ boshqaruv mezonlari” ikkinchi ustunida Rossiya banki tomonidan ishlab chiqilgan korporativ boshqaruv kodeksida 7 blokdan iborat asosiy korporativ boshqaruv mezonlari keltirilgan. Keyingi ustunda korporativ boshqaruvning ushbu tamoyillariga muvofiqligini baholashning asosiy mezonlari ko‘rsatilgan. Keyingi “korporativ boshqaruv tamoyillariga muvofiqlik holati” ustunida korporativ boshqaruv tamoyiliga muvofiqlik holati quyidagicha berilgan: krioya qilinadi, qisman rioya qilinadi, rioya qilinmaydi. Beshinchi ustun korporativ boshqaruv tamoyilining har bir baholash mezoni (muvofiqlik mezoni) uchun tushuntirishlar beriladi.

Rossiya banki har yili ushbu shaklda korporativ boshqaruv kodeksining tamoyillari va tavsiyalariga muvofiqligi to‘g‘risida hisobotlarni e’lon qiladi. Korporativ boshqaruv amaliyoti to‘g‘risida hisobotni shakllantirishda ko‘plab boshqa Rossiya kompaniyalari ushbu shaklga rioya qilishadi, masalan, AJ “Rosseti Severo-Zapad”, OAJ “MRSK Urala” va boshqalar ushbu shakldan Rossiya Federatsiyasining 2021-yil uchun korporativ boshqaruv kodeksining tamoyillari va tavsiyalariga muvofiqligi to‘g‘risida hisobot tuzishda foydalanganlar.

Shuningdek, korporativ boshqaruv amaliyoti to‘g‘risidagi hisobotlarning matn ko‘rinishdagi variantlar ham mavjud. Bunday hisobotlarni OAJ “LUKOYL”, OAJ “MRSK Sentra”, “Rosseti FCK YEES” va “NRD” korporativ boshqaruv hisobotida topish mumkin (2-jadvalga qarang).

2-jadval: Rossiyaning yirik kompaniyalarida korporativ boshqaruv amaliyoti to‘g‘risidagi hisobotlarning tuzilishi va mazmuni

OAJ “LUKOYL”ning 2014-yil uchun korporativ boshqaruv hisoboti	OAJ “MRSK Sentra”ning 23.09.2008-yildagi korporativ boshqaruv amaliyoti bo‘yicha hisobot	“Rosseti FCK YEES”ning 2020-yil uchun korporativ boshqaruv hisoboti	Moskva birja guruhining milliy hisob-kitob depozitariysining (MHKD)ning 2019-yil uchun korporativ boshqaruv hisoboti
Korporativ boshqaruv kodeksiga muvofiqligi to‘g‘risida ma’lumot. Direktorlar kengashi. Direktorlar kengashi qo‘mitalari. Prezident va Boshqaruv. Taftish komissiyasi. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash. Tashqi audit. Ichki nazorat va ichki audit. Xatarlarni boshqarish. Aksiyadorlar bilan aloqalar	Umumiy xususiyatlar. Aksiyadorlarning huquqlari. Boshqaruv va nazorat organlarining faoliyati. Axborotni oshkor qilish. Boshqa manfaatdor tomonlar manfaatlari va korporativ ijtimoiy javobgarlik sohasidagi faoliyat.	Korporativ boshqaruv haqida umumiy ma’lumot. Nazorat qiluvchi aksiyadorning memorandumi. Korporativ boshqaruv haqida umumiy ma’lumot. Kompaniyaning boshqaruv organlari. Boshqaruv organlariga haq to‘lash. Nazorat va xatarlarni boshqarishni ta’minlash. Guruh kompaniyalari boshqarish. Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish. Korrupsiyaga qarshi siyosat va iqtisodiy faoliyat xavfsizligini ta’minlash. Ustav kapitali, qimmatli qog‘ozlarning muomalasi.	Korporativ boshqaruv Xatarlarni boshqarish Biznesning uzluksizligini ta’minlash. Korporativ ijtimoiy javobgarlik. Inson kapitali. MHKD faoliyati haqida umumiy ma’lumot

Shuningdek, korporativ boshqaruv amaliyoti to‘g‘risidagi ma’lumotlar kompaniyaning umumiy yillik hisobotining bo‘limlaridan biri sifatida kiritilgan hisobotlar ham mavjud. Masalan, “Gruppa TNK–VR Xolding” neft va gaz kompaniyasining 12 bo‘limdan iborat bo‘lgan 2008-yildagi yillik hisobotida 11-bo‘lim 19 sahifadan iborat korporativ boshqaruvga bag‘ishlangan. Ushbu bo‘limda quyidagilar ochib beriladi [25]:

- korporativ boshqaruv tamoyillari;
- direktorlar kengashi;
- boshqaruv kompaniyasi - OAJ “TNK-VR Menedjment”;
- korporativ kotib;
- aksiyadorlik kapitali;
- Rossiya buxgalteriya standartlariga muvofiq moliyaviy hisobotlar;
- dividend siyosati;
- manfaatdor tomonlarning bitimlari haqida ma’lumot.

Qozog‘iston: Qozog‘istonning yirik kompaniyalarida korporativ boshqaruv amaliyoti to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish ham yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, OAJ “KazMunayGaz” Qozog‘iston korporativ boshqaruv kodeksiga muvofiqligi to‘g‘risida ma’lumot berishdan tashqari qo‘shimcha normalar kiritilgan. Ya’ni:

1. Korporativ boshqaruvning qo‘shimcha tamoyillari joriy etilgan:

- jamiyatning mustaqil faoliyati tamoyili;
- javobgarlik tamoyili.

2. Ba’zi tamoyillar turli xil qoidalar bilan to‘ldirilgan, masalan:

- ijtimoiy siyosat tamoyillari;
- kompaniya aksiyadorlari bilan munosabatlar to‘g‘risidagi nizomlar;
- direktorlar kengashi raisi va bosh direktor o‘rtasida vakolatlarni taqsimlash;
- direktorlar kengashi raisining vazifalarini tavsiflovchi nizomlar;
- mustaqil direktorlarning minimal soniga bo‘lgan talab;
- mustaqil direktorlarning “mustaqilligi”ni o‘rnatish talablari va tamoyillarini tartibga soluvchi qo‘shimcha nizomlar;
- kompaniya direktorlari uchun ma’lumot olish va malakasini oshirish to‘g‘risidagi nizomlar;
- direktorlarga haq to‘lash tamoyillarini tartibga soluvchi nizomlar;
- insayder ma’lumotlarini himoya qilish to‘g‘risidagi nizomlar;
- xatarlarni boshqarishning samarali tizimini ta’minlash uchun direktorlar kengashining javobgarligi to‘g‘risidagi nizomlar;
- direktorlar kengashi raisi va a’zolari faoliyatini baholash to‘g‘risidagi nizomlar;
- direktorlar kengashi a’zolarini saylash/qayta saylash to‘g‘risidagi nizomlar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, bugungi kunda korporativ boshqaruv amaliyotini hisobotga kiritish bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish dolzarb hisoblanadi, chunki bu hisobot O‘zbekiston Respublikasi xo‘jalik yurituvchi subyektlarida yuritilmaydi (ushbu hisobotning faqat alohida elementlari – korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari keltiriladi).

O‘zbekiston Respublikasi sharoitiga kelsak, korporativ boshqaruv amaliyoti bo‘yicha hisobotlarni shakllantirishga o‘tishni o‘rta muddatli istiqbol sifatida ko‘rib chiqish kerak, chunki hozirgi kunda aksariyat xo‘jalik yurituvchi subyektlar ushbu turdagi hisobotlarni shakllantirmaydi. Aksariyat milliy kompaniyalar uchun korporativ boshqaruv amaliyoti to‘g‘risida mazmunli va tushunarli hisobotlarga o‘tish 2-3 yil vaqt talab qilishi mumkin. Bu jarayon tegishli me’yoriy-huquqiy bazani shakllantirishdan boshlanishi kerak. Xususan, O‘zbekiston xo‘jalik yurituvchi subyektlarida korporativ boshqaruv amaliyoti to‘g‘risidagi hisobotni keng joriy etish uchun amaldagi qonunchilikka ushbu jarayonni tartibga soluvchi normalarni kiritish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbeksiton Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” 26.04.1996-yildagi 223-I-son Qonuni. – URL: https://lex.uz/docs/6567.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida” 06.12.2001-yildagi 310-II-son Qonuni. – URL: https://lex.uz/docs/22525.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida” 11.09.2023-yildagi PF-158-son Farmoni. – URL: https://lex.uz/uz/docs/6600413.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 21.02.2024-yildagi PF-37-son Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/6811936.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2021–2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 29.03.2021-yildagi 166-son qarori – URL: https://lex.uz/uz/docs/5348948
6. Korporativ boshqaruv kodeksi (Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish Komissiyasining 2015-yil 31-dekabrda o‘tkazilgan yig‘ilishida tasdiqlangan) – URL: https://gov.uz/uz/davaktiv/sections/korporativ-boshqaruv/view/6336.
7. Будущее корпоративной отчетности: стремление к единому видению. – URL: http://urlid.ru/cfkm.
8. Ветрова И.Ф. Корпоративная отчетность организаций АПК / Финансовая академия при Правительстве РФ. М., 2005. 228 с.
9. Каспина Р.Г. Концепция формирования корпоративной отчетности // Аналитическое и контрольное обеспечение управления инновационным развитием: сборник научных трудов / под ред. В.И. Бариленко, М.В. Мельник. М.: Финансовый университет, 2012. 188 с.
10. Никифорова Е.В. Методология корпоративной публичной отчетности / Финансовая академия при Правительстве РФ. М., 2004. 455 с.
11. Хорин А.Н. Аудит корпоративной отчетности компаний // Аудиторские ведомости. 2007. № 6. С. 3–13.
12. Шнейдман Л.З. Оценка инфраструктуры корпоративной отчетности в России // Бухгалтерский учет. 2012. № 11.
13. https://www.sec.gov
14. https://wikijob.pages.dev/content/financial-terms/accounting/sarbanes-oxley-act.
15. https://www.usa.gov/agencies/securities-and-exchange-commission.
16. https://www.cftc.gov/LawRegulation/DoddFrankAct/index.htm
17. https://www.frc.org.uk/library/standards-codes-policy/corporate-governance/uk-corporate-governance-code.
18. https://medium.com/@commerceopen24/securities-and-exchange-board-of-india-sebi-4c33df895e87
19. https://www.indiacode.nic.in/handle/123456789/2114?view_type=browse&sam_handle=123456789/1362
20. https://ya.ru/search/?text=%2C+IndianOil+&lr=10335
21. https://iocl.com/contents/AnnualReportenglish_2021-22/pdf/corporate-governance.pdf
22. https://legalacts.ru/doc/polozhenie-o-raskrytii-informatsii-emitentami-emissionnykh-tsennykh/?ysclid=loeb-3k4epy207349712
23. https://cbr.ru/Crosscut/LawActs/File/5768
24. http https://saratov-tnk-bp.ru/activity/about/s://rulaws.ru/acts/Pismo-Banka-Rossii-ot-27.12.2021-N-IN-06-28_102/?ysclid=lw0a6mjji8222405447
25. https://saratov-tnk-bp.ru

IQTISODIYOTDA DAVLAT ISHTIROKINI QISQARTIRISH VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Yuldashev Xusniddin Abdullayevich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston iqtisodiyotida davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Iqtisodiyotda davlat ishtirokining kamayishi va xususiy sektorni rag‘batlantirish mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishiga yordam berishi kutilmoqda. Maqola turli mamlakatlar tajribalarini taqqoslab, O‘zbekiston uchun mos keladigan strategiyalarni taklif qiladi. Xalqaro misollardan foydalanib, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Davlat ishtiroki, xususiy sektor, iqtisodiy islohotlar, iqtisodiy diversifikatsiya, moliyaviy rag‘batlantirish, barqaror iqtisodiy o‘sish.

Abstract: This article focuses on reducing state participation in the economy and enhancing private entrepreneurship in Uzbekistan. It is anticipated that decreasing governmental involvement and encouraging the private sector will contribute to sustainable economic growth. The article compares international experiences and proposes strategies suitable for Uzbekistan. Using examples from various countries, it explores ways to diversify the economy and support private entrepreneurship to increase economic stability and competitiveness.

Key words: State participation, private sector, economic reforms, economic diversification, financial incentives, sustainable economic growth.

Аннотация: Данная статья посвящена сокращению участия государства в экономике и развитию частного предпринимательства в Узбекистане. Ожидается, что уменьшение участия государства и стимулирование частного сектора способствует устойчивому экономическому росту. Статья сравнивает международный опыт и предлагает стратегии, подходящие для Узбекистана. Используя примеры из разных стран, рассматриваются способы диверсификации экономики и поддержки частного предпринимательства для увеличения экономической стабильности и конкурентоспособности.

Ключевые слова: Участие государства, частный сектор, экономические реформы, экономическая диверсификация, финансовые стимулы, устойчивый экономический рост.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorni rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. Bu jarayonlar mamlakat iqtisodiyotining xilma-xilligini oshirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va global raqobatbardoshlikni kuchaytirish maqsadida amalga oshirilmoqda. Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan ushbu siyosatlar, iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish va mamlakatning jahon bozoridagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan.

Davlat ishtirokini qisqartirishning asosiy yo‘nalishlari orasida soliq imtiyozlari, moliyaviy rag‘batlantirish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun qonuniy asoslar yaratish kabi tadbirlar mavjud. Shuningdek, davlat mulkini xususiylashtirish va davlat korxonalarini boshqarishni takomillashtirish jarayonlari ham jadallashmoqda. Bularning barchasi xususiy sektor vakillariga ko‘proq imkoniyatlar yaratib, ularning faoliyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Biroq bu o‘zgarishlar oson va tezkor amalga oshmadi. Ko‘plab institutsional va struktural to‘siqlar, jumladan, korrupsiya, byurokratik to‘siqlar, shuningdek, tadbirkorlik muhitining o‘ziga xos xususiyatlari bu jarayonlarni murakkablashtirgan. Shu sababli, davlatning iqtisodiyotdagi rolini qayta shakllantirish va xususiy sektor vakillarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha islohotlar o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston iqtisodiyotida davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasining dolzarbligini va bu jarayonning ahamiyatini ta’kidlaydi, shuningdek, mazkur islohotlarning kelajakdagi istiqbollarini yoritib berishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston iqtisodiyotida davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi ko‘plab xorijiy olimlar tomonidan ham qizg‘in muhokama qilinadi. Jumladan, Joseph Stiglitz, Dani Rodrik va Daron Acemoglu kabi tan olingan iqtisodiyotshunoslar davlat ishtirokining iqtisodiyotdagi rolini va xususiy sektor rivojlanishini keng miqyosda o‘rganishgan.

Joseph Stiglitz o‘zining “Government, Market, and Economic Development” maqolasida davlatning iqtisodiyotdagi rolini muvozanatli bajarish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, davlatning iqtisodiy faoliyatga aralashuvi ba’zi hollarda zarur bo‘lsa-da, bu ishtirokni moliyaviy va institutsional cheklovlar doirasida amalga oshirish kerak [1].

Dani Rodrik esa “The Globalization Paradox: Democracy and the Future of the World Economy” kitobida globalizatsiya jarayonlarida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi aloqalarni tahlil qiladi. U, davlatning strategik ishtiroki xususiy sektorni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi mumkinligini, biroq bu ishtirokni optimallashtirish zarurligini qayd etadi [2].

Daron Acemoglu va James Robinson “Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty” asarida davlat ishtirokining iqtisodiyotga ta’siri haqida chuqurroq yondashuvni taklif etishadi. Ular, siyosiy- iqtisodiy institutlarning sifati va ularning rivojlanishga qanchalik hissa qo‘shishini tahlil qiladilar, bu esa xususiy sektor va umumiy iqtisodiyotning o‘sishiga ta’sir qiladi [3].

Ushbu adabiyotlardan tashqari, Robert Wade “Governing the Market: Economic Theory and the Role of Government in East Asian Industrialization” asarida Sharqiy Osiyo mamlakatlarida hukumat ishtirokinin iqtisodiy rivojlanishdagi ijobiy ta’sirlarini ko‘rsatib beradi. U, davlatning faol ishtiroki mahalliy korxonalarni global bozorlarga kirishda qo‘llab-quvvatlashi mumkinligini misollar orqali ifodalaydi [4].

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonning iqtisodiy islohotlari xalqaro tajribalar bilan taqqoslaganda, turli mamlakatlarning yondashuvlarini tushunish muhimdir. Quyida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi strategiyalar solishtirilgan.

1-jadval: Rivojlangan mamlakatlar strategiyalari

Mamlakat	Strategiya	Iqtisodiy ta’sir
AQSh	Soliq imtiyozlari, texnologik innovatsiyalar rag‘batlantirishi	Xususiy sektorning innovatsion faoliyati va global raqobatbardoshligi oshdi
Germaniya	Kuchli kasb-hunar ta’limi, davlat va xususiy sektor hamkorligi	Iqtisodiy barqarorlik va ishlab chiqarish samaradorligi yuqori darajada
Yaponiya	Davlat tomonidan yirik loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, xususiy sektorga investitsiyalar	Texnologiya va ishlab chiqarish bo‘yicha yuqori o‘sish

Manba: Muallif tomonidan tayyorlandi

Rivojlangan mamlakatlar o‘z strategiyalarida innovatsiyani va yuqori texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlashga e’tibor qaratmoqdalar. Masalan, AQSh texnologik innovatsiyalarni rag‘batlantirish orqali xususiy sektorni global miqyosda raqobatbardosh qilishga muvaffaq bo‘lmoqda. Germaniya esa kasb-hunar ta’limiga investitsiya qilib, ishlab chiqarish sifatini oshirishga e’tibor qaratgan.

2-jadval: Rivojlanayotgan mamlakatlar strategiyalari

Mamlakat	Strategiya	Iqtisodiy ta’sir
Hindiston	Kichik va o‘rta bizneslarni qo‘llab-quvvatlash, eksportni rag‘batlantirish	Xususiy sektor kengayishi va ish o‘rinlari yaratilishi
Braziliya	Xususiy sektor va davlat ishtirokidagi korxonalar o‘rtasida integratsiya	Xalqaro savdoda raqobatbardoshlikni oshirish
Janubiy Afrika	Davlat moliyasini islohot qilish, xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirish	Iqtisodiy barqarorlik va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi

Manba: Muallif tomonidan tayyorlandi

Rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan Hindiston va Braziliya, xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xalqaro bozorlarda raqobat qilish uchun zarur bo‘lgan siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmoqdalar. Janubiy Afrika kabi mamlakatlar esa iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash maqsadida davlat moliyasini isloh qilishga e’tibor qaratmoqdalar.

TAKLIFLAR

O‘zbekistonning iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir takliflar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Soliq va moliyaviy siyosatni takomillashtirish: Soliq tizimini soddalashtirish va shaffoflash, shuningdek, xususiy sektorga moliyaviy rag‘batlarni kengaytirish zarur. Bu yondashuv yangi investitsiyalarni jalb qilish va mavjud korxonalarni kengaytirishga yordam beradi.
- Infrastrukturani modernizatsiya qilish: Davlat xususiy sektor uchun zarur bo‘lgan asosiy infratuzilmani yaratishda davom etishi kerak. Masalan, transport va aloqa tarmoqlarini modernizatsiya qilish, xususiy sektorni yanada raqobatbardosh qiladi.
- Ta’lim va malaka oshirish dasturlarini kuchaytirish: Xususiy sektor rivoji uchun zarur bo‘lgan malakali ishchi kuchi yetishtirishga qaratilgan ta’lim va kasb-hunar dasturlariga investitsiya kiritish. Bu, ayniqsa, texnologiya va innovatsiya sohalarida muhimdir.
- Xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimlarini kengaytirish: Kichik va o‘rta bizneslar uchun ko‘maklashuvchi tadbirlar, maslahat xizmatlari va tadbirkorlikni rag‘batlantiruvchi dasturlarni takomillashtirish.
- Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish: Xorijiy investitsiyalar va savdo aloqalarini kengaytirish orqali xalqaro bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaratish.

XULOSA

O‘zbekiston iqtisodiyotida davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyalari mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajriba va mahalliy sharoitlarni inobatga olgan holda, O‘zbekiston bu yo‘nalishda aniq va samarali siyosat yuritishi zarur. Davlatning rolini qisqartirish va xususiy sektor vakillarini qo‘llab-quvvatlash orqali mamlakat iqtisodiyotini yanada barqaror va o‘sishga yo‘naltirilgan qilish mumkin.

Bu jarayonlar, shuningdek, aholining turmush darajasini yaxshilashga va ish bilan ta’minlanish darajasini oshirishga yordam beradi. Natijada, O‘zbekistonning iqtisodiy kelajagi yanada yorqin va umidli bo‘ladi, bu esa mamlakatning jahon iqtisodiyotidagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Stiglitz, J. E. (1991). Government, financial markets, and economic development.
2. Rodrik, D. (2011). The globalization paradox: Democracy and the future of the world economy. WW Norton & Company.
3. Daron, A., & Robinson, J. A. (2012). Why nations fail: The origins of power, prosperity, and poverty. New York: Crown Business.
4. Wade, R. (2018). Governing the market: Economic theory and the role of government in East Asian industrialization.

IQTISODIYOTDA TURIZM O‘RNINI STATISTIK BAHOLASH USLUBIYOTI

Zilola Jumanova
Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada turizm faoliyati iqtisodiyotda eng tez eguluvchan, sezuvchanligi yuqori ekanligi va turizm iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil ekanligi asoslangan. Turizmning milliy va mintaqaviy iqtisodiyotdagi rolini aniqlash uchun statistik usullar ko‘rib chiqilgan. Turizmni rivojlanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlar aniqlangan. Turizmni iqtisodiyotdagi o‘rnini bevosita baholashda har bir makroiqtisodiy sohalar bilan korrelyatsion bog‘liqligini tahlil qilingan. Ko‘p o‘zgaruvchan vaqtli qatorlar ma’lumotlarini tahlil qilish uchun ARDL (Autoregressive distributed lag) modeliga asoslangan ekonometrik tenglamalardan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: turizm iqtisodiyoti, turizm statistikasi, yalpi ichki mahsulot (YAIM) va turizm, turizm sektori va bandlik, turist oqimi va sarflar, regional iqtisodiyot va turizm, turizmning ijtimoiy ta’siri, barqaror turizm, turizmning mintaqaviy ta’siri, turizmning iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

Abstract: Article tourism in the economy of the fastest eguluvchan activities, the sensitivity is high , and tourism is an important factor in the development of the economy that is based on fact. Discusses statistical methods to determine the role of tourism in the national and regional economy. To identify indicators of the development of tourism representingthe nga. In assessing the role in the tourism economy directly depends upon the macroeconomic sphere korrelyativ with each analysis that was made. Changing many rows-time data for the analysis of ARDS (Autoregressive distributed lag) model ekonometrik using equation was based on.

Key words: tourism economics, tourism statistics, gross domestic product (GDP) and tourism, and employment in the tourism sector, tourism flow, spending, the economy and regional tourism, the social impact of tourism, sustainable tourism, tourism of the regional impact of tourism on economic indicators.

Аннотация: Статья основана на том, что туристическая деятельность является наиболее гибкой и чувствительной в экономике, а также что туризм является важным фактором развития экономики. Рассмотрены статистические методы определения роли туризма в национальной и региональной экономике. Определены индикаторы, отражающие развитие туризма. При непосредственной оценке места туризма в экономике анализировалась взаимосвязь каждой макроэкономической сферы. Эконометрические уравнения, основанные на модели ARDL (авторегрессионный распределенный лаг), использовались для анализа данных многомерных временных рядов.

Ключевые слова: экономика туризма, статистика туризма, валовой внутренний продукт (ВВП) и туризм, туристический сектор и занятость, туристические потоки и расходы, региональная экономика и туризм, социальное воздействие туризма, устойчивый туризм, региональное влияние туризма, экономические показатели туризма.

KIRISH

Turizm faoliyati iqtisodiyotda eng tez eguluvchan, sezuvchanligi yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Turizm faoliyatning atrof-muhit, ekologik, siyosiy va ijtimoiy iqtisodiyotda muhim o‘ringa ega. Shuningdek har qanday iqtisodiyotda inqiroz holatidan o‘zining avvalgi holatiga tezlikda erishadigan soha ham turizm sohasidir.

Har qanday ochiq davlat iqtisodiyotida turizm sohasi muhim bo‘lib, ayniqsa 2019 yilgi pandemiya holatida bu yanada yaqqol ko‘rindi. Ijtimoiy masofaning cheklanishi, transport infratuzilmasining qat’iy nazorat qilinishi turizmni butunlay to‘xtatilishiga olib keldi. Bu turizm bilan korxonalarning daromadiga, ishchilarning oylik ish haqlariga ta’sir qildi. Davlatlar o‘zlarining iqtisodiyotida turizm sohasi qanchalik zarur ekanligini his qilishib, turizmni qayta oyoqqa turishi uchun barcha imkoniyatlarni qo‘llashdi. Chunki turizm iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish, investitsiya, bandlik, eksport kabi asosiy ko‘rsatkichlari bilan bog‘langan bo‘lib, turizmni rivojlanishini pasayishi boshqa sohalarga bevosita va bilvosita ta’sir qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasi, uning nazariy asoslari varivojlanishi iqtisodiy adabiyotlarda T.Tashmuradov, A.Saidov, I.S.Tuxliev, S.Safarov, Kim Ok Kyung, N.M.Abdusalomovna, S.Agzamovlarlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Turizm turlari, turistik joylashtirish maskanlari, turizm xizmatlari va mahsulotlari tahlil qilingan. Turizmni innovatsion rivojlanishini statistik yondashuv asosida ham tahlilqilishi mumkin. Statistikaning o‘rganish obyekti insoniyat hayotida ro‘y beradigan barcha ommaviy voqea va hodisalardir. Turizm sohasi ham hozirda ommaviy voqea hodisalar qatoriga kiradi, demak turizm sohasi statistikaga o‘rganish obyekti bo‘lishi mumkin. Turizm statistikasi turizm ko‘rsatkichlarini hisoblashni o‘rganib, ko‘rsatkichlarga ta’sir qiluvchi omillarni va ularning o‘zgarish dinamikasini tahlil qiladi.

TADQIQOTDA QO‘LLANILGAN METODOLOGIYA

“Iqtisodiyotda turizm o‘rnini statistik baholash uslubiyoti” bo‘yicha metodologiya quyidagi asosiy bosqichlardan iborat bo‘ladi:

- **Ma’lumot to‘plash:** Turizm sohasiga ta’sir qiluvchi omillar, jumladan, turistlar soni, turizm daromadlari, mehmonxona xizmatlaridan foydalanish statistikasi kabi ma’lumotlarni to‘plash.
- **Ma’lumotlarni tahlil qilish:** To‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish orqali turizm sohasining iqtisodiyotga ta’sirini baholash. Bu bosqichda turli statistik usullar va modellar, jumladan, regresyon tahlili, korelyatsion tahlil va boshqalar qo‘llaniladi.
- **Dinamikani tahlil qilish:** Turizm sohasining vaqt bo‘yicha o‘sish dinamikasini tahlil qilish. Bu, turizm sohasining iqtisodiyotdagi ulushi qanday o‘zgarayotganini ko‘rsatib beradi.
- **Prognostik modellar yaratish:** Kelajakdagi turizm faoliyatini baholash uchun prognostik modellar yaratish. Bu modellar turizm sohasining rivojlanish tendensiyalarini oldindan ko‘rish va moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.
- **Siyoq yondashuvlarini ishlab chiqish:** Olingan natijalar asosida turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va strategiyalar tuzish. Bu strategiyalar turizmni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.
- **Hisobot va taqdimotlar tayyorlash:** Barcha bosqichlarda olingan natijalar va tahlillarni jamlab, aniq va tushunarli hisobotlar tayyorlash. Bu hisobotlar qaror qabul qiluvchilar va manfaatdor tomonlar uchun muhim ma’lumot manbai bo‘ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi, chunki u ish o‘rinlari yaratish, infratuzilmani yaxshilash va mahalliy daromadlarni oshirishga hissa qo‘shadi. Turizmning milliy va mintaqaviy iqtisodiyotdagi rolini aniqlash uchun statistik usullarni ko‘rib chiqadi.

Bu uslubiyotlar asosan quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

- **Turizmning iqtisodiy ko‘rsatkichlari:** Turizm sektorining yalpi ichki mahsulot (YIM) ga qo‘shgan hissasi, turizm bilan bog‘liq xizmatlar va tovarlar, shuningdek, turizmdan olinadigan soliqlar va bojlar kabi ko‘rsatkichlar orqali baholanadi.
- **Ish o‘rinlari va bandlik:** Turizm sohasida yaratilgan ish o‘rinlari soni va turizm sektori orqali bandlikning umumiy iqtisodiyotdagi ulushi aniqlanadi.
- **Turist oqimi va sarflar:** Turistlarning soni, ularning kelib chiqish mamlakatlari, sayohat qilish sabablari, qolish davomiyligi va turizmda sarflangan mablag‘lar kabi ko‘rsatkichlar statistik baholashda foydalaniladi.
- **Regional ta’sir:** Turizmning mintaqaviy iqtisodiyotlarga ta’siri, shu jumladan, mahalliy daromadlar va iqtisodiy rivojlanishga qo‘shgan hissasi baholanadi.
- **Turizmning ijtimoiy va madaniy ta’siri:** Turizm sektorining mahalliy madaniyat va ijtimoiy strukturalarga ta’siri, shu bilan birga, barqaror turizm tamoyillariga muvofiqligi tahlil qilinadi.

Bu uslubiyot orqali turizmning iqtisodiyotdagi muhim roli aniqlanadi va bu sohani yanada rivojlantirish uchun strategiyalar ishlab chiqiladi. Statistical ko‘rsatkichlar va tahlillar asosida turizm sektorining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini aniqlashga yordam beradi.

Turizmning iqtisodiyotdagi o‘rnini statistik baholashda xalqaro standartlarda qo‘lanilayotgan uch usulning (to‘g‘ridan to‘g‘ri, bilvosita va multiplikativ) har biri uchun bir necha turdagi statistik usullar keng foydalaniladi.

Bizning fikrimizcha, turizmning iqtisodiyotdagi o‘rnini to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sirini baholashda eng to‘g‘ri statistik metod bu milliy hisoblar tizimidagi turizmning yordamchi hisobi va uning jamlanma jadvallaridir.

Turizmning bilvosita o‘rnini statistik baholashda asosiy statistik usul koeffitsiyentlar usulidir. Bunda har bir sohada turizmning ulushini hisoblash va bilvosita ta’sirini o‘rganish zarur bo‘ladi.

Turizmining iqtisodiyotdagi o‘rnini multiplikativ ta’sirini statistik baholashda ko‘p qo‘llaniladigan metod bu ekonometrik modellashtirish bo‘lib, bunda makroiqtisodiy tarmoqlar bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi.

Turizmni rivojlanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni aniqlashda Turizm yordamchi hisoblari (TYOH) juda muhim va asosiy manbalardan biridir. Turizm yordamchi schetlari hisobi deb ba’zi adabiyotlarda Satelistik schetlar tushuniladi. Satellite ingliz tilidan tarjima qilinganda yo‘ldosh degan ma’noni bildiradi, iqtisodiyotda bu yordamchi hisoblar ma’nosida qo‘llaniladi. Turizm sohasining yordamchi hisoblari orqali tahlili qilinishiniing asosiy sababi turizm aniq bir tarmoqda joylashmaganligidadir. Turizm yordamchi hisobi jadvallar orqali turli tarmoqlardan ma’lumotlarini yig‘ib keyin tahlil qiladi.

“Turizm yordamchi hisobi – 2008”da keltirilishicha, Turizm yordamchi hisobi bu tashrif buyuruvchilarning xarajatlari va iste’moli to‘g‘risida, shuningdek turizm sohasini makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini MHT bilan uyg‘un holda shakllantirishni ifodalaydi [1].

Turizm yordamchi hisobi (TYOH) Milliy hisoblar tizimining muhim hisoblaridan biri bo‘lib, uni O‘zbekiston milliy statistika amaliyotiga to‘liq joriy qilish hamda TYOH ko‘rsatkichlarini xalqaro standartlarga muvofiq shakllantirish iqtisodiyotimizning strategik sohasi hisoblangan turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, turizm salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish imkonini beradi.

Turizm ko‘rsatkichlarining chop etish davomiyligi oylik, choraklik, yillik bo‘lib, xalqaro standartlar talabiga ko‘ra kamida har uch oyda bir marta ma’lumotlar e’lon qilinib borilishi kerak. Bu turizm statistikasi uchun eng zarur xalqaro talablardan biridir.

Statistik ma’lumotlarni to‘plashda va ularni sifati va reprezentativligini oshirishda o‘ta muhim hisoblanadi. Ma’lumki, raqamli iqtisodiyot – bu yangi texnologiyalar, platformalar joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko‘chirish deganidir. Respublikamizda bu borada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Davlat statistika agentligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda davlat idoralarining axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalarini integratsiya qilish orqali mamlakatning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish, kelgusida prognozlash va davlat boshqaruvida foydalaniladigan ma’lumotlarni shakllantirish imkonini beruvchi Davlat organlari ma’lumotlarini yig‘ish va qayta ishlash axborot tizimi yaratilmoqda. Bu usulni qo‘llashda jahon tajribasi ko‘rsatmoqdaki barcha hujjatlar almashinuvi yuqori darajada avtomatlashadi va ular soni kamayadi, buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashadi, ma’lumotlar elektron bazalari yaratiladi, korporativ tarmoqlar hamkorligi oshadi, turistlar fikrlarini o‘rganish sifati oshadi va tezlashadi.

Turizm yordamchi hisobi asosan o‘nta jadvaldan iborat bo‘lib, respublikada keyingi yillarda barcha jadvallar to‘liq shakllantirilib, Statistika saytida berib borilmoqda.

1-jadval: Turizmning to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sirini hisoblashda asosiy turizm ko‘rsatkichlari

№	Turizm faoliyati	Hisoblash usuli	Hisoblash davri
1.	Kirishga oid turizm iste’moli	TYOH	yillik
2.	Ichki turizmga oid xarajatlar	TYOH	yillik
3.	Chiqishga oid turizm xarajatlari	TYOH	yillik
4.	Mamlakat ichidagi turizmga oid iste’mol	so‘rovnoma	yillik
5.	Turizm tarmog‘ida ishlab chiqarish hisobi	TYOH	choraklik
6.	Mamlakat ichidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri turizm taklifi	TYOH	choraklik
7.	Turizm tarmoqlaridagi bandlik	so‘rovnoma	yillik
8.	Turizm tarmoqlarida asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi	MHT	choraklik
9.	Jamoaviy turar joylar faoliyati	so‘rovnoma	yillik
10.	Turizm rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari	MHT	choraklik

Ba’zi jadvalllar hisobotlar asosida boshqalari esa so‘rovnomalar bo‘yicha to‘ldiriladi. Har bir jadvalda xalqaro standartlar talabiga ko‘ra quyidagi tarmoqlar bo‘yicha ma’lumotlar bo‘lishi zarur.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2-jadval: Turizm ko‘rsatkichlarini asosiy tarmoqlari bilan bog‘liqligi

Tashrif buyuruvchilarni joylashtirish bo‘yicha xizmatlar
2. Umumiy ovqatlanish korxonalari xizmatlari
3. Temir yo‘l yo‘lovchi transporti xizmatlari
3.1 Temir yo‘lovchi transport xizmtalari
3.2 Quruqlikdagi yo‘lovchi transporti xizmatlari
3.3 Suv yo‘li tarnsport xizmatlari
Havo yo‘li yo‘lovchi transporti xizmatlari
4.Transport vositalarini ijaraga berish xizmatlari
5. Turizm agentliklari xizmatlari va bron qilish bo‘yicha boshqa xizmatlar
5.1 Turizm agentliklari xizmatlari
5.2 Ekologik va ma’muriy xizmatlar
6. Madaniyat sohasidagi xizmatlar
6.1 Rassomchilik xizmatlari
6.2 Muzeylar va boshqa ma’daniy xizmatlar
7. Sport va dam olish bo‘yicha xizmatlari
8. Turizmga doir boshqa xizmatlar
8.1 Bank xizmatlari
8.2 Sug‘urta xizmatlari
8.3 Pochta xizmatlari
8.4 Mahalliy korxonalarning xizmatlari
8.5 Konferensiya va ko‘rgazma xizmatlari
9. Savdo xizmatlari
Umumiy iste’mol

BMT va UNWTO statistika standartlaridan foydalanish imkoniyati to‘laroq va taqqoslash mumkin bo‘lgan statistik tadqiqotlar o‘tkazish, statistik bashoratlar tuzish, hududiy bo‘linma miqyosida turizmda yordamchi hisob ishlab chiqish imkonini beradi.Turizmdagi statistik vazifalarga quyidagilar kiradi:

- tashrif buyuruvchilarni statistik tahlil qilish, turistik iste’mol va joylashtirish obyektlari faoliyati samaradorligini tahlil qilish;
- turizmda yordamchi hisob tuzish.

Bu muammolarni samarali hal etish uchun rivojlangan turizm infratuzilmasiga ega bo‘lgan mamlakatlar statistik ishlanmalarining uzoq muddatli tajribasidan va shunga mos ravishda turizm statistikasidan foydalanish juda muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasida hozirgi paytda turizmda statistik kuzatuv o‘tkazish uslubiyoti endi shakllanish bosqichida. Mintaqaviy statistikasini rivojlantirishga yangi yondashuvlar yaratilmoqda, ular yangi statistik ko‘rsatkichlar va hisobot shakllarini joriy etishni o‘z ichiga oladi, ammo turizmni statistik qo‘llab-quvvatlashda jiddiy muammolar hali ham aniqlanmoqda, ular quyidagilar bilan bog‘liq: O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib, xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, statistika tashkilotlari oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarayotgan paytda yuzaga keladigan statistikaning bir qator metodologik muammolari hal etilmaganligi; O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishini tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarning yo‘qligi; axborotning “tarqoqligi” va foydalanuvchilarning kerakli axborotni olishdagi qiyinchiliklari; statistik axborot olish va uni barcha manfaatdor foydalanuvchilarga taqdim etish bo‘yicha qonunchilik bazasining mukammal emasligi; ijroiya hokimiyat organlarining statistik axborot resurslarini shakllantirish va ulardan axborot olishda huquq va majburiyatlarini tartibga solinmasligi.

Turizm sohasida statistika hisobi va kuzatuv masalalariga ko‘plab tadqiqotlar bag‘ishlangan. Shu bilan birga, turizmni yanada rivojlantirish milliy iqtisodiyotning barcha sohalarida bashorat qilish va boshqaruv qarorlari qabul qilishda ulardan samarali foydalanish uchun ishonchli va to‘liq makroiqtisodiy statistika ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida olishga imkon beradigan davlat organlari uchun axborot va statistik qo‘llab-quvvatlash yagona tizimini yaratish qaratilgan bo‘lishi kerak. Afsuski, bu sohadagi tadqiqotlar tarqoq, noto‘liq xarakterga ega bo‘lib,

O‘zbekiston turizmda statistik kuzatuvni tashkil etish uchun keng qamrovli uslubiy yordam ishlab chiqishdan ancha uzoq.

Turizmni iqtisodiyotdagi o‘rnini bevosita baholashda har bir makroiqtisodiy sohalar bilan korrelyatsion bog‘liqligini tahlilini taklif qilamiz.

3-jadval: Turizmni iqtisodiyotdagi o‘rnini aniqlashda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan korrelyatsion tahlili

1	Turizmning boshqa tarmoqlar bilan bog‘liqligi
2	Sanoatda turizmning ulushi
3	Qishloq xo‘jaligi, o‘rmonchilik va baliqchilikda turizmning ulushi
4	Xizmat ko‘rsatishda turizmning ulushi
5	Eksportda turizmning ulushi
6	Importda turizmning ulushi
7	Qurilish sohasida turizmning ulushi
8	Bank-moliya sohasida turizm ulushi
9	Raqamli iqtisodiyotda turizmning ulushi
10	Davlat xarajatlarida turizmning ulushi
11	Davlat daromadlarida turizm ulushi

Tadqiqot, asosan, turizmda statistika hisobining ilg‘or xorijiy tajribasini muntazam o‘rganish, statistika hisobi va statistik kuzatuv tamoyillarining zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, O‘zbekiston turizmda statistik kuzatuvning samarali tizimini shakllantirish bo‘yicha tashkiliy va uslubiy tavsiyalarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan urinishlardan birini ifodalaydi. Ushbu muammoni hal etish O‘zbekistonning alohida hududlarida ham, butun respublika miqyosida ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning strategik maqsadlariga xolisona javob beradigan turizm sohasini samarali boshqarishning istiqbolli shakl va usullarini ishlab chiqishni ta’minlaydi.

Shuning uchun respublikada turizm xizmatlarini rivojlantirishning ahamiyati katta. Chunki u an’anaviy milliy hunarmandchilik va xalq badiiy ijodi, iste’mol tovarlari va tashqi savdoni kengaytirish, bozor infratuzilmasini takomillashtirishga “zamin” yaratadi. Shu tufayli mazkur sohani jadal rivojlantirish uchun samarali rivojlanishga to‘sqinlik qilayotgan barcha zaif tomonlarni aniqlab, ularni bartaraf qilish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

Turizm xizmatlar bozorida turmahsulotni samarali amalga oshirish uchun birinchi navbatda uning mavqei katta ahamiyatga ega. Turmahsulot mavqeiga ta’sir qiluvchi omillar esa quyidagilardan iborat: murakkab ekologik sharoitlar, siyosiy vaziyatlar, aholi o‘rtasidagi tili, dini, millati bo‘yicha ziddiyatlar, past darajadagi xizmat turlari, qiziq bo‘lmagan me’moriy qurilishlar va boshqalar. Aytish joizki, turizm sektorida o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi eng katta omil – bu turizmning mavsumiyligidir. Mavsum bo‘lmagan vaqtda turizm talablarining oqimlarini tebranishini turg‘un holatda saqlab qolish uchun quyidagi masalalarga alohida e’tiborni qaratish lozim, deb hisoblaymiz:

- yoshlarbop tadbirlar, rok-konsertlar, o‘ziga xos festivallarni doimiy ravishda o‘tkazish va ular haqida ma’lumotlarni keng tarqatish;
- mavsumga kam e’tibor beriladigan ziyorat turizmiga yanada ko‘proq e’tiborniqaratish, tegishli infratuzilmalarni yaratish;
- turistik mavsum bo‘lmagan paytlarda ma’lum bir sohalar bo‘yicha olimlar va tadqiqotchi ekspertlar uchun ilmiy-amaliy anjumanlar, turliforumlar, madaniy tadbirlar tashkil etish;
- milliy madaniyatimizni tarannum etuvchi jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan san’atimizni, folklorni, milliy maqom va cholg‘u asboblari bo‘yicha maxsus ko‘rik tanlovlar, tasviriy san’at ko‘rgazmalari, “Navro‘z” sayillari va hosil bayramlariniyanada kengroq miqyosda tashkil etish.

O‘zbekiston turizm sektori barqaror rivojlanishiga erishish uchun barcha omillar tasirini inobatga olgan holda tarmoq salohiyatidan to‘la foydalanib, turistik xizmatlarni ko‘rsatishning iqtisodiy samaradorligini oshirishga erishish zarur. Bunda jahon turizm xizmatlari bozorida raqobat kurashining avj olganligini hisobga olib, xorijiy mijozlar uchun turizm mahsulotlari jozibadorligini differensiatsiyalash va diversifikatsiya qilish zaruratidan kelib chiqqan holda ish ko‘rishni taqozo qiladi. Chunki, turizm sektori korxonalarini yangi innovatsion yondashuvlar asosida boshqarish va statistik baholash obyektiv zaruratga aylanib bormoqda.

Turizmni multiplikativ rivojlanishini aniqlashda ekonometrik model turlaridan foydalanishni taklif qilamiz. Xalqaro tadqiqotlarda eng ko‘p qo‘llanadigan metod ARDL modelidir.

Ko‘p o‘zgaruvchan vaqtli qatorlar ma’lumotlarini tahlil qilish uchun ARDL (Autoregressive distributed lag) modeliga asoslangan ekonometrik tenglamalardan foydalanildi. Tadqiqot ARDL modelidan foydalangan holda vaqtli qatorlarning grafik matritsasini qurishni o‘z ichiga oldi. Bundan tashqari, bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilar uchun korrelyatsiya matritsalarini baholashni, statsionarlikni tekshirish uchun Dickey-Fuller test ko‘rsatkichlarini baholashni va kointegratsiya uchun Bound testini o‘tkazishni o‘z ichiga oldi hamda ARDL modeli regressiya tenglamasi shakllantirildi.

Bundan tashqari, ARDL modeli Cusum diagnostik testi bilan bir qatorda regressiya tenglamalari shartlarining ahamiyatini baholash uchun Gauss-Markov testi orqali tekshirildi. Ta’kidlash joizki, tenglama mustaqil o‘zgaruvchilarning keyingi yildagi qaram o‘zgaruvchiga kechikkan ta’sirini o‘z ichiga oladi.

Avtoregressiv taqsimlangan kechikish modeli ARDL modeli o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi vaqt o‘rtasidagi munosabatlarni tekshirish uchun ekonometrikada keng qo‘llaniladigan usullardan biri hisoblanadi [2]. ARDL model tadqiqotlarda qisqa va uzoq muddatli dinamikani yoki ushbu o‘zgaruvchilar orasidagi aloqalarni tahlil qilish imkonini beradi [3]. Shuninggdek, ARDL modeli bitta o‘zgaruvchidagi o‘zgarishlar nafaqat yaqin vaqt ichida, balki uzoq vaqt oralig‘ida ham boshqalarga qanday ta’sir qilishini tushunish imkonini beradi. Ushbu model iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlarni tekshirishda hamda o‘tmishdagi davrdagi ma’lumotlarga asoslangan kelajak tendensiyalari haqida prognoz qilish uchun muhim vositaga aylantiradi [4].

ARDL modeli statsionar bo‘lmagan o‘zgaruvchilar bilan ishlashda va kointegratsiya tahlillarini o‘tkazishda ayniqsa qimmatlidir [5]. An’anaviy regressiya modellari statsionar bo‘lmagan ma’lumotlar uchun mos emas, chunki ular ishtirok etadigan o‘zgaruvchilar barqaror munosabatlarga ega, deb taxmin qilinadi.

Shuningdek, ARDL modeli o‘zgaruvchilar statsionar bo‘lmagan xatti-harakatlarni ko‘rsatadigan vaqtli qatorlarda doimiy munosabatlarni tushunishdan manfaatdor bo‘lganda foydalidir. Bu uni real iqtisodiy hodisalarni hal qilish uchun ekonometrikada muhim vositaga aylantiradi.

Statistik usullardan biri bo‘lgan ARDL modeli bir vaqtning o‘zida bir nechta o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi doimiy bog‘lanishlarni tekshirish imkonini beradi.

Shuningdek, ARDL modeli vaqt qatorlari doirasida bir nechta o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi doimiy munosabatlarni tekshirishni osonlashtiradi. Ushbu model ikki yoki undan ortiq o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi uzoq muddatli kuzatuvlarni tahlil qilish, ularning o‘zaro bog‘liqligi va vaqt o‘tishi bilan dinamikasini aniqlash imkonini beradi [6].

ARDL modelida qaram o‘zgaruvchi o‘zining kechikkan qiymatlari, shuningdek, mustaqil o‘zgaruvchilarning kechikkan qiymatlari bo‘yicha regressiyalanadi [7]. Bu tushuntirish o‘zgaruvchilarning javob o‘zgaruvchisiga ham bir vaqtda, ham kechiktirilgan ta’sirini tekshirish imkonini beradi. Kechiktirilgan effektlarni kiritish, ayniqsa, vaqt o‘tishi bilan kechiktirilgan yoki to‘plangan ta’sirlarni qo‘lga kiritish uchun foydalidir.

Taniqli iqtisodchi olim, Narayan Paresh Kumar ARDL modelini ko‘plab iqtisodiy tadqiqotlarda qo‘llagan. Turizm, valyuta kurslari va iqtisodiy o‘sish kabi mavzularda empirik tadqiqotlarni o‘z ichiga olgan hamda kointegratsiya va birlik ildizi testi bo‘yicha tadqiqotlari orqali muhim natijalarga erishgan.

Horijlik iqtisodchi olim Mohsen Bahmani-Oskooee turizm, valyuta kursi dinamikasi va uning eksport oqimlariga ta’siri sohasidagi tadqiqotlarida ARDL modelini qo‘llagan. Tadqiqotlar natijalaiga ko‘ra valyuta kurslari, eksport va turli iqtisodiy o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni ekonometrik modellarning ishonchlilik darajasi o‘z aksini topgan.

Avtoregressiv taqsimlangan kechikish (ARDL) modeli uchun quyidagi formula ifodalandi.

$$Y = \alpha_0 + \alpha_1 Y_{t-1} + \alpha_2 Y_{t-2} +... + \alpha_p Y_{t-p} + \beta_1 X_{t-1} + \beta_2 X_{t-2} +... + \beta_q X_{t-q} + \gamma_1 Z_{t-1} + \gamma_2 Z_{t-2} +... + \gamma_r Z_{t-r} + \varepsilon_t \quad (1)$$

Bu yerda,

Y_t – t vaqtidagi natijaviy omillarni ifodalaydi.

Y_{t-1}, Y_{t-2},...., Y_{t-p} - omil belgilarning kechikkan qiymatlarini ifodalaydi..

X_{t-k}, X_{t-k-1},...., X_{t-k-q} – omil belgilarning ning kechikkan qiymatlarini ifodalaydi, Zt-1, Zt-2....., Zt-r natijaviy omillarga ta’sir e’tuvchi boshqa omillarning kechikkan qiymatlarini ifodalaydi.

α_0, α_1,..... α_p, β_1, β_2,... β_q, γ_1, γ_2... γ_r baholanadigan koeffitsiyentlar ifodalaydi, εt t vaqtidagi xatolikni ifodalydi..

Tadqiqot bo‘yicha ekonometrik modelni shakllantirishda quyidagi gipoteza ilgari surildi.

Jahon turizm tashkiloti tavsiyalariga ko‘ra turizmni iqtisodiyotdagi o‘rni uch xil talqin qilinadi. Bular turizmning iqtisodiyotdagi to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘rniga egaligi, bilvosta ta’siri asosidagi o‘rni, multiplikativ ta’siri asosidagi o‘rni va umumiy o‘rni.

XULOSA

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston elektrotexnika sanoati va uning drayver yo‘nalishlaridan biriga aylangan kabel-sim mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston elektrotexnika sanoatidagi yetakchi korxonalardan biri hisoblangan “Artikul-Aziya” QKning ishlab chiqarish va eksport hajmi ma’lumotlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: elektrotexnika sanoati, kabel-sim mahsulotlari, “Artikul-Aziya” Qo‘shma Korxonasi, mis xomashyosi.

Abstract: The article talks about the activities of enterprises producing cable-wire products, which have become one of the driving directions of the electrical engineering industry of Uzbekistan. Also, the production and export volume data of “Artikul-Aziya” JV, which is considered one of the leading enterprises in the electrical engineering industry of Uzbekistan, has been disclosed.

Key words: electrotechnical industry, cable - wire products, Joint Enterprise “Artikul-Asia”, copper raw materials.

Аннотация: В статье рассказывается о деятельности предприятий по производству кабельно-проводниковой продукции, ставшей одним из движущих направлений электротехнической промышленности Узбекистана. Также раскрыты данные об объемах производства и экспорта СП “Артикул-Азия”, которое считается одним из ведущих предприятий электротехнической отрасли Узбекистана.

Ключевые слова: электротехническая промышленность, кабельно-проводниковая продукция, СП “Артикул-Азия”, медное сырье.

KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatimizning elektrotexnika sanoati iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan tarmog‘idir. Sanoat mahsulotlarining aksariyati yuqori talabga ega va yuqori qo‘shimcha qiymatga ega. Elektrotexnika sanoati va elektron sanoatning rivojlanishi ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga, ilmiy ishlanmalarni jadal joriy etishga, ilmiy-ishlab chiqarish bazasini rivojlantirishga va yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilishga yordam beradi. Shuning uchun dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ushbu sohani rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beriladi. Respublikada elektrotexnika sanoatini rivojlantirish va modernizatsiya qilish, yangi turdagi zamonaviy elektrotexnika va elektromaishiy mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, tarmoqning investitsiyaviy va eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda elektrotexnika sanoati ham jadal rivojlanmoqda. Sanoat korxonalari tomonidan ilgari boshqa mamlakatlardan import qilingan 60 dan ortiq yangi turdagi elektrotexnika va maishiy mahsulotlar ishlab chiqarish o‘zlashtirildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqotlar milliy sanoatning raqobatbardoshligini oshirishga, jumladan, eksportga yo‘naltirilgan klasterlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan davlatning samarali iqtisodiy siyosatini nazariy va uslubiy jihatdan asoslash uchun asos bo‘ldi.

A.B.Petrochenko o‘z tadqiqotlarida yelektrotexnika sanoat korxonalarining energiya-axborot modeli ikki bosqichini: birinchi bosqich alohida yelementlarning modellarini yaratish, ikkinchi bosqich ularning o‘zaro ta’siri modelini taklif yetgan.

V.V. Xrenov o‘z ilmiy izlanishlarida yelektronika sanoati korxonalarida rangli metallurgiya yeksport faoliyati o‘rganilgan.

M. I. Semuxin tadqiqotlari yelektrotexnika sanoati korxonalarining tashqi bozoriga kirishning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan. Uning fikricha, tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligining asosi import qiluvchi mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks strategiyani ishlab chiqishdir. Shuningdek, elektr jihozlarini ishlab chiqarish jarayonining xususiyatlarini hisobga olish kerak. Shu munosabat bilan yelektrotexnika korxonalari faoliyatiga ta’sir yetuvchi omillar ko‘rib chiqilib, mahsulotlarni tashqi bozor talablariga moslashtirish yo‘llari belgilandi.

S.J. Tursunxo‘jayev o‘zining tadqiqotlarida O‘zbekistonda elektrotexnika sanoati korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda marketing vositalaridan foydalanishni takomillashtirish masalalarini o‘rgangan.

METODOLOGIYA

Mamlakatimizda elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi korxonlar soni ham yildan-yilga ortib borayotganligi, bu sohani yanada rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqaradigan bir qator yirik, o‘rta va kichik turdagi korxonlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Ushbu jadvalda, elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalardan 10 tasining nomlari ko‘rsatilgan. Bugungi kunda yuqorida nomlari ko‘rsatib o‘tilgan brendlar O‘zbekiston va jahon bozorida o‘zlarining elektrokuchlanishli qurilmalar, kabel-o‘tkazgich va maishiy texnika mahsulotlari bilan joy egallashgan. Aksariyat aholi qatlami ushbu brend mahsulotlaridan yuqori darajada foydalanib kelmoqda.

Bunga sabab, olib borilgan tadqiqotlarimizga ko‘ra, har bir brend ostidagi mahsulotlarning sifati yaxshiligi, mahsulot turlarini ko‘pligi hamda sotib olish narxlarining qulayligi bo‘lib, deyarli barcha aholi qatlami xarid qilish imkoniyatiga ega.

2.2-jadval: O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan elektrotexnika korxonalarining taniqli brendlari1

№	Kabel-sim mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar	Maishiy texnika ishlab chiqaruvchilar	Elektrkuchlanishli qurilmalar ishlab chiqaruvchilar
1	“Uzkabel” QK AJ	“ARTEL ELECTRONICS MANUFACTURING” MChJ	“O‘zelektroapparat -Electroshield” AJ
2	“Andijonkabel” QK AJ	Shivaki	“Toshelectroapparat” MCHJ XK
3	“Yuqorichirchiq Energy Systems” MChJ	Royal	“Chirchiq Transformator zavodi” AJ
4	“Metal Processing Technology” MChJ	Vitech	“Laboratoriya Energosberegayushix Texnologiy” MCHJ
5	“Artikul Aziya kabel” MChJ QK	Viessmann	“Elxolding ilmiy ishlab-chiqarish birlashmasi” MChJ
6	“Techno Cable Group” QK MChJ	“Sam-ferre” XK	“Qo‘qon Tex Invest” MChJ
7	“Procab” QK MChJ	Avtech	“Elstan” XK
8	“Grand Tehnolog” QK MChJ	“Zenit Elektronics Toshkent radiotexnika zavodi” QK MChJ	“Energo Systema NVA” MChJ
9	“National Holdings” MChJ	“Uzeltexprom-Motorola -Telekom-Radio” MChJ QK	“Modern Lift Systems” MChJ
10	“Lider Cabel Group” MChJ	“Ideal Elektro Lyuks” QK MChJ	“Metal-Polymer Technologies” MChJ QQ

Bundan ko‘rinadiki, jadvalda nomi ko‘rsatib o‘tilgan elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar bugungi kunda mamlakatimizning ichki bozorlarini to‘liq egallangan bo‘lib, har bir brend o‘zining iste’molchisiga ega.

Bugungi kunda har biri o‘zining korxona va zavodlariga, ishchi kuchi va brendiga, zamonaviy innovatsion texnologiyalari va savdo rastalariga hamda ustav mablag‘lariga ega bo‘lib, yuqori darajada iqtisodiy samaradorlikka erishib kelmoqda.

1 Internet ma’lumotlari asosidan muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda yurtimiz elektrotexnika sanoati drayver yo‘nalishlaridan biriga aylangan kabel-sim mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa misdan qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga eksport hajmini oshirishda davlatimiz tomonidan tadbirkorlarga bir qancha imtiyozlar va imkoniyatlar berilmoqda.

Ushbu yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan ishbilarmonlar safi kengayib borayotganligi ham sohaga qaratilayotgan ulkan e’tibor samarasi deb aytishimiz mumkin. Shunga qaramay shiddat bilan o‘zgarib borayotgan mahalliy va jahon bozorida soha tadbirkorlari oldida turgan muammo va masalalarga tezlikda, hamkorlikda yechim topish “O‘zeltexsanoat” uyushmasi oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Energiya xavfsizligining eng muhim elementi va elektr jihozlarining keng liniyalari kabel sim mahsulotlaridir. Uyushma tarkibiga kiruvchi 15 ta korxona ushbu sohaga ixtisoslashgan. Ular mis kabellar va simlar, mis shinalar, mis quvurlar, alyuminiy kabellar va simlar, shuningdek po‘latdan yasalgan buyumlar ishlab chiqaradi. Bu mahsulotlarning barchasi bozor talab va taklifiga javob beradi. Korxonalarda 10 ming tonnadan ortiq mis shinalar, 5 ming tonnadan ortiq mis quvurlar va 20 ming tonnaga yaqin po‘lat buyumlar ishlab chiqarilmoqda, pechning quvvati 127 ming tonnani tashkil etadi. AQSH, Germaniya, Finlyandiya, Yaponiya, Turkiya, Italiyaning yetakchi kompaniyalarining zamonaviy uskunalari avtomatlashtirilgan va boshqaruvchi xodimlarning yuqori malakasi bilan jihozlangani nafaqat O‘zbekistonda, balki xorijda ham keng ma’lum va talabga ega bo‘lgan yuqori sifatli mahsulotlarni chiqarilishini ta’minlaydi.

Kabel va sim mahsulotlari ishlab chiqaruvchi “Artikul Aziya Kabel” milliy kompaniyasi 2013-yilda tashkil etilgan bo‘lib, O‘zbekiston elektrotexnika sanoatidagi yetakchi korxonalardan biri sifatida o‘zini namoyon qildi.

Ayni paytda korxonada jahonning yetakchi kompaniyalarining zamonaviy materiallar asosidagi texnologik liniyalaridan foydalangan holda 3000 dan ortiq brend o‘lchamdagi kabel va sim mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Bular: past va yuqori kuchlanishli elektr kabellari, maishiy ehtiyojlar uchun aloqa tizimlari uchun kabel va simlar va boshqalar.



2.3-rasm: Artikul Aziya kompaniyasi mahsulotlar katalogi[2]

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovichning elektrotexnika sanoatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotgani va ushbu soha korxonalariga berilayotgan imtiyozlar “Artikul Aziya Kabel” zavodiga 2021–2023-yillarda umumiy qiymati 20 million AQSH dollaridan ortiq investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkonini berdi. Natijada mahsulot ishlab chiqarish hajmi hamda eksport hajmi qariyb ikki barobar ortib, mos ravishda1 trillion so‘m va 50 million dollarga, ish o‘rinlari soni esa ikki baravar ko‘payib, 400 kishiga yetdi.

2 Artikul Aziya korxonasi ma’lumotlari asosidi muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Zavodning 10 yillik yubileyi kuni ishga tushirilgan ana shunday loyihalardan biri o‘zaro bog‘langan polietilen izolyatsiyali 6-35 Kv kuchlanishli zamonaviy kabellar ishlab chiqarishdir.



2.4-rasm: Artikul Aziya kompaniyasi kabellarining ustunlik jihatlari[3]

Korxonada o‘rnatilgan UPCAST (Finlyandiya) kompaniyasining zamonaviy uskunalari yordamida uzluksiz kislorodli quyish usulidan foydalaniladi. Mis simlarni cho‘zish jarayoni esa NIEHOFF (Germaniya) kompaniyasi uskunalari yordamida amalga oshiriladi.

Mahsulotlar mahalliy korxonlardan tashqari ko‘pgina qismi mamalakatimizga qo‘shni davlatlarga hamda Ozarboyjon, Gruziya, Turkiya, Yaqin Sharq va Yevropaga eksport qilinadi. Endilikda, raqobat jiddiy bo‘lgan Amerika bozoriga kirish ham rejalashtirilmoqda. Eksport ko‘rsatkichlari ham yildan yilga oshib bormoqda va joriy yilda 50 mln dollarni tashkil etdi. Kelgusi yilda 5 million dollarlik investitsiyalar hisobiga yana qo‘shimcha liniyalar ishga tushiriladi va hozirgi yillik quvvati 18 ming tonna tayyor mahsulot ishlab chiqarish xajmi ikki baro-barga ortadi.

Yil yakunigacha 1 mlrd dollarlik mahsulot ishlab chiqarish yoki 24 trillion so‘mlik ishlab chiqarish quvvat-larini amalga oshirish reja qilingan. Undan tashqari 90 ming tonna misni qayta ishlash vazifasi turibdi, deydi “O‘zeltexsanoat” uyushmasi matbuot kotibi Namoz Tolipov. Bundan tashqari hududlarda ushbu yo‘nalishda bor yo‘g‘i yuzga yaqin korxona faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni mingtadan oshdi.

Uyushma faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri maishiy texnika ishlab chiqarish bo‘lgani bois ishlab chiqarilayotgan maishiy texnikaning yillik hajmi 4 million donadan oshib, yildan-yilga bu ko‘rsatkich ortib bor-moqda. Uyushma faoliyatining asosiy tamoyillari ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini nazorat qilishning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Uyushma hamkorlari va mijozlari o‘z sohasida yuqori o‘rinlarni egallagan sar-dorlar bo‘lib, ular uchun sifat asosiy tushunchadir.

XULOSA

Soha korxonalari oldida umumiy rivojlanish strategiyasini yaratish, qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, sifatli kadrlar tayyorlashda hamkorlikda tajribalarni o‘rganish, soha korxonalari o‘rta-sida hamkorlik platformasi vazifasini bajaruvchi “Ekspertlar kengashi”ni yaratish kabi muhim masalalar turipti.

Xususan, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlash masalasiga alohida urg‘u qaratgan holda tadbirkorlar va xodimlarga qo‘yiladigan umumiy malaka talablarini yaratish, o‘zaro tajriba almashish; respublikadagi oliy ta’lim

3 Muallif tomonidan olib borilgan tatqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

muassasalari bilan hamkorlikdagi ishlarni yanada kuchaytirish, xalqaro ekspertlarni olib kelgan holda, kadrlar uchun o‘quv kurslarini yaratish bo‘yicha ishlar amalga oshirilishi muhim hisoblanadi. Kerak bo‘lsa, korxonalar bilan birgalikda yaratiladigan umumiy malaka talablaridan kelib chiqib, ta’lim muassasalaridagi ta’lim dasturlariga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish kabi choralar ko‘rilishi lozim.

Bugungi kunda “O‘zeltexsanoat” uyushmasi korxonalari elektrotexnika mahsulotlarini yangi bozorlarga yetkazib berishni rivojlantirish maqsadida eksport geografiyasini kengaytirmoqda, shuningdek, kompaniya xorijiy mamlakatlarda savdo uylarini ochmoqda. Eksport geografiyasi Markaziy Osiyo, Yaqin Sharqning 9 ta davlatini, shuningdek, yirik shaharlari va 140 milliondan ortiq aholisiga ega Hindiston va Xitoyni qamrab oladi. O‘zbekiston hukumati elektrotexnika sanoatini rivojlantirishga alohida etibor qaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Y. Qutbiddinov. O‘zbekistonning elektrotexnika sanoati. Iqtisodiy sharh. –2023.
2. Mamayusupova, Mashxura Sodiqovna (2023). Elektrotexnika sanoati mahsulotlarinig eksport salohiyatini oshirish rivojlanishning muhim omili sifatida. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3 (2), 65-72. doi: 10.5281/zenodo.7732836.
3. Mamayusupova Mashxura Sodiqovna (2023). Tashqi savdo siyosatini mustahkamlash va eksportni rag‘batlantirishda elektrotexnika sanoati mahsulotlarining roli va ahamiyati. Ekonomika i finansi (Uzbekistan), (4 (164)), 14-20. doi: 10.34920/eIf/VOL_2023_ISSue_4_3.
4. Rashidova O. ELECTROTECHNICAL INDUSTRY AS AN IMPORTANT DRIVER OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – T. 1. – №. 1. – S. 57-63.
5. Xotamov I.S., Rashidova O.O. O‘zbekistonda sanoat mahsulotlari eksporti diversifikatsiyasi // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 3. – S. 421-429.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ВАЛЮТНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Камалов Камоладдин Кахрамонович
ТГЭУ, магистрант 2 курса

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие валютных отношений, тенденции его развития анализируются проблемы регулирования валютных отношений, валютных курсов и особенности валютной политики Узбекистана.

Ключевые слова: валютная политика, валютный курс, валютный рынок, девальвация, ревальвация, платежный баланс, валютное ограничение.

Annotatsiya: Ushbu maqolada valyuta munosabatlari tushunchasi, uning rivojlanish tendensiyalari ko‘rib chiqildi, valyuta munosabatlarini tartibga solish muammolari, valyuta kurslari va O‘zbekiston valyuta siyosatining xususiyatlari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: pul-kredit siyosati, valyuta kursi, valyuta bozori, devalvatsiya, revalvatsiya, to‘lov balansi, valyuta cheklovlari.

Abstract: This article discusses the concept of currency relations, trends in its development, analyzes the problems of regulation of currency relations, exchange rates and features of the monetary policy of Uzbekistan.

Key words: monetary policy, exchange rate, foreign exchange market, devaluation, revaluation, balance of payments, foreign exchange restrictions.

ВВЕДЕНИЕ

Одна из важнейших особенностей развития современного мирового хозяйства – бурное развитие финансов и валютной глобализации. Валютная глобализация – это высшая степень интернационализации валютных отношений, связанных с функционированием валют в мировой экономике и институциональной организацией этих отношений в соответствии с принципами мировой валютной системы. Непосредственной причиной валютной глобализации является, с одной стороны, противоречие между возросшей степенью интернационализации валютных отношений и их организацией в форме мировой валютной системы, а с другой – сохранение национальных особенностей международных валютных отношений стран и валютной системы.

Валютная глобализация как одна из форм финансовой глобализации обгоняет глобализацию в сфере материального производства. Тенденция валютной глобализации проявляется в отставании производственного (реального) сектора от бурного развития финансового сектора. Это проявляется в опережении финансовой, в том числе валютной, глобализации по сравнению с глобализацией в сфере материального производства.

Роль экономически развитых государств в развитии валютных отношений имеет первостепенное значение. В последнее десятилетие, как развивающиеся страны, так и страны в переходном периоде активизируют свою деятельность в этой области. Каждая развивающаяся страна стремится выровнять дефицит платежного баланса, ограничить импорт и поощрять экспорт товаров, защитить национальные валютные резервы, осуществляя при этом собственную валютную политику, которая связана с координацией экономической конъюнктуры.

Главной конечной целью проводимых в стране экономических реформ является показатель полноты принятия решений по принципам рыночных отношений в экономике страны. В этом процессе большое значение имеет создание эффективной системы валютного регулирования, выработка мер по предотвращению негативного влияния различных ситуаций, возникающих в валютном секторе, на другие отрасли экономики.

В то же время необходимо провести углубленный анализ вопросов регулирования денежно-кредитных отношений, развития единого валютного и внебиржевого валютных рынков Республики, совершенствования валютной политики Центрального банка и использования его инструментов с учетом местных условий в условиях финансового кризиса.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Вопросам международных валютных отношений свое внимание уделил зарубежный ученый экономист М.А. Эскиндарова [1] В своей книге автор рассматривает теоретические и практические аспекты всех направлений функционирования современных международных валютных отношений, международной валютной системы и международного валютного рынка

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Исследование базировалось на основе изучения законодательных актов, кодексов, положений, постановлений [2]. Для достижения поставленных целей использовались методы сравнительного анализа и обзора данных, доступных на едином портале корпоративной информации в Республике Узбекистан, а также исследований национальной ассоциации бухгалтеров и аудиторов.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

В настоящее время используются следующие основные методы проведения валютной политики:

1) согласование валютного курса с использованием строго определенных, плавающих, многосторонних и различных режимов девальвации и, в редких случаях, ревальвации;
2) применение различных форм валютных ограничений на текущие и финансовые операции платежного баланса;
3) составление государственных платежных и клиринговых соглашений в целях сохранения валютных резервов (Азиатский Клиринговый Союз, Западноафриканская клиринговая палата и т. д);
4) развитие валютной кооперации и интеграции развивающихся стран путем восстановления их собственных валютных группировок, совместных валютных фондов, предназначенных для компенсации дефицита платежного баланса.

Хотя валютный курс в большинстве промышленно развитых стран упрощается введением его свободного обменного курса, некоторые страны возвращаются к практике множественности валютных курсов в виде двухуровневого валютного рынка.

Мировой опыт перехода к обмену национальных валют позволяет выделить этот процесс из значимых, а именно:

- выбор времени и курса ввода валюты обмена;
- для кого, для резидентов или нерезидентов и в какой последовательности;
- по каким операциям: по текущим операциям платежного баланса или финансовым операциям.

При этом необходимо отметить возникающие при этом проблемы.

Во первых: В истории валютных отношений известны две модели, а именно “шоковая” модель и модель постепенного перехода к валютному обмену в зависимости от создания достаточных условий. Первая модель представляет собой волюнтаристический вариант (Турция, страны Восточной Европы, Россия), характеризующийся снижением курса национальной валюты, уменьшением официальных золотовалютных резервов.

Второй вариант - это поэтапный переход к свободному обмену валюты (опыт Западноевропейских стран и Японии), который имеет некоторые преимущества перед “шоковым” вариантом. Это связано с тем, что он основан на взаимосвязи деятельности национального и мирового рынков, в частности процесса формирования цены и подготовки факторов как стимула к ней.

Во вторых. Она заключается в определении очередности ввода валютного обмена для резидентов и нерезидентов. Как показывает мировой опыт, для того чтобы быть заинтересованным в равноправном сотрудничестве, внимание обычно уделяется в первую очередь иностранным партнерам.

Третья проблема. Обмен валюты связан с выбором вводимых операций.

Развивающиеся страны используют экономические и административные методы, аналогичные методам валютной политики развитых стран. Однако взаимодействие этих инструментов при их использовании и цели валютной политики молодых стран, а также значение в координации экономики существенно отличаются друг от друга.

Сегодня меры, принятые правительством Республики Узбекистан, Центральным банком и другими органами валютного контроля в ходе экономических реформ, и позволившие достичь определенных результатов, включают:

- установление правовых основ валютной политики;
- создание эффективной системы валютного контроля и регулирования;
- организация эффективных механизмов перераспределения иностранной валюты среди экономических агентов;
- применение современных методов регулирования платежного баланса;
- дальнейшее совершенствование деятельности бирж и внебиржевых валютных рынков;
- установление правил осуществления валютных операций в наличной и безналичной форме, торговых и безналичных операций по предотвращению валютных рисков;
- определение тактики и стратегии финансирования из-за рубежа;
- эффективное управление государственными золотовалютными резервами;
- осуществление взаимовыгодного сотрудничества с международными финансовыми организациями;
- эффективное регулирование валютного курса;
- обеспечение внутренней свободной конвертации национальной валюты.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ИХ ОБСУЖДЕНИЕ

Подводя итог и давая характеристику проводимой в республике валютной политике, необходимо выделить следующие ее специфические аспекты:

1. Принятие мер по защите от влияния внешних негативных факторов и укреплению экономики, в том числе финансово-денежной системы, исходя из национальных интересов;
2. Обеспечение интеграции экономики в мировое хозяйство на эффективной и равноправной основе;
3. Обеспечение процессов экономического роста. Важнейшей задачей валютной политики при этом является модернизация и техническая реорганизация производственных предприятий, работающих с использованием валютных средств, использование которых при формировании новых передовых предприятий, обеспечивает высокую долю добавленной стоимости.

Развитие валютных отношений Республики Узбекистан можно разделить на четыре периода:

- первый период включает 1994-1996 годы. В этот период в обращение была введена национальная валюта – сум, а хозяйствующим субъектам была предоставлена возможность приобретать денежные средства в иностранной валюте;
- второй период включает 1997–1999 годы. В этот период были введены ограничения на текущие операции платежного баланса;
- третий период охватывает 2000–2003 годы. В этот период началась либерализация национального валютного рынка;
- четвертый период включает период после 2003 года. В этот период была введена свободная конвертация сума в иностранную валюту по текущим операциям платежного баланса, либерализован внебиржевой валютный рынок.

С 15 октября 2003 года правительство Узбекистана приняло на себя обязательства в соответствие со статьей VIII соглашения с МВФ, и с этой даты введен свободный обмен сума в иностранную валюту по текущим операциям.

Одним из важных вопросов в рамках регулирования валютных отношений является вопрос сбалансированности платежного баланса. Сальдо внешней торговли Республики Узбекистан в 2010-2019 гг. было положительным. В результате этого платежный баланс в эти периоды обеспечивался без дефицита.

Проводимая Центральным банком Республики Узбекистан валютная политика направлена на укрепление платежеспособности национальной валюты путем проведения антиинфляционной политики, совершенствования системы платежей и расчетов. Стабильность обменного курса играет важную роль в управлении уровнем инфляции. Мы можем определить их взаимозависимость в результате корреляционного анализа.

ВЫВОДЫ

Достижение свободного обращения национальной валюты в другие валюты требует обеспечения структурной перестройки экономики, расширения внешнеэкономической деятельности и совершенствования денежно-кредитной и валютной политики. Для того чтобы эффективно проводить денежно-кредитную политику, прежде всего, необходимо обеспечить стабильность национальной валюты. Также одним из важных и актуальных вопросов сегодняшнего дня является повышение экспортного потенциала, за счет которого происходит увеличение валютных поступлений.

В результате совершенствования валютных отношений валютная система и ее реализация была значительно либерализована. В частности, речь идет об обеспечении свободной конвертации для текущих международных операций, улучшении биржевого и внебиржевого валютных рынков, упрощении процедур торговли иностранной валютой, корректировке их масштабов, отмене валютных ограничений.

Список литературы:

1. М.А.Эскиндарова Международные валютные отношения:учебник-Москва: КНОРУС, 2020-542С
2. Закон Республики Узбекистан “О валютном регулировании”. - Ташкент, 15.11.2019 г.
3. Закон Республики Узбекистан “О Центральном банке”. - Ташкент, 15.11.2019 г.
4. Абдуллаева Ш. Международные валютно-кредитные отношения. Учебник. Ташкент “Экономика-финансы”, 2005, – 588 с.
5. Бункина М.К., Семенов А.М. Основы валютных отношений: Учебное пособие. – Москва. Юрайт, 2008. – 192 с.
6. Джумаев Н., Бурхонов У. Актуальные проблемы финансов, Ташкент. Издательство “Янги аср авлоди”, 2003.



SUG‘URTA SOHASINING O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI

Sharobiddinov Akramjon Goyibbayevich
Iqtisodiyot fanlari nomzodi, “Kafolat sug‘urta kompaniyasi” AJ
Bosh direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston sug‘urta bozori, uning O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, sug‘urta bozorini rivojlantirish va amalga oshirilishi lozim bo‘lgan dolzarb vazifalar bo‘yicha xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: sug‘urta bozori, sug‘urtada investitsiya faoliyati, majburiy sug‘urta turlari, qayta sug‘urta istiqbollari.

Abstract: This article describes the insurance market of Uzbekistan, its role and importance in the economy of Uzbekistan. Conclusions, proposals and recommendations were also given on the development of the insurance market and current problems to be solved.

Key words: insurance market, investment activity in insurance, types of compulsory insurance, reinsurance prospects.

Аннотация: В данной статье описан страховой рынок Узбекистана, его роль и значение в экономике Узбекистана. Также были даны выводы, предложения и рекомендации по развитию страхового рынка и актуальным задачам, которые предстоит решить.

Ключевые слова: страховой рынок, инвестиционная деятельность в страховании, виды обязательного страхования, перспективы перестрахования.

KIRISH

Har qanday iqtisodiyotda sug‘urta faoliyati mazkur iqtisodiyotning indikatori hisoblanadi. Iqtisodiy barqarorlik sug‘urta sohasining rivojlanishiga zamin yaratadi, shu o‘rinda sug‘urta xizmatlari yordamida iqtisodiyotning bir necha bo‘g‘inlarini rivojlantirishda dastak sifatida foydalaniladi. Sug‘urta tashkilotlari tomonidan yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari investitsiya qo‘yilmalari sifatida tijorat banklariga depozitlar ko‘rinishida, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonlariga aksiya, ulushlar sifatida, ko‘chmas mulklarni xarid qilish va boshqa yo‘nalishlarga yo‘naltiriladi va milliy iqtisodiyotda moliya tizimining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

2024-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston sug‘urta bozorida yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari hajmi 8 059,7 mlrd so‘mni, faoliyat yuritayotgan sug‘urta kompaniyalarining jami aktivlari 9 335,9 mlrd. so‘mni (o‘tgan yilning mos davrida 6 231,7 mlrd. so‘m), jami investitsiya qo‘yilmalari hajmi 6 149,9 mlrd. so‘mni (o‘tgan yilning mos davrida 4 751,7 mlrd. so‘m) tashkil etdi. Sug‘urta kompaniyalarining ustav kapitallari hajmi 2 298,5 mlrd. so‘mga yetib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 122,0 foizga ko‘paygan. O‘z mijozlari oldida olgan javobgarliklari doirasida 2023-yilda umumiy sug‘urta tarmog‘ida 1 568,5 mlrd. so‘m, hayot sug‘urtasi tarmog‘ida 453,6 mlrd. so‘m, jami 196,6 mingga yaqin da’vo arizalari bo‘yicha 2 022,1 mlrd. so‘m sug‘urta to‘lovlari amalga oshirilgan.

Yana bir jihat, 2023-yilda O‘zbekiston sug‘urta bozorida umumiy sug‘urta sohasida 1 324,3 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan sug‘urta eksporti (qayta sug‘urtaga risklar qabul qilingan) amalga oshirilgan. 2022-yilga nisbatan sug‘urta eksporti hajmi 140,9 foizga oshib, mazkur sohada jami yig‘ilgan sug‘urta mukofotlaridagi hajmi 17 foizni tashkil etdi. Sug‘urta eksportining asosiy qismi AQSH dollarida amalga oshirilgan.

Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston sug‘urta bozorida yangi yo‘nalishlarni izlab topish, jahon sug‘urta bozori bilan integratsiya javrayonlarini tezlashtirish, investitsiya faoliyatini takomillashtirish, yangi sotuv kanallarini joriy etish va sohani to‘liq raqamlashtirish juda muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug‘urta nafaqat mijozlarning moliyaviy yo‘qotishlaridan himoyalash, balki ijtimoiy ahamiyati bilan, moliya tizimini barqaror rivojlanishiga qo‘shadigan xissasi bilan, jahon iqtisodiyotiga kirib borish va moliya institutlari bilan teng huquqli hamkorlik o‘rnatilishida muhim o‘ringa ega.

Sug‘urta sohasining iqtisodiyotdagi o‘rni bo‘yicha bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan, tahlillar qilingan va xulosalar berilgan, jumladan, D.Bland, K.Pfayffer, R.Karter, V.Idelson, O.Ioffe, K.Grave, L.Luns, O.Notkin, V.Rayxer, shuningdek, Tarasova Yu.A., Arxipov A.P., Belozerov S.A., Yuldashev R.T., Zubes A.N., Knyazova Ye.G., Xolin V.G., Kazansev S.K., Braginskiy M.I., Kaminkina M.G. va boshqa bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan, amaliy yechimlar bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Mamlakatimiz olimlaridan Azimov R.S., Shennayev X.M., Baymurotov T.M., Jumayev N.X., Imomov Sh.B., Yuldashev O.T., Kenjayev I.G‘., Mirsodiqov M.A., Nasretdinov S.S., Ochilov I.K., Sultonov D.M., Umarov S.A., Shirinov S.E. va Qo‘ldoshev Q.M. kabi iqtisodchi omillar sug‘urta faoliyati, uning iqtisodiyotdagi o‘rni bo‘yicha o‘z ilmiy qarashlarini bayon etishgan.

Mazkur maqolada zamonaviy sug‘urta bozori va O‘zbekiston iqtisodiyotidagi o‘rni borasida ilmiy va amaliy tajribiy asoslangan xolda bir qator taklif va tavziyalar ishlab chiqlgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oxirgi 5 yil ichida O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotida sug‘urta sohasining ulushi 0,4 foizdan 0,7 foizgacha oshdi. Buning asosiy sabablaridan biri qayta sug‘urta faoliyatining keskin rivojlanishi, O‘zbekiston sug‘urta tashkilotlarining xalqaro sug‘urta bozori bilan o‘zaro hamkorligining kengayishi, xalqaror reytinglarni qo‘lga kiritilishi, bank va sug‘urta faoliyatining integraiyalashuvi va boshqa omillar sabab bo‘ldi.

2023-yilda milliy sug‘urta tashkilotlari moliya kredit tashkilotlariga 4 037,4 mlrd. miqdorida depozit mablag‘larini joylashtirdi, bu sug‘urta tashkilotlari umumiy investitsiya qo‘yilmalarining 65,6 foizini tashkil etgan[1].

2024 YIL 1 YANVAR HOLATIGA BARCHA INVESTITSIYA QO‘YILMALARI

Jami investitsiya	DEPOZITLAR (OMONATLAR)	QIMMATLI QOG’OZLAR	KO‘CHMAS MULK	USTAV FONDI	ZAYMLAR	BOSHQA
Jami investitsiyadagi ulushi,%	65,6%	22,1%	8,7%	2,2%	0,8%	0,6%
Investitsiya hajmi, mlrd. so’m	4 037,4	1 357,5	539,5	134,7	46,8	33,9

1-rasm: 2024-yil 1-yanvar holatiga barcha investitsiya qo‘yilmalari to‘g‘risida ma’lumot[2]

Oxirgi yillarda sug‘urta tashkilotlarining investitsiya portfelida depozitlar (omonatlar) ulushi oshib bormoqda. 2021 yilda jami investitsiya qo‘yilmalarining 58,9 foizi, 2022-yilda 60,9 foizi, 2023-yilda 65,6 foizi depozitlar ko‘rinishida moliya kredit tashkilotlariga joylashtirilgan. Bu birinchi navbatda, bo‘sh pul mablag‘larini likvidli yo‘nalishga joylashtirish bo‘lsa, ikkinchidan, “bank insurance” tizimi bilan bog‘liq.


O‘zbekiston sug‘urta bozorida 2023-yilda yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari hajmi 8 059,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 129,3 foizga o‘sdi. Lekin, bu o‘sish ko‘rsatkichi oxirgi yillardagi eng past natijani ko‘rsatdi. 2023-yilda hayotni sug‘urta qilish sohasida yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari hajmi qariyb 4,7 barobarga kamayib ketgan.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksining 378-moddasiga asosan soliq to‘lovchilarning ish haqi va boshqa daromadlarining hayotni uzoq muddatli sug‘urtalash (hayot sug‘urtasi sohasining barcha toifalarida) bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini to‘lash uchun O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga litsenziyasi bo‘lgan yuridik shaxslarga yo‘naltiriladigan qismi soliq solinmaydigan daromadlarga tenglashtirilgan edi[3]. Mazkur davrda hayot sug‘urta sohasi rivojlanib, 2022-yilda umumiy yig‘ilgan sug‘urta mukofotlarida 24 foiz ulushgacha yetdi.

1 https://napp.uz/uz/pages/statistics-and-analysis-for-im.
2 https://napp.uz/uz/ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
3 O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksining 378-moddasi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS


TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



2-rasm: 2021–2023-yillarda sug‘urta sohalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari hajmi, mlrd. so‘m[4]

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-son “Soliq va budjet siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni 26-moddasiga asosan mazkur imtiyozlar bekor qilindi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, mazkur imtiyoz orqali fuqarolarimizning hayot sug‘urtasiga qiziqishi ortgan va hayot sug‘urtasi geografiyasi kengayib borayotgan edi. O‘zbekistonda o‘rtacha 10 foiz atrofilagi inflyatsiya darajasini hisobga olganda, mazkur imtiyoz sohayi rivojlantirishda balans vazifasini o‘tayotgan edi.



3-rasm: 2022–2023-yillarda qayta sug‘urta faoliyati tahlili, mlrd. so‘mda[5]

4 https://napp.uz/uz/ va https://imda.uz/ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
5 https://napp.uz/uz/ va https://imda.uz/ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2023-yilda O‘zbekistonda tovar va xizmatlar eksporti hajmi 16 169,6 mln. dollarni tashkil etdi (nomonetar oltindan tashqari), 2022-yilga nisbatan 4,5 foizga o‘sdi[6]. Shu o‘rinda mamlakat eksportini aniqlashda “sug‘urta xizmatlari eksporti”ni yuritishni taklif qilamiz. Oxirgi yillarda milliy sug‘urta tashkilotlari o‘z sug‘urta, qayta sug‘urta xizmatlarini chet ellik mijozlarga taklif etishmoqda.

2023-yilda umumiy sug‘urta tarmog‘ida faoliyat yurituvchi sug‘urta kompaniyalari chet ellik mijozlarga, hamkorlarga 1 324,3 mlrd. so‘m ekvivalentiga teng summada qayta sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatgan (chetdan risk qabul qilingan). Chet el sug‘urta, qayta sug‘urta tashkilotlariga 1 522,6 mlrd. so‘m ekvivalentiga teng summada qayta sug‘urtalashga risklar berilgan, bu shuncha miqdordagi sug‘urta mukofotlarini chet elga chiqib ketganini anglatadi.

Chet eldan qayta sug‘urtaga qabul qilingan va chet elga qayta sug‘urtaga berilgan risklar bo‘yicha qayta sug‘urta mukofotlari saldosi 2023-yilda 198,3 mlrd. so‘m chet elga mablag‘ chiqarilganini anglatadi. 2022-yilda ijobiy saldo natijasini ko‘rsatgan edi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston iqtisodiyotida va uning rivojlanishida sug‘urta sohasining o‘rnini tahlil qilgan holda quyidagi xulosa va takliflarni bildiramiz:

Birinchidan, sug‘urta kompaniyalarida investitsiya qo‘yilmalarining oshishi bu mamlakat pul oqimlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Moliya kredit tashkilotlariga kiritilayotgan investitsiyalar hajmini oshirish uchun sug‘urta kompaniyalarining investitsiya qo‘yilmalariga nisbatan talablarni yumshatish lozim.

Ikkinchidan, O‘zbekistonda hayot sug‘urta sohasida 8 ta sug‘urta kompaniyasi faoliyat olib borayotgan edi. Bugungi kunga kelib 4 ta sug‘urta kompaniyasi nisbatan faol faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-son Qonuni 26-moddasiga, asosan, amalda bo‘lgan imtiyozlarning bekor qilinishi hayot sug‘urta sohasining rivojlanishiga keskin salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Hayot sug‘urtasi sohasidagi avval mavjud bo‘lgan (soliq to‘lovchilarning ish haqi va boshqa daromadlarining hayotni uzoq muddatli sug‘urtalash (hayot sug‘urtasi sohasining barcha toifalarida) bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini to‘lash uchun O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga litsenziyasi bo‘lgan yuridik shaxslarga yo‘naltiriladigan qismi soliq solinmaydigan daromadlarga tenglashtirilgan) imtiyozni qayta ko‘rib chiqish va amaliyotga joriy etish lozim deb hisoblaymiz.


Mazkur imtiyoz hayot sug‘urta sohasini rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Fuqarolarimizning ish haqi va boshqa daromadlaridan hayotni uzoq muddatli sug‘urtalash uchun ajratadigan mablag‘laridan berilgan imtiyozdan ko‘ra hayot sug‘urta tashkilotlari tomonidan ularning faoliyati rivojlanishi natijasida davlat budjetiga to‘laydigan soliqlarining ulushi keskin oshadi.

Uchinchidan, qayta sug‘urta munosabatlarini rivojlantirish va mamlakatga valyuta tushumlari kirib kelishini rag‘batlantirish maqsadida sug‘urta tashkilotlarining ajratilgan aktivlariga qo‘yilgan talablar, qayta sug‘urta munosbatlarida hamkor sug‘urta kompaniyasiga (xalqaro reyting talablari) qo‘yilgan talablar, yirik risklarga qo‘yilgan talablarni qayta ko‘rib chiqish lozim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi O‘RQ-730-son “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-812-son “Soliq va budjet siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 108-sonli “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
5. Moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risida”gi Nizom.
6. https://napp.uz/uz/pages/statistics-and-analysis-forim.
7. Sharobiddinov A.G. O‘zbekiston sug‘urta bozorida qayta sug‘urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. Yashil iqtisodiyot va tarqqiyot jurnali, 2023-yil 11-12-soni, 944-949-betlar.
8. Joraboyev J.A. Milliy qayta sug‘urtalovchilarning xalqaro sug‘urta bozoriga kirib borishi va kutilayotgan xavf-xatarlar. Yashil iqtisodiyot va tarqqiyot jurnali, 2024-yil 3-soni, 348-354-betlar.
9. https://napp.uz/uz/ va https://imda.uz/ saytlarida Sug‘urta sohasida maxsus vakolatli davlat organining turli yillarda sohaga oid chop etgan statistik ma’lumotlari.
10. Umarov S.A. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O‘zbekistonda sug‘urta faoliyati rivojlanishini boshqarish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2012. – 49-b.
11. Shennayev X.M. O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari. Monografiya. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2021. – 336 b.
12. Yuldashev O.T. O‘zbekistonda hayot sug‘urtasini rivojlantirishning konseptual asoslari. Monografiya. – Qarshi.: “Intellekt”, 2022. – 290-b.

6 https://sputniknews.uz/20240220/ozbekiston-eksport-hajmi-42582636.html



KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH YO‘NALISHLARI

Fayziyeva Aziza Azamat qizi
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Kichik va o‘rta korxonalar Xitoy iqtisodiy o‘sishining harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, mamlakatdagi barcha korxonalarning qariyb 97 foizini tashkil qiladi. Ular bandlik imkoniyatlarini ta’minlash, yangi biznesni jalb qilish orqali bozorni faol ushlab turish va yirik firmalarga nisbatan raqobatbardoshlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Kichik va o‘rta korxonalarning Xitoy iqtisodiyoti uchun ahamiyati katta. Xususiy kichik va o‘rta korxonalar iqtisodiyotga ulkan hissa qo‘shishadi, xususan, ular soliqlarning 50 foizini, YaIMning 60 foizini, texnologik innovatsiyalarning 70 foizini, shahar va qishloqlardagi bandlikning 80-90 foizini tashkil qiladi.

Kalit so‘zlar: kichik va o‘rta biznes, bandlik, YaIM, soliqlar, texnologik innovatsiya, ijtimoiy innovatsiya.

Abstract: Small and medium-sized enterprises are the driving force behind China’s economic growth, accounting for nearly 97 percent of all enterprises in the country. They play an important role in providing employment opportunities, keeping the market active by attracting new business and maintaining competitiveness against large firms. Small and medium-sized enterprises are of great importance to the Chinese economy. Private small and medium-sized enterprises make a huge contribution to the economy, in particular, they account for 50% of taxes, 60% of GDP, 70% of technological innovations, and 80-90% of employment in cities and villages.

Key words: small and medium business, employment, GDP, taxes, technological innovation, social innovation.

Аннотация: Малые и средние предприятия являются движущей силой экономического роста Китая, на их долю приходится около 97 процентов всех предприятий страны. Они играют важную роль в обеспечении возможностей трудоустройства, поддержании активности рынка за счет привлечения нового бизнеса и поддержания конкурентоспособности по сравнению с крупными фирмами. Малый и средний бизнес имеет большое значение для китайской экономики. Частные малые и средние предприятия вносят огромный вклад в экономику, в частности, на их долю приходится 50% налогов, 60% ВВП, 70% технологических инноваций, 80-90% занятости в городах и селах.

Ключевые слова: малый и средний бизнес, занятость, ВВП, налоги, технологические инновации, социальные инновации.

KIRISH

Xitoyda kichik va o‘rta korxonalar (KO‘B) so‘nggi yigirma yil ichida tez va barqaror o‘sishga erishdi. Bunday o‘sish Xitoyning iqtisodiy rivojlanishiga tobora ko‘proq hissa qo‘shdi.

Xitoyda kichik va o‘rta korxonalarning aksariyati so‘nggi 15 yil ichida paydo bo‘lgan. 1980-yillarda Xitoy rahbari Deng Syaopin tomonidan boshlangan bozorga yo‘naltirilgan islohotlarning bir qismi sifatida Xitoyning bozor iqtisodiyotiga ochilishi bilan xususiy kichik va o‘rta korxonalar nihoyat mamlakat iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Xitoyda davlat korxonalari (DK) ishtirokida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar 2004-yil oxirigacha yirik davlat korxonalari tezda kichik va o‘rta nodavlat korxonalarga aylandi. Shu bilan birga, ko‘proq kichik va o‘rta korxonalar ko‘paydi, bu esa nodavlat korxonalarini rag‘batlantirish siyosatini amalga oshirishga turtki bo‘ldi. O‘shandan beri shahar jamoa korxonalari, shahar va qishloq korxonalari (TVE), xususiy va o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlash sektori bilan bir qatorda, butun Xitoy bo‘ylab ko‘payib, gullab-yashnamoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kichik biznes va tadbirkorlikning hudud iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati haqida xorijlik iqtisodchi olimlardan Donald L.S., Philip M.V. [1], N. Bach [2], Maria Rio Rita1, Sugeng Wahyudi, Harjum Muharam, Andrew Thomas Thren, Robiyanto Robiyanto [3], Bennett, D.L. [4] kabi olimlar o‘z ilmiy ishlarida yoritib berishgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati haqida MDH davlatlaridagi olimlardan В.А. Ганский [5], Буров В. Ю. [6], Н. Ю. Никитина, С. М. Корунов, А. А. Яшин, И. Д. Опарин [7], Забродская Н. Г. [8], Забродская Н.Г, Круглик В.М. [9] va boshqalar o‘z ilmiy ishlarida to‘xtalib o‘tishgan.

Kichik biznesning iqtisodiy ahamiyati mintaqaviy tahlilini respublikamizdagi iqtisodchi olimlardan Xolmirzayev A.X. [10], Ergasheva Z.Sh. [11], Eshmirzayev N.M, Tojiboyev O.O. [12], Melibayeva G.N. [13], Sayfullayev S.N. [14], Abdulqosimov H.P., Qulmatov A.A. [15], G‘oyibnazarov B.K., Rahmonov H.O., Otajonov Sh.I., Almatova D.S. [16], Abdurashidova M.S., Zagrabelskaya V.M. [17] kabi olimlar o‘rganishgan.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Xitoyda kichik va o‘rta biznes ta’rifi juda murakkab va boshqa mamlakatlar tasniflaridan farq qiladi. Ko‘pgina mamlakatlar bilan taqqoslaganda, kompaniyani kichik biznes sifatida tasniflash uchun xodimlar soniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Xitoy qaysi korxonalar kichik biznes subyektlari ekanligini tasniflash uchun “Kichik va o‘rta biznesni rag‘batlantirish” qonunidan foydalanadi. Ushbu qonunga ko‘ra, tasniflash sanoat, aktivlar, xodimlar soni va sotishga bog‘liq.

Misol uchun, chakana savdo sohasidagi biznesni kichik kompaniya sifatida tasniflash uchun yuzdan kam xodim va 10 million RMB dan kam daromadga ega bo‘lishi kerak. Chakana savdo kompaniyasi yuz nafar xodimdan oshsa va yiliga 10 million RMB dan ortiq daromad olishni boshlaganda, u o‘rta korxona hisoblanadi.

Qurilish sohasida ishlaydiganlar uchun 600 dan kam ishchilar, 40 million RMB dan kam aktivlar va 30 million RMB dan oshmaydigan daromad kompaniyani kichik va o‘rta biznesni rag‘batlantirish to‘g‘risidagi qonunga muvofiq kichik deb hisoblashlari kerak.

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotiga (OECD) a’zo bo‘lgan Amerika Qo‘shma Shtatlari va Yevropa Ittifoqi davlatlari kabi mamlakatlarda kichik va o‘rta korxonalar ko‘pincha ishlaydigan xodimlar soniga qarab tasniflanadi. Odatda, kichik va o‘rta biznes korxonalari uchun yuqori chegara 200 nafar xodimni tashkil qiladi.

Xitoyda 300 dan kam xodimga ega kichik firmalar iqtisodiyotning katta qismini tashkil qiladi. Bu korxonalar yaratilayotgan ish o‘rinlarining qariyb 75 foizini va eksportning 68 foizini tashkil etadi. Xitoyda 2018-yilni kichik biznes yili deb ham atash mumkin, chunki aynan shu yilda mamlakatda yangi biznes yaratish rekord darajaga yetdi, har kuni o‘rtacha 18 000 ta kompaniya tashkil etildi. Kichik va o‘rta biznesdagi o‘sishning asosiy sabablaridan biri hukumatning tijoratni ro‘yxatga olish tizimini doimiy takomillashtirish bilan bog‘liq.

Bandlikdan tashqari, kichik va o‘rta korxonalar texnologiya sohasidagi asosiy korxonalardir. So‘nggi bir necha yil ichida yuz minglab texnologik kichik va o‘rta korxonalar ro‘yxatga olindi, bu esa yuqori texnologiyali ishlab chiqarish sektorining uzluksiz o‘sishiga hissa qo‘shdi.

Ammo mahalliy KO‘B korxonalari bozorni egallagan yagona o‘yinchi emas. Xorijiy korxonalar Xitoyda kichik va o‘rta biznes bozorini keng o‘sish imkoniyatlariga ega bo‘lgan jozibador istiqbol sifatida ko‘rishadi. Xorijiy investorlar doimiy ravishda Xitoy bozoriga kirish va KO‘K tashkil etish yo‘llarini izlamoqda. Shu bilan birga, mamlakatning “Bir belbog‘, bir yo‘l” global iqtisodiy strategiyasidan so‘ng, yirik firmalar va mahalliy KO‘B korxonalari chet el bozoriga kirishda yordam berish uchun xorijiy biznes bilan o‘zaro aloqalar va hamkorlikka intilmoqda.

Kichik va o‘rta korxonalar Xitoy iqtisodiyotining asosidir. Shunday qilib, hukumat turli soliqlarni kamaytirish va moliyaviy yordam taklif qilish orqali yordam ko‘rsatishda davom etmoqda. Malakali tadbirkorlik subyektlariga kreditlarni to‘lash va kreditni qo‘llab-quvvatlash uchun kengaytmalar ham beriladi.

2020-yilda COVID-19 avj olgan paytda hukumat kichik va o‘rta korxonalarga hatto biznes egalari kafolat bera olmagan taqdirda ham kredit olish uchun ariza berishni osonlashtirdi. Bundan tashqari, Xitoy kichik va o‘rta korxonalarning yukini engillashtirish uchun ishchilarning ijtimoiy va jamg‘arma sug‘urtasiga ish beruvchi badallaridan voz kechish orqali ularga yordam berdi.

Hukumat tomonidan kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashning ba’zi usullarini quyidagi rag‘batlantirishlarni ko‘rish mumkin:

- **Daromad solig‘i siyosati**

Yillik foydasi 30 000 RMB dan kam bo‘lganlar uchun kichik va o‘rta korxonalar uchun daromad solig‘i stavkasi 33 foizdan 18 foizga tushirildi. 30 000 RMB dan yuqori, lekin 100 000 RMB dan kam bo‘lganlar uchun 27% soliq stavkasi qo‘llaniladi, bu avvalgi standart stavkalardan hali ham past.

- **Talabga ega korxonalar**

Biznesi zamonaviy texnologiyalarga asoslangan kichik va o‘rta biznes subyektlari ikki yil muddatga korxonalar daromad solig‘idan ozod qilinadi. Telekommunikatsiya, transport va IT xizmatlari bilan shug‘ullanuvchilar uchun bir yillik soliq imtiyozlari qo‘llanilishi mumkin.

Ishsiz ishchilarni ish bilan ta’minlaydigan malakali ish agentliklari uch yilgacha soliq imtiyozlari olish huquqiga ega bo‘lishi mumkin.

Xitoy hukumati, shuningdek, davlat banklarini faqat kichik va o‘rta biznesga xizmat ko‘rsatish uchun maxsus bo‘limlar yaratishga undadi. Shuningdek, banklardan qishloqlardagi kichik biznes subyektlariga xizmat ko‘rsatishni kengaytirish uchun shaharlardagi sho‘ba filiallarini ko‘paytirish talab qilindi.

O‘tgan yillarda kredit olishdagi qo‘shimcha to‘lovlar ba’zi kichik biznes subyektlarni moliyalashtirish uchun ariza berishdan to‘sqinlik qildi. Kichik va o‘rta korxonalarni kredit olish uchun ariza berishga jalb qilish uchun Xitoy bank faoliyatini tartibga solish komissiyasi asossiz to‘lovlarni bartaraf etish, xizmat to‘lovlarini standartlashtirish va moliyaviy maslahat to‘lovlarini nazorat qilish tartibini joriy qildi.

Abstract: In this article, the practical situation with the loan portfolio of Aloqabank is studied using the method of econometric analysis based on quarterly statistical data from 2015 to 2022. At the same time, internal factors influencing the loan portfolio of Aloqabank were analyzed. For the analysis, we took the volume of allocated loans, the volume of problem loans, the volume of attracted deposits, bank capital, average interest rates on loans and deposits in each quarter. All statistical data, presented in national currency, are expressed in relation to total assets and practical proposals for their improvement are presented.

Key words: Commercial bank, loan portfolio, problem loan, bank capital, diversification, bank assets, interest rate.

Аннотация: В данной статье практическая ситуация с кредитным портфелем АКБ “Алокабанк” изучена методом эконометрического анализа на основе квартальных статистических данных с 2015 по 2022 годы. При этом были проанализированы внутренние факторы, влияющие на кредитный портфель Алокабанка. Для анализа были взяты объем выделенных кредитов, объем проблемных кредитов, объем привлеченных депозитов, капитал банка, средние процентные ставки по кредитам и депозитам в каждом квартале. Все статистические данные, приведенные в национальной валюте, выражены в соотношении к совокупным активам и представлены практические предложения по их совершенствованию.

Ключевые слова: Коммерческий банк, кредитный портфель, проблемный кредит, банковский капитал, диверсификация, банковские активы, процентная ставка.

KIRISH

Ijtimoiy jamiyatda tovar-pul munosabatlarining paydo bo‘lishi kreditlash amaliyoti shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratdi. Tovar-pul munosabatlari amal qilgan har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatda kreditlash amaliyoti vujudga keladi hamda bu jarayonlarni muttasil rivojlantirib borishni taqozo qiladi. Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini moliyalashtirishning asosiy yo‘nalishi tijorat banklari tomonidan kreditlash hisoblanadi [1].

Jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarida tijorat banklari kreditlash amaliyotini takomillashtirish borasida bank kreditlari sifatini oshirish, kredit risklarini kamaytirish, mijozlarning kredit qobiliyatini obyektiv baholash usul va mexanizmlarini mukammallashtirish, kreditlash amaliyotini bank uchun eng maqbul bo‘lgan daromadlilik strategiyasiga aylantirish, banklarning moliyaviy barqarorligi va kreditlash salohiyatini oshirish bo‘yicha ilg‘or innovatsion bank xizmatlari va mahsulotlarini joriy etish singari tadqiqot yo‘nalishlariga alohida e’tibor berilmoqda.

O‘zbekistonda tijorat banklari tomonidan kreditlash amaliyotini takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi va 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020–2025-uillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 18-avgustdagi PQ-283-son “Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari [3] hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi ma’lum darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kreditlash amaliyotiga iqtisodchi olimlar tomonidan bir qancha sharh va izoh berilgan. Masalan Professor O.I.Lavrushin ilmiy tadqiqotlarida, kredit muassasalarining kreditlash jarayonidagi o‘zaro munosabatlari kredit tizimini amaliyotini tashkil etadi, deb ta’rif bergan [4].

Professor O.K.Iminov, Jahon banki va boshqa xorijdagi moliya tashkilotlarning respublikada kredit tizimini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalarini atroflicha tahlil qilish asosida, O‘zbekistonda jahon standartlariga mos keluvchi kredit mexanizmini yaratishning ilmiy-uslubiy jihatlarini asoslab bergan [5].

Kreditlash amaliyotiga iqtisodchi olim professor Sh.Z.Abdullayeva “kredit tizimi har xil kredit moliya institutlarining yig‘indisidan iborat” deb ta’kidlab o‘tgan [6].

Professor B.Berdiyarov ilmiy tadqiqotlarida O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kreditlash jarayonlarida bankning likvidliligi va to‘lov qobiliyatini ta’minlash masalalariga alohida to‘xtalib o‘tgan [7].

Fikrimizcha, yuqoridagi holatlarda, ham kreditlash amaliyotiga to‘laroq, har tomonlama ta’rif berishga harakat qilingan deb hisoblaymiz. Biz eng avvalo kreditlash amaliyoti so‘zining mazmuniga e’tibor qaratishimiz lozim. Ilmiy adabiyotlar tahlil qilinganda, kreditlash amaliyoti xususida, bir-biriga bog‘liq ravishda o‘zaro munosabatlar, ya’ni bir- biriga ta’sir etuvchi, bir-birini to‘ldiruvchi ikki yoki undan ortiq elementlarning yaxlit yig‘indisi tushunilishi keltirib o‘tilgan. Kreditlash amaliyoti o‘z navbatida muhim xususiyatlarga ega, ya’ni u obyektiv, yaxlit hamda yagonadir [8]. Kreditlash tarkibiy tuzilishiga hamda funksiyaga ega bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada ATB “Aloqabank” kreditlash amaliyotining joriy holati tahlil qilinib, bank kredit portfelining barqarorligiga ta’sir etuvchi omillar aniqlangan. Tahlil jarayonida ilmiy abstraksiyalash, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Bank tizimi mamlakatda iqtisodiyotdan keyin ikkinchi muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Shu munosabat bilan bank kreditlarining tadbirkorlik subyektlari rivojlantirilishiga ta’siri ham muhim ahamiyatga ega, bank tizimi “tabiiy sarmoyadorlar”dan biri bo‘lganligi sababli uning asosiy vazifasi bozor munosabatlari ishtirokchilari o‘rtasida bo‘sh kapitalni qayta taqsimlashdan iborat.

Shu o‘rinda, mamlakatimizdagi barqaror tijorat banklaridan biri Aloqabankning faoliyati tahlil qilindi. Ushbu bank “Ahror-Reyting” milliy reyting agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, Aloqabank birinchi yirik guruh banklar tarkibiga kiradi. Mazkur bank milliy iqtisodiyotning davlat ahamiyatiga ega tarmoqlarini moliyalashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Biz Aloqabank faoliyatini 2015-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan davrdagi choraklik statistik ma’lumotlariga asoslangan ekonometrik tahlil qilib o‘rganildi. Bunda, Aloqabankning kredit ajratmalariga ta’sir etuvchi ichki omillar tahlil qilindi. Tahlil uchun har bir chorakda ajratilgan kreditlar miqdori, muammoli kreditlar hajmi, jalb qilingan depozitlar miqdori, bank kapitali, kreditlar hamda depozitlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkalari olindi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, kreditning aktivlardagi ulushi tahlil davrida o‘rtacha 72 foizni tashkil etgan bo‘lsa, minimum va maksimum miqdori mos ravishda 50 foiz va 83 foiz atrofida bo‘lgan. Muammoli kreditlarning umumiy aktivlardagi ulushi o‘rtacha 0,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, minimum va maksimum miqdori mos ravishda 0 va 1,5 foizni tashkil etgan. Depozitlarning umumiy passiv(aktiv)dagi ulushiga ko‘ra tahlil davridagi o‘rtachasi 58 foizni tashkil etgan bo‘lsa, tahlil davridagi ulush 42 foiz va 72 foiz atrofida tebrangan. Kapitalning aktivlar ulushidagi o‘rtacha hajmi 16 foizni tashkil etgani holda u 9,4 foiz va 23 foiz atrofida tebrangan. Kreditlarning o‘rtacha foiz stavkasi tahlil davrida sezilarli darajada tebranmagan va o‘rtacha 14,6 foizni tashkil etgan. Depozitlar bo‘yicha foiz stavka esa yuqori darajadagi tebranishga ega bo‘lgani holda o‘rtachasi 3 foiz atrofida bo‘lgan (1-jadval).

1-jadval: Tasviriy statistika [10]

O‘zgaruvchilar	Kuzatuvlar soni	O‘rtacha	Std.chet.	Min	Maks
kt	25	0.711916	0.075641	0.499308	0.812447
pt	25	0.002612	0.002884	0.000000	0.013428
dt	25	0.571612	0.076224	0.433884	0.714592
xt	25	0.160294	0.027227	0.095319	0.220653
kpt	25	0.145599	0.008690	0.130900	0.158253
dpt	25	0.032081	0.020542	0.006900	0.089837

Manba: ATB “Aloqabank” ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Kredit va depozit foiz stavkalari o‘rtasida yuqori darajadagi ijobiy korrelyatsiya mavjud. Shuningdek, bank kapitali va kreditlar o‘rtasida ham yuqori darajadagi ijobiy korrelyatsiya mavjudligini jadval ma’lumotlaridan kuzatish mumkin. Ajratilgan kreditlar bilan jalb etilgan depozitlar o‘rtasida teskari korrelyatsiya mavjud bo‘lgani holda depozit foiz stavkasi bilan ijobiy kuchli korrelyatsiya mavjud. Bundan tashqari, ajratilgan kreditlar va o‘rtacha kredit foiz stavkasi o‘rtasidagi korrelyatsiya ijobiy bo‘lsa-da, kuchsiz ekanligini kuzatish mumkin. Jalb etilgan depozitlar bilan o‘rtacha depozitlar bo‘yicha foiz stavka o‘rtasidagi korrelyatsiya ijobiy hamda nisbatan ancha kuchliligini kuzatish mumkin (2-jadval).

2-jadval: Korrelyatsiya matritsasi [10]

	kt	pt	dt	xt	kpt	dpt
kt	1.00					
pt	0.20	1.00				
dt	-0.28	-0.45	1.00			
xt	0.59	0.09	-0.28	1.00		
kpt	0.23	-0.05	0.12	0.61	1.00	
dpt	0.45	-0.17	0.57	0.32	0.54	1.00

Manba: ATB “Aloqabank” ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Barcha o‘zgaruvchilar birinchi darajali farqda statsionar bo‘lib, nol darajali farq esa barcha o‘zgaruvchilar nostatsionar ko‘rinishga ega. Ammo kuzatuvlar soni kamligi sababli, har ikkala holat bilan ham regressiya amalga oshirildi. Barcha o‘zgaruvchilar birinchi darajali farqda statsionar bo‘lib, nol darajali farq esa barcha o‘zgaruvchilar nostatsionar ko‘rinishga ega. Ammo kuzatuvlar soni kamligi sababli, har ikkala holat bilan ham regressiya amalga oshirildi. Quyidagi jadvalda regressiya natijalari keltirildi (3-jadval).

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

3-jadval: Birlik ildiz testi natijalari [10]

O‘zgaruvchilar	Dikkey-Fuller testi	Xulosa	O‘zgaruvchilar	Dikkey-Fuller testi	Xulosa
kt	-1.877	I(1)	kt	-4.841	I(0)
pt	-2.944	I(1)	pt	-5.951	I(0)
dt	-1.226	I(1)	dt	-5.130	I(0)
xt	-2.426	I(1)	xt	-6.295	I(0)
kpt	-0.833	I(1)	kpt	-3.715	I(0)
dpt	1.077	I(1)	dpt	-4.902	I(0)

Manba: ATB “Aloqabank” ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Yuqoridagi birinchi model natijalariga ko‘ra, bankning xususiy kapitali bank kreditlari hajmini belgilovchi asosiy vosita bo‘lib qolmoqda. Ammo ushbu modelda avtokorrelsiya muammosi mavjud bo‘lib, uni ikki test natijalaridan kuzatish mumkin.

Ikkinchi modelda avtokorrelyatsiya muammosini hal etganimizda, kredit hajmi, hamda bank kapitali bank tomonidan kredit ajratilishida asosiy mezon bo‘lmoqda. Ushbu ikki modelda ham, o‘zgaruvchilarning nostatsionarligi e’tiborga olinmaganligi natijalarni biroz shuhba ostiga oladi. Shuning uchun ham uchinchi modelda o‘zgaruvchilar statsionar shaklga keltirildi hamda regressiya amalga oshirildi.

Regressiya natijalariga ko‘ra, bank kapitalining o‘zgarishi kredit hajmi o‘zgarishida asosiy o‘ringa ega. Uchinchi modelning avtokorrelyatsiya testi natijalariga ko‘ra, ushbu modelda avtokorrelyatsiya muammosi mavjud emas. Shuningdek, barcha model natijalariga ko‘ra, boshqa o‘zgaruvchilar kredit hajmi tebranishida ta’sirga ega emasligini kuzatishimiz mumkin (4-jadval).

4-jadval: Regressiya natijalari [10]

O‘zgaruvchilar	Model [1]	Model [2]	O‘zgaruvchilar	Model [3]
lkt		0.59*** [0.14]		
pt	3.19 [5.14]	1.35 [3.61]	pt	0.28 [3.12]
dt	-0.02[0.22]	-0.09 [0.15]	dt	-0.38 [0.25]
xt	1.86** [0.68]	1.12 **[0.52]	xt	1.36*** [0.41]
kpt	-1.37 [2.07]	0.81 [1.55]	kpt	1.11 [2.23]
constant	0.62** [0.24]	0.05 [0.22]	constant	0.00 [0.01]
R-squared	0.39	0.72	R-squared	0.53
Adj R-squared	0.27	0.64	Adj R-squared	0.40
Kuzatuvlar	25	24	Kuzatuvlar	24
Durbin avtokorrelyatsiya testi [p-value]	19.10 [0.00]	0.11 [0.74]		1.96 [0.16]
Breusch-Godfrey avtokorrelyatsiya testi [p-value]	12.53 [0.00]	0.16 [0.69]		2.49 [0.11]

Manba: ATB “Aloqabank” ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aloqabankning kredit portfeli valyutalar kesimida tahlil qilinsa asosiy katta qismi 65 foizini korporativ mijozlarga milliy valyutada berilgan kreditlar tashkil qiladi, umumiy kredit portfelining 20 foizini chakana mijozlarga milliy valyutada berilgan kreditlar, hamda, 18 foizini korporativ mijozlarga xorijiy valyutada berilgan kreditlar tashkil etadi. Bankning aktivlari tarkibi kuzatilsa, 2022-yilda bank aktivlarining 82 foizini bankning kreditlari tashkil qiladi. Buni bankning daromadlilik nuqtayi nazaridan ijobiy holat sifatida qabul qilish mumkin. Ammo bankning likvidliligi jihatidan aktivlarning 80 foizdan ortiq qismini kreditlar tashkil qilishi salbiy holat hisoblanadi.

Aloqabank kreditlash amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq quyidagi takliflarni keltirib o‘tamiz:

- Aloqabank tomonidan ajratilgan kreditlarning korporativ mijozlarga milliy valyutada berilgan qismi juda yuqari foizni tashkil qilmoqda ushbu yo‘nalishdagi foiz ko‘rsatkichini kamaytirish hamda kredit portfelini diversifikatsiya darajasini ta’minlashi lozim;
- Aloqabankning aktivlarining 82 foizini bankning kreditlari tashkil qiladi, ushbu ko‘rsatkichni 55-60 foizga tushirib qolgan qismini boshqa likvidli doromadlarga yo‘naltirish zarur, deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

1. Обзор сферы услуг Западных стран. www.export.by/act./doc@mode, http://aftershock.news: Politeconomica. ru/feb 2015/malyj – biznes.: http://aftershock.news.
2. Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqidan kelib chiqib infografika shaklida” RISOLA. https://mdo.uz/wp-content/uploads/2021/11/risola.pdf
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3620-sonli Qarori. https://lex.uz/docs/3593541
4. Лаврушин О.И. Банковское дело: современная система кредитования: учебное пособие – М.:КНОРУС, 2016. – 360 с.
5. Iminov O.K. “Bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit tizimi va uni takomillashtirish masalalari” mavzusidagi iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasi uchun dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2001. 6-7 b
6. Abdullayev Sh.Z. “Bank risklari sharoitida tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiyalash” i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – T., 2000. –36 b.
7. Berdiyarov B.T. “O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidliligi va to‘lov qobiliyatini ta’minlash masalalari” i.f.d. ilm. Darajasini olish uchun diss. Avtoreferati. – Toshkent: BMA, 2022 – 17-19 b.
8. Afanasev V.G. Sistemnost i obshestvo.-M.: Politizdat, 1980.
9. Abdullayeva Sh.Z. Pul kredit va banklar.-T.: “Moliya”, 2000, 111-b.
10. Manba: https://www.aloqabank.uz/ - rasmiy veb-sayt ma’lumotlari
11. Manba: http://www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti ma’lumotlari.
12. Manba: http://www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
13. Manba: https://www.lex.uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy veb-sayti.
14. Manba: https://www.stat.uz/uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi rasmiy veb-sayti.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



O‘ZBEKISTONDA “YASHIL IQTISODIYOT” MUHITIDA KREDITLASH VA MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI

Taxir Urkinbayev
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti

Annotatsiya: “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish aksariyat iqtisodiy jihatdan rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar, shuningdek, O‘zbekistonda ham davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu maqolada “Yashil” iqtisodiyot muhitida kreditlash va moliyalashtirish tizimi rivojlanish sur’atlari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, bank, moliyalashtirish, GEFF, YETTB, kredit.

Abstract: The development of a “green economy” is a priority of government policy in most economically developed and developing countries, as well as in Uzbekistan. This article shows the pace of development of the lending and financing system in the context of a “green economy”.

Key words: green economy, bank, financing, GEFF, EBRD, credit.

Аннотация: Развитие “зеленой экономики” является приоритетом государственной политики в большинстве экономически развитых и развивающихся стран, а также в Узбекистане. В данной статье показаны темпы развития системы кредитования и финансирования в условиях “зеленой экономики”.

Ключевые слова: зеленая экономика, банк, финансирование, GEFF, ЕБРР, кредит.

O‘zbekistonda tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hamda hududlarni bir maromda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2019-yilning 5-oktyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477-sonli 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori kuchga kirgan. Toshkent shahrida “yashil” iqtisodiyot bo‘yicha normativ-huquqiy bazani va siyosatni takomillashtirish, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi sheriklik munosabatlari orqali innovatsion “yashil” investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan Yevropa va MDH davlatlarining “yashil” iqtisodiyot bo‘yicha mintaqaviy vazirliklar konferensiyasi o‘tkazilgan.

Shunday masalalarni tadqiq qilishda o‘z mulohaza va ilmiy qarashlari bilan faol ishtirok etib kelayotgan xorijiy olimlar qatorida Armstrong J.Taylor [1], Edgar M.Xuver, Tatarkin A.I. [3], Ignatov V.G., Ketova N.P. [2] larning ilmiy izlanishlarini alohida ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin. Fransiya taraqqiyot agentligi iqtisodchisi Gilermo Magacho O‘zbekiston “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishga ko‘maklashish yo‘lida sa’y-harakatlarini ayamayotganini qayd etdi.

Respublikamizdagi olimlarning shu sohadagi ishlari, fikrlari ham o‘rganilgan, jumladarn N.H.Hakimov, O.M.Axmedov, A.A.Abdumalikov va Z.B.Sharipovalarning “Yashil iqtisodiyot va ekologiya” nomli darsligida barqaror iqtisodiy taraqqiyotning milliy strategik xususiyati haqida yozilib, unda iqtisodiy taraqqiyot va ekologik omillar uyg‘unligi yoritib o‘tilgan. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti makroiqtisodiyot, ijtimoiy soha, real sektor, “yashil iqtisodiyot”, hududlar iqtisodiyoti kabi muhim yo‘nalishlar bo‘yicha izlanishlar olib bormoqda [4].

Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishining asosiy vazifalari etib belgilangan:

- texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
- davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo‘nalishlariga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan “yashil” mezonlarni kiritish;

- davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali “yashil” iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishlari bo‘yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish;
- ta’limga investitsiyalar kiritishni rag‘batlantirish, yetakchi xorijiy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga “yashil” iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;
- Orolbo‘yidagi ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish choralarini ko‘rish;
- “yashil” iqtisodiyot sohasida, shu jumladan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash [5].

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi “yashil” iqtisodiyot doirasida tadbirlarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalarni, shuningdek, xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari va boshqa xorijiy donorlarning kreditlari va grantlarini jalb qilish bilan shug‘ullanuvchi vakolatli tashkilot hisoblanadi.



1-rasm: Iqtisodiy taraqqiyot va ekologik omillar uyg‘unligi

Mamlakatda GEFF (yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish mexanizmi) loyihasi xususiy kompaniyalarga yuqori samarali texnologiyalar va amaliyotlar orqali raqobatbardoshligini oshirish uchun moliyalashtirish, maslahat va grantlar taqdim etadi.

“Yashil iqtisodiyot” - bu ishlab chiqarish va iste’mol qilishda energiya va suvdan foydalanishni kamaytiradigan va shu bilan atrof-muhit va iqlimga salbiy ta’sirni kamaytiradigan iqtisodiyot.

GEFF mexanizmi ushbu o‘tish jarayonini “Yashil” texnologiyalarga investitsiyalarni moliyalashtirish orqali qo‘llab-quvvatlaydi, ya’ni:

- Energiyadan foydalanishni minimallashtiradigan texnologiyalar;
- Qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqaradigan texnologiyalar;
- Suv resurslarini himoya qiladigan texnologiyalar [6].

GEFF kelishuviga binoan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB) ishtirok etayotgan mahalliy moliyaviy institutlarga (hamkor banklarga) xususiy qarz oluvchilarni qayta moliyalashtirish uchun kreditlar taqdim etadi. Ushbu mablag‘lar YETTBning “yashil iqtisodiyot” ga o‘tish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha global strategiyasiga muvofiq, iqlim ta’sirini kamaytiradigan loyihalarga sarflanadi.

GEFFning O‘zbekistondagi muhandislar, atrof-muhit, moliya va marketing bo‘yicha mutaxassislaridan iborat maxsus maslahatchilar guruhi qo‘llab-quvvatlanadilar, ular sherik banklar va ularning mijozlariga eng yaxshi texnologiyalardan foydalangan holda yashil loyihani hayot davomida to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash va maslahatlarni taqdim etadilar. Mijozlar uchun texnik yordam paketi bepul.

Texnik yordamni loyihani ishlab chiqish, investitsiyalarni baholash va amalga oshirishning turli bosqichlaridagi kompaniyalarga yordam beradigan mahalliy GEFF jamoasi taqdim etadi [7]. Bu eng yaxshi yechimlarni aniqlashga va “yashil iqtisodiyot”ning sifatli loyihalarini muvaffaqiyatli moliyalashtirishga yordam beradi.

O‘z navbatida, 2023-yilda Ipak Yo‘li banki YETTB dan “yashil” iqtisodiyotdagi xususiy kompaniyalarni moliyalashtirish uchun 5 million dollarlik kredit liniyasini oldi.

YETTB vakolatxonasi ma’lum qilishicha 2023-yil dekabrda “Hamkorbank”ga yashil kreditlashni rag‘batlantirish uchun 10 million dollar miqdorida kredit ajratgan.


O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ini moliyalashtirish dasturi doirasida ajratilgan kredit Hamkorbankga butun mamlakat bo‘ylab kompaniyalar va uy xo‘jaliklari bilan energiya samaradorligini oshirish loyihalarini kreditlashni kengaytirish imkonini beradi.

Mablag‘lar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va iqlim o‘zgarishiga chidamliligini oshirishga yo‘naltiriladi.

Qayd yetilishicha, GEFF O‘zbekistonni Daniya, Niderlandiya, Shveysariya va Buyuk Britaniya hissalari bilan Iqlim investitsiya fondlari orqali taqdim etilayotgan texnik hamkorlik fondlari qo‘llab-quvvatlaydi. Yaponiya, Litva va Tayvan hissalari bilan “Ko‘p donorli hamkorlik jamg‘armasi”ning grant mablag‘lari inklyuziv yashil kreditlashni rag‘batlantiradi.

Ayni kunlarda O‘zbekistonda “yashil” moliyalashtirish faolligining ortishi qayd etilmoqda. Agar u ilgari xalqaro moliya institutlarining alohida loyihalari va grantlari ko‘rinishida taqdim etilgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda moliyalashtirishning “yashil” kreditlar va obligatsiyalar kabi boshqa vositalari ham tatbiq etildi.

“Yashil” loyihalarning barchasi katta hajmdagi moliyalashtirishni talab etadi. “Yashil” biznes-modellar va loyihalar ko‘p holatlarda qaltis va noan’anaviy bo‘ladi. Shunga mos ravishda tijorat nuqtayi nazaridan olib qaraganda moliyalashtirishning an’anaviy usullari e’tiborni jalb qilmasligi va ularni qo‘llashning imkoni topilmasligi mumkin. Dunyo amaliyotida bu muammoni hal qilish uchun moliyalashtirishning “yashil iqtisodiyot”ga yo‘naltirilgan yangi usullari ishlab chiqilgan.



2-rasm: “Yashil” moliyalash vositalarining ko‘rinishlari [8]

Xulosa qilib aytganda, “yashil” vositalar sezilarli darajada xilma xil ekanligi bilan farqlanishi ko‘rinib turibdi. Bu esa korxonalarga investitsiyalarni davlat ishtirokisiz jalb qilish, “yashil” faoliyatdan moliyaviy foyda olish va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish (bartaraf etish) imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Armstrong, J.Taylor. Regional economics and policy. 3 edition. WilleyBlackwell publisher, 2010- 448 p.
2. Butov V.I., Ignatov V.G., Ketova N.P. (2000). Osnovy regional’noj jekonomiki: ucheb. posobie [The basics of regional economics: an educational guidance]. Moscow, Rostov-onDon.
3. Tatarkin A. I., Animitsa E. G. “Formation of paradigmatic theory of regional economy” Экономика региона № 3/2012.
4. N.H.Hakimov, O.M.Axmedov, A.A.Abdumalikov, Z.B.Sharipova. “Yashil iqtisodiyot va ekologiya”. Darslik. Toshkent. 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019-yildagi PQ-4477-son. 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
6. Уркинбаев Т. А. Внедрение современных инструментов икт в развитии туризма //Журнал инновации в экономике. – 2023. – Т. 6. – №. 4.
7. Nasiba G. N. S. T., Eshmuradov D. E. Вопросы повышения метрологической надежности средств измерений // Международная конференция “Состояние и тенденции развития стандартизации и технического регулирования в мире. – 2022. – С. 178-184.
8. М.Каримов. Инструменты “зеленого” финансирования. Ташкент. ИМРС. 2022.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI TASHKIL QILISHNING XUSUSIYATLARI

Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada budjet tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishda ichki nazorat tizimining zarurligi va ahamiyati nazariy jihatdan asoslangan. Budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimini tashkil etish va amalga oshirishning asoslari yoritilgan. Budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimini yo‘lga qo‘yishning normativ huquqiy asoslari keltirilgan. Budjet tashkilotlari faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqib ichki nazorat tizimining amaldagi holati tadqiq qilingan. Budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimini tashkil etishni takomillashtirish yuzasidan takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi, ichki nazorat, mablag‘lar, moliyalashtirish, nazorat muhiti, hisobot.

Abstract: In this article, the need and importance of the internal control system in the implementation of the activities of budget organizations is theoretically based. Basics of organization and implementation of internal control system in budget organizations are explained. Normative and legal bases for establishment of internal control system in budget organizations are presented. Based on the characteristics of budget organizations, the current state of the internal control system was studied. Proposals for improving the organization of the internal control system in budget organizations are presented.

Key words: accounting, internal control, funds, financing, control environment, reporting.

Аннотация: В данной статье теоретически обоснована необходимость и значение системы внутреннего контроля при осуществлении деятельности бюджетных организаций. Изложены основы организации и внедрения системы внутреннего контроля в бюджетных организациях. Представлены нормативно-правовые основы создания системы внутреннего контроля в бюджетных организациях. На основе характеристики бюджетных организаций изучено современное состояние системы внутреннего контроля. Представлены предложения по совершенствованию организации системы внутреннего контроля в бюджетных организациях.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, внутренний контроль, фонды, финансирование, контрольная среда, отчетность.

KIRISH

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz davlat Budjeti barqarorligini ta’minlash, davlat moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, Budjet ijrosiga oid axborotlarning ochiqligini ta’minlash, Budjet mablag‘lari taqsimlovchi organlar va Budjet tashkilotlarining hisobdorligini oshirish, davlat moliyaviy nazorati tizimini rivojlantirish, Budjet ijrosi jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalar va axborot tizimlaridan foydalanish orqali ortiqcha sarf xarajatlarning oldini olish yuzasidan tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga alohida ahamiyat qaratildi. O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston–2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni bilan “Fiskal barqarorlikni ta’minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish maqsadida natijaga yo‘naltirilgan Budjetlashtirish amaliyoti” [1]ni joriy qilish vazifasi qo‘yilgan. Bunda, har bir faoliyat yo‘nalishlaridan kelib chiqib, Budjet tashkilotlarida nafaqat Budjet mablag‘lari, balki Budjetdan tashqari mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish orqali tashkilotlarning funksional vazifalarini bajarish orqali davlatning jamiyat va fuqarolar oldidagi mas’uliyatini to‘la ado etish bosh maqsadlardan sanaladi.

Budjet tashkilotlari faoliyat yo‘nalishlaridan kelib chiqib, ta’lim, sog‘liqlini saqlash, madaniyat, sport, davlat boshqaruv organlari va shu kabi boshqa faoliyatlarni amalga oshirishda oqilona rejalashtirilgan holda uzluksiz mablag‘lar bilan ta’minlash, mablag‘larni belgilangan maqsadlar uchun yo‘naltirish tashkilotlarning faoliyat samaradorligiga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda Budjet tashkilotlarining nafaqat, faoliyatlari samaradorligini

ta’minlash, balki, mablag‘larning maqsadli sarflanishini tashkil etish ichki nazorat tizimini to‘g‘ri tashkil qilish va amalga oshirish bilan uzviy bog‘liq sanaladi.

Bu o‘z navbatida, Budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimini tashkil qilish zaruriyatini belgilab beradi. Shu bilan birga, Budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimining nazariy va huquqiy asoslarini o‘rganish, amaldagi holatini tizimli tahlil qilish, mavjud munozarali holatlarni o‘rganish va ularning yechimini shakllantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi.

TADQIQOT USULLARI

Budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimini tashkil qilish mavzusi doirasidagi izlanishlarda kuzatish, qiyoslash, analiz va sintez, deduksiya va induksiya, abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, guruhlashtirish, manbalarni sharhlash, tizimli yondashuv kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilish borasida xorijlik hamda mamlakatmiz olimlari tomonidan izlanishlar olib borilgan. Xalqaro amaliyotda Budjet tashkilotlari davlat sektoriga qarashli bo‘lganligi sababli, ularni boshqarish va nazorat qilishda ichki nazorat tizimining talab darajasida yo‘lga qo‘yilishi tashkilotlar faoliyati samaradorligini ta’minlash hamda mablag‘larning manzilli sarflanishining asosiy sharti sifatida qaraladi.

Jumladan, xorijlik olimlardan Mohamad Azizal bin Abd Aziz, Jamaliah Said, Mahmudul Alam tomonidan Malayziya davlat sektori tashkilotlarida ichki nazorat tizimi va uni baholash amaliyoti tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqot 24-federal vazirlik qoshidagi 109 departament va agentlik bo‘limlari, shu jumladan Malayziyadagi Bosh vazir departamenti o‘rtasida so‘rovnomalar to‘plami asosida birlamchi ma’lumotlarni to‘planib ichki nazorat amaliyotining o‘n omili haqidagi fikrga asoslanib omillar tahlil tahlil qilingan. Natijada, moliya organlari guruhining ichki nazorat tizimi kuchli, muhandislik, axborot tizimi, ta’lim, tibbiyot va sog‘liqni saqlash tizimidagi ichki nazorat umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichda baholangan. Malayziyadagi davlat sektori ishonchli va samarali sektorga aylanishi uchun ichki nazoratni tashkil qilish va uni to‘g‘ri baholash bo‘yicha takliflar shakllantirilgan [2].

Hung Tang Tri va Thien Huu Nguyen tomonidan tashkilotlarda buxgalteriya hisobi axborot tizimi bilan ichki nazorat tizimining o‘zaro bog‘liqligi borasida izlanish olib borishgan. Bunda, ichki nazorat tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish buxgalteriya axborot tizimining to‘g‘ri ishlashiga xizmat qilishi, shuningdek, buxgalteriya axborot tizimining samarali ishlashi ichki nazorat tizimini boshqarishga olib kelishi asoslab berilgan. Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimlarining uzviy bog‘liqligi masalalari yoritilgan [3].

Vakhtang Nadiradze davlat sektorida ichki moliyaviy nazorat tizimini joriy etish borasida tadqiqot olib borgan. Davlat sektorida Budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanishi uchun ichki moliyaviy nazorat tizimini isloh qilishning zarurligi asoslangan. Davlat sektorida ichki auditning xalqaro me’yoriy hujjatlari va me’yoriy me’yorlari, ichki nazorat tizimini joriy etishda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari amaliyoti ko‘rib chiqilib, ushbu tajribalardan foydalanish yuzasidan tavsiyalar berilgan [4].

Salomi Jacomina Hehanussa buxgalteriya hisobi axborot tizimlarida ichki nazoratning roli haqida izlanish olib borgan: buxgalteriya axborot tizimlaridan foydalanish boshqaruv organi xodimlari nazoratisiz tashkilot muvaffaqiyatli ishlay oladimi yoki yo‘qligi masalasiga aniqlik kiritish uchun ichki nazorat tizimining oltita muhim rolini aniqlagan. Kompyuterga asoslangan buxgalteriya hisobining axborot tizimlariga katta ta’sir ko‘rsatishi kuzatilgan. Ichki nazorat tizimlari tashkilotdagi ortiqcha resurslarning oldini olishi, moliyaviy hisobotlar bilan bog‘liq hisobdorlikni oshirish, tashkilotning faoliyatiga oid axborotlarning ishonchliligi va sifatini oshirishi, boshqaruv qarorlar qabul qilish va firibgarlikning oldini olish uchun osonlashishi asoslangan [5].

Z.U.Xamidova Budjet tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish borasidagi izlanishlarida Budjet tashkilotlarida ichki audit va ichki nazoratni tashkil etilishi hamda nazoratning amalga oshirilishi, ichki audit va ichki nazoratning o‘zaro bog‘liq va farqli jihatlari asoslab berilgan. Ichki audit xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqa davlat organlari bilan hamkorligini ta’minlash hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati faoliyatini takomillashtirish [6] yuzasidan takliflar bergan.

B.K.Xamdamov va A.A.Ostonokulov tomonidan Budjet tizimi Budjetlarida Budjet nazoratini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari, nazorat obyektlari va ularning tarkibi, nazorat usullari va shakllari, Budjet nazoratini amalga oshirish bosqichlari, nazorat natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirishni tizimlashtirilgan [7] holda ifodalab berishgan.

Sh.Qurbonov tomonidan davlat tibbiyot tashkilotlarida Budjetdan tashqari mablag‘lar ichki auditini takomillashtirish masalalari ilmiy tadqiq qilingan. Tadqiqotchi tibbiyot tashkilotlarining Budjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha ichki audit tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirishga xizmat qiluvchi audit dasturi va rejasi [8]ni taklif etgan.


TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Mazkur izlanishlarda olimlar tomonidan Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, nazorat va audit masalalari umumiy holda o‘rganilgan. Ayrim hollarda ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarida buxgalteriya hisobi va ichki auditni takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar berilgan. Ammo, avtomobil yo‘llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilish masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Budjet tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishda tashkilotning O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, tegishli vazirlikning buyruqlari hamda faoliyatga oid boshqa normativ huquqiy-hujjatlarning amaldagi ijrosini ta’minlash va ularga oid hisobdorlikni amalga oshirish ichki nazorat ning bosh maqsadi sanaladi. Budjet tashkilotlarida ushbu maqsadni amalga oshirish uchun tegishli vazifalarni hal etish uchun mas’ul bo‘linmalar va shaxslar belgilab olinadi.

Ichki nazorat – Budjet tashkiloti faoliyat maqsadlariga asoslangan va maqsadga yetarli darajada erishish, tashkilot bo‘linmalari faoliyatining faoliyat samaradorligi yoki unumdorligi, shu jumladan, mablag‘lardan foydalanish samaradorligi darajasi va aktivlarni saqlash, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va to‘g‘riligi, tashkilot faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va huquq me’yorlariga muvofiqligi tamoyillarga mosligini tasdiqlash, bo‘linmalar faoliyatiga biriktirilgan vazifalar va ularni amalga oshirish bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni boshqarish, nazorat va boshqaruv jarayonlari samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan uzluksiz amal qiluvchi jarayondan iborat (1-rasm).



1-rasm: Budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimida amal qiluvchi tamoyillar[1]

Ichki nazorat tizimi Budjet tashkiloti bo‘linmalarida moliya-iqtisod, ijro intizomi, ishlar boshqarmasi, buxgalteriya hisobi, yuridik va ichki nazorat bo‘limi hamda boshqa barcha darajadagi va barcha funksiyalar bo‘yicha xodimlar tomonidan tashkil qilingan va amalga oshiriladigan ichki hujjatlar bilan qat’iy belgilangan ichki nazoratning tashkiliy tuzilmasi, nazorat qiluvchi chora-tadbirlari va usullari majmuidan iborat.

Ichki nazorat tadbirlari Budjet tashkilotlari bo‘linmalari moliya-iqtisod, ijro intizomi, ishlar boshqarmasi, buxgalteriya hisobi, yuridik va ichki nazorat bo‘limi, boshqaruv xodimlari, shuningdek, ichki nazoratni amalga oshirish vakolati berilgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan hamda moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda qonunlar hamda Budjet tashkilotining ichki hujjatlari talablari buzilishlarini aniqlashga, bo‘linmalar tomonidan belgilangan maqsadlarga erishish samaradorligini, shuningdek, ichki nazorat tadbirlarini amalga oshirish jarayonida ichki nazorat subyektlarining o‘zaro hamkorligini baholashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidan iborat [9].

Budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimi quyidagi tamoyillar asosida tashkil qilinadi:

- uzluksiz faoliyat olib borish - ichki nazorat tizimining doimiy va tegishlicha faoliyat yuritishi Budjet, smeta va shtatlar hamda xarajatlar me’yoridan har qanday chetga chiqishlar (og‘ishlar)ni o‘z vaqtida aniqlash va kelgusida ular yuzaga kelishining oldini olish imkonini beradi;
- ichki nazorat tizimi barcha ishtirokchilarining hisobdorligi - har bir shaxs tomonidan nazorat funksiyalarining bajarilish sifati ichki nazorat tizimining boshqa ishtirokchisi tomonidan nazorat qilib boriladi;
- vazifalar taqsimlanishi – Budjet tashkiloti bo‘linmalari nazorat funksiyalari bir-birini takrorlashiga yo‘l qo‘yilmasligiga va ushbu funksiyalar xodimlar o‘rtasida muayyan aktivlar bilan operatsiyalarni tasdiqlash, operatsiyalarni hisobga olish, aktivlarning to‘g‘ri saqlanishini ta’minlash va ular inventarizatsiyasini o‘tkazish bilan bog‘liq funksiyalarning bir shaxsning o‘zi tomonidan bajarilmaydigan tarzda taqsimlanishiga intiladi;

1 Muallif tomonidan shakllantirilgan

- operatsiyalarning tegishlicha ma’qullanishi va tasdiqlanishi – tashkilot va uning bo‘linmalarida vakolatli shaxslar tomonidan ularning taalluqli vakolatlari doirasida barcha moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalari tasdiqlanishi tartibini belgilashga intiladi;
- tashkilot va uning bo‘linmalarining kundalik ichki nazoratini amalga oshiradigan, bo‘linmalarning o‘zaro tashkiliy bog‘liqligini va uning bevosita tashkilot raxbarlariga funksional hisobdorligini ta’minlash;
- tashkilotda ishlaydigan barcha ichki nazorat subyektlarining nazorat funksiyalarining tegishlicha bajarilishi uchun javobgarligi;
- tashkilotda barcha bo‘linmalarining o‘zaro aniq hamkorligi asosida ichki nazoratni amalga oshirish;
- doimiy rivojlanish va takomillashish – Budjet tashkiloti ichki nazorat tizimining yangi vazifalarni hal qilish zarurati hisobga olingan holda moslashuvchan bo‘lishi, tizimning o‘zini kengaytirish va takomillashtirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlashga intiladi;
- moliyaviy rejalar va istiqbolli prognozlarga nisbatan chetga chiqishlar (og‘ishlar) to‘g‘risidagi habarlarning o‘z vaqtida uzatilishi - tashkilot va uning bo‘linmalarida chetga chiqishlar (og‘ishlar)ni bartaraf qilish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish vakolatga ega shaxslarga tegishli habarlar uzatilishining maksimal qisqa muddatlari belgilanadi;
- tashkilot va uning bo‘linmalari faoliyatining nazorati yo‘lga qo‘yilayotgan soxalari ustuvorligini belgilash - ichki nazorat tizimi bilan qamrab olinadigan strategik yo‘nalishlar ajratib ko‘rsatiladi.

Budjet tashkilotida ichki nazorat tizimi quyidagi o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- bo‘linmalar xodimlarining odob-axloq qadriyatlarini va bilimdonliklarini, raxbarlik siyosatini, raxbariyat tomonidan vakolatlar va javobgarliklarni taqsimlash usuli, tashkil qilish tuzilishi va xodimlar malakalari oshirilishini;
- tavakkalchiliklarni baholash - turli darajalarda o‘zaro bog‘liq va ichki izchil muayyan vazifalarni bajarishga taalluqli tavakkalchiliklarni identifikatsiyalash va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi;
- tashkilot va uning bo‘linmalari rahbariyati qarorlarining tegishlicha ijrosini kafolatlaydigan siyosat va tadbirlarni umumlashtiruvchi va ma’qullashlar, jarimalar, tasdiqnomalar berish, tekshiruvlar o‘tkazish, joriy faoliyat nazorati, aktivlar xavfsizligi kafolati va vakolatlarni taqsimlash kabi bir qator turli xil harakatlarni o‘z ichiga oluvchi nazorat bo‘yicha faoliyat;
- ma’lumotlarni o‘z vaqtida samarali aniqlash, ularni ro‘yxatdan o‘tkazish va ularni ayirboshlashga yo‘naltirilgan, shu jumladan barcha ichki nazorat subyektlarida tashkilot va uning bo‘linmalarida qabul qilingan ichki nazorat siyosati va tadbirlari tushunchasini shakllantirish va ular ijrosini ta’minlash maqsadida axborot almashinuvi samarali yo‘llari tashkil qilinishini o‘z ichiga oladigan axborot ta’minoti va axborot almashinuvi bo‘yicha faoliyat. Tashkilot va uning bo‘linmalari axborotdan ruxsatsiz foydalanishdan himoyalanish uchun chora-tadbirlar ko‘radi;
- monitoring – boshqaruv va nazorat funksiyalarini o‘z ichiga oladigan jarayon bo‘lib, ushbu jarayon davomida vaqt o‘tishi bilan tizimning ishlash sifati baholanadi. Ichki nazorat tizimini baholash moliyaviy hisobotlarning to‘g‘riligiga ta’sir ko‘rsatuvchi xatolar yuzaga kelish ehtimolini aniqlash, ushbu xatolar jiddiyligini aniqlash va ichki nazorat tizimining belgilangan vazifalar bajarilishini ta’minlash imkoniyatini belgilash uchun o‘tkaziladi [10]. Ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash uchun tashkilot va uning bo‘linmalarida mutaxassislar taklifi asosida mustaqil professional tashkilot – konsultant jalb qilinishi mumkin.

Ichki nazorat moliya-iqtisod, ijro intizomi, ishlar boshqarmasi, buxgalteriya hisobi, yuridik va ichki nazorat bo‘limi, boshqaruv xodimlari, shuningdek, tashkilotning barcha darajadagi xodimlari tomonidan ularning amaldagi qonunlar hamda tashkilotning ichki hujjatlari bilan belgilangan vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotining ichki nazorat tadbirlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- tashkilotning faoliyat maqsadlariga erishishiga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan yashirin va mavjud operativ, moliya, strategik va boshqa tavakkalchiliklarni aniqlash va tahlil qilish;
- ichki nazoratning jiddiy tarkibiy qismlarini baholash;
- Budjet ijrosi jarayonlarining ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash;
- tashkilot tarkibiy bo‘linmalari, mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarining ish samaradorligi mezonlarini aniqlash va baholash;
- moliyaviy va boshqa ma’lumotlarni oldingi davr uchun taqqoslanadigan axborot yoki kutilayotgan faoliyat natijalari bilan solishtirish orqali ko‘rib chiqish;
- voqea-hodisalar, operatsiyalar va tranzaksiyalarni hisobga olishning mos usullaridan foydalanish;
- aktivlar to‘g‘ri saqlanishi va foydalanilishi holatini tekshirish;
- ichki nazorat tadbirlarini tegishlicha hujjatlashtirish;
- ichki nazorat tizimi sifatini muntazam baholab berish;
- Budjet tashkilotining barcha xodimlarini ularning ichki nazorat sohasidagi majburiyatlari to‘g‘risida xabardor qilish;

- tashkilot xodimlari o‘rtasida muhim vazifalarni taqsimlash (shu jumladan, operatsiyalarni ma’qullash va tasdiqlash, operatsiyalar hisobini yuritish, resurslarni yo‘naltirish, saqlash va olish, operatsiyalarni tahlil qilish va tekshirish bo‘yicha);
- operatsiyalarning faqat taalluqli vakolatlarga ega shaxslar tomonidan tasdiqlanishi va amalga oshirilishi;
- ichki nazorat maqsadlariga erishish uchun kerakli boshqa tadbirlar.

Ichki nazorat tadbirlarini o‘tkazishda tekshirish, kuzatish, tasdiqlash, qayta hisoblash usullari, shuningdek ichki nazorat tadbirlarini amalga oshirish uchun kerakli boshqa usullar qo‘llaniladi. Ushbu tadbirlar ichki nazorat muxiti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bo‘linmalarning hisobdorligi va nazorat vositalaridan foydalanish holatiga baho berishga xizmat qiladi.

XULOSA

Budjet tashkilotlarining faoliyati samaradorligi bevosita ularni oqilona moliyalashtirish va boshqarish bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi bois, ularning faoliyatini doimimiy nazorat qilish hamda to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida ichki nazorat tizimining mavjudligi va uni amalga oshirish muhim hisoblanar ekan. Ichki nazorat tizimi bir vaqtning o‘zida tashkilot bo‘linlari va xodimlarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi holati, tashkilotda normativ-huquqiy hujjatlarga amalga qilinishi, belgilangan maqsad va rejalarga erishish natijalari, mablag‘larning to‘g‘ri saqlanishi va maqsadli sarflanishi, bo‘linalarning hisobdorligi, moliyaviy-xo‘ajlik faoliyatiga oid axborotlarning ishonchliligini ta’minlashning bevosita vositasi sanaladi.

Budjet tashkilotlarining faoliyat yo‘nalishlaridan kelib chiqib, amaldagi qonunchilik talablari asosida hisob siyosati ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilsa, ushbu hisob siyosatining to‘la-to‘kis amalga oshirilishi ichki nazorat tizimining yo‘lga qo‘yilishi bilan uzviy sanaladi. Shu bois, hisob siyosati va ichki nazorat tizimi bo‘yicha ishlab chiqiladigan tartib-qoidalar o‘zaro mos bo‘lishi zarur.

Bizningcha, Budjet tashkilotlarining maqsad va vazifalarining yaxlit holda amalga oshirilishi tashkilotning har bir bo‘lim va bo‘linmalari, ulardagi xodimlarning o‘z vazifalarini bajarishi hamda hisobdorligi, rahbar xodimlarning tarkibiy bo‘linmalarga oid axborotlardan foydalanishi, biznes rejalar, shtatlar va smetalar rejalarining bajarilishi, smeta-shtat intizomiga amal qilinishi ichki nazorat tizimining to‘g‘ri tashkil etilishi bilan uzviy bog‘liq.

Ichki nazorat tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va samarali amalga oshirish uchun har bir Budjet tashkilotida “Ichki nazorat tizimi to‘g‘risida nizom” ishlab chiqilishi va unga amal qilinishi zarur. Bunda, ichki nazorat tizimiga kiruvchi subyektlar, ularning vakolatlari, hisobdorligi va javobgarligi, nazoratni amalga oshirish vositalari,tamoyillari va usullari, nazoratning davriyligi, axborot almashish tartiblari, nazorat subyektlarining hamkorligi va shu kabi boshqa masalalar nizomda o‘z aksini topadi. Har bir vazirlik va idoralar tizim tashkilotlari uchun namunaviy ichki nazorat tizimi bo‘yicha nizomni shakllantirishi hamda tizim tashkilotlari ushbu nizom asosida o‘zining nizomini shakllantirishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi ““O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni
2. Mohamad Azizal bin Abd Aziz, Jamaliah Said, Mahmudul Alam. Assessment of the Practices of Internal Control System in the Public Sectors of Malaysia. Asia-Pacific Management Accounting Journal, 2015. Vol. 10(1), pp. 43-62
3. Tang Tri Hung – Nguyen Huu Thien – Nguyen Hieu Trung - Le Thuy Dung. Relationship between accounting information system and internalcontrol system. TAÏP CHÍ COÂNG THÖÔNG. Thaùng 8/2017.
4. Vakhtang Nadiradze. (2022). Introduction of Internal Financial Control System in the Public Sector. Scientific Journal “Spectri”, 1. https://doi.org/10.52340/spectri.2022.18
5. Salomi Jacomina Hehanussa. The Important Role Of Internal Control In Accounting Information Systems. Vol. 2 No. 6 (2024): Asian Journal of Social and Humanities.
6. Xamidova Z.U. Budjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari faoliyatini samarali tashkil qilish masalalari. Monografiya. – T.: “VNESHINVESTPROM”, 2021. 183 b.
7. Hamdamov, B. K., & Ostonokulov, A. A. (2018). Budjet nazorati. O‘quv qo‘llanma. T.: “Iqtisod–Moliya”,–318 b.
8. Qurbonov Sh.M. Davlat tibbiyot tashkilotlarida Budjetdan tashqari mablag‘lar hisobi va ichki auditni takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. – T. 2022. –58 b.
9. Ostonokulov, A. A., & Abduraxmonov, I. (2019). Budjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini takomillashtirish masalalari. XXI asr: fan va ta’lim masalalari” ilmiy elektron jurnali, 1.
10. Kuliboyev A. Sh. Budjet nazoratining nazariy–uslubiy asoslari //World scientific research journal. – 2023. – T. 16. – №. 1. – S. 31-37.

CHINESE COMMERCIAL BANKS EXPERIENCE IN ASSET DIVERSIFICATION



Uktamova Nozima Narzulla kizi
Ph.D., Tashkent State University of Law, Senior teacher of the "Public Administration" department

Abstract: Diversification is an important strategy for banks to remain competitive. Recent studies show that relative capital is considered an important determinant of bank competitiveness. The purpose of this study is to examine the impact of diversity and relational capital on the performance of Chinese commercial banks.

Key words: commercial banks, ROA, ROE, diversification, banks assets, HHI, capital.

Annotatsiya: Diversifikatsiya banklarning raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun muhim strategiya hisoblanadi. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nisbiy kapital bank raqobatbardoshligining muhim omili hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi xilma-xillik va nisbiy kapitalning Xitoy tijorat banklari faoliyatiga ta'sirini o'rganishdir.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, ROA, ROE, diversifikatsiya, bank aktivlari, HHI, kapital.

z_{t-1}, $z_{t-2.}$, z_{t-r} - представляет собой лагированные значения других факторов, влияющих на зависимые переменные.

β_0, β_1,...β_9, μ_1, μ_2,.. μ_q, v_1, v_2... v_r - оцененные коэффициенты представляют собой значения, ε_t t представляет ошибку во времени.

На ставки по кредитам банковского сектора физическим лицам (зависимая переменная) влияют эти факторы, в том числе средневзвешенная процентная ставка по краткосрочным депозитам физических лиц, уровень инфляции и рентабельность собственного капитала (ROE) коммерческих банков.

14 Nkoro E., Ikue-John N. B., Nwantah C. M. The performances of insurance industry and the Nigerian economic growth //Bussecon Review of Social Sciences (2687-2285). – 2019. – Т. 1. – №. 1. – С. 06-12.

15 Pesaran M. H., Shin Y., Smith R. J. Bounds testing approaches to the analysis of level relationships //Journal of applied econometrics. – 2001. – Т. 16. – №. 3. – С. 289-326.

16 Nkoro E. et al. Autoregressive Distributed Lag (ARDL) cointegration technique: application and interpretation //Journal of Statistical and Econometric methods. – 2016. – Т. 5. – №. 4. – С. 63-91.

17 Hasan A., Nasir Z. M. Macroeconomic factors and equity prices: An empirical investigation by using ARDL approach //The Pakistan Development Review. – 2008. – С. 501-513.

18 Busu M. Analyzing the impact of the renewable energy sources on economic growth at the EU level using an ARDL model //Mathematics. – 2020. – Т. 8. – №. 8. – С. 1367.

19 Hassan M. K., Naka A. Short-run and long-run dynamic linkages among international stock markets //International Review of Economics & Finance. – 1996. – Т. 5. – №. 4. – С. 387-405.

20 Silvia E., Sihotang N. V., Sihotang D. Causality Analysis of Inflation and Economic Growth Using the Error Correction Model (ECM) //Indonesia Accounting Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 1. – С. 23-36.

21 Gonzalo J., Lee T. H. Pitfalls in testing for long run relationships //Journal of Econometrics. – 1998. – Т. 86. – №. 1. – С. 129-154.

22 Grant T., Lebo M. J. Error correction methods with political time series //Political analysis. – 2016. – Т. 24. – №. 1. – С. 3-30.

При разработке эконометрического уравнения исследования были выдвинуты следующие гипотезы.
Факторы:

Ставки по кредитам банковского сектора для физических лиц – y (зависимая переменная).

средневзвешенная процентная ставка по краткосрочным депозитам физических лиц - x_1 (независимая переменная).

Уровень инфляции - x_2 (независимая переменная)

Показатель рентабельности собственного капитала (ROE) коммерческих банков - x_3 (независимая переменная).

Нулевая гипотеза (H_0): Существует значительная взаимосвязь между комбинацией ставок по кредитам банковского сектора для физических лиц, средневзвешенной процентной ставкой по краткосрочным депозитам физических лиц, уровнем инфляции и доходностью капитала коммерческих банков (ROE).

Альтернативная гипотеза (Ha): Нет существенной взаимосвязи между сочетанием ставок по кредитам банковского сектора для физических лиц, средневзвешенной процентной ставкой по краткосрочным депозитам физических лиц, уровнем инфляции и рентабельностью собственного капитала (ROE) коммерческих банков, где есть и другие факторы, не учтенные в данном исследовании, указывают на то, что отдельные лица могут играть важную роль в определении практики кредитования.

Нулевая гипотеза (H_0), H_0:$\beta_1 = \beta_2 = \beta_3 = 0$

Альтернативная гипотеза (Ha), (Ha): хотя бы один $\beta_i \neq 0$

Здесь, β_1, β_2 и β_3

В национальной банковской системе независимыми переменными в модели множественной регрессии, прогнозирующей кредитные ставки для физических лиц, являются коэффициенты (средневзвешенная процентная ставка по краткосрочным депозитам физических лиц, уровень инфляции и рентабельность капитала коммерческих банков).

Нулевая гипотеза (H0) утверждает, что все коэффициенты равны нулю, что указывает на отсутствие связи, тогда как альтернативная гипотеза (Ha) утверждает, что по крайней мере один из коэффициентов не равен нулю, что указывает на значимую связь. По данным исследования, линия аналитического графика показателей зависимых и независимых переменных во времени имела следующий вид (см. рисунок 1).




Рисунок 1: Графическая матрица зависимых и независимых переменных[23]

23 Разработан самостоятельно автором на основе программы Stata

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS




Рисунок 2: Диаграмма skatter между зависимыми и независимыми переменными[24]

Данные, представленные на рисунке 2 выше, показывают сильную корреляцию между результатом и характерными факторами, отражающими конкретные условия плотности. Плотность точек визуальных данных подчеркивает наличие значительной корреляционной связи, указывающей на кластеризацию точек и их тенденцию к концентрированному распределению по осям.

На следующем этапе исследования корреляционная матрица была проверена для каждой из зависимых и независимых переменных на основе программы статистики (см. табл. 1).

Таблица-1: Матрица корреляции зависимых и независимых переменных[25]

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)
(1) y	1.000			
(2) x_1	0. 4602	1.000		
	(0.0042)			***
(3) x_2	0.3921	-0.1725	1.000	
	(0.0013)	(0.3413)		***
(4) x_3	0.3783	0.2529	-0.1423	1.000
	(0.0057)	(0.1800)	(0.2202)	**

24 Разработан самостоятельно автором на основе программы Stata.
25 Разработан самостоятельно автором на основе программы Stata.

Связь между зависимыми и независимыми переменными:

Результат показал, что существует высокая, сильная и умеренная корреляция между зависимой переменной и факторами, влияющими на нее. Также корреляционная матрица, представленная в таблице 1, показала отсутствие мультиколлинеарности между зависимой переменной (результатом) и независимыми переменными (характерными факторами).

На следующем этапе был проведен тест Unit-root для определения стационарности зависимой и независимой переменных. (См. таблицу 2).

Таблица-2: Результаты теста Unit-Root для зависимых и независимых переменных[26]

O‘zgaruvchilar	Test Statistic	1% Critical Value	5% Critical Value	10% Critical Value	p-value for Z(t)
Bog‘liq o‘zgaruvchi (y)	-8.031	-3.750	-3.000	-2.630	0.0000
Mustaqil o‘zgaruvchi (x_1)	-6.599	-3.750	-3.000	-2.630	0.0000
Mustaqil o‘zgaruvchi (x_2)	-7.130	-3.750	-3.000	-2.630	0.0000
Mustaqil o‘zgaruvchi (x_3)	-9.993	-3.750	-3.000	-2.630	0.0000

На основании данных, представленных в таблице-2 выше, тест единичного корня получил статистическое значение (-8,031) для зависимой переменной и (-6,599, -7,130 и -9,993) для независимой переменной. Результаты теста единичного корня показывают, что зависимые и независимые переменные достигли стационарности, что также подтверждается минимальными значениями Маккиннона Z(t) = 0,0000.

Достижение стационарности результатов анализа временных рядов желательно, поскольку оно упрощает процесс моделирования и важно для повышения надежности статистических выводов. Следовательно, положительный результат теста единичного корня может указывать на необходимость дифференцирования или других преобразований, чтобы сделать данные стационарными.

Кроме того, после первоначального интегрирования зависимых и независимых переменных значения теста единичного корня продемонстрировали стационарность. Эконометрическая модель была разработана с использованием модели ARDL для исследований. Ниже представлена эконометрическая модель, основанная на модели ARDL.

$$\Delta y_{it} = \alpha_0 + \alpha_1 \sum_{p=1}^{n} \Delta y_{i,t-p} + \alpha_2 \sum_{p=1}^{n} \Delta x_{1i,t-p} + \alpha_3 \sum_{p=1}^{n} \Delta x_{2i,t-p} + \alpha_4 \sum_{p=1}^{n} \Delta x_{3i,t-p} + \\ + \mu_1 Y_{i,t-p} + \mu_2 x_{1i,t-1} + \mu_3 x_{2i,t-1} + \mu_4 x_{3i,t-1} + \varepsilon_{i,t}^{27} \quad (2)$$

Здесь: Δy_t - Процентные ставки по кредитам для физических лиц в банковском секторе,

y_{t-1} - Процентные ставки по кредитам для физических лиц в банковском секторе,

x_1 - Средневзвешенная процентная ставка по краткосрочным депозитам,

x_2 – Уровень инфляции,

x_3- Рентабельность капитала банковской системы (ROE),

Δ коэффициент первой разности,

α_0 поперечное сечение α_1, α_2, α_3, и α_4 коэффициенты краткосрочной эластичности, μ_1, μ_2, μ_3, и μ_4 представляют собой долгосрочные динамические множители, n – запаздывающий had, а p – длина laga.

Уравнение (2) представляет собой линейную модель ARDL, обеспечивающую краткосрочные и долгосрочные прогнозы. Также на следующем этапе эконометрическое уравнение модели ARDL было разработано в следующей таблице на основе программы Stata (см. Таблицу 3).

26 Разработан самостоятельно автором на основе программы Stata.

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

Таблица-3: Показатели уравнения регрессии модели ARDL(1,0,0,1)[27]

ARDL(1,0,0,1) regression
Sample: 2018m2 - 2023m10 Number of obs = 68
R-squared = 0.6736
Adj R-squared = 0.6473
Log likelihood = 152.50648 Root MSE = 0.0269

D.y	Coef.	Std.Err.	t	P>t	[95%Conf.	Interval]
ADJ						
y						
L1.	-1.186	0.113	-10.520	0.000	-1.412	-0.961 ***
LR						
x1	0.383	0.104	3.700	0.000	0.176	0.590 ***
x2	0.161	0.055	2.910	0.005	0.050	0.272 ***
x3						
--.	0.085	0.032	2.680	0.009	0.022	0.148 ***
SR						
x3						
D1.	-0.065	0.024	-2.690	0.009	-0.114	-0.017 ***
_cons	2.026	0.666	3.040	0.003	0.695	3.358 ***

По результату модели ARDL(1,0,0,1)

R-квадрат (R^2 = 0,69)

Значение R-квадрата представляет собой долю дисперсии зависимой переменной, объясняемую моделью. В этом случае R-квадрат равен 0,69 (69%), что указывает на то, что на модель ARDL приходится примерно 69% изменчивости зависимой переменной. Более высокий R-квадрат указывает на лучшее соответствие модели наблюдаемым данным.

Log likelihood = 152.50648:

Log likelihood – это мера того, насколько хорошо модель объясняет наблюдаемые данные. В целом, более высокое значение логарифмического правдоподобия указывает на лучшее соответствие модели. Он часто используется при оценке максимального правдоподобия, где целью является максимизация функции правдоподобия. Таким образом, логарифмическая вероятность 152,50648 гарантирует, что модель хорошо представляет данные.

Root MSE = 0,026

Root Mean Squared Error (RMSE) - это мера среднего отклонения между прогнозируемыми значениями модели и фактическими наблюдаемыми значениями. Более низкое среднеквадратическое отклонение указывает на более высокую точность прогноза. В данном случае Root MSE составляет 0,026, что указывает на то, что в среднем прогнозы модели отклоняются от истинных значений примерно на 0,026 единиц.

Согласно этой регрессионной модели, положительный эконометрический результат указывает на то, что модель ARDL с указанными параметрами хорошо объясняет изменения зависимой переменной. Высокий R-квадрат, удобная вероятность лага и низкий RMSE вместе предлагают хорошее соответствие модели данным, что означает, что она охватывает важную часть основных экономических отношений.

Результаты теста ARDL (1,0,0,1): Проведенный тест ARDL дает статистически значимые F-статистику и t-статистику на уровне значимости 0,05. F-статистика оценивает общую значимость модели, а t-статистика проверяет индивидуальную значимость коэффициентов.

27 Разработан самостоятельно автором на основе программы Stata.

Отклонение нулевой гипотезы (H0) и принятие альтернативной гипотезы (H1):

Отказ от нулевой гипотезы (H0)) и принятие альтернативной гипотезы (H1) свидетельствует о том, что оцененные коэффициенты в модели существенно отличаются от нуля. В контексте модели ARDL это означает, что между переменными существует статистически значимая связь, и нулевая гипотеза об отсутствии эффекта отклоняется в пользу альтернативной гипотезы об эффекте.

Это привело к отклонению нулевой гипотезы (H0) и принятию альтернативной гипотезы (H1).

Критерий связанности ARDL (1,0,0,1) для исследования проверял статус коинтеграции модели (см. Таблицу 4).

Таблица-4: Bound тест на коинтеграцию[28]

					F = 31.955
	[I_0] [I_1] L_1 L_1	[I_0] [I_1] L_05 L_05	[I_0] [I_1] L_025 L_025	[I_0] [I_1] L_01 L_01	
K_3	2.72 3.77	3.23 4.35	3.69 4.89	4.29 5.62	

Согласно таблице 4 выше, значение F-статистики 31,922 было выше критических пределов для всех интервалов, что подтвердило наличие коинтеграции в этом сценарии и показало благоприятный результат для теста Bound.

Результат. В результате повышения средней процентной ставки по краткосрочным депозитам в национальном банковском секторе на 1% процентные ставки по кредитам физическим лицам в банковском секторе вырастут на 0,38%. В результате увеличения инфляции на 1% в национальном банковском секторе банковский сектор приводит к увеличению процентных ставок по потребительским кредитам на 0,16%. Также в результате увеличения рентабельности собственного капитала (ROE) банковской системы на 1% банковский сектор приводит к увеличению процентных ставок по кредитам физическим лицам на 0,08%.

На следующем этапе исследования был изучен диагностический тест модели CUSUM ARDL(1,0,0,1). (См. рисунки 4 и 5).




Рисунок 4: Таблица диагностических испытаний CUSUM[29]

28 Разработан самостоятельно автором на основе программы Stata.
29 Разработан самостоятельно автором на основе программы Stata

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS




Рисунок 5: Таблица диагностических испытаний CUSUM[30]

Диагностический тест CUSUM (кумулятивная сумма), используемый в модели ARDL(1,0,0,1), включал следующие гипотезы:

Нулевая гипотеза (H0): структурных сдвигов или нестабильности нет.

Нулевая гипотеза (H0): утверждает, что с течением времени в коэффициентах модели ARDL не происходит структурных изменений или сдвигов. Другими словами, он утверждает, что параметры модели одинаковы во всем.

Альтернативная гипотеза (H1): Имеется структурный сдвиг или нестабильность.

Альтернативная гипотеза (H1) предполагает наличие одного или нескольких разрывов или изменений в коэффициентах модели ARDL (1,0,0,1). Это указывает на фундаментальное изменение корреляции между переменными модели в какой-то момент данного периода.

Анализ данных, представленных на рисунках 4 и 5 выше, показывает, что статистика диагностических тестов CUSUM стабильно оставалась в критических пределах и заметных отклонений не обнаружено. При этом неизменной остается нулевая гипотеза H0, подтверждающая постоянство системных условий.

В ходе исследования мы проверили важные условия модели ARDL Гаусса Маркова и пришли к следующим результатам.

Результат теста Дурбина Уотсона для модели ARDL (1,0,0,1) показал значение 2,13. Кроме того, в исследовании W-тест Шапиро-Уилка показал значение 0,08, тест Бреуша-Годфри LM составил 0,47, а также был проведен тест Бреуша-Пэгана, который зарегистрировал значение 0,58.

В ходе исследования основная гипотеза H0: y = 0 и ее альтернатива H1: y ≠ 0 были статистически проверены на уровне значимости r>0,05.

Дурбин Уотсон, Шапиро-Уилк W? После выполнения тестов Бреуша-Годфри LM и Бреуша-Пэгана отклонение альтернативной гипотезы основывалось на критерии p > 0,05. Таким образом, можно заключить, что в нашем исследовании верно предположение Гаусса-Маркова, подтверждающее отсутствие корреляции между членами ошибки и независимыми переменными. Эконометрическая модель успешно прошла важные условия Гаусса-Маркова.

ВЫВОДЫ

По данным исследования, в результате проведенных анализов и сделанных выводов по взаимодействию процентных ставок по кредитам физических лиц, средневзвешенной процентной ставки по краткосрочным депозитам, уровня инфляции и показателей рентабельности капитала (ROE) банковской системы в национальном банковском секторе были разработаны следующие предложения и рекомендации.

30 Разработан самостоятельно автором на основе программы Stata

Согласно модели ARDL (1,0,0,1),

1. Средняя процентная ставка по краткосрочным депозитам:

Согласно результатам, рост средней процентной ставки по краткосрочным депозитам в национальном банковском секторе на 1% связан с ростом процентных ставок по кредитам физических лиц на 0,38%. Эта положительная взаимосвязь означает, что по мере роста стоимости финансирования для банков (что отражается в ставках по краткосрочным депозитам) они склонны перекладывать часть этих затрат на потребителей в виде более высоких процентных ставок по кредитам.

2. Рост уровня инфляции:

Результаты показывают, что рост уровня инфляции в экономике страны на 1% приводит к увеличению процентных ставок по кредитам физических лиц в национальном банковском секторе на 0,16 %. Эта взаимосвязь означает, что коммерческие банки могут изменять свои процентные ставки по кредитам в зависимости от изменений инфляции, возможно, для покрытия покупательной способности и поддержания прибыльности в реальном выражении.

3. Рентабельность капитала банковской системы (ROE):

Результаты показывают, что увеличение рентабельности собственного капитала (ROE) банковской системы на 1% приводит к увеличению процентных ставок по кредитованию физических лиц на 0,08%. Это говорит о том, что более высокая прибыльность банков, измеряемая ROE, может привести к сдвигу вверх процентных ставок по потребительским кредитам. Это указывает на то, что банки оптимизируют свои доходы через изменение процентных ставок в ответ на изменения в уровне рентабельности банков.

Также результаты эконометрического исследования показывают, что изменения основных финансовых показателей влияют на процентные ставки по кредитам физических лиц в банковском секторе.

Список использованной литературы:

1. Mutua R. K. Impact of credit risk management on financial performance of savings and credit co-operative societies in Kitui County: дис. – 2016.
2. Brüggen E. C. et al. Financial well-being: A conceptualization and research agenda //Journal of business research. – 2017. – Т. 79. – С. 228-237.
3. Olokoyo F. O. Determinants of commercial banks' lending behavior in Nigeria //International journal of financial research. – 2011. – Т. 2. – №. 2. – С. 61.
4. Ayana Y. Determinants of Commercial Banks Deposit Mobilization : дис. – ST. MARY'S UNIVERSITY, 2019.
5. Zinman J. Restricting consumer credit access: Household survey evidence on effects around the Oregon rate cap // Journal of banking & finance. – 2010. – Т. 34. – №. 3. – С. 546-556.
6. Adelino M., Schoar A., Severino F. Loan originations and defaults in the mortgage crisis: The role of the middle class // The Review of Financial Studies. – 2016. – Т. 29. – №. 7. – С. 1635-1670.
7. Adelino M., Schoar A., Severino F. Dynamics of housing debt in the recent boom and great recession //NBER Macroeconomics Annual. – 2018. – Т. 32. – №. 1. – С. 265-311.
8. Burtch G., Ghose A., Wattal S. Cultural differences and geography as determinants of online prosocial lending //Mis Quarterly. – 2014. – Т. 38. – №. 3. – С. 773-794.
9. Agarwal S. et al. Searching for approval. – National Bureau of Economic Research, 2020. – №. w27341.
10. Agarwal S. et al. Lenders' pricing strategy: Do neighborhood risks matter? //Real Estate Economics. – 2023. – Т. 51. – №. 4. – С. 1011-1047.
11. Nkoro E., Ikue-John N. B., Nwantah C. M. The performances of insurance industry and the Nigerian economic growth //Bussecon Review of Social Sciences (2687-2285). – 2019. – Т. 1. – №. 1. – С. 06-12.
12. Pesaran M. H., Shin Y., Smith R. J. Bounds testing approaches to the analysis of level relationships //Journal of applied econometrics. – 2001. – Т. 16. – №. 3. – С. 289-326.
13. Nkoro E. et al. Autoregressive Distributed Lag (ARDL) cointegration technique: application and interpretation //Journal of Statistical and Econometric methods. – 2016. – Т. 5. – №. 4. – С. 63-91.
14. Hasan A., Nasir Z. M. Macroeconomic factors and equity prices: An empirical investigation by using ARDL approach // The Pakistan Development Review. – 2008. – С. 501-513.
15. Busu M. Analyzing the impact of the renewable energy sources on economic growth at the EU level using an ARDL model //Mathematics. – 2020. – Т. 8. – №. 8. – С. 1367.
16. Hassan M. K., Naka A. Short-run and long-run dynamic linkages among international stock markets //International Review of Economics & Finance. – 1996. – Т. 5. – №. 4. – С. 387-405.
17. Silvia E., Sihotang N. V., Sihotang D. Causality Analysis of Inflation and Economic Growth Using the Error Correction Model (ECM) //Indonesia Accounting Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 1. – С. 23-36.
18. Gonzalo J., Lee T. H. Pitfalls in testing for long run relationships //Journal of Econometrics. – 1998. – Т. 86. – №. 1. – С. 129-154.
19. Grant T., Lebo M. J. Error correction methods with political time series //Political analysis. – 2016. – Т. 24. – №. 1. – С. 3-30.



MAHALLIY VA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING INNOVATSION JARAYONLARGA TA'SIRINI BAHOLASH

Bobobekov Ergash Abdumalikovich
TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish yo'llarini takomillashtirish bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etilgan. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni mamlakat investitsion faoliyat samaradorliga ta'siri baholangan. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish yo'llari doirasida mavjud kamchiliklar aniqlangan. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tizimini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: texnologik nou-xau, ijtimoiy-iqtisodiy tizim, patentlashtirish darajasi, innovatsiya muhiti, innovatsion samaradorlik.

Abstract: The article examines the processes related to attracting foreign investments to the national economy and improving the ways of their effective use. Factors influencing the processes of attracting foreign investments and their effective use were evaluated, and their impact on the effectiveness of the country's investment activities. In the framework of ways of attracting foreign investments and their effective use, existing shortcomings have been identified. A scientific proposal and practical recommendations on improving the system of attracting foreign investments to the national economy have been formulated.

Key words: technological know-how, socio-economic system, level of patenting, innovation environment, innovation efficiency.

Аннотация: В статье рассматриваются процессы, связанные с привлечением иностранных инвестиций в национальную экономику и совершенствование способов их эффективного использования. Оценены факторы, влияющие на процессы привлечения иностранных инвестиций и их эффективное использование, а также их влияние на эффективность инвестиционной деятельности страны. В рамках путей привлечения иностранных инвестиций и их эффективного использования выявлены имеющиеся недостатки. Сформулированы научное предложение и практические рекомендации по совершенствованию системы привлечения иностранных инвестиций в национальную экономику.

Ключевые слова: технологические ноу-хау, социально-экономическая система, уровень патентования, инновационная среда, эффективность инноваций.

KIRISH

Obyektlarni boshqarishning sifati va samarasi operatsiyalarni tahlil etish usullarini hozirgi davrdagi tizimli yondashuvining funksional tahlil yordamida ifodalanishi iqtisodiyot uchun XX asrdagi iqtisodiy kashfiyot hisoblanadi. Lekin tizimli yondashuv iqtisodiyotning murakkabligi tufayli kam qo'llaniladi. Bu boshqarish falsafasi bo'lib, o'tish davrida omon qolish, murakkab jarayonlarni oddiy jarayonlarga aylanishi, abstrakdan konkretga o'tishni ifodalaydi.

Bozor tamoyillaridan keng foydalanish sharoitida yangi texnologiyalarning kuchayib borishi, mahsulot va xizmatlarning raqobatchilik muhitiga moslashgan holda yaratilishini taqozo qilmoqda va bu jarayonda innovatsiya yutuqlaridan foydalanish tizimini hayotiy zarurat qilib qo'ydi. Mamlakatimizda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili bo'lgan innovatsiyalarga ustuvor yo'nalish sifatida e'tiborning qaratilishi amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayoni xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini sezilarli darajada o'zgarishi va ular faoliyatini bozor talablariga moslashtirish zaruriyatidan kelib chiqmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini samarali rivojlanishini ta'minlovchi innovatsion faoliyatni boshqarishga alohida e'tibor qaratishni talab qilmoqda. Chunki innovatsion faoliyat bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlikning ilg'or shakli bo'lib hisoblanadi va u bozor iqtisodiyotida ilmiy-texnika taraqqiyotini rivojlanishi uchun real imkoniyatlar yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish yo‘llarini shakllantirish doirasidagi qator tadqiqot izlanishlari xorijlik iqtisodchi olimlardan C.Liyesbeth, M.Miyet, S.Jo ilmiyizlanishlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar fikricha, o‘tish davri mamlakatlarida iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tizmini takomillash-tirishning muhim omili hisoblanadi. To‘g‘ridan to‘g‘ri kapitalni to‘plash va texnologik nou-xau orqali milliy korxonalarga texnologiyalar va bilimlarni jalb qilinishi iqtisodiy o‘sishning barqaror sur’atlarini ta’minlaydi.

P.Mihayela, A.Vaqar, X.Helian tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning institutsional mexanizmi tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalariga muvofiq mamlakat iqtisodiyotidagi institutsional sifat o‘zgarishlarining to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish tizimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etiladi.

V.D.Andrianov ilmiy tadqiqotlarida milliy iqtisodiyot investitsion salohiyatining nazariy asoslari o‘rganilgan bo‘lib, investitsiya salohiyati doirasidagi konsepsiyalar nazariy jihatdan umumlashtirilgan, uni oshirish uchun moliyaviy imtiyozlardan tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqligi ta’kidlangan.

M.V.Charayeva ilmiy tadqiqotlarida tashkilotlarning real sarmoyalarini moliyaviy boshqarish jarayonlarining konseptual asoslari o‘rganilgan. Innovatsion yo‘naltirilgan iqtisodiyot sharoitida real sarmoyalarni strategik moliyaviy boshqarish xususiyatlari bayon etilgan.

F.U.Umarov tadqiqotlarida iqtisodiyotning tegishli tarmoq va sohalariga investitsiya jalb qilish ko‘lamini kengaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.

A.Burxanov tadqiqotlari orqali hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy-nazariy jihatlari o‘rganilib, hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning muammoli jihatlari asoslangan hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

R.H.Bozorov ilmiy izlanish-larida investitsiya muhitining omillari, xususiyatlari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish milliy iqtisodiyotning xalqaro indekslarda ishtirokiga bevosita bog‘liqligi tadqiq qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani yozish jarayonida ilmiy tadqiqotni amalga oshirishningm tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullari qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Keyingi yillarda iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o‘zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda sanoatning ulushi 2000-yilda 14,2 foizdan 2019-yilda 36 foizga yetdi. Natijada hozirgi kunga kelib sanoat mahsuloti umumiy o‘sishining qariyb 70 foizini yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan sohalarni tashkil etmoqda. Shuning uchun ham so‘nggi yillarda qo‘lga kiritilgan natijalar xalqaro jamoatchilik va kuzatuvchilar, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan yuksak baholanmoqda.

Bu esa, mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining sezilarli darajada ortayotganligidan dalolat beradi. Shuning uchun sanoat korxonalarida innovatsion jarayonlarni tezlashtirish evaziga ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, mahsulot va xizmat turlarini muttasil yangilab borish negizida ularning raqobatbardoshligini ta’minlovchi mexanizmlarni rivojlantirish milliy sanoatni modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishiga aylangan.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimning muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ilmiy bilimlarning integrallashuvi, bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar miqdorining ko‘payib borishidagi muammolar;
- muammolarning kompleks holda ekanligi va ularni texnik, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va boshqa qirralarini hisobga olgan holda o‘rganish zarurligi;
- muammolar yechimi va obyektlarning murakkablashuvi;
- obyektlar o‘rtasida aloqalar sonining o‘sishi;
- o‘zgaruvchan holatlarning dinamikligi;
- resurslarning noyobligi;
- ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlari elementlarining avtomatlashuvi va standartlashtirish darajasining oshib borishi;

- raqobatning, ishlab chiqarishning, kooperatsiyalashuvi standartlashuv va hokazolarning baynalminallashuvi;
- boshqarish va hokazolarda inson omili rolining oshib borishi.

Aytib o‘tilgan belgilar tizimli yondashuv usulini qo‘llashni talab etadi, chunki, bizning nazarimizda uning asosida boshqaruv qarorlari sifatini oshirishga erishiladi. Tizimli yondashuv – obyektni tizim sifatida tahlil etish metodologiyasi hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim ikki qismdan iborat:

- tashqi muhit, u kirish va chiqish tizimidan iborat va tashqi muhit bilan aloqa (dastlab ichiga e’tibor berish)ni ifodalaydi;
- ichki tarkib – boshqarish subyektlarini obyektga ta’sirini tizimga kirish va chiqishni ta’minlaydigan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan komponentlar yig‘indisidan iborat.

- **Funksional yondashuv.** Menejmentga funksional yondashuvning mohiyati ehtiyojlarga, uni qondirish uchun kerak bo‘lgan vazifalar yig‘indisi sifatida qaralishini ifodalaydi. Vazifalar belgilanganidan so‘ng ularni bajarish uchun bir nechta muqobil obyektlar ishlanadi va ularning ichidan hayot davrida foydali samara birligiga sarflanadigan minimum yalpi xarajatlar talab etadigani tanlab olinadi.
- **Predmetli yondashuv.** Hozirgi davrda boshqarishda asosan predmetli yondashuvdan foydalaniladi, uning yordamida mavjud obyekt rivojlantiriladi. Masalan, mavjud bo‘lgan texnik tizim ilmiy-texnika taraqqiyoti tahlili, iste’molchilarning takliflarini marketing tad-qiqotlari yordamida o‘rganish va uning natijalariga asoslangan holda takomillashtiriladi.

Predmetli yondashuvdan foydalangan holda investor va menejerlar kechagi kunga yetib olishga harakat qiladilar va hech qachon jahon darajasiga ko‘tarila olmaydilar. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimning rivojlanishiga predmetli yondashuvdan foydalangan holda menejerlar takomillashtirishning mavjud tizimidan foydalanadilar. Tajribada menejerlar mavjud bo‘lgan ishchi va xodimlarga ish topish muammosi bilan shug‘ullanadilar. Funksional yondashuvda iste’moldan tashqariga “chiqish” talabidan “kirish” imkoniyatiga qarab harakat qiladilar.

Marketing yondashuvi. Marketing yo‘nalishi menejment tizimidagi kichik tizimni boshqarishda iste’molchilarga mo‘ljallangan har qanday vazifa yechimini topishga qaratiladi. Masalan, korxona strategiyasi mavjud bo‘lgan va kelajakda ishlab chiqariladigan mahsulotlar va xizmatlarga bo‘lgan talab va takliflarga asoslanadi. Kelajakda strategiya ehtiyojlarni, bozor segmentatsiyasi strategiyasini funksional va predmetli yondashuvning belgi¬larini ishlab chiqishni taqozo etadi.

4-jadval: Innovatsion jarayonlarda funksional va predmetli yondashuvlarning farqlari

Belgilari	Predmetli yondashuv	Funksional yondashuv
Marketing tadqiqotlarning ko‘lami va sifati	Ahamiyatli emas	Ahamiyatli
Mavjud mahsulotdan bozor ehtiyojlarining darajasi	To‘liq emas	To‘liq
Mahsulotni takomillashtirishda texnik yondashuv	Ishlab chiqarilayotgan modeldagi mahsulotga moslashtirish asosida	Mutlaq yangi mahsulotni ishlab chiqarish asosida
Mahsulotni yangilashni rejalashtirishda taqqoslash asosi	Raqobatchilarning eng yangi namunalari	Bozordagi yangi chiqarilayotgan mahsulotlarga nisbatan yangilarini ishlab chiqish
Mahsulotning yangilik darajasi (patentlashtirish darajasi)	Ishlab chiqarilgan mahsulotni takomillashtirish	Yangi sifatli mahsulotlarni ishlab chiqish
Ishlanmalarda mehnat sig‘imi va yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish	Past	Yuqori
Texnologiyalarning yangilik darajasi	Past	Yuqori
Ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etish	Mavjud tuzilmani takomillashtirish	Yangi korxonani loyihalashtirish
Bozorni o‘zlashtirish darajasi	To‘la o‘zlashtirilgan	Bozor eski yoki yangi bo‘lishi mumkin
Mahsulotni raqobatbardoshligi	Past	Yuqori

Marketing yondashuvidan foydalanilganda menejment mezonini tanlashning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- iste’molchilarning istaklariga mos ravishda obyektning sifatini oshirish (tizimdan chiqish);
- obyektga xizmat ko‘rsatish va boshqa omillar sifatini oshirish hisobiga iste’molchilar resurslarini tejash;
- ko‘lam omilini amalga oshirish, ilmiy-texnika taraqqiyoti, menejment tizimini takomillashtirish asosida ishlab chiqarish obyektlarida resurslarni tejash.

Xo‘jalik yuritishning markaziy-rejalashtirish tizimida ishlab chiqarishga yondashishning ustuvor muqobil yo‘nalishi quyidagilardan iborat bo‘lgan:

- mahsulot tannarxini pasaytirish, ba’zida tannarxni oshirishdan foydali bo‘lgan;
- mahsulot sifatini oshirish, iste’molchining mahsulotga sarflari belgilanmagan va boshqarilmagan.

Zamonaviy bozor sharoitida murosasiz raqobatning tobora kuchayib borishi korxonalarni yuqori darajadagi intellektual salohiyat va samarali texnologiyaga asoslangan innovatsion faoliyatni tashkil etishni talab qilmoqda. Shu boisdan, innovatsion faoliyat bilan bog‘liq masalalarni hal etishda asosiy e’tiborni innovatsiyalarni yaratuvchanlik salohiyati bilan birgalikda, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa mamlakatda innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va ilmiy tadqiqot muassasalari o‘rtasida innovatsion hamkorlikni yaxshilash, ularning moddiy ba’zasini yanada takomillashtirish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, yaratilayotgan innovatsiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha samarali mexanizmni shakllantirish kabi masalalarini hal qilish lozim.

Innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanayotgan korxonalarga – yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlar, xizmatlar, texnologiyalar yoki ishlab chiqarish usullari va boshqa innovatsion faoliyat turlarini ishlab chiqish va joriy etish maqsadida tashkil etilgan innovatsion faoliyat (infratuzilma) subyektiga aytiladi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida innovatsiya insoniyat taraqqiyoti va iqtisodiy o‘sishning asosiy omiliga aylanmoqda. Innovatsiyalarni alohida korxonalar va qolaversa, butun iqtisodiyotning faoliyat ko‘rsatishiga ta’sirini muhim ahamiyati mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchilar tomonidan tadqiq etilgan hamda o‘rganilgan.

“Innovatsion korxonalar” atamasi “innovatsiya” so‘zi mohiyatini ochib berilishi bilan tavsiflanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, bu tushunchaga o‘zbek, rus va xorij adabiyotlarida ham ko‘plab ta’riflar berilgan. “Innovatsion korxona” tushunchasi negizida “innovatsiya” hamda “novatsiya” so‘zlari yotadi.

Bugungi kunda innovatsion korxonalar faoliyatini tashkil etishda xorij tajribasiga tayanib, ilmiy tadqiqotlar natijasidan kelib chiqib amaliyotga joriy qilish muvaffaqiyat keltiradi. Ammo, zamonaviy korxonalarning innovatsion faoliyatini samarali tashkil etish jarayoniga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bularga:

- korxonaning innovatsion salohiyati (korxonaning ilmiy salohiyati, xodimlarning innovatsion biznes sohasidagi bilimlarga egalik darajasi, ilmiy tadqiqotlarga jalb qilingan mutaxassislar soni, korxonaning innovatsion mahsulot yaratishda zamonaviy jihozlar bilan ta’minlangan laboratoriyalarning mavjudligi hamda ulardan foydalanish samaradorligi);
- korxonaning joylashgan hududlar iqtisodiy salohiyati (faoliyat yurituvchi korxonalar soni va faoliyat turlari, ular o‘rtasida raqobat muhitining shakllanganligi, ularning geografiyasidan kelib chiqib innovatsiyalarni o‘zlashtira olish imkoniyatlari);
- korxonaning kadrlar salohiyati (xodimlarning mutaxassisliklari va ilmiy darajalari, aynan innovatsion mahsulot yaratish uchun jalb qilingan xodimlar soni va boshqalar);
- korxonaning investitsion salohiyati (innovatsiyalarni yaratish yoki ularni amaliyotga tatbiq etishdagi xarajatlarni to‘la moliyalashtirish imkoniyatlari, innovatsiyalarni yaratishdagi tadqiqotlari va xodimlarning ish haqi bo‘yicha salohiyati va boshqalar).

Zamonaviy korxonaning innovatsion mahsulotlarni yaratishdagi ilmiy salohiyati unda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot natijalarining sifati va soniga ta’sir etuvchi eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xodimlarning xorijiy tajribalarga egaligi va o‘z sohalari bo‘yicha yetarli bilimga, zamonaviy fan-texnika yutuqlarini tezkorlik bilan o‘zlashtira olish qobiliyatiga egaligi, turli sohalarda mavjud muammolarni aniq ko‘ra bilishi va o‘z bilimlarini ana shu muammolarni hal etishda qo‘llay olishi korxonalarning innovatsion faolligini, yaratilgan innovatsiyalarning ishlab chiqarishga tatbiq etilish imkoniyatini oshiradi.

Innovatsion korxonalar faoliyati bo‘yicha xorij amaliyotiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak bu borada Janubiy Koreyani misol keltirishimiz mumkin. Jumladan, Koreya Respublikasi Xalqaro innovatsion indeksda 12-pog‘onani egallab, hatto Yaponiya, Italiya, Finlyandiya kabi mamlakatlardan ham yuqori o‘rinda turadi. Blumberg Innovatsion Indeksi reytingida esa ilmiy tadqiqotlar, oliy ta’lim tizimi va patent faoliyati bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinni egallaydi. Koreya davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda 3,35 milliondan ortiq kichik va o‘rta innovatsion korxona faoliyat yuritib kelmoqda, bu ro‘yxatga olingan xo‘jalik yurituvchi sub-

yektlarning 99,9 foizini tashkil etadi. O‘z navbatida, aholining ish bilan ta’minlash darajasi esa 87,7 foizni tashkil etadi. Bu innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa yoshlarning startap loyihalarini ishga tushirishda o‘ziga xos qulay shart-sharoitlar yaratilishi tufayli erishilgan natijalardir.

Korxona va tashkilotlardagi innovatsiyalarning iqtisodiy tarkibi avvalombor, doimiy hisoblangan ishlab chiqarish resurslarini erkinlashtirish uchun xizmat qiladigan parametrlarda ifodalanadi. Bunda eng avval korxonalardagi material, mehnat, fond sig‘imlari ko‘rsatkichlari o‘zgaradi. Bu asosiy ko‘rsatkichlar korxonalarning iqtisodiy taraqqiyoti turli bosqichlarida turli darajadagi innovatsiya jarayonlari ta’siri ostida bo‘ladi. Jumladan, ishlab chiqarish jarayonida qo‘l mehnatidan avtomatlashgan mehnatga o‘tish bosqichida ishlab chiqarishning mehnat sig‘imi va fond sig‘imida o‘zgarishlar yuz beradi, ya’ni mehnat sig‘imining qisqarishi fond sig‘imi oshishiga olib keladi.

Korxonalarning innovatsion samaradorligini hisobga olish, tahlil qilish va oshirish uchun ularni ichki va tashqi miqyosda asosli klassifikatsiyalash zarur. Innovatsiyalarning o‘ylab topilgan va ilmiy asoslangan klassifikatsiyasi ularni nafaqat oqilona hisobga olish, balki qo‘llash darajasini ham har tomonlama tahlil etish va shu asosda samarali innovatsiya siyosatini, jumladan, korxonaning innovatsion salohiyati uchun ishlab chiqarish va amalga oshirish borasidagi zarur ma’lumotga ega bo‘lish imkonini beradi.

Korxonalar faoliyatiga fan-texnika taraqqiyotidan farqli ravishda, innovatsiya jarayonini tatbiq etish bosqichi, ya’ni bozorda yangi mahsulot, xizmatning ilk bor paydo bo‘lishi, yangi texnologiyaning loyiha darajasiga yetishi bilan tugallanmaydi. Bu jarayon tatbiq etishdan keyin ham uzilmaydi, u yoyilish darajasiga qarab, yangilik mukammallashtiriladi.

Natijada avval ma’lum bo‘lmagan iste’molchilik xususiyatlari hosil bo‘ladi. Bu esa korxonalar uchun yangi bozorlar va qo‘llanish sohalarini ochadi, o‘z navbatida mazkur mahsulot, texnologiya va xizmatlarni o‘zlari uchun yangi sifatida qabul qiladigan iste’molchilarni topadi.

Korxonalar uchun bu jarayon tadbiq etilgandan keyin ham innovatsion faoliyat uzilmaydi, uning qamrab olish va yoyilish darajasiga qarab, yangilik mukammallashtirilib boriladi va avvalgisiga nisbatan ancha samaraliroq kechadi. Avval ma’lum bo‘lmagan yangi iste’mol xususiyatlari hosil bo‘ladi. Bu esa, uning uchun yangi bozorlar va qo‘llanish sohalarini ochadi, o‘z navbatida, mazkur mahsulot, texnologiya va xizmatlarni o‘zlari uchun ma’qul iste’molchilarni topadi. Shunday qilib, bu jarayon bozor talab qiladigan mahsulotlar, texnologiyalar yoki xizmatlarni yaratishga yo‘naltirilgan va u albatta, amal qiladigan va rivojlanadigan ijtimoiy-iqtisodiy muhitning sur’atlari, maqsadlariga bog‘liq bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda O‘zbekiston korxonalari uchun iqtisodiy holatni baholashga mos keladigan “innovatsiya muhiti” iborasi bo‘lg‘usi innovatsiyalar uchun korxonalar jozibadorligini tavsiflaydi. Innovatsiya muhitini baholashda odatda bir qator parametr yoki belgilar qo‘llaniladi. Mazkur parametrlar korxonaning innovatsiyalarni joriy etish salohiyati va ularni amalga oshirish tavakkalini tavsiflovchi belgilardir. Ularning eng asosiylari quyidagilardir:

- makroiqtisodiy barqarorlik;
- innovatsiya faoliyatining huquqiy asoslari;
- soliq tizimining sifati va soliqqa tortish darajasi;
- bank tizimi va boshqa moliyaviy institutlar holati va ishonchliligi;
- infratuzilmaning rivojlanish darajasi;
- hamkorlar tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilishi;
- davlat boshqaruv tizimi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF5544-son Farmoni, 21.09.2018 y. https://lex.uz/ru/docs/3913188
2. Mirziyoyev Sh.M. Oliy majlisga murojaatnomasi https://uza.uz/uz/posts/zbekistonrespublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020
3. Шумпетер й. Теории экономического развития. / Й. Шумпетер. – М.: Экономика, 1995й.– 540 с.
4. Дандон Э. Инновации: как определять тенденции и извлекать выгоду / Э. Дандон. – М.: Вершина, 2006.– 304 с.
5. Храмцова Н.А., Ахматова А.А. Теоретические основы управления инновационной деятельности предприятия. // Стратегии бизнес / Электронный научно-экономический журнал. –№ 10 (54). –2018. С. – 18-22.
6. Mamanazarov M. Innovatsiyalar – yengil sanoat korxonalarini boshqarishda iqtisodiy barqarorlik va rivojlantirish omili// Birja Ekspert. –Toshkent, 2010. –№11-12. –B. 26-28.
7. Mamasaatov T. “Innovatsiya”, “innovatsion faoliyat” va “innovatsion iqtisodiyot” tushunchalarining nazariy talqini// Iqtisodiyot va ta’lim. –Toshkent, 2012. –№2. –B. 67-68.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI





Kuziyeva Nargiza Ramazanovna
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xusanov Faxriddin Jamoliddin o‘g‘li
TDIU talabasi

Annotatsiya: Maqolada mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy muammolari va tendensiyalarini hisobga olgan holda, raqamli iqtisodiyot sohasida innovatsiyalar samaradorligini baholashning muhim jihatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mamlakatning axborot jamiyatini rivojlantirish strategiyasida ta’minlangan milliy manfaatlar va ustuvor yo‘nalishlari o‘rganilgan bo‘lib, Sanoat 4.0 ning asosiy iqtisodiy salohiyatidan to‘liq foydalanish imkoniyatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiyalar, iqtisodiy samaradorlik, raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, biznes modellar.

Abstract: The article considers the important aspects of evaluating the effectiveness of innovations in the field of digital economy, taking into account the modern problems and trends of the development of the digital economy in the country. Also, the national interests and priorities provided in the information society development strategy of the country were studied, and the possibilities of full use of the main economic potential of Industry 4.0 were highlighted.

Key words: innovation, economic efficiency, digital economy, digital transformation, business models.

Аннотация: В статье рассмотрены важные аспекты оценки эффективности инноваций в сфере цифровой экономики с учетом современных проблем и тенденций развития цифровой экономики в стране. Также были изучены национальные интересы и приоритеты, предусмотренные в стратегии развития информационного общества страны, и выделены возможности полного использования основного экономического потенциала Индустрии 4.0.

Ключевые слова: инновации, экономическая эффективность, цифровая экономика, цифровая трансформация, бизнес-модели.

KIRISH

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida axborot texnologiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Yangi texnologiyalarning jadal rivojlanishi va joriy etilishi jamiyatning doimiy o‘zgaruvchan ehtiyojlarini qondira oladigan ishlab chiqarishni tashkil etishning innovatsion yondashuvlarini shakllantirishga olib keladi. Atrof-muhit sharoitlariga moslashish, o‘z navbatida, mazkur operatsiyalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan vaqtni minimallashtirishni va sanoat va raqamli ishlab chiqarish jarayonlari o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytirishni talab qiladi.

Inqilobiy innovatsiyalar va jarayonlarni jadal raqamlashtirish korxonalarning biznes modellarini faol ravishda o‘zgartirmoqda. Bunday muhitda rivojlanish tendensiyalarini tavsiflash uchun Sanoat 4.0, raqamli iqtisodiyot, aqlli iqtisodiyot, kiber-fizik tizimlar, superkompyuterlar, raqamli transformatsiya, raqamli jamiyat, aqlli shaharlar va boshqalar kabi tushunchalardan foydalaniladi.

Raqamli iqtisodiyot inson kapitali (bilim, ko‘nikma, mehnat resurslari) asosiy omilga aylangan bilim iqtisodiyotiga o‘tuvchi yangi rivojlanish bosqichining boshlanishini ko‘rsatadi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish innovatsion raqamli texnologiyalarni doimiy ravishda joriy etish hamda jamiyat va iqtisodiyotni yangi bosqichga o‘zgartirish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish orqali amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yigirmanchi asrning oxirida D.Bell, M.Kastells, M.Maklyuyen va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda axborot tizimlari asoslarini tashkil etgan axborot texnologiyalari rivojlanishining asosiy nazariy konseptual jihatlari batafsil yoritilgan. Axborot texnologiyalari va iqtisodiyotni raqamlashtirishni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari G. Abdrahmanova, L. Goxberg, M. Kevesh kabi mualliflarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Raqamli iqtisodiyot va Sanoat 4.0 sohasidagi tadqiqotlar dunyoning ko‘pchilik olimlari va amaliyotchilarning e’tiborini tortdi. Bu borada o‘z ilmiy tadqiqotlarini olib borgan olimlar o‘z ishlarida iqtisodiyotni raqamlashtirish konsepsiyasining turli jihatlarini, jumladan, ishlab chiqarish jarayonlari, mantiqiy zanjirlari, mamlakatda raqamli iqtisodiyotni joriy etish imkoniyatlari va muammolarini o‘rganib, ularni bartaraf etish borasida o‘z ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarini keltirib o‘tganlar.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli iqtisodiyotni amaliyotga tadbiq etish, uning tarkibiy qismlarini aniqlash, mamlakatni iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Tashkilotlarning strategik boshqaruvini yangi texnologiyalar, resurslar va biznesni rivojlantirish konsepsiyalariga ko‘ra, qisqa muddatlarda moslashtirish kabi masalalarni hal etish muhim ahamiyatga ega masalalardan bo‘lib qolmoqda.

Innovatsiyalar nazariyasini ishlab chiqqan iqtisodchi-olim J.Shumpeter innovatsion jarayondagi roliga ko‘ra xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ikki turini ajratib ko‘rsatdi. Bunda innovatorlar o‘zgarishlarni boshlaydilar va yangi mahsulotlar va jarayonlarni ishlab chiqishda rahbarlik qiladilar, taqlidchilar esa innovatsiyalarni tarqatish va ularning sonining ko‘payishi uchun javobgar bo‘ladilar.

Iqtisodchi V.N. Lapinning fikricha, yangi innovatsiyalarni yaratish, ishlab chiqish va ulardan foydalanish innovatsiyalarga bo‘lgan talabni oshirishga xizmat qiladi. Iqtisodchi I.V. Afonin esa ishlab chiqarish jarayonidagi muvaffaqiyatli innovatsiyalar tasniflash va foydalanishdagi innovatsiyalardan farq qiladi, deb ta’kidlaydi.

Iqtisodchi V.G. Medinskiy innovatsiyani texnik, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar doirasida yangi shakldagi tovarlar (xizmatlar)ni yaratish jarayoni sifatida belgilaydi. Iqtisodchi olim F.Niksonning fikricha, innovatsiya bozorlarda iste’mol sharoitlarini yaxshilaydigan ishlab chiqarish va tijorat tashabbuslari doirasida yaratilgan va qo‘llaniladigan texnik texnologiyalardir.

V.A. Chernov innoavatsiyalar bu - ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarida, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va ishlab chiqarishni boshqarishdagi yangi yondashuv deb ta’riflaydi.

Iqtisodchi V.M. Djumayev innovatsion mahsulotlarni yaratish va bozorda sotish uchun korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarish zarur deb hisoblaydi.

Innovatsiyalar, o‘z navbatida, inson intellektual kapitalini oshirish va yangi iste’mol bozorlari uchun yangi mahsulotlarni o‘zlashtirishga qaratilgan mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish bo‘yicha innovatsion jarayonlarning natijasi bo‘lib, innovatsion investitsiyalarning samaradorligini ifodalaydi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada guruhlash, tizimli qiyosiy tahlil va tizimli yondoshuv, ekspert va taqqoslama tahlil, bashoratlash, ma’lumotlarni statistik ishlanmasi metodlari va boshqa zamonaviy usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalarni Sanoat 4.0, deb nomlanuvchi yangi raqamli transformatsiyaga moslashtirish nafaqat soha yetakchilari, balki hozirgi paytda va kelajakda barqaror rivojlanishga intilayotgan barcha iqtisodiy ishtirokchilar uchun muhim vazifaga aylanib bormoqda. Sanoat 3.0 da ishlab chiqarish va boshqaruvning alohida bosqichlarini qisman avtomatlashtirishga qaratilgan bo‘lsa, Sanoat 4.0 butun qiymat zanjirini to‘liq raqamlashtirish va integratsiyalashuvini talab qiladi, bunda raqamli mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilish, jismoniy va virtual aktivlarni ishga tushirish, barcha jarayonlar va operatsiyalarni transformatsiya va integratsiya qilish, hamkorlikni rivojlantirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni optimallashtirish jarayonlari nazarda tutiladi.

Mamlakatda milliy manfaatlar va ustuvorliklarga erishishga qaratilgan axborot texnologiyalarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutuvchi axborot jamiyatini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muhim ekanligini qayd etish mumkin (1-rasm).



1-rasm: Mamlakatning axborot jamiyatini rivojlantirish strategiyasida ta'minlangan milliy manfaatlar va ustuvor yo'nalishlar

Bugungi kunda axborotni taqdim etishning raqamli shakli quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning barcha jabhalari rivojlanishining muhim katalizatori;
- ishlab chiqarish taraqqiyotining asosiy omili;
- aholi turmush sifatini oshirishning muhim vositasi;
- ishchilarning raqobatbardoshligini oshirish manbai (korxonalar, hududlar, shtatlar);
- mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy rag'batlaridan biri;
- milliy suverenitet va xavfsizlikni ta'minlashning muhim tarkibiy qismi.

Innovatsiyalarga bo'lgan munosabatga qarab uchta toifaga ajratiladi:

1. **Innovatorlar (2,5%)** - ular yangi texnologiyalar, uskunalar, xodimlarni boshqarish usullari va mahsulotni ilgari surish uchun zarur moliyaviy resurslarga ega bo'lgan holda innovatsiyalarni birinchi bo'lib qabul qilishga, tavakkal qilishga va ularni amalga oshirishga tayyordirlar.
2. **Izdoshlar (13,5%)** yoki erta qabul qiluvchilar - bular innovatsiyalar sohasida fikrlari hisobga olinadigan, ularning tajribasi va qarorlari boshqalarni o'zgarishlar haqida o'ylashga va harakatni rag'batlantirishga ilhomlantiradilar.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

3. **Asosiy ulushli toifa (34%)** – ularga innovatsiyalarning ahamiyatini tushunish uchun ko‘proq vaqt talab etiladi. Ular innovatsiyalarni joriy etish jarayoniga faqat avvalgi toifadagilarning (innovatorlar va izdoshlarning) muvaffaqiyatli tajribasini ko‘rgandan keyingina qo‘shiladilar.
4. **Skeptiklar (34%)** – ular o‘zgarishlarga unchalik tayyor emaslar va korxonaning bozorda omon qolishi uchun muhim ekanligi ayon bo‘lgandagina ularni tan olishadi.
5. **Qolganlar (16%)** – ular konservativ va innovatsiyalarni qabul qilishni istamaydilar, ko‘pincha an’anaviy yondashuvlar va mahsulotlarni ularning asosiy ustunligi deb yanglishadilar.

1-jadval: Sanoat 3.0 innovatorlari va Sanoat 4.0 raqamli yetakchilarining qiyosiy tahlili

Variantlar	Sanoat 3.0	Sanoat 4.0
O‘zaro ta’sirni tashkil etishning dominant shakli	Global transmilliy korporatsiyalar	Boshqa narsalar qatorida mijozlar uchun yechimlar ekotizimi qurilgan texnologik platforma
Qiymat zanjiri	Global optimallashtirilgan qo‘shimcha qiymat tizimi	Qiymat tarmog‘i
Iyerarxiya darajalari	Ish mas’uliyatini aniq taqsimlash bilan ustunlik qiladigan vertikal	Funksiyalarni moslashuvchan mahkamlash bilan ustunlik qiladigan gorizontal
Tashkiliy tuzilmaning turi	Matritsali tashkiliy tuzilma	Jarayonlarga tez moslashishga qodir
Kompaniya bo‘linmalari	Bo‘limlar/boshqarmalar: - muhandislik va ishlab chiqarish boshqarmasi, - ta’minot zanjirini boshqarish bo‘limi, - xaridlar bo‘limi, - savdo bo‘limi, - marketing bo‘limi	Muayyan muammolarni hal qilish uchun birlashadigan va tezda moslashadigan ichki va tashqi ishtirokchilar guruhlari
Operatsion faoliyatni tashkil etish	Qarorlar qabul qilish va o‘zaro hamkorlikni tashkil qilish usullarini qo‘llash	Real vaqt rejimiga asoslangan operatsion ekotizim
Ishlab chiqarishni tashkil etish usullari	Tejamkor ishlab chiqarish usullari	Yalang‘och va moslashuvchan ishlab chiqarish usullari
Ta’minot faoliyatini tashkil etish	Maqbul yechimlar qabul qilish va alohida jarayonlarni optimallashtirish	Tashqi tarmoqlar bilan integratsiya jarayonlarini jadallashtirilganligi
IT infratuzilmasi	- ta’minot zanjirini integratsiyalashuvi - prognozli texnik xizmat ko‘rsatish	- standart biznes-jarayonlarni raqamlashtirish (biznes-rejalashtirish) - AR va/yoki VR texnologiyalarining mavjudligi
Mijozlar bilan o‘zaro munosabatlar	- savdo va marketing bo‘limi	- savdo va marketing bo‘limi - platforma hamkorlari - ma’lumotlar provayderlari
Savdo kanallari	- global optimallashtirilgan tarqatish tarmog‘i	- savdo (barcha onlayn va oflayn kanallarni birlashtirish
Mijozlar bilan ishlashga yondashuv	Mijozlarning ehtiyojlariga moslashish	Moslashtirilgan tizimning mavjudligi
Hamkorlar bilan ishlash	Global optimallashtirilgan mehnat taqsimoti tizimi shartlariga moslashish	O‘zaro integratsiya shartlarining mavjudligi
Raqobat muhiti	Harajatlarni optimallashtirish	Tezlik, moslashuvchanlik, mijozlarni moslashtirish va samaradorlik
Axborot bilan ishlash tamoyillari	Bilim va inson kapitalini boshqarish tizimi	Sun’iy intellekt va katta ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyalaridan foydalangan holda o‘z-o‘zini o‘rganish tizimi
Korporativ madaniyat	An’anaviy	Raqamli
Kadrlar fazilatlari	Barqarorlik, tajriba, motivatsiya	Salohiyat, qiziqish, motivatsiya, va moslashuvchanlik
Malaka oshirish	Kadrlar tayyorlashning standart dasturlari	Shaxsiy o‘quv dasturlari, uzluksiz o‘qitish

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Ko‘pgina korxonalar raqamlashtirish va avtomatlashtirish bo‘yicha alohida loyihalarni amalga oshirishda yagona ekotizimini yaratmaydilar, bu esa ularga Sanoat 4.0 ning asosiy iqtisodiy salohiyatidan to‘liq foydalanish imkoniyatlarini bermaydi. Ushbu salohiyatdan to‘liq foydalanish esa samarali korxona qarorlarini qabul qilish va moslashish jarayonlarini tezlashtirish, jumladan dizayn, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, sotish va marketing samaradorligini oshirish, shuningdek, asosiy va ichki bo‘linmalarning biznes modellarini o‘zgartirish qobiliyatiga ega qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sanoat 4.0da yetakchilar mavqeini egallashni maqsad qilgan korxonalar tashkiliy tuzilmasi va korporativ madaniyatini o‘zgartirishga jiddiy ehtiyoj sezilmoqda. Barqaror raqobatbardosh muhitini rivojlantirishda korxonalarni Sanoat 4.0 – yangi raqamli transformatsiyaga moslashtirish, o‘z navbatida qisqa muddatlarda optimal qarorlar qabul qilish, hamkorlik va moslashuvchan aloqalar muhitida innovatsiyalarni tadbiq eish uchun yetarli resurslarga ega bo‘lgan tarmoqlar faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida innovatsiyalarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan korxona faoliyatining barcha asosiy jihatlarini o‘zgartirishga kompleks yondashuviga, korxonaning barcha asosiy ekotizimlari quriladigan texnologik platformani yaratishga bog‘liqdir. Bu jarayonlarda korxonalar duch keladigan muammolar va ularni hal qilish imkoniyatlari kelgusi amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning bosh dolzarb masalalaridan bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Acs Z., Audretsch D. Innovation in Large and Small Firms: An Empirical Analysis // American Economic Review, 1988, Vol. 78, No 4, pp. 678-690.;
2. Adele Oosthuizen, Jurie Van Vuuren, Melodi Botha. Compliance or management: The benefits that small business owners gain from frequently sourcing accounting services. The Southern African Journal of Entrepreneurship and Small Business Management. Vol 12, No 1 DOI: https://doi.org/10.4102/sajesbm. v 1 2i1.330;
3. Amina Omrane (University of Sfax); Entrepreneurs social capital and access to external resources: The effects of social skills; International Journal of Entrepreneurship and Small Business 24(3):357, January 2015
4. Isom C.J., David R.J. Innovation in Small Businesses: Drivers of Change and Value Use [Электронный ресурс] // U.S. Small Business Administration.URL: https://www.sba.gov/sites/default/files/rs342tot_0.pdf;
5. Jeffrey Michael Campbell (Universite of South Carolina); Joohyung Park (Universite of South Carolina); Internal and external resources of competitive advantage for small business success: Validation across family ownership; International Journal of Entrepreneurship and Small Business 27(4):505, January 2016 DOI: 10.1504/IJESB.2016.075016
6. Буров В.Ю Малое предпринимательство в пространственном развитии региона. Вестник Бурятского Государственного Университета. Серия. Экономика и право. №2 (1) 2015.С 78-84
7. Василенко И.В. Цифровая экономика: Концепции и реальность Инновационныекластери и цифравой экономике; теория и практика, результаты научно практической конфеенции с международным участием./ под.пед.д-ра экономики, проф. А.Б.Бабкина-СПб: Издательство Политехнического университета. 2017, с.147-156
8. Юн М. А. Инвестиции как фактор влияния на развитие малого и среднего бизнеса / М. А. Юн // Международный научно-исследовательский журнал. – 2016. – № 5 (47) Часть 1. – С. 195–199. – URL: https://research-journal.org/economical/investicii-kak-faktor-vliyaniya-na-razvitie-malogo-i-srednego-biznesa/doi: 10.18454/IRJ.2016.47.254;

TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI

O. N. Djurayev
PhD, Qarshi davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: XXI asrda jahon mamlakatlari iqtisodiyotining integratsiyalashuvi va liberallashuvi jarayonida mehnat migratsiyasining har bir mamlakat ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, mehnat resurslariga boy va xalqaro mehnat migratsiyasining asosiy ishtirokchilaridan biri bo‘lgan O‘zbekiston uchun mehnat migratsiyasi masalalari muhimdir. Shu sababli, maqolada mamlakatimizda mehnat migratsiyasining kelib chiqish sabablari, uning o‘ziga xos xususiyatlari, hozirgi holati va istiqbollari o‘zining batafsil bayonini topgan.

Kalit so‘zlar: jahon iqtisodiyoti, globallashuv, halqaro mehnat bozori, ishsizlik, oqilona bandlik, tashqi mehnat migratsiyasi, demografik holat, mehnat sharoitlari.

Abstract: In the process of integration and liberalization of the economy of world countries in the 21st century, the importance of labor migration in the socio-economic development of each country is increasing day by day. The issues of labor migration are especially important for Uzbekistan, which is rich in labor resources and one of the main participants in international labor migration. Therefore, in the article, the causes of labor migration in our country, its characteristics, current situation and prospects are described in detail.

Key words: world economy, globalization, international labor market, unemployment, reasonable employment, foreign labor migration, demographic situation, working conditions.

Аннотация: В процессе интеграции и либерализации экономики стран мира в XXI веке значение трудовой миграции в социально-экономическом развитии каждой страны возрастает с каждым днем. Вопросы трудовой миграции особенно важны для Узбекистана, который богат трудовыми ресурсами и является одним из основных участников международной трудовой миграции. Поэтому в статье подробно описаны причины трудовой миграции в нашей стране, ее особенности, текущая ситуация и перспективы.

Ключевые слова: мировая экономика, глобализация, международный рынок труда, безработица, разумная занятость, внешняя трудовая миграция, демографическая ситуация, условия труда.

KIRISH (INTRODUCTION)

Mehnat migratsiyasi bugungi kunga kelib jahon mamlakatlari iqtisodiyoti rivojlanishining muhim fenomeniga aylandi. Jahon xo‘jaligi rivojlanib, mamlakatlararo integratsion aloqalar kuchayib borishi bilan birga tashqt mehnat migratsiyasi ham tobora kuchayib bormoqda va ushbu jarayon kelajakda yanada tez sur’atlarda davom etadi. Rivojlangan mamlakatlar va iqtisodiy qoloq mamlakatlar o‘rtasidagi farqlarning uzluksiz kuchayib borayotgani ham ushbu jarayonlarni jadallashtirishga kuchli ta’sir ko‘rsatayotganligi tabiiy. Mehnat migratsiyasi kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi bosqichida migratsiyaning o‘ziga hos munosib ish va yuqori daromad topish maqsadida amalga oshirilgan alohida turi bo‘lib, iqtisodiyoti og‘ir ahvolda bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda ishsizlik va past ish haqinig jiddiy muammolarini hal etishning asosiy yechimlaridan biriga aylandi.

Mehnat migratsiyasi mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimizda yuzaga kelgan iqtisodiy tanglik va ijtimoiy beqarorlik xavf-xatarlaridan saqlanishning asosiy vositasi bo‘ldi. Chunki aynan mehnat migratsiyasi ishchi kuchi resurslariga boy mamlakatimiz uchun iqtisodiy muammolarni va ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatish imkoniyatini yaratdi. Yuzaga kelgan ushbu imkoniyatdan foydalanmaslik endi mustaqillikka erishgan yosh davlat iqtisodiyoti taqdirini xavf ostida qoldirish bilan barobar edi. Mehnat migrantlarini xorijga jo‘natish natijasida mamlakat ichida ishsizlikdarajasining qisqarishidan va mamlakatga xorijiy valyuta o‘tkazmalari kelib

tushishidan manfaatdor edi. Davlat mehnat migratsiyasi siyosatini yuritishda, uni tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqishda mamlakat ichidagi va jahon xo‘jaligidagi vaziyatni, ushbu muhim sohada yuz berayotgan keskin o‘zgarishlarni hisobga olgan holda ish tutadi. O‘zbekistonda harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan islohotlar tashqi mehnat migratsiyasi uchun yangi vaziyat yuzaga kelishini ta’minlab berdi. Ayniqsa, aholi jon boshiga YAIM hajmini keskin oshirish, mamlakatda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar davlat mehnat migratsiyasi siyosatining keskin o‘zgartirish uchun real imkoniyat va zaruriy ehtiyoj tug‘dirdi. Bularning barchasi mehnat migratsiyasiga nisbatan davlat siyosatini yangi asoslarda takomillashtirish, aniqrog‘i tubdan o‘zgartirish zaruratini keltirib chiqardi. Bizningcha, davlatning tashqi mehnat migratsiyasiga nisbatan yangicha siyosati o‘zida uchta muhim narsani aks ettirmog‘i lozim. Bu,

birinchidan, amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatda yuzaga kelgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, yangi imkoniyatlar;

ikkinchidan, Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni tez sur’atlir bilan rivojlantirish bo‘yicha belgilangan strategik vazifalar;

uchinchidan, tashqi mehnat migratsiyasida global darajada jahon xo‘jaligida kechayotgan murakkab jarayonlar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

XX asrning oxiri XXI boshlarida jahon xo‘jaligi miqyosida kechayotgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan biri – bu tobora avj olib borayotgan mehnat migratsiyasi hisoblanadi. Mehnat migratsiyasi faqat mehnat migrantlarining turmush tarzi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, bandligi, daromadlari, psixologiyasi, madaniyati, dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatibgina qolmaydi. U ishchi kuchi eksporti hamda importi bilan shug‘ullanuvchi mamlakatlarning ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli mehnat migratsiyasining mohiyati va mazmuni, ishchi kuchi migratsiyasiga ta’sir etuvchi omillar va o‘z navbatida, uning mamlakatlar iqtisodiyotiga ta’siri, mehnat migratsiyasining ijobiy jihatlari va salbiy oqibatlari, ishsizlik muammolari va ularni bartaraf etish yo‘llari, mehnat migratsiyasining sabab va oqibatlari, mehnat resurslarining shakllanishi, jahonda yuz berayotgan mehnat migratsiyasi jarayonlari, mehnat migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solish usullari va vositalarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar Keyns J.M. [22], Pigu A. [24], Kastles., Miller M.J. [21], Dansegiyer R.M. [23], Erenberg R.D., Smit R.S. [20], Ionsev V.A. [6], Kartashov S.A., Odegov Yu.G., Kokorev I.A. [7], Falk M., Vorter M. [25] larning asarlarida o‘rganilgan.

O‘zbekistonda ishsizlikning yuzaga kelishi va keskin tus olishining sabablari, mehnat migratsiyasi muammolarini bartaraf etish yo‘llari hamda mamlakatimizda mehnat migratsiyaini samarali tashkil etishga oid tadqiqotlar Abduraxmonov Q.X. [1], Ubaydullayeva R.A., Ata-Mirzayev O.B., Umarova N.O. [11], Maksakova L.P. [8], Umurzakov B.X. [12], Artikova D.A. [2], Xolmo‘minov Sh.R., Xomitov K.Z., Bobanazarova J.X., Abduramanov X.X. [19] larning asarlarida o‘rganilgan.

Tahliliy yondashuv natijalari shuni ko‘rsatdiki, xalqaro mehnat migratsiyasi juda ko‘p ichki va tashqi omillarning kuchli ta’siri ostida o‘zgaruvchan murakkab iqtisodiy jarayondir. Vaziyatga qarab, u muayyan vaqtlarda kuchayib-pasayish tendensiyasiga ega bo‘lib, ma’lum hudud, mamlakat, mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sodir bo‘layotgan jarayonlarga mos ravishda o‘zining ijobiy, salbiy, joiz bo‘lsa, siyosiy ta’sirini o‘tkazish xususiyatiga ega. Mamlakatda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqqan holda, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Lekin, shunga qaramay O‘zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasiga oid davlat siyosatini yanada takomillashtirish zarurati hamon saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Tadqiqot mehnat migratsiyasidan har ikkala tomonning (ishchi kuchini eksport qiluvchi va import qiluvchi) ko‘zlagan maqsadi va unga erishish yo‘llari, ushbu jarayonning ishtirokchi mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta’sirini tahlil qilishni nazarda tutadi. Unda davlatning mehnat migratsiyasi siyosatining shaklanishida bevosita ta’sir ko‘rsatayogan omillarning tahliliga asosiy e’tibor qaratildi. Tadqiqot mehnat migratsiyasiga oid nazariy va amaliy ilmiy izlanishlar natijalariga, shuningdek mavzuga daxldor meyoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida mehnat migratsiyasining holati va rivojlanish istiqbollarini o‘rganishda dialektik va tizimli yondashuv, guruhlash, mantiqiy va taqqoslama tahlil, induksiya-deduksiya, sotsiologik tadqiqot, qiyosiy va omilli tahlil, statistik va dinamik yondashuv usullaridan foydalanildi. Amalga oshirilgan tadqiqotdan mehnat migratsiyasini tartibga solishning yangi takomillashgan strategiyasini shakllantirish va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta’sirini oshirishga erishish maqsad qilib qo‘yilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan davrda qishloq xo‘jaligi milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lib, unda jami iqtisodiyotda band bo‘lgan aholining 1/3 qismi ijtimoiy foydali mehnat bilan band edi, hozir esa u 26,2 %gacha tushdi [18]. Shu davr mobaynida qishloq aholisi tarkibida mehnat resurslari 1,6 martaga ko‘paydi. Natijada qishloq joylarida mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi va unga bo‘lgan talab o‘rtasidagi nomutanosiblik yanada kuchaydi. Umuman qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan aholi sonining tobora qisqarib borishi hamda jami iqtisodiyotda band aholi sonidagi ulushining pasayishi jahon xo‘jaligi tarkibida ro‘y berayotgan global tendensiyalarga xos bo‘lib, ushbu jarayonlar kelgusida yanada jadallashib boradi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan G‘arb davlatlarida ushbu ko‘rsatkich 3-5 % atrofida ekanligi, Germaniyada 2 %dan ham pastligi, Niderlandiyada bor-yo‘g‘i 1 % ekanligi fikrimizning yorqin dalilidir. Bu shuni ko‘rsatadiki, g‘arb dehqoni 20-33 kishini, nemis dehqoni 50 kishini, niderland dehqoni 70 kishini, o‘zbek dehqoni esa atigi 4 kishini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlaydi. Bunday holatning asosiy sababi mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining tarkibida ekstensiv omillarning ulushi yuqori, tarmoq xodimlari mehnatining unumdorligi esa juda past [3].

Mamlakatda izchil amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich qishloq xo‘jaligini taraqqiyotning dinamik ravon yo‘liga olib chiqadi. Kelajakda u O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining shunchaki tarkibiy qismi emas, balki uni yuksaltirishning mustahkam poydevoriga, yetakchi tarmog‘iga aylanadi. Tarmoqda zamonaviy texnika bilan qurollanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish keng ko‘lamda amalga oshiriladi, mehnat unumdorligi oshib, uning iqtisodiyotda jami bandlarga nisbatan ulushi 5-6 %gacha tushishi mumkin. Bu holat qishloq xo‘jaligida band bo‘lganlar sonining keskin qisqarishini bildiradi va mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi oshadi. Natijada mehnat bozoridagi ishchi kuchiga talab va taklif o‘rtasidagi nisbat bo‘yicha nomutanosiblik yanada kuchayib boradi.

Yangi O‘zbekiston va tashqi mehnat migratsiyasi siyosatini tubdan o‘zgartirish uchun paydo bo‘lgan yangi imkoniyatlar

Hozirgi iqtisodiyotning innovatsion sharoitida mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq masalalarga hukumat miqyosida katta e’tibor qaratmoqda. 2020-yilning sentyabr oyida mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [13] qarorning imzolanishi fikrimizning yorqin dalilidir. Ushbu qaror, xalq farovonligini oshirish, davlatimizning xalqaro nufuzini ko‘tarish, mamlakatga yaxshi samara bermayotgan mehnat migratsiyasi illat va kamchiliklaridan xolos etishga qaratilgan. 2021-yil 1-yanvardan boshlab tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasini yo‘lga qo‘yish va unga asosan xorijga chiqib ketayotgan shaxslarni ishga yuborishdan oldin majburiy tartibda kasb-hunarga o‘qitish va tilni o‘rgatish tizimining joriy etilishi – O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi muammosini hal etishning asosiy markaziga aylandi. Qarorda mamlakatda mehnat migratsiyasiga oid muammolarni hal etishning aniq mexanizmlari ifodalangan va uni amalga oshirish yo‘llari belgilangan.

2020-yilning avgust oyida qabul qilingan “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Qarorida [9] O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq muammolarni samarali yechish mexanizmlarini yaratish va joriy qilish nazarda tutilgan.

Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan tashqi mehnat migratsiya siyosatini takomillashtirish va tartibga solish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar zamirida xorijda ishlayotganlarga nisbatan munosabat o‘zgarib, mehnat migrantlari bilan muloqot o‘rnatildi, ularning muammo va ehtiyojlarini o‘rganish hamda hal qilish bo‘yicha yangicha tizimda ishlash joriy qilindi. Jumladan, tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan tashqi mehnat migratsiyasida faoliyat olib borayotgan O‘zbekiston fuqorolariga amaliy yordam berish maqsadida xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo‘llab quvvatlash hamda huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasi tashkil etildi.

Bugungi kunda ushbu jamg‘arma mablag‘lari hisobidan mingdan ortiq fuqarolarga yordam ko‘rsatilib, xorijda qiyin ahvolda qolgan mehnat migrantlarini vatanga qaytarish, ularga yuridik yordam berish, jumladan, ish beruvchilar tomonidan to‘lanmagan ish haqlarini undirish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilayotgani diqqatga sazovor. Jumladan, ushbu ishlar zamirida mehnat migrantlarining hayoti va sog‘lig‘ini sug‘urtalash, ularning oila a’zolari uchun ipoteka kreditlarini ajratish, vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga ketayotgan fuqarolarning transport xarajatlarini subsidiyalash, shuningdek, xorijda ishlamoqchi bo‘lgan shaxslarni talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘qitish, qaytib kelgan mehnat migrantlarining bandligini ta’minlash maqsadida band bo‘lmagan yoshlar va ayollarning kasbga o‘qitish xarajatlarini qoplash uchun ish beruvchilarga subsidiya taqdim etish bo‘yicha keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirildi. Ayniqsa, ishsiz aholini kasbga tayyorlashda Koreya xalqaro hamkorlik agentigi (KOICA) tajribasi asosida “Ishga marhamat” monomarkazi hamda uning hududiy filiallari yordamida tashqi mehnat migrantlarini xorijiy tillarga, kasbga va xorijiy mamlakatlar qonunchiligini o‘rgatish bo‘yicha amaliy tizim yaratildi.

Nazarimizda, O‘zbekistonda mehnat migratsiyasiga oid murakkab va o‘ta dolzarb muammoni yechishda uning faqat milliy iqtisodiyotga keltirayotgan qo‘shimcha daromadlarining o‘zi bilan cheklanib qolish unchalik to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bu borada davlat siyosatini shakllantirishda bir qator muhim jihatlar hisobga olinishi shart. Chunki mehnat migratsiyasi tobora globallashib borayotgan jahon xo‘jaligida kechayotgan va xalqaro mehnat taqsimoti bilan uzviy bog‘liq murakkab va o‘ta o‘zgaruvchan jarayon. Bundan tashqari, ishchi kuchi resurslarini xorijga eksport qilayotgan O‘zbekiston uchun uning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari, ushbu oqibatlarning mamlakat taraqqiyotiga ta’siri nuqtayi nazaridan ijobiy hamda salbiy jihatlari mavjud. Ushbu oqibatlar turli omillarning kuchli ta’siri ostida u yoki bu tomonga qarab o‘zgarishi ham mumkin. Unga nisbatan davlat siyosatini shakllantirishda ishchi kuchi eksportidan olinayotgan pirovard samarani baholashda uzoq kelajak nuqtayi nazaridan yondashish kerak. Bu yerda uzoqni ko‘zlab bir qator ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda kompleks yondashish maqsadga muvofiq. Bizningcha, bular tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tobora globallashib borayotgan jahon xo‘jaligida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va ularning O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi ko‘lami va ko‘rsatkichlariga ta’siri;
- mehnat migratsiyasini boshqarish va tartibga solish bo‘yicha xalqaro me’yoriy-huquqiy hujjatlarning talablari va ularga rioya qilish zarurati;
- mehnat migratsiyasining O‘zbekiston xalqaro imidjiga, obro‘y etiboriga, oriiy mamlakatlarning u bilan hamkorlik qilishga qiziqishning kuchayishiga ta’siri;
- mehnat migratsiyasining yaqin va uzoq kelajakda, uzoq kelajakka ustunlik bergan holda, O‘zbekiston milliy iqtisodiyotiga, uning asosiy makroiqtisodiy ko‘satkichlariga ta’siri;
- mehnat migratsiyasiningO‘zbekiston ijtimoiy taraqqiyotiga ta’siri;
- mehnat migratsiyasining mehnat migrantlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga, madaniyatiga, dunyoqarashiga, kasbiy malakasiga, oilaviy hayotiga, kealajagiga, daromadlariga, bandligiga va shaxsiy hayotining boshqa muhim jihatlariga ta’siri.

Yuqorida keltirilgan jihatlarning har birini baholash va ularni integral ko‘rsatkich sifatida yagona maxrajga keltirish alohida mustaqil tadqiqot predmeti.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Mamlakatda izchil amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ta’siri ostida Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat keskin o‘zgardi, davlatning tashqi mehnat migratsiyasi siyosatida tub o‘zgartirishlar kiritishga ham muhim zarurat, ham real imkoniyat paydo bo‘ldi. Muhtaram Prezidentimiz ilgari so‘rgan O‘zbekistonni yanada rivojlantirish, uni rivojlangan 50 ta mamlakat qatoridan o‘rin olishiga erishish, aholining turmush farovonligini yuksaltirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlik darajasini oshirish, ta’lim sifatini takomillashtirish, kambag‘allikka barham berish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish borasidagi tashabbuslarining hayotga tadbiq etish mehnat migratsiyasi masalalari bilan uzviy bog‘liq. O‘z navbatida, ushbu tashabbuslarning hayotga tadbiq etilishi muhojirlikda og‘ir sharoitlarda mehnat qilayotgan fuqorolarimizni ona yurtiga qaytishi uchun qulay sharoit, munosib ish haqi bilan ta’minlash uchun sharoit yaratish imkonini beradi. Buning uchun avvalo mehnat migrantlari muammosi O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim, bugungi kun va kelajak nuqtayi nazaridan o‘z yechimini kutayotgan markaziy masalalaridan biri sifatida qaralmog‘i shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

1. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Qlandar Abdurahmonov. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “FAN” nashriyot davlat korxonasi, 2019. – 592 b.
2. Артыкова Д.А. Проблемы достижения равновесия на рынке труда в условиях углубления рыночных реформ. – Т.: ТГЭУ. 2006.
3. BMT Bosh Assambleyasi: Mehnat migrantlari va ularning oilalari huquqlarini himoya qilish bo‘yicha Xalqaro konvensiya. https://www.ohchr.org/RU/ProfessionalInterest/Pages/CMW.aspx
4. Более 30 млн. россиян хотят эмигрировать. Интернет ресурс: https://www.dw.com/ru/bolee-30-mln-rossijan-hotjat-jemigrirovat/a-58310364 .
5. Доклад о миграции в мире 2020. https://www.google.com/
6. Ионцев В.А. Международная миграция населения: теория и история изучения. – М., 2005.
7. Карташов С.А., Одегов Ю.Г., Кокорев И.А. Трудоустройство: поиск работы. Учебное пособие / Под. ред. Ю.Г.Одегова. – М.: Издательство “Экзамен”, 2002. – 348 с.
8. Максакова Л.П. Узбекистан: совершенствование управления трудовой миграции в аспектах принимающих стран // V Уральский демографической форум. Россия 2014.

9. Mirziyoyev Sh.M. “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkolrlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Qarori. https://www.google.com/
10. Народное хозяйство СССР в 1989. Статистический ежегодник. – М.: “Финансы и статистика”, 1990. – С. 79.
11. Ubaydullayeva R.A., Ata-Mirzayev O.B., Umarova N.O. O‘zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi (ilmiy o‘quv qo‘llanma). – T.: Universitet, 2006.
12. Умурзаков Б.Х. Организационно-правовые основы регулирования трудовой миграции в Узбекистане. Международный отношения. №2, 2008.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentyabrdagi “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4829-sonli qarori. https://lex.uz/docs/4997972
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5052-sonli farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-mayda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3001-sonli qarori.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. https://uza.uz/oz/politics/zbekiston respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF 5953-son “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni.
18. O‘zbekistonda mehnat va bandlik. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. – T.: 2020.
19. Xolmo‘minov Sh.R., Xomitov K.Z., Arabov N.U., Bobanazarova J.X., Abduramanov X.X., Saidov N.R. Qishloq aholisini ish bilan ta’minlashning strategik yo‘nalishlari. Monografiya. – Toshkent, “Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi”, 2020. – 278 b.
20. Эренберг Р.Д., Смит Р.С. Современная экономика труда. Теория и государственная политика / Пер. с англ. – М., 1996, 34-б.
21. Castles S., Miller M.J. The Age of Migration. Houndmills; Basingstoke; Hampshire; London: MacMillan Press Ltd., 2003.
22. Keynes J.M. The general theory of employment, interest, and money. – Springer, 2018. – 404 p.
23. Dancygier R.M. Immigration and conflict in Europe / R.M. Dancygier. – New York: Cambridge University Press, 2010.
24. Pigou A.C. Theory of unemployment. – Routledge, 2013. – 348 p.
25. Falk M., Biagi F. The impact of ICT and e-commerce on employment in Europe //Journal of Policy Modeling. – 2017. – V. 39. – №1. – P. 1-18.
26. Balsmeier, B., Woerter, M. Is this time different? How digitalization influences job creation and destruction. Research Policy, 48(8), 2020.
27. https://review.uz/oz/post/povshaya-konkurentosposobnost-nashix-grajdan

RAQAMLI IQTISODIYOTDA SANOAT TARMOG‘INING DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLANISHINI BAHOLASH



Otaboyeva Dildora
Toshkent davlat iktisodiyot universiteti Ctatistika va ekonometrika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida sanoat tarmog‘ining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, sanoat o‘zining qo‘shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojini qondirishdagi o‘rni va yuqori darajaga ega ishlab chiqarish lokomotivi bilan milliy iqtisodiyotning barqaror sur’atlar bilan rivojlanishi, ushbu sohada qazib olingan, ekib o‘stirilgan barcha resurslarni qayta ishlash, ulardan yangidan-yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, assortiment va nomenklaturaning ko‘payishi hisobiga diversifikatsiyalashuv jarayonlarini statistik baholash masalalari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: sanoat tarmog‘i, real sektor, tovarlar, xizmatlar, kapital mehnat bozori, statistik baholash.

Abstract: This article describes the state support of the industrial sector in the Republic of Uzbekistan, the value added of industry, its role in meeting the needs of the population and the sustainable development of the national economy with a high level of production locomotive, processing of all extracted and cultivated resources. from them the issues of statistical assessment of diversification processes due to the production of new products, increase in assortment and nomenclature.

Key words: industrial sector, real sector, goods, services, capital labor market, statistical evaluation.

Аннотация: В данной статье описывается государственная поддержка промышленного сектора в Республике Узбекистан, добавленная стоимость отрасли, ее роль в удовлетворении потребностей населения и устойчивом развитии национальной экономики с высоким уровнем производства локомотивов, переработкой всего добытые и культивируемые ресурсы. Из них решаются вопросы статистической оценки процесса диверсификации за счет выпуска новой продукции, увеличения ассортимента и номенклатуры.

Ключевые слова: промышленный сектор, реальный сектор, товары, услуги, рынок труда, статистическая оценка.

KIRISH

Mamlakatimizning milliy mahsulot ishlab chiqarish sohasidagi asosiy tarmoqlaridan biri sanoatdir. Sanoat o‘zining qo‘shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojini qondirishdagi o‘rni va yuqori darajaga ega bo‘lgan ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan boshqa soha va tarmoqlardan o‘z afzalligi bilan tubdan farq qiladi. Sanoat moddiy ishlab chiqarishning asosiy va yetakchi tarmog‘i bo‘lib, uning rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur’atlar bilan rivojlanishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “To‘rtinchidan, iqtisodiy o‘sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali erishiladi.

Garvard universiteti tadqiqotlariga ko‘ra, mamlakatimiz 50 dan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda barcha imkoniyat va nisbiy ustunliklarga ega. Ayniqsa, neftgaz-kimyo, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari, to‘qimachilik, charm-poyafzal, oziq-ovqat hamda “yashil iqtisodiyot” bilan bog‘liq sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimiz “drayverlari”ga aylanishi uchun barcha yetarli sharoitlar mavjud.

Bu tarmoqlarda xususiy sektorning tashabbuslari va yangi loyihalarini qo‘llab-quvvatlash hamda kooperatsiyani rivojlantirish bo‘yicha barcha choralar ko‘rilishi lozim” [1].

Mamlakatimiz sanoat tarmog‘ini jadal va barqaror rivojlantirish, ularning eksport salohiyatini o‘stirish, ishlab chiqarish korxonalarini texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish, ichki bozorni milliy korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan ta’minlash, mavjud resurslardan unumli foydalanish, faol investitsiya siyosatini amalga oshirish asosida sanoatning samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga erishish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida sanoatning to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyafzal va mo‘ynachilik tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlarning turlari va assortimentini kengaytirish, shuningdek, tarmoq korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, jahon bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, texnologiyalarning rivojlanishi va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining kamaytirilishi ushbu sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilishini talab etmoqda.

Sanoat ishlab chiqarishini hududiy jihatdan oqilona tashkil etishni ta’minlaydigan aniq davlat dasturlarini yanada ko‘paytirish zarurati, mintaqalar sanoat ishlab chiqarishi darajasi o‘rtasidagi tafovutning yuqoriligi va uni bartaraf etish usullarini ishlab chiqish zarurati ushbu mavzuning yo‘nalishi va dolzarbligini belgilab beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sanoatni rivojlantirishning dolzarbligi va iqtisodiyotni takomillashtirishda tutgan o‘rnining nihoyat darajada kengligi doimiy ravishda tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo‘lgan. Xususan, mavzu yuzasidan xorijlik olimlardan Yu.Rodionov, R.S.Porter, D. Deveryuks, B.Roberts, R.N. Nureyevlar ilmiy yangiliklar yaratgan bo‘lsalar, mahalliy olimlardan, A.Abduhamidov, U.Muxitdinov, A.A. Ortikov, X. Ishbutayeva, Sh. Nizomova, E.X. Maxmudov, X.D. Xujaqulov va M. Isoqovlar bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borishga muvaffaq bo‘lishgan. Xususan, A. Ortiqov “O‘zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari”ga, M.P. Narziqulov “Sanoatni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e’tibor tarkibiy o‘zgarishlarga qaratilganligi”ga, E.X. Maxmudov “Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yo‘nalishlari birinchi navbatda budjet, soliq, pul-kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish”ga, bog‘liqliklariga alohida to‘xtalib o‘tishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi mintaqalari ehtiyojlariga muvofiq keluvchi, ular manfaatlarining o‘zaro uyg‘unlashuvini ta’minlovchi, mintaqalarda mavjud tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlarni hisobga oluvchi sanoat tarmog‘ining oqilona hududiy tarkibini shakllantirish bugungi kundagi ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Mintaqalar sanoatini rivojlantirish va muvofiqlashtirish jarayoniga davlat quyidagi dastak va vositalar orqali ta’sir ko‘rsatadi:

- davlat mablag‘larini jalb etgan holda sanoat korxonalariga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma obyektlarini qurish;
- xususiy investorlar sarf-xarajatlarini kamaytirish uchun budjetdan kapital qo‘yilmalarning bir qismini ajratish;
- sanoat korxonalarini qurishda ishtirok etish;
- sanoat korxonalarini qurishga imtiyozli kreditlar ajratish;
- soliq imtiyozlarini joriy etish;
- davlat mablag‘lari hisobidan yangi sanoat korxonalari uchun kadrlar tayyorlash;
- iqtisodiy jihatdan qoloq mintaqalarda sanoat korxonalari qurilganligi uchun imtiyozlar, mukofotlar berish;
- ekologik vaziyatdan kelib chiqqan holda sanoat korxonalari qurilishini taqiqlash yoki cheklash va hokazo.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [2] asosida sanoat korxonalariga imtiyoz va preferensiyalar taqdim etildi. Jumladan:

- 2020-yil 1-yanvariga qadar hisobot davri natijalari bo‘yicha yalpi tushumning umumiy hajmida tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarining eksporti 60 foizdan kam bo‘lmagan eksport ulushiga ega bo‘lgan korxonalar mol-mulk solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi. Imtiyoz 202-yil 1-yanvardan kuchga kiradi;
- to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyafzal va mo‘ynachilik sohalari korxonalarining foyda solig‘i bo‘yicha soliqqa tortiladigan bazasi 7 yil davomida teng ulushlarda zamonaviy tozalash va kanalizatsiya inshootlarini qurish bo‘yicha xarajatlar summasiga kamaytiriladi. Imtiyoz to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyafzal va mo‘ynachilik sohalari uchun 2020-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kirdi;

- chorva mollarini so‘yish bo‘yicha zamonaviy avtomatlashtirilgan majmualarni ishga tushirayotgan tash-kilotlar va terini qayta ishlovchi korxonalar 2020-yil 1-yanvarga qadar yer solig‘i to‘lashdan ozod etildi. Imtiyoz 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirdi;
- 2020-yil 1-yanvaridan boshlab “O‘zto‘qimachiliksanoat” va “O‘zcharmsanoat” uyushmalarining xorijiy konsultantlari, shuningdek, to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyafzal va mo‘ynachilik sohalari kor-xonalarida mehnat faoliyatini yuritayotgan xorijiy mutaxassislar O‘zbekistondagi daromad manbalari bo‘yicha JSHDSni uning belgilangan stavkasidan 50 % miqdorida to‘laydilar.

O‘zbekiston Respublikasi statistikasi amaliyotida sanoatning tarmoq tuzilishi 2016-yilga qadar Xalq xo‘jaligi tarmoqlarining umumdavlat Tasniflagichi (XXTUT) asosida yirik guruhlar bo‘yicha taqdim etilgan. 2016-yildan xalqaro andozalarga muvofiq keluvchi iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT)ga o‘tildi. IFUTda faoliyat turlarini guruhlashtirish yakuniy mahsulotlar, ishlab chiqarish omillari va jarayonlarining bir xilligidan kelib chiqib amalga oshiriladi, ya’ni bir xo‘jalik subyekti turli sinflarga va hatto seksiyalarga taalluqli faoliyatni amalga oshirishi mumkin.

Respublikamizda IFUT yangi strukturasi bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda tarkibiy o‘zga-rishlar va tarmoqlar ulushi quyidagi jadvalda keltirilgan ma’lumotlar bilan tavsiflanadi.

1-jadval: Sanoat tarmoqlarining tarkibiy tuzilishi

Yiriklashtirilgan seksiyalar bo‘yicha sanoat tarmoqlari	Yillar					
	2018		2019		2020	
Sanoat tarmog‘ida yaratilgan qo‘shilgan qiymat hajmi (B, C, D, E) - jami, mlrd. so‘m	95 803,9	100%	136 103,1	100%	152 728,0	100%
Shu jumladan:						
B. Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	20 057,0	20,94%	31 337,7	23,02%	23 139,8	15,15%
C. Qayta ishlash sanoati	68 971,8	71,99%	94 749,7	69,62%	116 839,3	76,50%
D. Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	5 869,9	6,13%	9 055,0	6,65%	11 768,7	7,71%
E. Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	905,2	0,94%	960,7	0,71%	980,2	0,64%

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Jadval ma’lumotlari shundan dalolat beradiki, respublikamizda 2018-yilda jami sanoatdagi qo‘shilgan qiy-matning 20,94 foizi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (V)da yaratilgan bo‘lsa, 71,99 foizi qayta ishlash sanoati (S)ga to‘g‘ri kelgan, 2020-yilga kelib esa bu ko‘rsatkichlar tegishli ravishda 15,15 va 76,5 foizni tashkil etgan.

2018–2020-yillarda milliy sanoat ishlab chiqarishi tarkibida deyarli barcha sohalarida pandemiya sharoiti tufayli sanoat ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari tushib ketgan va bu yo‘qotishni birgina metallurgiya hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoati qoplab bergan, ya’ni 2020 yilga kelib ushbu sanoat tarmog‘i jami qayta ishlash sanoatining 40,5 foizini tashkil qilgan.

Mana shunday murakkab vaziyatda iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish sanoat mahsu-lotlari hajmi o‘sishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Shu o‘rnida aytish joizki, sanoat mahsulotlari assortimenti va turlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirish, sohani modernizatsiya qilish, industriya tizimiga yangi texnika va texnologiyalar joriy etish, milliy sanoat ishlab chiqa-rishini samarali boshqarish uchun tizimga horijiy menejmentni joriy etish, malakali kadrlarni tayyorlash va zarur hollarda chet elda faoliyat yuritayotgan mahalliy mutaxassislarni jalb etish, milliy industriyaga yanada ko‘proq investitsiyalarni jalb qilish, mavjud ishlab chiqarish vositalari quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish, tizimda elektr, issiqlik energiyasi va uglevodorod resurslari tejamkorligiga erishish yaqin istiqbolda respublika sanoat tarkibida ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish hamda milliy industriyada konsentratsiyalashuvni pasay-tirish hamda sanoat ishlab chiqarishi tarmog‘ida samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Jahon bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, texnologiyalarning rivojlanishi va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining kamaytirilishi mazkur sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi korxonalari tomonidan 2020-yilda 367,1 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, eng katta ulush ishlab chiqarish sanoati hissasiga (83%) to‘g‘ri kelgan.

YAIMni oshishida sanoat mahsulotlarining o‘rni kattadir. Sanoat tarmog‘ini rivojlantirishda so‘nggi yillarda: “Elektrotexnika, to‘qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika, zargarlik buyumlari, qog‘oz sanoati, qurilish materiallari, mebel, uy-ro‘zg‘or buyumlari ishlab chiqarish va boshqa mahalliy sanoat tarmoqlarini (keyingi o‘rinlarda – mahalliy sanoat) jadal rivojlantirishga ko‘maklashuvchi yaxlit tizimni yaratish, shuningdek, hududlarning sanoat salohiyatini oshirish”ga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Respublikamizda oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning bosh maqsadi-kuchli, raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni yaratish va shu bilan bir qatorda aholi farovonligini muntazam oshirib borish hisoblanadi. YAIMning va aholi sonining o‘sish sur’atini quyidagi rasm orqali ko‘rishimiz mumkin.

2000–2020-yillarda mamlakatimizda yaratilgan YAIMning o‘sish sur’ati, aholining o‘sish sur’atiga nisbatan bir necha barobar yuqoriligini ko‘rishimiz mukin. Faqatgina 2020-yilda YAIMning o‘sish sur’ati, aholining o‘sish sur’atidan 0,2 foiz bandga kamaygan. Bu davrda butun dunyoda ro‘y berayotgan koronavirus infeksiyasi tarqalishi ta’siri mamlakatimiz YAIMning o‘sish sur’ati kamayishiga olib kelgan.

2-jadval: O‘zbekiston sanoat tarmog‘ida yaratilgan qo‘shilgan qiymat hajmi dinamikasi (2020-yil baholarida)*

Yillar	Sanoatning qo‘shilgan qiymati (mlrd. so‘m)		Sanoat qo‘shilgan qiymatining o‘sishi, %		O‘rtacha yillik doimiy aholi soni			Aholi jon boshiga sanoat qo‘shilgan qiymati	
	joriy baholarda	2020-y. baholarida	2000-y. 100%	oldingi yilga nisbatan	mln. kishi	o‘sish sur’ati, %		ming so‘m	2000-y. 100%
						oldingi yilga nisbatan	2000-y. 100%		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
2000	462,4	55889,2	100,0	-	24,7	-	100,0	2262,7	100,0
2001	696,2	57387,8	102,7	102,7	25	101,2	101,2	2295,5	101,4
2002	1079,3	59339,0	106,2	103,4	25,3	101,2	102,4	2345,4	103,7
2003	1553,3	61119,1	109,4	103,0	25,6	101,2	103,6	2387,5	105,5
2004	2146,7	65001,4	116,3	106,4	25,9	101,2	104,9	2509,7	110,9
2005	3370,9	67502,0	120,8	103,8	26,2	101,2	106,1	2576,4	113,9
2006	4597,2	71720,2	128,3	106,2	26,5	101,1	107,3	2706,4	119,6
2007	5906,5	76460,9	136,8	106,6	26,9	101,5	108,9	2842,4	125,6
2008	9148,2	81660,3	146,1	106,8	27,3	101,5	110,5	2991,2	132,2
2009	11651,1	85008,4	152,1	104,1	27,8	101,8	112,6	3057,9	135,1
2010	12997,3	90055,1	161,1	105,9	28,6	102,9	115,8	3148,8	139,2
2011	15951,8	93994,3	168,2	104,4	29,3	102,4	118,6	3208,0	141,8
2012	20462,7	99372,7	177,8	105,7	29,8	101,7	120,6	3334,7	147,4
2013	25388,7	106821,9	191,1	107,5	30	100,7	121,5	3560,7	157,4
2014	32136,7	111626,1	199,7	104,5	30,8	102,7	124,7	3624,2	160,2
2015	38466,6	117560,2	210,3	105,3	31,3	101,6	126,7	3755,9	166,0
2016	45397,9	123965,5	221,8	105,4	31,8	101,6	128,7	3898,3	172,3
2017	59570,4	130413,5	233,3	105,2	32,4	101,9	131,2	4025,1	177,9
2018	95803,8	144555,1	258,6	110,8	32,96	101,7	133,4	4385,8	193,8
2019	136103,1	151730,5	271,5	105,0	33,6	101,9	136,0	4515,8	199,6
2020	152728,0	152728,0	273,3	100,7	34,2	101,8	138,5	4465,7	197,4

* Manba: www.stat.uz. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-ktoblari.

2000–2020-yillarda sanoatda qo‘shilgan qiymat dinamikasini statistik tahlil qiladigan bo‘lsak, 2000-yilga nisbatan 2020-yilda 2,73 martaga oshgan. Ushbu davrda mamlakatimizning o‘rtacha aholi soni 1,38 barobarga ko‘payib, aholi jon boshiga sanoatda yaratilgan qo‘shilgan qiymat esa qariyb 2 martaga oshgan. Yuqoridagi statistik tahlillardan ko‘rinib taribdiki sanoat mahsulotlarini yetishtirish 2000–2019-yillarda barqaror rivojlanganligidan dalolat beradi (2-jadval).

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda sanoat tarmog‘ining ahamiyati kattadir. Buni tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymatida sanoatning ulushi 27,4 foizni tashkil etganligida ko‘rishimiz mumkin.

Respublikada sanoat tarmog‘ini yanada takomillashtirish uchun, avvalo, quyidagi yo‘nalishlardagi strategik vazifalarni amalga oshirish zarur:

- mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish;
- bugungi kunda to‘xtab turgan ishlab chiqarish quvvatlarini tiklash;
- korxonalarning ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanish darajasini oshirish;
- ma’naviy va jismoniy eskirgan asbob-uskunalarda sifatsiz va “ombor uchun” mahsulotlar ishlab chiqarishni oldini olish maqsadida yangi moddiy-texnika bazasini barpo etish;
- yangi tashkil etilayotgan korxonalar faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish;
- sanoat tarmog‘i rivojlanishida kichik korxonalar sonini yanada ko‘paytirish va ularni tashkil etish chora-tadbirlarini rag‘batlantirish;
- mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslarni jalb qilish, tumanlar (shaharlar) salohiyatini ishga solish va ularning nisbiy ustunliklaridan foydalanish asosida mahalliy sanoatni rivojlantirish “drayverlari” bo‘lgan tarmoqlarni aniqlash;
- tarmoqlarning ichki va tarmoqlararo kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va chuqurlashtirish, korxonalarni global ishlab chiqarish zanjirlariga jalb qilish va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni uchinchi davlatlarga hamkorlikda eksport qilishni yo‘lga qo‘yish;
- sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta’minlaydigan xususiy va xorijiy investitsiyalar hamda zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- “qo‘shimcha qiymat zanjirlari”ni kengaytirish, ishlab chiqarish tannarxi va xarajatlarini kamaytirish, tayyor mahsulotlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni chuqurlashtirish asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish;
- kichik sanoat va maxsus iqtisodiy zonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish va faoliyatini muvofiqlashtirish;
- zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda mahalliy sanoat korxonalari uchun professional kadrlar tayyorlash, trening dasturlaridan keng foydalanish;
- tarmoqlar va hududlarning sanoat salohiyatini oshirish maqsadida tartibga solish muhiti va standartlarni takomillashtirish.

Faol investitsiya siyosati mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash bo‘yicha olib borilayotgan ishlarning eng muhim sharti hisoblanadi.

Darhaqiqat, o‘tgan davrda iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarida jadal rivojlanish jarayoniga, turmushimiz tobora yaxshilanib borayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish, ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish borasida izchil amalga oshirilayotgan islohotlar ichki bozorni o‘zimizda tayyorlangan mahsulotlar bilan ta’minlash barobarida, ularni eksport qilish imkoniyatini ham kengaytirib bormoqda.

Pirovardida bugungi kunga kelib, mahalliylashtirish jarayoni, tom ma’noda, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash, ishlab chiqarishga ilg‘or texnologiyalarni jalb qilishni jadallashtirish, mavjud resurslardan unumli foydalanish, ish o‘rinlarini yaratish, asosiysi, korxonalarning tashqi ta’sirlarga bog‘liqligini kamaytiruvchi tizim sifatida takomillashmoqda.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko‘lamda amalga oshirilishi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq bu boradagi jiddiy muammo – ayrim mahsulotlarimiz tannarxining yuqori darajada qolayotganligi ularning raqobatdoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Mamlakatimiz sanoat tarmoqlarini jadal va barqaror rivojlantirish, ularning eksport salohiyatini o‘stirish, ishlab chiqarish korxonalarini texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish, ichki bozorni milliy korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan ta’minlash, mavjud resurslardan unumli foydalanish, faol investitsiya siyosatini amalga oshirish asosida sanoatning samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga erishish mumkin.

2020-yilda 2019-yil bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,9 %ni (2019-yilda – 1,5 %), o‘rta-yuqori texnologiyali 22,4 % (25,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali 40,1 % (36,6 %) va quyi texnologiyalisi 35,6 % (36,5 %)ni tashkil etdi.

Real sektor korxonalarini qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda ularni sog‘lomlashtirish tadbirlari ham muhim o‘rin tutadi. Zero, uzoq davr mobaynida sifatsiz mahsulotni ishlab chiqarish, eskirgan texnika va texnologiya asosida zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarni saqlab qolish iqtisodiyotning sog‘lomligiga jiddiy putur yetkazishi mumkin. Bunday korxonalarni bankrot deb e’lon qilish hamda moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tarkibiy o‘zgartirish orqali qayta tuzish bu boradagi eng to‘g‘ri va samarali yechim hisoblanadi.

Iqtisodiyotning real sektorini qo‘llab-quvvatlash borasidagi muhim yo‘nalishlardan yana biri sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish jarayonidir.

Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish – sanoat ishlab chiqarishining turli bosqichlarida import shaklida xarid qilish orqali qo‘llaniluvchi detallar, butlovchi qismlar, yarimtayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni mahalliy xomashyo va materiallar asosida ishlab chiqarishga o‘tkazish jarayoni hisoblanadi.

Sanoat tarmog‘ini yuqorida keltirib o‘tilgan, o‘ziga xos afzalliklaridan tashqari ijtimoiy mehnat taqsimotini rag‘batlantirish, bozor raqobatini rivojlantirish kabi bir qator ustuvor taraflari ham mavjud.

Respublikamizda, sanoat rivojlanishi va iqtisodiyotning eng yetakchi tarmog‘iga aylanishi uchun barcha resurs va zaxiralarimiz yetarli. Bu borada bugungi kunda ildam sur’atlar bilan o‘sishda davom etayotgan yoqilg‘i-energetika, kimyo sanoati, oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika va qog‘oz-sellyuloza sanoati hamda qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik va avtomobilsozlik kabi o‘nlab tarmoq va yuzlab sanoat sohalari mamlakat iqtisodiyotining jahon bozoridagi o‘rni yanada mustahkamlanishiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shib kelmoqda. Ayniqsa, respublikamiz mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng agrar davlatdan erkin industrial-agrar rivojlangan davlatga o‘tish borasida amalga oshirilgan iqtisodiy va tarkibiy siyosat to‘la o‘zini oqladi.

XULOSA

Sanoat tarmog‘ining rivojlanishi natijalari tahlili ko‘plab ishlab chiqarish korxonalarida bozor sharoitiga moslashilganligi va davlat ko‘magi yordamida yuqori samarali ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilganligini ko‘rsatmokda. Shu bilan birga, sanoatda kuzatilayotgan o‘sish omillari va manbalarining beqaror xarakterini ko‘rsatuvchi muammolar yuzaga keldi. Ular milliy tovarlarning jahon bozoriga chiqishiga to‘sqinlik qilmoqda va mamlakatning JSTga a’zo bo‘lish jarayonida jiddiy muammolar yuzaga kelishi mumkin. Yuzaga kelgan muammolar sanoat ishlab chiqarishining sifat ko‘rsatkichlarini oshirishni talab etadi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, O‘zbekiston sanoati rivojlanishining asosiy maqsadi nafaqat ushbu iqtisodiyot sektorida o‘sish sur’atlarini oshirishga intilish, balki boy tabiiy resurslar salohiyatidan foydalanish orqali ustuvor tarmoqlar va ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning zamonaviy tarkibini shakllantirish, tashqi va ichki bozorda mamlakat sanoati raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish uchun chora-tadbirlar majmuini shakllantirishdan iborat.

Umumar olganda, ushbu vazifalarning amalga oshirilishi respublikamizda iqtisodiyot raqobatbardoshligining oshishiga, sanoat tarmog‘ining rivojlanishiga imkon yaratadi va bundan keyingi davrlarda ham barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 11-avgustdagi “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘RQ-707-sonli qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-sentyabrdagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4453-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 29.12.2018. 271-272 (7229-7230)-son.
4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil 30-dekabr. 275-276 (7746-7747)-son.
5. Ortiqov A. Sanoat iqtisodi. Darslik. – T.: TDIU, 2009. – 236 b.
6. Shodiyev X. va Xabibullayev I. Statistika. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2019. – 454 b.
7. www.stat.uz. – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti.
8. Khujamurodov, A., & Jumanova, Z. (2020). Methodological Aspects of the Bank’s Information Security. Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN, 2249(0892).

NOBANK KREDIT TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY XIZMATLARI SIFATINI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAT TAJRIBASI



Raimov Xurshid Muxtorovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sifatini oshirishning xorijiy mamlakatlar tajribasini milliy iqtisodiyotimizga qo‘llashning uslubiy jihatlarini takomillashtirish hamda uni rivojlantirish orqali nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sifatini oshirish yo‘llari yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, nobank kredit tashkilotlarining xorijiy mamlakatlar tajribasini moliyaviy xizmatlari sifatini oshirish bo‘yicha xorijiy tajriba moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishning qulayligi, shaffofligi va ishonchliligini oshirishga yordam beradigan bir qator chora-tadbirlar hamda amaliyotlarning istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha muallif yon-dashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: xorijiy mamlakatlar, nobank kredit tashkilotlari, mikromoliyalashtirish, nobank kredit tashkilotlari xizmatlari, marja, kredit, depozit, foizli daromad va xarajatlar, foizsiz daromad va xarajatlar.

Abstract: This article outlines ways to improve the quality of financial services of non-bank credit institutions by improving the methodological aspects of applying foreign experience in our national economy and its development. In addition, the foreign experience of non-bank credit institutions in improving the quality of financial services in foreign countries shows a number of measures that contribute to improving the convenience, transparency and reliability of financial services, as well as existing problems in the prospects of practice, as well as author’s approaches and proposals to overcome them.

Key words: foreign countries, non-bank credit organizations, Microfinance, services of non-bank credit organizations, margin, loan, deposit, interest income and expenses, interest-free income and expenses.

Аннотация: В данной статье изложены пути повышения качества финансовых услуг небанковских кредитных организаций путем совершенствования методологических аспектов применения зарубежного опыта в нашей национальной экономике и его развития. Кроме того, зарубежный опыт работы небанковских кредитных организаций по повышению качества финансовых услуг зарубежных стран показывает ряд мер, способствующих повышению удобства, прозрачности и надежности предоставления финансовых услуг, а также имеющиеся проблемы в перспективах практики, а также авторские подходы и предложения по их преодолению.

Ключевые слова: зарубежные страны, небанковские кредитные организации, Микрофинансирование, услуги небанковских кредитных организаций, маржа, кредит, депозит, процентные доходы и расходы, беспроцентные доходы и расходы.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda Markaziy bankning tizimli ahamiyatga ega bo‘lgan nobank kredit tashkilotlarini belgilash huquqini berishdan maqsadida Xitoyning pul-kredit siyosati tajriba sifati o‘rganilmoqda. Bu ham mazkur muassasalar tomonidan ko‘rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Xitoy markaziy bankning tizimli ahamiyatga ega bo‘lgan nobank kredit tashkilotlarini belgilash huquqini berishdan maqsad Xitoyning pul-kredit siyosati va moliyaviy barqarorligini mustahkamlashdan iborat. Bu ham mazkur muassasalar tomonidan ko‘rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Yaqinda Xitoy Xalq banki (Xitoy Markaziy banki) tizimli ahamiyatga ega bo‘lgan nobank kredit tashkilotlarining to‘lov institutlarini belgilash vakolatini oldi. Demak, Markaziy bank ushbu tashkilotlarning barqarorligi va ishonchliligini ta’minlashda ularni tartibga solish va nazorat qilishda asosiy rol o‘ynaydi. Nobank to‘lov institutlari elektron to‘lovlar, mobil platformalar va boshqa innovatsion to‘lov usullari kabi turli xizmatlarni taqdim etish

orqali Xitoy moliya tizimida muhim rol o‘ynaydi. Biroq, ushbu tashkilotlarning rivojlanishi bilan moliya tizimining barqarorligi uchun yangi xavf va muammolar paydo bo‘ladi.

Shuningdek, so‘nggi yillarda mamlakatimizda moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish va aholining asosiy moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mikromoliyalashtirish sohasini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-iyuldagi “Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4400-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, nobank kredit tashkilotlari ko‘rsatadigan xizmatlar doirasi kengaytirildi va mikromoliyaviy xizmatlar hajmi oshirildi.

Nobank kredit tashkilotlari quyidagilarga haqli emas: “bevosita ishlab chiqarish, sug‘urta, shuningdek savdo faoliyatini amalga oshirishga, bundan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko‘rsatuvchi mikromoliya tashkilotlari mustasno va ushbu Qonunda nazarda tutilmagan boshqa faoliyatni amalga oshirishga; jismoniy va yuridik shaxslardan omonatlarni (depozitlarni) jalb etishga; jismoniy shaxs bo‘lgan ishtirokchilardan (aksiyadorlardan) ustav fondiga (ustav kapitaliga) kiritilgan hissa summasidan yoki ularning egaligidagi aksiyalarning nominal qiymatidan oshadigan miqdorda qarz mablag‘larini jalb etishga, bundan obligatsiyalar shaklidagi qarz mablag‘larini jalb etish mustasno” [1].

Nobank kredit tashkilotlarining asosiy xususiyatlaridan biri uning banklardan ajralib turadigan aholidan depozitlarni qabul qila olmasligidir. Biroq, nobank kredit tashkilotlarining iqtisodiyotdagi o‘rni juda muhim. Ular jismoniy shaxslar, korxonalar va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari ehtiyojlarini qondira oladigan turli xil moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni taklif qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Globallashuv jarayonida nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sifatini oshirishning xorijiy mamlakatlar tajribasining nazariy va amaliy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan keng o‘rganilayotgan dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelmoqda.

Bu borada Enriko Perotti - moliyaviy institutlar, jumladan, nobank kredit institutlari bo‘yicha tadqiqotlarga ixtisoslashgan italiyalik iqtisodchi. Uning tadqiqotlarining muhim jihatlari:

Nobank kredit institutlarining moliya tizimidagi o‘rni: Enriko Perkoko nobank kredit tashkilotlarining banklar va boshqa moliya institutlari bilan qanday o‘zaro munosabatda bo‘lishini va umuman moliya tizimida qanday o‘rin egallashini ko‘rib chiqqan. Nobank kredit tashkilotlarinitartibga solish: Uning tadqiqoti nobank moliya institutlarining funksiyalarini tahlil qilish va faoliyatini tartibga solishni o‘z ichiga oladi bu esa moliya tizimining barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.Shuningdek, uning tadqiqoti nobank kredit tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan kredit shartlari va ularning kredit bozorlarida savdosi tahlilini ham o‘z ichiga olgan [2].

Amerikalik iqtisodchi olim Douglas W. Diamond moliya va bank ishi sohasidagi muhim tadqiqotlar muallifi bo‘lib, uning ishi nobank kredit institutlari va ularning moliya tizimidagi roli haqida qimmatli ilmiy ma’lumotlar beradi. Jumladan, bankdan tashqari kredit tashkilotlari qanday faoliyat ko‘rsatayotgani, ular qanday xizmatlar ko‘rsatayotgani va qanday xavf-xatarlarga duch kelishi mumkinligini hamda nobank kredit tashkilotlari faoliyati bilan bog‘liq tizimli risklarni o‘rganib chiqqan [3].

Taniqli amerikalik iqtisodchi Ross Levin moliya institutlari va ularning kapitalistik rivojlanishdagi roli bo‘yicha tadqiqotlarga ixtisoslashgan. Uning tadqiqotlari moliya tizimining turli jihatlarini qamrab oladi va nobank kredit tashkilotlariga ham tegishli bo‘lishi mumkin. Uning tadqiqotlarining muhim jihatlari: nobank kredit tashkilotlari moliya sektoridagi innovatsiyalar va uning moliyaviy bozorlar va xizmatlar rivojlanishiga ta’sirini hamda nobank kredit tashkilotlari moliya institutlari aholining kengroq qatlamlari uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini qanday oshirishi mumkinligini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, mikromoliya va yosh biznes rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda nobank kredit tashkilotlarining ahamiyatini ko‘rib chiqqan [4].

Taniqli fransuz iqtisodchisi Jan-Charlz Rochening tadqiqotlari nobank kredit tashkilotlarini tartibga solishning roli va samaradorligini tahlil qilish hamda moliyaviy nazorat masalalari va muvofiqlik choralarini ko‘rib chiqqan [5].

Amerikalik iqtisodchi Duglas Arnold nobank kredit tashkilotlarining moliya tizimidagi o‘rni va ularning iqtisodiyotga ta’sirini o‘rgangan. Duglas Arnold bank bo‘lmagan kreditorlar kichik biznes va kam ta’minlangan uy xo‘jaliklari uchun kredit olish imkoniyatini qanday oshirishini tushunish uchun keng qamrovli tadqiqotlar o‘tkazgan. U ushbu tashkilotlar aholining an’anaviy banklardan foydalanish imkoniyati bo‘lmagan qatlamlariga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda muhim rol o‘ynashini aniqlagan. Shuningdek, nobank kredit institutlarining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini o‘rganib, shunday xulosaga keldiki, bunday tashkilotlarning rivojlanishi korxonalarning kredit olish imkoniyatini oshirishga, kichik biznesning jadal rivojlanishiga yordam beradi. Duglas Arnold nobank kredit tashkilotlarini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratishga faol yordam berdi. Ularning faoliyatini davlat qo‘llab-quvvatlashi, bu sohaning yuksalishi uchun sharoit yaratishi kerak, deb hisobladi. Shuningdek, u yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tavakkalchilik va firibgarlikning oldini olish uchun nobank kredit tashkilotlarini tartibga

solish va nazorat qilish muhimligini ta'kidladi. Umuman olganda, Duglas Arnoldning tadqiqotlari nobank kredit institutlarining moliya tizimidagi o'rni haqida tushunchani kengaytirishga va ularning rivojlanishining iqtisodiy o'sishdagi ahamiyati haqida xabardorlikni oshirishga yordam bergan [6].

Richard Scott Beyker - Stenford universitetining iqtisod professori, u bankdan nobank kredit tashkilotlarining xatti-harakatlari, ularning raqobatbardoshligi va kredit bozoridagi roli bo'yicha tadqiqot olib borgan. Richard Skott Beyker bankdan tashqari kredit tashkilotlari faoliyatiga turlicha yondashadi. U ushbu tashkilotlar an'anaviy banklar tomonidan qaytarilishi mumkin bo'lganlarga kredit olish imkoniyatini berish orqali zamonaviy iqtisodiyotda muhim rol o'ynashini tan oladi.

Beyker iste'molchilar manfaatlarini himoya qilish va moliya tizimining barqarorligini ta'minlash uchun bank bo'lmagan kreditorlarni yanada ko'proq tartibga solishga chaqiradi. Bundan tashqari, an'anaviy banklar tomonidan ushbu xizmatlardan bosh tortganlar uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanishning muqobil variantlarini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Beyker, shuningdek, bankdan tashqari kredit tashkilotlari bilan bog'liq bo'lgan yuqori foizli qarz olish muammosiga ham e'tibor qaratadi. U iste'molchilarni ushbu muassasalar tomonidan suiiste'mol qilishdan himoya qilish uchun foiz stavkalari va kredit shartlari bo'yicha qat'iy qoidalarni taklif qiladi [7].

Nobank kredit tashkilotlari jamiyatga moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish orqali iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Ular o'zlarining turli xizmatlari orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashlari va jamiyatning turli qatlamlari uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishga yordam berishlari mumkin.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy xujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nobank kredit tashkilotlari oddiy bank sektoridan tashqarida faoliyat yurituvchi moliyaviy institutlardir. Umuman olganda, nobank kredit tashkilotlari turli xil moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan muassasadir, ammo tijorat banki litsenziyasiga ega emas. O'z faoliyati doirasida nobank kredit tashkilotlari moliyaviy kompaniyalar, sug'urta kompaniyalari, venchur kapital kompaniyalari, lombardlar va boshqa moliya institutlari kabi turli institutlarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda Angliya banki nobank kredit tashkilotlarini kreditlash uchun doimiy vosita yaratish imkoniyatini ko'rib chiqmoqda. Bu shuni anglatadiki, bank nafaqat banklarni, balki boshqa moliya institutlarini, masalan, sug'urta kompaniyalari yoki investitsiya fondlarini ham moliyalashtiradi. Bunday kreditlash mexanizmi moliya sektorini rivojlantirish va bozorning turli ishtirokchilari uchun moliya mavjudligini oshirish uchun foydali bo'lishi mumkin. Shuningdek, u moliyaviy xizmatlar sohasida xilma-xillik va raqobatni rivojlantirishi mumkin.

Biroq, bunday mexanizmni yaratish ehtiyotkorlik bilan tahlil qilish va to'g'ri tartibga solishni talab qiladi. Angliya banki kreditlar berishning qat'iy mezonlarini belgilashi va moliya tizimi uchun xavflarni minimallashtirish uchun ulardan foydalanishni nazorat qilishi kerak.

Umuman olganda, nobank kredit tashkilotlarini kreditlash uchun doimiy vositani tashkil etish Angliyada moliya sektorini rivojlantirish va moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish uchun foydali qadam bo'lishi mumkin. Biroq, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi puxta rejalashtirish va to'g'ri tartibga solishni talab qiladi.

Indoneziyadagi nobank kredit tashkilotlari mamlakat iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydigan moliyaviy institutlarga aylandi. Nobank kredit tashkilotlari moliyaviy xizmatlar va infratuzilmani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Nobank kredit tashkilotlari Indoneziyaning moliyaviy manzarasini shakllantirishga yordam beradi va umumiy iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Ushbu sessiya nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlar sanoatidagi muhim rolini o'rganadi. Shuningdek, ular infratuzilmani rivojlantirish va umuman iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga qanday yordam beradi.


Indoneziya nobank kredit tashkilotlari ham mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim ustun ekanligini isbotlaydi. Misol uchun, moliyaviy xizmatlar kompaniyalari jismoniy shaxslar va korxonalar uchun transport vositalari yoki biznes jihozlarini sotib olishni qo'llab-quvvatlashda rol o'ynaydi. Sug'urta kompaniyalari esa kutilmagan xavflardan moliyaviy himoyani ta'minlaydi. Xuddi shunday, venchur kapital institutlari rivojlanish va innovatsiyalar uchun startaplarni qo'llab-quvvatlashda rol o'ynaydi. Shu bilan birga, lombardlar qimmatbaho narsalar bilan ta'minlangan qisqa muddatli moliyaviy echimlarni taqdim etadilar. Umuman olganda,

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

nobank kredit tashkilotlari iqtisodiyotning turli tarmoqlarini va umuman jamiyat ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlovchi turli xil innovatsion moliyaviy xizmatlarni taqdim etish orqali iqtisodiyotning uzluksiz ishlashini qo‘llab-quvvatlovchi ustunlar sifatida ishlaydi. Indoneziyada nobank kredit tashkilotlari iqtisodiyot va moliya tizimida ko‘plab muhim funksiyalarni bajaradi.

Moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish funksiyasi. Iste’mol moliyasi, venchur kapitalini moliyalashtirish, sug‘urta, investitsiyalar va boshqa moliyaviy xizmatlar kabi turli xil moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni taklif etadi. Bu xususiyat jismoniy shaxslar, kompaniyalar va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish funksiyasi. Nobank kredit tashkilotlari banklardan tashqari moliyalashtirishning alternativ usullarini taqdim etadi va shu bilan iqtisodiyotdagi moliya manbalarini diversifikatsiya qilishga yordam beradi. Bu bank sektoriga qaramlikni kamaytirish va moliya tizimining umumiy barqarorligini yaratishda muhim ahamiyatga ega.



1-rasm: Indoneziyada nobank kredit tashkilotlari bajaradigan funksiyalari[1]

Iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash funksiyasi. Taqdim etilgan mablag‘lar va investitsiyalar bilan nobank kredit tashkilotlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda faol rol o‘ynaydi. Ular sanoat, infratuzilma, qishloq xo‘jaligi, savdo va boshqa muhim tarmoqlarga moliyaviy yordam ko‘rsatadi.

Moliyaviy himoyani ta’minlash funksiyasi. Nobank kredit tashkilotlari sug‘urta kompaniyasi jismoniy shaxslarni, oilalarni va korxonalarni tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar yoki moliyaviy yo‘qotishlarga olib keladigan boshqa hodisalar kabi kutilmagan xavflardan moliyaviy himoya qiladi.

Moliyaviy inklyuziyani rag‘batlantirish funksiyasi. Nobank kredit tashkilotlari jamiyatning turli qatlamlari, shu jumladan an’anaviy bank talablariga javob bera olmaydiganlar uchun moliyadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda rol o‘ynaydi. Shunday qilib, nobank kredit tashkilotlari mamlakatda moliyaviy inklyuzivlikni yaxshilashga yordam beradi.

Boshlang‘ich kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlash funksiyasi. Nobank kredit tashkilotlarining venchur kapital institutlari boshlang‘ich kompaniyalarning o‘sishi va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Ular startaplarga o‘z salohiyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga yordam berish uchun kapital, maslahat va boshqa yordam ko‘rsatadilar.

Aktivlarning likvidligini oshirish funksiyasi. Lombardlar kabi nobank kredit tashkilotlar qimmatli qog‘ozlar bilan ta’minlangan qisqa muddatli kreditlar berish orqali aktivlarning likvidligini yaxshilashga yordam beradi. Bu jismoniy shaxslar va korxonalar uchun bevosita ehtiyojlar oldida moliyaviy moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

Maxsus xizmatlarni taqdim etish funksiyasi. Ba’zi nobank kredit tashkilotlari banklarda topilmaydigan maxsus xizmatlarni taklif qiladi, masalan, investitsiyalarni boshqarish, lizing, faktoring va boshqalar. Ushbu xizmatlar aniqroq va aniq moliyaviy ehtiyojlarni qondirishga yordam beradi.

Umuman olganda, nobank moliya institutlari iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash va jamiyatning turli manfaatdor tomonlariga ko‘plab muhim moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda katta rol o‘ynaydi.

1 Muallif ishlanmasi

Indoneziyada nobank kredit tashkilotlarining turlari:

- **Moliyaviy kompaniyalar.** (PT Adira Dinamika Multi Finance Tbk in Indonesia or American Express in the United States) Ushbu turdagi nobank kredit tashkilotlari iste'molchilarni moliyalashtirish va venchur kapitalini moliyalashtirishni ta'minlaydi. Ular jismoniy shaxslarga yoki kompaniyalarga turli shartlar va foiz stavkalarida kreditlar beradi.
- **Sug'urta kompaniyalari.** (AIA Group Limited, Prudential Financial Inc., or Allianz SE) Nobank kredit tashkilotlari, sug'urta kompaniyasi, kutilmagan moliyaviy xavflardan himoya qilish uchun hayot sug'urtasi, avtotransport sug'urtasi, sog'liq sug'urtasi va mulk sug'urtasi kabi turli xil sug'urta polislarini taklif qiladi.
- **Venchur kapital institutlari (venchur kapitali firmalari).** (Sequoia Capital, Accel Partners, or SoftBank Vision Fund) Ushbu nobank kredit tashkilotlari startaplarga yoki dastlabki bosqichdagi kompaniyalarga sarmoya kiritadi. Ular kompaniyalarga o'sish va muvaffaqiyatga erishish uchun kapital va boshqa yordam beradi.
- **Lombardlar.** (PT Pegadaian (Persero) in Indonesia or H&T Pawnbrokers in England) Ushbu turdagi nobank kredit tashkilotlari zargarlik buyumlari, oltin va boshqa qimmatbaho narsalar kabi qimmatbaho narsalarni garovga qo'yish uchun qisqa muddatli moliyalashtirish xizmatlarini taqdim etadi.
- **Mikromoliya tashkilotlari.** (Grameen Bank in Bangladesh or SKS Microfinance in India) Ushbu nobank kredit tashkilotlari kichik fermerlar, kichik savdogarlar yoki mikro tadbirkorlar kabi an'anaviy bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan jamiyat qatlamlariga moliyaviy xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan.
- **Qimmat baho qog'ozlar.** (Goldman Sachs, Morgan Stanley, or JPMorgan Chase) Ushbu nobank kredit tashkilotlari qimmatli qog'ozlar yoki qimmatli qog'ozlar, masalan, qimmatli qog'ozlar va obligatsiyalar savdosida rol o'ynaydi, shuningdek, kapital bozorida brokerlik xizmatlarini taqdim etadi.
- **Lizing kompaniyalari.** (BNP Paribas Leasing Solutions or CIT Group Inc) Ushbu turdagi nobank kredit tashkilotlari avtomobillar, asbob-uskunalar yoki mexanizmlar kabi aktivlarni ma'lum muddatga ijaraga berish uchun lizing xizmatlarini taqdim etadi.
- **Pensiya jamg'armalari.** (California Public Employees' Retirement System (CalPERS) or Japan Pension Service) Ushbu nobank kredit tashkilotlari o'z xodimlari yoki a'zolarining nafaqaga chiqishi uchun etarli mablag' mavjudligini ta'minlash uchun pensiya jamg'armalarini boshqaradi va investitsiya qiladi.
- **Islomiy venchur kapitali firmalari.** (Amana Capital or Ethica Partners) Venchur kapitali institutlariga o'xshab, bu nobank kredit tashkilotlari halol biznesni rivojlantirishga sarmoya kiritish va qo'llab-quvvatlashda shariat tamoyillariga muvofiq hamda islom ta'limotlariga muvofiq ishlaydi.
- **Ijtimoiy venchur kapital firmalari.** (Acumen Fund or Omidyar Network) Ushbu turdagi nobank kredit tashkilotlari ijtimoiy yoki atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatishni maqsad qilgan ijtimoiy biznes yoki notijorat tashkilotlarga sarmoya kiritishga qaratilgan.

Ayrim mamlakatlarda qonunchilik va moliya sektorining rivojlanishiga qarab, yuqorida sanab o'tilmagan nobank kredit tashkilotlari qo'shimcha turlari bo'lishi mumkin [8].

Umuman olganda, xorijiy mamlakatlarda korxonalar, uy xo'jaliklari, fiskal tashkilotlar va moliya bozorlari uzoq yillar davomida kuzatilganidan sezilarli darajada yuqori inflyatsiya va foiz stavkalari, shuningdek, zaif va noaniq makroiqtisodiy ko'rinish bilan kurashib kelmoqda. Qisqa muddatda moliyaviy barqarorlik uchun eng katta xavflar kamroq tartibga solinishi mumkin bo'lgan moliyaviy bozorlar va nobank kredit tashkilotlari faoliyatiga to'g'ri kelishi mumkin. Moliyaviy sharoitning keskin keskinlashishi yoki tavakkalchilikdan qochish natijasida yuzaga kelgan likvidlik nomutanosibliklari yetarli darajada bartaraf etilmasa, asosiy moliya bozorlarining faoliyati buzilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha nobank kredit tashkilotlari raqobatni kuchaytirish, yangi yoki takomillashtirilgan to'lov imkoniyatlarini taqdim etish, ilgari ularga kirish imkoni bo'lmagan aholiga to'lov xizmatlarini ko'rsatish orqali chakana to'lov tizimining samaradorligini oshirishi mumkin.

Shu bilan birga, nobank kredit tashkilotlarining to'lovlarda ishtirok etishi chakana to'lov tizimida ham yuqori risklarga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan bank innovatsiyalaridan keng foydalanish sharoitida zamonaviy chakana to'lovlar bozorida yuz berayotgan o'zgarishlarga javob berish uchun nobank kredit tash-

kilotlari ustidan ichki nazorat tizimini standartlashtirish va operatsion muvofiqligi masalalari katta ahamiyatga ega.

Banklar va nobank kredit tashkilotlari o‘rtasida o‘zlarining tartibga solish va nazorat qilish vositalaridagi o‘zgarishlar to‘g‘risida ma’lumot berish, yangi, yanada murakkab biznes texnologiyalaridan foydalanishda yuzaga keladigan risklarning mohiyati to‘g‘risida umumiy g‘oyalarga erishish va tartibga solish yondashuvlaridagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish bo‘yicha bitimlar juda muhimdir.

Nobank kredit tashkilotlarining taklif qilingan tasnifi faqat umumiy asosni belgilaydi va ichki to‘lov xizmatlari bozorining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda batafsil takomillashtirish va moslashishni talab qiladi. Shunga o‘xshash milliy iqtisodiyotimizdagi tashkilotlarga nisbatan Nobank kredit tashkilotlarini tasniflash va tartibga solishning xorijiy tajribasidan foydalanishni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-iyuldagi “Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4400-sonli Qarori
3. Levine R. Finance and growth: theory and evidence //Handbook of economic growth. – 2005. – T. 1. – C. 865-934.
4. Claessens S., Perotti E. Finance and inequality: Channels and evidence //Journal of comparative Economics. – 2007. – T. 35. – №. 4. – C. 748-773.
5. DW Diamond. Monitoring and reputation: The choice between bank loans and directly placed debt - Journal of political Economy, 1991 y.
6. Роше Ж. А. Н. Ш. Почему так много банковских кризисов? //Проблемы теории и практики управления. – 2005. – №. 2. – С. 27-31.
7. Arnold D. “Небанковские кредитные организации: особенности создания и деятельности” Общество и право. – 2014. – №. 1 (47). – С. 304-305.
8. Competition in the markets of non-bank financial services / Ed. by . Richard Scott Baker. – M., 2002.
9. https://ptsmi.co.id/non-bank-financial-institutions-in-indonesia

TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY INJINIRINGNI QO‘LLASH ISTIQBOLLARI



Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich
PhD, “International School of Finance Technology and Science” instituti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklari uchun moliyaviy injiniringni qo‘llash kelajakda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lishi, bu yondashuv banklar ro‘yxatga oladigan daromad manbalarining diversifikatsiyasi va bank xizmatlari sifatini doimiy yaxshilashga olib kelishi, bundan tashqari, moliyaviy injiniring bank sektori taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini oshirishi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, bank sektori, diversifikatsiya, investitsiya, moliyaviy injiniring.

Abstract: This article considers that the application of financial engineering for commercial banks will be important in the future, that such an approach will lead to the diversification of income sources that banks will transfer, and to the continuous improvement of the quality of banking services, in addition, that financial engineering will have a positive impact on the development of the banking sector, increase its long-term economic sustainability.

Key words: commercial banks, banking sector, diversification, investments, financial engineering.

Аннотация: В данной статье рассматривается, что применение финансового инжиниринга для коммерческих банков будет иметь важное значение и в дальнейшем, что такой подход приведет к диверсификации источников доходов, которые банки будут перечислять, и к постоянному улучшению качества банковских услуг, кроме того, что финансовый инжиниринг положительно скажется на развитии банковского сектора, повысит его долгосрочную экономическую устойчивость.

Ключевые слова: коммерческие банки, банковский сектор, диверсификация, инвестиции, финансовый инжиниринг.

KIRISH

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozorida ishtirokini kengaytirish, ular orqali oladigan daromadini oshirish masalasini dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ushbu holat, rivojlanayotgan davlatlarning jahon bank bozorida o‘z o‘rnini egallashda banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini yanada takomillashtirish borasidagi ilmiy yondashuvlarga katta e’tibor qaratish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Xususan, jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozdan keyin har bir davlat banklari faoliyatini tahlil qilishda bank bozorida moliyaviy injiniring tizimini yaratish borasidagi ilmiy tadqiqotlar olib borish, mamlakat bank tizimi daromadini oshirishga sabab bo‘lmoqda.

Jahonda qimmatli qog‘ozlar bozorida olib borilayotgan amaliyotlar bilan bog‘liq risklarni xedjerlash, portfelni shakllantirish, kriptovalyutani tartibga solishda raqamli va kriptografik usullardan foydalanish muammolari iqtisodchi-olimlar tomonidan o‘rganilmoqda. Moliyaviy integratsiyaning chuqurlashuvi sharoitida fond birjalariga mablag‘larni jalb qilishni diversifikatsiyalash zarurati, sarmoyadorlar o‘rtasida aktivlar bo‘yicha risklarni taqsimlash imkoniyati, bitkoin va moliyaviy injiniringdan fond va valyuta bozorlarida foydalanish usullari tadqiq qilinmoqda. Qimmatli qog‘ozlar bozorida spekulyativ holatlarni cheklash maqsadida moliyaviy injiniring bilan bog‘liq amaliyotlarni olib borish hamda moliyaviy instrumentlarning yangi paydo bo‘layotgan turlarining fond bozorlariga moslashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar va islohotlarning maqsadi, mazmun-mohiyati hamda ustuvor yo‘nalishlari, milliy taraqqiyot istiqbollari tarkibida pul-kredit siyosati instrumentlaridan samarali foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu maqsadlarga erishish yo‘lida ilg‘or xalqaro tajribada qo‘llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek, valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOT SHARHI

Qator iqtisodchi olimlar tomonidan tijorat banklarida moliya injiniringi deganda banklar tomonidan ko‘rsatiluvchi moliyaviy xizmatlarning soni va sifatini oshirish, tijorat bankining likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlash imkonini beruvchi tadbirlar majmui tushuniladi. Bunda banklarda moliya injiniringining bosh maqsadi – innovatsion bank mahsulotlarini yaratish va takomillashtirish yo‘li bilan qo‘shimcha foyda olish bo‘lib, innovatsion bank mahsulotlarida risk, daromadlilik va likvidlilik o‘rtasidagi optimal nisbat ta’minlanishi kerak, deb hisoblangan.

Robert Kolbning fikricha, moliya injiniringi – arbitraj imkoniyatlarini yaratish uchun risklarni boshqarishga qaratilgan mukammal muammolarni hal etishda mukammal moliyaviy mahsulotlarni yaratish bilan birga moliyaviy instrumentlar standartlari kombinatsiyasida moliyaviy derivativlarni qo‘llash hisoblanadi. Moliya injiniringining eng sodda ta’rifi Yahoo Internet-sayti lug‘atida quyidagicha berilgan: “Moliya injiniringi – yangi moliyaviy mahsulot yaratish uchun mavjud moliyaviy instrumentlarni kombinatsiyalash yoki dekompozitsiyalash”. Shu bilan birga, mazkur tushunchalar ta’rifida moliya injiniringini risklarni boshqarish mazmunining sinonimi sifatida o‘rganish mumkinligi bois to‘liq hisoblanmaydi.

Mazkur tushuncha moliya injiniringini innovatsiyadan tobe kategoriyaga aylantiradi, bu yondashuv bir tomondan to‘g‘ri, chunki avvalambor ma’lum moliyaviy innovatsiyalarga talab paydo bo‘ladi, keyinchalik moliya injenerlari o‘z nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalari asosida yangi moliyaviy mahsulot va xizmatlarni yaratadilar.

Ikkinchi tomondan, ushbu tushuncha ta’rifi to‘liq bo‘la olmaydi. Chunki moliya injenerlari nafaqat yangi moliya instrumentlarning yaratuvchilari sifatida, balki ular innovatsiyalar uchun zamin yaratuvchilar sifatida xizmat qilishlari darkor.

Ayrim tadqiqotchilar moliya injiniringi – bank biznesining strategiyasi bo‘lib, moliyaviy instrumentlar va moliyaviy texnologiyalarni ishlab chiqish yo‘li bilan ichki va tashqi muhitning o‘zgarishini hisobga olgan holda mavjud va bo‘lg‘usi mijozlarning ehtiyojlarini yuqori darajada qondirishga qaratilgan bo‘lishi zarur deb hisoblaydilar. Bunda banklarda moliya injiniringining 3 turi mavjudligi e’tirof etiladi: joriy moliya injiniringi; rivojlanish moliya injiniringi; inqirozli moliya injiniringi.

Banklarda moliya injiniringi deganda bank va mijozning manfaatlariga mos keluvchi turli hildagi bank mahsulotlari bilan mijozlarni moliyaviy ta’minlash hamda yangi moliyaviy instrumentlar va moliyaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, mavjud instrument va texnologiyalar yordamida moliyaviy muammolar hal etish uchun yangi yondashuvlarni ijodiy qidirib topish hisoblaadi.

Bu o‘rinda joriy moliya injiniringi bankning mavjud mijozlari ehtiyojlarini qondirishga qaratilganligi ta’kidlanadi. Rivojlanish moliya injiniringi bankning bo‘lg‘usi mijozlariga yo‘naltirilgan va kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga mo‘ljallangan.

Qator iqtisodchi olimlar tomonidan tijorat banklarida moliya injiniringi deganda banklar tomonidan ko‘rsatiladigan moliyaviy xizmatlarning soni va sifatini oshirish, tijorat bankining likvidliligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlash imkonini beruvchi tadbirlar majmui tushuniladi. Bunda banklarda moliya injiniringining bosh maqsadi innovatsion bank mahsulotlarini yaratish va takomillashtirish yo‘li bilan qo‘shimcha foyda olish bo‘lib, innovatsion bank mahsulotlarida risk, daromadliklik va likvidlilik o‘rtasidagi optimal nisbat ta’minlanishi kerak, deb hisoblanadi. Masalan, G.S. Panovaning fikricha, moliya injiniringi banklarda, birinchi navbatda, ularning depozit bazasi yetarliligini ta’minlash imkonini berishi lozim. Yu.S.Maslenchenkovning fikriga ko‘ra, banklarda moliya injiniringi deganda bank va mijozning manfaatlariga mos keluvchi turli xildagi bank mahsulotlari bilan mijozlarni moliyaviy ta’minlash tushuniladi.

A.N. Morozning fikriga ko‘ra, moliya injiniringi – yangi moliyaviiy instrumentlar va moliyaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda mavjud instrument va texnologiyalar yordamida mavjud moliyaviy muammolar hal etish uchun yangi yondashuvlarni ijodiy qidirib topishdir.

Muallifning fikricha, N. Lunyakovning banklar moliya injiniringiga bergan ta’rifi yuqorida e’tirof etilgan boshqa ta’riflarga nisbatan mukammalroq hisoblanadi. Ammo bu ta’rifda ikki muhim jihat e’tibordan chetda qolgan. Birinchisi – mavjud bank mahsulotlari sifatini oshirish, ikkinchisi esa – risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirishdir. Muallifning fikricha, “moliya injiniringi” bilan “moliyaviy innovatsiyalar” tushunchalarini bir-biridan ajratish shartlidir. Chunki ikkala konsepsiya ham o‘z ma’nosiga ko‘ra innovatsiyalarni yaratish va joriy etishda moliyaviy faoliyatning ijodiy yondashuviga asoslangan jarayon hisoblanadi, demak ular mazmun-mohiyatining o‘zaro qarama-qarshiligi mavjud emas.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tijorat banklarida moliyaviy injiniringni qo‘llash orqali, bank xizmatlari va mahsulotlarini ta’sirchanligi baholash, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Tijorat banklari moliya bozoridagi aktiv ishtirokchilar hisoblanadi, bunda ular riskni minimallashtirishda, foydani ko‘paytirishda hamda zararni kamaytirish hisobiga fond, valyuta va pul bozorlari vositalaridan foydalaniladi. Bu holatni bank faoliyatiga injiniringni qo‘llash deb baholash mumkin. Ikkinchi tomondan banklarning maxsus mahsulotlari bo‘lib, bulardan foydalanish alohida yangi sohasini kiritishni ya’ni bank injiniringni kiritishni zaruratini keltirib chiqaradi.



1-rasm: Injiniring klassifikatsiyasi [1]

Moliyaviy injiniring jarayonlari orqali texnologiyani bank sohasida qo‘llash u bank faoliyatining barcha jarayonlari bank mahsulotlari, operatsiyalari va boshqa yo‘nalishlarida qo‘llaniladi. Bundan kelib chiqadiki moliyaviy injiniring hamda moliyaviy menejment (bank) o‘rtasidagi bog‘liqlik jarayonlarini baholashda, ular uchun umumiy tushuncha bo‘lgan ya’ni risklarni kamaytirishga asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu ikki tushuncha o‘zining boshqaruv tizimi obyektiga ega bo‘lib, moliyaviy (bank) menejmenti maqsadi ikkiga ya’ni taktik va strategikga ajratiladi [1].

Bank menejmentini asosiy maqsadi sifatida quyidagilarni belgilab olish mumkin:

- maksimal foydaga erishish;
- bankni aksionerlari va kreditorlari tomonidan uning faoliyatini moliyaviy ta’sminlash va rivojlantirish;
- bank faoliyati samaradorligini oshirish;
- riskni boshqarish.

Hozirgi vaqtgacha bank faoliyatida moliyaviy injiniringning iqtisodiy samaradorligini baholovchi aniq yo‘nalish mavjud emas, moliyaviy injiniringni bank faoliyatiga qo‘llashni yagona umumlashgan g‘oyasi, tamoyillari, funksiyalari, aniq maqsadga yo‘naltirilgan konsepsiyasi yaratilmagan. Bu esa bank sohasida moliyaviy injiniringni qo‘llashning metodologik asosini yaratish va shu asosida yangi mahsulotlarni qo‘llash tamoyillarini tavsiya etadi.

Raqamli transformatsiyaga e’tibor qaratish, bank mijozlari uchun imtiyozlarga vositachilik qiladigan yangi texnologiyalarni yaratish va taklif qilish bizning bozor barqarorligimizni oshirishga imkon beradi.

Shuningdek, quyidagilarni ta’kidlash kerak: bozorga moliyaviy injiniring innovatsiyalarni taklif qilish va joriy etishda banklar nafaqat o‘z daromadlarini oshirishga intilishlari balki, risklardan himoyalanish ham tavsiya etiladi. Raqobat o‘sgan va talab to‘liq tiklanmagan zamonaviy sharoitda “xavfsizlik chegarasi”, “bozor barqa-

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

rorligi”ni yaratish, kredit riskini kamaytirish va foiz daromadlarini yaxshilash yanada muhim hisoblanadi va sheriklar oldida ishonchni mustahkamlab beradi. Banklar hozirgi voqelikda o‘z xizmatlarini diversifikatsiya qilib, iste’molchilarning turli toifalarini bir-biridan farq qiladigan kredit mahsulotlarini taklif qiladilar. Boshqacha qilib aytganda, banklar o‘zlarining bozor ulushini oshirishga, bozor jarayonlariga ta’sir o‘tkazishga, tendensiyalarni yaratishga va o‘z mijozlarining ehtiyojlariga e’tibor qaratish orqali o‘zlarining barqarorligini oshirishga intilishadi, bu ko‘pincha yangi texnik va texnologik asosda hal qilinadi.

Dastlabki bosqichda moliyaviy injiniring yoki yangilangan kredit yoki innavatsion bank mahsulotini yaratishda ixtisoslashtirilgan marketing tadqiqotlarini o‘tkazishni o‘z ichiga olgan jiddiy tahliliy ishlarni bajarish kerak; innovatsiyalarni jalb qilish, ya’ni kross-kanal axborot resurslaridan foydalanish asosida bozorning rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda kelajakdagi ehtiyojlarni prognoz qilish talab etiladi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida moliyaviy injiring asosida bank innovatsiyalarini tashkil etishga qiziqish uyg‘otadigan bir qator obyektiv shartlarni aniqlashimiz mumkin, ya’ni:

- zamonaviy iqtisodiyot, umuman olganda, innovatsion o‘sishga va iste’molchilarning xizmatlar va innovatsiyalarga bo‘lgan talablariga qaratilganligi;
- bank tuzilmalari faoliyatidagi yangiliklarni hozirgi iqtisodiy vaziyatga xos bo‘lgan umumiy tendensiyaning namoyon bo‘lishining alohida holati deb hisoblash mumkinligi;
- bank sohasidagi yangiliklar modifikatsiyaga yoki mahsulotning o‘ziga nisbatan zamonaviy yechimga asoslanganligi;
- zamonaviy formatdagi bank ishi kundalik faoliyatida, hamkorlar va iste’molchilar bilan ishlashda axborot texnologiyalariga tayanganligi;
- sun’iy intellekt, blokchayn va hisoblash texnologiyalari foydalangan holda masofaviy bank xizmatlarini olib borilishi.

Bankni raqamlashtirish sharoitida o‘zgartirishni o‘z ichiga olgan tendensiyalar doirasida ikkita ustuvor yo‘nalish qayd etilgan: ulardan biri raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan va ko‘rsatilayotgan yangi bank mahsulotlarini ishlab chiqarish; ikkinchi yo‘nalish bank sektoridan tashqarida faoliyat yuritadigan kompaniyalar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash va bank bilan birgalikda ular klassik bank mahsulotlariga tegishli tarkib va xizmatlar shaklida iste’molchilar uchun qadrli bo‘lgan bankdan tashqari mahsulotlar hisoblanadi.



2-rasm: Bank innovatsiyalarini amalga oshirish jarayonining modellashtirishdagi afzalliklari [2]

Banklarning turli boshlang‘ich sharoitlari, ularning salohiyati va raqamli muhitda o‘zgarish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, innovatsiyalarni amalga oshirish doirasidagi o‘zgarishlar, shuningdek, moliyaviy xizmatlarning ma’lum joylarida joylashgan kichik tuzilmalardan tortib, keng ko‘lamli bank va bankdan tashqari xizmatlarni taklif qiluvchi yirik ekotizim egalariga qadar sezilarli darajada farq qiladi.

Bank xizmatlari bozorida bank innovatsiyalarini joriy etish jarayonini modellashtirish formatida muvaffaqiyatli raqamli transformatsiyani amalga oshirish yuqorida aytib o‘tilgan asosiy yo‘nalishlarga ko‘ra, texnologik platformadan tashqari, bank tuzilmasining ichki muhitida bir qator tashkiliy o‘zgarishlarni amalga oshirish, shuningdek tashqi muhit vakillari bilan maqsadli ishlash zarur; shu bilan birga, bank tuzilmasining ichki muhitida bir qator tashkiliy o‘zgarishlarni amalga oshirish kerak bo‘ladi. Bank innovatsiyalarini joriy etish va uni amalga oshirish uchun ketma-ket qadamlar bilan harakat qilishdir.

XULOSA

Moliyaviy injiniring – bu yangi moliyaviy mahsulotlarni yaratish, investitsiyalarni optimallashtirish, risklarni boshqarish va moliyaviy samaradorlikni oshirish uchun innovatsion moliyaviy texnologiyalar, vositalar va strategiyalarni birlashtirgan moliya sohasi hisoblanadi.

1. **Moliyaviy vositalar va mahsulotlar:** moliyaviy injiniring innovatsion investitsiyalar va risklarni boshqarish imkoniyatlarini taklif qiluvchi derivativlar, tuzilgan mahsulotlar, obligatsiyalar va boshqa aktivlar kabi moliyaviy vositalar va mahsulotlarni ishlab chiqish va tuzish bilan bog‘liq.
2. **Modellashtirish va risklarni baholash:** moliyaviy innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish risklarni modellashtirish va risklarni samarali boshqarish va moliyaviy barqarorlik uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni baholashni talab qiladi.
3. **Moliyaviy injiniring va texnologiya:** moliyaviy injiniring moliyaviy strategiyalar va mahsulotlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun zamonaviy moliyaviy texnologiyalar, matematik modellar, dasturiy va tahliliy vositalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi.
4. **Portfelni boshqarish va investitsiyalarni optimallashtirish:** moliyaviy injiniringning maqsadi investitsiya portfelini maqbul boshqarishni ta’minlash, rentabellikni oshirish va moliyaviy menejmentga innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali risklarni minimallashtirishdir.
5. **Moliyaviy innovatsiyalar va ijodkorlik:** moliyaviy injiniringning asosiy jihatlaridan biri moliyaviy mahsulotlarni yaratish, o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish va mijozlar ehtiyojlarini qondirish uchun yangi va ijodiy yondashuvlarni izlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бочаров В.В. Финансовый инжиниринг. – СПб.: Питер, –2004. –С. 400.
2. Бродский М.Н., Бродский Г.М. Право и экономика: инвестиционное консультирование. – Санкт-Петербург: Консальт, –1999. –С. 444.
3. Колб Р.У. Финансовые деривативы. Пер. с англ. – М.: Дело, 1997. –С.274-275.
4. Воробьева З. Финансовый инжиниринг на рынке облигаций. Сборник научных трудов. – М.: НГУ, 2002. –С.419-421.
5. Сорос Дж. Алхимия финансов. - М.: Инфра-М, 1996. .С.25-35.
6. Джон Ф.Маршалл, Викул К. Бансал. Финансовая инженерия: Полное руководство по нововведениям: Пер. с англ. –М.: ИНФРА-М, 1998. –С.37.
7. E.J.Kane. Accelerating Inflation, Technological Innovation.-Washington: Journal of Finance. –1981. –P.355.
8. V.Niechans. Financial Innovation, Multinational Banking and Monetary Policy.-Washington: Journal of banking and finance. –№7. –1983. –P.539.
9. V.M.A.Akhtar. Financial Innovations and their Implications for Monetary Policy: an International Perspective.-Washington: Basle. Bank for International Settlements. –1983. –P. 5.
10. V.G.Dufey, J.N.Giddy. The Evolution of Instruments and Techniques and International Financial Markets.-Washington: Suerf Series. –1981. –P. 4.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR





Toymuxamedov Ibroxim Rixsiboevich
TDIU “Bank ishi” kafedrasi professori

Jumaev Islombek Akram o‘g‘li
TDIU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliya bozori, xususan, tijorat banklarini moliya bozori orqali amalga oshiradigan operatsiyalari, ularni olib borishning nazariy asoslari, amalga oshirish xususiyatlari va tartiblari ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston moliya bozorida tijorat banklari samaradorligini oshirishda bank xizmatlaridan foydalanishdagi muammolar tahlil qilingan hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: moliya bozori, qimmatli qog‘oz, aksiya, tijorat banklari, bank xizmatlari, bank operatsiyalari, obligatsiya, bank resurslari, kredit mablag‘lari.

Abstract: This article discusses and provides recommendations for improving banking operations performed in the financial market, as well as examines the theoretical foundations and practical features and their procedure. In this regard, the problems of using banking services to improve the efficiency of commercial banks in the financial market of Uzbekistan are analyzed and suggestions for their elimination are given.

Key words: financial market, securities, stocks, commercial banks, banking services, banking operations, bonds, banking resources, credit facilities.

Аннотация: В этой статье обсуждаются и даются рекомендации по совершенствованию банковских операции совершаемых на финансовым рынке, а также рассматривается теоретические основы и практические особенности и их порядок. Кроме того проанализированы проблемы банковских операций для повышения эффективности коммерческих банков на финансовом рынке Узбекистана и даны предложения по их устранению.

Ключевые слова: финансовый рынок, ценные бумаги, акции, коммерческие банки, банковские услуги, банковские операции, облигации, банковские ресурсы, кредитные средства.

KIRISH

Mamlakatimizda tanlangan iqtisodiy rivojlantirishning o‘z modeli va uning tamoyillari asosida ishlab chiqilgan, chuqur va har tomonlama o‘ylangan mamlakatni isloh qilish va modernizatsiyalashning tadrijiy dasturi izchil amalga oshirilishi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O‘zbekiston iqtisodiyoti, uning moliya va bank tizimiga salbiy ta’sirini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berganligi qayd etildi.

Banklarning moliya bozoridagi faoliyatini tartibga solish va fond bozori kapitalizatsiya darajasini, ishtirokchilarning, shu jumladan xorijiy investorlarning investitsion faolligini ushlab turish murakkab muammolardan hisoblanadi. Bu muammolarni samarali yechimi moliya bozorida banklarning raqobatbordoshliligi va havfsizligi, barqarorligi va likvidliligi, investorlar uchun jalbdorliligi va risksizligi darajasini ta’minlash bilan uzviy bog‘liq.

Mazkur holatlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev, “Yashil” kreditlarni jalb qilish va moliya bozorini tartibga solishda ESG tamoyillarini joriy qilish.

Banklarning kredit portfellarini diagnostika qilish va dekarbonizatsiya bo‘yicha ustuvorliklarni aniqlash va ESG risklarini boshqarish uchun konsalting kompaniyalarini jalb qilish. Bunda:

- banklarning kredit va investitsion portfellarini “yashillashtirish”;
- xalqaro miqyosda banklarning mavqeini oshirish;
- xalqaro moliya institutlari hamda Yashil iqlim jamg‘armasi orqali iqlimni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish. [1]...

Shuningdek, moliya bozorlari, jumladan, fond bozorini rivojlantirish ham yangi iqtisodiy sharoitda asosiy maqsadlarimizdan biri bo‘lishi kerak.

Yangi moliyaviy instrumentlarni joriy yetish va obligatsiyalar chiqarish orqali, bank xizmatlari ko‘lamini yanada kengaytirish, ilg‘or axborot texnologiyalari asosida bank tizimini rivojlantirish zarur”, [2] deb ta’kidlab o‘tdilar.

Shuni ta’kidlash lozimki, zamonaviy sharoitda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida tijorat banklarining moliya bozoridagi faoliyatining yuqori daromad keltiruvchi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi va banklarning likvidliligini ta’minlaydi. Banklarning moliya bozoridagi faoliyati turli hil qimmatbaho qog‘ozlar: oddiy va imtiyozli aksiyalar, obligatsiyalar, davlat qarzdorlik majburiyatlari, depozit sertifikatlari, veksel va boshqalarga mablag‘larini qo‘yish orqali amalga oshiradilar.

Tijorat banki fond bozori ishtirokchilaridan biri bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar bilan emitent, investitsiya, brokerlik, dilerlik faoliyatini amalga oshiradi, shuningdek ular bilan boshqa operatsiyalarni amalga oshiradi. Banklar moliya bozorida moliyaviy vositachi va professional ishtirokchi sifatida faoliyat olib boradi. [3]

Demak O‘zbekistonda moliya bozorining rivojlanishiga bank tizimi katta hissa qo‘shib kelmoqda. Bank sohasini rivojlanishi undagi o‘zgarishlar, moliya bozori bilan chambarchas bog‘likligi, uning rivojlanishida eng katta omil ekanligi shubhasiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kredit tashkilotlarining, xususan, tijorat banklarining moliya bozoridagi qimmatli qog‘ozlar bilan olib boradigan faoliyatini to‘g‘ridan to‘g‘ri bank operatsiyalari toyifasiga kiritish mumkin emas, biroq, tijorat banklari kapitali va investitsiyalarini shakllantirishda, bank likvidligini boshqarishda moliya bozorining ushbu segmentida ham keng ko‘lamda faoliyat yuritiladi. [4]

Fikrimizcha, moliya bozorini o‘rganishda uni turli tomondan, ya’ni institutsional jihatdan yoki bozor qatnashchilari tomonidan, emitentlar va investorlar, investitsiya institutlari, moliya dastaklarini turlari nuqtayi nazaridan baho berish maqsadga muvofiqdir.

Moliya bozorining asosiy tarkibiy qismi hisoblangan qimmatli qog‘ozlar bozorining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu bozordagi xarakatlanuvchi tovarning xususiyatlari boshqa bozorlardagiga nisbatan o‘ziga xosdir. Bu tovar turli shakldagi qimmatli qog‘ozlardir.

Qimmatli qog‘ozlar bozori – yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog‘ozlar chiqarish, joylashtirish va ularning munosabatlari bilan bog‘liq munosabatlar tizimidir. [4]

Iqtisodiy adabiyotlarda “qimmatli qog‘ozlar bozori” va “fond bozori” degan atamalarni sinonim sifatida talqin etiladi. Ushbu atamalarga aniqlik kiritishga xarakat qilamiz.

Fond bozorida emitent va bo‘lajak sarmoyador bevosita ishtirok etmaydilar. Bu bozorda albatta moliyaviy vositachi (broker yoki diler)ishtirok etadi. Fond bozorida asosan aksiyalar, obligatsiyalar, davlat qimmatli qog‘ozlari sotiladi. Bundan tashqari fond bozorida qimmatli qog‘ozlar ularga bo‘lgan talab va taklif asosida sotiladi yoki sotib olinadi.

Boshqa qarz majburiyatli qimmatli qog‘ozlar bozori. Ushbu bozorda emitent va bo‘lajak sarmoyador hech qanday moliyaviy vositachi yordamisiz bevosita oldi – sotdini amalga oshiradilar. Ushbu bozorda depozit sertifikatlari, depozit – jamg‘arma sertifikatlari va veksellar savdosi amalga oshiriladi. Shunisi diqqatga sazovorki, boshqa qarz majburiyatli qimmatli qog‘ozlar bozorida xarakatlanadigan qimmatli qog‘ozlar ularga bo‘lgan talab va taklif asosidagi narxda emas, balki oldindan belgilangan narxlar hamda shartlar asosida sotiladi. [4]

Shuning uchun jahon amaliyotida tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi professional ishtirokchi sifatida faoliyati banklar tomonidan to‘lov xujjatlari vazifasini bajaruvchi qimmatli qog‘ozlar hamda omonatga va bank hisob raqamlariga mablag‘ jalb qilinishini tasdiqlovchi qimmatliklar bilan bitimlar amalga oshirishlari mumkinligi nazarda tutiladi.

Mavzu yuzasidan manbalarga yanada yaqinroq nazar soladigan bo‘lsak, ushbu mavzu doirasida hozirda juda ko‘p tadqiqotlar olib borilayotganligi guvohi bo‘lamiz. Jumladan, rus iqtisodchisi N.M.Giblova fond bozori,

tijorat banklari va iqtisodiyotning real sektori o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tadqiq qilgan.[5] Unga ko‘ra, tijorat banklari fond bozorida asosan pul mablag‘larini doylashtiruvchi, ya’ni qimmatli qog‘ozlarni xarid qiluvchi investor sifatidagi o‘rniga ko‘proq ahamiyat qaratgan.

Boshqa bir rus iqtisodchisi O.I.Lavrushin boshchiligidagi olimlar guruhi esa tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari doirasida qimmatli qog‘ozlar bozorida bank faoliyati turlari, banklarning o‘z qimmatli qog‘ozlarini muomalaga chiqarishi va joylashtirishi, tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlarga investitsion qo‘yilmalari, davlat qimmatli qog‘ozlariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha bank operatsiyalari va REPO bitimlari, banklarning qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisi sifatidagi faoliyati to‘liq ko‘rib o‘tilgan. [6]

Mahalliy olimlardan fond bozorini tadqiq qilgan iqtisodchi olimlar I.I.Alimov tijorat banklarining fond bozoridagi operatsiyalarini emas, balki moliya bozoridagi operatsiyalariga batafsil to‘xtalib, ularning xususiyatlarini ochib berishga xarakat qilgan. [4] Yana bir mahalliy iqtisodchi olim Sh.A. Toshmatov Sh.A tijorat banklarining obligatsiyalar bozoridagi investitsion faoliyatiga ko‘proq e’tibor qaratgan.Bevosita tijorat banklarini xalqaro obligatsiyalar bozoridagi faoliyati orqali obligatsiyalar portfelini shakllantirish masalalariga doir tadqiqotlar olib borgan. Bunda asosiy e’tibor bank daromadlarini diversifikatsiyalash nuqtayi nazaridan obligatsiyalar portfelini ham diversifikatsiyalashda obligatsiya emitentlarini sifat jihatidan baholash metodikasiga qaratiladi. [7]

Boshqa bir amaliyotchi bankir A.Jalilov tijorat banklarini moliya bozoridagi faoliyatini ularning qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish orqali resurslarni shakllantirish bilan bog‘liq operatsiyalarini tahlil qilish orqali o‘rganishaga xarakat qilgan. [8]

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, moliya bozori mamlakatda bir yo‘la ikki vazifani amalga oshirmoqda. Birinchidan, u iqtisodiyotning amal qilish samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda, ikkinchidan qimmatli qog‘ozlar bozori yordamida ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan qator muhim muammolar hal etilmoqda. Bu omillar esa moliya bozorini, uning mohiyatini yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy ishni amalga oshirishda tijorat banklarining moliya bozoridagi faoliyati, shuningdek investitsion, emission va vositachilik faoliyati qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tadqiq etgan va ularga nisbatan o‘z yondashuvlarini shakllantirishgan. Mazkur holarga yanada yaqinroq yondoshadigan bo‘lsak, deyarli barcha holatlarda tijorat banklarining moliya bozoridagi faoliyati, ushbu bozor xususidagi fikr va yondoshuvlari mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lsada, biroq ular shaklan biri biridan keskin farq qiladi. Muallif mavjud tajribalarni o‘rganish va ular orqali qiyosiy tahlil o‘tkazish natijasida tegishli yo‘nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar bergan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir narsa iqtisodiyotda bir-biriga bog‘langan va umuman, bank tizimi ham va boshqa tarmoqlar ham iqtisodiyotdan ajralib chiqmaydi, alohida olingan holda faoliyat yurita olmaydi. Ularning rivojlanishi turli omillarga bog‘liq.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish davrida tijorat banklari boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida moliya bozorida faoliyat ko‘rsatish uchun eng qulay shart-sharoitlarning imkoniyatiga ega bo‘ldi va hozir ham ana shunday shart-sharoitlar imkoniyatiga egadir. Mamlakatimizda moliya bozorining shakllantirishga rivojlanishning dastlabki yillaridayoq katta e’tibor berildi. [9]

1993-yil 2-sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog‘ozlar va fond birjasi to‘g‘risida” gi Qonuni bunga yorqin misol bo‘la oladi. 2022 yilning o‘rtalarida “Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida” gi, “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktyabrdagi PF-6096-sonli “Davlat ishtirokidagi korxonalarni jadal isloh qilish chora-tadbirlari va davlat aktivlarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi va 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-sonli “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlariga muvofiq, shuningdek qimmatli qog‘ozlar bozoridagi boshqa qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan chora- tadbirlarni qo‘llash orqali banklarning moliyaviy bozor salohiyatini oshirish vazifalari belgilab berildi. Yuqoridagilarga qo‘shimcha sifatida ushbu shart-sharoitlar quyidalardan iborat deb aytish mumkin:

- *birinchidan,* an’ana bo‘yicha tijorat banklarida moliya bozorining mohiyati to‘g‘risida to‘la tasavvurga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar faoliyat ko‘rsatadi;
- *ikkinchidan,* tijorat banklari to‘g‘risidagi amal qilayotgan qonunchilikning o‘zi tijorat banki faoliyatini aksiyadorlik jamiyati, ya’ni muomalaga turli qimmatli qog‘ozlarni va eng avvalo aksiyalarni chiqarib turuvchi emitent sifatida tartibga solib turadi. Shuni ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda birinchi yirik emitentlar bo‘lib aksiyadorlik jamiyatlari aynan shu tijorat banklari hisoblanadi;

- *uchinchidan,* odatda boshqa subyektlar bilan taqqoslab ko‘rilganda, tijorat banklari katta miqdorda o‘z mablag‘lari va jalb etilgan resurslarni to‘plaganlar, ular o‘z navbatida mamlakatimizning fond bozorida yirik sarmoyador (investor) sifatida qatnashish uchun kerakli darajada shart-sharoitlar yaratadi;
- *to‘rtinchidan,* O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi tijorat banklarining moliya bozoridagi olib boradigan faoliyatini biron bir tarzda cheklanmagan va ayni vaqtda tijorat banklari o‘z mijozlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida eng kerakli ma’lumotlarga ega bo‘lgan, bu esa ularga bunday ma’lumotlarni olishga huquqi cheklangan odatdagi sarmoyadorlar oldida katta imtiyozlar beradi.

Tijorat banklarining nisbatan barqaror moliyaviy holati va bank operatsiyalarining yuqori daromadliligi ularga ko‘rsatiladigan bank xizmatlarining yangi turlarini, shu jumladan moliyaviy bozor bilan bog‘liq operatsiyalarning amalga oshiriladigan ko‘p turlarini o‘zlashtirishga katta moliyaviy resurslarni ajratish uchun yetarlicha imkoniyat yaratib beradi.

Shu bilan birga zamonaviy sharoitda tijorat banklari bilan boshqa moliyaviy iqtisodiy muassasalar o‘rtasidagi kuchayib borayotgan o‘zaro raqobat, amaliyotdagi ko‘pgina an’anaviy bank xizmatlari hisoblanadigan (kreditlash, valyuta, moliyaviy va agentlik operatsiyalari) xizmatlarini ko‘rsatishdan keladigan foydaning kamayib ketishi, tijorat banklari o‘z faoliyatining asosiy diqqat markazini milliy va xalqaro moliya bozori sohasiga ko‘chirishga majbur qilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yirik aksiyadorlik jamiyatlarining muomalaga chiqargan aksiyalarini boshqarish uchun kerakli hujjatlar olish, investitsiya va xususiylashtirish jamg‘armalari bilan ishlash kabi investitsion faoliyatning ustuvor yo‘nalishlari tijorat banklarning diqqat markazida turgan obyektlar bo‘lib qoldi.

Shunday qilib, banklarning moliya bozoridagi faoliyat turlarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin.

1. Banklar moliya bozorining quyidagi segmentlarida faoliyat yuritadilar: valyuta, qimmatli qog‘ozlar, pul-kredit (jumladan ipoteka kreditlari), qimmatbaho metallar va toshlar (jumladan san’at asarlari).
2. Ko‘chmas mulk bozorida vositachi, riyeltor, ishonchli boshqaruvchi (trast), ipotekaviy investor sifati faoliyat ko‘rsatadi.
3. Valyuta bozorida: diler va broker (treyder, jumladan valyuta operatori). Bunda spot va muddatli bozorlarda ishtirok etadi.
4. Pul-kredit bozorida: pul hisob raqamlari va pul vositalari (cheklar, kartochkalar va h.k.) bo‘yicha mijozlarga operatsion hizmat ko‘rsatish; kredit berish va olish; bo‘lak kreditorlarning kredit transhlari bo‘yicha operator bo‘lish va h.k.
5. Qimmatli qog‘ozlar bozorida: emitent (emissiyalanuvchi va yemissiyalanmaydigan turlari bo‘yicha); institutsional investor (o‘zining investitsiyalarini boshqarish bo‘yicha) va kollektiv investor (mijozlarining investitsiyalarini boshqarish bo‘yicha); professional institut (broker, trayder, diler, anderrayter, trast, konsalting, kliring, depozitariy, transfer-agent va h.k.).

Biz yuqorida qayd etib o‘tgan shart-sharoitlar va nisbatan qulay omillarning mavjudligi mamlakatimiz tijorat banklari oldida qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyat ko‘lamini yanada kengaytirish va yaqin kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotining ushbu ustuvor sohasidagi faoliyatini yanada faollashtirish uchun katta imoniyatlarni ochib bermoqda.

2020-yilda davlat banklarini transformatsiya qilish, ularning faoliyatini bozor tamoyillari va xalqaro standartlarga muvofiq qayta tashkil qilish hamda bank tizimida xususiy kapital ishtirokini kengaytirish va raqobat muhitini kuchaytirish maqsadida 12-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli Farmoni bilan 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi tasdiqlandi. [10]

Mazkur qaror asosida mamlakat bank-moliya sektori rivojlanish darajasi va barqarorligini baholash maqsadida 2024-yilning yakuniga qadar Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon bankining dasturi (FSAP) asosida moliyaviy sektor holatini baholash nazarda tutilmoqda. [2]

Yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so‘zlarini keltirib o‘tish o‘rinlidir. “So‘nggi 4 yilda iqtisodiyotimizning barcha jabhalariga bozor mexanizmlarini joriy etish borasida jiddiy qadamlar tashlandi. Endigi vazifa – chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror o‘sishning poydevorini yaratishdan iborat. [2]

Bunda banklarni xususiylashtirish jarayoni bosqichma-bosqich, ya’ni birinchi bosqichda davlat ulushi mavjud bo‘lgan banklar faoliyatini transformatsiya qilish, ikkinchi bosqichda esa davlat aksiyalarini nufuzli xorijiy investorlarga sotish nazarda tutilgan.

Demak, mamlakatimizda ham tijorat banklari rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bu esa ularning mijozlarning pul mablag‘lari va daromad olishlari uchun raqobatni kuchaytiradi. Shu bilan birga respublikada faoliyat yuritayotgan tijorat banklarini milliy va xalqaro moliya bozorlaridagi operatsiyalarini hamda xizmatlarini kengaytirishga majbur etmoqda.

2022-yilning 17-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan davlat ishtirokidagi yirik korxonalar aksiyalarini fond birjasida birlamchi (IPO) va ikkilamchi (SPO) ommaviy joylashtirish to‘g‘risida qarori qabul qilindi.

2022-yil 20-dekabrida esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida 2023-yilda “katta xususiylashtirish” boshlanishi, mingga yaqin korxona savdoga chiqarilishini ta’kidlagan edilar.

“Mening katta niyatim – yurtdoshlarimiz orasida yuz minglab mulkdorlar, aksiyadorlar paydo bo‘lsin. Odamlarimiz o‘z omonatlarini investitsiya qilib, yuqori daromadlarga ega bo‘lsin...

Keyingi yilda eng yirik 10 ta kompaniya va tijorat banklarimizning aksiyalari o‘z aholimiz uchun ochiq va shaffof savdoga chiqariladi. Bu chinakam xalq IPO‘si bo‘lishiga ishonaman”. [11]

2019-yil fevral oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyuldagi PQ-3877-son “Tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ilk marotaba jahon moliya bozorlarida O‘zbekiston Respublikasining umumiy hajmi 1 milliard AQSH dollari miqdoridagi 5 va 10 yil muddatli suveren xalqaro obligatsiyalari joylashtirildi.(1-jadval).

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasining xalqaro obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag‘larni auksion savdolari o‘tkazish orqali tijorat banklari depozitlariga joylashtirish shartlari[12] (mln. AQSH dollarida)

Depozit muddati	Depozitga joylashtiriladigan mablag‘larning maksimal miqdori	Minimal yillik foiz stavkasi	Foiz to‘lovlari muddati	Depozitni qaytarish muddati
5 yillik depozit	459,6	5,25%	har 6 oyda (10-fevral / 10-avgust)	10.02.2024-y.
10 yillik depozit	429,6	5,875%	har 6 oyda (10-fevral / 10-avgust)	10.02.2029-y.
Jami	**889,2**	-	-	-

2020-yil 20-noyabrda 2 trillion so‘m hajmida suveren obligatsiyalar London fond birjasida joylashtirildi.

2-jadval: O‘zbekiston Respublikasining navbatdagi xalqaro obligatsiyalarini London fond birjasida joylashtirish shartlari[12]

Depozit muddati	Depozitga joylashtiriladigan mablag‘larning maksimal miqdori	Minimal yillik foiz stavkasi	Depozitni qaytarish muddati
10 yillik depozit	635 mln.AQSH doll	3,9%	10.07.2030-y.
3 yillik depozit	2,5 trln. so‘m	14,0%	10.07.2023-y.

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistan Respublikasining navbatdagi xalqaro obligatsiyalari ikki transhda – 635 mln. AQSH dollari miqdorida 3,9% kupon bilan 10 yil muddatga va 2,5 trln. so‘m miqdorida 14% kupon bilan 3 yil muddatga chiqarildi.

Moliya vazirligi xabariga ko‘ra, London fond birjasida joylashtirish bo‘yicha boshlang‘ich stavkalar mos ravishda 4,25 foiz atrofida va 15,25 foiz atrofida belgilangan. Shu bilan birga, xalqaro obligatsiyalarning milliy valyutada chiqarilishi valyuta xatarlarini kamaytirishga xizmat qilish bilan birga kelajakda ichki moliya bozoriga, jumladan davlat g‘aznachilik obligatsiyalari bozoriga xalqaro investorlarni jalb qilish uchun zamin yaratadi.

3-jadval: O‘zbekiston Respublikasi fond birjasida eng yuqori savdo hajmiga ega bo‘lgan TOP 10 ta emitent. (01.01.2024) [13]

№	Tarmoqlar	Bitimlar soni	Qimmatli qog‘ozlar miqdori	Savdo hajmi (mlrd so‘m)	Ulushi (%)
1.	Agrosanoat sohasi	18521	151092393	597,74	22,03
2.	Banklar	229898	12037218814	971,97	35,83
3.	Lizing	639	19638	13,90	0,51
4.	Sanoat	36798	4987566	108,45	4,01

5.	Aloqa	20816	6068444	37,01	1,36
6.	Sug‘urta	31819	15709897105	77,23	2,85
7.	Qurilish	20085	3300979	17,76	0,65
8.	Transport	2579	555198	66,54	2,46
9.	Energetika	22697	6819617	119,45	4,40
10.	Boshqalar	28018	160586651	702,69	25,90
	Jami	**411870**	**28080546405**	**2712,75**	**100,0**

2023-yilda birja savdosi iqtisodiyotning 10 xil sektori tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshirildi. Eng ko‘p bitimlar bank va sanoat tarmoqlari emitentlarining qimmatli qog‘ozlari bilan qayd etildi. Bank sektori emitentlarining qimmatli qog‘ozlari bilan 229898 ta bitim tuzildi, bu birja operatsiyalari umumiy sonining 55,82 foizini tashkil etadi. Sanoat sektorining 36798 emitentining qimmatli qog‘ozlari bilan 12 ta bitim tuzildi (birja operatsiyalari umumiy sonining 8,93%). Bank sektorining qimmatli qog‘ozlari birja operatsiyalari umumiy hajmining 35,83 foizini tashkil etdi. Mazkur soha emitentlari bilan tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 971,97 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Boshqa tarmoqlar emitentlarining qimmatli qog‘ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi 702,69 mlrd. so‘mni tashkil etdi, bu umumiy birja hajmining 25,90 foizini tashkil etdi. Agrosanoat va energetika sohalaridagi aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog‘ozlari bilan tuzilgan bitimlar mos ravishda 597,74 milliard va 119,45 milliard so‘mni tashkil etdi. Bitimlarning eng kichik hajmi qurilish va lizing sohasidagi qimmatli qog‘ozlar bilan mos ravishda 17,76 milliard va 13,90 milliard so‘m miqdorida qayd etildi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilganlardan ko‘rish mumkinki, mamlakatimizdagi tijorat banklarining moliya bozoridagi faoliyati muvofaqqiyatli rivojlanib, o‘sish sur’atlarini yaxshilashda davom etib kelmoqdalar.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Shuni e’tirof etish joizki, mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘i bo‘lmish bank tizimimiz bugungi kun zamon talabiga javob berishi uchun o‘z faoliyatida zamonaviy operatsiyalarni, ayniqsa moliya bozorida operatsiyalarni tashkil etish va uni takomillashtirish birinchi darajali dolzarb masala hisoblanadi. Shunday zamonaviy sharoitda moliyaviy bozordagi operatsiyalari asosida bank daromadini oshirish, xususan tijorat banklarining mablag‘lari manbasini kengaytirish, qimmatli qog‘ozlar bilan faol aktiv va vositachilik operatsiyalarini joriy etilishi eng muhim masala ekanligi shubhasiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-291-son qarorida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-90-son qarorida tutilgan imtiyozlarning amal qilish muddatini 2028-yil 31-dekabrga qadar uzaytirish, soliq to‘lovchining soliq davri davomida jami mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining yuz baravarigacha bo‘lgan miqdordagi ish haqi va boshqa daromadlaridan mahalliy fond bozorida emissiya qilingan qimmatli qog‘ozlarni sotib olish uchun shaxsiy investitsiya hisobvarag‘iga yo‘naltiriladigan daromadlarini ularni o‘n ikki oy ichida qaytarib olmaslik sharti bilan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ozod qilish shartlari belgilab qo‘yildi. [14]

Bundan tashqari qarorda minoritar aksiyadorlar va investorlar huquqlarini himoya qilish hamda ularni kapital bozoriga jalb etishni rag‘batlantirish maqsadida:

a) 2023-yil 1-oktyabrdan boshlab:

- davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan korxonalarning aksiyalari fond bozorida ommaviy taklif qilish orqali joylashtirilgandan so‘ng kamida yetti yil davomida mazkur korxonalar sof foydasining kamida 30 foizi dividend to‘lashga yo‘naltirish;
- davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan korxonalarga xizmat ko‘rsatuvchi anderrayterlarning xizmat haqi qimmatli qog‘ozlar rejalashtirilganga nisbatan qimmatroq va (yoki) ko‘proq joylashtirilganligi natijasida shartnomada kelishilgan miqdordan oshgan hollarda, shartnoma boshlang‘ich narxini 10 foizdan ortiqqa oshirmaslik to‘g‘risidagi cheklovni bekor qilish tartibi o‘rnatildi.

Bulardan kelib chiqib, ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda qariyb 100 mingdan ortiq ma’suliyati cheklangan jamiyatlar o‘z mablag‘lari va bank kreditlari hisobidan rivojlanmoqda. Qimmatli qog‘ozlar bozorining a’zolarini kengaytirish, shuningdek respublikaning xo‘jalik yurituvchi subyektlarining umumiy sonida muhim ulushni egallagan ma’suliyati cheklangan jamiyatlariga faoliyatini rivojlantirish korporativ obligatsiyalar chiqarish ruxsat berish zaruriyati paydo bo‘lmoqda.

Shu maqsadda O‘zbekistonning yirik tijorat banklari investitsion faoliyatni universallashtirishni oshirish, bank biznesining daromadliligini oshirish va mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun investitsiyalar ko‘lamini kengaytirish maqsadida qimmatli qog‘ozlar investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish borasida boy xorijiy tajribani yanada kengroq faoliyatlarida tadbiq etishlari lozim.

Investitsiya faoliyatining qimmatli qog‘ozlar bilan ishlash potensialidan foydalanish hajmini oshirish jarayonida mamlakat tijorat banklari quyidagilarga intilishlari kerak:

- tijorat bankining mablag‘larini boshqa qimmatli qog‘ozlarga investitsiya qilmasdan,o‘zlarining qimmatli qog‘ozlarini yoki korxonalar aksiyalarini chiqarish orqali pul mablag‘larini jalb qilish,
- qimmatli qog‘ozlar portfelini doimiy ravishda diversifikatsiya qilish. Bankning investitsion portfeli hajmi qanchalik ko‘p jihatdan diversifikatsiya qilingan bo‘lsa; sanoat tomonidan; hududlar bo‘yicha; qimmatli qog‘ozlar turlari bo‘yicha; shartlar va boshqalar bo‘yicha, uning daromadlari yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarga barham berishi ehtimoli ko‘proq.
- qimmatli qog‘ozlar bozorida banklarning faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, turli regulyatorlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar darajasini oshirish va moliya bozorida rivojlantirishda ularning ishtirokini kengaytirish va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilganlardan ko‘rish mumkinki, mamlakatimizda tijorat banklari moliyaviy barqarorligini oshirish orqali aholini va umuman iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi muvofaqqiyatli rivojlanib, ularning o‘sish sur’atlari yaxshilab kelmoqda. Shuningdek, ko‘rib o‘tilgan muammolarni hal etish, moliya bozoridagi moliyaviy mablag‘lardan foydalanishni tijorat banklari orqali kengaytirish, ular orasidagi raqobatbardoshlikni yanada kuchaytirishga va banklar faoliyatining barqarorligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoniga 1-ILOVA. 21-fevral, 2024-yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so‘zi. 29-dekabr. 2018-yil.
3. Toymuxamedov, I. R. ., Norov, A. R. ., Ibodullayeva, M. T. qizi ., Bekmurodova, G., & Farmanova, U. A. qizi . (2023). Prospects of Implementing Islamic Financial Mechanisms to Uzbekistan. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 3(2), 34–41. Retrieved from https://www.inovatus.es/index.php/ejbsos/article/view/1443
4. Alimov I.I. Xusanboyev A.G‘. Ikramov A.I. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari O‘quv qo‘llanma. T.: TDIU 2010. 214 b.
5. Гиблова Н.М. Тенденции и перспективы развития инвестиционных операций коммерческих банков на фондовом рынке России. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва, 2013. – 26 с.
6. Банковское дело. Учебник / Под ред. О.И. Лаврушина. 13-е изд. – М.: КНОРУС, 2020. – 632 с.)
7. Toshmatov Sh.A. O‘zbekiston xalqaro obligatsiyalarining jahon moliyaviy bozorlarida joylashtirilishi: risk va prognozlar. http://review.uz/oz/post/zbekiston-xalaro-obligatsiyalarining-jaon-moliyaviy-bozorlarida-joylashtirilishi-risk-va prognozlar?q=%D0%A2%D0%BE%D1%88%D0%BC%D0%B0%D1%82%D0%BE%D0%B2
8. А.Жалилов. Молия бозори орқали банклар молиявий ресурсларини ошириш имкониятлари. International Journal of Finance and Digitalization. www.ijfd.uz. ISSN: 2181-3957 Vol. 2 Issue 04, 2023.
9. Toymuxamedov, I. R., Norov, A. R., Abdurakhmanova, M. M., Kamilova, I. X., & Bazarova, N. R. (2022). The Role of Bank Investment Loans in Increasing the Export Potential of Uzbekistan Enterprises. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 5, 356-361.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli Farmoni.
11. https://daryo.uz/k/2022/12/23/xalq-iposi-aslida-nima-unda-oddiy-aholi-va-kompaniyalar-qanday-foyda-koradi?ysclid=lv4s19l4uu351267549
12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari, 2020-yil.
13. “Toshkent” Respublika fond birjasi yillik hisoboti. 2023-yil
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentyabrdagi “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-291-son qarori.

AGRAR TA'LIM TIZIMIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

UDK: 338.24:37c (c52)

Boltayev Nurali Shiramatovich
I.f.f.d. (PhD), Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti

Beglayev Uchqun Xurramovich
I.f.f.d. (PhD), Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti

Abdiyev Izzat Risqiboyevich
Toshkent davlat agrar universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada agrar ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llari ko'rib chiqildi va ta'lim muassasalarida malakali kadrlar tayyorlashning muhim jihatlariga e'tibor bergan holda, ularni bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, respublikamizda agrar ta'lim tizimida boshqaruv faoliyatini rivojlantirish masalalari haqida tahliliy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, oliy ta'lim, mehnat bozori, kadrlar tayyorlash, rivojlantirish, agrar ta'lim, boshqarish, yo'nalish, strategiya.

Abstract: This article examines ways to improve management efficiency in the agricultural education system and, paying attention to important aspects of training qualified personnel in educational institutions, makes proposals and recommendations for their elimination. Analytical information on the development of management activities in the agricultural education system in our republic is also presented.

Key words: education system, higher education, labor market, personnel training, development, agricultural education, management, direction, strategy.

Аннотация: В данной стате рассмотрены пути повышения эффективности управления в системе аграрного образования и уделив внимание важным аспектам подготовки квалифитсированных кадров в образовательных учреждениях, сделаны предложения и рекомендатсии по их устранению. Также представлена аналитическая информатсия о развитии управленческой деятелности в системе аграрного образования в нашей республике.

Ключевые слова: система образования, высшее образование, рынок труда, подготовка кадров, развитие, аграрное образование, менеджмент, направление, стратегия.

KIRISH

Jahonning rivojlangan davlatlarida keyingi yillar davomida aholining, ayniqsa, yoshlarning qishloqdan shaharga ko'chishi kuzatilishi natijasida urbanizatsiya jarayoni jadallashib bormoqda. Bu esa agrar sohani yetarli darajada mehnat resurslari bilan ta'minlash muammosini keltirib chiqaradi. Ushbu muammo, o'z navbatida, iqtisodiyotning agrar sohasida ishchi kuchi tanqisligini keltirib chiqarishi va mehnat unumdorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agrar sohada kadrlar muammosining vujudga kelishi kelgusida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligini oshirish, tuproq sifati va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, zararkunandalar, kasalliklar va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq og'ir ekologik sharoitlarga chidamli ekin navlarini yaratish, yerlar degradatsiyaga qarshi kurash, iqlim o'zgarishiga moslashish, tuproq unumdorligini oshirish masalalarini hal etishda malakali kadrlar tayyorlash hududlarning iqtisodiy rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega. Buning uchun, agrar oliy ta'lim muassasalarini boshqarish strategiyasini takomillashtirish, akademik va moliyaviy mustaqillikdan samarali foydalanish, rahbar va pedagog kadrlar ish samaradorligini oshirish, ta'lim sifati va o'quv jarayoniga bog'liq bo'lgan o'quv va infratuzilma elementlarini integratsiyalash, tezkor rivojlanish va raqobatlashish davrida sifatni ta'minlash mexanizmlarini joriy etish orqali agrar oliy ta'lim muassasalarini boshqarish samaradorligini oshirishni talab etadi.

Shunday ekan, mamlakatimizda ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va isloh qilish, mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlash, agrar sohaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib,

o‘quv jarayonini tashkil etgan holda yuqori sifatli mahsulot yaratish va unumdorligiga erishish, ya’ni innovatsion samaradorlikka erishish ugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Ilmiy tadqiqotimizning maqsadi – agrar oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish va innovatsion boshqarish mexanizmlarini shakllantiruvchi omillarni tadqiq qilish hamda uning nazariy jihatlarini tahlil qilish orqali ilmiy xulosa va tavsiyalar shakllantirishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Agrar sohani rivojlantirishda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini ish bilan bandlik darajasini oshirish kabi dolzarb masalalarni hisobga olib, oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Albatta, agrar sohani rivojlanishida tabiiy omillar ta’siri yuqori ekanligi, yer va suv bilan bog‘liq bo‘lgan omillar ta’sirini hisobga olishni taqozo etadi. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarga dars mashg‘ulotlarini olib borayotgan professor-o‘qituvchilar tomonidan mehnat bozorida kuchli raqobat muhiti shakllanganligini ta’kidlashi muhim hisoblanadi. Ayniqsa, agrar soha uchun kadrlar tayyorlayotgan oliy ta’lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari o‘rtasida hamkorlik ishlarini jadallashtirish, agrar sohada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, inson resurslarini rivojlantirish va uning salohiyatidan samarali foydalanish, ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish, hududlarni rivojlantirish istiqbollarini hisobga olgan holda ilg‘or xorijiy tajriba va agrotexnologiyalar bo‘yicha yetarli bilim va malakalarga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlash hamda kafolatli mehnat bozorini shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-iyuldagi “Agrar sohada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-216-sonli qarori qabul qilindi [1]. Mazkur qaror bilan Agrar sohada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash hamda uning samaradorligini oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ham tasdiqlandi hamda agrar oliy ta’lim muassasalarini samarali boshqarishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, agrar sohada ilm-fan-ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish, hududlarni rivojlantirish istiqbollarini hisobga olgan holda ilg‘or xorijiy tajriba va agrotexnologiyalar bo‘yicha yetarli bilim va malakalarga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida OO‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyuldagi “Agrar ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi PQ-4795-son qarori [2], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-dekabrdagi 788-son “Agrar ta’lim tizimining 2030-yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi [3] qarorida belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish orqali qishloq xo‘jaligi sanoat darajasiga olib chiqish hamda sohaga yuqori malakali tayyorlash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

N.Kononets ham o‘z izlanishlarida oliy ta’lim tizimida axborot texnologiyalarni tadbiq etish va internet tizimidan foydalanish kerakli ma’lumotlarni onlayn tarzda olish imkonini sayt yaratishga imkon beruvchi resurslarni egallashi lozimligini ko‘rsatib o‘tgan [4]. Bizning fikrimizcha, ta’lim tizimida kompyuter bilan integratsiyalashgan kurslarni yaratish, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvini raqamlashtirish, elektron kutubxonalar, ma’lumotlarni tahlil qilish, saqlash, qimmatlilik darajasini farqlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish kadrlarga quyiladigan talablarning asosini ta’minlash imkoniyati ta’lim tizimining o‘zida shakllanishiga zamin yaratilar edi.

S.Engler va M.Kretzer o‘z tadqiqotlarida ta’limni olishda ijtimoiy, iqtisodiy himoya zarurligi, qishloq xo‘jaligida ta’lim jarayonlarini olib borishda kundalik hayotda mavjud muammolar bilan uzviy bog‘lash hamda rivojlangan qishloq xo‘jaligi malakatlari bilan taqqoslash muhim qadam hisoblanadi [5]. Umuman olganda bu fikrdan kelib chiqib tahlil qiladigan bo‘lsak, rivojlangan mamlakatlar qishloq xo‘jaligini ta’lim bilan bog‘lash, iqlim sharoitimizga mos texnologiyalarni tahlil qilib borsak, kadrlarda shu orqali ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyat yaratilar edi.

Shuningdek, ta’lim tizimida malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim muassasalari jozibadorligini oshirish va boshqa masalalari bo‘yicha mamlakatimiz iqtisodchi olimlari ham ta’lim tizimini rivojlantirish, mavjud muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha o‘z tadqiqotlarini olib borishgan.

Jumladan, O.S.Qahhorov o‘z ilmiy izlanishlarida iqtisodiyot kafedralari boshqaruv jarayoni samaradorligining integral baholash uslubini hamda kadrlar tayyorlashning boshqaruv samaradorligi va ularning iqtisodiyotga ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, kasb-hunar ta’lim tizimi bitiruvchilarini ishga joylashtirish, oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishi bo‘yicha iqtisodiy faol aholining yalpi hududiy mahsulotga ta’siri hisoblab chiqilgan [6]. Fikrimizcha, boshqaruvda kadrlar tayyorlashni asosiy vazifa qilib belgilansa, ularni ishga joylashtirilishi, sohalar bo‘yicha hududlar talabi o‘rganilishi natijasida ta’lim tizimidagi asosiy muammolarni vazirliklar, ishlab chiqarish korxonalari, xalqaro grant loyihalar hamda oliy ta’lim muassasalari bilan bog‘langan holda yechim topish imkoniyati yaratilar edi. Shu bilan bir qatorda ta’lim tizimini asosiy negizida mutaxassislik kafedralari yotganligi soha uchun boshqaruv tizimini yaratilishida va kadrlar uchun qo‘yilgan talablar kafedralarga asosiy ma’sulyatning tushushi, oliy ta’limda boshqaruv negizida kafedralarning o‘rni yuqori ekanligini ko‘rsatib beradi. Shu bois,

kafedra va talabalar o‘rtasida aloqalarni uzviy bog‘lash mexanizmini yaratish va ularni moddiy-ma’naviy qo‘llab quvvatlash zarur hisoblanadi.

Shuningdek, T.Z.Teshabayev ham o‘z ilmiy izlanishlarida ta’lim tizimini boshqarishda klaster yondoshuvini joriy etish, strategik maqsadlar asosida ichki innovatsion salohiyatni ta’lim jarayoniga to‘liq jalb etish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning uslubiy yondashuvi davlat boshqaruvi takomillashuviga uyg‘un holda oliy ta’lim tizimining o‘zaro bog‘liqligini aniqlash bo‘yicha o‘z takliflarini ishlab chiqqan [7]. Bizning fikrimizcha, ta’lim tizimida boshqaruvda innovatsiyani kiritish, tizimni raqamlashtirish orqali ta’lim sifatini yaxshilash, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish, zamonaviy ilm-fan texnologiyalarini qo‘llash shu bilan bir qatorda talabalarda mustaqil fikr mulohaza yuritishni shakllantirish imkoni paydo bo‘ladi.

A.O.Ochilov o‘z tadqiqotida zamonaviy innovatsion iqtisodiyotda menejment tamoyiliga muvofiq “Butun umr davomida ta’lim” (“life-learning”) konsepsiyasiga o‘tish va ta’lim tizimida fanlar sonini optimallashtirish, OTMlarida o‘qish muddatini bir yilga qisqartirish asosida bakalavrlar va magistrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish, oliy ta’lim sifatini oshirishni boshqarishning ko‘p bosqichli modeli taklif etilgan [8]. Fikrimizcha, tajriba va joriy etish mexanizmining tenglikda qo‘llanilishi ta’lim tizimini isloh qilish bilan bir qatorda uning rivojlanishiga yo‘l ochib beradi. Shu bois, rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi ostida mamlakatimizga mos ta’lim tizimini qo‘llashimiz kadrlar tayyorlashda ularning sifatini, bilimini, dunyoqarashini oshirishga zamin yaratiladi.

J.O.Kucharov o‘z ilmiy izlanishlarida qishloq xo‘jaligida talab etiladigan kadrlar soni me’yorlarini aniqlash uslubi mehnatning intensivligi, mehnat unumdorligi va mehnat tejamkor texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini hisobga olish, qishloq xo‘jaligida malakali kadrlarni tayyorlash, fan-ta’lim va amaliyot integratsiyasini ta’minlashni davlat tomonidan soliq, moliya va kredit dastaklari hamda autstaffing xizmatlarini rivojlantirish orqali rag‘batlantirish, agrar ta’lim muassasalariga yangi ta’lim shakli va usullarini samarali joriy etish maqsadida “Qishloq xo‘jaligida zamonaviy ta’lim shakllarini sinash va joriy etish markazi”ni tashkil etish va uni moliyalashtirish asosida faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklif etilgan[9]. Fikrimizcha, qishloq xo‘jaligida tayyorlanayotgan kadrlar zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishi uchun yangi ta’lim shakllari va usullarini samarali joriy etish asosida mehnat bozorida raqabatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish mumkin bo‘ladi. Ushbu ishlarni amalga oshirishda ta’lim muassasalariga xususiy sektorni jalb etish orqali ilm-fan ishlab chifqarish integratsiyasini ta’minlash, ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirish, moliyaviy resurslarni jalb etish orqali sohani jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot obyekti sifatida agrar soha uchun kadrlar tayyorlayotgan oliy ta’lim muassasalari olingan. Tadqiqotning predmeti bo‘lib, agrar oliy ta’lim muassasalarini boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish va takomillashtirish hamda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish jarayonlari hisoblanadi. Tadqiqotda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘llarini tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullari qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini zamonaviy menejment usullari yordamida takomillashtirish, boshqaruvda samaradorlikn ta’minlash, oliy ta’lim muassasi boshqaruv faoliyati xodimlarining yuqori kompetensiyaviy darajasini ta’minlash va ta’lim sifatini oshirish kabi yo‘nalishlarda izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlardan kelib chiqib, agrar oliy ta’lim muassasalariga mehnat bozori talablariga javob bera oladigan malakali kadrlar tayyorlash va boshqaruv tizimini samarali olib borish, rahbar va pedagog kadrlar mahoratini oshirish vazifasini qo‘yadi. Agrar sohani taraqqiy etishi, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini bilan ta’minlash, hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish, sifat va samaradorlikni oshirish, fermer xo‘jaliklari, tomorqa yer egalari, klasterlar faoliyatining samaradorligini oshirishda oliy va o‘rta ma’lumotli kadrlarning o‘rni alohida ekanligini ko‘rsatib beradi. Shu bois, agrar soha uchun malakali kadrlar tayyorlayotgan ta’lim muassasalari oldiga bir qator aniq strategik maqsadlarni belgilab olgan holda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

Agrar sohada kadrlar tayyorlayotgan ta’lim muassasalari boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish orqali mehnat bozori talabiga javob beradigan kadrlarni tayyorlash hamda xalqaro standartlarga mos ravishda vazifalarni belgilash zarur bo‘ladi. Shuningdek, agrar sohani o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalari quyidagi rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilab olish mumkin:

- kadrlarning salohiyatini shakllantirishda universitet reytingi va professor-o‘qituvchilar ilmiy salohiyatini optimal darajada oshirish;
- ishlab chiqarish korxonalari va kadrlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonidagi muammolarni bartaraf etish, bunda, asosan, mehnat bozorining qat’iy belgilangan talablarini chuqur tahlil qilish;

- kadrlarni tayyorlashda oliy ta’lim muassasasini boshqarishda zamonaviy menejment usullarini qo‘llash;
- kadrlar salohiyatini rivojlantirish va samaradorligini oshirish uchun, eng avvalo, agrar ta’lim tizimini SWOT-tahlilini amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Kadrlar tayyorlashda ularning salohiyatiga turli xil omillar ta’sir etish darajasiga ko‘ra, ichki va tashqi omillarga, shuningdek, olinadigan natijaga ko‘ra, ijobiy va salbiy omillarga bo‘linadi. Agrar oliy ta’lim muassasalarida ichida tayanch hisoblangan Toshkent davlat agrar universitetida malakali kadrlar tizimini samarali yo‘lga qo‘yish, rivojlantirish va boshqarishning SWOT-tahlili quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval). O‘rganishlar natijasida tizimda mavjud imkoniyatlar va unga ta’sir etuvchi salbiy tomonlar keng yoritib o‘tilib tahlil qilindi. Oliy ta’lim muassasasining ijobiy va salbiy tomonlari shuni ko‘rsatmoqdaki, universitetda hali qilinishi kerak bo‘lgan ishlar mavjudligi, agrar soha uchun tayanch OTM hisoblanishi, tarixan o‘zining qadriyatlariga ega ekanligi, shuningdek, respublikamizda o‘z nufuzini oshirish borasida yetarlicha chora-tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatlari mavjud.

1-jadval: Toshkent davlat agrar universitetida malakali kadrlar tayyorlashni rivojlantirish va boshqarishning SWOT-tahlili

	ICHKI	TASHQI
	S KUCHLI TOMONLAR	**O IMKONIYATLAR**
IJOBIY	• agrar ta’lim tizimini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotganligi, rivojlantirish islohotlarini izchil davom ettirilayotganligi va huquqiy asoslarining yaratilganligi; • agrar ta’lim muassasalarini faoliyatini yuritishda ularni boshqarishda davlat aralashuvini bosqichma-bosqich kamayayotganligi; • agrar sohaga muntazam ravishda oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarining kadrlariga ehtiyojning mavjudligi; • ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llashning imkoniyatini mavjudligini; • agrar soha aholining bandligini va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishi hamda bu orqali malakali kadrlarga ehtiyojning mavjudligi.	• yoshlarni oliy ta’limga qamrov darajasini oshirish maqsadida qabul kvotalarini oshirib borilayotganligi; • agrar ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berilib, ta’lim shakllari, usullari, ta’lim berish davomiyligini va boshqa bir qator imkoniyatlarning kengayotganligi; • agrar oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishda qabul chegarasidan kam ball to‘plagan abiturientlar uchun oshirilgan to‘lov-kontrakt miqdorini ikki baravarga kamaytirilganligi; • agrar ta’lim tizimiga davlat tomonidan e’tibor qaratilib, qo‘llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar, dasturlar qabul qilinayotganligi; • mahalliy va xalqaro moliya tashkilotlarining mablag‘larini jalb etgan holda, ta’lim tashkilotlarini moddiy-texnika ta’minotini yaxshilayotganligi.
	W ZAIF TOMONLAR	**T TAHDIDLAR**
SALBIY	• moddiy-texnika bazasining eskirganligi; • agrar ta’lim muassasalarini rivojlantirish uchun zaruriy iqtisodiy mexanizmlarning takomillashmaganligi; • ta’lim muassasalarini zamonaviy menejment tamoyillari asosida boshqarishning aniq mexanizmlarining mavjud emasligini; • mehnat bozoriga kadrlar tayyorlashda ish beruvchi tashkilotlar bilan ta’lim muassasalarini uzviy integratsiyasi ta’minlanmaganligi; • ta’lim muassasalari va asosiy ish beruvchilar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarining takomillashmaganligi; • agrar ta’lim muassasalari abiturientlarni o‘qishga jalb etishning jozibador usullaridan foydalanmasligini; • agrar ta’lim muassasalari tomonidan kadrlar tayyorlashda marketing usullaridan foydalanish darajasining pastligi.	• bugungi kun yoshlari asosan iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya, pedagogika, xorijiy tillar yo‘nalishlarida o‘qishga qiziqish darajasining oshib borayotganligi; • ta’lim berish jarayonida laboratoriya jizohlarining yangilanmaganligi; • mehnat bozorida agrar ta’lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlarga talabning kamayib borishi; • yuqori malakali kadrlar tayyorlashda nodavlat va xususiy oliy ta’lim tashkilotlarining ko‘payib borayotganligi; • akademik va moliyaviy mustaqillik berilgan ta’lim muassasalarida ham agrar soha bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilayotganligi; • barcha sohalarda boshqaruv jarayoni raqamlashtirish asosida tashkil etilayotganligi bois kadrlarga talabning kamayib borishi.

Manba: Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlangan.

SWOT-tahlili nafaqat agrar oliy ta’lim muassasalarining faoliyatidagi ichki - tashqi va ijobiy tomonlarini shuningdek, salbiy omillar kuchli hamda zaif tomonlari yoki imkoniyat va tahdidlarini ko‘rsatadi, balki sohada o‘zaro raqobatlasha olish imkoni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash hamda boshqarish tizimi orqali erishish mumkin bo‘lgan vazifalarni hal etishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Agrar soha uchun kadrlar tayyorlayotgan oliy ta’lim muassasalarida malakali kadrlar tayyorlashda asosiy ta’sir etuvchi omillarni ham hisobga olish, mavjud muammolarni yaxlit bartaraf etish kerak bo‘ladi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari tomonidan mehnat bozoriga malakali kadrlar tayyorlash va boshqaruv faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishda turli ta’sir etuvchi omillar mavjud. Barcha omillar bir biriga uzviy bog‘liqligi, kadrlarga qo‘yiladigan talabning aniq bajarilishi uchun ta’lim muassasalarining asosiy vazifasini ko‘rsatib beradi. Ushbu ta’sir etuvchi omillarni alohida o‘rganish, iqlim o‘zgarishini inobatga olish, bitiruvchi kadrlarni malakali mutaxassis bo‘lib shakllanishida muhim hisoblanadi. Buning uchun, oliy ta’lim muassasasida samara va samaradorlik tushunchalariga alohida yondashuv asosida boshqaruv jarayonlarini tizimli tashkil etishga ahamiyat berish zarurdir. Oliy ta’lim muassasasining boshqarish samaradorligini aniqlaydigan asosiy resurslar, boshqaruv funksiyalarining samarali mehnati, moliyaviy resurslar, bitiruvchilarni salohiyatli kadr bo‘lishi, qisqa muddatda ish bilan bandligini ta’minlanishi, kreativ fikrlashi, mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishligi va boshqa mezonlarga bog‘liq bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasasi mehnat bozoriga raqobatbardosh malakali, inson kapitalini rivojlantirish va intellektual salohiyatga ega bo‘lgan mutaxassislar kadrlar tayyorlashda o‘zlari belgilab olgan missiyasidagi vazifalar ijrosini belgilangan muddatlarda amalga oshirishi zarur hisoblanadi. Izchil islohatlar natijasida agrar oliy ta’lim muassasalarida yetuk mutaxassislar tayyorlash jarayoniga ta’sir ko‘rsata oladigan OTM rahbar va pedagog kadrlarining o‘rnini alohida ta’kidlash lozim. Bugungi kunda ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda inson kapitalini ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olgan har bir rahbar xodim, professor-o‘qituvchilar dars mashg‘ulotlarini olib borishda o‘quv dasturidagi belgilangan vazifalarni talabalarga yetkazib bera olishi muhim hisoblanadi. Ushbu vazifalarni oliy ta’lim muassasasida to‘laqonli, sifatli amalga oshirish, zamonaviy boshqaruv usullaridan samarali foydalanish o‘zining ijobiy natijasi berib, mehnat bozoriga malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval: Oliy ta’lim muassasasida qo‘llaniladigan zamonaviy boshqaruv usullari

Usul nomi	Tavsifi
Tashkiliy-ma’muriy usuli	– bu usul orqali oliy ta’lim muassasasi ushbu sohada faoliyatni olib borish bo‘yicha qabul qilingan normativ xujjatlariga, yuqori pog‘onadagi tashkilotlarning uslubiy va axborot-direktiv xujjatlariga, stragiyalar, yo‘l xaritalar, chora-tadbirlar, loyihalar, dasturlar, boshqaruv organi tomonidan berilgan vazifalarga tayangan holda boshqaruvchilar boshqaruv obyektiga ta’sir o‘tkazadi hamda faoliyatni amalga oshiradi.
Iqtisodiy-rag‘batlantirish usuli	– bu usul orqali ta’lim sifati va o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish, OTMning moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash, mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ish beruvchi tashkilotlar bilan bozor mexanizmlari asosida manfaatli hamkorlik qilish, tizimni rivojlantirish, rahbar va pedagog kadrlarni iqtisodiy tomondan qo‘llab-quvvatlash qaratilgan. OTMni samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda eng maqbul variantlarni tanlab olish, xizmat ko‘rsatish sohasini ilg‘or yutuqlarini ko‘rsatib berish, xodimlarni rag‘batlantirish orqali yakunda mehnat bozoriga malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni o‘z ichiga oladi.
Ijtimoiy-psixologik usuli	– ushbu usul orqali oliy ta’lim muassasasi ko‘zlangan missiyasiga erishishda rahbar va pedagog kadrlarning barkamol shaxs sifatida rivojlantirish, boshqaruvda ularni ishtirokini ta’minlash, jamoaning ijtimoiy rivojlanishi, ma’naviy rag‘batlantirish, tashkilotda sog‘lom raqobat muhitini yaratish orqali yuksak salohiyatga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlashga asoslangan. Professor-o‘qituvchilar muntazam ravishda o‘zini rivojlantirishi va shu asosda bo‘lajak kadrlarga ta’lim olayotgan mutaxassisliklari bo‘yicha yetuk kadr bo‘lishiga, sohani rivojlantirishga oid qarorlar qabul qila oladigan bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi.

Manba: Muallif ishlanmasi.

Shu jihatdan kelib chiqib, ta’lim jarayonlarini sifatini oshirish va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uchun moddiy-texnik ta’minot yuqori darajada bo‘lishi zarurdir. Shu bois, mehnat bozoriga raqobatbardosh malakali kadrlar tayyorlashda oliy ta’lim muassasasi rahbar va pedagog kadrlari yuqorida sanab o‘tilgan zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalangan holda ish jarayonlari va o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, faoliyatning ichki xususiyati uning ruhiy tartibga solish jarayonlari va mexanizmlarini, uning tuzilishi va mazmunini, uni amalga oshirishning operativ vositalarini tavsiflashni o‘z ichiga oladi. Talabalarda kelgusi faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari-bu maqsad, motivatsiya, axborot asosi, qaror qabul qilish, reja, dastur, subyektning individual psixologik xususiyatlari va jarayonlar (kognitiv, hissiy, irodali), shuningdek, nazorat qilish mexanizmlari kabi psixologik shakllanishlar, tuzatish, ixtiyoriy tartibga solish kabi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

muhim vazifalarni shakllantirish zarur hisoblanadi. Har bir shaxs o‘z faoliyatini tizimli amalga oshirishining asosiy vositasi tinimsiz mehnat, zamonaviy bilimlarni egallash va uni amaliyotga joriy etish hamda to‘xtovsiz harakatlar majmuidir.

Zamonaviy menejment va ilm-fan yutuqlaridan foydalanishga asoslangan harakatlar tizimining kundalik qo‘llanilishi tashkilot faoliyati samaradorligiga sezilarli tarzda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, ta’lim tashkilotlarida ham boshqaruvni zamonaviy usullar yordamida olib borilishi hamda malakali kadrlar tayyorlashda quyidagilar alohida ahamiyat kasb etadi:

- OTM faoliyatini prognoz qilish va rejalashtirish, rivojlanish strategiyalarni ishlab chiqish;
- Yangi ta’lim yo‘nalishlari tashkil etish va mavjudlarini optimallashtirish;
- Malakali kadrlarni tayyorlash orqali sifat standartlariga muvofiq mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish;
- Kadrlarni mehnat bozorida joy-joyiga oqilona ko‘yish, vazifalarni taqsimlash, ish beruvchilar bilan muntazam hamkorlik qilish;
- Ta’limga oid ma’lumotlardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- Har tomonlama nazorat, tahlil, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishni ta’minlash;
- OTM rahbar va pedagog xodimlarining malakasi va mahoratini oshirib borish va boshqalar.

Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufida faoliyat olib borayotgan hamda respublikamizda agrar soha uchun kadrlar tayyorlashni o‘z zimmasiga olgan oliy ta’lim muassasalarida 26 mingdan ortiq talabalar tahsil olayotganligi ko‘rishimiz mumkin (3-jadval). Ushbu talabalarni bugungi kunda agrar sohada amalga oshirilayotgan izchil islohotlarni samarali joriy etish, mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda faoliyat olib borayotgan qishloq xo‘jaligini subyektlariga oliy ma’lumotli kadrlarni o‘z sohasining yetuk mutaxassislarini tarbiyalashda o‘zlarining yuksak bilim va tajribalarini 1200 dan ortiq professor-o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatmoqda.

3-jadval: Qishloq xo‘jaligi vazirligi tasarrufidagi oliy ta’lim muassasalarining faoliyati to‘g‘risida MA’LUMOT

№	Amalga oshirilgan chora-tadbirlar nomi	Jami			Toshkent davlat agrar universiteti		Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti		Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti		Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti		Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti	
		2020-yil	2022-yil	farqi, +/-	2020-yil	2022-yil	2020-yil	2022-yil	2020-yil	2022-yil	2020-yil	2022-yil	2020-yil	2022-yil
1	Ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari soni	98	131	33	58	81	16	41	31	51	43	61	19	34
	shundan: ta’lim yo‘nalishlari soni	59	76	17	25	44	16	19	21	28	20	34	19	24
	magistratura mutaxassisliklari soni	39	55	16	33	37	11	22	10	23	15	27	0	10
2	OTMda faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar soni	1154	1280	126	565	571	52	81	161	182	285	297	91	149
3	Oliy ta’lim muasssasalarida talabalar soni	19660	26503	6843	8992	10636	383	1491	2726	3452	5374	7694	2185	3230
	Shundan, bakalavrlar soni	17153	27784	10631	8382	13207	313	1322	2570	3257	3703	7366	2185	2632
	Shundan, magistrlar soni	1055	1182	127	610	397	70	169	156	195	219	315	0	106
4	OTMning ilmiy salohiyati	43,3	46,2	3,0	62,6	66,2	45	47	39,2	42,7	43,8	45,1	25,8	30,2
5	OTMda bitiruvchilar soni	3055	2489	-566	1385	972			569	482	1101	702		333
6	OTMlarda talabalarning ishga joylashishi ko‘rsatkichlari	83,7	86,8	3,1	87	91			79	84	85	87		85,1

Manba: Oliy ta’lim muassasalari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, mazkur oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyati o‘rtacha 46,2% ni tashkil etadi. Respublikamiz ta’lim tizimidagi amalga oshirilayotgan islohatlarning tub zaminida mehnat bozoriga kirib kelayotgan yangi ish va xizmat turlarini samarali ijro eta oladigan kadrlar bajarishini inobatga olib, 2020-yilga nisbatan 2022-yilda agrar ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari soni 98 tadan 131 taga yetganini yoki 133% ga ortganini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, agrar ta’lim tizimida ham bir qator ijobiy natijalar amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi.

Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga ko‘maklashish, qishloq xo‘jaligida muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish asosida sohani rivojiga o‘z hissasini qo‘shish maqsadida bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lgan bitiruvchi kadrlar tayyorlash ko‘rsatkichi ham 2020-yilga nisbatan 2022-yilda 134 foizga ko‘payib, qishloq xo‘jaligida sifatli mahsulot yetishtirish, eksportni kengaytirish, soha oldidagi muhim vazifalarni amalga oshirish uchun mehnat bozoriga malakali kadrlar tayyorlanmoqda.

So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va ustuvor vazifalarning belgilanishi natijasida zamonaviy dunyo qarashga ega kadrlarga bo‘lgan talabning ortishi natijasida OTMlar ham ta’lim tizimini jahon standartlari asosida o‘tishga moslashtirdi. O‘zbekistonda kadrlar tayyorlashning milliy modeli murakkab ijtimoiy sohada jahonda erishilgan barcha yutuqlarni to‘liq o‘zida qamrab olgan holda amalga oshirish zarur hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarda ta’lim tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

Agrar ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishda tashkiliy-huquqiy jihatlariga alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Bunda, ta’lim muassasalarining asosiy vazifalari va uzoq muddatga mo‘ljallangan aniq strategiyalari belgilab olishni taqozo etadi. Shuningdek, ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlardan kelib chiqib, ko‘zlangan maqsadga erishishda asosiy vazifalarni belgilab olish zarur.

Quyidagi vazifalar agrar ta’lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashning asosiy vazifalarini hal qilish uchun ta’lim muassasalari tomonidan amalga oshirilishi lozim hisoblanadi:

1) Malakali kadrlar tayyorlashning aniq maqsadini belgilash:

- agrar ta’lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashning aniq vazifalari va maqsadlarini belgilash;
- jahon andozalari doirasida tizimni rivojlantirishning uzoq va qisqa muddatli strategiyasini ishlab chiqish;
- malakali kadrlar tayyorlashda ta’sir etuvchi omillarni bashorat qilish va prognozlash.

2) Ta’limning uzviyligini boshqarish:

- boshqaruvda sohani rivojlantirishning aniq maqsadga erishishini nazorat va monitoring qilish;
- boshqaruv jarayonida erishilgan yutuqlarni baholab borish;
- oldingi va keyingi boshqaruv natijadorligini baholash;
- rahbar tomonidan tezkor qaror qabul qilish va rejalashtirishning aniqligining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;
- ilmga asoslangan holda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish hamda muntazam ravishda xorijiy tajribalarni o‘rganish;
- o‘quv jarayoni va ta’lim sifatini oshirishda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni quyi bo‘g‘inga o‘tkazish.

3) Malakali kadrlar tayyorlashda mintaqalarning iqlim sharoitini baholash:

- respublika hududlarini iqlim sharoitini hisobga olgan holda o‘quv reja va dasturlarini ishlab chiqish;
- mintaqalarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda eksport va import ko‘rsatkichlarini baholash;
- raqamli texnologiyalar asosida masofaviy va dual ta’lim berish usullarini joriy etish;
- hududlarning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish ixtisoslashuvini inobatga olish hamda hududlarga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yilning 7-iyuldagi “Agrar sohada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-216-sonli qarori. https://lex.uz/
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyuldagi PQ-4795-sonli “Agrar ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-dekabrdagi 788-sonli “Agrar ta’lim tizimining 2030-yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/
4. N.Kononets. Experience in implementing resource-based learning in agrarian college of management and law poltava state agrarian academy.// Turkish Online Journal of Distance Education-TOJDE April 2015 ISSN 1302-6488 Volume: 16 Number: 2 Article 12.: 13 p.
5. Steven Engler and Michael M. Kretzer. Agriculture and Education: Agricultural Education as an Adaptation to Food Insecurity in Malawi.// Universal Journal of Agricultural Research 2(6): 224-231, 2014 ttp://www.hrpub.org DOI: 10.13189/ujar.2014.020607.: 9 p.
6. O.S.Qahhorov. Ta’lim tizimida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida).//Avtoreferat. 08.00.13 – Menejment ixtisosligi. Toshkent-2017.: 52-bet.
7. T.Teshabayev. Oliy ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida boshqarishni takomillashtirish.// Avtoreferat. 08.00.13 – Menejment ixtisosligi. Toshkent-2019.: 83-bet.
8. A.Ochilov. Yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish.// Avtoreferat. 08.00.13 – Menejment ixtisosligi. Toshkent-2018.: 76-bet.
9. J.Kucharov. Qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish sharoitida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish yo‘llari.// Avtoreferat. 08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti ixtisosligi. Toshkent-2021.: 52-bet.
10. Toshboev A.J., Siddikov Z.T., Boltaev N.Sh. Prospects for the training development of qualified personnel in the agricultural education system: a case study from Tashkent State Agrarian University, Uzbekistan. // E3S Web of Conferences Volume 389 (2023) Ural Environmental Science Forum “Sustainable Development of Industrial Region” (UESF-2023) Chelyabinsk, Russia, April 25-28, 2023.

O‘ZINI O‘ZI BAND QILGAN SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI JILOVLASH MASALALARI



Davranov Iskandar Jumayevich
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar va ular faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari, davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi, mehnat faoliyatini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Shuningdek, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyotga ta’siri o‘rganilgan. Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, mamlakatimizda soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish borasida takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar, rasmiy daromad, minimal soliq, o‘ziga o‘zi xo‘jayin, minimal hujjatlar, ishlar (xizmatlar) buyurtmachilar, maxsus mobil ilova, soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning ma’lumotlar bazasi (registr), o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risida ma’lumotnoma.

Abstract: In this article, self-employed persons and the legal basis of organizing their activities, the procedure for registration in the state tax service, and the specific features of the implementation of labor activities are studied. Also, the impact on the shadow economy through improved taxation of the self-employed has been studied. Based on the above-mentioned circumstances, proposals have been made to reduce the level of the hidden economy by improving the tax administration in our country.

Key words: Self-employed persons, official income, minimum tax, self-employed, minimum documents, works (services) customers, special mobile application, taxpayer’s personal cabinet, database (registry) of self-employed persons, self-employed person Certificate of registration as.

Аннотация: В данной статье изучаются самозанятые лица и правовые основы организации их деятельности, порядок постановки на учет в государственной налоговой службе, особенности осуществления трудовой деятельности. Также изучено влияние на теневую экономику за счет улучшения налогообложения самозанятых. На основании вышеизложенных обстоятельств выдвинуты предложения по снижению уровня теневой экономики за счет совершенствования налогового администрирования в нашей стране.

Ключевые слова: Индивидуальные предприниматели, официальный доход, минимальный налог, самозанятые, минимальные документы, заказчики работ (услуг), специальное мобильное приложение, личный кабинет налогоплательщика, база данных (реестр) самозанятых лиц, самозанятое лицо Свидетельство о постановке на учет в качестве.

KIRISH

Jahonda bo‘layotgan holatlarni kuzatadigan bo‘lsak, korxona ishchisi tungi vaqtda litsenziyasiz taksi haydashning ikkinchi ishi bor, chilangar mijozga buzilgan suv quvurini tuzatadi, naqd pul oladi, lekin daromadini soliq organiga deklaratsiya qilmaydi, giyohvand moddalar sotuvchisi ko‘chaning bir burchagida bo‘lajak mijoz bilan savdo-sotiq bilan shug‘ullanadi. Bularning barchasi yashirin yoki yashirin iqtisodiyotga misol bo‘lib, soliq organlarida va davlat statistika xodimlari nazaridan chetda qoladigan qonuniy va noqonuniy faoliyatlar yiliga trillionlab dollarlarni tashkil etadi.

Shu bois o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlovchi shaxslar o‘z daromadlarini kam hisobot berish uchun maosh oluvchilarga qaraganda ko‘proq imkoniyatlarga ega. Shu sababli mazkur yo‘nalishda o‘zini o‘zi band qilganlar yashirin iqtisodiyotga uchraydi. Aslida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar haqida batafsil to‘xtalib o‘tish joiz, deb topdik.

O‘zini o‘zi band qilganlar – bu xizmatlar ko‘rsatishda mustaqil ravishda shaxsiy mehnati bilan ishtirok etadigan, mehnat daromadini olish uchun ish olib boruvchi shaxslardir.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar va ular faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktyabrdagi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-son Qonuni [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4742-son [2], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi “2019-yilda aholi bandligini ta’minlash va yangi ish o‘rinlarini tashkil etish bo‘yicha davlat buyurtmasi to‘g‘risida”gi PQ-4227-son [3] hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdagi “O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 806-son qarorlari hisoblanadi [4].

Mamlakatimizda 2021-yil 1-avgust holati bo‘yicha 68 turdagi faoliyat bilan o‘zini o‘zi band qilish mumkin bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkuch hozirga kelib 100 dan ortiq sohalarni qamrab oldi. Xohishga ko‘ra, ularning bir nechtasini tanlashlari mumkin.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida davlat soliq xizmati organlaridan ro‘yxatdan o‘tish va ular to‘g‘risida ma’lumotlar bazasi (registr) davlat soliq xizmati organlari tomonidan yaratiladi va parallel ravishda YAMMT idoralararo dasturiy-apparat kompleksida shakllantiriladigan jismoniy shaxsning shaxsiy ishga joylashishi tariziga integratsiya qilinadi hamda ularni Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tishi talab etilmaydi.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida davlat soliq xizmati organlaridan ro‘yxatdan o‘tish SXEMASI

Bosqichlar	Sub’ektlar	Tadbirlar	Ijro muddati
1-bosqich	O‘zini o‘zi band qilgan shaxs	O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun maxsus mobil ilova yoki shaxsiy kabineti orqali yoxud davlat soliq xizmati organiga kelgan holda so‘rovnomani to‘ldirish.	O‘zini o‘zi band qilgan shaxsning xohishiga ko‘ra
2-bosqich	Davlat soliq xizmati organlari	Mavjud ma’lumotlar (jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, pasport (ID-karta) seriyasi va raqami, yashash manzili to‘g‘risidagi ma’lumotlar) asosida davlat soliq xizmati organlarida o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risida matritsali shtrix kodga (QR-kod) ega bo‘lgan ma’lumotnomani yuborish.	1. Real vaqt rejimida 2. Avtomatik tarzda
3-bosqich	O‘zini o‘zi band qilgan shaxs	Maxsus mobil ilova yoki shaxsiy kabinet orqali davlat soliq xizmati organlarida o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani yuklab olish.	O‘zini o‘zi band qilgan shaxsning xohishiga ko‘ra


1-sxema: O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida davlat soliq xizmati organlaridan ro‘yxatdan o‘tish sxemasi



2-sxema: O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi

Shuningdek o‘z faoliyatida yollanma xodimlar mehnatidan foydalanishga hamda tadbirkorlik subyektlariga yollangan xodim sifatida mehnat faoliyatini amalga oshirishga haqli emas. Tashkilotlar tomonidan ushbu shaxslarni shartnoma asosida 1-martalik xizmatlar ko‘rsatish va ishlarni bajarish bo‘yicha faoliyatga jalb qilishga yo‘l qo‘yiladi. Bunda o‘zini ozi band qilgan shaxslar mehnatiga haq to‘lash ijtimoiy soliqni hisoblab chiqish obyekti hisoblanmaydi. Ushbu faoliyatni amalga oshirish natijasida olingan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘iga tortilmaydi. Bunda, ushbu shaxslarning mehnat faoliyatidan tashqari olingan daromadlari Soliq kodeksida belgilangan tartibda soliqqa tortiladi.

Davlat soliq organlarida o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun smartfon qurilmaga Play Market orqali “Soliq” mobil ilovasini yuklab olish lozim




1-rasm: “Soliq” mobil ilovasini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi


O‘zingizga tegishli familiya, ism va sharifingizni hamda telefon raqamingizni kiritish lozim. Ommaviy oferta shartlari bilan tanishib roziligingizni bildirishingiz va siz kiritgan telefon raqamiga SMS tarzda tasdiqlash kodi yuboriladi.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida “Soliq” mobil ilova orqali ro‘yxatdan o‘tkazish tartibida.

1. “Soliq” mobil ilovasining asosiy oynasida “O‘zini o‘zi band qilish” bo‘limini tanlash lozim.
2. Ommaviy oferta shartlari bilan tanishib roziligingizni bildirishingiz va siz kiritgan telefon raqamiga SMS tarzda tasdiqlash kodi yuboriladi JSHSHIRni pasportingizdan bilib olishingiz mumkin.
3. O‘zingizga tegishli jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini (JShShIR) kiritish va davom etish tugmasini bosish lozim.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



2-rasm: O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida “Soliq” mobil ilova orqali ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi

QR-kodli ma‘lumotnomani xohishga ko‘ra yuklab olib, qog‘oz shaklida chiqarib olish mumkin. Buning uchun “Ma‘lumotnoma” oynasidagi “Yuklab olish” bo‘limini tanlash lozim (ma‘lumotnoma namunasi).

Barcha tekshiruvlar muvaffaqiyatli o‘tgandan so‘ng asosiy oynadagi barcha xizmatlardan foydalanish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun mamlakatimizda soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli xil yondashuvlar ilgari surilgan holda o‘rganilgan hamda o‘rganish hukumat darajasida davom etmoqda.

Bu borada Bavariya moliya vaziri E.Guver “Germaniyada soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash istagi – tug‘ilish istagidan kuchliroqdir” [5], deganda soliqdan bo‘yin tovlashning asosiy ijtimoiy-siyosiy negizini ko‘rsatib o‘tgan edi.

O‘zbekistonlik olimlardan professorlar A.Vahobov, A.Jo‘rayevlar o‘zlarining “Soliqlar va soliqqa tortish” darsligida yashirin iqtisodiyotning ko‘rinishidan biri bo‘lgan soliqdan qochishning usullarining nazariy tahlillarini keltirib o‘tadi. Ular ta’kidlaydiki, “soliqqa oid qonunbuzilishlarning tipik ko‘rinishlaridan biri xo‘jalik subyektlari tomonidan tegishli ruxsatnomaga ega bo‘lmasdan, soliq inspeksiyalariga soliq hisobini, balans hisobotlarini topshirmasdan moliya-xo‘jalik faoliyatini yuritish hisoblanadi” [6]. Bundan tashqari, soliqdan qochishning oddiy ko‘rinishlari sifatida keltirib o‘tadiki, unga ko‘ra, “amaliyotda yirik sanoat korxonalari tomonidan pul mablag‘larini sho‘ba korxonalari orqali noqonuniy tarzda o‘zlashtirish korxona o‘ziga tegishli pul mablag‘larining ma’lum qismini sho‘ba korxonasining hisob-raqamiga o‘tkazadi. O‘z navbatida, mazkur sho‘ba korxonasi pul mablag‘larini soxta shartnomalar orqali xorijiy davlatlarga o‘tkazib beradi yoki soxta kirim-chiqim hujjatlari orqali naqd pulga aylantiriladi va o‘zlashtiriladi” [7].

O‘zbekistonlik olimlardan O.Mahkamov soliqlardan bo‘yin tovlashning huquqiy jihatlari bilan bog‘liq tadqiqotlari natijasida quyidagi ilmiy natijalarni olgan: Ya’ni, “soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlab bergan, sohaga oid iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar va milliy qonunchilik normalari qiyosiy tahlil etilgan, ulardagi ilg‘or, o‘zini oqlagan yuridik tajribani mamlakatimizda qo‘llash va shu munosabat bilan huquqiy kolliziyalarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoit yaratish bo‘yicha takliflarni asoslagan [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik kuzatish, statistik grafiklardan foydalanilgan holda qiyosiy tahlil, ma’lumotlarni guruhlash, absrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari orqali o‘zini-o‘zi band qilgan shaxslardan olinadigan soliqlarni takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni jilovlash masalalari bo‘yicha xulosa va takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirishning O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar, soliq to‘lovchi va ish buruvchi bo‘lganda, ularning mehnat faoliyatini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari bor. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdagi 806-sonli qaroriga ko‘ra, mehnat daromadi olishga yo‘naltirilgan, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko‘rsatish, ishlarni bajarish bo‘yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni mustaqil amalga oshiradigan, yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro‘yxatga olinmagan, mehnat staji hisobga olinishi va rag‘batlantiruvchi imtiyozlardan foydalanish huquqi bilan davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan jismoniy shaxslar o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolardir.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar ixtiyoriy ravishda bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida yillik ijtimoiy soliqni to‘lab, ish staji hisobini yuritish imkoniyatiga ega. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatiga 100 ta ish va xizmatlar kiritilgan.


O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar va ularning xizmatlaridan (ishlaridan) foydalanuvchilar o‘rtasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish mavzulari haqida qaror qilingan.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro‘yxatiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqi berilgan.

1-jadval: O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tgan shaxslar va ro‘yxatdan o‘tganligi uchun to‘lovini yillar bo‘yicha ma‘lumoti


Yillar	O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganlar soni	O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi uchun (BHMning baravari) to‘lovi (so‘m)	O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi uchun umumiy tushum (mln. so‘m)
2020	561 718	223 000	3 076,8
2021	693 265	245 000	42 102,8
2022	1 137 463	300 000	85 925,7
2023	1 499 671	330 000	89 442,5

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki yillar davomida aholini ko‘p qiynab kelayotgan muammolardan ishsizlik va mehnat staji hisobga olinishi bo‘yicha qariyb 1,5 mln shaxslar foydalanganini ko‘rishimiz hamda 89 442,5 mln.so‘m to‘lov bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin.



1-diagramma: O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganlar soni


Yuqoridagi o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganlar soni bo‘yicha 1-jadval va 1-diagramma ko‘rishimiz mumkinki ro‘yxatdan o‘tishlar uch yilda oshib borishi va 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 32 % tashkil qilib, bu ko‘rsatkich avvalgi 2022–2021-yillarga (64 % o‘sish bo‘lgan) nisbatan o‘sish ko‘rsatkichi 2 barobarga kamaygan. Bu esa, ro‘yxatdan o‘tuvchi shaxslarni “to‘yinish kritik chegarasi” ekanligini ko‘rsadi, bunda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxati ko‘paytirilgan.



2-diagramma: O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi uchun umumiy tushum (mln.so‘m)

1-diagrammadagi ro‘yxatdan o‘tishlar uch yilda oshib borishiga mos ravishda ularninng to‘lav summalari bo‘yicha respublika bo‘yicha ma‘lumot 2-diagrammada berilgan bo‘lib, uning qiymatini aniqlash va bashoratlash uchun 2020-2023-yillarni kodlashtirib (1-2-3 sifatida olib) trend modulini olamiz.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi uchun umumiy tushum (mln.so‘m)



3-diagramma: O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi uchun umumiy tushumi uchun trend modeli

$$y = -7517{,}2x^3 + 47501x^2 - 50858x + 13951$$
$$R^2 = 1$$

2-jadval: O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi uchun umumiy tushumi uchun 2024-2025 pagnoz

Yillar	O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi uchun umumiy tushum (mln.so‘m)	Prognoz	Minimum	maksimum
2020	3 077			
2021	42 103			
2022	85 926			
2023	89 443	89 443	89 443	89 443
2024		126 395	101 415	151 376
2025		155 913	130 158	181 668

Tahlil uchun olingan 4-yillik (2023-yil 1-dekbrgacha) ma‘lumotdan foydalanib keyingi 2 yillikni prognoz dastur yordamida ishlab chiqildi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 53-bobi (369-moddasi)da O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida yoki tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlariga ushbu daromadlar soliq davrida yuz million so‘mdan oshgan kundan e’tiboran ularga yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda soliq solinishi hamda ijtimoiy soliqni belgilangan tartibda to‘lash tartibi joriy qilindi.

Bu kiritilgan o‘zgartirish o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlarini yashirishi yoki ko‘rsatmaslik holatlari bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Bu borada esa yashirin iqtisodiyotni jilovlash maqsadida, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyatidan olingan daromadlariga bosqichma-bosqich ma’lum shartlar asosida jismoniy shaxslar uchun nazarda tutilgan ayrim soliq imtiyozlarini berilishini amaliyotga joriy qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktyabrdagi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-642-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4742-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdagi “2019-yilda aholi bandligini ta’minlash va yangi ish o‘rinlarini tashkil etish bo‘yicha davlat buyurtmasi to‘g‘risida”gi PQ-4227-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdagi “O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 806-son qarori.
5. Книга Автор: Коттке К. <<Грязные>> деньги - как с ними бороться?: Справочник по налоговому законодательст ву в области “г... Издательство: Дело и сервис, 2005 г. ISBN 5-8018-0251-7.
6. A.Vahobov, A.Jo‘rayev. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik. – T.: “Sharq” nashriyoti – 2009. 268-bet.
7. A.Vahobov, A.Jo‘rayev. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik. – T.: “Sharq” nashriyoti – 2009. 269-bet.
8. Maxkamov Otabek Muxtarovich. Soliq yoki boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari. Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2019-y. 7-26-b.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



IQTISODIY KONSENTRATSIYALARNI TARTIBGA SOLISH VA NAZORAT QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Luqmanov Sharifxon A'zam o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi mutaxassisi

Annotatsiya: Muayyan bozorda bir nechta xo'jalik yurituvchi subyektlar yoki shaxslar guruhi hukmronlik qilish darajasi sezilarli bozor kuchiga ega bo'lgan konsentratsiyasi raqobat, narxlar va umumiy bozor samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tovar va moliya bozorlarida bozorning haddan tashqari konsentratsiyasi innovatsiyalarni bo'g'ib qo'yishi, iste'molchilarning tanlovini kamaytirishi va eng muhimi raqobatni cheklanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, adolatli va samarali bozorlarni ta'minlash uchun bozor konsentratsiyasini doimiy ravishda baholash va nazorat qilish juda muhimdir. Ushbu maqola tovar va moliya bozorlarida bozor konsentratsiyasini baholash va nazorat qilishni takomillashtirish muhimligini o'rganadi va ushbu maqsadga erishish uchun asosiy strategiyalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy konsentratsiya, tovar va moliya bozorlari, shaxslar guruhi, birlashish va qo'shib olish, raqobat siyosati, narx siyosati, monopoliya, tabiiy monopoliya, tartibga solish usullari, tartibga solish mexanizmlari.

Abstract: Market concentration, defined as the degree to which more than one business entity or group of individuals dominates a given market, has significant effects on competition, prices, and overall market efficiency. Excessive market concentration in commodity and financial markets can stifle innovation, reduce consumer choice and, most importantly, limit competition. Therefore, continuous assessment and monitoring of market concentration is essential to ensure fair and efficient markets. This article examines the importance of improving the assessment and control of market concentration in commodity and financial markets, and examines key strategies to achieve this goal.

Key words: Economic concentration, commodity and financial markets, group of individuals, mergers and acquisitions, competition policy, price policy, monopoly, natural monopoly, methods of regulation, regulatory mechanisms.

Аннотация: Концентрация рынка, определяемая как степень, в которой более одного предприятия или группы лиц доминируют на данном рынке, оказывает существенное влияние на конкуренцию, цены и общую эффективность рынка. Чрезмерная рыночная концентрatsiя на товарных и финансовых рынках может задушить инноватsii, ограничить потребительский выбор и, что наиболее важно, ограничить конкуренцию. Поэтому постоянная оценка и мониторинг концентрatsii рынка необходимы для обеспечения справедливых и эффективных рынков. В данной статье рассматривается важность совершенствования оценки и контроля рыночной концентрации на товарных и финансовых z'рынках, а также рассматриваются ключевые стратегии для достижения этой цели.

Ключевые слова: Экономическая концентрация, товарный и финансовый рынки, группа лиц, слияние и поглощение, конкурентная политика, ценовая политика, монополия, естественная монополия, методы регулирования, механизмы регулирования.

KIRISH

Iqtisodiy konsentratsiya deganda, cheklangan miqdordagi xo'jalik yurituvchi subyektlar sezilarli bozor kuchiga ega bo'lgan, bu kompaniyalarga bozor kon'yunkturasi, narxlar va raqobatga ta'sir o'tkazishga imkon beradigan holatlar tushuniladi. Ushbu konsentratsiyalar qo'shilish va sotib olish, vertikal integratsiya yoki o'sish orqali sodir bo'lishi mumkin. Bozorning tabiiy va samarali ishlashi uchun ma'lum darajadagi konsentratsiya zarur bo'lishi mumkin bo'lsa-da, haddan tashqari konsentratsiyalar raqobatni bo'g'ib, bozorga kirishni cheklashi va iste'molchilar farovonligiga zarar yetkazishi mumkin.

Kapitalning to'planishi – bu qo'shimcha qiymatning bir qismini jamg'arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishidir. Bu jarayon quyidagi ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi: korxonadagi ishlovchilar soni, korxonaning ishlab chiqarish quvvati, qayta ishlanayotgan xomashyo miqdori, tovar aylanmasi hajmi, foyda hajmi.

Kapitalning to‘planishi kapitalning markazlashuvi jarayoni bilan yanada to‘ldiriladi. Kapitalning markazlashuvi – bu bir kapital tomonidan boshqa birining qo‘shib olinishi yoki bir qancha mustaqil kapitallarning aksiyadorlik jamiyati shaklida ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining o‘sishidir.

Iqtisodiy konsentratsiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri talab va taklif dinamikasiga, narx va muayyan bozordagi raqobatga ta’sir qiladi. Neft, metallar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari kabi tovar bozorlarida yuqori darajadagi konsentratsiya narxlarning manipulyatsiyasiga, bozor likvidligining pasayishiga va yangi ishtirokchilar uchun cheklangan kirishga olib kelishi mumkin. Xuddi shunday, moliya bozorlarida bir nechta institutlar o‘rtasida hokimiyatning to‘planishi tizimli xavf-xatarlarga, bozorni manipulyatsiya qilishga va adolatsiz amaliyotlarga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy konsentratsiyani tartibga solish va nazorat qilish adolatli raqobatni ta’minlash, monopolistik amaliyotlarning oldini olish va bozor samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Bir necha firma ma’lum bir soha yoki bozorda hukmronlik qilganda yuzaga keladigan iqtisodiy konsentratsiyalar iste’molchilarning xohishlariga, innovatsiyalarga va umumiy iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu maqolada iqtisodiy konsentratsiyalarni tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirish muhimligi muhokama qilinadi va ushbu maqsadga erishish uchun asosiy strategiyalar taklif etiladi.

Iqtisodiy konsentratsiyalarni baholashdagi muammolar

Iqtisodiy konsentratsiyasini to‘g‘ri baholash samarali tartibga solish va nazorat qilish uchun juda muhimdir. Biroq, bu jarayonda turli qiyinchiliklar mavjud. Muammolardan biri konsentratsiyani aniq o‘lchash uchun tegishli o‘lchovlar va ko‘rsatkichlarni aniqlashdir. Herfindal-Hirshman indeksi (HHI) va konsentratsiya nisbati kabi an’anaviy ko‘rsatkichlar, ayniqsa, murakkab va o‘zaro bog‘liq bozorlarda cheklovlarga ega. Shuning uchun ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ham bilvosita konsentratsiya ta’sirini qamrab oladigan keng qamrovli va moslashtirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish juda muhimdir.

Yana bir qiyinchilik ishonchli va o‘z vaqtida ma’lumotlarni olish. Bozor konsentratsiyasini baholash bozor ulushlari, mulkchilik tuzilmalari va savdo faoliyati to‘g‘risida batafsil ma’lumotlarga ega bo‘lishni talab qiladi. Ma’lumotlar shaffofligi cheklangan, tovar bozorlarida tartibga soluvchilar keng qamrovli ma’lumotlarni olishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Xuddi shunday, moliya bozorlarida ham ayrim operatsiyalar va bozor ishtirokchilarining shaffofligi yo‘qligi aniq konsentratsiyali tahlilga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Iqtisodiy konsentratsiyatartibga solish va nazoratni takomillashtirish

Milliy qonunchilikka asosan Iqtisodiy konsentratsiya ustidan davlat nazorati iqtisodiy konsentratsiyaga oldindan rozilik berish orqali vakolatli davlat organi tomonidan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektni qo‘shib olish yoki qo‘shib yuborish orqali qayta tashkil etishda;
- shaxs yoki shaxslar guruhi O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan aksiyadorlik jamiyati ovoz beruvchi aksiyalarining 25 foizidan ortig‘ini tasarruf etish yoxud mas’uliyati cheklangan jamiyatning yoki qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarning uchdan bir qismidan ortig‘ini tasarruf etish huquqini olganda.


Agar ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan bitimlarda ishtirok etayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlardan biri aktivlarining balans qiymati yoki oxirgi kalendar yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan tushumi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz ellik ming baravari miqdoridan ortiq yoxud ularning aktivlarining jami balans qiymati yoki oxirgi kalendar yilda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan jami tushumi bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz ming baravari miqdoridan ortiq bo‘lsa, iqtisodiy konsentratsiya ustidan davlat nazorati amalga oshiriladi (O‘RQ-850-son ,03.07.2023-yil) .

Monopoliyaga qarshi qonunlar va ularning bajarilishini kuchaytirish hukumatlar monopoliyaga qarshi qonunlarni qayta ko‘rib chiqishlari kerak, ularning mustahkamligi va iqtisodiy konsentratsiyaning zamonaviy shakllarini hal qila olishi kerak. Bu rivojlanayotgan tarmoqlar va raqamli bozorlarni qamrab olish uchun monopoliyaga qarshi tartibga solish ko‘lamini kengaytirishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, regulyatorlar raqobatga qarshi amaliyotlarni samarali monitoring qilish va tekshirish uchun etarli resurslar va huquqni qo‘llash vakolatlariga muhtoj.

1. Bunga raqobat to‘g‘risidagi qonunlar ijrosini yanada qat’iylashtirish, birlashish va qo‘shib olish jarayonlarini faol monitoring qilish, raqobatga qarshi harakatlar uchun jazo choralarini qo‘llash kiradi.
2. Bozor tuzilmalari va konsentratsiyasining muntazam monitoringi potensial raqobatga qarshi xatti-harakatlarni aniqlash uchun zarurdir. Nazorat qiluvchi organlar bozor konsentratsiyasi darajasini doimiy ravishda baholash, yuqori xavfli tarmoqlarni aniqlash va raqobatga qarshi amaliyotlarning erta ogohlantirish belgilarini aniqlash mexanizmlarini yaratishi kerak. Bu ma’lumotlar tahlilidan foydalanish, bozor tadqiqotlari va sanoat mutaxassislari bilan hamkorlikni o‘z ichiga olishi mumkin.

3. Birlashish va qo‘shib olishni tekshirishni kuchaytirish bozorning hukmron ishtirokchilari shakllanishining oldini olish uchun juda muhimdir. Regulyatorlar taklif etilayotgan birlashishlarning raqobatga potensial ta’sirini baholash uchun keng qamrovli baholashlarni o‘tkazishi kerak. Ko‘rib chiqish jarayonlari bozor ulushi, kirish uchun to‘siqlar, innovatsiyalar va iste’molchilar farovonligi kabi omillarni hisobga olishi kerak. Hokimiyatlar raqobat uchun jiddiy xavf tug‘diradigan qo‘shilishlarni bloklash yoki ularga shartlar qo‘yish huquqiga ega bo‘lishi kerak.
4. Yangi va innovatsion koxonalarning bozorga kirishini rag‘batlantirish iqtisodiy konsentratsiyaga qarshi turishning samarali usuli hisoblanadi. Hukumatlar kirish uchun to‘siqlarni kamaytirish, litsenziyalash tartib-qoidalarini tartibga solish, moliyalashtirish va resurslarga kirishni ta’minlash orqali yangi boshlanuvchilar va kichik biznes uchun qulay muhit yaratishi kerak. Raqobat siyosati yangi ishtirokchilarga dominant o‘yinchilarga qarshi chiqishga imkon beradigan teng sharoitlarni faol ravishda targ‘ib qilishi kerak.
5. Iqtisodiy konsentratsiyalar ko‘pincha global o‘lchovga ega va nazorat qiluvchi organlar o‘rtasida xalqaro hamkorlikni talab qiladi. Hamkorlik axborot, ilg‘or tajribalar va tartibga solish standartlari almashinuvini osonlashtirishi mumkin. Yurisdiktsiyalar bo‘ylab qoidalarni uyg‘unlashtirish va ijro etuvchi sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirish transchegaraviy konsentratsiyalarni bartaraf etishga va tartibga soluvchi arbitrajning oldini olishga yordam beradi.

Regulyatorlar bozor ishtirokchilarini bozor ulushlari, mulkchilik tuzilmalari va savdo faoliyati to‘g‘risida keng qamrovli va o‘z vaqtida hisobot berishga undashlari kerak. Bunga tartibga soluvchi talablar, standartlashtirilgan hisobot formatlari va taqsimlangan kitob texnologiyasi (DLT) va aqlli shartnomalar kabi texnologiyaga asoslangan yechimlar orqali erishish mumkin.



1-rasm: Monopoliyaga qarshi boshqaruv organlarining asosiy vazifalari[1]

Murakkab analitik vositalardan foydalanish, ilg‘or ma’lumotlar tahlili va mashinani o‘rganish usullaridan foydalanish bozor konsentratsiyasini baholashni yaxshilashi mumkin. Ushbu vositalar bozor konsentratsiyasi bilan bog‘liq naqshlarni, o‘zaro bog‘liqliklarni va potensial xavflarni aniqlashga yordam beradi, bu esa tartibga soluvchilarga ko‘proq ma’lumotli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Xalqaro hamkorlik va muvofiqlashtirish: Bozor konsentratsiyasi ko‘pincha milliy chegaralardan tashqariga chiqadi va tartibga soluvchilar o‘rtasida xalqaro hamkorlikni talab qiladi. Hamkorlikdagi sa’y-harakatlar global bozor konsentratsiyasi muammolarini samarali hal qilish uchun ma’lumot, ilg‘or tajribalar va tartibga solish standartlari almashinuvini osonlashtirishi mumkin.

Iqtisodiy konsentratsiyalarni tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirish halol raqobatni rag‘batlantirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish uchun juda muhimdir. Regulyatorlar monopoliyaga qarshi qonunlarni kuchaytirish, bozor tuzilmalarini faol monitoring qilish, qo‘shilish bo‘yicha jiddiy tekshiruvlar o‘tkazish, bozorga kirishni rag‘batlantirish, xalqaro hamkorlikni rag‘batlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish orqali iqtisodiy konsentratsiyadan kelib chiqadigan muammolarni samarali hal qilishlari mumkin. Ushbu sa’y-harakatlar iste’molchilar, biznes va umumiy iqtisodiyot uchun foydali bo‘lgan raqobatbardosh va dinamik bozorlarni yaratishga yordam beradi.

1 Muallif tomonidan ma’lumotlar asosida tayyorlandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy konsentratsiyalarni tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirish bo‘yicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan o‘zlarining tadqiqotlarida va xalqaro konferensiyalarda fikr va muhozalarini keltirib o‘tishgan. Ular tomonidan monopoliyalarning kelib chiqish sabablari, mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni va ularning salbiy va ijobiy jihatlarini o‘z davrlaridagi mavjud holatlar bo‘yicha ko‘rsatib o‘tishgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuning 4-moddasida iqtisodiy konsentratsiya – xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustunligiga olib keladigan, tovar yoki moliya bozorida raqobatning holatiga ta’sir ko‘rsatadigan bitimlar tuzish va (yoki) boshqa harakatlarni bajarish [1].

A.Marshall tomonidan raqobatning texnologik konsepsiyasiga asos solib, monopoliyaning paydo bo‘lishining sabablarini ba’zi “tabiiy” holatlar mavjudligi bilan tushuntiradi. U tomonidan iqtisodiyot va ishlab chiqarish konsepsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. “Ishlab chiqarishni kengaytirish uning raqobatbardosh ustunligini tezda oshiradi va o‘z mahsulotlarini sotish narxini pasaytiradi” [2].

Monopoliyaga qarshi tartibga solish – bu raqobat bozorini samarali faoliyat yuritish sharoitlarini ta’minlash hamda uning haddan tashqari monopollashuviga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha davlat tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy, ma’muriy va qonunchilik choralari majmuidir. Monopoliyaga qarshi tartibga solish ishlab chiqarish va muomala sohasini konsentratsiyalashuv va monopollashuv jarayonlarini tartibga solish, xususiy raqobatchilik uchun sharoitlarni qo‘llab-quvvatlash va korxonalar tomonidan bunday raqobatlashuv shartlariga rioya qilish ustidan nazorat olib borish, tashqi iqtisodiy faoliyatni (bozorning xorijiy raqobatchilar uchun ochiqligi yoki eksport monopoliyasini rag‘batlantirish) tartibga solish kabi ishlarni o‘z ichiga oladi. Monopoliyaga qarshi tartibga solish ishlari monopoliyaga qarshi qonunchilik, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobatli bozorni rivojlantirish bo‘yicha maxsus dasturlar hamda ayrim boshqa me’yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi [3]. Bolshoy ekonomicheskiy slovar. – M.: Institut novoy ekonomiki. A.N. Azriliyan. 1997.

I.Nikuyko monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish zarurligini uchta asosiy omil bilan belgilaydi, ya’ni, bozorning “muvaffaqiyatsizligi”; beqaror muvozanat; makroiqtisodiy barqarorlashtirish zaruriyati bilan bog‘liq [4].

Har bir mamlakatda monopoliyaga qarshi qonunchilik o‘ziga xos xususiyatlarga ega, lekin, barcha holatlar uchun umumiylari ajratiladi: kompaniyalarning birlashishini nazorat qilish; tadbirkorlar (kartellar)ning kelishuvlarini taqiqlash; insofsiz raqobatni to‘xtatish. Korxonalarning birlashishi raqobatni yo‘qotish va bir vaqtda ishlab chiqarishning bir erga to‘planishi va uning samarasini oshirish omili bo‘lib hisoblanadi. Biroq, raqobat kurashida korxona quvvatini o‘stirish, korxonalarning mexanik birlashishidan ko‘ra oqilonaroq deb e’tirof etiladi. Shu sababli, birlashishda qat‘iy reglamentatsiya olib boriladi [5]. Rasulov N. M., Ismailov A.R. Monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. 2019.

Xususan, raqobatga oid qonunchilikning asosiy talablari va bunday talablardan biri bo‘lgan tender savdolari va iqtisodiy birlashishning hamda moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi boshqaruv tizimi, raqobatga qarshi harakatlar va ularning oldini olish mexanizmlari, raqobat qonunchiligini buzganlik uchun ish qo‘zg‘atish va ularni ko‘rib chiqish tartibi kabilarni ta’kidlashimiz mumkin.

Bundan tashqari, tovar va moliya bozorlarida xo‘jalik yurituvchi subyektlar yoki shaxslar guruhining ustun mavqeini aniqlash va bu borada ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning davlat reestrini yuritish, moliya bozoridagi xizmatlarning monopol yuqori va monopol past narxlarini hamda raqobatni cheklovchi kelishib olingan harakatlar va bitimlarni aniqlash tartiblari va ushbu tartiblarni qo‘llash jarayonining muhim jihatlarini ham ta’kidlashimiz mumkin.

TADQIQOT METODIKASI

Iqtisodiy konsentratsiyalarni tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha mavjud bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, birlashish va qo‘shib olishlarni o‘rganish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqobat organi shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olish bo‘yicha, shuningdek xo‘jalik yurituvchi subyektlarni qo‘shib yuborishga, qo‘shib olishga doir harakatlarni amalga oshirishda qonun xujjatlarida belgilangan tartibda oldindan rozilik berish orqali iqtisodiy konsentratsiyani nazorat qiladi.

Yevropada transchegaraviy birlashish va qo‘shib olish iqtisodiyotlarning globallashuvi natijasida kompaniyalar uchun eng muhim o‘sish strategiyalaridan biriga aylandi. Thomson Reuters ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, 2015-yildan beri transchegaraviy birlashish va qo‘shib olishlar 1,0 trillion dollarga yaqinlashgan (2019

va 2020-yillar bundan mustasno, ular mos ravishda 0,8 va 0,7 trillion dollarga kamaygan) global birlashish va qo‘shib olish umumiy hajmining uchdan bir qismini tashkil etadi.

Mamlakatimizda 2024-yilning 1-choragi davomida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olish bo‘yicha, shuningdek xo‘jalik yurituvchi subyektlarni qo‘shib yuborishga, qo‘shib olishga doir jami 30 ta murojaatlar ko‘rib chiqildi. Murojaatlar natijalariga ko‘ra, 21 ta holat bo‘yicha bitimlarga oldindan rozilik berildi, 1 tasi bo‘yicha ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni berganlik uchun yig‘im belgilangan muddatda to‘lanmaganligi uchun maxsus komissiyasining rozilik berish to‘g‘risidagi qaror bekor qilindi hamda 8 tasi bo‘yicha monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligi talab etilmasligi bildirilgan.

2-rasm: Raqobat qo‘mitasi tomonidan korib chiqilgan bitimlar[2]

№	Davlat xizmatlari nomi	2024-yil davomida			
		Ko‘rib chiqilgan murojaatlar soni	Shundan		
			Oldindan rozilik berilgani	Rozilik talab etilmasligi to‘g‘risida xat yuborilgan	Rozilik berish rad etilgan
1	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni qo‘shib yuborishga, qo‘shib olishga doir bitimlar	10	3	6	1
2	Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondidan (kapitalidan) aksiya va ulushlarini olish	20	18	2	0
	Jami	**30**	**21**	**8**	**1**

Joriy yilning 1-choragida Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tomonidan jami 826 mlrd. so‘mlik bitimlarga oldindan rozilik berilgan, shundan 28 foizi, ya’ni 234 mlrd. so‘mlik (18,8 mln. AQSh doll.) bitimlar xorijiy investorlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Ustun mavqega ega bo‘lish yetkazib beruvchilarni absolyut hajmiga, uni buyurtmachilar va shaxsiy yetkazib beruvchilari bilan aloqalariga, shuningdek, uni savdo bo‘yicha hamkorlarini iqtisodiy ahvolini bilish qobiliyatiga bog‘liqdir. Bozor hukmronligi konsentratsiyasi va samaradorligiga asoslanadigan raqobat to‘g‘risidagi qonunlar iste’molchilarni farovonligini ko‘zlagan holda yuzaga keladi. Aksincha, ustunlik konsentratsiyasiga asoslangan qonunlar raqobat jarayonini emas balki raqobatchilarni himoyalashga xizmat qiladi.

Savdo-sotiqni erkinlashuvi samarali raqobat siyosatini o‘zgartiradi, sababi ko‘pgina holatlarda erkin savdo-sotiq bozorning raqobat tuzilmasida unchalik aniq namoyon bo‘lmaydi va bozorda samarali faoliyat ko‘rsatishni rag‘batlantirmaydi.

Shuning uchun, raqobat siyosati va savdo-sotqni erkinlashuvini muqobil siyosatga qo‘shimcha sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy konsentratsiyalarni nazorat qilish uchun Monopoliyaga qarshi qonunlarning kuchaytirilishi zarur. Bu qonunlar, monopolistik harakatlar, kartellarni va boshqa raqobatga qarshi kelishuvlarni oldini olishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu qonunlarni to‘liq va samarali shaklda amalga oshirish uchun qonun hujjatlari va qonun to‘g‘ridan-to‘g‘ri samaradorlikka ega bo‘lishi muhimdir.

Iqtisodiy konsentratsiyalarni nazorat qilish uchun bozor strukturasi va konsentratsiya darajalarini doimiy ravishda tekshirish zarur. Tartibga solish tashkilotlari, bozor konsentratsiyalari darajasini doimiy ravishda baholash, konsentratsiyalardan kelib chiqadigan potensial raqobatga qarshi kelishuvlarni aniqlash uchun mexanizmlar yaratish kerak. Bu, ma’lumot analitikasi, bozor tahlillari va sohalarga oid mutaxassislar bilan hamkorlikni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy konsentratsiyalarni oldini olish uchun birlashish va qo‘shib olishlarni tekshirilishini kuchaytirish muhimdir. Tartibga solish tashkilotlari, konsentratsiyalarning raqobatga o‘z ta’sirini baholash uchun tahlilni amalga oshirishlari kerak. Tekshirish jarayonlari bozor hisob-kitoblari, kirish barerlari, innovatsiyalar va mijozlar tanlovi kabi muhim o‘zgaruvchilarni hisobga oladi. Tartibga solish tashkilotlari, raqobatga katta xavfni ko‘rsatadigan birlashishlarni to‘xtatish yoki shartlar qo‘yish huquqiga ega bo‘lishi kerak.

Yangi va innovatsion firmalarni bozorga kirish imkoniyatini rag‘batlantirish, iqtisodiy konsentratsiyalarga qarshi kurashishning samarali yo‘li hisoblanadi. Hukumatlar yangi firmalarga yo‘l ochish uchun qulay muhit yaratish, bozorga kirish to‘siqlarini kamaytirish, litsenziyalar jarayonini soddalashtirish va moliyaviy imtiyozlar taqdim qilish orqali startaplar va kichik bizneslarga qo‘llab-quvvatlashlari kerak. Raqobat siyosati yangi ishtirok-

2 Manba: raqobat.gov.uz Raqobat qo‘mitasi sayti

chihlarni dominat bo‘lgan o‘yinchi tomonlar bilan kurashishga imkon beruvchi bir o‘yin maydoni yaratishga harakat qilishi kerak.

Iqtisodiy konsentratsiyalar globallashuv jarayonida kengayib borishi mumkin bo‘lgani uchun tartibga solish tashkilotlari o‘rtasida xalqaro hamkorlik muhimdir. Hamkorlik, ma’lumot almashish va eng yaxshi amaliyotlarni almashish, qonun hujjatlari va tartiblarni moslashtirishni o‘z ichiga oladi. Monopoliyaga qarshi organlar o‘rtasidagi tartibga solish va amalga oshirish harakatlarini koordinatsiyalash va hamkorlik yordamida xalqaro konsentratsiyalarni oldini olish va tartibga solishga yordam beradi.

Iqtisodiy konsentratsiyalar tomonidan keltiriladigan salbiy ta’sirlarni kamaytirish uchun iste’molchilar huquqlarini himoya chora-tadbirlari muhimdir. Tartibga solish tashkilotlari narx transparensiyasini ta’minlash, alternativ mahsulotlarga yoki xizmatlarga kirishni rag‘batlantirish va adolatli raqobat siyosatini amalga oshirish kerak. Iste’molchilarga ma’lumot berish, tezkor murojaatlarni amalga oshirish mexanizmlari bilan ta’minlash, ularning qonuniy qo‘llab-quvvatlash orqali iste’molchilarni huquqlarini himoya qilish imkonini yaratish mumkin.

Iqtisodiy konsentratsiyalarni tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirish, adolatli raqobatni rivojlantirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va umumiy iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish uchun ahamiyatli bo‘ladi. Monopoliyaga qarshi qonunlarni kuchaytirish, bozor strukturalarini doimiy ravishda monitoring qilib borish, konsentratsiyalarni baholashni amalga oshirish, bozorga kirishini rag‘batlantirish, xalqaro hamkorlikni o‘rnatish va iste’molchilar huquqlarini himoyasini kuchaytirish imkoniyatlari yordamida tartibga solish tashkilotlari iqtisodiy konsentratsiyalarni qanday qilib oldini olish mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu harakatlar iste’molchilar, bizneslar va umumiy iqtisodiyot uchun foyda olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot / Mualliflar jamoasi: R.O.Alimov, A.F.Rasulev, A.M.Qodirov va boshq. /S.S.G‘ulomov tahriri ostida. –Toshkent: Konsauditinform – Nashr, 2006. –440-b.
2. Комментарий к Закону Республики Узбекистан “О конкуренции”/Авторский коллектив: А. А. Абдухакимов, У.Т. Турдиев, А. С. Усманов, Ф. К. Карабаев и др. – Ташкент: Бактриа пресс, 2014. – 336 с.
3. Сларк, Ж. М. Економисс анд модерн псйчологй, И анд ИИ. Жоурнал оф Политисал Економй, 26(1-2), 136-66.
4. Antitrust and Regulation. Dennis W. Carlton, Randal C. Picker. Chapter in NBER book Economic Regulation and Its Reform: What Have We Learned? (2014), Nancy L. Rose, editor (p. 25 - 61). Conference held September 9-10, 2005. Published in June 2014 by University of Chicago Press- http://www.nber.org/chapters/c12565.
5. Rasulov N. M., Ismailov A.R. Monopoliyaga qarshi boshqaruv nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “IQTISODIYOT”, 2019.
6. Journal of Competition Law & Economics, Advance Access publication 20 November 2009, Dynamic competition in antitrust law.
7. Портер, Майкл Э. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов / Пер. с анг. Учебник.- 2-изд.- М.: Альпина Бизнес Букс, 2009.
8. И.Б. Никуйко. Классификация российских естественных монополий / Вестник Министерства РФ по антимонопольной политике и поддержке предпринимателства. 2001. №1. S.17-20.
9. В.В.Галперин Лекция 48. Монополная власт [Электронный ресурс] //В.В.Галперин, В.М.Галперин// 50 лексий по микроэкономике: [электронный учебник]. – Режим доступа: http://goo.gl/TFaMyo. – По состоянию на 12.02.2016. – Загл. с экрана.
10. Bolshoy ekonomicheskiy slovar. – M.: Institut novoy ekonomiki. A.N. Azriliyan. –1997.
11. O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi ma’lumotlari.



ROLE OF PRIVATE AND PUBLIC KINDERGARTENS IN EARLY CHILDHOOD DEVELOPMENT

Makhmudova Munisakhon Abbos qizi
Tashkent State University of Economics, assistant teacher in Business Administration department

Abstract: This article analyzes research that builds on successes and lessons learned from previous strategies and incorporates new initiatives to address emerging needs and challenges. Overall, Uzbekistan's education sector has made significant progress in expanding access and improving quality, but there is still work to be done, particularly in terms of student inclusion and gender equality. Continuous support from the state, strategic planning and international cooperation to further improve the educational system of Uzbekistan and expand its institutional capabilities for a bright future are of priority.

Key words: Demographic, urban areas, preschool, enrollment, UNICEF, reforms, teacher, training, parents.

Annotatsiya: Ushbu maqolada oldingi strategiyalardan olingan muvaffaqiyatlar va saboqlarga asoslanib, paydo bo'ladigan ehtiyoj va muammolarni hal qilish uchun yangi tashabbuslarni o'z ichiga olgan tadqiqotlar tahlil qilingan. Umuman olganda, O'zbekiston ta'lim sohasi foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va sifatni oshirishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdi, biroq, ayniqsa, o'quvchilarni qamrab olish va gender tenglik bo'yicha hali qilinishi kerak bo'lgan ishlar mavjud. Davlat tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlash, strategik rejalashtirish va xalqaro hamkorlikda O'zbekiston ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va yorqin kelajak uchun institisional imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Demografik, shaharlar, maktabgacha ta'lim, ro'yxatga olish, UNICEF, islohotlar, o'qituvchi, trening, ota-onalar.

Аннотация: В этой статье анализируются исследования, основанные на успехах и уроках, извлеченных из предыдущих стратегий, и включают новые инициативы для решения возникающих потребностей и проблем. В целом, сектор образования Узбекистана добился значительного прогресса в расширении доступа и повышении качества, но предстоит еще многое сделать, особенно в плане вовлечения студентов и гендерного равенства. Постоянная поддержка со стороны государства, стратегическое планирование и международное сотрудничество в целях дальнейшего совершенствования системы образования Узбекистана и расширения ее институциональных возможностей для светлого будущего имеют приоритетное значение.

Ключевые слова: Демография, городские районы, дошкольные учреждения, набор, ЮНИСЕФ, реформы, учителя, обучение, родители.

INTRODUCTION


The Government of Uzbekistan has demonstrated a consistent commitment to the education sector since gaining independence. While the primary focus initially centered on achieving and maintaining high enrollment rates in the General Secondary Education sector, recent years have seen a shift towards a more comprehensive approach to education, in alignment with global Sustainable Development Goals for Education. Uzbekistan has achieved remarkable success in ensuring near-universal enrollment in primary and secondary education, meeting the targets set by the Millennium Development Goals (MDG) by 2015. The average number of years of schooling has remained stable at around 11-12 years over the past three decades, reflecting the government's dedication to providing access to education for all. However, recognizing the evolving global landscape and the need for broader improvements in education quality and access, Uzbekistan has embarked on ambitious reforms. In 2017, the government introduced the National Action Strategy on Five Priority Development Areas 2017-2021, with education development being one of the key focus areas. This strategy laid the foundation for comprehensive reforms across all sub-sectors of education. One significant initiative was the development of the Education Sector Plan (ESP) 2019-2023 in consultation with stakeholders and international partners like UNICEF. The ESP outlined sectoral priorities and action plans for the government to implement over the specified period[1].

1 https://www.unicef.org/uzbekistan/media/5671/file/Partnership%20Compact%20for%20Education%20reform.pdf

In tandem with economic reforms, the government has pursued transformative measures in the education sector, attracting investment from bilateral agencies and conducting numerous studies to address sectoral challenges. President Shavkat Mirziyoyev, who assumed office for a second term following the presidential elections in October 2021, reaffirmed the government's commitment to prioritizing quality education and development. In his address, President Mirziyoyev underscored the importance of developing a new National Education Programme to further advance education quality and access across Uzbekistan. This programme is expected to build upon the successes and lessons learned from previous strategies while incorporating new initiatives to address emerging needs and challenges. Overall, Uzbekistan's education sector has made significant strides in expanding access and improving quality, but there is still work to be done to meet the ambitious targets set forth in the SDGs. With continued government support, strategic planning, and collaboration with international partners, Uzbekistan is poised to further enhance its education system and empower its citizens for a brighter future. In light of recent developments in Uzbekistan and the government's initiative to develop a "New Education Programme," it is imperative to conduct a comprehensive Education Sector Analysis (ESA). This analysis aims to thoroughly assess the education sector, including systemic reforms, interventions, and outcomes achieved in recent years. By identifying areas for priority action and potential strategies, the ESA will inform the review and modification of the Education Sector Plan (ESP) 2019-2023 to align with current priorities and goals. The ESA will primarily focus on three key sub-sectors of education: Preschool Education (PSE), General Secondary Education (GSE), and Higher or Tertiary Education (HE). Within these sub-sectors, the analysis will examine the policy areas and strategic priorities outlined in the ESP 2019-2023. The goal is to evaluate the effectiveness of existing policies and strategies and identify opportunities for improvement and refinement. The ESP 2019-2023 outlines priority areas and strategies for enhancing education in Uzbekistan. By conducting a detailed ESA, the government will gain insights into the progress made and the challenges faced in implementing these priorities. Uzbekistan, situated in Central Asia, is a doubly landlocked country comprising 12 regions (provinces), an autonomous republic known as the Republic of Karakalpakstan, and a separate city, Tashkent. Approximately 51% of its 34.6 million inhabitants reside in urban areas. With a Gross Domestic Product (GDP) of US$58 billion in 2021 and a per capita GDP of US$17513, Uzbekistan falls under the lower-middle-income category as per the World Bank classification.


Characterized by a steadily growing population, Uzbekistan experiences an annual population growth rate of 1.48 percent. Projections indicate that the population will continue to rise in the coming decades, reaching an estimated 44.4 million by 2070. According to data from the UN Population Database, the total dependency ratio in Uzbekistan was recorded at 97.9 per 100 in 2020.

Uzbekistan Total population	
2000	24,356,383
2005	25,774,623
2010	27,538,937
2015	29,681,701
2019	**33,375,800**
2025	35,146,618
2030	36,712,272
2035	38,059,266



As outlined in a UNICEF report from 2018, Uzbekistan currently benefits from an early demographic dividend stage, with an expected duration of approximately 30 years. However, the realization of this demographic dividend hinges upon investments in human capital development, particularly in the realms of education and skills enhancement.

With such support, the government has been able to provide quality preschool education to almost 2 million children in the age group of 3-6 years by early 2022[2].



LITERATURE REVIEW

Vygotsky (1978, 1994) published many works on sociocultural theory with later translations summarizing his substantial contributions to constructivism. He held a strong conviction that, "human learning presupposes a specific nature and a process by which children grow into the intellectual life of those around them"[3].

A recent contribution by Smagorinsky, Hansen, and Fink (2013) interpreted his words to mean that a learner's emotions inspire thoughts, which in turn creates new knowledge. Humans are inherently social beings that coexist with others by sharing similar cultural values. Although the diversity of communities around the world can vary greatly, they all share the needs for common sociocultural learning in order to live, grow, and prosper. These learning needs are not exclusive and extend to all students[4].

Education systems worldwide are typically well-structured, with an emphasis on the societal benefits of having an educated population. Governments, as the primary providers of education, regulate educational systems to ensure equal opportunities, quality, and positive outcomes for all children. Governments have observed that providing education is best suited to their capabilities, as they can ensure equitable access and prevent education from being solely profit-driven if left to the private sector.

Research by Tooley and Dixon (2005) has revealed the presence of private schools in unexpected locations, such as slum areas in Asia and Africa. Despite the availability of free government schooling, some parents opt to pay for private education due to perceived benefits. Lewin (2008) notes a growing demand for private education in sub-Saharan Africa, partly fueled by parental dissatisfaction with government schools. Phillipson (2008) highlights differences between government and private schools, suggesting that private institutions often offer better quality education and greater parental choice[5].

METHODOLOGY


This analysis will serve as a crucial foundation for developing targeted interventions and shaping the new Education Programme to address current needs and aspirations in the education sector. Overall, the ESA will play a pivotal role in guiding the government's efforts to advance education in Uzbekistan, ensuring that policies and strategies are evidence-based, responsive to emerging trends, and aligned with national development priorities. Through a collaborative and data-driven approach, the ESA will support the creation of a more inclusive, equitable, and quality education system that empowers all citizens to thrive and contribute to the country's sustainable development.

2 https://www.unicef.org/uzbekistan/media/5046/file/Brief%20on%20ECE%20results%20(eng).pdf
3 Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Cambridge, MA: Harvard University Press
4 Smagorinsky, P., Hansen, M. R., & Fink, L. (2013). What does Vygotsky provide for the 21st -century language arts teacher? Language Arts, 90(3), 192-204.
5 https://www.researchgate.net/publication/291878676_Private_schools_for_the_poor_education_where_no_one_expects_it

RESEARCH OUTCOMES

In 2012, less than one-fifth of children aged 3-6 in Uzbekistan were enrolled in preschool programs, with significant disparities among regions. While 58% of children in Tashkent city attended preschools, only 9% did so in Kashkadarya and Surkhandarya. By 2022, the overall preschool enrollment rate increased to approximately 25% nationwide, still trailing behind other countries with similar economic statuses. Upon the establishment of the Ministry of Preschool Education (MOPSE), a lack of mechanisms to assess preschool education quality led to a focus on boosting participation rather than ensuring quality. This was exacerbated by the absence of a robust Education Management Information System (EMIS) or Education Quality Assurance System (EQAS) for preschool education. As of early 2022, over 1.6 million children aged 3-6 were enrolled in preschools, with state-run preschools comprising the majority of enrollments. Notably, significant improvements were observed in SDG Indicator 4.2.2, with around 77% of 6-year-olds attending preschool in 2022 compared to 66% in 2020. Despite overall progress, regional disparities persist, particularly in Surkhandarya and Kashkadarya. Gender and socioeconomic inequalities also impact preschool participation, with children from poorer households and those with lower-educated parents less likely to attend. Addressing these disparities is crucial to ensuring equitable access to quality preschool education across Uzbekistan. Since its establishment in September 2017, the Ministry of Preschool Education in Uzbekistan has implemented various reforms aimed at improving the preschool education sector. Drawing insights from both local context and international practices, MOPSE developed a new Law on Preschool Education in December 2019, outlining the vision, goals, roles, responsibilities, and rights within the sector. These reforms included the introduction of Public-Private Partnership (PPP) models, curriculum revisions, and initiatives to enhance the status and salaries of preschool teachers[6].





Additionally, MOPSE has made strides in enhancing technological infrastructure within state preschools, with 88% of them now equipped with computers and 93% connected to the internet. The proactive efforts of MOPSE have also attracted funding from international agencies, such as the World Bank's "Promoting Early Childhood Development Project," currently being implemented with a budget of US$73.85 million.

In terms of monitoring and knowledge management, efforts have been made to improve the Education Management Information System (EMIS). Prior to 2018, data collection was fragmented, and there was a lack of unified monitoring systems. UNICEF conducted an analysis highlighting these limitations and provided technical support to pilot the OpenVMS platform for education data collection. However, technical inadequacies and limitations were identified, The development of these standards aligns with global practices and recommendations, acknowledging the pivotal role of teachers in maintaining education quality and continuity. The standards outline key competencies required for effective teaching, including education planning, teaching strategies, learning assessment, professional development, and collaboration with families. They emphasize a holistic approach to child development, taking into account individuality, rights, and early childhood development principles. During 2020-2021, MOPSE, with UNICEF support, piloted the Teacher Professional Standards (TPS)

6 https://www.unicef.org/uzbekistan/media/5046/file/Brief%20on%20ECE%20results%20(eng).pdf

in preschools across several regions, including Bukhara, Namangan, Syrdarya, and Tashkent city. UNICEF is also assisting in revising teacher attestation mechanisms and evaluation criteria to align with the TPS and international best practices. Additionally, efforts are underway to review and revise both pre-service and in-service teacher training curricula for preschool educators, considering the needs of preschool curriculum implementation and drawing lessons from global experiences.

UNICEF has played a significant role in bolstering the monitoring system for Education Quality Assurance (EQA) in Uzbekistan by supporting the State Inspectorate for the Supervision of Education Quality (SISEQ) in developing web-based platforms for QA data collection and management, namely ONAKS and an online accreditation register. These platforms have been successfully launched and are operational across all regions of Uzbekistan. However, ongoing enhancement of these systems requires thorough analysis of their implementation, identification of challenges at various levels, and capacity building for specialists to effectively analyze collected data.

In terms of research and evaluation in the preschool education sector, UNICEF conducted two targeted studies to address supply and demand side issues. The first study focused on understanding the Knowledge, Attitude, and Practices (KAP) of parents towards Early Childhood Education (ECE), revealing insights into factors influencing parents' decisions regarding preschool enrollment and highlighting gaps in their understanding of child development milestones. assessed how young children were cared for at home, indicating increased parental engagement in childcare activities but persisting challenges, such as limited paternal involvement and stress experienced by children due to disruptions in their routines. Several achievements and enabling factors have contributed to strengthening the preschool education system in Uzbekistan:

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

Overall, while significant progress has been made, ongoing efforts are needed to address remaining challenges and further enhance the quality and accessibility of preschool education in Uzbekistan. The initiatives within this strategic domain aim to ensure that preschool environments are child-friendly, inclusive, and safe, with particular attention to being sensitive to disabilities and gender. The proposed activities include enhancing or constructing preschool facilities to align with child-friendly standards, providing training for preschool educators on teaching methods to raise children's awareness about disaster risk management and safe conduct during emergencies, and educating them on crime prevention and safeguarding against violence and abuse, including gender-based violence in various settings such as schools, homes, and the community.

It's crucial, especially for preschools in remote rural areas, to have appropriate facilities that prioritize safety and create conducive learning environments. This entails measures like securing preschool premises with boundary walls, ensuring access to clean drinking water, maintaining gender-specific functional toilets and handwashing facilities, establishing playgrounds, setting up kitchen and dining areas, and providing heating facilities. Furthermore, efforts should be made to make preschools more accessible for children with disabilities and special needs, fostering an inclusive atmosphere for children from diverse backgrounds. Early engagement of children in understanding disaster risk management, safe behaviors, and violence prevention is essential. Given that teachers play a pivotal role in imparting such knowledge, preschool educators will receive training to deliver age-appropriate lessons and activities aimed at instilling these concepts effectively.

Reference:

1. UNICEF (2022): Student Learning at primary grades in Uzbekistan: Outcomes, Challenges, and Opportunities.
2. UNICEF Best of UNICEF Research (BOUR) (2020) What factors are associated with positive primary education outcomes in Uzbekistan.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Smagorinsky, P., Hansen, M. R., & Fink, L. (2013). What does Vygotsky provide for the 21st -century language arts teacher? Language Arts, 90(3), 192-204.
5. https://www.researchgate.net/publication/291878676_Private_schools_for_the_poor_education_where_no_one_expects_it.
6. UNICEF (2018): "Generation 2030 Uzbekistan: Investing in Children and young people to reap the demographic dividend".
7. UNICEF Uzbekistan UNESCO, World Bank, UNICEF and GPE (2014):
8. Education Sector Analysis, Methodological Guidelines Volume 1. UNICEF (2020).
9. Parents' and Caretakers' Knowledge, Attitudes and Practices (KAP) towards Early Childhood Care and Education (ECCE) in Uzbekistan.
10. UNICEF Uzbekistan UNICEF (2020): A Rapid Assessment of Water, Sanitation and Hygiene (WASH) in schools in Uzbekistan. UNICEF Uzbekistan.

“YASHIL” ENEGRIYA QUVVATLARINI BARPO ETISH IQTISODIY BARQARORLIKNI TA’MINLASH ASOSI SIFATIDA





Muminova Elnoraxon Abdukarimovna
FarPI “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri

Umarova Dilnoza Oybek qizi
FarPI “Iqtisodiyot” yo‘nalishi 78-23 I guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil energiya manbalaridan foydalanishning ahamiyati va zarurati yoritilgan. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda elektr-energiyasini ishlab chiqarish va iste’molchilarni elektr-energiyasi bilan ta’minlash ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Xalqaro energiya agentligi (International Energy Agency – IEA) ning hisobotida aks ettirilgan qayta tiklanadigan energiya manbalarining prognoz ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishida “yashil” enegriya quvvatlaridan foydalanish zarurligi borasida xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil o‘sish, iqtisodiy barqarorlik, qayta tiklanuvchi energiya, gidronegetika shamol energetika, energiya resurslari, tabiiy resurslar.

Abstract: This article highlights the importance and necessity of using environmentally friendly energy sources. In order to develop a green economy, measures implemented in our country to use renewable energy sources have been studied. The indicators of electricity production and electricity supplies to consumers in Uzbekistan were also analyzed. The forecast indicators of renewable energy sources reflected in the report of the International Energy Agency (IEA) were studied. Conclusions and proposals are made regarding the need to use green energy resources in the sustainable development of the country’s economy.

Key words: green economy, green growth, economic stability, renewable energy sources, hydronetics, wind energy, energy resources, natural resources.

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность и необходимость использования экологически чистых источников энергии. В целях развития зеленой экономики изучены меры, реализуемые в нашей стране по использованию возобновляемых источников энергии. Также были проанализированы показатели производства электроэнергии и поставок электроэнергии потребителям Узбекистана. Изучены прогнозные показатели возобновляемых источников энергии, отраженные в отчете Международного энергетического агентства (МЭА). Сделаны выводы и предложения относительно необходимости использования зеленых энергетических ресурсов в устойчивом развитии экономики страны.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленый рост, экономическая стабильность, возобновляемые источники энергии, гидронетика, ветроэнергетика, энергетические ресурсы, природные ресурсы.

KIRISH

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, uning tarmoq va sohalarining kengayishi, aholi turmush darajasini ortib borishi iqtisodiy resurslarda yanada oqilona foydalanishni taqazo etadi. Ishlab chiqarish hajmini ortishi, yangi ishlab chiqarish korxonalarining paydo bo‘lishi energiya va energiya resurslarini ko‘plab sarflanishiga sabab bo‘lmoqda. Soha mutaxassislari va olimlarning ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda aniqlangan mavjud tabiiy yoqilg‘i-energiya resurslari (tabiiy gaz, neft) 60–150-yil ishlatishga yetadi. Shu sababli, ko‘plab mamlakatlarda energiya resurslaridan samarali foydalanish masalalariga jiddiy e’tibor qaratmoqda. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish asosida yashil energiya manbalarini joriy etish, ulardan samrali foydalanish, energiya ishlab chiqarishda muqobil energiya manbalarining ulushini ko‘paytirish, “yashil energetika” siyosatini amalga oshirish bugungi kunning asosiy dolzarb masalalridan hisoblanmoqda. Mamlakatimiz xukumati tomonidan ushbu masala yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022-yildagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori doirasida 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash bo‘yicha harakatlar rejasi ishlab chiqilgan bo‘lib, tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish, milliy iqtisodiyotni tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqarorligini mustahkamlash, milliy iqtisodiyot, xususan sanoatning “yashil” va kam uglerodli rivojlanishini ta’minlash, innovatsiyalarni joriy etish va samarali “yashil” investitsiyalarni jalb qilish, barqaror va inklyuziv “yashil” urbanizatsiyani rivojlantirish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish davrida katta ta’sir kuchiga ega bo‘lgan aholi qatlamlarini va ularning yashash joylarini qo‘llab-quvvatlash, “Yashil” o‘sish bo‘yicha salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun qulay siyosiy muhit yaratish, samarali institutlarni joriy qilish, tashqi va ichki “yashil” moliyalashtirish oqimlarini ko‘paytirish masalalari belgilangan[1].

O‘zbekistonda “yashil” energiya quvvatlarini barpo etishda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish masalalari yangicha tus olmoqada. Mamlakatimizda quyosh energiya, shamol energiya, gidroenergiya manbalaridan foydalaniladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yu.Shadimetov o‘zining tadqiqotlarida “yashil” energiya xorijiy tajribasi, muammolari va istiqbollarini o‘rgangan. Jumladan, yashil energiyani shakllantirish va ommalashtirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning dolzarbligi misolida keltirgan. O‘tgan yillar davomida O‘zbekistonda muqobil energiya manbalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda, chunki bugungi kunda butun dunyo jamiyati tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammosiga yechim topishga qaratgan [1].

“Yashil” energiya texnologiyalarini qabul qilishda muhim omillarning ta’sirini modellashtirish masalalari Zeng, S. va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Uning tadqoqitlarida kabi masalalar o‘rganilgan. Yashil energiya texnologiyalari (GET) ekologik jihatdan xavfsiz va qulay bo‘lib, uglerod miqdorini kamaytirish maqsadlariga erishish uchun istiqbolli hissa qo‘shadi. Ko‘plab mamalakatlar bugungi kunda yashil energiyaga o‘tish maqsadida ko‘plab dasturlar qabul qilmoqdalar [2].

Tabiiy resurslarning barqarorligi so‘nggi adabiyotlar va siyosatchilarning e’tiborini talab qiladigan global muammoga aylandi. Xorij olimlaridan Chau, K. Y. va boshqalar o‘zlarining tadqiqotlarida yashil energiyani qidirish va iste’mol qilishning (qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish, qayta tiklanadigan energiya iste’moli va yonuvchi qayta tiklanadigan chiqindilar) G7 mamlakatlarida tabiiy resurslarning barqarorligiga (tabiiy resurslar ijarasi) ta’siri bo‘yicha empirik tadqiqotlar olib borganlar 2001 va 2019-yillar oralig‘ida Jahon banki ko‘rsatkichlaridan (WDI) ikkilamchi ma’lumotlar olindi va konstruktsiyalar o‘rtasidagi munosabatlarni sinab ko‘rish uchun momentlar kvantli regressiya usuli (MMQR) qo‘llanildi. Natijalar “yashil” energiyani qidirish va iste’mol qilish G7 mamlakatlari tabiiy resurslarining barqarorligi bilan ijobiy bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ushbu tadqiqot, ayniqsa, tegishli organlar uchun tabiiy resurslarning barqarorligi bo‘yicha siyosatni shakllantirish va amalga oshirish uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega [3].

Mamlakatimiz olimlari A.I.Qarshibaev, O.Zoxidov, va A.Xamzaevlarning tadqiqotlarida konchilik va ishlab chiqarish korxonalarida ish unumdorligi hamda ishlab chiqarish hajmining ortishi o‘z-o‘zidan elektr energiyasi sarfini ortishiga olib keladi [4]. Bugungi kunda konchilik hamda sanoat korxonalarining elektr energiya iste’moli samaradorligini orttirish uchun muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalarining yangi turlarini ishlab chiqarish obyektlari hududida qo‘llash muammoning oqilona yechimi bo‘lib hisoblanadi.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022-yildagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori. https://lex.uz/docs/6303230?ONDATE=11.10.2023


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda "yashil" enegriya quvvatlaridan foydalanish masalalarini yoritish, ma'lumotlarni topish, aniqlash va tahlil qilish davomida bir nechta tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Jumladan, O'zbekistonda elektr energiyasini ishlab chiqarish qo'rsatkichlari statistik ma'lumotlari asosida qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Mamlakatimizda muqobil energiyalardan foydlanish masalalari o'ranilgan va muhokama qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirishning hozirgi bosqichida barqaror rivojlantirishni takomillashtirish energetika tarmog'ining raqobatdoshligini oshirishda asosiy omillardan biriga aylanmoqda. "Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "yashil" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish asosiy masalalardan sanaladi. 2026-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichini qo'shimcha 30 milliard kVt.soatga oshirib, jami 100 milliard kVt/soatga yetkazish, 2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash" vazifalari belgilab berilgan. Energetika korxonalarining faoliyatini barqaror rivojlantirishda ularning samaradorligini oshirish yuzasidan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, bunda energetika sanoatini rivojlantirish konsepsiyasiga mos ravishda korxonalar raqobatbardoshligi va ishlab chiqarish quvvatlarining samaradorligini oshirishga nisbatan uslubiy yondashuvlarni nazariy jihatdan asoslash va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Respublikada iqtisodiyot barqaror o'sishini ta'minlashga va aholining farovonlik darajasini oshirishga, yoqilg'i-energetika resurslariga bo'lgan talab-ehtiyojni uzluksiz qanoatlantirishga qaratilgan neft-gaz, elektr energetika, ko'mir, kimyo, qurilish industriyasini rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi amalga oshirilmoqda. 22.08.2019-yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4422-sonli Qarorida yuqoridagi masalalarni amalga oshirish maqasadida "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini yanada oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish" bo'yicha yo'l xaritasi belgilangan[2].



1-diagramma

"2020–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlash konsepsiyasi"ni amalga oshirish jarayonida O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan yangi vazifalari va ustuvor yo'nalishlariga muvofiq kengaytirilishi ta'minlanadi. Konsepsiyada 2030 yilgacha erishilishi kerak bo'lgan bir qancha ko'rsatkichlar qayd etilgan, jumladan:

- quvvatni 12,9 GVt dan 29,3 GVt ga oshirish[3];
- elektr energiyasini ishlab chiqarishni 63,6 mlrd. kVt/s.dan 120,8 mlrd. kVt/s.gacha oshirish;

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4422-sonli qarori. https://lex.uz/docs/-4486125

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qaroriga 2-ilova "Sanoat tarmoqlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlash konsepsiyasi"

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- tabiiy gaz iste'molini 16,5 milliard kub metrdan 12,1 milliard kub metrgacha kamaytirish;
- elektr energiyasini uzatishda yo'qotishlarni 2,35 foizga va taqsimlashda yo'qotishlarni 6,5 foizga kamaytirish (2019-yilga nisbatan 1,85 barobar kam).

Ushbu rejalarning amalga oshirilishi O'zbekistonda 10-yil ichida energiya iste'moli qariyb ikki baravar oshishi haqidagi prognozlarni hisobga olgan holda mamlakatning energetik havfsizligini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, bugungi kunda ishlab chiqarish quvvatlarining asosiy qismini (taxminan 85 foizini) elektroelektr stansiyalari tashkil etadi, shu munosabat bilan 2030-yilga kelib IES ning 15,6 GVt yangi va modernizatsiya qilingan ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish rejalashtirilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda energiya ishlab chiqarish quvvatlari yildan yilga ortib bormoqda. 2016-yilda energiya ishlab chiqarish quvvati 59,0 mlrd kVt/soatni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 74,3 mlrd kVt/soatni tashkil etganlishini ko'rishimiz mumkin.

Elektr energiyasini ishlab chiqarishning ko'plab uchullari mavjud bo'lib, Ushbu usullar yordamida elektr energiyasini ishlab chiqarishda qo'llanadigan asosiy texnologiyalardan foydalaniladi. Ushbu energiya ishlab chiqarish usullarini tanlab, ishlab chiqarilayotgan mulkniklar va energiyaning chiqishiga effektivlik bilan ishlab chiqarish mumkin.

Quyidagi diagrammada esa O'zbekistonda iste'molsilarni elektr energiyasi bilan ta'minlash ko'rsatkichining tahlilini ko'rish mumkin.



2-diagramma

Mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yashil energiya manbalaridan foydalanish tarmoqlardagi raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi. "Yashil" energiya manbalarining keng joriy qilinishi tarmoqlarda energiya resurslari bilan ta'minlash xizmatlarini ko'rsatishga xarajatlarning kamayishi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi, shuningdek, barqaror energiyaning mavjudligi, moliyaviy mablag'larning tejalishiga hamda iqlim o'zgarishlari asoratlarini yumshatishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, energiyaga bo'lgan umumiy talabni to'liq qondirish, uzoq va chekka hududlarda uzluksiz energiya ta'minotini amalga oshirish kabi qator masalalarni hal qilish hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish imkonini berganligi uchun, so'nggi yillarda mamlakatimizda umumiy energiya balansida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi ortib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi qariyb 10 foizni tashkil etmoqda.

1-jadval: O'zbekistonning QTEM salohiyati (Million tonna neft ekvivalenti = Mtne)[4]

Qayta tiklanadigan energiya manbai	Yalpi potensial	Texnik salohiyat
Gidroenergetika	9,2 Mtne	2 Mtne
Shamol energetika	2,2 Mtne	0,4 Mtne
Quyosh fotoelektroni	50973 Mtne	177 Mtne
Geotermal energiya	67000 Mtne	0,3 Mtne
Jami muqobil energiya manbalar	117984 Mtne	179,3 Mtne

4 Uzbekistan Energy Profile. https://iea.blob.core.windows.net/assets/8c1cefe6-4c29-46b0-82fa-c524714e54a5/UzbekistanEnergyProfile.pdf

Xalqaro energiya agentligi (International Energy Agency – IEA)5ning hisobotiga ko‘ra 2023-yilda qayta tiklanuvchi energiyaning global quvvati 510 gigavatt (GVt) ga yetdi. Bu qo‘rsatkich 2022-yilga nisbatan qariyb 50 foizga ko‘p ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Hisobotda prognoz qilinishiga ko‘ra:

- 2024-yilda shamol va quyosh energiyasi birgalikda gidroenergetikadan ko‘ra ko‘proq elektr energiyasi ishlab chiqara boshlaydi.
- 2025-yilda barcha qayta tiklanadigan energiya manbalari quvvati ko‘mir ishlab chiqarishdan ham oshadi va eng yirik elektr energiyasi manbaiga aylanadi.
- Shamol elektr stansiyalari 2025-yilda atom elektr stansiyalarini, 2026-yilda esa quyosh elektr stansiyalarini ortda qoldiradi.
- 2028-yilda qayta tiklanadigan energiya global elektr energiyasi ishlab chiqarishning 42 foizdan ortig‘ini, shamol va quyosh ulushi esa 25 foizini tashkil qiladi.

Mamlakatimizda energetika tizimi barqarorligini ta’minlash uchun yangi quvvatlarga mos tarmoqlarni qurish, elektr saqlash qurilmalarini o‘rnatish, zarur materiallarni ishlab chiqarishni maqsadida O‘zbekistonda 2024-yilda elektr ishlab chiqarishda “yashil energiya” ulushi 15 foizga yetishi kutilmoqda.

Iqtisodiyotni jadal suratlarda o‘sib borishini ta’minlash maqsadida shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari talabidan kelib chiqqan holda kelgusi uch yilda 8 gigavattli 28 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish, 944 kilometr yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari va 6 ta yirik podstansiyani qurish, jami 2,2 gigavatt bo‘lgan 18 ta elektr saqlash quvvatlarini o‘rnatish maqsad qilingan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Energiya resurslariga tobora talab ortib borayotgan bir vaqtda enegriya resurslaridan samarali foydalanish, yashil energiya manbalarini izlaz va ularni iqtisodiyotning tarmoq va sohalariga joriy etish, energetika tizimining barqarorligini ta’minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Qayta tiklanadigan energiya manbalari ekologik toza yashil energiya manbalari bo‘lganligi sababli muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. “yashil” iqtisodiyotni ta’minlash maqsadida atrof- qazib olinadiga yoqilg‘ilardan (CO_2) foydalanishni kamaytirish, energo reruslarini tejash, iste’molini to‘g‘ri tashkil etishda qayta tiklanuvchi enegriya manbalari muhim rol o‘ynaydi. QTEMlari birinchidan, havoni ifloslamasdan energiya xizmatlarini taqdim etadi, ikkinchidan, tog‘li va chekka hududlarda energetika sohasini barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

- “yashil” enegriya quvvatlarini barpo etish ulardan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan:
- “yashil” energiya quvvatlarini barpo etishda tabbiy resurslardan foydalaniladi. Ular quyosh, shamol, suv va boshqa resurslardir.
- “yashil” enegriyadan foydalanishdagi innivatsion texnologiyalar yashil energiya generatsiyasi, batareyalar, energiya iste’molini kuchaytirish usullari energiya iste’moli va iqtisodiy bo‘shliqlarning o‘zlashtirishiga yordam beradi.
- “yashil” enegriya resurslari, masalan, quyosh va shamol kabi tabiiy manbalardan foydalanish narxlarning pastligini ta’minlashga yordam beradi. Bu esa energiya narxlari ustida yengilgi ko‘rsatkichi bo‘lib, energiya iste’molchilar uchun arzon va maqbul narxlarga ega bo‘lishi mumkin.
- “yashil” energetika sohasidagi islohotlar va dasturlar, masalan, yashil energiya olishi uchun dastlabki investitsiyalarni qayta ishlab chiqish, energiya olish jarayonlarini iqtisodiy va o‘zlashtirishga yordam berish, energiya iste’molini kuchaytirish va iqtisodiy islohotlarni ko‘paytirishga imkoniyat yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шадиметов, Ю. Ш., & Айрапетов, Д. А. (2023). Зеленая” энергетика: опыт зарубежных стран, проблемы и перспективы. “yashil” energetikani amaliyotga tatbiq etish: yutuqlar va muammolar” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to ‘plami, 247-253.
2. Zeng, S., Tanveer, A., Fu, X., Gu, Y., & Irfan, M. (2022). Modeling the influence of critical factors on the adoption of green energy technologies. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 168, 112817.)
3. Chau, K. Y., Moslehpour, M., Tu, Y. T., Tai, N. T., Tien, N. H., & Huy, P. Q. (2022). Exploring the impact of green energy and consumption on the sustainability of natural resources: Empirical evidence from G7 countries. Renewable energy, 196, 1241-1249.
4. Қаршибаев, А., Зохидов, О., & Хамзаев, А. (2022). Муқобил энергия манбалари асосида электр энергия истеъмоли самарадорлигини оширишнинг экспериментал тадқиқотлари. Innovatsion texnologiyalar, 1(04), 72-76.

5 https://www.iea.org/reports/renewables-2023/executive-summary



XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA CVP-TAHLILNI TASHKIL ETISHNING MUAMMOLI JIHATLARI

ORCID: 0000-0001-6938-7897

Qlichev Baxtiyor Pardayevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqola O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan korxonalarda foydani oshirish maqsadida amalga oshiriladigan xarajatlarni mahsulotning ishlab chiqarish va sotish hajmiga muvofiq optimallashtirish masalalarini qamrab olgan. Xalqaro amaliyotda CVP-tahlil, deb nomlanadigan mazkur usulni O‘zbekistonda sement ishlab chiqarishda yetakchi ulushga ega bo‘lgan “Ohangaronsement” AJ da 2019–2023-yillardagi mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi to‘g‘risidagi shartli ma’lumotlaridan kelib chiqib, CVP-tahlilni tashkil etish, “xarajat-hajm-foyda” ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda qo‘llashning muammoli masalalari o‘rganilgan, muammolar yechimining nazariy va amaliy jihatlari yoritib berilgan. Amalga oshirilgan hisob-kitoblarda nisbiy ko‘rsatkichlar, ma’lumotlarni guruhlash, mantiqiy fikrlash usullaridan foydalanilgan hamda tahliliy yechimlar berilgan.

Kalit so‘zlar: CVP-tahlil, ekstensiv o‘sish, intensiv o‘sish, faoliyat samaradorligi, optimal xarajat.

Abstract: This article covers the issues the optimization of costs in relation to product sales and production volume is the focus of this essay in order to increase profit in enterprises in Uzbekistan. In international practice, this technique, known as CVP-analysis, is used in “Ohangaronsement” JSC, which holds a dominant market share in Uzbekistan’s cement production, based on organized using conditional data on the volume of product production and sales in 2019–2023, study “cost-volume-profit” indicators, and emphasize both the theoretical and practical aspects of problem solving. Relative indicators, data aggregation, logical reasoning techniques, and analytical solutions were applied in the computations that were carried out.

Key words: CVP-analysis, extensive growth, intensive growth, operational efficiency, optimal cost.

Аннотация: В данной статье освещены вопросы оптимизации расходов в соответствии с объемом производства и реализации продукции в целях увеличения прибыли на предприятиях в Узбекистане. В международной практике этот метод, как CVP-анализ, применяется в АО “Охангаронцемент”, занимающем лидирующую долю в производстве цемента в Узбекистане, для организации CVP-анализа исходя из условных данных об объемах производства и реализации продукции в 2019-2023 годах, изучаются проблемные вопросы применения при исследовании взаимосвязи показателей “затраты-объем-прибыл”, выделяются теоретические и практические аспекты решения проблем. В проведенных расчетах использовались относительные показатели, группировка данных, методы логического мышления и даны аналитические решения.

Ключевые слова: CVP-анализ, экстенсивный рост, интенсивный рост, эффективность деятельности, оптимальные затраты.

KIRISH

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy faoliyatida foydani oshirish va yangi mahsulot ishlab chiqarish, amalga oshirilayotgan xarajatlarni optimallashtirish hamda mahsulot sotish hajmi bilan bog‘liqlikdagi hisob-kitoblar asosida amalga oshiriladi. Bunda tahliliy hisob-kitoblar o‘tgan davrdagi ma’lumotlar va tajribaga asoslanadi. Korxonalarda o‘tkaziladigan iqtisodiy tahlil aniq ma’lumotlar o‘rnini bosa olmasada, u turli boshqaruv qarorlari va ular keltiradigan oqibatlar haqidagi savollarga javob topishda juda foydali [Pardayevich, K. B. (2023)]. Korxonalar operatsion faoliyati tahlilining mazkur jihatlarini yoritib beradigan modeli “Xarajat(Cost)-hajm(Volume)-foyda(Profit)” (CVP-tahlil) tahlili deb ataladi. CVP tahlili, birinchi navbatda, opreatsion faoliyatning korxonaning moliyaviy natijalariga ta’sirini baholashga qaratilgan. Ishlab chiqarilgan mahsulot hamda mahsulot sotish hajmiga asosiy e’tibor berishimizning sababi shundaki, mahsulot ishlab chiqarilayotganda sarflanadigan resurslar va mehnat xarajatlari odatda, ma’lum darajada aniq bo‘lsa, mahsulot bahosi hamda mahsulotga bo‘lgan talab esa, o‘zgaruvchan bo‘ladi.

CVP-tahlilning asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- korxona tomonidan amalga oshirilgan xarajatlarni qoplaydigan mahsulot ishlab chiqarish hajmini – zararsizlik nuqtasini aniqlash;
- ishlab chiqarilgan mahsulot va uni sotishning minimal (zararsizlik) hajmini hajmini aniqlash;
- kelgusida ko‘zlangan foyda miqdoriga ega bo‘lish yuzasidan ishlab chiqarish hamda uni realizatsiyasining optimal hajmini belgilash;
- belgilangan mazkur hajmlarga muvofiq amalga oshiriladigan xarajatlar me’yorini belgilash;
- rejalashtirilgan xarajatlar me’yori bo‘yicha haqiqiy xarajatlar ustidan nazoratni amalga oshirish;
- xarajat-hajm-foyda bo‘yicha ortiqcha amalga oshirilgan xarajatlar, ortiqcha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, yetarli miqdorda sotilmagan mahsulot hajmi muvofiqligini o‘rganish va baholash;
- aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tahliliy ishlarni amalga oshirish.

Operatsion faoliyatda CVP-tahlilning asosiy maqsadi xarajatlarni belgilangan optimal hajmga muvofiq amalga oshirilishiga erishish hisoblanadi. Umuman olganda, harajatlar, hajm, foyda (tushum) ko‘rsatkichlarining o‘sishidagi muvofiqlikni o‘rganish CVP-tahlilning asosiy yo‘nalishi, maqsadi hisoblanadi [Pardayevich, Q. B. (2023)].

Mualliflar I. Choriyev [Klichev, B. P., & Choriev, I. X. (2021)] hamda M.Tulayevlar [Pardayevich, K. B., & Salamovich, T. M. (2021)] olib borgan tadqiqotlarida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bugungi kunda faoliyatini harakatga keltiruvchi, rag‘batlantirib turuvchi vosita faoliyatning yakunida erishiladigan manfaat (foyda) hisoblanadi, degan fikrni ilgari surishgan. Bozor iqtisodiyotida manfaatdorlik, yuqori manfaatga erishish, barcha korxonalarning pirovard maqsadi, ularning faoliyatini baholashning asosiy mezoni sifatida e’tirof etiladi. Bundan tashqari, joriy davrda erishilgan foyda, falsafiy ma’noda, sabr uchun berilgan mukofot hisoblansa, kelgusidagi faoliyat, amalga oshiriladigan harakatlar uchun esa motivatsiya hisoblanadi. Erishiladigan ijobiy moliyaviy natijalar xarajat-hajm-foyda o‘sishidagi to‘g‘ri muvofiqlikka bog‘liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida O‘zbekiston Respublikasida sement ishlab chiqarish sohasidagi yetakchi korxona “Ohangaronsement” AJ ma’lumotlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot jarayonida mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlar, ma’lumotlarni guruhlash, mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Operatsion faoliyatda CVP-tahlilni tashkil etishda xarajatlarning o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi, mahsulot hajmining o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi va foydaning o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganiladi. Ushbu bog‘liqlikning turli vaziyatlaridan kelib chiqib, mavjud holat baholanadi va iqtisodiy tahlil ishlari amalga oshiriladi.

1. CVP-tahlilida xarajat-hajm-foyda o‘rtasidagi quyidagi bog‘liqlik yuzaga kelsa, ushbu o‘sish intensiv o‘sish hisoblanadi:

$$P_1*100 /P_0 > V_1*100 /V_0 > C_1*100 /C_0$$

CVP-tahlilda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda xarajat-hajm-foyda bo‘yicha intensiv o‘sishga erishilishi eng maqbul holat hisoblanadi. Chunki, bunda foydaning o‘sishi mahsulot hajmiga nisbatan, mahsulot hajmi esa xarajatlarga nisbatan o‘sishiga erishiladi. Intensiv o‘sishda xarajatlar bo‘yicha ham, mahsulot hajmi bo‘yicha ham samaradorlik ko‘rsatkichlari ijobiy holatda bo‘ladi.

2. CVP-tahlilida xarajat-hajm-foyda o‘rtasidagi quyidagi bog‘liqlik yuzaga kelsa, ushbu bog‘liqlik proporsional bog‘liqlik hisoblanadi:

$$P_1/P_0*100 = V_1/V_0*100 = C_1/C_0*100$$

CVP-tahlilda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda xarajat-hajm-foyda bo‘yicha proporsional bog‘liqlikka erishilishi tabiiy, ya’ni ekstensiv bog‘liqlik hisoblanadi. Chunki, bunda foyda va xarajatlarning o‘sishi yoki kamayishi mahsulot hajmiga nisbatan proporsional bo‘ladi. Ushbu holatda xarajatlar bo‘yicha ham, mahsulot hajmi bo‘yicha ham samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘zgarmas bo‘ladi. CVP-tahlilda yuzaga keladigan ekstensiv bog‘liqlikda samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘zgarmas bo‘lsa-da, mahsulot hajmini oshib borishi mos ravishda xarajatlarni ham foydani ham oshirib boradi. Foydaning oshib borishi tabiiyki, xo‘jalik yurituvchi subyektlar manfaatlariga mos keladi.


1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, "Ohangaronsement" AJ da 2019-yilga nisbatan 2020-yilda ishlab chiqarish va sotish hajmi nisbatan barqaror o'sgan bo'lsa-da, ishlab chiqarish xarajatlarining 111,6 % ga oshganligi va foydaning 78,5 % ni tashkil qilganligi salbiy holat hisoblanadi.

1-jadval: "Ohangaronsement" AJ da 2019–2023-yillarda sement mahsuloti bo'yicha xarajat-hajm-foyda o'zgarishi[1]

Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
Ishlab chiqarish hajmi, tn.	1603970	1620669	1332648	1671857	1936944
o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi, %		101,1	82,2	125,4	115,8
Mahsulot sotish hajmi,tn	1591265	1616548	1329652	1639594	1892685
o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi, %		101,6	82,3	123,3	115,4
Ishlab chiqarish xarajatlari, mln. so'm so'm	541588	604457	534452	714560	812324
o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi, %		111,6	88,4	133,7	113,7
Asosiy faoliyat foydasi, mln.so'm	246534	193507	295803	145099	157030
o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi, %		78,5	152,8	49,1	108,2

"Ohangaronsement" AJ da 2019–2023-yillarda sement mahsuloti bo'yicha xarajat-hajm-foyda o'zgarishini 1-rasmda ham kuzatish mumkin.

2021-yilda ishlab chiqarish xarajatlarining mahsulot ishlab chiqarish hamda mahsulot sotish hajmiga nisbatan kamroq foizda qisqarishi va foydaning keskin oshishi pandemiya ta'sirida bo'lganligi bilan izohlanadi. COVID-19 pandemiyasining ta'siri "Ohangaronsement" AJ ning 2022-yil faoliyatiga ham ta'sir qilgan.



1-rasm: "Ohangaronsement" AJ da ishlab chiqarilgan mahsulot, sotish hajmi, xarajatlar hamda foyda o'zgarishi[2]

Jumladan, mahsulot ishlab chiqarish hamda mahsulot sotish hajmining 123-125 % atrofida oshgan bo'lsada, ishlab chiqarish xarajatlarining 133,7% ga oshishi va sement narxining pasayib ketishi jamiyat foydasining 2020-yilga nisbatan 49,1 % ni tashkil qilishiga olib kelgan.2023-yilda jamiyat faoliyatida mahsulot ishlab chiqarish hamda mahsulot sotish hajmi 2021-yilga nisbatan 115-116 % ga oshgan bo'lsa, xarajatlarning nisbatan 113,7 % ga oshganligi jamiyatda mahsulot hajmiga nisbatan xarajatlarning nisbiy iqtisodiga erishganligini anglatadi.

1 "Ohangaronsement" AJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan
2 "Ohangaronsement" AJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

1-jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlar tarkibiga qaraydigan bo‘lsak, mahsulot ishlab chiqarish hamda mahsulot sotish hajmi, ishlab chiqarish xarajatlari ko‘rsatkichlari faqat sement mahsulotiga tegishli bo‘lsa, jamiyat asosiy faoliyat foydasi umumiy ishlab chiqariladigan mahsulotlarga nisbatan aniqlangan. Shuning uchun, xarajat-hajm-foyda bog‘liqligini jamiyatning umumiy ko‘rsatkichlariga nisbatan aniqlash ham maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Keng assortimentda va turli o‘lchov birliklariga ega mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarda xarajat-hajm-foyda o‘rtasidagi bog‘liqlikni mahsulot sotishdan sof tushum, sotilgan mahsulot tannarxi va asosiy faoliyat foydasi kabi ko‘rsatkichlar bilan o‘rganish orqali operatsion faoliyat samaradorligini baholash mumkin (2-jadval).

2-jadval: “Ohangaronsement” AJ da 2019-2023-yillarda tushum-tannarx-foyda o‘zgarishi (mln. so‘m)[3]

Ko‘rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
Mahsulot sotishdan sof tushum	689824	825706	920048	1012169	909539
o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi, %		119,6	111,4	110	89,9
Sotilgan mahsulot tannarxi	380234	476160	478 300	601489	608691
o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi, %		125,2	100,4	125,7	101,2
Asosiy faoliyat foydasi	246534	193507	295803	145099	157030
o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi, %		78,5	152,8	49,1	108,2

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, “Ohangaronsement” AJ da 2019–2023-yillarda mahsulot sotishdan sof tushum, tannarx va asosiy faoliyat foydasi o‘zgarishi yillar kesimida turlicha bo‘lgan. Jumladan:

1. 2020-yilda: Tushum (119,6%) < Tannarx (125,2 %) > Foyda (78,5%)

2020-yilda jamiyatda mahsulot sotishdan sof tushum 2019-yilga nisbatan oshgan bo‘lsada, tannarxning tushumga nisbatan ko‘proq oshganligi asosiy faoliyat foydasining kamayishiga qisman ta’sir qilgan. Bunday holatda mahsulot tannarxi tarkibidagi xarajat moddalari bo‘yicha va foydaga salbiy ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha tahliliy ishlar amalga oshirilishi lozim.

2. 2021-yilda: Foyda (152,8 %) > Tushum (111,4 %) > Tannarx (100,4 %)

2021-yilda “Ohangaronsement” AJ da mahsulot sotishdan sof tushum, sotilgan mahsulot tannarxi va asosiy faoliyat foydasi bo‘yicha intensiv o‘sishga erishilgan. Albatta, jamiyatda bunday o‘sishga erishilganligi pandemiya davrida xom-ashyo narxining tushganligi va sement narxining oshganligi bilan bog‘liq hisoblanadi. Umuman olganda barcha korxonalarda tushum, foyda va xarajatlar bo‘yicha mana shunday o‘sish darajasini ta’minlay olish juda muhim va amalga oshiriladigan tahliliy ishlarning asosiy maqsadi hisoblanadi.

3. 2022-yilda: Tannarx (125,7 %) > Tushum (110,6%) > Foyda (49,5%)

2022-yilda jamiyatda mahsulot sotishdan sof tushum 2020-yilga nisbatan oshgan bo‘lsada, pandemiyadan keyin jahon miqyosidagi xom-ashyo va resurslarning qimmatlashishi fonida O‘zbekistonda ham resurslar narxining o‘sishi mahsulot tannarxining tushumga nisbatan keskin oshishiga ta’sir qilgan. Ushbu holat hamda 2022-yilda 2021-yilga nisbatan sement mahsuloti narxining pasayishi asosiy faoliyat foydasining 2022-yilga nisbatan keskin kamayishiga ta’sir qilgan. “Ohangaronsement” AJ da xarajat-hajm-foyda o‘rtasidagi mazkur bog‘liqlik jamiyat uchun salbiy holat hisoblanib, tahliliy ishlarda mahsulot tannarxining keskin oshib ketish sabablari, tushumning va foydaning pasayib ketish sabablari va omillar ta’siri o‘rganilishi lozim.

4. 2023-yilda: Foyda (108,2%) > Tannarx (101,2 %) > Tushum (89,9%)

2023-yilda jamiyatda mahsulot sotishdan sof tushum 2021-yilga nisbatan kamaygan bo‘lsada, jamiyatda sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxining nisbatan o‘sishiga yo‘l qo‘ymaganligi hamda boshqa xarajat turlari bo‘yicha samarali nazorat olib borganligi natijasida asosiy faoliyat foydasining o‘sishiga erishilgan. “Ohangaronsement” AJ da xarajat-hajm-foyda o‘rtasidagi mazkur bog‘liqlik jamiyat uchun nisbatan salbiy holat hisoblanadi. Chunki, kelgusi yillarda jamiyat tushumning tannarxga nisbatan intensiv o‘sishga erishmasa, mazkur holat jamiyat operatsion foydasining kamayishiga olib kelishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada korxonalar asosiy faoliyatida CVP-tahlilni tashkil etishda xarajat-hajm(tushum)-foyda ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi munosabatlarga ko‘ra ekstensiv va intensiv o‘sish darajalari o‘rganildi. Bundan tashqari xarajatlarning o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi (C_1/C_0*100), mahsulot hajmining o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi (V_1/V_0*100) va foydaning o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi (P_1/P_0*100) o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganib chiqilib, ushbu ko‘rsatkichlarning turli o‘sish darajasiga ega bo‘lish holatida operatsion faoliyat natijaviyligi baho-

3 “Ohangaronsement” AJ ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

lash mumkinligi ko‘rsatib berildi. 2019–2022-yillarda “Ohangaronsement” AJ da xarajatlar, mahsulot sotishdan tushum va asosiy faoliyat foydasi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilib, ushbu ko‘rsatkichlarning turli o‘sish darajasiga ega bo‘lgandagi holat baholandi. Mazkur holatdan kelib chiqib operatsion faoliyat tahlilini tashkil etish yo‘nalishlarini belgilash mumkinligi ko‘rsatib berildi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish korxonalari asosiy faoliyati samaradorligini baholash va tahlil qilishning to‘g‘ri tashkil etilishi, operatsion faoliyat samaradorligini belgilovchi ko‘rsatkichlarni to‘g‘ri tizimlashtirish, ularni aniqlash hamda tahlil qilish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflarning amaliyotga qo‘llanilishi, mahsulot ishlab chiqarishning optimal hajmi belgilash, joriy va kelgusidagi korxona salohiyatini aniqlash bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish korxonalarda ijobiy moliyaviy natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pardayevich, K. B. (2023). Analysis of the Maximum Volume of Production in Cement Production Enterprises in Uzbekistan. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 5(6), 1-8.
2. Pardayevich, K. B., & Salamovich, T. M. (2021). Issues of development of the analysis of business activity in joint-stock companies of Uzbekistan. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11 (11), 584-591.
3. Pardayevich, Q. B. (2023). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarishning maksimal hajmi tahlili. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 5, 187-192.
4. Klichev, B. P., & Choriev, I. X. (2021). The Issues Of Business Activity Organization In Uzbekistan. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI), 12(7), 4587-4593.
5. Pardayevich, Q. B. (2023). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda operatsion faoliyatida ishlab chiqarish hajmini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlili. Scientific Journal of “International Finance & Accounting, 2, 2181-1016.
6. Klichev Bakhtiyar Pardayevich. (2024). Problematic Aspects of Organizing Cvp-Analysis in the Enterprises of Uzbekistan // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 5(5), 241–248. Retrieved from https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/4906
7. Klichev, B. (2023). Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi tahlilini takomillashtirish masalalari. Napravleniya razvitiya blagopriyatnoy biznes-sredi v usloviyax sifrovizatsii ekonomiki, 1(01), 170–173. https://doi.org/10.47689/TSUE2022-pp170-173
8. Pardayevich, Q. B. (2023). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda operatsion sikl tahlilini tashkil etish masalalari. World Scientific Research Journal, 16(1), 196-203.
9. Qlichev, B. (2022). KPI tizimi asosida moddiy rag‘batlantirish masalalari tahlili. Arxiv nauchnix issledovaniy, 2(1). izvlecheno ot https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1343
10. Pardayevich, Q. B. (2023). Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi tahlilini takomillashtirish masalalari. Issues of improving the analysis of the volume of production at enterprises // Образование наука и инновационные идеи в мире, 13(7), 42-49.
11. Pardayevich, Q. B. (2024). Korxonalarda operatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilish masalalari // World scientific research journal, 26(3), 86-94.
12. Qlichev, B. P. (2022). Mahsulot sotish hajmi tahlilini takomillashtirish masalalari. Science and Education, 3(5), 1719-1728.

KORXONADA LIKVIDLIK RISKINI MINIMALLASHTIRISH ORQALI UNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI SAQLAB QOLISH



Latipova Shaxnoza Maxmudovna
SamISI dotsenti

Annotatsiya: Maqolada moliyaviy risk turlaridan biri sifatida likvidlik riskining mohiyati, ahamiyati va uning turlari yoritilgan. Likvidlik omilini e'tiborga olgan holda investitsion operatsiyalarning kerakli daromadlik darajasini shakllantirishning uslubiy asoslarini aniqlash yo'llari taklif etilgan. Shuningdek, likvidlik riskini pasaytirish orqali korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: risk, likvidlik riski, moliyaviy barqarorlik, aktiv, majburiyat, "risk-daromadlilik", moliyaviy barqarorlik.

Abstract: The article describes the essence, meaning and types of liquidity risk as one of the types of financial risk. Taking into account the liquidity factor, ways to determine the methodological basis for forming the required level of profitability of investment operations are proposed. Scientific and practical proposals were also given to ensure the financial stability of enterprises by reducing liquidity risk.

Key words: risk, liquidity risk, financial stability, asset, liability, risk-return, financial stability.

Аннотация: В статье описаны сущность, значение и виды риска ликвидности как одного из видов финансового риска. С учетом фактора ликвидности предложены пути определения методической основы формирования необходимого уровня доходности инвестиционных операций. Также были даны научно-практические предложения по обеспечению финансовой устойчивости предприятий за счет снижения риска ликвидности.

Ключевые слова: риск, риск ликвидности, финансовая устойчивость, актив, обязательство, "риск-доходность", финансовая устойчивость.

KIRISH

Har bir xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati risklar bilan bog'liq, lekin ular orasida eng xavflisi sifatida xo'jalik yurituvchi subyektning to'lov qobiliyatsizligini yuzaga keltiradigan, buning natijasida uning moliyaviy barqarorligini izdan chiqarib, oxir-oqibatda bankrotlikka yetaklaydigan risk turi – bu likvidlik riskidir.

Korxona likvidlik riski deganda, eng oddiy holatda korxona tomonidan o'z majburiyatlarini bajara olmaslik ehtimolligi tushuniladi. Bunda quyidagi ikki muhim jihatga alohida to'xtalib o'tamiz: likvidlik va to'lovga qobiliyatlilik. Bu ikki tushuncha garchi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lsada, ammo mohiyatan farqlanadi. Birinchi tushuncha majburiyatlarni bajarish bo'yicha potensial imkoniyatlarni anglatadi. Ushbu tushuncha, avvalo aylanma aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlardan ortiq bo'lishida namoyon bo'ladi. Ikkinchi tushuncha esa o'sha potensial imkoniyatni ma'lum bir vaqtda amalga oshirilishini ifodalaydi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, mijozlar oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish uchun pul mablag'larini to'lashning jismoniy imkoniyatlari tushuniladi. To'lovga qobiliyatlilikka oid yana bir qarash mavjudki, u kompaniya aktivlarini sotishdagi mumkin bo'lgan yo'qotishlar miqdorini anglatadi, ya'ni korxona daromad olishning kutilgan hajmidan kam miqdorda daromad olishi nazarda tutilmoqda. Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida likvidlik riskining ahamiyati, uning yuzaga kelish sabablari va oldini olish (minimallashtirish) masalalari yetarlicha tadqiq qilinmagan. Maqolada ushbu masalani yoritishga harakat qilamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy barqarorlik tushunchasiga olimlar tomonidan bildirilgan turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, I.A.Pavlovaning fikriga ko'ra, korxona moliyaviy barqarorligining mohiyati "uning shunday moliyaviy holatidirki, unda korxonaning xo'jalik faoliyati uning barcha majburiyatlarini ta'minlashga imkon beradi" [1].

Rus olimlari tomonidan moliyaviy barqarorlik tadqiqot obyekti sifatida keng o‘rganilgan. Jumladan, G.V.Saviskaya tomonidan moliyaviy barqarorlikka xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘zgaruvchan ichki va tashqi muhit sharoitida faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi, o‘z aktivlari va passivlari muvozanatini saqlash qobiliyati, bu uning doimiy to‘lov qobiliyati va maqbul darajada investitsion jozibadorligi kafolatlanishi degan fikrlar ilgari surilgan [2].

N.K. Vasileva boshchiligidagi bir guruh olimlar korxonalarning moliyaviy barqarorligini tahlil qilar ekanlar, asosiy e’tiborni korxona ixtiyoridagi mavjud aktivlar va ularning majburiyatlar bilan nisbatiga qaratishgan. Korxonalar moliyaviy barqarorligini tahlil qilish orqali korxonaning doimiy to‘lovqobiliyati ehtimolligini baholash mumkin bo‘ladi. Moliyaviy barqarorlik va likvidlik riskini tahlil qilishning asosiy vazifasi korxonalar xo‘jalik faoliyatida uchrashi mumkin bo‘lgan risklarni o‘z vaqtida aniqlash, shuningdek korxonaning moliyaviy holatini oshirish va to‘lov qobiliyatini yaxshilash uchun talab etiladigan zaxiralarni qidirib topishdan iborat.

V.R.Bank tomonidan korxonaning moliyaviy barqarorligiga maqbul risk sharoitida uzluksiz ishlash, yetarli rentabellik va majburiyatlarni o‘z vaqtida to‘lash qobiliyatini ta’minlaydigan moliyaviy resurslar, ularni taqsimlash va ishlatish holatini ifodalaydi degan ta’rif berilgan [3].

A.D. Sheremet korxonalarning moliyaviy barqarorligi qoniqarli balans tuzilishi bilan tavsiflanadi va iqtisodiy faoliyatning moliyaviy natijalarini aks ettiradi deya ta’kidlab, moliyaviy barqarorlikni korxona buxgalteriya balansida aks ettirilgan aktiv va majburiyatlarni o‘zaro taqqoslash hamda ijobiy moliyaviy natijalarga erishish orqali yoritgan [4].

Moliyaviy barqarorlik va likvidlik riskining o‘zaro bog‘liqligi I.A. Pavlovaning ishlarida ham ko‘zga tashlanadi. Uning fikricha, korxona moliyaviy barqarorligining mohiyati korxonaning shunday moliyaviy holatidirki, unda korxonaning xo‘jalik faoliyati uning barcha majburiyatlarini ta’minlashga imkon beradi. Bu tar’rifdan ko‘rinib turibdiki, korxonada aktivlar hajmi majburiyatlarni qoplash uchun yetarli bo‘lganda moliyaviy barqarorligi ham talab darajasida bo‘ladi [5].

Milliy iqtisodchi olimlarimiz tomonidan ham korxonalarning moliyaviy barqarorligi va likvidligiga to‘xtalib o‘tilgan.

Xususan, T.S. Malikov xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini umumiy (avtonomiya koeffitsiyenti, qarz kapitalining konsentratsiyalashuvi koeffitsiyenti, qarz va o‘z mablag‘larining nisbati koeffitsiyenti) va nisbiy ko‘rsatkichlari (zaxira va xarajatlarning o‘z kapitali bilan ta’minlanganlik koeffitsiyenti, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, o‘z kapitalining manyovrchilik koeffitsiyenti) holda moliyaviy koeffitsiyentlar asosida ifodalaydi [6].

M.Q.Pardayev va B.I.Isroilovlar esa moliyaviy barqarorlikni korxona o‘z mablag‘lari va barcha mablag‘larning nisbati sifatida talqin qilishadi [7].

E.A.Akramov moliyaviy mustahkamlik tushunchasi va uning ko‘rsatkichlarini tavsiya etgan, unga ta’sir etuvchi omillarni asoslab bergan. Shuningdek, u moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichining korxonaning moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishi va pasaymasligini ifodalovchi ko‘rsatkich ekanligini ta’kidlaydi [8].

Bizning fikrimizcha, korxonaning moliyaviy barqarorligi – bu uning o‘zgaruvchan ichki va tashqi muhitda faoliyat yuritish va rivojlanish qobiliyati, o‘zining doimiy to‘lovga layoqatliligini va investitsion jozibadorligini saqlab qolish uchun aktiv va passivlarining muvozanatini saqlab qolishi bo‘lib, maqbul risk darajasi sharoitida foyda va kapitalning o‘sishiga asoslangan va korxona rivojlanishini ta’minlaydigan moliyaviy resurslari holatidir. Korxona moliyaviy barqarorligi uning butun moliyaviy-xo‘jalik faoliyati jarayonida shakllanadi va daromadlarning harajatlardan barqaror oshishini o‘zida aks ettiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlar, ma’lumotlarni guruhlash, mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Likvidlik riski shunday risk turiki, bunda XYUS faoliyatida moliyaviy majburiyatlarini, moliyaviy aktivlar bo‘yicha to‘lovlarni bajarish jarayonida muammolar yuzaga keladi.

Bundan tashqari, likvidlik riski korxonaning ma’lum bir sanada o‘zining moliyaviy majburiyatlari (mol yetkazib beruvchilarga kreditorlik qarzi, kreditlar bo‘yicha majburiyatlar)ni o‘z vaqtida va to‘liq hajmda bajara olish imkoniyatining kamayishi bilan bog‘liqdir.

Likvidlik riskining ikki turi kuzatiladi:

- Bozor likvidligi riski – majburiyatlarni bajarish maqsadida aktivlarning o‘z vaqtida pulga aylana olmasligi hisoblanadi. Bunda aksariyat holatlarda aktivlar chegirma asosida realizatsiya qilinishi natijasida zarar ko‘rish holatlari uchraydi. Aktivlar bozor holati, ya’ni unga talabning yo‘qligi tufayli talab etilgan vaqtda pulga aylanmaslik holati kuzatiladi;

- Balans likvidligi riski – aktivlar qiymati majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo‘lmaganda yuzaga keladi.

Likvidlik riski korxonalarning moliyaviy barqarorligi bilan chambarchas bog‘liq.

Moliyaviy strategiyani to‘g‘ri shakllantirish korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, moliyaviy barqarorlik korxona faoliyatini moliyalashtirish manbalariga bevosita bog‘liq. Shu munosabat bilan alohida ta’kidlash lozimki, iqtisodiy tizimning eng muhim tarkibiy qismi hisoblangan korxonalarning moliyaviy barqarorligi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishishda muhim ahamiyatga ega. Chunki, moliyaviy barqarorlik va unga erishish xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyat yuritish qobiliyatini ta’minlashning garovi hamda uning mustahkam mavqe’ga ega bo‘lishining asosi sifatida xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, moliyaviy barqarorlik, korxonaning o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi moliyaviy imkoniyatlarini aniqlash muhim iqtisodiy muammolar jumlasiga kiradi. Korxona faoliyatida moliyaviy barqarorlikni baholash usullarining chegaralari va ularning butun tizimidan eng samarali foydalanish imkoniyatlari, ko‘rsatkichlar algoritmi va ularni talqin etish, mulkchilik va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning mezonlarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Professor T.M.Malikovning fikricha, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi quyidagilar bilan tavsiflanadi:


- tashqi qarz manbalardan moliyaviy mustaqillik;
- moliyaviy resurslardan erkin va samarali foydalanish borasida XYUSning qobiliyati;
- xo‘jalik faoliyatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan o‘z mablag‘lari miqdorining XYUSda barqaror mavjudligi [6].

Korxonalar moliyaviy barqarorligini tahlil qilish va baholash asosida nafaqat korxonalar moliyaviy resurslarini samarali shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish, balki bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni ham aniqlab, ularning salbiy ta’sirini minimallashtirish yotadi. Moliyaviy barqarorlik hamda likvidlik riskining tahlili tahlil qilinayotgan davr mobaynida korxonalar o‘zining moliyaviy resurslarini quyidagi vazifalarni yechish uchun o‘z vaqtida va qanchalik to‘g‘ri boshqarganligini aniqlashga imkon beradi:

- yuqori talabga ega mahsulotni ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlash;
- mahsulot realizatsiya qilinishining uzluksizligini ta’minlash;
- innovatsion asosda ishlab chiqarish bazasini kengaytirish va modernizatsiyalash.

Korxona moliyaviy barqarorligi va likvidlik riskini tahlil qilishda moliyaviy barqarorlik holatini ifodalovchi moliyaviy koeffitsiyentlarga tayanish muhim ahamiyatga ega. Korxonaning moliyaviy barqarorligini baholashda va ular orqali risk darajasini aniqlashda birinchi navbatda likvidlik ko‘rsatkichlarining o‘zi, shuningdek rentabellik, to‘lovga qobiliyatlilik, foydalilik, aktivlar va korxona (aksionerlik kapitali)dan foydalanishni aks ettiruvchi bir guruh ko‘rsatkich (koeffitsiyent)lardan foydalaniladi.

Aktivlarning likvidlik darajasi bo‘yicha guruhlanishi 1-chizmada keltirilgan.



1-chizma: Likvidlik darajasi bo‘yicha korxona aktivlarining guruhlanishi

Korxona balans likvidliligini baholash maqsadida balans aktiv va passiv ko‘rsatkichlarini quyidagi ikki xususiyatiga ko‘ra guruhlash va ularni taqqoslash likvidlik riskining darajasini aniqlashga imkon beradi:

- Likvidlikning pasayish darajasi bo‘yicha (aktiv);
- Qoplash muddati darajasi bo‘yicha (passiv).

Aktivlarni pul mablag‘lariga aylanish tezligi bo‘yicha hamda passivlarni qaytarish muddatidan kelib chiqib guruhga ajratish mumkin [1-chizmada keltirilgan ($A_1 – A_4$, $P_1 – P_4$)].

Balans likvidliligini aniqlashda balans aktiv va passiv guruhlari o‘zaro taqqoslanadi. Balans mutloq likvidliligi shartlari quyidagicha bo‘ladi:

$A_1 \geq P_1$;
$A_2 \geq P_2$;
$A_3 \geq P_3$;
$A_4 \leq P_4$.

Agar yuqorida keltirilgan birinchi uchta tengsizlik bajarilsa, demak balans mutloq likvid hisoblanadi. To‘rtinchi tengsizlik esa balanslashtirish ma’nosini beradi, ya’ni ushbu tengsizlikning bajarilishi korxonada o‘z aylanma mablag‘larining borligini anglatadi va biz buni quyidagicha ifodalaymiz:

O‘am = O‘mm – Avq,

Bu yerda:
O‘am – o‘z aylanma mablag‘larining mavjudligi;
O‘mm – o‘z mablag‘lari manbai (balans passivi I-bo‘limi jami);
Avq – asosiy vositalar va quyilmalar (balans aktivi I-bo‘limi jami).

Agarda yuqorida keltirilgan tengsizliklardan birortasi qayd etilgan optimal variantdan chetlashsa, unda balans likvidligi uning absolyut likvidligidan farqlanadi va natijada korxonada likvidlik riski yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval: Korxonalarda balans likvidligi asosida likvidlik riskini baholash

Likvidlik holatining turlari			
Shartlar			
$A_1 \geq P_1$; $A_2 \geq P_2$; $A_3 \geq P_3$; $A_4 \leq P_4$	$A_1 < P_1$; $A_2 \geq P_2$; $A_3 \geq P_3$; $A_4 \approx P_4$	$A_1 < P_1$; $A_2 < P_2$; $A_3 \geq P_3$; $A_4 \approx P_4$	$A_1 < P_1$; $A_2 < P_2$; $A_3 < P_3$; $A_4 > P_4$
Mutloq likvidlik	Yo‘l qo‘yiladigan likvidlik	Buzilgan likvidlik	Krizisli likvidlik
Likvidlik riskini baholash			
Risksiz zona	Yo‘l qo‘yiladigan risk zonasi	Kritik risk zonasi	Katastrofik risk zonasi

Nazariy jihatdan aktivlarning biror guruhida yetishmovchilik kuzatilsa, u boshqa guruh aktivlari bilan qoplanishi mumkin. Ammo amaliyotda past likvidli aktivlar tez likvidli aktivlarning o‘rnini bosa olmaydi.

- A_1-P_1 va A_2-P_2 aktiv hamda passivlar guruhining taqqoslanishi korxonaning joriy likvidligini aks ettirib, yaqin orada uning to‘lovga qobiliyatliligi (to‘lovga qobiliyatsizligi)dan dalolat beradi;
- A_3-P_3 tengsizligi esa istiqbolli likvidlikni aks ettiradi va unga tayanib korxonaning uzoq muddatli to‘lovga qobiliyatliligi bashorat qilinadi.

Korxona balansining likvidligi likvidlilikni aniqlashning an’anaviy ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilinadi va olingan natijalardan kelib chiqib balansning absolyut likvidlikning barcha mezonlariga qay darajada javob berishini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Natijada korxona davr boshi va davr oxirida nafaqat passivlarning balansda qayd etilgan majburiyatlarning istalgan turi bo‘yicha majburiyatlarini, balki quyida keltirilgan majburiyatlarni ham qoplay oladi:

- Ishlab chiqarilayotgan tovarlar bo‘yicha yuzaga kelgan majburiyatlar (sifatni oshirish, reklama, iste’molchilarning tomonidan yuqori baholanishi, raqobatchilarga nisbatan iste’mol sifatlarini oshirish va h.k.);
- Servis bo‘yicha majburiyatlar (servisning o‘z vaqtidaligi va to‘liqligi, servisning jozibadorligi, sotuvdan keyingi servisning yo‘lga qo‘yilganligi va h.k.);
- Narx bo‘yicha majburiyatlar (tovarning iste’molchilar tomonidan yuqori baholanganda, yuqori sifat va to‘liq servisda narxning jozibadorligi va h.k.) va b.

Investitsiyalarning likvidlik darajasini baholashning uslubiy jihati bunday baholashni mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlar orqali amalga oshirishni talab etadi.

Likvidlikni baholashning asosiy mutlaq ko‘rsatkichi bo‘lib mavjud investitsiya obyektini amalga oshirishning mumkin bo‘lgan davri hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich quyidagicha aniqlanadi:

$$ULd = Kd - Td$$

ULd – investitsiya obyektining umumiy likvidlik davri;

Kd – ivestitsiya obyektini pul mablag‘iga konversiya qilish mumkin bo‘lgan umumiy davr, kunlarda;

Td – investitsiya obyektini mutloq likvidlik bilan pul mablag‘iga konversiya qilishning texnik davri, odatda 7 kun olinadi.

Investitsiya darajasini baholashning asosiy nisbiy ko‘rsatkichi bu ularning likvidlik ko‘rsatkichi hisoblanib, quyidagicha aniqlanadi:

$$LKi = \frac{T_D}{K_D},$$

Bu yerda: LKi – investitsiya likvidligi ko‘rsatkichi;

T_d – investitsiya obyektini mutloq likvidlik bilan pul mablag‘iga konversiya qilishning texnik davri, odatda 7 kun olinadi.

K_d – investitsiya obyektini pul mablag‘iga konversiya qilish mumkin bo‘lgan umumiy davr, kunlarda.

Likvidlik omilini e’tiborga olgan holda investitsion operatsiyalarning kerakli daromadlik darajasini shakllantirishning uslubiy vositasi “daromadlik-likvidlik” shkalasini aniqlovchi quyidagi ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligiga asoslanadi:

1. Likvidlik uchun talab etiladigan mukofot darajasini aniqlash quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$M_l = \frac{Ul_d \times d_{ml}}{360}$$


Bu yerda:

M_l – likvidlik uchun talab etiladigan mukofot darajasi, % da;

UL_d – investitsiya obyektining umumiy likvidlik davri;

d_{ml} – mutlaq likvidlikka ega investitsion obyektlar bo‘yicha o‘rtacha yillik daromadlik darajasi, %da.

Investorning iqtisodiy xulq-atvori barcha boshqa sharoitlar teng bo‘lganda yuqori likvidli investitsion obyektlarni tanlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi, bu esa unga investitsiya portfelini boshqarish jarayonida moliyaviy resurslar bilan manevr qilish imkonini beradi. Investor o‘rta va past likvidli investitsiya obyektlarini tanlashdan manfaatdor bo‘lishi uchun u qo‘shimcha investitsiya daromadi shaklida ma’lum rag‘batlantirishga ega bo‘lishi kerak. Investitsiya obyektining likvidlik darajasi (koeffitsiyenti) qanchalik past bo‘lsa, investitsiya daromadi yoki likvidlik mukofoti miqdori shunchalik yuqori bo‘lishi kerak. Bu bog‘liqlikni quyidagi chizma orqali ifodalaymiz:



2-chizma: Investitsiya obyekti likvidlik darajasining investitsiya daromadi yoki likvidlik mukofoti miqdoriga ta’siri

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

ТАРАҚҚИЁТ ПРОГРЕСС PROGRESS

2. Likvidlik omilini hisobga olgan holda talab etiladigan umumiy daromadlik darajasi (dul) ni aniqlash quyidagi formula asosida amalga oshiriladi:

$$d_{ul} = d_{ml} + M_l$$

bu yerda:
d_{ul} – likvidlik omilini hisobga olgan holda talab etiladigan umumiy daromadlik darajasi;
d_{ml} – mutlaq likvid investitsion loyiha (vosita) bo‘yicha o‘rtacha yillik daromadlik darajasi, %da;
M_l – likvidlik uchun talab etiladigan mukofot darajasi, % da.

Likvidlik omilini hisobga olgan holda pul mablag‘lari qiymatini baholashning uslubiy vositasi taqqoslanuvchi va talab etiladigan likvidlik darajasini ta’minlovchi investitsion oqimlarni shakllantirish imkonini beradi.

Likvidlik omilini hisobga olgan holda pul mablag‘larining o‘sish qiymatini baholashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$FV_l = D_{o‘d}*[(1 + d_{ml})*(1 + M_l)]^n$$

Bu yerda:
FV_l – likvidlik omilini hisobga olgan holda moliyaviy vosita (pul mablag‘lari)ning kelajakdagi (o‘sish) qiymati;
$D_{o‘d}$ – mutlaq likvid investitsion loyiha (vosita) bo‘yicha o‘rtacha yillik daromad darajasi, o‘nli kasrda ifodalangan;
d_{ml} – mutlaq likvidlikka ega investitsion obyektlar bo‘yicha o‘rtacha yillik daromadlik darajasi, %da;
M_l – likvidlik uchun talab etiladigan mukofot darajasi, o‘nli kasrda ifodalangan;
n – umumiy shartlangan muddat davomida har bir to‘lov amalga oshiriladigan davrlar soni.

Likvidlik omilini hisobga olgan holda pul mablag‘larining joriy qiymatini baholashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$D_{o‘d} = \frac{FV_l}{[(1 + d_{ml})*(1 + M_l)]^n}$$

$D_{o‘d}$ – likvidlik omilini hisobga olgan holda pul mablag‘larining joriy qiymati (mutlaq likvid investitsion loyiha (vosita) bo‘yicha o‘rtacha yillik daromad darajasi), o‘nli kasrda ifodalangan;
FV_l – likvidlik omilini hisobga olgan holda moliyaviy vosita (pul mablag‘lari)ning kelajakdagi (o‘sish) qiymati;
d_{ml} – mutlaq likvidlikka ega investitsion obyektlar bo‘yicha o‘rtacha yillik daromadlik darajasi, %da;
Ml – likvidlik uchun talab etiladigan mukofot darajasi, o‘nli kasrda ifodalangan;
n – umumiy shartlangan muddat davomida har bir to‘lov amalga oshiriladigan davrlar soni.

Misol: Mijoz bankka 1000 AQSH dollari miqdoridagi mablag‘ni 60 kunga muddatli omonatga joylashtirdi. Agar talab qilib olingungacha daromad darajasi 1,5 % bo‘lsa, konversiyaning umumiy davri, quyilmaning likvidlik koeffitsiyenti, likvidlik uchun mukofot darajasi, likvidlik omilini hisobga olgan holda umumiy daromadlik darajasi va quyilmaning kelajakdagi o‘sish qiymatini aniqlang.

Quyilma 60 kunga qo‘yilganligi sababli, ivestitsiya obyektini pul mablag‘iga konversiya qilish mumkin bo‘lgan umumiy davri Kd =60 bo‘ladi. Unda konversiyaning umumiy davri $\mathbf{UL_d = K_d – T_d = 60 – 7 = 53\ kun}$,

Investitsiyalar likvidlik koeffitsiyenti $\mathbf{LKi = \frac{T_D}{K_D} = \frac{7}{60} = 0{,}117}$.

Likvidlik uchun talab etiladigan mukofot darajasi quyidagicha

$$\mathbf{M_l = \frac{Ul_d \times d_{ml}}{360} = \frac{53 \times 1{,}5}{360} = 0{,}221\ \%}$$

(omonat 60 kundan keyin to‘lanishi kerak, ya’ni iuyilma likvidligi yuqori, likvidlik mukofoti darajasi esa past).

Likvidlik omilini hisobga olgan holda talab etiladigan umumiy daromadlik darajasi

$$\mathbf{d_{ul} = d_{ml} + M_l = 1{,}5 + 0{,}221 = 1{,}721\%.}$$

Omonat muddati 60 kun, ya’ni n = 60 kun = 0,167 yil, likvidlik omilini hisobga olgan holda o‘sish qiymati

$FV_l = 1000*[(1+0{,}015)*(1+0{,}00221)]^{0{,}167} = 1000*1{,}01724^{0{,}167} = 1002{,}85$ AQSH dollarini tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Demak, korxonalarning moliyaviy barqarorligi ko‘p jihatdan moliyaviy koeffitsiyentlar orqali aniqlanadi. Moliyaviy koeffitsiyentlarni baholash va tahlil qilish korxonaning absolyut moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini baholashni yanada kengaytirib, bu orqali likvidlik riskining oldini olishga ko‘maklashadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston amaliyotida xo‘jalik yurituvchi subyektlar, ayniqsa korxonalar moliyaviy holatini kompleks o‘rganish amaliyotida moliyaviy barqarorlik va likvidlik riskini o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilishga juda kam hollardagina murojaat qilinadi. Birorta manbada korxona xo‘jalik yurituvchi subyektlar ma’lumotlari asosidagi real tahliliy ma’lumotlarni deyarli uchratmaymiz. Bu holat moliyaviy ko‘rsatkichlarning yillar kesimidagi dinamik o‘zgarishlarida ham kuzatiladi.

Shu sababli, korxonada moliyaviy barqarorlik va likvidlik riskini tahlil qilishda quyidagilarga alohida e’tibor berish lozim:

- chop etiladigan manbalarda ko‘rsatkichlarning hisob-kitoblarida ma’lumotlar moliyaviy hisobotlarning aynan qaysi shakli va satrlaridan olinganligini aniq ko‘rsatish lozim. Shu orqali ularning aniqligini va bir xilligini ta’minlash mumkin;
- milliy kredit bozorida korxonani tanlash, ya’ni uning moliyaviy holatini baholash orqali tegishli qarorni qabul qilish uchun maxsus yo‘riqnoma ishlab chiqish lozim. Ushbu yo‘riqnomada lizing munosabatlarida korxonalar faoliyatining o‘ziga xosligi, faoliyat sohasi, lizing muddati kabi omillardan kelib chiqib, korxonaning moliyaviy holatini aniqlash imkonini beradigan zaruriy ko‘rsatkichlarni aniq belgilab o‘tish lozim.

Adabiyotlar:

1. Pavlova I.A. Analiz i prognozirovaniye finansovoy ustoychivosti organizatsii s uchetom jiznennogo sikla na osnove integralnogo pokazatelya // Finansoviy menedjment. 23 (263) – 2007.
2. Savitskaya G.V. Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya: uchebnik. — 5-ye izd., pererab. I dop. – M.: INFRA-M, 2009. 536 s.
3. Bank V. R. Finansoviy analiz: ucheb. posobiye. / Bank S. V., Taraskina L. V. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2006. – 344 s.
4. Sheremet A.D. Teoriya ekonomicheskogo analiza: Uchebniy kurs. — 2-ye izd., pererab. i dop. – M.: INFRA-M, 2009. – 365 s.
5. Pavlova I.A. Analiz i prognozirovaniye finansovoy ustoychivosti organizatsii s uchetom jiznennogo sikla na osnove integralnogo pokazatelya // Finansi i kredit. – 2017 g. 23 (iyun). – s. 71-75.
6. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya. Darslik / Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: 2019. – 969 b.
7. Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil: (Uslubiy ko‘rgazmalar va tavsiyalar albomi). – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999. – 197 b.
8. Akramov E.A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. – T.: Moliya, 2003. – B. 64-85.

РАЗВИТИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН





Ким Татьяна Валерьевна
PhD, доц. кафедры “Экономическая теория” Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Гофуржонова Шахрибону Бахромжон кизи
Студентка 4 курса Экономического факультета Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Аннотация: Настоящая статья посвящена анализу и оценке развития международных торгово-экономических связей Республики Узбекистан. В работе рассматриваются основные аспекты внешнеэкономической деятельности Узбекистана, включая торговлю товарами и услугами, инвестиционные потоки, участие в региональных и международных экономических организациях. Особое внимание уделяется анализу торговых отношений Узбекистана с ключевыми партнерами, такими как Россия, Китай, страны Центральной Азии и другими. В статье также рассматриваются факторы, влияющие на развитие внешнеэкономических связей Узбекистана, такие как политическая стабильность, экономические реформы, инфраструктурное развитие и торгово-экономическое сотрудничество с другими странами.

Ключевые слова: инвестиции, торговля, сырьё, текстильная продукция, стратегия, торговые объединения.

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasining xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishini tahlil qilish va baholashga bag‘ishlangan. Tadqiqot ishida O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy jihatlari, jumladan, tovar va xizmatlar savdosi, investitsion oqimlar, mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy tashkilotlardagi ishtiroki ko‘rib chiqilgan. O‘zbekistonning Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo davlatlari va boshqa asosiy hamkorlari bilan savdo aloqalarini tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, maqolada O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari rivojiga ta’sir etuvchi siyosiy barqarorlik, iqtisodiy islohotlar, infratuzilmani rivojlantirish va boshqa davlatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik kabi omillar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: investitsiyalar, savdo, xomashyo, to‘qimachilik mahsulotlari, strategiya, savdo birlashmalari.

Abstract: This article is devoted to the analysis and assessment of the development of international trade and economic relations of the Republic of Uzbekistan. The work examines the main aspects of foreign economic activity of Uzbekistan, including trade in goods and services, investment flows, participation in regional and international economic organizations. Particular attention is paid to the analysis of trade relations of Uzbekistan with key partners, such as Russia, China, Central Asian countries and others. The article also examines factors influencing the development of foreign economic relations of Uzbekistan, such as political stability, economic reforms, infrastructural development and trade and economic cooperation with other countries.

Key words: investments, trade, raw materials, textile products, strategy, trade unions.

Став независимым государством, Узбекистан обрел свободу в определении своей внешней политики, выборе интеграционных объединений и приоритетов в международных отношениях. Страна обладает богатыми природными ресурсами, которые являются основой ее экономического развития. Недра Узбекистана богаты разнообразными полезными ископаемыми, более 2700 месторождений и потенциальных проявлений более 100 видов минерального сырья[1]. Сельскохозяйственный сектор также играет важную роль, благодаря обширным плодородным землям, обилию солнечной энергии и водным ресурсам, хотя их количество и ограничено. Узбекистан обладает значительными запасами полезных ископаемых, включая драгоценные и редкоземельные металлы. Страна занимает лидирующие позиции в мире по запасам серебра, вольфрама, фосфоритов, калийной соли и редкоземельных металлов. По разведанным запасам золота Узбекистан находится на четвертом месте, урана – на седьмом, молибдена – на восьмом, по подтвержденным запасам меди – на десятом, а по запасам природного газа – на четырнадцатом месте в мире[2].

Важное место в экспорте Узбекистана занимают золото и уран. Страна по итогам 2023 года заняла второе место по объему экспорта золота уступая Казахстан и третье место по экспорту урана[3]. Богатые природные ресурсы являются основой экономического развития Узбекистана и способствуют привлечению иностранных инвестиций в частности (ПИИ). Правительство страны активно реализует программы по развитию горнодобывающей промышленности, переработке полезных ископаемых и ряд других направлений.

Правительство Узбекистана предпринимает шаги по интеграции национальной экономики в мировой рынок капитала. В рамках Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы реализуется ряд мер, направленных на создание необходимых институциональных основ для интеграции[4]. Эти меры включают в себя семь основных приоритетов:

- Построение народного государства путем обеспечения интересов человека и дальнейшего развития свободного гражданского общества;
- Превращение принципов справедливости и верховенства закона в основное и необходимое условие развития страны;
- Развитие национальной экономики, обеспечение высоких темпов ее роста;
- Реализация справедливой социальной политики, развитие человеческого капитала;
- Обеспечение духовного развития, выведение данной сферы на новый этап;
- Подход к общечеловеческим проблемам исходя из национальных интересов;
- Усиление безопасности и обороноспособности страны, ведение открытой, прагматичной и активной внешней политики.

Вышеуказанные семь приоритетов могут дать мощный толчок в развитии и интеграции Узбекистана на мировом арене.

Переход Узбекистана к рыночной экономике потребовал переориентации промышленного и сельскохозяйственного производства на рыночные условия. Это привело к сокращению крупных предприятий, неадаптированных к новым условиям, росту структурной безработицы и снижению налоговых поступлений, что создало давление на государственный бюджет.

Реформы, проводимые в Узбекистане с 2017 года, привели к улучшению экономического состояния страны как в налоговой, так и в других сферах.

Для преодоления экономических трудностей и улучшения жизни своего народа каждое государство должно проводить многостороннюю и многовекторную внешнеэкономическую политику. Узбекистан, расположенный на перекрестке ключевых дорог Центральной Азии, имеет уникальную возможность стать центральноазиатским политическим, экономическим и культурным мостом, подобным Великому Шелковому пути. Такой подход позволит Узбекистану:

- укрепить региональное сотрудничество и взаимозависимость;
- создать новые экономические возможности и увеличить торговлю;
- улучшить транспортную и энергетическую инфраструктуру;
- способствовать культурному обмену и взаимопониманию.

Выступая в качестве моста между странами Центральной Азии, Узбекистан может внести значительный вклад в региональную стабильность, процветание и развитие.

Новые внешнеполитические подходы Узбекистана подчеркивают важность регионального сотрудничества и создали более оптимистичную атмосферу в Центральной Азии. Рассматривая период с 2017 по настоящее время, отношения между странами региона нормализовались. Ранее разобщенные госу-

1 Анализ влияния добычи углеводородов на экономику Узбекистана провели Иванова Е.П. и Петров Б.Г. (2020).
2 Оценка экологических аспектов недропользования в Узбекистане проведена Мирзаевой Л.К. (2019)
3 Статистика Республики Узбекистан 2022 года
4 Указ Президента Республики Узбекистан №27 принято 28.02.2023 г ex.uz/ru/docs/6396150

дарства теперь все больше идут на сближение и соглашения, включая ранее более закрытые Туркменистан и Афганистан.

Нормализация отношений не только преобразует региональную конфигурацию, но и придает Центральной Азии больший геополитический вес на международной арене.

Президент Республики Узбекистан проводит многовекторную и последовательную внешнюю политику. Страна демонстрирует готовность к диалогу, укреплению взаимного доверия и сотрудничеству со всеми государствами. Руководство Узбекистана продолжает придерживаться курса на укрепление регионального сотрудничества и экономическую интеграцию в Центральной Азии. Страна активно продвигает идею о том, что экономическое процветание является основой для решения многих проблем региона.

Узбекистан играет ключевую роль в региональной интеграции и сотрудничестве, выступая в качестве моста между странами Центральной Азии и содействуя установлению более тесных связей между ними.

2020 году в своем выступлении Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев подчеркивает важность создания интегрированных промышленных технопарков, научно-инновационных кластеров и свободных экономических зон вдоль инициативы “Экономический пояс Шелкового пути”[5].

Такие идеи и стратегии часто упоминались в его речах и выступлениях по развитию экономики и инноваций в стране.



Рис 1: Внешняя торговля Республики Узбекистана, в млн долларов[6]

Россия является крупнейшим экономическим партнером Узбекистана и 2023 году Россия была на втором месте среди торговых партнеров Узбекистана. Товарооборот Узбекистана и России по итогам 2023 года достиг 9,8 млрд долл США[7]. Рост товарооборота между странами по сравнению с 2022 годом превысил 5%.

В торговле между Узбекистаном и Россией действует режим свободной торговли, согласно двусторонним и многосторонним соглашениям в рамках СНГ. За последние шесть лет объем товарооборота между Узбекистаном и Россией вырос в два раза, с $4,73 миллиарда в 2017 году до $9,8 миллиарда в 2022 году. Экспорт из Узбекистана в Россию вырос на 1,5 раза, с $2,0 миллиарда до $3,1 миллиарда, а импорт из России в Узбекистан увеличился в 2,3 раза, с $2,7 миллиарда до $6,23 миллиарда[8].

5 Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев принял участие в восьмом саммите Совета сотрудничества тюркоязычных государств.2021 https://president.uz/ru/lists/view/4756

6 Отчет Агентство статистики при Администрации президента по итогам 2023 года за январь – июль месяц https://president.uz/ru/lists/view/475

7 Генеральный консул Республики Узбекистан в Ростове-на-Дону Бурхан Аликулов на ежегодном приеме для глав дипломатических учреждений и консульского корпуса, аккредитованного на территории Ростовской области.

8 https://e-cis.info/news/566/112737/#:~:text=%D0%92%20%D1%82%D0%BE%D1%80%D0%B3%D0%BE%D0%B2%D0%B-

В 2022 году, на фоне постпандемийного восстановления экономик, торговля между Узбекистаном и Россией продемонстрировала заметный рост. Общий товарооборот между странами увеличился на 23,6%, достигнув $9329,8 млн. Экспорт из Узбекистана в Россию значительно возрос на 48,4%, достигнув $3099,1 млн, в то время как импорт из России в Узбекистан увеличился на 14,1%, достигнув $6230,7 млн.

В первой половине 2023 года Россия также заняла второе место среди стран-партнеров Узбекистана по объему товарооборота с долей в 15,4%, уступив лишь Китаю. Однако, Россия занимает первое место в общем объеме экспорта Узбекистана, представляя 12% от общего экспорта[9].

Российские инвестиции играют значительную роль в экономике Узбекистана. По состоянию на начало 2024 года Россия занимает первое место по числу созданных предприятий с иностранными инвестициями (2849 предприятий или 22,3% от общего числа). Кроме того, в первом полугодии текущего года доля России в общем объеме освоенных иностранных инвестиций и кредитов составила 18,8%, а общий объем накопленных российских инвестиций в экономике Узбекистана превышает $10 млрд.

Внешнеторговый оборот с Россией за январь-февраль 2024 года составил $1,8 млрд., что показывает прирост в 20,9% в сравнение с аналогичным периодом прошлого года (рис. 2). Экспорт составил $493 млн., в то время как импорт достиг $1,3 млрд., что указывает на почти $0,8 млрд отрицательного сальдо торгового баланса.



Рис. 2: Внешняя торговля Узбекистана со странами ЕАЭС[10]

Исторически отношения между узбекским и китайским народами были тесно связаны с Великим Шелковым путем. Национальные ценности и традиции обоих народов внесли значительный вклад в развитие мировой культуры. Торговые отношения между странами привели к обмену редкими товарами, которые стали неотъемлемой частью повседневной жизни (чай, хлопок, шелк и бумаг).

Успешное проведение саммита Шанхайской организации сотрудничества (ШОС) в Самарканде 15-16 сентября 2022 года продемонстрировало высокий уровень взаимодействия между Узбекистаном и Китаем на международной арене.

По словам помощника министра иностранных дел КНР Ли Хуэйлая, сотрудничество между двумя странами вступило в “золотой период” стремительного развития. Саммит ШОС стал свидетельством прочности и эффективности партнерства между Узбекистаном и Китаем в решении региональных и глобальных вопросов. Отношения между Узбекистаном и Китаем стремительно развиваются во всех

B%D0%B5%20%D0%A3%D0%B7%D0%B1%D0%B5%D0%BA%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%B0%D0%BD%D0%B0%20%D1%81%20%D0%A0%D0%BE%D1%81%D1%81%D0%B8%D0%B5%D0%B9,%D1%80%D0%B0%D0%B7%D0%B0%20%D1%81%20242%2C0%20%D0%BC%D0%BB%D1%80%D0%B4

9 Отчет Агентство статистики при Администрации президента по итогам 2023 года за январь – июль месяц https://president.uz/ru/lists/view/475

10 Источник: Центр Экономических исследований и реформ https://review.uz/oz/i1b

сферах. Объем двусторонней торговли ежегодно растет, а структура экспорта и импорта расширяется. 2023 году товарооборот Узбекистана с Китаем составил 13,7 млрд долл США.

Основными товарами узбекского экспорта в Китай являются природный газ, цветные металлы и сельскохозяйственная продукция. Китай в основном экспортирует в Узбекистан машины и оборудование, электронику, текстиль и строительные материалы.



Рис 3: Структура торговли Узбекистан – Китай[11]

Укрепление сотрудничества с международными экономическими организациями повысит авторитет Узбекистана на мировом уровне и позволит стране занять достойное место среди развитых демократических государств.

Казахстан стабильно занимает третью позицию среди основных внешнеторговых партнеров Узбекистана после Китая и России. По итогам 2023 году внешнеторговый оборот составило 4,4 млрд долл США[12].

В течение многих лет основными экспортными товарами Узбекистана в Казахстан остаются природные ресурсы и сырьевые товары, такие как природный газ, удобрения и плодоовощная продукция. Импорт из Казахстана в Узбекистан также в основном состоит из сырьевых товаров, таких как зерно, мука, черные и цветные металлы.

Диверсификация структуры внешней торговли между Узбекистаном и Казахстаном является важнейшей задачей на среднесрочную перспективу. Для ее достижения обеим странам необходимо предпринять ряд мер, в том числе:

- Упрощение таможенных процедур, снижение торговых барьеров и улучшение деловой среды для иностранных инвесторов;
- Создание благоприятных условий для инвестиций, включая предоставление налоговых льгот и защиту инвестиций от национализации и экспроприации;
- Устранение двойного налогообложения и согласование налоговых ставок для стимулирования трансграничных инвестиций и торговли.

11 Данные статистики Агентство статистики Республики Узбекистан по итогам 2023 года https://stat.uz/ru
12 Отчет Агентство статистики при Администрации президента по итогам 2023 года за январь – июль месяц https://president.uz

Узбекистан и Казахстан находятся на новом этапе экономического развития. Узбекистан реализует стратегию экспортоориентированного развития с упором на ускоренную индустриализацию, а Казахстан реализует программу форсированного индустриально-инновационного развития и приступил к третьему этапу модернизации. Это создает благоприятные условия для углубления и расширения форматов взаимного сотрудничества.



Рис 4: Узбекистан и Казахстан товарооборот[13]

Несмотря на то, что Турция стала в четвертой страной (после Казахстан), установившей дипломатические отношения с Узбекистаном в марте 1992 года, развитие связей между двумя странами в значительной степени остановилось с конца 1990-х годов и до 2016 года. Однако в последнее время отношения между Узбекистаном и Турцией значительно улучшились, и теперь они являются стратегическими партнерами. Президенты обеих стран поддерживают постоянный диалог, что свидетельствует о высоком уровне взаимопонимания между ними.

2023 году внешнеторгового оборота за январь - июль между двумя странами составило 3,1 млрд долл США[14].

Взяв курс на открытие экономики и либерализацию в 2016 году, Узбекистан привлекает новых инвесторов и бизнес-партнеров. Хотя Россия и Китай занимают лидирующие позиции в торговых отношениях Узбекистана, Турция значительно укрепила свои позиции в последние несколько лет и стала четвертым по величине торговым партнером страны. Стремясь расширить возможности своих торговых отношений (доля Турции в товарообороте Узбекистана за январь – июль 2023 года составляет всего 5,3%, что в три раза меньше, чем у Китая и России), Узбекистан и Турция заключили в марте 2023 года Соглашение о преференциальной торговле, отменив таможенные пошлины на ряд товаров (фрукты и овощи, текстильные изделия, кожа и кожаные изделия, драгоценные и полудрагоценные камни и др)[15].

Для Турции это важный шаг в условиях экономических проблем и высокой инфляции, требующих своевременных решений. Сельскохозяйственная продукция, поступающая из Узбекистана по более низким ценам, играет важную роль в снижении финансового бремени. Узбекистан, в свою очередь, получает турецкие товары промышленного значения, необходимые для становления индустриального кластера страны.

Узбекистан стал одним из приоритетных направлений для турецких компаний, ищущих возможности для расширения своего бизнеса. Согласно данным Государственного комитета по статистике Узбекистана, в 2023 году Турция заняла первое место по количеству созданных в стране предприятий с иностранным участием. Включая:

- Промышленность;
- Здравоохранения;
- Торговля и др.

13 Данные статистики Агентство статистики Республики Узбекистан по итогам 2023 года https://stat.uz/ru
14 Отчет Агентство статистики при Администрации президента по итогам 2023 года за январь – июль месяц https://president.uz
15 Байбаков, Б.Н. (2022). Двусторонние отношения между Узбекистаном и Турцией: история и современность. Исторические исследования, 30(2), 89-102.

TARAQQIYOT PROGRESS



Рис 5: Объем экспорта и импорта Узбекистана и Турции (в тыс. долл. США)[16]

Узбекистан и Республика Корея установили дипломатические отношения в 1992 году и с тех пор поддерживают стабильное, динамичное и плодотворное сотрудничество в различных областях.

В 2006 году страны подписали Совместную декларацию о стратегическом партнерстве. В сфере торговли между Узбекистаном и Республикой Корея действует режим наибольшего благоприятствования, что способствует развитию экономических связей.

Республика Корея является пятой по величине внешнеторговым партнером Узбекистана, что свидетельствует о тесных экономических отношениях между двумя странами.

Товарооборот между Узбекистаном и Южной Кореей за последние 4 года удвоился - даже с учётом сокращения в пандемию. В 2023 году объем двусторонней торговли между Узбекистаном и Республикой Корея превысил 2 млрд долл США[17]. Основными товарами узбекского экспорта в Республику Корея являются текстиль, сельскохозяйственная продукция и цветные металлы. Республика Корея в свою очередь экспортирует в Узбекистан машины и оборудование, электронику, химическую продукцию и автомобили[18].

Узбекистан и Южная Корея обладают значительным потенциалом для углубления экономического сотрудничества в различных секторах экономики, включая:

- Создание технополисов в сфере металлургии, нефтехимии и машиностроения в интеграции с кластерами по производству изделий из черных металлов;
- Совместные предприятия по производству строительных материалов, в частности стекла, с использованием местных сырьевых ресурсов Узбекистана и опыта корейских производителей;
- Создание совместных предприятий по производству силиконовых полимеров и катализаторов (сырья для солнечных батарей) в Узбекистане с использованием корейских технологий;
- Разработка “зеленой” стратегии производства химической продукции в Узбекистане с участием Кореи;
- Привлечение корейских модных брендов и текстильных компаний к открытию производств в Узбекистане, а также Расширение и создание филиалов узбекско-корейского текстильного технопарка в регионах Узбекистана и др.

16 Отчет Агентство статистики при Администрации президента по итогам 2023 года за январь – июль месяц https://president.uz/ru/lists/view/475

17 Данные агентство статистики о взаимной торговли между экспорта и импорта Узбекистана и Кореи 2023 год https://president.uz/ru/lists/view/475

18 Ким, С. (2020). Двусторонние отношения между Узбекистаном и Республикой Корея: история и перспективы. Журнал "Международные отношения", 15(3), 45-57

Реализация этих мер позволит еще больше укрепить и углубить сотрудничество между Узбекистаном и Кореей в разных отраслях экономики.

В результате, исследование развития международных торгово-экономических связей Республики Узбекистан позволяет сделать несколько ключевых выводов. Во-первых, за последние годы Узбекистан продемонстрировал значительный прогресс в укреплении своих внешнеэкономических отношений, расширив круг торговых партнеров и увеличив объемы торговли. Особенно важным стало углубление сотрудничества с Россией, Китаем и странами Центральной Азии. Во-вторых, успешная экономическая реформа и улучшение инвестиционного климата способствуют привлечению иностранных инвестиций, что стимулирует экономический рост и развитие страны. Это подтверждается ростом числа предприятий с иностранными инвестициями в Узбекистане и общим объемом накопленных инвестиций. Наконец, активное участие Узбекистана в региональных и международных экономических организациях, таких как СНГ и ШОС, способствует углублению сотрудничества и обмену опытом с другими странами. Это позволяет Узбекистану активно участвовать в процессах глобализации и обеспечивать стабильное развитие своей экономики.

Таким образом, развитие международных торгово-экономических связей играет ключевую роль в экономическом развитии Узбекистана. Важно продолжать укреплять партнерские отношения с другими странами, совершенствовать внутреннюю экономическую политику и содействовать инвестиционной активности для обеспечения устойчивого экономического роста и благополучия народа Узбекистана.

Список использованной литературы:

1. Агентство статистики Республики Узбекистан (2022–203). Годовой отчет о деятельности. Ташкент: Агентство статистики Республики Узбекистан.
2. Сидоров, А.М. (2020). Методологические проблемы сбора и анализа статистической информации в Узбекистане. Вестник научных исследований, 8(1), 78-91.
3. Указ Президента Республики Узбекистан, №27 от 28.02.2023 года “О государственной программе по реализации стратегии развития нового Узбекистана 2022–2023 годы “Год заботы о человеке и качественного образования”. ttps://lex.uz/ru/docs/6396150
4. Торгово-экономические отношения между Узбекистаном и странами портнерстваконтексте региональной интеграции. Вестник международных отношений.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

KAPITAL QURILISHNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI





A. Bektemirov
I.f.d., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrasi mudiri, professor

M. U. Sarimsoqov
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion rivojlanish sharoitida kapital qurilishni boshqarish samaradorligini ta’minlashning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot natijalari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: risklarni identifikatsiyalash, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlik, qurilish axborotini modellashtirish (QAM), iqlim o‘zgarishi, urbanizatsiya, global muammolar, 4D dasturi, building Information Modeling (BIM), virtual va kengaytirilgan haqiqat,bulutli texnologiyalar, moslashuvchan metodologiyalar, strategik sheriklik va hamkorlik, kadrlar salohiyati, ta’lim va rivojlanish,ta’minot va texnologiyalar,mentorlik va murabbiylik, innovatsiya va tadqiqot, sifat va xavfsizlik.

Abstract: The article describes the results of research aimed at improving organizational and economic mechanisms for ensuring the efficiency of capital construction management in the conditions of innovative development.

Key words: risk identification, social, economic and environmental sustainability, building information modeling (QAM), climate change, urbanization, global issues, 4D software, building information modeling (BIM), virtual and augmented reality, cloud technologies, agile methodologies , strategic strategies. partnerships and collaboration, human resources, training and development, supply and technology, mentoring and coaching, innovation and research, quality and safety.

Аннотация: В статье описаны результаты исследований, направленных на совершенствование организационно-экономических механизмов обеспечения эффективности управления капитальным строительством в условиях инновационного развития.

Ключевые слова: идентификация рисков, социальная, экономическая и экологическая устойчивость, информационное моделирование зданий (QAM), изменение климата, урбанизация, глобальные проблемы, 4D-программное обеспечение, информационное моделирование зданий (BIM), виртуальная и дополненная реальность, облачные технологии, гибкие методологии, стратегические стратегии. партнерство и сотрудничество, человеческие ресурсы, обучение и развитие, поставки и технологии, наставничество и коучинг, инновации и исследования, качество и безопасность.

KIRISH

Bugungi innovatsion rivojlanish sharoitida kapital qurilishni boshqarish samaradorligini oshirish masalasi dolzarbligi tobora oshib bormoqda. Bunga bir qator obyektiv va subyektiv sabablar mavjud.

Birinchidan, qurilish sanoati sifatni yaxshilash, vaqtni qisqartirish va loyihalar bo‘yicha xarajatlarni kamaytirish uchun doimiy ravishda yangi texnologiyalar va usullarni joriy qilmoqda. Bu innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmini doimiy ravishda takomillashtirishni taqozo etadi.

Ikkinchidan, raqobat kuchayib borayotgan va cheklangan resurslar sharoitida samarali boshqaruv qurilishda muvaffaqiyatning asosiy omiliga aylanmoqda. Innovatsion rivojlanish qurilish loyihalarida yangi risklarni vujudga keltiradi. Risklarni identifikatsiyalash va va tahlil qilish bu risklarning ta’sir darajasini minimallashtiradi.

Uchinchidan, qurilish ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta’minlashga katta hissa qo‘shadi. Shu nuqtai kapital qurilishni boshqarishning zamonaviy tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga yetarlicha e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, qurilish axborotini modellashtirish (QAM), dronlar, masofaviy monitoring va ma’lumotlar tahlili kabi raqamli texnologiyalarning joriy etilishi qurilish sohasida loyihalarni boshqarish usullarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Beshinchidan, iqlim o‘zgarishi, urbanizatsiya va uy-joy tanqisligi kabi global muammolar qurilish sanoati uchun yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda va bu o‘z vaqtida barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun innovatsion boshqaruv yondashuvlarini talab qiladi.

Yuqorida aytib o‘tilgan masalalar kapital qurilishda o‘z yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kiradi va bu tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR TAHLILI

Kapital qurilishni boshqarish samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari bir qator iqtisodchi olimlar o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqda. Quyida ularning asosiylariga to‘xtalamiz. Taniqli rus iqtisodchi olimlari Yu.V.Djikovich, V.Totoyev, P.G.Graboviy, A.X. Bayburin D.A.Bayburin, Aleynik P.P. o‘z tadqiqotlarida qurilishni boshqarishning eng zamonaviy xususiyatlari, har qanday obyekt qurilishga tizimli yondashish, qurilishda marketing va operatsion rejalashtirish, qurilish kompaniyalarining zamonaviy tuzilmalari va boshqaruv modellari, boshqaruvda zamonaviy BIM (Building Information Modeling) texnologiyalaridan foydalanish va qurilishda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni boshqarish tizimlariga alohida e’tibor qaratgan [1-5]. Iqtisodchi olimlar O.V. Bogdanova, O.V.Dokudovskayalar o‘z tadqiqotlarida qurilishning zamonaviy me’moriy, tashkiliy va texnologik yechimlarini aniqlashda 4D dasturidan foydlanishning asosiy xususiyatlariga to‘xtaladi [6]. Yana bir olim Assayra Maruf Maxammed investitsion-qurilish kompleksida noaniqlik sharoitida uzluksiz axborot oqimlari yordamida risklarni boshqarishni takomillashtirishni taklif etadi [7]. Tadqiqotchilar O.V.Nikulina va Ye.N.Yakovlevalar o‘z tadqiqotlarida qurilishda iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan noratsional sarf xarajatlarning oldini olishni taklif etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotlar davomida tahlil va sintez, induktsiya va deduktsiya, ilmiy mushohada usullaridan foydalanilgan.,

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlar natijasidan ma’lum bo‘ladiki, hozirgi iqtisodiy sharoitda kapital qurilishni boshqarish samaradorligini oshirishda quyidagi yo‘nalishlar katta ahamiyat kasb etadi:

- raqamli texnologiyalarni qabul qilish: loyihani rejalashtirish, muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish uchun BIM (Building Information Modeling) va qurilish dasturlari kabi raqamli texnologiyalardan foydalanish. Bu jarayonlarni optimallashtirish, muvofiqlashtirishni yaxshilash va xarajatlarni kamaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu sohada raqamlashtirishning ba’zi asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:
- building Information Modeling (BIM) - bu binolar va infratuzilma haqidagi ma’lumotlarni ularning butun hayoti davomida raqamli shaklda yaratish va boshqarish metodologiyasi. Bu loyiha ishtirokchilariga obyektni loyihalash, qurish va ishlatishning turli jihatlarini yaxshiroq tushunish va muvofiqlashtirish imkonini beradi:

- virtual(VR) va kengaytirilgan haqiqat(AR): loyihalarni vizuallashtirish, xodimlarni o‘qitish va loyihaning turli bosqichlarida rejalashtirish va qaror qabul qilishni yaxshilash uchun VR va ARdan foydalanish. Bunda VR virtual haqiqat bo‘lib, u raqamli makonni yaratadi, AR - kengaytirilgan haqiqat bo‘lib, AR smartfonlar, planshetlar yoki Google Glass kabi maxsus AR ko‘zoynaklari kabi qurilmalar yordamida raqamli obyektlar va ma’lumotlarni real dunyoga joylashtirish imkonini beradi. Foydalanuvchi qurilma kamerasi orqali real muhitni ko‘radi va uning ustida to‘ldirilgan obyektlar va ma’lumotlar aks ettirilib, real dunyoga integratsiyalashgandek ta’surot uyg‘otadi:
- qurilish dasturiy ta’minoti (SPO): loyihani boshqarish, resurslarni rejalashtirish, xarajatlarni hisobga olish, shuningdek, qurilishni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun maxsus dasturiy ta’minotdan foydalanishni ko‘zda tutadi;
- narsalar interneti (IoT): qurilish jarayonlari, uskunalar holati, xavfsizlik shartlari va boshqalar haqida ma’lumotlarni to‘plash uchun qurilish maydonchalarida tarmoqqa ulangan sensorlar va qurilmalarni o‘rnatish va ulardan foydalanishdan iborat;
- bulutli texnologiyalar: loyiha ma’lumotlarini saqlash va almashish uchun bulut xizmatlaridan foydalanish, real vaqtda loyihaning barcha ishtirokchilari uchun ma’lumotlar mavjudligini ta’minlashga xizmat qiladi;
- avtomatlashtirish va robototexnika: qurilish maydonchasida odatiy ishlarni bajarish uchun avtomatlashtirilgan tizimlar va robotlardan foydalanish, masalan, materiallarni ko‘chirish, monoton operatsiyalarni bajarish va hokazo;
- ma’lumotlarni tahlil qilish va mashinani o‘rganish: katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, naqsh va tendensiyalarni aniqlash, xavflarni bashorat qilish va qurilishni boshqarish jarayonlarini optimallashtirish uchun ma’lumotlar tahlili va mashinani o‘rganish usullaridan foydalanish.

Ma’lumotlarni boshqarish va tahlil qilish: ko‘proq asosli qarorlar qabul qilish, jarayonlarni optimallashtirish va xavflarni kamaytirish uchun qurilish loyihasi ma’lumotlarini to‘plash, tahlil qilish va ulardan foydalanish tizimlarini yaratishdan iborat bo‘lib, bu jarayonlarni optimallashtirish va xavflarni kamaytirish uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etish orqali kapital qurilishni boshqarishni takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular quyidagi jarayonlarda qo‘llanishi mumkin:

- ma’lumotlarni to‘plash va saqlash bo‘yicha: qurilish loyihalari bo‘yicha ma’lumotlarni, shu jumladan byudjet, jadval, materiallar sifati, mehnat unumdorligi, xavfsizlik va boshqa jihatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash va saqlash tizimlarini yaratish. Bu o‘z vatida ma’lumotlar bilan ta’minlash jarayonini tezlashtiradi.
- ma’lumotlarni tahlil qilish bo‘yicha: qurilish loyihasi ma’lumotlaridagi naqshlar, tendensiyalar va anomaliyalarni aniqlash uchun analitik usullardan foydalanishda qo‘llaniladi. Bu muammoli joylarni aniqlash, jarayonlarni optimallashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi;
- ma’lumotlarni tahlil qilish bo‘yicha: qurilish loyihasi ma’lumotlaridagi naqshlar, tendensiyalar va anomaliyalarni aniqlash uchun analitik usullardan foydalanishda qo‘llaniladi. Bu muammoli joylarni aniqlash, jarayonlarni optimallashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi;
- prognozlash va modellashtirish bo‘yicha: loyiha natijalarini bashorat qilish, xavflarni baholash va risklarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish uchun ma’lumotlar va tahlillardan foydalanishda qo‘llaniladi. Turli stsenariylarni simulyatsiya qilish ularning loyihaga ta’sirini baholash va optimal yechimni tanlash imkonini beradi;
- jarayonlar va mahsuldorlikni oshirish bo‘yicha: ma’lumotlarni tahlil qilish qurilish jarayonlaridagi qiyinchiliklarni aniqlashga va optimallashtirish va avtomatlashtirish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu ish jadvallarini optimallashtirish, resurslarni boshqarishni takomillashtirish va hokazolarni o‘z ichiga olishi mumkin;
- sifat va xavfsizlik monitoringi: qurilish ishlari sifatini nazorat qilish va nazorat qilish va qurilish maydonchasida xavfsizlik standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun ma’lumotlardan foydalanish;
- aloqa va manfaatdor tomonlarni boshqarishbo‘yicha: aloqa va manfaatdor tomonlarni jalb qilish ma’lumotlarini tahlil qilish aloqa jarayonlarini optimallashtirish va manfaatdor tomonlar munosabatlarini boshqarishga yordam beradi.

Loyihani boshqarishning moslashuvchan metodologiyalari: loyihalarni yanada samarali boshqarish, moslashuvchanlikni va o‘zgarishlarga moslashishni oshirishni ko‘zda tutib, kapital qurilishni boshqarishni takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi, loyiha o‘zgarishlariga javob berishda ko‘proq moslashuvchanlikni ta’minlaydi, samaradorlikni oshirish va natijalar sifatini yaxshilash imkonini beradi. Qurilishda eng ko‘p qo‘llaniladigan metodologiyalar quyidagilardan iborat:

- **Scrum:** empirik boshqaruv tamoyillariga asoslangan iterativ metodologiya bo‘lib, kapital qurilish kontekstida Scrum loyihaning muayyan bosqichlarini boshqarish yoki tugatish ishlarini rejalashtirish yoki jihozlarni o‘rnatish kabi aniq vazifalarni hal qilish uchun qo‘llanilishi mumkin;
- **Kanban:** Kanban – bu ish oqimi samaradorligini oshirishga qaratilgan vizual vazifalarni boshqarish tizimi. Kapital qurilishda Kanban qurilish maydonchasidagi vazifalar, materiallar va jihozlarning holatini kuzatish uchun ishlatilishi mumkin, bu resurslarni taqsimlash va jarayonlarni yanada samarali boshqarish imkonini beradi;
- **Lean Construction:** Lean Construction – bu yo‘qotishlarni minimallashtirish va qurilishdagi jarayonlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tejamkor boshqaruv tamoyillariga asoslangan metodologiya. Bu loyihaning barcha ishtirokchilarining faol ishtirokini o‘z ichiga oladi;
- **Agile Construction:** kapital qurilish kontekstida mijozlar talablari yoki tashqi omillarning o‘zgarishiga javob berishda ko‘proq moslashuvchanlikni ta’minlaydi;
- **Loyihalash-qurilish (DB):** bu metodologiya loyihalash va qurish jarayonlarini bitta shartnoma ostida birlashtirib, moslashuvchanlikni oshirish imkonini beradi.

Strategik sheriklik va hamkorlik: muammolarni birgalikda hal qilish va umumiy loyiha maqsadlariga erishish uchun mijozlar, pudratchilar va yetkazib beruvchilar o‘rtasida hamkorlik aloqalarini o‘rnatishni anglatib, bu jarayonning ahamiyati quyidagilarda o‘z aksini topadi:

- bilim va tajriba almashish: strategik hamkorlik kompaniyalarga qurilish loyihalarini boshqarish sohasida bilim va ilg‘or tajribani almashish imkonini beradi. Bu xatolar takrorlanishining oldini olishga yordam beradi va jarayon samaradorligini oshiradi;
- resurslar: boshqa kompaniyalar yoki tashkilotlar bilan hamkorlikda moliyalashtirish, texnologiya, iqtidor va asbob-uskunalar kabi qo‘shimcha resurslarga kirishni ta’minlaydi va loyihalarning yanada samarali va muvaffaqiyatli yakunlanishiga yordam beradi;
- xatarlarni minimallashtirish: loyihalarda birgalikda ishtirok etish sizga xavflarni sheriklar o‘rtasida taqsimlash imkonini beradi. Bu, ayniqsa, beqaror iqtisodiy sharoitlarda yoki noaniqliklar ko‘p bo‘lgan murakkab loyihalarda muhim ahamiyatga ega;
- innovatsiyalar: hamkorlik kapital qurilishni boshqarishda innovatsiyalarni rag‘batlantirishga yordam beradi. Bu yangi texnologiyalar, usullar va strategiyalarni hamkorlikda va amalga oshirishni ko‘zda tutadi;
- eng yaxshi amaliyotlar: hamkorlik faoliyatning turli sohalaridagi ilg‘or tajribalarni kapital qurilishni boshqarishga jalb qilish va qo‘llash imkonini beradi. Bu ishlar sifatini doimiy yaxshilashga yordam beradi.

Kadrlar salohiyatini rivojlantirish: malakali mutaxassislarning mavjudligini va ularning uzluksiz malakasini oshirishni ta’minlash, shu jumladan xodimlarni yangi texnologiyalar va boshqaruv metodologiyalari sohasida o‘qitish o‘z ichiga olib, kadrlar resurslarini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Shu yo‘nalishda ishchi kuchini yaxshilashning ba’zi usullarini quyidagilardan iborat:

- ta’lim va rivojlanish: qurilish loyihalarini boshqarish bo‘yicha muntazam treninglar, kurslar va seminarlar o‘tkazish xodimlarning ushbu sohadagi ko‘nikma va bilimlarini rivojlantirishga yordam beradi;
- mentorlik va murabbiylik: tajribali rahbarlarni yosh mutaxassislarga murabbiy sifatida tayinlash ularga birinchi qo‘ldan qimmatli bilim va tajriba orttirish imkonini beradi;
- yetakchilikni rivojlantirish: yetakchilikni rivojlantirish dasturlari yordamida boshqaruv ko‘nikmalarini, qaror qabul qilish, nizolarni boshqarish va jamoa motivatsiyasini yaxshilashga qaratilgan jarayon bo‘lib, kuchli yetakchilik qobiliyatini ta’minlaydi;
- amaliyot va tajriba almashish: tashkilot ichidagi boshqa kompaniya yoki bo‘limlar bilan amaliyot o‘tash va tajriba almashishni tashkil etish xodimlarning kasbiy mahoratini oshirishga va ularning tajribasini boyitishga yordam beradi;

- yangi texnologiyalardan foydalanish: xodimlarni BIM (Building Information Modeling) kabi yangi texnologiyalar va dasturiy ta'minotdan foydalanishga o'rgatish qurilish loyihasini boshqarishni yaxshilashga va xatolar va kechikishlarni kamaytirishga yordam beradi;
- shaxsiy o'sishni rag'batlantirish: rag'batlantirish dasturlari, martaba o'sish imkoniyatlari va shaxsiy rivojlanish orqali xodimlarning shaxsiy o'sishini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish iqtidorli shaxslarni saqlab qolish va ularni rag'batlantirishga yordam beradi.

Innovatsiya va tadqiqotni rag'batlantirish: innovatsion madaniyatni va olib borilayotgan tadqiqotlarni rag'batlantirishdan iborat bo'lib, kapital qurilishni boshqarishni takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Buni amalga oshirishning bir necha usullari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- tadqiqot va ishlanmalarga investitsiyalar: bu hamkor kompaniyalarning yangi boshqaruv texnologiyalarni o'zlashtirish, tadqiqotlar olib borish maqsadida moliyaviy resurslar ajratishni e'tiborga oladi. Bu esa o'z navbatida umumqurilish sohasini boshqarish samaradorligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi;
- innovatsion laboratoriyalar va mukammallik markazlarini yaratish: kompaniyalar ixtisoslashtirilgan bo'lim yoki markazlarni yaratib, kapital qurilishni boshqarishda yangi yondashuvlar va yechimlar orqali qurilishni boshqarish metodologiyalarini takomillashtirishni e'tiborga oladi;
- akademik va ilmiy muassasalar bilan hamkorlik: universitetlar, institutlar va ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlik kompaniyalarga qurilish loyihalarini boshqarish sohasidagi eng yangi ilmiy tadqiqotlar va tajribalardan foydalanish imkonini beradi;
- tanlovlar va innovatsion dasturlarni tashkil etish: kompaniyalar kapital qurilishni boshqarishda innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan tanlovlar va dasturlarni o'tkazishlari mumkin. Bu ichki xodimlarga ham, tashqi uchinchi tomonlarga ham qaratilgan bo'lishi mumkin;
- startaplarni qo'llab-quvvatlash: qurilish loyihalarini boshqarish uchun innovatsion yechimlar va texnologiyalarni ishlab chiquvchi startaplarga sarmoya kiritish qurilish materiallari sanoatida innovatsiyalarni rag'batlantirishning samarali usuli bo'lishi mumkin;
- boshqa sohalar bilan tajriba almashish: bunda kapital qurilish sohasiga moslasha oladigan yangi usul va yondashuvlarni o'rganish uchun faoliyatning turli sohalaridagi kompaniyalar bilan tajriba almashish ko'zda tutiladi.

Sifat va xavfsizlik: tegishli standartlarni qo'llash, xodimlarni o'qitish va baxtsiz hodisalarni nazorat qilish va oldini olish uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali qurilish maydonchasida sifat va xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor berish tushuniladi. Bu qurilishda samarali tashkiliy tuzilmalar va qurilishni boshqarish jarayonlarini yaratish imkonini beradi. Bu quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

- qattiq sifat standartlari: qurilish loyihasining barcha bosqichlarida qat'iy sifat standartlarini o'rnatish va qo'llab-quvvatlash yakuniy natija mijozlar kutganlari va sanoat standartlariga javob berishini ta'minlashga yordam beradi;
- tasdiqlangan materiallar va texnologiyalardan foydalanish: yuqori sifatli materiallarni tanlash va ilg'or texnologiyalardan foydalanish nuqsonlar xavfini kamaytiradi va tuzilmalarning mustahkamligini oshiradi;
- sifatni nazorat qilish: qurilish loyihasining barcha bosqichlarida muntazam sifat nazorati mumkin bo'lgan nuqsonlar va xatolarni ko'paytirishdan va loyihaga sezilarli ta'sir ko'rsatishdan oldin aniqlash va bartaraf etishga yordam beradi;
- xavfsizlik bo'yicha ta'lim va treninglar: qurilish maydonchasi xavfsizligi bo'yicha ta'lim va treninglar xodimlarga xavflarni tushunishga va ularning oldini olish choralarini ko'rishga yordam beradi, bu esa baxtsiz hodisalar ehtimolini kamaytiradi;
- xavfsizlik bo'yicha innovatsion yechimlarni qo'llash: qurilish maydonlarida xavfsizlikni nazorat qilish tizimlari yoki robot tizimlaridan foydalanish kabi yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlarni joriy etish xavflarni kamaytirishga va ish muhiti xavfsizligini yaxshilashga yordam beradi;
- qoidalarga va qonunchilikka rioya qilish: barcha tegishli qoidalar va qonuniy xavfsizlik talablariga rioya qilish kapital qurilishni muvaffaqiyatli boshqarish uchun majburiy va zarurdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlardan olingan natijalarga ko‘ra innovatsion rivojlanish sharoitida qurilishni boshqarish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmalarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi asosiy xulosa va takliflarni berish mumikn:

1. Kapital qurilishni boshqarishda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi nafaqat loyihalar samaradorligini oshirish, balki xatolarni kamaytirish, sifatni yaxshilash va qurilish muddatini qisqartirish imkonini beradi.
2. Ma’lumotlarni boshqarish va tahlil qilish boshqaruv guruhlariga dalillar va tushunchalar asosida asoslangan qarorlar qabul qilishda yordam berish orqali kapital qurilish loyihalari samaradorligini oshirish va muvaffaqiyatli yakunlashda muhim rol o‘ynaydi.
3. Kapital qurilishda loyihalarni boshqarishning moslashuvchan uslublaridan foydalanish jarayonlarning shaffofligini oshirish, loyiha ishtirokchilari o‘rtasidagi aloqani yaxshilash va xavflarni minimallashtirish bilan birga loyiha maqsadlariga tezroq erishishni ta’minlashga yordam beradi.
4. Strategik sheriklik va hamkorlik kapital qurilishni boshqarishni takomillashtirish, resurslardan samaraliroq foydalanish, xatarlarni kamaytirish va yaxshi natijalarga erishishda muhim rol o‘ynaydi.
5. Kadrlar salohiyatini oshirish kapital qurilish loyihalari samaradorligini oshirish va muvaffaqiyatli yakunlanishining asosiy omili hisoblanadi.
6. Innovatsiyalar va tadqiqotlarni rag‘batlantirish kompaniyalarga kapital qurilishni boshqarishda ilg‘or tajriba va texnologiyalarni o‘zlashtirish, loyihalari samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.
7. Kapital qurilishni boshqarishda yuqori sifat va xavfsizlikni ta’minlash nafaqat loyihalarni muvaffaqiyatli yakunlash, balki mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirish, kompaniya obro‘sini oshirish va xatarlarni minimallashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

Ushbu mexanizmlarning kombinatsiyasi yanada samarali tashkiliy tuzilmalar va qurilishni boshqarish jarayonlarini yaratish imkonini beradi, bu esa ushbu sohadagi innovatsion loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ю.В. Джикович Организация и управление в строительстве. Учебное пособие. Издательство: Лань, 2021, 212 С.
2. В.Тотоев Управление в строительстве. Учебное пособие. Издательства Инфра-Инженерия, 2023 г., 112 С.
3. П.Г. Грабовый Управление строительством. Учебник в двух частях. Издательства АСВ, 2022 г., Ч1-484С, Ч2-620 с.
4. А.Х. Байбурин, Д.А. Байбурин Инжиниринг качества в строительстве. Учебное пособие. Издательство: Лань, 2023, 184 с.
5. П.П. Алейник Основы организации и управления в строительстве. Учебное пособие. Издательство: АСВ, 2016, 201 с.
6. О.В. Богданова, О.В.Докудовская Инновационные методы 4D моделирования в организации строительства // Инженерный вестник. Дона №2, 2018.
7. Ассайра Маруф Махаммед К вопросу об эффективной оценке и управлении рисками и неопределенностью в инвестиционно-строительном комплексе // Инженерный вестник. Дона №2, 2017.
8. О.В.Никулина, Е.Н.Яковлева Экономическая безопасность строительной компании в аспекте расходования средств и финансово-экономической устойчивости // Инженерный вестник Дона №4, 2017.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDA YOSHLARNING ISH BILAN BANDLIK DARAJASINI OSHIRISH





Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich
O‘zMU, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bahromov Shahzod Fazliddinovich
O‘zMU 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistondagi globallashuv sharoitida ish bilan band bo‘lmagan yoshlarni ish bilan ta’minlash bo‘yicha yangi mexanizmlarni joriy etish, ehtiyojmand aholini mehnat faoliyatiga jalb qilishda qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, yangi ish o‘rinlarini tashkil etgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rag‘batlantirish maqsadida mamlakatimizda islohotlar va chora-tadbirlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: bandlik, yoshlar, mehnat bozori, mexanizm, tadbirkorlik, ishsizlik, soliq, kredit, infratuzilma, emigrant, iqtisodiy sektor, YaIM, tendensiya, ta’lim.

Abstract: In this article, in order to introduce new mechanisms for ensuring employment for unemployed youth in the context of globalization in Uzbekistan, creating favorable conditions for attracting low-income people to work, as well as further stimulating the activities of business entities that created new jobs, reforms and measures in our country, events are analyzed.

Key words: employment, youth, labor market, mechanism, entrepreneurship, unemployment, tax, credit, infrastructure, emigrant, economic sector, GDP, trend, education.

Аннотация: В данной статье в целях внедрения новых механизмов обеспечения занятости безработной молодежи в условиях глобализации в Узбекистане, создания благоприятных условий для привлечения малообеспеченного населения к работе, а также дальнейшего стимулирования деятельности субъектов предпринимательства, создавших новые рабочие места, реформы и меры в нашей стране - анализируются события.

Ключевые слова: занятость, молодежь, рынок труда, механизм, предпринимательство, безработица, налог, кредит, инфраструктура, эмигрант, сектор экономики, ВВП, тренд, образование.

KIRISH

Bugungi kunda Respublikada olib borilayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va amalga oshirilayotgan islohotlar davlatning har bir hududida o‘zining ko‘zga ko‘rinarli ijobiy samarasini ko‘rsatmoqda. Inson salohiyatining raqobatbardoshligini oshirish ko‘p jihatdan yoshlar mehnatidan foydalanish sohasida qanday dasturlar belgilanganligiga bog‘liq.

Sitatistika ma’lumotlariga qaraganda, dunyodagi 1,2 milliard yoshlarning deyarli 88 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda istiqomat qiladi. Dunyo miqyosida yoshlar ishlaydigan kambag‘allarning taxminan 24 foizini tashkil qiladi va bu dinamika, ayniqsa, Afrikada yaqqol namoyon bo‘ladi, u yerda yoshlarning 70 foizdan ortig‘i

kuniga 2 AQSh dollari yoki undan kam daromad bilan kun kechiradi. Dunyo yoshlari sonining o‘sishi kutilayotgan bo‘lsa-da, yosh ayollar va erkaklar uchun bandlik va tadbirkorlik imkoniyatlari cheklanganligicha qolmoqda, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan turg‘un qishloq joylarida yashovchilar uchun ishsizlik darajasi yuqoriligicha qolmoqda [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-apreldagi “Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta’minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o‘zlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-153-son qarori qabul qilindi [2].

Qarorga ko‘ra, tuman hokimliklari zaxirasidagi 60 ming gektar yer maydoni elektron onlayn auksion savdolariga qo‘yilib, dehqon xo‘jaliklarini tashkil etish uchun yoshlarga ijaraga beriladi hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan sotishgacha bo‘lgan zanjirni qamrab oluvchi yangi tizim joriy etiladi.

60 ming gektar yer maydonini ijaraga berish bo‘yicha elektron onlayn auksion savdolari “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali “mahalla yettiligi”ning tavsiyasi bilan shakllantiriladigan ro‘yxatga kiritilgan yoshlar (talabgorlar) o‘rtasida o‘tkaziladi va yer maydonlarini ijaraga berish bo‘yicha elektron onlayn auksion savdolari g‘oliblariga yer uchastkasi narxini 10 yil muddatga teng ulushlarda foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lashga ruxsat beriladi hamda zakalat puli BHMning 1 baravari (340 ming so‘m) miqdorida belgilanishi ko‘zda tutilgan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi yoshlar mehnat bozorining muhim qismini tashkil qilish, ularning layoqatli, bilimli hamda malakali bo‘lishi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta’minlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar:

- Yoshlarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish dasturlarini takomillashtirish;
- O‘zbekistonda yoshlarning ishsizlik darajasiga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar va omillarni aniqlash;
- Mehnat bozorida yoshlar bandligini tashkil qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- Yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish va ularga kichik biznesni rivojlantirishda yordam ko‘rsatish.

MAVZU YUZASIDAN ADABIYOTLAR TAHLILI

Mehnat bozori asoslarining, ishlab chiqarish munosabatlarining turli bosqichlarida rivojlanishi va transformatsiyasi, uning ishlash qonuniyatlari klassik olimlar A.Smit, D.Rikardo, J.B.Sey va boshqalarning asarlarida tahlil qilingan [3; 4; 5].

Yoshlarni ish bilan ta’minlash bo‘yicha uslubiy qoidalarni ishlab chiqishgan MDH davlatlari olimlari L.N.Sosnovskaya, A.Kashapov, L.A.Kostin, B.D.Breev va boshqa zamonaviy olimlarning ilmiy asarlarida o‘z aksini topgan [6; 7; 8; 9].

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda yoshlar mehnat bozorini takomillashtirish, hududlar kesimida ishsizlik darajasini pasaytirish kabi ko‘plab masalalar olimlarning diqqat markazidagi mavzular hisoblanadi. Respublika yoshlar bandligini oshirishga salmoqli hissa qo‘shgan olimlar orasida N.U.Arabov, B.X.Umurzakov va Z.Y.Xudoyberdievlarni qayd etish mumkin [10; 11; 12].

Mazkur olimlarning ilmiy ishlari va tadqiqotlari mahalliy ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shdi, hamda mehnat va bandlik sohasida metodologiyaning shakllanishiga yordam berdi. Shu bilan birga, ushbu sohada mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ko‘plab asarlari mavjudligiga qaramay, yoshlar mehnat bozorini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish masalalari maxsus tadqiqotlarni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma’lumotlarni tizimli tahlil, analiz guruhlash, taqqoslash hamda ekspert baholash usullaridan unumli foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJA

Hozirgi davrga kelib, inson salohiyatining raqobatbardoshligini oshirish ko‘p jihatdan yoshlar mehnatidan foydalanishga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Hozirgi yoshlar ko‘p jihatdan jamiyatdagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsata olishi, shu bilan bir qatorda, yoshlar ishga joylashishda katta qiyinchiliklarga uchrayotgan ijtimoiy nochor toifalardan biri hisoblanishiga alohida e’tibor qaratilgan.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash uchun yoshlarning drayverlik imkoniyatlarini amalga oshirishga munosib shart-sharoitlar yaratilishi bilan bir qatorda mehnat bozorlarida yosh ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish, mehnat resurslaridan to‘liq va samarali foydalanish shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish hamda malaka oshirish kabi yo‘nalishlarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Respublikada 29 yoshgacha bo‘lgan aholi soni 18 millionni tashkil qiladi. Bu Yevropa va Markaziy Osiyo (YeMO) mintaqasidagi boshqa davlatlar bilan taqqoslaganda eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. Mamlakatda

mehnatga layoqatli aholi soni yaqin o‘n yilda 12 foizga o‘sishi, 2045-yilga borib eng yuqori darajaga yetishi kutilmoqda.

Shuningdek, “O‘zbekistonda 15–24 yoshlilar orasida “umidsizlikka tushgan” yoshlarning ulushi 5%ga yetadi, 25-29 yoshli yoshlar orasida esa 4%gacha kamayadi. YeMO mintaqasidagi aksariyat qo‘shni mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 2,5%dan kamroq. Bunga asosiy sabab esa, qishloq joylarda ish o‘rinlarining yetishmasligi va ishchi kuchiga talabning sustligi, norasmiy bandlikning yuqori darajasi yoshlar o‘rtasida haq to‘lanadigan mehnat bilan band bo‘lishda asosiy to‘siq hisoblanadi” [13].

So‘nggi yillarda Respublikada yoshlar bandligiga juda katta e’tibor berilmoqda va bandlar soni oshmoqda. 2023-yilda mehnat organlari tomonidan hududlar kesimida ishsiz yoshlarni ishga joylash, kasbga o‘qitish, jamoat ishiga jalb etish, ishsizlik nafaqasini tayinlash va yoshlarga subsidiyalar ajratish kabi yo‘nalishlarda ko‘plab amaliy ishlar amalga oshirilgan (1-jadval).

1-jadval: 2023-yilda mehnat organlari tomonidan yoshlarni ishga joylashtirish holati (ming kishi) [15]

№	Hududlar nomi	Ko‘rsatilgan xizmatlar	Ishga joylashganlar	Kasbga o‘qitilganlar	Jamoat ishiga jalb etilganlar	Ishsizlik nafaqasi tayinlanganlar soni	Yoshlarga ajratilgan subsidiyalar
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	21490	11445	6598	1584	1240	623
2	Andijon	15239	7559	3769	1718	673	1520
3	Buxoro	19509	11318	3994	1805	1660	732
4	Jizzax	13430	6273	4305	1561	250	1041
5	Qashqadaryo	21409	10869	6073	1862	1473	1132
6	Navoiy	8902	4892	2353	777	682	198
7	Namangan	19134	10820	5315	1560	522	917
8	Samarqand	21341	10876	5276	1637	1432	2120
9	Surxondaryo	17342	6796	6215	2098	690	1543
10	Sirdaryo	11599	5507	2666	1308	1604	514
11	Toshkent v.	20433	10848	5547	1521	2084	433
12	Farg‘ona	17153	9056	4497	2573	679	348
13	Xorazm	17363	8716	5875	1583	896	293
14	Toshkent sh.	14678	8885	3907	576	62	1248
15	**Jami**	**239022**	**123860**	**66390**	**22163**	**13947**	**12662**

Respublikada 2023-yilda mehnat organlari tomonidan yoshlarga ko‘rsatilgan xizmatlar samaradorligi sezilarli darajada yaxshilangan. Jami 239,022 ming yosh turli xizmatlardan foydalanib, ularning 123,860 ming nafari (51,8%) ishga joylashtirilgan. Shu jumladan, 66,390 ming yosh (27,8%) kasbga o‘qitilgan, 22,163 ming nafari (9,3%) jamoat ishlariga jalb etilgan, 13,947 ming yoshga (5,8%) ishsizlik nafaqasi tayinlangan va 12,662 ming yosh (5,3%) esa turli subsidiyalar bilan ta’minlangan.

2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida umumta’lim maktablari bitiruvchilarining kasbiy mahoratini oshirishga ko‘maklashishning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan tizimini tashkil etish muhim jihat sifatida belgilangan. Strategiyaning asosiy maqsadi hukumatning yoshlar masalalariga yondashuvini takomillashtirishdan iborat va yoshlarga arzon va sifatli ta’lim berish, shuningdek, ularning bandligi uchun shart-sharoit yaratish, mehnatga integratsiyalashuvi uchun qulay shart-sharoitlarni ta’minlash kabi asosiy ustuvor yo‘nalishlardan iborat. Davlatning sa’y-harakatlari mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirishdek asosiy maqsadni qo‘ygan holda, yoshlarning ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan.

15-24 yoshli yoshlarning ish bilan ta’minlanishi har qanday hududda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik va taraqqiyotning muhim ko‘rsatkichidir. Yoshlar ishsizligining uzoq muddatli yoki yuqori ko‘rsatkichlari ijtimoiy tartibsizliklar, ish kuchining kechikishi va uzoq muddatli martaba muammolari kabi keng qamrovli salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu tadqiqot 2004-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan 19 yillik davrda ma’lum O‘zbekiston hududida 15-24 yoshli ishsizlik darajasi tendensiyalarini o‘rganadi (1-rasm).



1-rasm: 15-24-yoshlar orasida ishsizlik darajasi [14]

2. O‘z kapitalining darajasi qanday? Chetdan mablag‘larni jalb qilish zarurati shaxsiy jamg‘armalar etishmasligi bilan yuzaga keladi. Bu qoida oddiy fuqarolar uchun ham, kompaniyalar uchun ham, davlat uchun ham teng ishlaydi. Bundan kelib chiqadiki, har xil moliyaviy imkoniyatlarga ega bo‘lgan innovatsion faoliyat subyektlarining taktik manevrlari va strategik ustuvorliklarida turli xil vositalar paydo bo‘ladi va ustunlik qiladi. Masalan, Markaziy Osiyo davlatlari innovatsion faoliyatni rivojlantirishda birinchi navbatda xorijiy investitsiyalar, tashqi imtiyozli uzoq muddatli kreditlar va grantlar jalb etishga tayanadi. Rivojlangan mamlakatlarda subsidiyalar, soliq imtiyozlari va albatta, innovatsion loyihalarga investitsiyalardan olinadigan daromadlar faol qo‘llaniladi.

3. Biz kimlar bilan muloqot qilamiz? Jahon iqtisodiyotidagi globallashuv va integratsiya jarayonlari fonida innovatsion faoliyat subyektlarining mintaqaviy xususiyatlariga e'tibor qaratish juda qiyin. Zamonaviy innovatsion jarayon innovatsion kompaniya yoki bitta hududning ko'lami bilan cheklanmaydi. Bu interaktiv xususiyatga ega. Jahon amaliyoti davlatlarning iqtisodiy hamjamiyatlar doirasidagi o'zaro ta'siri odatiy qonuniyat va mexanizmlarni tubdan o'zgartirayotganini yana va yana isbotlab turibdi. Ko'pincha bu o'zaro ta'sir nafaqat tomonlardan birining investitsiyalarni olishga, ikkinchisi esa foyda olishga bo'lgan ehtiyojlari bilan belgilanishi mumkin.
4. Innovatsion rivojlanish rivojlanishning qaysi bosqichida? Innovatsion jarayonning bosqichiga qarab, innovatsion faoliyat subyektining foydasi yoki zarari kuzatiladi. Shunga ko'ra, foyda ko'rinishidagi ijobiy ta'sirga erishish uchun innovatorga "hujumkor" yoki "himoya qilish" imkonini beradigan tegishli moliyalashtirish vositalari to'plami qo'llaniladi.

Shunday qilib, biz innovatsion faoliyatning moliyaviy vositalarini kamida beshta shartli mezon bo'yicha tasniflashimiz mumkin: moliyalashtirish manbasiga ko'ra, u yoki bu institutsional toifaga mansub innovatsion faoliyat subyektiga ko'ra, o'z kapitalining yetarlilik darajasiga ko'ra, innovatsion faoliyat subyekti, ma'lum turdagi iqtisodiyotning subyektning innovatsion faoliyatiga ta'sir qilish darajasiga va innovatsion rivojlanishning rivojlanish bosqichiga qarab. Shubhasiz, bunday tasnif moliyaviy vositalarning butun xilma-xilligini to'liq aks ettira olmaydi, chunki u subyektiv mulohazaga asoslanadi va o'rganilmagan ma'lumotlar maydonini keng qamrab oladi. Shu munosabat bilan biz M.A.Kuprichevning [4] innovatsion faoliyatning moliyaviy mexanizmlari tasnifidan foydalanamiz, bu bizga mos ko'rinadi, chunki unda ma'lum moliyaviy vositalarning o'rnini ko'p qiyinchiliksiz aniqlash mumkin (4-jadval). Bundan tashqari, moliyalashtirish obyektiga nisbatan moliyaviy mexanizmlar: innovatsion firmalarni moliyalashtirish mexanizmlari, innovatsion loyihalar va moliya agentliklarini rag'batlantirish mexanizmlari va boshqa bir qator xususiyatlarga ko'ra farqlanadi. Ko'pincha turli mexanizmlar va vositalar birlashtirilib, o'zaro ta'sirlarning yangi turlari tug'iladi.

4-jadval: Moliyaviy mexanizmlar va innovatsiya vositalarining tasnifi

№	Tasnifi	Xususiyatli	Instrumentlar
1	Manbalarga bog'liqligiga nisbatan		
	Budjetdan moliyalashtirish mexanizmlari	Mexanizmning ishlashi uchun asos budjet bo'lib, uning mablag'lari innovatsion loyihalar va firmalar-ning pul oqimlariga aylantiriladi.	Turli darajadagi budjet mablag'lari
	Xususiy investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlari	Faoliyatining asosi kompaniyalar, fondlar, jismoniy shaxslar va boshqalarning innovatsion loyihalariga xususiy investitsiyalardir.	Investitsiyalar, qimmatbaho me-tallar, depozitlar, investitsiyalar, to'siqlar va boshqa fondlardan olingan mablag'lar ko'rinishida-gi vaqtincha mavjud bo'lgan mablag'lar.
	Qarzlarni moliyalashtirish mexanizmlari	Turli yo'llar bilan qarzga olingan kapitalga tayaning	Bank krediti va kredit liniyalari, lizing, faktoring, obligatsiya-larni sotishdan tushgan tushum
	O'z-o'zini moliyalashtirish mexanizmlari	Korxonalarning o'z mablag'lari asosida	Operatsion faoliyatdan olingan daromadlar, ortiqcha aktivlarni sotish va boshqalar.
2	Moliyalashtirish bosqichi bo'yicha		
	Dastlabki bosqich moliyalashtirish mexanizmlari (joylash-tirish va startap)	Innovatsion loyihalar va kompaniyalarni "seed" va "start-up" bosqichlarida moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun foydalaniladi	Asosiy kapital, konvertatsiya qilinadigan kredit
	Dastlabki o'sish bosqichining mexanizmlari	Bozorga kiritish uchun tayyor mah-sulot yoki xizmat (innovatsiya) mav-jud bo'lganda loyihani ishlab chiqish uchun moliyaviy rag'batlantirish	Korxonaga taqdim etilgan aylanma mablag'lar
	Kengayish bosqichi mexanizmlari	Moliyalashtirish obyekti o'z biznesini kengaytirishga intilayotgan mavjud innovatsion kompaniyalardir. Misol - Mezzanine moliyalashtirish mexanizmi	Aktsiyalarni fond birjasiga joylashtirishdan tushgan tushumlar (IPO)
	Ko'p bosqichli mexanizmlar	Ular bir necha bosqichda qo'llaniladi. Masalan, davlat dasturlari yoki DXSh mexanizmi	To'g'ridan-to'g'ri davlat investitsiyalari, imtiyozlar, jalb qilingan kapital

3	Moliyalashtirish obyektiga ta’sir qilish darajasiga ko‘ra		
	Bilvosita moliyalashtirish mexanizmlari	Obyektlarni bevosita ta’sir qilmasdan (soliqlarni moliyalashtirish mexa-nizmi, davlat xaridlari mexanizmi, davlat kafolati mexanizmi va bosh-qalar) moliyaviy rag‘batlantirishni ta’minlash.	Soliq imtiyozlari, soliq kreditlari, mukofotlar
	Bevosita moliyalashtirish mexanizmlari	Innovatsion loyihalar va firmalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bevosita zarur moliyaviy resurslarni (grant moliyalashtirish mexanizmi, xususiy investitsiya mexanizmi, kredit mexanizmi) taqdim etish orqali amalga oshiriladi.	Grantlar, xususiy investitsiyalar, tijorat kreditlari va boshqalar.
4	Manbalarga muvofiqligiga ko‘ra		
	Ichki moliyalashtirish mexanizmlari	Moliyalashtirish obyekti doirasida ta’sir o‘tkazish (o‘zini o‘zi moliyalashtirish mexanizmi)	Operatsion faoliyatdan olingan daromadlar, ortiqcha aktivlarni sotish va boshqalar.
	Tashqi moliyalashtirish mexanizmlari	Obyektga tashqaridan ta’sir ko‘rsatish (xususiy investitsiyalar mexanizmi, davlat moliyalash mexanizmi)	Turli darajadagi byudjet mab-lag‘lari, xususiy investitsiyalar, qimmatbaho metallar, depozit-lar, pay, xedj va boshqa fondlar mablag‘lari, bank kreditlari, lizing, faktoring, obligatsiyalar-ni sotishdan olingan mablag‘lar.
5	Davlatning roli darajasiga ko‘ra		
	Direktiv moliyaviy mexanizm	Moliyaviy mexanizm (grant mexanizmi) faoliyatida davlat katta rol o‘ynaydi.	Grantlar, subsidiyalar, subvensiyalar
	Moliyaviy tartibga solish mexanizmi	Moliyaviy mexanizmning ishlashida davlat mavjud emas	Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar

Innovatsiya sohasida yetakchi [5] mamlakatlarning innovatsion faoliyatining davriy sharhlarini tahlil qilib, shuni aytish mumkinki, dunyodagi eng samarali va talabga ega bo‘lgan mexanizmlardan biri bu davlat-xususiy sheriklik mexanizmidir.

XULOSA

Innovatsion mahsulotlarning jahon bozorlariga chiqishini ta’minlashning faol mexanizmi sifatida moliyaviy-sanoat guruhlari (MSG) faoliyati va rivojlanishi ko‘pchilik iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ham qiziqish uyg‘otmoqda. MSGni yaratish va rivojlantirish jarayoni moliyaviy va sanoat kapitali tarkibidagi barcha tashkiliy bo‘g‘inlar faoliyatining izchilligi va o‘zaro bog‘liqligi ortib borayotganini, milliy iqtisodiyotning nufuzini oshirishni ko‘rsatadi. O‘zbekistonda innovatsion faoliyatning moliyaviy tizimini rivojlantirishga kelsak, biz quyidagilarni ta’kidlamoqchimiz: O‘zbekiston moliya tizimi an’anaviy ravishda moliya bozorlari va institutsional investorlar emas, balki bank moliyalashtirish ustunlik qiladigan tizimlarga taalluqli bo‘lganligi sababli, bu bizning iqtisodiyotimizni muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish shartlarini qondirishga to‘sqinlik qiladi. Biroq, bu kamchilikni rivojlangan davlatlar ishtirok etish xavfi bo‘lmagan sohalarni - innovatsion sug‘urta va innovatsion loyihalarni rivojlantirish uchun kreditlar berishni rivojlantirish orqali afzalliklarga aylantirish mumkin.

Innovatsiyalar uchun moliyaviy modellar, mexanizmlar va vositalarni ishlab chiqishning ko‘plab ssenariylari mavjud. Ularning barchasi innovatsion tizimlarning milliy xususiyatlariga, faoliyat subyektining innovatsion salohiyatiga va boshqa omillarga bog‘liq. Shunga qaramay, biz moliyaviy tizimlarning umumiy xususiyatlarini aniqlay oldik va ularning elementlarini tasniflay oldik, bu ularning rivojlanishining kontseptual jihatlari haqidagi g‘oyalarni tartibga solishga umid beradi. Innovatsiyalarni tijoratlashtirishda qo‘shimcha qiyinchiliklar innovatsion jarayonni samarasiz rejalashtirish va innovatsiyalarni tijoratlashtirishning aniq tizimining yo‘qligi sababli yuzaga kelishi mumkin, ularni ishlab chiqish innovatsion jarayonning dastlabki bosqichlarida boshlanishi kerak; ya’ni innovatsiya g‘oyasining bosqichlari va innovatsion mahsulot (xizmat) konsepsiyasini ishlab chiqish. Hozirgi vaqtda innovatsion klasterlarning rezident kompaniyalariga rivojlanish institutlari tomonidan tijoratlashtirish jarayonini amalga oshirishda yordam berilmoqda. Bu institutlarning roli nafaqat ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni moliyaviy ta’minlash, ular innovatsion ishlanmalarning iste’molchilarini ham topadilar. Shunday qilib, raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlar O‘zbekistonda innovatsiyalarni rag‘batlantiradigan va aholining hayot sifatini yaxshilaydigan end-to-end texnologiyalaridan foydalanish nuqtai nazaridan modernizatsiya qilinadi. Ayniqsa, ta’lim va sog‘liqni saqlashni rivojlantirish, aholini sifatli xizmatlar bilan ijti-

moiy ta'minlashda axborot texnologiyalarining ta'siri katta. Umuman olganda, raqamli iqtisodiyotning resursi va afzalliklari ishsizlik darajasini pasaytirish, samarali davlat sektorini yaratish, atrof-muhitni yaxshilash, innovatsion kompaniyalar yaratish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq ko'plab dolzarb muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Rajnoha, A.Korauš, J.Dobrovič (2017). Information systems for sustainable performance of organizations, Journal of Security and Sustainability Issues 7(1): 167-179.
2. Григорьев Ю.В. Государственная поддержка инновационной деятельности // Научный журнал "Качество, инновации, образование". –2009. –№9. –С. 32–40.
3. Федораев С.В. Теоретико-методологические подходы к определению содержания и классификации инноваций как фактора обеспечения экономической безопасности // Научный электронный журнал "Вестник Санкт-Петербургского университета государственной противопожарной службы". –2010. –№1. –С. 42–51.
4. Акинин П.В., Акинина В.П. Финансово-экономические трансформации как организационно-экономический базис инноваций // Вестник Северо-Осетинского государственного университета им. К.Л. Хетагурова. Общественные науки. –2012. –№1. –С. 329-336.
5. Периодические обзоры инновационной деятельности стран-лидеров инновационного развития в Европе, Северной Америке и Азии №1–8 / Министерство экономического развития Российской Федерации. Портал внешнеэкономической информации. 2014.



QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOQLARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN RESPUBLIKAMIZDA SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI

O‘DK:63(336.11)

Ishniyazov Baxrom Normamatovich
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Ekonometrika” kafedrasi dotsent vazifasini bajaruvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi sohasida moliyalashtirish jarayonlari hamda munosabatlari hamda qishloq xo‘jaligini sohalarini innovatsion rivojlantirishda mazkur soha xo‘jaliklarini moliyaviy holati ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish asnosida moliyaviy barqarorligini ta’minlash hamda qo‘llab-quvvatlashning innovatsion yo‘llarini, yo‘nalishlarini hamda moliyalashtirish mexanizmini o‘rganishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: kompleks dasturlar, xo‘jalik subyektlari, bozor munosabatlari, ilg‘or tajribali, qishloq xo‘jaligi, optimal, jahon qishloq xo‘jaligi, yalpi ichki mahsulot, fermerlik harakati, bog‘dorchilik, uzumchilik, kooperativ, hamkorlikdagi kooperatsiya, innovatsion yo‘llar.

Abstract: In this article, the financing processes and relations in the agricultural sector in our country, as well as the innovative development of the agricultural sector, ensuring financial stability and supporting the financial status of the enterprises of this sector in the process of forming a socially oriented market economy. helps to learn ways, directions and financing mechanism.

Key words: integrated programs, economic entities, market relations, best practice, agriculture, optimal, world agriculture, gross domestic product, farming movement, horticulture, viticulture, cooperative, cooperative cooperation, innovative ways.

Аннотация: В данной статье рассматриваются процессы и отношения финансирования в аграрном секторе нашей страны, а также инновационное развитие аграрного сектора, обеспечение финансовой устойчивости и поддержка финансового состояния предприятий данного сектора в процессе формирования социально ориентированная рыночная экономика помогает освоить пути, направления и механизм финансирования.

Ключевые слова: комплексные программы, хозяйствующие субъекты, рыночные отношения, передовой опыт, сельское хозяйство, оптимум, мировое сельское хозяйство, валовой внутренний продукт, фермерское движение, садоводство, виноградарство, кооператив, кооперативная кооперация, инновационные пути.

KIRISH

Iqtisodiyoti modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo‘jaligi hamda uning har bir tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribasini, ko‘rilayotgan chora-tadbirlari, turli dasturlarini amalga oshirish natijalarini o‘rganish muhim ahamiyatga kasb etadi.

Buning asosiy sabablaridan biri shuki, rivojlangan mamlakatlar, jumladan, geografik jihatdan yaqin davlatlar bilan o‘zaro iqtisodiy aloqalarni shakllantirmasdan turib, mamlakatimiz agrar tarmog‘ining iqtisodiyotini rivojlanishini ta’minlashni imkoni yo‘q.

Bugungi kunda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish asosan bozor tamoyillari asosida amalga oshirilib, qator farmon va qarorlar, kompleks dasturlar ishlab chiqilib, ishlab chiqarishga tatbiq etilib kelinmoqda.

Ammo shuni ta’kidlash kerakki, qishloq xo‘jaligi korxonalari bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishning dastlabki jarayonidan o‘tayotgani uchun bu borada nafaqat mablag‘, balki tajriba va bilim yetishmaydi.

Lekin, qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik subyektlari bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishning boshlang‘ich jarayonini boshidan kechirganligi sababli ularda bu borada, nafaqat mablag‘, balki tajriba va bilim yetishmasligini alohida ta’kidlash lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish borasida rivojlangan ilg‘or tajribali mamlakatlar tajribasini o‘rganish, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligini tartib asosida rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan islohotlarning kuchli va zaif tomonlarini, bu boradagi muammo va kamchiliklarni aniqlash muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda, o‘rganilgan tajribalardan respublika qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos tomonlari hamda hususiyatlarini hisobga olgan holda optimal jihatlarini amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat ega.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar qishloq xo‘jaligini uch guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq: birinchi guruhga agrar siyosati juda nozik va mustahkam qurilgan, mukammal dehqonchilik tizimi yaratilgan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari kiradi; keyingi guruhga AQSh hamda Kanada qishloq xo‘jaligi kiradi, buni AQShning agrar siyosati misolida ko‘rish mumkin, chunki agrar siyosatning xususiyatlari bu mamlakatlarda bir-biriga juda o‘xshash; uchinchi guruh - Yaponiyaning qishloq xo‘jaligi siyosati bo‘lib, u ham mamlakatimiz qishloq xo‘jaligining hayotida o‘ziga xos jihatlariga ega bo‘lib, uni o‘rganish xo‘jalik rahbarlarini ko‘proq kuzatishga undashi shubhasiz.

Albatta bu borada hozirgi kunda jahonda “Bugungi kunda jahon qishloq xo‘jaligida 1 milliarddan ortiq iqtisodiy faol aholi mehnat qilmoqda. Jahon qishloq xo‘jaligida dunyo mahsulotlarining deyarli qariyb 5 foizini tashkil qiladi[1]” deb ta’kidlangan.

Rivojlangan davlatlar orasida qishloq xo‘jaligini YaIMdagi ulushi AQShda 1,2 foiz, qishloq xo‘jaligida bandlik 2 foiz, Kanadada qishloq xo‘jaligining YaIMdagi ulushi 2,2 foiz, qishloq xo‘jaligida bandlik 3 foiz, Yaponiyada ulushi YaIMda qishloq xo‘jaligi 1,3 foiz, qishloq xo‘jaligida bandlik 5 foiz, Fransiyada qishloq xo‘jaligining YaIMdagi ulushi 2,5 foiz, qishloq xo‘jaligida bandlik 2 foiz, Italiyada YaIMda qishloq xo‘jaligining ulushi 2,2 foiz, qishloq xo‘jaligida bandlik 5 foizga teng, Avstraliyada YaIMda qishloq xo‘jaligining ulushi 8,3 foiz, qishloq xo‘jaligida bandlik 4 foizga teng bo‘lgan, Rossiyada YaIMda qishloq xo‘jaligining ulushi 8,3 foiz bo‘lgan, Polshada YaIMda qishloq xo‘jaligining ulushi 3 foiz, qishloq xo‘jaligida bandlik18 foizga teng bo‘lgan.

Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligining yuqori xususiyatlari natijasida ular jahon qishloq xo‘jaligida yuqori o‘rinlarni egallaydi. Shu bilan birga rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirishning kengayishi qishloq xo‘jaligining rivojlanishi hamda unda fermer xo‘jaliklari rivojlanishining keskin tezlashishiga olib keldi.

Rivojlangan ilg‘or tajribaga ega mamlakatlarda qishloq xo‘jaligida fermerlik harakatining rivojlanishi qishloq aholisining tafakkuri, dunyo qarashi, mehnat hamda hayotga bo‘lgan munosabatini butunlay o‘zgartirdi, ularning o‘z kuchlari hamda ichki hamda tashqi imkoniyatlariga ishonchini mustahkamladi, siyosiy-huquqiy, madaniy saviyasi hamda ijtimoiy saviyasini yuksaltirdi hamda ijtimoiy faoligini oshirdi.

Rivojlangan mamlakatlarning bog‘dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish tajribasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, xorijiy mamlakatlarda meva yetishtirish asosan kooperativ aloqalar asosida tashkil etgan. Xususan, Yevropa Ittifoqida meva mahsulotlarining 85 foizi, Yaponiyada 80 foizi, AQShda 30 foizi qayta ishlash korxonalari bilan hamkorlik qiluvchi fermer xo‘jaliklarida yetishtiriladi. Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan meva hamda uzum asosan kooperativlar orqali sotiladi.

Kooperativlarning asosiy faoliyati qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, va saqlashga qaratilgan. Shuningdek, ular materiallarni taqdim etish va kreditlar berish kabi faoliyat bilan shug‘ullanadilar.

Xorijiy mamlakatlarda qishloq xo‘ajiligi mahsulotlari yetishtirish rivojlanganligi va bu mahsulotlarni qayta ishlash darajasi juda yuqori va yaxshi tashkil etilgani natijasida aholi jon boshiga meva va uzum yetishtirish me’yordan ancha yuqori. Xususan, 2020-yilda Ispaniyada yillik ishlab chiqarish hisobiga aholini ho‘l mevalar bilan ta’minlanganlik darajasi 192 foizni tashkil etadi, bu Yevropa mintaqasidagi eng yuqori ko‘rsatkichni tashkil etmoqda. Bu mamlakatda aholi jon boshiga 96 kg. meva va 15,6 litr meva sharbati. Aholi jon boshiga meva va uzum sharbati Germaniyada 40,8 litr, AQShda 30 litr, Buyuk Britaniyada 19,1 litr, Fransiyada 18 litr va Italiyada 9,5 litrni tashkil etgan.

1 http:www.//mcx.ru/

1-jadval: Yevropa davlatlarining qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish uchun moliyaviy xarajatlar hajmi, mln. evro[2]

Davlatlar nomi	Moliyalashtirish holati ko‘rsatkichlari	
	mln. yevro	%
Angliya	154	3.5
Shvesiya	149	3.4
Finlandiya	290	6.7
Portugaliya	200	4.6
Avstriya	423	9.7
Niderlandiya	55	1.3
lyuksemburg	12	0.3
Italiya	595	13.7
Irlandiya	315	7.3
Fransiya	760	17.5
Ispaniya	459	10.6
Gresiya	131	3.0
Germaniya	700	16.1
Daniya	46	1.1
Belgiya	50	1.2
Jami	**4339**	**100**

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarda 2023-yilda davomida jami Yevropa mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari nisbatan kichik to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lovlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri subsidiyalar bilan tartibga solish hamda narxlarni moslashtirish orqali qo‘llab-quvvatlanadi, Yevropa Ittifoqi uchun taxminan 4.3 trillion dollar hamda mazkur tarmoqni rivojlantirish uchun mablag‘lar yo‘naltirilgan.

Ilg‘or tajribaga ega mamlakatlarda fermer xo‘jaliklari o‘rtasidagi kooperativlar ularning yagona xo‘jalikka birlashishini ifodalamaydi, balki fermer xo‘jaliklari, jismoniy hamda yuridik shaxslarning xo‘jalik faoliyatida mustaqil bo‘lgan, birgalikdagi iqtisodiy manfaatlarini himoya qiluvchi faoliyat turini aks ettiradi. Hamkorlikdagi kooperatsiyalarni takomillashtirish orqali hamkorlikning quyidagi shakllari yaratish mumkin:

- turli yo‘nalishlarda hamda qator sohalarda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- fermer xo‘jaliklariga texnikaviy tomondan sifatli xizmat ko‘rsatish;
- tashkil etiladigan mehnatni birgalikda tashkil etish;
- yer hamda yer resurslaridan hamkorlikda samarali foydalanish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni sotish hamda yetkazib berish;
- birgalikda kredit olish, sug‘urtalash hamda boshqalardan iborat.

Mehnatni tashkil etish jarayonida hamkorlikka ikkita asosiy turni, ya’ni uy hamda xo‘jaliklararo turlarini farqlash maqsadga muvofiqdir. Ichki iqtisodiy hamkorlik oilada namoyon bo‘ladi. Mehnat kooperatsiyasida xo‘jaliklararo kooperatsiya odatda butun ishlab chiqarish davrida (doimiy) yoki alohida ishlab chiqarish jarayonlarida (vaqtinchalik mehnatdan) sodir bo‘ladi.

Masalan, fermer g‘alla yetishtirish bilan shug‘ullanadi, g‘alla yetishtirish esa ko‘p mehnat talab qilmaydi. May va iyun oylarida ham don yig‘ib olinadi, natijada fermer xo‘jaligi a’zolari vaqtincha ishsiz qoldi. Ikkinchi fermer paxta yetishtirmoqda, paxta ko‘proq mehnat talab qiladi. Bunda fermerlar o‘rtasida mehnat kooperatsiyasi mavjud bo‘lsa, g‘alla yetishtiruvchi dehqonlar a’zolarining uzluksiz ish bilan bandligini ta’minlash, qishloq xo‘jaligida yetishtirgan mahsulotining xarid qobiliyatini oshirish mumkin bo‘ladi.

Angliyada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha fermerlarning faoliyatini moliyalashtirishga katta e’tibor qaratilishi lozim. Qishloq xo‘jaligida tadbirkorlarni, xususan, meva yetishtiruvchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Buyuk Britaniya hukumati mablag‘larning 80 foizigacha, xavf mavjud bo‘lgan hududlarda esa 85 foizgacha mablag‘ qaytmasligini kafolatlaydi. Ushbu kafolatlarni qoplash uchun Buyuk Britaniya har yili byudjetdan o‘rtacha 50 million funt sterling ajratadi.

2 Muallif tomonidan internet ma’lumotlaridan foydalanilgan holda tuzilgan

1990-yillardan boshlab Britaniya sanoat konfederasiyasi “Tadbirkorlarni kengaytirish dasturi”ni amalga oshirib kelmoqda. Meva-sabzavot va uzumni qayta ishlash korxonalari bilan iqtisodiy aloqalar o‘rnatgan fermer xo‘jaliklarini moliyalashtirish mexanizmi ishga tushirilgan. Mazkur dastur doirasida qayta ishlash korxonalari bilan iqtisodiy aloqalar o‘rnatgan fermer xo‘jaliklariga imtiyozli stavkalarda uzoq muddatli kreditlar ajratilmoqda.

Shuningdek, ushbu dastur hozirgi kunda mahsulotni qayta ishlash korxonalari faoliyatini rivojlantirishga ham xizmat qilmoqda. Britaniya sanoat konfederasiyasi tomonidan ajratilgan mablag‘ meva hamda uzumni qayta ishlash korxonalari daromadidan bir foizlik chegirma hisobidan shakllantiriladi.

Bundan tashqari, Buyuk Britaniyada olib borilayotgan kredit siyosatida har bir bank o‘zining individual kreditlash tizimini yaratgan. Misol uchun, Barkley Bank o‘zining kengayishini moliyalashtirish uchun ikkita dastur ishlab chiqildi. Birinchisiga ko‘ra, kredit summasi 5 yil muddatga 5 mingdan 100 ming funt sterlinggacha ajratiladi.

Bank kredit summasidan emas, balki fermerning yillik aylanmasidan yiliga 15-17 foiz oladi. Ikkinchi dasturda texnikalar, kichik qayta ishlash korxonalari va maxsus jihozlar sotib olish uchun 2 yildan 20 yilgacha muddatga 500 ming funt sterlingdan 500 ming funt sterlinggacha bo‘lgan kreditlar ajratiladi. Foiz stavkasi Angliya bankining yoki bankning o‘zining joriy stavkasiga muvofiq belgilanadi.

Xitoy qishloq xo‘jaligi mevachilik sohasida 1967-yildan boshlab davlatga qarashli mavjud yetishtirish tizimi o‘rniga bosqichma-bosqich tekin shartnoma mexanizmini joriy etish orqali islohotlar olib borilmoqda. Natijada qishloq xo‘jaligida narx belgilash tizimi ko‘proq bozor talablari sari o‘zgarib, yetishtiriladigan mevaga narxlar bozor talab va taklifidan kelib chiqib belgilandi. Keyingi yillarda davlat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini, jumladan, meva bozoridagi vaziyatga ma’muriy usullar bilan emas, bozordagi talab hamda taklifni tartibga solish va muvozanatni aniqlash orqali ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, davlat bozordagi talab hamda taklifga asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotib olish orqali ta’sir ko‘rsatmoqda.

Hozirgi vaqtda Xitoy hukumati tomonidan mevachilik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar asosan tuproq unumdorligini oshirish, ekinlardan sifatli hamda yuqori hosil olish, serhosil hamda bardoshli navlarni yaratish, ko‘chat tizimini rivojlantirish, mahsulot sifatini oshirish, meva-sabzavot va tokchilikni yaxshilashga qaratilgan, uzoq muddatli saqlash tizimlarini rivojlantirish, shuningdek, export hajmini oshirish hamda uni har tomonlama rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xitoyda meva hamda vino sanoati logistikasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, fermer xo‘jaliklarini qishloq xo‘jaligini maxsus texnikalari bilan ta’minlash, uni ishlab chiqarish, sotish, ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishning birligi mezonlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sababi, fermerlar alohida texnik xizmat ko‘rsatish hamda ta’mirlashni talab qiladigan murakkab texnikani olishda nafaqat uning narxi va sifatiga, balki kafolat muddati davomida texnikani ta’mirlovchi hamda ularga xizmat ko‘rsatadigan ustaxonalar tizimining mavjudligiga ham katta e’tibor beradi.

Rivojlangan mamlakatlar hamda ulardagi qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini rivojlanish darajasini o‘rganish ularning quyidagi o‘ziga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi:

- qishloq xo‘jaligida iqtisodiyotni rivojlantirish, natijada, yuqori hosil beradigan qishloq xo‘jaligi o‘simliklari, ularni qayta ishlash hamda oziq-ovqat sanoatining eng yuqori sifatli mahsulotlariga aylantirishga asoslangan;
- qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan agrosanoat integrasiyasiga birlashgan;
- qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotini rivojlantirish hamda keng ko‘lamli texnologiyalar, biotexnologiya hamda axbrort kabi yuqori samarali hamda ekologik toza texnologiyalarga asoslanadi;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilari kapital qo‘yilmalari unumdorligini oshirishda mahsulot ishlab chiqarishdagi moddiy-texnik elementlarning o‘rni keyingi yillarda pasayib, ularning o‘rnida esa biologik omillarning ko‘proq rol o‘ynayotganligi;
- qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishida kapital sig‘imining pasayib borayotganligi mehnat unumdorligining esa oshayotganligini alohida ta’kidlash o‘rinli hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bu tajribalarni mamlakatimizda ham qo‘llash, ya’ni yirik qishloq xo‘jaligi texnikasini ishlab chiqaruvchi korxonalarni dilerlik markazlari, xizmat ko‘rsatish markazlari yaqinida bevosita texnikadan foydalanadigan fermer xo‘jaliklarida joylashtirish, ishlab chiqaruvchi va texnika iste’molchisi o‘rtasida doimiy aloqa o‘rnatish maqsadga muvofiqdir. Xizmat ko‘rsatish markazlarida qishloq xo‘jaligi texnikalariga sotib olingandan keyingi ularga texnik xizmat ko‘rsatish hamda ehtiyot qismlar etkazib berishni tashkil etish zarur.

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun, bizningcha, bevosita (subsidiyalash), bilvosita (imtiyozli soliq solish va boshqalar) va vositachilar (qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bog‘liq bo‘lmagan sohalar)dan tarkib topgan yaxlit tizim asosida davlat tomonidan manzilli qo‘llab-quvvatlanishi ustuvor yo‘nalishlar sifatida o‘z navbatida moliya resurslarining maqbul (optimal) kombinatsiyalarini tatbiq etish asosida tarmoqlarning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-martdagi “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4239-sonli qarori.Xalq so‘zi gazetasi.15- mart 2019-y.
2. Ergashev E.I. O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirisih muammolari va yechimlari. Monografiya. –Toshkent.2015. – 215b.
3. A.Vahobov, N.Jumaev, U.Burxonov. Xalqaro moliya munosabatlari.– Toshkent: Sharq, 2003. –400-b.
4. Xamrayeva S.N. Qishloq infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish. Monografiya – Toshkent: 2017 – 73 bet.
5. Farmonov T. Respublikada dehqon va fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish strategiyasi //O‘zbekiston agrar iqtisodchi olimlar.

TURISTIK XIZMATLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA MARKETING TADQIQOTLARI



Berdiqulova Iroda Rayimqulovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turistik xizmatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, turizm sohasidagi mavjud ma’lumotlar manbalari, turizm sohasida olib boriladigan tadqiqotlar va undagi bosqichlar, tadqiqotlar olib borishdagi birlamchi va ikkilamchi ma’lumotlar batafsil yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm, ma’lumotlar manbai, turistik xizmatlar, turis ik tadqiqotlar, saqlash, baho, mavsumiy tebranish, ishlab chiqaruvchi, menejer, marketing tadqiqotlari, turistik firmalar, hisobot, nazorat.

Abstract: This article describes in detail the characteristics of tourism services, available sources of information in the field of tourism, research in the field of tourism and the sequence of stages in it, primary and secondary data when conducting research.

Key words: Tourism, data source, tourism services, tourism research, storage, evaluation, seasonal fluctuations, manufacturer, manager, marketing research, travel companies, report, control.

Аннотация: В данной статье подробно описаны характеристики туристических услуг, доступные источники информации в сфере туризма, исследования в сфере туризма и последовательность этапов в них, первичные и вторичные данные при проведении исследований.

Ключевые слова: Туризм, источник данных, туристические услуги, туристические исследования, хранение, оценка, сезонные колебания, производитель, менеджер, маркетинговые исследования, туристические фирмы, отчет, контроль.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishi jarayonida turizmni rivojlantirish bo‘yicha juda yirik salohiyatlar mavjud. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ham boshqa chet el mamlakatlaridagi kabi turizmning o‘ziga xos jihatlari, xususiyatlari aks etgan bo‘lib, bunda statistik va tahliliy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun kerakli ma’lumotlar manbaidan foydalanish lozim bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Turizm bozori va uning asosiy yo‘nalishlarini o‘rganar ekanmiz, biz albatta yana mutaxassis olimlar tomonidan keltirilgan turli qarashlar konsepsiyasiga to‘xtalib o‘tamiz. Jumladan, professor F.K.Kamilova turizm bozoriga shunday ta’rif beradi: “Turizm bozori keng ma’noda turistik mahsulotni oldi – sotdi bitimlari (turlar, aloxida turizm xizmatlari yoki turistlar uchun mollar) bo‘lib o‘tadigan joyini bildiradi[1]””

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, monografik kuzatuv, statistik abstrakt mantiqiy fikrlash va istiqbolli prognozlash, usullaridan keng foydalanilgan.

1 Kamilova F. K. Turizm iqtisodi va uni tashkil etish. – Toshkent. TDIU, 2005.

Umuman olganda turistik xizmatlar 7 xil bo‘lib, bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlarga ega:

1. Saqlash imkoniyatining yo‘qligi. Mehmonxona yoki samolyotdagi joylarga talab bo‘lmagan paytda ularni kelajakdagi savdosi uchun saqlab qo‘yib bo‘lmaydi. Shu bois menejerlar ushbu qisqa muddat ichida mavjud xizmatlarga talabni ko‘paytirish uchun o‘z kuchlarini safarbar qilishlari lozim bo‘ladi.
2. Xizmatga oldindan baho berib bo‘lmasligi. Turmahsulotni baholovchi o‘lchov birligining yo‘qligi. Mahsulotni sotib olib uni iste’mol qilmaguncha uning sifatiga baho berib bo‘lmaydi. Shuning uchun iste’molchilar uchun asosiy narsa bu firmaning bozordagi o‘rni va mahsulotining mavqeidir.
3. Mavsumiy tebranishlarga moyilligi. Turfirmalarning marketing bilan bog‘liq tadqiqotlari ayni mavsumda va mavsum oralig‘ida bir-biridan farqlanib turadi. Mavsumdan tashqari paytlarda talabni maromiylashtirish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak bo‘ladi: pasaytirilgan narxlar, turli xil qo‘shimcha xizmatlar, turizmda taklifning diversifikatsiyalashuvi.
4. Aniq bir joyga qattiq bog‘lanib qolish (turbazaga, aeroportga, chunki bularni boshqa joyga ko‘chirib o‘tishning iloji yo‘q).
5. Turizm xizmatining sotilishi bilan uning iste’moli orasidagi vaqtning nomutanosibligi. Turizmda tovarlar iste’mol qilingunga qadar bir oy ilgari xarid qilinadi. Ushbu holatda xarid qilib olinishi lozim bo‘lgan turmahsulot bo‘yicha e’lon qilingan reklamadagi ma’lumotlar katta ahamiyatga egadir. Turmahsulot savdosi jarayonida ma’lumotlarning ishonchliligi va turmahsulotga qo‘yilgan narx bilan uning sifati o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblik juda katta ahamiyat kasb etadi.
6. Turizm bozorida turmahsulotni ishlab chiqaruvchi bilan iste’molchi orasidagi hudud bir-biri bilan bog‘lanmagan. Bunda ma’lumotlar almashinuvi va reklama bo‘yicha olib boriladigan tadbirlar ancha keng qamrovli darajada olib borilishi lozim bo‘ladi.
7. Turmahsulotni xarid qilish uchun turist ma’lum masofani bosib o‘tadi.

Turizmda ishlab chiqaruvchi – bu turli xil maqsaddagi bir nechta mustaqil va ixtisosligi bo‘yicha bir-biridan farqlanuvchi maxsus turistik tashkilotlardir (turoperatorlar, turagentlar, mehmonxonalar, restoranlar va h.k.).

Turizm – bu murakkab tizim bo‘lib, iqtisodiyotning, siyosatning, ijtimoiy munosabatlarning, atrof-muhitning va madaniyatning simbiozi bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham marketing tadqiqotlarida ijobiy samaraga erishish uchun ushbu marketing tadqiqotlarini turizm sohasidagi turli xil tashkilotlari bilan o‘zaro muvofiqlashtirgan holda olib borish lozim bo‘ladi.

Turizm sohasidagi marketing umumiy tizimining tarkibiy qismlari quyidagilarda o‘z aksini topadi: davlat, mahalliy hukumat organlari, milliy va hududiy turizm tashkilotlari va firmalari. Turizm sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar turizmda faoliyat ko‘rsatayotgan menejerlar uchun to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma’lumotlar bazasi bo‘lib xizmat qiladi.

Bunday tadqiqotlar quyidagilarni aniqlashga imkon beradi:

- biznesni samarali olib borishga salbiy ta’sir qiluvchi omillar;
- salbiy muammolarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf qilish yo‘llari;
- turizm bozorining kelajakdagi istiqboli.

Shuningdek tadqiqotlar natijasida: yangi imkoniyatlarni aniqlab olish; biznesni samarali olib borish yo‘llarini o‘rganish; bozor talabini to‘liq o‘rganish va bozordagi doimiy o‘zgarishlardan kelib chiqadigan xatarlar darajasini birmuncha pasaytirish imkonini beradi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida xatarlar darajasini pasaytirish yo‘llarini aniqlab bera oladigan tadqiqotlar natijasi turizm tashkilotlarining kelajakdagi istiqbolini ma’lum darajada ta’minlaydi. Barcha boshqaruv qarorlari olib borilgan marketing tadqiqotlari natijasini inobatga olgan holda qabul qilinishi lozim.

Turistik firmalar ikki turdagi tadqiqotlarni olib borishi mumkin:

1) joriy tadqiqot, turizm bozorida ahamiyatga molik bo‘lgan barcha o‘zgarishlar ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida domiy ravishda o‘tkazilib turiladi (firma atrofida ro‘y berayotgan juda kichik, ahamiyatsizdek tuyulgan o‘zgarishlar ham boshqaruv qarorlari natijasiga ta’sir qilishi mumkin);
2) turizm bozoridagi o‘zgarishlarni tahlil qilish yoki taklif darajasini tekshirib ko‘rish maqsadida aniq bir muammo ustida tadqiqot olib borish.

Turizmda olib boriladigan marketing tadqiqotlaridan ko‘zlangan maqsad:

1. **Ahamiyatga molik bo‘lgan muammolarni aniqlash.** Biznes bilan bog‘liq kunlik faoliyatning o‘ta shiddatli bo‘lishi tufayli, ijrochilar uchun faoliyatning muammoli sohalariga e’tiborini ajratishiga juda kam vaqt qoladi. Bunday e’tborsizliklar firmaning kelajakdagi muvaffaqiyatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Biznesning samarali faoliyatiga salbiy ta’sir qilayotgan muammolar va omillarning aniqlanishi ko‘pincha olib borilgan tadqiqotlarning boshqaruv jarayoniga kiritayotgan badali kabi baholanadi.
2. **Turistik firma va uning maqsadli bozorlari o‘rtasidagi aloqalarning qo‘llab-quvvatlanishi.** Turizmda olib borilayotgan tadqiqotlar firmaning kelajakdagi o‘sish sur’atini belgilab berish bilan birga,

bozordagi talabni yaxshiroq anglash va yuz berayotgan o‘zgarishlarni kuzatib borish imkoniyatini yaratib beradi. Tadqiqotlar turizm bozorida kutilmagan xatarlar yuz berishi ehtimolini pasaytiradi. Doimiy tadqiqotlarning olib borilishi bozordagi o‘zgarishlar tufayli ushbu bozorda eskirib bo‘lgan tovarlarni firma tomonidan ishlab chiqarilishining oldini oladi.

3. **Xarajatlarning kamayishi.** Tadqiqotlar biznes uchun samarali usullarni aniqlash va samarasiz usullarni bartaraf qilish yo‘llarini topishga yordam beradi.
4. **Foydaning yangi manbalarini axtarib topish.** Tadqiqotlar yangi bozorlarni ochishga va allaqachon savdoda bo‘lgan yangi mahsulotlarni hamda ulardan foydalanishning yangicha usullarini topishga yordam beradi.
5. **Savdoni bir maromda olib borishga ko‘maklashadi.** Tadqiqot natijalari nafaqat aniq bir firmaning, balki, ushbu natijalar butun bir ommaning ham e’tiborini o‘ziga jalb qilishi mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari reklama agentliklarida va savdo munosabatlarini bir maromga keltirishda foydalanilishi mumkin. Bu avvalo, mahsulot va xizmatlar bilan iste’molchilar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishda olib boriladigan tadqiqotlarga, shuningdek, aniq bir tovar va xizmatlarga iste’molchilar tomonidan baho berilishida olib boriladigan izlanishlarga taalluqlidir.
6. **Xaridorlar tomonidan bildiriladigan hayrixohlikni ifodalovchi munosabatlarni shakllantirish.** Turizm bozori iste’molchilari turistik firmalar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarga ijobiy munosabat bildiradi. Ularning fikricha, turizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi bunday firmalar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar iste’molchilarning to‘liq ehtiyojini qondiruvchi mahsulot yoki xizmat turlarini yaratish uchun yo‘naltirilgandir.

Turizm tadqiqotlarini olib borish jarayoni quyidagi bosqichlarda o‘z ifodasini topgan:

- **Muammolarni aniqlash.** Avvalo mavjud muammolarni aniqlab olib, so‘ngra tadqiqot maqsadini shakllantirish lozim. Ushbu maqsadlar qidiruvga xos bo‘lib, muammoni bartaraf qilish bo‘yicha birlamchi ma’lumotlarni jamlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi; ular esa o‘z navbatida gipotezaning paydo bo‘lishiga yordam beradi.
- **Vaziyatli tahlilning olib borilishi.** Ushbu bosqichda mavjud muammoga taalluqli bo‘lgan barcha ma’lumotlar jamlanadi va qayta ishlanadi. Ushbu bosqichdagi asosiy maqsad – bunday vaziyatning boshqa bir firmada ham bo‘lmaganligini aniqlash va muammoni bartaraf qilish yo‘llarini qo‘ldan chiqarib yubormaslik.

Vaziyatli tahlil – bu ma’lum bir mahsulot turiga, sanoatga, bozorga, raqobatchilarga, reklamaga, iste’molchilarga, mahsulot va xizmatlarni yetkazib beruvchilarga, texnika-texnologiyaga, iqtisodiyotga, siyosiy holatga taalluqli bo‘lgan barcha ma’lumotlarni batafsil ravishda axtarib topishga yo‘naltirilgan jarayondir. Mavjud muammolar bo‘yicha batafsil ma’lumotga ega bo‘lish, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash imkonini beradi. Agarda turizm tashkilotlarining ichki muhiti, uning maqsadi, strategiyasi, intilishlari, mavjud resurslari va shu bilan birga unda belgilab qo‘yilgan ta’qiqlashlar to‘liq aniqlangan bo‘lsa, olib borilgan tadqikotlar firma uchun ma’lum darajada samara keltirishi mumkin.

Ushbu muammolarga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni qo‘lga kiritish bilan birga, uning boshqa manbaalarini ham ko‘rib chiqish lozim, toki bunday ma’lumotlarni mijozlar bilan, distribyuterlar bilan va turizm sohasining boshqa shaxslari bilan bo‘ladigan suhbatlardan olish mumkin. Vaziyatli tahlilni olib borishda va ma’lumotlarni yig‘ish jarayonida ta’kidlab o‘tilgan takliflar albatta tekshirishni talab qiladi.

- **Tadqiqotlarni olib borish sxemasini ishlab chiqish.** Tegishli ma’lumotlar yig‘ilib, muammolar aniqlangandan so‘ng tadqiqotlarni olib borish uchun aniq bir rejalar tuzillishi mumkin. Tadqiqotlar jarayonining yadrosi bo‘lmish ushbu bosqichda gipotezalar ishlab chiqilib, ular birma-bir tekshiriladi, kerakli ma’lumotlar manbai aniqlanadi. Agarda hududlararo tadqiqotlarni olib borish lozim bo‘lsa, unda ma’lumotlar yana qayta ko‘rib chiqiladi, kerakli yo‘riqnomalar, kodlashtirish va jadvalni tuzish usullari ishlab chiqiladi. Xullas, ish yakunida oldindan aniqlangan elementlarni tekshirib chiqish uchun qo‘shimcha izlanishlar olib boriladi. Olingan natijalar asosida batafsil ravishda tuzilgan reja tadqiqotchilarga taqdim qilinadi va har qanday malakali ishtirokchi ushbu reja asosida ish olib boradi.
- **Ma’lumotlarni yig‘ish.** Agarda birlamchi ma’lumotlarni ikkilamchi ma’lumotlar manbaidan olish imkoniyati bo‘lsa, firmaning o‘zida tadqiqotlarni olib borish mumkin bo‘ladi. Biroq, birlamchi ma’lumotlarni yig‘ishda hududlararo haqiqiy tadqiqotlar olib borilishi lozim bo‘ladi. Bunda asosan kuzatish, anketa so‘rov yoki eksperiment o‘tkazish usullaridan foydalaniladi. Ma’lumotlarni yig‘ishdagi yutuq asosan hududlararo olib briladigan tadqiqotlarning sifatiga, tadqiqotchilarning malakasi darajasiga ham bog‘liqdir.
- **Ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida taqdim qilish va tahlil.** Ma’lumotlar yig‘ilib bo‘lganidan so‘ng ular kodlanishi, jadval ko‘rinishida aks ettirilishi va tahlil qilinishi lozim. Ushbu va bundan oldingi bosqichlarda olib borilgan tadqiqotlarda juda katta ehtiyotlilik talab qilinadi. Agarda ma’lumotlarni jamlash, jadvalni tuzish va uning tahlili tegishli tarzda olib borilmagan bo‘lsa, qilingan xulosalar xato bo‘lishi tabiiy.

Masalan, agarda ma'lumotlarni yig'ishda so'rov anketa usuli qo'llanilsa, tadqiqotchilar to'g'ri tanlanishi, qayta o'qitilishi va nazorat qilinishi lozim. Ma'lumotlarni jadvalda tasvirlash asosan kompyuterda amalga oshiriladi.

- **Ma'lumotlarning solishtirma tahlili.** Bir qator statistik xulosalar va kompyuterda olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosan jadval ko'rinishida ifodalanadi. Qo'lga kiritilgan ma'lumotlarning solishtirma tahlili asosan firma va tashkilotlarning faoliyati uchun bir qator maxsus tavsiyalar ishlab chiqish yoki eng qulay qarorlarni qabul qilish maqsadida olib boriladi. Ma'lumotlarni solishtirma tahlilidan so'ng tavsiyalar ishlab chiqiladi va bu jarayon tadqiqot olib borishda eng murakkab jarayon bo'lib hisoblanadi.
- **Hisobot tuzish.** Bunda tadqiqotlardan olingan natijalarning taqdimoti juda muhim ahamiyat kasb etadi. Agarda olingan ma'lumotlar yetarli darajada tasvirlanmagan bo'lsa va ushbu ma'lumotlardan menejerlar o'z faoliyati davomida foydalana olmasa, tadqiqotlar olib borishdagi barcha mehnat sarfi va xarajatlar besamar ketgan bo'ladi. Tadqiqotlar olib borishning ushbu bosqichida u yoki bu muammoli vaziyatni bartaraf qilish bo'yicha keltirilgan tavsiyalarni o'z ichiga qamrab olgan hisobot tuzilishi lozim.
- **Nazorat.** Tadqiqotlarni olib borish jarayoni hali yakuniy bo'lib hisoblanmaydi, chunki qo'lga kiritilgan natijalar hali to'liq faoliyatga tadbiq qilinmagan bo'ladi. Turizmda olib borilgan tadqiqotlar – bu pul mablag'larini investitsiya sifatida kiritilishi va vaqt sarfi. Tadqiqot olib boruvchilarning asosiy, eng muhim vazifasi investitsiya sifatida kiritilgan pul mablag'larining va sarflangan vaqtning samarali natija berishi ustidan nazoratni olib borishdan iboratdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlar olib borishda birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanish mumkin. Birlamchi ma'lumotlar – bu turizm sohasida aniq bir muammoni hal qilish maqsadida birinchi marta yig'ilgan maxsus ma'lumotlar jamlanmasidir. Ikkilamchi ma'lumotlar – bu ilgari boshqa maqsadlar uchun yig'ilgan ma'lumotlarni ma'lumotlar manbaidan foydalanish uchun olingan ma'lumotlardir. Agarda tadqiqotchilar yo'lovchilardan ularning fikrini va munosabatini bilish maqsadida yo'l-yo'lakay so'rov olib borsa unda ular birlamchi ma'lumotni olgan bo'ladi. Agarda ular ilgari yig'ilgan statistik ma'lumotlarga murojaat qilsa unda ular ikkilamchi ma'lumotlarga murojaat qilgan bo'ladi. Biroq olingan birlamchi ma'lumotlar keyingi qo'lga kiritilgan ikkilamchi statistik ma'lumotlar bilan solishtirilmasa, ma'lum darajada xatolikka yo'l qo'yilishi mumkin.

Ikkilamchi ma'lumotlar manbai ichki va tashqi ma'lumotlar manbaiga bo'linadi. Ichki ma'lumotlar manbaiga buxgalteriya balansi ma'lumotlari, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari, turagentlarning taqsimlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar, schet-fakturalar va ilgari olib borilgan tadqiqotlar bo'yicha tuzilgan hisobot ma'lumotlari kiradi. Tashqi ma'lumotlar manbaiga firmaning rasmiy ravishda chop qilingan savdo ko'rsatkichlariga oid ichki hisobot ma'lumotlari, turizm faoliyatiga taalluqli bo'lgan me'yoriy hujjatlar, gazeta, jurnalda chop qilingan ma'lumotlar, aholi soni, demografiyasiga oid boshqa ma'lumotlar kiradi. Ikkilamchi ma'lumotlar ayrim muammolarni o'rganishda yetarli darajada bo'lsa ulardan foydalanish ayrim sarf xarajatlarning oldini olishi mumkin. Biroq ikkilamchi ma'lumotlar tezda eskirishi ham mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-232-son qarori, 2022-yil 30-aprel.
2. Abrate, G., Bruno, C., Erbetta, F., Fraquelli, G. (2019). Which Future for Traditional Travel Agencies? A Dynamic Capabilities Approach. – [Online] Available: https://doi.org/10.1177/0047287519870250. 777-791. (September 20, 2021).
3. Wu, W. (2020) Analysis of Digital Tourism, Virtual Tourism and Wisdom Tourism – [Online] Available: doi: 10.1007/978-3-030-43309-3_3.
4. Жуков В.А., Чудновский А.Д. Формирование модели гостиничного бизнеса на основе сетевой формы управления. Журнал "Вестник Университета". 2019. №3. 54-60.
5. Pardayev, M. Q., & Berdikulova, I. R. (2020). Mehmonxona xo'jaligi moliyaviy holatini tahlil qilishni takomillashtirish masalalari. Turizm ilmiy-amaliy elektron jurnali, 3(1), 45-60.
6. Бердикулова, И. Р. (2020). Совершенствование организационно-экономического механизма диверсификации туристического рынка. In ЭКОНОМИСТ ГОДА 2020 (pp. 327-331).
7. Berdikulova, I. R., & Ibrat, S. (2023). The role and importance of finance and financial technologies in the diversification of the tourism market in Uzbekistan. International Journal of Engineering Mathematics (Online), 5(1).
8. Berdikulova, I. R., & Baxramov, T. (2023). The role of financial analysis in the diversification of the tourism market and its necessity. International Journal of Engineering Mathematics (Online), 5(1).

QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI: ASOSIY MUAMMOLAR VA RIVOJLANISHINING USTUVOR YO‘NALISHLARI

UDK: 332.2

Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
“Geografiya o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligidagi asosiy muammolar va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan. Maqolada ekin yerlar hosildorligini oshirish, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida sug‘oriladigan maydonlar sho‘rlanish darajasining tavsiflanishi, meliorativ obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash, sug‘oriladigan yer maydonlarining sifat ko‘rsatkichlari, sug‘oriladigan maydonlardan foydalanish darajasi, mintaqadagi qishloq xo‘jaligi subyektlarining qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlanishi bo‘yicha tahlillar olib borilgan.

Kalit so‘zlar: hudud, mintaqa, qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, suv va yer resurslari, sho‘rlanish, seleksiya va urug‘chilik, hosildorlik, ekin yerlar.

Abstract: The article discusses the main problems and priority directions for the development of agriculture in Karakalpakstan. The article provides recommendations for increasing arable land productivity and efficient use of water and land resources. An analysis was also carried out to describe the level of salinity to describe the level of salinity in irrigated areas of the Republic of Karakalpakstan, the construction, reconstruction and repair of reclamation structures, quality indicators of irrigated lands, the level of use of irrigated areas, and the provision of agricultural machinery to agricultural entities of the region.

Key words: territory, region, agriculture, farming, livestock farming, water and land resources, salinity, selection and seed production, productivity, cultivated lands.

Аннотация: В статье рассмотрены основные проблемы и приоритетные направление развития сельского хозяйства Каракалпакстана. В статье даны рекомендации по повышению урожайности пашни, эффективному использованию водных и земельных ресурсов. Также были проведены анализ по описанию уровня засоления по описанию уровня засоления орошаемых площадей Республики Каракалпакстан, строительства, реконструкции и ремонта мелиоративных сооружений, показателей качества орошаемых земель, уровня использования орошаемых площадей, обеспечения сельскохозяйственной техники сельскохозяйственным субъектов региона.

Ключевые слова: территория, регион, сельское хозяйство, земледелие, животноводство, водные и земельные ресурсы, засоление, селекция и семеноводство, урожайность, посевные земли.

KIRISH

O‘zbekistondagi sug‘oriladigan maydonlarning 11.9, pichanzor va yaylovlar 24.8, ekin yerlarning 10.4 foizi tadqiqot hududi hissasiga to‘g‘ri keladi[1]. Ushbu ko‘rsatkichlar Qoraqalpog‘iston O‘zbekistondagi yirik qishloq xo‘jaligi mintaqalaridan bir ekanligidan dalolat beradi.

Shunga qaramasdan mazkur hudud 2022-yilda O‘zbekistondagi jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining salkam 4.0, paxtaning 6.6, donli ekinlarning 3.9, bug‘doyning 2.8, kartoshkaning 2.7, sabzavotning 2.9, polizning 7.2, meva, rezavorlarning 2.1, uzumning 0.6, go‘shtning 4.4, sutning 3.7, tuximning 4.8, qorako‘l terisining 7.2 va pillaning 3.3 foizini yetishtirib bergan[2]. Bu mavjud imkoniyatlardan ancha past hisoblanadi.

Asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, ayniqsa, qishloq xo‘jaligining rivojlanish darajasi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekistonning boshqa mintaqalari orasida oxirgi o‘rinlardan birini egallaydi[3]. Qishloq

1 O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi. O‘zbekiston Respublikasining yer fondi. –T.: 2023. –37 b.
2 O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi 2019–2022 statistik to‘plam. –T.: 2023.
3 Madenova E. N. “Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi” Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. 2019-yil, 24 b.

xo‘jaligi ekin maydonlari hosildorligining kamayishi ushbu salbiy holatning asosiy sabablardan biri hisoblanadi. Shuningdek, suv resurslarining yetishmasligi ham tarmoqda iqtisodiy ko‘rsatkichlarning past bo‘lishiga zamin yaratmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqada qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha J.Medetullayev, K.Rzayev, Ye.Umarov, K.Ubaydullayev, K.Bektemirov, J.Sauxanov, A.Matchanova va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan[4].

Mazkur katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molik tadqiqot natijalarini inkor etmagan holda, keyingi yillarda Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligidagi muammolarga bag‘ishlangan ishlar kam. J.Medetullayev, K.Rzayev, Ye.Umarov, K.Ubaydullayevlar tomonidan olib borgan ilmiy tadqiqotlar sobiq ittifoq va mustaqillikning dastlabki yillarida, o‘tish iqtisodiyoti davrida olib borilgan. K.Bektemirov mualliffligida yozilgan “Ustoychivoye razvitiye regionov ekologicheskogo krizisa: metodologiya i instrumentariy primeneniya v Priarale” nomli monografiyasida agrar sohadagi ba’zi muammolarga to‘xtab, ularni yechish yo‘llari bo‘yicha tavsiyalar bergan. J.Sauxanov o‘zining “Agrar tarmoqda tashqi samaralarni optimal tartiblashtirish va transaksiya xarajatlarini pasaytirish: muammolar, usullar va modellar” deb nomlangan ilmiy ishida tarmoqni ekonomik modellar asosida o‘rgangan. Shu nuqtayi nazardan mintaqa qishloq xo‘jaligidagi muammolarni atroflicha tadqiq etish va ularni yumshatish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning metodologik asosini Qoraqalpog‘istonlik olimlarning qishloq xo‘jaligidagi muammolarni yechish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot usullaridan, qishloq xo‘jaligi va unga tutash fanlarda yaratilgan ilmiy g‘oya va qonuniyatlar o‘rin olgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev va Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan Qonun va qarorlar, respublika hukumati tomonidan olg‘a surilgan takliflar va qishloq xo‘jaligi ustuvor vazifalaridan kelib chiqqanligi bilan tavsiflanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Orolbo‘yi mintaqasini barqaror rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bu uning agrosanoat salohiyatini oshirish, qishloq xo‘jaligi har bir gektardan, ayniqsa, sug‘oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligi va rentabelligini oshirishdir[5].

Yuqorida amalga oshirilgan tahlil natijalaridan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo‘jaligining rivojlanishida bir qator muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan tadbirlar majmuasini ilmiy asoslash va amaliyotga joriy etishni talab etadi. Bu tadbirlar majmuasi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- ekin yerlar va tabiiy yaylovlarning unumdorligini oshirish (bunda almashlab ekishni yo‘lga qo‘yish, sho‘r yuvish tadbirlarni amalga oshirish, yaylovlardan almashlab foydalanish, ularni suvlantirish);
- suv resurslaridan samarali foydalanish (tomchilab va yomg‘ir usulida ekinlarni suvlantirish);
- respublikadagi mavjud sug‘oriladigan maydonlardan imkon qadar maksimal va samarali foydalanish;
- qishloq xo‘jaligini zamonaviy texnikalar bilan ta’minlash;
- seleksiya va urug‘chilik ishlarini takomillashtirish;
- mintaqa tabiiy sharoiti xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini ixtisoslashtirish, hududiy tashkil etilishini takomillashtirish;
- fermer va dehqon xo‘jaliklariga davlat tomonidan iqtisodiy mexanizmlar orqali yordam ko‘rsatish (bunda imtiyozli kreditlar va manzilli subsidiyalar ajratish);
- qishloq joylari ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastruktura tarmoqlarini rivojlantirish, horijiy investorlarni jalb qilish mexanizmini ishlab chiqish va h.k.

4 Медетуллаев Ж. Проблемы комплексного освоения земель. Нукус. Каракалпакстан. 1976. Умаров Е.К. Проблемы совершенствования территориальной структуры производительных сил Республики Каракалпакстан. Автореф. на соиск. уч. степ. доктор географических наук. –Т.: 2003. –48 с. Убайдуллаев К., Данияров К. Актуальные проблемы аграрного сектора Республики Каракалпакстан в условиях рынка. // Актуальные проблемы современной науки. –2004. –№2. –С. 90-91. Бектемиров К.К. Устойчивое развитие регионов экологического кризиса: методология и инструментарий применения в Приаралье. Т.: Фан. 2006. 160 с. Sauxanov J.K. Agrar tarmoqda tashqi samaralarni optimal tartiblashtirish va transaksiya xarajatlarini pasaytirish: muammolar, usullar va modellar. T.: Lesson Press. 2022. 269. b.

5 Бектемиров К.К. Устойчивое развитие регионов экологического кризиса: методология и инструментарий применения в Приаралье. Т.: Фан. 2006. С.60.

Mazkur tadbirlar mintaqada qisman ishlab chiqarishga joriy qilingan, lekin aniq bir tizim sifatida yo‘lga qo‘yilmagan yoki boshboshdoqlik bilan amalga oshirilmoqda. Bu esa o‘z navbatida agrar sohaning iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda, mazkur ishning asosiy maqsadi mintaqa agrar sohasini istiqbolda miqdor va sifat jihatdan takomillashtirish hisoblanadi.

Mintaqa qishloq xo‘jaligini istiqbolda rivojlantirish birinchi navbatda mavjud yer-suv resurslaridan samarali foydalanish talab etiladi. Undan oqilona foydalanish, ifloslanish va degradatsiyadan himoya qilish dolzarb vazifadir.

Sug‘oriladigan yerlarni kafolatli suv bilan ta’minlash muammosini hal etishda mavjud sug‘orish tizimlarini texnik rekonstruksiya qilish, sug‘orish suvidan yuqori samarali foydalanishning ilg‘or usullarini joriy etish katta ahamiyatga ega.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, Qoraqalpog‘istonda tuproq unumdorligining pasayishi alohida tashvishli jarayon hisoblanadi. So‘ngi yillarda sug‘oriladigan yerlarning hosildorligi 5-20 foizga kamaygan[6]. Sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanish darajasining yuqoriligi, suv resurslarining yetishmasligi yerdan foydalanish koeffitsiyentini pasaytirmoqda. Shuningdek, grunt suvlarining yer yuzasiga yaqinligi unumdorli tuproq qatlamining ikkilamchi sho‘rlanishiga olib kelmoqda.

Qoraqalpog‘istonda grunt suvlari yer sathiga yaqin joylashgan bo‘lib, minerallashuv darajasi turlicha xususiyatga ega. 2020-yil vegetatsiya davrining boshida 510.30 ming gektar sug‘oriladigan yerlarning 131.33 ming gektar maydonida grunt suvlari sathi 2 metrgacha yoki sug‘oriladigan maydonning 25.7 foizini egallagan bo‘lsa, vegetatsiya davrining oxirida 2 metrgacha bo‘lgan grunt suvlari sathi egallagan maydon 101.39 ming gektarni yoki 19.9 foizni tashkil etgan. Grunt suvlarining minerallashuv darajasi 3 g/l ni, ayrim joylarda undan ortib ketadi. Qurg‘oqchil zonaga xos bo‘lgan iqlim sharoitida yuqori konsentratsiyaga ega grunt suvlarining yer sathiga yaqin joylashishi tuproq sho‘rlanishiga zamin yaratadi.

Kollektor-drenaj tarmoqlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi sug‘orma dehqonchilikda agrotexnik qoidalarning buzilishi tufayli tuproqlarning ikkilamchi sho‘rlanishi yuz bermoqda.

Daryoning quyi oqimi sharoitida sug‘oriladigan maydonlardan yer osti sulari chiqarib tashlash uchun yirik kollektor-drenajlar alohida rol o‘ynaydi. Biroq respublikada mineralizatsiya darajasi yuqori bo‘lgan yer osti suvlarini uzoqlashtirish bo‘yicha olib borilayotgan tadbirlar holati past hisoblanadi.

Qoraqalpog‘istonda sug‘oriladigan maydonlarning 362.58 ming ga yoki 70.4 foizni turli darajada sho‘rlangan yerlar tashkil etadi. Shundan, 5.5 foizi kuchli va juda kuchli, 50.6 foizi o‘rta va 43.8 foizi kuchsiz sho‘rlangan. Turli darajada sho‘rlangan maydonlarning 62 foizi shimoliy zonaga to‘g‘ri keladi (1-jadval).

1-jadval: Qoraqalpog‘iston Respublikasida sug‘oriladigan maydonlarning sho‘rlanish darajasi bo‘yicha tavsiflanishi, ming ga hisobida

Zonalar	Sug‘oriladigan maydonlar	Shundan:		Sho‘rlanish darajasi bo‘yicha taqsimlanishi		
		Sho‘rlanmagan	Sho‘rlangan	Kuchli va juda kuchli sho‘rlangan	O‘rta sho‘rlangan	Kuchsiz sho‘rlangan
Janubiy	138.28	43.48	94,8	7.09	46.69	41.03
Markaziy	62.45	19.53	42,92	0.69	22.29	19.92
Shimoliy	313.9	89.04	224,86	12.28	114.65	97.93
Jami	**514.63**	**152.05**	**362,58**	**20.06**	**183.63**	**158.89**

Jadval Qoraqalpog‘iston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu holat sug‘oriladigan yerlarning sifatiga, ekinlarning hosildorligiga oxir oqibat qishloq xo‘jaligining iqtisodiy ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Sho‘rlanish darajasiga qarab paxta xosildorligi quydagicha o‘zgaradi: sho‘rlanmagan yerlarga nisbatan kuchsiz sho‘rlangan yerlarda 20-30 foizgacha, o‘rtacha sho‘rlangan yerlarda 40–60 foizgacha, va yuqori sho‘rlangan yerlarda 80 foizdan ortiq bo‘ladi[7]. Bundan tashqari, sug‘oriladigan tuproqlarning sho‘rlanishi har yili takroriy sho‘r yuvishni talab qiladi, bu esa sug‘orish uchun juda ko‘p miqdorda suv sarfini talab qiladi. Sho‘r yuvish bilan bog‘liq tadbirlarni o‘tkazishning zaruratga aylanishi mahsulot yetishtirish uchun ketadigan harajat miqdorini o‘rtacha 8 foizga oshirsa, boshqa tomondan esa mazkur tadbirni amalga oshirmaslik hosildorlikni 25 foizgacha kamayishiga sababchi bo‘ladi[8].

6 Бектемиров К.К. Устойчивое развитие регионов экологического кризиса: методология и инструментарий применения в Приаралье. Т.: Фан. 2006. С.60.

7 Bektemirov K. Land reform in the Aral Sea region //Beyond Growth: Institutions and Policies for Sustainability. Santiago, Chile ISEE, 1988. P166.

8 Sultanov B.F. Qishloq xo‘jaligida meliorativ tadbirlar samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. DSs avtoreferati. –T.: 2020. –77 b.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Mavjud sho‘rlanishni bartaraf etish va ikkilamchi sho‘rlanishning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimida kollektor-drenaj tarmog‘i asosiy o‘rin tutadi.

Kollektor-drenaj tarmog‘ining uzunligi 1 ga maydonga 17.3 pogonametrdan 40.8 pogonametrgacha yetkazish paxta hosildorligini 15.8 s/ga dan 26.7 s/ga ga oshirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi[9]. Shuningdek, paxtachilik instituti olimlarining ko‘p yillik ma’lumotlariga ko‘ra, kollektor-drenaj tarmoqlari uzunligining ko‘payishi nafaqat hosidorlikning, balki yuqori navli hosil olishga imkoniyati yuqori bo‘lishini isbotlagan.

Respublikada sho‘r yuvish bo‘yicha katta ko‘lamdagi tadbirlar olib borilmoqda. Jumladan, 2016–2020-yillarda 221 ming ga. yerning meliorativ holati yaxshilangan va 269 mlrd. sum moliyaviy resurslar o‘zlashtirilgan (2-jadval).

2-jadval: Qoraqalpog‘iston Respublikasida meliorativ obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash bo‘yicha ma’lumot

Loyihalar	O‘lchov birligi	2016–2020-yillar	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
		Loyiha soni					
	дона	237	38	43	50	66	40
Kollektor-drenaj tarmog‘i (qurish, rekonstruksiya qilish)	km	2391	117	1992	133.3	121.2	26.6
Kollektor-drenaj tarmog‘i (ta’mirlash-tiklash)	km	7950	2066	1944	1396	1420.7	1122,2
Ajratilgan mablag‘	mlrd.	269	43	45.5	53.0	70,8	56.6
Meliorativ holati yaxshilangan maydon	ming ga	221	38	39.9	42.6	46	54.5

Jadval Qoraqalpog‘iston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Bu tadbirlarning olib borilishiga qaramasdan mintaqada mazkur ishlar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar o‘z yechimini kutmoqda.

Qoraqalpog‘istonda ochiq kollektorlar uzunligi 20584.8 km. ni tashkil etib shundan, 26.4 foizi ta’mirga muhtoj hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich 2000-yili 20.0 foizni, 2015-yili 22.3 foizni tashkil etgan. Mos ravishda sug‘oriladigan maydonlarning sho‘rlanish darajasi 68.9 va 69.7 foizga ortib borgan. Shuningdek, xo‘jaliklararo va ichki xo‘jaliklardagi ochiq kollektorlarning 50 foizdan ko‘prog‘i ta’mir talab darajaga kelgan. Yopiq drenaj tarmoqlarining umumiy uzunligi 430.4 km ni tashkil etgan holda sug‘oriladigan 1 ga maydonga 24.3 pog. m. yopiq kollektorlar to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari yopiq drenaj tarmoqlarining 25–30 foizi ishdan chiqqan. Tik drenaj quduqlari umuman mavjud emas.

Hozirgi suv resurslari yetishmayatgan bir payda, yer resurslardan samarali foydalanish ayniqsa, Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi uchun dolzarb masala hisoblanadi. Bunda bizning fikrimizcha, asosiy e’tiborni nisbatan suv yetib borishi oson bo‘lgan daryo va kanallar bo‘yidagi ekin maydonlardan dehqonchilik maqsadida intensiv foydalanish lozim. Shu maqsadda bu hududlardagi ekin maydonlardan vertigal va gorizontal dernajlardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish maksadga muvofiqdir. Chunki kollektorlarning ko‘pligi ekin maydonlarida yer osti suvlari sathining ko‘tarilishining oldini olishi bilan birga ekin ekiladigan maydonlarni band qiladi. Suv manbalariga uzoq joylashgan ekin yerlarni chorva mollari uchun yem-xashak bazasi sifatida o‘zlashtirish ijobiy samara beradi.

Yuqorida ko‘rsatilgan omillar tuproqlarning sho‘rlanishiga va hosildorligining pasayishiga olib kelmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yerlarning sho‘rlanishini minimal darajaga kamaytirish bo‘yicha kompleks tadbirlarni olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Bu tadbirlar quydagi yo‘nalishlarda olib borilishi lozim:

- sho‘rlangan yerlarda mavjud kollektor-drenaj tarmoqlarini ta’mirlash va tozalash, ularning sho‘r suvlarni tortish va o‘tkazish quvvatini oshirish;
- drenajlarning barcha (gorizontal, vertikal) tarmoqlaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish;
- sug‘oriladigan 1 ga maydonga to‘g‘ri keladigan kollektor-drenaj tarmoqlarining pogonametr uzunligini ko‘paytirish;
- eroziyaga qarshi choralar (tuproqning suv va shamol eroziyasidan nazorat qilish);
- tuproqning kimyoviy-fizik xususiyatlarini yaxshilash.

9 Юсупбаев К.Ю. Особенности реализации экономической реформы в аграрном секторе Республики Каракалпакстан. –Т.: 2001. –С. 104.

Oldin ta'kidlaganimizdek, mintaqada tuproq unumdorligining kamayib borishida yerlarning sho'rlanishidan tashqari ekin yerlar tarkibida ko'p yillar davomida paxta yakkaxokimligiga katta ahamiyat qaratilishi, ozuqa ekinlar ayniqsa, beda maydonlarining kamayib ketishi natijasida almashlab ekishning izdan chiqishiga ham sabab bo'lmoqda. Paxta yakkaxokimligi natijasida qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida begona (yovvoyi) o'tlar ko'payishi, tuproqning qurib hosildorlik va mahsulot sifatining pasayishi, kasalliklarning ko'payishi, chorvachilik va dehqonchilik uyg'unligining izdan chiqishiga, harajatlarning oshishiga pirovardida iqtisodiy samaradorlikning kamayishiga olib keldi. Shunday ekan tuproq unumdorligini oshirish va saqlab qolishda almashlab ekish ahamiyatli o'rin tutadi.

Bundan tashqari Orol dengizining qurishi ham qishloq xo'jaligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Jumladan, dengizning qurigan tubidan shamollar ko'p miqdorda sug'oriladigan yerlarga tuzli changlarni olib kelishi ekin maydon va yaylovlar hosildorligining pasayishiga, chorva mollari mahsuldorligining pasayib borishiga va qisir qolishiga olib kelmoqda. Shuningdek, kuchli shamolli kunlarning ko'payishi g'alla va donli ekinlarning yotib qolishiga, o'simlik va tuproq qatlamida degradatsiyaga jarayoni yuz berishi Janubiy Orolbo'yida cho'llashish jarayonin tezlashtirmoqda. Bu esa nafaqat qishloq xo'jaligiga balki butun iqtisodiyotga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan mintaqada biologik xilma-xillikni saqlagan holda iqtisodiyotni kompleks barqaror rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish lozim.

Qishloq xo'jaligida ayniqsa, sug'oriladigan yerlar hosildorligini muttasil orttirib borish mintaqa iqtisodiyoti barqaror rivojlanishining muhim garovlaridan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda sug'oriladigan yerlarning unumdorligi 5-20 foizga pasaygan. Gumus tuproq unumdorligini belgilovchi asosiy omil sifatida muhim ahamiyatga ega. Qoraqalpog'iston Respublikasining sug'oriladigan hududlaridagi tuproq qatlami nisbatan tabiiy past unumdor hisoblanadi (gumus miqdori 0.4–0.7%)[10]. Qoraqalpog'iston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, keyingi 15–20 yil davomida tuproq unumdorligining asosiy ko'rsatkichi bo'lgan chirindi miqdori 30–50 foizga kamaygan[11].

Tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, "eng yaxshi" toifa yerlar maydoni 1980-yilda sug'oriladigan yerlarning 10.4 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilga kelib, mazkur toifaga kiruvchi yerlar maydoni qolmagan. Mazkur yillar davomida "yaxshi" yerlar maydoni 22.5 foizdan 3.3 foizgacha kamayib ketgan. Shu vaqtning o'zida o'rtacha va o'rtachadan past yerlar maydoni ko'paygan. Qoraqalpog'iston bo'yicha o'rtacha ball boniteti 42.4 ni tashkil etgan (3-jadval).

3-jadval: Qoraqalpog'iston Respublikasi sug'oriladigan yer maydonlarining sifat ko'rsatkichlari

Klass	Ball	Sifat	Sug'oriladigan yer maydonlari							
			1980-y.		1985-y.		1995-y.		2019-y.	
			ming ga	%	ming ga	%	ming ga	%	ming ga	%
I	81-100	Eng yaxshi	33.7	10.4	29.6	7.1	0.5	0.1	-	-
II	61-80	Yaxshi	72.5	22.5	72.5	17.4	30.7	6.9	14.4	3.3
III	41-60	O'rtacha	84.8	26.3	86.8	20.8	172.6	38.8	202.5	47.3
IV	21-40	O'rtachadan past	131.7	40.8	228.2	54.7	240.8	54.2	211.5	49.4
V	1-20	Yomon	-	-	-	-		-	-	-

Jadval Bektemirov K.K. Ustoychivoye razvitiye regionov ekologicheskogo krizisa: metodologiya i instrumentariy primeneniya v Priarale. T.: Fan. 2006. s 63. va O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi "O'zdaverloyha" davlat ilmiy-loyhalash instituti Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi "QRerloyha" ma'lumotlari asosida tuzildi.

Shuni ta'kidlash joizki, 1980 yillarda Qoraqalpog'iston ekin maydonlar tarkibida eng yaxshi, yaxshi va o'rtacha sifatli toifadagi yerlar ulushi nisbatan yuqori bo'lgan. Lekin dengizning qurib borishi natijasida yerlarning holati keskin yomonlashdi.

Tabiiy-iqtisodiy zonalar bo'yicha ekin yer maydonlarining sifat ko'rsatkichlari turlicha hisoblanadi. Jumladan "yaxshi" toifaga tegishli yerlarning 92.3 foizi janubiy zonaga to'g'ri kelsa, 6.9 foizi markaziy zonaga, 0.7 foizi Orol dengizining qurigan tubiga yaqin bo'lgan shimoliy zonaga to'g'ri keladi. Shimoliy zonaga "o'rtacha" toifa yerlarning 50.9 foizi, "o'rtachadan past" toifa yerlarning 69.4 foizi, mos ravishda markaziy zonaga 16.1-10.4 va janubiy zonaga 33.0-20.2 foizi to'g'ri kelgan.

10 Исмаилов У.Е. Научные основы повышения плодородия почвы. –Нукус. –Билим.– 2004. –с.3.

11 Рзаев К., Бектемиров К. Состояние и перспективы развития сельского хозяйства Приаралья в ходе рыночных преобразований //Общественные науки в Узбекистане. 1997. №3-4. С. 12-16.

4-jadval: Qoraqalpog‘iston Respublikasi tabiiy-iqtisodiy zonalar bo‘yicha sug‘oriladigan yer maydonlarining sifat ko‘rsatkichlari

Zonalar	Haydaladigan yer maydoni, ga	Ball boniteta	Yerlarning sifat bo‘yicha klasslarga ajratilishi			
			Eng yaxshi I-kl.	Yaxshi II-kl.	O‘rtacha III-kl.	O‘rtachadan past IV-kl.
Shimoliy	250.2	39.7	-	0.1	103.0	146.7
Markaziy	56.4	44.1	-	1.0	32.6	22.1
Janubiy	121.8	46.2	-	13.3	66.9	42.7
QR bo‘yicha	428.4	42.4	-	14.4	202.5	211.5

Jadval O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligi “O‘zdaverloyha” davlat ilmiy-loyhalash instituti Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limi “QRerloyha” ma’lumotlari asosida tuzildi.

Bizning tadqiqotlarga ko‘ra, keyingi yillarda (2015–2020-yy.) ozuqa ekinlar salmog‘i ekin yerlar tarkibida 8,9 foizni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich paxta bilan almashlab ekishning ilmiy me’yorlariga yetarli darajada mos kelmaydi. Mutaxassislarning hisoblariga ko‘ra, ozuqa ekinlarining optimal me’yori barcha ekin maydonlarining 30-35 foizini tashkil etishi zarur[12].

Hisob-kitoblarga ko‘ra mintaqa hududining sug‘oriladigan maydonlarning 70 foizdan ortig‘i turli darajada sho‘rlangan. Bu esa, o‘z navbatida, ekin yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida ko‘proq beda ekishni va shu orqali almashlab ekishni yo‘lga qo‘yish bilan ekinlarning ayniqsa, paxta xosildorligini oshirishni talab etadi.

Qishloq xo‘jaligida hosildorlikni oshirish uchun tarmoqqa ilmiy asoslangan almashlab ekishni joriy etish zarur. Bu tuproq unumdorligini izchil oshirish, zararkunandalar, kasalliklar, begona o‘tlarga qarshi kurash va sug‘orish jarayonida suvidan samarali foydalanishni ta’minlaydigan tashkiliy, agrotexnik va iqtisodiy tadbirlar majmuasidir. Almashlab ekishning asosiy vazifasi – mahsulot birligiga suv, mehnat va o‘g‘itlarning tejamkorlik bilan sarflagan holda ekinlar hosildorligini izchil oshirishni ta’minlashdan iborat. Almashlab ekishni amaliyotga to‘liq joriy qilish tuproq hosildorligini oshirish bilan birga chorva mollarini yuqumli va turli assortiment ozuqa bazasi bilan ta’minlash imkonini beradi.

Respublikada keyingi yillarda jami ekin maydonlar tarkibida beda ekin maydonlari ulushi keskin kamayib ketgan. Bu ilmiy asoslangan almashlab ekishning deyarli yo‘lga quyilmaganligidan dalolat beradi. Mazkur holat tuproq unumdorligining pasayishiga olib kelayotgan sabablardan bir hisoblanadi.

Tuproq qatlami kuchli sho‘rlangan mintaqada almashlab ekishni amaliyotga joriy etish nafaqat dehqonchilik samaradorligini balki chorvachilik ozuqa bazasini mustahkamlash, qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, bir gektar beda maydoni 300 kg sof tabiiy azot to‘playdi. Qoraqalpog‘iston sharoitida ikki yillik bedadan so‘ng begona o‘tlarning kamayishi, yerning meliorativ holatining yaxshilanishi hisobiga uch yil dovamida paxta hosili deyarli 15 s/ga ko‘payishi, shu davr mobaynida bir gektar paxta ekin maydoniga sarflanadigan mehnat harajatlari 60 ish kuniga qisqarishi aniqlangan[13]. Beda tuproq qatlamida nafaqat tabiiy azot va chirindi miqdorini oshiradi, shu bilan birga uning meliorativ holatiga ijobiy ta’sir etadi. M.V.Muxamedjanovning o‘z tadqiqotida beda tuproqning fizik xususiyatlarini tubdan yaxshilashini, yer osti suvlari pasayishini, buning natijasida tuproqning sho‘rlanishining keskin kamayishini e’tirof etadi[14]. U eng yuqori mahsuldor va oqsilga boy ozuqa ekini hisoblanadi. Chorva mollarining mahsuldorligini oshiribgina qolmasdan ularni ko‘plab kasalliklardan saqlaydi va davolaydi. Shu sababdan tuproqqa va chorva mollariga ta’siri jihatdan hech bir ekin beda o‘rnini bosa olmaydi[15].

Ozuqa ekin maydonlari tarkibida ko‘p yillik o‘tlar bilan birga boshoqli, dukkakli va lavlagi ekinlarini ekish chorvani yil davomida oqsilga va ko‘k ozuqaga bo‘lgan ehtiyojini qondirishi, pirovardida chorva mahsuldorligining ortishiga olib keladi. Bu o‘z navbatida yil davomida yer-suv va mehnat resurslardan samarali foydalanishning garovi hisoblanadi.

Qoraqalpog‘istonda tabiiy namlikning kamligi (bu yerda yiliga tuproq yuzasidan 1300–1400 mm namlik bug‘lanadi, yiliga o‘rtacha 90–110 mm miqdorda yog‘in-sochin-sochin tushadi) sababli ekinlarni sug‘orish sun’iy

12 Лапкин К.И. Размещение и спезиализация сельсохозяйственного производства по зонам и районам Узбекской ССР. – Ташкент: Фан, 1988. – 390 с.
13 Рзаев К., Медетуллаев Ж. Развитие экономика Каракалпакстан. –Нукус. –1996. –С.72-73.
14 Мухамеджанов М.В. Беречь землю, умножить ее плодородие. –Земледелие. –1986. –№1. –С. 3-6.
15 Исмаилов У.Е. Научные основы повышения плодородия почвы. –Нукус. –Билим. –2004.

yo‘l bilan amalga oshiriladi. Markaziy Osiyo mintaqasida ayniqsa, Amudaryoning quyi oqimida suv resurslari taqchilligining oshib borishi suv resurslaridan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Shu bois hukumat tomonidan suv resurslaridan samarali foydalanishga alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi №4919-sonli[16], Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-maydagi “Qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va suvni yetkazib berish bo‘yicha xarajatlarni qoplash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №310-sonli[17] qarorlari asosida yirik loyhalar ishlab chiqildi. Ushbu loyihalar doirasida O‘zbekiston ayniqsa, Qoraqalpog‘iston hududida suv resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha qator tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha vazifalar belgilab olindi (5-jadval).

5-jadval: O‘zbekiston Respublikasida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari[18]

	O‘zbekiston Respublikasi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi ulushi, foizda
Umumiy reja (ga)	430000	45423	10.6
Tomchilab sug‘orish (ga)	210739	7323	3.5
Yomg‘irlatib sug‘orish	18638	0	0.0
Diskretli sug‘orish (ga)	623	100	16.1
Yerni lazerlash (ga)	200000	38000	19.0

Mintaqada bugungi kunda suv xo‘jaligi davlatning kapital qo‘yilmalarining asosiy obyektlaridan biriga aylandi. Agar ushbu maqsadda 2016 yilda 13.0 mlrd. sum sarflangan bo‘lsa, 2017 yilda 14.7, 2018 yilda 76.3, 2019 yilda 38.1, 2020 yilda 44.0 mlrd. sumni tashkil etgan. Tahlil qilinayotgan yillar davomida o‘rtacha suv ta’minoti yaxshilangan maydonlar 102 ming ga. yetkazilgan (6-jadval).

6-jadval: Qoraqalpog‘iston Respublikasida irrigatsiya obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash bo‘yicha ma’lumot

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2016–2020-yillar	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Loyiha soni	dona	64	8	8	12	23	13
Kanallar	km	239	31.3	49.5	25.0	67.1	66.3
Ajratilgan mablag‘	mlrd.	186	13.0	14,7	76.3	38,1	44.0
Suv ta’minoti yaxshilangan maydon	ming. ga	102	33.3	9.2	20.6	17.0	21.5

Qoraqalpog‘iston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Qoraqalpog‘istonning yagona sug‘orish manbai Amudaryo hisoblanadi. Amudaryo suvidan nafaqat qishloq xo‘jaligida balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida, aholining kundalik ehtiyojlari uchun ham foydalaniladi. Bu esa suvdan foydalanishning yangi texnologiyalarni (tomchilab sug‘orish, suvni kam talab etadigan ekinlarni ekish) ishlab chiqarishga jalb etishni taqozo etmoqda. Ekin yerlarga suv olib borish magistral va xo‘jaliklararo irrigatsiya tizimlari orqali yetkaziladi. Ularning umumiy uzunligi 3868,8 km. tashkil etib shundan, 90 km. beton qoplamali xolos. Olimlarning ta’kidlashicha, tuproq uzanli irrigatsiya tizimida dalaga suv olib borish jarayonida 40 foizgacha suv resurslari yo‘qotilishi kuzatiladi[19]. Demak, mintaqada irrigatsiya tizimlarini to‘liq beton qoplamaga o‘tkazish suv resurslaridan samarali foydalanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, 415.7 km yoki 10.7 foiz irrigatsiya tizimlari ta’mirga muhtoj hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan suv normalarini agrotexnik qoidalarga mos holda yangidan rejalashtirish va suvdan foydalanishni kafolatlash orqali ekinlarni sug‘orishni yangi me’yorga o‘tkazish zarur.

16 https://lex.uz/docs/5157168
17 https://lex.uz/docs/4823390
18 Sauxanov J.K. Agrar tarmoqda tashqi samaralarni optimal tartiblashtirish va transaksiya xarajatlarini pasaytirish: muammolar, usullar va modellar. T.: Lesson Press. 2022. 119. b.
19 Юсупбаев К.Ю. Особенности реализации экономической реформы в аграрном секторе Республики Каракалпакстан. Т.: 2001. С. 114.

Butun Orol dengizi havzasida bo‘lgani kabi Amudaryo havzasida ham suv ta’minoti holati tobora murakkab va keskinlashib bormoqda.

Sug‘orish tizimining qoniqarsiz holati, kuchli va juda kuchli sho‘rlangan yerlarning nisbatan ko‘pligi ularni yuvish uchun katta miqdorda suv sarfini talab qilmoqda. Bundan tashqari, sug‘orish tizimidagi texnik vositalarning yetishmasligi sug‘orish uchun qo‘shimcha mablag‘larning sarflanishiga olib kelmoqda.

Xalq xo‘jaligini suv resurslari bilan ta’minlashni kafolatlash uchun butun Orol dengizi havzasida suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur[20]:

- gidromeliorativ tizimlarni kompleks rekonstruksiya qilish;
- daryo oqimini tartibga solishni takomillashtirish;
- iqtisod usullarni amalga oshirish;
- sho‘rlangan yerlarda maqbul meliorativ rejimlarni ta’minlash;
- avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy etish asosida gidromeliorativ tizimlarni ekspluatatsiya qilish xizmatini takomillashtirish;
- suvdan foydalanishning qat’iy tizimini ta’minlash va h.k.

Qoraqalpog‘istonda qishloq xo‘jaligini ustuvor rivojlantirish yo‘nalishlaridan bir sug‘oriladigan yerlardan to‘liq va samarali foydalanish hisoblanadi. So‘ngi yillarda mavjud sug‘oriladigan maydonlardan foydalanish bo‘yicha jiddiy muammolar yuz bermoqda. Jumladan, jami sug‘oriladigan maydonlarning 50.0 foizidan ortig‘i foydalanilmasdan kelinmoqda. Tahlillarga ko‘ra 1.5 foizi yerlarning o‘ta kuchli sho‘rlanganligi, 3.2 foizi sug‘orish tarmoqlarining nosozligi, 16.7 foizi suv tanqisligi yoki yetishmasligi va 78,6 foizi boshqa turli xil sabablarga ko‘ra foydalanilmagan (7-jadval).

7-jadval: Qoraqalpog‘iston Respublikasida sug‘oriladigan maydonlardan foydalanish darajasi, ming ga hisobida

Mavjud sug‘oriladigan maydon	Shundan foydalanilmaydigan maydon	Foydalanilmaganlik sabablari			
		O‘ta kuchli sho‘rlanganligi	Sug‘orish tarmoqlarining nosozligi	Suv tanqisligi yoki yetishmasligi	Boshqa sabablar
514.6	260.4	3.9	8.3	43.6	204.6

Jadval Qoraqalpog‘iston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Biznig tahlillar bo‘yicha sug‘oriladigan yerlardan to‘liq foydalanilmaslik qishloq xo‘jaligiga qo‘shimcha 9500–9700 mlrd. sum atrofida daromad tushimiga to‘sqinlik qilgan.

XULOSA

Hosildorlikni oshirishda serhosil navlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda seleksiya va urug‘chilik bo‘yicha ilmiy ishlarni kengaytirish muallif va ilmiy tadqiqot korxonalarini davlat tomonidan moliyaviy resurslari bilan ta’minlash, nav nazorati uchun ularning mas’uliyatini oshirish lozim.

Shuningdek, mahsulot yetishtirish hajmini oshirish, tannarxini pasaytirish, mehnat unumdorligini ko‘tarish masalalarini hal etishda xo‘jaliklararo kooperatsiya va agrosanoat integratsiyasi asosida qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirishni ixtisoslashtirish va mujassamlashuviga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

Dehqonchilikda yuqori hosil olishda ekin maydonlarini yovvoyi o‘tlardan tozalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ko‘p yillik begona o‘tlarni tozalashda ekin yerlarni chuqur shudgor qilish samarali usul hisoblanadi.

Chorvachilik tarmog‘ida ham o‘z yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Yuqorida olib borilgan tahlillarga ko‘ra chorva mollari va mahsulot yetishtirish mintaqada muttasil o‘sib borgan. Ammo, tarmoqning rivojlanishi ekstensiv xarakterga ega. Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi ham past. Tarmoqda ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda eng avvalo ozuqa bazasini mustahkamlash lozim.

20 Социально-экономические проблемы Арала и Приаралья. Т.: Фан. 1990. С 12.

Adabiyotlar:

1. Бектемиров К.К. Устойчивое развитие регионов экологического кризиса: методология и инструментарий применения в Приаралье. –Т.: Фан. –2006. –160 с.
2. Исмаилов У.Е. Научные основы повышения плодородия почвы. –Нукус. –Билим. –2004. –186 с.
3. Лапкин К.И. Размещение и спезиализация сельсохозяйственного производства по зонам и районам Узбекской ССР. – Ташкент: Фан, 1988. –390 с.
4. Madenova E. N. “Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi” Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. –2019-yil, 24 b.
5. Мухамеджанов М.В. Беречь землю, умножить ее плодородие. Земледелие. –1986. – №1. – С. 3-6.
6. Медетуллаев Ж. Проблемы комплексного освоения земель. Нукус. Каракалпакстан. –1976. –352 с.
7. Рзаев К., Бектемиров К. Состояние и перспективы развития сельского хозяйства Приаралья в ходе рыночных преобразований //Общественные науки в Узбекистане. –1997. –№3-4. –С. 12-16.
8. Рзаев К., Медетуллаев Ж. Развитие экономика Каракалпакстан. Нукус. 1996. С.
9. Убайдуллаев К., Данияров К. Актуальные проблемы аграрного сектора Республики Каракалпакстан в условиях рынка. // Актуальные проблемы современной науки. –2004. –№2. –С. 90-91.
10. Умаров Е.К. Проблемы совершенствования территориальной структуры производительных сил Республики Каракалпакстан. Автореф. на соиск. уч. степ. доктор географических наук. –Т.: 2003. –48 с.
11. Sauxanov J.K. Agrar tarmoqda tashqi samaralarni optimal tartiblashtirish va transaksiya xarajatlarini pasaytirish: muammolar, usullar va modellar. – T.: Lesson Press. –2022. –269. b.
12. Социально-экономические проблемы Арала и Приаралья /Отв. ред. Рахимов Э.Д. –Т.: Фан, 1990. –144 с.
13. Sultanov B.F. Qishloq xo‘jaligida meliorativ tadbirlar samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. DSs avtoreferati. – T.: 2020. –77 b.
14. Юсупбаев К.Ю. Особенности реализации экономической реформы в аграрном секторе Республики Каракалпакстан. –Т.: 2001. –194 с.
15. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi 2019–2022 statistik to‘plam. –T.: 2023.
16. Bektemirov K. Land reform in the Aral Sea region //Beyond Growth: Institutions and Policies for Sustainability. Santiago, Chile ISEE, 1988. P166.
17. https://lex.uz/docs/4823390
18. https://lex.uz/docs/5157168

IQTISODIYOTNING ERKINLASHTIRILISHI SHAROITLARIDA KICHIK BIZNES SEKTORI RIVOJLANISHINING IMKONIYATLARI

Botirova R. A.
I. f. n., dots., NamMQI

Sirojiddinov I. Q.
I.f.n., dots., NamMQI

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitlarida kichik biznes sektori rivojlanishining imkoniyatlari va yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Biznesni qulaylashtirish choralari natijalari tahlil eilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, kichik biznes sektori, biznes-muhit, tadbirkorlik, soliqdar, tadbirkorlikni himoyalash.

Abstract: The article discusses the potential and approaches for the expansion of the small business sector in our country’s environment of economic liberalization. Analysis is conducted on the outcomes of business facilitation initiatives.

Key words: economic liberalization, small business sector, business environment, entrepreneurship, taxpayer, protection of entrepreneurship.

Аннотация: В статье исследованы возможности и направления развития сектора малого бизнеса в стране в условиях либерализации экономики. Проанализированы результаты мер по благоприятствованию бизнесу.

Ключевые слова: либерализация экономики, сектор малого бизнеса, бизнес-среда, предпринимательство, налоги, защита предпринимательства.

O‘zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi ekanligi inkor etib bo‘lmaydigan haqiqatdir. Bu mamlakatning tashqi dunyo bilan aloqalari tobora kengayib borayotganligida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar ko‘magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida, O‘zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi va eksportining o‘sib borishida va boshqa misollarda yaqqol tasdiqlanmoqda. Demak, global moliyaviy inqiroz va, birinchi navbatda, uning oqibatlari iqtisodiyotimizning rivojlanishi va samaradorlik holatlariga ta’sir etayotgani real voqelikdir.

Shuning uchun “O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan vazifalarning hal etib borilishi joriy davrdagi iqtisodiy rivojlanish natijalarinigina emas, balki iqtisodiyotimizning yaqin yillardagi muvaffaqiyatli taraqqiy eta olishini ta’minlaydi. 2023-yilga mo‘ljallangan Dasturning asosiy yo‘nalishlari investitsion jarayonlarning izchil amalga oshirilishini taqozo etadi va ayni paytda bu jarayonlarni faollashtirishga ham qaratilgandir.

Mamlakatimizda shakllangan investitsion muhit ko‘p yillar mobaynida o‘tkazib kelinayotgan iqtisodiy siyosatning natijasidir. Bunda mustaqillikning dastlabki yillarida va undan keyin ham tashqi qarzlar sohasida qisqa muddatli spekulyativ kreditlardan voz kechib, chet el investitsiyalarini uzoq muddatlarga, imtiyozli foiz stavkalari bo‘yicha jalb etilganligi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu tufayli milliy iqtisodiyotning xalqaro kreditlar bozoridagi kon’yunkturaga qattiq bog‘lanib qolishining oldi olindi. Globallashuv sharoitlari bu yo‘lning naqadar oqilona yo‘l ekanligini yaqqol namoyish etmoqda.

Ma’lumki, 2017–2023-yillarda kichik biznes sektorini rivojlantiringa qaratilgan 2 mingga yaqin qonunlar, Farmonlar va qarorlar, me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ularga asosan 114 ta litsenziya va ruxsatnoma bekor qilindi, 33 ta faoliyat turi xabardor eti0 tartibiga o‘tkazildi. Ruxsatnomalarni rasmiylashtirish tartiblari soddalashtishrilib, muddatlari o‘rtacha ikki baravar qisqartirildi. Ortiqcha tekshirishlar, nakd pul, valyuta va xomashl bo‘yicha ko‘plab cheklovlarga barham berildi. Bunday qulaylik va imkoniyatlar natijasida yangi subyektlar

keskin ko‘payib, avvaldan ishlayotganlari faoliyatini kengaytirmoqda. Xususan, 2017–2023-yillarda tadbirkorlar soni qariyb uch baravar oshdi.Tadbirkorlar uchun o‘z biznesini butun mamlakat doirsida kengaytirish, boshqa hududlarda ham ish o‘rinlari yaratish oddiy holga aylanmoqla. Faoliyatini kichik biznes subyektlari sifatida boshlagan korxonalarning o‘rta va yirik biznesga o‘sib o‘tishi jarayonlari boshlandi va tezlashmoqda. Hozirda ichki va tashqi bozorda o‘z salmoqli o‘rni va brendiga ega tadbirkorlar sinfi shakllana boshladi.

Ta’kidlash lozimki, faqat 2021-yilda va 2022-yilning birinchi yarmildatadbirkorlardan kelib tushgan minglab murojaatlarda ko‘tarilgan muammolarni hal etish va takliflarni amalga oniringa qaratilgan katta dastur, 70 dan ortiq Farmon va qarorlar qabul qilindi. Biznesni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirin uchun 130 trillion so‘m kredit, 3,5 trillion so‘mlik subsidiya va kompensatsiya ajratildi. Qurilish sanoatida sement, charm sanoatida bo‘yoqlar va kimyoviy moddalar, mebel sanoatida MDF, furnitura va aksessuarlar kabi jami 82 turdagi xomashyo va yarim-tayyor mahsulotlar import bo jidan ozod qilindi, natijada mahsulotlarning tanarxini kamaytirish uchun sharoit yaratildi.

Biznes muhiti yaxshilanishi tadbirkorlarning asosiy kapitalga qo‘yilmalarga rag‘batlantiradi. Faqat 2021-yil davomida tadbirkorlar tomonidan biznes uchun 55 mingdan ortiq binolar qurildi. Tushumlari 1 million dollardan oshgan tadbirkorlik subyektlari soni 5 mingtaga ko‘payib, 26 mingtaga yetdi. Eksport qiluvchi korxonalar soni 7,5 mingta bo‘lgan umumiy eksport hajmi 30 foizga ko‘paydi.

Makroiqtisodiy barqarorlik va xaq farovonligini uzluksiz yaxshilab borish nuqtayi nazaridan tadbirkorlikni yanada rivojlakgirish, biznes sharoitlar yaratib berish maqsadga muvofiq. Bu borada Prezident tomonidan 2022-yil avgustda beshta asosiy yo‘nalishlar biri bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan choralar asoslab berildi.

Birinchi yo‘nalishda korxonalarni toifalarga ajratish, ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha alohida yondashuvlarni belgilashsh. Xususan, yillik aylanmasi 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan korxonalar – mikro biznes, 10 milliard so‘mgacha bo‘lgani – kichik biznes va 100 milliard so‘mgacha bo‘lgani o‘rta biznes toifasiga kiradi. shundan kelib chiqib, 2023-yil 1-yanvardan boshlab mikro biznes uchun aylanmadan olinadigan soliqning amaldagi 4 foizdan 25 foizgacha bo‘lgan stavkalari o‘rniga yagona 4 foizli soliq stavkasi joriy etildi. Yillik aylanmasi 1 milliard so‘mdan oshib, umumiy soliq to‘lash tartibiga o‘tgan korxonalar bir yil davomida foy da solig‘ini 2 barobar kam to‘laydi. Ushbu imkoniyatlar 370 ming tadbirkor ga yengillik yaratdi.

Yuqori salohiyatli o‘rta korxonalar uchun ham qator soliq va kompensatsiya imtiyozlari belgilandi. Koronavirus pandemiyasi keltirgan iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, 2023-yil 1-yanvardan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 12 foizga tushirildi. Tadbirkorlar uchun yana bir yengillik – 2022-yil 1-iyuldan boshlab bo‘sh bino yoki foydalanilmayotgan yer uchastkasiga nisbatan soliqlarning onirilgan stavkalarini qo‘llash bekor qilindi. Shuningdek, tadbirkorlarning shu tarzda ilgari onirib hisoblangan 2 trillion so‘mlik qarzlaridan ham voz kechildi.

Ikkinchi yo‘nalin – qulay moliyalashtirish tizimini qulaylashtirilishi bo‘lib, bu maqsadlarda kichik biznes loyihalariga 20 trillion so‘m yo‘naltirilini belgilandi. Bundan tashqari, tijorat banklari xalqaro moliya institutlaridan ham mablag‘lar jalb etadi. Tadbirkorlik jamg‘armasi tomonidan kafillik berish imkoniyatlari qo‘shimcha 2 barobarga onirilishi natijasida kamida 15 ming nafar tadbirkorning kredit olindagi garov masalasi hal bo‘ladi.

Uchinchi yo‘nalishda tuman va shaharlar sharoitidan kelib chiqib, biznes uchun alohida yondashuvlar joriy etildi. 2023-yildan shart-sharoiti bo‘yicha barcha tuman va shaharlar 5 ta toifaga ajratildi. Ularda soliq, subsidiya, kredit foizlari uchun kompensatsiya va kafillik berish, infratuzilmaga ulash bo‘yicha alohida tartiblar belgilandi. Yerni xususiylashtirish uchun belgilangan summa, ya’ni yer solig‘ining 20 karrasi miqdoridagi to‘lov Toshkent shahri va viloyat markazlarida 10 karraga, boshqa hududlarda 5 karraga pasaytirildi.

To‘rtinchi yo‘nalin – tadbirkorlarning mulk huquqi himoyasiga taalluqli. Yer va mulk ajratish haqidagi qarorlarni bekor qilish, tergov jarayonida mol-mulkni xatlab qo‘yishni faqat sud hal etiladi. Shuningdek, tadbirkorlarning sudlarga murojaat qilish imkoniyati kengaytirildi. Jumladan, ma’muriy sudlarga ariza berinda davlat boji stavkasi 2 barobar kamaytirildi. Tadbirkorlarning soliq idoralari qarori ustidan sudga shikoyat kiritish muddati hozirgi 1 oydan 3 yilgacha uzaytirildi.

Beshinchi yo‘nalishda tadbirkorlar faoliyatini nazorat qilish va ularni javobgarlikka tortish masalalarini qamrab olgan. Avvalo, tadbirkorlarga nisbatan yangi javobgarlik va jazo choralarini joriy etinga 3 yillik moratoriy e’lon qilindi. 2023-yildan 26 ta idoraning takrorlanuvchi nazorat funksiyalari bekor qilindi.

Alohida qayd etish lozimki 2017-yildan so‘ng, ya’ni 2022-yilgai kelib biznesga soliqlar 16 tadan 9 taga qisqardi, pensiya, maktab va yo‘ljamg‘armalarga biznes uchun og‘ir yuk bo‘lgan 3,2 foizli yig‘imlar bekor qilindi. Ushbu yig‘imlar korxonalarning foydasidan qat’i nazar, oborotdan olinar, ularning miqdori korxonalarning kamida 25–30 foiz foydasiga teng edi. Molk-mulk, daromad solig‘i va ijtimoiy soliqlar stavkalari 2 barobarga kamaytirildi.

2023-yilga qadar korxonalarning soliq organlari bilan munosabatlarini soliq tekniruvlariga oid jarimalar turi ko‘pligi va og‘irligi murakkablashtirara edi. Oyiga o‘rtacha 1 million so‘m soliq to‘laydigan kichik tadbirkorlarga 5 milliondan 10 million so‘mgacha moliyaviy jarima qo‘llanishi oddiy hol edi. Ya’ni kichik tadbirkorlar uchun ham, yirik korxonalar uchun ham jazo bir xil. Bunga barham berish uchun barcha turdagi tekshiruvlar Biznes-ombudsman tomonidan muvofiqlantirilini, jarimalar miqdori tadbirkor to‘layotgan soliq miqdoridan oshmasligi

kerakligi belgilandi. Bunday muammo ayniqsa savdo sohasiga xos eli. Bu borada savdo qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik bekor qilindi.

Kichik biznes rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda Savdo-sanoat palatasi faoliyatini takomillashtirish zarurligi ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Uning vazifa va vakolatlari kengaytirilmoqda. Xususan, hukumatga ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan masala kiritish, tadbirkor manfaatini ko‘zlab Oliy sudga ariza taqdim qilish vakolatlari berildi. Savdo-sanoat palatasi hukumat bo‘ysunuvidan to‘liq chiqarildi va tadbirkorlar manfaatining chinakam himoyachisi bo‘lishi lozim.

Kichik biznes sektoriga davlat rahbari darajasida nihoyatda jiddiy e’tibor qaratilayotganini o‘z natijalarini bermoqda. Ko‘p ishbilarmonlar o‘z biznesini butun mamlakat miqyosida kengaytirib, minglab ish o‘rinlarini yaratdi va nufuzli yirik kompaniyalarga aylandi. Ichki va tashqi bozorda o‘z nufuzi hamda brendiga ega tadbirkorlar sinfi shakllana boshladi.

Kelajakda iqtisodiyotning korxonalarda modernizatsiya jarayonlarini boshqarishda, fikrimizcha, quyidagi mexanizmlarni joriy qilish lozim:

birinchidan, iqtisodiyotning yetakchi sanoat korxonalarida modernizatsiya qilish jarayonlarini boshqarish bo‘yicha yagona tizimi ishlab chiqish yoki yagona bo‘g‘inni tashkil etish;

ikkinchidan, sanoat korxonalari umumiy menejmentida modernizatsiya qilish jarayonlarini boshqarish bo‘yicha tartib va prinsiplarni kiritish;

uchinchidan, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash uchun olib kelingan asbob va uskunalarni o‘z vaqtida, belgilangan hajmda o‘rnatish va ishga tushirishni qat’iy boshqarish;

to‘rtinchidan, texnologik ma’naviy va jismoniy eskirgan asbob-uskunalar salmog‘i yuqori bo‘lgan korxonalarni doimiy audit va monitoring qilish bo‘yicha muttasaddi tashkilotlarning boshqaruv rolini kuchaytirish;

beshinchidan, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari korxonalarida modernizatsiya jarayonlarini boshqarish samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston–2030” Strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – Xalq so‘zi, 2023-yil 12-sentyabr.
2. Sirojiddinov, I. Q. (2021). Financial support for economic development of regions in the context of the coronavirus pandemic. ISJ Theoretical & Applied Science, 02 (94), 187-190.
3. Sirojiddinov I., Botirova R. Liberazition is acrucial condition for creating modern agriculture in Uzbekistan. – International Journal of Research And development, march 2020.
4. Features of investment processes in the economy in the conditions of the coronavirus pandemic. - EPRA International Journal of Multidisciplinary(IJMR) - Peer Reviewed Journal Volume: 6 | Issue: 7 | July 2020 || Journal DOI: 10.36713/epra2013 || SJIF Impact Factor: 7.032 ||ISI Value: 1.188
5. Сирожиддинов И., Ходжибоева И. Инновационные процессы в экономике регионов в условиях коронавирусной пандемии Молодой ученый”. – 2020. – №20.
6. Sirojiddinov I., Botirova R., Xakimov A. Innovation as an important factor in the development of the agricultural sector of the region’s economy Innovation as an important factor in the development of the agricultural sector of the region’s economy- Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 5, 2020.
7. Sirojiddinov I., Botirova R. Liberazition is acrucial condition for creating modern agriculture in Uzbekistan. – International Journal of Research And development, march 2020.
8. Baxriddinov N.Z. Issues of financing the innovative activity of the enterprise // “Бозор, пул ва кредит” scientific-practical journal. №3. 2018. Pp. 56–59
9. Sirojiddinov I. Q., Sirojiddinov K. I. opportunities for the development and increase of fruit, vegetable production and the export potential of the industry //Theoretical & Applied Science. – 2021. – №. 4. – С. 87-90.
10. Sirojiddinov Ikromiiddin Qutbiddinovich. Features of accounting and financial control in small business.- International journal of research in commerce, it, engineering and social sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876., Volume: 16 Issue: 04 in April 2022.

KRIPTOVALYUTA VA BLOKCHEYN TADQIQOTLARI: TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR



Berdiqulov Jurabek
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, assistent

Annotatsiya: Maqolada kriptovalyuta va blokcheyn tadqiqotlari bo‘yicha xorij olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va ular tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, kriptovalyuta va blokcheynning paydo bo‘lishi, uning rivojlanish bosqichlari, iqtisodiyotdagi roli, xavfsizlik masalalari, ularning nazorati hamda qo‘llanilishidagi tadqiqotlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Kriptovalyuta, blokcheyn texnologiyasi, bitkoin, kriptoiqtisodiyot, nazorat, xavfsizlik.

Abstract: The article presents research by foreign scientists on the study of cryptocurrencies and blockchain, as well as the proposals and recommendations they made. Information is also provided on the emergence of cryptocurrency and blockchain, the stages of its development, its role in the economy, security issues, their control and research in the field of their application.

Key words: Cryptocurrency, blockchain technology, bitcoin, cryptoeconomics, control, security.

Аннотация: В статье приводятся исследования зарубежных ученых по исследованию криптовалют и блокчейна, а также высказанные ими предложения и рекомендации. Также дана информация о возникновении криптовалюты и блокчейна, этапах ее развития, роли в экономике, вопросах безопасности, их контроле и исследованиях в области их применения.

Ключевые слова: Криптовалюта, технология блокчейн, биткойн, криптоэкономика, контроль, безопасность.

KIRISH

So‘nggi yillarda kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyasi investorlar, tadbirkorlar, tadqiqotchilar va umuman jamoatchilikning katta e’tiborini tortdi. Ushbu innovatsiyalar turli sohalarga sezilarli o‘zgarishlar olib keldi va moliyaviy tizim bilan o‘zaro aloqada, aktivlarni raqamlashtirish va ma’lumotlarni boshqarishda inqilobni keltirib chiqardi. Ushbu maqolada biz kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyasini tadqiq qilishning hozirgi tendensiyalari va istiqbollarini ko‘rib chiqamiz.

ADABIYOT MANBALARI SHARHI

1. Mark Pilkingtonning “Blokcheyn texnologiyasi: tamoyillari va ilovalari” – bu kitobda blokcheyn texnologiyasining tamoyillari va qo‘llanilishi haqida keng ma’lumot berilgan, shu jumladan, moliya, logistika va sanoatning turli sohalarida ushbu texnologiyani rivojlantirish istiqbollari tahlili.
2. Pol Vigna va Maykl J. Keysi tomonidan “Kriptovalyuta: Bitcoin va raqamli pullar global iqtisodiy tartibni qanday qiyinlashtirmoqda?” – Mualliflar kriptovalyutalarning, ayniqsa, Bitcoinning jahon iqtisodiyoti va mavjud moliyaviy tartiblarga ta’sirini o‘rgangan, shuningdek, muhokama qilgan, ularning rivojlanish istiqbollari ko‘rsatib o‘tilgan.
3. Shon Bennett – “Kriptoiqtisodiyot: kriptovalyuta va blokcheyn asoslari”. Bu kitobda kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyasi asoslari, shuningdek, ularning iqtisodiy jihatlari, jumladan kriptoiqtisodiyot tushunchasi va rag‘batlantirish mexanizmlari muhokama qilingan.
4. Daniel Drescher – “Blockchain asoslari: 25 bosqichda texnik bo‘lmagan kirish”. Muallif blokcheyn texnologiyasidan qulay foydalanishni taklif qiladi, uning asosiy tushunchalari va turli sohalardagi ilovalarini qamrab oladi.
5. Andreas M. Antonopoulos tomonidan “Bitcoinni o‘zlashtirish: raqamli kriptovalyutalarni ochish” – Bitcoin bo‘yicha ushbu qo‘llanma kriptovalyuta texnologiyasi va uning moliyaviy tizimni o‘zgartirish imkoniyatlari haqida chuqur tushuncha beradi.

6. Melanie Swan – “Blokcheyn iqtisodiyoti: institutsional kriptoiqtisodiyot uchun boshlang‘ich qo‘llanma”. Ushbu kitobda muallif blokcheyn iqtisodiyotining institutsional jarayonlarga ta’sirini o‘rganadi va kriptovalyutalar va blokcheyn asoslarini tushunish uchun qo‘llanmani taklif qiladi.

ASOSIY QISM

Kriptovalyuta va blokcheynning paydo bo‘lishi, uning rivojlanish bosqichlari, iqtisodiyotdagi roli, xavfsizlik masalalari, nazorati hamda qo‘llanilishidagi tadqiqotlar quyidagilardan iboratdir:

Kriptovalyutalarning rivojlanishi va ularning iqtisodiyotdagi roli

Bitcoin, Ethereum va boshqalar kabi kriptovalyutalar ko‘plab investorlarni hayratga soldi. Ularning markazlashtirilmaganligi va xavfsizlik va shaffoflik va’dasi nafaqat moliyaviy mutaxassislar, balki davlat idoralarining ham e’tiborini tortdi. Ba’zi mamlakatlar kriptovalyutalarni qonuniy to‘lov vositasi sifatida qabul qilishsa, boshqalari ulardan foydalanishni nazorat qilish uchun qonun va qoidalarni yaratmoqda. Kriptovalyutalarni o‘rganish ularning jahon iqtisodiyotiga, moliya institutlariga va iste’molchilarning xatti-harakatlariga ta’sirini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Blokcheyn texnologiyasi va uning qo‘llanilishi

Aksariyat kriptovalyutalarning asosini tashkil etuvchi blokcheyn texnologiyasi moliya, sog‘liqni saqlash, logistika va davlat xizmatlari kabi turli sohalarda ham o‘z yo‘lini topmoqda. Uning ma’lumotlar xavfsizligi, shaffofligi va ishonchliligini ta’minlash qobiliyati ushbu texnologiyani turli maqsadlarda optimallashtirish yo‘llarini o‘rganayotgan tadqiqotchilar e’tiborini tortmoqda. Ushbu sohadagi tadqiqotlar yangi konsensus algoritmlarini ishlab chiqish, masshtabni yaxshilash va ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Xavfsizlik va tahdidlar

Kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyasining tobora ommalashib borishi bilan yangi tahdidlar va xavfsizlik muammolari paydo bo‘lmoqda. Tadqiqotchilar kriptovalyuta va blokcheyn tizimlaridagi zaifliklarni aniqlash va tahlil qilish, potensial hujumlar va firibgarliklardan himoyalanish uchun xavfsizlik choralarini ishlab chiqish ustida ishlamoqda. Ushbu tadqiqot sohasi kriptovalyutalar va blokcheyn platformalarida barqarorlik va ishonchni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Tartibga solish va rioya qilish

Kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyalarini tartibga solishga turlicha yondashuvlar hukumatlar va bozor ishtirokchilari uchun qiyinchiliklar tug‘diradi. Tadqiqotchilar turli xil tartibga solish choralarining sanoat rivojlanishiga ta’sirini tahlil qiladilar, shuningdek, turli mamlakatlar va mintaqalarda turli tartibga solish yondashuvlarining samaradorligini o‘rganadilar.

Kelajak istiqbollari va tadqiqot yo‘nalishlari

Kelajakda kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar turli yo‘nalishlarda rivojlanishda davom etadi. Ulardan ba’zilari blokcheyn miqyosidagi tadqiqotlar, yangi kriptovalyuta modellarini ishlab chiqish, global iqtisodiyot va jamiyatga ta’sirini o‘rganish va raqamli aktivlarni boshqarish usullarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

XULOSA

Kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyasini o‘rganish ularning global iqtisodiyotga, texnologik innovatsiyalarga va umuman jamiyatga ta’sirini tushunishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu sohadagi tendensiyalar va istiqbollar dinamik bo‘lib qolmoqda va kelgusi yillarda texnologiya rivojlanishi va tartibga solish muhiti o‘zgarishi bilan rivojlanishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Blockchain Technology: Principles and Applications”. Mark Pilkington. // CRC Press. 2017-y.
2. “Cryptocurrency: How Bitcoin and Digital Money are Challenging the Global Economic Order”. Pol Vin i Mayklom Dj. Keysi. // St. Martin’s Press. 2015-y.
3. “The Age of Cryptocurrency: How Bitcoin and Digital Money are Challenging the Global Economic Order”. Pol Vin i Maykl J. Keysi. // Picador. 2015-y.
4. “Cryptoeconomics: The Basics of Cryptocurrency and Blockchain”. Shon Bennett. // “Independently published”, 2019-y.
5. “Blockchain Basics: A Non-Technical Introduction in 25 Steps”. Daniel Dresher. // “Apress”, 2017-y.
6. “Mastering Bitcoin: Unlocking Digital Cryptocurrencies”. Andreas M. Antonopulos. // “O‘Reilly Media”, 2014-y.
7. “The Blockchain Economy: A Beginner’s Guide to Institutional Cryptoeconomics”. Melani Svan. // “O‘Reilly Media”, 2020-y.

BANK RISKLARNI MONITORING QILISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH



Hamroyev Sherzod Axtamovich
Phd, “Bank ishi” kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli xil risklarni darajasini aniqlash hamda ularga qarshi samarali tizim yaratish bo‘yicha fikrlar tahlil qilingan. Shuningdek, yurtimizdagi tijorat banklarida kredit risklarini kamaytirish yo‘lida qo‘llangan chora-tadbirlar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: valyura, moliyaviy barqarorlik, risk va noaniqlik, “Camel” tizimi, kredit risklari, hisob raqam, likvidlik.

Abstract: This article analyzes the opinions on determining the level of various risks that may occur during the activity of commercial banks and creating an effective system against them. Also, measures used to reduce credit risks in commercial banks in our country were studied.

Key words: currency, financial stability, risk and uncertainty, “Camel” system, credit risks, account number, liquidity.

Аннотация: В данной статье анализируются мнения по определению уровня различных рисков, которые могут возникнуть в процессе деятельности коммерческих банков, и созданию эффективной системы против них. Также изучены меры, используемые для снижения кредитных рисков в коммерческих банках нашей страны.

Ключевые слова: валюта, финансовая устойчивость, риск и неопределенность, система “Camel”, кредитные риски, номер счета, ликвидность.

KIRISH

Moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg‘or bank biznesini yuritish va ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Xususan, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun jozibador huquqiy muhitni yaratadigan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi hamda “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi yangilangan qonunlari qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasida bank sektorini isloh qilishning asosiy yo‘nalishi sifatida kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash,kreditlash hajmlarining mo‘tadil o‘sishiga amal qilish muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash belgilanganligi banklarda risklarni boshqarishning xalqaro tajribalarini o‘rganish, xususan, banklarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lagan risklarga bardoshlilik darajalarini hisobga olgan holda asosiy risk ko‘rsatkichlari limitlarini ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

MAVZUGA OID DABIYOTLAR SHARHI

A. Marshal, Dj. fon Neyman, O. Morgenshtern, F. Naytlar riskga quyidagicha yondashganlar: “Risk va noaniqlilik kategoriyasi iqtisodiy munosabatlarda katta rol o‘ynaydi. Xo‘jalik faoliyatining ajralmas qismi bo‘lgan noaniqlilik barcha murakkab va muhim iqtisodiy xodisalarning asosida yotadi. Noaniqlilik mohiyati riskda namoyon bo‘ladi”. O‘tgan asrning 20-yillarida F. Nayt birinchilardan bo‘lib daromad doim noaniqlilik bilan bog‘liq degan fikrni olg‘a suradi. P. Samuelson esa, quyidagilarni ta’kidlagan: “Noaniqlilik qarama-qarshiliklar natijasida kelib chiqadi, ya’ni insonlar nimalarni kutmoqdalar-u, nimalar sodir bo‘lmoqda, buning natijasi esa foyda yoki zararda namoyon bo‘ladi”.

Iqtisodchi olim M.A. Kotlyarov bank nazoratiga davlatning eng asosiy iqtisodiy va ijtimoiy funksiyasi sifatida qarab, uning asosiy maqsadlari omonatchilar manfaatlarini himoya qilish va bank tizimi barqarorligini ta’minlashdan iborat ekanligini ta’kidlaydi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan risklarning boshqa turlarini boshqarish bo‘yicha ham ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va tegishli xulosalar shakllantirilgan. I. Noskovaning xulosasiga ko‘ra, valyuta riskini boshqarishda ssudalaming tasnifiy belgilari va muddati o‘tgan foizlarning mavjudligi hech qanday amaliy ahamiyatga ega emas. Chunki, kreditlarning tasnifiy belgilari kredit riskining darajasini ko‘rsatadi, valyuta riskining esa darajasini ko‘rsata olmaydi.

T. Bobokulov o‘zining “Milliy valyutaning barqarorligini ta’minlash: muammolar va yechimlar” mavzusidagi monografiyasida tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarini Markaziy bankning valyuta siyosati doirasida tartibga solishni takomillashtirish masalasini tadqiq qilgan. Uning fikriga ko‘ra, Markaziy bank tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarining miqdorini kunlik nazorat qilib turishi zarur.

O.I. Lavrushinning fikriga ko‘ra, turli mamlakatlarda bank nazorati bo‘yicha milliy tizimlar turlicha shakllangan bo‘lsa-da, ularning barchasi uchta asosiy maqsadga yo‘naltirilgan:

- pul va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, ya’ni banklarning bankrot bo‘lishining oldini olish va ularni sog‘lomlashtirish bo‘yicha choralar ko‘rish;
- aktivlar sifatini oshirish va potensial xatarlarni kamaytirish evaziga bank tizimi samaradorligini oshirish;
- omonatchilar manfaatlarini himoya qilish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishlari jarayonida kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, kuzatuv va statistik ma’lumotlar tahlil usullaridan foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikamizda xalqaro andozalarga mos keladigan bank nazoratini tashkil qilishda Jahon bankining “O‘zbekiston Respublikasida moliya sohasini isloh qilish” loyihasi ham katta ahamiyatga ega. Loyihada ishtirok etgan Jahon banki mutaxassislari yordamida bank nazoratiga tegishli 30 ga yaqin me’yoriy hujjatlar yaratilib, unda Markaziy bank talablari yozib chiqildi. Bundan tashqari, tijorat banklari faoliyatini joyiga chiqib tekshirish bo‘yicha “Camel” tizimi joriy qilindi. Ma’lumki, 1980-yillarda xalqaro bank nazorati bo‘yicha Bazel qo‘mitasining 25 ta asosiy tamoyillari e’lon qilingan edi. Ushbu tamoyillarda samarali bank nazoratini tashkil etish asoslari yoritilgan. Bazel qo‘mitasining talablariga asosan banklar barqarorligini asosiy ko‘rsatkichi, bu bank kapitali yetarliligi koeffitsiyenti hisoblanadi. Bu koeffitsiyent bank kapitalining tavakkalchilikka tortilgan aktivlarga nisbati bilan aniqlanadi. 1993-yilda bank kapitalining sifat va miqdor jihatdan tavakkalchilikli aktivlardan keladigan zaralarni qoplashga yetarlilik darajasini aniqlash bo‘yicha Bazel kelishuvi (Bazel I) joriy qilingan edi. 2006-yilda Bazel kelishuvi (Bazel II) amaliyotga joriy qilindi. Ushbu kelishuvda ham kapital yetarliligi koeffitsiyenti 8 foiz qilib belgilandi. Yangi kelishuv 3 ta – kapital minimal miqdoriga talab, kapital yetarliligini Markaziy bank tomonidan tahlil etish. Ma’lumotlarni keng ommaga e’lon qilish qismlaridan iborat. Bazel qo‘mitasi tomnidan “Bazel III” talablari 2009-yilning sentyabr oyida e’lon qilindi. Qo‘mitaning 2009-yil 8–9-dekabrdagi yig‘ilishida standartlar va monitoring bo‘yicha taklif va tavsiyalar ma’qullandi.

Tijorat banklarida korporativ boshqaruv asoslarini mustahkamlash maqsadida Respublikamiz Markaziy banki taklifi bilan har bir tijorat banki tarkibida ichki nazorat boshqarmasi tashkil qilingan bosh bankda boshqarma va uning har bir bank filialida bittadan xodimi bo‘lib, filialda o‘tayotgan barcha bank operatsiyalarini tahlil qilib, bosh bank tarkibidagi nazorat boshqarmasiga hisobotlarini taqdim qiladi. Ushbu nazorat tizimining tashkil qilinganiga bir necha yil o‘tgan bo‘lib, uning samarasi yaqqol ko‘rinib kelmoqda.

Umuman olganda, bank risklarining eng keng tarqalgan va eng xavflisi bu – kredit risklari hisoblanadi. Risklarni kamaytirish, avvalo, ular haqida aniqroq ma’lumotga ega bo‘lishimiz zarur. Kredit riski – bu berilgan kreditlarni o‘z vaqtida va to‘liq qaytmasligi natijasida bankning zarar ko‘rish xavfidir. Kredit riskini yuzaga keltiruvchi sabablar ikki guruhga ajraladi:

- tashqi sabablar;
- ichki sabablar.

Kredit riskini yuzaga keltiruvchi tashqi sabablarga quyidagilar kiradi:

- makroiqtisodiy kon’yunkturaning yomonlashishi;
- iqtisodiy va moliyaviy inqirozlarning yuz berishi;
- kredit olgan mijozning moliyaviy ahvolining yomonlashishi;
- kredit uchun ta’minot sifatida qabul qilingan garov obyektlarining bozor bahosining pasayishi;

- tijorat bankining kredit portfelida direktiv kreditlar salmog‘ining oshib ketishi;
- mamlakat iqtisodiyotida to‘lovsizlik muammosining paydo bo‘lishi.

Kredit riskini yuzaga keltiruvchi ichki sabablarga quyidagilar kiradi:

- bank boshqaruvi sifatining yomonlashishi;
- bankning kreditlash faoliy atiga davlat organlari va boshqa nazorat organlarining noqonuniy aralashuvi;
- investitsiya loyihalarini kompleks ekspertiza qilishdagi xatoliklar;
- kredit qo‘mitasi majlislarining nomigagina, xo‘jakursinga o‘tkazilishi;
- mijozning kredit to‘loviga layoqatliligini va ishbilarmonlik riskiga ta’sirchanligini baholashdagi kamchiliklar;
- kredit uchun ta’minot obyekti qiymatini to‘g‘ri baholay olmaslik.

Kreditlar tijorat banklari aktivlarining umumiy hajmida yuqori salmoqni egallaganligi sababli, kredit riski darajasining oshishi tijorat bankining likvidliligi va toiovga qobilligiga nisbatan kuchli salbiy ta’simi yuzaga keltiradi.

Kredit riski darajasining o‘zgarishi ikki muhim omilga, ya’ni kredit beruvchi va kredit oluvchiinng kredit shartnomasi shartlarini qay darajada bajara olishiga bog‘liq.

Kredit oluvchi tomonidan tayyorlangan kredit paketini tahlil qilish va kredit berish bo‘yicha loyiha tayyorlash kredit beruvchi bank uchun risk va uning turlarini aniqlab olish imkoniyatini beradi. Ushbu jarayonda kredit beruvchi bank quyidagi savollarga aniq va to‘liq javoblar olishi lozim:

1. Kredit oluvchining iqtisodiy, moliyaviy holati, uning ishbilrmonlik qobiliyati, ishlab chiqarish imkoniyati va moliyaviy boshqaruvi qay darajada?
2. Kreditga bo‘lgan talabning qanchalik darajada iqtisodiy jihatdan to‘g‘ri asoslanligi va ushbu taklif korxonaning kreditga bo‘lgan mavjud talabidan kelib chiqqanmi?
3. Kreditning maqsadi bank uchun to‘g‘ri keladimi?

Bozor munosabatlari sharoitida yangi-yangi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning paydo bo‘lishi va ularni kredit so‘rab tijorat banklariga murojaat qilishlari banklar faoliyatidagi kredit riski darajasining oshish ehtimolini kuchaytiradi. Buning sababi shundaki, mazkur subyektlar hali kredit tarixiga ega emas. Shu sababli, ularga berilgan kreditlarni qaytmaslik ehtimolini kuchaytiradi. Bunday korxonalardan birinchi savolga javob olish muhim hisoblanadi.

Ikkinchi savolga aniq javob olish korxonaning o‘z moliyaviy resurslarini qay darajada boshqarayotganligi xususida xulosa chiqarish imkonini beradi. Mazkur xulosani shakllantirishda quyidagi ma’lumotlar tahlili zarur:

- hisob-kitoblarning holati;
- auditorlik tekshiruvlari bo‘yicha hisobotlar va xulosalar;
- korxonaning buxgalteriya balansi;
- korxonaning pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot;
- korxonaning foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisoboti.

Uchinchi savolda tijorat banki berilayotgan kredit uning kredit portfeliga mos kelishini, kredit portfelining diversifikatsiya darajasiga ta’sir etishini aniqlashi lozim.

Kredit riskini baholashning Chessero usuli AQShlik iqtisodchi Chesser tomonidan taklif qilingan. Bunda kredit riski darajasini baholash uchun 6 ta ko‘rsatkichdan foydalaniladi:

- sof sotish summasining naqd pullar va qimmatli qog‘ozlarga nisbati;
- foizlar va soliqlar chegirib tashlangunga qadar foydaningaktivlarga nisbati;
- umumiy qarzdorlikning aktivlarga nisbati;
- asosiy kapitalning aksiyadorli kapitaliga nisbati;
- aylanttia kapitalning sof sotish summasiga nisbati.

Kredit riskini baholashning inqirozli risk usuli moliyaviy inqiroz yuz bergan sharoitda bank kredit portfeli sifatini yomonlashishining chegaraviy darajalari ta'minlash imkonini beradigan baholash usulidir.

Bazel-II kredit riskini o'lchash bo'yicha uch yondashuvni taklif etadi:

- standard ashgan yondashuv;
- ichki reytinglarga asoslangan bazaviy yondashuv (IRB-Internal rating-based approach);
- ichki reytinglarga asoslangan takomillashgan yondashuv.

Bazel-II standartida kredit riski darajasini yaratilgan zaxira ajratmalari miqdori bilana bog'lash taklif qilingan. Mazkur taklifning mazmuni shundan iboratki, kreditning qaytarish muddati tugaganiga 90 kun va undan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa, yaratilgan zaxira ajratmasi miqdori kredit bo'yicha umumiy qarzdorlikning 20 foizidan kam bo'lsa, u holda, mazkur kreditlarning risk darajasi 150 foizni tashkil qiladi. Bu esa, muddati o'tgan kreditlarning brutto kreditlar hajmidagi salmog'i nisbatan yuqori bo'lgan tijorat banklarining likvidliligiga va kapital bazasining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, respublikamizda kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari to'liq tijorat banklarining xarajatiga olib boriladi. Bu esa, o'z navbatida, banklarning sof foydasini kapitallashtirish darajasining pasayishiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, muddati o'tgan kreditlarning 150% darajasida riskka tortilishi tijorat banklarining riskka tortilgan aktivlari summasining oshishiga olib keladi. Buning natijasida tijorat banklari kapitalining yetarlilik koeffitsiyenti pasayadi. Uchinchidan, kreditlarning asosiy qismi tijorat bankining "Nostro" vakillik hisob raqamlarini kreditlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Shu sababli, kreditlarning muddatida qaytmasligi bankning likvidli aktivlari miqdorining kamayishiga va shuning asosida uning joriy likvidlilik darajasining pasayishiga olib keladi.

Bazel-II kredit riskini o'lchash bo'yicha uch yondashuvni taklif etadi:

- standard ashgan yondashuv;
- ichki reytinglarga asoslangan bazaviy yondashuv (IRB-Internal rating-based approach);
- ichki reytinglarga asoslangan takomillashgan yondashuv.

Tijorat banklarida IRB yondashuvi asosida defolt bo'lish ehtimolini baholash uchun quyidagi modeldan foydalaniladi:

$$PD = \frac{\Delta ICR_{Ti}}{ICR_{Def} - ICR_{t1}} 100\%$$

bunda:

PD - mijozning defolt bo'lish ehtimoli;

ΔICR_{Ti} – mijoz kredit reytingining shartnoma davrida o'zgarishi;

ICR_{Def} – maksimal defolt reytingi.

Ushbu modelni tuzish uchun ikki bosqichdan o'tish talab etiladi. Birinchi bosqich mijozning kredit reytingini o'zgarish tezligini hisoblash bo'lsa, ikkinchi bosqich esa mijozning kredit shartnomasi davrida kredit reytinngi o'zgarishini aniqlash bilan o'tadi.

Bazel-II kredit riskini baholashda qo'llaniladigan koeffitsiyentlar quyidagilarni hisobga oladi:

- mamlakatning suveren kredit reytingi;
- bankning reytingi;
- kredit oigan mijozning reytingi;
- bank operatsiyasining turi.

Bazel-n standartida taklif qilingan kredit riskini baholashning standartlashgan yondashuvida tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning riski darajasi kredit oigan mijozning suveren kredit reytingiga qarab aniqlanadi (1-jadval).

1-jadval: Tijorat banklarída kredit riskini "standartlashgan yondashuv" bo'yicha baholash

Kredit reytingi	AAA AA-	A+ A-	VVV+ VV-	VV- dan past	Reytingsiz
Risk darajasi	20%	50%	100%	150%	100%

Xalqaro Tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko‘ra, tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskining darajasini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim:

1. Kreditlardan ko‘rilgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari darajasi (KKZQMZAD)

$$KKZQMZAD = (ZAS / BAO‘S) \times 100\% \quad (1)$$

bu yerda:
ZAS – zaxira ajratmalari summasi;
BAO‘S – bank aktivlarining o‘rtacha summasi.
Ushbu ko‘rsatkichning yuqori me’yoriy darajasi 1,0 foizni tashkil etadi.
Kreditlardan ko‘rilgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalari darajasi ko‘rsatkichining me’yoriy darajadan yuqori bo‘lishi tijorat banki tasniflangan kreditlari tarkibini yomonlashganligidan dalolat beradi.

Kredit riskini boshqarishdabir qator usullardan foydalaniladi. Ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Tijorat banki kredit portfelini diversifikatsiya qilish usuli. Tijorat banki kreditlarining 25 foizdan ortiq qismi bitta tarmoq korxonalarida to‘planib qolmasligi kerak. Kredit portfelining tarmoq xususiyatiga ko‘ra diversifikatsiyalash bo‘yicha me’yoriy daraja 25% bo‘lsa-da, ko‘pchilik AQSh banklarida ushbu me’yoriy chegara 10% qilib belgilangan.
2. Kreditlardan ko‘riladigan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zararlarni qoplash uchun zaxiralar yaratish usuli. Xalqaro bank amaliyotida kreditlami tasniflash va tasniflangan kreditlar bo‘yicha zaxiralar tashkil qilish tartibi Bazel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan metodika bo‘yicha amalga oshiriladi, Mazkur metodika bo‘yicha kreditlami tasniflash va zaxira ajratmalarini tashkil qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi (2-jadval).

2-jadval: Bazel standard bo‘yicha tasniflangan kreditlar tarkibi va zaxira ajratmalari stavkalari

№	Tasniflangan kreditlar tarkibi	Zaxira ajratmalari stavkalari, %
1	Yaxshi kreditlar	0
2	Standart kreditlar	0
3	Substandart kreditlar	20
4	Shubhali kreditlar	50
5	Umidsiz kreditlar	100

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, Bazei standarti bo‘yicha “yaxshi kreditlar” va “Standart kreditlar” sifatida tasniflangan kreditlar bo‘yicha zaxira iijratmalari shakllantirilmaydi.

3-jadval: O‘zbekiston Respublikasi bank amaliyotida tijorat banklari tasniflangan kreditlari tarkibi va zaxira ajratmalari stavkalari

№	Tasniflangan kreditlar tarkibi	Zaxira ajratmalari stavkalari, %
1	Yaxshi kreditlar	0
2	Standart kreditlar	0
3	Substandart kreditlar	20
4	Shubhali kreditlar	50
5	Umidsiz kreditlar	100

3-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar ko‘rsatadiki, O‘zbekiston bank amaliyotida qo‘llanilayotgan kreditlarni tasniflash amaliyotida, Bazel standartidan farqli o‘laroq, siandart kreditlar bo‘yicha ham zaxira tashkil qilinadi.

3. Muammoli kreditlarga nisbatan cheklovlar o‘rnatish usuli. Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida, xususan, G‘arbiy Yevropa davlatlarining bank amaliyotida muddati o‘tgan kreditlarning jami kredit qo‘yilmalari hajmidagi salmog‘ini 3 foizdan oshmasligi normal holat hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichning yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan chegaraviy miqdori 5 foizni tashkil qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizning fikrimizcha mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni muammoli kreditlarga aylanmasligini oldini olish maqsadida quyidagi takliflarni keltirish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

- banklarga kredit uchun kelib tushgan arizaga atroflicha yondashuv, ya‘ni daslabki monitoringni to‘g‘ri va mukammal amalga oshirish. Bu erda birinchi navbatda mijozning xarakteriga, uning moliyaviy ahvoliga, biznes hamkorlari orasidagi mavqeiga hamda ushbu sohadagi tajribasiga asosiy e‘tiborni qaratish;
- kredit arizasini ko‘rib chiqilayotgan davrda mijoz tomonidan bankka takdim etayotgan hujjatlar to‘plamining to‘liqligini va ularning to‘g‘riligini tekshirish. Kredit bo‘limi xodimi tomonidan mijozning moliyaviy ahvoli chuqur tahlil etilishi va xolisona baho berilishi zarur;
- kredit ajratilgan davrdan boshlab, mijozning biznes-rejasi bo‘yicha amalga oshirayotgan ishlarini, hisob-raqamidagi mablag‘lari aylanmasini doimiy ravishda nazorat qilib borish, muddati o‘tgan debitorlik-kreditorlik qarzdorliklariga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;
- kredit ta‘minoti sifatida taqdim etilgan mol-mulkni saqlash va ekspluatatsiya sharoitini doimiy ravishda nazorat qilib borish;
- kredit ta‘minoti sifatida uchinchi shaxsning kafillik shartnomasi taqdim etilgan bo‘lsa, kafilning moliyaviy hisobotlarini har chorakda bir marotaba tahlil qilib uning to‘lov qobiliyatini o‘rganib borish;
- korxonaning mol-mulkini baholashda bankning mulkni baholash bo‘yicha mutaxassisiga ko‘proq imkoniyatlar yaratib berish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020-yildagi PF-5992-son ttps://lex.uz/uz/docs
2. Vazirlar Mahkamasining “Banklarning kreditlari bo‘yicha qarzdorlik o‘z vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorning likvidli molmulkiga qaratish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi №422-sonli qarori, 04.12.2002-yil.
3. Karimov I.A. 2021-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir.//Xalq so‘zi, 2021 yil 17-yanvar №13.
4. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash. T.: Moliya, 2012, 124-6.
5. Пещанская И.В. Организатсия деятелности коммерческого банка: Учебное пособие. –М.: ИНФРА-М, 2001,33-6.
6. Роуз П. Банковский менеджмент. Пер. с англ. – М.: Дело, 2019, 192-б.
7. Tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish. Sh. Abdullaeva, Z. Safarova. – Moliya 2020.
8. Управление деятелностю коммерческого банка(банковский менеджмент)/ Под ред. д-ра экон. наук, проф. О.И.Лаврушина. – М.: Юристъ, 2002, 456-б.

O‘ZBEKISTON HUDUDLARIGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA KO‘P QAVATLI “YASHIL” FERMER XO‘JALIKLARINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI



Turdimuratova Aziza Alisherovna
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti,
Agrobiznes, buxgalteriya hisobi va raqamli texnologiyalar
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston agrosanoat majmuasiga xorijiy investitsiyalar oqimini rag‘batlantirish maqsadida ko‘p qavatli “yashil” xo‘jaliklardan (vertikal fermer xo‘jaliklaridan) foydalanish istiqbollari tahlil qilinadi. Chet el kapitalini jalb qilishda vertikal fermer xo‘jaliklarining potensialini belgilaydigan bir qator omillar ko‘rib chiqiladi – yuqori rentabellik, ishlab chiqarish hajmining barqarorligi, eksport talabining mavjudligi va boshqalar. Ushbu potensialni amalga oshirish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning zarur chora-tadbirlari kompleksi tahlil qilinadi. Vertikal fermer xo‘jaliklaridan O‘zbekiston iqtisodiyotining agrar sektoriga xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantirish vositasi sifatida foydalanish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa chiqariladi.

Kalit so‘zlar: vertikal fermer xo‘jaliklari, ko‘p qavatli issiqxonalar, xorijiy investitsiyalar, qishloq xo‘jaligi innovatsiyalari, gidroponika, investitsiyalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, agrobiznes, O‘zbekiston.

Abstract: The article analyzes the prospects of using multi-storey green farms (vertical farms) to stimulate the inflow of foreign investment into the agro-industrial complex of Uzbekistan. A number of factors determining the potential of vertical farms in attracting foreign capital are considered - high profitability, stability of production volumes, availability of export demand, etc. The complex of necessary state support measures to realize this potential is analyzed. The conclusion is made about the expediency of using vertical farms as a tool to stimulate foreign investment in the agricultural sector of the Uzbek economy.

Key words: vertical farms, multi-storey greenhouses, foreign investments, innovations in agriculture, hydroponics, state support for investments, agribusiness, Uzbekistan.

Аннотация: В статье анализируются перспективы использования многоэтажных зеленых хозяйств (вертикальных ферм) для стимулирования притока иностранных инвестиций в агропромышленный комплекс Узбекистана. Рассмотрен ряд факторов, обуславливающих потенциал вертикальных ферм в привлечении зарубежного капитала - высокая прибыльность, стабильность объемов производства, наличие экспортного спроса и др. Проанализирован комплекс необходимых мер господдержки для реализации этого потенциала. Сделан вывод о целесообразности использования вертикальных ферм в качестве инструмента стимулирования иностранных инвестиций в аграрный сектор экономики Узбекистана.

Ключевые слова: вертикальные фермы, многоэтажные теплицы, иностранные инвестиции, инновации в сельском хозяйстве, гидропоника, государственная поддержка инвестиций, агробизнес, Узбекистан.

KIRISH

Ko‘p qavatli “yashil” fermer xo‘jaliklari (vertikal fermer xo‘jaliklari) shahar qishloq xo‘jaligiga innovatsion yondashuv bo‘lib, so‘nggi yillarda butun dunyo bo‘ylab tobora ko‘proq e’tiborni tortmoqda. Ular ko‘p qavatli inshootlar (2 dan 100 qavatgacha) bo‘lib, u yerda boshqariladigan gidroponik muhitda turli xil ekinlar yetishtiriladi [1]. Bunday fermer xo‘jaliklari ko‘plab afzalliklarga ega, shahar makonidan samarali foydalanish, yil davomida mahsulot ishlab chiqarish, suv va boshqa resurslarni tejash, transport xarajatlari va uglerod chiqindilarini kamaytirish va boshqalar [2].

So‘nggi paytlarda O‘zbekistonda iqtisodiyotning turli sohalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati faol amalga oshirilmoqda. Biroq bu yo‘nalishdagi ko‘p qavatli “yashil” fermer xo‘jaliklarining salohiyati hali amalga oshmagan. Ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekistonga xorijiy investitsiya oqimini rag‘batlantirish uchun vertikal fermer xo‘jaliklaridan foydalanish istiqbollarini tahlil qilishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Chet el investitsiyalarini ishlab chiqarishda vertikal fermer xo‘jaliklarining salohiyatini baholash uchun ularning qishloq xo‘jaligining an’anaviy shakllariga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini sifatli qiyosiy tahlil qilish ishlatilgan. Rentabellik, hosilning barqarorligi, ishlab chiqarish qobiliyati, miqyosning moslashuvchanligi va boshqalar kabi parametrlar hisobga olindi.

Shuningdek, O‘zbekistondagi vertikal fermer xo‘jaliklari loyihalarining investitsiyaviy jozibadorligiga ta’sir etuvchi tashqi muhitning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillarini aniqlash uchun PEST tahlili o‘tkazildi.

Olingan ma’lumotlar asosida ekspert baholash usuli bilan O‘zbekistonda vertikal dehqonchilik sektoriga xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantirish bo‘yicha davlat siyosatini shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Maqolani tayyorlash uchun tahlil, sintez, umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish usullari ham faol ishlatilgan.

Hozirgi vaqtda vertikal fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy jihatlari bo‘yicha nisbatan kam sonli tadqiqotlar mavjud. Xususan, ularning xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantirish salohiyatiga kam e’tibor qaratilmoqda. Masalan, Al-Kodmani va boshqalarning maqolasi [3] asosan vertikal fermer xo‘jaliklarining texnik va ekologik afzalliklarini ko‘rib chiqadi. Iqtisodiy masalalarga faqat kichik bo‘lim bag‘ishlangan bo‘lib, unda logistika xarajatlarining pasayishi, ishlab chiqarishning yil davomida mahsuldorligi va boshqa jihatlari qisqacha eslatib o‘tilgan.

Sanders va boshq. [4] buyuk Britaniyada vertikal fermaning iqtisodiy tahlilini o‘tkazgan. Bunday fermer xo‘jaliklari iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lishi va ma’lum sharoitlarda investitsiyalarni qoplashi mumkinligi ko‘rsatilgan. Biroq, chet el kapitalini jalb qilish masalalariga e’tibor berilmaydi. Xuddi shu kabi, Baner va boshqalarning tadqiqotlari [5] Hindistondagi gidroponik vertikal fermer xo‘jaligining moliyaviy samaradorligini ko‘rib chiqadi, ammo chet el investitsiyalari aspektlarini hisobga olmaydi.

Shunday qilib, ushbu maqolaning maqsadi bo‘lgan xorijiy kapitalning kirib kelishini rag‘batlantirishda ko‘p qavatli “yashil” fermer xo‘jaliklarining potensialini tahlil qilish bo‘yicha adabiyotda aniq bo‘shliq mavjud.

TAHLIL VA NATIJALAR

Vertikal fermer xo‘jaliklari tarmog‘ining rivojlanishi O‘zbekiston agrosanoat majmuasiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga yordam beradigan bir qator omillar mavjud:

- **Yuqori va barqaror rentabellik.** Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki [4, 6], vertikal fermer xo‘jaliklari investitsiyalar bo‘yicha yuqori va barqaror rentabellikni ta’minlashi mumkin – 20% gacha va undan yuqori bo‘lishi mumkin, bu sanoat o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan yuqori. Bu ularning yil bo‘yi, yuqori aylanish tezligi va logistika tejamkorligi bilan bog‘liq. Bunday ko‘rsatkichlar xorijiy investorlar uchun jozibadordir.
- **Mahsulot yetkazib berishning barqarorligi.** An’anaviy qishloq xo‘jaligidan farqli o‘laroq, yopiq vertikal fermer xo‘jaliklarida hosil deyarli ob-havoga bog‘liq emas, bu esa barqaror ishlab chiqarish hajmini kafolatlaydi [7]. Bu O‘zbekiston agrosektoriga sarmoya kiritayotgan oziq-ovqat kompaniyalari uchun muhim omil.
- **Tashqi bozorlarda mahsulotlarga talabning mavjudligi.** Vertikal fermalarda yetishtirish uchun mos bo‘lgan bir qator ekinlar (bargli sabzavotlar, rezavorlar, o‘tlar va boshqalar) Yevropa, yaqin Sharq va Osiyo mamlakatlarida doimiy talabga ega [8]. Bu eksport qilish va xorijiy kontragentlardan valyuta tushumlarini jalb qilish uchun yaxshi imkoniyatlar ochadi.
- **Iqtisodiyotning yuqori texnologiyali va innovatsion sektorini rivojlantirish.** Vertikal trusslar eng zamonaviy texnologiyalarga asoslangan – gidroponika, avtomatlashtirish, narsalar Interneti, sun’iy intellekt va boshqalar [7]. Ularning rivojlanishi texnologik investorlarning manfaatlariga mos keladigan O‘zbekiston agrar sektorini modernizatsiya qilishga yordam beradi.
- **Loyihalarning tez qaytarilishi va kengaytirilishi.** Kompaktlik va yuqori mahsuldorlik tufayli vertikal fermer xo‘jaliklarining to‘lov muddati to‘g‘ri boshqaruv bilan 2–4 yil bo‘lishi mumkin [9]. Bu o‘sib borayotgan talab ostida quvvatni moslashuvchan ravishda oshirishga imkon beradi. Ushbu omil yirik agroxoldinglar va investitsiya fondlari uchun jozibadordir.

Chet el investitsiyalarini jalb qilishda vertikal fermer xo‘jaliklarining salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun bir qator davlat siyosati choralarini ko‘rish zarur. Asosiy yo‘nalishlar orasida:

- Qulay tartibga solish sharoitlarini yaratish: xorijiy investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari, qurilish va infratuzilmaga ulanish uchun ruxsatnomalarni soddalashtirilgan ro‘yxatdan o‘tkazish va boshqalar.
- Veb-resurslar, xalqaro ko‘rgazmalar, biznes-forumlar va boshqalar orqali potensial xorijiy investorlar o‘rtasida vertikal fermer xo‘jaliklarining imkoniyatlarini axborot-marketing targ‘ib qilish.
- O‘zbekiston hududida ko‘p qavatli “yashil” xo‘jaliklar loyihalarini amalga oshiruvchi kompaniyalar uchun kreditlar foiz stavkalarini subsidiyalash.

- Ushbu biznes modelining samaradorligini namoyish etish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan vertikal fermer xo‘jaliklarini qurish.
- Xorijiy mamlakatlarda, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalangan holda sheriklar va tarqatish kanallarini topishda ko‘maklashish.
- Oliy va o‘rta kasb-hunar ta’limi tizimida vertikal fermer xo‘jaliklari uchun malakali muhandis-texnik kadrlarni tayyorlash.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O‘zbekistonda vertikal dehqonchilik sektoriga va umuman agro-oziq-ovqat kompleksiga xorijiy kapital qo‘yish uchun jozibador shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

Shunday qilib, tahlil asosida O‘zbekistonga xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantirish vositasi sifatida vertikal ko‘p qavatli fermer xo‘jaliklaridan foydalanish uchun muhim istiqbollar mavjud degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu bir qator omillarga bog‘liq - yuqori daromad olish potensiali, ishlab chiqarish barqarorligi, mahsulotlarga eksport talabi va boshqalar. Ushbu imkoniyatlarni amalga oshirish uchun davlatning qulay shart-sharoitlarni yaratish va potensial xorijiy investorlar orasida vertikal dehqonchilik loyihalarini ilgari surish bo‘yicha faol siyosati talab etiladi [10].

Tadqiqotning keyingi yo‘nalishlariga mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda O‘zbekiston sharoitida vertikal fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini batafsil o‘rganish, shuningdek, respublika hududida bunday loyihalarni amalga oshirishdan manfaatdor bo‘lgan aniq xorijiy kompaniyalar va fondlarni aniqlash kiradi. Bunday tadqiqotlar natijalari ushbu sohaga investitsiyalarni jalb qilish dasturlarini yanada oqilona ishlab chiqishga imkon beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ko‘p qavatli “yashil” fermer xo‘jaliklari (vertikal fermer xo‘jaliklari) tarmog‘ini rivojlantirish O‘zbekiston agrosanoat majmuasiga xorijiy investitsiyalar oqimini rag‘batlantirishning samarali vositasi bo‘lishi hisoblanadi.

Vertikal fermer xo‘jaliklarining investitsion jozibadorligining asosiy omillari yuqori va barqaror rentabellikni olish imkoniyati, ularning mahsulotlariga eksport talabining oshishi va innovatsion texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi. Ushbu salohiyatni amalga oshirish uchun vertikal dehqonchilik sohasida biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va tegishli investitsiya loyihalarini ilgari surish bo‘yicha maqsadli davlat siyosati zarur.

Umuman olganda, mavzu yanada chuqur tadqiqotlarni talab qiladi. Xususan, vertikal fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini O‘zbekiston sharoitlariga nisbatan batafsil o‘rganish zarur. Respublika hududida vertikal dehqonchilik sohasida loyihalarni amalga oshirishdan manfaatdor bo‘lgan aniq xorijiy kompaniyalarni aniqlash istiqbolli ko‘rinadi. Shunga qaramay, hozirda ko‘p qavatli issiqxona majmualari mamlakat agrosanoat majmuasiga xorijiy investitsiyalarni rag‘batlantirish nuqtai nazaridan katta salohiyatga ega ekanligi haqida bahslashish mumkin.

References:

1. Al-Kodmany, K. Vertical farming: A summary of approaches to growing skywards. Journal of Land Use Science, 2018, vol. 13, no. 4, pp. 395-415.
2. Despommier D. The Vertical Farm: Feeding the World in the 21st Century. New York: St. Martin’s Press, 2010. 312 p.
3. Sanders, C., Phillippi, M., Schutz, K. Financial analysis of a commercial-scale vertical farm in an urban setting. Acta Horticulturae, 2020, vol. 1268, pp. 219-225.
4. Banerjee C., Adenaeuer L. Up, up and away! The economics of vertical farming. Journal of Agricultural Studies, 2014, vol. 40, no. 1, pp. 40-60.
5. Маматова Н.Р. Инновационное развитие сельского хозяйства Узбекистана на основе внедрения цифровых технологий. Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. 2021. No 6. С. 16-19.
6. Глотова И.И., Хицков И.Ф. Анализ эффективности инвестиций в вертикальные фермы. Агропродовольственная экономика. 2022. No 3. С. 43-49.
7. Joly, A., Kozai, T., Niu, G. Smart Plant Factory: The Next Generation Indoor Vertical Farms. Switzerland: Springer Nature, 2019. 210 p.
8. Бахриев Ф. Тенденции развития гидропоники как перспективного направления для Узбекистана. Глобальная экономика в XXI веке. 2020. Т. 11. No 1. С. 29-33.
9. Alisherovna, Aziza Turdimuratova. “PROCESSES OF PROCUREMENT OF INVESTMENT PROJECTS.” Academia Repository 4.10 (2023): 19-22.
10. Лукьяненко В.А. Иностранные инвестиции как фактор инновационного развития сельского хозяйства Узбекистана. Экономика и управление. 2021. No 4(166). С. 4-10.
11. Benke K., Tomkins B. The economics of vertical farming. Agricultural Systems, 2017, vol. 159, pp. 186-192.

SURXONDARYO VILOYATINING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI OSHIRISH YO‘LLARI VA UNI ARIMA MODELI ASOSIDA PROGNOZLASH

Orcid: 0009-0006-6418-3047

Abdunazarova Shahnoza Norqo‘chqor qizi
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida mahalliy budjetlarning ahamiyati ortib borayotganligi ularning mustaqilligini oshirishni taqazo etadi. O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti ijtimoiy xarajatlarini o‘sish tendensiyasiga ega ekanligi davlat budjeti daromadlari hajmini uzluksiz oshirib borishni taqozo qiladi. Buning natijasida esa, qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i kabi barqaror daromad manbalarini budjet daromadlarining tarkibidagi yuqori salmog‘ini ta’minlashni taqozo qiladi. Mahalliy budjetlar esa mahalliy hokimliklarni o‘z vazifalarini amalga oshirishda moliyaviy dastak hisoblanib, ularning moliyaviy mustaqilligi ushbu hududlarni rivojlantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan budjet-soliq sohasidagi islohotlarning tag zamirida aholi turmush farovonligini yanada yuksaltirish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojiga keng imkoniyat yaratish maqsadi mujassamdir. Xususan, iqtisodiyotda soliq yukini yanada kamaytirish, soliq solish mexanizmini soddalashtirish hamda soliq ma’murchiligini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar ana shu maqsad ro‘yobiga qaratilmoqda.

Hozirgi kunda mahalliy budjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarini amalga oshirishdagi mas’uliyatini yanada oshirish, ularning barqaror daromad ba’zani yaratish, mahalliy budjetlar ijrosi samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni ilmiy jihatdan o‘rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan bo‘lib qolmoqda. Hudud aholi farovonligini oshirishning asosiy moliyaviy manbasi mahalliy budjet hisoblanadi. Shuning uchun ham mahalliy budjet qo‘shimcha daromadlarini shakllantirish uchun oldindan hudud budjetini aniqlash maqsadga muvofiq deb hisobladik. Tadqiqotdan asosiy ko‘zlangan maqsad mahalliy budjet daromadlarini oldindan prognozlash orqali mamlakat hamda hudud iqtisodiyotining moliyaviy rejasini aniq belgilab olishdan iborat. Shuningdek, maqolada tadqiqot maqsadimizni amalga oshirish uchun mahalliy budjet daromadlarini ARIMA modeli yordamida prognozlash uslubiyotidan foydalandik.

Kalit so‘zlar: mahalliy budjet, prognozlash turlari, ARIMA, Box-Jenkins metodologiyasi, vaqtli qatorlar, ACF korrelogrammasi, PACF korrelogrammasi, Dikki-Fuller testi.

Abstract: The growing importance of local budgets in the socio-economic development of the country requires increasing their independence. Local budgets are considered a financial support for local governments in the implementation of their tasks, and their financial independence has a direct impact on the development of these regions. At the root of the reforms in the budget and tax sphere carried out in our country is the goal of further improving the well-being of the population, ensuring economic stability, and creating ample opportunities for the rapid development of small business and private entrepreneurship. In particular, measures to further reduce the tax burden on the economy, simplify the taxation mechanism, and improve tax administration are aimed at this goal.

Currently, increasing the responsibility of local budgets in the implementation of social and economic reforms, creating a stable income base for them, and scientifically studying the factors affecting the effectiveness of local budget implementation remain urgent issues today. The local budget is the main financial source for improving the well-being of the population of the region. Therefore, we considered it appropriate to determine the regional budget in advance in order to generate additional local budget revenues. The main goal of the research is to determine the financial plan of the economy of the country and the region by forecasting local budget revenues in advance. Also, in order to realize our research goal, we used the methodology of forecasting local budget revenues using the ARIMA model.

Key words: local budget, types of forecasting, ARIMA, Box-Jenkins methodology, time series, ACF correlogram, PACF correlogram, Dickey-Fuller test.

Аннотация: Растущая значимость местных бюджетов в социально-экономическом развитии страны требует повышения их самостоятельности. Тот факт, что государственный бюджет Республики Узбекистан имеет тенденцию к увеличению социальных расходов, требует постоянного увеличения доходов государственного бюджета. В результате этого необходимо обеспечить высокий удельный вес доходов бюджета за счет стабильных источников доходов, таких как налог на добавленную стоимость и акциз. Местные бюджеты рассматриваются как финансовая поддержка органов местного самоуправления в реализации их задач, а их финансовая независимость напрямую влияет на развитие этих регионов. В основе реформ в бюджетной и налоговой сфере, проводимых в нашей стране, лежит цель дальнейшего повышения благосостояния населения, обеспечения экономической стабильности, создания широких возможностей для быстрого развития малого бизнеса и частного предпринимательства. В частности, на эту цель направлены меры по дальнейшему снижению налоговой нагрузки на экономику, упрощению механизма налогообложения, совершенствованию налогового администрирования.

В настоящее время одними из наиболее актуальных вопросов остаются повышение ответственности местных бюджетов в реализации социально-экономических реформ, создание стабильной доходной базы, научное изучение факторов, влияющих на эффективность местных бюджетов. Местный бюджет является основным финансовым источником улучшения благосостояния населения региона. Поэтому мы сочли целесообразным заранее определить областной бюджет для формирования дополнительных доходов местного бюджета. Основная цель исследования – точно определить финансовый план экономики страны и региона путем прогнозирования доходов местных бюджетов. Также для реализации цели нашего исследования мы использовали методику прогнозирования доходов местных бюджетов с использованием модели ARIMA.

Ключевые слова: местный бюджет, типы прогнозирования, ARIMA, методология Бокса-Дженкинса, временные ряды, коррелограмма ACF, коррелограмма PACF, критерий Дикки-Фуллера.

KIRISH

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va liberallashtirish, samarali soliq-budjet siyosatidan foydalangan holda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, makroiqtisodiy barqarorlik va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish o'z tasdig'ini topib bormoqda. Shuni alohida ta'kidlash o'tish kerakki, O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti ijtimoiy xarajatlarini o'sish tendensiyasiga ega ekanligi davlat budjeti daromadlari hajmini uzluksiz oshirib borishni taqozo qiladi[10]. Buning natijasida esa, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i kabi barqaror daromad manbalarini budjet daromadlarining tarkibidagi yuqori salmog'ini ta'minlashni taqozo qiladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, to'g'ri va egri soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib, bir-biri bilan o'zaro bog'langandir. Yevropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSH, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Yevropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog'i 40 foizdan yuqori bo'lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSH, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko'rsatkich 25–30 foizni tashkil qiladi.

Shuningdek, A.Islomqulovning ta'kidlashicha, mahalliy budjet daromadlari, birinchi asosiy jihati, yalpi ichki mahsulot qiymatining ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanishi natijasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu qiymat hisoblanadi va u mahalliy ahamiyatga ega fondni shakllantirishga xizmat qiladi.

Vaqt qatorlarini bashorat qilish uchun mashhur va keng qo'llaniladigan statistik-ekonometrik usul ARIMA modelidir. Vaqtli qatorlarni prognozlash vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadigan ma'lumotlarni tahlil qilish va bashorat qilishning qimmatli usuli hisoblanadi. Vaqtli qatorlarni bir nechta prognozlash turlari mavjud bo'lib, ular orasida eng keng tarqalganlari tekislash va ARIMA modellari hisoblanadi. Tekislash modellari 1950-yillarda ommalashgan bo'lsa, ARIMA modellari Boks va Jenkinslar tomonidan 1970-yillarda yaratilgan va ommalashgan.


Har xil tarixiy faktlar va tasodifiy xatolardan foydalanilgan, ARIMA modeli taxmin qilingan o'zgaruvchining kelajakdagi qiymatini bashorat qiladi . ARIMA (p, q, d) modelida p avtoregressiv komponentning tartibini, d boshlang'ich differensiallanish darajasini va q birinchi harakatlanuvchi komponentning tartibini bildiradi.

Vaqt qatorlarini prognozlashning mashhur usullaridan biri ARIMA (Auto-Regressive Integrated Moving Average) hisoblanadi. ARIMA vaqt qatorlari ma'lumotlarini tahlil qilish va prognoz qilish uchun avtoregressiv (AR), integratsiyalashgan (I) va harakatlanuvchi o'rtacha (MA) tushunchalarini birlashtiradi.

Umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$Y_t = c + \sum_{i=1}^{p} \alpha Y_{t-1} + \sum_{j=1}^{q} \theta E_{t-j} + E_t \quad (1)$$

ARIMA (p,d,q) bu yerda:
p- avtoregressiya tartibi
d- jalb qilingan (integratsiyalangan) birinchi farqlanish darajasi
q- sirg'aluvchi o'rtacha qismning tartibi



Box-Jenkins metodologiyasi: uch bosqichli jarayon:

- **Modelni identifikatsiyalash:** Modelni tuzish bosqichlaridan biri bu identifikatsiyalash hisoblanadi. Ya'ni, tuzilgan model parametrlarini baholash hisoblanadi. Ushbu orqali tendensiyalarni, mavsumiylikni va avtoregressiv elementlarni aniqlashga yordam beradi. Bu yerda ko'zlangan asosiy maqsad, zarur bo'lgan farqlanish darajasini o'lchash va optimal siljitish hajmini aniqlashdir.
- **Parametrlarni baholash:** Bu bosqich regressiya modelidagi koeffitsiyentlarni olish uchun adaptive jarayonlarni o'z ichiga oladi.
- **Modelni tekshirish:** Parametrlar aniqlangandan so'ng model tekshiriladi va uning ahamiyatliligi va ishonchliligi baholanadi. Ushbu tahlil model o'tkazib yuborishi mumkin bo'lgan vaqtinchalik holatni yoritadi [1].

Mahalliy budjetning moliyaviy barqarorligi bu shunday murakkab tushunchaki, unga ko'ra ma'lum bir mahalliy hududning barqaror rivojlanishi hamda hudud aholisining farovonligi, shu bilan bir qatorda, budjet riski mavjud vaqtda ham moliyaviy xavfsizligini saqlab tura olishi uchun zarur bo'lgan miqdorda pul fondiga egalik holatini aks ettiradi. Bunda mahalliy budjetning moliyaviy barqarorligi shartlari bo'lib quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak:

- budjet xarajatlari va daromadlarining balanslashtirilganligi;
- budjetning moliyaviy mustaqilligi va to'lovga qobiliyatliligi, ya'ni mahalliy organlarning hech qanday hukumat tomonidan moliyaviy yordamsiz, budjetga moliyaviy resurslarni safarbar qila olish qobiliyati;
- o'z majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajara olish uchun ham kerakli hudud fondi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Ko‘pgina xorij adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra, budjet barqarorligini ta’minlashda uch indikator o‘rganiladi:

1) Budjet simmetriyasi;

2) Daromad potensiali;

3) Budjetning ta’minlanganligi.

Ko‘rish mumkinki, mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligi ularning moliyaviy xavfsizligi bilan uzviy bog‘liqlikdaligi ifodalangan. Shuni aytish mumkinki, shu orqali moliyaviy barqarorlikning turli darajalarini, ularni belgilovchi mezonlari va indikatorlarini aniqlash mumkin bo‘ladi. Shunday qilib, mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligi yetarli darajada o‘z moliyaviy mablag‘lariga ega bo‘lishi, budjetning balanslashtirilganligi hamda xarajatlarning aksariyat qismi aynan ijtimoiy-madaniy sohani moliyalashtirishga qaratilganligida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda davlat budjetidan keying asosiy o‘rinda turadigan budjet bu mahalliy budjet hisoblanadi. Mahalliy budjetning iqtisodiyotdagi o‘rni haqida har bitta iqtisodchi olim to‘xtalib o‘tgan bo‘lib, ayniqsa, moliya sohasidagi iqtisodchi olimlarimiz tomonidan juda ko‘plab tahlillar olib borilgan. “Budjetda prognozlash usullaridan foydalanish jarayoni” Kleshchinskiy A.I. tomonidan tahlil qilingan. Iqtisodchi olimning tahlilidan ko‘zlangan asosiy maqsad, mahalliy budjetlarning prognozlarini 80 foizdan yuqori aniqlik bilan prognozlashtirish va amalga oshirishda asosan ARIMA va eksponensial tekislash usullarining aniqligini miqdoriy baholashda CensusII X-11 usullaridan foydalanishdir [2].

ARIMA modelidan har xil soha va yo‘nalishlarda foydalanishimiz mumkin. Bu modelning asosiy jihati shundan iboratki, tuzilgan modelning amaliy holati qanchalik darajada ahamiyatliligi va prognoz qiymating qanchalik darajada ishonchliligini aniqlash hisoblanadi. А.А. Тусков, Д.А. Голдуева kabi olimlarimiz tomonidan olib borilgan “Xalqaro baxt indeksini ekonometrik modellashtirish” tadqiqoti so‘zimizning o‘z tasdig‘ini topishda yordam beradi [3].

Bundan tashqari, Srihari Athiyarath, Mousumi Paul, Srivatsa Krishnaswamy kabi olimlarimiz ham o‘z tadqiqotlarida o‘rganganlar. “Vaqt seriyalarini bashorat qilish usullarini qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish” [4].

Shuningdek, A.V.Alzheeva, R.A.Kochkarov “ARIMA prognoz modellarining qiyosiy tahlili va LSTM rus kompaniyalari aktsiyalari misolida” tadqiqotida ham ARIMAmodelidan foydalganini ko‘rishimiz mumkin. Olimlarning maqola xatolarni minimallashtirish va yuqori aniqlikni hisobga olgan holda eng yaxshi vaqt seriyasining bashoratli modelini topishga qaratilgan. Olimlar LSTM va ARIMA modellarini taqqoslash orqali vaqt seriyalarini bashorat qilishning yanada ishonchli bo‘lishi uchun LSTM modeliga asoslangan algoritm afzalligini tadqiqot natijalarida bayon etganlar [5].

Mamlakatimizdagi tadqiqotchilarimiz tomonidan ham o‘zlarining ilmiy izlanishlarida ARIMA modellaridan foydalanganliklarini kuzatishimiz mumkin. S.T.Toshaliyevaning “Mintaqaviy kichik biznesni rivojlantirish istiqbollarini prognozlash” tadqiqot ishlarida ham aynan prognozlash uchun ARIMA modelidan foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Surxondaryo viloyatida kichik biznes subyektlari faoliyatida bo‘lajak hodisa va jarayonlarning holatini ekonometrik modellashtirish asosida tahlil qilingan. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada statistik va ekonometrik tahlil usullari qo‘llanildi, unda kichik tadbirkorlikning rivojlanishini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar asosida YaHM, shuningdek ARIMA modeli (harakatlanuvchi o‘rtacha ko‘rsatkichga integratsiyalangan avtoregressiv ekonometrik model) asosida prognozlashtirilgan [6].

Shuningdek, B.E.Turaev tomonidan taqdim etilgan “Qurilish ishlari hajmini prognozlashda ARIMA modelidan foydallanish (Surxondaryo viloyati misolida)” maqolasida ham ushbu modeldan foydalanish orqali model imkoniyatlari muhokama qilingan va Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari hajmini prognozlash uchun foydalanganlarini uchratishimiz mumkin [7].

Korxonalar faoliyatini ARIMA modeli yordamida modellashrishdan ko‘zlangan maqsad olingan ilmiy natijalar asosida xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini yanada barqarorlashtirishdan iborat [8].


Modellashtirish orqali davlatlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari, energiya iste’moli, iqtisodiy rivojlanish darajasi, qayta tklanadigan energiyadan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi [9].

TAHLILLAR VA NATIJALAR

(1) formula yordamida Surxondaryo viloyati mahalliy budjet daromadlarining kelgusi 5 yildagi prognozini hisoblaymiz. ARIMA modeli yordamida mahalliy budjet daromadlarining 2012-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan ko‘rsatkichlarini modellashtiramiz. Ma’lumotlar 1-jadvalda berilgan.

1-jadval: Surxondaryo viloyatining mahalliy budjet daromadlari hajmi (mlrd, so‘m)[1]

t	Y_t	t	Y_t
2012	413,9	2018	1 052,10
2013	514,9	2019	1844,7
2014	571,7	2020	1 605,70
2015	699,1	2021	1993,2
2016	835,5	2022	2466,9
2017	969,8	2023	3042,3



1-rasm: Surxondaryo viloyatining mahalliy budjet daromadlari hajmi (mlrd, so‘m)[2]

Dastlab ARIMA modelining d tartibini aniqlaymiz. Buning uchun vaqtli qatorning statsionar ekanligi tekshiriladi. 1-rasmdan vaqtli qator statsionar emasligi ko‘rinib turibdi. Shu sababli vaqtli qatorning 1-farqlari statsionarligini tekshiramiz:


2-jadval: Kengaytirilgan Dikki-Fyuller testi natijalari[3]

d_y uchun kengaytirilgan Dikki-Fuller testi
2 lagdan boshlab, AIC mezoni namuna hajmi 8
Birlik ildizning nol gipotezasi: a = 1
O‘zgarmassiz sinov
shu jumladan (1-L)d_y uchun 2 lag(lar).
model: (1-L)y = (a-1)*y(-1) + ... + e
(a - 1) uchun baho: 0,386269
test statistikasi: tau_nc (1) = 0,539033
assipt. p-qiymati 0,8325
e uchun 1-tartibli avtokorrelyatsiya koeffitsiyenti: -0,328
farqlar lagi: F(2, 5) = 1,745 [0,2661]
o‘zgarmasli sinov
shu jumladan (1-L)d_y uchun 0 lag(lar).
model: (1-L)y = b0 + (a-1)*y(-1) + e
(a - 1) bahosi: -1,30899
test statistikasi: tau_c (1) = -3,61295
assipt. p-qiymati 0,005546
e uchun 1-tartibli avtokorrelyatsiya koeffitsiyenti: -0,052

2-jadval bo‘yicha o‘zgarmas test natijalariga ko‘ra vaqtli qator statsionar emas. O‘zgarmasli test natijalariga ko‘ra esa, vaqtli qator statsionar. Demak, ARIMA modelining d tartibi 1 ga teng.

Keyingi bosqichda p va q tartibini aniqlaymiz. Buning uchun korellogramma chizmasini ko‘rib chiqamiz. (2-rasm)

1 Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi rasmiy www.surxonstat.uz sayti ma’lumotlari
2 Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi rasmiy www.surxonstat.uz sayti ma’lumotlari
3 Muallif ishlanmasi



2-rasm: Vaqtli qatorning korrelogramma chizmasi[4]

ACF va PACF korrelogrammalari vaqtli qatorning p va q tartibini aniqlashda yordam beradi. Odatda, ACF eksponensial tartibda kamayuvchi bo‘lsa va PACF esa ma’lum bir lagdan keyin ahamiyatsiz bo‘lsa, bunday jarayon avtoregressiyaga xos bo‘ladi. Bizda aynan shunday holat yuzaga keldi. Shuningdek, PACF 1-lagdan keyin ahamiyatsiz ekanligi p=1 ekanligidan darak beradi. Bundan tashqari jarayon avtoregressiyaga xosligi sirg‘aluvchi o‘rtacha 0 ekanligini belgilab beradi.

Shunday qilib, ARIMA (1,1,0) modelni tajriba qilamiz:

3-jadval: Regression tahlil natijalari[5]

1-model: ARIMA, 2013-2023 (T = 11) kuzatuvlar qo‘llanildi

Bog‘liq o‘zgaruvchi: (1-L) y

Standart xatolar Hessian asosida hisoblangan

	Koeffitsiyent	Standart xato	z	p-qiymat	
const	234,723	63,0525	3,723	0,0002	***
phi_1	−0,289340	0,296967	−0,9743	0,3299	
O‘rtacha bog‘liq o‘zgaruvchi	238,9455		Bog‘liq o‘zgaruvchining standart chetlanishi		289,1362
O‘rtacha innovatsiya	−2,997428		Innovatsiyalarning o‘rtacha chetlanishi		263,6629
R-kvadrat	0,922923		Tahrirlangan R- kvadrat		0,922923
Haqiqatga o‘xshashlik-log	−76,97342		Akaik mezoni		159,9468
Shvarts mezoni	161,1405		Xennana-Kuinna mezoni		159,1944
	Haqiqiy qism	**Taxminiy qism**	**Modul**	**Chastota**	
AR					
Ildiz 1	-3,4561	0,0000	3,4561	0,5000	

3-jadvalga ko‘ra φ_1 koeffitsiyent Fisherning z mezoniga ko‘ra ahamiyatsiz. Shu sababli biz Arima modelining boshqa tartiblarini tajriba qilib ko‘rdik. Biroq d=1 bo‘lganda birorta model ahamiyatli bo‘lmadi. Shunday qilib ARIMA (3,2,0) model ahamiyatli ekanligini sinab aniqladik.

4 Muallif ishlanmasi
5 Muallif ishlanmasi


TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

4-jadval: Regression tahlil natijalari[6]

2-model: ARIMA, 2014-2023 (T = 10) kuzatuvlar qo‘llanildi
Bog‘liq o‘zgaruvchi: (1-L) y
Standart xatolar Hessian asosida hisoblangan


	Koeffitsiyent	Standart xato	z	p-qiymat	
phi_1	−1,28057	0,286661	−4,467	<0,0001	***
phi_2	−1,07147	0,393158	−2,725	0,0064	***
phi_3	−0,597931	0,287178	−2,082	0,0373	**
O‘rtacha bog‘liq o‘zgaruvchi	47,44000		Bog‘liq o‘zgaruvchining standart chetlanishi		467,4068
O‘rtacha innovatsiya	108,5966		Innovatsiyalarning o‘rtacha chetlanishi		239,3585
R-kvadrat	0,928628		Tahrirlangan R- kvadrat		0,908236
Haqiqatga o‘xshashlik-log	−70,19333		Akaik mezoni		148,3867
Shvarts mezoni	149,5970		Xennana-Kuinna mezoni		147,0589
	Haqiqiy qism	**Taxminiy qism**	**Modul**	**Chastota**	
AR					
Ildiz 1	-1,1787	0,0000	1,1787	0,5000	
Ildiz 2	-0,3066	-1,1510	1,1911	-0,2914	
Ildiz 3	-0,3066	1,1510	1,1911	0,2914	

4-jadvalga ko‘ra 2 marta olingan model natijasiga ko‘ra model parametrlari ahamiyatli ekanligi aniqlandi. Shuningdek, tajribada MAPE=8,5217% ekanligi ma’lum bo‘ldi. Umuman olganda modelning iqtisodiy jarayonga mos ekanligidan darak beradi. Shuningdek qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjud emasligi aniqlandi. (3-rasm)




3-rasm: Qoldiqlar avtokorrelyatsiyasi[7]

6 Muallif ishlanmasi
7 Muallif ishlanmasi



4-rasm: Model qoldiqlarining ehtimollilik ko‘rsatkichi[8]

Bundan tashqari, modelni bashorat qilishda uchun foydalanish mumkinligi yoki yo‘qligini aniqlashda model qoldiqlarini tekshirish muhim hisoblanadi. Ya’ni ular normal taqsimot qununiga bo‘ysunishi hamda avtoker-relatsiya mavjud bo‘lmasligi kerak. Sinov natijalarimizga ko‘ra, model qoldiqlari normal taqsimot qonuniga bo‘ysunadi va avtokorrelatsiya mavjud emas chunki, ehtimollik x^2 (ρ=0,0618>0,05) bo‘lganligi uchun (4-rasm). Shunday qilib, mahalliy budjet daromadlarini prognozlashda ARIMA(3, 2, 0) modelining iqtisodiy jarayonga mosligi aniqlandi. (4-jadval). Shuningdek, yuqoridagi model natijalaridan foydalanib, 2028-yilga qadar vaqtli qatorning prognoz qiymatlari ishlab chiqildi (5-jadval).



5-rasm: Vaqtli qatorning tekislangan va haqiqiy darajalari hamda prognoz qiymatlari[9]

8 Muallif ishlanmasi
9 Muallif ishlanmasi

5-jadval: Haqiqiy va nazariy qiymatlar[10]

Yillar	Haqiqiy darajalar	Nazariy qiymatlar	Standart xatolik	Ishonch intervali quyi chegarasi	Ishonch intervali yuqori chegarasi
2012	413,9				
2013	514,9				
2014	571,7	594,694			
2015	699,1	670,357			
2016	835,5	788,785			
2017	969,8	911,157			
2018	1 052,10	1054,93			
2019	1844,7	1197,86			
2020	1 605,70	1784,68			
2021	1993,2	1957,76			
2022	2466,9	2259,04			
2023	3042,3	2775,76			
2024		3020,50	239,359	2551,37	3489,63
2025		3602,95	294,865	3025,02	4180,87
2026		3990,69	380,883	3244,17	4737,20
2027		4337,41	498,153	3361,05	5313,78
2028		4583,99	654,393	3301,40	5866,58

XULOSA

Shunday qilib, 2028-yilga kelib mahalliy budjet daromadlarining hajmi 4583,99 mlrd so‘mni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Bu esa 2023-yilga nisbatan 1,5 barobarga o‘sishini bildiradi. 2024-yil oxiriga kelib ushbu ko‘rsatkich 3020,50 tshkil etadi. Joriy yilga nisbatan kamayish 21,8 mlrd so‘mni tashkil etadi. Qo‘shimcha kamayish 0,7 % ni tashkil etadi. Lekin 2025-yilda esa 3602,95 mlrd so‘mni tashkil etadi. Bu esa 2024-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 582,45 mlrd so‘mga o‘sishi prognoz qilinmoqda. Qo‘shimcha o‘sish 119.28 % ni tashkil etadi. 5-jadvalda mahalliy budjetning 2028-yildagi ishonch intervali quyi chegarasi 3301,40 mlrd so‘mni tashkil qilishi, ishonch intervali yuqori chegarasi 5866,58 mlrd so‘mni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

10 Muallif ishlanmasi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Obid Ali Avan Time Series Analysis: ARIMA Models in Python https://www.kdnuggets.com/2023/08/times-series-analysis-arima-models-python.html
2. Клещинский А.И. Использование методов прогнозирования в бюджетном процессе (на примере бюджета Иркутской области) https://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-metodov-prognozirovaniya-v-byudzhetnom-protsesse-na-primere-byudzheta-irkutskoy-oblasti
3. А.А. Тусков, Д.А. Голдуева. ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ИНДЕКСА СЧАСТЬЯ Наука Красноярья, Том 11, № 4, 2022 (DOI: 10.12731/2070-7568-2022-11-4-77-95) https://cyberleninka.ru/article/n/ekonometricheskoe-modelirovanie-mezhdunarodnogo-indeksa-schastya
4. A Comparative Study and Analysis of Time Series Forecasting Techniques (https://link.springer.com/article/10.1007/s42979-020-00180-5).
5. Alzheev A.V., Kochkarov R.A. Comparative analysis of ARIMA and LSTM predictive models: Evidence from Russian stocks. Finance: Theory and Practice. 2020;24(1):14-23. (In Russ.). DOI: 10.26794/2587-5671-2020-24-1-14-23 (https://www.researchgate.net/publication/339793842_Comparative_Analysis_of_ARIMA_and_lSTM_Predictive_Models_Evidence_from_Russian_Stocks/fulltext/5e6637e5299bf1744f6baf8e/Comparative-Analysis-of-ARIMA-and-lSTM-Predictive-Models-Evidence-from-Russian-Stocks.pdf).
6. Saodat Toshaliyeva Forecasting the prospects for the development of regional small. business https://www.researchgate.net/publication/375693467_Forecasting_the_prospects_for_the_development_of_regional_small_business.
7. B. E. Turaev “FORECASTING THE VOLUME OF CONSTRUCTION WORK USING THE ARIMA MODEL (ON THE EXAMPLE OF SURKHANDARYA REGION)” https://cyberleninka.ru/article/n/forecasting-the-volume-of-construction-work-using-the-arima-model-on-the-example-of-surkhandarya-region/viewer.
8. Toshalieva, S. (2023). Forecasting the prospects for the development of regional small business. In E3S Web of Conferences (Vol. 449, p. 03003). EDP Sciences. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202344903003
9. Tukhtamurodov, A., Sobirov, Y., Toshalieva, S., Ibrayimova, D., & Feruz, M. (2024). Determinants of CO2 emissions in the BRICS. A dynamic Panel ARDL approach. In BIO Web of Conferences (Vol. 82, p. 06002). EDP Sciences. https://doi.org/10.1051/bioconf/2024820600214.
10. Abdunazarova, S. (2024). Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta’sirini ko ‘p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish. https://yashil-iqtisodiyot taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/1013.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOG‘INING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI VA UNDAGI TARKIBIY O‘ZGARISHLARNI STATISTIK BAHOLASH

Zakirova Umida Maxamadaminovna
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz qishloq, o‘rmon va baliqchilik tarmog‘ining tarkibiy-tuzilmaviy holati statistik tahlil qilingan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida kuzatilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar va tarmoqning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlaridagi dinamik o‘zgarishlarning qonuniyatlari zamonaviy statistik usullarda kompleks tahlil qilish orqali kelgusi davrlar uchun qishloq xo‘jaligi iqtsodiyotiga ta’sir qiluvchi omillarni statistik baholash yo‘llari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Xususan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash va ko‘p omilli statistik tahlil qilish bo‘yicha ilmiy takliflar, tarmoqdagi sohalarni yanada takomillashtirishni makro va mezo miqiyosda iqtisodiy-statistik tahlil qilishning nazariy jihatlari atroflicha bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: agrar islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, qishloq xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi mahsuloti, tarkibiy o‘zgarishlar, statistik ko‘rsatkichlar tizimi, iqtisodiy-statistik tahlil, statistik usullar, dinamik qatorlari, iqtisodiy indekslar tahlili.

Abstract: This article presents a statistical analysis of the structural state of the country’s agriculture, forestry and fisheries. Also, the structural changes observed in the agricultural sector and the patterns of dynamic changes in the main economic indicators of the industry are scientifically substantiated through a comprehensive analysis using modern statistical methods, a statistical assessment of factors affecting the agricultural economy for future periods. In particular, scientific proposals for improving the economic indicators of agricultural production and multifactor statistical analysis, theoretical aspects of economic and statistical analysis on the macro- and mesoscale for further improving the industry network are presented in detail.

Key words: agrarian reforms, socio-economic processes, agriculture, agricultural products, structural changes, system of statistical indicators, economic and statistical analysis, statistical methods, time series, analysis of economic indicators.

Аннотация: В данной статье представлен статистический анализ структурного состояния сельского, лесного и рыбного хозяйства страны. Также научно обоснованы структурные изменения, наблюдаемые в аграрном секторе, и закономерности динамического изменения основных экономических показателей отрасли, путем комплексного анализа с использованием современных статистических методов, статистической оценки факторов, влияющих на экономику сельского хозяйства на будущие периоды. В частности, подробно изложены научные предложения по улучшению экономических показателей сельскохозяйственного производства и многофакторного статистического анализа, теоретические аспекты экономико-статистического анализа на макро- и мезомасштабе дальнейшего совершенствования отраслевой сети.

Ключевые слова: аграрные реформы, социально-экономические процессы, сельское хозяйство, сельскохозяйственная продукция, структурные изменения, система статистических показателей, экономико-статистический анализ, статистические методы, динамические ряды, анализ экономических показателей.

KIRISH

Jahon mamlakatlarida agrar sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning maqsadi ushbu mamlakatda yuqori samaradorlikka va raqobatbardoshlik darajasiga ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligini shakllantirishga ustivorlik qaratilmoqda. Jumladan, hukumat tomonidan agrar soha tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligida faoliyat olib borayotgan iqtisodiy subyektlarning daromadlarini rag‘batlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishda narx siyosatini ishlab chiqish, ishlab chiqaruvchilarning ma’lum bir xarajatlarini qoplash maqsadida subsidiyalar ajratish, ularga soliq imtiyozlari, imtiyozli shartlar asosida ishlab chiqarish kreditlari ajratish, ayrim turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun proteksionizm siyosatini qo‘llash kabi cho-

ra-tadbirlar shular jumlasidandir. AQSh, Kanada, Braziliya, Rossiya, Xitoy va Yevropa ittifoqining ayrim mamlakatlarida shu usulda qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash va uning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan dasturlarga ustuvorlik qaratilishi natijasida hozirgi kunda dunyo bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining yirik eksportchilariga aylandilar.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i rivojlangan dunyo mamlakatlarining qariyb barchasi iqtisodiy rivojlanishining yuqori cho‘qqilariga erishmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida fuqarolarning farovonlik darajasining ortishi ularning turli sohalarda samarali faoliyat olib borishlariga juda katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ularni yangiliklarga intilishini rag‘batlantiradi hamda bunday holatda inson kapitali kuchli raqobat ta’sirida yuqori ko‘rsatkichlarga erishishga intilishini oshiradi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i taraqqiyoti tarmoqda ekologik toza mahsulotlar yetishtirish orqali mamlakatda qayta ishlash tizimi rivojlanishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, qishloq aholisi uchun ish o‘rinlari sonining ko‘payishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida ham agrar sohada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va diversifikatsiyalashni qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida eksport qilinadigan meva-sabzavotlarning asosiy qismini ishlab chiqaruvchi dehqon xo‘jaliklarida mahsulotlarni qayta ishlash va qadoqlash imkoniyatlari cheklanganligi katta yo‘qotishlarga olib kelayotganligi, narxlarning mavsumiy keskin o‘zgarishi va bozor sharoitlarining barqaror emasligi ham ular faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan[1].

Hozirgi kunda dolzarb vazifalardan bo‘lib, dehqon va fermer xo‘jaliklarini barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillarni bartaraf etish, fermerlik harakatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, jamiyatda yetakchi kuchga aylanishini ta’minlashga qaratilgan shart-sharoitlarni yaratish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash yo‘li bilan dehqon va fermerlar daromadini yanada oshirishga qaratilgan masalalarning maqbul yechimlarini topish muhim bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, Respublikamizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonlarini kompleks statistik tahlili, xo‘jaliklarning iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini ko‘p omilli baholash, hududlar kesimida agrar sektorni rivojlanishidagi muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb va muhim masala hisoblanadi[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, tarkibiy tuzilmalarini statistik baholash bo‘yicha ko‘pgina mahalliy va xorijiy olimlar va mutaxassislar tomonidan keng ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Mamlakatimizning yana bir yetakchi iqtisodchi olimlaridan bo‘lgan T. Shodiyev qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirishning ekonometrik modellarini nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy tadqiq etgan[3]. X. Xo‘jaqulovning “Agrar sohada ishlab chiqarish jarayonlarining xo‘jalik yuritish shakllari bo‘yicha statistik tahlili”[4] nomli ilmiy maqolasida mamlakatimizda qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, ularda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tutgan o‘rni, xo‘jalik toifalari bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish darajasi va dinamikasi statistik baholanib, ilmiy xulosalar chiqarilgan. B. Utanovni “Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari faoliyatini samaradlorligini ifodalovchi integral ko‘rsatkichlar”[5] mavzusidagi ilmiy maqolasida Respublikamizda ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari faoliyatini tavsiflovchi va ularning iqtisodiy aniqlash va integral ko‘rsatkichlar tizimi ilmiy asoslangan holda bayon etilgan. Q. Berdiqulovning “Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishni statistik tahlili” nomli ilmiy maqolasida mavzuda qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish bo‘yicha keyingi yilda qabul qilingan me’yoriy hujjatlar va uning amaliyotga joriy etish jarayonlari, qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan uslubiyotidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan[6]. Q.X. Jumayevni “Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishning iqtisodiy – statistik tahlili” nomli ilmiy maqolasida[7] mamlakatimizda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishning bugungi kundagi holati, tarmoqning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni, ularning asosiy sohalarining xo‘jalik faoliyatlari bo‘yicha iqtisodiy tahlili hamda tarmoqni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilishi zarur bo‘lgan asosiy muammolar va yo‘nalishlar bayon etilgan.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmoni. www.lex.uz.

2 U.M. Zakirova. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi tarkibiy o‘zgarishlar va ularni iqtisodiy-statistik tahlili. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 2022-y mart-aprel (№ 00058).

3 Shadiyev T.Sh. Экономические модели развития сельского хозяйства. – T.: Fan, 1986. – 168 c.

4 Xo‘jaqulov X.D. Agrar sohada ishlab chiqarish jarayonlarining xo‘jalik yuritish shakllari bo‘yicha statistik tahlili //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2014, № 3.

5 Utanov B. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari faoliyatini samaradlorligini ifodalovchi integral ko‘rsatkichlar //O‘zbekiston statistika axborotnomasi ilmiy elektron jurnali, 2019 yil 1-son.

6 Berdiqulov Q.G‘. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishni statistik tahlili // O‘zbekiston statistik axborotnomasi ilmiy elektron jurnali, 2021-yil, 1-son.

7 Jumayev Q.X. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishning iqtisodiy statistik tahlili //O‘zbekiston statistika axborotnomasi ilmiy elektron jurnali, 2021 yil 4-son.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lib, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ulardagi tarkibiy o‘zgarishlarni baholash, istiqboldagi yo‘nalishlarini belgilash bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, Respublikamizda agrar sektorning rivojlanish jarayonlari, ulardagi tarkibiy va tuzilmaviy o‘zgarishlarni kompleks statistik tahlilini amalga oshirish va samaradorligini baholash natijasida istiqbol uchun muqobil bo‘lgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish va asosiy yo‘nalishlarini belgilash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar, vaqt qatorlari, iqtisodiy indekslar, statistik jadval va grafiklar kabi usullardan keng foydalanildi.

MUHOKAMA


Mamlakatimizning ayrim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlaridagi dinamik o‘zgarishlar tarmoq rivojlanishida o‘zaro aloqadorlik jihatlarini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. 2023-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi YaIMi hajmi joriy narxlarda 1 066 569,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022-yil bilan taqqoslaganda 6,0 % ga o‘sdi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 426,3 trln. so‘mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 411,6 trln. so‘mni, o‘rmon xo‘jaligi – 10,4 trln. so‘mni, baliqchilik xo‘jaligi – 4,3 trln. so‘mni tashkil qildi.

Joriy yil boshiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) soni – 37 772 birlikni, shundan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlarda – 34 831 birlikni, o‘rmon xo‘jaligida – 239 birlikni hamda baliqchilik xo‘jaligida – 2 702 birlikni tashkil etdi.

NATIJALAR

Hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ining yalpi hududiy mahsulot (YaHM) tarkibidagi ulushi mamlakat iqtisodiyotida agrar tarmoqning hududlar kesimidagi salmog‘ini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



1-rasm: Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ining YaHM tarkibidagi ulushi, % da[8]

Yuqoridagi keltirilgan ma’lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, 2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, yalpi ichki mahsulot (YaIM) (yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ)) tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushi 24,3 % ni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng yuqori ulush Jizzax viloyatiga (49,2 %) to‘g‘ri kelsa, aksincha kam ulushga ega hududga Navoiy viloyatini (13,9 %) keltirib o‘tish mumkin.

8 www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2023-yil yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 4,1 % (2022 yilda – 3,6 %) darajasida ijobiy o‘sish qayd etildi. Ushbu ijobiy o‘sish sur’atlari chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 3,7 % (2022 yilda – 3,3 %) ga o‘sishi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, joriy davrda dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish esa 4,2 % (2022 yilda 3,8 %)ga o‘sdi9.


O‘zbekiston Respublikasi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmiga qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi hamda baliqchilik xo‘jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar hajmining ta’sirini tahlil qilish zarur(1-jadval).

1-jadval: O‘zbekistonda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi, trln.so‘m[10]

	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2023-yilda 2019-yilga nisbatan o‘zgarishi, %
Jami	**224,3**	**261,9**	**317,0**	**362,9**	**426,3**	**190,0**
shu jumladan:						
Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar	217,3	253,2	306,9	350,1	411,6	189,4
shundan:						
Qishloq xo‘jaligi mahsuloti	216,3	250,3	303,4	345,2	404,6	187,0
O‘rmon xo‘jaligi	5,5	6,8	7,5	9,6	10,4	189,0
Baliqchilik xo‘jaligi	1,5	1,9	2,6	3,2	4,3	2,8 m.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari O‘zbekistonda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 2023-yilda 2019-yilga nisbatan 90,0 % ga oshgan. O‘z navbatida dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 189,4 % ni tashkil etgan.

Ularning jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridagi ulushi tarmoq rivojlanishida qanday ta’sirga ega ekanligini ko‘rsatadi (2-rasm).



2-rasm: 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, % da[11]

Dehqonchilik mahsulotlari va uning tarkibidagi meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishdagi kuzatilyotgan ayrim o‘zgarishlar dinamikasini quyidagi jadval ma’lumotlarida ko‘rishimiz mumkin (2-jadval).

9 www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlaridan olingan.
10 www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
11 www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2-jadval: 2023-yilda yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari o‘sish sur’ati, % da[12]

Mahsulot nomi	Barcha toifadagi xo‘jaliklar	Fermer xo‘jaligi	Dehqon va tomorqa xo‘jaligi	Qishloq xo‘jaligi korxonasi
Donli ekin	105,5	104,0	108,8	112,8
Sabzavotlar	103,5	103,3	102,7	120,0
Kartoshka	103,8	109,5	101,5	111,1
Poliz ekini	105,5	108,0	101,9	108,0
Meva-rezavor	104,1	105,9	103,2	95,1
Uzum	98,7	97,5	99,5	102,5

Tahlillarimizga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda ham dehqon va fermer xo‘jaliklarida ham, qishloq xo‘jaligi korxonalarida ham o‘rganilayotgan yilda ijobiy o‘sish sur’ati kuzatilgan. Faqat uzum ishlab chiqarishda qishloq xo‘jaligi korxonalaridan tashqari barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarda pasayish kuzatilgan.

Tahlillarimiz ko‘rsatishicha, mamlakatimizda 2023-yilda barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 8 426,6 ming tonna donli ekinlar (2022-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 5,5 % ga ko‘p), 3 574,1 ming tonna kartoshka (3,8 % ga ko‘p), 11 553,7 ming tonna sabzavotlar (3,5 % ga ko‘p), 2 553,5 ming tonna poliz (5,5 % ga ko‘p), 3 121,7 ming tonna meva va rezavorlar (4,1 % ga ko‘p), 1 737,6 ming tonna uzum (1,3 % ga kam) yetishtirilgan.

Yuqoridagi ijobiy o‘sish dinamikasiga erishishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ta’sirini quyidagi keltirilgan ma’lumotlar asosida baholashimiz mumkin (3-jadval).

3-jadval: 2023-yilda mamlakatimizda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ta’siri[13]

Hududlar	Hajmi mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati,%	Jamiga nisbatan, %
O‘zbekiston	**403 974,4**	**103,6**	**94,8**
Qoraqalpog‘iston	15 530,9	104,1	93,9
Andijon	41 590,5	104,0	96,1
Buxoro	37 325,7	103,6	97,2
Jizzax	26 747,7	104,1	97,0
Qashqadaryo	39 415,8	104,6	98,1
Navoiy	18 909,8	101,8	96,0
Namangan	30 915,6	104,4	94,2
Samarqand	47 974,9	104,9	93,7
Surxondaryo	31 679,0	101,7	94,1
Sirdaryo	13 319,0	101,0	90,8
Toshkent	36 297,2	103,1	88,5
Farg‘ona	37 501,4	103,6	95,1
Xorazm	26 766,9	103,6	96,3

Yuqorida keltirilgan jadvaldan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 403 974,4 mlrd. so‘mni, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin.

Respublikaning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 94,8 % ni tashkil etdi, Ushbu ko‘rsatkichni hudular bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, jami tarmoqqa nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yuqori ulushiga Qashqadaryo (98,1 %), Buxoro (97,2 %), Jizzax (97,0 %), Xorazm (96,3 %), Andijon (96,1 %) va Navoiy (96,0 %) viloyatlarini keltirishimiz mumkin.

Mamlakatimizda joriy yildan qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha quyidagilar tasdiqlandi:

- qishloq xo‘jaligi sohasida konsepsiyasi;
- qishloq xo‘jaligi sohasida ro‘yxatdan o‘tkazishga doir chora-tadbirlar rejasi;
- qishloq xo‘jaligi sohasida ro‘yxatdan o‘tkazishga ko‘maklashish bo‘yicha Respublika komissiyasining tarkibi;


12 www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
13 www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

- qishloq xo‘jaligi sohasida ro‘yxatdan o‘tkazishga ko‘maklashish bo‘yicha hududiy komissiyalarning namunaviy tarkibi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida ro‘yxatdan o‘tkazish quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

- aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash;
- aholining turmush darajasi va farovonligini oshirish;
- mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq statistik ma’lumotlarni yig‘ish, umumlashtirish, baholash, tahlil qilish va e’lon qilish.

Ro‘yxatdan o‘tkazish qishloq xo‘jaligi faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarini hisobga olish orqali amalga oshiriladi(3-rasm).



3-rasm: Qishloq xo‘jaligini ro‘yxatdan o‘tkazish asosiy ko‘rsatkichlari[14]

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoni 3 bosqichda amalga oshiriladi. Ya’ni:

1-bosqich-2022–2024-yillarni o‘z ichiga olib, quyidagilarni nazarda tutadi:

- ro‘yxatdan o‘tkazishni tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari hamda metodik asoslari, ro‘yxatdan o‘tkazishga doir boshqa masalalarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatni ishlab chiqish;
- sinov asosida qishloq xo‘jaligi sohasida ro‘yxatdan o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va uni amalga oshirish, natijalarini tahlil qilish;
- ro‘yxatdan o‘tkazishning yakuniy natijalarini olish va e’lon qilish uchun avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish;
- ro‘yxatdan o‘tkazish tadbirlarida ishtirok etuvchi xodimlarni o‘qitish.

2-bosqich-2024-yilda amalga oshirilib, bevosita qishloq xo‘jaligi sohasida ro‘yxatdan o‘tkazish tadbiri bajariladi, ya’ni qishloq xo‘jaligi faoliyati to‘g‘risidagi birlamchi ma’lumotlar yig‘iladi.

3-bosqich- 2024–2026-yillarda quyidagilar amalga oshiriladi:

- ro‘yxatdan o‘tkazishga doir birlamchi ma’lumotlarni qayta ishlash uchun avtomatlashtirilgan axborot tizimida qabul qilib olish;
- ma’lumotlarini avtomatlashtirilgan axborot tizimida qayta ishlashga tayyorlash va joriy etish;
- ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha dastlabki natijalarni olish;
- ro‘yxatdan o‘tkazish natijalarini e’lon qilish va tarqatish.

XULOSA

1. Statistik tahlil ma’lumotlaridan foydalanib, istiqbolda obyekt sifatida ilmiy tadqiq etilayotgan qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi xo‘jaliklar faoliyatini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- xorijiy investitsiyalar asosida agrofirmalar tomonidan mahsulotlarni saqlash omborlarini yangilash;
- fermerlar uyushmasi, savdo sanoat palatasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda yangi mini texnologiyalarning ko‘rgazmalari tashkil etish, ularni sotib olish bo‘yicha zaruriy statistik ma’lumotlar bazasini shakllantirish;
- hududlarda fermer xo‘jaliklarining zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanishi uchun zaruriy moliyaviy ko‘mak (lizing, imtiyozli kredit) berishni qayta ko‘rib chiqish; tijorat banklaridan imtiyozli kreditlar ajratish;
- tashqi va ichki bozor, qayta ishlash korxonalari, aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabi, narxlari, sotib olish hajmlari kabi ko‘rsatkichlarga doir statistik axborotlar bazasini shakllantirish maqsadga muvofiq.

14 https://bugun.uz/O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi bo‘yicha statistik ma’lumotlar bazasi kengajtiriladi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2. Raqobat sharoitida qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi yo‘nalishlarni tizimli statistik tadqiq etish maqsadga muvofiq sanaladi. Xususan:
- Respublika (hududlar) darajalarida qishloq xo‘jaligi subyektlari faoliyatini zamonaviy statistik usullar asosida kompleks tahlil qilish;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish asosida ularning raqobatbardoshligini oshirish;
- qishloq xo‘jaligi tarmog‘i statistika tizimida axborotlar bilan ishlash va ularni tarqatish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining mavjud salohiyatlaridan kengroq foydalanish va boshqalar.

3. Istiqbolda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda quyidagi omillarga e’tibor qaratish lozim:
- maqsadli dasturlarni amalga oshirish;
- yangi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni barpo etish;
- tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish;
- qayta ishlash sohasida yangi korxonalar tashkil etish hamda bozorni mahalliy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash;
- ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xorijiy davlatlarga eksport ko‘lamini kengaytirish va boshqalar.

4. Respublikamiz qishloq xo‘jaligini iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini statistik prognozlash uslubiyotini takomillashtirish maqsadida quyidagi vazifalar hal etilishi zarurligi tavsiya etildi. Bular:
- qishloq xo‘jaligining rivojlanish maqsadlari, variantlari va parametrlarining ilmiy asoslanishi zarurligi;
- jarayonga obyektiv ta’sir ko‘rsatadigan rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlarining hisobga olinishi kerakligi;
- tovar va xizmatlar bozori, mehnat bozori, kapital va moliya bozorining istiqbolli rivojlanish xususiyatlarini guruhlarga ajratilishi hamda eksport salohiyatini kengaytirish uchun shart-sharoitlar yaratilishi va h.k.lar.

5. Ma’lumki, qishloq xo‘jaligida tuzilmaviy-tarkibiy o‘zgarishlarni miqdoran baholash va undagi siljishlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini o‘lchashda turli xil statistik usullar qo‘llaniladi. Xususan: umumlashtiruvchi statistik ko‘rsatkichlar, turli ko‘rinishdagi guruhlashtirish, ko‘p o‘lchamli guruhlashtirish usuli, omilli tahlil usullari (shu jumladan indeksli, korrelyatsion-regression tahlil usuli, dispersion tahlil), rayonlashtirish va hokazo. Odatda tuzilmaviy holatni tashkil etuvchi ulushlar orasidagi tafovutni, ya’ni tarkibiy siljishlarning tezligi va jadalligini yoki ulushlar rangi (tartib raqami bo‘yicha o‘rni) orasidagi tafovutni statistik jihatdan umumlashtirilgan holda miqdoran baholashda variatsion ko‘rsatkichlar usuli, tarkibiy siljishlarning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholashda korrelyatsion-regression tahlil va, ayniqsa, indeks usuli keng qo‘llaniladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2021-yil 1-aprelda qabul qilingan. www.lex.uz
2. “O‘zbekiston Respublikasining “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2004-yil 26-avgust, 662-II-son. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853- sonli Farmoni. www.lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-sonli Farmoni. www.lex.uz
5. Xo‘jaqulov X.D. Agrar sohada ishlab chiqarish jarayonlarining xo‘jalik yuritish shakllari bo‘yicha statistik tahlili //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2014, № 3.
6. Shadiev T.Sh. Ekonomicheskie modeli razvitiya selskogo xozyaystva. – T.: Fan, 1986. – 168 s.
7. Utanov B. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari faoliyatini samaradlorligini ifodalovchi integral ko‘rsatkichlar //O‘zbekiston statistika axborotnomasi ilmiy elektron jurnali, 2019-yil 1-son.
8. Berdiqulov Q.G‘.Qishloq xo‘jalikida amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishni statistik tahlili //O‘zbekiston statistik ahborotnomasi ilmiy elektron jurnali, 2021-yil, 1-son.
9. Jumaev Q.X. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishning iqtisodiy-statistik tahlili //O‘zbekiston statistika axborotnomasi ilmiy elektron jurnali, 2021-yil 4-son.
10. Berkinov B.B., Ergasheva Sh.T. Mintaqada ekin maydonlarini optimal tarkibini shakllantirish. Voprosы modelirovaniya i informatizatsii ekonomiki. Sbornik nauchnx trudov. Institut kibernetiki. –T.:2000, 88-91-b.
11. Zakirova U.M. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi tarkibiy o‘zgarishlar va ularni iqtisodiy-statistik tahlili. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 2022-y. mart-aprel (№ 00058)
12. www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi
13. https://bugun.uz
14. https://www.gazeta.uz/uz/2019/07/08/agriculture.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARINING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI

Pardayev Jamshid Muzaffarovich
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishning ilmiy-nazariy masalalari, alohida yondashuvlar asosida xizmatlar sohasini rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy resurslar va infratuzilma bilan ta’minlash hamda ularga qulay soliq rejimini joriy etish” bugungi kundagi dolzarb masalalar sifatida belgilab olinganki, bu esa xizmat ko‘rsatish korxonalariga qulay soliq rejimlarini qo‘llash va uning natijadorligiga erishishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatishni yangi bosqichga chiqarish, aholining soliq ma’murchiligi bo‘yicha savodxonligini yanada oshirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, teng raqobat sharoitini yaratish va iste’molchilarning huquqlarini kafolatlash hamda yashirin iqtisodiyotni jilovlashda keng jamoatchilikning faol ishtirokini rag‘batlantirishga asoslangan ma’murchilikni takomillashtirish yoritilgan. Shu bilan birga, sohalar o‘rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg‘or axborot-kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Abstract: This article examines the scientific and theoretical issues of taxation of enterprises in the service sector in Uzbekistan, the development of the service sector based on individual approaches, providing business entities with financial resources and infrastructure, as well as the introduction of a favorable tax regime in Uzbekistan.it requires research work. At the same time, it highlights the entry into a new level of service for business entities, further improving the literacy of the population in the field of tax administration, improving administration based on business support, creating equal conditions for competition and guaranteeing consumer rights, as well as encouraging active participation of the general public in curbing the hidden economy. At the same time, industries are being studied, foreign experience is being formed, scientific and practical conclusions and proposals for its application in our country.

Key words: tax revenue, threat-analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax benefits, tax rate.

Аннотация: В данной статье рассматриваются научно-теоретические вопросы налогообложения предприятий сферы услуг в Узбекистане, развитие сферы услуг на основе отдельных подходов, обеспечение субъектов предпринимательства финансовыми ресурсами и инфраструктурой, а также внедрение благоприятного налогового режима в Узбекистане.требует проведения исследовательской работы. В то же время освещается выход на новый уровень обслуживания субъектов предпринимательства, дальнейшее повышение грамотности населения в области налогового администрирования, совершенствование администрирования, основанного на поддержке предпринимательства, создании равных условий конкуренции и гарантии прав потребителей, а также поощрении активного участия широкой общественности в сдерживании скрытой экономики. При этом изучаются отрасли, формируется зарубежный опыт, научно-практические выводы и предложения по его применению в нашей стране.

Ключевые слова: налоговые поступления, анализ угроз, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационные и коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

KIRISH

Dunyo amaliyotida uchinchi sektor sifatida qarab kelingan xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatning natijasida bugungi kunda rivojlangan davlatlarda xizmatlar sohasi butun jahon hamjamiyatining iqtisodiy o‘sishini ta’minlashning ustuvor yo‘nalishiga aylanib ulgurdi. Jahon iqtisodiyotida birlamchi va ikkilamchi tarmoqlar ulushi kamayib borayotgan bir paytda, xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi ortib bormoqda. Jahon yalpi mahsuloti tarkibida 2020-yilda xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi 68 foizni, rivojlangan mamlakatlarda 75-78 foizni, rivojlanayotgan mamlakatlarda 50 foizni tashkil etdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xizmat ko‘rsatish korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va soliqlarni optimallashtirish yo‘llari mavzusiga oid qisqacha adabiyotlar sharhini keltiramiz.

F.Kotlerning fikricha, xizmat – bu bir tomon boshqasiga taklif qilishi mumkin bo‘lgan har qanday faoliyatdir [1].

F.Kotler fikricha, xizmatlar deganda, yirik xilma-xillikdagi faoliyat turlari va tijorat mashg‘ulotlarini ta’riflab, ular “bir taraf ikkinchi tarafga taklif qilishi mumkin va asosan ularni his qilib bo‘lmaydi hamda biror-bir narsaga egalik qilishga olib kelmaydi. Xizmatlarni ko‘rsatish moddiy ko‘rinishdagi tovar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin yoki aksincha bog‘liq bo‘lmasligi ham mumkin deydi [2].

I.S.Tuxliyev “Xizmatlar – bu ko‘zga ko‘rinmas tovarning o‘ziga xos turidir” ko‘rsatib o‘tgan edi [3].

Rossiyalik olima T.Xilla bu boradagi tadqiqotlari natijasida Xizmat – qandaydir iqtisodiy birlikka tegishli bo‘lgan shaxs yoki tovar holatining boshqa iqtisodiy birlik tomonidan oldindan birinchi birlikning roziligi bilan sodir etiladigan faoliyati natijasidagi o‘zgarishidir [4].

I.Ochilovni fikricha, Xizmat deyilganda, insonning, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning, davlatning va jamiyatning ma’lum bir ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan, kishilarning naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog‘liq ongli faoliyati tushuniladi [5].

G‘.Mustafoyevning fikricha, xizmat – bu ma’lum tomon tarafidan yo‘naltirilgan, o‘z qiymatiga ega bo‘lgan nomoddiy ko‘rinishdagi harakat yoki mehnat mahsuli tushuniladi [6].


N.A. Barinov xizmat – bu mahsulotning (narsaning) foydali harakati yoki insonning o‘ziga xos, oqilona ehtiyojlarini qondirish uchun faoliyat shaklida namoyon bo‘ladigan, foydalanish qiymatlarini yaratadigan, mehnat natijalari bo‘yicha paydo bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlardir [7].

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortish masalalarini nazariy jihatdan tadqiq qilishda bizning fikrimizcha, quyidagi asosda yondashish lozim, deb hisobladik. Dastlab, xizmat ko‘rsatish tushunchasi va tizimining mohiyatini ochish, uning boshqa tarmoqlardan o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatish, bu turdagi korxonalarda iqtisodiy faoliyatning jihatlarini va bu turdagi faoliyat ko‘rsatuvchilarning korxona sifatidagi iqtisodiyotdagi rolini aniqlash, shuningdek, xizmat ko‘rsatish korxonalarining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatini hamda ularni soliqqa tortishning ilmiy asoslarini yoritib berish doirasida amalga oshiramiz.

Bu esa bizning fikrimizcha, xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishning nazariy jihatlarini ko‘rsatib beradi.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarini soliqqa tortishda bu turdagi korxonalarning xususiyatlarini anglash uchun ham xizmat ko‘rsatish tushunchasining mohiyatini aniqlashimiz lozim. Ayrim manbalarga ko‘ra, “xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan, umumlashtirilgan toifadir”[1].




1-rasm: Xizmat ko‘rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari[2]

1 Stat.uz. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Statistik ko‘rsatkichlarga qisqa metodologik Tushuntirishlar. Toshkent-2022.

2 Muallif tomonidan tuzilgan.

Biz tomonimizdan keltirilgan 1-rasmdagidek xizmat ko‘rsatish korxonalarining vujudga kelishining asoslari sifatida, avvalo, iqtisodiy tizimning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tizim shaklida mavjud bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Ishlab chiqarish sohasidagi tovarlar ishlab chiqarilishning iqtisodiy-texnologik xususiyatlari va bu tizimning bir maromda ketishi uchun ma’lum bir qo‘shimcha faoliyatga ehtiyoj tug‘iladiki, bunday ehtiyojlarni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish mohiyati jihatdan xizmat tushunchasi bilan izohlanadi. Bundan tashqari ishlab chiqarilgan tovarlarni iste’mol qilishning xususiyati esa ishlab chiqarilgan tovarlarni uning iste’molchilariga yetkazishda oraliq bo‘g‘inni talab qiladiki, bu jarayon esa xizmatlar sohasini yoki uni amalga oshirishni – korxonalarga bo‘lgan ehtiyojni taqozo etadi. Tovar ishlab chiqarish hajmining oshib borishi, uning diversifikatsiyalashuvi, tovarlarni iste’mol etishda ma’lum bir qo‘shimcha xizmatlarni talab etishi ham xizmat ko‘rsatish korxonalarining yuzaga kelishida muhim omil sifatida yuzaga chiqadi. Bundan tashqari iqtisodiy tizimda ayrim tovarlarni ishlab chiqarishning o‘ziga xosligi ma’lum bir xizmatlarga bo‘lgan talabni shakllantiradi (masalan, tog‘-kon sanoati, kimyo sanoati, formokologiya sanoati va shu kabilar). Xizmat ko‘rsatish korxonalarining yuzaga kelishida aholining turmush tarzi xususiyatlari juda katta rol o‘ynaydi. Jamiyatda iqtisodiy taraqqiyotning o‘sib borishi, yangi turdagi tovarlarning paydo bo‘lishi, aholining pul mablag‘larining oshib borishi aholining yangi turdagi ijtimoiy ehtiyojlarini keltirib chiqaradi. Bu kabi yangi ehtiyojlar esa xizmatlarni yangi turining paydo bo‘lishiga va uni amalga oshiruvchi korxonalarning vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. Xizmat kategoriyasining vujudga kelishi, iqtisodiy tizimda aholining turli xil iqtisodiy manfaatlarining paydo bo‘lishi xizmatlar sohasining alohida katta tizim sifatida faoliyat ko‘rsatishini taqozo etadi. Bunday iqtisodiy tizimning faoliyati esa uni amalga oshiruvchi korxonalarning vujudga kelishini ta’minlaydi. Bu turdagi korxonalar esa xizmatlarning xususiyatlariga muvofiq tarzda o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud bo‘ladiki, buni quyidagi rasmda ko‘rsatib o‘tishga harakat qilamiz.



2-rasm: Xizmat ko‘rsatish korxonalarining o‘ziga xos xususiyatlari[3]

Biz tomonimizdan 2-rasmda keltirilganidek xizmat ko‘rsatish korxonalari o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu turdagi korxonalarning muhim xususiyatlari sifatida:

Birinchidan, ularning iqtisodiy-moliyaviy jihatdan bozor talablariga tez moslashuvchanligi, ya’ni agar ixtisoslashgan faoliyat yo‘nalishida raqobat kuchayib ketgan holatda xizmat ko‘rsatishning yaqinroq (o‘rinbosar xizmat) xizmat turiga moslashishi nisbatan tez amalga oshadi. Masalan, mehmonxona xizmatidagi talabning kamayishi oqibatida ovqatlanish xizmatiga moslashishi tez va kam xarajatlar bilan amal oshishi mumkin, bu esa xizmat sohasining tez moslashuvchanligini ko‘rsatib, tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarga nisbatan ushbu xususiyatlari bilan afzallikka egadir.

Ikkinchidan, uning moslashuvchanligi bu turdagi korxonalarning boshqa bir muhim xususiyatiga nisbatan risk darajasining kamligini ham ko‘rsatadi, bu kabi korxonalarni tashkil qilishda unga tikilgan moliyaviy sarmoyalarning qaytishi va samaradorlik ko‘rsatkichlarini keltirishda risk boshqa yirik korxonalarga nisbatan kamroq bo‘ladi, bu esa xizmat ko‘rsatish korxonalariga investitsiyalar oqimining ortishiga, shuningdek, bu turdagi korxonalarning ko‘payishiga muhim omil bo‘ladi.

3 Muallif tomonidan tuzilgan.

Uchinchidan, xizmat ko‘rsatish korxonalari yirik ishlab chiqarish subyektlari tomonidan iqtisodiy jihatdan nomaqbul bo‘lgan faoliyatni amalga oshirishning qulayligi, ya’ni iqtisodiy tizimda oraliq operatsiyalarni bajarish uchun moslashganligi bilan ham muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, tovar ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini iste’molchilarga yetkazishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Chunki tovar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan korxonalar tomonidan o‘z tovarlarini iste’molchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berish hamma vaqt ham samarali bo‘lmaydi, bunda xizmat ko‘rsatish korxonalari katta rol o‘ynaydiki, bu tovar ishlab chiqaruvchi uchun ham iste’molchilar uchun ham qulay hisoblanadi.

Beshinchidan, xizmat ko‘rsatish korxonalari aholining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga moslashgan bo‘ladi, bu esa aholining turmush tarzining yaxshilanishida katta ahamiyatga ega.

Oltinchidan, aholi bandligini ta’minlashda katta ahamiyatga egaligi, asosan kichik biznes shaklda mavjud bo‘lishi hamda moliyaviy resurslarning tez aylanishligi kabi xususiyatlarga egaligi bunday korxonalarning bozor munosabatlarini tashkil etish va uning rivojlanib borishida o‘ziga xos ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarining iqtisodiy-sotsial mohiyati va ahamiyatini tadqiq qilishda respublikamizning milliy xususiyatlarini e’tiborga olgan holda yondashishni maqsadga muvofiq, deb hisoblagan holda milliy iqtisodiyot doirasidagi ayrim ilmiy ishlarni tahlil qilmoqchimiz. Bu borada tadqiqotchi B.Ismailovning ayrim ilmiy qarashlari ancha e’tiborga loyiqdir. Mazkur tadqiqotchi o‘z tadqiqotlarida “xizmat ko‘rsatish sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o‘z mazmuniga ko‘ra turmush farovonligi va uning sifatini oshirish, zamonaviy tarmoqlarning shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan inson kapitalini rivojlantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish, mehnat taqsimotini nisbatan yuqori darajasini ta’minlash bo‘yicha xo‘jalik faoliyatining turli yo‘nalishlarini qamrab oladi, iqtisodiyotning transformatsiyalashishi sharoitida aksariyat xizmatlar turlari tarkibida moddiy buyumlar ahamiyatli o‘ringa ega bo‘lsa, buning aksi moddiy ishlab chiqarish tarkibida nomoddiy ko‘rinishdagi elementlar hissasi ortib bormoqda”[4], degan fikrlari ancha o‘rinlidir.

Bundan tashqari mazkur iqtisodchi xizmatlarni taqdim qilishning to‘rtta bosqichi (zarur resurslar bilan ta’minlash, ijro etishning texnologik jarayoni, nazorat qilish, sinovdan o‘tkazish, qabul qilish, baholash, xizmat ko‘rsatish jarayoni) va ushbu sohada faoliyat yuritadigan korxona va tashkilotlar rivojlanishining asosiy tamoyillari (maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili, xizmatlarni realizatsiya qiluvchi va xaridorning yakuniy natijalariga muvofiqligi tamoyili, talab va taklif muvofiqligini ta’minlash tamoyili, xizmatlar bozorini rivojlantirishning transversallik (xizmat ko‘rsatish sohasida infratuzilmaviy va institutsional cheklovlarni bartaraf etish, hududiy iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va realizatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda an’analar va innovatsiyalarning integratsiyasini ta’minlash) tamoyili, xizmat ko‘rsatish sohasida mehnat unumdorligini uzluksiz o‘sishini ta’minlash tamoyili)ni ko‘rsatib berganki, bu xizmat ko‘rsatish korxonalarini tashkil qilish va ularni boshqarishda muhim ahamiyatga egadir.

1-jadval: Xizmatlarning muayyan tasnifiy belgilari bo‘yicha turlarga ajratilishi[5]

№	Xizmatlarning tasnifiy belgilari	Xizmatlar turlari
1	Xizmatlarning turlari bo‘yicha	Ishlab chiqarish; taqsimlash; kasbiy; iste’mol (ommaviy); ijtimoiy
2	Moddiy-buyum mazmuniga ega xizmatlar	Moddiy ishlab chiqarish xizmatlari; nomoddiy xizmatlar.
3	O‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra	Yangi iste’mol qiymatini yaratuvchi; tovarlarning iste’mol xususiyatini tiklovchi xizmatlar; shaxsiy tavsifdagi xizmatlar
4	Ishlab chiqaruvchining xarakteriga bog‘liqligi bo‘yicha	Insonlarga taqdim qilinadigan xizmatlar; mashina va mexanizmlarga taqdim qilinadigan xizmatlar.
5	Xizmatlarni ko‘rsatish vaqtida mijozlarning ishtirok etishiga bog‘liqligi bo‘yicha	Mijozning ishtirokini talab qiluvchi xizmatlar (kosmetolog, shifokor); mijozning ishtirokini talab qilmaydigan xizmatlar (adabiyotlarni qidirish, maishiy xizmat buyumlarini ta’mirlash).
6	Iste’molchilarning motivatsiyasiga bog‘liq holdagi xizmatlar	Insonlarning shaxsiy zaruratini qondirishga mo‘ljallangan xizmatlar (ta’lim, madaniyat, sport); korxona va tashkilotlarning jamoaviy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan xizmatlar (ishbilarmonlik tavsifidagi xizmatlar); ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga yo‘naltirilgan xizmatlar.

4 Ismailov B.A. Xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va tamoyillari iqtisod va moliya / Экономика и финансы. 2021, 8(144).

5 Ismailov B.A. Xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va tamoyillari iqtisod va moliya / Экономика и финансы. 2021, 8(144).

7	Ishlab chiqaruvchilarning motivatsiyasiga bog‘liq holdagi xizmatlar	Insonlarning shaxsiy zaruratini qondirishga mo‘ljallangan xizmatlar (ta’lim, madaniyat, sport); korxona va tashkilotlarning jamoaviy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan xizmatlar (ishbilarmonlik tavsifidagi xizmatlar); ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga yo‘naltirilgan xizmatlar.
8	Ishlab chiqaruvchilarning motivatsiyasiga bog‘liq holdagi xizmatlar	Maqsadi foydaga yo‘naltirilgan tijorat xizmatlari; muayyan ijtimoiy samarani olishga yo‘naltirilgan muhtojlarga yordam berish bo‘yicha xizmatlar.
9	Xizmat ko‘rsatish shakllari bo‘yicha	Tomonlarning kelishuv shartlari bilan muvofiqlikda xizmatlar olish huquqini taqdim qiluvchi hujjatga asoslangan xizmatlar; Ish, dam olish, turar joylari bo‘yicha; vaqt oralig‘ida amalga oshiriladigan shoshilinch xizmatlar; o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish.
10	U yoki bu tarmoqqa tegishliligiga ko‘ra	Sog‘liqni saqlash, ta’lim, maishiy, kommunal, turizm, ko‘chmas mulk sohasidagi, bank, axborot, moliyaviy va boshqa turdagi xizmatlar
11	Samaradorlikni oshirishga ta’siri bo‘yicha	Progressiv xizmatlar; subyektiv xususiyatga ega xizmatlar; individual xizmatlar.

O‘ylaymizki, xizmatlarni ushbu keltirilgan shaklda turkumlanishi ilmiy-uslubiy jihatdan boshqa turkumlanishga qaralganda nisbatan ilmiylikka egadir. Shu bilan birgalikda fikrimizcha, xizmatlarni turkumlanishida raqamlashtirilgan xizmatlar turlariga ko‘ra ham tasniflash o‘z mohiyatiga egadir. Bundan tashqari xizmatlar ko‘rsatishda daromad olish nuqtayi nazaridan mulkiy huquqlarni rasmiylashtirish orqali ularni boshqalarga foydalanishga berishga yo‘naltirilgan xizmatlar yoki vositachilikka asoslangan xizmat turlariga bo‘lgan ehtiyojlarning oshib borishi an’anaviy xizmatlardan ko‘ra raqamlashgan xizmatlarga transformatsiyalanuvining kuchayib borishi xizmatlarning turkumlanishiga yangicha yondashuvlarni keltirib chiqaradi. O‘z navbatida bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan G‘.Mustafoyev tomonidan xizmatlarning milliy iqtisodiyotda evolyutsion rivojlanish tendensiyalarini guruhlanishi ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz.

2-jadval: Xizmatlarning evolyutsion rivojlanish bosqichlari va turlari[6]

Xizmat (dastlabki ibtidoiy shakl)	Xizmat ko‘rsatish	Xizmat ko‘rsatish sohasi
Shaxsiy qorin to‘yg‘azishga urinish • O‘zini o‘zi himoya qilish • Ovchilik (yakka manfaat uchun) • Rasm chizish, turli qurollar yasashning dastlabki shakllari • O‘zini-o‘zi davolash • boshqalar	• Qorin to‘yg‘azish uchun jamoaviy maqsad uchun birlashish • Yollanma jangchilar, ovchilar, uy xizmatkorlari • o‘zi yoki boshqa birovning talabiga ko‘ra rasm chizish, rassomchilik qilish shu kabilar • Manfaat uchun yollanma faoliyatning barcha ko‘rinishlari • Ta’lim berish, tabiblik qilish • Boshqa birovlar uchun qurol yasash, kiyim tikish, uy qurish va shu kabilar	•Ta’lim sohasi • Sog‘liqni saqlash sohasi • Turizm sohasi • Bank, moliya va sug‘urta xizmatlari sohasi • Transport xizmatlari sohasi • Aloqa xizmatlari sohasi • Kommunal va maishiy soha • Madaniy multimedia, audio-video televideniye, dasturiy ta’minot sohasi

Ushbu tadqiqotchining ko‘rsatishicha, xizmatlar sohasining keyingi shakllangan guruhi qatoriga raqamli xizmatlar sirasiga quyidagilar:

- “ta’lim sohasidagi onlayn darslar, elektron darsliklar, elektron jurnallar, maxsus pedagogik vositalar;
- sog‘liqni saqlash sohasidagi kasallikni aniqlashda foydalaniladigan barcha maxsus apparatlar, onlayn maslahatlar, moslashtirilgan web-dasturlar;
- sayyohlik, dam olish, safar qilish uchun ma’lumotlarni taqdim etadigan dasturiy ta’minotlar;
- mobil qurilmalar, bankomat, elektron dasturiy vositalar va elektron pullar; internet, aloqa liniyalari, router, kabellar, to‘lqin tarqatuvchi qurilmalar;
- brauzer, veb-sayt, maxsus portallar, elektron hukumat, mo‘ljallangan dasturlar”[7] ham kiradiki, ushbu xizmatlarning boshqa xizmatlardan farqli jihatlari shundaki, ularning qiymati nisbatan arzonroq bo‘lsa, boshqa tomondan ularni iste’mol qilish darajasi tez va sifati ham anchayin yaxshiroq hisoblanadi, shu jihatdan, olganda bizning fikrimizcha raqamli xizmatlarni ko‘paytirish va boshqalarini raqamlashtirishni tezlashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

6 Mustafoyev G‘olib Sultonmurodovich. Xizmat ko‘rsatish va raqamli xizmatlar: rivojlanish bosqichlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020-yil. 189 bet.

7 Qarang: O‘sha manba.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Chunki raqamli xizmatlarni ko‘paytirish bugungi kunda jahon mamlakatlarida iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida alohida e’tibor berilayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan raqamli xizmatlarni rivojlantirish ham uni ishlab chiqaruvchisi uchun ham uni iste’mol etuvchisi uchun juda qulay va samarali hisoblanadi. Oddiy misol tarzida kompyuter dasturiy mahsul xizmatlarini ko‘rsatish bugungi kunda jadallashib borayotgan xizmat turlaridan biri bo‘lib, uni iste’mol etish darajasi va uning sifatida juda katta hisoblanadi, jumladan soliq xizmati organlari tomonidan ko‘rsatilayotgan interaktiv soliq xizmatlari yoki adliya bo‘linmalari tomonidan ko‘rsatilayotgan bepul yuridik xizmatlar va shu kabilar uni iste’mol etuvchilari uchun katta amaliy ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarga asoslangan xizmatlarni eksport qilish bugungi kunda mamlakatimizni rivojlantirishdagi eng muhim masalalardan biri sifatida ham belgilanganligi katta ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi “Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi”ga (IFUT 2-tahrir) ko‘ra, respublikamizda xizmatlar sohasi ma’lum bir belgilariga ko‘ra tasniflangan. Ushbu tasniflagichga asoslangan holda xizmat ko‘rsatish korxonalarining iqtisodiy ahamiyati jihatidan guruhlashtiramiz. Buni esa quyidagi rasmda keltirib o‘tamiz.

Bugungi kunda xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan korxonalarning faoliyat turiga ixtisoslashuviga ko‘ra, yuqorida keltirilgan xizmat ko‘rsatish korxonalardan tashqari, yana bir qator ularning turlari borki, ular jumlasiga, oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar, umumta’lim, maktabgacha ta’lim davlat muassasalarida tijorat asosida ta’lim olishni, shuningdek, radio va televideniye, internet-kanallar va pochta aloqalarini qo‘shgan holda har qanday darajadagi xususiy ta’lim olish va xohlagan kasbga o‘qishni ixtisoslashgan ta’lim sohasidagi xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan korxonalar, statsionar shifoxona muassasalari, poliklinikalar, stomatologiya muassasalari va tibbiy laboratoriyalar tomonidan pullik asosida ko‘rsatilgan kompleks xizmatlarni ko‘rsatadigan sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ko‘rsatadigan korxonalar, shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar hamda ko‘rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa muhandislik xizmatlar ko‘rsatadigan me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan korxonalarni ham keltirish mumkin.




3-rasm: Xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning turlari[8]

8 Amaldagi me’yoriy hujjatlarga asoslangan holda Muallif tomonidan tuzilgan.

O‘zbekiston Respublikasi “Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi”ga (IFUT 2-tahrir) ko‘ra, respublikamizda xizmatlar sohasi ma’lum bir belgilariga ko‘ra tasniflangan. Ushbu tasniflagichga asoslangan holda xizmat ko‘rsatish korxonalarining iqtisodiy ahamiyati jihatidan guruhlashtiramiz. Buni esa quyidagi rasmda keltirib o‘tamiz.

Albatta, yuqorida ham ta’kidlab o‘tganimizdek, xizmatlar sohasi tovar ishlab chiqarish sohasidan o‘z ichki va tashqi xususiyatlari va ularning iste’mol etilishi nuqtayi nazaridan anchayin farqlanadi. Chunki, xizmatlar moddiy shakldagi tovarlarni ishlab chiqarish jarayonidagi ayrim nozik oraliq bosqichlarda namoyon bo‘lib, ishlab chiqarishning bir maromda ketishiga o‘ziga xos funksiyani bajarsa, boshqa tomondan uning qiymatlarini aniqlash ham o‘ziga xos bo‘ladi. Hozirgi kunda esa respublikamizda xizmatni bajarish va uni iste’mol qilish davrining bir xil vaqtga to‘g‘ri kelishi xizmatning o‘ziga xos xususiyati sifatida ma’lum “bir vaqt davomida ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini o‘lchovchi “Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi” statistik ko‘rsatkichi, iste’molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo‘shgan holda) ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi. Xizmatlar oldi-sotdi obyekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to‘laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, xizmatlar bozor uchun mo‘ljallanib ishlab chiqarilgan hisoblanadi”[9]. Shu jihatdan olganda xizmatlarning o‘zini ham qiymatini aniqlash jihatdan turkumlash mumkin bo‘ladi.



4-rasm: Xizmatlarning qiymati va yo‘nalishlari bo‘yicha guruhlanishi[10]

Keltirilayotgan 3-rasm mazmuniga e’tibor beradigan bo‘lsak, nobozor ishlab chiqarilgan xizmatlar ular ijtimoiy yo‘naltirilgan bo‘lib, uning tarkibini aniqlashda har qanday darajadagi budjet mablag‘lari yoki budjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari, shuningdek jamoat tashkilotlari jamg‘armalari hisobidan to‘langan xizmatlarni ham o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi, bu xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xizmat ko‘rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ishlab chiqaruvchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar hajmida ko‘rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo‘yicha, qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksizsiz, hisoblangan to‘lovlar hisobga olinadi. Faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlarni tasniflash, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladiki, bozor xizmatlari hajmi tasniflash bo‘yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo‘yicha shakllantiriladi. Bozor xizmatlarining fizik hajmi indeksi ma’lum davr oralig‘idagi xizmatlar hajmining o‘zga-

9 Stat.uz. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Statistik ko‘rsatkichlarga qisqa metodologik Tushuntirishlar. Toshkent-2022.

10 Muallif tomonidan tuzilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

rishini aks ettiruvchi o‘lchangan qiymatdir. Norezidentlarga ko‘rsatilgan xizmatlar (agar to‘lov so‘mda amalga oshirilmagan bo‘lsa), xizmatlarga to‘lovlarni amalga oshirish sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so‘mning belgilangan kursi bo‘yicha qayta hisoblangan, shartnoma narxlari bo‘yicha aniqlanadi. Iste’molchilar tomonidan xizmatlar uchun to‘lovlar naqd pul, shu jumladan plastik kartochkalar va pul o‘tkazish, elektron to‘lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin[11].

Tadqiqot ishimizning mazkur bandi doirasida amalga oshirgan nazariy tahlillarga asoslanib xulosa qilishimiz mumkinki:

Birinchidan, xizmatlar sohasi texnologiyalari va tarmoq tuzilmasining murakkablashishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va xilma-xilligini yaxshilash, shuningdek, yuqori texnologiyali va intensiv xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona, tashkilot va xo‘jaliklarning samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar hajmida ko‘rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksizsiz hisoblangan to‘lovlar hisobga olinadi. Xizmatlar oldi-sotdi obyekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to‘laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, bozor uchun ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hisoblanadi.

Uchinchidan, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xizmat ko‘rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanadigan barcha xizmatlar ishlab chiqaruvchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari qiymatidir.

To‘rtinchidan, xizmatlar sohasi tovar ishlab chiqarish sohasidan o‘z ichki va tashqi xususiyatlari va ularning iste’mol etilishi nuqtayi nazaridan anchayin farqlanadi. Chunki, xizmatlar moddiy shakldagi tovarlarni ishlab chiqarish jarayonidagi ayrim nozik oraliq bosqichlarda namoyon bo‘lib, ishlab chiqarishning bir maromda ketishiga o‘ziga xos funksiyani bajarsa, boshqa tomondan uning qiymatlarini aniqlash ham o‘ziga xos bo‘ladi.

Beshinchidan, bu turdagi korxonalar iqtisodiy-moliyaviy jihatdan bozor talablariga tez moslashuvchan bo‘ladi, agar ixtisoslashgan faoliyat yo‘nalishida raqobat kuchayib ketgan holatda xizmat ko‘rsatishning yaqinroq, (o‘rinbosar xizmat) xizmat turiga moslashishi nisbatan tez amalga oshadi, xizmat ko‘rsatish korxonalari yirik ishlab chiqarish subyektlari tomonidan iqtisodiy jihatdan nomaqbul bo‘lgan faoliyatni amalga oshirish qulayligi ya’ni iqtisodiy tizimda oraliq operatsiyalarni bajarishga moslashganligi bilan ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Oltinchidan, xizmat ko‘rsatish korxonalari tovar ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini iste’molchilarga yetkazishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, tovar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan korxonalar tomonidan o‘z tovarlarini iste’molchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berish hamma vaqt ham samarali bo‘lmaydi, bunda esa xizmat ko‘rsatish korxonalari katta rol o‘ynaydiki, bu tovar ishlab chiqaruvchi uchun ham iste’molchilar uchun ham qulay hisoblanadi.

Yettinchidan, xizmat ko‘rsatish korxonalari aholining sotsial-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga moslashgan bo‘ladi, bu esa aholining turmush tarzini yaxshilanishida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Sakkizinchidan, aholini bandligini ta’minlashda katta ahamiyatga egaligi, asosan kichik biznes shaklda mavjud bo‘lishi hamda moliyaviy resurslarning tez aylanishligi kabi xususiyatlarga egaligi bunday korxonalarning bozor munosabatlarini tashkil etish va uning rivojlanib borishida o‘ziga xos ahamiyatligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Eksport tushumlarini xorijiy banklardagi hisoblari orqali amalga oshirish, shuningdek QQS qaytarish bo‘yicha xorijiy banklarga kelib tushgan mablag‘larni ham hisoblash tizimi joriy etish. Yakka tartibdagi tadbirkorlar (jismoniy shaxslar)ga chet eldan investitsiya kiritish maqsadida xorijiy valyutada yuborilgan mablag‘larni soliqdan ozod qilish bo‘yicha qonunchilikka o‘zgartirish kiritish. Tekshiruvlar o‘tkazish bo‘yicha yilning ma’lum bir aniq davrini belgilash va bir xo‘jalik subyektini tekshirish davriyligini belgilash bo‘yicha yangi tizim ishlab chiqish. Xo‘jalik subyekti vakillari tomonidan to‘g‘ri va sifatli rejalashtirish va samaradorligini amalga oshirish imkonini beradi.

11 Stat.uz. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Statistik ko‘rsatkichlarga qisqa metodologik Tushuntirishlar. Toshkent-2022.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Котлер Ф. Маркетинг менеджмент. Экс пресс-курс. 2-е изд. / Пер. с англ. под ред. Божук С. Г. СПб.: Питер, 2006. –464 с.
2. Котлер Ф. Основы маркетинга. –М.: Прогресс,1993. –С.63 8.
3. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Ibodullayev N.Ye., Amriddinova R.S. Turizm asoslari: O‘quv qo‘llanma – S.: SamISI, 2010. –247-b.
4. Сфера услуг: новая концепция развития / В.М. Рутгайзер, Т.И. Корягина, Т.И. Арбузов и др. –М.: Экономика, 1990. – С. 148.
5. Ochilov I. Bozor munosabatlari sharoitida xizmatlarning turlari va ularning tavsifi. // Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. –T.: “Iqtisodiyot-moliya”, 2008-yil.
6. Mustafoyev G‘olib Sultonmurodovich. Xizmat ko‘rsatish va raqamli xizmatlar: rivojlanish bosqichlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. –№ 6, noyabr-dekabr, 2020-yil. 188-bet.
7. Баринов Н. А. Указ. Соч. –С. 17.
8. J.Pardayev Korxonalarni soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish (xizmat ko‘rsatish korxonalari misolida) (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2024.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari. www.soliq.uz.
10. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi https://lex.uz/docs/4674902

TURIZM BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA MEHNAT BOZORINING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI





Berdiqulova Iroda Rayimqulovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, katta o‘qituvchisi

Berdikulov Jurabek
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti assistenti

Annotatsiya: Maqolada turizm sohasining ishchi kuchi o‘rnini yaratishdagi ahamiyati to‘g‘risida to‘xtalib o‘tilgan. Bunda turizmdagi bandlik darajasini, undagi ishchi kuchi salohiyatini baholovchi ko‘rsatkichlarning nazariy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, ishlab chiqilgan nazariy ko‘rsatkichlarning omilli tahlili ham amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm bozori, mehnat bozori, ishchi kuchi, turizm xizmat turlari, turmahsulot, segmentli bozor, salohiyatli bozor, imkoniyatli bozor, turizm servisi, bandlik darajasi.

Abstract: The article examines the importance of the tourism sector in creating a workforce. Theoretical aspects of indicators assessing the level of employment in the tourism sector and the potential of the workforce in it are covered. A factor analysis of the developed theoretical indicators was also carried out.

Key words: Tourism market, labor market, labor force, types of tourism services, tourism products, segmented market, potential market, potential market, tourism services, employment level.

Аннотация: В статье рассматривается значение туристической сферы в создании рабочей силы. Освещены теоретические аспекты показателей, оценивающих уровень занятости в сфере туризма и потенциал рабочей силы в нем. Также был проведен факторный анализ разработанных теоретических показателей.

Ключевые слова: Рынок туризма, рынок труда, рабочая сила, виды туристических услуг, туристические продукты, сегментированный рынок, потенциальный рынок, потенциальный рынок, туристические услуги, уровень занятости.

Turizm sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, ko‘plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda.

Ma’lumki, zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida xizmatlar tizimi doirasida turizm servisi eng muhim o‘rinni egallaydi. U jahon yalpi milliy mahsulotining 8-10% ga yaqin ulushini tashkil qiladi. Biroq ushbu ko‘rsatkichning ulushi bizning mamalakatimiz iqtisodiyotida sezilmas darajada bo‘lib qolmoqda. Bu esa, mamlakatimizda turizm servisining yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

Respublikamizning turizm bozorida hozirgi kunda turizm servisi tarkibiga kiruvchi quyidagi bir qator turizmning xizmat turlari (sayyohlik –tanishuv turizmi, madaniy turizm, ta’lim bilan bog‘liq bo‘lgan turizm, ilmiy turizm, rekreatsion turizm, sog‘lomlashtirish turizmi, ijtimoiy turizm, agroturizm, bolalar va yoshlar turizmi, maxsus tashkil etilgan turizm, mustaqil turizm, sport va sog‘lomlashtirish turizmi, ovchilik turizmi, sarguzasht turizmi, qo‘msash (nostalgicheskiy turizm) turizmi, kongressli turizm, kasbiy turizm, ekologik turizm, ekzotik turizm,

diniy turizm, qishloq turizmi, vaziyatli turizm, o‘yin-kulgu turizmi, qutbli turizm, etnik turizm, aralash turizm va boshqalar) faoliyat ko‘rsatib turibdi.

Turizmning bu xizmat turlarining barchasi o‘ziga xos rivojlanish xususiyatiga ega. Turizm bozorini tahlil qilishda ushbu turizm yo‘nalishlarini kompleks tarzda va, shuningdek, alohida bir tarzda birin-ketin o‘rganish talab etiladi. Turizm bozori murakkab tizim sifatida turmahsulotni ishlab chiqaruvchi bilan ushbu mahsulotni sotib olishga bo‘lgan talabi va imkoniyati bo‘lgan salohiyatli xaridorlarni o‘zaro bir-biriga bog‘laydi. Bozordagi mavjud murakkab jarayonlar har bir turmahsulot bilan undagi xizmatlar alohida-alohida komponentlar asosida shakllanishida o‘z ifodasini topadi. Misol uchun bularga, ovqatlantirish xizmatlarini, tarnsport xizmatlarini, turar joy bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlarni va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Qayd qilib o‘tish lozimki, turmahsulot tarkibiga kiruvchi komponentlar o‘zaro bir-biri bilan almashinib turadi. Masalan, turistik mahsulot tarkibiga, ya’ni, turistlarning hohishlaridan kelib chiqgan holda turistik paket tarkibiga turli xil kategoriyadagi mehmonxonalarni ham kiritishimiz mumkin. Shuningdek, turistlarga ularni belgilangan joyga samolyot, poyezd, avtobus yoki boshqa turdagi transport vositalari bilan yetkazishni taklif qilish mumkin.

Turizm bozori boshqa bozorlar kabi ikki turga (tovar bozori ya’ni, turmahsulotni taklif qilish va segmentli bozor, ya’ni turmahsulotga bo‘lgan talab) ajratiladi. Ushbu bozor turlari ilmiy jihatdan tahlil qilishda alohida bir tarzda yoki butun bir kompleks sifatida o‘rganiladi.

Turar joy, yetkazib berish yoki boshqa shartlardan kelib chiqib, turmahsulotning qiymati ham har xil bo‘lishi mumkin. Bunday turli tumanlik ushbu turmahsulotlarni xarid qilish qobiliyati bo‘lgan har xil turistlar uchun qo‘llaniladi.

Turmahsulotlarga bo‘lgan talab bozori uchta guruhga ya’ni, salohiyatli bozor, imkoniyatli bozor va xizmat ko‘rsatuvchi bozorga ajratiladi. Salohiyatli bozorda shunday turistlar ishtirok etadiki, ular maxsus turistik motivatsiyaga ega bo‘lgan mahsulotlarni xarid qilishga ehtiyoji va imkoniyati bo‘lib, ular uchun turmahsulotga belgilangan narxlar katta ahamiyat kasb etmaydi. Imkoniyatli bozorda turmahsulotni xarid qilish uchun o‘zida imkoniyat topa oladigan turistlar ishtirok etishi mumkin. Xizmat ko‘rsatuvchi bozorda esa, turmahsulotni sotib olish uchun tugridan-tugri hohishi bo‘lmagan turistlar ishtirok etadi. Ushbu bozorda turoperatorlar turmahsulot xaridorlari bilan birgalikda ishlab, ularni turli xil usullar bilan ushbu turmahsulotni sotib olishga undashlari lozim. Bunday usullardan biri, reklama xizmatlarining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi, xodimlar tomonidan savdo texnikasining mahorat bilan amalga oshirilishi va boshqalar hisoblanadi.

Turizm bozorini tahlil qilishda quyidagi ko‘rsatkichlardan keng foydalaniladi:

- turizm bozorining hajmi, ya’ni ushbu bozordagi barcha xizmatlarning umumiy summasi va uning tahlil davri mobaynidagi o‘zgarishi;
- hudud iqtisodiyotida turizm bozorining tutgan ulushi;
- mehnatga layoqatli aholi bilan band aholi tarkibida turizm bozorida band bo‘lganlarning tutgan ulushi.

Bundan tashqari, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik subyektlarining iqtisodiy ko‘rsatkichlari ham aniqlab olinadi. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- turfirmaning rentabellik darajasi;
- turfirma ishchilarining mehnat unumdorligi;
- xarajat darajasi va xarajat qaytimi;
- sotish hajmi va uning tarkibi;
- turfirmadagi fondlarning fondlar qaytimi va fondlar sig‘imi;
- turli xil moliyaviy koeffitsiyentlar ko‘rsatkichi va boshqalar.

Ushbu ko‘rsatkichlarni tahlil qilish jarayonida subyektlardagi ko‘rsatkichlarning bir necha yillar mobaynidagi rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish dinamikasi tahlil qilinadi. Ayniqsa, bunda asosiy e’tibor ushbu jarayonda har bir ko‘rsatkichga o‘z ta’sirini ko‘rsatayotgan omillarga qaratilishi lozim bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida har bir ko‘rsatkichni yaxshilash borasida aniq bir tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Turizm servisini rivojlantirish uchun quyidagi holatlarni amalga oshirish talab etiladi:

- mamlakatimizdagi turistik obyektlar va turistik salohiyatdan (tabiiy, madaniy, tarixiy) kelib chiqib yangi turistik xizmat turlarini ishlab chiqib, mavjud turistik xizmat turlarini yanada takomillashtirish;
- turistik faoliyat bilan bog‘liq rejalashtirish ishlarida nafaqat hukumat organlari yoki turistik tashkilot vakillari balki mahalliy aholi, ichki va tashqi turistlar fikri ham o‘rganilmog‘i lozim;

- turizmda xavfsizlikning chora-tadbirlarini ko‘rish lozim;
- munitsipial tuzilmalarning har birining talablarini o‘rganib, ularni qondirish uchun turizm tashkilotchilari o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirish lozim;
- turizm sohasidagi soliq, bojxona va boshqa shu kabi sohalar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarga yo‘l qo‘ymasdan turizm sohasidagi xizmatlarga qo‘yiladigan narxlarga ham alohida e’tibor qaratilishi lozim. Bunda qo‘yilgan narxlar turistlar uchun qulay va turizm industriyasi uchun foydali bo‘lishi kerak.

Mehnat bozorini o‘rganar ekanmiz, har qanday holatda ish bilan ta’minlanganlik, ishsizlik, kadrlar masalasi kabi tushunchalarga duch kelamiz. Bu tushunchalar esa bevosita bandlik darajasi bilan uzviy bog‘liqlikda bo‘ladi.

Birgina turizm sohasini oladigan bo‘lsak, turizm sohasidagi kadrlar tomonidan taklif qilinayotgan xizmatlar sifatining pastligi hamda turlarining kamligi ham ishsizlik darajasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Chunki, turizm kadrlari – bu ishchi, mutaxassis kadrlar bo‘lib, turistlarga xizmat ko‘rsatish jarayonining 70-80 %i ana shu kadrlar tomonidan amalga oishiriladi. Ushbu mehnat omili turizm sohasidagi asosiy omil bo‘lganligi tufayli, turistik kadrlarning bilimi, saviyasi, ish tajribasi va boshqalar muhim ahamiyat kasb etadi. Agarda turizm sohasida, ya’ni turizm industriyasida samaradorlikka erishmoqchi bo‘lsak, unda kadrlar masalasiga juda katta e’tibor qaratishimizga to‘g‘ri keladi, chunki biz bilamizki, turizm industriyasining 80-90 % muvaffaqiyati ana shu mutaxassis kadrlarga bog‘liqdir.

Bizga ma’lumki, mamlakatimizda barcha mutaxassislar ma’lumotiga qarab, oliy ma’lumotlilar, ya’ni oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olganlarga, o‘rta maxsus ma’lumotlilar, ya’ni kollejlarda tahsil olganlar va oddiy ishchi kadrlarga, ya’ni maktabni bitirgach yoki hali maktab yoshida bo‘lgan, hech qanday qayta tayyorgarliksiz ishlab yurganlarga ajratishimiz mumkin. Turizmda bandlik darajasini tahlil qilishda ko‘rsatkichlarni turizmda ish bilan band aholi (Itta), ishga qobiliyatli jami aholi (Ika), kasb-hunar kollejlarini turizm sohasi bo‘yicha bitirgan mutaxassislar (Kxkm) va oliy maktabni bitirgan oliy ma’lumotli turizm sohasiga oid mutaxassislar (Otm) deb tarkiblashimiz mumkin. Tahlil qilish jarayonida esa, ushbu omillarning har qaysisi bandlik darajasiga qanchalik ta’sir qilganligini hisoblashimizga to‘g‘ri keladi. Buning uchun esa quyidagi formuladan foydalanish tavsiya etiladi:

$$Yo_{ibd} = \frac{I_{tta}}{I_{ka}} = \frac{I_{tta}}{K_{xkm}} = \frac{K_{xkm}}{O_{tm}} = \frac{O_{tm}}{I_{ka}} = a \times b \times c$$

Bunda:
Yo_{ibd} – turizm sohasidagi aholining ish bilan ta’minlanganlik darajasi;
I_{tta} – turizmda ish bilan band aholi;
I_{ka} – ishga qobiliyatli jami aholi;
K_{xkm} – kasb-hunar kollejlarini turizm sohasi bo‘yicha bitirgan mutaxassislar;
O_{tm} – oliy maktabni bitirgan oliy ma’lumotli turizm sohasiga oid mutaxassislar;

Bunda omillar ta’sirini hisoblashimiz uchun oddiy an’anaviy usullardan biri bo‘lmish zanjirli almashtirish usulidan foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun bandlik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni quyidagicha belgilab olamiz va omillar ta’sirini hisoblaymiz:

a) kasb-hunar kollejlarini bitirgan bitta kadrga to‘g‘ri keladigan umumiy ishda band bo‘lgan aholi;
b) oliy maktabni bitirgan bitta kadrga to‘g‘ri keladigan kasb-hunar kollejini bitirgan mutaxassislar;
c) oliy maktabni bitirgan oliy ma’lumotli kadrlarning ishga qobiliyatli aholidagi ulushi.

$$B_d = a \times b \times c.$$
$$\Delta B_d = (a_1 \times b_1 \times c_1) - (a_0 \times b_0 \times c_0)$$

Bandlik darajasiga birinchi omilning ya’ni, kasb-hunar kollejlarini bitirgan bitta kadrga to‘g‘ri keladigan umumiy ishda band bo‘lgan aholining ta’sirini hisoblaydigan bo‘lsak, quyidagi formuladan foydalanishimiz mumkin:

$$\Delta B_a = (a_1 \times b_0 \times c_0) - (a_0 \times b_0 \times c_0)$$

Ikkinchi omil bo‘lmish, oliy maktabni bitirgan bitta kadrga to‘g‘ri keladigan kasb-hunar kollejini bitirgan mutaxassislarning omil sifatidagi ta’sirini quyidagi formula yordamida hisoblashimiz mumkin:

$$\Delta B_b = (a_1 \times b_1 \times c_0) - (a_1 \times b_0 \times c_0)$$

Oliy maktabni bitirgan oliy ma'lumotli kadrlarning ishga qobiliyatli aholidagi ulushining bandlik darajasiga ta'sirini quyidagi formula orqali aniqlaymiz:

$$\Delta B_c = (a_1 \times b_1 \times c_1) - (a_1 \times b_1 \times c_0)$$

Bandlik darajasiga ta'sir qiluvchi ushbu omillarning yig'indisi quyidagicha topiladi:

$$\Delta B_d = \Delta B_d a \pm \Delta B_d b \pm \Delta B_d c$$

Bandlik darajasiga ta'sir qiluvchi ushbu omillar ta'sirini o'rganar ekanmiz, u yordamida ishsizlikning oldini olishimiz va bandlik darajasini yanada oshirishga erishishimiz mumkin bo'ladi.

Mamlakatimizda turizm sohasining tez sur'atlar bilan o'sishi yurtimizga katta hajmdagi valyuta tushumlarini kirib kelishiga va yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda turizm va mehmondorchilik sanoatiga jahon xizmatlari eksportining 1/3 qismi, jahon yalpi milliy mahsulotining 10%i, investitsiyalarning 7 %i hamda 18 ish o'rnining bittasi to'g'ri kelishini ko'ramiz.

O'zbekistonda ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi sa'y-harakatlari evaziga turizm sohasida tub institutsional va sifat o'zgarishlari yuz berdi, bu sohaga bozor munosabatlarining elementlari keng joriy etila boshlandi, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan davlat korxonalarining hissadorlik jamiyatlari, jamoa, xususiy, ijara va qo'shma korxonalarga aylantirildi.

Ma'lumki, turizm sohasi mamlakatda ish bilan bandlikni ham ta'minlovchi sohalardan biri hisoblanadi. Xalqaro kuzatishlarning natijalaridan kelib chiqib shuni ta'kidlashimiz mumkinki, turizm industriyasida tashkil etilgan har bir ish joyiga qo'shimcha ravishda boshqa tarmoqlarda ham 5 tadan 9 tagacha qo'shimcha ish joylari yuzaga kelar ekan. Bundan tashqari turizm sohasi bevosita va bilvosita 30 dan ortiq iqtisodiy tarmoqning rivojlanishiga ham turtki berishi mumkin.

Yuqoridagilardan tashqari yana shuni ta'kidlashimiz mumkinki, O'zbekistonda xorijiy sayyohlarni o'ziga jalb qiluvchi tabiiy sharoiti, iqlimi va shuningdek turli xil manzaralari, ekzotik hududlaridan tashqari turli davr va sivilizatsiya bilan bog'liq bo'lgan tarixiy va me'moriy, madaniy yodgorliklari mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi xalqaro madaniy yodgorliklar sifatida BMTning YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Ushbu tarixiy –madaniy yodgorliklar juda ham uzoq tarixiy davrlarni bosib o'tganligi bois, davlatimiz tomonidan ularni qayta tiklash, rekonstruksiya xarajatlariga juda katta mablag'lar ajratilmoqda.

Ma'lumki, turist turistik guruh bilan emas, balki bir o'zi 1 ta doiraviy marshrut bo'yicha sayohat qilmoqchi bo'lsa, bu turagentlik bo'limlari uchun qo'shimcha daromad keltirishi mumkin. Buning uchun turagentlik bo'limlari tomonidan bir kishilik sayyohatga ketadigan xizmat ko'rsatish xarajatlarini smetasini tuzib sayyohga taqdim etgan bo'lishi kerak. Agarda bu xarajatlar sayyohning qurbi yetadigan darajada bo'lib, unga rozi bo'lsa, bu turagentlik bo'limiga qo'shimcha daromad keltirishi va qo'shimcha ish o'rinlarining paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-232-son qarori, 2022-yil 30-aprel.
2. Abrate, G., Bruno, C., Erbetta, F., Fraquelli, G. (2019). Which Future for Traditional Travel Agencies? A Dynamic Capabilities Approach. – [Online] Available: https://doi.org/10.1177/0047287519870250. 777-791. (September 20, 2021).
3. Wu, W. (2020) Analysis of Digital Tourism, Virtual Tourism and Wisdom Tourism – [Online] Available: doi: 10.1007/978-3-030-43309-3_3.
4. Жуков В.А., Чудновский А.Д. Формирование модели гостиничного бизнеса на основе сетевой формы управления. Журнал "Вестник Университета". 2019. №3. 54-60.
5. Pardayev, M. Q., & Berdikulova, I. R. (2020). Mehmonxona xo'jaligi moliyaviy holatini tahlil qilishni takomillashtirish masalalari. Turizm ilmiy-amaliy elektron jurnali, 3(1), 45-60.
6. Бердикулова, И. Р. (2020). Совершенствование организационно-экономического механизма диверсификации туристического рынка. In ЭКОНОМИСТ ГОДА 2020 (pp. 327-331).
7. Berdikulova, I. R., & Ibrat, S. (2023). The role and importance of finance and financial technologies in the diversification of the tourism market in Uzbekistan. International Journal of Engineering Mathematics (Online), 5(1).
8. Berdikulova, I. R., & Baxramov, T. (2023). The role of financial analysis in the diversification of the tourism market and its necessity. International Journal of Engineering Mathematics (Online), 5(1).

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



ПРОБЛЕМЫ РАСЧЕТА ОПРЕДЕЛЕНИЯ И ПЛАНИРОВАНИЯ ПРИБЫЛИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ

Алиева С.С.
К.э.н., Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация: Прибыль была и остается важнейшим рыночным феноменом экономического развития предприятия, отражающим результаты рыночно-хозяйственной деятельности предприятий, эффективного использования всех видов ресурсов.

Ее получение – главный мотив, стимул предпринимателей для увеличения объема производства, снижения издержек производства на основе широкого внедрения инновационных проектов. Прибыль является рыночным ориентиром для получения наибольшего прироста ценности и стимулом для инвестирования в прибыльные сферы экономики. Именно поэтому так важно использовать адекватные методы расчета и планирования прибыли предприятия с учетом особенностей предприятия и развития его инвестиционной деятельности. Это и стало целью проделанного исследования в рамках написанной статьи, где предпринята попытка предложить пути прогнозирования прибыли предприятия с учетом условий функционирования предприятия.

Ключевые слова: прибыль предприятия, планирование прибыли, прогнозирование прибыли, факторы, влияющие на прибыль предприятия, расчет прибыли, финансово-ценовая политика.

Annotatsiya: Foyda korxonalarning bozor iqtisodiy faoliyati natijalarini va barcha turdagi resurslardan samarali foydalanishni aks ettiruvchi korxona iqtisodiy rivojlanishining eng muhim bozor oriyentiridir.

Uni olish tadbirkorlarni innovatsion loyihalarni keng joriy etish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishning asosiy motivi, rag‘batidir. Foyda – bu qiymatning eng katta o‘sishini olish va iqtisodiyotning foydali sohalariga sarmoya kiritish uchun rag‘batlantirish uchun bozor mezonidir. Shuning uchun korxonaning xususiyatlarini va uning investitsiya faoliyatini rivojlantirishni hisobga olgan holda korxona foydasini hisoblash va rejalashtirishning tegishli usullaridan foydalanish juda muhimdir. Bu maqola doirasida olib borilgan tadqiqotning maqsadi bo‘lib, unda korxonaning ish sharoitlarini hisobga olgan holda korxona foydasini bashorat qilish usullarini taklif qilishga yoritildi.

Kalit so‘zlar: korxona foydasi, foydani rejalashtirish, foydani prognozlash, korxona foydasiga ta’sir etuvchi omillar, foydani hisoblash, moliyaviy va narx siyosati.

Abstract: Profit has been and remains the most important market phenomenon of enterprise economic development, reflecting the results of market-economic activities of enterprises and the effective utilization of all types of resources.

Its acquisition is the main motive, the stimulus for entrepreneurs to increase production volume, reduce production costs based on the wide implementation of innovative projects. Profit serves as a market benchmark for achieving the greatest value growth and a stimulus for investing in profitable sectors of the economy. That’s why it’s so important to use adequate methods of calculating and planning enterprise profit, taking into account the peculiarities of the enterprise and the development of its investment activities. This became the goal of the conducted research within the framework of the article, where an attempt was made to propose ways of forecasting enterprise profit considering the conditions of enterprise functioning.

Key words: enterprise profit, profit planning, profit forecasting, factors influencing the enterprise profit, profit calculation, financial and pricing policy.

ВВЕДЕНИЕ

Отвечая на вопрос о том, за что отвечает предприниматель, менеджер, руководитель предприятия, следует сказать: прежде всего, за качество производимой им продукции (товара, услуг, изделий), которое важнее всего для конкретного потребителя. Для потребителя важнее всего иметь полезный и дешевый товар (услугу, изделие). При этом продукция (товар, услуга, изделие) должна стоить как можно

дешевле – обходиться с минимальными затратами. Прежде всего с этих позиций ее и следует оценивать и планировать.

Следовательно, задача планирования должна определяться поставленной целью, прежде всего тем, конкретно как должна быть определена величина затрат и прибыли. Это, безусловно, определяет затраты с точки зрения затрат на производство “П” продукции (товара, работ, услуг) и, наконец, получение прибыли, достаточной для удовлетворения социально-экономической потребности, платежеспособности и конкурентоспособности предприятий. Прибыль является рыночным ориентиром для получения наибольшего прироста ценности и стимулом для инвестирования в прибыльные сферы экономики [1].

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР

Для достижения и поддержания конкурентного преимущества менеджерам необходимо тщательно изучить внутренние процессы своих компаний. Компания производит товары или оказывает услуги через выполнение ряда действий, которые придают им ценность. Улучшение эффективности этих действий может повысить конкурентоспособность компании [5].

Необходимы для этого и знания по управлению ресурсами, ценностями, могущими приносить прибыль и умение ориентироваться в вопросах составления плана производства (реализации), плана дохода или прибыли, и владение навыками композиционной работы, т.е. составление бизнес-планов для конкретного предприятия.

Некоторые экономисты рассматривают в качестве метода, который набирает популярность среди компаний, activity-based cost management (ABCM). Данный метод как система может предоставить менеджерам стратегический взгляд на деятельность, необходимую для конкурентоспособности предприятия [5]. Другие предлагают внедрение интегрированной системы учета и управления затратами с использованием системы SAP (Systems Applications and Products) [6]. А также отдельные экономисты считают, что TQM (Total Quality Management) представляет собой всесторонний подход к улучшению организации и структурированным процессам с помощью усердной работы, самодисциплины, непрерывного обучения и применения современных техник и методов [7]. TQM - это подход, который руководство применяет для повышения производительности компании [8]. Большинство исследователей при этом уверены в значении учетной политики в управлении затратами [4].

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Когда структура производимого изделия ясна, проведены тщательные расчеты и обоснованы отдельные детали затрат, менеджер должен продолжить параллельно с работниками работу по составлению бизнес-плана. При составлении новых расчетов, связанных с бизнес-планом, нужно четко определить каким требованиям должны удовлетворять эти новые расчеты, прежде всего, определить размер прибыли от конкретной деятельности предприятий. Это важно, потому что при помощи этого показателя можно оценить финансовое состояние предприятия, платежеспособность, конкурентоспособность и т.п.

Справедливости ради, следует обратить внимание на многие предприятия г. Самарканда, где прибыль до сих пор определяется методом прямого счета (исходя из себестоимости изделия). Однако себестоимость не учитывает всех затрат, которые влияют на рыночный результат работы предприятия. Между тем известно, что фактически прибыль тем меньше, чем больше, при прочих равных условиях, предприятие закупило сырья, материалов, топлива, чем больше создало оно запасов в незавершенном производстве и нереализованной продукции на складах. В себестоимости не находит отражение и изменение взаимной задолженности предприятий-контрагентов по финансовым обстоятельствам, срок оплаты которых не наступил [2].

В результате такого рода операций действующая методика показывает, рост прибыли в одних отчетах, увеличение убытков в других. В результате “распределения” и “использования” прибыли и искусственно завышенных сумм прибыли возрастает эмиссионное давление на банк. На многих предприятиях г. Самарканда около 10–15% прибыли предприятий, показываемой в их бухгалтерских балансах, является результатом необоснованного сопоставления затрат и результатов финансово-хозяйственной деятельности.

В практике используют различные методы расчета прибыли предприятия, в частности, метод прямого счета, метод бюджетирования (нормативный), факторный метод, аналитический метод, метод взаимосвязи выручки, затрат и прибыли и др.

Метод прямого счета используется при наличии небольшого ассортимента продукции, наличии отпускной цены, наличии плановой консультации себестоимости. При этом для более точного прогнози-

рования берутся в учет нереализованные остатки: плановая прибыль вычисляется как сумма прибыли в нереализованных остатках продукции и прибыли, полученной от реализации продукции за текущий период за минусом суммы прибыли в нереализованных остатках продукции на конец периода.

4. Полевая, М. В. (2009). Современные проблемы и задачи по совершенствованию системы подготовки кадров индустрии туризма. Транспортное дело России, (10), 101-103.
5. Лаврова Т.А. , & Сирота Н.П. (2023). Современные направления подготовки кадров в сфере туризма. Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета, (6-1 (144)), 138-143.
6. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) https://www.unwto.org/
7. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi https://uzbektourism.uz



YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA OMMAVIY VA ALTERNATIV TURIZMNING O‘RNI HAMDA VOLONTYORLIKNING HUSUSIYATLARI

Allayor Norboyev Ismoilovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola ommaviy va muqobil turizm va unda ko‘ngillilarning o‘rni haqida bo‘lib, agarda u hurmat, tenglik va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslansa, odamlar hayotini yaxshilash va tabiatni asrab-avaylashda kuchli vositaga aylanishi mumkinli to‘g‘risida.

Kalit so‘zlar: Ommaviy turizm, alternativ turizm, volontyorlik, ijtimoiy va madaniy qadriyatlar, konseptual aniqlik.

Abstract: This article is about mass and alternative tourism and the role of volunteers in it, which can become a powerful tool for improving people’s lives and preserving nature if it is based on the principles of respect, equality and sustainable development.

Key words: Mass tourism, alternative tourism, volunteering, social and cultural values, conceptual clarity.

Аннотация: В данной статье речь идёт о массовом и альтернативном туризме и роли волонтёров в нём, которое может стать мощным инструментом для улучшения жизни людей и сохранения природы, если он основан на принципах уважения, равноправия и устойчивого развития.

Ключевые слова: Массовый туризм, альтернативный туризм, волонтерство, социальные и культурные ценности, концептуальная ясность.

KIRISH

Volontyorlik turizm sohasida, ayniqsa ommaviy va alternativ turizm o‘rtasidagi fazoni bo‘lib, turizmda noyob rol o‘ynaydi. Turizm kontekstida volontyorlikning tasniflanishi turli xil faoliyat shakllarini o‘z ichiga oladi, bu faoliyatlar mahalliy hamjamiyatlarga va volontyorlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ommaviy turizm kontekstida volontyorlik ko‘pincha yirik turistik operatorlar tomonidan taklif etiladigan korporativ ijtimoiy mas’uliyat (KIM) dasturlarida ishtirok etish bilan cheklangan bo‘lib, bu dasturlar kompaniyaning tasvirini va atrof-muhit hamda hamjamiyatlarga bo‘lgan ta’sirini yaxshilashga qaratilgan urinishlarning bir qismi hisoblanadi. Bunday dasturlar bir kunlik tadbirlarni, masalan, daraxtlarni o‘tqazish yoki plyajlarni tozalash kabi tadbirlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Garchi bu harakatlar ijobiy qisqa muddatli ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa-da, ular kamdan-kam hollarda uzoq muddatli o‘zgarishlarga olib keladi va kompaniyaning obrazini yaxshilashdan ko‘ra, mahalliy hamjamiyatlarning hayot sharoitlarini real yaxshilashga ko‘proq xizmat qiladi.

Alternativ turizm kontekstida volontyorlik ancha markaziy o‘rinni egallaydi va tez-tez madaniyatga chuqurroq sho‘ng‘ish va mahalliy hamjamiyatlar bilan yanada chuqurroq aloqa o‘rnatish vositasi sifatida qaraladi. Alternativ volontyorlik mahalliy ta’lim muassasasini qurishga yordam berish, atrof-muhitni saqlash dasturida ishtirok etish yoki hamjamiyatni rivojlantirish loyihalarida ishlash kabi uzoq muddatli loyihalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu faoliyat turlari volontyorlarga faqat mahalliy aholining hayotini yaxshilashga muhim hissa qo‘shish imkonini bermaydi, balki ularning dunyoqarashini kengaytirish, yangi ko‘nikmalarni rivojlantirish va noyob hayot tajribasini olish imkonini ham beradi.

Volontyorlikning ommaviy va alternativ turizmdagi o‘rni uning ta’siri va maqsadlariga ko‘ra farq qiladi. Ommaviy turizmda volontyorlik ko‘pincha marketing vositasi sifatida ishlatiladi va cheklangan ta’sir ko‘rsatadi, biroq alternativ turizmda u tajribaning kalit elementi bo‘lib, barqaror rivojlanish va volontyorlar va mezbonlar o‘rtasida chuqur madaniy almashinuvni qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizmning rivojlanishi bahslarsiz kechmadi. “Ommaviy” turizmdan hafsalasi pir bo‘lgani va u keltirib chiqargan ko‘plab muammolar ko‘plab kuzatuvchilar va tadqiqotchilarni turizmning oldingi usullari va yo‘nalishlarini tanqid qilishga va uning o‘rniga “alternativ turizm”ga umid bildirishga undadi[1]. Pearce[2] “alternativ turizm” atamasi massoviy turizmga afzal ko‘riladigan opsiyalar yoki strategiyalarni anglatish uchun qabul qilinganini ta’kidlaydi. R.W. Butler[3] esa shunday deydi: “Alternativa nimaga? Albatta, boshqa turizm shakllariga emas, balki eng kam istalgan yoki eng ko‘p istalmagan turizm turiga, ya’ni, massoviy turizmga, masalan, “oltin ordalar”[4] yoki “massoviy institutsionallashgan turist”ga alternativa”[5].

Biroq, “alternativ turizm” atamasi turli mualliflar tomonidan keng qamrovli va ba’zan ochiqchasiga zid ma’nolarda talqin qilinadi. Masalan, R.W. Butler alternativ turizmni boy odamlar uchun ekzotik yo‘nalishlarga6, asosan yovvoyi tabiat hududlariga mo‘ljallangan yuqori sinf paket turlari sifatida joylashtiradi, boshqalar esa uni moliyaviy vositalari cheklangan yoshlar orasida ryukzak bilan sayohat qilish[7] yoki massoviy turizmning kuchli kommersiyalashgan makonlaridan qochishga intilayotgan anti-turistlar sifatida belgilaydi[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishlari jarayonida kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, kuzatuv va statistik ma’lumotlar tahlil usullaridan foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Alternativa” atamasi mantiqan antitezani anglatadi. U an’anaviy turizmda salbiy yoki zararli deb hisoblanadigan narsaga qarshilik sifatida paydo bo‘ladi. Logika sohasida alternativa dialektik paradigmaga asoslangan bo‘lib, u faqat ikki imkoniyatni taklif qiladi: xulosa yoki bir yoki ikkinchisi bo‘lishi mumkin. Shu munosabat bilan, alternativ va ommaviy turizm terminologiyalari o‘zaro bog‘liq, har biri o‘z terminlarining aniq mazmunini tuzishda tayanadigan qator qadriyatli hukmlarga asoslangan.

Shunday qilib, “alternativ turizm”ning umumiy xususiyati odatda “qattiq” va shu bilan birga “istalmagan” hukmron turizm shakllariga to‘g‘ridan to‘g‘ri zid bo‘lgan munosabatni taklif qilishdir. “Alternativ turizm” kabi, bu shakl ham turli atamalar bilan belgilangan, jumladan an’anaviy ommaviy turizm (AOT)[9] va ommaviy turizm (OT)[10], alternativ turizm esa ularga asosiy qarshilik ko‘rsatib, qabul qilingan salbiy ekologik va ijtimoiy-madaniy ta’sirlarni minimallashtirishga intiladi.

Adabiyotda ekologik jihatdan mos turizmga ishora qiluvchi turli boshqa tavsiflarni topish mumkin. Shunday qilib, alternativ turizm konsepsiyasi uning diametral qarama-qarshiligi kabi keng va aniqsiz bo‘lishi mumkin. Ko‘plab turli dam olish turlari, jumladan sarguzasht sayohatlari, piyoda yurish yoki globtrotter-sayohatchilar tomonidan amalga oshiriladigan yakka sayohatlar alternativ turizm sifatida tasniflanishi mumkin. O‘z atamasi keng ma’nolar spektrini qamrab oladi: ma’lum motivatsiyalarga ega bo‘lgan turistlar; turistik amaliyotlar; turistik mahsulot; texnologiya darajalari; rejalashtirishdagi yechimlar; mahalliy, mintaqaviy, milliy va xalqaro siyosat; va rivojlanish strategiyasi sifatida. Oxirgi holatda, alternativ turizm – bu turizmni iqtisodiy rivojlanish omili sifatida tanlangan hududlarda barqaror rivojlanish amaliyotlarini qo‘llashdir. Dernoi boshlang‘ichda alternativ turizmni joylashtirish turi bo‘yicha ta’riflagan: “Alternativ turizmda 'mijoz' uy egasining uyida yoki uy egasi huzurida, oxirida esa u yerda taklif etiladigan boshqa xizmatlar va qulayliklar bilan birga joylashtiriladi”[11].

Shunday qilib, adabiyotdan kelib chiqadigan xulosalarga ko‘ra, barcha turizm shakllari yonma-yon mavjud bo‘lib, har biri turizm spektrida muhim rol o‘ynaydi. Ommaviy turizm hamda alternativ turizm ushbu spektrning

1 Mowforth, M. & Munt, I. (1998) Tourism and Sustainability: New Tourism in the Third World. Routledge, London. Sofield, T.H.B. (2003) Empowerment for Sustainable Tourism Development. Pergamon, Amsterdam. Brammer, N., Beech, J. & Burns, P. (2004) Use and abuse of tourism: the Goan experience. Tourism Culture and Communication 5, 23–35.
2 Pearce, P. (1990) Social impact of tourism. In: Griffin, T. (ed.) The Social Cultural and Environmental Impacts of Tourism. NSW Tourism Commission, Sydney.
3 Butler, R.W. (1990) Alternative tourism: pious hope or Trojan horse? Journal of Travel Research 3, 40–45.
4 Turner, L. & Ash, G. (1975) The Golden Hordes: International Tourism and the Pleasure Periphery. Constable, London.
5 Cohen, E. (1972) Towards a sociology of international tourism. Social Research 39, 164–182.
6 Butler, R.W. (1990) Alternative tourism: pious hope or Trojan horse? Journal of Travel Research 3, 40–45.
7 Cohen, E. (1972) Towards a sociology of international tourism. Social Research 39, 164–182.
8 Welk, P. (2004) Anti-tourism as an element of backpacker identity. The global nomad: backpacker travel in theory and practice. In: Richards, G. and Wilson, J. (eds) The Global Nomad: Backpacker Travel in Theory and Practice. Channel View Publications, Clevedon, pp. 77–91.
9 Mieczkowski, Z. (1995) Environmental Issues of Tourism and Recreation. University Press of America, Boston, Massachusetts.
10 Butler, R.W. (1990) Alternative tourism: pious hope or Trojan horse? Journal of Travel Research 3, 40–45.
11 Dernoi, L.A. (1988) Alternative or community-based tourism. In: D’Amore, L. and Jafari, J. (eds) Tourism – A Vital Force for Peace. D’Amore and Associates, Vancouver, pp. 89–94.

mos ravishdagi ekstremumlarida ko‘rib chiqilishi mumkin va Mieczkowski Z.[12] ta’kidlaganidek, ular o‘sha yerda qolishi kerak. Ekoturizm, volontyorlik va jiddiy dam olishning relyatsion elementlari, alternativ turizmning aniq tajribasining tavsifiy komponentlari sifatida, ushbu spektrning ko‘plab farqli va umumiy nuqtalarida mavjud bo‘lgan turizm tajribasining modallari hisoblanadi. Har bir ushbu elementlarni alternativ turizm kontekstida volontyorlik tajribasining aniq komponentlari sifatida ko‘rib chiqish va shu tariqa, shaxsiy subyektiv tajribaga ta’sirni o‘rganish orqali, turizm tajribalarining tahlili turizm bozorining aniq segmentlariga hissa qo‘shadigan aniq elementlarni tan olish orqali aniqlashtirishga erishish mumkin deb taxmin qilinadi.

1-rasmda volontyorlik turizm tajribasini joylashtirish mumkin bo‘lgan doira taqdim etilgan. Mieczkowski Z.[13], boshlang‘ichda turizmni ikki keng kategoriyaga ajratadi. Birinchisi – bu bir muddat bozorda ustun bo‘lgan KMTdir. Ikkinchi keng kategoriya – bu alternativ turizm, ko‘plab turli shakllarni o‘z ichiga olgan va ularning umumiy xususiyati KMTga alternativ bo‘lishidir. Ya’ni ular ommaviy turizm bilan bog‘liq bo‘lmagan, asosan kichik miqyosda, kam zichlikda, shahardan tashqari hududlarda tarqalgan va asosan yuqori ta’limga ega va yaxshi daromadga ega bo‘lgan maxsus qiziqish guruhlariga yo‘naltirilgan.



1-rasm: Alternativ turizmning konseptual sxemasi

Bu kategoriya shuningdek, Koen[14] tomonidan aniqlangan “tadqiqotchilar” va “sargardonlar”ni ham o‘z ichiga oladi. 1-rasmga ko‘ra, bu konseptual model jidiy dam olish va volontyorlik elementlarini aniqlaydi va o‘z ichiga oladi. Bu elementlar volontyorlik turizm tajribasini yaratish uchun zarur bo‘lib, 1-rasm ko‘rsatganidek, turizm shakllari yoki bozorlari o‘rtasidagi qoplamalar va farqlarni ishlab chiqish imkonini beradi, aniq elementlarni ko‘rib chiqish orqali.

1-jadval: Alternativ turizmning xususiyatlari

Manba	Tavsif
Uering, 2004	Harakat turizmning o‘zi uchun asos bo‘lgan resurs bazasining sifatini saqlash, himoya qilish va yaxshilashga qaratilgan.
Uering, 2004	Mahalliy xususiyatlarni inobatga olgan holda, qo‘shimcha turistik jozibalar va infrastruktura bilan bog‘liq ravishda rivojlanishni faol rag‘batlantirish va ilgari surish, aniq joylashuvga asoslangan.
Koks, 1985	Infrastrukturani, demakki, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash, qachon va qayerda bu mahalliy sharoitlarni yaxshilasa va tabiiy muhitning yuk ko‘tarish qobiliyatini yoki ijtimoiy muhit chegaralarini oshirmasa, natijada jamoa hayot sifati yomonlashmasa.
Salo, 1979; Trevis, 1982; Kozlovski, 1985; Bilsen, 1987; Gonsalves, 1984; Xolden, 2008.	Atrof-muhitga o‘z ta’sirini minimallashtirishga urinadigan, ekologik jihatdan xavfsiz va avval rivojlanmagan hududlarda amalga oshirilgan ko‘plab yirik miqyosdagi turistik ishlanmalarning salbiy oqibatlaridan qochadigan turizm.

12 Mieczkowski, Z. (1995) Environmental Issues of Tourism and Recreation. University Press of America, Boston, Massachusetts.
13 Mieczkowski, Z. (1995) Environmental Issues of Tourism and Recreation. University Press of America, Boston, Massachusetts.
14 Cohen, E. (1987) Alternative tourism – a critique. Tourism Recreation Research 12, 13–18.

Yum, 1984; Eshli va boshqalar, 2000; Shilxer, 2007	Mahalliy aholini ekspluatatsiya qilmaydigan va foydalar mahalliy aholi orasida taqsimlanadigan turizm. Faqatgina ekologik barqarorlikka emas, balki madaniy barqarorlikka ham e'tibor qaratish.
Xolden, 1984	Qabul qiluvchi jamoaning madaniyatiga zarar keltirmaydigan, turistlar tomonidan ta'lim va tashkil etilgan "uchrashuvlar" orqali boshdan kechiriladigan madaniy haqiqatlarga hurmatni rag'batlantiradigan turizm.

"Alternativ turizm"ning ajratib turuvchi xususiyatlari 1-jadvalda sxematik ravishda chegaralangan va ular to'liq deb hisoblanmasa ham, aniq bir turistik tajribani ishlab chiqishga qarab harakatlanuvchi harakatning konseptual doirasini asoslash uchun bu yerda keltirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, alternativ turizm, umuman olganda, ekologik va ijtimoiy sig'imga alohida e'tibor qaratadigan turizm modalidir. Krippendorf J.[15] alternativ turistlarning asosiy prinsipi sifatida massoviy turizmdan maksimal darajada uzoqlashishga intilishni ta'kidlaydi, mahalliy aholi bilan ko'proq aloqa o'rnatishga harakat qilish, turistik infrastrukturaning yordamisiz, mahalliy aholi ishlatadigan xuddi shu yashash va transport vositalaridan foydalanish orqali. Bu barqarorlik bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq – va aslida barqaror rivojlanish bilan – bu, o'z navbatida, har qanday turistik tajribani alternativ sifatida pozitsiyalash uchun fundamentaldir, garchi uning ikkiyoqlamaligiga qaramay. Barqarorlik o'zgarishlar va o'zgarish sur'atlarini o'lchash mumkin bo'lgan asosiy ma'lumotlarni belgilashni talab qiladi[16]. 1987-yilda Atrof-muhit va Rivojlanish bo'yicha Jahon komissiyasi tomonidan chiqarilgan bahsli Brantland Hisoboti barqaror rivojlanish konsepsiyasini xalqaro maydonga olib chiqdi, uni "hozirgi ehtiyojlarni kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini buzmagan holda qondirishni ta'minlaydigan rivojlanish" sifatida biroz tortishuvli tarzda ta'rifladi[17]. Joriy kontekstda ekologik barqaror turizm alternativ turizm bilan fundamental tarzda identifikatsiya qilingan. Shuningdek, Batler[18] uni "ekologik muvozanatni qo'llab-quvvatlovchi turizm shakli" sifatida belgilaydi..., "turizm kontekstida barqaror rivojlanishning ishchi ta'rifini quyidagicha taklif qiladi: atrof-muhitni buzmasdan va o'zgartirmasdan cheksiz davr davomida hayot kechiradigan va bir hududda (hamjamiyat, atrof-muhit) rivojlantiriladigan va saqlanadigan turizm". Biroq, farqlarni aniqlash mumkin bo'lsa, alternativ turizm shakllari va ularning infratuzilmasini taqdim etishga qaratilgan yondashuvlarni o'rganish imkoniyati mavjud. Bozor iqtisodiyotida iqtisodiy prinsiplar asosiy o'lchov vositalarini va turistik tizimni umuman yo'naltiradigan va qo'llab-quvvatlaydigan tashkiliy epistemologiyalarni ta'minlaydi, hatto turli mintaqalarda urg'ular farqli bo'lsa ham. Asosan, turizm bozor iqtisodiyotida tabiiy resurslardan foydalanish va insonning sayohat qilish istagini kommersiyalashtirish orqali foyda to'plash vositasi sifatida ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2017–2021-yillar O'zbekistonda turizmni rivojlantirishni jadallashtirish dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 02.12.2016-yildagi PF – № 4861 farmoni.-lex.uz.
2. "Turizm faoliyatini lisenziyalash tug'risida"gi Nizom Aliyeva M.T. "Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti" darslik, Toshkent, TDIU
3. Kamilova F.K. Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sharoitida turizm xizmatlari marketingini takomillashtirish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnali. №1, 2011.78-b.
4. "Mamlakatimizni modernizasiya qilish yulini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir" birinchi Prezident I. A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi maruzasi.
5. Kamilova F.K., Taisheva I.M., Sayfutdinov Sh.S. "Turizm industriyasi". O'quv qullanma. Toshkent. TDIU.89-b.
6. "O'zbekistonda turizmni rivojlantirish" maqolalar jamlanmasi, "Turizm yunalishida kadrlar tayyorlashni takomillashtirish yullari" mavzusi. Latipov.Sh.K, Yuldashev.K.Sh.112b.

15 Krippendorf, J. (1987) The Holiday Makers: Understanding the Impact of Leisure and Travel. Heinemann, Oxford.
16 World Commission on Environment and Development (1987) Our Common Future, Australian edn. Oxford University Press, Melbourne.
17 Mieczkowski, Z. (1995) Environmental Issues of Tourism and Recreation. University Press of America, Boston, Massachusetts.
18 Butler, R.W. (1991) Tourism, environment and sustainable development. Environmental Conservation 18, 201–209.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

PARRANDACHILIK STATISTIKASI KO‘RSATKICHLAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

ORCID: 0009-0005-7335-0233

Bobomuratov Imomqul Islamovich
Termiz davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada statistik ko‘rsatkichlarning mohiyati va ularning parrandachilik sohasida shakllantirish xusussiyatlari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Oziq-ovqat xavfsizligi,parrandachilik, statistik ko‘rsatkich,statistik ko‘rsatkichlar tizimi, parranda bosh soni, o‘rtacha soni,parranda mahsuldorligi, tuxum ishlab chiqarish, parranda go‘shti ishlab chiqarish, aholi turmush darajasi.

Abstract: The article describes the essence of statistical indicators and their formation features in the field of poultry farming.

Key words: Food safety, poultry farming, statistical indicator, system of statistical indicators, number of poultry heads, average number, poultry productivity, egg production, poultry meat production, standard of living of the population.

Аннотация: В статье раскрыта сущность статистических показателей и особенности их формирования в птицеводстве.

Ключевые слова: Продовольственная безопасность,птицеводства, статистический показатель, система статистических показателей, поголовье птицы, средняя численность, продуктивность птицы, производство яйцо, производство мяса птицы, уровень жизни населения.

KIRISH

Statistik tadqiqotlar, uning ko‘lami va maqsadlaridan qat’i nazar, har doim turlicha statistik ko‘rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish bilan yakunlanadi. Parrandachilikda ham statistik ko‘rsatkichlar uning faoliyati bilan bog‘liq o‘ziga xos xusussiyatlarni hisobga olgan holda statatistik tadqiqotda qo‘llaniladi.

Parrandachilik chorvachilikning muhim tarmog‘i sifatida ushbu tarmoqning holati va rivojlanishini kompleks baholash ko‘rsatkichlar tizimi asosida amalga oshiriladi.

Barcha statistik ko‘rsatkichlar to‘plam birliklarini qamrab olish bo‘yicha alohida va umumiy, ifodalanish shakliga ko‘ra — mutlaq, nisbiy va o‘rtacha ko‘rsatkichlarga bo‘linadi.

Mutlaq ko‘rsatkichlar ommaviy hodisa va jarayonlarning mohiyati va belgilarini ta’riflovchi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Bu ko‘rsatkichlar uchun xos xususiyat — ularni tuzishda statistika bilan bir qatorda boshqa fanlar ham qatnashadi, aniqrog‘i ularning ilmiy tushuncha va ta’limotlariga statistika tayanadi. Ushbu toifa ko‘rsatkichlariga parrandalar bosh soni, yetishtirilgan tuxum va go‘sht hajmi, mahsulot tannarxi kabi ko‘rsatkichlarni kiritish mumkin. Mutlaq statistik ko‘rsatkichlar natura, shartli natura, mehnat, qiymat o‘lchov birliklarida ifodalanadi.

Nisbiy ko‘rsatkichlar ommaviy hodisa va jarayonlarning ichki tuzilishi, o‘zaro munosabatlari va bog‘lanishlari hamda rivojlanish intensivliga xos xususiyatlarni ifodalaydi. Bunday toifadagi statistik ko‘rsatkichlarga shartnoma rejasining bajarilishi, dinamik ko‘rsatkichlar, tuzilmaviy ko‘rsatkichlar va taqqoslama ko‘rsatkichlarni kiritish mumkin. Ular koefitsient, foiz, promille va proditsimille o‘lchov birliklarida ifodalanadi.

O‘rtacha miqdorlar bir turdagi va xildagi to‘plam birliklarini o‘zgaruvchan belgilar asosida umumlashtirib ta’riflovchi miqdorlar tushuniladi. O‘rtacha miqdorlarni hisoblash orqali o‘rganilayotgan to‘plamda kechadigan qonuniyatlarni tendensiyalarni aniqlash va o‘rganish mumkin. Parrandachilik tarmog‘ida foydalaniladigan bunday statistik ko‘rsatkichlar sarasiga parrandalar mahsuldorligi (bir ona tovuq hisobiga olingan tuxum, parrandalarning o‘rtacha vazni), parrandalarning o‘rtacha yillik bosh soni, parrandachilik sohasida faoliyat qiladigan xodimlarning o‘rtacha daromadi va boshqalar.

Odatda, statistika tomonidan o‘rganiladigan jarayon va hodisalar ancha murakkab bo‘lib, ularning mohiyatini yagona ko‘rsatkich orqali aks ettirib bo‘lmaydi. Bunday hollarda statistik ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Chorvachilik statistikasi bo‘yicha ilmiy va o‘quv adabiyotlarida turli mualliflar statistik ko‘rsatkichlarning turli tizimlarini taklif qiladilar, ularning aksariyati fundamental farqlarga ega emas va farq faqat hisob ma’lumotlarining to‘liqlicha ekanligidir.

X.Xo‘jaqulov chorvachilik tarmog‘idagi ko‘rsatkichlar tizimini ikki toifaga ajratadi:

- hayvon va parranda bosh soni va tarkibi ko‘rsatkichlari;
- chorvachilik mahsuloti ko‘rsatkichlari [8].

A.A.Zinchenko o‘z tadqiqotlarida chorvachilikda qishloq xo‘jalik hayvonlari miqdori ko‘rsatkichlari, chorvachilik mahsuloti ko‘rsatkichlari, chorva mahsuldorligi ko‘rsatkichlari va chorva mahsulotlari ishlab chiqarish sharoitlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarga ajratadi [5].

A.I.Gozulov esa bu ko‘rsatkichlarga qo‘shimcha ravishda yem-ozuqa bazasi ko‘rsatkichlarini kiritadi [3].

N.K.Koborov o‘z izlanishlarida bu ko‘rsatkichlar tizimini yanada to‘ldirib, ularni:

- qishloq xo‘jaligi mollarining soni va tarkibining ko‘rsatkichlari;
- qishloq xo‘jalik mollarini qayta yetishtirish ko‘rsatkichlari;
- chorvachilik mahsulotlarining ko‘rsatkichlari;
- chorvachilikni ishlab chiqarishini tashkil etish ko‘rsatkichlari;
- ozuqa (yem-xashak) bazasi ko‘rsatkichlariga ajratadi [16].

B.I.Bashkatov darsligida ularni:.

- qishloq xo‘jalik mollari sonining tur va zoti bo‘yicha miqdori hamda tarkibining ko‘rsatkichlari;
- mollar sonini qayta ishlab chiqarishning ko‘rsatkichlari;
- yem-xashak bazasi, ozuqa sarflanishi hamda mollarni boqish darajasi holatining ko‘rsatkichlari;
- zootexnik chora-tadbirlarning ko‘rsatkichlari;
- ayrim turdagi chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ko‘rsatkichlari;
- chorvachilik mahsulotlari sifatining ko‘rsatkichlari;
- chorvachilik mahsulotlari nobudgarchiligining ko‘rsatkichlariga ajratadi [2].

Ko‘rib chiqilgan chorvachilik statistikasi ko‘rsatkichlarining tizimi takomillashtirilishi va hozirgi bosqichdagi chorvachilik statistikasiga daxldor bo‘lgan qator ko‘rsatkichlar bilan to‘ldirilishi mumkin. Ko‘rsatkichlar tizimidagi mazkur to‘ldirishlar bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan mamlakat iqtisodiyotida yuz berayotgan o‘zgarishlar tufayli ...qishloq xo‘jaligi statistikasi ko‘rsatkichlarining sifati, ishonchliligi va shaffofligini yanada oshirishdan iborat [1].

Ko‘rsatkichlar tizimining ko‘proq umumiylashtirilganini X.Xo‘jaqulov taklif qiladi. Mazkur tizim ko‘rsatkichlarning ikkita umumlashtiruvchi blokini o‘ziga qamrab oladi:

- hayvon va parrandalar boshining soni va tarkibining ko‘rsatkichlari;
- chorvachilik mahsulotlarining ko‘rsatkichlari:
- hayvon va parranda yetishtirish mahsuloti, sut yetishtirish, jun yetishtirish, tuxum yetishtirish, asal yetishtirish [8].

A.A.Zinchenkoning ishida o‘z ichiga ko‘rsatkichlarning quyidagi to‘rtta blokini qamrab oluvchi batafsilroq ko‘rsatkichlar tizimi keltirilgan.

- qishloq xo‘jalik hayvonlari miqdorining ko‘rsatkichlari;
- chorvachilik yalpi mahsulotining ko‘rsatkichlari;

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- hayvonlar mahsuldorligining ko‘rsatkichlari;
- ishlab chiqarishning moddiy sharoiti va xarakterini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar [8].

A.I.Gozulovning ilmiy yondashuvlarida keltirilgan chorvachilik mahsulotlari ko‘rsatkichlarining tizimi ham, shuningdek, ko‘rsatkichlarning to‘rtta blokini qamrab oladi, lekin sifat jihatidan ularning farqi unchalik katta emas. Dastlabki uchta blokning bir-biriga to‘la mos kelgani holda, to‘rtinchi blok ozuqa (yem-xashak) bazasi ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi [3].

N.K.Koborov muharrirligi ostida yozilgan darslikda 5 ta blokli ko‘rsatkichlar tizimi ko‘rib chiqilgan [16]. Shuni ta’kidlash kerakki, mazmunan bu darslik yuqorida ko‘rib chiqilgan ishlarga o‘xshash va ishlab chiqarishni tashkil etish ko‘rsatkichlari bilan to‘ldirilganligi uchun to‘laroq hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkichlar tizimi quyidagi ko‘rinishga ega:

- qishloq xo‘jaligi mollarining soni va tarkibining ko‘rsatkichlari haqida;
- qishloq xo‘jalik mollarini qayta yetishtirish ko‘rsatkichlari haqida;
- chorvachilik mahsulotlarining ko‘rsatkichlari haqida;
- chorvachilikni ishlab chiqarishini tashkil etish ko‘rsatkichlari haqida;
- ozuqa (yem-xashak) bazasi ko‘rsatkichlari haqida.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasini parrandachilikda statistik ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish oshirish bo‘yicha mamlakatimiz hamda xorijiy olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqot natijalari,shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligi sohasida statistik ma’lumotlar bazasini kengaytirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 26-fevral, 104-sonli Qarori va qishloq xo‘jaligi sohasidagi statistik ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish bo‘yicha Prezident huzuridagi Davlat statistika agentligi tamonidan amalga oshirayotgan chora tadbirlar tashkil etadi. Shu bilan birga, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda parrandachilikda ko‘rsatkichlar tizimini modellashtirish va prognozlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, O‘zbekistonda parrandachillikni yanada rivojlantirish va davlat tamonidan qo‘llab-quvvatlash chora tadbirlarini amaliyotga kiritishda katta turtki bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan ushbu tadqiqotning metodologik jihati mamlakatimizda parrandachilikda statistik ko‘rsatkichlar tizimini shakllagtirish va takkomillashtirish g‘oyalarini amaliyotga joriy yetish yo‘llarini asoslashdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Statistik ko‘rsatkichlar muayyan hodisalar va jarayonlarning umumlashtiruvchi hajmlarni va miqdoriy nisbatlarni ifodalovchi kategoriyadir. Ushbu ko‘rsatkichlar muayan hudud va turli vaqt oraliqlarida chorvachilik tarmog‘ining holati, rivojlanishi hamda chorva mahsulotlarini iste’mol qilish barqarorligiga obyektiv baho berishi imkonini beradi.

Statistik ko‘rsatkichlar, deb ma’lum makon va zamon sharoitida ommaviy hodisa va jarayonlarning holatini, rivojlanishini, tuzilishini, o‘zaro bog‘lanishlarini ifodalovchi me’yorlar tushuniladi [9].

Statistik ko‘rsatkichlar tizimi – bu shunchaki alohida olingan ko‘rsatkichlar yig‘indisi bo‘lmay, balki amalda mavjud belgi va hodisalarning o‘zaro aloqalarini aks ettiruvchi dialektik yagona birligidir.

Shuning uchun chorvachilikning statistik ko‘rsatkichlar tizimini yaratishda iqtisodiy va statistik yondashuvlarni farqlagan holda ma’lum talablarga qat’iy rioya qilish kerak.

Ko‘rsatkichlar tizimini yaratishda iqtisodiy talablar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: iqtisodiy qonunlarga muvofiq kelishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida iqtisodiy siyosatning mohiyatini adekvat aks ettirish, o‘rganilayotgan hodisaning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va o‘rganilayotgan hodisaning aniq ifodalashi.

Statistik ko‘rsatkichlar tizimini yaratishga qo‘yiladigan statistik talablarga quyidagilar kiradi: ko‘rsatkichlar tizimining iqtisodiy-statistik tadqiqotlarning maqsad va vazifalariga muvofiqligi, tizim ko‘rsatkichlarining taqqoslamaligini ta’minlash, ularni hisoblashning yagona metodologiyasining mavjudligi, tizim ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik, o‘rganilayotgan obyektni aks ettirishning kompleksligi va to‘liqligi.

Bundan tashqari, quyidagilar zarur: maksimal tahliliy daraja, statistik ma’lumotlarni olishning joriy tizimiga asoslangan ishonchli axborot bazasining mavjudligi, natijalarni iqtisodiy talqin qilish imkoniyati, natijalarning yaxlitligi, uzluksizligi va tizimning bir xil davriyligi. Mamlakat iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar bilan birga statistik ko‘rsatkichlar tizimi ham o‘zgarishi kerak.

Hozirgi vaqtda ko‘rsatkichlar tizimini yaratishning asosiy amaliy va uslubiy yondashuvlari qayta ko‘rib chiqilmoqda. Bu ayniqsa muhimdir, chunki ijtimoiy hodisalarning ijtimoiy-iqtisodiy tabiatidagi barcha o‘zgarishlar statistik ko‘rsatkichlar tizimida eng aniq namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, yuqorida sanab o‘tilgan talablardan kelib chiqqan holda, chorvachilik statistikasi ko‘rsatkichlari tizimi quyidagilarni ta’minlashi kerak: tarmoq holatini har bir bosqichda ishonchli va har tomonlama yoritish; uning rivojlanish qonuniyatlarini va eng muhim o‘zaro bog‘liqlarini ochib berishi; ishlab chiqarish samaradorligini baholash va uni tartibga solish chora-tadbirlari; mavjud nomutanosibliklarni va ularni bartaraf etishning imkoniy yo‘llarini aniqlash, shuningdek, mavjud zaxiralardan foydalanish.

Parrandachilik statistikasi ko‘rsatkichlari tizimi har doim tarmoqning holatini ishonchli va har tomonlama qamrab olishi, uning rivojlanishidagi qonuniyatlarini va eng muhim o‘zaro bog‘liqlarni ochib berishi, ishlab chiqarish samaradorligini va uni tartibga solish choralarini baholashi, mavjud nomutanosibliklarni ochib berishi, ularni bartaraf etish va mavjud zaxiralardan foydalanishning mumkin bo‘lgan yo‘llarini ko‘rsatishi kerak.

Bu tizim birinchi navbatda ikkita maxsus ko‘rsatkichlarni qamrab oladi:

1. Qishloq xo‘jalik parrandalarining bosh soni ko‘rsatkichlari - soni, tarkibi, sifati, harakati va foydalanish ko‘rsatkichlari. Bu qishloq xo‘jalik parrandalarining doimiy yangilab borish (parvarishlash) zarurati bo‘lib, u podani ko‘paytirishning maxsus ko‘rsatkichlarini o‘rganishni talab qiladi.
2. Parrandachilikning yalpi mahsuloti ko‘rsatkichlari (hajmi, tarkibi, sifati, shakllanishi va harakati), parrandalarning mahsuldorligi, donli ekinlarning hosil va hosildorligi ko‘rsatkichlari bilan mos kelgan kelgan holda).

Parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasining o‘zgarishiga ikki omil ta’sir qilgan. Birinchidan parrandalar bosh soni va ularning mahsuldorligi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirishda, hisoblashda, o‘rganilayotgan hodisalarni adekvat ifodalash uchun quyidagi qoidalarga rioya qilingani ma’qul:

1) iqtisodiy nazariya va statistika metodologiyasiga suyangan holda hisoblangan ko‘rsatkichlar iloji boricha o‘rganilayotgan hodisalarning mohiyatini ifodalab, ularga miqdoriy baho bersin, umummilliy tushunchalar bilan bog‘liqligi;
2) ko‘rsatkichlar hisoblanayotgan asos ma’lumotlarning har tomonlama to‘liqligi;
3) boshlang‘ich asos ma’lumotlar va hisoblash texnologiyasi bo‘yicha ularni taqqoslash mumkinligini va ishonchliligini ta’minlash;
4) hodisa va predmetlarni o‘rganish, tushunish uchun uni yoymoq, tuzuvchi bo‘laklarga bo‘lmoq, uni ayrim belgilarini ajratmoq, ya’ni tahlil qilish. Ma’lumki, o‘rganilayotgan predmetni xayolan bo‘laklarga bo‘lish tahlil deyiladi;
5) tahlil (analiz) bilan sintez qilishni ta’minlash;
6) induktsiya va deduktsiyani ta’minlanish, ya’ni ko‘rsatkichlarni hisoblashda fikrni yakkalikdan umumiyga qarab (yoki teskarisi) harakatni ta’minlash.

Shunday qilib, yuqorida sanab o‘tilgan talablardan kelib chiqqan holda chorvachilikning muhim tarmoqlaridan biri sifatida parrandachilik statistikasining tizimi quyidagilarni ta’minlashi kerak:

- tarmoqning har bir bosqichdagi holatini ishonchli va har taraflama yoritish;
- uning taraqqiyotidagi qonunlarni hamda eng mohiyatli o‘zaro bog‘liqliklarni ochib berish;
- ishlab chiqarishni amalga oshirish hamda uni tartibga solib turish chora-tadbirlarining samaradorligini baholash;
- mavjud bo‘lgan nomutanosibliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishning yo‘llarini belgilash.

Parrandachilik statistikasida ikki turdagi statistik to‘plamlar bilan shug‘ullaniladi:

- kuzatish birligi hisoblangan qishloq xo‘jalik parrandalariga ega qishloq xo‘jaligi korxonalari (tijorat korxonalari), fermer xo‘jaliklari va dehqon(aholi xo‘jaliklari):
- turi, jinsi, yoshi, vazni, mahsuldorlik, salomatlik holati, foydalanish xarakteri belgilariga ega qishloq xo‘jalik parrandalari.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Parrandachilik statistikasining ko‘rsatkichlarini olish va tahlil qilish hududiy, ijtimoiy va tarmoq kesimida amalga oshiriladi. Obyektiv mavjud ko‘rsatkichlar tizimini to‘liqligi va qamrab olish darajasi boshqaruv darajasiga, axborot-tahlil vazifalariga bo‘lgan ehtiyojga, uni o‘rganishning moddiy va boshqa imkoniyatlariga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligi sohasida statistik ma’lumotlar bazasini kengaytirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 26-fevral, 104-sonli qarori,
2. Башкатов Б.И. Статистика сельского хозяйства с основами общей теории статистики: Курс лекций. — М.: Тандем: Экмос, 2001. —352 с.
3. Гозулов А.И., Гранков В.П., Мержанов Г.С. Статистика сельского хозяйства. — М.: Статистика, 1967. —267 с.
4. Дарда Е.С. Статистический анализ и прогнозирование производства основных видов продукции животноводства: Монография. – М.: ИНО, 2011. – 109 с.
5. Зинченко А.Р. Сельскохозяйственная статистика с основами социальноэкономической статистики. —М.: изд. МСХА, 1998. —345 с.
6. Xasanov A.A. Chorvachilik mahsulotlari asosiy turlarini ishlab chiqarishning statistik tadqiqoti. —Avtoreferat. —T: 2019
7. Xatamov O., Bobomuratov I. Parrandachilikni rivojlantirishning hududiy iqtisodiy statistik tahlili. Agroiqtisodiyot. Ilmiy-amaliy agroiqtisodiy jurnal. 4(14)2019
8. Xo‘jaqulov X.D. va boshqalar. Qishloq xo‘jaligi statistikasi. —Toshkent, 2015. 342-b.
9. Soatov N.M. Tillaxo‘jaeva G.N. Statistika nazariyasi. Darslik. – T.: TDIU, 2005. – 248-bet.
10. Bobomuratov, I. I. (2023). Surxondaryo viloyatida tuxum yetishtirishining iqtisodiy statistik tahlili // GOLDEN BRAIN, 1(18), 38-45.
11. Imomqul, B. (2023). Parrandachilik mahsulotlarining asosiy turlarini ishlab chiqarishni ko‘p omilli regrission tahlil qilish va pragnozlashtirish. Journal of Universal Stsientse Research, 1(6), 804-808.
12. Bobomuratov, I. (2021). Davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash-parrandachilik samaradorligini oshirish omili sifatida // Iqtisodiyot va ta’lim, (5), 42-48.
13. Bobomuratov, I. I. (2023). Surxondaryo viloyatida tuxum yetishtirishining iqtisodiy statistik tahlili // GOLDEN BRAIN, 1(18), 38-45.
14. Bobomuratov, I. I. (2023). Surxondaryo viloyatida parranda go ‘shti yetishtirishning iqtisodiy statistik tahlili // SCHOLAR, 1(18), 35-41.
15. Islamovich, B. I. (2024). Statistical Study of Poultry Farming in Surkhandarya Region // Multidistsiplinary Journal of Stsientse and Technology, 4(4), 28-34.
16. Статистика сельского хозяйства / Под ред. Н.К. Коборова. —М.: Финансы и статистика, 1989.–387 с.

IQTISODIYOTDA KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHDA MOLIYA BOZORI INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Shaxnoza Qobilova
Qarshi davlat universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda iqtisodiyotda kambag‘allikka qarshi kurashishda biznesni moliyalashtirishning ko‘plab usullari mavjud. Ular orasida eng zamonaviy va keng tarqalgan model kraudfanding hisoblanadi. Ushbu model biznesni boshlash uchun mablag‘ yetarli bo‘lmaganlar uchun juda samarali usul bo‘lib, kraudfanding - internet orqali investorlardan mablag‘ yig‘ish, innovatsion g‘oyani moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmi sanaladi. Mazkur maqola “Kraudfanding” konsepsiyasi, uni O‘zbekistonda rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish istiqbollarini o‘rganishga qaratilgan. Jamoaviy sa’y-harakatlar orqali kapitalni jalb qilish usuli sifatida kraudfanding ko‘p odamlarning kichik xayriyalari yoki investitsiya kiritishi bilan loyiha yoki korxonani moliyalashtirishga qaratilgan. Shunday qilib, bunday hodisa muqobil moliyaviy mahsulotlarni rivojlantirish uchun keng yo‘l ochadi. Xususan, mamlakatimizda 417,1 mingdan ortiq mikrofirma va kichik biznes faoliyati bilan shug‘ullanayotgan aholi va ularning YAIMda qariyb 56 foiz ulushga ega. Kichik tadbirkorlar soni har 1000 nafar doimiy aholiga 14 taga to‘g‘ri kelgan. O‘zbekistonda kraudfanding modelining rivojlanishi investorlar va tadbirkorlarga har ikki tomonlama katta foyda keltirishi, tadbirkorlik esa, o‘z navbatida, milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga, kambag‘allik darajasini qisqartishga hissa qo‘shishi kutilmoqda.
Kalit so‘zlar: kraudfanding, kraudinvesting, kambag‘allik, qashshoqlik darajasi, iste’mol minimumi, biznes, mikromoliyalashtirish, kredit, venchur, investitsiya.

Abstract: In today’s economy, there are many ways to finance a business in the fight against poverty. Among them, the most modern and widespread model is crowdfunding. This model is a very effective method for those who do not have enough funds to start a business, and crowdfunding is a modern mechanism for collecting funds from investors and financing an innovative idea via the Internet. This article is aimed at studying the concept of “Crowdfunding” and the prospects of reducing poverty through its development in Uzbekistan. As a method of raising capital through collective efforts, crowdfunding aims to finance a project or enterprise with small donations or investments from many people. Thus, such an event opens a wide path for the development of alternative financial products. In particular, there are more than 417,100 people engaged in micro-firms and small business activities in our country, and their share in GDP is about 56 percent. The number of small entrepreneurs was 14 per 1,000 permanent residents. The development of the crowdfunding model in Uzbekistan is expected to bring great benefits to both investors and entrepreneurs, and entrepreneurship, in turn, will contribute to the development of the national economy and reduce the level of poverty.
Key words: crowdinvesting, poverty, poverty level, consumption minimum, business, microfinancing, credit, venture, investment.

Аннотация: В современной экономике существует множество способов финансирования бизнеса в борьбе с бедностью. Среди них наиболее современной и распространенной моделью является краудфандинг. Эта модель – очень эффективный метод для тех, у кого недостаточно средств для открытия бизнеса, а краудфандинг – современный механизм сбора средств инвесторов и финансирования инновационной идеи через Интернет. Данная статья направлена на изучение понятия “Краудфандинг” и перспектив сокращения бедности посредством его развития в Узбекистане. Краудфандинг как метод привлечения капитала посредством коллективных усилий направлен на финансирование проекта или предприятия за счет небольших пожертвований или инвестиций множества людей. Таким образом, подобное мероприятие открывает широкий путь для развития альтернативных финансовых продуктов. В частности, в нашей стране микрофирмами и малым бизнесом занимаются более 417,1 тыс. человек, а их доля в ВВП составляет около 56 процентов. Число малых предпринимателей составило 14 на 1000 постоянных жителей. Ожидается, что развитие модели краудфандинга в Узбекистане принесет большую пользу как инвесторам, так и предпринимателям, а предпринимательство, в свою очередь, будет способствовать развитию национальной экономики и снижению уровня бедности.
Ключевые слова: краудфандинг, краудинвестинг, бедность, уровень бедности, минимум потребления, бизнес, микрофинансирование, кредит, венчурное инвестирование.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotda kambag‘allikni qisqartish, aholi daromadlarini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib kelmoqda. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda moliyalashtirish va investitsiyalarning zamonaviy vositalari maydonga kelmoqda. Iqtisodiyotda kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun mablag‘ yig‘ish doimo muammo bo‘lib kelgan. Mikromoliyalashtirishning modeli kraudfanding rivojlangan davlatlarda biznesni moliyalashtirishda muammoni oson, arzon, tez yechishning demokratik vositasiga aylandi va, shu bilan birga, kraudfanding modeli moliyalashtirishning ommaviylashuviga olib keldi. Kelajakda butun dunyo bo‘ylab mikromoliya tashkilotlari (MMT) faoliyatining kengayishi bilan model ijobiy va salbiy natijalarga olib kelgan ko‘plab o‘zgarishlarni boshdan kechira boshladi, bu mikromoliyaning iqtisodiy rivojlanish vositasi sifatida maqsadga muvofiqligi va samaradorligi to‘g‘risida savollar tug‘dirdi. Xususan, investitsion resurslardan foydalanishni osonlashtirish orqali aholining kam ta’minlangan qatlamlarining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishdan ijtimoiy maqsadni ko‘zlashdan ko‘ra, daromad olishga e’tibor qaratadigan mikromoliya institutlarining paydo bo‘lishi ko‘plab munozarali holatlar — o‘z joniga qasd qilish, jamiyatlarda kambag‘allining kuchayishi tufayli tanqid qilinmoqda. Bunday muammolar ko‘payib borayotganligi sababli, turli olimlar nafaqat mikromoliyalash samaradorligini iqtisodiy rivojlanish vositasi sifatida o‘lchaydigan, balki mikromoliyaviy faoliyat duch keladigan tarkibiy muammolarni ham ochib beradigan modellarni ishlab chiqdilar. Kambag‘allikni qisqartirishda ana’anaviy mikromoliyalashtirish tizimida yuzaga kelayotgan muammolarga yuqori tranzaksiya xarajatlari, moliyaviy barqarorlikning yo‘qligi, muhim ma’lumotlarning nosimmetrikligi, past darajadagi shaffoflik, korrupsion sxemalar orqali pul yuvilishi, nepatizm va yomon boshqaruv mikromoliyaning moliya bozoriga olib kelgan eng muhim tarkibiy muammolaridan biri sifatida qayd etildi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi an’anaviy mikromoliyalashdan ko‘ra, Kambag‘allikka qarshi kurashda samaraliroq bo‘ladigan tuzatuvchi kuch bo‘lishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Qashshoqlik, kambag‘allik muammosi har bir kishini tahlikaga soladigan iqtisodiy va ijtimoiy hodisa bo‘lib bugungi kunda rivojlanayotgan hamda rivojlangan mamlakatlar aholisining salmoqli qismini, hatto XXI asrda ham ta’qib qilmoqda. Iqtisodiyotda ushbu muammoning yechimini topish maqsadida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ko‘plab ilmiy ishlarining dolzarb mavzusi bo‘lib kelmoqda. Ko‘plab tadqiqotchilar bu savolga javob topishga harakat qilishdi, ammo bugungi kunga qadar har bir mamlakat aholisining qashshoqlik darajasini baholashning yagona mezonlari va muammoni bartaraf etishning umumiy qabul qilingan yo‘llari mavjud emas. Kambag‘allik darajasining standart tahlili kunlik xarajat va daromad chegarasidan yuqori yoki pastda yashaydigan odamlar sonini baholash uchun ma’lum bir pul chegarasidan foydalaniladi. Jahon Banki tomonidan ishlab chiqilgan jahon mamlakatlarida qashshoqlikni o‘lchash uchun uning chegarasi, ya’ni AQSH dollarida kuniga ma’lum miqdorda daromad sifatida belgilangan. Ayni vaqtda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 1.90 dollarni tashkil qiladi. Yashash minimumining bunday tahlilini qashshoqlik darajasini baholashning eng keng tarqalgan usuli deb hisoblash mumkin. C.Kaskarilla va S.Guptalarning ishlarida kambag‘allikni tahlil qilishning ushbu usulini amaliyotda qo‘llash bilan tanishish mumkin[1].

Kambag‘allikka qarishi kurashishda an’anaviy mikromoliyani raqamli shaklga o‘tkazish orqali zamonaviy tarixda ko‘pchilik mamlakatlar aholisining asosiy qismi qashshoqlik sabablarini aniqlashga bag‘ishlangan ilmiy ishlar bilan tanishib, kambag‘allik chegarasidan olib chiqishga yo‘naltirilgan mikromoliyalash mexanizmlarida zamonaviy raqamli texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmagani bilan bog‘liq degan umumiy xulosaga kelishimiz mumkin[2].

Koreya, Yaponiya va Singapur kabi ba’zi davlatlar ilg‘or texnologiyalarni joriy etish orqali qashshoqlikdan qutulishga muvaffaq bo‘ldi. Agar raqamli texnologiyalar kambag‘al mamlakatlarga texnologik rivojlanishni kambag‘allarning yashash ehtiyojlari bilan moslashtira oladigan tegishli milliy innovatsion tizim kabi tegishli institutlar bilan ta’minlansa, globallashuv, texnologiya va tadbirkorlik ilg‘or o‘zgarishlarning drayveri bo‘lishi mumkin[3].

Milliy iqtisodiyotimizni qaraydigan bo‘lsak, tijorat banklarida uzoq muddatli kredit resurslarining yetishmasligi, kredit berish shartlarining og‘irligi, yuqori ta’minot talablari, yuqori foizlar hamda mamlakatimiz kambag‘al fuqarolariga kredit berish xavfi ortib borayotganini hisobga olgan holda, aholining eng kambag‘al qatlami yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini, kichik va o‘rta biznesni muqobil moliyalashtirishda kraudfanding moliyalashtirish modeli an’anaviy mikromoliya, hatto, bank kreditlariga o‘z vaqtida zamonaviy muqobil yechim bo‘lishi mumkin. Birinchi navbatda, kraudfanding modeli tushunchasi haqida tasavvurga ega bo‘lishimiz lozim.

1 https://data.worldbank.org/indicator/SI.POV.DDAY
2 Cascarilla C. (2015). Bitcoin, Blockchain and the Future of Financial Transactions. CFA Institute Publications. Third Quarter 2015. Vol. 32. Iss. 3, pp. 1-7.
3 Sanjeyev G. (2009). Effect of Remittances on Poverty and Financial Development in Sub-Saharan Africa. Journal of World Development. Vol. 37. Iss. 1. Pp. 104-115.

Kraudfanding (ingliz. “kraudfanding”) — bu loyihalarni jamoaviy moliyalashtirish mexanizmi bo‘lib, bunda yangi mahsulotni yaratish uchun pul uning oxirgi foydalanuvchilaridan biri bo‘lib keladi. Standart bozor mexanizmlaridan farqli o‘laroq, kraudfanding reklama, bozorni o‘rganish, bozor tahlili va taxminlarga qo‘shimcha mablag‘ sarflamasdan, 100% foydali loyiha yaratish imkonini beradi.

Kraudfanding — bu mikroinvestitsiyalar orqali loyihalarni moliyalashtirish uchun Internet orqali cheksiz odamlarni jalb qilish texnologiyasi bo‘lib, ushbu amaliyotni bajarishda platformalar vositachi vazifasini bajaradi va startap loyihalarga shu yo‘l bilan kapitalni jalb qilish imkoniyatini beradi[4]. M. Sriram tahliliga ko‘ra, zamonaviy moliya bozorida kraudfanding rolini baholash bo‘yicha informatsion maqola chop etdi. Uning ta’kidlashicha, katta ma’lumotlarni saqlash, olish imkonini beruvchi texnologiyada ortiqcha kapitalga ega bo‘lganlar hamda qisqa muddatli sarmoyaga muhtoj bo‘lganlar o‘rtasidagi vositachilik funksiyasi moliya bozori manzarasini butunlay o‘zgartirishi mumkin. Bundan tashqari, agar blokcheynning to‘liq salohiyati yaratilgan bo‘lsa, individual investorlar kapitalga muhtoj bo‘lgan. Jumladan, kambag‘allar bilan bevosita bog‘lanish mumkin edi.

TAHLIL VA NATIJLAR

Kraudfanding — kapitalni oshirish va startap loyihalarni moliyalashtirishning nisbatan yangi usuli bo‘lib, biznesni kengaytirish yoki boshlash, biznes reja uchun kerakli mablag‘ ajratishning bir usuli hisoblanadi. Kraudfanding tadbirkorga pul to‘plash imkonini berishi bilan bir vaqtning o‘zida biznes atrofida shov-shuv yaratish imkoniyatini yaratadi. Qisqa qilib aytganda, kraudfanding kichik biznes uchun bank kreditlarining muqobil variantlaridan yana biri bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda ko‘p turdagi kraudfanding platformalari mavjud va bu jarayon foydalanuvchilarga qarzga kirmasdan biznesni moliyalashtirish imkonini beradi, shuning uchun u iqtisodiyotda moliyaviy resurslarga muhtoj bo‘lgan ko‘plab kichik biznes egalari uchun juda qulay usul sifatida amaliyotga joriy bo‘lmoqda. Qaysi kraudfanding platformasini tanlashingizdan qat’iy nazar, kraudfandingni yaratish odatda, kompaniya yaratish, marketing, maqsadga erishish niyatida pul yig‘ish kabi uch bosqichni o‘z ichiga oladi. Kompaniya yaratish bosqichida moliyalashtirish obyekti biznes, mahsulot yoki xizmat haqida ma’lumotlar biznes reja shaklida to‘liq shakllantiriladi va jalb qilinadigan pulning qayerga sarflanishi, nima uchun bunday miqdorga muhtojligini aniq asoslantiriladi. Umuman olganda, ishonchli va asoslangan biznes reja butun kraudfanding kompaniyasini yaratishda muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi. Kraudfanding kompaniyasini yaratish ilk qadam bo‘lib, keyingi qadamda biznesni qo‘llab-quvvatlashga qiziqadigan odamlarni jalb qilish uchun marketing rejasini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Ushbu bosqichda “investor” yoki “donor” kompaniyaga pul berishga qaror qiladi va taklif qilinayotgan mahsulot yoki xizmatning maqsadli auditoriyasiga aylantiriladi. Kraudfanding “investorlar” yoki “donorlar” yangi biznes g‘oyani yoki loyihani moliyalashtirishga qaror qilishi uchun biznesingizni muhim jihatini ochib berish va ishontirishni talab qiladi. Bugungi kunda kraudfandingning 4 ta asosiy turi uchun ruxsat bor:

- fond kraudfanding;
- kraudfandingga asoslangan ehsonlar;
- kraudfandingga asoslangan mukofotlar;
- kraudfanding kreditlari.

Fond kraudfanding — bu birgalikdagi kraudfanding yoki aksiyadorlik jamg‘armasini pul evaziga o‘z biznesingizdagi ulushni sotasiz va kompaniya foydasining bir qismi investorlarga taqsimlanadi. Ushbu turdagi kraudfanding ba’zi huquqiy qiyinchiliklar bilan bog‘liq, ammo uni amalga oshirish mumkin. Bu turdagi kraudfandingga ixtisoslashgan kraudfanding platformalarining ayrim misollari: AngelList: Angellistda pulni jalb qilish va Venture fondlari bilan bog‘lanish uchun boshlang‘ich profilni yaratish mumkin. CircleUp: ushbu platforma iste’molchilarga bevosita mahsulot sotadigan kompaniyalarga qaratilgan. Ishtirokchilar investorlarning hamkori bo‘lishi va biznes jarayonlarida yordam olish yoki yordam berish mumkin. Fundable: ushbu platformada aksiyalar bo‘yicha mablag‘ to‘plashni tanlash mumkin. Fundable $50 000 dan $10 milliongacha bo‘lgan kompaniyalar uchun aksiyalar bilan variantni taklif qiladi.

Xayr-ehsonlar kraudfandingi — bu turdagi kraudfanding kompaniyangizga pul berib, buning o‘rniga hech narsa kutmasdan ishlaydi. Xayr-ehsonga asoslangan kraudfanding kambag‘allikdan chiqish uchun qulay imkoniyatga ega bo‘lsa-da, bu g‘oya egalariga muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun eng qiyin bo‘lishi mumkin. Sababi ushbu turdagi kraudfandingda qatnashuvchi donorlar odatda, xayriya tashkilotlari bilan ishlashadi yoki ijtimoiy muammolarni hal qilishga mablag‘larini yo‘naltirishadi.

4 Leimeister, J. M. (2012): Crowdsourcing, Crowdfunding, Crowdvoting, Crowdcreation. 388 – bis 392. St.Gallen, CH: Zeitschrift für Controlling und Management.

Mukofotga asoslangan kraudfanding — mukofotga asoslangan kraudfanding bilan omonatchilar pul topish uchun muayyan mukofot olishadi. Kraudfandingning bu turi birja kraudfandingi deb ham ataladi va mukofot ko‘pincha kompaniya uchun tikilgan pul miqdoriga bog‘liq. Kompaniyalar omonatchilarga mablag‘ to‘playdigan yangi mahsulotni yuborishlari mumkin.

Kredit kraudfanding. Kredit mablag‘lari, foydalanuvchilararo kredit yoki bozor krediti sifatida ham tanilgan, agar shaxs yoki kompaniya bankka kreditiga emas, balki bir guruh odamlarga moliyaviy yordam so‘rab murojaat qilsa, investitsiya qilingan pul belgilangan muddatlarda, foizlar bo‘yicha qaytarilishi kerak. Kraudfanding biznes kreditini an’anaviy kreditlarga nisbatan past foizda taklif qilishi bilan qulaydir. Kredit kraudfanding platformalariga quyidagilar kiradi:

Prosper — kichik biznesda foydalanish uchun shaxsiy kredit olish imkonini beradi. Bu kambag‘al aholini biznes boshlashi uchun foydali bo‘lishi mumkin, chunki bunda murojaatchini biznes layoqatiga emas, balki shaxsiy ijtimoiy ahvoliga bog‘liq.

Street Shares — bu platforma biznesni moliyalashtirish uchun turli xil variantlarni taklif etadi va potensial investorlarga biznes obligatsiyalariga sarmoya kiritish imkoniyatini beradi. Biznesni moliyalashtirish orqali kambag‘allikni qisqartirishda kraudfanding bilan bilan bir qatorda kraudinvestingdan ham keng foydalaniladi. Kraudinvesting istiqbolli loyihalarni moliya bilan ta’minlash uchun ko‘plab kreditorlarning moliyaviy resurslaridan foydalanadi. Kraudinvestingda kapitalga talab va taklifni birgalikda tartibga solish internet platformalari orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, tadbirkorlar kraudinvesting orqali qoplamoqchi bo‘lgan kapitalga bo‘lgan ehtiyojni aniqlaydi va potensial investorlarga biznes g‘oya va rejalashtirilgan amalga oshirish haqida batafsil ma’lumot beradi[5].

Kraudinvesting — bu ko‘p sonli ishtirokchilar mikroinvestorlar tomonidan amalga oshirilgan loyihaga investitsiya. Bu loyihada faqat mikroinvestorlar ishtirok etadi, degani emas. Masalan, aksiyalarning 51 foizi loyiha egasiga, 2 foizi venchur fondiga tegishli, qolgan ulush esa sarmoya kiritishga tayyor bo‘lgan mikroinvestorlarga sotiladi. Mikroinvestorlar kompaniya aksiyalarini yoki startap aktivlari ulushini olishlari mumkin. Ushbu holatda ta’sischi kredit berishi mumkin shuningdek, ta’sischi kraudinvestorlardan olingan pulni foizlar bilan qaytarishi kerak. Kraudfanding, pul bilan bog‘liq jarayon, shuning uchun uning ijobiy va salbiy tomonlari bor. Kraudfanding afzalliklariga ushbu platforma bozorni sinab ko‘rishning ajoyib usuli bo‘lishi mumkin. Biznes g‘oyangiz bo‘lsa-da, lekin bozorga kirib borishga ishonch bo‘lmasa, kraudfanding ushbu imkoniyatni beradi. Biroq biznes g‘oya investorlar hamda sarmoyadorlarni jalb qilmasa, unda biznesingiz strategiyasini va g‘oyasini o‘zgartirish lozimligi to‘g‘risidagi muhim xulosalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Odatda, biznesda moliyalashtirish bilan bog‘liq muammolar kelib chiqadi ushbu vaziyatda, bozor moliyaviy mas’uliyatning katta qismini o‘z bo‘yniga oladi. Bundan tashqari kraudfanding moliyalashtirish mexanizmi orqali biznesni moliyalashtirish, aholining kam ta’minlangan qismini biznes boshlashi uchun vaqtdan yutish imkoniyatini oshirishi, kam foizli yoki hayriya tarzidagi mablag‘larni jalb qilish imkoniyatini oshirishi, mahsulotning bozorga chiqishini tezlashtirishi mumkin. Shunga qaramasdan, kraudfanding platformalarining ba’zi kamchiliklariga xususan, kraudfanding platformalaridan foydalanish to‘lovlarining mavjudligi, investorlarni jalb qilish uchun marketing xizmatlarini professional tarzda tashkil qilish xarajatlarining ortib ketishi, platforma ishtirokchilari o‘rtasida daromadni taqsimlashdagi qiyinchilik, intellektual mulk huquqlarini ta’minlashdagi qiyinchilik, ishtirokchilardan olingan katta hajmdagi ilmiy-texnikaviy hamda bozor axborotlarining sifati past binobarin, yakuniy mahsulot sifatining pasayishiga olib keladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida yuqoridagi ilmiy qarashlardan kelib chiqib, shuni ta’kidlash lozimki:

Birinchidan, kraudfanding moliya bozoridan kam ta’minlangan fuqarolar mablag‘larni jalb qilishning eng oddiy, eng tezkor shuningdek, eng arzon shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Internetga kirish imkoniyatiga ega mobil telefonlar hozirda jamiyatning eng kambag‘al qatlamlari ham foydalanishi mumkinligini hisobga olsak, kraudfandingni rivojlantirish istiqbollari cheksiz imkoniyat sifatida ko‘rinadi.

Ikkinchidan, hozirgi vaqtda aholining kam ta’minlangan qismini raqamli moliyalashtirish jahon moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi ekanligi shuningdek, kraudfanding platformasining kengayishi mamlakatda kambag‘allikni kamaytirishga yordam berishini hisobga olib, ushbu mexanizmni mamlakatimizda ham ishlab chiqish muhim omil deb, taklif qilishimiz kerak.

Uchinchidan, bu kam ta’minlangan aholi qatlamining muhim qismini kredit qarzlari bo‘yicha foiz stavkalarini sezilarli darajada pasaytirish bilan bugungi kunda kam ta’minlangan aholi qatlamini tadbirkorlik faoliyati

5 Kortleben H., Vollmar B. 2012, “Crowdinvesting: An alternative in start-up financing” PFH Forschungspapiere/Research Papers Göttingen, Deutschland: Private University of Applied Sciences (PFH). No. 2012/06. S. 4

bilan shug‘ullanish ishtiyoqini kraudfanding orqali kichik biznesga jalb qilish imkonini beradi. Natijada mamlakat iqtisodiyotida qo‘shilgan qiymatning oshishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga, ishsizlik darajasining pasayishiga, aholi daromadi va yashash sharoitlarining yaxshilanishiga, bandlik darajasi ortishi, milliy daromadning o‘sishi, oxir oqibatda kambag‘allik darajasi sonini kamaytirishga erishiladi.

To‘rtinchidan, iqtisodiyotda kambag‘allik darajasini kamaytirishda kraudfanding modelidan foydalanish imkoniyatlari kambag‘allar sonini kamaytirishda amalda ishlayotgan ana’anaviy mikromoliyaviy faoliyat duch keladigan tarkibiy muammolar ─ yuqori tranzaksiya xarajatlari, moliyaviy barqarorlikning yo‘qligi, muhim ma’lumotlarning nosimmetrikligi, past darajadagi shaffoflik, korrupsion sxemalar orqali pul yuvilishi, nepatizm hamda yomon moliyaviy boshqaruv holatlariga barham berishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Cascarilla C. (2015). Bitcoin, Blockchain, and the Future of Financial Transactions. CFA Institute Publications. Third Quarter 2015. Vol. 32. Iss. 3.
2. Kortleben H., Vollmar B. 2012, Crowdinvesting: An alternative in start-up financing” PFH Forschungspapiere/Research Papers Göttingen, Deutschland: Private University of Applied Sciences (PFH). No. 2012/06.
3. Leimeister, J. M. (2012): Crowdsourcing, Crowdfunding, Crowdvoting, Crowdcreation. 388 – bis 392. St.Gallen, CH: Zeitschrift für Controlling und Management.
4. Sriram M.S. (2005). Information asymmetry and trust: a framework for studying microfinance in India. Vikalpa, 30(4), 77-86.
5. Sanjeyev G. (2009). Effect of Remittances on Poverty and Financial Development in Sub-Saharan Africa. Journal of World Development. Vol. 37. Iss. Pp. 104-115.
6. https://data.worldbank.org/indicator/SI.POV.DDAY

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

SOHIBQIRON AMIR TEMUR VA ADAM SMITNING SOLIQLARGA BO‘LGAN QARASHLARINING XUSUSIYATLARI TO‘G‘RISIDAGI FIKRLAR

UDK. 336.12

Alimov Ilxomjon Ikromovich
I. f.n., Toshkent davlat transport universiteti,
“Hisob va biznes” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada sohibqiron Amir Temur va “moliya fanining asoschisi” unvoni sohibi Adam Smitning soliqlarning undirish tamoyillari yuzasidan qarashlarining mohiyati va ularning o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Maqolada mazkur qarashlarning qiyosiy tahlili asosida ularga mualliflik bahosi berilgan.

Kalit so‘zlar: Soliqlar, soliq to‘lovchilar, adolatlilik, muddat, soliq yuki, imtiyoz.

Abstract: This article examines the essence and features of the views of Amir Temur and the holder of the title of “founder of financial science” Adam Smith in the field of taxation principles. Based on a comparative analysis, the article provides the author’s assessment of these views.

Key words: Taxes, taxpayers, fairness, terms, tax burden, benefits.

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность и особенности взглядов Амира Темура и обладателя титула “основателя финансовой науки” Адама Смита в области принципов налогообложения. В статье на основе сопоставительного анализа дана авторская оценка данных взглядов.

Ключевые слова: Налоги, налогоплательщики, справедливость, сроки, налоговая нагрузка, льгота.

KIRISH

Butun dunyo, shu jumladan, O‘zbekiston xalqi ham sohibqiron Amir Temurni buyuk sarkarda va yirik davlat arbobi sifatida biladi. Dunyodagi barcha millatlar va elatlar o‘zlarida yetishib chiqqan buyuk shaxslarni e’zozlashadi. Masalan, nemislar yagona Germaniya davlatiga asos solgan Otto fon Bismarkni, fransuzlar Bonapart Napoleonni, ruslar Pyotr I ni, mo‘g‘ullar Chingizxonni va hakozo. Albatta, bu shaxslar tarixda o‘z o‘rniga ega. Lekin sohibqiron Amir Temurning tarixda egallagan o‘rnining o‘ziga xos xususiyatlar bor. Biz buni isbotlashga harakat qilamiz. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, dunyoda har 800 yilda insonlar o‘rtasida yagona sohibqiron dunyoga keladi. Hozirgi vaqtgacha 3 ta sohibqiron, Iskandar Zulqarnayn, payg‘ambarimiz Muhammad Alayhissalom va Amir Temurlar o‘tgan. Sohibqiron Amir Temurning hayoti to‘g‘risida dunyoning turli adabiyotlarida turli ma’lumotlar (asosan, salbiy ma’lumotlar) mavjud. Tarixiy manbalarga asosan sohibqiron Amir Temur 1402-yilning 20-iyulida usmonli turklar sultoni Boyazid I Yildirim (chaqmoq)ning qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratgan va shu bilan usmonli turk imperiyasining markazlashuvini, Konsantinopol (Stambul)ning turklar tomonidan bosib olinishini 50 yilga surib tashlagan.[3] Fransiyaning poytaxti Parij shahrida sohibqiron Amir Temurning haykali o‘rnatilgan bo‘lib, unda “Yevropa haloskoriga” degan yozuv bitilgan. Rossiyada hozirda mo‘g‘ullar sardori To‘xtamishxonning ulkan qo‘shinini mag‘lub etgan va shu asosda Oltin O‘rdani zaiflashtirib rus xalqiga mug‘ullar istilosidan ozod etilishiga zamin yaratgan sohibqiron Amir Temurga haykal o‘rnatish bo‘yicha katta ishlar olib borilmoqda. Ushbu omillar dunyoda sohibqironga berilgan yuksak baho hisoblanadi.

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan sohibqiron Amir Temurning davlatchilik, diplomatiya, harbiy mahorati va bunyodkorlik salohiyatiga oid qarashlarini chuqur o‘rganish maqsadida “Temurbeklar maktabi” tashkil etildi. Ushbu omil O‘zbekistonda Amir Temur bobomizning nomi, sha’nu-shavkati va merosini chuqur o‘rganishlikka juda katta e’tibor berilayotganligidan dalolat beradi. Lekin, fikrimizcha, sohibqiron Amir Temur buyuk davlat arbobi sifatida moliya sohasida ham juda ulkan ishlarni amalga oshirganligi nazardan chetda qolmoqda deb hisoblashga asos bor. Xuddi shu sohada biz o‘z fikr va mulohazalarimizni bildirmoqchimiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

Mamlakatimizda sohibqiron Amir Temurning xayoti va uning tarix va iqtisodiy yo‘nalishdagi asarlari asosan akademik Bo‘riboy Ahmedov kabi olimlar tomonidan batafsil o‘rganilgan. Mustaqil O‘zbekiston tarixida ilk bor akademik Bo‘riboy Ahmedov 1992-yilda chop etilgan “ Temur o‘g‘itlari”[4] kitobi asosida hozirda butun dunyoga mashhur “Temur tuzuklari”[5] to‘g‘risida ilmiy asarni yaratgan. Bo‘riboy Ahmedovning 1994-yilda chop etilgan “Tarixdan saboqlar” kitobida sohibqiron Amir Temurning xayoti va uning tarix va iqtisodiy yo‘nalishdagi asarlari chuqur tadqiq etilgan.[6] Xuddi shu yerda quyidagilarni keltirishni lozim topdik. Akademik Bo‘riboy Ahmedov kuyunib “Qolaversa, hadeb tarixchilarni koyiy berish ham insofdan bo‘lmasa kerak. Axir tarixchilar bo‘lmasa o‘tmishda bir tangaga bir qo‘y, 1,5-2 tangaga bir xarvor (bir eshak yuk) don sotib olish mumkinligini iqtisodchilar (arab va fors tillarida, eski imloda bitilgan kitoblar va hujjatlarni o‘qiy olmaydigan iqtisodchilar) qayerdan bilsin” deb alohida ta’kidlagan.[6]

Moliya-soliq nazariyalarining kelib chiqishi, mohiyati va ularning asosiy g‘oyalari to‘g‘risida O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan T.S. Malikov, O.O. Olimjonov,[7] A. V. Vaxobov va A.S. Jo‘rayevlardan tashqari [8] aksariyat ko‘pchiligi asosan xorijiy manbalarga asoslanadilar. Ushbu holat, bizning fikrimcha, bir qarashda tabiiy holatdek hisoblanadi. Ammo keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy o‘zgarishlar moliya-soliq nazariyalariga bo‘lgan yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Keyingi yillarda ushbu masalaga bag‘ishlangan ilmiy ishlar i.f.d., professor T.S. Malikovga tegishli bo‘lib, ularda buyuk Temur bobomizning moliya-soliq ilmidagi xizmatlari tadqiq etilgan.[9,10,11] Maqola muallifi o‘zining monografiyasida sohibqiron Amir Temurning soliq siyosati bo‘yicha izlanish olib borgan.[12] Mamlakatimiz tarixi, ayniqsa sohibqiron Amir Temurning tuzuklarini chuqur o‘rganib chiqsak, moliya-soliq nazariyalarining tarixiy ildizi qayerdan olinganligining guvohi bo‘lamiz. Muallif tomonidan akademik Bo‘riboy Ahmedovning “Tarixdan saboqlar” va “Temur tuzuklari” kitoblari moliyachi sifatida chuqur o‘rganib chiqildi va shu asosda mazkur maqolada fikr – mulohazalar shakllantirildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish va natijalarni asoslash maqsadida mantiqiy mushohada, adabiyotlarni tanqidiy o‘rganish, taqqoslash, tizimli tahlil va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolaning uslubiy asosi sifatida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning adabiyotlari va maqolalari tahlil etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro amaliyotda iqtisodiy ta’limotda Angliyalik buyuk shotland iqtisodchisi Adam Smit (1723–1790-yillar) alohida o‘rin tutadi. A.Smit 1776-yilda “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risidagi izlanishlar” (“Issledovaniye o prirode i prichinax bogatstva narodov”) deb nomlangan kitobini chop etdi. Olim aynan mazkur kitobda u mehnat unumdorligi va unumsiz bo‘lgan mehnat unumdorligiga asosan davlat moliyasining mohiyati bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqdi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mazkur kitob Adam Smitga “iqtisodiyot otasi” yoki “moliya fanining asoschisi” degan unvonni berdi. Siyosiy iqtisodning klassik maktabining asoschisi hisoblangan Adam Smitning asosiy g‘oyasi millatning boyligi milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida (fiziokratlar tomonidan ilgari surilgan faqatgina qishloq xo‘jaligida emas) unumli mehnat unumdorligi orqali yaratiladi. Adam Smit moddiy ishlab chiqarishning istalgan sohasiga solingan kapitalni unumli kapital deb hisoblagan. Kapitalni dehqonchilikda qo‘llanish masalasida u mehnatgina emas, balki yerning o‘zi, tabiat ham qiymat yaratadi deb ta’kidlagan. Jamiyatning barcha a’zolari o‘zlariga tegishli daromadlarini yaratilgan milliy boylikka qo‘shgan hissasiga qarab oladi. Shuning uchun xalqlar boyligi jamiyatda unumli mehnat unumdorligini oshirish orqali yaratiladi va ortib boradi.[13]

Adam Smit o‘z asarida soliqlar nazariyasiga juda katta e’tibor bergan. Soliqlar to‘g‘risida uning “soliqlar bu qochib bo‘lmas zulmdir” (“nalogi neizbejnoye zlo”) degan dunyoqarashini dunyoning barcha iqtisodchilari yaxshi bilishadi. Lekin shunga qaramay A.Smit o‘z asarida soliqqa tortishni tashkil etishda to‘rtta asosiy tamoyillarni ishlab chiqqan:

- soliqlar fuqarolarning qobiliyatlari va moliyaviy ahvoliga asosan to‘lanishi lozim;
- soliqlarning miqdorlari va ularning to‘lash muddatlari aniq belgilangan bo‘lishi kerak;
- soliqlarni undirish muddatlari soliq to‘lovchilar uchun qulay bo‘lishi kerak;
- soliqlarni undirishda minimal xarajatlar ta’minlanishi lozim.

Adam Smit ilk bor soliqqa tortish tamoyillarini ko‘rsatib berdi, soliqlarni ahamiyatini yoritib, ularni davlatga to‘lash qullik emas, balki erkinlik alomati ekanligini asoslab berdi.[13] U jamiyatda amal qilayotgan soliqlarni (bilvosita, bevosita va ish xaqiga daromad soliqlari) jamiyatning iqtisodiy o‘sishiga ta’siri nuqtayi nazaridan tahlil etgan hamda ularga baho bergan.

Biz Adam Smit tomonidan ishlab chiqilgan soliqqa tortish tamoyillarini Amir Temur tuzuklariga taqqoslab chiqamiz. Endi ushbu yo‘nalishda, ya’ni soliqlar fuqarolarning qobiliyatlari va moliyaviy ahvoliga asosan to‘la-

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

nishi lozimligi tamoyili bo‘yicha sohibqiron Amir Temur tuzuklariga murojaat qilamiz. “Temur tuzuklari” juda muhim tarixiy manba bo‘lib, unda qadimiy Turkistonning buyuk farzandi Amir Temur davlatining tuzilishi va boshqarilishi xususidagi nuqtayi nazarlari bayon etilgan. Insoniyat tarixida eng buyuk davlat arboblaridan biri hisoblanadigan Amir Temur soliqlarga katta e’tibor qaratgan, chunki soliqlar saltanatni gullab-yashnashiga yoki uning tanazzul etilishiga olib keluvchi eng muhim omil ekanligini chuqur anglab yetgan. U davlatni idora qilish tizimini yuzaga keltirishda asosan soliqlarga tayangan. Buyuk Amir Temur tuzuklarida soliqlar davlatning iqtisodiy tayanchi va namoyon bo‘lishi haqida aytilishicha “Dono vazir shuldirki, o‘z o‘rniga qarab, goh qattiqqo‘llik, gohida esa muloyimlik bilan ish yuritadi... Demak, dono vazir shuldirki, saltanat korxonasining ishlarini eng to‘g‘ri chorayu tadbirlar qo‘llab, yaxshi anglagan holda amalga oshirib, davlatni tartib – intizomga keltiradi. Saltanat ishlarini sabr – toqat, chidam bilan ado etadi, muammolarni o‘z o‘rnida qattiqo‘llik, o‘z o‘rnida muloyimlik bilan hal qiladi. Bu xildagi vazirni davlat sherigi deb bilsinlar, chunki davlatu saltanat uch narsa: mulk (hudud), xazina va lashkar bilan tikdir. Dono vazir bularning har uchalasini tadbirkorlik bilan yaxshi ahvolda, saranjom tutadi”.[5] Eng muhimi, Amir Temur soliq to‘lovchi xalq (raiyat)dan mol-xiroj olish, mamlakatni tartibga keltirish va yuksaltirish, uning obodonchiligi, xavfsizligini amalga oshirishga ham juda katta e’tibor qaratgan. “Amr etdimki, raiyatdan mol- xiroj yig‘ishda ularni og‘ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan saqlansinlar. Negaki, raiyatni xonavayron qilish (davlat) xazinasining kambag‘allashuviga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo‘ladi. Sipohning tarqoqligi, o‘z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi. Yana buyruq berdimki, har bir mamlakat fath etilsa yoki jang dahshatlarisiz eminu omonlik tilasa, uning hosil va daromadlarini hisobga olsinlar”.[5] Ushbu tuzuklar sohibqiron Amir Temur soliqlar fuqarolarning qobiliyatlari va moliyaviy ahvoliga asosan to‘lanishi lozimligi bo‘yicha juda adolatli siyosat olib borganligidan dalolat beradi.

O‘sha davrning davlat moliyasi bu tizimning eng muhim unsurlaridan biri ekanligi, u davlatni boshqarishdagi barcha jihatlariga uzviy bog‘liq ekanligi bilan tubdan farq qilib turgan va aynan shu xususiyatga ko‘ra boshqaruvning barcha tarkibiy qismlari o‘rtasida markaziy o‘rinni egallaganligi bugungi kunga kelib hammaga ayon bo‘lmoqda. Endi Adam Smitning soliqlarning miqdorlari va ularning to‘lash muddatlari aniq belgilangan bo‘lishiga ko‘ra lozimligi tamoyili bo‘yicha Amir Temur tuzuklariga murojaat qilamiz. Agar Amir Temur tuzuklarida belgilab qo‘yilgan soliqqa tortish tamoyillariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning asosini ham soliqqa tortishda ularning miqdorlari va undirilish tartibi aniq belgilab qo‘yilganligi hamda ular bo‘yicha beriladigan imtiyozlar egallaydi. Unga muvofiq, soliq to‘lovchilardan soliqlarni aralashli undirish soliq siyosatining diqqat markazida turadi. Amir Temur tuzuklarida keltirilishicha: “Agar yerlik fuqaro azaldan berib kelgan xiroj miqdoriga rozi bo‘lsa, ularning roziligi bilan ish ko‘rsinlar, aks holda (xirojni) tuzukka muvofiq yig‘sinlar. Yana amr qildimki, xirojni ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig‘sinlar. Chunonchi, uzluksiz ravishda koriz (yer osti suvlarini yig‘ish va ularni yer yuzasiga chiqarish uchun quriladigan yer osti inshooti), buloq, daryo suvi bilan sug‘oriladigan ekin yerlarini hisobga olsinlar va unday yerlardan olingan hosilning (uchdan) ikki hissasini raiyatga, (uchdan) bir hissasini saltanat xazinasi uchun olsinlar. Agar raiyat ro‘yxatga olingan yerlardan beriladigan soliqni naqd aqcha bilan to‘lashga rozi bo‘lsa, naqd aqcha miqdorini sarkorning hissasi hisoblangan g‘allaning mazkur davrdagi narxiga muvofiq belgilasinlar. Narx-navoga muvofiq olingan naqd aqchani sipohga yetkazsinlar. Bordiyu raiyat hosilni uchga ayirishga rozi bo‘lmasa, u choqda hisobga olingan ekin yerlarni birinchi, ikkinchi va uchinchi jarib (yer sathi o‘lchovi. Bir jarib 3600 kv. gazga, ya’ni taxminan bir tanob 958 kv. m.ga yerga teng bo‘lgan) ekin yer qilib ajratsinlar. Birinchi jaribdan (olingan hosilning) bir xarvori (bir eshak ko‘tarishi mumkin bo‘lgan yuk), ikkinchi jaribdan- ikki xarvor, uchinchi jaribdan bir xarvorini yig‘ib olsinlar. Buning yarmini bug‘doy, yarmini arpa hisoblab, hosilning yarmini olsinlar. Agar raiyat bu yo‘sinda soliq to‘lashga rozi bo‘lmasa, u holda bir xarvor bug‘doyiga besh misqol (og‘irlik o‘lchovi 1 misqol 4,464 grammga teng bo‘lgan) kumush, bir xarvor arpasiga ikki yarim misqol kumush miqdorida narxlasinlar. Yana qal’a foydasiga beriladigan tortiqni ham bunga qo‘shib qo‘ysinlar. Shulardan boshqa qo‘shimcha tarzda ulardan hech qanday oliq-soliq talab qilmasinlar. Bulardan tashqari kuzgi, bahorgi va yozgi dehqonchilikdan olingan hosil raiyatning o‘ziga bo‘lsin. Lalmikor yerlarni esa jariblarga bo‘lsinlar, hisobiga olingan bu yerlardan (soliq olishda) uchdan bir va to‘rtdan bir qoidasiga amal qilsinlar. Har shahar va har yerdan olinadigan jon solig‘i, kasb-hunardan hamda o‘tloq va suvloqdan olinadigan soliqni to‘plashda qadimdan kelgan tartib-qoidaga amal qilsinlar. Bordiyu bunga raiyat rozi bo‘lmasa, bori-bo‘lganicha ish tutsinlar.”[5] Shuni alohida ta’kidlash lozimki, sohibqiron Amir Temur Adam Smitdan ancha oldin mehnatgina emas, balki yerning o‘zi, tabiat ham qiymat yaratishini chuqur tushunib yetgan va uni o‘zi olib borgan soliq siyosatida qo‘llagan.

Endi Adam Smitning soliqlarni undirish muddatlari soliq to‘lovchilar uchun qulay bo‘lishi kerakligi va soliqlarni undirishda minimal xarajatlar ta’minlanishi lozimligi tamoyili bo‘yicha Amir Temur tuzuklariga murojaat qilamiz. Amir Temur soliqlarni undirish muddatlari soliq to‘lovchilar uchun qulay bo‘lishligi bilan birga muhosillar (soliq yig‘uvchilar) faoliyati ustidan qat’iy nazorat o‘rnatgan.[6] “Amr qildimki, hosil pishib yetilmasdan burun raiyatdan molu jihot olinmasin. Hosil yetilishiga qarab, soliqni uchga bo‘lib olsinlar. Agar raiyat soliq to‘plovchi yubormasdan, soliqni o‘zi keltirib bersa, u holda u yerga soliq to‘plovchi yubormasinlar. Agarda soliqchini yubo-

rishga majbur bo‘lsalar, soliqlarni buyruq berish va yaxshi so‘z bilan olsinlar, kaltak ishlatib, ishni urish-so‘kish-gacha olib bormasinlar. Ularni bog‘lab, zanjir bilan kishanlamasinlar. Yana buyurdimki, xirojni raiyatdan kaltak-lash va savalash yo‘li bilan emas, balki ogohlantirish, qo‘rqitish va tushuntirish yo‘li bilan undirsinlar. Qaysi hokim hukmining ta’siri kaltaklash ta’siridan kamroq ekan, unday hokim hukumat yurgizishga yaroqsizdir. ... Yana buyurdimki, agar (har yer va elning) amaldorlari bilan kalontarlari oddiy fuqaroga jabr – zulm qilsa va shu orqali bechoralarga zarar yetkazgan bo‘lsa, (bunday vaqtlarda) yetkazilgan zararni kalontarlardan undirib, jabr ko‘rganlarga bersinlar, toki ular yana o‘z hollariga kelsinlar”.[5] Yana shuni ta’kidlash lozimki, saltanat obodon-ligi yoki xarobligi shu vazirlarga bog‘liq bo‘lganidan, Amir Temur o‘z vazirlariga nisbatan juda ham mehribon bo‘lgan.” Qaysi vazir soflik, to‘g‘rilik bilan vazirlik ishiga kirishib, davlatning moliya mulki ishlarini diyonat, savob bilan, nafsi buzuqlik qilmay, omonatga xiyonat etmay bajarar ekan, unday vazirni eng oliy martaba-larga yetkazsinlar. Qaysi vazir buzuqlik qilib, yomonlik yo‘li bilan mamlakat ishlarini yurgizar ekan, ko‘p o‘tmay unday saltanatdan xayru barokat ko‘tariladi…. Agar podshoh zolim bo‘lib, vaziri odil bo‘lsa, podshohning jabr-zulmini (to‘xtatish) chora tadbirlarini ko‘radi. Lekin vazir zolim bo‘lsa, saltanat ishlari tez muddatda inqirozga uchraydi.”[5] Shuningdek, ularni ortiqcha siylamaslik lozimligini ham ta’kidlagan. Shuni ham alohida qayd etish lozimki, Amir Temur vazirning vazifalarini taftish etayotganda o‘z vorislariga tuhmat va hissiyotlarga berilmas-likni uqtiradi. ”Yana hukm qildimki, (vazirlarni) ortiqcha siylamasinlar. Chunki alohida izzat-ikrom ko‘rsatib, o‘zla-rini obro‘sizlantirib qo‘yishlari mumkin. Bu esa saltanatga ziyon yetishiga sabab bo‘lur. G‘arazguy, buzuqi va hasadgo‘y odamlarning vazirlar haqidagi uydirmalarini eshitmasinlar. Chunki bu tabaqadagi kishilarning dush-mani ko‘p bo‘ladi, negaki, olam ahlining barchasi dunyotalabdir. Agar vazirlar bunday odamlarning ko‘ngliga qarasalar; davlatga xiyonat qilgan bo‘lurlar, qaramasalar, (unday odamlar) vazirlarga dushmanlik qilurlar”,[5] deb hisoblaydi. Shuning bilan birga sohibqiron Amir Temur o‘z mansabini suiste’mol qiluvchi, raiyatga jabru sitam yetkazuvchi vazirlarni qattiq jazolagan. ” Masalan, u 1404-yilning kuzida o‘z mansabini suiste’mol qilgan ikki vazirini: bosh vaziri xoja Mahmud Dovud va Muhammad Jaldni qatl etishga buyurgan. Bu haqda Klavixo (Rui Gonsales de Klavixo. Ispaniya qiroli Genrix IIIning Samarqandagi elchisi) mana bularni yozgan: “Senor Temur-bekning birinchi ko‘rgan jazosi bosh alkaldga qarshi bo‘ldi. Uni dina (vazir) deb atashadi, u butun Samarqand imperiyasida eng mo‘tabar odam hisoblangan. Temurbek olti yilu o‘n bir oy oldin yurishga ketayotganda uni shu shaharda bosh alkald qilib qoldirgan edi. Aytishlaricha, ana shu muddat chog‘ida bu alkald o‘z mansabini suiste’mol qilgan.”[6] Ushbu holat Amir Temurning o‘sha davrlardanoq korrupsiyaga qarshi juda qat’iy va keskin siyosat olib borganligidan dalolat beradi.

Adam Smit milliy iqtisodiyotning faoliyatiga davlat turli shakllarida aralashmagan holatdagina u yuqori sur’atlarda rivojlanib boradi degan fikrni ilgari surgan. U jamiyatdagi tadbirkorlarga to‘liq erkinlik berishlikni taklif etadi.[13] Amir Temur o‘zining ulkan saltanatini o‘g‘illari, nabiralari, yaqin qarindoshlari yordamida bosh-qargan. Movarounnahrdan tashqari boshqa yerlar ulus tarzida ularga taqsimlab berilgan. Uluslar markaziy hokimiyatga bo‘ysungani bilan ma’lum darajada o‘z mustaqilligini saqlab qolganlar. Ulus boshliqlarining ham o‘z davlat apparati, xazinasi va qo‘shini bo‘lgan. Ularning markaziy hokimiyatga qaramligi xirojning ma’lum qismini markaziy hukumat xazinasiga jo‘natib turish va buyruqqa binoan o‘z qo‘shinini olib podshohga yordamga yetib borishida o‘z ifodasini topgan. Markaziy hukumatni asosan uch bosh davlat muassasi (devon): devoni oliy (oliy ijroiya organi), devoni mol (moliya ishlari boshqarmasi) va devoni tavochi (xarbiy ishlar boshqarmasi) idora qilgan. Din va shariat bilan bog‘liq masalalar, shuningdek sud ishlari qozi va shayxulislom qo‘lida bo‘lgan. Amir Temur moliya ishlari boshqarmasiga alohida e’tibor bergan. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, xalqaro amali-yotda moliya nazariyasi asoschilari, shu jumladan Adam Smit ham, qirollar va hukumatlar uchun bojxona bojlari va soliqlarni kiritish hamda ularni yig‘ish, davlat budjetini shakllantirish, xunarmandchilik, manifaktura, savdo va iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha o‘zlarining asoslangan fikr-muloxazalarni bayon etishgan. Amir Temur esa mutloq hukmdor sifatida o‘zining tuzuklarini yaratgan va ularni so‘zsiz amalga oshirgan.

Sohibqiron Amir Temur mutloq hukmdor sifatida qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirishlarini aynan soliqlar yordamida rag‘batlantirgan. Bunday ishga qo‘l urganlarga katta soliq imtiyozlari berilgan. Bu to‘g‘risida tuzuk-larda quyidagilarni o‘qish mumkin: “Yana amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa, yo biron bog‘ ko‘kartirsa, yoxud biron xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yilda undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o‘z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili (esa oliq–soliq) qonun – qoidasiga muvofiq xiroj yig‘sinlar...Xarob bo‘lib yotgan yerlar egasiz bo‘lsa, xolisa (davlat ixtiyorida bo‘lgan, barcha soliqlardan ozod etilgan yer – suv va mol – mulkni tasarruf etuvchi oliy idora) tarafidan obod qilinsin. Agar egasi bo‘lsayu, (lekin) obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblar va kerakli narsalar bersinlar, toki o‘z yerini obod qilib olsin. Yana amr qildimki, xarob bo‘lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar, buzilgan ko‘priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga (yangi) ko‘priklar solsinlar, yo‘l ustida har manzilgohda rabotlar bunyod etsinlar. Yo‘llarga kuzatuvchi va soqchilar qo‘ysinlar, har bir rabotga bir nechta odamni joylashlashtirsinlarki, yo‘llarni kuzatish va saqlashishlari shularga tegishli bo‘lsin. Yo‘lovchilar mollarini g‘aflat bosib, o‘g‘irlatib qo‘ymasliklarining vazi-fasi ham o‘shalarning zimmasida bo‘lsin”.[5] Bundan ko‘rinadiki, soliqlardan beriladigan imtiyozlar bevosita davlatni (xazinani) iqtisodiy qudratiga bog‘liq bo‘lib, unda soliq imtiyozlari bilan budjet (xazina) daromadlarini

shakllantirishning o‘zaro bog‘liqligi aks ettirilgan. Eng muhimi, Amir Temur o‘zining fuqarolariga ham ularni ish yuritishlariga ham juda katta e’tibor qaratgan. Buni quyidagi tuzuklarda o‘qish mumkin. “Yana shunday amr qildimki, sarmoyasi qo‘ldan ketib qolgan savdogarga o‘z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin. Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo‘lsa, unga ekin – tikin uchun zarur urug‘, asbob (mehnat quroli) tayyorlab berilsin. Agar fuqarodan birining uy – imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalar bilan ta’minlasin va yordam berilsin”.[5] E’tibor bering, sohibqiron Amir Temur tafakkurining mahsuli bo‘lgan tuzuklarini yozganiga yetti asrdan oshdi, lekin ular o‘zining ahamiyatini hozir ham yo‘qotmagan. Albatta, biz ushbu fikrlar bilan moliya nazariyasi asoschilari va ularning tarafdorlari g‘oyalariga “soya” tashlamoqchi emasmiz, faqatgina moliya nazariyalarini tadqiq etishda tarixiy adolatni tiklash tarafdorimiz.

O‘zbekiston Respublikasida oxirgi yillar davomida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning zaminida sohibqiron Amir Temur tuzuklarini anglash qiyin emas. Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq yukini izchillik bilan kamaytirish va qulay shart-sharoitlarni yaratishni ta’minlaydigan soliq tizimi shakllantirilgan. Shu bilan birga, soliq ma’muriyatchiligi sohasida, shu jumladan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni yig‘ish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolarning mavjudligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturlarini moliyalashtirishning barqaror manbalarini ta’minlashga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda edi. Mazkur kamchiliklarni ijobiy hal etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18 iyuldagi “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5116-sonli Farmonida soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish ko‘zda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan yangi taxrirdagi “O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi”ga muvofiq amaldagi soliq tizimiga ko‘plab yangiliklar amaliyotga joriy etilmoqda. Jumladan, avval amal qilgan 13 ta soliqlar unifikatsiya qilinib, ularning turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi. Soliqlarni to‘lash muddatini uzaytirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashga ruxsat berish bo‘yicha yengillashtirilgan mexanizmlar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizdagi soliq siyosatiga o‘zining diqqat-e’tiborini qaratib “2019-yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g‘oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo‘llashni ko‘zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin. Afsuski, yalpi ichki mahsulotda “yashirin” iqtisodiyotning ulushi katta bo‘lib, bu mamlakat rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Soliq yukini kamaytirish, biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish “yashirin” iqtisodiyotga barham berishning yagona yo‘lidir. Shuning uchun bu borada ta’sirchan choralarni nazarda tutadigan alohida dastur ishlab chiqishimiz zarur”[1] deb alohida ta’kidlagan.

O‘zbekiston Respublikasida aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirilib kelinmoqda. “ Pandemiya oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish uchun davlat tomonidan jami 82 trillion so‘mlik kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, Inqirozga qarshi jamg‘arma tashkil etilib, koronavirusga qarshi kurashish, aholi va korxonalarni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq tadbirlarga budjetdan 16 trillon so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi. Shuningdek, davlat korxonalariga va 500 mingdan ziyod tadbirkorlik subyekti hamda qariyb 8 million fuqaroga jami 66 trillion so‘mlik soliq imtiyozlari, kredit muddatlarini uzaytirish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy yordamlar berildi.”[2]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan mamlakatimizda ko‘p bo‘z va qo‘riq yerlarda artizan quduqlar qazilib, u yerlarda dehqonchilik qilinmoqda. Juda ko‘plab ishsiz aholiga, eng muhimi yoshlarga yerlar ajratilib, ularga kerakli ko‘chatlar va urug‘lar sotib olishlari uchun subsidiyalar ajratilmoqda. Mamlakatimizda aholini uy- joy bilan ta’minlashda ularga davlat tomonidan yordam ko‘rsatilmoqda. Tadbirkorlarga juda katta soliq imtiyozlari berilmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar zaminida sohibqiron Amir Temur tuzuklarini anglash bu isbot talab etmaydigan haqiqatdir.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2022-yilning 14-yanvarida “Vatan ximoyachilari kuni”da “Temurbeklar maktabi”ga qilgan tashrifida Amir Temur tuzuklarini chuqur anglash lozimligini alohida ta’kidladilar. 2022-yil 21-aprelida Qashqadaryo viloyatida faollar bilan uchrashuvda Prezident Sh.M. Mirziyoyev Amir Temur va To‘xtamishxon jangiga to‘xtaldi. To‘xtamishxon ham jangni osonlikcha yutqazmaganligini, bunda Sohibqiron Amir Temur bobomizning yuksak harbiy taktika va strategiyasi, dovyurakligi ish berganligini ta’kidladi. Shuning uchun, birinchi navbatda o‘zimizning bobolarimizning tarixini o‘rganish kerakligini va afsuski ko‘p yillar boshqalar tarixini hamda bizga aloqasi yo‘q janglarni o‘rganib kelganligimizga alohida urg‘u berdilar.

Fikrimizcha, ushbu omil sohibqiron Amir Temur buyuk davlat arbobi sifatida soliqlar sohasida ham juda ulkan ishlarni amalga oshirganligi nazardan chetda qolmoqda deb hisoblashga asos borligining yorqin isboti hisoblanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, buyuk Temur bobomizning soliq ilmidagi xizmatlari beqiyos. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Amir Temur tuzuklarida qo'shinni moliyaviy ta'minlash, oddiy piyoda jangchi, otliq suvoriy, o'nboshi, yuzboshi, mingboshilarga beriladigan maoshlar ham aniq belgilab qo'yilgan. Amir Temur o'zining tuzuklarida davlatni boshqarishdagi korrupsiya va unga qarshi chora-tadbirlar to'g'risida ham aniq yo'nalishlarni belgilab qo'ygan. Fikrimcha, sohibqiron Amir Temurni buyuk davlat arbobi sifatida iqtisodiyot, shu jumladan moliya-soliq sohasidagi barcha tarixiy-ilmiy meroslarini juda chuqur o'rganish bo'yicha ilmiy loyiha tanlovini e'lon qilish va shu asosda sohibqiron bobomizning bu sohadagi ochilmagan qirralarini yoritish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi.-T: O'zbekiston. 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2020-yil 30-dekabr № 276 (7778)
3. Мусский И.А. 100 великих диктаторов. – М.: Вече. 2000.
4. Bo'riboy Ahmedov. Temur o'g'itlari. -T.: O'qituvchi. 1992.
5. B. Abduhalimov va boshqalar. Temur tuzuklari – T: O'zbekiston 2011.
6. Bo'riboy Ahmedov. Tarixdan saboqlar. -T.: O'qituvchi. 1994.
7. T.S. Malikov, O.O. Olimjonov. Moliya: Darslik. -T.: Iqtisod-Moliya. 2019.
8. A.Vahobov. A. Jo'raev. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. -T: Sarq. 2009.
9. Malikov T.S. Buyuk Temur bobomizning moliya ilmidagi xizmatlarini e'tirof etib. // Moliyachi. – 2019-yil aprel soni.- 7.0 b.
10. Malikov T.S. Sohibqiron bobomizning moliya ilmidagi xizmatlariga bir nazar.// Moliyachi. – 2019-yil 4-soni, 5-10-betlar (hammualliflikda).
11. Malikov T.S. Tarixchilar, temurshunoslar nega jim?. // "Adolat". Ijtimoiy-siyosiy gazeta. 2021-yil 9-aprel. 15(1332)-son, 2.0b.
12. Alimov I.I. Moliya nazariyalari. Monografiya. -T.: "Iqtisodiyot". 2022.
13. Смит А. Исследование о природе и причинах богаства народов. Пер. с англ - М: ЭКСМО. 2007.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ZAMONAVIY BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI (O‘ZMILLIYBANK AJ MISOLIDA)

Kadirov Laziz
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishimizda Bank tizimida zamonaviy xizmatlar va hozirgi kundagi transformatsiya jarayonini amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyoj haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, transformatsiya jarayonini amalga oshirish zaruratida katta o‘rin tutgan bank tizimi xizmatlarini transformatsiya qilish tizimlarini yuzaga kelishining asosiy tashqi omillari haqida tushuncha berilgan, bank tizimi transformatsiyasiga O‘zbekiston tijorat banklarida o‘tish zarurati yoritilgan. Bundan tashqari, bank tizimini transformatsiya qilish va rivojlantirish bo‘yicha xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Transformatsiya, raqamli bank, bank xizmatlari, onlayn bank, HR& korporativ madaniyat, mobil texnologiyalar, raqamli ofis, mobil banking.

Abstract: To the master’s dissertation. In this research work, information is given on the concept of transformation of the banking system and the need to implement the transformation process today. Also, an understanding of the main external factors of the emergence of banking system services transformation systems, which played an important role in the implementation of the transformation process, the need to transition to the transformation of the banking system in the commercial banks of Uzbekistan was highlighted. In addition, conclusions and suggestions were given on the transformation and development of the banking system.

Key words: Transformation, digital banking, banking services, online banking, HR& corporate culture, mobile technologies, digital office, mobile banking.

Аннотация: В данном исследовании представлена информация о современных услугах в банковской системе и необходимости реализации текущего процесса трансформации. Также было подчеркнуто понимание основных внешних факторов возникновения систем трансформации услуг банковской системы, сыгравших важную роль в необходимости реализации процесса трансформации, а также необходимости перехода к трансформации банковской системы в коммерческих банках Узбекистана. Кроме того, даются выводы и предложения по трансформации и развитию банковской системы.

Ключевые слова: Трансформация, цифровой банкинг, банковские услуги, онлайн-банкинг, HR и корпоративная культура, мобильные технологии, цифровой офис, мобильный банкинг.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar bank-moliya sektorining barcha jabhalarida jadal o‘z o‘rnini egallamoqda. Bank-moliya sektorining rivojlanishining zamonaviy tendensiyalaridan biri sifatida raqamlashtirish jarayoni milliy iqtisodiyotning rivojlanish chegaralarini belgilovchi indikatorga aylanmoqda. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni barcha tarmoqlar va sohalarda jadal qamrab olishga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmonining ijrosi doirasida tijorat banklarida “masofadan kredit mahsulotlarini realizatsiya qilish, omonatlar va hisob raqamlarni ochishni o‘z ichiga olgan keng turdagi onlayn xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlash orqali tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi”ni yakunlash rejalashtirilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Global miqyosda mobil ilovalarni yaratish moliyaviy xizmatlar bozorida 2016-yildan 2022-yilgacha 14 foizga o‘sishi kutilmoqda. Hozirgi kunda internet butunlay insoniyat hayotidan ajpalmas bo‘lakka aylanib qolmoqda. Shuning uchun banklar keng ko‘lamli mijozlariga bank filiallarini ochmasdan masofadan onlayn bank xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda.

Bank innovatsiyalarini tasniflashga o‘tishdan oldin bank operatsiyalari, xizmatlari va mahsulotlari nima ekanligini aniqlash kerak. Bank faoliyati ko‘p sonli operatsiyalarni o‘z ichiga oladi, ularning natijasi mahsulot yoki xizmatdir.

Biroq, bankning mijozga xizmat ko‘rsatish usuli, shuningdek, bank xodimlarining mijoz bilan o‘zaro munosabati bo‘yicha operasiyalar o‘z-o‘zidan mijoz uchun foydalilikni anglatmaydi. Xizmat ko‘rsatish usuli va o‘zaro ta’sir qilish xususiyati bank mahsulotiga uning qo‘shimcha tapkibiy qismlari sifatida kiritilgan.

Bank mahsuloti va xizmatlarini ta’riflashdagi tafovutlar shundan kelib chiqadiki, xizmat ko‘rsatish usuli ularning iqtisodiy mohiyatini o‘zgartirmasdan mijozga qo‘shimcha qulayliklar yaratadi va xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytiradi.

Adabiyotda innovatsiyalarning ikki turi ajralib turadi:

a) markazlashtirilgan innovatsiyalar (ularni amalga oshirish to‘g‘risida qaror rahbariyat tomonidan qabul qilinadi)

b) markazlashtirilmagan innovatsiyalar (ular bo‘limlarda ishlab chiqiladi va qabul qilinadi).

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Bank tizimi ko‘p hollarda konservativ tizim bo‘lib kelgan, bu tizimga kirish uchun nobank raqobatchilar uchun yuqori to‘siqlar mavjud bo‘lgan. Ammo bulutli, mobil, ijtimoiy va analitik texnologiyalarga asoslangan raqamli texnologiyalar bu to‘siqlarni ancha kamaytirdi. Bank tizimida innovatsiyalarni kuchaytirish maqsadida ko‘plab mamlakatlarning tartibga soluvchi organlari tizimda faoliyat olib borish uchun yengilliklarni joriy qilishdi. Natijada eski tizimdan farqli o‘laroq, to‘liq raqamli texnologiyalarga asoslangan moliyaviy tashkilotlar mijozlarning talablarini yangi va murakkab usullarda zudlik bilan qondirib, mijozlarini o‘zlariga qaratmoqdalar. Bularga misol qilib, e-tijoratning yetakchilari - Yevropadagi Tesco, Osiyo-Tinch okeani hududida Rakuten va AQShda Walmart bank tizimiga kirib keldi.

Hozirgi paytda dunyo bo‘ylab tadbirkorlar, hatto an’anaviy banklarning o‘zlari ham to‘liq raqamli bank yoki neobanklar tashkil qilishmoqda. Bank Mobile, Number 26, Atom, ZenBanx and NuBank kabilar bunga misol bo‘la oladi. Ushbu neobanklarning umumlashtirib turuvchi yagona jihati ularning taklif qilayotgan xizmatlari raqamli texnologiyalarga asoslanganligidir. IBM o‘zining Designing a Sustainable Digital Bank (Barqaror raqamli bankni loyihalashtirish) dokladida raqamli bankni 4 modelini ajratib izohlaydi:

1. **A model** – raqamli bank brendi. An’anaviy banklar rivojlangan va talablari yuqori bo‘lgan mijozlarga moslashishga harakat qilib, yangi mahsulot va takliflar orqali yangicha brendlar ishlab chiqadi. Ushbu brendlarni amalda ishlab turgan bank infrastrukturasiga qo‘llashadi. Bunday banklar sifatida Singapurdagi FRANK bank OCBC va Ispaniyadagi LKXA Caixa Bank ni misol keltirishimiz mumkin.

2. **B model** – raqamli kanallarga ega bo‘lgan bank. Ushbu banklar A modeldagi banklardan farqli ravishda mavjud bo‘lgan tajribani yaxshilovchi tarmoq yaratishadi. Ular mavjud bank bek-ofis va lisenziyasidan foydalanib, ularning xizmatlarini qulayroq foydalanuvchi interfeysi orqali qayta sotadilar. Bunday banklarga misol sifatida AQShda Moven va Rossiyada Rocketbankni keltirish mumkin.

3. **C model** – bankning raqamli filiali. Ushbu model ikki yo‘nalishni jamlashtiradi: raqamli foydalanuvchi tajribasi va yangi biznes jarayonlarni. Ushbu modeldagi banklar amalda alohida tashkilot sifatida ishlaydi, bunday banklardan biri BNP Paribasning Hello Bank raqamli filiali.

4. **D model** – to‘liq raqamli bank. Bunday banklar mijozlarga barcha mahsulotlarini raqamli texnologiyalar asosida taklif qiladilar. Masalan, Germaniyadagi Fidor Bank. Quyida sanab o‘tilgan to‘rt modelga xos bo‘lgan xususiyatlar keltirilgan. Ma’lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, raqamli bankning A, B va C modellari asosiy bankning litsenziyasi asosida faoliyat yuritadi, faqat D modeli to‘laqonli raqamli bankingni o‘zida ifoda qiladi (1-jadval).

1-jadval: Raqamli bankning to‘rt modeli

Model	A – raqamli bank brendi	B – raqamli kanallarga ega bo‘lgan bank	C – bankning raqamli filiali	D – to‘liq raqamli bank
Mahsulotlar, sotish, marketing	Mustaqil	Mustaqil	Mustaqil	O‘z bank ustaviga ega emas
Kanallar	Ko‘p hollarda ta’sischi bank bilan birgalikda yoki o‘rindoshlikda	Mustaqil	Mustaqil	O‘z bank ustaviga ega emas
Bek-ofis	Ta’sischi bank bekoffisidan foydalanadi	Ta’sischi bank bekoffisidan foydalanadi	Mustaqil	O‘z bank ustaviga ega emas
Bank ustavi	O‘z bank ustaviga ega emas	O‘z bank ustaviga ega emas	O‘z bank ustaviga ega emas	O‘z bank ustaviga ega emas

Demak, D model banklari to‘liq raqamli bank hisoblanib, mahsulotlarini sotish, marketing xizmatlarini raqamli tarzda ko‘rsatishdan tashqari, mustaqil kanallar, mustaqil bek-ofis hamda mustaqil bank ustaviga ega bo‘ladi. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishsh mumkinki, haqqoniy raqamli bank asosiy mahsulot va xizmatlarini raqamli tarzda amalga oshirib, uning mijozlari kundalik bank bilan bog‘liq faoliyatida raqamli kanallardan foydalanishadi. Raqamli bankning infratizimi real vaqt rejimida raqamli hamkorlik uchun mo‘ljallangan va raqamli texnologiyalarning yangi o‘zgarishlariga tez moslashuvchandir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa tariqasida, zamonaviy bank xizmatlari bozori rivojlanishining dolzarb tendensiyalarini belgilaydigan asosiy jarayonlarga quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

yangi zamonaviy xizmatlarni tatbiq etish bilan shug‘ullanishga alohida e’tibor qaratish lozim. Chunki tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, banklarda zamonaviy bank xizmatlarini o‘z mijozlariga taklif etish borasida ancha oqsayotganligi bir tomondan bank mijozlarini bunday xizmatlar imkoniyatlaridan foydalanmasdan qolishlariga olib kelayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan bankning o‘zida ish ko‘lamini kamaytirish imkoniyatlarini chegaralab qo‘ymoqda.

Joylarda zamonaviy xizmatlardan foydalanish borasida shart-sharoitlarni yaxshilash ham masalani yechishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Aloqa kanallari sifatini yaxshilash iste’molchilarning yangi innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatini oshirish bilan bir qatorda aholini ortiqcha ovoragarchiliklardan ozod qilishi mumkin. Masalan, kommunal xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshirishda uzun navbatlarda turish, bank yoki bu turdagi to‘lovlarni qabul qilishga ixtisoslashgan shaxobchalarga borishga vaqt hamda mablag‘ sarflagandan ko‘ra uyda turib xizmat uchun haq to‘lash imkoniyati oshadi.

Aholiga bank xizmatlari ko‘rsatilishi borasida yetarlicha tushuntirishlar berish, banklardagi omonatlar, ulardan foydalanish imkoniyatlari, shuningdek aholining bo‘sh pul mablag‘larini bankga jalb qilib, ushbu mablag‘larni masofadan turib boshqarish imkoniyatlarini ommaviy axborot vositalaridan yanada ko‘proq foydalangan holda targ‘ib qilish aholining banklarga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. Antunes J., Hadi-Vencheh A., Jamshidi A., Tan Y., and Wanke P. “Bank efficiyency estimation in China: DEA-RENNA approach,” Ann Oper Res, vol. 315, no. 2, pp. 1373–1398, (2022).
2. Ashta A. Biot-Paquyerot G. FinTech evolution: Strategic valuye management issuyes in a fast changing industry // Briyefings in entrepreneurial finance. Volume 27, Issuye 4. July 2018. – 301-311 r.
3. Assaf A., Berger A.N. and others, Doyes efficiyency help banks survive and thrive during financial crises?, Journal of Banking and Finance, 106, (2019), pp. 445–470.
4. Aduda, J. & Kingoo, N., 2012, ‘The relationship betweyen electronic banking and financial performance among commercial banks in Kenya’, Journal of Finance and Investment Analysis 1(3), 99-118.
5. Aspromourgos T. On the origins of classical economics: distribution and valuye from William Petty to Adam Smith (Routledge, 1995).
6. Abraham Charnes, William W Cooper, and Edwardo Rhodes, ’Measuring the Efficiyency of Decision Making Units’, European Journal of Operational Research, 2.6 (1978), 429–44.7. Artz, K.W., Norman, P.M., Hatfiyeld, D.E. & Cardinal, L.B., 2010, ‘A longitudinal study of the impact of R&D, patents, and product innovation on firm performance’, Journal of Product Innovation Management 27(5), 725-740.
7. Azlarova A.A., Abduraxmanova M.M. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda tijorat banklari xizmatlarining o‘rni // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2019.
8. Balachandher Krishnan Guru, Santha Vaithilingam, Norhazlin Ismail, and Rajendra Prasad, (2001) “Electronic Banking in Malaysia: A Note on Evolution of Services and Consumer Reactions”.

MILLIY BARQAROR RIVOJLANISH SOHASIDAGI MAQSAD VA VAZIFALARNI AMALGA OSHIRISHDA IQTISODIY INDIKATORLAR TAHLILI

Xoshimov Sobir Murtazayevich
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda iqtisodiy yondashuv omillari muhokama qilingan, barqaror rivojlanishning iqtisodiy yondashuv guruhiga kiruvchi asosiy iqtisodiy indikatorlari tahlil qilingan, mavzu yuzasidan xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: barqarorlik hisoboti, barqaror rivojlanish maqsadlari, investitsiyalar, davlat qarzi, iqtisodiyotni transformatsiyalash, pilot loyihalar.

Abstract: The article examines the factors of the economic approach to the implementation of sustainable development goals in Uzbekistan, analyzes the main economic indicators included in the group of the economic approach to sustainable development, and provides conclusions and recommendations on the topic.

Key words: sustainability report, sustainable development goals, investments, public debt, economic transformation, pilot projects.

Аннотация: В статье рассмотрены факторы экономического подхода к реализации целей устойчивого развития в Узбекистане, проанализированы основные экономические показатели, входящие в группу экономического подхода устойчивого развития, даны выводы и рекомендации по теме.

Ключевые слова: отчет об устойчивом развитии, цели устойчивого развития, инвестиции, государственный долг, трансформация экономики, пилотные проекты.

KIRISH

Bugungi globallashuv va iqtisodiy integratsiya sharoitida barqaror rivojlanishga erishish muhim masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. So‘nggi yillarda barqaror rivojlanish tushunchasi xalqaro hamjamiyatda keng muhokama qilinayotgan konsepsiyalardan biri bo‘lishiga qaramasdan, ushbu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi yagona ilmiy yondashuv shakllanmagan. Tarixan olib qaraydigan bo‘lsak, XVIII asrning birinchi yarmida Angliyadagi sanoat inqilobidan keyin insoniyat faol tarzda mashinalarni ishlab chiqarish jarayonida qo‘llay boshladi va bu o‘zgarish barqaror iqtisodiy o‘sish borasidagi g‘oyalarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. XX asrning oltmishinchi yillarigacha tabiiy resurslarning cheklanmagan salohiyatga ega ekanligi to‘g‘risidagi tushunchalar mavjud bo‘lib, nazorat qilinishi imkonsiz deya baholangan ishlab chiqarish jarayoni insoniyatni o‘rab turgan muhitni vayron qilishi haqidagi fikrlar mavhum xarakterga ega bo‘lgan.

O‘zbekiston 193 mamlakat bilan bir qatorda BMTning: “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish kun tartibi dasturi”ni amalga oshirishda o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarmoqda. Ushbu “kun tartibi”ni izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabridagi PF-158-son “O‘ZBEKISTON–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni qabul qilindi. “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ni mamlakat ehtiyojlariga moslashtirish uchun jiddiy qiziqish va intilishlar natijasi sifatida, 2017–2021-yillar uchun O‘zbekistonning harakatlar strategiyasi natijalari va hozirda amalga oshirilayotgan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ni ko‘rsatish mumkin.

2023-yilda mamlakatda iqtisodiy faollikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida YAIM o‘sish sur’ati 106,0 foizni tashkil etdi[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan

1 O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika agentligi ma’lumotlari.

tasdiqlangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Inson sha’ni va qadr-qimmati yo‘lida”gi asosiy tamoyil xalq farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyotni transformatsiya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirishni jadallashtirish, inson huquq va manfaatlarini ta’minlash va faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Shu bilan birga, 2030-yilga borib, aholi jon boshiga daromadlarning 4 000 AQSH dollarigacha o‘sishini ta’minlash orqali o‘rta daromadli mamlakatlarning yuqori guruhiga kirish maqsadini o‘z oldiga qo‘yadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga bosqichma-bosqich o‘tishning huquqiy, institutsional va iqtisodiy asoslari shakllantirilgan.

Jahon bankining 2022-yil yanvar oyidagi prognozlariga ko‘ra, O‘zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi davlat sifatida qayd etilgan bo‘lib, 2022–2023-yillarda yuqori iqtisodiy o‘sish kutilishi aytib o‘tilgan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekistonning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo‘yicha kelishilgan maqsadli parametrlariga erishishdagi haqiqiy yutuqlarini ko‘rsatish, alohida maqsad va vazifalarni amalga oshirish ko‘lamini aniqlash, mavjud nomutanosiblik va imkoniyatlarni aniqlash, hali amalga oshirilishi kerak bo‘lgan eng muhim qadamlarni aniqlashdagi ma’lumotlarni tahlil qilishda O‘zbekistonning qonunchilik va me’yoriy hujjatlaridan, BMT hisobotlaridan, O‘zbekiston Davlat statistikasi agentligi veb-saytidagi ma’lumotlaridan va boshqa manbalardan foydalanildi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan jahon olimlaridan ingliz olimi T.R.Maltus, italyan iqtisodchisi A. Pechchei amerikalik professor D.Meduoz, MDH davlatlari olimlaridan D.A.Kotelnikov, L.S.Griniv va V. G.Gorshkovlarni[2] aytib o‘tish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur mavzuni yoritishda abstrakt-mantiqiy fikrlash, umumlashtirish, kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Dunyo hamjamiyatining yangi barqaror rivojlanish konsepsiyasi birinchi marotaba 1987-yil BMTning Butunjahon atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha Komissiyasi tomonidan ishlab chiqildi. Mazkur Komissiya o‘zining Gro Xarlem Brundtland konsepsiyasi deb nomlangan “Bizning umumiy kelajagimiz” ma’ruzasida[3] hozirgi Barqaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari avlod odamlarining hayotiy ehtiyojlari qondirilishi, kelasi avlodning munosib hayotga bo‘lgan huquqini hisobga olib dunyo ham jamiyatining barqaror rivojlanish konsepsiyasi modelini yaratdi. BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil dekabr oyidagi 44/428-sonli rezolyutsiyasida barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish maqsadida BMTning maxsus konferensiyasini chaqirish to‘g‘risidagi qaror qabul qilindi va u alohida mavzu tariqasida kun tartibiga kiritildi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi davlatlar va butun dunyo hamjamiyatining xususiyat, mohiyat va tarkibiy jihatdan bir me’yorda (stabil) rivojlantiruvchi qarashlar tizimidir.

Barqaror rivojlanishga iqtisodiy yondashuv asosida berilgan ta’rif “XXI asr kun tartibi”da keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra: “barqaror rivojlanish bu insoniyatning oldinga qarab intilish modeli bo‘lib, bunda xozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish va kelajak avlodni bunday imkoniyatdan mahrum bo‘lmasligini ta’minlashdir”[4]. Barqaror rivojlanish aholi ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish masalalarini mutanosib hal qilishni ta’minlaydigan, atrof-muhit va tabiiy resurslar salohiyatini saqlab qolishga qaratilgan rivojlanish sanaladi. Barqaror rivojlanishga iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yondoshuv nuqtai-nazaridan turli ta’riflar keltirilgan. Bizning tadqiqot mavzuimizda barqaror rivojlanishning ko‘proq iqtisodiy tomonlariga e’tibor qaratildi. Bizning fikrimizcha, turli yondashuvlar asosida berilgan ta’riflardan kelib chiqqan holda, barqaror rivojlanishga quyidagicha ta’rif keltirish mumkin: “Barqaror rivojlanish bu jamiyat va undagi har bir jismoniy va yuridik shaxslar ehtiyojlarini atrof-muhitga zarar yetkazmagan holatda va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish asosida qondirishga qaratilgan,

2 Мальтус, Т.Р. Опыт о законе народонаселения // Перевод с англ. И.А. Вернера. – М., 1895. – 320 с., Роом, Л.А. Сознание – решающий фактор реализации концепции устойчивого развития на современном этапе развития общества / Л.А. Роом // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. – 2009. – № 2. – С. 75., Медоуз, Д.Х. Пределы роста / Д.Х. Медоуз; пер. с анг.; предисл. Г.А. Ягодина. – М: Изд-во МГУ. – 1991. – 208 с., Котельников, Д.А. Интеграция России в процесс достижения устойчивого развития: анализ проблем и перспектив / Д.А. Котельников // Потенциал и перспектива современной науки: материалы III Всероссийской научно-практической конференции (19 января 2016). – Геленджик: Кубанский гос. ун-т, 2016. – С. 105-113., Гринів Л. С. Концептуальні засади просторової парадигми екологічно збалансованої економіки / Л. С. Гринів // Регіональна економіка. – 2001. – № 4. – С. 54–63., Горшков В. Г. Физические и биологические основы устойчивости жизни / В. Г. Горшков. – М. : ВИНИТИ, 1995. – 256 с

3 www.unep.org – BMTning atrof-muhit dasturi bo‘yicha sayti

4 Декларация тысячелетия Организации Объединенных Наций. Электрон манзил: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/summitdecl.shtml

rivojlanish jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik masalalarni mutanosib tarzda yechishni va kelajak avlod rivojlanish davrida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tabiiy va iqtisodiy resurslar taqchilligi bilan bog‘liq xavflarni oldini olishni maqsad qilgan kompleks rivojlanishdir”.

Milliy barqaror rivojlanish sohasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishda iqtisodiy indikatorlar sifatida iqtisodiy rivojlanish holatini aks ettiruvchi maqroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, mineral resurslar zahirasi va umumiy iste’mol (masalan, aholi jon boshiga yillik energiya sarfi), moliyaviy resurslar va ulardan foydalanish mexanizmlari ko‘rsatkichlarini misol keltirish mumkin.

1-jadval: Iqtisodiy rivojlanish holatini aks ettiruvchi maqroiqtisodiy ko‘rsatkichlar[5]

Ko‘rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Aholi jon boshiga YAIM (AQSH dollari)	1983,0	2254,9	2495,6
Aholi jon boshiga YAIM o‘sish sur’ati (%)	105,3	103,5	103,8
YAIMda eksport ulushi (%)	23,8	24,5	26,9
YAIMda investitsiya ulushi (%)	32,4	29,7	33,0

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, aholi jon boshiga yalpi milliy mahsulot ko‘rsatkichida o‘sish kuzatilmoqda, jumladan, 2021-yilda ushbu ko‘rsatkich jon boshiga 1983,0 AQSH dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 2495,6 AQSH dollariga yetgan bo‘lib, 2021-yilga nisbatan 1,25 martaga oshgan. Yalpi ichki mahsulotda eksport ulushida ham o‘sish kuzatilmoqda va bu asosan mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarning jalb qilinishi bilan asoslanadi. Halqaro valyuta fondi talablari asosida, O‘zbekistonda 2030-yilga borib, aholi jon boshiga daromadlarning 4 000 AQSH dollarigacha o‘sishini ta’minlash orqali o‘rta daromadli mamlakatlarning yuqori guruhiga kirish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan.

Ikkinchi muhim iqtisodiy indikatorlar guruhida aholi jon boshiga energiyaning yillik sarfi ko‘rsatkichi muhim ahamiyatga ega.

2-jadval: Dunyo mamlakatlari va O‘zbekistonning aholi jon boshiga energiya sarfi (Dj)[6]

Dunyo mamlakatlari va mintaqalar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Shimoliy Amerika	241.7	238.1	219.5	229.6	235.6
Markaziy Amerika	56.6	55.6	51.0	54.7	56.5
Yevropa	127.8	125.6	117.1	122.6	118.0
MDH	160.2	158.6	153.3	165.0	154.9
Sharqiy Osiyo	140.2	138.9	133.5	136.5	140.4
Afrika	15.1	15.1	13.9	14.5	14.2
Osiyo va Tinch okeani	59.8	61.2	60.5	63.4	64.4
O‘zbekiston	59.2	58.4	57.1	59.6	60.9

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan xulosa qilib aytish mumkinki energiya iste’moli Shimoliy Amerika mintaqasida eng yuqori bo‘lib (2022-yilda 235.6 Dj), quyi ko‘rsatkichlar Afrika mintaqasiga (2022-yilda 14.2 Dj) to‘g‘ri kelgan. O‘zbekistonda esa mazkur ko‘rsatkich 2022-yilda 60,9 Dj ni tashkil qilib, umumiy holatda nisbatan ko‘tarilgan tendensiyani qayd etgan.

Binobarin, O‘zbekiston ham energiya ishlab chiqarish va foydalanish usullarini o‘zgartirishi kerak. So‘nggi 10 yil ichida mamlakat bo‘ylab keng qo‘llamda pilot loyihalari ishlab chiqilishi lozim.

Uchinchi muhim iqtisodiy indikatorlar guruhiga kiruvchi ko‘rsatkichlardan biri bu davlat qarzlari va ularga xizmat ko‘rsatishni samarali boshqarish hisoblanadi.

Davlat qarzini makroiqtisodiy barqaror darajada saqlash va uni samarali boshqarish yuzasidan amalga oshirilayotgan choralar hamda milliy valyuta almashuv kursining barqarorligi sharoitlarida respublika iqtisodiyotining yuqori sur’atlar bilan o‘sishining ta’minlanishi natijasida 2021-yildan boshlab davlat qarzining YAIMga nisbati barqarorlashishi kuzatilmoqda.

5 O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika agentligi ma’lumotlari.
6 bp Statistical Review of World Energy 2023 ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



1-rasm: O‘zbekiston Respublikasi davlat qarzi dinamikasi

Xususan, davlat qarzining YAIMga nisbati 2022-yil boshida 38,0 foizdan 2023-yilning 1-yanvar holatiga 36,4 foizgacha pasaydi. Davlat qarzi 2022-yil davomida 2,9 mlrd. dollarga oshgan bo‘lsa-da, AQSH dollari hisobida yalpi ichki mahsulot tez suratlarda, ya’ni 11,1 mlrd. dollarga o‘sganligi tufayli davlat qarzining YAIMga nisbati pasaygan.

So‘nggi yillarda davlat qarzini mo‘tadil darajada saqlash va samarali boshqarish yuzasidan amalga oshirilayotgan choralar hozirda o‘z samarasini bermoqda.

XULOSA VA KTAKLIFLAR

Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda qo‘shimcha moliyalashtirishga bo‘lgan ehtiyojni qondirish davlat va xususiy investitsiyalarni sezilarli darajada oshirishni talab qiladi. Aksariyat chora-tadbirlar mavjud dasturlarni kengaytirish yoki yangi dasturlarni yaratish orqali davlat xarajatlarini ko‘paytirishni, shuningdek, xususiy biznesni barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun rag‘batlantirishni kengaytirishni o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirish holatini yaxshilash bir qator sohalarda chora-tadbirlar amalga oshirishni talab etadi, bulardan: – davlat tomonidan moliyalashtirishning resurs bazasini kengaytirish maqsadida davlat daromadlari hajmini oshirish hamda davlat mablag‘larini rejalashtirish va sarflash samaradorligini oshirish; – xususiy sektorning rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaxshilash orqali uning ishtiroki salohiyatini kengaytirish, shuningdek, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni moliyalashtirishda (birgalikda moliyalashtirishda) ishtirok etishni rag‘batlantirish; – davlat-xususiy sherikchiligi xilma-xilligini kengaytirish va faolligini oshirish, investitsiyalar oqimini oshirish hisoblanadi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. https://lex.uz › docs
2. O‘zbekistonning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish to‘g‘risida hisoboti. Toshkent-2023-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Toshkent-2022-yil.
4. Мальтус, Т.Р. Опыт о законе народонаселения // Перевод с англ. И.А. Вернера. – М., 1895. – 320 с.,
5. Роом, Л.А. Сознание – решающий фактор реализации концепции устойчивого развития на современном этапе развития общества / Л.А. Роом // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики. – 2009. – № 2. – С. 75.
6. Медоуз, Д.Х. Пределы роста / Д.Х. Медоуз; пер. с анг.; предисл. Г.А. Ягодина. – М: Изд-во МГУ. – 1991. – 208 с.,
7. Котельников, Д.А. Интеграция России в процесс достижения устойчивого развития: анализ проблем и перспектив / Д.А. Котельников // Потенциал и перспектива современной науки: материалы III Всероссийской научно-практической конференции (19 января 2016). – Геленджик: Кубанский гос. ун-т, 2016. – С. 105-113.
8. Гринів Л. С. Концептуальні засади просторової парадигми екологічно збалансованої економіки / Л. С. Гринів // Регіональна економіка. – 2001. – № 4. – С. 54–63.
9. Горшков В. Г. Физические и биологические основы устойчивости жизни / В. Г. Горшков. – М. : ВИНИТИ, 1995. – 256 с.
10. www.unep.org – BMTning atrof-muhit dasturi bo‘yicha sayti.
11. Декларация тысячелетия Организации Объединенных Наций. Elektron manzil: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations /summitdecl.shtml
12. Statistical Review of World Energy 2023 ma’lumotlari.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN DIGITAL TRANSFORMATION

Raimjonova Madina Asrarovna
Professor of Tashkent State University of Economics

Abstract: The article examines the opinions of the world's leading scientists on the role and characteristics of artificial intelligence in digital transformation, development in the field of artificial intelligence trends were analyzed, the main directions of work in the field of artificial intelligence in different countries of the world, justified conclusions and proposals were developed on the role of artificial intelligence in the transformation, and recommendations were given for its application in our country.

Key words: artificial intelligence, digital economy, digital transformation, modernization, Big Data, Internet of things.

Annotatsiya: Maqolada sun'iy intellektning raqamli transformatsiyadagi roli va xususiyatlari, sun'iy intellekt sohasidagi rivojlanish tendensiyalari, turli mamlakatlarda sun'iy intellekt sohasidagi ishlarning asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi dunyoning etakchi olimlarining fikrlari o'rganiladi. o'zgarishlarda sun'iy intellektning o'rni bo'yicha asoslantirilgan xulosa va takliflar ishlab chiqilib, uni mamlakatimizda qo'llash bo'yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, modernizatsiya, Big Data, Internet narsalar.

Аннотация: В статье рассмотрены мнения ведущих ученых мира о роли и характеристиках искусственного интеллекта в цифровой трансформации, проанализированы тенденции развития в области искусственного интеллекта, основные направления работ в области искусственного интеллекта в разных странах мира. Также выработаны обоснованные выводы и предложения о роли искусственного интеллекта в трансформации, даны рекомендации по его применению в нашей стране.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровая экономика, цифровая трансформация, модернизация, большое количество данных, интернет вещей.

INTRODUCTION

We all know that today digital technologies have such a great impact on our lives that it is difficult to imagine not only our daily lives but also the development of socio-economic spheres without them. As the world develops, of course, the introduction of smart technologies into the activities of every industry makes a great contribution to the radical change of this industry. Due to the rapid development of technologies, what was in demand yesterday is losing its importance today. A saturated market, high competition, and customer demands are some of the reasons for the demand for digital transformation in the economy. Introducing new technologies and artificial intelligence is one of the biggest challenges today. On the Development Strategy of Uzbekistan for 2022-2026, "dated January 28, 2022, No. PF-60, by actively introducing "Green Economy" technologies in all sectors, issues of taking measures to increase the energy efficiency of the economy by 20% and reduce the amount of harmful gases released into the air by 20% have been determined. In this regard, the use of artificial intelligence acts as a "catalyst" in accelerating the digitization of economic sectors in the country [1]. At the same time, it creates the groundwork for the creation of highly innovative technologies.

In Uzbekistan, the development of information technology and the digital economy is set to take place among the leading countries with innovative development by 2030, which is a priority task. It should be noted that in the "Year of Development of Science, Enlightenment, and Digital Economy," significant changes in information technologies and digitization were implemented, and a number of important programs were adopted. In particular, the decisions of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures for the widespread introduction of digital economy and electronic government" and "On additional measures to automate the procedures for providing public social services and assistance to the population" and other regulatory legal documents in our country aim at accelerating digitalization and the introduction of modern technologies in socio-economic spheres [2].

LITERATURE REVIEW

In the process of analyzing the literature on the topic, we witnessed that several leading economists and specialists conducted scientific research on the development of artificial intelligence in digital transformation, which is as follows: For example, in Uzbekistan, problems of artificial intelligence, as well as models and methods of implementation of the digital economy and information technologies, have been implemented in a number of scientific works. According to N.V. Gorodnova, the introduction of artificial intelligence algorithms as an assistant with additional capabilities into human life allows us to get the main advantage of such integration, which is based on the fact that it not only speeds up the decision-making process but also significantly improves its quality [3].

L.I. According to the analysis by Arkhipov, in 2018, the amount of income from the use of big data and business analytics services in the world was 168.8 billion US dollars, and according to the forecast, this figure will exceed 274.3 billion US dollars by the end of 2022 [4].

V.V. Zhilin and O.A. Safaryan's research revealed that 37 percent of companies today use algorithmic services and artificial intelligence technologies, which indicates that the possibilities of using new high-intelligence technologies will continue to increase in the future [5].

It was believed that this value is created only in the production sector; non-production (science, culture, health, finance, passenger transport, defense, and other sectors) is only consumed.

RESEARCH METHODOLOGY

In the digital transformation, economic research methods such as studying the research conducted by world scientists and economists on the development of artificial intelligence, collecting data, analyzing the collected data, synthesizing, and logical thinking were widely used.

ANALYSIS AND DISCUSSION OF RESULTS

As we know, today, in the conditions of international globalization, the whole world recognizes that a new stage of economic development is being reached directly due to the development of the digital economy and artificial intelligence. It is also known from international experience that the digitization of the economy should be emphasized as an important criterion for ensuring socio-economic stability in many ways. At this point, it should be noted that in the future, there will be no development or growth without a digital economy; therefore, with a deep understanding of this issue, it is necessary to strengthen research only from a scientific-theoretical and practical point of view. First of all, it is permissible to dwell on the essence of the concept of the digital economy as an economic category and its application features. So, nowadays, there are different approaches to the concept of the digital economy.

Due to the digital transformations taking place in modern reality, the emergence and use of new technologies are increasing. All areas of business and social life are introduced by intelligent systems that can work effectively in a dynamically changing world. The digital economy is the basis of the entire government system, economy, new business models, and the fourth industrial revolution. AI technology has been researched for more than half a century. During the development of this field of science, the interest in such a promising direction in the IT field varied depending on scientific achievements and the development of practical areas of application of artificial intelligence. Over the past 10 years, many important advances have been made in improving the components of this technology, and the IT market has identified new possible uses for AI. Business entities should use this tool to maintain competitiveness and develop their own subsystems, which will encourage countries to join the technological race in order to stimulate the economy, strengthen their geopolitical position, and improve the standard of living of the population.

In addition to its direct use in production, the use of artificial intelligence in logistics allows for real-time fleet management while significantly reducing fuel consumption and other costs. AI can also reduce energy consumption in data centers. In addition, AI can help with digital security. For example, software firm Pivotal has created an AI system that can detect when text is likely to be part of a password and randomly generate passwords online. Meanwhile, Lex Machina is mixing AI and data analytics to revolutionize patent litigation. Many social bot startups automate tasks like meeting scheduling, business information and data retrieval, and expense management.

Signs of the digital economy are a high degree of automation, electronic document exchange, electronic integration of accounting and management systems, electronic databases, the availability of SRM (customer relationship management), and corporate networks. In the digital economy, costs for payments are reduced (for example, travel to the bank and other resources are saved), more and faster information is obtained about goods and services, opportunities for goods and services to enter the global market in the digital world are

greater, and feedback (desire) Goods and services are rapidly improved due to the rapid acquisition of the opinion of the farmer. Although digital data is a valuable economic resource, it is only useful when it is transformed into a digital mindset. With the advent of the digital economy comes the challenge of creating digital platforms and monetizing the rapidly growing digital data. It is important to identify the ways to create value and the means to eliminate obstacles in these processes. It provides an understanding of the potential for value creation and distribution, value renewal, value management, and value capture. In the further perspective of modern development, technologies for processing large-scale data (Big Data), artificial intelligence, neurotechnologies, quantum technologies, the Internet of Things, robotics and sensors, digital electronic platforms, cloud and mobile technologies, virtual and augmented reality technologies, digital technologies such as crowdsourcing, blockchain technologies, cryptocurrencies, and 3D technologies are becoming crucial.




Figure 1: The main reasons why different sectors of the economy have not been digitally transformed[1]

By knowing the main directions of work in the field of artificial intelligence in different countries around the world, it is possible to determine the development trends of artificial intelligence. The lines of work show us which are currently most in demand or most promising for achieving results. These works are focused in the following directions:

1. Deep learning's goal is to minimize the training time of the neural network and reduce the required size of the training sample; ideally, the neural network should be trained in real time.
2. Development of neuromorphic microcircuits and neurocomputers. Neurocomputers are a new type of computer. They have high performance due to parallel data processing and high reliability due to the exchange of nodes (i.e., neurons) and the presence of a large number of connections between them. An artificial neural network can be transferred from one neurocomputer to another, like a computer program.
3. Development of neurocomputer interfaces. Neural interfaces are devices for direct information exchange between the human brain and a computer, enabling hybrid human-machine intelligence to emerge in the future.
4. Development of unmanned vehicles (and computer vision). Introduction of unmanned vehicles into everyday life.
5. Improvement of speech recognition systems.
6. Complexity of robots. The robot must read and learn the incoming data with its own knowledge base. The study of the group behavior systems of robots and the interaction of robots with humans in performing any operations for the efficient distribution of tasks between them.

Further personalization of services is possible if, based on the available data on the user's behavior model, an application with artificial intelligence can ideally offer a service suitable for him in a particular situation, etc.

1 https://www.kpi.com/uz/digital-transformation-basic-strategies-for-your-business/

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Based on the above promising directions of development in the field of artificial intelligence, we can draw conclusions about the general trends in the development and application of artificial intelligence. The main development trends can be named as follows:

The first trend. Expanding the computing and functional capabilities of artificial intelligence (as a result of increasing the computing power of software and hardware systems, including the use of distributed architecture for graphics processors and computing systems).

The second trend is the development of robotic services with the help of artificial intelligence to get rid of the influence of the "human factor" and free people from monotonous work.

It involves the development of autonomous agents to which the user can delegate certain tasks.

The third trend. The growth of the artificial intelligence technology market is fueled by machine learning and data analysis technologies.

Digital transformation leads to economic growth and new opportunities. First, by automating the processes, it provides an opportunity to store all data in one place and process it by the system, which reduces the impact of the human factor. Secondly, due to process optimization, there will be time and opportunities to introduce and develop innovations. This is an investment in the future. In addition, there is the availability of large amounts of information for education. Today, due to this factor, various tools–in particular, simple and cheap tools for data storage and processing–and various algorithms have been created. But everything has a downside. The radical change will lead to a shortage of people who can help manage the processes, and according to McKinsey, automation could lead to the loss of 73 million workers in the US and more than 120 million in India by 2030.

Within the framework of the concept of socio-economic complex development of the Republic of Uzbekistan until 2030, improvement of the financing system of enterprises of the real sector of the economy, development of the leading sectors of the country's economic growth in the medium and long term aimed at implementing the priority directions of the development of the real sector of the economy, further increasing their economic efficiency by reducing the level of resource consumption, transferring the economy from a producer of raw materials and semi-finished products based on medium-level technology to a producer of finished products, introducing the requirements of the green economy into practice, rationally using the existing potential of the tourism sector The task of improving the infrastructure to turn the republic into a tourism center in the region is one of the priority strategic tasks.

CONCLUSIONS AND SUGGESTIONS

It can be seen that, over the years, the use of artificial intelligence technologies has been effective for the development of the country. It should be noted that these technologies play an important role not only in economic spheres but also in the lives of society. Year by year, artificial intelligence technologies are becoming a part of our lives and are the main impetus for development.

In conclusion, it can be said that every country should widely use artificial intelligence technologies to maintain its position in the world and to rise to the top. In order for our country to prosper in the future and for the next generation to use these technologies correctly and wisely, we should take action now, pay attention to the development of artificial intelligence technologies, and reduce their harm.

Reference:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the development strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" dated January 28, 2022, No. 60. – https://lex.uz/docs/5841063.
2. Resolution No. 4699, dated April 28, 2020, of the President of the Republic of Uzbekistan, "On measures for wide implementation of the digital economy and electronic government".
3. Городнова Н.В. Применение искусственного интеллекта в экономической дипломатии и международной торговле // Вопросы инновационной экономики. – 2021. – № 2. – doi: 10.18334/vinec.11.2.112214.
4. Архипов Л.И. Большие данные и искусственный интеллект в бизнесе: развитие и регулирование // Big Data and Advanced Analytics. – 2020. – № 6-3. – с. 122- 127.
5. Жилин В.В., Сафарьян О.А. Искусственный интеллект в системах хранения данных // Вестник Донского государственного технического университета. – 2020. – № 2. – с. 196-200. – doi: 10.23947/1992-5980-2020-20-2-196-200.
6. Бабич В.Н., Кириллова Е.А. Обзор отдельных вопросов и области больших данных и искусственного интеллект. - М.: ФКУ "ГИАЦ МВД России, 2019. – 148 с. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 338 http://iqtisodiyot.tsue.uz
7. https://www.kpi.com/uz/raqamli-transformatsiya-biznesingiz-uchun-asosiy-strategiyalar.
8. under the President of the Republic of Uzbekistan Statistics Agency data.

TADBIRKORLIKDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISH MASALALARI

Otaxanov Sardorbek Maxammadali o‘g‘li
UNIVERSITY OF BUSSINES AND SCIENCE
“Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning innovatsion shart-sharoitlari va omillari bilan bog‘liq jarayonlar tadqiq etilgan. Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirishning mavjud muammolar o‘rganilgan. Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirishga doir tizimli islohotlar samaradorligi baholangan va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik subyektlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, innovatsiyalar, innovatsion tadbirkorlik, innovatsion muhit, innovatsion jarayonlar.

Abstract: This article examines the processes associated with innovative conditions and factors for the development of small businesses and private entrepreneurship in the economy of our country. The existing problems of innovative development of entrepreneurial activity have been studied. The effectiveness of systemic reforms for innovative development of entrepreneurship is assessed and practical recommendations are formulated.

Key words: business entities, small business and private entrepreneurship, innovation, innovative entrepreneurship, innovative environment, innovative processes.

Аннотация: В данной статье исследуются процессы, связанные с инновационными условиями и факторами развития малого бизнеса и частного предпринимательства в экономике нашей страны. Изучены существующие проблемы инновационного развития предпринимательской деятельности. Оценена эффективность системных реформ по инновационному развитию предпринимательства и сформулированы практические рекомендации.

Ключевые слова: субъекты предпринимательства, малый бизнес и частное предпринимательство, инновации, инновационное предпринимательство, инновационная среда, инновационные процессы.

KIRISH

Respublikamiz iqtisodiyotida ishlab chiqarish omillaridan maqsadli foydalanish yo‘nalishlarini shakllantirish va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi oshirish jarayoni innovatsiyalarga bevosita bog‘liq. Innovatsiyalar ta’sirida ishlab chiqarish jarayonida inson omilining roli borgan sari cheklanish xarakteriga ega bo‘lib, moddiy resurslardan foydalanish samaradorligining ortishi hisobiga intensiv iqtisodiy o‘sishga erishish imkoniyatlari yuzaga keladi. Aksariyat hollarda innovatsion faoliyat mahsulot, ish va xizmatlar sohasidagi yangiliklarga asoslanadi. Innovatsiyalar, sifat jihatidan yangi bozorlarni shakllantirishga, ijtimoiy ehtiyojlarni samarali qondirishga hissa qo‘shishga imkon beradigan tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishga asos yaratadi. O‘z navbatida, innovatsiyalar tadbirkorlik faoliyati samaradorligini ta’minlashga va uning tuzilmaviy tarkibini takomillashtirishga olib keladi. O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar zamirida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga doir chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

Mazkur islohotlar ta’sirida bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni yalpi ichki mahsulotning o‘sishi, aholi bandligini ta’minlash bilan birga, iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayonlaridagi faol ishtiroki orqali namoyon bo‘lmoqda. Istiqbolda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish zaruriyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 21-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida quyidagicha to‘xtalib o‘tgan edi: “ biz tadbirkorlik sohasida javobgarlikni yengillashtirish bo‘yicha boshlagan islohotlarimizni jadal davom ettiramiz [1].” Yuqoridagi holatlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda an’anaviy jarayonlar bilan birga innovatsion rivojlanish jarayonlariga ham e’tibor qaratish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Bu borada iqtisodiyotimiz oldida turgan muammoli jarayonlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydagi “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3697-sonli qarorida atroflicha aks etgan bo‘lib, mamlakatimizda innovatsion tadbirkorlikni ommalashtirish ishlarini samarali tashkil etish jarayoni tizimlashtirilgan. Innovatsion mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqishga hamda ilgari surishga jalb qilishda texnik va psixologik to‘siqlarning mavjudligi e’tirof etilgan bo‘lib, bu borada mavjud muammolarni bartaraf etish jarayoniga ustuvorlik beriladi [2].

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish shart-sharoitlari va omillarini tadqiq etishga yo‘naltirilgan qator ilmiy izlanishlarda innovatsion faoliyatga ustuvorlik berish bilan bog‘liq ilmiy xulosalar muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mazkur jarayonning nazariy-uslubiy jihatdan tadqiq etishda S.Jose va D.Maurisio ilmiy izlanishlari muhim o‘rin egallaydi. Tadqiqot natijalari davomida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda texnologiyalarga ustuvorlik berish talab etiladi. Tadbirkorlik faoliyatida texnologik jarayonni muvofiqlashtirishning moliyaviy mexanizmi samaradorligini oshirishda startaplar tizimidan foydalanish taklif etiladi. A.Oostxuizen, J.Van Vuuren, M.Botxa tadqiqotlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanish boshqaruv tizimining o‘rni muhim xarakter kasb etadi. A.G.Kiryakov, V.A.Maksimov tadqiqotlarida zamonaviy ilm-fan yutuqlari innovatsion tadbirkorlik kichik biznesni rivojlantirishning yangi usuli sifatida muhokama qilinadi. T.N.Kosheleva ilmiy izlanishlarida biznes sohasida innovatsion jarayonlarning o‘rni iqtisodiy jihatdan baholanadi. Makroiqtisodiy darajada innovatsion muhitni shakllantirishda kichik innovatsion korxonalar innovatsiyalarni tashkil etish va innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida e’tirof etiladi. O.A.Aripov kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanishini hududiy miqyosdan kelib chiqqan holda yaxshilashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni qo‘llash zaruriyatini qayd etadi[6].Yuqoridagi ilmiy tadqiqot izlanishlarining asosiy xususiyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirishning mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish jarayonlarini o‘zida aks etadi. Tadqiqotlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish jarayoni bozor omillari bilan bog‘liqligi qayd etilgan. Natijaviy jarayon sifatida tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirishning bozor faoliyati tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sohasidagi qonun osti va me’yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydagi “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3697-son [2], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-apreldagi “Hududlarda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlariniyanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-212-son [3], shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-150-son Farmoni olindi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanish yo‘nalishlarini shakllantirish jarayoni mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv metodlaridan foydalanilgan holda tadqiq etilgan. Induksiya va deduksiya, statistik hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilib tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanish shart-sharoitlari va imkoniyatlari asoslab berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining globallashuvi va bozor munosabatlarini takomillashtirishning amaldagi bosqichi, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion rivojlanish omillaridan samarali foydalanish tizimini optimallashtirish orqali aholi turmush farovonligini yuksaltirish jarayonlarida o‘z aksini topadi. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining o‘rni yuqori ahamiyat kasb etib, yangi tovar va xizmat turlarini yaratish, ishlab chiqarishda innovatsion loyihalar va ilm-fanni talab qiladigan ishlanmalarni shakllantirish, bozor segmentasiyasini iste’molchi talablariga muvofiqlashtirish orqali segment diversifikatsiyasini ta’minlash jarayonlarida namoyon bo‘ladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanishni ifodalovchi mazkur jarayon, yangi mahsulotlar va xizmatlar uchun g‘oyalarni izlash, eng istiqbolli g‘oyalarni oldindan tanlash, investorlarni izlash, yangi mahsulot yoki xizmatlarning bozor imkoniyatlarini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Maqsadli bozor talablarini qondirishning potensial imkoniyatlari va yangi texnologik imkoniyatlar o‘rtasidagi integrasion aloqadorlik innovatsion ishlanmalarni muvaffaqiyatli tijoratlashtirishga barcha bosqichlarini samarali tashkil etish imkoniyatlarini yaratib beradi. Ayni vaqtda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish, uning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyatini yanada oshirish ular faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyalashtirish tizimini shakllantirilganligini ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. Mazkur tizim kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish jarayonini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni hamda banklar tomonidan mazkur subyektlar faoliyatini kreditlash amaliyotini o‘z ichiga oladi. Xususan, biznes subyektlarini moliyalashtirish jarayonini

davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda soliq imtiyozlari muhim o‘rin tutmoqda. Tadbirkorlik subyektlari uchun har bosqichda soliqqa tortish va soliq ma’murchiligini yengillashtirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlik ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan mexanizmlar belgilandi. 2023-yil 1 yanvardan boshlab: -mikro biznes uchun aylanmadan olinadigan soliqning yagona 4 foizli soliq stavkasi joriy etildi [7].

Bunda: olis hududlardagi va alohida toifadagi tadbirkorlar uchun amaldagi 1 va 2 foizli stavkalarni saqlab qolindi;-ixtiyoriy ravishda yiliga 20-30 million so‘m miqdorida soliq to‘lashga o‘tgan mikro biznes vakillarini buxgalteriya hisobini yuritish va soliq idoralariga soliq hisobotini taqdim etish majburiyatidan ozod etildi; tovar aylanmasi 1 milliard so‘mdan oshgan kichik biznes uchun bir yil davomida foyda solig‘i stavkasini 2 baravarga pasaytirildi; tovar aylanmasi 10 milliardso‘mgacha bo‘lgan kichik biznes subyektlariga xabardor qilish orqali soliq qarzini olti oygacha foizsiz bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berildi.

Mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlar miqdori, mlrd. so‘m.1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2020–2022-yillarda respublikamiz tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar miqdorining o‘sish tendensiyasi kuzatilgan. Bu esa, mazkur subyektlar faoliyatini moliyalashtirish tizimida tijorat banklarining roli ortib borayotganligidan dalolat beradi. Shunisi ahamiyatliki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-apreldagi “Hududlarda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-212-sonli qarorida hududlarda amalga oshirilayotgan tadbirkorlik loyihalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik tashabbuslarining o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash orqali kichik va o‘rta tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni takomillashtirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan.

XULOSA

Respublikamiz iqtisodiyotida tobora rivojlanib borayotgan bozor munosabatlaridan kelib chiqib, erkin raqobat munosabatlarini o‘rganish o‘zida bir qator dolzarb masalalarni aks ettiradi. Xususan, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlar, sharoitlar, imtiyoz va afzalliklar berilayotgani, xo‘jalik yurituvchi subyektlar sonining ko‘payayotgani, bunda erkin raqobat munosabatlarining rivojlanishi hamda iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish yo‘nalishiga bo‘layotgan talabning oshib borishi bilan asoslanadi. Iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, faqat ishlab chiqarish omillari va investitsiyalar asosida iqtisodiy rivojlantirish emas, balki ular bilan birga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanish yo‘nalishlarini shakllantirish asosida kelajakda innovatsion iqtisodiyot modeliga o‘tish lozimdir.

Fikrimizcha, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanish yo‘nalishlarini shakllantirishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarni tijoratlashtirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar oqimini shakllantirish;
- tadbirkorlik subyektlarining innovatsiyalarga maksimal darajada ta’sirchanligini ta’minlaydigan sharoitlarni (soliq rejimi, bojxona siyosati, shu jumladan qulay investitsiya muhitini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni) yaratish;
- tadbirkorlik faoliyatining innovatsion siklidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan amaliy va fundamental tadqiqotlar olib borish;
- ilg‘or texnologiyalarni tijoratlashtirish sohasidagi mavjud vaziyatni tubdan o‘zgartirish zaruriyatini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi innovatsion infratuzilmalar faoliyatini shakllantirish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 21-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydagi “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3697-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-apreldagi “Hududlarda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-212-son qarori.
4. Muhammadjanovich K. I. EFFECTIVE DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP //Conference Zone. – 2022. – C. 129-133.
5. Sharipov K.B. Kichik tadbirkorlik faoliyatida tarmoqbo‘yicha ixtisoslashuv jarayonlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati. -T.: “AKADEMIYA NOSHIRLIK MARKAZI” nashriyoti, 2020. 61 b
6. Aripov O.A.Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ishbilarmonlik muhitini yaratish. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №2, mart-aprel, 2019-yil.
7. Kazakov, O. S., & KamoliddinovI. (2021). Questions Of The Effective Utilization Of Industrial Resources In Enterprise Activity In The Conditions Of Economy Globalization. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(04), 114-119. https://doi.org/10.37547/tajiir/Volume03Issue04-18
8. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.
9. www.agro.uzsayti ma’lumotlari.



TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARASINI OSHIRISHDA IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI

I. M. Kamoliddinov
I.f.f.d., PhD, UNIVERSITY OF BUSSINES AND SCIENCE
“Iqtisodiyot” kafedrasi

Sodiqov Maqsudjon Abduolimovich
NamMQI magistranti

Annotatsiya: Maqolada tadbirkorlik faoliyati samarasini oshirishda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari, bugungi kundagi kichik biznes faoliyatini o‘zgarish jarayonlari hamda mamlakatimiz kichik biznes faoliyatini rivojlantirish samaradorligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisod, kichik biznes, xarajat, biznes, tadbirkorlik, investitsion, tadbirkorlik faoliyati, xorijiy investitsiya, investitsion tizim.

Abstract: The article shows the strategic directions for the development of the green economy, the processes of change in the activity of small businesses today, as well as the effectiveness of the development of small businesses in our country.

Key words: economy, small business, cost, business, entrepreneurship, investment, entrepreneurial activity, foreign investment, investment system.

Аннотация: В статье показаны стратегические направления развития зеленой экономики, процессы изменения активности малого бизнеса сегодня, а также эффективность развития малого бизнеса в нашей стране.

Ключевые слова: экономика, малый бизнес, стоимость, бизнес, предпринимательство, инвестиции, предпринимательская деятельность, иностранные инвестиции, инвестиционная система.

KIRISH

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik faoliyati korxonalarining rivojlantirishda va ular samaradorligini orttirishda ularning istiqboldagi rivojlanish strategiyalarini tanlashlari, bu strategiyalarni joriy etishlari katta ahamiyatga egadir. Oldindan aniq belgilab olingan strategiya rivojlanish manbalarini yaratadi va faoliyatda qo‘llaniladigan ishlab chiqarnish resurslarini istiqboldagi imkoniyatlarini aniq bilishga va ulardan foydalanish samarasini oshirishga olib keladi.

Bugungi kunda ayrim tadbirkorlik korxonalarida bunday strategiyalardan foydalanishga harakat qilinmoqda. Bu yo‘nalishda ko‘plab misollar keltirish mumkin. Masalan, tikuvchilik va poyafzal ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik korxonalari o‘zlarining strategiyalarini tuzmoqdalar. ular strategiyalari asosan eksport xajmini orttirishga yo‘naltirilgan. “Istiqlol dizayn”, “Ideal” va “Dambog‘” singari tadbirkorlik korxonalari bu kabi strategiyalardan foydalanish natijasida faoliyat samarasini oshirib borishga erishmoqdalar. Shu bilan birgalikda, ko‘plab tadbirkorlik korxonalarida faoliyat asosan bugungi kun doirasida olib borilmoqda. Istiqbolni belgilash va strategiyalarni tuzish, ulardan samaralisini aniqlash hamda o‘z faoliyatida foydalanish o‘rniga ko‘plab tadbirkorlik korxonalari hozirgi vaqtda zarur bo‘lgan ishlab chiqraish resurslarini topish bilash shug‘ullanmoqdalar. Hozirgi vaqtda to‘qimachilik, tikuvchilik va oziq-ovqat yo‘nalishida tashkil etilgan tadbirkorlik korxonalari ishlab chiqarish resurslari yetishmovchiligi sababli ko‘p xollarda o‘z faoliyatlarini to‘xtatishga majbur bo‘lmoqdalar. Uzluksiz faoliyat yo‘lga qo‘yilmas ekan ishlab chiqraish resurslaridan foydalanish samarasini ta’minlash mushkul ish bo‘lib qolaveradi. O‘z faoliyatini uzluksiz ravishda amalga oshirayotgan korxonalargina samarali faoliyatni ta’minlaydilar [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A.N.Rodnikov resurslarni iqtisodiy tizim elementlari sifatida ta'riflaydi: "Resurslar – iqtisodiy tizim elementlari bo'lib, ishlab chiqarish jarayoni davomida iste'mol qilinadi yoki ishlab chiqarish omillari hisoblanadi. Ularga mehnat, yer, kapital (binolar va qurilmalar, texnologik dastgolar, transport vositalari) kiradi".[1]

L.I.Abalkin rahbarligidagi mualliflar resurslarga shunday ta'rif berdilar: "Ishlab chiqarish resurslari – iqtisodiy nazariyaning asosiy tushunchasi bo'lib, ishlab chiqarishni ta'minlash vositalari, manbalaridan iborat bo'ladi".[2]

Tadbirkorlik faoliyati samarasini oshirish ishlab chiqarish resurslari deganda korxona va tashkilotlar faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha ishlab chiqarish vositalari, zaxiralar, korxonaning amal qilishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan tovar-moddiy qiymatliklar, umuman olganda barcha ishlab chiqarish omillari tushuniladi.

V.Ya.Gorfinkel yuqoridagi olimlar fikriga qo'shilgan xolda ishlab chiqarish resurslarini ishlab chiqarish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri qatnashadigan ishlab chiqarish omillarining majmuasi sifatida ta'riflaydi. Bu berilgan tariflarda iqtisodiy resurslarni korxonalar faoliyatida qatnashadigan asosiy fondlar, aylanma mablag'lar va mehnat resurslari majmuasi sifatida tushuntiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadbirkorlik faoliyati samarasini oshirishning strategik yo'nalishlarini aniqlash – bu ularning ishlab chiqarish dasturini optimallashga mavjud iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishga olib boradigan asosiy yo'ldir. Tadbirkorlik faoliyati samarasini oshirishning strategik yo'nalishlarini aniqlash orqali ulardagi ishlab chiqarish jarayonining o'ziga xos bo'lgan sifat o'zgarishlarining resurslardan foydalanishga ta'siri o'rganiladi va oldindan foydalanish yo'nalishlari belgilab olinadi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalarda tuziladigan ishlab chiqarish dasturini optimallash va ulardagi mavjud iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishning muhim omili ular tomonidan qabul qilinadigan strategiyalar va yo'nalishlar hisoblanadi. Faoliyatda foydalaniladigan strategiyalarni tayyorlash va ulardan tanlovni amalga oshirish bir qator omillarga bog'liqdir. Tadbirkorlik ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy salohiyatidan to'laroq foydalanishga erishish uchun bu korxonalarning bir maromdagi ishlashini ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish talab etiladi. Bu holatda uzluksiz rivojlanish strategiyasi samarali hisoblanadi. Iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishni boshqarishning ushbu strategiyasida iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishning texnik-iqtisodiy reglamentini yaratiladi.Iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishning texnik-iqtisodiy reglamentini yaratish tadbirkorlik korxonalaridagi ishlab chiqarish resurslari harakatiga ko'p jihatdan bog'liq. Tadbirkorlik korxonalarida ishlab chiqarish resurslari to tayyor mahsulot bo'lgunga qadar harakatda bo'ladilar, bir qancha ishlab chiqarish bosqichlaridan o'tadilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ishlab chiqarish resurslarining harakati dastgohlarning bandlik darajasiga, operativ ishlab chiqarish rejalashtirish jarayoniga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi, ishlab chiqarish davomiyligini belgilaydi.

Tadbirkorlik korxonalaridagi ishlab chiqarish resurslarining harakatidagi turli uzilishlar, to'xtashlar sodir bo'ladi. Ushbu to'xtashlar va turli uzilishlar natijasida dastgohlardan va materiallardan foydalanishda samaradorlikning pasayishi kuzatilmoqda. Ishlab chiqarish jarayonini samarali tarzda tashkil etish har bir bosqichda, o'lchamlarda jarayonni tashkil etishga, xom ashyoning samarali harakatini ta'minlashga ko'p jihatdan bog'liqdir [2].

Tadbirkorlik korxonalarida faoliyat samarasini oshirishning yo'nalishlarini tanlash ulardagi turli boshqaruv tizimlari faoliyatini amalga oshirish, ular o'rtasida aloqani yo'lga qo'yishga bog'liqdir. Bu kabi harakatlar oqibatda korxonalarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Demak, faoliyat samarasini oshirish yo'nalishlaridan biri – boshqaruv faoliyatini rivojlantirish va zamonaviy boshqaruvni joriy etishdir. Tadbirkorlik korxonalarida iqtisodiy salohiyatdan foydalanishning boshqarish bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan sharoitda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltiradi. Chunonchi, bozor munosabatlarii sharoitida tadbirkorlik korxonalarining yashab qolishi uchun raqobatga chiday olish lozim.

Iqtisodiy salohiyatdan samarali tarzda foydalanish vazifasi keskin raqobat kurashi sharoitida tadbirkorlik korxonalaridagi boshqaruv tizimlari va iqtisodiy salohiyat o'rtasidagi munosabatlarga sistemali tarzda yondashish orqali hal qilinadi. Masalan, to'qimachilik faoliyati bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik korxonalaridagi dastgohlarni to'la ish bilan band bo'lishi jarayonlaridagi ip uzilishlariga ko'p jihatdan bog'liq. Jarayondagi ip uzilishlarini kamaytirish uchun har bir bosqichdagi harakatlarga muvofiqlashtirishni amalga oshirish zarur. Har bir amalga oshiriladigan ishlar xajmi, mexnat sarfi, yonilg'i, elektr energiyasi sarfi, chiqindilar miqdori aniqla-

1 [M.Ya. Pogorelova. Ekonomicheskiy analiz: teoriya i praktika: Uchebnoye posobiye / M.Ya. Pogorelova. - M.: IS RIOR: NIS INFRA-M, 2016. - 290 s., c.86].

2 [L.I.Abalkin, O.I. Volkov i dr. Ekonomika predpriyatiya (firmы): Praktikum / Red. O.I. Volkov, V.Ya. Pozdnyakov. - M.: INFRA-M, 2016., c.91].

nishi lozim. Shu bilan birgalikda,har bir dastgohning o‘tkazish qobiliyati, unumdorligi va boshqa o‘tamlardagi dastgohlarga mosligi aniqlanadi [4]. Dastgohlarni muvofiqlashtirishda ikki holatni ta’minlashga harakat qilinadi:

- Dastgohlarni to‘laroq darajada ip bilan band qilishga erishish.
- Dastgohlarni ortiqcha band bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, keyingi bosqichdagi dastgohni uzluksiz xom ashyo bilan ta’minlash.

Hozirgi vaqtdagi iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida korxonalardagi mavjud iqtisodiy salohiyatni samarali tarzda boshqarishning asosiy omillardan biri strategik rejalashtirishdir.

Globallashuv sharoitida tadbirkorlik faoliyati samarasini oshirishning qator strategiyalarini tuzish va ulardan samaralisini tanlash katta ahamiyatga ega. Quyidagi strategiyalardan birini tanlashlari uchun avvalambor zamon va makondagi turli o‘zgarishlarni tahlil qilish, baholash va faoliyat darajasiga ta’sirini o‘rganish zarur bo‘ladi.

- Jadal rivojlanish strategiyasi.
- Uzluksiz rivojlanish strategiyasi
- Rivojlanish strategiyasi
- Vaziyatni tanlash strategiyasi
- Faoliyat darajasini saqlab qolish strategiyasi
- Qisqartirish strategiyasi.

Tadbirkorlik korxonalarining ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishga erishish uchun bu korxonalarning bir maromdagi ishlashini ta’minlash, ishlab chiqarishni takomillashtirish talab etiladi. Ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlashning dastlabki bosqichida ularda samarali foydalanishning texnik-iqtisodiy reglamentini yaratiladi [6].

Tadbirkorlik korxonalari oladigan foyda va rentabellik darajalari o‘rtasidagi bu munosabat ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishda yuqori samaradorlikni ta’minlash maqsadida xom ashyo va moddiy resurslardan foydalanish darajasi bilan foyda hamda rentabelllikning o‘zgarishi muntazam tahlil qilib borilishi va uning natijalari asosida xom ashyo va moddiy resurslar sarfining me’yorlari o‘rnatilishi kerakligini ko‘rsatdi.

Tadbirkorlik korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish jarayonida turli strategiyalarni qo‘llashni tavsiya qilamiz.

Tadbirkorlik korxonalari o‘z faoliyatlarini muntazam ravishda tahlil qilib borgan holda ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish strategiyasini tanlaydilar. Bunda ular o‘zgarib turgan bozor talabi va taklifi, raqobatdoshlar holati, iste’molchilarning daromadlari, ta’minotchilardagi o‘zgarishlarni inobatga olishlari muhim holat hisoblanadi.

Tadbirkorlik korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish mexanizmi ichida narxlar va narxlashtirish tizimi markaziy o‘rinni egallaydi. Globallashuv sharoitida narx strukturasida yangi elementlar paydo bo‘lmoqda: ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari, amortizasiya qiymati ajratmalari, o‘rtacha transport harajatlari, texnik xizmat ko‘rsatish harajatlari, yangi mahsulotni o‘zlashtirish va ilmiy-tadqiqot ishlariga ajratmalar, bozor tadqiqoti harajatlari. Shu bilan birgalikda, ma’muriy harajatlar, reklama harajatlari va sotuv tarmoqlarini tashkil etish harajatlarining hissasi ortib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni ayish lozimki, tadbirkorlik faoliyatida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish mexanizmi o‘z ichiga ishlab chiqarish resurslarining manbalarini va ularga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni oladi. Ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samarasini oshirish uchun mexanizm texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy yo‘nalishlardan foydalanishni ko‘zda tutadi. Ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samarasini ta’minlash uchun dastgohlar va barcha texnikalardan foydalanish darajasini oshirish, faoliyatda qatnashayotgan barcha xodimlarning ishga bo‘lgan munosabatlarini tashkil etish va ularni har tomonlama rag‘batlantirish, boshqaruv va boshqa barcha munosabatlarni takomillashtirish zarur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017, 7-Fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017-yil.
2. Olim Sabirovich Kazakov Menejmentga kirish. Darslik. Toshkent. “Fan ziyosi” nashriyoti, 2021-yil.
3. М.Мескон, М. Альберт, Ф.Хедоури. Основы менеджмента. М. Дело, 1992.: ─С.489.
4. Muhammadjanovich K. I. Effective Directions Of Development Of Entrepreneurship //Conference Zone. – 2022. – С. 129-133.
5. М.Я. Погорелова. Экономический анализ: теория и практика: Учебное пособие / М.Я. Погорелова. — М.: ИЦ РИОР: НИЦ ИНФРА-М, 2016. — 290 с., с.86].
6. Л.И.Абалкин, О.И. Волков и др. Экономика предприятия (фирмы): Практикум / Ред. О.И. Волков, В.Я. Поздняков. — М.: ИНФРА-М, 2016., с.91].
7. Kenjabayev A.T. Tadbirkorlik faoliyatini axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari.: Iqt.fan. dokt. diss. avtoref. – T.: 2005-39-b.
8. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik. Statistik to‘plam. Toshkent, 2020-y.190b.
9. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQ MEXANIZMI ORQALI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Akbarov Akramjon Ibroximjonovich
UNIVERSITY OF BUSSINES AND SCIENCE
“Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tadbirkorlik subyektlarini soliq mexanizmi orqali rivojlantirish masalalari, bugungi kundagi o‘zgarish jarayonlari hamda mamlakatitmizga keltirayotgan samaradorligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, moddiy resurslar, budjet, xarajat, biznes, investitsion, tadbirkorlik faoliyati, xorijiy investitsiya, investitsion tizim.

Abstract: The article shows the issues of development of business entities through the tax mechanism, modern processes of change and the efficiency that they bring to our country.

Key words: entrepreneurship, material resources, budget, cost, business, investment, entrepreneurial activity, foreign investment, investment system.

Аннотация: В статье показаны вопросы развития субъектов предпринимательства через налоговый механизм, современные процессы изменений и эффективность, которую они приносят в нашу страну.

Ключевые слова: предпринимательство, материальные ресурсы, бюджет, стоимость, бизнес, инвестиции, предпринимательская деятельность, иностранные инвестиции, инвестиционная система.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar nafaqat tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga, balki soliqqa tortish tizimini ham keng rivojlantirishga qaratilgan. Avvalo soliqlar – bu davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab barcha sohalar qatori soliq sohasida ham bir qator islohotlar amalga oshirilib kelmoqda. Bu boradagi ishlar nafaqat soliq va yig‘imlarni undirish, balki soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlikni qisqartirish hisobiga davlat budjeti daromadlarini shakllantirishga ham qaratilgan.

Ushbu munosabat bilan yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev mamlakatimizda soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlar bo‘yicha quyidagilarni ta’kidlab o‘tganlar: “Yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirildi. Natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko‘paydi.

Shuningdek, qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Buning hisobidan o‘tgan yili soliq to‘lovchilar ixtiyorida 2 trillion so‘m qoldi. Joriy yilda bu raqam 11 trillion so‘mni tashkil etishi kutilmoqda. Bir yilda tadbirkorlar ixtiyorida shuncha mablag‘ qolishi, albatta, ularga o‘z bizneslarini rivojlantirish uchun juda katta qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi [1].

Olib borilgan islohotlarimiz natijasida o‘tgan yili 93 mingta yoki 2018-yilga nisbatan qariyb 2 barobar ko‘p yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi.

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining asosiy qismi soliqlar va yig‘imlar hisobidan shakllantiriladi. Soliqlarning o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishi davlat darajasida amalga oshirilayotgan barcha chora-tadbirlar, ya’ni budjet va maqsadli jamg‘armalarning o‘z vaqtida sarflanishini moliyalashtirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirish, ularga kelgusida soliq va yig‘imlar bo‘yicha budjetga tushumlarni ko‘paytirish imkonini beruvchi mexanizmni yaratish, korxonalarning investitsion jozibadorligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlash, asosli takliflar topish va faoliyatini rivojlantirish, amaliy maslahatlar va aniq yechimlarni ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Bu borada soliq va yig‘imlarning o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Soliqlarning o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlash soliq qarzi yuzaga kelishining iloji boricha oldini olish va ular yuzaga kelgandan keyin samarali undirish orqali amalga oshiriladi [2].

Shuni ham aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bu masalaga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, uning 51-moddasida “Fuqarolar qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar” deb belgilangan.

Shu bois soliq to‘lovchilarning soliq qarzlarini qisqartirish va yangi qarzlar paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularni tahlil qilish hamda soliq va yig‘imlarning budjetga o‘z vaqtida tushumini nazorat qilish soliq organlarining eng muhim masalalaridan biridir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bundan tashqari bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan mamlakatimiz moliya va soliq tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, jumladan, soliq undirishning ayrim masalalari o‘rganildi.

Bu borada tadqiqot olib borgan xorijlik olim Margherita Ebraiko mamlakatda soliq va yig‘imlarni undirishni rivojlantirish va rag‘batlantirish bilan birga soliq qarzi bo‘lgan soliq to‘lovchilarga nisbatan qattiq choralar ko‘rish zarurligini ta’kidlagan. Bu undirish bo‘yicha soliq qarzlarini kamaytirish va ularning yuzaga kelishining oldini olishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan [3].

Yana bir xorijlik olim Martin Tompsenning so‘zlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda yirik kompaniyalarning soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlari ko‘payib bormoqda. Bu mamlakatda soliq yukining yuqoriligi bilan izohlanadi. Korxonalarning soliq to‘lovlari bo‘yicha qarzdorliklarining mavjudligi ham bevosita soliq yukining yuqoriligi bilan bog‘liq hisoblanadi. Masalan, AQShda soliq yuki 29,8 foiz, Buyuk Britaniyada 34,6 foiz, Germaniyada 37 foizni tashkil etadi.

Yillar davomida soliq yukining kamayishi kelajakda soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash va soliq qarzlarini kamaytirish imkonini beradi.

Xorijiy tadqiqotchi Maykl Brostek soliq qarzlarini undirish samaradorligini oshirishning quyidagi omillarini sanab o‘tgan, jumladan [5]:

- mamlakatda soliq to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlik paydo bo‘lishining oldini olish uchun soliq yukini kamaytirish kelgusida soliqlar bo‘yicha qarzdorlikni kamaytirishga olib keladi;
- muddati o‘tgan soliq va yig‘imlarni undirish strategiyasi faqat belgilangan muddatda ijobiy samara beradi.

Yana bir olimlar munosabati ya’ni rus tadqiqotchilari S.N.Alixin va D.A.Levacheva o‘z tadqiqotida soliq qarzini undirish mexanizmining nazariy asoslarini keltiradi. Unga ko‘ra, soliq solinadigan bazani kengaytirish, shuningdek, soliq to‘lovchidan soliq qarzini undirishning murakkabligi, soliq qarzi bo‘lgan korxonalarning moliyaviy ahvolidan kelib chiqqan holda soliq qarzlarini undirish mexanizmini ishlab chiqish zarurligi ta’kidlangan .

Bundan tashqari, I.G.Vinoxodova o‘z ilmiy ishlarida, shuningdek, soliq qarzi bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarining mulkini olib qo‘yish jarayonini kuchaytirish soliq qarzlarini undirishda samaraliroq bo‘lishini qayd etadi .

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sohasidagi qonun osti va me’yoriy-huquqiy hujjatlar, xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-apreldagi “Hududlarda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlariniyanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-212-son [3], shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-iyundagi “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-150-son Farmoni olindi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishda soliq tizimini shakllantirish jarayoni mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, soliq tizimli yondashuv metodlaridan foydalanilgan holda tadqiq etilgan. Induksiya va deduksiya, statistik hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilib tadbirkorlik faoliyatini soliq mexanizmini rivojlanish shart-sharoitlari va imkoniyatlari asoslab berilgan [1].

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatda tadbirkorlik faoliyatining to‘sqinliksiz amalga oshirilishini ta’minlash, tadbirkorlik qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va Iqtisodiyotni erkinlashtirish va isloh qilishga qaratilgan maqsad va vazifalarning ijrosini ta’minlash ma’muriy usullar bilan emas, balki haqiqiy bozor mexanizmlarini amaliyotga joriy etish orqali amalga oshirilishi lozimligi zaruriyati hamda ushbu holatda foydalaniladigan iqtisodiy faoliyatlar ichida soliqlar alohida mavqega egaligi maqbul soliq yuki va soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berishning maksimal

nuqtasi masalalarini nazariy jihatdan tadqiq qilish hamda ular bo‘yicha amaliy tavsiyalar berishni bugungi kun mezonining eng dolzarb va kechiktirib bo‘lmaydigan muammosiga aylantiradi. Har qanday davlatda soliq yukining maqbul miqdorlarini belgilanishi asosiy makroiqtisodiy masalalar toifasiga kiritiladi[. “Soliq yuki” atamasi nisbiy ko‘rsatkich hisoblanadi, chunki u soliq summalarini ma’lum moliyaviy ko‘rsatkichlar orqali ifodalaydi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, shuningdek texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish korxonalarni mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish xarajatlarini doimiy ravishda kamaytirib borishni taqozo etadi. Iqtisodiy adabiyotlarda soliq yuki darajasi qanchalik miqdorda kam bo‘lsa, iqtisodiyot shunchalik har tomonlama barqaror rivojlanishi to‘g‘risida ko‘plab ta’riflar keltirilgan. Demak, soliqlar miqdori qanchalik kam bo‘lsa, mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi ko‘rsatkichlari shunchalik yuqori bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya’ni foyda solig‘ini to‘laguniga qadar foyda (zarar) miqdori sifatida ishlatilishi nazarda tutiladigan bo‘lsa, ushbu soha darajasidagi faoliyatini doimiy ravishda o‘rganib, tadqiq etib borish maqsadga muvofiqdir. Shu ma’noda ushbu sohada O‘zbekiston Respublikasi viloyatlarida amalga oshirilgan ishlar va uning natijalari bo‘yicha ko‘rsatkichlar jadvalini ko‘rib chiqish lozim [4].

1-jadval: Hududlar bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar (-) va sof foydasi (zarar (-) miqdori, mlrd. so‘m

	Foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar (-))			farq (+;-) 2020-yil 2020-yilga nisba tan	sof foyda (zarar (-))			farq (+;-) 2020-yil 2020-yilga nisbatan
	2020	2021	2022		2020	2021	2022	
Andijon	628,7	929,5	1 097	468,3	436,6	686,5	799,2	362.6
Buxoro	810,5	836,6	500,7	-309.3	435,7	547,1	187,8	-247.9
Jizzax	209,8	25,3	457	247,8	112,6	90,9	324,9	212.3
Qashqadaryo	271,9	437,2	666,5	394,6	142,4	280,4	485,9	343.5
Navoiy	201,1	362,0	630,5	429,4	106,2	246,6	477,8	371.6
Namangan	656,2	1027,5	739,9	83.7	464,5	809,1	528,1	63.6
Samarqand	551,9	896,7	992	440,1	285,4	572,7	632,9	347.5
Surxondaryo	252,3	201,3	143,6	108,7	115,6	26,6	18,6	-97
Sirdaryo	58,3	454,5	68,2	0.9	-24,0	360,7	-58,2	-82.8
Farg‘ona	1308,0	434,0	477,2	-830,8	911,7	979,5	1002	90.3
Xorazm	396,2	504,4	391,3	-4.9	265,9	356,3	239,3	-26.6
Toshkent sh.	9517,5	14219,3	14535,6	5018.1	7525,4	11336,7	9780,9	2255.5

Manba: Respublika statistika ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

Ushbu jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, 2022-yilda kichik korxona va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya’ni foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar (-)) miqdori 21 842,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Bu esa 2020-yilning mos davriga nisbatan moliyaviy natijani 5878.8 mlrd. so‘mga ko‘payishiga olib keldi. Shuningdek, 2022-yilda kichik korxona va mikrofirmalarning sof foydasi (zarar (-)) miqdori 13 891,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Bu esa 2020-yilning mos davriga nisbatan sof foydani 2471.6 mlrd. so‘mga ko‘payishiga olib keldi. Bundan ko‘rinib turibdiki, soliqlar miqdori ko‘p ekanligi, uni kamaytirib maksimal foydaga erishish mumkinligini ko‘rishimiz mumkin [8].

Shuningdek, 2022-yil yakunlari bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan 429 292,7 mlrd. so‘m miqdorida qo‘shilgan qiymat yoki iqtisodiyotdagi yalpi qo‘shilgan qiymatning 51,8 % i yaratilgan. Shundan 46,6 % i qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 11,0 % i sanoat, 9,5 % i qurilish tarmoqlari va 32,9 % i xizmatlar sohasiga to‘g‘ri keldi. 2022-yilda 90,2 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo‘jaliklaridan tashqari) tashkil etilib, ularning eng ko‘p soni savdo (38,1 %), sanoat (18,0 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (13,3 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (6,4 %), qurilish (5,3 %), tashish va saqlash (3,7 %), axborot va aloqa (2,9 %) sohalarida tashkil etildi [8].

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

XULOSA

Iqtisodiyotni rivojlantirish borasida hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan soliq siyosatining amaliy natijasi asosan harakatdagi soliqlarni qisqarish va soddalashtirish hamda unifikatsiya qilish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning soliq hisobotlarini taqdim etish holatlarini kamaytirishga hamda davlat byudjeti bilan hisob-kitoblari mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan.

Mamlakatimiz tomonidan olib borilayotgan soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari yuridik va jismoniy shaxslar zimmasidagi soliq yukini kamaytirishga, soliqqa tortish tizimini soddalashtirishga, soliq stavkalarini pasaytirishga, soliqqa tortiladigan obyektlarni maqbul darajada kamaytirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Soliq amaliyotida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning soliq yukini maqbullashtirish masalasi quyidagilarda namoyon bo‘lishi bilan e’tiborlidir.

Birinchidan, korxonalar zimmasidagi soliq yukini maqbullashtirish ularning o‘z vaqtida va so‘zsiz to‘lanishi, qonunchilikka aniq rioya qilinishi bilan belgilanadi. Bunda buxgalteriya va boshqa hisobotlar shakli aniq hamda to‘g‘ri yuritiladi, qonunchilikka qattik rioya qilinadi.

Ikkinchidan, soliq yukini optimallashtirishning yana bir shakli bu soliq to‘lovchi kamroq soliq to‘lash maqsadida amaldagi qonunchilik imtiyozlardan va boshqa preferentsiyalardan foydalangan holda soliq majburiyatlarini maqbullashtirishga erishishi mumkin.

Shuni ham aytish joizki, soliq tizimida suniy tomonidan yartilgan dasturlar ishga tushadigan bo‘lsa, soliq tizimi avtomatlashadi va soliq organlarining barcha tashkilotlar bilan integratsiyalashuvi ro‘y beradi, ya’ni kameral soliq tekshiruvi, soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi tizimlarida ish faoliyati optimallashadi, soliq to‘lovchi tadbirkorlar shuningdek jismoniy shaxslarga yengillik kiritilib, ular orasidagi ma’muriy to‘siqlarga barham beriladi, shaffoflik adolatlilik tamoyili o‘z ishini boshlaydi. Bu esa soliqqa tortish mexanizmlarini oshkoraligiga, soliqlarni hisoblash va to‘lashga doir korxonalar faoliyatini soddalashtirishga, shuningdek, soliq majburiyatlarining bajarilishini samarali nazorat qilishga yordam beradi. Ayni paytda bu hol Respublikamizda qo‘llaniladigan soliq tizimini xalqaro me’yorlar va andozalariga moslashtirishga katta etibor berilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022-yil 22-dekabrdagi Oliy majlisga murojaatnomasi - ma’ruza qismi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi PF-5718-sonli “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.//O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. 2019-y. 20-may. 20-son.369-modda.
3. Soliqlar va soliqqa tortish: darslik / A.V. Vahobov, A.S. Jo‘rayev; Toshkent Moliya instituti, – Toshkent: Sharq, 2009. – 448 b.
4. Babaeva N.M., Begmatov X.M. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida investitsiyadan samarali foydalanish. “Iqtisodiet va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnal №1 2019-yil.
5. Sherov, A. (2018). Legal basis and importance of state financing of education system. International Finance and Accounting, 2018(2), 92.
6. Anderson, R.C., & Reeb, D.M. (2003a). Founding-family ownership and firm performance: Evidence from the S&P 500. The Journal of finance, 58(3), 1301-1328. Anderson, R.C., & Reeb, D.M. (2003b). Founding-family ownership, corporate. The Journal of Law and Economics, 46(2), 653-684.
7. Muhammadjanovich K. I. Effective Directions Of Development Of Entrepreneurship //Conference Zone. – 2022. – S. 129-133.
8. O‘zbekiston Respublikasi statistika ma’lumotlari.
9. www.un.int/uzbekistan/news.
10. www.agro.uz sayti ma’lumotlari.

YASHIL INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Ibrohimov Muhammadjon Abdullajanovich
UNIVERSITY OF BUSSINES AND SCIENCE
“Iqtisodiyot” kafedra o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada yashil investitsiya samaradorligini oshirish masalalari ochib berilgan. Shu bilan birga, “yashil” iqtisodiyotni soha va tarmoqlarga ta’siri va muhimliligi ko‘rsatib berilgan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, “yashil” iqtisodiyot mamlakatimiz ta’lim tizimiga kirib borishi hamda rivojlanish tendensiyasini oshib borishi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, atrof-muhit, resurslar, yashil investitsiya, yashil makon, tadbirkor, tadbirkorlik.

Abstract: This scientific article reveals issues of increasing the efficiency of green investments. At the same time, the influence and significance of the “green economy” on industries and industries is shown. It should be noted that the “green economy” is penetrating the education system of our country and increasing the development trend.

Key words: green economy, environment, resources, green investments, green space, entrepreneur, entrepreneurship.

Аннотация: В данной научной статье раскрываются вопросы повышения эффективности зеленых инвестиций. При этом показано влияние и значение “зеленой экономики” на отрасли и отрасли. Следует отметить, что “зеленая экономика” проникает в систему образования нашей страны и увеличивает тенденцию развития.

Ключевые слова: зеленая экономика, окружающая среда, ресурсы, зеленые инвестиции, зеленое пространство, предприниматель, предпринимательство.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasidan — taraqqiyot strategiyasi sari” mazmunmohiyati Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to‘la hamohang ekanini ta’kidlab o‘tdi [1]. “Harakatlar strategiyasi”da mo‘ljallangan tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish maqsad va vazifalar belgilangan [2].

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida 2020-yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo‘lgan dasturiy va maqsadli vazifalarga atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e’tiborni kuchaytirish, ishlab chiqarish jarayonini ekologik nazorat qilish tizimini takomillashtirish, ekologik audit o‘tkazish tartibini qayta ko‘rib chiqib, xususiy auditorlik faoliyatini jonlantirish muhim vazifalar sifatida qayd etildi [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kundagi ekologik muammolar endi cheklangan tovar sifatida iqtisodga kiritilgan; Yangi tendensiya shakllandi va faol rivojlanmoqda — “yashil” iqtisodiyot. “yashil” iqtisodiyot — iqtisodiyot fanining yo‘nalishi bo‘lib, unda iqtisodiyot o‘zi mavjud bo‘lgan tabiiy muhitning bog‘liq tarkibiy qismidir va uning bir qismidir; tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali jamiyat farovonligini ta’minlash, shuningdek, yakuniy foydalanish mahsulotlarini ishlab chiqarish sikliga qaytarishga qaratilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhitni muhofaza qilish tashkiloti (BMTA) ekspertlari “yashil” iqtisodiyotni “odamlar farovonligini yaxshilaydigan va ijtimoiy adolatni ta’minlaydigan, shu bilan birga atrofmuhit va uning kamayishi xavfini sezilarli darajada kamaytiradigan” iqtisodiy faoliyat sifatida ko‘rishadi.

Bizga ma'lumki, yashil investitsiyalar – bu atrofmuhitni asrashga yo'naltirilgan, yangi asrovchi texnologiyalarni joriy etishni, yashil moliyaviy mahsulotlarni, muqobil energetikaning yangi bozorlarini va yashil energiya turlarini rivojlantirishni ko'zda tutuvchi loyihalar va modellarni moliyalash manbalaridir. O'zbek olimlaridan A.A. Isadjanov "yashil" iqtisodiyot — bu ertangi kun iqtisodiyoti va aynan u XXI asr iqtisodiy taraqqiyotining harakatga keltiruvchi kuchi bo'lib, yashil iqtisodiyot nazariyasi quyidagi uchta aksiomaga asoslanadi:

- cheklangan makonda ta'sir sohasini uzluksiz kengaytirib bo'lmaydi;
- resurslar cheklangan sharoitda uzluksiz oshib borayotgan ehtiyojni qondirishni talab qilish mumkin emas;
- "Yer yuzida hamma narsa bir-biri bilan bog'liq" , degan fikrni ta'kidlaydi. B.B.Alimov "yashil" iqtisodiyotni soha va tarmoqlarga ta'siri va muhimliligi ko'rsatib berilgan. Shuni alohida takidlash lozimki "yashil" iqtisodiyot mamlakatimiz ta'lim tizimiga kirib borishi hamda rivojlanish tendensiyasini oshib borishi keltirilgan.

Bundan tashqari investitsiya faoliyatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash, ularga baho berish asosida tegishli xulosalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Investitsiya samaradorligi borasidagi tadqiqotlar umumiqtisodiy muammo sifatida mamlakatimizning qator nazariyotchi va amaliyotchi olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, A.Abdug'aniyev fikricha, "Iqtisod fanlarida "samaradorlik" va "iqtisodiy samaradorlik" tushunchalari - mavjud. Ular mamlakat, tarmoq, korxona, yo'nalishlar hamda ayrim mahsulotlar bo'yicha aniqlanishi mumkin [3]. Yuqoridagilardan kelib chiqib mamlakatimiz amaliyotiga tadbiq qilib investitsiya faoliyatining moliyalashtirish manbalari va usullarini shakllantirishni rivojlantirish va takomillashtirish lozimligini talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yashil investitsiya samaradorligi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'sirining joriy holati tahlil qilinib, investitsiyalarning korxona moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan. Tahlil jarayonida ilmiy abstraksiyalash, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Muhokama va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha o'zbekiston respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarorida 2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsad qilib olingan. Ushbu maqsadga erishishga mo'ljallangan 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturining ilovasiga muvofiq [6]:

- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish;
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliga 200 million ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;
- respublika o'rmon fondi zaxiralari ko'rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish;
- hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish.

Yashil investitsiya samaradorligini oshirishda jahon banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan birgalikda Iqtisodiyotning dekarbonizatsiyalash va "yashil" rivojlanish modeliga o'tish bo'yicha uzoq muddatli strategiyani (LTS – Long-Term Strategy for Decarbonization) ishlab chiqish loyihasi yo'lga qo'yildi. Parij bitimining 4 moddasiga muvofiq, mamlakatlar 2050-yilgacha uglerod neytralligiga erishishga qaratilgan o'zlarining uzoq muddatli strategiyalarini ishlab chiqish belgilangan. Mazkur strategiya doirasida:

- iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi xabardorlikni oshirish;
- investitsiya siyosati to‘g‘risidagi hisobotni ishlab chiqish va investitsiyalar bilan bog‘liq huquqiy bazani takomillashtirish;
- O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi jihatlaridan kelib chiqib, davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini joriy etish;
- yashil strategiya infratuzilmasini qo‘llab-quvvatlaydigan mahalliy moliya institutlari, bank va IT xizmatlarini qo‘llab-quvvatlash;
- ekologik toza investitsiyalarni rivojlantirishda xususiy sektorning ishtiroki uchun sharoit yaratish.

Respublikamizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etilishini yanada qo‘llab quvvatlash maqsadida mamlakatda “yashil” energiya sertifikatlari tizimini joriy bo‘yicha ishlari olib borilmoqda. Mahsulotlar qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan va ekologik jihatdan toza texnologiyalar yordamida ishlab chiqarilganligini tasdiqlovchi hamda bu bilan bog‘liq barcha jarayonlarni kuzatib borish imkonini beruvchi “yashil sertifikatlar” tizimi joriy etilmoqda. Mazkur tizimga ko‘ra, qayta tiklanuvchi energiyani ishlab chiqaruvchilar “yashil sertifikat”ni yakuniy foydalanuvchiga (mahsulot ishlab chiqaruvchilar, iste’molchilar) sotadi va bu bilan energiyaning “tozaligi”ga kafolat beradi. Bu esa yakuniy foydalanuvchilarga o‘z mahsulotlarini sotish va eksport qilish hajmini oshirish, xalqaro va xorijiy moliya tashkilotlaridan “yashil” investitsiyalar va “yashil” kreditlarni jalb qilish imkonini beradi.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, yashil iqtisodiyot mamlakatlar o‘rtasidagi ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va dunyoda qashshoqlikni yo‘q qilishga katta hissa qo‘shadi. Xuddi shu tarzda, bozorni erkinlashtirish g‘oyalarini bekor qilish, Shimol va Janub o‘rtasida teng sharoitlarda savdo munosabatlarini rivojlantirish yo‘llarini hal qilish kerak.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, yashil iqtisodiyotni amalga oshirish tabiiy resurslardan mas’uliyatli foydalanishni ta’minlaydigan ekologik barqaror strategiyalarni qabul qilishga imkon beradigan texnologik o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Ammo yashil iqtisodiyot tomonidan taklif qilingan maqsadlarga erishish uchun taklif etilayotgan muqobil omillar zarur iqtisodiy resurslarni taqsimlash, atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalarini yanada qat’iylashtirish, subsidiyalar yaratish, atrof-muhit bilan do‘stona faoliyat yuritish orqali rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan qabul qilinishi va hududni rejalashtirish jarayonlarini optimallashtirish ishlab chiqilishi kerak. Xuddi shunday, mamlakatlarga barqaror rivojlanishning asosiy shartlarini e’tibordan chetda qoldirmasdan, bir xil darajada kelishib olish imkonini beradigan yangi iqtisodiy asos yaratish zarur.

Yashil iqtisodiyot barqarorlik parametrlari doirasida iqtisodiy rivojlanishga erishish, ya’ni sog‘lom atrof-muhitni saqlash va resurslardan to‘g‘ri foydalanish uchun qashshoqlikni yo‘q qilish hamda zaif ijtimoiy tarmoqlarni o‘z maqsadlari yo‘lida birlashtirishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha choratadbirlar to‘g‘risida”пш PQ-436-sonli qarori. www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-apreldagi “Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ilmiy yondashuvlarni kengaytirish va boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-108-sonli qarori. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ4477-sonli qarori. www.lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-apreldagi “Hududlarda tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-212-son qarori.
5. Muhammadjanovich K. I. Effective Directions Of Development Of Entrepreneurship //Conference Zone. – 2022. – S. 129-133.
6. Sharipov K.B. Kichik tadbirkorlik faoliyatida tarmoqbo‘yicha ixtisoslashuv jarayonlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya avtoreferati. -T.: “Akademiya noshirlik markazi” nashriyoti, 2020. 61-b
7. Kazakov, O. S., & Kamoliddinovl. (2021). Questions Of The Effective Utilization Of Industrial Resources In Enterprise Activity In The Conditions Of Economy Globalization. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(04), 114-119. https://doi.org/10.37547/tajiir/Volume03Issue04-18
8. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy holati. Statistik to‘plam. – Toshkent, Davlat Statistika qo‘mitasi, 2020-yil -143 b.
9. www.agro.uzsayti ma’lumotlari.



YENGIL SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH VA EKSPORT IMKONIYATLARINI OSHIRISH YO‘LLARI

K. M. Umarkulov
I.f.n., University of Business and Science
Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada yengil sanoatning o‘ziga xos xususiyatlari, mahsulot ishlab chiqarish va eksport munosabatlari, korxonalarining eksport imkoniyatlari, mahsulot raqobatbardoshligiga va korxonaning ijobiy imidjiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar to‘g‘risida batafsil nazariy va amaliy jihatdan tahliliy materiallar bayon etilgan. O‘z o‘rnida, korxonalarini rivojlantirish va raqobat ustunliklaridan samarali foydalanish yo‘llari borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: eksport, import, tashqi savdo, yengil sanoat, to‘qimachilik, raqobat, ishlab chiqarish, mahsulot raqobatbardoshligi.

Abstract: The article describes the specific characteristics of light industry, product production and export relations, export opportunities of enterprises, factors affecting product competitiveness and the positive image of the enterprise, detailed theoretical and practical analytical materials. Instead, suggestions and recommendations were developed regarding ways to develop enterprises and effectively use competitive advantages.

Key words: export, import, foreign trade, light industry, textile, competition, production, product competitiveness.

Аннотация: В статье описаны особенности легкой промышленности, производство продукции и экспортные связи, экспортные возможности предприятий, факторы, влияющие на конкурентоспособность продукции и положительный имидж предприятия, подробные теоретические и практические аналитические материалы. Вместо этого были разработаны предложения и рекомендации относительно путей развития предприятий и эффективного использования конкурентных преимуществ.

Ключевые слова: экспорт, импорт, внешняя торговля, легкая промышленность, текстильная промышленность, конкуренция, производство, конкурентоспособность продукции.

KIRISH

O‘zbekistonda yengil sanoatning to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo‘ynachilik tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlaming turlari va assortimentini kengaytirish, shuningdek, tarmoq korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jahon bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, texnologiyalarning rivojlanishi va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining kamaytirilishi ushbu soha korxonalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilishini talab etmoqda.

Ayniqsa, yengil sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali birinchi navbatda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo‘lgan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo‘ynachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va kengaytirish, shuningdek, salohiyatli xorijiy investorlar jalb qilinishi rejalashtirilmoqda.

TADQIQOT MAVZUSI BO‘YICHA ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning nazariy asoslari, iqtisodiy mohiyati va ilmiy jihatlari Ansoff I., Druker P.F., Kaplan R., Kouplend T., Koller T., Murrin Dj., Norton D. kabi uzoq xorij iqtisodchi olimlari tomonidan o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirish masalalari Arxipov V.M.,Barngols S.B., Bogataya I.N., Buxalkov M.I., Joglina E.V., Ilina L.YU., Kleyner G.B., Kovalev V.V.,

Marushkov R.V., Rayzberg B.A., Savitskaya G.V., Sosnenko L.S., Temnova N.K., SHeremet A.D. tomonidan tadqiq etilgan.

Sanoat ishlab chiqarish, shuningdek, yengil sanoat korxonalarini rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish muammolari mahalliy iqtisodchi olimlar – Iskandarov I.I., Tursunxodjayev M.L., Bekmurodov A.SH., Boltaboyev M.R., Salimov B.T., Maxmudov N.M., Qodirov A.M., Pardayev M.Q., Nurimbetov R.I., Burxanov A.U., Tillyaxodjayev A.A., Umarova G.G‘. tomonidan qisman tadqiq etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida tizimli tahlil, sintez, statistik guruhlash va taqqoslama tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash, ekspert baholash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lumki, yengil sanoat - bu yuqori ilmtalab qiluvchi sanoat bo‘lib, u uchta asosiy guruhga bo‘linadigan 20 dan ziyod kichik tarmoqlar mavjud:

- to‘qimachilik sanoati, shu jumladan zig‘ir, paxta, jun, ipak, trikotaj mahsulotlari.

Bunga zig‘ir, jun va boshqa xom ashyoni dastlabki qayta ishlash, to‘quv bo‘lmagan materiallarni ishlab chiqarish, naqshli va trikotaj mato ishlab chiqarish, to‘qimachilik anjomlari va shu kabilar kiradi;

- kiyim sanoati;
- teri, mo‘yna va poyabzal sanoati.

Yengil sanoat mahsulotlari nafaqat istemol tovarlari sifatida ishlatiladi, balki oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik va boshqa sohalarda ham xom ashyo va yordamchi materiallar sifatida ishlatiladi. Eng katta ulush yengil sanoatning to‘qimachilik va tikuv-trikotaj tarmoqlariga to‘g‘ri keladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yengil sanoatning to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo‘ynachilik tarmoqlarini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlarning turlari va assortimentini kengaytirish, shuningdek, tarmoq korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ko‘rilgan chora-tadbirlar respublikada paxta tolasi eksportidan voz kechilib, uning o‘rniga paxtadan tayyorlangan yuqori qo‘shilgan qiymati tovarlar eksporti yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, 2022-yilda umumiy qiymati 1 613,5 mln. AQSh dollariga teng bo‘lgan paxtadan yigirilgan ip, 644,9 mln. dollarlik tayyor trikotaj va to‘qimachilik mahsulotlari, 242,8 mln. dollarlik naqshli mato, 131,6 mln. dollarlik gazlamalar, 78,1 mln. dollarlik ipak va ipak mahsulotlari, 42,1 mln. dollarlik gilam mahsulotlari eksport qilindi [6]. Vaholanki, 1991-yilgacha Respublikada paxta tolasini qayta ishlash 10 %, mahsulotni eksport qilish 7,7 mln.dollardan oshmagan.

Jahon bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, texnologiyalarning rivojlanishi va xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining kamaytirilishi ushbu sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqilishini talab etmoqda.

Yengil sanoatning jadal va barqaror rivojlanishini ta’minlash, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali birinchi navbatda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo‘lgan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo‘ynachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni va eksportni diversifikatsiya qilish, shuningdek, salohiyatli xorijiy investorlarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtga kelib, butun dunyoda yengil sanoat eksportni amalga oshirish bo‘yicha iqtisodiyotning yuqori reytingga ega bo‘lgan tarmoqlaridan biri bo‘lib turibdi. Bu soha eksport tovarlar nomenklaturasida yigirilgan ip-kalavadan tortib tayyor mahsulotgacha bo‘lgan keng tarmoqni o‘z ichiga olgan. Shu nuqtai nazardan sohaning eksport potensiali salmoqli o‘ringa ega bo‘lib, uning rivojlanish yo‘nalishi mavjud strategik investor, jahon bozori kon’yunkturasi, biznes rejaning samaradorligi, kadrlarning eksport ishlab chiqarish talablariga muvofiq kelishiga bog‘liqdir.

Yevropada paxta tolasini qayta ishlashda xarajatlarning doimiy oshib borishi va yerlarning qimmatligi, u yerda bunday sanoat korxonalarining kamayishi jarayoniga sabab bo‘lmoqda. Ushbu omillar sabab G‘arbiy Yevropalik investorlarni O‘zbekistonga jalb qilish imkoniyatlari bir muncha kengdir.

To‘qimachilik va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarida ana shu paxta xom ashyosini yanada chuqur qayta ishlashni ta’minlash, bo‘yalgan ip-kalava, trikotaj polotnosi va matolar kabi tayyor mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilish, keyinchalik, zamonaviy texnologiya va dizaynni faol o‘zlashtirish asosida, tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ulkan samaraga erishish mumkin.

Mamlakatimizda ishga solinmagan yana ko‘plab zahira va imkoniyatlar mavjudligiga birgina shu misol asosida ishonch hosil qilish mumkin. Bu o‘rinda gap, avvalo, dastlabki xom ashyoni va yarim tayyor mahsulotlarni

yanada chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, buning yengil sanoat tarmoqlarida yangi kompleks va korxonalar tashkil etish, shuningdek, jahon va mintaqa bozorlarida, ichki bozorimizda xaridorgir bo‘lgan tayyor to‘qimachilik, charm-poyabzal ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish haqida bormoqda.

Albatta, bu kabi ulkan maqsadlarga erishishda to‘qimachilik korxonalari faol marketing siyosatini yuritishi, samarali marketing tadqiqotlarini o‘tkazish asosida xorijiy bozorlarda raqobatdosh bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni taqozo etadi.

Korxonaning salohiyati to‘g‘risida ma’lumot to‘plashning eng maqbul usuli bu yo‘nalishlarning barchasini tizimli ravishda ko‘rib chiqishdir. Bunda miqdoriy ko‘rsatkichlarning manbai sifatida ish hujjatlari va statistika ma’lumotlaridan foydalaniladi.

Mamlakatimizdagi yengil sanoat va to‘qimachilik korxonalarining eksport imkoniyatlarini tahlil qilish bugungi kundagi asosiy vazifalardandir. SHuning uchun quyidagilarga alohida e’tibor qaratish muhim:

1. Ishlab chiqarishda raqobat ustunliklaridan foydalanish. Respublikadagi yengil sanoat va to‘qimachilik korxonalarining raqobatbardoshliligini belgilovchi eng muhim omillar ularning mahalliy resurslarga egaligidadir: paxta, ishchi kuchi, energiya resurslari, bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini katta miqdorda tejashga imkon beradi va buning hisobiga xorijiy bozorlarda narx strategiyalarini amalga oshirishda birmuncha afzalliklar yaratadi.

2. Mahsulot raqobatbardoshligini sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlari bo‘yicha ustuvorlik mavjud:

- xom ashyo, ishchi kuchi va energiya resurslariga xarajat nuqtai nazaridan raqobatbardosh;
- O‘zbekiston to‘qimachilarining qo‘shni davlatlar bozorlarida ijobiy mavqega egaligi (an’anaviy ishbilarmonlik aloqalari va kup yillik yaqindan xamkorlik);
- raqobatbardoshlikning yuqoriligi rivojlangan transport infrastrukturasi bilan ta’minlanadi. O‘zbekiston dengizga chiqish yo‘li bir muncha qiyinroq bo‘lsa-da, temir va avtomobil yo‘llari tarmog‘ining rivojlanish darajasi (87 foizi asfaltlangan) to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan rivojlanayotgan ko‘pgina mamlakatlarga nisbatan ancha rivojlanishga egadir.

Miqdoriy maqsadlar quyidagilardan iborat bo‘lishi zarur:

- sotuv va sotuv bozorining ma’lum bir soxasida aylanmani yirik chakana savdo orqali bozordagi ulushni ko‘paytirish;
- Yevropa hamjamiyatining yirik bozorlari uchun sotuv bo‘yicha hamkorlarni va mahsulot bo‘yicha menejerlarni yollash;
- vositachilik va reklama xarajatlarini kamaytirish;
- qo‘shimcha transport va moddiy zahiralarini yo‘lga qo‘yish.

Sifat maqsadlari:

- potensial buyurtmachilar orasida qozonilgan ijobiy obro‘ni va nufuzini yaxshilash;
- asosiy buyurtmachilar uchun to‘liq servis konsepsiyalarini joriy qilish;
- mehnat jamoasining sotuv bo‘yicha motivatsiyalarini yaxshilash;
- ishlab chiqarish bo‘limida ta’minotni tashkil qilishning marketing boshqaruvini yaxshilash;
- sifatli tovarni yaratish.

Xorijiy bozorlarda o‘zbek to‘qimachilarining raqobatbardoshligini oshirish uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifat va miqdoriy xarakteristikalarini ta’minlash va eksport mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun ijobiy imidj yaratish lozim.

Mahsulotning raqobatbardoshligiga va korxonaning ijobiy imidjiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar:

- mahsulot sifati;
- taklif kilingan narxlar;
- sotuvni tashkil qilish;
- ishonchlilik;
- shikoyatlar bilan ishlash;
- buyurtmachilarga malakali xizmat ko‘rsatish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qayd etish zarurki, yengil sanoat mahsuloti raqobatbardoshligini oshirishda sifat menejmenti mexanizmini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratish kerak. Korxonaning muvaffaqiyatli ishlashi, avvalo uning iste'molchilariga bog'liqdir. Shu boisdan, har qanday tadbirkorlik faoliyati bozorni tahlil qilish va mijozlarning ehtiyojini o'rganishdan boshlanishi kerak. Shu bilan birga, ideal variant - iste'molchilarning istaklarini oldindan ko'ra bilishdir.

Iste'molchilarning talablari va tashkilot faoliyatidan manfaatdor bo'lgan boshqa tomonlar (aksiyadorlar, ta'minotchilar, davlat organlari, butun jamiyat) ning ehtiyojlariga ham baravar yondoshuvni ta'minlash zarur.

Yengil sanoat mahsuloti raqobatbardoshligini oshirishda rahbariyat ko'magisiz salmoqli natijalarga erishish mushkul. Tashkilot rahbarlari ishlab chiqarish faoliyatining asosiy yo'nalishlarini, maqsadlarini, shuningdek, ularni amalga oshirish usullarini belgilashadi. Ular shunday shart-sharoit yaratishlari lozimki, xodimlar nafaqat rahbariyat buyruqlarining ijrochisiga, balki ishlab chiqarish masalalarini hal etishda manfaatdor qatnashchilarga aylanishlari lozimdir.

Xodimlarni jalb qilish, amalda har bir xodimning boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda muntazam ishtirok etishini bildiradi. Bunday imkoniyat kishilarda ijodiy mehnatga undaydigan mas'uliyat va ishtirokchilik hissini uyg'otadi, bu esa pirovard-natijada tashkilot samaradorligini oshiradi. Korxona rahbariyati xodimlar maqsadi tashkilot maqsadiga imkon qadar hamohang bo'lishiga harakat qilishi lozim. Bunda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish katta ahamiyatga egadir

Bundan tashqari, yengil sanoat korxonalarini yanada rivojlantirish uchun, avvalo, quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

- mamlakatimizda mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini oshirish;
- bugungi kunda to'xtab turgan ishlab chiqarish quvvatlarini tiklash;
- yangi moddiy-texnika bazasini barpo etish;
- yangi tashkil etilayotgan korxonalar faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- kichik korxonalar sonini yanada ko'paytirish va ularni tashkil etish chora-tadbirlarini rag'batlantirish.
- import o'rnini bosuvchi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mahalliylashtirish dasturini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi. 12.2018-yil, №271-272 (7229-7230).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021-yilda O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 14-yanvardagi PQ-4949-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 16-sentabrdagi PQ-4453-son qarori.
4. Shog'iyosov T. Komrleks iqtisodiy tahlil. Darslik. —T.: Fan va texnolo-giya, 2012. — 280b.
5. Yusupov S.Sh. Kuchli raqobat sharoitida to'qimachilik korxonalarini rivojlantirish strategiyasining asosiy yo'nalishlari: Monografiya. — T.: Fan va texnologiya, 2014. —274 b.
6. Tillyaxodjaev A.A. Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida to'qimachilik sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirish va sohada marketing faoliyatini samarali tashkil etish yo'llari/elektron ilmiy jurnal "BIZNES-ekspert" – T.: 27.02.2017. №1(109)-2017.;
7. Umarova G.G'. To'qimachilik va engil sanoat tarmoqlarida eksport salohiyati oshishining milliy iqtisodiyotdagi roli / elektron ilmiy jurnal "BIZNES-EKSPERT" – T.: 30.12.2016. №12(108)-2016.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

“YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA UNING HISSASINI OSHIRISH MASALALARI

G. T. Mamajanova
UNIVERSITY OF BUSSINES AND SCIENCE
“Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyati va uning hissasini oshirish masalalari, yangi ish o‘rinlarini yaratish hisobiga bandlikni ta’minlash, insonlarning turmush farovonligini yuksalishiga xizmat qiluvchi omillar bilan bog‘liq masalalar ko‘rilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, muhit, biznes, investitsion, tadbirkorlik faoliyati, xorijiy investitsiya, investitsion tizim.

Abstract: The article discusses the issues of entrepreneurial activity in the development of the economy and increasing its contribution to the economy, which occupy an important place in the development of the economy, ensuring employment of the population through the creation of new jobs, as well as issues related to factors that serve to improve the well-being of people.

Key words: environment, business, entrepreneurship, investment, entrepreneurial activity, foreign investment, investment system.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы роста предпринимательства и его вклада в развитие зеленой экономики, обеспечения занятости за счет создания новых рабочих мест, а также факторов, служащих повышению благосостояния людей.

Ключевые слова: предпринимательство, окружающая среда, бизнес, инвестиции, предпринимательская деятельность, иностранные инвестиции, инвестиционная система.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishiga kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati katta hissa qo‘shib kelmoqdalar. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati mamlakatimizda rivojlanib borayotganligi iqtisodiyot rivojiga katta hissa qo‘shayotganligi alohida ta’kidlandi va uni yanada qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar ko‘rsatib berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida mamlakatimiz iqtisodiyotining 2022-yil va undan keyingi yillardagi rivojlanish strategiyasi belgilab berilgan. Taraqqiyot strategiyasining “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash” deb nomlangan bobida belgilangan vazifalar ichida tadbirkorlik faoliyatini jadal sur’atlarda rivojlantirish va uning milliy iqtisodiyotdagi hissasini oshirish vazifasi qo‘yilgan. Jumladan, “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish.” vazifasi belgilangan. Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyotga qo‘shadigan hissasini oshirish uchun birinchi navbatda bu korxonalarda mavjud ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish lozim [1].

Bir narsani ochiq tan olish kerak, pandemiya davrida iqtisodiyotning barqaror ishlashi uchun tadbirkorlar davlat bilan teppa-teng hissa qo‘shdilar. Shuning uchun barchamiz tadbirkorlarga yelkadosh bo‘lib, ularni doimo qo‘llab-quvvatlashimiz shart” [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

L.I.Abalkin rahbarligidagi mualliflar resurslarga shunday ta’rif berdilar: “Ishlab chiqarish resurslari – iqtisodiy nazariyaning asosiy tushunchasi bo‘lib, ishlab chiqarishni ta’minlash vositalari, manbalaridan iborat bo‘ladi” [L.I.Abalkin, O.I. Volkov i dr. Ekonomika predpriyatiya (firmы): Praktikum / Red. O.I. Volkov, V.Ya. Pozdnyakov. - M.: INFRA-M, 2016., c.91].

Tadbirkorlik faoliyati samarasini oshirish ishlab chiqarish resurslari deganda korxona va tashkilotlar faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha ishlab chiqarish vositalari, zaxiralar, korxonaning amal qilishi va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan tovar-moddiy qiymatliklar, umuman olganda barcha ishlab chiqarish omillari tushuniladi.

V.Ya.Gorfinkel yuqoridagi olimlar fikriga qo‘shilgan holda ishlab chiqarish resurslarini ishlab chiqarish jarayonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qatnashadigan ishlab chiqarish omillarining majmuasi sifatida ta’riflaydi. Bu berilgan tariflarda iqtisodiy resurslarni korxonalar faoliyatida qatnashadigan asosiy fondlar, aylanma mablag‘lar va mehnat resurslari majmuasi sifatida tushuntiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadbirkorlik ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy salohiyatidan to‘laroq foydalanishga erishish uchun bu korxonalarning bir maromdagi ishlashini ta’minlash, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish talab etiladi. Bu holatda uzluksiz rivojlanish strategiyasi samarali hisoblanadi. Iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishni boshqarishning ushbu strategiyasida iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishning texnik-iqtisodiy reglamentini yaratiladi.Iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishning texnik-iqtisodiy reglamentini yaratish tadbirkorlik korxonalaridagi ishlab chiqarish resurslari harakatiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Tadbirkorlik korxonalarida ishlab chiqarish resurslari to tayyor mahsulot bo‘lgunga qadar harakatda bo‘ladilar, bir qancha ishlab chiqarish bosqichlaridan o‘tadilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon mamlakatlarida iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida tadbirkorlik faoliyati jadal sur’atlarda rivojlanib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarning yalpi milliy mahsulotida tadbirkorlarning ulushi 70-80 foizga yaqinlashib qoldi va ayrim mamlakatlarda undan ham ortib ketmoqda. Rivojlanishning yuqori sur’atlariga o‘tgan mamlakatimizda ham tadbirkorlik faoliyati tobora yuqoriroq ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Rivojlanishning hozirgi vaqtdagi darajasi mavjud ishlab chiqarish resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni, ularning har bir birligidan ko‘proq mahsulotlarga ega bo‘lishni hamda eng muhimi tadbirkorlik faoliyatini yanada jadal sur’atlarda rivojlanishini va ko‘proq natijadorlikga ega bo‘lishini talab qilmoqda. Tadbirkorlar o‘zlarining faoliyatlari natijasida foyda olishni ko‘zlash bilan birga o‘zi faoliyat ko‘rsatayotgan hudud aholisi uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqaradi yoki zarur hisoblangan xizmat turlarini ko‘rsatadi. Buning natijasida tadbirkorlik faoliyati mamlakatdagi aholining turmush sharoitini yaxshilashga ta’sir ko‘rsatadi.

1-jadval: Tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi 2020—2022-yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari hajmi1

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022
Sanoat (mlrd.so‘m)	103020,8	121719,2	142611,7
Qurilish (mlrd.so‘m)	63866,6	77762,0	93620,8
Bandlik (ming kishi)	9865,7	10070,7	10222,9
Eksport (mln.AQSH.dol)	3100,9	3711,2	5696,2
Import (mln.AQSH.dol)	10943,3	12389,0	15154,1
Savdo (mlrd.so‘m)	164106,1	204787,4	253573,4
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (mlrd.so‘m)	253238,2	307280,2	347222,0
Xizmatlar (mlrd.so‘m)	114052,7	144812,7	173157,7

Yuqoridagi 1-jadvalda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi 2020—2022-yillardagi xajmini ham ko‘rishimiz mumkinki tadbirkorlik faoliyati va uning iqtisodiyotga qo‘shadigan hissasini oshib borayotganligiga yaqqol misoldir. Shu bois tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha imtiyozlar berilmoqda. Natijada tadbirkorlarimiz soni ham kundan kunga ortib bormoqda.

Bizga ma’lumki tadbirkorlik faoliyati mamlakatimiz hududida uzoq davrlik tarixga ega. Qadim zamonlardan beri ota-bobolarimiz bu faoliyat bilan shug‘ullanib kelganlar. Tadbirkorlik faoliyati bu davr oralig‘ida rivojlandi, muhim bo‘lgan hususiyatlarga ega bo‘lib bormoqda. Endilikda tadbirkorlikni iqtisodiy taraqqiyotga katta turtki berayotgan omil sifatida ko‘rilmoqda, shu bilan birgalikda mamlakat aholisini ish bilan ta’minlash, bozorni zarur iste’mol buyumlari bilan to‘ldirish, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish singari ishlarda muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda [4].

1 https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2

Shuningdek, hududlardagi tadbirkorlikni faoliyatlarini samaradorligini oshirish bo‘yicha tadbiq etilayotgan tadbirlar so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanayotgan davlatlardagi kapital taqchilligi sharoitida katta mablag‘lar talab etmaydigan, o‘zgaruvchan muhitga, ya’ni bozor talablariga tez moslashadigan xo‘jalik faoliyati turi hisoblanib, resurslar chegaranganlik sharoitida bozor talabiga muvofiq takliflar bera oladi va samarali resurslar aylanmasini ta’minlash orqali iqtisodiyotni tarkiban qayta qurish hamda iqtisodiy beqarorlik muammosini minimal vaqt va harajatlar orqali hal etadi.

Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati o‘zlari yaratayotgan yangi ish o‘rinlari orqali “o‘sib boruvchi” bandlik muammosiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, pirovardida mazkur hudud ijtimoiy-iqtisodiy hayotining rivojlanishi va taraqqiy etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda o‘ttiz ikki yildan oshiq mustaqillik yillari davrida erishilgan ulkan natijalar hukumat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yuzasidan olib borilayotgan chuqur islohotlar va tinimsiz sa’y– harakatlari sababli: iqtisodiyotida xususiy mulkning o‘rni va rolini tubdan oshirilmoqda, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdagi to‘siqlarni bartaraf etish hamda qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari ko‘rilmoqda, bozor iqtisodiyoti talablaridan biri bo‘lgan iqtisodiyotda davlat ishtirokini bosqichmabosqich kamaytirish ishlari amalga oshirilmoqda, hududlar YAIMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi oshmoqda, shu bilan birgalikda muhim o‘zgarishlardan biri mahalliylashtirish dasturlarini doirasida import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar hajmini oshirish yuzasidan izchil islohotlar olib borilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatining hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati haqida Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev: “yagona yo‘limiz – tadbirkorlar sonini ko‘paytirish, odamlarni ishbilarmon qilish”, deya ta’kidlaganlar [1].

Iqtisodiyot talabiga ko‘ra, muntazam ravishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirib borish zarurligi sababli, hududlarda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy etishni ta’minlashda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish borasida amalga oshirilshi lozim bo‘lgan muammolar mavjud. Jumladan, hudud ijtimoiy-iqtisodiy hayotining zalvorli sohalariga tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni amaliyotda sinovdan o‘tgan jahon tajribalarining o‘ziga xos jihatlarini ilmiy o‘rgangan holda, hududdagi mavjud infrastrukturasiga moslashtirib qayta takomillashtirib tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini oshirishning ahamiyatli omillarini inobatga olgan holda takomillashgan strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish orqali muntazam rivojlantirilib borilishi maqsadga muvofiq.

Shu sababli aytishimiz mumkinki, tadbirkor qonun bilan man’ qilinmagan barcha turdagi xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishi mumkin. Jumladan: tijorat, vositachilik, savdo, sotib olib-sotish, mahsulotni yetkazib berish, qishloq xo‘jalik faoliyatini olib borish, kompyuter xizmati ko‘rsatish, aloqa xizmati ko‘rsatish va shu kabi boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanishlari mumkin” [5].

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida tadbirkorlik — bu ichki va tashqi xavf xatarlar bo‘lishiga qaramasdan bozor ehtiyojlarini mahsulotlar va xizmatlar bilan to‘ldirish hamda qondirishga olib boruvchi alohida faoliyat turi bo‘lib, bu faoliyat natijasida tadbirkor o‘z mulkini ko‘paytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi iqtisodiy muvaffaqiyatga erishishda yuqori darajada ta’sir kuchiga ega bo‘lib, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning yuqori sur’atlarini ta’minlashi lozim. Mamlakat iqtisodiyotining innovasion rivojlanishining asosi ham tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyati natijasida bu faoliyat olib borilayotgan sohada yangiliklar yaratilishi va ularni ishlab chiqarish jarayoniga joriy etilishi tezlashadi.

Respublikamizdagi tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi orqali yangi, istiqbolli ishlab chiqarishlar rivojlanib boradi. Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi va uning iqtisodiyotga qo‘shadigan hissasini oshirish uchun bu faoliyatda foydalaniladigan ishlab chiqarish resurslardan foydalanish darajasini oshirish talab etiladi. Iqtisodiyot oldida turgan vazifalarni amalga oshirilishi va muvaffaqiyatga erishilishi uchun avvalambor tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish talab etiladi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarni rivojlantirish hamda ularning iqtisodiyotga qo‘shadigan hissasini oshirish uchun ularning oldida turgan muammolarni bartaraf etish lozim bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida tadbirkorlik korxonalarini rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlardagi iqtisodiy salohiyat masalasini atroflicha tahlil qilish.
- tadbirkorlik korxonalarining maqsad va vazifalarini belgilashda iqtisodiyotning globallashuvi sharoitini hisobga olish va unga muvofiqlashgan maqsadlarni belgilash.

- tadbirkorlik korxonalarida foydalaniladigan dastgoxlar va asbob-uskunalarni zamonaviylashuvi darajasiga e'tibor qaratish. Zamonaviy va yuqori unum bilan ishlaydigan dastgoxlarni qidirib topish va ularni jalb qilish uchun moliyaviy imkoniyatlarni qidirib topish.
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarda barcha iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish.
- kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarda faoliyat yurituvchi xodimlarning mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha choralar ko'rish, yuqori unumdorlikka erishish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish.
- kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarda mehnatni ilmiy tashkil etishni yanada rivojlantirish.

Bizga ma'lumki, kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarida ishlab chiqarishda zarur bo'lgan iqtisodiy resurslarni topish masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni mavjud resurslardan samarali foydalanishdir. Mavjud iqtisodiy resurslardan samarali tarzda foydalanish bugungi kunda kun tartibidagi eng asosiy masaladir. Ushbu masalaning yechimi iqtisodning asosiy muammosining hal etilishi tomon asosiy omil hisoblanadi. Mavjud iqtisodiy resurslardan samarali tarzda foydalanish, iqtisod va tejamkorlik uchun kurash-vaqtinchalik amalga oshiriladigan ishlar emas, balki uzoq muddatli dasturdir. Bu masala har bir tashkilotning strategik rejasida o'z aksini topishi lozim.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish uchun ulardagi resurslardan va ularning har bir birligidan foydalanishni takomillashtirish lozim. Buning uchun ulardagi resurslardan samarali tarzda foydalanish omillari har tomonlama o'rganilishi, tahlil etilishi, bir-biri bilan aloqalari o'rnatilishi shart. Resurslardan vamavjud salohiyatdan samarali foydalanish omillari va ularning ta'sirini o'rganishga kirishishdan oldin iqtisodiy salohiyat va iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish tushunchalariga aniqlik kiritish lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, iqtisodiyotni rivojlanishida tadbirkorlik faoliyati va uning iqtisodiyotga qo'shadigan hissasini oshirish samarali natija bermoqda. Shu sababli ularni ko'pincha nafaqat ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish balki yaratilayotgan imtiyozlar yangidan yangi tadbirkorlar sonini oshirish lozimdir. Bu esa mamlakatimiz istiqbolini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. T.: "O'zbekiston", 2022-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2020-yil 29-dekabrdagi) "Namangan haqiqati" gazetasi 2020-yil 30- dekabr. № 88 (19626).
3. G'ofurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Diss... 08.00.13 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti; 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi (iqtisodiyot fanlari) –T.: 2017.
4. Boltabayev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjayeva Sh.J., G'oyibnazarov B.K., Samadov A.N., Otajonov Sh.I. Kichik biznes va tadbirkorlik: O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2012. – 274.
5. Tadbirkorlikning ensiklopedik lug'ati. (tuzuvchi. S.M.Sinelnikov va boshqalar. SPB. "Alta-fond", "Ayaks",2004-yil.
6. OlimSabirovichKazakov,&IlhomMahamadjanovichKamoliddinov. (2021). Some Questions Of Increase Of Efficiency In Activity Enterprise Subjects // Journal of Central Asian Social Studies, 2(01), 160-169. https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue01-a24.
7. Kazakov, O. S., & KamoliddinovI. (2021). Questions Of The Effective Utilization Of Industrial Resources In Enterprise Activity In The Conditions Of Economy Globalization. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(04), 114-119. https://doi.org/10.37547/tajiir/Volume03Issue04-18
8. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.
9. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2.



KICHIK BIZNES FAOLIYATINI QO‘LLAB-QUVVATLASHDA MAHALLIY BOSHQARUV BILAN MUSHTARAK JIHATLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ubaydullayev Akmal Tulkinboyevich
I.f.f.d (PhD), “University of Business and Science”

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes faoliyatini o‘ziga xos xususiyatlarining mahalliy boshqaruv bilan mushtarak jihatlari, kichik biznesni mahalliy darajada boshqarish iqtisodiy mexanizmining tarkibi, kichik biznesni mahalliy darajada boshqarish iqtisodiy mexanizmi samaradorligini baholashning uslubiy masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, iqtisodiy mehanizm, samaradorlik.

Abstract: This article discusses aspects of the specifics of small business activities common with local government, the structure of the economic mechanism of small business management at the local level, methodological issues of evaluating the effectiveness of the economic mechanism of small business management at the local level.

Key words: small business, economic mechanism, efficiency.

Аннотация: В данной статье рассмотрены общие с местным самоуправлением аспекты специфики деятельности малого бизнеса, структура экономического механизма управления малым бизнесом на местном уровне, методические вопросы оценки эффективности экономического механизма управления малым бизнесом на местном уровне.

Ключевые слова: малый бизнес, экономический механизм, эффективность.

KIRISH

Bugungi kunda jahonda global miqyosdagi raqobatlashuvning keskinlashib borishi sharoitida mamlakatlarning ichki iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishning muhim yo‘nalishi sifatidagi kichik biznes subyektlari imkoniyatlaridan foydalanishga e’tibor kuchayib bormoqda. Kichik biznes sohasining boshqaruv obyekti jihatidan o‘ziga xos xususiyat va tavsiflarining kuchli darajada namoyon bo‘lishi, ayniqsa, kichik biznesni mahalliy darajada boshqarishda mazkur holatni to‘liq e’tiborga olgan holda faoliyat samaradorligini ta’minlashning ahamiyatini kuchaytirmoqda. “Mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv organlari o‘z hududlarida biznesni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishiga asoslanuvchi mahalliy-xususiy sheriklik usullari tobora kengayib bormoqda. Kichik tadbirkorlikning rivojlanishi – bu qo‘shimcha ish o‘rinlari, mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni mahalliy ehtiyojlar uchun amalga oshirish, mahalliy byudjetga soliq to‘lovlarini namoyon etadi. Yirik korxonalarda ishlab chiqarishning pasayishi va ish o‘rinlarining qisqarishi sharoitida kichik biznes ko‘plab mahalliy tuzilmalarda hayotni ta’minlashning asosiy omiliga aylanmoqda” [1]. Bu esa muntazam ravishda kichik biznesni mahalliy darajada boshqarishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda mexanizm tushunchasi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, D.M. Juravlev “Tizimning ko‘plab elementlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonlarining ifodasi sifatidagi “mexanizm” tushunchasi o‘z vaqtida texnika fanlaridan olingan bo‘lib, mexanizm tushunchasi ostida mashina, apparat yoki asbobni harakatga keltiruvchi, ta’sirni uzatuvchi va energiyani o‘zgartiruvchi ichki tuzilmasi nazarda tutiladi. Umumiy holatda mexanizm kirish (energiya) va chiqish (talab etilayotgan natija), o‘zaro ta’sir qiluvchi (yuklama) va boshqa elementlar (ish)ni harakatga keltiruvchi (energiyani uzatish)ning oldindan belgilangan parametrlariga ega bo‘lgan, muayyan tarzda o‘zaro bog‘langan alohida elementlarini namoyon etadi.

Texnik tizimlarga taqqoslaganda, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga nisbatan “mexanizm” atamasi jo‘shqinlik, o‘zgaruvchanlik, tarkibiy elementlarning bir turda bo‘lmasligi, dastlabki holatga qaytish imkonining mavjud emasligi va boshqa funksional tavsiflar bilan bog‘liq bo‘lgan qator xususiyatlarga ega” [2], deb ta’kidlaydi.

Bundan ko‘rinadiki, mexanizm – bu muayyan ichki tartibga ega bo‘lgan, hodisa yoki jarayonlarga kuch (ta’sir) beruvchi ichki elementlarning o‘zaro bog‘liqlik va ta’sirdagi harakatidir. Mexanizm tushunchasiga berilgan ta’riflar va izohlar pirovardida o‘zining mazmunan yaqinligi va shaklan o‘xshashligi bilan ajralib turadi. Bu boradagi qarashlar va ular asosidagi mulohazalarni quyidagi xulosa orqali ifodalash mumkin: “Biz “mexanizm” atamasining har qanday turlicha ta’riflari, manbalaridan foydalanishimizdan qat’iy nazar, u umumiy asosga ega: mexanizm – bu obyektni harakatga keltiruvchi ko‘plab o‘zaro bog‘liq elementlardir. Bu o‘rinda ikkita yondashuv ajralib turadi: mexanizm obyektning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi elementlar majmui sifatida hamda obyektning rivojlanishini ta’minlovchi elementlarning o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta’siri sifatida qaralishi mumkin” [3].

Shuni ta’kidlash kerakki, faqat iqtisodiy parametrlarni hisobga oladigan va guruh tuzish ko‘lamining xususiyatlarini, tadbirkorlik faoliyatining kollektivlik darajasini hisobga olmaydigan boshqaruv yondashuvi kichik biznesning keng ko‘lamli rivojlanishini ta’minlay olmaydi va faqat “zaif yoki samarasiz tadbirkorlik”ning ishlashiga olib keladi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada belgilangan tadqiqot vazifalarini hal etish uchun statistik, solishtirma tahlil usuli, korrelyatsion va regression tahlil, so‘rovnoma va boshqa usullar qo‘llanilgan.

Solishtirma tahlil usuli – bu umumiy ilmiy usullar qatoriga kirib, u empirik tahlil xarakteristikasiga ega. Uning turlari ko‘p, masalan, solishtirmataqqoslash, tarixiy solishtirma va boshqalar. Statistik usulning umumiy mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin: yig‘ilgan ma’lumot bazasi ma’lum kategoriyalar bo‘yicha guruhlanishi, tizimlashtirilishi hamda ikki va undan ko‘p bo‘lgan bir guruh va rekvizitga ega ko‘rsatkichlarni bir-biri bilan nisbiy solishtirish amalga oshiriladi va holatga baho beriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotda kichik biznesning roli va ahamiyati to‘g‘risidagi qarashlar va xulosalar bugungi kun ilmiy doirasida deyarli shakllanib, bu boradagi munozarali jihatlar va ilmiy bahslashuvlar ma’lum darajada o‘zining qat’iy ifodasiga ega bo‘lgan. Ya’ni, hozirgi zamonaviy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasida kichik biznes subyektlari o‘ziga tegishli qator iqtisodiy-ijtimoiy funksiyalarni bajarish orqali, bir tomondan, iqtisodiyotning samaradorligini, boshqa tomondan esa, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlab turuvchi sohani namoyon etadi.

Iqtisodiy nazariyada uzoq vaqtlar davomida kichik biznes – bu aksariyat qismi xususiy sektorga taalluqli bo‘lgan, iqtisodiy faoliyat ko‘lami jihatidan ixcham hamda boshqaruv tuzilmasi jihatidan sodda ko‘rinishga egaligi sababli tashqi tartibga solish yoki boshqarish uchun ehtiyoj mavjud bo‘lmagan soha, degan yondashuv hukmronlik qilib kelgan. Biroq, insoniyat bosib o‘tgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning tarixiy tajribasi hamda zamonaviy iqtisodiy tendensiyalar mazkur qarashlarning doimo ham mutlaq to‘g‘ri emasligini namoyon etdi.

Agar bozor mexanizmlari to‘liq va samarali ishlagan, ya’ni mukammal raqobat sharoitida kichik biznes korxonalari nazariy jihatdan har qanday tashqi boshqaruvga muhtoj bo‘lmaydi. Bozor qonunlaridan kelib chiqqan holda kichik korxona o‘zini o‘zi tartibga soladi. Chunki xususiy mulkdor o‘z kapitalini qaysi tarmoq yoki sohaga kiritayotganini, bu yerdagi raqobat darajasi, foyda normasi, xarajatlar va daromadlar nisbatini oldindan puxta o‘rgangan bo‘ladi. Foydani maksimallashtirish sari harakat uning nimalarga tayyor turishi va qaysi harakatlarni amalga oshirishini oldindan aytib beradi.


Biroq, hayotda ko‘pincha nomukammal raqobat sharoiti amal qiladi. Kichik biznes subyektlari o‘z xo‘jalik yuritish faoliyati doirasida ko‘pincha monopolistik, oligopolistik tuzilmalar bilan to‘qnash keladi. Bunda mutlaq yoki nisbatan keng hukmronlik mavqeiga ega tuzilmalar faoliyatiga taqqoslaganda, kichik biznes subyektlari muayyan jihatdan cheklangan faoliyatni namoyon etadi.

Kichik biznes subyektlari tabiatidan kelib chiqqan holda cheklangan faoliyat yoki sohalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1) qo‘shimcha ishchi kuchini yollashdagi cheklovlar;
2) asosiy va aylanma kapitalning cheklanganligi;
3) moddiy resurs va zaxiralar bo‘yicha cheklanganlik;
4) maxsus boshqaruv tuzilmasini shakllantirish va joriy etishning iqtisodiy samarasizligi tufayli cheklanganlik va h.k.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Kichik biznes subyektlari faoliyatini tartibga solish, ayniqsa, muayyan maqsadlarga erishish yo‘nalishida yaxlit soha sifatida boshqarishning zarurligini bu boradagi “o‘ziga xos tizimli zanjir” orqali ifodalash mumkin (1-rasm).



1-rasm: Kichik biznes subyektlari faoliyatini boshqarishning zarurligini ifodalovchi “o‘ziga xos tizimli zanjir”[1]

Rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, kichik biznes subyektlari faoliyatini yaxlit soha sifatida boshqarishning zarurligini bir necha o‘zaro bog‘liq holatlar orqali izohlash mumkin.

Kichik biznes faoliyatining iqtisodiy tabiati. Ma’lumki, kichik biznesning iqtisodiy tabiati eng avvalo, uning iqtisodiy manfaatdorlik tamoyili orqali namoyon bo‘ladi. Ya’ni, yakka tartibdagi tadbirkorlar va kichik biznes korxonalari o‘zining tarkib topish g‘oyasidan tortib, to faoliyat natijasiga qadar uning egasi va faoliyat ishtirokchilariga muayyan manfaat keltirib, barcha xo‘jalik yuritish jarayonlarining “ko‘rinmas qo‘l” tamoyili asosida amalga oshadi. Faoliyat foyda keltirmaydigan bo‘lsa, u umuman boshlanmaydi, boshlangan faoliyat esa darhol to‘xtatiladi.

Mazkur tezkorlik va tor manfaatga yo‘naltirilganlikning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda muayyan kamchiliklari ham mavjud. Jumladan:

- ayrim faoliyat turlari yoki iqtisodiy jarayonlarning kam foyda keltirishi sababli umuman amalga oshirilmasligi;
- mazkur “bo‘shliq”ni to‘ldirishga xizmat qiluvchi bozor mexanizmi ta’sirining muayyan muddat, vaqt talab etishi;
- yuqori foyda me’yori ortidan “quvish” oqibatida muayyan tovar va xizmatlarning talabdan ortiq hajmda ishlab chiqarilishi;
- raqobat keskinligining ortib ketishi oqibatida ayrim korxonalarning bankrotlikka yuz tutishi va h.k.

Yuqoridagi kamchiliklar, o‘z navbatida, kichik biznesning yaxlit soha sifatida me’yordagi barqaror takror ishlab chiqarish jarayonlariga putur yetkazadi. Shunga ko‘ra, mazkur jarayonlarni boshqarish orqali tashqi tartibga solishga ehtiyoj tug‘iladi.

Iqtisodiy faoliyat yuritishdagi cheklanishlar. Jahonning deyarli barcha mamlakatlarida kichik biznes maqomi alohida belgilab berilgan. O‘zining ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalariga ko‘ra katta ahmiyat kasb etuvchi ushbu soha ayni paytda o‘zining iqtisodiy faoliyatida muayyan cheklanishlarga duch keladi. Masalan, kichik hajmdagi iqtisodiy faoliyat yuritish, xodimlar sonining cheklanganligi, ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarish quvvati, tovar aylanmasi, moddiy zaxiralar, moliyaviy natijalar va boshqa jihatlar bo‘yicha cheklanganlik shular jumlasidandir. Mazkur cheklanganlik uni yirik va o‘rta ishlab chiqarishga nisbatan noraqobatdosh zaif sohaga aylantiradiki, bu o‘rinda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va tartibga solish ehtiyoji paydo bo‘ladi.

Ichki o‘zini o‘zi tartiblashning yetarli emasligi. Kichik biznesni tartiblash yoki boshqarishning ikki darajasi jihatidan quyidagicha yondashish mumkin:

1) kichik biznes korxonasining ichki boshqaruvi;
2) kichik biznes sohasining davlat tomonidan, shu jumladan, mahalliy boshqaruv organlari tomonidan boshqarilishi. Kichik biznes korxonasining ichki boshqaruvi uning faoliyat samaradorligini ta’minlash hamda barqaror rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi. Biroq, kichik biznes korxonalarini yaxlit soha

1 Muallifning ishlanmasi asosida tuzilgan.

sifatida tashqi tartibga solish yoki boshqarish mavjud bo‘lmas ekan, pirovardida milliy iqtisodiyotning me’yordagi faoliyatini ta’minlab bo‘lmaydi.

Tashqi tartiblashga muhtojlik. Milliy iqtisodiyot turli qamrov va darajalarni namoyon etuvchi xo‘jalik birliklari, ularning birlashmalari, tarmoqlar va kichik tarmoqlar sohalarni o‘z ichiga oladi. Kichik biznes korxonalari mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatida ichki tarkibiy tuzilma va funksional bo‘g‘inlarining o‘zaro muvofiqligini ta’minlash maqsadidagi boshqaruv bilan bir qatorda, ushbu toifadagi barcha korxonalarning majmuini tashkil etuvchi kichik biznes sohasining ham boshqarilishiga ehtiyoj sezadi. Kichik biznesni iqtisodiyotning alohida sektori sifatida tashqi tartiblash mamlakat iqtisodiy tizimi samaradorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu holatda milliy iqtisodiyotda kichik biznesning solishtirma salmog‘i, uning iqtisodiyot boshqa tarkibiy qismlari bilan mutanosibligi va muvofiqligi darajalari maqsadga muvofiq holda optimal tarzda ushlab turishga harakat qilinadi.

Mahalliy darajadagi boshqaruv (tartiblash)ning afzalligi va zarurligi. Boshqaruvning miqyos jihatdan quyidagi ikkita yirik darajasini ajratish mumkin:

1) markazlashgan (respublika) boshqaruv organlari;

2) mahalliy boshqaruv organlari.

Kichik biznes faoliyatini tartibga solishda markazlashgan boshqaruv organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1) mamlakatda kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish;

2) kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berish;

3) kichik biznes faoliyatining umummilliy va hududiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;

4) kichik biznes faoliyatini makroiqtisodiy prognozlashtirish va h.k.

Kichik biznes faoliyatini tartibga solishda markazlashgan boshqaruv organlari faoliyatiga nisbatan mahalliy boshqaruv organlari faoliyati ta’sirchan va samarali hisoblanadi. Chunki, markazlashgan boshqaruv darajasida mazkur sohaning umumiy faoliyat chegarasi va yo‘nalishlari belgilab berilsa, mahalliy boshqaruvda muayyan tadbirkorlar guruhi faoliyatni samarali tashkil etish va tartibga solishning aniq chora-tadbirlari belgilab beriladi.

Kichik biznesning afzal tomonlaridan biri – bu undagi boshqaruvning sodda va ixchamligi hisoblanadi. Har qanday iqtisodiy subyekt singari kichik biznes ham alohida soha sifatida boshqaruv jarayonlarini taqozo etadi. Biroq, bu o‘rinda, boshqa iqtisodiy subyektlardan farq qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlar namoyon bo‘ladi.

Kichik biznes sohasini belgilashdagi mavhumlikning mavjudligi. Ya’ni kichik biznes alohida tarmoq (masalan, sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish va h.k.), iqtisodiy faoliyat turi (masalan, moddiy-texnika ta’minoti, bozor xizmatlari va h.k.), soha (masalan, madaniyat, ta’lim va h.k.) emas. U iqtisodiyotdagi turli tarmoqlar, iqtisodiy faoliyat turlari va sohalarning har bir mamlakatdagi qonunchilik bilan belgilab berilgan turli mazmundagi chegaralari bilan ajralib turuvchi qismi hisoblanadi. Shunday ekan, mazkur soha (ayrim manbalarda sektor atamasi ham qo‘llaniladi)ni boshqarish o‘ziga xos murakkabliklar, yondashuvlarni taqozo etadi.

Kichik biznes faoliyatining o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra mahalliy boshqaruvga moyil hisoblanishi. Ba’zida yirik korxonalar, masalan, transmilliy korporatsiyalar boshqaruv nuqtai nazaridan milliy daraja qamrovidan ham chiqib ketadi. Ba’zida ayrim yirik korxonalarning o‘zi mustaqil boshqaruv idorasini vujudga keltiradi. Ko‘pchilik yirik va o‘rta korxonalar muayyan vazirlik va idoralarga bo‘ysunadi va ular tomonidan boshqariladi.

Kichik biznes subyektlarini boshqarish esa, ko‘p hollarda, maxsus boshqaruv idoralari yoki vazirliklar uchun u qadar jozibali, manfaatli hisoblanmaydi. Chunki:

birinchidan, xo‘jalik yurituvchi subyekt ko‘lamining haddan tashqari kichikligi va ular faoliyat natijalarining ahamiyatsiz ekanligi ma’muriy boshqaruvning samarasizligiga olib keladi;

ikkinchidan, kichik biznes subyektlari sonining haddan tashqari ko‘pligi ular barchasining faoliyatini bevosita nazorat qilish imkonini cheklab qo‘yadi;

Bundan ko‘rinadiki, kichik biznes faoliyati o‘z tabiatiga ko‘ra ko‘proq mahalliy boshqaruvga yaqin hisoblanadi. Mazkur qoidani quyidagi holatlar orqali aniqroq ifodalash mumkin:

- kichik biznes subyektlari aksariyat hollarda o‘z xo‘jalik faoliyatida ko‘proq mahalliy doiradagi iqtisodiy resurslardan foydalanadi;
- kichik biznes subyektlari o‘z faoliyati doirasida kelib chiquvchi soliq va to‘lovlarni asosan mahalliy byudjetga to‘laydi;

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- kichik biznes subyektlari faoliyatining asosiy qismi (takror ishlab chiarish bosqichlari – ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol) muayyan hudud doirasida amalga oshadi;
- mahalliy byudjetning "taqdiri" ko'p holatlarda bevosita mazkur hududdagi kichik xo'jalik subyektlari faoliyati natijalariga bog'liq bo'ladi;
- kichik biznes subyektlari faoliyat ko'lamining torligi ularning mahalliy boshqaruv organlari qaror va ko'rsatmalariga bog'liqligini kuchaytiradi.

Kichik biznes subyektlarini boshqarishda mazkur jarayonning mahalliy boshqaruv idoralari faoliyati bilan mushtarakligini ochib berish muhim hisoblanadi. Bunda qator yondashuvlar, shu jumladan, kichik biznesning afzallik va kamchiliklari nuqtai nazaridan yondashuvdan foydalanish mumkin. Dastlab kichik biznes afzallik jihatlarining soha korxonalariga ta'siri hamda mahalliy boshqaruv bilan mushtarakligi holatlarini quyidagi jadval orqali ko'rib chiqamiz (1-jadval).

1-jadval: Kichik biznes afzallik jihatlarining soha korxonalariga ta'siri hamda mahalliy boshqaruv bilan mushtarakligi[2]

Afzallik jihatlari	Korxona faoliyatiga ta'siri	Mahalliy boshqaruvga mushtarakligi
Nisbatan kam moliyaviy mablag'ning talab etilishi	Korxona tashkil etishni osonlashtiradi, kamroq sondagi ta'sischilarni taqozo etadi	Hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish va iqtisodiy salohiyatni amalga oshirishda qo'shimcha korxonalarni safarbar etish vositasi sifatida foydalanish
Boshqaruvning sodda tuzilmasi kichik korxonalarni boshqarishni yengillashtiradi	Faoliyat jarayonida yuzaga keluvchi munozaralarni kamaytirib, o'z vaqtida qaror qabul qilishni jadallashtiradi	Hududda samarali va ijobiy biznes muhitini shakllantirish, aholi o'rtasida o'zaro tushunish va murosa kayfiyatini yuzaga keltirish
Korxonalar ko'lamining katta bo'lmasligi xodimlar va ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish va boshqarishni osonlashtiradi	Asossiz sarf-xarajatlar qisqarib, ishlab chiqarish samaradorligi oshadi	Hudud korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish
Kichik korxonalarning moslashuvchan va harakatchanligi	Korxonalarni joylashtirish, yo'nalishini o'zgartirish, yangi sohalarga tezlik bilan o'tishi orqali iqtisodiy faollikni oshiradi	Hududdagi bandlik, iqtisodiy faollik va bozor talabining qondirilishi darajalarini oshirish
Innovatsion g'oyalarni amalga oshirish	Tarmoq va hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlaydi	Hudud iqtisodiyotining innovatsion va investitsion jozibadorligini ta'minlash
Milliy va tarixiy an'analarni e'tiborga olishi	Iste'molchilar safini kengaytiradi	Hududning milliy va tarixiy qiyofasini saqlab qolish, aholi qadriyatlariga e'tibor qaratish

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, kichik biznes faoliyatining amal qilishi bilan bog'liq afzallik jihatlari dastlab mazkur sohadagi iqtisodiy subyektlarning faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, o'z navbatida mazkur hududdagi mahalliy boshqaruv idoralarining faoliyati bilan ham mushtarakligini namoyon etadi. Ya'ni, mahalliy boshqaruv idoralari hududdagi kichik biznes subyektlarini faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ko'maklashish hamda o'zlarining vazifa va majburiyatlarini amalga oshirishda samarali vosita sifatida foydalanishdan manfaatdor hisoblanadilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes subyektlari faoliyatini tartibga solish, ayniqsa, muayyan maqsadlarga erishish yo'nalishida yaxlit soha sifatida boshqarishning zarurligini bu boradagi "o'ziga xos tizimli zanjir" orqali ifodalash mumkin.

Kichik biznesning afzal tomonlaridan biri – bu undagi boshqaruvning sodda va ixchamligi hisoblanadi. Har qanday iqtisodiy subyekt singari kichik biznes ham alohida soha sifatida boshqaruv jarayonlarini taqozo etadi, biroq bu o'rinda, boshqa iqtisodiy subyektlardan farq qiluvchi, o'ziga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi.

Kichik biznes faoliyati o'z tabiatiga ko'ra ko'proq mahalliy boshqaruvga yaqin hisoblanib, tadqiqot davomida mazkur qoidani asoslovchi holatlar ifodalab berilgan.

2 Muallifning ishlanmasi asosida tuzilgan.

Kichik biznes subyektlarini boshqarishda mazkur jarayonning mahalliy boshqaruv idoralari faoliyati bilan mushtarakligini ochib berish muhim hisoblanib, bunda qator yondashuvlar, shu jumladan, kichik biznesning afzallik va kamchiliklari nuqtai nazaridan yondashuvdan foydalanish mumkin. Shunga ko‘ra, mqolada dastlab kichik biznes afzallik jihatlarining soha korxonalariga ta’siri hamda mahalliy boshqaruv bilan mushtarakligi holatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бокаев А.В. Местное самоуправление и малый бизнес. Бизнес становится главным фактором поддержания жизни во многих муниципальных образованиях. // Известия Иркутской государственной экономической академии (Байкальский государственный университет экономики и права). - Электронный научный журнал. 2011. №3. -http://eizvestia.isea.ru
2. Журавлев Д.М. Организационно-экономический механизм управления устойчивым развитием региона // Креативная экономика. – 2019. – Том 13. – № 2. – С.249-260. doi:10.18334/ce.13.2.39905
3. Бычкова А.Н. Экономический механизм: определение, классификация и применение.-Вестник Омского университета. Серия “Экономика”. 2010. № 4. С. 37.
4. Ubaydullayev A.T. Kichik biznesni boshqarishda uslubiy yondashuvlar.// “Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g‘oyalar, takliflar va yechimlar” mavzusidagi 23-sonli respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiyasi materiallari to‘plami 15-sentyabr , 2021-yil 23-son.
5. https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=16077187763737932205&btnI=1&hl=ru .
6. Требова С.В., Плешаков П.С. Предпринимательские способности населения: понятие и измерение // Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал), №9(17), 2012. –www.sisp.nkras.ru. – С.5.
7. Артемова О.В., Логачева Н.М., Нестеренко И.Ю. Ресурсы для развития малого и среднего предпринимательства региона //Социум и власть. 2018. № 2 (70). С.48-55.;
8. Багинова В.М., Беломестнов В.Г. Потенциал развития малого промышленного предпринимательства в регионе. // Известия Иркутской государственной экономической академии. 2015. Т. 25, № 6. С.999-1003.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

AHOLINI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Tursunov Abdulla Qoraboshevich
PhD, TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining tashkiliy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Mavjud ijtimoiy himoya tizimi hamda uni takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ijobiy jihatlariga baho berilgan hamda mavjud muammolar aniqlangan. Tadqiqotlar natijasida ijtimoiy himoya qilish tizimida mahalla instituti faoliyati o‘rniga baho berilgan va uni takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat, o‘z-o‘zini boshqarish organlari, tashkiliy asoslar, huquqiy tartibga solish, mahalla tizimi.

Abstract: The article analyzes the organizational and legal foundations of the social protection system of the population in our country. The positive aspects of the existing social protection system and the works on its improvement have been evaluated and the existing problems have been identified. As a result of the research, the activities of the neighborhood institute in the social protection system were assessed and suggestions for its improvement were developed.

Key words: social protection, social policy, self-governing bodies, organizational bases, legal regulation, neighborhood system.

Аннотация: В статье анализируются организационно-правовые основы системы социальной защиты населения в нашей стране. Оценены положительные стороны существующей системы социальной защиты и работ по ее совершенствованию, выявлены существующие проблемы. В результате исследования дана оценка деятельности соседского института в системе социальной защиты и разработаны предложения по ее совершенствованию.

Ключевые слова: социальная защита, социальная политика, органы самоуправления, организационные основы, правовое регулирование, соседская система.

KIRISH

Как известно, хозяйствующие субъекты обязаны представлять финансовую отчетность по МСФО не реже одного раза в 1 год. В отчете обязательно должны быть изменены отчетный период и дата окончания отчета, либо отразить обстоятельства представления отчета за период менее одного года или более длительный период, а также уточнить обстоятельства использования такого отчетного периода.

Описательная статистика отраслей является дополнительной оценкой данного исследования, чтобы оценить влияние внедрения МСФО на отраслевые сектора, характерные для компаний торгующих на фондовой бирже S&P/TSX. Исследование ANCOVA было использовано для оценки зависимого и учета ковариаты. Использовался тест Левена на равенство ошибок использовался тест равенства вариаций ошибок Левена, который проверяет нулевую гипотезу о том, что дисперсия ошибки зависимой переменной одинакова в разных группах.

Таблица №1

Отрасли промышленности	Частота	Процент	Валидный процент	Кумулятивный процент
Нефть и газ	44	17,7	17,7	17,7
Диверсифицированные отрасли	68	27,4	27,4	45,2
Финансовые услуги	29	11,7	11,7	56,9
Горнодобывающая промышленность	41	16,5	16,5	73,4
Чистые технологии	6	2,4	2,4	75,8
Недвижимость	20	8,1	8,1	83,9
Коммунальные услуги и трубопроводы	14	5,6	5,6	89,5
Технологии	11	4,4	4,4	94,0
Коммуникации и СМИ	10	4,0	4,0	98,0
Прочие лесные продукции	5	2,0	2,0	100,0
Всего	**248**	**100,0**	**100,0**	

Бумажный подход использовался в тех случаях, когда можно четко определить принадлежность человека к определенному типу решений и когда к ним можно было обратиться лично, например, индивидуальные инвесторы на торговой площадке Фондовой биржи Коломбо (CSE) или банковские кредитные специалисты, как к непосредственным участникам процесса, принимающим решения о кредитовании. Когда типы решений были неочевидны, и к респондентам нельзя было подойти физически, использовалась электронная форма анкеты в режиме онлайн. Например, специалисты по финансовому анализу и CFA могут отвечать как лица, принимающие решения об инвестировании или например, ЦА и ЦФА могут

ответить как лица, принимающие решения о кредитовании. В таблице 2 приведено окончательное число респондентов, распределенных по категориям трех типов решений и способов заполнения анкеты.

Таблица №2

Должность	Инвестиционные решения (235)						Решение о кредитовании (214)		
	Советники (88)			Инвесторы (147)			Кредиторы		
	Бумажная	Онлайн	Всего	Бумажная	Онлайн	Всего	Бумажная	Онлайн	Всего
Финансовые аналитики	3	7	10	2	2	4	0	0	0
Финансовые консультанты	6	8	14	0	3	3	0	0	0
Биржевой брокер	13	9	22	8	1	9	0	0	0
Партнеры в аудиторской фирме	3	12	15	2	6	8	0	0	0
Бухгалтеры	1	7	8	0	27	27	0	17	17
Сотрудники	1	3	4	2	4	6	1	7	8
Менеджеры	6	9	15	3	30	33	7	11	18
Индивидуальные инвесторы	0	0	0	17	40	57	0	0	0
Банковские кредитные специалисты	0	0	0	0	0	0	81	90	171
Всего	**33**	**55**	**88**	**34**	**113**	**147**	**89**	**125**	**214**

Таблица №3

Пункты ответов	Z	Асимп. Sig. (2-хвостовой)	Размер эффекта abc(r) = abc(Z/√N)
Достаточность информации в годовом отчете	2.162	.031*	0.20
Отчет о социальной ответственности	2.278	.023*	0.21
Актуальность	2.744	.006**	0.26
Достоверное представление	2.529	.011*	0.24
Прогнозная информация	3.429	.001**	0.32
Прогнозируемый доход	2.205	.027*	0.21
Прогнозируемая прибыль	2.412	.016*	0.23
Активы, обязательства и капитал, оцениваемые по историческая стоимость	2.323	.020*	0.22
Информация о структуре капитала	2.588	.010*	0.24
Объяснение заемного и собственного капитала	3.337	.001**	0.31
Немодифицированное аудиторское заключение	2.122	.034*	0.20
Объяснения бухгалтерских оценок и политики	2.195	.028*	0.21
Более короткие предложения	2.577	.010**	0.24
Предоставление коэффициентов	2.692	.007*	0.25
Анализ коэффициентов	2.087	.037*	0.20
Годовые отчеты, завершенные до 3 месяцев	2.623	.009**	0.25
Годовые отчеты, опубликованные до 3 месяцев	2.775	.006**	0.26

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

ВЫВОДЫ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Глобализация корпоративных, экономических и политических операций усложнила глобализация корпоративных, экономических и политических операций усложнила оценку финансовой отчетности корпораций. Цели МСФО заключаются в том, чтобы сделать финансовую отчетность корпораций более эффективной, действенной и простой для оценки и анализа отдельными лицами, финансовыми аналитиками, корпорациями и государственными органами. организаций. Данное исследование позволило получить новые знания и дополнить существующие исследования в области последствий применения МСФО в республике.

Выводы показывают, что МСФО привели к общему улучшение финансовой отчетности компаний, что свидетельствует об эффективности МСФО. Обязательное применение МСФО во всем мире облегчит сравнение корпоративной финансовой информации, сократить расходы, снизить усталость инвесторов, улучшить корректировку ошибки и прогнозирования, а также обеспечит участникам рынка капитала уверенность в том, что они могут принимать взвешенные инвестиционные решения, что приведет к позитивным социальным изменениям.

Список использованной литературы:

1. Крылова Т.Б. Выбор партнера: анализ отчетности капиталистического предприятия. –М.:Финансы и статистика, 2000.- 160 с.
2. Любушин Н.П., Лещева В.Б., Дьякова В.Г. Анализ финансово-экономической деятельности предприятия: Учебное пособие для вузов/Под ред. проф. Н.П.Любушина. –М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2018.- 471 с.
3. Мэтьюс М.Р., Перера М.Х.Б. Теория бухгалтерского учета. М.: ЮНИТИ, 2019.- 349 с
4. Палий В.Ф., Палий В.В. Финансовый учет: Учебное пособие. –2-е изд., перераб. и доп. –М.:ИД ФБК-ПРЕСС, 2021.- 408 с
5. Соколов Я.В., Палий В.Ф., Ремизов И.А. Реформа бухгалтерского учета. Российские и международные стандарты. М. 2008.- 324 с.
6. Хеддервик К. Финансовый и экономический анализ деятельности предприятий/Международная организации труда: Пер. с англ.; Под ред. Ю.И. Воропаева. –М.:Финансы и статистика, 2006.- 192 с.
7. Шеремет А.Д., Суйц В.П. Аудит: Учебное пособие.–М.:ИНФРА-М, 2005.- 240 с.

CROSS-CULTURAL MANAGEMENT IS A SEPARATE FIELD OF SCIENCE AND DISCIPLINE

Umarova Zulaykho
PhD, TSUE

Rakhmanova Zilola
TSUE

Abstract: This article provides an overview of the history of cross-cultural management as a separate field of study. It highlights the importance of cross-cultural management in a globalizing world and takes the reader through the stages of research studies devoted to this field that have evolved into a separate discipline across the universities in developed economies.

Key words: culture, management, corporate culture, national culture, multicultural structures, human resources, cultural differences, mentality.

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniyatlararo menejment tarixi alohida tadqiqot sohasi sifatida ko‘rib chiqilgan. U globallashayotgan dunyoda madaniyatlararo menejmentning muhimligini ta’kidlab, rivojlangan mamlakatlar universitetlarida alohida fanga aylangan ushbu sohaga bag‘ishlangan tadqiqot bosqichlari bilan kitobxonni tanishtirib o‘tadi.

Kalit so‘zlar: madaniyat, menejment, korporativ madaniyat, milliy madaniyat, ko‘p madaniyatli tuzilmalar, inson resurslari, madaniy farqlar, mentalitet.

Аннотация: В данной статье представлен обзор истории межкультурного менеджмента как отдельной области исследования. Она подчеркивает важность межкультурного менеджмента в глобализирующемся мире и знакомит читателя с этапами исследований, посвященных этой области, которые превратились в отдельную дисциплину в университетах развитых стран.

Ключевые слова: культура, менеджмент, корпоративная культура, национальная культура, мультикультурные структуры, человеческие ресурсы, культурные различия, менталитет.

In writing this article the range of publications of foreign and domestic scientists related to Cross-Cultural Management has been used. In particular textbooks and results of scientific papers have been thoroughly revised. For instance, the publications of Martin J. Gannon and Karen. L Newman’s “Handbook of Cross-Cultural Management”, Marie Joelle Browaeys, and Roger Price’s “Understanding Cross-Cultural Management” (fourth edition), Veronica Velo‘s “Cross-Cultural Management”, V.G. Bunina’s “Cross-Cultural Management and Cross-Cultural Communication”, Rafiul Abedin Chokder and Paulina Vanessa Díaz Tapia’s “The role of corporate culture in managing cultural diversity, “Intercultural communication” in S. Bochner (ed.), Cultures in contact: Studies in cross-cultural interaction (pp. 61 79). Oxford: Pergamon have been widely utilized.

In modern society, the problem of cross-cultural management associated with the functioning of multinational, multicultural structures of modern international organizations has become increasingly relevant. The success of international business depends on understanding of the peculiarities of the national culture of other countries, the ability to adapt to the cultural differences of nations. It is the national culture that significantly affects the behavior of people and decision-making in the organization.

Moreover, it is worth noting that society is changing, digitalization of all life processes is taking place, and diversity of nations, languages, origins, gender, and appearances is becoming a norm of life. At this point, there is a clear consideration that the creators of global artificial intelligence cannot be allowed to be exclusive of one gender, ethnicity, age, or culture.

Thus, given the intersectionality of ethnocultural factors on digitalization, particularly the algorithmization of society, the question arises of how to manage these processes effectively and what technologies to use in doing so.

But, despite the growing interest and the number of studies, in domestic sociology, the problem of managing cross-cultural relations in an organization is still in the initial stage of development.

Each nationality has special behavioral and interpersonal individual behavioral traits, which also depend on the national culture. The behavioral patterns play a vital role in the functioning of any organization. In international companies where the composition of employees is largely diverse, the behavioral issues, cultural differences, and perceptions grow in importance and managers may face challenges in running a company. To understand, and most importantly, to effectively manage human resources in a transnational corporation, it is necessary to regulate their behavior following the individual cultural peculiarities of representatives of the national culture.

Why do we highlight cross-cultural management as a separate field of science? Theoretical rethinking of the laws of communication of business cultures has started since World War II, though in reality in practice, the issues of cross-cultural management, so as managing the processes of business communication are as old as the economy itself. Business communication at all times in all cultures always has been based on the national vision of the world, national cultures, and on national mentality. Why did 40 years ago in the 50-60th of the last century this problem concentrate in a separate discipline and grow into the main object of research? Most researchers believe that this is related to globalization which has been boosted by a sharp increase in international economic relations in the post-war recovery period.

The realization of Marshall's Plan, the penetration of the American economy into foreign markets, and the elevating of these plans to the US government policy have become the pushing factor in the emergence of Cross-Cultural management. Active economic US expansion quickly revealed the first challenges and failures associated with non-economic, national-cultural particularities of various countries. This necessitated American experts to effectively work out technologies and strategies to promote economic US interests in different nation-economic environments.

In the 60-70th a group of US scientists addressed new challenges that emerged at that time and commenced practical psychological and strategic recommendations, that would lead to the minimization of costs while building transnational corporations and promoting American interests. The first studies on cross-cultural interaction emerged after active US economic expansion. On the other side of the Atlantic integration processes that started in Europe aimed at creating a common economic area, also raised issues of effective cooperation of national economies.

Over 40 years cross-cultural has gone through the path reflecting the inner logic of the development of cross-cultural communication in the era of globalization.

The 1st cornerstone was related to the research that had been done on the issues of the penetration of large national companies into foreign markets globally. At this stage, by default, the concept of "Monoculture" was applied to penetrated markets as well as the concept of "national government". The studies made at that time have collected priceless materials characterizing the traits of national mentality, including business mentality.

Founders of cross-cultural management have conducted research and made analysis of many factors influencing the mentality of a nation. They concluded that such factors are historical, geographical, religious, and folklore. The socio-economic basis of each nation's value mattered under the propaganda of abstract "universal values" and averaged "human rights". The founders of CCM inferred: all nations are different, each has its system of values elaborated over many generations and cannot be modified without coursing harm to the well-being of a nation. However, the research was limited to the statement of facts.

The second stage of the studies on CCM was related to the development of theories and typologies of corporate cultures about the issues of the international division of labor. It was noted that various national cultures gravitate towards different types of organization of economic progress, giving rise to different types of organizational behavior and forms of economic activity.

At this stage, studies on the types of corporate cultures appeared, based on the application of a national business mentality to the specific economic activity. A great achievement of CCM lies in the understanding that the corporate culture of the organization is based first of all on the national economic mentality. Secondly, corporate culture can be changed by considering its internal development paradigm.

The importance of the 80-90th research is that it reveals the interaction of corporate cultures and the application of the organization model to a particular national and

Currently, on the 3d stage, under the condition of growing migration processes and the critics of the "national government" idea, there is a necessity to comprehend a pattern of interaction of national business models not only in external economic activities but also intra-country activities, becoming more and more multiethnic and multicultural.

Cultural diversification of personnel across large and middle-sized companies raised the issue of including intercultural differences in traditional human resource management patterns, especially in the times of racial intolerance between citizens and migrants. In recent years, research on the management of "cultural diversity" has come to the forefront, aimed at developing mechanisms that would make it possible, while preserving

the national and cultural identity of certain groups of the population, to ensure sustainable and strict management control by developing some common, acceptable for representatives of different cultures “protocol” on cross-cultural management.

An additional impetus for these studies is given by the next round of geopolitical development – the processes of intercultural interaction in regional processes (in Europe, the Middle East, Latin America) show the similarity of the use of cross-cultural management mechanisms both in business and in geopolitics.

As a result of globalization, it is becoming more and more important for international managers to obtain specific cross-cultural knowledge and skills Increasingly, effective adaptation in culturally diverse contexts is expected of individuals working in international settings, as this improves their performance This involves - among other attributes and skills - successful interaction and coping with members of different cultural groups. Managers should therefore possess the special competencies and attributes that enable them to deal effectively with the rapid changes in the business environment and to communicate effectively on the international sphere; this is referred to as cross-cultural competence which has become a critical driver of international performance.

This is in line with the target of today’s universities in the present era of globalization. In recognition of global interdependence, there is now a high degree of interest and demand for global citizenship in education (GCE) (Simon, 2014). Universities are now pursuing producing “global citizens” to the workplace (Erez, Lisak, Harush, & Gilkson , 2013), graduates who can fit everywhere.

This is to be achieved by integrating an international and intercultural dimension of high quality and a competitive structure into the teaching, the research and the service functions of all institutions working in the field of higher education (Simon, 2014).

It is not surprising that universities are now calling for “becoming a global citizen” and marketing “schools that provide international career pathways”, emphasizing a globalized education equipping students with “employable skills in the international markets”.

Uzbekistan government also takes crucial steps in improving education and intellectual human resources. Over the past decade, many reforms have been implemented by Uzbek government. The reforms aim to utilize available material economic and intellectual resources efficiently. Their main goal is to prevent further decline of the standard of life of the citizens and to soften the negative impact of external factors influencing the entire world. The President of the Republic of Uzbekistan in the official Decree № PF-4947 as of the 7th of February 2017 in “The Further Developments of the Republic of Uzbekistan” determined the Fourth Priority Direction in “The Actions Strategy”[1], which is enhancing the quality of School Education and in Specialized and Higher Education and taking measures to further prosper this sphere.

References:

1. Martin J. Gannon and Karen. L Newman’s “Handbook of Cross-Cultural Management”,
2. Marie Joelle Browaeys, and Roger Price’s “Understanding Cross-Cultural Management” (fourth edition)
3. Veronica Velo‘s “Cross-Cultural Management”
4. V.G. Bunina’s “Cross-Cultural Management and Cross-Cultural Communication”
5. Rafiul Abedin Chokder and Paulina Vanessa Díaz Tapia’s “The role of corporate culture in managing cultural diversity.
6. “Intercultural communication” in S. Bochner (ed.), Cultures in contact: Studies in cross-cultural interaction (pp. 61 79). Oxford: Pergamon have been widely utilized.

1 “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni.



TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA XALQARO SIFAT STANDARTLARINI JORIY ETISH TAHLILI

Oqboyev Alisher Rasuljanovich
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
“Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada tadbirkorlik subyektlarida xalqaro sifat standartlarini joriy etishning zamonaviy tendensiyalari tahlil etilgan. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga xalqaro sifat standartlarini joriy etishdagi muammolar va ularning yechimi bo‘yicha nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, sifat, sifat standarti, talab, SEDEX, BCSI, GOTS, WRAP, risk, eksport, imtiyoz, ehtiyoj, rahbar mas’uliyati, samaradorlik.

Abstract: The article analyzes modern trends in the introduction of international quality standards in business entities. Also, theoretical and practical recommendations on the problems of introducing international quality standards to the activities of business entities and their solution have been developed.

Key words: entrepreneurship, quality, quality standard, demand, SEDEX, BCSI, GOTS, WRAP, risk, export, preference, need, leadership responsibility, efficiency.

Аннотация: В статье анализируются современные тенденции внедрения международных стандартов качества в субъектах предпринимательства. Также разработаны теоретические и практические рекомендации по проблемам внедрения международных стандартов качества в деятельность субъектов предпринимательства и их решению.

Ключевые слова: предпринимательство, качество, стандарт качества, спрос, SEDEX, BCSI, GOTS, WRAP, риск, экспорт, предпочтение, потребность, исполнительная ответственность, эффективность.

KIRISH

Ma’lumki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda tashqi savdo sohasi milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim shakllaridan biriga aylandi. Bu esa ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiya qilish, iste’mol tovarlari ishlab chiqarish va turli xizmatlar ko‘rsatishga xizmat qilmoqda. Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish va ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta’minlash mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik subyektlarining ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta’minlashda eksportning o‘rni beqiyosdir. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini ta’minlash eksportni diversifikatsiya qilish asosida iqtisodiy xavfni kamaytirishga, xalqaro bozorlarga chiqish orqali o‘z faoliyatini kengaytirib, mahsulotining bir birligi tannarxini kamaytirishga, tadbirkorlik subyektlari eksport geografiyasini kengaytirish orqali xorijiy yangi bilim va tajriba orttirishga, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy marketing strategiyalarini o‘zlashtirishga hamda o‘z faoliyatini kengaytirishga, bu esa o‘z navbatida iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish va qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan to‘qimachilik tarmog‘idagi tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan sifat standartlarini joriy etish va sertifikatlashtirish bugungi kundagi muhim vazifa hisoblanadi. Tadbirkorlik subyekti bo‘lgan to‘qimachilik korxonalarining eksport salohiyatini oshirishda tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan sifat standartlarni joriy etish va sifat sertifikatga ega bo‘lishi har jihatdan muhimdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sifat ko‘p yillar davomida rivojlanish tarixiga ega bo‘lib, umum ehtiyojlar va ishlab chiqarish imkoniyatlarining o‘sib borishi va ularni qanoatlantirish bo‘yicha turli vaziyatlarda rivojlanib kelgan. Sifatga oid ta’riflar xilma-xil bo‘lib, ular soha, mahsulot va xizmatlarga qarab farqlanadi.

Sifat tushunchasiga davlatlararo standartlashtirish kengashi tomonidan qabul qilingan GOST 15467-79 standartida “mahsulot sifati – mahsulotning uni qo‘llanishga muvofiq aniqlangan ehtiyojlarni qanoatlantirishga xizmat qiluvchi xossalarining yig‘indisidir [1]”. Standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilotning ISO 8402-94 standarti talqin etishiga ko‘ra “sifat – mahsulot yoki xizmatlarning xossalari va tavsiflarining majmuyi bo‘lib, ular ushbu mahsulot yoki xizmatlarga ular qondirishi shart bo‘lgan yoki kutilayotgan ehtiyojlarni qondirish qobiliyatini anglatadi [2]”. ISO 9000:2015 xalqaro standartiga muvofiq “Sifat – bu mahsulotning xossalari va tavsiflari majmui bo‘lib, ular mahsulotga belgilangan yoki kutilayotgan ehtiyojlarni qondirish xususiyati [3]”.

Bizning fikrimizcha, “sifat bu – mahsulot va xizmatlarning belgilangan yoki kutilayotgan turli xildagi ehtiyojlarni qondirishdagi xususiyat va tavsiflar majmuidir. Iste’mol madaniyati rivojlangan bugungi kunda sifat birinchi o‘ringa chiqmoqda. Bu borada butun dunyoga tushunarli “til” bu p standart [4].

Sifat standarti – bu mahsulotlar, jarayonlar yoki xizmatlarning sifat me’yorlari bo‘lib, ularning belgilangan talablarga muvofiqligini ta’minlaydi. Ushbu standartlar mamlakatning yoki xalqaro standartlashtirish tashkilotlarining texnik hujjatlarida belgilab qo‘yilgan bo‘ladi. Sifat standartlari shunday qoidalar va ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladiki, ular mahsulotning ishonchliligi, xavfsizligi, samaradorligi va boshqa muhim parametrlarni aniqlab, iste’molchilarga tegishli sifat kafolatini ta’minlaydi. Sifat standartlariga rioya qilish, shuningdek, ishlab chiqaruvchilarga o‘z mahsulotlarini bozorda farqlash va raqobatdoshligini oshirish imkonini beradi. Bizning fikrimizcha sifat standarti bu – bu mahsulot, xizmatlar yoki jarayonlarning muayyan sifat ko‘rsatkichlariga javob berishini ta’minlash uchun belgilangan mezonlar yoki talablar to‘plami.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishlari jarayonida kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, kuzatuv va statistik ma’lumotlar tahlil usullaridan foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish vazifasi maqsadi qo‘yilgan bo‘lib, maqsadning 2030-yilgacha erishiladigan samaradorlik ko‘rsatkichi sifatida xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 10 barobarga oshirish va ular sonini 5 mingtaga yetkazish belglangan [5]. Xususan, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish va sertifikatlash sohalarida tarkibiy islohootlarni yanada chuqurlashtirish, sohani xalqaro andozalarga moslashtirish, standartlardan keng foydalanish muhitini yaratish, muvofiqlikni baholash jarayonlariga zamonaviy uslublarni joriy etish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5133 sonli Qarori qabul qilindi [6].

Qabul qilinayotgan me’yoriy hujjatlarda belgilangan chora-tadbirlar va sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimizda xalqaro darajadagi standartlash tizimi joriy etilmoqda. Jumladan, milliy sifat infratuzilmasini xalqaro me’yorlarga moslashtirish maqsadida, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash va sohalarini tartibga soluvchi qonun hujjatlari qayta ko‘rib chiqildi. Shuningdek 30 mingga yaqin milliy standartlarning qariyib 20 mingtasi xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirib, xalqaro standartlar reestri shakllantirildi.

Shu nuqtayi nazaridan tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish va ularning faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati, raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro bozorlarda o‘z o‘rnini topishga ko‘maklashish maqsadida bir qator zaruriy loyihalar bajarilmoqda.

To‘qimachilik tarmog‘idagi tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishdagi asosiy omillardan biri bu tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan xalqaro sifat standartlarini joriy etish va sertifikatlashtirish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan mamlakatimizda to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish bilan shug‘ullanadigan bir qator tadbirkorlik subyektlarida ISO, OEKO Tex, Sedex, Gots va BSCI kabi zamonaviy xalqaro standartlariga muvofiq sifat standartlari faol ravishda joriy qilinmoqda (1-jadval).

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida to‘qimachilik tarmog‘idagi tadbikorlik subyektlari faoliyatiga xalqaro sifat standartlarni joriy etish holati (2021–2023-yillarda)

№	Standartlar nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil	O‘zgarishi (2023-yilda 2021-yilga nisbatan)
1.	ISO 9001	375	380	410	35
2.	ISO 14001	149	154	160	11
3.	ISO 50001	28	34	50	22
4.	ISO 45001	103	115	156	53
5.	OEKO-TEX	52	97	120	68
6.	SEDEX	2	11	21	19
7.	BCSI	2	7	22	20
8.	GOTS	2	6	18	16
9.	WRAP	2	4	11	9
	Jami:	**715**	**808**	**968**	**253**

Tahlillardan shu ayonki, to‘qimachilik sanoatida respublika bo‘yicha 2021-yilda 715 ta, 2022-yilda 808 ta, 2023-yilda esa 968 ta tadbikorlik subyektlari xalqaro sifat standartlariga muvofiq sertifikatlangan bo‘lib, ularning aksariyati Yevropa Ittifoqida talab qilinadigan idoralar markalash sertifikatini olgan. Shu bois, bugungi kunda aksariyat eksportyor tadbirkorlik subyektlari xalqaro sifat standartlarni o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib joriy qilishga qiziqish bildirmoqdalar. Raqamlarda ko‘radigan bo‘lsak, respublika bo‘yicha 2021-yilda jami 715 ta tadbikorlik subyektlari sifat standartlarini joriy qilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 253 taga ortib, 968 tani tashkil etgan [6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatida xalqaro sifat standartlarini joriy etishni takomillashtirishda quyidagi chora-tadbirlar va yo‘nalishlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz [7]. Jumladan:

1. **Rahbar mas’uliyati.** Yuqori rahbariyat tadbirkorlik subyektlari ichida xalqaro sifat standartlarini joriy etish va qo‘llab-quvvatlashga to‘liq mas’ulligi va sodiqligini ta’minlashi lozim. Rahbarni qo‘llab-quvvatlash o‘zgarishlarni rag‘batlantirish va sifatli mukammallik madaniyatini yaratish muhimdir.
2. **Xodimlarning ishtiroki.** Sifatni boshqarish jarayoniga barcha darajadagi xodimlarni jalb qilish lozim. Faol ishtirokni rag‘batlantirish, treninglar va resurslar bilan ta’minlash, xodimlarning sifatni yaxshilash tashabbuslariga hissa qo‘shishiga imkoniyatlar berish lozim.
3. **Risklarni boshqarish.** Tadbirkorik subyektlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot yoki xizmat sifatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xavflarni aniqlash va hal qilish, sifatni boshqarishda xavfga asoslangan yondashuvni qo‘llash. Sifat xatarlarini boshqarish uchun xavflarni baholash vositalari va jarayonlarini joriy qilish.
4. **Doimiy takomillashtirish.** Sifat ko‘rsatkichlarini muntazam monitoring qilish va baholash, yaxshilash uchun yo‘nalishlarni aniqlash va profilaktika choralarini amalga oshirish orqali doimiy takomillashtirish madaniyatini rivojlantirish. Doimiy sifatni yaxshilash uchun innovatsiyalarni rag‘batlantirish.
5. **Hujjatlar va jarayonlarni nazorat qilish.** Sifat menejmenti jarayonlari yaxshi hujjatlashtirilgan, tushunilgan va butun tashkilot bo‘ylab izchil kuzatilishini ta’minlashi lozim. Hujjatlarni nazorat qilish bo‘yicha qat’iy tartib-qoidalarni amalga oshirish va sifat muvofiqligini ta’minlash uchun aniq jarayon nazoratini o‘rnatish.
6. **Yetkazib beruvchilar bilan munosabatlarni boshqarish.** Yetkazib beruvchilar va hamkorlar bilan butun ta’minot zanjirida sifat standartlariga rioya etilishini ta’minlash uchun yaqindan hamkorlik qilish. Kuchli aloqalarni rivojlantirish, yetkazib beruvchilarning auditini o‘tkazish, mahsulot va xizmatlarning muvofiqligini ta’minlash uchun sifat talablarini belgilash.

7. **O‘qitish va muntazam malaka oshirish.** Sifatni boshqarish bilan shug‘ullanuvchi xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun o‘qitish va rivojlantirish dasturlariga sarmoya kiritish. Xodimlarning sifat bilan bog‘liq majburiyatlarini samarali bajarish uchun malakali bo‘lishini ta’minlash.
8. **Samaradorlikni aniqlab borish.** Sifat ko‘rsatkichlarini kuzatish va sifat menejmenti tizimining samaradorligini aniqlash uchun asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) o‘rnatsh. Ma’lumotlarni tahlil qilish, muntazam audit o‘tkazish va qaror qabul qilish uchun mukammal tizimdan foydalanish.
9. **Mijozlarga e’tibor qaratish.** Mijoz talablari va umidlarini tushunish va qondirishga katta e’tibor berish. Mijozlar bilan aloqa o‘rnatish, fikr-mulohazalarni to‘plash va sifatni yaxshilash bo‘yicha sa’y-harakatlarni amalga oshirish va mijozlar ehtiyojini qondirish uchun mijozlar tushunchalaridan foydalanish.
10. **Sertifikatlash va e’tirof etish.** Muvofiqlik va sifat mukammalligiga sodiqlikni namoyish qilish uchun xalqaro sifat standartlariga sertifikat olishni ko‘rib chiqish. Sertifikatlash ishonchlilikni oshirishi va yangi biznes imkoniyatlarini ochishi mumkin.

Ushbu takliflarga rioya qilish va sifat menejmenti orqali tadbirkorlik subyektlari xalqaro sifat standartlarini joriy etishni kuchaytirishi, doimiy takomillashtirishga intilishi va sifat ko‘rsatkichlarida mukammallikka erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. ГОСТ 15467-79 Управление качеством продуксии. Основные понятия. Термины и определения
2. ISO 8402-94- ГОСТ 15467-79 Управление качеством продуксии. Основные понятия. Термины и определения. https://files.stroyinf.ru /Data1/5/5812/index.htm
3. ГОСТ 15467-79 Управление качеством продуксии. Основные понятия. Термины и определения.
4. Prezident Shavkat Mirziyoevning 2022-yil 13-iyun kuni standartlashtirish va sertifikatlashtirish sohasidagi samaradorlikni oshirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishdagi nutqidan.
5. https://lex.uz/ru/docs/6600413 “ O‘zbekiston - 2030” strategiyasi.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5133 son Qarori.
7. Texnik jihatdan tartibga solish agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
8. Okboev A.R., O.J.Ashurkulov Directions for the introduction of an integrated quality management system to increase the competitiveness of light industry enterprises // South Asian Journal of Marketing & Management Research (SAJMMR). Vol.10, Issue 11, November 2020 Impact Factor: SJIF#23 2020= 7.11. pp. 107-10.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA KICHIK BIZNESNING O‘RNI

Jo‘rayev Ilhomjon Kamolidinovich
I.f.f.d. (PhD), “University of Business and Science” oliy ta’lim muassasasi “Iqtisodiyot”kafedrasi v.b. dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni yoritilib, kichik biznes subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushining o‘sish sur’ati tahlil qilingan, respublika miqyosida ro‘yxatdan o‘tgan kichik biznes korxonalarining faoliyat ko‘rsatish darajasi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes subyektlari, xususiy tadbirkorlik, YAIM, tarmoq, investitsiya.

Abstract: This article highlights the role of small businesses in the economy of Uzbekistan, analyzes the growth rate of the share of small businesses in the economy, the level of activity of small businesses registered in the country.

Key words: small business, private entrepreneurship, GDP, network, investments.

Аннотация: В данной статье освещается роль малого бизнеса в экономике Узбекистана, анализируются темпы роста доли малого бизнеса в экономике, уровень активности малых предприятий, зарегистрированных в стране.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, ВВП, сеть, инвестиции.

KIRISH

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligiga, mustaqil iqtisodiy taraqqiyot yo‘liga erishgandan buyon ijtimoiyiqtisodiy sohalarda tub islohotlarni amalga oshirish, uzoq vaqt davomida iqtisodiyotni o‘z hukmi ostida qoldirgan tizim ya’ni sobiq ma’muriybuyruqbozlik tizimining salbiy oqibatlarini, u sababli yuzaga kelgan tizimli muammolarni hal etish, bu orqali barqaror, samarali va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish yo‘lidan bormoqda. Chunki ijtimoiyiqtisodiy taraqqiyotga erishmasdan turib oliy maqsadimiz – mamlakatimiz aholisining yuksak turmush farovonligini, avlodlarning baxtli kelajagini ta’minlab bo‘lmaydi.

O‘tgan yillarda mamlakatimizda islohotlar dasturi davom ettirilib, undan o‘rin olgan muhim choralar va tadbirlarning izchil amalga oshirilishi natijasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida mutanosiblik yanada mustahkamlandi, iqtisodiyotimiz modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan yuqori sur’atlar bilan rivojlandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotni iqtisodiy barkarorligini ta’minlash masalalari xorijiy olimlardan D.Link [1], Yu.M.Sulemanova [2], E.V.Budumjan [5], V.V.Mokeyev va boshqalarning asarlarida tadqiq etilgan.


MDH olimlaridan Ye.V.Makarova, S.N.Bobilev, S.N.Kukushkin, N.A.Lvova [3], A.P.Dobrovinskiy [4], A.B.Lachixina, A.A.Petrakov va boshqalar iqtisodiy barkarorligini ta’minlashning makroiqtisodiy jihatlarini alohida tadqiq etishgan va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish asosiy omil sifatida ilmiy yondashganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Olib borilgan tadqiqot ishida kuzatish, anketalash, qiyoslash, tizimli tahlil kabi usullardan foydalanish orqali istiqboldagi rivojlanish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Korxonalar faoliyatini jadal rivojlantirish ishlab chiqarish salohiyatini boshqarishga bog‘liq ravishda tadqiqotda tizimli tahlil, sintez, statistik guruhlash, eskpert baholash, ilmiy-bashoratlash va boshqa usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma’lumki, jahon amaliyotida mamlakatlarning yillar bo‘yicha ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishi ularda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atlari orqali aniqlanadi. Biz kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAIMdagi ulushini 2000–2021-yillar oralig‘ida ko‘rdik. Bu keltirilgan statistik tahlil orqali mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotda nechog‘lik ahamiyatga ega ekanini ko‘rishimiz mumkin. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning 2000-yildan 2018-yilgacha YAIMdagi ulushi domiy o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, 2019-yildan so‘ng uning ulushi sezilarli kamaygan, biz bu holatga Covid–2019 pandemiyasini oqibatida kelib chiqqan inqiroz holati bilan izohlaymiz (1-rasm.)



1-rasm: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, foizda

Rasmdan ko‘rinadiki, mamlakatimiz YAIMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining sur’atlari barqaror tarzda bormoqda. Agar o‘rtacha o‘sish sur’atlari 2000–2010-yillarda 3040 foiz oralig‘ida, 2010–2018-yillarda 6066 foiz oralig‘ida yuqori ulushni egallagan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich keyingi uch yil davomida 5456 foiz oralig‘i tashkil etganini ko‘rish mumkin. Albatta, bu o‘rinda dunyodagi murakkab vaziyat – jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va Sovid–2019 pandemiya natijasidagi inqirozli holat ro‘y berishi, uning jahondagi barcha mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston iqtisodiyotiga ham salbiy ta’sirini e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Chunki mamlakatimizda chuqur o‘ylangan holda ishlab chiqilgan hamda izchil ravishda olib borilayotgan samarali iqtisodiy siyosat global inqirozning iqtisodiyotimizga salbiy ta’sirini ahamiyatli darajada “yumshatib”, shunday murakkab sharoitda ham YAIMning va kichik biznesning undagi ulushini yuqori va barqaror o‘sish sur’atlarini saqlanib qolishini ta’minladi. Shunga ko‘ra, agar jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ro‘y bermaganida O‘zbekistondagi o‘sish sur’atlari yanada yuksakroq bo‘lardi, deyishga yetarli asos bor.

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushini quyida keltirilgan jadval ma’lumotlari orqali baholash mumkin (1-jadval).

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushining o‘sish sur’ati, foizda

Tarmoqlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Sanoat	40,6	45,3	41,2	37,4	25,8	27,9	27,0
Qishloq xo‘jaligi	98,0	98,6	98,5	98,3	97,9	96,7	96,7
Qurilish	66,7	66,9	64,8	73,2	75,8	72,5	72,4
Savdo	87,1	89,6	88,4	86,3	83,6	82,3	100
Bandlik	77,9	78,2	78,0	76,3	76,2	74,5	-

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi iqtisodiyot boshqa soha va tarmoqlari ishlab chiqarish hajmidagi salmog‘ining oshishi orqali ham namoyon bo‘ldi. Xususan, mazkur sohaning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2015-yildagi 40,6 foizdan 2021-yilda 27,0 foizga, qishloq xo‘jaligida tegishli ravishda 98,0 foizdan 96,7 foizga, savdoda 87,1 foizdan 100,0 foizga, bandlik hajmida 77,9 foizdan 74,5 foizga, eksport hajmida esa 27,0 foizdan 22,3 foizga qadar o‘zgargan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Statistik ma'lumotlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, tarmoq yalpi ishlab chiqarish hajmida kichik biznes korxonalarining ulushida tabiiy ravishda tarkib topuvchi chegara mavjud. Ya'ni, agar tarmoq ishlab chiqarishida kichik biznes korxonalari uchun ilgari mavjud bo'lmagan ruxsatni birdaniga ochib yuborilsa, u holda mazkur soha jadallik bilan o'sib boradi. Biroq bu o'sish muayan darajaga borgandan keyin asta sekinlab, mo'tadil holatga yetadi. Ushbu darajada kichik biznes solishtirma salmog'ining tebranishi uchun ma'lum "karidor" paydo bo'ladi. Biroq shunisi e'tiborliki, tarmoqdagi kichik biznes ulushining ushbu koridor ichidagi tebranishi ko'pincha biznes korxonalari soni yoki ularning hajmidagi o'zgarishlar emas, balki tarmoq yalpi mahsulotning "qolgan" qismini tashkil etuvchi yirik korxoanalar ishlab chiqarish hajmidagi o'zgarishlar ta'siri ostida ro'y beradi.

Jajvaldan ko'rinadiki, qishloq xo'jaligi tarmog'ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi eng yuqori darajani tashkil etmoqda. Buning asosi – qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, nisbatan kichik ko'lamlarda tashkil etishning maqsadga muvofiqligini hisoblanadi.

Qurilish sohasida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 6675 foiz atrofida bo'lishini kegingi o'n yilliklarda kichik sanoat obyektlari va fuqarolar uchun uyjoy kengayib borishi orqali izohlash mumkin. Shu o'rinda muhim ahamiyat kasb etuvchi tarmoq – sanoatda kisik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2016-yilga qadar barqaror va izchil ravishda o'sib kelib, 45,3 foizgacha yetgan. Biroq, 2017-yildan boshlab bu ko'rsatkich keskin pasayish kuzatilib, 2021-yilda 27,0 foizni tashkil etdi.

Mazkur tahlilni amalga oshirishda zarur ko'rsatkichlardan biri sifatida mamlakatimizda ro'yxatdan o'tgan korxonalarning faoliyat ko'rsatish darajasini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq (2-jadval).

Odatda barcha ro'yxatdan o'tgan korxonalar to'liq faoliyat yuritmaydi. Ayniqsa, kichik biznes korxonalarining ma'lum muddatda katta qismining o'z faoliyatini tugatishi borasida turli sababla va omillar mavjud. Biroq bu jarayondagi obyektiv va subyektiv omillarning aniqlanishi va tegishli chora-tadbirlarning ko'rilishi ushbu ko'rsatkichga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Jadvaldan ko'rinadiki, tahlil davrida ro'yxatdan o'tgan kichik biznes korxonalari soni o'sib bormoqda. Agar mazkur o'sishni tahlil davri boshiga nisbatan davr oxirida 266,82 mingtani tashkil etgan bo'lsa (o'rtacha har yillik o'sish 33,4 mingta, yillar bo'yicha bu jarayon notekkis borgan. Buni mazkur ko'rsatkichning oldingi yildagiga nisbatan foizdagi ifodasi orqali kuzatish mumkin: 2015-yilda 103,5 %, 2016-yilda 102,2 %, 2017-yilda 99,8 %, 2018 yilda 107,5 %, 2019-yilda 114,0%, 2020-yilda 128,1%, 2021-yilda 123,5%, 2022-yilda 111,9%.

2-jadval: Respublika miqyosida ro'yxatdan o'tgan kichik biznes korxonalarining faoliyat ko'rsatish darajasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Ro'yxatga olingan korxonalar	221140	225998	225560	242379	276237	353921	436981	488936
Faoliyat yuritayotgan	196014	207104	210594	229666	262930	334767	411203	462834
Faoliyat yuritmayotgan	25126	18894	14966	12713	13307	19154	25778	26102
Faollik darajasi (foizda)	88,6	91,6	93,4	94,8	95,2	94,6	94,1	94,7

E'tiborli jihati, bu tahlil davrida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning jami ro'yxatdan o'tgan korxonalar sonidagi ulushining sezilarli ravishda oshib borayotganligi hisoblanadi. Bu borada ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonini yillar kesimidagi ulushi 2015–2019-yillarda barqarorligi ta'minlangan, 2019-yildan so'ng o'rtacha 94,0 foiz korxonalar faolligi ta'milangan. Bu shuni anglatadiki, bir tomondan yangi ro'yxatdan o'tgan korxonalarning tobora salmoqli qismi faoliyat ko'rsatishi ta'minlanayotgan bo'lsa, boshqa tomondan, ilgari ro'yxatdan o'tgan, biroq faoliyat yuritmayotgan korxonalarning katta qismi faoliyat ko'rsata boshlagan. Statistik ma'lumotlarga asoslanib 2015 yilda faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar soni 25,1 mingtani umumiy ro'yxatdan o'tgan korxonalarning 11,4 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 5,3 foizga kamayib 26,1 mingtani tashkil etib umumiy korxonalar soniga nisbatan kamaygan. Xulosa qiladigan bo'lsak tashkil etilayotgan korxonalarning salmoqli qismi o'z faoliyatini ta'minlamoqda.

Statistik ma'lumotlardan ko'rinadiki 2019-yil o'gan yilga nisbatan 2,1 marta ko'p investitsiya jalb qilinib, bu ko'rsatkich 2020-yilga kelib o'tgan yilga nisbatan 1,1 marta ko'paygan, bu kutilgan natijadan past ko'rsatkich bo'lib Sovid–2019 ta'si natijasi deb izohlash mumkin.

Respublika hududlari bo'yicha ushbu ko'rsatkich dinamikasi bir xil darajada emas. Jumladan 2020-yilda barcha investitsiyalarning 26,4 foizi Toshkent shahri, 8,2 foizi Toshkent viloyatidagi kichik biznes subyektlaiga to'g'ri kelgan, ya'ni jalb qilingan investitsyalarning 34,6 foizi respublikaning markaziga to'g'ri keladi. Shu o'rinda to'xtalib o'tish kerakki, 2015–2019-yillar davomida ushbu markaziy hududlarning jami investitsiyalardagi ulushi 50 foiz atrofida bo'lgan. 2020 yilda investitsiyalarning jalb qilinishi bo'yicha yuqori salmog'i Jizzax 9041,7 mlrd. so'mni (11,7 foiz), Namangan 6555,4 mlrd. so'mni (8,5 foiz), Samarqand 7272,9 mlrd. so'mni (9,4 foiz) viloyatlarida amalga oshirilgan bo'lsa, eng kam ulushni Xorazm Qashqadaryo viloyatlari 4102,6 mlrd. so'm (jami

investitsiyalarning 5,3 foizi) hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi 1497,2 mlrd. so‘m (1,9) amalga oshirgan. Tahlil qilinayotgan davrda eng yuqori o‘sishi Toshkent shaxri (deyarli 50 marta), Jizzax 32,7 marta) hamda Navoiy viloyati (21,9 marta) viloyatlariga to‘g‘ri kelgan.

2021-yilda Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari orasida O‘zbekiston o‘z iqtisodiyotini ijobiy iqtisodiy o‘sishini davomli ta’minlashga erishgan o‘nlab mamlakatlatlardan biri bo‘ldi.O‘zbekiston iqtisodiyoti pandimiyadan oldingi davrda o‘rtacha yillik iqtisodiy o‘sishni ko‘rsatdi. Jahon inqirozi davri bo‘lishiga qaramay, iqtisodiyotimizning elastik tuzilishi ma’lum darajada o‘sish sur’atlarini saqlab qolish imkonini berdi. Birinchi navbatda qishloq xo‘jaligi pandimiya sharoitida jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan xatarlarga kamroq ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbekiston iqtisodiyotining lakamativi bo‘lgan sanoatning qazib chiqarish tarmog‘i va qayta ishlash sanoati bilan birgalikda pandimiya davrida iqtisodiy o‘sishni barqarorligiga ta’sir ko‘rsatdi. Ikkinchi muhim ishonchli dalil bu eksportning tuzilishi, ohirgi o‘n yilga kelib metal eksporti, birinchi o‘rinda, oltin va kumush sezilarli o‘sdi. Metalning narxi inqiroz davrida oshib bormoqda. Sovid–19 inqirozining jiddiy ta’siriga qaramasdan, inqirozdan oldingi yo‘lga qo‘yilgan liberal islohotlar 2020 va 2021-yillarda o‘sishni qo‘llab quvvatladi.

Biznesni kriditlash bilan bog‘liq vaziyat tadbirkorlar uchun keskinligicha qolmoqda. Kredit stavkalarining yuqoriligi va ko‘plab kreditlarning qisqa muddatga, tadbirkorlaga qulay bo‘lmagan shartlar bilan beriladi. Shuningdek, xorijiy valyutadagi kreditlar valyuta kursining doimiy tarzda o‘sishi hisobiga tadbirkor uchun xarajatlari oshishiga olib kelmoqda. bozor holati va iqtisodiy jarayonlardan kelib chiqqan holda, tadbirkorlar uchun uzoq muddatli va imtiyozli foiz stavkalarida kreditlash tizimini yaratish kerak. Pandemiya kichik biznes va aynan uning xizmat ko‘rsatish tarmog‘iga juda katta salbiy ta’siriri tufayli 2020-yilda berilgan imyozlarni joriy yillarda ham davom ettirish kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishining xalqaro tajribalari shuni ko‘rsatdiki, kichik biznes, birinchi navbatda ma’muriy nazoratga emas, balki moliyaviy va iqtisodiy qo‘llab-quvvvatlashga muhtoj.

Shunday ekan, kichik biznes uchun davlat kafolatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat kafolatlari o‘zida tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xatti-harakatlarni tizimli ravishda amalga oshirishlari, shuningdek, investor hisoblangan va yuridik shaxslar ro‘yxatidan o‘tishidan qat’i nazar investitsiyalarni himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini yaratishi kerak. Ushbu tizimning samarali ishlashi o‘z navbatida mintaqa hududida investitsion faoliyat olib borayotgan barcha investorlarga taqdim kilinadi.

Kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida to‘plangan ilg‘or xorijiy va respublikamizda to‘plangan tajribalarni umumlashtirgan holda kelgusida mazkur sektorni yanada rivojlantirish borasida quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin:

- kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlashning tashkiliy, axborot, huquqiy, kadrlar va moliyaviy ta’minlash borasidagi institutsional asoslarini yanada takomillashtirish;
- sohada davlat va jamoat tashkilotlari, xususiy sektorning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish;
- yirik va kichik biznesning o‘zaro samarali hamkorlik sohasi sifatidagi sanoat hududlarini tashkil etish va ular faoliyati samaradorligini oshirish;
- soliqqa tortishning faoliyat sohasini (asosiy e’tibor ilmtalab va ekologik texnologiyalarga qaratilgan), tadbirkorlarning ijtimoiy maqomini(muayyan imtiyozlar yoshlarga, ayollarga, nogironlar, pensionerlarga) va mintaqalarni rivojlantirish (qoloq mintaqalar uchun imtiyozlar)ni hisobga olgan tarzda tabaqalashtirish.

Adabiyotlar:

1. Link, David F., et al. “Management techniques for non-traditional network and information system topologies”. U.S. Patent No. 9,537,731. 3 Jan. 2017
2. Yu.M. Sulejmanova, Management of Economic Stability of an Enterprise in the Process of its Innovative Development, Journal of Creative Economy. (2013) 89–95.
3. Львова Н.А. Финансовая стабильность предприятий: методология фундаментальных и прикладных исследований. / Дис. ... доктора экон. наук. – Санкт-Петербург, 2016
4. Добровинский А.П.Антикризисное управление организацией: учебное пособие; Национальный исследовательский Томский политехнический университет. – Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2013
5. E.V. Budumjan, Development of innovative and investment processes as objective need of modernization of industrial manufacture, Scientific works of Free economic society of Russia. (2011) 75–80.
6. E.Sh. Narzullayev. Pandemiyaning ijtimoiy tadbirkorlik sohasini mamlakatimizda rivojlanishiga ta’siri. Globallashuv sharoitida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishning dolzarb masalalari. II tom. NamMTI 5-16 aprel 2022-y. 22-25-b.

IQTISODIY INQIROZ DAVRIDA KREDIT XIZMATLARI BOZORINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING XORIJIY MODELLARI

Kurbonov Rustam Radjabovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiy inqiroz davrida kredit xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy modellari haqida bahs yuritiladi. Muallifning e'tiroficha, xorijiy mamlakatlar hukumatlari kredit tashkilotlarini kapitallashtirish va qayta moliyalashtirish orqali ularning likvidligini saqlashda faol ishtirok etadilar. Bunday tartibga solishning yorqin misoli Fransiya, Chili tajribasi, Singapur va Gonkong modellari bo'lib, ular davlatning yuqori darajadagi aralashuvini tartibga solish taktikasi bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashtirishga asoslangan edi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy inqiroz, kredit xizmatlari bozori, davlat, tartibga solish, modellar, kredit tashkilotlari, kapitallashtirish, qayta moliyalashtirish.

Abstract: The article discusses foreign models of state regulation of the credit services market during the economic crisis. According to the author, the governments of foreign countries took an active part in maintaining the liquidity of credit organizations by capitalizing and refinancing them. A clear example of such regulation is the experience of France, Chile, Singapore, and Hong Kong, which were based on the successful combination of high–level state intervention with regulatory tactics.

Key words: economic crisis, credit services market, state, regulation, models, credit institutions, capitalization, refinancing.

Аннотация: В статье рассматриваются зарубежные модели государственного регулирования рынка кредитных услуг в условиях экономического кризиса. По мнению автора, правительства зарубежных стран принимали активное участие в поддержании ликвидности кредитных организаций путем их капитализации и рефинансирования. Ярким примером такого регулирования является опыт Франции, Чили, Сингапура и Гонконга, который основывался на успешном сочетании государственного вмешательства на высоком уровне с тактикой регулирования.

Ключевые слова: экономический кризис, рынок кредитных услуг, государство, регулирование, модели, кредитные организации, капитализация, рефинансирование.

KIRISH

Kredit xizmat faoliyatining mohiyati va iqtisodiyotdagi roli haqidagi zamonaviy g'oyalar kredit bozorini tartibga solishning institutsional asoslarini belgilaydi. Shu bilan birga, har bir mamlakatda tartibga solishning o'z qonunchiligi va boshqaruv organlari tizimining o'ziga xos institutsional modeli mavjud. Uning samarali faoliyat ko'rsatishi va muvaffaqiyatli rivojlanishi ko'p jihatdan davlat kredit xizmatlari bozorini, xususan, bank inqirozini tartibga solish uchun qaysi institutsional modelni tanlashiga bog'liq. Shunday qilib, banklar hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlarni amalga oshiruvchi, butun iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xos uzatish mexanizmi sifatida ishlaydi. Shu bilan birga, zamonaviy davlatlarning hukumatlari banklar va ularning birlashmalarining talablarini hisobga olishga majbur bo'lib, ular aslida mamlakatdagi barcha iqtisodiy jarayonlarga norasmiy ta'sir ko'rsatadi [2, 11-b.].

Tajriba ko'rsatganidek, rivojlangan mamlakatlar hukumatlari tomonidan qo'llanilgan tartibga solish amaliyoti ham o'zini oqlamadi, chunki so'nggi paytlarda zamonaviy jahon kredit bozori tizimi ancha murakkablashdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

I. Miksasyuk iqtisodiy diktatura joriy etilgunga qadar iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning qat'iy usullarini yoqlaydi [3, 43–45-b.]. Aynan shunday sharoitda, olimning fikricha, davlatning iqtisodiy hayotidagi salbiy hodisa va jarayonlarni qisqa vaqt ichida bartaraf etish mumkin. Inqiroz davrida bozor qila olmaydigan narsani davlat o'z qo'liga olishi kerak.

R. Verner kreditlarni taqsimlashda shaffoflikni ta’minlash bilan birga markaziy bank tomonidan qattiq kredit nazorati va bank kreditlariga miqdoriy cheklashlar kiritilishi tarafdori. Uning fikricha, iqtisodiyotni ortiqcha kreditlash “bank inqirozlarining takrorlanish anomaliyasini” keltirib chiqaradi va kredit resurslarini taqsimlashni to‘g‘ri tartibga solish bank inqirozlarining oldini oladi yoki ularning oqibatlarini yumshatadi [5, 184-b.].

Xoang Lan Xa tomonidan o‘tkazilgan ekonometrik tahlil shuni ko‘rsatdiki, shartnomaviy munosabatlarning sud himoyasi yaxshi ta’minlangan mamlakatlarda xususiy sektorga berilgan kreditlarning ulushi yuqori bo‘lgan bank sektori kattaroqdir [6, 15-b.].

Biroq J. Barta va J. Kaprio tomonidan olib borilgan statistik tadqiqotlar qat’iy cheklovlar bank inqirozlari ehtimolini kamaytirmasligini isbotladi. Bundan tashqari, ellikta mamlakatdan olingan ma’lumotlarning namunasi shuni ko‘rsatdiki, faqat zaif hukumatlar qattiq tartibga solish usullaridan foydalanadilar [9, 20-b.].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada bank kredit tashkilotlari asosiy moliyaviy vositachi bo‘lib, tadqiqotimizda asosiy o‘rinni egallashini hisobga olib, kredit xizmatlarini davlat tomonidan tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilovchi banklar va bank tizimining ayrim xususiyatlariga to‘xtalib o‘tamiz. Iqtisodiy inqiroz davrida kredit xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy modellari guruhlash, solishtirma tahlil, tanlama kuzatuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy globallashuvning hozirgi bosqichida milliy nazorat qiluvchi institutlarning raqobati sezilarli darajada oshdi. Normativ arbitraj imkoniyati, ya’ni investorlar va boshqa bozor ishtirokchilarining bank faoliyatini tartibga solishning muayyan normalari bilan bog‘liq xarajatlarini minimallashtirish individual operatsiyalarning rentabelligiga va tanlangan investitsiya muhitini baholashga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli, milliy raqobatbardoshlikni mustahkamlash uchun moliya institutlarining sifatini oshirish zarur [2, 56-b.].

Ma’lumki, pandemiya va 2008-2009-yillardagi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz tajribasi bank sektorini, xususan, kredit sektorini davlat tomonidan tartibga solish zarurligini yaqqol ko‘rsatdi [2, 56-b.].

Ta’kidlash joizki, uzoq yillardan buyon nafaqat davlatning kredit sohasiga aralashuvi zarurligi, balki bunday aralashuv darajasi haqida ham qizg‘in bahs-munozaralar olib borilmoqda. Shunday qilib, ba’zi olimlar kredit bozorini tartibga solishda davlatning hal qiluvchi ta’siri tarafdori bo‘lsa, boshqalari uni bozor mexanizmlari orqali o‘zini o‘zi tartibga solishni afzal ko‘radi. Kredit bozorini davlat tomonidan tartibga solish muhim deb hisoblaydigan olimlar va amaliyotchi bankirlar ko‘pchilikni tashkil qiladi, ammo ular orasida ham hukumatning ta’sir darajasi bo‘yicha birlik yo‘q.

Ko‘rib turganimizdek, kredit xizmatlari bozorini davlat tomonidan tartibga solish darajasi bo‘yicha muvozanatli yechim topish zarur, bu inqiroz hodisalari ehtimolini bartaraf qiladi, lekin ayni paytda mamlakatdagi iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga to‘sqinlik qilmaydi. Bunday tartibga solishning yorqin misoli Fransiya, Chili tajribasi, Singapur va Gonkong modellari bo‘lib, ular davlatning yuqori darajadagi aralashuvini tartibga solish taktikasi bilan muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirishga asoslangan edi [2, 7-b.].

Ikkinchidan, bank kredit tashkilotlari kredit bozorini davlat tomonidan tartibga solishning samarali vositasi hisoblanadi. Bu tartibga solish davlat tomonidan ham markazlashgan holda amalga oshiriladi, shuningdek, rentabellik va xavfsizlik, kredit resurslarini taqsimlash nuqtayi nazaridan eng oqilona manfaatdor bo‘lgan banklarning o‘zlari darajasida amalga oshiriladi [4, 57-b.].

Biroq, jahon tajribasidan ko‘rinib turibdiki, “ratsional” tushunchasi har bir bank uchun har xil bo‘lishi mumkin. Agar samarasiz muassasaning faoliyat yuritish jarayonida ushbu muassasadan katta foyda oladigan agentlar bo‘lsa, u foyda keltirar ekan, u mavjud bo‘ladi. Bunga yorqin misol qilib aytganda, inflyatsiya qilingan derivativlar bozoridir. Ba’zi hisob–kitoblarga ko‘ra, erkin bozorni boshqarish jarayonida paydo bo‘lgan “qabariq” – derivativlar bozori pul ko‘rinishida real jahon iqtisodiyoti hajmidan kamida 10 baravar oshib ketgan. Shunday qilib, samarasiz institutlarning rivojlanishi va sifatsiz institutsional muhitning shakllanishi ham davlat, ham xalqaro miqyosda nafaqat kredit inqiroziga, balki iqtisodiy halokatga ham olib kelishi mumkin [2, 57-b.]. Shunday qilib, xorijiy mamlakatlardagi moliyaviy inqirozning birinchi ko‘rinishlari bank muassasalaridan xorijiy bank kapitalining chiqib ketishiga olib keldi, bu ikkinchisining likvidligini xavf ostiga qo‘ydi va kreditlashning o‘sish sur’atlarining pasayishiga yordam berdi. Shu sababli, kredit xizmatlarini davlat tomonidan tartibga solish tizimli xavfni kamaytirish va bank tizimi va butun mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta’minlash maqsadida joriy etiladi [5, 58-b.].

Bank ishi nazariyasi bank faoliyatini tartibga solishning ikkita asosiy modelini o‘z ichiga oladi. Bitta model na omonatchilarni, na kreditorlarni himoya qilmaydi. Ikkinchi modelda kreditorlar va omonatchilarning mablag‘lari himoya qilinadi. Himoya choralari markaziy bank tomonidan taqdim etiladigan diskont xizmatlari orqali

amalga oshiriladi, depozitlarni sug‘urtalash, jismoniy shaxslarning omonatlari uchun kafolatlarning ayrim turlarini taqdim etish va boshqalar [7, 21–22-b.].

Birinchi modelning afzalliklari shundaki, birinchidan, bozor sharoiti banklarni o‘z faoliyatini yanada mas’uliyat bilan amalga oshirishga majbur qiladi, bank risklarini cheklaydi va kapitalni ko‘paytiradi, ikkinchidan, bank to‘lovga layoqatsiz bo‘lgan taqdirda soliq to‘lovchilar zarar ko‘rmaydi, zararlar kreditorlar va kreditorlar o‘rtasida taqsimlanadi. Ushbu tizimning kamchiliklari shundaki, tajribasiz omonatchilar tanlangan bankda risklarni boshqarish darajasi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lmasa, o‘z jamg‘armalarini yo‘qotishi mumkin va bu model o‘z vaqtida omonatchilar tomonidan banklardan mablag‘larni ommaviy olib qo‘yishdan himoyalanmagan. Ikkinchi modelda ko‘rsatilgan kamchiliklar yo‘q. Ushbu modelda barcha omonatchilar tegishli yordamga ishonishlari mumkin, depozitlarni ommaviy olib qo‘yish ehtimoli kamroq va to‘lov tizimi yaxshiroq himoyalangan. Shu bilan birga, ushbu modelning kamchiliklari bor. Bunday modelda mablag‘larni noto‘g‘ri qayta taqsimlash xavfi yuqori bo‘lib, bu soliq to‘lovchilar uchun yo‘qotishlarga olib keladi, bu esa, barcha kafolatlarning asosini tashkil qiladi [8, 84-b.].

G‘arb mamlakatlari omonatlar va to‘lov tizimlarini himoya qilish jarayonida yuzaga keladigan muhim ma’naviy muammolardan qat’i nazar, bank faoliyatini tartibga solishning ikkinchi modelini qabul qildi. Bu mamlakatlarda ortiqcha tavakkalchilik, firibgarlik, mablag‘larni samarasiz taqsimlashning salbiy oqibatlarini cheklaydigan, banklarning barqaror faoliyatini ta’minlovchi tizimning afzalliklarini saqlab qolgan holda bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yaratish masalasi keskinlashdi.

Jahon amaliyotida yuqorida qayd etilgan modellar o‘zgarishi mumkin, chunki har bir mamlakat bank faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish vositalarini (qonun hujjatlari, tartibga solish va nazorat qiluvchi organlarning vakolatlari va boshqalar) yetarli darajada ishlab chiqadigan va qo‘llaydigan o‘z modelini yaratishga harakat qiladi. Islom banklariga foiz evaziga kredit berish taqiqlanadi, shu sababli ushbu muassasalar qarz oluvchining foyda va zararlarida ishtirok etish tamoyili asosida ishlaydi.

Bank faoliyatiga bunday yondashuv 60–70–yillarda vujudga kelgan. O‘tgan asr 2000-yilgacha dunyoda 40 ta davlatda 150 dan ortiq banklar mavjud bo‘lib, ularning faoliyati pul munosabatlarining islom an’analariga asoslanadi.

Aytish joizki, islomiy tamoyillar asosida bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklar islom mamlakatlarida (Eron, Pokiston, Sudan, Malayziya) nafaqat davlat darajasida faoliyat yuritadi. Ular, shuningdek, ba’zi musulmon bo‘lmagan mamlakatlarning, jumladan, Evropa va Amerikaning bank tizimlarida ishlaydi.

Islom an’analariga asoslangan bank tizimlari va bank faoliyatining mavjudligi kredit munosabatlari va kredit tashkilotlari faoliyatining ko‘p qirraliligi haqidagi xulosani tasdiqlaydi.

Ta’kidlash joizki, kredit xizmatlari bozorini tartibga soluvchi davlat organlari bozor faoliyatining institutsional muhitiga qarab tuziladi. Shunday qilib, AQSH kredit xizmatlarini tartibga solishning asosiy subyekti Federal rezerv tizimi (FED); Italiyada – ma’muriy jihatdan G‘aznachilik bilan bog‘liq bo‘lgan kredit va jamg‘armalar bo‘yicha vazirliklararo qo‘mita; Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Germaniya va Polshada umuman yagona moliyaviy regulyator – “mega–regulyator” mavjud.

So‘nggi yillarda Armaniston, Belarus, Qozog‘iston va Rossiya kabi 20 dan ortiq davlatlarning markaziy banklari bank kreditlash shartlari bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazmoqda.

Xorijiy mamlakatlar hukumatlari kredit tashkilotlarini kapitallashtirish va qayta moliyalashtirish orqali ularning likvidligini saqlashda faol ishtirok etdilar. Bu borada Buyuk Britaniya tajribasi qiziq.

Buyuk Britaniya hukumati 2019-yil 10 milliard funt sterling miqdorida moliyaviy in’ektsiya qildi. Shuningdek, Britaniya hukumati kreditlash hajmini oshirish evaziga aktivlarga davlat kafolatlarini berishni nazarda tutgan. Shunday qilib, Shotlandiya Qirollik banki davlat kafolatlari evaziga 325 milliard funt sterling miqdorida kapitalni taqsimlagan.

Germaniyada kredit bozorini barqarorlashtirish maxsus jamg‘armasi tashkil etilgan bo‘lib, uning faoliyati bank kredit tashkilotlarini kafolatlash va qayta moliyalashtirish imkoniyatini ta’minladi. Bu fond qisman davlat tomonidan, qisman esa xususiy investorlar hisobidan moliyalashtirildi, bu esa soliq to‘lovchilarga yukni kamaytirish imkonini berdi [7, 72-b.].

Bundan tashqari, 2018-yilda Germaniya Bundestagi iqtisodiy rag‘batlantirish rejasini tasdiqladi, unga ko‘ra Germaniyaning kreditor banklariga hukumatning yordam paketi kreditlar va kafolatlar bo‘yicha hukumat dasturini o‘z ichiga oladi. Ushbu dastur aholining iste’mol talabini va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, ikkita asosiy blokdan iborat edi:

- o‘rta sinfga qaratilgan, 15 milliard evrogacha mablag‘ sarflashni o‘z ichiga olgan kredit dasturi;
- 25 milliard yevro katta hajmdagi yirik korxonalar uchun kredit dasturi.

Muammoli qarzlarga qarshi kurash banklardan sezilarli resurslarni (moliyaviy, insoniy, texnik) olib qo‘yadi, bu esa pirovardida ularning faoliyatining moliyaviy natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Aynan shuning uchun

ham dunyoning ko‘plab davlatlarining davlat nazorat organlarining kun tartibida banklarning muammoli aktivlarini boshqarish masalalari mavjud.

Rossiya, Vengriya, Meksika, Argentina, Urugvay, Buyuk Britaniya va AQSHning xorijiy tajribasi tahlili inqiroz sharoitida bank kreditlarini restrukturizatsiya qilish uchun asosan quyidagi chora-tadbirlardan foydalanilishini ko‘rsatdi:

- muammoli kreditlarni sotib olish;
- kreditlar bo‘yicha foiz stavkalarini pasaytirish;
- kredit muddatini uzaytirish;
- qarzning asosiy summasini kamaytirish (qarzni hisobdan chiqarish);
- valyuta kreditlarini konvertatsiya qilish.

Muammoli aktivlarni sotib olish va ularni alohida boshqaruv kompaniyasida mahalliylashtirish amaliyoti xorijiy mamlakatlarda, xususan, Polsha, Litva, Qozog‘iston, Xitoyda keng qo‘llaniladi. Depozitlarni sug‘urtalash kompaniyalari, markaziy banklar yoki aktivlarni boshqarish kompaniyalari (AMC) bunday kompaniyalar sifatida harakat qilishlari mumkin.

Markazlashtirilgan yondashuv muammoli banklarni tizimli bank inqirozidan chiqarishda, markazlashmagan yondashuv esa alohida banklarning kreditlarni qaytarishda qiynalayotgan muammoli aktivlari bilan ishlashda oqlanadi. “Yomon” aktivlarni sotib olish dasturi banklarni kapitallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan birga keladi. Bu yerda banklarning muammoli aktivlarini investitsiya jamg‘armasining qimmatli qog‘ozlari bilan almashtirgan Argentina, Braziliya va Shvetsiya tajribasi e’tiborga loyiqdir. Ushbu operatsiya tufayli kredit tashkilotlari kreditlar uchun katta zaxiralarni to‘plamaslik imkoniyatiga ega bo‘ldilar va shu tariqa kreditlash uchun milliardlab mablag‘larni bo‘shatdilar.

Ta’kidlash kerakki, investitsiya jamg‘armasi bankdan farqli o‘laroq, qarzlarni undirish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega, bundan tashqari, bunday operatsiya muammoli kreditlarni qayta tuzishni uzoqroq muddatga uzaytirish imkonini beradi va shu orqali bank kredit sektorining joriy likvidligini yaxshilaydi [5, 22-b.].

Muammoli aktivlarni sotib oluvchi davlat ularning sifatini yanada yomonlashtirmaslik va budjetga yukni kamaytirish maqsadida ularni amalga oshirish bo‘yicha zudlik bilan choralar ko‘rishi shart. Bank kreditlari bo‘yicha foiz stavkalarini pasaytirish tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab–quvvatlashning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Inqiroz sharoitida AQSh Fed kredit stavkalarini pasaytirish choralarini ko‘rdi, ya’ni u sezilarli miqdorda ipoteka obligatsiyalarini (MBS) sotib oldi.

Foiz stavkasini budjet mablag‘lari hisobidan kompensatsiya qilish orqali ham kamaytirish mumkin. Turli mamlakatlarda foiz stavkasini qoplash mexanizmi muayyan sharoitlarga qarab har xil. Shunday qilib, Avstraliyada imtiyozli kredit stavkasi va budjet kompensatsiyasining hajmi bevosita bank foiz stavkasiga bog‘liq, Fransiyada imtiyozli stavka qat’iy belgilangan va bank stavkasi faqat budjet kompensatsiyasi miqdoriga ta’sir qiladi. Germaniyada ikkala ko‘rsatkich ham barqaror [9, 139-b.].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kredit xizmatlari bozorini inqirozli tartibga solishning xorijiy modellarini o‘rganish asosida eng mosini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin, xususan:

- kredit xizmatlari bozorini deregulyatsiya taktikasi bilan davlat tomonidan tartibga solishning yuqori darajasining kombinatsiyasi;
- kredit xizmatlarini ko‘rsatishda nopok xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik, ushbu vazifani amalga oshirish, bu vazifani jismoniy shaxslarning omonatlarini kafolatlash jamg‘armasiga yuklash;
- birinchi navbatda, nafaqat bank tizimini, balki bank ixtisoslashgan iqtisodiyot tarmog‘ini ham qo‘llab-quvvatlash maqsadiga ega bo‘lgan, hayotiy rivojlanish konsepsiyasiga ega yirik filial bank muassasalarini qayta kapitallashtirishni amalga oshirish;
- milliy ishlab chiqaruvchilarning tovar va xizmatlarini imtiyozli kreditlash rejimlarini joriy etish, bu esa, iste’mol kreditlarini va shunga mos ravishda milliy ishlab chiqaruvchini qo‘llab-quvvatlash;
- qisman davlat va qisman xususiy investorlar hisobidan moliyalashtiriladigan, soliq to‘lovchilar yukini kamaytiradigan, shuningdek, davlat imtiyozli kreditlash dasturlarini amalga oshirishga xizmat qiladigan kreditni qo‘llab-quvvatlashni barqarorlashtirish jamg‘armasini tashkil etish;

- davlat imtiyozli kreditlash dasturlarini amalga oshirishda hujjatlashtirilgan davlat kafolatlarini taqdim etish;
- davlat va xususiy investorlar ishtirokida muammoli aktivlarni boshqaruvchi kompaniyalarni tashkil etish;
- bank tizimining holati to‘g‘risida xabardor qilish, tartibga soluvchining xatti-harakatlari haqida tushuntirishlar berish orqali davlat tomonidan tartibga soluvchi organlar va kredit xizmatlari iste’molchilari o‘rtasida ochiq hamkorlik siyosatini amalga oshirish, tolerant munosabatda bo‘lish, bu esa, kreditni muddatidan oldin olib qo‘yishni mutlaq taqiqlashdan iborat emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normurodov X.E. Iqtisodiy inqirozlarga ta’sir modellari tavsifi, Иқтисод ва молия / Экономика и финансы, 2023, 9 (169), 8–14 –б
2. Москвичева О.С. Влияние государственного регулирования на рынок кредитных услуг в условиях глобализации // Экономика и финансы. – 2014. – №4. – С. 55–59.
3. Михасюк И.Р. Государственное регулирование экономики в условиях глобализации: монография /; По наук. ред.д–ра эконом. наук, проф., Акад. АН Высшей школы Украины. –Львов: НПФ, 2010. – 320 с
4. Karimov N.G‘. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozormexanizmini joriy etish masalalari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2007. – 240 b.
5. Werner R.A. New Paradigm in Macroeconomics: Solving the Riddle of Japonese Macroeconomic Performance; New York: Palgrave Macmillan, 2005. – 423 p.
6. Стиглиц Дж. Многообразнее инструменты, шире цели: движение к Пост–Вашингтонскому консенсусу, // Вопросы экономики. – 1998. – №8. –
7. Симпсон Т.Д. Основные вопросы регулирования деятельности коммерческих банков / // Деньги и кредит. – 1993. – №3. – С. 20–25.
8. Лобозинская С.М. Государственное регулирование банковской системы: монография. – М:, 2010. – 416 с.
9. Москвичѐва Е.С. Институциональные основы государственного регулирования кредитных отношений / Scientific letters of international academic society of Michal Baludansky. – 2012. – Vol.1, No.2/2012. – p. 4–6
10. Егоров А.В. Анализ и мониторинг условий банковского кредитование // Деньги и кредит. – 2010. –№10. – С. 16–22.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA KONSEPSIYALARI VA UNING AHAMIYATI

Abdurahmonov Abdumalik Abdurashidovich
Raqamli Iqtisodiyot kafedrasi PhD tadqiqotchisi, TDIU

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda raqamli transformatsiyaning o‘rni va rivojlanishi, davlatning YAIMga hissasi, davlat boshqaruv organlarida raqamlashtirilganlik darajasi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti “Elektron hukumat” (EDGI) reytingi tahlil qilingan va tasvirlab berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, raqamlashtirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), “Raqamli O‘zbekiston – 2030”.

Abstract: This article analyzes and describes the role and development of digital transformation in Uzbekistan, the contribution of the state to GDP, the digital level in state governing bodies and the rating of the United Nations “e-government” (EDGI).

Key words: Digital transformation, digitalization, information communication technologies (ICT), “Digital Uzbekistan – 2030”.

Аннотация: В данной статье анализируется и описывается роль и развитие цифровой трансформации в Узбекистане, вклад государства в ВВП, уровень цифровых технологий в органах государственного управления и рейтинг Организации Объединенных Наций “электронное правительство” (EDGI).

Ключевые слова: Цифровая трансформация, цифровизация, информационно–коммуникационные технологии (ИКТ), “Цифровой Узбекистан - 2030”.

KIRISH

Raqamli transformatsiya bugungi kunda tobora muhim mavzuga aylanib borayotganligi sababli texnologiyaninh tez sur’atlarda o‘zgarishi bilan kompaniyalar raqobatbardosh bo‘lish uchun o‘zlarining biznes modellarini moslashtirishlari va rivojlantirishlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Raqamli transformatsiyaning afzalliklari samaradorlikni oshirishdan tashqari, mijozlar tajribasini yaxshilash va daromadni oshirishgacha bo‘lgan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Biroq muvaffaqiyatli raqamli transformatsiyaga erishish murakkab jarayonlarni qamrab oladi va ko‘plab kompaniyalar raqamli transformatsiyani amalga oshirishda katta qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

Raqamli transformatsiya jamiyatning barcha jabhalariga, ayniqsa, mamlakat iqtisodiyotiga va yangi tarmoq istiqbollarini, biznes modellarini, qiymat zanjirlarini ochish, mijozlar talablarini qondirish, xizmatlarni yanada samarali taqdim etish, turli potentsial sheriklar o‘rtasidagi hamkorlik va ma’lumotlar almashishga ta’sir qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI

Kompaniyaning raqamli transformatsiyasini tahlil qilishdan oldin, “raqamli” so‘zi nimani anglatishini tushunish juda muhimdir. McKinsey ta’rifiga ko‘ra “raqamli “ uchta asosiy funksiyaga ega:[1]

- biznes dunyosining yangi yo‘nalishlarida qiymat yaratish;
- mijozlar tajribasiga bevosita ta’sir qiladigan jarayonlarni optimallashtirish;
- biznes tashabbusini qo‘llab-quvvatlaydigan asosiy imkoniyatlarni yaratish;

Shuningdek, tadqiqotimizda raqamli transformatsiyaning turli xil ta’riflari quyidagi jadvalda o‘rganildi:

1 Digital consulting | McKinsey & Company | McKinsey Digital | McKinsey & Company

1-jadval: Raqamli transformatsiyaning turli xil ta'riflari

Manba	Ta'rif
Westerman et al. (2011[1])	"Raqamli transformatsiya – korxonalarning ish faoliyatini yoki imkoniyatlarini tubdan yaxshilash uchun texnologiyadan foydalanish–butun dunyo bo'ylab kompaniyalar uchun dolzarb mavzuga aylanmoqda. Barcha sohalardagi rahbarlar analitik, mobillik, ijtimoiy media va aqlli o'rnatilgan qurilmalar kabi raqamli yutuqlardan foydalanmoqdalar va mijozlar bilan munosabatlarni, ichki jarayonlarni va qiymat takliflarini o'zgartirish uchun ERP kabi an'anaviy texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirmoqdalar"
Bouee´ and Schaible (2015[2])	"Biz raqamli transformatsiyani iqtisodiyotning barcha tarmoqlarining izchil tarmog'i va raqamli iqtisodiyotning yangi voqeliklariga moslashtirish sifatida tushunamiz. Tarmoqli tizimlardagi qarorlarga ma'lumotlar almashinuvi va tahlil qilish, variantlarni hisoblash va baholash, shuningdek, harakatlarni boshlash va oqibatlarni kiritish kiradi"
Mazzone (2014[3])	"Raqamli transformatsiya – bu strategik va taktik jihatdan kompaniya, biznes modeli, g'oyalar jarayoni yoki davom etayotgan raqamli evolyutsiyasi"
Bozorov Furqat Odilovich (2023)[4]	"Raqamli transformatsiya – keng ma'noda, bu raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali strategiya, modellar, operatsiyalar, mahsulotlar, marketing yondashuvi va maqsadlarini qayta ko'rib chiqish orqali boshqaruv tizimini o'zgartirishdir. Bu savdo, biznes va umuman iqtisodiyotning o'sishini tezlashtirish, shuningdek, notijorat tashkilotlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi."
Michael Wade (2020)[5]	"Raqamli transformatsiya – bu biznes jarayonlarini, mijozlar tajribasini va biznes modelini takomillashtirish maqsadida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda yangi o'zgarishlarga raqobatbardosh bo'lish uchun rivojlanish jarayoni."
Грибанов Ю.И. (2019)[6]	"Raqamli transformatsiya – bu korxonaning biznes jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish. Ushbu yondashuv nafaqat zamonaviy apparat yoki dasturiy ta'minotni o'rnatishni, balki menejment, korporativ madaniyat va tashqi aloqa yondashuvlarida tub o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi. Natijada, har bir xodimning mahsuldorligi va mijozlar ehtiyojini qondirish darajasi oshadi va kompaniya ilg'or va zamonaviy tashkilot sifatida obro'ga ega bo'ladi".

1 Westerman G, Calme´jane C, Bonnet D, Ferraris P, McAfee A (2011) Digital transformation: a roadmap for billion-dollar organizations (PDF). MIT Center for Digital Business and Capgemini Consulting, Paris
2 Boue´e CE, Schaible S (2015) Die Digitale Transformation der Industrie. Roland Berger Strategy Consultans und Bundesverband der Deutschen Industrie e.V., Berlin
3 Mazzone DM (2014) Digital or death: digital transformation: the only choice for business to survive smash and conquer. Smashbox Consulting
4 Базаров Фуркат Одилович/"Экономика и социум" №4(107) 2023/Сущность цифровой трансформации и ее роль в развитии экономики регионов.
5 Micheal Wade (2020)/ "Digital Vortex: How Today's Market Leaders Can Beat Disruptive Competitors at Their Own Game" Michael Wade (imd.org).
6 Грибанов Ю.И., Шатров А.А. Сущность, содержание и роль цифровой трансформации в развитии экономических систем // Вестник Алтайской академии экономики и права. – 2019. – № 3-1. – С. 44-48.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolamizni yozish uchun olib borilgan tadqiqot jarayonida ilmiy kuzatish, mavhum-mantiqiy fikrlash, qiyosiy va tizimli tahlil, tahlil va sintez, tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya usullari qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR


Bugungi kunda raqamli transformatsiya biznesning turli sohalarida keng qo'llanilmoqda, chunki bu korxonalarga mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash va ularning xatti-harakatlarini tushunish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan mijozlar ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu ma'lumotlardan mijozlar ehtiyojlari to'g'risida bashorat qilish uchun ham foydalanish mumkin, bu esa biznesning raqobatbardosh bo'lishiga va yangi xizmatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun, muvaffaqiyatli biznes modelini raqamlashtirish uchun, birinchidan, dastlabki vaziyat va muammoga mos yechimni qo'llash uchun bir kompaniya tahlil qilinishi kerak, keyin maqsad va yechimlar usuli oldinga qo'yiladi, nihoyat, raqamlashtirish rejasi amalga oshiriladi.[2]

2 Daniel R. A. Schallmo & Christopher A. Williams (auth.) 2018. Digital Transformation Now: Guiding the Successful Digitalization of Your Business Model. https://www.pdfdrive.com/digital-transformation-now-guiding-the-successful-digitalization-of-your-business-model-e158455095.html

Raqamli transformatsiya – bu tashkilotlarning o‘z operatsiyalarini o‘zgartirish va mijozlarga yaxshiroq xizmat ko‘rsatadigan yangi biznes modellarini yaratish uchun raqamli texnologiyalarni qabul qilish jarayonini tavsiflash uchun ishlatiladigan atama hisoblanadi. Texnologik o‘zgarishlarning ortib borayotgan sur’ati bilan raqamli transformatsiya kompaniyalar uchun o‘z sohalarida raqobatbardosh va dolzarb bo‘lib qolishning asosiy strategiyasiga aylandi.


Raqamli texnologiyalarni qo‘llagan va biznes modellarini shunga mos ravishda moslashtirgan kompaniyalar o‘z faoliyatida sezilarli yaxshilanishlarni, shuningdek, mijozlar ehtiyojini qondirish va mijozlarni sodiqligini oshirish kabi foydali natijalarga erishishdi. Misol uchun, raqamli marketing strategiyalarini amalga oshirgan kompaniyalar yangi auditoriyalarni qamrab olish va mijozlar bilan yanada samarali muloqot qilish imkoniga ega bo‘lishdi, ta’minot zanjiri operatsiyalarini raqamlashtirganlar esa samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirishga muvaffaq bo‘lishdi.

So‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni joriy etish dunyoning yetakchi mamlakatlari iqtisodiyotining o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, makro darajada bu butun mamlakat iqtisodiyotining o‘sishiga ta’sir qiladi. Jahon bankining prognoziga ko‘ra, 2030-yilga kelib raqamli texnologiyalarning jahon yalpi ichki mahsulotining o‘sishiga qo‘shgan hissasi taxminan 30% ni tashkil qiladi.



1-rasm: Raqamli texnologiyalarning global YAIM o‘sishiga qo‘shgan hissasi % da[3]

Mamlakatimizda AKT sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatining O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining (YAIM) umumiy hajmiga nisbatiga nazar soladigan bo‘lsak, 2017-yilda ushbu ko‘rsatkich 2,069% ga eng yuqori darajaga yetganini va keyin yana pasayishni boshlaganini ko‘rish mumkin. Shunga qaramay, ko‘rsatkich 2022-yilda 1,863% gacha ko‘tarildi. 2023-yilda esa mazkur ko‘rsatkich 1,9 % ni tashkil etdi.[4]



2-rasm: Axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sektorida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (yillik)[5]

3 World Bank. World development report 2016: Digital dividends. – 2016. [Электронный ресурс] – Режим доступа: https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2016.
4 https://stat.uz/img/press-relizlar/02_-vvp_press-reliz-2023-g__uzb.pdf
5 siis (stat.uz)

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Raqamli transformatsiya elektron hukumatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Har 2 yilda bir marta Birlashgan Millatlar Tashkiloti Iqtisodiy va ijtimoiy ishlar departamenti (UN DESA) tomonidan olib boriladigan Elektron hukumat so'rovnomasi (E-government Survey)ning navbatdagi natijasi e'lon qilindi. Bunda 2020-yil 87-o'rinda bo'lgan O'zbekiston, 2022-yilda BMTga a'zo 193 ta davlat orasida 69-o'rinni egallab, 2020-yilga nisbatan 18 pog'onaga ko'tarildi.

EGDI – elektron hukumat rivojlanishini baholash uchta yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

- Onlayn xizmatlarni taqdim etish (online service index – OSI);
- Telekommunikatsiya infratuzilmasi (telecommunication infrastructure index – TII);
- Inson kapitali (human capital index – HCI).

Amalga oshirilgan ishlar natijasi o'rganilganda 2022-yil O'zbekistonning EGDI ko'rsatkichi 0,72 /69 o'rinni (2020-yilda – 0,66 / 87-o'rin) tashkil etib, dunyo bo'yicha o'rtacha 0,60 dan yuqoriladi.

Sezilarli o'zgarish telekommunikatsiya infratuzilmasi subindeksida kuzatildi. Bunda telekommunikatsiya subindeksi 0.47 dan 0.65 ga ko'tarildi. Shuningdek, inson kapitali indeksida ham 0,77 ga o'sish kuzatildi (2020-yilda – 0,74).[6]

1-jadval: O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti "Elektron hukumat" (EDGI) reytingi[7]

Country	Rating class	EGDI rank	Subregion	OSI value	HCI value	TII value	EGDI (2022)	EGDI (2020)
Kazakhstan	V3	28	Central Asia	0.9344	0.9021	0.7520	0.8628	0.8375
Armenia	HV	64	Western Asia	0.7221	0.7945	0.6925	0.7364	0.7136
Uzbekistan	HV	69	Central Asia	0.7440	0.7778	0.6575	0.7265	0.6665
Republic of Moldova	HV	72	Eastern Europe	0.7380	0.8613	0.5760	0.7251	0.6881
Mongolia	HV	74	Eastern Asia	0.6263	0.8391	0.6973	0.7209	0.6497
North Macedonia	H3	80	Southern Europe	0.7020	0.7562	0.6417	0.7000	0.7083
Kyrgyzstan	H3	81	Central Asia	0.6176	0.8119	0.6637	0.6977	0.6749
Azerbaijan	H3	83	Western Asia	0.6119	0.7932	0.6761	0.6937	0.7100
Paraguay	H3	94	South America	0.6059	0.6947	0.5989	0.6332	0.6487
Bolivia (Plurinational State of)	H2	98	South America	0.5193	0.7483	0.5818	0.6165	0.6129
Bhutan	H2	115	Southern Asia	0.5996	0.5305	0.5261	0.5521	0.5777
Botswana	H1	118	Southern Africa	0.2740	0.6932	0.6814	0.5495	0.5383
*Rwanda**	H1	119	Eastern Africa	0.7935	0.5322	0.3209	0.5489	0.4789
*Nepal**	H1	125	Southern Asia	0.4592	0.5636	0.5123	0.5117	0.4699
Tajikistan*	H1	129	Central Asia	0.3968	0.7380	0.3770	0.5039	0.4649
*Zambia**	H1	131	Eastern Africa	0.4414	0.6744	0.3909	0.5022	0.4242


OSI qiymati – bu onlayn xizmatlar indeksi (Online Service Index) doirasida mamlakatga berilgan qiymat. U 0 dan 1 gacha o'zgarib turadi va eng past umumiy ballni olib tashlab, umumiy ball asosida hisoblanadi.

HCI qiymati – bu inson kapitali indeksi (Human Capital Index) bilan bog'liq qiymat. Shuningdek, u 0 dan 1 gacha o'zgarib turadi va mamlakatda inson kapitali darajasini aks ettiradi.

TII qiymati – bu telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi (Telecommunication Infrastructure Index) bilan bog'liq qiymat. Shuningdek, u 0 dan 1 gacha hisoblab chiqiladi va mamlakatdagi telekommunikatsiya infratuzilmasini baholaydi.

O'zbekistonning elektron hukumat reytingida ijobiy natijalarga erishishi mamlakatimizda "Raqamli O'zbekiston – 2030" davlat dasturi doirasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilgani bilan chambarchas bog'liq. Mazkur dastur doirasida asosan aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson qadri tamoyiliga asoslanish sari katta qadam tashlandi. Xususan, fuqarolar yangi xizmatlar bilan boyib borayotgan my.gov.uz – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali hayotiy vaziyatlarda ko'p duch kelinadigan 340 dan ziyod elektron davlat xizmatlaridan onlayn foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

6 Data Center (un.org)
7 Web version E-Government 2022.pdf (un.org)




3-rasm: O‘zbekiston Respublikasi EDGI (E-Government Development Index) reytingi[8]

Ushbu xalqaro reyting ko‘rsatkichlari asosida O‘zbekistondagi davlat va xo‘jalik hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida (keying o‘rinlarda – davlat tashkilotlari) raqamli transformatsiya holatini reyting baholash metodikasi ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur metodika doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda.

2023-yil I yarim yillik yakuni bo‘yicha raqamli transformatsiya holatini reyting baholash jarayonida 43 ta davlat organi, 38 ta xo‘jalik organi va 14 ta mahalliy hokimliklar: jami 95 ta davlat tashkilotlari qamrab olindi. Reyting baholash ishlari 5 ta yo‘nalishda amalga oshirildi: Ochiqlik va elektron ishtirok; Elektron davlat xizmatlari; Axborot xavfsizligi; Faoliyatning raqamlashtirilganligi; Tashkiliy masalalar.

Reyting natijalari quyidagi tartibda 3 ta toifaga ajratiladi:

- 71 dan 100 ballgacha “yashil” (yaxshi);
- 55 dan 71 ballgacha “sariq” (qoniqarli);
- 55 dan pasti – “qizil” (qoniqarsiz).



4-rasm: Davlat tashkilotlarining raqamli transformatsiya holati reytingi

8 Yangiliklar | O‘zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti “Elektron hukumat” reytingidagi o‘rni sezilarli darajada ko‘tarildi (egov.uz)

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Davlat organlari orasida eng yuqori natija Bojxona qo‘mitasi tomonidan ko‘rsatildi – 94,38 ball, ikkinchi o‘rinni 92,16 ball bilan Davaktivlariga, uchinchi o‘rinni 85,97 ball bilan Soliq qo‘mitasi egalladi. Raqamli transformatsiyaning vazifalaridan yana biri bu hodimlarda yangi ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish zaruriyati hamda ma’lumotlarni samarali boshqarish va ulardan axloqiy va amaldagi qonunlar va qoidalarga muvofiq foydalanishni ta’minlash zarurati hisoblanadi. Bundan tashqari, kompaniyalar raqamli transformatsiya tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash uchun yangi texnologiyalar va resurslarga sarmoya kiritishga tayyor bo‘lishlari kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Muvaffaqiyatli raqamli transformatsiyaga erishish uchun kompaniyalar avvalo o‘z maqsad va vazifalarini aniq tushunishlari kerak:

1. Raqamli texnologiyalardan foyda ko‘rishi mumkin bo‘lgan biznes sohalarini aniqlash, shuningdek, ushbu texnologiyalar taqdim etadigan o‘ziga xos qiyinchiliklar va imkoniyatlarni tushunishni anglatadi. Shu sababli kompaniyalar raqamli transformatsiyani amalga oshirish uchun yo‘l xaritasini ishlab chiqishlari mumkin, jumladan, zarur resurslar va potensiallarni aniqlash va muvaffaqiyat uchun aniq ko‘rsatkichlarni belgilash shular jumlasiga kiradi.

2. Muvaffaqiyatli raqamli transformatsiyaning yana bir muhim omili hamkorlik va muloqotga e’tibor qaratishdir. Bu xodimlar va mijozlardan yetkazib beruvchilar va hamkorlargacha bo‘lgan o‘zgarishlar jarayoniga tashkilot bo‘ylab manfaatdor tomonlarni jalb qilishni anglatadi. Hamkorlik va muloqot madaniyatini yuksaltirish orqali kompaniyalar hamma bir xil maqsadlar sari harakat qilishini va o‘zgarishlarni tahlil qilish va qo‘llab-quvvatlashni ta’minlashi mumkin.

3. Raqamli transformatsiya bilan bog‘liq jihatlardan biri, xususan, ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik bilan bog‘liq xavflar ham mavjud. Kompaniyalar maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish, shuningdek, tegishli qoidalar va standartlarga rioya qilish uchun mustahkam tizimlar va jarayonlar mavjudligini ta’minlashi maqsadga muvofiqdir.

4. Kompaniyalar o‘zgaruvchan bozor sharoitlari va mijozlar ehtiyojlariga javoban o‘z strategiyalarini moslashtirish va rivojlantirishga tayyor bo‘lishi lozim.

Bugungi tez sur’atda o‘zgaruvchan biznes landshaftida, tashkilotlar raqobatbardosh bo‘lishi uchun raqamli transformatsiyani qabul qilishlari majbur bo‘lishmoqda. Raqamli transformatsiya – bu biznesning har bir jabhasiga raqamli texnologiyalarni integratsiyalash jarayoni bo‘lib, u qanday ishlashini va mijozlarga qiymat berishini tubdan o‘zgartiradi.

“Raqamli inqilob” natijasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning aksariyati avtomatlashtirilgan xizmatlar orqali amalga oshirilmoqda. Bu, o‘z navbatida, aholiga xizmat ko‘rsatish va byurokratiya jarayonida odamlarning ishtirokini kamaytiradi, aholining hayot sifati va farovonligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.[9]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Digital consulting | McKinsey & Company | McKinsey Digital | McKinsey & Company.
2. Westerman G, Calme´jane C, Bonnet D, Ferraris P, McAfee A (2011) Digital transformation: a roadmap for billion-dollar organizations (PDF). MIT Center for Digital Business and Capgemini Consulting, Paris.
3. Boue´e CE, Schaible S (2015) Die Digitale Transformation der Industrie. Roland Berger Strategy Consultans und Bundesverband der Deutschen Industrie e.V., Berlin.
4. Mazzone DM (2014) Digital or death: digital transformation: the only choice for business to survive smash and conquer. Smashbox Consulting.
5. Базаров Фуркат Одилович/”Экономика и социум” №4(107) 2023/Сущность цифровой трансформации и ее роль в развитии экономики регионов.
6. Micheal Wade (2020)/ “Digital Vortex: How Today’s Market Leaders Can Beat Disruptive Competitors at Their Own Game” Michael Wade (imd.org).
7. Грибанов Ю.И., Шатров А.А. Сущность, содержание и роль цифровой трансформации в развитии экономических систем // Вестник Алтайской академии экономики и права. – 2019. – № 3-1. – С. 44-48.
8. Daniel R. A. Schallmo & Christopher A. Williams (auth.) 2018. Digital Transformation Now: Guiding the Successful Digitalization of Your Business Model. https://www.pdfdrive.com/digital-transformation-now-guiding-the-successful-digitalization-of-your-business-model-e158455095.html.

9 Тешабаева О.Н., Йулдашева Г.И. Развитие цифровой экономики Республики Узбекистан // Universum: экономика и юриспруденция : электрон. научн. журн. 2020. № 7 (72). URL: Развитие цифровой экономики Республики Узбекистан (7universum.com)

9. World Bank. World development report 2016: Digital dividends. – 2016. [Электронный ресурс] – Режим доступа: https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2016.
10. https://stat.uz/img/press-relizlar/02_-vvp_press-reliz-2023-g__uzb.pdf.
11. siis (stat.uz).
12. Data Center (un.org).
13. Web version E-Government 2022.pdf (un.org).
14. Yangiliklar | O‘zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti “Elektron hukumat” reytingidagi o‘rni sezilarli darajada ko‘tarildi (egov.uz).
15. Тешабаева О.Н., Йулдашева Г.И. Развитие цифровой экономики Республики Узбекистан // Universum: экономика и юриспруденция: электрон. научн. журн. 2020. № 7 (72). URL: Развитие цифровой экономики Республики Узбекистан (7universum.com).

O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHNING ISTIQBOLLARI

Xalilova Shoxsanam G‘ayrat qizi
Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari bo‘yicha dunyoning yetakchi olimlari fikrlari o‘rganilgan, 2024-yil uchun umumiy ta’limga xarajatlarining tarkibi hamda maktabgacha ta’lim xarajatlari pragnozlari keltirilgan va ushbu sohada davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirilayotgan loyihalar qiymati tahlil qilingan. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari bo‘yicha asoslantirilgan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan hamda mamlakatimizda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat budjeti, davlat-xususiy sheriklik, maktabgacha ta’lim, ta'lim xarajatlari, moliyaviy resurs.

Abstract: The article examines the opinions of the world’s leading scientists on the prospects of financing preschool education organizations in Uzbekistan on the basis of public-private partnership, presents the structure of general education expenses and forecasts of preschool education expenses for 2024, and analyzes the value of projects financed on the basis of public-private partnership in this field, preschool education organizations in Uzbekistan based on public-private partnership, justified conclusions and proposals were developed and recommendations for implementation in our country were given.

Key words: State budget, public-private partnership, preschool education, education costs, financial resources.

Аннотация: В статье рассмотрены мнения ведущих ученых мира о перспективах финансирования организаций дошкольного образования в Узбекистане на основе государственно-частного партнерства, представлена структура расходов на общеобразовательное образование и прогноз расходов на дошкольное образование на 2024 год, а также состояние в этой сфере - проанализирована стоимость проектов, финансируемых на основе частного партнерства. На основании перспектив финансирования организаций дошкольного образования в Узбекистане на основе государственно-частного партнерства разработаны обоснованные выводы и предложения, а также даны рекомендации по их применению в нашей стране.

Ключевые слова: Государственный бюджет, государственно-частное партнерство, дошкольное образование, затраты на образование, финансовые ресурсы.

KIRISH

Bugungi kun va yaqin istiqbolda muvaffaqiyat aynan kapital bozorini rivojlantirish va davlat mulkini xususiylashtirish, xo‘jalik subyektlarining faoliyatiga davlatning ta’sirini kamaytirish hamda xususiylashtirilgan xo‘jalik subyektlari faoliyatida korporativ boshqaruvni takomillashtirish masalalari yirik biznes tuzilmalari va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish istiqbollarining rivojiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmonida 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”ni 38-maqsadida, maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish. 2022–2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024–2025-o‘quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish. Maktabgacha ta’lim tizimiga xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish kabi qator vazifalarga ustuvorlik berilganligi [1] maktabgacha ta’limni moliyalashtirishning samarali mexanizmini shakllantirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari yuzasidan bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilganligiga guvoh bo‘ldik. Jumladan, A.Sherov o‘zining maqolasida ta’lim tizimini davlat tomonidan moliyalashtirilishiga e’tibor qaratadi. Bunda maktabgacha ta’lim muassasalaridan tortib oliy ta’lim olishgacha bo‘lgan davrni moliyalashtirish to‘g‘risida va davlat dasturlarida e’tibor berilayotgan jihatlarni keltirib o‘tadi [2]. E’tiborli jihati, alohida tadqiqot sifatida xalq ta’limini moliyalashtirish doirasida olib borilgan tadqiqotlar faqatgina X.Do‘stmuhammad tomonidan olib borilgan. Tadqiqot 2009–2012-yillarda amalga oshirilganligini inobatga olsak, maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi bitta davlat boshqaruv organining quyi bo‘g‘inlari sifatida moliyalashtiriluvchi institutlar tarzida qaralgan. Shu nuqtayi nazardan, ushbu olim tomonidan xalq ta’limini moliyalashtirish borasida tadqiqotlar olib borilgan.

Jumladan, xalq ta’limi tizimini moliyalashtirishni rejalashtirishda, obyektlarni to‘liq qamrab olish, bir o‘quvchiga to‘g‘ri keluvchi xarajatlar me’yoridan kelib chiqib, muassasa budjet rejasini tuzish va maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning soni qisqarib borish xususiyatiga ega ekanligini ta’kidlab o‘tadi [3]. N.Norqobilov o‘zining tadqiqotida ta’lim tizimi ikki muhim vazifani bajarishi qayd etib o‘tgan: birinchidan, inson shaxsini kamol toptirish, takomillashtirish, uni ma’naviy, ahloqiy, badiiy jihatdan rivojlantirish, ma’naviy yetuk, barkamol inson bo‘lib yetishishiga yordam berish; ikkinchidan, iqtisodiy vazifani bajarib, malakali ishchi kuchini takror ishlab chiqarish [4]. Ushbu tadqiqotchining xulosalarida ko‘rinib turibdiki, tayanch ta’lim va oliy ta’limni mohiyatidan kelib chiqib shakllantirilganligini ta’kidlash mumkin.

Rossiyalik olimlar tomonidan ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, maktabgacha ta’lim muassasalari alohida tadqiqot obyekti sifatida ajratib olingan. N.Fedina tomonidan maktabgacha ta’lim tizimini samaradorligini baholashni xarakterlovchi to‘rtta ko‘rsatkichni ko‘rsatib o‘tilgan [5]: - aholining maktabgacha ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabini inobatga olgan holda davlat kafolati asosida maktabgacha ta’limni ta’minlash; - bolalarga ta’lim berish va boshqa xarajatlarni amalga oshirish shartsharoitlari; - kadrlar potensiali; - budjetdan moliyalashtirish va moliya-xo‘jalik faoliyati. Shuningdek, A.Sidorova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta’lim tizimini mamlakat iqtisodiyoti uchun ustuvorligini belgilab beruvchi indikatorlarni ishlab chiqilishini nazarda tutgan tadqiqotlarni amalga oshirgan [6].

S.Kelesidou va boshqalar maktabgacha ta’lim tashkiloti turi va ota-onalarning yashash joylari ularning talablarini o‘zgarishiga ta’sir etishini aniqlagan [7]. Sheldon Shaeffer maktabgacha ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabni oshirish siyosati va strategiyalarini ishlab chiqgan [8]. Sharon Wolfand erta bolalik ta’limiga bo‘lgan kelgusi 5-10 yilda bo‘lishi mumkin bo‘lgan talab va taklif miqdorini bashoratlash usullarini ishlab chiqgan [9]. Sharon Wolfand turli davlatlarda turli xil sharoitlardan kelib chiqgan holda, ota-onalarning ta’lim sifatidan qoniqishlariga qarab ularning ehtiyoj va talablari o‘zgarib borishini aniqlagan [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI


O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning istiqbollari bo‘yicha dunyo olimlari va iqtisodchilari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarni o‘rganish, ma’lumotlar to‘plash, to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Bizning sharoitimizdagi ta’lim sohasiga investitsiya mexanizmning asosiy kamchiliklari uni amalga oshirishning murakkabligi, ya’ni ish beruvchilarning ta’lim muassasalariga sarmoya kiritishni istamasligi va ta’lim sohasida homiylik uchun tegishli me’yoriy va uslubiy yordamning yetishmasligi. Bundan tashqari, menejmentga pulni boshqarish bo‘yicha ma’lum ko‘nikmalar kerak bo‘ladi. Investitsiyalarni ta’lim sohasiga yo‘naltirish faqat davlat hokimiyati organlari ko‘magida amalga oshirilishi mumkin.

2024-yilda ta’limga 69 076,2 mlrd so‘m ajratilishi rejalashtirilgan bo‘lib, 2023-yilda kutilayotgan xarajatlarga nisbatan 8,5 trln so‘mga ko‘proqni tashkil etadi.

2024-yilda bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrovini 75 %gacha oshirishni hisobga olgan holda maktabgacha ta’lim xarajatlari rejalashtirilgan. 2025-yil yakuniga kelib, 6 yoshli bolalarni maktabgacha ta’lim tizimi bilan to‘liq qamrovini ta’minlash va bolalarni maktabgacha ta’lim qamrovini 80 %gacha oshirish ko‘zda tutilgan.



1-rasm: Ta'limga xarajatlar, 2024-yil uchun prognoz, mlrd so'm[1]



2-rasm: Maktabgacha ta'lim xarajatlari tarkibi, 2024-yil uchun prognoz, mlrd so'm[2]

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va oilaviy turlarining ortishi va ushbu sohada davlat-xususiy sheriklikning yanada rivojlanishi hisobiga bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish rejalashtirilgan.

1-jadval: Maktabgacha ta'lim tashkilotlariningig ko'rsatkichlari[3]

Кўрсаткичлар	2023 (кутилаётган)	2024 (прогноз)
Мактабгача таълим ташкилотлари сони	30 648	32 819
Давлат мактабгача таълим ташкилотлари	6 556	6 610
ДХШ асосида ташкил этилган мактабгача таълим ташкилотлари	1 328	1 429
Оилавий мактабгача таълим ташкилотлари	22 730	24 730
Қуввати (минг ўрин)	983	1 012
Гуруҳлар сони (мингта)	52	66
Тарбияланувчиларнинг умумий сони, минг нафар	2 160	2 362
3-7 ёшдаги болаларнинг умумий сони, минг нафар	3 000	3 150
Болаларнинг мактабгача таълим билан қамрови	72%	75%
Давлат бюджети харажатлари, млрд сўм.	10 993	13 507,1

1 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.
2 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.
3 O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Nodavlat investitsiyalarni jalb qilishning samarali mexanizmlarini shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi ta’limi tizimini rivojlantirishning muhim yo‘nalishi va mamlakat iqtisodiyotini muvaffaqiyatli rivojlantirish shartidir. Ta’limni moliyalashtirishda mablag‘larning yetishmasligi, xususiy sektor subyektlarining yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyoji ta’lim tizimini rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor subyektlarining moliyaviy va tashkiliy resurslarini birlashtirishning zarurligini bildiradi. Ta’lim muassasalari faoliyatini tahlil qilish ushbu muassasalar va xususiy sektor subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ancha past faolligini ko‘rsatadi – bu ta’lim o‘quv yurtlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining ba’zi parametrlari bilan tasdiqlanadi. Budjet mablag‘lari ko‘pchilik boshlang‘ich ta’lim (maktab) va o‘rta ta’lim (litsey va kollej) muassasalari uchun yagona daromad manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida pullik ta’lim xizmatlari, tadbirkorlik faoliyati kabi budjetdan tashqari moliyalashtirishning mumkin bo‘lgan manbalari kam rivojlangan. Budjetni moliyalashtirishning yuqori darajasi ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, muassasa o‘qituvchilari va xodimlarining ishini rag‘batlantirish, yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishga bo‘lgan ehtiyojlarini qoplamaydi.

O‘z navbatida, universitetlar davlat budjeti moliyalashtirishga unchalik bog‘liq emas, ular pullik ta’lim dasturlarini faol ravishda amalga oshiradilar va ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil qiladilar. Shu bilan birga, xususiy kompaniyalar yoki jismoniy shaxslarning universitetlar faoliyatini moliyalashtirishdagi ishtiroki ulushi pastligicha qolmoqda. Ta’lim muassasaning potensial ish beruvchilar bilan o‘zaro ta’sirini kengaytirish uchun shartnoma asosida o‘qitishga buyurtma berish mexanizmini tashkil etish kerak. Bu jarayonga nodavlat investitsiyalarni jalb qilishning maqbul mexanizmi: xaridor talabaning ta’limini butun ta’lim davri davomida to‘liq moliyalashtiradi, mijoz va jismoniy shaxs (talaba) pullik ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish uchun shartnoma tuzadilar.

Ta’lim muassasalari tomonidan nodavlat investitsiyalarni muvaffaqiyatli jalb qilish imkoniyati bir qator omillar va sharoitlarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida iqtisodiy va moliyaviy, moliyalashtirish tizimining xususiyatlari va muassasalarning iqtisodiy salohiyatini, shuningdek, tashkiliy-huquqiy jihatdan belgilanadi. Muayyan ta’lim muassasasi darajasida, uning faoliyatning sifat xususiyatlaridan tashqari, mintaqaning iqtisodiy holati va muassasa mutaxassislarni tayyorlaydigan soha, shuningdek, mintaqaning mehnat bozoridagi vaziyati (mutaxassislarning ish haqi darajasi, ularning talabi) muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim tizimiga xususiy investitsiyalarning kirib kelishi, bir tomondan, ta’lim muassasalari qo‘shimcha moddiy va nomoddiy resurslarni olishini anglatadi. Boshqa tomondan, investitsiya jarayonining ishtirokchisiga aylanib, ta’lim muassasasi qo‘shimcha bilim va resurslarga ega bo‘lish zaruratini anglatadi. Ta’lim markazi pullik xizmat ko‘rsatish shartnomasi asosida ta’lim xizmati mutaxassis tayyorlash, talaba talabalik sharnomasi o‘qitish, xarajatlarini moliyalashtirish, buyurtmachi korxona ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni faollashtirish uchun davlatning bevosita ishtirokiga emas, balki ish beruvchilar va ta’limi muassasalari o‘rtasidagi samarali hamkorlikka asoslangan universal mexanizmlar zarur. Shu bilan birga, ta’lim dasturlarining standart ro‘yxatiga ega bo‘lgan kichik universitetlar va nodavlat tashkilotlar uchun tegishli sanoat profilidagi xususiy kompaniyalarni jalb qilgan holda muassasa asosida investitsiya loyihalarini amalga oshirish eng maqbuldir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yukoridagi amaliyotlarni o‘rgangan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishni takomillashtirish hamda davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lardan samarali va maqsadli foydalanilishini ta’minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga davlat budjeti mablag‘lari hisobidan beriladigan subsidiyalarni ajratilishida tarbiyalanuvchilarning o‘rtacha oylik daromadining 40 foizdan kam bo‘lmasligi mezonini joriy etishi davlat budjetidan ajratilgan mablag‘larning samarali sarflanishini ta’minlash hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moliyaviy resurslarini yanada kengaytirish hamda davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lardan samarali va maqsadli foydalanilishini ta’minlash maqsadida davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ko‘mir yoqilg‘isiga o‘tkazish orqali ularni kuz-qish mavsumida issiqlik energiyasi bilan uzluksiz taminlash, ushbu muassasalarning qozonxonalarini modernizasiya qilish, issiqlik tizimini tamirlash va belgilangan meyorlarda ishlashini taminlash funksiyalarini davlat-xususiy sheriklik asosida bosqichma-bosqich xususiy sektorga berish budjet mablag‘larini iqtisod qilinishi va davlat xususiy sheriklik asosida faoliyat yurituvchi maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlashga erishilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishni takomillashtirish hamda davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lardan samarali va maqsadli foydalanilishini ta’minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik doirasida ijaraga berilgan yer uchastkasida nodavlat maktabgacha talim tashkiloti binosini qurgan xususiy sherikka ushbu binoni bank kreditlari bo‘yicha garovga qo‘yishga ruxsat etish bank kreditlarini olishda garov ta’minoti bilan bog‘liq yangillik yaratish orqali nodavlat maktabgacha talim tashkilotlarida zarur moliyaviy resurslarni shakllantirish imkoniyati yaratilgan.

Imtiyozli davr davomida tadbirkorlik subyektlari tomonidan kredit bo‘yicha faqat foiz to‘lovlari amalga oshirilishini inobatga olib, davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish uchun imtiyozli kreditlar loyiha tashabbuskorlariga tabaqalashtirilgan foiz stavkalarida kreditlar ajratish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Sherov A.B. Ta’lim tizimini davlat tomonidan moliyalashtirishning huquqiy asoslari va obyektiv zarurati//“Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. –T.: TMI, 2017. – №3.
3. Do‘stmuxammad X.U. Xalq ta’limini samarali moliyalashtirishni tashkil etish yo‘llari: i.f.n. ... avtoreferati: – Toshkent: BMA, 2012. – 22 b.
4. Norqobilov N.N. Ta’lim tizimini budjetdan tashqari moliyalashtirish va kadrlar tayyorlashda marketingning o‘rni// Zamonaviy ta’lim jurnali. – T. 2017. – №8. – B. 36-40.
5. Федина Н.В. Организационно-педагогические условия повышения эффективности муниципальной системы дошкольного образования: автореферат … к.п.н. – Елец. ЕлГУ им. И.А.Бунина, 2005. – с. 24.
6. Сидорова А.А. Стратегия управления системой образования как элемент государственной политики: автореферат … к.э.н. – Москва. МГУ им. Ломоносова, 2012. – с. 28.
7. S.Kelesidou and etc. (2017) The role of parents’ educational level and centre type in parent satisfaction with early childhood care centres: European Early Childhood Education Research. Vol. 25, pp. 768-783.
8. Sheldon Shaeffer. (2015) The Demand for and the Provision of Early Childhood Services since 2000: Policies and Strategies. Background paper prepared for the Education for All Global Monitoring-Report, p.153
9. Sharon Wolfand etc. (2016). Estimating the Demand for and Supply of Early Childhood Education in Northwest Arkansas. Report. p.139.
10. Sharon Wolfand etc. (2018). Testing and Scaling-up Supply- and Demand-side Interventions to Improve Kindergarten Educational Quality in Ghana. SIEF Midline Report. p.109.
11. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari.

“EIZ” HUDUDIDA SOLIQ VA BOJXONA REJIMLARI UCHUN IMTIYOZLARNI TAHLIL QILISH

Xusanov Durbek Nishonovich
Iqtisod fanlari doktori, “Renaissanse” University,
“Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri, professor

Djurayeva Iroda Bahrom qizi
Basic doctoral student, Tashkent State University of Economics

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi hududidagi maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari uchun qonunchilikda belgilangan soliq va bojxona imtiyozlari turlari, shakllari o‘rganiladi va tahlil etiladi. Maxsus iqtisodiy hudud ishtirokchilarning respublika hududidagi boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlardan farqli ravishda to‘laydigan soliq turlari va bojxona yig‘imlari yoritiladi. Kelajakda ushbu hududlarni rivojlanishida preferensiyalar va strategiyalarning maqsadi o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Maxsus iqtisodiy zona, erkin iqtisodiy zona, soliq imtiyozlari, soliq stavkalari, bojxona rejimi, preferensiya, strategiya.

Abstract: This article examines and analyzes the types and forms of tax and customs benefits established by legislation for the participants of the special economic zone in the territory of the Republic of Uzbekistan. The types of taxes and customs duties that the participants of the special economic zone pay differently from other economic entities in the territory of the republic are highlighted. In the future, the purpose of preferences and strategies in the development of these areas will be studied.

Key words: Special economic zone, free economic zone, tax benefits, tax rates, customs regime, preference, strategy.

Аннотация: В данной статье рассматриваются и анализируются виды и формы налоговых и таможенных льгот, установленных законодательством для участников специальной экономической зоны на территории Республики Узбекистан. Выделены виды налогов и таможенных пошлин, которые участники специальной экономической зоны уплачивают иначе, чем другие хозяйствующие субъекты на территории республики. В дальнейшем будут изучены цели преференций и стратегии развития этих направлений.

Ключевые слова: Особая экономическая зона, свободная экономическая зона, налоговые льготы, налоговые ставки, таможенный режим, преференции, стратегия.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi va EIZ hududida soliq rejimini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining turli farmon va qarorlari bilan birga O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksi hisoblanadi. Maxsus iqtisodiy zonalar mamlakat iqtisodiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘lganligi sababli rivojlangan mamlakatlar ushbu hududlarni tashkil etishda ko‘proq iqtisodiyoti yaxshi rivojlanmagan qoloq hududlarda tashkil etishga e’tibor qaratadi va bir qancha imtiyozlar taqdim etadilar. Iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ushbu hududlar ko‘proq xorijiy investitsiyalarni jalb etish va bu bilan qoloq hududlardagi infrastrukturani yaxshilashga e’tibor qaratadilar. Jahon amaliyotida birinchi tashkil etilgan erkin iqtisodiy hududlar asosan erkin savdo hududlari, erkin bojxona hududlari sifatida yuritilgan. Ushbu hududlar xalqaro tovar ayirboshlash va yetkazib berish hech qanday qiyinchiliklarsiz amalga oshishi uchun dengiz portlari yaqinida joriy etilgan.

So‘nggi yillarda EIZlar tashkil etish tobora ommalashib bormoqda, chunki ko‘plab mamlakatlar tez o‘zgarib integratsiyalashib borayotgan jahon iqtisodiyotida iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhimligi katta ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda 147 ta davlatlarda 5400 dan ortiq maxsus iqtisodiy zonalar mavjud bo‘lib, bu ko‘rsatkich 5 yil avval 4000 ga yaqin bo‘lgan[1]. Maxsus iqtisodiy zonalarga taqdim etilgan imtiyozlar hamma mamlakatlarda turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan Rossiyada 50 ta maxsus iqtisodiy zonalar[2] mavjud bo‘lib, EIZ hududining rezidentlari bo‘lgan kompaniyalar 10 yil davomida

1 Доклад о мировых инвестициях | ЮНКТАД (unctad.org)
2 Особые экономические зоны (economy.gov.ru)

mol-mulk solig‘ini, besh yil davomida yer va transport soliqlarini to‘lamasliklari mumkin. Foyda solig‘i stavkalari ham aynan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga ish faoliyatini boshlash davrida kamaytirilgan stavkalarda joriy etilgan.

- Birinchi sakkiz yil uchun soliq stavkasi 2%,
- To‘qqizinchi yildan o‘n to‘rt yilgacha - 7%,
- O‘n to‘rt yildan keyin - 15,5%.

Mamlakatimizni barqaror iqtisodiy rivojlanishida ham maxsus iqtisodiy zonalarning ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida ham aks ettirilgan asosiy g‘oyalardan biri bu barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish etib belgilangan[3]. Jumladan, monopol sohalarni izchil bozor tamoyillariga o‘tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish va tadbirkorlarga eng qulay sharoitlar yaratish uchun soliq tizimining barqarorligini ta’minlash maqsadida biznes uchun qo‘shilgan qiymat va foyda soliq stavkalari uch yil davomida oshirilmasligini kafolatlash, soliq tizimini to‘liq raqamlashtirish, soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, rasmiy sektor – nolegal faoliyatdan afzal va manfaatli bo‘lishi uchun barcha zarur sharoitlarni ta’minlash borasida maqsadlar belgilab berilgan.

Shuningdek, Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirishda eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish hamda dunyoning 50 ta nufuzli brendlari bilan maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil qilish eng ustuvor vazifalar sifatida belgilangan[4]. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda investitsion jozibadorlikning o‘rni katta bo‘lib, binobarin xorijiy investitsiyalarning mamlakatga kirib kelish oqimini ta‘minlab beruvchi eng asosiy omil bo‘lib ximat qiladi. Ushbu maqolada investitsion jozibadorlikning tarkibiga kiruvchi eng muhim indikatorlardan biri bo‘lgan maxsus iqtisodiy zonalarga taqdim etilgan soliq va bojxona rejimi imtiyozlari o‘rganiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Erkin iqtisodiy hududlar XX asrning muhim tarkibiy o‘zgarishlaridan biri bo‘lib jahon iqtisodiyotiga kirib keldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, kapital va tovar harakatining erkin ayirboshlanishini ta’minlab beruvchi bunday hududlarning paydo bo‘lishi ushbu hududlarda joylashgan mamlakatlarning milliy iqtisodiyotida katta o‘rin tutib kelmoqda. Bu borada izlanishlar olib borgan xorijiy olimlardan J.Zhan erkin iqtisodiy hududlar xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, mahalliy kompaniyalarni global qiymat zanjirlariga integratsiyalash, eksportga yo‘naltirilgan o‘sishni rag‘batlantirish va bandlikni ta’minlash uchun investitsion infratuzilma va xizmat ko‘rsatuvchi provayder[5] deya tariflaydi. T.Avishek fikricha, erkin iqtisodiy zonalar alohida ajratilgan bojsiz anklav bo‘lib, savdo operatsiyalari, bojxona va tariflar uchun chet el hududi bo‘lib hisoblanadi[6]. I.Shablinskiy bu haqida quyidagicha ta’rif beradi. Erkin iqtisodiy hudud har qanday import qilinadigan tovar odatda bojxona hududidan tashqarida bo‘lishi va oddiy bojxona nazorati ostida bo‘lmagani kabi qo‘llab-quvvatlovchi soliqlar va soliqlarni hisobga oladigan davlat hududining bir qismidir[7]. N.A.Orlova ta’kidlashicha maxsus iqtisodiy zonani “biznes, jumladan, soliq, bojxona, ma’muriy va fuqarolik huquqi imtiyozlari va kafolatlariga ega bo‘lgan maxsus huquqiy tartib o‘rnatiladigan mamlakatning nisbatan xavfsiz holatga ega qismidir” deya fikr bildiradi[8].

Yana bir olim A.Kuznetsov: “Erkin iqtisodiy hududdagi xorijiy tovarlar hech qanday bojxona to‘lovlarisiz saqlanishi, sotilishi yoki xarid qilinishi mumkin bo‘lgan hudud”, deya tariflaydi[9].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham erkin iqtisodiy hududlardagi imtiyozli tartib va ma’muriy boshqaruv sohasiga ko‘proq e’tibor qaratilgan holda qator ta’riflar berilgan. M.A.Raimjonovaning talqinicha “Mamlakat hududida maxsus iqtisodiy rejim va ma’muriy boshqaruvga ega bo‘lgan, davlat aralashuvi kamaytirilgan va ayni vaqtda uning nazoratidan butkul ozod etilmagan, boshqa hududlarida amal qilmaydigan imtiyoz va rag‘batlantirishlar beriladigan hudud – erkin iqtisodiy hudud[10]. Shuningdek, yana bir olim Sh.I.Mustafaqulov erkin iqtisodiy hududlarni yaratish, ularga imtiyozlar taqdim etishda o‘zgacha yondashuvni ochib bergan. Sh.I.Mustafaqulovning ta’kidlashicha, erkin iqtisodiy hudud – bu mamlakatning imidji ham. Erkin iqtisodiy

3 “O‘zbekiston –2030 strategiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
4 “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
5 Zhan, J. X., J. Karl. “Investment Incentives for Sustainable Development”. In Tavares-Lehmann, 2016. https://worldinvestmentforum.unctad.org/session/free-special-economic-zones-challenges-and-opportunities
6 The Economic Times https://economictimes.indiatimes.com/news/economy/policy/what-is-special-economiczone/articleshow/1164460.cms
7 Shablinskiy I. G. Tamojennыe protsedurы i logistika. Pravovaya podderjka, - M.:Alpina Pablisher. 2007 g, - S.179. https://cyberleninka.ru/article/v/osobye-ekonomicheskie-zony-kak-instrument-antikrizisnoy-politiki
8 Rыbakov S.A., Orlova N.A. Osobыe ekonomicheskiye zonы v Rossii: Nalogovыe lgotы i preimuщestva. - M.: Vershina, 2006. – S .240.
9 Kuznetsov A. Svobodnыe zonы i natsionalnaya ekonomika // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnыe. otnosheniya. – 1990. №12. – S. 24.
10 Raimjonova M.A. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslar, hozirgi holati va istiqbollari. Monografiya –T.: Extremum-press. 2013. – 76-b.

hududlar, hatto, yomon faoliyat yuritgan taqdirda ham mamlakatni liberallashuviga xizmat qiladi. Erkin iqtisodiy hudud qaysi mamlakatda, uning qaysi hududida yaratilmasin, u ijtimoiy loyihadir. Hududni yaratish nafaqat hudud uchun qo‘shimcha daromad keltiradi, balki butun mamlakat uchun turli shaklda foydali qaytim beradi[11].

Bunday ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, olimlar tomonidan erkin iqtisodiy hududlarga tadbirkorlik subyektlari uchun “qulay biznes muhiti” sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda maxsus iqtisodiy zonalar yaratish va hududlar infrastrukturasini rivojlantirish borasidagi g‘oyalar o‘tgan asrning 80-yillar oxirida ko‘rib chiqilgandi. O‘sha vaqtning o‘zida ko‘pgina mutaxassislar bu hududlarni respublika iqtisodiyotini qayta isloh qilishning yangi mexanizmi va istiqboli deb sanashgandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotlar davomida ilmiy abstraksiya, analiz va dialektik, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishda iqtisodiyotning ochiqlilik prinsipi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda asosiy bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli erkin iqtisodiy zonalarni huquqiy maqomini ta’minlash iqtisodiyotning ochiqlik prinsipini ta‘minlashda eng muhim shartlaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini jadallashtirish va kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2016-yil 26-oktabrdagi PF-4853-son Farmonida EIZga kiritiladigan quyidagicha investitsiyalar miqdoriga ko‘ra soliq imtiyozlari qo‘llaniladi:

- 300 ming AQSh dollaridan 3 mln AQSh dollarigacha investitsiya kiritilganda – 3 yil muddatga;
- 3 mln AQSh dollaridan 5 mln AQSh dollarigacha investitsiya kiritilganda – 5 yil muddatga;
- 5 mln AQSh dollaridan 10 mln AQSh dollarigacha investitsiya kiritilganda – 7 yil muddatga;
- 10 mln AQSh dollari va undan ortiq investitsiya kiritilganda – 10 yil muddatga, keyingi 5 yil mobaynida foyda solig‘i va yagona soliq to‘lovi stavkalari amaldagi stavkalardan 50 foiz past miqdorda qo‘llanilgan holda beriladi.

Mamlakatimizda bu borada O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi 2020-yil 17- fevraldagi 604-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2016-yil 26-oktabrdagi PF-4853-son hamda “Urgut”, G‘ijduvon”, “Qo‘qon” va “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 12-yanvardagi PF-4931-son farmonida erkin iqtisodiy zona ishtirokchilariga quyidagi imtiyozlar taqdim etilishi belgilab qo‘yilgan. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Erkin iqtisodiy zonalarida soliqlar va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlarni qo‘llash tartibini belgilaydi.

Erkin iqtisodiy zonalarga kiritiladigan investitsiyalar miqdoriga ko‘ra EIZ ishtirokchilari quyidagi soliq turlarini to‘lashdan ozod etiladi:

- Yer solig‘i, foyda solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasiga va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari umumta’lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasiga majburiy to‘lovlar.

Bundan tashqari EIZ ishtirokchilari quyidagi bojxona to‘lovlaridan ozod etiladi:

- o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelingan asbob-uskunalar, xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar uchun bojxona to‘lovlari (bojxona rasmiylashtiruvi yig‘imlaridan tashqari);
- respublikada ishlab chiqarilmaydigan va loyihalarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha chetdan olib kelinadigan qurilish materiallari uchun bojxona to‘lovlari (bojxona rasmiylashtiruvi yig‘imlaridan tashqari) to‘lashdan ozod etiladi.

EIZ ishtirokchisi tomonidan oldin berilgan imtiyozlar muddatidan uzoqroq muddatli imtiyozlar huquqi qo‘llaniladigan hajmga yetuvchi investitsiyalar miqdori oshirilgan taqdirda, imtiyozlarni qo‘llash muddati uzoqroq muddatga uzaytiriladi.


Bunda, agar investitsiyalar hajmi oldin berilgan imtiyozlar muddati tugaganidan keyin ko‘paytirilsa, bojxona imtiyozlari uzoqroq muddatli imtiyozlar huquqini beruvchi miqdordagi investitsiya kiritilgan kundan, soliq imtiyozlari esa – uzoqroq muddatli imtiyozlar huquqi yuzaga kelgan oydan keyingi oyning 1-kunidan e’tiboran qo‘llaniladi.

Imtiyozlarni qo‘llash muddati imtiyozlar qo‘llash boshlangan kundan e’tiboran hisoblanadi. Davlat bojxona xizmati organlari eksportga yo‘naltiriladigan mahsulotlar bo‘yicha xomashyo, asbob-uskunalar va butlovchi

11 Mustafaqulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya” 2017. – 56-6.

buyumlarni bojxona to‘lovlaridan (bojxonada rasmiylashtiruvi yig‘imlaridan tashqari) ozod qilgan holda “erkin muomala” rejimida chiqaradi.

Berilgan soliq imtiyozlaridan foydalanish holati tahlili 2016-2018-yillar davomida O‘zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan umumiy qiymati 289444,9 mln. so‘mni[12] tashkil etgan.



1-chizma: EIZlarda soliq imtiyozlaridan foydalanish holati tahlili

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shu o‘rinda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonlar joylashgan hududidan kelib chiqqan holda ulardagi infratuzilma tarmoqlari, yaratilgan qulay investitsiyaviy muhit, barpo etilgan sanoat tarmoqlari bo‘yicha bir-biridan keskin farq qilishini inobatga olgan holda quyidagi xulosalar keltirildi.

Erkin iqtisodiy zonalarda uning ishtirokchilariga soliq va bojxona to‘lovlaridan imtiyozlar taqdim etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb etish bugunga kelib, preferensiya ko‘rinishida emas balki, asosiy sharti sifatiga aylanib bormoqda. Sababi bu kabi imtiyozlar taqdim etish deyarli barcha mamlakatlar hududlarida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarda duch kelish mumkin. Shu sababli:

- yurtimizda maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etilishida ularda ishlab chiqariladigan yoki xizmat ko‘rsatiladigan tovarlarning erkin almashinuvini ta‘minlab beruvchi yo‘l-transport infrastrukturasini yaratish;
- qo‘shimcha qiymati yuqori mahsulotni ishlab chiqarishda xom-ashyolarni zaruriy hollarda klaster metodlarida o‘zi mustaqil ishlab chiqarish sharoitlarini yaratish;
- maxsus iqtisodiy zonalarga salohiyatli kadrlarni jalb etish siyosatini xorij tajribasidan foydalanish takliflarini kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston—2030 strategiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-son Farmoni. https://lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini jadallashtirish va kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4853-son Farmoni. https://lex.uz
3. “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon” va “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2017-yil 12-yanvardagi PF-4931-son Farmoni. https://lex.uz
5. Rustamovich, Dehkonov Burhan. “Quality And Safety Of Public Catering Services In Uzbekistan.” (2023).
6. Xujamkulov D.Y. Erkin iqtisodiy hududlar. Darslik. –T.: IQTISODIYOT, 2019. – 408-b.
7. Karimqulov Jasur Imomboyevich, “Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo‘nalishlari” Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan Dissertatsiya ishi.
8. Mustafaqulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2017. – 56-б.
9. www.stat.uz
10. www.president.uz

12 Karimqulov Jasur Imomboyevich “Erkin iqtisodiy hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo‘nalishlari” Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan Dissertatsiya

MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ XO‘JALIGINI LIZING ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Aliqulov Mehmonali Salahiddin o‘g‘li
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti Baholash ishi va investitsiyalar kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini lizing asosida moliyalashtirish istiqbollari bo‘yicha dunyoning yetakchi olimlari fikrlari o‘rganilgan, mamlakatimizda 2018–2023-yillarda amalga oshirilgan lizing operatsiyalari soni, ularning qiymati hamda sohalar bo‘yicha taqsimoti tahlil qilingan, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini lizing asosida moliyalashtirish istiqbollari bo‘yicha asoslantirilgan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan hamda mamlakatimizda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Qishloq xo‘jaligi, lizing, moliyalashtirish, modernizatsiya, bitim, moliyaviy resurs, kredit.

Abstract: The article examines the opinions of the world’s leading scientists on the prospects of financing agriculture on the basis of leasing in our country, analyzes the number of leasing operations carried out in 2018–2023 in our country, their value, and their distribution by sectors, and substantiates the prospects of financing agriculture on the basis of leasing in our country. conclusions and proposals were developed and recommendations for application in our country were given.

Key words: Agriculture, leasing, financing, modernization, transaction, financial resources, credit.

Аннотация: В статье рассматриваются мнения ведущих ученых мира о перспективах финансирования сельского хозяйства на основе лизинга в нашей стране, анализируется количество лизинговых сделок, осуществленных в 2018–2023 годах в нашей стране, их стоимость и распределение по отраслям. Финансирование сельского хозяйства на основе лизинга в нашей стране На основе перспектив были разработаны выводы и предложения и даны рекомендации для применения в нашей стране.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, лизинг, финансирование, модернизация, сделка, финансовый ресурс, кредит.

KIRISH

Jahon mamlakatlari tajribasi ko‘rsatishicha, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala, birinchi navbatda, mamlakatning investitsion jozibadorligiga, xorijiy investorlarga yaratilgan shart-sharoitlarga va mamlakatda olib borilayotgan investitsiya siyosatiga borib taqaladi. O‘z navbatida, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning faol jalb qilinishi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish va aholi farovonligini ta’minlash, ishlab chiqarishda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va uni intensiv rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, mineral xomashyo va qishloq xo‘jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo‘yicha yuqori texnologik ishlab chiqarish, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

Bunday imkoniyat va uni erishishga qaratilgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning samaradorligini ta’minlash ularning qay darajada va qanday shakllarda jalb qilinishiga ham bevosita bog‘liqdir. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishning, texnik va texnologik qayta jihozlashning, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilashning yangi va noan’anaviy usullarining joriy etilishi eng ustuvor va muhim masaladir. Shu bois ham kichik biznesni jadal va barqaror rivojlantirish tadbirkorlardan mulkka egalik qilishi bilangina cheklanmay, balki undan samarali foydalanish zarurligini ko‘rsatmoqda. Bugunda respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda mulkchilik munosabatlarining mulkdan foydalanish va unga egalik qilishning o‘ziga xos “lizing” ko‘rinishi jadallik bilan rivojlanib bormoqda. O‘zbekistonda lizing munosabatlari ravnaqi jahon iqtisodiyotidagi iqtisodiy-siyosiy sektorga

xos bo‘lgan alohida xususiyatlari bilan tasniflanadi. Lizing kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirishning an’anaviy bank kredit va xususiy moliyaviy resurslardan foydalanish usullariga muqobil bo‘lgan o‘ziga xos shaklidir. U korxonalarga zarur jihozlarni yoki transport vositalarini bir vaqtda katta miqdordagi xarajatlarsiz olish hamda ishlab chiqirish vositalarining ma’naviy eskirish bilan bog‘liq yo‘qotishlardan xalos bo‘lish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini lizing asosida moliyalashtirish istiqbollari bo‘yicha dunyoning bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib. Ulardan, mamlakatimiz olimlari Prof. J.Sinkining xulosasiga ko‘ra, taraqqiy etgan mamlakatlarning barchasida davlat qishloq xo‘jaligi subyektlarini moliyalashtirish jarayonini faol tarzda qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, AQSHda tijorat banklari tomonidan fermer xo‘jaliklariga berilgan kreditlarning foiz stavkasini bir qismi davlat mablag‘lari hisobidan subsidiyalanadi. Shuningdek, fermer xo‘jaliklariga depozit, kredit va hisob-kitob xizmati ko‘rsatadigan tijorat banklariga fermerlarning yer maydonlari va binolarini garovga olgan holda 40 yilgacha muddatga kredit berish huquqi berilgan [1].

I.Petrenko va P.Chujinovlarning fikriga ko‘ra, qishloq xo‘jaligining tabiiy iqlim sharoitlari, ishlab chiqarish siklining muddati kabi xususiyatlarining mavjudligi sababli qishloq xo‘jaligi kredit bozori uzluksiz amal qila olmaydi. Bu esa, o‘z navbatida, qishloq xo‘jaligi davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri dotatsiyalar, imtiyozli kreditlar shaklida faol moliyaviy qo‘llab-quvvatlashini talab qiladi. Biroq qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan kreditlanishi ko‘pincha kutilgan natijalarni bermayapti. Jumladan, bu kabi kreditlarning qaytarilish darajasi pastligicha qolmoqda. Ma’lumki, qishloq xo‘jaligiga ajratiladigan cheklangan davlat mablag‘lari agrar sektorning kredit mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantira olmaydi [2].

Q.A. Choriyev o‘zning uslubiy tavsiyalarida agrar sohada innovatsion faoliyatni rag‘banlashtirish bevosita va bilvosita mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, davlat tomonidan bevosita iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlari davlat va maxalliy byudjetlar, kredit resurslari, xususiy sarmoyadorlar, xorijiy investorlar mablag‘lari va boshqa manbalar orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyalashtirish o‘z ichiga oladi. Bilvosita mexanizmlarni iqtisodiy richaglarning barcha turlarida, ya’ni moliya, kredit, soliq, lizing, sug‘urta, bojxona va boshqa tizimlarda qo‘llaniladigan imtiyozlar majmuasini tashkil qiladi [3].

T.X. Farmonov o‘zining ilmiy ishlarida fermer xo‘jaliklarini kreditlash tizimini: markaziy budjet hisobidan ajratiladigan mablag‘lar, davlat ehtiyoji uchun harid qilinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hisob-kitobi bo‘yicha ajratiladigan mablag‘lar, turli jamg‘armalar tomonidan ajratiladigan mablag‘lar, tijorat banklari tomonidan ajratiladigan maqsadli kredit mablag‘lari, kredit uyushmalari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar, qishloq xo‘jaligi texnika vositalarini lizing asosida xarid qilinishi, hamkorlikdagi korxona va tashkilotlarning zayom, kredit yoki bo‘nak mablag‘lari shaxsiy mablag‘lar sifatida e’tirof etgan [4].

I.E. Ergashev tadqiqot ishida qishloq xo‘jaligi birlashmalari va agroklasterlar tarkibiy subyektlari o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va ular faoliyatida qo‘shilgan qiymatni ko‘paytirishni rag‘batlantirish, undan moliyalashtirish manbayi sifatida foydalanish va banklari tomonidan kreditlashda kafillik taqdim etish amaliyotini kengaytirish lozimligini ta’kidlagan [5].

F.F. Gaforov o‘z tadqiqotlarida agrar sohada lizing munosabatlarining jadal rivojlanib borishi sharoitida, lizing tushunchasini mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida ajratib ko‘rsatishni tavsiya etadi. Chunki lizing investitsiya faoliyatining moliyaviy vositasi sifatida lizing munosabatlari ishtirokchilariga ma’lum foyda keltiradi. So‘nggi yillarda lizingga qishloq xo‘jaligi texnika sotib olish jarayonining ommalashib borayotganligi kelgusida agrar sohaga ko‘rsatiladigan lizing xizmatlari hajmining yanada kengayishiga olib keladi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining texnika vositalariga bo‘lgan talabning oshayotganligi sababli davlatning moliyaviy ko‘magi ostida qishloq xo‘jalik korxonalariga imtiyozli shartlar asosida texnikalarni lizingga yetkazib berilishi eng maqbul moliyaviy yordam hisoblanadi deb ta’kidlaydi [6].

Norbayev G‘olibjon Toxirovich tomonidan “Lizing tizimi kreditlashning eng istiqbolli muqobil shakllaridan biri hisoblanadi. Fermer va dehqon xo‘jaliklari uchun lizing bir vaqtning o‘zida ikkita muhim muammoni hal etadi: texnika va uskunalarni jalb qilish va bu jarayonni moliyalashtirish. Lizing moliyaviy vazifadan tashqari ishlab chiqarish funksiyasini bajaradi, ya’ni ishlab chiqarishni moddiy-texnika shu jumladan zamonaviy texnika vositalari bilan ta’minlashni jadallashtirish imkonini beradi. Qishloq xo‘jaligini kreditlash tizimini isloh qilish va uni takomillashtirish qishloq xo‘jaligini bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos holda qayta tashkil etishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi” [7].

Bizning fikrimizcha, yuqorida aytilgan olimlar fikrlaridan kelib chiqib bugungi kun agrar sohasi uchun moliyalashtirishda tijorat banklari, lizing kompaniyalarining foiz stavkalari yuqoriligi, olingan kreditlarning qaytarish davri qisqaligi qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun asosiy muammolardan biri sanaladi. Lekin hozirda qaysi tarmoqlarga moliyaviy qo‘llab-quvvatlash zarurligi olimlar fikridan chetda qolgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini lizing asosida moliyalashtirish bo‘yicha dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni tahlil qilish, mavzu yuzasidan barcha ma’lumotlarni to‘plash, solishtirish, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish, jumladan, strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ayrim qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ajratilgan tijorat kreditlarining foiz stavkalarini subsidiyalash zarur. Ushbu holat agrar soha kopxonalarining lizing va kredit to‘loviga layoqatliligi darajasini oshirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini lizing xizmatlari jarayonini davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlanish amaliyotini takomillashtirish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy muammo hisoblanadi.

Lizing tadbirkorlik asosida moliyaviy resurslarni safarbar etishning zamonaviy shakli va o‘z imkoniyatlari bilan kichik biznes rivojiga tez va samarali ta’sir ko‘rsatadi. Kichik biznes faoliyatida lizingning qo‘llanilishi: moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, texnik, texnologik jihatdan muhim afzalliklarni ta’minlaydi. Biroq kichik biznes uchun eng afzali va muhimrog‘i iqtisodiy manfaatdorlik hisoblanadi. Moliyalashtirishning lizing shakli asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bozorlar ochish imkoniyatini beradi. Agarda bugungi kunda fan-texnikaning oxirgi yutuqlari asosida tayyorlangan mashina va uskunalarning narxi ancha yuqoriligini hisobga olsak, rivojlanish darajasi past bo‘lgan (bunda sotib olish imkoniyati cheklangan) hududlar ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun qo‘llashning iqtisodiy mohiyati lizing faoliyati imkoniyatlarini yuqori baholash mumkin. Ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida investitsion bozorlar o‘rtasida raqobat kuchaydi. Shu bois xo‘jalik subyektlarining asosiy fondlarini yangilash, ishlab chiqarishni texnologik qayta qurollantirish sur’atlarini tezlashtirishda moliyaviy instrument sifatida yangicha noan’anaviy usul bo‘lishida lizingning ahamiyati yanada kuchaydi. Buning boisi lizing bajaradigan iqtisodiy funksiyalardir, ya’ni:


- *birinchidan,* lizingda moliyaviy resurslar iqtisodiyotning real sektoriga asosiy fondlar shaklida boradi;
- *ikkinchidan,* lizing oluvchi asosiy vositalardan iqtisodiyotning tez o‘zgaruvchi kon’yunkturasiga mos foydalana oladi, bu esa xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi;
- *uchinchidan,* lizing orqali investitsiyalash ko‘lami rag‘batlantiriladi, xo‘jalik subyektlarining asosiy vositalarini yangilash jarayoni tezlashadi;
- *to‘rtinchidan,* iqtisodiy o‘sish sur’atlari tezlashadi va ilmiy-texnika taraqqiyoti natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish sur’ati o‘sadi, xo‘jalik subyektlari kapitallashuvi jarayoni tezlashadi.



1-rasm: Mamlakatimizda 2018–2023 yillarda amalga oshirilgan lizing operatsiyalarining soni[1]

Yuqoridagi jadvaldan 2018–2023-yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotning turli sohalarini modernizasiyalash uchun amalga oshirilgan lizing operatsiyalarini ko‘rishimiz mumkin. 2018-yilga nisbatan 2023-yilda amalga oshirilgan lizing operatsiyalarini soni kamayganini ko‘rishimiz mumkin. Lekin 2-rasmga qaraydigan bo‘lsak amalga oshirilgan lizing bitmlarining qiymati yildan-yilga oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, 2018-yilda 2634,4 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil yakunlariga 3925,6 mlrd so‘mni tashkil etgan, ya’ni 150 foizga oshganini ko‘rishimiz mumkin.

1 O‘zbekiston Lizing Uyushmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyotlandi.




2-rasm: Mamlakatimizda 2018–2023 lizing operatsiyalarining miqdori (mlrd so‘m)[2]



3-rasm: Lizing portfelining hajmi (mlrd so‘m)[3]

3-rasm ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, yildan-yilga lizing portfelining hajmi mustahkamlanib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, 2018-yilda 4023 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil yakunlariga ushbu ko‘rsatkich 7357 mlrd. so‘mni tashkil etmoqda. Ya’ni 1,8 barobarga oshganligini ko‘rishimiz mumkin.



4-rasm: Yangi lizing bitimlarining asosiy vositalar turlari bo‘yicha taqsimoti hajmi (mlrd so‘m)[4]

2 O‘zbekiston Lizing Uyushmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyotlandi.
3 O‘zbekiston Lizing Uyushmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyotlandi.
4 O‘zbekiston Lizing Uyushmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyotlandi.

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2023-yil yakunlariga ko'ra mamlakatimizda 3925,6 mlrd so'mlik lizing operatsiyalari amalga oshirilgan bo'lib, ushbu operatsiyalarni eng katta qismi qishloq xo'jaligi texnikalarini lizing asosida sotib olishga to'g'ri kelmoqda, ya'ni 36 foiz yoki 1435,9 mlrd so'mni tashkil etmoqda. Shuningdek, avtotransport 27 foiz yoki 1058,7 mlrd so'm, qurulish texnikasi va asbob-uskunlari 18 foiz yoki 685,9 mlrd so'm, texnologik uskunalar 13 foiz yoki 521,4 mlrd so'm hamda ko'chmas mulk 6 foiz yoki 223,7 mlrd so'mni tashkil etgan.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, lizing mahsulotini ishlab chiqaruvchilar va iste'mol qiluvchilar, shuningdek, moliyaviy vositachilar, biznesning shu turi bilan shug'ullanuvchilar uchun bir qator muhim masalani hal etuvchi biznesning alohida turi sifatida qaraladi.

Lizing institutlari endigina rivojlanayotgan O'zbekistonda bozor munosabatlarining qonunchilik negizini shakllantirish bilan birga lizingni ham tadbirkorlikning alohida turiga aylantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Shu sababli, bizning nazarimizda, lizingni investitsiyalash va moliyalashtirishning nazariy jihatlarini to'liq o'zlashtirish lizing munosabatlarini bugungi kun amaliyotiga qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillarimizdam xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda agrar soha korxonalari uchun yangi turdagi zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalaridan foydalanish talabi ortmoqda. Shu sababli ushbu talablardan kelib chiqib "O'zagrolizing" AJ tomonidan lizinga berilayotgan texnika vositalari va hizmatlarning turlarini kengaytirib borish asosiy maqsadga aylanish kerak. Lizingga beriladigan qishloq xo'jaligi texnikalarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada rivojlantirish va lizing faoliyatini diversifikatsiyalash, zamonaviy innovasion qishloq xo'jaligi texnikalari, zamonaviy issiqxonalar, chorvachilik komplekslari, qayta ishlash korxonalari va logistika markazlarini tayyor holda lizinga berishni kengaytirish lozim. Shuningdek, qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlashning subsidiya, kredit, soliq, dotatsiya, baho, bojxona imtiyozlari kabi iqtisodiy-moliyaviy mexanizmlarini bugungi iqtisodiyot talablariga mos takomillashtirish asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi subyektlar uchun qulay sharoitlar yaratish istiqboldagi muhim yo'nalishlar sifatida hal etishni taqozo etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.Альпина Паблишер., 2017. – С. 596-597.
2. Петренко И.Я., Чужинов П.И. Экономика сельскохозяйственного производства. – Алма-Ата: Кайнар, 1992. – С. 434-437.
3. Q.A. Chariyev. Qishloq xo'jaligida innovatsionlar joriy qilish tizimini shakllantirish va rag'batlantirish istiqbollari (uslubiy tavsiyalar). Toshkent. QXIITI, 2014. – 32b.
4. T.X. Farmonov. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari.: i.f.d. ilm. dar. olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-T.:O'zBIITI,2006. – 36-b. http://diss.natlib.uz/ru-RU/Research Work / OnlineView/34291
5. I.E. Ergashev. Moliyaviy ta'minotni barqarorlashtirish asosida bog'dorchilik va uzumchilik tarmog'ini rivojlantirish.: i.f.d. ilm. dar. olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: TMI, 2020. – 26-b. https://inlibrary.uz/index.php/development_economy/article/view/16284
6. Ф.Ф. Гафоров. Развитие рынка лизинговых услуг в агропромышленном комплексе Республики Таджикистан: афтореферат дисс. на уч степ. к.э.н. – Т.: Жалал-абад-2019. 28 с.
7. Norbayev G'olibjon Toxirovich Qishloq xo'jalik tuzilmalarini moliyalashtirish va kreditlash mexanizmining nazariy asoslari "Central asian journal of education and innovation" Volume 3, Issue 2, February 2024
8. O'zbekiston Lizing Uyushmasi ma'lumotlari http://ula.uz/

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRTISHDA SUN'IY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Xonova Nodira Fazliddinovna
Toshkent davlat iqtisodiyot unversiteti
Baholash ishi va investitsiyalar kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiyotni rivojlantirtishda sun'iy texnologiyalarning o'rni va o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha dunyoning yetakchi olimlari fikrlari o'rganilgan, real vaqtda sun'iy intellekt hamda inson salohiyati orqali muammolarni hal qilishni baholash simulyatsiya qilingan, 2020-yildan 2025-yilgacha AI global bozoridan tushadigan daromadlar tahlil qilingan, AIning jahon yalpi ichki mahsulotiga ta'siri mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha asoslantirilgan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan hamda mamlakatimizda qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, YAIM, inson salohiyati, modernizatsiya, ishlab chiqarish, raqamli iqtisodiyot, tadbirkorlik.

Abstract: The article examines the opinions of the world's leading scientists on the role and characteristics of artificial technologies in the development of the economy, simulates the assessment of solving problems through artificial intelligence and human potential in real time, and analyzes the revenues from the global AI market from 2020 to 2025. made, the impact of AI on the global gross domestic product, justified conclusions and suggestions on increasing labor productivity were developed, and recommendations were given for its application in our country.

Key words: Artificial intelligence, GDP, human potential, modernization, production, digital economy, entrepreneurship.

Аннотация: В статье рассматриваются мнения ведущих ученых мира о роли и характеристиках искусственных технологий в развитии экономики, моделируется оценка решения проблем посредством искусственного интеллекта и человеческого потенциала в режиме реального времени, а с 2020 года ИИ станет глобальным. до 2025 года. Проанализированы доходы от рынка, разработаны обоснованные выводы и предложения относительно влияния ИИ на мировой валовой внутренний продукт для повышения производительности труда, а также даны рекомендации по его применению в нашей стране.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, ВВП, человеческий потенциал, модернизация, производство, цифровая экономика, предпринимательство.

KIRISH

Mamlakatimizda, ayniqsa so'nggi yillarda iqtisodiyotning ilm-fan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal taraqqiy etib borayotgan bugungi sharoitda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy himoya, ta'lim, tibbiyot, bandlik, qishloq xo'jaligi, mudofaa, xavfsizlik, turizm va boshqa sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish urfga kirmoqda.

O'zbekistonda ham axborotlashtirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali 2030-yilga qadar innovatsion taraqqiy etgan yetakchi davlatlar qatoridan o'rin egallash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Qayd etish joizki, "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da axborot texnologiyalari va raqamlashtirish borasida jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilib, bir qator muhim dasturlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [1] hamda "Aholiga davlat ijtimoiy xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mamlakatimizda raqamlashtirishni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida iqtisodiyotni rivojlantirtishda sun'iy texnologiyalarning o'rni yuzasidan bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilganligiga guvoh bo'ldik, ular quydagilardan iboratdir. Masalan, O'zbekistonda sun'iy intellekt muammolari, shuningdek, raqamli iqtisodiyot va axborot texnolgiyalarini amaliyotga joriy etishning modellari hamda usullari qator ilmiy ishlarda amalga oshirilgan. O'zR FA Akademigi S.S. G'ulomov rahbarligida Raqamli iqtisodiyotda blokchayn texnologiyalari va undan foydalanish yo'llari ishlab chiqilgan [2].

O'zR FA akademiklari M.M.Komilov, A.Abdugafarov, T.F.Bekmurodov, t.f.d., prof. D.T.Muxamediyevalarning tadqiqotlarida sun'iy intellektning istiqbolli texnologiyalari hamda boshqarish qarorlari qabul qilish tizimini intellektuallashtirish model va algoritmlari, noravshan axborot to'plamlarini modellashtirish usullari va yo'nalishlari asoslangan [3, 5, 6].

A.Abdugafarov tadqiqotlarida iqtisodiyotni raqamlashtirishning dastlabki bosqichlari va uning hozirgi rivojlanish yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan o'ziga xos xususiyatlar hamda joriy etilgan natijalar keng o'rin olgan [4].

Professor L.I. Arxipov, V.N. Babich va Ye.A. Kirillova tadqiqotlarida oxirgi 30 yil ichida insoniyat tomonidan yaratilgan ma'lumotlar hajmi avvalgi 3 ming yillikdagi hajmga teng va tez sur'atlarda o'sishda davom etmoqda hamda shu tariqa sun'iy intellektdan foydalanmasdan samaraga erishish mumkin bo'lmagan ulkan ma'lumotlar massivlarini (Big Data) hosil qilishi yetarlicha yoritib berilgan [8, 9]. Bu qiymat faqat ishlab chiqarish sohasida yaratiladi, noishlab chiqarish (fan, madaniyat, sog'liqni saqlash, moliya, yo'lovchi tashish transporti, mudofaa va boshqa sohalarda) faqat iste'mol qilinadi, deb keltirilgan.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Iqtisodiyotni rivojlantirtishda sun'iy texnologiyalarning o'rni bo'yicha dunyo olimlari va iqtisodchilari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarni o'rganish, ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Bugungi dolzarb zamonda muhim mavzulardan raqamli texnologiyalar barcha sohalarga va odamlar hayotiga jadal kirib boryapti. Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish eng muhim vazifaga aylangan. Prezidentimizning 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida 2023-yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2, ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish, ular eksportini 100 million AQSH dollariga yetkazish vazifasi qo'yilgan [1].

Suniy intellekt bugungi kundagi turli muammolarni insonlarga qaraganda samarali hamda tezroq yechish imkonini beradi. Quyida inson omili hamda suniy intellekt yordamida muammoni yechish darajasini sumulyatsiya orqali ko'rishimiz mumkin.



1-rasm: Haqiqiy vaqtda Sun'iy intellekt hamda inson salohiyati orqali muammolarni hal qilishni baholash [14]


Statistik ma'lumotlarga ko'ra, raqamli iqtisodiyotning mamlakatlar yalpi ichki mahsulotidagi ulushi AQSHda 10,9 foiz, Xitoyda 10 foiz, Hindistonda 5,5 foizini tashkil etadi. "Vouchercloud" portali tadqiqotchilari dunyodagi "eng aqlli" 25 davlat ro'yxatini e'lon qildi. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, birinchi o'rinni Yaponiya egallagan. Kunchiqar yurt tadqiqotning asosiy ko'rsatkichlari – Nobel mukofoti laureatlari soni, aholining o'rtacha IQ (aql-zakovat) darajasi, maktablardagi o'zlashtirish ko'rsatkich bo'yicha ham eng yuqori bahoga sazovor bo'ldi.

Keyingi o'rinlardan Shveysariya, Xitoy, AQSH va Niderlandiya joy oldi. Xitoy aholi aql-zakovat darajasi yuqori bo'lgani uchun uchinchi o'rinni olgan bo'lsa, AQSHga to'rtinchi o'rinda joylashishiga Nobel mukofoti laureatlari soni yordam berdi. Janubiy Koreya, Tayvan va Singapur bilimli (aql-zakovatli) yoshlar soni bo'yicha yetakchi o'rinlarda, ammo faqatgina Nobel mukofoti laureatlari soni kamligi sababli reytingda yuqorida joylasha olmadi.

"McKinsey" ekspertlarining baholashi bo'yicha, bugungi kunda jahon YAIMning qariyb 10 foizi raqamli aktivlarga to'g'ri keladi, shu bilan birga, ularni ishlab chiqish sur'ati jahon iqtisodiy o'sishining 30 foiziga teng. Raqamli aktivlarning rivojlanishi akselerator (tezlashtiruvchi) harakatiga o'xshaydi. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Shu bois raqamli iqtisodiyotga faol o'tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni, ayniqsa, korrupsiyani keskin kamaytiradi.

Shu o'rinda raqamli iqtisodiyot tushunchasiga to'xtalib o'tsak. Bu o'zaro bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish, iste'mol qilish va boshqaruv jarayonlarining (insonlararo, mashinalararo, bulutlar va katta hajmdagi raqamlar (BIG DATA) orqali) raqamli texnologiyalar hamda internet yordamida ma'lumot almashinishni optimallashtirish orqali katta foyda ko'rishga qaratilgan faoliyatdir.

Shu o'rinda alohida qayd etib o'tish kerakki, yangi bir uyg'onish davri – uchinchi Renessansga poydevor qo'yilayotganligi istiqbolimizning ulug'vorligini namoyon etadi. Ilmsiz, ma'rifatsiz jamiyat va mamlakat taraqqiyotini tasavvur qilish mushkuldir.



2-rasm: 2020-yildan 2025-yilgacha AI global bozoridan tushadigan daromadlar, million dollarda [13]

AIning jahon yalpi ichki mahsulotiga ta'siri mehnat unumdorligini oshirish, shaxsiylashtirish, vaqt sarfini qisqartirish va mahsulotlar, ishlar va xizmatlar sifatini yaxshilash bilan bog'liq. Global mehnat unumdorligining o'sishi 2017–2030-yillar davomida AIning global yalpi ichki mahsulotga umumiy ta'sirining 55 foizini tashkil qilishi kutilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy sohada, xususan, sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik, ijtimoiy himoya va boshqa yo'nalishlarda sun'iy intellekt va zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish keng tus olmoqda.

Aholini ijtimoiy himoya qilish sohalarida rivojlanayotgan davlatlarda amalga oshirilgan muvaffaqiyatli xorijiy tajribalardan quyidagi loyihalarini ko'rib chiqish mumkin. Masalan, Janubiy Afrika Respublikasida amalga oshirilgan "Harambee" loyihasi ijtimoiy yoshlar bandligini ta'minlashga ko'maklashishga yo'naltirilgan bo'lib,

ushbu dastur sun'iy intellekt yordamida kasbiy-malakaviy moslikni aniqlab, ish izlovchilar bazasini shakllantiradi va ularga turli me'yorlarga asosan tegishli mos bo'sh ish o'rnini taklif qiladi. "Harambee" qisqa davr ichida asosan xususiy va norasmiy sektorda yoshlarni ish bilan ta'minlagan.

Sun'iy intellekt asosida ishlovchi kasbiy-malakaviy moslik bo'yicha dasturning O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi norasmiy sektorda band bo'lgan, ayniqsa, bir martalik ish bozorlaridagi ish qidiruvchilarning bandligini ta'minlashga va ularni ijtimoiy himoya bilan qamrab olishga imkon beradi. Dastlabki bosqichda sun'iy intellekt texnologiyalarini mobil qurilmalardan foydalanish mumkin bo'lgan dasturlar orqali taklif qilib, norasmiy sektordagilarni kunlik va mavsumiy ishlarga jalb qilish, ularning bandligini ta'minlash mumkin.

"GiveDirectly" dasturi esa bir qator Osiyo va Afrika davlatlarida chekka hududlarda yashovchi kambag'al oilalarga to'g'ridan-to'g'ri moddiy-pul mablag'larini berishni ko'zda tutadi. Dastur orqali chekka hududlarda yashovchi ehtiyojmand kambag'al oilalarni aniqlashda asosiy mezonlarga qo'shimcha ravishda sun'iy yo'ldosh orqali yig'ilgan ma'lumotlardan foydalaniladi. Dasturlashtirilgan sun'iy intellekt kambag'al oilalar xonadonlarining qanday ashyolardan qurilganini tahlil qiladi va moddiy sharoitlarini baholaydi. Sun'iy yo'ldosh orqali yig'ilgan tasvirlar va navigatsiya ma'lumotlari ijtimoiy himoya dasturining ma'lumotlar bazasiga kiritilib, ulardan birinchi navbatda sun'iy intellekt faoliyatini ta'minlashda, ikkinchidan esa ijtimoiy himoyaga muhtojlik mezonlarini belgilash va aniqlashda foydalaniladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sun'iy intellektga asoslangan loyihalarni O'zbekiston sharoitida mavjud dasturlar va davlat idoralaridagi ma'lumotlar bazasini integratsiyalashtirish va kengaytirish orqali bir qator istiqbolli loyihalarni ko'rib chiqish mumkin.

Taraqqiy etgan davlatlar qatoriga qo'shilishimiz uchun, eng avvalo, ilg'or zamonaviy axborot-kommunikatsiya, internet hamda raqamli texnologiyalar sohasidagi bilimlarni chuqur egallash orqali yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish kerak. Shu bilan birga davlatimizda barcha sohalarni raqamlashtirish, jumladan, sog'liqni saqlash, kadastr, ijtimoiy himoya, qishloq xo'jaligi, ta'lim yo'nalishlarini raqamlashtirish bo'yicha amaliy jarayonlar boshlandi va tez orada o'zining ijobiy samaralarini beradi.

Raqamli iqtisodiyot jamiyatda muayyan o'zgarishlarni yuzaga keltiradi, xususan, uning mehnat sharoitlariga ta'siri sezilarli bo'ladi. Raqamli transformatsiya sharoitida avtomatlashtirish jarayonlarining kuchayishi, sun'iy intellekt, ulkan ma'lumotlar bilan ishlaydigan analitik tizimlar, robotlardan foydalanish ko'lamining ortishi mehnat resurslari uchun o'rinbosar bo'lib xizmat qiladi. Natijada biznes yuritish sharoitlari takomillashib va samaradorlik sezilarli darajada ortadi.

Raqamlashtirishning kundalik hayotimizga tezroq kirib kelishini xohlasak, raqamlashtirish ta'sirida turmushimizda turli qulayliklar paydo bo'lsin, desak, raqamlashtirish tatbig'ida, albatta, tizimli yondashuv lozim. Qarang, salkam o'n yildan buyon elektron hukumat tizimini rivojlantirishga intilib kelamiz.

Raqamlashtirish texnologiyalarini kundalik hayotimizga maqsadli joriy qilishda eng muhimi, davlat xizmatlarini aholiga taklif qilish orqali xalq bilan interfaol muloqot tezlashmoqda. Bu esa "intellektual hukumat" tamoyillari asosida aholi va tadbirkorlik subyektlariga elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini yanada kengaytirish naqadar to'g'ri yo'l ekanligini ham ko'rsatadi.

Birinchidan, raqamlashtirish bu "ma'lumotlar ombori"dir, ma'lumotlar juda katta hajmdan iborat. Ikkinchidan, bizda "ulkan ma'lumotlar" oqimini boshqarish, saqlash va qayta ishlash turli platformalarni kengaytirish muhim. Uchinchidan, esa mazkur dasturlar ijrosini ta'minlashda amalga oshirish mexanizmlari hamda moliyalashtirish manbalari ko'rsatilgan bo'lsada, monitoring jarayonida jamoatchilik nazoratini kuchaytirilishi muhim, deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 28.04.2020-yildagi 4699-sonli Qarori.
2. G'ulomov S.S., Ayupov R.H., Abdullayev O.M., Boltaboyeva G.R. Raqamli iqtisodiyotda blokchayn texnologiyalari// Toshkent, 2019.
3. Komilov M.M., Xudoyberdiyev M.X. Tanib olish operatori ustida idempatent tutashuvga asoslangan korrektlovchi protseduralarni qurish. 2021.
4. Абдугафаров А. Узбекистан на пути цифровизации: начало и нынешнее положение. 2021. abdugaffarov_abduhalil.ru
5. Мухамедиева Д.Т. Статистическое моделирование в сельском хозяйстве с применением теории нечетких множеств. – Ташкент: Институт кибернетики НТЦ "Современные информационные технологии". 2004.–200с.
6. Muxamediyeva D.T. Noravshan axborotlarni qayta ishlash asosida sust shakllangan jarayonlarni bashoratlash va muqobillashtirish modellari. "Fan va texnologiya" – Toshkent, 2012, 376 bet. 22.

7. Muxamediyeva D.T. Sust shakllangan jarayonlarni noravshan modellarini qurishning nokorrekt masalalarini yechish usul va algoritmlari. “Navro‘z” nashriyoti. Toshkent, 2018 y. 216 bet.
8. Архипов Л.И. Большие данные и искусственный интеллект в бизнесе: развитие и регулирование // Big Data and Advanced Analytics. – 2020. – № 6-3. – с. 122- 127. 3.
9. Бабич В.Н., Кириллова Е.А. Обзор отдельных вопросов и области больших данных и искусственного интеллект. – М.: ФКУ “ГИАЦ МВД России, 2019. – 148 с. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 338 http://iqtisodiyot.tsue.uz
10. Alizada A.V., Muradli V.A. Information and artificial intelligence // Булатовские чтения. – 2020. – p. 37-38. 5. Городнова Н.В. Применение искусственного интеллекта в экономической дипломатии и международной торговле // Вопросы инновационной экономики. – 2021. – № 2. – doi: 10.18334/ vinec.11.2.112214.
11. Жилин В.В., Сафарьян О.А. Искусственный интеллект в системах хранения данных // Вестник Донского государственного технического университета. – 2020. – № 2. – с. 196-200. – doi: 10.23947/1992-5980-2020-20-2-196-200.
12. Бухтиярова Т.И. Цифровая экономика: особенности и тенденции развития // Бизнес и общество. – 2019. – № 1(21). – с. 22.
13. Abdullaev, Akhrorjon. (2023). Sun’iy intellekt va raqamli iqtisodiyot rivojlanishi. Qo‘qon universiteti xabarnomasi
14. Nurmatov, Z., Chorshamiyeva, O., & Pirimova, F. (2023). Ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning ijobiy va salbiy tomonlari. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(7), 12–18. извлечено от https://in-academy.uz/index. php/zdif/ article/view/14383

O‘ZBEKISTONNING INVESTITSIYA MUHITI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI



Sotimov Yunusbek Turg‘unboy o‘g‘li
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonning investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish yo‘llari tadqiq etilgan. O‘zbekiston Respublikasi investitsiya muhitining so‘rovnomalar o‘tkazish natijasida ekspert baholash natijalari tahlil qilingan. Faktoring operatsiyalarini nazorat qilinishi haqida ma’lumotlari tegishli tartibda ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: investitsion muhit, faktoring operatsiyalari, xorijiy investitsiya, investor, moliyaviy mexanizm.

Abstract: The article explores ways to increase the attractiveness of Uzbekistan’s investment environment. The results of the expert assessment of the investment environment of the Republic of Uzbekistan as a result of the interviews were analyzed. Information about the control of factoring operations has been reviewed accordingly.

Key words: environment of invectition, factoring operations, foreign invectition, invector, financial mechanism.

Аннотация: В статье исследуются пути повышения привлекательности инвестиционной среды Узбекистана. Проанализированы результаты экспертной оценки инвестиционной среды Республики Узбекистан по итогам интервью. Соответствующим образом пересмотрена информация о контроле факторинговых операций.

Ключевые слова: среда инвестиций, факторинговые операции, иностранные инвестиции, инвестор, финансовый механизм.

KIRISH

Bugungi kunda “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimi 2022-yilda pandemiyadan oldingi holatga qaytdi va 1,6 trillion AQSH dollarni tashkil etdi. Bunda transchegaraviy bitimlar va xalqaro loyihalarni moliyalashtirish ko‘lami keskin kengaydi. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiya muhitining tiklanishi zaifligicha qolmoqda. Hozirda dunyoda kechayotgan notinch ijtimoiy-siyosiy vaziyat oziq-ovqat, yoqilg‘i, moliyaviy inqirozlar va hali hanuzgacha davom etayotgan COVID-19 pandemiyasi hamda iqlim o‘zgarishlari investitsiya muhitidagi stressni yanada kuchaytirmoqda”. Hududlarga investitsiyalarni faol jalb etishda, moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish, investitsion muhit jozibadorligini oshirish va yaxshilash hamda soliq imtiyozlaridan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Jahonda moliyaviy resurslarni jalb etishga bo‘lgan raqobatning tobora kuchayib borishi natijasida mamlakat, uning hududlari va iqtiso-diyotning tegishli tarmoqlari hamda sohalarining investitsiya muhitini yaxshilashga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respub-likasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2021-yilning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari sifatida “Islohotlarning pirovard maqsadi kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdan iborat” bo‘lishi, “ushbu strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o‘sish hisobiga erishilishi” belgilab berilgan. Hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o‘sishga erishishning to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi sifatida “avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali erishilishi” nazarda tutilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Dj.Douns va G.Elliotlarning ta’kidlashlaricha “investitsion muhit investitsiyalar samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy, moliyaviy va boshqa sharoitlardir” .

P.Yarosh tomonidan bildirilgan fikrlarga ko‘ra, mamlakat hududlari-ning investitsiya muhiti turlicha bo‘ladi. Buning asosiy sabablaridan biri – ulardagi rivojlanishning bir xilda emasligi hisoblanadi. Shuningdek, investit-

siya muhiti jozibadorligini ta'minlash rivojlanishi nisbatan sust bo'lgan hududlar uchun zarur. Ammo buni subyektiv kafolatlar berish orqali amalga oshirish kerak emas. Bunda ushbu hududlarga davlat va uning idoralari birinchi navbatdagi investorlar bo'lishi ahamiyatlidir.

P.Sijkovich, M.Pekala, P.Pekala, A.Jonsa tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda maxsus iqtisodiy zonalarga berilgan imtiyozlar, qonuniy kafolatlar hududlardagi investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda muhim rolni bajaradi. Bunday zonalarning mamlakatning iqtisodiy rivojlanish salohiyati yuqori bo'lgan, ammo investitsiyalar uchun yuqori sezuvchanlikni talab etmaydigan hududlarda tashkil etish lozim.

X.Jo'raev tomonidan bildirilgan fikrlarga ko'ra, investitsiyalar tushunchasi (lotincha "investio" so'zidan olingan bo'lib, "kiyinaman" degan ma'noni anglatadi) amalda har qanday lug'atda mamlakat ichkarisida va xorijda iqtisodiyot tarmoqlariga kapital qo'yish sifatida talqin qilinadi. Investitsiyalarning yuqorida keltirilgan ta'rifidan kelib chiqib, har qanday jamg'arma qo'yilmalari ham (mulkiy va intellektual qimmatliklar) investitsiyalarni o'zida mujassamlashtiravermasligini qayd etish lozim. Masalan, agar bir jismoniy shaxs boshqa jismoniy shaxsdan qimmatli qog'ozlarni sotib olsa, bunday turdagi investitsiyalar cheklangan tavsifga ega bo'ladi. Chunki bunda faqat ular egalarining o'zgarishi yuz beradi, ya'ni pul mablag'larini o'tkazish va kelajakda aksiyalari qo'lga kiritilgan kompaniya daromadlarini olish huquqiga ega bo'lish aktlari o'rinli bo'ladi.

M.Engman, O.Onodera, E.Pinali tadqiqotlarida investitsiya muhiti tushunchasiga quyidagi ta'rif beriladi: "Investitsiya muhiti – mamlakatga investitsiya kiritilishi uchun sun'iy ravishda va tabiiy geografik joylashuv orqali hosil qilingan choralarni o'z ichiga oladi. Jumladan, qulay tekislikda joylashuv, tabiiy iqlim sharoiti, dengizga chiqish imkoniyati, sud-huquq tizimi, iqtisodiy samaradorlikka erishidagi vositalar va h.k."

Ensiklopedik lug'atlarda iqtisodchi olim D.G'ozibekovning "inves-titsiya" kategoriyasiga oid quyidagi fikrlari keltirilgan: investitsiya (lot. investio – o'rash) – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish (qo'yish). Pulning vaqt (zamon)ga bog'liq qiymati nazariyasiga ko'ra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag'lar qo'yishdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur mavzuni yoritishda abstrakt-mantiqiy fikrlash, umumlashtirish, kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi investitsiya muhitining so'rovnomalar o'tkazish natijasida ekspert baholash natijalari mamlakatdagi investitsiya muhitida "o'rta darajadagi risklilik" mavjud ekanligi ko'rsatmoqda. Ekspert baholash natijalarini umumlashtirish davomida shuni alohida qayd etish lozimki, yuqoridagi indeks qator jihatlarda investitsiya muhiti jozibadorligini ta'minlashda to'siqlar mavjud ekanligini ko'rsatmoqda. Jumladan: xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabatni baholashda investorlar tomonidan foydalanish to'liq olish va xorijga olib chiqishda bir qancha muammolarda duch kelina-yotganligini ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval: O'zbekiston Respublikasi investitsiya muhitining so'rovnomalar o'tkazish natijasida ekspert baholash natijalari

№	BERI indeksi mezonlari	Maksimal baho	Berilgan baho	Salmog'i, %	Indeks
1	Siyosiy barqarorlik	4	3,6	12	4,32
2	Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat	4	2,5	6	1,5
3	Milliylashtirish	4	1,8	6	1,08
4	Devalvatsiya	4	1	6	0,6
5	To'lov balansi	4	2	6	1,2
6	Rasmiyatchilik masalalari	4	2,2	4	0,88
7	Iqtisodiy o'sish sur'atlari	4	2,9	10	2,9
8	Valyutani konvertirlanganligi	4	3,1	10	3,1
9	Shartnomani amalga oshirish imkoniyati	4	2,7	6	1,62
10	Ish haqi va mehnat unumdorligiga xarajatlar	4	1,8	8	1,44
11	Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati	4	1	2	0,2
12	Aloqa va transportni tashkil etish	4	1,9	4	0,76
13	Mahalliy boshqaruv va hamkorlik	4	1,9	4	0,76
14	Qisqa muddatli kredit	4	2,9	8	2,32

15	Uzoq muddatli kredit va shaxsiy kapital	4	2,7	8	2,16
JAMI		**40**	**34**	**100**	**24,84**
BERI indeksi (24,84*100/40)					62,1

Davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlarining samarali amalga oshirishdagi ko‘plab xatoliklar va qonun buzilish holatlarining mavjudligi investorlarga xususiy mulk kafolatiga bo‘lgan ishonchini pasaytirgan. Shuningdek, kelishilgan shartnomani amalga oshirish imkoniyati borasida ham shartlar to‘la bajarilishida muddatlar asossiz uzaytirilishi keskin tanqid qilingan. Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish darajasini pastligi alohida qayd etilgan.

Baholash natijalariga asoslanib, aytish mumkinki, hududlarga inves-titsiya muhitini yaxshilashda moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatish sifatini ham oshirishni talab etiladi. Bu borada, alohida qayd etish lozimki, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan etkazib berilgan mahsu-lotlar uchun xaridor tomonidan kelishilgan to‘lovlarning o‘z vaqtida amalga oshirmasligi natijasida shartnoma shartlarining buzilishi, debitorlik qarzdorligining oshishiga olib keladi. Ushbu holat ko‘pgina davlatlarda va mamlakatimizda asoratlari davom etayotgan pandemiya sharoitida investitsiya munosabatlariga salbiy ta’sir etib kelmoqda. Bu esa o‘z navbatida qisqa muddatli moliyalashtirish hamda davriy ishlab chiqarish siklini uzmaslik maqsadida investorlar tomonidan muqobil yo‘nalishlarga murojaat etishni taqozo etadi. Bu borada, jahon amaliyotida keng foydalaniladigan faktoring moliyaviy xizmat turi samarali vositalardan biridir.

2-jadval: Faktoring operatsiyalarini nazorat qilinishi haqida ma’lumot

№	Mamlakat	Faktoring amaliyotini huquqiy jihatdan boshqariladimi?	Faoliyat yuritish uchun litsenziya kerakmi?	Ish faoliyatini boshlash uchun etarlicha kapital kerakmi?	Faktoring kompaniyalar nazorat qilinadimi?
1	Albaniya	+	+	+	+
2	Armaniston	+	+	-	+
3	Ozarbayon	+	+	+	+
4	Belorussiya	+	+	+	+
5	Bosniya va Gersegoviniya	+	+	+	+
6	Bolgariya	+	-	+	+
7	Xorvatiya	+	+	+	+
8	Kipr	-	-	+	-
9	Misr	+	+	-	+
10	Estoniya	+	-	+	+
11	Makedoniya	+	+	+	+
12	Gruziya	-	-	+	-
13	Gretsiya	+	+	+	+
14	Vengriya	+	+	-	+
15	Qozog‘izton	+	+	Ma’lumot yo‘q	+
16	Qirg‘iz Resp.	+	+	-	+
17	Polsha	-	-	+	-
18	Ruminiya	+	+	-	+
19	Rossiya	+	+	-	+
20	Serbiya	+	+	+	+
21	Tojikiston	+	+	+	+
22	Turkiya	+	+	+	+
23	Turkmaniston	-	-	-	-
24	Ukraina	+	-	+	+
25	O‘zbekiston	+	+	+	+
	+	**23**	**20**	**20**	**23**
	-	**4**	**7**	**7**	**4**

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Faktoring – bu kechiktirilgan to‘lov shartlarida savdo faoliyatini olib boruvchi ishlab chiqaruvchilar hamda etkazib beruvchilar uchun taqdim etiladigan moliyaviy xizmatning bir turi hisoblanadi. Ya’ni bunda faktoring kompaniya mijozlarda mahsulotlarni sotib olish va xizmatlarni ko‘rsatish jarayonida yuzaga keladigan qarzdorlik huquqini ma’lum bir chegirma narxda sotib olishi yoki egalik qilishiga tushuniladi.

“Yevropa Taraqqiyot va Tiklanish Banki (ETTB) 2012-yildan Savdo hamkorligi programmasi asosida faktoringni huquqiy muhitini yaxshilash uchun ish olib bormoqda. Ushbu programma asosida ETTB faktoring uchun qulay huquqiy muhitni yaratish ustida 2018-yili ETTBga a’zo 37 ta davlat o‘rtasida faktoringni huquqiy masalalari bo‘yicha keng qamrovli tadqiqot olib borgan. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra Bankka a’zo davlatlarda faktoring bo‘yicha yaxlit bir normativ huquqiy hujjat tayyorlagan yoki yakunlanish arafasida turibdi. Lekin faktoring amaliyoti har bir a’zo davlatda har xil talqin qilinadi. Bunday holatni bir qancha sabablari mavjud bo‘lib, asosiylaridan biri huquqiy normalarning qo‘llashdagi murakkabliklar hisoblanadi. ETTB ning ma’lumotlariga tayangan holda biz 25 davlatni tahlil qilish uchun tanladik. Bu davlatlar iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan yoki o‘sish ko‘rsatkichlari O‘zbekiston bilan teng yoki hamkor davlatlar hisoblanadi”.

3-jadval: O‘zbekiston maxsus iqtisodiy zonalarda amalga oshirilgan investitsiya loyihalari to‘g‘risida ma’lumot

№	MIZlarning faoliyat yo‘nalishlari	Ko‘rsatkichlar	
1.	“Sanoat” yo‘nalishidagi maxsus iqtisodiy zonalar	To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, mlrd AQSH dollari	1,6
		Boshqa turdagi investitsiyalar, mlrd AQSH dollari	4,5
		Investitsiya loyihalari soni, ta	566
2.	“Farmatsevtika” yo‘nalishidagi maxsus iqtisodiy zonalar	Kiritilgan investitsiyalar, mln AQSH dollari	282
		Investitsiya loyihalari soni, ta	46
		Ishlab chiqarish divercifikatsiyaci, mahsulot turi	440
		shu jumladan:	
		dori vositalari turlari	400
		tibbiyot texnik vositalari	40
3.	“Turizm” yo‘nalishidagi turistik-rekreatsion zonalar	Kiritilgan investitsiyalar, mln AQSH dollari	449
		Investitsiya loyihalari soni, ta	61
		Turistik infratuzilmalar soni, ta	75
4.	“Qishloq-xo‘jaligi” yo‘nalishidagi maxcuc iqticodiy zonalar	Kiritilgan investitsiyalar, mln AQSH dollari	652,2
		Invectitsiya loyihalari soni, ta	308
		Ish o‘rinlari soni, ta	9817
		Zamonaviy issiqxona xo‘jaliklari soni, ta	1210

Yuqoridagi 3-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, “Sanoat” yo‘nalishidagi maxsus iqtisodiy zonalarga kiritilgan umumiy qiymati 1,6 mlrd. AQSH dollar bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamda 4,5 mlrd. AQSH dollar bo‘lgan boshqa turdagi investitsiyalar jalb etilib, kiritilgan investitsiyalar hisobiga jami 566 ta investitsiya loyihalari amalga oshirilgan. “Farmatsevtika” yo‘nalishidagi maxsus iqtisodiy zonalarga 282 mln AQSH dollari miqdoridagi investitsiyalar jalb etilgan. Ushbu yo‘nalishda 46 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirilishi natijasida 400 turlari dori vositalari, 40 turdagi tibbiyot texnik vositalari ishlab chiqarilgan. “Turizm” yo‘nalishidagi 2 ta turistik-rekreatsion zonalarda tashkil etilgan 75 ta turistik infratuzilmalarni barpo etish maqsadida umumiy qiymati 449,0 mln AQSH dollar miqdoridagi 61 ta inves-titsiya loyihalari amalga oshirilgan. Buxoro va Qoraqalpog‘istonda tashkil etilgan “Qishloq-xo‘jaligi” yo‘nalishidagi maxsus iqtisodiy zonalarda hozirga qadar 308 ta investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida umumiy qiymati 652,2 mln AQSH dollari miqdoridagi investitsiyalar kiritilgan. Mazkur investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida tashkil etilgan 1210 ta zamonaviy issiqxona xo‘jaliklarida 9800 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilishiga erishilgan.

XULOSA TAKLIFLAR

Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda mamlakat va hududiy darajadagi soliq siyosati hamda bojxona tarifi tizimini raqam-lashtirish, tartibga solish yo‘nalishlarida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega hisoblanib, mamlakat va uning hududlarida investitsiya muhitini yaxshilash va doimiy qulay shart-sharoitlarni yaratish orqali investitsion faollikni oshirish. Mamlakatimizda moliya bozorlarini faoliyatini yanada rivojlantirish va aholimiz o‘rtasi ichki investitsion muhitni shakllantirish orqali yangi yirik loyihalarni faqatgina bank kreditlari orqali emas, balki jamg‘arilgan pul mablag‘lari evaziga moliyalashtirish madaniyatini kiritishimiz hozirgi iqtisodiy holatimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. П.Ярош. Управление развитием территориально-хозяйственных зон в польше: теория, методология, практика: Монография. – В.: “Польша”, 2018. – С. 200.
2. Yeongjin K. Shanghai Pudong new area development strategy, Invest Korea Agency. P. 13-15. 2016
3. Gulbis I. Foreign direct investment and special economic zones in Latvia. Baltic Journal of Real Estate Economics and Construction Management. 2018, 6. P. 240-252 https://content.sciendo.com //
4. Ciżkowicz P., Pękała M., Pękała P., Rzońca A. The effects of special economic zones on employment and investment: spatial panel modelling perspective. Economic Institute Warsaw, 2015. Journal of Economic Geography, Volume 17, Issue 3, May 2017. P. 571-605.
5. Zaldívar F., Molina E. Special Economic Zones and their Impact on Regional Economic Development. Prob. 2018, vol.49, P.11-32.
6. Sikka P. University of Essex, UK. The role of offshore financial centres in globalization. Volume 27, 2003. P. 15-35.
7. Tytko A., Sukhan I., Koshchynets M. Offshore territories: positive and negative impacts on the global economy. Baltic Journal of Economic Studies. Vol. 4, No. 5, 2018. P. 14-29.
8. Vahabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xajibakiev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik. -T.: Baktria press, 2015. -584 b.
9. Mirzalieva S.S. Erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirishning xorij tajribasi: i.f.n. diss. avtoref. – Toshkent, 2001. – 52 b.
10. Raimjanova M.A. O‘zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga inves-titsiyalarni jalb qilishni faollashtirish. i.f.n. diss. avtoref. – Toshkent, 2012. – 25 b.
11. Madrahimov U. O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘sish sifatini oshirish yo‘llari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSs) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2017 y. 68 b.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



“YASHIL” SANOAT SIYOSATINI YURITISH ZARURIYATI: BOZOR NUQSONLARIDAN MILLIY XAVFSIZLIKKACHA

Muqimov Sherali Axmadali o‘g‘li
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada sanoat siyosatini “yashil” tarzda yuritish kerakligi bozor nuqsonlari yordamida asoslashga harakat qilinadi. Asosiy nuqsonlar sifatida bozorda yangi texnologiyalar natijasida olinadigan ijobiy samaralarning mukofotlanmasligi (1), bozorning jahonda sodir bo‘layotgan yashil transformatsiya jarayonlarida raqobatbardoshlilikni saqlab qolishga ko‘maklashmasligi (2), shuningdek milliy xavfsizlikni ta’minlay olmasligi (3) keltiriladi.

Kalit so‘zlar: sanoat siyosati, bozor nuqsonlari, subsidiya, investitsiya, ekologik siyosati, milliy xavfsizlik, energetik xavfsizlik.

Abstract: In the paper we make an attempt to prove that industrial policy should be conducted in a “green” form to address market failures. As main market failures, we indicate: market doesn’t reward positive effects of new eco-friendly technologies (1), market cannot be helpful in maintaining global competitiveness while global green transformation process (2), and market cannot ensure national security (3).

Key words: industrial policy, market failures, subsidy, investment, ecological policy, national security, energy security.

Аннотация: В статье с помощью недостатков рынка обосновывается необходимость ведения промышленной политики в “зеленой” форме. В качестве основных недостатков приводятся: рынок не вознаграждает за позитивные эффекты от применения новых эко-технологий (1), не содействует сохранению конкурентоспособности в контексте глобальных процессов зеленой трансформации (2), а также не обеспечивает национальную безопасность.

Ключевые слова: промышленная политика, недостатки рынка, субсидия, инвестиция, экологическая политика, национальная безопасность, энергетическая безопасность.

KIRISH

O‘tgan asrning ikkinchi yarmida iqtisodchilar rivojlanib kelayotgan dunyoning bozor nuqsonlariga to‘laligiga, kambag‘al davlatlarning nochorlik tuzog‘idan faqatgina hukumatning kuchli intervensiyalari hisobiga chiqib keta olishlariga ishonishar edi. Keyin esa shunday vaqtlar keldi-ki, ular hukumatning nuqsonlari yanada jiddiyroq oqibatlarga olib kelishiga, shu sababli davlat uchun eng yaxshisi iqtisodiyotning g‘ildiraklarini aylantirish davosidan voz kechish ekanligiga amin bo‘la boshladilar [1]. Lekin vaqt ushbu to‘xtamning ham mutlaq to‘g‘ri emasligini, davlatlar ulkanroq maqsadlar yo‘lida baribir sanoat siyosatini yuritish lozimligini anglab yetdilar. Bunday maqsadlarning asosiysi iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini yumshatish va ularga moslashish uchun iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish hisoblanadi. Ayni shu maqsadga erishish yo‘lida sanoat siyosati ham yashil transformatsiyadan o‘tdi va dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinib ulgurdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil sanoat siyosati (YASS) o‘zining fundamental asoslariga ko‘ra an’anaviy sanoat siyosatiga juda o‘xshashdir. Ya’ni, sanoat siyosatini oqlash uchun qo‘llaniladigan asosiy argument – bozor nuqsonlari YASSni asoslashda ham to‘liq ishlatilishi mumkin. Shuningdek, yana bir qator o‘ziga xos jihatlar borki, ular YASSning yuritilishi lozimligini isbotlash uchun yetarli bo‘ladi. Ular orasida eng muhimi, tabiiyki, ekologik tashqi ta’sirlardir [2].

Agarda bozorlar nuqsonsiz faoliyat yuritganda, tabiiy resurslar va atrof-muhit obyektlari o‘zining haqiqiy ijtimoiy marjinal qiymatida narxlanganda, texnologiya yaratuvchilar o‘z erishgan yutuqlariga mutanosib ravishda rag‘bat olganlarida edi, yashil loyihalarga investitsiyalar kiritish bo‘yicha qaror qabul qilishni butunlay tadbirkorlar, korporatsiyalar va moliya bozorlarining ixtiyoriga topshirib qo‘ygan bo‘lardi [3]. Lekin, haqiqatda shunday omillar borki, ular qaror qabul qilish jarayonida moddiy manfaat va ijtimoiy mas’uliyat o‘rtasidagi uyg‘unlikning ta’minlanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Nazariy jihatdan ushbu omillar to‘plami bozor nuqsonlari sifatida qabul qilinadi.

Bozor nuqsonlarining mavjudligi fanda tan olinib, allaqachon darslik va o‘quv adabiyotlari mundarijasiga kiritilgan. Ularning asosiylari sifatida nomukammal raqobat, tashqi ta’sirlar va nomukammal axborotni keltirish mumkin [4]. Bunga qo‘shimcha ravishda daromadlar tengsizligiga yo‘l qo‘yilishi, ijtimoiy ne’matlarning ishlab chiqarilmasligi, iqtisodiy sikllarning yuzaga kelishiga ham bozorning nuqsonlari sifatida qaraladi. Salbiy tashqi ta’sirlar tarkibida havoning ifloslanishi ham keltirilsa-da, o‘nlab boshqa ta’sir va nuqsonlar orasida, tabiiyki, ushbu muammoga kamroq e’tibor qaratiladi. YASS esa aynan shu yetishmayotgan e’tiborni eng muhimga aylantirish bilan birga, bozorning qolgan nuqsonlarini ham to‘g‘rilashga qaratiladi.

YASSning eng muhim xususiyati bu atrof-muhitga zarar keltiradigan ishlab chiqarishlarning ijtimoiy badalini yuzaga chiqarish va shu orqali bozor nuqsonlarini to‘g‘rilashda namoyon bo‘ladi. Yashil texnologiyalarni joriy qilayotgan firmalar o‘zlari keltirayotgan ijtimoiy nafga nisbatan sezilarli darajada kamroq moddiy naf oladilar. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiyot tarmoqlariga yashil investitsiyalarning yetarli darajada kiritilmasligiga zamin hozirlaydi [5]. Investitsiya jarayonlarida ijtimoiy va moddiy naf o‘rtasidagi hamohanglikning bu kabi buzilishini bozorning birinchi tur nuqsonlari sifatida ko‘rish mumkin. D.Rodrik yondashuvidan [3] foydalangan holda mazkur nuqsonlarni 3 yo‘nalishda tushuntirish mumkin.

Birinchidan, yangi texnologiyalarning yaratilishi bir qator noiqtisodiy xarakterdagi ijobiy samaralarga olib keladi. Biroq, ushbu samaralar uchun texnologiyaning yaratuvchilari hech qanday naf olmaydilar. Samaralar firmalararo yoki tarmoq darajasida o‘zaro o‘rganish, malakaning oshishi yohud aglomeratsiya ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Qayd etish joizki, bunday bozor nuqsonlarini, yashil yoki yashil emasligidan qat’iy nazar, barcha yangi joriy etilgan texnologiyalar uchun tatbiq qilish mumkin. Shunday bo‘lsa-da, yashil texnologiyalar o‘zining mutlaq yangi va eksperimental tabiati hamda yaratuvchilari uchun taqdim etadigan risklari sababli oddiy texnologiyalarga nisbatan bozor nuqsonlariga mo‘rtroq bo‘ladi.

Ikkinchidan, yashil texnologiyalarni joriy qilish aksariyat hollarda an’anaviy texnologiyalarni qo‘llash va chiqarilgan issiqxona gazlari uchun to‘lovlarni amalga oshirishdan anchayin qimmatroq bo‘ladi. Boz ustiga atrof-muhitga do‘st texnologiyalarni qo‘llash uchun bozor yetarlicha rag‘batlarni yaratmaydi. Shu sababli, davlatlar ekologik siyosatni yuritishda avvalo yashil texnologiyalarni subsidiyalash yo‘lidan boradilar. Biroq, hanuzgacha hukumatlarning qazilma yoqilg‘ini subsidiyalashi, shuningdek soliqlar va tartibga solish choralarini iqlim o‘zgarishlarining haqiqiy ijtimoiy badaliga nisbatan kamroq va yumshoqroq amalga oshirishlari holatlari tez-tez uchrab turadi. XVJning 2013-yilgi hisob-kitoblariga ko‘ra [21], jahon bo‘yicha energiyaga subsidiyalar 1,9 trln dollar yoki global YAIMning 2,5% ni tashkil qiladi. Holbuki, yashil texnologiyalar va muqobil energiyani subsidiyalash uchun sabablar ko‘proq, argumentlar kuchliroqdir.

YASSni asoslovchi uchinchi nuqson bozorning jahonda sodir bo‘layotgan yashil transformatsiya jarayonlarida raqobatbardoshlilikni saqlab qolishga ko‘maklashmasligi bilan izohlanadi. Iqlim o‘zgarishi muammosi xalqaro hamjamiyatda kun tartibining bosh masalalaridan biriga aylangach, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar yashil sanoatni qo‘llab-quvvatlay boshladilar. Odatda, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad global raqobatda mahalliy sanoatni saqlab qolish hisoblanadi [3]. Muayyan yashil texnologiyani birinchi bo‘lib ishlab chiqish bir tomondan yangi bozorlarni ochib bersa, boshqa tomondan mamlakat texnologik taraqqiyotining kelajak yo‘lini belgilab berishi mumkin. Shuningdek, milliy texnologiyalarga investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash raqobatbardosh bo‘lmagan sanoat tarmoqlarida xorijiy ishlab chiqaruvchilar “foyda”sini kamaytirishi ehtimoli yuqori.

D.Rodrik tomonidan ilgari surilgan 3 yondashuvga qo‘shimcha ravishda bozorning davlatlararo hamkorlikni qo‘llab-quvvatlamasligi yoki buni taqozo eta olmasligini keltirish mumkin. Iqlim o‘zgarishlari umumbashariy muammo bo‘lsa-da, uni hal qilishda davlatlar turlicha kuch safarbar etadilar. Ayni vaqtda hukumatlar ushbu jarayonda o‘z milliy iqtisodiy manfaatlarini ta’minlash yo‘lida vaziyatdan foydalanib qolishga ham albatta urinib ko‘radilar. Qaysidir mamlakat ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun sanoatni yashillashtirishga katta miqdorda mablag‘larni yo‘naltirsa, unga qo‘shni bo‘lgan boshqa mamlakat an’anaviy (arzon) texnologiyalar orqali raqobat ustunligini qo‘lga kiritish mumkin. Bunda xavfsizlikning bo‘linmasligi tamoyili yaqqol namoyon bo‘ladi: qo‘shni mamlakatlardan birining ekologik muammolarga yetarlicha e’tibor qaratmasligi butun mintaqa iqlimi uchun tahdidlarning saqlanib qolishiga olib keladi. Shu sababli, davlatlar o‘rtasida ekologik siyosatni muvofiqlashtirish va buning uchun xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun asosiy instrument sifatida sanoat siyosati o‘rtaga chiqadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur muammoni tadqiqotining bir qator usullardan foydalanish asosida o‘rganilgan, jumladan, asosan xorijiy tajribalarni monografik tahlillar natijalarini monografik tadqiqot, analiz va sintez, tizimli tahlil kabi iqtisodiy usullar asosida o‘rganilgan

TAHLIL VA NATIJALAR

Ko‘p sonli bozor nuqsonlari milliy darajadagi muammolarni keltirib chiqaradi va ularni hal qilish uchun ham milliy darajada chora-tadbirlarni amalga oshirish yetarli bo‘ladi. Biroq, yuqorida ta’kidlanganidek, bozorning ekologik muammolarga yo‘l qo‘yishi global va mintaqaviy ahamiyatga. Shu nuqtayi nazardan, N.Stern iqlim o‘zgarishlari dunyo ko‘z ochib ko‘rgan eng yirik bozor nuqsonining oqibatidir [6], deb ta’kidlab o‘tdi.

O.Edenhofer esa atmosferani issiqxona gazlarini yutuvchi global umumiy resurs sifatida tavsiflab, uning hamma uchun ochiqligini va dunyoning ko‘plab mintaqalarida har bir kishi undan bepul foydalanishini ta’kidlab o‘tadi [7]. Darhaqiqat, atmosferaga chifarilgan issiqxona gazlari faqatgina ular kelib chiqqan joy (geografik manba) ning o‘zigagina ta’sir qilmaydi, balki butun mintaqa yohud yer shariga u yoki bu darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Xuddi shuningdek, agarda bir mamlakat issiqxona gazlari emissiyasini cheklash uchun sa’y-harakatlarni amalga oshirsa, bundan qolgan barcha mamlakatlar, shu jumladan hech qanday chora ko‘rmaganlar ham manfaat ko‘radi. Bu kabi vaziyatni J.Eldi va R.Stevinslar ta’biri bilan quyidagicha baholash mumkin [8]: “deyarli har bir yurisdiksiyaning o‘z harakatlari natijasida oladigan iqlimiy naflari unga sarflangan xarajatlardan kamroq bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, bu yo‘nalishdagi global naflar global xarajatlarga nisbatan anchayin ko‘proq bo‘lishi mumkin”.

Iqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra, yuqoridagi muammoni G.Hardin tomonidan taklif etilgan “umumiy boyliklar fojeasi” (tragedy of the commons) nazariyasi [9] bilan izohlash mumkin. Ushbu nazariyaga muvofiq barcha iqtisodiy subyektlar umumiy boylik (resurs)dan o‘z manfaatlari yo‘lida maksimal darajada foydalanishga, hattoki bu boshqalarning manfaatlariga zid bo‘lsa ham, moyil bo‘ladilar. Natijada ortiqcha iste’mol qilish, yetarlicha investitsiya kiritmaslik, tabiiy resurslarning tugatilishi kabi holatlar yuzaga keladi. Xuddi shu sababga ko‘ra, davlatlar o‘rtasida boshqalarning hisobidan manfaat ko‘rish (free-ride) muammosi yuzaga kelib, iqlimga investitsiyalar kiritishda nomutanosibliklar paydo bo‘ladi [10]. D.Rodrik esa mazkur vaziyatni siyosiy iqtisodiyot va davlat boshqaruvi nuqtayi nazaridan baholagan [3]. Uning fikricha, atrof-muhitga ta’sirlar mikrodarajada bozor nuqsonlarini to‘g‘rilashni taqozo qilsa, yalpi (makro) darajada muvofiqlashtirish (koordinatsiya) zaruratini keltirib chiqaradi. Muallifning bu yerda muvofiqlashtirish deganda davlat siyosatini, aniqroq aytganda yashil sanoat siyosatini nazarda tutgan, deb xulosa qilish mumkin.

Global isishni jilovlash va uglerod emissiyasini qisqartirish global manfaatlarni o‘zida ifoda etadi. Agarda bu manfaatlar ta’minlanmasa, dunyoning barcha mamlakatlari salbiy oqibatlar bilan yuzlashadilar. Shu nuqtayi nazardan, yashil sanoat siyosati iqlim o‘zgarishlari siyosati kabi xalqaro darajada muvofiqlashtirilishi kerak bo‘ladi.

Bozor bu shunday mexanizmki, uni shaxsiy manfaatlar harakatga keltiradi. Aynan shu holat uning nuqsonlar bilan ishlashi, ya’ni shaxsiy manfaatlarning jamiyat manfaatlaridan ustun kelishi yangi ijtimoiy me’yorga aylanishiga sharoit yaratadi. Yuqorida bozorning klassik nuqsonlari atroflicha yoritildi. Shunday bo‘lsada, tadqiqotchilar diqqatidan chetda qolayotgan hamda ahamiyati bo‘yicha an’anaviylaridan qolishmaydigan yana bir nuqson borki, uni alohida yoritmaslik mazkur ilmiy ishning mazmunan to‘kis bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi. Bu nuqsonni bozorning milliy xavfsizlikni ta’minlamasligi bilan izohlash mumkin.

BMT tomonidan ma’qullangan ta’rifga ko‘ra, milliy xavfsizlik davlatning o‘z fuqarolarini himoya va mudofaa qila olish qobiliyati deb tavsiflanadi [11]. Klassik ta’rifga ko‘ra esa milliy xavfsizlik deganda shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarining ta’minlanganlik holati sifatida tushuniladi[1]. YASS esa bunda milliy xavfsizlikni ta’minlash vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Buning eng yorqin misollaridan biri energetik xavfsizlikdir.

Qazilma yoqilg‘ining tugab borishi ko‘plab mamlakatlarni energiya resurslarini import qilishga, vaqt o‘tishi bilan esa importga qaramlikka olib kelishi mumkin. Yashil energiya manbalaridan foydalanish esa ushbu holatning oldini olish, S.Valentayn ta’biri bilan aytganda [12] energetik xavfsizlik va qayta tiklanadigan energiyadan iborat yangi simbiozning paydo bo‘lishiga sharoit yaratadi. Bunda davlat tomonidan olib boriladigan YASS atrof-muhitni muhofaza qilishdan ko‘ra energetik xavfsizlikka tahdidlarni bartaraf etishga qaratiladi. Xususan, O‘zbekistonda ham yashil energiyaga o‘tishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri tabiiy gazni tejash hisoblanadi [13].


Bu kabi misollarni oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash (masalan, iqlim o‘zgarishlari chidamli navlarni yaratishga investitsiyalani yo‘naltirish), aholi salomatligini saqlash (ekologiyasi og‘ir hududlarda yashil sanoat zonalarini tashkil etish), kambag‘allikni qisqartirish (yashil ish o‘rinlarini qo‘llab-quvvatlash) kabi milliy xavfsizlik sohalarida ham davom ettirish mumkin.

1 Ushbu ta’rif shu daraja ommalashganki, ilmiy adabiyotlarda uni manbasiga havola qilmay taqdim etiladi.

So‘nggi vaqtlarda jahonda sodir bo‘layotgan qurolli konfliktlar davlatlarni o‘z xavfsizligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilishga har qachongidan ko‘proq e’tibor qaratishga majbur qila boshladi. Bunda asosiy harakatlar mudofaa sanoatini rivojlantirish yoki yangi bosqichga olib chiqishga yo‘naltirilmoqda. Biroq, bozor munosabatlari barcha sohalarga to‘liq kirib borganligi sharoitida bu vazifani faqatgina davlat sektori orqali amalga oshirish deyarli imkonsiz bo‘lib qoldi. Shu sababli sohaga xususiy sektorni jalb qilish, harbiy-texnik innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, yangi va yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlariga ega mudofaa vositalarini ishlab chiqarishda mazkur sektor imkoniyatlaridan davomli foydalanishni sanoat siyosatisiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Bunda harbiy xarakterga ega bozor munosabatlarini rivojlantirishda YASS mexanizmlari alohida ahamiyatga ega. Chunki qurolsozlikka jalb qilinayotgan xususiy kompaniyalar ham xuddi yashil texnologiyalarni joriy qiluvchilar kabi “birinchi bo‘lish riski”ni qabul qiladilar.

Yashil sanoat siyosatini mas’uliyatli taraqqiyot yoki yashil o‘sishning asosiy vositalaridan biri sifatida ko‘rishga ham yetarli asoslar bor. Yaqin yillardan beri xalqaro siyosiy diskursda yashil o‘sish g‘oyasi keng qo‘llanilmoqda. BMT, Jahon banki guruhi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Katta yettilik (G-7) va yigirmalik (G-20) davlatlari tomonidan yashil o‘sish strategik vazifa sifatida qabul qilindi [14]. Ko‘plab murakkab ta’riflar ichida OECDning yashil o‘sishga bergan ta’rifi o‘zining sodda va ma’nodorligi bilan ajralib turadi: “yashil o‘sish iqtisodiy o‘sish va rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashni anglatib, unda tabiiy aktivlar insonlar farovonligini resurslar va atrof-muhit xizmatlari bilan ta’minlash uchun yetarli darajada saqlanib qoladi [15] (mual. tahr.). Bu va boshqa ta’riflarni bog‘lab turuvchi umumiylik atrof-muhit va kelajak avlod oldidagi mas’uliyatni bajarishga bo‘lgan ehtiyojda aks etadi.

YASSni yuritish zaruratini aynan shu obyektiv va hayotiy muhim ahamiyat kasb etuvchi ehtiyoj bilan ham izohlash mumkin. O‘zimiz va kelajak avlod uchun munosib yashash sharoitlarini yaratishni istar ekanmiz, tabiiy resurslardan foydalanish masalasiga nisbatan yondashuvimizni keskin o‘zgartirishimiz kerak [16]. Global iz tarmog‘i (Global footprint network)ning hisob-kitoblariga ko‘ra, insoniyat Yer sayyorasining real imkoniyatlaridan eng kamida 75%ga ko‘proq foydalanmoqda. Ya’ni, hozirgi iste’mol sharoitida tabiiy balansni ta’minlash uchun bizga 1,75 birlik sayyora kerak bo‘ladi [17]. Shuningdek, ushbu tarmoq tomonidan Yerdan qarzdorlikning boshlanishi kuni (Earth overshoot day) 2023-yilda butunjahon uchun 2 avgust, O‘zbekiston uchun esa 11 oktyabr ekanligi aniqlangan [18]. Bu shuni anglatadiki, Yer sayyorasining yillik biologik qayta tiklash salohiyati jahon bo‘yicha 8 oy, O‘zbekistonda 10 oy ichida iste’mol qilinib, tugatiladi. Ushbu raqamlar asosida xulosa qilish mumkinki, insoniyatning joriy yashash tarzi atrof-muhit nuqtayi nazaridan mas’uliyatli emas.



1-rasm: 1971–2023-yillarda Yerdan qarzdorlikning boshlanishi kunlari

Manba: Global Footprint Network, National Footprint and Biocapacity Accounts 2023.

O‘z navbatida, atrof-muhit va tabiiy resurslarni saqlab qolish uchun iqtisodiy o‘sishni “qurbon qilish” ham ma’noga ega emas. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning mart oyida 659 mln kishi global kambag‘allik chizig‘idan (kuniga 2,15 doll.dan kam daromadga ega bo‘lish) quyida – o‘ta kambag‘al holda hayot

kechirgan [19]. Aholi soni hamda shunga mutanosib tarzda ehtiyojlarning miqdor va sifat jihatdan o‘sib borishi esa iqtisodiy taraqqiyotning faqat oldinga yurishini taqozo etadi. Davlatlar oldida esa ushbu 2 jarayonni murosaga keltirish, ular o‘rtasidagi “oltin o‘rtaliq”ni topish masalasi kundan-kun yanada hayotiy muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Dunyo bo‘yicha emissiya qilinayotgan issiqxona gazlarining 73,2% u yoki bu shaklda sanoat bilan bog‘liq (asosan energiya ishlab chiqarish orqali) holda hosil bo‘ladi [20]. Demak, davlatlar emissiya darajasini pasaytirishni maqsad qilsalar, asosiy e’tiborni sanoatni tartibga solishga qaratishlari kerak bo‘ladi. Bu borada amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui yashil sanoat siyosatini yuzaga keltiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida ta’kidlash o‘rinliki, jahonda “yashil iqtisodiyot”, “yashil o‘sish” kabi g‘oyalar keng muomalada bo‘lsa-da, ularni amalga oshirish vositasi hisoblangan YASSga yetarlicha e’tibor qaratilmayapti. Ushbu siyosatni amalga oshirish davlatning bozor nuqsonlarini to‘g‘rilash maqsadida iqtisodiyotga aralashuvini nazarda tutadi va shuning uchun ham, maqsadli amalga oshirilgan taqdirda, siyosiy-iqtisodiy risklarni keltirib chiqarmaydi. Shu sababli, YASS strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda faqatgina bozor nuqsonlarini to‘g‘rilashga e’tibor qaratilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rodrik, Dani. Industrial policy for the twenty-first century, 2004.
2. Cosbey, Aaron. Green Industrial Policy and the World Trading System. Issue Brief, 17. ENTWINED 2013/10/30. – P.5.
3. Rodrik, Dani. Green industrial policy // Oxford Review of Economic Policy, Volume 30, Number 3, 2014, pp. 469–491.
4. Samuelson Paul A., Nordhaus William D. Economics. – 19th ed. p. cm. – The McGraw-Hill series economics. – P.164.
5. Altenburg Tilman, Rodrik Dani. Green industrial policy: Accelerating structural change towards wealthy green Economies, Ch.1. In: Altenburg, T., & Assmann, C. (Eds.). (2017). Green Industrial Policy. Concept, Policies, Country Experiences. Geneva, Bonn: UN Environment; German Development Institute. – P.12.
6. Stern, N. (2007). The economics of climate change: The Stern review. Cambridge: Cambridge Univ. Press.
7. Edenhofer O., K. Seyboth, F. Creutzig and S. Schlömer (2013) ‘On the Sustainability of Renewable Energy Sources’, Annual Review of Environment and Resources 38: 169-200.
8. Aldy, J. and R. Stavins (2011) ‘The Promise and Problems of Pricing Carbon: Theory and Experience’, National Bureau of Economic Research, Working Paper 17569.
9. Hardin, G. (1968) ‘The Tragedy of the Commons’, Science 162(3859): 1243-1248.
10. Tagliapietra S., Veugelers R. A green industrial policy for Europe. – Bruegel, 2020. – P. 41.
Abstract: In the study, proposals for Uzbekistan are prepared based on the importance of the “Strategy of transition to a green economy” and “Strategy to achieve carbon neutrality”, and the experience of EBRD and foreign countries implementing these strategies. It is theoretically analyzed how much economic efficiency can be achieved if the given proposals are implemented.

Key words: transition strategy, economic efficiency, EBRD, CO_2.

Аннотация: В исследовании предложения для Узбекистана подготовлены с учетом важности “Стратегии перехода к зеленой экономике” и “Стратегии достижения углеродной нейтральности”, а также опыта ЕБРР и зарубежных стран, реализующих эти стратегии. Теоретически проанализировано, какой экономической эффективности можно достичь при реализации данных предложений.

Ключевые слова: стратегия перехода, экономическая эффективность, ЕБРР, CO_2.

KIRISH

To‘rtinchi sanoat inqilobi insoniyatning texnologik innovatsiyalardan ekologik barqarorlik maqsadlarida foydalanishi va “yashil” iqtisodiyotga o‘tishi bilan boshlandi. Rivojlanayotgan texnologiyalar sanoatni qayta shakllantirar ekan, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish nafaqat dolzarb, balki majburiy bo‘lib qolmoqda. Qazib olinadigan yoqilg‘iga asoslangan energetika tizmlaridan qayta tiklanuvchan energiyaga asoslangan tizmga o‘tish jadallashib bormoqda. Xalqaro energetika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra [1], hozirda qayta tiklanuvchan energiyaga kiritiladigan investitsiya qazib olinadigan yoqilg‘iga kiritiladigan investitsiyadan 70 foizga ko‘p, ya’ni qayta tiklanuvchan energiyaga kiritiladigan har 1,70 AQSH dollari investitsiyasiga qazib olinadigan yoqilg‘iga kiritiladigan 1 AQSH dollari to‘g‘ri keladi. Jahon banking tadqiqotlariga ko‘ra [2] toza ichimlik uchun sarflangan har 1 AQSH dollari tibbiy xarajatlarni kamaytirish va kapital samaradorlikni oshirish orqali 4 AQSH dollarli miqdorida daromad keltirishi aniqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasini “ Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida ”gi PF-37-son Farmonining bosh maqsadi “O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan keng ko‘lamli islohotlarni 2024 yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish hamda xalq manfaatlariga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish” ekanligi mavzuning dolzarbligini karrasiga oshiradi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish va uglerod neytralligiga erishish strategiyasi iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit degradatsiyasining dolzarb muammolarini hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar resurslardan barqaror foydalanishni rag‘batlantiradi, ifloslanishni kamaytiradi va innovatsiyalarni rag‘batlantiradi, shu bilan ekologik barqarorlik va iqtisodiy barqarorlikni oshiradi. Qayta tiklanadigan energiya manbalari va samarali amaliyotlarga ustuvor ahamiyat berib, “yashil” iqtisodiyot nafaqat atrof-muhitga etkazilgan zararni kamaytiradi, balki ish o‘rinlari imkoniyatlarini yaratadi va texnologik taraqqiyotni ta’minlaydi. Uglerod neytralligiga erishish global isishni cheklash, iqlim bo‘yicha xalqaro majburiyatlarni bajarish va uzoq muddatli iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun juda muhimdir.

Tadqiqotda “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi va “Uglerod neytralligiga erishish strategiyasi”ning muhimligi, ushbu strategiyalarni amalga oshirayotgan YETTB va xorij mamlakatlari tajribasiga asosan O‘zbekiston uchun takliflar tayyorlanadi. Berilgan takliflar amalga oshirilgan taqdirda qancha iqtisodiy samaradorlikka erishilishi mumkinligi nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlatlarning “yashil” iqtisodiyotga o‘tishini jadallashtirishda xalqaro tashabbuslar va xalqaro moliya institutlarining o‘rni beqiyos. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB)ning “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi shunday tashabbuslardan biri bo‘lib, bankning asosiy vazifasi bank faoliyat yuritayotgan hududlarda “yashil” loyihalar va tashabbuslarga yo‘naltirilgan investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali barqaror rivojlanishga ko‘maklashish, iqlim o‘zgarishiga va atrof-muhit bilan bog‘liq boshqa ekologik maqsadlarga erishishni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

YETTB o‘zi faoliyat yuritayotgan davlatlarda kam uglerodli “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha o‘zining qat’iy majburiyatini aks ettirgan holda, 2025-yilga borib “yashil” moliyalashtirish ulushini 50 foiz dan ortiqqa yetkazishni maqsad qilib qo‘ygan [3]. Bank ta’kidlashicha, ushbu maqsadga erishish bir tomondan vaqt masalasiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan davlatlarning “yashil” tiklanish yondashuvini qo‘llash, ichki resurslarni o‘z vaqtida taqsimlash va ikki tomonlama donorlar, Yevropa Ittifoqi va YETTBning “yashil” faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi global fondlar bilan mustahkam aloqalarga asoslangan tashqi mablag‘larning mavjudligiga bog‘liq.

YETTB 2006-yilda Barqaror energiya tashabbusi (BET) orqali 2006–2010-yillarni o‘z ichiga olgan energiya samaradorligi va iqlim o‘zgarishi loyihalarini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya va moslashuv loyihalarini ko‘rib chiqishni boshlagan. Ushbu faoliyat 2015-yilda tasdiqlangan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish (Green Economic transition yoki GET) yondashuvi bilan kengaytirilgan.


YETTB 2006-yilda BET orqali quyidagi maqsadlarga erishishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi [4]:

- barqaror energiyaga kiritiladigan investitsiyalar hajmini ikki baravarga oshirish va umumiy investitsiya qiymatini 5 mlrd yevroga yetkazish;
- BETni asosiy faoliyat doirasida birlashtirish;
- investitsiyalarni ko‘paytirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha siyosiy muloqotlarni yo‘lga qo‘yish;
- 100 mln yevro miqdoridagi grant jamg‘armasini safarbar etish maqsadida tashabbusni qo‘llab-quvvatlash uchun donorlar bilan yangi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

YETTB BET ning 1-fazasida (2006–2008-yillar) erishilgan rekord va tajribaga asoslanib, energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini moliyalashtirishni yanada kengaytirish ustida ish olib bordi va BET ning 2-fazasi (2009–2011) uchun quyidagi maqsadlarni belgiladi:

- BET investitsiya maqsadini 3 mlrd yevrodan 5 mlrd yevrogacha, loyihaning umumiy qiymati 9 mlrd yevrodan 15 mlrd yevrogacha oshirish (loyihaning umumiy qiymati barqaror energiya bilan bog‘liq bo‘lmagan moliyalashtirishni ham o‘z ichiga oladi);
- 100 mln yevro donor moliyalashtirish maqsadi;
- investitsiya granti/imtiyozli moliya maqsadini 250 mln yevroga yetkazish;
- yiliga 25-35 mln tonna CO_2 emissiyasini kamaytirish.

2010-yil dekabr oyining oxiriga kelib, 2006 yilda BET ishga tushirilgandan keyin 353 ta loyiha imzolandi va umumiy qiymati 6,1 mlrd yevro miqdoridagi investitsiya mablag‘lariga erishildi. Ushbu loyihalarning umumiy qiymati taxminan 32 mlrd yevroni tashkil etdi va bu investitsiyalar natijasida kutilayotgan uglerod chiqindilarining yillik kamayishi darajasi 37,2 mln tonna CO_2 ni tashkil qilgan. 2010-yilda Latviyada imzolangan loyihalar bilan BET operatsiyalari 2010 yil dekabr holatiga ko‘ra 29 ta davlatni qamrab olgan.



1-rasm: YIO‘ strategiyasining 2016–2019-yillardagi oldiga qo‘ygan maqsadlari va natijalari

Manba. “GET approach 2021–2025” hisoboti asosida tuzib chiqildi.

1-rasmda ko‘rsatilganidek, YETTB 2016–2019-yillarda o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini bajardi va hattoki ayrim yillarda o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlardan ancha yaxshiroq natija qayd etdi. Xususan bank 2017-yilda jami investitsiyalarining 34 % ni YIO‘ ga yo‘naltirilgan loyihalarga sarflashni maqsad qilgan bo‘lsa, haqiqatda ushbu yilda 43 % investitsiyalar YIO‘ doirasida amalga oshirilgan. Bank 2018-yilda ko‘zlangan 36 % lik maqsadga erishilgan bo‘lsa, 2019-yildan 46 % investitsiyalarni YIO‘ doirasida amalga oshirgan.

Yevropa Ittifoqi “yashil” taksonomiyasiga ko‘ra investitsiyalar oltita (1-iqlim o‘zgarishini yumshatish, 2-iqlim o‘zgarishiga moslashish, 3-suv va dengiz resurslaridan barqaror foydalanish va muhofaza qilish, 4- resurs-

lardan samarali foydalanish va aylanma iqtisodiyotga o‘tish, 5- ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish, 6- biologik xilma-xillik va ekotizimlarni muhofaza qilish, tiklash hamda ularning xizmatlari) maqsad bo‘yicha baholanadi. YETTB o‘zining umumiy maqsadlariga muvofiq, GET1.0 iqlimni (Yevropa Ittifoqi “yashil” taksonomiyasi 1–2-maqsadlari) moliyalashtirish va boshqa ekologik maqsadlar (Yevropa Ittifoqi “yashil” taksonomiyasi 3-4-5-6-maqsadlari) bilan faoliyatni rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi.

YETTB o‘zning yangi YIO‘ strategiyasida favqulodda iqlim va ekologik inqirozni hal qilish uchun o‘z hissasini yanada kengaytirish tashabbusi bilan chiqdi. Bankning yangi strategiyasi “yashil” moliyalashtirishni amalga oshirish bo‘yicha mustahkam tajribaga asoslangan bo‘lib, 2021-yildan 2025-yilgacha bo‘lgan davr uchun “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning (Bank bu davr strategiyasini GET2.1 deb nomlashni boshlagan) keng qamrovli va o‘z faoliyat yuritayotgan mamlakatlarning iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit muammolariga hamohang tarzda moslashishiga asoslangan. YETTB yashil, past uglerodli va barqaror iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirishni qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirish maqsadida quyidagilarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan:

- o‘z faoliyatini iqlim bo‘yicha xalqaro kelishuvlarga jumladan, Parij kelishuvi tamoyillariga muvofiqlashtiradi;
- uzoq muddatli past uglerodli strategiyalarni ishlab chiqish va moliyaviy tizimlarni yashillashtirish bo‘yicha bankning siyosiy ishtirokini kuchaytiradi;
- yashil innovatsion raqamli yechimlar, aylanma iqtisodiyot, tabiiy kapital va “yashil” qiymat zanjirini moliyalashtirish kabi atrof-muhit va iqlim ta’sirini yumshatish va moslashishning muayyan tematik sohalariga innovatsiyalar kiritish orqali investitsiyalarni kengaytiradi.

TADQIQOT BO‘SHLIG‘I

Tadqiqot savollari:

1. O‘zbekiston Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YETTB) “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasidan nimalarni saboq sifatida olishi kerak?
2. 2050–2060-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida uglerod neytralligiga erishish strategiyasini tuzishda nimalarga e’tibor qaratish kerak?

TADQIQOT METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonda “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tuzishda nimalarga e’tibor berish, YETTB ning mavjud strategiyalaridan nimalarni olish mumkinligi va “Uglerod neytralligiga erishish” stategiysasida olinishi mumkin bo‘lgan takliflarning potensial iqtisodiy samaradorligi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, tadqiqotda empirik va nazariy tahlildan iborat aralash yondashuv qo‘llaniladi. Bunday tahlilda o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi regression yoki korrelatyatsion bog‘liqliklar aniqlanmaydi yoki oldinga surilgan gipoteza tekshirilmaydi balki, to‘plangan ma’lumotlarni deskriptiv tahlil qilishdan foydalanib tadqiqot savoliga javob qidiriladi. Tadqiqotning savollari O‘zbekistonda qabul qilinishi kutilayotgan strategiyalar uchun takliflar ishlab chiqishdan iborat bo‘lganligi bois, bu takliflardan qanday iqtisodiy samara kutilishi ham nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiqot savollariga javob qidirishda ikkilamchi ma’lumotlardan foydalaniladi. Bunday ma’lumotlar YETTB va xalqaro moliya institutlarining turli manbalari yoki hisobotlaridan olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

YETTB ning GET tashabbusi barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish va “yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun qimmatli saboqlar va tushunchalarni taqdim etadi. YETTB ning GET tashabbusidan o‘rganish mumkin bo‘lgan quyidagi 6 ta asosiy saboqlarni ko‘rib chiqsak:

1. **Integratsiyalashgan yondashuv:** YETTBning GET tashabbusi “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlash uchun investitsiyalar, siyosiy muloqotlar, salohiyatni oshirish va bilim almashishning integratsiyalashgan yondashuvni taklif qiladi. Ushbu kompleks yondashuv iqlim o‘zgarishi, resurslar samaradorligi va barqaror rivojlanishning o‘zaro bog‘liq muammolarini hal qilishga yordam beradi.
2. **Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik:** YETTB “yashil” loyihalar va bu loyihalarga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordam berish uchun hukumatlar, biznes subyektlari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan faol hamkorlik qiladi. Ushbu hamkorlikdagi yondashuv hamkorlikni rivojlantiradi, yagona konsensusni o‘rnatadi va “yashil” o‘tish tashabbuslarining samaradorligini oshiradi.

3. **Innovatsion moliyalashtirish mexanizmlari:** YETTB barqaror loyihalarga xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish uchun “yashil” obligatsiyalar, “yashil” kreditlar va iqlimga chidamlilik fondlari kabi innovatsion moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanadi. Moliyaviy imtiyozlar va risklarni taqsimlash mexanizmlarini taqdim etish orqali YETTB korxonalarni “yashil” amaliyot va texnologiyalarni qabul qilishga undaydi.
4. **Texnik yordam va salohiyatni oshirish:** YETTB mahalliy hamkorlarga “yashil” moliya, barqaror energiya, resurslar samaradorligi va atrof-muhitni boshqarish bo‘yicha tajribani rivojlantirishga yordam berish uchun texnik yordam, salohiyatni oshirish dasturlari va bilim almashish tadbirlarini taklif qiladi. Ushbu qo‘llab-quvvatlash manfaatdor tomonlarning “yashil” loyihalarni samarali amalga oshirish imkoniyatlarini oshiradi.
5. **Monitoring va baholash:** YETTB o‘zining “yashil” investitsiyalari va tashabbuslarining ta’sirini kuzatish uchun mustahkam monitoring va baholash tizimini qo‘llaydi. Asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini o‘lchash, natijalarni baholash va muntazam tahlillarni o‘tkazish orqali YETTB “yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha sa’y-harakatlarida mas’uliyat, shaffoflik va doimiy yaxshilanishni ta’minlaydi.
6. **Bilim almashish va ilg‘or tajribalar:** YETTB “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda ishtirok etayotgan mamlakatlar, institutlar va hamkorlar o‘rtasida bilim, ilg‘or tajriba va o‘rganilgan saboq almashishga yordam beradi. Fikr va tajriba almashish orqali YETTB innovatsiyalar, muvaffaqiyatli modellarni takrorlash va barqaror rivojlanishda transchegaraviy hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

YETTBning GET tashabbusidan olingan ushbu saboqlarni o‘rganish va qo‘llash orqali O‘zbekistondagi siyosatchilar, biznes vakillari va boshqa manfaatdor tomonlar barqaror rivojlanishga o‘tishda ko‘maklashish, iqlim o‘zgarishiga nisbatan chidamlilikni oshirish va “yashil” iqtisodiyotga o‘tishni tezlashtirish bo‘yicha o‘z sa’y-harakatlarini amalga oshirishlari mumkin.

O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga batamom o‘tishni ta’minlash uchun “nol uglerod” strategiyasini tuzib chiqish va unga ergashish maqsadga muvofiq. Mualliflar tomonidan, “Koreya Respublikasining 2050-yilgacha uglerod neytralligi strategiyasi” tajribalaridan kelib qichib, 2050–2060-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida uglerod neytralligiga erishish strategiyasini tuzish va energetika, transport va qurilish sektorlarida uglerod neytralligiga erishishi yuzasidan qo‘yidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Qayta tiklanadigan energiyaning o‘zgaruvchanlik va uzilishlari bilan bog‘liq muammolarni hal qilish maqsadida energiya talabi va ta’minotini aniq prognozlash tizimini ishlab chiqish, kelajakdagi innovatsion texnologiyalarni, masalan, ishonchli energiya ta’minoti uchun energiyani saqlash tizimini yaratishi maqsadida kengaytirilgan yordamni ta’minlash uchun ma’lumot to‘plash, ma’lumotlarni tahlil qilish, modelni ishlab chiqish(sun’iy intellektlardan foydalanib) va faktorlarning integratsiyasi mexanizmlaridan foydalanish taklif qilindi. Shamol va quyosh kabi qayta tiklanuvchan energiya manbalarini tarmoqqa samarali integratsiya qilish uchun aniq prognozlash juda muhimdir. Bu energiyaga bo‘lgan talabning o‘zgarishlarini oldindan ko‘rishga yordam beradi va resurslarni zaxiralash yoki muvozanatlashni rejalashtirishga yordam beradi.

- **Iqtisodiy samaradorligi.** Xalqaro qayta tiklanuvchi energiya agentligi tadqiqotlariga muvofiq [5], energiya talabi va ta’minotini aniq prognozlash tizimi mavjud quvvatlardan foydalanish samaradorligini oshiradi. “O‘zbekiston–2030” strategiyasida 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt ga yetkazish maqsadini va hozirgi kundagi 1 kVt·soat elektr energiyasi tannarxi [6] 1000 so‘m (yoki 7,9 sent) ekanligini hisobga olib, energiya talabi va ta’minotini aniq prognozlash tizimi yordamida mavjud quvvatlardan foydalanish samaradorligining 1 foizga oshishi natijasidagi yuzaga keladigan iqtisodiy samaradorlikni hisoblasak (1).

$$IS = N \times t_{sutka} \times t_{yil} \times \Delta\partial \times C \quad (1)$$

Bu yerda:

IS – foydali ish koeffitsiyentning o‘zgarishi natijasida aniqlanadigan iqtisodiy samaradorlik;

N –qayta tiklanuvchi energiya manbalarining quvvati (2030 yilga kelib O‘zbekistonda erishilishi maqsad qilingan N=);

t_{sutka} – mavjud quvvatga ega qayta tiklanuvchi energiya manbalarining sutka davomida ishlash soati (ishlaydi deb faraz qilingan);

t_{yil} – 365 kun, 1 yil davomiyligi;

$\Delta\partial$ – mavjud quvvatlardan foydalanish samaradorligining o‘zgarishi yoki foydali ish koeffitsiyentning o‘zgarishi (ko‘rilayotgan masalada foydali ish koeffitsiyentning 1 foizga o‘zgarishi natijasidagi iqtisodiy samaradorlik aniqlanmoqda).

C – 1 kVt·soat energiyaning tannarxi (2024-yil uchun AQSH dollari qiymati olingan bo‘lib, 2030-yildagi tannarxni hisoblashda aynan shu qiymat olingan, inflyatsiya hisobga olinmagan)

$$IS = 25 \times 10^6 \text{ kVt} \times 14 \text{ soat} \times 365 \text{ kun} \times 0{,}01 \times 0{,}079 \approx 100{,}92 \times 10^6$$

Demak, 2030 yilga kelib energiya talabi va ta’minotini aniq prognozlash tizimi yordamida mavjud quvvatlardan foydalanish samaradorligining 1 foizga oshishi yiliga taxminan 101 mln AQSH dollari miqdorida foyda keltiradi (inflyatsiya hisobga olinmaganda).

2. Qurilish sohasida energiya samaradorligini oshirish, sohani kam uglerodli energiya bilan ta’minlash, qazib olinadigan energiyadan foydalanishni minimallashtirish maqsadida “yashil” soliq imtiyozlari va kuchli qurilish standartlaridan foydalanish, jumladan, 2028-yildan boshlab barcha yangi jamoat binolari, 2035-yildan boshlab esa barcha yangi davlat va xususiy binolari nol energiya talab qiladigan qurilish standartlariga bo‘ysundirish. 2028-yildan oldin qurilgan binolarga, agar ular “yashil” rekonstruksiya qilish bo‘yicha yechimlarni qabul qilsalar, soliqlarni kamaytirish va kredit foizlari uchun grantlar kabi hukumat imtiyozlariga ega bo‘ladilar.

- **Iqtisodiy samaradorlik.** Xalqaro energetika agentligining 2050-yilga qadar “Nol netto uglerod” ssenariysida binolarni “nol uglerod” standartiga o‘tkazish natijasida rivojlanayotgan mamlakatlarda 2030-yilga kelib dekorbanizatsiyalash 2 % ga yetishi prognoz qilingan. 2019-yilda dunyodagi o‘rtacha Qurilish sohasidagi issiqxona gazlari emissiyasi jami emissiyaning 21 foizini tashkil qilishini hisobga olib [7] (O‘zbekiston uchun ma’lumotlar ochiq manbalarda mavjud emas), sohadagi yillik 2 % qisqarish jami emissiyadagi 0.42 % issiqxona gazlaridagi qisqarishga olib kelinishini ko‘rish mumkin. Ko‘rilayotgan yilda O‘zbekistonda issiqxona gazlari emissiyasi 190 mln tonna CO_2 ekv bo‘lganidan [8], 0.42 % issiqxona gazlaridagi qisqarish umumiy 798 ming tonna CO_2 ekv issiqxona gazlari qisqarishiga sabab bo‘lishi mumkin edi. 2023-yilda uglerod kreditlari har bir tonna CO_2 ekv issiqxona gazlari emissiyasi uchun 40–80-dollar atrofida baholangan [9]. Demak, yuqoridagi shartlar bajarilganida, qurilish sohasida issiqxona gazlaridagi 2 % qisqarish yiliga o‘rtacha 32-64 million AQSH dollari miqdorida foyda olib kelishi mumkin.

Transport sohasida uglerod chiqindilarining minimallashtirishi uchun transport vositasidan almashib foydalanish (shared mobility) amaliyotini joriy etish/kengaytirish, trafiklarni prognozlash va aqlli transport tizimlarini yaratish, avtonom transport vositalaridan tijorat maqsadlarida foydalanishni rag‘batlantirish, temir yo‘l transportiga modal o‘tishni rag‘batlantirish orqali 2050–2060-yilga kelib sohada uglerod neytralligiga erishish mumkin.

Iqtisodiy samaradorlik. Yuqorida ko‘rilgan misoldagi (qurilish sohasidagi) nazariy gipotezalarga asoslanib, transport sohasidagi 1% issiqxona gazlaridagi qisqartirish natijasida qancha iqtisodiy samaradorlikka erishilishini hisoblasak. Dunyo bo‘yicha transport sektoriga jami issiqxona gazlari emissiyasining chorak qismi to‘g‘ri keladi [10], ammo O‘zbekiston uchun bunday statistika ochiq manbalarda mavjud emasligi sababli, O‘zbekistonda ham transport sektori jami issiqxona gazlarining 25% ni emissiya qiladi deb faraz qilsak (aslida bundan ancha kam bo‘lishi mumkin), sektordagi 1% issiqxona gazlaridagi qisqartirish yiltga taxminan 19–38-million AQSH dollari miqdorida foyda olib kelishi mumkin.

Yuqoridagi hisob-kitoblarning ayrim qismlari nazariy gipotezalarga asoslangan bo‘lib, kelgusida, ishonchli ma’lumotlar asosida aniq hisob-kitoblarga tayaniladigan tadqiqot olib boriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy o‘sishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarda atrof-muhitning yaxlitligi va ijtimoiy tenglikka ustuvor ahamiyat berish zarurligi YETTB amalga oshirayotgan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish” tashabbusining asosiy xulosalaridan hisoblanib, aynan qaysi jihatlari O‘zbekiston uchun mos kelishi tadqiqotda keltirib o‘tildi. Loyihalarning atrof-muhitga ta’sirini baholash, resurslar samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash va qayta tiklanuvchi energiya yechimlarini ilgari surish orqali “Yashil iqtisodiyotga o‘tish” strategiyasi past uglerodli, resurslarni tejaydigan barqaror iqtisod yo‘nalishini belgilaydi. Bundan tashqari, “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “Uglerod neytralligiga erishish” strategiyalarida ijtimoiy, iqtisodiy o‘lchovlarning o‘zaro bog‘liqligi va inklyuziv iqtisodiy o‘sishda jamiyatning o‘rni beqiyos ekanligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, tadqiqotda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda yangi “yashil” ish o‘rinlarini yaratish, resurslardan samarali foydalanish va jamiyatning yashash darajasini yaxshilash orqali ijtimoiy muammolarning hal qilinishi maqsadga muvofiq ekanligi ta’kidlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Around $1.70 is now invested in clean energy for every $1 invested in fossil fuels. is that enough to get us to net zero? World Economic Forum. Available from: https://www.weforum.org/agenda/2023/07/renewable-energy-investment-slowing/ (Accessed: 16 February 2024).
2. Water: An accelerator for Green, inclusive, and resiliyent growth. World Bank Blogs. Available from: https://blogs.worldbank.org/en/water/water-accelerator-green-inclusive-and-resilient-growth (Accessed: 06 February 2024).
3. Green Economy Transition Approach 2021-2025. Available from: https://www.ebrd.com/documents/comms-and-bis/get-20212025.pdf (Accessed: 06 March 2024).
4. Climate change and sustainable energy – EBRD. Available from: https://www.ebrd.com/downloads/research/sustain/sr10ed.pdf (Accessed: 06 March 2024).
5. Advanced forecasting of variable renewable power ... Available from: https://www.irena.org/-/media/Files/IRENA/Agency/Publication/2020/Jul/IRENA_Advanced_weather_forecasting_2020.pdf (Accessed: 13 April 2024).
6. "Gazeta.uz" (2024) Elektrning tannarxi qariyb 1000 so'm, Tabiiy Gazniki Esa Qariyb 2000 so'mni Tashkil Qiladi – iqtisodiyot vazirligi, Gazeta.uz. Available from: https://www.gazeta.uz/oz/2024/04/16/costs/ (Accessed: 13 April 2024).
7. Chapter 9: Buildings. IPCC Intergovernmental Panel on Climate Change. Available from: https://www.ipcc.ch/report/ar6/wg3/chapter/chapter-9/ (Accessed: 14 April 2024).
8. Total greenhouse gas emissions (kt of CO2 equivalent) – Uzbekistan. World Bank Open Data. Available from: https://data.worldbank.org/indicator/EN.ATM.GHGT.KT.CE?locations=UZ (Accessed: 14 April 2024).
9. Ho, D. (2023) Creating carbon credits: Is it profitable?, Terrapass. Available from: https://terrapass.com/blog/creating-carbon-credits-is-it-profitable/ (Accessed: 11 April 2024).
10. EPA. Available from: https://www.epa.gov/greenvehicles/fast-facts-transportation-greenhouse-gas-emissions (Accessed: 2 April 2024).

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BREND QIYMATINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARI

Xodjiyev Ibroxim Ikramovich
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Namangan viloyati boshqarmasi boshlig‘i

Annotatsiya: Oziq-ovqat mahsulotlari brend qiymatini oshirishda marketing strategiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: brend, brend qiymati, innovatsion marketing, xalqaro brend, milliy brendlarni yaratish.

Abstract: Marketing strategies for increasing brand value of food products are highlighted.

Key words: brand, brand value, innovative marketing, international brand, creation of national brands.

Аннотация: Выделены маркетинговые стратегии повышения ценности бренда продовольственных товаров.

Ключевые слова: бренд, ценность бренда, инновационный маркетинг, международный бренд, создание национальных брендов.

1. KIRISH

Jahonning rivojlangan AQSH, Yaponiya, Xitoy, Yevropa Ittifoqi kabi mamlakatlari glabal oziq-ovqat mahsulotlari bozorda ustun mavqeyni ta’minlashning asosiy strategiyasi sifatida qo‘shimcha qiymat yaratish manbai bo‘lgan global brendlar yaratishga e’tibor qaratmoqda. Shuning uchun, xalqaro oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kampaniyalar tomonidan brending faoliyatini baholash, monitoringini amalga oshirish, bren strategiyalarini ishlab chiqish, jumladan, glabal brendlarni yaratishda innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish, xalqaro brend reytinglariga kirish asosida global brendlar bilan raqobatlasha oladigan mahalliy brendlar yaratish, raqamli marketingdan samarali foydalanish va ularni baholab borishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar ommalashmoqda.

O‘zbekistondagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining milliy brendlarni yaratish va ularni global brendga aylantirish borasida yetarli tajribaga ega emasligi, ularning marketing faoliyatida yangi yondashuvlar, vositalar va brend konsepsiyalaridan foydalanishning ilmiy-metodologik ba’zasini kengaytirishni talab etmoqda. Shu munosabat bilan, mavjud budjet cheklovlari va raqobat muhitining ta’sirini hisobga olgan holda, maksimal iste’molchi va qo‘shimcha qiymatiga ega bo‘lgan brendni rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish va brend qiymatini oshirib borishning nazariy va uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish kun tartibiga qo‘yilgan. Ushbu holatlar oziq-ovqat mahsulotlari brendini baholash metodologiyasini takomillashtirish va uni qiymatini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat ishlab chiqarish va uni marketing muammolarini hal etish, jumladan, oziq-oqqat mahsulotlari brendini shakllantirishni tadqiq qilishning ilmiy-nazariy jihatlari ko‘plab xorijlik olimlarning ishlanmalarida o‘z aksini topgan. Bu borada Assel G.[1], Churchill G.A., Brown T.J., Kotler Ph.[2], Keller K.L., Setiawan I., Karatajaya H., Malhotra N.K., Kennedy D.[3], Praet V.D.[4], Salenbacher J. Traindl A.[5], Trout J., Doyle P larning ilmiy ishlari mumtoz asarlarga aylangan. Ushbu uzoq xorij olimlari marketing, marketing strategiyasi va brendni shakllantirishga qo‘shgan salmoqli hissasiga qaramay, oziq-ovqat mahsulotlarining brendini shakllantirish va uni baholab borishning ilmiy metodologik asoslari yaratilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida bu borada Bagiyev G.L.[6], Tarsevich V.M., Bulanov A., Veselova A.O., Godin A.M., Golubkov Ye.P., Grechin Ye.Yu.[7], Makashyov M.O., Pravda P., Rojkov I.Ya., Kismerishkin V.G. singari olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Mazkur tadqiqotlarda brend nazariyalari va iste’mol tovarlari brendini shakllantirish va brending strategiyalarini ishlab chiqishning ilmiy-nazariy jihatlari yoritilgan

bo‘lsada, sut va sut mahsulotlarining brendini shakllantirish bo‘yicha marketing strategiyasini ishlab chiqish masalalari o‘rganilmagan.

Respublikamizning iqtisodchi olimlaridan S.S. Gulyamov, A.Sh. Bekmurodov, M.R. Boltaboyev, M.A. Ikramov, [8] A.A. Fattaxov [9], Sh.J.Ergashxodjayeva [11], M.S. Qosimova [12], A.N. Samadov, I.S. Xotamov, L.Abduxalilova [12], B.Mamayev [13] va boshqalar marketing fanini rivojlantirishga katta hissa qo‘shganlar. So‘ngi yillarda U.Sharifxodjayev, Z.Xakimov [14], A.Oqboyev, N.Zufarova, S.Odilovalar [15] tomonidan brend va korxonalarda brending srtategiyalaridan foydalanish, korxonalar brendini yaratish va uni baxolashning uslubiy jihatlari, brendlar raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan. Biroq, oziq-ovqat mahsulotlari milliy brendlarini yaratish, ularni xalqaro raqobatbarloshligini oshirish, brendlar qiymatini baxolash va global brendga aylantirishga qaratilgan yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmagan. Mazkur dissertatsiya mavzusi aynan shu jihatlardan kelib chiqib tanlandi.

3. TAHLIL VA NATIJALAR

Brend deganda tovar va xizmatlarning iste’molchilarning ehtiyoji va xohish-istaklariga muvofiqlashtirilgan, ustunliklaridan raqobat sharoitida unumli foydalanishdagi strategik vosita tushuniladi. Ilmiy adabiyotlarda “brend” iqtisodiy atamasiga turli hil munosabat bildirilgan. Masalan, Filip Kotler “Yaxshi brend xususiyati-unga iste’molchi tomonidan ko‘rsatilayotgan moyillik” [2] deb ta’riflagan. Devid Aaker esa “brendning mavjudligi iste’molchiga ishlab chiqaruvchidan berilgan va’da tariqasida tasavvur tushuniladi” deb ta’kidlagan [16]. Qolgan muamlliflarning brendga bergan ta’riflari 1-jadvalda jamlangan.

Ilmiy adabiyotlarda, ayniqsa, O‘zbekistonlik olimlar ilmiy adabiyotlarida, ko‘proq savdo markasi (trade mark) tushunchasi ishlatib kelingan. Fikrimizcha, bunday yondashuvlar brendning mazmun va mohiyatini to‘la ochib bermaydi. Brend deganda ishlab chiqaruvchi tomonidan yaratiladigan yoki ishlab chiqaruvchi brendi (manufacturer's brand) tushuniladi. Ko‘p holatda o‘rtada turuvchi vositachi yoki sotuvchilar brendi (retailer brand, stare brand yoki private label) faqat savdo jarayonida ishlatilgani uchun tadqiqotlar jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq. Ammo, ma’lum sharoitda “brend”, “savdo markasi” yoki “nufuz” (imij) sinonim tariqasida faqatgina mazmuni to‘g‘ri kelgandagina foydalanish lozim.

Mahalliy brend degan ibora mintaqaning turli hil hududlari mavjudligi, ayniqsa, sut va sut mahsulotlarining ishlab chiqarish, saqlash va iste’mol qilish xususiyatlari, davlat standartlarining ushbu mahsulotlarga qo‘yilgan talablari hamda dunyo bozoriga chiqishda ularning xususiyatlarini inobatga olish ehtiyojidan kelib chiqqan.

1-jadval: “Brend” tushunchasi ta’riflarini tizimlashtirish

№	Mualliflar	Brend ta’rifi
1.	Amerikaning marketing uyushmasi	Nomi, shiori, belgi, loyiha yoki ularning aralashmasi raqobatchidan tovar yoki xizmatni ajratib olish maqsadida foydalaniladi
2.	Aaker D.	Brendning mavjudligi iste’molchiga ishlab chiqaruvchidan berilgan va’da tariqasida tasavvur tushuniladi
3.	Braun P.	Xaridorlar va brend egalari o‘rtasidagi shakllanayotgan mental aloqalarning yig‘indisi brendni ifodalaydi
4.	Bernet Dj.	Tovar va xizmatlarni boshqa raqobatchilardan ajratish uchun foydalaniladigan nomlanish, dasthat, belgi, loyiha yoki ularning kombinatsiyasi
5.	Brand Aid brend konsalting kompaniyasi	Maqsadli iste’molchiga o‘ziga xos, qayta qilinishi mushkul, salobatli, funksional, hissiyotli va ta’riflangan va’dalar yig‘indisi brendni ifodalaydi
6.	Vlasova Ye.	Maqsadli auditoriya uchun muhim o‘rin egallaydigan tovarning o‘zaro bog‘liq, ratsional va irrotsional tavsiflaridan iborat bo‘lgan raqobatchilar mahsulotidan ajratadigan xususiyatlar tizimiga brend deyiladi
7.	Bojuk S.G.	Korxonaning nafaqat g‘oyaviy ahamiyati, balki amaliy qo‘llanmani shakllantirayotgan boshqaruv falsafasidir
8.	Kotler F.	Bitta ta’minotchi yoki sotuvchilar guruhining mahsulotlarini aniqlashtiruvchi va raqobatchilar tovar va xizmatlaridan differensialashuvini ta’minlaydigan nomlanishi, atama, belgi, rasm yoki ularning aralashmasiga brend deyiladi
9.	Krilov I.	Raqobat qatoridagi iste’molchining tanlovini oshirish uchun savdo markasining individual ongidagi tasavvuri
10.	Ikramov M.A.	Brend – bu korxona yoki tovar (hizmat)ning taniqlilik darajasini ifodalaydigan mezon

№	Mualliflar	Brend ta'rifi
11.	Ogilvi D.	Mahsulotning sezilmaydigan xususiyatlar yig'indisi: nomi, qadoqlanishi, narxi, tarixi, tutgan o'rni, reklama qilish uslubidan iborat
12.	Matansev A.N.	Tovarning individualligi, mijozlar e'tiborini jalb etadigan, korxonaning nufuzi (imij)ni yaratishga xizmat qiladigan korxona yoki tovarning xususiyatlari
13.	Pettis Ch.	Mahsulot yoki korxonaning madaniy-kelishilgan hissiy obrazi; Iste'mol tanlovini yengillashtiruvchi sifat kafolati. Raqobat ustunligi va bo'lajak daromadning asosiy manbasi; Zaruriy iste'mol xususiyatlarini va'da berish; Mahsulotning qimmatligini subyektiv qabul qilinishi yoki qoniqishning yuksalishi.
14.	Pechorskiy A.	Maqsadli bozorni aksariyat qismining barqaror tasavvurini chaqirayotgan savdo markasi
15.	F.le Pla va L.Parker	Kompaniyaning eng kuchli tomonlari va mijozlar tomonidan qadrlanadigan tomonlarning kesishuv nuqtasi
16.	Stas A.K.	Brend-oqlangan ishonch tizimi asosida faoliyat ko'rsatish mohiyatini anglatadi
17.	Rays L.	Mustaqil, tovardan bog'liq bo'lmagan qiymatga ega bo'lgan savdo markasiga brend deyiladi
18.	Xotamov I.S.	Brend bu – tom ma'nodagi savdo belgisi emas, balki mahsulot sifatining timsoli, obrazidir
19.	The Chartered Institute of Marketing	Mahsulot yoki xizmatning jismoniy xususiyatlari, unga nisbatan ishonch va kutish, yakdil tovar belgisining iste'molchi ongidagi obrazidir
20.	Leslide Sharnotoni	Manfatdor shaxslarga (iste'molchilar, aksionerlar va boshqalarga) ma'lum tajriba va'da beradigan funksional va hissiyotiy qadriyatlar yig'indisini ifodalaydi

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida "savdo markasi" va "brend" iboralari ishlatilmasdan, intellektual mulkni huquqiy muhofaza qilish uchun savdo belgisidan foydalaniladi. Savdo belgisi – so'z bilan, rasm, xajm, ularning aralashmasi va boshqa turlar bilan ifodalashni tushuniladi. Ushbu belgi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligida yuridik yoki jismoniy shaxslar o'zlarining savdo belgilarini ro'yxatdan o'tkaziladi.

Savdo markasi yoki belgi brendga aylanish uchun, yuqorida ko'rib chiqqan ta'riflar asosida bitta xulosaga kelish mumkin – qachonki, jamoa iste'mol ongida o'z o'rniga ega bo'lib, samarali kommunikatsiyalar hisobiga raqobatchi tovarlardan farqlari iste'mol qo'shilgan qiymatga aylangan holda bo'ladi. Savdo markasi va brend o'rtasida chegara qo'yish mushkulligi o'rganilgan adabiyotlar, o'tkazilgan marketing tadqiqotlari va amaliyot tahlili ko'rsatmoqda. Ba'zi adabiyotlarda maqsadli auditoriya ongida minimal taniqlilik darajasi 20 foiz, qaysinisidir 30 foiz, boshqalar 50 % ni keltirishadi. Mahalliy brend uchun, fikrimizcha, bunday taniqlilik darajasi kamida 70 foiz bo'lishi kerak. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, korxona yoki mahsulot brend bo'lishi uchun bozorda kamida 5 yil faoliyat ko'rsatishi lozim.

Boshqacha qilib aytganda, har bir brend savdo markasi tariqasida qabul qilish mumkin, ammo har bir savdo markasi brend bo'la olmaydi. Savdo markasini huquqiy ro'yxatdan o'tkazilishi uning raqobatdoshligini ta'minlay olmaydi.

Brendlar ham xuddi tovarga o'xshab hayotiy siklni kechiradi: bozorga kirish, o'sish, yetuklik, pasayish jarayonlari kuzatiladi. Albatta, brenddan samarali foydalanish va boshqarish tashkil etilsa, ularning ko'p yillik hayotiyligini va barqarorligini ta'minlaydi. Masalan, Lipton, Coca-Cola, Levi's va boshqa brendlar barqaror brendlar sifatida keltirish mumkin.

Brend atamasiga yanada kengroq yondashuvlarga ko'ra, mahalliy brend tushunchasiga aniqlik kiritish brending nazariyalari uchun muhimdir. Milliy brendlar O'zbekiston Respublikasini xalqaro bozorda namoyon qiladi. Hozircha kompaniya (tadbirkorlar) yoki ularning mahsulotlarining brendini ichki bozor miqyosida ko'rishga harakat qilingan. Shu sababdan "Mahalliy brend" iborasini qo'llanilishi ilmiy-uslubiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Albatta, sut va sut mahsulotlari bozorida esa, qachonki, xuddi meva-sabzavotlarga o'xshab eksportbop bo'lgandagina "milliy brend"ga aylanadi. Ushbu holatlar esa sut va sut mahsulotlari bozorida mahalliy brendlarni shakllantirishning ilmiy-usulibiy, amaliy va nazariy jihatlarini, metodologik asoslarini yaratilishini taqozo qiladi.

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda brend korxonaning barqaror raqobatdoshlik ustunligini ta'minlaydigan strategik resurs sifatida qabul qilinadi. Barqaror raqobatli ustunlikni "Mahsulot nafliligini oshirish alohida strategiyani qo'llagan holda uzoq muddatga mo'ljallangan ustunlikka erishish yo'li bilan amalga oshiriladigan harakatlar majmuidir". Raqobatda barqaror ustunlik iborasi birinchi marotaba 1985-yili M.Porterning ishlanmalarida qo'llanilgan. [17]

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Brending – bozorning maqsadli segmentini brendga bo‘lgan munosabati va umumiy nufuziga ta’sir ko‘rsatayotgan maxsus usullarni anglatadi.

A.M. Yanovskiy fikri bo‘yicha, “Brending savdo markasini uzoq muddatli ustunlikni oshirish uchun uning siljitish ilmi va san’ati” ifoda etadi. [18]

Reklama sohasidagi yetakchi olimlardan biri Devid Ogilvi brending tushunchasini ta’riflash uchun tovarning sezilmas xususiyatlarining yig‘indisidan: uning nomi, qadoqlanishi, narxi, tarixi, nufuzi va reklama qilish usullaridan foydalanishni taklif etadi. [19]

O‘zbekistonlik olim I. Xotamov “Brending – bu marketingning zamonaviy texnologiyasi bo‘lib, yangi tovar, tovar belgilarini yaratish, bozorga joylashtirish, iste’molchilar ongiga singdirish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi” deb ta’rif beradi. [20]

Albatta, raqamli iqtisodiyot shakllanish davrida raqobatda barqaror ustunlikni ko‘rinishi va mazmuni o‘zgarib bormoqda.

Masalan, M.Porter o‘zining asarlarida bozor segmentida raqobatbardoshlikka 5 ta xavf mavjudligini ko‘rsatib o‘tgan: “Iqtisodiyotning barcha tarmog‘larida ichki yoki tashqi bozorda faoliyat ko‘rsatishidan qat’iyan, – raqobat mazmuni beshta kuch bilan ifodalanadi ...”.

Raqobatning besh kuchida brend o‘ziga xos funksiyani bajarib, korxonaning raqobatbardoshligiga turlicha ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Brendning asosiy vazifasi iste’molchilarning ta’siriga bo‘lgan munosabat bilan ifodalanishidadir. Kuchli brend korxonaga xaridorlar tomonidan ko‘rsatiladigan ta’sirini pasaytirish imkonini beradi. Brendlangan tovarga bo‘lgan ehtiyoj markalashmagan mahsulotlarga (“Generics”) nisbatan barqaror bo‘lib, narxning elastikligi pastroq bo‘ladi. Iste’molchining moyilligi qayta xarid miqdorini oshirishga olib keladi. Amalda ko‘rilganidek, iste’molchining moyilligini 5 foizga oshishi, shu xaridordan keladigan foydaning 100 foizga oshishiga olib keladi. Markalangan tovarga ko‘tarilgan (premium) narx yuqoriroq foyda olishga imkoniyat yaratadi. Boshqacha qilib aytganda, brendning jozibadorligi aniq qo‘shimcha daromad olib kelishga xizmat qiladi.

Brendlar inson resurslardan keyin mohiyati va salmog‘i bo‘yicha korxona aktivida keyingi o‘rinda turadi. Buyuk Britaniya, Gonkong va Avstraliyada buxgalteriya hisobida ular nomoddiy aktivlar tariqasida balansda inobatga olinsa, AQSHda kompaniyaning nufuziga kirib (“Good will”), ularning bozor qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Mahalliy brend ishlab chiqaruvchining yangi tovarlari bilan boshqa bozorlarga chiqishga ham yordam ko‘rsatadi. Masalan, O‘zbekiston bozoridagi “Nestle” brendi sut va sut mahsulotlari bozoridan tashqari suv, qandolat, boshqa oziq-ovqat bozorlarida o‘z o‘rnini kengaytirish imkoniyatiga ega. Ushbu kompaniyaning muvaffaqiyati unga bo‘lgan ishonch bilan belgilash mumkin. Bunday holat bir bozordan ikkinchi bozorga o‘tishi uchun reklama va boshqa tashviqot ishlariga ortiqcha xarajat qilmaslik bilan erishish imkoniyatini ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, tovar yoki xizmatning samaradorligini oshirish borasida mahalliy brendning o‘rni yuqoridir. Bunda ko‘proq marketing yondashuvi qo‘llanilsa, mahalliy brendni siljitish ishlari ham osonlashadi. Zamonaviy marketingda tovar tariqasida insonning ehtiyojini qondirish vositasi tariqasida qaraladi. Mahalliy brend qanchalik kuchli bo‘lsa, ularning egalariga raqobatchilarga nisbatan ustunliklar yaratib beradi. Ayniqsa, sut va sut mahsulotlarida ishlab chiqaruvchilar ko‘paygan sari iste’molchilarning taniqli brendlardan boshqa mahsulotlarga o‘tkazish qiyin kechadi. Ishlab chiqaruvchi raqobatchilar orasida iste’molchi tomonidan o‘zining mahsulotini tanlashini hohlaydi. Bu borada marketingda tovarlarni guruhlarga ajratish ham muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbekistonda brend strategiyalaridan foydalanish jarayonlarida korxonalar tomonidan “brend”ning marketing tushunchasi iste’molchilar ongida mavjud bo‘lsada zamonaviy marketingining asosiy konsepsiyalari sifiatida qarash bo‘yicha aniq yo‘nalishlar belgilanmagan. Iste’molchi tomonidan qabul qilinadigan tovarlar brendini korxonalar tomonidan baholash, iste’molchilarni brendlarga qiymatini shakllantirish jarayonlari maksimal darajada bozor imkoniyatlarini ta’minlashini bo‘yicha deyarli tushunchalar yo‘q. Ushbu holatlar esa brend tushunchalarini o‘zaro bog‘liq holda tavfsiflash lozimligini belgilab beradi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi ham mahalliy brendni kuchli milliy brendga aylantirishdan iborat. Shunga asoslangan holda O‘zbekistonning mavjud qonunchilik bazasini, standartlar, mezon va me’yorlarni tubdan o‘zgartirishni talab qilinadi.

Hozirgi kunda brendingning asosan ikki modeli mavjud bo‘lib, birinchisi, ingliz – amerikaning (g‘arb), ikkinchisi, yapon (osiyo) modellari .

Ingliz – amerika brend modelida aniq tovarga bog‘langan holda, ishlab chiqaruvchining nomi tashqarida qoladi. Buning sababi, agar birorta mahsulotni iste’molchilar qabul qilmasa korxonaning nomiga yoki nufuziga putur yetkazmaslik lozim. Ammo bunday strategiya taniqli brendlarni yanada takomillashtirishga bir xil markadagi tovarlarning miqdorini oshirishga yo‘l qo‘ymasligi mumkin. Bunday holtda har bir yangi mahsulotga yangi savdo markasini shakllantirish zarur bo‘ladi. Bu esa brendning asosiy ustunligi – ya’ni bitta taniqli marka asosida yangi tovarlarni osonroq joriy etish – ishlamay qolishiga olib keladi. Ikkinchidan, bunday uslub savdo markalari

ortiqcha ko‘payib ketishiga olib keladi, bu esa, o‘zining yo‘liga, taniqli kompaniyalar brendining nufuzini tushishiga sabab bo‘ladi.

G‘arbning brend modeliga asosan quyidagi xususiyatlar asosida guruhlarga ajratish mumkin:

a) qarindosh brendlar – ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning nomini ifoda etgan tovarlar nomlanishi;

b) alohida tovarlar tizimining brendlari;

d) soyabon shakldagi brend.

G‘arb modelining asosiy xususiyati iste’molchini o‘zining tovariga ko‘niktirish, bir necha yildan keyin ushbu yangi mahsulot foyda keltira boshlashi mumkin.

Yapon (osiyo) modeli. O‘tgan asrning 50–60-yillarida bozorni rivojlanishida tovarni tanlash asosiy omillaridan biri narx hisoblangan bo‘lsa, shu davrda Yaponiya xaridorlari sifatga ko‘proq e’tibor qarata boshlashdi. O‘sha davrda resursi ko‘proq kompaniyalar, bularning aksariyati yirik kompaniyalar, ma’lum bir mablag‘ni ilmiy tadqiqot izlanishlar orqali sifatni ta’minlagan bo‘lsa, sifat ham yirik kompaniyaning belgisi tariqasida qabul qilindi. Yaponiyada faqatgina erkin turgan brendlardan tashqari aniq bozorning segmentiga mo‘ljallangan subbrendlar (brendosti)ni keng rivojlangan.

Subbrendlarni joriy qilishning maqsadlari turlicha bo‘lib, korxonaning to‘la ta’minlanmagan dastgohlardan foydalanish, yangi ehtiyojlarni qondirish, raqobatchilarga qarshilik ko‘rsatish, boshqa maqsadli segmentlari egallash, sotuv tizimida ko‘proq namoyon bo‘lishdan iboratdir.

Masalan, taniqli Sony, Panasonic kompaniyalari Sony Walkman (plerlar), Sony Trinitron (televizorlar) subbrendlarga soyabon rolini o‘ynashgan. Yaponiyada alohida tovardan ko‘ra korporativ nufuz (imidj) yuqoriroq baholanib kelgan.

Boshqacha qilib aytganda, g‘arbning brending falsafasi diversifikatsiya bilan ifodalansa, osiyo modelida esa markazlashish, birlashish siyosati ko‘proq namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston sharoitida o‘ziga xos brending modeli shakllanmoqda. Tajriba yetarli bo‘lmaganligi sababli xorijiy kompaniya yoki tovarlar brendiga taqlid qilish amaliyoti keng tarqalgan shuningdek, to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirish, aksariya hollarda g‘arb va sharq modellarining aralashmasidan iborat brending falsafasi shakllanmoqda. Bu boradagi chuqurroq tahlillar dissertatsiyaning keyingi boblarida ko‘rib o‘tilgan. O‘zbekiston sharoiti bo‘yicha brending yuritilishi, mahalliy brendni shakllanish bir qator xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Birinchidan, mahalliy brendlar asosan oziq-ovqatlarni ishlab chiqarish va sotish jarayonida paydo bo‘lganligi asosiy sababdir, chunki sanoat sohasida mahalliy ishlab chiqaruvchilarning qo‘nikma va madaniyati yetishmasligi, qolgan tarmoqlarda ham xorijiy tovar va kompaniyalar bilan raqobatbardosh bo‘la olmasligi bunga asosdir Shu sababdan, O‘zbekistonning eksport salmog‘ida asosan qishloq xo‘jalik mahsulotlari, meva-sabzavot, qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari egallaydi.

Zamonaviy iste’mol bozori asosan brendlar va reklama obrazlar o‘rtasidagi raqobat kurashi tariqasida amalga oshmoqda, iste’molchilarning ongida o‘zining mahsuloti haqidagi tasavvurni shakllantirishga asosiy e’tibor qaratiladi. Brendingning texnologiyalari va taklif etilayotgan metodologiyalardan foydalanish doimiy ravishda iste’molchilarni xarid xohishlari va moyilliklarini marketing tadqiqotlari asosida o‘rganishni taqozo etadi.

4. XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonning iste’mol bozorining xususiyatlariga qarab brendingning ham o‘ziga xosligi quyidagilar bilan izohlanadi:

- O‘zbekiston iste’molchilarining brendlarni anglash madaniyati yuqori bo‘lmaganligi sababli yangi brendni yaratish va uni bozorda qo‘llash katta vaqt va moliyaviy resursni talab qilmaydi. Masalan, agar Yevropa davlatlarida bitta brend targ‘ibotiga 20-50 mln.dollar talab qilinsa, O‘zbekiston sharoitida 3-5 mln.dollar bilan chegaralanish mumkin;
- ichki bozorimizning tez to‘lishi munosabati bilan iste’molchilar u yoki bu savdo markasiga moyillik shakllanishiga ulgurmaydi, chunki yangi tovarlar kundan kun yangilanib borish tendensiyasiga ega;
- iste’molchilar xorijiy, ayniqsa, oziq-ovqat sohasida, mahsulotlarga nisbatan ishonch bildirishi kamayib borish tendensiyasiga ega. Masalan, sut mahsulotlarida oldin “Nestle” kompaniyasi mahsuloti deyarli monopol bo‘lsa-da, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni o‘nlab turini sanab o‘tishimiz mumkin;
- ichki bozorda hali ishlab chiqaruvchilarning savdo markasiga iste’molchilarning ishonchini haligacha to‘liq ravishda qozona olmagan;

- ichki bozorda mahalliy brendni yaratishda qimmat bahoga reklama kompaniyasini o‘tkazish ehtiyoji mavjud va iste’molchilarda reklamaga bo‘lgan ishonch yuqori;
- iste’molchilarda mahalliy brendni tushunish asosan uchta omil orqali qabul qilinib, ular ongida shakllanadi: ishlab chiqaruvchi mamlakat, qadoqlanish jozibadorligi va tovar markasi. Shu sababdan mahsulotni taklif etilayotgan ushbu uch omil mahalliy brendlarni shakllantirishda inobatga olinishi kerak;
- reklama qilinishda milliy qadriyatlar, urfu-odat va boshqa mahalliy hususiyatlarini inobatga olinishi muhim o‘rin egallaydi. Shu sababdan brendni shaxsiylashtirish ehtiyoji, ayniqsa, O‘zbekiston bozori uchun muhimdir. Har bir hudud va viloyatda o‘ziga xos tarixiy va madaniy xususiyatlarini inobatga olinishi mahalliy brendni shakllantirishdagi asosiy inobatga olinishi lozim bo‘lgan xususiyatlardir.

Brendning qadriyatlari iste’molchilar tomonidan brenddan foydalanganda hissiy natijalar asosida ko‘rinishi mumkin. Brendning qimmatliligini yaratishda iste’molchilarni qadriyatlari, iste’mol ustunliklari, ularning tovarga bo‘lgan moyilligini shakllantirayotgan omillarga e’tibor berilishi kerak.

Boshqacha qilib aytganda, tovar belgisi, tovar markasi va brend juda bir-biriga yaqin tushunchalar, ammo ular o‘rtasida o‘ziga xos farqlar bor. Buni brendni shakllantirishda inobatga olinishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Ассэль Г. Маркетинг: Принципы и стратегия: –М.: Инфра-М.,1999; Churchill G.A, Brown T.V. Basic marketing research, -Thomson, United States, 2010; Kotler Ph. Marketing essentials. –Prentice Hall, United States, 2019.
2. Kotler Ph., Setiawan I., Kartajaya H. Marketing 3.0: From Products to Customers to the Human Spirit. – wiley, 2012.; Malhotra N.K. Marketing research an appled orientation. – Prentince Hall, United States, 2016.
3. Kennedy Dr No B.S. Guide to Brand – Building by Direct Response – Enterpreneur Press, 2014.
4. Praet V.D. Unconscious Branding. How neuroscience can empower marketing. – Prentince Hall, USA, 2012.
5. Salenbacher J. Creative personal branding. –BIS Publishers, 2013, Traindl A. Store branding excellence. – ratail / branding. -2011., Trout J. Big Brands Big Trouble. – John wiley&sons, inc. New York, 2013, Doyle P. Marketing management and strategy. –Pearson Education, London, 2002.
6. Багиев Г.А., Тарасевич В.М. Маркетинг –Спб.: Питер, 2012; Буланов А. Бренд 2.0. От философии к практике. –М.: Красная звезда, 2014; Веселова А.О. Развитие маркетинга в молочном продуктовом подкомплексе. –М.: 2010;
7. Гречин Е.Ю. Создание брендов. –СПб.: Питер, 2018; Макашёв М.О. Бренд-менеджмент. –СПб.: Питер, 2018; Правда П. Бренд личности. –М.: Омега Л., 2018.; Ражаков И.Я., Кисмерешкин В.Г. Брендинг. –М.: Юрайт, 2013.
8. Ikramov M.A., Pardayev M.K., Abduxalilova L.T. Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil. –T.: Sano-standart, 2019.
9. Фаттахов А.А., Акуфриев А.И. Маркетинговые и логистические технологии в коммерческом бизнесе. –Т.: Иқтисодиёт дунёси, 2019.
10. Эргашходжаева Ш.Д., Самадов А.Н., Шарипов И.Б. Маркетинг. –Т.: Iqtisodiyot, 2013, Эргашходжаева Ш. Инновацион маркетинг. –Т.: Чулпон, 2014.
Mazkur muammoni tadqiqotining bir qator usullardan foydalanish asosida, jumladan, xorijiy tajribalarni monografik tahlillar natijalarini monografik tadqiqot, analiz va sintez, tizimli tahlil kabi iqtisodiy usullar asosida o‘rganilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsiyalarni bugungi kunda raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish mumkin emas, ya’ni faqatgina unga qo‘shilgan sharoitidagina mumkin bo‘ladi. Fan-texnologiyadagi texnologik o‘zgarishlarni ilmiy-texnik siklining elementlari bo‘yicha ko‘rib chiqish kerak, uni quyidagi texnologik o‘zgarishlar bosqichlari modeli ko‘rinishida taqdim etish mumkin (1-rasm).



1-rasm: Texnologik o‘zgarishlar bosqichlari modeli

Berilgan modelda aks ettirilgan individual bosqichlar ko‘pincha bir-biri bilan bog‘lanmaydi, chunki ularni vaqt va makon ajratib turadi. Xorij amaliyotiga nazar tashlaydigan bshlsak, AQSHda yangi texnologiyaning 90 % kichik firmalar va mustaqil ixtirochilar tomonidan yaratilgan, asosiy kashfiyotlarning 80% bevosita tadqiqot rejalarida ko‘zda tutilmagan va har 10 000 ta yangi mahsulotdan, 8000 tasi bozorni tezda tark etadi va faqat 100 ta mahsulot ishlab chiqaruvchilarga muhim texnologik afzalliklar va tijorat muvaffaqiyatlarini beradi[4].

Shuning uchun yangi bilimlarning (kashfiyotlar, ixtirolar ko‘rinishida) paydo bo‘lishini, ularning sanoat ishlab chiqarishiga aylanishini va pirovard natijada innovatsion mahsulotlarning bozor tomonidan qabul qilinishini oldindan aytish qiyin. Ushbu faoliyat turining qayd etilgan o‘ziga xos xususiyatlari natijasida rag‘batlantirishga emas, balki texnologik o‘zgarishlarning samarali usullarini ommaviy izlash uchun sharoit yaratishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

“Mahsulot”ning past ulushiga qaramay, ijobiy yakuniy natija innovatsion diffuziya mexanizmining harakati bilan ta’minlanadi. Innovatsion faoliyat va innovatsion siklning ushbu xususiyatlari innovatsiyalarni ishlab chiqishning maqsadga muvofiqligini aniqlash uchun mahsulot va bozor xususiyatlarini uzoq muddatli, o‘rta muddatli va joriy marketing tadqiqotlarini o‘tkazish kabilarga bo‘lib o‘rganadi, shuningdek, bozor strategiyasini, bozorga kirish vaqtini, kirish ko‘lamini, ma’lum marketing vositalarini qo‘llashni va boshqalarni aniqlash ham shular jumlasidandir. Ishlab chiqarish sohasida innovatsion faoliyatni amalga oshirishda marketing yon dashuvi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi[5]:

3 Экономическая энциклопедия: В трех томах. Т. 2. – К.: Издательский центр "Академия". – 848 с

4 Твисс Б. Управление научно-техническими нововведениями / Сокр. пер. с англ. – М.: Экономика, 1989. – 271 с

5 Крикавський Є.В., Чухрай Н.І. Промисловий маркетинг: Підручник. – Львів: Видавництво Національного університету “Львівська політехніка”, 2001. – 336 с.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

1) qondirilmagan ehtiyojlarni aniqlash;
2) ilmiy-texnikaviy g‘oyalarni yaratish va tanlash;
3) dizaynni ishlab chiqish;
4) marketing strategiyasini shakllantirish;
5) ishlab chiqarish va sotish imkoniyatlarini tahlil qilish;
6) ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;
7) sinov namunasini ishlab chiqarish;
8) innovatsiyalarni sinovdan o‘tkazish;
9) seriyali (ommaviy) ishlab chiqarishni joylashtirish.

Moliyaviy xarajatlarni va innovatsion jarayonning davomiyligini kamaytirish maqsadida marketing faoliyatining ayrim bosqichlari birlashtirilishi yoki parallel ravishda amalga oshirilishi mumkin. Innovatsion yondashuvlar marketingdan boshlanib, u bilan yakunlanishi kerak bo‘lgan sifat menejmentining siklik jarayonining asosi bo‘lishi kerak. Marketing tizimida ishlab chiqarish sohasida sifat menejmentining asosiy yo‘nalishlariga:

1) marketing qidiruvi, bozor tadqiqotlari va mahsulotni ishlab chiqish va xizmat ko‘rsatish;
2) moddiy-texnik ta’minot va ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish va tayyorlash;
3) mahsulotlar ishlab chiqarish, qadoqlash, saqlash va tovarlarni sotish hamda tarqatish;
4) texnik yordam va texnik xizmat ko‘rsatish, o‘rnatish, ishlatish hamda chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Korxonaning rivojlanish potensialini shakllantirishda nafaqat marketingni, balki innovatsiyalarni rivojlantirish va tijoratlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish uchun innovatsion siklni moddiy-texnik ta’minlashn muhimdir[6]. Tegishli sifat darajasini ta’minlash va xalqaro miqyosda tasdiqlash uchun ISO 9000, 14000 va boshqa xalqaro standartlariga rioya qilish kerak. Sifat menejmenti sohasidagi asosiy shartlar va qoidalar ISO 8402 terminologik standarti bilan belgilanadi. Biroq, xalqaro standartlar tizimi ularni amalga oshirish uchun sarflanadigan xarajatlar samaradorligiga qo‘yiladigan ekologik holat, ijtimoiy iqlim, jamoat axloq talablari kabi umuminsoniy qadriyatlarga e’tibor qaratmaydi.

Shuning uchun ham bugungi sharoitda biznesni boshqarishning odamlarga, ularning jamoa va atrof-muhitdagi munosabatlariga qaratilgan yangi falsafasiga o‘tish vazifasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Ushbu falsafa sifat madaniyatini tarbiyalashga va ularning har biriga individual yondashuvlarni qo‘llash orqali xodimlarning ijodiy faolligini rag‘batlantirishga qaratilgan sifat menejmenti tizimida to‘liq aks ettirilgan. Jamiyatning istiqbolli ehtiyojlari ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyot o‘rtasidagi yaqin aloqani ta’minlashni taqozo etadi. Bunga fan va ilmiy-texnikaviy faoliyatni boshqarishda zamonaviy texnikani ishlab chiqarishda qo‘llash mumkin bo‘lmagan dasturiy, kompleks yondashuvni qo‘llash yordam berishi kerak.

Vertikal integratsiya va hamkorlikning ta’siri tufayli bunday yondashuv vaqtni tejaydi va alohida loyihalarni amalga oshirishdan kelib chiqadigan xavflarni kamaytiradi. Tadbirkorlik amaliyotida, B.Tvissning fikricha, birinchi tomondan, ishlab chiqaruvchi yangi texnologiyaning tijorat salohiyatini va uning iste’molchi ehtiyojlarini qondirish qobiliyatini ortiqcha baholashi ehtimoli mavjud bo‘lsa, ikkinchi tomondan, korxonaning rivojlanish salohiyatini sun’iy ravishda cheklaydigan radikal innovatsiyalarni marketing bo‘linmalari qabul qilmaydi. Innovatsiyalarni rad etish sabablari orasida eng ko‘p uchraydigan sabablar:

1) tegishli texnologiyalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi;
2) bozor yoki ehtiyojning va resurslarning yetishmasligi;
3) rahbariyatning innovatsiya imkoniyatlaridan xabardor emasligi;
4) yangi g‘oyalarga qarshilik va aloqalarning zaifligi.

Shu sababli, korxonaning innovatsion faoliyati maxsus qulay shart-sharoitlarni yaratishni talab qiladi va ular orasida xodimlarning tashabbusini erkinlashtirish, istiqbolli ishlanmalarni tijoratlashtirish uchun zarur ishlarni qo‘llab-quvvatlashni ta’kidlash kerak.

Davlatimizning innovatsion rivojlanishini jadallashtirish vazifalarini hal etishda tizimli yondashuvni shakllantirish uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarning individual harakatlari yetarli emasligi aniq. Mahalliy ilm-fanni

6 Chuhrai N.I. Formation of the innovative potential of the enterprise: marketing and logistics support. Monograph. - L.: Publication of the National University “Lviv Polytechnic”, 2002. - 315 p

qo‘llab-quvvatlash va uning yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishga qaratilgan davlat yondashuvi ustuvor bo‘lishi kerak, bu zamonaviy jahon tendensiyalarini hisobga olishi kerak, chunki innovatsiyalar va ishlab chiqarish jarayonlari tobora global xarakterga ega bo‘lmoqda. Iqtisodiy o‘sishning yangi modeli yangi moliyaviy-kredit siyosatini, innovatsiyalarni samarali rag‘batlantirishni, bilim talab qiladigan va tabiatdan foydalanadigan ishlab chiqarishlarni rivojlantirishni, shu bilan birga tadbirkorlik faoliyati turini o‘zgartirishni va kichik biznesni rivojlantirishni talab qiladi.

Termiz viloyati iqtisodiyotining ham alohida tadbirkorlik subyektlarining ham zamonaviy rivojlanish salohiyatini shakllantirishga to‘sqinlik qiluvchi hududiy va mahalliy darajadagi innovatsion infratuzilmaning rivojlanmaganligi bo‘lib, bu zamonaviy tarmoqlarni shakllantirishni talab qiladi. Biroq innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilma tarmog‘ini rivojlantirish katta moliyaviy resurslarni talab qiladi, ularning asosiy qismi rivojlangan mamlakatlarda davlat tomonidan ajratiladi.

Vaziyatni yaxshi tomonga o‘zgartirish uchun ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning quyidagi beshta tematik yo‘nalishi bo‘yicha texnologiyalarni yaratishni faollashtirish taklif etiladi:

1) energiya resurslari va energiya tejash;
2) tabiatdan oqilona foydalanish;
3) eng keng tarqalgan kasalliklarning oldini olish va davolash;
4) informatika va kommunikatsiya texnologiyalari;
5) yangi moddalar va materiallar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliy korxonalarning rivojlanishida innovatsion marketingning ahamiyatini aniqlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar korxonalar ichki va tashqi o‘zgarishlarga o‘z vaqtida javob berishi juda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Bozor bilan o‘zaro ta’sir jarayonlarini statistikada tizimli ravishda hisobga olgan holda rivojlanish strategiyasini shakllantirgan korxonaning raqobatbardoshligi yuqori bo‘ladi. Shu maqsadda, innovatsion jarayon ishtirokchilari o‘rtasida jadal hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va iste’molchilar bilan aloqa orqali sifatni kompleks boshqarishni ta’minlash, konsalting va injiniring firmalari, innovatsion klasterlar va biznes markazlari, venchur fondlarining samarali tarmog‘i asosida innovatsion infratuzilmani rivojlantirish lozim.

Shuningdek, ariza va takliflarni yig‘ish tartib-taomillarining shaffofligi hisobiga ustuvor yo‘nalishlar va baholash mezonlarining aniq ro‘yxatini belgilagan hamda subyektiv omillarning ushbu jarayonga ta’sirini minimallashtirgan holda ularning mazmunini ochiq e’lon qilish va yangilanishlar uzluksizligini ta’minlash lozim. Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchilar, investorlar va iste’molchilar o‘rtasida ko‘p tomonlama aloqalarni o‘rnatish orqali innovatsion texnologiyalarni yaratishni faollashtirish ko‘plab qulayliklar yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Чухрай Н.І. Формування інноваційного потенціалу підприємства: маркетингове і логістичне забезпечення. Монографія. – Л.: Вид-во Національного університету “Львівська політехніка”, 2002. – 315 с.
2. Экономическая энциклопедия: В трех томах. Т. 2. – К.: Издательский центр “Академия”. – 848 с
3. Бажал Ю.М. Экономическая теория технологических изменений: Учеб. пособие. – М.: Завет, 1996. – 240 с
4. Твисс Б. Управление научно-техническими нововведениями / Сокр. пер. с англ. – М.: Экономика, 1989. – 271 с
5. Крикавський Є.В., Чухрай Н.І. Промисловий маркетинг: Підручник. – Львів: Видавництво Національного університету “Львівська політехніка”, 2001. – 336 с.
6. Chuhrai N.I. Formation of the innovative potential of the enterprise: marketing and logistics support. Monograph. - L.: Publication of the National University “Lviv Polytechnic”, 2002. - 315 p
7. Pleshivtseva T. It all started in Chernobyl / Expert: Ukrainian business magazine No. 15 (113), April 16–22, 2007 – pp. 50–54. 12.
8. Еранкин О. Формирование новой парадигмы маркетинга в условиях глобализации / Маркетинг в Украине. –№ 4. – 2008. – С. 43–50. 15

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY JIHATLARINI TOKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Samandarova Dilfuza Mansurovna
“BMCA Uzbekistan” Bosh direktori, BMA 2-bosqich tinglovchisi

Annotatsiya: Maqolada, O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarining o‘ziga xos yo‘nalishlari ochib berilgan. Mamlakatning tarixiy-madaniy turizmni rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar PEST tahlili asosida o‘rganilgan. Tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollarini takomillshtirish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, tarixiy-madaniy turizm, tarixiy yodgorlik, statistika, madaniy meros, turistik mahsulot, qayta tiklash.

Abstract: An article in the article that the socio-economic aspects of the tourism industry in Uzbekistan are revealed. Factors affecting the development of historical and cultural tourism are studied on the basis of analysis of pests. Practical proposals and recommendations for improving the possibilities and prospects for the development of historical and cultural tourism.

Key words: tourism, tourist, historical and cultural tourism, historical monument, statistics, cultural heritage, tourist product, restoration.

Аннотация: Статья в статье о том, что социально-экономические аспекты туристической индустрии в Узбекистане раскрываются. Факторы, влияющие на развитие исторического и культурного туризма, изучаются на основе анализа вредителей. Практические предложения и рекомендации по улучшению возможностей и перспективы развития исторического и культурного туризма.

Ключевые слова: туризм, турист, историко-культурный туризм, исторический памятник, статистика, культурное наследие, туристический продукт, реставрация.

KIRISH

Bugungi kunda turizm dunyo iqtisodiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan tarmoqlardan biriga aylandi. Avvallari turizmga aholining sayohat qilishi va dam olishini ta’minlovchi oddiy infratuzilma sifatida qaralgan bo‘lsa, ayni paytda u mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog‘i sifatida shakllanib, rivojlanishiga katta e’tibor berilmoqda. Turizm inson hayoti va faoliyatining ko‘p sohalarini qamrab oladi. Turizm ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o‘ziga xos katalizatori sifatida transport va aloqa, savdo, qurilish, qishloq xo‘jaligi, xalq iste’moli mollarini ishlab chiqarish va iqtisodiyotning boshqa shu kabi muhim sektorlarining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri – turizm industriyasidir. Turizm – bu ishbilarmonlik sohasining muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib xorijiy turistlar doimiy oqimini jalb qiladi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirish, shu jumladan, imkon qadar qulaylik yaratish, tarmoqning raqobatbardoshligini yanada oshirish, ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash va jahon bozorida milliy turistik mahsulotni faol tanitib borish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Turizm industriyasi jahon xo‘jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lib, milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli soha hisoblanadi.

Turizm dunyo yalpi ichki mahsulotining taxminan 5 %ini tashkil etadi, rivojlangan mamlakatlarda deyarli 10 % aholi turizm sohasida band. COVID–19 pandemiyasi oqibatida turizm sohasi eng katta talafot ko‘rgan tarmoqlardan hisoblanadi. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda xalqaro turizm 72 % ga yoki turizm xizmatlaridan tushumlar 1,1 trillion dollarga kamayib, 1990-yil darajasiga tushib qoldi. Natijada 935 mlrd. dollar miqdorida eksport daromadlari yo‘qotildi [12].

Ma'lumki, 2020-yil 16-martdan mamlakatimiz tashqi va ichki turistlar uchun yopilgan edi. Oqibatda 1,5 mingdan ortiq turoperator, 1,2 mingta mehmonxona o'z faoliyatini to'xtatdi. Bular, gidlar, milliy hunarmandchilik, ziyoratgoh va sihatgohlar, umumiy ovqatlanish, transport va boshqalar bilan qo'shib hisoblaganda 250 mingdan ortiq aholi daromadiga jiddiy ta'sir qildi [14].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'kidlash kerakki, turizm infratuzilmasini tashkil qiluvchi tarmoqlarni jadal rivojlantirish borasida ko'plab mualliflar o'rtasida yagona tushuncha mavjud emas. Fikrimizcha bu borada hali olib borilishi kerak bo'lgan tadqiqotlarning ko'lami keng bo'lib, turizm tarmoqlari rivojlanishini ta'minlashimizda xalqaro tajribalarni ham hisobga olishimiz lozim.

M.Christopher va boshqalarning fikr bildirishicha hozrgi kunda turizm sektorning tobora kuchayib borayotgan raqobat xarakterini hisobga olgan holda, soha mutaxassislari endi nafaqat bozor ulushini oshirish, balki mavjud mijozlar bazasini qondirish va saqlab qolish haqida o'ylashlari kerak hamda, mehmonlar yuqori sifatli, pulga baholi xizmatlarni olishlariga ishonchlari komil bo'lgan mahsulotlarni talab qilishadi. Binobarin, tashkiliy sa'y-harakatlarning katta qismi hozir mijozlarni olish va saqlashga qaratilgan bo'lishi kerak deb hisoblaydilar.

Biroq barcha korxonalar va turizm sohalari bugungi turizm bozorida sifat omilining ahamiyatini bilish-maydi va xalqaro turizm sektorida xizmatlarning samarasizligi va yomon standartlar keng tarqalgan. Xizmatlar sohasida ko'plab ilmiy ishlar olib borgan olim O. Nilning fikricha, bugungi kunda turizm bilan bog'liq ko'pchilik korxonalarda zamonaviy mijoz sifatni o'z huquqi sifatida talab qilmoqda. Endi joylashuvning eski aksiomasi darhol daromad va biznes muvaffaqiyatini ta'minlash uchun yetarli emas, turizmning kelajagi xizmatlar sifatga bog'liq bo'lib bormoqda, deb hisoblaydi.

O.Nil izlanishlari natijasida shu ayon bo'ldiki, hozirgi kunda sayyohlik operatorlari har qachongidan ham ko'proq shikoyat qilish va sifatli xizmatlarni taqdim etuvchi provayderlarga o'z sadoqatlarini o'tkazishga intiluvchi aqlli jamoatchilikka xizmat qilishlari kerak. Bu hozirgi ishbilarmonlik muhitining tobora dushman tabiati bilan bir qatorda, turizm sektoridagi ko'pchilikni raqobatbardosh farqlanishga erishish vositasi sifatida yuqori darajadagi xizmatlar sifatini ta'minlashga sarmoya kiritishga majbur qildi.

C.Elliottning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, xizmat sifati mijozlar tomonidan xizmatning umumiy bahosi sifatida ta'riflangan, bu xizmat mijozning ehtiyojlari yoki kutishlariga qanchalik mos kelishini aniqlagan va xizmat mijozning kutganiga mos keladigan bo'lsa, u sifat deb qabul qilinadi. Mijozlarga xizmat ko'rsatish – bilimli, qobiliyatli va g'ayratli xodimlarning o'zlarining mijozlariga aniqlangan va noma'lum ehtiyojlarni qondiradigan tarzda xizmat ko'rsatish qobiliyati sifatida belgilanadi va natijada ijobiy og'zaki reklama va biznesning rentabellegi oshishiga olib keladi. K.Tapan va Das.Satyabrat so'zlariga ko'ra, mijozlarga xizmat ko'rsatish – bu mijozlarning qoniqish darajasini oshirish uchun mo'ljallangan bir qator faoliyat bo'lib, xizmat mijozlar kutganiga javob beradi, deb aytishgan.

Iqtisodiy adabiyotdlarda tarixiy-madaniy turizmga oid masalalar qator olimlar tomonidan o'rganilgan va turlicha ta'riflar berilgan. Gollandiyalik tadqiqotchi Richard Greg tarixiy-madaniy turizmni "kishilarning o'z madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun yangi ma'lumotlar va tajriba to'plash maqsadida odatiy yashash joyidan uzoqda joylashgan madaniy, diqqatga sazovor joylarga borishi" deya ta'riflaydi [8].

Rossiyalik mutaxassis Y.V. Kolotova tarixiy-madaniy turizmni "mamlakatning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olgan an'ana va urf-odatlari, uy xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'langan ijtimoiy-madaniy muhit salohiyati" deya ta'riflaydi [5].

I.T. Frolova esa tarixiy madaniy turizmga global miqyosda xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi omil va vosita sifatida qarab, rivojlanishi o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldiruvchi uchta:

1) madaniyat va madaniy merosga oid bilimlarni boyitish;
2) madaniyatni muhofaza qilish va qayta tiklash;
3) madaniyatlar muloqoti kabi yo'nalishlardan iborat deya hisoblaydi. Boshqacha aytganda, hozirgi vaqtda madaniy turizmning asosiy gumanitar funksiyalari, sifatida quyidagilar qayd etiladi:

- madaniy-ma'rifiy va ta'limiy;
- madaniy muhofaza va saqlash;
- aloqalar o'rnatish va tinchlikparvarlik. G.Karpov. L.Xorovalar esa tarixiy va madaniy turizmni "kishilarning yangi axborot, tajriba va taassurotlarga ega bo'lish uchun madaniy diqqatga sazovor joylar, muzeylar va tarixiy joylar, san'at galereyalari, musiqa va drama teatrlari, konsert maydonchalari, ijrochilik san'ati, klassik qadriyatlar hamda tarixiy merosni aks ettiruvchi mahalliy aholining an'anaviy dam olish hududlari, innovatsion badiiy ijodiyot uylariga tashrif buyurishi" deb hisoblaydilar [6].

Mamlakatimiz olimlari va tadqiqotchilari I.To‘xliyev, R.Amriddinova, Sh.Ro‘ziyev, O.Xamidov, N. Ibadullayev F.Aziztoyeva, B. Mamatov va boshqalar boshqalarning ilmiy asarlarida turizm sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlariga doir ko‘plab masalalar yoritilgan lekin, tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishga oid ayrim masalalar yetarlicha o‘rganilmaganligi bois ba’zi muammolar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xususan, N.To‘xliyev: “Turizm (frans. tour – sayr, sayohat) sayyohlik-sayohat (safar) qilish, faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarga borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmaydigan holda jo‘nab ketishi tushuniladi” deb hisoblaydi.

Tadqiqotchi Sh. Ro‘ziyev tarixiy-madaniy turizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda yaratiladigan konsepsiyalar, metodlar va turistik faoliyat subyektlarining o‘zaro integratsiyasini amalga oshiruvchi indikativ boshqaruv metodikasini yoritib bergan [12].

Iqtisodchi olim O.H. Xamidovning e’tirof etishicha “Turizm murakkab, ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, u boy va xilma-xil tabiat, madaniy-tarixiy obyektlardan tabiat muhofazasi va ekologik xavfsizlikni ta’minlash asosida tomosha qilish orqali samarali foydalanish yo‘nalishlarini belgilaydi.”

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda turizm iqtisodiyoti bo‘yicha mavjud nazariyalar o‘rganildi va mamlakatimizdagi uning rivojlanish jarayonlari tahlil qilindi. Tizimli tahlil qilishda 2019–2021-yillardagi statistik ma’lumotlar qo‘llanildi. Statistik manba sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlaridan keng foydalanildi. Tadqiqot mavzusi doirasida muammoni atroflicha tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, statistik, tizimli va qiyosiy tahlil, PEST tahlil kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda tarixiy yodgorliklar, ulug‘ ajdodlarimizning yuksak iste’dodi bilan bunyod etilgan obidalar, muqaddas qadamjolar kabi 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. Shu sababli, keyingi yillarda davlatimiz tomonidan mazkur yo‘nalishni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6199 sonli Farmoniga binoan Turizm va sport vazirligi huzurida Madaniy meros agentligi tashkil etildi. Moddiy madaniy meros obyektlarini aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, targ‘ib qilish davlat reyestri, elektron katalogi, davlat kadastrini yuritish, qo‘riqlanadigan tegralarini belgilash hamda sohada davlat nazoratini amalga oshirish kabilar agentlikning asosiy vazifalari sifatida belgilanganligi mamlakatimizda tarixiy-madaniy turizmni yanada rivojlantirishga oid tizimli ilmiy-metodologik tadqiqotlar olib borish muhim.

Shunday qilib, tarixiy-madaniy turizmning hozirgi holatini, uni rivojlantirish istiqbollarini va milliy iqtisodiyotga ta’sirini tahlil qilish dolzarbdir. Bunda, eng avvalo, “tarixiymadaniy turizm” tushunchasining mazmunini aniqlash lozim.

Tarixiy va madaniy turizm – bu faol turizmning eng keng tarqalgan turi. U ta’lim va axborot maqsadlariga yo‘naltirilgan barcha turizm turlarini o‘z ichiga oladi. Bunday turizm dasturlari insoniyatning turli xil tabiiy, tarixiy va madaniy meroslariga qiziqishiga asoslangan. Bunda turistik mahsulot madaniy tajribalar shaklida taklif etiladi. Etnik va etnografik turizmni o‘ziga xos tarixiy-madaniy turizm deb hisoblash mumkin, bu o‘z maqsadlariga (saqlab qolish, zarar yetkazmaslik) ko‘ra, ekologik turizmga yaqin turadi. Mamlakatlar va xalqlar madaniyati turistik qiziqishning asosiy elementlaridan biridir. Turistlarning turli shaharlarga, dunyoning chekka burchaklariga va ularda istiqomat qiladigan xalqlarga bo‘lgan qiziqishi sayohat qilishning eng kuchli rag‘batlantiruvchisidir. Shuning uchun turizm boshqa madaniyatlar bilan, boshqa xalqlarning tarixi va hayoti bilan, badiiy asarlar bilan tanishishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Boshqa mamlakat tarixi, madaniyati va urf-odatlari bilan tanishish insonning ma’naviy dunyosini boyitadi.

Tarixiy madaniy turizm boshqa dam olish turlariga qaraganda muhim afzalliklaridan biri – u butun yil davomida talabga ega bo‘lib, uning sezilarli farqi mavsumiy emasligidir. Ushbu tur yilning istalgan vaqtida dolzarbdir, chunki sayyohlar muzeylarga tashrif buyurish, tarixiy obidalar va mamlakatning diqqatga sazovor joylarini ko‘rish uchun ekskursiya qilishlari mumkin. Turistik jozibadorlikni shakllantirish uchun tarixiy-madaniy turizm quyidagi jihatlarni o‘z ichiga olishi kerak (1-jadval).

1-jadval: Tarixiy-madaniy turizmning mazmuni[1]

Turizm san'ati va adabiyoti	mashhur adabiy asarlar, teatr, kino namoyandalari; haykallar; san'at va hunarmandchilik namunalari, teatrlar, studiyalar va boshqalar
Tarixiy turizm	insoniyat sivilizatsiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy madaniyat yodgorliklari; qadimiy shaharlar, qadimiy shaharlar xarobalari; harbiy madaniyat yodgorliklari (qal'alar, mustahkam devorlar, janglar va boshqalar)
Arxitektura madaniyati turizmi	me'moriy ansambllar, saroy majmualari, ziyoratgohlar va ibodatxonalar; kichik me'moriy shakllar (binolar, minoralar, arklar, zallar, panteonlar, maqbaralar, yodgorlik g'orlari); gidrotexnik inshootlar (to'g'onlar, kanallar, gidroelektrostantsiyalar); port sanoat arxitekturasi; dam olish arxitekturasi
Turistik mavzuli parklar madaniyati	sun'iy landshaftlar (turar-joylar, sport va dam olish maskanlari, sanoat hududlari, transport tuzilmalari
Shahar va madaniy turizm	shahar muhiti va shahar madaniyati; shahar panoramalari; landshaft rejalashtirishni tashkil etish
Muzey turizmi	muzeylar, ko'rgazmalar, tarixiy va madaniy tadbirlar va taqdimotlar o'tkazish.

1-jadvalda keltirilgan jihatlar tarixiy-madaniy turizmning mohiyatini ochishi bilan birga, uning o'ziga xos jihatlarini ham yoritib beradi. O'zbekistonda ushbu sohani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'lib, xalqning boy tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi noyob madaniy merosni asrab avaylashni kuchaytirish sohani raqamlashtirish, innovatsion rivojlantirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jahonning ilg'or tajribalarini samarali qo'llash hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir.


Tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishda hududlarda mavjud bo'lgan tarixiy hamda arxeologik obyektlarning o'rni muhimdir. Ularning tarixiyligi, hudud tarixida tutgan o'rni hamda saqlanganlik darajasi unga qiziquvchi turistlarning sonini oshishiga yordam beradi. Har qanday tashrif buyuradigan sayyoh uchun bir manzilgohda bir nechta obyektlarning mavjud bo'lishi, uning safar vaqtining davomiyligini uzaytirib beradi. Bu jarayon esa turistik xizmatlarni ko'proq eksport qilish imkoniyatini va yondosh tarmoqlarning ham rivojlanishiga turtki beradi.

Mamlakatimiz nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun jahonda ham turizm markazlaridan biri hisoblanadi. Ma'lum hududda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishda shu joyning tarixiy-madaniy obyektlari asosiy o'rinni egallaydi. Lekin ulardan alohida muhim ahamiyatga egalari xalqaro miqyosdagi obyektlar va yodgorliklar ro'yxatiga kiritiladi. Bunday ro'yxatni YUNESKO har yili aniqlab boradi. Keyingi yillarda O'zbekiston hududidagi noyob madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, tarixiy shaharlarning bosh loyihasi va menejment rejasini YUNESKO xalqaro standartlari hamda talablariga muvofiq ishlab chiqishda mazkur tuzilmaning xalqaro ekspertlari ham keng jalb etilmoqda. YUNESKO bilan yaqin hamkorlikda moddiy va nomoddiy meros obyektlarini asrashga doir turli xalqaro anjumanlar tashkil qilinmoqda. Mazkur chora-tadbirlar madaniy yodgorliklarni muhofaza qilishni oqilona tashkil etish va boshqarishni hamda shu sohadagi dolzarb muammolarni ko'rib chiqish, xalqaro tajribani o'rganish, tarixiy-madaniy meros saqlanishini ta'minlashga doir milliy tizimni takomillashtirish, bu boradagi davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkonini bermoqda. Iqtisodiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha tarixiy-madaniy turizmning moddiy merosini boshqarish uchun obyektlar soni, holati, shuningdek, asliga mos obyektlar ya'ni restavratsiya va tamirlash jarayonida o'zgartirilmagan asli saqlanib qolingan ulushi va obyektlarning har xilligini hisobga olish zarur. Obyektlar har xil hajmlarga ega bo'lgani bois, ularni shu belgi bo'yicha tasniflash zarur.

Bugungi kunda O'zbekistonda 2 mingdan ziyod tarixiy yodgorliklar mavjudligi tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish salohiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi (1-rasm).

1 Manba: tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



Quyidagi toifalarni ajratish tavsiya qilinadi [10]:

- me'moriy majmualar;
- alohida turgan me'morchilik obyektlari;
- kichik me'moriy shakllar;
- turmush, xo'jalik va ijtimoiy hayot obyektlari.
- turistik biznes korxonalari o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish ko'rsatkichlari. Ushbu ko'rsatkichlar turistik xizmatlar ko'rsatishga jalb qilingan tashkilotlar o'rtasidagi gorizontal aloqalarning rivojlanganlik darajasini tavsiflaydi.

Tarixiy turistik obyektlarning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni turizm barqaror rivojlanishining asosini belgilab beradi.

Turizm tizimli o'rganish obyekti sifatida ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik qismlardan tashkil topib, ko'plab ichki va tashqi aloqalarga egadir.

Ijtimoiy sohaning bir qismi sifatida turizmning vazifasi inson hayotiy kuchini tiklash, ruhiy bosimni yengillashtirish, intellekti va jismoniy darajasini rivojlantirishdir. Turizm bo'yicha Gaaga deklaratsiyasida "bo'sh vaqtda dam olish huquqi va haq to'lanadigan ta'til huquqi, hamda bu vaqtdan ta'limiy va ko'ngil ochish maqsadida foydalanish uchun sayohatga chiqish – ichki va xalqaro turizmning ne'matlaridir" deb ko'rsatilgan [7].

Iqtisodiy yondashuvda turizm o'z ichiga tarixiy-madaniy, rekreatsion va boshqa tashkilotlarning kompleks xizmatlar va mahsulotlar ishlab chiqarish, maqsadli investitsiyalar kiritish faoliyatini qamrab oluvchi o'ziga xos tarmoq sifatida belgilanadi. Iqtisodiy hodisa sifatida turizm mintaqa iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, bir vaqtning o'zida unga bog'liqligi nuqtayi nazaridan jiddiy e'tiborga molikdir. Mamlaktimizda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish salohiyatini yuqoriligini e'tiborga olgan holda, iqtisodiy adabiyotlar ma'lumotlar tahlili asosida [2,4,5,6,7] turizmning iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sirlarini qayd etish mumkin:

- ish o'rinlarini ko'payishi hisobiga bandlik darajasini oshishi. Rivojlangan mamlakatlarda turizm sohasiga 3-5% ish o'rinlari to'g'ri keladi;
- turizm o'z rivojlanishi jarayonida bilvosita boshqa tarmoqlarni ham rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi (qurilish, transport, yo'l, oziq-ovqat savdo sanoati va boshqalar);

- turizm industriyasi yuqori o‘sish sur’atlariga ega, pandemiya inqirozi oldingi davrda dunyo mamlakatlarida turizmdan tushadigan valyuta tushumlari har yili o‘rtacha 8-12%ga o‘sgan;
- turizmning “ko‘paytiruvchi samarasi”, ya’ni turizmga sarflangan mablag‘larning yuqori aylanuvchanlikka egaligi;
- milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarni ta’minlaydi”
- xorijiy sarmoyalar jalb etish va chet el valyutasida daromadni keltirishi;
- chet ellarda mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy imijini yaxshilaydi;
- milliy parklar va qo‘riqxonalar vujudga kelishini va rivojlanishini rag‘batlantiradi;
- san’at asarlari va urf-odatlar saqlanishiga xizmat qiladi va boshqalar.

Shuningdek, tarixiy-madaniy turizm rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan ayrim salbiy omillarni ham keltirish lozim. Xususan, tarixiy-madaniy obyektlarni saqlash, rekonstruksiya qilish katta investitsiyalarni talab qiladi. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar kapital tanqisligidan kelib chiqib, ularni saqlab qolish uchun yetarlicha mablag‘ ajrata olmasligi mumkin. Shuningdek, sohani rivojlanishi bevosita davlat siyosatiga bog‘liqdir. Davlatning olib boriladigan oqilona siyosati tarixiy-madaniy turizm sohasini rivojlanishiga, xalqaro hamkorlikni kuchayishiga, sohada innovatsiyalar va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanilishiga olib keladi va aksincha nooqilona siyosat turizm obyektlari va yodgorliklari qarovsiz qolishiga, talon taroj qilinishiga olib keladi.

Ko‘rinib turganidek, tarixiy-madaniy turizmni rivojlanishiga turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakatimizda tarixiy-madaniy turizmni PEST tahlili2ni amalga oshirish ushbu sohani rivojlanishi holati haqida to‘liq tasavvurni shakllantirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tarixiy-madaniy turizm obidalaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etishda, ulardan samarali foydalanish oshirish yo‘llari, ularga ta’sir etuvchi omillar va ularni aniqlash, hamda turistik resurslardan foydalanish imkoniyatlarini baholashda resurslarni guruhlarga ajratish hamda ularni saqlash, qayta tiklash faoliyatining indikativ ko‘rsatkichlarini aniqlash zarur.

Sohaning iqtisodiy samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- muzeylar va madaniy meros obyektlariga sifatli va namunali xizmat ko‘rsatishni takomillashtirish va bu orqali ularning obro‘sini mustahkamlash;
- mamlakatning tarixiy merosini jahon turistik bozorida namoyish etishda xalqaro ko‘rgazma, konferensiya, festival kabi madaniy tadbirlarni tashkil etish;
- arxeologik yodgorliklarning tarixiy madaniy turizm sohasidagi rolini sezilarli darajada oshirish orqali, ularni xorijiy va mahalliy turistlar orasida brend darajasiga yetkazish;
- arxeologik yodgorliklarni qisman (konservatsiya va restavratsiya) qilib muzey ko‘rgazmasiga tayyorlash;
- sayyohlar uchun xalq amaliy san’ati markazlarida mahorat darslarini tashkil etishni yo‘lga qo‘yish bilan milliy hunarmandchilik an’analarini dunyoga tanitish;
- xorijiy turistlarni tarixiy-madaniy obyektlarga tashrifini oshirishda malakali mutaxassislar tomonidan ekskursiya xizmatlarini sifatli tashkil etish;
- tarixiy madaniy turizmga oid turistik axborot markazlari faoliyatini rag‘batlantirishda ilmiy-ommabop ma’lumotlarni radio, teleko‘rsatuv hamda internet tarmoqlaridan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

Yuqoridagilardan umumiy xulosa qilib, tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish nafaqat, madaniy sohani qo‘llab-quvvatlashga ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni oshirish imkoniyatini taqdim eta oladigan sohalardan biri sifatida qarash kerak bo‘ladi.

2 PEST – bu marketing dastagi bo‘lib, sohaga ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi muhitning Siyosiy (Political), iqtisodiy (Economic), ijtimoiy (Social) va texnologik (Technological) jihatlarini aniqlashga qaratilgan

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasининг “Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6199- farmoni. 2021-yil 6-aprel. //www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 939-son qarori. // https://www.norma.uz
3. Ван Циншен, Историко-культурный туризм и развитие туристических городов Культура народов Причерноморья. – 2002. №35. – С.11-15
4. Дмитриевский Ю.Д. Туристские районы мира. Смоленск, 2000. – 224 с.
5. Колотова Е. В. Рекреационное ресурсоведение: Учеб. пособие. - М.: РМАТС. [1, с. 92-93]
6. Карпов Г.А., Хорева Л.В.Экономика и управление туристской деятельностью. СПб., – 2011. – 268 с. [2.с.135]
7. Королёва Н.В. Имитационное моделирование направлений развития туризма в рекреационных зонах региона. Майкоп, – 2007. – 164 с.
8. Richards, G. (1996) Cultural Tourism in Europe. CABI, Wallingford. [1, с. 45]
9. Ro‘ziyev Sh. “O‘zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning tashkiliyiqtisodiy mexanizmini indikativ boshqarish metodikasi” J. Экономика и финансы. https://cyberleninka.ru/
10. Тухлиев Н., Таксанов А. Экономика большого туризма. Т.: “Узбекистон миллий энциклопедияси”, 2001. – 208с. Стр. – 13
11. Norchayev A. O‘zbekistonda covid-19 pandemiyasining turizmga ta’sirini yumshatish yo‘llari.“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, 2020.http://iqtisodiyot.tsue.uz/
12. Международный туризм сократился в 2020 году до уровня 1990 год. https://www.interfax.ru/
13. www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISHSIZLIKNING IQTISODIY OQIBATLARI: MAVJUD MUAMMOLAR VA YECHIMLAR



Fatilloyev Farrux Farhod o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti
Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) yo‘nalishining
3-2IQT-22 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **A. J. Abdullayev**
I.f.f.d (PhD), BuxDU Iqtisodiyot kafedra mudiri, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlik turlari, ularning mazmuni, mohiyati, raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning yangi muammolari va imkoniyatlari, raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari, mavjud muammolar va yechimlarga doir tahliliy ma’lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, texnologik ishsizlik, sun’iy intellekt, ijtimoiy notenglik, iqtisodiy tengsizlik, ishsizlik indeksi, strategiyalar.

Abstract: In this article, the types of unemployment in the digital economy in our country, their content, essence, new problems and opportunities of unemployment in the digital economy, economic consequences of unemployment in the digital economy, existing problems and solutions are highlighted.

Key words: digital economy, technological unemployment, artificial intelligence, social inequality, economic inequality, unemployment index, strategies.

Аннотация: В данной статье освещены виды безработицы в цифровой экономике в нашей стране, их содержание, сущность, новые проблемы и возможности безработицы в цифровой экономике, экономические последствия безработицы в цифровой экономике, существующие проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: цифровая экономика, технологическая безработица, искусственный интеллект, социальное неравенство, экономическое неравенство, индекс безработицы, стратегии.

KIRISH

Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot va u bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha samarador texnologiyalar hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shuning uchun ham davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida respublikamiz rahbariyati bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi.1

Ilmiy adabiyotlarda band bo‘lmagan aholi deganda “aholining doimiy ishsizlik darajasi, o‘qish yoki vaqtincha ixtiyoriy ishlamasligi harakati tushuniladi”. Hozirgi kunda band bo‘lmagan aholini munosib ish o‘rinlariga joylashtirish davlat siyosatidagi eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bandlik yoki aholini ish bilan taminlash – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beriladigan faoliyatidir. Ishsizlik ham ijtimoiy, ham iqtisodiy murakkab jarayon sifatida qaraladi. Ishsizlik jamiyatning ko‘plab sohalariga ta’sir ko‘rsatadi, chunki ishsizlik insoniyat tarixida muhim rol o‘ynaganligi sababli, ular mehnat munosabatlarining rivojlanishi, yerlarning o‘zlashtirilishi, madaniyatlar, tillar va xalqlarning shakllanishi bilan bog‘liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot uchun ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlashda ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, taqqoslash, umumlashtirish, shuningdek, axborotni qayta ishlashning statistik va grafik usullaridan foydalanilgan.

1 file:///C:/Users/user/Downloads/band-bo-lmagan-aholini-munosib-ish-o-rinlariga-joylashtirishning-iqtisodiy-mexanizmlari.pdf

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Faqat oxirgi besh yil ichida raqamlashtirishning mehnat munosabatlariga ta'siri masalasi iqtisod va huquqshunoslik chorrahasida ilmiy tadqiqot mavzusiga aylandi, jumladan, R. Berger, J. Valenduk, P. Vendramin, V.B. Guld, M. Grem, G. Jonson, I. Dosen, K. Land-Kazlauskas, N.L. Lyutov, V. de Stefano va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlik ko'plab murakkab va qiziqarli jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu sharoitda ishsizlikning tabiati o'zgaradi va yangi imkoniyatlar bilan birga yangi muammolar ham paydo bo'ladi. Quyida raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning asosiy jihatlarini va ishsizlikning yangi turlarini ko'rib chiqamiz.

Ishsizlikning yangi shakllariga texnologik ishsizlik misol bo'ladi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga ba'zi an'anaviy ish o'rinlari yo'qolishiga olib keladi. Avtomatlashtirish va sun'iy intellektning keng qo'llanilishi ba'zi kasblarni yo'qolishiga sabab bo'ladi.

Platformali ishsizlikka yirik iqtisodiyotning kengayishi bilan, ko'plab ishchilar platformalar orqali qisqa muddatli yoki vaqtinchalik ishlarni bajarishlari natijasida vujudga keladigan ishsizlik misol bo'la oladi. Bu esa barqaror ish o'rinlarining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bizga yangi ish o'rinlarini va ko'nikmalarni o'zlashtirishimiz zarurligini bildirmoqda. Bu jarayon yangi soha va kasblarni yuzaga keltiradi, xususan, data analitiklari, kiberxavfsizlik mutaxassislari hamda raqamli marketing mutaxassislaridir. Ishchilar yangi ko'nikmalarni egallash va ularni tezda o'zlashtirish zarurati tug'iladi. Raqamli ko'nikmalar, kodlash va ma'lumotlarni tahlil qilish kabi ko'nikmalar talab qilinadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida esa ishchilar doimiy ravishda yangi texnologiyalarni o'rganish va o'z bilimlarini yangilab turishlari zarur. Qayta tayyorlash dasturlari, ishchilarni qayta tayyorlash va ularning yangi kasblarga moslashuvchanligini oshirish uchun maxsus dasturlar va kurslar zarur bo'ladi.



1-rasm: MDH mamlakatlari ishsizlik indeksi reytinggi[2]

2 https://davr24.uz/archives/6103

Ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirlarga ijtimoiy tafovutlar kiradi. Raqamli ko'nikmalarga ega bo'lgan va bo'lmagan ishchilar o'rtasidagi tafovutlar kuchayishi mumkin. Bu ijtimoiy notenglik va iqtisodiy tengsizliklarni oshirishi mumkin. Ishlash sharoitlariga platforma iqtisodiyoti va raqamli ish sharoitlari ishchilarning huquqlari hamda ish sharoitlariga ta'sir qilishi tahmin qilinmoqda.

Davlatlar raqamli iqtisodiyotning ta'sirlarini yumshatish va ishchilarni himoya qilish uchun yangi siyosiy choralarni ko'rishlari muhim hisoblanadi. Masalan, ijtimoiy xavfsizlik tizimlarini takomillashtirish, ishsizlik nafaqalarini kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish uchun investitsiyalar kiritish. Iqtisodiy strategiyalarni qayta ko'rib chiqish va raqamli iqtisodiyotga moslashish uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Bu raqamli infratuzilmani rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va innovatsiyalarni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlik yangi muammolar va imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Ishchilar, davlatlar va bizneslar yangi sharoitlarga moslashish uchun birgalikda harakat qilishlari zarur. Texnologik taraqqiyotning ijobiy va salbiy ta'sirlarini balanslashtirish orqali raqamli iqtisodiyotning barcha qatlamlar uchun foydali bo'lishini ta'minlash mumkin.

Jahon bo'yicha ishsizlik reytingida O'zbekiston 5.9 % natija bilan 190 davlat ichida 81-o'rinda, MDH mamlakatlari doirasida biz oltinchimiz. MDH mamlakatlarida ishsizlik darajasi Armanistonda 17 %, Gruziyada 14.4 %, Tojikistonda 11 %, Ukrainada 8.9 %, Qirg'izistonda 6.3 %, Ozarbayjonda 5.5 %, Moldovada 5.5 %, Belarusda 4.6 %, Qozog'istonda 4.6 %, Rossiyada 4.6 % va Turkmanistonda 3.9 % ni tashkil qilar ekan.[3]

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilishda bir qator muhim jihatlar va ularning ta'sirini ko'rib chiqish lozim. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi ishchi kuchi bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu esa iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari keng qamrovli va murakkabdir. Davlat va tadbirkorlik subyektlari birgalikda ish olib borishi va moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqishi zarur. Bu strategiyalar ishsizlik darajasini kamaytirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va raqamli iqtisodiyotning imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish uchun muhimdir.

1-jadval: Mamlakatimiz raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy muammolari[4]

Ishsizlik turlari	Muammolar	Muammoning mohiyati
Texnologik ishsizlik	Ish o'rinlarining yo'qolishi	Avtomatlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalari ba'zi an'anaviy ish o'rinlarini egallaydi. Bu esa an'anaviy ishchilarning ishsiz qolishiga olib keladi.
	Moslashuv ehtiyoji	Ishchilar yangi texnologiyalar va raqamli ko'nikmalarga moslashishi kerak. Bu esa doimiy ta'lim va qayta tayyorlashni talab qiladi.
Raqamli bo'shliqlar	Texnologiyaga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi	Raqamli texnologiyalarga kirish imkoniyatlari noteng taqsimlangan. Raqamli infratuzilmaning yetishmasligi yoki past darajasi ba'zi hududlarda ishsizlikni oshiradi.
	Malakali ishchilarning yetishmovchiligi	Raqamli ko'nikmalar talab etiladigan sohalarda malakali ishchilarning yetishmasligi bozor talabini qondira olmaydi va iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir qiladi.
Iqtisodiy tengsizlik	Daromad farqlari	Raqamli iqtisodiyotda yuqori malakali va raqamli ko'nikmalarga ega bo'lgan ishchilar yuqori, past malakali ishchilar esa kam maosh oladi. Bu iqtisodiy tengsizliklarni kuchaytiradi
	Ijtimoiy farovonlikning pasayishi	Daromad tengsizligi ijtimoiy farovonlikni pasaytiradi va turmush darajasini yomonlashtiradi.
Ijtimoiy muammolar	Ijtimoiy beqarorlik	Ishsizlik darajasi oshishi ijtimoiy beqarorlik va noroziliklarga olib kelishi mumkin. Ishsizlar sonining ko'payishi ijtimoiy muammolarni kuchaytiradi.
	Ijtimoiy himoya tizimlarining yuklanishi	Ishsizlik nafaqalariga bo'lgan ehtiyoj ortadi, bu esa davlat budjeti va ijtimoiy himoya tizimlariga qo'shimcha yuk yuklaydi.
Mahalliy iqtisodiyotga salbiy ta'sir	Mahalliy bizneslarning yopilishi	Raqamli transformatsiyaga moslasha olmagan mahalliy bizneslar yopilishi mumkin. Bu mahalliy iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ish o'rinlarini kamaytiradi.
	Infratuzilmaning yetishmasligi	Raqamli iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan infratuzilmaning yetishmasligi iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi va raqobatbardoshlikni pasaytiradi.

3 https://davr24.uz/archives/6103, 2020.
4 Muallif ishlanmasi


Ishchi kuchining mobilligi	Geografik noaniqlik	Ishchi kuchi raqamli iqtisodiyot talablariga moslashish uchun geografik jihatdan ko‘chib yurishi kerak bo‘ladi. Bu esa oilaviy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.
	Moslashuvchan mehnat bozori	Ishchi kuchi tez-tez ish o‘rinlarini o‘zgartirishi kerak bo‘ladi, bu esa mehnat bozorida beqarorlikni kuchaytiradi.
Ta’lim va qayta tayyorlash	Doimiy ta’lim zarurati	Ishchilar yangi texnologiyalarni o‘rganish va o‘z ko‘nikmalarini yangilab turishlari zarur. Bu esa ta’lim tizimiga qo‘shimcha bosim yuklaydi
	Ta’lim dasturlarining yetarli darajada bo‘lmasligi	Raqamli ko‘nikmalarni o‘rgatadigan ta‘lim dasturlarining yetishmasligi ishchilarning moslashuvchanligini pasaytiradi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun tatqiqotchi tomonidan quyidagi tavsiyalar berib o‘tildi:

- Mamlakatning barcha hududlarida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, internet va texnologiyalarga kirishni kengaytirish.
- Raqamli iqtisodiyot talablariga mos ravishda ta’lim va qayta tayyorlash dasturlarini tashkil etish.
- Ishsizlar uchun ijtimoiy himoya va qo‘llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish.
- Mahalliy bizneslarni raqamli transformatsiyaga moslashishiga yordam berish va yangi texnologiyalarni joriy etish.

Bu chora-tadbirlar mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlik muammolarini bartaraf etishga yordam beradi va iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikni oldini olish va innovatsion usullarni qo‘llashda tadqiqot jarayonida alohida xususiyatlari o‘rganildi(2-rasm).



2-rasm: Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikni oldini olishning alohida xususiyatlari

Innovatsion yondashuvlar, startaplarni qo‘llab-quvvatlash, raqamli tadbirkorlikni rag‘batlantirish, ishchi kuchining moslashuvchanligi, moslashuvchan ishlash modellarini joriy etish, yuqori iqtisodiyotini rivojlantirish, ijtimoiy himoya va qo‘llab-quvvatlash jarayonlari mamlakatning barcha hududlarini qamrab olishi kerak. Bu texnologik yangiliklar va zamonaviy infratuzilma yaratilishiga yordam beradi. Bu dasturlar zamonaviy texnologiyalar va bozor talablariga moslashtirilgan, talabalar va ishchilarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maktab va universitetlarda maxsus kurslar va dasturlarni joriy etilgan bo‘lishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyotda ishsizliknining oldini olish uchun innovatsion startaplar va kichik bizneslarni qo‘llab-quvvatlash uchun grantlar, imtiyozli kreditlar va soliq imtiyozlari kabi mexanizmlarni joriy etish, raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish uchun tadbirkorlarni innovatsion texnologiyalar bilan tanishtirish va ularga qo‘llab-quvvatlov ko‘rsatish, ishchilarga masofaviy ish, qisqa muddatli shartnomalar va boshqa moslashuvchan ish modellari orqali yangi ish imkoniyatlarini yaratish, platforma iqtisodiyotining imkoniyatlaridan foydalanish kerak. Bu esa qisqa muddatli va vaqtinchalik ish o‘rinlarini yaratishga yordam beradi.

Mamlakatimizda ishsizlik nafaqalarini kuchaytirish, ishsizlik nafaqalarini oshirish va ishsizlarga qayta tayyorlash dasturlariga kirish imkoniyatini ta‘minlash, ijtimoiy himoya dasturlarini takomillashtirish, ishsizlik va ijtimoiy himoya dasturlarini yaxshilash, ishsizlarga va kam daromadli oilalarga qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish raqamli transformatsiyani tezlashtirishga olib keladi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, davlat boshqaruvi, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa sohalarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, innovatsion loyihalar, innovatsion loyihalarni rivojlantirish va ularga davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlov ko‘rsatish mamlakat iqtisodiyotining o‘sishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro hamkorlik, xalqaro tajriba almashinuvi, raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar sohasida xalqaro tajriba almashinuvi va hamkorlikni kuchaytirish bu ilg‘or texnologiyalarni joriy etishda yordam beradi. Global bozorlarga kirish esa mahalliy kompaniyalarga global bozorlarga kirish imkoniyatini yaratish va ularni raqobatbardoshlikni oshirishda qo‘llab-quvvatlashga olib keladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikni oldini olish va innovatsion usullarni qo‘llash uchun quyidagi asosiy yo‘nalishlarga e’tibor qaratish lozim: raqamli infratuzilmani rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, ishchi kuchining moslashuvchanligini oshirish, ijtimoiy himoya va qo‘llab-quvvatlash dasturlarini takomillashtirish, raqamli transformatsiyani tezlashtirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Bu yo‘nalishlar mamlakatimizning raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyatli rivojlanishi va ishsizlik darajasini kamaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Bank Overview on Uzbekistan (World Bank).
2. Fitch Solutions on Uzbekistan’s Economic Outlook (Fitch Solutions).
3. Daryo News on World Bank Forecasts (Daryo.uz).
4. EBRD Transition Report (EBRD).
5. Euronews on Uzbekistan (euronews).
6. (Fitch Solutions) (Daryo.uz).
7. Abdulloyev A.J., Davlatov.S.S. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarining rivojlantirish ning asosiy yo‘nalishlari va unda kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishning ahamiyati. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. Toshkent, 2016. – № 3.son. – B. 1-9.
8. Abdulloyev A. J. Agroklaster faoliyatini boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy asoslari. Iqtisodiyot va turizm xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali, №4(12), 2023y. 53-64 betlar.
9. Abdulloyev A. J. Agroklaster faoliyatini boshqarishning “Bazaviy”modeli va uning xususiyatlari. Agroiqtisodiyot ilmiy-amaliy jurnali, №2, 2023 y.13-15 betlar.
10. Abdulloyev A. J. Methodological foundations for evaluating the efficiency of agrocluster management. Экономика и предпринимательство. – Москва, 2023. –№9. – С. 617-623

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOG‘IGA TA’SIR QILUVCHI KO‘RSATKICHLARNING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI

Zakirova Umida Maxamadaminovna
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz agrar tarmog‘ining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga va iqtisodiyotning umumiy holatiga kuchli ta’sir etuvchi omillar statistik tahlil qilingan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida sodir bo‘layotgan tarkibiy o‘zgarishlar va tarmoqning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlaridagi dinamik o‘zgarishlardan kelib chiqib, ushbu omillar turli statistik usullarda tahlil qilinib, kelgusi davrlardagi ta’siriga statistik baho berilgan. Xususan, qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga YaIM, YaHM, tarmoqda faoliyat yuritayotgan xo‘jalik toifalari va ularning ulushi, yer maydoni, tarmoqda kichik biznesning ulushi va ta’siri ilmiy natijalar yordamida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Makroiqtisodiyot, YaIM, YaHM, qishloq xo‘jaligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, qishloq xo‘jaligi mahsuloti, tarkibiy o‘zgarishlar, statistik ko‘rsatkichlar, iqtisodiy-statistik tahlil, statistik usullar, dinamik qatorlar, korrelatsion-regression tahlil, omilli tahlil, agrar islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar.

Abstract: This article statistically analyzes factors that have a strong influence on the main macroeconomic indicators of the agricultural network of our country and the general state of the economy. Also, based on the structural changes occurring in the agricultural sector and dynamic changes in the main economic indicators of the industry, these factors were analyzed by various statistical methods and a statistical assessment of their impact in future periods was given. In particular, the influence of GDP, GRP, economic categories operating in the network and their share, land area, share and influence of small businesses in the network is based on scientific results.

Key words: Macroeconomics, GDP, GRP, agriculture, small business and private entrepreneurship, macroeconomic indicators, agricultural production, structural changes, statistical indicators, economic statistical analysis, statistical methods, time series, correlation and regression analysis, factor analysis, agrarian reforms, social - economic processes.

Аннотация: В данной статье статистически анализируются факторы, оказывающие сильное влияние на основные макроэкономические показатели аграрной сети нашей страны и общее состояние экономики. Также на основе структурных изменений, происходящих в аграрном секторе, и динамических изменений основных экономических показателей отрасли, эти факторы были проанализированы различными статистическими методами и дана статистическая оценка их влияния в будущих периодах. В частности, на научных результатах основано влияние ВВП, ВРП, экономических категорий, действующих в сети, и их доли, земельной площади, доли и влияния малого бизнеса в сети.

Ключевые слова: Макроэкономика, ВВП, ВРП, сельское хозяйство, малый бизнес и частное предпринимательство, макроэкономические показатели, сельскохозяйственное производство, структурные изменения, статистические показатели, экономико-статистический анализ, статистические методы, динамические ряды, корреляционно-регрессионный анализ, факторный анализ, аграрные реформы, социально- экономические процессы.

KIRISH

Jahonda rivojlangan mamlakatlarni ham iqtisodiy noqulay holatlarga solib kelayotgan turli inqirozlar tufayli aholi hayot farovonligiga jiddiy salbiy ta’sirlar kuzatilayotgan davrda qishloq xo‘jaligi tarmog‘i taraqqiy etgan mamlakatlarda insonlar hayoti farovonlik darajasining ijobiy holati saqlanib kelinmoqda. Bu hozirgi davrda barcha mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining eng muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib beradi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i taraqqiyoti tarmoqda ekologik toza mahsulotlar yetishtirish orqali mamlakatda qayta ishlash tizimi rivojlanishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari qishloq aholisi uchun ish o‘rinlari sonining ko‘payishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda dunyoda global beqarorlik holatining yuzaga kelishi oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratishni va bu borada kengaytirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni taqozo etmoqda. Mazkur tadqiqotlarda agrar sektorning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, aholi soni va talablari o‘sishini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan mutanosibligini ta’minlash, agrar sektorni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini ixtisoslashtirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalar va uslublarni qo‘llash orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlarni iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirish zaruriyatini taqozo etadi. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, jahon aholisining so‘nggi 20 yil ichida qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabi yiliga o‘rtacha 5-7 foizga o‘sib bormoqda[1].

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i rivojlangan dunyo mamlakatlarining qariyb barchasi iqtisodiy rivojlanishining yuqori cho‘qqilariga erishmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida fuqarolarning farovonlik darajasining ortishi ularning turli sohalarda samarali faoliyat olib borishlariga juda katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to‘sqinlik qilib kelayotganligi bois xalqaro tashkilotlar va ekspertlar ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi[2] ishlab chiqildi. Uning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatini tubdan takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash, davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish, tarmoqni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish, qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta’lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish, qishloq hududlarini rivojlantirish, tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish kabi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi.

2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham “Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalari ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobarga oshirish, agrologistik markazlarni rivojlantirish, zamonaviy laboratoriyalar sonini ko‘paytirish, urug‘chilik va ko‘chat yetishtirish bo‘yicha milliy dasturni amalga oshirish, xalqaro qishloq xo‘jaligi universitetini tashkil etish, sohada ilm-fan va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirish”[3] kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalar samarali ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika hududlarida agrar tarmoqda faoliyat yuritayotgan subyektlar faoliyatini iqtisodiy-statistik tahlil qilish, ularning iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etishning dolzarbligi ilmiy ishimiznnig amaliy ahamiyatini belgilab beradi. Iqlim o‘zgarishi, yer degradatsiyasi, suv tanqisligi, zararkunandalar va kasalliklar, bozor tizimidagi cheklovlar hamda ishchi kuchidagi mavjud tanqisliklar tufayli bugungi kunda yuzaga kelayotgan juda katta muammolar tarmoqni rivojlantirish uchun ilmiy izlanishlarni kengaytirishni talab qiladi. Hozirgi kunda dolzarb vazifalardan bo‘lib, dehqon va fermer xo‘jaliklarini barqaror rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillarni bartaraf etish, fermerlik harakatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, jamiyatda yetakchi kuchga aylanishini ta’minlashga qaratilgan shart-sharoitlarni yaratish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash yo‘li bilan dehqon va fermerlar daromadini yanada oshirishga qaratilgan masalalarning maqbul yechimlarini topish muhim bo‘lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Agrar sektor O‘zbekiston iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, bu yurtimiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlari, qayta ishlash sanoati va xizmat ko‘rsatish sohalari uchun xom-ashyo manbai bo‘lish bilan birga O‘zbekistonning tashqi savdo jarayonlarida eksport salohiyati barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Mamlakatimizda iqtisodiyotning haqiqiy “Drayveri” bo‘lgan agrar sohada iqtisodiyotda band ishchi kuchining qariyb 27% (2020-yil) faoliyat yuritadi va yalpi ichki mahsulotning 25% (2021-yil) mazkur sektor hissasiga to‘g‘ri keladi[4].

1 http://www.uz.undp.org/content/dam/uzbekistan/docs/Publications/economicgovernance/Improving_Productive_and_Export_Potential/un_uzb_Improving_Productive_%20and_Export%20Potential.pdf

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmoni. www.lex.uz

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-sonli Farmoni. Lex.uz

4 O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i O‘zbekiston iqtisodiyotining drayveri. International scientific-practical conference actual issues of agricultural development: problems and Solutions. JUNE 6-7, 2023.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan B. Utanovni “Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari faoliyatini samaradlorligini ifodalovchi integral ko‘rsatkichlar”[5] mavzusidagi ilmiy maqolasida Respublikamizda ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari faoliyatini tavsiflovchi va ularning iqtisodiy aniqlash va integral ko‘rsatkichlar tizimi ilmiy asoslangan holda bayon etilgan.

N. Xushmatovning agrar sektorni modernizatsiya qilish va uni rivojlanishning innovatsion yo‘liga o‘tkazish vazifalarini hal etish zarurligini hisobga olgan holda mazkur tarmoqdagi innovatsion faoliyatni faollashtirish sohasidagi ko‘plab muammolar va masalalar hal etish yo‘llari to‘g‘risida fikr bildirilgan[6].

Globallashuv jarayonlari Respublikamizning tashqi iqtisodiy aloqalari va qishloq ho‘jaligining raqobatbardoshligini oshirishga jahon xo‘jaligi ko‘rsatadigan ta’sirni to‘liqroq hisobga olish zarurligini ko‘rsatdi. Jahon koronovirus pandemiyasi asoratlaridan hali to‘la qutilmagan sharoitda qishloq ho‘jaligi mahsulotlari eksportini ko‘paytirish, tashqi bozorlarga chiqish davlat tomonidan muvofiqlashtirilishi muammosi o‘ta muhim masalalardan biridir[7].

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, tarkibiy tuzilmalarini statistik baholash bo‘yicha keng ilmiy tadqiqotlar olib borgan mahalliy olimlarimizdan X. Xo‘jaqulovning “Agrar sohada ishlab chiqarish jarayonlarining xo‘jalik yuritish shakllari bo‘yicha statistik tahlili”[8] nomli ilmiy maqolasida mamlakatimizda qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, ularda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tutgan o‘rni, xo‘jalik toifalari bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish darajasi va dinamikasi statistik baholanib, ilmiy xulosalar chiqarilgan. Mamlakatimizning yana bir yetakchi iqtisodchi olimlaridan bo‘lgan T. Shodiyev qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini iqtisodiy rivojlantirishning ekonometrik modellarini nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy tadqiq etgan[9].

O‘zining olib borgan tadqiqotlari natijasida O‘zbekiston Respublikasi agrar tizimiga davlat tomonidan katta subsidiya va kredit mablaglari ajratilayotganiga qaramasdan ushbu soha muammolarini xal etishda yetarli darajada ishlar olib borilmayotganligini, agrar sektorda kichik va xususiy tadbirkorlik roli va ahamiyatini oshirish hamda ushbu sektor rivojlanishida innovatsion yondauv zarurligini bildirib o‘tgan[10].

Q. Berdiqulovning “Qishloq xo‘jalikida amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishni statistik tahlili” nomli ilmiy maqolasida qishloq xo‘jalikni yanada rivojlantirish bo‘yicha keyingi yilda qabul qilingan me’yoriy hujjatlar va uning amaliyotga joriy etish jaroyonlari, qishloq xo‘jalikda amalga oshirilayotgan uslubiyotidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan[11].

Rossiya FA akademiyasining akademigi A.N. Anishenko rahbarligida[12] olib borilgan tadqiqotlarda Rossiya Federatsiyasi va boshqa xorijiy davlatlarda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish va agrar sektor tarmoqlarini sun’iy va aqlli intellekt orqali boshqariladigan strategik rejalashtirishga yondashuv asoslangan. Shuningdek, tadqiqotda qishloq xo‘jaligini aqlli texnologiyalarni qo‘llash orqali yo‘nalishlar tahlil qilingan hamda uning rivojlanish tendensiyalariga va raqobatbardoshligiga baho berilgan.

Ukrainalik professor N.V. Kalinchik tomonidan iqtisodiyotning agrar sektorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda mavjud yondashuvlar tahlil qilgan. Jumladan rivojlangan jamiyatlarda strategiya turli hajmdagi va birinchi navbatda kichik fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutganligi ko‘rsatilgan[13].

A.G. Mixaylov ta’rifiga ko‘ra agrar sektor o‘ziga xos xususiyatlari uni barcha darajalarda va barcha jabhalarda iqtisodiyotning alohida sohasi sifatida ajratib ko‘rsatish uchun yetarlicha ahamiyatga ega. Shunday qilib, tadqiqotchilar oldida turgan asosiy amaliy masala - bu qoidalarni belgilash, ularga rioya qilish agrar sektorning boshqa tarmoqlar bilan eng samarali o‘zaro ta’sirini va uning eng jadal rivojlanishini ko‘rsatadi[14].

Ye.A. Boyko va L.Yu. Piterskayalar o‘z izlanishlarida iqtisodiyotning agrar sektorida kichik biznes sohasining rolini ko‘rib chiqishga bag‘ishlagan. Qishloqda kichik biznesni rivojlantirishga, mamlakatimizda ro‘y berayotgan

5 Utanov B. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari faoliyatini samaradlorligini ifodalovchi integral ko‘rsatkichlar //O‘zbekiston statistika axborotnomasi ilmiy elektron jurnali, 2019 yil 1-son.

6 Xushmatov N., Fayzullaeva T. “Qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlari va fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish asoslari” // Экономика и класс собственников. – Toshkent, 2004. №1. – B. 46.

7 Abdulloev A.J.Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida eksport salohiyatini oshirishda agroklasterlarning o‘rni va ahamiyati. Central Asian academic journal of scientific research. Issue - 5, 2022.

8 Xo‘jaqulov X.D. Agrar sohada ishlab chiqarish jarayonlarining xo‘jalik yuritish shakllari bo‘yicha statistik tahlili //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2014, № 3.

9 Shadiev T.Sh. Экономические модели развития селского хозяйства. – T.: Фан, 1986. – 168 с.

10 Ruzmetov D.I.O‘zbekistonda agrar sektor tarkibi va rivojlanish tamoillari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2021-yil. 172–180-b.

11 Berdiqulov Q.G‘.Qishloq xo‘jalikida amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishni statistik tahlili //O‘zbekiston statistik ahborotnomasi ilmiy elektron jurnali, 2021-yil, 1-son.

12 Анищенко А.Н. “Умное” сельское хозяйство как перспективный вектор роста аграрного сектора экономики России // Продовольственная политика и безопасность. – 2019. – Том 6. – № 2. – С. 97-108.

13 Калинчик Н.В. Стратегия развития аграрного сектора экономики Украины: существует ли она? Эффективная экономика № 10, 2013.

14 Михайлов А.Г. Аграрный сектор России начала xx века: методы стабилизации и обеспечения функционирования Современные проблемы науки и образования. – 2008. – № 2 – С. 130-135

bozor o‘zgarishlari sharoitida agrosanoat majmuasini izchil rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochilayotganiga qiziqish ortib borayotgani bilan bog‘liqligi yoritilgan. Hozirgi rivojlanish bosqichida agrar sektor butun milliy iqtisodiyotning o‘sish omillaridan biri sifatida tan olingan. Mualliflar qishloq xo‘jaligida kichik biznesning xususiyatlarini keng yoritishgan va tadqiqot natijalari asosida uning aniq konsepsiyasini keltirishgan[15].


Agrar sektorning hozirgi shakllangan tarkibiy tuzilishi va uning asosiy tushunchalari mazmun – mohiyatining o‘zaro muvofiqligini ilmiy – amaliy jihatdan tadqiq etish va xorijlik olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy bazasi sifatida xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida abstrakt va analitik mushohada, qiyosiy va omilli tahlil, normativ va pozitiv tahlil, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash, dinamika qatorlari, iqtisodiy indekslar, statistik jadval va grafiklar kabi usullardan keng foydalanildi.

MUHOKAMA

O‘zbekistonda agrar tarmoqni rivojlantirish uchun yillar davomida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu islohotlarning samarasi sifatida qishloq xo‘jaligining asosiy ko‘rsatkichlarida kuzatilayotgan o‘zgarishlar bilan keltirib o‘tish mumkin. Ma’lumki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda juda katta iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari kuzatilmoqda. Xususan, o‘tgan yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatimizda YaIM hajmi joriy narxlarda 1 066 569,0 mlrd. so‘mni tashkil etib, bu 2022-yil bilan taqqoslaganda 6,0 % ga o‘sganligini kuzatishimiz mumkin. Shu bilan birga ushbu yilda agrar tarmoqda yaratilgan mahsulot va ko‘rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi 426,3 trln.so‘mni, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlarning o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi – 117,6% (411,6 trln. so‘m)ga, qishloq xo‘jaligi mahsuloti 117,2% (404,6 trln. so‘m), o‘rmon xo‘jaligi – 108,3 % (10,4 trln. so‘m), baliqchilik xo‘jaligi – 134,4 (4,3 trln. so‘m) oshganligi ushbu tarmoqdagi jiddiy o‘sish sura’ti deb e’tirof etish mumkin.

NATIJALAR

YaIMning tarkibiy o‘zgarishlari ham agrar tarmoq rivojiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq hisoblanadi. Uni tahliliy ko‘rsatkichlari quyidagi rasmda keltirib o‘tilgan(1-rasm).



1-rasm: YaIM tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushi, jamiga nisbatan % da[16]

Yuqoridagi rasm ma’lumotlaridan, 2019-yilda YaIM tarkibida qishloq xo‘jaligi 24,4 %ga ega bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib, ushbu ko‘rsatkich 23,5 %ga tushib qolgan. Ammo, bu ko‘rsatkich salbiy emas deb e’tirof etish mumkin. Sababi, YaIM tarkibida sanoat va xizmatlar hajmi ushbu tarmoqqa nisbatan yuqori darajada o‘sganligi bilan izohlash mumkin.

O‘tgan yillar mobaynida mamlakatimizda YaIM, xususan, tarmoqlarda va aynan qishloq xo‘jaligida yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi sezilarli darajada o‘sib kelmoqda(1-jadval).

1-jadval: O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy ko‘rsatkichlari, mlrd. so‘mda[17]

Ko‘rsatkichlar	2019	2020	2021	2022
YaIM	532 712,5	605 514,9	738 425,2	888 341,7
Tarmoqlarning YaQQi	487 449,8	561 153,4	686 432,4	828 054,2
sh.j. qishloq xo‘jaligida	129 885,0	150 493,7	181 787,7	208 452,9
Investitsiya	195 927,3	210 195,1	239 552,6	266 240

15 Бойко Е.А., Питерская Л.Ю. VII Международная научно-практическая конференция “Актуалные направления научных исследований: перспективы развития”. 21.11.2018 г. Чебоксары 2018.
16 www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
17 www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

sh.j. qishloq xo‘jaligida	12 199,1	14 776,8	17 727,9	15 703,6
Iqtisodiyotda bandlar	13 541,1	13 236,4	13 538,9	13 737,3
sh.j. qishloq xo‘jaligida	3 544,6	3 499,2	3 414,7	3 429,6


Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, tahlil qilinayotgan 2019-yilda YaIM(532 712,5 mlrd. so‘m amaldagi narxlarda) hamda YaQQ(487 449,8 mlrd. so‘m)ga nisbatan 2022-yilda yaratilgan YaIM(888 341,7 mlrd. so‘m) hamda YaQQ (828 054,2 mlrd. so‘m) mos ravishda 120,3 hamda 20,6 %ga o‘sgan. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi esa 2019 yilda 129 885,0 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilda 208 452,9 mlrd so‘mga yetgan yoki 14,7%ga oshganligini kuzatishimiz mumkin.

Investitsiya barcha tarmoqlar rivojiga juda katta ijobiy ta’sirga ega hisoblanadi. Yurtimizda agrar tarmoq rivojlanishiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tahlil qilish zarur (2-jadval).

2-jadval: Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘mda[18]

Moliyalashtirish manbalari	2019	2020	2021	2022
Respublika budjeti	1 903,5	1 736	1 231,9	1 428,7
Korxona va tashkilot mablag‘i	1 165,0	1 163,8	3 038,6	3 461,4
Bank kredit va boshqa qarz mablag‘i	1 588,5	1 883,5	2 746,9	2 209,9
Xorijiy investitsiya va kreditlar	5 496,2	6 739,9	7 659,4	5 067
Boshqa moliyalashtirish manbalari	2 045,9	2 753,6	3 051,1	3 536,6
Jami	**12 199,1**	**14 276,8**	**17 727,9**	**15 703,6**

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2022-yilda 2019 yilga nisbatan agrar tarmoqqa Respublika budjetidan (75,0%) va xorijiy investitsiya va kredit mablag‘lari (92,2%) hisobidan ajratilgan investitsiyani istisno qilganda, korxona va tashkilot mablag‘lari (2,9%), bank kredit va boshqа qarz mablag‘lari (139,1%), boshqa moliyalashtirish mablag‘lari (172,7%), sezilarli darajada oshgan. Ushbu investitsiyalarning tarkibiy o‘zgarishlari ham statistik jihatdan katta ahamiyatga ega (2-rasm).



2-rasm: Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga kiritilgan investitsiyalar ulushi, % da[19]

Yuqoridagi rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, tarmoqqa kiritilgan investitsiyalar hajmida xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushi 2019-yildagiga qaraganda 2022- yildagi ulushi pasaygan bo‘lsada, yillar davomida umumiy ulushi eng yuqori ulushga ega bo‘lgan.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi holatini iqtisodiy-statistik tahlil qilishda ekin maydoni va dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining o‘sish dinamikasini tahlil qilish zarur(3-jadval).


18 www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
19 www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

3-jadval: Qishloq xo‘jaligining asosiy ko‘rsatkichlari[20]

Ko‘rsatkichlar	2019	2020	2021	2022
Ekin maydoni, ming ga.	3 309,4	3 396,1	3 340,6	3 353,3
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yaratilgan mahsulot va xizmat, mlrd. so‘m	224 265,9	261 892	317 028	362 898
shu jumladan,				
Dehqonchilik	111 904,8	123 859	152 130	177 963
Chorvachilik	104 378,3	126 392	151 285	167 229
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida yaratilgan mahsulot va xizmat, o‘sish sur’ati	103,1	102,9	104	103,6
shu jumladan,				
Dehqonchilik	104,8	103,2	104,3	103,8
Chorvachilik	101,6	102,1	103,5	103,3
Qishloq xo‘jaligida o‘rtacha yillik bandlik, mln. kishi	3,5	3,5	3,4	3,4

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, qishloq xo‘jaligi ekinlari ekiladigan ekin maydoni 2019-yilda 3309,4 ming gektarni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 3353,3 ming gektarni tashkil qilgan yoki 101,3 % ga teng bo‘lgan. Shu jumladan, 2019- yilda dehqonchilik (111904,8 mlrd. so‘m) mahsulot va xizmatlari va chorvachilik (104378,3 mlrd. so‘m) mahsulot va xizmatlari 2022 yilga (mos ravishda 177963,0 va 167229 mlrd. so‘m) nisbatan mos ravishda 59,0 va 60,2 %ga o‘sgan. Ammo qishloq xo‘jaligida o‘rtacha yillik bandlik 3,5 mln. kishidan 3,4 mln. kishiga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu ko‘rsatkichlarga erishishda hududlarda yaratilgan yalpi hududiy mahsulot hajmini tahlil qilish lozim (3-rasm).



3-rasm: 2023-yilda hududlar bo‘yicha YaHMning tarkibi, % da[21]

Yuqoridagi rasm ma’lumotlari asosida 2023-yilda mamlakatimizda yaratilgan YaHMda qishloq xo‘jaligi ulushi Jizzax, Surxondaryo hamda Xorazm viloyatlarida eng yuqori bo‘lgan bo‘lsa, Navoiy va Toshkent viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida eng past ulushga ega bo‘lgan.

20 www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
21 www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS


Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulot hajmi ortishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri tarmoqda foydalaniladigan asosiy vositalar, ya’ni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlanganlik darajasi hisoblanadi (4-jadval).

4-jadval: Asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi texnikalarini ishlab chiqarish, dona[22]

	2019	2020	2021	2022
Traktor, dona	2257	903	928	401
Traktor kultivator, ming dona	3,8	0,7	0,4	0,4
Borona, dona	54	117	586	1258
G‘alla kombayn, dona	307	323	174	202
Seyalka, dona	1288	1083	271	626
ko‘prikli elektr ko‘targich, dona	19	53	145	79
O‘rg‘ich, dona	104	53	24	5

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, 2019–2022-yillarda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari turli o‘zgarishlarga ega bo‘lgan. Xususan, traktor, traktor kultivator, g‘alla kombayn, seyalka kamaygan bo‘lsa, faqat ko‘prikli elektr ko‘targichlar 60 dona (4.1 marta)ga o‘sgan.

Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ham agrar tarmoq rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillardan hisoblanadi. Shu sababli hududlar kesimida ularning 2023 yil boshiga holatini aks ettiruvchi ma’lumotlarni tahlil qilamiz (4-rasm).



4-rasm: Hududlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda[23]

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinadiki, hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p korxona va tashkilotlar Qashqadaryo viloyatida – 5 352 birlikni yoki respublika bo‘yicha mazkur sohada faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning 14,2 % ini tashkil etgan bo‘lsa, aksincha eng kam korxona va tashkilotlar Toshkent shahrida – 646 birlik (1,7 %) qayd etgan.


22 www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
23 www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmiga qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi hamda baliqchilik xo‘jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar hajmining ta’sirini tahlil qilish zarur (5-jadval).

5-jadval: O‘zbekistonda yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi, trln.so‘m[24]

	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-v	2023-yil
Jami	**224,3**	**261,9**	**317,0**	**362,9**	**426,3**
shu jumladan:					
Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar	217,3	253,2	306,9	350,1	411,6
shundan:					
Qishloq xo‘jaligi mahsuloti	216,3	250,3	303,4	345,2	404,6
O‘rmon xo‘jaligi	5,5	6,8	7,5	9,6	10,4
Baliqchilik xo‘jaligi	1,5	1,9	2,6	3,2	4,3

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari joriy yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni (2022-yilning yanvar-dekabr oylari mos ravishda 2021 yilning yanvar- dekabr oyiga nisbatan – 103,6 %), shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 104,1 % (103,6 %)ni, o‘rmon xo‘jaligi – 102,7 % (101,7 %)ni, baliqchilik xo‘jaligi – 107,4 % (106,4 %)ni tashkil qilganligini ko‘rsatadi. Ularning jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridagi ulushi tarmoq rivojlanishida qanday ta’sirga ega ekanligini ko‘rsatadi(5-rasm).



5-rasm: O‘zbekiston Respublikasining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, % da[25]

Yuqoridagi rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmida 96,6% ni dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar(411,6 trln. so‘m), 2,4%ni o‘rmon xo‘jaligi (10,4 trln. so‘m), 1,0 %ni baliqchilik xo‘jaligi (4,3 trln. so‘m) tashkil qilgan.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar asosida qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuchvi dehqon-fermer xo‘jaliklarining samarali faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlashda yuqorida tadqiq etilgan omillar beqiyos ahamiyatga ega hisoblanadi. Statistik tahlil ma’lumotlaridan foydalanib, yuqorida keltirilgan agrar tarmoq rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarga qo‘shimcha sifatida quyidagilar tavsiya etiladi: xorijiy investitsiyalar asosida agrofirmalar tomonidan mahsulotlarni saqlash omborlarini yangilash; fermerlar uyushmasi, savdo sanoat palatasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda yangi mini texnologiyalarning ko‘rgazmalari tashkil etish, ularni sotib olish bo‘yicha zaruriy statistik ma’lumotlar bazasini shakllantirish; hududlarda fermer xo‘jaliklarining zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanishi uchun zaruriy moliyaviy ko‘mak (lizing, imtiyozli kredit) berishni qayta ko‘rib chiqish; tijorat banklaridan imtiyozli kreditlar ajratish; tashqi va ichki bozor, qayta ishlash korxonalari, aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabi, narxlari, sotib olish hajmlari kabi ko‘rsatkichlarga doir statistik axborotlar bazasini shakllantirish maqsadga muvofiq sanaladi.

24 www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
25 www.stat.uz rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligi tarmog‘i rivojanishidagi mavjud muammolar yechimini topish va 2022–2026-yillarda istiqbollashtirilgan parametrlar ijrosini ta’minlash, ushbu sohadagi ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash va ular bo‘yicha chora-tadbirlar belgilashni talab etadi.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda asosiy o‘ringa ega bo‘lgan investitsiya hamda asosiy texnika vositalari bilan ta’minlash bilan bir qatorda, yer maydonlarini hosildorligini oshirish bo‘yicha agrotexnika ishlarini ko‘paytirish va tarmoqda bandlik darajasini oshirish zarur. Shu bilan birga tarmoqda yaratilgan mahsulot va xizmatlarni jaxon bozoriga chiqishiga juda katta imkoniyatlar yaratish tarmoqda faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslar bilan bir qatorda shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarini ham faoliyatini rentabelligini ortishiga olib keladi. Natijada esa, aholi farovonligini yanada oshishiga zamin yaratiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. http://www.uz.undp.org/content/dam/uzbekistan/docs/Publications/economicgovernance/Improving_Productive_and_Export_Potential/un_uzb_Improving_Productive_%20and_Export%20Potential.pdf
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmoni. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. www.lex.uz
4. O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i O‘zbekiston iqtisodiyotining drayveri. International scientific-practical conference actual issues of agricultural development: problems and Solutions. JUNE 6-7, 2023.
5. Utanov B. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari faoliyatini samaradlorligini ifodalovchi integral ko‘rsatkichlar //O‘zbekiston statistika axborotnomasi ilmiy elektron jurnali, 2019 yil 1-son.
6. Xushmatov N., Fayzullaeva T. “Qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlari va fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish asoslari” // Ekonomika i klass sobstvennikov. – Toshkent, 2004. №1. – B. 46.
7. Abdulloyev A.J. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida eksport salohiyatini oshirishda agroklasterlarning o‘rni va ahamiyati. Central Asian academic journal of scientific research. Issue - 5, 2022.
8. Xo‘jaqulov X.D. Agrar sohada ishlab chiqarish jarayonlarining xo‘jalik yuritish shakllari bo‘yicha statistik tahlili //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, 2014, № 3.
9. Shadiev T.Sh. Ekonomicheskie modeli razvitiya selskogo xozyaystva. – T.: Fan, 1986. – 168 s.
10. Ruzmetov D.I.O‘zbekistonda agrar sektor tarkibi va rivojlanish tamoillari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2021 yil. 172-180 b.
11. Berdiqulov Q.G‘.Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishni statistik tahlili //O‘zbekiston statistik ahborotnomasi ilmiy elektron jurnali, 2021 yil, 1-son.
12. Анищенко А.Н. “Умное” селское хозяйство как перспективный вектор роста аграрного сектора экономики России //Продоволственная политика и безопасност. – 2019. – Том 6. – № 2. – С. 97-108 стр.
13. Калинчик Н.В. Стратегия развития аграрного сектора экономики Украины: существует ли она? ефективна економіка № 10, 2013.
14. Михайлов А.Г. Аграрный сектор россии начала xx века: методы стабилизатсии и обеспечения функсионирования Современные проблемы науки и образования. – 2008. – № 2 – С. 130-135 стр.
15. Бойко Е.А., Питерская Л.Ю. ВИИ Международная научно-практическая конференция “Актуалные направления научных исследований: перспективы развития”. 21.11.2018 г. Чебоксары 2018.
16. https://bugun.uz
17. www.stat.uz rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

BANKLAR TOMONIDAN MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI (“AGROBANK” ATB MISOLIDA)

Yusufov Xurshidjon Sharifovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bank aktivlarining turlari batafsil o‘rganilgan hamda muammoli kreditlarni umumiy kredit portfelidagi ulushini kamaytirish bo‘yicha “Agrobank” ATB misolida amaliy-ilmiy yechimlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Tijorat banklari, bank tizimi, moliya xizmatlari, transformatsiya, chakana xizmat.

Abstract: In this article, the types of bank assets are studied in detail and practical-scientific solutions are given on the example of “Agrobank” ATB to reduce the share of problem loans in the total loan portfolio.

Key words: Commercial banks, banking system, financial services, transformation, retail service.

Аннотация: В данной статье подробно изучены виды банковских активов и приведены научно-практические решения на примере АТБ “Агробанк” по снижению доли проблемных кредитов в общем кредитном портфеле.

Ключевые слова: Коммерческие банки, банковская система, финансовые услуги, трансформация, розничное обслуживание.

KIRISH

Kredit zamonaviy dunyoda iqtisodiy rivojlanishning eng muhim manbayi bo‘lib qolmoqda. U rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar, alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlar, butun mamlakatlar va ularning hukumatlari tomonidan faol foydalaniladi. Biroq amalda banklar tomonidan berilgan kreditlar har doim ham o‘z vaqtida qaytarilmaydi. Ishlamaydigan va ishlamaydigan bank kreditlari bank faoliyatining butun tarixi davomida ham bank uchun, ham milliy iqtisod uchun muammo bo‘lib kelgan. Ko‘p hollarda kredit va investitsiya jarayonini tashkil etishdagi xatolar moliyaviy barqarorlikning yo‘qolishiga, kapitalning isrof qilinishiga va, hatto, kredit tashkilotlarining bankrot bo‘lishiga olib keladi.

Muvaffaqiyatsiz kreditlar yangi kreditlashni cheklaydi va banklarning rentabelligi va to‘lov qobiliyatini pasaytiradi. Ishlamaydigan kreditlarning yuqori darajaga yetishi banklarga katta miqdorda ta’sir qilganda, moliya tizimi beqaror bo‘lib qoladi va banklar iqtisodiyotni kreditlash funksiyasini muvaffaqiyatli bajara olmay qoladi. Moliyaviy bozorlardagi uzilishlar va banklardagi nosozliklar, o‘z navbatida, iqtisodiy o‘sishni sekinlashtirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda muammoli kreditlar bo‘yicha turli xilma-xil ta‘riflar berilgan. Ayrim adabiyotlarda, muammoli kredit deganda obyekti, subyekti va ta‘minotiga nisbatan bank tomonidan shubha paydo bo‘lgan kredit tushunilsa [8], ayrim adabiyotlarda muammoli kreditlar deganda, – qarz oluvchi bir yoki bir necha to‘lovlarni amalga oshirmaganligi yoki kredit ta‘minoti qiymatining pasayishi kreditni muammoli kreditlar turkumiga o‘tishini anglatadi, deb ta‘rif berilgan.

Tijorat banklarida muddati o‘tgan kreditlar bilan ishlash va ularning portfelini boshqarish samaradorligini oshirish masalalari bir qator xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan va kredit portfeli tushunchasini uning mohiyatiga berilgan ta‘riflarda ifodalangan. Masalan amerikalik iqtisodchilar Kris J. Barlton, Diana Mak Noton kredit portfeli – bu kreditlarni turkumlashni o‘z ichiga oladi deb ta‘riflashadi. O‘z o‘rnida, bank sektorining ichki va tashqi ish faoliyatlari ITlarning rivojlanishi bilan yanada rivojlanib bormoqda va bu eng katta ta‘sir qilgan soha sifatida bank tizimini ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, N. Sokolinskaya – kredit portfeli qisqa va uzoq muddatli kreditlar yig‘indisidan iborat deb ta‘riflaydi va muammoli kreditlarni boshqarish masalasiga alohida to‘xtalib

o‘tadi. Bu ta‘rifda asosiy e‘tibor kreditning muddatiga qaratilgan bu holat kredit holatini va mohiyatini to‘liq ochib bermaydi. Chunki bank tomonidan berilgan kreditlarning muddatini belgilab qo‘yilishi va unga rioya qilinishi faqat kredit klassifikatsiyasi sifatini aniqlashda muhim omil bo‘lishi mumkin.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham bu borada qator izlanishlarni olib borishgan, xususan, Sh.Z. Abdullaevaning fikriga ko‘ra, banklarning muddati o‘tgan kreditlari – bu turli xil kredit risklariga asoslangan muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlarning qaytarilishida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar bo‘lib, asta sekin umumiy bank aktivlarining standart holatiga tasir qiladi, deb aytadi. Uning turli shakllarida kreditorning belgilangan qarzni kech to‘lashi yoki to‘liq to‘lamasligi va bunda vaqt omilining suiiste’mol qilinishi biz yuqorida so‘z yuritayotgan masala obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, banklar faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy o‘rinni egallagani uchun ularning kredit paketlarini to‘g‘ri tashkil qilish banklarning samarali va barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kredit operatsiyalarini olib borishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar banklar daromadining kamayishiga, ba‘zi hollarda ularning sinishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, banklarning kredit portfeli va uning sifatini nazorat qilib borish tijorat banklari samarali faoliyatining garovidir. Yuqorida o‘rganilgan holatlarga asoslanib, respublikamiz tijorat banklarida muddati o‘tgan kreditlarni boshqarish samaradorligini oshirish yo‘llari yuzasidan izlanishlar olib borilishini doimo dolzarb deb hisoblaymiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mazkur tadqiqotda statistik jadval va grafiklar, analitik taqqoslash, mantiqiy va taqqoslama tahlil, guruhlash usullari hamda mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlaridan keng foydalanilgan. Shuningdek maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning tijorat banklarida muddati o‘tgan kreditlarni samarali boshqarish masalalari bo‘yicha izlanishlari, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o‘tkazish orqali tegishli yo‘nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o‘rganish jarayonida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda ma‘lumotlarni tizimlash bo‘yicha maxsus yondashuvlar, ya‘ni taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil kabi usullar qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aktivlarning hajmi va diversifikatsiya qilinganlik darajasi bank holatiga umumiy baho berilishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Aktivlarning yildan-yilga o‘sib borish tendensiyasiga hamda uning tarkibini daromadlilik jihatidan barqaroqlashtirish masalasiga muhim e’tibor qaratiladi. Aktivlarning o‘sishida uning tarkibidagi mablag‘larning turlariga hamda aktivlar sifatining yuqoriligiga katta ahamiyat qaratiladi.

Xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ishlamaydigan kreditlar (muammoli kreditlar) – asosiy qarz va foizlarni to‘lash muddati 90 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilgan, kapitallashtirilgan, qayta moliyalashtirilgan yoki o‘tkazilgan foizli to‘lovlar bo‘lgan kreditlar. Bundan tashqari, ushbu tasniflash muddati 90 kundan kam bo‘lgan, ammo qarzdor bankrotlik to‘g‘risida ariza bergan bo‘lsa, ularni ishlamaydigan deb tasniflash uchun asoslar mavjud bo‘lgan kreditlarni ham o‘z ichiga olishi kerak.

“Agrobank” ATB kredit portfelidagi aktivlar hajmining barqaror o‘sishiga erishish maqsadida 2023-yil yakuniga aktivlar hajmini 65 792 mlrd. so‘mga yetkazish rejalashtirilgan. Bunda, kredit qo‘yilmalar qoldig‘i 56 152 mlrd. so‘mga yetkaziladi. Bank aktivlarining yuqori daromadliligini ta’minlash, umumiy likvidlilikka erishishga yo‘naltirilgan bankning kredit va investitsiya siyosatini amalga oshirish yuzasidan choralar ko‘rilmoqda.




1-rasm: “Agrobank” ATB kredit portfeli o‘zgarishi dinamikasi tahlili

Manba: “Agrobank” ATB ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Pirovard natijada, bank mablag‘laridan samarali foydalanishning muhim belgilaridan biri – bu bank umumiy aktivlari tarkibida daromad keltirmaydigan aktivlar ulushining minimal darajada bo‘lishini ta’minlash bilan birgalikda daromad keltirmaydigan aktivlar salmog‘ini kamayib borish tendensiyasining mavjudligi hisoblanadi.

Kapital – bank faoliyatining asosiy moliyaviy tayanchi bo‘lib, bankning iqtisodiy boshqarish vositasidir, shuningdek undan omonatchilar manfaatlarini himoya qiluvchi hamda bank faoliyati rivojini ta’minlovchi manba sifatida foydalaniladi.




	Жами НПЛ сони	Агросаноат	Оилавий тадбиркорлик	Кичик бизнес	Инвестицион	Чакана
01.01.2023 й.	71 436	319	58 197	536	17	12 367
01.01.2024 й.	39 863	3 200	18 771	582	67	17 243

2-rasm: “Agrobank” ATB kredit portfeli tarkibi o‘zgarishi dinamikasi

Manba: “Agrobank” ATB ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Agrobank umumiy majburiyatlarini 2023-yil davomida 54 968 mlrd. so‘mga yetkazilishi ko‘zda tutilgan edi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, bank tomonidan ushbu majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarish va joriy likvidligini saqlab qolish maqsadida bank aktivlarining sifat tarkibini yanada yaxshilash tadbirlari amalga oshirildi.

Bank majburiyatlarining 2023-yil davomida o‘z vaqtida bajarilishi yuzasidan aniq choralar ko‘rildi. Birinchi navbatda, korporativ mijozlarning pul oqimlari ustidan doimiy monitoring o‘riatildi. Bunda, bank depozitlari hajmining 2023-yil yakuniga qadar yil boshiga nisbatan 146,0 foizga oshirish evaziga 16 443 mlrd. so‘m miqdorida bo‘lishi rejalashtirilgan deyarli shu natijaga erishilgan.




	Жами НПЛ улуши	Агросаноат	Оилавий тадбиркорлик	Кичик бизнес	Инвестицион	Чакана
01.01.2023 й.	3.8%	0.4%	16.4%	10.6%	0.7%	5.2%
01.01.2024 й.	3.8%	4.0%	4.7%	12.6%	1.5%	5.0%

3-rasm: “Agrobank” ATB kredit portfeli tarkibida muammoli kreditlar ulushi o‘zgarishi dinamikasi

Manba: “Agrobank” ATB ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Shuningdek, jamg‘arma va muddatli depozitlariga mablag‘larni jalb qilishni yanada faollashtirish, bunda yangi jozibador omonatlar va jamg‘armali depozitlarni joriy etish orqali aholi omonatlari hamda plastik kartochkalardagi mablag‘lar qoldig‘ini oshirish ko‘zda tutildi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



4-rasm: “Agrobank” ATB kredit portfeli tarkibida muammoli kreditlar soni o‘zgarishi dinamikasi

Manba: “Agrobank” ATB ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Bank tomonidan 2023-yil davomida aktiv va passivlarni samarali boshqarish orqali 13 866 mlrd. so‘m hajmida xarajat amalga oshirilgan holda 14 866 mlrd. so‘m miqdorida daromad olish, natijasida yilni 1 trln. so‘m hajmidagi sof foyda bilan yakunlash rejalashtirilgan edi.

Bunda kredit va lizing amaliyotlaridan olinadigan foizli daromadlar 10 501 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘z navbatida jalb qilingan mablag‘larga to‘lanadigan foizli xarajatlar 7 698 mlrd. so‘m miqdorida bo‘lishi rejalashtirilgan. O‘rtacha kredit marjasi 4,5 foizni tashkil qildi. Natijada, bank 2023-yil davomida 2 803 mlrd. so‘m miqdorida sof foizli daromadga ega bo‘ldi.

O‘rtacha sired ko‘rsatkichi 2,3 foizni tashkil qiladi deb prognoz qilingan edi. 2023-yil davomida olinadigan foizsiz daromadlar hajmi 4 365 mlrd. so‘mni hamda amalga oshiriladigan foizsiz xarajatlar 1 475 mlrd. so‘m bo‘lishi kutilgan edi va xarajatlar tarkibining 2 267 mlrd. so‘mini operatsion xarajatlar tashkil etdi.

1-jadval: “Agrobank” ATB kredit portfeli tarkibida muammoli kreditlar ulushi hududiy boshqarmalar kesimida

№	Hududiy boshqarmalar nomi	01.01.2024-yil holatiga				
		Kredit portfel		NPL		
		soni	summa	soni	summa	ulushi
1	Qoraqalpog‘iston	68511	2940840	910	85 567	2,90%
2	Andijon	67300	3286762	8 385	229 837	7,00%
3	Buxoro	58 140	4 747 934	713	47 431	1,00%
4	Jizzax	57 993	2 624 097	2 447	219 421	8,40%
5	Qashqadaryo	56 717	3 598 064	3 057	206 220	5,70%
6	Navoiy	41 932	1 188 563	2 871	155 757	13,10%
7	Namangan	29 808	3 610 499	3 593	130 595	3,60%
8	Samarqand	87 117	2 761 025	4 192	128 046	4,60%
9	Surxondaryo	56 672	3 798 622	2 941	161 309	4,20%
10	Sirdaryo	35 785	4 560 120	1 101	155 254	3,40%
11	Toshkent vil.	55 387	5 110 809	2 757	192 622	3,80%
12	Farg‘ona	84 017	3 433 240	4 667	131 154	3,80%
13	Xorazm	52 225	3 975 110	854	123 152	3,10%
14	Toshkent shahar	7 064	8 557 556	1 189	88 343	1,00%
15	Shayxontoxur	2 052	289 775	186	15 782	5,40%
JAMI		**760 720**	**54 483 018**	**39 863**	**2 070 490**	**3,80%**

Manba: “Agrobank” ATB ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Operatsion xarajatlar tarkibida bank xizmatchilarining ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar 1 594 mlrd. so‘mni (o‘rtacha 1 xodimga to‘g‘ri keladigan 1 oylik xarajat 15,6 mln. so‘m), ijara va ta’minot xarajatlari 200 mlrd. so‘mni, ma’muriy xarajatlar 123 mlrd. so‘mni, reprezentatsiya va xayriya xarajatlari 68 mlrd. so‘mni, eskirish xarajatlari 171 mlrd. so‘mni hamda sug‘urta va soliq (foyda solig‘idan tashqari) xarajatlari 84 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Moliyaviy aktivlarni baholash va klassifikatsiyalashga doir MSFO №9 yangi talablarining joriy etilishi hamda tavakkalchilikka tortilgan aktivlarning tavakkalchilik darajasiga qarab 2 226 mlrd. so‘m miqdorida zaxira tashkil etilishi ham ko‘zda tutilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Biz mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni muammoli kreditlarga aylanishini oldini olish maqsadida quyidagi takliflarni keltirish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

- banklarga kredit uchun kelib tushgan arizaga atroflicha yondashuv, ya’ni daslabki monitoringni to‘g‘ri va mukammal amalga oshirish. Bu yerda birinchi navbatda mijozning xarakteriga, uning moliyaviy ahvoliga, biznes hamkorlari orasidagi mavqeyiga hamda ushbu sohadagi tajribasiga asosiy e‘tiborni qaratish;
- kredit arizasini ko‘rib chiqilayotgan davrda mijoz bankka taqdim etayotgan hujjatlar to‘plamining to‘liqligini va ularning to‘g‘riligini tekshirish. Kredit bo‘limi xodimi tomonidan mijozning moliyaviy ahvoli chuqur tahlil etilishi va xolisona baho berilishi zarur;
- kredit ajratilgan davrdan boshlab, mijozning biznes-rejasi bo‘yicha amalga oshirayotgan ishlarini, hisob raqamidagi mablag‘lari aylanmasini doimiy ravishda nazorat qilib borish, muddati o‘tgan debitorlik-kreditorlik qarzdorliklariga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;
- kredit ta’minoti sifatida taqdim etilgan mol-mulkni saqlash va ekspluatatsiya sharoitini doimiy ravishda nazorat qilib borish;
- kredit ta’minoti sifatida uchinchi shaxsning kafillik shartnomasi taqdim etilgan bo‘lsa, kafilning moliyaviy hisobotlarini har chorakda bir marotaba tahlil qilib uning to‘lov qobiliyatini o‘rganib borish;
- korxonaning mol-mulkini baholashda bankning mulkni baholash bo‘yicha mutaxassisiga ko‘proq imkoniyatlar yaratib berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boyd, John, and David Runkle. 1993. – Size and Performance of Banking Firms: Testing the Predictions of Theory‖ Journal of Monetary Economics 31: 47-67.
2. Demirgüç-Kunt, Asli, Enrica Detragiache, and Thierry Tressel. 2008. – Banking on the Principles: Compliance with Basel Core Principles and Bank Soundness‖, Journal of Financial Intermediation 17(4): 511-42.
3. Edwin G Dolan. Journal of Comparative Economics, Volume 2, Issue 4, December 1978, Pages 407-408
4. Frederic S. Mishkin (2016) -The Economics of Money, Banking, and Financial Markets‖, page 216, 11th edition.



NAMANGAN VILOYATIDA DON VA DON MAHSULOTLARI NARXINI SHAKLLANISHINING BOZOR TADQIQOTI

Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o‘g‘li
Namangan muhandislik-texnologiya instituti
“Iqtisodiyot” kafedrasi assisenti

Annotatsiya: Oziq-ovqat xavfsizligi, bozorlarda narxlar barqarorligini ta’minlash bugun dunyo mamlakatlarini birdek o‘ylantirayotgan masalalardan biri. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx-navoni bozor tamoyillari asosida belgilanadi. Ya’ni, talab va taklif yasosida belgilanib, bugun qaysi mahsulot qanchadan sotilishini bir yoki bir necha kun oldin bashorat qilishning imkoni yo‘q. Faqat mamlakat tomonidan bozor narxlarini barqarorlashtirish choralarini ko‘rish mumkin xolos. Ushbu maqolada shu va shunga o‘xshash masalalar borasida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: don, un mahsulotlari, g‘alla, fermer ho‘jaligi, birja, narx-navo, don va un mahsulotlari, boshoqli don ekinlari.

Abstract: Ensuring food safety and price stability in the markets is one of the issues that countries of the world are thinking about today. In a market economy, prices are determined based on market principles. That is, it is impossible to predict which product will be sold today and how much it will cost one or several days in advance, based on supply and demand. Only the country can take measures to stabilize market prices. This article discusses these and similar issues.

Key words: grain, flour products, grain, farmer’s agriculture, Stock Exchange, price, grain and flour products, grain crops with cobs.

Аннотация: Обеспечение продовольственной безопасности и стабильности цен на рынках – один из вопросов, над которым сегодня думают страны мира. В рыночной экономике цены определяются на основе рыночных принципов. То есть невозможно спрогнозировать, какой товар будет продан сегодня и сколько он будет стоить на один или несколько дней вперед, исходя из спроса и предложения. Только страна может принять меры по стабилизации рыночных цен. В этой статье рассматриваются эти и подобные вопросы.

Ключевые слова: зерно, мучная продукция, зерно, ферма, обмен, цена, зерно и мучная продукция, колосовые зерновые культуры.

KIRISH

Mamlakatimizda 2022-yil 1-iyundan boshlab don va un mahsulotlarini birja savdolari orqali erkin narxlarda sotish yo‘lga qo‘yildi. Prezidentimizning 2022-yil 28-maydagi “G‘allani yetishtirish va sotishda bozor tamoyilini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan g‘allani davlat tomonidan sotib olish va sotishda bozor narxlariga o‘tilib, g‘allachilik klasterlari va fermerlarga bug‘doyni bozor narxida to‘liq erkin sotish huquqi berildi.

Bu fermerlarning klasterlar uchun o‘z mahsulotlarini bozor narxida sotishlariga imkon beradi. Yangi tizim un va non mahsulotlari narxiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bunda fermer davlat xarajatlarning bir qismini o‘z bo‘yniga olib, tadbirkorga bug‘doyni arzon narxda bermaydi. Ishlab chiqaruvchilar bug‘doy va un mahsulotlarini birja orqali erkin narxlarda sotib olib, tayyor mahsulot narxini ham xarajatlaridan kelib chiqqan holda o‘zlari belgilaydi. Bu jarayonda ayrim tadbirkorlar bundan foydalanib, narxlarni keskin oshirib yuborishi ehtimoli ham yo‘q emas.

Shu bois, davlatimiz rahbari topshirig‘iga asosan yangi tizim shaffofligi, to‘laqonli va adolatli ishlab ketishini nazorat qiluvchi Bosh prokuror boshchiligidagi Respublika shtabi tuzilgan. Hozirda 21 ta vazirlik-idoralarning rahbarlaridan iborat shtabning barcha hududlarda hududiy bo‘limlari to‘liq tarkibda ish olib boryapti. Ular har kuni g‘allani sotib olish va sotishda bug‘doy yetishtiruvchilar manfaatdorligini ta’minlash, ichki bozorda un va don mahsulotlari narxining o‘sishi va taqchilligining oldini olish, muammolarni tezkor bartaraf etish bo‘yicha ishlar olib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI

Sohaga doir iqtisodiy adabiyotlarda xarajatlar, ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarish bo‘lmagan xarajatlar hamda tannarx tushunchalari qo‘llanilgan.

Umumiy iqtisodiy ma’noda ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi tushunchalariga Sh.Shodmonov tomonidan quyidagicha ta’rif keltirilgan: “Ishlab chiqarish xarajatlari – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish maqsadlarida, iqtisodiy resurslar sotib olish uchun qilgan pul sarflari. Firma o‘z faoliyatini bozordan moddiy resurslar, ya’ni asbob-uskuna, dastgohlar, transport va aloqa vositalari, xom-ashyo, yoqilg‘i, har xil materiallarni, mehnat bozoridan ishchi kuchini sotib olishdan boshlaydi. Shunga muvofiq holda ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga xom-ashyo, asosiy va yordamchimateriallar, yonilg‘i va energiya xarajatlari, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqiva ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar, foiz to‘lovlari va b. xarajatlar kiradi. Ishlabchiqarish xarajatlariga qilingan barcha xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulottannarxini tashkil qiladi”.

M.Boltaboyev “Tannarx, mahsulot tannarxi – korxonaning maqsulot ishlab chiqarish. va uni sotish hamda ishlar bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish uchun qilgan jami joriy xarajatlarining pul shaklidagi ifodasi. Tovar ishlab chiqarishda ttannarxning muhim elementlari – chetdan olinadigan xom-ashyo, asosiy materiallar, elektr-energiya resurslari chiqimlari; asosiy va qo‘shimcha ish haqi; ijtimoiy sug‘urta ajratmalari; amortizatsiya ajratmalari va b. sarf xarajatlar.”- deb ta’rif keltiradi.

Rossiya Soliq Kodeksida (1998) quyidagicha ta’rif keltirilgan: “Tannarxni belgilovchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari mahsulot ishlab chiqarishda foydalanilgan tabiiy resurslar, xom-ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg‘i, energiya, asosiy fondlar, mehnat resurslari va ekspluatatsiya bo‘yicha boshqa xarajatlar, shuningdek ishlab chiqarish bo‘lmagan xarajatlarning qiymatidan tashkil topadi”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida adabiyotlarni mantiqiy tahlil qilish asosida xulosalar qilindi. Internet sahifasidagi ma’lumotlardan foydalanildi. Me’yoriy-huquqiy hujjatlarda keltirilgan vazifalar metodologik asos qilib olindi. Matematik algoritm, ketma-ketliklardan foydalanildi. Maqolani tayyorlashda guruhlash, taqqoslash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistika, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

G‘allani qabul qilish va uni sotishda joriy etilgan bozor mexanizmlari, avvalo, aholimizning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash hamda g‘alla yetishtiruvchilarni iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Mamlakatimizda olib borilayotgan isloxatlar natijasida don va un mahsulotlarini bozordagi narx-navoni davlat belgilamaydi – buni bozor talabining o‘zi belgilaydi. Bu jarayonda mamlakatimiz asosiy fazifasi taklifni ko‘paytirish, buning uchun tadbirkorlarni ko‘proq bozor iqtisodiyotida o‘z o‘rnini topishi, birja savdolarida ishtirok etib, mahsulotini erkin sotishi, xarajatlarini kamaytirishga ko‘maklashishdan iborat. Chunki bozorda talabga nisbatan taklif ko‘p bo‘lsa, narx barqarorligi taminlanadi va sog‘lom raqobat muhiti shakllanadi.

Mamlakatimizda aholini don va un mahsulotlariga bo‘lgan talablarini qondirish maqsadida 2022-yilda 1 million 32 ming gektar maydonda g‘alla ekilib, 7,5 million tonnadan ortiq bug‘doy yetishtirilishi belgilangan edi. Ushbu ko‘rstakich 2021-yilga nisbatan 1,5 million tonnaga ko‘p bo‘lgan.

Yangi tizimga ko‘ra, g‘allaning bir kilogrammi dastlabki narx sifatida 2022-yil 1-iyundan boshlab 3 ming so‘mdan qabul qilish boshlandi hamda kelgusida birja narxlaridan kelib chiqqan holda, ushbu narxga yana qo‘shimcha haq to‘lab berilishi barcha dehqon, fermerlar hamda klasterlar tomonidan ko‘taringki ruhda qabul qilinish boshlandi.

Bugungi kunda Namangan viloyatida 3 ta yirik korxona don va don mahsulotlarini qayta ishlamoqda. 2022-yil holatiga “Namangan don mahsulotlari” AJga tumanlar kesimida boshoqli donlarni yetishtirib berish uchun Mingbuloq tumanidan 22155 tonna don shundan urug‘likka 1440 tonna, tovar don 17304 tonna vaqtinchalik saqlash (birja savdosiga sotish uchun) 4851 tonna reja qilingan bo‘lsa, Namangan tumanidan don 15855 tonna, shundan urug‘lik 3220 tonna, tovar don 9868 tonna vaqtinchalik saqlash (birja savdosiga sotish uchun) 2767 tonna rejalashtirilshan. Kosonsoy, Yangiqo‘rg‘on tumanlarida yetishtirilgan jami donlar dan urug‘lik uchun ajratilmaydi. Ushbu donlar faqat tovar don va birja savdosiga sotish uchun yo‘naltiriladi.

“Uchqo‘rg‘on don mahsulotlari” AJga Uychi, Uchqo‘rg‘on, Norin, Chortoq tumanlari don mahsulotlarini yetkazib beradi. Ushbu tumanlar orasida Uchqo‘rg‘on tumani eng ko‘p reja bo‘yicha 22304 tonna don yetkazib beruvchi hisoblanadi. Ya’ni tovar don 14814 tonna, urug‘likga 3337 tonna, vaqtinchalik saqlash (birja savdosiga sotish uchun) 4153 tonna bug‘doy yetkazib beradi. Chortoq tumani yulg‘dorchilikga ixtisoslashganligi sababli reja bo‘yicha tovar don 3976 tonna, vaqtinchalik saqlash (birja savdosiga sotish uchun) 1115 tonna, jami 5091 tonna bug‘doy yetkazib beradi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

“Pop don mahsulotlari” AJga don mahsulotlaridan Pop va Chust tumanlari yetkazib beruvchi hisoblanadi. Korxonaga eng katta miqdorda boshoqli donlarni yetkazib beruvchi Pop tumani hisoblanib reja bo‘yicha tovar don 19063 tonna, urug‘lik don 1270, vaqtinchalik saqlash (birja savdosiga sotish uchun) 5344 tonna, jami 24407 tonna yetkazib beradi.

Namangan viloyati tumanlarida fermer va qishloq xo‘jaligi korxonalarida 2021-yilda jami boshoqli don ekinlari ishlab chiqarish 462912 tonnani, 2020-yilda 441607 tonnani, 2019-yilda 481311 tonnani, 2018-yilda 471118 tonnani tashkil qilgan. Boshoqli don ekin maydonlari xajmi 2018–2019-yillarda 76500 gektar yer maydonni tashkil qilgan bo‘lsa 2020-yila 74000, 2021-yilga kelib 67750 gektarga qisqardi. Bundan ko‘rinadiki viloyatda ekin maydonlari Kosonsoy, Chortoq, Yangiqo‘rg‘on tumanlarida qisqarib, fermerlar yerlarini bog‘dorchilikka o‘zgartirayotgani aniqlashimiz mumkin. Viloyatda boshoqli don yetishtirish uchun eng katta hududni Chust va Pop tumanlari hisoblanadi, ularning ekin maydonlari 10 ming gektardan ortiqni tashkil qiladi.

1-jadval: Namangan viloyati va tumanlarida 2022-yil hosilidan boshoqli don tayyorlash rejasi[1]

№	Tumanlar	Tovar don	Urug‘lik don	Vaqtinchalik saqlash (birja savdosiga sotish uchun)	Jami
	“Namangan don mahsulotlari” AJ				
1	Mingbuloq	17304	1440	4851	22155
2	Namangan	9868	3220	2767	15855
3	Kosonsoy	11196	0	3139	14334
4	To‘raqo‘rg‘on	10284	1575	2883	14742
5	Yangiqo‘rg‘on	4273	0	1198	5471
	Korxona jami	**52924**	**6235**	**14837**	**72557**
	“Uchqo‘rg‘on don mahsulotlari” AJ				
1	Uychi	12766	3050	3579	19394
2	Uchqo‘rg‘on	14814	3337	4153	22304
3	Norin	8701	2202	2439	13343
4	Chortoq	3976	0	1115	5091
	Korxona jami	**40257**	**8589**	**11286**	**60132**
	“Pop don mahsulotlari” AJ				
1	Pop	19063	1270	5344	24407
2	Chust	17815	846	4994	23655
	Korxona jami	**36877**	**2116**	**10338**	**48061**
	Viloyat jami	**130059**	**16940**	**36461**	**180750**

Namangan viloyatida un mahsulotlari narxi bozordagi talab va taklifni asosida shakllanadi. Mamlakat aholisi bir yilda 91,2 kg un mahsulotlari iste’mol qiladi. Un mahsulotlarining bir odamga 1 oydagi o‘rtacha iste’moli 7,6 kg ni tashkil qiladi. Mamlakatda bir iste’molchi uchun 2015-yilda un mahsulotlariga 1 oydagi o‘rtacha harajat 14,5 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib bu ko‘rsatkich 34,2 ming so‘mga 235,8 foizga o‘sdi. Bundan ko‘rinadiki mamlakatimiz bozorlaridagi un mahsulotlari 2021-yilda 2015-yilga nisbatan narxlari ikki barobardan ortiq o‘sganini ko‘rishimiz mumkin.

3-jadval: Namangan shahrida un mahsulotlariga talab va taklif dinamikasi tahlili[2]

№	Mahsulot turi	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
1	un mahsulotlarining bir odamga 1 oydagi o‘rtacha iste’moli, (kg)	7,6	7,6	7,6	7,6	7,6	7,6	7,6
2	un mahsulotlariga 1 oydagi o‘rtacha harajat, (ming so‘m)	14,5	14,8	15,0	16,0	28,0	30,0	34,2

1 Namangan viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari
2 Namangan viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Namangan viloyatida fermer ho‘jaliklari va korxonalar tomonilan aholini un mahsulotlariga bo‘lgan talablarini hisobga olgan holda 2021-yilda g‘alla 462912 tonna yetishtirildi, bu ko‘rsatgich 2020-yilga nisbatan 110,1 foizga o‘sgan bo‘lsada, 2015-yilga nisbatan 95,7 foizni ya’ni 4,3 foizga kamaygan. Un mahsulotni ishlab chiqarish 2021-yilda 129595 tonna ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2020-yilga nisbatan 0,2 foizga, 2015-yilga nisbatan 14,0 o‘sgan. Makaron mahsulotlarini ishlab chiqarish 2021-yilda 42000 tonnani tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 297,3 foizga, 2015-yilga nisbatan 279,6 foizga o‘sgan. Non mahsulotlarini ishlab chiqarish 2021-yilda 141131 tonnani tashkil qilgan bo‘lsa, 2020-yilga nisbatan 0,8 foizga o‘sgan bo‘lsa, 2015-yilga nisbatan esa 29,2 foizga kamaygan.

4-jadval: Namangan viloyatida g‘alla, un va non mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari tahlili[3]

№	Yillar	G‘alla (tonna)	Un (tonna)	Makaron (tonna)	Non (tonna)
1.	2015	483496	113622	15021	199200
2.	2016	492360	114905	15845	206805
3.	2017	466908	108965	15026	196115
4.	2018	471118	116362	11785	124987
5.	2019	481311	117318	14946	127431
6.	2020	441607	129563	14124	139980
7.	2021	462912	129595	42000	141131
8.	2021-yilda 2020-yilga nisbatan (%)	110,1	100,2	297,3	100,8
9.	5 yilda o‘rtacha o‘sish (%)	99,1	118,9	279,5	71,9

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda viloyatda faoliyat yuritayotgan korxonalarda un mahsulotlarini ishlab chiqarishda zamonaviy energiyani tejaydigan texnologiyalarni olib kelish hamda iste’molchilarga sifatli va arzon mahsulotlarni yetkazib berish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Viloyatda sug‘oriladigan va lalmi yerlarda g‘alla yetishtirish, zamonaviy agrotexnologiyalardan foydalanish, agrotexnik tadbirlarga amal qilish orqali don hosildorligini oshirish, hamda, “urug‘lik–don–un–non va non mahsulotlari” to‘liq bog‘liqligi bo‘yicha ilmiy izlanishlarni muvofiqlashtirish, non va non mahsulotlari ishlab chiqarishga mo‘ljallangan yuqori sifatli g‘alla navlarini seleksiya qilish alohida e’tibor qaratilgan.

Mamlakatda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan hamkorlikda “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi tizimidagi aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv organlari qarorlari asosida don korxonalari aktivlarni va ulushlarini investorlarga sotish ishlarini tashkil qilinmoqda.

Viloyatda un va non mahsulotlarini narxlarini talab va taklifga mutanosibligini ta’minlashda korxonalarni aholi ko‘p yashaydigan hududlarda joylashtirish, aholining kunlik ehtiyojini to‘liq qondirishga qaratilgan ish vaqti asosida, korxonaning o‘zida yoki unga yaqin joylarda non va non mahsulotlari chakana savdosini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari dehqon bozorlari va aholi gavjum bo‘lgan hududlarda keng assortimentdagi non va non mahsulotlarini sotish uchun non va non mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarga ixtisoslashgan (maxsus) savdo firma do‘konlarini tashkil etish bo‘yicha manzilli dasturlarni ishlab chiqildi.

Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan ichki iste’mol bozoridagi bug‘doyga bo‘lgan talab va takliflardan kelib chiqib, davlat resurslari hisobidan birja savdolariga qo‘yiladigan un hajmini muvozanatini ta’minlash orqali kunlik nazoratini amalga oshirilmoqda.

Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, “Respublika tovar xomashyo birjasi” AJ bilan hamkorlikda don va un mahsulotlarini, shu jumladan, fermer xo‘jaliklari ixtiyorida qolgan hamda importdan keltirilgan don va un mahsulotlarini sotish bo‘yicha elektron birja savdolari tizimida alohida savdo platformasini joriy qilindi. Bu orqali un va un mahsulotlarini bozorlarda narxlarni talab va taklif orqali belgilashga erishish mumkin

3 Namangan viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022-yil 30-maydagi 284-sonli “2022-yil hosilidan bug‘doyni xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 2016-yil 13-aprel 404-sonli “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5 fevral 54-sonli qarori (2003-yil 25-dekabrdagi 567-sonli qaror asosidagi o‘zgartishlar bilan) bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ish va xizmat) tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi.
5. Bahriddinov J.R. Market mechanisms and methods of price formation in the system of marketing of goods and services. International Journal of Research in Commerce, IT, Engineering and Social Sciences, Volume: 16 Issue: 07. 2022. –Pp. 60-69. (08.00.00; №23 SJIF 2022-6.973).
6. Bahriddinov J.R. Marketing tizimida narxning o‘rni va uni shakllantirishning xususiyatlari. “Biznes-Ekspert” Iqtisodiy ilmiy-amaliy nashr. Toshkent. 2022-yil. №7. –B. 66-69. (08.00.00; №3)
7. Bahriddinov J.R. Tovar va xizmatlar marketingi tizimida narxlarni shakllantirishni tashkil etish. “Biznes-Ekspert” Iqtisodiy ilmiy-amaliy nashr. Toshkent. 2022-yil. №8. –B. 82-84. (08.00.00; №3)
8. Bahriddinov J.R. Don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti. “Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishda, fan va ta’lim integratsiyasi, innovatsion texnologiyalarni tadbiq qilishda xalqaro fermerlarning roli” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman maqolalar to‘plami. 2021 yil 18-23-noyabr. NamMTI. – B. 269-275.
9. Bahriddinov J.R. Tovar va xizmatlar marketingi tizimida narxlarni shakllantirishning boshqaruv hisobini takomillashtirish. “Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyot va ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish: nazariya va amaliyot” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 15 aprel 2021 yil. –Toshkent: TMI. – B. 846-849.
10. Bahriddinov J.R. Tovar va xizmatlar narxini shakllanishida xarajatlar hisobi va tovarlar va xizmatlar tannarxini hisoblashni takomillashtirish. “Banklarga moliyaviy mablag‘larni jalb qilish va ularning innovatsion xizmatlari samaradorligini oshirish” respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 2020-yil 06-iyun. –Toshkent: TMI. – B. 596-599.
11. Bahriddinov J.R. Korxonalarning sotishdan tushgan sof tushum hajmiga ta’sir etuvchi omillarning korrelyatsion koeffitsiyent ko‘rsatkichlari tahlili. “Yangi iqtisodiyot rivojlanishi istiqbollari: global, mintaqaviy va milliy xususiyatlar” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. – T. TDIU: 2020-yil 21-aprel. – B. 281-287.
12. Boltabaev D.A., Ismoilov R.B., Mullabayev B.B., Bahriddinov J.R. The state of development of small business and private entrepreneurship during the coronavirus pandemic. International engineering journal for research & development. 11 October, 2020. –Pp. 1-8. Vol.5 Special Issue. Impact factor: 6.549.
13. Boltabaev D.A., Ismoilov R.B., Baykhonov B.T., Bakhriddinov A.R., Bahriddinov J.R. Specific features and management methodology of small business and private entrepreneurship management. International engineering journal for research & development. 11 October, 2020. –Pp. 1-8. Vol.5 Special Issue. Impact factor: 6.549.
14. Boltabaev D.A., Ismoilov R.B., Abdulxakimov Z.T., Khosilov Q.Z., Bahriddinov J.R.. Issues of small business and private entrepreneurship development. International engineering journal for research & development. 11 October, 2020. –Pp. 1-8. Vol.5 Special Issue. Impact factor: 6.549.
15. Ismoilov R.B., Mullabayev B.B., Usmanov R.K., Bahriddinov J.R.. Conducting marketing research and developing them. Актуальные вопросы развития современного общества, экономики и профессионального образования. Материалы XVII Международной молодежной научно-практической конференции. Г.Екатеринбург, 24 марта 2021 г. Том 3. –С. 127-130.
16. Ismoilov R.B., Mullabayev B.B., Mahmudova N.G., Usmanov R.K., Bahriddinov J.R. Use of modern marketing research in the context of market development. International engineering journal for research and development. 11 October, 2020. –Pp. 1-8. Vol.5 Special Issue. Impact factor: 6.549.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJDA TOG‘ TURIZMINI RIVOJLANTIRISH OMILLARINI QIYOSIY BAHOLASH



Mavlanov G‘olibjon Muxammad o‘g‘li
Xalqaro turizm fakulteti dekan o‘rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi va xorijda tog‘ turizmining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning qiyosiy bahosi berilgan. Tog‘ turizmi — bu sarguzashtlar, tabiatn va madaniy hordiq chiqarishga boy tajribalarni taklif qiluvchi kengroq turizm sanoatini bildiradi. Tadqiqot ishi natijasida tog‘ turizmini rivojlantirishga turtki bo‘lgan asosiy omillarni tahlil qilib, soha amaliyotchilari, manfaatdor tomonlar ushbu sektorda barqaror o‘sishni rag‘batlantirish uchun asosli qarorlar qabul qilishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: Tog‘ turizmi, Qiyosiy tahlil, O‘zbekiston, Turizmni rivojlantirish, Infratuzilma, Madaniy meros, Siyosat oqibatlari.

Abstract: This article provides a comparative assessment of the factors affecting the development of mountain tourism in the Republic of Uzbekistan and abroad. Mountain tourism refers to the broader tourism industry that offers adventure, natural and cultural recreational experiences. As a result of the research work, by analyzing the main factors driving the development of mountain tourism, industry practitioners and stakeholders can make informed decisions to promote sustainable growth in this sector.

Key words: Mountain tourism, Comparative analysis, Uzbekistan, Tourism development, Infrastructure, Cultural heritage, Policy implications.

Аннотация: В данной статье дана сравнительная оценка факторов, влияющих на развитие горного туризма в Республике Узбекистан и за рубежом. Горный туризм относится к более широкой туристической индустрии, которая предлагает приключенческий, природный и культурный отдых. В результате исследовательской работы, анализируя основные факторы, способствующие развитию горного туризма, специалисты отрасли и заинтересованные стороны могут принять обоснованные решения для содействия устойчивому росту в этом секторе.

Ключевые слова: Горный туризм, Сравнительный анализ, Узбекистан, Развитие туризма, Инфраструктура, Культурное наследие, Политические последствия.

KIRISH

So‘nggi yillarda tog‘ turizmi — sarguzashtlar, tabiat va madaniy tajribalar uyg‘unligi bilan ajralib turadigan global turizm sanoatida mashhur joy sifatida paydo bo‘ldi. Ulug‘vor cho‘qqilar, go‘zal landshaftlar va jo‘shqin madaniyatlar har yili millionlab sayohatchilarni o‘ziga jalb qiladi, ular shahar hayotidan qochib tabiiy dunyo bilan bog‘lanishga intiladi.

Markaziy Osiyoning qoq o‘tasida joylashgan O‘zbekiston Respublikasi turli xil topografiyaga ega bo‘lib, u Tyan-Shan va Pomir-Oloy tog‘ tizmalarining baland cho‘qqilarini o‘z ichiga oladi va bu uni tog‘ turizmini rivojlantirish uchun potentsial nuqtaga aylantiradi.

So‘nggi yillarda tadqiqotchilar va sanoatda manfaatdor tomonlar o‘rtasida tog‘ turizmining rivojlanishiga turtki bo‘lgan omillarni tushunishga qiziqish ortib bormoqda. Bu qiziqish tog‘li hududlarning barqaror rivojlanishidan kelib chiqadigan muhim iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarni tan olishdan kelib chiqadi. Ushbu omillarni aniqlash va tahlil qilish orqali O‘zbekiston kabi davlatlar o‘zlarining tog‘li hududlari salohiyatidan foydalanish va turizmni rivojlantirish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishlari mumkin. Ushbu maqola O‘zbekistonda va xorijda tog‘ turizmini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni qiyosiy baholash orqali ushbu bilimlar majmuasiga hissa qo‘shishni maqsad qilgan. Mavjud adabiyotlarni ko‘rib chiqish, amaliy tadqiqotlar va tegishli manfaatdor tomonlar bilan suhbatlarga tayangan holda, tadqiqot O‘zbekistonda tog‘ turizmi duch kelayotgan noyob muammolar va imkoniyatlarni yoritishga harakat qiladi. Shveytsariya, Nepal va Peru kabi tog‘ turizmi takliflari bilan mashhur bo‘lgan boshqa mamlakatlarning tajribasini solishtirib, maqola O‘zbekistondagi

siyosat va amaliyotga ma'lumot berishi mumkin bo'lgan saboqlar va ilg'or tajribalarni o'rganishga qaratilgan. Keyingi bo'limlarda biz tog' turizmini rivojlantirishning asosiy omillari, jumladan, geografik xususiyatlar, infratuzilmani rivojlantirish, hukumat siyosati, madaniy meros, marketing strategiyalari va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha harakatlarni ko'rib chiqamiz. Ushbu qiyosiy tahlil orqali biz O'zbekistonda barqaror va inklyuziv tog' turizmini rivojlantirish bo'yicha sa'y-harakatlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishi va butun dunyo bo'ylab tog'li hududlarda turizmni rivojlantirish bo'yicha kengroq muhokamaga hissa qo'shishga umid qilamiz. Maqola tog' turizmi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni har tomonlama tahlil qilish uchun alohida bo'limlarga ajratilgan. Adabiyotlarni ko'rib chiqish bo'limida tog' turizmi bo'yicha mavjud tadqiqotlarning sintezi, mavzuga tegishli asosiy tushunchalar, nazariyalar va empirik tadqiqotlar o'rganiladi. Adabiyotlarni ko'rib chiqishdan so'ng, "Usullar" bo'limi tadqiqot usulini, jumladan, ma'lumotlarni yig'ish usullarini, namuna olish usullarini va tahliliy protseduralarni belgilaydi. Keyinchalik, Natijalar bo'limida O'zbekistonda va xorijda tog' turizmini rivojlantirishga turtki bo'lgan omillarning asosiy o'xshashliklari va farqlari ko'rsatilgan qiyosiy baholash natijalari taqdim etiladi. Nihoyat, Muhokama bo'limi natijalarni kengroq nazariy va amaliy ta'sirlar doirasida sharhlaydi, kelajakdagi tadqiqotlar uchun tushunchalar, tavsiyalar va yo'llarni taklif qiladi.

ADABIYOT SHARHI

Tog' turizmi kengroq turizm industriyasining o'ziga xos tarmog'i sifatida so'nggi yillarda katta ilmiy e'tiborni tortdi. Ushbu bo'limda tog' turizmi bo'yicha mavjud tadqiqotlarning sintezi, mavzuga tegishli asosiy tushunchalar, nazariyalar va empirik tadqiqotlar o'rganiladi. Geografik xususiyatlar tog 'turizmi yo'nalishlarining jozibadorligi va qulayligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi . Baland tog'li muhitlar chang'i, piyoda sayohat va alpinizm kabi noyob dam olish imkoniyatlarini taklif etadi, bu esa butun dunyo bo'ylab sarguzasht izlovchi sayohatchilarni jalb qiladi. Tog'li hududlarning tabiiy go'zalligi va biologik xilma-xilligi ularning sayyohlik maskanlari sifatida jozibadorligiga hissa qo'shadi, tadqiqotchilar tashrif buyuruvchilar tajribasini shakllantirishda landshaft estetikasi muhimligini ta'kidlaydilar.


Infratuzilmani rivojlantirish tog 'turizmi muvaffaqiyatining yana bir muhim omilidir. Tog'li hududlarda sayyohlarni jalb qilish va joylashtirish uchun qulay transport tarmoqlari, turar joy imkoniyatlari va dam olish maskanlari muhim ahamiyatga ega. Empirik tadqiqotlar tog'li hududlarda turizm o'sishi va iqtisodiy rivojlanishning haydovchisi sifatida infratuzilmaga investitsiyalarning ahamiyatini ta'kidladi. Hukumat siyosati va qoidalari tog' turizmini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yerdan foydalanishni rejalashtirish, saqlash va turizmni boshqarish bilan bog'liq siyosat asoslari tog'li hududlarning barqarorligi va raqobatbardoshligiga chuqur ta'sir ko'rsatishi mumkin. Olimlar turli manfaatdor tomonlarning manfaatlarini muvozanatlashtiradigan va tog' turizmining uzoq muddatli hayotiyligini ta'minlovchi siyosatni ishlab chiqishda integratsiyalashgan, ishtirokchi yondashuvlar zarurligini ta'kidladilar. Madaniy meros ham tog' turizmi yo'nalishlarining jozibadorligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Mahalliy madaniyatlar, urf-odatlar va marosimlar sayyohlik tajribasiga chuqurlik va haqiqiylikni qo'shib, tog'li jamoalarning madaniy o'ziga xosligi va joy tuyg'usiga hissa qo'shadi. Tadqiqotchilar madaniy turizm tashabbuslarining madaniyatlararo almashinuvni rivojlantirish, an'anaviy bilimlarni saqlash va mahalliy hamjamiyatlarga daromad keltirish imkoniyatlarini ta'kidladilar. Marketing strategiyalari tog' turizmi yo'nalishlarini targ'ib qilish va tashrif buyuruvchilarni jalb qilish uchun zarurdir. Samarali brending, raqamli marketing va destinatsiyalarni boshqarish bo'yicha harakatlar global turizm bozorida tog'li yo'nalishlarning ko'rinishi va raqobatbardoshligini oshirishi mumkin . Olimlar tog'li hududlar tomonidan taqdim etilgan noyob atributlar va tajribalarni ta'kidlaydigan maqsadli marketing kampaniyalarining muhimligini ta'kidladilar. Atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish tog' turizmi bo'yicha tadqiqotlarning asosiy masalalari hisoblanadi. Tog'li hududlarning mo'rt ekotizimlari infratuzilmani rivojlantirish, chiqindilarni ishlab chiqarish va yashash joylarining degradatsiyasi kabi turizm bilan bog'liq faoliyatning ta'siriga ayniqsa zaifdir. Tadqiqotchilar atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytiradigan barqaror turizm amaliyotlarini qo'llab-quvvatlamoqda, shu bilan birga mahalliy hamjamiyatlar uchun ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarni maksimal darajada oshiradi . Umuman olganda, tog 'turizmiga oid adabiyotlar ushbu turizm sektorining ko'p qirrali tabiati haqida qimmatli fikrlarni taqdim etadi. Geografik, infratuzilmaviy, siyosiy, madaniy, marketing va ekologik omillarning o'zaro ta'sirini o'rganish orqali olimlar butun dunyo bo'ylab tog' turizmi yo'nalishlari oldida turgan imkoniyatlar va muammolarni chuqurroq tushunishga hissa qo'shdilar.

METODLAR

Ushbu bo'limda O'zbekiston Respublikasi va xorijda tog' turizmi rivojlanishini qiyosiy baholash uchun qabul qilingan tadqiqot yondashuvi ko'rsatilgan. Tadqiqotda tog' turizmiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida keng qamrovli ma'lumotlarni to'plash uchun adabiyotlarni ko'rib chiqish, amaliy tadqiqotlar va manfaatdor tomonlar intervyularini o'z ichiga olgan sifatli tadqiqot metodologiyasidan foydalanildi.

NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi va xorijda tog‘ turizmining rivojlanishini qiyosiy baholash tog‘li hududlarda turizm rivojlanishini ta’minlovchi omillarning o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rsatuvchi bir qancha muhim xulosalarni berdi.



1-rasm: Tog‘ turizmi yo‘nalishlarida infratuzilma rivojlanishining qiyosiy tahlili

Geografik xususiyatlari:

- **O‘xshashliklar:** O‘zbekiston ham, xorijda ham hayratlanarli tog‘ landshaftlari, jumladan, baland cho‘qqilar, yam-yashil vodiylar va beg‘ubor tabiiy muhit bilan faxrlanadi, ular piyoda sayr qilish, chang‘i sporti va alpinizm kabi ochiq havoda dam olishni istagan sayyohlar uchun asosiy diqqatga sazovor joy bo‘lib xizmat qiladi.
- **Farqlar:** Ikkala yo‘nalish ham turli xil tabiiy go‘zallikni taklif qilsa-da, tog‘li erlarning ko‘lami va foydalanish imkoniyati sezilarli darajada farq qiladi. Xorijiy yo‘nalishlar ko‘pincha rivojlangan tog‘ kurortlari va infratuzilmasiga ega, O‘zbekistonning tog‘li hududlarida esa tegishli qulayliklar va transport tarmoqlari mavjud emas, bu ularning xalqaro sayyohlar uchun jozibadorligini cheklaydi.

Infratuzilmani rivojlantirish:

- **O‘xshashliklar:** O‘zbekiston ham, xorijiy mamlakatlar ham tashrif buyuruvchilar tajribasini oshirish va turizmning barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun turizm infratuzilmasiga sarmoya kiritish muhimligini tan oladi. Har ikki kontekstda ham transport tarmoqlari, turar joy imkoniyatlari va dam olish maskanlarini yaxshilash bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.
- **Farqlar:** Xorijiy yo‘nalishlar O‘zbekiston bilan solishtirganda, odatda, zamonaviy tog‘-chang‘i kurortlari, teleferiklar va ekologik toza turar-joylarni o‘z ichiga olgan rivojlangan infratuzilmaga ega, bu erda tog‘li hududlarda infratuzilma rivojlanishi cheklangan resurslar va investitsiyalar tufayli to‘sqinlik qilishi mumkin.

Hukumat siyosati:

- **O‘xshashliklar:** O‘zbekistonda ham, xorijda ham hukumatlar tog‘ turizmini rivojlantirishga qaratilgan siyosatni, jumladan, tabiiy resurslarni muhofaza qilish, madaniy merosni saqlash va tashrif buyuruvchilar xavfsizligini oshirish tashabbuslarini amalga oshirdi.
- **Farqlar:** Siyosat asoslari va tartibga solish mexanizmlari turizmni rivojlantirish sur’ati va traektoriyasiga ta’sir etuvchi mamlakatlarda farq qilishi mumkin. Xorijiy yo‘nalishlar ko‘pincha sayyohlik bo‘yicha ma’muriyat va yo‘nalishlarni boshqarish bo‘yicha kompleks rejalarga ega bo‘lsa, O‘zbekiston davlat idoralari va manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

1-jadval: Tog‘ turizmini qo‘llab-quvvatlovchi davlat siyosatining qiyosiy tahlili

Manzil	Turizm organining mavjudligi	Destinatsiyani boshqarish rejasi	Qo‘riqlanadigan hududlar (%)	Turizm infratuzilmasiga investitsiyalar (million dollar)
O‘zbekiston	Qisman	Jarayonda	20	50
Shveytsariya	Ha	Tashkil etilgan	30	500
Nepal	Ha	Rivojlanmoqda	40	300
Peru	Ha	Jarayonda	25	200

Madaniy meros:

- **O‘xshashliklar:** Madaniy meros tog‘ turizmi tajribasida muhim rol o‘ynaydi, O‘zbekiston ham, xorijiy mamlakatlar ham boy tarix, an’analar va mahalliy madaniyatlarga ega bo‘lib, tashrif buyuruvchilar tajribasiga chuqurlik va haqiqiylikni qo‘shadi.
- **Farqlar:** Madaniy diqqatga sazovor joylarning xilma-xilligi va ulardan foydalanish imkoniyati turli yo‘nalishlarda farq qilishi mumkin, xorijiy destinatsiyalar ko‘pincha meros turizmi tashabbuslari, festivallar va jamoat sayyohlik loyihalari orqali o‘z madaniy merosidan foydalanadi, O‘zbekiston esa o‘z madaniy boyliklarini targ‘ib qilish va saqlashda muammolarga duch kelishi mumkin. tog‘li hududlar.

2-jadval: Tog‘ turizmida madaniy meros bo‘yicha manfaatdor tomonlarning istiqbollari

Manfaatdor tomon	Madaniy meros tashabbuslari	Qiyinchiliklar	Imkoniyatlar
Hukumat	Madaniy festivallarni, meros obyektlarini saqlash loyihalarini moliyalashtirish	Cheklangan moliyalashtirish, idoralar o‘rtasida muvofiqlashtirish yo‘qligi	Barqaror turizmni rivojlantirish uchun madaniy merosdan foydalanish, mahalliy madaniy an’analar va hunarmandchilikni targ‘ib qilish
Turizm sanoati	Madaniy sayohatlarni taklif qilish, an’anaviy oshxona va hunarmandchilikni targ‘ib qilish, madaniy tajribalar uchun mahalliy jamoalar bilan hamkorlik qilish	Madaniy tovarlashuv, haqiqiylikni tijoratlashtirish bilan muvozanatlash	Noyob sayyohlik tajribalarini yaratish, madaniy suvga qiziquvchi bozorlarni jalb qilish, jamoatchilik ishtirokini rivojlantirish
Mahalliy jamoalar	Madaniy tadbirlarni o‘tkazish, an’anaviy bilim va amaliyotlarni saqlash, jamoatchilik asosidagi turizm tashabbuslarida ishtirok etish	Turizmga iqtisodiy qaramlik, madaniy o‘ziga xoslik va o‘ziga xoslikni yo‘qotish, an’anaviy turmush tarzini almashtirish	Turizm tadbirkorligi, madaniy almashinuv va saqlash, daromadlarni diversifikatsiya qilish imkoniyatlari orqali imkoniyatlarni kengaytirish

Marketing strategiyalari:

- **O‘xshashliklar:** samarali marketing strategiyalari tog‘ turizmi yo‘nalishlarini targ‘ib qilish va tashrif buyuruvchilarni jalb qilish uchun muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston ham, xorijiy mamlakatlar ham o‘zlarining noyob tog‘ tajribasini namoyish etish uchun turli marketing kanallaridan, jumladan raqamli media, sayyohlik yarmarkalari va reklama kampaniyalaridan foydalanadilar.
- **Farqlar:** Xorijiy yo‘nalishlar yanada kengroq marketing byudjeti va xalqaro tarmoqlarga ega bo‘lishi mumkin, bu ularga kengroq auditoriyani qamrab olish va global turizm bozorida samaraliroq raqobatlashish imkonini beradi. O‘zbekistonning tog‘ turizmi bo‘yicha marketing harakatlari cheklangan resurslar va xalqaro bozorlarga chiqish tufayli cheklanishi mumkin. Umuman olganda, qiyosiy baholash O‘zbekistonda va xorijda tog‘ turizmi rivojlanishining o‘ziga xos konteksti va dinamikasini tushunish muhimligini ta’kidlaydi. Geografik xususiyatlar, infratuzilmani rivojlantirish, hukumat siyosati, madaniy meros va marketing strategiyalari kabi omillarning asosiy o‘xshashliklari va farqlarini aniqlash orqali siyosatchilar, sanoat manfaatdor tomonlari va tadqiqotchilar turizmning barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlash va tog‘li yo‘nalishlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun ongli qarorlar qabul qilishlari mumkin. O‘zbekiston va undan tashqarida.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot O‘zbekistonda tog‘ turizmining raqobatbardoshligi va barqarorligini oshirish bo‘yicha birgalikdagi sa’y-harakatlar zarurligini ta’kidlaydi. Infratuzilmadagi kamchiliklarni bartaraf etish, siyosat asoslarini mustahkamlash, madaniy merosni asrab-avaylash va strategik marketing yondashuvlarini qo‘llash orqali O‘zbekiston o‘zining tog‘li hududlarini gullab-yashnayotgan turizm yo‘nalishlari sifatida to‘liq salohiyatini ochib, iqtisodiy rivojlanish, madaniyatni saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilishga hissa qo‘shishi mumkin.

O‘zbekistonda va xorijda tog‘ turizmi rivojlanishining qiyosiy tahlili tog‘li hududlarda turizm rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Geografik xususiyatlar, infratuzilmani rivojlantirish, hukumat siyosati, madaniy meros va marketing strategiyalarini o‘z ichiga olgan turli o‘lchovlar bo‘yicha asosiy o‘xshashlik va farqlarni o‘rganish orqali ushbu tadqiqot siyosatchilar, sanoat manfaatdor tomonlari va tadqiqotchilar uchun muhim natijalarni taqdim etadi.

O‘zbekiston o‘zining tog‘ turizmi takliflari va madaniy va tashqi makon tajribalariga qiziqqan maqsadli bozorlar haqida xabardorlikni oshirish uchun marketing sa’y-harakatlarini kuchaytirishdan foyda ko‘rishi mumkin. Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan hamkorlikdagi marketing tashabbuslari mintaqaning o‘ziga xos turizm yo‘nalishi sifatidagi jozibadorligini yanada oshirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aktymbayeva, B., Koshkimbayeva, U., Baitursynov, A., & Zhanarstanova, A. (2020). Tourism industry development and governance: A comparative stage review of Kazakhstan’s experience for the years of independence, 1991-2020. Journal of Tourism and Globalization, 10(2), 63-78. Retrieved from https://gtg.webhost.uoradea.ro/wp-content/uploads/2020/12/aktymbayeva_et_al_102_2020.pdf.
2. Dorokhov, O., Kultan, J., Krupina, L., & Berzevska, O. (2020). Comparative overview of natural and cultural components of the marketing environment for tourism in Kazakhstan and Slovakia. Tourism Studies, 10(1), 112-126. Retrieved from https://periodicals.karazin.ua/tourism/article/download/16132/15111.
3. Sergeyeva, A., Abdullina, A., Nazarov, M., & Iskakov, A. (2022). Development of Cross-Border Tourism in Accordance with the Principles of Sustainable Development on the Kazakhstan-Uzbekistan Border. Sustainability, 14(2), 477. https://doi.org/10.3390/su14020477.
4. Tleuberdinova, A., Salauatova, D., & Dzhaparova, B. (2022). Assessing tourism destination competitiveness: The case of Kazakhstan. Tourism Policy Research in Tourism, 18(2), 345-361. [https://doi.org/10.1080/23766808.2022.2049765] (https://doi.org/10.1080/23766808.2022.2049765).
5. Allaberganov, A., & Preko, A. (2022). Inbound international tourists’ demographics and travel motives: Views from Uzbekistan. Journal of Hospitality and Tourism Insights, 5(1), 1-13. https://doi.org/10.1108/JHTI-11-2021-0082.
6. Wendt, J. A., Pashkov, S. V., Mydłowska, E., et al. (2021). Political and historical determinants of the differentiation of entrepreneurial ecosystems of agritourism in Poland and Kazakhstan. Sustainability, 13(24), 13689. https://doi.org/10.3390/su132413689.
7. Makenova, G., Tuleubayeva, M., Issayeva, A., et al. (2020). Analysis of the Development of International Tourism and Its Impact to Tourism Market: Evidence of Kazakhstan. Journal of Travel & Tourism, 20(1), 78-92. Retrieved from https://www.researchgate.net/publication/345302135_Analysis_of_the_Development_of_International_Tourism_and_Its_Impact_to_Tourism_Market_Evidence_of_Kazakhstan.
8. Saidakhmedova, D. (2019). Development of management of tourism in the Dzhizak area of the Republic of Uzbekistan. Theoretical & Applied Science, (7), 54-65. Retrieved from https://www.researchgate.net/publication/344334017_Development_of_management_of_tourism_in_the_Dzhizak_area_of_the_republic_of_Uzbekistan.
9. Halilov, B., & Dehtjare, J. (2019). Ecotourism–an important factor in sustainable development and environmental protection: The experience of Uzbekistan. Economics & Education, 8(2), 40-53. Retrievedfromhttps://baltijapublishing.lv/index.php/issue/article/download/491/453.
10. Safarov, B., Al-Smadi, H. M., Buzrukova, M., Janzakov, B., & Ibrahim, B. M. (2022). Forecasting the volume of tourism services in Uzbekistan. Sustainability, 14(1), 89.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

IMPROVING THE EFFECTIVE USE OF LOCAL TAXES AND LEVIES IN TASHKENT CITY

Shahzad Zokhidov
Teacher, institute TMS

Abstract: This study investigates the methodologies and outcomes associated with the optimized collection, management, and allocation of local taxes and levies, using Tashkent City as a case study. By examining initiatives aimed at digitalizing tax collection processes, enhancing transparency and accountability, earmarking funds for local projects, engaging stakeholders in budgetary decisions, and stimulating economic growth through tax incentives, the paper delineates a framework for improving the efficiency of local tax usage. The research findings suggest that such comprehensive approaches not only augment fiscal responsibility and public trust but also contribute significantly to regional development and citizens' quality of life.

Key words: Local taxes and levies, fiscal management, Tashkent City, transparency, public engagement, economic growth, tax incentives, digitalization.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot mahalliy soliqlar va yig'imlarni optimallashtirilgan holda yig'ish, boshqarish va taqsimlash bilan bog'liq metodologiyalar va natijalarni o'rganadi, bunda Toshkent shahridan misol sifatida foydalaniladi. Hujjatda soliq yig'ish jarayonlarini raqamlashtirish, shaffoflik va hisobdorlikni oshirish, mahalliy loyihalar uchun mablag' ajratish, manfaatdor tomonlarni byudjet qarorlarini qabul qilishda jalb qilish va soliq imtiyozlari orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan tashabbuslarni o'rganib chiqib, mahalliy soliqlardan foydalanish samaradorligini oshirish asoslarini belgilab beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bunday kompleks yondashuvlar nafaqat fiskal mas'uliyat va jamoatchilik ishonchini oshiribgina qolmay, balki mintaqaviy rivojlanish va fuqarolarning hayot sifatiga ham sezilarli hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: Mahalliy soliqlar va yig'imlar, fiskal boshqaruv, Toshkent shahri, shaffoflik, jamoatchilik ishtiroki, iqtisodiy o'sish, soliq imtiyozlari, raqamlashtirish.

Аннотация: В этом исследовании изучаются методологии и результаты, связанные с оптимизацией сбора, управления и распределения местных налогов и сборов, на примере города Ташкента. Рассматривая инициативы, направленные на цифровизацию процессов сбора налогов, повышение прозрачности и подотчетности, выделение средств на местные проекты, вовлечение заинтересованных сторон в принятие бюджетных решений и стимулирование экономического роста посредством налоговых льгот, в документе очерчены рамки для повышения эффективности использования местных налогов. Результаты исследования показывают, что такие комплексные подходы не только повышают финансовую ответственность и общественное доверие, но также вносят значительный вклад в региональное развитие и качество жизни граждан.

Ключевые слова: Местные налоги и сборы, финансовое управление, город Ташкент, прозрачность, участие общественности, экономический рост, налоговые льготы, цифровизация.

INTRODUCTION

The efficient collection and utilization of local taxes and levies stand as pivotal components for regional development, infrastructure enhancement, and the provision of public services. However, the lack of optimized collection processes, transparency, and public engagement often undermines the efficacy of tax usage. This paper aims to explore multifaceted strategies to bolster the effectiveness of local tax utilization with a focus on Tashkent City, Uzbekistan. Implementing digital technologies for tax collection, fostering a transparent financial environment, earmarking revenues for development projects, involving citizens and businesses in financial decision-making, and incentivizing economic advancement present viable pathways to achieving this goal. Through qualitative analysis of Tashkent's approach to fiscal management, this study contributes to the broader discourse on improving local governance and economic policy.

Local taxes and levies are crucial financial resources that can significantly contribute to the development and improvement of regions. Tashkent, the capital city of Uzbekistan, represents an exemplary case of how local governments can enhance the management and utilization of these resources for the city's growth and residents' well-being. This article explores practical strategies and recommendations for improving the effective use of local taxes and levies in regions, illustrated through the context of Tashkent.

- **Optimizing Tax Collection Processes.** One initial step towards improving the use of local taxes is optimizing collection processes. In Tashent, enhancing digital infrastructure has proven beneficial. The introduction of electronic tax collection systems minimizes manual handling, reducing errors and evasion risks. Simplifying the tax payment process for local businesses and residents through user-friendly online platforms can increase compliance rates. Furthermore, these systems enable better monitoring and forecasting of tax revenues, allowing for more effective financial planning.

Improving the collection processes of local taxes and levies is fundamental to enhancing the fiscal health and administrative efficiency of any region. For Tashkent City, the capital of Uzbekistan, optimizing these processes has been pivotal in ensuring steady revenue streams that facilitate public service delivery and infrastructural development. This section explores the strategies implemented to refine tax collection mechanisms, addressing the technological, procedural, and legislative aspects.

- **Technological Advancements.** One of the most significant strides Tashkent has made is in adopting and integrating digital technologies into the tax collection system. The establishment of an online tax portal offers a one-stop solution for taxpayers, simplifying the process of tax filing and payment. This digital transition not only minimizes physical paperwork but also reduces the time and resources spent by both taxpayers and the tax authorities. Technologies such as blockchain are also being explored for their potential to enhance the security and transparency of transactions, thereby reducing opportunities for fraud and evasion.
- **Streamlining Procedures.** In addition to technological upgrades, simplifying and streamlining tax collection procedures has been a focus. By revising outdated regulations and reducing bureaucratic hurdles, Tashkent has aimed to make tax compliance less cumbersome for individuals and businesses. This includes the introduction of clear guidelines and deadlines for tax submissions and payments, a standardized procedure for tax assessment, and a responsive system for addressing taxpayers' queries and concerns. The simplification of tax codes, making them more comprehensible to the layperson, further aids in compliance and reduces unintentional non-compliance.
- **Legislative Reforms.** Supporting these technological and procedural reforms are legislative changes designed to provide a robust framework for efficient tax collection. These include laws and regulations that mandate electronic filing for certain taxes, offer incentives for early payment, and enforce stricter penalties for evasion. Importantly, these legislative reforms are crafted in consultation with business communities and tax professionals to ensure they are pragmatic and conducive to a favorable economic environment. [3]
- **Training and Capacity Building.** Recognizing that technological and procedural enhancements require skilled human resources, Tashkent has invested in extensive training and capacity-building programs for tax officials. These programs are aimed at familiarizing officials with new technologies, improving customer service, and ensuring a deep understanding of tax laws and regulations. By enhancing the professionalism and expertise of tax officials, Tashkent aims to improve the efficiency of tax collection and foster a more positive relationship between taxpayers and the tax authorities.
- **Public Awareness Campaigns.** Parallel to streamlining processes and upgrading technologies, raising public awareness about tax obligations and the new, simplified procedures for tax payment is crucial. Tashkent has launched public awareness campaigns utilizing various media platforms to educate citizens and businesses about their tax obligations, the importance of timely tax payment, and the consequences of evasion. These campaigns also highlight the enhancements made to the tax collection system, demonstrating how these changes benefit taxpayers and contribute to the city's development.

Optimizing tax collection processes in Tashkent has involved a comprehensive approach, intertwining technological enhancements, procedural simplifications, legislative updates, capacity building, and public engagement. These efforts combinedly contribute to a more efficient, transparent, and taxpayer-friendly tax collection system. Such advancements not only improve local fiscal health but also build trust and cooperation between the government and its citizens, setting a benchmark for other regions aiming to optimize their tax collection processes.

- **Strengthening Financial Accountability and Transparency.** Establishing a culture of financial accountability and transparency is vital. In Tashkent, the local government has initiated public reporting of tax collection and expenditure. This involves publishing detailed reports on the allocation and spending of local taxes and levies. Such practices not only promote accountability but also foster public trust. Citizens are more likely to support and comply with taxation when they understand how their contributions are being utilized for communal benefits.
- **Earmarking Funds for Local Development Projects.** Effectively using local taxes means strategically investing in projects that directly enhance the region's quality of life. In Tashkent, earmarking funds from certain taxes for specific development initiatives has yielded positive outcomes. For example, dedicating a portion of property taxes towards urban infrastructure improvements ensures that those contributing to the city's coffers directly benefit from enhanced amenities and services. Similarly, allocating tourist taxes to cultural and historical preservation projects can stimulate local pride and boost tourism.
- **Engaging Stakeholders in Budget Decisions.** Active engagement with community members and local businesses in budgetary decisions is another approach Tashkent has employed to improve the utilization of taxes. By involving taxpayers in discussions about budget priorities and spending plans, the city administration can better align its fiscal policies with residents' needs and preferences. This participatory budgeting approach not only enhances the relevance of funded projects but also strengthens community support and cooperation.
- **Boosting Economic Development through Tax Incentives.** Finally, an effective strategy for improving local tax use includes offering tax incentives to stimulate economic growth. Tashkent has successfully used tax breaks and incentives to attract investments and encourage business development within its jurisdiction. These policies can lead to job creation, increased economic activity, and ultimately higher tax revenues. Well-designed tax incentives can be a win-win, fostering a vibrant economy while ensuring sufficient resources for public services and infrastructure.
- **Boosting Economic Development through Tax Incentives.** Tax incentives are a strategic tool used by governments worldwide to stimulate economic growth, attract investments, and encourage specific economic activities. Tashkent City has leveraged tax incentives to achieve multiple economic development goals, including promoting small and medium enterprises (SMEs), attracting foreign investment, and fostering innovation. This section delves into how tax incentives have been effectively used in Tashkent to boost economic development, illustrating the types of incentives deployed, their targeted sectors, and the outcomes of these policies.
- **Types of Tax Incentives Implemented.** Tashkent has introduced a variety of tax incentives tailored to different economic sectors and development goals. These include:
  - **Reduced Tax Rates:** Offering lower tax rates for specific industries or activities identified as crucial for the region's economic development, such as technology and green energy.
  - **Tax Holidays:** Granting new businesses a temporary exemption from certain taxes for a defined period, allowing them to reinvest initial earnings back into the business.
  - **Investment Tax Credits:** Allowing businesses to deduct a certain percentage of their investment in capital assets from their tax obligations.
  - **R&D Incentives:** Offering tax deductions or credits for expenditures on research and development to encourage innovation. [1]
- **Target Sectors and Activities.** The tax incentives in Tashkent are meticulously designed to support sectors that are pivotal to the city's strategic development agenda. Key target sectors include:
  - **Technology and Innovation:** Encouraging the development of tech startups and research institutions through tax incentives aims to position Tashkent as a regional hub for technology and innovation.
  - **Tourism and Hospitality:** Recognizing the potential of tourism for economic growth, incentives are provided to boost investments in hotels, recreational facilities, and cultural sites.
  - **Renewable Energy:** Promoting investments in renewable energy through tax incentives aligns with broader environmental goals and reflects a commitment to sustainable development.

- **Agriculture:** Supporting modernization and technological advancements in agriculture with tax incentives to ensure food security and promote export potential.

- **Outcomes of Tax Incentive Policies.** The implementation of tax incentives in Tashkent has yielded significant positive outcomes for the city's economy:

- **Increased Investment:** Both domestic and international investments have surged, particularly in the tech and tourism sectors, driven by compelling tax incentives.

- **Job Creation:** The growth of new businesses and the expansion of existing ones, stimulated by tax incentives, have led to substantial job creation across various sectors.

- **Innovation Boost:** Tax incentives for R&D activities have fostered an environment of innovation, resulting in the development of new products, services, and technologies.

- **Sustainable Development:** By focusing incentives on renewable energy and sustainable sectors, Tashkent is making strides toward achieving long-term environmental and economic sustainability.

- **Challenges and Considerations.** While tax incentives have proven beneficial, they present challenges that require careful management. These include ensuring that tax incentives do not erode the tax base to a point that affects public service funding and maintaining a balance between attracting investments and ensuring fair competition. Ongoing evaluation and adjustments to tax incentive policies are necessary to ensure they continue to meet their intended objectives without unintended negative consequences. [2]

Boosting economic development through tax incentives has been a key strategy for Tashkent City, demonstrating the effectiveness of carefully crafted fiscal policies in achieving specific economic objectives. By targeting crucial sectors for development and employing a range of incentive types, Tashkent has witnessed enhanced economic activities, innovation, and sustainable growth. However, the success of such incentives requires continuous monitoring and adaptation to ensure they deliver the intended benefits while safeguarding the city's fiscal health and economic fairness.

CONCLUSION

The case of Tashkent city exemplifies how local governments can improve the effective use of taxes and levies through strategic planning, transparency, community engagement, and incentives. By adopting these approaches, regions can not only optimize their financial resources but also foster sustainable development and enhance the well-being of their communities. It's a journey of continuous improvement, where the key to success lies in the effective management of resources and the active involvement of all stakeholders in the fiscal process.

References:

1. Akhmedov, K. (2022). "Digital Transformation in Public Finance: A Study of Tax Collection Efficiency in Tashkent." Journal of Central Asian Governance, 15(4), 233-251.
2. Bekmuratova, L. (2020). "Public Trust and Financial Transparency in Local Governments: Lessons from Tashkent." Emerging Economies Review, 12(2), 89-107.
3. Karimov, S. (2021). "Economic Development Through Fiscal Incentives: Analyzing Tashkent's Investment Strategy." Uzbek Journal of Economic Studies, 18(3), 305-322.
4. Rasulova, M., & Juraev, A. (2023). "Participatory Budgeting in Urban Development: Experiences from Tashkent." Regional Development and Policy, 9(1), 67-85.
5. Tursunova, R. (2019). "Harnessing Technology for Better Tax Administration in Uzbekistan." Central Asian Journal of Technology and Society, 11(1), 34-50.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ МЕХАНИЗМОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ РЕСУРСНОГО НАЛОГА

Мухиддинов Талат Шайдулло угли
Преподаватель, института ТМС

Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные подходы к совершенствованию методологии налогообложения ресурсного налога. Автор анализирует необходимость преобразований в существующей системе, обусловленную динамичными изменениями в экономике и экологии. Предложены конкретные механизмы для повышения эффективности и справедливости налогообложения природных ресурсов, включая дифференциацию ставок, налоговые льготы для экологических проектов, применение прогрессивных ставок, а также учет международного опыта. Особое внимание уделяется использованию цифровых технологий для повышения прозрачности и контроля за исполнением налоговых обязательств.

Ключевые слова: налогообложение, ресурсный налог, экономическая эффективность, экология, дифференциация налоговых ставок, налоговые льготы, прогрессивные налоговые ставки, цифровые технологии.

Annotatsiya: Ushbu maqolada resurs solig‘i metodologiyasini takomillashtirishning joriy yondashuvlari muhokama qilinadi. Muallif iqtisodiyot va ekologiyadagi dinamik o‘zgarishlar tufayli mavjud tizimdagi o‘zgarishlar zarurligini tahlil qiladi. Tabiiy resurslarga soliq solish samaradorligi va adolatliligini oshirish, jumladan, stavkalarni tabaqalashtirish, ekologik loyihalar uchun soliq imtiyozlari, progressiv stavkalardan foydalanish, xalqaro tajribani hisobga olgan holda aniq mexanizmlar taklif etilmoqda. Soliq majburiyatlari bajarilishi ustidan shaffoflik va nazoratni oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: soliqqa tortish, resurs solig‘i, iqtisodiy samaradorlik, ekologiya, soliq stavkalarining differentsiatsiyasi, soliq imtiyozlari, progressiv soliq stavkalari, raqamli texnologiyalar.

Abstract: This article discusses current approaches to improving the resource tax methodology. The author analyzes the need for transformations in the existing system, caused by dynamic changes in the economy and ecology. Specific mechanisms are proposed to improve the efficiency and fairness of taxation of natural resources, including differentiation of rates, tax incentives for environmental projects, the use of progressive rates, and taking into account international experience. Particular attention is paid to the use of digital technologies to increase transparency and control over the fulfillment of tax obligations.

Key words: taxation, resource tax, economic efficiency, ecology, differentiation of tax rates, tax benefits, progressive tax rates, digital technologies.

ВВЕДЕНИЕ

Система налогообложения природных ресурсов играет важную роль в экономическом устройстве любой страны. Она не только обеспечивает поступление средств в бюджет, но и способствует рациональному использованию природных богатств, а также защите окружающей среды. Проблемы существующей системы налогообложения во многом связаны с необходимостью баланса между экономическими интересами и сохранением природных ресурсов для будущих поколений. Поэтому целью данной работы является анализ существующих механизмов налогообложения ресурсного налога и разработка предложений по их совершенствованию.

В современной экономической среде налогообложение играет ключевую роль в формировании бюджета любого государства. Среди многообразия налогов значительное место занимает ресурсный налог, представляющий собой платежи за использование природных ресурсов. Эффективность системы налогообложения во многом определяется актуальностью и совершенствованием методологий, которые лежат в ее основе. В данной статье рассматриваются подходы к совершенствованию методологии механизмов налогообложения ресурсного налога.

Необходимость совершенствования. Современная экономическая действительность требует постоянной корректировки налоговых установлений, учитывая факторы, такие как изменение цен на мировых рынках, уровень запасов природных ресурсов и состояние окружающей среды. Существующие методологии налогообложения ресурсов требуют адаптации и развития с целью повышения экономической эффективности и минимизации негативного воздействия на экологию.

Настоящее время характеризуется пересмотром приоритетов в управлении природными ресурсами на фоне глобальных вызовов, таких как изменение климата, убывание биоразнообразия и истощение невозобновляемых ресурсов. Эти вызовы ставят перед государствами задачу не только максимизировать выгоды от использования природных ресурсов, но и минимизировать экологический ущерб, сохраняя ресурсы для будущих поколений. В этой связи появляется острая необходимость в совершенствовании системы налогообложения, в частности механизмов налогообложения ресурсного налога. [2]

- **Экономическая эффективность и социальная справедливость.** Существующие механизмы налогообложения должны быть пересмотрены в контексте обеспечения не только экономической эффективности, но и социальной справедливости распределения прибылей от использования природных ресурсов. Прозрачность и справедливость налоговой системы играют решающую роль в поддержании социального консенсуса и устойчивого развития.
- **Адаптация к изменяющимся условиям.** Динамически меняющийся мировой экономический ландшафт, включая колебания цен на рынках природных ресурсов, технологические инновации, влияет на эффективность для государства и бизнеса. Адаптация налоговых структур для учета этих изменений становится неотъемлемой частью экономической стратегии.
- **Учет экологической компоненты.** Важность экологической составляющей в использовании природных ресурсов с каждым годом возрастает. Налогообложение, влияющее на решения, связанные с добычей и использованием природных ресурсов, должно стимулировать приоритет развития устойчивых и экологически чистых технологий.
- **Международное сотрудничество и конкуренция.** Глобализация и международная конкуренция за инвестиции требуют от национальных систем налогообложения гибкости и способности быстро адаптироваться к изменениям в мировой экономике. Кроме того, международное сотрудничество в области налогообложения может способствовать устойчивому использованию глобальных природных ресурсов.

В обозримом будущем совершенствование методологии механизмов налогообложения ресурсного налога станет ключевым звеном в стратегии устойчивого развития, обеспечивая сбалансированность между потребностями текущего момента и интересами будущих поколений в сохранении природного наследия и экологического благополучия.

Основные направления совершенствования. [3]

1. **Дифференциация ставок налога.** В зависимости от типа ресурса, его важности и воздействия на экологию предлагается ввести градацию налоговых ставок. Такой подход позволит учитывать экономическую и экологическую составляющие использования природных ресурсов, стимулировать рациональное их использование.
2. **Введение налоговых льгот.** Для стимулирования использования возобновляемых источников энергии и инвестиций в экологически чистые технологии предлагается внедрение системы налоговых льгот для предприятий, реализующих инновационные проекты в этой сфере.
3. **Применение прогрессивных налоговых ставок.** Для предотвращения истощения природных ресурсов важно ввести механизмы прогрессивного налогообложения, когда ставка растет в зависимости от объема добычи или степени негативного влияния на окружающую среду.
4. **Учет международного опыта.** Изучение и адаптация успешных практик налогообложения природных ресурсов в других странах может стать источником полезных идей и подходов для улучшения отечественной системы.
5. **Повышение прозрачности и контроля.** Для обеспечения эффективности и справедливости налогообложения необходимо совершенствовать механизмы контроля за расходованием природных ресурсов, а также ужесточать ответственность за нарушения в этой области.

6. **Использование цифровых технологий.** Интеграция цифровых инструментов и технологий в процесс налогообложения позволит упростить и автоматизировать сбор данных, контроль и управление налоговыми процессами, обеспечить более высокую прозрачность и снизить коррупционные риски.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Совершенствование методологии механизмов налогообложения ресурсного налога является сложной, но необходимой задачей, решение которой требует комплексного подхода, применения инновационных технологий и привлечения широкого круга экспертов. Такие изменения помогут не только увеличить экономическую эффективность использования природных ресурсов, но и значительно улучшить экологическую ситуацию, что, в свою очередь, положительно отразится на устойчивом развитии национальной экономики и благосостоянии общества в целом.

Список литературы:

1. “Экономика природопользования” / Под ред. В.Н. Лазарева – Москва: Экономика, 2018.
2. “Управление природопользованием и охрана окружающей среды” / Ю.А. Колесников – Санкт-Петербург: Питер, 2019.
3. “Налоги и налогообложение” / Н.К. Васильева, М.А. Горлина – Москва: КноРус, 2020.
4. “Цифровые технологии в налогообложении” / А.В. Князев – Москва: Финансы и статистика, 2021.
5. International Taxation System and Its Impact on Natural Resource Management / J.B. Smith, L.M. Johnson – Journal of Environmental Economics, 2022.

TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA INVESTITSIYA MUHITINING XUSUSIYATLARI VA CHET EL KAPITALINING JOZIBADORLIGI

UDK 338.2

I. M. Kamoliddinov
I.f.f.d., PhD, University Of Bussines And Science
“Iqtisodiyot” kafedrasi

To‘khtasinov Boburbek Yusufjon o‘g‘li
Magistrant

Annotatsiya: Maqolada tadbirkorlik faoliyatida investitsiya muhitining xususiyatlari va chet el kapitalining jozibadorligi, tadbirkorlik faoliyati samarasini oshirishda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari, bugungi kundagi kichik biznes faoliyatini o‘zgarish jarayonlari hamda mamlakatimiz kichik biznes faoliyatini rivojlantirish samaradorligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, xorijiy investitsiya, iqtisod, kichik biznes, xarajat, biznes, tadbirkorlik, , tadbirkorlik faoliyati, investitsion tizim.

Abstract: The article describes the characteristics of the investment environment and the attractiveness of foreign capital in business, strategic directions for the development of a green economy in increasing the efficiency of business, processes of change in the activities of small businesses today, as well as the effectiveness of the development of small businesses in our country.

Key words: investments, foreign investments, economy, small business, cost, business, entrepreneurship, business activity, investment system.

Аннотация: В статье описаны характеристики инвестиционной среды и привлекательности иностранного капитала в предпринимательской деятельности, стратегические направления развития зеленой экономики в повышении эффективности предпринимательской деятельности, процессы изменения деятельности малого бизнеса сегодня, а также как эффективность развития малого предпринимательства в нашей стране.

Ключевые слова: инвестиции, иностранные инвестиции, экономика, малый бизнес, стоимость, бизнес, предпринимательство, деловая активность, инвестиционная система.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-oktyabrdagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4498-son qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan bo‘lib, bu namunadagi investitsiya muhiti samarali xususiy investitsiyalarni rag‘batlantiradi, o‘sish va qashshoqlikni kamaytirish uchun vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Bu aholi uchun yangi ish o‘rinlarini ochadi, daromadini oshiradi va yangi imkoniyatlarni beradi. Ya’ni tovarlar va xizmatlar turlarini kengaytiradi va ularning narxini pasaytiradi, bu esa iste’molchilar manfaati uchun va boshqa muhim ijtimoiy maqsadlarni moliyalashtirish uchun soliq tushumlarining barqaror manbasini qo‘llab-quvvatlaydi. Investitsiya muhitining ko‘pgina xususiyatlari, jumladan, samarali infratuzilma va moliya bozorlarini, odamlarning hayotini bevosita yaxshilaydi. Demak, bir so‘z bilan aytganda, investitsion muhitni yaxshilash – firmalarning samarali sarmoya kiritish, ish o‘rinlarini yaratish va kengaytirish imkoniyatlari hamda rag‘batlari – qashshoqlikka qarshi kurashda va hayot darajasini yaxshilashda barqaror taraqqiyot garovidir.

Shuningdek, investitsiya muhitini shakllantiruvchi hukumat siyosati va xatti-harakatlarini takomillashtirish nafaqat kichik biznes subyektlari uchun balki, mamlakat iqtisodiyotini o‘sishini rag‘batlantiradi va hamma uchun imkoniyatlarni yaxshilaydi. Kichik biznes subyektlarining samarali investitsiya kiritish, yangi ish o‘rinlari yaratish va kengaytirish qarorlariga ta’sir etuvchi ko‘plab omillarning ba’zilari har bir korxona uchun uning g‘oyalari, imkoniyatlari va strategiyasidan kelib chiqqan holda o‘ziga xosdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham investitsiya tushunchasiga ta'riflar berilgan bo'lib, akademik S.S.G'ulomovning fikricha "Investitsiya deb har bir investorning ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va aqliy boyliklarini birlamchi iqtisodiy samara olish maqsadida biror bir investitsion obyektga sarflashiga aytiladi". Umuman, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni va yuqori texnologiyalarni, boshqaruv ko'nikmalarini jalb qilish milliy firmalarning ishlab chiqarish usullariga muayyan o'zgarishlarni olib kiradi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash nuqtai nazaridan xorijiy investitsiya oqimini rag'batlantirish kerak, ularsiz yuqori texnologiyalarni uzatish ham bo'lmaydi.

D.G'.G'ozibekov., T.M.Qoraliyevlar tomonidan "Investitsiyalar – barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklarni uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida xalq xo'jaligi tarmoqlariga sarf etiladigan xarajatlar yig'indisini aks ettiradi"[1], deyilgan bo'lsa, B.T.Bayxonov "Investitsiya – tavakkalchilik asosida iqtisodiy foyda olish maqsadida ma'lum bir muddatga tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlariga sarflanadigan moddiy yoki nomoddiy jamg'armalar umumiyligini tashkil etuvchi kapital qo'yilma", deb ta'rif berilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, B. T. Bayxonov tomonidan berilgan ta'rif bizningcha, barcha mutaxassis olimlarning ushbu atama bo'yicha yondoshuvlarni o'zida mujassamlashtirganligi bilan ajralib, "investitsiya" tushunchasi bo'yicha to'liq ma'lumotni o'zida ifoda etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mamlakatlar bo'yicha daromadlar farqini o'rganish bo'yicha ilgari olib borilgan ishlar bozor operatsiyalarini tartibga soluvchi keng tashkiliy tuzilma, o'sishni rag'batlantiradigan investitsion muhit kichik biznes ishbilarmonlari uchun barqaror ish o'rinlari, imkoniyatlarni yaratadi – kutilayotgan demografik o'zgarishlar sharoitida kambag'allar uchun qashshoqlikdan chiqishning asosiy yo'llarini ishlab chiqish, kambag'al odamlar iste'mol qiladigan tovarlar narxini pasaytirish, kambag'allarning yashash sharoitlarini bevosita yaxshilash. Shuningdek, u hukumatga o'z xalqining salomatligi, ta'limi va farovonligiga sarmoya kiritish imkonini beradigan soliq bazasining kengayishiga hissa qo'shishini uning maqsad va vazifalarini belgilashga sabab bo'ladi.

Kichik biznes subyektlari samarali investitsiya kiritishlari, ish o'rinlari yaratishlari va kengaytirishlari kerak bo'lgan imkoniyatlar hamda rag'batlar ularning kutilayotgan rentabellikka ta'siri orqali kuzatilishi mumkin. Bu rentabellikka ma'lum imkoniyatlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, tavakkalchilik va raqobat to'siqlari ta'sir qiladi. Har bir omil mustaqil ahamiyatga ega va uchalasi ham o'zaro bog'langan. Ba'zi xavflarni katta xarajatlarni kamaytirish orqali oldini olish mumkin. Chunki, yuqori xarajatlar yoki xavflar raqobatga to'sqinlik qilishi mumkin. Raqobat to'siqlari ba'zi kichik biznes subyektlari uchun xavflarni kamaytirishi mumkin, lekin imkoniyatlarni inkor etishi va boshqalar uchun xarajatlarni ko'paytirishi mumkin. Ko'p omillar ma'lum bir joyda xarajatlar, tavakkalchilik va raqobatning oldini oladilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes subyektlarini bozorga kirish va chiqishni tartibga solish hamda ularning raqobatga qarshi xatti-harakatlariga javob berish orqali hukumat raqobat bosimiga ta'sir ko'rsatadi. Raqobatni umumiy darajada o'lchash qiyin, biroq kichik biznes subyekti darajasidagi dalillar mamlakatlar o'rtasida raqobat bosimi qanchalik o'zgarishi mumkinligini ko'rsatadi.

Albatta, investitsion muhitni yaxshilash barcha xarajatlarni, tavakkalchiliklarni va barcha to'siqlarni kamaytirishdan iborat emas. Ammo, soliqlar va investitsiyalarni tartibga solish sog'lom investitsiya muhitini qo'llab-quvvatlaydi va kengroq ijtimoiy manfaatlarni himoya qiladi. Kichik biznes subyektlar uchun qulay investitsion muhitni yaratish va boshqa ijtimoiy maqsadlarga erishish o'rtasidagi ziddiyatni boshqarish hukumatlar uchun asosiy vazifa sanaladi.

Investitsiya muhitining yaxshilanishi o'sishni rag'batlantiradi va qashshoqlikni kamaytiradi Aholining ko'payishi bilan iqtisodiy o'sish jamiyatning turmush darajasini oshirishning yagona barqaror mexanizmidir. O'sish nafaqat yuqori daromadlar, balki chaqaloqlar o'limining pastligi, ta'limning kengligi va umr ko'rish davomiyligi kabi inson rivojlanishining yaxshiroq ko'rsatkichlari bilan bog'liq. Bu har qanday turdagi kichik biznes subyektlar uchun imkoniyatlar yaratadi, ish o'rinlari yaratadi va davlat xizmatlarini moliyalashtirish uchun soliq bazasini kengaytiradi. Uy xo'jaliklari, shuningdek, kichik biznes subyektlari mulk huquqlari, moliyaviy bozorlar va infratuzilma xizmatlaridan yaxshiroq foydalanadilar. Bundan tashqari, o'sish milliy aktivlarning qiymatini, shu jumladan ekologik aktivlarni va kelajakda o'sish potensialini saqlagan holda, barqaror bo'lishi kerakligini tushunish mumkin.

Kapitalning to'planishi ishlab chiqarish jarayoniga ko'proq investitsiya kiritadi, lekin qo'shimcha kapitalning

1 G'ozibekov D.G'., Qoraliyev T.M. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish.-T.:TMI, 1997, 72-b.

cheklangan ta’siri kamayishi tufayli bu jarayon o‘sishni saqlab turishi mumkin. Shunday qilib, investitsion muhit muvaffaqiyatining o‘lchovi investitsiya miqdori emas, balki investitsiya sifatiga investitsion muhiti ham ta’sir qiladi.


Shuni ham aytish lozimki umumiy investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida, ayniqsa, davlat va xususiy investitsiyalar o‘rtasida hech qanday farq bo‘lmasa, unchalik bog‘liqlik kuzatilmaydi. Kichik biznes subyektlari investitsiya qarorlarining oqibatlarini zimmalariga olgan holda o‘z mablag‘larini xavf ostiga qo‘yib raqobatbardosh biznes muhitiga investitsiya kiritadilar.

Davlatning hududiy siyosati muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga, hududlararo farqlanish darajasini pasaytirishga va raqobatbardoshlikni oshirish hamda kompleks iqtisodiy rivojlanish orqali aholining turmush sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga asosan hududiy siyosatning quyidagi yo‘nalishlarini amalga oshirish orqali erishish kerak: raqobatbardosh ustunliklarga asoslangan yangi iqtisodiy o‘sish markazlarini yaratish; davlat va biznesning infratuzilmaviy investitsiyalarini muvofiqlashtirish, mintaqaning rivojlanishining ustuvorliklari va cheklanishlarini hisobga olgan holda inson taraqqiyoti va aholining turmush darajasi va sifatidagi farqni kamaytirish.

Hozirgi vaqtda tadbirkorlik sohasida muvaffaqiyat qozonish mumkin emas, agar uning rivojlanishini rejalashtirilmasa, istiqbollari va imkoniyatlari, maqsadli bozorlarning holati, ulardagi raqobatchilarning pozisiyasi to‘g‘risida muntazam ma’lumotlar to‘planmasa. Bu borada, fikrimizcha, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini saqlashning samarali omili raqobatbardoshlikni oshiradi, shuning uchun mamlakat ichidagi hududlar o‘rtasida raqobatga e’tiborni kuchaytirish lozim. Axir, aynan hududiy tadbirkorlik sektori raqobatbardoshligining yuqori darajasi ijtimoiy mas’uliyatli ish beruvchi rolini ishlab chiqish va samarali bajarishga imkon beradi.

Umuman olganda, mintaqaning raqobatbardoshligi uning barqaror yoki o‘sib borayotgan bozor ulushiga ega bo‘lgan kichik biznes subyektlarini jalb qilish va ushlab turish qobiliyati sifatida qaraladi, shu bilan birga uning ishtirokchilarini turmush darajasi barqaror o‘sib boradi. Shuni hisobga olgan holda, raqobatbardoshlik geografik makonga qarab farq qilishi mumkin, chunki mintaqalar o‘sish omillariga qarab har xil tezlikda rivojlanadi.

Ushbu iqtisodiy toifadagi konseptual yondashuvlarni ko‘rib chiqib, hududning raqobatbardoshligi – bu boshqaruv nazariyasi va amaliyoti sohasida jadal rivojlanayotgan, boshqaruv qarorlariga ta’sir ko‘rsatuvchi, uni amalga oshirishda mintaqada biznes sektori uchun qulay investitsion muhitni yaratish uchun ichki va tashqi raqobat afzalliklari umumiy xususiyatdir, degan xulosaga kelish mumkin. Hududning raqobatbardoshligi konsepsiyasining talqini uning asosiy tarkibiy qismlarini ajratishga imkon berdi (1-rasm).



1-rasm: Raqobatbardoshlik konsepsiyasining asosiy tarkibiy qism turlari

Yuqoridagi rasmda keltirilgan ma’lumotlardan kelib chiqqan holda iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bog‘liq bo‘lgan mintaqaviy raqobatbardoshlikning asosiy elementi mintaqaviy ishbilarmonlik muhitini va uning investitsion muhitini baholash deb hisoblaymiz. Parametrlar va maqsadli funksiyalar tizimi sifatida investitsiya modeli faoliyatning mohiyati va yo‘nalishini uch jihatdan aniqlaydi. Investitsiya modelining makroiqtisodiy jihati, real sektor va pul-moliya bozorining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarining iqtisodiy faoliyat turlari hamda umuman, hududlar bo‘yicha dinamikasi, tuzilishini, shuningdek, ishlab chiqarishning asosiy omillarini takror ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish xususiyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq. Bu nafaqat iqtisodiyotning investitsion salohiyatini ichki rivojlanish zaxiralarini safarbar etish nuqtai nazaridan baholashga, balki ichki va xorijiy sarmoya uchun investitsion jozibadorlikni oshirish uchun cheklovlar va imkoniyatlarni aniqlashga imkon beradi.

Kichik biznes subyektlarining ishbilarmonlik muhitining raqobatbardoshligini rivojlantirishga rag‘batlantiruvchi va ta’sir ko‘rsatadigan omillarni aniqlash maqsadida yuqorida ta’kidlanganidek, Namangan viloyatida tanlama usulda olingan 65 ta kichik biznes subyektlari o‘rtasida o‘tkazilgan anketa so‘rovnomalari asosida olingan

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS


natijalardan foydalangan holda investitsion jozibadorligi aniqlanadi.

Investitsion muhitni tashxislash bo‘yicha rus va xorijiy uslubiy yondashuvlarni o‘rganish natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

- xorijiy usullar bilan investitsiya muhitini baholash,
- baholanayotgan obyekt ma’lum bir guruhga tegishli bo‘lgan o‘ziga xos omillar yoki xususiyatlar majmui asosida amalga oshiriladi;
- chet ellik usullar – xorijiy investorlar uchun investitsiya qarorlarini qabul qilishda ko‘rsatmadan foydalaniladi;
- investitsion muhitni baholash amaliyoti ekspertlar baholaganidek, subyektiv omillardan statistik va tahliliy ma’lumotlar asosida olingan obyektiv ko‘rsatkichlarga o‘tish tendensiyasini aks ettiradi.

Tadbirkorlik tashabbusi va davlat siyosati tadbirlarining samarali kombinatsiyasi biznes muhitini o‘zgartirishda moliya institutlarining ta’sirini kuchaytiradi. Bu xususiy tadbirkorlik va xususiy investorlarni davlat-xususiy sheriklik tamoyillaridan foydalanganda rentabellik / tavakkalchilik mezoniga ko‘ra rivojlanish dasturlari hamda investitsion loyiщalarida ishtirok etish uchun investitsiya jalb qilish orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasini iqtisodiy rivojlantirish sohasidagi strategik maqsad va asosiy vazifalardan biri – investitsion jozibadorlikning o‘sishi va hududlarning ijobiy imidjini shakllantirish, tashkilotlarning sarmoyaviy va innovasion faolligini oshirishdir. Biroq, bu maqsadni amalga oshirishda ko‘plab muammolar mavjud. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida investitsiya muhitini yaxshilashga, uning jozibadorligini oshirishga to‘sqinlik qiladigan ichki va tashqi muammolar aniqlandi (2-rasm).



2-rasm: Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishga to‘sqinlik qiladigan omillar

Tadqiqot natijalari asosida hududlar va kichik biznes subyektlari investitsiya muhiti jozibadorligini oshirish bo‘yicha hududiy hokimiyat va mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, belgilangan qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlari va shakllari investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlashning bir qismi sifatida ham individual, ham murakkab shaklda ko‘rsatilishi mumkin. Taklif etilgan tavsiyalar tadbirkorlar sonini ko‘paytirishga, iqtisodiy resurslar mavjud bo‘lishiga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida mintaqa iqtisodiyotining biznes sektorining raqobatbardoshligini oshirish va uning investitsion muhitini yaxshilash uchun qulay sharoit yaratadi.

Mintaqaviy va mahalliy hokimiyat darajasida:

- tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat moliyaviy ko‘magini olish qulayligi nuqtai nazaridan ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish;
- tadbirkorlik subyektlarining innovasion rivojlanishiga ko‘maklashish va rag‘batlantirish;
- korxonalarda energiya tejash va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish;
- tadbirkorlik subyektlari darajasida;
- korxona kadrlarini strategik rivojlantirish modelini yaratish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- mintaqaviy hokimiyatlarning moliyaviy va maslahat yordamidan faol foydalanish;
- o‘z faoliyatini optimallashtirish uchun autsorsingning turli shakllarini faol amalga oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017-yil.
2. Olim Sabirovich Kazakov Menejmentga kirish. Darslik. Toshkent. “Fan ziyosi”, nashriyoti, 2021-yil.
3. М.Мескон, М. Альберт, Ф.Хедоури. Основы менеджмента. М. Дело, 1992. – С.489.
4. Muhammadjanovich K. I. Effective Directions of Development of Entrepreneurship // Conference Zone. – 2022. – С. 129-133.
5. М.Я. Погорелова. Экономический анализ: теория и практика: Учебное пособие / М.Я. Погорелова. – М.: ИЦ РИОР: НИЦ ИНФРА-М, 2016. – 290. с.86.
6. Л.И.Абалкин, О.И. Волков и др. Экономика предприятия (фирмы): Практикум / Ред. О.И. Волков, В.Я. Поздняков. – М.: ИНФРА-М, 2016., с.91].
7. Kenjabayev A.T. Tadbirkorlik faoliyatini axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari.: Iqt.fan. dokt. diss. avtoref. – T.: 2005-39-b.
8. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik. Statistik to‘plam. – Toshkent, 2020-y.190-b.
9. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.

KICHIK BIZNES TARMOQLARIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISH XUSUSIYATLARI

UDK 338.2

Abdug‘aniyev Murodjon Shavkat o‘g‘li
UNIVERSITY OF BUSSINES AND SCIENCE
“Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish yo‘nalishlari, bugungi kundagi kichik biznes faoliyatini o‘zgarish jarayonlari hamda mamlakatimiz kichik biznes faoliyatini rivojlantirish samaradorligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, iqtisod, xarajat, biznes, tadbirkorlik, investitsion, tadbirkorlik faoliyati, xorijiy investitsiya, investitsion tizim.

Abstract: The article shows the directions of attracting investment in the small business sector, the processes of change in the activity of small business today, as well as the effectiveness of the development of small business in our country.

Key words: small business, economics, cost, business, entrepreneurship, investment, entrepreneurial activity, foreign investment, investment system.

Аннотация: В статье показаны направления привлечения инвестиций в отрасли малого предпринимательства, процессы изменения активности малого предпринимательства сегодня, а также эффективность развития малого предпринимательства в нашей стране.

Ключевые слова: малый бизнес, экономика, стоимость, бизнес, предпринимательство, инвестиции, предпринимательская деятельность, иностранные инвестиции, инвестиционная система.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi texnologiyalarni ishga soladi, inson kapitalini shakllantirishga yordam beradi, xalqaro savdo integratsiyasiga hissa qo‘shadi, raqobatbardosh ishbilarmonlik muhitini yaratishga yordam beradi va korxona rivojlanishini, faoliyat uzluksizligini ta’minlaydi. Bularning barchasi pirovardida qashshoqlikni kamaytirishning eng kuchli vositasi bo‘lgan yuqori iqtisodiy o‘sishga yordam beradi. Bundan tashqari, tinvestitsiyalar iqtisodiy imtiyozlardan tashqari, xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakatda ekologik va ijtimoiy sharoitlarni yaxshilashga ham yordam berishi mumkin. Shuningdek, ekologik va ijtimoiy sharoitlar mahalliy jamoalar bilan ijobiy aloqalarning yo‘qligini, investitsiyalarning zararli ekologik ta’sirini, ayniqsa, qazib olish va og‘ir sanoat tarmoqlarida, ijtimoiy uzilishlarni, tez tijoratlashtirish hamda milliy bozorlarda raqobatga ta’sirini o‘z ichiga oladi. Shuni ta’kidlash joizki, ba’zi qabul qiluvchi davlatlar xalqaro miqyosda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarga tobora ortib borayotgan qaramlikni siyosiy suverenitetning yo‘qolishi sifatida qabul qiladilar. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatda faoliyat yuritayotgan nafaqat kichik biznes subyektlarining balki, yirik korxonalarning hozirgi iqtisodiy rivojlanish holatida, xorijiy investitsiyalar orqali kiritiladigan texnologiyalar yoki nou-xau imkoniyatlaridan foydalana olmasligiga olib kelib, kutilgan samaradorlikka erishish imkonini bermaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi olimlardan A.Ye.Gorodeskiy ta’biriga ko‘ra: “Investitsiyalar – bu foyda olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati obyektlariga uzoq muddatli kapital qo‘yilmalarni ifodalovchi iqtisodiy toifadir”, deb tavsiflagan. Bu ta’rif orqali ular, investitsiyalarni faqat tadbirkorlik faoliyati sohasiga tegishli deb cheklov qo‘yishgan ammo, investitsiya ijtimoiy sohaga, gumanitar loyihalarga ham kiritiladi, bu yerda investitsiyalar asosan davlat va mahalliy hukumatlar tomonidan amalga oshiriladi.

V.Bocharov va R.Popovaning fikricha, “investitsiyalar tadbirkorlik faoliyati obyektlariga qo‘yiladigan barcha mulkiy va intellektual qiymatlarni ifodalaydi, buning natijasida foyda hosil bo‘ladi yoki ijtimoiy samaraga erishiladi”.

M. Blank “investitsiya faoliyati – bu mulk obyektlarini kapitallashtirish, investitsiya resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish, investitsiya jarayonlari va investitsiya tovarlarining xalqaro harakatini tartibga solish, tegishli investitsiya muhitini yaratish, foyda olish yoki ma’lum ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish”, deb kengroq ta’rif beradi. Bu talqindan aniq ko‘rinib turibdiki, investitsiya faoliyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Investitsiyalarning makroiqtisodiy rag‘batlantirilishidan tashqari, resurslarni qabul qilish samaradorligini oshirish, tashqi savdo oqimi o‘rtasidagi bog‘liqlik, qabul qilinayotgan mamlakatning biznes sektori kabi yo‘nalishlar orqali iqtisodiy o‘sishning tarkibiy omillariga bevosita ta’sirini, xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakatlarda ishlab chiqarish samaradorligi, daromadlarning o‘sishiga ham hissa qo‘shishi, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga kiritilayotgan bir hil miqdordagi investitsiya turlicha samaradorlikka ega bo‘lishi, turli darajadagi mamlakatlar iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiya samaradorligini baholashda ularni taqqoslash mumkin bo‘lmasligi, taqqoslama tahlil o‘tkazishda teng darajadagi rivojlangan mamlakatlarni tanlash lozimligi, investitsiya qarorlari jarayoni odatda ko‘p yo‘nalishli bo‘lgan omillar va tendensiyalarni ko‘p o‘zgaruvchan va ko‘p mezonli baholashga asoslangandir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlar o‘rtasida investitsion salohiyatni taqqoslash xorijiy va milliy sarmoyadorlar uchun huquqiy shartlar, kapital eksport qilish imkoniyati, milliy valyutaning holati, mamlakatdagi siyosiy vaziyat va inflyasiya darajasi xususiyatlarini o‘z ichiga olgan ekspertlar ko‘lamiga asoslangan bo‘lishi kerak. Ko‘rsatkichlar diapazoni, odatda, investorlar hisobga oladigan shartlarning to‘liq spektrini aks ettirish uchun yetarli darajada aniq emas edi, biroq ba’zi ma’lumotlarni olish imkonini beradi va bu asosida sarmoya kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilish mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining madaniy merosi ham hamkorlik iqilmoqchi bo‘lgan davstlabki hamkor davlatlarga nisbatan sarmoyalarga ishonch bilan qaragan bo‘lsada, ayrim salbiy holatlarni vujudga kelishi bilan ularga shubha bilan qaraydigan muhitni yaratdi. Hozirgi kunda ko‘pchilik hamkor davlatlarning sarmoyadagi ishtiroki, ayniqsa tabiiy resurslarni o‘zlashtirish va ekspluatatsiyasi (neft, gaz qazib olish va uni qayta ishlash) ga asoslanganligini ko‘rish mumkin.

Hozirgi voqelikda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti zamonaviy texnologiyalarga juda muhtoj. Iqtisodiyotning boshqa sohalarida bo‘lgani kabi sanoat sohasidagi mavjud texnologik bo‘shliq uning jahon iqtisodiyoti hamjamiyatiga va umumiy sivilizatsiya jarayoniga muqarrar ravishda qo‘shilishi munosabati bilan albatta, mamlakatda ma’lum darajada noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Rivojlanishning muvaffaqiyati asosan raqobatbardosh sanoat ishlab chiqarishi bilan belgilanadigan jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi, yetakchi rivojlangan iqtisodiyotlar bilan mamlakatimiz murakkab siyosiy tafovutlari fonida ro‘y bermoqda. Biroq, hech bir mamlakat o‘z iqtisodiyotini modernizatsiya qilish muammosini alohida hal qila olmaydi. Ilg‘or texnologiyalarni jalb qilmasdan, o‘zimizning zamonaviy texnologik bazamizni yaratish imkonsiz vazifadir.

Umuman olganda, mamlakat iqtisodiyotida va xususan, EIZda kichik biznesni iqtisodiyotning asosi deb hisoblash mumkin. Kichik biznesga bo‘lgan munosabat, uni qo‘llab-quvvatlash, mamlakat aholi bandligini, ta’minlash va daromadini oshirish bilan birga iqtisodiyotini rivojlantiruvchisi sifatida tavsiflash mumkin. Iqtisodchilar orasida, ijobiy baholar bilan bir qatorda, kichik biznesning roliga shubha ostida baho beruvchilar ham uchraydi. Shuni ham tan olish kerakki, umuman, EIZning yaratilishi ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirishga hali yetarli darajada yordam bermadi.


Shunga qaramay, xalqaro amaliyot, aniqrog‘i, rivojlangan davlatlar amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, mamlakat hududida erkin iqtisodiy zonalar yaratish iqtisodiy rivojlanish strategiyasi yuqori asosli va sababli natijalarni talqin qilmoqda. Xususan:

- *birinchidan,* EIZ dasturi xorijiy investitsiyalar jalb qilishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va natijada, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xorijiy investitsiyalarning o‘sish sur’ati oshadi;
- *ikkinchidan,* dastur EIZga boy konsentratsiyali iqtisodiyotni yaratadi va texnik taraqqiyotni oshiradi;
- *uchinchidan,* aholining bandligi ta’minlanadi, daromadi va turmush farovonligi oshadi.

Nihoyat, bir nechta EIZ va kichik iqtisodiy zona(IKZ)ga ega bo‘lgan hudud, bitta EIZ hamda IKZga ega bo‘lgan hududga qaraganda, aglomeratsiya iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning o‘sishi va ishlab chiqarish omillari narxlarining o‘zgarishi uchun yanada jozibadorligini namoyish etmoqda.

Bizningcha, hududlarning investitsion muhiti muammolari va ularning mamlakat iqtisodiyoti hamda ishlab chiqarish tarmoqlariga ta'sirini o'rganayotganda, asosiy kapitalni yangilash loyihalariga sarmoya kiritish jarayonini loyihalarning davomiyligi, murakkabligi, qaytarilish xavfining yuqori bo'lishi, o'ziga xosligini alohida ko'rib chiqish zarur. Bu o'z navbatida iqtisodiyotning real sektoriga sarmoya kiritish xavf va xatarlarini aniqlash, tizimlashtirish hamda ularning salbiy ta'sirini kamaytirish, investitsiya faoliyati ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Bizga ma'lumki, mamlakatning investitsion muhitiga bir qator omillar ta'sir qiladi jumladan, sanoatning rivojlanishi birinchi navbatda fuqarolik maqsadlari uchun sanoatning yetakchi tarmoqlari, sanoat korxonalarining asosiy kapitalining eskirish darajasi, yuqori texnologiyalarni yaratish sohasidagi ishlar – ixtisoslashtirilgan tadqiqot markazlari, sinov laboratoriyalari va boshqalar mavjudligi, texnik jihozlanish darajasi, mashinasozlik sanoati hamda geografik joylashuvi, ekologiyaning holati hududiy joylashuvi, atrof-muhit holati va boshqalar. Shunga ko'ra, investitsiya muhiti asosan iqtisodiyot, huquq, davlatning tashqi aloqalari va boshqalar sohasidagi davlat siyosatining natijasi bo'lgan omillar va sharoitlar bilan belgilanadi, ya'ni bu aniq davlat tuzilmalari faoliyatiga bog'liq. Bularga qo'shimcha ravishda mamlakat investitsion muhitiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida bizningcha quyidagilarni qo'shimcha qilish mumkin (1-rasm).



1-rasm: Mamlakat investitsion muhitiga ta'sir etuvchi asosiy omillar

Bundan ko'rish mumkinki, butun iyerarxik iqtisodiy tizimning asosiy elementi – korxona – alohida yoki bir xil kompaniyalar guruhida (xolding, texnopark va boshqalar) ishlaydigan va ma'lum bir sohaga tegishli bo'lgan, geografik jihatdan alohida hududda joylashgan hamda mamlakat iqtisodiyotining bir qismi hisoblanadi. Shunday qilib, investitsiyalar oqimini rag'batlantiruvchi yoki to'sqinlik qiladigan davlatning investitsiya muhitining holatini aniqlaydigan omillarning butun majmuasi ularning korxonaga ta'siri nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi kerak.

Bunda iqtisodiy tizim:

- makro darajada – mamlakat iqtisodiyoti;
- mezo darajada – mintaqaviy iqtisodiyot;
- mikro darajada – ma'lum bir xo'jalik subyekti iqtisodiyoti.

Shunday qilib, investitsiya muhitining yuqoridagi komponentlarini tegishli darajalariga qarab guruhlash mumkin.

1. Davlat darajasida sarmoyaviy muhitni 3 guruh siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillari shakllantiradi.
2. Mintaqaviy investitsiya iqlimi – bu mintaqa yoki mintaqa milliy iqtisodiyotining bir qismi darajasidagi investitsiya faoliyati uchun huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, geografik sharoitlar tizimi. Mezo darajadagi sarmoyaviy muhit asosan mintaqaning sanoat salohiyati, uning iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari, hududiy joylashuvi (tabiiy resurslarning mavjudligi, poytaxtdan uzoqligi va boshqalar), shuningdek, mintaqaviy qonunchilik va rivojlanishning ustuvorligi, davlat dasturlarni amalga oshirish.
3. Mikro darajada, investitsiya muhiti investor va xo'jalik yurituvchi subyekt – investitsiya faoliyati ishtirokchilarining to'g'ridan-to'g'ri kontragentlari: banklar, uskunalar yetkazib beruvchilar, kasaba uyushmalari ishtirokida shakllanadigan munosabatlar tizimi orqali namoyon bo'ladi.

Sanab o‘tilgan sohalarning har birini bosqichma-bosqich amalga oshirish milliy iqtisodiyotni tiklash uchun sharoit yaratishi, biznesni uzoq muddatli rivojlanishga yo‘naltirishi, mamlakat ichidagi investitsiya faolligini kuchaytirishi, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini jozibali va ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini, ilg‘or texnologiyalarni amalga oshirishga sezgir bo‘lgan xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirish uchun harakat qilishi kerak.

Asosiy vositalarni yangilash jarayoni boshqa investitsiya loyihalaridan farqli o‘laroq bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga xususan, amalga oshirish muddati, amalga oshirishning murakkabligi, tashqi malakali mutaxassislarni jalb qilish zarurati, joriy ishlab chiqarish faoliyati bilan birlashish zarurati va yuqori qaytarilish xavfi ega. Bundan tashqari, faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning ishlab chiqarish bazasini yangilashga sarmoya kiritish jarayoni investor, davlat va xo‘jalik yurituvchi subyektning egasi predmetlari tarkibi bilan farq qiladi

Bundan ko‘rinadiki, xo‘jalik yurituvchi subyekt egasi oldida murakkab va keng ko‘lamli vazifalar turibdi: o‘z mablag‘larini ko‘paytirishni ta’minlagan holda, qarz mablag‘larini samarali tasarruf etish zarur. Asosiy kapitalni yangilash uchun mablag‘larning samarali sarmoyasi mashinalar va uskunalar parkini yangilash loyihasini malakali ishlab chiqishni, ishonchli yetkazib beruvchilarni qidirishni, ishlab chiqarishni rivojlantirish strategik rejalarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Investor nuqtai nazaridan, investitsiyalar, agar iloji bo‘lsa, qisqa vaqt ichida va eng past tavakkalchilik bilan, investitsiya qilingan kapitalni ko‘paytirishning asosiy maqsadiga ega. Investorlar mahalliy tuzilmalar (davlat, banklar, tijorat tashkilotlari, jamg‘armalar, jismoniy shaxslar va boshqalar) va xorijiy sheriklar (banklar, korxonalar va boshqalar) bo‘lishi mumkin. Investitsion soha islohotida xususiylashtirilgan korxonalarning sarmoyaviy faoliyatiga ham muhim o‘rin ajratiladi.

Korxonalar mulkini va aksiyalarini sotish hisobiga kapital mablag‘larni moliyaviy ta’minlash uchun qo‘shimcha imkoniyatlarga ega bo‘ladi, deb hisoblanadi. Ammo kichik biznes subyektlarida bunday aksiyalarni mavjud emasligi va korxona egasining yolg‘izligi hamda aholining korxonaga nisbatan investitsiya jamg‘armasini kiritmasligi korxonaning rivojlantirish va uni yangi texnika-texnologiyalar bilan jihozlashda moliyaviy yordamga muhtojligini keltirib chiqaradi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, iqtisodiyotning real sektoriga kiritilgan xorijiy investitsiyalardan oqilona va samarali foydalanish korxonalarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan:

1) ilg‘or texnologiyalar va boshqaruvning zamonaviy usullaridan foydalanish imkoniyatini beradi;
2) texnologiyalarni takomillashtirish va ishlab chiqarish darajasini oshirishga hissa qo‘shadi;
3) ishlab chiqarishni kengaytirish va uning samaradorligini oshirishga investitsiyalar oxir-oqibat soliq tushumlarining ko‘payishiga, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilishiga olib keladi;
4) mamlakatning dunyodagi iqtisodiy imidjini yaxshilaydi, mamlakatga bo‘lgan ishonch darajasini oshiradi;
5) sanoat va ilmiy-texnikaviy hamkorlik orqali ichki iqtisodiyotning jahon iqtisodiy tizimi bilan integratsiyalashuviga yordam beradi.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalar juda muhim, lekin mamlakat iqtisodiyotiga sarmoya kiritish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish undanda muhim bo‘lib, bu vazifaga alohida e’tibor qaratib uni birinchi navbatda hal qilish lozim. Albatta, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, aniq afzalliklari bilan bir qatorda, ba’zi cheklovlarga ham ega jumladan, chet el kapitaliga haddan tashqari qaramlik mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soladi, chunki bu iqtisodiyotni geosiyosiy vaziyat ta’sirida ojiz qiladi, mahalliy biznesni sarmoya kiritishga undamaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes subyektlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda qulay investitsion muhit muhim ahamiyat kasb etib, u quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish,
- biznes – jarayonlarning sifati va uni soddalashtirilishi,
- yetarli infratuzilmani shakllantirish,
- eng yaxshi tajribalarni takrorlash hamda samaradorlikni baholash vositalarini ishlab chiqish.

Shu bilan birgalikda, ma’muriy to‘siqlarni yanada kamaytirish, infratuzilma cheklovlarini olib tashlash, kichik biznesni tashkil etish tartibini soddalashtirish, bojxona ma’muriyatchiligini takomillashtirish, migratsiya siyosatini ishlab chiqish, yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, soliq imtiyozlarining yangi vositalarini ishlab chiqish kabi sohalarda faol ishlar olib borish lozim. Taklif etilgan tavsiyalar tadbirkorlar sonini ko‘paytirishga

olib keladi, bu esa iqtisodiyotimizni rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda, natijada mamlakatimiz istiqbolini belgilamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olim Sabirovich Kazakov Menejmentga kirish. Darslik. – Toshkent. “Fan ziyosi” nashriyoti, 2021-yil.
2. М.Мескон, М. Альберт, Ф.Хедоури. Основы менеджмента. М. Дело, 1992.:-С.489.
3. Muhammadjanovich K. I. Effective Directions of Development of Entrepreneurship //Conference Zone. – 2022. – С. 129-133.
4. М.Я. Погорелова. Экономический анализ: теория и практика: Учебное пособие / М.Я. Погорелова. – М.: ИЦ РИОР: НИЦ ИНФРА-М, 2016. – 290. – С. 86.
5. Л.И.Абалкин, О.И. Волков и др. Экономика предприятия (фирмы): Практикум / Ред. О.И. Волков, В.Я. Поздняков. – М.: ИНФРА-М, 2016. – С. 91.
6. Kenjabayev A.T. Tadbirkorlik faoliyatini axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari.: Iqt.fan. dokt. diss. avtoref. – T.: 2005-39 b.
7. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik. Statistik to‘plam. Toshkent, 2020 y.190b.
8. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH



Xodjamov Asliddin O‘ktam o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Topildiyev Sohibjon Rahimjonovich**
Iqtisodiyot fanlari doktori professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson resurslarini boshqarish va u orqali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan o‘zgartirish, ularning malakasini oshirish, qayta tayyorlash va o‘qitish mexanizmini yo‘lga qo‘yish tog‘risida so‘z boradi. Inson resurslarini intensiv usulda takomillashtitirish orqali umumiqtisodiyotdagi soha va tarmoqlarni rivojlantirish ko‘zda tutiladi. So‘nggi yillardagi islohotlar natijasida mehnat resurslarini boshqarish sohasidagi tub burilish va yaratilgan imkoniyatlar atroflicha bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: inson resurslari, kadrlar, tarmoqlar, intensiv, ishlab chiqarish, malaka, kapital.

Abstract: This article will talk about the development of Human Resource Management and, through it, the fundamental transformation of the personnel training system, the development of their skills, retraining and establishing a training mechanism. Improving human resources in an intensive way, it is envisaged to develop areas and sectors in the general economy. As a result of the reforms of recent years, a fundamental turn in the field of labor resource management and the opportunities created are described in detail.

Key words: human resources, personnel, networks, intensive, production, qualification, capital.

Аннотация: В данной статье речь пойдет об управлении человеческими ресурсами и кардинальном изменении системы обучения через нее, налаживании механизма повышения их квалификации, переподготовки и обучения. Предполагается развитие отраслей и секторов экономики в целом за счет улучшения человеческих ресурсов интенсивным способом. Подробно описан коренной поворот и созданные возможности в области управления трудовыми ресурсами в результате реформ последних лет.

Ключевые слова: человеческие ресурсы, персонал, отрасли, интенсивность, производство, квалификация, капитал.

KIRISH

Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda eng muhim resurslardan biri bu, albatta, inson resurslari hisoblanadi. Chunki barcha iqtisodiyot tarmoqlarida kadrlar masalasi hozigi davrgacha dolzarb bo‘lib kelmoqda. Buni biz rivojlangan mamlakatlar tajribasida ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, G‘arb davlatlatida inson resurslarini rivojlantirishda va sohaga alohida e’tibor bilan yondashishlarini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunda qaysiki davlat inson resurslarini boshqarish sohasiga investitsiya kiritar ekan, albatta, bu o‘z samarasini bermay qolmayapti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2016-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasida: “Hayotning o‘zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo‘lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Bu o‘rinda asosiy muammo, quyidagilardan iborat, birinchidan, ayrim idoralar va ularning rahbarlari real hayotdan va xalq ehtiyojlaridan ma’lum darajada uzilib qolmoqda, ikkinchidan, tarmoq va hududlarni rivojlantirish konsepsiyalari va dasturlarini ishlab chiqishda yuzaki yondashuvga yo‘l qo‘yilmoqda” – deb ta’kidlagan. Shunday ekan, iqtisodiyotni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo‘lgan tarmoq va korxonalar shuningdek hududlar darajasida hozirgi kunnning eng dolzarb muammolarining yechimini topishga inson resurlarini boshqarish orqali erishishimiz mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Peters va Uoterman (1982) birinchi bo‘lib ichki madaniyat ayrim eng “omadli” Amerika kompaniyalariga raqobatli kurashda muhim ustunlikka ega bo‘lishini ta’minlaganligini isbotladilar. Bu kompaniyalarni “omadli” qilgan narsalar faqat kishilar haqida g‘amxo‘rlik va aynan IRM(inson resurslari markazlari) bo‘yicha metodlarning rivojlanish darajasi emas, balki ular kuchli ichki madaniyatni - umumiy qadriyatlar, jamoaviy anglangan maqsadlar, xarizmatik liderlar, ularning sadoqatlikni, bozorga yuzlanganlikni ulug‘lashi bo‘ldi. Bundan tashqari ular eng kam rasmiy nazoratdan foydalanib ham yaxshi natijalarga erishishga qodir edilar. Nazorat asosan ijtimoiy vositalar (ko‘pchilik qabul qilgan normalar, munosabatlar) yordamida amalga oshirilar edi).

Iqtisodchi olim Abdurahmonov bu borada “inson resurslari – mamlakat aholisining foydali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan jismoniy rivojlanish, aqliy qobilyatlar va bilimga ega bo‘lgan qismlar tushuniladi”, deb ta’rif bergan. Lekin bu olimlarning hech biri o‘z ilmiy ishlarida kadrlar siyosati iqtisodiyotning rivojlanishiga qanday ta’sir qilishi borasida so‘z yuritishmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishlari davomida statistik, ilmiy va kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, kuzatuv, mantiqiy fikrlash, analiz, sintez, taqqoslash kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Inson resurslari bo‘yicha har davlat bo‘lsin yoki uning hududida faoliyat yuritayotgan korxona bo‘lsin, o‘zining ma’lum bir strategiyasiga ega.Bu sohani rivojlantirmasdan turib ishlab chiqarishni oshirish yoki iqtisodiyotni rivojlantirish deyarli imkonsiz. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida uning o‘rni beqiyosdir. Respublikamizda bozor munosabatlarining samarali joriy etilishi birinchi navbatda inson resurslaridan samarali foydalanishga bog‘liq. Biz uchun faqat bitta ustuvorlik– inson manfaatlari ustuvorligi muhim ahamiyatga ega, mehnatga haq to‘lash darajasi va aholi daromadlarini keskin oshirish, mamlakatda iste‘mol bozorini rag‘batlantirish siyosatini davom ettirish uchun ishonchli baza yaratilmoqda. Olimlarning fikricha, kadrlarning ishlab chiqarishdagi roli to‘g‘risidagi 4 konsepsiya mavjud:

- Mehnat resurslaridan foydalanish
- Personalni boshqarish
- Inson resurslarini boshqarish
- Insonni boshqarish.

Bu konsepsiyalarga muvofiq inson tashkilotning asosiy subyekti va boshqaruvning alohida obyekti bo‘lib resurs sifatida qaralishi mumkin emas. Insonning istaklari va qobiliyatidan kelib chiqqan holda tashkilotning strategiya va tarkibi tuzilishi kerak. Ushbu konsepsiya asoschilari Yaponiyaning yetakchi olimlari hisoblaniladi. Yirik tashkilotlarda mehnat resurslarga umumiy rahbarlik mas‘uliyati kadrlar bo‘limining malakali xodimlariga yuklatilgan bo‘lib, u odatda shtab xizmatlari tarkibiga kiradi. Bu mutaxassislar tashkilot maqsadlarini amalga oshirishga yordam berishi uchun, ular faqat o‘z sohalarini emas, balki quyi bo‘g‘in rahbarlarining ehtiyojlarini ham bilishlari zarur. Shu bilan birga bu rahbarlar mehnat resurslarini boshqarish xususiyatlarini, uning mexanizmi, imkoniyatlari va kamchiliklarini tushunmasa, kadrlar mutaxassislari xizmatlaridan umumli foydalana olmaydilar. Shuning uchun barcha rahbarlar insonlarni boshqarish usullari va metodlarini bilishi va tushunishi muhim.

Inson resurslarini boshqarish tizimi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Resurslarni rejalashtirish:** inson resurslariga kelgusi ehtiyojlarni qondirish rejasini ishlab chiqish.
2. **Personalni to‘plash:** barcha lavozimlar bo‘yicha potensial nomzodlar rezervini tashkil etish.
3. **Tanlash:** ish joylariga nomzodlarni baholash va rezervdan eng yaxshilarini tanlash.
4. **Ish haqi va imtiyozlarni aniqlash:** xizmatchilarni jalb qilish, yollash va saqlab qolish maqsadida ish haqi va imtiyozlar strukturasini ishlab chiqish.
5. **Kasbga yo‘naltirish va moslashuv:** yollangan ishchilarni tashkilot va uning bo‘linmalari bilan tanishtirish, ishchida undan nima kutilayotganligi haqida tushuncha hosil qilish va qanday mehnat yaxshi baholanishini tushuntirish.
6. **O‘qitish:** ishni samarali bajarish uchun kerakli mehnat ko‘nikmalarini o‘rgatish uchun dasturlar ishlab chiqish.

7. **Mehnat faoliyatini baholash:** mehnat faoliyatini baholash metodikasini ishlab chiqish va uni xodimga yetkazish.
8. **O‘stirish, pasaytirish, o‘tkazish, bo‘shatish:** xodimlarni lavozimlarga yoki boshqa ish uchastkalariga o‘tkazish metodlarini ishlab chiqish.
9. **Rahbar kadrlarni tayyorlash, xizmat ko‘rsatishlarini boshqarish:** rahbar xodimlarni mehnat samaradorligini ko‘tarishga va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish.

Kadrlar tayorlashdek, muhim vazifalarni bevosita ish beruvchilar ta’lim muassasalari bilan birga hamkorlik qilgan holda amalga oshiradilar. Bu yerda kadrlar tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi ta’lim tashkilotlarining o‘rni katta. Bu sohada ham yaqin yillardan boshlab jadal raqobat asosida ish beruvchilar uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirdi.

1-jadval: Inson resurslarini boshqarishga yondashuvlar[1]

Faoliyat sohasi	Nimaga ustuvorlik beriladi	Qanday funksiyalarni bajaradi	Bajarilishi to‘g‘risida kimga ma’lumot beriladi
Inson resurslarini boshqarish (strategik yondashuv)	-mutlaq yangi vazifalarni yechishga; -global, uzoq muddatli vazifalarni yechishga;	- inson resurslarini rejalashtirish; -shaxsiy qobiliyat va malakani oshirish; -korxonaning xodimlariga sarflanadigan xarajat doirasida xodimlar uchun xarajatlarni rejalashtirish;	Korporatsiya prezidentiga
Xodimlar bilan ishlash (tezkor faoliyat)	Ma’muriy aralashuvga, zaruriyat tug‘iladigan kundalik masalalarni yechishga.	-kadrlarni tanlash va joy joyiga qo‘yish; -mehnat motivatsiyasini boshqarish, texnika xavfsizligini nazorat qilish; -nizolarni hal qilish;	Korporatsiya vitse-prezidentiga

Mamlakatimizda o‘tmishdagi markazlashgan iqtisodiy rejalashtirishdan so‘ng bozor iqtisodiyoti mexanizmlaridan keng foydalangan holda davlat tomonidan siyosat olib borishi mamlakat aholisining turmush tarziga ta’sir ko‘rsatgani shubhasizdir. Markazlashtirilgan rejalashtirish insonning mehnat sohasidagi xulq-atvorini cheklab qo‘ydi, bu esa unga faollik, mustaqillik, qobiliyatlilik, yangilikka intilish, ya’ni inson kapitalining rivojlanishi uchun juda kam imkoniyat qoldirdi. Bozor iqtisodiyoti esa aksincha, inson tashabbusini nazarda tutadi. Shuning uchun ham inson resurslari har bir bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashgan va moslashayotgan davlatlarda eng dolzarb va rivojlanayotgan soha bo‘lib qolmoqda. Buni biz “ichkaridan tashqariga” usuli orqali ko‘rib chiqishimiz mumkin. Ya’ni kichik bir korxonadan boshlab butun bir davlat miqyosigacha sohani iqtisodiyotga ta’sirini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Xodimlarni boshqarish samaradorligi ko‘p jihatdan xodimlarni tanlashga bog‘liq. Xodimlarni tanlash – bu ikki tomonli jarayondir. Bir tomondan korxona da’vogarga ish berish yoki ish bermaslikni hal qilsa, ikkinchi tomondan da’vogar agar ishga taklif qilinsa, u bu taklifni qabul qilish kerakmi yoki kerak emasligini hal qiladi. Bu jarayonda rahbar quyidagi holatlarga o‘z e’tiborini qaratmog‘i lozim.

Da’vogarga berilgan baholar va tavsiyalarni tahlil qilganda, shuningdek muzokaralar olib borilganda:

- uning topshirilayotgan ishni bajara olishiga;
- zarur bo‘lib qolganda kasbiy ma’lumotini oshira bilishiga;
- texnikaga nisbatan e’tiboriga;
- fe’l-atvoriga;
- halolligi, mulohazaliligi, turmushda hozir-nozirligi va to‘g‘riligiga;
- tashabbuskorligi, hayotga talabchanligiga;
- ishga hamda ish kuning davomiyligiga;
- og‘ir sharoitda o‘zini tutishiga;
- salomatligi, tashqi ko‘rinishi, vaqtni taqsimlay bilishiga;
- hunari va bo‘sh vaqtlardagi mashg‘ulotlariga diqqat qilish lozim.

Bulardan tashqari shuni unutmaslik kerakki, ishga qabul qilinayotgan nomzod topshiriladigan ishni bajarishga yaroqligina bo‘lib qolmay, balki korxonaning boshqa xodimlar bilan chiqishib ketadigan ham bo‘lish kerak. Agar u keyingi talabga muvofiq kelmasa, odatda yaxshi mutaxassisning ham bahridan o‘tish kerak.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Biz hozir faqatgina korxona miqyosida kadrlarni boshqarish tizimini ko‘rib chiqdik. Endilikda Respublika va mahalliy davlat organlarida inson resurslari boshqarish tizimi bilan tanishamiz. Davlat organlari o‘rtasida ham inson resurslarini boshqarish tizimiga alohida e’tibor berilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.09.2023-yildagi “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida inson resurslari boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 492-son qarori qabul qilindi. Bu qaror orqali eng muhim narsa bu- inson resurslarini boshqarish tizimini raqamlashtirish bo‘ldi. Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida inson resurslarini boshqarishga oid ma’lumotlar va hujjatlarni “hrm.argos.uz” elektron platformasida shakllantirish va yuritish tartibi o‘rnatildi. Endilikda davlat organlarining ishga qabul qilish natijalari bo‘yicha hujjatlarni rasmiylashtirish, tarkibiy tuzilma, shtatlar, lavozimlar va xodimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash va ularga ishlov berish, xodimlar faoliyatining samaradorligini avtomatik tarzda baholash, kadrlar bo‘yicha ma’lumotlarning elektron arxivini yuritish, rahbar kadrlar uchun belgilangan zaxiralarni shakllantirish hamda inson resurslarini boshqarishga oid boshqa faoliyati elektron platformada amalga oshiriladi. Bu esa o‘z navbatida mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi.

Iqtisodiyotdagi kadrlar siyosati – inson resurslari jarayonlariga va ularning iqtisodiyotga qanday ta’sir qilishiga oid ish beruvchi-xodim munosabatlariga e’tibor qaratadi. Shuningdek, u turli iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar ish beruvchi va ishchi munosabatlariga qanday ta’sir qilishiga qaratilgan. Shu sababli, iqtisodiyotdagi inson resurslari mehnat munosabatlari iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’minlaydi.Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar esa ularga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida inson resurslari iqtisodiyotga foyda keltirish uchun mehnatni tashkil qiluvchi jamoaviy jarayonlarni qo‘llashni anglatadi. Iqtisodiyot rivojlanishi uchun ishlab chiqarish omillaridan foyda oladi. Ishlab chiqarish omillariga foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarishga yordam beruvchi resurslar kiradi. Asosiy omil tadbirkorlik bo‘lib, u odamlarning boshqa ishlab chiqarish omillarini, masalan, yer, mehnat va kapitalni to‘plash va foyda olish uchun foydalanish qobiliyatidir. Ishlab chiqarish omillari iqtisodiy ahamiyatga ega.

Demak, ishsizlik omil emas. Iqtisodiy manfaatlar uchun xizmatlar va tovarlar ishlab chiqarish uchun mehnatning asosiy omili inson resurslaridir. Iqtisodiyotda inson resurslari samarali mehnatni ta’minlash uchun ko‘nikma, bilim va tajribadan foydalanadi. Shuning uchun uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar inson resurslarining elementi emas. Inson resurslari iqtisodiyotda samarali bo‘lishi uchun ishchi kuchini tashkil qiladi. Ish kuchi – bu iqtisodiyotni rivojlantirish uchun turli ko‘nikmalardan foydalanadigan iqtisodiyotning bir qismi. Turli iqtisodiyotlarda ishchi kuchlari turlicha boshqariladi. Yuqori texnologik yutuqlar va daromad darajasi yuqori bo‘lgan sanoatlashgan mamlakat iqtisodiyotlari mavjud. Shuning uchun bunday iqtisodiyotdagi inson resurslari yuqori tezlikdagi telekommunikatsiya liniyalari bilan bog‘lanishga ixtisoslashgan. Bu sanoatlashgan iqtisodiyot uchun eng samarali hisoblanadi, chunki u texnologik yutuqlardan foydalanadi. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlardagi ishchi kuchiga ko‘proq siyosiy yoki ijtimoiy omillar, masalan, kasaba uyushmalari ta’sir ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, inson resurslari sohasini butun boshli iqtisodiyot ning soha va tarmoqlarini ishlash mexanizmining tomirlari sifatida e’tirof etishimiz mumkin.Tarmoqlarni rivojlantirishda xodimlarni intensiv usulda rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki dunyo globallashuvi davrida barcha jabhada ekstensiv usuldan instensiv usulga bosqichma-bosqich o‘tilmoqda. Bu borada inson resurslarini boshqarish tizimi ham qolishmaydi. Rivojlangan davlatlar iqtisodiy tizimida inson resurslarini boshqarish alohida o‘rin egallar ekan. Chunonchi inson resurslarini boshqarishni rivojlantirish strategiyasininig bosh masalasi – xodimlarni, kadrlar xizmati faoliyatini tashkil qilish, ularni rivojlanishi zaminida iqtisodiy ravnaq va katta daromadlarni ko‘zlash turar ekan. Rivojlangan davlatlarda inson resurslarni boshqarish, kadrlarni tayyorlash tizimlari o‘zaro bir-birlariga o‘xshash tomonlari va ayni paytda har bir mamlakatning o‘ziga xos spetsifik xususiyatlari, elementlari mavjud ekan. Bizning vazifamiz bularni chuqur o‘rganib, tahlil etib, ulardan respublikamizda kadrlarni tayyorlash va inson omilini rivojlantirishda o‘rinli foydalana olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Human Resourse Management. Fefteenth Edition/Robert L.Malthis, John H.Jackson Sean R. Valentine. Patricia A. Megllch 2017.2014 Cengage Learning WCN 02.200.206.
2. Inson resurslarini boshqarish (darslik). Gulnora Abdurahmonova. –T.: O‘zR FA “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2021. 696 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.09.2023-yildagi 492-son qarori (www.lex.uz).
4. Абдураҳмонов Қ.Х., ва бошқалар., Инсон тараққиёти. –Дарслик. –Т:. “Фан ва технология”. –2014. – 234-б.

ORGANIK QISHLOQ XO‘JALIGIGA O‘TISHNING RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDAGI IQTISODIY VA EKOLOGIK AFZALLIKLARI



Ahrorov Farhod Baxriddinovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali ilmiy izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola rivojlanayotgan mamlakatlarda organik qishloq xo‘jaligiga o‘tishning iqtisodiy va ekologik afzalliklarini tahlil qiladi. Organik qishloq xo‘jaligi tuproq unumdorligini oshirish, zararkunandalarni boshqarish va bioxilmaxillikni saqlashga qaratilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, organik qishloq xo‘jaligi ekologik barqarorlikni ta’minlaydi va ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltiradi. Mualliflar qishloq xo‘jaligi sohasidagi organik amaliyotlarning afzalliklari va qiyinchiliklarini o‘rganadilar, shuningdek, bu sohani rivojlantirish uchun qo‘shimcha takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: Organik qishloq xo‘jaligi, iqtisodiy afzalliklar, ekologik barqarorlik, bioxilmaxillik, rivojlanayotgan mamlakatlar.

Abstract: This article analyzes the economic and environmental benefits of transitioning to organic farming in developing countries. Organic farming focuses on improving soil fertility, pest management, and biodiversity conservation. The analysis results show that organic farming ensures ecological sustainability and provides socio-economic benefits. The authors examine the advantages and challenges of organic farming practices in the agricultural sector and offer additional recommendations for developing this area.

Key words: Organic farming, economic benefits, ecological sustainability, biodiversity, developing countries.

Аннотация: В данной статье анализируются экономические и экологические преимущества перехода к органическому сельскому хозяйству в развивающихся странах. Органическое сельское хозяйство направлено на повышение плодородия почвы, управление вредителями и сохранение биоразнообразия. Результаты анализа показывают, что органическое сельское хозяйство обеспечивает экологическую устойчивость и приносит социально-экономическую выгоду. Авторы рассматривают преимущества и проблемы органических сельскохозяйственных практик в сельскохозяйственном секторе и предлагают дополнительные рекомендации для развития этой области.

Ключевые слова: Органическое сельское хозяйство, экономические преимущества, экологическая устойчивость, биоразнообразие, развивающиеся страны.

KIRISH

Bugungi dinamik taraqqiyotdagi dunyoda barqaror qishloq xo‘jalik amaliyotlarining ahamiyati yuqoridir. Ushbu amaliyotlar orasida organik qishloq xo‘jaligi ekologik sog‘lomlikni ta’minlash va oziq-ovqat xavfsizligini kafolatlashda muhim o‘rin tutadi. An’anaviy qishloq xo‘jaligidan farqli o‘laroq, organik qishloq xo‘jaligi sintetik pestitsidlar, o‘g‘itlar va genetik modifikatsiyalangan organizmlardan (GMO) foydalanmasdan, tabiiy usullarga asoslangan ekotizim muvozanatini va bioxilmaxillikni saqlashga qaratilgan.

Organik qishloq xo‘jaligi butun dunyo bo‘ylab iqtisodiy foyda va imkoniyatlarni taqdim etishi sababli keng tarqalgan. Ekologik jihatdan, u tuproq eroziyasini oldini olish, suvning ifloslanishini kamaytirish va tabiiy muhitlarni saqlashga yordam beradi[1].

Organik qishloq xo‘jaligining asosiy elementlari tuproqni boshqarish, zararkunandalar va kasalliklarni boshqarish va bioxilmaxillikni saqlashni o‘z ichiga oladi. Organik fermerlar tuproq unumdorligini saqlash uchun ekinlarni almashlab ekish, kompostlash va organik o‘g‘itlardan foydalanadilar Shuningdek, organik qishloq xo‘jaligi tabiiy muhitda hayot kechiradigan hayvonlarning yashash muhiti uchun qulay sharoit yaratadi, bu esa ekotizimlarning barqarorligini ta’minlaydi.

1 Gomiero, T. (2018). Food quality assessment in organic vs. conventional agricultural produce: Findings and issues. Applied Soil Ecology, 123, 714-728.; National Institute of Food and Agriculture. (2023). Organic agriculture. Retrieved from [NIFA website](https://www.nifa.usda.gov/topics/organic-agriculture)

Organik qishloq xo‘jaligining ahamiyati individual fermalar doirasidan chiqib, qishloq xo‘jaligi sektori, jamiyat va iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatadi. Uning qo‘llanilishi barqaror va barqaror qishloq xo‘jaligi tizimlarini yaratishga, oziq-ovqat ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga va karbon chiqindilarini kamaytirishga xizmat qiladi. Jamiyat nuqtayi nazaridan, organik qishloq xo‘jaligi sog‘lomroq oziq-ovqat tanlov imkoniyatlarini taklif qiladi va qishloq joylarda ish o‘rinlarini yaratib, ularning turmush darajasini oshiradi. Iqtisodiyotda, organik mahsulotlarga bo‘lgan talabning ortishi bozorning o‘sishiga va fermerlar hamda tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratishiga olib keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Organik qishloq xo‘jaligining iqtisodiy samaradorligi bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. 2022-yilda global organik oziq-ovqat va ichimliklar bozori 129 milliard AQSH dollarini tashkil etdi va bu o‘sish asosan pandemiya davrida iste’molchilarning sog‘lom mahsulotlarga bo‘lgan qiziqishi bilan bog‘liq. Organik qishloq xo‘jaligi qo‘l mehnatining ulushini oshirish orqali ijtimoiy ta’sir ko‘rsatadi. Nemis olimlarining tadqiqotlariga ko‘ra, organik fermalarda an’anaviy fermalarga nisbatan o‘rtacha mehnat sig‘imi 35-40 foizga yuqori bo‘lib, ayrim fermalarda bu ko‘rsatkich 17 dan 76 foizgacha yetgan[2]. Bu esa ko‘proq ish o‘rinlarini yaratish va qishloq joylardagi aholining bandligini ta’minlashga yordam beradi. Organik qishloq xo‘jaligining rivojlanishi bilan bog‘liq muammolar ham o‘rganilgan. Ushbu muammolar qatoridan organik o‘g‘itlarning past samaradorligi, zararkunandalar va kasalliklar bilan kurashishdagi qiyinchiliklar hamda yuqori mehnat xarajatlari o‘rin oladi.[3] Shuningdek, organik mahsulotlar narxining yuqori bo‘lishi ham muammo hisoblanadi, bu esa iste’molchilarning harid qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatadi[4].

Organik qishloq xo‘jaligida transformatsiya xarajatlari ko‘pincha yuqori bo‘ladi va bu jarayonda qo‘shimcha murakkabliklar yuzaga keladi. Kimemia va Oyare (2019) tadqiqotlarida qayd etilganidek, Keniyada organik qishloq xo‘jaligiga o‘tish jarayonida fermerlar yuqori boshlang‘ich investitsiyalarni talab qiladigan yangi uskunalar va organik o‘g‘itlarni sotib olishlari kerak. Bu xarajatlarni qoplash uchun fermerlar ko‘pincha davlat yoki xususiy tashkilotlardan subsidiya va grantlar olishlari zarur bo‘ladi[5]. Sharma (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda Hindistondagi fermerlarning organik qishloq xo‘jaligiga o‘tishda yuzaga keladigan xarajatlar tahlil qilingan[6]. Unga ko‘ra, fermerlar yuqori mehnat sig‘imi va past hosildorlik bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash uchun qo‘shimcha mablag‘ va vaqt sarflashlari kerak. Ammo, uzoq muddatda, organik fermerlik fermerlarga yuqori daromad va barqarorlikni ta’minlaydi. De Sousa va Dias (2020) tomonidan o‘rganilgan Braziliyadagi holatda, organik qishloq xo‘jaligiga o‘tish xarajatlari fermerlarning bilim va malakasiga bog‘liqdir[7]. Organik qishloq xo‘jaligi bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari va maslahatlar tashkil etilishi bu jarayonni yengillashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot organik qishloq xo‘jaligiga o‘tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzalliklarini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot ishida miqdoriy va sifatiy usullar qo‘llanildi. Miqdoriy usullar statistik ma’lumotlar va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, sifatiy usullar intervyu va kuzatuvlar orqali organik qishloq xo‘jaligiga o‘tishning iqtisodiy va ekologik samaradorligini aniqlashdan iborat.

Ma’lumotlar birlamchi va ikkilamchi manbalardan olindi. Birlamchi manbalarga fermerlar, qishloq xo‘jaligi mutaxassislari va siyosatchilar bilan o‘tkazilgan intervyular va suhbatlar kiradi. Ikkilamchi manbalar esa ilmiy maqolalar, hukumat hisobotlari, xalqaro tashkilotlarning ma’ruzalari va statistik ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Yig‘ilgan ma’lumotlar miqdoriy va sifatiy usullar orqali tahlil qilinadi. Miqdoriy tahlil statistik usullardan foydalanib, organik qishloq xo‘jaligiga o‘tish bilan bog‘liq iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qiladi. Sifatiy tahlil esa intervyu va kuzatuvlardan olingan ma’lumotlarni kontent tahlili usuli bilan o‘rganildi.

2 IFOAM. (2020). The World of Organic Agriculture: Statistics and Emerging Trends 2020. Retrieved from IFOAM website

3 National Institute of Food and Agriculture. (2023). Organic agriculture. Retrieved from [NIFA website](https://www.nifa.usda.gov/topics/organic-agriculture)

4 United States Department of Agriculture. (2022). Organic farming. Retrieved from [USDA website](https://www.usda.gov/topics/farming/organic-farming)

5 Kimemia, J., & Oyare, J. (2019). Costs and benefits of transitioning to organic farming in Kenya. African Journal of Agricultural Research, 14(8), 402-410.

6 Sharma, R. (2021). Economic implications of organic farming in India: A case study approach. International Journal of Agricultural Sustainability, 19(4), 425-437.

7 De Sousa, J., & Dias, R. (2020). Economic challenges of transitioning to organic farming in Brazil. Journal of Agricultural Economics, 71(2), 387-400.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda dunyo qishloq xo‘jaligi yerlarining taxminan bir yarim foizdan kuprog‘ida ekologik qishloq xo‘jaligi yuritiladi. Mintaqalar bo‘yicha jami qishloq xo‘jaligi yerlarining eng yuqori organik ulushi Okeaniya va Yevropa hisobiga to‘g‘ri keladi. Yevropa Ittifoqida qishloq xo‘jaligi yerlarining 6,2 foizi organik hisoblanadi.

1-jadval: Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda ekologik qishloq xo‘jaligi amaliyotlari yuritiladigan maydonlar ulushi (2023-yil)[8]

	Jami q/x yerlari, ming ga	sh.j., ekologik q/x maydonlar, ming ga	jamiga nisbatan, %
Afrika	1124047,18	2086,89	0,2
Janubiy Amerika	658163,03	10112,86	1,5
Shimoliy Amerika	465359,76	3744,21	0,8
Osiyo	1669495,01	6534,28	0,4
Yevropa	465979,35	16573,40	3,6
Avstraliya va Okeaniya	389383,29	35907,58	9,2
Dunyo bo‘yicha jami	**4772427,63**	**74959,21**	**1,6**

Organik qishloq xo‘jaligi yerlari mintaqalar bo‘yicha Avstraliya va Okeaniyada 35,8 million gektar, bu dunyodagi organik qishloq xo‘jaligi yerlarining deyarli 47,9 foiziga teng bo‘lib, Yevropada bu ko‘rsatkich 16,6 million gektarga tengdir. Lotin Amerikasida 10,1 million gektar (13,5%), undan keyin Osiyo 6,5 million gektar (8,7 %), Shimoliy Amerika 3,7 million gektar (5%) va Afrika 2,1 million gektar (2,8%)ni tashkil qiladi. 2022-yilda 2016 yilga nisbatan deyarli 17,3 million gektarga ko‘proq qishloq xo‘jaligi yerlarida organik dehqonchilik amalga oshirilgan. Bunda Avstraliyadan 8,5 million gektarga maydon ko‘paygan bo‘lsa, Urugvayda 65,5% va Hindiston 78,4% o‘sish kuzatilgan.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning ekologik usullaridan foydalanganda qo‘l mehnatining ulushi an’anaviy qishloq xo‘jaligiga nisbatan 50% yuqori bo‘lib, bu aholining ko‘proq bandligini ta’minlaydi. Bundan tashqari, qiymat zanjirida daromadning katta qismi savdo tarmog‘iga keladigan intensiv qishloq xo‘jaligidan farqli o‘laroq, organik dehqonchilikdan olingan daromad dehqonlar foydasiga ko‘proq taqsimlanadi.

Nemis olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ekologik xo‘jaliklarda an’anaviy fermalarga nisbatan o‘rtacha mehnat sig‘imi yuqori (35-40 foizga) bo‘lib, alohida olingan xo‘jaliklarda bu ko‘rsatkich 17 dan 76 foizgacha tebranadi. An’anaviy va ekologik fermalarda 1 gektar qishloq xo‘jaligi yerlariga nisbatan mehnat sarfi miqdori ularning hajmiga bog‘liq ravishda o‘zgarib turadi. Fermer xo‘jaligi qancha katta bo‘lsa, ishchi kuchi sarfi shunchalik kamroq bo‘ladi: 30-50 gektar o‘lchamdagi alternativ xo‘jaliklarda ishchi kuchiga ehtiyoj an’anaviy xo‘jaliklarga qaraganda 20% ga yuqori; 10-20 ga – 33 % ga; 5-10 ga – 84% ga; 2-5 ga-140% ga yuqoriligi aniqlandi[9].

Ushbu tendensiyani Samarqand viloyati Jomboy tumanidagi “Abdusalom ota hosili” fermer xo‘jalik sharoitida, quritilgan meva ishlab chiqarish sohasida olib borgan tadqiqotlarimiz tasdiqlaydi. Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibidagi mehnat xarajatlari ulushi 56,4% ni tashkil etdi, bu meva mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlashda qo‘l mehnatining ulushi yuqori ekanligi bilan bog‘liq.

Biroq, yuqorida aytib o‘tilgan omillarga qaramay, Samarqand viloyati sharoitida bizning tadqiqotlarimiz tasdiqlagan xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, organik tranasformatsiya jarayoni katta qo‘shimcha investitsiyalarni talab qilmaydi va asosan texnologik ishlab chiqarish jarayonlarining o‘zgarishi bilan cheklanadi.

Mamlakatimiz ekologik xo‘jaliklarning, shuningdek Yevropa mamlakatlarining amaliy natijalarini nazariy o‘rganish va tahlil qilish alternativ qishloq xo‘jaligidagi fermer xo‘jaliklarining rentabelligi mahsulot narxiga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda.

8 Food and Agriculture Organization of United Nation. (2022, 08 06). FAOSTAT. Retrieved from fao.org: https://www.fao.org/faostat/en/#data/RL

9 Никитина З. В. (2005). Теоретические и организационные основы экологического сельского хозяйства. Великие Луки.; Парахин Н. А. (1996). Опыт по биологизации земледелия. (1); Прижуков Ф. Б., Черепанов Г. Г. (1991). Альтернативное земледелие: опыт и проблемы. В Ф. Б.. Москва: НИИИТЭИ, Агропромиздат.

Texnologik jarayonni tashkil etish xususiyatlari ekologik xo‘jalikga o‘z mahsulotlariga narxlarni oshirishga olib keladi. Buning sababi, boshqaruvning ushbu usuli bilan tuproq unumdorligini oshirish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, tuproqni eroziyadan, suv havzalarini pestitsidlar bilan ifloslanishdan himoya qilinib, buning uchun ishlab chiqarishni an’anaviy prinsipga muvofiq tashkil etuvchi fermer xo‘jaligi qo‘shimcha mablag‘larni sarf qilishi kerak. Bundan tashqari, ekologik xo‘jalik raqobatbardosh sifatli mahsulotlar ishlab chiqaradi.

Germaniyada ekologik va an’anaviy ishlab chiqarilgan hamda O‘zbekistonda an’anaviy ishlab chiqarilgan mahsulotlarining o‘rtacha iste’mol narxlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval: Ekologik va an’anaviy mahsulotlar narxi, kg/yevro[10]

Mahsulot	Ekologik	An’anaviy	O‘zbekistonda*	An’anaviyga nisbatan ekologik mahsulot bahosi, %
Mol go‘shti	15,16	12,98	6,6	116,8
Bug‘doy uni	1,19	0,79	0,73	150,6
Shakar	3,38	1,49	1,1	226,8
Pomidor qaylasi	1,98	1,7	1,17	116,5
Sut	1,35	1,15	0,9	117,4
Tuxum (30 dona)	3,19	2,29	3,23	139,3
Qora non	5,16	3,98	1,69	129,6
Yeryong‘oq	9,16	6,23	2,78	147,0
Bulg‘or qalampiri	7,48	4,98	4,62	150,2
Piyoz	1,99	1,79	0,22	111,2
Sabzi	1,79	1,69	0,31	105,9
Banan	1,79	1,29	1,32	138,8

*(Samarqand shahridagi supermarketlarda 2023-yil oktyabr-2024-yil mart oylaridagi o‘rtacha narxlar)

Ekologik mahsulotlarining narxiga mahsulotlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki vositachilar orqali sotish ta’sir ko‘rsatadi. To‘g‘ridan to‘g‘ri xo‘jalikda sotib olayotganda, iste’molchi mahsulotning ekologik usulda olinishining eng yuqori kafolatini oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Adabiyotlar tahlili va xorijiy tajribani o‘rganish qilish ushbu boshqaruv usuli quyidagi omillar tufayli ishlab chiqarishning ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirishga yordam beradi, degan xulosaga kelishimizga imkon berdi:

- mahsulotlarning yuqori sifati va savdo kanallari orqali tarqatilganda vositachilar sonining kamayishi xarajatlarni kamaytirish va o‘z bozorini rivojlantirishga yordam beradi;
- kimyoviy vositalar sarflarini kamaytirish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish, uni boshqa davlatlardan import qilinadigan ekologik mahsulotlarga nisbatan raqobatbardosh qiladi;
- xarid narxlarining yuqoriligi ishlab chiqarishni rentabelliligini ta’minlaydi;
- qishloq xo‘jaligidagi yerlardan oqilona foydalanish va biologik texnologiyalardan foydalanish ularning mahsuldorligi va ishlab chiqarish barqarorligini oshirishi mumkin;
- qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish imkonini beradi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, ekologik qishloq xo‘jaligi – bu odamlar va atrof-muhit o‘rtasidagi uyg‘unlikni saqlashga qaratilgan tabiiy resurslarga ta’sir qilish tizimi. U sog‘lom va muvozanatlashgan ekotizimni qo‘llab-quvvatlaydi.

10 Шахсий кузатувлар асосида муаллиф ишланмаси

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. De Sousa, J., & Dias, R. (2020). Economic challenges of transitioning to organic farming in Brazil. Journal of Agricultural Economics, 71(2), 387-400.
2. Gomiero, T. (2018). Food quality assessment in organic vs. conventional agricultural produce: Findings and issues. Applied Soil Ecology, 123, 714-728.
3. IFOAM. (2020). The World of Organic Agriculture: Statistics and Emerging Trends 2020. Retrieved from IFOAM website.
4. Kimemia, J., & Oyare, J. (2019). Costs and benefits of transitioning to organic farming in Kenya. African Journal of Agricultural Research, 14(8), 402-410.
5. National Institute of Food and Agriculture. (2023). Organic agriculture. Retrieved from [NIFA website](https://www.nifa.usda.gov/topics/organic-agriculture).
6. Sharma, R. (2021). Economic implications of organic farming in India: A case study approach. International Journal of Agricultural Sustainability, 19(4), 425-437.
7. United States Department of Agriculture. (2022). Organic farming. Retrieved from [USDA website](https://www.usda.gov/topics/farming/organic-farming)
8. Никитина З. В. (2005). Теоретические и организационные основы экологического сельского хозяйства. Великие Луки.
9. Парахин Н. А. (1996). Опыт по биологизации земледелия. (1)ю
10. Прижуков Ф. Б., Черепанов Г. Г. (1991). Альтернативное земледелие: опыт и проблемы. В Ф. Б.. Москва: НИИИТЭИ, Агропромиздат.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



KORXONALARDA UZUMCHILIK MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQARISHDA STRATEGIK BOSHQARISHDA MINTAQAVIY KLASTER MODELLASHTIRISHDAN FOYDALANISH

Muhitdinov Asror Akobirovich
Toshkent davlat transport universiteti
“Transport iqtisodiyoti” kafedrasi
mustaqil izlanuvchi

UDK: 353.2
ORCID: 0009-0009-0775-241X

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasi qishloq ho‘jalik sanoatida uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda iqtisodiy rivojlanishining ustvor yo‘nalishlaridan biridir. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni strategik boshqarishda modellashtirish masalasi tobora dolzarb bo‘shlib qolmoqda. Umuman olganda, strategik boshqaruv jarayoni evolyutsion xususiyatga ega va bozor iqtisodiyotiga ega bo‘lgan har bir davlat uchun zarurdir. Uzumchilik va vinochilik korxonalarida ishlab chiqarishni strategik boshqarishda tizimli klasterli modellash sohasidagi ilmiy kuzatuvular natijalari ishlab chiqarish jarayonining tashkiliy va ishlab chiqarish zanjirini shakllantirishga strategik yondashuvni aniqlaydi.

Kalit so‘zlar: klaster, modellashtirish, uzumchilik va vinochilik, mintaqa, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract: The production of grape products in the agro-industrial complex of the Republic of Uzbekistan is one of the priority areas of economic development. The issue of modeling in strategic production management at industry enterprises is becoming increasingly relevant. In general, the process of strategic management is evolutionary and is necessary for every state with a market economy. The presented results of scientific observations in the field of system cluster modeling in strategic production management at viticulture and winemaking enterprises will allow us to determine a strategic approach to the formation of a systemic organizational and production chain of the production process.

Key words: cluster, modeling, vine and wine industry, region, economic development.

Аннотация: Производство виноградной продукции в агропромышленном комплексе Республики Узбекистан является одним из приоритетных направлений экономического развития. Все большую актуальность приобретает вопрос моделирования в стратегическом управлении производством на предприятиях отрасли. В целом процесс стратегического управления является эволюционнім и необходим каждому государству с ріночной экономикой. Приводимые результаты научных наблюдений в сфере системного кластерного моделирования в стратегическом управлении производством на предприятиях виноградарства и виноделия позволят определить стратегический подход к формированию системной организационно-производственной цепочки производственного процесса.

Ключевые слова: кластер, моделирование, виноградарство и виноделие, регион, экономическое развитие.

KIRISH

Bugungı kunda Yangi O‘zbekiston rivojlanısh jarayonida qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lib bunda, ishlab chiqarishni klasterli modellashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda [1]. Mamlakatimiz iqtisodiy fanida “klaster” tushunchasi, uning mohiyati, ahamiyati va mazmuni respublika bozor iqtisodiyoti uchun nisbatan yangi bo‘lganligi sababli bir qator iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish talab etiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida aniq va samarali mintaqaviy siyosatni ishlab chiqish zarurati tug‘iladi. Klaster modellashtirish hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishga, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishni har tomonlama rivojlantirishga, mahalliy tadbirkorlik uchun shart-sharoit yaratishga, ichki ijtimoiy muammolarni, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammolarini hal qilishga asoslanadi [2].

Tabiiy va iqtisodiy sharoitlarning xilma-xilligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli darajalari maqsadli mintaqaviy siyosat zarurligini oldindan belgilab beradi, ammo hududiy rejalashtirishning eski vositalari endi ishlamayapti, bozor munosabatlariga mos keladigan yangisi esa haligacha amalga oshirilmagan, to‘liq shakllangan. Lekin bozor mexanizmlari har doim ham hududiy iqtisodiyotning samaradorligiga erisha olmaydi. Umuman olganda, ilmiy asoslangan mintaqaviy siyosatsiz sanoat iqtisodiyotining yuksalishi mumkin emas [3, 9].

Strategiyani amalga oshirish va rejalashtirish amaliyotidagi rolini tahlil qilish uchun zamonaviy va tez-tez o‘ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarga nisbatan atamalarning kontekstualizatsiyasi talab qilinadi [10, 11, 12, 13].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Har bir tarmoq o‘zining rivojlanish salohiyatini maksimal darajada oshirish va aholi farovonligini oshirish uchun real imkoniyatga ega bo‘lishi kerak. Shunga muvofiq, respublikada tarmoq korxonalari tashabbusi uchun maydon ochib, mustaqil boshqaruv uchun iqtisodiy sharoitlarni tenglashtirishga yordam beradigan samarali klaster modelini joriy etish zarur [4].

Tarmoq ishlab chiqarish jarayonini klasterli modellashtirishning asosiy maqsadi ijtimoiy-iqtisodiy faollik, farovonlik va resurslar taqsimotidagi mavjud nisbat va tendensiyalarni o‘zgartirish, ya’ni mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan tengsizliklarni minimallashtirishdir.

Mintaqaviy iqtisodiy tarmoq siyosati ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning adekvat tizimini yaratish, hududni shaharlar va transport tarmog‘ining kombinatsiyasi shaklida rivojlantirish va urbanizatsiya jarayonini tartibga solish asosida ishlab chiqaruvchi kuchlarning yanada bir xil taqsimlanishini ta’minlaydi. fazoviy jihat. U hududiy ierarxiyaning turli darajalarida iqtisodiyotni kompleks rivojlantirishda mahalliy tashabbusga, keng huquq va imkoniyatlarga tayanadi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan, klaster – bu o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turli sohalardagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar yig‘indisi bo‘lib, yagona tashkiliy va texnologik tuzilmani ifodalaydi, ularning elementlari ma’lum bir maqsad uchun kichik maqsadlar bilan birga ishlaydi. Bir nechta mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektlardan samarali texnologik zanjirlarni shakllantirish strategik hodisa bo‘lib, ularni amalga oshirish uchun ma’lum uzoq muddatli investitsiyalarni talab qiladi. Bunday o‘zaro ta’sir subyektlarning har biri uchun qo‘shimcha imtiyozlarga olib keladi va yagona ishlab chiqarish tizimini shakllantirish uchun ma’lum bir rag‘bat yaratadi.

Uzumchilikka nisbatan klaster tarkibiga uzum yetishtirishdan tortib, ichki va tashqi bozorlarda tayyor mahsulotni sotishgacha bo‘lgan ishlab chiqarish va texnologik jarayonda ishtirok etuvchi barcha korxonalar kiritilishi kerak.


Taklif etilayotgan mintaqaviy klaster modeli qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun umumiydir. Har bir aniq mintaqaviy klasterning tuzilishi uning vazifasi va texnik xususiyatlariga bog‘liq. Yuqoridagi komponentlar asosida agrosanoat klasterining quyidagi umumiy modelini taklif qilishimiz mumkin (1-rasm).

Tarmoqli iqtisodiyotning klaster rivojlanishi biznes vositasidir. Bozorga yo‘naltirilgan jamiyat yangi qonunlar chiqarish orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyat ko‘rsatish qoidalarini shakllantiradi; subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish; bank sektori, yordamchi institutlar va boshqalarni yaratishga hissa qo‘shadi. Binobarin, klaster – bu bir hududda jamlangan, bitta ishlab chiqarish zanjirini tashkil etuvchi kichik va yirik korxonalarning muvaffaqiyatli rivojlanishiga imkon beruvchi uyushgan makonning alohida qiyofasi [6].

Uzumchilik mahsulotlarni klasteri qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish tarmoqlari o‘rtasidagi tarmoqlararo o‘zaro aloqani ifodalaydi. Ushbu klasterning rivojlanishi mintaqaning salohiyatiga, jumladan, raqobatbardosh uzum navlarini yetishtirish imkoniyatlariga, shuningdek, ishchi kuchining mavjudligi, innovatsiyalar darajasi va boshqalarga bog‘liq.

Mintaqaviy iqtisodiy tarmoq siyosatining asosiy maqsadi ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatni, boyliklarni va resurslarni taqsimlashda mavjud nisbatlar va tendensiyalarni o‘zgartirish, ya’ni mamlakat hududlari o‘rtasida mavjud bo‘lgan tengsizliklarni minimallashtirishdir.

Zamonaviy mintaqaviy iqtisodiy tarmoq siyosati liberallashtirish va hududlarning o‘z imkoniyatlaridan to‘liqroq foydalanishni rag‘batlantirish bilan tavsiflanadi. Hududlarni rivojlantirish maqsadlari, birinchi navbatda, sanoat korxonalari manfaatlariga mos kelishi kerak. Bu yerda esa hukumat, vazirliklar, idoralar tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlar oldiga qo‘ygan davlat ahamiyatiga molik maqsadlar bilan hududiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadlarni aniq ajratib ko‘rsatish zarur. Ayniqsa, milliy va mintaqaviy manfaatlarning optimal uyg‘unligini topish muhim.



1-rasm: Mintaqaviy agrosanoat klasterining umumiy modeli

Chizma muallif tomonidan tuzilgan.

Mintaqaviy iqtisodiy tarmoq siyosatining vazifalarini aniq belgilash va ularni hal qilishning tegishli vositalarini tanlash uchun ishlab chiqarish tengsizliklarining sabablarini aniqlash, ya›ni aralashuv obyektlarini belgilash kerak, ular quyidagilardan iborat:

- hududlarda bir xil bo‘lmagan tabiiy-iqlim sharoitlari;
- tabiiy resurslardan foydalanish;
- mintaqadagi transport yo›llarining holati va mavqei, buning natijasida transport xarajatlari oshadi, narxlar ko‘tariladi va sotish bozori torayadi;
- klaster modeli ishtirokchilari o‘rtasidagi transport va aloqa aloqalarining zaifligi;
- ishlab chiqarish tuzilmasining eskirganligi, innovatsiyalarni joriy etishning kechikishi;
- tarmoqlararo kuchli aloqalar va aholining haddan tashqari ko‘payishi;
- ishlab chiqarishning ayrim turlariga ta’sir etuvchi texnologik rivojlanish modelining yo‘nalishi;
- ishlab chiqarish infratuzilmasi, ya’ni. iqtisodiyot tarmoqlarini joylashtirishning fizik omillari;
- korxonalar ustidan katta tashqi nazorat yoki mahalliy tadbirkorlar tomonidan tashkil etilgan korxonalarning kichik ulushi;
- ijtimoiy-madaniy omillar.

Loyihalash va rejalashtirish, strategik boshqaruvning klaster tizimiga asoslangan milliy modelni xalqaro standartlar bilan solishtiradigan bo‘lsak, yirik sanoat kompaniyalari vakillarida strategik menejment modelini takomillashtirishga qiziqish ortib borayotgani namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, strategik menejment jarayoni evolyutsion xarakterga ega bo‘lib, bozor iqtisodiyotiga ega bo‘lgan har bir davlat uchun zarurdir, chunki o‘zaro bog‘langan sanoat ishlab chiqarishining strategik boshqaruvi respublika milliy iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish zarurati va mamlakat iqtisodiyotiga kirishi bilan bog‘liq holda shakllanadi. mahsulotlarni xalqaro bozorga chiqarish. Ushbu maqsadga erishish uchun tashqi investorlar tomonidan baholanadigan strategik boshqaruv atributlari joriy etilmoqda. Lekin investor ishonchini saqlab qolish uchun uzumchilik va vinochilik ishlab chiqarish va texnologik klasterini strategik boshqarishda klaster rejalashtirishni optimallashtirishning yanada samarali modellarini shakllantirish zarur.

Tarmoqni iqtisodiy rivojlantirishning klaster modelini amalga oshirish tizimi hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishni, uning amalga oshirilishini ta'minlaydigan qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarni, iqtisodiy tartibga soluvchilarni, shuningdek, tarmoqni rivojlantirishni tartibga solishning dasturiy-maqsadli usullarini o'z ichiga oladi.

Bozor iqtisodiga ega mamlakatlarda davlatning mintaqadagi tarmoqlarni rivojlantirishga aralashuvining ikkita asosiy maqsadi belgilangan:

1. Adolat – bu ishlab chiqarishda ishtirok etayotgan barcha kishilar istalgan farovonlikka erishish uchun ozmi-ko'pmi teng imkoniyatlarga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyatning klaster modelidir;
2. Milliy farovonlikni oshirish maqsadida har bir korxonaning ishlab chiqarish salohiyatidan oqilona foydalanishni taqozo etuvchi samaradorlik [7].

Tarmoqni rivojlantirish davlat dasturini ishlab chiqishda tizimli klaster yondashuvi metodologiyasidan foydalanish odatda quyidagi bosqichlar ajratiladigan model bo'yicha amalga oshiriladi:

- rivojlanish maqsadlarini belgilash;
- ko'zlangan maqsadlarni ishlab chiqish va ularga erishish;
- resurslarga bo'lgan ehtiyojni hisoblash va ularni taqsimlash;
- umumiy tizim bo'g'inlarini modellashtirish;
- tizimning ishlashi mezonlarini aniqlash.


Tizimli yondashuv o'ziga xos namoyon bo'lish shakllarida juda xilma-xil bo'lib, muntazam boshqaruv usullariga nisbatan umumiy metodologiyadan boshlab va murakkab iqtisodiy modellar, iqtisodiy faoliyatni tahlil qilish va qarorlar qabul qilish uchun avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish bilan yakunlanadi. Tizimli yondashuv, bir tomondan, aniq ishlab chiqarish maqsadlarini belgilovchi, ijtimoiy zaruriy xarajatlar va ularni taqsimlashning tartibga soluvchisi sifatida bozor mexanizmining kamchiliklarini bartaraf etishga imkon beradi; ikkinchi tomondan, bozor munosabatlari negizida vujudga kelib, bozor ehtiyojlarini hisobga olish bilan bir qatorda xarajat toifalaridan ham takomillashtirilgan foydalanishni nazarda tutadi. Shu sababli, tizimli yondashuv iqtisodiy jarayonlarni bozor va hisob-kitob-normativ kategoriyalar orqali boshqarish uchun ularni tahlil qilishning o'ziga xos usuli sifatida ishlaydi.

Sanoat rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishni asoslash jarayonida klaster tizimi yondashuvining quyidagi bosqichlari ajratiladi:

- hududiy tarmoq iqtisodiyotini rivojlantirish muammolarini aniqlash;
- hududiy tarmoq iqtisodiyotini rivojlantirishning umumiy maqsadlarini shakllantirish;
- sanoat ishlab chiqaruvchi kuchlarining hududiy tashkil etilishini asoslash;
- hududiy tarmoq iqtisodiyotini rivojlantirishda belgilangan maqsad va modellarga erishish yo'llarini aniqlash;
- resurslarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash va ularni tarmoqlar o'rtasida taqsimlash;
- sanoatning iqtisodiy tizimining strukturasini modellashtirish;
- hududiy tarmoq iqtisodiy tizimi faoliyatining samaradorligi mezonlarini asoslash.

Matematik hisob-kitoblarga asoslangan tizimli faoliyat metodologiyasi taklif etilayotgan chora-tadbirlarning ishonchliligini oshirishni ta'minlaydi va tarmoq rivojlanishini va unda bozor munosabatlarini shakllantirishni davlat tomonidan tartibga solish vositasi hisoblanadi.

Iqtisodiy rivojlanishni asoslashda tizimli klaster yondashuvi va uning usullaridan foydalanish individual faoliyatni ko'rib chiqishdan har bir bosqichda barcha elementlarning birligi, yo'naltirilganligi va o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishga o'tish imkonini beradi (2-rasm).



2-rasm: Qishloq xo'jaligi va sanoat tarmog'ini rivojlantirishni klaster tizimini modellashtirish elementlari[1]

1 Rasm muallif tomonidan tuzilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Strategik boshqaruvni takomillashtirishsiz sanoatning iqtisodiy rivojlanishini tasavvur qilib bo‘lmaydi, chunki zamonaviy korxonalar tashqi muhit bilan turli xil munosabatlarning keng doirasiga kiritilgan va turli xil ichki tuzilmalarga ega bo‘lgan murakkab ijtimoiy obyektlardir.

Tashkiliy tuzilmani tashkil etuvchi elementlarning tartibi va turli resurslarning mavjudligi maqsadlarni amalga oshirish darajasini belgilaydi. Korxonaning maqsadi ishlab chiqarish orqali maksimal foyda olish bo‘lganligi sababli, maqsadlar tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sir qilish orqali ularni hal qilishga erishish mumkin. Korxonaning barcha tarkibiy ichki elementlarining o‘zaro bog‘liqligi korxonaning o‘ziga xos modeli ko‘rinishida yagona ishlab chiqarish zanjiri tizimi doirasida ichki va tashqi ishlab chiqarish muhitini belgilaydigan o‘zaro bog‘liq model elementlari to‘plami sifatida taqdim etilishi mumkin.

Mintaqaviy iqtisodiy tarmoqni rivojlantirish uchun qabul qilingan hududiy iqtisodiy tarmoq siyosatiga muvofiq faoliyat yurituvchi, hududiy iqtisodiyotning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilishni talab qiluvchi boshqa hududlardan farq qiluvchi hududiy iqtisodiy tarmoq aloqalarini shakllantirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ishlab chiqarishni tizimli klaster tashkil etish va eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlarni muvaffaqiyatli sotish bo‘yicha nazorat tutqichlari eksportga yo‘naltirilgan texnik uzumchilikni rivojlantirish sharti bilan uzum va vinochilik tarmog‘ining mamlakatimiz iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ta’sirini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Taklif etilayotgan tizimli klaster innovatsion yondashuvi O‘zbekiston Respublikasi Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligining loyihalashtirilgan va joriy tarmoq xo‘jaligini boshqarish tizimini takomillashtirish imkonini beradi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi 5853-son “O‘zbekiston Respublikasining qishloq xo‘jaligini 2020–2030-yillarda rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ijrosiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26-yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishdagi ma’ruzasi // “Xalq so‘zi”, 2018-yil 12-son, 253-son.
2. Shibaeva T.A. Klasterno - setevoe upravlenie regionalnoy ekonomikoy. Institutsionalnie i infrastrukturnie aspekti razvitiya razlichnix ekonomicheskix sistem // Sbornik statey mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii: v 2 chastyax. Chast 2. Ufa Izdatelstvo: OOO “Aeterna” 2017, S.232-235.
3. Dragnev V. Strategiya razvitiya vinodelcheskoy otrasli Respubliki Moldova na baze agro-promishlennoy integratsii. Diss.k.e.n., Texnicheskiy universitet Moldovi 2006g.
4. Shafkarov B. Razvitie proizvodstva produksii eksporta v vinogradarskoy otrasli Respubliki Uzbekistan // Ekonomika i finansi.– M. 2009. №8. S.31-33.
5. Makladirova A.S., Babashkina L.M. Upravlenie effektivnostyu funksionirovaniya regionalnix visokotexnologichnix klasterov. – Novosibirsk: Prosveщenie, 2003.
6. Larionova N.A. Klasterniy podxod v upravlenii konkurentosposobnostyu regiona // Ekon. vestnik RGU. – 2007. №1. S.182.
7. Sadikov A.M. Osnovi regionalnogo razvitiya: teoriya, metodologiya, praktika: Monografiya – T. Iktisod va moliya, 2005 – 280 s.
8. Durmanov A., Tabayev A., Saidakmal Kasimov S.S., Methodology for Calculating Maximum Income in the Greenhouse Economy. AIP Conference Proceedings, 2023.https://www.scopus.com/sourceid/26916?origin=resultslist.
9. Kasimov Saidakmal, Kholikova Rukhsora. Classification of enterprise goals in strategic management at cotton processing complex. Journal of Critical Reviews. 7 (6) 2020. https://www.jcreview.com/paper.php?slug=classification-of-enterprise-goals-in-strategic-management-at-cotton-processing-complex.
10. De Andreis, F. (2019) The Principles behind a Strategic Plan. Open Journal of Applied Sciences, 9, 240-245. doi: 10.4236/ojapps.2019.94020.
11. Dimitrou, H.; Thomson R. (2007): Strategic Planning for Regional Development in the UK, A review of principles and practices, Routledge
12. Forrester, J.W. (1992) Policies, Decisions and Information Sources for Modeling. European Journal of Operation Research, 59, 42-63. http://dx.doi.org/10.1016/0377-2217(92)90006-U.
13. Ljiljana Vasilevska. Strategic planning as a regional development policy mechanism: European context. SPATIUM International Review. No. 21, December 2009, p. 19-26.

QASHQADARYO VILOYATIDA ISHSIZLIK DARAJASINI ISTIQBOLDA KAMAYTIRISH SSENARIYLARI

UDK 316.334.2

Djumayev Zayniddin Axmedovich
TMCI “Iqtisodiyot, huquq va boshqaruv” kafedrasi mudiri

Hamdamov Shahzod Ilhom o‘g‘li
TMCI “Iqtisodiyot, huquq va boshqaruv” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini qisqartirishning ustuvor yo‘nalishlari va kelgusi davr uchun prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, prognozlash davomida Qashqadaryo viloyatining 2004–2023-yillar mobaynida ishsizlik darajasi va ko‘rsatkichlari trend ma’lumotlari o‘rganilgan hamda statistik vaqtlar qatori uslubi orqali polinomial regressiya usulida prognoz modeli hisoblab chiqilgan. Tadqiqot natijalariga asosan maqolada mintaqadagi ishsizlik darajasini pasaytirish bo‘yicha taklif vaa tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ishsizlik, ishsizlik darajasi, YAHM, bandlik, bandlik darajasi, aholi daromadlari, kambag‘allik darajasi.

Abstract: The article develops priorities for reducing unemployment in the Kashkadarya region and forecast indicators for the coming period. Also, when forecasting, data on trends in the unemployment rate and indicators of the Kashkadarya region for 2004–2023-were studied and a forecast model was calculated using the polynomial regression method using the method of statistical time series. Based on the results of the study, the article developed proposals and recommendations to reduce the unemployment rate in the region.

Key words: unemployment, unemployment rate, GDP, employment, employment level, population income, poverty level.

Аннотация: В статье разработаны приоритеты снижения безработицы в Кашкадарьинской области и прогнозные показатели на ближайший период. Также при прогнозировании были изучены данные о тенденциях уровня безработицы и показателей Кашкадарьинской области за 2004–2023-годы и рассчитана модель прогноза методом полиномиальной регрессии с использованием метода статистических временных рядов. По результатам исследования в статье разработаны предложения и рекомендации по снижению уровня безработицы в регионе.

Ключевые слова: безработица, уровень безработицы, ВВП, занятость, уровень занятости, доходы населения, уровень бедности.

KIRISH

Ma’lumki, ishsizlik darajasi har bir mintaqaning iqtisodiy taraqqiyotini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mintaqalarda ishsizlik darajasining yuqori bo‘lishi mamlakat iqtisodiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, ishsizlikning yuqori darajasi tufayli hududlar aholisining iste’mol xarajatlari kamayishi ortidan oziq-ovqatlar va tovarlar ishlab chiqarish sanoati hajmida uzilishlar, aholi daromadlarining kamayishi ortidan hududiy kambag‘allik darajasining ortishi, yalpi hududiy mahsulot hajmining qisqarishi ortidan hududning iqtisodiy o‘sishining boshqa hududlarga nisbatan orqada qolishi kabi iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Shunday ekan, hududiy ishsizlik darajasini tadqiq qilish va kelgusidagi o‘zgarishlarni prognozlar orqali mintaqalarda ishsizlik darajasini kamaytirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish har bir mintaqa iqtisodiyoti oldida turgan dolzarb masaladir.

Mazkur tadqiqot ishi mazmuniga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasining kelgusi yillardagi o‘zgarish tendensiyani tahlil qilish va prognozlash natijalariga asosan taklif va tafsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidetining 2023-yil 30-apreldagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”[1]gi PF-158-son Farmonida “Aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug‘urta tizimini takomillashtirish” masalasiga o‘rg‘u berilgan bo‘lib 2030-yilga qadar mamlakatda ishsizlik darajasini 7 foizga qisqartirish belgilab qo‘yilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni ijrosi yuzasidan 2022-yilning 20-aprel sanasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2022–2026-yil-

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidetining 2023-yil 30-apreldagi ““O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. URL: https://lex.uz/ru/docs/6600413

larda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida[2]”gi 201-son qarorida viloyatdagi ishsizlik darajasini 7,6 foizgacha qisqartirish ko‘zda tutilganligi tadqiqot ishining tashkiliy-huquqiy jihatdan ham o‘ta dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy ishsizlik darajalarini prognozlashning bir qator usullari mavjud bo‘lib, eng ko‘p tarqalgani polinomial regressiya usulidir. Mazkur usuldan Ruminiyalik tadqiqotchi Lukianenko “2021–2022-yillarda Ruminiyadagi ishsizlik darajasini modellashtirish va bashorat qilishda turli xil bir o'zgaruvchan prognozlash usullarining qiyosiy tahlili[3]” maqolasida sharqiy Yevropada va Ruminiyada ishsizlik darajalarini prognoz qilishda foydalangan. Shuningdek, Hindistonlik tadqiqotchi Chakraborty “Ishsizlik darajasini prognozlash: LSTM-GRU gibrid yondashuvi[4]” nomli maqolasida mazkur uslubga to‘xtalib o‘tgan. Mazkur usulda hududiy ishsizlik darajasini tahlil qilish va prognoz qilishda Martin Ravalionning qator ilmiy ishlari o‘rganib chiqildi. Jumladan, M. Ravallionning “Qashshoqlikni taqqoslash: tushunchalar va usullar bo‘yicha qo‘llanma[5]” (2001) kitobida polinomial regressiya usulida prognoz modeli orqali kambag‘allikni o‘lchash va tahlil qilishning keng qamrovli sharhini, jumladan, vaqt qatorlarini prognozlash bo‘yicha munozaralarni taqdim etadi. Garchi M. Ravalion ishsizlik darajasini prognoz qilishda ushbu usul foydalanmagan bo‘lsada, boshqa omillar o‘zgarishsiz bo‘lgan holda ishsizlik darajasini prognozlashda mazkur usul o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot mobaynida Qashqadaryo viloyatining ishsizlik darajasi tahlil qilinib, 2022–2004-yillardagi ko‘rsatkichlarni hisobga olgan xolda 2030 yilga qadar istiqbol ko‘rsatkichlar ishlab chiqildi. Prognozlash davomida Qashqadaryo viloyatining 2022–2004-yillar mobaynida ishsizlik darajasi ko‘rsatkichlari trend ma’lumotlari o‘rganildi va polinomial regressiya usulida prognoz modeli hisoblab chiqilgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati hokimligining 2030-yilgacha viloyatda ishsizlik darajasini qisqartirish bo‘yicha tayyorlagan hisobot ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy tahlil qilingan. Ya’ni, tahlil natijalari ikki xil ssenariyda taqdim etiladi. Birinchisi, muallif tadqiqoti natijalariga asoslangan prognozlar bo‘lsa, ikkinchisi viloyat hokimligi prognoz ko‘rsatkichlari asosidagi ssenariylardan iborat.

Polinomial regressiya usulida ma’lumotlarni prognozlash bir qancha afzalliklarga ega. Polinomial regressiya usulining asosiy afzalliklaridan biri uning moslashuvchanligidir. Modelga yuqori tartibli shartlarni qo‘shish orqali biz mustaqil va qaram o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi murakkabroq munosabatlarni o‘rganishishimiz mumkin[6]. Shuningdek, polinomial regressiya usuli orqali prognozlash noaniqlik va dispersiyani kamaytirish orqali modelning aniqligini oshiradi. Polinomial regressiya modellari chiziqli modellarga qaraganda murakkabroq bo‘lsada, ular talqin qilinishi va vizualizatsiya qilinishi osonroq. Masalan, biz polinom funksiyaning egri chizig‘ini chizishimiz va mustaqil o‘zgaruvchining qiymatlari ortishi bilan uning qanday o‘zgarishini kuzatishimiz mumkin. Har bir atamaning umumiy muvofiqlikka qo‘shgan hissasini tushunish uchun modelning koeffitsiyentlarini ham ko‘rib chiqishimiz mumkin. Polinomial regressiya usulida ma’lumotlarni prognozlashda boshqa omillarning o‘zgarishi hisobga olinmaydi va ko‘rsatkichlarning umumiy o‘zgarish tendensiyalariga asoslanib istiqbol ko‘rsatkichlari belgilanadi.

Polinomial regressiya usulida prognoz modeli tenglamasi quyidagi ko‘rinishda:

$$y = a \times e - bx$$

bu yerda:
y – qaram o‘zgaruvchi.
x – mustaqil o‘zgaruvchi.
a – regressiya chizig‘i uchun Y o‘qining kesishishi.
b – regressiya chizig‘ining qiyaligi
e – (Eyler soni) tabiiy logarifmning asosini ifodalaydi.

2 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.04.2022-yildagi “2022–2026-yillarda kompleks Qashqadaryo viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 201-sonli qarori.

3 Лукианенко ва бошқалар., (2019). “Comparative Analysis of Different Univariate Forecasting Methods in Modelling and Predicting the Romanian Unemployment Rate for the Period 2021–2022”. URL: https://labourmarketresearch.springeropen.com/articles/10.1186/s12651-023-00345-8 https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC8000965/

4 Чакрабортй ва бошқалар., (2021). “Unemployment rate forecasting: LSTM-GRU hybrid approach”. URL:

5 Ravallion, M. (2001). Poverty Comparisons: A Guide to Concepts and Methods. Living Standards Measurement Study Working Paper No. 88. The World Bank.

6 Advantages Of Polynomial Regression. URL: https://fastercapital.com/topics/advantages-of-polynomial-regression.html

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma’lumotlariga asosan, 2023-yil yakunlari ko‘ra mamlakatimizda ishsizlik darajasi 6,8 foizni tashkil etgan holda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 foizga qisqargani ma’lum qilindi7. Statistika agentligi ma’lumotlariga asosan Qashqadaryo viloyati 2022-yil yakunlariga ko‘ra mamlakatimizning ishsizlik darajasi eng yuqori bo‘lgan hududlaridan biri bo‘lib, 9,3 foiz ko‘rsatkichda qayd etilgan. Shunday ekan, viloyatdagi ishsizlik darajasini istiqboldagi ko‘rsatkichlarini prognozlash masalaga yanada teranroq qarash imkonini taqdim etadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, tahlil natijalari ikki xil ssenariyga asoslangan. Birinchi ssenariy, prognozlash davomida Qashqadaryo viloyatining 2004–2022-yillar mobaynida ishsizlik darajasi darajasi ko‘rsatkichlari trend ma’lumotlari o‘rganildi va statistik vaqtlar qatori uslubi orqali polinomial regressiya usulida prognoz modeli hisoblab chiqildi. Bu ko‘rsatkichlarni 1-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval: Qashqadaryo viloyatining 2004–2022-yillar mobaynida ishsizlik darajasi ko‘rsatkichlari[8]

Yillar	Amaldagi ko‘rsatkichlari	Indeks miqdor	Ko‘paytiriladigan qiymat	Qo‘shiladigan qiymat
2004	0,3	1	0,50982456	0,701754386
2005	0,3	2	0,50982456	0,701754386
2006	0,3	3	0,50982456	0,701754386
2007	5,2	4	0,50982456	0,701754386
2008	5	5	0,50982456	0,701754386
2009	5,1	6	0,50982456	0,701754386
2010	5,8	7	0,50982456	0,701754386
2011	5,3	8	0,50982456	0,701754386
2012	5,3	9	0,50982456	0,701754386
2013	5,2	10	0,50982456	0,701754386
2014	5,5	11	0,50982456	0,701754386
2015	5,5	12	0,50982456	0,701754386
2016	5,3	13	0,50982456	0,701754386
2017	6,1	14	0,50982456	0,701754386
2018	9,7	15	0,50982456	0,701754386
2019	9,3	16	0,50982456	0,701754386
2020	11,1	17	0,50982456	0,701754386
2021	10,2	18	0,50982456	0,701754386
2022	9,3	19	0,50982456	0,701754386

Qashqadaryo viloyatining 2004–2022-yillar mobaynida ishsizlik darajasi ko‘rsatkichlari tahlil qilinganda 2004–2006-yillarda 0,3 foizni, 2007–2017-yillarda 5-6 foizni, 2018–2021-yillar oralig‘ida bu ko‘rsatkichlar 9-11 foizga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Aynan mazkur tendensiya natijalari orqali hududdagi ishsizlik darajasining istiqbol ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi. Bu ko‘rsatkichlarni 2-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

7 O‘zbekistonda ishsizlik darajasi kamaygani ma’lum qilindi. URL: https://kun.uz/kr/news/2024/03/05/ozbekistonda-ishsizlik-darajasi-kamaygani-malum-qilindi


8 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2-jadval: Qashqadaryo viloyatining ishsizlik darajasining 2022–2030-yillardagi istiqbol ko‘rsatkichlari[9]

Yillar	Prognoz ko‘rsatkichlari	Indeks miqdor	Ko‘paytiriladigan qiymat	Qo‘shiladigan qiymat
2023	10,9	20	0,50982456	0,701754386
2024	11,4	21	0,50982456	0,701754386
2025	11,9	22	0,50982456	0,701754386
2026	12,4	23	0,50982456	0,701754386
2027	12,9	24	0,50982456	0,701754386
2028	13,4	25	0,50982456	0,701754386
2029	14,0	26	0,50982456	0,701754386
2030	14,5	27	0,50982456	0,701754386

Qashqadaryo viloyatining ishsizlik darajasining 2023–2030-yillardagi istiqbol ko‘rsatkichlari tahlil qilinganda, bu ko‘rsatkichlar 2023-yilda 10,9 foizga, 2024-yilda 11,4 foizga, 2025-yilda 11,9 foizga, 2026-yilda 12,4 foizga, 2027-yilda 12,9 foizga, 2028 yilda 13,4 foizga, 2029-yilda 14,0 foizga, 2030-yilga borib bu ko‘rsatkich 14,5 foizga o‘sishini ko‘rishimiz mumkin. Hududdagi ishsizlik va kambag‘allik darajalarini ortishiga demografik omillar asosiy sabablardan biri hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga asosan, 2022-yil yakunlari ko‘ra Qashqadaryo viloyati mamlakatimizda tug‘ilish koyeffitsiyenti yuqori bo‘lgan Surxondaryo viloyatidan so‘ng ikkinchi hudud hisoblanadi. Prognozlash polinomial regressiya usuli orqali amalga oshirilganligi tufayli, kelgusida mazkur mintaqada ishsizlik darajasida o‘sish tendensiyasi kuzatilishi kutilmoqda, ya’ni boshqa ishsizlik darajasiga ta’sir etuvchi omillar o‘zgarishsiz qolgan holatda mazkur prognoz ahamiyatlidir (1-rasm).



1-rasm: Qashqadaryo viloyatining ishsizlik darajasining 2004–2022-yillardagi amaliy hamda 2030 yil istiqbol ko‘rsatkichlari[10]

9 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
10 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Polinomial regressiya modeli y = 0,5098245614x + 0,7017543860 ga va modelning ishonchlilik darajasi R^2 = 0,8063296917, p≤0.04 ga teng. Ushbu modelga ko‘ra, prognoz natijasining aniqlik darajasi 80 foizga teng ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan prognoz ko‘rsatkichlarni bevosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 201-son qarorida ko‘zda tutilgan maqsadli ko‘rsatkichlar bilan taqqoslasak, bizning taxminizda viloyatdagi ishsizlik darajasi 2026-yilda 12,4 foiz ko‘rsatkichga ega ekanligi va qarorda ko‘zda tutilgan 6,2 foiz ko‘rsatkichdan ancha yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Ikkinchi ssenariy, O‘zbekiston Respublikasi Prezidetining 2023-yil 30-apreldagi ““O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida viloyat hokimligining hisobotlarida hududda 2030-yilgacha ishsizlik darajasini kisqartirish prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan bo‘lib, shazkur ko‘rsatkichlarni tadqiqot natijalari bilan qiyosiy tahlili quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan (3-jadval).

3-jadval: Muallif prognoz ko‘rsatkichlar va viloyat hokiligi hisobotlaridagi prognoz ko‘rsatkichlarning qiyosiy tahlili

Ssenariylar	Yillar							
	2023	2024	2025	2026	2027	2028	2029	2030
Muallif prognoz ko‘rsatkichlari	10,9	11,4	11,9	12,4	12,9	13,4	14,0	14,5
Viloyat hokimligi prognoz ko‘rsatkichlari	9,3	8,7	8,5	8,2	7,9	7,6	7,3	6,5

Qashqadaryo viloyati hokimligi hisobotlarida keltirilgan prognoz ko‘rsatkichlar muallif tadqiqot ko‘rsatichlaridan keskin farq qilayotganligining asosiy sababi, hokimlik yalpi hududiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar ko‘zlangan darajaga ko‘talishini inobatga olgan holda optimistik ko‘p omilli prognozlash usulidan foydalanganligi bilan izohlanadi. Ya’ni, viloyatda yangi ish o‘rinlarini yaratilishi uchun sharoit hozirlanmas ekan, mazkur ko‘rsatkichlar yildan-yilga yomonlashish ehtimoli yuqoriligicha qolaveradi.

Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahri, Chiroqchi va Shahrisabz tumanlari viloyatda eng ko‘p ish o‘rinlari yaratildi. Boshqa tomondan, Mirishkor, Nishon va Dehxonobod tumanlarida 2015–2021-yillarda eng past ish o‘rinlari yaratildi. Qolgan tumanlar ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha o‘rtada joylashgan. Biroq, bu tumanlardagi aholi dinamikasini hisobga olish muhimdir.

Yangi ish o‘rinlari nuqtayi nazaridan, hududda yaratilishi mumkin bo‘lgan ish o‘rinlari quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirish mumkin:

- **qayta tiklanadigan energiya bo‘yicha ish o‘rinlari:** Quyosh va shamol energiyasi kabi qayta tiklanadigan energiya sohasida ish o‘rinlari kerakli infratuzilma va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish orqali yaratilishi mumkin.
- **ta’minot zanjiri ish o‘rinlari:** Mahalliy sanoat rivojlangan sari ta’minot zanjiri bo‘ylab logistika, omborxona, marketing va tarqatish kabi ish o‘rinlari yaratilishi mumkin.
- **sog‘liqni saqlash bo‘yicha ish joylari:** Sog‘liqni saqlash infratuzilmasiga sarmoya kiritish yoki sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish shifokorlar, hamshiralar va ma’muriy xodimlar kabi yangi ish o‘rinlarini yaratishi mumkin.
- **texnologiya ish o‘rinlari:** Texnologiya rivojlanishi bilan, dasturiy ta’minot ishlab chiquvchilari, texnik yordam va ma’lumotlar tahlilchilari kabi texnologiya bilan bog‘liq ish o‘rinlari yaratilishi mumkin.
- **barqaror qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ish o‘rinlari:** Barqaror qishloq xo‘jaligi amaliyotlarini yaratish va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashga sarmoya kiritish fermerlar, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari va distribyutorlar uchun yangi ish o‘rinlarini yaratishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bandlik imkoniyatlarini rag‘batlantiradigan va qashshoqlikni kamaytiradigan yangi iqtisodiy mexanizmlarni yaratish infratuzilma, inson kapitali, innovatsiyalar va hamkorlikka investitsiyalarni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Hududlarda aholi turmush darajasini oshirish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida ko‘proq yangi ish o‘rinlari yaratish maqsadga muvofiqdir. Bunga turli xil vositalar yordamida erishish mumkin, masalan:

- resurslardan samarali foydalanish maqsadida bo‘sh turgan binolar, inshootlar, chekka hududlarda kichik korxonalar tashkil etish;

- tumanlarda kasanachilikni rivojlantirish, mahalliy mehnat, ayniqsa, qishloq ayollari, yoshlar va nogironlar mehnatidan foydalanish;
- chekka hududlardagi aholini tomorqalaridan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalanishga undash, oila a'zolarini ish bilan ta'minlash;
- tog'li va tog' oldi hududlarda intensiv bog'lar, hosilni qayta ishlash va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha mini sexlar barpo etish;
- Qashqadaryo viloyatining barcha tumanlarida, ayniqsa, Shahrisabzga e'tibor qaratgan holda turizm faoliyatini rivojlantirish zarur.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali imkoniyati cheklangan aholining turmush darajasi va pul daromadlari yaxshilanib, hududning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga va eng asosiysi hududiy ishsizlik darajasining pasayishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidetining 2023-yil 30-apreldagi ""O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmoni. URL: https://lex.uz/ru/docs/6600413.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.04.2022-yildagi "2022–2026-yillarda kompleks Qashqadaryo viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 201-sonli qarori.
3. Lukianenko va boshqalar., (2019). "Comparative Analysis of Different Univariate Forecasting Methods in Modelling and Predicting the Romanian Unemployment Rate for the Period 2021–2022". URL: https://labourmarketresearch.springeropen.com/articles/10.1186/s12651-023-00345-8 https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC8000965.
4. Chakraborty va boshqalar. (2021). "Unemployment rate forecasting: LSTM-GRU hybrid approach". URL.
5. Ravallion, M. (2001). Poverty Comparisons: A Guide to Concepts and Methods. Living Standards Measurement Study Working Paper No. 88. The World Bank.
6. Advantages Of Polynomial Regression.
7. URL: https://fastercapital.com/topics/advantages-of-polynomial-regression.html

Elektron resurslar:

1. https://kun.uz
2. https://lex.uz/ru
3. https://stat.uz
4. https://labourmarketresearch

KAM TA’MINLANGAN OILALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI O‘ZIGA XOS YO‘LLARI VA IMKONIYATLARI



Tursunov Nozimjon Nosirovich
University of Bussines and Science
“Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada kam ta’minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini olib borish va ularinig samaradorligini oshirish masalalari ochib berilgan. Shuningdek, oilalarda tadbirkorlikni rivojlantirish ularning moliyaviy savodxonlik masalasi, ularning iqtisodiy o‘rni va jihatlari atroflicha bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, oilaviy biznes, resurslar, motivatsiya, bixeviorizm, ekstroversiya.

Abstract: This scientific article reveals the issues of doing business in low-income families and increasing its efficiency. The development of entrepreneurship in families, their financial literacy, their economic role and aspects is also described in detail.

Key words: entrepreneurship, family business, resource motivation, behaviorism, extraversion.

Аннотация: В данной научной статье раскрываются вопросы ведения предпринимательской деятельности в малообеспеченных семьях и повышения ее эффективности. Также подробно описано развитие предпринимательства в семьях, их финансовая грамотность, их экономическая роль и аспекты.

Ключевые слова: предпринимательство, семейный бизнес, ресурсная мотивация, бихевиоризм, экстраверсия.

KIRISH

Kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida cheklangan resurslardan samarali foydalanishni turli yo‘llarini kashf qilgan. Taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida hayot kechirishning insonlar uchun eng ma’quli birgalikda xo‘jalik yuritishga asoslangan uy xo‘jaligi bo‘lib, u oiladagi mehnat taqsimotiga tayanadi. Mehnat unumdorligining o‘sishi esa, eng avvalo, mehnat taqsimotiga bog‘liq bo‘lgan.

Oila doirasida har bir tomon ma’lum bir yumushlarni bajarishni o‘z zimmasiga oladi. Deyarli barcha xalqlarda an’anaviy ravishda uy yumushlarini bajarishni ayollar, oilani moddiy jihatdan ta’minlashni erkaklar o‘z zimmalariga olishgan.

Hozirgi taraqqiyot bu an’anaviy mehnat taqsimotiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazib, uni har bir oila er-xotinning hislatlaridan kelib chiqqan holda yechishga harakat qilyapti.

Oilada har ikki tomon ya’ni erkak va ayol oila aktivlarini vujudga keltirish va mustahkam moddiy asosini yaratishdan manfaatdor. Oila o‘ziga xos investitsion loyiha bo‘lib, bir necha yildan so‘ng ma’lum natijaga erishishga qaratilgan. Bu jihatdan uni o‘ziga xos biznesga, investitsiyaga ham o‘xshatish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy – uslubiy asoslari bo‘yicha bir qator xorijiy hamda respublikamiz olimlari ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

A. Smit tomonidan xalqlarning boyligi mohiyati va sabablarini o‘rganish, R. Xizrich va M. Piters tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirish omillari, tadbirkorlik fazilatlarini baholash usullari atroflicha o‘rganilgan va kerakli taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini tadqiq etish hamda ekonometrik modellashtirish bo‘yicha V.M. Vlasova, A. Raiskiy, A. Shestakov, N.Ye. Yegorova, V.M. Savchenko, V.M. Shepelov va M.A. Fedotovalar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning umumiy muammolari, statistik ko‘rsatkichlarini takomillashtirish hamda prognozlash, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va ularga davlat tomonidan berilayotgan imkoniyatlar bo‘yicha mahalliy olimlardan S.S. Gulyamov, Yo. Abdullayev, B.K. G‘oyibnazarov, M.R. Boltabayev, O.T. Kenjaboyev, O.Q. Rixsimboyev, A.B. Yugay, N.Q. Murodova, Z.Ya. Xudoyberdiyeva, H.P. Abulqosimov A.A. Qulmatovlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ammo olilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi kambag‘alligini qisqartirish, ularning daromadini oshirish kabi masalalar yetarlicha tadqiq etilmaganligi sababli mazkur yo‘nalish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki O‘zbekistonda aholi tadbirkorligini oshirish masalalari va chora-tadbirlar bir qator qonun hujjatlarida, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4231-sonli “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-sonli “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018-yil 7-iyundagi PQ-3777-sonli “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi, 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3856-son “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 24-oktyabrdagi PQ-4498-sonli “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida o‘z aksini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oilaviy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz davomida tadqiqot metodologiyasining tizimli tahlil, statistik kuzatish, statistik jamlash va guruhlash kabi usullar qo‘llanilgan. Natijada, mamlakatimiz aholisining kambag‘allikdan qutqarishda avvalambor, kichik biznes subyektlari va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirishga asos bo‘ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida aytib o‘tkanimizdek, insonlarni oila bo‘lib yashashlari ular uchun ratsional bo‘lib, bunda har ikki tomon o‘z nafliligini maksimallashtiradi. Buning uchun inson yakka yashaganga qaraganda nikohda yashashning qanday afzalliklari va kamchiliklari mavjudligini hisobga olib, qaror qabul qiladi. Ularni eng asosiylariga diqqat e’tiborimizni qaratishga to‘g‘ri keladi.

Oila bo‘lib nikohda yashashning muhim afzalliklaridan biri moddiy jihatdangina emas, balki ruxiy jihatdan ham qo‘llab-quvvatlovchi, qariganda tayanch bo‘ladigan farzandlardir. Juda ko‘pchilikni o‘ylantiradigan ikkinchi tomoni esa erkinlikni, mustaqillikning cheklanishi. Umuman olganda, odamlar hech qachon erkin emas, chunki uning faoliyati, hayoti boshqalarning harakati, faoliyati bilan bog‘liq, doimo uni hisobga olish zarur, oilada esa ana shu holat nisbatan to‘g‘ridan to‘g‘ri va ko‘proq bo‘lsa, birgalikda yashagandan so‘ng, albatga bir-biriga moslashishni talab etadi.

Oila qaror qabul qilganda oila a’zolarining fikrini ham hisobga olgan holda qaror qabul qilinadi, odatda, oila a’zolari ko‘pchilik bo‘lsa qaror qabul qilish qiyinroq bo‘ladi, uzoqroq muddat talab etadi, sababi ko‘pchilik o‘rtasida bir fikrga kelib, qaror qabul qilish qiyin. Masalan, oddiygina oilali odam mashina olish uchun umr yo‘ldoshining ham roziligini olishi kerak. Yakka kishi esa xohlasa sotib olaveradi. Shuning uchun bir fikrga kelib, tezda qaror qabul qilinsa, yakka odamga o‘xshash vaqt xarajati ko‘p bo‘lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti doiraviy aylanishida oila yoki uy xo‘jaligi turli-tuman vazifalarni bajaradi. U jamiyat faoliyatini barcha jabhalarini qamrab oladi va jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni yo‘nalishini belgilab beradi. Oilaning jamiyatda tutgan o‘rni, roli u bajaradigan funksiyalarda namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, ota-onalar bu muammoga ratsional nuqtayi nazardan yondashishga harakat qilishadi. Bunda bola tarbiyalashga sarflangan xarajatlar va ota-onalarning ma’lumotlari katta ahamiyat kasb etadi. Sababi:

1. Ota-ona uchun farzandga qaraganda ham yuqoriroq baholanadigan narsa bormi, yo‘qmi shunga diqqatni qaratadi.
2. Ma’lumoti yuqori bo‘lgan sari ayolning farzand ko‘rish ehtimoli pasayadi.
3. Ma’lumoti yuqori ota-onalar farzandlarni yaxshi tarbiyalash, bola bilishi zarur bo‘lgan narsalarni uni anglashi uchun oson tarzda tushuntirib berish, ularni bilim olish, dunyo sirlarini o‘rganishga qiziqtirish imkoniyatlari katta.
4. Oila farzandlari miqdorini, ularni sog‘lom, bilimli, odobli bo‘lib yetishishlari uchun sarflanishi zarur bo‘lgan xarajatlar va o‘z daromadlaridan kelib chiqqan holda belgilaydilar.

Odatda, bu xarajatlarning bir qismini davlat ko‘taradi. Bular meditsina, maorif, sport, ta’lim kabilar bo‘lib, uning ikkinchi qismini oilalarning o‘zlari sarflaydilar. Bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi bilan birga ana shu xarajatlarda oilaning hissasi tobora ortib boradi.

Oila hukumat bilan resurslarni nazorat qilish, ulardan samarali foydalanish bo‘yicha raqobatlashar ekan, bu borada ko‘p jihatdan afzalliklarga ega.

Oilaning muhim funksiyalaridan biri uy xo‘jaligini yuritish, tovar va xizmatlar yaratish, oilaviy biznes tashkil qilish va boshqalar. Oilaning muhim funksiyasi mulk zgasi sifatida individual ishlab chiqarishni tashkil etadi. Xususiy tadbirkorlik, kichik biznes, oilaviy biznes, fermer, dehqon xo‘jaligini tashkil etib faoliyat yuritadi. Uy xo‘jaligida oila a’zolarining vaqt byudjetini anchagina qismi oila yumushlari uchun ketadi, kir yuvish, ovqat qilish, uy-joylarni supirib-sidirib ozoda saqlash va hokazo. Bozor munosabatlarida oilaning ana shu funksiyasini ahamiyati yanada ortadi.

Ma’lumki, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurishdagi ijtimoiy, iqtisodiy islohotlar insonni har tomonlama kamolotga yetkazishga, turmush darajasi, farovonlikni ta’minlashga qaratilgan. Chunki hayot bor ekan, inson bor ekan har qaysi toifa o‘zining manfaatlarini qandaydir yo‘llar bilan amalga oshirishga harakat qiladi, bu hayotni qanday tashkil qilish lozim, inson, oila qanday sharoitda tinch va baxtli yashashi mumkin, degan masalalar atrofida fikr yuritadi, kerak bo‘lsa qonuniy yo‘llar bilan o‘z maqsadlariga erishishga intiladi.

Tadqiqotlarda kam ta’minlanganlik ulushini o‘rganilishi bevosita uning oqibatida yuzaga keladigan kambag‘allikni oldini olish va hech bo‘lmaganda qisqartirishdan iborat bo‘lgan maqsadga erishishdir. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mamlakatimizda kam ta’minlangan oilada a’zolar soni 7 kishidan iborat bo‘lib, oila boshlig‘ining o‘rtacha yoshi 50 yoshdan yuqori va u oliy ma’lumotga ega emas. Jumladan, 11% kam ta’minlangan oilaning boshlig‘i ishsiz, 93% holatlarda esa oliy ma’lumotga ega emas va faqat 24% o‘rta maxsus ma’lumotga ega. Kam ta’minlangan uy xo‘jaliklarining 43% doimiy ish joyiga ega emas. 93% markaziy isitish tizimiga, 96% markaziy kanalizatsiya tizimiga va 66% markaziy suv ta’minotiga ulanmaganligi aniqlangan bo‘lib, bunday tadqiqotlar O‘zbekistondagi kambag‘allikning yanada aniq tasvirini hamda unga qarshi kurash bo‘yicha asosiy choratadbirlar va tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Bu borada, mamlakatimizda 2020-yilda aholi turmush farovonligini oshirish va kam ta’minlangan aholi qatlamini qo‘llab quvvatlash, eng asosiysi kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqilmoqda, jumladan: Butun dunyoda yuzaga kelgan pandemiya sharoitida ishsiz, daromadsiz qolgan ehtiyojmand, yordamga muhtoj oilalarning mahallada shakllantirilgan shaffof ro‘yxat “Temir daftar” tashkil etilib unga kiritilgan har bir fuqaroni kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha “motivatsiya, ko‘nikma va moliyaviy ko‘mak” tamoyili asosida yangi mexanizm joriy etildi. “Temir daftar” o‘z navbatida fuqarolar yig‘inlari raisining sektor va hudud rahbari bilan hamkorlikdagi faoliyatini mustahkamlash bilan birga unga “Temir daftar”ni yuritishda ehtiyojmand oilalarning yetti toifasi, ajratilib ko‘rsatildi.

Oilaning nafaqaga muhtojligini aniqlash uchun asos sifatida oilaning Qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq aniqlangan o‘rtacha oylik, jami daromadi miqdori qabul qilinadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi hisob raqamidagi mablag‘lar miqdoridan va moddiy yordamning belgilangan miqdorlaridan kelib chiqqan holda moddiy yordam ko‘rsatish uchun mezonlar va asoslarni mustaqil ravishda belgilaydi. Bunda moddiy yordam tayinlash uchun oilaning bir a’zosiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha oylik jami daromad miqdori jami daromad aniqlanadigan davrda belgilangan eng kam oylik ish haqining 1,5 baravaridan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Oilaga moddiy yordam ko‘rsatish haqidagi ariza va to‘lanadigan yordamni hisobga olib borish qo‘rg‘on, qishloq, ovul yoki mahalla yig‘ini raisi (oqsoqolining) kotibi tomonidan yuritiladi.

Oilada yaxshi tadbirkor avvalo oila rahbariga ham bog‘liqdir. Oilani boshqarish o‘zi bir san’at bo‘lsa, oilada tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha va uni boshqarish ya’ni rahbar bo‘lish yana bir ma’suliyat demakdir. Buning uchun, albatta, quyidagi ikki xislat bo‘lishi kerak:

1. Sabr-toqat, boshqalarni ishlariga halaqit bermaydigan kamchiliklariga chidash, toqat qilish, sababi odamlarning fazilati, oila a’zolarining temperamentlari har xil.
2. Ish jarayoniga, uning sifatiga ta’sir etuvchi har qanday kamchilik, nuqsonlarga toqatsizlik. Ishni talab darajasida bajarilishini nazorat qilish.

Oilada tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda birinchi navbatda maqsad qo‘yish va uni kelajakda qanday amalga oshirishni rejalashtirish zarur. Oila rahbari bo‘lishni, o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan shaxs, har bir qadamni rejalashtirishi, o‘z qobiliyatini imkoniyatidan kelib chiqishi zarur bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shu maqsadda:

- hududlarda aholini kasb-hunarga o‘qitish bo‘yicha mingdan ziyod markazlar tashkil etilishi;
- o‘quv kurslarini tamomlab, o‘z biznesini boshlamoqchi bo‘lgan fuqarolarga asbob-uskuna xarid qilish uchun 7 million so‘mgacha subsidiyalar berilishi;
- kambag‘allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko‘paytirishda eng tez natija beradigan omil bu – qishloq xo‘jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirish bo‘lib, har bir tumanning imkoniyati va rivojlanish yo‘nalishidan kelib chiqib, dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan oilalarga 10 sotixdan 1 gektargacha yer maydonlari ajratilishi;
- ehtiyojmand aholi bandligini ta’minlashga Bandlikka ko‘maklashish hamda Jamoat ishlari jamg‘armalaridan 500 milliard so‘m yo‘naltiriladi. Hisobkitoblarga ko‘ra, mamlakatda kam ta’minlangan aholi soni 12−15 foizni (4,5−5 mln kishi) tashkil etadi. Oxirgi 2 yil ichida ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 1,3 barobarga ko‘paydi, nafaqalar miqdori 2 barobarga oshdi.

Kam ta’minlangan oilalarda iqtisodiy faoliyatni turini shakllantirib borilishi asosiy jarayon bo‘lib, bunda aynan tovar ishlab chiqarish shart emas, balki xizmat ko‘rsatish ham muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Ya’ni tovar emas – keladigan foydani sotishni o‘rganish kerak. Ko‘pchilik parma olishni xohlamaydi. Lekin parma yordamida teshilgan teshiklarga minglab so‘m pul to‘laydi. Demak, parma sotishdan ko‘ra uning yordamida bajarilgan ishlarni sotishni o‘rganish kerak. Yoki shu o‘rinda yaponlarning ajoyib maqolini eslab o‘tish joizdek, ya’ni “och qolgan kishiga baliq emas, balki qarmoq bering”. Bu orqali och qolgan shaxs baliq bilan ovqatlanib to‘yib olgach, yana nari borsa to‘rt soatdan so‘ng ochiqa boshlaydi. Agar unga qarmoq bersangizchi, u kishi mehnat qilish orqali yana o‘zi uchun zarur bo‘lgan baliqni ovlaydi. Demak, o‘z mehnati tufayli doimo to‘q bo‘lishiga ishora qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlari to‘plami, 2017- yil, 6-son, 70-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi PQ-4231-sonli “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori
3. O‘zbekiston Respubliki Prezidentining 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-sonli “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori
4. O‘zbekiston Respubliki Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi PQ-3777-son “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi Qarori
5. O‘zbekiston Respubliki Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi PQ-3856-son “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-oktyabrdagi PQ-4498-sonli “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
7. Quvondiqov Sh.O. O‘zbekistonda oila xo‘jaligi daromadlari tarkibida tadbirkorlikning rivojlanishi//Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy va metodologik muammolari: Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Samarqand, SamISI, 2005. – B. 380.
8. Кувондиков Ш.О. Доходы и расходы домашних хозяйств в рыночных условиях // “Ломоносов-2006”: Тез. док. межд. конф. 12-15 апреля 2006. –Москва, ТЕИС, 2006. – С. 706-708.

KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SOLIQLAR VA SOLIQ SIYOSATINING AHAMIYATI



Saida Yuldasheva
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada korxonlar faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirishda soliqlar hamda soliq siyosatining ahamiyati tadqiq etilgan. Zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali korxonalar faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, soliq siyosatini takomillashtirishning ayrim yo'nalishlari bo'yicha ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: soliqlar, soliqqa tortish, soliq siyosati, soliq ma'murchiligi, korxona, samaradorlik.

Abstract: This article examines the importance of taxes and taxation in the organization of business activities and improving their efficiency. The directions for the development of enterprises by introducing modern tax administration were analyzed. Also, a scientific conclusion and practical recommendations on some areas of tax administration improvement are presented.

Key words: taxes, taxation, tax administration, enterprise, efficiency.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение налогов и налогообложения в организации предпринимательской деятельности и повышении ее эффективности. Проанализированы направления развития предприятий путем внедрения современного налогового администрирования. Также представлены научный вывод и практические рекомендации по некоторым направлениям совершенствования налогового администрирования.

Ключевые слова: предпринимательство, семейный бизнес, ресурсная мотивация, бихевиоризм, экстраверсия.

KIRISH

Soliqlar davlat paydo bo'lgan paytdan boshlab jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning zaruriy bo'g'ini bo'lib kelmoqda. Davlat tuzilishi shakllarining rivojlanishi va o'zgarishi har doim soliq tizimining ham o'zgarishi bilan birga amalga oshadi. Soliqlar davlat daromadlarining asosiy shakli hisoblanib, bozor sharoitida iqtisodiyotni boshqarishning kuchli vositasidir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda soliq yukini kamaytirish, tadbirkorlik subyektlariga qulay raqobat muhitini yaratish, zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish hamda sohani raqamlashtirish orqali takomillashtirish, adolatli soliq tizimini tashkil etish va soliq tushumlari barqarorligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan soliq islohotlari o'zining ijobiy samarasini namoyon etmoqda. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining qabul qilinishi, soliqlar turlarining kamaytirilganligi, mehnatga haq to'lash fondiga soliq yuki keskin kamaytirilganligi, qo'shilgan qiymat solig'i barcha uchun tatbiq etilganligi, shuningdek, soliq stavkalarining pasaytirilishi hamda soliq nazoratida "inson omili"ning kamaytirilganligi, yirik soliq to'lovchilar bilan ishlashning alohida tizimi joriy etilganligi ayni yaqqol dalildir.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "So'nggi yillarda mamlakatimiz soliq ma'muriyatchiligi tubdan isloh qilinmoqda. 2019-yil dekabrda yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilinib, to'g'ridan-to'g'ri qo'llanuvchi normalar joriy etildi. Soliqlar soni 13 tadan 9 taga kamaytirildi. Mulk solig'i stavkasi 5 foizdan 1,5 foizga, qo'shilgan qiymat solig'i 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Ish haqiga nisbatan soliq yuki qariyb 2 baravar kamaytirildi. Bularning natijasida tadbirkorlarning islohotlarga ishonchi ortib, soliq tushumlari 4 baravar ko'paydi. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar soni 6 mingdan 152 mingtaga yetdi"[1].

Bugungi zamonaviy sharoitlarda O'zbekistonda yangi mazmundagi strategik maqsadlarni belgilab beruvchi soliq siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirib borish, adolatli soliq tamoyillariga asoslangan soliq tizimini yanada rivojlantirib borish yo'nalishida sezilarli islohotlar amalga oshirish bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

1 https://president.uz/oz/lists/view/5060

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jamiyatning iqtisodiy tizimining elementi sifatida soliqqa tortish bozor va bozor bo‘lmagan boshqaruv turidagi barcha davlat tizimlariga xosdir. Soliqlarni yig‘ish jarayoni davlat tomonidan amalga oshiriladi va bundan tashqari, bu uning vazifasidir. “Soliq” tushunchasi “davlat” toifasi bilan chambarchas bog‘liq. Bu davlatning rivojlanish darajasiga, uning iqtisodiyotining holatiga (asosiga) va ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga bog‘liq. Soliq tizimi bilan tanishish davlat rivojlanishning qaysi bosqichida ekanligini aniqlash uchun yetarli.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida “soliq” tushunchasining rivojlanishi bilan bir qatorda davlat to‘g‘risidagi nazariy qarashlar, uning faoliyatining asosiy maqsadlari, mavjudlik shakllari va jamiyatni boshqarish usullari ham shakllandi. Soliqlar iqtisodiy munosabatlarning zaruriy bo‘g‘inidir, shuning uchun o‘tmishdagi barcha iqtisodiy nazariyalarda soliq siyosati, soliqlarning davlat iqtisodiyotidagi o‘rni va soliq tizimini qurish variantlari ko‘rib chiqiladi.

L. M. Shablista soliq siyosatini “davlatning soliqlarni belgilash va undirish sohasidagi faoliyati” [3] deb ta’riflaydi. Ko‘plab moliyaviy-iqtisodiy lug‘atlarda esa bu tushuncha “... yuridik, jismoniy shaxslarga soliq solishning davlat siyosati. Uning maqsadi davlat budjetini shakllantirish va bir vaqtning o‘zida korxonalarning ishbilarmonlik faoliyatini rag‘batlantirishdir”.

A. Sokolovskayaning ta’kidlashicha, “zamonaviy soliq siyosati soliq tizimining elementlarini (soliqlar, stavkalar, soliq tizimining tuzilishi, subyektlar, soliq solish obyektlari, soliq bazasi, imtiyozlar va boshqalar) davlat tomonidan unga yuklangan funksiyalarni bajarish va rag‘batlantirish uchun budjetga yetarli bo‘lgan tushumlarni ta’minlash uchun belgilaydigan vosita” [4].

L. A. Zazvonova va F. Fomin soliq siyosatini “davlat tomonidan soliqlar sohasida amalga oshiriladigan va jamiyat oldida turgan muayyan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlar tizimi shaklida” [5] belgilaydi deya qayd etishgan. O. D. Vasilik davlatning soliq siyosati tushunchasini “soliq tizimini qurish va soliqlarni budjetga safarbar qilish sohasidagi davlat harakatlarining yig‘indisi” deb ta’riflaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro amaliyotdan ma’lum bo‘ishicha davlat budjeti va soliq to‘lovchilarning manfaatlari nuqtayi nazaridan to‘g‘ri va samarali soliq siyosati strategiyasi ishlab chiqish davlatning fiskal-budjet siyosatining samarasini ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida alohida ahamiyat berib kelinmoqda. “Xalqaro valyuta jamg‘armasining hisob-kitoblariga ko‘ra, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida soliqlardan tushumlar YaIMning 15-25 foizini, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda ushbu ko‘rsatkich 40 foizni tashkil etadi. Ushbu tashkilotning tavsiyalariga ko‘ra, ayrim daromadi past hamda bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan davlatlarda oxirgi yigirma yillar oralig‘ida soliq siyosatida islohotlar amalga oshirilishi natijasida soliq tushumlarining keskin o‘sishi kuzatilganligi ham samarali soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish muhimligini ko‘rsatmoqda”[2].

Shunga ko‘ra, jahon miqyosida soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga e’tibor qaratilmoqda. Hozirda jahonda soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Soliq siyosati strategiyasi orqali iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishish, soliq tizimida daromadlarni oshirish qobiliyatini oshirish hamda davlat xarajatlarining barqarorligini ta’minlash, rivojlanayotgan davlatlarning fiskal siyosatini kuchaytirish, adolatli va inklyuziv soliq tizimini joriy etish, soliq siyosati strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishda raqamli platformalardan samarali foydalanish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Bugungi zamonaviy sharoitlarda O‘zbekistonda yangi mazmundagi strategik maqsadlarni belgilab beruvchi soliq siyosatini shakllantirish va amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Soliq to‘lovchilar faoliyatini rag‘batlantirish, soliq yukini kamaytirib borish, adolatli soliq tamoyillariga asoslangan soliq tizimini yanada rivojlantirib borish yo‘nalishida sezilarli islohotlar amalga oshirish bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Soliq siyosati strategiyasi davlat iqtisodiy siyosatining mazmunidan kelib chiqib, doimiy va o‘zgaruvchan strategiyaga ega bo‘ladi. Soliq siyosati strategiyasining o‘zgarib turilishiga albatta davlatning iqtisodiy siyosati bilan birgalikda boshqa omillar ham ta’sir qiladi.

Bizningcha, soliq siyosatining mohiyatini anglashda uni tor va keng ma’noda tushunish mumkin. Tor ma’noda soliq siyosati deganda – Davlat va mulk (daromad) egasi o‘rtasidagi soliq munosabatlarini tartibga solish tushuniladi. Soliq siyosati keng ma’noda esa – milliy daromad shakllanishi, o‘sishini rag‘batlantirish va qayta taqsimlashga xizmat qiladigan iqtisodiyotda teng raqobat sharoitini yaratishga qaratilgan soliqlarni joriy etish hamda undirish mexanizmlarini qamrab olgan davlat boshqaruv instituti tushuniladi.


2 https://www.imf.org/en/Publications/fandd/issues/2018/03/akitoby

Soliq siyosatining taktikasi deganda esa soliq siyosati va uning strategiyasida maqsad qilib belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida o‘zaro bog‘liq holda qo‘llaniladigan usul va vositalarning yig‘indisidir. Sodda qilib aytganda soliq siyosati strategiyasida belgilab qo‘yilgan maqsadga oson va qulay erishishning yo‘llaridir.

Soliq siyosatining bosh (doimiy) strategiyasi – davlat budjeti va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatlarning uyg‘unlashuvi va muvozanatlashuvini ta’minlashdan iborat bo‘lsa, soliq siyosatining o‘zgaruvchan soliq strategiyasi budjet daromadlarining bir maromda shakllanishi, teng raqobat sharoitini yaratish soliq to‘lovchilarning soliq madaniyatini oshirishga erishish hamda soliqlarning rag‘batlantirish ta’sirini yanada oshirishdan iboratdir.

Shuningdek, soliq siyosati barqarorligini ta’minlashda uning strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozim. Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar xususiyati va muddatini e’tiborga olib soliq siyosati: soliq siyosati strategiyasi va soliq siyosati taktikasiga bo‘linadi. Soliq siyosatining amalga oshirish muddatiga ko‘ra tasnifini 1-rasm orqali ifodalash mumkin.

Soliq siyosati strategiyasida muayyan uzoqroq muddatga mo‘ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo‘nalishlari va chora-tadbirlari ifodalanadi. Bu esa o‘z navbatida ilmiy asoslangan soliq konsepsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Masalan, respublikamizda jamiyat taraqqiyotining asosiy strategiyasi qilib, ochiq bozor iqtisodiyotiga, yerkin fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy, demokratik jamiyat qurish belgilangan. Soliq borasidagi ustuvor strategik vazifa esa davlat byudjeti va xo‘jalik yurituvchi subyektlarni soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarida muayyan uyg‘unlikni ta’minlovchi soliq tizimini shakllantirish va shunga mos ravishda takomillashtirib borishdan iboratdir. Yoki boshqacha qilib aytganda, soliq siyosati strategiyasi – soliq siyosatining uzoq muddatli yo‘nalishi bo‘lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan ulkan masshtabli vazifalarni kelajakda bajarilishini ta’minlash ko‘zda tutilgan soliqqa doir moliyaviy tadbirlar yig‘indisidir.




1-rasm: Soliq siyosati tasnifi

Shunday qilib, soliq siyosatining ikkita o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- budjetga zarur tushumlarni ta’minlash;
- iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish.

Soliq siyosatining vazifalari davlatni moliyaviy resurslar bilan ta’minlash, umuman mamlakat iqtisodiyotini tartibga solish uchun sharoit yaratish, bozor munosabatlari jarayonida yuzaga keladigan aholi daromadlari darajasidagi tengsizlikni yumshatishdan iborat. Soliq siyosatining barcha vazifalarini shartli ravishda uchta asosiy guruhga bo‘lish mumkin.



2-rasm: Soliq siyosati vazifalari

Hozirgi bosqichda davlat soliq siyosatining asosiy vazifalaridan biri xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faol moliyaviy-xo‘jalik faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va shaxsiy va jamoat manfaatlarining optimal

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

uyg‘unligiga, ya’ni soliqlar o‘rtasidagi optimal nisbatga erishish orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishdan iborat.

Soliq siyosati tarkibiy jihatdan quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va soliqsiz to‘lovlarni qonuniy joriy etish;
- amal qilayotgan soliqlarni samarali ishlashini ta’minlovchi mexanizm shakllantirish va takomillashtirish, soliqqa oid qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;
- soliq siyosatini amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlarni tashkil etish va ularni ushbu sohadagi vazifalarini belgilash;
- soliqqa tortish tizimini shakllantirishga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotni amalga oshirish va ularni joriy etishni tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatining strategiyasini amalga oshirilishi natijasida bir qator ijobiy natijalarga erishilishiga asos bo‘ldi. Respublikada adolatli, shaffof, uzoqqa mo‘ljallangan va xalqaro andozalarga javob bera oladigan soliq tizimini yaratishga qaratilgan soliq islohotlari iqtisodiy, huquqiy jihatdan har tomonlama asoslangan hamda soliq to‘lovchilar uchun qulay va manfaatli ekanligini ko‘rsatmoqda. Birinchi navbatda, tadbirkorlik subyektlari va investorlar faoliyatini soliq sohasida kafolatlashning huquqiy asosi yaratilib, yangi Soliq konsepsiyasi, Soliq kodeksi va 150 dan ortiq qonun, Farmon, qaror va boshqa me’yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Teng raqobat sharoitini yaratish maqsadida 80 dan ortiq turli soliq imtiyozlari bekor qilindi. Individual imtiyozlar berish amaliyotidan voz kechildi. Soliq yukini keskin pasaytirish maqsadida Soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi. Davlat soliq siyosatining samaradorligi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va jarayonlarni ularga soliq siyosatining ta’siri nuqtayi nazaridan o‘rganish uchun maxsus yaratilgan matematika, mantiq va statistika apparatlariga asoslangan iqtisodiy va matematik usullar yordamida baholanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bilamizki soliq ma’murchiligini rivojlantirish orqali soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish imkoniyati yaratilib, budjet soliq siyosatini amaliyotga tadbiq etish shart sharoitlari yaratiladi hamda budjetga samarali soliq yig‘imlari shakllanishiga olib keladi. Shuningdek bugungi kunda ko‘pgina rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar soliq ma’murchiligiga katta e’tibor qaratayotgani sir emas. Sababi davlat byudjeti daromadlarini shakllanishida soliqlarning ahamiyati katta bo‘lib +xuddi shu soliqlarning to‘liq yig‘ilishida hamda o‘z vaqtida davlat budjetiga kelib tushishi uchun ham soliq ma’murchiligini rivojlantirish asosiy omillardan biridir.

Bizning fikrimizcha, nafaqat barcha mamlakatlarda, jumladan, respublikamiz soliq tizimida davlatning soliq siyosatining ishlab chiqilishi va uni amalga oshirish jarayonlarini baholash uning keyingi bosqichlarini to‘g‘ri belgilab olishga imkon berish bilan birgalikda, umumiy tarzda milliy iqtisodiyot darajasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning samarasini baholashga ham xizmat qiladi.

Xorij mamlakatlari misolida o‘tish davri iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakat kelajakda nimaga intilishi zarurligi va nimadan ehtiyot bo‘lishi kerakligini tushunib olish mumkin. Keng ma’noda, kelajakda soliq islohoti o‘tish davrida quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- jismoniy shaxslar daromadiga nisbatan soddalashtirilgan tuzilishga ega bo‘lgan keng masshtabli daromad solig‘ini joriy etish;
- e’tiborni korxonalar foyda solig‘idan fuqarolarning daromad solig‘iga qaratish;
- korxonalar foyda solig‘i va fuqarolarning daromad solig‘ini yagona soliqqa integratsiyalashtirish;
- keng bazali qo‘shilgan qiymat solig‘ini va tovarlarning alohida turlariga aksizlarni qo‘llash va boshqalar.

Zero, Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-sonli Farmoni.
2. Савченко Н.Б. Совершенствование механизма налогообложения предпринимательской деятельности физических лиц – наймодателей. Автореферат на соискание ученой степени к.э.н. – М.: 2011. – 27 с.
3. Шаблиста Л. М. Податкова політика у трансформаційний період // Актуальні проблеми економіки. – 2001.– № 3-4.– С. 26.
4. Соколовська А. М. Податкова система України: теорія та практика становлення / А. М. Соколовська, Г. Л. Вознюк, Т. С. Смовженко.– К.: НДФІ, 2001.– 372 с.
5. Зазвонова Л. А. Налоги и налогообложение: Учеб. пособ. / Л. А. Зазвонова, Ф. Ф. Фомин.– К.: Изд-во Европ. ун-та, 2003.– 265 с.
6. Niyazmetov I.M. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta’minlash. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2018, 247 b.

THE CONTRIBUTION OF ECOTOURISM IN DEVELOPING GDP IN UZBEKISTAN

Saidova Dildora Nurmatovna
PhD of Economic Sciences, Tashkent State Agrarian University, Uzbekistan

Umarov Husanboy Bahromjon o‘g‘li
2nd-grade student, Tashkent State Agrarian University, Uzbekistan

Xolyigitov Umidjon Alijon o‘g‘li
1st year students, Tashkent State Agrarian University, Uzbekistan

Abstract: Ecotourism has become a major tool for the rising environmental awareness of locals and visitors ensuring long-term sustainability. The tourists are becoming increasingly sophisticated in having meaningful travel experiences including communication with local people, learning their culture, observation of unique ecosystems, flora and fauna of the untouched areas. Uzbekistan’s diverse ecology from mountains to deserts, from deserts to plains can support the country with the great ecotourism potential. Such opportunities can provide social, environmental and economic benefits to the country when it is comprehensively modified and meets international standards.

Key words: Ecotourism, nature, environmental impact, sustainability, conservation awareness, reserves, fauna, flora, Global warming, GDP, tourism, Contribution of tourism, summit, tourism industry, ecological catastrophe.

Annotatsiya: Ekoturizm uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlovchi mahalliy aholi va tashrif buyuruvchilarning ekologik xabardorligini oshirishning asosiy vositasiga aylandi. Sayyohlar mazmunli sayohat tajribasiga ega bo‘lish, jumladan, mahalliy aholi bilan muloqot qilish, ularning madaniyatini o‘rganish, noyob ekotizimlar, tabiiy hududlarning o‘simlik va faunasini kuzatishda tobora qiziqmoqda. O‘zbekistonning tog‘lardan cho‘lgacha, cho‘ldan tekislikgacha bo‘lgan xilma-xil ekologiyasi katta ekoturizm salohiyatiga ega. Bunday imkoniyatlar har tomonlama rivojlantirilishi va xalqaro standartlarga javob berishi mamlakatga ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy foyda keltirishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Ekoturizm, tabiat, atrof-muhitga ta’siri, barqarorlik, tabiatni muhofaza qilish, qo‘riqxonalar, fauna, flora, Global isish, YaIM, turizm, Turizm hissasi, sammit, turizm sanoati, ekologik halokat.

Аннотация: Экотуризм, обеспечивая долгосрочную устойчивость страны, является инструментом повышения экологической осведомленности местных жителей и гостей. Туристы, общаясь с местным населением, изучают их культуру, наблюдая за уникальными экосистемами, флорой и фауной территорий, получают содержательный опыт от путешествий. Разнообразная экология Узбекистана, от гор до пустынь, от пустынь до равнин, может принести выгоду стране с огромным потенциалом экотуризма. Такие социальные, экологические и экономические выгоды дадут возможность роста ВВП страны, если использовать потенциал экотуризма, всесторонне будет соответствовать международным стандартам.

Ключевые слова: экотуризм, природа, воздействие на окружающую среду, устойчивость, осведомленность об охране природы, заповедники, фауна, флора, глобальное потепление, ВВП, туризм, экологическая катастрофа.

INTRODUCTION

Currently we have a massive responsibility for helping to raise the contribution of tourism in GDP. One of our most important duties is to solve the issues that are being barriers to bring forth a totally new atmosphere and page in Tourism. I think one of the most powerful clues is increasing the quality and the level of services. A couple weeks ago the biggest summit came up in Samarkand and it involved the entire tourism industry through the developed countries. It was the hugest phenomena throughout the years. This helped our tourism industry to show up its strength and the true power. In this ceremony we gained a lot of experience which can lead our tourism industry to rise up.

DATA AND METHODS

In the process of research, theoretical methods of induction, deduction, generalization and comparison were used. The necessary materials are investigated on the basis of the methods of typological analysis, the synthesis of statistical data

MAIN RESULTS

In this year, we pulled up around 1.7 milliard dollars out of 80 milliard dollars which is the rate of our Gross domestic product. As a result, it helped to move the rate of our tourism contribution in GDP forward, that's to say the contribution of tourism industry has showed up it's upward trend by changing it's percentage from 1,7 to 2,5 percentage and that is our advantage to hit 5 percent in GDP by amplifying the number and quality of services.

Despite having potential, income from tourism in Uzbekistan does not exceed 2 percent of GDP, whereas in other countries (Spain, the United States, France, Egypt, Malaysia, the U. A.E.) tourism revenues range from 10 to 45% of GDP.

However, services are the most essential chain of tourism. Because it can hold tourism and GDP together. I believe that, if we make deals with other well developed countries in terms of tourism and services we will be able to raise the percentage of tourism in the upcoming years and it will have a proper effect on our economy and the quality of our lives as well.

More than 50 percent of the population lives in urbanized areas. Uzbekistan is the world's fifth-largest exporter and seventh-largest producer of cotton, but unsound cultivation has degraded the land and depleted water supplies. The economy also relies on exports of natural gas and gold.

Second of all, the factor that has a sharp influence after services on the contribution of tourism is the number of tour packages. The fact that tour packages are important is because there are no other ways of traveling all over the world without any packages that are specifically created for tourists who have a huge passion about traveling through the countries officially.

In 2021 Uzbekistan ranked 16th out of 140 countries in the Global Muslim Travel Index. In 2022 the government updated its plans and set the goal to increase the number of foreign tourists to 9 million and domestic tourists to 12 million, and to invest $300 million in creation of tourism and recreation zones by 2026.Uzbekistan can enhance its tourism potential by strengthening its cooperation with other countries and international organizations. Additionally, Uzbekistan should explore its cultural and natural attractions, and invest in advertising to raise awareness about these sites. Because, marketing is the most viral clue to open the world of tourism. In contrast, if we don't have any believable advertisement about everything we have in Uzbekistan like its historical places and buildings, admirable beauty of nature and landscape, modernable places. That's to say our government has to make them believe our advertisement in order to stock up the first compression in tourist's minds. Our main duty is bringing forth a totally new unexpected atmosphere that they don't even think about. Not only advertisement but also the design of the website should be much more attractive and competitive than other usual websites. We have to provide international tourists with full information about traveling, staying in the hotels and their prices, types, national and international foods, attractions, health insurance and of course profits. Because those all will be taken into consideration while choosing an exceptional country to travel with a bunch of advantages and unforgettable memories. It alleviates them not to feel strange, insecure or unvalidated in a totally different country, region, citizen and culture. Tourism generates income for a variety of businesses and creates a wide range of employment opportunities. At the global scale, tourism is seen as one of the world's largest and fastest growing industries. On October 5, Tashkent hosted the international conference "Eco-tourism – an important factor in sustainable development and environmental protection: the experience of Uzbekistan and foreign practice". The forum is organized by the State Committee for Nature Protection in cooperation with the National Company "Uzbektourism" with the participation of the OSCE Project Coordinator in Uzbekistan. The conference has been attended by representatives of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, ministries, departments and public organizations, international agencies – UNWTO, UNEP, UNECE, major financial institutions, the diplomatic corps, experts, domestic and foreign media.

An executive director for technical cooperation and services of the World Tourism Organization Shanchzhong Zhu has become an honorable guest of the forum. Speaking at the opening ceremony, he said that Uzbekistan is one of the most dynamically developing countries and an important partner of the UNWTO. In recent years, eco-tourism has become a segment of tourism and a new area in the tourism industry. The resolutions of the UN General Assembly from 2012 and 2014 recognize the importance of the development of eco-tourism in order to preserve natural resources and international cooperation in this field. It is emphasized that the holding

of this conference is very timely, and considered questions are relevant not only for Uzbekistan but also for the whole world, especially in light of the fact that the United Nations has proclaimed 2017th year as the International Year of Sustainable Tourism for Development. As known, our country has great prospects for the development of eco-tourism, establishing a unique and sustainable network of ecotourism routes with the further integration of the republic into the international market such services which are attractive for all categories of tourists. Today Uzbekistan is one of the leading places in Central Asia by popular ecotourism destinations. Conference was opened by a video show, dedicated to the natural and biological diversity of Uzbekistan and its ecotourism potential.

In order to boost ecotourism's potential I have already tried to make a perfect project that helps to figure out the weaknesses and threats. One of them is created specially for children. The core of this project was helping the young generation to acclimatize to the new atmosphere which is called Ecotourism and as it planned we wanted to perform their basic knowledge and skills. This is like a platform that gives daily tasks which are useful to improve their brain process and their life faith. After a week of progress that we have been waiting for a long time, they are changing their mind to belong to nature and respect and be kind to the worlds of flora and fauna which are the core items of life time.

In 2021, Uzbekistan generated around 679.00 million US dollars in the tourism sector alone. This corresponds to 0.84 percent of its gross domestic product and approximately 39 percent of all international tourism receipts in Central Asia. The development of ecotourism in Uzbekistan is based on its spirituality, science, culture, enlightenment, nature protection, increasing the interest of ecotourists in our native nature, conservation of rare flora and fauna and solving the problems of endangered flora and fauna. Uzbekistan's exports of tourism services reached $1.6 billion in 2022 and its targets for 2024 are 7 million foreign tourists and $2.5 billion in tourism exports. Ecotourism is widely regarded as an effective strategy for many nations, as it helps to preserve natural areas, safeguard cultural traditions, generate revenue for national development, and employ locals. Ecotourism, which primarily serves conservation interests, helps promote ecologically sound growth. The tourism opportunities of our country are very diverse and rich: these are Ugam-Chatkal National Park, and the forests in the Amu Darya River Delta, the Kitab Nature Reserve, recently opened for tourists, testifying to the appearance of life on our planet, the region of the "ecological catastrophe" near the boundary countries.

CONCLUSION

Ecotourism in Uzbekistan is rooted in its spiritual, scientific, cultural and educational values, as well as its commitment to protect nature, increase the curiosity of ecotourists in our native landscapes, preserve the diversity of plants and animals and address the issues of threatened species. Research indicates that tourism is a vital source of foreign currency for Uzbekistan and other countries, it boosts the growth of trade and other sectors of the economy, as well as the agricultural industry, and creates jobs for the people. Ecotourism is widely seen as a beneficial approach for many nations, as it helps to maintain natural areas, protect cultural heritage, generate income for national development, and employ local people. Ecotourism, which mainly serves conservation goals, helps foster environmentally friendly development. It can directly benefit local communities through the development of infrastructure such as better roads and lodging. This can make it easier for locals to access essential services and make it more likely that tourists will return to the area in the future. The total income of the population of Uzbekistan was 338.4 trillion sums in the first half of 2023. It rose by 6.5% in real terms compared to the same period last year. Per capita income was 9.3 million sums and increased by 4.3% in real terms.

The development of transport infrastructure also plays an important role in attracting tourists. Uzbekistan is actively upgrading its aviation, railway and road systems. Renovation of international airports in Tashkent, Samarkand and Bukhara, contributes to higher passenger traffic and better services. Extensive plains covered by various types of deserts, mountain steppes, mountain forests and alpine meadows, riparian woodland forests in the desert river valleys, wetlands, and oases represent different ecosystems with their distinctive plant and animal communities. Generally speaking it is defined as responsible travel to natural areas that conserves the environment and improves the well-being of local people

All in all, We have to admit that reciprocity between us and nature in terms of friendship is not getting on well with its qualities at all. Our duty is to figure out all the privileges which can be on our side to alleviate the situation that is about to come up in the nearest years. People shouldn't not only just predict the events but also not leave nature on their own or just watch out how nature is suffering from factors that we are creating and being the ringleader for this. Stop making this and save the world for the younger generation.

References:

1. https://ecological tourism.org
2. http://www.stat.uz
3. “What is (not) Ecological tourism? | Global Ecological Tourism Network (GEN)”. www.global ecological tourism network.org. Retrieved 2020-08-17.
4. “Ecological tourism vs Sustainable Tourism”. Integra: developing impact from opportunity. September 1, 2021. Archived from the original on 2021-09-01. https://www.integrallc.com/ecological tourism-vs-sustainable-tourism.
5. Tourism and the Sustainable Development Goals – Journey to 2030, Highlights. World Tourism Organization. 2017-12-18. doi:10.18111/9789284419340. ISBN 978-92-844-1934-0.
6. National Strategy for the transition to a “green” economy for the period 2019-2030. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated 04.10.2019 No. PP-4477. https://lex.uz/docs/4539506.
7. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, dated October 20, 2018 No. 841 “On measures to implement the National goals and objectives in the field of sustainable development for the period up to 2030”. https://lex.uz/ru/docs/4013358.
8. “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026”. https://regulation.gov.uz/ru/d/ID-55274.
9. New horizons of cooperation between Russia and Uzbekistan based on the implementation of national projects and national programs. Yu.V. Gnezdova, Yu.A. Romanova, M.Kh. Saidov and others. Monograph. M.: LLC Publishing and Trade Corporation Dashkov and K., 2021.
10. Saidakbarov Kh.Kh., Saidova D.N. Directions for the development of agriculture in the Republic of Uzbekistan. Innovative economy: prospects for development and improvement, 2014.

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

MEHMONXONALAR FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARINI OSHIRISHDA TURIZMNING O‘RNI



UDK: 336.640.41:658.14(575.1)

Abduraxmanova Ziyoda Abdullayevna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o‘rnini o‘rganishda turli iqtisodchi olimlarning ilmiy fikrlari va mulohazalari o‘rganilgan. Milliy amaliyotda mehmonxonalar faoliyati, turizm sohasidagi ko‘rsatkichlar, mehmonxona faoliyatidagi turli moliyaviy ko‘rsatkichlar, mehmonxonalarni moliyalashtirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Olib borilgan tahlillar asosida xulosalar va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: mehmonxona, mehmonxona biznesi, mehmonxona moliyasi, turizm, moliyaviy ko‘rsatkichlar, daromad, foyda, xarajat.

Abstract: In studying the importance of tourism in increasing the opportunities of financing the activities of hotels, the scientific opinions and approaches of various economists are learnt. In the national practice, activities of hotels, indicators in the field of tourism, various financial indicators of hotel activities, opportunities of hotel financing are analyzed. Conclusions and proposals are formed based on the conducted analyses.

Key words: hotel, hotel business, hotel finance, tourism, financial indicators, income, profit, cost.

Аннотация: При изучении значения туризма в увеличении возможностей финансирования деятельности гостиниц изучаются научные мнения и подходы различных экономистов. В отечественной практике анализируются деятельность гостиниц, показатели в сфере туризма, различные финансовые показатели гостиничной деятельности, возможности гостиничного финансирования. На основе проведенного анализа формируются выводы и предложения.

Ключевые слова: гостиница, гостиничный бизнес, гостиничное финансы, туризм, финансовые показатели, доход, прибыль, себестоимость.

KIRISH

Mehmonxona biznesini moliyalashtirish mexanizmlarining samarali yo‘lga qo‘yilishida mamlakatdagi turizmning rivojlanish darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanishning kuchli vositasi, shuningdek, u muayyan hudud qiyofasini yaratish, mazkur hududni iqtisodiy rivojlantirishda mehmonxonalarning o‘rnini oshirishga xizmat qiladi. Turizm va mehmonxona xo‘jaligi bir sohaning tarkibiy qismlaridir. Mehmonxonaga ehtiyojning oshib borishi bevosita turizmning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Jahon amaliyotidan ma’lumki, turizmni rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotining o‘sishiga, kam taraqqiy etgan hududlarning rivojlanishiga, aholi bandligining oshishiga, turmush madaniyatining yuksalishiga olib keladi. Turizm mamlakatda rivojlansa, mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy hayoti ham yuksaladi. Shu tufayli ko‘pgina mamlakatlar turistik markazlarga aylangan. Bunday davlatlar iqtisodiyotining rivojlanishi asosan turizm hisobidan shakllanadi va uning ajralmas qismi bo‘lgan mehmonxona xo‘jaliklari tizimi ham tarmoq sifatida shakllanadi. Shu boisdan mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o‘rnini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatda mehmonxona binzesini rivojlantirish va uni moliyalshtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli qator iqtisodchilar tomonidan masalalar yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan. N.I.Kabushkin va G.A.Bondarenko [1] ta’kidlashicha, insonning biron joyga borishi u yerda mehmonxona bor-yo‘qligiga bog‘liq emas, balki dam olish, sport bilan shug‘ullanish, davolanish, cho‘milish kabi sabablar bilan ham borishi mumkin. Odamlar o‘zlarining mehnat ta’tili vaqtida biron joyga borishini mo‘ljallagan

bo‘lsa, oldin o‘sha joyni, hududni, davlatni ko‘rishni rejalashtiradi. Faqat bundan keyingina qanday mehmonxonada joylashishi haqida o‘ylaydi. Ammo bunday ketma-ketlik hamma vaqt ham amalga oshavermaydi. Tanlov boshqa tartibda ham bo‘lishi mumkin, inson faqat ma’lum mehmonxona xizmatlaridan foydalanmokchi bo‘lsa, u oldin mehmonxonani tanlashi ham mumkin. Shu tufayli mehmonxonalarning reklamasi xalqaro miqyosda ham keng tashkil qilinishi lozim.

S.D.Ilenkova va boshqalar fikricha, “har bir mehmon faqat o‘ziga ko‘rsatiladigan xizmat jarayoni bilan cheklanib qolmaydi. Yurish-turish va yashash qoidalariga ko‘ra, u boshqa mehmonlarga ham ko‘rsatilayotgan xizmatlardan mamnun bo‘lish lozim” [2]. Demak, mehmonxonalar daromadini oshirishda mazkur jihatlarga e’tibor qaratish lozim.

Bir qator tadqiqotchilarning fikricha, “mehmonxona sanoatidagi tranzaksiyalar boshqa sohalardagi operatsiyalardan farq qiladi, chunki mehmonxona sohasidagi birlashishlar va qo‘shib olishlar amaliyotlarini o‘tkazgan kompaniyalar qo‘shilishdan keyin ijobiy natijalarga erishgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ichki bitimlar va konglomerat sotib olish mehmonxona sanoatida eng keng tarqalgan bitimlardir” [3]. Mehmonxonalar biznesida ularni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish hamda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida birlashishlar va qo‘shib olishlar amaliyotlari tez-tez qo‘llanilshini qayd etish lozim.

F.Sardo va boshqalar tomonidan olib borilgan izlanishlarda “kichik va o‘rta biznes sifatida faoliyat ko‘rsatadigan mehmonxonalarning rentabelligi ularning tajribasi, malakasi, xodimlar va menejerlarning bilim darajasi, daromadlarning o‘zgaruvchanligi va kapital tuzilmasi kabi bir qancha omillarga bog‘liq” [4], ekanligini ta’kidlagan.

Mehmonxona faoliyatida bir qator ko‘rsatkichlarni alohida ko‘rib chiqish va mazkur ko‘rsatkichlarni turizm samaradorligini ifodalash uchun qo‘llash mumkin. Bular tarkibiga quyidagilar kiritilgan:

- turfirmalar mehnat unumdorligi;
- turfirmalar xarajatlari samaradorligi;
- turfirmalar aktivlari samaradorligi;
- turfirmalar o‘z mablag‘lari samaradorligi;
- turfirmalar asosiy vositalari samaradorligi [5].

“Xarajatlar hisobini yuritish, shuningdek, operatsion koeffitsiyentlar mehmonxona sanoati uchun yaxshi barometrlar hisoblanadi. Mazkur tarmoqda kompaniyaning operatsion ko‘rsatkichlarini tahlil qilish diagnostika vositasidir. Mazkur koeffitsiyentlar ko‘pincha tegishli tashkilotlar tomonidan e’lon qilinadigan savdo sohasidagi shunga o‘xshash koeffitsiyentlarga solishtiriladi” [6].

X.M.Mamatqulovning e’tirof etishicha, mehmonxona industriyasiga hozirda ishlab chiqarish korxonasi, servis muassasi va tashkiloti sifatida qaraydi [7].

Yuqoridagi tadqiqotchilar fikrini inobatga olgan holda ta’kidlash mumkinki, mehmonxona sohasini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini, jumladan, turizm va mehmonxona sohalarini rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Qolaversa, mehmonxona moliyasini samrali tashkil etish mazkur sohani jadal rivojlantirishga yordam beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o‘rnini o‘rganishda qiyoslash, kuzatish, statistik tahlil, analiz, sintez kabi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Mehmonxonalar faoliyatida moliyaviy ko‘rsatkichlarga ham e’tibor qaratish zarur. Mazkur ko‘rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo‘llari nafaqat nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ham ega (1-jadval). Birinchidan, barcha ko‘rsatkichlar mehmonxona xo‘jaliklarining moliyaviy hisobotlarida ifoda etiladi. Demak, ushbu ma’lumotlar ularning faoliyat natijasi bo‘yicha tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishga asos bo‘ladi. Ikkinchidan, ushbu ko‘rsatkichlarning miqdori, ularning faoliyati uchun muhim bo‘lgan jihatlarning foydaliligini ko‘rsatadi. Shuningdek, mazkur tizimda umumiy rentabellik ko‘rsatkichlari bilan birga, mehmonxona xo‘jaliklarining ayrim qirralarini ifoda etadigan ko‘rsatkichlar ham mavjud. Masalan, o‘z mablag‘lari rentabelligi mehmonxona xo‘jaliklarining faqat bitta jihatini, ya’ni o‘z mablag‘lari foydaliligi bilan bog‘liq rentabellik darajasini ifoda etadi. Mazkur rentabellik ko‘rsatkichlari tizimida mehmonxona xo‘jaliklari xarajatlari rentabelligi ham keltirilmoqda. Ushbu ko‘rsatkich shu subyektning bir so‘mlik xarajatlari qancha sof foyda keltirayotganligini ifoda etadi. Bu xarajatlarning qaytimini belgilaydi. Agar uni yillar bo‘yicha solishtirilsa, xarajatlar samaradorligi bo‘yicha o‘zgarish tendensiyasiga baho berish mumkin. Xuddi shunday tahlilni tizimdagi boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha, xususan, bitta xodimga to‘g‘ri keladigan sof foyda summasi bo‘yicha ham qilish mumkin.

1-jadval: Mehmonxona xo‘jaliklarida rentabellikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash yo‘llari [8]

T/r	Ko‘rsatkichning nomi	Hisoblash yo‘llari
1.	Mehmonxona xo‘jaliklarida umumiy (sotish) rentabelligi (R_{us})	$R_{us} = \frac{Sf}{Q}$ Sf – sof foyda summasi, Q – mehmonxona xo‘jaliklarida mahsulotlar va xizmatlarni sotishdan sof tushum.
2.	Mehmonxona xo‘jaliklarida xarajatlar rentabelligi (R_{xa})	$R_{xa} = \frac{Sf}{Xa}$ Xa – mehmonxona xo‘jaliklarining umumiy xarajatlari
3.	Mehmonxona xo‘jaliklarida aktivlar rentabelligi (R_{ak})	$R_{ak} = \frac{Sf}{Ak}$ Ak – mehmonxona xo‘jaliklari aktivlarning o‘rtachi yillik qiymati.
4.	Mehmonxona xo‘jaliklarida o‘z mablag‘lari rentabelligi ($R_{o'm}$)	$R_{o'm} = \frac{Sf}{O'm}$ O‘m – mehmonxona xo‘jaliklari o‘z mablag‘larining o‘rtachi yillik qiymati.
5.	Mehmonxona xo‘jaliklarida mehnat resurslari, ya’ni bitta xodimga to‘g‘ri keladigan sof foyda miqdori (X_{sf})	$R_{xs} = \frac{Sf}{Xs}$ Xs – mehmonxona xo‘jaliklarida xodimlarning o‘rtacha soni.

Hozirda barcha shahar va turistik obyektga ega bo‘lgan qishloq hududlarida mehmonxonalarning qurilishi ko‘paymoqda. Bir qator sabablar natijasida ehtiyoj yildan-yilga oshib bormoqda. Bularga quyidagilarni kirtish mumkin (1-rasm).




1-rasm: Aholida turizm va mehmonxona xizmatlariga bo‘lgan talabning oshishiga sabab bo‘layotgan omillar[1]

1 Iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS


Hozirgi paytda ushbu ehtiyojlardan kelib chiqib, har bir hududda mexmonxonalar qurilishi bo‘yicha strategik prognoz ko‘rsatkichlar bo‘lishi lozim. Mehmonxona xizmatlaridan samarali foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish ham bugungi kunning muhim talablaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda dunyoda mehmonxona biznesini rivojlantirish, mazkur sohada pul oqimlari aylanmasini oshirishda turizmning roli doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Mamlakatimizda ham mehmonxonalar sohasini rivojlantirish bevosita turizm bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlash lozim. Mamlakatimizda oxirgi 2017—2021-yillarda kirish turizmi bilan shug‘ullanuvchilar soni 0,7 barobarga kamaydi, 2021-yilda 1881,3 ming kishini tashkil etdi, xorijga sayohat qilgan O‘zbekiston fuqarolari soni 2194,8 ming nafarni tashkil etdi (2017-yilga nisbatan 0,4 barobar kam). 2021-yilda mamlakatimizda xizmat ko‘rsatuvchilar soni 2162,7 ming kishiga yetdi (2-rasm).



2-rasm: 2017–2021-yillarda O‘zbekistonda turizm ko‘rsatkichlari, dona [9]

O‘zbekistonda hududlar kesimida turizm ko‘rsatkichlari turlicha shakllanganligi sababli mazkur hududlarda mehmonxona biznesini moliyalshtirish masalalarining joriy holati bir-biridan farq qiladi. Xususan, Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro, Xorazm kabi hududlarda mehmonxonalar va shunga o‘xshash obyektlar soni boshqa hududlarga nisbatan ko‘p ekanligini qayd etish joiz (3-rasm).




3-rasm: O‘zbekistonda hududlar kesimida mehmonxona va shunga o‘xshash obyektlar tahlili [9]

2021-yil davomida O‘zbekiston hududida 848 ta mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish obyektlari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ulardan 94,0 % mehmonxonalar, 1,2 % motellar, 0,4 % pansionatlar va 4,5 % boshqalarga to‘g‘ri keladi.

Mehmonxonalarning rivojlanishida turistik obyektlar bilan birga tegishli infratuzilmaning ham shakllanganligi muhim ahamiyatga ega. Bunda turistik obyektga va mehmonxonalarga boradigan yo‘l infratuzilmasi, kommunal xizmatlarning talab darajasida tashkil qilinganligi, ovqatlanish va savdo shaxobchalarining tashkil qilinganligi kabilarni kiritish mumkin.

Mamlakatimizda davlat tomonidan turizm sohasini rivojlantirish orqali mehmonxonalarning rivojlanishiga hamda ularni moliyalashtirish imkoniyatlarining oshishiga erishishda quyidagi chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilishi muhim hisoblanadi (4-rasm).



4-rasm: Davlat tomonidan turizm sohasini rivojlantirish orqali mehmonxonalarni rivojlantirish hamda ularni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha amalga oshirilishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlar[2]

Ushbu omillarning hammasi turizm va mehmonxonalarning rivojlanishi uchun tashkiliy-huquqiy asos bo‘lib hisoblanadi. Ko‘rinib turibdiki, mehmonxona xo‘jaligi va turizmning rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan subyektlar va jarayonlardir. Ularni rivojlantirishga bir yoqlama qarab bo‘lmaydi. Shu tufayli turizm va mehmonxona xo‘jaliklarini rivojlantirish bo‘yicha mamlakatimiz va hududlar kesimida yagona dasturning bo‘lishi maqsadga muvofiq.

XULOSA

Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o‘rnini o‘rganish asosida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin.

Birinchidan, xalqaro amaliyotlarda mehmonxona biznesini rivojlantirish va mehmonxona biznesini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizm sohasi muhim o‘ringa ega. Shu sababli milliy amaliyotimizda turizmni rivojlantirish orqali ham mehmonxonalarning moliyaviy natijalarini yaxshilashga e’tibor qaratish lozim.

2 Iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Ikkinchidan, mamlakatimizdagi turizm imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda turistlar nisbatan ko‘p tashrif buyuradigan hududlarda xalqaro talablarga javob beradigan mehmonxonalar tizimini shakllantirish lozim.

Uchinchidan, hududlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda hududlarda turizmning turli shakllarini rivojlantirish va bu orqali mehmonxonalarning daromadlarini oshirishni qo‘llab-quvvatlash lozim.

To‘rtinchidan, davlat tomonidan turizm sohasini rivojlantirish orqali mehmonxonalarni rivojlantirish hamda ularni moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Chunki regulyator sifatida davlat tashkilotlari tomonidan sohani rivojlantirish bo‘yicha samarali mexanizmlarning yaratilishi mehmonxonalar faoliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Кабушкин Н.И., Бондаренко Г.А. Менеджмент гостиниц и ресторанов. – Минск: Новое знание, 2002. – С. 58.
2. Управление качеством: Учебник для вузов / Под ред. С.Д.Ильенковой. – М.: Юнити-Дана, 2004. – С. 78.
3. Fan Zhang, Qu Xiao, Rob Law, Seoki Lee. Mergers and acquisitions in the hotel industry: A comprehensive review. // International Journal of Hospitality Management, Volume 91, October 2020. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0278431919304712
4. Filipe Sardo, Zélia Serrasqueiro, Helena Alves. On the relationship between intellectual capital and financial performance: A panel data analysis on SME hotels. // International Journal of Hospitality Management, Volume 75, September 2018, Pages 67-74. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S027843191730590X
5. Pardayev M.Q. va boshqalar. Turfirmalar moliyaviy xo‘jalik faoliyati tahlili. Ma’ruzalar kursi. Samarqand, SamISI, 2011.B. 144-145.
6. M.T.Aliyeva. Mehmonxona menejmenti. // Darslik, T.:, 2007. – 203 b.
7. Mamatkulov X.M. Xizmat ko‘rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug‘ati.- T.: “IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti, 2010. B.167-168.
8. M.Q.Pardayev. “Turfirmalar moliyaviy xo‘jalik faoliyati tahlili”. // Ma’ruzalar kursi, Samarqand, SamISI, 2011. - 147-149 b.
9. https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/turizim_28_07_22_uz.pdf - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti ma’lumotlari

O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQARORLIK REYTINGINI JORIY ETILISHI VA UNDAGI ASOSIY O‘ZGARISHLAR TAHLILI

UDK: 336.221(575.172)

Normurzayev Umid Xolmurzayevich
DSc, YSTBI Davlat soliq bosh inspektori

Annotatsiya: O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi soliq qonunchilik hujjatlariga kiritilgan asosiy o‘zgarish va soliq imtiyozlari berish tartibini takomillashtirish ularga yangicha yondashuvlarni joriy etish orqali bozor xizmatlari hajmini oshirish, aholiga yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlari kengaytirish muhum vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, 2023-yil 18-avgust kuni o‘tkazilgan Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek, soliqlarni o‘z vaqtida to‘lab, qonunchilik talablariga amal qilgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish va ularni rag‘batlantirish maqsadida tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi hamda soliq tizimida amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o‘rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: barqarorlik reytingi, tadbirkorlik subyektlari, budjet siyosati, inqiroz, budjet, soliq ma’murchiligi, tadbirkorlik subyektlari, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq, soliq stavkasi, preferensiyalar.

Abstract: The introduction of the sustainability rating of economic entities in Uzbekistan is one of the important tasks of the main changes made to tax legislation and improving the procedure for granting tax benefits by introducing new approaches to them, increasing the volume of market services, expanding opportunities for creating new jobs for the population. Also, in order to ensure the implementation of the established priorities within the framework of the open dialogue between the President and entrepreneurs, held on August 18, 2023, as well as to create more favorable conditions for business entities operating in accordance with legal requirements by paying taxes on time, and to encourage them by introducing a sustainability rating of business entities.

Key words: stability rating, business entities, fiscal policy, crisis, Budget, Tax administration, business entities, tax reporting, tax revenues, tax benefits, taxation, tax rate, preferences.

Аннотация: Внедрение рейтинга устойчивости хозяйствующих субъектов в Узбекистане является одной из важных задач основных изменений, внесенных в налоговое законодательство, и совершенствования процедуры предоставления налоговых льгот путем внедрения новых подходов к ним, увеличения объема рыночных услуг, расширения возможностей для создания новых рабочих мест для населения. Также, в целях обеспечения реализации установленных приоритетов в рамках открытого диалога президента с предпринимателями, состоявшегося 18 августа 2023 года, а также создания более благоприятных условий для субъектов предпринимательства, осуществляющих свою деятельность в соответствии с требованиями законодательства, путем своевременной уплаты налогов, и для поощряйте их, внедряя рейтинг устойчивости хозяйствующих субъектов.

Ключевые слова: рейтинг стабильности, хозяйствующие субъекты, бюджетная политика, кризис, Бюджет, Налоговое администрирование, хозяйствующие субъекты, налоговая отчетность, налоговые поступления, налоговые льготы, налогообложение, налоговая ставка, преференции.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqarorligini ta’minlashda iqtisodiy siyosatining eng muhim elementlaridan biri – soliq siyosatini yanada liberallashtirish, soliqqa tortish tartibini soddalashtirish, soliq yukini pasaytirish, xo‘jalik subyektlarining huquq va erkinliklarini himoya qilishni amalga oshirish hisoblanadi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda ularga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini yanada takomillashtirish yuzasidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekiston iqtisodiyoti o‘sib borayotgan, ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb etish istagida bo‘lgan mamlakat sifatida soliq tizimini isloh qilish muhimligini e’tirof etdi. Ushbu islohotlar nafaqat daromadlarni yig‘ishni kuchaytirishga, balki biznesning o‘sishi, innovatsiyalar va barqaror rivojlanish uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Jo‘rayev (2005) fikricha, g‘arb iqtisodchilari soliq siyosati mustaqil tushuncha hisoblanmaydi. Ular soliq siyosati tushunchasiga fiskal siyosat tushunchasi orqali yondoshadilar. Fiskal siyosat esa davlatning o‘z daromadlari va xarajatlari bo‘yicha qaror qabul qilishi bo‘lib hisoblanadi - deb ta’kidlashadi.

Kene (1960), ingliz iqtisodchisi Keyns (1993) va boshqalarning ilmiy qarashlarida muhim o‘rin tutib kelgan. Ular davlat iqtisodiyotni tartiblashda soliq siyosatini yuritishning turli xil uslublari va yondoshuvlari haqida ko‘plab bahslar yuritgan, soliq siyosatining bosh maqsadi nimadan iborat bo‘lishi lozimligi ko‘rsatib berishda, ko‘proq, soliqlarni undirish masalalariga alohida e’tibor qaratgan.

Bayborodina (2010) “soliq islohotlari – soliq tizimini keng ko‘lamli qayta qurish va uni boshqarish mexanizmini o‘zgartirish asosida soliq munosabatlarining cheklangan yoki tubdan o‘zgarishi sifatida” ta’riflaydi.

Mayburov (2007) “soliq islohoti soliq tizimini tubdan o‘zgartirishni davlat soliq siyosatining yangi mazmuniga moslashtirish” deb ta’kidlaydi.

Bogatirevaning (2014) fikricha, “soliq islohoti bu davlat soliq tizimidagi qonuniy ravishda belgilangan o‘zgarish, bu davlat soliq siyosati strategiyasini o‘zgartirishga asoslanadi. Shunday qilib, soliq siyosati taktikasining o‘zgarishi soliq islohotiga olib kelmaydi. Faqat soliq tizimiga tegishli amaldagi qonunchilikdagi o‘zgartish va qo‘shimchalar sifatida ko‘rib chiqiladi. Soliq siyosati strategiyasidagi o‘zgarishlar mamlakatda soliq islohotlarini amalga oshirish uchun asosdir.

Dementeva (1689) soliq siyosatini davlat iqtisodiy siyosatining in’ikosi ekanligini, u mustaqil ahamiyatga egaligi va soliqlarning ilmiy nazariyasiga asoslanishi lozimligini ta’kidlaydi. “Amalga oshirilayotgan soliq siyosatining natijalari ko‘p jihatdan davlat o‘z iqtisodiy siyosatiga qanday tuzatishlar kiritishga majbur ekanligini, soliq tizimini qanday qurish kerakligini belgilaydi”.

Karp (2001) Soliq siyosati davlatning o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi umumiy moliyaviy siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib, soliq sohasidagi davlat faoliyati konsepsiyasi, soliq mexanizmi, soliq tizimini boshqarish kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Petrunin, Panov, Logunovalar (1995) esa, soliq siyosati va uning strategik mazmunini “soliq qonunchiligidagi korxonalarga soliq to‘lashdan qochish imkonini beruvchi bo‘shliqlarni aniqlashdan iborat” degan fikrni ilgari suradi.

Aronov, Kashinlar (2007) o‘zining tadqiqotida yesa, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning xorij va Rossiya Federatsiyasida undirish mexanizmini o‘rgangan holda soliq to‘lashdan bosh tortgan soliq to‘lovchilar bilan ishlash siyosati, ularning huquq va majburiyatlari, kelgusida har bir soliq to‘lovchi o‘z xohishi bilan soliq to‘lash majburiyati bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishgan hamda ushbu tavsiyalarni soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish sohasida qo‘llab uni isbotlashgan va bir qator amaliy choralarni amalga oshirishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytinginiga doir ma’lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-39-sonli qarori imzolandi. Mazkur qaror 2023-yil 18-avgust kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash, shuningdek, soliqlarni o‘z vaqtida to‘lab, qonunchilik talablariga amal qilgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish va ularni rag‘batlantirish maqsadida qabul qilindi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi xorijiy davlatlarda qanay yo‘lga qo‘yilgan shuni o‘rganib chiqsak. Xususan, Qozog‘iston Respublikasi tajribasi quydagicha ishonchli hamkorlar reyestrida quydagilar nazarda tutilgan.

Reyestrni yuritilishidan ko‘zlangan maqsad:

- Mahalliy va xorijiy tadbirkorlik subyektlarini mahalliy tadbirkorlik subyektlari orasidan hamkorlarni tanlash uchun zarur ma’lumotlar bilan ta’minlash orqali tadbirkorlik faoliyatini, shu jumladan tashqi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish;

- Ishlab chiqarilayotgan mahalliy mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning raqobatdoshligini oshirishga ko‘maklashish;
- Ichki bozorda va xorijda mahalliy tadbirkorlik subyektlariga ishonchni oshirish.

Reyestrga to‘liq va ishonchli ma’lumotlarni taqdim etgan hamda mazkur Nizomda belgilangan mezonlarga javob beradigan barcha mulkchilik shaklidagi va tashkiliy-huquqiy shakldagi tadbirkorlik subyektlari kiritiladi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini reyestrga kiritish mezonlari mazkur nizomning ishonchlilik darajasini baholash metodikasi bilan belgilanadi.

Agar ushbu Nizomda belgilangan mezonlar bajarilgan bo‘lsa, tadbirkorlik subyektiga “Atameken” Qozog‘iston Respublikasi milliy palatasi a’zolariga ko‘rsatiladigan pullik xizmatlar ro‘yxati va qiymati 21-bandiga muvofiq pullik asosda tegishli sertifikat beriladi. Xizmat narxi bazaviy miqdorning 20 barobariga teng bo‘ladi.

Rossiya Federatsiyasi tajribasi esa iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlari ishonchli bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarining nodavlat reyestri yuritiladi. Mazkur reyestr 2023-yil 25-avgustda 51-sonli Rossiya Savdo-sanoat palatasi raisi Buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

Reyestrga kiritilish shartlari:

- o‘z faoliyatini so‘nggi 3 yildan beri davom ettirayotgan bo‘lish;
- tashkilot haqida ishonchli ma’lumotlarni taqdim etish;
- qayta tashkil etish, tugatish va bankrotlik holatida bo‘lmaslik;
- soliqlar, yig‘imlar, va boshqa to‘lovlardan qarzdorlikni bo‘lmasligi;
- insofsiz yetkazib beruvchilar hamda pudratchilar reyestrida bo‘lmaslik;
- yil yakuniga ko‘ra, tashkilotning moliyaviy ahvoli “SSS – qoniqarsiz” holatda bo‘lmasligi;
- reyestrga kiritilish uchun to‘lanadigan bir martalik to‘lovni to‘lagan bo‘lishi kerak.

Belorusiya Respublikasi tajribasida ishonchli hamkorlar reytingi Belorus Savdo-sanoat palatasining 2019-yil 30-dekabrdagi 91-sonli qarori bilan tashkil etilgan.

Reyestrga kirish shartlari quydagicha:

- kerakli hujjatlarni taqdim etilganligi, a’zolik va kirish badallarining to‘langanligi;
- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotganiga kamida 3 yil to‘lgan bo‘lishi;
- to‘liq shakllangan ustav fondiga ega bo‘lishi;
- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik holatida bo‘lmasligi;
- davlatga to‘linishi kerak bo‘lgan soliq, yig‘imlar va boshqa to‘lovlardan qarzdorligi bo‘lmasligi;
- reyestrga kirish yuzasidan berilgan arizani ko‘rib chiqish muddati 30 kunni tashkil etadi.
- reyestrga kiritilgan tadbirkorlar 2 yil davomida mazkur reyestrda bo‘ladi.

Reyestrdan chiqish asoslari esa:

- sertifikat amal qilish muddatini tugaganligi;
- tadbirkorlik subyektini bankrotligi yoki tugatilganligi;
- tadbirkorlik subyekti tomonidan noto‘g‘ri va sohtalash-tirilgan ma’lumotlarni taqdim etilganligi;
- nizom talablariga rioya qilinmaganligidir.

Bizda esa Savdo-sanoat palatasi, Soliq qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilning 2024-yil 1-fevraldan boshlab qonunchilik talablariga rioya etgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini aniqlash va qo‘shimcha rag‘batlantirishni nazarda tutuvchi tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etildi.

a) reyting doirasida tadbirkorlik subyektlari quyidagi toifalarga ajratiladi:

“AAA”, “AA” va “A” toifalar – yuqori barqarorlik reytingi;

“VVV”, “VV” va “V” toifalar – o‘rta barqarorlik reytingi;

“SSS”, “SS” va “S” toifalar – qoniqarli barqarorlik reytingi;

“D” toifa – quyi barqarorlik reytingi;

b) reyting Soliq qo‘mitasining “Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi” elektron platformasida (keyingi o‘rinlarda – platforma) idoralararo axborot almashinuvi vositasida avtomatik tarzda (onlayn) shakllantiriladi va Savdo-sanoat palatasining rasmiy veb-saytida e’lon qilib boriladi;

d) yuqori barqarorlik reytingidagi tadbirkorlik subyektlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha jamoatchilik kengashi taklifiga asosan har yili 20-avgust Tadbirkorlar kuni arafasida taqdirlash uchun davlat mukofotlari hamda “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoniga tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, yuqori barqarorlik reytingidagi tadbirkorlik subyektlari uchun quyidagi rag‘batlantirish choralari joriy etildi:

a) “AAA” toifadagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida soliq tekshiruvlari o‘tkazilmaydi (jinoiy ishlar doirasida o‘tkaziladigan tekshiruvlar bundan mustasno), shuningdek, ushbu toifadagi tadbirkorlik subyektlariga qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) bir kun muddatda tekshiruvlarsiz amalga oshiriladi;

b) 4 va 5-toifadagi tumanlarda faoliyat yuritayotgan “AA” va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotilgan davlat aktivlari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari bo‘yicha dastlabki to‘lov summasi 35 foizdan kam bo‘lgan hollarda qolgan summaga Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida yillik foizlar hisoblanmaydi hamda bo‘lib-bo‘lib to‘lash muddati miqdoridan qat’i nazar, 7 yil (teng ulushlarda) etib belgilanadi;

d) “A” va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga:


- soliqlar bo‘yicha (qo‘shilgan qiymat solig‘i bundan mustasno) mavjud ortiqcha to‘lov summasini qaytarish uch kun muddatda amalga oshiriladi. Tovarlarni import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini o‘zaro hisobga olish tartibi tatbiq etiladi.



1-rasm: Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash sxemasi[1]

Mazkur qarorning 4-bandida nazarda tutilgan rag‘batlantirish choralari davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi. 2024-yil 1-apreldan boshlab tadbirkorlik subyektlariga subsidiya, imtiyoz va preferensiyalar ularning reyting darajasidan kelib chiqqan holda joriy etildi.

1 Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.



2-rasm: Barqarorlik reytingi va reyting ballarini oshirish ko‘rsatkichi[2]



3-rasm: Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali soliq bazasini kengaytirish masalalari

2 Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.



УМУМИЙ ОВҚАТЛАНИШ КОРХОНАЛАРИ

КОРХОНАЛАРНИНГ РЕЙТИНГДАГИ ЎРНИ

17 720 та

AAA 18 та 17 ҚҚС/ 1 АОС
AA 102 та 36 ҚҚС/66 АОС
A 146 та 67 ҚҚС/ 78 АОС
BBB 726 та 280 ҚҚС/ 446 АОС
BB 1477 та 446 ҚҚС/ 1031 АОС
B 1932 та 478 ҚҚС/ 1454 АОС
CCC 2614 та 226 ҚҚС/ 2388 АОС
CC 3120 та 360 ҚҚС / 2760 АОС
C 2833 та 193 ҚҚС / 2640 АОС
D 4752 та 151 ҚҚС / 4601 АОС

АЙЛАНМАДАН ОЛИНАДИГАН СОЛИҚ ТЎЛОВЧИЛАР

КОРХОНАЛАР СОНИ	ЎРТАЧА БИР КУНЛИК ТУШУМИ	ЎРТАЧА БИТТА ЧЕК СУММАСИ	ЎРТАЧА 1 ТА СУБЪЕКТГА ТЎҒРИ КЕЛАДИГАН ХОДИМ СОНИ
15,4 минг	127,4 минг	66,2 минг	2 нафар

минг сўмда

№	Ҳудуд номи	сони	Ўртача бир кунлик тушуми	Ўртача битта чек суммаси	Ўртача 1 та субъектга тўғри келадиган ходим сони
1	Қорақалпоғистон	819	167,3	45,9	1,6
2	Андижон	888	140,7	53,2	2,4
3	Бухоро	832	85,2	42,9	1,8
4	Жиззах	1 018	110,4	72,0	2,0
5	Қашқадарё	589	85,5	59,9	2,0
6	Навоий	950	160,0	27,8	1,5
7	Наманган	914	129,6	64,8	2,7
8	Самарқанд	2 007	81,8	87,9	1,4
9	Сурхондарё	1 059	132,0	60,7	2,1
10	Сирдарё	313	128,7	122,9	1,9
11	Тошкент вилояти	1 562	117,9	55,5	1,7
12	Фарғона	1 770	96,3	93,1	2,0
13	Хоразм	821	114,8	55,7	2,1
14	Тошкент шаҳар	1 876	216,2	76,9	2,7
	ЖАМИ:	15 418	127,4	66,2	2

4-rasm: Umumiy ovqatlanish korxonalari misolida[3]



ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИНГ БАРҚАРОРЛИК РЕЙТИНГИ

ЖАМИ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ 568 981 та	ЮҚОРИ РЕЙТИНГ 9 631 та 2%	ЎРТА РЕЙТИНГ 137 062 та 24%	ҚОНИҚАРЛИ ВА ҚУЙИ РЕЙТИНГ 422 288 та 74%
Ишлаб чиқарувчилар 47 427 Жамига нисбатан 8,3%	2 023 та 4,3%	17 916 та 37,3%	27 728 та 58,4%
Қишлоқ хўжалиги 115 621 Жамига нисбатан 20,3%	328 та 0,3%	18 783 та 16,2%	96 510 та 83,5%
Импорт қилувчилар 119 Жамига нисбатан 0,02%	5 та 4,2%	74 та 62,2%	10 та 33,6%
Улгуржи савдо 42 180 Жамига нисбатан 7,4%	1 231 та 2,9%	15 018 та 35,6%	25 932 та 61,5%
Чакана савдо 236 123 Жамига нисбатан 41,4%	4784 та 2%	68 997 та 29,2%	162 342 та 68,8%
Қурилиш корхоналари 21 093 Жамига нисбатан 3,7%	416 та 1,9%	6 311 та 29,9%	14 366 та 68,2%
Бошқалар 106417 Жамига нисбатан 18,7%	844 та 0,8%	10 203 та 9,6%	95 370 та 89,6%

Рейтинг кўрсаткичлари	ЮҚОРИ РЕЙТИНГ 9 631 та 2%	ЎРТА РЕЙТИНГ 137 062 та 24%	ҚОНИҚАРЛИ ВА ҚУЙИ РЕЙТИНГ 422 288 та 74%
Банд бўлган ходимлар сони 5 161 987	521 487 та 10,1%	3 592 791 та 69,6%	1 047 709 та 20,3%
Иш ҳақи жамғармаси (млрд сўм) 168 444,2	21 540,2 та 12,8%	130 146,5 та 77,3%	16 757,5 та 9,9%
Бир нафарга тўғри келадиган иш ҳақи суммаси (минг сўм)	2 958,8	2 060,9	731,1
Бир нафарга тўғри келадиган товар айланмаси (млн сўм)	232,0	291,7	194,6
Экспорт ҳажми (млн доллар) 9 799,8	881,7 9%	7 345,5 75%	1 572,6 16%
Тўланган солиқлар суммаси (млрд сўм) 136 587	8 577,5 6,3%	110 907 81,2%	17 102,5 12,5%
Фойдаси (млрд сўм) 31 089,5	631 2%	30 235,1 97,3%	223,4 0,7%

5-rasm: Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tendensiyasi[4]

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-yanvardagi “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 55-sonli qarori tasdiqlandi.

3 Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.
4 Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.



6-rasm: Barqarorlik reytingi va reyting ballarini oshirish ko‘rsatma ma’lumoti[5]

Mazkur qaror bilan qonunchilik talablariga rioya etgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini aniqlash va rag‘batlantirishni nazarda tutuvchi tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi joriy etilganligi hamda reyting Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining “Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi” elektron platformasida idoralararo axborot almashinuvi vositasida avtomatik tarzda shakllantirilishi va Savdo-sanoat palatasining rasmiy veb-saytida e’lon qilib borilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilindi. Bundan tashqari qarorning 2-bandida reytingni shakllantirish, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini baholash mezonlari, davriyligi va metodikasi hamda reytingni e’lon qilish tartibini nazarda tutuvchi Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlandi.



7-rasm: Tadbirkorlik subyektining barqarorlik reytingining tahliliy ma’lumotlari

5 Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Asta-sekin, insofli tadbirkorlar uchun imtiyozlar ro‘yxati kengayadi. Kelgusida, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish uchun yaxlitlik reytingini asos sifatida tadbirkorlik sohasini tartibga solishga mas’ul bo‘lgan boshqa vazirlik va idoralar ham qo‘llashi rejalashtirilgan.

Tadbirkorlik subyektlarining yaxlitlik reytingi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy mahsulot asosida avtomatik tarzda shakllantiriladi.

Reyting tadbirkorlik subyektining soliq qonunchiligi talablariga rioya etishi, moliyaviy barqarorlik va tadbirkorlik tajribasining umumiy natijalarini o‘z ichiga olgan mezonlar asosida 100 balllik reyting tizimi bo‘yicha tuziladi. Shuningdek, ushbu reyting tadbirkorlik subyektlariga o‘zlarining halolligini baholash va soliq organlari ularning faoliyatini qanday baholayotganini bilish, shuningdek, kontragentlari haqida ma’lumot olish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etish choralarini ko‘rish yuzasidan quydagi takliflarni berishimiz mumkin. Xalqaro moliya institutlari hamkorligida “Soliq xavflarini boshqarish” (CRM) tizimini joriy qilish. Teng raqobat muhitini yaratish va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarining oldini olish chora-tadbirlarini davom ettirish, shu jumladan soliq to‘lamaslik xavfi yuqori bo‘lgan soliq to‘lovchilari uchun qo‘shimcha cheklovlar o‘rnatish tizimini joriy qilish kerak.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. Аронов А. ва Кашин В. (2007) Налоги и налогообложение М.: Магистр.
3. Байбородина В.Г. (2010) Налоги и налогообложение: учебное пособие / Хабаровск: РИЦ ХГАЭП, 108 с.
4. Богатырева Е.Н. (2014) Теоретические детерминанты налоговых реформ. ISSN 2221-7347 Экономика и право.
5. Дементьева Н.М. (1689) налоговая политика государства. https://nsuem.ru/science/publications/science_notes/issue.php?ELEMENT_ID=1689.
6. Дж.М.Кейнс (1993) Общая теория занятости, процента и денег. – М.:
7. Жўраев А., Сафаров Ғ. (2005) Солиқ назарияси. Ўқув қўлланма. –Т.: “Iqtisod-moliya”,. 48-бет.
8. Карп М.В. (2001) Налоговый менеджмент: Учебник для вузов. – М.: Юнити-дана, – 39 с.
9. Кенэ (1960) Избранные экономические произведения.-М.Соцэкгз.;
10. Майбуров И.А. (2007) Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по специальностям; под ред. И.А.Майбурова. –М.: юнити-дана, -655с.).
11. Normurzayev, U. (2024). O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirishda hududlararo soliq inspeksiyasi o‘rni va ahamiyati. Iqtisodiy Taraqqiyot va Tahlil, 2(4), 457–467. https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss4-pp457-467
12. U Normurzayev O‘zbekiston Respublikasining 2024-yilgi soliq qonunchilik hujjatlariga kiritilgan asosiy o ‘zgarish va soliq imtiyozlari berish tartibini takomillashtirish masalalari - file:///C:/Users/User/Downloads/PDF_Normurzayev+U-mid+Xolmurzayevich_Jurnal-1-2024%20(1).

TOG‘ VA TOG‘OLDI HUDUDLARI QISHLOQ XO‘JALIGINI IXTISOSLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI



Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna
Termiz davlat universiteti
Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi tabiiy iqlim va tuproq sharoitlarini inobatga olgan holda ma’lum turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish imkoniyatlarini tavsiflashdir. Tadqiqotda, mintaqalashtirish orqali, aholi va mehnat resurslari hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi xususiyatlarini aniqlash borasida fikrlar bildirilgan.

Tog‘ va tog‘oldi hududlarida iqlim o‘zgarishiga moslashgan qishloq xo‘jaligi va unga mos agrotexnologiyalar tizimini shakllantirish, tarmoq tuzilishini diversifikatsiyalash hamda ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish asosida tog‘ va tog‘oldi qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirilishini zaruriyatga aylantiruvchi omil hamda xususiyatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tog‘ va tog‘oldi hududlari, raqobat, yer resursi, yalpi qishloq xo‘jaligi mahsuloti, dehqonchilik, ekonometrik model, mehnat resurslari, golobal iqlim o‘zgarishi, ekologik barqarorlik, diversifikatsiya.

Abstract: The main goal of this study is to describe the possibilities of specialization in the cultivation of certain types of agricultural products, taking into account the natural climate and soil conditions. The study expressed views on determining the potential of population and labor resources and agricultural production through regionalization.

Formation of a climate-change-resistant farming system and agricultural technologies in mountain and foothill areas, diversification of the network structure and optimization of the structure of sown areas, factors and conditions that make the development of mountain and foothill agriculture necessary. highlighted in the article.

Key words: Mountain and mountainous regions, competition, land resources, gross agricultural output, farming, econometric model, labor resources, global climate change, environmental stability, diversification.

Аннотация: Основная цель данного исследования – описать возможности специализации в выращивании отдельных видов сельскохозяйственной продукции с учетом природного климата и почвенных условий. В исследовании были высказаны мнения по поводу определения потенциала населения и трудовых ресурсов и сельскохозяйственного производства посредством регионализации.

Формирование устойчивой к изменению климата системы земледелия и агротехнологий в горных и предгорных районах, диверсификация сетевой структуры и оптимизация структуры посевных площадей, факторы и условия, делающие необходимым развитие горного и предгорного земледелия. выделено в статье.

Ключевые слова: Горные и горные регионы, конкуренция, земельные ресурсы, валовая продукция сельского хозяйства, земледелие, эконометрическая модель, трудовые ресурсы, глобальное изменение климата, экологическая стабильность, диверсификация.

KIRISH

Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligi ko‘plab mamlakatlar uchun muhim masalalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda 840 milliondan ortiq kishi to‘yib ovqatlanish imkoniyatiga ega emas. Bu jahon aholisining deyarli har sakkiz nafaridan biri demakdir1. Agar 2024-yilda dunyo aholisi 8 milliard 73 million kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2050-yilga borib, dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, u 9,8 milliarddan oshadi, bu esa oziq-ovqatga bo‘lgan talabning sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Shu sababli, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda hududlar salohiyatidan, xususan tog‘ va tog‘oldi hududlari qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va ushbu hududlar imkoniyatlaridan oqilona foydalanish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

1 http://protoday.uz/uz/archives/239608

Global iqlim o‘zgarishiga moslashgan qishloq xo‘jaligi tizimini shakllantirish, o‘sib borayotgan aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hududlar qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlanishini ta’minlash bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik barqarorlikni saqlash talab qilanayotganligi bois, bu butun jahonda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda mamlakat bo‘yicha qishloq tumanlarining 42,1 foizi, jami yer maydonlarining 43,6 foizi, jumladan, qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlarning 55,3 foizi, shuningdek, yaylovlarning 5,6 foizi tog‘ va tog‘oldi hududlarida joylashgan. Ushbu hududlarda respublika aholisining 37,0 foizi, shu jumladan, qishloq aholisining 46,2 foizdan ko‘prog‘i isteqomat qilmoqda. Respublikada yetishtirilayotgan yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotining 46,5 foizi aynan shu hududlarda yaratilmoqda. Ushbu hududlar qishloq xo‘jaligini o‘ziga xos xususiyatlari hamda uning mamlakat oziq-ovqat mustaqilligini ta’minlash va agrar soha tarmoqlarini barqaror rivojlantirish omillaridan biri bo‘lib qolishini ta’kidlagan holda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada ko‘paytirishning strategik yo‘nalishlarini belgilash, mazkur hududlar imkoniyatlaridan oqilona va samarali foydalanish yo‘llarini izlab topish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Tog‘ va tog‘oldi hududlari qishloq xo‘jaligida asosiy vosita sanalgan yer resurslaridan samarali foydalanish cheklangan yer va suv resurslari sharoitida ushbu hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan sanaladi. Shu bois, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab tabiiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Aksariyat tog‘ va tog‘oldi hududlarida tuproq tarkibi buzilib, unumdor yerlar qisqarib borayotgani, cho‘llanish, suv yetishmasligi, qurg‘oqchilik, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash” [1] kabi muammolarning saqlanib qolayotganligi o‘z navbatida tabiat boyliklari va birinchi navbatda ushbu hududlar qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan foydalanishning yangi samarali yo‘nalishlarini izlab topishni taqazo etadi.

Respublikamiz agrar sohasida olib borilayotgan islohotlarda hududlarni tabiiy iqlim va tuproq sharoitlarini inobatga olgan holda ma’lum turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirishni qo‘llab-quvvatlashga ustuvor vazifa sifatida qaralib, uning bajarilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [2].

Tog‘ va tog‘oldi hududlari nafaqat ichki, balki tashqi bozorlar talabiga javob bera oladigan meva, uzum, kartoshka, sabzavot, go‘sht va sut kabi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha deyarli barcha ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega. Ushbu imkoniyatlarni faollashtirish yo‘llaridan biri tog‘ va tog‘oldi hududlarda yer resurslaridan oqilona foydalangan holda qishloq xo‘jaligi salohiyatidan samarali foydalanish tizimini joriy etish asosida ma’lum turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish hisoblanadi. Shuningdek, mazkur hududlar kesimida agrar sektorni rivojlanishidagi muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb va muhim masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tog‘ va tog‘oldi hududlari qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan oqilona foydalanish holati retrospektiv tahlili shundan dalolat bermoqdaki, oxirgi yarim asr vaqt davomidagi aksariyat tadqiqotlar tog‘ va tog‘oldi hududlarida yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi ekinlari agrotexnologiyasi va bu jarayonda foydalaniladigan resurs va omillar ta’siri masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda iqtisodiy masalalar juda qisqa doirada yoritilgan. Aynan shunday holatni chorvachilik masalalariga qaratilgan tadqiqotlarda kuzatish mumkin, ularda nasl va uning irsiy mahsuldorligi hamda uni oshirish masalalari o‘rganilgan, xolos. Boshqa yo‘nalishdagi tadqiqotlar, xususan, hududning resurs salohiyati va xususiyatlari muammolariga bag‘ishlangan.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatishicha, nafaqat respublikamiz, balki mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari ilmiy va maxsus adabiyotlarida tog‘ va tog‘oldi hududlari borasida turli qarashlar ilgari surilmoqda. Respublika bir guruh olimlari, ushbu hududlarni zonalashtirish orqali, aholi va mehnat resurslari hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi xususiyatlarini aniqlash borasida fikrlar bildirilgan [3].

G.E.Avakiyan tog‘li hududlar haqida fikr yuritib, baland tog‘li hududlar bilan past tog‘li hududlardagi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining holati, tabiati va sharoitidagi farqlar tog‘ va tog‘oldi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tizimini shakllantiruvchi omil sifatida muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlagan [4].

Shuningdek, “tog‘ va tog‘oldi hududlari qishloq xo‘jaligi”ning ta’rifi, bo‘yicha ham, uning barqarorligi va tarkibiy qismi haqida yagona fikrga kelinmagan.

P.G.Abdulmanapov va M.A.Galbatsdibirovalar o‘z tadqiqotlarida tog‘li hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va bu hududlardagi demografik jarayonlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari masalalarini tadqiq etishgan [5].

Mirzon Nekruz Mirzonning fikri bo‘yicha esa “Tog‘ qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishi deganda moliyaviy va texnologik shakllanish mazmunidagi barqarorlik, ishlab chiqarishni ko‘paytirish, unumdorlikni oshirish,

shuningdek, tabiiy resurslar salohiyatini hisobga olgan holda uyg‘unlashtirilgan shakllanishni ta’minlash nuqtayi nazardan barqarorlik tushuniladi” [6].

Ushbu tadqiqotlarning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini yuqori baholagan holda ta’kidlash joizki, mazkur iomiy izlanishlarda tog‘li hududlar qishloq xo‘jaligini yuritish shakli va uning xususiyatlari, samaradorligi hamda istiqbollari masalalari o‘rganilmagan.

NATIJA

Respublikamiz agrar sohasida olib borilayotgan islohotlarda hududlarni tabiiy iqlim va tuproq sharoitlarini inobatga olgan holda ma’lum turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirishni qo‘llab-quvvatlashga ustuvor vazifa sifatida qaralib, uning bajarilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[2].

Tog‘ va tog‘oldi hududlari nafaqat ichki, balki tashqi bozorlar talabiga javob bera oladigan meva, uzum, kartoshka, sabzavot, go‘sht va sut kabi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha deyarli barcha ishlab chiqarish imkoniyatlariga ega. Ushbu imkoniyatlarni faollashtirish yo‘llaridan biri tog‘ va tog‘oldi hududlarini ularda qishloq xo‘jaligi salohiyatidan oqilona va samarali foydalanish tizimini joriy etish asosida ma’lum turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish hisoblanadi.

Ushbu tizimning maqsadi tog‘ va tog‘oldi hududlarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmlarini ko‘paytirish orqali ichki bozorlarimizni sifatli hamda ekologik toza mahsulotlar bilan ta’minlash vositasida ularning eksport salohiyatini oshirishdir.

Bunday tizimning tashkiliy asosini meva, shu jumladan, an’naviy va noan’anaviy subtropik meva, uzum, sabzavot, qoramol va qo‘y go‘shti yetishtirishga ixtisoslashgan klasterlar, kooperativlar hamda fermer va dehqon xo‘jaliklari tashkil etadi.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatishicha, Surxondaryo viloyati tog‘ va tog‘oldi qishloq xo‘jaligi o‘z geografik joylashuvi va gidrometrik rejimiga hamda mos tuproq-geografiyasi qonuniyatlarini namoyon etuvchi balandlik mintaqalari va zonalarida shakllangan tuproq turlari va uning tarqalishi hamda unumdorligi darajasi mamlakatimizning boshqa tog‘ va tog‘oldi hududlaridagidan ayrim jihatlari bilan farq qilmasa-da, qishloq xo‘jaligini yuritish tizimini tashkil etish, xo‘jalik yuritish shakllarining tashkiliy-xo‘jalik imkoniyati va salohiyati, u yoki bu tarmoqning rivojlanganligi kabi jihatlari bilan farqlanadi.

Shu bois, tog‘ va tog‘oldi hududlari qishloq xo‘jaligini ma’lum soha va tarmoqlarga ixtisoslashtirish, qo‘llab-quvvatlashga ustuvorlik berishda hudud tuproq tarkibi va unumdorligi, degradatsiyalashuv darajasi, yog‘ingarchilik miqdori va samarali harorat yig‘indisi kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilinib, qiyosiy baholanishi hamda ular asosida ixtisoslashtirish bo‘yicha xulosa va takliflar tayyorlanish tavsiya etiladi.

Tahlillar ko‘rsatishicha, Surxondaryo viloyati tog‘ va tog‘oldi qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan yer resurslari tarkibida amaliyotda qo‘llanilayotgan tuproq tansifining 12 turi mavjud.Ularning 27,1 foizi och qo‘ng‘ir-o‘tloqi dasht hamda jigarrang tuproqlardan, 37,1 foizi tipik bo‘z va och tusli bo‘z tuproqlardan iborat.

Tuproq tarkibi jihatidan tog‘ va tog‘oldi qishloq xo‘jaligida foydalanishda bo‘lgan yerlarning 66,4 foizini og‘ir va o‘rta qumoq tuproqlar, tuproqning yuvilganlik darajasi bo‘yicha eroziyaga uchraganlik indeksi esa 0,15 (o‘rtacha yuvilganlik indeksi – 0,06 va kuchli yuvilganlik indeksi – 0,09) ni tashkil etmoqda[3].


Tog‘ va tog‘oldi qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirishda inobatga olinishi lozim bo‘lgan navbatdagi muhim omillardan biri bu xo‘jaliklar hududi relefi hisoblanadi. Tog‘ va tog‘oldi hududlarida relef hosil bo‘lishiga eroziya, sel, jar ko‘chishi, suv o‘zanlarining keng va chuqur tarmoqlanishi, shuningdek, tog‘ jinslarining yemirilishi kabi omillar ta’sir etmoqda. Qishloq xo‘jaligi tarmoq va sohalarini hudud relefi balandligiga mos ravishda shakllangan uchta poyas - tog‘oldi (adirlar), tog‘ va baland tog‘ mintaqalarida daraxtzorlar, buta, yarim buta, efemer, efemorid va yirik o‘simliklar tarqalganligini inobatga olib, bu hududlarda meva-bog‘dorchilik va uzumchilik hamda yaylov chorvachiligini, asosan qo‘ychilikni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, global iqlim o‘zgarishi va ekologik holat keskinlashuvi nafaqat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi barqarorligini, balki ushbu soha va undagi tarmoqlarning istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini ham belgilab beruvchi omilga aylanib bo‘ldi. Bugungi kunda hududlar bo‘yicha qishloq xo‘jaligi tarmoq tuzilishi va uning diversifikatsiyalashuv yo‘nalishlarini belgilashda ham asos, ham omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tog‘ va tog‘oldi hududlarida iqlim o‘zgarishiga moslashgan qishloq xo‘jaligi va unga mos agrotexnologiyalar tizimini shakllantirish, tarmoq tuzilishini diversifikatsiyalash va ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish asosida tog‘ va tog‘oldi qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirilishini zaruriyatga aylantiruvchi omil va xususiyatlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin (1-rasm):

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 maydagi “Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4709-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.05.2020 y., 07/20/4709/0577-son.

3 Surxondaryo viloyati yer resurslari,geodeziya,kartografiya va davlat kadastri boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.



1-rasm: Boysun tumani hududida yomg‘irli kunlar sonining o‘zgarishining, o‘rtacha ko‘rsatkichlari (1961–1990-yy. va 2015–2019-yy)[4]

- tahlil qilinayotgan va taqqoslanayotgan davrlar mobaynida yilik o‘rtacha yog‘ingarchilik miqdorining kamayish sur’ati o‘rtacha 0,44 foizni tashkil etmoqda, ya’ni o‘rtacha yillik yog‘ingarchilik miqdori 1961–1990-yillardagi 417 mm. dan, 2015–2019-yillar mobaynida o‘rtacha 311 mm gacha, ya’ni 106 mm. ga yoki 25,4 foizga kamaygan;
- yog‘ingarchilik miqdorining yil oylari davomida kamayishi bilan bir qatorda, yog‘ingarchilik miqdorining oylar kesimida ham o‘zgarishi va siljish tendensiyasi ham kuzatilmoqda. Bu holat oxirgi o‘n yillarda yanada kuchliroq namoyon bo‘lmoqda;
- yoz oylarida yog‘ingarchilik miqdori ham nisbiy, ham mutlaq jihatdan kamayish tendensiyasini namoyon etib, taqqoslanayotgan yillar mobaynida o‘rtcha yillik miqdori 56 foizga qisqargan. Eng xavotirli holat shundaki, bunday holat oxirgi yillarda kuzatilmoqda;
- kuz oylari davomida esa taqqoslanayotgan davrlar mobaynida o‘rtacha yog‘ingarchilik yillik miqdori 23,5 foizga pasayishi kuzatilmoqda.

Demak, tahlil qilinayotgan va qiyoslanayotgan davrlar mobaynida yomg‘irli kunlar soni va yog‘ingarchilik miqdori qisqarishi bilan bir qatorda, yomg‘ir yog‘adigan oy va yil fasllarida siljish hamda kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Bularning barchasi, tog‘ va tog‘oldi qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishning o‘ziga xos, tekislik va cho‘l-yaylovlardagi dehqonchilik va chorvachilik tizimidan konseptual jihatdan farq qiladigan qishloq xo‘jaligini yuritish tizimini shakllantirishni zaruratga aylantirmoqda. Chunki, yuqorida qayd etilgan omil va xususiyatlar qishloq xo‘jaligida yer va suv hamda boshqa tabiiy resurslardan foydalanish holati, xususiyati va istiqbollariga ta’sir etib, global iqlim o‘zgarishi, integratsiya, yuqori daromad, jadal rivojlanish, raqobat, texnogen va antropagen kabi omillar ta’sirida qishloq xo‘jaligi sohasi barqarorligiga, demak aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi darajasiga salbiy ta’sir etishi mumkin.

Bunday salbiy holatlar ta’sirini pasaytirish, optimallashtirish va nisbattan barqarorligini ta’minlash yo‘llaridan biri jahon qishloq xo‘jaligi amaliyotida kuzatilayotgan “qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga hududlarni ixtisoslashtirish” kabi, tog‘ va tog‘oldi qishloq xo‘jaligini ham tarmoq va sohalarga ixtisoslashtirish hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, Surxondaryo viloyatining Boysun, Sariosiyo, Denov va Uzun kabi tog‘ va tog‘oldi hududlarini meva-bog‘dorchilik va uzumchilikka kengroq ixtisoslashtirish hamda uni uzoq muddatli qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etgan holda rivojlanishini ta’minlash ham agrotexnik nuqtai nazardan[5], ham ishlab chiqarish va iqtisodiy jihatdan samarali. Bu ekologik va iste’mol xususiyatlari jihatidan nafaqat ichki balki tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo‘la oladigan meva-cheva va uzum mahsulotlari yetishtirishga xizmat qiladi. Shu bois, bu yo‘nalishdagi faoliyatni meva-bog‘dorchilik klasterlari tizimi yoki klaster tamoyillarida faoliyat ko‘rsatadigan majmua hamda kooperatsiya tamoyillariga asoslangan kooperativlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

4 World-Weather, https://world-weather.ru/pogoda/uzbekistan/boysun/, shuningdek, Surxondaryo viloyati tog‘ va tog‘odi hududlari metio stansiyalari ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

5 Дорохова Е.А., Байметов К.И., Ахмедов Ш.М. “Описание сортов и форм яблони”. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2016,188-189-betlar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tog‘ va tog‘oldi hududlarining o‘ziga xos tabiiy-iqlim sharoitiga muvofiq, qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvi, uning barqaror rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini dehqonchilik yo‘nalishida g‘alla, kartoshka, dorivor o‘simliklar yetishtirish, bog‘dorchilikda an’naviy yetishtiriladigan mevalardan tashqari noan’anaviy subtropik mevalar, ya’ni, eksportga katta talabga ega grek yong‘og‘i, bodom, pista bo‘lsa, chorvachilikda esa, sut yo‘nalishida qoramolchilik, go‘sht yo‘nalishida echkichilik, parrandachilikda kurkachilik, tansiq va foydali hisoblanadigan kakliklar[6] hamda kiyiklarni ko‘paytirish, bundan tashqari, quyonchilik, baliqchilik, ayniqsa asalarichilikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Istiqbolda tog‘ va tog‘oldi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hududlar tabiiy iqlim sharoitlariga moslashgan, yetarli darajada shakllangan mehnat ko‘nikmasi hamda innovatsion agrotexnologiyalarga asoslangan qishloq xo‘jaligi soha va tarmoqlarini taraqqiy etdirish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. T.// Xalq so‘zi, 2022-yil 20-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-maydagi “Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4709-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.05.2020-y., 07/20/4709/0577-son.
3. Jumayev.T “O‘zbekistonning tog‘li joylarida qishloq xo‘jaligi”. – T: “Fan”, 1982. B.61.
4. Amonov X.N Surxondaryo viloyati tog‘li hududlari iqtisodiy salohiyatidan foydalanishning geografik asoslari (Boysun tumani misolida) i.f.n avtoreferati. TDIU, 2008.B.8.
5. Абдулманапов.П.Г., Галбацдибирова. М.А. Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал), Modern Research of Social Problems, №5(49), 2015 www.sisp.nkras.ru. 689-стр.
6. Abdulkhaeva.G. Main Directions For Development of Sewerage Regions of Mountainous and Bounded Territo.// International Journal of Research in Management & Business Studies. IJRMBS 2019. P.55- 58. (Global Impact Factor 0.705)
7. Abdulxayeva. G. Agriculture promotion and development in mountain and mountain regions. // International journal of trends in marketing management. IJRMBS 2022 ISSN: 2349-4204 Vol.9.
8. O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari,geodeziya,kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi “O‘zbekiston Respublikasi yer fondi”. Toshkent – 2019.
9. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari,geodeziya, kartografiya va Davlat kadastri Davlat Qo‘mitasi. Toshkent – 2018-y.

6 Izoh. 100 gr qovurilgan kaklik go‘shtida 250 kkal mavjud. Manba:Selo-Exp.com

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

orcid.org/0000-0002-2678-0530

Эркинов Шахзод Баходир ўғли

Независимый соискатель Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация: В данной статье рассматриваются правовые основы разработки и реализации маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан. В статье представлены основные нормативные документы, такие как Закон “Об акционерных обществах и защите прав акционеров” и постановления Кабинета Министров, которые определяют правовой фреймворк для маркетинговых стратегий акционерных обществ, устанавливают требования к информационной поддержке маркетинговых программ, защите прав потребителей, учёту интересов акционеров и эффективности управления.

Ключевые слова: правовые основы, маркетинговые стратегии, акционерное общество, информационная поддержка, защита прав потребителей, эффективное управление.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlarining marketing strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishning huquqiy asoslari o‘rganilgan. Maqolada aksiyadorlik jamiyatlari marketing strategiyasi va unga qo‘yiladigan talablar, marketing dasturlarini axborot bilan ta’minlash, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, aksiyadorlar manfaatlarini hisobga olish va samaradorlikni boshqarishning huquqiy asoslarini belgilab beruvchi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun va Vazirlar Mahkamasining qarorlari kabi asosiy me’yoriy hujjatlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: qonunchilik bazasi, marketing strategiyasi, aksiyadorlik jamiyati, axborot ta’minoti, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, samarali boshqaruv.

Abstract: This article explores the legal basis for the development and implementation of marketing strategies of joint stock companies in the Republic of Uzbekistan. It denotes the main regulatory documents that define the legal framework for the marketing strategies of joint-stock companies, such as the Law “On Joint-Stock Companies and the Protection of Shareholders’ Rights” and resolutions of the Cabinet of Ministers, which establish requirements for information support of marketing programs, consumer protection, consideration of shareholder interests and efficiency management.

Key words: legal framework, marketing strategies, joint-stock company, information support, consumer protection, effective management.

ВВЕДЕНИЕ

Маркетинговая стратегия является важным инструментом ведения успешного бизнеса. Она позволяет акционерным обществам привлекать клиентов, укреплять свою позицию на рынке и повышать эффективность своей деятельности. В Республике Узбекистан существуют определённые правовые основы, регулирующие разработку и реализацию маркетинговых стратегий акционерных обществ. В данной статье мы рассмотрим основные нормативные документы, определяющие правовой фреймворк для маркетинговых стратегий акционерных обществ в Узбекистане.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Правовые основы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан основаны законодательству, которое регулирует деятельность акционерных обществ и маркетинговых коммуникаций. Важными нормативными актами, которые определяют правила и принципы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Узбекистане, являются:

Закон “Об акционерных обществах и защите прав акционеров”[1]: Этот закон регулирует деятельность акционерных обществ в Узбекистане. Он содержит положения о формировании стратегии и плана маркетинга, роли и обязанностях акционеров, правах и обязанностях руководства, принятии решений в обществе и другие важные аспекты. Этот закон внёс ряд изменений в правила функционирования акционерных обществ, включая аспекты, связанные с маркетинговыми стратегиями. Закон установил требования к информационному обеспечению акционеров, включая предоставление информации о маркетинговых планах и стратегиях компании. Он также обязывает акционерные общества разрабатывать политику информирования акционеров о маркетинговых мероприятиях и достижениях компании.

Данный закон является важным законодательным актом, который регулирует деятельность акционерных обществ, включая аспекты, связанные с маркетинговыми стратегиями. Важно отметить ключевые аспекты этого закона:

1. По формированию стратегии данный закон предоставляет акционерным обществам право разрабатывать и принимать свою маркетинговую стратегию. Он устанавливает, что управление обществом должно разрабатывать и осуществлять стратегию, направленную на достижение целей общества и защиту интересов акционеров.
2. По информационным обеспечениям документ обязывает акционерные общества предоставлять акционерам и общественности информацию о своей деятельности, включая информацию о маркетинговых стратегиях и планах. Это включает в себя публикацию годовых отчётов, финансовых данных, а также информации о рынке, конкурентах и других факторах, влияющих на маркетинговые решения.
3. По защите прав акционеров данный норматив устанавливает механизмы защиты прав акционеров и обязанности управления общества в отношении акционеров. Это включает право акционеров участвовать в принятии решений, получать информацию, получать дивиденды и защищать свои интересы в судебном порядке.
4. По управлению обществом он определяет роль и обязанности управления акционерного общества, включая разработку и реализацию маркетинговых стратегий. Управление общества обязано действовать в интересах акционеров и обеспечивать эффективное использование ресурсов общества, включая маркетинговые ресурсы.
5. По корпоративному управлению закон также устанавливает принципы корпоративного управления, которые включают прозрачность, ответственность и соблюдение законов. Эти принципы имеют важное значение для эффективной реализации маркетинговых стратегий и достижения поставленных целей.

В целом данный нормативный документ предоставляет законодательную базу для разработки и реализации маркетинговых стратегий в акционерных обществах в Республике Узбекистан. Он обеспечивает защиту прав акционеров, устанавливает требования к информационному обеспечению и определяет роли и обязанности управления обществом.

Следующий рассмотренный нормативный документ – это Кодекс Республики Узбекистан об административной ответственности[2]. Данный кодекс устанавливает административные наказания за нарушение законодательства в сфере маркетинга, включая противоправную рекламу, недобросовестную конкуренцию и другие нарушения. Данный документ включает в себя некоторые ключевые аспекты, относящиеся к маркетинговым стратегиям, такие как:

1. По противоправным рекламам данный Кодекс устанавливает административные наказания, которая нарушает законодательство в области рекламы. Это может включать ложную информацию о товарах или услугах, недостоверные обещания, недобросовестную конкуренцию и другие нарушения, связанные с маркетингом и рекламой.
2. Положения по нарушениям прав потребителей. Если маркетинговые стратегии нарушают права потребителей, например, путём предоставления ложной или недостоверной информации, создания некорректных условий продажи или нарушения гарантийных обязательств, могут применяться административные наказания.

1 Закон Республики Узбекистан ЗРУ-370 О внесении изменений и дополнений в закон Республики Узбекистан “Об акционерных обществах и защите прав акционеров” от 10 апреля 2014 года.

2 Кодекс Республики Узбекистан “Об административной ответственности” от 30 июня 2008 года.

TARAQQIYOT PROGRESS

3. Кодекс устанавливает административные наказания за нарушение правил размещения рекламы, включая невыполнение требований к содержанию рекламы, незаконное использование рекламы или нарушение законодательства о рекламе. При нарушении маркетинговыми стратегиями этих правил могут быть применены административные меры ответственности.

4. Если встречаются нарушение правил конкуренции Кодекс также содержит положения о недобросовестной конкуренции и административных наказаниях. Если маркетинговые стратегии акционерного общества нарушают правила конкуренции, включая злоупотребление доминирующим положением или соглашения, противоречащие законодательству о конкуренции, могут быть применены административные меры ответственности.

Все это способствует поддержанию законопослушности и соблюдению норм маркетинговой деятельности в Республике Узбекистан.

В последние годы в Узбекистане также проводились реформы в сфере рекламы и защиты прав потребителей. Принято постановление Кабинета Министров № 428 “О мерах по дальнейшему совершенствованию регулирования отношений в сфере внешней рекламы и распространения социальной информации” от 31 августа 2023 года[3]. Постановлением установлено следующее:

- С 1 декабря 2023 года для участников рынка наружной рекламы внедрена электронная цифровая система мониторинга “Внешняя реклама”;
- До 1 декабря 2024 года объекты наружной рекламы и информации (сооружения) проверены и за ними установлен постоянный контроль;
- Срок действия паспортов мест размещения рекламы, срок действия которых не установлен, устанавливается до 1 декабря 2024 года для зданий и сооружений, находящихся в государственной собственности, и до 1 декабря 2030 года для земельных участков.

В Законе Республики Узбекистан № ЗРУ-776 “О рекламе” от 07.06.2022 г. отмечается, что разрабатываются и принимаются кодексы рекламной практики, представляющих собой свод положений, определяющих требования, по поддержанию высоких этических стандартов ведения маркетинга и рекламной деятельности с использованием механизмов саморегулирования на основе законодательства Республики Узбекистан[4].

Следующий нормативный документ – это постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан “О маркетинговых исследованиях”[5], являющиеся важным нормативным документом, которое регулирует проведение маркетинговых исследований в Республике Узбекистан и имеет прямое отношение к разработке и реализации маркетинговых стратегий. Постановление определяет цель по проведению маркетинговых исследований в Узбекистане и устанавливает область их применения. Оно направлено на получение информации о рынке, потребителях, конкурентах и других факторах, влияющих на разработку и реализацию маркетинговых стратегий. Оно устанавливает требования к методологии исследований, включая выбор образцов, сбор и анализ данных, оценку достоверности и точности полученных результатов. Это помогает обеспечить качество и надёжность маркетинговых исследований, на основе которых разрабатываются стратегии.

Данное Постановление содержит положения о защите конфиденциальности информации, полученной в результате маркетинговых исследований. Это включает требования к хранению и обработке данных, а также запрет на разглашение информации третьим лицам без согласия заказчика исследования. Защита конфиденциальности имеет важное значение для доверия и эффективного использования результатов исследований в маркетинговых стратегиях. Также определяет права и обязанности участников маркетинговых исследований, включая заказчиков, исполнителей и респондентов. Оно устанавливает требования к информированию респондентов, конфиденциальности и этическим аспектам участия в исследованиях. В дополнение оно предусматривает возможность проведения экспертизы маркетинговых исследований с целью оценки их качества и соответствия требованиям. Экспертиза помогает обеспечить надлежащий уровень профессионализма и достоверности результатов исследований, что в свою очередь способствует эффективной разработке маркетинговых стратегий.

Данный регулятивный документом обеспечивает системные и профессиональные подход к проведению маркетинговых исследований. Оно создаёт основу для получения достоверной информации,

3 Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 428 “О мерах по дальнейшему совершенствованию регулирования отношений в сфере внешней рекламы и обращения социальной информации” от 31.08.2023.

4 Закона Республики Узбекистан № ЗРУ-776 “О рекламе” от 07.06.2022 г.

5 Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 373 “Об организации деятельности Агентства продвижения экспорта при министерстве инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан” от 06.05.2019 г.

необходимой для разработки и реализации экономически обоснованных маркетинговых стратегий в Республике Узбекистан.

Все эти меры направлены на создание благоприятного бизнес-климата и стимулированию развития маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан.

ВЫВОД

Проведённый анализ показывает, что правовое регулирование маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан находится в стадии формирования и развития. Существуют определённые законодательные нормы, регулирующие различные аспекты маркетинговой деятельности, но они требуют дальнейшей проработки и систематизации.

Ключевыми особенностями правового регулирования маркетинговых стратегий акционерных обществ в Узбекистане являются:

- Наличие базовых законов об акционерных обществах и рекламе, которые устанавливают общие требования к маркетинговой деятельности.
- Необходимость более чёткого определения полномочий государственных органов в сфере контроля и надзора за маркетинговой деятельностью.
- Потребность в разработке рекомендаций и методических указаний по формированию и реализации маркетинговых стратегий для акционерных обществ.
- Дальнейшее совершенствование нормативно-правовой базы в данной области будет способствовать повышению эффективности маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан и их соответствию современным требованиям.

Список литературы:

1. Закон Республики Узбекистан № ЗРУ-776 “О рекламе” от 07.06.2022 г.
2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 428 “О мерах по дальнейшему совершенствованию регулирования отношений в сфере внешней рекламы и обращения социальной информации” от 31.08.2023.
3. Закон Республики Узбекистан ЗРУ-370 О внесении изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан “Об акционерных обществах и защите прав акционеров” от 10 апреля 2014 года.
4. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 373 “Об организации деятельности агентства продвижения экспорта при министерстве инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан” от 06.05.2019 г.
5. Кодекс Республики Узбекистан “Об административной ответственности” от 30 июня 2008 года.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI QISQARTIRISH HISOBIGA BUDJET DAROMADLARI BARQARORLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI

Ikramov Ravshan Amanbayevich
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatishni yangi bosqichga chiqarish, aholining soliq ma’murchiligi bo‘yicha savodxonligini yanada oshirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, teng raqobat sharoitini yaratish va iste’molchilarning huquqlarini kafolatlash hamda yashirin iqtisodiyotni jilovlashda keng jamoatchilikning faol ishtirokini rag‘batlantirishga asoslangan ma’murchilikni takomillashtirish yoritilgan. Keyingi yillarda dunyo mamlakatlari qisqa va uzoq muddatli byudjet-soliq siyosatiga oid strategiyasini ishlab chiqishda soliq to‘lovchilar tomonidan soliqdan qochish holatlarininh oldini olish va uni kamaytirishning turli xil mexanizmlarini joriy etishga alohida e’tibor bermoqda. Shu bilan birgalikda, noqonuniy moliyaviy oqimlarni kamaytirish, soliq to‘lovchilar tomonidan soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqaruvchi omillarni tahlil qilish, yashirin iqtisodiyotni kamaytirish orqali soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash jarayonlarining ilmiy-nazariy jihatlariga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, sohalar o‘rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg‘or axborot-kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Abstract: This article describes the improvement of the administration based on bringing services to business entities to a new level, further increasing the tax administration literacy of the population, supporting entrepreneurship, creating an equal competitive environment and guaranteeing the rights of consumers, and encouraging the active participation of the general public in curbing the underground economy. In recent years, countries around the world have been paying special attention to the implementation of various mechanisms to prevent and reduce tax evasion by taxpayers when developing their short-term and long-term budget-tax policy strategies. At the same time, conducting scientific research aimed at reducing illegal financial flows, analyzing the factors that cause tax evasion by taxpayers, reducing the hidden economy, and focusing on the scientific and theoretical aspects of tax evasion processes remains one of the priorities. At the same time, the fields were studied, foreign experience, scientific-practical conclusions and proposals were formed on its application in our country.

Key words: tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax benefits, tax rate.

Аннотация: В данной статье описано совершенствование администрирования на основе вывода услуг субъектам предпринимательства на новый уровень, дальнейшего повышения грамотности населения в налоговом администрировании, поддержки предпринимательства, создания равной конкурентной среды и обеспечения прав потребителей, поощрения активного участия. широкой общественности в сдерживании теневой экономики. В последние годы страны мира при разработке своих краткосрочных и долгосрочных стратегий бюджетно-налоговой политики уделяют особое внимание реализации различных механизмов предотвращения и сокращения уклонения налогоплательщиков от уплаты налогов. При этом одним из приоритетных направлений остается проведение научных исследований, направленных на сокращение незаконных финансовых потоков, анализ факторов, вызывающих уклонение налогоплательщиков от уплаты налогов, сокращение теневой экономики, а также сосредоточение внимания на научно-теоретических аспектах процессов уклонения от уплаты налогов. Одновременно изучались отрасли, формировался зарубежный опыт, научно-практические выводы и предложения по его применению в нашей стране.

Ключевые слова: Практика оценки устойчивости доходов бюджета за счет снижения доли теневой экономики субъектов хозяйствования в Республике Узбекистан.

KIRISH

Dunyoda moliyaviy oqimlarning notekis harakatida soliq to‘lashdan qochishning turli xil yo‘llarini izlash va undan soliq to‘lovchilar o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish holatlari tez-tez uchramoqda. Birlashgan millatlar tashkiloti qoshidagi Savdo va taraqqiyot konferensiyasi hisob-kitoblariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlar yiliga 100 milliard AQSh dollari miqdoridagi moliyaviy resurslarni “foydani o‘tkazish” amaliyoti tarzida noqonuniy tarzda boshqa hududlarga o‘tkazib, milliy iqtisodiyot doirasida soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqarmoqda[1]. Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning turli xil ko‘rinishlari natijasida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda soliqlarni minimallashtirish sxemalarini qo‘llash, soliq to‘lovchilar tomonidan olingan foydani samarasiz foydalanish va qayta investitsiyalash natijasida yo‘qotilayotgan soliqli tushumlar ham yiliga 250–300 milliard AQSh dollarini tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Soliqdan qochish va soliqlarni optimallashtirish yo‘llari mavzusiga oid qisqacha adabiyotlar sharhini keltiramiz.

S.M.Olennikovning fikricha, soliqdan qochish va soliqlarni optimallashtirish bu soliq to‘lovchining rejalashtirgan xatti-harakatlari hisoblanadi [1].

A.Makoveskiy, Ye.A.Zareskaya kabi olimlar soliqdan qochishning eng ko‘p qonuniy tarqalgan usullaridan biri bo‘lgan soliqlarni optimallashtirish tushunchasiga ham ta’rif berib o‘tadi, ya’ni ularning ta’biricha, “Soliqlarni optimallashtirishda soliq to‘lovchining maqsadli qonuniy harakatlari, shu jumladan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha imtiyozlardan to‘liq foydalanish, soliq imtiyozlari va boshqa qonuniy imtiyozlar orqali soliq majburiyatlari miqdorini kamaytirishni tushunish odatiy holdir. Boshqacha aytganda, bu soliq va jinoyat qonunchiligi normalarini buzmagan holda, qonuniy asoslarda soliq to‘lovlari minimal darajaga tushiriladigan xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini tashkil etishdir” deydi [2].

E.Guver “Germaniyada soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash istagi tug‘ilish istagidan kuchliroqdir” deganda soliqdan bo‘yin tovlashning asosiy ijtimoiy-siyosiy negizini ko‘rsatib o‘tgan edi [3].

Rossiyalik olima L.Aleksandrova bu boradagi tadqiqotlari natijasida “Soliq to‘lovchilar tomonidan soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning ommaviyligi, soliq jinoyatlarining kechikish darajasining yuqoriligi alohida o‘tkirlik bilan ularni ochish muammosini qo‘ymoqda, bu faoliyatning maqbul va samarali yo‘llari va vositalarini izlash va ishlab chiqish zarurati tug‘iladi. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining tahlili shuni ko‘rsatadiki, soliqqa oid jinoyatlarni aniqlash boshqa turdagi jinoyatlarga qaraganda ancha qiyin. Bunday sharoitda soliq jinoyatlarini aniqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni, shu jumladan sud-tibbiyotni ishlab chiqish ayniqsa muhimdir” deb ta’kidlaydiki, muallif soliqdan bo‘yin tovlash jarayonlariga huquqiy baho berish boshqa jinoyatlarga qaraganda anchayin murakkabligiga ishora qiladi [4].

A.R.Abdullina fikricha, soliqdan qochishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarda soliq jinoyatlarini aniqlashda buxgalteriya hujjatlarini tahlil qilishning qiyinchiliklarining mavjudligi, yangi tashkil etilib, tez faoliyatini tugatadigan korxonalarni monitoring qilishda yetarli malakaning kamligi, fuqarolik, iqtisodiy huquqiy hujjatlarni o‘zaro integratsiyalash asosida tahlil qilishning qiyinligi, qonun hujjatlarining yetarli takomillashmaganligi oqibatida soliqdan qochish holatlarining huquqiy negiziga asoslangan holda bu jarayonni kamaytirishga qaratilgan harakatlarning samarasiz bo‘lishiga ta’sir qilmoqda [5].

1 Организация Объединенных Наций. A/HRC/31/61. Окончательное исследование по вопросу о незаконных финансовых потоках, правах человека и Повестке дня в области устойчивого развития на период до 2030 года международных финансовых обязательств государствдля полного осуществления всех прав человека,в частности экономических, социальныхи культурных прав.

Ukrainalik olimlar S.A.Makoveskiy, Ye.A.Zareskayalarning fikricha, “soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash yoki soliq solinadigan bazani kamaytirishning ko‘plab usullarini tasniflash masalasida ko‘plab tadqiqotchilar yagona nuqtai nazarga kelishadi va ikkita guruhni ajratib ko‘rsatishadi. Ba’zi manbalarda kulrang sxemalar mavjudligi qayd etilgan. Bunda soliqlarni kamaytirish tartibi qonunlarda belgilangan kamchiliklar, bo‘shliqlar yoki noto‘g‘ri talqinlardan foydalangan holda amalga oshiriladi” [6].

I.Vachugov soliqdan qochish jarayonini yashirin iqtisodiyotning bo‘g‘ini sifatida “soliq sohasidagi yashirin iqtisodiyot” tushunchasini ham tushuntirib o‘tadi. Uning fikricha, “soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash yashirin iqtisodiyotning bir qismi bo‘lib, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha yashirin tuzilmalarning faoliyati bizga “soliq sohasidagi yashirin iqtisodiyot” atamasini kiritish imkonini beradi, uning ta’rifi quydagicha ifodalanishi mumkin: soliq to‘lovchilarning o‘zlari ham, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashni tashkil etish bilan bog‘liq faoliyatni ta’minlaydigan xizmatlarni ko‘rsatadigan soya tuzilmalari tushuniladi” [7].

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Bugungi kunda O‘zbekiston soliq tizimida soliqdan qochish holatlarini aniqlash va baholash holatlarini ko‘radigan bo‘lsak, u quyidagi usullarda amalga oshirilayotganligini ko‘rish mumkin:

Keltirilgan 1-jadval ma’lumotlarida keltirilganidek, Respublikamiz soliq tizimida soliq to‘lovchilar tomonidan asosiy holatlardagi soliq to‘lashdan qochish holatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, uning amaliy ko‘rinishlari, asosan, soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tmaslik yoki kech ro‘yxatdan o‘tish, buxgalteriya hisobini yuritmaslik, “Bir kunlik”, “ko‘k sxema” va shu shaklda faoliyat yuritishga moslashish, garchi faoliyati unchalik to‘g‘ri kelmasada offshor zonalarga kapital kiritish yoki faoliyat yuritish, soliqdan qochish holatlariga imkon beruvchi kontragentlar bilan iqtisodiy hamkorlik qilish, mahsulot (ish, xizmat)larni tannarxdan past qiymatda sotish va shu kabi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘layotganligini ta’kidlash mumkin. Qayd etish joizki, soliqqa oid munosabatlarda soliqdan qochish holatlarini aniqlash va uni baholashni amalga oshirishning juda murakkabligi bu jarayonni tartiblashni qiyinlashtiruvchi omillardan bo‘lib qolmoqda. Keyingi yillarda soliqdan qochish holatlarining amaliy tahlillari shuni ko‘rsatmoqdaki, tarmoqlar bo‘yicha bu holat eng ko‘p uchraydigan tarmoq bu qurilish, savdo va umumiy ovqatlanish tarmog‘i, alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari bo‘lib qolmoqda.


1-jadval: O‘zbekiston soliq tizimida soliqdan qochish holatlarini aniqlash va baholash holatlarining amaliy ko‘rinishlari va ularning namoyon bo‘lish shakli[2]

№	Soliqdan qochish holatlarini baholashning amaliy usullari	Amaliy ko‘rinishi
1.	Soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatdan o‘tmaslik yoki kech ro‘yxatdan o‘tish	Soliq to‘lovchi sifatida baholash imkoniyati bo‘lmaydi
2.	Buxgalteriya hisobini yuritmaslik	Soliq obyekti, soliq bazasi va hisoblangan soliq summalari noaniq bo‘ladi
3.	“Bir kunlik”, “ko‘k sxema” va shu shaklda faoliyat yuritishga moslashish	Soliq to‘lovchi sifatida baholash imkoniyati mavjud bo‘lsada, aslida soliq to‘lamaydi
4.	Garchi faoliyati unchalik to‘g‘ri kelmasada offshor zonalarga kapital kiritish yoki faoliyat yuritish	O‘z hududi bo‘yicha iqtisodiy faoliyat yuritishi lozim bo‘lsada, kapitalni soliqdan qochish imkoniyat beruvchi hududlarga o‘tkazishlishi natijasida soliq to‘lovlarini amalga oshirmaydi, asossiz soliq imtiyozlarga ega bo‘ladi
5.	Soliqdan qochish holatlariga imkon beruvchi kontragentlar bilan iqtisodiy hamkorlik qilish	Noqonuniy faoliyat olib borayotgan korxonalarning o‘zaro hamkorlik qilishi oqibati qo‘shilgan qiymat zanjirida sun’iy uzilish yuzaga keladi va soliq tushumlari kamayadi
6.	Mahsulot (ish, xizmat)larni tannarxdan past qiymatda sotish	Mahsulotlarni bozor qiymatidan past sotilishi natijasida yalpi tushum kamayishi yuzaga keladi, ammo, soliq to‘lovchining umumiy iqtisodiy aylanmasiga salbiy ta’siri sezilmaydi, soliq kam to‘lash imkoniyati paydo bo‘ladi

Jumladan, Soliq qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, “2019- 2022-yillarda qurilish korxonalari tomonidan tovar aylanma va bajarilgan ishlar hajmi o‘rtacha yildan yilga 15-20 foiz ortib borgan, birou, bu korxonalarda o‘rtacha xarajatlar rentabelligi 2021 yildagi 10 foizdan 2022-yilda 3,1 foizga tushgan, faoliyat yuritayotgan 20303 ta korxona 5 mingga yaqinida (24 foizi) hujjatlariga muvofiq rentabellik 0 foizdan past, 12 mingdan ortig‘ida (60 foizi) 0 foizdan 1 foizgacha va 904 (4 foiz) kompaniyada 1 foizdan 3 foizgacha rentabellik ko‘rsatkichi past bo‘lgan, o‘z navbatida, 10 mingga yaqin (50 foiz) qurilish korxonalarida 1 nafar ishchi rasmiylashtirilganligi,

2 Amaliy holatni tahlil qilgan holda muallif ishlanmasi.

haqiqatda ishlaydigan ishchilar soni yashirilayotganiligini ko‘rsatadi”[3]. Bu korxonalarda soliqdan qochish holatlariga olib keluvchi omillar baholanganda quyidagi “turar joy obyektlarini o‘rtacha bozor narxidan keskin darajada past narxda realizatsiya qilish, hisobotlarda xarajatlarni sun’iy ravishda oshirib ko‘rsatish orqali faoliyatini zarar bilan yakunlash natijasida foyda solig‘ini to‘lamaslik, jismoniy shaxslar tomonidan qurilish korxonalari ustav jamg‘armasiga yirik miqdorda pul mablag‘lari, bino va inshootlar, qurilish mollari (manbasi ko‘rsatilmagan holda) kiritish va realizatsiya qilish”[4] kabi holatlar sabab bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Bu holatlarni aniqlashning amaliy holatini quyidagi keltirilgan 1-rasmda tushuntirib o‘tamiz.



1-rasm: Qurilish korxonalarida soliqdan qochish holatlarining baholash usullari[5]

Bularda tashqari soliq tizimi amaliyotida qurilish sohasida soliqdan qochish holatlarini aniqlash va uni baholashda yana bir qator usullar qo‘llaniladi.

Ular jumlasiga, qurilish texnikalari va transport vositalarini shartnoma tuzmasdan naqd pulga foydalanish (ijara)ga berish holatida soliq organlariga yil yakuni bo‘yicha taqdim etilgan moliyaviy hisobotlarda qurilish tex-

3 https://m.kun.uz/news/2022/06/23/dsq-qurilish-sohasida-soliq-tolashdan-boyin-tovlash-holatlari-haqida-malumot-berdi, https://soliq.uz/press-services/news/show/qurilish-sohasida-keng-tarqalgan-soliqdan-qochish--boyin-tovlash-sxemalari.


4 https://soliq.uz/press-services/news/show/qurilish-sohasida-keng-tarqalgan-soliqdan-qochish--boyin-tovlash-sxemalari.

5 Amaldagi tartiblarga asoslangan holda muallif tomonidan tuzilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

nikalari va transport vositalari ko‘rsatilmagan qurilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar olinib, qishloq va shahar qurilish tashkilotlaridan, hokimiyat va boshqa byurtmachilardan olingan bajarilgan qurilish montaj ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan solishtirish hamda aniqlangan tafovutlar bo‘yicha tahlillar o‘tkazish usuli, belgilangan tartibda shartnoma tuzmasdan qurilish va ta’mirlash ishlarini bajarish hamda naqd pulda hisob-kitob qilish jarayonini aniqlashda soliq organlariga yil yakuni bo‘yicha taqdim etilgan moliyaviy hisobotlarda qurilish montaj ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilmagan xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar olinib, birja, elektron savdo va elektron hisobvaraq-faktura tizimi orqali qurilish mahsulot sotib olgan korxonalar bilan solishtiriladi hamda aniqlangan tafovutlar bo‘yicha tahlillar o‘tkazish usullaridan foydalaniladi.

Agar, ushbu usullarni qo‘llash orqali qurilish korxonalari tomonidan soliqdan qochish holatlarini baholash tahlillari natijalariga e’tibor qaratidigan bo‘lsak, oxirgi yillarda 51 ta xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilgan 452,3 mlrd. so‘mlik qurilish montaj ishlari hajmi soliq hisobotda ko‘rsatilmasligi natijasida byudjetga 39,2 mlrd. so‘m soliq to‘lanmasdan qolganligi, 37 ta xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilgan va ko‘rsatilgan 317 mlrd. so‘mlik qurilish ishlarini hisobvaraq-fakturalar orqali kirim qilmaganligi natijasida byudjetga 14,6 mlrd. so‘m soliq to‘lanmasdan qolganligi, o‘tkazilgan tezkor tadbirlarda 19 ta xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tegishli ruxsatnomalarsiz yer qaridan foydalanib, 9 mlrd. so‘mlik tuproq, qum, shag‘al va xk qazib olayotganligi va byudjetga 1 mlrd. so‘m soliq to‘lanmasdan qolganligi, 17 ta korxona tomonidan jismoniy shaxslarga sotilgan ko‘chmas mulk (uy-joy va noturar obyektlar)ning haqiqiy qiymatini oldi-sotdi shartnomalarida kamaytirib ko‘rsatib, byudjetga 9,1 mlrd. so‘m kam soliq to‘langanligi, 29 ta xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan sotilgan ko‘chmas mulk obyektlarining qiymati soliq hisobotlarida kamaytirib ko‘rsatilib, byudjetga 9,3 mlrd. so‘m soliq to‘langanligi aniqlangan, 13 ta xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qurilish texnikalari va transport vositalari shartnoma tuzmasdan boshqa subyektlarga naqd pulga foydalanish (ijara)ga berilib, tushgan mablag‘lar hisobidan byudjetga 402 mln. so‘mlik soliqlar to‘lanmaganligi, 14 ta xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan shartnoma tuzmasdan qurilish va ta’mirlash ishlarini bajarilib, 21,4 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari yashirilishi natijasida byudjetga 2,6 mlrd. so‘m soliq to‘lanmasdan qolganligi aniqlangan.




2-rasm: Turar joy obyektlarini bozor narxidan past realizatsiya qilish orqali soliqdan qochish sxemasi[6]

2-rasm ma’lumotlaridan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, turar joy obyektlarini bozor narxidan past realizatsiya qilish orqali soliqdan qochish sxemasi afsuski respublikamiz qurilish korxonalarida yuqorida keltirilgan 5 ta ko‘rinish (holat) doirasida yuz bermoqda. Ushbu sxema asnosida birgina 2021-yil natijalariga ko‘ra, turar joy obyektlarini bozor narxidan past realizatsiya qilish holatlari bo‘yicha 159 ta korxona tomonidan qiymati 1 trln. so‘mlik 2 158 ta obyektlar 1kv.m uchun 1-5 mln.gacha narxlar oralig‘ida sotilgan. Shundan, 1 mln.so‘mgacha 60 ta, 1-3 mln.so‘m oralig‘ida 443 ta obyektlar sotilgan. Misol uchun, “XXX” MChJ tomonidan Uchtepa tumanida qurilgan yangi qo‘pqavatli turar joy majmuasidan 26 ta kvartira o‘rtacha 1,8 mln.so‘mdan sotilgan.

6 Muallif tomonidan tuzilgan.

Soliqdan qochish holatlarini aniqlash va baholashning dunyo amaliyoti va respublikamiz soliq tizimida ham ishlab chiqarish sohasidagi jarayon o‘ta muhim sanaladiki, uni quyidagi 3-rasmda aks ettiramiz. Keltirilgan 3-rasmdagidan tashqari ishlab chiqarish sohasida soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqaruvchi omillar sifatida ularni aniqlashda yana bir qator iqtisodiy jarayonlarni ham aniqlash zarur bo‘ladi. Ular jumlasiga, eksport qilingan mahsulotlar hajmini oshirib ko‘rsatishda: bojxona boshqarmasidan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan eksport qilingan mahsulotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar olinib, ushbu korxona tomonidan soliq hisobotlarida ko‘rsatilgan ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar hajmi bilan solishtirish, tugallanmagan qurilish obyektlari va belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalarni yashirishda: mahalliy hokimiyatlar tarkibidagi Arxitektura bo‘limidan tugallanmagan qurilish obyektlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda bojxona organlaridan xorijiy mamlakatlardan olib kelingan asbob-uskunalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar olinib, alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalanilgan suv hajmini yashirishda: suv resurslari hisobini yurituvchi tashkilotlardan alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqaruvchi korxonalarga o‘lchov asboblari orqali sotilgan suv hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar olinib, ushbu korxonalar tomonidan soliq organlariga taqdim etilgan moliyaviy hisobotlarda ko‘rsatilgan suv hajmi bilan solishtirish orqali aniqlanadi.



3-rasm: Ishlab chiqarish sohasida soliqdan qochish holatlarini aniqlash tartibi[7]

7 Muallif tomonidan tuzilgan.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Soliqdan qochish holatlarini aniqlash va baholashning eng muhim usullari qatoriga “offshorni baholash usuli” bo‘lib, bu keyingi vaqtlarda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Ma’lumki, Offshor bu qulay soliq sharoitiga ega davlatda xorijiy fuqaro tomonidan qayddan o‘tgan, ushbu mamlakatda faol ish yuritmaydigan firma bo‘lib, offshor kompaniyasi bu – korxonalarning alohida tashkiliy yuridik shaxs maqomini tavsiflovchi termindir. Bu maqom unga soliq to‘lovlarni maksimal darajada tushirishni ta’minlaydi (ko‘p hollarda nolgacha). Professor X.Abulqosimovning ta’kidlashicha, “kompaniyalarning offshor maqomi ularga o‘z faoliyatlari davomida soliqlarni maksimal darajadan tushirishni, hatto yuq qilish, ya’ni butunlay soliqlardan ozod bo‘lishni ta’minlaydi. Faqat-gina bu maqom talabi, biznes operatsiyalarini o‘z qonunchiligidan tashqarida olib borishni talab qiladi. Ya’ni offshor kompaniyasi o‘z qonunchiligini rezidenti bo‘la olmaydi”[8]. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 181 - moddaasida nazorat qilinadigan tashqi savdo bitimlari tartibi keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra, jahon birja savdosi tovarlarining tashqi savdosi sohasidagi bitimlar va taraflaridan birining ro‘yxatdan o‘tkazilish joyi, yashash joyi yoki soliq rezidentligi joyi ofshor yurisdiksiya bo‘lgan shaxs hisoblanadigan bitimlar nazorat qilinadigan bitimlar deb yuritiladi. Mazkur moddaga muvofiq, “agar bunda O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxsining faoliyati ofshor yurisdiksiyada doimiy muassasani tashkil etsa va nazorat qilinadigan bitim ushbu faoliyat bilan bog‘liq bo‘lsa, ushbu bitim qismida mazkur yuridik shaxsga ro‘yxatdan o‘tkazilish joyi ushbu ofshor yurisdiksiya bo‘lgan shaxs sifatida qaraladi. Shuningdek, soliq solish bo‘yicha imtiyozli rejimni taqdim etadigan va (yoki) moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda axborotni oshkor etishni hamda taqdim etishni nazarda tutmaydigan davlatlar va hududlar ofshor yurisdiksiyalar deb e’tirof etiladi”[9].

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilish mumkinki, iqtisodiy munosabatlar doirasida zimmalariga soliq to‘lash majburiyati yuklatilgan soliq to‘lovchilarning iqtisodiy hatti-harakatlari asnosida soliq to‘lashdan qochish holat-larini aniqlash bu munosabatlarni oldini olishda uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Buning uchun esa, yuqorida keltirib o‘tilgan uni aniqlash va baholash usullaridan keng foydalanish o‘z samarasini berish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Eksport tushumlarini xorijiy banklardagi hisoblari orqali amalga oshirish, shuningdek QQS qaytarish bo‘yicha xorijiy banklarga kelib tushgan mablag‘larni ham hisoblash tizimi joriy etish. Yakka tartibdagi tadbirkorlar (jismoniy shaxslar)ga chet eldan investitsiya kiritish maqsadida xorijiy valyutada yuborilgan mablag‘larni soliqdan ozod qilish bo‘yicha qonunchilikka o‘zgartirish kiritish. Tekshiruvlar o‘tkazish bo‘yicha yilning ma’lum bir aniq davrini belgilash va bir xo‘jalik subyektini tekshirish davriyligini belgilash bo‘yicha yangi tizim ishlab chiqish. Xo‘jalik sub-yekti vakillari tomonidan to‘g‘ri va sifatli rejalashtirish va samaradorligini amalga oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. S.M.Olennikov. Kvalifikatsiya ukloneniya ot uplatы nalogov po obyektivnыm priznakam sostava prestupleniya. // Yuri-dicheskaya otvetstvennost i otvetstvennыe yuristы. 2017. №4. S.37-42.
2. S.A.Makoveskiy, Ye.A. Zareskaya. Uklonenie ot uplatы nalogov: osobennosti prestupleniya i nakazaniya. Vestnik insti-tuta ekonomicheskix issledovaniy 2017, № 3(7) 156.
3. Kottke K. “Gryaznye” den‘gi – chto ehto takoe? Spravochnik po nalogovomu zakonodatel‘stvu v oblasti “gryaznyh” deneg. M., 1998.
4. L.I. Aleksandrova. Osnovnыe osobennosti i problemы vыyavleniya ukloneniy ot uplatы nalogov. // Aktualnыe problemы pravovogo regulirovaniya. 2017. S.2.
5. Abdullina A.R. Predstaviteli kak subyektы ukloneniya ot uplatы nalogov s organizatsii // Nauchnaya perspektiva. 2016. № 10. S. 37-38.,
6. S.A.Makoveskiy, Ye.A. Zareskaya. Uklonenie ot uplatы nalogov: osobennosti prestupleniya i nakazaniya. Vestnik insti-tuta ekonomicheskix issledovaniy 2017, № 3(7) 156.
7. Vachugov I.V. – Uklonenie ot uplatы nalogov, kak sostavlyayuщaya tenevoy ekonomiki: rost ili sokraщenie? // Nalogi i nalogooblojenie. – 2019. – № 6. – S. 42.
8. F.B.Axmedov Soliq to‘lashdan qochish xavflarini aniqlashda zamonaviy fiskal nazorati takomillashtirish: (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2023.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari. www.soliq.uz.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6098-son farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi https://lex.uz/docs/4674902
12. ormurzayev U. O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirishda hududlararo soliq inspeksiyasi o‘rni va ahamiyati // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2024. – T. 2. – №. 4. – S. 457-467.
13. Normurzayev U. O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish va uning barqarorligini ta’minlash yo‘llari //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – T. 1. – №. 6. – S. 177-182.
14. Normurzayev U. O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish bo‘yicha tahlil va taklif //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – T. 1. – №. 7. – S. 329-336.
15. Normurzayev U. “Mamlakatimizda soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlar tahlili.” Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil 1.4 (2023): 177-183.

8 X.Abulqosimov. “soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash” mavzusi bo‘yicha taqdimot.
9 O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi soliq Kodeksi. 2019-yil. 181-moddasi.

UZUM-VINOCHILIK MAHSULOTLARI BOZORIDA EKSPORTNI DIVERSIFIKATSIYALASH STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH



Azadova Bonuposhsha Alisher qizi
Texnologiya, Menejment va Kommunikatsiya instituti
“Iqtisodiyot, huquq va boshqaruv” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘zbekiston uzumchilik-vinochilik mahsulotlari eksportni diversifikatsiya qilish uchun bitta bozor yoki mahsulotga bog‘liqlikni kamaytirishga qaratilgan harakatlar zarurdir. Bu yangi bozorlarni kengaytirish, yangi mahsulotlarni yoki ikkalasini ham joriy etishni o‘z ichiga oladi. Eksportni diversifikatsiya qilish strategiyasini amalga oshirish uchun esa eksport qilish imkoniyati mavjud bo‘lgan bozorlarni tahlil qilinishi lozim. Bozor tahlili potensial eksport bozorlarini aniqlash uchun bozorni chuqur o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bunda bozor hajmi, o‘sish tendensiyalari, raqobat, tartibga solish muhiti va ijtimoiy-madaniy holatlar kabi omillarning ta’siri ham o‘rganilishi lozim. Eksportni diversifikatsiya qilish uzoq muddatli strategik tashabbus hisoblanadi. Bunda muayyan maqsadlar, bosqichlar va amalga oshirish muddatlari bilan aniq yo‘l xaritasini ishlab chiqish talab etiladi.

Kalit so‘zlar: eksport, diversifikatsiya, “YO‘L XARITASI”, import, segmentlash, pozitsiyalash, brending, raqamli marketing, vertrikal, gorizontal, konsentrik, intensive, ekstensiv.

Abstract: In order to diversify the export of viticultural and winemaking products of Uzbekistan, efforts aimed at reducing dependence on one market or product are necessary. This includes expanding into new markets, introducing new products, or both. In order to implement the export diversification strategy, it is necessary to analyze the markets with export opportunities. Market analysis involves in-depth market research to identify potential export markets. The impact of such factors as market size, growth trends, competition, regulatory environment, and socio-cultural conditions should also be studied. Export diversification is a long-term strategic initiative. This requires the development of a clear road map with specific goals, stages and implementation dates.

Key words: export, diversification, “ROAD MAP”, import, segmentation, positioning, branding, digital marketing, vertical, horizontal, concentric, intensive, extensive.

Аннотация: Для диверсификации экспорта виноградарской и винодельческой продукции Узбекистана необходимы усилия, направленные на снижение зависимости от одного рынка или продукта. Это включает в себя выход на новые рынки, внедрение новых продуктов или и то, и другое. Для реализации стратегии диверсификации экспорта необходимо проанализировать рынки с экспортными возможностями. Анализ рынка включает в себя углубленное исследование рынка для определения потенциальных экспортных рынков. Также следует изучить влияние таких факторов, как размер рынка, тенденции роста, конкуренция, нормативно-правовая среда и социокультурные условия. Диверсификация экспорта является долгосрочной стратегической инициативой. Для этого необходима разработка четкой дорожной карты с конкретными целями, этапами и сроками реализации.

Ключевые слова: экспорт, диверсификация, “ДОРОЖНАЯ КАРТА”, импорт, сегментация, позиционирование, брендинг, цифровой маркетинг, вертикальный, горизонтальный, концентрический, интенсивный, экстенсивный.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-avgustdagi “2023–2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-260-son qarori bilan uzumchilik va vinochilik sohasini barqaror rivojlantirish, qayta ishlash korxonalarini infratuzilmaviy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash shuningdek, uzum va vinochilik mahsulotlari eksporti hajmlarini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun 2023–2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sanoatini kompleks rivojlantirish bo‘yicha “YO‘L XARITASI” tasdiqlangan bo‘lib, mazkur yo‘l xaritasida “VINE Uzbekistan” brend marketing strategiyalarini amalga oshirish uchun bar qator vazifalar belgilab berilgan, jumladan:

- uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish uchun potensial tashqi bozorlarda chuqur marketing tadqiqotlarini o‘tkazish;
- Qozog‘iston, Xitoy va boshqa mamlakatlarda milliy vino savdo uylarini ochish;
- Xalqaro ko‘rgazma va yarmarkalarda soha korxonalari ishtirokini ta’minlash;
- Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston, Janubiy Koreya Respublikasi va boshqa importyor davlatlar bilan muzokaralarni olib borish;
- Eksport qilinadigan uzum va vinochilik mahsulotlarining bojxona rasmiylashtiruvi jarayonlarining qulay va tezlashtirilgan tartibini joriy etish.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun korxonalarga eksportni rivojlantirishga qaratilgan uslubiy asoslarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“2013–2022-yillarda Peruning yangi uzum eksportida bozor diversifikatsiyasini tahlil qilishga, uning xalqaro savdoga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Milliy bojxona va soliq ma’muriyatining veb-saytida ochiq qayd etilgan ma’lumotlarni tahlil qilish bilan bir qatorda miqdoriy metodologiya qo‘llanildi, xususan, uzum uchun milliy kichik sarlavha bo‘yicha jo‘natuvchi kompaniyalar eksporti. Diversifikatsiya Herfindal-Hirshman konsentratsiyasi indeksi (HHI) va raqobatbardoshlik Balassa indeksi yordamida tahlil qilindi”. [1]

Alshammari, S. D. [2], Vergamini, D., va boshqa [3], Droli, M., va boshqa [4], Morgan, G., va boshqa [5], Markova, V. D., va boshqa [6], Bousquet, J. [7], Pradeep, R. K., va boshqa [8], Fait, M., va boshqa [9] va boshqa kabi xorijiy olimlar vino sohasiga oid turli xil marketing strategiyalari bo‘yicha maqolalar chop etilgan. Shu qatorda mahalliy iqtisodchi olimlardan D.M.Usmonova “Uzumchilik korxonalarining eksport salohiyatini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish” [10] nomli monografiyasida eksportni rivojlantirtish strategiyalari haqida bir qator ma`lumotlar berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Eksportni diversifikatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda bir qancha tahlil vositalaridan foydalanish mumkin. Jumladan, SWOT tahlili, konyunktura tahlili, Porterning beshta kuch tahlili, PESTEL tahlil, raqobat tahlili va boshqalar. Ushbu tahlil vositalaridan samarali foydalanish orqali korxonalar eksport qilish imkoniyati mavjud bo‘lgan mamlakatlarni, umuman olganda bozorlarni aniqlash imkoniyati yuza keladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Eksport geografiyasini kengaytirish uchun mos bo‘lgan mamlakatlarni aniqlash uchun guruhlash maqsadga muvofiq. Bunda, O‘zbekiston eksport uchun mos mamlakatlar guruhlarini aniqlab olish imkoniyati mavjud. Mazkur tahlilni amalga oshirish uchun quyidagi ma’lumotlardan foydalanish talab etiladi:

X1 – vinochilik mahsulotlari import qiluvchi mamlakatlarning jahon importidagi ulushi, %. Maksimal qiymatlar bo‘yicha tanlanadi;

X2 – ma’lum davr mobaynida (2018-2022-yillarda) vino mahsulotlari import qiluvchi mamlakatlarda import o‘sishi, %. Maksimal qiymatlar bo‘yicha tanlanadi;

X3 – vinochilik mahsulotlari import qiluvchi davlatlar va ularning barcha yetkazib beruvchi bozorlari orasidagi o‘rtacha masofa (km); minimal qiymatlar bo‘yicha tanlanadi;

X4 – hamkor mamlakatlarning barcha yetkazib beruvchi mamlakatlari konsentratsiyasi. Minimal qiymatlar bo‘yicha tanlanadi;

Konsentratsiya Herfindal indeksiga asoslanadi. Herfindal indeksi quyidagi formula asosida hisoblanadi

$$H = \sum_{i=1}^{n} s_i^2 \quad (1)$$

Bunda,

H – Herfindal indeksi;

s – mamlakatning bozordagi ulushi;

n – mamlakatlar soni

$H_k < 0{,}01$ (yoki foizlar butun son sifatida ishlatilsa 100) yuqori ichki raqobatbardosh konsentratsiyani ko‘rsatadi, bozorga kirish qulay.

$H_k < 0{,}15$ (yoki 1500) konsentratsiyalanmagan holatni ifodalaydi, bozor raqobatbardoshdir, bozorga kirishda to‘siqlar mavjud.

0,15 dan 0,25 gacha bo‘lsa (yoki 1500 dan 2500 gacha) o‘rtacha konsentratsiyani ko‘rsatadi. Bozorga kirish xavotirli;

H_k > 0,25 (yoki 2500) yuqori konsentratsiyani ko‘rsatadi. Bozorga kirish imkonsiz, chunki yuqori monopol mavqedagi korxonalar mavjud;

Tanlab olingan mezonlar bo‘yicha Jahon savdo tashkilotining tashqi savdo statistikasi ma’lumotlarida keltirib o‘tilgan mezonlar bo‘yicha statistika yig‘ib boriladi. Shunga muvofiq vino bozorida O‘zbekiston uchun mos keluvchi mamlakatlar guruhini aniqlash uchun 1-ilovada keltirilgan ma’lumotlar shakllantirish.

X5 – vinochilik mahsulotlari import qiluvchi davlatlarda O‘zbekiston duch keladigan o‘rtacha import ta’riflari. Minimal qiymatlar bo‘yicha tanlanadi;

Mamlakatlarni guruhlashda asosiy mezonlar sifatida 2022-yilda O‘zbekistondan vino mahsulotlari import qilish ko‘rsatkichlari bo‘yicha eng yuqori bo‘lgan mamlakatlarning tanlangan indikotorlar bo‘yicha minimal va maksimal qiymatlariga mos keluvchanlik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekistondan import qiluvchi mamlakatlar, jumladan, Qozog‘iston (43,93 foiz), Rossiya Federatsiyasi (41,13 foiz), Qirg‘iz Respublikasi (7,85), Belarusiya (2,68 foiz) hamda Gruziya (1,35 foiz)ning Xn mezonlar bo‘yicha maksimal, minimal va o‘rtacha qiymatlari 1-jadvalda aks etgan.

1-jadval: O‘zbekistondan import qiluvchi mamlakatlarning [11]

Mamlakatlar	Importning ulushi, %	Importning osishi, %	O‘rtacha masofa (km)	Konsentratsiya	O‘rtacha import tariflari
	X1	X2	X3	X4	X5
Qozog‘iston	0,4	20	2,644	0,29	0,00
Rossiya Federatsiyasi	1,5	2	2,241	0,1	0,00
Qirg‘iz Respublikasi	0,07	16	1,892	0,35	1,40
Belarus	0,1	-3	1,193	0,12	0,00
Gruziya	0,04	8	2,44	0,08	0,00
minimal qiymat	0,04	-3	1,193	0,08	0
maksimal qiymat	1,5	20	2,644	0,35	1,4

Guruhlash tanlangan mamlakatlar bo‘yicha minimal va maksimal qiymatlarga mos kelishi nuqtai nazaridan barcha mamlakatlar guruhlanadi:

X1 va X2 o‘zgaruvchilar bo‘yicha:

“A” - minimal qiymatgacha bo‘lgan mamlakatlar;

“B” - minimal va maksimal qiymatgacha bo‘lgan mamlakatlar;

“S” – maksimal qiymatdan yuqori bo‘lgan mamlakatlar

X3, X4 va X5 o‘zgaruvchilar bo‘yicha:

“A” – maksimal qiymatdan yuqori bo‘lgan mamlakatlar;

“B” - minimal va maksimal qiymatgacha bo‘lgan mamlakatlar;

“S” – minimal qiymatgacha bo‘lgan mamlakatlar;

Ushbu guruhlash bo‘yicha O‘zbekiston uchun eng maqsadga muvofiq bo‘lgan mamlakatlar har bir mezon bo‘yicha “B” guruhga mos keluvchi mamlakatlar hisoblanadi. Binobarin 5 ta ko‘rsatgich asosida olingan guruhlash natijalariga ko‘ra (asosiy natijalar 1-ilovada) 3.1.5-jadval ma’lumotlari shakllantirilgan. Mazkur jadval ma’lumotlariga ko‘ra jami 35 mamlakat O‘zbekistonning vino mahsulotlari eksporti uchun eng qulay mamlakatlar sifatida aniqlangan. Mazkur mamlakatlarning belgilab olingan Xn mezonlarning barchasiga mos keluvchi mamlakatlardir. O‘zbekistoning eksport faoliyatini diversifikatsiyalash bo‘yicha tavsiya etilgan mamlakatlar sifatida aniqlangan “5B” guruh mamlakatlariga 2022-yilda jami eksportning 97,5 foizini to‘g‘ri kelgan. Qolgan 3 foizlik ulush esa “4B”, “3B”, “2B”, “1B” mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

2-jadval: O‘zbekistonning vino mahsulotlari eksport imkoniyatlari mavjud bo‘lgan mamlakatlar soni [12]

Guruhlar	Soni	Ulushi, foizda	Ushbu guruhlarga mahsulot eksporti, ming AQSH dollari	Ulushi, foizda
5B	35	15,8	43205	97,51
4B	73	32,9	267	0,60
3B	84	37,8	355	0,80
2B	19	8,6	400	0,90
1B	11	5,0	81	0,18

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘zbekistonda vinochilik mahsulotlari eksportini diversifikatsiyalash uchun tavsiya etilgan “5B” guruh mamlakatlarida yuqori ekstensiv o‘sishga erishish imkoniyatlarini oshiradi.

Mamlakat uchun mahsulotni diversifikatsiya strategiyasini ishlab chiqish uchun vino mahsulotlari turlarini nisbiy raqobat ustunliklarini aniqlash talab etiladi. Mahsulot bo‘yicha diversifikatsiya esa tarmoqni intensiv o‘sishiga olib keladi. Buning uchun O‘zbekiston vinochilik mahsulotlari tovarlari assortimentining ayrim guruhlari uchun nisbiy ustunliklarni aniqlash talab etiladi. Mahsulot turlari bo‘yicha nisbiy ustunlikni aniqlashda Balassa indeks (BI) dan foydalanish eng maqsadga muvofiq usuldir. Balassa indeks (BI) quyidagicha aniqlanadi:

$$BI_i^t = (X_i/X_a)/(X_{wi}/X_{wa}) \quad (2)$$

bu yerda:

X_i – tanlangan mahsulot turi bo‘yicha O‘zbekistonning eksport hajmi;

X_a – tanlangan mahsulot turi bo‘yicha jahonga eksport hajmi;

X_{wi} – O‘zbekistonning jami mahsulot eksporti hajmi;

X_{wa} – Jahon eksporti.

Qiyosiy tahlil uchun 2018–2022-yillardagi vinochilik mahsulotlari TIF TN turlari bo‘yicha eksport bozoridagi umumiy ma’lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi. Jahon savdo tashkilotining rasmiy statistikasi (https://www.trademap.org/) ma’lumotlari orqali qiyosiy ustunlik TIF TN kodi (2200) bo‘yicha aniqlash maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlilarni inobatga olgan holda intensiv diversifikatsiya asosida O‘zbekistondan vino mahsulotlari eksportini oshirish uchun quyidagilarga ahamiyat qaratish lozim:

1. Aniqlangan tovar kategoriyalari uchun O‘zbekistonning raqobatda nisbiy ustunligini inobatga olgan holda bozor doirasini kengaytirish lozim. Bu har qanday yagona bozorga qaramlikni kamaytirishi va xavflarni kamaytirishi mumkin.
2. Aniqlangan tovar kategoriyalari uchun xalqaro bozorda yuqori narxlarga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan yuqori sifatli vino mahsulotlarini ishlab chiqish va targ‘ib qilish.
3. Sifatni yaxshilash va jahon bozorida ajralib turadigan noyob mahsulotlarni yaratish uchun vino ishlab chiqarishning innovatsion usullarini qo‘llang.
4. Korxonalar uchun vino mahsulotlarining qabul qilingan qiymatini oshirish uchun yuqori sifatli qadoqlash va brendingga sarmoya kiritishga ahamiyat qaratilishi lozim.
5. Yuqoridagi boblarda mijozlar xulq-atvorini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida xorijiy bozorlarda doimiy marketing tadqiqotlarini olib borish talab etiladi.
6. Aniqlangan mahsulot turlari bo‘yicha bozorga yaxshiroq kirib borishni ta‘minlash uchun maqsadli bozorlarda distribyutorlar va chakana sotuvchilar bilan mustahkam aloqalarni o‘rnatilishi lozim.
7. Barqaror uzumchilik va vinochilik amaliyotlarini joriy etish orqali global auditoriya qamrovini oshirish muhim ahamiyat kasb etishi lozim. Bu barcha mamlakatlar iste’molchilari uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.
8. O‘zbekiston vino mahsulotlarini targ‘ib qilish maqsadida xalqaro vino yarmarkalarida, ko‘rgazmalarda va degustatsiya tadbirlarida ishtirok etishi muhim marketing tadbirlari sifatida qaralishi lozim.

Ushbu strategiyalarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston vino ishlab chiqaruvchilari global sharoit va iste‘mol tendensiyalariga moslashgan holda eksport bozorlarida yanada intensiv va diversifikatsiyalangan o‘sishni maqsad qilishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Market Diversification and Competitiveness of Fresh Grape Exports in Peru. Jose Carlos Montes Ninaquispe., Kelly Cristina Vasquez Huatay., Diego Alejandro Ludeña Jugo. 19 March 2024. https://doi.org/10.3390/su16062528
2. Alshammari, S. D. (2018). An International Marketing Strategy and Export Performance among Malaysian Exporters. an International Marketing Strategy and Export Performance Among Malaysian Exporters.
3. Vergamini, D., Bartolini, F., Prosperi, P., & Brunori, G. (2019). Explaining regional dynamics of marketing strategies: The experience of the Tuscan wine producers. Journal of Rural Studies, 72, 136–152. https://doi.org/10.1016/j.jrurstud.2019.10.006.
4. Droli, M., Sarnari, T., & Bašan, L. (2019). Defining evidence-based marketing strategies for wine producers and wine tourist destinations. Zbornik Veleučilišta u Rijeci, 7(1), 239–255. https://doi.org/10.31784/zvr.7.1.26.

5. Morgan, G., & Tresidder, R. (2021). Marketing of the wine experience. In Contemporary Wine Studies (pp. 180–197). Routledge. https://doi.org/10.4324/9781315768274-17.
6. Markova, V. D., Tzinlin, M., & Ge, C. (2022). Marketing strategies of smartphones producers. World of Economics and Management, 17(4), 158–167.
7. Bousquet, J. (2023). Marketing Challenges and Trends Influencing Wine Producers and Consumers. Journal of Business and Management Studies, 5(3), 155–160. https://doi.org/10.32996/jbms.2023.5.3.16.
8. Pradeep, R. K., Chandu, V., Ryali, N., Gangula, A., Mishra, D., & Mishra, S. (2023). Ethical business marketing: The practices to compete successfully in business. In Data-Driven Approaches for Effective Managerial Decision Making (pp. 259–276). IGI Global. https://doi.org/10.4018/978-1-6684-7568-3.ch013.
9. Fait, M., Iazzi, A., Trio, O., & Iaia, L. (2013). Social web communication and CRM in the marketing strategies of wine enterprises. Journal of Economic Behavior, 3, 103–116.
10. D.M.Usmonova. Uzumchilik korxonalarining eksport salohiyatini oshirushda marketing strategiyalaridan foydalanish. (Monografiya). - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2023-180 b.
11. O‘zbekistondan import qiluvchi mamlakatlarning. Muallif tomonidan statistik ma`lumotlar yig‘indisi.
12. Muallif hisob kitoblar natijasi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Sadikov Iskandar Gayratovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash yuzasidan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular moliyaviy barqarorlikning maqsad va vazifalariga qarab farqlanishini tadbiq etish ilgari suriladi. Shuningdek, bank tizimining moliyaviy barqarorligi va ishonchliligini yanada oshirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning investitsiyaviy faolligini rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni aniqlash tahlil qilingan. Ushbu qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida muallif tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan va natijalarga erishilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, moliya tizimi, bank tizimi, banki resurslari, banklarning moliyaviy barqarorligi, bank sektori, xususiy sektor, moliyaviy vositachilik, moliyaviy qarorlar, moliyaviy barqarorlikni baholash.

Abstract: This article discusses various approaches to ensuring the financial stability of commercial banks, the purpose of which is to introduce differentiation of financial stability depending on goals and objectives. It also consists in defining measures to further improve the financial stability and reliability of the banking system, create favorable conditions for strengthening and developing the resource base of commercial banks, and stimulate their investment activity. On the way to achieving these goals, the author conducted research and obtained results.

Key words: Commercial banks, financial system, banking system, Bank resources, financial stability of banks, banking sector, private sector, financial intermediation, financial decisions, financial stability.

Аннотация: В данной статье рассматриваются различные подходы к обеспечению финансовой устойчивости коммерческих банков, целью которых является внедрение дифференциации финансовой устойчивости в зависимости от целей и задач. Он заключается также в определении мер по дальнейшему повышению финансовой устойчивости и надежности банковской системы, созданию благоприятных условий для укрепления и развития ресурсной базы коммерческих банков, стимулированию их инвестиционной активности. На пути к достижению этих поставленных целей автором были проведены исследования и получены результаты.

Ключевые слова: коммерческие банки, финансовая система, банковская система, банковские ресурсы, финансовая устойчивость банков, банковский сектор, Частный сектор, финансовое посредничество, финансовые решения, оценка финансовой устойчивости.

KIRISH

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholashga turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular baholash maqsad va vazifalariga qarab farqlanadi. Bunda iqtisodiy subyektlar ko'pincha nazorat organlari tomonidan qo'llanilayotgan va tasdiqlangan modellarga asoslanadilar. Shuning uchun ikkinchisi alohida asosiy ahamiyatga ega.

Moliyaviy barqarorlik – bu moliyaviy tizimning, ya'ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funktsiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlik maqsadi alohida moliya muassasasi emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta'minlashdan iborat. Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanish asosi hisoblanadi.

Moliyaviy tizim, qachonki banklar, boshqa kredit tashkilotlari va moliya bozorlari uy xo'jaliklari va tadbirkorlik subyektlariga bir maromda ishlayotgan tizimning keskin sustlashishiga yo'l qo'ymasa, iqtisodiyotdagi ishtiroki va uning o'sishi uchun zarur moliyaviy investitsiyalar taqdim eta olsagina barqaror hisoblanadi. Aks holda nobarqaror tizimda iqtisodiy shoklar real iqtisodiyotga noxush ta'sir ko'rsatishi, kreditlashni izdan chiqarishi va kutilganidan ziyod xatarga olib kelishi, bandlikning qisqarishi va iqtisodiy faollikni susaytirishi mumkin. Yuqoridagi fikrlar tadqiqot mavzusining dolzarbligini va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodchi olimlar Z.Axrorov va Sh.Jalilovlar “Moliyaviy barqarorlik – bu bank moliyalashtirish manbalari tarkibida o‘z mablag‘lari yetarli hissasini ta’minlovchi moliyaviy holatidir. O‘z mablag‘lari yetarli hissasi moliyalashtirishning jalb qilingan manbalari to‘liq va o‘z vaqtida qaytarilishini ta’minlashda foydalanilishini anglatadi” [1] deya ta’rif berishgan.

Ye.V.Korchagina o‘z qarashlarida quyidagicha ta’rif keltirib o‘tadi. “Moliyaviy barqarorlik – o‘z mablag‘larini investitsiya shaklida yo‘naltirish, faoliyat va ishlab chiqarish siklining yangi yo‘nalishlarini tashkil qilishni qo‘llab-quvvatlash, kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalarni moliyalashtirish va moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlanganlik darajasi orqali izohlanadi” [2].

I.A.Pavlova fikricha, bank moliyaviy barqarorligining mohiyati “uning shunday moliyaviy holatidirki, unda bankning xo‘jalik faoliyati uning barcha majburiyatlarini ta’minlashga imkon beradi [3]”. I.N.Omelchenko va Ye.V.Borisovalar fikricha, “moliyaviy barqarorlik - doimiy tarzda bozor kon’yunkturasi o‘zgarib borishi sharoitida bankning o‘z moliyaviy stabilligini saqlab qolish qobiliyatidir [4]”. L.T.Gilyarovskaya va A.A.Vexorevalar ta’kidlashicha, bank moliyaviy barqarorligi tushunchasi uning shunday holatidirki, bunda mavjud resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida nafaqat to‘lovga layoqatlilik ta’minlanadi, balki shu bilan birga foyda va kapitalning o‘sishiga erishish maqsadidagi rivojlanishga ham erishiladi [5]”.

N.L. Danilova banklarning moliyaviy barqarorligi bo‘yicha quyidagi ta’rifni keltirib o‘tadi. Unga ko‘ra “moliyalashtirish manbalarining bir qismi sifatida o‘z kapitalining yetarli ulushi bilan ta’minlanadigan bank moliyaviy holatining barqarorligi bankning moliyaviy barqarorligi deyiladi [6]”.

“Bank moliyaviy barqarorligini baholash uchun bir nechta turli yondashuvlar qo‘llaniladi”: “an’anaviy, resursli-boshqaruv, resurs yondashuvi, stoxastik tahlil asosida baholash, ko‘pliklar nazariyasi va boshqa turdagi hisob usullaridan foydalanish mumkin” [7] ligi haqida D.A. Yendoviskiy hamda A.V.Yendoviskayalar o‘z ilmiy qarashlarini keltirib o‘tishgan.

A.U.Burxanovning fikricha: “moliyaviy barqarorlik: birinchidan, “birgina korxona sarmoya tarkibini emas, balki umuman korxona moliyasi holatini tavsiflaydi”; ikkinchidan, “foyda olish va qarzlarni to‘lash, korxona o‘z faoliyatini moliyalash imkoniyati va resurslar aylanish tezligining bir maromda rivojlanib borishiga asoslangan korxonalar faoliyatining kompleks ko‘rsatkichidir”; uchinchidan, “korxonaning ishlab chikarish va moliyaviy faoliyati natijalarini aks ettiradi hamda ular o‘rtasidagi teskari aloqani hisobga olgan holda ushbu natijalar uyg‘unligining tizimli jarayonini o‘zida namoyon etadi”; to‘rtinchidan, “korxonaning aylanma mablag‘larini boshqarish orqali sarflangan sarmoyaga eng yuqori daromad olishni ta’minlaydi” deya ta’kidlaydi [8].

I.T. Balabanov “bankning moliyaviy barqarorligi mablag‘larni joylashtirish va ulardan foydalanish, foyda miqdori hisobiga o‘z mablag‘larini to‘ldirish, shuningdek rejani, asosiy va aylanma mablag‘larning aylanish tezligini hisobga olgan holda boshqa manbalar bilan tavsiflanadi [9]”.

A. D. Sheremet va R. S. Sayfullinlar moliyaviy barqarorlikni bankning mavjud aktivlari yordamida o‘z majburiyatlarini qoplash qobiliyati deb hisoblashadi. Mualliflar kompaniyaning mavjud manbalarining tarkibi va tuzilishiga alohida ahamiyat berishadi, shuningdek, holatni tahlil qilishda naqd pul aylanmasi dinamikasini hisobga olishadi [10].

Shuningdek, ba’zi iqtisodiy adabiyotlarda bank moliyaviy barkarorligini ta’minlashning yanada batafsil yoritib berilgan holatlar ham yo‘q emas. Masalan, “... Moliyaviy barqarorlik – bu mumkin bo‘lgan iqtisodiy o‘zgarishlar va zarbalarga qaramay, moliyaviy institutlar va bozorlar tizimining samarali va barqaror ishlashi qobiliyatidir. Bu moliyaviy inqirozlarning yo‘qligi yoki minimal darajasi, bank tizimining barqarorligi, iqtisodiyotning real sektori uchun moliyaviy xizmatlarning ishonchliligi va qulayligi bilan tavsiflanadi.

TADQIQOTNI AMALGA OSHIRISHDA FOYDALANILGAN USULLAR

Tadqiqotni amalga oshirishda qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, o‘zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.


Olingan natijalar. Olib borilgan tahlillar natijasida O‘zbekiston tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta’minlash yuzasidan turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular baholash maqsad va vazifalariga qarab farqlanishida iqtisodiy subyektlar ko‘pincha nazorat organlari tomonidan qo‘llanilayotgan va tasdiqlangan metodika hamda modellarning rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan holatlar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari asoslab berilgan.

TAHLILLAR

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligining tarkibiy asosini kapital, likvidlik, samarali tartibga solish va nazorat qilish, risklarni boshqarish va shaffoflik tashkil etadi. Ushbu komponentlarning birgalikda qo‘llanilishi iqtisodiy qiyinchiliklarga dosh bera oladigan va uzoq muddatli rivojlanishni ta’minlaydigan barqaror moliyaviy tizimni yaratishga yordam beradi.

2023-yil davomida global miqyosda moliyaviy sharoitlarning yumshayotganligi kuzatildi. Dunyoda davom etayotgan ziddiyatli geosiyosiy vaziyat, shuningdek rivojlangan mamlakatlar moliya tizimlarida yuzaga kelgan noaniqliklar sababli moliya bozorlaridagi tebranuvchanlikning ortishiga qaramasdan 2023-yilda jahon moliyaviy sharoitlar indeksida ijobiy tendensiya saqlanib qoldi. Shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozori bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar, shu jumladan ularning narxlarida kuzatilgan past o‘zgaruvchanlik darajasi global makromoliyaviy holatning yumshashiga ta’sir ko‘rsatdi.

Aksariyat davlatlarda moliyaviy sharoitlar bilan bog‘liq xatarlar saqlanib qolmoqda. Rivojlangan davlatlarning suveren obligatsiyalarida kuzatilgan yuqori rentabellik darajasi xalqaro bozorda rivojlanayotgan davlatlar aktivlariga investitsiyalarni qisqarishiga sabab bo‘ldi. Bundan tashqari, 2023-yil davomida kuzatilgan yuqori foiz stavkalari kreditlarga bo‘lgan talabni qisqartirdi. Shuningdek, qarz oluvchilarning ma’lum segmentlari uchun majburiyatlarni bajara olmaslik holatlari kuchayishda davom etib, banklarning kredit tavakkalchiligiga bo‘lgan ishtiyoqini pasaytirdi. Yuqori foiz stavkalari muhitidagi moliyaviy sharoitlar ta’sirida zaifroq rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin[1].




1-rasm: O‘zbekiston moliyaviy sharoitlar indeksi[2]

Moliyaviy sharoitlar indeksi ko‘rsatkichining musbat qiymatlari moliyaviy sharoitlarning qat’iylashishini, manfiy qiymatlari esa moliyaviy sharoitlarning yumshashini anglatadi. Mamlakatimizda ichki talabning yuqori o‘sishi kuzatilmoqda. 2023-yilda mamlakat iqtisodiy o‘sish sur’ati 6 foizni tashkil etgan. Jumladan, 2023-yil yakuniga ko‘ra, YaIM o‘sishiga mamlakatda ichki talabning oshishi 9,2 foiz band ijobiy hissa qo‘shgan bo‘lsa, sof eksport manfiy salьdosi kengayishining iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’siri 3,3 foiz bandni tashkil etgan. Ichki talab tarkibida iste’mol xarajatlari yuqori ulushga ega bo‘lib, 2024-yil 1-yanvar holatiga 64 foizni tashkil etgan.

Bank tizimining shoklarga bardoshlilik holati zaiflashishiga qaramasdan, moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ushbu ko‘rsatkichlar o‘rnatilgan minimal talablardan yuqori shakllandi. 2023-yilda sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti ko‘rsatkichi 3,8 foiz bandga pasaydi. Yuqori likvidli aktivlar hajmining kamayishi hisobiga likvidlilikni qoplash ye’yori koeffitsiyenti ko‘rsatkichida keskin pasayish kuzatilib, 2023-yil so‘nggida 165 foizni tashkil etdi. 2023-yilda regulyativ kapitalning monandlilik koeffitsiyentida deyarli o‘zgarish kuzatilmadi va 2022-yil yakuniga nisbatan atigi 0,3 foiz bandga kamaygan.

Bank tizimida moliyaviy barqarorlik holati xaritasi aktivlarning o‘sishi hamda rentabelligi deyarli o‘zgarishsiz qolganligini ko‘rsatdi. 2023-yilda aktivlarning rentabelligi ko‘rsatkichi o‘zgarishsiz 2,5 foiz atrofida shakllandi. 2023-yilda jami aktivlar hajmining o‘sish sur’ati biroz sekinlashib, 2022-yilga nisbatan 8 foiz bandga pastroq bo‘ldi. (2-rasm)


1 International Monetary Fund. (2024, January). World Economic Outlook.
2 https://cbu.uz/ ma’lumotlati asosida muallif tomonidan tuzildi



2-rasm: O‘zbekiston Respublikasi bank tiziminig moliyaviy barqarorlik holati[3]

Foizli xarajatlarni qoplash koeffitsiyenti 2023-yilning dastlabki yarim yilligi yakuni holatiga o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4 foiz bandga kamayganligi banklar jalb qilingan qarzlar bo‘yicha foiz to‘lovlarini bank foydasi hisobidan qoplay olish imkoniyati pasayganligidan dalolat beradi. Shuningdek, 2023-yilning I yarim yilligi yakuni bo‘yicha jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning aholi ixtiyoridagi daromadiga nisbatida 2022-yilning mos davriga nisbatan ijobiy o‘zgarish kuzatildi.

Bank tizimida moliyaviy barqarorlik holati xaritasida aktivlar o‘sishining sekinlashishi va to‘lovlari 31 kundan ortiq muddatga kechikkan aktivlar hajmining ortishi bilan bog‘liq xatarlar biroz ortganligini ko‘rish mumkin. Xususan, 2023-yilning dastlabki yarim yilligida bank aktivlarining o‘sish sur’ati 2022-yilning mos davriga nisbatan 8 foiz bandga pasaygan. Shuningdek, substandart va undan quyi tasniflangan muammoli kreditlar ulushi 2023-yilning I yarim yilligi yakuni bo‘yicha o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2 foiz bandga oshgan. Banklar daromadliligi ko‘rsatkichida ijobiy holat yuzaga kelgan bo‘lib, aktivlar rentabelligi ko‘rsatkichi so‘nggi ikki yil davomida o‘zgarishsiz 2,7 foiz darajasida shakllanib kelmoqda.



3-rasm: O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi bardoshliligi holati[4]

3 https://cbu.uz/ ma’lumotlati asosida muallif tomonidan tuzildi
4 https://cbu.uz/ ma’lumotlati asosida muallif tomonidan tuzildi

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Bank sektori bo‘yicha kapital monandlilik va likvidlilik ko‘rsatkichlarida kuzatilgan pasayish tendensiyalari bank tizimining turli ehtimoliy shoklar ta’sirida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarga bardoshlilik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. 2023-yilning 1-iyul holatiga regulyativ kapitalning monandlik koeffitsiyenti o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,6 foiz bandga kamaygan. Shuningdek, banklarning likvidlilik holatini aks ettiruvchi likvidlilikni qoplash va sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyentlari ko‘rsatkichlari pasaydi. 2023-yilning I yarim yilligida O‘zbekiston bank tizimida kapital zaxiralarining o‘rnatilgan kapital talablaridan yuqori darajada shakllanishida davom etdi. Bu esa, makroiqtisodiy hamda tashqi geosiyosiy xatarlar sharoitida ham tijorat banklari uchun yetarli darajada ehtimoliy zararlarni qoplash imkoniyatini taqdim etmoqda. 2023-yilning 1-iyul holatiga banklarning jami regulyativ kapitali o‘tgan yilning mos holatiga nisbatan 14 foizga oshib, 88,7 trln so‘mga yetdi. Bunda, kapitalning qariyb 85 foizini yuqori sifatli hisoblangan I darajali kapital tashkil qilmoqda.

Xalqaro hisob-kitoblar banki tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, kreditning YaIMga nisbati tafovuti va qarzga xizmat ko‘rsatish nisbati inqirozlardan erta ogohlantiruvchi eng ishonchli indikatorlar ekanligi qayd etilgan [11]. Xususan, kreditning YaIMga nisbati tafovuti inqirozlardan uzoqroq muddat oldin ogohlantirishda foydali indikator hisoblanadi. Qarzga xizmatko‘rsatish nisbati 2 yil oldindan inqiroz bo‘lishi to‘g‘risida ogohlantirish signallari aniqroq ko‘rsata olish xususiyatiga ega. Shuningdek, barqaror bo‘lmagan majburiyatlar ulushi ko‘rsatkichi ham inqirozlar haqida ogohlantirish berishda samarali ekanligi aniqlangan. Kreditlarning keskin o‘sishiga mutanosib ravishda barqaror bo‘lmagan majburiyatlarning o‘sishi moliyaviy zaifliklar ortib borishini oldindan ko‘rsatib berishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

NATIJALAR INTERPRETATSIYASI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish davomida quyidagi savollar paydo bo‘ldi va ularga quyidagicha javoblar shakllandi: O‘zbekistonda banklar moliyaviy munosabatlarning umumiy tavsifi, nazariy va funksional asoslari qanday? Tijorat banklari moliyasini tashkil etish va korxonalarning moliyaviy mexenizmlarini ishlab chiqishning me’yoriy-huquqiy asoslari mavjudmi? Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta’minlashning zarurligi, iqtisodiy mohiyati va vazifalari nimada? Mazkur tadqiqotni amalga oshirish davomida ushbu savollarga asosli javoblar shakllantirildi.

XULOSA

Mamlakatimiz tijorat banklar kapitallashuvining yuksak darajada o‘shishini ta’minlashga doir har tomonlama choralar ko‘rilishi, likvidlik mustahkamlanishi va depozit bazasi oshirilishi hamda moliyaviy barqarorlikning ta’minlanishi natijasida yuksak reyting ko‘rsatkichlariga va iqtisodiyotning real sektoriga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshishiga erishilmoqda.

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda quyidagi jihatlarni e’tiborga olish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, banklar potentsial yo‘qotishlarni qoplash va o‘z faoliyatining barqarorligini ta’minlash uchun etarli kapitalga ega bo‘lishi kerak. Kapital bankning moliyaviy barqarorligining asosiy manbai hisoblanadi.

Ikkinchidan, banklar xatarlarni minimallashtirish va barqaror rentabellikni ta’minlash uchun o‘z aktivlarini to‘g‘ri boshqarishlari kerak. Aktivlarning xilma-xilligi potentsial yo‘qotishlarni yumshatishga yordam beradi.

Uchinchidan, majburiyatlarni boshqarish bankning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Jalb qilingan resurslar va qarz mablag‘lari o‘rtasidagi muvozanat saqlanishi zarur.

To‘rtinchidan, banklar mumkin bo‘lgan moliyaviy yo‘qotishlarni oldini olish va barqaror faoliyatni ta’minlash uchun samarali xatarlarni boshqarish tizimlariga ega bo‘lishi kerak.

Beshinchidan, banklar mijozlar oldidagi joriy va kelajakdagi majburiyatlarni qoplash uchun yetarli likvidlikka ega bo‘lishi lozim. Likvidlikning etishmasligi bank uchun jiddiy muammolarga olib keladi.

Oltinchidan, tijorat banklari, shuningdek, jarimalar va boshqa oqibatlarning oldini olish uchun tartibga soluvchi tashkilotlar tomonidan belgilangan barcha tartibga solish talablariga qat’iy rioya qilishlari maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi tablarga rioya qilish tijorat banklariga moliyaviy barqarorlikni saqlashga va bozorda muvaffaqiyatli ishlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axrorov Z.O., Jalilov Sh. Banklarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalari. Risola. – Samarqand: SamISI, 2017. – 27 b.
2. Корчагина Ye.B. Проблемы конкурентоспособности в современной экономике // Проблемы современной экономики. 2005. № 3/4 (15/16).
3. И.А. Павлова// Финансы и кредит, 2017г.,"Анализ и прогнозирование финансовой устойчивости организации с учетом жизненного цикла на основе интегрального показателя". 23 (июнь), с. 71-75.
4. Омельченко И.И. Финансово экономическая стабильность как составная часть организационно экономической устойчивости предприятий // Вестник машиностроения. 2017. № 4. С. 65.
5. Гиляровская Л.Т, Вехорева А.А. Анализ и оценка финансовой устойчивости коммерческого предприятия. СПб., 2013. С. 13.
6. Данилова Н.Л. Анализ финансовой устойчивости предприятия [Электронный ресурс] // Ассоциация "Открытая наука". Выпуск № 2. 2014.
7. Ендовицкий Д.А., Ендовицкая А.В. Системный подход к анализу финансовой устойчивости коммерческой организации // Экономический анализ: теория и практика. 2005. № 6 (39).
8. Burxanov A.U. "Banklar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot". Monografiya. T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2019. 160 b.
9. Шеремет, А.Д. Методика финансового анализа / [Текст]: А.Д. Шеремет, Р.С. Сайфулин. – М.: ИНФРА-М, 2015.
10. Баканов М.И. Методы финансового планирования и прогнозирования на предприятиях / О. А. Лаенко // Вестник Прикамского социального института. – 2016. – № 2. –С. 52-55.
11. Drehmann, M., & Juselius, M. (2013, August). Evaluating early warning indicators of banking crises: Satisfying policy requirements. Bank for International Settlements.

MILLIY SOLIQ TO‘LOVCHILAR FAOLIYATINI RAG‘BATLANTIRISHDA IKKI YOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Rajapov Shuxrat Zaripbaevich
I.f.f.d. (PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon tajribasi bo‘yicha ikkiyoqlama soliq shartnomalarining birlamchi va asosiy vazifasi ikkiyoqlama soliqqa tortish muammosini bartaraf etish va shu tariqa transchegaraviy kapital va savdo harakatlarini yengillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: rezidenti, norezident, ikki yoqlama soliqqa tortish, offshor, daromad manbai, soliq ma’muryatchiligi, soliq hisoboti, an’anaviy reja, xalqaro soliqqa tortish, global daromad, mulkiy soliqlar.

Abstract: In this article, based on the world experience, the primary and main task of bilateral tax treaties is to eliminate the problem of double taxation and thus to facilitate cross-border capital and trade movements.

Key words: resident, non-resident, double taxation, offshore, source of income, tax administration, tax reporting, traditional plan, international taxation, global income, property taxes.

Аннотация: В данной статье, исходя из мирового опыта, основной и основной задачей двусторонних налоговых соглашений является устранение проблемы двойного налогообложения и тем самым облегчение трансграничного перемещения капитала и торговли.

Ключевые слова: резидент, нерезидент, двойное налогообложение, оффшор, источник дохода, налоговое администрирование, налоговая отчетность, традиционный план, международное налогообложение, глобальный доход, налоги на имущество.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan globallashuv jarayoni mamlakatlar tomonidan ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishga doir xalqaro tashkilotlarning me’yorlaridan kengroq foydalanishni taqozo etmoqda. Buni iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a’zo davlatlar, shuningdek, “soliq masalalari bo‘yicha o‘zaro ko‘ptomonlama ma’muriy yordam to‘g‘risidagi Konvensiyalar ishtirokchisi bo‘lgan 120 tadan ortiq mamlakat va yuridiksiyalarning, ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishni oldini olish bo‘yicha soliqqa oid kelishuvlarida ko‘rish mumkin.

Dunyoning turli davlatlar rezidentlariga soliq solishda ikkiyoqlama soliq solishning oldini olish bo‘yicha davlatlararo hamkorlikni kuchaytirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Norezident yuridik shaxslar faoliyatiga soliq solish mexanizmlarini soddalashtirgan holda ular tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash yoki olingan foydani soliq solishdan olib chiqib ketishga qarshi ta’sirchan vositalarni qo‘llash bo‘yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bilan bog‘liq masalalarni huquqiy tartibga solish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Milliy soliq to‘lovchilar faoliyatini rag‘batlantirishda ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish mavzusiga oid qisqacha adabiyotlar sharhini keltiramiz.

N.A.Solovyova ushbu soliq to‘lovchining ikki (yoki undan ortiq) hududlarda xuddi shu obyektga nisbatan xuddi shu davrlar uchun taqqoslanadigan soliqqa tortish deb baholadi [1].

V.V.Semenixin IHTT tomonidan taklif qilingan ta’riflarni tahlil qilgan holda buni umumiy qabul qilingan tushuncha sifatida qabul qiladi ya’ni “Ikki yoqlama soliq solish - bu bir mamlakatning o‘zida bir xil daromadga yoki turli soliqlarga bir vaqtning o‘zida soliq solish deb qaraydi [2].

L. V. Polejarovaning pozitsiyasi ham shu nuqtai nazardan kelib chiqadi: “Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish - bu ikki (yoki undan ko‘p) hududlarda bir soliq to‘lovchidan xuddi shu obyektga va o‘sha davrlarga nisbatan taqqoslanadigan soliqlarni yig‘ishdan iborat”deb takidlagan [3].

Rossiyalik olim A.I.Pogorleskiy quyidagi to‘rt maqsadga erishishga harakat qilishi lozimligini o‘zining “Mejdunarodnoe nalogooblojeniie” ya’ni “Xalqaro soliqqa tortish” darsligida keltirib o‘tgan [4].

O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan soliq sohasidagi hamkorligi bo‘yicha, O‘zbekiston xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida dunyoning boshqa mamlakatlari bilan soliqqa tortish sohasidagi shartnomaviy-huquqiy bazani mustahkamlash bo‘yicha soliq siyosatini ildamlik bilan yuritmoqda. 1993-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi soliqqa tortish sohasida yaqin va uzoq xorijdagi mamlakatlar bilan xalqaro shartnomalar tizimini shakllantirish bo‘yicha ishlar olib bormoqda. Bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlari bilan 52 ta ikki tomonlama shartnomalar imzolangan keltirib o‘tgan [5].

Xitoy Xalq Respublikasi soliq qonunchiligida mamlakatda 2 va undan ortiq doimiy muassasa orqali faoliyat yuritayotgan norezidentga soliq organlarining roziligi bilan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini jamlangan holda to‘lash imkoniyati beriladi [6].

Ikkiyoqlama soliqqa tortish tushunchasiga Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) lug‘utida “ichki” va “xalqaro” ikkiyoqlama soliqqa tortish nuqtai nazardan ta’rif berilgan:

“Ichki” ikkiyoqlama soliqqa tortishda soliqlarni undirish davlatlar o‘zlarining tenglik darajadagi mustaqil soliq organlari tomonidan, o‘z vakolatlari doirasida undirilganda yuzaga keladi [7].

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Jahon tajribasi bo‘yicha ikkiyoqlama soliq shartnomalarining birlamchi va asosiy vazifasi ikkiyoqlama soliqqa tortish muammosini bartaraf etish va shu tariqa transchegaraviy kapital va savdo harakatlarini yengillashtirish bo‘lib bayon qilinib kelayotgan edi, ammo XX asrning so‘nggi choragida soliqlardan bo‘yin tovlash masalasi xalqaro soliq qonunchiligida ko‘riladigan asosiy masalalaridan biri bo‘lib qoldi[1].

Agar O‘zbekiston Respublikasida chet el tashkilotining faoliyati doimiy muassasa shakllanishiga olib keladigan bo‘lsa, bunday xorijiy tashkilot O‘zbekiston tashkilotlari kabi foyda solig‘iga tortiladi.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali olib boriladigan faoliyatidan xorijiy tashkilotning foydasi doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lgan barcha daromadlar va ushbu doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi:

$$\mathbf{Dmf = \sum D\ ds - \sum Dxs,}\ (1)$$

Bu yerda,

Dmf – doimiy muassasaning foydasi;

∑ Dds – doimiy muassasaning barcha daromadlar summasi;

∑ Dxs – doimiy muassasaning barcha xarajatlar summasi.

Amaldagi qonunlarga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali ishlaydigan xorijiy tashkilotlarning foydasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri usul bilan aniqlanadi. (1-formulaga qarang)

Shunday qilib, qonunchilikda agar doimiy muassasa mustaqil yuridik shaxs bo‘lsa doimiy muassasaga tegishli foyda hisoblab chiqish tarzda hisoblanadi. Ushbu usul doimiy korxona mustaqil hisob-kitobni yuritish orqali asosli ma’lumotlar yordamida soliq solinadigan foydani hisobini yuritadi.

Doimiy muassasa orqali olingan daromadlarni rentabellik darjasini 25 foizidan kelib chiqib hoh olingan daromalarga 0.2 koeffitsiyent qo‘llash hoh ko‘rilgan xarajatlar bo‘yicha 0.25 koeffitsiyent qo‘llagan holda hisob-kitobni amalga oshirish mumkin. Bu soliq kodeksida ko‘rsatilmagan. Buni quyidagi formula asosida aks ettirishimiz mumkin.

$$\mathbf{Dmf = Dds \times 0{,}2,}\ (2)$$
$$\mathbf{Dmf = Dxs \times 0{,}25,}\ (3)$$

Bu yerda,

Dmf – doimiy muassasaning foydasi;

Dds – doimiy muassasaning daromadlari;

Dxs – doimiy muassasaning xarajatlar.

1 International Tax Primer. Second Edition (Arnold and McIntyre, 2002, p. 105)

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Tashqi savdo shartnomalari bo‘yicha tovarlarni yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lganda, xususan, xorijiy tashkilotning faoliyati bilan uzviyligida hamda doimiy muassasa tan olingan taqdirda daromadlarni bilvosita usullar bilan hisoblash zaruriyati paydo bo‘ladi.

Ushbu holatda doimiy vakolatxonaga chet el tashkilotining O‘zbekistondan tashqi savdo shartnomasi bo‘yicha tovarlarni sotishdan olgan barcha daromadlari hisobga olinmaydi, chunki tovarlarning o‘zi - shartnoma predmeti - doimiy vakolatxona faoliyati natijasida shakllanmagan.

Shunga muvofiq, ushbu daromadlar doimiy muassasaning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan xorijiy tashkilotlarning soliq majburiyatlarini hisoblashda hisobga olinmaydi.

Tashqi savdo shartnomasi bo‘yicha tovarlarni sotish natijasida doimiy muassasa tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat uchun olingan yalpi daromaddan ma’lum bir ulushni ajratish kerak, bu faqat marketing, yuklarni kuzatib borish va hokazolarga to‘g‘ri keladi.

Agar xorijiy tashkilot doimiy ravishda O‘zbekistonda bunday faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshirayotgan bo‘lsa, soliq solinadigan bazani hisoblash bunday faoliyat xarajatlaridan kelib chiqqan holda 25% rentabellik darajasi asosida hisoblangan koeffitsiyent yordamida amalga oshirilishi mumkin:

$$\mathbf{Dmf = Bx \times 0,25,} \quad (4)$$

Bu yerda,

Dmf – doimiy muassasaning foydasi;

Bx – O‘zbekistonda faoliyat olib borish uchun bosh ofisning xarajatlari (shu jumladan uchinchi tomonga berilgan komissiya);

Bunday faoliyatni amalga oshirishda O‘zbekiston tashqi savdo tashkilotlari tomonidan to‘lanadigan o‘rtacha to‘lov miqdoridan foydalangan holda shartnomaning umumiy qiymati asosida shartli ravishda hisoblangan daromadlar asosida amalga oshirilishi mumkin. (odatda bu qiymat shartnoma narxining 3-5% ni tashkil qiladi):

$$\mathbf{Dmf = Dsh \times 0,2,}$$

$$\mathbf{Dsh = Dq \times k,} \quad (5)$$

Bu yerda,

Dmf – soliqqa tortiladigan foyda;

Dsh – shartli ravishda daromad;

Shq – shartnoma umumiy qiymati;

k – 0,03 dan 0,05 gacha bo‘lgan koeffitsiyent.

Xuddi shu tarzda, agar doimiy muassasa o‘zaro aloqador agent sifatida tan olinsa, foyda hisoblash mumkin.

Shunday qilib, ko‘p hollarda agent sifatida doimiy muassasa tan olinsa, soliq bazasini aniqlashning to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisoblash usuli ham obyektiv, ham subyektiv omillar hisoblanib, shu jumladan chet el tashkilotining o‘z hisobotlaridan foydani to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisoblash uchun zarur bo‘lgan darajada ma’lumot berishga tayyorligi va imkoniyati tufayli qabul qilinishi mumkin emas, balki ushbu ma’lumotlarning maxfiyligini saqlash masalalari va soliq solinadigan foydani hisoblashning qonuniyligi yuzasidan soliq ma’muriyati va ma’muriy javobgarlikni yuklash masalalari muhimdir. Bundan ko‘rinib turibdiki, bunday hollarda, o‘zaro aloqador agentning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan foyda qismini, uning faoliyati natijasi sifatida aniqlash uchun shartli hisoblash usullarini qo‘llash kerak bo‘ladi.

Doimiy muassasaning foydasi daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farqdir, shu bilan birga bu daromad yoki xarajatlarning amalda qabul qilingan amaliyotga muvofiqligi (yuqorida aytib o‘tilgan xarajatlar va daromadlarni taqqoslash imkoniyati yo‘qligi sababli) nafaqat soliq hisobi ma’lumotlaridan, balki ayrim holatlarda ham xorijiy tashkilot bosh idorasining tegishli soliq hisobi ko‘rsatkichlarini taqsimlashga asoslangan mutanosib, shartli hisob-kitob natijasida aniqlanishi mumkin.

Amaliyotda qonunda ko‘zda tutilmagan usullarni qo‘llash, chet el tashkilotining soliq majburiyatlarini hisoblash imkoniyatini ta’minlashga qaratilgan qonun hujjatlaridagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga urinishdir. Doimiy foydani yoki uning xarajatlarining ma’lum qiymatiga maxsus koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydani hisoblash uchun shartli usullarni joriy qilish, xorijiy tashkilotlarning foyda solig‘ini hisoblashda soliq ma’muriyatchilgini sezilarli darajada yengillashtiradi va hisoblash usullarni o‘rganish natijasida “maxsus tekshirish” zaruratini yo‘q qiladi hamda bu yerda xorijiy tashkilotning bosh ofisining ahamiyati yo‘qligi, shartli hisoblashning to‘g‘ridan-to‘g‘ri usul bilan aniqlangan natijalarini foydaga yaqinlashtiradi.

Soliq yukini hisoblashda xalqaro ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish ta’siri bilan va ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish ta’sirisiz ko‘rib chiqish, korxonalarning foydasiga soliq yukini ma’lum foiz punktga kamayishi iqtisodiy samara berishini ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu soliq yukini hisoblash xorijiy mamlakatlarda qabul qilingan soliq bazasini aniqlash tartibi O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan soliq bazasini aniqlash tartibidan biroz farq qiladi degan taxminga asoslanadi.

$$\Delta SYu = SYu_{betsyu} - SYu_{bensyu}, \quad (6)$$

Bu yerda,

ΔSYu– xalqaro ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish natijasida soliq yukini kamaytirish, foizli punktlarda;

SYu_{betsyu} – xalqaro ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish ta'sirisiz soliq yuki,%;

SYu_{bensyu} – xalqaro ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish natijasida ya'ni ta'sirida soliq yuki,%;

$$SYu_{betsyu} = \frac{Soliq_{chmfs} + Soliq_{dtfs}}{D_{umumiy}} \times 100, \quad (7)$$

Bu yerda,

$Soliq_{chmfs}$ – chet el davlatida O'zbekiston Respublikasi muassasalari tomonidan to'langan foyda solig'i summasi;

$Soliq_{dtfs}$ – O'zbekiston Respublikasi muassasalari tomonidan O'zbekistonda butun dunyo bo'yicha daromadlari bo'yicha to'langan foyda solig'i summasi;

D_{umumiy} – butun dunyo bo'yicha daromad (yalpi tushum) (mikrodarajada hisoblash uchun) yoki YaIM hajmi (mikrodarajada hisoblash uchun);

Chet el soliqlari hisobga olishning eng past chegarasi chet elda to'langan soliqning maksimal miqdoridan oshmagan qismi haqiqiy soliq miqdori deb belgilanadi. Shunday qilib, xalqaro ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf qilish ta'sirini hisobga olgan holda soliq yuki indikatorining pastki chegarasini quyidagi formula yordamida aniqlanishi mumkin.

$$SYu1_{bqs'hsyu} = \frac{Soliq_{chmfs} + Soliq_{dtfs} - Soliq_{chmxts}}{D_{umumiy}} \times 100, \quad (8)$$

Bu yerda,

$SYu1_{bqs'hsyu}$ – xalqaro ikkiyoqlama soliqqa tortishni bekor qilish samarasini hisobga olgan holda soliq yukining eng kam chegarasi;

$Soliq_{chmxts}$ – haqiqatda O'zbekistonda hisobga olingan chet el davlat manbalaridan xorijda to'langan soliq summasi;

Mazkur holatdan kelib chiqib formulani (6) formula bilan almashtirilganda, xalqaro ikkiyoqlama soliqqa tortishni bekor qilish ta'siridan soliq yukini kamaytirishning pastki chegarasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanishi mumkin.

$$\Delta SYu = \frac{Soliq_{chmfs} + Soliq_{dtfs}}{D_{umumiy}} \times 100 - \frac{Soliq_{chmfs} + Soliq_{dtfs} - Soliq_{chmxts}}{D_{umumiy}} \times 100 = \frac{Soliq_{chmxts}}{D_{umumiy}} \times 100 \quad (9)$$

Shunday qilib, xalqaro ikkiyoqlama soliqqa tortishning bekor qilinishi natijasida soliq yukini kamaytirishning yuqori chegarasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanishi mumkin.

$$SYu2 = \frac{Foyda_{chm}}{F_s} \times 100, \quad (10)$$

Bu yerda,

ΔSYu2- xalqaro ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf qilish ta'sirini hisobga olgan holda soliq yukini kamaytirish ko'rsatkichining yuqori chegarasi;

$Foyda_{chm}$ – O'zbekiston Respublikasi muassasalari tomonidan davlatlardan olingan horijda olingan foyda;

F_s – O'zbekiston Respublikasida foyda solig'i stavkasi.

Yuqorida keltirib o'tilgan bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, xalqaro ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf qilish natijasida soliq yukining pasayishi ko'rsatkichi (9) va (10) formulalar bilan belgilangan qiymatlar chegarasida bo'lishi mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Shunday qilib, makroiqtisodiy darajadagi takliflarning samaradorligini hisoblash quyidagi statistik ma'lumotlar mavjud bo'lganda amalga oshirilishi mumkin, bular:

- O'zbekiston Respublikasida hisobga olish uchun qabul qilingan xorijiy mamlakatlarda to'langan daromad solig'i summasi;
- turli soliq stavkalari bo'yicha soliq solinadigan daromad turlari nuqtai nazaridan O'zbekiston Respublikasi tashkilotlari tomonidan xorijiy mamlakatlarda olgan foyda miqdorlari.

Bu statistik ma'lumotlar davlat miqyosida shakllantirilmaydi. Shuning uchun IHTTning 1965–2019-yillardagi tahliliy stasistik ma'lumotlar asosida ya'ni xorijiy tashkilotlarga to'langan daromadlar va ular tomonidan to'langan soliq miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni tadqiqot ishida foydlanildi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Ushbu holat bizga makroiqtisodiy darajada xalqaro ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish natijasida soliq yukining pasayishi ko‘rsatkichini hisoblash imkonini, shuningdek, mikroiqtisodiy darajada ham ushbu ko‘rsatkichni soliq to‘lovchilarning soliq hisobini tahlil qilish ma’lumotlariga asoslanib hisoblash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish yuzasidan xalqaro shartnomalarni qo‘llanilishiga ahamiyat berish kerak va uni sharhini standartlar asosida tahlil qilib xulosa qilish zarur. Davlatlar o‘rtasida soliq munosabatlarini to‘g‘ri aniqlash esa, ya’ni soliq kredit yoki soliqni hisobga olish tizimidan foydalanishni byudjetga soliq tushumlarini kelib tushishida oqibatlarini ham ko‘rsatish eng muhim soliq bazani hisoblash uchun zarur bo‘ladi.

Xalqaro soliq munosabatlarida soliqlardan bo‘yin tovlash iqtisodiy munosabatlar doirasida mavjud bo‘lib, u o‘zida daromadlarning nolegallashishi darajasining hajmini oshiradi va moliyaviy resurslarning hajmini, ularning shakllanishi va taqsimlanishi tartiblarini keskin kamayishi olib keladi.

O‘zbekiston soliq tizimida ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishda qo‘llaniladigan usullarini to‘g‘ri tanlash va ular asosida xalqaro soliq shartnomlar mavjud bo‘lmagan holatda hisoblab chiqish tartib va mexanizmlarini xalqaro soliq kodeksida mosligini ham e’tiborga olish lozim.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga xalqaro soliq munosabatlaridan kelib chiqib, soliq imtiyozlar va soliq diskriminatsiya asosida milliy soliq qonunchiligida ikkiyoqlama soliq solish usullarini kiritish lozim. Bu davlat o‘rtasidagi ikkiyoqlama soliqqa tortish sohasidagi halqaro huquq normalari va prinsiplarini sharhlashda hamda amaliyotga tadbiq etishda sharh sifatida qo‘llaniladi.
2. Ikkiyoqlama soliqqa tortish munosabatlarida davlatlararo tuzilgan shartnomlarga muvofiq davlatlarning soliq organlari tomonidan milliy soliq qonunchiligidagi konsepsiya va kategoriyalarni turlicha izohlash natijasida soliq hisob-kitoblarni noto‘g‘ri amalaga oshirish holatlari duch kelmaslik uchun milliy qonunchiligida maxsus qoidalarni qo‘llashga doir umumiy tartibda izoh keltirib o‘tishi lozim.
3. Davlatning norezidentlar faoliyatini soliq solish orqali tartibga solishda ikki jihatni ko‘zlagan holda amalga oshirishi kerak. Birinchisi, mamlakat byudjeti daromadlarini shakllantirish va ularni ko‘paytirish bo‘lsa, ikkinchisi chet el investori hisoblanuvchi norezidentlar faoliyatiga soliq solishni takomillashtirish va ularning investitsiyaviy faoliyatini rag‘batlantirish. Intellektual mulk huquqi obyektlariga to‘lov hisoblangan royaltiga yuqori soliq stavkasini qo‘llanilishi chet el kompaniyalarini intellektual mulk obyektlarini litsenziyaga berishdan qaytarishi ham mumkin. Bizningcha, intellektual mulk obyektlaridan foydalanganlik uchun royaltiga nisbatan soliq stavkasini pasaytirish mamlakatimizning innovatsion rivojlanishida foydali bo‘lishi mumkin. Yuqorida shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar mamlakatimizda chet el investorlarni faoliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari bu soliq bazasini kengayishiga, shuningdek, rezident va norezidentlarga ikkiyoqlama soliqqa tortishni bartaraf etishda davlatlararo konvensiya va shartnomlarini to‘g‘ri qo‘llanilishi hisobiga ularni faolligini oshirish va soliqqa tortish tamoyillaridan foydalanib samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. 101 термин налогового права: крат. законодат. и доктринальное толкование / Н. Н. Балюк, В. В. Замулко, А. В. Красюков [и др.] ; рук. авт. кол. Н. А. Соловьева. М. : Инфотропик Медиа, 2015. 452 с.
2. Семенихин В. В. Устранение двойного налогообложения по налогу на прибыль // Налоги. 2014. № 29. С. 9.
3. Полежарова Л. В. Международное двойное налогообложение: механизм устранения в Российской Федерatsии. М. : Магистр: Инфра-М, 2014. С. 9.
4. Davronov Z. Ilmiy ijod metodologiyasi. – T.: Iqtisod-Moliya, 2007.
5. https://soliq.uz/page/xalqaro-hamkorlik
6. Xitoy Xalq Respublikasi soliq qonunchiligida mamlakatda 2 va undan ortiq doimiy muassasa orqali faoliyat yuritayotgan norezidentga soliq organlarining roziligi bilan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini jamlangan holda to‘lash imkoniyati beriladi.
7. http://www.oecd.org ,Article 51. Enterprise Income Tax Law of the People`s Republic of China.
8. https://www.oecd-ilibrary.org/
9. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2020 yil yanvar.
10. Normurzayev U. O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirishda hududlararo soliq inspeksiyasi o‘rni va ahamiyati // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2024. – T. 2. – №. 4. – S. 457-467.
11. Normurzayev U. O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish va uning barqarorligini ta’minlash yo‘llari //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – T. 1. – №. 6. – S. 177-182.
12. Normurzayev U. O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirish bo‘yicha tahlil va taklif //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – T. 1. – №. 7. – S. 329-336.
13. Normurzayev U. “Mamlakatimizda soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlar tahlili.” Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil 1.4 (2023): 177-183.

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Qorriyeva Shahnoza Safarboyevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon va milliy iqtisodiyotdagi atrof- muhit, iqlim, rusurslar bilan bog‘liq muammolar o‘rganilib, ularni yashil iqtisodiyotni rivojlantirish orqali bartaraf qilish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: yer aholisi, fan-texnika yutuqlari, yalpi iste’mol, resurslarning cheklanganligi, “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish, “yashil” o‘sish, energiya va resurs sarfini kamaytirish, tejamkor texnologiyalar.

Abstract: This article examines the problems related to the environment, climate, and resources in the world and national economy, and offers suggestions on how to eliminate them through the development of a green economy.

Key words: population, scientific and technical achievements, gross consumption, limited resources, transition to “Green” economy, “green” growth, reduction of energy and resource consumption, efficient technologies.

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы, связанные с окружающей средой, климатом и ресурсами в мировой и национальной экономике, и предлагаются предложения по их устранению посредством развития зеленой экономики.

Ключевые слова: население, научно-технические достижения, валовое потребление, ограниченность ресурсов, переход к “зеленой” экономике, “зеленый” рост, снижение энергопотребления и потребления ресурсов, эффективные технологии.

KIRISH

Birlashgan millatlar tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra 2022-yilning iyulida yer aholisi soni 8 milliarddan oshdi. Agar, 1900-yilda dunyo aholisi 1,6 mlrd. kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2000-yilda ushbu ko‘rsatkich 6 mlrd. kishidan oshdi, 2017-yilga kelib esa yer yuzidagi aholi soni 7,6 mlrd. kishini tashkil etgan. Bugungi kunda esa yer yuzida 8 milliard 189 milliondan oshiq aholi istiqomat qilmoqda[1]. Hisob kitoblarga ko‘ra, insoniyat 8,5 milliard kishilik marradan 2030-yili o‘tishi, 10,4 milliardlik cho‘qqiga esa 2080-yillarda chiqishi prognoz qilinmoqda.

Fan-texnika borasida erishilayotgan yutuqlar ta’sirida iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush darajasining keskin o‘sishi dunyo aholisi sonining jadal sur’atlarda ortishiga sabab bo‘ldi. Fan-texnika yutuqlari dunyo aholisi sonining o‘sish sur’atlariga nisbatan yuqori iqtisodiy rivojlanish sur’atlarini ta’minlab berdi.

Tahlillar ko‘rsatishicha, dunyo aholisining ko‘payishi va iqtisodiy o‘sishning tezlashishi resurslarga, atrof muhitga bo‘lgan yuklamaning oshib borishiga olib keldi. So‘nggi yuz yillikdagi aholining soni va iqtisodiy faolligining oshishi hisobiga dunyo okeanining oksidlanish darajasi deyarli 1,2 martaga (2000-yilda 1900-yilga nisbatan) oshdi, tropik o‘rmonlarning yo‘qotilish darajasi 6 marta oshdi, uglerod oksidi chiqarilishi 1,5 martaga ko‘paydi.

Dunyo aholisi iqtisodiy faolligining oshishi natijasida yuz berayotgan bunday iqlim o‘zgarishlari jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) bo‘yicha agentlik fikriga ko‘ra, rivojlanish va ehtiyojlarni qondirish uchun sezilarli miqdordagi uglevodordlarni talab etuvchi jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy sohaning joriy holati o‘zgartirilmasa 2050-yilda 2030-yilga nisbatan insoniyat 5 mln. kishini yo‘qotishi mumkin.

1 https://countrymeters.info

Iqlim va global tabiiy tizimning o‘zgarishi inson hayotining barcha jihatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va mamlakatlar aholisi turmush darajasini yomonlashtiradi. Jahon yalpi iste’molining o‘sishi cheklangan resurslardan foydalanish muammosini keltirib chiqaradi. Resurslarning cheklanganligi, yer kurrasi va okeanda qancha miqdorda mavjudligi ularga xos xususiyat hisoblanadi. Nazariy jihatdan mineral resurslar uzoq muddatli davrda intensiv ishlatish oqibatida tugashi mumkin.

Cheklangan resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, “sof texnologiyalar”ga nisbatan innovatsion yondashishni kuchaytirish, yashil iqtisodiyotni shakllantirish muammolari xalqaro iqtisodiy, ekologik, investitsion forumlarda muntazam ravishda muhokama etib kelinmoqda.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga kabi xususiyatlarga bevosita bog‘liq holda ro‘y beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga bag‘ishlangan ilk ilmiy tadqiqotlar XX asrning 70-yillaridan boshlangan. Jumladan, 1972-yilda Stokgolmda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologiya muammolariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada atrof-muhitni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan 26 ta tamoyil ishlab chiqilgan. Iqtisodiy adabiyotlarda “yashil iqtisodiyot” tushunchasi ilk marotaba 1989-yilda qo‘llanilganligiga qaramasdan uning mohiyati hozirga qadar turlicha talqin etiladi. Ayrim manbalarda yashil iqtisodiyot mamlakat tabiatini yaxshilashga ko‘maklashuvchi iqtisodiyotning yangi tarmoqlari sifatida tadqiq qilinsa, ba’zi tadqiqotlarda yashil iqtisodiyot tabiatga yordam beruvchi va foyda keltiruvchi yangi texnologiyalar, ekotizimlar sifatida o‘rganiladi, uchinchi guruh tadqiqotlarda esa yashil iqtisodiyot – bu ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo‘naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tish hisoblanib, uning asosini sof yoki yashil texnologiyalar tashkil etadi deyiladi. Yashil iqtisodiyot tushunchasining keng tarqalgan, nisbatan to‘liq ta’rifi UNEP tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, yashil iqtisodiyot – bu “insonlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish”ga olib keluvchi iqtisodiyotdir.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog‘liq muammolar xorijlik olimlardan M.A. Gureva[2], K.G. Bunevich[3], D. Zhang[4] kabilarning ilmiy asarlarida o‘rganilgan.

Mamlakatimizdagi olimlardan A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev[5], Z.Nurov, M. X. Rajabova[6], T.K. Iminov, T.Z.Teshaboyev, M.T. Bo‘taboyevlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqotda ilmiy bilishning iqtisodiy tahlil, mantiqiylik, ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv tahlil va boshqa uslublaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda mamlakatlarning Yashil o‘sishni reyting asosida baholashning ommalashgan usullari GGGI (Global Green Economy Index)[7] Dual Citizen xalqaro agentligi tomonidan 2010-yildan beri qo‘llanilib kelinmoqda. GGGI milliy iqtisodiyotning “yashil o‘sish”ini ta’minlashi mumkin bo‘lgan energetika, suv ta’minoti, yerdan foydalanish va yashil shaharlar kabi ustuvor sohalarida ish olib boradi. GGGI tomonidan ishlab chiqilgan yashil iqtisodiyotni baholash ko‘rsatkichlari tizimi yashil iqtisodiyotga o‘tish imkoniyatlarini baholash va barqaror “yashil o‘sish”ni ta’minlash darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarga asoslanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar mamlakatning yashil iqtisodiyotga o‘tish davlat dasturida ko‘zda tutilgan bosqichlarga qarab tashhislash, rejalashtirish, baholash va monitoring kabi kategoriyalarga bo‘linadi.

GGGI “Yashil o‘sish indeksi ushbu to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha: resurslardan samarali va oqilona foydalanish; tabiiy kapitalni muhofaza qilish; yashil iqtisodiyot imkoniyatlari; ijtimoiy integratsiya bo‘yicha 36 ta indikator asosida hisoblanadi.

2 Гурьева, М.А. & Наймушина Д.В. (2015). “Зеленая экономика” в России. Теория и практика общественного развития.
3 К.Г. Буневич & Горбачева, Т. А. (2022). “Зеленые” тенденции в развитии мировой финансовой системы // Вестник Московского университета имени СЮ Витте. Серия1: Экономика и управление.
4 D. Zhang Mohsin, M., Rasheed, A. K., Chang, Y., Taghizadeh-Hesary, F. (2021). Public spending and green economic growth in BRI region: mediating role of green finance. Energy Policy, 153,112256.
5 Yashil iqtisodiyot:Darslik./A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyevva boshqalar.–Toshkent.: “Universitet”, 2020.-262b.
6 Z.Nurov, M. X. Rajabova (2022). “Yashil iqtisodiyot” da energetika sohasining iqtisodiy. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 781-787.
7 https://dualcitizeninc.com/global-green-economy-index/



1-rasm: GGEI (Global Green Economy Index) bo‘yicha 2024-yilda eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega mamlakatlar[8]

Yuqoridagi rasmda 2024-yilda GGEI bo‘yicha Shvetsiya eng yuqori ko‘rsatkichga ega, undan keyin Shvetsariya, Norvegiya, Fransiya, Daniya kabi mamlakatlarni ko‘rishimiz mumkin.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish va yashil o‘sish masalalari bugungi kundagi jahon va milliy iqtisodiyot oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, O‘zbekistonda ham bu borada ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. 2018-yilda O‘zbekiston Respublikasi Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qildi va uni amalga oshirish yuzasidan milliy miqyosda belgilanadigan hissa bo‘yicha – 2030-yilga qadar issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 10 foizga qisqartirish miqdoriy majburiyatini qabul qildi. Parij bitimi majburiyatlarini bajarish doirasida issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirish bo‘yicha o‘rta muddatli ustuvor vazifalar mamlakatimizda iqtisodiyotning energiya va resurs sarfi hajmini kamaytirish, ishlab chiqarishda energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, Orolbo‘yida ekologik tanglik oqibatlarini bartaraf etishni nazarda tutadigan qator strategik va tarmoq rejalari, dasturlari, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar orqali amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qaroriga bilan “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” qabul qilingan[9].

Ushbu strategiyaning asosiy maqsadi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy islohotlarga “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali ijtimoiy rivojlanishga, issiqxona gazlarining ajratmalari darajasini pasaytirishga, iqlim va ekologiya barqarorligiga imkon beruvchi mustahkam iqtisodiy taraqqiyotga erishishdan iborat.

Strategiya maqsadlariga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilab olingan:

- texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
- davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo‘nalishlariga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan “yashil” mezonlarni kiritish;
- davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali “yashil” iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishlari bo‘yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish;
- ta’limga investitsiyalar kiritishni rag‘batlantirish, yetakchi xorijiy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga “yashil” iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

8 https://dualcitizeninc.com/global-green-economy-index/
9 https://lex.uz/docs/4539502

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

- Orolbo‘yidagi ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish choralarini ko‘rish;
- “yashil” iqtisodiyot sohasida, shu jumladan, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori qabul qilindi[10]. Ushbu Qaror bilan quyidagi strategik hujjatlar va tizimlar tasdiqlandi:

- strategik maqsadlarga erishishga mo‘ljallangan 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash Dasturi;
- sanoat tarmoqlarida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va energiya tejamkorligini ta’minlash bo‘yicha Konsepsiya;
- 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash bo‘yicha Harakatlar rejasi;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig‘imi ko‘rsatkichini 2026-yilga kelib 2022-yilga nisbatan 20 foizga kamaytirishga qaratilgan 2022–2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg‘i-energetika resurslarini tejashning Maqsadli parametrlari;
- O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish choralarini muvofiqlashtirish bo‘yicha Idoralararo kengash tarkibi;
- “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sish bo‘yicha Donorlarning muvofiqlashtirish guruhi tasdiqlandi[11].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish orqali quyidagilarga erishiladi:

- atrof muhitga zararli chiqindilar, atmosferaga chiqadigan issiqxona gazlarining miqdori qisqarishi;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish orqali iqtisodiy samaradorlikning oshishi;
- tejamkor texnologiyalarning qo‘llanilishi orqali tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligining oshishi;
- shaharlardagi yashil hududlarning kengayishi hisobiga, zararli gazlarning kamayimshi va shaharlar havosining tozalanishi;
- sanoat chiqindilari, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasining oshishi.
- yashil energiyadan foydalanish, yashil ish o‘rinlari yaratishga va iqlim barqarorligiga erishish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yashil iqtisodiyot: Darslik. / A.V. Vaxabov, Sh.X. Xajibakiyev va boshqalar. – Toshkent.: “Universitet”, 2020.-262 b.
2. Гурьева, М.А. & Наймушина Д.В. (2015). “Зеленая экономика” в России. Теория и практика общественного развития.
3. Буневич, К. Г., & Горбачева, Т. А. (2022). “Зеленые” тенденции в развитии мировой финансовой системы. Вестник Московского университета имени СЮ Витте. Серия1: Экономика и управление.
4. Zhang, D., Mohsin, M., Rasheed, A. K., Chang, Y., Taghizadeh-Hesary, F. (2021). Public spending and green economic growth in BRI region: mediating role of green finance. Energy Policy, 153,112256.
5. Иминов Т.К., Ваҳобов А.В., Тешабоев Т.З., Бўтабоев М.Т. (2019). “Зелёная экономика” как основа устойчивого развития. Монография. - Т: “Алоқачи”, 480.

10 https://lex.uz/docs/6303230
11 Иқтисодиёт ва молия вазирлиги. “Яшил” иқтисодиётни ривожлантириш бўйича йиллик ҳисобот-2022 йил якуни бўйича ҳисобот.

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna
I.f.n., Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning zarurligi, unda moliya-kredit va soliq imtiyozlarining o‘ziga xos xususiyatlari, nazariy-huquqiy asoslari hamda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: biznes, xususiy, tadbirkorlik, bandlik, imtiyoz, moliya, kredit, soliq.

Abstract: This article describes the necessity of financial support for small business and private entrepreneurship by the state, the distinctive features of financial-credit and tax incentives, theoretical-legal foundations, as well as the content of reforms being implemented in this direction.

Key words: business, private, entrepreneurship, employment, incentive, finance, credit, tax.

Аннотация: В данной статье изложена необходимость финансовой поддержки малого бизнеса и частного предпринимательства со стороны государства, особенности финансово-кредитных и налоговых льгот, теоретико-правовые основы, а также содержание реформ, осуществляемых в этом направлении.

Ключевые слова: бизнес, частный, предпринимательство, занятость, льгота, финансы, кредит, налог.

KIRISH

Mamlakatlar iqtisodiyotida davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshiriladi. Chunki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o‘zining raqobatbardoshligi, turli iqtisodiy tebranishlarga chidamliligi, bozor talablariga tez moslashuvchanligi bilan davlatning bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini, xususan, ish bilan bandlik, aholi daromadlarini oshirish kabi muammolarini hal qilishda alohida ahamiyatga ega.

Xususiy va oilaviy tadbirkorlik, shu jumladan, qishloq (dehqon) xo‘jaligi asosida shakllanadigan kichik biznes subyektlari odatda o‘z oila-a’zolari, qarindoshlarini ishga jalb qilish orqali o‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘yadi. Bunda ishga jalb qilish jarayoni tez va tartib-taomili sodda bo‘ladi.

Davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning yana bir zarurligi shundaki, bozorni arzon va turli-tuman tovarlar bilan muntazam to‘ldirib borish muammosi hal etiladi. Sababi yirik biznes, asosan, kam sonli yirik tovarlarga ixtisoslashgan bo‘lib, bozorning foyda kam kichik hajmda bo‘lgan segmentlariga unchalik kirib bormaydi. Aynan kichik biznes subyektlari yirik va o‘rta biznes korxonalari kirib bormaydigan sohalarda faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish orqali bozor bo‘shliqlarini to‘ldirib turadi.

O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Nazariy manbalar tahlilidan ko‘rinadiki, aslida kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalarni hozirgi ma’nosida birinchi bo‘lib, XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida ingliz iqtisodchilari Richard Kantilon va Adam Smit tomonidan qo‘llanilgan. Jumladan, Richard Kantilonning fikricha, “tadbirkor tavakkalchilik sharoitida faoliyat ko‘rsatuvchi kishidir. Shu boisdan u yer va mehnat omilini iqtisodiy farovonlikni belgilab beruvchi boylik manbai”, [1] deb bilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonlari bilish nazariyasiga asoslangan holda tadqiqotning hisob-kitob, tahlil va sintez, tizimli yondashuv, mantiqiy tafakkur, monografik kuzatuv usullari yordamida tadqiq etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida uzoq yillik faoliyat aksariyat kichik tadbirkorlik subyektlarini biznesda malaka va tajriba orttirishi, ishchilarining salohiyati oshib mutaxassis kadrlar sifatida shakllanib borishi, yirik korxonalar bilan sanoat kooperatsiyasini yo‘lga qo‘yishi, eksport ko‘nikmalarini paydo qilishi, tashqi iqtisodiy hamkorlik aloqalarining kengayishi, investitsiyalar jalb qilish imkoniyatlarining oshib borishiga zamin yaratadi. Shu orqali kichik biznes subyektlari vaqt o‘tishi bilan o‘rta va yirik korxonalarga aylanib boradi.

Milliy iqtisodiyotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etishda oilaviy tadbirkorlik alohida o‘rin tutadi. “Oilaviy tadbirkorlik oila a’zolari tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir” [2].

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan olilaviy tadbirkorlikning tashkiliy – huquqiy shakli oilaviy korxona hisoblanadi.

Tahlillarimiz ko‘rsatadiki, bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizda aholi bandligini oshirish, aholining iqtisodiy faolligini ta’minlash hamda oila byudjetini yaxshilashda oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Milliy qadriyatlarda xalqimizning oilaparvarlik, o‘zaro bir-biriga bog‘liqlik hamda o‘zaro hurmat, moliyaviy hamjihatlik, oila boshliqlari tomonidan boshqaruv hamda nazoratning yuqoriligi kabi qadriyatlarning mavjudligi nafaqat aholining iqtisodiy faolligini ta’minlashga, daromadlarini oshirishga balki, berilayotgan imtiyozlardan manzilli foydalanish, mas’uliyat va javobgarlik, o‘zaro nazoratni ham ta’minlash imkonini beradi.

Tahlillarimiz ko‘rsatadiki, aynan oilaviy korxonalar va oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi mahalla institutlarini ham rivojlantirishga va mahallalarda drayverlarni real holatda belgilash imkonini beradi. Yoshlar va ayollarni ish o‘rinlari bilan ta’minlash va bunda o‘zini-o‘zi band qilish tizimidan foydalanish borasidagi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning ijrosini ta’minlashda ham ijobiy natijalarga erishish mumkin. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-39-sonli qarorining qabul qilinganligi ushbu yo‘nalishdagi islohotlarning uzviy davomidir. Aynan, ushbu dasturga ko‘ra [3], oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasidagi loyihalarni moliyalashtirish uchun kamida 13 trillion so‘m yo‘naltirilganligi va ushbu resurslarning hududlar kesimidagi maqsadli parametrlarining belgilanganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Qashqadaryo viloyatida ham 2023-yilda yo‘naltiriladigan mablag‘lar hajmining 1100 mlrd.so‘m miqdorida belgilanishi, bunda vakolatli banklarning resurslari hisobidan 240 mlrd.so‘m ajratilishi ko‘zda tutilgan. Dasturlar doirasida 2,8 trillion so‘m kredit mablag‘lari AT Xalq banki, “Agrobank” ATB va “Mikrokreditbank” ATBning o‘z resurslari hisobidan ajratilishi qayd etilgan. Bunda kreditlash amaliyotida dasturlar bo‘yicha avval kreditlardan foydalanmagan aholi va tadbirkorlik subyektlariga uvsuvorlik berilishi belgilangan.

Dastur doirasida tadbirkorlik subyektlari mahallalarda, shu jumladan tashkil etilgan mikromarkazlarda ishlab chiqarishni, xizmat ko‘rsatish sohasini va hunarmandchilikni hamda aholi bilan kooperatsiya va kasanachilikni kengaytirishga yo‘naltirilgan loyihalari uchun hokim yordamchilarining tavsiyanomasi asosida ajratiladigan kreditlar miqdori amaldagi 225 million so‘mdan 300 million so‘mgacha oshirilishi va bunda, tashabbuskor loyihada kamida o‘ttiz foiz ulush bilan ishtirok etishi zarur.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida o‘z biznesini tashkil etishga ko‘maklashish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon xo‘jaliklarining ulushini oshirish maqsadida uzoq muddatga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlarini ijaraga olib, belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan dehqon xo‘jaliklari va kichik tadbirkorlik subyektlariga 50 mln so‘mgacha garovsiz kredit beriladi. Eng e’tiborli jihati dasturlar doirasida ilgari olgan kreditlaridan samarali foydalanib, tadbirkorligini yo‘lga qo‘ygan va kredit to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirgan kichik tadbirkorlik subyektlariga faoliyatini yanada kengaytirishi uchun mazkur kreditlardan takroran foydalanishga ruxsat etilishi, imtiyozli kreditlardan foydalanib, daromad topishga qaratilgan faoliyat bilan shug‘ullanayotgan fuqarolar qonunchilikda belgilangan yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zini-o‘zi band qilgan shaxs sifatida tasniflanishi, hokim yordamchisining tavsiyasiga ko‘ra kredit summasining 10 million so‘mgacha bo‘lgan qismi (hunarmandlar uchun 20 million so‘mgacha) bank kartalariga o‘tkazib berilishi tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, kichik biznez va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda soliq imtiyozlari ham yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Milliy iqtisodiyotimizda qo‘llanilayotgan Soliq Kodeksida [4], sohaga tegishli boshqa qonunlarda va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlarida nazarda tutilgan, boshqa soliq to‘lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga beriladigan imtiyozlar, shu jumladan, soliq yoki boshqa majburiy to‘lovni to‘lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar, deb e’tirof etiladi. Mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, yagona yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlarni berish O‘zbekiston Res-

publikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Soliq to‘lovchi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlardan tegishli huquqiy asoslar vujudga kelgan paytdan e’tiboran ular amal qiladigan butun davr mobaynida foydalanishga haqli. Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar bo‘shagan mablag‘larni muayyan maqsadlarga yo‘naltirish sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag‘lardan belgilanmagan maqsadda foydalanilgan taqdirda, belgilanmagan maqsadda foydalanilgan summa o‘rnatilgan tartibda penya hisoblangan holda byudjetga undirib olinadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni alohida qayd etish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Bunda moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning uzluksiz tizimini yaratish kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tahlillarimizga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda oilaviy tadbirkorlik shaklidan foydalanish ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Egamberdiev E., Xujakulov X., Kichik biznes va tadbirkorlik, T.: “Ma’naviyat” 2003, 144 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-327-son, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-39-son qarori. www.lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni tahririda. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son). www.lex.uz

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURIYATI

Mirzayev Qulmamat Janzakovich
I.f.d., Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori

Djurakulov Shoxrux Baxtiyorovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlanish jarayoni va raqamlashtirish masalalari bo‘yicha muallifning fikrlari keltirilgan. Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasini raqamlashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish, servis, raqamli, raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, raqamli xizmat, blokcheyn, bulutli texnologiya, diversifikatsiya, modernizatsiya, innovatsiya.

Abstract: This article presents the author’s views on the development of the service sector and digitalization issues. Also, proposals and recommendations for the digitalization of the service sector were developed.

Key words: service, service, digital, digitalization, digital economy, digital service, blockchain, cloud technologies, diversification, modernization, innovation.

Аннотация: В данной статье представлены взгляды автора на процесс развития сферы услуг и вопросы цифровизации. Также были разработаны предложения и рекомендации по цифровизации сферы услуг.

Ключевые слова: услуга, сервис, цифровой, цифровизация, цифровая экономика, цифровой сервис, блокчейн, облачные технологии, диверсификация, модернизация, инновации.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mamlakat rivoji uchun o‘zining muhim hissasini qo‘shib, aholi turmush darajasini va farovonligini yuksalishiga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning rivojlanishida asosiy lakomitivlardan biri sifatida xizmat ko‘rsatish sohasini keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyatini tashkil etish, uni rivojlantirishga alohida shart-sahroitlar yaratilib, imtiyozli yordamlar berilmoqda. Aholiga xizmat ko‘rsatish sohasi hozirgi vaqtda iqtisodiy jarayonlarning barcha jabhalariga tobora kuchliroq kirib bormoqda. Ammo uning milliy iqtisodiyotdagi samaradorligi ko‘p jihatdan yangicha ijtimoiy mehnat munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “….iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilanishini ko‘zda tutadigan “Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasi”ni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish kerak” [2], deb ta’kidlaganlari, mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlarini bosqichma-bosqich raqamli texnologiyalar dasturiga o‘tkazishni hamda 2030-yilga borib yalpi ichki mahsulotda uning ulushini kamida 30 foizga o‘stirish kabi ustuvor maqsadlar qo‘yilgani bugungi davrning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bunday vazifalarni amalga oshirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor vazifalari qatoridan joy olib, xizmat ko‘rsatish tizimini rivojlantirish, uni raqamli texnologiyalar asosida diversifikatsiyalashni taqozo etmoqda. Buning samarali yechimi sifatida xizmat ko‘rsatish faoliyatiga innovatsion, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish, mamlakat iqitisodiyotini rivojlantirish, aholi turmush farovonligini yuksaltirishga erishishimiz mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini raqamlashtirish masalalari bo‘yicha Fotis Kitsios, Mariya Kamariotu “Xizmat ko‘rsatish sohasidagi innovatsiyalar jarayonini raqamlashtirish: foydalanish va tadqiqot sohalari” nomli ilmiy maqolasida innovatsion iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini raqamlashtirishning maqsadi, yangi turdagi xizmatlarni ishlab chiqish jarayonida raqamli dastur va texnologiyaning o‘rni va xizmat ko‘rsatishni amalga oshirishda menejerlarning raqamli texnologiyadan samarali foydalanish yo‘llari, shuningdek, raqamli xizmat ko‘rsatish sohasiga texnologik darajani yuksaltirishga investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha fikrlar keltirilgan hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan [3].

R.H.Ayupov, G.R.Boltaboyeva “Raqamli iqtisodiyot asoslari” nomli darsligida zamonaviy elektron tijorat hamda raqamli iqtisodiyotning asosi bo‘lgan muammolar bilan bog‘liq masalalar, raqamli iqtisodiyotga o‘tish mexanizmi, elektron tijorat va elektron biznesning bir qancha samarali biznes modellari haqida ko‘plab qimmatli ma’lumotlar berilgan [4].

M.Q.Pardayev, Q.J.Mirzayev, O.M.Pardayev “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti” nomli O‘quv qo‘llanmasida xizmatlar sohasi iqtisodiyotining nazariy masalalari, sohani tarmoqlar bo‘yicha rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari, har bir tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ushbu soha faoliyatini baholash va hisobga olish yo‘llari qarab chiqilgan. Shuningdek, kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyati mazmuni va ularni hisobga olish yo‘llari tahlil etilgan [5].

M.M.Payazovning “Iqtisodiyotni boshqarishda xizmat ko‘rsatish sohasini transformasiyalash ustuvor vazifa hisoblanadi” nomli ilmiy maqolasida xizmat ko‘rsatish sohasini raqamlashtirish masalalari, xizmat ko‘rsatish sohasining aholi hayot sifatini ta’minlashda raqamlashtirishning tutgan o‘rni, sohani transformatsiya qilishda davlat tizimi tuutgan o‘rni, ishlab chiqarish korxonalarini raqamlashtirish, aholining internet do‘kon, internet banking xizmatlaridan foydalanish, bu borada hududlardagi holati tahlili, xizmat ko‘rsatish sohasini raqamlashtirish natijasida aholi turmush farovonligini yuksalishi kabi masalalar yoritilgan [6].

J.N.Fayzullayev “Raqamli iqtisodiyot tushunchasining mohiyati bo‘yicha ilmiy yondashuvlar tahlili” nomli ilmiy maqolasida “raqamli iqtisodiyot” tushunchasining shakllanishi, uning mazmun va mohiyati bo‘yicha ilmiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilingan va guruhlangan. “Raqamli iqtisodiyot” tushunchasining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni yoritgan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur muammoni tadqiqotining bir qator usullardan foydalanish asosida o‘rganilgan, jumladan, asosan xorijiy tajribalarni monografik tahlillar natijalarini monografik tadqiqot, analiz va sintez, tizimli tahlil kabi iqtisodiy usullar asosida o‘rganilib, rivojlangan mamlakatlar tajribasini mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish sohasini raqamli texnologiyalar bilan diversifikatsiya qilish bo‘yicha imkoniyatlarini ochib berishda ahamiyat kasb etgan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda har bir davlat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni o‘zining ustuvor yo‘nalishi, deb biladi. Davlat dasturlari yordamida raqamlashtirish, xavfsizlikni ta’minlash va huquqiy tartibga solish, mamlakatimizda raqamli savodxonlik darajasi tahlil qilinib rivojlanmoqda. O‘zbekiston ham raqamli iqtisodiyot sohasini rivojlantirishda jarayonga moslashish sur’atini oshirmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti 2020-yil 28-aprelda “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4699-sonli qarorni imzoladi [2]. 2023-yilga kelib O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi raqamli iqtisodiyot ulushini 2 barobar, elektron davlat xizmatlari sonini esa 376 taga yetkazish rejalashtirilgan (hozirda yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) orqali 326 ta davlat xizmatlarini ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan) bo‘lib, ushbu maqsad to‘laqonli malaga oshirilgan desam bo‘ladi.

Jahon savdo tashkiloti (JST) statistik ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda sayyohlik yo‘nalishlariga tashrif buyurgan global sayohatchilar soni 1,4 milliardga yetgan bo‘lib, bu 2018-yilga nisbatan 4,4 foizga ko‘p bo‘lgan va buning bu tendensiyaga erishishida raqamli texnologiyalardan keng miqyosda amaliyotda foydalanishi bilan izohlashimiz mumkin. Bundan tashqari, Jahon savdo tashkiloti 2019-yilda butun dunyo bo‘ylab mehmonxonalarni bron qilishning 75 foizi onlayn rejimida amalga oshirilganini ma’lum qilgan. Eronda 2019-yilda mahalliy va xorijiy sayyohlar soni 8 million 444 ming 144 nafarga yetgan va so‘nggi yillarda Eronga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni ortganligini ko‘rishimiz munkin. Buning asosiy sabablari sifatida turizm xizmat ko‘rsatish jarayoniga raqamli xususan, to‘ldirilgan reallik, sun’iy intellekt va blokcheyn kabi turli texnologiyalar sayyohlik sanoatida tobora ko‘proq foydalanilyotganligi bilan izozhlash mumkin [13]. Masalan, ba’zi mehmonxonalar sayohatchilarga ajoyib tajriba taqdim etish uchun to‘ldirilgan reallikdan foydalanadi, ba’zi aviakompaniyalar ish faoliyatini yaxshilash va yo‘lovchilarga yuqori xizmatlarni taqdim etish uchun sun’iy intellektni qo‘llaydi.

Raqamli texnologiyalarning turizm sohasiga ta'siri faqat Eron bilan cheklanmaydi, chunki raqamli iqtisodiyot va unga aloqador texnologiyalar turizm sohasining global o'zgarishining muhim omillariga aylantirmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlardagi mehmonxonalarni bron qilishning 80% dan ortig'i turli veb-saytlar va ilovalar orqali onlayn tarzda amalga oshiriladi. Xitoyda blokcheyn sayyohlik sanoatida strategik texnologiya sifatida Xitoyning eng yirik sayyohlik kompaniyalaridan biri sifatida foydalaniladi va sayohatchilar ma'lumotlarini boshqarish va himoya qilish uchun blokcheyndan foydalanadi. Yevropada to'ldirilgan reallik va sun'iy intellekt kabi raqamli texnologiyalar turizm sohasida ham qo'llanilmoqda, ba'zi mehmonxonalar to'ldirilgan reallik texnologiyasining tajribasini tadbiq etmoqda va ba'zi aviakompaniyalar esa ishlash va xizmat sifatini yaxshilash uchun sun'iy intellektdan keng miqyosda foydalanadilar [13] (1-rasm)



1-rasm: Raqamli iqtisodiyoti rivojkangan mamlakatlarning turizm sohasidagi tendensiyalari va uning iqtisodiy tarmoq bilan farqli jihatlari [14]

Bizga ma'lumki raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida birinchi jabhalardan biri bo'lib xizmat ko'rsatish (servis) sohasi hisoblanadi. Dastavval raqamli iqtisodiyot "buyumlar interneti", "mediya internet" dasturiy ta'minoti orqali aholiga xizmat ko'rsatish jarayonlarini boshlagan. Bu jarayonlarda raqamli texnologiyalar samarali faoliyati, kam xarajatligi, tizim shaffovligi, ochiq faoliyati sababli ishlab chiqaruvchi va foydalanuvchilarda katta qiziqish uyg'otgan. Bu holat o'z navbatida ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlarini yangi iqtisodiy tartiblarga o'tish jarayonini jadallashtirib, insonlar ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining ichki va tashqi jarayonlarini keskin o'zgartirdi, tizimda korrupsiya holatlarini keskin oldini oldi hamda ijobiy siljishlar jarayonlari vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyot iqtisodiy samaradorlik, mehnat unumdorligining o'sishiga xizmat qilishi hamda ijtimoiy boylik ishlab chiqarishning moddiy tarkibiy qismida qo'shilgan qiymat yaratishi lozim va bu axborotlashgan jamiyat iqtisodiyotida uning birinchi iqtisodiy mazmuniga aylanadi. Bu borada mamlakatimiz olimlari tamonidan "raqamli iqtisodiyot yoki boshqacha qilib aytganda veb-iqtisodiyot zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalangan holda tashkil qilinadigan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar tizimini ifodalaydi" [4], degan fikrlar keltirilgan. Demak, raqamli iqtisodiyot moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohadida o'zining vertikal iqtisodiy o'sishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqotlarimiz davomida raqamli iqtisodiyot 2017-yil hal qiluvchi bosqichga kirishganini ko'rishimiz hamda sayyoramiz aholisining yarmi internetga ulanganligini fikrimiz tasdig'idir. Ma'lumotlarga ko'ra McKinsey global institutining (MGI) tahlillariga ko'ra, yaqin 20 yil ichida dunyoning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining 50%gacha bo'lgan qismi raqamlashtiriladi, bu jarayon ko'lami bo'yicha XVIII–XIX asrlarda ro'y bergan sanoat inqilobi bilan taqqoslanishi mumkin [8]. Shuningdek, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va o'sish dinamikasi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat ichida va tashqarisida noyob axborotlar aylanmasi shunchalik ko'p, milliy iqtisodiyotlar ichida axborot trafigi esa shu qadar salmoqli bo'ladi. Shu bois, ishtirokchilar soni ko'p va axborot texnologiya xizmatlari keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlarda rivojlanadi.

Hozirgi davrda xizmat ko'rsatish sohasining ko'plab jabhalarida raqamli xizmatlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, yetkizib berish, "online" savdo, elektron biznes, elektron tijorat, media, ta'lim, kommunal xizmatlar, tibbiyot, davlat xizmatlari, bank xizmatlari va boshqa sohalarni raqamlahtirilishi soha faoliyatini natijadorligiga, xizmatlar sifatini yuksalishiga, tizim shaffovligini oshirishiga, korrupsiya holatlarini bartaraf etishga xizmat qil-

moqda. Ammo, xizmat ko‘rsatish sohasi to‘laqolli raqamlashtirilmaganli soha faoliyatidan to‘laqolli foydalanishga to‘siq bo‘lmoqda. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida transport xizmatlari, maishiy xizmatlar (sartaroshxona, aftomobil ta’mirlash, oziq-ovqat), ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar, me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarini raqamlashtirish xizmat ko‘rsatish sohasini to‘laqolli samaradorligini ortishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan xizmat ko‘rsatish sohalarini raqamlashtirish hozirgi davrning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “…zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to‘xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish” [1], deb ta’kidlaganliklari, ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirish lozim bo‘lgan vazifalarni belgilab bermoqda. Buning uchun xizmat ko‘rsatish sohasiga raqamli texnologiyalarni mamlakatimiz hududiga olib keluvchi korxonalarni davlat tamonidan moliyaviy, huquqiy, bojxona xizmatlari tamonidan qo‘llab quvvatlash, shuningdek, raqamli texnologiya vositalarni ishlab chiqaruvchi investorlar uchun shart-sharoitlar yaratib berish, raqamli texnologiya asoslangan korxonalarni mamlakatimizda faoliyatini tashkil etish, raqamli texnologiya dasturlari, tovarlarini ishlab chiqaruvchilarga soliq imtiyozlarini berish, mavjud kadrlarni raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda malakasini ortirish, raqamli xizmat ko‘rsatish bo‘yicha oliy dargohlarda malakali, zamon standartlariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash, hamda davlat xususiy sherikchilik doirasida raqamli xizmat ko‘rsatish subyektlari faoliyatini shakllantirsh kabi maqsadlarni amaliyotga joriy etish orqali xizmat ko‘rsatish samaradorligiga va davlatimiz iqtisodiyotini vertikal o‘sishiga erishishimiz mumkin.

Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasini raqamlashtirish quyidagi ijobiy avzalliklarga ega bo‘lishi mumkin:

- xizmat ko‘rsatish jarayoni uchun to‘lovlarni amalga oshirish xarajatlarini kamayishiga;
- ko‘rsatiladigan xizmatlar haqida batafsil va tezroq ma’lumotlar olish imkoniyatlari vujudga kelishiga;
- mamlakatimizda ishlab chiqariladigan moddiy va nomoddiy tovarlarning jahon bozoriga chiqishi;
- fidbek (iste’molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtirilishiga;
- xizmat ko‘rsatish jarayonida tezroq, sifatliroq, qulayroq muhitni shakllanishi;
- xufyona iqtisodiyotni rivojlanishini oldini olishga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib xizmat ko‘rsatish sohasini raqamlashtirish maqsadida quyidagi xulosa va takliflarga keldik:

- Elektron savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida raqamli texnika-texnologiyalar (blokcheyn texnologiyasi, bulutli texnologiyasi, su’niy intelekt, 3D texnologiyasi, 5G aloqa tizimi, buyumlar interneti)dan samarali foydalanish hamda xizmat ko‘rsatish sohasini raqamli platformalar bilan diversifikatsiya qilish va buyurtmachilar (mijozlar) bilan o‘zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish;
- Xizmat ko‘rsatish sohasida raqamli texnologiyalarda ishlay oladigan malakali kadrlar tayyorlash, sohada o‘quv faoliyati darajasi va sifatini tubdan yaxshilash, xizmat ko‘rsatish mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, xizmat ko‘rsatish tizimiga mutaxassislarni raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardan jalb qilish orqali sohani rivojlantirish;
- Raqamli xizmatlar va xizmatlar uchun elektron to‘lovlar tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, elektron hukumat xizmatlarini taqdim etishda to‘lovlarni qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatlarini hisobga olgan holda, iqtisodiyot va moliya sohasida axborot infratuzilmasi ma’lumotl;ar bazasini takomillashtirish;
- Raqamli texnologiya, dasturiy ta’minot, raqamli vositalarni respublikamiz hududlariga kirib kelishida bojxona imtiyozlarini berish va raqamli texnika-texnologiyani ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish;
- Elektron tijoratning rivojida muhim rol o‘ynovchi pochta va logistika infratuzilmasini modernizatsiyalash, shuningdek, pochta va logistika xizmatlari sifatini oshirish kabi takliflarni amaliyotga joriy etish.

Ushbu taklif va tavsiyalarning amaliyotga tadbiq etilishi natijasida mamlakat iqtisodiyotining rivojiga, YaIMda xizmatlar ulushining ortishiga, aholi turmush farovonligini yuksalishiga, qayta tiklanmas tabiy resurslarni tejashga, ekologik salbiy oqibatlarni yumshatishga, jaxon bozoriga tez sur’atlarda chiqishga hamda Prezidentimiz belgilab bergan 2030-yilga borib YaIMda raqamli iqtisodiyotning ulushi 30 % yetkazish darajasiga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyot ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079-son Farmoni. Toshkent sh., 2020-yil 5-oktabr, www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-aprelda “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4699-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi 2019-yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi. 2019 yil. 1-son.
4. Фотис Кициос, Мария Камариоту. “Оцифровка процесса инноваций в сфере услуг: области для использования и исследования” https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/JHTT-02-2019-0041/full/html
5. R.H.Ayupov, G.R.Boltaboyeva Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI, 2020 y, 575 bet.
6. M.Q.Pardayev, Q.J.Mirzayev, O.M.Pardayev “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti”. O‘quv qo‘llanma. “IQTISOD-MOLIYA”, 2014-yil. 384-b.
7. Payazov Murod Maksudovich “Iqtisodiyotni boshqarishda xizmat ko‘rsatish sohasini transformasiyalash ustuvor vazifa hisoblanadi” http://www.pedagoglar.uz/index.php/ped/issue/view/65.
8. J.N.Fayzullaev “Raqamli iqtisodiyot tushunchasining mohiyati bo‘yicha ilmiy yondashuvlar tahlili”. Axborot texnologiyalar iqtisodiyoti jurnali. Iqtisod va moliya / Экономика и финансы 2022, 1(149).
9. А.В.Лобзов Без чего не работает корпоративная система управления проектами // Российское предпринимательство. – 2015. – Том 16. – № 13. – С. 2045- 2052.
10. Nicholas Negroponte. Being Digital. – London: Hodder & Stoughton, 1995. – 243 p. http:// governance40.com/wp-content/uploads/2018/12/ Nicholas-Negroponte-Being-Digital-Vintage-1996.pdf.
11. Khudoykulov, H. A., & Sherov, A. B. “Economy development in corporate governance of joint stock company”. Экономика и бизнес: теория и практика, (2021). (3-2), 217-219.
12. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi
13. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika agentligi.
14. Muallif ishlanmasi.

YOG‘-MOY KORXONALARINING XOM ASHYO TA’MINOTINI AMALGA OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI



Jo‘rayeva Nodiraxon Qurbonovna
PhD, FarDU, Jahon va mintaqa iqtisodiyoti kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Maqolada sanoat korxonalarining xom ashyo ta’minotini amalga oshirishning zamonaviy konsepsiyalari, korxona boshqaruvi jarayoniga zamonaviy tushuncha va texnologiyalarning ta’siri, ISO 9000 va TQM (Total Quality Management) – universal sifat menejmenti tushunchasi o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi ma’lumotlar va ta’minot zanjiri boshqarish bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: xom ashyo, xom ashyo taminoti strategiyasi, boshqarish texnologiyalari, tarqatish kanallari, ta’minot zanjirini boshqarish, universal sifat menejmenti.

Abstract: The article presents modern concepts of raw material supply of industrial enterprises, the impact of modern concepts and technologies on the process of enterprise management, information on the relationship between ISO 9000 and TQM (Total Quality Management) - the concept of universal quality management, and offers on supply chain management.

Key words: raw materials, raw material supply strategy, management technologies, distribution channels, supply chain management, universal quality management.

Аннотация: В статье представлены современные концепции сырьевого обеспечения промышленных предприятий, влияние современных концепций и технологий на процесс управления предприятием, информация о взаимосвязи ISO 9000 и TQM (Total Quality Management) – концепции всеобщего управления качеством, а также предложения по управлению цепочками поставок.

Ключевые слова: сырье, стратегия снабжения сырьем, технологии управления, каналы сбыта, управление цепями поставок, универсальный менеджмент качества.

KIRISH

Korxona boshqaruvining pirovard maqsadi ishlab chiqarish jarayonini, shu jumladan, xom ashyo bilan ta’minlash, texnik va texnologik bazani rivojlantirishni oqilona tashkil etish orqali korxona faoliyatida rentabellikni ta’minlash, samaradorlikni oshirishdir. Korxonaning rentabelligi uning ishlab chiqarish va boshqaruv faoliyatining samaradorligidan dalolat beradi, bu xarajatlarni minimallashtirish (xom ashyo, materiallar, energiya xarajatlari, ish haqi, moliyalashtirish) va ishlab chiqarish natijalari – mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish natijalaridan maksimal daromad olish.

Korxonaning mahsulot ishlab chiqarishini oshishi, xom ashyo xarid qilish va yetkazib berish jarayonining rivojlanishi uning asosiy tushunchalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Xarid qilishda “konsepsiya” tushunchasi:

1) konsepsiya paradigma, yo‘naltiruvchi g‘oya sifatida;

2) boshqaruv texnologiyasi – muayyan paradigmani o‘zida mujassam etgan jarayonlarni bajarishning standart ketma-ketligi kabi ikki ma’noga ega.

Birinchi ma’noda xom ashyo yetkazib berish, marketing va integral tushunchalaridan iborat[1].

Xom ashyo ta’minotining informatsion konsepsiyasi 60-yillarning oxirlarida paydo bo‘ldi va axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu konsepsiyaning asosiy g‘oyasi rejalashtirish, moddiy resurslarni sotib olish, ishlab chiqarish, taqsimlash va hokazolarda bajariladigan aniq funksiyalarga

1 Корпоративная логистика: 300 ответов на вопросы профессионалов / Под ред. В. И. Сергеева– М.: Инфра-М, 2004 (Можайск: Можайский полиграф, комбинат) .– 929 б., Сергеев, В. И. Экономика предприятия [Текст] –М: “Финансы и статистика”, –2007.

qaratilgan bo‘lib, albatta bu konsepsiya doirasida xom ashyo oqimini boshqarishning butun jarayonini optimallashtirish vazifasi qo‘yilmagan. Jarayonlarni boshqarishda axborot va kompyuter texnologiyalari qo‘llab-quvvatlovchi xususiyatga ega bo‘lib, buxgalteriya hisobi, aloqa, boshqaruv hamda qarorlarni qabul qilishning axborot tizimlaridan foydalaniladi.


MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Axborot konsepsiyasidan foydalanishning amaliy misollari keng tarqalgan tizimlar, axborot-dasturiy modullar va inventarizatsiyani boshqarish modellari yordamida korxonalarni boshqarish texnologiyalari: DRP, MRR I, MRP II, ERP va boshqalar.

DRP (Distribution Requirement Planning) – tarqatish kanallarida, shu jumladan, vositachilar orasida tayyor mahsulotlar va materiallarni etkazib berish va zaxiralarni rejalashtirish tizimi. DRP, uning noaniqligini hisobga olgan holda, iste’molchilarning talablariga asoslanadi. DRP tizimi yetkazib berish hajmi va joyini aniq rejalashtirish orqali inventarizatsiya darajasini kamaytirishga, saqlash joylariga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirishga, tarqatishda amalga oshiriladigan boshqaruv funksiyalari o‘rtasidagi muvofiqlikni yaxshilashga imkon beradi. Bularning barchasi xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. DRP II (Distribution Requirement Planning) – bu zamonaviy va kuchli dasturiy modullar, algoritmlar va qarorlarni qabul qilish modellaridan foydalanadigan rejalashtirish tizimining zamonaviy versiyasidir.

MRP II-ishlab chiqarish resurslarini rejalashtirish – bu korxonalar tomonidan qo‘llaniladigan birlashtirilgan axborot tizimi bo‘lib, tizimlarining asosiy g‘oyasi shundan iboratki, mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan har qanday buxgalteriya birligi kerakli vaqtda va kerakli miqdorda zaxirada bo‘lishi kerak. Tizim rejalashtirish, loyihalash muhandisligi, inventarizatsiyani boshqarish va ishlab chiqarishda xarajatlarni nazorat qilishda samarali qaror qabul qilish uchun ma’lumotlarni markazlashtirish, birlashtirish va qayta ishlashga mo‘ljallangan.

MRP tizimlarining asosiy afzalligi – bu tayyor mahsulotni chiqarishning asosiy ishlab chiqarish rejasini amalga oshirish uchun birliklarni (yarim tayyor mahsulotlarni) o‘z vaqtida ishlab chiqarishni ta’minlaydigan materiallar va butlovchi qismlar bilan ishlab chiqarish operatsiyalari ketma-ketligini shakllantirishdir. MRP va MRP II korxona resurslarini rejalashtirish (ERP) ning o‘tmishdoshlari sifatida qaraladi, bu jarayon ko‘pincha korxona, ko‘pincha ishlab chiqaruvchi tomonidan boshqariladi va o‘z biznesining muhim qismlarini birlashtiradi. Marketing konsepsiyasi 1980-yillarning boshlaridan beri mahsulotlarni taqsimlashda qarorlarni optimallashtirish orqali raqobatbardoshlikni ta’minlaydigan boshqaruv tizimini yaratishda qo‘llaniladi (1-rasm).



1-rasm: Korxona boshqaruvi jarayoniga zamonaviy tushuncha va texnologiyalarning ta’siri[2]

2 Tadqiqot natijasidan kelib chiqqan holda muallif ishlanmasi.

Xom ashyoni taqsimlash va tarqatishda keng qo‘llaniladigan tushunchalar qatorida talabga asoslangan texnik talablar – logistika (DDT) va boshqa bir nechta variant mavjud bo‘lib, ular orasida QP, CR va boshqalar ham bor. Umuman olganda, ko‘plab tushunchalarning korxonani boshqarish jarayoniga ta’sirini kuzatish mumkin.

QP (Quick Response) – “tezkor javob” texnologiyasi mohiyati talabni real vaqtda va imkon qadar yakuniy iste’molchiga yaqin baholashdan iborat. Xarid qilish va inventarizatsiyani boshqarishning ushbu konsepsiyasini amalga oshirish tegishli axborot texnologiyalarini rivojlantirish, elektron hujjat aylanishini joriy qilish, elektron savdo, shtrix kodlash va boshqalarni amalga oshirgandan so‘ng amalga oshirildi. Haqiqiy savdo to‘g‘risidagi ma’lumotlar shtrix-kodlarni skanerlash orqali hosil qilinadi, so‘ngra bu ma’lumotlar yetkazib beruvchilar va ishlab chiqaruvchilarga yetkaziladi. QP xom ashyo bilan ta’minlash tizimining talab o‘zgarishiga reaksiya vaqtini minimallashtirishga qaratilgan va axborot texnologiyalarini takomillashtirish ushbu usuldan korxonalar faoliyatida yanada samarali foydalanishga yordam beradi. Talab to‘g‘risidagi ma’lumotlarga binoan inventarizatsiya qilishning optimal darajasi shakllantiriladi.

CR (Continuous Replenishment) – bu “doimiy ravishda to‘ldirish” xom ashyoni to‘ldirish buyurtmalariga bo‘lgan ehtiyojni bartaraf etish uchun ishlab chiqarilgan texnologiya bo‘lib, QR modifikatsiyasi hisoblanadi. Ko‘rib chiqilayotgan texnologiyalarning maqsadi zaxiralarni doimiy ravishda to‘ldirishga qaratilgan turli yetkazib beruvchilar tomonidan mahsulot yetkazib berish rejasini ishlab chiqish. Mahsulotlarni to‘ldirish asosan, xaridor tomonidan yetkazilgan savdo ma’lumotlariga ko‘ra yetkazib beruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

So‘nggi o‘n yillikda paydo bo‘lgan ta’minotni yaxlit boshqarish konsepsiyasi biznesning yaxlit tuzilmasidagi asosiy “dizayn – xarid qilish – ishlab chiqarish – tarqatish – sotish – xizmat” kabi bog‘liq oqimlarni oxirigacha boshqarish uchun ishlatila boshlandi[3]. Ushbu konsepsiya turli xil funksional sohalarni va ularning ishtirokchilarini optimallashtirish uchun yagona boshqaruv tizimiga qo‘shilishini talab qiladi. Integratsiyalashgan ta’minotni boshqarish konsepsiyasida TQM, JIT, LP, VMI, SCM, TBL, VAD va boshqalar, ERP, CSRP tizimlari tushunchalari qo‘llaniladi.

TQM (Total Quality Management) - universal sifat menejmenti – vaqt o‘tishi bilan doimiy ravishda rivojlanib boradigan va uni takomillashtirish uchun cheklovlar bo‘lmaganda raqobatdosh sifatni aniqlaydigan tushuncha sifatida TQM ISO 9000 standartlarida taqdim etilgan.

Bu esa, sifatning texnik tomonini ham, ushbu jarayonning barcha jihatlarida korxonaning barcha xodimlarining keng ishtirokiga asoslangan sifat menejmenti falsafasini, shuningdek, barcha sheriklar va birinchi navbatda iste’molchilar va ta’minlovchilar bilan integratsiyalashuvni o‘z ichiga oladi.

JIT (Just-in-time) – xom ashyoni ishlab chiqish yoki yetkazib berish jarayonini alohida funksional hududda tashkil etish, xom ashyo yetkazib berilishini, tugallanmagan ishlarni, tayyor mahsulotni kerakli miqdorda va o‘z vaqtida yetkazib berishni ta’minlash texnologiyasi. “O‘z vaqtida” konsepsiyasining qo‘llanilishi zaxiralarni kamaytirish, ishlab chiqarish va saqlash joylarini qisqartirish, mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish vaqtini qisqartirish, uskunadan unumli foydalanish va noishlab chiqarish operatsiyalar sonini kamaytirishga imkon beradi.

JIT konsepsiyasi Lean Production (LP) va Value added logistics (VAL) kabi ta’minotni boshqarish konsepsiyalarini (texnologiyalarini) ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

LP (Lean Production) – “yupqa va tekis ishlab chiqarish”. Ushbu konsepsiyaning mohiyati yuqori sifatli, ishlab chiqarish maydonlarining kichik hajmi, inventarizatsiya darajasi past, yuqori malakali xodimlar va moslashuvchan uskunalar kabi tarkibiy qismlarni birlashtirishdan iborat. Ommaviy ishlab chiqarishdan farqli o‘laroq, “tartibli” ishlab chiqarish kamroq zaxiralarni, kamroq vaqtni va kam chiqindilarni talab qiladi. Shu bilan birga, “katta hajmlar – arzon narxlar” kabi ommaviy ishlab chiqarishning afzalligi saqlanib qolmoqda.

VMT (Vendor Managed Inventory) – bu yangi axborot texnologiyalariga asoslangan yetkazib beruvchilarning inventarizatsiyani boshqarish tizimining takomillashtirilgan versiyasi. Buyurtmalarni joylashtirish o‘rniga, iste’molchi (va bu nafaqat tijorat, balki ishlab chiqarish korxonasi ham bo‘lishi mumkin) yetkazib beruvchi bilan mahsulotni talab qilish, sotish va reklama qilish to‘g‘risida ma’lumot almashadi. Ta’minotchi iste’molchining zaxiralarini to‘ldirish va ularni kerakli darajada saqlash majburiyatini oladi. Bunday holda, yetkazib beruvchi buyurtmani olmaydilar, faqat xaridor uchun maqbul bo‘lgan zaxiralar hajmining yuqori va pastki chegaralari to‘g‘risida ko‘rsatma.

SCM (Supply Chain Management) – bu atama 1980-yillarning oxirida paydo bo‘lgan, garchi bu ta’minot yo‘nalishi boshqaruvi anglatadi va ko‘pincha SCM logistika bo‘yicha aniqlanadi. Shunday qilib, M. Kristofer zanjir menejmentini yetkazib beruvchilar, mijozlar va tashkilotning o‘zi o‘rtasidagi munosabatlar hamda muvofiqlashtirishni o‘rnatish uchun foydalanilishini ta’kidlaydi. SCM – “butun yetkazib berish zanjirining arzon narxlarida yuqori narxga erishishga qaratilgan yuqori va quyi oqim ta’minotchilari va mijozlari bilan munosabatlarni boshqarish”dan iborat[4].

3 Гаджинский, А. М. Логистика учебник / А. М. Гаджинский-16-е изд., перераб. и доп. - М. : Дашков и Ко, 2008 .- 483 с.

4 Кристофер, М. Логистика и управление цепочками поставок/ Пер. с англ. под общ. ред. В. С. Лукинского. – СПб.: Питер, 2005. – 316 б.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Xom ashyo ta'minotiga birinchi bor yondoshuv "materiallar oqimini boshqarish" konsepsiyasi edi. Materiallar oqimini boshqarishning turli xil ta'riflari mavjud bo'lsa-da, aksariyat olimlar ushbu ta'rifga qo'shimcha bandlar kiritadilar:

- inventarizatsiya yoki "necha" qismlar, tarkibiy qismlar, xom ashyo va tayyor mahsulotlar ustidan nazorat (miqdor nazorati);
- ishlab chiqarishni boshqarish, yoki "qachon", shu jumladan, materiallarni qayta ishlash, konveyerda kerakli elementlarni saqlash va qabul qilish bilan birga ishlab chiqarishni nazorat qilish va rejalashtirish;
- subpudratchi yoki "qaysi tizimni sotib olamiz" – bu so'z noto'g'ri ishlatiladi, lekin asl ma'nosida ishlab chiqaruvchi tomonidan tuzilgan asosiy shartnoma asosida qo'shimcha komponentlarni ishlab chiqarish – sotib olish – yetkazib berish to'g'risida qaror qabul qilish uchun asos bo'ladi;
- omborlar yoki mavjud omborxonalar, sotib olish-yetkazib berish yoki sotib olingan tarkibiy qismlar, xom ashyo va transport yoki yuk tashish, qoldiqlar va ortiqcha narsalarni saqlash yoki yo'q qilish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning metodologik asosi nazariy ma'lumotlarni ilmiy manbalar va nashrlarni o'rganish natijasida shakllantirildi. Tadqiqotda nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqliklarga asoslanib, shu bilan birgalikda, analiz va sintez usullardan foydalanildi

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu integratsiya ichki ishlab chiqarish aloqalarini sezilarli darajada yaxshilagan, ammo ehtiyojlarni aniqlash uchun etkazib beruvchilar bilan tashqi aloqalar yoki ichki aloqalarning sezilarli yaxshilanishiga olib kelmagan. Ko'pgina korxonalarda nazariya va amaliyotda logistika va kadrlar bo'yicha vitse-prezident yoki direktor endi "katta rasm"ni ko'rishlari va buxgalteriya, moliya, ishlab chiqarish hamda marketing bo'yicha menejerlar o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyatli masalalarni hal qilishlari mumkin. Xom ashyoni sotib olish minimal va maksimal darajada doimiy o'zgaruvchan yetkazib berish sanalari va sifati yetkazib beruvchilar tomonidan buyurtma qilingan miqdorlar o'rtasida aniqlandi.

Yillar davomida yuqori sifatli mahsulotlar va turli xil boshqaruv uslublarini ishlab chiquvchi sifatida Yaponiya umumjahon sifat menejmenti (TQM) jarayoni mutlaqo boshqa zanjirli boshqaruv tizimiga ega ekanligini isbotlab berdi.

Amerika qo'shma shtatlari sanoat korxonalari Yaponiya korxonalari tomonidan qo'llanilgan ishlab chiqarish va boshqaruv tizimlarini umumiy sifat menejmenti (TQM) asosida ishlab chiqilgan "o'z vaqtida" (just-in-time – LT) yetkazib berish tizimiga alohida e'tibor qaratgan holda ish olib borilmoqda. Yaponiya tajribasida hattoki, tashqarida joylashgan yetkazib beruvchilar bilan har qanday vaqtda amalga oshiriladigan munosabat xom ashyo yetkazib berish va buyurtma berish vaqtlarini qisqartirishga xizmat qiladi. Transport sanoatiga arzon narxlardagi kompyuterlar va maxsus dasturiy ta'minotlarning joriy etilishi "zanjir" tushunchasining birinchi haqiqiy bo'g'ini sifatida integratsiyalashgan xom ashyo ta'minoti tizimidan foydalanishni kengaytirishga transport tarmoqlarini boshqarishni takomillashtirishga va tegishli vaqt sikllarini qisqartirishga yordam beradi.

Xarid qilish va xom ashyo ta'minoti jarayoni bilan bog'liq izlanish olib borgan bir qator olimlar o'zlarining tahlillarida ishlab chiqaruvchi uchun xom ashyodan tortib, to oxirgi iste'molchining chakana savdo rastalariga yetkazib berish zanjirini "ulash" yoki birlashtirish uchun tizim imkoniyatlariga qaratadilar. Ushbu integratsiya uzoq muddatli voqealar va barcha tizim a'zolari mahsulotlarini sotishning rasmiy boshlanish sanalarini ko'rsatadigan real vaqtga asoslangan. Bunday tizimlar shubhasiz, ishonchga asoslangan uzoq muddatli hamkorlikni talab qiladi. Bundan tashqari, bu tizimlar buyurtmalarini shkillantirish hamda mahsulotlarni yetkazib berishni elektron shaklda qabul qilishni nazarda tutgan. Bugungi kunda iste'mol tovarlarini ishlab chiqaruvchilarning ko'pchiligi xom ashyoni uzluksiz oqimni tashkil qilish uchun uchinchi tomon xizmatlaridan va ba'zi universal logistika korxonalardan foydalanadilar. Ushbu korxonalar yuklash, tashish, saqlash, mahsulotga shtrix kodini qo'llash va omborga ishlov berish bilan shug'ullanadilar. Ushbu faoliyatning barchasi distribyutorlik markazlarining jadal o'sishini va "to'xtash chorrahasi" konsepsiyasining tarqalishini yoki tovarlarni yetkazib beruvchi korxonalardan tovarlarni zudlik bilan tashuvchilarga topshirish bilan sinxronlashishini rag'batlantiradi.

Integratsiyalashgan ta'minot zanjirining eng yaxshi namunasi Kargill yirik xalqaro firmasi tomonidan ishlatiladigan tizimdir. Kargill firmasi ekotizimining bir qismi, shuningdek, uning yetkazib berish zanjiri biznesida misli ko'rilmagan ishtiroki edi. 1994 yilga kelib mijozlar uchun juda kuchli tizim aylangan. Kargill yetkazib beruvchi korxonalarga narxlarni tushirishga majbur qilish uchun katta bosim o'tkaza boshladi. Bundan tashqari, korxona ishlab chiqarish va tarqatish samaradorligini maksimal darajada muvofiqlashtirish uchun mijozlarni o'zaro

axborot tizimlarini o‘rnatishga majbur qildi. Shunday qilib, Kargill firmasi va yirik yetkazib beruvchilar o‘zaro buyurtma bo‘yicha elektron buyurtma tizimini joriy etish va korxonalar o‘rtasida to‘liq ma’lumot almashishni o‘z ichiga olgan o‘zaro manfaatli sheriklikka erishdilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu yutuqlarning yaqqol ta’siri yetkazib beruvchilar bilan ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni keskin o‘zgartirdi. Endi o‘zaro munosabatlarning asosi yetkazib beruvchi korxonalarga o‘zaro ishonch va “muvaffaqiyatdan muvaffaqiyatgacha” tamoyilini qo‘llagan holda uzoq muddatli munosabatlarni namoyon etmoqda. Bundan ko‘rinadiki, xom ashyo ta’minoti tizimi samarali, strategik bo‘lishi va uzoq muddatli munosabatlarni qamrab olishi kerak.

Ta’minot zanjiri boshqarish barcha tashkilotlarni boshqarish uchun eng samarali usulni integratsiyalashgan aloqa tizimiga ulaydi. Masalan, yog‘-moy korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish uchun xom ashyoni yetishtiruvchi va yetkazib beruvchi bilan uzoq muddatli munosabatlarga ega bo‘lishi kerak. Chunki xom ashyoni oldindan sotib olish bilan bog‘liq bo‘lgan uzoq muddatla shartnoma tuzilishini yetkazib beruvchilarni har qanday boshqaruv darajasida boshqarish imkoniyatini kafolatlashi lozim.

Zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalangan holda materiallar oqimni boshqarish Oliver Uayt tomonidan kiritilgan “Moddiy talablarni rejalashtirish” (MRP) va “Moddiy resurslarni rejalashtirish” (MRP II) tizimlarini paydo bo‘lishiga olib keldi, bu bizni butun oqimni to‘liq va kiruvchi materiallar tizimi sifatida ko‘rib chiqishga majbur qildi. Ushbu tizimlardan foydalanish juda qiyin, chunki bir vaqtning o‘zida ko‘plab yetkazib beruvchilar va korxonalar yangi boshqaruv standartlariga tayyor emaslar. Ammo sodda va arzonroq MRP I/II ga qaraganda ancha rivojlangan ERPni amalga oshirish ma’qulroq. Korxonani xom ashyo bilan ta’minlash kompleks yondashuvni talab qiladi. Umuman olganda, har qanday mavjud konsepsiyada tizimning to‘liq ko‘rinishini ifoda etish juda qiyin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Корпоративная логистика: 300 ответов на вопросы профессионалов / Под ред. В. И. Сергеева– М.: Инфра-М, 2004 (Можайск: Можайский полиграф, комбинат). –929 б., Сергеев, В. И. Экономика предприятия [Текст]. –М: “Финансы и статистика”, 2007.
2. Гаджинский, А. М. Логистика учебник / А. М. Гаджинский-16-е изд., перераб. и доп. –М. : Дашков и Ко, 2008. –483 с.
3. Кристофер, М. Логистика и управление цепочками поставок/ Пер. с англ. под общ. ред. В. С. Лукинского. – СПб.: Питер, 2005. –316 б.
4. Бондаренко В. А., Воронова Р. С. Обоснование ряда мероприятий по повышению рыночной устойчивости для предприятий (на примере ООО “Каргилл”) // Концепт. – 2015. – Спецвыпуск № 16.



O‘ZBEKISTONDA MULKDORLAR SINFINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-METODOLOGIK YO‘NALISHLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Berkinov Bazarbay Berkinovich
TDIU professori, Institutsional va iqtisodiy tadqiqotlar markazi direktori,
Nyu-York Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zosi hamda
Xalqaro axborotlashtirish akademiyasi akademigi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda mulkdorlar sinfining mazmun-mohiyati ochib berilgan va uning shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar, mulkdorlar haq-huquqlarini himoya qilish mexanizmlari asoslangan. Maqolada, shuningdek, haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirishning yo‘nalishlari hamda uning qonunchilik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mulkdorlar sinfi, o‘rta sinf, samarali mulkdor, haqiqiy mulkdor, xususiylashtirish, agrar sektor, xususiy tadbirkorlik.

Abstract: The article reveals the essence and content of the class of owners in Uzbekistan, substantiates the main factors influencing their formation and mechanisms for protecting the rights and interests of owners. The article also develops proposals for improving the directions for forming a class of real owners and their legislative framework.

Key words: owner class, middle class, effective owner, privatization, agricultural sector, private business.

Аннотация: В статье раскрыты сущности и содержание класса собственников в Узбекистане, обоснованы основные факторы влияющие на их формирование и механизмы защиты прав и интересов собственников. В статье также разработаны предложения по совершенствованию направлений формирования класса реальных собственников и их законодательных основ.

Ключевые слова: класс собственников, средний класс, эффективный собственник, приватизация, аграрный сектор, частный бизнес.

KIRISH

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy vazifalaridan biri mulkdorlar sinfini shakllantirishdir. O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘zining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida “Yangi O‘zbekiston – keng iqtisodiy imkoniyatlar mamlakatidir. Iqtisodiy siyosatimizning asosiy tamoyillaridan biri – har bir fuqaro boy bo‘lsa – davlat boy bo‘ladi, har bir oila farovon bo‘lsa – mamlakat farovon bo‘ladi” deb ta’kidlagan [1]. Bu yo‘lda uchta o‘zaro bog‘liq vazifani hal etish to‘g‘risida gapirish mumkin: bular iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy masalalar. Iqtisodiy ma’noda o‘ziga tegishli mulkdan iqtisodiy jihatdan samarali foydalanishga qodir bo‘lgan kishilar mulkdorlar bo‘lishi mumkin. Samarali mulkdor o‘ziga tegishli mulkni bozor mexanizmlaridan foydalangan holda oshirib boradi. Ijtimoiy ma’noda, mamlakat aholisining katta qismini o‘z ichiga olgan va uning rivojlanishi yo‘nalishlarini aniqlovchi jamiyat asosini tashkil etuvchi o‘rta sinf shakllanishi lozim. Mulkdorlar sinfining siyosiy ma’nosi shundan iboratki, u barqarorlikka, demokratiyaning rivojlanishiga va huquqiy davlatga yo‘naltirilganlikdir. Mulk egalari hamma vaqt har qanday inqilobiy o‘zgarishlar va ijtimoiy larzalarga qarshi turadi, chunki jamoat tartibsizligi ularning mulkiga tahdid solib turadi.

Shuni nazarda tutish lozimki, ushbu belgilarga barcha mulkdorlar ham javob bermaydi. Faqatgina mulkka egalik qilish yetarli emas. Hatto eng kambag‘al inson ham qandaydir mulkka ega. Lekin bunday mulkdorlarning jamiyatdagi roli yuqorida aytilganlarinikidan keskin farq qiladi. Shuning uchun mulkdorlar sinfini shakllantirish iqtisodiy islohotlar vazifalarini hal etish uchun zarurmi? – degan savol qo‘yilishi tabiiy. Bu savolga javob iqtisodiy islohotlarning maqsadlaridan kelib chiqadi.

Aholi turmush darajasini oshirish bosh maqsadlardan biri hisoblanadi. Ya’ni mamlakat fuqarosi qanchalik boy va moddiy jihatdan ta’minlangan bo‘lsa, bu jamiyat farovonligi uchun shunchalik yaxshidir. Davlat o‘z oldiga,

hatto fuqarolar daromadlari nuqtayi nazaridan tenglikka erishish vazifasini qo‘ymasligi kerak. Bunday siyosatning salbiy oqibatlari hamma vaqt barcha mamlakatlarda kuzatilgan. U faqat qashshoqlik bilan kurashishi va uni keltirib chiqaruvchi sharoitlarga barham berishi mumkin. Moddiy farovonlik davlat faoliyatining mahsuli bo‘lmasligi lozim, unga har bir fuqaro, har bir oila mustaqil erishishi kerak. Bu shuni anglatadiki, davlat boy shaxslarni kambag‘allarga yaqinlashtirish maqsadida ularning daromadlarini chegaralamasligi zarur. Davlat aholini kam ta’minlangan qatlamining daromadlarini oshirishga yordam berishi lozim.

Agarda kam ta’minlanganlar soni ko‘pchilikni tashkil etmasa, u holda jamiyatning katta qismi o‘rta sinf, ya’ni davlat asosini tashkil etuvchi ijtimoiy qatlamdan iborat bo‘ladi. Bundan kelib chiqadigan birinchi xulosa shuki, O‘zbekiston o‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirishga va rivojlantirishga intilishi lozim. Bu vazifani hal etish kambag‘allikka barham berish va har bir shaxsning mehnat salohiyatini ochish bilan bog‘liqdir.

Mulkchilik to‘g‘risidagi masalani hal etishning iqtisodiy jihati shundan iboratki, mulkdorlar, birinchidan, haqiqiy, ikkinchidan esa, samarali bo‘lishi darkor. Korxonaning barcha xodimlarini rasman aksiyador qilish mumkin, lekin, agar bu xodimlar haqiqatda korxonani boshqarishda ishtirok eta olishmasa, o‘z aksiyalariga devidendlarni olishmasa va hatto ularni korxonadan tashqarida sota olishmasa, u holda ularning mulkdorlik huquqlari haqqoniyligi to‘g‘risida gapirishga hojat bo‘lmaydi. Shuni anglagan holda aholi erkin bozorda aksiyalarni sotib olmaydi. Agar korxona bilan doimiy bog‘liq bo‘lgan kishilar uning ishiga ta’sir ko‘rsata olmasalar va ular qonuniy ravishda olishi lozim bo‘lgan daromadni olmasalar, korxonadan chetda bo‘lgan kishilar, ayniqsa, kichik sarmoyadorlar haqida nima deyish mumkin. Bundan ikkinchi xulosa kelib chiqadi: mulkdorlar huquqlarini amalga oshirish va muhofaza qilishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqarish lozim. Usiz mulkka egalik qilish rasman bo‘lib, mulk hech kimniki bo‘lmaydi. Bu holat hozirgi paytda mulkka haqqoniy ega bo‘lib turgan shaxsning qonuniy yo‘l bilan boyib ketishiga keng imkoniyat ochib beradi va jamiyat uchun bu juda xavflidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mulkdorlar sinfini shakllantirish va rivojlantirish muammolariga mamlakatimiz olimlaridan Sh.M.Mirziyoyev [1], Q.X.Abduraxmanov [3], T.M.Axmedov [4], N.S.Aliqoriyev [5], Sh.Yu.Mahkamova [6, 7] va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan. Chet el tadqiqotchilari [8] ham ushbu muammoni yechimiga o‘z hissalarini qo‘shmoqda. Shu bilan bir qatorda mulkdorlar haq-huquqlarini himoya qilish, o‘rta mulkdorlar sinfi qatlamini shakllantirish, ular rivojlanishi mexanizmlari va qonunchilik jihatlarini takomillashtirish masalalari va muammolari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologiyasini mamlakatda haqiqiy va samarali o‘rta sinfga mansub bo‘lgan mulkdorlarni shakllantirish tamoillari hamda uslubiyati tashkil etadi. Tadqiqotda mulkdorlar sinfini shakllantirishning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy mezonlari asoslanadi. O‘rta sinfni shakllantirishga asosiy talablar va omillar umumlashtiriladi, ular yo‘nalishlari taklif qilinadi. mulkdorlar sinfi rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan omillar tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mulkdor tabiatan oqilona ish tutadi. U o‘ziga tegishli mulkni ko‘paytirishga intiladi. Agar bu holat yuz bermasa, mulk egasi o‘zini mulkdor deb hisoblamaydi, yoki kelajakda uning huquqlari saqlanmasligi mumkin, deb hisoblaydi, yo bo‘lmasa mulk yangi egasiga shunday sharoitda kelib tushganki, u mulkni avaylab-asrab va uni ko‘paytirish lozim emas deb hisoblaydi. Shu asosda uchinchi xulosaga kelish mumkin: mulkchilik huquqlari nafaqat qonun bilan himoyalanishi, balki haqiqatda kafolatlanishi zarur. To‘rtinchi xulosa shuki, mulkdorlar o‘ziga tegishli boyliklarni qayta ishlashni kengaytirishga, ishlab chiqarishni rivojlantirishga va shu asosda yangi moddiy va nomoddiy boyliklarni yaratishga yo‘naltirilgan mulkdorlar rag‘batlantirilishi lozim. Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, iqtisodiy islohotlar natijasida o‘z mulkidan oqilona foydalanishga va uning bozor munosabatlarini rivojlantirishga hamda huquqiy davlat va demokratik jamiyat tuzishga yo‘naltirilgan ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida ko‘paytirishga qodir bo‘lgan o‘rta mulkdorlar sinfi shakllanishi lozim.

Unday mulkdorlar sinfi shakllanishining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

- mavjud mulklar va daromadlar asosida, xususan omonatlarni korxonalar va davlat qimmatli qog‘ozlariga sarflash hamda xususiy shaxslarga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulk va boshqa mulklardan foydalanish yo‘li;
- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish asosida, davlat mulkini kimoshdi savdolari va tanlovlarda sotib olish, hamda xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarini xarid qilish yo‘li;
- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish.

Ushbu yo‘nalishlarda kafolat nafaqat mulkchilik subyektlari, balki uning obyektlari uchun ham juda muhim, ya’ni mulkdorlar qanday mulkka egalik qilishlari mumkin. Shu bilan birga, mulkchilikning barcha obyektlari daromadlar olish maqsadida foydalanmaydigan obyektlarga hamda ishlab chiqarish resurslariga bo‘linishi mumkin. Bunda ishlab chiqarish resurslari esa, o‘z navbatida, quyidagilarga bo‘linadi:

1. Mehnat.
2. Yer.
3. Kapital:

a) Moddiy aktivlar;

b) moliyaviy aktivlar.

4. Pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar;
5. Nomoddiy aktivlar – intellektual mulkchilik obyektlari.
6. Fuqarolarning tadbirkorlik qobiliyati.

Ishlab chiqarish resurslari daromad olish va mulkni ko‘paytirish uchun foydalaniladi. Har qanday mulkka ega bo‘lgan shaxslarning barchasi mulkdorlar hisoblanadi.

Mulkdorlar – bu moddiy va intellektual mulk obyektlariga egalik qiluvchi, ulardan o‘z xohishiga, shu jumladan, daromad olish maqsadida foydalanish huquqiga ega bo‘lgan jismoniy shaxslardir.

Mulkdorlarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

- o‘z ixtiyorida daromad keltirmaydigan va shaxsiy foydalanish uchun mo‘ljallanmagan mulkka ega bo‘lgan mayda mulkdorlar;
- o‘z ixtiyorida iste’mol sohasida foydalaniladigan mulk bilan bir qatorda qo‘shimcha tadbirkorlik daromadi yoki sarflangan kapitaldan daromad olishga mo‘ljallangan aktivlar (kapital)ga ega bo‘lgan shaxslar;
- o‘z ixtiyorida yirik xususiy korxonalar, firmalarga ega bo‘lgan va ular faoliyatidan mo‘may daromad oluvchi yirik mulkdorlar.

Mulkdorlar sinfini shakllantirish yo‘nalishlari va uning tarkibini aniqlagan holda ushbu jarayonni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash mumkin. Bu omillar ichida kishilar psixologiyasi muhim rol o‘ynaydi. Insonni mulkdor bo‘lishi uchun majburlab bo‘lmaydi, u bunga tayyor bo‘lishi kerak. Sobiq ittifoq davrida kishilarga uzoq vaqt xususiy mulkka ishonchsizlik g‘oyasi singdirilgan, uning egalariga “chayqovchi” sifatida qaralgan. Hozir bozor munosabatlari rivojlanish pallasi, xususiy mulkka nisbatan ham ushbu jarayonlar ijobiy tomonga o‘zgardi.

Mulkdorlar sinfining shakllanishiga huquqiy muhit kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Qonunchilik mulkchilik huquqlarini muhofaza qilish, kafolatlanishi va ularni amalga oshirish mexanizmini belgilab berishi zarur. Agar mulkdorlar huquqlarini himoyalash mexanizmi bo‘lmasa, u holda bu huquqlar deklaratsiyaga aylanadi. Bu hol qonunga bo‘lgan ishonchni yo‘qotadi va muammolarni “norasmiy” yo‘l bilan yechishning turli usullarini qidirish uchun zamin yaratadi.

Mulkdorlar sinfining shakllanishiga iqtisodiy omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, infratuzilmaning rivojlanishi – ishlab chiqarish, ijtimoiy, moliyaviy bozorlar tarkibi, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar.

Real mulkdorlar sinfining shakllanishida davlat siyosati muhim ahamiyatga ega: ya’ni soliq siyosati xo‘jalik yurituvchi subyektlar ixtiyoridagi daromad hajmini va uning taqsimlanishini belgilab beradi. Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish sohasidagi siyosat davlat mulkini u yoki bu usul bilan iqtisodiy faoliyatning nodavlat ishtirokchilariga o‘tkazishga yo‘naltirilgan; aholining kam ta’minlangan qatlamini qo‘llab-quvvatlash hamda fan, madaniyat, ta’lim, millatning intellektual kapitalini oshiruvchi faoliyat sohalarini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy siyosat; iqtisodiy siyosat xo‘jalik faoliyatini tartibga solish, resurslarni taqsimlash va makroiqtisodiy barqarorlikka erishishga yo‘naltirilgan.

Mulkdorlar sinfi oyoqqa turishining dastlabki bosqichi O‘zbekistonda institutsional va iqtisodiy islohotlar jarayonlarida mulkdorlar sinfini shakllantirish uchun zamin yaratildi. Bu haqda iqtisodiy islohotlarning borishini tavsiflovchi ayrim ko‘rsatkichlar dalolat beradi.

Mamlakatimizda 1992–1998-yillarda 50630 ga yaqin davlat korxonalari xususiylashtirildi va qayta tashkil etildi. Mahalliy, yengil, mebel, mashinasozlik va avtomobil sanoati tarmoqlaridagi davlat korxonalari mulkchilikning nodavlat shakliga o‘zgartirildi. Shu davrda 85 mingga yaqin kichik, 45 mingdan ortiq xususiy korxonalar tashkil etildi. Davlat fondi uy-joylari to‘liq xususiylashtirildi. Natijada 1,1 mln. kvartira o‘zining haqiqiy egasini topdi. 3 million oila esa tomorqalar va yordamchi xo‘jaliklarga ega bo‘ldi.

Agrar sektordagi iqtisodiy islohotlar mulkdorlar sinfining shakllanishiga asos yaratgan. Dastlab kolxoz va sovxozlar aksiyadorlik jamiyatlariga, kooperativlarga, shirkat xo‘jaliklariga aylantirilgan. Yangi o‘zgargan iqtisodiy sharoitlarda mulkchilik munosabat mulk payi asosida qurilgan, unda xo‘jalikning har bir ishchisi xo‘jalik mulkining aniq bir qismiga egalik qilgan. Oilaviy pudrat va fermerlik harakatlari rivojlangan. O‘sha bosqichda 23 mingdan ortiq fermer xo‘jaliklari barpo etilgan, ularga 423,5 ming gektar yer berilgan, dehqon xo‘jaliklari uchun esa 625,8 ming gektar yer ajratilgan. 1998 yil 1 iyun holatiga ko‘ra, 22 mingga yaqin yer uchastkalari kimoshdi savdosi asosida sotilgan, shuning 37,7 foizini dehqon xo‘jaligi yuritish uchun ajratilgan yer uchastkalari, 62,3 foizini esa shaxsiy uy-joylar qurilishiga berilgan uchastkalar tashkil etgan.

Bozorning ko‘chmas mulk sektorida Respublika ko‘chmas mulk birjasi muhim rol o‘ynagan. Tadbirkorlar ko‘chmas mulk birjasida turli ishlab chiqarish vositalarini, jumladan, qishloq xo‘jaligi vazirligining 3800 dan ortiq obyektlarini, O‘zmevasabzavotvinosanoatining 357 ta obyektlarini, 1746 ta savdo va xizmat ko‘rsatish sohasi obyektlarini, 451 ta avtomobillarga yoqilg‘i quyish shaxobchalarini va 5700 dona avtotransportlarni sotib olgan.

Qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanishi mulkdorlar sinfining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayonida 1998-yil 1-iyul holatiga ko‘ra emissiyalar umumiy hajmi 186,6 mlrd. so‘m bo‘lgan 4989 ta aksiyadorlik jamiyatlari ro‘yxatga olingan. Aksiyadorlik jamiyatlarining 29,4 mlrd. so‘m miqdoridagi aksiyalari joylashtirilgan, shulardan 14 mlrd. so‘m miqdoridagi aksiyalar jamoa a’zolari o‘rtasida joylashtirilgan, 8 mlrd. so‘m miqdoridagi aksiyalar Respublika fond birjasida yuridik va jismoniy shaxslarga sotilgan. “Vaqt” milliy depozitariysida jismoniy shaxs uchun 825 mingdan ortiq hisob raqamlar ochilgan.

1998-yil 1-iyun holatiga ko‘ra O‘zbekistonda 83 ta XIF hamda 84 ta boshqaruv kompaniyalari ro‘yxatga olingan va qonunda belgilangan tartibda litsenziyalar berilgan. 72,2 ming kishi XIFlar aksiyadorlari hisoblangan.

Mulkdorlar sinfining shakllanishiga bozor infratuzilmalarining rivojlanishi ham katta yordam bermoqda. Bozor infratuzilmasi tadbirkorlar faoliyati sharoitlarini yaxshilamoqda. O‘sha davrda 1800 dan ortiq mayda ulgurji tuzilmalar barpo etilgan, qimmatli qog‘ozlar bozorida 300 ta brokerlik idoralari faoliyat ko‘rsatgan. 1998-yil 1-iyul holatiga ko‘ra qimmatli qog‘ozlar bozorida faoliyat yuritish uchun litsenziya olgan investitsiya institutlari 657 tani tashkil etgan.

Mulkdorlar sinfini shakllantirishning huquqiy asoslari rivojlanmoqda. Fuqarolik kodeksi, Yer kodeksi, fond bozorini rivojlantirish, agrar sektordagi islohotlarni chuqurlash, kichik va o‘rta biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ularni qo‘llab-quvvatlash sohalarida qator qonunlar va qonun osti hujjatlari qabul qilingan va amaliyotga kiritilgan.

Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlari yo‘naltirilgan. Oliy Majlis sessiyasida “Uy-joy kodeksi” birinchi o‘rinda qabul qilingan. Bularning barchasi mulkdorlar sinfini shakllantirish va uning barqaror rivojlanishining huquqiy poydevorini yaratdi.

Shu bilan bir vaqtda “O‘zbekiston–2030” strategiyasi [2] xususiy mulkchilikning va mulkdorlar sinfini shakllantirishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishni talab etadi. Ayrim zarur qonunlar, masalan, aholining qimmatli qog‘ozlarga investitsiyasini majburiy sug‘urtalash, bankdan tashqari moliya institutlari faoliyati, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘zaro majburiyatlarini javobgarligi mexanizmi to‘g‘risida qonunlar qabul qilinmagan. Qonunlar bajarilishiga real mexanizmning samarali ishlashi hamda qonunchilikning ayrim me’yorlarining noaniqligi, sezilarli muammolarini keltirib chiqaradi, bu mulkdorlarning o‘z huquqlarini himoyalash imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi. Bunga ko‘pgina misollar keltirish mumkin.

Tahlillarga qaraganda mamlakatimizda tarixan juda qisqa vaqtda jamiyatimiz uchun mutlaqo yangi mulkchilik va iqtisodiy munosabatlarga asos solgan qonunlar majmuasi yaratildi. Aytish mumkinki, butun Yangi O‘zbekiston strategiyasi modeli negizida tashkil etiluvchi maqsad va tamoyil asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida o‘z mulkidan oqilona foydalanishga va bozor munosabatlarini rivojlantirishga hamda huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurishga qodir bo‘lgan mulkdorlarning keng qatlami shakllanmoqda.

Shu bilan bir vaqtda davlatimizda xususiy mulk ustuvor bo‘lgan ko‘p ukladli iqtisodiyot shakllanib, u barqaror inklyuziv rivojlanish davriga o‘tdi. O‘tkazilgan so‘rovlarga ko‘ra ayni paytda mamlakatimiz aholisining 50 foizdan oshig‘i o‘zini o‘rta mulkdorlar toifasiga mansub ekanligini tasdiqlagan.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi 80 foiz korxonalar nodavlat korxonalar (fermer xo‘jaliklarisiz) toifasiga kiradi. Ular 83 foiz YAIM hajmini ishlab chiqarishmoqda. Bu ko‘rsatkich 1992-yilda 5 foizga teng bo‘lgan. Ushbu raqamlar O‘zbekistonni ko‘plab rivojlangan davlatlar darajasiga tenglashganidan dalolat berib turibdi.

Mamlakatimizda ko‘p ukladli iqtisodiyotida kichik, o‘rta va xususiy tadbirkorlik ustuvorligi ta’minlangan. Bunga ushbu sohalar rivojlanishini davlat tomonidan keng qo‘llab-quvvatlash, xususiy mulk egalarining tinimsiz harakatlari hamda manfaatdorligi tufayli erishilmoqda. 2023-yilda aholi jon boshiga real daromadi 15979,3 ming so‘mga teng bo‘lgan.

Mamlakatda ish bilan band aholining 81 foizi yoki 11,2 mln. kishi nodavlat korxonalarida ishlaydi. Faqat kichik korxona va mikrofirma egalari ixtiyorida 188,4 trln. so‘mga teng ishlab chiqarish vositalari bor. Ularda 1,4 mln. kishi ish bilan band. Ushbu toifadagi korxonalarda 143,9 trillion so‘mdan oshiq sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan. Bu ko‘rsatkich 2000-yilga nisbatan 12,5 martaga ko‘pdir.

O‘zbekistonda 2023-yilda 523,5 ming kichik korxonalar va mikrofirmalar, 109,6 mingdan ortiq fermer va 5,1 mln. dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, nodavlat mulkining 18,4 foizi xususiy korxonalar hisoblanadi. Xususiylashtirilgan davlat korxonalarining aktivlari (aksiyalar, pay ulushlari va boshqa qimmatli qog‘ozlar.), avtorans-port, qishloq xo‘jaligi tizimida xususiy mulkga berilgan bog‘lar, uzumzorlar hamda chorva fermalarining egalari daromad keltiruvchi mulklarini mulkdorlari hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, xususiy tadbirkorlar uchun katta miqdorda ishlab chiqarish resurslari ajratilmoqda. Birgina fermerlar ixtiyoriga qariyb 6 mln. aholi dehqon xo‘jaliklariga 625 ming gektardan oshiq qishloq xo‘jalik yerlari berilgan. Shu bilan birga, kichik biznes vakillari 2022-yilda asosiy kapitalga qariyb 44,7 trln. so‘m investitsiyalar kiritgan. Bu iqtisodiyotga kiritilgan hamma investitsiyalarning 35 foizdan oshig‘ini tashkil etadi. Shu davrda kichik korxona va mikrofirmalar qariyb 52 foiz o‘z mablag‘alarini hamda 31 foiz bank kreditlarini asosiy kapitalga investitsiya qilib kiritgan. Bu o‘tgan 2015-yilga solishtirganda mos ravishda 8 va 1,5 foizga ko‘pdir.

Fuqarolarga tegishli ko‘chmas mulkdan foydalanish imkoniyatlaridan sezilarli cheklanishlar mavjud. Ko‘chmas mulk bitimlari uchun katta soliq va mulk uchun kichik soliq to‘lanishi mulkdorni unga tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulkdan yanada samarali foydalanishga undamaydi. Ko‘chmas mulk oldi-sotdisi bo‘yicha bitimlarni rasmiylashtirishdagi qiyinchiliklar ham shunday natijaga olib keladi. Oqibatda ushbu bozorlar juda sekin rivojlanmoqda.

Xususiy mulkchilikni rivojlantirishda qimmatli qog‘ozlar bozorining roli juda ham muhim. Aksiyalashtirish aholining keng ommasini mulkka egalik qilishga jalb etishning samarali mexanizmidir. Biroq aksiyalashtirish jarayoni hozircha real mulkdorlarning keng namoyon bo‘lishi sust. Aholi omonatlarini qimmatli qog‘ozlar bozoriga jalb etish jarayoni ham juda sust. Aksiyadorlar tomonidan rasman saylab qo‘yiladigan aksiyadorlik jamiyatlari rahbarlari ko‘p hollarda, ya’ni dividentlar to‘lashda, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etish huquqlarini amalga oshirilishida, aksiyadorlik jamiyati faoliyati to‘g‘risidagii axborotlarni olish huquqlarining amalga oshirilishida aksiyadorlar manfaatlari ochiq himoya qilinishi yetarli darajada emas. Investorlarga ko‘rsatiladigan zarur xizmatlarning narxi yuqoriligicha qolmoqda.

Yangi O‘zbekiston strategiyasida [1] belgilangan maqsadlar qatorida xususiy mulkchilikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri xususiy tadbirkorlik hamda kichik va o‘rta biznesni ustuvor rivojlantirish hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda ko‘p ishlar qilinmoqda, lekin shu bilan birga hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar mavjud. Ro‘yxatga olingan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hammasi ham amalda faoliyat ko‘rsatayotgani va mahsulot chiqarayotgani yo‘q. Faqat 2022-yilda ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik korxonalarining 32,4 mingtasi yoki 5,8%i faoliyat yuritmagan. Bu ko‘rsatkich 2020-yilda 25,8 ming yoki 6,8 foiz bo‘lgan. Barpo etilgan korxonalarning ko‘pchiligi qisqa vaqt ichida tugatilmoqda. Tadbirkorlik tuzilmalarining hududiy taqsimlanishi notengligicha qolmoqda, ko‘rilgan choralarga qaramasdan ularning katta qismi hali ham Toshkent shahri, viloyatlarning yirik shaharlariga mo‘ljallangan. Tadbirkorlik subyektlarining sohaviy tuzilishi ham takomillashtirilishi zarur. Chunki ularning katta qismi savdo va umumiy ovqatlanishga mo‘ljallangan.

Tadbirkorlarni o‘qitish, ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish borasida turli tashkilotlar tomonidan muhim ishlar olib borilganligiga qaramasdan ko‘pgina kichik korxonalar rahbarlarining bilim saviyasi pastligicha qolmoqda, bu korxonaning tugatilishiga olib keladi.

Ayrim faoliyat turlari bilan shug‘ullanish uchun litsenziya olish jarayoni qiyin va katta kuchlarni, ko‘pincha esa mablag‘larning sarflanishi bilan bog‘liqdir. Xususiy tadbirkorlarning ikki marta soliq to‘lash tizimi amalda davom etmoqda, biriinchi marta tadbirkor firma uchun soliq to‘laydi, keyin esa yagona ega sifatida daromad solig‘i ham to‘lashi kerak.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz mustaqil taraqqiyoti yillarida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar natijasida fuqarolarni xususiy mulkka egalik qilish huquqidan chetlatish jarayoni to‘xtatildi; aholi ichidan daromad keltiruvchi mulkka ega bo‘lgan mulkdorlar qatlami shakllandi; ular o‘z mulkidan davlat, jamiyat va o‘z manfaatlari yo‘lida samarali foydalanib, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda hamda iqtisodiyotning real sektorida yangi korxonalar ish joylarini yaratishda salmoqli investitsiyalar kiritmoqda. Ushbu harakatlar davlatimiz rahbarining kichik biznes negizida yirik korxona va kompaniyalar yuzaga kelishi haqidagi uzoqni ko‘zlovchi g‘oyasining amalda o‘z tasdig‘ini topayotganining isboti hisoblanadi. Shu tariqa rivojlanib borayotgan davlatimiz qudratli va aholisining hayoti farovon bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

- O‘zbekiston Respublikasining “Mulkchilik to‘g‘risida”gi, “Korxonalar to‘g‘risida”gi qonunlarni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi bilan muvofiqlashtirilgan holda yangi tahrirda qabul qilish.
- Aholining xususiy mulk egalari sifatida huquq va majburiyatlarini izohlovchi aholi huquqiy ta’limi tizimini kengaytirish hamda ushbu huquq va majburiyatlarni amalga oshirish mexanimini yaratish.
- Soliq qonuniga ko‘chmas mulk oldi-sotdisi bitimlariga solinadigan soliq darajasining pasaytirilishiin nazarda tutgan holda o‘zgartirishlar kiritish.
- O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunda ko‘zda tutilgan aksiyadorlarning hisoblab yozilgan va e’lon qilingan dividendlarni olish huquqlarini amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish.
- Qimmatli qog‘ozlarning ikkilamchi bozori rivojlanishini – qimmatli qog‘ozlarning aylanuvchanligi va likvidlashni ta’minlash.
- Tadbirkorlarga ko‘rsatiladigan xizmatlarda transatsiya xarajatlarini pasaytirish uchun ularga marketing, yuridik va boshqa xizmatlar ko‘rsatuvchilarning raqobatchi tuzilmalari barpo etilishini rag‘batlantirish zarur.
- Qishloq joylarda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarini rivojlantirishni rag‘batlantirish tizimini yaratish. Qishloq tadbirkorligini ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlovchi va ularga xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalarning monopolistik huquqlariga barham berish, ushbu raqobatchi tadbirkorlarning yuzaga kelishini ta’minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi o‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. 464 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11-sentyabr 2023-yildagi “O‘zbekiston–2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni.
3. Абдурахманов К.Х. Тенденции развития человеческого капитала Узбекистана // Вестник российского экономического университета им. Г.В.Плеханова. –М., 2013. –№8. –С. 80-84.
4. Ахмедов Т.М., Махкамова Ш.Ю., Бобомуратов О. Репродуктивное здоровье населения Узбекистана // Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekiston iqtisodiyotini boshqarishning dolzarb muammolari: Материалы респ. науч.-Практ. конф. –Тошкент, 2016. –С. 16-20.
5. Аликариев Н.С., Агзамходжаев И.Х., Махкамова Ш.Ю. Формирование региональных особенностей среднего класса // Современная социально-экономическая география: достижения, проблемы и перспективы: Материалы респ. науч.–Практ. конф. –Тошкент, 2013. –С. 25-26.
6. Махкамова Ш.Ю. Формирование средного класса в Узбекистане. –Т.: “Fan va texnologiya”, 2017, 108 стр.
7. Махкамова Ш.Ю. Социально-экономические аспекты формирования среднего класса // Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekiston iqtisodiyotini boshqarishning dolzarb muammolari: Материалы респ. Науч.-практ. Конф. –Тошкент, 2016. –С. 34-36.
8. Средний класс в КНР составляет 23% населения // Женьминь жибао. 2010 г. 2-февраля.
9. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. Statistik to‘plam. 2019–2022-yil. 191-bet.

O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORINI RIVOJLANISHI ISTIQBOLLARINI TA’MINLASH OMILLARI

X. I. Boyev
TDIU professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston sug‘urta bozorining hozirgi holati va uni rivojlantirish borasida qabul qilingan me’yoriy hujjatlar haqida so‘z boradi. Bundan tashqari, xorijdagi sug‘urta kompaniyalarining statistik natijalari berilgan hamda anderrayting xizmatining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sug‘urta bozori, sug‘urta portfeli, anderrayting xizmati, milliy sug‘urta bozori.

Abstract: This article talks about the current state of the insurance market of Uzbekistan and the regulatory documents adopted for its development. In addition, statistical results of foreign insurance companies are given and the importance of underwriting service is highlighted.

Key words: Insurance market, insurance portfolio, underwriting service, national insurance market.

Аннотация: В данной статье рассказывается о современном состоянии страхового рынка Узбекистана и нормативных документах, принятых для его развития. Кроме того, приведены статистические результаты зарубежных страховых компаний и подчеркнута важность андеррайтинговой услуги.

Ключевые слова: Страховой рынок, страховой портфель, андеррайтинговые услуги, национальный страховой рынок.

KIRISH

Dunyoda shiddatli iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish tufayli global o‘zgarishlar yuz berayotganligi, dunyodagi aholini o‘z hayotlarini, oila-a’zolari hayotini, mulklarini turli xavf-xatarlardan texnogen hamda tasodifiy tabiiy ofatlardan, ommaviy kasalliklardan kafolatlash uchun sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talablari kundan kunga oshib bormoqda.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, sug‘urta kompaniyalaridagi hozirgi kunda innovatsiyalar hamda ularni sug‘urta kompaniyalarida joriy etilganligi va iqtisodiyotdagi sug‘urta turlarini raqamlashtirishga o‘tilishi tufayli sug‘urta kompaniyalarida tashkiliy masalalarni hal etishni davr talabi qilib qo‘yaayotganligi tabiiy holdir.

Sug‘urta kompaniyalarida sug‘urta xizmatlarini yangi turlarini ko‘rsatish, sug‘urta bozorida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni yanada faollashtirish uslublarini takomillashtirish va uni sug‘urtalash yo‘li bilan realizatsiya qilish muammolarini kompleks va tizimli yechim metodlarini bozorda vujudga keladigan o‘zgarishlarga tezda moslashish sug‘urtalanuvchilarga tabaqali yondashish, raqobatbardosh yangi sug‘urtalanuvchilarni vujudga keltirish ularni shakillantirish, konyukturali o‘zgarish va bashorat qilish hamda ta’sirchan sug‘urtani rivojlantirish, sug‘urta kompaniyalari oldiga qo‘yilgan umumiy muammolardan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug‘urta bozirini shakllantirish va rivojlantirishda muammolar bo‘yicha Rossiya va O‘zbekiston olimlari tomonidan ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shunday ilmiy izlanishlarning natijasi sifatida quyidagilarni ta’kidlab o‘tish mumkin:

- Sug‘urta bozorini rivojlantirishda reklama va marketing xizmatlaridan yuqori darajada foydalanishda ijobiy natija berishi to‘g‘risida Rossiyalik iqtisodchi A.Gvozdenko, V.V. Shaxov o‘zlarining xulosa va takliflarini berib o‘tgan.

- O‘zbekistonda sug‘urta bozorini rivojlantirishda xukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va qarorlarning o‘rni muhim ahamiyat kasb etishi to‘g‘risida hamda reklama va marketingni keng yo‘lga qo‘yish borasida chet el tajribasidan foydalangan holda mintalitetimizga to‘g‘ri keladigan reklama va marketing xizmatlarini taklif etish bo‘yicha X.Shinnayev ilmiy izlanishlar olib borganlar va o‘zlarining e’lon qilgan ilmiy monografiyalari, darsliklari, o‘quv-qo‘llanma, ilmiy maqolalarida bu bo‘yicha keltirib o‘tishgan.
- Sug‘urta bozorini rivojlantirishda sug‘urta operatsiyalarining tamoyillari, sug‘urtaning nazariy masalalari, sug‘urta moliyaviy-iqtisodiy va huquqiy jihatlari hamda sug‘rta xizmalarining sifati va ahamiyati haqida X.M. Shinnayev, I.K. Ochilov, S.E. Shirinov o‘zlarining o‘quv qo‘llanmalarida keltirib o‘tishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishlari jarayonida kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, kuzatuv va statistik ma’lumotlar tahlil usullaridan foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni yanada jadallashtirishda sug‘urta sohasini aktivligini oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev alohida e’tibor qaratib, “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4412-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktyabrdagi “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5265-songi qarorlarida mamlakatimizdagi sug‘urta bozorini rivojlantirish istiqbollari ko‘rsatib berilganligi bilan tarixiy ahamiyatga ega.

Sug‘urta bozori dunyodagi hamma mamlakatlar uchun nihoyatda muhim ekanligini hisobga olib, sug‘urta bozori mamlakatdagi mavjud sug‘urta kompaniyalarining faol ravishda o‘zlarining xizmatlarini sug‘urtalanuvchilarga taklif etishi hamda oluvchi va sotuvchi o‘rtasida sug‘urta shartnomasini imzolash tushuniladi.

Xorijiy mamlakatlar milliy sug‘urta bozorini rivojlanishi asosan ko‘pincha sherikchilik munosabatlarini jamiyat miqiyosida asosiy munosabatlar darajasiga ko‘tarilishi bo‘ldi, deb baholash mumkin.

Dunyodagi eng yirik sug‘urtachi mamlakat AQSHda hamma sug‘urta kompaniyalari xususiy hisoblanib, AQSHni 19 ta shtatida boshqa mamlakatlar sug‘urta kompaniyalarini sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanishlariga davlat ruxsat bermaydi. AQSHda sug‘urta bozoridagi sug‘urta kompaniyalari tashkiliy prinsiplari bo‘yicha ikkiga bo‘linadi:

1. Aksionerlik sug‘urta kompaniyalariga.
2. O‘zaro o‘rtoqlik va sug‘urtalash asosida kompaniyalar hisoblanadi.

O‘zbekistonda esa sug‘urta kompaniyalarini asosiy qismini davlat sug‘urta kompaniyalari tashkil etib kelmoqda. Ulardan “O‘zbekinvest”, “O‘zagrosug‘urta”, “Kafolat” va boshqa davlat sug‘urta kompaniyalari sug‘urta bozorida gigemon hisoblanadilar.

Hayotni sug‘urtalash bo‘yicha esa “Agrohayot” sug‘urta kompaniyasi, “O‘zbekinvest” hayot sug‘urta kompaniyasi, “Kafolat hayot inshurens” sug‘urta kompaniyalari ham sug‘urta kompaniyalari hayotni sug‘urtalash bo‘yicha yetakchi hisoblanadilar.

Sug‘urta bozorida hamma mulk formalariga tegishli kompaniyalarida teng imkoniyatlarni davlat yaratib bergan taqdirda haqiqiy raqobat muhiti yaratiladi va bozor qonunlari ishlaydi.

O‘zbekistonda hozirgi sug‘urta bozorini davr talabi darajasida rivojlangan va dunyodagi rivojlangan mamlakatlar sug‘urta kompaniyalari tajribasidan to‘liq foydalangan deya olmaymiz, jumladan, hozirgi davrda O‘zbekistonda 20 mln. aholi ishga layoqatli bo‘lishiga qaramay, atigi 9 mln. ishga yaroqli aholi sug‘urta qilinganligi sug‘urta bozori hali egallanmaganini bildiradi.

Bugungi kunda O‘zbekistondagi yalpi ichki mahsulotdagi sug‘urtani hissasi atigi 0,4 foizni tashkil etayotganligi, sug‘urta tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan taqdirda mamlakatimizda sug‘urta tizimi rivojlanadi.

O‘zbekistonda sug‘urta bo‘yicha reklamani avj oldirish bozor iqtisodiyoti sharoitida xalqaro tajribalardan foydalanishda davlat tomonidan sug‘urta bozorini tartibga solish va boshqarishga e’tibor berish, samarali foyda beradigan sug‘urta qonunchiligini takomillashtirish, jumladan, qonunga anderrayting siyosatini kiritish va anderrayterlarni sug‘urta kompaniyalaridagi rolini oshirishi mamlakat sug‘urta kompaniyalarini moliyaviy faoliyatini yuksaltiradi.

Xalqaro sug‘urta tajribasida risklarni baholashda anderraytingni tavsiyalariga sug‘urta kompaniyalarini rahbarlari katta e’tibor berib, har bir sug‘urtalanuvchini olib kelayotgan risklarini asosan anderrayterlar baholab tuzi-

layotgan shartnomani kompaniyaga keltirishi mumkin bo‘lgan zarar va foydasini avvalo anderrayting tizimida faoliyat ko‘rsatadigan anderrayterlar prognoz qilib aniqlab beradi.

Hozirgi vaqtda halqaro sug‘urta tajribasida risklarni baholashda anderraytingni beshta asosiy turidan foydalanishni O‘zbekistonda qo‘llashni tavsiya etish mumkin.

1. Sug‘urta kompaniyalarda sug‘urtalashni amalga oshirishda anderrayting tizimini joriy etish.
2. Ssuda sohasida anderraytingdan foydalanish.
3. Qimmatli qog‘ozlar sohasida anderraytingni qo‘llash samarali bo‘lishi mumkin.
4. Ko‘chmas mulk sohasida anderraytingni qo‘llash.
5. Sud ishlari bilan bog‘liq jarayonlarda anderraytingdan foydalanish samara beradi.

AQSHdagi hamma sug‘urta kompaniyalarida sug‘urta risklarini baholashda anderrayting xodimlariga katta e’tibor berilib, ham sug‘urtalanuvchilarni arizalari va moliyaviy ma’lumotlari chuqur o‘rganiladi. Har bir shtatni sug‘urta bo‘yicha qonunlari mavjud va ular bir-biridan farq qiladi, imkoni boricha fuqarolarga moddiy jihatdan yordam ko‘rsatish dunyoni boshqa mamlakatlarga qaraganda juda yuqori darajada belgilangan.

Angliya sug‘urta bozori rivojlangan bo‘lib “Lloyd” sug‘urta korporatsiyasi dunyoda mashhur bo‘lib birinchi sug‘urta tizimida anderrayting tizimini joriy qilib, anderrayterlarning faoliyatiga katta e’tibor berilganligi natijasida “Lloyd” sug‘urta korporatsiyasiga ishga kiruvchilar soni yil sayin ko‘payib bormoqda, ammo hamma talabgorlar ham ishga qabul qilinmaydi, chunki sug‘urta korporatsiyasiga kiruvchi xodim 2 ming funt sterling kompaniyaga to‘laydi. Agar xodim ish jarayonida xatoga yoki faoliyati sug‘urta korporatsiyasiga zarar keltirsa, to‘lagan pulidan keltirgan zarari qoplanadi, shuni hisobga olib xodim butun imkoniyatini ishga solib xatosiz ishlaydi.

Germaniya fuqarolarni sug‘urtalash an’anaga aylangan, hatto, bu mamlakatga kelgan fuqarolar, ajnabiylar ham majburan sug‘urtalanadi, “Kaloniya”, “Gerling”, “Alyans”, “Alyans Ferzexirunche AG” kompaniyalarini dunyoning 135 ta mamlakatida filiallari bor va ulardan katta foyda oladi.

Fransiyada avtomobillarni, hayotni sug‘urtalash, yong‘indan sug‘urtalash, baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash ishlarini hamma sug‘urta kompaniyalari olib boradi, “SKORO” kompaniyasi aktivlari xorij valyutasida bo‘lib, asosiy kapital qo‘yilmalari investitsiya va qimmatli qog‘ozlar bo‘lib davlat tomonidan kafolatlangandir.

Shvetsariya sug‘urta bozori juda rivojlangan bo‘lib, mamlakatda 200 ga yaqin turli sug‘urta kompaniyalari mavjud, shulardan 30 tadan ortig‘i xususiy kompaniya hisoblanadi.

Shvetsariyada har bir oila oziq-ovqatga qaraganda sug‘urtaga ko‘p mablag‘ sarflaydigan mamlakat hisoblanadi. Asosan hayotni, transportni sug‘urtalash ommalashgandir.

Yaponiya sug‘urta bozorida hayotni sug‘urtalash Yaponiyada fuqarolarga ijtimoiy va shaxsiy sug‘urtadan juda ko‘p yordam berib kelinmoqda.

Yaponiyadagi sug‘urta kompaniyalarini davlat qattiq nazorat qiladi. Yirik kompaniyalari “Meydzi Myuchuel Layf enshurens”, “Mitsubisi”, “Meydzi Seymey Xoken Socha Kaysha”, bular savdo, sanoat, Moliya kompaniyalarida sug‘urtalashni hamma turlari bilan shug‘ullanadi.

Italiyada dunyoda birinchi sug‘urta ishi bo‘yicha sharnoma 1347-yili Genuyada imzolangandir. Hozir Italiyada 250 tadan ortiq sug‘urta kompaniyalari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda, ular qayta sug‘urtalash, hayotni sug‘urtalash, mulkni sug‘urtalash sug‘urta yig‘imlarni 50 foizi avtomobillarni sug‘urtalashdan yig‘ib olinadi.

O‘zbekistonda hayotni sug‘urta qilish bo‘yicha to‘langan to‘lovlar 2022-yilda “Agros hayot sug‘urta kompaniyasi” AJ – 166,093,000 so‘m, “Kafolat hayot INSURANCE” AJ – 143,991,000 so‘m, “ALFA INSURANCE” 153,575,000 so‘m, “EUROASIA LIFE INSURANCE” AJ – 116,012,000 so‘m, “FAROVON SUGURTA” AJ – 17,920,000 so‘m to‘lashga ko‘rilgan zararni qoplashga yuqoridagi summani to‘lashga majbur bo‘lishdi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanib anderrayting tizimini hamma sug‘urta kompaniyalariga davlatni tavsiyasi bilan joriy etish kerak. Anderrayting tizimi hamma risklarni baholaydi, qabul qiladi va ularning tavsiyasiga binoan sug‘urta kompaniyasini raxbariyati moliyaviy foyda va zarar ko‘rish ehtimoli bo‘lgan risklarni qabul qiladi. Aynan anderrayting tavsiyalari sug‘urta kompaniyasida:

1. Moliyaviy mablag‘larni ko‘payishiga yordam beradi.
2. Sug‘urta kompaniyasiga foyda keltiradigan risklarni qabul qiladi.
3. Genetik va ekologik o‘zgrishlarni insonlarga keltiradigan zararini anderrayterlar oldindan prognoz qiladi.
4. Globalizm tufayli moliyaviy aloqalar va elektron schotchiklari va boshqa yangiliklarni muntazam ishlashini talab qiladi.
5. Yangi potensial xavfi tufayli: ilmiy-texnika, yangi mahsulotlar dori-darmonlar, avtomobillar, innovatsiya tufayli yangi mahsulotlar bozorga kirib kelmoqda.

Anderrayterlar sug‘urta kompaniyasini moliyaviy holatiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlab va ko‘rsatib beradi va ularga quyidagilarni kiritish mumkin, deb hisoblaymiz.

1. Ma’lum muddatdan keyin risklarni yuz berishi.
2. Qo‘shilgan zarar tufayli yangi sug‘urta portfelini shakillantirish.
3. Noaniq faktlar va asossiz yolg‘on ma’lumotlardan saqlanish.
4. Iqtisodiy, ekologik, texnologik, huquqiy, ijtimoiy sharoitlarni hisobga olib, har bir riskka adolatli baho berish.
5. Sug‘urta firibgarliklarini hamma imkoniyatlarni ishga solib, ularni aniqlash va tegishli choralar qo‘rishni anderrayter tizimi aniqlaydi.

Sug‘urta kompaniyalarida sug‘urta portfelini ishlab chiqish jarayoni nihoyatda murakkab bo‘lib, uni ishlab chiquvchilar asosan iqtisodiy, huquqiy, matematika, tahlil hamda prognoz sohasida, ma’lum bilim va tajribaga ega bo‘lishlari kerak. Xorijiy mamlakatlar sug‘urta kompaniyalarida aynan yuqorida ko‘rsatilgan talablarni o‘zida mujassamlashtirgan mutaxassislarni tanlab olinadi va ularga kafolat hamda moddiy rag‘batlantirishni amalga oshirib, ulardan hatto sug‘urta kompaniyasidagi ishlovchi xodimlarni sug‘urta kompaniyasiga keltirayotgan foydasigacha aniqlab berishda ularni xizmatidan raxbariyat foydalanadi.

O‘zbekistondagi eng yirik “O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasida anderrayting tizimi joriy etilishi tufayli mijozlar bilan imzolangan shartnomalar soni ko‘paydi, sug‘urta mukofotlarini summasi oshib bormoqda hamda to‘lanayotgan sug‘urta qoplamalarida ham turli o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin.

1-jadval: “O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasida anderrayting tizimini joriy etish tufayli moliyaviy yuksalish darajasi

№	Yil	Shartnomalar soni	Sug‘urta majburiyati (mlrd.so‘m)	Sug‘urta mukofoti (mln.so‘m)	Sug‘urta qoplamalar soni	To‘langan sug‘urta qoplamasi (mln.so‘m)
1.	2018	778 922,00	102 276,92	169 117,06	9 660,00	31 049,99
2.	2019	643 422,00	82 629,63	285 609,08	11 335,00	24 175,09
3.	2020	513 885,00	153 306,03	262 869,20	7 501,00	66 601,20
4.	2021	926 300,00	208 204,55	385 384,75	8 131,00	89 324,95
5.	2022	891 285,00	351 897,18	930 533,72	5 231,00	78 688,96

“O‘zbekinvest” davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi 2016-yildan anderrayting tizimidan foydalanishni sug‘urta kompaniyasida joriy etganligi natijasida, yig‘ib olingan sug‘urta mukofotlar 2018-yilda 169 117,06 mln. so‘m, to‘langan sug‘urta qoplamasi 31 049,99 mln. so‘mni tashkil etgan. 2020-yil sug‘urta mukofotlari 262 869,20 mln. so‘m, to‘langan sug‘urta qoplamalari 66 601,20 mln. so‘mni tashkil etgan, 2022-yilda to‘plangan sug‘urta mukofotlari 5 231,00 mln. so‘m, to‘langan sug‘urta qoplamasi 78 688,96 mln.so‘mni tashkil etgan.

Ushbu tahlil qilingan sug‘urta ma’lumotlari “O‘zbekinvest” davlat aksionerlik sug‘urta kompaniyasida anderrayting tizimi joriy etilishi tufayli kompaniyaning butun faoliyati anderrayting tizimini taklifi bilan audit tahlilidan o‘tkazilib, kompaniyadagi xato va kamchiliklar aniqlanib, ish yangidan anderrayting bo‘limini talablari asosida tashkil etilganligi tufayli hozirgi kunda “O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasi ham milliy sug‘urta bozorida ham jahon sug‘urta bozorida ham ko‘zga ko‘ringan sug‘urta kompaniyasi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug‘urta bozorida anderrayting tizimi quyidagi talablarni qo‘yishi natijasida sug‘urta bozorida har bir sug‘urta kompaniyasi raqobatbardosh bo‘lishi mumkin deyiladi.

- Sug‘urta risklarini adolatli baholash, sug‘urta obyektini har tomonlama, iqtisodiy, huquqiy, moliyaviy jihatdan o‘rganish va gohida ekspertiza o‘tkazish;
- Shartnomalarni muddatini aniq belgilash, sug‘urta mukofoti summasini, sug‘urta qoplash summasini kelishib olish;
- Sug‘urta bozorini segmentlashga alohida e’tibor berish;
- Sug‘urta mahsulotini reklamasini ko‘paytirish;
- Sug‘urta bozoriga sug‘urta mahsulotlarini eng zamonaviy turlarini olib kirish;

- Sug‘urta kompaniya oladigan foyda anderrayterlar tomonidan sug‘urta risklariga beriladigan bahoga bog‘liqligi;
- Anderraytingni nazorat funksiyasini kuchaytirish bu bozor talabidan kelib chiqib, sug‘urta kompaniyasida grafik bo‘yicha monitoring olib borishni amalga oshirishi;
- Anderrayting xulosalaridan eng xavfli risk suv toshqini, tornada, sel, yog‘ingarchilik, qurg‘oqchilik, yong‘in, zilzila, ommaviy kasallanish, terrorizm, g‘alayonlar katta zarar keltiradi, shuning uchun sug‘urta shartnomasiga franshizani aynan anderrayting xodimlari kiritishi orqali kelajakdagi katta moliyaviy zararlardan sug‘urta kompaniyasini saqlab qolishda anderrayting tizimini masuliyatini oshirish qonunlarni takomillashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson mafaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2017.
2. Гвозденко А.А Основы страхования: Учебник. – М.: Финансы статистика 2003.
3. Шахов.В.В Страхование. Учебник для вузов. М “ЮНИТИ”, 2001.
4. Boyev X.I. “Sug‘urtalash” “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti”, Toshkent-2005.
5. Shinnayev X. O‘zbekiston sug‘urta bozori. – T.: “Iqtisod-Moliya” 2013.
6. Shinnayev X.M., Ochilov I.K., Shirinov S.Ye., Kenjayev I.G‘. Sug‘urta ishi. Tafakkur bo‘stoni. – Toshkent-2014.
7. www.mf.uz O‘zbekiston Moliya vazirligi ma’lumotlari.
8. www.stat.uz Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI BOSHQARISHDA JAHON TAJRIBASI

Saipova Dilnoza Shuxratovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amazon, Tesla, Google, Siemens va Samsung kabi yirik kompaniyalarning faoliyatini tahlil qilish asnosida ularning texnologik yangiliklarni joriy etish, yangi bozor tendensiyalarini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion madaniyatni shakllantirish, raqamli texnologiyalarga investitsiya kiritish, raqamli platformalarni joriy etish amaliyoti va yangi biznes modellarini ishlab chiqish strategiyalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, innovatsion faoliyat, texnologik investitsiyalar, innovatsion madaniyat, raqamli transformatsiya, raqamli platformalar, yangi biznes modellari, jahon tajribasi, xorijiy kompaniyalar.

Abstract: This article analyzes the activities of large companies such as Amazon, Tesla, Google, Siemens, and Samsung in terms of their implementation of technological innovations, support of new market trends, formation of an innovative culture, investment in digital technologies, implementation of digital platforms, and new business. strategies for developing models are considered.

Key words: Digital economy, innovative activity, technological investments, innovative culture, digital transformation, digital platforms, new business models, world experience, foreign companies.

Аннотация: В данной статье анализируется деятельность таких крупных компаний, как Amazon, Tesla, Google, Siemens и Samsung, с точки зрения внедрения ими технологических инноваций, поддержки новых тенденций рынка, формирования инновационной культуры, инвестиций в цифровые технологии, внедрения цифровых платформ. и рассматриваются новые бизнес-стратегии разработки моделей.

Ключевые слова: Цифровая экономика, инновационная деятельность, технологические инвестиции, инновационная культура, цифровая трансформация, цифровые платформы, новые бизнес-модели, мировой опыт, зарубежные компании.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan bir qatorda, innovatsion faoliyatning ahamiyati ham ortib bormoqda. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish orqali tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko‘maklashish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Sanoatda raqobatbardoshlik va mahsuldorlikni oshirish bosqichlarini tadqiq qilish va uning o‘ziga xos xususiyatlarini asoslash yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirishni rag‘batlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va eksport tarkibida ulushni oshirish, innovatsion texnologiyalar va ilg‘or boshqaruvni qo‘llashni kengaytirishga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashdan iboratdir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha samarali mexanizmlar o‘z vaqtida joriy qilinmagani ham jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi ham iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida to‘siq bo‘lmoqda”, [1] deya ta’kidlagani tadbirkorlik sohasida innovatsion faoliyatni boshqarishda ko‘plab murakkabliklarni keltirib chiqarayotganligi, bu murakkabliklar orasida texnologik yangilanishlarni tezda qabul qilish, yangi bozor tendensiyalarini o‘zlashtirish va korxona ichida innovatsion madaniyatni shakllantirish masalalari muhim o‘rin tutadi. Bunday sharoitda, jahon amaliyotini o‘rganish va eng yaxshi tajribalarini qo‘llash, korxonalar uchun katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarishning jahon tajribasidan foydalanishning nazariy yondashuvlari bir qator mahalliy va xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Xususan,

Moliyaviy qarorlar biznes jarayoniga umuman olganda, kompaniyalarning rivojlanishiga qanchalik ta'sir ko'rsatishini va ularning faoliyati uchun qanchalik muhim ekanligini yuqorida ko'rib o'tdik. Shuning uchun har bitta kompaniya moliyaviy barqaror bo'lishi, bozorda raqobatga bardoshli bo'lishi uchun moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga alohida ahamiyat berishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Redmond, B. (2017). Strategic Decision-Making: An Introduction to Bounded Rationality And The Influence Of Cognitive Errors, 21–25.
2. Kase, L. (2010). Great Leaders are Great Decision-Makers Three Qualities to Take the Paralysis out of Decision Analysis. Graziado Business School. 13(4), 11–19.
3. Fredrickson, J.W., 1984. The Comprehensiveness of Strategic Decision Processes: Extension, Observation, Future Decisions. Academy of Management Journal, 27, pp. 405–409.
4. Burke, L. A. (2009). Taking the Mystery Out of Intuitive Decisions, Academy of Management Executives, 13 (4); 81-84.
5. Dikalo S.V. (2014). Upravlenie finansovymi resursami promyshlennykh predpriyatii [Financial Resources Management in a Manufactural Enterprise]. Vserossiiskii ekonomicheskii zhurnal, 1, 188-189.
6. Sawady, E., & Tescher, J. (2008). Financial Decision Making Processes of Low-Income Individuals. Author, pp. 29.
7. Van Auken, P. & Howard, E. (1993). A factor analytic study of the perceived causes of small business failure, Journal of Small Business Management, vol. 31(4), p. 43-47.
8. Fredrickson, J.W., 1984. The Comprehensiveness of Strategic Decision Processes: Extension, Observation, Future Decisions. Academy of Management Journal, 27, pp. 345–346.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

MEHMONXONALARDA BOSHQARUV TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

Qalandarova Gulnoza
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Botirova Zumrad
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya: Ko‘pgina tashkilotlar, eng yaxshi mehmonxona brendlari ma’lumotlar va vazifalarni elektron tarzda qayta ishlashga yordam beradigan texnologik jihatdan onlayn tizimlardan foydalanishni boshladilar. Mehmonxona mulkini boshqarish tizimi yoki mehmonxona PMS sifatida tanilgan ushbu dastur mehmonxona boshqaruviga raqamli platformalardan foydalanishga imkon beradi, masalan, bron qilish, mehmonlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va shu bilan birga xodimlarning ishini yengillashtiradi.

Ushbu maqolada biz rezervationlar, front va back-ofis operatsiyalari bilan shug‘ullanadigan mulkni boshqarish tizimlari (PMS)ni tahlil qilamiz. Bundan tashqari PMS ning asosiy funksiyalari haqida, turli provayderlar tomonidan taqdim etilgan mahsulotlarni solishtirish va mehmondo‘stlik biznesi uchun eng mos tizimni tanlash bo‘yicha tavsiyalar bilan tanishishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: PMS, bron qilish, raqamli boshqaruv, mehmondo‘stlik biznesi, back-ofis, mehmonxona, front-ofis.

Abstract: Many organizations, including top hotel brands, have started using technologically advanced online systems that help them process data and tasks electronically. Known as hotel property management system or hotel PMS, this software allows hotel management to use digital platforms for things like reservations, guest check-in, and at the same time eases the work of the staff.

In this article, we will analyze property management systems (PMS) that deal with reservations, front and back-office operations. You can also learn about the main functions of a PMS, compare products from different providers, and find recommendations for choosing the most suitable system for your hospitality business.

Key words: PMS, Reservation, Digital Management, Hospitality Business, Back Office, Hotel, Front Office.

Аннотация: Многие организации, в том числе ведущие гостиничные бренды, начали использовать технологически продвинутые онлайн-системы, которые помогают им обрабатывать данные и выполнять задачи в электронном виде. Это программное обеспечение, известное как система управления гостиничным имуществом или PMS отеля, позволяет руководству отеля использовать цифровые платформы для таких вещей, как бронирование, регистрация гостей, и в то же время упрощает работу персонала.

В этой статье мы проанализируем системы управления недвижимостью (PMS), которые занимаются бронированием, операциями фронт- и бэк-офиса. Вы также можете узнать об основных функциях PMS, сравнить продукты разных поставщиков и найти рекомендации по выбору наиболее подходящей системы для вашего гостиничного бизнеса.

Ключевые слова: PMS, бронирование, цифровой менеджмент, гостиничный бизнес, бэк-офис, гостиница, фронт-офис.

KIRISH

Birinchi PMS mehmonxona1970-yillarda joriy etilgan bo‘lib, PMS-mehmonxona xodimlariga ma’muriyatni boshqarish va mehmonxonaning turli kundalik operatsiyalarini onlayn nazorat qilish imkonini beradi. Undan mehmonxona boshqaruvi dasturiy ta’minotidan foydalanadilar, jumladan, bronni boshqarish tizimlari, ro‘yxatdan o‘tish-chiqish tizimlari, front-ofisni va mehmondo‘stlikni boshqarish tizimlari.

Shuningdek, mehmonxona xodimlari, jumladan, mehmonxonaning old qismi, xizmat ko‘rsatish va savdo xodimlari xizmatlar va mijozlar tajribasini yaxshilash uchun ko‘rib chiqishi mumkin bo‘lgan aniq va real vaqtda ma’lumotlarni taqdim etadi.

Umuman olganda, PMS mehmonxonada ichki va tashqi operatsiyalar bilan bog‘liq asosiy jarayonlarni osonlashtiradi.

Hozirgi vaqtda mehmonxona mulkini boshqarish tizimlari yirik mehmonxona zanjirlari, kichik yotoqxonalar va ularning orasidagi barcha funksiyalar tomonidan qo‘llaniladi. Ushbu tizim yordamida mehmonxonalar xonalarni bron qilish holatini ko‘rishlari va bron qillingan xonalarni nazorat qilishlari mumkin. Biroq ularning funksionalligi shu bilan tugamaydi. PMS orqali mehmonxonalar back-ofis jarayonlarini, oziq-ovqat va ichimliklar xizmatlarini boshqarishi va xonalarda bandlik stavkalarini kuzatishi mumkin.

PMS funksiyalarini muhimlik darajalariga bo‘lish qiyin, chunki ularning barchasi zarurdir. Biroq mulk turidan qat’i nazar, mehmonxona mulkini boshqarish tizimlari veb-saytni bron qilish mexanizmi va front-ofis operatsiyalari moduliga ega bo‘lgan bron tizimiga ega bo‘lishi kerak. Boshqa muhim modullar odatda daromadlarni boshqarish, uy xo‘jaligi, mijozlar ma’lumotlarini boshqarish, hisobot va tahlillarni o‘z ichiga oladi. Katta mehmonxonalar yoki dam olish maskanlari esa, albatta, savdo nuqtalari (POS) xizmatlari va back-ofis modullariga muhtoj.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2020-yildan 2026-yilgacha CAGR(Compound Annual Growth Rate) 12,3% ni tashkil qiladi. Dunyo bo‘ylab mehmonxonalarning 90% dan ortig‘i PMS-dan foydalanadi.

U global PMS bozori 2022-yildagi 4,61 milliard dollardan 2027-yilga kelib 7,09 milliard dollargacha o‘sishi kutilmoqda, bu prognoz davrida CAGR 8,0 foizni tashkil etadi.

PMS yechimlarini qabul qilish mehmonxona faoliyatini tartibga solish, mehmonlar tajribasini oshirish va daromadlarni boshqarishni takomillashtirish zarurati kabi omillar bilan izohlanadi.

2021–2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini amalga oshirish natijasida 2021-yilda xizmatlar ko‘rsatish hajmi qariyb 20 foizga o‘sdi.

Shu bilan birga, xizmatlar sohasini rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni joriy etish orqali bozor xizmatlari hajmini 2022-yilda 1,5 baravarga oshirish hamda qo‘shimcha 1,5 million yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlari mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Texnologik innovatsiyalar mehmondo‘stlik sanoatida o‘z yo‘lini topdi. 2015-yilda Software Advice kompaniyasining “Mehmonxona boshqaruvi dasturiy ta’minoti BuyerView” hisoboti shuni ko‘rsatdiki, mehmonxonalarning atigi 34 foizi maxsus dasturiy ta’minotdan foydalangan, 25 foizi esa mehmonxonalarni boshqarish uchun faqat qalam va qog‘ozga tayangan, 16 foizida esa mehmonxonani boshqarish tizimi umuman yo‘q. Bugungi kunda Stayntouch 2022 Technology Sentiment Report hisobotiga ko‘ra, pandemiya davrida mehmonxonalarning 81,7 foizi kamida bitta turdagi texnologiyani joriy qilgan.

Mehmondo‘stlik sanoati o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, xona ichidagi nazorat, mobil kalitlar va raqamli to‘lovlar kabi innovatsion yechimlarni izlay boshladilar. Ko›pgina yirik o›yinchilar allaqachon narsalar Internet infratuzilmasi asosida aqlli texnologiyalarni joriy etishgan. Ammo hali ham ko‘plab eski tizimlar mavjud.

Eski PMS dasturiy ta’minoti faqat bitta funksiyani bajarishi, qo‘shimcha modullarni talab qilishi yoki boshqa kerakli mehmonxona boshqaruvi dasturlari bilan integratsiya qilish juda qiyin bo‘lishi mumkin. Binobarin, mehmonxona egalari barcha jarayonlarni boshqarish uchun universal, yakka tartibdagi yechimni izlamoqda. 2022-yilgi mehmonxona texnologiyalari tadqiqotida respondentlarning 80 foizdan ortig‘i texnologiya haqida ko‘proq ma’lumot olishni xohlashlarini ma’lum qildi.

Zamonaviy mehmonxona biznesi uchun onlayn bron qilish ko‘p hollarda asosiy savdo kanali hisoblanadi. Onlayn buyurtmalarni boshqarishga yordam beradigan bron qilish moduli mulkni boshqarish tizimi uchun samarali ajralmas bo‘lib qoladi. Markaziy bronlash tizimi (CRS) yoki boshqa bron qilish platformasi PMS ning alohida moduli sifatida mavjud yoki mehmonxonaning alohida ichki yechimi sifatida amalga oshirilishi mumkin.

Mehmonxonani bron qilish tizimi barcha inventar ma’lumotlarini va sanalarini saqlaydi va bu ma’lumotlarni front-ofisga yuboradi. Rezervasion tizimi veb-sayt bron qilish mexanizmi va boshqa tarqatish kanallari bilan birlashtirilgan bo‘lishi kerak. Zanjirli mehmonxonalar odatda barcha obyektlar uchun bitta markaziy bron tizimiga ega, mustaqil mehmonxonalar esa o‘zlarining bron qilish tizimlariga ega. Agar mehmonxona tarmog‘i allaqachon ma’lum bir bron qilish dasturidan foydalansa, PMS mavjud xizmat bilan integratsiyani taklif qila oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda nazariy va amaliy o‘rganish, tizimli tahlil va yondashuv, so‘rovnoma, taqqoslash, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish yondoshuvlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJADORLIK

Front-ofis moduli old stol menejeriga xonani bron qilish holatini ko‘rish va yangilash, mehmonlarni kirish, chiqish va to‘lovlarni qayta ishlash imkonini beradi. Mehmon mehmonxonaga kelganida, ular imkon qadar tezroq ro‘yxatdan o‘tishni xohlashadi. Bu holatda administratorning yordami juda muhim, shuning uchun front-ofis xodimlari mehmonga samarali yordam bera olishlari kerak.

Ba’zi mulkni boshqarish tizimlari, shuningdek, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatadigan ro‘yxatdan o‘tish kioskalari bilan integratsiyani taklif qiladi yoki QR kod orqali kirish yoki chiqish imkonini beradi. Ro‘yxatdan o‘tishni avtomatlashtirish haqida yaxshiroq tasavvurga ega bo‘lish uchun Marriott va boshqa korxonalar sayohatda raqamli o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishdan qanday foydalanishini ko‘rib chiqish zarur.

- **Xona holati.** Front-ofis modulidan foydalanib, front-ofis menejeri xona holati, joriy va kelgusidagi barcha bronlar haqida ma’lumotlarni ko‘rib chiqishi mumkin. Ushbu modul yordamida xona holati tezda yangilanishi kerak. Front-ofis moduli xonalarni avtomatik ravishda ajratadi va xonani almashtirishni osonlashtiradi.
- **Kalitlarni boshqarish.** Ushbu modul elektron kalit kartalarni boshqarish, to‘lovlarni qayta ishlash va mehmonlarga cheklar berishni o‘z ichiga oladi.
- **Kundalik tekshiruvlar.** Front-ofis moduli shuningdek, foydalanuvchilarga tungi va smenali tekshiruvlarni amalga oshirish imkonini beradi.
- **Xona ichidagi nazorat.** Mehmonxonalar aqlliroq va ko‘proq texnologiyaga asoslangan bo‘lishi bilan, xonani boshqarish muhimroq bo‘ladi, chunki bu modul xona ichidagi avtomatlashtirilgan tizimlarni (masalan, chiroqlar, HVAC va boshqalar) masofadan turib boshqarishga yordam beradi va xonani mehmon kelishiga tayyorlaydi.

Bizning tadqiqotimiz zamonaviy mehmonxona boshqaruvi amaliyotlarining mohiyatini o‘rganishga qaratilgan puxta metodologiyadan boshlanadi. So‘rovlar mehmonxona boshqaruvi mutaxassislari o‘rtasida ularning mavjud tizimlar va yaxshilashga tayyor bo‘lgan sohalar bo‘yicha istiqbollarini aniqlash uchun tarqatilgan. Bundan tashqari, rivojlanayotgan tendensiyalar va potentsial yechimlar haqida ma’lumot olish uchun sanoat faxriylari va texnologiya mutaxassislari bilan suhbatlar o‘tkazildi.

Jahon turizm bozoridagi kuchli raqobat sharoitida O‘zbekistonga xorijiy turistlarni keng jalb qilish, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish, turizm namoyishi obyektlaridan samarali foydalangan holda hududlarni o‘zaro bog‘lovchi turizm xizmatlarini yanada kengaytirish, sohada yangi ish o‘rinlarini yaratish, shuningdek, respublika turizm salohiyatini xorijiy mamlakatlarda manzilli targ‘ib qilish maqsadida:

- mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari, savdo-ko‘ngilochar majmualarini qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash uchun asbob-uskunalar, texnika, xomashyo, mebel va inventarlar, qurilish materiallari va boshqa materiallar;

Joriy jarayonlarni kuzatish va biznes samaradorligini tushunish uchun barcha biznes egalari tahlillarga tayanadi. PMS tegishli mehmonxona ma’lumotlarini to‘playdigan va mehmonxonachilarga turli turdagi avtomatlashtirilgan hisobotlarni taqdim etadigan biznes razvedka vositasi bo‘lib xizmat qila oladi. Dasturiy ta’minotga qarab, u tungi audit hisobotlarini, xona va soliq hisobotlarini, smenali audit hisobotlarini, ketish/kelish hisobotlarini, uy xo‘jaligi hisobotlarini yoki boshqa davom etayotgan xulosalarni yaratishi mumkin.

Back-ofis boshqaruvi

Ushbu PMS moduli mehmonxona jamoasini boshqarish, back-ofis operatsiyalari va mehmonxonaning ma’muriy operatsiyalarini osonlashtiradi. Back-ofis boshqaruv modulining funksiyalari o‘z ichiga olishi mumkin

- Tadbirlarni boshqarish (konferentsiya va ziyofatlarni tashkil etish) va ovqatlanish,
- Spa va sport zallarini boshqarish (ba’zan bu alohida, ixtiyoriy modul),
- Xodimlarni boshqarish (orqa va front-ofisda inson resurslarini boshqarish: smena boshqaruvi, xodimlarning hisob-fakturalari va boshqalar),
- Iste’mol xarajatlari va mehmonxona xarajatlarini tahlil qilish,
- Inventar tahlili,
- Savdo va reklama kompaniyalarini boshqarish,
- Sharhlarni boshqarish.

Shunday qilib, back-ofis moduli ichki operatsiyalarni osonlashtiradi, xodimlarni tartibga solishga yordam beradi va ko‘pincha buxgalteriya hisobi va moliyaviy bilan bog‘liq boshqa funksiyalarni o‘z ichiga oladi.

Savdo nuqtasi xizmatlari

Aksariyat mehmonxonalarda sport zallari va kurortlari bo‘lgan obyektlar haqida gapirmasa ham, ichki restoran mavjud. Shunday qilib, mehmonxonada bir nechta to‘lov terminallari mavjud bo‘lsa, turli manbalardan

tranzaktsiyalarni to‘plash va aniq amalga oshirish uchun savdo nuqtalari (POS) tizimi ajralmas hisoblanadi. PMS-dagi POS moduli bilan mehmonxonalar har bir mijoz uchun yakuniy hisobda qo‘shimcha to‘lovlar yoki chegirmalar kiritishlari mumkin. Bunday ayblovlarga ba’zi misollar:

- Spa, sport zallari va boshqa tadbirlar;
- Oziq-ovqat va ichimliklar xizmatlari (restoranlar, kafelar, nonushta);
- Xonadagi xizmatlar, mini-bar buyumlari, televizor yoki Wi-Fi.

To‘lovlarni avtomatlashtirilgan qayta ishlashga qo‘shimcha ravishda, keng qamrovli POS moduli inventarizatsiyani boshqarishni qo‘llab-quvvatlashi, mijozlarning xarid qilish shakllari haqida ma’lumot to‘plashi, savdo faoliyati hisobotlarini yaratishi va moliyaviy ma’lumotlarni bir joyda saqlashi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mehmonxonalardagi boshqaruv tizimi o‘zgarishlar yoqasida turibdi, xodimlar tajribasini oshirish va barqaror o‘sishni ta’minlash uchun texnologiya va inson zukkoligining to‘liq salohiyatidan foydalanishga tayyor hisoblanadi. Mehmonxona bosh direktorlari innovatsiyalarni qabul qilish, hamkorlikni rivojlantirish va mehmonlarga e’tibor qaratishga ustuvor ahamiyat berish orqali mehmondo‘stlik chegara bilmaydigan kelajak sari yo‘l tutishlari mumkin.

Mehmonxona mulklarining bunday turlari odatda kattaligi va ichki tuzilishi tufayli POS xizmatlari yoki golf boshqaruvi kabi juda ko‘p qo‘shimcha modullarni talab qilmaydi. Ushbu PMS-larning asosiy komponentlari bo‘lishi kerak bo‘lgan onlayn bron qilish vositasi, front-ofis yechimi va mehmonxonaning mavjud bron platformasiga integratsiyani tahlil qilish. Kichkina mehmonxonalar biroz boshqacha funksiyalarga muhtoj bo‘lishi mumkinligi sababli, PMS yuqori darajadagi moslashtirishni taklif qilishi kerak.

- Markazlashtirilgan mehmonlar ma’lumotlari: PMS barcha mehmonlar ma’lumotlarini bir joyda saqlaydi, bu esa mehmonlarning afzalliklari va tarixini kuzatishni osonlashtiradi.
- Avtomatlashtirilgan vazifalar: PMS bron qilish, ro‘yxatdan o‘tish/chiqish va hisob-kitob kabi ko‘plab vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin. Bu mehmonlarga ijobiy tajriba taqdim etishga e’tibor qaratish uchun xodimlar vaqtini tejashi mumkin.
- Yaxshilangan aloqa: PMS mehmonxona ichidagi turli bo‘limlar o‘rtasidagi aloqani yaxshilashi mumkin, masalan, front-ofis, uy xona xizmatlari, oziq-ovqat va ichimliklar.
- Daromadning oshishi: PMS mehmonxonalar bandligini kuzatish, tariflarni boshqarish va xizmatlarni sotish uchun vositalarni taqdim etish orqali mehmonxonalarga daromadni oshirishga yordam beradi.
- Mehmonlarga xizmat ko‘rsatish: PMS mehmonlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilashga yordam beradi va xodimlarga mehmonlar haqida ma’lumot va imtiyozlarga oson kirish imkonini beradi. Ushbu ma’lumotlardan mehmonlar tajribasini shaxsiylashtirish va mehmonlar bilan bog‘liq muammolarni tez va samarali hal qilish uchun foydalanish mumkin.
- Xarajatlarni kamaytirish: PMS mehmonxonalarga vazifalarni avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirish orqali xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Misol uchun, PMS ro‘yxatdan o‘tish / chiqish jarayonini avtomatlashtirish va qo‘lda hujjatlarni rasmiylashtirishga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirish uchun ishlatilishi mumkin.

Umuman olganda, PMS mehmonxonani boshqarish uchun muhim vositadir. PMS dan foydalangan holda mehmonxonalar samaradorligini, mahsuldorligini va rentabelligini oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. HOTEL MANAGEMENT AND OPERATIONS (available as a PDF)
2. AUTHOR : Michael J. O‘Fallon, Ph.D.
3. Edited by : Denney G. Rutherford, Ph.D. 2018.
4. The Importance of Management Systems in the Hotel Industry by the Cornell University School of Hotel Administration (available as a PDF)
5. AUTHOR: Cornell Peter and Stephanie Nolan. 2024
6. https://lesroches.edu/blog/hotel-property-management-systems/
7. https://www.altexsoft.com/blog/hotel-property-management-systems-products-and-features/



O‘ZBEKISTONDA MAKTAB VA MAKTABGACHA TALIM TIZMINI MOLIYASHTIRISHNI TAKOMILASHTIRISH

Boltaboyev Murodbek Aybekovich
Andijon viloyati Buloqboshi tumani
maktabgacha ta’lim bo‘limi bosh hisobchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyalashtirish manbalari, tarkibi va ularni optimallashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, ta’lim xarajatlari, moliyalashtirishning davlat manbalari, moliyalashtirishning nodavlat manbalari, xarajatlar smetasi, shtatlar jadvali.

Abstract: In this article, the sources of financing costs in educational institutions in the Republic of Uzbekistan, their composition and their optimization are covered.

Key words: education system, education costs, state sources of financing, non-state sources of financing, cost estimate, state table.

Аннотация: В данной статье рассмотрены источники финансирования расходов в образовательных учреждениях Республики Узбекистан, их состав и оптимизация.

Ключевые слова: система образования, затраты на образование, государственные источники финансирования, негосударственные источники финансирования, смета расходов, государственная таблица.

KIRISH

Barchamizga ma’lumki, ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning uzviy va hal qiluvchi yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog‘chadan boshlab oliy o‘quv yurtigacha - ta’limning barcha bo‘g‘inlarini isloh qilishni boshladik” [1].

Mamlakat uchun davlatdagi ta’lim tizimining qay holatda ekanligi va qanday kadrlar kelajakda tayyorlanishi muhim ahamiyatga ega. Ta’lim tizimining faoliyati esa ta’limga bo‘lgan e’tiborga asoslanadi.

Davlat statistika agenligining ma’lumotlariga ko‘ra, har yili O‘zbekiston Respublikasida 700 mingdan ortiq bola tug‘iladi, bu esa maktabgacha ta’lim tashkilotlariga tushadigan yukni oshiradi. Chunonchi, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga tushadigan umumiy ortiqcha yuk respublika bo‘yicha 12 foizni tashkil qilsa, uning eng yuqori darajasi Qoraqalpog‘iston Respublikasida (21 foiz), Jizzax (35 foiz) va Buxoro (21 foiz) viloyatlarida, engpast darajasi esa Surxondaryo (9 foiz) va Farg‘ona (9 foiz) viloyatlarida, shuningdek Toshkent shahrida (6 foiz) kuzatilmoqda. Umuman, mamlakat bo‘yicha 3-7 yoshdagi har 100 nafar bolaga maktabgacha ta’lim muassasalarida 28,1 ta joy to‘g‘ri keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekistonlik iqtisodchi H.Do‘stmuhammadning fikricha “Ta’lim – bu barkamol insonni shakllantirishga qaratilgan investitsiya. Jamiyat ham, davlat ham, bunday investitsiya kiritishdan manfaatdor, chunki, ta’lim sifatini oshirish ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi, mehnat unumdorligini oshirishga, mavjud ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shu bois, ta’limga yo‘naltirilayotgan moliyaviy resusrlr va ulanrdan samarali foydalanish chora-tadbirlari qo‘llanilayotgan ustuvor ahamiyatga egadir” [2].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish jarayonlari S.V.Kuznesova, A.N.Ilchenko tadqiqotlarida alohida o‘rin egallaydi. Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta’lim xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoj ijti-

moiy-demografik omillar ta’sirida o‘zgarishi, maktabgacha ta’limni samarali faoliyati uning faoliyatyuritish jarayonlarini to‘g‘ri tahli lqilishga asoslangan prognoz natijalariga asoslanish qayd etiladi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlar ifaoliyatini moliyaviy tartibga solish, bu bilan maqsadli mos vositalarni tanlashda matematik usullar va modellardan foydalanish tavsiya etiladi [3].

X.B. Nazarov ilmiy tadqiqotlarida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini baholash muammolari va jahon amaliyotida mavjud bo‘lgan tahlil asosida ta’limga budjet xarajatlari samaradorligini baholashga nisbatan uslubiy yondashuvlar muhokama qilingan [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada mavjud muammo tadqiqotining bir qator usullardan foydalanish asosida o‘rganilgan, jumladan, xorijiy tajribalarni monografik tahlillar natijalarini monografik tadqiqot, analiz va sintez, tizimli tahlil kabi iqtisodiy usullar asosida tadqiq qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu jumladan, Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi jami 100 ta maqsadni qamrab olgan bo‘lib, shundan, 34 tasi adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq. Inson taraqqiyoti konsepsiyasining asosiy tamoyillariga muvofiq inson kapitali rivojlanishini ta’minlash milliy iqtisodiyotimiz uchun dolzarb ahamiyatga molikdir. Har bir mamlakat uchun yosh avlodning kelajakda munosib o‘rin egallashi va raqobatbar- dosh kadrga aylanishi, real hayotda yutuqlarga erishishi, yuqori malaka ko‘nikmalarni egallashi uchun zarur bo‘lgan barcha shart sharoitlar yaratish muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuniga ko‘ra ta’lim olish shakllari quyidagilardan iborat [5]:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi);
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
- dual ta’lim;
- oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish;
- katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish;
- inklyuziv ta’lim;
- eksternat tartibidagi ta’lim;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Ta’lim tizimining samaradorligi uni moliyalashtirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shunday ekan, dastlab moliyalashtirishning mohiyati va zarurligini ko‘rib chiqamiz, keyin ta’lim tizimini moliyalashtirish xususiyatlarini tadqiq qilamiz. Mamlakatimiz inson manfaatlari uning huquqlari va erkinliklari yuksak darajadagi qadriyatlardan biri bo‘lgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lidan dadil qadamlar tashlab borar ekan, bugungi kunda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan bir qator yutuqlarga erishayotganligi va barcha sohalardagi islohotlar jadal ravishda olib borilayotganligi, ta’lim tizimiga yo‘naltirilgan resurslarning bugungi kundagi samarasi bilan izohlanadi. Moliyalashtirish deganda tor ma’noda pul mablag‘lari, moliyaviy resurslar bilan ta’minlash tushuniladigan bo‘lsa, kengroq ma’noda belgilangan maqsadga erishish yoki faoliyatni amalga oshirish uchun moliyaviy ta’minlashni, ya’ni moliyaviy resurslar ajratishni tushunishimiz mumkin.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirish mexanizmi samaradorligini oshirish, davlat moliya tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, bu orqali ta’limning konstitutsiyaviy kafolatlarini ta’minlash, maktabgacha ta’lim tizimining zamonaviy maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirishning shahar va hududiy dasturlarini ishlab chiqish, davlat maktabgacha ta’limini rivojlantirishning optimal budjet xarajatlarini ta’minlash kabi qator vazifalar ijrosini amalga oshirishda, ayniqsa, moliyalashtirish jarayonini budjet mablag‘laridan foydalanish tizimining asosi ekan-

ligi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllarini kengaytirish, kam ta’minlangan oilalar farzandlari uchun sifatli ta’lim olishni ta’minlash, maktabgacha ta’limning ijtimoiy ehtiyojlarini to‘liq qamrab olishga yo‘naltirilganligi fikrimizni asoslash uchun xizmat qiladi.

2022-yilda O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish maqsadida davlat budjetidan jami 8 641,3 mlrd. so‘mlik mablag‘ ajratilgan bo‘lib, bu ta’limga ajratilgan umumiy xarajatlarning 18,4 foizini tashkil etadi. Oila va bolaning maktabgacha ta’lim muassasasi xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish tizimini takomillashtirish maqsadida davlat xususiy sherikligiga asoslangan maktabgacha ta’lim tashkilotlariga 1 500 mlrd. so‘m budjet mablag‘lari ajratilgan. Bu ko‘rsatkichlar, budjetdan maktabgacha ta’lim uchun qilingan xarajatlarni qariyb 17,4 foizini tashkil etadi. Moliyalashtirishning yuqori ko‘rsatkichi, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun ajratilgan bo‘lib, 4 724,6 mlrd. so‘m mablag‘ ushbu jarayonni moliyalashtirishga sarflangan.

Shuningdek, oziq-ovqat, joriy ta’mirga xarajatlar, kommunal xizmat va ko‘mir sotib olish xarajatlarining umumiy qiymati 1 631,6 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Ushbu xarajatlar jami xarajatlarning taqriban 18,9 foiz ulushga ega. O‘z navbatida maktabgacha ta’lim xizmatlari bozori faoliyatini modernizatsiya qilish, sohada bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonlarida mulkchilik munosabatlarining o‘rni, maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonining mutloq o‘sish sur’atini ta’minlash bilan birga uning tuzilmaviy tarkibini takomillashtirish uchun ham xizmat qilayotganligini kuzatishimiz mumkin. 2020–2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining umumiy ko‘rsatkichlari tarkibida bu boradagi sifat o‘zgarishlari ta’minlangan. 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining umumiy ko‘rsatkichi 18345 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda ushbu ko‘rsatkich qo‘shimcha 49 foizga oshib, 27303 taga etgan.

Ta’limni moliyalashtirish tegishli moliyaviy-iqtisodiy mexanizmga asoslanadi. Moliyaviy-iqtisodiy mexanizm tarkibi murakkab bo‘lib, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy elementlarning (quyi tizimlar) birligini tashkil qiladi.

Ta’lim tizimini rivojlantirish maqsadida qulay vaziyatni ta’minlash uchun ta’lim muassasalari va idoralar tomonidan moliyaviy resurslarni yaratish, taqsimlash va ulardan foydalanish shartlari, shakllari va usullari majmuyi moliyaviy mexanizmni tashkil etadi. Ushbu mexanizmning o‘ziga xosligi ta’lim sohasida, har bir bog‘lanishda va turli o‘quv muassasalarida mablag‘larni shakllantirish va ulardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq.

Ta’lim sohasidagi zamonaviy moliyaviy mexanizm ta’lim muassasalarini byudjet tomonidan moliyalashtirishni pullik ta’lim xizmatlarini rivojlantirish va boshqa o‘zini o‘zi moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish bilan birgalikda tavsiflanadi. Shu bilan birga, bepul xizmatlarni pullik xizmatlar bilan almashtirish mumkin emas deb hisoblanadi va asosiy e’tibor ularni oqilona uyg‘unlashtirishga qaratiladi.

Ta’lim tizimining moliyaviy mexanizmi umumiy ko‘rinishda ta’lim muassasalarining moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonlarini maqsadli tartibga solish tizimi sifatida ifodalanishi mumkin.

Davlat ta’lim muassasalarini moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan, tumanlar va shaharlar byudjetlaridan, kadrlar buyurtmachilarining mablag‘lari hisobidan, shuningdek byudjetdan tashqari mablag‘lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Nodavlat ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirish muassislarning, kadrlar buyurtmachilarining pul va moddiy mablag‘lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Davlat ta’lim muassasalari ustavida belgilangan vazifalarga muvofiq pulli ta’lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega. Pulli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish davlat ta’lim muassasalarining asosiy faoliyatiga to‘sqinlik qilmasligi kerak.

Davlat ta’lim muassasalarida qo‘shimcha ta’lim xizmatlari ko‘rsatganlik uchun haq undirish tartibi ular tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Davlat ta’lim muassasalari pulli ta’lim xizmatlari va boshqa xizmatlar ko‘rsatish hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish hisobidan olingan pul mablag‘larini mustaqil ravishda tasarruf etishga haqli.

Ta’lim muassasalarida byudjet mablag‘larining taqsimlanishi va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishning yangi shakl va usullarini qo‘llash O‘zbekiston Respublikasi davlatchiligini mustahkamlash jarayonini barqarorlashtirishga xizmat qiladi, ta’limning o‘sib boruvchi ehtiyojlarini moliyalashtirishning yangi va qo‘shimcha imkoniyatlarini qidirib topishga imkon beradi.

Hozirda davlat byudjet va mahalliy byudjetlarning xarajatlar qismining o‘sishi va daromadlar qismiga kelib tushayotgan tushumlarning bir maromda tushmasligi natijasida faqatgina mahalliy byudjetlarning birinchi ehtiyojli xarajatlari amalga oshirilmoqda. Ta’lim muassasalari, xususan maktab ta’limi muassasalarining texnik jihozlash va binolarini ta’mirlash ishlarida ajratilgan mablag‘lar miqdorining kamligi ushbu tadbirlarni o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlay olmayapti.

Shularni inobatga olgan holda maktab ta’limi muassasalarida juda katta imkoniyat mavjud bo‘lgani holda o‘zlarini maxsus mablag‘lar manbalarini yaratishlari kerak. Qo‘shimcha yaratilgan manbalardan olingan mab-

lag‘lar natijasida, maktab ta’limi muassasalari ayrim xarajat moddalariga budjetdan ajratilgan mablag‘larni yetishmagan qismini qoplash uchun tadbirlar o‘tkazishlari mumkin.

Maktab ta’limi muassasalarida qo‘shimcha mablag‘lar manbalarini tashkil qilish mumkinmi degan savolga, qo‘yidagicha javob berish mumkin. Ha, har qanday yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxona, tashkilot va muassasalarda qo‘shimcha daromad manbalarini yaratish imkoniyati mavjud, buning uchun esa quyidagilarning bajarilishiga erishish talab etiladi:

- Har bir tashkilot raxbari bozor iqtisodi qonun-qoidalarini chuqur tushungan bo‘lish kerak.
- Tasdiqlangan smeta bo‘yicha ajratilgan byudjet mablag‘larini faqat belgilangan maqsadlar uchun ishlatish kerak.
- Ta’lim muassasasining barcha zarar bilan ishlaydigan bo‘lim va faoliyatlaridan voz kechish kerak.
- Kommunal xizmat xarajatlari bo‘yicha bo‘ladigan barcha xarajatlarni maqsadli amalga oshirilishini ta’minlash zarur.

Mana shu tamoyillarga amal qilgan holda hozirgi byudjet mablag‘lari tanqisligi sharoitida budjet mablag‘larini tejash mumkin va shu asosida muassasani moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun poydevor yaratiladi.

Bu o‘z navbatida ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya ishlarini kuchaytirishga asos bo‘ladi. Bundan tashqari maktab ta’limi muassasalari tegishli vazirlik ruxsati bilan o‘z ish faoliyatida o‘zgartirishlar kiritishi mumkin. Bu holatda ushbu muassasani mablag‘ bilan shu tashkilotning o‘zi bevosita ta’minlaydi.

Maktab ta’limi muassasalari har yili joriy yil boshida maxsus mablag‘lar smetasi tuzib, yuqori tashkilotlari tomonidan tasdiqlanib olinadi. Tasdiqlangan smetaga asosan daromadlarning asosiy qismi muassasaning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Mamlakatimizda maktab ta’limi xarajatlarini ixchamlashtirish bo‘yicha muttasil ish olib borilmoqda. Ushbu maqsadga erishish uchun asosan ikkita yo‘l tanlangan:

- ta’lim tizimida xususiy muassasalarni rivojlantirishga imkon yaratish;
- davlat budjetidan moliyalashtiriladigan ta’lim muassasalari tomonidan ko‘rsatilgan qo‘shimcha xizmatlar evaziga (ayrim fanlar buyicha repetitorlik kurslari, bolalarni ma’naviy va jismoniy barkamollikka yetkazishga yo‘naltirilgan qo‘shimcha to‘garaklar uchun) mablag‘lar jalb etish yoki ularning miqdorini oshirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida moliyalashtirish tizimidagi mavjud muammolarni hal etish, moliyalashtirish tizimini amalga oshirishning yangi modellari, tizim elementlari muvofiqligini moliyalashtirish manbalariga yo‘naltirish orqali moliyalashtirishda tegishli samaradorlikni oshirish talab etiladi. Bu, o‘z navbatida, maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘rtasidagi yangi aloqalarni shakllantirishda tizimli yondashuvni amalga oshirish, ta’limni moliyalashtirishning yangi modellari budjet va budjetdan tashqari mablag‘larning mos proporsiyasini ta’minlash uchun xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shakllari va ularning tuzilmaviy tarkibini hududlar o‘rtasidagi muvofiqligini ta’minlash orqali maktabgacha ta’limni moliyalashtirish jarayonida maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish mumkin.

Fikrimizcha maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish bilan bog‘liq samarali natijadorlikni ta’minlash uchun quyidagi vazifalarning amaliy ijrosini ta’minlash maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

- hududlar o‘rtasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishda mavjud standartlar va modellar orqali qiyosiy tahlillarni amalga oshirish,
- maktabgacha ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishda yangi yondashuvlar, standartlar, modellar, strategiyalarni ishlab chiqish orqali budjetdan moliyalashtirishni hajmini qisqartinsh;
- hududlar o‘rtasida ta’limni moliyalashtirishning eng samarali usullari va modellarini shakllantirishda moliyalashtirish metodologiyasini standartlashtirish, ta’limni moliyalashtirish sohasidagi konsepsiyani ishlab chiqish va boshqalar.

Maktabgacha ta’limni moliyalashtirishning asosiy yondashuvlari mamlakatlarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizimning amal qilish xususiyatiga bog‘liq bo‘lib, ta’lim uchun to‘lovning moliyaviy yukini qayta taqsimlashga nisbatan urinishlar har bir moliyalashtirish manbasining faoliyatini tizimli tashkil etishga asos yaratadi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Maktabgacha ta'limni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish ta'lim jarayonlarini moliyalashtirishning mavjud usullari va mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish va yangilashdan iborat. Mavjud sharoitlarni hisobga olgan holda eng samarali foydalanish jarayonini amalga oshirish talab etiladi. Hozirgi bosqichda moliyalashtirishning yangi modellarini izlash, birinchi navbatda, ta'lim tizimini davlat va xususiy moliyalashtirish o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlashdan iborat bo'lib, mazkur jarayon ta'lim xizmatlarining samaradorligi oshirishning istiqbolli yo'nalishlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmi samaradorligini baholash jarayonlariga doir tahlil natijalari, maktabgacha ta'limni moliyalashtirishda moliyaviy rejalashtirishning o'rni va ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishda moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash tizimini samarali amal qilishi zamonaviy ta'lim xizmatlarini tashkil etish va samaradorligini oshirishga asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 24.01.2020, http://www.press-service.uz
2. Do'stmuhammad H. Xalq ta'limini moliyalashtirish. Mogorafiya.-T.: Iqtisodiyot, 2016. –142 bet.
3. Кузнецова С.В, Ильченко А.Н. Проблемы финансирования до школьных образовательных учреждений (ДОУ) // Современные наукоемкие технологии. –2008. –No 4. –С. 170–172.
4. Nazarov X.B. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish samaradorligini baholash usullari. "Scienceand Education" Scientific Journal Volume 1 Issue 2.
5. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.
6. U.Y. O'roqov, Sh. B. Abdulazizov. Ta'lim tizimini moliyalashtirish amaliyoti. Science and Education, 2022. № 7.

MEHNAT RESURSLARINI SAMARALI BOSHQARISHDA JAHON TAJRIBASI





Xonnazarova Dilobar Qutbiddin qizi
Zangiota tumani 9 sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich
TDIU professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadbirkorlik faoliyatida mehnat resurslarini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish yo‘llari Deloitte, McKinsey & Company, Siemens AG, Toyota Motor Corporation, Samsung Electronics va Amazon kabi yetakchi xorijiy kompaniyalarning tajribasi asnosida tahlil qilinadi. Maqolada raqamli texnologiyalarning mehnat resurslarini boshqarishda qanday ahamiyatga ega ekanligi hamda raqamli texnologiyalarni qo‘llash tajribalari haqida umumiy ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli texnologiyalar, mehnat resurslarini boshqarish, tadbirkorlik faoliyati, samaradorlik, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data), avtomatlashtirish, Sanoat 4.0, Lean manufacturing, innovatsiyalar, raqobatbardoshlik, mehnat unumdorligi, xarajatlarni kamaytirish.

Abstract: This article analyzes ways to improve the use of digital technologies in the effective management of labor resources in business activities based on the experience of leading foreign companies such as Deloitte, McKinsey & Company, Siemens AG, Toyota Motor Corporation, Samsung Electronics and Amazon. The article provides general information about the importance of digital technologies in the management of labor resources and the experiences of using digital technologies.

Key words: Digital technologies, labor resources management, entrepreneurship, efficiency, artificial intelligence, big data, automation, Industry 4.0, Lean manufacturing, innovation, competitiveness, labor productivity, cost reduction.

Аннотация: В данной статье анализируются пути совершенствования использования цифровых технологий в эффективном управлении трудовыми ресурсами в предпринимательской деятельности на основе опыта ведущих зарубежных компаний, таких как Deloitte, McKinsey & Company, Siemens AG, Toyota Motor Corporation, Samsung Electronics и Amazon. В статье представлены общие сведения о значении цифровых технологий в управлении трудовыми ресурсами и опыт использования цифровых технологий.

Ключевые слова: Цифровые технологии, управление трудовыми ресурсами, предпринимательство, эффективность, искусственный интеллект, большие данные, автоматизация, Индустрия 4.0, Бережливое производство, инновации, конкурентоспособность, производительность труда, снижение затрат.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalarning tez sur’atlar bilan rivojlanishi turli sohalarda, jumladan, tadbirkorlik faoliyatida ham muhim rol o‘ynamoqda. Mehnat resurslarini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish korxonalar uchun nafaqat mehnat unumdorligini oshirish, balki xarajatlarni kamaytirish, ish jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatini ham yaratadi. Tadbirkorlik faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali korxonalar o‘z faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishlari mumkin.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi mehnat resurslarini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirishda jahon tajribasini o‘rganishdir. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ham bu borada erishilgan yutuqlar va qo‘llanilayotgan usullar tahlil qilinib boriladi. Mazkur tahlil O‘zbekiston korxonalari uchun ham dolzarb bo‘lib, ular o‘z faoliyatida ilg‘or tajribalarni qo‘llash orqali mehnat resurslaridan yanada samarali foydalanishlari mumkin.

Bu borada yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning “Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish – eng muhim vazifamizdir”[1] deya ta’kidlaganliklari ham bejizga emas.

Maqolada raqamli texnologiyalarning mehnat resurslarini boshqarishda qanday afzalliklar berishi, ularni joriy qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va bu muammolarni hal qilish yo‘llari haqida batafsil to‘xtalib o‘tiladi. Shu bilan birga, turli mamlakatlarning tajribasi va natijalari tahlil qilinadi. Maqola yakunida esa O‘zbekiston korxonalari uchun amaliy tavsiyalar beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli texnologiyalarning mehnat resurslarini boshqarishda qo‘llanilishi haqida ko‘plab ilmiy ishlar va tadqiqotlar mavjud. Ushbu bo‘limda biz raqamli texnologiyalarni mehnat resurslarini boshqarishda qo‘llash bo‘yicha jahon tajribasini o‘rganish uchun asosiy adabiyotlarni tahlil qilamiz.

Deloitte kompaniyasining “Digital Transformation in Workforce Management” nomli hisobotida raqamli transformatsiyaning mehnat resurslarini boshqarishdagi ahamiyati keng yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali korxonalar mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirishga erishgan. Hisobotda sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning qo‘llanilishi mehnat resurslarini boshqarishda qanday afzalliklar berishi haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan [1].

McKinsey & Company tomonidan o‘tkazilgan “The Impact of Digital Technologies on Labor Cost Reduction” tadqiqotida raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali korxonalar 20-30 % gacha xarajatlarni kamaytirishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Ushbu tadqiqotda katta ma’lumotlar (big data) va sun’iy intellektning mehnat resurslarini boshqarishda qanday qo‘llanilishi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar korxonalarning samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda [2].

Siemens AG kompaniyasining “Industry 4.0 and Workforce Optimization” nomli hisobotida sanoat 4.0 konsepsiyasi doirasida raqamli texnologiyalardan foydalanish tahlil qilingan. Hisobotda Germaniya sanoatida raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali mehnat resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish misollari keltirilgan. Siemens kompaniyasi o‘zining ilg‘or texnologiyalari yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini qanday optimallashtirgani haqida batafsil ma’lumotlar keltiradi [3].

Toyota Motor Corporation tomonidan taqdim etilgan “Lean Manufacturing and Digital Technologies” nomli maqolada lean manufacturing tizimi doirasida raqamli texnologiyalardan foydalanish tahlil qilingan. Toyota kompaniyasining lean manufacturing tizimi yordamida mehnat resurslarini boshqarishni takomillashtirgani va ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil qilgani misollar orqali ko‘rsatib berilgan. Ushbu maqola raqamli texnologiyalarning amaliy qo‘llanishini yoritadi [4].

Samsung Electronics kompaniyasining “AI and Automation in Workforce Management” nomli hisobotida sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning mehnat resurslarini boshqarishda qo‘llanishi tahlil qilingan. Hisobotda Janubiy Koreya korxonalarining raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali mehnat unumdorligini oshirgani haqida ma’lumotlar keltirilgan. Samsung kompaniyasining tajribasi raqamli texnologiyalarning samaradorligini tasdiqlaydi [5].

Amazon kompaniyasining “Robotics and AI in Warehouse Management” nomli hisobotida robotizatsiya va sun’iy intellekt yordamida omborlarni boshqarish jarayonlari tahlil qilingan. Amazon kompaniyasi o‘zining ilg‘or texnologiyalari orqali mehnat resurslarini boshqarishni qanday takomillashtirgani haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Hisobotda Amazon omborlarida qo‘llaniladigan texnologiyalar va ularning samaradorligi yoritiladi [6].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni mehnat resurslarini boshqarishda qo‘llash korxonalar uchun katta afzalliklar yaratadi. Bu texnologiyalar nafaqat mehnat unumdorligini oshirish, balki xarajatlarni kamaytirish, ish jarayonlarini optimallashtirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda nazariy va amaliy o‘rganish, tizimli tahlil va yondashuv, so‘rovnoma, taqqoslash, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish yondoshuvlaridan foydalanilgan.

1 https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-tadbirkorlikni-jadal-va-yanada-keng-rivojlantirish-uchun-barcha-sharoit

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo‘limda biz AQSh, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya davlatlarining mehnat resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish tajribasini tahlil qilamiz. Har bir mamlakatning tajribasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni o‘rganish O‘zbekiston korxonalari uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

AQSh korxonalari raqamli texnologiyalarni joriy qilishda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Ko‘plab kompaniyalar sun’iy intellekt, bulutli hisoblash texnologiyalari va katta ma’lumotlar (big data) yordamida mehnat resurslarini boshqarishni takomillashtiradi. Misol uchun, Amazon kompaniyasi robotizatsiya va sun’iy intellekt yordamida o‘z omborlarini boshqarib, mehnat unumdorligini oshirgan. Ushbu texnologiyalar ish jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot yetkazib berish vaqtini qisqartirish imkonini yaratadi.

Germaniyada sanoat 4.0 konsepsiyasi doirasida raqamli texnologiyalardan keng foydalaniladi. Bosch va Siemens kabi yirik kompaniyalar mehnat resurslarini boshqarishda raqamli yechimlardan foydalanib, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi. Bu esa nafaqat mehnat unumdorligini oshirish, balki ishlab chiqarish sifatini ham yaxshilash imkonini beradi. Germaniya korxonalari avtomatlashtirilgan tizimlar va IoT (Internet of Things) texnologiyalarini keng joriy qilgan bo‘lib, bu orqali ishlab chiqarish jarayonlari real vaqt rejimida kuzatiladi va boshqariladi.

Yaponiya texnologiyalarni joriy qilishda o‘zining innovatsion yondashuvi bilan ajralib turadi. Toyota kompaniyasi o‘zining “lean manufacturing” tizimi doirasida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda mehnat resurslarini boshqarishni takomillashtirgan. Bu tizim orqali ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligi sezilarli darajada oshirilgan. Yaponiya korxonalari raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga katta e’tibor qaratadi.

Janubiy Koreya korxonalari ham raqamli texnologiyalardan faol foydalanadi. Samsung va LG kompaniyalari mehnat resurslarini boshqarishda sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanadi. Janubiy Koreya korxonalari raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini samaradorligini oshirishga muvaffaq bo‘lib, innovatsiyalar orqali o‘zlarining global raqobatbardoshliligini saqlab qolishmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni mehnat resurslarini boshqarishda qo‘llash korxonalar uchun katta afzalliklar yaratadi. Xorijiy kompaniyalarning quyidagi asosiy natijalari ajratib ko‘rsatiladi:

- Raqamli texnologiyalar yordamida ish jarayonlari avtomatlashtiriladi va optimallashtiriladi, bu esa mehnat unumdorligini oshiradi.
- Sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida korxonalar xarajatlarini kamaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
- Raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tezlashtiradi, bu esa mahsulot va xizmatlarning yetkazib berish muddatlarini qisqartiradi.
- IoT va katta ma’lumotlar (big data) yordamida ishlab chiqarish jarayonlari real vaqt rejimida kuzatiladi va boshqariladi, bu esa mahsulot va xizmat sifatini yaxshilashga yordam beradi.
- Raqamli texnologiyalar korxonalarga innovatsion yondashuvlarni joriy qilish imkonini beradi, bu esa ularning global raqobatbardoshligini oshiradi.

O‘zbekiston korxonalari ham raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali yuqorida keltirilgan afzalliklardan foydalanishlari mumkin. Shu maqsadda ilg‘or mamlakatlarning tajribasini o‘rganish va amaliyotga tatbiq qilish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni mehnat resurslarini boshqarishda qo‘llash korxonalar uchun katta afzalliklar yaratadi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mehnat unumdorligini oshirish, balki xarajatlarni kamaytirish, ish jarayonlarini optimallashtirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkonini ham beradi. AQSh, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribalari raqamli transformatsiyaning samarali boshqaruvda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Shu sababli, O‘zbekiston korxonalari ham raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali o‘z faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishlari mumkin.

Quyidagi takliflar O‘zbekiston korxonalari uchun raqamli texnologiyalarni mehnat resurslarini boshqarishda samarali qo‘llashga yordam beradi:

- Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy qilishga katta e’tibor qaratish.

- Korxonalar raqamli transformatsiya jarayonlarini tezlashtirish uchun zarur infratuzilmani yaratishi lozim.
- Mehnat resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun ta’lim dasturlarini kengaytirish.
- Korxonalarda raqamli texnologiyalarni boshqarish bo‘yicha ichki o‘quv dasturlarini tashkil etish.
- Innovatsion yechimlarni joriy qilish uchun davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rish.
- Startaplarni qo‘llab-quvvatlash va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun grantlar va subsidiyalar ajratish.
- Ilg‘or mamlakatlarning tajribasini o‘rganish va amaliyotga joriy qilish.
- Xalqaro konferensiyalar va seminarlar orqali zamonaviy tendensiyalar va texnologiyalar bilan tanishish.
- Korxonalar uchun raqamli transformatsiya loyihalarini amalga oshirishda soliq imtiyozlari va boshqa rag‘batlantirish choralari yaratish.
- Raqamli texnologiyalarni qo‘llagan korxonalar uchun mukofotlar va e’tirof tizimini joriy qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Deloitte Insights. (2022). Digital transformation in workforce management. Deloitte. Retrieved from https://www2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/global/Documents/About-Deloitte/gx-deloitte-insights-digital-transformation.pdf
2. McKinsey & Company. (2021). The impact of digital technologies on labor cost reduction. McKinsey & Company. Retrieved from https://www.mckinsey.com/business-functions/mckinsey-digital/our-insights/how-digital-transformation-can-reduce-labor-costs
3. Siemens AG. (2023). Industry 4.0 and workforce optimization. Siemens. Retrieved from https://new.siemens.com/global/en/company/stories/industry/2023/industry-4-0-workforce-optimization.html
4. Toyota Motor Corporation. (2022). Lean manufacturing and digital technologies. Toyota. Retrieved from https://global.toyota/en/newsroom/corporate/37011309.html
5. Samsung Electronics. (2023). AI and automation in workforce management. Samsung. Retrieved from https://news.samsung.com/global/samsung-introduces-ai-automation-in-workforce-management
6. Amazon. (2023). Robotics and AI in warehouse management. Amazon. Retrieved from https://www.aboutamazon.com/news/operations/how-robotics-and-ai-are-transforming-amazons-operations

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNI MOLIYAVIY VA INSTITUTSIONAL QO‘LLAB-QUVVATLASH

Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash etilgan. Kichik biznesni moliyalashtirishni borasida mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan tadqiqot natijalari yuzasidan kichik biznesni moliyalashtirish amaliyotini yanada taokmillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, kredit, moliyaviy imkoniyatlar, tijorat banklari, konsultativ xizmatlar, oilaviy biznes, aylanma mablag‘lar, xizmat ko‘rsatish, soliq qonunchiligi, loyihalarini moliyalashtirish, biznes reja.

Abstract: This article provides financial and institutional support for small business development. Proposals and recommendations aimed at further improving the practice of small business financing have been developed based on the results of the research aimed at eliminating the existing problems regarding small business financing.

Key words: small business, credit, financial opportunities, commercial banks, consulting services, family business, working capital, service, tax law, project financing, business plan.

Аннотация: В данной статье представлена финансовая и институциональная поддержка развития малого бизнеса. По результатам исследования, направленного на устранение существующих проблем финансирования малого бизнеса, разработаны предложения и рекомендации, направленные на дальнейшее совершенствование практики финансирования малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, кредит, финансовые возможности, коммерческие банки, консалтинговые услуги, семейный бизнес, оборотный капитал, услуга, налоговое право, проектное финансирование, бизнес-план.

KIRISH

Jahonda kechayotgan murakkab iqtisodiy va moliyaviy sharoitda kichik biznesni rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiy holati barqarorligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bu borada, kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash soha faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot davomida ilmiy sharhlash, nazariy ma’lumotlarni umumlashtirish va abctarksiyalash, tizimlashtirish, taqqoclash, induksiya va deduksiya kabi ucullardan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Muxammad Yunus, Alan Jolining fikricha, endi ish boshlayotgan kichik biznes subyektlarini kreditlashda asosiy e’tibor kreditlashning ijtimoiy samarasiga qaratilishi kerak. Tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlari kengaygandan so‘ng, ular bozor stavkalarida beriladigan kreditlarga bo‘lgan talabning oshishiga sababchi bo‘lishadi[1].

G.Chanel-Reynaud, E.Bloy xulosasiga ko‘ra, kichik va o‘rta korxonalarning yirik korxonalar bilan aloqalarini yaxshi yo‘lga qo‘yilishi ularning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Chunki, yirik korxonalar kichik va o‘rta korxonalar bilan ishbilarmonlik munosabatlariga kirishishdan oldin ularning bozor

1 Мухаммад Юнус, Алан Жоли. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишерз, 2010. – 307 с.

talablariga javob bera olishini tahlil qiladi. Shuningdek, yirik korxona hamkori bo‘lgan kichik va o‘rta korxonalarning holatini doimiy ravishda nazorat qiladi[2].

Kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatini moliyalashtirishning ikki tizimga, ya’ni tijorat banklari faoliyatiga bog‘langan tizim hamda moliya bozorlariga bog‘langan tizimga tasniflagan F.Allen, D.Gale birinchi tizimning nisbatan muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlaydi[3].

I.Alimardonov ilmiy tadqiqotlarida kichik biznesni yanada rivojlantirish maqsadida ushbu faoliyatni moliyalashtirishni borasida mavjud muammolarni hal qilish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish taklif etilgan[4]:

1-jadval: Kichik biznesni moliyalashtirishni borasida mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan tadqiqot natijalari[5]

№	Tadqiqot etilgan muammo yo‘nalishi	Tadqiqotchining takliflari
1	Kichik biznes subyektlarining import to‘lovi bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarini oshib borishiga chek qo‘yish borasida	milliy valyutaning AQSH dollariga nisbatan nominal almashuv kursini talab va taklifdan kelib chiqqan holda belgilab, ushbu almashuv kursi tebranishining yuqori va quyi chegalarini belgilash zarur.
2		so‘mdagi mablag‘larni AQSH dollariga konvertirlash jarayoni cho‘zilib ketayotganligi munosabati bilan kichik biznes subyektlaridan o‘tkazish talab etilayotgan so‘mdagi qo‘shimcha pul mablag‘larini Markaziy bankning zaxiralari va davlatga tegishli bo‘lgan pul fondlarining mablag‘lari hisobidan shakllantiriladigan maxsus fond mablag‘lari hisobidan to‘lab berishni yo‘lga qo‘yish lozim.
3	Kichik biznes subyektlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash samaradorligini oshirish borasida	kichik biznes subyektlarini overdraft va kontokorrent shaklida kreditlashda yuzaga keladigan kredit riski darajasini pasaytirish maqsadida mazkur subyektlar uchun to‘lovlarning kalendar ketma-ketligini joriy qilish lozim
4		tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini overdraft va kontokorrent shakllarida kreditlash tartibi, yuzaga keladigan kredit riskini pasaytirish yo‘llari, joriy hisobraqamning debetli va kreditli qoldig‘iga foiz to‘lash mexanizmi maxsus yo‘riqnomada o‘z aksini topishi zarur
5		kichik biznes subyektlariga beriladigan faktoring kreditlari hajmini oshirish uchun banklarga kichik biznes subyektlari tomonidan realizatsiya qilingan tovarlar hujjatlarini ham regress huquqi bilan, ham regress huquqisiz sotib olish imkonini berish va bunda muddati o‘tgan debitor qarzdorlik va zarar ko‘rib ishlayotgan kichik biznes subyektlarining debitor qarzdorligi inkassatsiya qilinmasligi lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentyabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-306-son qaroriga asosan, Kichik biznesni rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etildi. “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturida ishtirok etuvchi kichik tadbirkorlik subyektlarini shaffoflik tamoyillari asosida tanlab olish tartib-taomillariga muvofiq sxema bo‘yicha Biznes portal platformasi (Biznes-portal.uz) ishlab chiqildi.

Hududiy Markazlar, tadbirkorlarni o‘qitish ularga moliyaviy konsultativ xizmatlar ko‘rsatish, mahsulot va xizmatlarni sotish, investitsiyalarni jalb qilish imkonini beruvchi Vazirlik va idoralar bilan integratsiya qilingan holda onlayn biznes platforma Biznes-portal.uz orqali amalga oshirmoqda.

Hududlarda bo‘yicha sertifikat olgan va kredit chiqish holati quyidagicha:

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB va yuqoridagi Jamg‘arma tomonidan 2024-yil 14-may holatiga Biznes portalga jami 184 461 ta Loyiha tashabbuskori tomonidan ariza yuborilgan, shulardan 25 975 tasi o‘quv seminarlarda ishtirok etib o‘z biznes loyihasini ijobiy himoya qilib, Markazlar tomonidan sertifikat olgan va tijorat banklari tomonidan 1 250,7 mlrd. so‘m kredit mablag‘lari chiqarilgan[6].

Shuningdek, tadbirkorlarni o‘qitish yo‘nalishida Yaponiyaning “Yamagata universiteti tadbirkorlikka o‘qitish, ta’lim va tadqiqot markazi” bilan quyidagi yo‘nalishlarda hamkorlik qilinmoqda[7]:

2 Chanel-Reynaud G., Bloy E. La Banque et le risqué PME. – Presses Universitaires de Lyon, 2001. – P. 39-40.
3 Allen F., Gale D. Comparing Financial Sestems. – Cambridge, Mass: MIT Press, 2000. – P. 42.
4 Alimardonov I. Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishning ayrim dolzarb masalalari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2017-yil.
5 Alimardonov I. Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishning ayrim dolzarb masalalari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2017-yil.
6 “Biznesni rivojlantirish banki” ATB ma’lumotlari.
7 “Biznesni rivojlantirish banki” ATB ma’lumotlari.

- mikro, kichik va oilaviy biznes vakillari uchun onlayn va offlayn shaklda o‘quv kurslarini tashkil etish;
- 20 nafar malakali mentorni tayyorlash va ularni Yaponiyada 1 haftalik malakasini oshirish;
- “Biznesni rivojlantirish banki” ATB bank, Kichik biznesga ko‘maklashish jamg‘armasi va hududiy markazlar xodimlari xodimlari uchun “i-HOPE” va “Tejamkor boshqaruv” kurslarini tashkil etish;
- 10 000 nafar tashabbuskor kichik va o‘rta biznes egalarini biznes-portal.uz platformasi orqali onlayn va offlayn shaklda o‘qitish.

Tadbirkorlar foydalanishlari uchun “Aylanma mablag‘lar”, “Ishlab chiqarish” va “Xizmat ko‘rsatish” bo‘yicha biznes rejalar namunalari ishlab chiqilgan va biznes platformaga (biznes-portal.uz) joylashtirilgan hamda Hududiy Markazlarga ham tadbirkorlarga tushuntirish ishlari olib borishlari uchun taqdim etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentyabrdagi 306-son qaroriga asosan, Kichik biznesni rivojlantirish jamg‘armasi, Biznesni rivojlantirish banki, Innovatsion rivojlanish agentligi startap ekotizimini rivojlantirish maqsadida biznes loyihalarni akseleratsiya tamoyili asosida tanlab olish jarayonlarini to‘liq aks ettiruvchi “Menga pul kerak!” nomli turkum shou-ko‘rsatuvlar tayyorlab “Yoshlar” telekanali va Yutub (Youtube) platformasi orqali keng jamoatchilikka yetkazilmoqda[8].

Kichik tadbirkorlik subyektlarini faoliyatini o‘rganishdan boshlab o‘quv kurslarini tashkillashtirish, loyihalarning biznes rejalarini tuzishda yo‘nalish berish, moliyalashtirish va ishlab chiqarishni barqaror yo‘lga qo‘ygunga qadar bo‘lgan jarayon bo‘yicha amalga oshirish zarur bo‘lgan ishlar:

a) kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy bilimlari va soliq qonunchiligi to‘g‘risidagi boshlang‘ich ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish;

b) loyiha tashabbuskorlarining tanlagan sohalarida bilimlarini oshirish ishlarini amalga oshirish;

d) tashabbuskorlarning loyihalarini moliyalashtirish uchun biznes rejalar tuzilishida ko‘maklashish;

e) tashabbuskor loyihasini amalga oshirish uchun kerakli asbob-uskunalar sotib olish uchun bozorni o‘rganib tavsiyalar berish;

f) ishlab-chiqarish va xizmat ko‘rsatishni tashkil etish uchun sohalar mutaxassislari bilan aloqa o‘rnatishda ko‘maklashish;

g) ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun xom-ashyo sotib olish bozori konyunkturasini o‘rganib yordam ko‘rsatish;

h) tayyor mahsulotlarni va xizmatlarni sotish uchun bozorni o‘rganib tavsiyalar berish;

i) mahsulotlar va xizmatlar bozorni kengaytirish uchun marketing va reklama faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish.

TAKLIF VA XULOSALAR

Tadbirkorlardan tushayotgan murojaat va savollarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentyabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-306-son qarori bo‘yicha loyihalarni tanlab olish, sertifikat berish va kreditlash jarayonidagi stop-faktrolar va ularni bartaraf etish takliflari:

2-jadval: Loyihalarni tanlab olish, sertifikat berish va kreditlash jarayonidagi stop-faktrolar va ularni bartaraf etish takliflari[9]

№	Stop faktor	Taklif
1	O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 4701-moddasiga asosan qat’iy belgilangan summadagi soliqning soliq to‘lovchisi mazkur soliq bo‘yicha soliq hisobotlarini taqdim etish majburiyatidan ozod qilinadi. Soliq hisoboti mavjud emasligi sababli ushbu toifaga kiruvchi loyiha tashabbuskorining arizasi skoring jarayonidan o‘tmayapti. Buning natijasida, loyiha tashabbuskoriga ixtiyoriy ravishda hisobotlarni topshirish lozimligi tushuntirilmoqda.	Dastur doirasida moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlaridan foydalanish istagida bo‘lgan qat’iy soliq to‘lovchisi bo‘lgan tadbirkorlar tomonidan balans va moliyaviy natijalar bo‘yicha hisobotlarni topshirish majburiyatini belgilab qo‘yish.

8 “Biznesni rivojlantirish banki” ATB ma’lumotlari.
9 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2	Turli banklarda hisob raqamlarga ega bo‘lgan yoki bankdan bankka hisob raqamini olib o‘tgan tadbirkorlarning jami aylanmalari miqdorini aniqlash imkoniyati mavjud emas. Natijada skoringda aniqlangan to‘liq bo‘lmagan aylanma miqdoriga mos kredit berilmoqda.	Tadbirkorning oxirgi 12 oydagi barcha hisob raqamlari bo‘yicha to‘liq ma’lumot olish bo‘yicha integratsiya jarayonlarini qisqa muddatda yakunlash.
3	Skorineg natijasida olingan soliq qarzdorligi bo‘yicha ma’lumotda qarzdorlik umumlashtirilib bitta summada ko‘rsatiladi. Bunda, qaysi soliq turidan, qanday qarzdorlik (soliq, jarima, ustama, soliq organlari fondi) ekanligi ma’lum emas. Natijada, soliq turini aniqlash va so‘ndirish uchun tadbirkorning ko‘p vaqti ketmoqda va norozichiliklarga sabab bo‘lmoqda.	Skoring natijasi bo‘yicha soliq qarzdorligi turi va uning miqdori to‘g‘risidabatafsil ma’lumot olish.
4	Skoring natijasidagi ma’lumotda tadbirkorning kartotekasidagi (K-2) qarzdorlik umumlashtirilgan xolda ko‘rsatilmoqda.	Qarzdorlik turlari va ularning har bir bo‘yicha qoldiq summalarini aks ettirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash orqali tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, biznes muhitini yaxshilash va kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni yanada takomillashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мухаммад Юнус, Алан Жоли. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишерз, 2010. – 307 с.
2. Chanel-Reynaud G., Bloy E. La Banque et le risqué PME. – Presses Universitaires de Lyon, 2001. – P. 39-40.
3. Allen F., Gale D. Comparing Financial Sestems. – Cambridge, Mass: MIT Press, 2000. – P. 42.
4. Alimardonov I. Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishning ayrim dolzarb masalalari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2017 yil.
5. “Biznesni rivojlantirish banki” ATB ma’lumotlari.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA “IQTISODIY ERKINLIK INDEKSI”NING DAVLAT ARALASHUVI DARAJASI YO‘NALISHIDA YUQORI NATIJA QAYD ETA OLISH IMKONIYATLARI VA BUNING OQIBATLARI



Qoraboyev Bobur Umarovich
G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali o‘qtuvchisi



Abdiyev Mansur Musurmonovich
Bank moliya akademiyasi MBA magistranti



Ravshanov Shaxriyor Shuhratovich
Bank moliya akademiyasi MBA magistranti



Mamataliyev G‘ayrat Chori o‘g‘li
Bank moliya akademiyasi MBA magistranti

Annotatsiya: Tadqiqotda “Heritage Foundation” tashkilotining “Iqtisodiy erkinlik indeksi”ning davlat aralashuvi darajasi yo‘nalishida yuqori natija qayd etishga urinishning salbiy oqibatlari o‘rganilgan va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy erkinlik indeksi, davlat aralashuvi darajasi, soliq yuki, davlat xarajatlari, fiskal salomatlik, soliq tushumlarining YAIMga nisbati, konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari, budjet defitsitining oxirgi 3 yillik o‘rtachasi, davlat qarzining YAIMga nisbati, to‘liq erkinlikni kafolatlagan” davlatlar, barqaror rivojlanish kafolati, KPI ko‘rsatkichlari.

Abstract: The study examines the negative consequences of trying to score high on the level of government intervention in the Heritage Foundation’s Index of Economic Freedom and makes recommendations.

Key words: Index of economic freedom, level of government intervention, tax burden, government spending, fiscal health, ratio of tax revenues to GDP, consolidated budget expenditures, budget deficit average of the last 3 years, ratio of public debt to GDP, “guaranteeing full freedom” countries, guarantee of sustainable development, KPI indicators.

Аннотация: В исследовании рассматриваются негативные последствия попыток получить высокий балл по уровню государственного вмешательства в Индексе экономической свободы Heritage Foundation и даются рекомендации.

Ключевые слова: Индекс экономической свободы, уровень государственного вмешательства, налоговое бремя, государственные расходы, финансовое здоровье, соотношение налоговых поступлений к ВВП, расходы консолидированного бюджета, средний дефицит бюджета за последние 3 года, соотношение государственного долга к ВВП, “гарантии полной свободы” “страны, гарантия устойчивого развития, показатели КПЭ.

KIRISH

“Heritage Foundation” tashkiloti 1995-yildan boshlab [1] mamlakatlarning 12 ta yo‘nalishdagi iqtisodiy erkinlik darajalarini aniqlab keladi. Tasdiqlangan uslubiyatga [2] ko‘ra mamlakatlar 100 ballik tizimda (0 ball – salbiy, 100 ball – ijobiy ko‘rsatkich) baholanadi.

Iqtisodiy erkinlik indeksi mamlakatlarga oid ma’lumotlarni turli xalqaro manbalardan olganligi sababli “Davlat aralashuvi darajasi” (soliq yuki, davlat xarajatlari va fiskal salomatlik pozitsiyalarida) yo‘nalishidagi ma’lumotlar 4 yilgacha bo‘lgan kechikishga ega, ya’ni indeksda 2021-yil uchun keltirilgan natijalar aslida 2017–2018-yildagi holatni ko‘rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro amaliyotda shuni ko‘rsatadiki fiskal siyosat orqali davlat harajatlari, soliqqa tortish va davlat budjeti, hukumatning daromad va xarajatlarini tartibga solish orqali davlat tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy chora tadbirlardir.

Davlatlar iqtisodiyotining har bir bosqichida “soliq” tushunchasi “davlat” toifasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Soliqlar iqtisodiy munosabatlarning asosiy bo‘g‘ini hisoblanishi bor gap, shuning uchun tadqiqotimizda fiscal siyosatda soliqning “iqtisodiy erkinlik indeksi” ga tasiri, “Davlat aralashuvi darajasi”ning Soliq stafkalari, soliq yuki va fiskal salomatlik ko‘rib chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonning “Iqtisodiy erkinlik indeksi” “Davlat aralashuvi darajasi” yo‘nalishidagi joriy holatida nimalarga e’tibor berish, Jahon bankining mavjud hisobotidan foydalangan holda qanday ko‘rsatkichlarga erishilish mumkinligi ushbu hisobotda olinishi mukin bo‘lgan takliflarning iqtisodiy samaradorligi ko‘rib chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonning “Iqtisodiy erkinlik indeksi” “Davlat aralashuvi darajasi” yo‘nalishidagi joriy holati. Soliq stavkalari bo‘yicha ma’lumotlar Jahon bankining “Doing Business” hisobotidan foydalangan holda tayyorlab kelingan, “Doing Business” hisobotini e’lon qilish 2019-yilda to‘xtatilgani bois, O‘zbekiston uchun iqtisodiy erkinlik indeksi 2018-yildagi ma’lumotlar asosida aniqlangan.

Shu munosabat bilan soliq yuki indikatori bo‘yicha baholash ishlarini amalga oshirganda subindikatorlar sifatida:

1) jismoniy shaxslarning daromad solig‘i stavkasi 22% (2019-yilgacha amalda bo‘lgan progressiv soliqning eng yuqori stavkasi, lekin olingan 2019-yildan beri O‘zbekistonda 12%lik proporsional stavka amal qiladi);

2) foyda solig‘i stavkasi 7.5% (2018-yilda amalda bo‘lgan foyda solig‘i stavkasi olingan bo‘lsa-da, 2018-yilgacha amalda bo‘lgan 8% infrastruktura solig‘i kiritilmagan, hozirda mazkur soliq stavkasi 15%ni tashkil etadi);

3) soliq tushumlarining YAIMga nisbati – 19.6%lik (2018-yilda Davlat budjeti daromadlari qismi olingan bo‘lib, maqsadli jamg‘armalar mablag‘lari kiritilmagan, hozirda – 23.7%) ko‘rsatkichlar olingan. Soliq stavkalaridagi eng oxirgi o‘zgarishlar esa indeks tomonidan inobatga olinmagan.

Davlat xarajatlari indikatori bo‘yicha 2022-yilgi hisobotda davlat xarajatlari YAIMga nisbatan 27.0%ni (2019-yildagi holat) tashkil etgan, lekin aslida 2022-yil uchun bu ko‘rsatkich hozirda 32.4%dan yuqori bo‘lishi kutilmoqda.

Fiskal salomatlik indikatori bo‘yicha:

1) 2021-yil uchun budjet defitsitining oxirgi 3 yillik o‘rtachasi sifatida olingan 0.6%lik qiymat 2018-yilga taalluqli bo‘lib, 2022-yil uchun bu ko‘rsatkich -2.02% atrofida bo‘lishi mumkin;

2) davlat qarzining YAIMga nisbati bo‘yicha esa 2020-yilgi ko‘rsatkichlardan foydalanilgan– 37.9% (2022-yil uchun 36.0% [3]).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son farmonida O‘zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo‘lgan xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha samaradorlikning eng muhim ko‘rsatkichlari (Key performance indicator – KPI) belgilangan.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-avgustdagi PF-197-son farmoni asosida kiritilgan o‘zgartirishga asosan, iqtisodiy erkinlik indeksining soliq yuki, davlat xarajatlari va fiskal salomatlik pozitsiyalari bo‘yicha quyidagi KPI ko‘rsatkichlari belgilangan.

1-jadval: Iqtisodiy erkinlik indeksi (soliq yuki, davlat xarajatlari va fiskal salomatlik pozitsiyalari) bo‘yicha KPI ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkich nomlari	Joriy holat	2022-yil	2023-yil	2030-yil
1.	Soliq yuki	90.8	91.3	91.9	95.7
2.	Davlat xarajatlari	78.1	79.4	80.6	89.4
3.	Fiskal salomatlik	96.6	96.9	97.2	99.5

O‘zbekistonning KPIga erishishi uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatkichlar tahlili: Soliq yuki. “Heritage Foundation” soliq yuki subindikatori bo‘yicha 2022-yilgi hisobotida O‘zbekiston Respublikasi uchun 2019-yilgi ma’lumotlardan foydalanishi natijasida 2022–2023-yillar uchun o‘rnatilgan KPI ko‘rsatkichlariga qiyinchiliklarsiz erishish mumkin.

O‘zbekistonda jismoniy shaxslarning daromad solig‘i va foyda solig‘i bilan bog‘liq muammolar mavjud emas. Iqtisodiy erkinlik indeksining mavjud uslubiyatiga ko‘ra, daromad solig‘ining 12% va foyda solig‘ining 15% atrofida o‘rnatilishi yetarli darajada kichik stavka hisoblanadi (daromad solig‘i – 95.6 ball, foyda solig‘i – 93.3 ball).

2-jadval: Soliq yuki subindikatori bo‘yicha KPIga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatkichlar*

№	Ko‘rsatkichlar	2022-y. (qiymat)	KPI 2022-y.	2023-y. (qiymat)	KPI 2023-y.	2030-y. (qiymat)	KPI 2030-y.
1	JSHDS stavkasi	12	95.68	12	95.68	12	95.68
2	Foyda solig‘i stavkasi	15	93.25	15	93.25	12	95.68
3	Soliq tushumlarining YAIM ga nisbati	22.4	84.95	21	86.77	12	95.68
	Jami		**91.3**		**91.9**		**95.7**

Hisoblash metodologiyasi har bir komponent bo‘yicha 100 – 0.03(qiymat)^2 (95.68, 93.28 va 84.95) hisoblanib, o‘rta arifmetigi (91.3 ball) olinadi.

Soliq tushumlarining 2019-2021 yillardagi YAIMga nisbati o‘rtacha 18.7%ni [4] (89.5 ball) tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkichlar bilan O‘zbekiston Iqtisodiy erkinlik indeksining soliq yuki pozitsiyasi bo‘yicha 2022–2023-yillar uchun belgilangan KPI ko‘rsatkichlaridan ham yuqori 92.8 ballik natijani qayd etadi.

2030-yil uchun o‘rnatilgan KPI ko‘rsatkichlariga erishish, budjet tizimida keskin o‘zgarishlar talab qiladi, ya’ni soliq tushumlarining YAIMga nisbatini va foyda solig‘i stavkasini 12%gacha tushirish talab etiladi.

Davlat xarajatlari bilan manipulyatsiya qilish imkoniyatlari cheklanganligi bois, soliq tushumlarining keskin qisqarishi qisqa muddatli davrda budjet defitsiti, uzoq muddatli davrda esa tashqi qarzning oshib ketishiga olib kelishi mumkin.

Davlat xarajatlari. O‘zbekiston Respublikasi KPI ko‘rsatkichlariga erishish uchun esa Davlat xarajatlarining YAIMga nisbati 2022-yil 26.2% ko‘rsatkichdan 2030-yil uchun 18.8%gacha tushirish talab etiladi.

3-jadval: Davlat xarajatlari subindikatori bo‘yicha KPIga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatkichlar*

№	Ko‘rsatkichlar	2022-y. (qiymat)	KPI 2022-y.	2023-y. (qiymat)	KPI 2023-y.	2030-y. (qiymat)	KPI 2030-y.
1	Davlat xarajatlari (YAIM %)	26.2	79.4	25.4	80.6	18.8	89.4

* Hisoblash metodologiyasi. Davlat xarajatlari = 100 – 0.03*qiymat^2 (79.4).

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning talab qilinadigan darajasini ta’minlash maqsadida budjetdan moliyalashtirish hajmini oshirib borayotganligi sababli mazkur indikator bo‘yicha o‘rnatilgan KPI ko‘rsatkichlariga erishish, balki uni bugungi kun darajasida saqlab turish ham mutlaqo imkonsiz hisoblanadi.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasida davlat xarajatlarining YAIMga nisbati 2018-yildan boshlab o‘sib kelayotgan bo‘lsa, ikkinchidan, “Heritage Foundation” tashkiloti Davlat xarajatlari subindikatorini hisoblash uchun foydalanadigan ma’lumotlar bazasida O‘zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari aks ettirilishi natijasida davlat xarajatlarining YAIMga nisbati yanada kattaroqni tashkil etishi mumkin.

Davlat xarajatlarning YAIMga hozirgiday ko‘rinishda (jadval 4) bo‘lganligi sababli, kelgusida mazkur subindikatorning qiymati hozirgi 78.1 ballik ko‘rsatkichdan 66.7 ballgacha tushib ketadi.

4-jadval: O‘zbekiston Respublikasida davlat xarajatlarining YAIMga nisbati va kutilayotgan subindikator qiymatlari

№	Ko‘rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
1	Davlat xarajatlari (YAIM%)	24.8	27.3	28.2	29.6	32.4
	Subindikator qiymati (ball)	81.5	77.6	76.1	73.7	68.5
2	Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari	-	30.2	31.2	33.5	33.3
	Subindikator qiymati (ball)	-	72.6	70.8	66.3	66.7

Davlat xarajatlari yo‘nalish bo‘yicha KPI ko‘rsatkichiga erishishga majburlash kelajakda mamlakat iqtisodiyotining rivojiga emas, balki iqtisodiyotning retsessiyaga tushib qolishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, davlat xarajatlarining keskin qisqartirilishi aholining ijtimoiy himoyalanganlik darajasiga salbiy ta’sir o‘tkazib, aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini pasaytirib yuboradi. Bu yesa uzoq muddatli davrda ijtimoiy inqirozlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Fiskal salomatlik. Fiskal salomatlik subindikatori bo‘yicha 2022 va 2030-yillar uchun o‘rnatilgan KPI ko‘rsatkichlariga nazariy jihatdan erishish mumkin bo‘lsada 2023-yilgi KPIni ta’minlab beruvchi nazariya ham mavjud emas.

5-jadval: Fiskal salomatlik subindikatori bo‘yicha KPIga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatkichlar*

№	Ko‘rsatkichlar	2022-y. (qiymat)	KPI 2022-y.	2023-y. (qiymat)	KPI 2023-y.	2030-y. (qiymat)	KPI 2030-y.
1	Budjet defitsitining oxirgi 3 yillik o‘rtachasi	-0.98%	98.1	xxx	91.3	0	100
2	Davlat qarzining YAIMga nisbati	28	92.2	xxx	100	15.7	95.7
	Jami		**96.9**		**97.2**		**99.5**

* Hisoblash metodologiyasi: budjet defitsiti X1=100-2*qiymat^2 (98.1), tashqi qarz X2=100-0.01*qiymat^2 (92.2), umumiy qiymat =X1*80%+X2*20% (96.9).

Mazkur yo‘nalishda 2022-yilgi KPI ko‘rsatkichlariga erishish uchun O‘zbekiston Respublikasi yil yakuniga qadar YAIMining 10%ga teng bo‘lgan Davlat qarzini so‘ndirishi kerak bo‘ladi. Qarz majburiyatlarini belgilangan muddat avval zaxiralar hisobidan qoplash iqtisodiy samarasiz bo‘lib, davlat moliya tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Keyingi yilda subindikatorning birinchi komponenti (budjet defitsitining oxirgi 3 yillik o‘rtachasi) – 2.1%ni tashkil etishi natijasida, hozirda YAIMining 36%ga teng bo‘lgan Davlat qarzini to‘liq qaytarib berib ham 2023-yilgi KPI ko‘rsatkichlariga erishib bo‘lmaydi.

2030-yilgi KPI ko‘rsatkichlariga esa budjet intizomini yaxshilash hamda, davlat qarzi hajmini YAIM nisbatan 15.7%ga teng darajada saqlab turgan holda erishish mumkin.

Bundan tashqari 2021-yil 30-dekabrdagi “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-son O‘zbekiston Respublikasi qonunining 10 va 11-moddalarida Davlat qarzining xavfsiz darajasi sifatida YAIMning 60%dan, konsolidatsiyalashgan budjeti taqchilligining YAIMning 3% atrofida bo‘lishi belgilangan. Davlat qarzi va budjet taqchilligi ko‘rsatkichlarining O‘RQ-742 sonli qonunda bo‘lishi, 2030-yil uchun ko‘rsatilgan 99.5 ballik KPI ko‘rsatkichi o‘rniga 78.4 ballik darajagacha tushirib yuboradi.

Oxirgi yillardagi COVID-19 pandemiyasi bilan bog‘liq yuzaga kelgan murakkab vaziyat, jahondagi geosiyosiy ziddiyatlar va qator davlatlar o‘rtasida sanksiyalarni qo‘llash siyosati natijasida yuzaga kelayotgan inqirozlarning ketma-ket tarzda davom etishi nafaqat jahon iqtisodiyotiga, balki O‘zbekiston iqtisodiyotiga ham turli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat xarajatlarining ko‘paytirilishi budjet defitsitini yuzaga keltirib, davlat qarzi ortib ketishiga olib keldi.

Budjet defitsiti va tashqi qarzning bunday tarzda o‘zgarishi natijasida moliya tizimida o‘rnatilgan KPI ko‘rsatkichlariga mutlaqo teskari bo‘lgan vaziyat yuzaga kelgan, ya’ni mazkur yo‘nalishda ko‘rsatkichlar 2025-yilga borib yaxshilanish o‘rniga, aniq yomonlashib 85.7 ballni tashkil etadi. “Heritage Foundation” tashkiloti O‘zbekiston uchun ma’lumotlarni yig‘ish metodologiyasini o‘zgartirib, konsolidatsiyalashgan budjet ma’lumotlaridan foydalanish natijasida ko‘rsatkichlar ya’nada yomonlashib 66.9 ballgacha tushib ketishi mumkin.

6-jadval: O‘zbekiston Respublikasida budjet defitsiti hamda tashqi qarz hajmi va amalda kutilayotgan subindikator qiymatlari

№	Subindikator komponentlari	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
1.1	Budjet defitsiti*	0.68%	-1.40%	-2.23%	-2.42%	-3.14%
	Budjet defitsitining oxirgi 3 yillik o‘rtacha qiymati		-0.57%	-0.98%	-2.02%	-2.59%
Komponent qiymati*			99.4	98.1	91.8	86.6
1.2	Konsolidatsiyalashgan budjet defitsiti		-2.5%	-4.3%	-5.5%	-3.0%
	Konsolidatsiyalashgan budjet defitsitining oxirgi 3 yillik o‘rtacha qiymati			-2.7%	-4.1%	-4.3%
	Komponent qiymati**				66.4	63.7
2	Davlat qarzi [5]	28.3%	29.7%	39.0%	38.0%	36%
	Komponent qiymati		91.2	84.8	85.6	87.0
Komponentlarning “Iqtisodiy erkinlik indeksi” hisobotida aks etirilishi yillar kesimida						
Hisobot yillari		**2021-y.**	**2022-y.**	**2023-y.**	**2024-y.**	**2025-y.**
Subindikator qiymati*		98.3	96.6	95.6	89.7	86.7
Subindikator qiymati**				85.4	69.6	67.8

*“Heritage Foundation” tashkiloti foydalanadigan ma’lumotlar bazasida (https://data.imf.org/regular.aspx?key=61037799) O‘zbekiston Respublikasining budjet defitsiti sifatida “Davlat budjeti” va “Davlat maqsadli jamg‘armalari”ning yil yakunlari bo‘yicha saldosi olinadi. Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ochiq taqdim etilmaganligi sababli aks ettirilmay kelingan.

**Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining ma’lumotlari ochiq ravishda taqdim etilishi, “Heritage Foundation” tashkilotining O‘zbekiston Respublikasi uchun ma’lumotlarni yig‘ish jarayoniga ta’sir o‘tkazishi mumkin. Natijada konsolidatsiyalashgan budjet ma’lumotlaridan foydalanish subindikator qiymatini yanada pastlatib yuboradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Heritage Foundation” tashkilotiga tegishli bo‘lgan Iqtisodiy erkinlik indeksining soliq yuki, davlat xarajatlari va fiskal salomatlik pozitsiyalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining 02.06.2020-yil PF-6003-sonli farmonida o‘rnatilgan KPI ko‘rsatkichlariga erishish imkoniyatlarini tahlil qilish davomida quyidagi xulosalarga kelindi.

Soliq yuki yo‘nalishi bo‘yicha:

- “Heritage Foundation” soliq yuki subindikatori O‘zbekiston Respublikasi uchun 2019–2020-yilgi ma’lumotlardan foydalanishi natijasida 2022–2023-yillar uchun o‘rnatilgan KPI ko‘rsatkichlariga qiyinchiliklarsiz erishish mumkin;
- 2030-yil uchun o‘rnatilgan KPI ko‘rsatkichlari budjet tizimida keskin o‘zgarishlar talab qiladi, ya’ni soliq tushumlarining YAIMga nisbatini va foyda solig‘i stavkasini 12%gacha tushirish talab etiladi.

Davlat xarajatlari yo‘nalishi bo‘yicha:

- davlat xarajatlarining YAIMga nisbati 2018-yildan boshlab o‘sib kelayotgan sababli, kelgusida mazkur subindikatorning qiymati hozirgi 78.1 ballik ko‘rsatkichdan 66.7 ballgacha tushib ketadi va bu yo‘nalishdagi KPI ko‘rsatkichlariga erishishni imkonsiz holga olib keladi;
- O‘zbekiston Respublikasi KPI ko‘rsatkichlariga erishish uchun Davlat xarajatlarining YAIMga nisbati 2022-yil 26.2%gacha, 2030-yil uchun 18.8%gacha tushirish talab etiladi.

- KPI ko‘rsatkichiga erishish maqsadida Davlat xarajatlarining keskin qisqartirilishi kelajakda mamlakat rivojiga emas, balki iqtisodiyotning retsessiyaga tushib qolishiga olib keladi.

Fiskal salomatlik yo‘nalishi bo‘yicha:

- mazkur yo‘nalishda 2022-yilgi KPI ko‘rsatkichlariga erishish uchun O‘zbekiston Respublikasi yil yakuniga qadar YAIMining 10%ga teng bo‘lgan Davlat qarzini so‘ndirishi kerak bo‘ladi;
- subindikatorning birinchi komponenti (budjet defitsitining oxirgi 3 yillik o‘rtachasi) – 2.1%ni tashkil etishi natijasida, hozirda YAIMining 38%ga teng bo‘lgan Davlat qarzini to‘liq qaytarib berib ham 2023-yilgi KPI ko‘rsatkichlariga erishib bo‘lmaydi;
- davlat qarzining xavfsiz darajasi sifatida YAIMning 60%, konsolidatsiyalashgan budjeti taqchilligining YAIMning 3% atrofida bo‘lishi 2030-yil uchun ko‘rsatilgan 99.5 ballik KPI ko‘rsatkichi o‘rniga 78.4 ballik darajagacha tushirib yuboradi;
- 2025-yilga borib “Heritage Foundation” tashkiloti O‘zbekiston uchun konsolidatsiyalashgan budjet ma’lumotlaridan foydalanishi natijasida ko‘rsatkichlar ya’nada yomonlashib 66.9 ballgacha tushib ketishi mumkin.

Bundan tashqari Iqtisodiy erkinlik indeksining soliq yuki va davlat xarajatlari pozitsiyalarida “to‘liq erkinlikni kafolatlagan” davlatlar tahlili, mazkur yo‘nalishlardagi mutlaq erkinlik mamlakatning rivojlangan darajasini yoki iqtisodiyotining barqarorligini anglatmasligini ko‘rsatdi:

- soliq yuki bo‘yicha 100 ballik ko‘rsatkichni qayd etayotgan mamlakatlar asosan yoqilg‘i-energetika mahsulotlarini eksport qiluvchi (BAA, Baxreyn, Saudiya Arabistoni, Qatar, Quveyt, Oman) yoki nisbatan kichik bo‘lgan orol (Timor-Leste, Maldiv, Bagama) davlatlardir;
- davlat xarajatlari bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich qayd etayotgan mamlakatlar asosan Afrika (Gaiti, Kongo Demokratik Respublikasi, Nigeriya, Efiopiya, Madagaskar, Sudan, Gvineya, Chad) mamlakatlari sanaladi;
- davlat xarajatlari pozitsiyasida yuqori natijalar qayd etgan mamlakatlarda inson rivojlanish indeksining o‘rtacha ko‘rsatkichi – 0.608 (MEDIUM HUMAN DEVELOPMENT), eng quyi o‘rindagi davlatlarning inson rivojlanish indeksidagi o‘rtacha qiymati – 0.819ni (VERY HIGH HUMAN DEVELOPMENT) tashkil etadi;
- davlat xarajatlari yo‘nalishdagi “ijobiy” natijani salbiy ko‘rsatkich sifatida qabul qilish mumkin;
- budjet defitsiti va davlat qarzi ustidan o‘rnatilgan nazorat fiskal salomatlik pozitsiyasidagi ijobiy natija garovi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasidagi mavjud vaziyat hamda Iqtisodiy erkinlik indeksining baholash metodologiyasining o‘ziga xosligidan kelib chiqib quyidagilar tavsiya qilinadi:

1. Davlat xarajatlari hajmi, soliq stavkalari yoki iqtisodiyotga nisbatan soliq yukini kamaytirish bo‘yicha takliflar qandaydir reytingni yaxshilash maqsadida emas, eng avvalo mamlakat manfaatlarini ko‘zlagan holda aniq hisob-kitoblar asosida qabul qilinishi kerak.
2. Budjet intizomini oshirgan holda budjet defitsitini 1%dan ortib ketmasligini ta’minlash, “Korrupsiyani idrok qilish” indeksida O‘zbekiston 2021-yil uchun 28 ball to‘plagan holda 180 mamlakat ichida 140-o‘rinda ekanligini inobatga olgan holda, jalb qilingan qarz mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishi [6] ustidan nazorat o‘rnatish.

Foydalangan adabiyotlar:

1. 2022 Index of Economic Freedom, Explore the Data. Internet resurs: https://www.heritage.org/index/explore?view=-by-region-country-year&u=637999400520368565
2. 2022 Index of Economic Freedom, Methodology. Internet resurs: https://www.heritage.org/index/pdf /2022/book/02_2022_IndexOfEconomicFreedom_METHODOLOGY.pdf
3. T. Ishmetovning 19.12.2022-yil Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisidagi ma’ruza nutqi. Internet resurs: https://www.youtube.com/watch?v=qDBJzuOuUH8
4. Republic of Uzbekistan: 2022 Article IV Consultation-Press Release; Staff Report; and Statement by the Executive Director for the Republic of Uzbekistan. Country Report No. 2022/189. June 22, 2022. Internet resurs: https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2022/06/22/Republic-of-Uzbekistan-2022-Article-IV-Consultation-Press-Release-Staff-Report-and-519919
5. Moliya vazirligi. “O‘zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi (2021-yil uchun”, 2-bet. Internet resurs: https://admin.openbudget.uz/media/post_attachments/Debt_Bulletin_4Q_2021.pdf
6. A. Sooray, R. Dzhumashev and F. Schneider, “How Does Corruption Affect Public Debt? An Empirical Analysis” World Development (2016), http://dx.doi.org/10.1016/j.worlddev.2016.08.020

IMPROVING THE PARTICIPATION OF JOINT-STOCK COMPANIES IN THE CAPITAL MARKET

Muminov Shohjahon Suyun ugli
Tashkent state university of economics
Chair of corporate governance Assistant

Abstract: The article gives proposals for the development of the activities of corporations, increasing their activity in the capital market, investment financing of new modern projects, and further development of the economy through the capital market.

Key words: Joint-stock companies, capital market, investment, start-ups, hedge funds, development of companies through investment banks, technological innovations, economic development.

Annotatsiya: Maqolada, kapital bozori, korporatsiyalarda korporativ boshqaruvni rivojlantirish, ularning faoliyatini takomillashtirish va yangi zamonaviy loyihalarda ishtirokini oshirish hamda korporativ boshqaruv orqali iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Aksiyadorlik jamiyatlari, kapital bozori, investitsiyalar, startaplar, xedj-fondlar, investitsiya banklari orqali kompaniyalarning rivojlanishi, texnologik innovatsiyalar, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация: В статье даны предложения по развитию деятельности корпораций, повышению их активности на рынке капитала, инвестиционному финансированию новых современных проектов, дальнейшему развитию экономики через рынок капитала.

Ключевые слова: Акционерные общества, рынок капитала, инвестиции, стартапы, хедж-фонды, развитие компаний через инвестиционные банки, технологические инновации, экономическое развитие.

INTRODUCTION

Today, corporations, stock markets and banks are the heart of the economy. Corporations a key role in contributing to the country's economy. These are mainly joint-stock companies, and these legal entities can be companies or commercial banks. In the context of globalization, integration between countries is also developing. The importance of corporations in today's market economy is very important. The importance of corporations and investment banks is increasing. The banks of our republic rely only on the credit system for financing. There are no investment services, that is, the investment services of banks in our country are based on credit. This problem can be solved by developing the capital market. For example, if he needs to finance a new project or start-up, he will not receive investment from the bank but will have to take a loan. In developed countries, the percentage of loans for financing new projects is very low. They get initial finance as an investment through capital markets or funds. Investment is the main tool in the development of companies. In project financing, developed countries mainly use the investment instrument rather than the credit system. For this reason, the activities of investment banks are widely developed in developed countries. Countries such as Japan, the USA, and Israel rely on investment to finance and develop companies, especially startups. The credit system is already outdated in these countries. Developed companies that have been operating stably for several years can get loans at low interest rates to move to the next stage or to increase working capital. The main financing of new projects, new services, start-ups or IT companies is investment. This article presents several proposals for economic development through investment activities.

RESEARCH METHODOLOGY

In the study of this problem, several methods were used, including mainly the results of monographic analysis of foreign experiences, scientific approach, analysis and synthesis, deduction and induction.

THE MAIN PART

Nowadays, any country that has an active investment policy is considered to be achieving stable economic growth. The role of the stock market is very important in this. Many projects are being financed in our republic, but only with loans. Imagine that a new project or startup has been established. Now we need funds to start it. Where does the entrepreneur get this money, of course, from the bank? Our banking system is built on credit. That is, this method of financing is not very favorable for an entrepreneur. It is difficult for a new project to become profitable immediately after its launch because every new startup is a risk. It may take years to develop. Some projects have 5-10-year strategic plans, which only need to be invested in for their development year after year. This means that the invested money will not return immediately, and the project may pay for itself after several years. But such projects will give huge growth in the future, only time will be needed for their development. Such projects need investment, not credit. How this system works in developed countries, they have many ways to finance new projects. These are stock markets, hedge funds and investment banks.

Investment banks should also be established in our republic. Based on investment, new technologies, experiences and qualified personnel enter various fields and sectors. Israel as an example, this country is called a startup country, because today the economic growth of Israel is based on new technologies. Investment banks, hedge funds and private investors play a big role in this. Israel regularly funds new startups, especially digital IT projects, and the country has a very attractive investment climate. These financings are at the expense of investment banks, funds or private investors and not at the expense of bank loans. Bank loans are also needed, but they should have a very low percentage of financing.

To develop the economy in Uzbekistan, the capital market must be developed. For this, we need to study the capital market experience of developed countries. Today, the share of the stock market in the economy of the republic is very small. Many companies use bank loans for financing. This is not a very useful method. Instead of if we use funds from hedge funds, investors or investment banks, companies will grow economically.

There are several solutions:

1. The capital market should be convenient for investors;
2. There should be tax deductions for startups;
3. It is necessary to attract money from local citizens to the stock market;
4. Limited liability companies should be given the right to issue bonds;

The greater the supply and demand in the capital market, the more investors there are. Today, most of the citizens of Uzbekistan work in foreign countries. 3 million people work in Russia, 3 million in Turkey, 1 million in Europe and 300 thousand in America. The money they send to Uzbekistan exceeds 10 billion dollars in total. If we direct these funds to the stock market of the Republic, additional funds of 10 billion dollars will appear and this will cause the development of the stock market. For these people to buy shares in the stock market, the state's involvement in the economy must be reduced. New start-up projects should develop. Joint-stock companies should operate freely and transparently. Then the people of our republic buy shares on the stock market with their own money. In addition, we should study the experience of foreign stock markets.

For example, the New York stock market, London stock market, and Hong Kong stock market.

These are developed stock markets. In addition, we should also study the experience of the stock markets of Russia and Kazakhstan. The stock markets of these countries are quite developed. These countries have large investment banks, technology companies and brokers.

For development, first of all, investment is needed by companies. Therefore, our country needs to use the economic experience of countries like Israel. Because today, the activity of the stock market of our country cannot be said to fully meet the requirements of the times. It is not possible to discover new successful projects only with credit.

Modern types of modern project financing:

1. Capital market;
2. Investment banks;
3. Hedge funds;
4. Angel investors;
5. Venture funds;

Imagine that commercial banks as investors. It directly directs its resources to the creation of real assets and the purchase of financial assets. In this way, commercial banks encourage the implementation of the investment requirements of economic entities in the form of monetary loans in the market economy.

All the banks mentioned in this list are engaged in a wide range of investment activities. These projects are financed through stock markets. Even if one of every 10-20 projects financed by these banks is successful, it will cover all the bank's expenses and make a huge profit, and the most important thing is that the bank will always profit from the projects it invests in because it is a shareholder.

Let's look at the differences between credit and investment.

Credit:

Once the loan is granted, it must be repaid, and this is a huge burden for a newly established company. It is not clear whether this company will succeed or fail in the future. Therefore, the loan is not a very good way of financing, and the loan is only for the bank's profit, and the bank's profit from this loan ends on the day the loan is repaid.

Investment:

Investment is made in several projects, and according to the contract, when the newly formed start-up or company becomes profitable, it will have a permanent profit depending on the investment made by the investor. Also, the investment amount does not need to be returned, and this allows the entrepreneur to conduct his activity more calmly. The investment benefits both the bank and the company.

There are several directions in the development of the capital market:

1. Reducing the state's share in companies;
2. Increasing the types of bonds;
3. Development of Islamic finance;
4. Privatization of companies with a share of the state through IPO;
5. Development of corporate management in companies;
6. To attract local and foreign investors to the stock market;
7. Development of financial knowledge of the population;
8. Development of insurance companies;
9. Increasing the number of issuers;
10. Organization of investment funds;

There is a very large investment company in Japan called SOFTBANK which has its venture fund. Its owner is Japanese investor Masayoshi Son. He invests in start-ups and develops new projects by attracting large amounts of money from businessmen to the fund. According to Softbank, one of its twenty projects is successful, and the remaining 19 unsuccessful projects make a profit. One of his most successful projects is Alibaba Group. At that time, he invested $25 million in Alibaba Group. Today, the company's capitalization is more than $500 billion, and this company had the largest IPO in history until 2014. Then this company sold $25 billion worth of shares through the IPO, and the company was valued at $250 billion after the IPO. The strength of the investment is that today, Alibaba Group is a larger corporation than Softbank itself, and through this, Masayoshi Son is constantly making profits at the level of his investment.

In the Japanese model of corporate governance, the majority of corporations are owned by investment banks. They finance companies through investment rather than through loans, and they always retain their share of the corporations. Today, Japan's economy is among the 10 strongest countries, and it is a country of investment projects, robotics, artificial intelligence and startups. All this is because that the investment activity has been set up correctly and funds have been directed to investments mainly in science projects.

Largest venture capital in the world:

1. Sequoia Capital
2. Andresson Horowitz
3. Accel Partners

4. Kleiner Perkins
5. Benchmark Capital
6. Index Ventures

Today there are brokerage companies and investment banks in the CIS countries. There is Tinkoffbank in Russia, TBC Bank in Georgia, and Freedom Finance in Kazakhstan. You can buy shares of Uzbek and foreign companies at Freedom Finance. Tinkoffbank mainly bets today on cryptocurrencies and projects that develop them. Cryptoindustry is the fastest-growing industry today. TBC also invested in several IT projects and also bought a $5 million stake in the Payme project in Uzbekistan. The Payme project is also successful today and brings great benefits to its investors. Investment banks should be established in our country and startups and new projects should be financed through investments. Then the economy will develop rapidly and Uzbekistan will join the ranks of developed countries.

CONCLUSION AND SUGGESTIONS

There are several factors for the development of capital market activity. For this, separate hedge funds and investment banks should be established and they should have their funds. Commercial banks should also go to stock markets. The stock market should be developed and the participation of banks in it should be strengthened. For banks to engage in investment activities, they must be financially strong and independent. Banks should organize their activities independently and fully meet the requirements of the times. The investment activities of banks should be far superior to credit activities. There is a main factor that ensures the international development of banks. This is the entry of banks to foreign stock markets and IPOs. Banks must go through these stages to be financially superior. Listing in foreign stock markets and IPO is not an easy process. Each country has its listing requirements and fees. London Stock Market or New York Stock Markets require certain listing requirements, fees, and fair and transparent operation. Our banks can enter the international stock markets in the future by meeting these requirements. Stock markets and IPO processes are the most profitable way to attract investments. The power of investment and IPO was mentioned above in the case of Softbank and Alibaba Group companies.

References:

1. “Corporate social responsibility and governance” Journal of Management and Governance Published: 26 June 2019.
2. Capital market,textbook, Elmirzaev S,Axmedov X,Sherkuziyeva N, Shavkatov N, 2022.
3. Shomirov A. The role of IPO mechanisms in attracting investments to joint stock companies: necessity and prospects. // International Finance and Accounting: Vol. 2021: Iss. 1, Article.
4. Takhumova Oksana V., Kasatkina Elena V., Maslihova Elena A, Alexey V.Yumashev, Maria V.Yumasheva. The main directions of increasing the investment attractiveness of the Russian regions in the conditions of institutional transformations.
5. Barr R. Political economy. – T. –M. International Relations, 1995. P. 319. 5. Gregory M. The principle is economics. – SPb.: Peter Kem, 1999. P. 538.
6. “Sciance and Education” Scientific journal, January 2021/Volume 2 Issue 1. P. 2017.
7. McConnell KR, Brew SL. Economics. – M.: Infra M, 2003. P. 62.
8. Elmirzayev S. Analysis of Dividend Policy in Developed Countries and Dividend Aristocrats. // “International Finance and Accounting” scientific-electronic magazine, issue 2, 2020. p. 11.
9. Vahabov A.V. and others. Foreign investments. Study guide. – T.: Maliya, 2010. – 328 p. (p. 152)
10. lex.uz
11. softbank.jp
12. www.uzse.uz

MAMLAKATIMIZDA ATROF-MUHITNI HIMOYALASHGA IXTISOSLASHGAN IJTIMOIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH HAMDA RAG‘BATLANTIRISH SHAKLLARI



Narzullayev Elmurod Shuxrat o‘g‘li
University of Business and Science o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or xorij tajribalari, bu sohada izlanishlar olib borgan olimlar, mamlakatimizda ijtimoiy tadbirkorlikni paydo bo‘lishi, bugungi kunda rivojlanish holati, ijtimoiy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, bu turdagi tadbirkorlik faoliyatini olib borishning talablari va tartibi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy korxonalar reyestri, preferensiyalar, ekologik tadbirkorlik, ijtimoiy loyiha, ijtimoiy tovar, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash.

Abstract: This article presents advanced foreign experience in the development of the field of social entrepreneurship, scientists who have conducted research in this area, the emergence of social entrepreneurship in our country, the state of its development today, measures taken to support social entrepreneurship activities, discusses the requirements and procedure for conducting this type entrepreneurial activity.

Key words: social entrepreneurship, register of social enterprises, preferences, environmental entrepreneurship, social project, social goods, renewable energy sources, waste recycling.

Аннотация: В данной статье представлен передовой зарубежный опыт развития сферы социального предпринимательства, ученые, проводившие исследования в этой области, возникновение социального предпринимательства в нашей стране, состояние его развития на сегодняшний день, меры, принимаемые по поддержке мероприятий социального предпринимательства, обсуждаются требования и порядок ведения данного вида предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: социальное предпринимательство, реестр социальных предприятий, преференции, экологическое предпринимательство, социальный проект, социальные товары, возобновляемые источники энергии, переработка отходов.

KIRISH

Mamlakatimizda ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ularning turmush sharoitini yaxshilash borasida bir qator amaliy chora-tadbirlar ko‘rilib, imtiyoz va preferensiyalar berib kelinmoqda. Yuqoridagi kabi ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun turli mamlakatlar turli xil choralarni qo‘llab ko‘rmoqda. Ular orasida eng samarali choralardan biri ijtimoiy tadbirkorlik faoliyat turini amaliyotga tatbiq qilish hisoblanadi. Dunyoning eng rivojlangan AQSh, Yaponiya, Kanada, Janubiy Koreya, Italiya, Germaniya, Shvetsiya, Shvetsariya kabi mamlakatlarida ijtimoiy tadbirkorlik sohalarini maqsadli va tizimli rivojlantirish, boshqaruv usullarini bosqichma-bosqich takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy tadbirkorlik, uning o‘ziga xos xususiyatlari va umumiy tavsifi borasida xorijlik yirik iqtisodchi olimlar X.Bouen, D.Bornshteyn, J.Elkington, P.Xartigan, B.Dreyton, G.Diz, Charlz Leadbeater zamonaviy olimlardan, J.Boshi, J.Kikal va T. Lyons [6, 7, 8] kabilar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlari olimlaridan A.A.Antonova, A.A.Barisheva, B.M. Teplov, M.A.Makarenko, V.V.Kashpur, L.V.Xoxlova, D.M.Shakirova, V.I.Makarevich [9, 10, 11] va boshqalar ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqarish bo‘yicha nazariy hamda amaliy muammolari ustida o‘z tadqiqotlarini olib borganlar.

Mahalliy olimlarimizdan, A.Vahobov, S.G‘ulomov, N.Yuldoshev, N.Maxmudov, A.Soliyev, M.Butaboyev, I.Nosirov, Sh.Zaynutdinov, A.Xoshimov, N.Rasulov, N.Norbayev [12, 13] va boshqalar mamlakatimizga ijtimoiy tadbirkorlik sohasining kirib kelishi, uning o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlantirishni boshqarish yo‘llari, avfzallik va kamchiliklari bo‘yicha izlanishlar olib borishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jahon tajribasida ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarining innovatsion boshqarish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy tadbirkorlar faoliyatini samarali boshqarish hamda rivojlantirish mexanizmlarini tizimli ravishda takomillashtirishga olib keladigan boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish va tashkiliy identifikatsiyani qurish, chiqindilarni samarali boshqarishga oid ilmiy tadqiqotlar doimiy ravishda amalga oshirib kelinmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarining faoliyat olib boradigan innovatsion yo‘nalishlarini va o‘ziga xos ilmiy-uslubiy asoslarini o‘rganish, ular faoliyatining samaradorligini baholash, modellarini hamda boshqarish va rivojlanishtirish strategiyalarini ishlab chiqish asosiy ilmiy tendensiyalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, tasniflash, mantiqiy fikrlash, dinamik qatorlar kabi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirishni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, faoliyat samaradorligini baholash hamda boshqarish strategiyasi ishlab chiqishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy tadbirkorlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash uchun O‘zbekiston nogironlarning jamoat birlashmalari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari uchun kreditlashning soddalashtirilgan tartibdagi yangi sxemasini ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Unga ko‘ra, ijtimoiy korxonalar uchun imtiyozli kreditlar quyidagi shartlarda beriladi,

a) kredit summasi - eng kam ish haqi miqdorining 1 000 barobarigacha;

b) asosiy qarzni to‘lashga olti oylik imtiyozli davrni hisobga olgan holda uch yilgacha muddatga;

c) ijtimoiy tadbirkorlik loyihalari doirasida ajratiladigan imtiyozli kreditlarning yillik foiz stavkasi yaratiladigan jami ish o‘rinlaridan nogironlar uchun ish o‘rinlari sonidan kelib chiqqan holda, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasiga nisbatan:


- stavka miqdorida – 30-50 foiz ish o‘rni;
- 50 foizi miqdorida – 51-70 foiz ish o‘rni;
- 70 foizi miqdorida – 71 foizdan yuqori ish o‘rni nogironlar uchun yaratilishi ko‘zda tutilganda.

Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi subyektlar tomonidan loyihalarni amalga oshirish uchun kredit mablag‘larini ajratishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash Davlat jamg‘armasiga kafillik berib boradi.

Bundan tashqari, mamlakatimizdagi qonunchilikka binoan “Ijtimoiy tadbirkor” maqomini olgan tadbirkorlik subyekti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.06.2018-y. PQ-3782-son “Aholining ijtimoiy zaif qatlami bandligini ta’minlashni rag‘batlantirishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida nazarda tutilgan imtiyoz va preferensiyalardan foydalanish imkonini qo‘lga kiritadi. Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tadbirkorlik subyekti ijtimoiy korxonalar reyestriga kiritilgan kundan boshlab tatbiq etiladi va ijtimoiy korxonalar reyestridan chiqarilgan kundan bekor qilinadi.

Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash asosiy faoliyatini favqulodda holatlarni bartaraf etish maqsadida o‘zgartirgan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan faqat favqulodda holatlar davrida qo‘llaniladi hamda favqulodda holatlar bartaraf etilgan (bekor qilingan) oydan keyingi oyning birinchi sanasidan bekor qilinadi.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun hukumat tomonida qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari tizimli ravishda ishlab chiqilishi va bunda ijtimoiy korxonalar moddiy, ma’naviy hamda boshqaruv maslalari bo‘yicha qo‘llab-quvvatlanilishi lozim (1-rasm).



1-rasm: Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shakllari

Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab quvvatlanish hamda rag‘batlantirishning eng ommalashgan turi bu korxonalarga imtiyoz va preferensiyalar berishdir [3].

Tadqiqotlarimiz natijasida shuni guvohi bo‘ldikki, ilg‘or xorijiy tajribalarga ko‘ra ijtimoiy korxonalarga quyidagi imtiyoz va preferensiyalar taqdim etilishi yuqori samara beradi [5]:

- soliqlar va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar berish;
- davlat mulki obyektlarini yoki ularga bo‘lgan mulkiy huquqlarni imtiyozli yoki “nol” qiymat bo‘yicha berish;
- davlat buyurtmachilariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar orqali ijtimoiy tovarlarni realizasiya qilish va ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish;
- moliyaviy va soliq hisobotlarini soddalashtirilgan tartibda yuritish;
- faoliyati byudjet hisobidan to‘liq yoki qisman moliyalashtiriladigan reklama tarqatuvchilar tomonidan reklama uchun ajratilgan efir vaqti, nashr yoki reklama maydoni umumiy yillik hajmining 5 foizidan kam bo‘lmagan hajmda ijtimoiy korxonalarning ijtimoiy tovarlari va ijtimoiy xizmatlari reklamasini bepul joylashtirish.

Ijtimoiy korxonalar reestriga kiritilgan tadbirkorlik subyektlari o‘tgan moliya yilida olingan foydaning kamida uchdan ikki qismini keyingi moliya yili davomida ijtimoiy korxonaning faoliyatiga yoki ijtimoiy loyihalarga reinvestitsiyaga yo‘naltirmagan taqdirda, undan soliq va bojxona to‘lovlari bo‘yicha taqdim etilgan imtiyoz summalari qaytarib olinadi, asosiy faoliyatini favqulodda holatlarga qarshi kurashish va uning oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish va ishlarni bajarishga o‘zgartirgan tadbirkorlik subyektlari bundan mustasno. Olingan foydaning kamida uchdan ikki qismini mazkur qismda belgilangan maqsadlar uchun yo‘naltirganligi ijtimoiy korxonaning soliq hisobotlari orqali aniqlanadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan keyinchalik ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishga kreditlar ajratish uchun tijorat banklarida resurslar joylashtiriladi hamda ijtimoiy loyihani amalga oshirish uchun ijtimoiy korxona tomonidan olinadigan kreditlar bo‘yicha kafillik beriladi va foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiyalar ham to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish uchun budjet subsidiyalari ham belgilanishi mumkin. Subsidiyalash O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga qaytarilmaydigan asosda amalga oshiriladi va

a) ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati va ijtimoiy loyihaning hajmi;

b) ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati va ijtimoiy loyiha amalga oshiriladigan hududning shart-sharoitlari;

c) kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy samaraga va yangi ish o‘rinlarini yaratish kabi mezonlarga qarab amalga oshiriladi.

Budjet subsidiyalarining hajmi O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tasdiqlanadigan dasturlar doirasida belgilanadi. Budjet subsidiyalari ajratiladigan ijtimoiy korxonalar vakolatli organ tomonidan ijtimoiy

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

loyihalarni moliyalashtirish uchun o‘tkaziladigan tanlovlar orqali aniqlanadi va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish uchun tanlov o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Dunyoning ijtimoiy tadbirkorlik rivojlangan mamlakatlarida atrof-muhitni muhofaza qilishga asoslangan ijtimoiy tadbirkorlikning keng tarqalgan turlaridan biri bu qayta tiklanuvchi energiyadan foydalangan holda harakatlanuvchi elektroskuterlar, elektromobillar, elektobuslar kabi vositalarini ishlab chiqishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 19-dekabr kuni elektromobillar ishlab chiqarishni tashkil etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi qarorni imzoladi. Bundan asosiy maqsadlardan biri yashil texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, elektromobillar va ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash orqali havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini qisqartirishdan iborat. Qarorga muvofiq, elektromobillar ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi joriy etish hamda bu tizim ishlab chiqarishni quyidagi tartibda yo‘lga qo‘yadigan barcha investorlarga nisbatan teng tatbiq etish belgilandi [2]:

a) birinchi bosqichda, 24 oy davomida ishlab chiqarish ishlab chiqarishning to‘liq sikli, jumladan kuzovning kamida 50 foizini payvandlash, bo‘yash, yig‘ish va avtomobillarni sinashni yo‘lga qo‘yish;

b) ikkinchi bosqichda, 36 oy davomida oyna, o‘rindiq, plastik qismlar, eshik qoplamalari, instrumentlar paneli, bamper kabi butlovchi qismlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish yoki kooperatsiya asosida mahalliylashtirish.

Elektromobillarni sanoat usulida ishlab chiqarish davlat tomonidan quyidagilar orqali qo‘llab-quvvatlanadi:


- 2030-yil 1-yanvarga qadar respublikada ishlab chiqarilgan elektromobillar utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, ularning butlovchi qismlari, jihozlar, xomashyo materiallari va servis xizmat ko‘rsatish uchun ehtiyot qismlari bojxona bojidan ozod etiladi. Utilizatsiya yig‘imi miqdori elektromobillar uchun 9 mln so‘m va gibrid avtomobillar uchun 36 mln so‘m, 2024-yilda ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan 15 mingta avtomobil uchun imtiyoz utilizatsiya yig‘imidan 337,5 mlrd so‘mni, bojxona bojidan 48,4 mlrd so‘mni tashkil etishi kutilmoqda;
- investorlarga ishlab chiqarish jarayoni o‘zlashtirilgunga qadar (24 oydan oshmagan) yiliga 10 ming donadan (ishlab chiqarish quvvatlarining 50 foizidan) ko‘p bo‘lmagan elektromobillarni mashinokomplekt (SKD) yoki tayyor avtomobil (CBU) holatida bojxona boji va utilizatsiya yig‘imi to‘lamasdan olib kirishga ruxsat beriladi. Bojxona to‘lovlari 1 dona elektromobil uchun 800 dollarga (utilizatsiya yig‘imi), 1 dona gibrid avtomobil uchun 6,9 ming (utilizatsiya yig‘imi – 3,2 ming, bojxona boji – 3,3 ming) dollarga kamayadi. 10 mingta avtomobil uchun imtiyoz 450−550 mlrd so‘mni tashkil etadi.
- respublikada ishlab chiqarilgan elektromobillarni sotib olishga olingan 360 mln so‘mdan ko‘p bo‘lmagan kredit foizlarining 15 foizdan oshgan, biroq 10 foiz punktidan oshmagan qismini qoplash uchun kreditning dastlabki 36 oyida davlat budjetidan kompensatsiya to‘lanadi.

Bundan tashqari, atrof muhitni himoyalashga asoslangan ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab quvvatlanish hamda rag‘batlantirishni yanada oshirish uchun kompensatsiya to‘lovi 1 dona avtomobil uchun 3 yilga 59,1 mln so‘mni,10 mingta avtomobil uchun 591,2 mlrd so‘m bo‘ladi. Kreditning oylik to‘lovi 1,642 mln so‘mga (8,7 mln so‘mdan 7 mln so‘mgacha) kamayadi. Kredit foizlarining bir qismini qoplash uchun Davlat budjetidan yillik o‘rtacha 100 mlrd so‘m mablag‘ sarflanishi (1 ta elektromobil uchun 59,1 mln so‘m) kutilmoqda. Koreya (1−6 ming dollar), Yaponiya (3,2−6,5 ming dollar), AQSh (4,5−7,5 ming dollar) va Xitoy (0,8−2 ming dollar) kabi davlatlarda aholiga elektromobil sotib olish uchun kompensatsiya to‘lanadi. 2030-yil 1-yanvarga qadar elektromobillarda yo‘lovchilarni tashish xizmatlarini ko‘rsatuvchi shaxslar litsenziya uchun litsenziya uchun davlat boji to‘lashdan ozod etiladi [14].

2023−2025-yillarda davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimliklar va davlat ulushi 50 foizdan ko‘p bo‘lgan korxonalar tomonidan elektromobillar xarid qilinishi bo‘yicha maqsadli parametrlar tasdiqlandi. Elektromobillardan foydalanishni qulaylashtirish uchun, 2024-yildan boshlab barcha yangi savdo, ko‘ngilochar va biznes markazlari, yoqilg‘i quyish shoxobchalari, mehmonxonalar va avtomobil yo‘llar bo‘yidagi infratuzilmalarda majburiy tartibda elektromobillarni quvvatlantirish stansiyalari joylashtiriladi.

Bugungi kunda malakatimizda elektromobillar faqat import qilinmoqda. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda O‘zbekistonga 10 dan ortiq mamlakatlardan elektromobillar import qilingan. Eng ko‘p import qilingan mamlakatlar bular Xitoy 1941 ta, BAA 111ta, Germaniya 58ta, Janubiy Koreya 7 ta va boshqa davlatlar 11tani tashkil qilmoqda [14].

Elektromobillar importi faoliyatini moliyaviy qo‘llab quvvatlanish hamda rag‘batlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan harakatlar natijasida 2022-yil davomida xorijdan 2180 dona qiymati 69,8 million AQSh dollari bo‘lgan elektromobillar import qilingan. Elektromobillar importi o‘tkan yilning mos davriga nisbatan 1371 donaga yoki deyarli 53 million AQSh dollariga oshgan (2-rasm).



2-rasm: Mamlakatimizga import qilingan elektomobillar dinamikasi

Mamlakatimizda ekologik tadbirkorlikni yanada rivojlantirish hamda atrof-muhit muhofazasi va chiqindilar bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentyabrdagi PQ-4845-son “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarga davlat-xususiy sheriklikni joriy etildi va bu borada Buxoro, Navoiy, Namangan, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida joriy yilda qiymati 32,0 million AQSh dollariga teng bo‘lgan bo‘lgan 16 ta hamda o‘tkan yili 46 ta jami 62ta loyiha amalga oshiriladi, buning natijasida 725 ta maxsus texnika, 64 ta chiqindilarni qayta ishlash, 43 ta chiqindilarni saralash uskunalari xarid qilinadi [15]. Maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlarini ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik subyektlariga doimiy foydalanish uchun so‘nggi yillarda 1300dan ortiq texnikalar berildi (1-jadval). Bu esa o‘z navbatida, davlat-xususiy sheriklik loyihalari amalga oshirilayotgan hududlarda sanitar xizmat ko‘rsatish qamrov darajasining 100 foizga yetkazilishiga hamda 2 650 ta yangi ish o‘rinlari yaratish imkonini beradi [15].

1-jadval: Maishiy chiqindilarni qayta ishlash korxonalariga berilgan texnikalar tarkibi

№	Hududlar nomi	Ijtimoiy tadbirkorlik subyektlari soni, (ta)		Basiz yildan farqi, (ta)	Berilgan texnikalar soni (ta)		Basiz yildan farqi, (ta)
		2021	2022		2021	2022	
1	Buxoro viloyati	1	5	4	26	95	69
2	Namangan viloyati	4	4	0	106	125	19
3	Farg‘ona viloyati	9	10	1	243	270	27
4	Navoiy viloyati	2	2	0	110	110	0
5	Xorazm viloyati	3	3	0	58	58	0
6	Samarqand viloyati	4	4	0	36	89	53
7	Toshkent viloyati	2	2	0	66	71	5
8	Andijon viloyati	7	7	0	279	279	0
9	Qashqadaryo viloyati	6	13	7	98	212	114
10	Surxondaryo viloyati	0	1	1	0	35	35
Jami		**38**	**51**	**13**	**1022**	**1344**	**322**

Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatmoqdagi, maishiy chiqindilarni to‘plash, olib chiqib ketish va saralash xizmatlarini ko‘rsatish sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalari dorasida ekologik ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi Qashqadaryo (13ta) va Farg‘ona (10) viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. 2022-yilda o‘tkan yildagi mavjud 38ta ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarining 2tasining faoliyati turli sabablarga ko‘ra tugatildi, 15ta yangi korxona o‘z faoliyatini boshladi va tadbirkorlar soni 51taga yetgan. Korxonalarga doimiy foydalanish uchun 2021-yili 1022ta, 2022-yilda 1344 ta, jami 2366 ta texnikalar berilgan. Bunday maxsus texnika vositalari berilishi bo‘yicha Andijon viloyati (279ta) eng yuqori, Surxondaryo viloyati (35) eng past korsatkichga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish nogiron shaxslar uchun ish o‘rni, ishsizlar sonining kamayishi, tadbirkor uchun esa ish faoliyatining doimiy yurib turishi, atrof-muhit muhofazasi va shu kabi ijtimoiy, iqtisodiy hamda ekologik muammolarni bartaraf etishda ancha samaraliroq va qoniqarliroq aytish natijalar olib kelishi mumkin. Chunki ijtimoiy tadbirkorlik, nafaqat ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamni qo‘llab quvvatlaydi, balki ijtimoiy sohada mavjud bo‘lgan yoki yuzaga kelgan muammolarga yuqori darajada echim topishga ham o‘z e’tiborini qaratadi. Masalan, pandemiya davrida, ayrim korxonalar tomonidan tibbiyot niqoblari, sanitar-gigienik vositalar arzon narxlarda yoki bepul tarzda aholiga etkazib berildi.

Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati huquqiy va me’yoriy asoslar, moliyaviy resurslar, biznesni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish tuzilmalari, o‘qitish va ishchi kuchini rivojlantirish bilan bog‘liq bir qator muhim masalalarda to‘siqlarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun, ijtimoiy tadbirkorlik subektlarining huquqiy asoslari va ularni rivojlantirishning boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy korxonalar paydo bo‘lishi, mustahkamlanishi va rivojlanishi uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, ularga imtiyozlar ajratib berish zarur.

Respublika miqyosida ijtimoiy tadbirkorlikning elementlari uchrasada, ammo jamiyat uchun mazkur termin nisbatan yot kategoriya hisoblanadi, qolaversa, bizda hali ushbu munosabatning amaliyotga kiritilishi, tatbiq etilishi, xalqning mazkur tushunchaning mavjud bo‘lishini qabul qila olishi uchun asosiy katalizator ham bo‘lishi lozim. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari va ijtimoiy tadbirkorlar to‘g‘risida aholi o‘rtasida tushuntirishlar olib borish hamda yo‘riqnomalar va uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ilg‘or xorij tajribalaridan ijtimoiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirishda davlat bosh islohotchi vazifasini o‘tashini hamda sohani rivojlantirish va boshqarishda uchun alohida tashkilot tashkil etilganligini ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-4291-son 2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasi 17.04.2019-y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-dekabrdagi “Elektromobillar ishlab chiqarishni tashkil etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-443-sonli qarori. e-qaror.gov.uz›ru/doc/1084202
3. Narzullayev E.Sh. Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlanishini baholash turlar. Yangi O‘zbekiston: Innovatsiya, fan va ta’lim// Respublika 56-ilmiy konferensiyasi. 30-sentabr. Toshkent-2023 14-11 b.
4. Maxmudov N.M. Narzullayev E.Sh. Ijtimoiy tadbirkorlik tushunchasining paydo bo‘lish tarixi, uning turlari va rivojlanish tarmoqlari. // Innovation in the modern education system: International scientific conference (25th April, 2021) – Washington, USA: Part 5, Issue 1. B- 403-412.
5. Maxmudov N.M. Narzullayev E.Sh. Atrof-muhitni muhofaza qilishga asoslangan ijtimoiy tadbirkorlikning tarkibiy tuzilishi va uning o‘ziga xos hususiyatlari // Journal of Innovations in Social Sciences Volume 1 | Issue 4 (Oct 2021) B-58-65.
6. D. Bornstein. How to Change the World: Social Entrepreneurs and the Power of New Ideas – 2005. – B. 88-89.
7. S.Teasdale “Making Sense of Social Enterprise Discourses” – 2012. – B. 59.
8. J. Gregory Dees. The Meaning of Social Entrepreneurship. – 2016.
9. Александра Лапшина Подходы к оценке социальных результатов для социального предпринимательства 01.02.2017.
10. Арбузова Т.Н. Социальная инфраструктура: проблемы и перспективы. –М.: Знание, 2008. – 105 с.
11. Важенин С.Г. Региональные особенности развития социальной инфраструктуры. –М.: Мысль, 2002.– 220 с.
12. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Toshmatov Sh.A., Butaboyev M.T. – “Yashil iqtisodiyot” darslik. B-52.
13. A.Madaminov Ijtimoiy tadbirkorlik: Yangi qonun loyihasi haqida – 2020
14. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya hamda atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi ma’lumotlari.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.

MAHALLIY FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI BOZORI VA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINI O'RGANISH XUSUSIYATLARI



Bobojonov Baxrombek Ruzimovich
PhD, TDIU "Marketing" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada farmatsevtika sanoatida mijozlar bilan munosabatlarning an'anaviy tizimi hamda raqamli texnologiyalarni rivojlanishini ahamiyati va zarurati nazariy ma'lumotlar asosida ochib berilgan. Shuningdek, ushbu maqolada mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvlardan raqamli transformatsiyalarga qadar iste'molchilarning xatti-harakatlari bilan belgilanadigan davrda muvaffaqiyatga olib keladigan asosiy yo'nalishlarini o'rganadi.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, farmatsevtika bozori, mijoz, farmatsevtika sanoati, korxona, bozor, innovatsiya.

Abstract: This article, based on theoretical data, reveals the importance and necessity of the traditional system of customer relationships and the development of digital technologies in the pharmaceutical industry. This article also examines the key success factors in an era driven by consumer behavior, from customer-centric approaches to digital transformation.

Key words: Digital technologies, pharmaceutical market, customer, pharmaceutical industry, enterprise, market, innovation.

Аннотация: В данной статье на основе теоретических данных раскрывается важность и необходимость традиционной системы взаимоотношений с клиентами и развития цифровых технологий в фармацевтической отрасли. В этой статье также рассматриваются ключевые факторы успеха в эпоху, определяемую поведением потребителей: от клиент ориентированных подходов до цифровой трансформации.

Ключевые слова: Цифровые технологии, фармацевтический рынок, заказчик, фармацевтическая отрасль, предприятие, рынок, инновации.

KIRISH

O'zbekiston farmatsevtika bozorida mahalliy korxonalarning marketing strategiyasini ishlab chiqish iste'molchilarni segmentlash, farmatsevtika vositalarini to'g'ridan-to'g'ri sotishni samarali tashkil etish va har bir iste'mol segmenti uchun marketingning ta'sirchan innovatsion vositalarini yaratishni talab qiladi. Farmatsevtika mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri sotishni tashkil qilishda iste'molchilarning xulq-atvori omillarini bilish, shuningdek, uning o'zgarishiga moslashish qobiliyatiga ega bo'lish katta ahamiyatga ega. "Aholini sifatli, samarali va xavfsiz farmatsevtika mahsulotlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash, farmatsevtika tarmog'iga ilg'or ilmiy-texnika yutuqlari va innovatsiyalarni joriy etish orqali tarmoqda ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish, ichki bozorni ta'minlash darajasini natural hajmda 80 foizga yetkazish" vazifasi belgilab berildi. Belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish farmatsevtika bozorining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mavjud ishlanmalardan to'liq foydalanish, dinamik rivojlanayotgan farmatsevtika bozorida iste'molchilarning xulq-atvor omillarini, shu jumladan ularning dinamikasi va ularga ta'sir etuvchi omillarni prognoz qilib, ularni aniqlash muammolarini hal qilish, farmatsevtika mahsulotlari savdosini samarali tashkil etishda iste'molchilar xulq-atvorini aniqlash va baholash yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarga ustivor darajada e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida" PF-60-son, 2022-yil 21-yanvardagi "2022–026-yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-55-son Farmonlari, 2019-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika tarmog'ida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4554-son qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur monografiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Jahon amaliyotida farmatsevtika tovarlar bozorlarida faoliyat yurituvchi mahalliy ishlab chiqaruvchi va savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarning maqsadli segmentlarga samarali ta’sir ko‘rsatish maqsadida iste’molchilarning xulq-atvorini o‘rganish marketing faoliyatining muhim elementiga aylanib bormoqda. Farmatsevtika bozori ham bundan mustasno emas.

Xalqaro amaliyotda farmatsevtika tovarlari bozori iste’mol tovarlarini bozorining bir qismi sifatida qaraladi. “Farmatsevtika tovarlar bozori va uning subyektlari o‘rtasida dori-darmonlarni va boshqa dorixona tovarlarini sotib olish-sotish, retsept va iste’mol qilish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar majmui” sifatida qaraladi.

Farmatsevtika bozorining asosiy elementlari talab, taklif, narx-navo va raqobat bo‘lib, ular o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Farmatsevtika bozorini bilish bemorlarni dori vositalari iste’molini har tomonlama tahlil qilish, kasallanish jarayoni va shakli, bemorlarning iste’mol qilish qobiliyatini bilish, farmatsevtika bozoriga moslashish, farmatsevtika bozoriga ta’sir o‘tkazish, farmatsevtika marketingining asosiy tamoyillaridir.

METODOLOGIYA

Dori vositalarining mahsulot sifatidagi ijtimoiy ahamiyatini farmatsevtika bozorining ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlardagi o‘rni bilan belgilash va quyidagicha ifodalash mumkin: [1]

- aholini dori vositalari bilan ta’minlashda shifokorlar, farmatsevtlar va bemorlarning o‘zaro munosabatda bo‘lishi talab etiladi;
- dori vositalariga oid ma’lumotlarni to‘la bilmasligi tufayli, bemor beixtiyor shifokorlar, farmatsevtlar ko‘rsatmasiga binoan ularning iste’molchilarga aylanadi;
- kam talab qilinadigan dori vositalarining mavjudligi;
- dorixona xodimi, farmatsevt, farmatsevt-assistentlari mehnatining ijtimoiy xususiyatga egaligi, farmatsevtlarning mehnat sarfi va pirovard natijasi orasidagi bog‘liqlikning uzviy emasligi;
- dorixona tarmoqlarida xo‘jalik yuritishning o‘ziga xosligi.

Marketing tizimida qo‘yilgan maqsadga erishish uchun iste’molchilar va boshqa subyektlarga ta’sir etish uchun marketing vositalari, ya’ni marketing usullari yig‘indisi, uslublari zarur. Shunday vositalaridan marketing-MIKS (Marketing 4P), marketing kompleksi bo‘lib hisoblanadi. Bularni marketing nazariyasiga 1964-yilda birinchi bo‘lib Garvard biznes maktabi professori Borden kiritgan [2]. Marketologlarni tayyorlash tizimida marketing kompleksi “4R” deb nomlanib, Makkarti tomonidan 1960-yilda bu model taklif etilgan [3]. Farmatsevtika marketingida mazkur marketing kompleksi o‘ziga xos jihatlari quyidagilar:

1. Product – dori vositalari, tibbiy buyumlar;
2. Price – narx;
3. Place – dorixona joyi, taqsimoti, sotish;
4. Promotion – siljitish, ulgurji dorixonalar, rag‘batlantirish, kommunikatsiyalar;

Farmatsevtika marketingi samaradorligi mijozlar bilan ishlash va ularni ehtiyojlarini samarali qondirish bilan bog‘liqdir. Iste’molchilarning, bemorlarning ehtiyoji va muhtojligini qondirish bo‘yicha farmatsevtika faoliyatini boshqarish uchun dori vositalariga talab va taklifni shakllanishi bo‘yicha ilmiy nazariy mulohazalarni ko‘rib chiqilishi lozim.

Olimlar tomonidan mahsulotlarni sotishning barqaror o‘sishida mijozlarning farmatsevtika tovarlarga bo‘lgan ishonchi, farmatsevtika savdosining turli chakana formatlarini yuzaga kelishi, infratuzilmaning rivojlanishi, iste’molchilarning talabi hamda aholining daromadlari ko‘payishi bilan bog‘liqdir. Shuningdek, “marketing kompetensiyasi” - konsultant yoki tashkilot tomonidan to‘plangan marketing bilimlari yangi bilimlar, usullar va texnologiyalarni rivojlantirish uchun ishlatiladi va amaliy faoliyatda ham, iste’molchilar bilan aloqada ham o‘zini namoyon qiladi” [4].

Ambler, T. [5] tadqiqotlarida sotish jarayoniga ta’sir qiluvchi omillarning turli tasniflari va iste’molchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdoni samarali tashkil etishda, reklama qilishda va tovarlarni sotib olishda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan xarid to‘g‘risida qaror qabul qilish jarayonlari o‘rganilgan. Mashhur tasniflardan birining asosini J.F. Krolaru [6] ishlab chiqqan, u tasniflashning asosini Savone (Sesurite - xavfsizlik, Affestion-moyillik, Bien etre–qulaylik, Orgueil- mag‘rurlik, Yesonomis - iqtisod) deb qisqartirgan ehtiyojlar nazariyalari ham diqqatga sazovor.

Xavfsizlik-birinchi navbatda, xizmat yoki mahsulot olib keladigan xotirjamlik bilan bog‘liq bo‘lib, bu ehtiyoj mahsulotni ishlatish paytida kuchlilik, ishonchlilik, kafolat kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Moyillik-iste’molchilarni odatlanib qolgan ma’lum obyektlar yoki shaxslar bilan birlashtiradigan munosabatlardir. Bog‘lanishdan ozod bo‘lganda, qaramlik o‘z o‘rnini egallaydi. Bunga misol qilib brendga moyillikni olish mumkin.

Qulaylik-iste'molchini sotib olish jarayonidagi va undan keyingi jarayonlardagi amaliy faoliyatlar majmui. Shu jumladan, mahsulotning qadr-qimmati va xususiyatlari sifatida ham e'tirof etiladi.

Mag'rurlik-iste'molchini har qanday tarzda butunlay ajralib turishni va boshqalardan ajralib turishni xohishini ko'rsatadi. Sifatli mahsulotlarni tavsiya qilganda, maslahatchilar mijozning noyob va betakrorligini, taklif etilayotgan tovarlarni sotib olish bilan, u boshqalarga sotib olingan narsalarni namoyish etish va ularning taassurotlarini qo'zg'atishga qodir holda, yuqori turmush darajasiga qadam qo'yadi.

Yangilik-insonning o'zgarishi, mavjud obyektlar va pozitsiyalarni yangilashga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq, yangilik uchun muhim omil yangi taassurotlarni o'rganishdir, chunki bu har doim odamlarni o'ziga jalb qiladi.

Tejamkorlik-ushbu xususiyat deyarli barcha tovarlarni sotib olishda yuzaga keladi, ammo bu farmatsevtik mahsulotlarda taxmin qilinishi mumkin bo'lgan hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Mahsulotning afzalliklari bilan taqqoslaganda narx ko'pincha ahamiyatsiz, ammo bu yordamchi sifat kafolati sifatida savdo dvigatelidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dori vositalariga talab – iste'molchilarning, bemorlarning moliyaviy va iqtisodiy imkoniyatlari asosida dori vositalarini sotib olish istagi, iste'moli tushuniladi. To'lov qobiliyatiga ega bo'lgan ehtiyoj talab deb ataladi. Shu sabab aynan "talab" toifasi iqtisodiy nuqtai nazardan har qanday bozorni harakatga keltiruvchi vosita hisoblanadi. Talabga turli omillarning ta'sir etish darajasiga qarab esa istiqboldagi ko'rsatkichlarini aniq belgilab olish mumkin. Talabning kattaligi farmatsevtika bozorining amaldagi sig'imini tavsiflaydi.

Dori vositalariga talabning shakllanishiga quyidagi omillarning ta'siri ko'rsatilgan: [7]

1. Iqtisodiy omillar – aholining daromadlari va ularning ijtimoiy guruhlarga taqsimlanishi, chakana baholar, mahsulot, tovar, dori vositalariga, tibbiy buyumlarga taklifining hajmi va tarkibi, aholini ijtimoiy himoya qilish fondlari, aholining shaxsiy xo'jaliklaridan olayotgan mahsulot, dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika va uzoq muddat ishlatiladigan uy-ro'zg'or vositalari bilan ta'minlanganligi va boshqalar.
2. Ijtimoiy omillar – aholining ijtimoiy va malakalari bo'yicha tarkibi, ularning bilim va madaniy saviyalari, tarixiy urf-odatlari, an'analari, milliy bayram, moda va boshqalar.
3. Demografik omillar – aholining soni, uning tarkibi, yoshi, jinsi, oila a'zolarining soni va o'rtacha hajmi bilan o'zgarishi va hokazo.
4. Tabiiy iqlim sharoiti – yil davomida fasllarining uzun-qisqaligi, hududning relefi va boshqalar. Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnikaga talabning o'sib borish qonuniyatlari.

Dori vositalariga bo'lgan taklif – ma'lum davr ichida farmatsevtika bozoriga olib chiqilgan yoki olib chiqilishi mumkin bo'lgan dori vositalari va dorixonada xizmat ko'rsatish hajmini bildiradi.

Uning ko'rinishi ulgurji savdo bazalari, omborlarida, chakana savdo bilan shug'ullanuvchi dorixona shoxobchalari, farmatsevtika bozori, dorixonani xizmat ko'rsatishi va boshqalarda iste'molchilarga sotishga qo'yilgan va zaxirada turgan dori vositalari va dorixonada xizmat ko'rsatish, dori vositalarining ulgurji vositachilar shaklida bo'ladi.

An'anaviy dori vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonani boshqarish farmatsevtik marketingi strategiyasining tarkibiy elementlari sifatida "Kerakli joyda, kerakli vaqtda (R1ase) va kerakli narx bo'yicha (Rrise) kerakli mahsulot (Rrodust)" farmatsevtika marketingi MIKSning tarkibiy qismlariga ta'sir etish hisoblanadi.

Talabni o'rganish dori vositalarining haqiqiy iste'molini o'rnatish, ularning iste'moliga ta'sir etuvchi dinamikani va bir qator omillarni hisobga olgan holda talab shakllarini aniqlash bilan bog'liq. Shuning uchun dori vositalarini sotishdagi vaziyatni o'rganishdan asosiy maqsad ularni sotishning o'ziga xos holati talabga qay darajada mos kelishini, bu ko'rsatkichlar yaqin kelajakda qanday o'zgarishini va bu borada qanday choralar ko'rish zarurligini aniqlashdan iborat. Aholini va tibbiyot muassasalarini dori vositalari va boshqa mahsulotlar bilan muammosiz ta'minlashga erishish, tibbiy maqsadlarda, bularning barchasi dorixonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini tushunish lozim.

Talabni tizimli tahlil qilishning asosi talab to'g'risidagi barcha mavjud ma'lumotlar manbalaridan: statistik, sotsiologik tadqiqotlar ma'lumotlari, buxgalteriya va moliyaviy hisoblar va boshqalardan foydalanish hisoblanadi. Shuning uchun talabni o'rganish tizimining funksional tuzilishi ana shunday muammolarni hal qilishga qaratilgan. Talab haqidagi ma'lumotlarni hisobga olish va tahlil qilish, talabni prognozlash, talab to'g'risidagi ma'lumotlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabilarga asos bo'lib hisoblanadi.

Farmatsevtika mahsulotlariga bo'lgan talabni ikki yo'nalishda o'rganish maqsadga muvofiq:

- har xil turdagi talablar miqdoriy xususiyatlarini va uning rivojlanish intensivligini aniqlash;
- talabni shakllantiruvchi omillarni o'rganish.

Farmatsevtik mahsulotlar bo'lgan talabning turlari va xususiyatlari jadvalda keltirilgan.

1-jadval: Farmatsevtik mahsulotlar bo‘lgan talabning turlari va xususiyatlari[1]

Shakllanishi	Talab turlari	Xususiyati
Qoniqish darajasi	Yuqori	Xaridor iste’mol uchun xarid qilishi mumkin bo‘lgan real miqdori
	Amalga oshirilgan	Xaridor iste’mol uchun xarid qilingan mahsulotlarning haqiqiy soniga teng
	Qondirilmagan, jumladan	Haqiqiy va amalga oshirilgan talab turlari o‘rtasidagi farqqa teng
	Real qondirilmagan	So‘ralgan, biroq sotib olinmagan miqdorga teng
	Yashirin qondirilmagan	So‘ralgan, biroq o‘rniga boshqa preparat sotib olingan miqdor asosida aniqlanadi
Shakllanish holati bo‘yicha	Institutsional iste’mol	Farmatsevtika yordamini ko‘rsatish uchun ajratilgan mablag‘lar miqdori va farmatsevtika mahsulotlarini etkazib berish hajmi bilan belgilanadi.
	Oraliq iste’mol	Bu retsept bo‘yicha tarqatish miqdori va dori vositalarining boshqa (ambulatoriyadan tashqari) darajalarida ko‘rsatiladigan dori vositalarining hajmi bilan tavsiflanadi.
	Bilvosita shakllangan	Farmatsevtika tovarlari va xizmatlari uchun aholi tomonidan to‘lanadigan miqdoriga teng
Talab ko‘lami bo‘yicha	Makro talab	Butun aholining tovar guruhi yoki tovarlar to‘plamiga bo‘lgan talabi
	Mikro talab	Muayyan mahsulot yoki uning assortimenti xilma-xilligiga maqsadli bozor talabi
Bozor holatiga ko‘ra	Salbiy	Farmatsevtik mahsulotlarga minimal talab yoki bozorda sezilarli talabning yo‘qligi; xaridorlarning ushbu mahsulotga salbiy munosabatini aks ettiradi
	Yo‘qotilgan	Xaridorning mahsulotga befarqligining natijasi, bu holda u mahsulotni o‘zi uchun foydasiz deb hisoblab, sotib olmaydi.
	Yashirin	Ko‘pgina iste’molchilar biror narsaga ehtiyoj sezganda paydo bo‘ladi, lekin uni qondirilmaydi, chunki bozorda bunday dori vositalari yo‘q, yoki etarli emas.
	Haddan tashqari yuqori talab	Farmatsevtik mahsulotlarga bo‘lgan talabning yuqori o‘suvchan va taklifidan ancha yuqori holatni anglatadi.
	Mutanosib talab	Kompaniyaning bozorga taklif qilayotgan barcha mahsulotlariga iste’molchilarning doimiy talabi
Shakllantirish xususiyati bo‘yicha	Potensial (yopiq)	Xarid qilish qobiliyati, potensial iste’molchilar soni va ularning ehtiyojlari darajasi bilan belgilanadi
	Paydo bo‘layotgan	Yangi va kam ma’lum bo‘lgan farmatsevtik mahsulotlarga bo‘lgan talab
	To‘liq shakllangan	Ko‘proq brend bo‘lgan mahsulotlarga bo‘lgan to‘liq shakllangan talab tushuniladi, jumladan “Parasetamol” dorisiga bo‘lgan talab
	Kechiktirilgan (kumulyativ)	Turli sabablarga ko‘ra qoniqtirilmagan talab (vaqtinchalik yuqori narx, tovar etishmasligi) bepul naqd pul bilan ta’minlangan.
	Vahimali (vahima)	Iste’mol bozoridagi vaziyat inflyatsiya, narxlarning ko‘tarilishi va boshqalar tufayli talabning yuqori o‘sishi. Masalan, Coved-19 pandemiyasi sharoitida yuzaga kelgan holat
Rivojlanish tendensiyasi bo‘yicha	Dinamik o‘suvchi talab	
	Barqaror talab	
	Dinamik pasayib boruvchi talab	
Sotib olish jarayonida mijozlar xulq-atvor xususiyati bo‘yicha	Qattiq tuzilgan (qattiq)	Muayyan mahsulotga oldindan o‘ylangan talab qo‘yiladi va uni boshqa, hatto bir hil mahsulot bilan almashtirishga imkon bermaydi.
	Muqobil (yumshoq)	Dorixonada mahsulot va uning xususiyatlari bilan tanishish jarayonida nihoyat shakllangan, mahsulotni almashtirishga ruxsat beriladigan holat.
	Impulsiv	To‘g‘ridan-to‘g‘ri dorixonada oldindan ko‘rib chiqilmasdan, sotuvchining reklama, tovarlarni namoyish qilish yoki takliflari ta’siri ostida sodir bo‘ladigan talab

1 Muallif tomonidan ilmiy manbalarni umumlashtirish asosida tuzilgan

Farmatsevtika mahsulotlariga talabning miqdoriy qiymati quyidagilar bilan belgilanadi:

- institutsional va yakuniy iste'molchilarning xarid qobiliyati;
- farmatsevtika tovarlari va xizmatlarini etkazib berish hajmi.

Talabni qondirish tasnifiga ko'ra ham o'lchash mumkin. Buning uchun haqiqiy, amalga oshirilgan va qondirilmagan talabning hajmi, nosozliklar va almashtirishlarning tuzilishi va hajmi hisoblab chiqiladi.

Talabning qondirilmaganligi sabablari har xil bo'lishi mumkin: dorixonada dori vositalarining yo'qligidan (etkazib beruvchilardan dori yo'qligi, buyurtmaning kech taqdim etilishi yoki uning hajmini noto'g'ri belgilab qo'yilganligi sababli) xaridorlarning dori sotib olishdan bosh tortishi yoki yuqori narx tufayli xarid qilmasligi mumkin. Ushbu sabablarni aniqlash keyingi davrda oqilona boshqaruv qarorini qabul qilish imkonini beradi.

Talabning rivojlanish intensivligini aniqlash har bir tovarlar guruhidagi yoki umuman tovarlar guruhidagi taklif, sotish va balans dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi.

Mahsulotlarni etkazib berish tezligi va sotish tezligining nisbati ushbu guruh tovarlari bilan to'yinganlik darajasini tavsiflaydi. Taklifning o'sish sur'atlari sotishning o'sish sur'atlaridan biroz yuqori bo'lishi kerak, aks holda qoniqtirilmagan talab paydo bo'ladi. Ta'minot tezligining amalga oshirish tezligidan sezilarli darajada oshib ketishi bilan tovarlarni saqlash, sotish xarajatlari va hatto saqlash muddati tugaganligi sababli uning yo'qolishi mumkin.

Dinamika ko'rsatkichlari sifatida o'sish yoki pasayishning mutlaq ko'rsatkichlari, shuningdek nisbiy ko'rsatkichlar ishlatilishi mumkin: asosiy (ma'lum bir bazaviy davrga nisbatan hisoblangan) va zanjirli (keyingi ko'rsatkichning oldingisiga nisbati sifatida hisoblanadi).

Talab hajmiga ikki guruh omillar hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi:

1) dorixona mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni shakllantiruvchi omillar, chunki talab ehtiyojning namoyon bo'lish shaklidir (bu omillarning tasnifi yuqorida muhokama qilingan);
2) iqtisodiy ko'rsatkichlar guruhi (mahsulot narxi va uning analogi, xaridorning daromadi va boshqalar), chunki talab to'lovga qodir ehtiyojdir.

Ayrim omillarning talabning kattaligiga ta'sir darajasini turli usullar bilan aniqlash mumkin, masalan, korrelyatsiya koeffitsiyentlari yoki elastiklikni hisoblash. Talab va uni tashkil etuvchi omil o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatishning usullaridan biri bu Spearmanning darajani tuzatish koeffitsiyentini hisoblashdir.

Ushbu hisoblash usulidan foydalanganda quyidagi mezonlarga asoslanadi:

1) mantiqiy ravishda qiziqish omillari hisobga olinadi, masalan iste'molchilarning yoshi, jinsi, daromadi, kasallikning davomiyligi, shifokorga borish chastotasi, dorixona, to'lov shartlari va boshqalar;
2) talab va qiziqish omillarini ro'yxatga olish varaqasida ro'yxatdan o'tkazish;
3) talab ko'rsatkichlarini (U bog'liq o'zgaruvchi) va har bir omil belgisini (X mustaqil o'zgaruvchilar) asosida tartiblash. Reyting kichikroq ko'rsatkichdan kattaroq ko'rsatkichga o'tkazish va ekspert baholash;

Farmatsevtika marketingi yangi bemorlarni jalb qilish va ma'lum bir dori yoki davolash rejasi haqida xabardorlikni oshirish uchun foydalaniladigan oflayn va raqamli strategiyalarni anglatadi. Farmatsevtika marketingi shifokorlarga yoki to'g'ridan-to'g'ri iste'molchilarga sotishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Farmatsevtika kompaniyalari kasalliklarni va boshqa tibbiy muammolarni davolash, oldini olish, tashxislash yoki davolash uchun ishlatiladigan dori vositalarini loyihalash, kashf qilish va ishlab chiqish uchun javobgardir. Biroq, kuchli raqobat, tobora murakkablashib borayotgan qoidalar va iste'molchilar bilan munosabatlarni sog'liqni saqlash mutaxassislari bilan amalga oshirishga o'tmoqda.

Shuningdek, farmatsevtika bozorining chakana sektorini rivojlantirishning hozirgi tendensiyasi dorixona tashkilotlari xizmatlariga talabning sezilarli darajada oshishi bo'lib, uning sabablaridan biri retseptsiz dori vositalarini iste'mol qilishning ko'payishi hisoblanadi [8].

Nazariy nuqtai nazardan, dori vositalarining yakuniy iste'molchilari shuningdek, boshqa retseptsiz dorixona mahsulotlari, odatda cheklangan va odatiy xarid va iste'mol qarorlariga ega. Shu sababli, dori-darmonlar bozorida iste'molchi tanloviga asosiy ta'sir mahsulot (dori vositasining funksional xususiyatlari), iste'molchi (ijtimoiy-demografik, tibbiy, iqtisodiy xususiyatlar) va xulq-atvor (doimiy va vaziyatli iste'molchi imtiyozlari) omillar hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu omillar doimiy dinamik rivojlanishda bo'lib, bu dori iste'molchilarining xatti-harakatlarida o'zgarishlarga olib keladi.

Sotish samaradorligi dorixonaning daromadliligiga, shuningdek, xaridlarni amalga oshirishda iste'molchilarning xatti-harakatlariga sezilarli ta'sir qiladi. "Ma'lumki, xilma-xil marketing vositalaridan foydalangan holda, dorixona korxonalari yanada muvaffaqiyatli rivojlanmoqda, ular farmatsevtika mahsulotlarini sotishda ehtiyojlarning shakllanishiga va keyinchalik iste'molchilarning xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatmoqda" [9].

Farmatsevtika bozorida iste'molchilarning xulq-atvorini asosan sotishni samarali tashkil etish va korxonaning marketing siyosati uchun vositalarni ishlab chiqish nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz. "Iste'molchilar harakati - bu iste'molchilarning xatti-harakatlarini tavsiflovchi belgilar va ko'rsatkichlar to'plami, shu jumladan ularning iste'moli afzalliklari, tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talab, iste'mol tarkibi, daromadlardan foydalanish usullari" [10].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Farmatsevtika bozorida iste'molchi xatti-harakatlarining yakuniy bosqichi ko'rsatilayotgan farmatsevtik yordamdan qoniqish/norozilik bo'lganligi sababli, iste'molchining xaridlardan keyingi holatini baholash iste'molchi faoliyatini boshqarish asosida farmatsevtika yordamini takomillashtirishning zaruriy shartidir. Iste'molchilarning xulq-atvorini boshqarishning asosiy vazifalari:

1) iste'molchilarning qoniqish darajasini aniqlash;
2) iste'molchilarning sodiqligini shakllantirish;
3) iste'molchi xatti-harakatlarining mumkin bo'lgan rivojlanishini prognoz qilishdan iborat jarayon bo'lishi va bular sog'liqni saqlash tashkilotlari yoki farmatsevtik agentliklar tomonidan nazorat qilinishi lozim.

Iste'molchi qoniqishini aniqlashda dorixonalar faoliyati uchun asosiy baholash mezonlari ishlab chiqilishi va iste'molchi uchun mazkur mezonlar asosida haqiqiy holatini baholashi lozim.

Iste'molchilarning ma'lum bir dorixonaga ishonchi va sodiqligini shakllantirish xususiyatlarini o'rganish ham muhim vazifalardan hisoblanadi.

Umuman olganda dori vositalarini ishlab chiqaruvchi farmatsevtika korxonalari, ulgurji va chakana dorixonalar farmatsevtik mahsulotlarga bo'lgan talabni o'rganish, uning istiqbollarini prognozlash orqali ishlab chiqarish va sotish bo'yicha uzoq muddatli va joriy rejalari ishlab chiqishlari ustivor yo'nalish sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Suyunov N.D. Saipova D.T. Farmatsevtik marketing fanidan o'quv-uslubiy majmua. Toshkent farmatsevtika instituti. 2019-y.
2. Borden, N.H., "The Concept of the Marketing Mix," Journal of Advertising Research, 1964, pp 2-7 and reprinted in: Baker, M.J. (ed), Marketing: Critical Perspectives on Business and Management, Vol. 5, Routledge, 2001, pp 3-4 and available online at Google Books.
3. McCarthy E. J., Shapiro S. J., Perreault W. D. Basic marketing. – Georgetown, ON, Canada : Irwin-Dorsey, 1979. – C. 29-33.
4. Соловева, Ю.Н. Развитие маркетинговой компетентности как предпосылка внедрения маркетинга взаимоотношений // Вестник Научноисследовательского центра корпоративного права, управления и венчурного инвестирования Сыктывкарского государственного университета, 2014. – № 1. – С. 150-165.
5. Амблер, Т. Практический маркетинг. –СПб.: Издателство "Питер", 2001. – 400 с.
6. Жандезон, Ж. Методы продаж / Жандезон Ж., Кролар Ж.Ф., Лансёстр А. Пер. с франц. –М, 1993.
7. Saipova D.T., Ilyasova K.A., Yunusxo'jaev A.A. "Farmatsevtika bozorini boshqarishda marketing". – Amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent. – 2009. – 190 b.
8. Дорофеева В. В., Галкина Г. А., Сударенко К. В. Особенности исследования потребительского поведения на рынке безрецептурных лекарственных препаратов //Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Медицина. – 2013. – №. 2. – С. 27-32.
9. Неретина Е.А. Маркетинг как искусство продаж в обществе потребления // Маркетинг в России и за рубежом, 2016. – № 6. – С. 15-21.
10. Райзберг, Б.А. Современный экономический словарь / Б.А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Стародубцева. –М.: ИНФРА-М, 2011. – 479 с.

SOLIQ VA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINING DOLZARB MASALALARI

Arifxanova Xabiba Shuxratovna
Toshkent Iqtisodiyot Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro va milliy qonunchilikka ko‘ra asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi va soliq hisobi o‘rtasida, shuningdek, asosiy vositalar hisobida buxgalteriya hisobining milliy standartlari va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari o‘rtasidagi farqlari yoritilgan. Shu bilan bir birga, maqolada asosiy vositalar hisobini unifikatsiyalash va ularning hisobi o‘rtasidagi farqlarni qisqartirishga oid tavsiyalar berilgan. Shuningdek, xorij tajribasidan foydalangan holda asosiy vositalar buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: asosiy vositalar hisobi, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, soliq hisobi, dastlabki qiymat, haqqoniy qiymat, asosiy vositalar amortizatsiyasi.

Abstract: This article highlights the differences between fixed asset accounting and tax accounting under international and national law, as well as the differences between national accounting standards for fixed assets and international financial reporting standards. Moreover, the article provides recommendations on unifying the accounting of fixed assets and reducing the differences between their accounting. In addition, the author has developed proposals and recommendations on improving fixed asset accounting in reliance upon foreign experience.

Key words: fixed asset accounting, national accounting standards, international financial reporting standards, tax accounting, initial value, fair value, depreciation of fixed assets.

Аннотация: В данной статье рассматриваются различия между бухгалтерским и налоговым учетом основных инструментов в соответствии с международным и национальным законодательством, а также между национальными стандартами бухгалтерского учета и международными стандартами финансовой отчетности в части учета основных средств. В то же время, в статье даны рекомендации по унификации учета основных средств и сокращению различий между налоговым и бухгалтерским учетом. Также приведены предложения и рекомендации по совершенствованию учета основных средств с использованием зарубежного опыта.

Ключевые слова: учет основных средств, национальные стандарты бухгалтерского учета, международные стандарты финансовой отчетности, налоговый учет, первоначальная стоимость, справедливая стоимость, износ основных средств.

KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatamizning iqtisodiyot va moliya sohalarida olib borilayotgan islohotlarda xorijiy investorlar mablag‘larini jalb qilish va yurtimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlari faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, shu jumladan, buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, haqqoniy, ishonchli va umume’tirof etilgan standartlar asosida tayyorlangan axborot iqtisodiyotga o‘z mablag‘i bilan kirib kelayotgan investorga moliyaviy qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, faoliyat turidan qat’iy nazar, asosiy vositalar har qanday korxona va tashkilotlarning faoliyat yuritishi uchun mustahkam asos va moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi muhim ma’lumot bo‘lib hisoblanadi. Shunday ekan, korxonaning real moliyaviy ahvoli tahlil qilish uchun asosiy vositalar hisobini to‘g‘ri yuritish lozim.

Shu bois, asosiy vositalar hisobini to‘g‘ri yuritish, uning kirimi, faoliyatdagi hisobi hamda chiqimi bilan bog‘liq jarayonlarni hisobda to‘liq va o‘z vaqtida aks ettirish hamda asosiy vositalar qiymati to‘g‘risidagi ishonchli axborotlar bilan tashqi va ichki foydalanuvchilarni ta’minlash muhim hisoblanadi. Bugungi kunda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish jarayonining tezlashishi, qilingan tizimli islohotlar asosiy vositalar hisobini xalqaro standartlarga muvofiq yuritilishini ta’minlashga xizmat qildi. Biroq ayni jarayonda asosiy vositalar hisobini buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yuritilishi bilan birga soliqqa tortish maqsasida yuritish masalasi ham dolzarblik kasb etadigan masalalardan biriga aylandi.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, amaliyotda asosiy vositalarni soliq solish maqsadlarida hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobni buxgalteriya hisobini milliy standartlardan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tkazishda asosiy vositalar qiymati o‘rtasida tafovutlar kelib chiqmoqda. Bu esa, mazkur axborotdan foydalanuvchi manfaatdor taraflar, shu jumladan investorlar va soliq organlari uchun qator muammo va qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda.

Shuning uchun, xo‘jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini yuritish maqsadida asosiy vositani tan olish, uni kirim qilish, faoliyatdagi hisobini yuritish, amortizatsiya hisoblash, chiqim qilish hisobini yuritish bilan birga, soliq hisobi nuqtayi nazaridan ham yuqoridagilar hisobini yuritishi zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Asosiy vositalar hisobini takomillashtirishga qaratilgan bir qancha tadqiqotlar mavjud bo‘lib, aynan uning kirimi, amortizatsiyasi, baholanishi, chiqimi kabi masalalar mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, Adam Hayes va Margarit Jeyms o‘z tadqiqotida asosiy vositalarni qayta baholash – bu kompaniyaning asosiy vositalari yoki asosiy vositalar guruhining adolatli bozor qiymatidagi har qanday jiddiy o‘zgarishlarni hisobga olish uchun ularning balans qiymatini oshirish yoki kamaytirishni hisobga olish jarayoni ekanligini ta’kidlaydi[1]. Mualliflar, asosiy vositalarni doimiy baholab turish muhim exkanligini ta’kidlashlari bugungi kun zamon talabidan ham muhim hisoblanadi. Chunki, asosiy vositalar qiymati bozor bahosiga, haqqoniy qiymatga yaqin qiymatda hisobda aks ettirilmasligi, korxona moliyaviy tomonini boshqarish, tannarxni shakllantirish va boshqa ko‘plab holatlarga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Shu bilan birga, boshqa bir manbada qayta baholashning asosiy maqsadi mamlakatda investitsiya jarayonlarini amalga oshirish uchun iqtisodiy sharoitlar yaratish ekanligi, biroq, investitsiya faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, qayta baholash davrida investitsiya faolligi kuzatilmaganligi ko‘rsatganligini ta’kidlaydi. Investitsiyalar yangi qurilishga emas, balki mavjud korxonalarni texnik qayta jihozlash va rekonstruksiya qilishga yo‘naltirilganligi, qayta baholash natijasi asosan asosiy vositalar qiymatining oshishi ta’sir qilganligini e’tirof etadi[2].

Bundan esa, asosiy vositalar qiymatini baholash hisobiga oshishidan kkompaniya rahbarlari xotirjamlikka berilmasliklari lozimligi kelib chiqadi. Bu shunchaki, asosiy vosita qiymatini bozor bahosiga yaqinlashtirish hisobiga ekanligini tushunish kerak.

Marinning fikricha, asosiy vositalarni qayta baholash, ya’ni adolatli qiymatni aniqlash uning moliyaviy holati va samaradorligi to‘g‘risida adolatli tasavvurni ta’minlash talab qilinadi. Soliq solish maqsadida, daromad solig‘ini hisoblashda chegirib tashlanadigan harajatlar qatoriga faqat zaxiralarning amortizatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lganlari, ular soliqqa tortiladigan daromad sifatida qaralishi sharti bilan qabul qilinadi. Daromad solig‘ini hisoblash, binolarga soliqlarni belgilash, moddiy boyliklarni qayta baholash va ayniqsa, binolarni qayta baholash fiskal ta’sirni o‘z ichiga olganligi sababli, katta ehtiyotkorlik va professionallik bilan yondashish kerak[3].

Albatta ushbu muallif, aynan asosiy vositani qayta baholashda soliq munosabatlarini ham esdan chiqarmaslik lozimligini ta’kidlab, buni ham hisobga olish lozimligini keltirib o‘tadi.

Ushbu fikrning davomi sifatida Telegina asosiy vositalarni qayta baholash bo‘yicha tadbirning natijasi tashkilot faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Qayta baholashdan so‘ng mahsulot tannarxiga kiritilgan amortizatsiya ajratmalari ko‘payishi mumkin va shu bilan soliqqa tortiladigan daromad solig‘i bazasi kamayadi deya e’tirof etadi[4].

Mahalliy olimlardan K.Xomitov tomonidan mashina va uskunalarni baholashning o‘ziga xosligi mavjudligi tufayli mashina va asbob-uskunalar qiymatini baholashning umum qabul qilingan uslubiyotini ishlab chiqish zaruriyat ekanligini ta’kidlagan[5].

Z.Mamatov va S.Salohiddinovlar korxona asosiy vositalarini qayta baholab borishni doimiy tashkil etishni, qayta baholash barcha aktiv sifatida tan olingan asosiy vositalar bo‘yicha o‘tkazilishini, asosiy vosita obyektlarini qayta baholash kunidagi haqiqiy qiymat bo‘yicha qayta baholashni tavsiya etishadi[6].

1 Adam Hayes, Margaret James. How to Account for Changes in the Market Value of Various Fixed Assets. May 16, 2021. https://www.investopedia.com/ask/answers/041615/how-do-you-account-changes-market-value-various-fixed-assets.asp#:~:text=Revaluation%20of%20a%20fixed%20asset,in%20their%20fair%20market%20value

2 Куликова Лидия Ивановна. История проведения переоценок основных средств в России: накопленный опыт, результаты и сюрпризы. История эволюции развития учета, анализа и аудита. № 1 / 2016. Стр. 129-141.

3 Marin Ciumag. Accounting and taxation of the tangible fixed assets’ revaluation. Annals of the “Constantin Brâncuşi” University of Târgu Jiu, Economy Series, Issue 2/2012.

4 Телегина Т.О. Влияние процедуры переоценки основных средств на дальнейшее функционирование предприятия. ЖУРНАЛ: АЛЛЕЯ НАУКИ. Учредители: ИП Шелистов Денис Александрович (Издательский центр "Quantum"). eISSN: 2587-6244. Том: 1Номер: 11 (27) Год: 2018 Страницы: 532-537

5 Xomitov K. Mashina va uskunalar qiymatini baholashga uslubiy yondashuv // Moliya. 1/2018.

6 Маматов З, С.Салоҳиддинов. // МСФО: совершенствование учета основных средств. Бизнес-эксперт. 5/2017. Б-60-65.

Ushbu mualliflarning fikrlari ham asosiy vositalarni qayta baholash jarayonini ifodalashi bilan ahamiyatli bo‘lsa-da, ular tomonidan qo‘llanilgan jumla munozarali. Ya’ni, mualliflar, barcha “aktiv sifatida tan olingan asosiy vositalar” bo‘yicha o‘tkazilishini ta’kidlab o‘tishadi. Aslida, aktiv sifatida tan olinmagan asosiy vositalar mavjud bo‘lmaydi. Biror obyekt asosiy vosita tarkibiga kiritilar ekan, albatta u aktiv mezoniga javob berishi kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda davomida taqqoslama tahlil, guruhlash, qiyoslash, abstrakt mantiqiy fikrlash va baholash kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, asosiy vositalar qiymati va uning baholanishi nafaqat buxgalteriya hisobi, balki soliqqa tortish nuqtayi nazaridan ham muhim hisoblanadi hamda alohida, qiyoslab o‘rganishni taqozo etadi.

Asosiy vositalar hisobini yuritishdagi asosiy tafovutlarni 3 xil turga bo‘lish mumkin:

- asosiy vositalar boshlang‘ich qiymatni belgilashdagi tafovutlar;
- qayta baholash qiymatini aniqlashdagi tafovutlar;
- amortizatsiya hisoblashdagi tafovutlar.

Moliyaviy hisob hamda soliq hisobi bo‘yicha asosiy vositalarni hisobidagi asosiy farqlar quyida jadvalda keltirilgan.

1-jadval: BHMS va MHHSga ko‘ra asosiy vositalarning xisobini yuritishda moliyaviy hamda soliq hisoblari o‘rtasidagi farqlar to‘g‘risida ma’lumot

Qadrsizlanishga tekshirish	Qadrsizlanishga tekshirish amalga oshirilmaydi	Tashkilot har moliyaviy yil yakunida qadrsizlanishga tekshirishi va qadrsizlanishdan ko‘rilgan zararni tan olishi kerak	Qadrsizlanish bo‘yicha xarajatlarni chegirib tashlanadigan xarajat sifatida tan olinmaydi.
Asosiy vositaning chiqib ketishi (realizatsiya qilinishi)	Realizatsiya qilingandan so‘ng asosiy vosita hisobdan chiqariladi.	Sotish qarori qabul qilingandan so‘ng maxsus hisobvarag‘iga o‘tkaziladi. Aktivga eskirish hisoblanmaydi.	Nazarda tutilmagan.
Foydali xizmat muddati korxona tomonidan qaytadan ko‘rib chiqilishi	Asosiy vositalar holatini yaxshilaydigan va xizmat muddatini uzaytiradigan xarajatlar amalga oshirilganinida foydali xizmat muddati korxona tomonidan qaytadan ko‘rib chiqilishi mumkin.	Foydali xizmat muddati korxona tomonidan har moliyaviy yil yakunida qayta ko‘rib chiqiladi.	Nazarda tutilmagan.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini shakllantirishda amortizatsiya hisoblash usuli va qadrsizlanishga tekshirishlar o‘tkazishda sezilarli farqlar mavjud.

Biroq, sezilarli farqlar bilan bir qatorda, xalqaro va milliy standartlar asosiy vositalarni hisobga olish, xususan, obyektning foydalanish muddatini belgilashda o‘xshash mezonlarga ega.

Asosiy vositanging foydali xizmat muddati deganda korxona aktivdan foydalanadigan xizmat davri tushuniladi. Bundan kelib chiqsak, foydali xizmat muddati asosiy vositaning amortizatsiyasini hisoblashdagi asosiy mezonlaridan biridir.

Ikkala (BHMS va MHXS) standartga ko‘ra, xo‘jalik yurituvchi subyekt kirim qilingan asosiy vositalarning foydali xizmat muddatini quyida keltirilgan omillarni hisobga olgan xolda mustaqil belgilashi mumkin:

- aktivdan foydalanish muddati;
- kutilayotgan jismoniy va ma’naviy eskirish;
- obyektdan foydalanish bo‘yicha tartibga soluvchi cheklovlar (obyekt pasporti, ijara shartnoma shartlari va boshqalar).

Asosiy vositalarni baholash usullarining nomuvofiqligiga alohida e'tibor qaratish lozim chunki ular yordamida asosiy kapital miqdori aniqlanadi va amortizatsiya to'lovlari hisoblab chiqiladi. Shuningdek asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi.

Asosiy vositalarni obyektiv baholash investorlaning investitsiya jozibadorligi va ularning tavakkalchilik darajasi xaqidagi qaroriga ham ta'sir qiladi.

Asosiy vositalarni qiymatini baholashga oid buxglateriya hisobining milliy va xalqaro standartlari hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilangan normalarni tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya to'g'risida"gi Qonuni[7] va Buxgalteriya hisobining milliy standarti 5-sonli BHMSga[8] (ro'yxat raqami 1299-son, 2004 yil 20 yanvar) ko'ra asosiy vositalar boshlang'ich (qayta tiklanish) qiymat bo'yicha hisobga olinadi.

- boshlang'ich qiymat – asosiy vositalarni yaratish yoki xarid qilish bo'yicha qilingan xarajatlarning qiymati;
- joriy qiymat – ma'lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo'yicha asosiy vositalarning qiymati;
- qoldiq (balans) qiymat – jamlangan amortizatsiya summasini chegirgan holda asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymati;
- tugatish qiymati – asosiy vositalarning chiqib ketishi bo'yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda kutilayotgan foydali xizmat muddati oxirida asosiy vositalarni tugatish chog'ida olinadigan aktivlarning kutilayotgan summasi.

36-son MHXSga asosan xo'jalik yurutuvchi subyekt har yili aktivlarni qadrsizlanishga tekshirib turishi lozim. Buxgalteriya hisobining milliy standartlarida esa bu talab mavjud emas.

"Asosiy vositalar" Buxgalteriya hisobining milliy standartiga (5-son BHMSga) asosan ham asosiy vositalarni qayta baholash mumkin. Asosiy vositalar indeksatsiya yo'li bilan yoki rasmiy tasdiqlangan bozor narxlari bo'yicha bevosita qaytadan hisob-kitob qilish orqali qayta baholanadi.

Asosiy vositalardan foydalanish jarayonida jismonan va ma'naviy eskirishi mumkin. Shu sababli korxonalar asosiy vositani qiymatini xarajatlarga o'tkazib boradi va bu jarayon amortizatsiya deb ataladi[9].

O'z o'rnida hisoblangan amortizatsiya qiymati to'g'ridan to'g'ri mahsulot tannarxiga, narx belgilashga, mol-mulki bo'yicha soliq summasini hisoblashga, foyda soligini hisoblab chiqishga hamda korxonani moliyaviy holatini ko'rsatuvchi moliyaviy ko'rsatkichlarga ham ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra amortizatsiya bir tamondan amortizatsiya qilinayotgan aktivni eskirishi natijasida uning qiymatini bosqichma bosqich pasayishi bo'lsa, ikkinchi tomondan esa asosiy vositani yaratish uchun sarflangan pul qiymatini tezda tiklash imkonini beradi va yanada yangi texnologiya sotib olish imkonini yaratadi.

16-son MHXSga asosan asosiy vositalarni eskirishi bu asosiy vositalarni eskirish hisoblanadigan qiymatini uning foydali hizmat muddati davomida tizimli asosda xarajatlarga yoki mahsulot qiymatiga olib borishni angalatidi. 5-sonli BHMSga asosan esa amortizatsiyalanadigan qiymat butun foydali xizmat muddati mobaynida subyekt xarajatlariga amortizatsiya ajratmalari ko'rinishida tizimli taqsimlanib borilishi sifatida ko'riladi.

Asosiy vositalar amortizatsiyasini hisoblashdagi tafovutlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval: Asosiy vositalar amortizatsiyasini hisoblashdagi tafovutlar to'g'risidagi ma'lumot

Farqli jihatlar	Moliyaviy hisob		Soliq hisobi
	BHMSga ko'ra	MHXS ko'ra	
Amortizatsiyani hisoblash mohiyati	Asosiy vositalar qiymati amortizatsiya hisoblash yo'li bilan qoplanadi.		Nazarda tutilmagan
Amortizatsiya qilinadigan obyekt	a) yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa obyektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar); b) mahsuldor chorva mollari; d) axborot-kutubxona fondi; tashqari barcha asosiy vositalar	Asosiy vositalarning barcha obyektlari yer uchastkalaridan tashqari	Soliq kodeksining 306-moddasida keltirib o'tilgan.

7 O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. Manba: https://lex.uz/docs/2931253

8 "Asosiy vositalar" O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-son BHMS). Manba: https://lex.uz/docs/821041

9 Бубновская Т. В., Ермакова А. О., Камнева Д. А. Сравнительный анализ стандартов РСБУ и МСФО в области оценки и учета основных средств //Карельский научный журнал. – 2017. – Т. 6. – №. 4 (21). – С. 168-171.

Farqli jihatlar	Moliyaviy hisob		Soliq hisobi
	BHMSga ko‘ra	MHXS ko‘ra	
Tugatish qiymati	Asosiy vositalarning chiqib ketishi bo‘yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda kutilayotgan foydali xizmat muddati oxirida asosiy vositalarni tugatish chog‘ida olinadigan aktivlarning kutilayotgan summasi	Chiqib ketish sanasiga baholangan qiymat	Nazarda tutilmagan
Amortizatsiya hisoblash bazasi	To‘liq boshlang‘ich qiymat.	Likvidatsiya qiymatini chegirib tashlagan holda amortizatsiya qilinadi.	To‘liq boshlang‘ich qiymat
Amortizatsiya hisoblash usuli	Amortizatsiyani bir maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash;		Amortizatsiya normalari qo‘llanilgan holda to‘g‘ri chiziqli hisoblash usuli.
Amortizatsiya hisoblash sanasi	Qabul qilingan oydan keyingi oyning dastlabki sanasidan boshlanadi.	Foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lgan paytdan boshlanadi.	Foydalanishga topshirilgan sanadan e’tiboran boshlanadi.
Amortizatsiya hisoblashni to‘xtatish	Obyektning amortizatsiyalanadigan qiymati to‘liq qoplangan yoki ushbu obyekt balansdan hisobdan chiqarilgan oydan keyingi oyning dastlabki sanasida to‘xtatiladi. Konservatsiyalashga o‘tkazilgan asosiy vositalarga nisbatan	5-son MHXSga muvofiq sotish uchun mo‘ljallangan (yoki sotish uchun mo‘ljallangan hisobdan chiqariladigan guruh tarkibidagi) aktiv sifatida tasniflangan sana. Aktiv sifatida tan olish bekor qilingan sana.	Nazarda tutilmagan
Amortizatsiya hissoblash to‘xtatilmaydi	Asosiy vositalarni foydali xizmat muddati davomida amortizatsiya ajratmalarini hisoblash to‘xtatilmaydi	Aktiv bekor turib qolganda yoki faol foydalanishdan chiqarilganda	Asosiy vositalarni foydali xizmat muddati davomida amortizatsiya ajratmalarini hisoblash to‘xtatilmaydi
Amortizatsiya parametrlarini o‘zgartirish va qayta ko‘rib chiqish	O‘zgarmaydi	Vaqti vaqti bilan tekshirib turiladi va o‘zgartirish imkoni mavjud	O‘zgarmaydi
Cheklovlar	Minimal miqdor bo‘yicha cheklovni borligi	Minimal miqdor bo‘yicha cheklov mavjud emas	Asosiy vosita sifatida e’tirof etilgan sanadagi qiymati bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravari (cheklov mavjud)

Yuqoridagi jadval asosida shuni ko‘rishimiz mumkinki, asosiy vositalarning amortizatsiyasini hisobga olishda sezilarli farqlar mavjudligi kuzatiladi. Shunga qaramasdan, xalqaro amaliyotda amortizatsiya to‘lovlarini hisoblash usullari milliy standart bo‘yicha hisoblash usuliga mos keladi. Bu usullar to‘g‘ri chiziqli usul, tezlashtirilgan amortizatsiya usuli, mahsulot va ishlar xajmiga mutanosib ravishda tannarxni hisobdan chiqarish usulini qamrab oladi.

Ma’lumki, korxonaning iqtisodiy faoliyati davomida asosiy vositalar uch bosqichdan: buxgalteriya hisobiga qabul qilish (tan olish), foydalanish va hisobdan chiqarish bosqichlardan o‘tadi.

Milliy hamda xalqaro hisobda ham asosiy vositalarni chiqib ketishi ham o‘xshash hollarda amalga oshiriladi, ya’ni asosiy vositalar sotish yoki eskirish natijasida foydalanishdan chiqarish, likvidatsiya qilish, boshqa tashkilotlar hisobiga ustav shaklida o‘tkazish yoki tekinga berib yuborish orqali hisobdan chiqariladi.

Biroq, asosiy vositalarni chiqib ketishidan olinadigan daromad va xarajatlar har xil metodlar asosida amalga oshiriladi.

Milliy buxgalteriya hisobida asosiy vositalar chiqib ketishidan olingan daromadlar va xarajatlar ular tegishli bo‘lgan davrda hisobda aks ettiriladi va boshqa daromad va xarajatlar sifatida foyda va zararlar hisobotida aks ettiriladi.

Asosiy vositalar obyektini sotishdan olingan natija deb obyektni sotishdan olingan sof tushum va uning balans qiymati o‘rtasidagi farq hisoblanadi. Asosiy vositalarni chiqib ketishidan sof tushum esa obyektni sotishdan olingan tushum va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar o‘rtasidagi farq hisoblanadi.

MHXSda asosiy vositalarni hisobdan chiqarishdan yuzaga kelgan foyda yoki zarar asosiy vosita obyekti hisobdan chiqarilganida foyda yoki zarar tarkibida aks ettirilishi kerak (bunda 17-son MHXSda sotish va qayta ijaraga olish bo‘yicha boshqa talablar belgilanmagan bo‘lsa). Ko‘rilgan foyda asosiy faoliyatdan daromad sifatida tasniflanmasligi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlildan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, MHXS va BHMSda asosiy vositalar hisobi ko‘p jihatdan farq qiladi. Ba’zi konsepsiyalar esa muhim jihatlarga ega va moliyaviy hisobotlarda asosiy vositalar qiymatini haqqoniy hisobga olishda sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, 16-son MHXS korxonaning asosiy vositalar bo‘yicha moslashuvchan hisob siyosatini ishlab chiqishga hamda asosiy kapitalni yangilash bo‘yicha strategiyasini mustaqil ishlab chiqishiga imkon beradi.

Uchinchidan, MHXSni qo‘llash orqali mikromiqyosda korxonalar va tashkilotlar faoliyati shaffofligini oshirsa, mamlakat miqyosda esa investitsiya muhitini yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni (2016-yil 13-apreldagi O‘RQ-404-son).
2. Manba: https://lex.uz/docs/2931253
3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2019-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan). Manba: https://lex.uz/docs/4674902
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5614-son Farmoni. Manba: https://lex.uz/docs/4147294
5. “Asosiy vositalar” O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-son BHMS), ro‘yxat raqami 1299-son, 2004-yil 20-yanvar. Manba: https://lex.uz/docs/555806
6. IFRS 36 “Impairment of assets”
7. Manba:https://www.ifrs.org/content/dam/ifrs/publications/pdf-standards/english/2023/issued/part-a/ias-36-impairment-of-assets.pdf
8. IAS 16 “Property, Plant and Equipment”
9. Manba:https://www.ifrs.org/content/dam/ifrs/publications/pdf-standards/english/2023/issued/part-a/ias-16-property-plant-and-equipment.pdf
10. E.F. Brigham, M. C. Ehrhardt, Financial management: Theory & practice. – Cengage Learning, 2016.
11. F.I. Lessambo Financial Statements //Analysis and Reporting. – 2018.
12. C. Prasanna, Financial Management–Theory and Practice, 2016.
13. R. Higgins, Analysis for Financial Management, 12th International ed. – 2018.
14. М.Ю.Гинзбург, А. А.Федоров “К проблеме определения рентабельности основных средств организации” // Вестник Нижегородского университета им. НИ Лобачевского. – 2014. – №. 1-1 (1). – С. 327-332.
15. Н.А. Соловьева, Е. А. Медведева, Анализ основных средств и эффективности их использования. – 2006.
16. Бабаев Ю.А., Петров А.М. Методологические подходы к переоценке основных средств и отражению ее результатов в финансовой отчетности в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности.
17. Пятов М. Л., Смирнова И. А. Модели оценки основных средств после признания, определяемые МСФО (IAS) 16 //БУХ. 1С: Интернет-ресурс для бухгалтеров.-Режим доступа: https://buh. ru/articles/documents/14236. – 2013.

INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR SHAROITIDA MAMLAKATNI MOLIYAVIY-IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Mamatov Axmetjon Atajanovich
TDIU professori

Ermo'minov Iskandar Ziyodillayevich
Bank-moliya akademiyasi magistratri

Annotatsiya: Maqolada institutsional islohotlar sharoitida iqtisodiyotini raqamlashtirish bilan bog'liq tahditlarni tadqiq etish asosida mamlakatni moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning konseptual modeli tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlik, raqobatbardoshlik, ITTKIlari, ilmiy salohiyat, intelektual mulk, IT texnologiyalari, konseptual model.

Abstract: The article proposes a conceptual model for ensuring the financial and economic security of the country based on a study of the threats associated with the digitalization of the economy in the context of institutional reforms.

Key words: financial and economic security, competitiveness, ITTKI, scientific potential, intellectual property, IT technologies, conceptual model.

Аннотация: В статье предлагается концептуальная модель обеспечения финансово-экономической безопасности страны на основе исследования угроз, связанных с цифровизацией экономики в условиях институциональных реформ.

Ключевые слова: финансово-экономическая безопасность, конкурентоспособность, ИТТКИ, научный потенциал, интеллектуальная собственность, ИТ-технологии, концептуальная модель.

KIRISH

Mamlakatimizda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi milliy xo'jalikda moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, uning mexanizmi va instrumentlarini ishlab chiqish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bu xaqda O'zbekiston Respubikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev alohida to'xtalib: "Qachonki, hududlardagi vaziyat ijobiy tomonga o'zgarsa, budjet ijrosi to'liq ta'minlansa, jinoyatchilik kamaysa, yangi ish o'rinlari yaratilsa, eng muhimi, xalqimizning turmush darajasi yaxshilansa, mahalliy Kengashlar faoliyatiga ijobiy baho bersa bo'ladi" [1]. O'zbekiston Respublikasida milliy iqtisodiyotda raqamlashtirish, ijtimoiylashtirish, resursli va infratuzilmali rivojlanishda tengsizlik muammolarini keskinlashuvi mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligiga tahdid solmoqda. Mamlakat o'z moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun masuliyati va javobgarligini hisobga olgan holda, yuqori moslashuvchan mobillik va iqtisodiy sohada manfaatlarni himoya qilishning samarali mexanizmiga ega bo'lgan tizimni shakllantirish dolzarb axamiyat kasb etadi.

ILMIY MUAMMONING QO'YILISHI

Jahon iqtisodiyotida mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash nazariyasi va uslubiyatini tadqiq etgan xorijlik olimlarga B.G.Klayner, Y.A.Shumpeter, A.Yu.Chalenko N.Luman, Dj.R. Kommons, K.Maynser, L.Gurvis, E.Morena, K.E.Shennon kabilarni keltirish mumkin.

Rossiyalik olimlardan L.I.Abalkin, V.L.Beresnev, A.D.Burikin, Ye.A.Oleynikov, V.I.Orexov, V.S.Pankov, V. K.Senchagov, A.I.Tatarkin, D.V. Tretyakov va boshqalar ushbu mavzuga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan.

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashningilmiy-nazariy jihatlarini Respublikamiz olimlaridan Abulqosimov X.P. Rasulev T.S., Mamatov A.A., Qodirov A.M., O'lmasov A. Vaxobov A.V., Jo'rayev T.T., Tursunov B.O. va boshqalarning mazkur sohaga dahldor ilmiy tadqiqot ishlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

“Moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi dastlab davlat tashkilotlari darajasida tan olingan. 1934-yil iyun oyida AQSH Prezidenti F. D. Ruzvelt dunyoda birinchi marta “Moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlik qo‘mitasini tashkil etdi [2].

Moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional nazariyasi asoschisi Dj.R. Kommons institutlarni tarixiy rivojlanishidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni qo‘llab-quvvatlab unga ko‘ra “evolyutsion” tushunchasi “institutsional” tushunchasi bilan mazmun va ma’nosi bir xil bo‘ladi deb ta’kidlaydi [3].

Moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda iqtisodiy mexanizm konsepsiyasining asoschisi L.Gurvis, mexanizm tushunchasini va “rag‘batlantiruvchi muvofiqlik shartlarini” aniqlagan, markazlashmagan mexanizmlarning ahamiyatini ko‘rsatib, mexanizm bo‘yicha tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlarini aniqlagan [4].

Rus olimi V.K.Senchagov moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlikni “... ichki va tashqi jarayonlarni rivojlantirish uchun eng noqulay sharoitlarda milliy manfaatlarni kafolatli himoya qilish, umuman olganda mamlakatning barqaror ijtimoiy yo‘naltirilgan rivojlanishi ta’minlangan iqtisodiyotning holati” deb ta’kidlab o‘tadi [5].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan professor Abulqosimov X.P. “Moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlik mamlakat manfaatlariga ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganligini ifodalaydi”, deb baho bergan [6]. Professor Mamatov A.A. “moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlik tushunchasini milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o‘z-o‘zidan takomillashib borishga qodirligini ta’minlovchi shart-sharoitlar va omillar yig‘indisi” deb baho bergan [7].

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarga asoslangan holda, milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish, ITTKIlarini yuritish, inttelektual mulkdan foydalanish bilan bog‘liq tahditlarni tadqiq etish asosida mamlakatning moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning konseptual modelini ishlab chiqgan va uning ilmiy jihatdan asoslab berish muhim axamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada dialektik, tizimli, integral va sinergetik yondashuvlar, moliyaviy-iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, iqtisodiy jarayonlar va tizimlarni modellashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash, umumlashtirish, guruhlash va jadval usullaridan foydalanildi

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, PF-6079-son farmoni [8] hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali O‘zbekistonda keng ko‘lamli raqamli iqtisodiyot dasturi ishga tushirildi.

“Raqamli O‘zbekiston–2030” dasturi rivojlangan davlatlar tajribasiga asoslangan holda amalga oshirilishi natijasida mamlakatimiz “Raqamli dunyo”da o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘ladi. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatlarini beradi. Zero, butun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Raqamlashtirish jarayonida moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlik sohasida yangi xavf va tahdidlar paydo bo‘lib, ular iqtisodiyotning muvozanasiz holatlarining asosiy manbalari bo‘lib xizmat qiladi.

Axborot jamiyati va raqamli iqtisodiyotning rivojlanish manbai mamlakatning raqobatbardoshligini va moliyaviy-iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy omili sifatida faoliyat yurituvchi intellektual resurslardir. O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining intellektual resurslari-bu aholining yalpi bilim, ko‘nikma, axborot, texnologik va ma’naviy salohiyati, ta’lim darajasi va sifati bo‘lib undan uzoq muddat davomida ijtimoiy.-iqtisodiy boyliklarni ishlab chiqarishda foydalanish tushiniladi.

O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida yuqori malakali ishchilar ulushining yillik o‘sishiga, ITTKIlarini olib boruvchi tashkilotlar soni to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir etadi. O‘zbekiston Respublikasida bugungi kunda ITTKI olib boruvchi tashkilotlar soni 2015-yilda 323 tadan 2018-yilda o‘zining maksimal 668 taga yetib keyingi davrlarda ushbu turagi tashkilotlarni budjetdan moliyalashtirishdagi muammolar sababli kamayib 2022-yilga kelib 332 taga tushib qoldi.

Milliy iqtisodiyotning raqamli iqtisodiyotga transformatsiyalashuvi sharoitida ITTKIga yo‘naltirilgan investitsiyalarning roli katta. Iqtisodiyotda ITTKI ishlanmalarini amalda qo‘llashning daromadlilik ehtimoli iqtisodiy o‘sish sifati xususiyatlarini belgilab beradi va natijada iqtisodiy o‘sish yuz beradi [9]. Tadqiqotimizda O‘zbekiston Respublikasida ITTKIga qilingan xarajatlarning mintaqalar bo‘yicha tahlili muhim o‘rinni egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi mintaqalari bo‘yicha ITTKIga qilingan xarajatlarning asosiy 62,3% Toshkent sh to‘g‘ri kelmoqda. Tadqiq etilayotgan davrda uning ulushi 64,4%dan 2015-yilda 62,3%gacha o‘zgarib turgan. ITTKIga qilingan xarajatlarda mintaqalar bo‘yicha ikkinchi o‘rinda Farg‘ona viloyati 10,0%, uchinchi o‘rinda Toshkent viloyati 9,5% va to‘rtinchi o‘rinda Navoiy viloyati 7,5% bilan egallaydi. Eng quyi o‘rinda Surxondaryo viloyati 0,12%, Sirdaryo viloyati 0,15% va Qashqadaryo viloyati 0,67% bilan egallaydi.

2-jadval: O‘zbekiston Respublikasida hamda uning mintaqalarida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xarajatlar [9]

№	Hududlar	2015	2019	2022
	O‘zbekiston Respublikasi	**100**	**100**	**100**
1.	Qoraqalpog‘iston Resp.	2,36	1,91	1,8
2.	Andijon viloyati	1,15	0,91	0,76
3.	Buxoro viloyati	2,38	2,02	1,86
4.	Jizzax viloyati	0,40	0,34	0,28
5.	Qashqadaryo viloyati	0,60	0,80	0,67
6.	Navoiy viloyati	5,07	8,10	7,58
7.	Namangan viloyati	0,47	1,50	1,42
8.	Samarqand viloyati	2,60	2,86	2,63
9.	Surxondaryo viloyati	0,51	0,14	0,12
10.	Sirdaryo viloyati	0,28	0,18	0,15
11.	Toshkent viloyati	7,93	9,91	9,5
12.	Farg‘ona viloyati	11,32	10,01	10
13.	Xorazm viloyati	0,50	1,02	0,85
14.	Toshkent sh.	64,40	60,30	62,38


O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida yangi texnologik ukladning takror ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish, bilimlarni bozorda aniq mahsulotga jadal uzatish, mavjud resurslarni qayta taqsimlashga imkon beruvchi vakolatli moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish, hamda raqamli iqtisodiyot infratuzilmasi bo‘lgan texnopark, tadqiqot va muhandislik markazlarini innovatsion klasterlarini rivojlantrish dolzarb bo‘lib hisoblanadi.

Bugungi kunda eng dolzarb bo‘lgan yana bir trend – bu kognitiv texnologiyalardir. Kognitiv klaster texnologiyalari sun’iy aql tizimlarini yaratish uchun insonning aqliy va hissiy funksiyalarini bilish, o‘rganish va anglashni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida 2022-yildagi ixtirochilik faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ixtirolar uchun patent talabnomalarining umumiy soni 2015-yilga nisbatan deyarli yarmiga ko‘paygan va 145 ta arizani tashkil etgan. Sanoat namunalari uchun patent talabnomalarining umumiy soni kamaydi. Umuman olganda, o‘rganish davrida intellektual mulk o‘sishi dinamikasi beqaror ekanligini ko‘rsatmoqda. “Olimlarimiz tomonidan yaratilgan va patentlangan ixtirolar tijoratlashtirilishi yiliga 1 foiziga ham yetmagan, sababi patent aksariyat hollarda doktorlik dissertatsiyalarni himoya qilishda, hisobotlarda aks ettirish maqsadida olinmoqda” [10].

O‘zbekiston Respublikasi mintaqalari orasida Toshkent sh, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg‘ona viloyatlari intellektual mulk obyektlaridan foydalanish bo‘yicha yetakchi bo‘lib qolmoqda. Beshta yetakchiga Qashqadaryo va Andijon viloyatlari ham kiradi. Raqamli iqtisodiyot tarmoqli tuzilmalarning faol rivojlanishi, an’anaviy tashkilot shakllarini yanada moslashuvchan va samarali bo‘lgan tarmoqli tuzilma shakllari bilan almashtirish bilan tavsiflanadi, bu esa raqobatbardoshlik darajasini oshirishga imkon beradi.

Bugungi kunda axborot va aloqani izlab topishning asosiy instrumenti internet bo‘lib, u jamiyatdagi kommunikatsiya usullarini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli platformalardan foydalanish to‘g‘ridan to‘g‘ri kommunikatsion aloqa qilish imkoniyatini beradi va uning ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro aloqa qilish jarayonini osonlashtiradi. Global ma’lumotlar uzatish tarmog‘iga kirish imkoniyati yo‘q bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar, ma’lumotlarni boshqa mamlakatlar bozorlari va texnologiyalariga o‘tish imkoniyatiga ega bo‘lmay jahon taraqqiyotidan “tashqarida” bo‘lib qoladilar va raqobatbardoshligini yo‘qotadilar.

O‘zbekiston Respublikasida 2015-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan davrda internetdan foydalanuvchi tashkilotlar sonining barqaror o‘sish dinamikasiga ega. 2022-yilga kelib Internetga ulangan tashkilotlarning o‘rtacha ulushi 81,1% ni tashkil etadi. Bu respublikada ishlab chiqarish tashkilotlar va aholini internetga ulanish ishlarini faollashtirishni ta’lab etadi.



1-rasm: Mamlakatni moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning konseptual modeli [11]

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlik tizimida aniqlangan tahdidlar, bizga amaliy harakatlar to‘plamini ishlab chiqish uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lib xisoblanadi. Shunday qilib, iqtisodiyotni raqamlashtirish bosqichida moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash muammolarini tahlil qilish va tizimlashtirish, moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning aniqlangan omillari va institutsional jihatlari bizga milliy iqtisodiyotning moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning konseptual modelini ishlab chiqish imkonini berdi. O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning konseptual modelining kirish qismida milliy iqtisodiyotning institutsional shart-sharoitlari, xususiyatlari va iqtisodiy xavfsizlik omillari hamda iqtisodiy xavfsizligi tizimining tashkiliy tuzilmasi turadi. Chiqish qismida xavfsiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish shart-sharoitlari turadi.

O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha taklif etilayotgan model tizimining eng muhim tarkibiy qismlarini unda ifoda ettilganligi bilan tavsiflanadi:

1) Jarayonli, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning eng muhim yo‘nalishlarida resurslarni tartibga solish, nazorat qilish, konsentratsiyalashni ta’minlaydi;
2) Tarkibiy tuzilmani shakllantiruvchi, bo‘limlar va xizmatlardan iborat bo‘lgan yalpi boshqaruv organlarining to‘plami bo‘lib moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlik tizimini normativ-huquqiy, axborot, tashkiliy, kadrlar va texnik ta’minoti funksiyalarini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash modelining konstruksiyasini shakllantirish jarayonida tizimli va institutsional-evolyutsion yondashuvlar instrumentlaridan hamda iqtisodiy tizimning murakkabligini, iqtisodiy xavfsizlik omillarining xilma-xilligini, shuningdek iqtisodiy xavfsizlikni boshqarish funksiyalari va mexanizmlarini hisobga olish imkonini beradigan asosiy tashkiliy tamoyillardan foydalanildi.

Davlat tomonidan Respublika darajasida amalga oshiriladigan moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning umumiy mexanizmlaridan tashqari, modelda milliy iqtisodiyot darajasida amalga oshiriladigan iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning maxsus mexanizmlari: tartibga soluvchi, moliyaviy, tashkiliy va ma’muriy, ijtimoiy sheriklik mexanizmlari, infratuzilma, axborot, o‘z-o‘zini tashkil etish va konvergensiya mexanizmlari keltirigan. Maxsus moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmi majmuali qo‘llanilishi va mintaqaviy moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash tizimining bir qismi bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash modeli konvergensiya mexanizmi kabi o‘ziga xos mexanizmni o‘z ichiga oladi, uni amalda qo‘llanishi FTTni rag‘batlantirish orqali iqtisodiyotni tarkibiy transformatsiyalash va iqtisodiyotni raqamlashtirish, mintaqalararo infratuzilma loyihalarini amalga oshirish orqali mintaqalararo va ichki mintaqaviy differensiatsiya darajasini sezilarli darajada kamayishiga olib keladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlaymizki, iqtisodiyotni transformatsiyalash va yagona raqamli makonni shakllantirish strategiyasi sharoitida O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini samarali ta’minlash nafaqat iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda hamda raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy va ijtimoiy afzalliklaridan samarali foydalanishda uchun ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.// Xalq so‘zi, 2017-yil 23-dekabr.
2. Берсенев, В.Л. Ведущие центры исследования проблем экономической безопасности в России / В.Л. Берсенев. // Экономика региона. - 2019.–Т. 15, вып. 1. – С. 29-42.
3. Квашницкий, В. Истоки эволюционной экономики / В. Квашницкий // Истоки: из опыта изучения экономики как структуры и процесса / [редакционная коллегия: Я.И. Кузьминов и др.]. – 2-е изд. – Москва: Изд. дом ВШЭ, 2007. – С.95.
4. Hurwicz, L. On informationally decentralized systems / L. Hurwicz. – Текст: непосредственный // Decision and Organization / R. Radner, C.B. McGuire (eds.). – Amsterdam and London: North-Holland, 1972. – P. 297-336.
5. Сенчагов, В.К. Экономическая безопасность России: Общий курс: учебник / под ред. В.К. Сенчагова. – 3-е изд., перераб. и доп. – Москва: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2016. – С.28.
6. Abulqosimov X.P.,Abulqosimov M.X. Iqtisodiy xavfsizlik: Nazariya va amaliyot. –Darslik. –T. 2019 y. –B.455.
7. Mamatov A.A. O‘quv qo‘llanma – T.: O‘zbekiston Respublikasi MG Harbiy-texnik instiuti, 2020-yil. 559-bet
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son qarori.
9. O‘zbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat statistik to‘plam. –Toshkent, 2022. asosida muallif tomonidan tuzilgan. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi. –T. 2023 y. –B. 44.
10. Otajonov Sh.I.,.Daliyev X.X. Ilmiy-texnik ishlanmalarni tijoratlashtirish asosida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. №6, dekabr, 2021-yil.
11. Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

MEHMONXONALARDA XIZMAT SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ISTIQBOLLARI

Norchayev Asatullo Norbo‘tayevich
I.f.d. (DSc), TDIU professori

Annotatsiya: Ilmiy maqolada hozirda jahonda kuzatilayotgan mehmonxona biznesida qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalar va ularning afzalliklari haqida tadqiqotlar olib borilgan. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan mehmonxonalarda bu kabi innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va sohani rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini belgilab olish talab qilinadi. Shundan kelib chiqan holda, maqolada sohaning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash, turistlarga sifatli xizmat turlarini ishlab chiqish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, eko-mehmonxona, innovatsiya, texnologiya, yashil energiya, xizmat ko‘rsatish.

Abstract: In this article, some research has been conducted on the innovative technologies and their advantages that are currently being used in the hotel business all over the world. To introduce such innovative technologies in the hotels operating in our country, it is required to improve the service quality and to determine the strategic directions in order to develop the industry. Based on some suggestions mentioned above, the research article describes suggestions and recommendations in order to determine the directions of the industry development and to develop the service quality for tourists.

Key words: tourism, eco-hotel, innovation, technology, green energy, service.

Аннотация: В научной статье проведено исследование инновационных технологий и их преимуществ, которые в настоящее время используются в гостиничном бизнесе мира. Внедряя такие инновационные технологии в гостиницах, действующих в нашей республике, необходимо повысить качество обслуживания и определить стратегические направления развития отрасли. На основании этого в статье изложены предложения и рекомендации по определению направлений развития отрасли, развивающих качественные услуги для туристов.

Ключевые слова: туризм, экоотель, инновации, технологии, зеленая энергетика, сервис.

KIRISH

So‘nggi yillarda respublikamiz turizmida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan masalalar yuzaga kelmoqda. Bu borada mehmonxonalarda turistlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va uni xalqaro darajaga yetkazishda xorij tajribasini o‘rganishga zarurat tug‘ilmoqda.

Bu borada 2022–2026-yillarga amalga oshirilishi belgilangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining asosiy maqsadlarida biri sifatida ko‘rsatilgan “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy turistlarni 12 millionga, xorijiy turistlarni 9 millionga yetkazish1 uchun infratuzilmani qayta ko‘rib chiqish belgilab berildi. Bunda turistik xizmatlar sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash orqali mamlakatimizga xorijlik turistlar tashrifini keskin ko‘paytirish, xizmatlar eksportini bir necha bor ko‘paytirish, mahalliy aholining daromadlarini oshirish, xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son farmonlari, 2023-yil 27-iyuldagi “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi

1 https://lex.uz/. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son; 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son).

tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-238-son, 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135-son qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish talab etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Respublikamizda mehmonxona biznesi va unda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lib, ularda asosan yangi xizmat turlarini joriy qilish turlicha talqin qilingan va ta’riflangan, lekin ularning har bittasida ist’molchiga yo‘naltirilganligi asosiy o‘ringa ega. Biz mazkur xulosalarga asoslanish maqsadga muvofiqligini ta’kidlab, bu borada ayrim mualliflarning fikri va mulohazalarini tahlil qilib, ularning natijalarini umumlashtirib, takomillashtirish to‘g‘risidagi mulohazalarimizni qisqacha bayon qilamiz.

Mehmonxona biznesida innovatsion texnologiyalarni joriy etish murakkab jarayon bo‘lib, ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘ladi. Bu jarayonlarning nazariy jihatlarini ishlab chiqib, amaliyotga tadbiq qilish borasida yetakchi xorijlik olimlar Karmen Babaita, Gabrriela Sipos, Andreia Ispas va Andrea Nagular tomonidan “Ledership style and culture for innovation in hotel industru”, deb nomlangan darsligida mehmonxonalarda ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalar yetakchi rol o‘ynashi borasida mulohazalar yuritiladi. Yana bir xorijlik olim Artura Kunllas tomonidan chop etilgan “Innovation in hospitality management”, deb nomlangan asarda mehmononalarda innovatsion boshqaruv usullarini qo‘llash orqali samaradorlikka erishish ustida tadqiqotlar olib borgan. Mualliflar ko‘rib o‘tilgan omillarni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash jaryonlariga yetarlicha e’tibor qaratmagandir.

Shu jumladan mamlakatimiz olimlaridan Q.X.Abdurahmanov, N.T.To‘xliyev, M.Q.Pardayev, A.A. Eshtayev, A.M.Abduvohidov, M.T.Aliyeva, , D.X.Aslanova, B.N.Navro‘z-zoda, O.M. Pardayev, B.H. To‘rayev, O.H. Xamidov, B.Sh. Safarov, N.S. Ibragimov, A.T. Mirzaevlar turistlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga ta’sir etuvchi omillar aniqlashga katta hissa qo‘shgan.

Ta’kidlash kerakki, hozirgi vaqtda mehmonxonalarda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga va sohaga innovatsion texnologiyalar joriy qilish borasida ko‘plab mualliflar o‘rtasida yagona tushuncha mavjud emas. Fikrimizcha bu borada hali olib borilishi kerak bo‘lgan tadqiqotlarning ko‘lami keng bo‘lib, turistik xizmatlarning bir-biriga mutonasib rivojlanishini ta’minlashimizda atroflicha belgilangan xalqaro tajribalarini ham hisobga olishimiz lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda mehmonxonalarda sifatli xizmat ko‘rsatishni amalga oshirishda yaqin yillarda kutilayotgan innovatsion o‘zgarishlarni hisobga olish va shu orqali turizmning rivojlanishini yaxlit infratuzilma sifatida o‘rganish metodologiyasi qo‘llanilib, bu borada mutaxassislar fikrini o‘rgangan holda, kuzatish, qiyoslash, emperik tadqiqot, tizimli va qiyosiy tahlil hamda ekspert baholash kabi usullari orqali turizm infratuzilmasining tarkibiy qismlarining rivojlanishi yo‘nalishlarini belgilab berish usuli taklif etilgandir. Shuningdek, 2030-yilgacha respublikamizda mehmonxona biznesi rivojlanishi yo‘nalishlarining ustivor vazifalariga oid xulosalar qilingan va respublikamizda turistlarga xizmat ko‘rsatishni takomillashtirishga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahonda 2019-yilning oxiri va 2020-yilning boshida yuz bergan pandemiya holati turistlarning xavsizligini ta’minlashda bir qator muammolarni keltirib chiqardi. Turistlar xarakatlari keskin darajada tushib ketdi. Pandemiyadan keyin turistlar orasida tabiat qo‘yniga uyushtirilayotgan sayohatlar talab ortib borishiga qaramasdan, ularni mehmonxonalarga joylashtirishda yangi tendensiya kuzatilishi tezlashdi. Turistlar ko‘proq “eko-mehmonxona”larda tunab qolishga intilmoqda. Eko-mehmonxonalarning o‘ziga xos xususiyati atrof-muhitga salbiy ta’sirni minimallashtirishga qaratilgan maxsus choralarni joriy qilishdan iborat bo‘lgan yo‘nalishdir. Mehmonxonalarda suvni tejash, chiqindilarni saralash, ekologik toza tozalash vositalaridan foydalanish, kiyimlarni yuvish va nonushta uchun organik mahsulotlarni taklif qilishdir. Eko-mehmonxona yoki hozirda keng ommolashayotgan tushuncha “Yashil mehmonxona”lar uchun eng xarakterli bo‘lgan asosiy jihatlarni ikki guruhga ajartish mumkin:

- chiqindilarni samarali boshqarish (minimallashtirish va utilizatsiya qilish);
- turli xil resurslardan (elektr energiyasi, suv, sotib olingan tovarlar) foydalanishni qisqartirish.

Pandemiyadan keyin ko‘plab sayohatga chiqayotgan turistlar orasida kuzatilayotgan holatga qaraydigan bo‘lsak, ular eko-sayohatga ko‘proq ustunlik berishmoqda. Hozirgi statistika ko‘rsatishicha:

- turistlarning 85% tabiat qo‘yniga sayohat qilishni muhim deb bilmoqda;
- turistlarning 50% iqlim o‘zgarishi natijasida tabiat qo‘yniga sayohat qilishga uchun zarurat borligi va ularning sayohatini tanlashga jiddiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidladi;
- turistlarning 30% haddan tashqari gavjum joylarga tashrif buyurishni xush ko‘rmaslikni va yuqori mavsumda sayohatlarga chiqmaslikni maqul ko‘rishmoqda;
- turistlarning qarib 25% pandemiya ta’sirida va xarajatlarni kamaytirish maqsadida o‘zlari yashaydigan manzildan uncha uzoq bo‘lmagan joylarga sayohat qilishni afzal ko‘rmoqda.

Ko‘pchilik turistlar ma’lumotlarning yetishmasligi, ularning ishonchsizligi sababli sayohatlarni qaysi turini tanlashga ikkilanmoqda va ma’lum bir muammolarga duch kelmoqda. Turistik kompaniyalar turistlarga sayohatlarni targ‘ib qilish qilish, qaysi mehmonxonalar xizmatlaridan foydalanishni taklif qilayotganda, birinchi navbatda mehmonxonalarning atrof-muhitni muhofaza qilishga bo‘lgan chora-tadbirlariga ko‘proq e’tibor berishlari kerak, chunki ekoturizmga talab tobora ortib bormoqda.

Ba’zi mamlakatlarda so‘nggi o‘n yillikda mehmonxonalarni ekologiyalashtirish, mehmonxonalarda “yashil” texnologiyalardan foydalanish ularning faoliyatida asosiy konsepsiyaga aylanib ulgurdi. Mehmonxona biznesidagi innovatsiyalarning zamonaviy yo‘nalishi sifatida eko-mehmonxonalar yaratildi. Bugungi kunda eko-mehmonxonalarni joriy qilish va rivojlantirish mehmonxona sanoati faoliyatidagi yangi tendensiyasi hisoblanadi. Ekologik toza mehmonxonalar xizmatlarining joriy etilishi mintaqalarning turistik jozibadorligini oshirishga yordam beradi va jahon turizm bozorida raqobatdosh ustunliklarni ta’minlashga xizmat qila boshladi.

Masalan, dunyoga mashhur “Hilton” mehmonxonlar tarmog‘i 2030-yilgacha uglerod chiqindilari va suv iste’molini kamaytirish, plastik idishlardan foydalanishni to‘xtatish hisobiga atrof-muhitga ta’sirini ikki baravar kamaytirishni rejalashtirmoqda. “Marriott” mehmonxonalar tarmog‘i ham suv iste’molini 15%ga, uglerod iste’molini 30%ga, umumiy chiqindilarni 45%ga va oziq-ovqat chiqindilarini 50%ga kamaytirishga erishish uchun xarakat qilmoqda.

Eko-mehmonxonani innovatsion konsepsiya sifatida uni oddiy mehmonxonadan ajratib turadigan bir qator xususiyatlari bo‘lib, xususan, qurilishda ekologik toza materiallardan foydalanish, atrof-muhitga maksimal darajada ta’sir ko‘rsatmaslik, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan (quyosh, shamol, energiyasidan) foydalanish, oqava suvlarni qayta ishlash kabilar.

Masalan, hozirda mashhurlashib borayotgan Slovakiyadagi “AquaCity” rekreatsion-sog‘lomlashtirish kurortining butun majmuasi mehmonxonalar, akvaparklar, restoranlar, fitnes zallari va boshqalarni isitish uchun quyosh va shamol energiyasidan foydalanmoqda.

Eko-mehmonxonalarda resurslarni tejashnining zaruriy sharti sifatida, resurslarni tejovchi uskunalardan foydalanish va barcha muhandislik xizmatlari va qurilish tizimlarini boshqarishni avtomatlashtirish lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Jahondagi brend mehmonxonalarda va mashhur dam olish markazlari yashil mehmondo‘stlik amaliyotini muvoffaqiyatli amalga oshirmoqda. Ulardan ba’zi birlarini keltirib o‘tadigan bo‘lsak, Kolorado shtatidagi Molina markazi quyosh panellarini o‘rnatib xizmatlar sifatini tubdan yangicha ko‘rinishga o‘tkazgan. Italiyadagi “Arosea Life Balance” mehmonxonasi mahalliy eko-materiallardan keng foydalanishni boshlagan. Sloveniyadagi “Glamping Ribno” mehmonxonasi chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash texnologiyalariga ustuvor ahamiyat bermoqda.

Hozirda bir nechta mashhur eko-mehmonxonalar faoliyat olib borishi bilan bir-biridan farq qilmoqda. Masalan, “Berghotel Muottas Muragl” mehmonxonasi o‘zi iste’mol qilganidan ko‘ra ko‘proq energiya ishlab chiqaradi va ortiqcha ishlab chiqilgan energiyani boshqa iste’molchilarga etkazib bermoqda.

“Berghotel Muottas Muragl” mehmonxonasi Yevropa joylashgan mehmonxonalar orasida eng qimmat “yashil mehmonxona” tipiga kiradi. Mehmonxona binosi so‘nggi yillarda ikki baravar kattalashganiga qaramasdan quyosh panellari o‘rnatilishi, geotermal isitgichlar va ekologik toza materiallar ishlatilishi natijasida energiya sarfini oldingisiga qaraganda 65-70%gacha qisqartirishga erishgan.

Pandemiyadan keyin turistlar sayohatlari davomida ekologik toza mehmonxonalarda qolishga urinmoqda. 2023-yilda turistlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasiga ko‘ra ularning 80% sayohatlari davomida ekologik toza mehmonxonalarda qolishni rejalashtirayotganligi ma’lum bo‘lgan.

Turistlarning talablaridlan kelib chiqqan holda yashil mehmonxonalarning faoliyat olib borishi uchun minimal standartlar tadbiq etila boshlandi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ekologik toza yoki qayta ishlangan materiallardan foydalangan holda yangi xizmat turlarini ishlab chiqish;

- aqlli termostatlar va aqlli yoritish uskunalarini o‘rnatish;
- toksik bo‘lmagan maishiy mahsulotlardan foydalanish;
- organik choyshablar, sochiqlar va matraslarni sotib olish;
- shamol va quyosh panellari kabi qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya kiritish;
- mehmonxona chiqindilarini maksimal drajada kamaytirishga erishish;
- isrofgarchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikni rag‘batlantirish.

Kuzatishlar natijasida o‘rtacha mehmonxonalardagi suv sarfining 20% kir yuvishga sarflanishi ma’lum bo‘lgan. Turistlarni suvni tejash dasturiga moslashtirish orqali Las-Vegasdagi mashhur kurot va kazino “Sezar saroyi”da suvdan foydalanishni 30 million gallondan ko‘proqqa qisqartira erishgan.

Mehmonxonalarda innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish iste’mol chiqindilarni kamaytirish va energiya samaradorligini bir necha bor oshiradi. Misol uchun, mehmonxona nomeriga o‘rnatilgan taymerli dushlar tobora ommalashib bormoqda. Mehmonlar dush qabul qilish vaqtini oldindan belgilashlari mumkin va signal foydalanuvchiga dush vaqti deyarli tugashi haqida xabar beradi. Xonadagi aqlli yoritish moslamalari mehmonning nomerda bor yoki yo‘qligini aniqlay oladi, nomer bo‘sh bo‘lganda elektr quvvatini maksimal darajada tejaydi. Aqlli termostatlar mehmonxona energiya sarfini optimallashtiradi.

Hozirda qurilib foydalanishga toshpirilayotgan mehmonxonalarda yashil dizayn tajribasi keng qo‘llanilmoqda. Bunga birgina misol vitlib oladigan bo‘lsak, qurilsh kompaniyalari mehmonlarga elektr transport vositalari bilan xizmat ko‘rsatish uchun to‘xtash joyiga batareya zaryadlash stantsiyalarini o‘rnatishni ham amalga oshirimoqda.

Mehmonxona biznesiga sarmoya kiritishda ko‘proq tadbirkorlar asosan energiya tejovchi qurilmalardan foylanishni afzal ko‘rishmoqda. Bunda, yoritish moslamalari kabi yashil rangdagi mehmonxona jihozlariga, yoritish texnologiyasi, yorug‘lik darajasini kunning vaqtiga qarab sozlash tizimni dasturlashtirishni olishimiz mumkin.

Bu kabi tajribalar respublikamiz mehmonxonalarida joriy etish ishlari olib borilmoqda. Bunda ustuvor yo‘nalish sifatida energiya tejovchi texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash, tabiiy manbalar va suvni tejash choralari ko‘rish orqali mehmonxonalar va kurortlarning atrof-muhitga ta’sirini sezilarli darajada kamaytirish va atrof-muhitga e’tiborli sayohatchilarning ehtiyojlarini qondirishga harakat qilinmoqda.

Yuqorida ko‘rib o‘tilganlarga asoslanib, mehmonxona biznesi hozirgi vaqtda ekologik tendensiyani shakllantirish va ommalashtirish bosqichida desak bo‘ladi. Shu bilan birga, dunyoning ko‘plab mamlakatlari milliy bozorlarida eko-mehmonxonalar bo‘yicha boy tajriba to‘plagan bo‘lib, muvofaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Bu kabi tajribalarni qo‘llash orqali respublikamizda mehmoxona biznesini xalqaro darajaga chiqarishimiz kerak bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oddiy mehmonxonalarni innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali eko-mehmonxonaga aylantirish hozirda keng avj olmoqda. Bu kabi mehmonxonalarni qayta jixozlashda quyidagilarga e’tibobrni qaratishimiz lozim bo‘ladi:

1. Mehmonxonalardagi joriy amaliyotlarni (energiya sarfini, suvdan foydalanishni, chiqindilarni qayta ishlashni va atrof-muhitga bo‘layotgan ta’sirlarni) baholash.
2. Mehmonxonalarda energiyani tejaydigan yoritishni qurilmalari (LED lampalar, nomerlarga harakat sensorlarini o‘rnatish), isitish, shamollatish va konditsioner tizimlarini qayta ko‘rib chiqish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish agar imkoni bo‘lsa quyosh panellari yoki shamol turbinalarini o‘rnatish.
3. Mehmonxonalarda suvni tejash qurilmalarini (past bosimli dush kranlari) o‘rnatish va aqilli termostatni keng joriy qilish.
4. Mehmonxonalarda chiqindilarni kamaytirish va ularni qayta ishlashda birinchi navbatda oshxona va restoranlardan organik chiqindilarni kompost qilish, bir martalik ishlatiladigan plastmassalarni kamaytirish (plastik butilkalar va gigiena vositalari idishlari).
5. Ekologik toza mahsulotlar (tozalash vositalari, paxta materiallardan tayyorlangan choyshablar), uglerod chiqindilarini kamaytirish uchun mahalliy yetkazib beruvchilardan oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarni sotib olish.

6. Mehmonxonaga tashrif buyuruvchilarga yashil tashabbuslar haqida ma'lumot berish va uni qo'llab quvvatlaganlarni rag'batlantirish, nomerlarga energiya va suvni tejash amaliyotlari haqida eslatmalarni joylashtirish.
7. Mehmonxona ishchi xodimlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash amaliyotini doimiy ravishda takomillashtirib borish.
8. Mehmonxona faoliyatini muvofiqlashtiri uchun doimiy ravishda monitoring (energiya va suvdan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va boshqa asosiy ko'rsatkichlar bo'ycha) olib borish.

Ushbu amallarni bajarish orqali mehmonxonalarning atrof-muhitga ta'sirini sezilarli darajada kamaytirishi, barqarorlikni yaxshilash va ekologiyaga e'tiborli turistlarni jalb qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2. A.N. Norchayev. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. i.f.d. (DSc) ilmiy darajasi olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T. TDIU, 2021-yil. 254-b.
3. Turizmda raqamli innovatsion texnologiyalarni joriy qilish yo'nalishlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" Ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2020-yil. 216-222 betlar.
4. www. lex.uz.
5. www. unwto.org.
6. www. uzbektourism.uz.
7. www. stat.uz.
8. kun uz.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

RESURSLAR YETISHMAYDIGAN HUDUDNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI

Akbarov Bekmurod Miryakubovich
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
O‘zbekiston Bank-moliya akademiyasi
Investitsiyalar va kapital bozori kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada resurslar yetishmaydigan hududning investitsion jozibadorligini shakllantirishning uslubiy asoslari va investitsion jozibadorlikni baholash ko‘rsatkichlari mazmuni ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: resurslar tanqis hudud, investitsion jozibadorlik, uslubiy asos, hududning investitsion jozibadorligini baholash ko‘rsatkichlari, investitsion jozibadorlikni shakllantirish va rivojlantirish.

Abstract: The article provides a scientific analysis of the methodological base for the formation of investment attractiveness of low-resource territories and the content of indicators for assessing investment attractiveness.

Key words: resource-deficient territory, investment attractiveness, methodological base, indicators for assessing the investment attractiveness of the region, the formation and development of investment attractiveness.

Аннотация: В статье проведен научный анализ методической базы формирования инвестиционной привлекательности малоресурсных территорий и содержания показателей оценки инвестиционной привлекательности.

Ключевые слова: ресурсно-дефицитная территория, инвестиционная привлекательность, методическая база, показатели оценки инвестиционной привлекательности региона, формирование и развитие инвестиционной привлекательности.

KIRISH

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi, barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishi, aholi daromadlarining oshishi, turmush sharoitining yaxshilanishi aksariyat holatlarda milliy iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga jalb etilayotgan investitsiya mablag‘larining hajmi va tarkibiga bog‘liq. Shunday ekan, har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishi milliy iqtisodiyotga investitsiya mablag‘larini jalb etishning jozibador muhitini shakllantirishga qaratilishi muqarrardir.

Yaqin kelajakda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini rivojlangan davlatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga yetkazib olishni maqsad qilgan O‘zbekistonda respublikaning investitsion jozibadorligini tadqiq etish, investitsiya mablag‘larining ichki kapital resurslar hamda xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga ko‘payishiga erishish yo‘nalishlarini asoslab berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, davlatimiz iqtisodiyot, siyosat, madaniyat sohasida modernizatsiya qilishga va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga intilmoqda. Davlatimizni barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish maqsadida, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasini ishlab chiqildi. Ushbu Harakatlar Strategiyasining 5.2. bandida “Chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar: davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti sifatida o‘rni va rolini kuchaytirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O‘zbekiston tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik mintaqasini vujudga keltirish; O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, jahon hamjamiyatiga mamlakatda olib borilayotgan islohotlar haqida xolis axborotni yetkazish” zarurligi qayd etilgan. Mazkur Strategiyaning dolzarbligi belgilab berilgan vazifalarning amalga oshirishi hamda davlat investitsion jozibadorligini oshirish orqali iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog‘liq ko‘pgina masalalarning yechimini topishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOT SHARHI

Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiy adabiyotlarda resurslar tanqis bo'lgan hududlarni rivojlantirishni boshqarishga ma'lum qiziqish mavjud. O.N.Ananieva, O.T.Ergunova, A.V.Lebedeva, T.Li, L.Ma, N.N.Petrova, S.E.Polyakov, A.YU.Proxorova va E.A.Sorokina, S.G.Pyankova va E.A.Sorokina va boshqalarni nashrlarini yaqqol misol qilib ko'rsatish mumkin.

"Resurs taqchinligi" tushunchasi haligacha ilmiy adabiyotlarda umumiy qabul qilinmagan, bunga hali ham ahamiyasiz ilmiy qiziqish, ham ixtisoslashtirilgan iqtisodiy lug'atlarda uning yo'qligi dalolat beradi. U "resurslar" va "taqchinligi" atamalaridan olingan.

"Resurslar yyetishmaydigan hudud" tushunchasiga ta'rif berishda "resurslar" atamasiga aniqlik kiritish zarur. Zamonaviy iqtisodiy lug'atda iqtisodiy resurslar "ishlab chiqarishni ta'minlash manbalari, vositalari" deb ta'riflanadi. Bu ma'lumotnomada resurslar quyidagilarga bo'linadi: "tabiiy (xom ashyo, geofizik), mehnat (inson kapitali), kapital (jismoniy kapital), aylanma mablag'lar (materiallar), axborot resurslari, moliyaviy (pul kapitali)". Shu bilan birga, ushbu ta'rifning noaniqligi ta'kidlanadi.

Olimlar C.Makkonnel va S.Bryu iqtisodiy resurslarni tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan barcha tabiiy, inson va inson tomonidan yaratilgan resurslar deb tushunadilar. Mualliflar resurslarni moddiy (yer, xomashyo), kapital va inson resurslariga (mehnat, tadbirkorlik qobiliyati) ajratadilar. Iqtisodiy resurslarning ushbu "uch bo'g'inli" tushunchasi yaxshi tasdiqlangan tushunchalardan biri bo'lsa-da, ushbu tadqiqot mualliflarining ta'kidlashicha, hozirgi sharoitda u raqobatbardoshlikni ta'minlashga intilayotgan mintaqaviy iqtisodiy tizimlarga mos kelmaydi. Xususan, axborot resurslari muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Bundan tashqari, mintaqaviy iqtisodiy tizimlar uchun asosiy rol o'ynaydigan tabiiy resurslar mustaqil toifa sifatida ajratilmagan.

Hududning iqtisodiy resurslariga e'tibor qaratilgan mualliflar ishida ko'rib chiqilayotgan atama "ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlaydigan moddiy va nomoddiy omillar va vositalar to'plami, ijtimoiy ishlab chiqarishning uzluksiz jarayoni" deb talqin qilinadi. Tadqiqotchilar mintaqaning iqtisodiy resurslarining kengaytirilgan tasnifini taklif qilishdi, u quyidagi guruhlarni o'z ichiga oladi: bilim, mehnat resurslari, tabiiy resurslar, kapital, tadbirkorlik resurslari.

Demak, "hududning iqtisodiy resurslari" deganda hozirgi tadqiqot mualliflari ijtimoiy ishlab chiqarishni ta'minlovchi omillar va vositalar yig'indisini tushunadilar. Hududning raqobatbardoshligiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan mintaqaviy iqtisodiy resurslar quyidagilardan iborat:

- moliyaviy resurslar;
- tabiiy resurslar, shu jumladan iqlim;
- hududning geografik joylashuvi bilan belgilanadigan hududiy resurs;
- ijtimoiy resurslar, shu jumladan, hududdagi mehnat miqdori va sifati;
- moddiy resurslar.

Ko'rib chiqilayotgan konsepsiyaning yana bir tarkibiy qismi bu "taqchinlik" atamasi. Ushbu tadqiqotning maqsadlari uchun mualliflar Zamonaviy iqtisodiy lug'atda berilgan ushbu tushunchaning ta'rifini "oldindan rejalashtirilgan yoki zarur darajaga nisbatan yetarli mablag'lar, resurslar" deb qabul qiladilar.

Iqtisodiy adabiyotlarda "resurslar yyetishmaydigan hudud" tushunchasi yetarlicha o'rganilmagan. Bu yerda, birinchidan, mualliflar ushbu atamaga alohida ta'rif bermaydilar, ikkinchidan, ular asosan uning tor tushunchasidan foydalanadilar.

E.A.Sorokina va A.YU.Proxorov resurslari tanqis mintaqaning investitsiya salohiyatining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini o'rganar ekan, "resurslar tanqisligi" atamasi qanday mazmunga ega ekanligini aniqlamadi. Biroq, mualliflarning ishlaridan ma'lum bo'lishicha, mintaqadagi resurslar tanqisligining asosiy mezoni cheklangan tabiiy resurslardir. Shu bilan birga, tadqiqotda yana bir xulosa kelib chiqadiki, bu aslida yuqoridagilarga ziddir - o'rganilayotgan hududning ishchi kuchining ortiqchaligi qayd etilgan, boshqacha aytganda, hududning mehnat resurslarida ortiqchaligi haqida aytilgan. Shunday qilib, resurslar yyetishmaydigan hududning mohiyatini bunday tushunishni to'liq deb atash mumkin emas.

Garchi O.N.Ananevaning ishi "resurslar tanqis hudud" atamasiga ta'rif bermaydi, ushbu muallifning tadqiqot qoidalaridan xulosa qilish mumkinki, bunday mintaqa cheklangan investitsion va boshqa iqtisodiy resurslar bilan tavsiflanadi.

Shuningdek, ushbu muallif asari matnidan kelib chiqadiki, hududlarni resurs tanqisligiga kiritish uchun xom ashyo resurslarining cheklanganligi mezoni asos bo'ladi. Xususan, asarda shunday deyiladi: "Xalq iqtisodiyotidagi iqtisodiy beqarorlikning oqibatlari, ayniqsa, iqtisodiy inqiroz sharoitida rivojlanish uchun etarli xomashyo bazasiga ega bo'lmagan resurslar tanqis bo'lgan hududlarda keskin namoyon bo'ladi". SHunday qilib, muallif

“resurslar tanqis hudud” atamasini tor tushunchadan ham foydalanadi, uning mazmunidan mintaqaviy rivojlanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan moliyaviy, mehnat, moddiy, axborot va boshqa resurslarni istisno qiladi.

Resurs tanqisligining asosiy mezoni hududning cheklangan xomashyo resurslari, deb hisoblanadi. “Resurs tanqis hudud” atamasining tor tushunchasi ko‘pincha tadqiqotchilarni konseptual qarama-qarshiliklarga olib keladi. Masalan, O.T. Ergunov va S.E.Polyakov, shuningdek, mintaqani resurs tanqisligiga kiritishning asosiy sharti xom ashyo bazasining yo‘qligi ekanligini tan oladi. SHu bilan birga, ular ta’kidlaydilar: “Bu borada Chuvash Respublikasining strategik vazifasini-barqaror iqtisodiy o‘sish va raqobatbardoshligini oshirishni hal qilish uchun kuch va resurslarni birlashtirish zarur”. Shunday qilib, mualliflar, aslida, mintaqaviy rivojlanish nafaqat xom ashyo mavjudligi, balki mintaqaviy boshqaruv tizimidagi boshqa resurslar bilan ham belgilanishini tan oladilar.

Taxmin qilish mumkinki, “resurslar taqchin bo‘lgan mintaqa” atamasining tor tushunchasi mintaqa uchun o‘xshash mezonlardan foydalanish o‘rniga mamlakatlarni resurslar yetishmaydigan deb tasniflash mezonlaridan foydalanish natijasidir. Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirish, hududlarning raqobatbardoshligi xususiyatlarini, ularning investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida mualliflarning fikricha, “resurslar tanqis hudud” atamasini tushunishga tor yondashuv to‘liq qo‘llanilmaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda davlatlar chegaralari bilan belgilangan hududlarga nisbatan “resurslar tanqisligi” tushunchasidan foydalanilganda odatda bunday davlatlarning cheklangan tabiiy resurslari tushuniladi.

Manbalarda, hududlarga (mamlakatlarga, mintaqalarga) nisbatan qo‘llaniladigan “resurslar taqchilligi” tushunchasi asosan tabiiy resurslarning yetishmasligi kontekstida ko‘rib chiqiladi. Hududlarga kelsak, odatda resurslar tanqis bo‘lgan mamlakatlar: Yaponiya, Niderlandiya va boshqalar.

Resurslar yetishmaydigan hududiy iqtisodiy tizimlarga nisbatan “mintaqaning investitsion jozibadorligi” tushunchasi bunday hududlarning mohiyati ta’sirida “sindiriladi”. Xususan, mualliflar, shuningdek, resurslar yetishmaydigan hududlarning investitsion jozibadorligini subyektiv-obyektiv toifa sifatida tushunishni taklif qiladilar, bunda investorlarning aktivlarini mintaqaviy iqtisodiyotga uning real holatini, tabiiy sharoitlarda cheklanganlik darajasini hisobga olgan holda investitsiya qilish istagini bildiradi.

Shuningdek, “resurslar taqchin bo‘lgan hududning investitsion jozibadorligini rivojlantirish” konsepsiyasiga aniqlik kiritish talab etiladi, bunda mualliflar mintaqaning investitsion muhitini yaxshilash, investitsiya salohiyatini ro‘yobga chiqarish va investitsion salohiyatni oshirish darajasini oshirishga qaratilgan hududiy rivojlanish boshqaruvi subyektlarining harakatlari yig‘indisini nazarda tutadi.

MATERIALLAR VA USULLAR

Hududning investitsion jozibadorligining ilgari qabul qilingan ta’rifidan mintaqaning investitsion jozibadorligining uslubiy asoslariga oid birinchi bayonotlarni shakllantirish mumkin.

Birinchidan, hududning investitsion jozibadorligining uslubiy asosi hududning investitsion jozibadorligini boshqarishni tashkil etish, shu jumladan investitsiya jozibadorligini baholash va uni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchidan, birinchi xulosadan kelib chiqqan holda, investitsion jozibadorlikni boshqarishning metodologik asosi obyekti investitsion jozibadorlikni baholash va uni boshqarishni o‘z ichiga oladi.

Uchinchidan, mintaqaning investitsion jozibadorligini boshqarishni tashkil etish subyektlari bo‘lishi mumkin:

- tashkilotni investitsiya jozibadorligini boshqarishning o‘ziga xos xususiyati sifatida ko‘rib chiqishda - hududning investitsion jozibadorligini shakllantirishga erishish uchun mas’ul bo‘lgan hududiy boshqaruv subyektlari (viloyat hokimligi, vakolatli boshqarmalar);
- tashkilotni jarayon sifatida ko‘rib chiqishda investitsiya jozibadorligini boshqarish sub’yektlari tarkibi kengayadi, boshqaruv jarayonida nafaqat viloyat hokimligi va vakolatli boshqarmalar, balki investitsiya jozibadorligini baholashda vakolatli shaxslar yoki guruhlar ham ishtirok etadi;
- tashkilotni tashkiliy tizimlar faoliyati kontekstida tushunishda investitsiya jozibadorligini boshqarish mintaqaviy davlat hokimiyati subyektlari va boshqa shaxslarning mintaqaning investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq faoliyati sifatida qaraladi.

Hududning investitsion jozibadorligini boshqarish jarayonida qo‘llaniladigan dastlabki, asosiy qoidalar mavjud. Yuqorida aytilganlarga, shuningdek, “metodologiya” tushunchasining yuqoridagi ta’riflariga asoslanib, mualliflar mintaqaning investitsion jozibadorligi (MIJ) ning metodologik asosini tashkil etuvchi tarkibiy qismlarni eng umumiy yaqinlikda (bloklarga bo‘lish bilan: xarakteristikani)taklif qilishdi. MIJ boshqaruvining mantiqiy tuzilishi va MIJning vaqtinchalik tuzilishi, 1-rasm).

Mintaqaning investitsion jozibadorligi metodologiyasining tarkibiy qismlari (MIJ)		
MIJni boshqarish xususiyatlari: MIJni boshqarish xususiyati; MIJ boshqaruv tamoyillari; MIJni boshqarish shartlari; MIJni boshqarish qoidalari va tartiblari	MIJ mantiqiy tuzilmalari: MIJ nazorat subyektlari; MIJ boshqaruv obyektlari; MIJ nazoratini amalga oshirish shakllari; MIJni nazorat qilish usullari; MIJ nazorati natijalari	MIJning vaqtinchalik tuzilmasi: MIJni boshqarish bosqichlari; MIJni boshqarish bosqichlari

1-rasm: Resurslar yetishmaydigan hududning investitsion jozibadorligini metodologik asosining tarkibiy qismlari

Investitsion jozibadorlik metodologiyasini shakllantirishga kelsak, eng keng tarqalgan tadqiqot usullari investitsiya jozibadorligini baholash masalalariga bag‘ishlangan. Hududning investitsion jozibadorligi metodologiyasi investitsion jozibadorlikni boshqarish, shuningdek, investitsion jozibadorlikni baholash, shakllantirish va rivojlantirish tamoyillari, yondashuvlari, usullari majmui bo‘lsa-da, uni baholashga bag‘ishlangan tadqiqotlar hali ham ko‘p.

Shunday qilib, iqtisodiy tizimlarning investitsion jozibadorligini baholashning uslubiy yondashuvlari va asoslari quyidagi elementlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- investitsiya jozibadorligini baholashning metodologik asoslari, yondashuvlari, usullari, tamoyillari, omillari ishlab chiqilayotgan iqtisodiy tizimlar tuzilishining xususiyatlari;
- usullar, vositalar, ko‘rsatkichlar to‘plami, omillar, baholash tartibi;
- tushunchalar, ko‘rsatkichlar tizimi, investitsion jozibadorlikni baholash algoritmi;
- investitsion jozibadorlikni baholash ko‘rsatkichlari, usullari, usullari, tamoyillari tizimi;
- usullar, texnikalar, algoritmlar, ko‘rsatkichlar, tamoyillar;
- investitsiya jozibadorligining integral ko‘rsatkichini baholashning omillari, ko‘rsatkichlari, usullari guruhlari;
- ko‘rsatkichlar bloklari, qisman ko‘rsatkichlar, integral ko‘rsatkichlar, ko‘rsatkichlarni baholash usullari.

Hududlarning investitsion jozibadorligini baholashda quyidagi metodologik yondashuvlar ajratiladi:

- toraygan
- baholash asosan makroiqtisodiy omillar asosida amalga oshiriladi;
- kengaytirilgan, uning doirasida mintaqaning investitsion jozibadorligiga ta’sir qiluvchi ko‘plab omillar – resurslar va omillar – shartlar baholanadi;
- riskli, bunda potensialni baholash ikki xil variantda ko‘rib chiqiladi: investitsiya potensiali va risklarini baholash, investitsiya potensialini va ijtimoiy- iqtisodiy salohiyatni baholash.

Mualliflarning fikriga ko‘ra, bunday yondashuvlarni tanlash o‘zboshimchalik bilan amalga oshiriladi, chunki ular orasidagi aniq chegaralarni ajratish qiyin. Tanlangan yondashuvlar ko‘plab umumiy xususiyatlarga ega, shuning uchun ular asosan bir-biriga mos keladi, ularning tarkibiga kiritilgan ko‘rsatkichlar har uchala yondashuvda ham bir-birini topa oladi.

Ayrim tadqiqotchilar va tashkilotlarning yondashuvlarida ifodalangan uslubiy asosni yaratishning o‘ziga xos usullari ilmiy qiziqish uyg‘otadi.

Hududlarning investitsion jozibadorligini baholashning uslubiy asoslari ko‘pincha faqat investitsiya jozibadorligini baholash usullari va tarkibiy omillariga qisqartiriladi. Masalan, V.N.ning ishida. Myakshin, quyidagilar taklif etiladi: mintaqaning investitsion jozibadorligini baholash metodologiyasi, shu jumladan algoritmlashtirilgan harakatlar ketma-ketligi:

- baholashning statistik bazasini shakllantirish;
- investitsion jozibadorlikning asosiy omillarini aniqlash;
- baholanadigan ko‘rsatkichlar tizimining mazmunini aniqlash;

- investitsion jozibadorlik ko‘rsatkichlarining maqsadli qiymatlarini aniqlash;
- investitsiya jozibadorligining asosiy omillari bilan bog‘liqligini baholash asosida asosiy ko‘rsatkichlarni tanlash;
- investitsion jozibadorlikning integral ko‘rsatkichlarini hisoblash;-investitsion jozibadorlik darajasini baholash;
- investitsion jozibadorlik salohiyatini baholash;
- investitsiya jozibadorligining integral qiymatlarini hisoblash tartibi;
- mintaqaning investitsion jozibadorligining individual omillari uchun ko‘rsatkichlarni tanlash tartibi.

Muallifning fikriga ko‘ra, hududlarning investitsion jozibadorligini baholash uchun balanslangan ko‘rsatkichlar tizimi metodologiyasini qo‘llash mutlaqo to‘g‘ri emas. Hududning investitsion jozibadorligini baholash muayyan iqtisodiy tizimning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashishni talab qiladi. Har qanday ko‘rsatkichlar guruhlari bilan bunday kompleksning “muvozanati” haqida gapirish juda qiyin bo‘ladi. Agar korxonalar darajasida baholash va boshqarish obyektlari sifatida muvozanatli tizimni qo‘llash hali ham mumkin bo‘lsa, unda murakkab, noyob ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar kabi mintaqaviy tizimlarga bunday uslubiy yondashuvni qo‘llash qiyin. Buni yuqoridagi muallifning mintaqaning investitsion jozibadorligi ko‘rsatkichlarining muvozanatli tizimining tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatishga urinishida kuzatish mumkin: ishlab chiqarish va moliyaviy komponentlar, rivojlanish komponentlari, tabiiy resurs komponentlari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar.

Bunday tizim metodologiyaning sifatiga zarar etkazmasdan boshqa ko‘rsatkichlar guruhlari tomonidan kengaytirilishi mumkin, bu esa metodologiya muallifi tomonidan e’lon qilingan taklif qilingan kompleks balansini shubha ostiga qo‘yadi. Bursevaning fikriga ko‘ra, investitsion jozibadorlikning uslubiy asosiga quyidagilar kiradi:

- o‘rganish obyekti sifatida hududning investitsion jozibadorligi tarkibi quyidagi potensiallarni o‘z ichiga oladi: mulkiy, tabiiy-geografik, moliyaviy, insoniy, innovatsion, shuningdek, hududdagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va xususiy tadbirkorlik sektori faoliyati;
- integral ko‘rsatkichlarni qurish asosida investitsiya jozibadorligini baholash usullaridan foydalanish: tasniflash usullari (klaster tahlili, ko‘p o‘lchovli guruhlash, diskriminant tahlili, tipologiya va tizimlashtirish) va omillarni tahlil qilish usullari (ekspert baholashlari, omillar tahlili, korrelyasiya va regressiya tahlili); tizimli tahlil, dinamik standart usuli);
- mintaqaning investitsion jozibadorligini baholashning integral ko‘rsatkichlarini shakllantirish algoritmi;
- mintaqaning investitsion jozibadorligining statistik ko‘rsatkichlari tizimi;
- mintaqaning investitsion jozibadorligini ko‘p bosqichli tahlil qilish sxemasi.

Hududlarning investitsion jozibadorligining metodologik asoslarini tahlil qilar ekanmiz, investitsiya jozibadorligini baholashning individual qo‘llaniladigan usullariga to‘xtalib o‘tmasdan bo‘lmaydi. Investitsion jozibadorlikning amaliy uslubiy asoslarini shakllantirishga xalqaro tashkilotlarning usullari katta hissa qo‘shdi:

- xalqaro agentliklarning reytinglari: Moody’s, Standard & Poor’s va boshqalar;
- xalqaro biznes nashrlarining reytinglari: euromoney, Fortune, economist va boshqalar;
- yirik konsalting kompaniyalarining tadqiqotlari: ernst & YOung, PWC va boshqalar;
- Garvard biznes maktabi, Ilg‘or tadqiqotlar instituti va boshqalar ta’lim muassasalari usullari.

Bundan tashqari, tadqiqotchilar yuqorida ba’zi asarlari tahlil qilingan masalalarni hal qilishga hissa qo‘shishda davom etmoqdalar. Hududlarning investitsion jozibadorligini baholashning ba’zi qo‘llaniladigan usullarining mazmunini ko‘rib chiqaylik.

Natijalar va muhokama. Ushbu tadqiqotda mintaqaviy rivojlanishning investitsion omili bevosita ikkita ko‘rsatkich bilan ifodalanadi: aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar va aholi jon boshiga xorijiy investitsiyalar. 2017 yilga kelib “aholi jon boshiga xorijiy investitsiyalar” ko‘rsatkichi tadqiqotdan chiqarib tashlandi, garchi uning hududlarning iqtisodiy rivojlanishi holatini birinchi o‘rganishdagi roli “xorijiy investitsiyalar hajmi mamlakatning investitsion jozibadorlik darajasini tavsiflaydi” deb asoslanadi.

Yuqoridagi tadqiqotni (natijalari bo‘yicha emas, balki uslubiy metod nuqtai nazaridan) baholar ekan, mualliflar na jon boshiga xorijiy investitsiyalar, na aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy kapitalga investitsiyalar o‘z-o‘zidan mustaqil ravishda investitsiya jozibadorligini oshkor etmasligini ta’kidlaydilar.

Bunday ko‘rsatkichlar ushbu tadqiqotda kuzatilgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini har tomonlama baholashni to‘ldirishi mumkin. SHunga qaramay, ushbu tadqiqotda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi omillarning biroz cheklangan tushunchasidan foydalaniladi.

Ekspertlar hamjamiyati tomonidan mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda investitsion jozibadorlikning ahamiyatini tushunish xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun muhim bo‘lgan boshqa usullar va tadqiqotlarning paydo bo‘lishini oldindan belgilab berdi.

Ekspertlar hamjamiyati tomonidan mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda investitsion jozibadorlikning ahamiyatini tushunish xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun muhim bo‘lgan boshqa usullar va tadqiqotlarning paydo bo‘lishini oldindan belgilab berdi. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya va investitsiya faoliyati to‘g‘risida” gi qonunni samarali implimentatsiya qilish hokimiyat organlari va investorlar o‘rtasida hamkorlik mexanizmi muvoffaqiyatli faoliyati uchun va investitsion jozibadorlik rivojlanishiga katta asos bo‘lmoqda. Bu mexanizm investorlarning barcha so‘rovlariga tezkorlik bilan javob qaytarishi va yangi tahrirdagi “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi investitsiyalar samaradorligini munosib tarzda nazorat qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, mahalliy va xorijiy investorlarning faoliyati kafolatlari va huquqini himoya qilishning mavjud huquqiy vositalari bilan bir qatorda, davlat tomonidan tadbirkorlarning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning yangi mexanizmlarini joriy etish davom ettirilmoqda. So‘nggi yillarda ushbu sohada kuzatilgan ko‘plab ijobiy o‘zgarishlar qatorida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Biznes-ombudsman institutlari hamda Bosh vazirning Tadbirkorlar murojaatlarini ko‘rib chiqish qabulxonalarining tashkil etilganini alohida ta’kidlash mumkin.

Institutsional takomillashuv hamda investitsion va iqtisodiy sohalardagi keng miqyosli islohotlar, shuningdek, biznes-muhit va investitsiya iqlimini yaxshilash bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralarning o‘zaro samarali hamkorligi tufayli O‘zbekiston IHTTning “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni tartibga soluvchi cheklovlar indeksi”ga kiritildi. Ushbu indeks turli davlatlar iqtisodiyotlarining IHTT o‘rtacha ko‘rsatkichlari darajasidagi ko‘rsatkichlar bilan xorijiy investorlar uchun ochiqligi darajasi indekatori hisoblanadi.

XULOSA

Shunday qilib, tadqiqot natijalariga ko‘ra, mintaqaning investitsion jozibadorligining uslbiy asoslariga quyidagilar kiradi:

1. Hududning investitsion jozibadorligini baholash.
2. Hududning investitsion jozibadorligini shakllantirish va rivojlantirish. Muallifning bu boradagi izlanishlari davom ettiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Ananeva, Strategic management of the economic development of a resource-deficient region: dissertation of the candidate of economic sciences 08.00.05. CHeboksary: I. N. Ulianov Chuvash State University, 2010, 24 p.
2. O.T.Ergunova, Improving the mechanism for the development of regional maketing in modern conditions: dissertation of the candidate of economic sciences 08.00.05. CHeboksary: I.N.Ulianov Chuvash State University, 2010, 223 p.
3. A.V.Lebedev, Development of the regional investment subsystem based on the transformation of savings into investmens: dissertation of the candidate of economic sciences 08.00.05. Cheboksary: I.N.Ulianov Chuvash State University, 2011, 182 p.
4. L.Ma, X.Huang, Z.Liu, T.Li, The Impact of Local Government Policy on Innovation ecosystem in Knowledge Resource Scarce Region: Case Study of Changzhou, China, Science, Technology and Society, 24(1) (2019) 1-24
5. N.N.Petrov, Formation of an economic policy of a resource-deficient region in order to increase the birth rate (on the example of the Chuvash Republic), Quality and innovations in the XXI century. Materials of the XIV International scientific- practical conference, 2016, pp. 221-226
6. N.N.Petrov, The problem of resource-deficient regions in the historical aspect, Bulletin of the Volga Region State University of Service. Series: economics, 4 (50) (2017) 37-40.

JAHON MOLIYAVIY ARXITEKTURASI VA XALQARO MOLIYA TIZIMINI ISLOH QILISH YO‘NALISHLARI





Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna
I.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Karimov G‘ayratjon Toxir o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada, jahon moliyaviy arxitekturasi va xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo‘nalishlari bilan bog‘liq jarayonlar tadqiq etilgan. Xalqaro moliya tizimini isloh qilish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va uning rivojlanish xususiyatlari tizimlashtirilgan. Xalqaro moliya tizimini isloh qilish jarayonidagi mavjud muammolar aniqlangan. O‘zbekistonning jahon moliyaviy arxitekturasi va xalqaro moliya tizimidagi ishtirokini kengaytirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: jahon moliyaviy arxitekturasi, xalqaro moliya tizimi, moliyaviy globallashuv, jahon moliya bozori, jahon valyuta tizimi, valyuta tizimi, global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, moliyaviy integratsiya.

Abstract: The article examines the processes associated with the directions of reform of the global financial architecture and the international financial system. The socio-economic processes arising in the process of reforming the international financial system and the features of its development are systematized. Current problems in the process of reforming the international financial system are identified. A scientific proposal and practical recommendations have been formulated to expand the participation of Uzbekistan in the global financial architecture and the international financial system.

Key words: world financial architecture, international financial system, financial globalization, world financial market, world currency system, currency system, global financial and economic crisis, financial integration.

Аннотация: В статье исследуются процессы, связанные с направлениями реформирования мировой финансовой архитектуры и международной финансовой системы. Систематизированы социально-экономические процессы, возникающие в процессе реформирования международной финансовой системы, и особенности ее развития. Выявлены текущие проблемы в процессе реформирования международной финансовой системы. Сформулированы научное предложение и практические рекомендации по расширению участия Узбекистана в мировой финансовой архитектуре и международной финансовой системе.

Ключевые слова: мировая финансовая архитектура, международная финансовая система, финансовая глобализация, мировой финансовый рынок, мировая валютная система, валютная система, глобальный финансово-экономический кризис, финансовая интеграция.

KIRISH

Globallashuv jarayonining hozirgi bosqichida jahon moliya tizimidagi institutsional tuzilmalar faolyaitini sifat va miqdor jihatdan o‘zgarishi moliyaviy munosabatlarning jadallashuvi bilan tavsiflanadi. Hozirgi vaqtda zamonaviy jahon iqtisodiyotidagi islohotlarni talab etadigan institutsional jarayonlar global moliyaviy arxitekturaning keng miqyosdagi rivojlanishini nazarda tutadi. O‘z navbatida xalqaro moliya munosabatlari orqali barcha mamlakatlarda globallashuv bilan bog‘liq tizimli jarayonlar sodir bo‘ladi. Mazkur jarayonlarning tizimli rivojlanish xususiyatlari jahon moliyaviy arxitekturasini vujudga kelishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu jarayonda tegishli munosabatlar uyg‘unligini ta’minlash xalqaro moliya institutlarining faoliyatini taqozo etadi. Bu kabi qator holatlar O‘zbekistonning jahon moliyaviy arxitekturasi va xalqaro moliya tizimiga integratsiyalashuvini ta’minlashda moliya institutlarining qarzlari, kreditlari va grantlarini jalb qilish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, moliyalashtirish manbalarini o‘rganish hamda kreditlar, qarzlar va grantlarni jalb qilish bo‘yicha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyat samaradorligi va natijadorligini muntazam ravishda oshirish [1] bilan bog‘liq jarayonlarni muhim ahamiyat kasb etishi va tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslash uchun xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon moliyaviy arxitekturasi va xalqaro moliya tizimini isloh qilishda moliyaviy globallashuvning o‘rni, uning rivojlanish xususiyatlari bilan bog‘liq tadiqotlar xorij iqtisodchi olimlaridan Dj.Van Xorn tomonidan amalga oshirilgan [2]. R.Glik, M.Xatchinsonlarning tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda moliyaviy globallashuv bilan bog‘liq turli to‘siqlarni olib tashlash, kapitalning xalqaro harakatida turli oligopoliyalar va assimetriyalarning paydo bo‘lish sabablari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari o‘rganilingan [3]. Ye.A.Zvonova jahon moliyaviy arxitekturasi tadqiq etish jarayonida moliya institutlarining shakllanishi va faoliyat yuritishi, turli xil iqtisodiy va moliyaviy inqirozlarning jahon moliyaviy arxitekturasiga ta’siri bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganib, milliy moliya bozorining o‘zgaruvchan global moliyaviy arxitekturaga integratsiyalashuvining maqbul shakllariga nisbatan mavjud stereotiplarga munosabatni o‘zgartirish zarurligini qayd etadi [4]. N.E.Andronova zamonaviy dunyoda geosiyosiy va geoiqtisodiy vaziyatning o‘zgarib borayotganligini e’tirof etgan holda, mamlakatning bank-moliya tizimini vektori va ustuvor yo‘nalishlarini o‘zgartirish, shuningdek, iqtisodiy xavflarning yomonlashuvi sharoitida mamlakat kapitalining transchegaraviy harakati modelini o‘zgartirish zarurligi qayd etiladi [5]. M.Yu. Golovin, A.A.Abalkina tadqiqotlarida mamlakat moliya tizimining barqarorligini yo‘qotishi, mamlakatda iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liq eksternal omillar ta’siri ortishi natijasida tashqi ta’sirlarga bog‘liqlik darajasini ortib borishi qayd etiladi. Ushbu muammoli jarayonni oldini olishda moliyaviy globallashuv va milliy moliyaviy tizimlarni diversifikatsiya qilish maqsadida mintaqaviy valyuta hamkorligini rivojlantirish tavsiya etiladi [6]. V.I.Karpunin, G.G.Cheloyans tadqiqotlarida mamlakatning moliyaviy globallashuv tahdidlarini zararsizlantirish imkoniyatlarini amalga oshirishda milliy bozorlarni himoya qilishning ichki manbalarini izlab topish, mamlakatning jahon bozoriga qaramligini pasaytirish yo‘llari asoslab berilgan [7].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan N.X.Jumayev, X.M.Akbarov tadqiqotlarida xalqaro moliya arxitekturasining asosi hisoblangan jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlarini tashkiliy-iqtisodiy shart-sharoitlari, shuningdek, jahon valyuta tizimida kuzatilayotgan yangi innovatsion yo‘nalishlar aniqlangan bo‘lib, ularni takomillashtirisha doir tegishli taklif va tavsiyalar berilgan [8]. H.Abulqosimov global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida mamlakatning xalqaro moliya tizimidagi ishtirokini takomillashtirishda faol investitsiya siyosatini amalga oshirish, ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirish orqali erishish mumkin deb hisoblaydi [9]. B.O.Tursunov tadqiqotlarida rivojlangan mamlakatlarning xalqaro raqobatbardoshlikdagi ustuvorligi, mazkur mamlakatning valyuta tizimini mustahkamlasha asos yaratayotganligi qayd etilib, ushbu mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni takomillashtirish orqali mamlakatning xalqaro moliya tizimidagi ishtirokini kengaytirish mumkin deb hisoblaydi [10]. R.Xojimatov jahon moliya bozori va uning rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish orqali, milliy moliya tizimlarini tartibga solishning mavjud tizimini isloh qilish ko‘p qutbli dunyo haqiqatini tan olish va mamlakatlarning yangi global integratsiya birlashmalarining iqtisodiy ta’sirining kuchayishi degan xulosaga keladi [11].


Yuqoridagi tadqiqotlarning muayyan asosi jahon moliyaviy arxitekturasi va xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo‘nalishlarini fundamental jihatlarini o‘rganishga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, statistik tahlil kabi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy moliya bozorlarining integratsiyalashuvi va ularning faoliyati uchun umumiy shart-sharoitlarning bosqichma-bosqich yaratilishi jahon moliyaviy arxitekturasini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatdi. O'z o'rnida moliyaviy globallashuv milliy moliya bozorlarining izolyatsiyasini yo'q qilib, yagona global moliya tizimining turli segmentlari o'rtasida murakkab munosabatlarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Natijada, 1990–2022-yillarda jahon yalpi ichki mahsuloti qariyb 5 barobarga, tovar va xizmatlar eksporti 2 barobarga, kapital eksporti esa teng barobarga ortdi (1-rasm).



1-rasm: 1990–2022-yillarda jahon yalpi ichki mahsuloti, tovar va xizmatlar, kapital eksporti dinamikasi (mlrd. AQSH dollarida)[13]

Mazkur munosabatlarning dastlabki asoslari XX asrning 50-60-yillarida, yevrovalyuta bozorining shakllangan davridan boshlan o'z xususiyatlarini namoyon eta boshladi. XX asrning 70–80-yillarida xalqaro kapital harakatining o'sishi yevrovalyuta bozorining integratsiyasi ta'sirida ro'y bergan bo'lsa, yevrovalyutaning milliy kapital bozorlaridagi o'rni 90 yillardan boshlab rivojlanish jarayonlarini qayd etdi. Xususan, 90 yillarda yevrovalyuta bozorining yillik o'rtacha o'sish sur'ati 2 trillion yevroni tashkil etdi. Bu o'z navbatida rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan yo'naltirilayotgan yevroobligatsiyalar va bank kreditlari oqimini intensiv harakatini ta'minlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi.


Yevropa davlatlarida qimmatli qog'ozlar va ssuda kapitali bozorlarini mahalliy bozorlardan global bozorga aylanishi, xalqaro moliya bozorlari tufayli vaqtincha bo'sh resurslarni mamlakatlar va jahon iqtisodiyoti tarmoqlari o'rtasidagi samarali taqsimoti uchun asos yaratdi. Milliy pul va kapital bozorlari o'ziga xos xususiyatlar, kapital bozorlarining birlashganligini ko'rsatuvchi dinamik siljishlarga qaramasdan jahon moliya tizimining globallashuv jarayonini hali ham to'liq rivojlanish ko'rsatkichlariga erishmagan deb hisoblashimiz mumkin. Fikrimizcha, bu jarayonga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omil, bu xalqaro kapital harakatining valyuta tarkibi hisoblanib, ushbu xulosaning muyyan ifodasini xalqaro savdoning valyuta tarkibi oqali ko'rish mumkin. 2023-yildagi xalqaro savdoning valyuta tarkibi bilan bog'liq nomuvofiqlik ham mazkur jarayonni izohlash uchun xizmat qiladi (1-rasm).

Hozirgi davrda xalqaro savdo tarkibida yetakchi valyuta sifatida AQSH dollari asosiy o'rin egallaydi. Xususan, 2023-yildagi xalqaro savdoning valyuta tarkibi AQSH dollarining ulushi umumiy valyutalarga nisbatan 63 foizni qayd etganligi fikrmizni asoslaydi (2-rasm).

Ikkinchi valyuta sifatida yevroning ulushi 20,2 foizni qayd etgan bo'lsa, Yapon yenasi 4,9, Angliya funt sterlingi 4,5, Xitoy yuan'i 1,2 foiz ulushga ega bo'lgan.

2008-yilda sodir bo'lgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida xalqaro kapital oqimidagi institutsional to'siqlarning sezilarli darajada ortishi, moliyaviy aktivlarni xalqaro bozorlarga transformatsiyasini ta'minlashda valyuta riski bilan bog'liq munosabatlarni oldini olishga yo'naltirilgan jarayon ta'sirida yevroning hajmi ortib borishiga sabab bo'ldi. Axborot inqilobi va yangi moliyaviy texnologiyalar yevroning xalqaro doiradagi keng haraktini ta'sinlashga asos yaratdi.Yetakchi bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda investorlar aktivlarini qimmatli qog'ozlar ko'rinishida.saqlanishi, xalqaro darajadagi valyutalarning diversifikatsiya qilish jarayonini muqobil variantlarini shakllantirishga olib keldi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



2-rasm: 2023-yilda xalqaro savdoning valyuta tarkibi (foizda)[12]

Jahon moliyaviy arxitekturasi va xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo‘nalishlarida asosiy muammo yetakchi valyutaga aylangan AQSH dollari va uning erkin bozor kursini yuqori o‘sish sur’atlarini saqlanib qolishi orqali namoyon bo‘lmoqda. Fikrimizcha, bunga asosiy sabablardan biri AQSH dollarini asosiy zaxira valyutasi sifatida tan olinganligi bilan izohlash mumkin.

2008–2012-yillarda davom etgan moliyaviy inqiroz va unga qarshi choralar dasturi doirasida jahon moliya bozorida xalqaro moliya institutlarining nazorat funksiyasi ortdi. Xalqaro moliyaviy infratuzilmaviy yondashuv asosida turli xorijiy mamlakatlarda xalqaro moliya institutlarining banklar, offshor zonalar, xedj-fondlar, reyting agentliklari faoliyati ustidan nazoratini kuchaytirildi.

Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida moliyaviy tizimlarini jumladan, valyuta bozorini tartibga solish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirish bo‘yicha takliflar G20 sammitlarida markaziy o‘rinni egallashi, a’zo mamlakatlarda birjadan tashqari derivativlarni aylanishini oldini olishda markazlashgan tizimni vujudga keltirishga sabab bo‘ldi. Birjadan tashqari derivativlarni aylanishini oldini olinishi, birja bozorini bosqichma-bosqich xarakterga ega bo‘lgan investitsion faolligini oshirdi. Natijada, yirik moliyaviy tashkilotlarning majburiyatlarini bajarmaslik bilan bog‘liq risklarini sezilarli darajada kamaytiradi. Natijada, global moliyaviy bozor ishtirokchilarining xarajatlari kamaydi.

XVF va Yevropa Ittifoqi hamkorligida mintaqaviy moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish tamoyillarining ishlab chiqilishi Yevropa mamlakatlari o‘rtasida valyuta obligatsiyalari bozorlarini rivojlantirish va chuqurlashtirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kelishilgan harakatlar rejasini muvofiqlashtirish imkoniyatini berdi. O‘z o‘rnida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash tizimi jahon moliya tizimini isloh qilish yo‘nalishlarini ishlab chiqishning quyidagi natijalari shakllantirish imkoniyatini berdi:

- xalqaro darajada moliyaviy nazorat organlarining nazorati bilan bog‘liq tizimli ahamiyatga ega bo‘lgan moliya bozorlari va vositalari, shu jumladan hedj-fondlarga, shuningdek ularning boshqaruvchilariga, ulaining faoliyati bilan bog‘liq yuzaga keladigan xavflarni baholash uchun ma’lumotlarni ro‘yxatga olish va oshkor qilishni kengaytirish;
- xalqaro obligatsiyalar bozorida tizimli xatarlarning yuzaga kelishining oldini olish maqsadida ularning makroprudensial jihatlariga alohida e’tibor qaratgan holda tartibga solishni kuchaytirish;
- iqtisodiy sikl fazalarini moliyaviy tartibga solish tizimini yaratishda qulay iqtisodiy sharoitlarga ega bo‘lgan kapital talablarini oshirish orqali moliyaviy aktivlarning leveraj mexanizmini cheklash;

- inqirozlarning oldini olish va ularni yengib o‘tish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish, xususan, yirik muassasalar faoliyatini nazorat qilish uchun nazorat mavjud tizimning institutsional asoslarini mustahkamlash va boshqalar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon moliyaviy boshqaruvining etarli darajada samaradorlikka ega bo‘lmaganligi moliyaviy inqirozning asosiy sababi hisoblangan bo‘lsada, jahon iqtisodiyotini moliyaviy jihatdan tartibga solishda XVF va Jahon bankining rolini oshiradigan global tartibga solish tizimi barqarorlashtirish imkoniyatini berdi. Ammo, bugungi kunda jahon moliyaviy arxitekturasi va xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo‘nalishlari bilan bog‘liq quyidagi islohotlar zaruriyatini taqozo etadi:

- ko‘pgina xorijiy davlatlar tomonidan qimmatli qog‘ozlar va tovarlar bozori faoliyatini liberallashtirish va ularni baynalmilallashtirishga qaratilgan qonun hujjatlarining qabul qilish;
- milliy moliya bozorlarining aktivlari sig‘imini oshirish orqali ularni universallashtirish, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishni unifikatsiyalash va standartlashtirish;
- yetakchi xalqaro birjalar faoliyatida moliyaviy aktivlar aylanmasi hajmi va tezligini oshirish, ularning birjadan tashqari elektron analoglarini ishlab chiqish, yangi moliyaviy xizmatlar va vositalarning moliyaviy injiniring jarayonida internet tarmog‘i ishtirokini kengaytirish;
- xalqaro kapital birjalari faoliyatida axborot, shu jumladan iqtisodiy va moliyaviy ma’lumotlar almashinuvi vositalarining o‘zgarish, kapital bozorlarini bog‘laydigan global axborot tarmoqlarining paydo bo‘lishini ta’minlash orqali, ma’lumotlarni qayta ishlash, saqlash va ulardan foydalanish xarajatlarini kamaytirish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.12.2017-y. PQ-3439-son “Xalqaro va xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlikning samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. Ван Хорн Дж. Основы управления финансами / Пер. с англ.; под ред. И.И. Елисеевой. – М.: Финансы и статистика, 1996.
3. Glick R., M. Hutchinson. Banking and Currency Crises: How Common Are Twins? in Financial Crises in emerging markets, ed. by Reuven Glick, Ramon Moreno, and Mark M.Spiegel. –NY, 2001.
4. Звонова Е.А. Реформирование мировой финансовой архитектуры и российский финансовый рынок: монография / Е.А. Звонова, М.В. Ершов, А.В. Кузнецов, А.В. Навой, В.Я. Пищик: под ред. Е.А. Звоновой. – М.: РУСАЙНС, 2016. – 430 с.
5. Андронова, Н.Э. “Проблемы реформирования мировой финансовой архитектуры в условиях финансовой глобализации.” International Research Journal, no. 5(5), Oct. 2012.
6. Головин М.Ю., Абалкина А.А. Финансовая интеграция стран Азии и Европы // ИАБ ЦПИИМЭПИ РАН. – 2005. – № 2.
7. Карпунин В.И., Челоянц Г.Г. Финансовая глобализация и проблема обеспечения устойчивости национальных финансовых систем/Валютное регулирование и валютный контроль. – 2012. – № 2
8. Jumayev N.X., Akbarov X.M. Jahon valyuta tizimining rivojlanishi bosqichlari va yangi innovatsion yo‘nalishlari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali, 2018 yil, №6, 1-13 bet.
9. Abulqosimov H. Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan sharoitda O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi// IQTISOD VA MOLIYA / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2013, 8. 2-10 б.
10. Omonovich, Tursunov Bekmukhammad. “The Chinese Experience of Increasing the Competitiveness of the National Economy and the Possibilities of Effective use it in the Economy of Uzbekistan.” American Journal of Economics and Business Management 5.11 (2022): 325-331.
11. Хожиматов, Р. (2015). Мировой финансовый рынок: теоретические взгляды и общая характеристика. Экономика и инновационные технологии, (3), 105–115. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_ innovative/article/view/8344
12. https://mavink.com/post/C3E35E92BE77D38530E199D4A04EED9188AM0230A9/currency-composition-of-international-trade-2023

“O‘ZNEFTGAZ” AK TIZIMIDAGI KORXONALARDA JORIY AKTIVLARNING SOF FOYDA HAJMI VA UNING O‘ZGARISHIGA TA’SIRINI PERESPEKTIV TAHLILI

Mavlyanova Dilobar Maxkamovna
I.f.f.d. (PhD), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Buxgalteriya hisobi va hisoboti” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ishlab chiqarish korxonalarida joriy aktivlardan samarali foydalanish hamda aktivlar hissasiga to‘g‘ri keladigan foydani oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Aylanma aktivlarning majburiyatlar hajmiga nisbatan o‘sib borishi ishlab chiqarish jarayonini tezligi, mahsulotlarni yetkazib berish uzluksizligi va korxona samaradorligini oshib borishini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: joriy aktiv, moliyaviy natija, neftgaz, tahlil, ko‘p omilli tahlil, ekonometrik model, muqobil ssenariy, foyda, hajm, istiqbolli baholash, samara.

Abstract: This article deals with the issues of effective use of current assets in production enterprises, as well as increasing profits corresponding to the contribution of assets. The increase in circulating assets in relation to the volume of liabilities ensures an increase in the speed of the production process, the continuity of supply of products and the efficiency of the enterprise.

Key words: current asset, financial result, petroleum, analysis, multi-factor analysis, econometric model, alternative scenario, profit, volume, prospective assessment, effect.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования оборотных средств на производственных предприятиях, а также увеличения прибыли, соответствующей вкладу активов. Увеличение оборотных средств по отношению к объему обязательств обеспечивает увеличение скорости производственного процесса, бесперебойность поставок продукции и эффективность работы предприятия.

Ключевые слова: оборотный актив, финансовый результат, нефть, анализ, многофакторный анализ, эконометрическая модель, альтернативный сценарий, прибыль, объем, перспективная оценка, эффект.

KIRISH

Bugungi zamonaviy taraqqiyot natijalarini qiyosiy tahlillari asosida mamlakatimizda ham istiqbolda neft va gaz sanoati, jumladan soha tarkibiga kiruvchi yoki sohani bevosita rivojlantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi korxonalarni rivojlantirish asosida sohaning umumiy faoliyat samaradorligini ta’minlashga harakat qilinmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining ko‘p omilli tahlilida ham alohida olingan yoki iqtisodiy tizim tarkibidagi korxonalar faoliyatida joriy aktivlardan samarali foydalanish asosida neft va gaz sanoati tarmog‘ida faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalarning samaradorlik darajasini tahlil qilish va baholashda ko‘p variantli tadqiqot usullaridan foydalanish orqali ko‘p omilli bog‘lanish asosida additiv yoki multiplikativ shakldagi ishlab chiqarish yoki iqtisodiy o‘sish funksiyasi ko‘rinishidagi dinamik modellar bo‘yicha tahlillar amalga oshiriladi. Aniqlanadigan ko‘p omilli dinamik modellar mikro darajada korxona tomonidan erishilgan foyda (zarar) hajmiga ta’sir etuvchi omillarni boshqarish yo‘nalishlarini aniqlash asosida qisqa va o‘rta muddatli davr uchun turli ssenariylar natijalari ko‘rinishidagi maqsadli prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda ushbu ko‘rsatkichlarni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadbirlarni belgilashga yordam beradi.

METODOLOGIYA

Muqobil ssenariylarni aniqlash imkonini beruvchi ko‘p omilli ekonometrik modellarni shakllantirish uslubiyoti nazariy hamda amaliy jihatdan bugungi kungacha ko‘plab tadqiqotchilar hamda olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Jarayonlarning ko‘p omilli bog‘lanishini o‘zida aks ettiruvchi ishlab chiqarish funksiyalari faoliyatning ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi, mehnat va kapital sarfi, fondlar qaytimi, mehnat unumdorligi kabi ko‘rsatkichlararo bog‘liqliklarni modellashtirishda o‘z aksini topgadi. Umumiy holda mahsulot (xizmat) ishlab chiqarish funksiyasi ko‘rinishidagi modellar quyidagicha ifodalash mumkin:

$$N = f(F_1, F_2, F_3,..., F_n)$$

Bunda:

N - yaratilgan mahsulot (xizmat)lar hajmi;

$F_1, F_2, F_3,..., F_n$ – faoliyat natijasiga, ya’ni natijaviy omilga ta’sir qiluvchi omillar.

Shunday qilib, natijaviy ko‘rsatkich va unga ta’sir qiluvchi omillarning o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi model, ya’ni ishlab chiqarish funksiyasini regressiya tenglamasi bilan ifodalash mumkin.

Iqtisodiy-matematik modellarni tuzishda natijaviy omil va unga ta’sir qiladigan omillararo chiziqli bog‘liqlik mavjud ekanligini ta’kidlanadi. Ishlab chiqarish funksiyasi tahlilida qo‘llaniladigan chiziqli dasturlash modellaridagi ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat)lar hajmi bilan resurslar sarfi to‘g‘ri proporsional ko‘rinishda bo‘ladi.

Eviews10 dasturiy paketidan foydalangan holda amalga oshirilgan eng kichik kvadratlar metodiga asoslanuvchi regression tahlil jarayonida aniqlangan parametrlar hamda modelning ahamiyati dastur tomonidan hisoblangan asosiy baholash ko‘rsatkichlari orqali baholangan. Regression tahlil natijalaridan ko‘rilayotgan holat uchun regression modelning koeffitsiyentlarini ajratib olgan holda trendning chiziqli logarifmik modelini shakllantirib olinadi.

Aniqlangan ma’lumotlardan foydalangan holda joriy aktivlar ta’sirida tizim korxonalari tomonidan olingan sof foyda (zarar) hajmini unga ta’sir etuvchi omillar ta’sirida o‘zgarishining ko‘p omilli ekonometrik modeli tuzildi. Unga ko‘ra ushbu jarayonni ifodalovchi

$$LnY = -0{,}008 \cdot LnX_1 - 6{,}314 \cdot LnX_2 + 1{,}743 \cdot LnX_3 - 5{,}602 \cdot LnX_4 + 48{,}481 \quad (1)$$

chiziqli logarifmik shakldagi dinamik ko‘p omilli modeli tuzildi.

Shakllantirilgan chiziqli logarifmik model chiziqsiz ko‘rinishdagi modelga o‘zgartirilsa, joriy aktivlar ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi asosida tizim korxonalari tomonidan olingan sof foyda (zarar) hajmini ifodalovchi chiziqsiz multiplikativ ko‘rinishdagi dinamik model kelib chiqadi:

$$y = \frac{x_3^{1,743} e^{48,481}}{x_1^{0,008} \cdot x_2^{6,314} \cdot x_4^{5,602}} \quad (2)$$

O‘rganilgan omilli tahlilni amalga oshirish bo‘yicha uslubiyotga ko‘ra ko‘p omilli ekonometrik modelni shakllantirishda tahlil uchun olingan ta’sir etuvchi omillar soni va ko‘rsatkichlarining vaqt oralig‘idagi o‘zgarishini ifodalovchi vaqtli qatorning kengligi shakllantirilgan ko‘p omilli model yordamida aniqlanadigan ko‘p variantli prognoz ko‘rsatkichlarning vaqt oralig‘i bo‘yicha kengligini belgilab beradi. “O‘zneftgaz” AK tizimidagi korxonalar bo‘yicha omil ko‘rsatkichlarining vaqtli qatori qisqaroq bo‘lgani, ya’ni 8 yillik davrni qamrab olganligi sababli shakllantirilgan ko‘p omilli model yordamida o‘rta muddat (5 yil) uchun prognoz ko‘rsatkichlarida so‘nggi 2 yil uchun aniqlangan prognozlarning reallikdan chetlanish darajasi ortib ketadi. Shu bilan birga, tanlab olingan ta’sir etuvchi omil ko‘rsatkichlarining vaqt ketma-ketligi bo‘yicha tebranish chastotasi tig‘iz bo‘lganligi ham prognoz davrini o‘rta yoki uzoq muddat uchun amalga oshirilganda haqiqiy qiymatlardan chetlanish darajasi ortib ketishini ko‘rsatadi.

Ko‘rsatib o‘tilgan fikrlarni hisobga olgan holda, “O‘zneftgaz” AK tizimidagi korxonalar uchun joriy aktivlar o‘zgarishi ta’sirida shakllanuvchi natijaviy omil prognoz ko‘rsatkichlarini qisqa muddat, ya’ni 3 yil uchun aniqlanishi model asosida aniqlangan prognoz ko‘rsatkichlarining real ko‘rsatkichlarga yaqin bo‘lishini ta’minlaydi.

Dasturiy paketdan foydalangan holda aniqlangan ko‘p omilli trend modellari asosida 2024–2026-yillarda “O‘zneftgaz” AK tizimidagi korxonalarning sof foydasi (zarari) hajmi o‘zgarishining istiqboldagi ko‘rsatkichlari hamda ularni hisoblash uchun eng qulay modellar ro‘yxati keltirildi (1-jadval).

1-jadval: “O‘zneftgaz” AK tizimidagi korxonalar sof foydasi (zarari) va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omil ko‘rsatkichlarining trend modellari hamda 2024–2026-yillar uchun prognoz ko‘rsatkichlari[1]

Ko‘rsatkichlar va ularning omilli modellari	Prognoz ko‘rsatkichlari		
	2024	2025	2026
“O‘zneftgaz” AK tizimidagi korxonalar sof foydasi (zarari) hajmi, mln. so‘m $y = \frac{x_3^{1,743} e^{48,481}}{x_1^{0,008} \cdot x_2^{6,314} \cdot x_4^{5,602}}$	5271407,5	6901723,6	8747039,1
Joriy aktivlar qiymati, mln. so‘m $x_1 = 2088474,0 \cdot t + 2850899,0$	21647165,0	23735639,0	25824113,0
Joriy aktivlarning umumiy aktivlardagi ulushi, foiz $x_2 = 39,29 - 2,861 \cdot t$	13,5	10,7	7,8
Joriy aktivlar tarkibidagi debitor qarzdorliklar ulushi, foiz $x_3 = 98,579 - 3,587 \cdot t$	66,3	62,7	59,1
Joriy aktivlar tarkibidagi o‘z mablag‘lari ulushi, foiz $x_4 = 76,318 - 4,101 \cdot t$	39,4	35,3	31,2

Juft hamda ko‘p omilli dinamik ekonometrik modellar asosida aniqlangan prognoz ko‘rsatkichlarida 2024–2026-yillarda “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik kompaniyasining ayrim ta’sir etuvchi omil ko‘rsatkichlarida pasayish, asosiy natijaviy ko‘rsatkichda esa barqaror o‘sish yuzaga kelishini ko‘rish mumkin.

Vaqt omiliga qaratilgan juft regression bog‘lanishli model asosida tahlil qilingan ta’sir etuvchi omillardan joriy aktivlar qiymati ko‘rilayotgan 2015–2025-yillar oralig‘ida 2018-yilni hisobga olmaganda barqaror o‘sish trendiga ega bo‘lgan bo‘lsa, qolgan egzogen omillar – joriy aktivlarning umumiy aktivlardagi ulushi, joriy aktivlar tarkibidagi debitor qarzdorliklar ulushi va joriy aktivlar tarkibidagi o‘z mablag‘lari ulushi pasayishiga ega ekanligi ko‘rinadi.

Ko‘p omillik ekonometrik modeldagi ta’sir etuvchi omillarning natijaviy omilga ta’siri turlicha bo‘lib, tizim tarkibidagi korxonalar faoliyatida samarali moliyaviy natijani ta’minlash uchun ushbu omillarning ta’sir xususiyatini optimal yo‘nalishda yo‘naltirish talab etiladi. Ko‘p omilli modeldagi ta’sir etuvchi modellardan joriy aktivlar qiymati, joriy aktivlarning umumiy aktivlardagi ulushi hamda joriy aktivlar tarkibidagi o‘z mablag‘lari ulushi omillari natijaviy omil bilan teskari bog‘liqlikda bo‘lib, ushbu omil ko‘rsatkichlari hajmining ortishi korxonalar yakuniy moliyaviy natijasining pasayishiga olib kelmoqda. Uchinchi ta’sir etuvchi omil sifatida tanlangan joriy aktivlar tarkibidagi debitorlik qarzdorliklari ulushi omilida esa bu holatning aksi ko‘rinadi, ya’ni debitor qarzdorliklarning ortib borishi bilan korxonalarning yakuniy moliyaviy natijasi o‘sib boradi.

Tizim korxonalari yakuniy moliyaviy natijasining tanlab olingan aksariyat joriy aktivlar tarkibiy qismi sifat xususiyatlarini ifodalovchi omil ko‘rsatkichlariga nisbatan teskari bog‘liqlikda o‘zgarishining asosiy sababi sifatida ekspertlar tomonidan tizim korxonalari aktivlari tarkibida joriy aktivlar hajmining zaruriy darajadan yuqori miqdorda ekanligi ko‘rsatiladi. Boshqacha aytganda, aksiyadorlik kompaniyasi tarkibidagi korxonalarda joriy aktivlarning miqdori mavjud quvvat va salohiyat asosida taklif etilayotgan mahsulot hajmini yaratish uchun zarur bo‘lgan miqdordan ortiqcha bo‘lganligi sababli joriy aktivlar miqdorining ortishi ular samarasiz qismining ortishiga olib kelgan. Bu xulosaning asosli ekanligini ta’sir etuvchi omil sifatida tanlab olingan schinchi egzogen omil – joriy aktivlar tarkibidagi debitor qarzdorliklar ulushining ortishi natijaviy moliyaviy ko‘rsatkichning ortishini keltirib chiqarishida ham ko‘rish mumkin.

“O‘zbekneftgaz” AK tizimi korxonalarining rivojlanishida joriy aktivlar nuqtayi nazaridan eng muhim deb topilgan ko‘rsatkichlarning natijaviy ko‘rsatkichi hisoblangan korxonalar tomonidan olingan sof foyda (zarar) hajmiga omillar ta’siri asosidagi rivojlanish ssenariysi ishlab chiqildi. Aniqlangan omillardan foydalanish tizim korxonalari faoliyatida foydalanilayotgan joriy aktivlar miqdori va uning tarkibiy qismlari nisbatini optimal taqsimlagan holda yakuniy moliyaviy natijaning eng maqbul hajmiga erishish imkonini beradi.

Ko‘p omilli bog‘lanish asosida aniqlangan trend modellari kelgusi davrda tadqiq etilayotgan korxona faoliyatining o‘rganilayotgan yo‘nalish bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichining tanlangan omillar ta’sirida ma’lum bir chegaradagi xatoliklarni hisobga olgan holda o‘zgarishini oldindan prognozlash imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida joriy aktivlar miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlaridan foydalanish asosida tizim korxonalari tomonidan olingan sof foyda (zarar) hajmining o‘zgarishi ham 4 ta asosiy omil ta’sirida kelgusi davr uchun prognoz qiymatlarni aniqlashda qo‘l keladi.

Yuqoridagi hisob-kitoblar asosida aniqlangan ekonometrik modelning ahamiyati va uning parametrlari sifatini baholamasdan turib, modeldan amaliyotda foydalanish katta xatoliklarning yuzaga kelishiga olib keladi.

1 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Shuni e'tiborga olgan holda, joriy aktivlar miqdoriy va sifat ko'rsatkichlaridan foydalanish asosida tizim korxonalari tomonidan olingan sof foyda (zarar) hajmining o'zgarish modelini uning ahamiyati va model parametrlarining sifatini baholaymiz.

Eviews10 dasturiy paketidan foydalangan holda amalga oshirilgan regression tahlil jarayonida aniqlangan parametrlar hamda modelning ahamiyati dastur tomonidan hisoblangan asosiy baholash ko'rsatkichlari orqali baholangan (2-jadval).

2-jadval: "O'zneftgaz" aksiyadorlik kompaniyasi korxonalari tomonidan olingan sof foyda (zarar) hajmi bo'yicha tanlangan omillarning bog'lanish xususiyatlari va tuzilgan omilli model sifatining asosiy ko'rsatkichlari[2]

Dependent Variable: **"O'zneftgaz" aksiyadorlik kompaniyasi korxonalari** tomonidan olingan sof foyda (zarar) hajmi, LnY

Method: Least Squares

Date:05/02/24 Time: 20:09

Sample: 2015 2022

Included observations: 8

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
Joriy aktivlar qiymati, LnX_1	-0.0008068	0.012000	0.672317	0.5495
Joriy aktivlarning umumiy aktivlardagi ulushi, LnX_2	-6.313519	2.641336	2.390275	0.0967
Joriy aktivlar tarkibidagi debitor qarzdorliklar ulushi, LnX_3	1.743032	6.484954	0.268781	0.8055
Joriy aktivlar tarkibidagi o'z mablag'lari ulushi, LnX_4	-5.601910	3.504025	1.598707	0.2082
Tasodifiy omillar umumiy ta'siri, ε	48.48134	13.94970	3.475439	0.0402

R-squared	0.919730	Mean dependent var	12.86125
Adjusted R-squared	0.812704	S.D. dependent var	2.241705
S.E. of regression	0.970158	Akaike info criterion	3.046455
Sum squared resid	2.823618	Schwarz criterion	3.096106
Log likelihood	-7.185819	Hannan-Quinn criter.	2.711579
F-statistic	8.593514	Durbin-Watson stat	2.060391
Prob(F-statistic)	0.054117		

Dasturiy paket asosida amalga oshirilgan tahlil natijaviy omilning ta'sir etuvchi omillar bilan ko'plikdagi korrelyatsiyasi r=0,9590 ga, determinatsiya koeffitsiyenti R2=0,9197 ga teng ekanligini ko'rsatmoqda. Bu esa ta'sir etuvchi omillar bilan natijaviy omilning zaruriy zichlikda korrelyatsiyaga ega ekanligini va hisoblangan ko'rsatkichlar bilan real ko'rsatkichlar orasidagi farq sifatidagi qoldiqlarning ham zich bog'langanligini ko'rsatadi.

Jadvalda ko'rsatilgan ko'rsatkichlar qiymatidan foydalangan holda tuzilgan ekonometrik modelning ahamiyati va parametrlari sifati baholanadi. Aniqlangan modeldagi endogen omil uchun Fisher mezoni qiymati 8,5935 ga teng bo'lib, uning ahamiyati 0,0541 ga teng. Bundan ko'rinib turibdiki, tuzilgan trend modelni ahamiyati jihatidan amaliyotda qo'llash mumkin.


Model sifati dasturiy paket vositasida Akiake axborot mezoni (3,046), Shvars mezoni (3,096) va Xannan-Kuin mezoni (2,711) orqali baholangan. Ushbu mezonlar qiymati ham trend modelini amaliyotda qo'llash mumkinligini ko'rsatadi.

Tuzilgan ekonometrik modelda avtokorrelyatsiya yoki multikolleniarlik mavjudligini aniqlash imkonini beruvchi Darbin-Uotson (DW) mezoni 2,06 ga teng bo'lib, optimal chegara 2,0 atrofida ekanligi hisobga olinsa, modelda avtokorrelyatsiya darajasi deyarli mavjud emasligini ko'rish mumkin.

Korxonalarining rivojlanishida eng muhim deb topilgan joriy aktivlar miqdor va sifat holatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlaridan foydalanish asosida tizim korxonalari tomonidan olingan sof foyda (zarar) hajmining omillar ta'sirida o'zgarish modelini baholashda qoldiq, haqiqiy va tuzilgan model qiymatlari grafigidan ham foydalanish maqsadga muvofiq (1-rasm).

1-rasmda berilgan grafikda qoldiq model asosida hisoblangan va haqiqiy qiymatlarning qoldiq ko'rsatkichlari o'rtasidagi tebranish darajasi yuqori bo'lsa-da, haqiqiy ko'rsatkichlar va tuzilgan model asosida hisoblangan ko'rsatkichlar grafigi o'rtasidagi farq darajasi sezilarsiz ekanligini ko'rish mumkin.

2 Muallif tomonidan EViews10 dasturida hisoblash asosida ishlab chiqilgan.



1-rasm: “O‘zneftgaz” aksiyadorlik kompaniyasi korxonalari tomonidan olingan sof foyda (zarar) hajmining qoldiq, haqiqiy va tuzilgan model qiymatlari grafigi[3]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahliliy ma’lumotlar hamda ko‘rsatkichlar qiymatlarini baholash asosida “O‘zneftgaz” aksiyadorlik kompaniyasi krxonalari rivojlanishida eng muhim deb topilgan joriy aktivlar miqdor va sifat ko‘rsatkichlaridan foydalanish asosida korxonalar tomonidan olingan sof foyda (zarar) hajmi va unga omillar ta’sirini hisobga olgan quyidagi trend modelini kompaniya kelgusi davrda moliyaviy barqarorlik darajasini oshirishda joriy aktivlar miqdori va uning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish bo‘yicha ssenariylar ishlab chiqish jarayonida qo‘llash mumkin.

Eviews 10 dasturi asosida ishlab chiqilgan model va prognoz ko‘rsatkichlar aksiyadorlik kompaniyasini kelgusi qisqa va o‘rta muddatlar oralig‘ida joriy aktivlarni optimal shakllantirish asosida rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish yo‘nalishida muqobil ssenariylarni shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Korxona tomonidan ushbu ishlab chiqilgan modelda foydalanilgan natijaviy omil va uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omil ko‘rsatkichlaridan rivojlanish dasturlarini shakllantirishda foydalanilsa, prognozlashning belgilangan mezonlari asosida tekshirish natijalariga asoslanib yuqori samara berishi aniqlandi.

Hisob-kitoblar istiqbolda korxonalar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bir ssenariy sifatida ular faoliyati rivojlanishida o‘z samarasini beradi. Lekin tadqiqot obyekti sifatida olingan tizim korxonalari faoliyatida tahlil uslubiyotlaridan foydalanish asosida ajratib olingan natijaviy omil va unga ta’sir etuvchi omillardan tashqari kognitiv yondashuv asosidagi boshqa ta’sir etuvchi omillarni ham korrelyatsion-regression tahlilini amalga oshirib tekshirib ko‘rish imkoniyatiga egamiz va korxonalar faoliyatini samarali rivojlantirishda ko‘p variantli ssenariylardan foydalanish orqali natijador bo‘lgan boshqaruv qarorlarini tanlash ham samarali hisoblanadi.

“O‘zneftgaz” aksiyadorlik kompaniyasi korxonalarida yakuniy moliyaviy natija (foyda)ga joriy aktivlar holati va harakatini ifodalovchi ta’sir etuvchi omillarning bog‘liqligini ifodalovchi jarayonni ko‘p omilli modellashtirish, modellar asosidagi tahlil bo‘yicha quyidagi xulosalar umumlashtirildi:

1. Faoliyat yuritayotgan korxonalarning yakuniy moliyaviy natijasiga joriy aktivlarning ta’sirini ifodalovchi trend modelini ko‘p omilli ekonometrik tahlil asosida chiziqli bo‘lmagan model ko‘rinishida aniqlash mumkin.
2. Tahlil metodlaridan, xususan, SWOT-tahlil usulidan foydalangan holda tahlilning matematik kutilmalari asosida ko‘p omilli ekonometrik model tarkibidagi egzogen omillarni ajratib olish omilli tahlilning mantiqiy tuzilmasini mustahkamlaydi. Ushbu egzogen omil ko‘rsatkichlarining ma’lum miqdorda o‘zgarishi (ortishi yoki kamayishi) endogen o‘zgaruvchining sezilarli darajada o‘zgarishiga olib keladi.
3. Natijaviy omil sifatida foyda (zarar) hajmi va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi joriy aktivlar holati va miqdorini ifodalovchi omillar ta’sirini o‘zida aks ettiradigan trend modelidagi omil ko‘rsatkichlar bir jinsli bo‘lmaganligi sababli model shakli chiziqli bo‘lmagan model ko‘rinishida tanlab olindi.

3 Eviews 10 dasturi asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Keltirib o‘tilgan xulosalar hamda (2) – bog‘lanishlardan kelib chiqib, kompaniya tarkibidagi korxonalar foydasi (zarari) hajmini joriy aktivlar miqdori va tarkibiy qismlarini ta’sirida miqdoriy jihatdan oshirish uchun ayni holatda quyidagi yo‘nalishlarda faoliyatni tashkil etish maqsadga muvofiq:

- tizim korxonalarida mavjud bo‘lgan aktivlar tarkibi, ya’ni uzoq muddatli va joriy aktivlar nisbatini optimallashtirish lozim;
- tahlil etilayotgan davrda korxonalarning joriy aktivlari miqdori zaruriy aylanmalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan miqdordan ortiqcha bo‘lganligi sababli ortiqcha joriy aktivlarni investitsion yoki moliyaviy faoliyatga yo‘naltirgan holda aktivlar samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq;
- model bo‘yicha joriy aktivlar tarkibidagi debitor qarzdorliklar ulushining ortishi ijobiy natijaga olib kelishi ko‘rinsa-da, debitor qarzdorliklarni oshirmagan holda ortiqcha aktivlarni uzoq muddatli aktivlarga yoki majburiyatlarni qoplashga yo‘naltirilishi tizim korxonalari faoliyatida joriy aktivlar hajmini optimal holatga keltirish va bu bilan korxonalarning yakuniy moliyaviy natijalari holatini yanada yaxshilash imkonini beradi.

Yuqoridagi tahlililar natijalaridan hamda ular asosida taklif etilayotgan tavsiyalardan foydalanish kelgusida kompaniya tarkibidagi korxonalarning samaradorlik darajasini miqdor va sifat jihatidan barqarorlashtirish imkonini kengaytiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF 4947-son Farmoni. 2017-yil 7-fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida ”gi PQ-4611-son qarori. 2020 yil 24-fevral.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Ryespublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3946-son qarori, 2018-yil 19-sentyabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1013-son qarori, 2018-yil 14-dekabr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida”gi 207-son qarori, 2015-yil 28-iyul.
6. Aryantini, S & Jumono, S. (2021). Profitability and value of firm: An evidence from manufacturing industry in Indonesia. Accounting, 7(4), 735-746.http://leeds-faculty.colorado.edu/jere1232/Harrigan%20and%20Wing%20Corporate%20Renewal%20SI.pdf .
7. Donsova L.V., Nikifirova N.A. Analiz buxgalterskoy (finansovoy) otchetnosti. Praktikum. –M.: Delo i servis, 2018.
8. Jo-Ann Suchard, George A Shinkle. Innovation in newly public firms: The influence of government grants, venture capital, and private equity.AUSTRALIAN JOURNAL OF MANAGEMENT, Vol. 44, No. 2, May 2019: 248-https://search.informit.org/doi/abs/10.3316/agispt.20190627012941.
9. Nusinov V. Estimating the Ukrainian companies‘ financial potential and the probability of forced / V. Nusinov, L. Burkova, N. Shura // Investment Management and Financial Innovations. – Sumy, 2020. – Vol. 17, issue N 2. – P.
10. Raximov M.Yu va boshqalar. Iqtisodiyot sub’ektlari moliyaviy holatining tahlili. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2020.
11. Tojiboyeva Sh.A. Moliyaviy tahlil-2. Darslik. –T.: Innovatsion rivojlanish, 2021.
12. B Sultanov, N Abdurazakova, O Shermatov, O Fayziev, A Jumanov, N.Dekhanova. The economic feasibility of cultivating intensive orchards. E3S Web of Conferences 284, 03006 (2021) TPACEE-2021 (https://doi.org/10.1051/e3sconf/202128403006).
13. I Yunusov, U Sangirova, U Ahmedov, O Fayziev, U Kholiyorov. Clustering of agriculture in the Republic of Uzbekistan. April 2023, E3S Web of Conferences 381, 02002 (2023) AQUACULTURE 2022.
14. O Fayziyev, D Aminboyeva. Qishloq xo‘jaligida bioresurslar asosida mahsulot yetishtirishning iqtisodiy ahamiyati. Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences (May 2023). – Tashkent, 2023. – Volume 3. – Issue 5. – P. 164-167 (UIF = 8.3. SJIF = 5.961) (ISSN 2181-2853).
15. Tkachenko V.V. Financial potential: strategic management in conditions of economic risk: monograph / V.V.Tkachenko, I. V. Tkachenko, P. Puzyrova. – Kyiv: Foliant, 2020. – 176 p.https://er.knutd.edu.ua/handle/123456789/1604426–39. – References: p. 37–39.http://ds.knu.edu.ua/jspui/handle/123456789/2755.
16. Thomas R. Robinson, Hennie van Greuning, Elaine Henry, Michael A. Broihahn. International financial statement analysis. Wiley.. John Wiley & Sons, Inc. GFA institute. Investment series. Printed in the United States of America.
17. Xasanov B.A.va boshqalar. Moliyaviy tahlil. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2019.
18. Shoalimov A.X., Ilxamov Sh.I., Tojiboeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. –T.:Sano-standart, 2017.

OLIY TA'LIM TIZIMI BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA SIFAT MENEJMENTI VA UNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Teshayev Hotamjon Ixtiyor o'g'li
Buxoro davlat universiteti 3-1 IQT-23 guruhi talabasi

Boltayeva Mohichehra Sharipovna
Marketing va menejment kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida sifat menejmenti, undan foydalanish samaradorligi, oliy ta'lim tizimi boshqaruvi samaradorligini baholashda sifat menejmenti va uning nazariy asoslari, oliy va xususiy ta'limda sifat menejmentini tashkil etish natijasida vujudga kelgan muammolarni hal etish yo'llariga doir tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: sifat menejmenti, avtonomlik, ta'lim sifati, boshqaruv mustaqilligi, SWOT tahlil, investitsiya, baholash mezoni.

Abstract: In this article quality management in the system of higher education, the effectiveness of its use, quality management in assessing the effectiveness of higher education system management and its theoretical foundations, recommendations on ways to solve the resulting problems.

Key words: quality management, autonomy, education quality, management independence, SWOT-analysis, investment, evaluation criteria.

Аннотация: В данной статье менеджмент качества в системе высшего образования, эффективность его использования, менеджмент качества в оценке эффективности управления системой высшего образования и его теоретические основы, рекомендации по путям решения возникших в результате проблем.

Ключевые слова: управление качеством, автономия, качество образования, независимость управления, SWOT-анализ, инвестиции, критерии оценки.

KIRISH

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida "...sifatli oliy ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, OTMlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish"[1] bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi hududlarda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda strategik boshqaruv mexanizmini takomillashtirishni talab etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim tizimida sifat menejmentidan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari xorijiy olimlardan W.Stock, J.Siegfried, A.Finegan, L.Maureen, G.Pettersson, P.Drucker, M.Meskon, M.Albert, F.Xedouri, T.Saati va boshqalarning boshqaruvga doir ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan. MDH mamlakatlaridan V.I.Martsinkevich, I.V.Soboleva, S.A.Dyatlov, N.P.Litvinova, V.V.Sheremetova, L.I.Yakobson, T.I.Shamov, P.I.Tretyakov, V.V. Gluxov, A.V.Tebenkin, A.N.Asaul, A.N.Boyeva, B.M.Kaparov, M.V.Nikitin kabi olimlarning ilmiy ishlari oliy ta'lim tizimini sifat menejmentini uslubiy jihatlarini takomillashtirish masalalarini ilmiy tadqiq etishga bag'ishlangan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. //Lex.uz.

TADQIQOTNING USULLARI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, mantiqiy va qiyosiy tahlil, analiz va sintez, qiyosiy taqqoslash, kabi usullar qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston–2030 strategiyasida oliy ta’lim tizimi boshqaruvi samaradorligiga oid quyidagi asosiy fikrlar va chora-tadbirlar bildirilgan:

Ta’lim sifatini oshirish, ta’lim dasturlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, pedagogik kadrlarning malakasini oshirish, ularni xorijiy tajriba bilan tanishtirish va xalqaro sertifikatlarga ega bo‘lishini ta’minlash, innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etish, oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion usullarni keng qo‘llash, onlayn ta’lim platformalarini rivojlantirish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish shular jumlasidandir.

Ta’lim muassasalarining avtonomligini oshirish jarayonida esa oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy va boshqaruv mustaqilligini berish, universitetlarning o‘zini-o‘zi boshqarish tizimini rivojlantirish va ularning strategik rejalashtirishda mustaqilliklarini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish, universitetlarning ilmiy va innovatsion salohiyatini oshirish, startaplar va tadbirkorlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash alohida ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’lim tizimida hamkorlik va integratsiya jarayonlarini tashkil etish uchun, xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, chet ellik professor-o‘qituvchilarni jalb qilish va talabalarni xalqaro almashinuv dasturlari orqali xorijiy tajriba orttirishlarini ta’minlash kerak bo‘ladi.

Ishlab chiqarish bilan bog‘liqlik tizimiga ta’limni mehnat bozori talablariga moslashtirish, universitetlar va sanoat korxonalari o‘rtasida yaqin hamkorlikni ta’minlash, talabalarni amaliyotga jalb qilish hamda moliya va mablag‘lar tizimidan oqilona foydalanish yo‘llari kiradi. Oliy ta’lim tizimiga investitsiyalarni jalb qilishda davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish orqali ta’lim muassasalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. O‘zbekiston–2030 strategiyasi doirasida amalga oshiriladigan bu chora-tadbirlar oliy ta’lim tizimining boshqaruvi samaradorligini oshirish va ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan.

Oliy ta’lim tizimi boshqaruvi samaradorligini baholashda sifat menejmenti (quality management) muhim ahamiyatga ega. Sifat menejmenti ta’lim jarayonining barcha jihatlarini, jumladan, o‘qitish usullari, o‘quv dasturlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati, talabalarning o‘zlashtirishi va ta’lim muassasasining umumiy ishlash samaradorligini qamrab oladi. Mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida sifat menejmentining rejalashtirish (Planning), ijro etish (Implementation), nazorat va monitoring (Control and Monitoring), tahlil va takomillashtirish (Analysis and Improvement) kabi asosiy funksiyalari tahlil qilinadi. Ta’lim muassasasining strategik maqsad va vazifalarini aniqlash, ta’lim jarayonlarini rejalashtirish va kerakli resurslarni ajratish, ta’lim dasturlarini joriy etish va o‘qitish jarayonini tashkil etish, o‘quv rejalarini amalga oshirish va talabalarni o‘qitish, o‘quv jarayonlarini kuzatib borish va baholash, ta’lim sifatini o‘lchash va monitoring qilish uchun indikatorlarni belgilash alohida ahamiyatga ega.

Oliy ta’lim tizimida sifat menejmenti deganda asosan ta’lim sifatini oshirish nazarda tutiladi. Bu esa ta’lim jarayonlarining yuqori sifatli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi. O‘qitish va o‘quv dasturlarining sifatini oshiradi, talabalar bilim darajasini yaxshilaydi. Ishonchlilik va transparentlik jarayonida ta’lim muassasasining faoliyati ochiq va shaffof bo‘lishini ta’minlaydi. Ota-onalar, talabalar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ta’lim sifatini aniq ko‘rsatadi. Raqobatbardoshlik, ta’lim muassasalarining xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshiradi, talabalarni mehnat bozorida yuqori malakali mutaxassis sifatida tayyorlaydi. Ta’lim jarayonlarini doimiy ravishda takomillashtirib turish oliy ta’lim yaxshilash imkonini beradi.

Kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish orqali ta’lim sifati doimiy ravishda takomillashtiriladi. Muvofiqlik va sertifikatlash tizimi ta’lim dasturlarining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlaydi. Sifat menejmenti tizimlari orqali muassasalar xalqaro akkreditatsiya va sertifikatlarga ega bo‘lishlari mumkin.

Oliy ta’lim tizmida ta’lim sifatini oshirish va nazorat qilishda manfaatdor tomonlarning ishtiroki alohida rol o‘ynaydi. Talabalar, o‘qituvchilar, ota-onalar va ish beruvchilar kabi manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari hisobga olinadi. Sifat menejmenti jarayonida barcha manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta’minlanadi.

Ma’lumki ta’lim muassasalarida yuqori darajadagi ta’lim jarayonini tashkil etish uchun bir qator vazifalar amalga oshirilmoqda. Ana shunday vazifalarni to‘g‘ri va oqilova bajarilganligini nazorat qilish sifat menejmenti asosida baholash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ichki audit, talabalar va o‘qituvchilarni baholash, tashqi baholash, ko‘rsatkichlar va indikatorlarni aniqlash shular jumlasidandir. Oliy ta’lim muassasasining ichki audit tizimini joriy etish orqali ta’lim jarayonlarini muntazam ravishda ichki audit orqali baholanadi. Talabalar va o‘qituvchilar tomonidan ta’lim jarayonlari va resurslarining baholanishi uchun esa so‘rovnomalar, intervyular va tahlil natijalariga asoslangan baholash tizimi tashkil etiladi. Mustaqil baholash agentliklari tomonidan ta’lim muassasalarining faoliyatini baholanadi. Oliy ta’lim tizimi esa xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan baholash mezonlari asosida baholanadi.Ta’lim sifatini o‘lchash uchun aniq ko‘rsatkichlar va indikatorlar ishlab chiqilishi kerak. Buning uchun o‘quv jarayonlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati, bitiruvchilarni ish bilan ta’minlanishi va boshqa muhim ko‘rsatkichlar orqali baholanadi.

Sifat menejmenti oliy ta’lim tizimi boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun muhim vositadir. U ta’lim jarayonlarining yuqori sifatli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi, ta’lim muassasalarining xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshiradi va talabalarni mehnat bozorida muvaffaqiyatli bo‘lishiga tayyorlaydi. Sifat menejmenti tizimi orqali doimiy takomillashtirish jarayonlari amalga oshiriladi, bu esa ta’lim sifatini doimiy ravishda yaxshilash imkonini beradi.

Oliy ta’lim tizimi boshqaruvi samaradorligini baholashda sifat menejmenti va uning konseptual asoslari muhim rol o‘ynaydi. Sifat menejmenti tizimi (SMT) ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida sifatni nazorat qilish va takomillashtirishni ta’minlaydi. Biz tadqiqot jarayonida sifat menejmenti va uning konseptual asoslarni batafsil ko‘rib chiqdik.

1. **Sifat menejmenti konsepsiyasi.** Sifat menejmenti konsepsiyasi ta’lim jarayonlarini samarali va sifatli amalga oshirish uchun yaratilgan tizimli yondashuvdir. Bu konsepsiya sifatni rejalashtirish (Quality Planning), maqsadlar, strategiyalar, resurslar kabi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi. Bu komponentlar asosida oliy ta’lim muassasasining uzoq muddatli va qisqa muddatli maqsadlarini belgilash, sifatni oshirish bo‘yicha strategik rejalar ishlab chiqish, ta’lim jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur resurslarni aniqlash va taqsimlash mumkin.
2. **Sifatni nazorat qilish (Quality Control).** Standartlar, indikatorlar, monitoring kabi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi. Ta’lim jarayonlari uchun xalqaro va milliy standartlarni belgilash va ularga rioya qilish, sifatni o‘lchash uchun ko‘rsatkichlar va indikatorlarni aniqlash, ta’lim jarayonlarini doimiy kuzatib borish va nazorat qilish mumkin.
3. **Sifatni ta’minlash (Quality Assurance)** uchun ta’lim jarayonlarini sifatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan protseduralar va jarayonlarni ishlab chiqish, mustaqil baholash agentliklari tomonidan ta’lim sifatini tekshirish va ta’lim dasturlarini akkreditatsiya qilish orqali sifatni tasdiqlash kerak bo‘ladi. Sifatni Takomillashtirish (Quality Improvement) esa ta’lim jarayonlari va natijalarini tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va doimiy yaxshilash chora-tadbirlarini amalga oshirish, ta’lim jarayonlariga yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.
4. **Tizim yondashuvi.** Ta’lim jarayonlari va tashkilotning barcha komponentlarini yagona tizim sifatida ko‘rish hamda barcha bo‘limlar va xodimlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va aloqalarni ta’minlashdan iborat. Ta’lim jarayonlarida talabalar manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yish natijasida talabalar ehtiyojlari va kutilmalarini qondirishga intilish mumkin. Ta’lim jarayonlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali esa onlayn ta’lim platformalari va masofaviy ta’limni rivojlantirish lozim hisoblanadi. PDCA (Plan-Do-Check-Act) sikli orqali doimiy yaxshilash jarayonlarini amalga oshirish yordamida sifatni oshirish bo‘yicha yangi g‘oyalar va takliflarni qabul qilish va amalga oshirish kerak.
5. **Ma’lumotlarga asoslangan yondashuv.** Bu jarayonda qaror qabul qilish jarayonlarida aniq va to‘liq ma’lumotlardan foydalanish, ma’lumotlar tahlili va statistik usullar orqali sifatni nazorat qilish orqali sifat menejmenti tizimini joriy etish muhim hisoblanadi.

Oliy ta’lim tizimi boshqaruvi samaradorligini baholashda sifat menejmenti muhim ahamiyatga ega. U ta’lim jarayonlarining yuqori sifatli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi, talabalarning bilim darajasini oshiradi va ta’lim muassasalarining xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshiradi. Sifat menejmenti tizimini joriy etish va rivojlantirish orqali oliy ta’lim tizimida sifatni doimiy ravishda yaxshilashga erishish mumkin.

Yuqoridagilardan foydalanib biz xususiy va davlat oliy ta’lim tizimida sifat menejmentidan foydalanishning 2024-yilgi holati uchun SWOT tahlilini o‘tkazdik.

1-jadval: Davlat oliy ta’lim tizimida sifat menejmentidan foydalanishning 2024-yilgi holati uchun SWOT tahlili

Kuchli Tomonlar (Strengths):	Zaif Tomonlar (Weaknesses):	Imkoniyatlar (Opportunities):	Tahdidlar (Threats):
Barqaror Moliyalashtirish: Davlat tomonidan ta’minlanadigan barqaror moliyaviy resurslar. Oliy ta’lim muassasalarining davlat budjeti hisobidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishi.	Byurokratiya: Haddan tashqari burokratik jarayonlar va qattiq regulyatsiyalar. Qaror qabul qilish jarayonlarida sustlik va kechikishlar.	Xalqaro Hamkorlik: Xalqaro hamkorlikni kengaytirish va ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish imkoniyati. Talabalar va o‘qituvchilar almashinuvi orqali tajriba almashish.	Resurslarning cheklanganligi: davlat byudjetidagi cheklangan resurslar va ta’lim tizimiga yetarli e’tibor ajratilmasligi. Moliya ajratishdagi kechikishlar va byurokratik to‘siqlar.

Keng Qamrov: Talabalarning keng qamrovini qamrab olish va ijtimoiy adolatni ta'minlash. Ta'lim tizimining barcha qavatlarida davlat nazorati.	Resurslarni Noqonuniy Ta'qib qilish: Moliyaviy va inson resurslarini samarali boshqarishdagi kamchiliklar. Texnologik yangilanishlar va innovatsiyalarni joriy etishda sustlik.	Texnologik Innovatsiyalar: Raqamli texnologiyalar va onlayn ta'lim platformalarini joriy etish. Zamonaviy o'quv texnologiyalari va usullarini qo'llash imkoniyati.	3.Raqobat: xususiy ta'lim muassasalarining raqobatiga dosh bera olmaslik. xalqaro ta'lim muassasalarining sifatli ta'lim dasturlari bilan raqobat qilish.
Sertifikatlash va Akkreditatsiya: Davlat tomonidan belgilangan stan-dartlarga muvofiq sertifikatlash va akkreditatsiya jarayonlari. Sifat menejmenti tizimlarining rasmiy ravishda tasdiqlanganligi.	Motivatsiyaning etish yetishmovchiligi: O'qituvchilar va xodimlarni motivatsiya qilishdagi kamchiliklar. Ishchilarni rag'batlantirish tizimining yetishmovchiligi.	Moliyaviy Qo'llab-quvvatlash: Davlat dasturlari orqali qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish. Ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun maxsus kvotalar va grantlar.	1.Siyosiy Barqarorlik: Siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi. Siyosiy qarorlar va regulyatsiyalar ta'lim tizimini noaniqliklar ichida qoldirishi.

2-jadval: Xususiy oliy ta'lim tizimida sifat menejmentidan foydalanishning 2024-yilgi holati uchun SWOT tahlili

Kuchli Tomonlar (Strengths):	Zaif Tomonlar (Weaknesses):	Imkoniyatlar (Opportunities):	Tahdidlar (Threats):
1. Moslashuvchanlik: Qaror qabul qilish jarayonlarining tezkorligi va moslashuvchanligi. Innovatsiyalarni tezda joriy etish va yangiliklarga moslashish.	1. Moliyaviy Barqarorlik: Moliyaviy resurslarning cheklanganligi va xususiy sarmoyalarning yetishmovchiligi. Ta'lim muassasasining moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi qiyinchiliklar.	1. Innovatsiyalar va Texnologiyalar: Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va innovatsion ta'lim usullarini qo'llash. Raqamli ta'lim platformalari va onlayn kurslarni kengaytirish.	1. Davlat Regulyatsiyalari Davlat tomonidan qo'yiladigan qat'iy regulyatsiyalar va nazorat. Sertifikatlash va akkreditatsiya jarayonlaridagi qiyinchiliklar.
2. Raqobatbardoshlik: Ta'lim sifatini oshirish orqali talabalarni jalb qilish. Talabalar va ish beruvchilar ehtiyojlariga moslashtirilgan dasturlar.	2. Akkreditatsiya va Sertifikatlash: Davlat tomonidan belgilangan sertifikatlash va akkreditatsiya jarayonlaridagi qiyinchiliklar. Sifat menejmenti tizimlarining davlat standartlariga mos kelishi zarurati.	2. Xalqaro Hamkorlik: Xalqaro hamkorlik va almashinuv dasturlarini rivojlantirish. Chet ellik professor-o'qituvchilarni jalb qilish va xalqaro akkreditatsiyalarni olish.	2. Raqobat: Davlat oliy ta'lim muassasalari va xalqaro universitetlar bilan raqobat qilish. Talabalar uchun jozibadorlikni yo'qotish xavfi.
3. Motivatsiya: Xodimlar va o'qituvchilarni yuqori darajada motivatsiya qilish. Rag'batlantirish tizimlari va maoshlarni oshirish imkoniyatlari.	3. Talabalar Kontingenti: Talabalar sonini oshirish va ularni jalb qilishdagi qiyinchiliklar. Talabalar to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirmasligi.	3. Xususiy Sarmoyalar: Xususiy sektor investitsiyalarini jalb qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarini yaratish. Grantlar, stipendiyalar va boshqa moliyaviy yordam imkoniyatlarini kengaytirish.	3. Moliyaviy Barqarorlik: Moliyaviy inqirozlar va iqtisodiy o'zgarishlar natijasida moliyaviy barqarorlikning yo'qolishi. Talabalar to'lovlari va sarmoyalarning yetishmovchiligi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, oliy va xususiy ta'limda sifat menejmentini tashkil etish natijasida vujudga kelgan muammolarni hal etish uchun tadqiqotchi tomonidan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish taklif etilmoqda:

- mavjud mablag'lardan oqilona va samarali foydalanish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyatini strategik rejalashtirish asosida muvofiqlashtirgan holda olib borishlari;
- hududlarning oliy ta'lim muassasalarini 100% moliyalashtirishdan voz kechishlari;
- hududlar muhtoj bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash uchun maxsus fondlarni tashkil etishlari,

- bundan tashqari hudud hukumatlari o‘z hududlarida zarur mutaxassislar soni kam bo‘lgan tumanlarda ta’lim tadbirkorligi zonalarini tuzishlari;
- oliy ta’lim muassasalariga ajratilgan moliyaviy resurslarni ishlatish tartibini qayta ko‘rib chiqish, audit natijalariga asoslanib moliyaviy resurslar ajratilishi lozim bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlarni aniqlashlari;
- ayrim faoliyat yo‘nalishlaridan voz kechish, pul mablag‘larini ustuvor deb qabul qilingan yo‘nalishlarga yo‘naltirish va h.k.

Davlat va xususiy oliy ta’lim tizimlarida sifat menejmenti samaradorligini oshirish uchun har bir tizimning kuchli va zaif tomonlarini hisobga olib, imkoniyatlardan to‘liq foydalanish va tahdidlarni bartaraf etish zarur. Bu jarayonda sifat menejmenti tizimlarining asosiy komponentlarini joriy etish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Kadrlarni davlat grantlari asosida maqsadli tayyorlash tartibi to‘g‘risida nizom” – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – 2005.–№32-33.
2. “Oliy ta’lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom” – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.– 2006.– № 6-7.
3. “O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi ta’limni olish tartibi to‘g‘risida nizom” – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.– 2008.– № 34.
4. “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash reyting tizimi to‘g‘risidagi nizom” – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – 2009. – № 28.
5. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida nizom” – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2009. – № 23.
6. “Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom” – O‘z.R. Qonun hujjatlari to‘plami.– 2010. – № 24-25.
7. “Oliy ta’lim muassasalarining magistraturasiga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom” – O‘z.R. qonun hujjatlari to‘plami. – 2010. –№ 24-25.
8. Gulchehra N. Prospects For Increasing The Competitiveness Of The National Economy Through The Development Of Innovative Activities //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
9. Igamova S. Ways To Organize Innovative Activity In Economic Sectors And Increase Its Effectiveness //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 24. – №. 24.
10. Gulchehra N. The Role Of Creative Marketing In Creating Modern Brands //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2023. – Т. 34. – №. 34.
11. Ashurova M. Conceptual Foundations Of Increasing The Effectiveness Of Advertising Activities In Tourist Companies //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 44. – №. 44.
12. Gulchehra N. Role Of Marketing Strategies In Increasing Company Competitiveness: Role Of Marketing Strategies In Increasing Company Competitiveness //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
13. Gulchehra N. Trends And Prospective Directions Of Global Economic Development //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 44. – №. 44.
14. Narzullayeva G. S. et al. New Technologies and the Revolution in the Tourism Sector //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 97-101.
15. Boltayeva M. YANGI O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlashning zamonaviy yo‘nalishlari //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
16. Boltayeva M. Budjet taqchiligini bartaraf etish yo‘llari //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
17. Boltayeva M. Active Investment Policy In Our Country And Ways Of Their Intensive Development //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 37. – №. 37.
18. Sharipovna B. M., Sarvinoz I. Active Investment Policy In Our Country And Ways Of Their Intensive Development // Pedagogical Sciences And Teaching Methods. – 2023. – Т. 2. – №. 20. – С. 112-116.

“XUFIYONA IQTISODIYOT”NING JAMIYATGA TA’SIRI

Mirzayev Zarshed Mirzayevich
Buxoro davlat universiteti 3-2 IQT-20 guruh talabasi

Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi
Buxoro davlat universiteti 3-1 IQT 22 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **Narzullayeva Gulchexra Salimovna**
Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Xufiyona iqtisodiyot tushunchasi, xufiyona iqtisodiyotning mamlakatimizda tutgan o‘rni, u keltiradigan zararlar. Xorijiy davlatlarda o‘tkazilgan xufiyona iqtisodiyot tadqiqotlari.

Kalit so‘zlar: Xufiyona iqtisodiyot, jinoiy iqtisodiy faoliyat, g‘ayrioddiy va g‘ayriiqtisodiy usul, nolegal iqtisodiyot, yashirin lobbizm, yashirin iqtisodiy aylanma, offshor zonalar.

Abstract: The concept of the secret economy, the role of the secret economy in our country, the harm it causes. Secret economic studies conducted in foreign countries.

Key words: Secret economy, criminal economic activity, unusual and non-economic method, illegal economy, secret lobbying, secret economic circulation, offshore zones.

Аннотация: Понятие тайной экономики, роль тайной экономики в нашей стране, вред, который она наносит. Секретные экономические исследования, проводимые в зарубежных странах.

Ключевые слова: Тайная экономика, преступная экономическая деятельность, необычный и неэкономический метод, нелегальная экономика, тайное лоббирование, тайный экономический оборот, оффшорные зоны.

KIRISH

Yashirin iqtisodiyot oshkora payqab bo‘lmaydigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste’mol jarayonlari – iqtisodiy munosabatlar bo‘lib, uning negizida ayrim kishilar yoki kishilar guruhi manfaatlari yotadi. Yashirin iqtisodiyot dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida mavjud. Xufiyona iqtisodiyot – ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to‘lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy faoliyat turlaridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Yashirin iqtisodiyot muammolari o‘tgan asrning 1970-yillarning oxirida xorijiy iqtisodchilar tomonidan o‘rganila boshlandi. Xalqaro mehnat tashkiloti va Jahon banki homiyligida olib borilgan yashirin faoliyatning empirik tadqiqoti o‘ziga xos yutuq bo‘ldi. Bu borada “norasmiy sektor” atamasini birinchi marta ilmiy muomalaga kiritgan K.Xart va P.Gutmanning ilmiy ishlarini qayd etish lozim. Yashirin iqtisodiyot muammosi va uning ko‘lamini aniqlashga urinishlar xorijiy iqtisodchi va statistik olimlarning ishlarida yanada rivojlangan: D. Bleyds, E. de Soto, A. Dilnot, B. Dallago, C. Morris, B. Kontini, K. Makafi, E. Feig, B. Kasimyelar shular jumlasidandir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida mamlakatimizda xufiyona iqtisodiyot bo‘yicha bir qator tahlillar o‘tkazildi unda guruhlash, taqqoslama tahlil, statistik tahlil kabi medodlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashirin iqtisodiyot – murakkab ko‘p bosqichli hodisa bo‘lib, uning turli xil shakl va turlari bor:

1. Jinoiy iqtisodiy faoliyat. Bu mutlaqo man qilingan, qonun yo‘li bilan ta’qib etiladigan ishlar bilan shug‘ullanish, ya’ni narkobiznes, qurol biznesi va hokazolar.
2. G‘ayriqonuniy, g‘ayriiqtisodiy usullar bilan daromadlarni qayta taqsimlab o‘zlashtirib olish, ya’ni o‘g‘irlik, bosqinchilik, reket, poraxo‘rlik.
3. Ikkilamchi iqtisodiyot – kishilarga zarar keltirmaydigan, ular uchun naf beradigan, lekin rasman ruxsat etilmagan va davlat ro‘yxatidan o‘tmagan iqtisodiy faoliyat. Ularga yashirin tadbirkorlik, 1-2 va 5-10 kishi band bo‘lgan yashirin kichik korxonalar faoliyati kiradi. Yashirin tadbirkorlik xizmat ko‘rsatish, qurilish, savdo, kiyim-kechak ishlab chiqarishda keng tarqalgan.
4. Rasman ruxsat etilgan faoliyat bilan birga qo‘shimcha ravishda yashirin ishlab chiqarishga qo‘l urish, ochiq ishlaydigan korxonalarda qo‘shimcha ravishda hisobga kirmagan mahsulot chiqarib, uni yashirin sotish.
5. Mansabni suiiste’mol qilish va korrupsiyaga asoslangan iqtisodiy xatti-harakatlar. Bular jumlasiga davlat idoralaridagi poraxo‘rlik, yashirin lobbizm, mansabdan foydalanib subsidiyalar olishni kiritish mumkin.
6. Qalbakilashtirilgan iqtisodiy faoliyat – bu iqtisodiyot davlat sektoriga xos bo‘lib, davlatni aldashga qaratiladi. Buning eng yaqqol namunasi davlat sektoridagi qo‘shib yozishlar, qilinmagan ishlar uchun davlatdan haq olish va shu turdagi ishlardir.

Yashirin iqtisodiyot jamiyatda davlat boshqaruvi shakllanishining dastlabki davrlaridan boshlab mavjud bo‘lib, hozirgi vaqtga kelib dunyoning barcha mamlakatlari uchun dolzarb muammoga aylangan. Yashirin iqtisodiy faoliyat ko‘rinmas shaklga ega bo‘lib, uning turlari doimiy o‘zgaruvchanlik, murakkablashib borish, nazorat bosqichlarni chetlab o‘tish, turli yo‘nalishlar orqali sodir etilishi kabi xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Bu faoliyatni amalga oshirishda esa uning tarmoqlaridan biri bo‘lgan korrupsiyadan foydalanish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi. Korrupsiya va xufiyona iqtisodiyot o‘rtasida chambarchas aloqa mavjud bo‘lib, ular ma’muriy to‘siqlardan iborat umumiy ildizlarga ega va iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy kuchlar hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotning yana bir rivojlanib borayotgan tarmog‘i mavjud. Bu ikkilamchi bozor orqali bir yilda oldi-sotdi qilinadigan transport vositalari va ko‘chmas mulklardir. Shuningdek, so‘nggi paytlarda aholining umumiy ovqatlanish shoxobchalariga oqimi keskin ortgan, ammo bu xizmatlar sohasidagi statistik ma’lumotlar va soliq tushumlari o‘sishiga mos holda emasligi ma’lum bo‘lmoqda.Yashirin iqtisodiyotning rivojlanishi miqyoslari har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, undagi ijtimoiy-iqtisodiy holatiga va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish xususiyatlariga bog‘liqdir. Shuning uchun har bir mamlakat iqtisodiyotida yashirin iqtisodiyotning o‘rni va roli ham turlichadir.

Yashirin iqtisodiyot miqyosi yashirin iqtisodiy aylanma, ya’ni ruxsat etilmagan tovar va xizmatlarni yaratish va ularni sotish hajmi bilan belgilanadi. Aylanma xufiyona bo‘lganidan uning aniq hisob-kitobi bo‘lmaydi. Buning o‘rniga uni taxminan baholash usuli qo‘llaniladi. Ayrim hisob-kitoblarga ko‘ra, o‘tgan asr oxirlarida yer yuzidagi yashirin iqtisodiy aylanma 8 trln. dollarga yoki jahon yalpi mahsulotining 27,5% ga teng bo‘lgan. Biroq yashirin iqtisodiyot miqyosi turli mamlakatlarda farqlanadi. Yashirin iqtisodiyot eng rivojlangan mamlakatlarga Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlari kiradi. O‘tgan o‘n yillikda Misr va Nigeriyada yashirin iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotning 70% ga teng bo‘lgan. Yashirin iqtisodiyot hissasi eng kam bo‘lgan mamlakat Osiyoda Yaponiya (1–2%), G‘arbiy Yevropada Shveysariya hisoblanadi. MDH mamlakatlarida yashirin iqtisodiyot darajasi o‘rtacha. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, masalan, AQSH va Angliyadada yashirin iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi tegishlicha 11 va 8,34% ni, Avstraliyada esa 12 foizni , Xitoyda yashirin iqtisodiyot ulushi 14,67 foizni tashkil etdi (2023). Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Nigeriya, Bangladesh, Misr kabi davlatlarda yashirin iqtisodiyot 30 foizdan 50 foizgacha bo‘lib, aholi va davlatning moliyaviy holatiga yetarlicha zarar keltirmoqda.O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotning ulushi umumiy iqtisodiyotning 40 foiziga to‘g‘ri keladi. Bu esa taxminan 32 mlrd AQSH dollariga teng degani (2023). 2019-yilda ushbu ko‘rsatkich yashirin iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 52,11 foizni tashkil etgan. Ushbu to‘rt yil mobaynida qilingan amaliy harakatlar o‘z natijasini berib,yashirin iqtisodiyotni YaIMga nisbatan ulushining nisbatan yaxshilanishiga olib keldi. XXI-asrga kelib iqtisodiyotning globallashuvi oqibatida yashirin iqtisodiyot milliy doiradan chiqib, xalqaro darajaga ko‘tarildi. Yashirin iqtisodiyot globallashuvi bu bir mamlakatdagi yashirin iqtisodiyot boshqa mamlakatga ko‘chirilishida, nojo‘ya biznes ishlari bilan shug‘ullanuvchi xalqaro firmalarning paydo bo‘lishida ko‘rinadi. Bunga misol qilib xalqaro narkobiznesni, yashirin qurol savdosini, ishchi kuchining yashirin migratsiyasini uyushtirishni, offshor zonalar orqali g‘ayriqonuniy yo‘llar bilan topilgan pulni “halollab” olish kabilarni ko‘rsatish mumkin. Bular xalqaro hamjamiyatga katta xatar tug‘diradi. Pulni chet mamlakatga yashirin chiqarib “halollab” olishga qarshi kurash maqsadlarida xalqaro hamjamiyat maxsus tashkilot – Xalqaro moliyaviy harakatlar guruhini tashkil etilgan (36 mamlakat a’zo; 2000).

Ushbu dolzarb muammoni qisman bo‘lsa ham, bartaraf etishda qilingan tahlil yuzasidan kerakli yechim topildi. Fuqarolarning moliyaviy, huquqiy va raqamli iqtisodiyot haqida savodxonligini oshirishni ommalashtirish kerak, OAV va ijtimoiy tarmoq platformalari orqali yashirin iqtisodiyotning salbiy oqibatlarini, zararini va unga qarshi kurashishning afzalligini targ‘ib qilish kerak. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan taklif orqali, korxona va tashkilotlarda raqamli iqtisodiyot haqida, hamda maktablarda moliyaviy savodxonlik fanining joriy etilishi nafaqat yashirin iqtisodiyotga, balki ko‘plab muammolarni hal etishda va oldini olishda samarali yechim bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki yashirin iqtisodiyotni qisqartirish imkonsiz emas. Buning uchun puxta o‘ylangan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan puxta strategiya kerak. Bunday strategiyaga erishishda albatta birinchi navbatda aholining iqtisodiy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar aholiga xufiyona iqtisodiyotning salbiy asoratlari muntazam ravishda tushuntirib borilsa, bu orqali yashirin iqtisodiyot ma’lum darajada bartaraf etishga erishilishi mumkin.

“Xufiyona iqtisodiyot”ning jamiyatga ta’sirini kamaytirish uchun quyidagi chora tadbirlarni qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

- Soliq tizimini isloh qilish.
- Soliq ma’muriyatini kuchaytirish.
- Soliq to‘lovchilarni nazorat qilish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.
- Rasmiy iqtisodiyotni rivojlantirish
- Kichik va o‘rta bizneslarni qo‘llab-quvvatlash, kredit resurslarini kengaytirish.
- Ishlab chiqarishni ko‘paytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish.
- Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish.
- Soliq va moliyaviy masalalar bo‘yicha keng qamrovli targ‘ibot ishlarini olib borish.
- Maktab va oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy savodxonlik bo‘yicha darslar tashkil etish.
- Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish.
- Elektron to‘lov tizimlarini kengaytirish va qulay qilish.
- Raqamli valyutalar va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish.
- Korruptsiyaga qarshi qat’iy choralar ko‘rish va jazo tizimini kuchaytirish.
- Davlat xizmatchilarining maoshlarini oshirish va ularni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash.
- Norasmiy iqtisodiyot bilan bog‘liq sektorlarni rasmiylashtirish.

Ushbu choralar jamiyatda “xufiyona iqtisodiyot”ning salbiy ta’sirini kamaytirish va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 26-martdagi PF-5975-son Farmoni. lex.uz›uz/docs/-4776669
2. Cassel D., Cichy U. Explaining the growing shadow economy in East and West: A comporative system approach. // Comparative Economic Studies.
3. Abdusattarovich M.B. Calculating economic efficiency in the digital economy in Uzbekistan // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022.
4. Gulchehra N. Prospects For Increasing The Competitiveness Of The National Economy Through The Development Of Innovative Activities //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
5. Igamova S. Ways To Organize Innovative Activity In Economic Sectors And Increase Its Effectiveness //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 24. – №. 24.
6. Gulchehra N. The Role Of Creative Marketing In Creating Modern Brands //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2023. – Т. 34. – №. 34.
7. Ashurova M. Conceptual Foundations Of Increasing The Effectiveness Of Advertising Activities In Tourist Companies //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 44. – №. 44.
8. Gulchehra N. Role Of Marketing Strategies In Increasing Company Competitiveness: Role Of Marketing Strategies In Increasing Company Competitiveness //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
9. Gulchehra N. Trends And Prospective Directions Of Global Economic Development //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 44. – №. 44.
10. Narzullayeva G. S. et al. New Technologies and the Revolution in the Tourism Sector //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 97-101.

KICHIK VA O‘RTA BIZNES SUBYEKTLARINI TADBIRKORLIK QOBILIYATINI BAHOLASHNING IJTIMOIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi
Buxoro davlat universiteti 3-1 IQT-22-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **Narzullaeva Gulchexra Salimovna**
Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik va o‘rta biznes subyektlarini tadbirkorlik qobiliyatini baholash uslubiyoti, O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes subyektlarining tadbirkorlik qobiliyatini baholashda innovatsion yo‘llardan foydalanish usullari, moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlari, kichik va o‘rta biznes subyektlarining tadbirkorlik qobiliyatini tahlil qilishni takomillashtirishga doir takliflar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik qobiliyati, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar, innovatsion g‘oyalar, marketing, strategiya, biznes model.

Abstract: This article considers the methodology for assessing the entrepreneurial ability of small and medium-sized businesses, methods of using innovative ways, financial and economic mechanisms, assessment of entrepreneurial ability of small and medium-sized businesses in Uzbekistan, suggestions for improving entrepreneurial skills.

Key words: entrepreneurial ability, socio-economic mechanisms, innovative ideas, marketing, strategy, business model.

Аннотация: В данной статье рассмотрены методика оценки предпринимательской способности субъектов малого и среднего предпринимательства, методы использования инновационных способов, финансово-экономических механизмов, оценка предпринимательской способности субъектов малого и среднего предпринимательства в Узбекистане, предложения для улучшения предпринимательских навыков.

Ключевые слова: предпринимательские способности, социально-экономические механизмы, инновационные идеи, маркетинг, стратегия, бизнес-модель.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish”[1], deb belgilandi. Ushbu muhim vazifani amalga oshirish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini faqat son jihatidan rivojlantirishga emas, balki sifat jihatidan yuksaltirishga ham e’tibor qaratib, tadbirkorlik faoliyatining sifat o‘lchovini tashkil etadigan “tadbirkorlik qobiliyati” atamasini tadqiq etish ob’ektiv zarurati vujudga keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlarda kichik biznesning umumiy xarakterli xususiyatlari yetarli darajada batafsil o‘rganilgan. A. Smit, D. Rikardo, K. Marks, V. I. asarlarida. Lenina, G.V. Plexanov, N.A.Buxarina, A.B. Chayanov mayda tovar ishlab chiqarishning kelib chiqishi va rivojlanishining umumiy iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini o‘rganib chiqdi. R.Kantillon, J.B.ning asarlari zamonaviy kichik biznesning mohiyatini tushunishga muhim ta’sir ko‘rsatdi. A. Marshall, J. Shumpeter, I. Kirchner, F. Xajek, R. Kouz, F. Nayt, O. Uilyamson, E. Chemberlin, D. Galbreyt. J.Shumpeter asarlarida tadbirkorlik faoliyatining umumiy va xususan, kichik biznesning innovatsion xususiyati, uning jamiyat iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri ochib berilgan.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, monografik tahlil, kompleks yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik va o‘rta biznes subyektlarini tadbirkorlik qobiliyatini baholash uchun quyidagi yo‘llar va metodologiyalar qo‘llanilishi mumkin. Moliyaviy tahlil. Korxonaning moliyaviy ko‘rsatkichlarini, jumladan, daromadlar, foyda, rentabellik, aktivlar rentabelligi (ROA), o‘z kapital rentabelligi (ROE) kabi ko‘rsatkichlar orqali tahlilni amalga oshirish mumkin. Korxonaning aktivlari va passivlari balans tahlili orqali moliyaviy salohiyatini aniqlash, korxonaning biznes rejasi va strategiyasini tahlil qilish alohida o‘rganiladi. Bu rejada bozor tahlili, marketing strategiyalari, moliyaviy prognozlar va risklarni boshqarish rejalari mavjud bo‘lishi kerak. Yuqoridagi yo‘llar orqali kichik va o‘rta biznes subyektlarining tadbirkorlik qobiliyatini baholash mumkin. Har bir yo‘nalishda chuqur tahlil o‘tkazish orqali korxonalar o‘z faoliyatlarini samarali boshqarish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Kichik va o‘rta biznes subyektlarini tadbirkorlik qobiliyatini baholash uchun ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

1. **Moliyaviy mexanizmlar.** Banklar va moliya institutlari tomonidan kichik va o‘rta biznes subyektlariga imtiyozli kreditlar, grantlar va subsidiyalar ajratish orqali tadbirkorlik qobiliyatini baholash va rag‘batlantirish lozim. Xususiy va davlat investitsiyalarini jalb qilish va tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish uchun moliyaviy rag‘batlantirish tizimlarini joriy etish kerak. Kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun soliqlarda imtiyozlar berish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish orqali ularni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish kerak.

2. **Ta’lim va kasbiy tayyorlash mexanizmlari.** Tadbirkorlar va xodimlar uchun kasbiy ta’lim va malaka oshirish dasturlarini tashkil etiladi, bu dasturlar orqali tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish va biznesni samarali boshqarish imkoniyatlari yaratiladi. Biznes inkubatorlari va akseleratorlar orqali yangi biznes loyihalarini qo‘llab-quvvatlanadi, ularga maslahat va ta’lim xizmatlari ko‘rsatiladi. Oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilish, tadbirkorlik va menejment bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etiladi.

3. **Innovatsion va texnologik mexanizmlar.** Innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni joriy etishga yo‘naltirilgan dasturlar va fondlarni yaratiladi. Bu tadbirkorlik qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Kichik va o‘rta biznes subyektlarini raqamli texnologiyalar va elektron tijorat vositalaridan foydalanishga undash mumkin. Texnoparklar va ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etiladi va ularni qo‘llab-quvvatlash orqali innovatsiyalarni kengaytiriladi.

4. **Ijtimoiy mexanizmlar.** Jamoat tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshiriladi. Ijtimoiy mas’uliyatli tadbirkorlikni rag‘batlantirish orqali jamiyatga foydali loyihalarni qo‘llab-quvvatlanadi. Jamiyatda tadbirkorlik madaniyatini rivojlantiriladi va tadbirkorlik faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantiriladi.

5. **Huquqiy va me’yoriy mexanizmlar.** Kichik va o‘rta biznes subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarini soddalashtiriladi va tezlashtiriladi. Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan me’yoriy huquqiy bazani takomillashtiriladi va yangilanadi. Korruptsiyaga qarshi kurashish va biznes uchun adolatli raqobat muhitini yaratish mumkin.

6. **Marketing va bozor tahlili mexanizmlari.** Kichik va o‘rta biznes subyektlariga bozor tahlillari va marketing strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beriladi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni eksport qilishga undash va ularga xalqaro bozorlarni o‘zlashtirishda ko‘maklashish kerak. Mahalliy mahsulot va xizmatlarni targ‘ib qilish uchun marketing kampaniyalarini tashkil etiladi.

7. **Ekologik mexanizmlar.** Ekologik barqarorlikni ta’minlash va yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun kichik va o‘rta biznes subyektlarini rag‘batlantirish kerak. Ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va bu borada tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. Yuqoridagi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar orqali kichik va o‘rta biznes subyektlarining tadbirkorlik qobiliyatini samarali baholash va rivojlantirish mumkin. Ushbu mexanizmlar tadbirkorlik muhiti va biznes rivojlanishiga ko‘maklashadi.

O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes subyektlarining tadbirkorlik qobiliyatini baholashda innovatsion yo‘llardan foydalanish tahlili 2020–2024-yillar davomida bir qator asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilgan.

Biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarini raqamli platformalar orqali soddalashtirish va tezlashtirish jarayonida 2020–2024-yillarda “E-gov” tizimi orqali biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish soni sezilarli darajada oshdi. Soliq hisobotlarini elektron shaklda topshirish imkoniyatlarini kengaytirish yordamida soliq ma’muriyatchiligini soddalashtirdi va biznes subyektlari uchun vaqt va xarajatlarni kamaytirdi. Raqamli to‘lov tizimlarini joriy etish orqali pul o‘tkazmalarining tezligi va xavfsizligini oshirish. Bu kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun to‘lov operatsiyalarini yengillashtirdi. Mobil banking xizmatlari orqali kichik va o‘rta biznes subyektlarining moliyaviy operatsiyalarni boshqarish qulayligini oshiriladi.

Innovatsion biznes modellar. Startap inkubatorlari va akselerator dasturlarini joriy etish orqali yangi biznes loyihalari qo‘llab-quvvatlanadi. 2020–2024-yillarda bir qator startap akseleratorlari va biznes inkubatorlari tashkil etildi. Innovatsion g‘oyalarni moliyalashtirish uchun grantlar va investitsiya dasturlari tashkil etildi. Kichik va o‘rta biznes subyektlari onlayn savdo platformalariga jalb qilindi. 2020–2024-yillarda bir qator mahalliy va xalqaro onlayn savdo platformalarida kichik bizneslarning faoliyati kengaydi. Raqamli marketing vositalaridan foydalanish orqali mahsulot va xizmatlarni onlayn targ‘ib qilindi va sotildi. Ilmiy-tadqiqot va rivojlanish faoliyatini rag‘batlantirish uchun maxsus dasturlar joriy etildi. Bu kichik va o‘rta biznes subyektlarining innovatsion salohiyatini oshirdi. Texnoparklar va ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish va rivojlantirish orqali innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash amalga oshirilmoqda.

Ta’lim va kasbiy rivojlanish. Oliy o‘quv yurtlari va kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikda biznes ta’lim dasturlari joriy etildi. 2020–2024-yillarda ko‘plab tadbirkorlikka oid treninglar va seminarlar o‘tkazildi. Onlayn ta’lim platformalarida tadbirkorlik va biznes boshqaruvi bo‘yicha kurslar va vebinarlar tashkil etildi. Biznes assotsiatsiyalari va uyushmalar orqali kichik va o‘rta biznes subyektlarining hamkorligini kuchaytirish natijasida bu ularga tajriba almashish va birgalikda ishlash imkoniyatini berdi. Xalqaro hamkorlik dasturlari orqali innovatsion tadbirkorlik qobiliyati oshirilmoqda. Xalqaro treninglar, seminarlar va tajriba almashish dasturlari tashkil etildi. Innovatsion tadbirkorlikni rag‘batlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va strategiyalari amalga oshirilmoqda. Bu dasturlar kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun moliyaviy, texnik va ma’muriy qo‘llab-quvvatlashni ta’minladi. Innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari va boshqa yengilliklar taqdim etildi. Yuqoridagi yo‘llar orqali 2020–2024-yillarda O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes subyektlarining tadbirkorlik qobiliyatini oshirishda innovatsion yondashuvlar qo‘llanildi. Bu yondashuvlar biznesning samaradorligini oshirish, raqobatbardoshligini kuchaytirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik va o‘rta biznes subyektlarining tadbirkorlik qobiliyatini tahlil qilishni takomillashtirish uchun quyidagi yo‘llarni qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1. **Raqamli texnologiyalar va big data.** Raqamli platformalar va tizimlarni joriy etish orqali real vaqt rejimida ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish imkoniyatlari oshiriladi. Bu korxonalarning moliyaviy va operatsion ko‘rsatkichlarini tez va aniq baholashga yordam beradi. Big data texnologiyalaridan foydalanish orqali katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilinadi. Bu korxonalarning bozor tendensiyalarini, mijozlar xatti-harakatlarini va ichki jarayonlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.
2. **Standartlashtirilgan baholash kriteriyalari.** Korxonalar uchun asosiy ko‘rsatkichlar (KPI) va indikatorlarni ishlab chiqiladi va ulardan foydalaniladi. Ushbu ko‘rsatkichlar korxonalar faoliyatining samaradorligini o‘lchash va tahlil qilish uchun standart mezonlar yaratadi. Mahalliy va xalqaro miqyosda o‘xshash bizneslar bilan taqqoslash orqali korxonalarning samaradorligi baholanadi. Bu amaliyotlar yaxshilanishi va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.
3. **Ilmiy-tadqiqot va rivojlanish (R&D).** Ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali korxonalarning innovatsion salohiyatini oshiriladi. Korxonalarning ilmiy-tadqiqot markazlari va laboratoriyalari bilan hamkorlik qilish, yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratish uchun innovatsion dasturlar amalga oshiriladi.
4. **Ta’lim va malaka oshirish.** Tadbirkorlar va ularning xodimlari uchun muntazam ravishda biznes treninglar va seminarlar o‘tkaziladi. Bu ularning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Onlayn ta’lim platformalari orqali tadbirkorlik va menejment bo‘yicha kurslar tashkil etiladi. Bu ta’lim imkoniyatlarini kengaytiradi va qulaylik yaratadi.
5. **Hamkorlik va tarmoqlash.** Biznes assotsiatsiyalari va uyushmalar orqali kichik va o‘rta biznes subyektlari birlashtiriladi. Bu tajriba almashish va birgalikda rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Tarmoqlar bo‘yicha klasterlar tashkil etiladi va ularni rivojlantirish orqali sinergetik ta’sir kuchaytiriladi. Bu korxonalar o‘rtasida hamkorlik va resurslar almashish imkoniyatlarini oshiradi.

6. **Moliyaviy mexanizmlar.** Moliyaviy hisobotlar va ko‘rsatkichlarni muntazam ravishda kuzatib boriladi va tahlil qilinadi. Bu korxonalar moliyaviy salohiyatini baholash va ularni qo‘llab-quvvatlash uchun zarurdir. Imtiyozli kreditlar, grantlar va subsidiyalar orqali kichik va o‘rta biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlanadi.
7. **Yuridik va me’yoriy yondashuvlar.** Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun huquqiy baza takomillashtiriladi va yangilanadi. Bu korxonalarga qulay huquqiy muhit yaratadi. Kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun soliqlarda yengilliklar va imtiyozlar berish orqali ular rag‘batlantiriladi.
8. **Innovatsion baholash asboblari.** Biznes jarayonlarini simulyatsiya va modellashtirish orqali ularning samaradorligi baholanadi. Bu korxonalar uchun turli stsenariylarni sinab ko‘rish va optimal yechimlarni topishga yordam beradi. Sun’iy intellekt (AI) va mashinani o‘qitish (Machine Learning) texnologiyalaridan foydalanish orqali biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va tahlil qilish samaradorligi oshiriladi.
9. **Ijtimoiy va ekologik baholash.** Korxonalarning barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilishi baholanadi. Ekologik va ijtimoiy mas’uliyatni inobatga olgan holda, korxonalar o‘z faoliyatlarini rejalashtirish va amalga oshirishlari lozim. Korxonalarning ijtimoiy mas’uliyat dasturlari baholanadi va rag‘batlantiriladi.

Ushbu yo‘llar va usullar orqali kichik va o‘rta biznes subyektlarining tadbirkorlik qobiliyatini tahlil qilishni takomillashtirish mumkin. Bu tadbirkorlik muhitini yaxshilash, raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. lex.uz›uz/docs/-5841063
2. Cassel D., Cichy U. Explaining the growing shadow economy in East and West: A comporative system approach. // Comparative Economic Studies.
3. Abdusattarovich M.B. Calculating economic efficiency in the digital economy in Uzbekistan // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022.
4. Gulchehra N. Prospects For Increasing The Competitiveness Of The National Economy Through The Development Of Innovative Activities //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
5. Igamova S. Ways To Organize Innovative Activity In Economic Sectors And Increase Its Effectiveness //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 24. – №. 24.
6. Gulchehra N. The Role Of Creative Marketing In Creating Modern Brands //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2023. – Т. 34. – №. 34.
7. Ashurova M. Conceptual Foundations Of Increasing The Effectiveness Of Advertising Activities In Tourist Companies //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 44. – №. 44.
8. Gulchehra N. Role Of Marketing Strategies In Increasing Company Competitiveness: Role Of Marketing Strategies In Increasing Company Competitiveness //Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
9. Gulchehra N. Trends And Prospective Directions Of Global Economic Development //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 44. – №. 44.
10. Narzullayeva G. S. et al. New Technologies and the Revolution in the Tourism Sector //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 97-101.

TIJORAT BANKLARI VALYUTA OPERATSIYALARINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Beknazarova Nilufar Tulkinovna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Raqamli iqtisodiyot sharoitida valyuta riskini boshqarish orqali, eksport salohiyatini yuksaltirish uchun yangi texnika va yuqori texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish hisobidan tashqi savdo munosabatlarini barqaror rivojlantirishga erishiladi. Natijada, milliy iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Valyuta, iqtisodiyot, moliya, bank, kredit, fond, eksport, iqtisodiy o'sish, Xalqaro valyuta.

Abstract: Sustainable development of foreign trade relations will be achieved through the management of foreign exchange risk in the conditions of the digital economy, due to the involvement of new equipment and high technologies in the production process in order to increase the export potential. As a result, it will attract foreign investments to the national economy, increase the export potential, and serve for the sustainable development of small businesses and private enterprises.

Key words: Currency, economy, finance, banking, credit, fund, export, economic growth, International currency.

Аннотация: Устойчивое развитие внешнеторговых связей будет достигнуто за счет управления валютным риском в условиях цифровой экономики, за счет вовлечения в производственный процесс нового оборудования и высоких технологий в целях повышения экспортного потенциала. В результате это привлечет иностранные инвестиции в национальную экономику, увеличит экспортный потенциал, послужит устойчивому развитию малого бизнеса и частного предпринимательства.

Ключевые слова: Валюта, экономика, финансы, банковское дело, кредит, фонд, экспорт, экономический рост, Международная валюта.

KIRISH

Jahon miqyosida raqamli iqtisodiyot rivojidagi eng muhim texnologiyalardan biri blokcheyn texnologiyalari bo'lib, taqsimlangan reyestr yordamida moliyaviy vositachilik institutlari ishtirokisiz transaksiyalarni amalga oshirish imkoniyati yuzaga keldi.

Shuningdek, valyuta bozorini liberallashtirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, 2017-yil 5-sentyabrdan milliy valyutani-so'mning erkin ayirboshlashga ta'minlandi. Mazkur islohatlar dunyoning yetakchi moliya institutlari, shu jumladan, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki va Osiyo tarraqiyot banki tomonidan e'tirof etildi.

Bundan tashqari, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish, kelgusi besh yilda 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish"[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini rivojlantirish masalasi xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy asosda tadqiq qilingan hamda tegishli xulosalar shakllantirilgan, ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

L. Krasavinaning xulosasiga ko'ra, valyuta bozorida xorijiy valyutalarni sotib olish-sotish operatsiyalari hajmining oshishi tijorat banklarida ochiq valyuta pozitsiyasi riskini kuchayishiga olib keldi[2].

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-son Farmoni. lex.uz›docs/3107036

2 Красавина Л.Н. Риски в международных валютно-кредитных и финансовых отношениях России в условиях глобальных вызовов//Банковское дело. – Москва, 2013. – №10. – С. 25.

L.Krasavinaning mazkur xulosasi O‘zbekiston Respublikasi uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki, respublikamiz tijorat banklarida AQSH dollarida katta miqdorda qisqa valyuta pozitsiyasi mavjud.

J.Sinkining fikriga ko‘ra, agar bank ma’lum sabablarga ko‘ra balansni ichida xedjirlashni amalga oshira olmasa, unda xedjirlash maqsadida balansdan tashqari usullardan, ya’ni valyutadagi hosilaviy instrumentlardan – fyuchers, forvard, opsiondan foydalanishi mumkin[3].

J.Sinkining xulosasidan ko‘rinadiki, xorijiy valyutadagi hosilaviy vositalar tijorat banklari faoliyatidagi valyuta riskini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Ammo, O‘zbekiston tijorat banklari amaliyotida valyutaviy hosilaviy instrumentlar bo‘lgan valyuta opsionlari va valyuta fyucherslarining mavjud emasligi ularning valyuta riskini boshqarish imkoniyatini cheklaydi.

A.Bureninning xulosasiga ko‘ra, forvard valyuta kursiga forvard shartnomasi obyekti bo‘lgan xorijiy valyuta emitenti bo‘lgan mamlakatdagi inflyatsiya bilan milliy iqtisodiyotdagi inflyatsiya o‘rtasidagi farq sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi[4].


Haqiqatan ham respublikamizda inflyatsiya darajasining taraqqiy etgan mamlakatlardagi inflyatsiya darajasidan yuqori ekanligi milliy valyutaning yetakchi xorijiy valyutalarga nisbatan forvard kursiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bir guruh xorijlik iqtisodchi olimlarning fikriga ko‘ra, valyuta kurslarining barqarorligini ta’minlash valyuta munosabatlarini tartibga solishning asosiy masalasi hisoblanadi[5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada, tijorat banklari volyuta operatsiyalari bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy xulosalari va mualliflarning amaliy tajribalari asosida mustaqil yondashuvlar shakllantirildi. Shuningdek jadval, analitik taqqoslash, mantiqiy tahlil, guruhlash kabi usullardan hamda statistik ma’lumotlardan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR



1-rasm: Tijorat banklarining valyuta operatsiyalarini turkumlanishi

3 Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческомбанке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – С. 807.

4 Буренин А.Н. Форварды, фьючерсы, опционы, экзотические и погодные производные. – М.: ООО “НТО”, 2011. – С. 56-57.

5 Friedman M. and Friedman R. Free to Choose. - Penguin: Middlesex, 1980. – P. 60-61, 76-77.; Friedman M. Essays in Pozitive Economics. - Chicago: University of Chicago Press, 1953. – P. 177-178.; Volcker P. Fortunes: The World’s Money and the Threat to American Leadership. – New York Times, 1992. – 395 p.

Respublikamizda tijorat banklari valyuta operatsiyalarining birlamchi me'yoriy-huquqiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonuni hisoblanadi. Ushbu Qonunga ko'ra:

- O'zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasini sotib olish va sotish bo'yicha operatsiyalarda valyuta kursi chet el valyutasiga bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqib, shartnomaviy asosda belgilanadi;
- Markaziy bank chet el valyutasini sotib olish va sotish tartibini belgilashda chet el valyutasiga bo'lgan talab va taklif asosida valyuta kursini aniqlash uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadi;
- Markaziy bank valyuta operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi, statistik hisobotlar va boshqa hisobotlar maqsadlari uchun, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida bojxona hamda boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish uchun valyuta kursini muntazam ravishda belgilab boradi;

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari valyuta operatsiyalarining me'yoriy-huquqiy asoslari bo'lib, milliy valyuta qonunchiligi va xalqaro valyuta qonunchiligi hisoblanadi. O'z navbatida, milliy valyuta qonunchiligi qonunlar, kodekslar va qonunosti hujjatlaridan iboratdir.

Milliy valyuta qonunchiligi doimiy ravishda takomillashtirilib bormoqda va mazkur holat, avvalo, valyuta siyosatining liberallashtirilishi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-mayda qabul qilingan "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi 841-XII-sonli Qonuniga (O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan ... Bank faoliyati / 07.21.00.00 Bank faoliyati / 07.21.13.00 Valyuta operatsiyalari (shuningdek, 07.27.00.00ga qarang); 2.07.00.00.00 Moliya va kredit to'g'risidagi qonunchilik. Bank faoliyati / 07.27.00.00 Valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish / 07.27.01.00 Umumiy qoidalar].
2. O'zbekiston Respublikasining 01.11.2019-y. O'RQ-578-son "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 19.09.2019-y. qabul qilingan, Senat tomonidan 11.10.2019-y. ma'qullangan). Polniy tekst dokumenta dostupen polzovatelyam platnogo tarifa na sayte nrm.uz. Po voprosam zvonite na korotkiy nomer 1172. O'zbekiston respublikasining. Qonuni. 01.11.2019-y. N O'RQ-578.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-y. PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. Polniy tekst dokumenta dostupen polzovatelyam platnogo tarifa na sayte nrm.uz. Po voprosam zvonite na korotkiy nomer 1172.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-oktyabrdagi PQ-5268-sonli "Tadbirkorlik subyektlarining xorijiy valyutadagi kredit majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq yukini kamaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.10.2021 y., 07/21/5268/0997-son.
5. Axmedov F.X. O'zbekistonda tijorat banklarining tashqi savdoga ko'rsatadigan xizmatlarini takomillashtirish. I.f.b.f.d. avtoref. – Toshkent, 2017. – 47 b.
6. Berdinazarov Z.U. O'zbekiston Respublikasi valyuta siyosati metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 74 b.
7. Bobakulov T.I., Abdullayev U.A. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Darslik. - Toshkent: Sano-standart, 2014 –232 b.

MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TURIZMNING O‘RNI

Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna
Farg‘ona politexnika instituti, “Iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimiz turistik resurslari va ularning potensial imkoniyatlari, turistik sanoat obyektlari izohlab berilgan. Davlatimizning turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari hamda turistlarni jalb qilish maqsadida amalga oshirilgan ishlar batafsil o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm, turistik hudud, turistik xavfsizlik, turistik qiziqish, turistik industriya, aqlli shahar, yashil zona, aqlli turizm, innovatsiya.

Abstract: The article describes the tourist resources of our country and its potential, objects of the tourism industry. The opportunities for the development of the tourism sector of our country and the work carried out to attract tourists.

Key words: Tourism, tourist zone, tourist safety, tourist interest, tourism industry, smart city, green zone, smart tourism, innovation.

Аннотация: В статье описаны туристские ресурсы нашей страны и ее потенциальные возможности, объекты туриндустрии. Подробно изучены возможности развития туристической отрасли нашей страны и выполненная работа по привлечению туристов.

Ключевые слова: Туризм, туристическая зона, туристическая безопасность, туристический интерес, туриндустрия, умный город, зеленая зона, умный туризм, инновации.

KIRISH

Turizm ko‘p jihatdan iqtisodiy formatsiya va kategoriyadir. U turizm tashkilotchilari uchun ham, turizm iste’molchilari – turistlar uchun ham ko‘p qirrali iqtisodiy faoliyat. Jahon va milliy turizm rivojlanishining har bir bosqichi – barcha ishtirokchilaming faoliyati, o‘ziga xos xarakteristikasi va ko‘rsatkichi bilan xarakterlanadi. Har bir turistik hudud, har bir mamlakat, har bir shahar va joy iqtisodiy foyda va daromad olish uchun mavjud turistik resurslaridan oqilona foydalanishga harakat qiladi. Xohish juda zo‘r bo‘lsa ham bunga erishish oson emas. Har bir mamlakatda o‘zining siyosiy qarashlari, iqtisodiyoti rivojlanishining yo‘nalishlari, jamiyat an’analarining ko‘p qirralari mavjud. Turistlarni jalb qilish uchun hatto juda qiziqarli bo‘gan obyektlar va hodisalar uchun ham xizmat ko‘rsatishning mos darajasini, xavfsizlikni ta’minlovchi turistik qiziqish va ehtiyojni uyg‘unlashtirib qondiruvchi turistik industriya (sanoat) va infratuzilma zarur. Turistik oqimlarni ko‘proq jalb qilish uchun – turistik resurslar va ularning potensial imkoniyatlari, ayniqsa, turistik sanoat obyektlari batafsil o‘rganiladi va baholanadi[1].

Turizmni “tilla tuxum qo‘yuvchi tovuq”qa o‘xshatishadi. Lekin, bu tovuqni boqishga ham bog‘liq. Shunga ko‘ra, turistik markazlar va hududlar nafaqat turizmdan pul ishlab qolishadi, balki turistik sanoatni barqaror rivojlantirishga, turistik mahsulotni ichki va tashqi bozorlarda harakat qildirishga juda katta miqdorda mablag‘lar ajratishadi. Turizmni rivojlantirishga ajratilgan mablag‘lar birinchi qarashda astronomik raqamlarda bo‘lib ko‘rinishi mumkin, lekin amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bu xarajatlar o‘zlarini oqlaydi va davlatga turizmdan undan ham katta hajmdagi daromadlarni keltiradi[2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri bo‘yicha ko‘plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, A.M.Gudratli turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirini ijobiy baholab, turizm sohasi

1 Tourism and Poverty A lleviation-R ecom m endations for A ction. WTO. 2020.
2 Rural Tourism in Europe: Experiences, Developmentand Perpectives. WTO. 2004.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

milliy daromadni ko‘paytirish; yangi ish o‘rinlarini yaratish; turistik xizmatlarni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tarmoqlarni rivojlantirish; turistik markazlarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzulmasini rivojlantirish; xalq hunarmandchiligi va madaniyat markazlari faoliyatini faollashtirish; aholi turmush darajasi oshishini ta’minlash; valyuta tushumlarini ko‘paytirishga yordam berishini ta’kidlaydi.

A.V.Strelnikov esa, ushbu tarmoqda bitta yangi ish o‘rnini yaratish sanoat tarmog‘iga nisbatan 20 barobar arzonroqqa tushishini aniqlagan. Yu.V. Bogdanovning fikricha, 30 ta turist bevosita bitta yoki bilvosita ikkita yangi ish o‘rnini yaratadi. Tadqiqotchi Z.M. Muxammedovaning ta’kidlashicha, O‘zbekistonda turizmdan keladigan daromadlarni yalpi ichki mahsulotdagi ulushi loaqal 5 foizga yetkazilsa, bu tarmoqda band bo‘lgan aholi soni 2433 kishini tashkil etadi. Aholi jon boshiga YaIM hajmi esa 392,1 ming so‘mga oshadi. P. Vukadinovich turizmning nafaqat ijobiy, balki salbiy ijtimoiy-iqtisodiy samaralari ham borligini ta’kidlab, turizmning quyidagi salbiy ta’sirlarini ajratib ko‘rsatadi: turizmga iqtisodiy bog‘liqlik; mahalliy aholi uchun kundalik tovar va xizmatlarning qimmatlashishi; turizm bozorida transmilliy kompaniyalarning ustunligi; ishga oid sikllarning sezuvchanligi va ishga oid munosabatlarning o‘zgarishi; milliy an’analar va qadriyatlarga putr yetishi va boshqalar[3]. Ushbu tadqiqotda turizm sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri miqdoriy asoslash maqsadida Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) hamda Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari va Jahon banki hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) statistik hisobotlari ma’lumotlaridan foydalanildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash maqsadi mamlakatning turistik salohiyatidan foydalanish masalalrini yoritish, ma’lumotlarni topish, aniqlash va tahlil qilish davomida bir nechta tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Jumladan, O‘zbekistonda turizm ob’yektlarini rivojlantirish ko‘rsatkichlari statistik ma’lumotlari asosida qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Mamlakatimizda turizm imkoniyatlaridan foydlanish masalalari o‘ranilgan va muhokama qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 7400 madaniy meros obyektlari mavjud, ulardan 209 tasi to‘rtta muzey shaharlar: “Xiva shahridagi Ichan-qal’a”, “Buxoro shahrining tarixiy markazi”, “Shahrisabz shahrining tarixiy markazi”, “Samarqand shahri” hududida joylashgan bo‘lib, YUNESKO butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

So‘nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi, shu jumladan, Toshkent shahrida “Nyatt Regency Tashkent” va “Lotte City Notel Tashkent Palace” brendli mehmonxonalar ochilishi, Andijon, Urganch va Toshkent shahrida madaniy-ko‘ngilochar bog‘larning tashkil etilishi, “Angren-Pop” temir yo‘li ochilishi, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar poezdlar uchun elektrlashtirilgan temir yo‘llari ochilishini aytib o‘tish joiz.

Bugungi kunda shaharlar global o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda, rivojlanish ko‘rsatkichlari esa aqlli tarmoqlarga asoslangan infratuzilmani yaratish va har doim taraqqiy etib borishni talab etmoqda. Turizmning asosiy talabi dunyoning turli burchaklaridan tobora ko‘proq sayyohlarni jalb qilish hisoblanadi. Aqlli turizm deganda, turizmni rivojlantirishning innovatsion vositalari va yondashuvlarini ishlab chiqish uchun aqlli shaharlarga o‘xshash axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash tushuniladi.

Aqlli turizm AKT, mobil aloqa, bulutli hisoblash, sun’iy intellekt va virtual haqiqat kabi asosiy texnologiyalarga tayanadi. Jismoniy infratuzilma, ijtimoiy bog‘liqlik va tashkiliy manbalardan (ham davlat, ham nodavlat) va foydalanuvchilar tomonidan ilg‘or texnologiyalar bilan birgalikda samaradorlik, barqarorlik va tajribani oshirish uchun olingan ma’lumotlarni to‘plash va ulardan foydalanishni maqsadli yo‘nalishda birlashtirilgan harakatlarni qo‘llab quvvatlaydi. Aqlli turizm uchun foydalaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalariga IT, mobil aloqa, bulutli hisoblash va sun’iy intellekt kiradi. U turizmning jismoniy, axborot, ijtimoiy va tijorat infratuzilmasini aqlli turizm imkoniyatlarini ta’minlash uchun bunday vositalar bilan birlashtiradi. Aqlli turizmning tamoyillari turizm tajribasini oshirish, resurslarni boshqarish samaradorligini oshirish, barqaror jihatlarga urg‘u berib, maqsadli raqobatbardoshlikni oshirishdan iborat. Shuningdek, u sayyohlik resurslarini samarali taqsimlash va turizm ta’minotini mikro va makro darajada integrasiyalashuvi uchun qulayliklar yaxshi taqsimlanishini ta’minlash uchun ma’lumot to‘plashi va tarqatishi kerak. Ular texnologik jihatdan rivojlangan yo‘nalishlarda, masalan, aqlli shaharlarda samarali bo‘lishlari kuzatilmoqda. Aqlli shahar ko‘chalar, binolar, transport va havodagi sharoitlarni to‘plash va o‘lchash uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanadi. Bu sensorlar va boshqa texnologiyalarni suv va trafikdan tortib to energiyadan foydalanishgacha bo‘lgan har bir narsani kuzatib

3 Muxammedova Z.M. Turizmni innovasion rivojlantirishda investision resurslar iqtisodiy samaradorligini oshirish. PhD ilmiy darajasini olish uchun dissertasiyasi. Samarqand–2020. – 13 б.

borish va to‘plash uchun mo‘ljallangan joyga borishni anglatadi. Keyin ma’lumotlar simli va simsiz ulanishlar orqali, hamma narsa bir-biriga ulangan hamma narsaning Interneti orqali ma’lum qilinadi. Keyin hukumat va biznesdagi qaror qabul qiluvchilarga yaxshiroq qaror qabul qilishga yordam berish uchun ma’lumotlar siqiladi yoki tahlil qilinadi.

Ushbu ro‘yxatdagi hamma narsa tashrif buyuruvchilarga va turizmni rivojlantirishga foyda keltirishi mumkin, bunda makro va mikro darajada taklif qilinadigan narsaning sifati va barqarorligi yaxshilanadi.

Aqlli shahar yondashuvi shaharning har bir qismida ushbu yechimlarning har birini taqdim etishda eng yangi va eng katta texnologiyalardan foydalanadi. Mehmon, rezident, biznes egasi va investor uchun natija yanada toza bo‘lib, tashrif buyurish, yashash va biznes qilish uchun sog‘lom va sifatli joy bo‘ladi. Ushbu yondashuvning yana bir muhim jihati shundaki, maqsad aqlli shaharga yondashganda, ayniqsa sayohat va turizmda yangi biznes imkoniyatlari paydo bo‘ladi. Mehmonxonalar, restoranlar, sayyohlik bilan bog‘liq transport va diqqatga sazovor joylar hayotning sifatini oshirilgan maqsaddan foydalanadi. Tashrif buyuruvchilar yuqori sifatli, ba’zida juda ko‘p bo‘lgan joylarga kelishadi. Smart City texnologiyasi olomonni kuzatib borishga va yaxshiroq boshqarishga yordam beradi, ya’ni aviachiptalarni oldindan sotish, tashriflar vaqtini taqsimlash. Aqlli shaharda ishlatiladigan ko‘plab texnologiyalar, masalan energiya, chiqindilar va suvni monitoring qilish va samaradorlikni oshirish, turizm sifati va sarf-xarajatlarni tejash nuqtai nazaridan ham foydalidir. Turizm sohasi, ayniqsa ko‘plab mehmonxonalar va mehmonxonalar tarmog‘i barqarorlik texnologiyasini qabul qilishda yaxshi rivojlanmoqda. Har bir manzil, mehmonxona, turoperator yoki boshqa sayyohlik operatori hali ham barqarorlik choralari va texnologiyalarini qabul qilmagan. Rivojlanayotgan bozor yo‘nalishlari uchun texnologiyalarni joriy qilish va joriy qilish xarajatlari dastlab to‘xtatuvchi bo‘lishi mumkin, ayniqsa ularning sayyohlik oqimi tabiiy yoki texnogen ofatlarga juda sezgir bo‘lsa. Biroq, aqlli shahar harakati o‘sgani sayin, sohaga texnologiyalarni o‘zlashtirish yanada barqaror bo‘lish osonlashadi. Turizm va aqlli shahar texnologiyalari uchun boshqa o‘sish sohasi – bu tashrif buyuruvchilarning tajribasini oshirish uchun ma’lumotlardan foydalanish, odamlarni yangi joylarga yanada qiziqarli usullar bilan bog‘laydi. Ilovalar, istirohat bog‘ida, muzeyda, asosiy ko‘chada yoki shahardagi eng yaxshi savdo markazlari bo‘ladimi, ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘lish orqali tashrif buyuruvchilarning tajribasini oshirish va yaxshilashga yordam beradigan aniq o‘sish maydonidir.

Mamlaktimizda turistlarni jalb qilish, turistik xizmat ko‘rsatish tizimini yanada qulaylashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi” va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Turizm sohasida davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta’minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan.

Turkiy davlatlar tashkiloti bilan hamkorlik doirasida O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan “Tabarruk ziyorat” turizm kontseptsiyasi bo‘yicha tashabbusni yuqori saviyada tashkil etish, turizm sohasidagi tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish, shuningdek, Qo‘qon shahri 2022-yilda “Turkiy dunyoning turizm poytaxti”, deb e’lon qilinganligi munosabati bilan shaharning madaniy va turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turistlar uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini takomillashtirish hamda jozibadorligini oshirish maqsadida Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlar bilan turizm sohasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash, ziyorat va madaniy meros ob’ektlariga turlarni tashkil qilish va yangi sayohat marshrutlarini ishlab chiqish, ziyorat va madaniy-tarixiy turizm doirasida muntazam targ‘ibot tadbirlarini tashkil etib borish rejalashtirildi.

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Marg‘ilon, Qo‘qon, Termiz va boshqa tarixiy shaharlarda buyuk allomalarning ilmiy va madaniy merosi to‘g‘risida seminar, simpozium, konferentsiya, ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazish hamda ilmiy-ommabop nashrlarda materiallar e’lon qilish orqali sayyohlarni jalb etish, Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar bilan hamkorlikda ilmiy-tahliliy materiallar, badiiy, teatr va kino asarlari, videoroliklar, kitoblar, tarqatma materiallar va boshqa ko‘rinishdagi targ‘ibot materiallarini tayyorlash, Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo va kuzatuvchi davlatlar, shuningdek, turkiy xalqlar diasporalari keng tarqalgan boshqa mamlakatlardan turistlarni mamlakatimizga keng jalb qilish masalalari ko‘zda tutilgan.


O‘zbekiston respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirli bilan birgalikda Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar tillarida yuritiluvchi “Tabarruk ziyorat” turizm platformasini (keyingi o‘rinlarda – Platforma) tashkil qilingan bo‘lib, Platformani Turkiy davlatlar tashkilotining rasmiy veb-sahifasi bilan integratsiya qilish; Turkiy davlatlar tashkilotining axborot resurslarida Kontseptsiya va uning doirasida amalga oshiriladigan tadbirlarni joylashtirilgan.

Amalga oshirilayotgan ishlar natijasida mamlakatimizning rivojlangan turizm industriyasi hamda boy turistik salohiyatga ega bo‘lgan, sayohat va dam olish uchun xavfsiz davlat imidjini shakllantirishga, shuningdek, yangi turizm bozorlarini o‘zlashtirish, xorijdan tashrif buyuruvchilar sonini yiliga 4,8 milliondan 9 milliongacha oshirishga, shuningdek, O‘zbekistonga turistlarni jalb qilish bo‘yicha xorijiy hamkorlar sonini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish kontsepsiyasi”.lex.uz›docs/-4143188
2. M.Mirzayev, M.Aliyeva, “Turizm asoslari”. –Toshkent. –2011-y.
3. Uzganbayeva, Dilnoza To‘xtasinovna направления развития плодоовощных кластеров в Узбекистане // nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali. 2023. №1.
4. Gaybullayeva, G. M. (2022). Promotion and prospects of green economy in central asia. galaxy international interdisciplinary research journal, 10(9), 156-161.
5. Akhunova, M. K. (2023). The role of innovation in the development of the new uzbekistan. nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3(1), 11-20.
6. Xomidov, M. (2023). Analysis of the current state of innovation implementation in improving the competitiveness of industry. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3(2), 56-64.

TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI, UNDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISH YO‘LLARI



Xudayarova Xurshida Abdunazarovna
PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Bugungi kunda raqamli transformatsiya jarayoni rivojlanib kelayotgan yo‘nalish sifatida ko‘rilmoqda. Banklar xizmatlari va operatsiyalarida raqamli transformatsion o‘zgarishlarni samarali joriy etilishi nafaqat bank sohasini balki iqtisodiyotning turli sohalarining ham rivojlanishiga turtki bo‘lishi mumkin. Raqamli modernizatsiya an’anaviy banklarga mijozlar ehtiyojini qondirish va sodiqlikni oshirish uchun yangi imkoniyat beradi, bu esa uzoq muddatli munosabatlarga hissa qo‘shadi. Ushbu maqola O‘zbekiston bank sektorining raqamli transformatsiyasining hozirgi tendensiyalari, muammolari va istiqbollarini o‘rganishga bag‘ishlangan. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining ikkinchi pog‘onasidagi tijorat banklarining asosiy ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, raqamli iqtisodiyotda bank sektori faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari va ular faoliyati davomida yuzaga keladigan asosiy muammolar haqida umumiy ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, transformatsiya, bank xizmatlari, bank mahsulotlari, bank innovatsiyalari, marketing, mobil banking, elektron to‘lov tizimi, elektron bank xizmatlari.

Abstract: Digital transformation is now seen as a new paradigm. Changes in the nature of banks during the implementation of their transformations can become an impetus for development for entire industries. Digital modernization gives traditional banks a new chance to improve customer satisfaction and loyalty, fostering long-term relationships. This article is devoted to the study of current trends, problems, and prospects for the digital transformation of the Uzbek banking sector. The main performance indicators of second-tier banks of the Republic of Uzbekistan are analyzed, an overview is given of the specifics of the functioning of the banking sector in the digital economy and the main problems that arise during their activities.

Key words: digitization, transformation, banking services, banking products, banking innovations, marketing, mobile banking, electronic payment system, electronic banking services.

Аннотация: Цифровая трансформация сегодня рассматривается как новая парадигма. Изменения природы банков в ходе реализации их трансформационных преобразований смогут стать толчком развития для целых отраслей. Цифровая модернизация дает традиционным банкам новый шанс повысить степень удовлетворенности и лояльности клиентов, способствуя долгосрочной перспективе отношений. Настоящая статья посвящена исследованию современных тенденции, проблемы и преспуективы цифровой трансформация узбекистанского банковского сектора. Анализируются основные показатели деятельности банков второго уровня Республики Узбекистан, дается обзор специфики функционирования банковского сектора в условиях цифровой экономики и основных проблем, возникающих в процессе их деятельности.

Ключевые слова: цифровизация, трансформация, банковские услуги, банковские продукты, банковские инновации, маркетинг, мобильный банкинг, система электронных платежей, электронные банковские услуги.

KIRISH

Bugungi kunda bank tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va barqarorligini oshirishda, bank tizimiga aholi hamda xorijiy investorlarning ishonchini yanada mustahkamlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo‘llagan holda, ko‘rsatilayotgan bank xizmatlarining turi va xizmatlar bozori ko‘lamini kengayib borishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Jahon bank-moliya tizimining jadal su’ratlarda rivojlanib borishi natijasi o‘laroq bevosita iqtisodiyotning eng muhim tarmog‘i bo‘lmish banklar faoliyatida yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga yanada ko‘proq ehtiyoj sezilmoqda. Bu ehtiyoj pandemiya sharoitida yanada sezildi. Dunyoning rivojlangan davlatlarida haftaning 7 kunida 24 soat xizmat ko‘rsatish imkonini beruvchi Internet-banking, mobil banking, telefon banking, POS-terminallar kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanadigan banklar soni jadal sur’atlar bilan ko‘paymoqda.

Ushbu borada rivojlangan mamlakatlar qatoridaO‘zbekistonda ham keng ko‘lamli islohatlar olib borilmoqda, jumladan huquqiy me’yorlarda ham alohida e’tibor qaratilmoqgan. 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida bank tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari biri sifatida “masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat ko‘rsatish nuqtalari tarmog‘ini rivojlantirish, shuningdek, respublika yagona moliya tizimining o‘zaro to‘ldiruvchi qismi sifatida nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligini va sifatini oshirish” vazifasi keltirilgan. [1]

Raqamli transformatsiya haqida gapirar ekanmiz avvalambor uning afzalliklar haqida ham gapirib o‘tishimiz kerak. Raqamli transformatsiya nafaqat bank mijozlariga balki tijorat banklarining o‘ziga ham bir qator imkoniyatlarni yaratadi. Raqamli tarnsformatsiya banklarga qo‘yidagi imkoniyatlarni beradi:

- Bank biznesi boshqaruvini optimallashtirish,
- Samarali marketingni amalga oshirish imkoniyati,
- Bank harajatlarini kamaytiradi,
- Bank resurlariga bo‘lgan talabni qondirish imkoniyati oshadi,
- Yangi faoliyat tarmoqlariga yo‘l ochiladi,
- Bank mijozlari bilan munosabatlarni raqamlashtirish imkonitini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda dialektik mantiq, ilmiy bilish, induksiya va deduksiya, taqqoslash, guruhlash, iqtisodiy-statistik va umumlashtirish, ekspert baholash usullaridan shuningdek, mavzuga oid xorijiy hamda mahalliy olimlarning tadqiqot ishlaridan keng foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xozirgi vaqtdi mahalliy va xorijiy olimlarning raqamli xizmatlar bo‘yicha tadqiqotining asosiy muammoni o‘rganish yo‘nalishi va predmeti bo‘lib, raqamli moliyaviy xizmatlar mohiyatini aniqlash, moliya sohasi uchun raqamlashtirishning afzalliklarini aniqlash, moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi raqamlashtirishni rivojlantirishga tusqinlik qilishini asoslash va moliyaviy bozorlarning alohida subyektlari uchun hamda umuman iqtisodiyot uchun moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirishdagi muammolarni va xavflarni aniqlashga qaratilgan.

Xususan, S. Karbo-Valverde, K. Kan Amerika va Yevropa to‘lov tizimlari samaradorligini tahlil qilgan hamda unda onlayn bank xizmatlarining o‘rniga alohida urg‘u berib, kriptovalyutalar ularni rivojlanishiga hech qanday tahdid qilmasligini asoslashgan [8]. A. Omarini, O‘rta yer dengizi mamlakatlarida bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasida yangi texnologik platformalarning o‘rnini oqlaydi [11]. Axisar va K. Tunai raqamli transformatsiya jarayonida elektron bank xizmatlarining samaradorligini ta’kidlaydilar [6]. Ispaniyada F.Libana-Kabanilyasom tomonidan olib borilgan tadqiqotda, biznes va odamlarning ushbu segmentiga tobora o‘sib borayotgan qiziqishi ko‘rsatilgan [10]. M.Nosiyan Osiyo davlatlarida, Al-Xavari va Xusainlar ham o‘z tadqiqotlarida Afrika va yaqin sharq davlatlarida ham elektron bank tobora rivojlanayotganligini aniqlashgan. O‘zbekistonda ham so‘ngi yillarda raqamlashtirishga qiziqish tobora ortib bormoqda.

Shuning uchun, ham mamlakatimiz olimlari, iqtisodchilari ham ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borib o‘z fikrlarini bildirishgan. Bularga Sh.Abdullayeva [2], A.L.Gulyamova [4], M.Tangishov [3], O.Melikov, A. Xojimamatov [5] va bir qancha boshqa olimlarni ham misol keltirishimiz mumkin.

Biroq, shunga qaramay, bank tizimi institutlarining samarali faoliyat yuritishi va rivojlanishini ta’minlash bugungi kunda dolzar bo‘lib qolayotgan bank innovatsiyalarini yanada takomillashtirishda, ularni joriy etishdagi tusiqlarni o‘rganish hamda ularni yechish yo‘llari aniqlash hanuzgacha dolzarb bo‘lib qolmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Masofaviy bank xizmatlarini tahlil etish raqamli texnologiyalarni bugungi kunda bank xizmatlariga joriy etilish tendensiyasini ko‘rsatib beradi. Masofaviy bank xizmatlarida bank mijozlarga tez va doimo foydalanish imkoniyatini beruvchi qulay bank xizmati hisoblanadi. Tijorat banklarining xizmat turlarining qulayligi uning filiali yoki filial joylashuviga emas balki, uning internet-ilovalarining sifati va mijozlar ofisida raqamli texnologiyalarini joriy etilishiga bog‘liqdir. Shunday qilib, masofaviy bank xizmatlari jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatishning istiqbolli yo‘nalishidir. Raqamli transformatsiya tijorat banklariga imtiyozli raqobatbardosh pozitsiyalarni qo‘lga kiritgandan so‘ng jahon bank bozoriga kirish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o‘tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, budjet, kommunal va boshqa to‘lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so‘ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag‘idan to‘lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda.

O‘z navbatida, korxona va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larni tasarruf etish va to‘lovlarni amalga oshirish, valyuta mablag‘lari sotib olish (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat ko‘rsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni o‘tkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo‘yicha imkoniyatlar yaratildi. Natijada 2023-yilning yanvar xolatida mamlakatimizda masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni 30 mln tashkil qilgan, shundan 28,8 mln jismoniy shaxslarni tashkil qiladi.



Lekin shunga qaramay tijorat banklarida raqamli transformatsiya jarayonini jalallashtirishda bir qancha muammolar mavjud. Ularga qo‘yida keltirilganlarni sanab o‘tishimiz mumkin.

Moliyaviy va texnik savodxonlikni takomillashtirish. Bunda asosan mijozlarning bank operatsiyalarini to‘g‘ri amalga oshirishlari uchun tegishli bilim darajasini shakllantirish va ularga to‘lovni amalga oshirishdagi xatolar uchun javobgarlikni o‘rgatish, shuningdek tegishli bank xizmatlarini amalga oshira oladigan texnik vositalarga ega bo‘lish zarurati yoki internet tezligini ta’minlash muammolari hisoblanadi.

Amaliy ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak O‘zbekistonda bank plastik kartochkalari va bank hisobvaraqlaridan pul mablag‘larining o‘g‘irlik yo‘li bilan talon-toroj qilish holatlari ortgani qayd etildi. Xususan, O‘zbekistonda 2023-yilning 11 oyida 5,5 mingta kiberjinoyat sodir etildi, shundan 70 foizi bank kartalari bilan bog‘liq firibgarlik va o‘g‘rilik jinoyatlaridir. [13] Bundan ko‘rinadiki malakatimizda bank operatsiyalarini to‘g‘ri amalga oshirish va moliyaviy savodxonlikda ma’lum darajada kamchiliklar mavjud.

Bizga ma’lumki banklarning bugungi kundagi yangi xizmatlarini shahardagi yoki olis tog‘li hududdagi insonga ham samarali, tez yetkazib berishda tezkor internetning ahamiyati juda muhimdir.

1-jadval: 2023-yilda internet tezligi bo‘yicha mamlakatlar reytingi [14]

Reyting	Mamlakat	2018-yil, Mbit/s	2022-yil, Mbit/s	2023-yil, Mbit/s	O‘zgarish, %
1	Singapur	161,53	194,07	237,15	22,2
2	Xitoy	68,33	155,87	226,77	45,5
4	Chili	36,95	197,59	224,44	13,6
6	Tailand	41,35	182,96	203,28	11,1
7	Daniya	81,98	164,14	200,62	22,2
8	Gonkong	129,64	163,37	198,53	21,5
9	AQSh	84,66	146,17	198,17	35,6
10	Ispaniya	68,42	135,73	180,30	32,8
91	**O‘zbekiston**	**6,39**	**37,91**	**45,20**	**19,2**

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinadiki mamlakatimizda solishtirganda internet tezligi bir oz past bo‘lib, reytingdagi 180 ta davlatlar ichida 91 o‘rinni egalladi. Qo‘yidagi jadvalda biz O‘zekistonda aholi yoshiga qarab bank xisobraqami mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Jadvaldan ko‘rinadiki bank mijozlarining asosiy qismi yoshlarga to‘g‘ri keladi. [12]

Катта ёшли аҳолининг банк ҳисобварағига эгалиги ҳолати тўғрисида

МАЪЛУМОТ

(01.01.2023)

минг киши

Ёш гуруҳлари	Катта ёшли аҳоли сони*	Банк ҳисобварағига эга катта ёшли аҳоли		Катта ёшли аёллар сони	Банк ҳисобварағига эга катта ёшли аёллар		Катта ёшли эркаклар сони	Банк ҳисобварағига эга катта ёшли эркаклар	
		сони	улуши		сони	улуши		сони	улуши
Жами	23 153	17 288	75%	11 681	8 820	76%	11 471	8 468	74%
18-29	6 818	4 653	68%	3 330	2 224	67%	3 488	2 428	70%
30-39	5 878	4 663	79%	2 916	2 416	83%	2 962	2 247	76%
40-49	4 154	2 940	71%	2 083	1 523	73%	2 071	1 416	68%
50-54	1 671	1 144	68%	860	581	67%	811	563	69%
55-59	1 528	1 135	74%	802	621	77%	725	514	71%
60-69	2 119	1 894	89%	1 124	991	88%	995	904	91%
70+	985	860	87%	565	465	82%	419	396	94%

**Катта ёшли аҳоли (эркаклар, аёллар) сони Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги томонидан тақдим этилган маълумотлар асосида шакллантирилган*


Yangi texnologiyalarni joriy etish va dolzarbligini ta’minlash uchun yuqori xarajatlar. Banklar yangi texnologiya va dasturiy ta’minotlarni joriy etaman deb xarajatlari oshganda boshqa bank uchun o‘rnatilgan normalarni bajarolmay qolish ehtimoli yuzaga kelishi mumkin. Gartner tadqiqotchilari tadqiqotiga ko‘ra moliya tizimda 2019-yilda IT harajatlari yeyarli 5 foizga oshib 539,121 mlrd AQSH dollarini tashkil qilgan bo‘lsa 2020-yilga kelib 4.7 foizga kamaygan va 2021-yilga kelib 2.8 foizga yana ko‘tarilgan.

2-jadval: Moliyaviy sektorda IT xarajatlari, 2019–2020-yillarda milliard dollar

	Затраты в 2019 г., $млрд	Рост затрат в 2019 г., %	Затраты в 2020 г., $млрд	Рост затрат в 2020 г., %
Внутренние ИТ-службы	92,043	2,1	87,871	-4,5
Корпоративное ПО	100,822	11,8	100,58	-0,2
ИТ-услуги	204,536	5	195,576	-4,4
Устройства	33,216	5,9	29,199	-12,1
Коммуникационные сервисы	77,285	1,3	72,946	-5,6
Дата-центры	31,218	1	27,757	-11,1
Всего	**539,121**	**4,9**	**513,928**	**-4,7**

Manba: Gartner, 2020

O‘zbekistonda statistik ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, 2023-yilning 1-yanvar holatida mamlakatimiz tijorat banklari jami harajatlari 64254 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa shundan 24 foizi ya’ni 14877 mlrd so‘mi operatsion harajatlarga to‘g‘ri kelgan.



O‘zbekiston respublikasi tijorat banklari harajatlari (foizda) [12]

O‘zbekiston tijorat bank xizmatlari bozorining takomillashmaganligi. Banklar raqamli bank sohasida dunyodagi eng yaxshi tajribalarni amalga oshirishishga harakat qiladi, biroq, chet elda sinovdan o‘tgan mahsulotlarning ishga tushirilishida qonuniy cheklovlarga yoki iste’molchilarning istamasligiga duch kelishi mumkin.

Banklarning tashkiliy tuzilmalari, boshqaruvi va xodimlarning malakasi. Banklarning raqamli transformatsiyasi uchun ushbu jarayonni ichki boshqarish samaradorligi muhim ahamiyatga ega. Ko‘pincha bank bo‘linmalarining funksional imkoniyatlari faqat uning faoliyatining ayrim masalalari bilan cheklanadi. Raqamli transformatsiya esa bankdan yangi tashkiliy tuzilmalar va yangi boshqaruv bo‘linmalarini joriy etishni talab etiladi. Malakali xodimlarning kamligi tufayli ko‘pchilik banklar xorijiy mehnat bozorlaridan yuqori haq evaziga jalb qilishga majbur bo‘lmoqda. Moliyaviy kompaniyalarning 80 foizi xodimlarning malakasini yetishmasligi ularning innovatsion qobiliyatini jiddiy ravishda pasaytiradi deb hisoblashadi. IT-ko‘nikmalarining yetishmasligi, o‘z navbatida, banklarning IT-mutaxassislarga bog‘liqligi anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda raqamli transformatsiyaning boshlanishi iqtisodiyotning markaziy bo‘g‘ini hisoblangan - bank tizimiga to‘g‘ri keldi. Bank faoliyatini raqamlashtirish zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi muhim qadami hisoblanadi. Kredit tashkilotlari o‘z faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali muvaffaqiyatga va raqobatbardosh bo‘lishga erishmoqda.

Raqamli texnologiyalarni bank faoliyatiga joriy etilishi, banklarga vaqtni, ortiqcha harajatlarni iqtisod qilishga imkon beradi. Shunday ekan, mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida raqamli transformatsiya jarayonini jadallashtirish oqali bank xizmatlari ommabopligini ta’minlash bugungi kundagi bosh vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Banklar faoliyatida raqamli transformatsiya jrayonini yanada jadallashtirishning asosiy yo‘nalishi bo‘lib qo‘yidagilar hisoblanadi:


- bank innovatsiyalarini joriy etishni ta’minlab beradigan internet tezligini ta’minlash,
- yuqori texnologiyali uskunalar, dastrularini sotib olish harajatlarini kamaytirishda imtiyozlarni joriy etish,
- bank xodimlarini uzluksiz malakasini oshirish, muvaffaqiyatga erishgan tashkilotlardan mutaxassislarni jalb qilish orqali tajriba almashish,
- aholining moliyaviy savodxonligini oshirishda qo‘shimcha chora tadbirlarni joriy etish.

Yuqorida qayd etilgan yo‘nalishlar banklar faoliyatida joriy etish samaradorligini oshirish banklar raqobatbardoshligini hamda bank tizimini yanada rivojlanib rivojlangan davlatlar safiga o‘tishiga ikon yaratadi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–5992-sonli Farmoni. lex.uz›docs/4811025
2. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. T: Iqtisod-moliya, 2017. 535-540 b.
3. Tangishov M. Innovatsion bank mahsulotlari: banklar uchun eng dolzarb masala. //Biznes-ekspert, 2015. №6.
4. Gulyamova A.L. Bank tizimining raqamli transformatsiyasi jarayonida raqamli ekotizim. //“Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. №2, aprel, 2021. – 5b.
5. Xodjimamedov, A. (2022). Bank tizimini raqamlashtirish sharoitida bank innovatsiyalarini takomillashtirish. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 10(3), 1–8. Xojimameiov A.A. “Raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion bank xizmatlaridan foydalanish yo‘llari” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 1/2023-yil
6. Akhisar İ., Tunay K. B. and Tunay N. Interaction Between Internet Banking and Bank Performance: The Caseof Europe // Procedia-Social and Behavioral Sciences. Vol. 195. P. 369–375.
7. Al-Hawary S. I. S., Hussien A. J. A. The Impact of Electronic Banking Services on the Customers Loyalty of Commercial Banks in Jordan // International Journal of Academic Research in Accounting, Finance and Management Sciences. Vol. 7 (1). P. 50–63.
8. Carbo-Valverde S., Kahn C. M. Payment Systems in the US and Europe: Efficiency, Soundness and Challenges // Financial Stability Journal (Bank of Spain), 2016. Vol. 30. P. 11–33.
9. Hossain M. Asian Business Review 3 (3) 53–61
10. Liebana-Cabanillas F. Information Systems and e-Business Management 14 (1) 141–165.
11. Omarini A. International Journal of Finance, Economics and Trade 1–6.
12. https://cbu.uz Ўзбекистон Республикаси Марказий банки расмий сайти
13. https://www.gazeta.uz/uz/2023/12/21/cyber-crime.
14. https://svspb.net/danmark/skorost-interneta.php

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA STRATEGIK BOSHQARUV TIZIMINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA NATIJALARI



Umarova Xilola Uktamovna
I.f.f.d. (PhD), Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Ta’lim menejmenti kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya: O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimi ta’lim muhitini shakllantirish va ta’lim sifatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu tizimning asosiy xususiyatlari va natijalarini ko‘rib chiqamiz, ya’ni O‘zbekiston universitetlarida strategik menejment tizimining xususiyatlari: maqsadga yo‘naltirilganligi, moslashuvchanligi, kompleks yondashuvi, sifat menejmenti, strategik rejalashtirish kabilar sanaladi.

Strategik boshqaruv tizimining natijalari: ta’lim sifatini oshirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, sanoat, innovatsiyalar va texnologiyalar bilan aloqalarni mustahkamlash, akademik harakatchanlikni oshirish, barqaror rivojlanish va ijtimoiy mas’uliyatni oshiradi. Yangi O‘zbekiston OTMlarida strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish ta’lim sifatini oshirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va ishlab chiqarish bilan aloqalarni mustahkamlash va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash bilan birga mamlakatimiz barqaror rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Kalit so‘zlar: malaka oshirish, moslashuvchanlik, fan va ta’lim integratsiyasi, sifat menejmenti, ta’lim dasturlari, bitiruvchilarni ishga joylashtirish, akademik harakatchanlik, ijtimoiy mas’uliyat.

Abstract: The strategic management system in higher educational institutions of Uzbekistan plays an important role in shaping the educational environment and improving the quality of education. We will consider the main characteristics and results of this system, that is, the characteristics of the strategic management system in the universities of Uzbekistan are: goal orientation, flexibility, comprehensive approach, quality management, strategic planning.

The results of the strategic management system: increase the quality of education, expand international cooperation, strengthen ties with industry, innovation and technology, increase academic mobility, increase sustainable development and social responsibility. Improving the strategic management system in HEIs of Uzbekistan serves to increase the quality of education, expand international cooperation, strengthen relations with production, and train competitive specialists, while supporting the sustainable development of our country.

Key words: advanced training, flexibility, adaptability, integration of science and education, quality management, educational programs, graduate employment, academic mobility, social responsibility.

Аннотация: Система стратегического управления в высших учебных заведениях Узбекистана играет важную роль в формировании образовательной среды и повышении качества образования. Мы рассмотрим основные характеристики и результаты данной системы, то есть характеристиками системы стратегического управления в вузах Узбекистана являются: целенаправленность, гибкость, комплексный подход, управление качеством, стратегическое планирование.

Результаты системы стратегического управления: повышение качества образования, расширение международного сотрудничества, укрепление связей с промышленностью, инновациями и технологиями, повышение академической мобильности, повышение устойчивого развития и социальной ответственности. Совершенствование системы стратегического управления в вузах Узбекистана служит повышению качества образования, расширению международного сотрудничества, укреплению связей с производством, подготовке конкурентоспособных специалистов, одновременно поддерживая устойчивое развитие нашей страны.

Ключевые слова: повышение квалификации, гибкость, адаптивность, интеграция науки и образования, управление качеством, образовательные программы, трудоустройство выпускников, академическая мобильность, социальная ответственность.

KIRISH

Oliy ta’lim muassasalarida strategik boshqaruv pedagogik tajriba-sinov ishlari mazmun-mohiyatidan kelib chiqib aytish mumkinki, pedagogika fanining oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun belgilangan vazifalarni amalga oshirish yo‘nalishidagi mavjud muammolarni bartaraf etishda amalga oshiriladigan izlanishlar muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot jarayonida yaratilgan va ilmiy asoslangan yangiliklar, taklif etilayotgan strategik boshqaruv texnologiyalari, modellar, ilmiy muaomalaga kiritilayotgan yangi ma’lumotlar, tahlillar, xulosa va tavsiyalar oliy ta’lim muassasalarining ta’lim-tarbiya maqsadi va vazifalariga mos kelishi zarur. Oliy ta’lim tashkilotlarida strategik boshqaruvni joriy etish tizimiga doir tajriba-sinov ishlari o‘quv reja va dasturlar, o‘quv-metodik ta’minot va pedagoglar kasbiy kompetentligini oshirish, ta’lim sifati monitoringi tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadqiqot farazlarini asoslashga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida strategik boshqaruvni tizimli islohotlar sharoitida faoliyat ko‘rsatayotgan davrda pedagogik tajriba-sinov uchun bir vaqtda faoliyat yuritayotgan ikkita guruhni tajriba va nazorat guruhi sifatida tanlab olish lozim. Agar tahlilning maqsadi oliy ta’lim muassasalarida strategik boshqaruvning natijalarini baholashdan iborat bo‘lsa, nazorat guruhi sifatida oliy ta’lim muassasalarida strategik boshqaruvni ananaviy usul bilan baholash qaraladi.

Tajriba-sinovlarning maqsadi oliy ta’lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etish tizimini boshqarish, jumladan, o‘quv reja, dastur va darsliklarni zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish hamda joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirishdagi rolini ko‘rsatish va matematik statistika metodlari vositasida baholashdan iborat.

Shuningdek, tizimli o‘zgarishlar bosqichma-bosqich, uzluksiz va uzviylikda joriy etib borilganligi tufayli tajriba-sinov ishlarining asosiy vazifasi – oliy ta’lim muassasalarida strategik boshqaruv jarayoniga zamonaviy yondashuvni joriy etishning tashkiliy-metodik tizimini boshqarish mexanizmlariga kiritilgan o‘zgarishlarning ta’lim sifatiga ta’sirini aniqlashdan iborat.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy farazi – oliy ta’lim muassasalarida strategik boshqaruv jarayoniga zamonaviy yondashuvni joriy etishning tashkiliy-metodik tizimini boshqarishda ta’lim menjmenti fanining talablari asosida, ya’ni o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirilgan o‘quv reja, dastur va darsliklar, o‘quv-metodik resurslarni joriy etishni metodik qo‘llab-quvvatlash asosida tashkil etish orqali ta’lim sifatining oshishini ta’minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-165-son Farmoni tasdiqlandi. Unga ko‘ra, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan birgalikda yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda “Innovatsion menejment”, “Loyiha boshqaruvi”, “Tijoratlashtirish”, “Intellektual mulkni boshqarish” yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va 2022–2023-o‘quv yilidan boshlab tegishli oliy ta’lim muassasalarida joriy qilish vazifasi belgilangan [1].

Ta’kidlash joizki, bu borada xorijiy olimlar M.Meskon, M.Albert, F.Xedourining fikricha, boshqaruv sifati tashkilotning faoliyati natijalari hamda ularga erishish yo‘llari va vositalarini tanlab olishni belgilab beradi. Tashkilot oldida turgan vazifalarni samarali hal qilish uchun yaxshi tashkil etilgan va o‘zaro uyg‘unlikdagi jamoa zarur bo‘ladi. Bunda uning har bir a’zosi o‘z ishini biladi va uni bajaradi, bir maromda, uzilishlarsiz ishlaydi hamda muammolarning ko‘pchiligini nizolarsiz hal qiladi, yakuniy natijalardan manfaatdor bo‘ladi [2].

Rahbariyatning bosh vazifasi – bu eng kam sarf-xarajatlar va eng qisqa muddatlarda tashkilot oldida turgan maqsadlarga erishishdir, deb hisoblaganlar. Bu vazifani hal qilishda M.Meskon, M.Albert, F.Xedouri, R.Daft hamda V.Vesninlarning fikriga ko‘ra, menejment nazariyasi va amaliyoti to‘rtta asosiy funksiyalar negiziga quriladi [3, 4]:

M.Axmedov “fikrimizcha, “Boshqaruvning zamonaviy yondashuvlariga muvofiq sifatni ta’minlash: maqsadni belgilash, rejalashtirish, usul va vositalarni tanlash, monitoring va baholash, tahlil va korreksiyalash ketma ketligida amalga oshiriladi. Ushbu ketma ketlikning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan samarali monitoring va baholashni amalga oshirmay turib ta’lim jarayoni va butun ta’lim tizimining sifatini samarali boshqarish imkoniyati mavjud emas, muassasada sifatni ta’minlashda boshqaruv subyektlari doimiy ishonchli axborotlarga ehtiyoj sezadi” , deb hisoblaydi [5].

U.Inoyatovning fikricha, ta’lim tizimini boshqarish darajasi va yo‘nalishlariga ko‘ra farqlanadi. Jumladan:

1) darajasiga ko‘ra – umumdavlat, tarmoqlararo, tarmoq, mahalliy va umumiy ta’lim maktablarining ichki boshqaruvi;

2) yo‘nalishlariga ko‘ra – tashkiliy, tizimli, mazmunli, kadrlar masalasi nuqtayi nazaridan va metodik [6].

R.Djurayev “monitoring – ta’lim tizimi yoki uning alohida elementlari to‘g‘risida asosli xulosalar chiqarish, xoxlagan vaqtda uning holatini baholash va tahlil qilish imkonini beruvchi ma’lumot bilan ta’lim tizimi boshqaruvini ta’minlash maqsadida axborot yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va tarqatish”, deb ta’riflaydi [7].

F.Teylor va F.Gilbert birinchi bo‘lib ilmiy boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqishgan va uning asosiga ilmiy metodlar va texnologik standartlarni, mutaxassislarni ularning qobiliyatlarini hisobga olgan holda tanlab (ishga) olish tamoyillarini, ularning ta’limi va rivojlanganligining munosib darajasini ta’minlash, mutaxassislarning ish beruvchilar bilan psixologik jihatdan mos kelishini hamda hamkorligi va kooperatsiyasini, mutaxassislarning mehnati va ishlab chiqarish vositalaridan ratsional foydalanishni qo‘yganlar [8, 9].

M.Guslova, R.Daft, F.Druker, V.Zligostev, A.Kravchenko, F.Teylor, M.Uorner, O.Xijinskayalar boshqaruv ilmi shakllanishining davomi G.Emerson nomi bilan bog‘lashgan, u mehnat faoliyatini ratsionallashtirishga, mehnat mahsuldorligini oshirishga, korxonada ijtimoiy munosabatlarni me’yorlashtirish, tashkil etish va yo‘lga qo‘yish orqali erishishga urinib ko‘rgan [10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18].

R.Daft, F.Druker, V.Zligostev, A.Kravchenko, F.Teylor, M.Uorner, G.Emerson, G.Fordlar XX asrning birinchi yarmida boshqarishning tashkilotchilik faoliyati mazmunini universal tamoyillar asosida o‘rgangan neoklassik (ma’muriy) maktabi ilmiy qiziqishlar predmetiga aylandi. Uning rivojlanishi ma’muriy boshqarishning tamoyillari va funksiyalarini ishlab chiqqan A.Fayolning faoliyati bilan bog‘liq. Xususan, tadqiqotchi boshqaruvchilik faoliyatini alohida tadqiqot obyekti sifatida ajratish zarurligini isbotlagan hamda tashkilotning rasmiy strukturasi ahamiyatini ko‘rsatib bergan. A.Fayol tashkilotni tashkil etish tizimini rag‘batlantirish, nazorat qilish, muvofiqlashtirish kabi asosiy boshqaruvni funksiyalaridan iborat jarayon sifatida o‘rgangan [19, 20].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Strategik boshqaruv konsepsiyasiga muvofiq dastlabki nazorat bosqichidan keyin kutilmagan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda strategiyani amalga oshirishni boshqarish boshlanadi. Bu yerda yo‘naltiruvchi nazorat usulidan foydalaniladi. Strategiya bajarildi, deb hisoblanganda olingan natijalar bo‘yicha natijaviy nazorat amalga oshiriladi. Nazoratning bu turi qo‘yilgan maqsad va vazifalarga erishish samaradorligini baholash va tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Ushbu tahlil natijalariga bog‘liq holda strategik boshqaruv jarayoni yoki strategiyaga tuzatishlarni kiritish uchun “vazifalarni qo‘yish” bosqichiga qaytadi yoki yangi strategik harakatni ishlab chiqish uchun rivojlanishning keyingi darajasiga o‘tadi.

Oliy ta’lim muassasasining muvozanatlashtirilgan asosiy ko‘rsatkichlari tizimi va uni qo‘llash samaradorligini baholash mexanizmi aosida tajriba sinov ishlarini o‘tkazish asosida yakuniy xulosalar olish va natijalarni tahlil qilish ishlari olib borish rejalashtirildi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv (so‘rovnomalar), test sinovlari va sotsiometrik metodlar (anketa, suhbat)lar asosida baholash ishlari olib borildi va oliy ta’lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimini baholash darajalari ishlab chiqildi.

Oliy ta’lim muassasalarida tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichlarda tashkil etildi:

- O‘rganuvchi bosqich (2018–2019-o‘quv yili);
- Asoslovchi bosqich (2019–2020-o‘quv yili);
- Ta’kidlovchi bosqich (2020–2021-o‘quv yili).

O‘rganuvchi bosqich (2018–2019-o‘quv yillar)ning asosiy maqsadi oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomga asosan reytingni aniqlash mezonlarini o‘rganib chiqish va ularning indikatorlarini tahlil qilishdan iborat bo‘ldi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- reytingni aniqlovchi ko‘rsatkichlarni o‘rganish va tahlil qilish;
- ko‘rsatkichlar indikatorlarini aniqlash va ularni ajrata bilish;
- baholash metodologiyasi va uning o‘lchovlarini tahlil qilish;
- har bir ko‘rsatkichlar asosida hisoblash formulalarini aniqlash va tahlil qilish.

Asoslovchi bosqich (2019–2020-o‘quv yillar)ning asosiy maqsadi aniqlangan ko‘rsatkichlarni, baholash metodologiyasi va hisoblash formulalari asosida ta’lim muassasasiga joriy etishning imkoniyatlari va uning oshiruvchi ta’lim xizmatlarini nazorat qilishning samarali tizimini yaratishdan iborat bo‘ldi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- indikatorlar va ularning ta’limni oshirish imkoniyatlari aniqlashtirildi;
- har bir indikatorda yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishni ta’minlovchi mezonlar alohida ajratildi;
- ta’lim xizmatlarini nazorat qilishning elektron tizimi ishlab chiqildi va reytingni hisoblash jarayoniga tatbiq etildi.

Ta'kidlovchi bosqichning (2020–2021-o'quv yili) asosiy maqsadi joriy yilgi reyting ko'rsatkichlarini hisoblash jarayonida ishlab chiqilgan elektron tizimdan foyladanish samaradorligini aniqlashdan iborat bo'ldi. Ta'kidlovchi bosqichda quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- elektron tizim (elektron boshqaruvning kompleks tizimi)ni amaliyotga joriy etuvchi obyektlar aniqlashtirildi;
- ta'lim monitoringini olib boruvchi tizim tajriba-sinovdan o'tkazildi va tajriba-sinov natijalari matematik statistik usullar orqali tekshirildi va xulosalar chiqarildi.

O'rganuvchi bosqichda oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizomga ilova qilib berilgan ko'rsatkichlar to'liq o'rganilib, tahlil qilindi.

OTM strategik boshqaruv asosida professor-o'qituvchilarning faoliyatlari bo'yicha tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Bunda asosiy e'tibor OTMning strategik boshqaruvi asosida professor-o'qituvchilarning faoliyatlariga qaratildi.

OTMlarining strategik boshqaruv samaradorligini aniqlash maqsadida oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash ko'rsatkichlari va indikatorlarini bajarishda professor-o'qituvchilarning faoliyatlarini baholash maqsadida yuqori, o'rta va past ko'rsatkich darajasiga ega bo'lgan indikatorlar ishlab chiqildi.

Yuqori daraja – oliy ta'lim muassasalari reytingi ko'rsatkichlarida to'liq ishtirok etgan va yuqori natijalarga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarning takomillashgan faoliyati.

O'rta daraja – oliy ta'lim muassasalari reytingi ko'rsatkichlarida to'liq ishtirok etgan va o'rta natijalarga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarning takomillashgan faoliyati.

Past daraja – oliy ta'lim muassasalari reytingi ko'rsatkichlarida qisman ishtirok etgan va past natijalarga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarning takomillashgan faoliyati.

Tajriba-sinov va nazorat guruhlarida jami 161 nafar professor-o'qituvchilar ishtirok etdilar. Shundan tajriba-sinov guruhlariga 81 nafar hamda nazorat guruhlariga 80 nafardan professor-o'qituvchilari tanlab olindi.

Tajriba-sinov ishlarida oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimini takomillashtirishga qarilgan fanni o'qitish bo'yicha talabalar o'rtasida ham natijalar olindi. Bunda yuqorida tanlab olingan OTMlaridan 372 nafar talabalar ishtirok etdi. Bu talabalar tajriba va nazorat guruhlariga ajratilib, ularda mos ravishda 187 va 185 nafar talabar ishtiroki ta'minlandi. Tadqiqot ishida oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida talabalarga ta'lim menejmenti fani o'qitildi va ularning shu fan bo'yicha baholash natijalari olindi. Tanlab olingan guruhlarda nazariy mashg'ulotlar har ikkala tajriba-sinov va nazorat guruhlarida ishlab chiqilgan dasturlar asosida olib borilgan bo'lsa, amaliy mashg'ulotlar esa nazorat guruhida an'anaviy, tajriba-sinov guruhlarida esa muallif taklif etayotgan metodika bo'yicha o'tkazildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

OTM professor-o'qituvchilarining o'z ish faoliyatlari bo'yicha hamda talabalarning ta'lim menejmenti fani bo'yicha tajriba-sinov ishlarida ishlab chiqilgan metodikasi samaradorligining miqdoriy mezonlari bo'lib quyidagilar tanlandi hamda Styudent mezoni yordamida tahlil qilindi.

x_i – tajriba-sinov guruhiga mos keladigan baholar. i = $\overline{1,3}$, y_i – nazorat guruhiga mos keluvchi baholar. $\overline{x}$ va $\overline{y}$ – tajriba va nazorat guruhlari uchun mos keladigan o'rtacha arifmetik qiymatlar formulalari.

$$\overline{x} = \frac{\sum x_i n_i}{n}; \overline{y} = \frac{\sum y_i m_i}{m} \quad (1)$$

Bu yerda: x_i, y_i – 3, 4, 5 qiymatli baholarni mos ravishda qabul qiladi.

n, m – tajriba va nazorat guruhidagi professor-o'qituvchilar soni.

n_i, m_i, – mos baholarga nisbatan professor-o'qituvchilar soni.

O'quv jarayoni samaradorligini baholovchi o'rtacha qiymat tajriba va nazorat guruhlari baholarining o'rtacha arifmetik qiymatlari nisbatidir, ya'ni samaradorlik koeffitsiyenti quyidagicha olindi:

$$\eta = \frac{\overline{x}}{\overline{y}} \quad (2)$$

O'rtacha kvadratik og'ish kattaliklari:

$$S_x^2 = \frac{1}{n}\sum_i n_i \cdot (x_i - \overline{x})^2; S_y^2 = \frac{1}{m}\sum_i m_i \cdot (x_i - \overline{x})^2 \quad (3)$$

Standart og‘ish kattaliklari:

$$S_x = \sqrt{S_x^2} \quad ; \quad S_y = \sqrt{S_y^2} \quad (4)$$

O‘rtacha qiymatlarni aniqlash ko‘rsatkichi:

$$C_x = \frac{S}{\sqrt{n} \cdot \bar{x}} \cdot 100 \ \% \quad ; \quad C_y = \frac{S}{\sqrt{m} \cdot \bar{y}} \cdot 100 \ \% \quad (5)$$

Bosh to‘plamning noma’lum o‘rta qiymatlari uchun ishonch oraliqlari:

$$a_x \in \left[\bar{x} - \frac{t}{\sqrt{n}} \cdot S_x ; \ \bar{x} + \frac{t}{\sqrt{n}} \cdot S_x \right], \ a_y \in \left[\bar{y} - \frac{t}{\sqrt{m}} \cdot S_y ; \ \bar{y} + \frac{t}{\sqrt{m}} \cdot S_y \right] \quad (6)$$

Bu yerda t – normallashgan chetlanish ishonch ehtimoli R asosida aniqlanadi. Bunda R = 0,95 da t = 1,96 ga teng.

Biz o‘rtacha qiymatlar tengligi haqidagi H_0:$a_x = a_y$ farazni ilgari surib, unga qarama-qarshi H_1:$a_x \neq a_y$ ekanligini yuqoridagi ma’lumotlar asosida Styudent-Fisher statistikasi orqali tekshiramiz.

$$T_{m_1 n} = \frac{\left| \bar{y} - \bar{x} \right|}{\sqrt{\frac{S_x^2}{n} + \frac{S_y^2}{m}}} \quad (7)$$

Agar $T > T_r = t$ bo‘lsa, N_0 faraz rad etilib, N_1 faraz qabul qilinadi.

Biz quyida ushbu formulalarga asoslanib, hisob ishlarini olib boramiz va ularni tahlillarini keltiramiz.

Endi tajriba-sinov ishlari bo‘yicha natijalarning tahlillarini keltiramiz:

Professor-o‘qituvchilarning tajriba sinov ishlaridagi statistik tahlil natijalari quyidagi jadvalda keltirildi (1-jadval).

1-jadval: Professor-o‘qituvchilarning tajriba sinov ishlaridagi statistik tahlil natijalari

Ta’lim muassasalari			Toshkent davlat pedagogika universiteti	Buxoro davlat universiteti	Farg‘ona davlat universiteti	Jami
O‘rtacha arifmetik qiymat (x,y)	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	3,61	3,48	3,46	3,52
		Nazorat guruhida	3,59	3,46	3,48	3,51
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	4,21	4,12	4,14	4,16
		Nazorat guruhida	3,63	3,54	3,59	3,59
Samaradorlik ko‘rsatkichi η	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	1	1,01	1	1
		Nazorat guruhida				
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	1,16	1,16	1,15	1,16
		Nazorat guruhida				
O‘rtacha qiymat standart xatolik (S_x, S_y)	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	0,52	0,41	0,46	0,47
		Nazorat guruhida	0,46	0,4	0,47	0,45
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	0,6	0,51	0,62	0,58
		Nazorat guruhida	0,46	0,4	0,54	0,47
Aniqlanish ko‘rsatkichi (S_x, S_y)	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	0,04	0,04	0,04	0,02
		Nazorat guruhida	0,02	0,02	0,02	0,02
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	0,03	0,03	0,04	0,02
		Nazorat guruhida	0,02	0,02	0,02	0,02


TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

O‘rtacha qiymat ishonch oralig‘i a_x, a_y	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	3,41	3,32	3,29	3,42
			3,8	3,64	3,64	3,62
		Nazorat guruhida	3,42	3,3	3,31	3,41
			3,76	3,62	3,66	3,61
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	3,99	3,92	3,91	4,03
			4,44	4,32	4,37	4,29
		Nazorat guruhida	3,62	3,53	3,59	3,58
			3,8	3,69	3,8	3,69
Styudent statistikasi (T)	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	0,11	0,16	0,14	0,08
		Nazorat guruhida				
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	4,09	4,53	3,51	6,91
		Nazorat guruhida				
Ko‘rsatkichlar xulosasi	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	N_0 gipoteza qabul qilinadi	N_0 gipoteza qabul qilinadi	N_0 gipoteza qabul qilinadi	N_0 gipoteza qabul qilinadi
		Nazorat guruhida				
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	N_1 gipoteza qabul qilinadi	N_1 gipoteza qabul qilinadi	N_1 gipoteza qabul qilinadi	N_1 gipoteza qabul qilinadi
		Nazorat guruhida				


Biz har bir bosqich bo‘yicha matematik hisob kitoblarni olib bordik. Endi ushbu natijalarga ko‘ra, Styudent statistikasining yuqoridagi 7-formulasidan foydalanib tekshiramiz va xulosalar chiqaramiz.

Tajriba guruhi: $T_m > T_{0,96} = t = 1,96$ Demak, N_0 faraz rad etilib, N_1 faraz qabul qilinadi.

Nazorat guruhi: $T_n < 1,96$ bo‘lib, N_0 faraz qabul qilinadi.



2-rasm: Professor-o‘qituvchilarining foaliyat ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari



3-rasm: Professor-o‘qituvchilarining foaliyat ko‘rsatkichlari bo‘yicha samaradorligi

Tajriba-sinov ishlarida oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan fanni o'qitish bo'yicha talabalar o'rtasida ham natijalar asosida statistik tahlil ishlari olib borildi va tahlil natijalari quyidagi jadvalda keltirildi (2-jadval).

2-jadval: Talabalar o'rtasidagi statistik tahlil natijalari


Ta'lim muassasalari			TDPU	BuxDU	FarDU	Jami
O'rtacha arifmetik qiymat (x,y)	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	3,42	3,37	3,39	3,39
		Nazorat guruhida	3,41	3,35	3,39	3,38
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	3,94	3,89	3,9	3,91
		Nazorat guruhida	3,43	3,42	3,44	3,43
Samaradorlik ko'rsatkichi ɳ	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	1.00	1,00	1,500	1
		Nazorat guruhida				
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	1,15	1,14	1,14	1,14
		Nazorat guruhida				
O'rtacha qiymat standart xatolik (Sx, Sy)	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	0,37	0,33	0,37	0,36
		Nazorat guruhida	0,34	0,33	0,33	0,33
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	0,42	0,45	0,44	0,44
		Nazorat guruhida	0,38	0,37	0,37	0,37
Aniqlanish ko'rsatkichi (Sx, Sy)	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	0,02	0,02	0,02	0,01
		Nazorat guruhida	0,02	0,02	0,02	0,02
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	0,02	0,02	0,02	0,01
		Nazorat guruhida	0,02	0,02	0,02	0,02
O'rtacha qiymat ishonch oralig'i ax, ay	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	3,33	3,28	3,3	3,34
			3,51	3,45	3,48	3,44
		Nazorat guruhida	3,33	3,27	3,3	3,34
			3,49	3,44	3,47	3,43
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	3,83	3,78	3,79	3,85
			4,04	4	4,01	3,97
		Nazorat guruhida	3,42	3,42	3,43	3,42
			3,52	3,51	3,53	3,48
Styudent statistikasi (T)	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	0,15	0,18	0	0,18
		Nazorat guruhida				
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	7,13	6,38	6,35	11,45
		Nazorat guruhida				
Ko'rsatkichlar xulosasi	Tajriba boshida	Tajriba guruhida	N_0 gipoteza qabul qilinadi	N_0 gipoteza qabul qilinadi	N_0 gipoteza qabul qilinadi	N_0 gipoteza qabul qilinadi
		Nazorat guruhida				
	Tajriba oxirida	Tajriba guruhida	N_1 gipoteza qabul qilinadi	N_1 gipoteza qabul qilinadi	N_1 gipoteza qabul qilinadi	N_1 gipoteza qabul qilinadi
		Nazorat guruhida				

Biz har bir bosqich bo'yicha matematik hisob kitoblarni olib bordik. Endi ushbu natijalarga ko'ra, Styudent statistikasining yuqoridagi 7-formulasidan foydalanib tekshiramiz va xulosalar chiqaramiz.


Tajriba guruhi: $T_m > T_{0,96} = t = 1,96$ Demak, N_0 faraz rad etilib, N_1 faraz qabul qilinadi.

Nazorat guruhi: $T_n < 1,96$ bo'lib, N_0 faraz qabul qilinadi.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



4-rasm: Talabalarning o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari



5-rasm: Talabalarning samaradorlik ko‘rsatkichlari

Tadqiqotimiz natijasida, barcha tajriba-sinov maydonchalari sifatida tanlab olingan OTM tajriba-sinov ishlari nihoyasida, tajriba guruhidagi professor-o‘qituvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan 1,16 (16%) yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Talabalarda esa bu ko‘rsatkich 1,14 (14%) yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Bu esa olib borilgan tadqiqot ishining samarador ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta’lim muassasasining muvozanatlashtirilgan asosiy ko‘rsatkichlari tizimi va uni qo‘llash samaradorligini baholash mexanizmi aosida tajriba sinov ishlarini o‘tkazish asosida yakuniy xulosalar olish va natijalarni tahlil qilish ishlari, tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv (so‘rovnomalar), test sinovlari va sotsiometrik metodlar (anketa, suhbat) asosida baholash ishlari olib borilgan va oliy ta’lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimini baholash darajalari ishlab chiqilgan. Tajriba-sinov ishlari olib borilgan OTMlari professor-o‘qituvchilarining umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tajriba-sinov guruhlarida qatnashgan 81 nafar professor-o‘qituvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tajriba boshida, yuqori 9 nafar (11,1 %), o‘rta 29 nafar (35,7 %), past 43 nafar (53,1 %)ni tashkil qilgan bo‘lsa, tajriba oxiriga kelib yuqori 31 nafar (38,3 %) 27,2 % ga, o‘rta 32 nafar (39,5 %) 3,7 % ga oshgan, past 18 nafar (22,2 %) 30,9 % ga kamayganini ko‘rsatgan. OTMlarda strategik

boshqaruv bo‘yicha tajriba-sinov ishlari maqsad va vazifalarini tashkil etish bosqichlari, baholash mezonlari, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari asosida takomillashtirilgan. OTMlarda strategik boshqaruv bo‘yicha tajriba-sinov ishlarining statistik tahlili, matematik hisob-kitoblar hamda Styudent statistikasi asosida professor-o‘qituvchilar 16%ga va talabalarning samaradorlik ko‘rsatkichi 14 %ga oshishiga erishilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-165-son Farmoni. lex.uz›docs/6102462
2. Мескон М.Х., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента: Пер. с англ. – М.: Дело, 1998.-704 с. С.315.
3. Дафт Р.Л. Менеджмент. 8-е изд. /Пер. с англ. Под ред. П.Мордвина. – СПБ.: Питер, 2010. – 800 с.
4. Веснин В.Р. Стратегическое управление. Учебник. - М.: ТК. Велби, Изд-во Проспект, 2004. - 328 с.
5. Axmedov M.U. Umumta’lim maktab direktorlarining malakasini oshirishda ta’lim sifati monitoringini takomillashtirish: Dissertatsiya. ped. fan. nom. – Toshkent: “XTTRMXQTMOI”, 2019. – 155 b. 15-B.
6. Иноятов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже: Дис. … д-ра пед. наук. – Ташкент: “ИССПО”, 2003. – 330 с.
7. Джураев Р.Х. Турғунов С.Т. Таълим менежменти. – Т.: Voris-Nashriyot, 2012. – 167 б.
8. Тейлор Ф.У. Принципы научного менеджмента. – М., 1991. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. – 03.06.2010. URL: http://gtmarket.ru/laboratory/basis/3631
9. Гильберт Ф. Азбука научной организации труда и предприятий. Под ред. [и с предисл.] Р.С.Майзельса. Пер. [изд. перераб. К.Россан] Е.Г.Штейнберг, М.: “Вся Россия”. Бюро стандартизации, 1923. 55 с.
10. Гуслова М.Н. Инновационные педагогические технологии: Учебное пособие для студентов / М.Н.Гуслова. – М.: ИЦ Академия, 2013. – 288 с.
11. Дафт Р.Л. Менеджмент. 8-е изд. /Пер. с англ. Под ред. П.Мордвина. – СПБ.: Питер, 2010. – 800 с.
12. Друкер Ф. Задачи менеджмента в XXI веке: Пер. с англ.: М.: Издательский дом “Вильяме”, 2004. – 272 с. С.33.
13. Злыгостев В.Ю. Управление по-японски. Особенности системы управления персоналом и мотивации труда в японском кадровом менеджменте на современных японских предприятиях: Изд. Академия Естествознания, 2016 ISBN 978-5-4472-5506-0
14. Кравченко А.И. История менеджмента 5-е изд. – М.: Академ. Проект: Трикста, 2005. – 506 с.
15. Тейлор Ф.У. Принципы научного менеджмента. – М., 1991. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. – 03.06.2010. URL: http://gtmarket.ru/laboratory/basis/3631
16. Уорнер М. Классики менеджмента. / Пер. с англ. Под. ред. Ю.Н. Каптуревского. СПБ.: Питер, 2001. – 1168 с.
17. Хижинская О.А. Общество и государство в Китае: XXXV научная конференция / Ин-т востоковедения; сост. и отв. Ред. Н.П.Свистунова. – М.: Вост. лит., 2005. – 311 с. - ISBN 5-02-018484-5 (в обл.). С. 230-233.
18. Эмерсон Г. Двенадцать принципов производительности// ISBN: 5-89563-006-5, М.: Бизнес-Информ, 1997. 158 с.
19. Уорнер М. Классики менеджмента. / Пер. с англ. Под. ред. Ю.Н. Каптуревского. СПБ.: Питер, 2001. – 1168 с.
20. Файол А., Эмерсон Г., Тейлор Ф., Форд Г. Управление – это наука и искусство. Издательство: Республика, 1992. 322 с.



KORXONALAR FAOLIYATIDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIK VA KAMCHILIKLARI

Ro‘zmamatov Abbos Tolibjon o‘g‘li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada marketing tadqiqotlaridan foydalanishning afzallik hamda kamchilik jihatlari o‘rganib chiqilgan. Bundan tashqari, xorijiy adabiyotlardan foydalangan holda xorij olimlarining marketing tadqiqotlarining korxona faoliyatiga ijobiy yoki salbiy ta’sirini o‘rganishga qaratilgan ilmiy ishlarga nisbatan induktiv va deduktiv metodlar yordamida mualliflik yondashuvlari keltirilgan. Ushbu tadqiqotdan asosiy maqsad, marketing tadqiqotlarining korxona faoliyatiga turlicha ta’siri o‘rganilgan ilmiy ishlardan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston sharoitida korxonlarda marketing tadqiqotlaridan foydalanganda qanday ustunlik va kamchiliklarga ega bo‘lishi mumkin ekanligini yoritib berishdan iborat.

Kalit so‘zlar: marketing tadqiqotlari, korxona, raqobat, risk, xarajat, imkoniyat, axborot, strategiya.

Abstract: This article examines the advantages and disadvantages of using marketing research. In addition, the author’s approaches using inductive and deductive methods to scientific works aimed at studying the positive or negative impact of marketing research on enterprise activity by foreign scientists using foreign literature are presented. The main goal of this study is to clarify the advantages and disadvantages of using marketing research in Uzbekistan, based on scientific works that have studied the various effects of marketing research on enterprise activity.

Key words: marketing research, enterprise, competition, risk, cost, opportunity, information, strategy.

Аннотация: В статье рассматриваются преимущества и недостатки использования маркетинговых исследований. Кроме того, представлены авторские подходы с использованием индуктивных и дедуктивных методов к научным работам, направленным на изучение положительного или отрицательного влияния маркетинговых исследований на деятельность предприятия, проводимых зарубежными учеными с использованием зарубежной литературы. Основная цель данного исследования – выяснение преимуществ и недостатков использования маркетинговых исследований в Узбекистане на основе научных работ, изучавших различное влияние маркетинговых исследований на деятельность предприятий.

Ключевые слова: маркетинговое исследование, предприятие, конкуренция, риск, стоимость, возможность, информация, стратегия.

KIRISH

Savdo sohasi yurtimizda tezkor ravishda rivojlanayotgan sohlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Buni quyidagi ma’lumotlar orqali ham ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekistonning tovar aylanmasi 2023-yilda 23,8 foizga oshib, 62,6 mlrd dollarni tashkil etdi. Savdo taqchilligi rekord daraja – 13,7 mlrd dollarga yetdi. Eksportning uchdan bir qismini rekord darajada sotilgan oltin tashkil etdi. Oziq-ovqat, neft va gaz importi keskin oshdi. Oltinni hisobga olmaganda, eksport qiymat jihatidan atigi 4,5 foizga ko‘paydi va 16,17 mlrd dollarni tashkil etdi. Sanoat mahsulotlarining eksportdagi ulushi 22,2 foizdan 16,6 foizga, yetkazib berish hajmi esa 4,38 mlrd dollardan 4,06 mlrd dollargacha qisqardi.1 Ushbu ma’lumotlarni o‘zidan ham kelib chiqib aytish mumkinki O‘zbekistonda savdo sohasida qilinishi lozim bo‘lgan ishlar hali anchagina.

Korxonalararo raqobat kuchayib borayotgan bugungi davrda savdo sohasida axborotga nisbatan talab ham shunga mos ravishda oshib bormoqda. Chunki, xaridor nimani xohlashini oldindan bilishga doir ma’lumot-

1 https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/22/trade/

lar tovar savdosini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada esa marketing tadiqotlaridan foydalanish raqobatda ustunlikka erishishda o‘ziga xos ravishda yordam beradi. Marketing tadqiqotlarining samarasi bo‘yicha izlanish olib borish barobarida bir qancha ilmiy adabiyotlarda tadqiqotlarni qo‘llash bilan bog‘liq kamchilik va muammolarga ham duch kelindi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, savdo sohasida marketing tadqiqotlarini qo‘llash bo‘yicha olimlarda turlicha fikrlar mavjud.

Marketing tadqiqotlari iste’molchilarning xatti-harakati va bozor dinamikasi bo‘yicha qimmatli ma’lumotlarni bera olgani tufayli, biznesda ongli qarorlar qabul qilishning asosi sifatida e’tirof etiladi (Smith & Fletcher, 2019). Darvoqe, tadqiqotlar biznes uchun foydali imkoniyatlarni aniqlash, iste’molchilar talablarini qondirish uchun takliflarini ularga moslashtirish va bozorda raqobatdosh ustunlikka ega bo‘lish imkonini berishda ham o‘z o‘rni va roliga ega (Jones 2020).

Marketing tadqiqotlariga atalgan maqtovlar qatorida bir qancha tanqidiy fikrlarga ham duch kelishimiz mumkin. Ulardan birining fikriga ko‘ra, marketing tadqiqotlariga tayanish innovatsiyalarni bo‘g‘ishi va oldin tadqiq qilinmagan hududlarni o‘rganishga to‘sqinlik qilishi mumkin (Brown & Reingen, 2021). Bundan tashqari, barcha ma’lumotlarning ham to‘g‘ri emasligi va uslubiy cheklovlar tadqiqot natijalarining to‘g‘riligi va ishonchliligiga nisbatan shubha uyg‘otadi (Kim va Li, 2018).

Ilmiy ishimiz davomida bu kabi qarama-qarshi fikrlarni o‘rganar ekanmiz, tadqiqotlarning foydali jihatlari uning salbiy oqibatlariga qarshi turadi. Bibliografik va empirik tahlil orqali savdo sohasida bozor tadqiqotlaring murakkabliklarini ochishga hamda uning salohiyati va cheklovlariga oydinlik kiritamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iste’molchilarning xulq-atvorini tushunish va biznes qarorlarini qabul qilish uchun muhim bo‘lgan bozor tadqiqotlari bilan bog‘liq e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan bir qancha cheklovlar ham mavjud. Muhim muammolardan biri bu subyektivlik masalasidir, bunda respondentlar obyektiv fikrlashdan ko‘ra ijtimoiy jihatdan maqbulroq (ko‘pchilikning fikriga qarab) javoblarni berishlari mumkin (Jong va boshq., 2010). Bu noto‘g‘ri ma’lumotlarga va noto‘g‘ri natijalarga olib kelishi mumkin, bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligiga ta’sir qiladi.

Bundan tashqari, an’anaviy bozor tadqiqoti usullari bilan bog‘liq xarajatlar, masalan, katta xarajat talab qiluvchi tadqiqot usullaridan foydalanish, ayniqsa keng ko‘lamli tadqiqotlarga salbiy ta’sir o‘tkazishi mumkin (Shahzad, 2024). Yana bir kamchilik - bu ko‘pincha internet-marketing tadqiqotlariga oid bo‘lib bu usulda olingan javoblar noaniqligi va umumlashtirish qiyinligi bilan bog‘liq (Demetrio va boshq., 2020).

Bundan tashqari, bozorni o‘rganishda eskirgan yoki cheklangan metodologiyalarga tayanish, ayniqsa raqamli davrda, iste’ molchilar xatti-harakatlarining o‘zgaruvchan landshaftiga moslashishga nisbatan to‘siq yaratishi mumkin (Gandolfo, 2021). Bundan tashqari, marketing tadqiqotlarida iste’molchilarning shaxsiy hayotiga aralashish va ularning boshqalar uchun maxfiy bo‘lgan ma’lumotlarini olishga intilish kabi axloqiy mulohazalar ko‘pincha qolib, bu sohadagi tadqiqot amaliyotlarining yaxlitligi va axloqiy me’yorlari borasida tashvish uyg‘otadi (Kimmėl va Smit, 2001).

Tadbirkorlar iste’molchilar ehtiyojlari va bozor tendensiyalari bo‘yicha tushunchaga ega bo‘lishlari uchun bozor tadqiqotlaridan foydalanadilar, bu ularga o‘z mahsulotlari yoki xizmatlarini mos ravishda bozorga moslashtirishga imkon beradi (Julyanthry va boshq., 2021). Tadbirkorlikka va bozorga yo‘naltirilganlikni korxonalar o‘z tadqiqotlariga integratsiyalagan holda, innovatsiyalarni rivojlantirishlari va raqobatdosh ustunlik darajasini oshirishlari mumkin (Julyanthry va boshq., 2021). Ushbu yondashuv qaror qabul qilish va strategik tanlovlar borasida muhim ahamiyat kasb etadi (Fillis, 2000). Tadbirkorlik malakasi, o‘rganishga yo‘naltirilganlik va barqaror raqobatdosh ustunlikka erishishga oid tadqiqotlar korxona siyosatini ishlab chiqish va foyda darajasini oshirish bilan bog‘liq modellarni ishlab chiqishda yordam beradi (Sil va Coryanata, 2019). Marketing faoliyati, tadbirkorlik jarayonlari va institutsional nazariyaning o‘zaro integratsiyasi tadbirkorlikning boylik yaratishga qanday hissa qo‘shishini tushunishdagi kamchiliklarni bartaraf etadi va yangi bozor imkoniyatlarini aniqlashda muhim o‘rin tutadi (Webb & Pryor, 2015). Strategik tadbirkorlik istiqbollari, tadbirkorlik yo‘nalishini va dinamik qobiliyatlarni marketing tadqiqotlari yordamida aniqlash orqali firma faoliyatini rivojlantirishga erishish mumkin (Kim, 2018).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yozishda bibliografik usuldan faol foydalanilgan bo‘lib, bir qancha mahalliy va xorijiy olimlarning marketing tadqiqotlarini savdo korxonalari faoliyatiga joriy qilish masalalari bo‘yicha izlanishlari ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari ushbu olimlarning qarashlariga nisbatan induktiv va deduktiv usullarni ishlatgan holda mualliflik yondashuvlari keltirib o‘tilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ko‘plab maqola va adabiyotlaridan foydalangan holda marketing tadqiqotlarining foyda va zararlarini tahlil qilish orqali ular bir qancha jihatlarga ko‘ra foydali yoki zararli bo‘lishi mumkin ekan (1-jadval)

1-jadval: Marketing tadqiqotlarining turli xususiyatlarga ko‘ra afzallik va kamchiliklari

Xususiyatlari	Marketing tadqiqotlarining foydali jihatlari	Marketing tadqiqotlarining zararli jihatlari
Xarajat	Mijozlarning afzal ko‘rishi, ehtiyojlari va xatti-harakatlari bo‘yicha tushunchaga ega bo‘lishda yordam beradi	Vaqt va mablag‘ jihatdan ko‘p xarajat talab qiladi
Vaqt	Bozorda yangi imkoniyatlarni aniqlashda yordam beradi	Tez rivojlanayotgan sohalarda natijalar tez eskirishi mumkin
Aniqlik	Biznes egalariga asoslangan qarorlar qabul qilish va samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi	Loyihalash va samarali o‘tkazish uchun tajribali kadrlar talab etiladi
Xavfsizlik	Bozor talabini o‘rganish orqali mahsulot ishlab chiqarishdagi kamchiliklarning oldini oladi	Ma’lumotlarni yig‘ish usullari respondentlar shaxsiy hayotiga dahl qilishi mumkin
Ishonchlilik	Benchmarking strategiyasini qo‘llab quvvatlaydi	Ma’lumotlar tahlili turlicha xulosalarga olib kelishi mumkin
Prognoz qilish	Bozor tendensiyalari va o‘zgarishlarini kuzatish imkonini beradi	Kelajakdagi bozor konyukturasini aniq prognoz qilishda qiyinchiliklar mavjud

Manba: Muallif ishlanmasi

- **Xarajat.** Iste’molchilar ehtiyojlarini tushungan holda aniq yo‘nalishda harakat qilish, keyinchalik yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ortiqcha xarajatlarni oldini oladi, bundan tashqari bugungi kundagi raqamli dunyoda bir qancha arzon turdagi marketing tadqiqot vositalaridan foydalanish imkoni mavjud (misol uchun online tarzdagi so‘rovnomalar).

Ammo yuqori sifatli tadqiqotlarni amalga oshirish ham mablag‘ ham vaqt jihatdan kata hajmli resurslarni talab qilishi mumkin, bundan tashqari tadqiqot davomida oldindan ko‘zda tutilmagan xarajatlar yuzaga kelish holatlari ham kuzatiladi.

- **Vaqt.** Marketing tadqiqotlari o‘tkazish bozordagi o‘zgarishlarga o‘z vaqtida javob berish imkonini berib-gina qolmasdan balki resurslarni kerakli o‘rinlarga taqsimlash orqali vaqt tejashga ham yordam beradi. Bundan tashqari bozorni yetarlicha o‘rganish undagi nishalarni aniqlash bozorga tezroq kirib borish imkonini beradi. Xaridorlar xulq-atvorini tahlil qilish orqali servisni yaxshilash sodiq mijozlar sonining ortishiga xizmat qiladi. Bu esa keyinchalik vaqt jihatdan ham mablag‘ jihatdan ham ancha resurslarni tejalishiga olib keladi. Chunki mavjud mijozlarni saqlab qolish, yangilarini jalb etishdan ko‘ra 5 barobar arzonroqqa tushadi (2018).

Lekin tadqiqotlarni aniq rejalashtirish, ularni amalga oshirishi va tahlil qilish mobaynida ko‘p vaqt tala qilinishi mumkin. Shu bilan birgalikda IT yoki raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq ayrim sohalarda o‘zgarishlar tez kechganligi sababli tadqiqot natijalari tez eskirishga uchrashi mumkin. Bu borada alternativ xarajatlarni ham inobatga olish muhim hisoblanadi, chunki tadqiqotlarga vaqt sarflash o‘rniga asosiy e’tiborni shu vaqtni o‘zida mahsulotni rivojlantirish kabi boshqa muhim ishlarga ham qaratish mumkin.

- **Aniqlik.** Olingan natijalar asoslangan qarorlar qabul qilishda yordam beradi, bu esa kompaniya strategiyasiga nisbatan ishonchni yanada ortishiga sabab bo‘la oladi. Aniq ma’lumotlar o‘z navbatida resurslarni optimal tarzda taqsimlashda ham muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqotlar davomida olingan ma’lumotlarning ko‘pligi tahlil jarayonini murakkablashtirish bilan birga aniq natijalar olishda ham qiyinchiliklar yaratadi. Bundan tashqari yaxshi natijalar olinishi uchun yaxshi kadrlar xizmatidan foydalanish zarur, agar bunday qilinmasa, ma’lumotlar aniqligi ta’minlanmasligi mumkin.

- **Xavfsizlik.** Korxona bozor bo‘yicha ma’lumotlarni yetarlicha o‘rganishi birinchi navbatda uning oldida turgan risklarni aniqlash imkonini beradi bu esa o‘z navbatida kelajakda mahsulot ishlab chiqarish va sotishga doir risklarni oldini oladi, bu xavfsizlikni ta’minlagan holda biznesni rivojlantirishga sharoit yaratadi. Xavfsizlik borasida yana shuni aytish mumkinki, tadqiqotlar orqali riskni turli segment va mahsulotlar orasida taqsimlab chiqish mumkin, bu esa har bir segment va mahsulot liniyalari bilan bog‘liq risklarni minimallashtirishda yordam beradi.

Masalaning yana bir jihati shundaki, tadqiqotlar 100 foiz aniq natijalarga olib kelishi kafolatlanmagan. Aniq rejalashtirish amalga oshirilmasa, qilingan xarajatlar o‘zini oqlamasligi ham mumkin, shu bilan bir qatorda tadqiqot davomida mijozlarning fikrini o‘rganish uchun ularning shaxsiy hayotiga aralashishga to‘g‘ri keladi, bu esa ayrim olimlarning fikricha iste’molchi hayotiga dahl qilish hisoblanadi.

- **Ishonchlilik.** Marketing tadqiqotlari yordamida raqobatchilar bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ish imkoniga ega bo‘lish mumkin bu esa benchmarking strategiyasini qo‘llab quvvatlaydi, biroq katta hajmli ma’lumotlar va ularning chuqur tahlili ba’zida turlicha natijalarga olib kelishi ham mumkin.
- **Prognoz qilish.** Marketing tadqiqotlarining asosiy vazifalaridan biri kelajakdagi faoliyatni qay tarzda kechishini oldindan aniqlash hisoblanadi, biroq konyuktura dinamikasining ko‘p hollarda tez o‘zgaruvchanlikka moyilligi ushbu jarayonni ancha murakkablashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yurtimizda so‘nggi yillarda korxonalar orasida raqobat muhitining murakkablashuvi tufayli marketing tadqiqotlari o‘tkazishga nisbatan talab anchagina kuchayganiga qaramasdan bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar anchagina. Savdo korxonalarida tadqiqotlar o‘tkazilayotganiga qaramasdan, ayrim holatlarda turli marketing tadqiqot metodlaridan noto‘g‘ri foydalanish holatlari kuzatilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi savdo korxonalarida marketing tadqiqotlarini turli maqsadlarga ko‘ra kerakli darajada ishlatishga erishish orqali bir qancha yutuqlarga erishish mumkin bo‘ladi:

- savdo korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishni takomillashtirish korxona faoliyatiga ko‘pchilik holatlarda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, savdo va foyda hajmlarining oshishiga olib keladi;
- tadqiqotlarning kerakli metod va vositalarini qo‘llash orqali mijozlar bilan doimiy muloqot qilish imkoniga erishiladi bu esa iste’molchilar uchun eng optimal servis va tovarni taqdim etishda yordam beradi;
- tadqiqot o‘tkazishdan oldin vaziyat va maqsadlarni har taraflama tahlil qilish moliyaviy risklarni oldini oladi;
- tadqiqotlarning foydali hamda zararli taraflari bo‘yicha to‘liq tushunchalarga ega bo‘lish ulardan qanday vaziyatlarda samarali ravishda foydalanish mumkin yoki yo‘qligi bo‘yicha qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Smith, A., & Fletcher, R. (2019). The Role of Market Research in Business. Journal of Business Research, 45(2), 211-225.
2. Jones, C., et al. (2020). Uncovering Consumer Behavior: Insights from Market Research. Marketing Science Quarterly, 18(3), 345-361.
3. Brown, D., & Reingen, P. (2021). Beyond the Numbers: Exploring the Limitations of Market Research. Journal of Marketing Research, 28(1), 56-72.
4. Kim, Y., & Lee, S. (2018). Methodological Challenges in Market Research: Addressing Bias and Validity. Journal of Consumer Behavior, 12(4), 489-502.
5. Martijn de Jong, Rik Pieters, Jean-Paul Fox(2010) Reducing Social Desirability Bias through Item Randomized Response: An Application to Measure Underreported Desires Journal of Marketing Research
6. Shahzad, M.F., Yuan, J., Arif, F. and Waheed, A. (2024), “RETRACTED: Inside out. Social media videos and destination branding. Neuromarketing using EEG technique”, Journal of Islamic Marketing, Vol. 15 No. 3, pp. 886-918. https://doi.org/10.1108/JIMA-08-2022-0236
7. Gandolfo, A. (2021). The drawbacks of the digital transition of marketing research: implications for decision makers and the industry. International Journal of Marketing Studies, 13(3), 9. https://doi.org/10.5539/ijms.v13n3p9
8. Kimmėl, A. and Smith, N. (2001). Deception in marketing research: ethical, methodological, and disciplinary implications. Psychology and Marketing, 18(7), 663-689. https://doi.org/10.1002/mar.1025
9. Julyanthry, J., Putri, D. E., Lie, D., & Sudirman, A. (2021). Msme competitive advantages reviewed from entrepreneurship insight and market orientation aspects with innovation as a medium. Jurnal Manajemen Dan Bisnis, 10(2), 30-40. https://doi.org/10.34006/jmbi.v10i2.306
10. Fillis, I. (2000). Being creative at the marketing/entrepreneurship interface: lessons from the art industry. Journal of Research in Marketing and Entrepreneurship, 2(2), 125-137. https://doi.org/10.1108/14715200080001543
11. Webb, J. and Pryor, C. (2015). The entrepreneurship process., 1-5. https://doi.org/10.1002/9781118785317.weom030033
12. https://www.forbes.com/sites/jiawertz/2018/09/12/dont-spend-5-times-more-attracting-new-customers-nurture-the-existing-ones/?sh=67d31b695a8e

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA XIZMAT KO‘RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJ MAMLAKATLARINING TAJRIBASI

Raxmonov G‘ayrat Ismatulloyevich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada temir yo‘l transportida xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishda xorij mamlakatlarining tajribasi qalamga olingan. Muallifning e’tiroficha, xorij mamlakatlarida temir yo‘l stansiyalararo qatnovning tezkorligi va ko‘pligi tufayli xizmatlarning o‘ta hamyonbop bo‘lishini hamda ularning operatsion harajatlari uchun turli qulayliklarni ta’minlashga qaratilgan. Bu tajribani mamlakatimizda sinab ko‘rish ichki turizmni kuchayishi hamda boshqa transport xizmatlarining arzonlashuviga ta’sir qiladi.

Kalit so‘zlar: temir yo‘l, transport, xizmat ko‘rsatish, xorij tajribasi, qatnov, hamyonbop transport xizmatlar, yo‘l iqtisodiyoti.

Abstract: The article describes the experience of foreign countries in improving the efficiency of railway transport services. According to the author, in foreign countries, the railway is aimed at providing services that are very affordable due to the speed and frequency of inter-station transportation and various conveniences for their operating costs. Testing this experience in our country will increase domestic tourism and lower the cost of other transport services.

Key words: railway, transport, service, foreign experience, commuting, affordable transport services, road economy.

Аннотация: В статье описан опыт зарубежных стран по повышению эффективности услуг железнодорожного транспорта. По мнению автора, в зарубежных странах железная дорога направлена на предоставление услуг, весьма доступных за счет скорости и частоты межстанционных перевозок и различных удобств за стоимость их эксплуатации. Апробация этого опыта в нашей стране позволит увеличить внутренний туризм и снизить стоимость других транспортных услуг.

Ключевые слова: железная дорога, транспорт, сервис, зарубежный опыт, коммутация, доступные транспортные услуги, дорожное хозяйство.

KIRISH

Temir yo‘llar quruqlikdagi transportning boshqa turlaridan o‘z vaqtida va ommaviy yuqori tezlikda tashish bo‘yicha sezilarli darajada ustundir va ko‘pincha energiya samaradorligi, atrof-muhitga ta’siri va boshqa jihatlari bo‘yicha ustunligini namoyish etadi. Bundan tashqari, kundalik hayotda, masalan, ish va maktabga borish kabi keng qo‘llaniladigan va mintaqaviy rivojlanish kabi katta tashqi iqtisodiy ta’sirga ega bo‘lgan xususiyatlardan tashkil topgan transport vositasi bo‘lib, uning asosi sifatida muhim rol o‘ynaydi. Iqtisodiy jamiyat va odamlar hayoti jamiyat ehtiyojlarini qondiradigan ijtimoiy kapitaldir [1].

Bunday xususiyatlarga ega temir yo‘llar so‘nggi yillardagi ijtimoiy o‘zgarishlar, masalan, islohotga muhtoj jamiyat va aholining atrof-muhit muammolari haqida xabardorligining oshishi sharoitida jamoat transportining tayanchi sifatida ortib borayotgan jihatlarni jalb qilmoqda. Biroq, so‘nggi yillarda yo‘lovchi temir yo‘li biznes muhitiga qarab, biz talabning sezilarli darajada oshishini kuzatish mumkin bo‘lib, temir yo‘l qurilishi xarajatlari ortib borayotgani, yer olish bilan bog‘liq murakkabliklar va qurilish muddatlari uzoq vaqt talab etishi noqulayliklar keltirib chiqaradi [2].

Temir yo‘l operatorlari uchun temir yo‘lni rivojlantirishga sarmoya kiritish uchun imtiyozlar tobora past bo‘lib bormoqda. Bundan tashqari, yo‘lovchi temir yo‘l biznesi o‘ziga xos tarzda kuchli mintaqaviy eksklyuzivlik bilan ajralib turadi va shunday hududlar va tarmoqlar mavjudki, ularda raqobat tamoyilini amalga oshirish qiyin, bozor tamoyillari asosida qulayliklarni yaxshilash orqali biznesni jonlantirish undandan murakkab.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhlash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Temir yo‘l xizmati iqtisodiyoti va atrof-muhitning xususiyatlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yo‘lovchi temir yo‘l iqtisodiyotini jonlantirish orqali foydalanuvchi tajribasini yaxshilash kabi so‘nggi tartibga solish choralarining kutilgan natijalari to‘liq amalga oshishini ko‘rish qiyin [2].

Hind iqtisodchi olimlar Varali Pitavan va Kamonchok Sutivartnaruyeputlarning fikriga ko‘ra “temir yo‘l xizmatiga ta’sir etuvchi omillar har bir tadqiqotdagi kontekst va vositalar tadqiqot loyihalarida bir xil emas. Tarmoqning infratuzilmasini barqarorligini ta’minlovchi loyihalari qamrovida tadqiqotlar izchil olib borilgan o‘tkazilgan bo‘lishiga qaramasdan, hech qaysi olim ularni mujassamlashtirgan holda ilmiy kontekstda alohida tizimlashtirmagan” [6].


Temir yo‘l xizmatining temir yo‘l transportlar klassifikatsiyasining funksional maqsadga yo‘naltirilganligi asosida olib boriladi. Ba’zi temir yo‘l transportlari ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotlari assortimentini ko‘paytirshiga intilishganlaridek, mazkur sohada ham xizmat ko‘rsatishning muvofiqligini ta’minlash uchun xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan temir yo‘l transportining asosiy boshqaruv qismlari va tarkibi turlarini o‘rganish talab etiladi.

“Temir yo‘l transpotrida xizmat ko‘rsatish” deganda Yevropa mamlakatlari temir yo‘l orqali yuk tashishni hamda uning logistikasini tushunadi. Biroq, temir yo‘l transportlarida xizmat ko‘rsatish uchun faqatgina tashish emas, balki sifatli va qulay tashishga urg‘u bergan holda rivojlantirilishini, shu bilan bir qatorda u orqali va unga doir xizmatlarni ham mutanosib ravishda o‘zgartirishiga to‘g‘ri kelishi kuzatiladi [3].

Temir yo‘l transportida xizmat ko‘rsatish undagi vositalarning qamrovi bilan belgilanadi, shunga ko‘ra ularning asosiy vositalari lokomotiv, yo‘lovchi vagonlar, vagonlar, temir yo‘l vagonlari hamda poezdlar tarkibiga ajratiladi. Ularning xizmat ko‘rsatish yuzasidan ahamiyati va iqtisodiy faoliyatni boshqarishdagi o‘rni yuzasidan tasnifi mazkur tarmoq iqtisodchi olimlaridan ajratilmagan bo‘lib, tadqiqot ishi doirasida temir yo‘l transportida xizmat ko‘rsatish vositalarining iqtisodiy xususiyatlari tasnifini amalga oshirishni ilgari surdik.

Shuning uchun, o‘rta va uzoq muddatli nuqtai nazarni tadqiq etgan holda, yangi ijtimoiy ehtiyojlarga javob berish, temir yo‘l operatorlari va hukumat tomonidan ma’lumotlarni oshkor qilish va foydalanuvchilarning ovozlarini to‘g‘ri tushunishga yordam berish uchun mavjud tizimdan xorij tajribasiga yuzalanamiz.

Temir yo‘lni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni keng ko‘lamli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish zarurati jahon iqtisodiy forumlarda muhokamalarni davom ettirish, ularda bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olish, so‘ngra ularni jonlantirish ustida izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Bundan ko‘zlangan maqsadni izohlaganda, temir yo‘lni rivojlantirishga ko‘maklashish chora-tadbirlariga oid muammoli mulohazalarni tizimlashtirib, jahon mamlakatlarining qo‘llagan chora-tadbirlarini o‘rganish orqali modellarni ishlab chiqish uchun imkoniyatlarni kengaytirish mumkin.



1.1-rasm: Dunyodagi eng yaxshi sharoitga ega temir yo‘l transportlari, 2023-y[1]

1 https://www.noticiasdegipuzkoa.eus/economia/2012/10/10/espana-diez-paises-mundo-mejor-4359449.html

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Shveytsariya temir yo‘l transporti uchun eng yaxshi sharoitlarga ega bo‘lgan birinchi o‘ntalikka kirgan bo‘lsa, Yaponiya va Gonkong mos ravishda ikkinchi va uchinchi o‘rinlarni egallab, yuqori shohsupani egallashga muvofaq bo‘lgan. Fransiya to‘rtinchi, Singapur beshinchi, keyingisini Finlyandiya va yettinchi o‘rinda Germaniyani ortda qoldirdi. Ispaniya sakkizinchi o‘rindan keyin to‘qqizinchi va o‘ninchi o‘rinlarda birinchi o‘nlikni Gollandiya va Koreya yakunlaydi [5].

Shveytsariyaning temir yo‘l tizimini o‘rganish davomida barcha ustunliklardan unumli foydalanganligini e’tirof etish mumkin. Uning keng ko‘lamli barcha mamlakatlarga yaqin joylashuvi temir yo‘ldan foydalanish darajasini o‘ta yuqori pog‘onaga chiqishiga sabab bo‘lgan. Mazkur mamlakatda har yarim soatda poyezd qatnovi tashkil etilgan bo‘lib, dunyodagi jamoat transporti sifatida eng yirik temir yo‘l infratuzilmasiga ega sanaladi. Mamlakatda jami 28 000ta temir yo‘l stantsiyalari mavjud bo‘lib, ular orasidagi masofa bir necha soatni daqiqani tashkil etadi. Shveytsariyada ma’lum bir poyezddan qolib ketish bilan bog‘liq muammo mavjud emas, u yerda yo‘llar kesishmasi yuzasidan istalgan manzilga yetib boorish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu qulaylik shaharlaro tizimda ham yo‘lga qo‘yilgan [11]. Chiptalarni esa, xarid qilish bilan bog‘liq muammo deyarli mavjud emas, deyarli 70% aholi chiptalarni raqamli tarzda xaridni amalga oshirib sayohat qiladi. Mazkur mamlakatda temir yo‘l operatorlari asosan 4 ta mamlakatning serqatnovligini boshqarishadi, Shveytsariya- SBB/CFF, Germaniyaning tezyurar poyezdlari -ICE, Fransiyaning tezyurar poyezdi TVG hamda AVstriyaga tegishli tezyurar RailJet singari kompaniyalarni qat’iy jadval asosida yo‘naltirib turadilar.

Temir yo‘l transportining xizmati yuzasidan birinchilkda turgan Shveytrasiyaning asosiy muvafaqqiyati xalqaro mamalaktlarga qatnovning o‘ta yuqori mashhurligi bilan ajralib turadi, jumladan, Myunxen, Avstriya, Italiyaning nufuzli va tarixiy joylariga borishda o‘ta qulay marshrutiga ega bo‘lib, valyutaning qo‘llanilishi bilan bog‘liq muammo mavjud emas. Shuningdek, stanstiyalarda yo‘lovchilarning adashib qolishlari ehtimoli o‘ta past bo‘lib, bunda temir yo‘l kompaniyasining hodimlari deyarli har qadamda yo‘naltirib turishadi.

Mazkur mamlakatda xususiy tezyurar poyezdlar xizmatlari mavjud bo‘lib, uning yo‘lovchisi sifatida barcha yoshga doir qulayliklar yaratilgan. Jumladan, qariyalar uchun yumshoq o‘rindiqlar hamda mahsus magnitli hassalar beriladi, yosh bolalar ucuhn qatnov davomida mazmunli sayohat qilishlari uchun turli xil o‘yinchoqlar beriladi. Chekish uchun alohida vagon tashkil etilgan bo‘lib u vagonning havosi muntazam yelvizak qilinib turiladi. Shuningdek, deylik manzilga yetadigan chipta olmagan bo‘lsangiz, manzilingizga qadar uzaytirgan holda chiptani poyezdning Ichida olishingiz mumkin. Eng qulayligi shundaki, poyezdlarda pul yeshish apparatlari hamda kode apparatlari mavjud. Bu esa, o‘z navbatida poyezdda yerda yurgandek xizmatlardan foydlaanishingiz mumkin deganidir. Albatta bu kabi qulayliklar mazkur mamlakatning temir yo‘l transporti xizmatini birinchilikda o‘rin egallashini hamda uning samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Yaponiya qudratli mamlakat, iqtisodiy barqaror hamda doimiy rivojlanishni e’tibor ostidan qochirmaydigan yurtdir. Unda temir yo‘l orqali yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishning ustunligi temir yo‘l transportining o‘ta yuqori tezlikda harakat qilishiga erishilganligidir. Yaponiyaning 43% aholisi orasi 300 km bo‘lgan masofadagi hududda ish joyiga ega holda qatnovning intensivligiga ta’sir qiladilar [7]. Shuningdek, bunda Yaponiyaning tezyurar poyezdlarining hamyonbopligi va vaqt jihatdan uzoqni yaqin qilishi xizmatning hayotiylik siklining yuqoriligini tavsiflaydi.

Temir yo‘l islohoti modelining samaradorligi ma’lum bir davlatda temir yo‘l transportining ishlash sharoitlariga bog‘liq. Jahonda yuk aylanmasining 80% dan ortig‘i va temir yo‘l orqali yo‘lovchi tashishning 50% dan ortig‘i infratuzilmasi va transport faoliyati integratsiyalashgan temir yo‘llar hisobiga amalga oshirilayotganini eslash o‘rinlidir. Temir yo‘l transporti samaradorligini oshirish muammolarini hal qilib, ayrim mamlakatlar uni isloh qilishning o‘ta radikal yo‘li - xususiylashtirish yo‘liga o‘tdi [9].

Buyuk Britaniya temir yo‘l islohoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, hukumatning sanoatni xususiylashtirish va infratuzilmani (Railtrackni shakllantirish) Britaniya temir yo‘llaridagi operatsiyalardan (70 dan ortiq alohida tijorat kompaniyalarini yaratish) ajratishdagi dastlabki maqsadlari ekspluatatsiya samaradorligini oshirish, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va umuman olganda xavfsizlikni yaxshilashga erishilmadi, garchi ular islohotning sezilarli ijobiy oraliq natijalarini berdi: sanoatning moliyaviy ko‘rsatkichlari keskin yaxshilandi; davlat byudjeti to‘ldirildi; infratuzilmaga sezilarli kapital qo‘yilmalar paydo bo‘ldi [8].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Britaniyaning temir yo‘l tarmog‘iga sarmoya kiritish xususiylashtirish va aksiyalarni sotishdan tushadigan mablag‘lar va xususiy sektor kreditlarisiz amalga oshirilmaydi. Islohotlar dasturi amalga oshirilgach, bozor ulushi va transport hajmi o‘sishni boshladi, mehnat unumdorligi ikki baravar oshdi. Biroq, umuman olganda, islohotlarning muvaffaqiyatsiz natijalari hukumatni temir yo‘l transportini davlat nazoratiga qaytarishga majbur qildi.

XULOSA

Soha iqtisodiyoti imkoniyatlari tahlil etilgan mamlakatlarning temir yo‘l stantsiyalararo qatnovning tezkorligi va ko‘pligi tufayli xizmatlarning o‘ta hamyonbop bo‘lishini hamda ularning operatsion harajatlari uchun turli

qulayliklarni ta’minlashga qaratilgan. Bu tajribani mamlakatimizda sinab ko‘rish ichki turizmni kuchayishi hamda boshqa transport xizmatlarining arzonlashuviga ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekistonda xalqaro turizm va temir yo‘l infratuzilmasining istiqbollari. Xalqaro forum. Jizzax. 2018-yil, 29–30-avgust.
2. Jo‘raboyev N.Yu. O‘zbekiston transport-yo‘l tizimidagi islohotlar. //TAYI Xabarnomasi. 2016. 2–3 son, 124-bet.
3. Zhang, L., Hua, X.: Evaluating efficiency of railway transportation based on cross-efficiency evaluation method and relative entropy evaluation method in China. IET Intell. Transp. Syst. 17, 2410–2418 (2023).
4. Liang, Z.J., Lei, L.: Research on input-output efficiency evaluation of China railway freight cars based on two-stage network DEA model. Railway Transp. Econ. 43(9), 13–18 (2021)
5. Laura Eboli, Yanbing Fu, Gabriella Mazzulla, Multilevel Comprehensive Evaluation of the Railway Service Quality, Procedia Engineering, Volume 137, 2016, Pages 21-30, ISSN 1877-7058
6. Waralee Peetawan, Kamonchanok Suthiwartnarueput, Identifying factors affecting the success of rail infrastructure development projects contributing to a logistics platform: A Thailand case study, Kasetsart Journal of Social Sciences, Volume 39, Issue 2, 2018, Pages 320-327, ISSN 2452-3151,
7. https://www.noticiasdegipuzkoa.eus/economia/2012/10/10/espana-diez-paises-mundo-mejor-4359449.html
8. Пенязь И.М. Опыт регулирования железных дорог Великобритании: итоги приватизации и ренационализации железных дорог Великобритании, негативные и положительные моменты // Транспорт: наука, техника, управление. 2012. №11.
9. Динамика корпоративного развития/В.Ж. Дубровский, О.А. Романова, А.И.Татаркин, И.Н.Ткаченко. М. : Наука, 2004
10. Горбунов А.А. Опыт политики развития зарубежных железнодорожных транспортных коммуникаций для современной России. М., 2008.
11. Кириллова А.Г. Опыт реформирования рынка железнодорожных перевозок в Швеции // Тарифы. 2012. №4.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



KATTA MA'LUMOTLAR (BIGDATA) DAVRIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNI TAHLIL QILISH

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich
PhD, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Umarova Go'zal Sabirovna
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
"Davlat moliyasi va xalqaro moliya" mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Katta ma'lumotlar davrida ma'lumotlarning asosiy roli tobora kuchayib bormoqda: raqamli texnologiyalar, tovarlar va xizmatlarni raqamlashtirish nafaqat ko'p yo'nalishli, ko'p bosqichli va ko'p zanjirli an'anaviy tarmoqlarga, balki sanoat tarmoqlariga kirib borishni tezlashtirmoqda. Raqamlashtirish, shuningdek, raqamli sanoat zanjirlari va sanoat klasterlarining uzluksiz rivojlanishi va o'sishiga yordam beradi. Katta ma'lumotlar bilan bog'liq texnologiyalar va ilovalar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochadi, jumladan, BigData, bulutli hisoblash, ashyolar interneti, sun'iy intellekt va 5G aloqasi kabi rivojlanayotgan texnologiyalar.

Kalit so'zlar: Raqamli katta ma'lumotlar, raqamli iqtisodiyot, kompleks rivojlanish, sun'iy intellekt.

Abstract: In the era of big data, the central role of information is becoming increasingly stronger: digital technologies, digitalization of goods and services accelerate the penetration of not only multi-directional, multi-level and multi-chain traditional networks, but also industrial networks. Digitalization also promotes the continuous development and growth of digital industrial chains and industrial clusters. Big data technologies and applications bring enormous opportunities for the development of the digital economy, including new technologies such as BigData, cloud computing, the Internet of Things, artificial intelligence and 5G communications.

Key words: Digital big data, digital economy, comprehensive development, artificial intelligence.

Аннотация: В эпоху больших данных основная роль информации становится все сильнее: цифровые технологии, оцифровка товаров и услуг ускоряют проникновение не только разнонаправленных, многоуровневых и многоцепочечных традиционных сетей, но и промышленных сетей. Цифровизация также способствует постоянному развитию и росту цифровых производственных цепочек и промышленных кластеров. Технологии и приложения, связанные с большими данными, открывают огромные возможности для развития цифровой экономики, включая новые технологии, такие как BigData, облачные вычисления, Интернет вещей, искусственный интеллект и связь 5G.

Ключевые слова: Цифровые большие данные, цифровая экономика, комплексное развитие, искусственный интеллект.

Raqamli iqtisodiyot keng ma'noga ega bo'lgan tushuncha sifatida resurslarni boshqarish va samaradorlikni rivojlantirishga ko'maklashish uchun ma'lumotlardan bevosita yoki bilvosita foydalanadigan har qanday iqtisodiy shaklga kiritilishi mumkin. Ma'lumotlar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun asosiy ishlab chiqarish omilidir. Internetdagi katta ma'lumotlarni aniqlash va skrining orqali uni foydalanishga topshirish mumkin. Zamonaviy tarmoq aloqa texnologiyasini asosiy harakatlantiruvchi kuchi va zamonaviy axborot tarmog'i texnologiyasini muhim tashuvchi sifatida resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi va ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi. Resurslarni har tomonlama optimallashtirish va taqsimlash, iqtisodiyotni yuqori sifatli rivojlanishga aylantirish kabi bir qator iqtisodiy tadbirlarni amalga oshiradi.

Raqamli iqtisodiyotning xususiyatlari

A. Ma’lumotlar yangi asosiy ishlab chiqarish omiliga aylanadi.

Ishlab chiqarish ijtimoiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy resurslar ishlab chiqarish omillari, deb ataladi. Porterning ishlab chiqarish omili nazariyasiga asoslanib, raqamli iqtisodiyot davrida ma’lumotlar yuqori darajadagi ishlab chiqarish omili sifatida ashyolar Interneti va Internetning jadal rivojlanishiga o‘chmas hissa qo‘shdi. Ma’lumotlar har yili 50% ga oshadi va har ikki yilda ikki barobar ortadi. Ma’lumotlarning bunday yirik o‘sishi katta salohiyat va energiyani o‘z ichiga oladi. Axborot texnologiyalari ifodalangan yuqori va yangi texnologiyalar jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda, ilmiy-texnikaviy innovatsiyalar darajasi rivojlanmoqda, jahon iqtisodiyoti va insoniyat jamiyati esa hozirgi kunda chuqur qayta qurish jarayonini boshdan kechirmoqda.

B. Raqamli iqtisodiyot innovatsiyalari uchun faol harakatlantiruvchi kuch.

Raqamli iqtisodiyot asosiy ishlab chiqarish omili sifatida ma’lumotlar faol innovatsiyalar kiritildi va turli sohalarda to‘liq foydalanildi, ijtimoiy taraqqiyot va odamlar hayotining barcha jabhalarida o‘z aksini topdi hamda inson bilimi va iqtisodiy rivojlanish maydonini kengaytirdi. So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning integratsiyalashuvi, jumladan, katta ma’lumotlar, bulutli hisoblash va ashyolar Interneti innovatsiyalar uchun muhim omil bo‘ldi. Virtual reallik, sun’iy intellekt va boshqalar texnologiyalar taraqqiyotini tezlashtirdi. Bundan tashqari biologiya, ishlab chiqarish va energetika sohalarida raqamli iqtisodiyotning yaqinlashuvi ko‘p sinfli guruhlarning sanoat konvergentsiyasini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Raqamli iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish omili sifatida ma’lumotlar Internet va ashyolar Internetining rivojlanishiga tayanib, raqamli iqtisodiyot va an’anaviy iqtisodiyotni integratsiyalashuvi orqali eski va yangi energiyani konvertatsiya qilishni amalga oshiradi va ishlab chiqarishni yaxshilash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanadi. An’anaviy tarmoqlar zanjiri, iqtisodiy tuzilmani optimallashtirish uchun turli ishlab chiqarish omillari o‘rtasida resurslarni taqsimlash samaradorligini oshiradi [1].

C. Platformatsiya va ekologiyani asrash sanoat tashkilotlarining asosiy belgilariga aylandi.

Raqamli ma’lumotlar iqtisodiyotining kelajagi va o‘ziga xos rivojlanish yo‘nalishiga bir kunda erishib bo‘lmaydi, lekin biz an’anaviy raqamli ma’lumotlar iqtisodiyotiga mavjud texnologiyalarni integratsiyalashuvi asosida an’anaviy ma’lumotlar iqtisodini muammosiz o‘tkazamiz va samarali o‘zgartiramiz.


Iqtisodiyot sanoati, bozor talabining samarali tahlilini mustahkam asos sifatida qabul qiling va “miqdoriy o‘zgarish”dan bosqichma-bosqich o‘tishni haqiqatan ham amalga oshirish uchun yanada boy ma’lumotlarni qo‘llash xizmati senariylarini yarating. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi an’anaviy iqtisodiyot va barqaror o‘zgarishlarni bosqichma-bosqich amalga oshiring. Platforma shakli sanoat tashkilotlarini chiziqli raqobatdan ekologik g‘alaba qozonishga o‘tishga undaydi. An’anaviy iqtisodiyotdan farqli o‘laroq, platformada qiymat yaratish endi raqobatni ta’minlamaydi, balki mahsulot va xizmatlarni integratsiyalash va birgalikda yangi qiymat yaratish orqali o‘zgaruvchan tashqi muhitga dosh berish va biznes hamkorligi va munosib raqobatni rivojlantirishga yordam beradi. Bu, shuningdek, platformaning mohiyati g‘alaba qozongan hamkorlik va g‘alaba qozongan natijalarga erishishdan iboratligini ko‘rsatadi Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yirik kompaniyalar platforma strategiyasini keng qo‘llaydilar va platforma ekotizimini yaratish, platformani yuqori iqtisodiy foyda olish uchun platformaning jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshiradi.

Raqamli transformatsiyada katta ma’lumotlarning roli

Korxonalar har doim o‘z faoliyatini yaxshilash va raqobatchilardan oldinda bo‘lish yo‘llarini izlaydilar. Shuning uchun ma’lumotlar kelajakni o‘zgartirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Katta hajmi, tezligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadigan Big Data raqamli transformatsiya tashabbuslarida birinchi o‘rinda turadi.

Walmart ta’minot zanjiri boshqaruvini optimallashtirish uchun katta ma’lumotlardan foydalanadigan kompaniyaning ajoyib namunasidir. Mijoz ma’lumotlarini, ob-havo sharoitlarini va boshqa omillarni tahlil qilish orqali Walmart o‘z inventarlarini yaxshiroq boshqarishga, chiqindilarni kamaytirishga va foydasini oshirishga muvaffaq bo‘ldi. Kompaniya katta ma’lumotlar tahlilidan foydalanish tufayli sotuvlar hajmi 10% ga oshgani haqida xabar berdi.

Bu katta ma’lumotlarning biznesni tarmoqlar bo‘ylab qanday o‘zgartirayotganiga bir misol. Gartner tadqiqotiga bir nazar tashlang. Tahlil gigantining ta’kidlashicha, 2024-yil oxiriga kelib yirik korxonalarning 50% dan ortig‘i 2020-yilda 5% dan kam bo‘lsa, ma’lumotlarga “qoyil qoladigan” madaniyatni institutsionalizatsiya qiladi. Odamlarning hayotini osonlashtiradi, lekin ishlab chiqaruvchilarning hayotini qiyinlashtiradi. Chunki IoT kengayishi ma’lumotlar hajmining eksponentsial o‘sishiga olib keldi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, raqamli olam atigi 2 yil ichida 175 zettabaytgacha o‘sadi, ma’lumotlar yiliga 40-50% atrofida o‘sadi. Shuning uchun faqat ma’lumotlarni yig‘ish yetarli emas. Kompaniyalar ushbu ma’lumotlarni tahlil qilish va ulardan mazmunli tushunchalarni olishlari ularning raqamli davrda muvaffaqiyatini belgilaydi.



1-rasm: Aholi soni o‘sishda davom etmoqda va ma’lumotlar miqdori ham o‘sib bormoqda

Raqamli transformatsiya ma’lumotlari tahlilidan foydalanish orqali korxonalar jarayonlarni avtomatlashtirishi, qarorlar qabul qilishni yaxshilashi va yangi biznes modellarini yaratishi mumkin. Shuning uchun bu komponent DT uchun juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda raqamli iqtisodiyotda katta ma’lumotlardan foydalanish rivojlanishining yangi o‘sish nuqtasiga aylandi. Ushbu maqola raqamli transformatsiyada katta ma’lumotlarning rolini yoritib beradi va raqamli iqtisodiyotni to‘rt jihatdan: qaror qabul qilish darajasi, texnologiya darajasi, qurilish darajasi va ulanish darajasi bo‘yicha rivojlanish uchun katta ma’lumotlardan foydalanish haqida tahliliy fikrlarni o‘rtaga tashlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fan Xiaoli, Li Qiufang. The impact of the digital economy on the transformation and upgrading of industrial structure: an empirical analysis based on China’s provincial panel data [J]. Modern Management Science. 2021, (07): 108-120.
2. Zhou Xiaoliang, Bao Zhe. Does the development of the digital economy have a squeezing effect on the real economy? [J]. Economic system reform. 2021, (05): 180-186.
3. Yuan Chun, Xiao Tusheng, Geng Chunxiao, Sheng Y. Digital transformation and enterprise division of labor: specialization or vertical integration [J]. China Industrial Economy. 2021, (09): 137-155.
4. Du Qinghao. The generation logic and main path of digital industrialization and industrial digitalization [J]. Economic system reform. 2021, (05): 85-91.
5. Hu Fangzhi. Digital Economy, New Employment Forms and Labor Market Reform [J]. Learning and Practice. 2021, (10): 71-77.
6. Yang Dong, Zhang Yuting, Hu Dengfeng. Research on digital economy empowering high-quality development path–Based on the configuration analysis of integrated central cities in the Yangtze River Delta[J]. East China Economic Management. 2021,35(10): 39-47.

INVESTITSIYA LOYIHALARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI



Isakov J. Ya.
TDIU professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada investitsiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishning afzalliklari hamda uni rivojlantirish istiqbollarini takomillashtirish haqida co‘z boradi. Shuningdek, mamlakatimizda investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: investor, portfel investitsiya, qimmatli qog‘ozlar, aksiya, korporativ qimmatli qog‘ozlar, obligatsiyalar, moliya bozori, moliyalashtirish usullari.

Abstract: This article will discuss the advantages of improving the mechanism of state support for attracting investments, as well as improving the prospects for its development. The existing problems in the prospects for the development of investment attraction in our country, as well as the author’s approaches and proposals for their elimination are also presented.

Key words: investor, portfolio investments, securities, stock market, corporate securities, bonds, financial market, financing methods.

Аннотация: В данной статье пойдет речь о преимуществах совершенствования механизма государственной поддержки привлечения инвестиций, а также об улучшении перспектив его развития. Также представлены существующие проблемы в перспективах развития привлечения инвестиций в нашей стране, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: инвестор, портфельные инвестиции, ценные бумаги, фондовый рынок, корпоративные ценные бумаги, облигации, финансовый рынок, методы финансирования.

KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatimizda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish, xorijiy investorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda investitsiyalar jalb qilishni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash mexanizmini takomillashtirish hukumatning eng muhim vazifalaridan birib bo‘lib qolmoqda. Xususan, investitsiya loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish davlat, korxona va tashkilotlar hamda butun iqtisodiyot tarmoqlarining muhim vazifalaridan biridir. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish va barqarorligini ta’minlashda investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalar beqiyos o‘rin tutadi. Aytish mumkinki, investitsiyalar iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan birga kelgusida investitsiyalash manbalarini yaratish hamda yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish uchun ham xizmat qiladi. Shunday ekan ushbu masalaga jiddiy e’tibor qaratish naqadar muhim ekanligini mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ham o‘z ma’ruzalarida alohida ta’kidlab o‘tgan edilar: “... iqtisodiyot o‘sishining yuqori sur’atlari va investitsiya resurslariga o‘sib borayotgan talabni qanoatlantirish bir-biriga muvofiq emas”[1].

Xususan, investitsiya jarayonlarini rivojlantirish, ularni moliyaviy ta’minlashni hamda investitsiyalar jalb qilishni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash mexanizmlarini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

1 Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. // uza.uz. 16.01.2017.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda, investitsiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishning borasida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan hamda tadqiq etilgan. Xususan, Belgiyalik olim Xilbern Boys ning fikricha, "Katta iqtisodiy, mineral xomashyo va inson salohiyatiga ega bo'lgan O'zbekiston xorijiy sarmoyadorlarni, avvalo, mamlakatdagi barqaror siyosiy vaziyat bilan o'ziga jalb etadi. Ushbu mamlakatda tadbiq etilayotgan barcha yangilanishlar respublikani yanada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va gullab-yashnashiga kafolat bo'ladi"[2].

Ya.S. Melkumov ishlab chiqarish va tadbirkorlikni rivojlantirishda foyda olish maqsadida investitsiyalarni moliyalashtirishda moliyaviy, mulkiy va intellektual qo'yilmalardan samarli foydalanishni tahlil qilgan[3]. Muallif bu yerda investitsiyalarni daromad manbai sifatida o'rganib, investitsiya faoliyatining turlarini ko'rsatib bergan. Bu yerda bahsga sabab bo'layotgan holat investitsiya obyektlarining turlari. Bu haqda boshqa ilmiy ishlarimizda fikr yuritilgan.

S.V. Valdaysev va P.P. Vorobev tomonidan chop etilgan darslikda ijtimoiy sohani investitsiyalashda moliyalashtirish manbalari tahlil qilinadi. Ijtimoiy daromad olish jarayonlariga sarflangan pul mablag'lari kelajakda yanada yuqoriroq daromad yoki ijtimoiy samara topishdan iborat degan xulosaga kelinadi[4]. Bu yerda mualliflar investitsiyalarni ijtimoiy sohalarga yunaltirish bu real investitsiyalarga nisbatan kattaroq foyda keltirish manbai ekanligini uqtirmoqchi bo'layapti. To'g'ri, misol uchun ta'limga qilingan investitsiya xuddi shunga misol bo'la oladi.

V.Berens, P.Xavranekslarning fikricha, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda investitsion loyihalarning samaradorligini baholashga asoslangan, ularni o'zaro taqqoslay oladigan usullar keng qo'llaniladi. Mazkur va boshqalar o'z ilmiy asarlarida investitsiya loyihalari samaradorligini quyidagicha izohlaganlar: "Investitsiya loyihalarining samaradorligi - loyihaning uning ishtirokchilarini maqsadi va qiziqishlariga muvofiqligini ko'rsatib beruvchi kategoriya hisoblanadi". Shunga ko'ra, loyihaning samaradorligini butunligicha baholash, shuningdek loyihada qatnashuvchi har bir ishtirokchining samarasini aniqlash talab etiladi[5].

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mintaqalarni kompleks rivojlantirish bo'yicha investitsiyalardan samarali foydalanish va investitsiya dasturlarini puxta ishlab chiqish yuzasidan tarkibiy islohotlar amalga oshirilmoqda. O'z navbatida mintaqalar o'rtasidagi ijtimoiy-tafovutni yumshatish, ular iqtisodiyotiga mahalliy tadbirkorlar mablag'lari, aholi jamg'armalari va chet el investitsiyalarini faol jalb qilish iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan[6]. Shu sababli mintaqalarda mavjud salohiyatlardan samarali foydalanish asosida mintaqa iqtisodiyoti barqaror o'sishini ta'minlash, hududlar iqtisodiy salohiyatini hamda ishlab chiqarish va investitsiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini aniqlash muhimdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy mamlakatlarda investitsiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buguni kunda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etish, hududlarda, ayniqsa, mahallalarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yanada rivojlantirish, shuningdek, aholining turmush darajasini oshirish hamda tadbirkorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish yuzasidan jadal ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan obyektlarni loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash ishlarining manzilli ro'yxatlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda olib borilmoqda. Konsolidatsiyalashgan budjet mablag'lari va boshqa markazlashgan manbalar hisobidan moliyalashtirish manbai aniq bo'lmagan, loyiha (loyihaoldi) hujjatlari mavjud bo'lmagan (yoki loyiha

2 Xilbern Boys O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. №3/2011 y. -19 b
3 Мелкумов Я.С. Инвестиций. Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2003. – С.8.
4 Инвестиции: Учебник /С.В.Валдайцев, П.П. Воробьев и др.; Под ред. В.В. Ковалева, В.В. Иванова, В.А. Лялина. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2003. С.17
5 Беренс В., Хавранек П., Руководство по подготовке промышленных технико-экономических исследований. М.: Интерэксперт, 1995. 343 с.
6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60 sonli Farmoni.

hujjatlari parallel ravishda ishlab chiqilayotgan) hamda pudrat (loyiha) tashkilotlari tanlov (tender) o‘tkazilmasdan tanlab olingan loyihalarga (obyektlarga) xarajatlar amalga oshirilmasligi belgilab qo‘yilgan.

Mamlakat iqtisodiyotiga sarmoya kiritishning jozibadorligi va maqsadga muvofiqligini belgilaydigan va tavakkalchilik darajasini pasaytirishga yordam beradigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy va huquqiy, tabiy va boshqa shart-sharoitlar to‘plami mamlakatda yaratilgan investitsiya muhitining rivojlanganligi qay darajada ekanligidan dalolat beradi. Yuqoridagi holatlarni e’tiborga olgan holda, Prezidentimiz tomonidan 2020-yil 28-dekabrdagi “O‘zbekiston Pespublikasining 2021–2023-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” 4937-sonli qarori qabul qilindi.

1-jadval: 2023-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy parametrlari hamda 2024-2025 yillar uchun maqsadli mo‘ljallar, mlrd. so‘m[7]

№	Mablag‘lardan foydalanish yo‘nalishlari	2023–2025-yillar, reja	shu jumladan:		
			2023-yil reja	2024-yil	2025-yil
	Jami	**55 833,0**	**15 520,0**	**18 424,5**	**21 888,6**
I	Ijtimoiy sohalar	19 413,3	5 370,0	6 399,0	7 644,3
II	Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari	4 690,1	1 300,0	1 547,5	1 842,6
III	Yo‘l-transport infratuzilmasi	8 252,3	2 280,0	2 722,0	3 250,3
IV	Irrigatsiya va melioratsiya	4 167,0	1 200,0	1 380,0	1 587,0
V	Maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari hamda yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlash	4 514,3	1300,0	1 495,0	1 719,3
VI	Hududiy, muhandislik-infratuzilma, shuningdek alohida muhim va toifalangan obyektlarni qurish hamda rekonstruksiya qilish	4 901,4	1 192,9	1 601,9	2 106,6
VII	Boshqa yo‘nalishlar, shu jumladan:	6 501,7	1 900,0	2 155,5	2 446,3
1.	Yopiq qism	4 545,5	1 309,0	1 505,4	1 731,2
2.	Mudofaa va huquqni muhofaza qiluvchi organlar	1 956,2	591,0	650,1	715,1
VIII	Turizm obyektlari atrofidagi yer maydonlari, suv va yo‘l infratuzilmalarini yaxshilash	972,3	280,0	322,0	370,3
IX	“Yangi O‘zbekiston” massivlarida barpo etiladigan infratuzilma obyektlari uchun	2 420,6	697,1	801,6	921,9

Keltirilgan jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, mazkur yillar davomida mablag‘lardan foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha jami rejaga asosan 55 833,0 mlrd. so‘m ajratilishi rejalashtirilgan. Bunda asosiy o‘rinni ijtimoiy sohalarga 19 413,3 mlrd. so‘m, keyingi o‘rinda yo‘l-transport infratuzilmasi uchun 8 252,3 mlrd. so‘m hamda hududiy, muhandislik-infratuzilma, shuningdek alohida muhim va toifalangan obyektlarni qurish hamda rekonstruksiya qilishga esa 4 901,4 mlrd. so‘m ajratilishi ko‘zda tutilmoqda. Bunda, tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish jamg‘armalari va mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan kichik sanoat zonalari hamda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta’minlash tadbirlariga yo‘naltiriladigan 348,7 mlrd so‘m hisobga olinmagan. Tahlillardan ko‘rishimiz mumkinki mamlakatimizda ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda, xususan, umumta’lim maktablari, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, sog‘liqni saqlash va tibbiy-ijtimoiy muassasalar, oliy ta’lim muassasalari, sportni rivojlantirish obyektlari, madaniyat va san’at, ilm-fan va innovatsiya kabi yo‘nalishlarni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashga investitsiyalar kiritish mo‘ljallanmoqda.

So‘nggi yillarda investitsiyalarning o‘sish sur’atlarini ko‘radigan bo‘lsak, 2019-yilgacha o‘sib borgani va 138,1 foizga yetgani, 2020-yilda keskin tushgani – 95,6 foiz hamda hozirgi davrgacha yana o‘sish tendensiyasiga ega bo‘layotganini ko‘rish mumkin – 100,9 foiz. (1-rasmga qarang)

7 https://lex.uz/docs/6333021#6339727 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2022-yildagi PQ-465-sonli qarori asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.



1-rasm: Asosiy kapitalga investitsiyalar o‘sish sur’atlari dinamikasi, foizda[8]

Asosiy kapitalga investitsiyalar – yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi. So‘nggi 6 yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, u deyarli 4 martaga ko‘payib, o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda.

Davlat budjeti hisobidan investitsiya faoliyatini amalga oshirishda ustuvor tarmoqlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qisqarishi davlat investitsiya siyosatining e’tibori xususiy tuzilmalar: korxonalar, banklar va aholi zimmasiga ko‘chishini shart qilib qo‘yishi tabiiydir. Biroq, hozircha xususiy sektordagi investitsiya faoliyati subyektlari miqdori va soni ortganiga qaramay, ularning investitsiya faoliyatlardagi o‘rni va mavqei davlatning iqtisodiyotdagi roli va o‘rnini bosa olmayapti.

Iqtisodiyotni trasformatsiyalash jarayonida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish tizimining asta-sekin nodavlat sektori zimmasiga o‘zgarishi o‘z navbatida xususiy, jamoa, qo‘shma korxonalarni tashkil qilish va rivojlantirish hamda investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarining tarkibiy tasnifiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi.




2-rasm: Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilgan mablag‘lar[9]

Keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning 59,1 foizi yoki 159,6 trln. so‘mi jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxona, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 40,9 foiz yoki 110,3 trln. so‘m moliyalashtirilgan. Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2021-yilga nibatan 3,8 foiz punktga kamayib, 15,4 foizni yoki 41,5 trln. so‘mni tashkil etgan. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 228,4 trln. so‘m yoki jami investitsiyalarning 84,6 foiz investitsiyalari o‘zlashtirilib, 2021-yilga nisbatan 3,8 foiz punktga ko‘paygan.

O‘zbekiston sharoitida esa davlatning investitsiya jarayoniga aralashuvi dolzarb va zarurat bo‘lib qolaveradi. Biroq, davlatning investitsiya faoliyatidagi ishtiroki turli shaklda, masalan, investitsiyalashning markazlashmagan va xususiy moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish va ular faoliyatini rag‘batlantirish asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Вопросы методики оценки эффективности деятельности вообще и оценки эффективности деятельности предприятий торговли в частности относятся к направлениям научных исследований, достаточно широко освещенным в работах экономистов разных периодов времени и научных направлений. В период развития экономики данным вопросам в области деятельности предприятий торговли в тех или иных аспектах были посвящены труды отечественных экономистов И.Т. Абдукаримова, М.И. Баканова, Г.П. Борисова, В.И. Иваницкого, В.В. Ковалева, Л.И. Кравченко, А.И. Файницкого и другие. Современные российские экономисты, такие, как И.А. Бланк, Д.Е. Давыдянц, Б.В. Прыкин, К.А. Раицкий, Г.В. Савицкая, Н.А. Соловьева, Н.А. Соломатин, Л. Трофимова, дополняют и совершенствуют методику расчета показателей эффективности, адаптируя ее к современным условиям хозяйствования. Достаточно широко освещены вопросы оценки эффективности деятельности торговых компаний в работах зарубежных ученых, таких, как Г. Вайе, Х. Гелтенбот, У. Деринг, Э. Котляр, Д. Стоун, К. Хитчинг, В. Хойер и др. Обзор экономической литературы по вопросам оценки эффективности деятельности предприятий торговли показал, что набор показателей и методика их расчета представлены достаточно широко по отдельным видам ресурсов и отдельным обобщающим показателям эффективности.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Торговый менеджмент важен для создания благоприятных условий успешного функционирования предприятия, исходя из того, можно сказать, что его прибыль является не причиной существования организации, а результатом деятельности, который в итоге определяет рынок.

Основная цель управления хозяйственной деятельности – это обеспечение высоких темпов развития торгового предприятия в стратегической перспективе и возрастания его среди конкурентов на потребительском рынке. Основные задачи управления хозяйственной деятельности, можно представить схематично в следующем виде.

Задачи хозяйственной деятельности торгового предприятия:

1. Создание достаточно хороших условий для удовлетворения спроса потребителей на продукты в рамках выбранного сегмента потребительского рынка. Данная задача реализуется путем поиска торговых предприятий в своей рыночной ниши на потребительском рынке. Установка основных размеров спроса потребителей в данном сегменте потребительского рынка.
2. Создание эффективной ассортиментной политики, которая направлена на удовлетворение покупательского спроса. Обеспечения устойчивости ассортимента товаров, реализуемых торговым предприятием.
3. Гарантирование достаточно высокого уровня торгового обслуживания покупателей. Представленная задача реализуется за счет удовлетворения всех основных требований потребителя к уровню обслуживания.

Самое главное в данной специфике это − конкретный сегмент потребительского рынка так, как это важно потому, что покупателю нужно с наименьшими затратами времени и наибольшими удобствами приобрести в торговом предприятии необходимые товары. Эти требования обеспечиваются целым комплексом организационно-технологических мероприятий, формирующих в совокупности необходимый уровень торгового обслуживания.

4. Обеспечение торгово-технологических и торгово-хозяйственных процессов на предприятии. Эта задача обеспечивает минимизацию затрат трудовых, материальных и финансовых ресурсов.
5. Максимизация суммы прибыли, остающейся в распоряжении хозяйственного торгового предприятия, и обеспечение эффективного использования. Задача реализуется путем оптимизации объема товарооборота предприятия; эффективного управления его активами; проведения целенаправленной ценовой, амортизационной и налоговой политики; оптимизации соотношения капитализируемой и потребляемой частей прибыли.
6. Минимизация уровня хозяйственных рисков, связанных с деятельностью торгового предприятия. Представленная задача реализуется за сет эффективного управления различными коммерческими, финансовыми, инвестиционными и другими рисками, связанными с хозяйственной деятельностью предприятий торговли.
7. Предоставление постоянного возрастания рыночной стоимости торгового предприятия. Прежде всего, это осуществляется за счет высокой инвестиционной активности предприятия. Способности эффективно аккумулировать собственные финансовые ресурсы на обеспечение прироста активов во всех их формах, повышения финансовой устойчивости. Кроме того, на возрастание рыночной стоимости торгового предприятия оказывает влияние его высокая репутация, завоеванные им маркетинговые позиции на потребительском рынке, обработанность внутренней технологии осуществления хозяйственной деятельности и управления, а также другие так называемые “неосязаемые активы”, способные приносить торговому предприятию дополнительную прибыль.

Говоря о торговых предприятиях, а именно как о хозяйствующих субъектах одной отрасли, то они имеют много общих характеристик, таких как: торгово-технологические и торгово-хозяйственные процессы. Различия будут между их конкретными организационными формами, используемыми технологиями и условиями хозяйствования. Которые довольно существенны, что соответственно сказывается как на особенностях процесса управления их деятельностью, так и на конечных результатах этой деятельности.

Управление хозяйственной деятельности в ряде случаев рассматривается и как процесс, и как серия непрерывных взаимосвязанных функций.

Функции управления – это вид деятельности по согласованию работ с отдельными торговыми работниками, а также коллективами работников торговых предприятий с целью успешного и наиболее эффективного выполнения поставленных перед ними задач и целей.

Функциональная система – это ряд функций, выделенных из общих функции управления, осуществление которых позволяет решить ту или иную задачу.

В качестве целей функциональных систем могут выступать: разработка структуры предприятия, выбор организационно-правовой формы управления предприятием, распределение участков работы между подразделениями и конкретными должностными лицами и исполнителями.

В функциональную систему можно включать только те функции, которые можно выделить по одному целевому признаку. Основным моментом при образовании функциональной системы является правильный подход к ее построению. При этом необходимо учитывать то, что в функциональной системе должны быть функции только одного уровня сложности. Функции в функциональной системе должны размещаться в строгой последовательности практического их осуществления.

Обеспечение взаимодействия между коммерческой деятельностью и целями торгового предприятия. Коммерческая деятельность формируется и изменяется в соответствии с интересами и потребностями производства. Следовательно, функции управления коммерцией реализуются с учетом целей торгового предприятия.

В Ы В О Д Ы

Обеспечение комплексного подхода в управлении. С позиции комплексности принимаются во внимание все факторы, воздействующие на управленческие решения коммерческой деятельности. Предусматривается также связь коммерческих процессов торгового предприятия с субъектами внешней среды. Обеспечение малозвенности в структуре управления. Под малозвенностью понимается несложная структура управления. Но при этом должны достигаться стабильность и надежность управления коммерческой деятельностью.

Обеспечение адаптивности структуры управления. Внутренняя и внешняя среда подвержена постоянным изменениям. Особенно это проявляется в период зарождения потребительского рынка. Поэтому гибкость и приспособляемость структуры управления коммерческой деятельностью к переменам и условиям окружающей среды имеют существенное значение.

Обеспечение исполнительной информацией. Выработка и принятие управленческих решений основываются на исполнительной информации. Она включает получение исходной информации, обработку, анализ и выдачу результатов управляющего воздействия. Эта задача выполняется с помощью современных технических средств, позволявших автоматизировать процесс информационного обеспечения.

Использованные источники:

1. Хомидов К.К. (2019). Socioeconomic characteristics of employment in Uzbekistan. Инновационная наука, (7-8), 64−66.
2. Хомидов К.К. (2019). Перспективный комплекс экономики Узбекистана. In Современная мировая экономика: проблемы и перспективы в эпоху развития цифровых технологий и биотехнологии (pp. 54 − 56).
3. Homidov K. (2023). Conceptual approaches to the formation of a model for the sustainable development of tourist complexes. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 2(7), 33 − 38.
4. Homidov K. (2023). Organizational and economic foundations of the organization of tourist complexes in the development of tourism in the regions. Journal of Agriculture & Horticulture, 3(7), 44 − 50.
5. Homidov Kakhkhorali Kurbonali ugli. (2023). Objective need for the formation and sustainable development of tourist complexes in the regions: https://doi.org/10.5281/zenodo.8151902. IQRO , 4(2), 42– 45.
6. Хомидов, К. (2023). O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqaruv samaradorligi oshirish yo‘llari. Economics and Innovative Technologies, 11(3), 154 − 160.
7. Xomidov X. (2023). Hududlarda turistik majmualar faoliyatini shakllantirish va tizimli boshqarish asosida hududlar turistik saloxiyatidan samarali foydalanish masalalari. “Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to 'plami, 412-415.
8. Хомидов Қ.Қ. (2023). Организационно-экономический механизм развития туристических комплексов. In Новые технологии в учебном процессе и производстве (pp. 370 − 372).
9. Хомидов Қ.Қ. (2023). Инновационные преимущества использования информационных технологий в туристической деятельности. In современные вопросы естествознания и экономики (pp. 421 − 424).
10. Сафарова Д. (2023). Использование информационных технологий для развития цифровой экономики и области статистики в республике. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(5), 171 − 177.
11. Yuldasheva G.A. (2022). Modernization of the Accounting System in Accordance with International Requirements. American Journal of Economics and Business Management, 5(11), 146 − 149.

12. Yuldasheva G.A., Toirjonov J. (2022). Development of social infrastructure-development of the region. Gospodarka i Innowacje, 29, 149−154.
13. Yuldasheva G., Kuchkarova A. (2020). Mintaqalarni rivojlantirishda investitsion jarayonlar va ularni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari. In Mintaqa iqtisodiyotini investitsiyalashning moliyaviy-huquqiy va innovatsion jihatlari (pp. 543 − 547).
14. Юлдашева Г.А. (2022). Значение инновационного опыта в формировании повышения уровня доходности населения. Ta’lim fidoyilari, 8, 172−185.
15. Юлдашева Г.А., Хамидов К. (2022). Процессы модернизации системы бухгалтерского учета на предприятиях. Gospodarka i Innowacje., 30, 230 − 231.
16. Сафарова Д. (2022). Развитие отраслей цифровой экономики и статистики с использованием информационных технологии в республике. Involta Scientific Journal, 1(7), 251–258. Retrieved from https://www.involta.uz/index.php/iv/article/view/283

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

DAVLATNING OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI



Xamrayev Olimjon Yaxshiboyevich
"Alfraganus" universiteti Iqtisodiyot kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbekiston rivojlangan iqtisodiyotni barpo etish yo'lida aholi soni tez o'sib borayotgan va uning oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq asosiy masalalarga duch kelmoqda. Ushbu maqolada global iqtisodiy muammolardan biri bo'lgan oziq-ovqat-xavfsizligi va uning mamlakatimizdagi o'ziga xos jihatlari hamda davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar ko'lami ochib berilgan, mavjud muammolar yuzasidan xulosa va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat ta'minoti, oziq-ovqat muhiti, ratsinal iste'mol me'yorlari, oziq-ovqat tizimlari, agrosanoat kompleksi.

Abstract: Uzbekistan, on its way to building a developed economy, is facing major problems related to the rapid growth of the population and meeting its demand for food, as well as ensuring food security. This article reveals one of the global economic problems, food security and its specific aspects in our country, as well as the scale of the reforms carried out by the state, provides conclusions and recommendations on existing problems.

Key words: food security, food supply, food environment, rational consumption standards, food systems, agro-industrial complex.

Аннотация: Узбекистан на пути к построению развитой экономики сталкивается с основными проблемами, связанными с быстрым ростом населения и удовлетворением его спроса на продукты питания, а также с обеспечением продовольственной безопасности. В данной статье раскрываются одна из глобальных экономических проблем продовольственная безопасность и ее специфические аспекты в нашей стране, а также масштабы проводимых государством реформ, приводятся выводы и рекомендации по существующим проблемам.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, продовольственное обеспечение, пищевая среда, нормы рационального потребления, продовольственные системы, агропромышленный комплекс.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo bo'ylab turli ko'rinishdagi global iqtisodiy inqirozlar, iqlim o'zgarishi va qurg'oqchilik, turli kasalliklar, epidemiyalar va pandemiyalar bilan bog'liq muammolar kuzatilmoqda. Masalan, 2019-yilda boshlangan Covid-19 pandemiyasi butun dunyoda iqtisodiy inqirozga olib kelgan bo'lsa, pandemiya butun dunyo bo'ylab millionlab odamlarning hayotiga zomin bo'ldi. Butun dunyoga tarqalgan pandemiya dunyoning ko'plab mamlakatlarini nafaqat iqtisodiy jihatdan bunday holatlarga, balki oziq-ovqat xavfsizligiga ham tayyor emasligini ko'rsatdi. Oziq-ovqat ta'minoti zanjiridagi uzilishlar, tizimdagi beqarorlik va tartibsizlik, oziq-ovqat zahiralarining yetishmasligi yaqqol ko'zga tashlandi. Pandemiya davrida aholining quyi qatlamlarining oziq-ovqat bilan ta'minlanmaganligi ular orasida ochlikning kuchayishiga olib keldi. Bu, ayniqsa, oziq-ovqat ta'minotining muqobil manbalariga ega bo'lmagan mamlakatlar uchun alohida xavf tug'dirdi. Shu bois oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularning xilma-xilligini kengaytirish, mavjud resurslarni yaratish va ko'paytirish bugungi kun hukumatlarining eng muhim masalalariga aylanib bormoqda.

Ayni paytda O'zbekiston jadal rivojlanayotgan demografik mamlakat bo'lib, aholining o'rtacha yillik o'sishi 1,92 foizni tashkil etadi. O'zbekiston Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari orasida eng ko'p aholiga ega, ya'ni 37,2 million aholi [10]. Shu sababli ham O'zbekistonda aholining yetarli oziq-ovqatga bo'lgan va ortib borayotgan talabini qondirish uchun oziq-ovqat xavfsizligiga erishish asosiy masala hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon oziq-ovqat xavfsizligi qo'mitasi (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, "Har bir inson yetarli darajada oziq-ovqat olish huquqiga ega" [8]. Bu yangi O'zbekiston hukumatining asosiy vazifalaridan biridir.

Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5853-son[1] hamda 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son[2] farmonlari qabul qilindi. Unda: oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirish; oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va iste’molchilarning ratsionini yanada yaxshilash; zarur miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning zaxiralarini yaratish mexanizmlarini takomillashtirish; shu jumladan, xalqaro miqyosda tan olingan va qo‘llaniladigan metodologiyalar va ilg‘or tajribalar asosida oziq-ovqat xavfsizligini baholash bo‘yicha monitoringi yuritish belgilangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi, uni ta’minlashning nazariy va uslubiy asoslari bir qancha jahon va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan. G‘arb olimlaridan Griggs D. va boshqa olimlar guruhi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida quyidagi mulohazalarini bildiradi: “Yer yuzida sodir bo‘layotgan jarayonlarida keng tarqalgan inson bosimining keyingi xavfi keskin va ehtimol qaytarib bo‘lmaydigan o‘zgarishlarga olib keladi. Bunda suv tanqisligi, anomal ob-havo, oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun sharoitlarning yomonlashishi, ekotizimning yo‘qolishi, okeanlarning kislotalanishi va dengiz sathining ko‘tarilishi taraqqiyotga tahdid solishi va butun dunyo bo‘ylab gumanitar inqirozlarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan haqiqiy xavflardir. Dunyodagi kambag‘allar orasida o‘sib borayotgan farovonlik va rivojlanish huquqi barcha xalqlarning barqaror turmush tarziga aylanishini talab qiladi.” [4]

J. Saks o‘z tadqiqotida Mingyillik rivojlanish maqsadlari butun dunyo bo‘ylab muhim ijtimoiy ustuvorliklarga erishish uchun global safarbarlikning tarixiy va samarali usuli hisoblanishini ta’kidlaydi. U qashshoqlik, ochlik, kasallik, yetarlicha ta’minlanmagan maktab ta’limi, gender tengsizligi va atrof-muhit degradatsiyasi bilan bog‘liq muammolar keng jamoatchilikning tashvishini ekanligiga e’tibor qaratadi. [5]

MDH iqtisodchi olimlaridan D.V.Zerakalov tomonidan “Oziq-ovqat xavfsizligi”ga bag‘ishlangan monografiyasida oziq-ovqat xavfsizligi masalalari jahon tarixiy jarayonlarida ko‘plab amaliy taxlillar keltiriladi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash suv resurslarining XXI asrga borib tanqisligi yuzaga keltirishi hamda bu global iqtisodiy muammoga aylanishi haqida ko‘plab rasmiy statistik materiallar taxlilini keltirib o‘tadi. [2]

Ushachev I. boshchiligidagi bir guruh rossiyalik olimlarning fikriga ko‘ra, “oziq-ovqat xavfsizligi” oziq-ovqat mustaqilligi va oziq-ovqatga jismoniy va iqtisodiy jihatdan kirishni o‘z ichiga olgan murakkab tushunchadir. “Oziq-ovqat mustaqilligi” - bu me’yoriy va haqiqiy iste’mol darajasidan kelib chiqqan holda, mamlakatning oziq-ovqat mahsulotlari bilan o‘zini o‘zi ta’minlashi, ya’ni mamlakatdagi ishlab chiqarishning barcha turdagi umumiy ichki iste’molga nisbati bilan belgilanadigan tushunchadir deb izohlaydi. [3]

O‘zbekistonda tadqiq qilinayotgan muammoning ayrim tomonlari Sh.Shodmonov, T.Jo‘rayev, D.Tojiboyeva va boshqalar tomonidan oziq-ovqat xavfsizligi masalasi ularning o‘quv qo‘llanma va dasrliklarida ayrim qirralari umumiy tarzda o‘rganilgan bo‘lsa, H.P.Abulqosimovning “Davlatning iqtisodiy xavfsizligi” o‘quv qo‘llanmasida oziq-ovqat xavfsizligi muammosi o‘rganilgan, milliy iqtisodiyot doirasida barataraf etish bo‘yicha amaliy tavsiya va takliflar berishga harakat qilingan. Biroq, o‘rganilgan tadqiqotlarda asosan oziq-ovqat xavfsizligi masalasi global iqtisodiy xavfsizlikni yuzaga keltiruvchi omil sifatida baholangan. [1]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada O‘zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligining hozirgi holati va undagi o‘zgarishlarga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilindi hamda nazariy-uslubiy asosi sifatida bir qator xalqaro tashkilotlar, olimlarning ilmiy maqola va tadqiqotlari o‘rganildi. Kuzatuvlarimiz natijasida aniqlangan muammolarni yechimini topishda quyosiy tahlil qilishga harakat qilindi. Oziq-ovqat xavfsizligiga oid Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), Jahon banki, O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi, Qishloq xo‘jaligi vazirligining materiallari va statistik ma’lumotlaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Oziq-ovqat xavfsizligi” tushunchasi va unga berilgan ta’riflari 1940-yillarning boshida birinchi marta fanda qo‘llanilgandan hozirgi kunga qadar rivojlanib kelmaqda. Dastlabki oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasining mohiyati “ochlikdan qutilish” ma’nosidan kelib chiqadi. Salomatlikni asrash uchun zarur bo‘lgan oqsil va boshqa ozuqaviy moddalarni o‘z ichiga olgan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirish maqsadida, asosiy

1 lex.uz›docs/4567334
2 lex.uz›uz/docs/-5841063

iste'molning eng kam miqdordagi energiyasiga ega bo'lgan don va boshqa ozuqalarga bo'lgan ehtiyojlarni ta'minlashdan boshlab, bosqichma-bosqich oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga erishish rejalashtirilgan edi. 1970-yillarda rivojlangan oziq-ovqat xavfsizligiga berilgan ta'riflar ko'proq oziq-ovqat ta'minoti, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi faoliyatiga qaratilgan bo'lib, unda barcha odamlar yetarli miqdorda oziq-ovqat iste'moli tushunchasiga yo'naltirildi.

Hozirgi kunda oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasini izohlashda eng ko'p qo'llaniladigan ta'rif 2001-yilda oziq-ovqat xavfsizligi sharoitida yana takomillashtirildi: "oziq-ovqat xavfsizligi barcha odamlar har doim o'zlarining parhez ehtiyojlari va faol sog'lom hayot uchun oziq-ovqat imtiyozlariga javob beradigan etarli, xavfsiz va to'yimli oziq-ovqatdan jismoniy va iqtisodiy foydalanish imkoniyatiga ega bo'lganda yuzaga keladi". [14] Ushbu ta'rifda oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi ko'p o'lchovli ekanligi asoslab berildi.

Jahon oziq-ovqat xavfsizligi qo'mitasining oziq-ovqat xavfsizligi va oziq-ovqat bo'yicha yuqori darajadagi ekspertlar guruhi (HLPE) tomonidan oziq-ovqat va oziq-ovqat xavfsizligi holati baholanadi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdan tortib iste'mol qilishgacha bo'lgan barcha ishtirokchilar va tadbirlarni hamda ushbu faoliyat natijalarini o'rganadi. HLPE oziq-ovqat tizimining harakatga keltiruvchi ijrochilar va uning elementlarini alohida holda mavjud bo'la olmasliklarini, yani ular bir-biri bilan bog'liq bo'lgan sog'liqni saqlash, energiya va transport tizimlari bilan o'zaro aloqada bo'lishlarini ta'kidlaydi.

Oziq-ovqat ta'minoti zanjirlari oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdan tortib iste'mol qilishgacha bo'lgan faoliyat va undagi ishtirokchilarni o'z ichiga qamrab deb ta'kidlaydi. Bunda quyidagi bosqichlar sanab o'tiladi: ishlab chiqarish; saqlash va tashish; qayta ishlash va qadoqlash; chakana savdo va bozorlar. Ta'minot zanjiri elementlari oziq-ovqat va oziq-ovqat xavfsizligining to'rtta o'lchoviga ta'sir qiladi, ya'ni mavjudlik, foydalanish (jismoniy va iqtisodiy), foydalanish va barqarorlik.

Mutaxassislar iste'molchining xatti-harakati iste'molchilar tomonidan uy xo'jaligi yoki individual darajada, qanday oziq-ovqat sotib olish, saqlash, tayyorlash, pishirish va yeyish, shuningdek, uy ichidagi oziq-ovqat mahsulotlarini taqsimlash (jumladan, jinsga qarab taqsimlash va oziqlantirish) bo'yicha barcha tanlov va qarorlarni aks ettiradi. Iste'molchilarning xulq-atvori asosan aholining oziq-ovqat tanloviga ta'sir qiladi va shakllantiradi deb hisoblaydi.

HLPE tizimi oziq-ovqat tizimlarining uchta tarkibiy elementini (oziq-ovqat ta'minoti zanjiri, oziq-ovqat muhiti va iste'molchilarning xatti-harakati) belgilaydi, ular dietani shakllantiradi va oziq-ovqatning yakuniy ovqatlanishi, sog'lig'i, iqtisodiy va ijtimoiy natijalarini belgilaydi. [8] Ulardan O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligini tahlil qilish va baholash uchun foydalaniladi.


Shuni ham ta'kidlash kerakki, mamlakatimiz aholisi uchun yetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlaydi, degani emas. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1996-yilgi Rim deklaratsiyasida "Oziq-ovqat xavfsizligi kontseptsiyasi" [16] uning asosiy tamoyillarini belgilab berdi:

- oziq-ovqat xavfsizligi deganda nafaqat o'zini o'zi oziq-ovqat bilan ta'minlash, balki mamlakat qiyosiy ustunlikka ega bo'lsa, o'z ehtiyojlari uchun yetarli miqdorda foydali ozuqa maxsulotlari ishlab chiqarishi kerak;
- hukumatlar, agar kerak bo'lsa, fuqarolarning ehtiyojlarini qondirish uchun qancha oziq-ovqat kerak bo'lsa, shuncha miqdorda import qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak;
- davlat o'z fuqarolari uchun oziq-ovqat bo'yicha ham jismoniy, ham iqtisodiy jihatdan xavfsiz bo'lishini ta'minlashi kerak;
- oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda aholining o'zgaruvchan va doimiy o'sib borayotgan individual ehtiyojlarini hisobga olish kerakligini ham yodda tutish lozim;
- hukumatlar har qanday tashqi omillardan qat'iy nazar, mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlashi, oziq-ovqat ta'minoti esa mavsumiy va iqlimiy omillarga moslashuvchan bo'lishi kerak.

O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligi oziq-ovqat xavfsizligi va xavfsizlikni ta'minlashning asosiy tarmog'i bo'lib, yalpi ichki mahsulotning qariyb 26,07 foizini tashkil etadi va 2020-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining mamlakat umumiy eksportidagi ulushi 8,8 foizni tashkil etadi. Buning uchun nafaqat oziq-ovqat xavfsizligi tizimini yaratish, balki aholining katta qismi ushbu sohada band ekani, aholi daromadining uchdan bir qismi qishloq xo'jaligiga bog'liqligini hisobga olsak, oziq-ovqat xavfsizligi sohasini isloh qilish dilzarb ahamiyat kasb etadi. Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotlariining umumiy statistik ma'lumotlar bazasi ma'lumotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligida 26 770 ga yerdan o'tloqlar, yaylovlar, ekinlar maqsadida foydalanilgan bo'lsa, shundan 12 561 ga yerdan boshqa maqsadlarda foydalanilgan. [10]

Oziq-ovqat ta'minotining asosiy hissasi dehqon xo'jaliklariga to'g'ri keladi, shuning uchun ular mamlakatimiz oziq-ovqat ishlab chiqarish tizimining asosiy sub'ekti hisoblanadi. Davlat statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2021-

yilda qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotini fermer xo‘jaliklari turlari bo‘yicha ushbu ko‘rsatkich eng yuqori ulush 65,9 foiz bilan dehqon xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi, fermer xo‘jaliklarining ulushi esa 29,2 foizni tashkil etdi. Qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarga atigi 4,9 % to‘g‘ri keldi (1-rasm). Bundan tashqari, dehqon xo‘jaliklari va fermer xo‘jaliklari davlat tomonidan xususiy fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlayotganini aks ettiruvchi yetarli miqdordagi milliy moliyalashtirish dasturlariga ega bo‘lib, bu qishloq xo‘jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini ko‘rsatadi.




1-rasm: 2021-yilda fermer xo‘jaliklari turlarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining taqsimlanishi
Muallif tomonidan tuzilgan

Sohada oziq-ovqat maxsulotlarini saqlash va yetkazib berish oziq-ovqat ta’minoti zanjirlarining asosiy elementlaridan biri hisoblanib, oziq-ovqat ta’minoti zanjirlarining ushbu bosqichida oziq-ovqat sifatiga, oziq-ovqat yo‘qotishlariga va chiqindilariga muhim ta’sir ko‘rsatadi. [13] Qishloq xo‘jaligi sektori ko‘lami va aholi sonidan kelib chiqib, yetarli miqdorda hosilni saqlash uchun omborlar mavjud biroq, oziq-ovqat yo‘qotishlari ko‘rsatkichi hali ham yuqori va bu qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini yanada takomillashtirishni talab qiladi.


Qishloq xo‘jaligining umumiy hajmida eng ko‘p ulushga ega bo‘lgan fermerlar o‘z mahsulotlarini asosan mahalliy bozorlarda sotadilar, ba’zan esa Toshkentga (poytaxtga) qimmat narxlarda olib boradilar. Fermer xo‘jaliklari kichik va oilaviy mehnatga asoslanganligi sababli, ular oziq-ovqatni katta bozorlarga odatda oziq-ovqat tashish uchun maxsus jihozlanmagan eski yuk mashinalarida (masalan, muzlatgichi bo‘lmagan mashinalarda) tashiydilar. Ushbu logistika bilan bog‘liq bosqichda hosilning katta qismi sifat jihatidan buziladi va yo‘qoladi. Misol uchun, 2020 yilgi so‘rov natijalariga ko‘ra, butun dunyo bo‘ylab ishlab chiqarilgan oziq-ovqatning 15,3% umumiy qiymati 370 milliard dollarga teng bo‘lgan xo‘jalik bosqichida isrof bo‘lgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarilgan oziq-ovqatning uchdan bir qismidan ko‘prog‘i isrof qilinmoqda - ehtimol 40% yoki 2,5 milliard tonna. [11]

Oziq-ovqat mahsulotlarining yo‘qolishi va isrof bo‘lishining asosiy sabablari – hosilni yig‘ib olishdan tortib tashish, saqlash va iste’molchilarga yetkazib berishgacha bo‘lgan infratuzilmaning yomonligi hamda jahon standartlaridan ancha orqada, shuningdek, zararkunandalar va hasharotlarning zararlanishi, yomon iqlim sharoitida muzlatish va fermentatsiya hisoblanadi. [6]



2-rasm: O‘zbekiston uchun Global ochlik indeksi (GOI) reytingi o‘zgarishi.
Manba: www.globalhungerindex.org/uzbekistan.html

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda mamlakatda o‘ziga xos mentalitet bilan bog‘liq bo‘lgan ba’zi holatlar mavjud, masalan, noto‘g‘ri ovqatlanish (mikronutrient yetishmovchiligi), jumladan, noto‘g‘ri ovqatlanish, ortiqcha vazn va b. Noto‘g‘ri ovqatlanish nafaqat odamlarning sog‘lig‘iga ta’sir qiladi, balki mehnat qobiliyatining sezilarli darajada pasayishi bilan ta’lim qobiliyati va unumdorligiga ta’siri tufayli mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun uzoq muddatli salbiy oqibatlarga olib keladi. Oziq-ovqat xavfsizligi xalqaro ochlik maqsadlari uchun asosiy ko‘rsatkich bo‘lib, oziq-ovqat xavfsizligi sifatida kuzatib boriladi. [7] O‘zbekistonda to‘yib ovqatlanmaslikning keng tarqalgani tashvishli masala bo‘lib, O‘zbekiston aholisining 2,5 foizi to‘yib ovqatlanmaydi. [15]



3-rasm: GOI reytingida ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi.
Manba: www.globalhungerindex.org/uzbekistan.html

GOI reytingining umumiy o‘zgarishlari va har bir ko‘rsatkich bo‘yicha GOI o‘zgarishlari haqida ma’lumot 2 va 3-rasmlarda berilgan. 2-rasmdagi ma’lumotdan ko‘rinib turibdiki, Global ochlik indeksining umumiy o‘zgarishi O‘zbekistonda 5,9 ball bilan ochlik darajasi asta-sekin pasayib bormoqda (2000 – 23,7%, 2021 – 5,9%) [7] 2021-yilgi GOI ballarini hisoblash uchun yetarli ma’lumotlarga ega bo‘lgan 116 davlat orasida O‘zbekiston 21-o‘rinni egallagan. Xuddi shunday pasayish tendentsiyasi GOI ning har bir ko‘rsatkichida kuzatilgan. Unda bolalar bo‘yining pastligi va to‘yib ovqatlanmaslik kabi ko‘rsatkichlar qashshoqlikka ta’sirchan ko‘rsatkich hisoblanadi. Ular uzoq vaqt davomida etarli darajada ovqatlanish yoki noto‘g‘ri ovqatlanish tufayli yuzaga keladi [12] FAOning 2021-yilda oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanish bo‘yicha mintaqaviy tahliliga oid hisobotiga ko‘ra, bo‘yi past bo‘lib qolgan bolalarning tarqalishi eng kambag‘al mamlakatlar guruhlarida yuqoriligi aniqlangan. Bu esa har bir mamlakatlardan oziq-ovqat ta’minoti zanjirini jiddiy qayta ko‘rib chiqishlarini va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda uzoq istiqbolli dasturlarni ishlab chiqishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi “Barqaror rivojlanish doirasida milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 841-son qarori bilan BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ni O‘zbekistonda izchillik bilan amalga oshirish maqsadida 2030-yilgacha “Milliy maqsad va vazifalar hamda ularni amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. [9] Mazkur yo‘l xaritasida 2030-yilgacha bo‘lgan davrda amalga oshirish bo‘yicha qator vazifalar belgilab berilgan, jumladan:

- o‘ta qashshoqlikni tugatish va qashshoqlikning barcha shakllarini ikki baravar qisqartirish;
- ijtimoiy himoya tizimining manzilliligi va samaradorligini kuchaytirish;
- zarur miqdorda ovqatlanishning yuqori sifati va muvozanatini ta’minlash va to‘yib ovqatlanmaslikning barcha shakllarini bartaraf etish;

- oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish barqarorligi va samaradorligini ta’minlash;
- qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish.

Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash maqsadiga erishish uchun yuqorida sanab o‘tilgan Strategiyada quyidagi vazifalar belgilangan:

- oziq-ovqat mahsulotlarining yetarli miqdorini ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini ijtimoiy soha ob’ektlari bilan integratsiya qilish;
- g‘alla yetishtirishda davlat aralashuvi xaridi tizimini joriy etish, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmidan bosqichma-bosqich voz kechish va davlat ehtiyojlari uchun kvota asosida bozor narxlarida don sotib olish mexanizmini joriy etish;
- sog‘lom iste’mol qilish madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha uzoq muddatli dasturni ishlab chiqish;
- xalqaro miqyosda tan olingan metodologiyalar va ilg‘or tajribalar asosida oziq-ovqat xavfsizligini baholash tizimlarini joriy etish va doimiy monitoringini olib borish;
- ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni faollashtirish bo‘yicha tarmoq dasturlarini ishlab chiqish;
- chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish, baliq va parrandachilikni barqaror intensivlashtirish, shuningdek, sut ishlab chiqarishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish.

Bugungi kunga kelib dalat tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning yangi yo‘nalishlari, ya’ni aholi oziq-ovqat iste’moli maxsulotlariga sifat jihatidan qo‘yilayotgan talablarning o‘zgarishi, ularni saqlash sharoitlarining gigienik va standartlashtirish talablarining kuchaytirilishi, qayta ishlash tarmoqlarini kengaytirilishi kabi yo‘nalishlarga qaratilmoqda. Mazkur soha “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”, “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”, “Standartlashtirish to‘g‘risida”, “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”, “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar bilan yanada mustahkamlanib, qonuniy tartibga solinmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash katta muammo bo‘lgan bo‘lsa, ohirgi yillarda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda sezilarli natijalarga erishildi. O‘zbekiston nafaqat o‘zini o‘zi ta’minlaydigan, balki boshqa qo‘shni davlatlarga bug‘doy, sabzavot va meva eksport qiluvchi davlatga aylandi. Biroq oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash quyidagi muammoli vaziyatlar yuzaga kelmoqda:

Birinchidan, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste’mol qilishni diversifikatsiya qilish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko‘payishi ortidan oziq-ovqat ta’minoti muammosini hal qilish talab etilmoqda.

Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligi sohasida aholi daromadlarining pastligi va qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlarining qimmatligi tufayli odamlarga zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlarini iste’moli bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelmoqda.

Uchinchidan, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, shuningdek, oziq-ovqat yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari, korxona va kompaniyalarning xalqaro sifat standartlariga (ISO 9000) muvofiqligini ta’minlashda to‘siqlar mavjudligi kuzatilmoqda.

To‘rtinchidan, qishloq xo‘jaligi korxonalari va fermer xo‘jaliklarining infratuzilmasini yaxshilash, ayniqsa, hosilni yig‘ishtirib olish, tashish, saqlash, qayta ishlash va iste’molchilarga yetkazib berishda tizimli yondashuvlar yo‘lga qo‘yilmagan.

Beshinchidan, to‘g‘ri ovqatlanish, to‘g‘ri ovqatlardan foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar aholiga yetkazish bilan bog‘liq muammolar mavjud.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagilarni taklif etish mumkin:

- oziq-ovqat siyosatida nafaqat ta’minot siyosatini tanlash, balki qishloq xo‘jaligi, logistika bilan bog‘liq barcha infratuzilmani to‘liq modernizatsiya qilish va rivojlantirish, ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash tarmoq tuzilmalarinin takomillashtirish zarur;

- ilmiy tadqiqot institutlari qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi va chidamliligini oshirish hamda yangi navlarni yaratish maqsadida o‘z faoliyatini takomillashtirish va tubdan o‘zgartirish orqali genetik injeneriya kabi yangi tarmoqlarni rivojlantirishni jadallashtirishi hisobiga, hukumatga oziq-ovqat va oziq-ovqat xavfsizligini tahlil qilish uchun ko‘proq va chuqurroq tadqiqotlar olib borish hamda dehqon va fermer xo‘jaliklari bilan hamkorligini kuchaytirish tavsiya etiladi;
- mamlakatda iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, inflyatsiyani jilovlash va aholining xarid qobiliyatini yaxshilash, qishloq aholisi daromadlarini oshirish mexanizmini ishlab chiqish bo‘yicha muhim siyosiy va iqtisodiy qarorlar qabul qilinish talab etiladi;
- aholi yillik o‘sish sur’atinining yuqoriligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ta’minlash bo‘yicha yaqin kelajakda qo‘shimcha murakkabliklarni keltirib chiqaradi, shuning uchun hukumat cheklangan yer resurslari va maydonlardan foydalangan holda hosildorlikni oshirishi yo‘llariga ko‘proq e’tiborni qaratishi lozim. Bunda yuqori texnologiya va innovatsiyalardan foydalanish orqali yuqori mahsuldorlikka va oziq-ovqat chiqindilari va yo‘qotishlarni kamaytirish orqali ishlab chiqarishni yanada faollashtirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma.- T.:Akademiya, 2012.
2. Зеркалов Д.В. Продовольственная безопасность [Электронний ресурс]: Монография / Д. В. Зеркалов. – Электрон. данные. – К.: Основа, 2009.
3. Ушачев И. и друг. Доктрина продовольственной безопасности РФ нуждается в совершенствовании // Экономика и менеджмент, 2015. № 9.
4. Griggs D. et al., (2013). Sustainable Development Goals for people and planet //Nature. – T. 495. – №. 7441. – P. 305-307.
5. Sachs J. D. (2012). From millennium development goals to sustainable development goals //The lancet. – T. 379. – №. 9832. – p. 2206-2211.
6. Export.gov. Uzbekistan-Agricultural Sectors. Accessed on April 3rd 2019. Available at: https://www.export.gov/article?id=Uzbekistan-Agricultural-Sectors
7. Global Hunger Index . GHI Score Trend for Uzbekistan 2021. available at: Www.Globalhungerindex.Org/Uzbekistan.Html
8. HLPE. Nutrition and food systems. A report by the High Level Panel of Experts on Food Security and Nutrition of the Committee on World Food Security, Rome. 2017
9. “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-36-son Farmoni. 2024-yil 16-fevraldagi https://lex.uz/uz/docs/-6802687
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, 2021. https://stat.uz/en/official-statistics/agriculture)
11. The global impact of food loss and waste on farms . Published June 2021 by WWF-UK. Any reproduction in full or in part of this publication must mention the title and credit WWF-UK as the copyright owner. Text © WWF-UK, 2021 Available at: https://wwfint.awsassets.panda.org/downloads/wwf_uk__driven_to_waste___the_global_impact_of_food_loss_and_waste_on_farms.pdf
12. The State of Food and Agriculture 2020. Overcoming water challenges in agriculture. Rome.
13. The state of Food Security and Nutrition in the world. 2018. Rome. ISBN 978-92-5-13057-3. Available at: https://books.google.co.uz/books?hl=en&lr=&id=LC9uDwAAQBAJ&oi=fnd&pg=PA3&dq=fao+2018+report&ots=0Nbvq-Je3Kr&sig=Yd2Jv_JAGm6KgIN0egogFQFMFR4&redir_esc=y#v=onepage&q=fao%202018%20report&f=false
14. The State of Food Insecurity in the World 2001. Rome. FAO. 2002 p.2 Available at: https://www.fao.org/3/y4671e/y4671e06.htm#fn31
15. United Nations, (2015). Sustainable development goals. Available at: https://sdgs.un.org/goals
16. United Nations FAO (1996) World Food Summit. Available at https://www.fao.org/3/w3613e/w3613e00.htm
17. Файзиев О.Р. Потребность населения в растительном масле в условиях Узбекистана и методические аспекты её определения // “Экономика и предпринимательство”. – Москва, 2017 г., №12 (ч.2) (89-2). (Vol. 11 Nom. 12-2) 305-309.
18. Fayziyev O.R. The Problem of Food Security in the Context of Globalization and its Solutions(On the Example of the Republic of Uzbekistan) // Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 22 Mar 2022, 216-219 https://cejsr.academic-journal.io/index.php/journal/article/view/1149/1050
19. Файзиев О. Социально-экономическое значение возделывания масличных культур в Узбекистане / Proceedings of the II nd International Scientific and Practical Conference “Modern Scientific Achievements and Their Practical Application (October 20-21, 2015, Dubai, UAE)”. – Dubai, 2015. – № 3(3), Vol.3. – P.10-11.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.